XV асрнинг биринчи ярмига келиб ўзбек мумтоз шеърляти шиддат билан тараққий эта борди. Бу даврда яшаб, ўзбек мумтоз адабиёт ривожига муносиб ҳисса қўшган ижодкорлардан яна бири Атойидир. У XIV аср охири ва XV асрнинг биринчи ярмида темурийлар ҳукмронлиги даврида яшаб ўтган. Туркий шеърлятда ғазал жанрининг тараққиётига ҳисса қўшган Атойи ҳақида жуда кам маълумотлар сақланиб қолган. Алишер Навоий шоир ҳақида ўзининг “Мажолис ун-нафоис” асарида қуйидаги маълумотларни ёзиб қолдирган: “Мавлоно Атойи - Балхда бўлур эрди. Исмоил ота фарзандларидиндур, дарвешваш ва хушхулқ, мунбасит киши эрди. Туркигўй эрди. Ўз замонида шеъри атрок орасида кўп шуҳрат тутти. Бу матлаъ анингдурким:

Ул санамким, сув қироғинда паридек ўлтурур,  
Ғояти нозуклугидин сув била ютса бўлур.

Қофиясида айбғинаси бор. Аммо Мавлоно кўп туркона айтур эрди. Қофия эҳтиётига муқайяд эмас эрди. Қабри Балх навоҳисидадур” [1.58]. Шу ўринда ҳазрат Навоий фикрларини шарҳлаб ўтишга тўғри келади. Аввало, биз Навоий тилга олган “туркона”лик, яъни туркона услубни анифлаб олишимиз керак. Туркона услуб фикр ва кечинмаларни мураккаб ташбеҳу истиораларсиз содда ва оддий баён қилиш; енгил вазнларни (кўпроқ рамал ва ҳазаж баҳрини) қўллаш; фольклорга яқин қофиялар ишлатиш; шунингдек, кўпроқ туюқ жанри, тажнис санъатини истифода этиш каби қатор хусусиятларга эга. [2.5]

Атойи шоирнинг таҳаллуси бўлиб, унинг тўлиқ исми, туғилган ва вафот этган йиллари маълум эмас. Шоирнинг 260 та ғазалини ўз ичига олган ягона девони бизгача етиб келган. Атойи лирикаси мавзу жиҳадан ранг-баранг. Унинг ғазаллари ошиқона, маърифий, дини - тасаввуфий мавзуларда битилган. Шоир шеърляти халқ оғзаки ижоди билан бирга диний манбалардан озиқланди. Шу боис, шоир шеърлятида Қуръон ва ҳадислар мазмуни сингдирилган. Муқаддас манбалардан иқтибослар келтирилган. Тасаввуфдаги май, қадах, майхона, зулфу хол, қош, кўз, бел, зуннор, санам каби истилоҳлар воситасида мураккаб маъно-мазмун ифодаланган. У Навоий таъбири билан айтганда “мажоз тариқи билан ҳақиқат асрорини” қуйлаган шоир. Унинг ҳар бир сатридан ошиқлиги, дарвешлиги, дину иймонда собитлиги сезилиб туради [4.11].

Ишқ-муҳаббат Атойи ғазалиётининг етакчи мавзуси. Шоир ғазалларида илоҳий ва мажозий ишқ бир-бирини тўлдиради. Лирик меросида салафлари сингари ошиқ, маъшуқа ва рақиб образлари воситасида ИШҚ масаласига доир қарашларини ғазаллари мағзига сингдириб юборади. Ошиқ барча ситам ва озорларга сабрли. У шунчаки ошиқ эмас – у кул ошиқ, у гадо ошиқ. У

шундай ошиқки, маъшуканинг “қулим” деб тан олишидан боши кўкка етади, шу сўзнинг ўзига банда (кул) бўлишга тайёр.

Шаҳо, бизга назар қилсанг не бўлди?

Гадони мўътабар қилсанг не бўлди?

Ёки:

«Фалони кулларимдиндур» демушсен,

Атойи ушбу сўзга банда бўлсун.

Ғазал жанрининг яратилишига асос бўлган мақсад ва муддао, яъни “аёлларга хушомад қилиш” уларнинг нуқсонсиз таърифу васфини бериш билан амалга оширилган. Атойи ғазалиётида мажозий (инсонни инсонга) ишқ улуғланар, ёрнинг қадди-қомати, юзи, кўзи, қоши, сочи, киприклари, оғзи, лаби, холини таъриф-тавсиф қилиш устун туради. Жумладан, мумтоз шеърятда маъшуканинг бели қилга, чумоли белига ташбеҳ қилинади. Шоир “сув била ютса бўлур” тасвирига мос ҳаётий деталларни топиб, ўзига хос оригинал тасвирларни яратади. Ёрнинг белини арининг белига ўхшатади:

Санингдек ҳусн ила ҳуру пари йўқ,

Лаби қанду асал, бели ари йўқ

Маълумки, мумтоз ғазалларда маъшуканинг ташқи қиёфаси ниҳоятда гўзал тасвирларда берилади. Бироқ унинг ички дунёсига берилган “таърифлар” ҳам бир-бирига ўхшамайди. У қалби қаттиқ, золим ва жафокор, номехрибонга меҳрибон, ағёрга дўст. У қотил...

Лабинг қоним тўқарга ташна лабтур,

Дами Исою ўлтурмак ажабтур.

Маълумки, ҳар бир пайғамбарга Оллоҳ таоло томонидан бир мўъжиза берилган. Исо алайҳиссалом ўлганларни тирилтириши билан машҳур бўлган. Шунинг учун унга Масих – жон ато этувчи, сийловчи лақаби берилган. Атойининг таъкидича, қизнинг лаби ошиқ қонини тўкишга ташна. Лабларининг нафаси эса - Исо Масихдир, яъни ошиққа жон ато этувчидир.

Атойи ғазаллари тили ширали, содда. Бу учун у халқ тилига суянди, фольклор мотив ва образларидан унумли фойдаланди. Натижада фавқулотда тасвирлар, оҳорли ташбеҳлар, бежирим тимсоллар яратади. Халқ мақол ва иборалари шоир ғазалларининг халқчиллигини таъминлашнинг асосий воситаси бўлиб хизмат қилди. Фикримизни қуйидаги ғазал таҳлили мисолида асослашга ҳаракат қиламиз:

Юз сари бўлди равон икки кўзумдин жуй бор,

Сарви дилжўюм, не бўлди, бир буён қилсанг гузор.

Сен ўшал султони ҳуснсен, ки бўстонлар аро,

Давлатингдин гул эшигин ел очибон, ел ёпор

Бўлди бағрим сув ғамингдин, **яхшилиқ қил, сол суға,**

Охир, эй гулу хирманни албатта, **ҳар эккан ўрор.**

Қилди жонимга мени ширин лабинг завқи, бале,

Бу масалдурким, **"киши бол тутса, бормоғин ёлор"**

Давлатингдин кўкка етди барча кулларнинг боши,

Ушбу не толиьдур, ойим, бизга етсанг тонг отор?



Орзингизни ҳар неча сўрдум, тиладим, топмадим,  
 Гўйиё бу сўз ғалатдурким, **"тилогонлар топор"**.  
 Зулфунгиздин гар Атойи, бошқа кўрса, не ажаб  
 Ким, кўрармен **"бир синоғонни яна икки синор"**. [1.93]

Ошиқона мавзуга бағишланган мазкур ғазалда ирсоли масал санъатидан маҳорат билан фойдаланилган. Мақоллар фикр тасдиғи учун келтирилган экан, айтилаётган фикр тингловчида эътироз туғдирмайди.

Ғазалнинг дастлабки байтида ошиқнинг ҳоли забун эканлиги муболағали тарзда тасвирланади. Маъшуқа йўлига интизор бўлган лирик қаҳрамоннинг икки кўзи ариққа (жўй) га қиёсланган. Яъни “сарви дилжўй” ошиқ сари “бир буён гузор қилмаслиги” сабабли ошиқнинг кўзларидан тўкилган ёшлар ариқдаги сув каби равон бўлган.

Иккинчи байтда фикр тасдиғи учун тамсил санъатидан фойдаланилган. Тамсилда муаллиф ўз фикрини далиллашидан мақсад ҳаётий бир воқеа ёки деталларни далил-исбот сифатида келтиради. Шамолда эшикнинг очилиб-ёпилиши ҳолатидан шоир фикр тасдиғи учун фойдаланган. Худди шу ҳолат шамолда тебранган гул баргларига кўчирилган. Маъшуқа - ҳусн шоҳи. Гулзорда унинг ҳуснидан гул баргини шамол очиб, ёпади.

Сен ўшал султони ҳуснсен, ки бўстонлар аро,  
 Давлатингдин гул эшигин ел очибон, ел ёпор

Халқимизда “яхшилиқ қил сувга сол балиқ билар, балиқ билмаса холик (Худо) билар” - деган нақл бор. Шу панд-насихатдаги ғоя ғазал байтига сингдирилган. Маъшуқа ғамидан бағри сув бўлган (муболаға) ошиқ умидини узмайди, яхшилиқ қилишда давом этади. У яхшилиқнинг, албатта, яхшилиқ сифатида қайтишига ишонади. Ғазалда фикр тасдиғи учун эса шоир “ҳар ким экканини ўради” мақолидан фойдаланди. Ғазалнинг тўртинчи байтида ҳам “Бол тутган бармоғини ялар” мақоли тўлиқ шаклда келтирилган. Ошиқ қанчалик озор, ранж топмасин, маъшуқа висолдан умид узмайди. Яъни бу “озорлар” бир кун келиб “бол” – висолга айланишига ишонади.

Инсоннинг ўз мақсади йўлида машаққатлардан қочмаслиги, ишонч билан ҳаракат қилиши билан боғлиқ жуда кўп мақоллар яратилган. Ана шулардан бири “Тилаган – тилаганин топар”. Шоир маъшуқа давлатидан, яъни марҳаматидан бошқаларнинг боши кўкка етган, бироқ бу мурувватдан лирик қаҳрамон маҳрум. У тилаганини тополмайди. Шундай бўлсада, у “тилаганини топишга” ишонади.

Зулфунгиздин гар Атойи, бошқа кўрса, не ажаб  
 Ким, кўрармен **"бир синоғонни яна икки синор"**.

Халқда “От синови бир бўлар, дўст синови минг бўлар” деган мақол мавжуд. Унда дўстнинг “дўстлиги” бир неча синовлардан ўтиши, бу билан дўстликнинг мустаҳкамлиги синовларда билиниши уқтирилган. Ғазал мақтаёсида ошиқ ишқининг ҳақиқийлиги маъшуқа синовларига бардошида синалиши таъкидланган. Фольклор намуналарида синов мотиви билан боғлиқ сюжетларда синовнинг уч марта бўлиши таъкидланган. Демак, синов

мотивидаги 3 рақами билан боғлиқ жиҳат мақолнинг шаклланиши учун хизмат қилган.

Албатта, биргина ғазалда шунча мақол ва ибораларни қўллаш ижодкордан жуда катта маҳоратни талаб қилади.

Атойи маҳоратини кўрсатувчи жуда кўп оҳорли байтлар борки, бу улут шоирнинг Алишер Навоий таъкидлаганидек, халқ орасида алоҳида эътибор қозонишининг асосий сабабидир. Шоир шуҳратининг яна бир омили унинг “туркона” ёзганлигидир. Бунинг учун у халқ тилига яқин бўлган вазнлар (рамал, ҳазаж) фойдаланди, халқ оғзаки ижодига астойдил таянди. Жумладан, халқ тасавурида хазиналар вайроналарда бўлиши билан боғлиқ қарашлар мавжуд, бу ҳақдаги қарашлар эртак ва дostonларда кўчган. Атойи ана шу қарашлардан маъшуқа таърифида маҳорат билан фойдаланди:

Менум кўнглумдасен, эй ҳусн ганжи

Вале, ҳар ганж эрур вайронага лойиқ [1.122].

Ёки:

Чун муқаррардурки, сен ҳусну малоҳат ганжисен,

Айб эмас, гар лутф этиб келсанг бу вайрон кўнглума.

Ҳар иккала байтда ҳам маъшуқа малоҳат ганжига, ошиқ кўнгли эса вайронага қиёсланган. Ганж эса вайронада – яъни ошиқ кўнглида пинҳон бўлади.

Хулоса қилиб айтганда, Атойи лирикаси мавзу ва ғоя, бадиият жиҳатдан етук. У мумтоз шеърятимиз хазинасига муносиб ҳисса қўшди, айниқса, туркий ғазалнависликда ўзига хос мактаб ва услуб (туркий) яратиб, кейинги давр туркий шеърятнинг тараққиёти учун хизмат қилувчи ижодий мерос яратиб қолдирди.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Атойи. Девон Шайхзода Атойи. Нашрга тайёрловчи, сўзбоши, луғат ва изоҳлар муаллифи: Сайфиддин Сайфуллоҳ. – Т.: Фан, 2008. – Б. 320.
2. Навоий А. Мажолис ун - нафоис. МАТ. XX жилдлик. XIII жилд. – Т.: Фан, 1997.
3. Исҳоқов Ё. Навоий ва ўзбек шеърятдаги услублар масаласи. - "Ўзбек тили ва адабиёти" журнали. 1990, 5-сон, 5-бет.
4. С. Сайфуллоҳ. Мавлоно Атойи. Китобда: Девони Шайхода Атойи. Т.: Фан. 2008.
5. Ma'rifat R. Sayfi Saroyi g'azallari badiiyati //Conference Zone. – 2022. – С. 122-125.
6. Rajabova M. Алишер Навоийнинг Абдурахмон Жомийга бағишланган марсиялари //Центр Научных публикаций (buxdu.uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
7. Rajabova M. Analytical and synthesized folklorism in Navoi's work //Центр научных публикаций (buxdu.uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
8. Rajabova M. Алишер Навоийнинг нафси енгиш ғоясини мифологик жанг мотиви асосида тасвирлаш маҳорати //Центр научных публикаций (buxdu.uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.

9. Навоий муаммоларининг бадиий тақомилида фольклорнинг таъсири //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 6. – №. 6.

## ДИЛАФГОР ҲАЁТИ ВА ИЖОДИЙ МЕРОСИ МАНБАЛАРИ ҲАҚИДА

*Жўраев Жалолiddин Олимжонович,  
ЎзР ФА Абу Райҳон Беруний номидаги  
Шарқшунослик институти етакчи илмий  
ходими, филология фанлари доктори  
Мансуров Собир Хамроевич,  
Алишер Навоий номидаги Тошкент Давлат  
ўзбек тили ва адабиёти университети ўқитувчиси*

Дилафгор ҳаёти ва ижодий мероси тўғрисида маълумотлар унчалик кўп эмас. Жумладан, Пўлотжон домулла Қайюмий “Тазкираи Қайюмий” асарида: “Бу киши Тошкент атроф шоирларидан бўлиб, Писканд қасабасидандур. Номи Мулла Абдул Борий бўлиб, нима касбда экани билинмайди. Андижон шаҳридан туриб ватанига хат ёзганидан Фарғона водийсига келиб юргани, савдогар бўлгани эҳтимол тугилдур. 1914-чи йилда 48 бетли девончасини Тошкентда ўз харажоти ила тошбосмада босилиб чиқди”,-деб, унинг “Саломнома”сидан бир бандни келтирган. Яна муаллиф шоир ижодига баҳо бериб, унинг асарлари ўз характериға кўра Ҳазиний шеърларига яқинлигини қайд қилган [2: 379].

Шоирнинг исми “Гулшани Дилафгор” номи билан чоп этилган китобининг биринчи бетида мулла Абдулборий деб қайд қилинган бўлса-да, китоб сўнгида у ўзини китобфуруш мулло Бўрибой Шермуҳаммад ўғли деб таништиради [1: 48]. Кўпчилик орасида эса, мулла Бўри Шермуҳаммад ҳожи ўғли Дилафгор номи билан маълум бўлиб, 1877-1949 йилларда Пискентда яшаб ижод қилган.

Шоирнинг отаси Шермуҳаммад ҳожи Файзивой ҳожи ўғли миришкор деҳқон, оналари Буниса отин ниҳоятда илмли аёл бўлганлар. Буниса отиндан таниқли олима Музайяна Алавия, пискентлик Ҳамро отин, Турсун отин, Ҳури отинлар таҳсил олганлар.

Дилафгорнинг уч ўғил ва икки қизи бўлган. Катта ўғиллари Жўранинг Аббос ва Саломат исмли фарзандлари бор. Қуддус ва Юнус исмли ўғиллари иккинчи жаҳон урушиға кетиб, ҳалок бўлишган. Қуддуснинг ўғли Собир Саид қишлоғида яшаб ўтган. Катта қизлари Шарифа ҳозир 85 ёшда бўлиб, Тошкентда истиқомат қиладилар (Ўғиллари Нуриддин, Муҳиддин ва Сабриддин, қизлари Гулчеҳра ва Гулираъно). Иккинчи қизлари Латифа ҳам Тошкентда яшаб ўтганлар (Ўғиллари Ҳожиакбар, Саидакбар, қизлари Ёкутой).

Мулла Абдулборийнинг икки укаси бўлган: катта укалари Мирзааҳмад иккинчи жаҳон урушида ҳалок бўлган (1943 йил). Унинг Рустам ва Элнора исмли фарзандлари бўлиб, қизи ҳозир ҳам Тошкент шаҳрида истиқомат

килади. Укаси Бекмуҳаммаднинг икки қизи ва бир ўғли бор. (Ровза, Дамира ва Шавкат). Дилафгорнинг Доно (қизлари Зарифа ва Вазифа) ва Улуғбу исмли (фарзандлари Шавкат, Холида, Адҳам, Маҳкам ва Ўктам) сингиллари бўлган.

Шоирнинг яна Ойниса (фарзандлари: Ҳайдар, Хайри, Ҳасанбой ва Муҳаммадқул), Муҳаррам (фарзандлари: Туроп, Суруп, Раҳима, Малика, Ҳалима) ва Тўпаниса (фарзандлари Лутфиниса ва Қумриниса) исмли сингиллари ҳам бўлган.

Оталари Шермуҳаммадхожи ҳаж сафарига иккинчи марта борганларида отаси Файзибой хожи билан бирга борганлар. Файзибой хожи учун бу ҳаж сафари учинчи марта бўлиб, шу учинчи зиёратда Маккаи Мукаррама шаҳрида вафот этганлар.

Мулла Абдулборий дастлаб Пискентда, сўнгра Бухоро, Андижон ва Қўқон шаҳарларида ўқиган. Шоир асарларидаги қайдларга кўра, у Муқимий, Хислат, Камий каби ижодкорлар иштирокидаги адабий йиғинларнинг фаол қатнашчиси бўлган. Шунингдек, Мулла Абдулборийнинг уйига ҳам қалам аҳли вакиллари зиёрат қилиш ва меҳмондорчилик баҳонаси билан тез-тез келиб турган. Гарчи бу зиёрат ва меҳмондорчилик дейилса-да, меҳмондорчилик ўша даврнинг ўзига хос адабий анжумани, янги ёзилган асарлари билан бир-бирини таништириш тарзида ўтган. Шоир яқинларининг қайд қилишларича, ана шундай ижодий суҳбатлар ниятида келган Муқимий икки ҳафта Дилафгорникида меҳмон бўлган. Шоир уйда ўтадиган бундай йиғинларда қалам аҳли билан бир қаторда Юсуфжон қизиқ, Жўрахон Султонов сингари санъат соҳаси вакиллариининг иштирок этганлиги ҳам эътиборга лойиқ.

Дилафгор шеърлари “Гулшани Дилафгор” номи билан илк бор бир китоб шаклида 1914 йили Тошкентда Яковлев, кейин 1916 йилда Ғуломия матбаасида чоп этилган. Иккала нашр бир-бирини такрорлайди. “Гулшани Дилафгор” китобига шоирнинг ғазал, мураббаъ, мухаммас, мусаддас, қасида, маснавий, қитъа ва чистон жанридаги шеърлари кирган. Шеърлар девон талабига кўра жойлаштирилмаган. Бундай ҳолни китоб сўнгида муаллиф кўйидагича изоҳлаган: “Муҳтарам муштарийларимизга маълум бўлсунким, ушбу шеъри ожизонам ўлан “Гулшани Дилафгор”нинг агарчи, бебаҳра бўлса ҳам аҳбобларимиз назариға жилвагар қилдук. Иншо оллоҳ, иккинчи таънининг баҳрлик қилиб, яъни ҳарф-ҳижо тартиби бирла ва “Девони Дилафгор” исми ила чоп қилсамиз керак”, -дея умид билдиради [1: 48]. Лекин иккинчи нашр шеърларнинг сони ва жойлашишига кўра, қайд қилганимиздек, биринчисидан фарқ қилмайди. Мазкур нашрларидан саралаб олинган 8 та ғазал, 2 та мухаммас 1960 йили чоп қилинган “Ўзбек адабиёти” хрестоматияси 4-том, 1-жилдига, 4 та ғазал ва 2 та мухаммас 1982 йили нашр қилинган “Асрлар нидоси” китобига киритилган. Икки китобдаги шеърлар бир-бирини такрорламайди. Гарчи иккала нашр ҳам “Гулшани Дилафгор” асосида тайёрланганлиги қайд қилинган бўлса-да, улардаги айрим шеърлар мазкур манбада учрамайди. Ўз навбатида ноширлар ҳам уларнинг қайси



манбадан олинганлигини қайд қилмаган. Хусусан, “Ўзбек адабиёти” хрестоматиясига кирган “Ҳажр аро ҳолим кўруб бир лаҳза ёрим индамас”, “Ёрдин, эй дил, санга меҳру вафо кам-кам бўлур” мисралари билан бошланувчи мухаммаслар, “Асрлар нидоси” китобидаги “Қонга тўлди юрагим, бир дилрабодин айрилиб”, “Дарди ҳажрингга куйдим, айлама, эй дилбар, илож” мисралари билан бошланувчи ғазаллар “Гулшани Дилафгор”да учрамайди.

Дилафгорнинг “Гулшани Дилафгор” нашрига кирмаган шеърлари тўплами ҳам мавжуд. Ушбу шеърлар тўплами яқингача пискентлик Зойидахон аянинг китоб хазинасида сақланиб келган. Шеърлар оддий ёзув дафтарига қиялатиб араб алифбосида насталиқ хатида тез кўчирилган. Айрим ҳолларда баъзи сўзларнинг имлоси қоидага амал қилинмаган. Шунингдек, замонавий сўзларнинг араб имлосида берилган ўринлар ҳам учрайди. Мазкур жиҳатлар баъзида шеър мазмунини тушунишда қийинчилик туғдиради. Китоб 79 бетдан иборат бўлиб, яхши сақланган.

Зойидахон опа ва Дилафгорнинг қизлари Шарифа опаларнинг таъкидлашларича, бу шеърий тўпланинг ёзилиш тарихи куйидагича: асли кўконлик бўлиб, Пискент шаҳрида узоқ вақт истиқомат қилган қандолатчи Қурбонжон исмли киши бўлган. Унинг Хосиятхон деган синглиси Расулмухаммад деган йигитга турмушга чиққан. Уларнинг Маҳфураҳон деган қизи ва Рустам деган ўғли бўлган. Маҳфураҳон ҳаётдан эрта кўз юмади. Ёш Маҳфураҳоннинг ўлими унинг онаси Хосиятхонни қайғу ва изтиробга солади. У қизининг яқин дугонаси бўлган Шарифа опанинг отаси шоир Дилафгордан фарзандининг хотирасига бағишлаб марсия ёзиб беришни сурайди. Шу тариқа мазкур марсия-ёдномалар бунёдга келади. Китобга ном қўйилмаган. Биз китобни шартли равишда “Марсиялар дафтари” деб номладик. Марсиялар ғазал (7 та), мураббаъ (2 та), мухаммас (8 та), мусаддас (1 та), маснавий (3та) жанрларида битилган. Шеърлар радиф ва жанрга кўра ажратилмасдан ёзилиш тарихига кўра жойлаштирилган. Улар “Марҳума Маҳфурхоннинг онасиға қилган хайрботномаси”, “Марҳума Маҳфурхоннинг сакароти мавтда онаси билан хайрлашгани”, “Маҳфурхон онасидан розилик тилагани”, “Марҳума Маҳфурхоннинг 19 ёшда вафот топганига онасининг навҳаси”, “Марҳума Маҳфурхонни онаси ёд айлануб бир мухаммас айтгани” каби сарлавҳалар остида берилган.

Тўпланига кирган шеърларнинг бир қисми шоирнинг Иккинчи жаҳон урушида ҳалок бўлган Жўра, Қуддус ва Юнус деган ўғилларига бағишланган бўлиб, “Ёзғувчидан фарзандиға ёзган марсия”, “Ёзғувчидан” деб сарлавҳа қўйилган.

Шеърларда жудолик ва айрилиқ онлари таъсирли тарзда битилганлиги боис, яқин-яқингача Зойидахон ая ташкил қилган йиғинларда мухлислари томонидан ўқиб келинган.

Дилафгорнинг маълум шеърлари мумтоз адабиётда шаклланган анънавий жанр ва мавзуларда битилган. Уларда Аҳмад Яссавий, Сулаймон

Боқирғоний, Фузулий, Ҳувайдо, Ҳазиний каби ижодкорлар асарларининг таъсири сезилади.

Шубҳасиз, Муқимий, Хислат, Камий каби шоирлар иштирокидаги адабий суҳбатлар Дилафгор дунёқараши, ижодидаги мавзу кўламининг шаклланишига ҳам замин бўлган. Жумладан, унинг асарларида Муқимий ҳажвиёти, Хислат ва Камийларнинг миллатпарварлик ва маърифатпарварлик ғоялари билан ҳамоҳанг мисраларни ҳам учратамиз.

Мулла Абдулборий илк девонидан ташқари каттагина девон ҳам тартиб берган ва унинг ягона кўлёзма нусхаси шоирнинг қизлари Шарифа опа кўлида бўлган. Мазкур кўлёмани бир мухлиси қайтариб бериш шarti билан олиб кетиб, қайтармайди. Шу боис, Дилафгорнинг изсиз йўқолган девонига кирган шеърларининг мавзу кўлами, бадиият даражаси хусусида фикр юритиш имкониятига эга эмасмиз.

Шунингдек, Дилафгор Ҳазрат Алининг ўғли Муҳаммад Ҳанафияга бағишлаб “Қиссаи Зуфунун” ёки “Жангномаи Зуфунун” номлари билан машҳур ишқий-саргузашт, жангномалар туркумига кирувчи “Қиссаи Зуфунун” асарини битгани аниқланди. Қиссанинг иккита кўлёзма нусхаси ҳозирда ЎзР ФА Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти асосий фондида 4868 ва 11940 рақамлари остида сақланади. Асар маснавий шаклида битилган. Илк тадқиқот хулосаларига кўра, қисса ўша даврда ҳали мумтоз адабий анъаналар ва Ислom дини машҳур кишилари ҳаёти асосида қиссалар ёзиш анъанаси ҳали сақланиб турган даврда девон билан бир вақтда ёзиб тугатилган. Зеро, мазкур даврда шоир ижодидаги миллатпарварлик ва маърифатпарварлик ғоялари билан бирга китобхонлар орасида жангнома туркумидаги асарларга қизикувчилар бўлганини XX асрнинг биринчи чорагига қадар мавзуга оид нашр қилинган тошбосма китоблар орқали ҳам билиш мумкин.

Умуман, Дилафгор асарлари XX аср биринчи ярми ўзбек шеърятининг мавзу кўлами, жанр хилма-хиллиги, адабий таъсир, адабий доиралар, ижодий ҳамкорлик каби масалалар юзасидан олиб борилажак тадқиқотлар учун қимматли манба бўла олади, деб ўйлаймиз.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Дилафгор. Гулшани Дилафгор. –Тошкент: Яковлев литографияси, 1914.
2. Пўлотжон домумла Қайюмий. Тазкираи Қайюмий. 2-жилд. –Т., 1998.

## IJODIY INDIVIDUALLIK XUSUSIYATLARI

*Nasirov Azimidin Normamatovich,  
SamDU dotsenti, filologiya fanlari doktori*

Har bir yozuvchining voqelikni qanday ijodiy o‘zlashtirishi uning ijtimoiy-estetik ideali, dunyoqarashi, didi, bilim saviyasi bilan bog‘liq murakkab jarayondir. Badiiy uslub mohiyatan ham janr tadriji, ham ijodkor fitratining o‘ziga xosligidan kelib chiqadi. Odil Yoqubovning ijodiy individualligi deyilganida, adibning romani barcha sathlarining ijodiy niyat ijrosiga muvofiq tushishi, poetik talqin qolipidagi o‘ziga xosligi tushuniladi. Uslub ijodkor shaxsi bilan bog‘liq kategoriya bo‘lib, uning ijodiy individualligini belgilaydi. M.M.Baxtin ta’kidlaganidek, “Roman so‘z tizimining uyushgan sof kompozitsion shakli hisoblanadi, estetik obyektida badiiy tugallanmaning tarixiy yoki ijtimoiy ifodasi arxitektonik shakli epik intiho rang-barangligini tayin etadi” [1, 19-bet].

Odil Yoqubov “tush” vositasida bo‘lg‘usi falokatlarga ishora qilar ekan, bu jarayonda an’anaviy talqinga tayanadi va qahramon ruhiyatini shu asosda tahlil etadi: “Hazrat Sarkor uxladi, o‘ziyam bilmaydi. To‘satdan qora dovulday bostirib kelgan vahimadan yuragi o‘ynab, uyg‘onib ketdi. Yopiray, bu qora vahima qaydan keldi? U hozirgina yorug‘ esdaliklardan ko‘ngli taskin topib, osoyishta uyquga ketgan edi-ku. Yo unga bergan boyagi bir piyola konyak ortiqchalik qildimi? Yo‘q, konyak emas, hamma baloga hozirgina ko‘rgan tushi sabab! Yomon tush! Vahimali tush! Go‘yo u, Hazrat Sarkor, bandalikni bajo keltirgan emish! Unga Makkadan olib kelgan ehromini kiydirib, tobutga solib, Sa‘nat saroyining tomosha zaliga qo‘yib qo‘yishgan emish. Garchi ko‘chadan karnay-surnaylar ovozi eshitilib tursa ham, tomosha zali jimjit va kimsasiz emish. Faqat eshikdan ancha nariroqda, uning inongan tog‘lari, muovnlari Nabi naynov bilan Parpi pakana va anavi... partkom Ziyodaxon shivirlashib o‘tirishgan emish. Ularning gaplari eshitilmas, ammo tobut tomon imo qilishib, jilpinglashib o‘tirganlaridan ularning xursandligi shundoq ko‘rinib turganmish. Bir mahal eshik ochilib, klubga «Ko‘r qori» deb nom chiqargan sobiq imom kirib kelarmish. Hazrat Sarkor bu imonsiz qorini siyosatga zid tashviq turg‘ibotlari uchun imomlikdan bo‘shattirib, qishloqdan badarg‘a qilib yuborgan edi [2, 12-bet].

Ko‘rinadiki, tush motivi ham Hazrat Sarkor atrofidagi qiyofasiz kimsalarning ikkiyuzlamachiligi, davr siyosati ta’sirida yo‘l qo‘yilgan xatolar tug‘dirgan iztiroblari ko‘rsatiladi. Romanidan olingan yuqoridagi tush motivi qahramon xarakterini gunoh, tazarru hamda xatolar keltirib chiqargan iztirob uyg‘unligida poetik talqin etishga imkon beradi. Zotan, xatolarni taftish etish tazarruga yo‘l ochadi. Demak, qahramonning butun hayoti yagona nuqtaga yig‘iladi. Odil Yoqubovning mahorati shundaki, u badiiy talqinda tush va reallikni o‘zaro uyg‘unlashtiradi. Ko‘r qori bashorati orqali qahramon faoliyatiga munosabat ifodalanadi. Odatiy kundalik muammolar talqinida yozuvchi inson tiynatiga xos muhim nuqtalarni suratlaydi. Bir qarashda keltirilgan lavha asar dinamikasidan tashqari holatdek taassurot ham uyg‘otadi. Biroq tush tafsiloti o‘z-

o‘zini anglayotgan inson iqrornomasi ekani bois, uning xarakter qirralarini yagona estetik markazga yo‘naltiradi.

Odil Yoqubov ijodi yaxlit, bir butun poetik mundarijani tashkil etadi. SHu ma‘noda uni juzvlarga taqsimlash o‘zini oqlamaydi. Negaki, rivoya bir-birini mantiqan to‘ldiradigan ijtimoiy, falsafiy, ruhiy talqinlardan iborat. Unda insonning jamiyatda tutgan o‘rni, a‘moli va manfaati, ehtiyojlari o‘zaro tutashadi. Muallif diqqatga sazovor tafsilot, psixologik chizgi hamda mushohada uyg‘unligini makon va zamon nuqtai nazaridan yangilaydi. Badiiy talqinning mavzu, g‘oya va uslub jihatdan uyg‘unligi universal ma‘no tarmoqlarini boshqaradi.

Hayot solnomasi ijtimoiy mazmunini inson xakteri butunligida to‘g‘ri ilg‘ash va poetik ifoda etish yozuvchi ijodiy individualligining muhim belgisidir. Tugal aniqlikka erishish ham adibning o‘ziga xosligini ta‘minlaydigan asosiy omildir. “Diyonat” romanidagi Otaqo‘zi hayot ziddiyatlarida sarson-sargardon, yo‘lsizlikka mahkum inson. Uning istiqbol maqsadlari sarob ekanligi asar fabulasidayoq ayon bo‘la boradi. Chunki o‘z farzandini bunyodkorlik sari ilhomlantirgan totalitar jamiyat alaloqibat uni to‘la mahv etadi. Turmush ziddiyatlari va ma‘naviy-ijtimoiy adashishlar qahramon ma‘naviy tanazzulini yanada tezlashtiradi. Odil Yoqubov asar mohiyatini mavjud ijtimoiy-tarixiy-ruhiy borliq dinamikasi, ya‘ni rivoji va tanazzuli qatiga singdiradi.

“Otaqo‘zi-ku, o‘g‘lining ishi uchun Isoning alamini Musodan olib, tog‘asining alamini undan olayotgan bo‘lishi ham mumkin. Unday desa, tog‘asi bilan ham bo‘laricha bo‘libdi-ku!.. Ha, yaxshida gina bo‘lmas, yomondan gina ketmas, deganidek, ginaxonligini sira qo‘ymaydigan bu ho‘kizfe‘l chol, omon bo‘lsa, ko‘p o‘yinlar ko‘rsatadi hali! Tunov kuni fotihaga kirganda Vohid Mirobidov uning ahvol-ruhiyasini ko‘rib, yuragi zirqirab ketgandi, biroq it fe‘lini ko‘rib, uniki ham tutdi, ichidagini sirtiga chiqarmadi-yu, ammo-lekin, “bu kuningdan battar bo‘l”, deb chiqib ketdi... Mayli, Vohid Mirobidov tog‘a-jiyanlardan gina qiladigan joyi yo‘q, ming yaqin bo‘lgandayam yot yotligiga boradi. Lekin o‘z kuyovi... Qaynota, qaynona mehmon bo‘lib kelishibdiki, bir kun birga bo‘lmadi, yayrab-yozilib chaqchaqlashib o‘tirmadi. Vohid Mirobidov uning kamgap, kamsuqumroq bir odam ekanini bilardi-yu, biroq bunchaligini bilmagan edi. U bir o‘yi qizi bilan kuyovining orasiga sovuqlik tushmadimikin degan xayolga ham bordi, yo‘q, Nazokatning gapiga qaraganda tinchlik emish. Balki Mahbuba bildirmagandir. Biroq bildirsin-bildirmasin, agar bugun kuyovi yo‘qlab kelmasa, Vohid Mirobidov ketadi. Otaqo‘zining bitta mashinasini so‘rab oladi-da, jo‘nab ketsa o‘ksisa o‘ksir? Tashakkur? Vohid Mirobidov unaqa... kalishi ko‘chada qolganlardan emas. O‘ziga yarasha izzat-obro‘si bor!” [3,291-292-betlar].

Vohid Mirobidov – yirik olim. Uning hayot yo‘li silliq. Negaki, mutaxassis dunyoqarashi murosa-yu madoraga asoslangan. Muallif fan jabhasida yuzaga kelgan ichki raqobat ildizlarini oydinlashtirishga intiladi. Ziddiyat baribir insoniylik chorrahasida kesishadi. Tor manfaatparastlik, xudbinlik va manmanlik illatlari qahramon tiynatini butunlay egallagan. San‘atkor inson tabiatida hukmron kibr tuyg‘usini ishonchli yoritadi. Otaqo‘zi oilasidagi nizo ilmiy ziddiyatlar bilan



qorishib, davr ruhi, hayot manzarasini yaxlitlashtirishga yordam beradi. Soxta olim va insoniy fazilatlardan mosuvo bo'lgan bu obraz individual belgilariga ko'ra chiziladi. Ayni paytda ijtimoiy davr tarbiyalab yetishtirgan tip sifatida ham qabul qilinadi. Darhaqiqat, Vohid Miroidov ijtimoiy munosabatlar hosilasi bo'lib, odamzot fe'l-atvorining moslanuvchanligini dalillaydi. U hatto ashaddiy raqibi professor Normurod Shomurodovning o'z jiyani Haydarga ilmiy rahbarlik qilishiga ham to'sqinlik qilishdan toymaydi. Biroq, Normurod Shomurodovga jiyani shug'ullanayotgan muammo umuman yoqmaydi. Negaki, yuzaki taxmin asosiga qo'yilgan g'oya jamiyat talab ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilmaydi. E'tiborli jihati shundaki, romanda ijtimoiy mohiyat kasb etgan ziddiyat, mas'uliyat va burch, insof va diyonat, mehr va muruvvat tushunchalari tahlilini ham teranlashtiradi. Jamiyat taraqqiyotining nuqtai nazaridan olib qaralganda, uning ikki qutbdagi vakillari o'rtasidagi ichki muxoliflik zohiran xususiy va maishiy ahamiyat kasb etadi. Biroq juz'iy ko'ringan konflikt jamiyatning umumiy manzarasi tadrijida o'ziga xos bosqichni tashkil etadi. Boshqacha aytganda, har bir inson ma'naviyati yaxlit ijtimoiy muhitning qiyofasini belgilaydi. Hukmron, yakka hokim mafkura va inson mohiyati aslida tasvirning yuksak hamda quyi darajasini ko'rsatadi. Hissiy idrok qatidan o'sib chiqadigan muallifning insonparvar g'oyasi tasvir ruhiyati axloqiy mezonlarini birlashtiradi.

To'g'rirog'i, har bir tafsilot san'atkorning qalbi tebranishlaridan sizib chiqayotgan ongli-shuuriy mushohadalarini tasdiqlaydi. O'z navbatida, keng ma'noda Odil Yoqubovning badiiy voqelik yaratish uslubi uning realistik ifoda yo'sinida to'plangan ijodiy tajribalariga tayanadi. Nuqtai nazarning adib hissiy idrokidan ibtidolanishi epik "men" tahliliy imkoniyatlarni oshiradi. SHu o'rinda ta'kidlash joizki, muallifning insonparvar pozitsiyada turishi, talqin samimiyatini ta'minlash barobarida, millat mentalitetining rang-barang qirralarini ham umumlashtiradi. Aniqroq aytganda, badiiy xarakter ijtimoiy-ruhiy, ma'naviy-axloqiy munosabatlar jarayonida shakllanadi. Zotan, romaniy tafakkur mantiqiy izchillikni taqozo qiladi, chunki epik maydon sabab-oqibat munosabatlariga asoslanadi.

Zero, murakkab, vaziyat va shart-sharoitlarning o'zgarib, turlanib turishi inson fe'l-atvoriga ta'sir o'tkazadi. Hatto oddiy bir tasodif ham qahramon xarakterini tubdan o'zgartirib yuborishi mumkin. Jumladan, "Diyonat" romanida Haydar obrazi dastavval yengiltak, manfaatparast inson sifatida namoyon bo'ladi. Hayotiy aqidalar uning dunyoqarashining o'zgarishiga sabab bo'ladi. Buning asosiy omili voqea-hodisalarning inson ko'ngil dunyosida zuhur topishidir. Odil Yoqubov aksar romanlarida qahramon xarakterini yaxshi-yomonga ajratsa ham, u xarakterlarning o'z olami, tabiiy sa'jjiyasi bilan shakllanishiga daxl qilmaydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Baxtin M.M. Voprosi literature i estetiki. –M.: Xudojstvennaya literatura, 1975. – S. 19.
2. Yoqubov O. Osiy banda // Jahon adabiyoti. 2002, 9-son -B.12.
3. Yoqubov O. Diyonat. Roman. –Toshkent, Yangi asr avlodi, 2019.– B.432.

## ХАЛҚ МАҚОЛЛАРИ, ҲИКМАТЛИ СЎЗЛАР ВА ИБОРАЛАР МАТНИНГ СОЦИАЛ-ЛИНГВИСТИК АҲАМИЯТИНИ БЕЛГИЛОВЧИ ВОСИТАЛАР СИФАТИДА

(Ғ.Ғулумнинг “Менинг ўғригина болам” ҳикояси мисолида)

*Раҳмонқулов Абдуназар Уралович,  
Жабборов Баҳромжон Абдурасулович,  
Академик Б.Ғафуров номидаги ХДУ доцентлари,  
(Тоҷикистон)*

Мақол ва ҳикматли сўзлар халқнинг узоқ тарихга эга бўлган ижтимоий, иқтисодий, сиёсий ва маданий ҳаётини белгиловчи халқ оғзаки ижоди маҳсули саналади. Уларда шу халқнинг турмуш-тарзи, урфу одатлари, шунингдек, халқ ҳаётининг иқтисодий-ижтимоий шароитлари акс этади. Мақол (парема)лар ҳам бошқа лингвомаданий бирликлар сингари миллат менталитети, маданияти, турмуш тарзини, она тилимизнинг ўзига хослигининг ёрқин ифодачисидир. В.Н. Телиянинг таъкидлашича, “мақоллар халқнинг кундалик ҳаёти билан боғлиқ маданий қадриятларнинг асрлар давомида анъанавий тарзда аждодлардан авлодларга ўтиб келаётган улкан манбаидир” [2].

Мақол ва ҳикматли сўзлар матнининг лисоний қурилиши морфологик-семантик жиҳатдан ўта пишиқ ишланган, сайқалланган, узоқ тарихий тараққиёт йўлини мардонавор босиб ўтган лисоний бирликлардан иборатдир. Ана шу лисоний бирликлар семантикаси социал-лингвистик жиҳатдан мураккаб бўлиб, аввало, улар қисқаликка, яъни ошиқча морфологик шаклларсиз кенг маъноларни ифодалашга, халқ ҳаётининг барча қирраларини очишга хизмат қилади. Фитрат ҳам ўз тадқиқотларида халқ оғзаки ижоди намуналаридан бири бўлган мақол жанрига алоҳида тўхталиб ўтади: “Элнинг кун кўрган, иш ўтқарган синашли қарилари томонидан айтилган ҳикматли, қисқа, маъноли гапларидирким, эл орасида “яшаш қонунлари” каби ҳукм суриб, тилдан-тилга юрийдир” [3].

XX аср ўзбек адабиётининг йирик талантларидан бири Ғафур Ғулум қаламига мансуб “Менинг ўғригина болам” ҳикояси матнида асарнинг социал-лингвистик хусусиятларини белгиловчи ана шундай мақол, ибора ва ҳикматли сўзлар кенг қўлланилган.

Асар сарлавҳасида бир-бирига оппозицияда турувчи икки маънони уқиш мумкин. Биринчи маъно – асар жамиятдаги ёмон иллатлардан бири ўғрилик – яъни бировнинг ҳаққини ейиш масаласига бағишланганлиги бўлса, иккинчи маъно эса, ўғри сўзига қўшилган –гина (отларнинг кичрайтириш, эркалаш маъноларини рўёбга чиқарувчи грамматик шакл) аффикси билан юзага чиққан раҳм-шавқат, меҳрибонлик, эркалаш ва қаратқич, эгалик маъноларини рўёбга чиқарувчи –нинг, -им аффикслари ёрдамида ижтимоий-иқтисодий ҳаётнинг оғирлиги туфайли кишиларнинг бир-бирига бўлган муҳаббатининг ортиши, ўғрини бўлсада ўзига яқин олиш, ўз фарзандидай

кўриш маъноларининг ифодаланишидир. Демак, ҳикоя сарлавҳасидан оғир ижтимоий ҳаёт воқеа-ҳодисалари тасвирланганлигини билиб оламиз. Ёзувчи инсонларнинг ана шу оғир турмушини ёритиш учун шу мавзудаги, яъни оғир ижтимоий-социал турмушни ифодаловчи халқ иборалари, мақол ва ҳикматли сўзларидан унумли фойдаланган. Ана шу лисоний-фразеологик ифодалар асар матнининг лингвистик тузилиши ва бадиийлигини оширишга, шунингдек, мавзу мазмунини ёритишга хизмат қилган.

Масалан, **бизни ҳам одам деб йўқлайдиган кишилар бор экан-да**, дунёда ибораси ўзбек тили халқ нутқида “бизни ҳам йўқлайдиганлар бор экан-да” шаклида кўп ишлатилади ва у бир неча вақт келмай қўйган, ёки хабар олмаган кишиларга нисбатан хафалигини ифодалаш учун қўлланади. (Масалан: *Муҳаббат шарбатин ичдим, қозондек қайнабон тошдим, Бу фоний дунёдин кечтим, мени йўқлар кишим борму?* Бобораҳим Машраб). Аммо Ғ.Ғулом ушбу ҳикоясида бу иборага одам сўзини кўшиб, ўзларини ҳеч вақоси йўқ, бошқалар қаторида ўрни йўқдек кўринган оиласига кимнидир, ўғрилиқ юзасидан бўлса-да келишини назарда тутиш маъносини ифодалаб келган. Демак, асарнинг биринчи эпизодидаёқ оғир турмуш воқеалари кўз олдингизда гавдаланади.

Бирор ерга ўтиб мизғигандай **қуш уйқуси** қиламан. Кечалари хаёл олиб қочиб кетади. Ҳикоя матнидан олинган ушбу гапда “қуш уйқуси” ибораси қўлланилган. Бу иборада ичи дардга, ғам-аламга, ташвишларга тўлган қарияларга, аниқроғи, кампирларга хос уйқу тасвирланган бўлиб, бу хилдаги уйқу жуда оз муддатли ва сергак уйқу ҳисобланади. Демак ушбу ибора орқали ҳам мавзу мазмунини ёритишга эришилган.

Замонни ўзинг кўриб турибсан, **тириклик тошдан қаттиқ, туянинг кўзидай нон анқога шапиғ**. Матнда ифодаланган ушбу “тириклик тошдан қаттиқ, туянинг кўзидай нон анқога шапиғ” иборасининг биринчи қисми (тириклик тошдан қаттиқ) халқ мақоли даражасига чиққан, халқ орасида кенг истеъмол қилинувчи ибора бўлиб, юқорида айтиб ўтилган ҳикоя сарлавҳасидаги мазмунни юзага чиқаришда ўринли фойдаланилган. Иккинчи қисм (туянинг кўзидай нон анқога шапиғ) эса, ёзувчи томонидан қўлланилган индивидуал-оккозионал ибора бўлиб, тошдан ҳам қаттиқ тирикчиликни туянинг кўзидай нон, яъни жудаям кичкина бўлакли нон анқога шапиғ, яъни анқонинг ўзи йўқ нарса, жуда ноёб нарса, “шапиғ” лексемаси ҳам “тансиқ, ноёб” маъноларини ифодалайди, бундан чиқадики, кичкина бўлакли нон анқога ҳам тансиқ эканлигига ўхшатади.

Рўзғорда бўлса, **кўз кўриб, қўл тутгудай** арзигулик буюм қолгани йўқ. Мазкур гапда ҳам “кўз кўриб, қўл тутгудай” ибораси қўлланган бўлиб, халқ ибораларининг ёзувчи томонидан матнга мослаштирилган индивидуал кўринишидир. Ушбу ибора ҳам мавзуда кўтарилган халқнинг аянчли ҳаётини тасвирлашга хизмат қилган. Бошқа бир шоирнинг шеърида бу иборанинг бошқа шакли қўлланилган :

Бу дунё бизлара кўхнадан мерос,  
кўз кўрмас, қўл етмас узоқдир меърож ...

Лекин халқ тилида кўпинча “кўз кўриб, қулоқ эшитмаган” варианты қўлланилади.

**Туриб еганга турумтоғ чидамас**, – деганлар. Ушбу гапдаги халқ ибораси бир неча кўринишларда қўлланилади. *Ётиб еганга тоғ ҳам тут келмас* ёки *ётиб еганга тоғ ҳам чидамас* каби. Ва унинг барча вариантлари ҳеч қаерда ишламасдан, фақат борини еб ётаверсанг, қанча бойлигининг бўлса ҳам бир келиб тамом бўлиши маъносини ифодалаш учун қўлланади. Мазкур ибора ҳам ҳикояда кўтарилган муаммонинг ўқимишли, сермазмун ва бадийлигини оширишга хизмат қилган.

Шунингдек, ҳикояда келтирилган гаплар таркибидаги яна бир неча қуйидаги иборалар юқорида изоҳланган мақоллар, иборалар (индивидуал иборалар) каби матннинг лисоний ва бадий мукамаллиликка хизмат қилган.

Ўзи ўраб, ўзи чирмаб оладиган **жой чиқмаса**, буларга кимнинг ҳам **кўзи учиб турибди** дейсан. **Замон қаттиқ**, ўғригина болам, **замон қаттиқ!**

- Тўғри айтасиз, бувижон, - деди ўғри, - менинг ҳам икки болам, хотиним, битта кампир онам бор, **бир товукқа ҳам дон керак, ҳам сув керак**, деганларидек, шуларни боқишим керак. Тўртта чавати нон топиш учун **ўзимни ўтга, чўғга, Алининг қиличига ураман**.

Ҳали ҳам замон-замон ўша **илиги тўқларники**.

- Нима касб қилай? Ҳамма касбларнинг ҳам **бозори касод**.

Ҳаммоллик қилай десам, аввалгидек қоплаб ғалла, қоплаб сабзи-шолғом оладиган бадавлатнинг **тухуми қуриган**.

Ҳа, майли, шу етимларнинг ҳам **пешонасига ёзгани** бордир. Хўш, энди ўзингдан сўрай. Ахир, ноиложликдан-ку, шу **харом йўлга** қадам босибсан, ўзига тўқроқ, бадавлатлироқ одамларникига борсанг бўлмайдими?

Жуда ҳам **юзимни сидириб ташлагим йўқ**, андишам бор, уяламан.[6]

Хуллас, буюк ёзувчи Ғафур Ғуломнинг “Менинг ўғригина болам” ҳикояси матнида қўлланилган мақол ва иборалар ҳикоянинг социал-лингвистик хусусиятларини ифодалашда етакчи воситалар сифатида хизмат қилган. Умуман олганда, ёш авлодни миллий қадриятлар ва маданият, халқнинг асрлар давомида шаклланган маънавияти асосида тарбиялаш ишида мақоллардан босамар фойдаланиш муҳим ўрин тутди.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Гиндин С.И. «Внутренняя организация текста». АКД, М, 1972 г.
2. Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. - М.: Школы “Языки русской культуры”, 1966. – С. 241
3. Фитрат А. Адабиёт қоидалари // Танланган асарлар. Беш жилдлик, 4-жилд. - Тошкент: “Маънавият”, 2006,69-бет
4. Қудратов Т., Нафасов Т. «Лингвистик таҳлил» Т., «Ўқитувчи», 1984.
5. Қиличев Э. Матннинг лингвистик таҳлили. – Бухоро, 2000. – 36 б.



6. Гафур Гулом. Менинг ўғригина болам // Ўзбек адабиёти (дарслик-мажмуа), 6-синф. – Душанбе, 2006, 85-86-бетлар.

## CANONICAL FORMS IN ARABIC: BILINGUAL LEXICOGRAPHIC IMPLEMENTATIONS

*Maghrabi Reem,  
Department of English Language,  
Faculty of Languages and Translation,  
University of Jeddah, Jeddah, Saudi Arabia*

Zgusta's (1971) and numerous other authors adapted discussions on the needs and interests in topics significant to bilingual lexicography. This includes organizational arrangements, functions of bilingual lexicography, culture-bound aspects and selection of equivalence (Hausmann, 1986). However, little attention has been given to constraints on equivalents of canonical forms and the translational culture bound elements from a lexicographic-linguistic perspectives. As Arabic might be considered one of the richest languages in words based on its complexity and versatility, bilingual lexicographers are expected to pay careful attention to the infinitude of canonical equivalences. Hence, this study hopes to find convenient translational equivalence strategies based on Zgusta's (1971) model of paradigmatic classification of English canonical forms in relation to bilingual lexicography. By the presentation of a comparative exemplification background, this study could implement necessary tools for semantic translatability with paradigmatic dimensions in bilingual lexicography in relation to Arabic language. It could also provide valuable insights to effective methods used by translators in association with lexicographers to transfer equivalent meanings successfully with regard to paradigmatic entries of L1 and L2 languages comparatively.

One of the main theories of lexicography is related to writing dictionaries, including bilingual ones. Many studies have proven that linguistics could be a helping tool in finding the functional method of selection of equivalents. It could also guide, in a way, the most effective principle in choosing the representations of data in bilingual dictionaries (Hausmann, 1986). In semitic languages, for example, root-and-pattern morphology is a fundamental element in lexicographic compositions. The root in Arabic language is consonantal and it cannot stand on its own as a word. It indicates meaning but it needs the support of a pattern, i.e., one or more vowels, to form a word. Unlike English, the morphemes in Arabic content words are discontinuous (Watson, 2002). On the other hand, function words, pronouns and loanwords are solid stems because they cannot be reduced or analyzed into the root-pattern paradigm (Ryding, 2005). A root is identified by Zgusta (1971) as the canonical form which means the basic form of a word, as the paradigmatic form of words cannot be indicated in a dictionary (Zgusta, 1971). In English, paradigms are limited, but in other languages like Arabic, a word's

paradigm can comprise many forms. This is why this phenomenon of canonical forms should be explored carefully in bilingual dictionaries dealing with Semitic languages like Arabic. For example, in English the plural from “study” could refer to two or more than one person; “Ahmad and Ali study well” and refers to only two persons and plural that refers to more than one person. In Arabic, the dual and plural has different forms that refer to masculine and feminine uses. For instance, when talking about boys we say; “ناسردية”/al-awladān yadrusnān/, “ناسردية”/al-awladū yadrusūn/, but when talking about girls we say; “ناسردية”/al-bentān tadrusān/“ناسردية”/al-banāt yadrusn/. Canonical forms of different paradigms are usually established by tradition (Haywood and Nahmad, 1965). In Arabic, for example, the canonical form of the verb is the third person singular of the perfect tense, e.g. “أكل”/akala/as it is the simplest verbal form. The canonical form of Arabic nouns is the nominal singular indicated with the definite (ال)/al/article, e.g. “الضرب”/alard/, “الرمقلا”/alqamar/, “الولاد”/alwalad/. The main purpose of this study is to explore the notion of Arabic paradigms based on Zgusta’s (1971) identification of formal, lexical meaning and compositional variation. It examines the application of translational equivalence theory to explore how these categories could overlap and differ from one language to another.

1) To examine the representations of formal and lexical variations of Arabic canonical forms within the paradigm.

2) To explore how variation of derivational representations of Arabic canonical forms could overlap with lexical meaning.

3) To investigate compositional constructions of Arabic canonical forms.

4) To introduce semantic-formal translational equivalence insights that could help bilingual lexicographers cope with paradigmatic distinctions.

5) To manifest paradigmatic relations between L1 and L2 lexical items and their translational equivalents.

Lexicography is a complex field known by traditionalism. However, a proper approach to its theory is to evolve a flexible framework which could include as many different approaches as possible (Hanks, 1987). The idea of adequacy of lexicographic description and classification of words is still arguable, and a bilingual dictionary could even be more unnatural (Bolinger, 1985 and Frawley, 1985). Yet, an effective way to conduct a bilingual dictionary could be applying the translational equivalence theory. According to the description views of Manley, Jacobsen, & Pedersen (1991), in bilingual dictionaries, examples are used to show equivalents. They argue that examples with a lot of functions are useless to readers. What matters mostly is the use of the equivalents of these examples in their canonical forms in an explicit with regard to word entry. The idea of this could be useful if the possible similarities and differences of canonical forms in both languages are studied by the lexicographer. The notion of equivalence, can be understood in two ways: either as a relation between units in L1 and L2 language systems (cognitive equivalence), or as a relation between constituents in L1 and L2 texts based on adequate substitutability in relevant contexts (translational equivalence) (Lissance, 1949).

This study tries to illustrate how translational equivalence could be applicable in relational to Arabic canonical forms with reference to formal and lexical, derivational and compositional variation. There are four qualitative classifications of translational equivalence that a lexicographer could consider: 1. partial equivalence, i.e. overlap. 2. full equivalence, i.e. identity 3. inclusion 4. nil equivalence, i.e. disjunction. The difference between contrastive linguistics and translation theories in Bilingual dictionaries is that contrastive linguistics studies language-systems, while translation theories on texts' lexical meaning with paradigmatic dimensions (Koller, 1987). It is worth mentioning that the possibility of translating canonical forms of a language may depend on cultural overlap as stated by (Lenneberg, 1953). However, the idea of qualitative translational equivalence theory could be semantically and culturally complete and translationally adequate (Kromann, Riiber, & Rosbach, 1984; Steiner, 1971).

The paradigm is one of the basis of the lexicographer's work, that assumes that such words like (come, comes, coming, came), (book, books), or in Arabic (بِتَك-بِتَا) /uktub-kataba-yaktub/or (ق-م-لَاقْ أ) /qalam-/aqlām/belong together. In the word—and—paradigm model, the lexicographer assumes that the lexical meaning of every lexical series of forms remain the same, while only grammatical categories are expressed by different forms (Zgusta, 1971). For example, (بِتَا-بِتَا) /kitāb-kutub/have the same lexical meaning “literary composition of considerable length”, and the form (بِتَا) /kitāb/belongs to the grammatical category “singular” and the (كُتُب) /kutub/to that of “plural”. The grammatical function of a word in a sentence manifests itself clearly in terms of either word inflectional ending as in Arabic, or word position in a sentence as in English (Thakur, 1997). The syntactic relationship that a word has with the other words in the sentence manifests itself in its inflectional endings and not in the place that it occupies in relation to the other words in that sentence. Arabic language is one of the inflectional languages, whereas, English shows only a few features of these languages (Watson, 2002). According to (Zgusta, 1971), canonical form is the representation of the whole paradigm. This representation includes formal variation within the paradigm, variation of lexical meaning within the paradigm, derivation and composition. There should be no ambiguity about the word's whole paradigm. For example in the English dictionary, it is not necessary to indicate further forms of substantives as their paradigm is so simple and regular (Zgusta, 1971). The morphophonemic variants like (book, books) or in Arabic (قَارَوْ قَارُوا) /waraqā-awrāq/are put in the grammatical appendix of the dictionary. Only the canonical form and the category of substantive the word belongs to should be included (Ferhi, 2012). As far as derivation is concerned, there are cases that must be studied by the lexicographer with greater care than the purely grammatical categories (McCarthy, 2002). An adverb like (well), also must be listed, where the meaning is regular and predicted of the adjective (good) but the form is suppletive (Thackston, 1997). (Palmer, 1974) suggested that all types of compound words are eligible for selection for inclusion in the dictionary wither with unpredictable meanings or with predictable ones. When dealing with a big monolingual

dictionary, the aim is to give a full description of the lexicon of a language. If the space is limited in a bilingual dictionary, the main aim is to help to understand the text in the source language, and practical consideration will lead to omit compound of which the meaning is understood from the meaning of their constituent parts (Lyons, 1968). Therefore, this paper is an attempt to present the gap that could not be filled unless the lexicographer is familiar to an extent to language variation. It aims to give an insight on more probable linguistic expressions and discriminations of meaning in given contexts, though users do not necessarily behave like native users. This study hopes to identify some lexicographic representation of Arabic paradigmatic variations that could give insights of paradigms in Arabic in relation to lexicographic insights based on the study of (Zgusta, 1971). It examines formal and lexical variations within the paradigm as well as derivational and compositional components. In addition, it introduces translational equivalence insights in relation to paradigmatic distinctions in bilingual lexicography.

The notion of paradigm is explored qualitatively based on the study of (Zgusta, 1971). It examines the representations of formal variations and lexical meanings within the paradigms in Arabic language along with cases of derivation and composition components. This is done to explore how these Arabic paradigmatic variations could overlap and differ from English by applying the translational equivalence theory. In addition, it illustrates how peculiar representations could be challenging for lexicographers in particular contexts. The study is not concerned with the organization of bilingual lexicography, but rather represents a qualitative methodology of Arabic paradigmatic manifestations.

## TARIXIY ROMANDA BADIY DETAL TALQINI

*Rahimov Zokir Azimovich,  
FarDU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi*

Tarixdagi voqelikka nisbatan ma'naviy ehtiyojning yuzaga kelishi natijasida buyuk siymolar hayoti, ijodi, tarix sahifalaridagi o'rnini badiiy talqin etuvchi asarlar maydonga keladiki, buning zamirida hayotga bo'lgan kitobxon munosabatlarining shakllanishi yotadi. Shuning uchun tarixiy shaxslar hayoti, ularning ruhiy-ma'naviy olamini talqin etuvchi tarixiy asarlarga nisbatan ma'naviy ehtiyojning ortib borishi bejiz emas.

Uzoq tarix sahifasidan o'rin olgan siymolar obrazini yaratishga bo'lgan intilishni iste'dodli adib Odil Yoqubov ijodida ham kuzatish mumkin. Adib ijodiyoti o'zbek romanchiligi tarixida zamonaviy mavzudagi hamda tarixiy-polifonik "Ko'hna dunyo" romani bilan adabiyotimiz xazinasiga munosib hissa bo'lib qo'shilgan.

Adabiyotshunos U.Normatov adib tarixiy romanlari haqida so'z yuritib shunday yozadi: "Avvalo "Ulug'bek xazinasini" asari "Navoiy", "Yulduzli tunlar" singari bosh qahramonning uzoq yillik hayot yo'lini hikoya qilib beruvchi tarixiy-biografik roman emas; qahramon hayotining qisqa va eng qaltis fojiviy pallasi haqidagi asar. Shu tariqa "Ulug'bek xazinasini" orqali milliy adabiyotimizda voqeanavislik romanlaridan keskin farq qiluvchi ruhiy, dramatik-tarixiy romanchilikka asos solindi, bu tajribani muallif galdagi "Ko'hna dunyo" romanida davom ettirdi va ko'p yangi xususiyatlar bilan boyitdi" [1,109-110-betlar].

Darhaqiqat, yozuvchi tarixni aks ettirishning aynan ruhiy talqin yo'lidan borib, jahon adabiyotidagi yetakchi an'analarini davom ettirdi va o'zbek adabiyotida birinchilardan bo'lib tarixiy-polifonik tasvirga asoslangan "Ko'hna dunyo" romanini yaratdi. Adib ijodi haqida so'z yuritgan adabiyotshunos A.Nasirov qayd qilganidek: "Odil Yoqubov tarixiy romanlarida ifoda xronotopi, birinchidan sujet chiziqlari ko'p qatlamliligiga bog'lanadi, bunda tasvir xronologik izchillikdan chekinib, hodisoti ruhiyatining mantiqiy tadrijiga aylanadi" [2, 118-bet]. Qayd qilinganidek, adibning tarixiy romanlaridagi inson ruhiyatidagi iztiroblar, murakkabliklar, makon va zamon silsilasida juda teran talqin etiladi. Yozuvchi boshqa romanlaridagi kabi ushbu polifonik romanda ham chuqur

falsafiy, ma'naviy fikrni o'rtaga tashlagan. Bunda ijodkor mahorat qirralaridan biri - asarlarida badiiy detallardan shunday foydalanadiki, ushbu detal butun asar syujetini harakatga keltiruvchi badiiy unsurga aylanadi. Asar voqealari silsilasini ta'minlagan ana shunday vositalardan biri "Sehrli meva" badiiy detali ham qahramon ruhiyatiga, ham zamon voqeligiga uzviy bog'lanadiki, bu esa ijodkorning poetik mahoratidan dalolat beradi.

Romanda asosiy voqealar syujetida Beruniy va Ibn Sino obrazlari yetakchilik qiladi, o'z davrining hukmdori Mahmud G'aznaviyning yuqorida nomi keltirilgan detalning ruhiyatiga o'zgacha ta'sir etganligiga e'tiborimizni qaratamiz. Mahmud G'aznaviy ruhiy-ma'naviy olamiga nazar tashlansa, uning og'ir, davosiz dardga chalinib ichki ruhiy iztiroblar iskanjasidagi hayoti ko'z ongimizda jonlanadi. Sultonning ushbu holatida zulmat ichidan umid uchqunlari paydo bo'ladiki, muhim badiiy detal "Ne'mati ilohiy"ni roman sujetiga singdirib yuboriladi. Adib romandagi mavjud voqelikning tadrijiyligini ta'minlash maqsadida qoliplovchi rivoyatni ham qo'llashi kompozitsion yaxlitlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Mahmud G'aznaviy davosiz dardidan qutulishi uchun tabiblari barcha muolajalarni qo'llaydi. Biroq bu dardi xuddi sirach singari uni tark etmaydi. "Yo parvardigori olam! Osiy bandangni o'zing kechirgaysen. Va lekin... bu ne ko'rgilik ekankim, ojiz bandang sulton Mahmud, haq va hidoyat yo'lida qirq yil suron solib, Mashriqdan Mag'ribgacha neki majusiylar bor, barchasini qatliom qilsa, poyqadami yetgan el borki, hamma yerda osoyishtalik o'rnatga, bu yo'lda unga qirq yil zafar ustiga zafar keltirsangu endi rohat-farog'atda kun kechirmoq mavridi kelganda, uni bu bedavo dardga mubtalo qilsang?" [3, 48-bet]. Ushbu ichki monologda dunyoni larzaga solgan hukmdor taqdirning ishlarida ojizlik qilib, tuyg'ulari isyon ko'taradi. Sultonning qorong'ilik ichida qolgan ko'nglini sham misoli yoritgan, shoir Unsuriy tomonidan aytilgan "Ne'mati ilohiy" tilsimi orqali ruhiyatida ijobiy o'zgarish vujudga keladi. Sehrli mevaning xususiyati bo'lmish: "Qari yesa darhol yigit bo'lur, xastayi notavon yesa shu zamon sihat topadur" xosiyatini eshitib ruhiy olamida "as-salotin zullallohu fil arz, ya'niki shohlar mening yerdagi soyamdur" kabi fikirlarni yodga oladiki, ruhiyatini shodlik bilan to'ldiruvchi kechinmalar tadrijiyligi g'alaba qila boshlaydi. Natijada insonning qalb kechinmalari, uning botiniy olamidagi tushunchalar bilan kurasha boshlaydi, bu jarayonda Unsuriy va Beruniylarning mulohazalari juda asosli beriladi. Ularning "Ne'mati ilohiy"ga turlicha qarashlari Mahmud G'aznaviyning ruhiy kechinmalarida ikki xil, bir-biriga zid holatni yuzaga chiqarish imkonini beradi.

Unsuriy obrazida ochko'zlik, yolg'onchilik illatlari tufayli "Sehrli meva"ni hayotda bordek qilib ko'rsatiladi: "Hindiston tomonda qaysi bir nahr o'rtasidagi orolda Ne'mati ilohiy degan g'aroyib bir daraxt o'sar emish. Bu daraxtning mevasini tanovul qilgan xastayi notavon tanasidagi barcha dardlardan forig' bo'lur, chol bo'lsa, qirchillama yigit, kampir bo'lsa, yosh malakka aylanur emish". Aslida rivoyatning bir bo'lagi bo'lgan ushbu meva hukmdorda haqiqatda bordek tasavvur uyg'otadi.



Unsuriy obrazida dastlab salbiylik koʻzga tashlansa ham, uning ruhiyatini anglashimiz mumkin. Chunki xohlagan paytda oʻlinga hukm qilishi mumkin boʻlgan sultonning koʻnglini topish har bir mulozimning zimmasidagi burch hisoblanadi. Oʻz mulohazalari asosida Unsuriy Shohning ishonchli nadimi “Nazm ahlining sultoni” unvoni va behisob oltin bilan mukofotlanadi.

Sulton dardiga shifo boʻluvchi tabib Ibn Sino topilmayotgan va saroy amaldorlarining kasalidan forigʻ boʻlishiga koʻmak berolmayotgan bir paytda ushbu meva orqali oʻzining porloq kelajagini tasavvur qiladi. Uning ruhiyatidagi ushbu koʻtarinkilik, shodlik tuygʻulari uzoqqa choʻzilmaydi, chunki yana bir obraz taʼsirida keskin oʻzgarish sodir boʻladi. Bunda sulton oʻz davrining qomusiy bilim egasi boʻlmish Beruniydan “Neʼmati ilohiy” tilsimining manzilini surishtiradi. Beruniy ruhiyatida ziddiyatli kechinmalar paydo boʻladi. U oʻz meniga qarshi borib, mevaning borligini tan olishi, yoki tonishi kerak edi. Unda Unsuriy obrazining ziddiyatli xarakteri, yolgʻonni koʻr-koʻrona hazm qilolmaganligi uchun bor haqiqatni bayon qilishga majbur boʻladi. Shu tufayli mevaning aslida yoʻqligini sultonga dadillik bilan ayta oladi. Unsuriyning yolgʻon soʻzi bilan hayotga ishonchi ortib borayotgan hukmdor rost soʻzni eshitib, qalbida ruhiy-maʼnaviy tushkunlik boshlanadi. Bu holatni aynan Mahmud Gʻaznaviy obrazida koʻrishimiz mumkin.

Odil Yoqubov “Koʻhna dunyo” romanida kichik sujetdagi badiiy detal vositasida qahramon ruhiyatida tuygʻular talotumini vujudga keltiradi. Yaʼni sehri meva tufayli sultonni yoshlik shabadalari silab oʻtgandek boʻlganligi uchun mevaning xabarini bergan Unsuriyga katta mukofotlar taqdim qiladi. Barchaning xursandchiligi sham misoli yonib, oʻchgach esa qorongʻulik qaʼriga choʻkadi. Bunga sabab dunyoviy bilimlarni puxta egallagan, sofdil, haqiqatparvar olim Beruniyning “choʻpchak” degan soʻzi sabab boʻladi.

Asarda qahramon ruhiyatiga birgina badiiy detalning ikki xil obraz taʼsiri natijasida turli xildagi oʻzgarish, poʻrtanalarga uchraganligining guvohi boʻldik. Shu bilan bir qatorda, ijodkor ushbu meva vositasida bir nechta qahramon ruhiyatida kechgan konflikt va ichki ziddiyatlarni yoritib beradi (Unsuriy, Beruniy). Bu esa muallifning mahorat qirralaridan biri ekanligini koʻrsatadi. Ayni damda ushbu meva romandagi maʼlum bir voqealar silsilasini, ruhiy ziddiyatlarni voqelik rivojiga ham singdirib yuboradi.

Badiiy asarlarning poetik xususiyati tahlil qilinar ekan, ijodkorning sujet va kompositsoin yaxlitlikni taʼminlashdagi mahorati, ijodkorning polifonik talqin bilan bir qatorda, inson psixologiyasining ham turli qirralari yoritiladiki, bu orqali hayotning murakkabligini emas, inson umrining oʻtkinchiligi, bu esa har qanday inson qalbini larzaga solishi mumkinligini anglatishga xizmat ham qilganligini alohida taʼkidlash joizdir. Bu tushunchalarni asoslash maqsadida quyidagi mulohazalarni keltirishni lozim topdik: “Yozuvchi oʻz gʻoyasini asar toʻqimasiga, undagi qahramonlarning oʻy-xayollari, orzu-intilishlari, quvonch va dardlari, baxt va fojialariga singdirib yuboradi. Ana shu qahramonlarning hayoti, taqdiri va ularni tugʻdirgan, oʻstirgan xalq hayotining haqqoniy tasviri orqaligina oʻz gʻoyaviy pozitsiyasini, asar gʻoyasini kitobxonga yuqtiradi, uning hislarini

uyg‘otadi, fikrlarini qo‘zg‘atadi” [4, 96-bet]. Bu nazariy qarashlar zamirida inson va hayotni anglashning murakkabligi bilan bir qatorda, ularning jamiyatdagi mavqeyi, insoniy fazilatlarini bilan uzviy birlikda namoyon bo‘lishini teranroq anglashimiz mumkin.

Ijodiy qonuniyat badiiylikning turfa ohanglarida namoyon bo‘lar ekan, eng avvalo insonni anglashga intilayotga ijodkorning turfa xil voqeliklar zamirida uning ruhiy-ma’naviy olamidagi ziddiyatlarni yuzaga chiqarish imkonini topadi, bu esa badiiy obrazlar olamini anglash imkonini beradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Normatov U. Ijod sehri. – Toshkent, “Sharq”, 2007. – 359 bet.
2. Nasirov A. Odil Yoqubov romanlari poetikasi. – Toshkent, “Fan”, 2012. – 160 bet.
3. Yoqubov O. Ko‘hna dunyo. Roman. – Toshkent, “Sharq”, 2013. – 384 bet.
4. Umurov H. Badiiy psixologizm va o‘zbek romanchiligi. – Toshkent, “Fan”, 1983. – 180 bet.

### РУҲИЙ ИЗТИРОБЛАР ТАСВИРИДА ШЕЪРИЙ САНЪАТЛАРНИНГ ЎРНИ

*Эшонкулова Сурайё Исомиддиновна,  
Тошкент вилояти Чирчиқ давлат  
педагогика институти доценти,  
филология фанлари номзоди*

Шеърият асрлар давомида соҳир санъат сифатида инсоннинг руҳий ибтидосини кашф этишга интилиб келган. Тўғрироғи, поэтик ифода маданияти одамзод орзу-истаклари, мақсад интилишларини бетакрор эстетик мезонда баҳолаш гаровидир. Зеро, *“Ижодкорнинг ва айниқса, лирик шоирнинг дарди, бу ўзгача, шахсий ва хусусий, тор доирадан чиқиб кетган дард. Ижодкор ўз дарди орқали ўзгаларнинг дардларини ҳам ифодалайди. У кўпроқ бошқаларнинг дардларини ўз дардига айлантирган, бошқаларга қараганда умумга нисбатан дарддошлик туйғуси ўта ривожланган ва ўз санъати, жонбахши, шифобахши сўзи билан инсон дардларини енгиллатишга чорланган ҳамда шунинг улкан масъулиятини яхши англаган шахс. Дардлар бу оламда қарама-қаршиликлардан тугилади. Улар зиддиятларнинг натижаси. Шеър зиддиятларнинг кескин драматизмининг акс эттиради. Драматик таранглик эса – шеърнинг дардларидир”* [3;124].

Дарҳақиқат, *“Ҳаётдаги характерли воқеа ва ҳодисалар ижодкорнинг диққат-эътиборини тортиб, қалбу шуурига ўрнашиб олади, унга ором бермайди, унинг ҳаёти ва фаолиятидаги ўй суриши, мулоҳаза юритиши мувозанатини бузади. Санъаткорнинг қалбини забт этган, унинг оромини, ҳузур-ҳаловатини бузган руҳий ҳолат лирик кечинма, деб аталади”* [9;85].

Демак, шеър – қалб тугёни, у ҳар хил таърифлардан кенгрок, ранг-барангрок, рангинрок бўлгани билан ҳам жозибалидир. Аммо энг зўр тавсифлар ҳам назмининг бутун сир-синоати, қобилияти, таъсир доирасини изоҳлаб бера олмайди. Чунки таърифлар шеърятнинг умумий қонуниятларинигина қамраб олади. Тўғрироғи, шеър инсон психологияси, инсон ички кечинмалари дунёсининг энг нозик нуқталари билан боғлиқ бўлганлигидан ҳеч қачон таърифлар ичига сиғмайди. Чунки мазкур тушунчада бадий ҳақиқат ва ҳаётӣ қамров даражаси мувозанати, ақл-идрок ва туйғу зиддияти инъикос топади.

*“Шарқ мумтоз адабиётида поэтик фикрни бадий санъатлар воситасида ифодалай олиш шоир маҳоратини белгиловчи омиллардан бири ҳисобланади. Ижодкор шеърӣ санъатлардан қанчалик усталик билан фойдаланганлиги унинг камолот даражасини белгилайди. Ижодкор, энг аввало, шеърӣ санъатлардан фойдаланган ҳолда лирик қаҳрамоннинг ички кечинмалари, ўй-хаёллари, кўринишлари каби турли хил тасвирларни бўрттириш, асарининг бадий бўёгини оширишга эътибор берса, иккинчидан, шу орқали фикрнинг таъсирчанлигини таъминлайди, ўқувчининг эстетик дидини тарбиялайди. Хуллас, ўқувчи бадий асарни ўқир экан, ундаги жўн ва ҳеч қандай ҳиссиётни уйғота олмайдиган жонсиз тасвирларни хуш кўрмайди. Шу боис барча замонда қалам аҳли ва назариётчилар асарнинг ана шу жиҳатида диққат қаратганлар. Жумладан, Нодира ҳам шеърӣ санъатларга мурожаат этар экан, зоя ва бадиият уйғунлигини биринчи ўринга қўяди. Нодира шеърӣтида ҳар қандай бадий санъат – бу восита. Унинг газалларида ҳеч вақт восита мақсаддан устунлик қила олмайди. Ижодкорнинг бадий санъатларни қўллашдан кўзланган мақсади битта: асар зоясини жозибали усулда тақдим этиш. Шунинг учун Нодира газалларида ишлатилган поэтик тасвир усуллари асос эътибори билан лирик қаҳрамоннинг ички туйғулари, руҳӣ ҳолати, кечираётган дарду ҳасратлари, ишқ азобларига муносабати, висол онларини орзу қилиб кечираётган дамларининг нечоғли азобли, гўёки тугамайдигандек қилиб тасвирлашга, умуман олганда, инсоннинг субъектив ҳаётининг характерли манзараларини очишга хизмат эттирилган. Шоира ўз асарларида қуюқ фалсафӣ фикрлар ифодаланишига ҳаракат қилар экан, бадииятдаги назмӣ кўп маъноликни юзага чиқарувчи санъатларни ҳам унутмайди. Моҳларойим ижодида маънавий ва лафзӣ санъатларнинг кўпгина турлари учрайди. Бу санъатлар асарнинг турли ўринларида бир-биридан фарқли, ўзига хос вазифаларни адо этади. Масалан, поэтик тасвирнинг юқори даражаси газал матлаъсида келганда кейинги байтлар ундаги мазмунни очиб беришга, изоҳлашга, тўлдиришга хизмат қилган. Агар газал ўртасида келса, лирик қаҳрамон ҳолатини олдингидан кўра яна бир пардага кўтариб тасвирлашга қаратилган. Мақтаъда келганида эса, умумлашма хулоса чиқаришга йўналтирилган. Ижодкор кўзлаган тасвирни баён қилишда баъзи ҳолларда бутун газал давомида битта шеърӣ санъатдан фойдаланган бўлса, баъзида газални бутунича шеърӣ санъат асосига қуради. Шунинг билан бирга,*

шоира фикрни поэтик ифодалашда айрим ҳолларда битта шеърый санъатдан фойдаланса, бошқа ҳолларда бир нечта шеърый санъат воситасида тасвирни изчил равишда кучайтириб боради. Унинг бундай бадиий маҳоратини ўзбек ва тожик тилидаги асарлари мисолида кўриши мумкин[2;66-67]. Шоиранинг “Бўл” радифли ғазалида буни яққол ифодасини кўришимиз мумкин. Байт:

*Ёрдин айрилдинг, эй маҳзун кўнгул, овора бўл,  
Ҳажр дардига тополмай чорае бечора бўл.*

Нодиранинг ушбу ғазали ошиқона ғазал бўлиб, ғазал лирик қаҳрамоннинг ғамдан ҳазин бўлган ўз кўнглига мурожаати билан бошланади. Илоҳий ишққа мубтало кўнгил (Аллоҳнинг инсон бағридаги уйи) ўз ёри, яъники Аллоҳдан айро тушганидан, ундан узоқлашиб бораётганлигидан куюнади, бунга қарши бирон чора тополмаётганлигидан ўкинади. Байт:

*Бе маҳоба ишқ майдонида жавлон айладим,  
Қоши ёлар тигидин бошдин аёгим пора бўл.*

Байтда лирик қаҳрамон шу вақтга қадар фақат инсоний муҳаббат билан Ишқ майдони, ҳаётда бемақсад яшаб, бу йўлда адашганлигини тан олади. Ва ҳақиқий ишққа, Ҳаққа бўлган интилиши сусайганлигини айтиб, бунга жазо тариқасида у ёр (Аллоҳ)дан ўзга қоши ёлар, яъни вафо қилмас гўзаллар, (умуман олганда ҳаётнинг ўткинчи гўзалликлари) ўткир қарашлари тиғига ўзини дучор этади. Яъни, гўзаллар тиғидан бошдан оёғим пора бўлгани, бу пора-пора бўлган бағрини суворийимнинг итлари ўзлари учун емак қилсинлар, – дейди.

Маълумки, “*Лирик шеърда кечинма кўпинча ҳаётий ҳодисалар ёки предметлар билан боғлиқ ҳолда ифодаланади. Бундай ҳолларда ўша предметлар ёки ҳодисалар шоир кечинмаларига туртки бўлган омил бўлишидан ташқари, шеърнинг асосий маъновий эстетик функциясини ифодаловчи поэтик образга ҳам айланади*”[11;208]. Нодира ғазалининг ушбу байтида юқоридаги ҳолатни яққол ифодасини кўриш мумкин. Байт:

*Дерман ул чобуксуворим итлари қилсун гизо,  
Пора-пора бағримиз ҳар пораси юз пора бўл.*

Шу ўринда айтиш мумкинки, кечинма ҳар бир шоирда ўзига хос кечади. Шу сабаб бир воқеа-ҳодисанинг ўзи турли мазмунли кечинмалар туғдириш ёки лирик воқеликка юзаки қараганда алоқаси бўлмаган фавкулудда поэтик образларда акс этиши ҳам мумкин. Шоира ғазалида ҳам лирик қаҳрамон ўз-ўзига қаноат қилмай, ўзининг бу сусткашлигини ҳар қандай жазога лойиқ кўради, юқорида айтганимиздек, ҳаттоки ёр ҳаётда йўлбошловчи уста суворий бўлса-ю, унинг итлари ошиқнинг пора бўлган бағрини емак ўрнида қабул қилишига ҳам рози бўлади. Байт:

*Ишқ ошубида ҳижрон ибтилоси саъбдур,  
Бўлдум ул ойдин жудо, эй кўз ёшим, сайёра бўл.*

Ушбу байтда лирик қаҳрамон ишқ ташвишида ҳижроннинг балолари оғирдир. Ул ойдан ҳам жудо бўлдим, эй кўз ёшим, энди сен сарсари кезасан, –деб хитоб қилар экан, яъни ёр (Аллоҳ)дан айрилиш, ҳижрон азоби



келтирган балолар мушкул эканлигини, яшашнинг маъниси, бутун ҳаёт йўлларини ёритиб турувчи ой (бу ерда ҳам ёр, яъни Аллоҳ)дан жудо бўлганлигини, энди кўз ёшларини тўхтата олмаслигини таъкидлайди.

*Эй дили девона, ошиқлиғни қилдинг ихтиёр,  
Дарди ишқ осон эмас тур эмди санги хора бўл.*

Байтда девона кўнгилга қарата ошиқ ўзи ва ишқ йўлини танлаганлар учун бир ҳикматомуз фикрни келтириб ўтади. Яъни ошиқликни, Аллоҳ васлига етишмоқликни истаганларни бу йўлдаги барча қийинчиликларга сабр-бардошли бўлишга чақиради. Эй девона дил, агар сен ошиқликни ихтиёр этган экансан, ишқ дарди осон эмасдир, бу йўлда худди метин харсанг тош каби бўл – дейди.

*Ол ила золим фалак қонингни тўкди оқибат,  
Ким деди, эй дил, сенга мафтун ул маккора бўл.*

Ушбу байтда ошиқ ўзига кесатик тарзида “*Ким сенга у маккор (ёлғончи, вафосиз инсоний ишқ назарда тутиляпти)га мафтун бўлгин деди?!*” – дея савол беради. Ўз қўли билан бу золим фалак охир-оқибат қонингни тўкди, ким сенга у маккорга мафтун бўлгин, – дея хитоб қилар экан, узоқни кўзламай иш тутиш, фақат бу фоний дунёсинигина ўйлаш инсонни қандай аянчли оқибатларга олиб келиши мумкинлигини таъкидлайди. Байт:

*Гар тиларсен баҳра топмоқ лаззати дийдоридин,  
Комила кўзгу каби ҳайрони ул рухсора бўл.*

Комила, агар сен унинг ширин дийдоридан баҳраманд бўлишни истасанг, кўзгу каби у гўзал рухсорнинг ҳайрони бўл. Мақтада шоира ўзига мурожаат қилиб, Комила тахаллусидан ташқари “*ком ила*”, яъни умид билан ҳақиқий ёрнинг ширин дийдоридан баҳраманд бўлишни тиласанг, бир умр унинг гўзал жамолига маҳлиё бўлиб, кўзгу каби ҳайронликда ўтиш лозимлигини уқтиради.

Ғазалнинг қофияланиш тартиби: а-а, б-а, д-а, г-а, ф-а...тарзида. Қофиядош сўзлар: “*овора, бечора, пора, сайёра, хора, маккора, рухсора*”. Қофиядош сўзлар таркибидаги о унлиси равий. Равий олдидан келувчи **в, ч, н, й, х, к, с** ундошлари эса қайд ҳисобланиб, “*ёр*”, “*кўнгил*”, “*ҳажр*” сўзлари орқали таносуб санъатини, “*боиш*” ва “*оёқ*” сўзлари тазод санъатини, “*суворийнинг итларига емак*” тарикасида ошиқнинг пора бўлган бағрини бериши муболаға санъати ва “*пора*” сўзи тўрт маротаба қўлланилиб тақрир санъатини, “*ой*”, “*санги хора бўл*” сўзи истиора санъатини, “*эй дил*” сўзи нидо санъатини, шунингдек, 5-7 байтларда каломи жомий санъати қўлланилган.

Лирикада оҳанг унинг ажралмас қисми ҳисобланар экан, аксар ҳолларда шоир кечинмаси, лирик ҳаяжон маром табиатига юкланади. Мазкур ҳолатда кечинманинг мазмунига қараб шеър оҳанги танланади. Шеърини оҳанг нутқ ҳодисаси бўлса-да, усиз асар мазмунини тўлиқ тушуниш, шоир туйғусини ҳис қилиш, қийин. Демак “*Шеърини ритм шеър яратувчининг ҳис ва туйғуларини ўзига хос бир тарзда ифодалашга ёрдам берувчи нутқ ҳодисаси*” [1;275], – экан Нодиранинг қаламига мансуб ғазалларни ҳеч

иккиланмай шундай асарлар сирасига киритиш мумкин. Шоиранинг “Тасаддуқ” радифли ғазалида ҳам ёр ҳажрида изтироб чекаётган ошиқ дарди қаламга олинган. Ғазал мазмунидан шоира ички дунёси сирларини инкишоф этишга кучли уринишлар кўзга ташланади. Ўз ёрига етишиш, унинг биргина васлига умидвор бўлиш истагида юрган ошиқ суюклиси учун бутун бор-йўғидан воз кечишга, тамоман садқа бўлишга тайёр. Ғазал байтларида у буни босқичма-босқич исботлаб боради. Байт:

*Эй нахли чаман қадди ниҳолинга тасаддуқ,  
Боғу олмаси, рухсорани олинга тасаддуқ.*

Биринчи байтда лирик қаҳрамон ошиқ тарзида гавдаланиб, ёрининг ниҳоятда гўзал эканлигига ишора қилади ва уни чаманнинг ёш дарахти, – дея атайди. Ёрнинг тик қадди-ю келишган, чиройли бўйига, худди боғнинг эндигина етилган олмаси каби қизил юзига мафтун бўлади. Байт:

*Қад бирла хироминга фидо сарву санубар,  
Райҳону бинафша хату холинга тасаддуқ.*

Иккинчи байтда нафақат ошиқнинг ўзи, балки боғнинг энг кўркам, кишин-ёзин кўм-кўк турадиган, ҳиди ёқимли, доим тик ўсадиган, хушқомат дарахтлари ҳам (сарв ва санубар) маъшуқасининг тик қомаги ва хиром айлаб юришига фидо бўлишини, ҳатто боғнинг энг хушбўй чечаклари бўлган **райҳону бинафшалар** эса танасидаги нафис холининг изига айланишга муштоқ эканликларини бот-бот эслайди.

*Чарх узра ҳилол ўлди юзунг ойига қурбон,  
Хуришиди жаҳонгард жамолинга тасаддуқ.*

Шу ўринда айтиш лозимки, мумтоз адабиётимизда қуёш ҳидоят нурлари манбаи сифатида бадиий талқин этилади. Шунингдек, мумтоз адабиётимизда етакчи ғояларни ўзида касб этган тасаввуф таълимотида қуёш образи илоҳий кудрат хусусиятларини ифодалаб келганлиги билан эътиборли экан, шоира бу байтда ошиқ номидан маъшуқасининг таърифини шунга қийслади. Шу ўринда истиора санъатига ҳам изоҳ бериб қўйиш мақсаддан холи бўлмайди: “Истиора арабча сўз бўлиб “бирон нарсани омонатга (вақтинча) олмоқ деган маънони ифодалаб, адабий асарда сўзни ўз маъносидан бошқа бир маънода, аниқроғи уни ҳақиқий маъносида эмас, балки мажозий бир маънода қўллаш санъати саналади”[10;12]. Зеро, бу фоний оламда гўзал қилиб яратилган яратилардан бири Ой ва Қуёшдир. Гўзалликда тенгсиз бу икки жисм гўё осмон тоқига безак қилиб илиб қўйилган. Ўн саккиз минг оламнинг энг гўзал хилъатлари ёр юзининг чиройига қурбон бўлиш истагида турса не ажаб. Байт:

*Ёдингда жаҳон айши менга бўлди фаромуш,  
Қилдим ҳама оламини хаёлинга тасаддуқ.*

Юқоридаги байтда ёрнинг қадди-қомаги, юриш-туриши, хушбўйлиги каби гўзалликлари таърифланган бўлса, ушбу байтда ғазал қаҳрамонининг асл ишқи намоён бўлади. Яъни ёр бу ерда Аллоҳ тимсолидир. Аллоҳга бўлган ишқи туфайли ошиқ ўзидан ҳам, ўзлигидан ҳам воз кечади. Аллоҳни ёд этиши, унинг номини зикр этишининг ўзидаёқ ошиқ ҳаётидаги жамики

борликлар унут бўлади. Ёрнинг ишқи кўнглига тушгач, унга етишмоқ истагида ҳатто бутун оламни унинг биргина хаёлига алмашмоқча боради. Байт:

*Даврон чамани бирла жаҳон боғини айши,  
Рухсорай Фирдавс мисолинга тасаддуқ.*

Бешинчи байтда лирик қаҳрамон яна ёр юзини эътироф этади. Бу оламда қанчадан-қанча гўзал гулзорлар, боғлар, чаманлар бор. Киши кўнглини яйратадиган, кўзини қувнатадиган масканлар бор. Аммо бу ажойиботлар Жаннат боғини биргина хаёлга келтиришчалик ҳисга тенг кела олмайди. Тасаввуфий таълимотга кўра, Жаннат – фоний дунёдаги ҳаёти давомида имонли ҳолида эзгу ишлар билан шуғулланган кишиларга Аллоҳ томонидан инъом этилган ҳамда барча роҳат ва фароғатда яшайдиган энг гўзал жой, –дея таърифланади. Ошиқ ёрининг юзининг чиройига ҳеч бир қиёс топа олмай, ниҳоят Жаннат боғига менгзайди. Жаннат каби юзига маҳлиё бўлади. Байт:

*Саргашта сочинг сунбулидин нофаи тотар,  
Оҳуи Хўтан икки гизолинга тасаддуқ.*

Ушбу байтда энди маъшуқанинг сочи ва кўзлари таққослантирилади. Ёр сочининг узунлиги, қоралиги, хушбўйлиги ошиқни маст қилган. Икки шахло кўзлари эса ошиқ қалбини яралаган. Шунда ҳам ошиқ кўнгли ёр – Аллоҳ томон талпинмоқда. Байт:

*Эй Комила, ишқ ичра ажаб салтанатинг бор,  
Юз жону жаҳон жоҳу жалолинга тасаддуқ.*

Ғазалда ижодкор кечинмаси ва мушоҳадасининг тадрижий-мантиқий ривожини, ҳаракат миқёслари акс этиб, охириги байтда эса албатта, фалсафий ҳукм-хулоса ўз мантиқий ечимини топиши шарт эканлигини ҳисобга олган шоира, мақтада лирик қаҳрамонни ишқда султон бўлса, ошиқ ўзини гадо деб билишини ва суюқлисининг улуғворлик салтанатидаги мавқеига юз жонини садқа қилишини, айтади. Бинобарин, Аллоҳни кўнгил салтанатининг султони деб билган инсон у учун мислсиз риёзат чекмоқча ҳозир бўлади. Бу эса ошиқ қалбига ҳамиша таскин беради, ҳузур бахш этади.

Ғазал қофиянинг мутлақ қофия турига мансуб. Ғазалда жами 9 та қофиядош сўзлар қўлланган. Улар арабий ва форсий калималардан ташкил топган (“ниҳолинга”, “сафолинга” - форсий; “олинга”, “холинга”, “жамолинга”, “хаёлинга”, “мисолинга”, “гизолинга”, “жалолинга” – арабий). Радиф эса арабча “тасаддуқ” сўзи орқали ифодаланган. Асар қурилишида радиф ва қофияларнинг алоҳида ўрни бор. Қофияга олинган сўзлардаги “Л” товуши равий, “О” товуши ридф, “И” товуши васл ҳарф ҳисобланади. Ғазалда ўзига хос гўзал шеърини санъатлардан фойдаланилган. Истиора санъатига “наҳли чаман”, “қадди ниҳол”, “рухсорай ол”, “хуришиди жаҳонгард”, “рухсорай Фирдавс”, “майкадаи ишқ гадои”, “чини сийнаи фағфур”, “нофаи тотар”, “оҳуи Хўтан” кабилар. Таносуб санъатига “наҳл”, “чаман”, “ниҳол”, “боғ”, “олма”, “қад”, “хиром”, “сарв”, “санубар”, “райҳон”, “бинафша”, “чарх”, “ҳилол”, “ой”, “юз”, “хуришид”,

“жамол”, “майкада”, “шиқ”, “гадо” каби. Муболаға санъатига “қад бирла хироминга фидо”, “сарву санубар”, “райҳону бинафша хату холинга тасаддуқ”, “чарх узра ҳилол ўлди юзунг ойига қурбон”, “хуришиди жаҳонгард жамолинга тасаддуқ”. “саргашта сочинг сунбулидин нофаи тотар”, “оҳуи Хўтан икки гизолинга тасаддуқ” кабилар. Ташбеҳ санъатига “фирдавс мисол”, талмеҳ санъатига “Фирдавс”, “Хўтан”, “Фағфур” кабилар. Сажъ санъатига “саргашта сочинг сунбулидан”, “жону жаҳон жоҳу жалол” кабилар. Илтифот санъатига “Эй Комила”, “эй нахли чаман”, “эй майкадаи шиқ” кабиларни келтириш мумкин.

Шоиранинг “Эй сарви равон надур хаёлинг” ғазали тўққиз байтдан иборат бўлиб, унда форсий ва арабий сўзлардан унумли фойдаланилган. Қофиядош сўзларга “хаёлинг, висолинг, камолинг, заволинг, зулолинг, фолинг, сафолинг, малолинг, мажолинг ва ҳолинг” сўзлари танлаб олинган.

Маълумки, араб халқларидан кириб келган аруз вазнининг туркий халқлар адабиётида энг кенг тарқалган баҳри рамал баҳри ҳисобланади. Шоиранинг бир неча ғазаллари ҳам айнан шу баҳрда ёзилгани ажабланарли эмас, чунки бу баҳр энг енгил содда ва қолаверса, бармоқ вазнига жуда яқин туради. Бу баҳр ўйноқилиги, оҳангдорлиги билан ҳам ажралиб туради. Байт:

*Эй сарви равон надур хаёлинг,  
Жон ўртади ваъдаи висолинг.*

Ғазалнинг матласиданоқ ошиқ ёрига сарви равон, – деб мурожаат қилади. Шоира нидо санъатидан моҳирона фойдаланиб, маъшуқга жамолининг ишқи жонни ўртамоқда, сенинг висолинг орзусида изтироб чекмоқдаман, жонимни висолинг ваъдаси ўртамоқда – дейди. Ушбу ғазал пайғамбаримиз Муҳаммад (с.а.в) бағишланган бўлиб, наът яъни расулуллоҳга муҳаббат мавзусидаги ғазал ҳисобланади. Кейинги байтда ишқ янада кучайиб оловланади. Байт:

*Пайваста дуои ҳайр этармен,  
Мақсудим эрур сенинг камолинг.*

Шоира таносуб санъати орқали маъшуқи ҳаққига ошиқ кўпдан кўп дуолар ва хайр эҳсонлар қилганлигини, лирик қаҳрамон ягона мақсади ёрини кўриш эканлигини ошкор этади. Дарҳақиқат, Расулуллоҳ (с.а.в.) уни чин дилдан севувчиларга жаннатда кўшни бўлишни ваъда қилган. Байт:

*Ул ойни юзига баҳс этарсен,  
Етмиш магар эй қуёш заволинг.*

Учинчи байтда ошиқ маъшуқига сифат беради, яъни чиройда ой унга тенглаша олмайди етмиш қуёш йиғилиб келса ҳам, маъшуқи жамоли олдида завол топади. Кўриниб турибдики, шоира муболаға ва ташбеҳ санъати, яъни “чиройда ойнинг ҳусни билан баҳс этгайсан, етмиш қуёш бўлса ҳам жамолинг қошида завол топади”, –дея лутф қилади. Кимга нима керак бўлса, ўшанга эришсин. ошиқ маъшуқига кейинги байтда Ҳақ йўлида юрган кишиларга жаннат керак, лекин менга жаннат эмас, сен кераксан, –дейди. Шоира байтда зидлантириш, қаршилантририш, тазод санъатидан унумли фойдаланган. Байт:



*Зухд аҳлига салсабил-у кавсар,  
Бастур манга раиҳайи зулолинг.*

Расулulloҳ (с.а.в.) сийратлари байтда мадҳ қилинар экан, бутун оламлар яратилишидан аввал Расулulloҳ (с.а.в) руҳлари яратилгани ва ул зоти мукаррам учун бутун дунё ва ундаги мавжудоту набототлар яратилганига шоира ўринли ишора қилади.

*Чиқмасда ҳануз хатти саводи,  
Мусъҳафда муборак эрди фолинг.*

Юқоридаги байтда худди ана шунга ишора қилиниб, талмеҳ санъати мурожаат қилиш орқали “саводинг чиқмасидан аввал муқаддас Қуръонда номинг зикр қилингандир, сенинг улуғлигинг шу қадарга етади”, – дейди ошиқ. Шу ўринда айтиш мумкинки, ошиқлик улуғ неъматдир. У ҳаммага ҳам берилавермайди. Ҳақиқий ошиқлар ўзгача ҳурматга сазовордир.

*Жамшидни жомидин зиёда,  
Эй ринди гадо синиқ сафолинг.*

Ушбу байтда, худди шунга ишора қилиниб, Жамшиднинг жомидан ҳам улуғланади, майхўрларнинг идишлари. Тасаввуфда май – ишқ, жом – кўнгил, майхўр – илоҳий ишқ мубтало киши эканлигини ҳисобга олсак, бу байтни таҳлил қилиш ўқувчига муаммо туғдирмайди, назаримизда. Шунини алоҳида қайд этиш керакки, ушбу байтда нидо, талмеҳ, ташбеҳ уйғунликда ишлатилган. Байт:

*Ушиқларинг гамингда ўлди,  
Йўқдур сени заррайи малолинг.*

Еттинчи байтда дўстлар пайғамбаримиз ишқларида адо бўлганликларини, аммо заррача малолланмаётганлари ҳақида сўз юритилади. Байт:

*Эй хаста кўнгул фироқ ичида,  
Дам ургали қолмади мажолинг.*

Ошиқ байтда ўзининг аҳволдан нидо санъати ила ўқувчини ҳабардор қилиб ўтади. Байтда муболаға, истиора санъати ҳам қўлланиб, ёри кўйида шунчалик афғор бўлганки, бир бор юраги уриб кўйишга ҳам мадори йўқ. Байт:

*Эй комила лофи ишқ урарсен,  
Маиҳури ҳалойиқ ўлди ҳолинг.*

Мақтада илфифот санъати орқали ошиқ ўзига мурожаат этиб, севги ҳақида ошириб-тошириб гапираверма, сенинг аҳволинг ҳаммага аён бўлиб турибди, – дейди. Аслида қанчалик муҳаббат эгаси эканлигини халқ яхши билади, – дея бирмунча ўзини камтарликка тортади ва шу билан бирга танқид ҳам қилади.

Шу ўринда ҳеч иккиланмай айтиш мумкинки, “Санъаткор ўз қалбининг қасрига кира олгандагина бу саволларга юксак ва янгича жавоблар қайтара олади. Негаки у юрак қасридан ҳеч пайт қуп-қуруқ қўл билан қайтмайди. Бизга қутилмаган катта фикр, заройиб оҳанг, сира учратмаганимиз ташбеҳ ва поэтик образлар ҳадея олиб келади”[4]. Дарҳақиқат, Нодира шеърятда сўзни ўзгача шаклларда истифода этиш, юксак ақл-идрокни фикрий

тиниқлик ҳамда ҳиссий аниқлик сари йўналтириш инсон борлигини поэтик тадқиқот объекти даражасига кўтариш, хусусан инсон руҳиятини ўзгача тасвирлаш устуворлик қилади.

Шундай ғазалларидан бири “Эҳтиёж” радифли ғазали бўлиб, ғазал арузнинг рамали мусаддаси маҳзүф вазнида бўлиб, 9 байтдан иборат. Мазмунига кўра орифона. “Р” – равий. Муқайяд қофия. Қофиялари форс-тожикча сўзлар бўлиб, улар қуйидагича: “*изҳор, хор, бор, бисёр, дийдор, ёр, изҳор, азёр, зор*”.

Дастлабки икки байт каломи жомеъ санъатининг намунаси бўлиб, шоира тирик жоннинг нимаики эҳтиёжи бўлса, уни яратикдан эмас, аксинча ўн саккиз минг олам буюк Яратувчисидан сўраш кераклигини англатмоқчи бўлгандек уқтиради. Каломи жомеъ санъатида муаллиф китобхонга ўғит беради. Шу боисдан биринчи ва иккинчи байтларда Нодира ҳеч бандадан эҳтиёжингни сўрама, агарда бандадан сўрасанг “*азиз элни хор қилади*”, яъни Аллоҳнинг қаҳри келиб хор бўласан, демоқчидек. Ахир Юсуф алайҳиссалом Мисрда қамокда ётган вақтда бир инсондан озод бўлишини сўради ва Яратганнинг қаҳрига учраб яна 15 йил зиндонда қолиб кетди. Зеро, ожиз бандадан эмас, Аллоҳдан сўраш керак эди. Байт:

*Қилмагил зинҳор изҳор эҳтиёж, -*

*Ким азиз элни қилур хор эҳтиёж.*

Иккинчи байтда эса бу фикрга қўшимча қилиб дунёда ҳеч кимса хотиржам, ташвишсиз эмаслигини қайд этиб, банда борки нимагадир мухтож, қай миқдорда бўлса ҳам ташвиши, эҳтиёжи бор, – дея уқтиради. Бу билан шоира юқоридаги фикрларини мустаҳкамлайди.

*Ҳеч ким оламда фориғбол эрмас,*

*Ҳар ким ўз миқдорича бор эҳтиёж.*

Учинчи байтдан ғазал ошиқона руҳ олади ва шоира ўз маъшуқининг хусн мулкидан закот сўрайди. Уни ғаний, яъни ҳуснда тенгсиз, бой дея ўзини йўқсил санайди. Бу байтдан бу хусн шоҳи ўн саккиз минг олам яратувчиси Аллоҳ деб тушунишимиз лозим. Шу ўринда таъкидлаш лозимки, Аллоҳнинг тўқсон тўққиз исмидан бири Ал-Ғанийдир. “Ал-Ғаний – ҳақиқий бойлик эгаси, ҳеч нарсага мухтож эмас, барча унга мухтож” [6], – деган маънолар яширинган. Зеро, у дунёдаги энг гўзал сифатлар эгаси бўлган зотдир.

*Ганжи ҳуснининг закотин бер менга,*

*Сен ғанийсан, менда бисёр эҳтиёж.*

Тўртинчи байтдан шоира дийдорга қанчалар муштоқ эканлигини айтиб, бу ҳолатни худди кўзгуга боққиси келган киши янглиғ ифодаланиши ғалати туйилади. Лекин аслида ҳар бир ошиқ ўз маъшуқасидан ўзини топади. Тасаввуфий ёндашилган бу жиҳатга “Лисон ут-тайр”[7]даги қушларнинг охири ўзлари семурғ эканлигини англаши ёхуд “Алкимёгар”[8]даги наргис ва булоқ мисолида кўриш мумкин. Яратганни англаш аслида инсоннинг ўз-ўзини англашидир. Шу боисдан лирик қаҳрамон ёр юзини орзу қилар экан ўзини кўзгуга боққиси келган кимсага менгзайди. Байт:

*Кўзларим айлар юзингни орзу,*

*Ким эрур кўзгуя дийдор эҳтиёж.*

Бешинчи байтда лирик қаҳрамон яна “эй ёр” дея мурожаат этар экан, ўз холини ғариб дея тус беради. Яъни васлингга бўлган эҳтиёж мени ғоятда ғамгин қилди, –дея ўзини ҳожатманд деб қайғу чекади. Байт:

*Мустаманд этти мени муҳтожлик,  
Қилди ҳожатмандинг, эй ёр, эҳтиёж.*

Ушбу байтлар яна пандона руҳда бўлиб, лирик қаҳрамон ўқувчига агар дўстлар орасида обрўйингни сақламоқчи бўлсанг, ҳеч кимсага эҳтиёжингни изҳор қилма, –дея эҳтиёж сўзига дунёвий ёндашади. Байт:

*Қил раво, албатта, ошиқ ҳожатин,  
Боқмагил арз этса азёр эҳтиёж.*

Байтда шоира ошиқлар ўз ҳожатини ифодалаши мумкинлигини, умуман ошиқнинг эҳтиёжига табиий жараёндек ёндашади. Шу билан бирга душманлар эҳтиёжига парво қилмасликка буюради. Байт:

*Бир тараҳҳум зоҳир этсанг нетгуси,  
Қилди ҳуснингга мени зор эҳтиёж.*

Саккизинчи байтдан шоира яна ёрга мурожаат қилиб лирик қаҳрамон ўз ёридан унга раҳм қилишини ўтиниб сўрайди. Дийдорга бўлган эҳтиёж уни **хор-у зор** қилганини таъкидлайди. Байт:

*Ёр васлини тиларман Нодира,  
Айлади кўнглимни афгор эҳтиёж.*

Мақтада шоира ёрга бўлган эҳтиёж уни жуда афгор, яъни қаттиқ қайғуга солганини айтиб ғазални яқунлайди. Ғазалнинг бир неча байтларида, жумладан 1-2-6-7 байтда каломи жомеъ санъатидан фойдаланган. Яъниким, шоира панд, насихат, ўғит ва ҳикмат йўсинида муҳокама юритади. Шунингдек, шоира “гани”, “закот”, “мулк”, “эҳтиёж” сўзлари ёрдамида таносуб санъатидан моҳирона фойдаланган. Нодира ижоди ҳақида шуни айтиш мумкинки, шоира ўз дардини ижоди маҳсулига айлантирмай, балки ўзгалар дардига малҳам бўлади. У инсонлар қалбига эзгулик уруғларини янги образлар ва бадий воситалар билан тушунтиришга ҳаракат қилади.

Бинобарин, “Кечинма лирик поэзиянинг ҳаракатлантирувчи кучи ва асоси, унинг моҳияти”[5;137] экан, Нодиранинг “Қилди ёр” радибли ғазали шу назария асосида яратилганлиги билан қимматлидир. Нодиранинг ушбу ғазали энг етук ғазалларидан бири бўлиб, анъанавий етти байтдан иборат ғазал ҳисобланади. Вазни ўзбек мумтоз адабиёти шеърини учун анъанавий бўлган рамали мусаммани мақсур, яъни “фоилотун”, “фоилотун”, “фоилотун”, фоилон” вазнида ёзилган ғазал ҳисобланади. Тактеъси: - V - - / - V - - / - V - - / - V - - / - V ~.

Ғазалда ўзбекча “қилди” ва форсча “ёр” сўзи биргаликда радибга олинган ва бу сўзлар ҳар бир байтнинг мазмунини бошқариб туради. Ғазалнинг қофияланиши ҳам анъанавий а-а, б-а, с-а, д-а каби қофияланган. Қофиядош сўзлар (“муҳаббат ва мурувват” сўзлари биринчи байтда қолган байтларда эса “фурқат, истиқомат, гонат, одат, ишорат ва кудурат” сўзлари) қофиядош сўзлар ҳисобланади. Ушбу ғазалдаги барча қофиядош

сўзлар арабча сўзлар ҳисобланади. Ғазал ишқий мавзуда битилган. Унда хижрон изтироблари тасвири асосий ўринни эгаллаган. Бунда лирик қаҳрамоннинг дарду ғамлари турли бадиий тасвирлар орқали баён этилган. Ғазалнинг матлаъси бошқа байтлардан, икки мисрасининг қофияланиши билан ажралиб туради.

Ғазал бадиий эстетик жиҳатдан ҳам жуда маҳоратли чиққан. Ижодкор деярли ҳар бир байтда жуда ўринли ва кенг ишлатиладиган бадиий санъатлардан моҳирона фойдалана олган. Ғазал бизга шоиранинг эстетик олами ҳақида маълумот беради. Биз буни куйидаги шарҳимиз давомида кўриб чиқамиз:

*Войким, ўз ёридан қатъи муҳаббат қилди ёр,  
Бир йўли тарки вафо бирла мурувват қилди ёр.*

Шоира мурожаат (“Э воҳ”), тазод (“қатъи муҳаббат, тарки вафо”), таносуб (“муҳаббат, вафо, мурувват”) санъатлари ёрдамида лирик қаҳрамон руҳий ҳолатига тавсиф беради. Яъни, э воҳ, ёр ўз ёрининг муҳаббатидан воз кечди, яъни алоқани узди, биратўла тарк айлаб мурувват ҳам қилиб кетди, – дейди.

*Бенаволарни висоли базмидин маҳрум этиб,  
Дўстларни мубталои доғи фурқат қилди ёр.*

Шоира бу байтда ҳам тазод ва таносуб санъатидан фойдаланиб, лирик қаҳрамон озорларини ҳаддан ошганлигини, бунинг натижасида бечора ошиқ висолининг базмидан маҳрум этилиб, камига яна дўстларни айрилиққа дучор бўлгани маҳзунлик билан ифодаланади.

*Чун парий янглиғ назардин бўлди пинҳон билмадим,  
Қайси манзилда ҳавойи истиқомат қилди ёр.*

Шоира ушбу байтда, ташбех, ҳусни таълил ва тазод санъатларидан ўринли фойдаланган ҳолда ёрни пари сингари гўзал эътибордан холи бўлиб, қайси манзилда муҳаббат билан истиқомат қилаётганини билмаганлигини ўқинч билан тилга олади. Байт:

*Айласам девоналиғ манзур тутким, эй рафиқ,  
Ақл-у ҳуш-у сабр-у оромимни горат қилди ёр.*

Шоира ташбех (“девозналиғ”, “телбалик”), нидо (“эй рафиқ”), таносуб санъат (“ақл-у ҳушим”, “сабр-у қарорим”)лари ила лирик қаҳрамон руҳиятидаги эврилиш, қийналиш, азобланиш натижасида юзага келган ҳолат тасвирини берар экан, дўстидан ўзидаги жараён учун афв, узр сўрайди, бундай ҳолатга тушишига ёрга бўлган муҳаббати эканлигини баён этади. Баён:

*Бир йўли меҳр-у вафо расмин фаромуш айлади,  
Ишқ элига жабр-у зулм этмакни одат қилди ёр.*

Шоира лирик қаҳрамон руҳий изтиробларини таносуб, тазод, ташбех санъати орқали рангин мисраларда берар экан, ёрни бевафолигидан озорланиб, ҳазин шикоят қилади. Ул париваш бирваракайига меҳр ва вафони унутганлигини, ишқ аҳлига эса **жабр-у зулм** қилишни одат қилиб олганлигини айтади. Баён:



*Тушда ёримни кўруб айдим: бери кел, айланай,  
Қоши бирла, сен бери кел, деб ишорат қилди ёр.*

Шоира энди ошиқни ўнгида эмас, ҳатто тушларида ҳам суюкли ёри, маъшуқи безовта қилаётганлигини савол-жавоб тарзида нидо, тазод санъатларини қўллаш орқали очиб беради. Яъни, тушда ёримни кўрдим ва мен томон келишини ўтиниб сўрадим, у эса қоши билан менга ўзинг бери кел деб айтди, – дейди.

*Олам аҳлидин мукаддар ёрди ёрим Комила,  
Барчадин фориз бўлиб рафъи кудурат қилди ёр.*

Мақтаъда ёринг Комила олам аҳлидан ранжиди, сен эса барча ғам-ташвишлардан фориз бўлдинг, яъни қутилдинг, – дейди. Мақтаъда шоира Комила тахаллусини қўллаш орқали, шоира биринчидан, тахаллус қўллашни мақсад қилган бўлса, иккинчидан эса мантиқан у асар хулосаси, яъни, “барчадин фориз бўлиб рафъи кудурат қилди ёр” каби янграйди.

“Мазмун – зоявийлик, шакл – бадийлик ҳодисаси”[2;96] экан, Нодиранинг “Ўлди боғ” радифли ғазали шакл мазмунга, мазмун шаклга тўла монанд эканлиги билан алоҳида аҳамият касб этади. Ғазал ўзбек мумтоз шеърятини учун анъанавий бўлган рамали мусаддаси маҳзүф, яъни фоилотун фоилотун фоилун (ёки фоилон) вазнида битилган. Тақтеъси: - V - - /- V - - /- V - (ёки - V ~). Қофиядаги сўзларнинг еттитаси (“Хандон, гулистон, гирён, паришон, вайрон, яксон, биёбон”) форсча-тожикча сўзлардан ташкил топган, фақат учинчи байтдаги ўзбекча “қон” сўзи бундан мустасно. Келтирилган қофиядош сўзларда “н” товуши равий ҳисобланиб, муқайяд қофияга мисол бўлади. Радиф иккита сўздан (“ўлди боғ”) ташкил топгани учун ёйиқ радиф саналади. Ғазал ишқий мавзуда битилган. Унда ҳижрон изтироблари тасвири асосий ўрин тутди. Лирик қаҳрамон ёрдан айрилгани оқибатида чеккан дард-у ғамларини турли-турли бадий тасвирлар орқали баён этади. Ғазал таносуб ва тазод бадий санъатлари асосига қурилган десак, муболаға бўлмайди. Шунингдек, ташхис, истиора ҳам асосий бадий санъатлар сифатида намоён бўлган.

Ғазалнинг эътиборли жиҳати ошиқ, яъни лирик қаҳрамон “боғ” тимсолида гавдаланади. Шоира қўллаган ҳар бир шеърини санъатлар ғазал мазмун-моҳиятини ёритиб беришда, бир сўз билан айтганда, шакл ва маъно мутаносиблигини тўлиқ таъминлаган. Байт:

*Гул юзунгни кўрди хандон ўлди боғ,  
Ғунча очилди, гулистон ўлди боғ.*

Матлаъда, зимдан ёрга мурожаат этилган ва бу билан ёрнинг жамоли жилва қилиши ҳамма жойни яшнатишини шеърини воситалар орқали кўрсатиб беради. Жумладан, шоира ошиқнинг ёрини гул юзингни кўриб боғ қулганию, ғунча очилиб, боғ гулистонга айлангангани изҳор қилар экан, шу байтни ўзида ҳусни таълил, ташхис, “гул, ғунча, гулистон” сўзларини қўллаш билан эса таносуб санъатидан унумли фойдаланган. Байт:

*Қатрайи шабнам эмас гул баргида,  
Топмайин васлингни гирён ўлди боғ.*

Иккинчи байтда ошиқ, яъни боғда ёрни тополмай кўз ёш тўккани айтилади ва ҳижрон изтироблари тасвири бошланади. Хусусан, боғни йиғлатиш орқали ташхис санъати қўлланган. “Шабнам”, “гул барги”, “боғ” сўзлари таносуб санъатини ҳосил қилган. Шунингдек, биринчи байтдаги боғнинг хандон бўлиши, яъни кулиши билан иккинчи байтдаги боғнинг гирён бўлиши, йиғлаши ўзаро тазод санъатига асос бўлган. Байт:

*Гул бўлуб барбод-у сунбул шефта,  
Сенсиз, эй раъно, паришон ўлди боғ.*

Учинчи байтда ёрнинг йўқлиги боғга ва ундаги гул, сунбул каби ўсимликка таъсири акс беришда, шоира учта ташхис санъатини қўллаган: гулнинг барбод бўлиши, сунбулнинг гирифторм бўлиши ва боғнинг паришон бўлиши. Шу билан бирга “гул”, “сунбул”, “боғ” сўзлари бир байтда қўлланиб таносуб санъатини юзага келтирган, “эй раъно” мурожаати нидо санъати, воқеа-ҳодисаларнинг кетма-кет саналиши таъдид санъати намунаси эканлигини кўришимиз мумкин. Байт:

*Сендин айру бу чаман рухсорида,  
Ранг эмастур қип-қизил қон ўлди боғ.*

Ушбу байтда, шоира шеърий воситаларни қўллашда ўзига хос йўлдан борган. Маъшуқасидан айрилган маъшуқни изтиробларини ташбеҳ санъати орқали ифодалашга ҳаракат қилар экан, ёридан айрилган ошиқни юзини қизил эмас, қон бўлгани, айтади. Байтда, “чаман”, “боғ” сўзлари таносуб, боғнинг рангли эканлиги инкор этилиб, қип-қизил қон бўлганлиги ружуъ санъатига асос бўлган. Байт:

*Гулиани айшим мудом обод эди,  
Эмди ҳижронингда вайрон ўлди боғ.*

Байтда гулшандаги, яъни ёр билан бирга кечган ҳаёти эсланади. Унинг доим ободлиги тилга олинади. Айрилиқда у обод боғ вайрон бўлганлиги айтилади. Байтдаги “обод” ва “вайрон” сўзлари аслий тазодни, “гулиани айш (гулшандаги ҳаёт) ва “ҳижрон” (айрилиқ) сўзлари маъновий тазодни; “гулиан” ҳамда “боғ” сўзлари таносуб; “гулиан” сўзининг дунё маъносида келиш эса истиорани юзага келтирган. Байт:

*Кетти бу гулиандин ул сарви равон,  
Ҳажридин ер бирла яксон ўлди боғ.*

Ушбу байтда, лирик қаҳрамон гулшандан ошиқ сарвдек юрувчи ёрини тополмагандан кейин, унинг кетганлигига ишонч ҳосил қилгач, ҳажридан боғ ер билан яксон (битта) бўлганлиги, айтилади. “Гулиан” – дунё, “сарви равон” (сарвдек юрувчи) – ёр маъносида қўлланиб истиора, “боғ” ва “гулиан” сўзлар эса таносуб, боғнинг яксон бўлиши ташхис санъатидир.

*Қон сочар ашким саҳоби Комила,  
Йиғладим дашт-у биёбон ўлди боғ.*

Мақтада ашк (кўз ёши)нинг дашт-биёбонни боғ қилиши билан ғазал яқунланади. Ғазал бошидан охиригача ҳар байтида боғ тасвири орқали лирик қаҳрамоннинг ҳижрон изтироблари ифодаланган ўзига хос ижод намунасидир. Байтда қўлланган “йиғламоқ”, “ашк”; “дашт” ва “биёбон”

сўзлари таносуб; “дашт-у биёбон” ва “боғ” сўзларининг қаршилангирилиши тазод; “ашк” (кўз ёши)нинг қон сочиши ташхис санъатини; “ашк” (кўз ёши)нинг дашт-биёбонни боғ қилиши муболаға санъатини ҳосил қилган.

**Шу ўринда хулосаларимизни баён этишни мақсадга мувофиқ кўрдик. Булар қуйидагилардан иборат:**

1. Руҳий изтироблар поэтик ижоднинг мағзи ва ажралмас таркибий қисми бўлиб, лирик кечинма асосан кўнгилнинг бир лаҳзалик тасвирини берса ҳам, бу ҳол поэтик таассуротнинг онийлигини билдирмаслиги Нодира ғазаллари мазмун-моҳиятини ташкил этади.
2. Ғазаллар мазмуни руҳий изтироблар тасвири, поэтик воқелик, моддий ёки руҳий-психологик асосларга эгаллиги билан эстетик залвор касб этади. Мазкур жиҳатни шоира шахсияти белгилаб беради. Нодира ғазалларидаги кечинма ифодасида ақл ва туйғу тенг иштирок этса-да, бу ҳол шоира лирикасида турфа даражада акс этади. Яъни, лирик кечинманинг мазмуни шеърини асардаги бадиий образлар, лирик вазиятлар, лирик сюжет ва ҳоказоларнинг эмоционал ҳиссий бўёғида ўзининг ифодасини топади;
3. Шеър бадииятини унинг жанри, ғояси, мазмуни, етакчи кечинмаси, оҳанги ва пафосигина эмас, балки юқорида саналган шеърини унсурларнинг ифодадаги уйғунлиги белгилайди ва бу шоира истеъдодининг даражасини юқори эканлигини кўрсатади.

#### **ҲОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:**

1. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. таҳрири -Т.: Ўқитувчи, 1983. –Б.275.
2. Бобоев Т. Адабиётшуносликка кириш. –Т.: Ўқитувчи. 1979. –Б. 96.
3. Ғафуров И. Лириканинг юраги. –Т.: Адабиёт ва санъат, 1984. –Б.124.
4. Ғафуров И. Шеърини руҳий муносабат. –Т.: 1990.
5. Гринберг Р.Ф. Об искусстве. –М., 1971. –С 137.
6. Муҳаммад Ротиб Наблуси. Аллоҳнинг гўзал исмлари.
7. Навоий А. Лисон ут-тайр. –Т.: Янги аср авлоди, 2019. –544-с.
8. Паэло Коэло. Алкимёгар. –Т.: Янги аср авлоди, 2013. –184-с.
9. Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. –Т.: Фан, 2004. –Б-85.
10. Ҳожиаҳмедов А. Шеър санъатларини биласизми? –Т.: 2001. –Б. 12.
11. Шарафиддинов О. Ҳаёт билан ҳамнафас. – Т.: Ёш гвардия, 1983. –Б. 208.
12. Эшонқулова С. Нодира ижодини ўрганишда янгича ёндашув. –Т.: Vneshinvestprom, –Б.66-67.

## ҚОДИР БАХШИНИНГ “ЗАЙДИНОЙ” ДОСТОНИНИ ЎРГАНИШДА ХАЛҚОНА ОДОБЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ

*Жуманазарова Дилноза Умрзоқовна,  
ЖДПИ доценти, ф.ф.номзоди*

Халқнинг асрлар давомида тўплаган тарбиявий, педагогик-психологик тажрибаси шу қадар мукамал ва ўзаро чамбарчас боғланганки, халқ даҳосига қойил қолмасдан ҳеч илож йўқ. Бунинг тасдиғини «Зайдиной» достонидаги ўғитларда ҳам кўрамиз. Эпик ҳомийлар ёш Гўрўғлига инсоннинг инсон деган табаррук номга муносиб бўлишини уқтириб борар экан, энг аввало, кундалик ҳаётдаги изчиликка, давомийликка алоҳида эътибор беради. Ҳар бир йигитнинг ақлли бўлиши, куч-қудратини фойдали ишларга сарфлашга интилиши, садоқатли ёрга уйланиши ва ўғил-қизларини тарбиялаши унга мукамал бахт-саодат, тўлиқ шодонлик ва қувончда яшашга имкон бермайди. Бунинг табиий, ижтимоий, педагогик ва руҳий асослари мавжуд: чунки ҳар бир одам маълум жамиятнинг аъзоси сифатида энг аввало ўзгалар билан, сеvimли оиласи аъзоларидан ташқаридагилар билан доимий алоқада яшайди. Шу ижтимоий муҳит унга албатта таъсир қилади. Ҳаёт эса шундай яралганки, ҳар бир шахснинг ўз дунёқараши, ақл-идроки, характер хусусияти бор. Ҳаёт мана шу турли-туман характерли, феъл-атворли кишиларнинг ўзаро алоқада, келишиб яшашини талаб қилади. Ҳар ким буни ақлан англаши ва кўпроқ муносабатда бўладиган одамларни синчиклаб ўрганиши, улар ҳақида маълум тасаввурга эга бўлиши ҳам керак. Миллатимиз, қолаверса, ҳар бир оила учун эса энг кўп алоқада, муносабатда бўладиган кишилар ҳамсоя (қўшни)лардир. Демак, ҳар бир йигит мустақил оила қуриб, уй-жой солар экан, биринчи навбатда ўзининг ҳамсояси (қўшниси) кимлигини албатта билиши даркор. Мана шундай ҳаётий зарурият «Зайдиной» достонида ҳам алоҳида қайд этилади:

*Ҳар ким зубор топар осмонда ойдан,  
Биров калта, биров ортиқдир бўйдан,  
Мардни номард қилар билгин ҳамсоя,  
Билмай иморатни қурма ҳар жойдан.*

Ижодкор халқ бежизга «Ҳовли олма, қўшни ол» [1;330], «Қўшнинг яхши бўлса берди худо, ёмон бўлса урди худо»[1;305], «Ён қўшним-жон қўшним»[2;175] демаган. Яхши қўшни қўшнисининг ёмонини элдан яшириб, яхшисини ошириб, иноқлик, иттифоқликда яшайди. Аммо ёмон қўшни ўзининг маломату ғийбатлари билан яшшини ёмон, мардни номард, диёнатлини диёнатсиз, деб элга ёйиши ҳеч гап эмас. Ёмон ҳамсоя фақат қўшни оиладаги ёши катталарга эмас, унинг фарзандлари бахтига ҳам зомин бўлади. Зеро, қадриятларимизга кўра, балоғатга етган қиз ёки йигитни келин ёки куёв қилишни мўлжаллаганда, дастлаб қўшнилардан сўраш удуми бор. Ёмон қўшни эса ўшандай пайтда ён қўшнисининг фарзандларини қоралаб бахтдан жудо қилиши мумкин. Шундай қўшнига яқин бўлмаслик, ҳамсояннинг кимлигини билмай иморатни ҳар жойдан солмаслик лозим. Ойда



ғубор борлигини ҳамма билади, чунки у кўриниб туради. Бир одамнинг калта, ўзгасининг узун бўйли эканлигини ҳам ҳар бир нигоҳ англай олади. Аммо кўшнининг ички дунёсини, руҳиятини билиш мушкул иш. У ойнинг ғубори ёки бўйининг узун-калталигидай кўзга ташланиб турмайди. Бу эса кўшнини танлаш мушкул вазифалардан бири эканлигини кўрсатади. Кўшни танлай олиш, кўшни билан мустаҳкам яқин алоқада яшай олиш халқона удум, айни пайтда, миллий қадрият саналади. Бундан келиб чиқадиган хулоса ва навбатдаги вазифа шуки, ана шу қадриятни ҳозирги ёшлар онгига сингдириш, кўшничиликнинг сир-асрорларини эгаллаб олишга ва уни амалда қўллашига имконият яратиш бизнинг вазифасидир.

Ота-оналаримиз оила аъзоларнинг энг катталари, ёши улуғлари ва кадрлари ниҳоятда баландлари ҳисобланадилар. Шунинг учун ҳам муқаддас Қуръони каримнинг 6 та сураларининг 9 оятида ота-оналарнинг улуғлиги, уларни кадрлаш такрор-такрор уқтирилади. Жумладан, «Ал-исро» сурасининг 23-24-оятларида айтилишича, инсоннинг биринчи вазифаси Аллоҳга ибодат қилиш бўлса, иккинчи вазифаси, бурчи ота-онага яхшилик қилишдир[3;248-249]. Ота-она қайси динга, миллатга мансублигидан қатъий назар, фарзанд уларга нисбатан ғоятда катта ҳурматда бўлиши, сўзларини ҳеч қачон қайтармаслиги, уларга нисбатан яхши ниятда бўлишлари шарт. Чунки шу улуғ зотлар фарзанднинг бу ёруғ оламни кўришлари ва яшашлари сабабчиси. Ота-онага бўлган чексиз муҳаббат халқимизнинг энг гўзал қадриятларидан бири даражасига кўтарилган ва асрлар давомида миллат қон-қонига сингган. Ҳар бир авлод ота-она ва фарзандлар орасидаги илоҳий муҳаббатни ўғитлар тарзида, шахсий намуна кўрсатиш асосида, бадий ижод воситасида сўнгги авлодга сингдиришга ҳаракат қилган. Буни Қодир бахшининг «Зайдиной» достонида ҳам кўрамыз:

*Ота билан яшар ушбу башарият,  
Фарзанд учун ота олтин иморат.  
Ёмон бўлса ҳамки ота улугдир,  
Кетган бўлса қил қабрин зиёрат.*

Ёш Гўруғлига отанинг улуғ инсонлиги, уни кадрлаш, эъзозлаш лозимлиги уқтирилган ушбу тўртликдаги маъно муқаддас китоб- “Қуръони карим”даги маънога жуда яқин туради, мазмун-моҳияти чамбарчас боғланади, халқ назарида, оталар бўлмаса, башарият бўлмайди. Ҳар бир фарзанд ўз отасини тенгсиз хазина билмоғи, уни заррача хафа қилмаслиги, кўнглини қолдирмаслигига бурчлидир. Гарчи ота ўзгалар назарида ёмон бўлса-да, фарзанд уни ҳамиша яхши деб билмоғи, ҳурматини жойига қўймоғи шарт. Чунки ўзганинг яхши отаси эмас, ўзининг ёмон отаси дунёга келишига, ўниб-ўсишига, ҳаётдан завқланишига сабаб бўлган. Ақлли ўғил ёки қиз отасининг ёмон феъл-атворини элдошлари ўртасида айтиб жар солиши, ёхуд ноўрин ҳатти-ҳаракатлари сабаб бу муборак зотни тамомила рад этиши, тан олмаслиги катта ва кечириб бўлмас гуноҳдир. Балки фарзанд сифатида отанинг хатоларини кечириб, камчиликларини яшириб, рози қилиш

фарзу қарзидир. Беҳудага “ота рози-худо рози”[2;322], - дейишмайди доно халқимиз.

Фарзанд учун ота қанчалар улуғ бўлса, вужудида тўққиз ой кўтариб, ўстириб дунёга келтирган, оқ сут билан бирга ватан туйғусини бериб тарбиялаган она янада буюк, ҳар қанча эъзозга лойиқдир. Шу табурук зотнинг меҳри, муҳаббати, фидоийлиги, қанчадан-қанча уйқусиз тунларда тортган чексиз азоб-ташвишлари эвазига фарзанд маънавий-ахлоқийлик мезонларидаги инсоний фазилатларни эгаллайди, камолотга эришади. “Зайдиной” достонидаги навбатдаги ўғитнинг мазмун-моҳияти ҳам шу фикр билан ҳамоҳанг:

*Она кўрсатади жаҳон юзини,  
Олтинга бит ҳар бир айтган сўзини,  
Бириси ой бўлса, биридир қуёш,  
Тавоб айла босиб кетган изини.*

Қодир бахшининг «Зайдиной» достонида берилган ота-она ҳақида бундай халқона ва шоирона қуйма мисралар мазмуни ҳазрати Алишер Навоий фикрларига ҳамоҳанг. Аммо улар орасида озгина фарқ бор: ижодкор халқда давомийлик кучлироқ. Яъни фарзанднинг ота-она олдидаги бурчи уларни тириклик пайтидагина эъзозлаш билан чекланмайди. Балки вафотидан сўнг ҳам ҳар доим ва ҳамма вақт босган изларини тавоб айлаб, қабрини тез-тез зиёрат қилиб, икки оғизгина Қуръон дуоси билан тиловат қилиб, уларни ҳар доим хотирлаб турмоқ ҳам шарт, ҳам қарз. Бундай инсоний фазилатларни ёшлар онгига, фарзандлар қалбига сингдириш, қулоғига қуйиш ва уларда шу одатлар малакасини ҳосил қилиш педагогларнинг ҳам, ота-оналарнинг ҳам бурчи ва вазифасидир.

Ҳар бир оиланинг безаги ва асоси бўлган фарзанд ҳамда болапарварлик ҳақида «Зайдиной»да ижодкор халқнинг кўпгина халқона ўғитлари ҳам борки, уларнинг ҳаммаси мазмун-моҳиятига кўра ўқувчиларга маънавий жиҳатдан озиқ бера олади, юксак маънавиятли инсон тарбиясига дахлдор фазилатларни шакллантиришга ва ривожлантиришга муҳим манбалик вазифасини бажаришга хизмат қилади.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Ўзбек халқ мақоллари. Т. 2 - Т.: Фан, 1988. – 330 б.
2. Ўзбек халқ мақоллари. Т.1. - Т.: Фан, 1987. – 322 б.
3. Қуръони Карим. Т.: Чўлпон, 1992.. – 248-249 б.

## ТАРЖИМА – БАДИИЙ ПОЭТИК САНЪАТ (Абдулла Орипов ижоди мисолида)

*Каримов Обиджон Якубжонвич,  
НамДУ доценти, филология фанлари номзоди  
Муродила Мирзаев,  
ТАТУ Фаргона филиали доценти,  
филология фанлари номзоди*

XX асрнинг 70-йилларида ўзбек шеъриятига ижтимоий-сиёсий ҳаётнинг адолат ва эркинлик мезонлари билан ўлчовчи, шахснинг ички дунёсини умуммуҳаббат тамойиллари орқали таҳлил қилувчи, безовта руҳнинг фалсафий исёнкорлигини чуқур эпик, лирик ва драматик сувратларда намоён қилувчи ижодкор ёшлар кириб келди. Бу пелладанинг шеърият санъати бошида Асқад Мухтор, Миртемир, Эркин Воҳидов, Абдулла Орипов, Рауф Парфиляр турган бўлса, кейинчалик Хуршид Даврон, Шавкат Раҳмон, Абдулла Шер каби янги номлар кириб келди.

Ушбу ижодкорлар ижодига назар ташласак, улардаги санъаткорона поэтиканинг чуқурлашиб ва бойиб бориши, мазмуний теранлик, касб этиши, шеърий асарларида жаҳон шеърияти унсурларининг янгича миллий қиёфада бўй кўрсатиши бадиий таржима орқали рўй берганини кузатиш мумкин.

XX аср ўзбек адабиётининг забардаст ёзувчилари ўзбек таржимачилик мактабига асос солдилар, деб айтсак янглишмаган бўламиз. Абдулҳамид Чўлпон, Абдулла Қодирий, Ойбек, Ғафур Ғулом, Абдулла Қаҳҳор, Шайхзода, Миртемир, Зулфия, Асқад Мухтор каби қатор ижодкорларимиз ўзбек таржимачилиги асосчилари ҳисобланади. Шулар қаторида Абдулла Ориповнинг ҳам таржима тарихида ўзига яраша муносиб ўрни бор.

Ижодкордаги туғма талант фақат ўзбек адабиёти гўзалликларини мадҳ этишгина эмас, балки жаҳон адабиётининг гўзал намуналарини таржима ва тарғиб этишда, уларни тўлалигича ўзбек китобхонларига етказишда ҳам бўй кўрсатади. Бу, албатта, ўзбек китобхонлари учун қувонарли ҳолдир.

Абдулла Орипов таржимаи ҳолида ёзади: *“Мен таржимачилик билан ҳам шуғулландим, унинг энг асосийси Дантенинг “Илоҳий комедия”си деб биламан. Таржима жараёни мен учун энг улуг мактаб бўлди. Агар қозғоқ устида энг кўп тер тўккан бўлсам, ўша таржима устида тўкканман. Она тилимизнинг нақадар бой эканлигига имон келтирганман. Таржима асл нусхадан кам бўлмаслиги учун тилимиз бойлигидан имкон борича тўлиқ фойдаланиш учун изландим, тил хазинамиздан сўзлар ахтардим. Бунга нечоғлик эришганман, бу бошқа мавзу, бироқ ишондимки, бизнинг тилимиз ҳеч бир муболагасиз жаҳондаги энг гўзал ва энг бой тиллардан биридир...”* [1, 11].

Абдулла Орипов Данте Алигъерининг “Илоҳий комедия” асарини маҳорат билан ўзбекчаштирди, украин мумтоз шоираси Леся Украинканинг “Мағораларда” драматик достонини, венгер драматурги Еньё Хелтаининг “Соқов рицар” шеърий драмасини ҳамда Низомий Ганжавий,

А.С.Пушкин, Т. Шевченко, Н. Некрасов, Е.Чаренц, Қ. Қулиев, Х. Багчан, С. Баруздин, К. Мерилаас, Х. Ризо ва бошқа кўплаб шоирларнинг талай шеърларини таржима қилди. Шуни ҳам айтиб ўтишимиз керакки, Наум Гребнев, Александр Файнберг, Римма Казакова, Игор Шкляревский каби ижодкорлар шоир шеърларини бошқа тилларга (асосан рус тилига) таржима қилганлар. Бугунги кунда Наманганда яшаб ижод қилаётган Антонино Иплина ҳам шоир асарларини маҳорат билан рус тилига таржима қилаётгани қувонарли ҳолдир.

Шоир Абдулла Опилов бир суҳбатда: *“Шуни айтиш керакки, ҳар ижодкорнинг ижодида таржима муайян аҳамият касб этади. Бу ҳол менинг ижод йўлимда ҳам мустасно эмас. Мен А.С.Пушкин, Н. Некрасов, Л. Украинка шеърятини ўз тилимга ўгирганман. Биргина Дантенинг “Илоҳий комедия” (“Дўзах”) асари таржимаси устида ўн беш йил ишлаганман”* [2, 215], - деб таъкидлаб ўтган.

Унинг бу соҳадаги фаолиятини кўздан кечириш асосан ўз руҳига яқин асарларни таржима қилишга интиланлигини кўрсатади. Шу боисдан ҳам, улар маҳорат билан ўтирилган, асл нусханинг ифори тўқилмасдан худди она тилимизда яратилгандек туюлади:

“Илоҳий комедия” – Данте Алигьери ижодининг камолотга эришган давридаги сиёсий, фалсафий ва адабий фаолиятининг якуни сифатида бунёдга келган, уни *“ўрта асрнинг энг охирги ва шу билан бирга янги замоннинг энг аввалги шоири”* [3,44]. қилиб элга танитган асардир.

Дантенинг “Илоҳий комедия” асари дунё адабиётининг нодир асарлари қаторидан ўрин олган. Ижодкор тўла маънодаги Ренессанс адабиётининг ёзувчиси эмас. Чунки унинг ижодида эски замоннинг қарашлари янги фикрлар билан қўшилиб кетган эди.

Абдулла Орипов рус тили орқали ушбу асарни ўзбек тилига таржима қилган. Бу таржима ижодкордаги туғма талант фақат ўзбек адабиёти гўзалликларини мадҳ этишигина эмас, балки жаҳон адабиётининг гўзал намуналарини таржима ва тарғиб этишда, уларни тўлалигича ўзбек китобхонларига етказишда ҳам бўй кўрсатади.

Ушбу асар поэтикаси янгича услубда мураккаб тузилган бўлиб, Данте “Илоҳий комедия”ни яратишда Ўрта асрлардаги “видение” (хаёлий эртак) жанридаги аллегория ва символикадан фойдаланган, бироқ унда диний адабиётларда тарғиб қилинган ғоялар эмас, балки реал ҳаёт билан боғлиқ муҳим масалалар тасвирланган. Асар уч қисмдан – “Дўзах”, “Аъроф” ва “Жаннат”дан иборат [4, 45]. Асарнинг ҳар бир қисми 33 қўшиқдан тузилган, кириш қисми эса бир қўшиқ, ҳаммаси бўлиб 100 қўшиқдан иборатдир. Асар бошдан оёқ терцина, учлик шаклида битилган. Қофияланиш тартиби биринчи ва учинчи мисралар ўзаро қофияланган, иккинчи мисра очиқ, схемаси а-б-а, б-в-б, в-с-в тарзида бўлган.

Терцина (учлик) “Илоҳий комедия” учун фақат шакл ҳодисаси эмас, балки поэтик тафаккур тарзи ҳам. Асарнинг ташқи шакл-шамойилини, энг муҳими, воқеа-ҳодисалар тизимини ва бирор-бир банддаги маънони



терцинасиз тасаввур қилиш мумкин эмас. Терциनावий фикрлаш асарнинг қон-қонига сингиб кетган. Бунинг устига мисраларнинг ўзига хос қофияланиш тартиби, бандларнинг ўзаро занжирсимон боғла ниши мутлақ айрича оҳанг ва фикр йўсинини яратадики, бу фақат “Илоҳий комедия”га хос. Шу боис асарни таржима қилиш, биринчи навбатда, терцина шаклини ва у орқали терциनावий тафаккурни бошқа тилда қайта тиклашдир.

Биз учинчи қўшиққа эътибор берайлик. Таржимон Абдулла Орипов буни қуйидагича амалга оширган: “*Шоир Дўзах дарвозаси пештоқида даҳшатли лавҳани ўқийди ва Вергилий таскини туфайли ичкарига қадам қўяди. Вергилий Дантега ялқов ҳамда пасткаш кимсалар жазо тортаётган Дўзах остонасини кўрсатади. Сўнгра улар Дўзах дарёси Ахеронга яқинлашадилар. У ерда Дўзах қайиқчиси Харон маҳкумларни нариги қиргоққа ўтказиб қўйиши билан шуғулланади. Зилзила рўй беради, яшин чақнайди. Данте беҳуш йиқилади.*

*Хира пештоқ сари боқиб саросар,  
Мен ўша сўзларни ўқидим ногоҳ,  
Дедим: “О, даҳшат-ку, қилолмам бовар”*[5, 380].

*Шундоқ жавоб этди устоз фаҳмосо:  
Рухинг маҳкам бўлсин бу ерда фақат,  
Енгмасин таҳлика, бўл буткул огоҳ (III. 13)*

*Древней меня лишь вечные созданья,  
И с вечностью пребуду наравне.  
Входящие, оставьте упованья.*

Таржимаси:

*Мендан кўҳна фақат неки бор мутлоқ,  
Абадият билан тургум баробар.  
Кирсанг, умидларинг ташлаб кир шу чоқ”.*

Таҳсин айтамикки, таржимон бошқа тилда бўлишига қарамай, шеъринг сатрларга ўзига хос маъно, ўзига хос жило бера олган, буни фақат олқишлаш, улуғлаш лозим.

Биринчи қўшиқ, 106-шеърга эътибор қаратайлик:

*Италия он будет верный щит,  
Той, для которой умерла Камилла,  
И Эврил, и Турн, и Нис убит.*

Кўрамизки, учлик шаклида ёзилган бу мисраларда юқоридаги коидаларга амал қилингани кузатилади, яъни биринчи ва учинчи мисралар ўзаро қофияланган - **щит** – **убит**; иккинчи мисра қофиясиз бўлган.

Таржимон Абдулла Орипов буни қуйидаги тартибда ўзбекчалаштирган:  
*Эврил ҳамда Турн, Нис ва Камилла,  
Қурбон бўлган мулки итальянга хос,  
Камарбаста бўлгай шонли Ит, илло*[5, 375]..

Биз шуни яхши биламизки, таржима нафис санъат бўлиб, у таржимондан реалистик таржима принципларидан тўла хабардор бўлишни ва таржима устида кунт билан, чидам билан ижодий меҳнат қилишни талаб қилади. Буни ҳис қилган буюк шоир ва таржимон Абдулла Орипов ишни аъло даражада амалга оширган. Эътибор қилсак, асарда ишлатилган бадий санъатлар ҳам, талмеҳлар ҳам шоир томонидан юксак адо этилган. “Эвриал ҳамда Турн, Нис Камилла” – Италия тарихи билан боғлиқ қаҳрамонлар. Турин Италиянинг катта шаҳри эканини яхши биламиз, буларни ҳис этган таржимон қайтариққа йўл қўймаган ҳолда ажойиб талмеҳлар ишлата олган.

Ёки:

*Свой бег волчица где бы ни **стремила,**  
Ее, нагнав, он заточит в Аду,  
Откуда зависть хищницу **взманила.***

Абдулла Орипов томонидан қилинган таржимага эътибор берайлик:

*Қаёнга қочмасин Қашқир каж, **ифлос,** –  
Ит уни Дўзахга туққувси бир қур,  
Ғараз манзилига тушгуси **паққос.***

Таржима жараёнида 11 бўғин қоидасига таржимон қатъий амал қилганига гувоҳ бўламиз, ҳайратдан лол қоламиз. Чунки асарда тасвирланган муҳаббат масаласи, ишқий ва ахлоқий қарашларнинг нозик ифодаси ана шу бўғинга яхши тушади ва буни шоир жуда яхши ҳис этади.

*Я начал так: “Поэт, возматый **мой,**  
Достаточно ли мощный я свершитель,  
Чтобы меня на подвиг зват **такой?”***

Таржимаси:

*Дедим, раъбонимга айлаб **тахайюр:**  
“Беназир бир ишга чорладинг, қайдам,  
Қурбим етармикан, этмам **тасаввур”**.”.[5, 155].*

Бадий таржимада аслият оҳанги, унинг бадий таровати асосий таржима бирлиги ҳисобланади. Унда ижодкор қўллаган тасвирий воситалар – тимсолий ифодадар, муболаға, ўхшатишлар ва таъсирий бўёқдорликнинг таржимада акс эттирилиши таржимондан талаб этилади. Таржимон Абдулла Ориповнинг бу борадаги хизматлари эътирофга лойиқдир.

Ва ниҳоят, мақоламиз охирида Данте Алигъерининг “Илохий комедия”сининг А.Орипов томонидан такрорланмас поэтик оҳангларда ўзбек тилига таржима қилиниши ўзбек адабиётида, қолаверса, собиқ Иттифок ҳамда туркий адабиётда 80-йиллар бадий-поэтик ҳодисаси сифатида баҳоланган шоирнинг “Жаннатга йўл” драматик достонини дунё юзини кўришига асос бўлди.

Ташбеҳлик қилиб айтганда, улуғ итальян шоири ўнлаб асрлар йироқда туриб, ўзбекнинг такрорланмас шоири Абдулла Ориповга 70-80-йиллар ижтимоий-сиёсий, маънавий ҳаётини янгича поэтик усулларда метафорик

таҳлил қилиш бахтини тақдим этди. Бу тухфа таржима санъатининг бебаҳо мевасидир.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Орипов Абдулла. Кўрган-билганларим. Китоб номи: Танланган асарлар. Тўрт жилдлик. 1-жилд, -Т.: 2000, 11-бет
2. Орипов Абдулла. Адолат кўзгуси. Шеърлар, Мақолалар, Суҳбатлар.Таржималар. – Т.: Адолат, 2005, 215-б.
3. Саломов Ғ. Таржима назарияси ва асослари. – Т., 1983, 42-45-бетлар.
4. Назаров Бахтиёр. Севинч-дардим – бари Ватаним. “Шарк юлдузи”, 1987, 11-сон, 154-162-бетлар
5. Oripov Abdulla. Tanlanga asarlar. Uchinchi jild. Tarjimalar. – Т.: 2001. – 384 б.
6. Oripov Abdulla. Adolat ko‘zguisi. She’rlar, Maqolalar, Suhbatlar, Tarjimalar – Т.: Adolat, 2005. – 400 б.
7. “Yoshlik” jurnali. Т.: 2011. 5-son.

### TOG‘AY MUROD ASARLARIDA QO‘LLANGAN ANTROPONIMLAR

*Roziqova Gulbahor Zaylobidinovna,  
FarDU dotsenti, f.f.doktori.,  
Soliyeva Mohinur Mansurjon qizi,  
FarDU magistranti*

Biz ushbu maqolada Tog‘ay Murodning “Yulduzlar mangu yonadi”, “Ot kishnagan oqshom”, “Oydinda yurgan odamlar”, “Momo Yer qo‘shig‘i”, “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi” qissalari hamda ayrim hikoyalari qo‘llangan antroponimlarning leksik - semantik, uslubiy va dialektal xususiyatlari yuzasidan o‘z fikrlarimizni bayon qilamiz.

Tog‘ay Murod asarlarida onomastik birliklar alohida leksik-semantik guruhni tashkil etadi. Ma‘lumki, har qanday millatning ma‘naviyatini uning tili va o‘ziga xos an‘analaridan ayri holda tasavvur qilib bo‘lmaydi. Nomlar ham muayyan xalqning millat sifatidagi o‘ziga xosligini ko‘rsatuvchi omillardan biri hisoblanadi. Ayni paytda ular o‘sha xalqning lisoniy, tarixiy va madaniy boyligi hamdir. Nomlar ajdodlardan avlodlarga qoluvchi ma‘naviy meros sifatida ham qadrlidir. Ular bir avloddan ikkinchi avlodga o‘tar ekan, o‘zi bilan birga, o‘sha xalqning lisoniy tamoyillari, madaniyati, ma‘naviyati, tarixi haqidagi ma‘lumotlarni ham olib o‘tadi. Nomlar zamirida yashiringan ma‘nolar bizga xalqning uzoq kechmishi, uning adabiyoti, san‘ati, madaniyati, urf-odatlarini, tabiiy sharoitlari haqida aniq axborot beradi [4;25].

M.Mirtojiev atoqli otlarning leksik ma‘nosi haqida to‘xtalib, shunday yozadi: “Atoqli otlar tushuncha ifodalamasligi haqidagi fikrlar to‘g‘ri. Buning uchun keltirilgan dalillar ham to‘laligi bilan asosli. Undan ko‘z yumib bo‘lmaydi.

Lekin u yerdagi “ma’nosi yo‘q” degan fikrga qo‘shilib ham bo‘lmaydi. Chunonchi, u yo shaxs, yo joy, yo tashkilot, yo va hokazolardan birini ifodalaydi. U faqat xususiy ifodaga ega. Lekin atoqli ot shu xususiy ifoda bergan ma’nosi bilan gap bo‘lagi: ega, to‘ldiruvchi, qaratqichli aniqlovchi va o‘rin holi kabilardan biri vazifasini o‘tay oladi. U tushuncha ifodalamaganligi uchun, izohlab, tarjima qilib bo‘lmaganligiga qaramay, sintaktik vazifa bajaradi. Shuning uchun uni leksik ma’noga ega, deb bemalol aytish mumkin. Yana uning nutq leksikasida mustahkam o‘rni borligini esdan chiqarmaslik kerak” [3;35].

Ma’lumki, antroponim (yunoncha: antropos-antropos + onoma-atoqli ot) – kishi atoqli oti (ism, familiya, laqab, taxallus va boshqalar). Atoqli ot tiplaridan biri [2;13]. “Antroponimlarning inson xohishi va faoliyati bilan bog‘liq ekanligi, ularda insonning ehtiyoji va ijodi namoyon bo‘lishi, inson nomida qadimiy davr kishilarining madaniy-ma’naviy va etnik qarashlari o‘z ifodasini topganligi, umuman, ismlar xalqning ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy-maishiy turmushi bilan bog‘liq ekanligi” [1;37] Tog‘ay Murod asarlarida qo‘llangan antroponimlarda ham yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Hozirgi o‘zbek tilida Allohning go‘zal nomlari zaminida yasalgan ko‘pgina ismlar mavjud va ular o‘zbek kishilarining atoqli otlari hisoblanadi. Bu Tog‘ay Murod asarlaridan olingan quyidagi dalillardan yorqin ko‘rinib turibdi: *Mo‘min* (omonli va omonlik beruvchi) ismi “Yulduzlar mangu yonadi” asarida va “Ot kishnagan oqshom” qissasida, *Karim* (karamli, saxovatli, kechirimli) “Yulduzlar mangu yonadi” qissasida, *Rahmon* (o‘ta mehribon) “Ot kishnagan oqshom” asarida, *Jabbor* (bandalari ishini isloh etuvchi), *Xoliqul* (yartuvchi; xalq qiluvchining quli) ismlari “Yulduzlar mangu yonadi” asarida, *Shokirqul* (oz ishga ko‘p mukofot beruvchining quli) “Ot kishnagan oqshom” asarida, *Majid* (ne‘mati va ehsoni bepoyon) “Oydinda yurgan odamlar” asarida, *Hamid* (hamdu sanoga, maqtovga loyiq zot) “Yulduzlar mangu yonadi” qissasida va “Ot kishnagan oqshom” asarida, *Samad* (bahojat, hojatbaror) “Yulduzlar mangu yonadi” va “Oydinda yurgan odamlar” asarlarida, *Qodir* (qudratli, mislsiz kuch va qudrat sohibi) “Ot kishnagan oqshom” asarida, *Nurmat* (o‘z – o‘zini, borliqni ayon etib, ravshan qilib turuvchining quli) “Yulduzlar mangu yonadi” asarida, *Nurali* (o‘z- o‘zini, borliqni ayon etib, ravshan qilib turuvchining quli) “Oydinda yurgan odamlar” qissasida, *Sobir* (gunohkor, isyonkorlarga jazo berishga shoshilmaydigan zot) “Yulduzlar mangu yonadi” qissasida uchraydi.

Tog‘ay Murod asarlarida uchraydigan, oxirida *-ulla* komponenti mavjud ismlar ifoda qiluvchi ma’nolarni izohlashga harakat qilamiz: *Ziyodulla* (Alloh bergan tuhfa, ehson; Allohning marhamati yoki Alloh ustun, ortiq qilib bergan bola) va *Fayzulla* (Allohning marhamati, himmati; shafqati, muruvvati yoki Allohning quvnoq, baxtiyor farzandi) ismlari “Ot kishnagan oqshom” asarida, *Xayrulla* (Allohning muruvvati, ehsoni, sahovati) “Oydinda yurgan odamlar” qissasida uchraydi.

Tog‘ay Murodning “Oydinda yurgan odamlar” qissasida *Odam Ato* va *Momo Havo* ismlarini uchratamiz:

— Bizni yaratmish Odam Atomizga bir ta'zim!

— Bizni bino etmish Momo Havomizga bir ta'zim!

Tog'ay Murodning "Yulduzlar mangu yonadi" asarida "ollohdan tilab olingan farzand" ma'nosini ifodalovchi *Tilovberdi* ismi uchraydi:

Yaratganning o'zidan davralarni gursillatib – gursillatib olishadigan o'g'il tiladi.

Hartugul, beshinchi farzandi o'g'il bo'ldi.

Tilab – tilab topganim deya, otini Tilovberdi qo'ydi. ("Yulduzlar mangu yonadi")

Tog'ay Murod asarlarida qo'llangan real antroponimlarni quyidagi guruhlariga bo'lib o'rganish mumkin:

Hukmdorlar, davlat rahbarlari va davlat arboblarning ismlari: *Amir Olimxon, Amir Umarxon, Yo'ldosh Oxunboboyev, Sharof Rashidov, Kamol Otaturk, Nikolay II, Pyotr birinchi, Aleksandr II, Vasiliy III, Ivan Grozniy, Stalin, Napeleon, Iskandar Zulqarnayn, Teodor Ruzvelt, Gitler, Boris Yelsin, Gorbachev.*

**Shoir va yozuvchilar ismlari:** *Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, G'afur G'ulom, Abdulla Oripov, Said Ahmad, Pirmiqul Qodirov, Oybek, Cho'lpon, Uyg'un, Mirmuhsin, Abdulla Qahhor, Mirtemir, Furqat, Chingiz Aytmatov, Lev Tolstoy, Nitsshe, Kamyu, Prust, Ernst Seton – Tompson, Robindranat Tagor, Turgenyev, Jek London, Jon Berrous, Kafka, Jonatan Svift; sportchilar, jahon chempionlarining ismlari: Sayfiddin Hodiyyev, Sobir Qurbonov; san'atkorlarning ismlari: Ma'murjon Uzoqov, Hasan Sulstonov, Tamaraxonim, Yunus Rajabiy, Betxoven, Chaykovskiy, Ashrafiy; baxshilar nomlari: Jumanbulbul, Fozil Yo'ldosh; olimlarning nomlari: Brem, Charls Darvin, Byuffon; Rassom: Shukshin; tibbiyot xodimlari nomlari: Gippokrat, akademik Snejnevskiy kabi.*

Badiiy antroponimlar Tog'ay Murod asarlarida salmoqli o'rin egallaydi va o'ziga xos badiiy tasvir vositasi vazifasini bajardi. Bunday ismlarni tanlash hamda ma'lum maqsadda qo'llash ijodkordan teran mushohada va chuqur bilim talab qiladi.

Tog'ay Murod asarlarida *Alpomish, Kuntug'mish, Tohir – Zuhro, Don Kixot* singari badiiy antroponimlar ham uchraydi.

Tog'ay Murod asarlarida qo'llangan antroponimlarni leksik-semantik jihatdan quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

Belgi bildiruvchi so'zlar asosida shakllangan antroponimlar: *Omon, Qobil, Uzoq, Botir, Mo'min, Suluv, Xurram, Qoraqul, Momosuluv, Xumor, Dono, Eson, Xushvaqt, Munavvar, Muqaddas, Xursandoy, Qimmat, Qarshi, Odil.*

Harakat ifodalovchi so'zlar asosida shakllangan antroponimlar: *Turdiboy, Tilovberdi, Suyun, Berdi, Sana, Turdi, To'xtamish.*

Miqdor ifodalovchi so'zlar asosida shakllangan antroponimlar: *Chori.*

Turdosh otlar asosida hosil qilingan antroponimlar: *Bo'ri, Sher, Qoplon, Nasim, Bolta, Temir, Murod, Safar, Namoz, Amir va boshqalar.*



Shevaga xos antroponimlar: *Minoy, Bakirboy, O'tan, Sana, Mengboy, Chori, Mengto'ra, Oyxol, Jumanbulbul, Tog'ay, Hojiqulboy, Qatron, Suvon, Mengsulton, Xoldon.*

O'z ismini boshqadan to'liq eshitish inson uchun hamisha xush yoqadi. Amerikalik psixolog D.Karnegi bu haqda shunday yozadi: "O'z ismini boshqalardan eshitish inson uchun yoqimli musiqaga o'xshaydi. Uning ismini aytib chaqirish, bu insonni shaxs sifatida tan olishdir".

"Ot kishnagan oqshom" asarida *Jo'ra bobo* degan personaj nomi keltiriladi. U uch marta uylanib, farzand ko'rmagan, farzandlari orqali hayotda nomi qolmasligini bilgani tufayli mashina oladi. Asl maqsadi – odamlar bu Jo'ra boboning mashinasi, desin. Yo'lda GAIIlar ushlab hujjat ko'rsin, Jo'ra bobo degan nomni o'qisin... Jo'ra boboning bundan-da ko'ngli to'lmaydi. Mashinasini pullab, puliga To'riq oladi. Farzandlar nasibasini-da, farzandlar rizq-ro'zini-da ana shu to'riqqa yediradi. Jo'ra boboning dardi yolg'iz bo'ldi, dardi ezgu bo'ldi: to'rig'i uloqni ayirsin. Bakovul uloqni Jo'ra boboning oti ayirdi, deya jar solsin. Jo'ra boboning oti, kel, haqingni ol, desin. Ko'pkari ahli Jo'ra bobo degan nomni eshitsin. Qulog'i og'irlar uloqni kim oldi, deya qayta so'rasin. Shunda bakovul "Uloqni Jo'ra boboning oti oldi", deya qayta-qayta jar solsin, Jo'ra bobo degan nomni olam jahon eshitsin...

Xulosa qilib aytganda, badiiy asarlarda qo'llangan antroponimlarni o'rganish o'zbek xalqining ism qo'yish bilan bog'liq qadriyatlari haqida xulosa chiqarish imkonini beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Бегматов Э. Антропонимлар – антропоцентрик тадқиқ объекти // Ўзбек тили ва адабиёти. 2013. №3. –Б.35-39.
2. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006.
3. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. Тошкент: MUMTOZ SO'Z, 2010.
4. Худойберганова Д., Анданиязова Д. Абдулла Қодирий ва номлар бадиияти. // Ўзбек тили ва адабиёти, 2017, 3-сон.

## СЎЗЛАШУВ НУТҚИГА ХОС ВУЛЬГАР СЎЗЛАРНИНГ СТИЛИСТИК ҚЎЛЛАНИШИ

(А.Ибодиновнинг “Латофат дўқонидаги қатл” асари асосида)

*Мусаев Абдували Сулаймонович,  
ЖДПИ доценти, ф.ф. номзоди  
Мухторова Гўзал Холдоровна,  
ЖДПИ магистранти*

Жонли тилга хос сўзлар сўзлашув нутқида кўпроқ ишлатилади. Сўзлашув нутқи норасмий нутқ бўлиб, суҳбатдошлар орасида оддий, кундалик ва кўникиб қолинган суҳбатга асосланади. Бундай нутқда экстралингвистик факторлар билан бирга, талаффуздаги ўзига хослик, интонациядаги сокинлик ёки кўтаринкилик, лексик ва грамматик меъёрлардан чекиниш каби ҳолатлар ҳам мавжуд бўлади. Сўзлашув нутқи маълум шароитда махсус тайёргарликсиз тўғридан-тўғри юзага чиқади. Бунда нутқ эркин, бетакаллуф бўлганлиги учун унда расмийлик ва жимжимадорлик бўлмайди. Булар сўзлашув нутқининг катта стилистик имкониятларга эга эканлигини кўрсатади.

Жонли тилга-сўзлашув нутқида хос: кесатик, пичинг, нафрат, чапани, кўпол, ҳақорат сўзлар вульгаризм сўзлардир.

Адабий тил лексикасига кирмайдиган оддий халққа оид кўпол сўз ва иборалар вульгаризмлар саналади [1;85]. Бундай лексемалар ёки уларнинг вульгар маънолари адабий тил бирлиги саналмайди, уларни қўллаш нутқ маданиятига хилоф деб қаралди. Аммо бадиий асар тилида бундай сўзлардан услубий восита сифатида фойдаланилади [1;203].

Жонли тил-сўзлашув нутқидаги сўзлар ҳар хил нутқ стилларида ишлатилиб, тасвир жараёнининг ранг-баранглигини ва таъсирчанлигини кучайтиради.

“Сленг” термини “диалектизм”, “жаргонизм”, “вульгаризм”, “сўзлашув нутқи”, “жонли сўзлашув нутқи” терминлари билан синоним сифатида қўлланилади [3;240].

Демак, диалектизмлар, жаргонизмлар, вульгаризмлар сўзлашув услубига ўтгач, баъзан ўзининг маълум касб ва ижтимоий гуруҳга тегишли бўлган даврдаги маъносини йўқотиб, умумистеъмол доирасига ўтиб кетиши мумкин.

Олимларимизнинг фикрига таянадиган бўлсак, сленгнинг икки тури бўлиб, улар ўртасида фарқ мавжуд: **Умумий сленг** – адабий тил меъёрлари чегарасидан ташқари сўзлашув нутқи доирасида умумтушунадиган ва кенг тарқалган лексик қатламдир. **Махсус сленг** – тор ихтисослашган характерга эга, чегараланган кишилар учун тушунарли бўлган лексик қатлам.

Айрим соҳа вакиллари ва соҳа гуруҳлари нутқий тежамкор, қулайлик учун ҳам жаргон қўллайди [4;146].

Сўзлашув нутқидаги лексик воситаларнинг асосий кўпчилиги эмоционал бўёқли бўлади. Бундай сўзлар ўз навбатида таъсирчан ва

тушунарли бўлади. Салбий эмоционал бўёқдор сўзларни оз ёки кўп ўринли қўлланиши сўзловчининг маданият даражаси, онги ва тажрибасига боғлиқ.

Семантик структурасига кўра вульгаризмлар **хақорат-сўкиш, қарғиш, дўқ-пўписа, кесатик, пичинг, нафрат, чапани, қўпол** сўзларни билдирувчи гуруҳларга ажратилади.

1. Ҳақорат-сўкиш, қарғиш маъноларни ифодаловчи вульгаризмлар сўзлар: - Нима? Менга қара, э **чурвақа!** (54-б). **Лаънати ментлар** тоғу тошда ҳам тинч қўйишмаяпти (55-б). Тўғрисини айтасан, **қанжиқ**, сен учун эркак бўлса бас! (69-б). Ўлгунингча шу **тавқи лаънат** билан кетишинг учун! Билдингми! (69-б) – **Аблаҳлар!** – қўллари мушт бўлиб тугулди Аҳрорнинг... (93-б). Йўқол, **ҳезалак!** – дедим қичқириб (110-б) – **Ифлос, кўрқоқ!** – дея бақирдим унинг кўзига тик қараб (111-б).

Келтирилган мисоллардаги чурвақа (**кичкина**), **қанжиқ урғочи ит** (хақорат-сўкиш), **тавқи лаънат** (бўйнидаги ёмонлик), Аблаҳ (ярамас одам), ифлос, кўрқоқ (обрў-этиборсиз) маъноларини англатиб келган.

2. Дўқ-пўписа маъноларни ифодаловчи вульгар сўзлар ва иборалар: - Ҳой, **биткўз!** – дея шанғиллади у Абдурахмонга ташланиб, -юз грамм ичиб олдим деб, яна эски қилиғингни кўзғаяпсанми? Тинч юр! Бўлмаса... **Тушовлаб қўяман!** (54-б) Бас, **қанжиқ!** Сенку, аёлсан энди, лекин тоғамга туҳмат қилма! (70-б). -**Номаъқул бузоқнинг гўштини ебсан**, тирранча! Сен ким-у, мен ким? Сендайлар кўчамдан ўтиб қолса уч кун **ўқчийман!** Ҳе, ўша... (93-б) Ёлғоннинг учун ҳали бошингга **ит қуни** тушади, сен боланинг (94-б).

Юқорида келтирилган мисоллардаги сўз ва иборалар **биткўз** (кўзи қисик), **тушовлаб қўяман** (имкон бермаслик) **ўқчийман** (кўнгил айниши), ит қуни (қийноққа солмоқ) **номақул бузоқнинг гўштини ебсан**, **тирранча** (бекорчи, бемани фикрлар) маъноларини англатиб келмоқда.

3. Кесатик, пичинг, нафрат маъноларни ифодаловчи вульгаризм сўз ва иборалар: Ия, билмайсизми? Ахир сиздақа тижоратчиларнинг ҳар шаҳарда биттадан **“любовниги”** бўлади! (15-б). Ҳанг-манг бўлиб қолдим. “Нега уйга тушмадиларинг?” десам **“Сюрприз”** дея кулишади. (64-б) – Мана бу она сути оғзидан кетмаган гўдақнинг алжираши, билан менга **“подношка”** бераман, дея хом уйлабсиз! (93-б) – Келса келгандир! – шовқинланди Мағзумов, -менинг уйимга бунақанги **лахтакфуруш, чаканабоз** саводгарлардан мингтаси келади (95-б).

Мисолларимиздаги **любовниги** (ўйнаши), **сюрприз** (совға), она сути оғзидан кетмаган (ёш бола) **подношка** (оёқдан чалиш), **лахтакфуруш**, (мато парчаси) **чаканабоз** (доналаб сотиш ёки сотиб олиш) маъноларини ифодалаб келган.

4. Чапани, қўпол маъноларини ифодаловчи-вульгаризм сўзлар: Эсимда ҳам йўқ, у **манжалақи!** Бир қарич бўз ҳам бермаганман унга! (95-б). Олтинчи синфда ўқиётган пайтимда отам ўрнини кўзлаб юрган **ғаламислар** ниятига етишди. (102-б). Демак, бу ерда аёл киши, балки Ёқубнинг **ўйнаши**

яшаган! (110-б). **Яхши бузоқ икки сигирни эмади**, деганларидан, бу ярамас фоҳиша ҳам тоға, ҳам жиян билан **дон олишиб юраверган** чамаса... (71-б).

Мисолларимиздаги сўз ва иборалар **манжалақи** (жанжалкаш, шаллақи) **ғаламис** (ғийбатчи, фитначи) **фоҳиша** (ёмон йўлга кирган, бузук аёл), **дон олишиб юраверган** (никоҳсиз яшаган) маъноларини англатади.

Хуллас, вульгаризмлар, эмоционал экспрессив лексикадан фойдаланиш сўзлашув нуткининг умумий услубий йўли билан алоқадор. Асосан, персонаж нутқида ишлатилади ва уни индивидуаллаштиради. Бундай хусусиятга эга бўлган сўз ва иборалар ёзувчи ғайри маданий сўзларга фақат маълум услуб талаби билан зўр эҳтиёж сезганда мурожаат қилиши мумкин.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўринбоев Б. Ҳозирги ўзбек тилининг сўзлашув услуби. –Т., 1991.
2. Жамолхонов Ҳ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент, 2005.
3. Калита И.В. Стилистические трансформации русских субстандартов, или книга осленге. –М: Дикси Прес.2013. ISBN 978-5-905490-15-6,
4. Сайфуллаева Р, Менглиев Б, Раупова Л, Курбонова М, Абузалова М, Йўлдошева Д. Ҳозирги ўзбек тили. Тошкент, 2020.

### ALIY SAFIY KOSHIFIY HIRAVIYNING ILMIY MEROSI VA IJODKORNING YANGI TOPILGAN ASARLARI MANBASHUNOSLIK TAHLILI

*Umurzoqov Bahriddin Safarovich,  
ToshDShU katta o'qituvchisi, O'zR FA ShI katta ilmiy  
xodimi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Yetuk manoqibnavis, «Xojagon tariqati naqshbandiyya-ahroriyya suluki tazkirachisi», deya ta'riflangan Mavlono Faxruddin Aliy Safiy Koshifiy Hiraviy (vaf. 939/1532-1533), haqiqatan, o'z davrining nodir ijodkor adiblaridan biri hisoblanadi.

Aliy Safiy sermahsul ijodkordir. Quyidagi asarlar shu vaqtgacha Aliy Safiy qalamiga mansub asarlar deya, e'tirof etilgan: «Rashahot aynu-l-hayot» («Hayot bulog'idan tomchilar»), «Latoyifu-t-tavoyif» («Ajoyib lutf so'zlar»), «Anisu-l-orifin» («Orif zotlarning hamrohi»), «Hirzu-l-amon min fitani-l-zamon» («Zamona fitnalaridan xalos bo'lish uchun omonlik choralari»), «Farasnoma-i Safiy» («Safiyning ot haqidagi dostoni»), «Odobu-l-ashob» («Birodarlik odobi yoki Birodarlar uchun odobnoma kitobi»), «Lavoihu-l-qamar» («Oyning ko'rinishlari»), «Manzuma-i Mahmud-u Ayozi» («Mahmud va Ayozi haqida she'riy doston»), «Asror-i Qosimiy»[12 :14].

Tojikistonlik tadqiqotchi A. Saidmukarramga ko'ra, Aliy Safiyning quyidagi asarlari bor: «Mahmud va Ayozi», «Rashahot ayn al-hayot», «Latoyif at-tavoyif», «Anis al-orifin», «Hirz al-amon min fitan az-zamon», «Asror-i Qosimiy».

A. Saidmukarram o‘z tadqiqotida Aliy Safiyning ana shu oltita asarini sanab o‘tgan, xolos[14:13].

O‘zR FA ShI asosiy fondida «Asror-i Qosimiy» («Qosimiyning sirlari») qo‘lyozmasi mavjud. Biz bu asar bilan tanishib chiqdik va natijada ushbu asar Aliy Safiyga emas, balki ijodkorning otasi Mavlono Husayn Voiz Koshifiyga tegishli ekanligi ma'lum bo‘ldi.

Tojikistonlik olim M. Ne'matov o‘z tadqiqotida Ali Safiyning yana bir asari, ya'ni «Lug‘at-i Aliy Safiy» («Aliy Safiyning so‘zligi») haqida axborot bergan [13:14].

Afsuski, O‘zR FA ShI fondida, va umuman, Toshkent qo‘lyozma xazinalarida bu asarning, ya'ni «Lug‘at-i Aliy Safiy» ning qo‘lyozma va toshbosma, shuningdek, zamonaviy nashri mavjud emas. Tojikiston FA Sharq qo‘lyozmalari katalogidagi ma'lumotga ko‘ra, mazkur asar - «Lug‘at-i Aliy Safiy» qo‘lyozmasi Tojikiston FA Sharq qo‘lyozmalari fondida saqlanadi va u muallifning dastxat nusxasi bo‘lishi ham mumkin. Shaxsiy arxivimizda Aliy Safiyning dastxati mavjud bo‘lgani bois kelgusida biz bu asarni sinchiklab o‘rganib, bu masalaga oydinlik kiritish umididamiz.

Yaqinda biz Aliy Safiy Koshifiy Hiraviyning shu kunga qadar noma'lum bo‘lib kelgan yana ikkita yangi asari qo‘lyozmasini va bir g‘azalini aniqlashga muvaffaq bo‘ldik. To‘g‘ri, bu topilmalar kichik hajmli asarlar hisoblanadi. Ammo mazkur yangi topilmalarning shu vaqtgacha fanga noma'lum bo‘lib kelgani va manbashunoslik va matnshunoslik yo‘nalishida umuman tadqiq etilmagani biz uchun muhim hisoblanadi.

1. Bu qo‘lyozmalardan biri ijodkorning «Sharh-i Masnaviy» («Masnaviy»ning sharhi) asaridir.

Bu asarning to‘liq nomi «Lubb-i lubob-i Masnaviy» (لب لباب مثنوی) dir. Tojikistonlik tadqiqotchi A. Saidmukarram bu asarni eronlik olim S. Nasifiy bergan ma'lumotga, aniqrog‘i, «Lubb-i lubob» nomi bilan ushbu olim chop ettirgan Tehron nashriga asoslanib, «Lubb-i lubob»ni Husayn Voiz Koshifiyning asaridir», degan[14:13].

Ammo O‘zR FA ShI asosiy fondi kartotekasi qaydlarida Husayn Voiz Koshifiyga yana bir asar - «Kitob-i Ma'naviy fiy intixob-i al-Masnaviy» (كتاب المعنوی فی انتخاب المثنوی) asari ham nisbat berilgan. Kartotekadagi ushbu qayd-ma'lumotlarga asoslanadigan bo‘lsak, har ikki asar Mavlono Husayn Voiz Koshifiy qalamiga mansub, bo‘lib chiqmoqda.

Biz «Lubb-i lubob-i Masnaviy» (لب لباب مثنوی)ning O‘zR FA ShI fondida mavjud o‘nga yaqin qo‘lyozma nusxalari bilan tanishib chiqdik. Natijada bu asarning kattagina qismi, haqiqatan, Mavlono Husayn Voiz Koshifiy qalamiga mansub ekani, ammo asarning oxirgi qismi allomaning o‘g‘li Aliy Safiy Koshifiy Hiraviy tomonidan yozilgani ma'lum bo‘ldi. Taxminimizcha, muallif mazkur asarini tamomlay olmasdan vafot etgan, ushbu asarni keyinchalik uning o‘g‘li Aliy Safiy tugatib qo‘ygan.

Biz bu xususda yanada chuqurroq tadqiq olib borish niyatidamiz. Chunki O‘zRFA ShI kartotekasida «Masnaviy»ning sharhi hisoblangan «Javohiru-l-asror



Kashfu-l-maorib» ( كشف المآرب - كتاب جواهر الاسرار ) nomli yana bir asar Mavlono Husayn Voiz Koshifiyga nisbat berilgan. Holbuki, «Javohiru-l-asror»ning muqaddimasida shorih, ya'ni ushbu sharhni yozgan zot o'zini «Shayx Husayn ibn Hasan», deya tanishtirgan.

2. Aliy Safiy qalamiga mansub ikkinchi topilma esa «Tuhfatu-l-Xoniy» ( تحفة الخانى - «Xoniyga tuhfa») nomli asar qo'lyozmasi bo'lib, bu asarning yagona qo'lyozma nusxasi O'zR FA ShI prof.H.Sulaymonov qo'lyozmalar fondida № Q.2621/XI. Inv. raqam bilan saqlanadi.

Mazkur asar «KATALOG fonda instituta rukopisey» («Qo'lyozmalar instituti fondi fihristi»)da «Podarok xanu» ( تحفة الخانى ) deb qayd etilgan[15:118.]. Agar diqqat qilsak, asar nomining tarjimasida xatolikka yo'l qo'yilgan. «Tuhfatu-l-Xoniy»ning o'giri «Xonga tuhfa» emas, balki «Xoniyga tuhfa» bo'lishi lozim edi. Chunki, asar nomidagi «al-Xoniy» (الخانى) kalimasida «yo-i nisba» mavjud. Bu esa asarning ma'lum bir shaxs, ya'ni o'z davrining sultonlaridan biriga yozib hadya qilinganiga dalolat qiladi. Zero, ushbu asar muqaddimasida Aliy Safiy, haqiqatan, uni Sulton Muhammad Xoniyga bag'ishlab yozganini va unga tuhfa aylaganini yozgan.

«Tuhfatu-l-Xoniy»ning muqaddimasida uning muallifi «Aliy ibn Muhsin (Husayn – B.U.) al-Voiz al-Koshifiy al-mushtahar bi-s-Safiy» ( علي بن محسن الواعظ ) (الكاشفى المشتهر بالصفى) ekani haqida ma'lumot-qayd mavjud.

«Tuhfatu-l-Xoniy» asari “Asror-i Qosimiy” bilan bir jildda qo'qon qog'oziga oddiy nasta'liq xatida 1253/1837y.da kitobat qilingan. Qo'lyozma kolofonidagi qaydga ko'ra, mazkur qo'lyozmaning kotibi ar-Rojiy Muhammad Buxoriy Hijriy (الراجى محمد بخارى هجرى) hisoblanadi.

«Tuhfatu-l-Xoniy» asari jami 18 varaq (109a-127b vv.)dan tashkil topgan. Qo'lyozmaning o'lchovi esa 25x16sm.

Asar “Basmala”dan so'ng quyidagicha boshlangan[Tuhfatu-l-Xoniy:109a v]:

الحمد لوليه و الصلوة و السلام على نبيه و صحبه اما بعد جنين كويد فقير بى بضاعت و حقير خالى  
--- از استطاعت علي ابن محسن الواعظ الكاشفى المشتهر بالصفى ايدى الله باللطف الخفى كه

(Tarjimasi: Hamd (maqto'v va shukrlar) hamdning haqiqiy Egasiga, ya'ni Alloh ta'olaga bo'lsin! Rahmat va salom Uning Payg'ambari - Hazrat Muhammadga va ul zotning ashobiga bo'lsin! Shundan so'ng: Kuchsiz va zaif, solih amallari oz bo'lgan, “Safiy” nomi bilan tanilgan Aliy ibn Muhsin al-Voiz al-Koshifiy – Alloh ta'olo uni O'zining yashirin lutfi bilan qo'llasin! – ayturki, ...)

Muallifning asar muqaddimasidagi bayoniga ko'ra, Mavlono Muhsin (Husayn – B.U.) Voiz Koshifiy hijr. 910 sanada /1504 y.da «Asror-i Qosimiy» ( اسرار ) (قاسمى) nomli asarini yozib tugatgan. Ushbu asarning avtograf nusxasi oqqa ko'chirilmasdan uning o'g'li Aliy Safiy qo'lida bo'lgan. U otasi vafotidan keyin asarning davomi sifatida yangi bir asar yozgan va unga “Tuhfatu-l-Xoniy” deb nom qo'ygan.

“Tuhfatu-l-Xoniy” asari 20 bobdan iboratdir. Har bobda muallif turli ashyo, ularning xosiyatlari, foyda va zararlari, shifobaxsh narsalar, ulardan qanday malham tayyorlash hamda ulardan qanday foydalanish haqida so'z yuritgan.

Asar ushbu jumlar bilan tamomlangan[16: 126b v]:

تمام شد رسالهء تحفة الخانى باذن الملك الوهاب ، كاتبه الراجى محمد بخارى هجرى والله اعلم  
بالصواب

(Tarjimasi: «Tuhfatu-l- Xoniy» risolasi al-Malik (Podshoh), al-Vahhob (Bandalariga ko‘p-ko‘p ne‘matlar hadya qilguvchi Alloh ta‘olo)ning izni ila nihoyasiga yetdi. Kotibi: ar-Rojiy Muhammad Buxoriy Hijriydir. To‘g‘risini biluvchi Alloh ta‘olodir! )

Biz hozirda «Tuhfatu-l- Xoniy» asarining matn va tarjimasining ilmiy-izohli nashrini amalga oshirishga kirishganmiz.

3. Yaqinda Hirot shoirlari she‘rlari asosida tuzilgan bayozlar to‘plamini tadqiqi asnosida Aliy Safiy qalamiga mansub bir g‘azalga duch kelindi.

№1023 inv. raqam ostida saqlanayotgan “Majmu'a-i bayoz” («Bayoz(lar) to‘plami»)ning 140a-140b varaq hoshiyasida “G‘azal-i Mavlono Faxruddin Aliy mutaxallas ba-Safiy” (غزل مولانا فخر الدين علي متلخص بصفي) sarlavhasi ostida shoirning bir g‘azali keltirilgan bo‘lib, u quyidagi misralar bilan boshlangan:

الهي در ديار محنتم حشمت پناهي ده  
ز درد داغ عشقم تاج تخت پادشاهي ده

G‘azal ushbu misralar bilan yakun topgan:

صفي را زير بار محنت مال هما مفكن  
ز مشكين طرهء بحب سياهش ختم شاهي ده

Mazkur g‘azal jami sakkiz bayt, ya‘ni o‘n olti misradan iborat. G‘azal matnining transkripsiyasini to‘liq holda e‘tiboringizga havola qilamiz:

*Iloho, dar diyor-i mehnatam hashmat panohiy deh,  
Zi dard-u dog‘-i ishqam toj-u taxt-i podishohiy deh!  
Saholor kun dar mulk-i jonam zi sitam-i g‘am- ro,  
Dar fash-i kovyon az dud-i oh sabuhgohiy deh!  
Dil-i afsurda-am, shu‘la-i shom tajalliy kun,  
Charog‘-i murda-am, rahbar Tu, nur-i Ilohiy deh!  
Ham ovoz-i xurus-i Arsh-i Ilohiy, be-navo yod kun,  
Man hastam ham-zaboniy bo-kabutar, noy-i johiy deh!  
Agar moyil-i surx-zard biyni tab‘-i sho‘xam lol,  
Sar-i shakk ba-man lutf kun, siymoy-i kohiy deh!  
Man muhr-i xamush ba-ro‘yon az sharm-i isyonam,  
Shikoyatho zi xud doram, zaban-i uzr xohiy deh!  
Namedonam, chi xohad dilam, to az Tu dil xoham,  
Ba-har chize-ki, doni “lo yaqum”, xohiy, xohiy deh!  
Makun sharmanda dar ruz-i Jazo az rahmat-i xushem,  
Agar jurmam namebaxsham ba-umidam guvohiy deh!  
Safiy-ro zer-i bor-i minnat-i mol hama mafkan,  
Zi-mushkin tarra-i ba-hubb-i siyohshor xatm-i shohiy deh!*

G‘azalda she‘riy san‘atlardan, shuningdek, balog‘at va fasohat uslubidan unumli foydalanilganini ko‘ramiz. Yuqoridagi baytlarning ma‘no tarjimasi qisqacha quyidagichadir:

Iloho, mashaqqat diyorumda menga ulug‘vor omonlik ato qil,

Dardmand dilimdan dog‘lik ishqingga sultonlik toj-u taxtin-shon ato qil!  
 Jon mulkimdagi barcha g‘am-sitamlarimni yengil ayla,  
 Tong ohim nafhasi (ohi)dan menga bir yalov-najot ato qil.  
 Afsurda dilman (mahzun qalbman), shom shu‘lasida tajalliy ayla,  
 So‘ngan chirog‘dirman, rahbar - Sen O‘zing, Ilohiy nur ehson qil!  
 Arsh jarchisi (Isrofil) ovozi (ila), Iloho, men be-navoni yod et,  
 Men kabutarga tildosh (zikrdosh)dirman, umrboqiy nay ato qil!  
 Agar sho‘x ta‘bim qizil-sariqqa moyil ko‘rsang, hayrat,  
 Taradduddadir boshim, menga o‘z lutfing-la ruxsor-i somon ato qil!  
 Isyonim sabab sharmandaman, boshim egik, bosh qoldirib boqolmasman,  
 O‘z (nafs)imdan shikoyatlarim bor, uzr so‘raguvchi zabon ato qil!  
 Bilmasman, qalbm Sendan nima xohlar, men Sendan Dil istarman,  
 Har narsani bilguvchi Zot faqat O‘zing, istasang xohish ato qil!  
 Mahshar Kuni sharmanda qilma, rahmating umidi ila xush (xotirjam)dirman,  
 Jurm(gunoh)im kechilmasa, holim nechuk bo‘lg‘ay, umidimga guvohlik ber!  
 Iloho! Safiyni g‘am yuki ostida ezik qoldirma, rahm ayla unga,  
 Mushkin (mushkli) ishqing hurmatidan Shohona Yorliq ato qil!  
 Bizning taxminimizga ko‘ra, ushbu manzuma Aliy Safiyning “Devon”idan olingan.

Mazkur g‘azal munojot usul-uslubida bitilgan bo‘lib, g‘oyat mazmundordir. G‘azalda tasavvufona ramziy ma'nolarga ham ishoralar mavjud.

Ushbu g‘azal Aliy Safiyning, haqiqatan, iste'dodli shoir bo‘lganiga dalolat qiladi. Zero, Alisher Navoiy “Majolis un-nafois” asarida Aliy Safiyning shoirlik iste'dodini e'tirof etgan va ijodkorning bir g‘azali matla'sini, ya'ni ilk baytini misol qilib keltirgan [18:132].

”Rashahot”da bayon qilinishicha, Aliy Safiy quyidagi qit'ani Mavlono Abdurahmon Jomiy bilan boja bo‘lgani sharafiga bitgan:

**Qit'a.** *Du kavkab-i sharaf az burj-i Sa'd millat-u din,*

*Tulu' kard-u bar omad basoni durri sadaf.*

*Az-on yake ba-ziyo gasht bayt-i orif-i Jom,*

*Az-in haziz va bol-i Safiy shud avj-i sharaf.*

(*Mazmuni:* Ikki sharaf yulduzi millat va dinning baxtiyorlik burjidan,

Dur sadafdan chiqqan kabi nur sochib chiqdi.

Ulardan biri Jom orifi uyining nuri bo‘ldi,

Bu nasibadan Safiyning qanoti sharaf cho‘qqisiga yetdi) [8:212].

Mazkur misralardan shoirning o‘z taqdiridan mamnun bo‘lgani va o‘z iqbolidan iftixor qilgani yaqqol seziladi.

Shu o‘rinda bir mulohaza: nahotki, Aliy Safiy o‘z manzumalaridan “Devon” tuzmagan bo‘lsa?! Axir, ijodkorning barcha asarlarida kelgan g‘azallari, qasidalari, ruboiylari, qit'alari, fardlari jamlansa, mukammal bir “Devon” bo‘ladi-ku!

Haqiqatan, bizning ojizona fikrimiz va taxminimizga ko‘ra, shunchalik ko‘p manzuma bitgan shoirning “Devon” tuzmasligi, ya'ni uning “Devon”i bo‘lmasligi mumkin emas.

Afsuski, hozirgacha Aliy Safiyning “Devon”i topilgani yoq. Galdagi muhim vazifa ijodkorning ana o‘sha nodir “Devon”ini topishdan iborat bo‘lmoqda.

Faxruddin Aliy Safiy Koshifiy Hiraviyning barcha ilmiy-adabiy merosi qatorida uning yangi topilgan «Sharh-i Masnaviy», «G‘azal-i Aliy Safiy», «Tuhfatu-l-Xoniy» asarlari ham badiiy-estetik talablarga to‘la javob beradigan badiiyatning yuksak namunalidir. Bu asarlarning har birida ijodkor ma‘lum bir adabiy, tasavvufiy-irfoniy tushunchalarni novatorona yondoshuv, ya‘ni yangicha ma‘no va mazmun-mohiyat bilan yorqin ochib berishni o‘z oldiga maqsad qilgan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Алишер Навоий. Ўн беш томлик асарлар. Ҳазоинул-маъоний. Фаройибус-сифар. I-том. Нашрга тайёрловчи Ҳ. Сулаймон. – Тошкент, 1963.
2. Латойиф ат-тавойиф: لطائف الطوائف ЎЗР ФА ШИ, Қўлёзма: № 3655.
3. Ҳирз ал-амон мин фитан ал-замон: حرز الامان من فتن الزمان ЎЗР ФА ШИ, Қўлёзма: № 9423.
4. Одоб ал-асҳоб: آداب الاصحاب ЎЗР ФА ШИ, Қўлёзма: № 11726.
5. Рашаҳот: رشحات عين الحيات Техрон – “Кутубхонайи мажлис-и шўрои миллий” қўлёзмалар бўлими (Техрон КМШМ). Қўлёзма: №1384.
6. Рашаҳот: رشحات عين الحيات ЎЗР ФА ДАМ, Қўлёзма: № 33.
7. Рашаҳот таржимаси: رشحات عين الحيات ترجمه ЎЗР ФА ШИ, Қўлёзма: № 632.
8. Рашаҳоту айнил-хаёт: رشحات عين الحيات Нашрга тайёрловчилар: М.Ҳасаний, Б. Умрзоқ.- Т.: Абу Али ибн Сино, 2004. -534б.
9. Навоий асарлари луғати. Алишер Навоий асарлари ўн беш томлигига илова. Тузувчилар: Порсо Шамсиев, С.Иброҳимов. -Т., 1972.
10. Рустамий А. Ҳазрат-и Навоийнинг маънавий олами. – Т., 2014.
11. Умрзоқов Б. Фахруддин Алий Сафийнинг илмий-адабий мероси ва унинг «Рашаҳот» асарининг қиёсий-текстологик тадқиқи. – Т.: Нурафшон, 2019. - 203 б.
12. Латойиф ат-тавойиф: لطائف الطوائف – Техрон, 1373 /1953.
13. Неъматов М. С. «Рашаҳоту айнил-хаёт» Фахруддина Али Сафи и его литературно-мистическое значение: 10.01.03. Автореф. дисс. канд.филолог.наук. – Худжанд, 2009.
14. Саидмукаррам Абдукодирзода. Ҳусайн Воизи Кошифи ва суннати тафсиригори Қуръон ба забони форсии тоҷикӣ (асрҳои X –XI). Автореферати диссертасия барои дарёфти дараҷаи илмии доктори илмҳои филологӣ аз рӯйи ихтисоси 10.01.01. –Адабиёти тоҷик. Душанбе -2020.Б.13.
15. КАТАЛОГ фонда института рукописей. II Том. – Т.: изд. Инс-та рукопис. Им.Х.С.Сулейманова АН УзССР, 1988. – С.118.
16. Тухфату-л-Хоний: تحفة الخاني ЎЗР ФА ШИ, Қўлёзма: №2621/ XI.
17. КАТАЛОГ фонда института рукописей. II Том. – Т.: изд. Института рукопис. Им.Х.С.Сулейманова АН УзССР, 1988.
18. Мажолис-ун нафоис. 12-жилд. -Т.:1966.
19. Мавлоно Фахруддин Алий Сафий. Латойиф ат-тавойиф: -Техрон: 1373 /1953.

20.

الدلالات الواضحات على دلائل الخيرات و شوارق الانوار فى ذكر الصلاة على النبي المختار للامام ابى عبدالله محمد بن سليمان الجزولي ،

، تاليف: يوسف بن اسماعيل النبهانى، هـ 1433 – م 2012، نسخة مكة المكرمة

21.Kara, Mehmed. Yeseviyenin temel kitabı «Cevahiru-l-ebrar min emvaci-l-bihar». / AHMED-I YESEVI – Hayati, eserlari, tesirlari. – Istanbul, 1996. «Seha», – S.256.

21.TÜRKIYE YAZMA ESERLARI TOPLU KATALOGU. – Ankara, 1994.

## БАДИЙ АДАБИЁТДА ФОРСЧА ЎЗЛАШМАЛАРНИНГ ҚЎЛЛАНИШИ

(“Фарход ва Ширин” достони мисолида)

*Сойинов Сунатулла Норматович,  
ЖДПИ доценти, ф.ф.номзоди*

Алишер Навоий ўзининг “Фарход ва Ширин” достонида форсча ўтган замон феъл ўзакларига нисбатан ҳозирги замон феъл ўзакларини кўпроқ қўллаган, чунки форсча ҳозирги замон феъл ўзаклари ўзбек адабий тилига сўзлашув нутқи орқали ўзлашган ўтган замон феъл ўзакларига нисбатан кўпчиликни ташкил этади ва ҳозирги ўзбек адабий тилида ҳам ўзлашма сўз сифатида ўзбек адабий тили феълларига эквивалент тарзида қўлланиб келинмоқда. Биз мана шундай сўзларни форс тилида, асар тилида ҳамда ҳозирги ўзбек адабий тилида ифодаладиган маъноларини тилшунослик нуқтаи назаридан илмий-қиёсий ўзганишни ўз олдимизга мақсад қилиб қўйдик.

Ўрганишимизча, шоир “Фарход ва Ширин” достони тилида форсча 50 дан ортиқ феълнинг ҳозирги замон феъл ўзагини турли хил феъл шакллари ўрнида қўллаганки, шулар асосида кўпроқ дostonдаги қофия ва вазн мослигини таъминлаган. Чунки форс тили шундай бир хусусиятга эгаки, феъл ўзаги гапларда ёки байтларда қўлланиб, тўлиқ бир феъл шаклининг лексик маъносини ифодалайди. Шу сабабли ҳам форсча сўзлар арабча ва ўзбекча сўзларга нисбатан вазнга мослашиш имкониятига кўпроқ эга. Шунинг учун ҳам форс тили назм тили деб бежиз айтилмаган. Шу сабабли Алишер Навоий ҳам унинг салафлари ҳам форсча феълларни ўз асарлари тилида кўпроқ қўллашга ҳамда улардан кўпроқ истифода этишга ҳаракат қилганлар ва улардан фойдаланганларки, асарлари тили мусиқий ва чиройли ҳамда жозибатор чиққан.

Шу қатори, Алишер Навоийнинг “Фарход ва Ширин” достони тили ҳам форсча сўзлар ва кўпроқ феълларнинг ҳозирги замон ўзаклари ҳисобига шаклан ихчам бўлсада, пурмаъно, халқчил, шунингдек, фалсафий ҳолатда вижудга келган.

Масалан:

Танига заъф ғолиб кўрмайн ранж,



Вале жавфи аро юз маънавий ганж (6-бет).

Кўруб айтурда ранжи бениҳоят,

Қилиб ҳарне эшитканни ҳикоят (81-бет).

Бировга етса эрди чархдин ранж,

Бу андин кўп бўлур эрди аламсанж [1;228].

Ўрганишимизча “Фарҳод ва Ширин” достони тилида форсча “ранж” феъл ўзаги 60 мартага яқин қўлланилган, биз булардан намуна сифатида учтасини келтирдик. “Ранж” форс тилида “ранжидан” феълнинг ҳозирги замон ўзагидир. Бу феъл лексик жиҳатдан “ранжимоқ, хафа бўлмоқ” каби маъноларни ифодалайди. Мазкур феълнинг ҳозирги замон ўзаги “ранж” эса форс тили нуқтаи назардан ҳеч қандай маънога эга эмас, чунки у ҳеч бир шахс ва сонда ҳисобланмайди. Лекин шеърларда юқорида таъкидлаб ўтганимиздек, форсча “феъл” ўзаги кўпроқ вазн ва қофия мослигини таъминлаш мақсадида ушбу феълнинг бошқа бир шакллари ўрнида қўлланилади ва ўзак эмас ўша назарда тугулган сўз маъносини ифодалайди.

Биринчи байтда ишлатилган “ранж” асосан, қофия мутаносиблиги учун қўлланилган. Чунки биринчи мисрада “ранж” иккинчи мисрада эса қофияни бир-бирига мослаш учун “ганж” сўзи ишлатилган. Биринчи мисрадаги “ранж” феъл ўзаги бўла туриб, ўзбек тилидаги феъл асосларига қўшилиб, улардан от сўз туркумига мансуб бўлган лексема ҳосил қилувчи –чилик сўз ясовчи қўшимчаси воситасида ясалган ясама от маъносида қўлланилган.

Буни байтнинг мазмунидан англаб олишимиз мумкин.

Таънига заъф ғолиб кўрмайин ранж,

Вале жавфи аро юз маънавий ганж.

Байтнинг мазмуни:

Жисмида заифлик ғолиб келиб қийинчилик кўрмаганлиги билан лекин унинг руҳи ичида юз маъноли бойлик бор.

Биринчи байтнинг маъносига эътибор қаратадиган бўлсак, байтдаги феъл ўзаги “ранж” ўзбек тилидаги феъл асосига қурилган “қийинчилик” сўзи, яъни ясама от ўрнида ишлатилган ва айнан, шундай маънони ифодалаб келмоқда.

Иккинчи байтга тўхталадиган бўлсак мазкур байтда ҳам “ранж” сўзи қўлланилган. Ушбу байтда мазкур феъл ўзаги ўзбек тилидаги феълнинг ҳаракат ёки ҳолат номини билдирувчи –иш қўшимчаси воситасида ясаладиган шакли “қийналиш” сўзи ўрнида қўлланилган.

“Ранж” феъл ўзагининг айнан, шу маънода келганини байтнинг мазмунида кўрамыз.

Иккинчи байт:

Кўруб айтурда ранжи бениҳоят,

Қилиб ҳар не эшитканни ҳикоят.

Мазмуни:

Кўриб айтиладиган бўлса, унинг қийналиши ниҳоясиздир.

У нима қилган бўлса ҳам эшитилган воқеа ҳикоя қилинмоқда.

Намуна сифатида келтирилган байтларнинг учинчисида ҳам феъл ўзаги худди иккинчи байтдаги маънода, яъни феълнинг ҳаракат ёки ҳолат номини билдирувчи шакли маъносида ишлатилган. Бунга “ранж” сўзининг байтда ифодаланган маъноси асос бўла олади.

Байт:

Бировга етса эрди чархдин ранж,  
Бу андин кўп бўлур эрди аламсанж.

Мазмуни:

Бировга фалақдан қийналиш буюрилган бўлса, бу тикилган аламдан ҳам кўп бўлар эди.

Демак, ушбу байтдаги “ранж” ҳам “қийналиш” сўзи, яъни феълнинг ҳаракат номини ифодаловчи шакли лексик маънода қўлланилган. Шунингдек, асар тилида яна ҳозирги замон феъл ўзакларидан “соз” 46 марта турли хил феъл шакллари ўрнида ишлатилган ва мазкур сўз асар тилига ва унинг мазмунига ўзига хос тарзда кўшимча маъно бағишлаган:

Кўп асфар лавн соз эти замона,  
Кўрунди зарварақ, эрди забона (28-бет).

Асардан иқтибос сифатида келтирилган байтда форсча “сохтан” феълнинг ҳозирги замон ўзаги “соз” ўзбек адабий тилидаги “этмоқ” “этди” билан кўшма феъл шаклида келган. Форсча “сохтан” феъли “курмоқ” маъносини ифодалайди. Форсча феъл ўзаги “соз” билантўлиқсиз феъл “этти” бирикиб “соз этти” шаклида ўзбек тилидаги “курмоқ” феълнинг яқин ўтган замон III шахс бирлик шакли “курди” сўзи ўрнида ишлатилган ва айнан, шу маънода қўлланилган. Аслида “сохтан” феълнинг ҳозирги замон ўзаги “соз” ўзбек тилида “кур” каби маънони ифодалайди. Форсча феълнинг “соз” шаклидан шоир мазкур мисрада асосан, вазн мутаносиблигини таъминлашда фойдаланган. Агар ушбу мисрада ўзбекча “курди” каби феъл ишлатилганда эди, вазнда номутаносиблик вужудга келган бўлар эди.

Юқорида таъкидлаб ўтганимиздек, шоирларимиз форсча феъл ўзакларидан асосан, шеърларда вазн мутаносиблигини ҳамда маъно узлуксизлигини таъминлашда фойдаланганлар. Алишер Навоий ҳам шулар жумласидандир. Бунга мазкур “соз” феъл асосининг байтда ифодалаган маъноси тўлиқ асос бўла олади.

Байт:

Кўп асфар лавн соз этти замона,  
Кўрунди зарварақ, эрди забона.

Мазмуни:

Тилла ранг қилиб замонни курди.  
Тили ҳам тилла ранг бўлиб кўринди.

Биринчи мисранинг мазмунидан кўриниб турибдики, ўзбек тилидаги “этти” феъли фақатгина III шахс бирлик шахс-сон кўшимчаси “ди” маъносини, “соз” эса “кур” маъносини ифодалаб ҳар иккаласи “курди” сўз маъносида қўлланилган.

Иқтибос сифатида келтирилган иккинчи байтнинг мазмунига эътибор қаратадиган бўлсак, мазкур байтда ҳам “соз” форсча феъл ўзаги иккинчи байтдаги каби ўзбекча “этмоқ” феъли билан бирикиб, кўшма феъл шаклида қўлланилган. Ушбу кўшма феъл таркибидаги “соз” феълнинг етакчи қисми бўлиб, “этмоқ” эса кўмакчи қисмидир. “Соз этмоқ” кўшма феъли тузилишига кўра феъл+феъл тарзида ясалган бўлиб, байтда ноаниқ шаклида қўлланилиб, маъно жиҳатидан ўзбек тилидаги феълнинг ҳаракат ёки ҳолат номини билдирувчи шакли, маъносида яъни “қурилиш” сўзи ўрнида ишлатилган.

Бунга байтнинг мазмуни тўлиқ асос бўла олади.

Байт:

Сув узра гунбази гардун ҳисоби,  
Анга соз этмоқ андоқким хубоби.

Мазмуни:

Осмон худди сув гунбазига ўхшайди,  
Унинг қурилиши бир пуфакка ўхшайди.

Хулоса қилиб шуни айтишимиз мумкинки, биз “Фарҳод ва Ширин” достони тили мисолида Алишер Навоийнинг форсча ўзлашма сўзлардан истифода этиш маҳоратини аниқладик, шунингдек, худди шундай сўзлар ҳисобига шоир ўз асарлари тили ифода имкониятини ҳамда унинг жозибадорлигини таъминлаганлигини гувоҳи бўлдик.

Бундан ташқари биз дoston тилида қўлланилган айрим форсча ҳозирги замон феъл шакллари ҳам аниқландик, шунингдек, уларни худди шундай лексик маънони ифодаловчи ўзбек адабий тили феъллари билан лексик ва грамматик жиҳатидан илмий-қиёсий таҳлилини амалга оширдик.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Фарҳод ва Ширин. Алишер Навоий. Нашрга тайёрловчи: Афтондил Эркинов. Тошкент. 1989.

### **АБДУЛЛА ҚАХҲОР МОҲИР СЎЗ САНЪАТКОРИ**

*Алмаматова Шахноза Турсунқуловна,  
ЖизПИ доценти, ф.ф.номзоди*

Бадиий тил, бадиий тафаккур инсоният билан ҳамиша бирга. Тилда мавжуд бўлган ҳамма бирликлар умумхалққа хизмат қилиб, унинг сўзлашув тилини, адабий меъёрларини ва бадиий тилини шакллантиради.

Маълумки, бадиий адабиётнинг тили бадиий тилдир. Ижодкор она тили деган она каби “беминнат, иддаосиз хизматкор”дан истаганча фойдаланади, ўз ижод маҳсулини юзага келтиради. Ана шу жараёнда тилнинг айтиш мумкин бўлса, сир-синоати, жозибаси, руҳий-ижтимоий таъсир кучи бўй кўрсатади ҳамда ижодкорнинг кимлигини, маҳоратини, салоҳиятини ўзининг халқига намоён қилади.

Буларни амалга оширишда юртимиз Мустақиллиги кенг йўл очди. Мустақиллик ҳаётимизнинг ҳамма жабҳаларида том маънодаги ижодий эркинликни, ижодкорликни, Ватан ҳиссини туйишни, миллий қадриятларни онгли англашни, бир сўз билан айтганда, тафаккур тараққиётини берди.

Биринчи Президентимиз И.А.Каримов “Юксак маънавият-енгилмас куч” асарида таъкидлаганидек, “Халқимизнинг турмуш ва тафаккур тарзига назар ташлайдиган бўлсак, бошқаларга ҳеч ўхшамайдиган, минг йиллар давомида шаклланган, нафақат ўзаро муомала, балки ҳаётимизнинг узвий бир қисми сифатида намоён бўладиган бир қатор ўзига хос хусусиятларни кўрамиз” [1:8].

Ана шу ўзига хосликлар ҳар бир ижод соҳибининг асарларида намоён бўлади. Биз учун дардли тарих бўлиб қолган ўтган асрдаги халқимиз бошидан кечирган “маънавий хангомалар” ҳар қандай ижодкорнинг қўлини ва қалбини титратган ҳолда гавдаланади. Ана шундайлардан бири ва етакчиси Абдулла Қаҳҳор деб кўрсатсак хато бўлмайди.

Ижодкорлар томонидан яратилган бадиий асар тили ўрганиш бўйича йирик-йирик тадқиқотлар қилинган ва қилинмоқда. Тилимиздаги бундай изланишлар сабаби тил оламининг охирига етиб бўлмас бир уммонлигидир. Унинг унсурларидан ҳар бир ижодкор имкониятига қараб танлаб олади, шу орқали ўзининг ижод маҳсулини намойиш қилади. Тилимизнинг ана шундай бўй-бастини, залворини, имманенти (ўзига хослиги)ни кўрсатувчи соҳир санъаткорлардан бири Абдулла Қаҳҳордир.

Ижодкор ҳикояларининг тили тилимизнинг 70–80 йиллар олдинги ҳолатидан гувоҳлик беради. Ҳикояларда қўлланган айрим бирикувлар диалектал характерда бўлса, айримлари эскириб бормоқда, уларнинг ўрнида янги конструкциялари қўлланмоқда, бугун кечанинг шогирди дейди донолар: Масалан, кун юриш (шарқ), ётиб қолган (ишламайди, фаолият кўрсатмайди), яхши юрмайди (телефон), муҳаббатни чиритмоқ, кўнгли шамолламоқ (ўпкагина хабардан), кир шуъла, ҳар бир дарахт дор, билаги билан бурнини артмоқ, уч-тўрт сув ювилган, қаттиқ малол келмоқ, оғзини икки елкасига артмоқ, бир уйқуни олиб турган каби.

Абдулла Қаҳҳор асарлари (ҳикоялари) тили том маънодаги урф-одатлар, руҳий-маънавий кечинмалар, миллий қадриятлар тарихидир. “Тарих – фаолиятимиз хазинаси, ўтмиш гувоҳи, бугунги кун учун ибрат ва ўғит, келажак учун эса огоҳлантириш” (Сервантес) бўлар экан, ёзувчи ҳикоялари қаҳрамонлари воситасида миллийликни, миллий тилимизни намойиш қилди.

Айтадиларки, ижодкор шахси ва ахлоқ-одоби қай даражада бўлса, у яратган образларда ўз ифодасини топади. Тарих ва ҳозирги замон илмининг билимдони Н.Комилов (охирати обод бўлсин) “Тасаввуф ва комил инсон ахлоқи” номли асарида сифатлаганидек: “... унинг (комил инсоннинг) олий орзуси – оламни ҳам, ўзини ҳам нуқсонлардан холи ҳолда тасаввур этиш, инсонни нуқсонлардан халос этиш” [2:164]. бўлганидек, ҳикояларида тасвирланган воқеа-ҳодисалар, яратилган образлар ўша даврларда (ҳикоялар воқеалари юз берган) эришилган ютуқларни, муваффақиятларни табиий

ҳолда, тилмизнинг дуру жавоҳирларидан терган ҳолда эътироф этиш, меъёр даражасида тасвирлаш ва ўрни билан ҳаётимиздаги нуқсонларни бартараф этишга қаратилган.

Абдулла Қаҳҳор яратган бу жавоҳирлар тилини ўрганиш, тадқиқ, таҳлил қилиш мутахассислар олдида турган қарздорлик бурчидир. Ёзувчи асарларининг тил хусусиятларига бағишланган саноклигина тадқиқот ишлари яратилган. Ёзувчи ҳикояларининг луғавий қатламларини адабий тил меъёрларига қиёсан ўрганиш, уларда муаллиф позициясининг юзага чиқишида сўзлашув тилига, халқ шеваларига доир конструкцияларнинг ролини аниқлаш; халқимизнинг ўзига хослигини, тафаккур тарзини англашда бадий ўхшатишлар, метафорик, метонимик, эвфемистик кўчимларнинг ўрни ва аҳамиятини аниқлаш, шунингдек, синонимлар (семантик синонимлар ва функционал синонимлар) воситасида тилимизнинг жилоланишини, луғавий маъно қирраларини тадқиқ қилиш ҳозирги долзарб масалалардандир. Хусусан, ёзувчи ҳикояларида, айниқса, дастлабки ҳикояларида халқимиз бошидан кечирган иқтисодий-маънавий азобларни баён қилган ва уларга мос келадиган бадий-стилистик ифодаларни ўринли, тиниқ қўллаган. Масалан: “Бемор” ҳикоясида ана шундай оғир, жуда ҳам оғир кунлар тасвирида: Буларнинг ҳаммаси, албатта, пул билан бўлади. Бундай вақтларда *йўгон чўзилади, ингичка узилади*. (“Бемор”, 1-том, 56-бет). Метафорик қўлланган “йўгон чўзилади, ингичка узилади” мақоли кўли калта, осмон йироқ, ер қаттиқ бўлган замонлардан даракчи. Мақолга мос ҳолда ҳикоя қаҳрамонининг ҳам исми Сотиболди. Мақолнинг мажозий маъноси: “Бой бирданига камбағаллашиб, ҳоли хароб бўлиб қолмайди, камбағал эса арзимаган кичкина муваффақиятсизлик оқибатида ҳам қаттиқ азоб чекади” демоқдир [3:196]. Аслида бу мажоз халқимизнинг моддий қийинчиликда, оғир аҳволда яшаган даврини бадий ифодалашга хизмат қилган. Мақол – халқ томонидан яратилган бўлиб, панд-насихат мазмунидаги ихчам, образли ибора. Ҳар қандай мақол бизни кўпгина янги атама (сўз)лардан, узундан – узок шарҳ, исботлардан сақлайди.

Абдулла Қаҳҳор асарлари, хусусан, ҳикояларининг тил хусусиятлари, яъни тил унсурларининг бадий стилистик мазмунни ифодалашдаги иштироки муаммолари алоҳида объект сифатида монографик тадқиқ қилинган эмас. Бу улкан санъаткорнинг асарлари тилини бадий-стилистик, лингвопоэтик жиҳатдан ўрганиш бадий тил тараққиётида катта аҳамият касб этади. Бу йўналишда, тадқиқот ишлари қилинган, диссертациялар ёқланган, илмий мақолалар чоп этилган. Бу борада И.Қўчқортоев, Р.Қўчқортоева, Н.Маҳмудов, А.Ҳасанов ва бошқаларнинг олиб борган тадқиқотлари характерлидир. Лекин булар ёзувчи асарлари тилини мукамал камраб олган эмас.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. Тошкент, “Маънавият” нашриёти, 2008 йил, 8-бет.



2. Комилов Н. Тасаввуф. Тошкент, “Ёзувчи” нашриёти. 1996 йил, 164-бет.
3. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Ҳикматнома. Ўзбек совет энциклопедияси бош редакцияси. Тошкент, 1990, 196-бет.

## ДЎМБИРАМ МАҚТОВИГА БАҒИШЛАНГАН ТЕРМАЛАР

*Турсунқулов Аббос,  
ЖДПИ доценти, филология фанлари номзоди*

XX аср бошларида гуркираб ривожланган дostonчилик анъаналари ўз ички қонун-қоидаларига эга эди. Халқ бахшилари дostonчиликни бошлашдан олдин ўз дўмбираларини таърифлаб мақтар ва шу билан овозни созга мослаштирарди. “Кунларим”, “Дўмбирам”, “Дўмбирам овози”, “Нима айтай?” каби термалар ана шундай дostonчиликка кириш термалари ҳисобланади.

Ўзбек халқ оғзаки ижодида ҳар бир жанр воқеликни қамров доираси, тематикаси, композицион қурилиши, умуман, специфик хусусиятларига кўра бир-бирдан ажралиб туради. Буни терма жанри мисолида ҳам айнан кўришимиз мумкин.

Терма ўзбек фольклорининг мустақил жанри бўлиб, унинг яратилишида бахшиларнинг роли ниҳоятда каттадир, кўпчилик ҳолларда улар дostonчиларнинг индивидуал ижоди ҳисобланади. Панд-насихат, одоб-ахлоқ, соз ва сўз ҳақида яратилган, ижтимоий ҳаётдаги турли ҳодисалар, шахс ва жониворларнинг таърифи ёки танқидига бағишланган, бахшилар томонидан куйланадиган ўн-ўн икки сатрдан юз эллик-икки юз, баъзан ундан ҳам ортиқ мисрагача бўлган лирик, лиро-эпик шеърларга термалар дейилади.

Терма сўзининг маъноси териб, танлаб тизиш демақдир, яъни нисбий мустақилликка эга бўлган, форма ва мазмун жиҳатидан бир-бирига яқин бандларни (ҳар бир банд уч, тўрт, беш, олти ва ундан ортиқ мисралардан иборат бўлиши мумкин) композицион жиҳатдан яхлитлаштиришдир. Бахшиларнинг ўзлари ҳам “Терма шу, териб айтиб берасан” дейдилар. Улар баъзан “Нима айтай?” термасини “дoston териш” деб ҳам юритилардики, бу ҳам юқоридаги фикрни тасдиқлайди. Термада ижро давомида айрим бандларнинг қўшилиши ёки ўрин алмашиши, баъзи бандларнинг тушиб қолиши мумкин” [1;148].

Янги ижтимоий воқеликни бадий тасвирлашда термалар халқ ижодининг бошқа жанрларига нисбатан анча қулай ва ихчам саналади. Шу сабабли термалар давр талабига ҳозиржавоб асарлардир. Уларнинг мавзу доираси ранг-баранг бўлиб, тематик жиҳатдан бир неча турларга бўлиш мумкин. Булар орасида автобиографик термалар энг кўп тарқалгандир. Автобиографик термалар бахшилар биографияси билан боғлиқ. Бу типдаги термаларнинг характерли намуналари қаторидан “Дўмбирам” термалари муносиб ўрин олади. Термаларнинг ўзига хос хусусиятларидан бири уларнинг бевосита дoston куйлаш жараёни билан боғлиқлигидир. Бахши

достончилик ўтиришларида аудиториянинг кайфияти, ёши, составини ҳисобга олиб, дастлаб уларга мос келадиган термалардан куйлайди. Кўпчилик ҳолларда “Дўмбирам” термасини куйлаш билан достончилик йиғинлари бошланган. Бунда бахши ўз дўмбираси (баъзан дутори ёки кўбизи)ни бир суҳбатдошдай жонлантириб, тингловчиларга ўзини танитади ва жиддий асар – достон тинглашга уларни ҳозирлайди. Термада сюжет икки йўналиш бўйлаб ривожлантирилади. Биринчидан, бахши дўмбира мақтовини берса, иккинчидан, ўз ҳаётининг баъзи қирралари ҳақида ҳикоя қилади.

“Дўмбирам” термалари деярлик барча бахшилар репертуарида мавжуд. Улар ўртасида умумий муштарак томонлар бўлиши билан бирга, алоҳидалик ҳам борки, бу хусусият у ёки бу бахшининг индивидуал ҳаёт тарзи ва поетик “йўли” билан изоҳланади. Одатда, бу хил термаларнинг барчасида дўмбира тузилишига, унинг қандай материалдан ясалганлигига аҳамият берилади. Масалан, Пўлкан шоир:

Корсонинг зардоли, қопқоғинг тутдан,  
Мақтов билан келдинг Қатоғон юртдан [2:56], -

деб куйласа, Нурмон шоир эса:

Косанг ёнғокдан, бўйининг тутдан,  
Мақтов билан келдинг Ҳисордай юртдан, [2:50].

деб куйлайди. Бу мисралар форма жиҳатдан деярли фарқ қилмайди. Лекин шу формага сингдирилган мазмунда бахшининг биографиясига оид маълумотлар учрайди. Яъни биринчи мисрада дўмбира тузилиши ифодаланса, иккинчи мисрада бахши туғилган қишлоқнинг номи баён этилган.

“Дўмбирам” термасида юмористик моментлар ҳам муҳим ўрин тутаяди. Бунда дўмбиранинг “танқиди” муҳим воситадир. Бу нарса тингловчилар доирасида ширин кайфият, ҳазил-мутойибага шароит ҳозирлайди:

Сени чертиб беш панжам қийилиб,  
Тирноқнинг офати бўлган дўмбирам.  
(Пўлкан шоир).

Ёки:

Қутулмадим сендай ёғоч наймутдан,  
Тирноқнинг офати бўлган дўмбирамь[2:50].  
(Пўлкан шоир).

Бахши наздида дўмбира йиғилган халойиқнинг кўнглини олиши, уларни хушнуд этиши керак. Бунинг учун дўмбиранинг овози яхши чиқиши, торлар эса бахши хоҳлаган мақомда “сайрамоғи” лозим. Ана шунда бахшининг ўзи ҳам дўмбира сеҳрига берилиб, “дарёдай тошиб”, “денгиздай мавж уриб”, “илҳоми жўшиб” тингловчиларни ўзига жалб қилади. Бахши айтганидек:

Мен чертганда чиқабергин юз мақом,  
Довушга қанотим бўлган дўмбирам [2:51].  
(Нурмон шоир).

Ёки:

Гуйинг келса Пўлкан гапни ўйламас,  
Райҳон гулда булбул сенча сўйламас.  
Гулдираб чиқасан файзли кеча.  
Томошалар қилар жами бойбича [2;50].

(Пўлкан шоир).

Бахши ўз дўмбирасига мурожаат этиб, уни мақтайди, йиғилган халққа манзур бўлиши зарурлигини таъкидлайди. Агар дўмбира бахши айтган йўлга кирмаса, яхши сайрамай, овозга жўр бўлмаса, ундай ҳолда ўчоққа солиб ёқишини уқтиради. Бундай “ўч олиш” заминиде бахшининг ўз дўмбирасига бўлган ишончи ётади, яъни дўмбиранинг ҳеч қачон бундай ҳолга тушмаслигига имони комил. Акс ҳолда дўмбира эл кўнглини хушнуд этолмаса бундай дўмбира ўтини ҳам ҳеч нарсага арзимаслиги табиийдир. Буни бахши юмористик тарзда ифодалаб дейди:

Ёриб ёқсам бирор чайдуш қайнамас,  
Сендай ёғоч ўтин бўлган дўмбирам [2;50].

(Нурмон шоир).

Маълумки, дўмбира – бахшининг доимий ҳамроҳи. Ўғир кунларида ҳам, шодлик-қувончли дамларида ҳам унинг овунчоғи ва йўлдоши. Шунинг учун ҳам вақти-вақти билан дўмбирага жило бериб, унинг торларини янгилаб турмоғи табиийдир. Бахши таъбирича, бу билан дўмбиранинг “суяги қизиб”, унинг оҳанги янада авжланади.

Янги тор тортаман, эскингни узиб,  
Тобора чиқасан суягинг қизиб[2;50].

(Нурмон шоир).

Бахшининг дўмбирага жило бериши фақат вақти-вақти билан унинг тортиши ўзгариб туришидагина эмас. Аввало, уни кўз қорачиғидек эҳтиёт қилмоғи, авайлаб сақламоғи, ишлатмоғи, ўз эътиқодига кўра, уни “бегона кўзлар”дан ҳам сақламоғи лозим. Чунки, дўмбира бахши учун беҳад шон-шухрат, обрў-этибор бўлиши билан бирга унинг ризқ-рўзи ҳамдир:

Сен бўлгансан менга адрасу-парча,  
Ялонғочга чопон бўлган дўмбирам [2;50].

(Пўлкан шоир).

“Дўмбирам” термаси бахшининг биографияси, унинг ижодий ва амалий фаолияти билан бирга дostonчилик удумлари билан ҳам боғлиқдир. Шундай удумлардан бири – дoston куйлаш жараёнида “дўмбира тўнкармоқ” ва “рўмол ёзмоқ” маросимининг термада акс этишидир.

Шундай ҳоллар ҳам бўладики, ўтмишда баъзан бахшилар дoston куйлаш жараёнида, унинг энг қизиқ қизиқ жойига борганида ижрони тўхтатиб дўмбирани тўнкарган ҳолда даврандан ташқарига чиқиб кетадилар. Шу пайт даврада ўтирганлар топган тутганларини бир рўмолчага тутиб “бахши ҳақи”ни ўрнига кўяди.

Яъни:

Мен кўяйин сени энди тўнқариб,  
 Ярим кеча ҳадди бўлди жонивор.  
 ...Дамин олиб айтиб берар камин,  
 Рўмол ёзар вақти бўлди жонивор[2;52].

(Нурмон шоир).

Термада дўмбира ва бахши муносабати турли усулларда баён қилинади. Бахши ўз дўмбираси орқали ҳурмат ва эътибор қозонган. Терма бахшининг қандай улуғ, муқаддас жойларда бўлганлиги ва ҳатто ўша жойларда қолдирган “изи” ҳақида ҳам маълумот беради:

Сайр қилиб чиқдим Ноғрон даштини,  
 Шундай ўтиб кўрдим Бегломишини,  
 Бундан ўтиб бориб кўрдим Қаршини,  
 Қаршию Косонни кўрган дўмбирам.  
 (Нурмон шоир).

Москов, Нижний, Қозон, Нўғойни кезиб,  
 Шаҳарни қидириб юрган дўмбирам [2;51].  
 (Пўлкан шоир).

Юқоридаги мисралардан аниқ ва равшанки, бахшилар “Дўмбирам” термаси орқали қайси шаҳарда бўлганликлари, яни сафар таассуротлари ҳақида ҳам қимматли маълумотлар берадилар. Хусусан, Пўлкан шоир 1916 йил Чор Россиясининг фармони билан мардикорликда бўлган пайтларида Россиянинг қатор шаҳарларини кезган.

Бахшилар “Дўмбирам” термасини куйлаш жараёнида традицион куйма мисралардан ҳам ижодий фойдаланадилар. Нурмон шоир терманинг бошланишида дўмбира ясалган материални “Косанг ёнғокдан, бўйининг тутдан” деб бошлаб, кейинги мисрада ўз юртининг номини келтиради. Терманинг давомида эса худди ўундай ўринда, яъни дўмбира ясалган материалнинг номини ўзгартириб батамом янги маънодаги банд тузади:

Жасатинг олчадир, қулоғинг гужум,  
 Сен соз бўлсанг, менинг келар авжим,  
 Носоз бўлсанг олмоққа йўқ иложим,  
 Қиш куни эрмагин, бозорда ҳаржим,  
 Ҳар кечалар бир тўн бўлган дўмбирам [2;50].

Демак, биринчи мисра анъанавий қолипланган бўлиб, унга маълум бир юк юклатилади. Баъзи ҳолларда эса бахши бадиҳагўйлик билан худди шу биринчи мисрадаги туроқлар ўрнини алмаштириш йўли билан янги қофия системасини яратади. Шу орқали форма ва маъно жиҳатдан фарқ қиладиган янги бандлар тузилади. Нурмон шоир эса “Дўмбирам” термасида туроқлар ўрнинигина алмаштириш билан чекланмай, шу мисрадаги ҳижола сонини ҳам ўзгартирадики, бу ҳол табиий равишда дўмбира куйи ва оҳангининг ҳам ўзгача бўлишини таъминлайди:

Қулоғинг гужум, жасадинг олча,

Гулдураб чиқасан файзли кеча,  
Улфатинг сони бордир олтмишча,  
Ҳар мақомга чиқабергин шу кеча,  
Мажлисга косакул бўлган дўмбирам [2;52].

Хуллас, “Дўмбирам” термалари, ўзбек халқ оғзаки ижодиётида алоҳида хусусиятларга эга бўлиб, биринчидан, бахшининг созга овозни монанд қилиши; иккинчидан, дўмбирасининг тарихини ёритиб шу орқали ўз ҳаётининг баъзи қирралари ҳақида ҳикоя қилиши, яъни халққа ўзини таништириш учун восита вазифасини ўташи, учинчидан, дoston куйлаш анъаналарини ўзида мужассамлаштириши билан аҳамиятга моликдир.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Тўра Мирзаев, Халқ бахшилари эпик репертуарининг асосий хусусиятлари, қўлёзма.
2. Ўзбек фольклори, Тошкент, Ўз ССР Давлат ўқув-педагогик нашриёти, 1939 йил.

### **ИСТИҚЛОЛ ДАВРИ ЎЗБЕК КОМЕДИЯЛАРИНИНГ ҒОЯВИЙ-БАДИИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ ЮЗАСИДАН БАЪЗИ МУЛОҲАЗАЛАР**

*Жўраев Муродулла Алишбоевич,  
ЖДПИ доценти в.б., ф.ф.ф.д. (PhD)*

Истиқлол йилларида комедия жанрида бир қанча асарлар яратилдики, улар ҳам ўз навбатида жанрнинг бетакрор табиатини, жанрий хусусиятларини ўзида намоён этди, дейишимиз мумкин.

Мустақиллик даври ўзбек драматургияси ва комедиянавислигида Абдуқаҳҳор Иброҳимов ҳамда Эркин Хушвақтов ижоди алоҳида ўринга эга.

Абдуқаҳҳор Иброҳимовнинг “Арра”, “Зўлдир”, Эркин Хушвақтовнинг “Чимилдик”, “Қаллик ўйин” ҳамда “Қирмизи олма” пьесалари адабиётшунослар ва театршунослар томонидан турлича баҳоланди, бири-бирига зид муносабатларни юзага келтирди.

Биз ушбу ўринда Эркин Хушвақтов ижодига қисқача тўхталиб ўтмоқчимиз.

Адабиётшунос Ҳафиз Абдусаматов Эркин Хушвақтовнинг “Қаллик ўйин” комедияси ҳақида тўхталиб қуйидагиларни ёзган эди: “Масҳарабозлик, сунъий усулда кулдиришга уриниш Эркин Хушвақтовнинг “Қаллик ўйин”ида яққол намоён бўлади. Бу ерда кулдириш учун кулдириш асосий ўринни эгаллайди... Кулги асар мазмунини бойитишга, томошабинларга қувонч бахшида этишга хизмат қилиши керак. Минг афсуски, “Қаллик ўйин” бундай фазилатлардан маҳрум. Оқибатда айрим муаллифлар осон йўлдан бориб, бир хил қолипдаги, енгил-елпи асарларни кўпайтириб юбормоқдалар”.



“Қаллиқ ўйин” комедиясининг бош қаҳрамонлари – Холбика ва Чоннама, бўлғуси келин билан куёв. Асарда худди шу келин ва куёвнинг тақдири, турмуш муаммолари акс эттирилган.

Аслини олганда иккала турмуш қурувчи Холбика ва Чоннама бири-бирига муносиб, иккисининг ҳам ёши ўтинқираб қолган, оила қуришга муносиб номзодлар, тўй осонгина ўтиши мумкин эди, лекин миллий урф-одатларимиз тўйнинг бошидан охиригача ўз таъсирини ўтказмай қўймайди.

“Қаллиқ ўйин” комедиясида ҳам худди шу миллий урф-одат ва анъаналаримиз ҳамда уларнинг келин ва куёв ҳаётига таъсири масаласини очиб бериш асосий мақсад қилиб белгиланган.

“Момо. Чойни тўйингда ичаман.... Қуш қуллуқ бўлсин!

Холбика. Қўйинг ўша “баймоқ” қушингизни.

.....

Холбика. Оқсоқ куёвингизни кўргани кўзим йўқ.

Момо. Унаштирилган йигитингни оқсоқлигини кўрдингми?

Холбика. Йўқ, одамлардан эшитдим.

Момо. Оғзи билан юрадиган одамларни гапига ишонма!

Холбика. Шамол бўлмаса, дарахтнинг учи қимирламайди.

Момо. Бемаза одамларни оғзидан чиққан шамол қимирлатавермайди.

Холбика. Энг яқин дугонамдан эшитдим.

Момо. Ким экан ўша отин дугонанг, оғзини калиш қилиб кияман!

Холбика. Айтмайман! Тегмайман, тегмайман! Тўйни бузаман.” [1-38,

39]

Азал-азалдан қариндош-уруғ, кўни-кўшни, улар орасидаги миш-мишлар ва ғийбатлар инсонлар ҳаётига қанчалар ташвиш келтиргани маълум. Бугунги кун турмуш тарзимизда ҳам бу жиҳат ўз кучини йўқотгани йўқ. Ҳаёт давом этар экан ҳақиқат билан миш-миш ва ғийбатлар ёнма-ён бораверади. Ҳақиқат ва ғийбатнинг фарқига бориш учун инсон озгина мулоҳаза қилиши лозим.

Юқорида қайд қилиб ўтилган турмуш муаммолари асарга асосий мавзу қилиб олинган. Комедияни талқин қилишда яхши актёрларнинг танланиши, режиссёрнинг маҳорати бадиий жиҳатдан пухта бўлмаган сахна асарларига ҳам шуҳрат келтириши мумкин. “Қаллиқ ўйин” ҳам ўз даврида шундай асарлар қаторида эди. Афсуски, бугунги кунда комедия умрбоқийлигини йўқотди, чунки ўша актёр ва режиссёрлар жамоаси мавжуд эмас. Бунинг асосий сабаби комедиянинг бадиий жиҳатдан савияси юқори даражада эмаслиги ҳисобланади.

“Чоннама. Э, чиққанингизни сезмай қолибман! Оҳ қадди-қоматни қаранг, кўллари гурзидай, оёқлари чинордай келади-я. Ойдек юзлари Хоразмнинг зоғора нонидай келади-я, кўзлари ним пиёладек, қошлари бургутнинг қанотидай ўзим орзу қилган қиз. Насиб қилса, қаллиқ ўйиндан кейин Рустамдек паҳлавон ўғиллар туғиб беради. Отингиз нима? (Холбика индамайди) Тунов куни отангиз бозорга кучук етаклаб кетаётган экан. Отангиз кучукфурушми?

Холбика (жаҳли чиқиб). Отам кучукфурушмас!

Чоннама. Пешонамдан айланай, соқов эмас экансиз. Отингиз нима?

Холбика. Холбика!

Чоннама. Юзингизда холингиз йўғу, холингиз қаерда?

Холбика (энсаси қотиб). Кўринмайдиган жойимда!” [2-45]

Қаҳрамонларимиз Холбика 30 ёш, Чоннама эса 35 ёшда. Ушбу диалог уларнинг биринчи учрашувидан олинган. Одатда биринчи учрашган инсонига бундай муомалада бўлмайди ҳеч ким. Чоннама биринчи учрашган куниеқ Холбикага “Оҳ қадди-қоматни қаранг, қўллари гурзидай, оёқлари чинордай келади-я. Ойдек юзлари Хоразмнинг зоғора нонидай келади-я”- деган сўзларни айтиши умуман ҳаёт ҳақиқатига мос келмайди, деб ўйлаймиз.

Асардаги диалоглар бадий жихатдан пишиқ ва образли характерга эга эмас. Унинг ўрнига кўпроқ комедия қаҳрамонлари кўчанинг гапида сўзлашишади. Кулги юзага келтиришда сунъийликка йўл қўйилган.

Эркин Хушвақтовга ўз даврида ҳақиқий маънода шуҳрат келтирган асари “Чимилдиқ” саналади.

Драматург яратган қаҳрамонлар қисмати, тақдири шунчаки, осонгина ҳал бўладиган кечмишлардан эмаслиги, мазкур асар кулги объекти эмас, жиддий мулоҳазалар қилишга чорлайдиган асар эканлигидан далолат беради.

“Чимилдиқ” китобига ёзган сўзбошисида Тоир Исломов қуйидагиларни баён этган эди: - “...комедия деб аталувчи спектаклларга муносабатда кўникма бўлиб қолган, стереотип қарашларга “Чимилдиқ”, “Қаллиқ ўйин”, “Қирмизи олма”, “Андишали келинчак” ва “Эски муҳаббат” спектакллари кўп жихатдан ғайриоддий туюлди. Бу – биринчидан. Иккинчидан, нафақат реал воқеликка, балки умуман бадий ижод жараёнларига нисбатан шўро замониға хос муносабатлардан қутулаолмаган айрим танқидчилар бу асарларни ҳар жихатдан саёз, тутуриқсиз, бачкана деб топишади. Учунчидан, ўзбекларда “Гадонинг душмани гадо” деган қадимги бир мақол кўпинча ўзини кўрсатиб қўяди. Драматургия соҳаси намояндалари орасида ёш ҳамкасбининг ижодий ютуқларини тан олгилари келмайди, деган гаплар ҳам йўқ эмас. Айниқса, Э.Хушвақтов пьесаларининг “кассабоп”лиги айрим ҳамкасбларининг ғашини келтиради. Беайб парвардигор. Бундай ҳолат ҳаётда учраб туради. Аммо театр танқидчилигида масалаға чуқурроқ, кенгроқ ёндашадиган мутахассислар ҳам борлиги драматург ижодига холис ва одил баҳо чиқариш имконини беради.

Санъатшунослик фанлари доктори, профессор М.Тўлахўжаева “Чимилдиқ” спектакли халқ анъаналарига, урф-одат маданиятиға хайрихоҳ ва меҳрли муносабати билан диққатни жалб қилади... Спектакль жиддий ва ихчам. Режиссёрлар эътибори инсоний характерларни очишға қаратилган. Йигит ва қиз бир-бирини тушуниб етадилар, сўнг бир-бирларига меҳр қўядилар. Қиз, йигит қиёфасида ҳаёт йўлида қийинчиликларни енголган муносиб эркани севиб қолади. Йигит эса, ўзининг кўрган-кечирганларини тушуна олган ва қадрига етолган инсон топилгани учун севади”, деб ёзади. Мана сизға Чимилдиқ.” [3-4,5]

Асарнинг асосий қаҳрамонлари Қурбон момо, Куёв, Келин, Ўланчи, Амма, Қайнона, Овсин, Хола, Бува, Қайнота, Тоға, Амаки, Янга ва Қизлар ҳисобланади. Комедия бошида, яъни тўй тасвирида кўпчилик образлар бирикки иштирок этишган бўлишса, ундан кейин асар кўпроқ Момо ҳамда Келин билан Куёвнинг диалогларидан ташкил топган.

Асар куйидагича бошланади:

“Радиодан “Чимилдик” ашуласи эшитилади.

Чимилдикда кўз очиб кўрган ёрим, ёр-ёр,

Тақдир чархи пешонамга ёзган ёрим, ёр-ёр.

Чимилдикда бошимга қўнган қушим, ёр-ёр,

Тангрим менга буюрган ҳалол жуфтим, ёр-ёр.” [4-3]

Ҳақиқатан ҳам, “Чимилдик”да урф-одатларга амал қилиб ота ихтиёри билан турмушга узатилган қиз, ўз тақдиридан қочиб, чимилдикдан кетиб қолишга ҳам тайёр турган келинчак изтироблари акс эттирилади. Тўйдан кейин биринчи марта чимилдикда бир-бирини кўриб турган келин ва куёвнинг ўзаро мулоқотлари чуқур драматизм билан йўғрилган.

Комедияда келин билан куёвнинг гаплашиш услуби, хатти-ҳаракатлари юморга бой, комик тарзда акс эттирилганлиги ўқувчи-томошабинни бефарқ қолдирмайди. Асарга киртилган куёвнинг ривояти ҳам комедиянинг бадиий жиҳатларини бойитиш учун хизмат қилган.

Умуман олганда, “Чимилдик” комедияси ўз даври учун энг томошабоп асарлардан бири саналади. Унда мустақиллик даври комедияларига хос бўлган типик жиҳат, ўзига хос тасвир услуби ҳамда кўтарилган мавзу тўлиқ ўз аксини топган.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Хушвақтов Э. Чимилдик. Қаллиқ ўйин. -Т: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2009 йил 38-39-бетлар.
2. Хушвақтов Э. Чимилдик. Қаллиқ ўйин. -Т: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2009 йил 45-бет.
3. Хушвақтов Э. Чимилдик. Халқчил комедиялар устаси. -Т: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2009 йил 4-5-бетлар.
4. Хушвақтов Э. Чимилдик. -Т: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2009 йил 3-бет.

### **SHE’RIY ASARLARDA SINTAKTIK FIGURALAR**

*Maksumova Saida Sunnatovna,  
O‘zDJTU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi*

Sintaktik figuralar muzika va takrorlanuvchi muzikal frazalar kabi nutqni ohangdor va jozibador qilish, shu yo‘l bilan uning tinglovchi tomonidan osonlik bilan qabul qilinishida muhim stilistik vositadir.[1:228] Sintaktik figuralarga

takror,(anafora, epifora) antiteza, gradatsiya, ritorik so‘roq, ritorik xitob, ko‘p bog‘lovchilik, jim qolish va boshqalar kiradi.

**Takror** – o‘zbek tilining badiiy uslubida eng faol qo‘llanadigan stilistik usullardan biridir. [2:54] O‘zbek tilida takrorning ikki turi mavjud bo‘lib, bular: a) grammatik takror; b) badiiy takror. Grammatik takror, asosan, biron narsaning miqdor, hajmini odatdagidan ko‘pligini ifodalasa, badiiy takrorga turli uslubiy ma'nolar yuklangan bo‘ladi. Badiiy takrorlar poetik nutqda ijodkor tomonidan muayyan maqsadda qo‘llanilib, she'rning badiiyligini oshiradi, o‘quvchi qalbiga kuchli hissiy ta'sir ko‘rsatadi.

Ma'lumki, “**Anafora** usuli orqali she'riy asarda misralar boshidagi so‘z yoki birikma takrorlanadi”. [2:57]

Mirtemirningning “Tag‘in tuproq to‘g‘risida” she'rida takror so‘z va birikmalar yaqqol ko‘zga tashlanadi. She'rning uchinchi bandidan boshlab hali men anaforasi takror qo‘llanib, ketma-ket besh bandda 15 marta takrorlangan. Bu takrorlar vositasida shoir ulgurmagan ishlari talay ekanligini ta'kidlaydi:

*Hali men minmagan gijing tulpor mo‘l,  
Hali men quvmagan ohu ham ancha,  
Hali men chalmagan cholg‘u ham ancha,  
Hali men inmagan o‘ngir mo‘l, g‘or mo‘l.*

*Hali meni kutar ne-ne dasturxon,  
Hali men ichmagan qimiz limmo-lim,  
Hali men kechmagan dengiz limmo-lim,  
Hali meni kutar butun-butun non*

**Epifora** esa she'riy asarda misralar oxiridagi so‘z yoki birikma takrorlanadi.

*Men bu kun ta'zimdadurman yer-u osmon **oldida,**  
Ham unda hokimi mutlaq-Hazrat inson **oldida,**  
Har giyohkim ko‘z ochuvchi titragan jon **oldida,**  
Tiriklik shavqini bergan borki imkon **oldida,**  
Yuzlarim olmoqda ol rang tonggi nurafshon **oldida.***

(H.Xudoyberdiyeva “Navro‘z”)

So‘z takrorining turlaridan biri mumtoz adabiyotda mukarrar deyiladi. Mukarrar so‘zi qayta-qayta, ust-ustiga ma'nolarini ifodalaydi. Shu nom bilan ataluvchi lafziy san'at esa baytning har ikki misrasida juft so‘z qo‘llashni nazarda tutadi.

*Bitta mushtga aylanmay biz dastmiz **yolg‘iz-yolg‘iz,**  
To‘zim kosasi yanglig‘ to‘lmasmiz **yolg‘iz-yolg‘iz,**  
Turku Turon tiklangay, o‘lmasmiz **yolg‘iz-yolg‘iz,**  
Xudo, to‘zg‘in elimni birlashtir, -deb yig‘ladim.*

(H.Xudoyberdiyeva “Hurlik o‘ti”)

Shoirilar takroriy so‘zdan ma'noni ko‘chaytirish, bo‘rttirish, uning emotsional ta'sirini oshirish uchun unumli foydalanishgan.

**Antiteza** – yunoncha so‘z bo‘lib, qarama-qarshi qo‘yish degan ma'noni anglatadi. [3:97] Bu usul turida bir tushuncha ikkinchisini inkor etadi. U mumtoz

adabiyotda tazod deb nomlanadi. H.Xudoyberdiyeva ijodida ham bu san'at namunalari uchraydi.

*Istamayman, rizqim mening bo'lmasin yarim,  
Porlab yongay yo nogohda so'ngay ko'zlarim.  
Yashay bilmam quvonib yo g'am chekib kam-kam,  
Hayotim yo jannat bo'lur, yo dud, jahannam.*

(H.Xudoyberdiyeva *Suyanch tog'larim*)

Keltirilgan she'riy parchaning ikkinchi misrasida *yongay*, *so'ngay*, uchinchi misrasida *quvonib*, *g'am chekib*, to'rtinchi misrasida *jannat va jahannam* so'zlari bir-biriga zid qo'yiladi.

**Ritorik so'roq, ritorik xitob.** Fikr faqat so'roq shaklida ifodalanib, uslubiy ma'no kuchaytiriladi, ammo so'roqqa javob talab qilinmaydi. [4:35] Bu usul mumtoz adabiyotda tajohuli orifona deyiladi. Bu tushuncha bilib-bilmaslikka olish ma'nosini bildiradi. Ritorik so'roq va gaplarda javob talab qilinmaydi, ularning javobi o'zidan ma'lum bo'lib turadi.

*Yoshlik! Seni kuylamagan kim,  
Ertaklaring so'ylamagan kim,  
Qariganda o'ylamagan kim,  
O'ylab yana kuylamagan kim?* (E.Vohidov "Yoshlik")

Ushbu she'riy parchada ritorik so'roq orqali hamma subyektiga yashirin tarzda ishora qilingan.

**Gradatsiya** – lotincha zinapoya, bosqichma-bosqich kuchaytirish. Nutq parchalaridan biri ikkinchisining ma'nosini kuchaytirib borishdan iborat uslubiy jarayon. Badiiy adabiyotda holatlarni, tuyg'u va kechinmalarni qiyoslashda, his-hayajonlar junbushini to'liq ifodalashda gradatsiya usulidan foydalaniladi. [5:71]

*Kunduz yurib yozdim, tun turib yozdim,  
Yozganda ko'ksimga tig'urib yozdim.  
Dardlarimga siyoh kor qilmay qolgach,  
Qalamni qonimga botirib yozdim.* (H.Xudoyberdiyeva "Da'vat")

Ushbu she'riy parchaga e'tibor bersak, she'r yozish holati bosqichma-bosqich kuchayib borishini ko'ramiz. Ya'ni *kunduz yurib, tun turib, ko'ksiga tig'urib, qalamni qoniga botirib yozgani* gradatsiya holatida berilgan.

#### **Ko'p bog'lovchilik**

*Xoh faqir, xoh dongdor, shonli ketarsen,  
Xoh gado, xoh qo'shayvonli ketarsen.  
Odamzod-ey, yig'lab kelding avvalda,  
Oxiran ham pushaymonli ketarsen.* (H.Xudoyberdiyeva)

Ushbu she'riy parchada xoh so'zi yoki bog'lovchisining o'rnida kelgan va takror qo'llangan.

**Jim qolish** – so'z yoki so'zlar guruhining gap oxirida tushirib qoldirilishi jim qolish deyiladi. She'rlarning misra boshida, o'rtasida va oxirida ham bir oz jim qolish holatlari uchraydi. Bunday holatda ko'pincha so'zlovchining cheksiz his-hayajoni, ichki his-tuyg'usi ifodalanib uslubiy vazifa bajaradi.

*Muhabbat, unut meni,*



*Va men ham...unutgaymen.  
Tushlaringda kut meni,  
Tushlaringga kirgayman...* (Muhammad Yusuf)

M.Yoʻldoshev matn ichida qoʻllanilgan oʻzga matn koʻrinishlari sifatida nazira, taqlid, naql, xadis, rivoyat, miflar, afsonalar, didaktemalarni koʻrsatadi.[5:95] A.Hojiahmedov mumtoz adabiyotda qoʻllanilgan birliklarni talmeh deb ataydi. [4:35]

Talmeh – (nazar solmoq) mumtoz adabiyotdagi sheʼriy sanʼatlardan biri. U adabiyotlarda sheʼr yoki nasrda mashhur tarixiy voqealar, afsonalar, adabiy asarlar yoki voqyealarga ishora qilmoq sanʼatidir,- deb taʼriflanadi.

E.Vohidov sheʼriy matnga oʻzgalarning sheʼr parchalarini aynan kiritib talmeh sanʼatini hosil qilgan. U “Shoir umri” sheʼrini Sayyorning ikki qator sheʼri bilan boshlaydi va bu sheʼrga oʻzining sheʼrini mahorat bilan ulab ketadi.

*“Mana men Lermontov yoshiga yetdim,  
Bir shoir umrini yashadim chindan”  
Qancha qogʻozlarning boshiga yetdim  
Va lekin Lermontov chiqmadi mendan.*

Xulosa qilib aytganda, shoir va yozuvchilar sintaktik figuralardan asarning badiiy qimmatini, ifodalilligini, ekspressivlikni oshirish maqsadida foydalanishadi. Bu, albatta, kitobxonlarga estetik zavq bagʻishlaydi. Badiiy asardagi bu kabi vositalar oʻquvchida goʻzal his-tuygʻular uygʻotadi, soʻzning goʻzalligini, qudratini teranroq anglashga undaydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:**

- 1.Shomaqsudov A. va boshqalar Oʻzbek tili stilistikasi. – Toshkent, 1983.- B. 228
- 2.Karimov S.A.Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari. – Samarqand: SamDU, 1994.- B. 54
- 3.Begmatov E., Jiyanova N. Nutq madaniyati asoslari. (Maʼruzalar matni). – Toshkent, 2006. - B. 97.
- 4.Hojiahmedov A.Sheʼriy sanʼatlar va mumtoz qofiya. – Toshkent, 1998. - B. 35.
- 5.Yoʻldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. “Fan” nashriyoti-2007.

#### **THE ROLE OF ARTISTIC PSYCHOLOGY IN THE METAPHORICAL HARMONY OF MAN AND THE REALITY OF LIFE**

*Dilorom Toshpulatova Bobanazarovna,  
Associate Professor of the Department  
“Theory of Primary Education” Chirchik State Pedagogical  
Institute of Tashkent region, Doctor of Philology (PhD)*

In Uzbek novels of the period of independence, the relationship between man and being, the desire for a metaphorical harmonization of real reality and the

inner world of man began to become a kind of principle. As can be seen from the works of writers of the 80s, such as M.M.Dost, T.Murad, E.Azam, A.Azam, N.Eshonkul, A.Yuldosh, Z.Kurobloy kyzy, S.Wafo, L.Borihan, I.Sultan Like U.Hamdani, the same aspect is evident in prose 90s. The method of metaphorical harmonization of the phenomenon of man and the universe is found in almost all genres of prose. In storytelling and novels, this aspect is manifested in a unique way. Literary critic U. Dzhurakulov said that one of the artistic principles arising in the Uzbek prose of the new period is a metaphorical (metaphorical) perception of reality: "The plot and image acquire a generalized (typological) essence. The language of history is built on a series of characters. The composition of the work is replaced by a metaphorical model. As a result, the spatio-temporal scale of history is expanding. The scope of meaning is expanding." [1.1].

In the work of U.Hamdani, the first story about a metaphorical way of expressing the reality of life in harmony with the inner world of man was "Loneliness". The protagonist of the story "Loneliness", which became a symbol of the thirty-year-old Uzbek intelligentsia, became a metaphorical generalization of the image of a lonely person who is looking for a solution to his loneliness in the face of spiritual, social and everyday problems. Thus, U.Hamdani successfully passed a very complex process, such as a metaphorical generalization of the world and man in a novel, the main genre of epic creation. At the center of the entire complex metaphorical system of being, man raised his many years of experience on the path of artistic psychological depiction to the highest level in his novel "Rebellion and obedience."

As we have already said, the novel "Rebellion and obedience" is built on the method of metaphorization of reality. In it, a person asks who he is and what his strength is. This reason is given to the rebellion. Obedience comes after much suffering. As if he were proving himself. Finds answers to specific puzzles. But no servant can fully comprehend the Creator, reach the essence of his existence. Because a person received very little knowledge about this. The science of mysticism also says that those who intended to understand Allah are those who have taken steps to understand themselves, and they cannot face the truth if they do not approach Allah through such good deeds.

From this point of view, the concept of rebellion in Hamdani's novel "Rebellion and Obedience" cannot be understood in the same way as the rebellion of Western modernists. The overall content of the novel, the plot design do not allow such an interpretation. On the contrary, under this rebellion a metaphorical interpretation of eastern self-consciousness arises.

An analysis of the novels of U.Hamdani clarifies an important aspect of the author. Creating the image of a teacher embodying a conceptual idea in the novels of W. Hamdani is interpreted as the ideological teacher of Muhammadjon aka Yusuf in the novel "Balance" and Tabib Akbar in "Rebellion and Obedience." The similarity between the images of the two spiritual teachers lies in the fact that they both leave their families and live alone. The author refers to verbal methods of artistic psychology when creating the image of Muhammadjon aka, as well as to

complex, non-verbal methods of communication between minds when creating the image of the Doctor. Romannavis' work reveals the problem of a person living in a busy space and time, from simple to complex, from the individual's world to the interpretation of universal values.

An analysis of the psychological methods and means inherent in the novel "Rebellion and obedience" leads to the conclusion that several "I" live in the main characters and that these "I" enter into conscious communication. Even without a separate statement, an understanding of unexplained events is manifested through the writer's skill:

- the creation of the universe, as well as Adam and Eve, their expulsion from paradise with devilish tricks;

- it becomes clear when people living in space and time unite fate in themselves.

The author maintains compositional parallelism between the two realities until the end of the novel. The story of finding the bliss of sin and forgiveness is absorbed into the composition of the work. Each protagonist in the novel, even episodic protagonists such as Larisa, walks the path of sin and repentance in the fate of a slave, generalized in the fate of Akbar and the Doctor.

Literary scholars S. Sadik in the interpretations and analysis of the novel Otauli "Rebellion and obedience" show an almost close relationship. They say that in "Rebellion and obedience", elements of Roman thought are not at the level of Balance. Although the language and expression style of the work is unique, the characters are not well described.

In the process of reading and analyzing the novel, various manifestations of a person's psychological existence seem to swell. The events of the work consist of three parts, eighty-eight chapters, which are logically connected in a consistent manner, and the verses of the Quran and the interpretation of reality are combined. The composition of the novel uses a variety of artistic inserts, without which it is difficult to find the logic of the phenomenon, more precisely, what is rebellion, what is obedience.

One of the most successfully used psychological methods in the novel is an internal monologue. Examples of this method of expression are the psychological world of such characters as Yusuf in "Balance", Samandar in "Sabo and Samandar", Akbar in "Rebellion and obedience", alone in their own world, more precisely, suffering in the arms of incomparable internal contradictions. "The internal monologue is the intangible, egocentric and closed speech of the character; direct form of artistic psychologism. This is conditionally perceived as a process of thinking (feeling) in the human mind"[1. 2]. Indeed, the internal monologue helps Akbar to clarify, understand and comprehend his psychological disorder. An internal monologue allows each character to understand the psychological world. The writer creates a psychological landscape, adding symbolic meaning to natural phenomena, changing seasons, in which they go in parallel with the psychological state of the protagonist and serve a specific purpose: " : "It was white snow. Akbar, who was hurrying from the subway to the office, slowed down when he reached

the alley. Dressed in a legendary dress, he stared at the trees, longing for long thoughts, and a poem emerged from his mouth:

“It's snowing,” he said.

The Divine Clothing of the Gardens

(R. Parfi)

In general, the study of plot and compositional forms, manifested by psychology in the novel "Rebellion and obedience", confirms that the characteristic feature of the main characters of the novel - interconscious psychological communication is also reflected in the compositional structure of the work.

When it comes to the basic methods of artistic psychology, it is first necessary to clarify the method of narration of the writer. The image of the inner world of a person can be given both from the language of the first person and from the language of a third person. Each of these forms of storytelling has different possibilities. The narration in the first-person language creates a realistic illusion of the psychological image of the protagonist.

Storytelling in third-party language is characterized by a wider range of possibilities in the chapter on images of the inner world. At the same time, the author without any restrictions takes the reader into the inner world of the character and reveals the climatic conditions of the soul in a deeper and more detailed way.

A distinctive feature of U.Hamdani's research on the characteristics of heroes is reflected in the fact that the hero is "estranged" from people, drawing conclusions from what he saw and experienced throughout his life. When they are tired of problems that have not been solved for centuries, they want to be "locked up". In the same way, all the described events are described and analyzed from the psychological world of the protagonist. Literature K.Juraev admits that the writer's personality is clearly visible in the description of events in "Rebellion and obedience". Only the creator's skill is that all the images that he creates are different, one is not like the other, individual, unique.

Psychological details embody the inner world of man. A heartbeat is a form of psychological detail that expresses the form of psychological detail, such as behavior elements, facial expressions and pantomimes, as well as paralinguistic elements, such as laughter, crying, and speech pace (I. V.V.Strakhov) or details of a character's dynamic portrait (facial expressions, plasticity, meaningful movements, speech directed at the listener, physiological changes). Such a detail, which refers to the "summation-determining" form of psychological description, was described by the literary critic A.P.Skaftimov "Verbal (nonverbal) description of feelings" [1. 3] government.

The exposition portrait consists of a set of typed characteristics that reflect the constant, stable qualities and qualities of a person, regardless of the psychological state of the character. He is artistically generalized and at the same time embodies the signs of forces that influence the fate of the main characters. An example of this is the portrait of the Doctor in the novel: "The medicine is this: once you cry with a patient, and the next day you laugh with him. As much as Tursunboy's death crushed the doctor, Nigina was just as happy that the girl was

recovering day by day. Yes, the doctor was like that. When he began to treat each patient, he struggled with the pain of this patient, rejoiced more than anyone when he was overcoming, and when he was overcoming, he could not find a place for himself and felt helpless” (p. 59).

The dynamic portrait takes the form of individual details scattered throughout the novel, when there is not enough space for a detailed description of the appearance of the main character in the play. The author can refer to the portrait again and again to enrich the protagonist with new aspects and capture changes in appearance and behavior. At the beginning of the novel “Rebellion and Obedience” the conclusion of the young, curious Akbar is depicted, but as the plot changes, he grows up, has children, and by the end of the work becomes his teacher - doctor. The author manages to fully describe his main character: an image and a portrait can be given simultaneously. Providing a portrait in this way determines the naturalness of the character, revitalizes him. Ulugbek Hamdam is limited to a few vivid details in the description of the protagonist and allows the reader to fully imagine this, a task that, of course, can only be performed by a keen reader. Therefore, the goal of the writer is to engage the reader also in inter-communication. This, through the psychological image, the spiritual world of the protagonist, the psychological world, is clearly visible. He skillfully uses psychological methods and means to deeply illuminate the heart, the inner world of the image.

Uzbek novels of the period of independence are guided by the principle of changing attitudes to the inner world of a person and the use of complex artistic means in a psychological analysis of the world of the soul. Of course, this aspect is associated with the formation of a real image of people of that period, the rise of a person to the level of an artistic conceptual problem in the context of social and psychological problems.

Having his legal status in the literary process of the new period, U. Hamdam was able to create his own method of individual artistic and psychological analysis, combining symbolic and figurative methods against the background of the image of real reality. First of all, this testifies to the improvement of national aesthetic thinking and a serious renewal of spiritual status in modern Uzbek prose. The gradual development of these principles also serves as an important stage in the development of the great epic genre - the novel.

In the novel “Rebellion and obedience”, universal problems and values are artistically reflected through the author’s Islamic philosophical views. The philosophical observations of the author are a deep, interconscious psychological communication, human creativity and the essence of life, artistically developed in a unique style based on the Koran, a pillar of Islamic philosophy. In the novel, from simplicity to complexity, from the individual’s world to the interpretation of universal values, the human psyche and time, living in a busy space and time, are artistically expressed through a syncretic image of a poetically metaphorized real life. In the novel, various psychological methods and tools, such as portraiture, dialogue, monologue, sleep, psychological emblems, emotional movements,



landscape, hallucinations, appear as independent independent methods of artistic metaphorization. Psychological communication between the mind and the subconscious of the main characters provided a unique compositional structure of the novel. In the novel, the writer's method of narration became the main tool of psychologism. The writer made extensive use of non-verbal means of psychological images, such as verbal (through speech) and facial expressions, facial expressions, gestures, posture, in revealing the character's character. The play depicts not only the appearance of the main character Akbar, but also the psychological world formed by external influences - the drama of the soul. Rebellion and obedience in a sense are a logical continuation of the balance. Because in this novel, as in "Balance", the processes of creation, the fate of man, the process of understanding himself and the Creator are described. While the socio-psychological analysis resulted only in equilibrium, in "Rebellion and obedience" the method of metaphorical generalization, a poetic modeling of vast universal reality predominates. In the same spirit, "Rebellion and obedience" is a novel with a new content and a new form.

#### LIST OF REFERENCES

1. Yurakulov Yu. Questions of theoretical poetics: Author. Turek. Xronotop. - Tashkent: Gafur Gulom, 2015. - s. 260.
2. Guronov D., Mamadzhonov Z., Sheralieva M. Dictionary of literary criticism. - Tashkent: Academy, 2010.
3. Skaftymov A. P. Moral searches of Russian writers. - M., 1972. C 437.
4. Ulugbek Hamdam. "Rebellion and obedience." Roman - Tashkent: Yangi asr avlodi, 2003, 140 p.

#### ABDULLA QAHHOR ASARLARIDA QAHRAMONLAR XARAKTERI, DUNYOQARASHI, VOQEA-HODISALARNI IFODALASHDA O'ZIGA XOS ORIGINALLIKNING IFODALANISHI

*Almamatova Shahnoza Tursunqulovna,  
JDPI dotsenti, f.f.nomzodi  
Xolbekova Dilrabo Xusniddin qizi,  
JDPI magistranti*

Tilimizning butun sir-sinoati, salohiyati, jozibadorligi, nozik tushuncha va his-tuyg'ularni ifodalashi so'zlar vositasida yuzaga chiqadi. So'zlarning tashqi, zohiriy tomoni – fonetik qurilishi va tizimida yuz beradigan o'zgarishlar qanchalik ahamiyatli bo'lsa, til birliklarining botiniy tomoni ham shunchalik ahamiyatlidir. Til birliklariga yuklatilgan ma'no tafovutlari o'xshatish, qiyoslash, umumlashtirishlar vositasida farqlanadi. Bir so'z bilan aytganda, bu sirli olam o'xshatish, qiyoslash vositasida konkret tushunchalarga aylanadi. O'xshatishga atama (termin) sifatida lug'atlarda bir-biriga yaqin bo'lgan bir necha xil ta'riflar berilgan. Chunonchi, "Adabiyotshunoslik terminlari" lug'atida: "narsa, hodisa yoki tushunchani ma'lum umumiylikka, o'xshashlikka ega bo'lgan boshqa narsa, hodisa

yoki tushuncha bilan chog‘ishtirish”, [1:162] deb ko‘rsatilsa, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da: “Ikki narsa yoki voqea-hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to‘laroq, bo‘rttiribroq ko‘rsatib berishdan iborat badiiy tasvir vositasi, ko‘chimning sodda turi”[2:185] deb izohlanadi.

O‘xshatishga ham tilshunoslik, ham adabiyotshunoslik nuqtayi nazardan yondashiladi. Adabiyotshunoslikda badiiy tasvir vositasi sifatida badiiy obrazlar yaratish, qahramonlardagi ruhiy va tashqi qiyofani tasvirlash kabi holatlar o‘z aksini topadi. Tilshunoslik nuqtai nazaridan ana shu tasvirlash (badiiy tasvirlash) qaysi grammatik (til) qonuniyatlari vositasida amalga oshirilgani tadqiq qilinadi. Ko‘rinadiki, bu ikki sohada ham masalaga aniq faktlar asosida yondoshiladi. Masalaga falsafiy yondashilganda nisbatan kengroq umumlashmalar qamrab olinadi. Shuning uchun ham falsafaga oid lug‘atlarda bu atamaga quyidagicha ta‘rif beriladi: “Aynan birday bo‘lmagan obyektlar o‘rtasidagi ba‘zi tomonlar, sifatlar va munosabatlardagi o‘xshashliklarni aniqlash, muvofiqlik yuzasidan xulosa chiqarish-shunday o‘xshashlik asosida qilinadigan xulosalardir” [3:23].

Darhaqiqat, inson o‘z bilim va tafakkurini o‘xshatishlar vositasida boyitib boradi. Qiyos: “ko‘zim uchdi” iborasi uchuvchi parrandalarga taqqoslash, qiyoslash orqali yuzaga kelgan. Bu o‘rinda harakatlarda farq qilinmoqda, biri dinamik harakat bo‘lsa, ikkinchisi statik harakatdir. Yoki shar bilan tarvuzni yonma-yon qo‘yganda tarvuzni ko‘rmagan bola uni shar deb aytadi. Shardagi tashqi ko‘rinish bilan tarvuzdagi tashqi o‘xshashlik bunday deb xulosa chiqarishga asos bo‘ladi. Bunday belgilar yosh bola bilimini shakllantiradi, shaxsiy xulosalar chiqarish orqali tafakkuri taraqqiy qila beradi.

Demak, inson o‘zining dastlabki bilimlarini o‘xshatishdan olgan va shu bilan jonivorlardan farqlanadi. Shuning uchun ham o‘xshatish ilmiy, falsafiy, ijtimoiy, ma‘naviy-ma‘rifiy xulosalar chiqarishda asos vazifasini o‘taydi deyish mumkin. Inson tafakkuri rivojida o‘xshatish hadsiz ahamiyatga ega. Bu haqda filosofiya lug‘atida quyidagicha izoh beriladi: “...inson ongidagi bir narsaga xos belgi, jarayon yoki mohiyatini qiyos natijasida boshqa narsada ko‘ra olish, tasavvur qilish qobiliyati insoniyatning ijtimoiy, iqtisodiy, ma‘naviy tadriji uchun ulkan imkoniyatlar bergan (masalan, bug‘ mashinasi, shamol, suv tegirmoni, shpris va boshqalarning yaratilishi). Shunday ekan, o‘xshatish tafakkurning yangilikni qidirish va kashf etish borasidagi eng muhim vositalaridan biri hisoblanadi. O‘xshatishning bu xususiyati uni barcha fanlar uchun zarur kategoriyaga aylantiradi.

Predmetlar orasidagi o‘xshashlik, albatta, aynan, to‘liq bo‘lmasdan ularning asosiy qismidagi moslikka asoslanadi. Bunda predmet narsalardagi nafaqat tashqi o‘xshashlik, balki mohiyati, ichki xususiyatlari ham hisobga olinmog‘i darkor. Xuddi shuningdek, biror hodisaning ikkinchisiga daxldorligi, o‘xshashlik tomonlari ham hisobga olinadi. Demak o‘xshatish orqali biror holat (hodisa)ning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri (yolg‘on) ekanligi aniqlanadi, hamda taxminiy xulosalar chiqariladi. Bunga(bunday xulosalar chiqarishga) qator talablar qo‘yiladi:

1. O‘xshatish muhim belgilarga va mumkin qadar, taqqoslanadigan obyektlar umumiy xossalarining ko‘proq soniga asoslanmog‘i lozim.

2. Xulosa chiqarishga asos qilib olingan belgining obyektlarda aniqlangan umumiy belgilar bilan aloqasi mumkin qadar mahkamroq bo‘lmog‘i lozim.

3. O‘xshatishning vazifasi hamma munosabatlarda emas, faqat muayyan munosabatlarda obyektlarning muvofiq kelishini aniqlashdan iborat.

4. O‘xshatishning bevosita maqsadi obyektlarning o‘xshashligini aniqlashdan iborat bo‘lganligi sababli, u tafovutlarni ko‘rsatmog‘i va bu tafovutlarni tadqiq qilish bilan to‘ldirilmog‘i lozim [4:24].

O‘xshatishlar poetik tabiatiga ko‘ra, qo‘llanishiga ko‘ra, tuzilishiga ko‘ra, sezgi va tasavvurlar orqali yuzaga kelishiga yana birqancha turda tasniflanadi. M.Yoqubbekova o‘xshatishlarni qiyoslash usuliga ko‘ra analogik va assotsiativ o‘xshatishlarga ajratadi. Shuningdek, olimo o‘zbek xalq qo‘shiqlaridagi o‘xshatishlarni genezis jihatdan an’anaviy va favqulodda o‘xshatishlarga, tuzilishiga ko‘ra esa sodda, murakkablashgan va murakkab o‘xshatishlarga ajratadi [5:13].

Filologiya fanlari doktori M.Yo‘ldoshev o‘xshatishlarning tarkibidagi o‘xshatish etalonining original yoki original emasligiga ko‘ra, an’anaviy va xususiy–muallif o‘xshatishlari [6:58]ga ajratadi. Abdulla Qahhor hikoyalaridagi o‘xshatishlarga nazar tashlasak, ulardagi o‘xshatishlar ana shu tasnifga mos keladi. Shuning uchun ham Abdulla Qahhor hikoyalaridagi o‘xshatishlarni kelib chiqishi jihatdan: 1) an’anaviy, 2) xususiy-muallif (favqulodda) o‘xshatishlarga ajratib tadqiq qildik.

Nutqimizda an’anaviy o‘xshatishlarning ko‘plab namunalari uchraydi. Ammo, shunga diqqatni qaratish kerakki, an’anaviy o‘xshatish etaloni o‘xshatish asosini ifodalashda badiiy ramz darajasiga ko‘tarilgan bo‘ladi. Biz tadqiq qilgan Abdulla Qahhor hikoyalari tilidagi o‘xshatishlarga e‘tiborni qaratsak ularning anchagina qismini an’anaviy o‘xshatishlar tashkil qiladi. Asar qahramonlari nutqida voqealar yuz berayotgan joy, qahramonlar kayfiyati, bilim va ma’naviy darajasi hamda boshqa xususiyatlariga qarab: xo‘rozqand, ketmon nusxa shlyapa, lapanglab ketayotgan (tobut), bir hovuch suyak, sarxona (chilim), cho‘ltoq supurgi, toshni teshadigan (g‘azab o‘ti) kabilar biz tadqiq qilayotgan an’anaviy o‘xshatishning eng faoli sanaladi.

An’anaviy o‘xshatishlar ko‘p ishlatilaverib, o‘z ohorini yo‘qotgan, o‘xshatish etalonlari tegishli tushunchalarning doimiy ifodachilariga aylanib qolganligi tufayli avvaldan bilingan, kutilgan tasviriy vosita sifatida o‘z obrazlilik, emotsional-ekspressivligini kamaytirgan bo‘lishi tabiiy”, deb ta’kidlaydi M.Yo‘ldoshev [7:58].

Tilimizda uchraydigan, yuqorida keltirilgan o‘xshatishlar Abdulla Qahhor hikoyalarida qahramonlar xarakteri, dunyoqarashi, mavjud voqea-hodisalarni ifodalashda o‘ziga xos originallikni ta’minlaydi. Bu o‘xshatishlarda davr ruhi, qahramonlar ruhiyati sezilib turadi: Yo‘l bo‘yidagi ariqlar *afiti burishganicha* muzlab qolgan, daraxtlar *cho‘ltoq supurgiga* o‘xshaydi (“Karavot”, 280-bet). Yaqin ikki haftadan beri ko‘z ochirmayotgan kuzak shamoli *yaydoq daraxtlar*

shoxida chiyillaydi, g'uvillaydi ("Dahshat", 41-bet). Bo'ya odatda tobutga solinadigan bo'lganidan, dodxoning ko'z oldiga odamlarning *yelkasida lapanglab ketayotgan* tobutni keltirdi ("Dahshat", 42-bet). Gapni aytgan Unsin-u, boshqalar o'tirgan joyida *yerga qapishib ketdi* ("Dahshat", 44-bet). U kattakon *ketmon nusxa* shlyapasini stulga qo'yib, bir quchoq material bilan minbarga chiqdi ("Munofiq", 144-bet). –*Xo'rozqandga* o'xshamay o'!-dedi. –Qarigan chog'ida *xo'rozqand* yalamay domla ham o'lsin!-dedi yana biri ("To'yda aza", 177-bet). Mehmon...iljayib turib-turib, to'satdan: - Dumli odamlarni ko'rganmisiz? – dedi. Mehmon gapning *sarxonasini* yangilamoqchi degan o'yda kulib qo'ya qoldim ("Dumli odamlar", 321-bet). Bu matnlarda Abdulla Qahhorning an'anaviy o'xshatishlarni qo'llanish mazmun-mohiyatiga qarab mutlaqo boshqa "yangi" emotsional-ekspressiv bo'yoq berganining guvohi bo'lamiz. E'tibor bering, afti burishish folklorda salbiy qahramon (ko'pincha, kampirlar)ga nisbatan ishlatilsa, uni Abdulla Qahhorning ariqdagi muzga nisbat berishi, faqat, ungagina xosdir. Demak, bunday o'xshatishlar xalq tilida (og'zida) yillar davomida turli holatlarda ishlatilib kelinmoqda. Badiiy adabiyotda esa o'ziga xos uslubiy go'zallik, noziklik bilan qo'llanishga xizmat qiladi va xizmat qilmoqda.

Favqulodda (xususiy-muallif) o'xshatishlar ijodkorning badiiy qahramonlar harakatiga munosabati, kuzatuvchanligi, nigohi, talablari, mahorati asosida xalq tilidan yuksak darajada foydalana olgan, teran badiiy didning mahsuli sifatida yuzaga kelgan o'xshatishlardir. Xususiy-muallif (favqulodda) o'xshatishlar deb atash, an'anaviy o'xshatishlarga zid qo'yilgan holda "Shaxsiy, ayrim bir shaxsga qarashli bo'lgan (jamo'a emas), alohida bir shaxsniki" [8:270], ya'ni "xalq yozuvchisniki, ijodkorniki" degan ma'noni anglatadi. Bu o'xshatishlarni yozma adabiyotning hamma janrlariga taalluqli deyish mumkin. Buning sababi "Xususiy muallif o'xshatishlarini badiiy matnni shunchaki, bezovchi, go'zallashtiruvchi vosita sifatidagina qarash to'g'ri bo'lmaydi. Mahoratli ijodkor bunday o'xshatishlarga badiiy-estetik zaruriyati bilan murojaat qiladi. Tasavvur qilish qiyin bo'lgan tushunchalarni aniqlashtirish, narsa-hodisa, harakat-hoatlarning eng nozik jihatlarni kitobxon ko'z o'ngida gavdalanitirish, tasvirni quruq emas, balki quyuk bo'yoqlar bilan amalga oshirishda ana shunday o'xshatishlar favqulodda muhim hodisadir" [9:60].

Agarda Abdulla Qahhor hikoyalarining matniga shu nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak, favqulodda o'xshatishlar juda ko'plab topiladi. O'xshatishlarning bu turi o'zining ta'sirchanligi va yorqinligi bilan alohida ajralib turadi. Ularda originallik, obrazlilik, ekspressivlik hamisha yorqin ifodalangan bo'ladi. Bunday o'xshatishlar o'zlarining jozibadorligi, yorqinligi, ta'sirchanligi, emotsionalligi, favqulodda faktlari bilan har qanday o'quvchini hayratlantiradi, o'ylantiradi. Chunonchi, "Ko'r ko'zning ochilishi" hikoyasidan parcha: "Ikki og'iz haqiqatni sizlarga yetkazish uchun go'shtimni tanimdan *randa bilan shilib* tashlansa, suyaklarimni ming bir chig'iriqdan o'tkazsa ham mening orqamda qolganlar sevinadi" (1-tom, 76-bet). Haqiqatning qimmati qay darajada ekanligini asoslash (ko'rsatish) uchun go'shtni tanasidan randalab shilib olishga tayyor. Bu o'rinda randa bilan go'shtni shilish mantiqqa to'g'ri kelmaydi (favqulodda



o‘xshatish). Randa qanday joyda ishlatiladi-yu, go‘sh t nima bilan shilinadi. Oddiygina qilib, go‘sh timni shilib olsa ham deyish kerak edi. Lekin muallif bunga rozi emas. Albatta, randa bilan shilishi kerak. Randa nafaqat shiladi, u to‘g‘rilaydi ham. Mana shu holatdan kelib chiqib, faqat azob berish emas, u azobning “orqasida” to‘g‘rilikka ishora ham juda chiroyli aytilmoqda.

Favqulodda o‘xshatishlarda -day, -dek affikslari yordamida yasalgan ravishlar ishtirok etadi: O‘nboshining boshiga qandaydir miltiqning qundog‘i zarb bilan tushib *qovoqday yordi* (“*ko‘r ko‘zning ochilishi*” 1-tom, 78-bet). Bunga gap uqtirish, *qorong‘i uyga kesak otgandek* gap edi (“Dumli odamlar” 1-tom, 326-bet). Bunday o‘xshatishlar aksariyat leksik vositalar yordamida ifodalangan: Urush bo‘lmaganda, mana shu *qaldirg‘ochning uyasiga* o‘xshagan uylardan, mana *bu bo‘yinchaga* o‘xshagan eshiklardan nom-nishon qolmas edi (“Kartina” 1-tom, 289-bet). Yuzini keksalikdan ko‘ra ko‘proq ko‘rguliklar *g‘ijimlab tashlagan* bu chol bilan u o‘tgan yili bahorda, gul qo‘yadigan vazasini qadoqlab berganda, tanishgan edi (“Tomoshabog‘” 1-tom, 68-bet) kabi.

Abdulla Qahhor hikoyalarida qo‘llangan o‘xshatishlar yuqorida ta’kidlanganidek, leksik-semantik va grammatik birliklar yordamida hosil qilingan. Hikoyalardagi o‘xshatish asosini turli xil predmetlar, inson va uning tana a’zolari, hayvonot va o‘simliklar dunyosi kabi rang-barang vositalar tashkil qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. H.Homidiy, Sh.Abdullaeva, S.Ibrohimova. Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati, Tosh. 1967-y, 262-bet.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Tosh. 2008-y, 185-bet.
3. Filofofiya lug‘ati. “O‘zbekiston” nashriyoti, Tosh. 1976- y, 23-bet.
4. Filofofiya lug‘ati, “O‘zbekiston” nashriyoti, Tosh, 1976- y, 23-24-bet.
5. G.Jumanazarova. Xalq dostonlaridagi o‘xshatishning lingvopoetik imkoniyatlari. “Tafakkur” nashriyoti. Tosh. 2011 -y, 13-bet.
6. M.Yo‘ldoshev. Cho‘lpon so‘zining sehri. “Ma’naviyat” nashriyoti. Tosh. 2002-y. 58-bet.
7. Slovar inostrannykh slov, GIINS, Moskva, 1955-y, 270-bet

#### BADIIY ASARLARDA BOLA RUHIYATI VA TAFAKKURI TASVIRI, UNING TARBIVAVIY AHAMIYATI

(P.Qodirovning “Akramning sarguzashtlari” qissasi misolida)

*Salimova Dilnavoz Akmalovna,  
JDPI dotsenti, f.f.f.d (PhD)  
Shaxnoza Mavlyanova,  
Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi  
ijod maktabi o‘qituvchisi*

Bugungi kun adabiyotshunosligimizda bolalar obrazi yuzasidan tadqiqotlar amalga oshirilgan, biroq badiiyatda bola ruhiyati va tafakkuri talqini masalasi hamon dolzarbligini yo‘qotmagan.



Bilamizki, bola shaxsining shakllanishi muhim jarayon sanaladi. Inson umri davomida jismonan va ruhan rivojlanib boradi. Aynan bolalik, o‘smirlik va o‘spirinlik davridagi rivojlanish nihoyatda kuchli va farqli boladi.

Bolaning komil inson sifatida shakllanishida irsiyat, tarbiya va muhitning ta’siri kattadir. G‘arb faylasuflari bolaning to‘g‘ri shakllanishida eng avvalo irsiyat birlamchi deb qaragan bo‘lsalar, sharqda bola kamolida tarbiyaning o‘rni muhim ekanligi ta’kidlanadi. [1;76] Aslida, bola shaxsini shakllantirishda tarbiya, irsiyat, oila muhiti va ijtimoiy muhitning o‘rni beqiyos. Bularning har biri bir-birini taqozo etadi, to‘ldiradi. Ularning qay birida kamchilik sezilsa, tabiiy, bola kamolotida noqislik kelib chiqadi. Bola mana shu davrda ham jismonan, ham ruhan, ham ma’nan o‘sadi, shakllanadi.

Bola shakllanishidagi barcha omillarni o‘zida jamlay oladigan va ta’sirli qilib yetkaza oladigan bir vosita bu – adabiyot. Adabiyotning sara namunalari bo‘lgan badiiy asarlar chin ma’nodagi tarbiya vositasi sifatida baholanadi, shu bilan birgalikda aynan bola obrazi orqali uning tafakkuri va ruhiyati ochib berilgan asarlar ham talaygina. Misol tariqasida, Pirimqul Qodirovning „Akramning sarguzashtlari“ asarini olaylik. Asar kichik hikoyalardan tashkil topgan sarguzasht qissa. Har bir hikoyada turli voqealar tasvirlangan. Bu asarda kichik maktab yoshida bo‘lgan Akram bolalikdan o‘smirlikkacha bo‘lgan davrni tadrijiy tarzda bosib o‘tadi. Asarda oila muhitidagi to‘g‘ri munosabat, tarbiya natijasida fe’l-u atvorida, ruhiyatida, tafakkurida ijobiy o‘zgarishlar yuz bergan qahramonni kuzatish mumkin. Ota-onaning, atrofdagilarning har bir munosabati bola ruhiyatida o‘ziga xos chizgilarni yaratadi, xuddi shu masalalar asarda badiiy puxta va pishiq holda ochib berilgan.

Asar avvalida, bola ruhiyatidagi o‘zgarishlar, kattalarning haddan ortiq e’tibori natijasida paydo bo‘lgan xudbinlik, o‘z aytganini qildirishga urinish, maqtanchoqlik, tamagirlik kabi xususiyatlarni keltirib chiqargani tasvirlanadi. Ko‘chada bir falokatdan omon qolgan Akramni buvisi keragidan ortiq avaylab erkalashi tufayli qahramonning fe’lida yuqoridagi xususiyatlar paydo bo‘ladi.

„Buvisi Sobira xola Akramning chuchuk tilidan zavqlanib:

— Ximik bo‘ladigan nevaramdan o‘rgilay!—dedi.— Buning joni bizga tekin qolgan! Akramjon tegirmondan butun chiqqan! Shunday bahaybat mashinaning tagidan sog‘ chiqish osonmi?

O‘sha qo‘rqinchli voqeadan keyin Sobira xola nevarasini juda ko‘p suyib erkalatadi, yong‘oqmi, shokoladmi, nima topsa, Akramga beradi. Akram oyisiga:

— To‘p obering! Uyinchoq obering!—deb qolsa, buvisi darrov Akramga yon bosadi:

— Oberaqol, bolam!” [4;26]

Ota-onasining tushuntirishi va o‘z vaqtida qo‘llagan harakatlari Akram yuqoridagi illatlardan qutulishiga yordam berdi. Otasining bola o‘zidagi bu yomon odatlarni yo‘qotmasa Qrimga olib borolmasligini, chunki shu fe’li sababli uyatga qolishlari mumkinligini tushuntirishi natijasida bola o‘zidagi xatoni to‘g‘rilashga harakat qiladi.

Bolalarning o‘zgaruvchanligi, tashqi ta’sirga tez berilishi, kattalarga taqlid qilishi, ayniqsa, ota-onasiga o‘xshashga harakat qilishi tabiiy hol. Ayniqsa, Akramning otasiga o‘xshab ximik bo‘lishni istagani bejiz emas, u bola bo‘lsada otasining o‘z kasbi tufayli muvaffaqiyatga erishayotganini va bu oila uchun imkoniyatlar ochib berayotganini o‘zicha anglaydi.,,

— Eshitdingmi, Akram! Biz topgan gerbitsidimiz uchun mukofot oladigan bo‘libmiz.

Akram «gerbitsid» deyishga tili kelishmaydi:

— Trubasi nima, mashinami?—dedi.

Sanjar aka kulib yubordi:

— E afandi! Trubasi emas, gerbitsid! Yovvoyi o‘tlarni o‘ldiradigan dori! Odamlar kunning issig‘ida o‘toq qilib yurmaydi. Biz topgan dorini sepsa, yovvoyi o‘tlar o‘zidan o‘zi yo‘q bo‘lib ketadi. Bilasanmi, bu davlatga qancha daromad beradi? Bir necha yuz ming so‘m!

Endi yigirmagacha sanashni o‘rgangan Akram yuz ming qancha bo‘lishini bilmas edi.

— Yuz mingga nechta o‘yinchoq mashina beradi?— deb so‘radi dadasidan.

— Juda ko‘p! Hamma magazinlardagi o‘yinchoq mashinalarni olish mumkin.

Uyga kelganda mashinalarini onasiga ko‘rsatdi-da:

— Men katta bo‘lsam, — dedi, — dadamga o‘xshagan kimik bo‘laman!

Maktabda o‘qituvchilik qiladigan Muhabbat opa:

— «Kimik» emas, «ximik»,— deb uning xatosini to‘g‘riladi. [4;23]

U kichik yoshda bo‘lsada yoshiga yarasha o‘ylaydi, bolalarcha hisob-kitob qiladi, tafakkur qiladi va xulosa chiqara oladi.

Ota-onasi bilan Qrim safariga borar ekan, tabiat, atrof-muhitdagi har bir yangilik bolada qiziqish va savollar tug‘diradi, bu boladagi tafakkur uchqunlaridan dalolat. Yozuvchi kichik yoshdagi bolalar ruhiyatida yangiliklar natijasidagi o‘zgarishlarni mohirona va hayotiy tasvirlaydi.

Qissadan bola rivojlanishida ijtimoiy muhit va sotsiogenetik omillar muhim ekanligini anglash mumkin. Chunki Akramjonning hayoti, asosan, ijtimoiy muhitda : maktabda, ko‘chada, Qrimda, bobosining qishlog‘ida o‘tadi va bularning har biri bola ruhiyatiga o‘zgacha ta’sir etadi.

Ma’lumki, qahramon ruhiyati monolog va dialoglarda ochiladi. Akramjonni biz dialoglardan anglaymiz, u hayotning barcha tabaqa vakillari bilan muloqotga kirishadi , ularning orasida tengdoshlari, qariyalar, turli soha vakillari ham bor, ularning barchasida Akramning yangi qirralari ochilib borayotganligiga, o‘shish, ulg‘ayish , fikrlar teranlashishi kabilarni kuzatamiz.

Qissadagi har bir hikoyada yangi sarguzasht, yangi voqeaga duch kelamiz va Akramjonda har bir hodisa yuzasidan hayratlanish, ajablanish, savollar tug‘ilganiga guvoh bo‘lamiz va ayni shu jarayon bola tafakkurining rivojlanishiga olib keladi.

Asardagi har bir hikoyada turlicha vaziyatlar, bularning barchasidan bola o‘zicha saboq oladi. Qissa ichidagi „Tut“ va „Bobosiga tortgan nevara“ hikoyalari avtobiografik xarakterga egaligi asar badiiy quvvatini va ta’sirchanligini, jonliligini

yanada oshiradi. Bu asarni o‘qir ekanmiz, yozuvchi bola xarakterining toblanish, oyoqqa turish va ulg‘ayish jarayonini, fikri o‘sib borayotganini, atrofidagi hodisalarga o‘z tasavvuridan kelib chiqib yondasha olayotganini ishonarli va ta’sirli holatda tasvirlaydi.

Eng asosiysi, qissa, undagi hikoyalar o‘zining jiddiy tarbiyaviy ahamiyati bilan ajralib turadi. Negaki qissadagi har bir voqeadan qahramon nimanidir o‘zlashtiradi o‘rganadi. Qishloqdagi bobosinikida bo‘lganida kaklik, qoplon va kiyiklar bilan bog‘liq voqealar tabiatga, hayvonot olamiga muhabbat uyg‘otadi. U o‘zini tabiat bilan bir butunlikda his qiladi. Tog‘da bobosiga o‘rtog‘i To‘ychi bilan birga kerakli narsalarni olib borar ekan, bobosini qiyin vaziyatda uchratadi, unga jon-dili bilan yordam berishga intiladi. Undagi insoniylik, mehr-oqibat, burch hissi o‘zidagi qo‘rquvni yengishga yordam beradi. Asar bolalarni halol va rostgo‘y bo‘lishga, hayotdagi turli to‘siqlarni jasorat bilan yengishga, matonatli bo‘lishga, oila va vatanni chin dildan sevishga, asrab-avaylashga o‘rgatadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Boymurodov N. Amaliy psixologiya. – T.: Yangi asr avlodi, 2009.
2. Qahramonov Q. Adabiy tanqid va o‘zbek bolalar adabiyoti. – T.: 1991.
3. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – T.: 2004.
4. Qodirov P. Akramning sarguzashtlari. – T.: 1988, 320 bet

### “ОЛТУН ЁРУФ” АСАРИДА БАЪЗИ ЖУФТ ФЕЪЛЛАРНИНГ МАЪНО ҚАМРОВИ

*Киличов Назарбай Раджапбаевич,  
Қорақалпоқ давлат университети  
доценти, ф.ф.ф.д. (PhD)*

Жуфт феъллар бир-бирига яқин маъноли ёки компонентлари синоним бўлган сўзлардан ташкил топган, икки сўз бирикиб умумий бир маъно ифодаловчи, матндаги маънони кучайтирувчи луғавий бирликлардир. Ҳозирги туркий тилларда, аниқроғи, ҳозирги ўзбек тилида жуфт феъллар матн таркибидан шакли ва мазмунига кўра маълум бўлиб, қадимги туркий тилда уларни контекстда уюшиқ бўлақлардан фарқлаш керак. Жумладан, жуфт феъллар ҳар иккаласи бир хил грамматик шаклда бўлади, бир хил грамматик қўшимчалар орқали шаклланади, яхлит бир маъно ифодалайди. Уюшиқ феъллар эса, санаш оҳанги билан айтилиб, алоҳида семаларга оид бўлади. Масалан: *birük kim qayu yalanguqlar bu 4 d(a)rni nomugh äshitip boshghunsarlar 5 tutsarlar oqisarlar sözläsärlär 6 kirtkünsärlär uqsarlar, ular 7 y(ä)mä muntagh oq ayaqqa, çiltäkkä 8 tägkälî tägimlig bulup, bu oq awanta 9 tîltagh üzä üzäliksiz yig tüshüg 10 bultaçi bulurlar tip y(a)rliqadi.* – Агар қайси инсонлар бу 4 дарни нўмини эшитиб, ўргансалар, 5 ёдда тутсалар, ўқисалар, айтиб берсалар, 6 ишонсалар, уқсалар, улар 7 яна шундай иззат–хурматга 8 сазовор бўлиб, шугина сабаб 9 билан тоабд яхши самарани 19 қўлга

киритадилар”, деб жавоб берди (VII. 3а). Ушбу гапда ажратилиб кўрсатилган сўзлар алоҳида маъни ифодалаб келган ва санаш оҳанги билан талаффуз қилинади.

“Олтун ёруғ” асари лексикасида жуфт сўзлар анча миқдорни ташкил қилади. Айниқса, бу жиҳатдан жуфт феъллар бошқа сўз туркумларига нисбатан сон жиҳатдан кўпроқ. Жумладан, ‘*äshit tïngla*’ – эшит, тингла, ‘*turqurmaq ornatmaq*’ – “кўзғатмоқ, мустаҳкамламоқ”, ‘*arï süzül*’ – “покланмоқ, тозаланмоқ, софланмоқ”, ‘*tapïn udun*’ – “сажда қилмоқ”, “эргашмоқ”, ‘*shash tägsil*’ – “иккиланмоқ”, “йўлида адашмоқ”, ‘*ut yigät*’ – “ютмоқ, енгмоқ, ғалаба қозонмоқ”, ‘*tir yïgh*’ – “термоқ, йиғмоқ, жамламоқ”, ‘*ög alqa*’ – “мақтамоқ, кўкларга кўтармоқ”, “хамду сано айтмоқ” каби жуфт сўзларнинг семантикасини таҳлилга тортамыз.

**äshit tïngla.** Ушбу жуфт сўз айна бир маъно англатувчи маънодош сўзлардан иборат бўлиб, матндан англашиладиган маънони кучайтиришга хизмат қилади: *tört türlüg tirin 15 quwragh bu nom ärdini içintäki arïgh sözün 16 äshitü tïnglayu ögrät(inü) bilsärlär* – тўрт тоифа 15 жамоа бу нўм хазина ичидаги муқаддас 16 сўзни эшитиб, тинглаб, ўрганиб олсалар (I. 13а). Шунингдек, бу сўзнинг ‘*äshittäçi tïngladaçi*’ шакли ҳам қўлланилган: *bu nom ärdinïg nomladaçi nomçïlarqa 2 äshittäçi tïngladaçi tïnl(i)ghlarqa g(a)rx3 lar adasï tägmägülük* – бу нўм хазинани ваъз қиладиган воизни 2 эшитувчи, тингловчи жонзотларга сайёралардан 3 хавф келтирмайдиган (VII. 9а)

**turqurmaq ornatmaq.** Мазкур феъллар жуфтлиги “tur” – кўтармоқ (предметга нисбатан); кўзғатмоқ, ҳаяжонлантирмоқ, уйғотмоқ (ҳис-туйғу, фикр) феъл асосига -*qur* орттирма нисбат ҳосил қилувчи кўшимча кўшиш ва “orna” – жойлаштирмоқ, мустаҳкамламоқ феълига -*t* орттирма нисбат ясовчисини кўшиш орқали ҳосил қилинган ҳамда жуфт сўзнинг умумий маъносидан “фикр кўзғатмоқ ва мустаҳкамламоқ” семаси ифодаланади: *kkirlärtin6 öngi ötrülmish arïgh süzüg 7 tözintä köngüllärin turqurmaq 8 ornatmaqqa tayanip* – кирлардан 6 бутунлай халос бўлган, тоза, пок 7 моҳиятдан истакларни кўзғатмоқ (ва) 8 мустаҳкамламоққа умид қилиб (IV. 42b).

**arï süzül.** “Олтун ёруғ” асаридаги энг фаол луғавий бирликлардан бири бўлиб, “тозаланмоқ, покланмоқ” семасини ифодалайди. Ўзаро синоним компонентлардан ташкил топган жуфт сўз ҳам тўғри маънода инсоннинг жисмоний тозалигини, ҳам рухий, маънавий дунёсининг покланиши ифодалаш учун қўлланилади: *bu iki türlüg kkirlärtin öngi 24 ötrülg on orunlar sayu 25 arïyu süzülü artuqraq arïgh süzüg bolmaq ärür.* – Бу икки турли кирлардан бутунлай 24 халос бўлган ўнта ўринда 25 тозаланиб, покланиб, ниҳоятда тоза, пок бўлмоқдир (IV. 42b).

**tapïn udun.** Бу жуфт сўзлар ҳам бир-бирига яқин маъноли асослардан ташкил топган: *tapïnmaq* – “сажда қилмоқ”, *udun* – “эргашмоқ”. Ушбу сўз қадимги туркий тил луғатида *udun tapïn* шаклида қайд этилган [1;606]. “Олтун ёруғ” асари лексик таркибида бир неча ўринларда учрайди: *Kimläär <birök> yänä ol 22 bodis(a)twlarqa tapïnghalï udunghalï bolsarlar burxanlarqa*



*tapinmiş 2 bulur tip bilmish k(ä)rgäk.* – Кимки яна ўша 22 бўдисатвларга сажда қилмайдиган, эргашмайдиган бўлса, бурхонларга эътиқод қилмаган бўлади, 2 деб билмоқ керак (VII.2b/3a).

**shash tägsil.** Мазкур жуфт феъл ‘shash’ – оғмоқ, бурилмоқ, адаштирмоқ (йўлдан), қайтмоқ (истагидан, ниятидан) ва ‘tägsil’ – ўзгармоқ (номи), қайта туғилмоқ (буддавийлик дини билан боғлиқ) маъноларидаги сўзлардан иборат бўлиб, “иккиланмоқ”, “йўлида адашмоқ” умумий маъноларини ифодалайди: *yüz kalp azu ming kalp azu yüz ming kalpqa tägi köni 2 ongaru küsüshtä shashmaz tägsilmäz* – юз калп ё минг калп ёхуд юз минг калпгача тўғри, 2 ишончли орзу-умиддан айрилмас (VII.3b).

**ut yigät.** Мазкур жуфт феъл яхлит ҳолда “ютмоқ, енгмоқ, ғалаба қозонмоқ” маъносини ангалтади: *ikinti yänä bir tñl(i)gh bu d(a)rnñ nomugh 21 boshghunsar, tutsar oqisar bilsär 22 munung buyanñ ädgü qilñçñ ashnuqñ 23 buyan ädgü qilñçta utar yigätir. 24 Nä üçün utar yigätür tip tisär* – шунингдек, ҳар бир жонзот бу дуо нўминини 21 ўрганса, (унга) риоя қилса, ўқиса, билса, 22 бу(лар)нинг саодатли иш савоби (бошқа) 23 савобли иш (устидан) ғолиб бўлади. 24 Нима учун ғолиб бўлади, деганда (VII. 3a).

**tir yigh.** Ушбу жуфт феъл компонентлари айнан бир маъно, яъни “термоқ, йиғмоқ, жамламоқ” семаларини англатади ва матн таркибида алоҳида қўлланган ҳолларда лексик дублетлар ҳисобланади. “Олтун ёруғ” асари лексикасининг ўзига хослиги шундаки, унда ўз давридаги туркий диалектларга мансуб сўзлар таржима муқобиллигини таъминлаш учун асар лексикасида алмаштирилиб қўлланилаверган ва бир қатор ўринларда жуфт сўзларни ҳосил қилган (масалан, *ög-ana, tir yigh, ötün yalbar* ва б.). Жумладан, ‘tir’ – қорлуқ, чигилча, ‘yigh’ – ўғизча синонимлар асосида шаклланган: *ulugh 13 ärtingü idi tirilmish yighilmish 14 tutma kkirlärtin tariqip 15 ikiläyü qadghu nizvanisiz ärti- 16 lär* – улуғ, 13 кўп йиғилиб қолган, 14 сақланиб қолган кирларни кетказиб, 15 иккинчи марта қайғу(сиз), кучли ҳиссиётларсиз бўлган эди (I. ? [=R-M: 689]).

Қадимги туркий тилда синонимларнинг бу тарзда қўлланилиши, биринчи навбатда, ҳодисаларнинг турли маъно нозикликларини тавсифлаш, ҳаракат ва ҳодисаларнинг турли томондан, мукаммал зоҳир бўлишини кўрсатиш, ҳаракатнинг шиддатини кўрсатиш ва бошқа қатор мақсадлар билан боғлиқ. Иккинчидан, синонимлар қаторининг контекстда қўлланилиши қадимги туркий адабий тилнинг шаклланиши ва маълум мезонга тушиб бораётгани билан ҳам изоҳланади. Шунинг учун ҳам диалектлардан, бошқа тиллардан сўз олиш ҳисобига синонимик қатор яратилган [2;84].

**ög alqa.** Бу жуфт феъл “мақтамоқ, кўқларга кўтармоқ”, “ҳамду сано айтмоқ” (диний матнда худоларга нисбатан) каби маъноларни ифодалайди: *ötrü 22 ularnñ barça ögä alqayu inçä 23 tip y(a)rliqadi* – уларнинг ҳаммасига ҳамду сано айтиб, шундай 23 дея жавоб берди (VII.7b).

Умуман, қадимги туркий ёдгорликлар, хусусан, “Олтун ёруғ” асарининг тил хусусиятлари, хусусан лексик қатлами ўзига хослигини



аниқлашда жуфт сўзларни семантик жиҳатдан таҳлил қилиш замонавий туркий тилли халқлар дунёқараши тарихий тадрижини англашда муҳимдир.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Древнетюркский словарь, -Л.:1969, С.606.
2. Rahmonov N., Sodiqov Q. O‘zbek tili tarixi. –Toshkent: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati”, 2009. 84-b.

## **“OTAMDAN QOLGAN DALALAR” ASARIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING MAVZUVIY GURUHLARI**

*Almamatova Shahnoza Tursunqulovna,  
JDPI dotsenti, f.f.nomzodi.,  
Abdullayeva Maftuna Abdurasul qizi,  
JDPI magistranti*

«Otamdan qolgan dalalar»ning, umuman, Tog‘ay Murod nasrining tili o‘ziga xos, uslubi o‘ziga xos. Sirasi, ko‘nikib olmaguncha g‘alati ko‘rinsa ham, ehtimol. Ehtimoli nimasi, asli ham shunday-da!.. «Otamdan qolgan dalalar»ni o‘qiganda, rahmatli bobomning So‘fi Olloyorni o‘qishi, o‘qishi emas, xirgoyi qilishini eslayman, beixtiyor xirgoyi qilishga o‘taman... Siz ham urinib ko‘ring-a, tilning nechog‘li jozib ekanini his qilasiz... Ha, darvoqe, tilingiz xirgoyi qilganida, qalbingiz some’ bo‘lsin: chanqovuz, nay nolalari ortidan elas-elas jang nog‘oralari – dovul sasini ilg‘aysiz, 141omati sari 141omati kuchayib boradi...[1;3] Yuqorida adabiyotshunos Dilmurod Quronovning fikrlarini o‘qir ekanmiz, asar tili betakrorligiga yana bir bor ishonch hosil qilamiz. Asarda barqaror birliklar hisoblangan frazemalardan unumli foydalanilgan. Har bir xalq tilidagi maqol va iboralar asrlar davomida juda 141oma hayotiy tajribalar asosida sayqallanib, turli vositalar bilan kelajak nasllarga meros qilib qoldiriladi. Shu sababdan ham ular bebaho meros hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, xalqning benihoya boy tarixiy-madaniy, etnik-ma’naviy tajribalari, ichki kechinmalari, his-tuyg‘ulari, ya’ni uning o‘zigagina xos olamning lisoniy manzarasi til vositasida shakllangani kabi mazkur tajribalarning barchasi aynan xalqning tilida o‘z ifodasini topadi.

Barchaga ma’lumki, frazemalar nutqimizda tayyor holda qo‘llaniladi va emotsional-ekspressivlikni ta’minlaydigan birliklar sirasiga kiradi. O‘zbek tili frazeologik birliklarining komponentlari turli sohaga tegishli so‘zlardan iborat bo‘ladi. Bu frazeologik birliklar hayotning turli tomonlarini ifoda etishi bilan tavsiflanadi. “Otamdan qolgan dalalar asarida ” frazemalarni juda ko‘p uchratamiz. Yuqorida keltirilganidek, ular mavzu jihatidan xilma –xildir. Ko‘plab frazeologik tadqiqotlarga nazar tashlasak frazemalar mavzu jihatidan quyidagi guruhlarga ajratiladi.

1. Somatik frazeologik birliklar;
2. Komponentlari turli hayvonot olami bilan bog‘liq bog‘liq bo‘lgan frazeologik birliklar;

3. Komponentlari o‘simlik dunyosi bilan bog‘liq bo‘lgan frazeologik birliklar;
4. Milliy urf –odatlar bilan bog‘liq bo‘lgan frazeologik birliklar;
5. Din bilan bog‘liq frazeologik birliklar; [2;33 ]

“Otamdan qolgan dalalar” asarida qo‘llangan frazemalarning mavzu doirasi ham quyidagi tasnifga mos keladi. Tog‘ay Murodning asarlarida frazeologik birliklardan unumli foydalanish bilan birga frazemalarning mavzu jihatidan rang-barangligiga ham guvoh bo‘lamiz.

1.Somatik frazeologik birliklar. Kishi tana a‘zolari nomlari va ularning faoliyatini ifodalovchi so‘zlar ishtirokidagi frazemalar ilmiy adabiyotlarda somatik frazemalar deb yuritiladi. Jahon tilshunosligida somatik frazeologizmlar doirasida qator ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Somatik frazeologizmlarning ilk tadqiqotchilaridan biri F.Bakk sanaladi. [3;2] T.Murodning mazkur asarida ham quyidagi 142omatic frazemalarni ko‘rishimiz mumkin.

**Bosh** so‘zi bilan bog‘liq frazemalar : *bosh olib* , *bosh bo‘lmoq*, *bosh ko‘tarmoq*, *boshdan kechirmoq*, *boshi oqqan tarafga*, *boshidan qolsin*,*boshi aylanmoq*, *boshiga ko‘tarmoq*

**bosh olib**- *o‘zining* butunlay tashlab, qaytmas bo‘lib. .[4;51]

*Ayolimiz daladan bosh olib ketayin, dedi — ketolmadi* [5;112]

Yuqorida **bosh olib** frazemasining frazeologik lug‘atdagi ma‘nosi va asardagi vazifasi keltirilgan. Frazema asarda o‘z ma‘nosida qo‘llanilganini ko‘ramiz.

**Bet** so‘zi qatnashgan somatik iboralar: *betinning qalini-jonimning huzuri*, *beti bo‘lmaslik*, *beti chidaydi*, *beti chidamaslik*, *betidan buzilmoq*, *odamga bet kerak*.

**Bag‘ir** so‘ziga doir iboralar: *bag‘ri bir o‘pirilib tushdi*, *bag‘I ikki o‘pirilib tushdi*, *bag‘ri butun*, *bag‘ri butun bo‘lmoq*, *bag‘ri qon*, *bag‘ri to‘lmoq*, *bag‘ri kuymoq*.

**Til** so‘ziga oid iboralar: *til bormaydi*, *tilga kelmoq*, *tili aylanmay qolmoq*, *til tekkizmoq*.

**Og‘iz** so‘ziga doir frazemalar: *og‘ziga olmaslik*, *og‘ziga kuchi yetar-yetmas bo‘lmoq*.

**Oyoq** so‘ziga doir frazemalar: *oyoq ilmoq*, *oyoq tiramoq*, *oyog‘I kuymoq*.

**Qosh** so‘ziga doir frazema: *qosh qoraymoq*.

**Quloq** so‘ziga doir frazemalar: *quloq qoqmoq*, *quloq qoqmaslik*, *quloq solmoq*, *qulog‘I qirqta bo‘lmoq*, *qulog‘iga yetsa*.

**Qo‘l** so‘ziga doir frazemalar: *qo‘li gul*, *qo‘li kosov*, *sochi supurgi*, *qo‘lni qo‘lga berib*, *qo‘ldan kelgancha*, *qo‘lni sovuq suvga urmaydi*.

Yurak so‘ziga doir frazemalarga : *yuragi yorilmoq*, *yuragi shuv etmoq*  
Asarda ko‘ngil va ko‘z so‘zi qatnashgan frazemalar anchayin salmoqli. Xususan, ko‘ngil so‘ziga doir 30 ga yaqin ko‘z so‘ziga doir 20 ga yaqin frazemani uchratish mumkin.

**2. Komponentlari turli hayvonot olami bilan bog‘liq bog‘liq bo‘lgan frazeologik birliklar:** *it azobida*, *it egasini tanimaydi*, *otday bo‘lib ketmoq*, *otliqqa topilmaydi*, *otliqqa yo‘q*, *otingni sot-molingni sot*, *og‘izga urgan itday*, *semizlikni qo‘y ko‘taradi*, *tulki qiziga to‘y berdi* va boshqalar.

**3. Komponentlari o‘simlik dunyosi bilan bog‘liq bo‘lgan frazeologik birliklar:** *arpaga uvoq ham bo‘lmaydi, palagi toza, tariqday tirqiratmoq, tutday to‘kmoq*

**4. Milliy urf –odatlar bilan bog‘liq bo‘lgan frazeologik birliklar:** *ko‘pga kelgan ko‘rgulik, mehmon - atoyi xudo, mehnat – mehnatning tagi rohat, ko‘z qo‘rqoq qo‘l botir, ko‘z tarozi – ko‘ngil qozi, olisni sho‘rvasidan yaqinni yovg‘oni yaxshi, oshingni yesada mard yesin – boshingni yesada mard yesin, qari bilgichni pari bilmaydi, qazisan qartasan – asl naslingga tortasan, qish oladan – yoz moladan, ro‘zg‘orchilik yo‘qchilik, xalq qo‘llasa, bor bo‘ladi – xalq qarg‘asa, xor bo‘ladi, yer xamir – o‘g‘it xamirturish, yon qo‘shning – jon qo‘shning, chilla suv – tilla suv, o‘zbekning qonib, mehmon kutgani – podsho bo‘lgani va boshqalar.*

**5. Din bilan bog‘liq frazeologik birliklar;** bu dunyodan u dunyosi yaqin bo‘lmoq, xalq bor – haq bor , xudo bermish kun ,xudo urdi ,xudoga shukur ,xudoni bergan kechasi.

“Otamdan qolgan dalalar” asarida qo‘llangan frazemalar rang- barang . Ushbu asrda frazemalarning mavzu jihatidan istalgan turini uchratish mumkin. Frazemalar asar tilini boyitishga, uning badiiy qiymatini belgilash bilan birga o‘zbek xalqining boy madaniyatiga ham ishora qiladi. Mazkur holat esa frazemalarning lingvokulturologik jihatini ham namoyon qiladi. Xulosa qilib aytish mumkinki, yuqorida ta’kidlanganidek, asar tili , musiqiyli boshqa asarlardan farqlanadi. Asarda xalq tili va adabiy tilga oid ko‘plab frazeologik birliklarni uchratish mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Quronov. D va boshqalar .Tog‘ay Murod xirgoyilari -"Hurriyat" gazetasi, 2007. 3- bet
2. Mamatov A., Boltayeva B. Frazeologik birliklarning semantik–pragmatik tadqiqi. –T.: “Navro‘z”, 2019 33 b.
3. Shabanov Jumali ToshDSHI “Turkiy tillar” kafedrasida dotsenti Shabanova Sadaf Djumaliyevna ToshDSHI magistranti SOMATIZMLAR ISHTIROK ETGAN IBORALARNING ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA O‘RGANISH MASALALARI.
4. Sh. Rahmatullayev .O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati-T.: “O‘qituvchi” 1978 51-b.
5. Т.Мурод. Отамдан қолган далалар. – Тошкент: 1994, 112-bet.

## G'AFUR G'ULOMNING "SHUM BOLA" ASARIDA LEKSIK-FONETIK DIALEKTAL SO'ZLAR

*Musayev Abduvali Sulaymonovich,  
JDPI dotsenti, f.f.nomzodi  
Imamova Gulnora Talibovna,  
JDPI o'qituvchisi*

Ma'lumki, badiiy adabiyotda til juda muhim o'rin tutadi. Badiiy asarlarda tilning hal qiluvchi o'rin tutishi, asar tilining go'zal va sermazmun bo'lishi lozimligi ayni haqiqatdir. Shoir va yozuvchilar o'zbek tilini va xalq shevalaridagi so'zlarni yaxshi bilishi, so'z tanlashi, tanlangan so'zini o'z asarining qonuniy a'zosiga aylantirishi ijodkorning til mahoratini belgilovchi muhim omillaridan biridir.

Nasriy asarlarda leksik-fonetik dialektizmlarning qo'llanishi boshqa matnlardan keskin farq qiladi. "Badiiy asar tilini ijodkorning o'ziga xos badiiy vositalarini aniqlash, uning badiiy mahoratini, o'ziga xos uslubini o'rganishdir. Shu bilan birga, badiiy asar tilini o'rganish u yoki bu ijodkorning, umuman tilga munosabatini tilning badiiy imkoniyatlarini, boyligini qay darajada baholash uchun ham xizmat qiladi" [1;5].

"Shevalar har bir milliy tilning asosini tashkil etadi hamda u milliy-ma'naviy qadriyatimiz sanaladi" [2;3]. Aslida, ham ona tili deganda sheva tushunilishi haqiqatga yaqinroqdir. Shuning uchun ham uni asrab-avaylash, qadrlash lozim. O'zbek dialektologiyasi adabiy tilimizni boyituvchi ichki manbadir. Biroq faqatgina so'zlar bilan emas, shevashunoslikdagi bir qancha dialektal qonuniyatlar ham adabiy tilga singib borishini ko'rish mumkin.

"Milliy tilning quyi formalari bo'lgan mahalliy dialektlar va xalq shevalarining dialektlar va adabiy til bilan bog'liqlik jarayoni va o'zaro aloqasi doimiy hodisa sifatida davom etib turadi. Mahalliy dialektlar va xalq shevalaridan qandaydir formalar doimo asta-sekinlik bilan adabiy tilga o'tib boradi, uni to'ldiradi va boyita boradi" [3;208]. Adabiy tilga asta-sekinlik bilan o'tib borgan shakllardan biri dialektal-fonetik hodisadir. Muayyan fonetik sharoitda so'z o'zaklari yoki negizlaridagi yondosh tovushlarning bir-biriga ta'siri, birikuvi bo'g'in va so'zlardagi tovushlarning to'qnashuvi, ohangdoshlik va shu kabilar orasida yuz beradigan tovush o'zgarishlari fonetik hodisalar hisoblanadi. Fonetik hodisalar ma'lum qonuniyat zahirida vujudga keladi. Natijada so'z tarkibida fonetik o'zgarish kuzatiladi: "FONETIK O'ZGARISH. So'zning fonetik tuzilishida bo'ladigan o'zgarish; fonetik o'zgachalik yuz berishi. Masalan: sarg'aymoq so'zi asli "sarg'armoq" bo'lgan, ya'ni so'zda fonetik o'zgarish [r] ning [y] ga aylanishi (o'zgarishi) yuz bergan [4:158]. Fonetik o'zgarishlar esa dialektal xususiyatdir. XX asrning 30-60-yillaridagi o'zbek adabiy tili o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu xususiyatlar G'afur G'ulom asarlarida ham o'z aksini topgan. Adib asarlarini kuzatar ekanmiz shoirning xalq tilini yaxshi bilishini, o'zbek tili imkoniyatlarini, ma'no jihatlarining serqirraligini naqadar teran anglaganligini kuzatamiz. Adib asarlarida qo'llangan so'zlarning ma'lum

qismi (1,3%) ni dialektal soʻzlar tashkil qiladi. Bunday dialektal xususiyatlarni adibning mashhur “Shum bola” asari matnida ham kuzatishimiz mumkin. Leksik-fonetik dialektal soʻzlar baʼzi dialektal asosning tarkibida bir va undan ortiq tovushning fonetik oʻzgarishi natijasida shakllanadi. Quyidagi parchalarda leksik-fonetik dialektal soʻzlarni adabiy tildagi soʻzlardan farqlanadi:

“- Kelinglar **jigitter**, oʻsi **jerga** oʻtirib turinglar.

Supadan oʻrin koʻrsatdi”[5;32].

Berilgan parchada **jigitter** birligining birinchi boʻgʻinidagi til oʻrta, sirgʻaluvchi, jarangli [y] undoshi, til oldi, portlovchi, jarangli [j] undoshiga oʻzgarishi va uchinchi boʻgʻindagi **-lar** koʻplik affiksi tarkibidagi [l] til oldi, jarangli, sirgʻaluvchi, yon tovush (sonor), [t] til oldi, jarangsiz, portlovchi undoshga, [a] til oldi lablanmagan, quyi keng unlisi, [e] til oldi, lablanmagan, oʻrta keng unlisiga oʻzgarishi natijasida jigitter tarzida **jer** birligida esa [y] undoshi [j] tovushiga oʻzgarib yoʻq soʻzini ifodalab, leksik-fonetik dialektal soʻzni hosil qilgan. Asar matnida dialektal soʻzning bu turi juda koʻp uchraydi. Bu tabiiy, albatta, negaki dialektal birliklarning muhim xususiyatlaridan biri ham soʻzning adabiy tildagi holatidan fonetik jihatdan farqlanishidir.

“Hamyonni, pulni, uzukni menga olib berdilar, lekin bir yarim tanga **choʻtal** olib qoldilar”[6;35].

Bu gapdagi **choʻtal** birligi adabiy tildagi ulush yaʼni “Qimor oʻyinlarida yutgan tomondan olinadigan pul, ulush”[7;227] Bu birlikda asos qismi oʻzgarib maʼnosi saqlangan leksik-dialektal birlikni hosil qilgan.

“- **Joʻq, sheshe** boʻza ham ichmaymiz, et ham osmang, oʻntacha tuxum pishirib bersangiz boʻldi”[8;32] Ushbu parchada joʻq birligidagi [y] undoshi [j] tovushiga oʻzgarishini, **sheshe** birligida [ch] undoshi [sh] tovushiga, ikkinchi boʻgʻindagi [a] unlisi [e] unlisiga oʻzgarishi natijasida **checha** soʻzini hosil qiladi. “**Checha** soʻzi ham shevaga xos leksik dialektizm sanalib, yanga, kelinoyi,”[9;477] maʼnolarini izohlaydi. Soʻzdagi fonetik hodisa esa mahalliylikni taʼminlagan, dialektal xususiyat va maʼno kasb etishga sabab boʻlgan.

“- **Kisabir, kisabir!**

-Bozorga oʻri oralabdi!”[10;29]. Matnda **kisabir** birligi “Kissavur [ forschaxaltani, kissani kesuvchi] choʻntak oʻgʻrisi; koʻcha-koʻy, bozor va boshqa joylarda kishilarning narsalarini oʻgʻirlovchi shaxs”[11;376]. **Oʻri** birligi esa oʻgʻri maʼnosini ifodalab asosdagi [gʻ] undoshi tushib qolgan va leksik-dialektal maʼnoda qoʻllangan.

“Bir kosadan sovuq suvni oldimizga qoʻyib **mohazarni** tushira ketdik”[12;33]. Matnda “**Mohazar** arabcha-bor narsa; tayyor taom tayyor hozirlangan taom”[13;621]. Maʼnosini ifodalab leksik-dialektal birlik sifatida qoʻllangan.

“Xudoning birligini oʻrtaga solib, tilab olib ichmakda edi, **almoyi-aljoyi** alyorlar:

Togʻdan quyon qochirdim, iyagi yoʻq,

Qizlar koʻylak kiyadi **jiyagi** yoʻq.”[14;37]



Parchada “**almoyi-aljoyi-bo‘lar-bo‘lmas**, kelishmagan, qovushmagan” [15;112]. Ma’nosini ifodalab dialektal holatda qo‘llangan. **Jiyagi** birligida esa jiyak do‘ppi, to‘n va shu kabilarning chetiga tutiladigan maxsus, ensiz tasma hisoblanib –i egalik affiksi qo‘shilishidan [k] undoshi [g] tovushiga o‘zgarib, bu o‘rinda leksik-dialektal xususiyatni shakllantirgan.

“Qo‘rg‘onning o‘rta bir yerida sizot suvlardan to‘plangan, o‘rtasi kovlanib chuqurroq qilingan bir hovuzcha ham bor edi”[16;43]. Matnda **sizot** birligi sizot suv ya’ni yer ostidan sizib chiqadigan suv, zax suvi leksik ma’nosini ifodalab leksik dialektal holatda qo‘llangan.

“Yigitlar, - dedi o‘zbek, - ichlaringda imon shariatni biladigan, o‘lik juvotirganlaring bormi?”[17;41] Matnda “**juvotirganlaring**” birligi adabiy tildagi “yuvadiganlaring” so‘zini ifodalab [y] undoshi [j] undoshiga o‘zgarib –di zamon qo‘shimchasi -tur shaklida qo‘llanib leksik dialektal so‘zni hosil qilmoqda.

“Oqshoq bo‘za ichasindermi, tari bo‘za **ichasindermi?** „[18;34] Matnda kelayotgan **bo‘za** so‘zi tariqdan qilingan ichimlik ma’nosini ifodalaydi, **tari** birligi dialektal so‘z bo‘lib o‘zbek adabiy tildagi tariq ma’nosini ifodalab asosdagi [q] undoshi tushirilgan holatda qo‘llanilgan **ichasindermi** birligida -sanlar shaxs –son affiksi -sinder tarzida fonetik o‘zgarishiga uchrab ichasanlarmi ma’nosini ifodalovchi dialektizm ma’nosida qo‘llangan.

“Bu kecha bozor kech , **qo‘noqlar** keladi , **boyvashshalar** keladi, **angime** zo‘r bo‘ladi.,,[19;32]

Matndagi **qo‘noqlar** birligi leksik dialektal so‘z bo‘lib, biror joyga , biror kimsaning uyiga qo‘ngan, tushgan yo‘lovchi, sayyoh,mehmon ma’nolarini ifodalab kelmoqada; **boyvashshalar** birligi esa asli mablag‘i,mulki va h.k me’yordan ortiq ma’nosini anglatadigan sof o‘zbekcha boy otiga “ bola,, ma’nosini anglatadigan tojikcha “bacha,, otini qo‘shib kompozitsion usulda yasalgan. O‘zbek tilida bacha oti tarkibidagi [b] tovushi [v] tovushiga, [ch] undoshi esa [sh] tovushiga o‘zgarib bacha – bachcha – vachcha Boyvachcha “ boyning o‘g‘li,, ma’nosini anglatib dialaektal ma’no kasb etgan; **angime** birligi adabiy tildagi “hangoma,, so‘zi sanalib asosdagi bo‘g‘iz undoshi [h] tushib qolgan va uchinchi bo‘g‘indagi [a] unlisi [e] unli tovushiga almashgan holatda leksik-fonetik dialektal so‘z sifatida qo‘llangan.

“ – **Jaqsi**, dedi kampir, - **xudoy**ning osmoni ham yeri ham keng .**Joz** kuni. **Qalagan** yerlaringda **jota berasinder**.Ikkoving bir tanga **berasin**.,,[20;43]

Matndagi **jaqsi** birligi adabiy tildagi yaxshini ifodalab, [y] undoshi [j] tovushiga,[x] undoshi [q] tovushiga, [sh] tovushi [s] undosh tovushiga almashgan va lesik dialektik ma’no kasb etgan; **xudoy** leksemasida ALLOH, XUDO so‘ziga bir [y] undoshi orttirilgan holda qo‘llangan **Joz** birligida esa bu o‘zinda ham yuqoridagi holat ya’ni qipchoq lahjasiga xos bo‘lgan fonetik belgilardan biri [ y] undoshi [j] undosh tovushiga almashgan va yoz ya’ni ot (fasl) so‘z turkumini ifodalagan; **qalagan** birligida [x] undoshi [q] ga [o] unlisi [a] tovushiga o‘zgarib adabiy tildagi xohlamoq, xohlagan ma’nolarini ifodalovchi leksik- dialektal birlik holatida qo‘llangan; **jota berasinder** birligida [y] undoshi [j] tovushiga o‘zgarib, berasinder birligida -sin adabiy tildagi –san II shaxs birlikdagi shaxs- son

qo‘shimchasini ifodalalab, uslubiy jihatdan II shaxs ko‘plikni ifodalagan; **berasin** birligida -sin shakli hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi II shaxs birlikdagi -san ma‘nosini ifodalab leksik-dialektal holatda qo‘llangan.

Asar matnida yuqoridagi kabi leksik- fonetik dialektizmlar miqdor jihatdan ko‘p.Ba’zilari asar matnining turli o‘rinlarida takror qo‘llangan.Fonetik hodisalar jarayonida yuzaga kelgan shevaga oid birliklar nafaqat dialektal ma‘no, balki personajlarning nutqida ham dialektal o‘ziga xoslikni yuzaga chiqaradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. B.O‘rinboyev. G‘afur G‘ulom asarlarining lingvopoetikasi. Samarqand -2008. 5-bet.
2. Ashirboyev Samixon. O‘zbek dialektologiyasi. Toshkent-2016. 3-bet.
3. Doniyorov.X, Yo‘ldoshev.B Adabiy til va badiiy til. Toshkent Fan nashriyoti-1988.208-bet.
- A. Hojiyev. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati-Toshkent; O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi-2002. 158-bet.
4. G‘.G‘ulom. Shum bola. Toshkent-2021.32-bet.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati.Toshkent-2020.477-bet.
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati.Toshkent-2020.376-bet.
7. O‘zbek tilining izohli lug‘ati.Toshkent-2020.621-bet.
8. O‘zbek tilining izohli lug‘ati.Toshkent-2020.112-bet.

### “ТАЗКИРАИ ШУАРО”ДА ШОИРЛАР АСАРЛАРИ НОМЛАРИНИНГ БЕРИЛИШИ

*Дўстова Сурайё Савроновна,  
ЖДПИ доцент в/б., ф.ф.ф.д.(PhD)*

Хасанмурод Лаффасийнинг “Тазкираи шуаро” асари Хоразм адабий муҳити ҳақида маълумот берувчи адабий манба сифатида қимматлидир. “Тазкираи шуаро”ни тадқиқи қилиш жараёнида унда келтирилган шоирларнинг асарлари номини тазкиранинг қўлёзма нусхалари ва нашри билан солиштирилиб, тарихий ва адабий манбалар, муаллифнинг шеърятти жамланган девон ёки бошқа алоҳида манба матни билан қиёсланди. Ўрганишларимиз натижасида тазкирада берилган шоирларнинг асарлари номларини берилишида фарқлар борлиги аниқланди.

12561 рақамли қўлёзманинг 16<sup>б</sup> варағида Оллоҳқулихоннинг набираси Раҳимқулихоннинг ўғли *Хисравий ҳақидаги маълумотда* «Хисравий охирги замон умрида ҳожи ал-ҳарамайн бўлуб, бул хусусда «*Макка сафари*» деб икки мужаллад саёҳатнома ҳам таълиф қилодур», деб ёзилган. Бирок П.Бобожонов нашрининг 13-бетида «Хисравий ҳожи хиромон бўлиб, Макка ва Мадинаи Мунаввара, Шоми шариф, Миср ва Боғдод, Истамбул, Искандария томонларни тамоман саёҳат қилиб, бул хусусда бир саёҳатнома ҳам таълиф қилиб, анча Русия тупроғида ва Туркия тупроғидаги тамомий

томоша қилган ва зиёрат қилганларин Хива қалъасидин чиқиб, токи қайтиб келгунгача аҳволотларни бир китоб этиб, «*Маккаи Мадина саёҳати*» деб исм беради. Аммо ул саёҳатномани ушбу фақир котиб неча марталар ўқиб истеъмол қилган эрдим. Ул икки мужаллад бўлиб, биринчисини Хивадан чиқиб ёзган. Иккинчи мужаллади зиёратдин қайтиб, токи Хивага келгунча кўрганларини зикр қилади», дейилади. Хисравийнинг бу асари «Макка сафари»ми ёки «Маккаи Мадина саёҳати»ми, буни аниқлаш мақсадида биз бир неча адабиётларга мурожаат қилдик. Натижада, бу асар «Маккаи Мадина саёҳати» эканлиги аниқланди.

Комёб ҳақидаги 12561 рақамли қўлёзманинг 31<sup>а</sup> варағида, куйидагича маснавий берилган:

«Комёбким, Саййид Ҳомид тўра,  
Анинг таъбидин бир карра.  
Эрур шаҳзодаи комёб,  
Ёзиб «*Тарихи хавонин*» китоб.  
Яна Комёб девон асарни,  
Суҳандонлиғ била жонон асарни.»

Сўнгра унинг ҳаёти ҳақида маълумот бериш жараёнида, «Аммо Саййид Ҳомид тўра ёшлиғидин таърих илмига хаваскор бўлғонидин Хива хонлиғнинг ўзбекия хонлариким, ўз аб-аждодларининг жулуслари хусусида «*Таворихи хавонин*» исминда бир таърих тасниф этиб, Комёб тахаллуси бирлан бир девон адабиёт ҳам таълиф қиладур», дейилади. Бироқ П.Бобожонов нашрида Комёбнинг тарихга оид китобининг номи ҳақида ҳеч бир нарса дейилмаган. 11499 қўлёзма нусхада эса, «...ул ҳамиша уламо ва мударрислар билан ҳамсуҳбат тарих илмига моҳир бўлғони ҳолда «*Таърихи хавонин*» номлиғ бир асар ёзадур», дейилади. 9494 рақамли қўлёзманинг 14<sup>а</sup> варағида эса, «Саййид Ҳомид ёшлиғидин тарих илмига ҳавасманд бўлуб, муҳаббат ва ишқибозлик билан «*Тарихи хавонин*» номлиғ бир тарихий асар таълиф қилодур. Ул тарих жуда ҳам Хива уламо, машойих, умаро ва вузаро олдиға мақбули таъб бўлуб, Феруз дохи ул «Тарихи хавонин» китобини мутолаасидан ўтказиб, манзур қилғоч, котибларға фармойиш қилиб нусхаларидин мутааддад қилдурди», дейилган. Биз ушбу асарнинг номи аниқ қандай аталганлигини билиш мақсадида баъзи кўшимча адабиётларга мурожаат қилдик. Давлатёр Раҳим ва Шихназар Матрасулнинг «Феруз» номли китобининг 77-бетида ҳам Комёбнинг тарихий асар ёзганлиги айтилган, улар Комёбнинг «Тўрахоним» номли тарихий асари борлигини, бу асар Ферузга маъкул келиб, бир неча нусха кўпайтирганини, аммо бу асар ханузгача топилмаётганлиги ҳақида Лаффасий маълумот берган[3.77], деб ёзишган. Ж.Жўраев эса ўз тадқиқотида уларнинг сўзларига эргашган. Бироқ, биз Лаффасийнинг барча тарихий асарлари ва тазкирасини ўқиб чиққанимизда, бирор жойда юқоридаги Лаффасий асаридан олинган парчалардан ташқари бундай маълумот борлигини учратмадик. Комёб ўзининг «Таворих ул- хавонин» асарининг 3730 рақамли қўлёзмасининг 281<sup>а</sup> варағида: «Саййид Ҳомид тўра китоб номини «Таворих ул- хивақин» деб

қўйиш нияти борлигини айтади. Амакиваччаси Исо тўра асар Хива хонлиги тарихига бағишланганлиги боис «Таворих ул-хавонин», яъни «Хонлар тарихи» деб қўйилса, мақсадга мувофиқ бўлишини айтади ва шунга кўра асар «Таворих ул- хавонин»[5.281а], деб номланган. Демак, Комёбнинг тарихий асари Лаффасий тазкирасида айтилганидек эмас, балки «Таворих ул-хавонин» эканлиги ҳақиқатга яқин деб ўйлаймиз.

*Огаҳий ҳақида* 12561 рақамли қўлёзманинг 14, 15- бетида берилган маълумотда «*Тарихи иқболи Ферузшоҳий*»ким, Муҳаммад Раҳимхони соний замониға муштамилдурким, Русия имфературлиги таърихи ҳижрий бир минг икки юз тўқсонланжи мувофиқ товук йили, таърихи милодий бир минг саккиз юз етмиш учунжи йил йигирма саккизланжи май ойинда Хива хонлиғни забт этиб, Хива хонлиғи билан сулҳ шартнома ёзушғониға қадарлиғ тақрир этиб, Феруз Муҳаммад Раҳимхон жулусининг ўн бешланжи йилиға доир воқеаларни ёзиб итмом этадур»[1.14а], деб ёзган. Бобожонов нашрининг 10-бетида эса, «*Тарихи иқболи Ферузшоҳий*»ким Муҳаммад Раҳимхон соний замониға дохилдурурким, русия императорлиги Хива хонлигини забт этиш ва Хива хонлиги билан ислоҳ қилиб шартнома ёзишганларигача бўлган воқеаларини ёзади»[2.10], деб берилган бўлса, 11499 рақамли қўлёзманинг 3<sup>б</sup> варағида, «аммо «*Тарихи Ферузшоҳий*»ким, Муҳаммад Раҳимхон иккинжи замонасида бўлғон оммавий ҳодисалар Русия имфературлиқини Хоразмга келиши воқеаларининг Хива хонлиғи билан ислоҳотлариға доирдур», дейилади.

Асарнинг номланиши ҳақида матншунос олим Н.Шодмонов, «Дебочада келтирилган «Фақирнинг ўз мусаннафотидин» сарлавҳали иловада асар номи «Иқболи Ферузий» тарзида берилган. Асарнинг бу тарзда турлича аталиб келиниши сабаби, «Шоҳиду-л-иқбол», таъкидланганидек, шоирнинг сўнгги асари. Девондаги мазкур илова хаттотлар томонидан киритилган бўлиши мумкин. Илованинг дебочадан ажралиб туриши шундай тахмин қилишга асос бўлади. Хаттотлар «Шоҳиду-л-иқбол» билан бевосита таниш бўлмаган. Қолаверса, Огаҳийнинг тарихий асарлари номларига эътибор қаратилганда асар номлари арабча сўзлардан тузилиб («Риёзу-д-давла», «Зубдату-т-таворих» ва ҳ.к.), форсий («Риёзи давла» ёки «Зубдаи таворих») эмас, арабий изофа шаклида келтирилади. Демак, асар «Шоҳиду-л-иқбол» деб аталиши тўғри» [4.16], деб аниқ ва тушунарли тарзда ёзган.

«Тазкираи шуаро»да номлари келтирилган муаллифларнинг асарлари номларининг берилишини ўрганиш жараёнида баъзи маълумотлар ва номларнинг хато берилганлигига гувоҳ бўлдик ва буни тарихий, адабий манбалар, муаллифнинг шеърияти жамланган девон ёки бошқа алоҳида манба матни билан қиёслаб тўлдирилди.

Ҳасанмурод Лаффасийнинг «Тазкираи шуаро» асари нафақат бизга маълум, балки номаълум бўлган, бироқ назмда баракали ижод қилган ижодкорларни танитишда муҳим манба сифатида эътиборга моликдир. Унда келтирилган маълумотлар шоирлар шахси ва истеъдодини ўрганишда ва уларнинг илмий биографиясини яратишда ҳам беқиёс аҳамиятга эга бўлиб,

адабиётшунослик, матншунослик ва манбашунослик нуқтаи назаридан ўрганилиши долзарбдир.

### ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

- 1.Лаффасий. Тазкираи шуаро. ЎзР ФА Шарқшунослик институти асосий фонди 12561 рақамли қўлёзма 14<sup>а</sup> varaқ.
- 2.Лаффасий. Тазкираи шуаро. (нашрга тайёрловчи П. Бобожонов). – Урганч: Хоразм. 1992. – Б.10.
- 3.Раҳим Д. Матрасул Ш. Феруз – шоҳ ва шоир қисмати. – Т.: Гофур Гулом, 1991. – Б.77.
- 4.Шодмонов Н. “Шоҳиду-л-икбол”нинг ўзбек бадиий-тарихий насри тараққиётидаги ўрни, манбалари ва матний тадқиқи: Филол. фан. док....дис. автореферати. – Тошкент, 2009. – Б.16
- 5.ЎзР ФА Шарқшунослик институти асосий фонди 3730 рақамли қўлёзма 281<sup>а</sup> varaқ хошияси.

### TIL KORPUSIDA SINTAKTIK RAZMETKA VA UNING TURLI KORPUSLARDAGI IMKONIYATLAR

*Xidirov Otabek Jo‘raboyevich,  
f.f.d (PhD) JDPI*

Til korpusida sintaktik razmetka masalalari jahon, xususan, rus tilshunosligida atroflicha tadqiq etilgan. Xususan, M.V.Kopotev, G.B.Gurin [1, 280-284 ], J.Lich [2, 275] asarlaridagi nazariy ma’lumotlar o‘zbek tili korpusida sintaktik tahlil dasturini ishlab chiqish uchun nazariy asos bo‘lishi bilan ahamiyatli. J.Lich tomonidan yaratilgan sintaktik annotatsiyalash prinsipini kuzatish shuni ko‘rsatdiki, sintaktik annotatsiyasi mavjud korpusning foydalanuvchilar auditoriyasi keng bo‘ladi; bunday korpusning axborot tizimlari bilan aloqa o‘rnatish imkoniyati kengroq bo‘ladi. Shu bilan birga, mualliflarni markirovkaning izchilligi uchun barcha javobgarlikni zimmasiga yuklamaydigan, lekin mavjud tasniflarga asoslanib, korpusni yaratishga yondashuv tilning tavsiflaridagi bo‘shliqlarni aniqlashga, tilga bo‘lgan har xil yondoshuvdagi nuqson va qarama-qarshiliklarni aniqlashga imkon beradi. J.Lichning so‘nggi postulatida aynan shu masalaga e’tibor qaratiladi: “There can be no claim that the annotation scheme represents ‘God’s truth’. Rather, the annotated corpus is made available to a research community on a caveat emptor principle. It is offered as a matter of convenience only, on the assumption that many users will find it useful to use a corpus with annotations already built in, rather than to devise and apply their own annotation schemes from scratch (a task which could take them years to accomplish)”[3, 275].

M.V.Kopotev, G.B.Gurinning fikriga ko‘ra, sintaktik razmetkalash haqida gap ketganda, bugungi kunda rus tili korpusini to‘liq razmetkalashda sintaktik tahlil dasturi uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan uchta nazariya mavjud:



1. Tobe-hokimlik munosabati grammatikasi (I.A.Melchuk, I.M.Boguslavskiy, L.L.Iomdin va b.).

2. Tizimli sxema grammatikasi (N.Yu.Shvedova, V.A.Beloshapkova va b.);

3. An'anaviy sintaktik ta'limotlar (A.A.Shaxmatov, V.V.Vinogradov, N.S.Valgina va b.).

Ko'rinyaptiki, sintaktik tahlil dasturi tuzish prinsiplarini ishlab chiqish dastur uchun nazariy asos vazifasini o'taydigan nazariyalar farqlanadi; asoslanishi kutilayotgan nazariya tanlab olinadi. Demak, o'zbek tili korpusi uchun sintaktik razmetka yaratishda ham o'zbek tili sintaksisiga bo'lgan yondashuvlarni farqlash talab etiladi.

Bundan tashqari, turli xil nazariyalar doirasida tavsif darajasi har xil bo'ladi. Tobe-hokimlik grammatikasi sintaktik munosabat turlariga ko'proq e'tibor qaratadi (masalan, ETAP-3 tizimida, u asosida yaratilgan korpusda nomlangan munosabatlar soni 80 ga yaqin), boshqa tomondan, gap bo'laklari haqidagi an'anaviy ta'limot tadqiqotchiga sintaktik aloqalarni batafsil tasniflashni taklif qiladi. Shu ma'noda, 1980 yilgi rus grammatikasining sintaksisi eng noaniq bo'lib tuyuladi [4, 280].

Bundan xulosa qilish mumkinki, noaniq sintaktik nazariya bilan muvaffaqiyatli sintaktik tahlil dasturi hamda razmetka tizimini yaratib bo'lmaydi.

Shuni ta'kidlash kerakki, rus olimlari barcha yondashuvlarni bir xil darajada qabul qilishmaydi. "Nazariy jihatdan eng neytral" sintaksis sifatida, shubhasiz, gap bo'laklari tasnifiga asoslangan an'anaviy grammatika tan olinishi kerak. Rus tili tinish belgilari qoidalari maktab o'qituvchisi uchun ham, professional tilshunos ham bir xil terminologik tizimga ega. Boshqa tomondan, uzoq vaqt davomida Rossiyaning ko'plab universitetida asosiy hisoblanib kelgan V.A.Beloshapkova tahriridagi darslikning tarqalishi ko'p o'qituvchilarni, asosan, tarkibiy sxemalar sintaksisiga tayanishiga olib keldi. Shu bilan birga, tobe-hokimlik grammatikasi tilshunoslarga nisbatan kam ma'lum, chunki undan, odatda, amaliy muammolarni hal qilishda faol ishlatiladi. Shunday qilib, "nazariy neytrallik postulati"ni qondiradigan, etarlicha mukammal sintaktik nazariyani tanlash eng mas'uliyatli vazifa sanaladi.

Barcha ommalashgan yondashuvlarni muhokama qilgandan so'ng, **XANKO** yaratuvchilari sintaktik annotatsiyalash uchun ikkita alternativ sintaktik belgilash sxemadan foydalanishga qaror qilishgan: tobe-hokimlik munosabati hamda gap bo'laklari an'anaviy sintaksisi. Ushbu yondashuvning aniq eklektikasi bilan, ikkita sxemani birlashtirish quyidagi muammolarni hal qiladi:

- 1) sintaktik tuzilishning ikki tomoni, bog'lanishni batafsil tavsiflash;
- 2) rus tili o'qituvchisi hamda professional tilshunos ehtiyojlarini qondirish;
- 3) foydalanuvchining muqobil tartib natijalarini mustaqil ravishda yoki birgalikda taqdim etish talabini bajarish.

Ushbu turdagi izohni yaratish bo'yicha ishlar mantiqan ikki qismga bo'linadi.

Ma'lumki, an'anaviy yondoshuv asoslari XIX asrda rus tilshunoslari tadqiqotlarida mukammal ishlangan. Rus tili sintaksisining eng to'liq tavsifini 1960 yillarning akademik grammatikasi deb hisoblash mumkin. Zamonaviy

tasniflar hozirgi rus tili universitet darsliklarida biroz o'zgarish, farq bilan aks ettirilgan [5,170]. Ushbu yondashuvning afzalliklari quyidagilar:

- 1) umumiylik va soddalik;
- 2) boshqa sintaktik yondashuvlar asosida (birinchi navbatda, struktur sintaksis), tadqiqot uchun materialni bilvosita izlash imkoniyatining mavjudligi; An'anaviy sintaksisning kamchiliklari quyidagilarda ko'rinadi:
  - 1) sintaktik tuzilmalar tabiati to'g'risidagi zamonaviy g'oyalar bilan nomuvofiqlik;
  - 2) sintaktik birliklar tavsifi hamda sintaktik aloqani e'tiborsiz qoldirish;
  - 3) tavsifdagi nomuvofiqlik, muqarrar qarama-qarshiliklar (predpozitsion guruhning yo'qligi, turli bo'lak ichidagi bo'lakni aniq ajratib olmaslik);
  - 4) avtomatik ishlov berishning murakkabligi.

Biroq yondashuvning ko'rsatilgan afzallik va kamchiliklari ish natijasini oqlamaydi; aksincha, ular potensial foydalanuvchining taxminlarini yanada chigallashtiradi.

XANKO (Xelsinskiy annotirovannyy korpus qisqartmasi) yaratuvchilari oddiy foydalanuvchiga tushunarli bo'lgan razmetka darajasini saqlab qolish uchun umumqabul qilingan nazariyalardan foydalanishni ma'qul ko'rishgan. Quyida XANKOni ishlab chiqilgan tamoyillarni keltirishni ma'qul ko'rdik, zero, o'zbek tili korpusi sintaktik teglar tizimini ishlab chiqishda shu va shunga o'xshash holatlarda ushbu tamoyillarga tayanish mumkin.

1. Muayyan muammoni hal qilishda XANKO yaratuvchilari doim bu yoki boshqa sintaktik ma'lumot qanchalik muhimligi, ma'lumotlarni qayta ishlashni avtomatlashtirishda qanchalik muhimligiga e'tibor berishgan. Qo'lda bajariladigan ishlarning kutilgan hajmi va natija qiymati ko'pincha bir-biriga zid keladi: masalan, determinantni birlik sifatida ajratib ko'rsatish qo'lda qilinadigan ishlarning sezilarli darajada ko'payishiga olib keladi (determinantni qidirishni avtomatlashtirish mumkin emas), ammo bu ishni ketma-ket bajarish qiyin bo'ladi, chunki konsepsiyaning ko'lami "determinant"ni turli matnda turlicha aniqlaydi.

2. Interfeysning qulayligini hisobga olish ham diqqat-e'tibordagi masala sanaladi. Sintaktik ma'lumotlar turli xil birlikka, jumladan morfologik ma'lumotni o'z ichiga olgan matn shakliga, ikki marta belgi qo'yilgan hollarda kiritiladi.

Rus tili milliy korpusi morfosintaktik razmetka bilan ta'minlangan matnlar to'plamidan iborat. Demak, har bir so'zshaklga morfologik izoh biriktirilishi bilan birga so'z (gap bo'laklari)ga uning qaysi gap bo'lakligi ekanligini bildiruvchi izoh (teg) ham yozilgan; ham bir gap uchun uning sintaktik strukturasi ko'rsatib berilgan. Ushbu korpusning razmetkasi yarimavtomat rejimda ishlaydi. Dastlab, har bir matn ETAP-3 dasturi asosida morfologik va sintaktik tahlildan o'tadi, olingan natija mutaxassis tomonidan tahrirlanadi. Ushbu korpus razmetkasi shunday aniq ishlanganki, korpus materiali morfologik, sintaktik omonimiyadan xoli. Morfosintaktik razmetka bilan birga, leksik tavsif ham mavjud bo'lib, ushbu funksiya idiomatik birliklarni izohlash (teglash)da qo'l keladi, chunki turg'un birikmalar ham semantik munosabatlar asosida tahlildan o'tkaziladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

- 1 Kopotev M.V., Gurin G.B. Prinsipy sintaksicheskoy razmetki xelsinkskogo annotirovannogo korpusa russkix tekstov XANKO //Trudy mejdunarodnoy konferensii «Dialog 2006» // B.280-284
- 2 Leech G. Corpus annotation schemes // Literary and Linguistic Computing, 1993, № 8/4. Pp. 275.
- 3 Leech G. Corpus annotation schemes // Literary and Linguistic Computing, 1993, № 8/4. Pp. 275.
- 4 Kopotev M.V., Gurin G.B. Prinsipy sintaksicheskoy razmetki xelsinkskogo annotirovannogo korpusa russkix tekstov XANKO //Trudy mejdunarodnoy konferensii «Dialog 2006» // B. 280.
- 5 Valgina N.S., Sovremennyy russkiy yazyk. Sintaksis. M.: Vysshaya shkola, 2003.; Kustova G.I., Mishina K.I., Fedoseev V.A. Sintaksis sovremennogo russkogo yazyka. M., 2005.

**TOHIR MALIKNING “ALVIDO, BOLALIK” ASARIDA QO‘LLANGAN  
DINIY ATAMA VA IBORALARNING ASAR BADIYYATIGA  
SINTEZLASHUVI**

*Yangiboyeva Sohiba Ro‘zmat qizi  
UrDU Filologiya fakulteti yoshlar bilan  
ishlash masalalari bo‘yicha dekan muovini*

Tohir Malik ijodida “**Alvido, bolalik: yoxud to‘rt taqdirning to‘liq bayoni**” asari alohida o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi [1:4]. Yozuvchining o‘zi asar boshlanmasida bu asarning dastlab “o‘tgan asrning saksoninchi yillarida” yozganini ta’kidlaydi. Biz ushbu asardagi diniy so‘zlar va iboralarning asar badiiy mohiyatiga qay darajada singdirilgani va yozuvchining badiiy mahorati bilan tanishib chiqdik..

Avvalo, asarning kirish qismiga e’tiborimizni qaratsak. Asar barcha asarlarda bo‘lgani kabi “**Bismillahir Rohmanir Rohim!**”deya boshlanadi. Muallif Qur’oni karimdagi “**Yunus**” surasidan (“...Albatta, Alloh odamlarga hech zulm qilmas, lekin odamlar o‘zlariga zulm qilurlar”); “**Nahl**” surasidan (“... zulm qilganlar azobni ko‘rgan vaqtlarida ulardan u yengillatilmay va ularga muhlat ham berilmay”); “**Niso**” surasidan (“... yomonliklarni qilib yurib, birlariga o‘lim yetganida: “Endi tavba qildim”, deganlarga va kofir hollarida o‘lganlarga tavba (qaytish) yo‘q. Ana o‘shalarga alamli azoblarni tayyorlab qo‘yganmiz”), shuningdek, “**Hadisi qudsiy**”dan (“Ey odam farzandi ! Biror zaif insonga zulm va zo‘ravonlik qilishga nafsing seni chorlasa, undan burun hamisha o‘zingdan ko‘ra qudratliroq Zot borligini esla. O‘sha Zot seni haligi zaif insondan zo‘rroq qilib qo‘ygani kabi, xohlasa uni ham sendan zo‘rroq qilib qo‘yishi mumkin”) parchalarini keltiradi.

Muallif izohida yozuvchi “rahimli va mehribon **Alloh taolo**”, “bashoratchi, ogohlantiruvchi, dinga da’vat etuvchi **Rasul**”, “islom dinini quvvatlantirish yo‘lida

xizmat qilgan **sahobalar** va ularga boshpana bergan **ansorlar**”ga duo va salomlar yo‘llaydi.

**Alloh taolo** - islom dinida butun mavjudotni yaratgan oliy ilohiy kuch, xudoning nomi.

**Rasul** - Ollahning vakili, elchisi ( Muhammad payg‘ambarimizning sifatidir) [2:356].

**Sahobalar** - Muhammad payg‘ambarning safdoshlari, yaqin yordamchilari demakdir. Keyinchalik uni bir marta bo‘lsa ham ko‘rgan kishilar bo‘lsa, sahobalar deyilgan [2:469]

**Ansorlar** - (arabcha yordamchilar, safdoshlar) -Muhammad (s.a.v) sahobalari bir tabaqasining nomi [3:33] 622- yil Makkadan Madinaga ko‘chib borgan musulmonlar (muhojirlar)ga va Muhammad (s.a.v)ga yordam bergan hamda islom dinini qabul qilgan madinalik Avs va Hazraj qabilalarining a‘zolari. Ansorlar muhojirlar bilan birga ilk musulmonlar jamoasini tashkil etgan. Ansorlar bilan muhojirlar o‘zaro munosabatlarini bitimlar orqali belgilagan. Ansorlar Badr jangidan e‘tiboran Muhammad (s.a.v)ning Makka mushriklariga qarshi yurishlarida faol ishtirok etishgan. Harbiy o‘lja taqsimlanganda muhojirlardan keyingi navbatda turganlar. Keyinga siyosiy voqealarda ham ansorlarning o‘rni katta bo‘lgan. Muhammad (s.a.v) vafotlaridan so‘ng ular o‘z ichlaridan xalifa saylashga urinib ko‘rganlar.Lekin xalifalik ko‘pchilik ovozi bilan Abu Bakr Siddiqqa nasib bo‘lgan.

Yozuvchi asarda **“xayrli duo”**- kimsaga yaxshilik tilab qilingan duo. *Mahalla qariyalaridan xayrli duo olmasdan ish boshlanganiga ko‘pchilik g‘ashlangan bo‘lsa-da, indashmadi [1:28].*

**“harom pul”** - shariat hukmiga muvofiq yeyish, ichish, foydalanishga **muvofiq bo‘lmagan, halol bo‘lmagan pul. Harom pulga qurilsa shunaqa bo‘ladi[1:29].**

**“yetim haqi”**- adolat yuzasidan yetimlarga tegishli bo‘lgan nasiba. *Yetim haqiga ko‘z olaytirdingmi, demak, haqini to‘lashing kerak. [3:60].*

**“do‘zax azobi”, “do‘zax alangasi”**- jahannam, ya’ni, gunohkor bandalar qiynoqqa solinadigan narigi dunyodagi joy alangasi va azobi. *Mana bunaqa balanddevor-u temir panjara yordamida do‘zax azobi va do‘zax alangasidan saqlanib bo‘lmaydi [3:68].* kabi diniy so‘z birikmalari bilan birgalikda :

**“oq qilmoq”** - o‘z farzandini la’natlamoq, nafrat o‘qib undan yuz o‘girmoq, voz kechmoq, islom dinida eng og‘ir gunoh nomlaridan biri. *Biroq onasi vafot etganida unga xabar berilmadi. Bu oq qilgandan ham battar edi [3:43].*

**“oq fotiha bermoq”** - biror ishni bajarishga kirishish uchun rozi bo‘lib, mamnunlik bilan beriladigan ruxsat, ijozat. *Ota-onasi uning bu ishidan norozi bo‘lishdi, oq fotiha berishmadi [3:43]*

**“iymonga kirmoq”** - iymon Allohga ishonch, e‘tiqod demak, iymonga kirmoq deganda esa shariat talablariga javob berish, taqvodor bo‘lish, din man etgan ishlarni qilmaslikdir. *Do‘stlari iymonga kirib, haj qilib kelishdan avval ham, keyin ham uni da‘vat qilishdi [3:76]* kabi iboralarni ham qo‘llaydi.

Asarda **“tavba”** diniy termini nisbatan ko‘p qo‘llangan va asar mohiyatini



*ochishda muhim rol o'ynagan. (masalan, "... astoydil tavba qilganni Alloh kechiraman, deb turganda ota-ona kechirmaydimi?", "...Nikohsiz eri qamoqdalgida nochor qolgan Hanifa ota-onasi huzurida tiz cho'ki btavbalar qildi, yolvordi".*

Tavbaning avvali va nihoyasi bor. Tavbaning avvali katta va kichik gunohlardan, no'rin shubha-gumonlardan, o'zicha "tavbada sodiqman" deya o'ylashdan va qalbiga o'rnashgan qutqulardan tavba qilishdir.

Tavbaning nihoyasi esa hatto bir zum Allohning zikridan g'ofil bo'lsa tavba qilmoqdir. Komillikka erishganlar e'tiborida kimki bir onlik g'aflatning gunohligini e'tirof etsa, tavbasi sahih bo'ladi. Chunki Odam alayhissalom gunohini e'tirof etib, pushaymon bo'lganini Alloh taolo bizga xabar berdi. Ulamolar: "Gunohni tamoman tark qilish va gunohga boshqa qaytmaslikka jazm etish tavbaning shartlaridandir", deganlar. Tavba bilan bandaning gunohi mag'firat etiladi. Alloh taolo shirkni va bandaning bandadagi haqlarini kechirmaydi. Tavba banda maqomining yuksalish tamalidir. Asossiz bino mavjud bo'lmaganidek, tavbasiz kishining holva maqomi bo'lmaydi. Shayx Ibrohim Matbuliy hazratlari tavbada sodiq va sobit bo'lishga tashviq etadi. Chunki kishining tavbadan og'ishi noxush holatlarga yetaklaydi. Tavbadan ozganning iymoni sho'r tuproq va g'ishtlar bilan qurilgan binoga o'xshash zaif bo'ladi. Alloh taoloning ma'sumi akbar (muhofaza etilgan eng buyuk zot) Hazrati Payg'ambarga (s.a.v) "*Siz va siz bilan birga tavba qilganlar sizga buyurilgani yanglig' sobit bo'lingiz*" ("Hud" surasi 112-oyat) degan amri ham aynan tavba zikridadir.

Demak, asarda "tavba" so'zidan yozuvchi bejizga foydalanmagan. Bu ham mohiyatan asar mazmuniga mos qo'llangan.

Yozuvchining "tavba" so'zi bilan bog'liq qo'llagan iboralari ham mavjud. Masalan, "*Ergash tavbasiga tayanib o'tirgan o'g'liga ijozat berdi*".[1:207]. Ushbu parchada "**tavbasiga tayanib o'tirgan**" iborasi "pushaymon bo'lgan" ma'nosida qo'llangan.

Asarda keltirilgan she'riy parchalarda ham diniy-ahloqiy motivlar ma'lum bir maqsadda foydalanilgan. Unda yozuvchi diniy so'zlarni qo'llash orqali o'quvchini mushohada qilishga undagan.

"...Pul bo'lsa, pul berib -*iymon* olasan,

Pul bo'lsa, pul berib -*vijdon* olasan.

Bazm pul, *vijdon* pul, xotinlar ham pul,

*Shariat*, qosh-u ko'z, shirin so'z ham pul"[1:67]. Zeroki, ushbu parchada "iymon", "vijdon", "shariat" kabi diniy so'zlar asardagi o'g'rilar tilida ahamiyatsiz tarzda qo'llangan. **Iymon** - Allohga ishonch, e'tiqod demakdir. Islomda faqat diniy ta'limotga bo'lgan e'tiqod va tushuncha sifatida iymon tan olinadi. Shuningdek, iymon e'tiqodga qaraganda chuqurroq mazmunga, kengroq miqyosga egadir. Lekin hozirgi vaqtda iymon tushunchasi vijdonlilik, soflik, poklik, halollik, ishonch kabi dunyoviy ma'nolarda ham ishlatilyapti. **Vijdon** - kishining o'z xatti-harakati, qilmishi, yurish-turishi uchun odamlar, jamoatchilik oldidagi ma'suliyat hissi, insoniylikning asosiy belgilaridan biridir. **Shariat** esa islom huquq tizimida musulmonlarning Qur'on asosida ishlab chiqilgan diniy,



jinoiy va fuqarolik qonun va qoidalar majmui hisoblanadi.

Yozuvchi baʼzan diniy motivlardan turli koʻrinishdagi birikmalar yasab mazmunini oʻquvchi eʼtiboriga havola qiladi. Masalan, **“shayton”** motivi bilan bogʻliq birikmalarga eʼtiborimizni qaratsak:

1. **“Shaytonga bandi boʻlib umr kechirish unga xush yoqdi”** [1:49]. Ushbu jumladagi **“shaytonga bandi boʻlmoq”** diniy ibora boʻlib, shaytonning yoʻliga kirmoq, shariat amallarini bajarmaslikni anglatadi;

2. **“Aqlli odamlar “shaytonning peshobi” deb rad etuvchi bu ichimlikning xalqumdan oʻtgan har bir hoʻplami oʻsha muqarrar azob sari qoʻyilgan katta qadam ekanini Qamariddinga birov tushuntirmagan boʻlsa ne badbaxtlikdir?!”**[1:107] Ushbu gapdagi **“shaytonning peshobi”** birikmasi esa spirtli ichimlikka nisbatan ishlatilgan tasviriy ifoda hisoblanadi;

3. **“Ajablanaarlisi shuki, tushida koʻradigani bu oq shayton koʻpincha adasiga oʻxshab ketadi”**[1:184]. **“Oq shayton”** deya yozuvchi oʻxshatish qilgan va bu birikma yomon yoʻldan qiyin boʻlsa-da, qaytish imkoni boʻlgan kishini yoʻldan toydiruvchi diniy motiv sifatida gavdalangan.

4. **“Nihoyat gap tugagach, qadahlar urishtirilib, shaytoniy nafsning amri bekam-u koʻst bajarildi”**[1:295]. **“Shaytoniy nafs”** deyilganda shayton buyurgan istaklarga mute boʻlgan nafs tushuniladi;

5. **“Tugʻilishi bilan shaytonning yoʻrgagiga yoʻrgaklangan odamdan bundan oʻzgacharoq gap kutishning oʻzi nodonlik boʻlur edi”** [1:334]. **shaytonning yoʻrgagi”**deya yozuvchi diniy soʻzni koʻchma maʼnoda qoʻllagan va shayton talablarini goʻdakligidan bajargan shaxsga nisbatan ushbu birkmani ishlatgan. Taʼkidlash kerakki, shayton odamlarni din yoʻlidan ozdiruvchi, ularni gunohga, jinoyatga, razolatga boshlovchi yovuz ruh yoki yovuz ruhlaming boshligʻidir.

Yozuvchi asar mohiyatini ochishda diniy terminlarning sinonimlaridan maqsadli foydalanish oʻrinlari ham mavjud. Xususan, **“Xudo”** bilan bogʻliq sinonimlar koʻp qoʻllangan.

1. **“Xotinidan qutula olmay yurgan boʻlsa, ishini Xudoning oʻzi oʻnglab qoʻygandir, a?”** [1:12];

2. **“Yaratgan Zot qonunlariga itoat etgani oʻlaroq yashashi kerakligini bilganida edi.”** [1:49];

3. **“Rahmonga bandi boʻlib najotga intilishni oʻylamadi.”** [1:49];

4. **“Oqil banda hamisha Allohdan rizolik istab yashaydi.”** [1:211];

5. **“Qasos olovi aql koʻzini koʻr qilgan nodon yigit Rabbiga shart qoʻyib, daʼvo qilib, haq talashib turgan ondayoq iblis uning qalbiga ega chiqqan edi.”** [1:211];

6. **“Birovning tilidan uchayotgan haqorat Tangri tomonidan buzuqligi uchun hozirlangan jazoning boshlanishi ekanini ham barcha biladi.”**[1:273];

7. **“Ustozi shayton, iymoni pul boʻlgan bandaga Tangri taolo bundan boshqa qanday mukofot berar ekan?”** [1:279];

8. **“Axtaraman Parvardigorni, duch keladi nuqul boshqalar.”** [1:420].

Umuman, asarda qoʻllangan diniy soʻzlar va ilohiy-taʼlimiy motivlar miqdori haqida gapiradigan boʻlsak, ular toʻqsonga yaqin soʻz va iboralarni oʻz

ichiga oladi. Yozuvchi ijodini o'rganish orqali badiiy adabiyotda diniy-islomiy so'zlar tizimining o'ziga xos tarkibi; diniy-islomiy so'zlarning badiiy adabiyotda tutgan o'rni va maqomi; zamonaviy o'zbek nasrining diniy-islomiy so'zlar bilan bog'liq imkoniyatlarini istiqbolda yirik plandagi tadqiqot obyektlari qatorida o'rganilishi lozimligidan dalolat beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Tohir Malik. Alvado, bolalik. -T.: Yangi asr avlodi. 2015. 4-bet
2. O'zbek tilining izohli lug'ati.5 jildli. Toshkent:2006-2008. 3-jild 356-bet
3. Islom ensiklopediyasi. Toshkent:2004 33-bet
4. Islomiy atamalar lug'ati Toshkent: 2007

#### ALISHER NAVOIY – ZULLISONAYN SHOIR

*Abduvaliyev Abduhamid,  
JDPI katta o'qituvchisi  
Xoldorova Shohista,  
JDPI o'qituvchisi*

Alisher Navoiy umrining oxiriga qadar o'zbek tili bilan bir qatorda fors – tojik tilida ham qasidalar, she'rlar bitib, ushbu tilda ham ancha boy meros qoldirgan. “Devoni Foniyy”, “Sittayi zaruriya”, “Fusuli arbaa”, “Risolayi mufradot”, “Munshaoti forsiy” va keyingi yillarda topilgan qasida va g'azallari qo'shilsa, shoirning fors – tojik tilida yozgan asarlarining hajmi yanada oshadi.

Shoirning forscha devoni ham buyuk allomalar tomonidan yuksak baho va e'tiroflarga sazovor bo'lgan. Xondamir o'zining “Makorim ul-axloq” asarida quyidagi ma'lumotni keltirgan: “Bu mahorat maydoni chavandozining forsiy qasida va g'azallari g'oyatda ochiq va yengilligi, ajoyib ma'nilar bilan bezalishi, so'z boyligi va betakalluligi, badiiy baytlarining latiflik va noziklik shuhrati shunday darajaga yetdi-ki, san'at nishonli kulliyotlarini talab qildilar”. [ 3.35-b.]

Shoirning forsiy she'riyati barkamolligi haqida fors-tojik shoirlarining buyuk vakillari, xususan, Abdurahmon Jomiy, Davlatshoh Samarqandiy, Habibiy, Binoiy va boshqa shu kabi o'nlab shoir va yozuvchilar juda yuqori baholadilar. Hattoki Alisher Navoiyning ustozlari Abdurahmon Jomiy o'z ash'orida Navoiyga quyidagicha baho bergan:

Kunad dar shir ta'bash mo'shikofi,

V- az on mo'no dilkash sherbofi. [2.402-b]

Kamoliddin Binoiy:

Buvad dar forsiyu turki xub,

Forsi xubu turkiyash marg'ub.

(Tarjimasi: Forsiyda ham, turkiyda ham yaxshi yaratdi. Forsiyda yaxshi-yu, turkiyda rag'batga loyiq).

O'sha davrda ko'zga ko'ringan fors-tojik shoiri Abdulloh Hotifiy shoirning mahoratiga yuksak baho berib, uni so'z ustalari Abulqosim Firdavsiy, Hoqoniy, Xusrav Dehlaviy kabi buyuk forsiygo'y shoirlar darajasiga, hatto ulardan-da ortiqroq pog'onaga ko'tarib ta'riflagan.

Ku Firdavsiy, ki dar ruyi zamona

Lab soz kunad ba in tarona.

(Tarjimasi: Bu zamonda qani endi Firdavsiy bo'lsa, bu taronaga labini soz qilsa bo'lardi).

Marhum ustoz Sadridin Ayniy o'sha davrlarda mamlakatimiz kutubxonalaridagi "Devoni Foni" ning ko'p qo'lyozma nusxalarini o'rganib chiqib, Foni taxallusi bilan Alisher Navoiy bilan bir qatorda boshqa forsiyzabon shoirlar ham she'r yozganligini aniqlaydi. Lekin bu shoirlarning she'rlari ancha sayoz yozganligi haqida ma'lumot bergan. U kashmirlik Mo'hsin Foni g'azallarini ayrim xattotlar Alisher Navoiyga tegishli g'azallar sifatida qo'shib yuborgani haqida ma'lumot bergan.

Shunday qilib, shoirning fors – tojik tilidagi she'rlarining g'oyaviy mazmunlari o'zbekcha she'rlari bilan to'la hamohangdir. "Devoni Foni"da ham turkiy tilda yaratgan devonlari bilan bir qatorda bir mazmuni ifodalagan she'r va g'azallari ko'p uchraydi.

Shoir o'z davrida hukmdorlarning adolatli, halol, xalqqa mehribon bo'lishini orzu qilgan. Bu orzularini o'zbekcha she'rlari bilan bir qatorda, forsha she'rlariga ham singdirgan. Shoir o'zi orzu qilgan olam,dunyo haqidagi orzusini quyidagi g'azalida ifoda etadi:

Topmadim ahli zamon ichra bir andoq hamdam,

Ko'pe zamon osebidin bir-birga aytishsak g'am. [1.266-b.]

Bu baytda shoirning zamonasidan ko'ngli to'lmagani va u boshqa bir olam, g'am – g'ussa yo'q, adolati bor dunyoni xohlagani haqida fors-tojik tilida yozgan g'azallarida ham o'z yurak dardini izhor qilib yozgan.

Olame xoham, ki nabvad mardumi olam dar- u

V -az jafoyi mardumi olam naboshad g'am dar-u. [1.243-b]

(Tarjimasi: Shunday olam istaymanki, unda bu olam xalqi bo'lmasa, g'amli, jaf qiluvchi bu olam mardumi bo'lmasa.)

Shoir orzu qilgan bu olamda insonlar ham butunlay boshqacha bo'lishi kerak. Ular

bir - biriga zulm qilmaydigan,to'g'rilik,halollik,sof va samimiy do'stlik bo'lgan joyda yashashlari kerak, degan insonparvarlik g'oyalarini tarannum etgan.Navoiy orzu qilgan olam haqiqatdan ham boshqacha,yangicha olam edi.Shu bilan birga ayrim baytlarda insof, adolatni ulug'lash,qabih,zulm qiluvchi odatlarni qoralash mavzusida yozilganini ko'ramiz. Lirikada majoziy ma'noga ega bo'lgan may tasviri Navoiy ijodida ham kattagina o'rinni egallaydi.May bu aslida ishq-muhabbat ramzi hisoblanib,u quyiladigan idish, ya'ni qadah ko'ngil ramzidir.May qadahga quyilganidek,ishq ham ko'ngilga jo bo'ladi.Sharobdan inson haqiqatdan sarxush bo'lsa,ko'ngilga tushgan ishqdan inson haqiqiy ma'noda mast-alast holatga keladi.Shoirning ijodida insonning sarxushligi yaratganga bo'lgan xos

ishqdan ekanligi keltirib o‘tiladi. Xuddi shunday rindona ruhdagi baytlarni fors – tojikcha g‘azallarida ham uchratishimiz mumkin:

Chun mahol ast ki havas, ey dil, so‘yi mayxona rav,

Ze – on, ki boshad har safoli ko‘hna jomi Jam der.

(Tarjimasi: Ey dil, barcha havaslarining ro‘yobga chiqmasa, mayxonaga bor, chunki undagi har ko‘hna Jamshidning jomi bor).

Alisher Navoiy o‘z davridagi faqat o‘zbek shoir va olimlarining ustози emas, balki o‘sha davrdagi fors- tojik shoirlarining ham ustози, suhbatdoshi va ularning aksariyatiga moddiy va ma‘naviy jihatdan yordam beruvchi sifatida nom qozongan. Alisher Navoiyning nomi hozirgi kunda ham fors – tojik adabiyotida mashhur. U o‘zining asarlari bilan fors – tojik tili va adabiyoti taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi benihoya katta. U o‘zining fors tilida yozgan ajoyib g‘azallari, qasidalari, qit‘alari bilan bu xalqlarning qadimiy va hozirgi do‘stliklari uchun ko‘prik vazifasini bajardi.

Alisher Navoiy o‘z davrida tojik va o‘zbek xalqlari bilan birga yashagan, muloqotda bo‘lgan va ular bilan og‘a-inidek hayot kechirgan. Shuning uchun ham turkiy til bilan bir qatorda arab, fors-tojik tilini ham mukammal bilgan. Hattoki o‘sha davrda qo‘shni yashaydigan xalqlar bir - biri bilan fors- tojik va o‘zbek tilida bemalol so‘zlasha olgan va g‘azal, she‘r va qasidalarni o‘qib, tushuna olishgan. Bu haqida Alisher Navoiy o‘zining “Majolis un- nafois” asarida o‘zbek(turk)ning “ulug‘idan kichigigacha, begidan navkarigacha” forsiy tilini bilishi, fors-tojik elining aksariyati yaxshi bilishlari haqida ma‘lumot bergan. O‘sha davrlarda forsiyda Nizomiy, Jomiyga ko‘p adiblar ergashgan bo‘lsa, turkiyda Alisher Navoiyga ergashgan edilar.

Xulosa qilib shuni ta‘kidlash lozimki, Alisher Navoiy XV asr va undan keyingi davr turkiy va forsiygo‘y shoirlarning aksariyati uchun yuksak badiiy mahorat namunasi va ilhom manbayi bo‘lib xizmat qilgan hamda bu hali ham davom etib kelmoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. A.Navoiy .Asarlar. XV tomlik V tom.1963-yil.
2. N.Mallayev: “O‘zbek adabiyoti tarixi” Toshkent. “O‘qituvchi” 1989-yil.
3. Xondamir.”Makorim ul – axloq”. Toshkent,O‘zFA nashriyoti,1948.

## O‘TKIR HOSHIMOVNING “DUNYONING ISHLARI” QISSASIDA ONA SIYMOSI

*Madraximova Inobat Bahodirovna,  
TVCHDPI o‘qituvchisi,  
Nurmamatov Shohimardon Abdusalim o‘g‘li,  
TVCHDPI talabasi  
Maxsumov Mardon Dilmurod o‘g‘li,  
TVCHDPI talabasi*

O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimov 1941-yil Toshkent shahri Do‘mbirobod mahallasida dunyoga keldi. Adibning “Urushning so‘nggi qurboni”, “Muhabbat” kabi ko‘plab hikoyalari “Nur borki soya bor”, “Ikki eshik orasi”, “Tushda kechgan umrlar” romanlari, “Odamlar nima derkin”, “Shamol esaveradi”, “Ikki karra ikki besh”, “Bahor qaytmaydi”, “Dunyoning ishlari” nomli qissalari, “Daftar hoshiyasidagi bitiklar”, nomli hikmatlar to‘plami “Qatag‘on”, “To‘ylar muborak”, “Inson sadoqati” dramalari nafaqat o‘zbek kitobxonlari balki chet el kitobxonlari tomonida sevib o‘qiladi.

O‘tkir Hoshimovning qirqdan ortiq asarlari ming-minglab kitobxonlarning ma’naviy mulkiga aylanishga ulgurgan. Ushbu asarlar joy olgan kitoblarning tiraji esa million nusxadan oshgan. Yozuvchi asarlari ko‘pgina xorijiy tillarda tarjima qilingan. Shu asarlardan biri “Dunyoning ishlari” qissasidir bu qissada muallif dunyodagi eng ulug‘ zod Onalar haqida go‘zal va dunyoda tengi yo‘q misralarni keltiradi. “Dunyoning ishlari” qissasini o‘qiganda qalbimizni bir-biriga tutash iliq his chulg‘aydi. Asar haqida O‘zbekiston qahramoni O‘zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmad shunay ta’rif beradi “...dostondek o‘qiladi. Uni o‘qib o‘z onalarimizni o‘ylab ketamiz”. Asar bizni insofqa, insonni qadrlashga, hurmat qilishga, onalarga mehr-oqibatli bo‘lishga chaqiradi. Shu mushfiq, shu jafokar onalarimiz oldidagi bir umr uzib bo‘lmas qarzlirimizning aqalli bittasini uza oldikmi, degan bir andisha, bir savol ko‘z oldimizga ko‘ndalang turib oladi.

Adib asarlarida Ona obrazi shu qadar mustahkam va muhim o‘rin tutadi, ularsiz hatto yozuvchining yaxlit ijodini tasavvur qilish qiyin. Ona insonga hayot beradi, yuvib-taraydi, tarbiyalaydi. Ona o‘z farzandi uchun hamma narsaga, hatto jonini qurbon qilishga ham tayyor. Shuning uchun bo‘lsa kerak, ona haqida behisob she’rlar to‘qilgan, dostonlar yozilgan, katta-katta asarlar bitilgan. Kichik maqollardan tortib, muborak hadislarimizgacha ona madh etiladi, e‘zozlanadi. Shu jihatdan —Dunyoning ishlari qissasi xarakterlidir. Albatta, bu asardan ta’sirlanmay bo‘lmaydi. Bu asarni hissiyotsiz o‘qish mumkin emas. "Dunyoning ishlari" asarini ONAga qo‘yilgan abadiy yuksak ehtirom ramzi deyish mumkin. Bu qissa katta-kichik novellalardan iborat. Biroq ularning barchasida hammamiz uchun eng aziz odam — onam siymosi bor. Muallifning bu qissasini o‘qigach, hayotga bo‘lgan munosabatingiz keskin o‘zgaradi. Bu asarda o‘zbek xarakteri, o‘zbek ayoli shunday chiroyli ochib berilganki, xullas yuz marta eshitgandan, bir marta o‘qigan yaxshi. O‘tkir Hoshimov ijodida —Dunyoning ishlari qissasi adibning ona obrazini yaratishdagi eng yuqori nuqtasi bo‘ldi. Muallifning mahorati



shundaki, u lirik kechinma va epik ko‘lam mushtarakligi tabiatiga ham ma‘naviy-axloqiy masalalar yechimi, ham inson psixologiyasi teranligini singdira oladi. Turmush tafsilotlari, hayotiy-maishiy detallar, hissiyot quyuqligi adib shakliy izlanishlarini g‘oyaviy mazmun bilan boyitadi.

Inson tug‘ilibdiki o‘z bilganidan qolmaydi, lekin hayot ham uni atay qilganday har ko‘yga soladi, har xil sinovlar bilan qiynaydi ba‘zida hammasiga qo‘l siltab unuting keladi-yu, ammo seni nimadir bu ishdan qaytaradi, shu onda bu narsa nima degan savol tug‘iladi boshqalarni bilmadimu mening fikrim shu: Hammamiz ham tug‘ilgandan ulg‘ayib qolmaymiz o‘sha yoshlik onlarimiz o‘tgan biz jangitib yurgan ko‘chalar, charchab qornimiz ochib uyga qaytganimizda onalarimizning kiyimlarimizni kir qilganimiz uchun aytgan dakkilari-yu, issiqina bug‘i chiqib turgan idishdagi ovqatlarlarning hidi, ishga yoki o‘qishga ketayotganimizda ko‘zlarida mehr to‘la duolari, qaytishimizni intizorlik bilan ko‘zlari to‘rt bo‘lib kutishlari sabab. Shuning uchun ham Onalar jannat oyog‘i ostidadir. Bir dam o‘tirib o‘yga cho‘masiz butun hayot yo‘lingizni ko‘z o‘ngingizdan o‘tkazasiz. Inson naqadar ilojsizligini tushunasiz, oxir oqibat hammasiga ko‘nasiz umringiz oxirlab borar ekan siz dunyoda yashayotganingizni his qilasiz. Inson donyoga kelaveradi ketaveradi inson umr oqar daryo ko‘z ochib yumguncha o‘tadi ketadi.

Dunyoning ishlari qissasi muallifning onasi vafoti bilan boshlanib uni qabrga qo‘yish bilan yakunlanadi. O‘.Hoshimov qalamiga mansub asarlarda lirik ta‘kid turli xil usullar vositasida voqelik bayonini to‘ldirib turadigan mohiyatga aylanadi. Xususan, hissiyot ko‘lami kitobxonni hayajonda tutib turadigan estetik pafos darajasiga ko‘tariladi. Shuningdek, liro-romantik talqin badiiy butunlikni ta‘minlaydigan xarakterli xususiyatdir. Mazkur holat, ayniqsa, «Dunyoning ishlari»da to‘laroq namoyon bo‘ladi. Jumladan, “Alla” hikoyasida odamzod hayoti – ibtidosi va intihosi haqidagi falsafiy mulohazalar qarama-qarshi tasvirlar, inson bolasi hayotda tinglaydigan ilk qo‘shiq, u vujudimizda ona suti bilan singgan va umrbod unutilmasligi bayon etilgan bo‘lsa, “Oq oydin kechalar” hikoyasida osmondagi eng yorug‘ yulduz onalarning uzilgan joniga o‘xshashi, ular birlashib quyoshga aylanishi va tepadan farzandlariga issiqlik ulashishi tasvirlangan. “Gilam paypoq” hikoyasida o‘z farzandini kasallik xavfidan tezroq xolos qilish uchun har narsaga, hatto jonini ham berishga tayyor ona o‘g‘lini qancha tahlikalar bilan tabibga olib borgani, bola darddan biroz yengil tortgach, ona o‘z sog‘lig‘ini xavf ostiga qo‘ygani, ya‘ni oyog‘ini sovuqqa oldirgani ma‘lum bo‘ladi. Qissaning “Haqqush” hikoyasida rivoyat orqali aka-ukalarning bir-birlariga mehribon bo‘lishi, har doim bir-birlarini qo‘llab quvvatlashi kerakligi, ONAlar farzandlarini hamisha birga bo‘lishlarini istashi, ammo farzandlar ulg‘aygach har tomonga uchib ketishini tasvirlar ekan, qismat aqalli bu masalada ham onalarga shafqat qilmasligini ochiq oydin ko‘rsatib beradi.

Yozuvchi asarni yakunlar ekan onasining bir hazillashib aytgan gaplarini esga oladi “Esingizdami onajon meni ham kitob qilib yozsangchi” degan edingiz. Men nodon esa sizni nimangizni kitob qilib yozaman degandim, mana o‘sha kitob nu kitobni men yozmadim, aslida bu kitobni siz yozdingiz men faqatgina qog‘ozga

tushirdim. Men uni dunyoda barcha onalar o‘qishini xohlayman. Bilaman dunyoda barcha onalar yaxshi onalarning yomoni bo‘lmaydi, shundoq bo‘lsa ham, ularni barchalarini sizga o‘xshashini xohlayman deya ta’rif beradi sevimli adibiz O‘.Hoshimov.

Shunday ekan men barcha dunyodagi farzandlarga murojaat va iltimos qilardimki: Dunyoda Onalarimizni qadriga yetaylik, biz ham onalarimiz haqida mana shunday asarlar yozaylik axir ular bundandan ko‘proq e’zozga munosibdirlar.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Hoshimov.O‘ “Dunyoning ishlari” qissa T.- “Qaldirg‘och nashriyoti”, 2018.
2. Hoshimov.O‘ “Saylanma” 1-2-jildlar – T. “Sharq”, 1993
3. U.Normatov. “Ruhiy manzillari”. -T. “Sharq”, 2001

### АЛИШЕР НАВОИЙ АСАРЛАРИДАГИ ФИТОНИМЛАРНИНГ УСЛУБИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ

*Усманова Махфуза Садиковна,  
ЖДПИ, катта ўқитувчи*

Бадиий асарлар лексикасининг кам ёритилган томонларидан бири бадиий воситаларни лингвоуслубий аспектда йўналишда таҳлил қилишдир. Тилшуносликда бадиий санъатлар, унинг яратилиши, ҳосил бўлишида сўз санъатининг роли каби масалалар лингвоуслубий жиҳатдан яхши ўрганилмаган, айнан ўсимлик номлари билан боғлиқ поэтик воситаларнинг ҳосил бўлишида бадиий санъатнинг роли, бадиий асар тили билан боғлиқ ҳолда ёзилган тадқиқотлар кам. [2;3;4;6]

Алишер Навоий ўз асарларида шеърини санъатлардан фойдаланиб, фикр ва ғояларини таъсирчан ва ёрқин ифодалаган, ўзбек тилининг бой ва гўзаллигини намоён қилган. Бу жараёнда улуғ ижодкор фитоним сўзларга ҳам усталик билан мурожаат қилган ҳолда мазмунан чуқур, бадиий жиҳатдан гўзал асарлар яратган. Бир тушунчани ифодалаш учун бошқа бир неча сўзлардан ҳам фойдаланиш санъати Навоий ижодидаги муҳим белгилардан бири эканлигини навоийшунос олимлар таъкидлаганлар.[5] Шундай хислат Навоийнинг ўсимликка оид тушунчаларни ифодалаш учун сўз қўллашида ҳам яққол кўринади.

Масалан, **мева** сўзи ўрнида *бар* сўзини ҳам қўллайди:

Киши ҳанзал экса, аччиқ бар топар,

Ва гар найшакар экса, шаккар топар. («СИ», 285a18)

Ғам гулшанида қаддим эрур ул яғочким,

Пайкону бори ҳажринг анинг баргу баридур. («ХМ», Пб-194)

Шу сўзнинг кўплик («мевалар») маъноси учун *асмор*, *фокиҳа* ва *фавокиҳ* сўзларидан фойдаланади:

... алфози имон жўйбори ашжорин яқин анҳори била сероб ва маонийси ийқон ашжори асморин таҳқиқ саҳоби амтори била шахди ноб этар. («ХМ», 707)

Ва ашриба ва фавоқиҳ ва ҳалвиёт ҳамул аътимға яраша муқаррар эрдиким, тортилур эрди («ХПМ», XIV-95).

... ва бу ширин мева вилоят боғи шажарасидин бўлғай ва бу лазиз фоқиҳа хидоят шажарасининг самараси бўлғай («МҚ», 90)

**Анор** сўзи шоир асарлари тилида ҳозирги ўзбек тилидагидек шаклда ва маънода қўлланган:

Ўз илгида бир анор бўлса, билмаски, неча парда ва неча хонаси бор ва ҳар парда ва ҳар хонасида неча донаси бор. («МҚ», 40).

Аммо бу сўз ўрнида *нор* ва *руммон* сўзларини ҳам қўллаганлигини учратиш мумкин:

Лаъли руммоний тиларсен дам-бадам зийнат учун,

Қатра-қатра бағринг андин нордек қон бўлди тут. («ХМ», Iб-89)

Қатраси лаъл вале руммоний,

Қайси руммон, дегил ардистоний. («ХМ», IVа-411)

**Гул** сўзи ўрнида *чечак* ва *шукуфа//шугуфа* сўзлари ҳам қўлланади:

Лола қон узра бўёлиб, ўт уза анбар куюб,

Бор парихон чиқмаган ғойиб чечаклардур пари. («ХМ», Iб-608)

Баҳор сенсиз ўлубтур манга ажаб дўзах,

Қизил гул анда ўту, шугуфалардур ях. («ХМ», Iа-129)

*Гул* сўзининг грамматик кўплиги («гуллар») маъносида *аглол*, *чамбар*, *шухравард* сўзлари ишга солинади:

Ҳар бири бир ҳайъати ҳойил била,

Боғланиб ағлолу салосил била. («ҲА», 12-12)

Чу лаъб асбобини тузди, саломат риштасин узди,

Қамардек ҳола кўргузди узори давридин чамбар («ХМ», IIб-198)

Боғи фано гулбунида шухравард,

Улки анга гулшан эди сухранвард. («ҲА», 136-1)

*Хурмо*, *нахлбун*, *хашаф* бир хил мева ва дарахтни аташ учун қўлланган:

Юзи ранги хурмо масаллик касиф,

Маҳосин намудори хурмою лиф. («СИ», 1339)

Қаю нахлбунким, кўрар нозанин,

Қилур нахлбандиға юз офарин. («СИ», 1536)

Гуҳардин чу холи бўлур ул садаф,

Эрур тенг ул-у бир қуруған хашаф. («СИ», 240620)

Бадий асарларнинг гоъвий етук, мазмунан ранг-баранг бўлиши ундаги шеърий санъатларининг ўз ўрнида ишлатилишига боғлиқ.

Шоир одамга завқ берадиган, уни руҳлантирадиган “гул” сўзи орқали ўзига муболағани ҳосил қилади: қизил гулни сарик гулга айлантириб ўзига хос муболаға – ғулуни яратади:

Ҳар қизил гулким, юзунг шавқида олиб исладим,

Етгач оҳим шуъласи, ани сариғ гул айладим (МАТ,ФК,290)

Байтда ўзига хос ғулув қўлланган, ошиқ ўз маъшуқасининг қизил юзини соғиниб, қизил гулни олиб ҳидлар экан, оҳи шуъласидан у сариғ гулга айланади. Бу ҳодиса – қизил гулнинг инсон оҳи билан сариқ гулга айланиши ҳаётда юз бермайди, сариқ гул ғулуни ҳосил қилган.

Биз қизил гул юзунг афқандаси,

Савсани озод қадинг бандаси (Мезонул-авзон,14 том,170)

мисраларида Навоий “гўзалликда гулга ўхшаш юзинг” жумласи ўрнига “қизил гул юзунг” тарзидаги қисқа, аниқ ташбиҳни қўллар экан, у муфассал ҳолдаги ўхшатишга қараганда маъшуқа латофатини ёрқинроқ гавдалантиради.

Шоир *сунбул*, гул сўзлари ёрдамида чиройли ташбиҳ ҳосил қилади:

Эй насими субҳ, аҳволим дилоромимға айт,

Зулфи сунбул, юзи гул, сарви гуландомимға айт (МАТ,НН,79)

Бу мисрада *зулфи сунбул*, *юзи гул* бирикмалари ташбиҳ сифатида қўлланган.

Шоир ёрининг қаддини анъанага кўра *сарвга* ёки *савсанга* ўхшатади. Бир ғазалида эса *сарв* ва *савсанга* ўхшатишнинг ғалати, ажойиб намунасини намоён қилади :

Сарв чун усру бийик, савсан бағоят паст эди,

Қоматиинг хайрул умур ойинидан топти васат.

Навоийшунос Абдуқодир Ҳайитметов фикрига кўра “Бундан шоир ўз маъшуқасининг бўйини сарвга ҳам, савсанга ҳам ўхшатмоқчи эмас, деган маъно англашилади. Бундай ўхшатиш унинг назарида ғайритабиий, чунки сарв жуда баланд бўйли дарахт, савсан – паст бўйли ўсимлик. Ёр эса, ҳамма ишнинг ўртачаси яхши деганларидек, ўрта бўйли. Навоий қолиплаган, шартли – анъанавий тасвир ва иборалардан узоқлашганда, унинг зийрак ақли, ўткир таланти шундай ҳаётинг тасвирларни ихтиро қилади, ҳаётнинг ичига дадил кириб, унинг характерли белгиларини топади. Чиндан ҳам, ҳаётда аёлларнинг новча ёки паст бўйли эмас, ўрта бўйли бўлиши кўп учрайди ва ўрта бўйли бўлиши гўзал ҳам. [1]

Навоий маъшуқанинг ҳуснини бир томонлама эмас, ҳар томонлама очишга ҳаракат қилади. Шоир бир ғазалда маҳбубанинг яшил ранг тўн кийгани, тўннинг тугмалари эса олтиндан экани ва бундай кийим билан унинг қадди кўкариб турган *норанж* ( апельсин ) дарахтига, тугмалари унинг мевасига ўхшашлигини ёзади:

Яшил тун бирла олтун тугмалардин бу фар анда,

Қадинг норанжи раъно нахлидур, буттан самар анда".

Бошқа бир ғазалда эса шоир маъшуқанинг савсан (гулсапсар) ранг тўн кийгани ва бу билан у бинафша баргларига бурканган шамшод дарахтига ўхшагани айтилади.

Сапсани тўн бирла ул қад савсани озод эрур,

Ё бинафша баргидин зеб айлаган шамшод эрур.

Илож айлай десанг, қўй, ислайин себи занаҳдонинг,

Менгаки сунбулунг савдосидин заъфи димоғ ўлмиш. («ХМ», Пб-268)

Шарқ шеърятда *олма* меваси ва унинг туси, рангини маҳбубанинг белгиларига рамзий қиёс қилиниши кенг тарқалган. Қизил ранг олмаларнинг туси, ранги маҳбубанинг юзи, лабига ўхшатилса, сариқ олмаларнинг ранги хажрдан юзлари сарғайган маъшукнинг кўринишига нисбат қилинган.

Алишер Навоийнинг *гул* сўзи орқали хусни таълил яратган.

Юзни гуллардин беабму бизни қурбон айладинг,

Ё юзингга тегди қонлар бизни қурбон айлагач? (МАТ,ФС,98)

Байтда маъшуканинг юзи атрофидаги гул қонга ўхшатиш, у маъшуқа юзига тегиш сабаби ноаниқ тарзда – гумонда ифодаланган.

Навоий *бинафша* сўзи орқали ажойиб, пурмаъно ўхшатиш яратади.

Ҳаракат бирла ул хужаста насим,

Сочти гул бошига сумандим сим.

Туррасиға тугуб бинафша абир,

Атри этти димоғида таъсир .

Жола жисмин уруб нигун қилди

Ким, танин зарби нилгун қилди(МАТ,СС,10).

Иккинчи ва учинчи байтда *бинафша* воситасида табиатнинг ажойиб сирлари баён этилган. Бинафшанинг ўз туррасига абир туғиб олиб, унинг атридан ўзи маст бўлишини, сўнгра уни дўл уриб бошини эгиши ва жисмини кўкартишини ҳис қилиш ва уни бундай гўзал шаклда ифодалаш навоийларгагина муяссар бўлиши мумкин. Ҳақиқатан ҳам, бинафшанинг гулбарглари тугилган ва пастга қараган бўлади, кишининг бадани эса зарб еганда бинафшага ўхшаб кўкаради. Дўл ҳам одатда бинафша очиладиган пайтларда ёғади. Абирни олсак, у мураккаб атриётдан бўлиб, мушк, сандал ва гулобдан тайёрланади. Булар жинсан бинафшада атир пайдо қиладиган уч нарсани – ер, сув ва ўсимликнинг танасини эслатади. Бу ерда бинафшанинг гўзаллиги фалақдан етишган зарбнинг натижаси қилиб кўрсатилишида ҳамма нарсани меҳнат гўзаллаштиради, инсонни ҳам меҳнат безайди, деган фикрга ишора бор.

Алишер Навоий асарларининг жаҳоншумуллиги ва абадий тириклигининг сабаби ижтимоий аҳамиятига эга фикрларни юксак бадий шаклда берганлигида бўлиб, унинг асарларини бадий нуқтаи назардан синчиклаб тадқиқ қилиш ва натижаларини илмий жамоатчилик эътиборига етказиш зарур. Навоийнинг бадий маҳоратини ўрганиш нафақат филологлар, балки ижодкорларнинг маҳоратини оширишда, китобхонларнинг дидини ўстиришда ҳам муҳим манбадир.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Абдукодир Ҳайитметов. Навоий лирикаси. Тўлдирилган ва тузатилган иккинчи нашр. –Т.: Ўзбекистон, 2015. – Б. 184.



2. Виноградов В.В. Стилистика. Теория поэтической речи. “Поэтика”, –М., 1963. – 253 с.;
3. Жирмунский В.М. “Риторико-синтаксический параллелизм как основа древнетюрского народного стиха “Вопросы языкознания””,. –М., 1964—С-54;
4. Томашевский Б.В. Стилистика и стихосложение. Курс лекций. — Л.: Учпедгиз, 2018. — 525 с.
5. Рустамов А. Навоийнинг бадий маҳорати. –Т.,1979. – Б. 125-193.
6. Хамраева М.К. Основы тюрского стихосложения. –Алма-ата, 1963. – 215 с.

## O‘ZBEK TILIDA BOG‘LOVCHILARNING O‘RGANISH MASALASI

*Usmonov Aslam Karshiboyevich,  
Sh.Rashidov nomli SamDU tayanch doktoranti*

Har qanday til o‘zining ichki qonuniyati asosida rivojlanadi va taraqqiy etadi. Jumladan, tildagi leksik qatlamlar asosida neologizm vujudga kelganidek, arxaik so‘zlar iste‘moldan chiqib boshlaydi. Shuningdek, tilda yangi bog‘lovchilarning paydo bo‘lishi u tilning leksik boyligining rivojlanishida, grammatik tuzilishining takomillashishida katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Shunday ekan, boglovchilar tilimizda grammatik vosita sifatida alohida o‘rin tutadi. Boglovchilarning kelib chiqishini o‘rganishning muhim nazariy ahamiyati bor. U stilistika va pragmatikaning qator masalalarini hal etishda muhimdir. Har qaysi so‘z turkumidagi so‘zlarning rivojlanishi o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, shu bilan birga shu xususiyatlar so‘zdagi leksik-grammatik ma’nolarning o‘zaro bog‘liq ekanini ham isbotlab beradi. Shuning uchun olimlarimiz bugungi kunda ham «Boglovchi» mavzusini o‘rganishga alohida ahamiyat berib kelmoqdalar.

Bog‘lovchi so‘zlarning shakli qadimga turkiy tilda hozirga turkiy va hozirga o‘zbek tilidan farkli b‘lgan, deyish mumkin. Chunonchi, -ли / -лы qo‘shimchasi qadimgi turkiy til davrida bog‘lovchi vazifasida qo‘llanilib, hozirga u, va bog‘lovchilari ifodalagan ma‘noni anglatgan, ya‘ni shu bog‘lovchilar vazifasini bajargan deyish mumkin:

АЙДЫҒЛЫ ТОНУЗЛЫ — айик ва тўнғиз.

тўнли кўнли — туну кун.[1;168]

Turkolog olimlarning tadqiqotlari ko‘rsatishicha bog‘lovchilar qidimgi turkiy tillardagi matnlarda mavjud bo‘lmay, faqatgina fars arab madaniyati ta‘sir doirasiga tushib qolgan turkiy tillardagina kechroq paydo bo‘la boshlagan. Xususan, bu jarayon islom dini qabul qilinishi bilan ham bog‘liq. Bir predikativ markaz doirasidagi gap komponentlari orasidagi munosabatlarni xarakterlovchi ko‘makchilardan farqli o‘laroq, bog‘lovchilar gapning ikki va undan ortiq predikativ markazlari orasidagi morfologik emas, sintaktik munosabatlarni aks ettiradi. Shunday qilib, yordamchi so‘zlarning mazkur guruhi, yuqorida aytilganidek, sintaktik birliklar darajasida faoliyat yuritadi[2;104-105].

O‘zbek tilidagi bog‘lovchilarning grammatik xususiyatlari (ma‘nosi) sifatida bugungi kunda quyidagilarni keltirish mumkin:

- a) Mustaqil leksik ma‘noga ega emas;
- b) Grammatik shakllana olmaydi;
- c) Ma‘lum so‘roqqa javob bo‘lib, gap bo‘lagi vazifasida kela olmaydi;
- d) Faqat gapning uyushiq bo‘laklarini va qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplarni o‘zaro bog‘lash uchun xizmat qiladi.

Bizningcha, bog‘lovchilarning boshqa so‘z turkumlaridan yuqorida keltirilgan grammatik xususiyatlari bilan farq qiladi va bu grammatik xususiyatlar bog‘lovchilarga ta‘rif berishda ham asos vazifasini ham o‘taydi. “Bog‘lovchi — uyushiq bo‘laklar qismlarini, qo‘shma gap sostavidagi gaplarni bir briga bog‘lash va shu yo‘l bilan ular orasidagi turli munosabatlarni ifodalash uchun xizmat qiluvchi so‘z.”[3;24] yoki “Bog‘lovchi – gap bo‘laklari va sodda gaplarni bir-biriga bog‘lash uchun xizmat qiladigan yordamchi so‘z turkumining biri[4;35].

Mualliflar bog‘lovchilarning grammatik xususiyatlariga tuxtalib quyidagilarni bayon qiladilar: Umumiy grammatik belgilari. Gap tarkibidagi so‘zlar va qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplar bir-biri bilan grammatik jihatdan teng yoki tobe bo‘ladi: *onalar va bolalar xonasi, Quyosh chiqdi va kun isidi, Qunduz darsga kechikdi, chunki yo‘lda ushlanib qoldi.* Bunday munosabatni ko‘rsatuvchi yordamchi so‘zlarga bog‘lovchi deyiladi. Bog‘lovchilar atash ma‘nosiga ega emas, so‘roq qabul qilmaydi, mustaqil gap bo‘lagi vazifasida kelmaydi. Morfologik jihatdan o‘zgar olmaydi: turlanmaydi, tuslanmaydi. So‘z yasalishi, shakl yasalishi uchun asos bo‘lmaydi.

Bog‘lovchining qo‘llanishiga ko‘ra turlari. Gapda qo‘llanilishiga ko‘ra bog‘lovchi yakka, takror, yakka va takror qo‘llanadigan bog‘lovchiga bo‘linadi. Yakka qo‘llanadigan bog‘lovchiga *a, va, hamda, ammo, lekin, biroq, balki, holbuki, vaholanki, gar, agar, agarda, basharti, chunki, garchi, garchand, go‘yo, go‘yoki, -ki/-kim, esa, ya‘ni;* takror qo‘llanadigan bog‘lovchilarga *dam-dam, ba‘zan-ba‘zan, ham-ham, bir-bir, xoh-xoh, goh-goh;* yakka va takror qo‘llanadigan bog‘lovchiga *yo, yoki* bog‘lovchisi kiritiladi.

O‘zbek tilida bog‘lovchilar monografik aspidakda[4] hamda dissertatsiyalarda[6] va bir qator ilmiy maqolalarda[7] yoritilgan. Bundan tashqari, bugungi kunda deyarli hamma “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsliklarida va qollanmalarida ham boglovchi soz turkumi haqida malumotlar mavjud.

Prof. A.Muxtorov uzoq yillar davomida bog‘lovchilarning grammatik xususiyatlarini o‘rganish sohasida salmoqli ishlarni amalga oshirgan. Olimning «O‘zbek tilida bog‘lovchilar», «O‘zbek tilida ergashtiruvchi bog‘lovchilar», «Ergashtiruvchi bog‘lovchilarning sodda gap sostavida qo‘llanilishi» singari ilmiy maqolalari SamDU ilmiy to‘plamlarida nashr etilgan. A.Muxtorov 1953 yilda «Hozirgi o‘zbek tilida bog‘lovchilar» mavzuidagi nomzodlik ishini ham himoya qilgan edi. Prof.M.Asqarova «O‘zbek tilida bog‘lovchiklamalar haqida» nomli maqolasini e‘lon qilish bilan yordamchi so‘zlar orasida bir-biriga ko‘chish, birining vazifasini ikkinchisi bajarishdek xususiyat barcha yordamchi so‘zlarga xos ekanligini ilmiy jihatdan asoslashga muvaffaq bo‘lgan edi.

Ilmiy adabiyotlarda uyushiq bo‘laklarini va qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplarni o‘zaro bog‘lash uchun xizmat qiluvchi yordamchi so‘zlarga bog‘lovchi deyiladi. Va, ammo, lekin, biroq, chunki, yo..., yo, dam..., dam, goh..., goh, *shuning uchun, agar, agarda, basharti, agarchi, go‘yo, go‘yoki, -ki, -kim, ya‘ni* kabi yordamchilar bog‘lovchilar sirasiga kiritiladi.

O‘zbek tilida bog‘lovchilar gapdagi vazifasiga ko‘ra quyidagicha ikki turga ajratiladi: a) teng bog‘lovchilar, b) ergashtiruvchi bog‘lovchilar.

Teng bog‘lovchilar -Uyushiq bo‘laklar va o‘zaro teng munosabatdagi gaplarni bog‘lab keluvchi bog‘lovchilarga aytiladi. Teng bog‘lovchilar uyushiq bo‘lak va gaplarni bog‘lash bilan birga ular o‘rtasidagi mazmuniy munosabatni ham ro‘yobga chiqaradi. Masalan: Boyvachcha yer o‘pib, tavba qilibdi va keksa otanasini rozi qilish uchun o‘sha zahotiularning huzuriga shoshilibdi. (*N.Aminov*) “*va*” teng bog‘lovchisi qatnashgan.

Ergashtiruvchi bog‘lovchilar ergashgan qo‘shma gaplar tarkibida kelib ergash gapni bosh gapga bog‘laydi. *Chunki, shuning uchun, agar, agarda, basharti, agarchi, go‘yo, go‘yoki, -ki, -kim, ya‘ni, toki singari bog‘lovchilar esa ergashtiruvchi bog‘lovchilar sirasiga kiradi. Bog‘lovchilarning bunday tasnifi shu kungacha nashr etilgan deyarlik barcha ilmiy adabiyotlarda takrorlanadi.*

Tilshunosligimiz tarixini o‘rgangan olimlar ergash gapli qo‘shma gaplar tarkibida eng ko‘p qo‘llanuvchi bog‘lovchi sifatida –ki, -kim e’tirof e’tiladi. Bu yordamchining barcha turkiy tillarda faol qo‘llanishini Gajieva va Serebrennikovlar ta’kidlaydilar. -ki, (-kim) aniqlov bog‘lovchilari o‘zbek tilshunosligida «ergash gaplarni bosh gapga bog‘lash uchun ishlatilib, bosh gapda ifodalangan fikrni aniqlab, izohlab kursatadi: ...dalani bir aylangan kishi ravshan kuradiki, ishimizda behad kamchiliklar bor (Oybek).» Aniqlov bog‘lovchisiga bugungi kunda -ki, (-kim) bog‘lovchisidan tashqari *ya‘ni* bog‘lovchisini ham shu gurihga kiritishadi. Bu bog‘lovchi -ki, (-kim) bog‘lovchisidan farqli ularoq - gap bo‘laklarini va gaplarni tobelantirib bog‘laydi, ular o‘rtasidagi aniqlashtirish ma’nosini ifodalaydi[8;101]. Ergashtiruvchi bog‘lovchilardan aniqlov bog‘lovchisi qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bog‘lashdan tashqari, ajratilgan bo‘laklarni tarkibini bog‘lash vazifasini ham bajaradi. Masalan: Men aytgan edim-ku, ular avval qandaydir ekspeditsiya... *ya‘ni* ilmiy sayr-sayohat (ajratilgan bolak) degan bahona bilan kelishgan. (Insonga qulluq qiladurmen (hikoyalar). Asqad Muxtor)

-ki, (-kim) bog‘lovchisi haqida adabiyotlarda turlicha fikrlar mavjud. Jumladan, E.A.Grunina –ki bog‘lovchisi ikki omonim bog‘lovchidan – forsiy –ki hamda o‘zbekcha –*ki* dan iborat bo‘lib, tarixan kim so‘roq olmoshidan o‘sib chiqqanini ta’kidlasa, A.N.Kononov uning sof forsiy ekanligini aytadi. N.Z.Gadjieva esa turkiycha –*ki* ta’kid-kuchaytiruv yuklamasi bo‘lib, -go, -ku yuklamalari bilan aloqador, deb hisoblaydi va yuklama o‘g‘uz, qipchoq yodnomalarida keng qo‘llangani ta’kidlaydi. Keyinchalik fors tiliga xos bo‘lgan sintaktik qoliplarning ozarbayjon tiliga kirib kelishi bilan forsiy hamda turkiy –*ki* ning chegarasini aniqlab bo‘lmay qolganligini aytadi. Lekin baribir, ko‘pgina holatlarda –ki o‘zining yuklamalik ma’nosini saqlab qolganini turli turkiy tillar misolida izohlab beradi.

Ba'zan –*ki* ot turkumidagi soʻzlar bilan kelib, ta'kidlash, uqtirish ma'nolarini anglatadi. Bunday paytda u bog'lovchi vazifasini emas, yuklama vazifasini bajaradi.

Tilda yangi soʻzning paydo boʻlishi oʻsha tilning ichki rivojlanish qonuniyatiga bogʻliqdir. Affiksatsiya yoʻli bilan yangi soʻz yasalganda tilning lugʻat boyligi ortadi. Shuningdek, mustaqil ma'noli soʻzlarning yordamchi soʻz turkumiga oʻtishi ham oʻsha tilning ichki rivojlanish qonuniyati asosida boʻladi. Shunday qilib, tilning rivojlanishidagi birinchi va asosiy omil uning ichki qonuniyati boʻlsa, ikkinchi omil tashqi muhitning ta'siridir. Har qanday til boshqa bir tilning ta'sirida ma'lum bir oʻzgarishga, rivojlanishga ega boʻlganida ikkita alohida-alohida tilda gaplashadigan xalqlarning oʻzaro ijtimoiy munosabati katta ahamiyatga ega boʻladi. Shuning uchun ham fors-tojik va arab ham boshqa tillarning ta'siri natijasida oʻzbek tilida fors-tojik, arab va boshqa tillardan kelib kirgan koʻmakchilarni uchratamiz: binoan, ravishda, yangligʻ va b.[9;10] Garchi keltirilgan fikrlar koʻmakchilar haqida boʻlsa-da, bizningcha, bu fikrlar barcha yordamchi soʻz turkumlariga birdek ta'lluqli. Shunday ekan, boʻlovchilar tarkibida ham boshqa tilida, xususan, fors-tojik tilidan kirib kelgan bogʻlovchilar mavjud: *Chunki, chun, agar, garchi, garchand va b.*

Faxri Kamol tahriri ostida nashr qilingan “Hozirgi zamon oʻzbek tili” darsligida (kursining yuklamalar, koʻmakchilar, bogʻlovchilar, qismi akademik, Sh.Shoabdurahmonov tomonidan yozilgan.) ergashtiruvchi bogʻlovchilarga chunki, shuning uchun, agar, basharti, garchi, goʻyo, goʻyoki, -ki, -kim kabi bogʻlovchilar kirishi, ular oʻzlarining sintaktik vazifalariga koʻra, asosan qoʻshma gap sostavidagi gaplarni bogʻlash uchun ishlatilishi, bu bogʻlovchilarning gapdagi uyushgan boʻlaklarni bogʻlash hollari juda kam uchrashi aytilgan. Shart boglovchilar deb yuritiladigan agar, agarda, basharti, agarchi, gar kabi birliklarga alohida toxtalib: “Yuqoridagi bogʻlovchilar qatorida agar, agarda, basharti, agarchi, gar (hozirgi adabiy tilda kam uchraydi), mabodo va sh. k. soʻzlar ham bordir. Bular shart va toʻsiqsiz gaplar oldida keladilar. -sa, -sa- ham va sh. k. shart affiksidan anglashilib turgan ish va harakatning bajarilishi yoki bajarilmasligidagi shart maʼnosini, shu bilan birga shu ish va harakat boʻlishi yo boʻlmasligiga hech qanday monelik — toʻsiq boʻlmasligi kabi maʼnolarni kuchaytirib berish uchun ishlatiladilar: Agar meni soʻrab kelsalar, men Sovetskaya maydonida boʻlaman. (A. Gaydar.) Jamolning singlisini har koʻrganda garchi dardini yashirishga tirishsa ham, biron xush xabar umidida, oʻsmoqchilab soʻraydi. (Oybek.)” -kabi fikrlarni bayon qiladi.

Проф. М.Асқарова *agar, bordi-yu, basharti, garchi* kabi yordamchilarni vazifasi jihatidan ham bogʻlovchi, ham yuklamaga oʻxshaganligi sababli bogʻlovchi-yuklama deb ataydi va ularning yakka oʻzi hech qanday ergash gapni bosh gapga bogʻlay olmasligini aytadi. Demak, ular ham gap modalligini taʼminlovchi shakliy vositalar hisoblanadi.

Umuman, ergashtiruvchi bogʻlovchilar qoʻshma gaplarning tuzilishida muhim grammatik vosita emas, ular gapning modalligini taʼminlashga xizmat



qiladi. Ergashtiruvchi sifatida talqin etilayotgan ba'zi yordamchilar aslida mustaqil so'z sifatida tushunilishi lozim.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Тўйчибоев Б. Ўзбек тилининг тараққиётбосқичлари. Тошкент, Ўқитувчи, 1996. 168 бет.
2. Пардаев А. Тил тизимида ёрдамчи сўзлар.- Самарқанд, 2011, 104-105 бетлар.
3. Хожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғти. –Тошкент, 1985, 24 бет,
4. Mengliyev V. va boshqalar. Ona tili (qomus). Тошкент, 2009, 35 bet
5. Ш.Шоабдурахмонов «Ўзбек тилида ёрдамчи сўзлар», Тошкент, 1953; Расулов. Р. Ўзбек тилда ёрдамчи сўзларнинг семантик-грамматик хусусиятлари. – Т., Фан, 1983.
6. Мухтаров Ж. Союзы в современном узбекском языке. Автореф. дисс канд филол. наук. – Самарқанд, 1953; Матғозиев А. Ўзбек тилидан эргаштирувчи боғловчиларнинг тараққиёт тарихи. Филол. фан. номз.диссертацияси. Тошкент, 1966; Закирова Х. Эргаштирувчи боғловчи воситаларнинг структур-семантик тадқиқи: филол фан номз. дисс-я. – Тошкент, 2011.
7. Асқарова М. Ўзбек тилида боғловчикламалар ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1962, 5-сон; Хожиев А. Ҳозирги ўзбек адабий тили боғловчилари ҳақида мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти, 1986, 2-сон, 56-бет; Абдуллаева М. Ўзбек тилида боғловчилар таснифига доир айрим мулоҳазалар. Раҳматулла Қўнғуровнинг илмий мероси ва Ўзбек тилшунослиги масалалари. Илмий мақлалар тўплами. – Самарқанд, СамДУ нашри, 2008. 130-134-бетлар; Нурмонов А., Ғаниева Д. Ҳозирги ўзбек тилшунослигининг айрим муаммолари // Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари. Академик Ғанижон Абдурахмонов таваллудининг 80 йиллигига бағишланган анжуман материаллари. – Фарғона, 2005. 129-131-бетлар; Бозоров О. Ёрдамчи сўзларнинг долзарб масалалари/ Айюб Ғуломов ва ўзбек тилшунослиги масалалари (илмий мақолалар тўплами) – Тошкент, ЎЗМУ, 2007. 39-бет; Пардаев А. Ўзбек тили сўз туркумлари тизимида боғловчилар // Замоновий ўзбек тили муаммолари (Улуғ Турсунов ва замонавий ўзбек тили муаммолари) илмий анжуман материаллари тўплами. – Самарқанд: СамДУ, 2011. 72-77-бетлар. va boshqalar.
8. Mahmudov N. va boshq. Ona tili [Matn] – Toshkent:«Ma'naviyat», 2017. – 101- b.
9. Рустамов Т. Соф кўмакчилар.-Тошкент: Фан,1991.10-б.



## ТУРКИЙ ТИЛЛАРДА АРАБЧА ЎЗЛАШМАЛАР АСОСИДА ҲОСИЛ БЎЛГАН ТИЛШУНОСЛИК ТЕРМИНЛАРИ

(Ўзбек, қорақалпоқ, туркман тиллари мисолида)

*Оразбаев Эргаш Юлдашевич,*

*Қорақалпоқ давлат университети ўқитувчиси*

Туркий тиллардаги ўзлашмаларни, хусусан, арабча ўзлашмаларнинг ўзбек, қорақалпоқ, туркман тиллари луғавий қатламидаги ўрнини аниқлаш, арабча ўзлашмалар асосида мазкур тилларда пайдо бўлган ясалмаларни, услублараро хосланган терминологик тизимни қиёсий тадқиқ қилиш, улар таркибидаги ўхшаш ва фарқли семаларни матн доирасида таҳлил қилиш ва тавсифлаш, замонавий туркий тиллар, хусусан, ҳозирги ўзбек тили лексикаси асосида қиёсий ўрганиш натижасида туркий тиллар луғат таркибининг бойиб бориш омиллари аён бўлади.

Маълумки, арабча ўзлашма лексика миллий тиллар доирасида, яъни аниқ бир туркий тил луғавий бирликлари мисолида ўрганилган. Бироқ шуни таъкидлаш жоизки, туркий тиллардаги арабча ўзлашмалар таркибидаги терминологик тизимнинг семантик ва структуравий хусусиятлари икки ёки бир неча тиллар лексикаси асосида қиёсий-тарихий аспектда алоҳида ва монографик аспектда ўрганилмаган.

Ўзбек, қорақалпоқ, туркман тиллардаги арабча ўзлашмалар асосида ҳосил бўлган терминологик тизимни қиёсий ўрганар эканмиз, бунда эталон тил сифатида ўзбек тилини оламиз, яъни ўзбек тилидаги терминларга қиёсан қорақалпоқ ва туркман тилларидаги муқобилларини семантик таҳлилга тортамыз. Бинобарин, мазкур ишнинг натижалари туркий тиллараро таржима луғатларини тузиш тамойилларини ишлаб чиқишда катта ёрдам беради, бундай кўп тиллик луғат тузиш методи ва тамойиллари мавжуд [3: 27]. Бундай луғатларни тузганда, луғавий бирликларнинг кўп маънолилиқ, маънодошлиқ, шаклдошлиқ ва зид маънолилиқ каби жиҳатларини ҳам камраб олиш, луғатларда акс эттириш жуда фойдалидир.

Гарчи, ҳозирги вақтда ўзбек тилида терминлар яшаш жараёнида араб ва форс-тожик тиллари манба сифатида деярли иштирок этмаса-да, аммо ўзга қариндош туркий тилларда бўлгани сингари ўзбек тили луғат таркибидаги терминларнинг аксарияти шу қадимий тилларга мансубдир. Бу ўзлашмалар ўзбек тилининг фонетик ва грамматик қоидаларига бўйсинган ҳолда янги мазмун касб этган ва янги воқеланган тушунчаларни ифодалашга хизмат қилмоқда [1: 47].

Туркий тиллар терминологик тизими тарихий шароит, ижтимоий-сиёсий воқеалиқ, шунингдек, илмий ёндашувлар натижасида шакллантирилган. Жумладан, “Давлат тили ҳақида”ги Қонун қабул қилинаётган пайтда вақтли матбуотда бир қатор байналминал атамаларни тилимиздан қувиб чиқариш, уни араб ёки форс-тожик тилидаги муқобили билан алмаштириш тенденцияси кучайди. Масалан, *радио ўрнига овознигор, самолёт ўрнига тайёра, аэропорт ўрнига тайёрагоҳ, институт ўрнига*

*олийгоҳ, район ўрнига ноҳия, студент ўрнига илмжў* ва бошқалар. Атамаларни алмаштириш шу даражага етдики, ҳатто мутахассисларнинг ўзлари ҳам янги қўлланилаётган атамаларни қайси тушунча учун ишлатилаётганлигини изоҳлашга қийналиб қолди [2: 218]. Умуман, туркий тиллардаги арабча ўзлашмалар асосида тилшунослик терминларининг ясалишидаги асосий сабаб ва омиллар сифатида қуйидагиларни кўрсатиш мумкин:

1. Ўрта асрлардаги анъанавий арабча ёки туркий тиллардаги луғатларда қўлланилган тилшунослик терминларни олиш.

2. Туркий тиллар лексик фондида мавжуд бўлган арабча ўзлашмаларнинг маъноларини махсуслаштириб, термин ҳосил қилиш.

3. XX аср бошларида илмий тилшунослик ривожини натижасида русча-байналмилал ўзлашмалар ўрнига арабча ўзлашмалардан термин ҳосил қилиш.

4. XX асрнинг 80-90 йиллари, XXI асрнинг дастлабки йилларида туркий тилларнинг мустақиллик шароити билан боғлиқ тил, имло ва терминологияни ислоҳ қилиш, янгилаш, тартибга солиш эҳтиёжи сабабли.

5. Охириги йилларда тилшунослик фани тараққиёти натижасида юзага келаётган бир қатор терминлар ўрнига арабча ўзлашмаларни қабул қилиш натижасида (масалан, parole – лисон, оппозиция – зиддият, диахрон – тарихий, синхрон – тавсифий кабилар) ва бошқалар.

Юқорида таъкидланган сабабларга кўра ўзбек, қорақалпоқ ва туркман тилларида бир қанча терминлар айнан арабча ўзлашмалар асосида илмий терминологияда қабул қилинган. Уларни қуйида ўзбек, қорақалпоқ, туркман тиллари мисолида алоҳида кўриб чиқамиз.

Ўзбек тилида *адабий (тил), (адабий) меъёр, лисон, лисоний (омиллар), лаҳжа, нутқ, расмий нутқ, лисоний сатҳ, лисоний парадигма, лисоний муносабат, лисоний зиддият, нутқ товуши, нутқ аъзолари, ҳарф, алифбо, имло, (имло) тамойиллари, имло қоидалари, талаффуз (қоидалари), луғат, лисоний луғат, луғатшунослик, луғат мақолалари, имло луғати, луғавий бирлик, ифода план, мазмун план, (лексик) маъно, грамматик маъно, лексик маъно тараққиёти, бир маънолилик, кўп маънолилик, маъно кўчиши, маънонинг кенгайиши, маънонинг торайиши, бош маъно, ҳосила маъно, ифода семалари, вазифа семалари, вазифадош (кўмакчи), вазифадошлик (асосида маъно кўчиши), ибора, шакл муносабати, маъно муносабати, шакл, грамматик шакл, грамматик маъно, шаклдошлик, сўзлар таснифи, мустақил сўзлар, феъл, феъл нисбати, аниқ, мажҳул нисбат, шахс-сон шакли, замон шакллари, ҳозирги замон, алоқа-муносабат шакллари, сифатдош, сифат, мавҳум от, тақлид сўз, лисоний синтактик қолип, синтактик алоқа, ҳоким сўз, тобе сўз, исмли бирикма, феълли бирикма, шакл ва мазмун муносабати, ифода мақсади, ҳол, дарак гап, услуб, услубий сема, услубий восита, услубий бўёқ, услубият, услубшунослик, илмий услуб, расмий услуб, бадиий услуб, тил оилалари* каби бир қатор тилшунослик терминлари арабча ўзлашмалар орқали шакллантирилган. Алоҳида қайд этиш жоизки, ўзбек илмий

тилшунослиги XX асрнинг 20-30-йилларидан бошлаб ривожлана бошлади ва атамаларнинг аксар қисми айнан шу даврларда шаклланди. Шу билан бирга арабча ва умумтуркий сўзлар асосида қўшма терминлар ҳам ясалганлигини кўришимиз мумкин. XX асрнинг 80-90-йилларида юзага келган субстанциал (систем-структур) тилшунослик парадигмасида ҳам арабча ўзлашмалар асосида бир қанча янги терминлар пайдо бўлди. Жумладан, *лисон*, *сатҳ* каби бирликлар айнан юқоридаги фикримизнинг далилидир.

Қорақалпоқ ва туркман тилшунослигида илмий терминлар кўпроқ ўз қатлам сўзлари асосида шакланган ва шундан келиб чиққан ҳолда ушбу тиллардаги тилшунослик терминологиясини қуйидаги гуруҳларга бўлиб ўрганиш мумкин:

- 1) русча-байналмилал тилшунослик терминлари;
- 2) умумтуркий сўзлар асосидаги тилшунослик терминлари;
- 3) арабча-форсча ўзлашмалар асосидаги тилшунослик терминлари.

Қорақалпоқ тилида: *адебий тил*, *мазмун (маъно)*, *сөйлеу ағзалари (нутқ аъзолари)*, *ҳарип*, *алипбе*, *имла (орфография)*, *имла қаделери*, *эмелий транслитерация*, *сөз мәниси*, *лексикалық мәни*, *мәнили сөзлер (мустақил сөзлар)*, *көп мәнили сөзлер*, *бир мәнили сөзлер*, *грамматикалық мәни*, *семантикалық тәреп (план содержания)*, *фонетикалық (сеслик) тәреп (план выражения)*, *фейил*, *мейил категориясы*, *анықлық мейил*, *шәрт мейил*, *жупласыу усулы*, *гәп ағзалари* каби бир қатор содда ва қўшма терминлар арабча ўзлашмалар асосида ясалган.

Туркман тилида: *edebi dil*, *edebi kadalар* (адабий меъёр), *nazary dil bilimi*, *tejribe dil bilimi*, *dilewarlyk sungaty*, *diliñ hyzmatlary*, *dil maşgalalary* (оилалари), *harp*, *elipbiý*, *sözleýiş agzalary*, *orfografiýa kadalary*, *leksik many*, *grammatik many*, *birmanylylyk*, *köpmanylylyk*, *asyl many* (ўз маъно), *asyl söz* (туб сўз), *mazmun meýilnamasy*, *añladyş meýilnamasy*, *grammatik şekiller*, *şekil ýasalyşy*, *söz ýasalyş usullary*, *isimler*, *anyk atlar*, *has atlar*, *jyns atlar*, *düşümleriñ mynasebetligi*, *sypatlar*, *asyl sypat*, *sypat derejeleri*, *tertip sanlar*, *işlik derejeleri*, *hal işlik*, *işligiñ zamanşekilleri*, *hallar*, *şekil aňladyan sözler* (ҳоламга тақлид сўзлар); *habar sözlemi*, *sözlemiñ agzalary*, *habar*, *ahwalat*; *resmi-iş stili*, *ylmy stil*, *kowumdaş diller* (қариндош тиллар), *terjimesynaslyk*, *çeper terjime*, *maglumat (informatiw) terjimesi*, *dil we pikirlenme* (тафаккур), *labyzlylyk* (ифодавийлик), *täsirli (emosional öwüşginli)* (ҳуссий-таъсирий) *sözler*, *kitabý sözler* (ёзма услубга хос сўзлар), *taryhy sözler*, *nokat* (нуқта) ва бошқалар.

Умуман, туркий тиллардаги илмий терминларни қиёсий ўрганиш асосида ушбу тиллар луғавий қатламидаги ўзлашмалар маъновий ва семантик қўлланиши ҳақидаги маълумотларга эга бўлиш баробарида уларнинг амалий тилшунослик доирасидаги муаммоларни бартараф этилишига имкон беради. Шунингдек, мазкур тиллардаги терминологик тизимнинг ҳамда илмий, расмий матнлар таржимасидаги масалаларга тўғри ёндашишда ҳам катта аҳамиятга эга.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi. –Toshkent: “Nodirabegim”, 2020-yil. 47-b.
2. Нурманов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: «Ўзбекистон», 2002 йил. 218-б.
3. Умарходжаев М.И. Принципы составления многоязычного фразеологического словаря (на материале немецкого, узбекского и русского языков): Автореферат дис. канд.филол.наук. – М., 1972. – 27 с.

**ENGLISH ABSTRACT NOUNS**

*Alibekova Zilola Abdulhayit qizi,  
Jizzakh State Pedagogical Institute Teacher*

Nouns refer to people, places, or things. In addition, there is a special class of nouns - abstract nouns. Abstract nouns are words that name concepts, beliefs, qualities, attributes, and ideas. A broader abstract noun definition might be that they name things without physical properties. A narrower answer to *what is an abstract noun* is, perhaps, that you can't experience abstract nouns through your five senses by the very abstract noun definition of being intangible. Perhaps your sixth sense, intuition, which is also an abstract noun, could help you explain them better! Here are some examples to answer “What are abstract nouns?” Let's look at such a sentence, a statement by the American writer Alvin Brooks White:

***A library is a good place to go when you feel unhappy, for there, in a book, you may find encouragement and comfort.***

*Encouragement* and *comfort*, one of the nouns in this sentence, are abstract. There are a lot of other nouns in this statement: library, place, book. You can see them, touch them, for example. But you can't do it with encouragement and comfort. Support and comfort have no color, shape, smell, size, sound, consistency - in general, those properties that can be seen, heard, touched, tasted or smelled. Any noun beyond the reach of these five senses is abstract.

Concrete nouns are tangible with all our senses. Do not confuse abstract and concrete nouns: T-shirt is the best in adding zest to beauty.

*T-shirt* is an example of a specific noun. You can touch the shirt, smell it, check the material from which it is made. You can do this because it is available to all five of our senses. For a clearer example of the difference between concrete and abstract nouns, we have compiled a table.

Table 1. English concrete and abstract nouns

Abstract nouns	Specific nouns
deceit	the President
dedication	teacher
curiosity	cat
trust	airplane
relaxation	computer

A few more examples:

**I love my husband.**

In this sentence, the word *love* expresses action, and therefore acts as a verb.

**Send them my love.**

In this sentence, the word *love* is an abstract concept because it exists outside of the five senses.

**Maria could taste cilantro in the salsa.**

In this sentence, the auxiliary verb "*could*" illustrates an action. After all, Maria can physically try salsa.

Abstract forms of nouns are very common and are an important part of communication. In many cases, these types of nouns are formed by adding a suffix or changing the root of a word. Child is a concrete noun, while childhood is an abstract noun.

As a rule, abstract nouns have the following suffixes:

- tion
- ism
- ity
- ment
- ness
- age
- ance
- ence
- ship
- ability
- acy

Abstract nouns can be formed from adjectives by adding the -ness suffix: happy / happiness, sad / sadness, kind / kindness, cheerful / cheerfulness. Typical mistakes of English-speaking bloggers.

However, a large group of adjectives have various nouns that do not require the addition of -ness or another suffix. A common stylistic error is adding -ness to adjectives that already have the corresponding noun forms. For example, the adjective humble has a corresponding noun humility, but many native English speakers are unaware of this and write humbleness.

Politicians Need More Humbleness.

Here are some additional adjective/abstract noun pairs that are often confused by journalists and bloggers.

Table 2. English abstract nouns and adjectives

angry / anger	loyal / loyalty
anxious / anxiety	mature / maturity
brave / bravery	peculiar / peculiarity



curious / curiosity	sane / sanity
generous / generosity	sensitive / sensitivity
imaginative / imagination	strong / strength
intelligent / intelligence	stupid / stupidity
jealous / jealousy	tolerant / tolerance

The study of abstract nouns has a long history. Although many attempted to provide a clear and sufficient definition for the terms abstract and abstraction, a lot of questions still remain as different researchers propose various definitions and criteria for drawing the line between abstract and concrete nouns: extra linguistic or linguistic (which, in its turn can be subdivided into semantic or grammar). However, all of the above-mentioned parameters appear to be insufficient for clear differentiation between the two groups of nouns; hence, a number of criteria have to be applied for selecting abstract nouns. Moreover, differences in approaches lead to different understanding (and therefore classifications) of nouns, which affects the results of abstract nouns studies.

#### REFERENCES:

1. Feuer L.S.(1995) *Varieties of Scientific Experience: Emotive Aims in Scientific Hypothesis*. New Jersey: Transaction Publishers.
2. Schwanenflugel P.J. (1996) Context availability and the Development of Word Reading Skill. *Journal of Literacy Research*. Vol. 28, Number 1, 35-54
3. Novitskaya I.V. (2006). Philosophic and linguistic interpretation of abstract nouns. *Vestnik TPGU*.4(55), 7-11.
4. Caramelli N., Setti A., Maurizzi D. (2004) Concrete and Abstract Nouns in School Age Children. *Psychology of Language and Communication*. Vol 8, No2, 19-34
5. Barsalou L., Wiemer-Hastings K. (2005) Situating Abstract Concepts. In D. Pecher, R Zwaan (Eds.), *Grounding Cognition: The Role of perception and action in memory, language, and thought*. New York: Cambridge University Press, 129-163
6. Feuer L.S.(1995) *Varieties of Scientific Experience: Emotive Aims in Scientific Hypothesis*. New Jersey: Transaction Publishers.
7. Schwanenflugel P.J. (1996) Context availability and the Development of Word Reading Skill. *Journal of Literacy Research*. Vol. 28, Number 1.
8. Novitskaya I.V. (2006). Philosophic and linguistic interpretation of abstract nouns. *Vestnik TPGU*.4(55).
9. Caramelli N., Setti A., Maurizzi D. (2004) Concrete and Abstract Nouns in School Age Children. *Psychology of Language and Communication*.

**YUKSAK TOG‘LAR FARZANDI**

*Madraximova Inobat Bahodirovna,  
TVCHDPI o‘qituvchisi,  
Muminov Zokir Sharop o‘g‘li,  
TVCHDPI talabasi*

Dunyoda yuksak tog‘lar bor, ana o‘sha yuksak tog‘larning bag‘rida, yuksaklikka ko‘tarilgan shoir Rasul Hamzatov Dog‘iston tog‘lari etaklarida 1932-yil 8-sentabrda dunyoga keldi. Vatan kuychisi Dog‘iston xalqining eryurak, mard, jasur farzandi dunyo nigohiga shoir sifatida tanildi. Shoir tog‘ etaklarida joylashgan, avar xalqining millat ruhi bo‘lgan, avar tilini madh etgan xalqning otashin, sadoqatli farzandidir. Shoir o‘z she‘rlarida o‘z yurti, tili haqida jo‘shib kuylaydi. Buni “Tog‘ qo‘shig‘i”, “Bizning tog‘lar”, “Mening qalbim tog‘larda”, “Mening Dog‘istonim”, “Tog‘likning vatani”, “Yuksak yulduzlar”, “Tog‘ qizi” kabi she‘riy to‘plam va dostonlarida ko‘ramiz. Ushbu asarlari orqali Rasul Hamzatov jahon adabiyotiga o‘zining vataniga muhabbat, ona tabiatga, ota makoniga mehr-oqibat, o‘zi mansub bo‘lgan millatiga e‘zoz- u ehtirom va albatta tiliga bo‘lgan e‘tibori hamda uning e‘tirofi milliy urf-odatlariga umuminsoniy qadriyatlariga bo‘lgan hurmatini o‘z asarlarida tarannum etadi. Shoirning “Mening Dog‘istonim” asari Vatan haqida kuylangan vatanni madh etgan eng buyuk asar hisoblanadi. Ushbu asar o‘ziga xos tuzilishiga ega bo‘lib asarni yozishga esa bir jurnal muharririning yozgan maktubi sabab bo‘ladi. Muharrir Rasul Hamzatovdan Dog‘istonning ilg‘or tajribalari hamda muvaffaqiyatlari haqida kichik hajmdagi asar yozib berishini so‘raydi. Ammo Rasul Hamzatov buni xohlamaydi, sababiki, avar xalqining borlig‘ini kichik hajmda yoritib bo‘lmas edi. Rasul Hamzatov ushbu asari orqali avar xalqining tantiligi, oliyjanoblighi ovul hayoti haqida so‘z olib boradi, bundan ko‘rinadiki asarning bosh mavzusi zamirida VATAN tushunchasi turadi. Demak, “Mening Dog‘istonim” asarida Shoir o‘z millati haqida, tog‘liklarning o‘ziga xos fe‘l atvori, ulardagi mardlik, jasorat, or, nomus tuyg‘ularini, o‘zining boshidan o‘tgan voqea- hodisalarni jo‘shib tasvirlaydi. Dunyo xaritasida jimitdekkina ham joyni egallamaydigan Dog‘istonni u shu qadar buyuk muhabbat bilan kuyladiki, u bilan hammani maftun etdi:

“Har bir odam bolaligidan o‘z xalqining vakili bo‘lish uchun dunyoga kelganini bilishi va shu sharafli vazifani zimmasiga olishga o‘zini tayyorlashi kerak”

“To‘g‘ri barcha Dog‘istonliklar uchun Dog‘iston bitta, yagona lekin, har bir dog‘istonlikning qalbida o‘z Dog‘istoni bor” -demak bilinadiki inson bo‘lib tug‘ildikmi, vatan oldidagi burchimizni oqlashimiz kerakligini, jonga-jondosh qonga-qondosh bo‘lishimiz kerakligini nazarda tutadi.

“Tog‘liklarda shunday ajoyib odat bor: uyiga kelgan mehmonga xonadonidagi qaysi buyum yoqib qolib uni maqtagudek bo‘lsa, o‘sha narsani ketar cho‘gida mehmonga sovg‘a qilishi shart”. Tog‘liklarning avar xalqining mardlik tuyg‘usi hamda mehmonga bo‘lgan hurmati kuchliligidan dalolat beruvchi namunadir. “Tog‘liklarda ota-onaning gapi –farzand uchun qonun”. Shoir Avar xalqining ota-onaga bo‘lgan munosabati ularning qon-qonida mujassam bo‘lganini

isbotlaydi. Shubhasiz, adabiyotning hech eskirmas mavzusi bo'lgan onalar mavzusida shoir qalam tebratdi, u shunday yozadi: “Men onam haqida, uning lahzalik quvonchlari va boshiga tushgan og'ir musibatlari, qisqa yoshligi va erta sochi oqargani to'g'risida yozdim. Men uning motam kunlari ko'k-qora rangga bo'yalgan ro'moli to'g'risida yozdim. Keyin onalarning allalari haqida, ularning beshikdan qabrgacha aytgan qo'shiqlari to'g'risida yozdim. “Kim onasi aytgan allani unutsa, ona tilini ham unutadi” O'zim esa dunyodagi uchta qo'shiq haqida ko'p gapirganman. Odamzot yaratgan uchta qo'shiq bor, Ularda jo shodlik va g'amli palla. Ular bir-birini qilishmas takror, Birinchisi—ona kuylagan alla! Ikkinchisini ham onalar aytar, O'g'lin so'nggi yo'lga kuzatgan paytlar, Uning fig'onidan titrar bo'shliqlar... Uchinchi – qolgan barcha qo'shiqlar”.

Rasul Hamzatov asarlarida tiliga alohida urg'u beadi. “Tilni o'rganmasdan she'r yozishga uringan odam suzishni bilmasdan cho'milish uchun o'zini daryoga tashlagan telbaga o'xshaydi” deya ta'kidlaydi. Vatan himoyasi keng qamrovli ekanini yaxshi bilamiz, albatta. Vatan himoyasi faqatgina bu sarhad yo hudud, yoki ko'p millionli xalqning himoyasidan iborat emas. U millatning eng yaxshi an'analari, qadriyatlari va yana eng muhimi, ona tilining ham himoyasidir. “Mening Dog'istonim” asarida Rasul Hamzatov shunday yozadi “...boshqa birovlar mening kam sonli xalqimning tilini qashshoq deb aytishsa aytishar. Lekin men o'z tuyg'ularimni, fikrlarimni o'z ona tilimda qanday xohlasam shunday ifodalay olaman, buning uchun men boshqa tilning yordamiga muhtoj emasman...” Albatta til bu millat ruhi, millat g'ururi, xalqning tarixi, har bir millat dunyoda yashar ekan o'z zabaniga ega bo'ladi. Ana o'sha zabon orqali xalqning taraqqiyot bilan bosib o'tgan yo'li namoyon bo'ladi

Ajabo! Tush degan narsa qiziq-da,

O'lib qolganmishman tushda nogahon.

Ko'ksimda qo'rg'oshin, quyosh tig'ida,

Tog'lar orasida yotibman bejon.

Uzoqda sharqirab soylar oqmoqda,

Borlikda bir ajib dilbarlik hokim.

Men esam o'ylayman yotib tuproqda:

Mana shu tuproqqa qo'shilar xokim.- deya, boshlanadi

Shoir tushida nogahon o'lib qolganini, va quyoshning qizg'in nurlari uni qandaydir tog'-u toshlar orasida, jonsiz tanasiga azob berayotgani va bu vaqtda o'sha tashnalikda u bejon, madorsiz so'lib borayotganini aytib o'tadi. Shu o'rinda shoir o'zining avar tili yo'qolib borishini, o'z hayoti tugashi bilan tugashini asoslab o'tmoqchi. Shoir ,atrof muhitga, tabiatga nazar tashlar ekan, o'zinig nafis kuylari ila odamni diqqatini tortayotgan, anhor-u soylarda oqayotgan zilol suvlarningina sadolari shovqin solib, ajib bir sukunatni buzayotgani, o'sha borliqda esa, ajib bir dilbarlik hokimlik qilayotganini kuzatgan holda o'ylaydi: Mana shu tuproqqa qo'shilar xokim:- deya xayol suradi.

Men-ku bu dunyodan ko'z yumdim mangu,

Ular kulib-kulib so'zlashar borin;

Qandaydir Hasanning turfa ishi-yu

Qandaydir Alining sho‘x kirdikorin.

Avar so‘zin tinglab kirdi menga jon,

Ohista tirildim va shunda bildim:

Meni tuzatolmas hech dori-darmon,

Jonimga masixdir shu ona tilim.

Shoir butkul yashashdan umidini uzib bo‘lganda, ikki kishining avar tilida kulib-kulib gaplashayotni, qandaydir Hasanning turfa ishi va Alining sho‘x kirdikorlari haqidagi suhbatini eshitib qoladi. Kimsasiz joylarda yashashdan umidini uzib, jonsiz qolgan tanasiga, avar tilini tinglab qayta jon kiradi. Shu onda shoir ohista tiriladi va shuni anglab yetadiki, uning bu holiga hech bir dori-darmon shifo bo‘lasligi, u uchun avar tili joniga masih, ya'ni qayta tiriltiruvchi ekanligini ta'kidlab o‘tadi.

Mayli, kim qay tildan zavq-u shavq olsa,

Mening o‘z tilimga ming jonim fido.

Erta ona tilim agar yo‘qolsa,

Men bugun o‘lishga bo‘lurman rizo.

"Kim qaysi tilni yaxshi ko‘rsa , ko‘rsin, ammo men o‘z ona tilimga jonimni fido qilishga ham tayyorman deydi. Bugun avar tili bor ekan, men ham yashayabman, agar ertaga ona tilim yo‘qolsa, men bunday zabonsiz yashagandan ko‘ra, o‘limimga roziman"-deya, o‘limni afzal ko‘radi. Bundan ko‘rinib turibdiki, shoir avar tilini yo‘qolib ketishini hayoti tugashi bn barobor ko‘ryabdi. Tilsiz hayotning keragi ham qizig‘i ham qolmagan shoirning bu she'rida tilsiz millat millat emasligi, zabonsiz insonga hayot kerakmasligi bilan birgalikda, har bir millatning o‘z ona tilini qanchalar aziz va muqaddas ekanligini ta'kidlaydi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Rasul Hamzatov. Mening Dog‘istonim.T.-Tafakkur, 2011
2. Расул Гамзатов. Бир хонадон фарзандлари .Т.-Фофур Фулом,1982

### ABDULLA QODIRIY IJODI HAQIDA SO‘Z

*Ne‘matova Sapura,  
JDPI o‘qituvchisi*

*Ey senki yasharsan, shodu xurram bo‘lgil.*

*Xar yerda yana aziz-u mahram bo‘lgil*

*Umringni halol-u poq kechir, ilm urgan.*

*To zebi bashar, ziynati Odam bo‘lgil.*

*Jaloliddin Rumiy*

Shunday insonlar bo‘ladiki bashariyatning erki, yaxshi umr ko‘rishi uchun o‘zining hayotini bahshida etadi. Abdulla Qodiriy ham shunday insonlar sirasiga kiradi. Adib o‘zining she‘rlari, xajviy asarlari va – beboho romanlari bilan o‘z halqining erkini, ozodligini, bahtini ko‘rish istagida, o‘z orzu armonlarini asarlariga ko‘chirgan.

Abdulla Qodiriy yorqin, barchaga keng ma'lum shoir va yozuvchi, dramaturg va publitsist, o'zbek adabiyotida roman janri asoschisi. Qodiriyning asarlari o'zbek xalqi hayotiga bag'ishlangan. Abdulla Qodiriyning nashr etilmagan XX asrning yigirmanchi yillari yozilgan sahna asari asosida rejissyor Mark Vayl o'zining Toshkentdagi Ilhom teatrida "Oppoq qora laylak" sahna asarini qo'ygan. Abdulla Qodiriy (Julqunboy) 1894 yil Toshkentda bog'bon oilasida tug'ilgan. Yoshlik va o'smirlik yillardagi muhit – savdogarlar, boylar va kambag'al dehqonlar, iqtidorli hunarmandlar, doim muhtojlikda kun kechiruvchi kosiblar va yersiz dehqonlardan iborat bo'lgan. Ushbu mehnatkash odamlar dunyosi, shuningdek, shahar ziyolilari bo'lajak yozuvchi shakllanishida muhim o'rin tutdi.

Abdulla yoshligidan uzoq umr kechirgan (Qodir aka 104 yil umr ko'rgan) va ko'pni ko'rgan otasining hikoyalarini tinglab o'tirar edi, otasidan u adabiy faoliyatida as qotgan sezgir kuzatuvchanlikni meros qilib olgan. Uning otasi bog'dorchilikni juda yaxshi ko'rgan, shu sabab, Qodiriyning o'zini bog'bonning o'g'liman, degan fikrlarini uchratish mumkin. Abdulla Qodiriy avvaliga musulmon maktabida (1904-1906), keyin — rus-tuzem maktabida (1908-1012) o'qib, muvaffaqiyatli yakunlaydi. 1912 yil kelib, Abdulla Qodiriyning nisbatan birinchi adabiy tarjibalari boshlanadi. O'zining ilk nashr etilgan asarlarida – "Xotinboz" (1915) va "Baxtsiz kuyov" (1915) hikoyalarida eski o'zbek turmushining chizgilari hajviyona ifodalangan. 1915-1917 yillar Qodiriy Abdul Qosim madrasasida arab va fors tillarini astoydil o'rganadi. Yozuvchining inqilobdan avvalgi asarlarida jadidchilik ta'siri seziladi.

Sovet davrida A. Qodiriy V. Ya. Bryusov (1924-1925) nomidagi Moskva adabiy kurslarida o'qiydi, so'ngra, 1925-1926 yillar Toshkentda, "Mushtum" o'zbek hajviy jurnalida ishlaydi. U yerda kitobxonning katta muvaffaqiyatiga sazovor bo'lgan ijodkorning hajviy hikoyalari va feletonlari chop etiladi. Qodiriyning roman va qissalari ("O'tgan kunlar", "Mehrobdan chayon"), shuningdek, jamoaviy ijodi ("Obid Ketmon" qissasi) XIX asr toshkentlik va qo'qonlik o'zbeklar hayotiga bag'ishlangan. "O'tgan kunlar" romani katta shuhrat qozongan. Barcha ziyolilar ushbu kitobni o'qishga intilgan. Va hatto, savodsiz kishilar uni tinglash uchun guruh bo'lib to'planishgan. Ko'plab o'zbek oilalarida romanning Otabek va Kumush qahramonlarining ismlari paydo bo'la boshlagan. *"Tog'larning viqorini ko'rish uchun ulardan uzoqlashish zarur, xuddi shunday holat buyuk ishlar va buyuk shaxslarda kuzatiladi. Abdulla Qodiriyning so'nmas ijod bahosining buyukligini ko'rish va tushunish uchun yarim asrdan ortiq vaqt talab etildi"* — deb yozadi, Abdulla Qodiriy tavalludining 95-yiliga bag'ishlangan "bir taqdir ko'zgusi" (1989 yil) maqolasida, Izzat Sultonov.

Abdulla Qodiriy o'z xalqining hayotini bировlar orqali va kitoblardan bilgan emas, u bevosita odamlar bilan suhbat qurib, ularning alohida jihatlarini o'ziga singdirgan. U eski uslubdagi maktabni yakunlab, rus-tuzem maktabida va madrasada tahsil oladi. Navoiy, Lutfiy, Muqimiy, Furqat, Cho'lpon, Fitrat va boshqa o'zbek adabiyoti mumtoz ijodkorlarining asarlari mutolaasi bilan qiziqadi. Ushbu o'ziga xos yozuvchi ikki asr bo'sag'asida shakllangan — mukammal, qarama-qarshi, ijtimoiy, siyosiy va axloqiy iztiroblarning notinch davri. Albatta, bu



davrlar uning asarlarida ham qarama-qarshi, ijtimoiy va turmush xurofotlaridan erkin bo‘lmagan sezilarli iz va dunyoqarash qoldirdi. Umuman olganda, Abdulla Qodiriyning adabiy izlanishlari doimiy ko‘tarilishlar, ajoyib ijodiy siljinishlar bilan belgilanadi. Qodiriyning ijodiy javohiri — “O‘tgan kunlar” (1926) va “Mehrobdan chayon” (1929) tarixiy romanlari – o‘zbek adabiyoti tarixiy mavzuidagi ilk asarlar.

Abdulla Qodiriydagi tarixiy mavzuga bo‘lgan qizqishi o‘z xalqining o‘tmishini tushunishga bo‘lgan intilishi, uning sabri, mehnatkashligi, xalqning ozodlik va mustaqillik sari qahramonona kurashi bilan izohlanadi. 1961 yil rus tilida chop etilgan “Mehrobdan chayon” romanining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki,

yozuvchi o‘zbek xalqi hayoti va tarixini, davr ranglarini yorqin va sidqidildan ifoda etib bera olgan, qahramonlar fe‘l-atvorini XIX asrning 40-yillariga xos sharoitlarda ochib bera olgan. Ushbu yangilikni ochishda Abdulla Qodiriy o‘zbek tarixiy romannafisligiga asos soladi. O‘zining “Mehrobdan chayon” romanida yozuvchi haqiqat yo‘nalishi an‘analarini sezilarli boyitgan, qahramonlarning psixologik shakliga muhim hissa qo‘shgan, insonning ichki dunyosini ifoda etishning yangi usullarini ochgan, qahramonlarning fe‘l-atvori o‘zgarishini ko‘rsatib bergan. “Mehrobdan chayon” romani – ikki asr bo‘lag‘asidagi turkiston jamiyatining ijtimoiy, axloqiy hayoti haqidagi roy-ro‘st asar. A. Qodiriy xalqning feodal tuzumdagi hayot tarzining o‘ziga xos mohiyatini ochib berishga intilgan, hukmdorlarning ishlarini va fe‘l-atvorini, ma‘naviy ustozlarni ko‘rsatadi. Ushbu ziddiyatlar tantanavor emas, ular qahramonlarning og‘ir turmushidan kelib chiqadi – Abdurahmonning ayolni o‘ziga bo‘ysundirish istagi va Shohidbekning fitnalariga qaramay, Anvar va Ra‘no bir-birini chinakam sevadi va oila qurishga harakat qiladi. Go‘zallik, halollik, olijanoblikka intiluvchi Ra‘noning xalq fe‘l-atvoriga xos, ajoyib qiz ko‘rinishini namoyon bo‘ladi – samimiy, toza niyatli, ma‘nan sodda va ochiq. U Anvarni toza, yorqin sevgi ila beg‘araz va sadoqat bilan yaxshi ko‘radi. Anvar – mardlik timsoli, adolatli, cheskiz vijdon egasi.

Abdulla Qodiriy zamondoshlari haqidagi “Obid ketmon” romani, shov-shuvga sabab bo‘lgan “Shirvonlik Mallaboy aka” ocherki muallifi. Shuningdek, o‘zbek adabiyoti tarixiga sezilarli hissa qo‘shgan boshqa ko‘plab ocherk va hikoyalar muallifi. “Abdulla Qodiriy o‘zbek adabiyotiga momaqaldiroq kabi kirib kelib, yorqin chaqmoq kabi barchaning e‘tiborini o‘ziga qaratdi”, deb yozadi Izzat Sultonov. Ushbu so‘zlarning haqqoniyiligini qozoq yozuvchisi Muxtor Auezov ta‘kidlab, alohida qayt etadi: “Yoshligimizda Abdulla Qodiriy romanlarini berilib o‘qir edik. Biz uning inson fe‘l-atvorini yasash, bizgacha inson ehtiroslarining tug‘yonini yetkazib berish mahoratidan hayratlanardik”, deydi ulug‘ yozuvchi Yoshlarning bilimli bo‘lishini istagan ,millat va xalq dardi, millat va xalqning orzu-ehtiyoji Qodiriy uchun hamma narsadan ustun edi. “Modomiki,- deb yozgan edi adib roman muqaddimasida,- biz yangi davrga oyoq qo‘ydik, bas, biz har yo‘sinda ham shu yangi davrning yangiliklari ketidan ergashamiz va shunga o‘xshash dostonchilik, romanchilik va hiqoyachiliklarda ham yangilanishga, xalqimizni shu zaminning “ Tohir-Zuhra ” lari, “ Farhod- Shirin ” lari bilan tanishtirishga o‘zimizda majburiyat his etamiz... ” Bu so‘zlar aytilganiga 100

yillar bo'ldi, lekin ular bugungi Istiqlol davrimizda ham har bir talantli va diyonatli sanatkor uchun muhim bir dasturilamal bo'lib xizmat qilishi mumkin. Usmonjon Qosimov “ Adabiyotning hayotbaxsh kuchi ” (U.Q.2. 30 bet)

O'zbek romanchiligining asoschisi Abdulla Qodiriyning buyuk asarlari har doim kitob javonimizni bezab turadi. Adabiyotda ham Qodiriy asarlarining o'z o'rnini bo'lak.

## ABDULLA QAHHOR VA RUS ADABIYOTI

*Saidova Rizvon Mustafu qizi,  
JDPI o'qituvchisi*

Adabiyot rivoji ustoz adiblar ijodidan keyingi yosh adiblar qanchalik ijodiy o'rganishi va ularning adabiy an'analarni muvaffaqiyatli davom ettirishlariga bog'liq ekanligi isbot talab qilmaydi. Abdulla Qahhor rus va jahon adabiyotidagi mumtoz yozuvchilarning mashhur asarlarini chuqur o'rganish va ulardan ijodiy foydalanishni targ'ib etish bilangina kifoyalanmasdan, bu ulkan maktabdan saboq olishning ajoyib bir na'munasini ham ko'rsatdi. Adibning bu ibratli xizmatini ko'pgina shogirdlari, taniqli yozuvchilar ham ta'kidlagan. Masalan, H.Nazir: “Abdulla Qahhor bizga rus adabiyotidan qanday qilib ijodiy o'rganishning a'lo o'magini berdi”-deb faxrlanib eslaydi.

Bu xususda yozuvchining o'zi, jumladan, shunday deydi: “Klassiklardan foydalanish, ularni klassik qilgan go'zal asarlarning go'zallik sirlarini egallashdan iborat bo'lishi kerak”. Ulug' adib o'z fikrini davom ettirib, ushbu adabiy merosga chuqur ehtiromini saqlagan holda yozuvchi ijodiy balog'atining asosiy bir sharti doimo originallikka erishish, yangilik yaratishda, deya shunday yozadi: “Bor ilmni o'rganish, uni bu kunga qadar ishlatilganicha ishlatish har bir es-hushli odamning qo'lidan keladi. Ilmga yangi bir narsa qo'shish yoki uning uchun yangi bir ish maydoni ochish-haqiqiy xizmat”.Qahhor butun ijodi davomida ana shu nazariy qoidasiga qat'iy amal qiladi va ustozlardan o'rganish bilan birga, hamisha o'ziga xoslik va novatorlikka intiladi va shunga erishadi ham. Masalan, Abdulla Qahhor realistik tasvir bobida dastlab mashhur satirik adib Gogoldan saboq olganini quyidagi xotiralarida eslaydi: “Gogol asarlari bilan tanishib,ularni bunchalik o'tkir qilgan “sir”larni “kashf” qila boshlaganimdan so'ng oldin yozgan hajviy “asarlarim” ko'zimga shu qadar g'arib ko'rindiki, minba'd bunday asarlar yozmaslikka o'zimga-o'zim so'z berganday, o'sha vaqtdagi yashirin imzom “Norin shilpiq”dan voz kechib, so'nggi felyetonlarimga boshqa imzo (“Mavlon kufur”) qo'yadigan bo'ldim”- deb samimiyat bilan qayd etadi “Birinchi domlam” nomli maqolasida.

Kuzatishlarimizdan ma'lum bo'ladiki, Abdulla Qahhorning Lev Tolstoy, Gogol va Chexov kabi ulkan adiblardan qanchalik saboq olganligi yorqin bir ijodiy fakt sifatida ko'pgina tanqidchi va adabiyotshunoslarimiz tomonidan qayd etilgan. Haqiqatan ham, Gogol va Chexov ijodida chuqur ifodalangan gumanistik g'oya va fikrlar ham Abdulla Qahhor va boshqa o'zbek adiblari uchun ilhom bag'ishlagani

ayon haqiqat. Shu bilan birga bu adiblar ijodi Abdulla Qahhorning adabiy-estetik qarashlari shakllanishida ham muhim o‘rin tutganini unutmash kerak. Lekin ba’zi tadqiqotlarda bu muhim masalani yoritishda biryoqlamalikka yo‘l qo‘yish hollari ham uchrab turadi. Biz adabiy ta’sir sohasida e’tiroz bildirmoqchi bo‘lgan biryoqlama qarashlardan biri shuki, ba’zi adabiyotshunoslar Qahhorning voqelikni xolisga tasvirlash usulini butunlay Chexovga bog‘lab qo‘yishadi. Vaholanki, A.Qahhor Chexov ijodi bilan chuqur tanishmasdan oldinroq yozgan asarlari, chunonchi, ”Sarob” romanida ham hayotni xolis tasvirlagani kitobxonlarga ma’lum. Bu ijodiy jarayon bilan bog‘liq muammo yirik adabiyotshunos M. Qo‘shjonovning “Adashganlar fojiasi” asarida, O.Sharafiddinov, U.Qosimov va R. Qo‘chqorovning Abdulla Qahhor ijodini o‘rganishga bag‘ishlangan asarlarida ham ko‘rsatib o‘tilgan.

Ikkinchidan esa, yana shuni ham ta’kidlash lozimki, hayotni xolis tasvirlash usuli faqat Chexov yoki Gogolning emas, balki realistik san’at va adabiyotning azaliy, asosiy bir yo‘nalishi. “Boburnoma” bunga eng yorqin misol bo‘la oladi.. Gogol asarlarini o‘qiy boshlaganimdan keyin uzoq vaqt jiddiy hikoya yozolmay yurdim. Nihoyat, “Boshsiz odam” degan hikoya yozdim. Birinchi hikoyam (“Yosh qizlar o‘gay ota qo‘lida”) bir voqea haqida o‘quvchiga ma’lumot bergan va bu voqeaga o‘z munosabatimni har satrda ta’kidlagan bo‘lsam, “Boshsiz odam”da o‘zim “xolis” turib, o‘sha vaqtdagi hayot lavhalaridan birini ko‘rsatishga va bunda ilk marta odam xarakteriga qo‘l urishga harakat qilgan edim” [2;266].

Adabiyotshunoslikdagi jiddiy kamchiliklardan yana biri ayrim mualliflarning ijodiy ta’sir bilan bog‘liq bo‘lgan hodisa va faktlarni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etish mahorati yetishmasligida, o‘rganilayotgan muammo yuzasidan fikrlash darajasi sayozligida ko‘rinadi. Rus va qardosh xalqlar adabiyoti namoyandalari ijodiga bag‘ishlangan yirik tadqiqot va maqolalarda tahlil va xulosalar o‘rniga ko‘plab jiddiy xato va chalkashliklarga duch kelamiz. Masalan, taniqli adabiyotshunos H.Abdusamatovning “Hayot, adabiyot, teatr” nomli kitobida rus klassik adabiyoti va Chexov to‘g‘risida shunday asossiz fikr bildiriladi: “Yozuvchi qamoqdagi bitta palata misolida mamlakatga xos bo‘lgan mudhish manzaralarni birin-ketin ko‘z oldimizdan o‘tkazadi. Asardagi (“Oltinchi palata” hikoyasi – U.Q.) odamlarning qamoqda hayvonlarday saqlanishi, yorug‘ dunyodan mahrum qilinishi, norozilik sadolari yangrashi, ularning omonsiz kaltaklanishi kitobxonlarni qattiq hayajonga soladi”. Shu tariqa Chexov yorqin tasvirlagan kasalxona va undagi oltinchi palata negadir “qamoqdagi palata” deb o‘zgartirilib, hikoyadagi ayrim voqealar sanab o‘tiladi, asarning g‘oyaviy mazmuni, uning badiiy-estetik ahamiyati etarli darajada ochilmay qoladi.

Yoki Qodiriy va Qahhor ijodini chuqur o‘rgangan va ular haqida salmoqli tadqiqotlar yaratib, tanqid va adabiyotshunosligimiz rivojiga katta hissa qo‘shgan akademik M.Qo‘shjonovning “Sarob” romaniga bag‘ishlangan “Adashganlar fojiasi” nomli yirik maqolasida ham shunday xatolikka guvoh bo‘lamiz. Olim roman qahramonlari haqida batafsil to‘xtalib, Saidiyning fojeali qismati bilan M.Sholoxovning “Tinch Don” romanidagi bosh qahramon Grigoriyning taqdirini qiyosiy o‘rganishida jiddiy bir chalkashlikka yo‘l qo‘yilgan. Ya’ni Saidiyning

o‘limi bilan Grigoriyning o‘limi bir-biriga ko‘p jihatdan o‘xshash va u o‘quvchida bir xil taassurot qoldiradi degan fikr bildirib, yozadi: «Saidiy o‘limidan achinamiz, hayotidan nafratlanamiz. Saidiy o‘limi bu jihatlari bilan “Tinch Don”dagi Grigoriy Melexovning o‘limini eslatadi”. Bizningcha, daf‘atan qo‘llangan bu parallelizm ko‘p jihatdan o‘zini oqlamagan.

Avvalo, yetarli tahlil-dalillarsiz daf‘atan bunday xulosa chiqarish o‘quvchini hayron qoldiradi. Chunki, bizningcha, Saidiy bilan Grigoriyning hayot yo‘li ham, dunyoqarashi-yu insoniy xislatlari va taqdirleri ham bir-biriniqiga deyarli o‘xshamaydi. Ikkinchidan esa M.Sholoxovning ko‘p tillarga tarjima qilinib, olamshumul shuhrat topgan bu epopeyaning oxirgi – to‘rtinchi kitobida Grigoriyning o‘limi to‘g‘risida emas, balki uning hayoti va taqdiri haqida ta‘sirchan lavhalar tasvirlanadi. “Tinch Don” romanining so‘nggi qismida Grigoriy o‘limi haqida hech qanday xabar yo‘lavha yo‘q. Aksincha, roman xotimasida suyklixi Aksinyadan judo bo‘lgan Grigoriy shuncha yil sargardonlik va ma‘nisiz janglardan keyin, nihoyat, o‘z qishlog‘i va uyiga qaytishi, bundan buyon muzdek sovuq olamda yolg‘iz o‘g‘li Mishatka uchun yashashga majburligi haqida yozuvchining haqqoniy va ta‘sirchan fikrlari bayon etilgan: “Grigoriy miltiq bilan naganini suvga tashladi, so‘ngra o‘qlarni ham tashladi-da, qo‘lini shinel etagiga yaxshilab artdi. Grigoriy o‘rmonda yurganida, kechalari bolalari esiga tushganda xayolan shivirlab g‘oyibona erkalatib aytgan shirin so‘zlari hozir butunlay xayolidan ko‘tarilgandi. U cho‘kka tushib o‘g‘lining qizarib ketgan muzday qo‘llaridan o‘par, o‘pkasi to‘lib yolg‘iz bir so‘znigina takrorlar: -O‘g‘lim... o‘g‘lim-derdi xolos. Shunday qilib, uyqusiz tunlarda Grigoriyning xayolini band etgan orzu-umidlardan bittasigina ro‘yobga chiqdi. U tug‘ilib o‘sgan o‘z uyi darvozasi oldida, o‘z farzandi bilan diydor ko‘rishib, uni qo‘lida ko‘tarib turardi. Unga shundan bo‘lak ovunchoq qolmagandi, yolg‘iz shu bolani deb er yuzida, muzday quyosh nuriga cho‘mgan bepoyon dunyoda yurishga majbur edi».

Albatta, iste‘dod xarakteri bir-biridan farq qiluvchi adiblarning mashhur asarlari qahramonlari taqdirini jahon adabiyoti kontekstida qiyosiy o‘rganish tahsinga loyiq, ammo bu qiyoslashda e‘tiborsizlik oqibatida ma‘lum chalkashlikka yo‘l qo‘yilgan.

Abdulla Qahhorning suhbat va o‘gitlaridan bahramand bo‘lgan adabiyotshunos O.Abdullayev ham adibning “O‘tmishdan ertaklar”ini o‘rganishni ham unda rus adiblari L.Tolstoy, M.Gorkiy, F.Gladkov hamda Oybek va S.Ayniylarning avtobiografik asarlari ta‘sirini izlashdan boshlaganini, ammo bu asar rus avtobiografik qissalariga sira o‘xshamagan va original bir asar ekanligini ta‘kidlaydi. “O‘tmishdan ertaklar”da voqealar yosh bola tilidan hikoya qilinsa-da, yuqoridagi yozuvchilarning asarlariga sira o‘xshamaydi. Albatta, har bir kitobxon muayyan asarni o‘z didi-saviyasi darajasida o‘qib, ta‘sirilanishi va u yoki bu xil xulosa chiqarishi tabiiy. Lekin mazkur asarlar avtobiografik qissalar ekan, ularga xos o‘xshash, mushtarak jihatlar bo‘lishi ham badiiy ijodning obyektiv bir qonunidir.

Masalan, Gorkiyning “Bolalik” va “Odamlar orasida” nomli avtobiografik qissasidagi yosh Alyoshaga qadrdon bo‘lib ketgan Siganyok bilan “O‘tmishdan



ertaklar”dagi Abdulla bilan Kulalaning aka-ukaday inoqligi bir-biriga juda o‘xshash. Alyosha Siganyok bilan xayrlashayotganda, Abdulla ham Kulala bilan xayrlashishida ko‘zidan yosh keladi. Lekin bu lavha Gorkiy ning Abdulla Qahhorga ijodiy ta’siri sifatida talqin etilmasligi lozim. Bunday o‘xshashlik, eng avvalo, hayot lavhalarini jonli va haqqoniy tasvirlashning namunalari sifatida baholanishi joiz. Ya’ni ikki qissadagi Siganyok va Kulala obrazlari real hayotdan olingan, milliy ruh bilan yo‘g‘rilgan va adiblarning yuksak badiiy mahorati bilan yaratilgan hayotiy qahramonlar. Ular Qahhor iborasi bilan aytganda, zamona daraxtida etishgan bir olmaning ikki pallasiday o‘quvchida chuqur taassurot qoldiradi. Bu fikrning dalili sifatida Qahhorning “Bemor” hikoyasi bilan Chexovning “Uyqu istagi” hikoyasini qiyosiy o‘rganishga harakat qilaylik.

Ikki hikoyadagi voqea ham, obrazlar ham xalq hayotidan olingan va ulardagi mayda detal-tafsilotlar ham realligi bilan o‘quvchini to‘la ishontiradi. Qolaversa, Qahhor hikoyasidagi voqea Chexovning “Uyqu istagi” hikoyasini o‘qimasdan avval ro‘y bergani ham ayrim adib va tanqidchilarning “Qahhorning hamma hikoyalari Chexov ta’sirida yozilgan” degan tasmol-taxminiy fikrlari butunlay asossiz ekanligini ko‘rsatadi.

Rus hikoyalarini chuqur o‘rgangan taniqli adib Sergey Antonov Chexovning “Uyqu istagi”da yosh qizcha Varkaning cho‘rilikdagi hayoti ayanchli ekanligi yozuvchi tomonidan juda hayotiy va tabiiy tasvirlanganini ta’kidlaydi. Varka xasta otasi vafotini eshitib, o‘rmonga o‘tinga borib, yig‘lab ko‘nglini bo‘shatishga ham xo‘jayini izn bermay, uni urishini hikoya ichidagi hikoya deb, Chexov badiiy mahoratiga tan beradi. Demak, Chexov kichik bir hikoyasida oddiy odamlar qashshoq yashashi va yosh qizchaning og‘ir ahvolini haqqoniy aks ettira olganligi adibning so‘z san’atkorligi va badiiy detallarga ustaligidan guvohlik berib turadi.

Endi Abdulla Qahhorning xuddi shunday bir o‘zbek oilasidagi aftodahol turmushni milliy bir shaklda hayotiy detallar orqali haqqoniy tasvirlaganini kuzataylik. Adibning maktab darsliklariga ham kiritilgan va qahhorona qisqalik va so‘z san’atkorligining yetuk bir namunasi bo‘lgan “Bemor” deb atalgan hikoyasidagi bir holatni ko‘z oldimizga keltiraylik: “Bir kechasi bemor juda azob tortdi. Sotiboldi qo‘shnisi-bir kampirni chaqirdi. Kampir bemorning to‘zigan sochlarini tuzatdi, u yoq-bu yog‘ini siladi, so‘ngra... o‘tirib yig‘ladi.” O‘tmish hayotining haqqoniy tasviri bo‘lgan bu badiiy detalning hikoya g‘oyaviy mazmunini ifodalashda muhim ahamiyatini O.Sharafiddinov va P.Qodirovlar ham o‘z vaqtida qayd etishgan. Biz bunday hayotiy detallarni Qahhor rus adiblari asarlaridan emas, balki, eng avvalo, xalq hayotidan va milliy ruhiyatidan olib tasvirlaganligini ta’kidlamoqchimiz. Ayni vaqtda, Qahhor bunday hayotiy voqea-hodisalarni bolaligidanoq ko‘p ko‘rgan va hamdardlik tuyg‘ularini o‘zi ham boshidan kechirganini “O‘tmishdan ertaklar” qissasida ham ta’sirchan lavhalarda aks ettirganini yana bir bor eslatish mumkin. Shunday ekan, Qahhor hikoyalarida asosan Gogol va Chexov an’analarini davom ettirgan degan umumiy mulohazalarni hadeb takrorlayverish ham kitobxonlarni chalg‘itishi mumkin.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Abdulla Qahhor. Asarlar. 1-tom. T.1967.
2. Abdulla Qahhor. Asarlar. 6-tom. T.1971.
3. Ozod SHarafiddinov. Birinchi mo‘jiza. T.1979.
4. M.Qo‘shjonov. Abdulla Qahhor mahorati. T.1988.
5. Qosimov U.Abdulla Qahhor saboqlari. T.1995..
6. Abdusamatov H.Hayot.Adabiyot.Teatr.T.1979.

**ИСАЖОН СУЛТОН ҲИКОЯЛАРИДА ОБРАЗЛАРНИ ТАСНИФЛАШ**

*Уразбаев Ғайрат Кенжабаевич,  
Қорақалпоқ давлат университети ассистенти*

Исажон Султонни кўпроқ ҳикоянавис сифатида қабул қилувчилар ҳам адабиётшуносликда кўплаб учрайди. Бироқ ҳикоя ва қисса, роман яратишдаги ижодий маҳорати бир-биридан тамомила фарқланади. Услубий жиҳатдан ўхшаши, воқеликни ичдан туриб, оддий деталь тарзида ёритиши бу ҳар бир ижодкорда турличадир. Мунаққид И.Ғафуров шундай таърифлаши бежиз эмас: “Исажон Султон бу – кип-қизил экзистенциализм!... Экзистенциализм йўллари ва фалсафасига шайдо бўлган Исажон Султоннинг юраги ва онг тасавури шундай ларзали кечинмалардан дунё ва табиатнинг келиб чиқишига назар ташламоқчи бўлади. Ҳар нарсанинг ибтидо манбаларига қарашга уринади”. [1;19] Бу таъриф-тасниф Исажон Султоннинг ғарб адабий-бадий тафаккурини ўзлаштириши, миллий ментал хусусиятларимиздан келиб чиқиб ифодалаши, янгича йўсинда фикрлаши, услуби, ўқувчини кичик ва майда деталгача қизиқтира олиш қобилиятининг ўсаётгани билан изоҳлайди. Ж.П.Сартр, Ф.Кафка, А.Камю, Ж.Жойс сингари ёзувчилар экзистенциализм йўналишида одамзод тафаккурининг бениҳоя катта, ундан мисли кўрилмаган кашфиётлар олиб, дунёни ўзгартиришга, беъманилик ва бузғунчиликка қурол сифатида фойдаланишга бел боғлаган яширин кучларни “таништириш”га фидокорлик кўрсатганини бугун ҳамма психоналитиклар эътироф этишмоқда.

Бадий асар архитектоникасида образ ва образлилик тушунчаларини аниқлаш шеърӣ асарларга қараганда, насрий асарларда анчайин фарқланади. Унда бир вақтнинг ўзида ҳам воқелик, ҳам муаллиф онги, мақсадлари, ҳам асар структурасини бирлаштириб турувчи композицион яхлитлик масаласи туради. Айнан кичик жанр поэтикасидаги воқелик макон ва замонда рўй беради. Муаллиф уни ўқувчига етказувчигина эмас, воқеликка зимдан аралашувчи, баъзан ўзи кечирган, кўрган ҳодисаларни ҳикоя қилувчи шахс, ровий сифатида ҳам иштирок этади. Адабиётшунослик терминлари изоҳли луғатида қайд этилишича: “...адабиёт ва санъатнинг фикрлаш шакли, олам ва одамни бадий идрок этиш воситаси, бадииятнинг умумий категорияси. Луғавий маъносида ҳар қандай аксни билдирувчи “образ” сўзи турли фан соҳаларида (фалсафа, психология) муайян терминологик маънода

кўлланилади. ...ижодкор бадий образ воситасида фикрлайди, борлиқни оддийгина акс эттирмасдан, уни ижодий қайта яратади. Шу маънода – конкретлилик бадий образнинг муҳим специфик хусусиятидир”[2;43-44]. Чунончи, ҳар қандай асарда иштирок этувчи образлар характер хусусиятларидан келиб чиқиб турлича бўлади. Сюжет таркибида ёзувчи англатмоқчи бўлган замон ва маконда кечувчи воқелик силсилаларида образлар ҳам ўзгарувчан моҳиятга эврилади. Натижада асар давомида – конкретлашиб, мураккаблашиб, ҳал қилувчи кучга айланиб бориши ойдинлашади.

Истеъдодли ёзувчи Исажон Султон ҳикояларида образларни қуйидаги кўринишда таснифлаш мумкин.

- 1. Мифологик образлар.**
- 2. Ўзгарувчан образлар.**
- 3. Фантастик образлар.**
- 4. Рамзий образлар.**

Мана шу жиҳатларга ажратишдан бош мақсад воқелик қайси макон ва замонда кечаётганини, маконий ва замоний сатҳдаги ўрни ва ролини аниқлашда кўл келади. Айнан мавжудлик жумбоғини англашга йўналтирилган образлар галериясида инсониятнинг яшаш ва тафаккур тарзи, изтироблари, ғам-андуҳлари, миллий ментал хусусиятлари, қувончу шодликлари, йўқотишлари, мақсад-муддаолари акс этиши ёзувчининг ўз олдига қўйган поэтик ғояси жамият ҳаётида қанчалик муҳимлиги билан белгиланади. Натижада, ёзувчи оддий ва тўпори қишлоқ ҳаётдан “юлиб” олинган воқеликдан “катта фалсафа” чиқаришга ҳаракат қилганлигида кўринади. Арасту таъбирича: “Ҳикояларни тасаввур қилиб бўлмайдиган қисмлардан тузиш яхши эмас: ҳикояларда тасаввур қилиб бўлмайдиган нарсалар бўлмагани яхши, агар бўлса ҳам улар (мазкур) ривоятдан ташқарида қолсин”. [3;63] Демак, ёзувчи бадий асар ёзаркан, тасаввурдан ташқаридаги воқеликка ўқувчини мажбуран олиб бориш ёки унга панд-насихат уқтириш бугунги кунда кулгили туюлади. Ҳикояда ёзувчи кўрсатиши лозим бўлган воқеликка жалб қилади, зинҳор унга ақл ўргатишни асосий муаммо ёки масала сифатида мақсад қилмаслиги лозим деган хулоса келиб чиқмоқда. Исажон Султон ҳикояларида инсоннинг яшаш ва тафаккур тарзига мантиқий урғу берадиган кўплаб ҳикояларини келтириш мумкин.

Машҳур психоаналитик Эрих Фромм XX аср инсоният тақдирида муҳим ва ҳал қилувчи мисли кўрилмаган кашфиётларни бошидан ўтказётгани ҳақида қуйидаги фикрларни ёзади: “Ақлли инсон ҳайратланиш қобилиятига эга бўлиши керак. Агар шу гап рост бўлса, ҳозирги замон одамнинг ақлий ҳолатига ачинса бўлади. Юксак даражада маълумотли ва билимли бўлишимизга қарамасдан, Худо берган бу неъматни – ҳайратланиш қобилиятини йўқотиб қўйдик. Гўё ҳамма нарса маълум, биз билмаган нарсаларни эса айрим мутахассислар билиши шарт. Ҳақиқатдан ҳам ҳайратланиш ноқулайлик туғдиради. Атрофдагилар бундай одамни ақл-идроқи паст деб ўйлайдилар. Ҳатто болалар ҳам камроқ ҳайратга тушишади, ҳеч бўлмаганда, буни намоёиш қилгиси келмайди, вақт ўтгани сари эса бундай қобилият йўқола боради” [4;38]. Бинобарин, бениҳоя катта ақл

эгалари ҳам ҳаётдан ҳеч қачон кўнгли тўлган эмас. Сабаби ҳис ва ҳайрат, ақл бирлашишида инсоннинг маънан қобилияти, яратувчанлиги, барча қусурлари билан ижобий хислатлари ҳам юзага чиқади. Ижодкорлар ана шу нуқтани таҳлил ва тадқиқ қилишга кўп вақт сарфлайдилар. Бу нуқтада – одамзоднинг мақсад муддаоси, яшаш ва кўникиш тарзи, ёвузликлари, зўравонликлари, хунрезликлари билан бирга барча яхши ва ёмон фазилатлари мужассам бўлади. Исажон Султон ана шу манзарани образли тарзда, универсал рамзлар негизида “қайта кашф” қилишга ҳаракат қилади. Хоҳ бу рамзий, анъанавий, модернистик шаклда намоён бўлишидан қатъий назар олтин ўрталикни тутиб қолишга кўп вақт ажратади.

XX аср инсоният етиб келган манзили маконларда кечувчи воқелик ёзувчини доимо қалб кўрини жунбушга келтириб, одамзод изтироблари билан яққа қолишни истаган қаҳрамон табиатини ўзига кўриб, янги улуғвор мақсадлари сари йўналтиришга эътибор қаратади. Булар замон табиатида, макон хусусиятида – образлар системасини мувофиқлаштиришга кенг йўл очиб беради. “Инсон жаннатдан қувилган лаҳзадаёқ унинг кўнглини изтироб ва уят қоплаб олган. Ана шу изтироб маданий онгинг, барча адабиётнинг, санъатнинг мавзусидир. Чунки инсон жаннатдан қувилиши биланок бутунликдан парчага, яхлитликдан яққага айланди. Санъат парчаланишга эмас, яхлитликка, бутунликка, асл билан бирлашишга ундаши керак. Инсон қалбидаги аслига қайтиш истагини кўрсатиб берган ва шунга ундаган адабиётгина ҳақиқий адабиётдир. Фожиа шундаки, орадан ўтган тарихий жараёнларда, талотўпларда инсон ўзининг жаннатдан нега қувилганини ва бўйнига осилган гуноҳ юкини, бу гуноҳнинг масъулиятини унутиб қўйди. Шунинг учун ҳам бойликка, ҳокимиятга, нафсга ружу қўйиши ўша биринчи гуноҳининг асоратидир. Оқибатда ўзини муқаррар ҳалокатга ташлаб боряпти” [5;75]. Ҳақиқатдан ҳам, XX аср ва то бугунга қадар етиб келган “бахт ва саодат” манзили, қанчадан-қанча ёлғон шиорлар, тамаддун заҳматлари, урушлар ва қирғинбаротлар, цивилизациянинг таъсири, экология, табиий офатлару сунъий яратишлар, руҳ фожеаси одамзоднинг – эртасига, кечасидан қолган азалий мерос эканлиги аёнлашади. Исажон Султон ана шу каби умум азият чекаётган фалокатли изтиробларни қаламга олишга жиддий эътибор қаратади.

Адиб ҳикояларида образ ва образлиликни икки йўсинда таҳлил қилиш ишончни оқлайди. Анъанавий образлар ва оддий замондош инсон образи ва рамзий-мажозий образлар, ҳикоят, ривоят, афсона, мифологик персонажлар образи. Ҳар иккисини бирлаштириб турадиган умумий ва хусусий жиҳатлар мавжуд. Айниқса, рамзий-мажозий образлари билан онгли тафаккур тарзига эга, ўз мақсад-муддаоларидан сира бир қадам оғишмай яшашга маҳкум этилган инсонлар характерини ифодалаш тушунилса, анъанавий образларда қишлоқ ва шаҳар ораси (**макон ва замон**)да содир бўлувчи воқелик тарзи кўз ўнгимизга келади. Булар ижодкорнинг фикрлаш тарзи ва ифодалаш манерасини ҳам белгилаб беришга замин яратади.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Гафуров И. Ёзувчи, табиат ва тиббиёт/Исажон Султон насри бадиияти. – Т: “Turon zamin ziyo”.2017/ -Б. 19.
2. Қуронов Д., ва бошқ. Адабиётшунослик луғати. –Т: “Akademnashr”. 2013. –Б. 43-44
3. Арасту. Поэтика. –Т: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”. 2018. –Б.63.
4. Эрих Фромм. Инсон қалби. –Т: “Ўзбекистон”. 2016. –Б,38.
5. Назар Эшонқул. Ижод фалсафаси. –Т: “Akademnashr”. 2018. –Б.75.

### ТА’ЛИМГА КОМПЕТЕНСИЯВИЙ YONDASHUVNI JORIY ETISH ZARURATI

*Qosimov A’zimjon Sanaqul o’g’li,  
JDPI o’qituvchisi*

Mamlakatimizda ta’lim tizimini isloh qilish orqali yosh avlodni har tomonlama barkamol insonlar etib voyaga yetkazish bosh vazifa sifatida qo’yilmoqda. Ta’limning maqsadi, eng avvalo, inson ongini rivojlantirishdir. Chunki har qanday mamlakatning kelajagi, ertangi kuni uning tabiiy boyliklariga emas, balki fuqarolarining saviyasiga bog’liqdir. 2018-yil ta’lim tizimida amalga oshirilgan islohotlarni mamlakatimizda soha rivojiga qanchalik e’tibor berilayotganini tasdiqlaydi.

Fan-texnika asri va jadal taraqqiy etayotgan hayot o’quvchilarda o’quv predmetlari bo’yicha faqatgina bilim, ko’nikma va malakalarga ega bo’lishning o’zi yetarli emasligini ko’rsatmoqda. Bu quyidagi holatlarda namoyon bo’lmoqda:

- ta’lim muassasasini muvaffaqiyatli bitirgan ayrim o’quvchilar, hayotda ko’p muvaffaqiyatsizliklarga uchraydi;

- oliy ta’lim muassasini bitirib yangi ishga borgan yosh mutaxassis universitet yoki institutda kasbiga oid bilim va ko’nikmalarni yetarli darajada olgan bo’lsa-da, ish joyiga ko’nikishi uzoq vaqt davom etadi;

- ko’pincha maktab yoki litseyda olingan bilim va ko’nikmalar tezda hal qilinishi kerak bo’lgan hayotiy vaziyatlarga to’g’ri kelmaydi yoki umuman hayotida kerak bo’lmaydi.

Shunga ko’ra, ta’lim jarayoniga o’quvchilar egallagan bilim, ko’nikma va malakalarini bevosita kundalik hayotida qo’llashga o’rgatadigan kompetensiyaviy yondoshuvga asoslangan DTSlarni yaratish va ta’lim jarayoniga qo’llash zaruriyati yuzaga keldi.

“Competence” so’zi “to compete” so’zidan kelib chiqqan bo’lib, “musobaqalashmoq”, “raqobatlashmoq”, “bellashmoq” degan ma’noni bildiradi. So’zma-so’z tarjima qilinsa, “musobaqalashishga layoqatlilik” ma’nosida keladi.

Ilmiy pedagogik, psixologik manbalarda berilishicha, kompetensiya, kompetentlilik o’ta murakkab, ko’p qismlı, ko’pgina fanlar uchun mushtarak bo’lgan tushunchalardir. Shu boisdan uning talqinlari ham hajman, ham tarkibiga ko’ra, ham ma’no, mantiq mundariyasi jihatidan turli-tuman. Atamaning mohiyati

shuningdek "samaradorlik", "moslashuvchanlik", "yutuqlilik", "muvaffaqiyatlilik", "tushunuvchanlik", "natijalilik", "uquvlilik", "xossa", "xususiyat", "sifat", "miqdor" kabi tushunchalar asosida ham tavsiflanmoqda. Shunga ko'ra ta'lim kompetensiyalarini tasdiqlangan standartda keltirilgan ta'rif bo'yicha qabul qilamiz. **Bilim** — o'rganilgan ma'lumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish; **ko'nikma** — o'rganilgan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo'llay olish; **malaka** — o'rganilgan bilim va shakllangan ko'nikmalarni notanish vaziyatlarda qo'llay olish va yangi bilimlar hosil qilish; **kompetensiya** — mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyati.

### **Kompetensiyaviy yondashuv va uning xorijiy tajribada qo'llanilishi**

Kompetensiyalarning mazmuni va mohiyatini o'rganishdan oldin, uning fan va turmushga kirib kelishning qisqacha tarixi bilan tanishaylik.

**Birinchi bosqich** – 1960-1970-yillar. Tilni o'rganishga doir dastlabki kompetensiyalar kiritila boshlandi. Bunda D.Xayms tomonidan "kommunikativ kompetensiya" tushunchasi kiritiladi.

**Ikkinchi bosqich** – 1970–1990-yillar. Kompetensiya/kompetentlik kategoriyalaridan tilni, ayniqsa ikkinchi (ona tilidan tashqari) tilni o'rganish nazariyasi va amaliyotida, boshqarishda, rahbarlikda, menejmentda professionallik va muloqotni o'rganishda foydalanila boshlandi. Bu paytda "ijtimoiy kompetensiya/kompetentlik" tushunchasining mazmuni ishlab chiqildi.

**Uchinchi bosqich** –1990- va keyingi yillarda kompetensiyaviy yondashuv kasbiy ta'limga, umumta'lim fanlariga va boshqa yo'nalishlarda qo'llanila boshlandi.

O'zbekistonda dastlab Birinchi Prezidentimizning 2012-yilda imzolangan chet tillarni o'qitishni takomillashtirish to'g'risidagi farmonga muvofiq ilk bor kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan DTS ishlab chiqilib, 2013-2014-o'quv yilidan bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etila boshlandi.

Kompetensiya bo'lishi uchun uning strukturasi qanday bo'lishi kerak?

Kompetensiyaning struktura komponentlari quyidagilar:

- kompetensiyaning nomi;
- kompetensiya tipi va uning umumiy ketma-ketligidagi o'rni (tayanch, fanlararo, fanga oid);
- kompetensiyalar kiritiladigan, real faoliyat ko'rsatadigan obyektlar doirasi;
- kompetensiyaning ijtimoiy-amaliy bog'liqligi va ahamiyati (u jamiyat uchun nima sababdan kerak?);
- kompetensiyaning shaxsga nisbatan ahamiyati (nima sababdan o'quvchi kompetent bo'lishi kerak?);
- real obyektlar doirasiga oid bilimlari, ko'nikmalari va malakalari;
- mazkur kompetensiya doirasida o'quvchining faoliyat ko'rsatishi uchun kerak bo'ladigan minimal tajribasi (o'qitish bosqichlari bo'yicha);
- indikatorlar – o'quvchi kompetentligi (o'qitish bosqichlari bo'yicha) darajasini aniqlash uchun o'quv va nazorat-baholash topshiriqlari namunalari, misollari.



### **Qanday kompetensiyalarni tayanch kompetensiyalar deb olish kerak:**

Kompetensiyalardan, ta'lim kompetensiyalarni farqlash lozim. Ta'lim kompetensiyasi o'quvchining kelajakdagi to'laqonli hayotidagi faoliyatini modellashtiradi. Masalan, fuqaro ma'lum bir yoshga yetgunga qadar ayrim kompetensiyalarni haytiga tatbiq eta olmaydi. Lekin bu ularni o'quvchida shakllantirish shartmas degani emas. Masalan, o'quvchi maktabda fuqarolik kompetensiyasini o'zlashtirsa-da, uni hayotda maktabni bitirganidan so'ng ishlatadi. Shunga ko'ra bunday kompetensiyalar o'qish davrida ta'lim kompetensiyasi sifatida namoyon bo'ladi.

Tayanch kompetensiyalarning dunyo bo'yicha yagona qabul qilingan ro'yxati yo'q. Chunki har bir mamlakatning yoki hududning o'z an'analari, mentaliteti va o'ziga xos talablari bor. **Kompetensiya – jamiyatning o'z fuqarolariga qo'ygan ijtimoiy buyurtmasi** bo'lib, ularning ro'yxati muayyan mamlakatdagi yoki hududdagi ijtimoiy muhit bilan belgilanadi. Bunday kelishuvga har doim ham erishib bo'lmaydi. Masalan, Shveysariya va Amerika Qo'shma Shtatlarining iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti hamda ta'lim statistikasi Milliy institutining "Tayanch kompetensiyalarni tanlash va aniqlash" nomli loyihasida ham tayanch kompetensiyalarni qat'iy ravishda aniqlab olishning imkoniyati bo'lmagan.

Shunga ko'ra, kompetensiyalarning Yevropa va Rossiya variantlarini ko'rib chiqaylik.

Yevropa kengashi simpoziumida "Yevropa uchun tayanch kompetensiyalar" belgilab olingan. Unga ko'ra o'quvchi quyidagilarni o'rganishi kerak:

- tajribadan foydali xulosa yoki natija chiqarib olishi;
- turli fanlarga va sohalarga oid bilimlarini o'zaro bog'lay olishi va ularni tizimlashtirishni;

- o'zining shaxsiy o'rganish usullarini tashkil qilish(o'rnatish)ni;
- muammolarni mustaqil yecha olishni.

#### **Izlash:**

- mustaqil bilim olish bilan shug'ullanish;
- turli ma'lumotlar bazasini qidirish;
- tevarak-atrofdan surishtirish;
- ekspertdan maslahat olish;
- axborot olish;
- hujjatlar bilan ishlash va ularni turkumlash (klassifikatsiyalash).

#### **O'ylash:**

- o'tgan va kechayotgan voqealar orasidagi o'zaro bog'liqlikni topish;
- jamiyat rivojlanishining u yoki bu aspektiga tanqidiy yondashishi;
- murakkablik va o'ziga bo'lgan ishonch yo'qolishiga qarshi turish;
- bahs-munozara chog'ida o'z pozitsiyasini egallash va shaxsiy nuqtai nazarini himoya qilish;
- o'qish yoki ish joyidagi siyosiy-iqtisodiy muhitning muhimligini anglash;
- sog'lom turmush tarzini, iste'molchilik madaniyatini egallash, tasviriy san'at va adabiy asarlarini baholay bilish.

**Hamkorlik qilish:**

- guruhda ishlash va hamkorlik qila olish;
- qarorlar qabul qilish – anglashilmovchilik va mojarolarni bartaraf etish;
- kelisha olish;
- shartnomalarni ishlab chiqish va bajarish.

Ishga kirishish:

- loyihada qatnashish;
  - javobgarlikni olish;
  - guruhga yoki jamoaga kirish hamda o‘z hissasini qo‘shish;
  - hamkor ekanligini isbotlash;
  - o‘z ishini tashkil qila bilish;
  - hisoblash va modellashtirish asboblaridan foydalana bilish; ko‘nikish;
  - yangi axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalana olish;
- tez o‘zgarishlar oldida moslashuvchanligini isbotlash;
- yangi yechimlarni topa bilish.

**Tayanch kompetensiyalarning Rossiya varianti**

- qadr-qimmat, e‘tiqod kompetensiyasi
- umummadaniy kompetensiyalar
- o‘quv-o‘rganish kompetensiyasi
- axborot kompetensiyasi
- kommunikativ kompetensiya
- ijtimoiy-mehnat kompetensiyasi
- shaxsni takomillashtirish kompetensiyasi

**Kompetentlik – kompetensiyalarni qo‘llay olishda inson ega bo‘lishi kerak bo‘lgan minimal tajribaga ega bo‘lishdir.** Buni o‘quvchining tayyorgarligiga qo‘yiladigan talablarni shakllantirishda, o‘quv jarayoni va darsliklarni loyihalashda esdan chiqarmaslik kerak.

**Ta’limda kompetensiyalarning asosiy funksiyalari quyidagilar:**

- yosh avlodni kundalik hayotga tayyorlash bo‘yicha ijtimoiy talabning aks etishi;

- bilim, ko‘nikma va malakalarini hamda faoliyat usullarini kompleks holda maqsadli qo‘llashi uchun atrof-muhitdan real obyektlarni ko‘rsatishi;

- turli o‘quv predmetlari va ta’lim sohalari mazmunining tarkibiy qismi bo‘lishi;

- konkret masalalarni yechishda nazariy bilimlarni amaliyotda foydalanish bilan bog‘lashi.

Kompetensiyalar qanday ketma-ketlikda bo‘lishi kerak?

Ba’zi kompetensiyalar boshqalariga nisbatan umumiy yoki ahamiyatliroq bo‘ladi. Shunga ko‘ra ularni uchta darajaga bo‘lish mumkin:

- 1) *tayanch kompetensiyalar*–ta’lim mazmunining umumiy (metapredmet) qismiga tegishli;
- 2) *umumpredmet kompetensiyalari*–ma’lum doiraga kiruvchi o‘quv predmetlari va ta’lim sohasiga tegishli;

- 3) *predmetga oid kompetensiyalar* – oldingi ikki kompetensiyalarga nisbatan xususiy hisoblanib, o‘quv predmeti doirasida shakllantiriladi.

Tayanch kompetensiyalar har safar ta’limning ma’lum bir bosqichi va belgilangan o‘quv predmeti uchun aniqlashtiriladi. Ular to‘plam, me’yoriy hujjatlar, o‘quv va metodik adabiyotlar, shuningdek, o‘quvchilarning tayyorgarligini, shu bilan birga, ularning ijodiy tayyorgarligi darajasini baholaydigan hujjatlarni loyihalash va yoritish uchun xarakterlovchi to‘plamni belgilaydi.

Yuqorida keltirilgan vazifalarni bajarish bilan birgalikda ta’lim muassasasida ilmiy-metodik, axborot bazasini shakllantirish, pedagog kadrlarni tayyorlash, ishlab turgan pedagoglarimizda yangicha fikrlashni shakllantirish lozim. Bundan tashqari:

- o‘qituvchilarni ta’limdagi kompetensiyaviy yondashuv bilan tanishtirish;
- tayanch kompetensiyalarni shakllantirishni ta’minlaydigan texnologiyalarni egallash;
- o‘qituvchilarni kompetensiyalarga yo‘naltirilgan topshiriqlarni tuza olish va darsda hamda darsdan tashqari faoliyatda qo‘llay olishga o‘rgatish;
- o‘qituvchilarni berilgan topshiriqlarni o‘quvchilar tomonidan qanday bajarilganligini tahlil qilish va baholashga o‘rgatish kerak.

Har bir o‘qituvchi esa monitoring o‘tkaza olish, o‘z pedagogik faoliyatiga zarur tuzatishlar kirita olish kerak.

Kalit so‘zlar: kompetensiyaviy ta’lim, o‘qituvchi, kasbiy kompetensiya, shaxsiy kompetensiya.

Ключевые слова: компетентностное образование, учитель, профессиональная компетентность, личная компетентность.

Key words: competence education, teacher, professional compensation, personal compensation.

Bugungi kunda butun dunyo bo‘ylab yoshlarning ta’lim olishi va shu orqali jamiyatni yanada rivojlantirish masalasiga katta e’tibor qaratib kelinmoqda. Shu qatorda bizning mamlakatimizda ham ta’limni yanada takomillashtirish, bugungi zamon talablariga javob beradigan ta’lim tizimini shakllantirish masalasiga alohida ahamiyat berilmoqda. Yurtboshimiz rahnamoliklarida ta’lim va tarbiya sifati va samaradorligini zamon talablari darajasiga ko‘tarish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Buning uchun davlat umummilliy dasturlari asosida barcha sharoitlar yaratildi.

Ta’lim-tarbiya tizimining bugungi kundagi asosiy vazifasi o‘quvchilarni o‘z bilimi va dunyoqarashiga ega, vatanini sevadigan, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda bilim oladigan qilib tarbiyalashdan iborat. Hozirgi zamon talablaridan kelib chiqqan holda ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan umumta’lim fanlari bo‘yicha uzluksiz ta’limning o‘quv dasturlari loyihalari tayyorlanmoqda. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning asosiy tamoyillaridan biri o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma va malaka bilan bilan birga hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish hisoblanadi. Avvalo “kompetensiya” so‘zining ma’nosini bilib olsak: bu so‘z “munosib bo‘lmoq” ma’nosini anglatadi. Psixologik

va pedagogik adabiyotlarda shaxsga xos xususiyat sanalgan “kompetensiya” tushunchasiga har xil qarashlar mavjud. Agar ularni birlashtiradigan bo‘lsak, bu muayyan vaziyatlarda eng maqbul variantni tanlashda qaror qabul qilish qobiliyati va tayyorligi. Ta’limda kompetensiyaviy yondashuv deganda o‘quvchilarning ta’lim muassasasida egallagan bilimlari orqali kundalik hayotda duch keladigan vaziyatlarda foydalanishga tayyorlash tushuniladi. Ya’ni olingan nazariy bilimlarni amaliyotga bog‘lash, amaliyotda qo‘llashdan iborat. Bilimlarni amaliyotda qo‘llash esa ta’lim samaradorligini yanada oshirishga hizmat qiladi.

Komponentlik deganda shaxsning bilim, ko‘nikma va tajribalari ijtimoiy hayotga mosligi va o‘ziga tegishli muommolarni hal qilishga qodirligi tushunilar ekan, ta’limda kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishda, avvalo, o‘qituvchining o‘zi quyidagi kompetensiyalarga ega bo‘lishi zarur:

-kasbiy kompetentlik

-shaxsiy kompetentlik.

Kasbiy kompetensiya bu o‘qituvchining zaruriy bilimlarga ega bo‘lishi, o‘quvchilarga zaruriy bilimlarni qanday, qay tartibda, qanday vositalar bilan o‘rgatishga oid ko‘nikmalarning shakllangan bosqichi sanaladi. Kasbiy kompetensiya mutaxassisning kasbiy faoliyatini amalga oshirishga nazariy va amaliy tayyorligining birligi bilan tavsiflanadi. V.I.Volkinning fikricha, kasbiy kompetensiya – bu shaxsga mustaqil va mas’uliyatli harakat qilishga imkon beradigan ruhiy va shaxsiy fazilatlar va holatlar yig‘indisi. Kasbiy kompetensiya o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:

-pedagogika va psixologiya doir manbalarga ega bo‘lish;

-o‘z ustida ishlash;

-o‘quvchilarga o‘rgatishi kerak bo‘lganini emas, o‘quvchilar bilishni, egallashni xohlagan bilimlarni o‘rgatib borish;

-ta’lim muhitiga, o‘quvchining ta’lim jarayoniga yangilik kiritish;

-o‘z fanini mukammal bilish va uni amaliyotda qo‘llay bilish;

-birorta xorijiy tilni bilish.

Shaxsiy kompetensiya esa, o‘qituvchining o‘zining xarakter-xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yuzaga keladigan, o‘quv samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan shaxsiy hislatlari. Masalan bunga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin: chiroyli so‘zlash, faol va tashabbuskor bo‘lish, moslashuvchanlik, mas’uliyat, ishchanlik, insonparvarlik kabilar.

Kasbiy va shaxsiy kompetensiyani ta’lim jarayonida qo‘llanilishi bir qancha qulayliklarni yuzaga chiqaradi. Masalan:

-o‘qituvchilarda o‘z-o‘zini tahlil qilish va zarur narsalarni anglash ko‘nikmasi shakllanadi;

-o‘zini rivojlantirishni rejalashtirish orqali ta’lim jarayoni qatnashchilariga ta’sir ko‘rsatish;

-o‘zini namoyon etish, atrofni o‘rganish va kamchiliklarni tuzatib borishga erishiladi;

-o‘qituvchi o‘quvchilar ehtiyojini, yosh hususiyatlarini bilish orqali ularga nimani va qanday o‘rgatish bo‘yicha malakasi yuqori bosqichga ko‘tariladi.

Umuman olganda, kompetensiya- bilim, ko‘nikma, malaka, qadriyat, boshqa shaxsiy sifatlar, ijobiy natijalarni faoliyatda ko‘rinishi ekan bu jarayonni ta’lim jarayoniga tadbiiq etishda o‘qituvchining kasbiy hamda shaxsiy komponentligi yuqori ahamiyatga ega. Shuning uchun dastavval ta’lim oluvchilar emas ta’lim beruvchilarning o‘zi yuqori komponentlikga ega bo‘lishi zarur deb hisoblayman. Shundagina bu bosqichda yuqori natijalarga erishishimiz mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. B. Mengliyev “ Universal qo‘llanma”
2. Ro‘zimova N “ Uzluksiz ta’lim tizimini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish” ma;ruza
3. hozir.org.uz sayti materiallari
4. fayllar.org.com sayti materiallari.

### АЛИШЕР НАВОИЙ “БАДОЙИЪ УЛ-БИДОЯ” ДЕВОНИДА ФАРҲОД ОБРАЗИНИНГ ПОЭТИК ВАЗИФАСИ

*Холмуродов Холйигит Тиллаевич,  
ЖДПИ тадқиқотчиси*

Фарҳод ва Ширин тимсоллари Алишер Навоий ижодида алоҳида мавзу сифатида ўрин эгаллайди. Бу масалага мурожаат этмаган ёки этмайдиган бирор бир мумтоз ижодкорни учратиш ҳам бўлмайди. Бу образнинг Шарқ мумтоз адабиётида ифода ва талқин миқёси ҳам ниҳоятда кенгдир. Унинг оғзаки адабиётдан ёзма ижодга, дoston-қиссалардан лирик шеърятга, воқеликдан ҳиссиётга кўчиш-ўзгариш жараёнларининг ўзи ғоят чуқур ва теран поэтик ҳодиса сифатида намоён бўлади. Қисқа қилиб айтилганда, мумтоз адабиёт бадий оламининг узоқ тарихий босқичларини айна мавзу ва образ талқини боғлаб туради. Шарқ адабиётида худди шундай образ-тимсоллар орқали сўз санъати ўзининг асл мумтозлик даражасини таъминлайди. Кейинги йиллар жаҳон филологик изланишларида мавзу ва образлар, сюжет ва тимсоллар трансформацияси масаласи илмий-назарий жиҳатлардан алоҳида поэтик ҳодиса сифатида баҳоланмоқда. Асл моҳиятга кўра, трансформация латин тилидаги “transformatio” (ўзгартириш) сўздан олинган бўлиб, у турли жабҳаларда, санъат турларида ўзига хос маъноларда қўлланилади. Шундан трансформация ҳодисаси бир ҳолдан бошқа ҳолга ўтиш ёки бир шаклдан бошқа шаклга ўтиш, ўзгариш, бир ҳолни бошқа ҳолга ўтказиш, ўзгартириш англанади. Адабиётшуносликда кенг маънода шакл ва мазмун жиҳатлардан бир адабий ҳодисанинг иккинчи бир ифодага ўзгариши, ўзгартирилиши тушунилса, тор маънода бир тимсол, образ ёки сюжетнинг турли жанрий-шаклий, бадий ифодаларда ўзгариши, муайян ижод оламида ранг-баранг маънолар касб этиши тушунилади. Шу нуқтаи назардан мумтоз шеърятда трансформацион образ-тимсоллар бениҳоя катта мавқе эгаллайди. Айниқса, улардан лирикада набий сиймолар, тарихий-афсонавий шахслар,



шоҳу султонлар, адабий қаҳрамонлар образ-тимсолларининг тавсиф ва талмиҳ этилиши доимий анъана саналади. Гап шундаки, бу сингари образ-тимсоллар поэтикаси мумтоз адабиёт учун адабий ва абадий қонуният ҳисобланади ва шу орқали бетакрор ва серкирра ғоявий-бадий ифодалар юзага келади. Алишер Навоий шеъриятида самарали қўлланилган ана шундай тимсоллардан бири Фарҳод образи саналади. Унинг шоир лирик девонларида ифодаланиш статистикаси уч юз атрофида бўлиб, ҳар бир ҳолатда ўзига хос маъно ва кўринишларни юзага келтиради. Мисол учун “Бадойиъ ул-бидоя” девонига назар ташланса, бунда Алишер Навоий Фарҳод тимсолига турли бадий-рамзий ва структурал жиҳатлардан эллик марта мурожаат этади. Бу ўринда мумтоз адабиётда Фарҳод образининг этимологияси, хилма-хил шаклий-жанрий ва мазмуний ифодаларига кўра ўзгаришлари, ўзгартирилиши хусусида гап борадиган бўлса, образ трансформацияси ниҳоятда кенг миқёсда намоён бўлиши кўринади. Ушбу мақолада “Бадойиъ ул-бидоя” девонида мана шу тарихий босқичларни ўтаган бадий образнинг поэтик жиҳатдан ранг-баранг ифодаларни юзага чиқариш омиллари ҳақида фикр юритилади. Айнан Фарҳод образининг эпик талқинлардан лирик ифодаларга кириб келиши ва мана шу жараёндаги ўзгаришлар, бу тимсолнинг бадий тафаккурнинг барқарор ифодасига айланиши – буларнинг барчаси мумтоз адабиётнинг ўлмас қонуниятлари орқали юз беради. Алишер Навоий “Бадойиъ ул-бидоя” лирик девонида 50 дан ортиқ тавсиф этилган Фарҳод тимсоли шаклий-структуравий жиҳатлардан рангин манзаралар ҳосил қилади. Мисол учун Фарҳод 14, Фарҳод ва Ширин 12, Фарҳоду Мажнун 19, Вомиқу Фарҳоду Мажнун 3, Вомиқу Фарҳод 2, Ширин шаклида 7 марта тилга олинади. Бундан кўринадики, шоир лирикасида Фарҳод тимсолининг Мажнун образи билан параллел тасвир этилиши анча самаралидир. Шунингдек, Фарҳод ва Ширин тарзида талқини ҳам катта миқдорни ташкил қилмайди. Алишер Навоий девонида Фарҳод тимсоли якка ҳолда келганда эса “Фарҳод ва Ширин” мавзусидаги бошқа тимсол ва мотивлар билан бирга қўлланади. Бироқ бунда барча тимсол-образлар рамзий маънолар англатишга хизмат қилади. Мисол учун ушбу сатрларда Бесутун, Фарҳод, Қоф тимсоллари билан биргаликда харф санъати (“нун”) ҳам иштирок этади.

*Бесутунгаким сутун Фарҳод бўлди қофи ишқ,*

*Ул сутунни Бесутун остидаги “нун” қилдило [ББ.2;47].*

Кўринадики, Фарҳод образининг бадий тимсол сифатида лирикага кўчиш ҳодисаси шу мавзу билан боғлиқ бошқа образ-тимсолларни ҳам гарчи ўзга рамзий-мажозий оҳангларни ифодалаб келса-да, ўзи билан биргаликда кўчишини таъминлайди. Бунинг натижасида образ-тимсол маъноларида турфа ташқи ва ички, зоҳирий ва ботиний талқинлар юзага чиқади. Жумладан, Бесутун – “бу қоя ривоят ва афсоналарда Фарҳод номи билан боғлиқ ҳолда тилга олинади. Фарҳод шу тоғ этакларида канал қазиган, тоғни кесиб йўл очган қаҳрамон сифатида тасвирланади”[3;97]; Фарҳод оғзаки қиссалардан ёзма адабиётга кириб келган ва Алишер Навоий бадий

тафаккури маҳсули ўлароқ бош қаҳрамон даражасида талқин этилган комил хилқат образидир. Қоф – “афсонавий тоғ номи”, “Ер сокинлигини таъминловчи қозик”, “Симурғ, Анқо каби афсонавий қушларнинг манзили, дунёнинг охирги нуқтасидир”, “тасаввуфда аҳли қофни дилнинг ватани, жон қушининг манзили, Мутлоқ ҳақиқат ва маърифатнинг мақоми, фанодан кейинги бақо мақоми” деб талқин қилади[3;145]; Шеърда ишқ тимсол эмас, балки семиотик нуқта, яъни асарнинг маъно маркази ҳисобланади. Энди байт мазмунига эътибор қаратайлик, кейин бошқа тимсоллар таърифига ўтамиз. Бу ўринда “ишқ қофи (ишқ тоғи), яъни Бесутунига Фарҳод сутун (устун) бўлди, шу устунни Бесутун остида “нун” қилдилар”. “Бе” ҳарфи тагида, “нун”нинг эса устида нуқта бўлади. Шунга кўра, Фарҳод ишқ устунни ҳисобланади. Демак, Фарҳод билан биргаликда тасвир этилган барча образ-тимсолларда ишқ ифодасини юзага чиқарувчи рамзийлик мавжуддир. Бу ҳолни Фарҳод ва Ширин параллел тасвир этилган сатрларда ҳам кўриш мумкин.

*Ваъдаи васл этса ул Ширин санам ғам тогини  
Қозғамен тирноғларимни тешайи Фарҳод этиб [ББ.2;72].*

Алишер Навоий “Бадойиъ ул-бидоя” лирик девонида бу жуфтликни бир ўринда талқин этилиш ҳодисаси ҳам жуда сермаҳсул эмасдек кўринади, бироқ одатда Фарҳод ҳақида гап кетганда Ширин ёки аксинча Ширин образи талқинида Фарҳодга ишора этилади, яъни бадий матнларда ишқий жуфтликлар мантиқан айро англамайди. Масалан, ушбу мисраларда лирик қаҳрамон “Агар у ширинсифат маъшуқа ғам тоғи васлини ваъда қилса, тирноқларимни Фарҳод тешаси қилиб бўлса-да, уни қазаман”, - дейди. Бунда “ғам тоғи” рамзий равишда юқоридаги Бесутун, “ишқ қофи” сингари ишқ йўлида чекиладиган дардларни англатади. У қанчалик улкан бўлса ҳам, ошиқ уни забт этишдан толмайди, бу йўлдаги машаққат ошиқ учун мақсад-муддао саналади. Бу ўринда Фарҳод ва Ширин ҳам, шу сюжет билан боғлиқ бошқа деталлар (ғам тоғи, Фарҳод тешаси) ҳам бадий образдан кўра, ошиқ-маъшуқа ифодасини юзага чиқарувчи бир рамзий тимсол бўлиб келмоқда. Бироқ бу манзарани ўзаро боғлайдиган умумнуқта сифатида ишқ мавзуси намоён бўлади. Алишер Навоий лирикасида бу мавзунинг шаклан “Фарҳоду Мажнун” тарзида келиши эса анча самаралидир. Масалан, шоир “Бадойиъ ул-бидоя” девонидаги бир ғазалида “ишқ мени Фарҳод ва Мажнуннинг балоу дардига ворис қилди”, яъни мен Фарҳод ва Мажнунлардан қолган ишққа меросхўрман - дейди. Алишер Навоий бошқа ғазалида “тоғ” ва “дашт” ифодаси орқали лирик манзара яратади. Бунинг бири Фарҳод, иккинчиси Мажнун образлари трансформацияси билан боғланади.

*Қолди аввал тоғ аро Фарҳоду Мажнун дашт аро,  
Ишқ йўлида манга икки ажаб йўлдош эрур [ББ.2;227].*

Бунда ишқ йўлида Фарҳоднинг “тоғ аро”, Мажнуннинг “дашт аро” қолиши лирик қаҳрамонга икки ажойиб йўлдош бўлиб кўринади. Демак, шоир лирикасида ишқ мотивини ифодалашда тоғ ва дашт маконлари айнан Фарҳод, Мажнун воқелигига таянади. Бу мотивлар воқелик ифодасида

образлар характерини рўёбга чиқарса, шоир лирикасида рамз бўлиб келади. Алишер Навоий ва умуман мумтоз шеърятда тоғ, биёбон, саҳро, водий, ғор, дашт сингари макон тасвирлари кўп учрайди. Уларни лирик талқинларда ифодалашда Фарҳод, Мажнун образларидаги тоғ, дашт мотивига мурожаат этилиши мазкур дostonларда айни маконлар муҳим поэтик вазифалар бажарганлигини ҳам билдиради. Алишер Навоий “Бадойиъ ул-бидоя”нинг бошқа бир ғазалида “адам водийси”ни тилга олади.

*Истарам қочмоқ адам водийсидинким, киргали*

*Вомиқу Фарҳоду Мажнун бас гулудур хилватим [ББ.2;451].*

Бизнинг фикримизча, бунда “Адам водийси” орқали адабий воқелик ва образлар бир нуқтада жамланади. Чунки байтда Вомиқ, Фарҳод ва Мажнун тимсоллари бир ўринда келади. Бу образларни ғоявий-мантикий боғлаш учун эса “Адам водийси”га мурожаат этилади. Бу ўринда адам водийси – йўқлик диёри, ғулу – ғалва, хилват – холилик маъноларини ангалатади. Шунга кўра, лирик қаҳрамон адам водийсидан қочмоқ истади, чунки ишқ оламига Вомиқ, Фарҳод, Мажнун кирганлиги етарлидир. Бошқача қилиб айтганда, байт ошиқ кўнглида Вомиқ, Фарҳод, Мажнун дарди жой олса бўлди, адам водийси шарт эмас деган фикрни илгари сурмоқда. Шуни ўринда айтиш керакки, шоир лирикасида “Вомиқ ва Узро” мавзуси алоҳида бадий талқин ҳодисаси ҳисобланади. У муайян маънода Алишер Навоий шеърятда Фарҳод ва Ширин, Лайли ва Мажнун тимсол-образларидан кам бўлмаган ҳолда кенг қўлланади. Бироқ “Вомиқ ва Узро” сюжети “Фарҳод ва Ширин”, “Лайли ва Мажнун” сингари Алишер Навоий ижодида янги рух, мазмун ва шаклларда ўз ифодасини топган мавзу эмаслиги маълум. Унинг генезиси Шарқ адабиётининг бошқа даври ва ижоди маҳсули саналади. Шундай бўлса-да, Вомиқ ва Узро Алишер Навоий ва умуман ўзбек мумтоз шеърятининг дилбар образларидан бирига айланган. Бу образларнинг мумтоз адабиётдаги трансформацияси ва поэтикасини ўрганиш ўзи алоҳида муаммо ҳисобланади. Маълумотларга кўра, “Вомиқ ва Узро муҳаббати фожеали тамом бўлган афсонавий севишганлар. Улар мумтоз шеърят, хусусан, Алишер Навоий лирикасида кўб ва хўп талқин этилади. Айниқса, Узро гўзалликка мазҳар бўлиб ҳам келади. Бу сюжет паҳлавий адабиёт намунаси бўлиб, унинг илк қўлэмаси йўқолган, форс тилида Вомиқ ва Узро тарихини шоир Унсурий (1040 йилда вафот этган) ишлаган. Кейинчалик Журжонлик шоир Фасихий 1049 йилда бу сюжет асосида асар яратган. Бу сюжет туркий шоирлар Биҳишти (XII аср), Ламей (XIII аср) томонидан ҳам дoston яратилишига асос бўлган. Тасаввуфда “Вомиқ ва Узро” мавзуси “мажоз ишқининг ҳақиқатга айланиши”га рамзи бўлиб келади[4;78]. Алишер Навоий шеърятда Вомиқ ва Узро тимсоллари кўп тасвирланади. Бу шоирни ушбу мавзу доимий қизиқтирганлиги ва у ҳақида чуқур тафаккур қилганлигини билдиради. Шу билан бирга Алишер Навоий лирикасида бу учлик тимсолларининг параллел тасвир этилиши шеър мазмун-моҳиятини ва унда ифода этилган дardни янада чуқурроқ асослашга хизмат қилади. Бизнинг фикримизча, ушбу шеърда шоир Фарҳод қиссасидаги айрилик мотивига урғу

беради. Шу сабабдан байтда айнан Вомиқ, Мажнун, адам водийсига мурожаат қилинади. Шарқ адабиётида бу қаҳрамонлар билан боғлиқ воқеликлар бадий талқинида маъшуқалар (Узро, Ширин, Лайли) билан висол мавжуд дунёда содир бўлмайди, балки адам водийсига қолади. Бундан кўринадики, Алишер Навоий шеърлятида образлар трансформацияси ходисаси муайян маъноларда шу тимсоллар ифодасига тегишли бошқа поэтик масалаларни ҳам камраб олади ва турфа рамзий-мажозий талқинларни юзага келтиради. Шоирнинг “Бадойиъ ул-бидоя” девонида Фарҳод баъзи ўринлардагина Вомиқ билан бирга тасвир этилади.

*Мен ўзга, Вомиқу Фарҳод ўзгадур, эй ишқ,  
Танаъум аҳли аро эътибор қилма мени [ББ.1;710].*

Ушбу байтда “танаъум аҳли”га (танаъум аҳли – луғавий маънода роҳат ва фароғатда яшамок) эътибор қаратилади. Бунда ниҳоятда нозик психологик-руҳий тасвир кузатилади. Одатда, “танаъум аҳли”, яъни роҳатда яшаётганлар бошқалар ҳаётига бепарво бўладилар. Худди шундай бепарволик мумтоз шеърлятда баъзан маъшуқага нисбатан ҳам ишлатилади. Ушбу байтда эса мана шу кишилик манзараси бошқа бир ҳолатни юзага чиқаради. Унда ишққа мурожаат этилиб, “эй ишқ, мен бошқа, Вомиқу Фарҳод бошқадир, мени “танаъум аҳли”дек тасаввур айламагин”, - дейди. Шеърда бир қараганда оддий лавҳа бўлиб кўринадиган ҳолат асли ниҳоят чуқур ва мураккаб масала талқинини ўзида жо этади. Бунда лирик қаҳрамон-ошиқ, Вомиқ, Фарҳод ишқ наздида ўзга оламдир, уларни ўзи фароғатда яшаб ўзгаларга парво қилмайдиганлар сингари бир нуқтаи назарда, эътиборда англаб бўлмайди. Маълумки, “Фарҳод ва Ширин” достонида ишқ мавзуси жўшқин бир мотив сифатида тасвир этилса-да, ундан асл мақсад ижтимоий масалалар (комиллик фалсафаси) талқини ҳисобланади. Бу ҳолат умуман бадий ижоднинг қонуниятларидан саналади. Унга кўра, моҳиятда ижтимоий ёки фалсафий масалалар талқини етакчилик қиладию, бироқ ишқ-муҳаббат мавзусини асар поэтик оламини ёритиб туради. Шу нуқтаи назардан Алишер Навоий лирикасида Фарҳод образи трансформациясида ҳам ғоявий жиҳатдан ишқ масаласига таянилади. Бундан кўринадики, шоир шеърлятида Фарҳод тимсоли асосан ишқ мавзуси талқинида ғоявий-бадий жиҳатлардан тўлиқ ўзгариб боради ёки ўзгартирилади. Алишер Навоий шеърлятида Ширин тимсоли яқка ҳолда камдан кам ишлатилади, қўлланилган ўринларда ҳам Фарҳод билан бирга келади. Мисол учун қуйидаги шеърда кўнгилга мурожаат этилиб, у Ширинни ҳавас қилган Фарҳодга ўхшатилади.

*Лаъли шавқидинки гам тогин қозарсен, эй кўнгул,  
Не бало Ширин ҳаваслиқ нотавон Фарҳодсен [ББ.1;558].*

Шарқ мумтоз шеърлятида, хусусан, Алишер Навоий лирикасида кўнгил тимсоли энг сермахсул образлардан ҳисобланади. Бироқ уни тавсифлашда Фарҳод сингари образлардан фойдаланиш тажрибаси ҳам кам кузатиладиган ходисадир. Алишер Навоий ушбу мисраларида мана шундай бадий усулдан фойдаланади. Бундан кўринадики, шоир шеърлятида айрим ўринларда Фарҳод образи кўнгил тимсолига кўчади, яъни трансформация этилади.



Шунга кўра, байтда “эй кўнгил, сен ёрнинг лаълидан, пурҳикмат сўзларидан завқ олиб ғам тоғини қозасан, бу билан сен Ширинни ҳавас қилган Фарҳод кабидирсан”, - дейилади. Бошқача қилиб айтганда, маъшуқа сўзларидан мақсад Ширин бўлса, кўнгилдан мурод Фарҳоддир. Айтиш жоизки, бундай ўринларда Фарҳод ва Ширин алоҳида тимсоллар сифатида эмас, балки ташбиҳ-тамсил учун поэтик вазифа бажаради. Асарда асосий бадиий юк кўнгил образи орқали ифодаланади. Алишер Навоий Фарҳод, Вомиқ, Мажнун тимсоллари келтирилган бошқа бир ғазалида ҳам кўнгилга мурожаат этади. Бунда шоир “эй кўнгил, сен ғофил бўлмагинки, Фарҳод, Вомиқ ва Мажнун ўз ҳамроҳлари билан биргаликда кетдилар”, - деган маънода фикр юритганлигига гувоҳ бўламиз;

*Эй кўнгул, Фарҳод ила Вомиқ доғи Мажнун қани?*

*Бўлмагил ғофилки бир-бир бордилар ҳамроҳлар [ББ.2;137].*

Ушбу ўринда “бордилар” сўзига алоҳида эътибор бериш керак, чунки бу тушунча байтнинг ҳам, “Фарҳод ва Ширин”, “Вомиқ ва Узро”, “Лайли ва Мажнун” дostonларининг ҳам ўзак масалаларидан саналади. Маълумки, ушбу ишқ жуфтликлари асар сўнгида қаҳрамонлар ҳалок бўлиши билан яқунланади. Аслида Шарқ фалсафасига биноан, ўткинчи оламдаги айрилиқлар абадий дунёдаги висолга йўл очади. Шу боис мумтоз адабиётимизда “вафот этмоқ”, “ўлмоқ” иборалари деярли қўлланмайди. Унинг ўрнига “кетмоқ”, “бормоқ”, “равона бўлмоқ” сингари тушунчалар ишлатилади. Алишер Навоий ҳам мана шу қоидага амал қилиб, Фарҳоднинг Ширин билан, Вомиқнинг Узро билан, Мажнуннинг Лайли билан кетма-кет “борганлигига” ишора қилмоқда. Бунда шоир “ҳамроҳлар” деганда шу ишқий жуфтликларни назарда тутган бўлса, “бордилар” деганда уларнинг ҳақиқий ишқ оламига кетганликларига ишора сезилади. Шунинг учун ҳам Алишер Навоий кўнгилни ғафлатда қолмасликка, ҳар доим бедор ва ҳушёр бўлишга чақиради. Шунини қайд этиш керак, Алишер Навоий шеъриятида Фарҳод шу сюжетда мавжуд бўлган бошқа характерлар билан ҳам унча самарали бўлмаса-да, ўзаро параллел тасвир этилган ўринлар кўзга ташланади. Масалан бир байтда шоир Хусрав шоҳ образини келтиради.

*Кўҳи дарду тешайи ҳижронни сўр Фарҳоддин,*

*Англамас Хусравки, Ширин бирладур дойим била [ББ.1;645].*

Шоир Хусрав ёки шу тимсол орқали ишқ дардини англамайдиган инсонларга таъна қилмоқда. Гап шундаки, Хусрав “Фарҳод ва Ширин” дostonи образларидан биридир. Ҳатто Алишер Навоийдан олдинги дostonларда бош қаҳрамон ҳисобланади, Фарҳод эса бевосита шоир бадиий тафаккури маҳсули ўлароқ ҳамсачилик ва чунончи адабиётнинг етакчи қаҳрамонига айланади. Шундан Алишер Навоийгача бўлган мумтоз адабиёт ва шеърят намуналарида Хусрав ва Ширин тилга олинади. Хуллас, шоир лирикаси ва умуман мумтоз адабиётда Фарҳод образи келтирилганда, албатта, Хусрав ҳам эътибордан четда қолмайди. Мазкур байтда эса шоир “тоғдай оғир дарду айрилиқ тешаси жабрини тортиб ҳам хаёли ҳар доим Ширинда бўлган Фарҳод ҳолини Хусравга ўхшашлар англамаслигини”



таъкидламоқда. Бу шеър мазмунан бир томондан “Фарҳод ва Ширин” достони ғоясига ҳамоҳангдир. Чунки, дostonда ҳам Хусрав худбин ва жоҳил кимса сифатида тасвир этилади, ammo байтда шу мазмун лирик ифодаси ўлароқ Хусрав ва унга ўхшаган ишқ илмидан йироқ кимсаларга таъна-маломат оҳанглари бўртиб туради.

Хулоса қилиб айтилганда, Алишер Навоийнинг “Бадойиъ ул-бидоя” девонида Фарҳод образи ранг-баранг поэтик функциялар ижро этишга хизмат қилади. Унда тимсолнинг лирик ифодаларидаги ўзгаришлари турли бадий-рамзий маъноларни юзага чиқаради. Бу орқали образ-тимсол билан биргаликда турфа бадий деталлар, эпизодик лавҳалар ҳамда характерлар ҳам параллел тасвир этилади. Шу тариқа Фарҳод образ-тимсоли шоир шеъриятида эпик тафсилларнинг хилма-хил лирик кечинмаларини ҳосил қилади.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. Farhod va Shirin. – Toshkent: O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. – 645 b.
2. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. Биринчи том. Бадойиъ ул-бидоя. – Тошкент: “Фан”, 1987. – 112 бет.
3. Навоий А. Қомусий луғат. 1 - жилд. – Тошкент: Шарқ, 2016. – 145 бет.
4. Қобилов У.У. Нубувват ва валоят терминлари қисқача изоҳли луғати. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2019. – 78 бет.

### **ЎЗБЕК ХАЛҚ ПОЭТИК ОҒЗАКИ ИЖОДИДА ТОПИШМОҚЛАРНИНГ ЎРНИ**

*Тиллабаева Феруза Абдулазизовна,  
Андижон қишлоқ хўжалиги ва агротехнологиялар  
институтини катта ўқитувчиси.,  
Жумабоев Алишер Алижон ўгли,  
Андижон қишлоқ хўжалиги ва агротехнологиялар  
институтини талабаси*

Ўзбек халқи жаҳон халқлари орасида бой халқ оғзаки ижоди намуналари билан инсоният тамаддумига муносиб ҳисса қўшган. И.А.Каримовнинг 2008 йили эълон қилинган “Юксак маънавият – енгилмас куч” китобида: “Аждодларимиз тафаккури ва даҳоси билан яратилган энг қадимги тошёзув ва битиклар, халқ оғзаки ижоди намуналаридан тортиб, бугунги кунда кутубхоналарда сақланаётган минг-минглаб қўлёзмалар, уларда мужассамлашган тарих, адабиёт, санъат, сиёсат, ахлоқ, фалсафа, тиббиёт, математика, минерология, кимё, астрономия, меъморлик, дехқончилик ва бошқа соҳаларга оид қимматли, бебаҳо асарлар бизнинг буюк маънавий бойлигимиз!” дейилган [31-б.] Шу боис, ўзбек

фольклорини ёзиб олиш ва нашр этиш ўтган аср мобайнида бошланган бўлса ҳам, мустақиллик шарофати билан халқ оғзаки ижодини чинакам, ҳар томонлама ўрганиш, мукамал нашрларни амалга ошириш, тарихимиз ва бугунги кундаги аҳамиятини кўрсатиш асосий ўринларда ёритилиб берди. [7;12-б.]

Шундан келиб чиқадики, мустақиллик йиллари фольклор гуллаб яшнаши учун барча ижтимоий – иқтисодий шароитлар яратди. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 26.05.2020 йилдаги ПФ-6000-сон ”Маданият ва санъат соҳасининг жамият ҳаётидаги ўрни ва таъсирини янада ошириш чора тadbирлари тўғрисида”ги Фармони, 7-сентябрь 2018 йилдаги Халқаро мақом санъати анжуманининг очилиш маросимидаги нутқи, 6-апрель 2019 йилдаги Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Халқаро бахшичилик санъати фестивали очилишига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи, миллий маданиятни янада ривожлантириш, янги Ўзбекистоннинг янги тарихини яратиш, моддий ва номоддий маданий мерос дурдоналарини сақлаш ва тарғиб этиш, халқ оғзаки ижодиёти ва ҳаваскорлик санъатини янада оммалаштириш, юртимизнинг жаҳон маданий маконига фаол интеграциялашувини таъминлаш, маданият ва санъат соҳасини инновацион ривожлантиришга қаратилган тизимли чора-тадбирларни амалга оширилишига улкан имкониятлар яратиб берди.

Фольклор турли замонларда ўз талқинида ўрганилиб келди, лекин мустақиллик даврида унинг асл мазмуни ва моҳияти очилди

Фольклор термини инглизча [folk]-халқ ва [lore]-донолик сўзларидан ясалган бўлиб “халқ донолиги” деган маънони англатади. Фольклорни фан сифатида Англия университетларида 17 асрнинг иккинчи ярмида бошланган эди. Россияда Ф.Н.Буслаев ва унинг шериклари А.Н.Веселевский, Н.И.Стороженколар сайъ-ҳаракати билан олий ўқув юртларида “Умумий адабиёт тарихи” номи билан рус фольклорини ўқитиш йўлга қўйилди. Лекин ўзбек фольклоршунослигида 1935 йилда Ҳ.Зариф ва Ш.Ражабийларнинг “Ўзбек совет фольклоридан намуналар” китоби босилиб чиққандан сўнг “фольклор” атамаси илмий истеъмолга кирди. [4-б.]

Халқ тилида фольклор “эл адабиёти”, “халқ адабиёти”, “оғзаки адабиёт”, “оғзаки ижод” атамалар билан қўлланар эди. Турли жанрлардан тузилган оғзаки сўз санъати ўзбек халқининг дунёқараши, бадиияти, ижодкорлиги, умид ва орзусини ифодалайди.

Фольклорнинг энг қадимий жанрларидан бўлган ўзбек халқ топишмоқлари узоқ асрлар мобайнида шаклланиб келишига қарамай, уни тўплаш ва қисман текшириш 19 асрнинг иккинчи ярмидагина бошланганлиги кўринади [8;14-б.] Ва шундай ўрганишларлардан келиб чиқиб айтиш мумкинки, айрим қўлёзмаларда савол жавоб шаклида учрайдиган топишмоқ ва чистонлар мустасно тутилса 19 асрга қадар ўзбек топишмоқларининг бирорта тўплами бўлгани маълум эмас.

Фольклорнинг энг қадимий жанрларидан топишмоқ саналади. Топишмоқлар оммавий жанрлардан ҳисобланиб, тараққиётнинг турли

босқичларида ижтимоий онгининг ўз даврига нисбатан тафаккур даврасида тушунилади ва шу жанрнинг ўзига хос бадиий шаклида акс эттирилади .

Топишмоқлар қадим воситалардан яратилиб келиб, унда меҳнаткаш халқнинг турмуш тарзи, деҳқонларнинг , чорвадор ва хунармандларнинг уй рўзғор буюмлари билан боғлиқ ҳодисалар акс этган. Шунинг учун кўплаб топишмоқларнинг жавобини топиш учун жамиятнинг меҳнаткашлар катламининг турмушига оид буюмлар, ўша даврнинг табиат ҳодисалари, ўсимлик ва ҳайвонот олами ва турли бошқа нарсалар ҳақида маълумотга эга бўлиш даркор. (топишмоқлар ёзаман)

**(Кийим кечак)**

*Бош устида чамбарак, Чамбаракда капалак. (Дўппи)*  
*Бошингдаги бошпана, Қиш-қировда гулхона. (Телпак)*  
*Кундузи ҳимоя қилади, Кечаси қозикда туради. (Кийим)*  
*Қора ботир қалтироқ, Сағирлари ялтироқ. (Қора атлас)*  
*Топ, топишмоқ, Танга ёпишмоқ. (Кўйлак)*

**(От асбоблари)**

*Отдан баланд,*  
*Итдан паст.*  
*(Эгар)*  
*Йўгон эдим йўндилар,*  
*Ишга лойиқ қилдилар.*  
*(Эгар)*  
*Тепдим,*  
*Теракка чиқдим.*  
*(Отга минииш)*  
*Тап-тап этиб томга чиқдим.*  
*(Отга минииш)*  
*Тепдим тешик,*  
*Миндим бешик,*  
*Олдим ажриқ,*  
*Кейним тўқай.*  
*(Узанги, эгар, от ели, думи)*

**(Уй-жой ва унга тегишли жиҳозлар )**

*Шум кампир, Шумалоқ кампир, Икки бети юмалоқ кампир. (Тандир)*  
*Аломат-а, аломат, Ичи қизил қиёмат. Хўл урдим, Қуруқ чиқди. (Тандир, нон)*  
*Ости лоп-лоп, Усти лоп-лоп, Ўртасида кумуш қоплаб. (Рапида)*  
*Ўзи битта, Қулоғи тўртта. (Қозон)<sup>1</sup>*

Топишмоқлар инсон онгини чархлашга ёрдам беради. Топишмоқларнинг жавобини топишда нафақат маълум бир билимга эга бўлиш билан кифояланиб қолмай, балки тўғри мўлжал ва тахмин қила билишни тахмин этади.

*Устида қопқоқ,*  
*Тагида қопқоқ,*

*Ичинда япроқ,  
(Китоб)  
Тилсиз, ақл ўргатар.  
(Китоб)  
Оқ ер очдим,  
Қора буғдой сочдим.  
(Қоғоз, ёзув)  
Қўл билан экилар,  
Оғиз билан йигилар.  
(Ёзиш, ўқиш)  
Тогдан тайладим синмади,  
Сувга тайладим синди.  
(Қоғоз)  
Сирти таёқ,  
Ичи бўёқ  
(Қалам)  
Узун бўйли,  
Йўрма тўнли.  
(Қамиш қалам)*

Топишмоқлар инсониятнинг реал ҳаёти ва турмуши билан узлуксиз боғлиқ борлиқни реал тасвирловчи адабий жанрдир. Топишмоқларда инсоннинг тарихий яшаш шароитида бўлмаган, ҳаёлий уйдирмалар билан тўлдирилмаган, балки инсон ўз кўзи билан кўрган, ўз ҳаётида ишлатган, ўзи ишлаган нарсалар, етиштирган маҳсулотлар, ўзи сезган, эшитган нарсалардан иборатдир.

*Оптоқ сандиқ очилди, Оламга нур сочилди. (Осмон, қуёш)  
Олтин келганда, кумуш кетар, Кумуш келганда, олтин кетар. (Қуёш,*

*Ой)*

*Қаноти бор учмайди, Қуруқликда юрмайди. (Балиқ)  
Абдал бува ариқдир, Оғзи, бурни мурриқдир. (Ўза)  
Чопсанг кулар, Чопмасанг ўлар. (Пахта)  
Ўзи ариқ, Ранги сариқ, Юзи қизил, Боши қилтиқ. (Буғдой)  
Хўппа семиз, Бир туки йўқ. (Тарвуз)  
Қизил қиз ер остида, Сочлари ер устида. (Сабзи)*

Халқнинг энг катта бойлиги – унинг тилидир! Минг йиллар давомида сўзда инсоният фикри ва тажрибаси тўпланиб абадий яшайди. Ва балки ҳеч қайси тил ижодининг шаклида топишмоқлардаги каби халқнинг ақли, шаффоф кўрсатилган миллий тарихи, дунёқараши ва турмуш тарзи кўрсатилмаган. Топишмоқлар ҳозир ҳам халқ ижодида кўнгилхушлик воситасигина эмас, балки болалар идрокани, зеҳнини ўстиришда ўзига хос тарбия мактаби сифатида яшаб келмоқда. Топишмоқларнинг дунёвий аҳамияти шубҳасиз, зеро, улар жаҳон гўзаллигини кўришга, ҳаёл ва тасаввур қилишга, дунё қувончларидан баҳраманд бўлишга ёрдам беради. Топишмоқлар мақол, маталлар ва бошқа образли сўзлар каби нутқимизни

бежайди, унинг ихчамлиги, жарангдорлигини таъминлайди. Эзгуликка чорлаб, инсон учун энг азиз бўлган она тилига, туғилган юртига муҳаббат уйғотади.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

- 1.3.Хусеинова. Ўзбек халқ топишмоқларининг асосий хусусиятлари ва замини.Тошкент 1967 [7;12 б]
2. Ислон Каримов. Юксак маънавият – енгилмас куч Тошкент: Маънавият, 2008-[31 б.]
3. К.Имомов.Т.Мирзаев, Б.Саримсақов, О.Сафаров. Ўзбек халқ поэтик оғзаки ижоди. Тошкент: “Ўқитувчи”, 1990. [4 б]
- 4.Т.Мирзаев, Ш.Турдиматов, М.Жўраев, Ж.Эшонқулов, А.Тилавов. Ўзбек фольклори. Дарслик. -Тошкент: “Тафаккур бўстони”, 2020. [4 б].

## **ХАЛҚ ДОСТОНЛАРИ ТИЛИДА СЎЗЛАРНИНГ ШАКЛ ВА МАЪНО МУНОСАБАТИГА КЎРА ТУРЛАРИНИНГ ЛИНГВОМАДАНИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ**

*Файзуллаева Дилноза Наримоновна,  
ЖДПИ катта ўқитувчиси*

Шоир ва ёзувчилар томонидан яратилган ҳар бир асар қайси жанрда бўлишидан қатъий назар, у адабий тил қонун қоидалари ва нормаларига амал қилади албатта. Қўлланиши чегараланган лексика (диалектизм, историзм, архаизм, касб-хунар лексикаси ва бошқалар) эса асар тилида маълум услуб талабига кўра кўпроқ персонаж нутқида қўлланади.

Фольклор асарлари тилининг эса ўзига хос хусусиятлари мавжуддир. Чунки оғзаки ижод тили адабий тил меъёрларига тўлиқ амал қилмайди. Балки у оғзаки нутқ қоидаларига, сўзлашув ва умумхалқ тилига жуда яқин туради. Шу сабабли ҳам халқ оғзаки ижоди асарлари тилини лингвистик жиҳатдан ўрганиш ҳозирги ўзбек адабий тили, тил тарихи, ўзбек диалектологияси фанлари учун ҳам қимматли материаллар бериши ва адабий тилни лексик-грамматик томондан бойишига ҳисса қўшиши мумкин. Биз ушбу бўлимда “Холдорхон” достони тилининг айрим лексик маданий бирликлар хусусиятларини таҳлилга тортишни мақсад қилиб олдик. Бунда асосан дoston тилида қўлланилган синоним, омоним ва антоним сўзларнинг ўзига хос қўлланиш услубияти, уларнинг лексик-семантик кўринишларини ёритишга жазм қилдик. Ўзбек тилшунослигида синонимия, омонимия ва антонимия ҳодисаси кўп томонлама ўрганилган, албатта. Лекин халқ оғзаки ижоди асарлари, хусусан, халқ дostonлари тилига хос ушбу лингвистик ҳодисалар кенг планда ўрганилмаган.

### **Достонлар тилида синонимия ҳодисаси**

Шакли ҳар хил, бирлаштирувчи маъноси бир хил, айрим маъно оттенкалари билан фарқланувчи сўзлар синонимлар дейилади. Масалан, юз,



*афт, чехра, бет, турқ, жамол.* Бу сўзлар шакли ҳар хил, лекин турли хил маъно оттенкаларига эгадирлар. Бир умумий маъноси билан ўзаро боғланувчи сўзлар гуруҳи синонимия ёки синонимик қатор дейилади. Синонимик қатор икки ёки ундан ортиқ сўзлардан тузилади. Масалан: *айланмоқ-кезмоқ-сайр этмоқ; виждон-номус.*

Синонимлар маъносининг бир хиллиги ўзаро фарқли хусусиятларга эга бўлишини инкор этмайди. Аксинча, тилда бир маънони ифодалаш учун бир неча сўзнинг мавжудлиги синонимларнинг бир-бирига ҳар жиҳатдан тўла мос келмаслигини, улардан ҳар бири ўзига хос белги-хусусиятларга эгаллигини кўрсатади. Синонимларнинг фикрни аниқ, мақсадга мувофиқ ифодалаш учун хизмат қилиши кўрсатиб ўтилди. Ҳудди мана шу омил синонимларнинг юзага келишига сабаб бўлади. Уларнинг пайдо бўлиш йўллари эса турлича:

1. Умумхалқ тилидаги асосан бир тасаввурни ифодаловчи турли сўзлар орасида маъно жиҳатидан бир хиллик, ўхшашлик, яқинлик туғилиши натижасида: *яхши* ва *ёқимли*; *дўст*, *ёр*, *қадрдон* ва *ўртоқ*; *фикрдош* ва *маслакдош*;

2. Умумхалқ тилидаги маълум маънога эга бўлган сўзлар устига айрим маҳаллий диалектлардан шу сўзларга маъно томондан яқин бир хил сўзлар келиб қўшилиши натижасида: *катта* ва *улкан*, *ака* ва *ога*, *товуш* ва *сас*; *ука* ва *ини* каби.

3. Турли халқларнинг тилларидан сўз олиш натижасида: *пешона* ва *манглай*; *кифт* ва *елка*; *мурт* ва *мўйлаб*; *куч* ва *қувват*; *айш* ва *роҳат*; *буюк-улуғ*, *катта*; *муносабат* ва *алоқа*, *буйруқ-фармойиш* ва *фармон*; *тема* ва *мавзу*; Ш.Шоабдурахмонов, М.Асқарова, А.Ҳожиев, Н.Расулов, Х.Дониёровларнинг “Ҳозирги ўзбек адабий тили” дарслиги [1;118] да эса қуйидаги фикрлар келтирилган:

Синонимлар икки асосий ҳодиса натижасида пайдо бўлиши мумкин:

1. Тилда янги сўз пайдо бўлиши натижасида.

2. Тилда мавжуд бўлган сўзларнинг янги маъно касб этиши натижасида.

Тилда янги сўзлар икки асосий йўл билан:

1. Сўз ўзлаштириш орқали.

2. Тилда бор сўзлар асосида сўз яшаш орқали ҳосил бўлади.

Қуйидаги синонимлар ўзга тилдан сўз ўзлаштириш натижасида юзага келган:

*Севги* (ўзбекча), *муҳаббат* (арабча); *куч* (ўзбекча), *қудрат* (арабча); *буйруқ* (ўзбекча), *амр* (арабча); *от* (ўзбекча), *исм* (арабча) ва бошқалар.

Тилда бор сўзлар асосида яратилган сўзлар бошқа сўзлар билан синонимик муносабат ҳосил этиши, янги синонимик қатор юзага келтириши мумкин. Масалан: *вазифа – топшириқ*; *хотира – ёдгор – эсталик*; *фарқ – айирма*; *маош – мояна – ойлик* каби. Биз шу ўринда юқоридаги фикрларга қўшимча сифатида сўзларнинг янги маъно касб этиши, маъно тараққиёти ҳам синонимлар пайдо бўлишига олиб келувчи асосий факторлардан, деб

ҳисоблаймиз. Масалан: *ўрин* сўзи иккита сўз билан синонимик қатор ташкил этса: *ўрин – жой*; *ўрин – лавозим*; *ўрамоқ* синоними уч синонимик қаторда иштирок этади: *ўрамоқ – чирамоқ*; *ўрамоқ – қопламоқ*; *қуришмоқ – чўлғамоқ – босмоқ*; *тутмоқ – чалмоқ – қамрамоқ*; *уришмоқ – курашмоқ*.

*Ўрин* ва *ўрамоқ* сўзларининг бирдан ортиқ синонимик қаторда иштирок этиши улар маъносининг тараққиёти натижасидир. Бир маъноли сўз эса фақат бир синонимик қаторда қатнашиши мумкин[2;123].

Биз таҳлилга тортган дostonларда синоним сўзларнинг ранг-баранг намуналарини учратамиз. Синонимларнинг хусусияти, моҳияти жиҳатидан адабий тилдагига мос келса-да, лекин дostonдаги синоним сўзларнинг айрим ўзига хос хусусиятлари ҳам мавжуддир. Дostonда қўлланилган синоним сўзлар соддалиги, ифодалилиги, образлилиги билан фарқ қилиб, улар маълум бир услубий вазифаларни бажаришга хизмат қилган. Масалан: –Хаммани олиб жўнаганимизни мабодо *ёв* эшитса? Хаммадан ёмон, қаттиқ *душман* баччағар Райҳон у ҳам бир бало. (101-бет) Бу мисолда *ёв – душман* сўзлари ўзаро синоним бўлиб, уни эмоционал-экспрессив бўёқ нуқтаи назаридан таҳлил қилсак, *душман* нейтрал, *ёв* эмоционал бўёқдор сўз. Синонимик қатордаги сўзлар услубга (стил) фарқли муносабатда бўлади. Бу мисолда *ёв* сўзи ҳам поэтик услубга, ҳам сўзлашув услубига хосдир. Агар шу сўзларнинг синонимик қаторини келтирадиган бўлсак: *душман, ёв, ганим*. Бу синонимик қатордаги *душман* сўзи нейтрал, умумистеъмолдаги сўз бўлиб, қолганлари ўзига хос қандайдир белги-хусусиятига эгадир.

Гўрўғлибек *бардош* бериб,  
*Сабр* қилар ҳар кимга (117-бет)

Бу мисолда *бардош* ва *сабр* сўзлари ўзаро синоним бўлиб, буларнинг шакли ҳар хил, лекин бирлаштирувчи маъноси бир хил. Масалан: *бардош, сабр, тоқат, қаноат, чидам, турум* булар шу сўзларнинг синонимик қатори бўлади. Булар бир хил маънони, яъни “сабр, чидам” маъносини англатади. Лекин уларни алоҳида қўллаганда алоҳида ўзига хос маъно ифода этади. Юқоридаги мисолда синонимлар худди шундай хусусиятга эга. Бу синонимик қатордаги *сабр* сўзи доминанта сўздир.

– Жуда *ботир* халқ боради, Урушда бил *мард* туради. (126 бет)

– Мирза Аскар *полвон* эди, Бир юракли *арслон* эди. (169 бет)

– Бошчи бўп Така-Ёвмитга Гўрўғли *полвон* жўнади.

Ғазо деб бари йўл тортиб,

Кўринг *ботирлар* жўнади. (136 бет)

– Қўлида қиличи, *ботир-баҳодир*

Икки ёқни сирпай борур қон сочиб. (121 бет)

Юқорида келтирилган мисоллардан кўриниб турибдики, дostonда *ботир, мард* маъносини билдирувчи ва ана шу сўзларнинг синонимик қаторини ташкил этувчи *полвон, баҳодир* сўзлари дostonнинг кўпгина жойларида усталик билан ишлатилган. Уларнинг маъноси умумлашган характерга эга. Бу мисоллардан *ботир, мард, полвон, баҳодир* синонимик сўзларига *арслон* сўзи ҳам синоним сифатида қўлланилган.

Достон тилида учрайдиган синонимлар тузилиш жиҳатидан ҳам турличадир:

1. Айрим-айрим ҳолда ишлатиладиган, яъни якка сўзлар воситаси билан ифодаланиладиган синонимлар. Бундай сўзлар содда синонимлар гуруҳига киради. Масалан: *жасур, ботир; гайратли, ҳаракатчан, тиришиқоқ* каби.

2. Сўзларнинг бирикуви билан юзага келган бирикмали синонимлар: *эрта билан, қуёшдай ганимат* каби. Масалан:

– Фуқаронинг айби йўқ, биздан ўлганнинг адади йўқ.

Унинг устига сиз *уриша берасиз, койий берасиз* (141-бет).

Бу мисолда *уриша берасиз, койий берасиз* синонимлари бирикмали, маъно жиҳатидан жуда яқин ва бирлашиб кетган синонимлардир. Бу хил синонимлар одатда бир-биридан ажратилмаган ҳолда, яъни қўш шаклда ишлатилади. Улар жуфт синонимлар гуруҳига киради. Масалан: *эл-юрт, эл-халқ, соғ-саломат, бола-чақа, ор-номус* ва бошқалар. Бундай жуфт синонимлар достонда жуда кўплаб келтирилган ва ўз ўрнида моҳирлик билан ишлатилган:

– Кўлида қиличи, ботир-баҳодир.

Икки ёқни сирпай борур қон сочиб. (121 бет).

–Мард биледи номус\_орди,

Номардга ор не даркорди. (149 бет)

–Ёппа айтдим Така-Ёвмит элини,

Холдорхоннинг катта-улкан тўйи бор. (243 бет)

–Ана энди бечоралар кувониб, кулиб-ўйнаб, шодмон-хурсанд бўлиб, йиғлагани шодликка, мотами хурсандликка қайтиб, бариси париларни дуо қилиб ўтира берди. (258 бет).

“Холдорхон” достонида ишлатилган синонимларнинг кўпчилиги умумхалқ тилидаги маълум маънога эга бўлган сўзлар устига айрим маҳаллий шевалардан ана шу сўзларга маъно жиҳатидан яқин ёки бир хил сўзларни келтириш билан ёки адабий тилдаги сўзларга, яъни бадий усулдан шу сўзларнинг маъносини билдирувчи оддий усулга хос бўлган сўзларни келтириш билан ҳосил қилинган. Достон тилида учраган қуйидаги синонимларга эътибор беринг:

–*Қайтайин*, қоларман, *нетайин*, ноилож.

Қилмасин ҳудойим ҳеч кимга муҳтож. (211-бет)

Бу мисолдаги дастлабки “қайтайин” диалектал, сўзлашув ва “нетайин” поэтик сўзлари адабий тилга хос эмас. Улар ўзаро синонимликни ҳосил қилиб, адабий тилдаги “нима қилай” деган маънони билдиради. Синонимик қатордаги “нетайин” сўзи поэтик тилга ҳам хос бўлиб, классик ғазалларда ва ҳозирда яратилаётган жанр ва ғазалларда учраши мумкин. Масалан,

–Қиринглар ўғри соп бўлсин,

Таърифларинг бир гап бўлсин.

Аямаси, аямаси Туркманлар бартараф бўлсин. (216 бет)

–Қандай офат ёронлар, Кўшин адо бўлди деб Соп бўлдику шунча одам Энди нима қолди деб (178 бет).

Юқорида келтирилган мисоллар *соп*, *бартараф*, *адо* сўзлари ўзаро синоним бўлиб келмоқда. Бу синоним сўзларнинг адабий вариантларини ҳам кўшиб, синонимик қаторни ҳосил қиладиган бўлсак, улар қуйидагилардан иборат: *соп бўлди*, *бартараф*, *тамом*, *тугатмоқ*. Келтирилган мисоллардан кўришиб турибдики, халқ оғзаки ижоди асарларида сўзлар шевалардан, сўзлашув нутқидан ва фольклорнинг ўзига хос анъанавий лексикасидан сўзлар киритиш натижасидан ҳосил қилинади. Шу томондан “Холдорхон” достони тили ҳам бой имкониятларга эга бўлиб, ундаги синоним қаторлар адабий тилдаги айти шундай маънони ифодалайдиган синонимик қаторлардан анча бойдир. Масалан: *тамом бўлди*, *тугади*, *тугаб битди* (адабий тилда) *адо бўлди*, *соп бўлди* (достон тилида) каби синонимларнинг барчаси достонда мавжуд. Адабий тилда эса ҳаммасини учратмаймиз.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Турсунов С. Лексические особенности дастана “Алпамиш”, АКД, – Ташкент, 1990, 19 стр.
2. Тўйчибоев Б. “Алпомиш” ва халқ тили. –Тошкент: Адабиёт ва санъат, 2001. –Б. 160.
3. Усмонова Ш. Ўзбек ва турк тилларида соматик фразеологизмлар: Филол.фан ном.дисс. ...автореф. –Тошкент, 1998. –Б. 24.
4. Холмонова З. Лингвокультурологияга оид тушунчалар тадқиқи. – Тошкент: Наврўз, 2018. –Б. 45.

### USMON AZIM SHE’RIYATIDA METAFORA

*Ibragimova Latofat Sunnatovna,  
JDPI katta o‘qituvchi  
Erkinova Indira Ulug‘bek qizi,  
JDPI talabasi*

Narsa-buyum, voqea va hodisalar o‘rtasidagi o‘zaro o‘xshashlikka asoslangan ma’no ko‘chishiga metafora deyiladi. Metafora ko‘chma ma’no hosil qilishning eng keng tarqalgan usullaridan biri bo‘lib, mumtoz adabiyotshunosligimizda «istiora» deb yuritilgan. Metaforaning ikki turini farqlash lozim: lingvistik metafora va xususiy-muallif metaforalari. Lingvistik metaforalar til taraqqiyoti bilan bog‘liq hodisa hisoblanadi. «Bunday metaforalar asosan, atash, nomlash vazifasini bajarganligi uchun ularda uslubiy bo‘yoq, ekspressivlik, binobarin, ular ifodalagan nutq predmetiga nisbatan sub’ektiv munosabat aks etmaydi» [1:105]. Faqatgina ma’lum bir so‘zning ma’no doirasi kengayadi hamda yangi tushunchalarni atash uchun xizmat qiladi. Masalan: **odamning oyog‘i – stolning oyog‘i, odamning ko‘zi – uzukning ko‘zi, ko‘ylakning etagi – tog‘ning etagi** kabi. Xususiy-muallif metaforalari esa yozuvchining estetik maqsadi, ya’ni

borliqni sub'ektiv munosabatini qo'shib ifodalagan holda nomlashi asosida yuzaga keladi. Ular uslubiy jihatdan bo'yoqdorlikka va voqelikni obrazli tasvirlash xususiyatiga ega bo'ladi. Shuning uchun ham badiiy matnda qahramonning his-tuyg'ularini ta'sirchan, yorqin bo'yoqlarda, aniq va ixcham ifodalashga xizmat qiladi. Xususiy-muallif metaforalarida hamisha konnotativ ma'no mavjud bo'ladi. «Metafora orqali ma'no ko'chishida konnotativ ma'no yorqinroq aks etadi. Masalan, **ot, eshak, qo'y, it, bo'ri, tulki, yo'lbars, boyo'g'li, musicha, burgut, lochin, qaldirg'och, bulbul** kabi hayvon va qushlarning nomlari bo'lgan leksemalar mavjudki, bu so'zlar o'z ma'nosidan tashqari, ko'chma ma'noda juda keng qo'llanadi. **Otning baquvvatligi, eshakning aqlsizligi, qo'yning yuvoshligi, itning vafodorligi, mushukning ephilligi, tulkining ayyorligi, burgutning changallashdagi kuchliligi, lochinning ko'zi o'tkirligi** kabi tipik xususiyatlari boshqa predmetlarga nisbatan metaforik usulda ko'chiriladi, natijada konnotativ ma'no yuzaga keladi hamda matnning ta'sirchanligi oshadi.» [2:12].

Metafora bilan o'xshatish konstruktsiyaning o'zaro farqi haqida tilshunoslarimiz o'zlarining fikrlarini aytib o'tishgan. Ularda asosan quyidagi farqlar sanab o'tiladi: 1. O'xshatishda so'zlar o'z ma'nosi bilan ishtirok etadi. Metaforada so'zlar doimo ko'chma ma'noda bo'ladi. 2. O'xshatishda ikki komponent - o'xshatiluvchi obyekt va o'xshovchi obraz qiyoslanadi. Metafora esa bir komponentli bo'ladi. 3. O'xshatishlarda kengayish imkoniyati ko'p, bir gap hatto abzats darajasida kengayishi mumkin. Metaforalar esa so'z yoki so'z birikmasidan iborat bo'ladi. 4. O'xshatishda maxsus ko'rsatkichlar bo'ladi: -dek, -day, -simon, -larcha, kabi, singari, o'xshamoq va boshqalar. Metaforalarda bunday ko'rsatkichlar bo'lmaydi. Buni quyidagi misoldan ham ko'rish mumkin: Karim tulkiday ayyor odam. O'xshatish konstruktsiya. Bunda Karim – o'xshatish sub'ekti, tulki-o'xshatish etaloni, ayyor-o'xshatish asosi, -day – o'xshatishning shakliy ko'rsatkichi. Bu to'liq o'xshatish. Karim – tulki. Bu qisqargan o'xshatish, chunki gapda o'xshatish asosi (qaysi xususiyati o'xshashligi) va ko'rsatkichi ifodalanmagan. Voy, tulki-ey... (Karimga nisbatan ishlatilmoqda) Bu metafora hisoblanadi. Chunki Karimning ayyorligi obrazli tarzda ifodalanyapti, butunlay qayta nomlanyapti. Metaforalarga misollar: 1. Eshshak, bu nima qilganing? 2. Qamoqxonalarning «telegrafi» (gap tashuvchi, ayg'oqchi) juda aniq ishlaydi. 3.– Ko'ksiga pichoq sanchibdi, –dedi barak navbatchisi. –Battar bo'lsin! Itga it o'limi. Mahbuslar baribir uni tirik qo'yishmasdi. 4.– Oshga pashsha tushdi, aka! – dedi qo'rqa-pisa... «Devoriy gazeta» o'lgur keldi. 5. Qishdan qolgan qarg'alar. 6. Buqalamun bilan uchrashuv. (S.Ahmad) 7. Otabek bu cho'ltog' supurgini tanidi va uning istehzolarini payqadi (A.Qodiriy) [3:13].

Tilshunoslikda mazmuniy jihatdan metaforalarning uch turi, ya'ni **odatiy metaforalar, jonlantirish** va **sinestetik metaforalar** farqlanadi [4:13]. Yuqorida ko'rib o'tilgan metaforalarning barchasi, asosan, odatiy metaforalardir.

**Sinestetik metaforalarda** bir sezgi organi bilan idrok etiladigan narsa-tushuncha boshqa sezgi organi bilan idrok etiladigan narsa-tushunchaga o'xshatiladi, yaqinlashtiriladi va shu asosda ko'chma ma'no yuzaga keladi. Masalan: Shirin tabassum, shirin gap, shirin uy; yengil tabassum, yengil nigoh,



yengil qadam, og‘ir tush, og‘ir gap, og‘ir masala kabi. Bu misollarda keltirilgan shirin, yengil, og‘ir sifatlarida sinestetik metafora sodir bo‘lgan. Maza-ta‘m ma‘nosini bildiruvchi «shirin» va o‘lchovni ifodalovchi «yengil» so‘zlari «yoqimli» ma‘nosida, «og‘ir» so‘zi esa «yoqimsiz» ma‘nosida kelgan.

Metaforaning paydo bo‘lishi va lingvopoetik vosita sifatida amalda bo‘lishiga e‘tibor berilsa, bir qator jihatlar mavjudligi ko‘zga tashlanadi. Avvalo, metafora nutq jarayonida hosil bo‘ladi. Uning shakllanishi to‘g‘ridan to‘g‘ri insonning fikrlash doirasi, tafakkuri qamrovi bilan bog‘liq. Inson faoliyati juda ham serqirra bo‘lib, u tabiat va jamiyatda bo‘layotgan har bir o‘zgarishni kuzatib boradi, voqea-hodisalarga, narsalar va shaxslar haqidagi bilimlarini tinimsiz ravishda boyitib boradi, ular haqidagi fikr va tasavvurlarini ma‘lum bir obrazlar sifatida ongida muhrlaydi. Bu falsafiy xulosalar o‘rni kelganda ko‘chma ma‘no kasb etib nutqqa ko‘chadi. Tilshunos M.Yo‘ldoshev metafora va o‘xshatish orasida quyidagi farqlar mavjudligini ko‘rsatadi:

“ 1. O‘xshatishda so‘zlar o‘z ma‘nosi bilan ishtirok etadi. Metaforada so‘zlar doimo ko‘chma ma‘noda bo‘ladi. 2. O‘xshatishda ikki komponent – o‘xshatiluvchi obyekt va o‘xshovchi obraz qiyoslanadi. Metafora esa bir komponentli bo‘ladi. 3. O‘xshatishlarda kengayish imkoniyati ko‘p, bir gap hatto abzats darajasida kengayishi mumkin. Metaforalar esa so‘z yoki so‘z birikmasidan iborat bo‘ladi. 4. O‘xshatishda maxsus ko‘rsatkichlar bo‘ladi: **-dek, -day, -simon, -larcha,-kabi, -singari, o‘xshamoq** va boshqalar. Metaforalarda bunday ko‘rsatkichlar bo‘lmaydi. Buni quyidagi misoldan ham ko‘rish mumkin: **Karim tulkiday ayyor odam**. O‘xshatish konstruksiya. Bunda Karim – o‘xshatish sub‘ekti, tulki – o‘xshatish etaloni, ayyor – o‘xshatish asosi, -day – o‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichi. Bu to‘liq o‘xshatish. Karim tulki. Bu qisqargan o‘xshatish, chunki gapda o‘xshatish asosi (qaysi xususiyati o‘xshashligi) va ko‘rsatkichi ifodalanmagan. Voy, tulki-ey... (Karimga nisbatan ishlatilmoqda). Bu metafora hisoblanadi. Chunki Karimning ayyorligi obrazli tarzda ifodalanayapti. Butunlay qayta nomlanmayapti” [5:78].

Usmon Azim she‘riyatida qo‘llanilgan lingvopoetik vositalar orasida metaforalar muhim o‘rin tutadi. Metaforalar ko‘pchilik adabiyotlarda ta’kidlanganidek, o‘z lingvopoetik xususiyatiga ko‘ra doimiy va individual metaforalarga bo‘linadi. Abdulla Qahhor ijodi tili bo‘yicha tadqiqot olib borgan A.Hasanovning qayd etishicha, “ A.Qahhor individual metaforalar yaratishda ot, sifat, fe‘l turkumiga oid leksemalardan unumli foydalangan. Jumladan, ot-metaforalardan o‘z ideolektida reallashgan xususiy yashirin ma‘nolarni implisit tarzda ifodalashda, ta’sirchan, obrazli ifodalar yaratishda; sifat-metaforalarning konnotativ ma‘nolaridan qahramonlarning xarakter-xususiyati, siyrat va suratini tasvirlashda, asar kompozitsiyasida, voqealar rivojida yechiluvchi mavhum konsituatsiyaga ishora qiluvchi tugun hosil qilishda va badiiy-g‘oyaviylikka erishishda; fe‘l-metaforalardan voqea-hodisaning intensivligini oshirishda, personajlar xarakter-xususiyatiga implisit ishora qilishda ta’sirchan omil sifatida foydalanib, hikoyalari tasviriyligini, badiiy-estetik quvvatini oshirgan” [6:10].

Usmon Azim she'riyati tilidagi metaforalar tuzilish tabiatiga ko'ra ikki xil ekanligi kuzatiladi: **a) sodda metaforalar b) kengaytirilgan metaforalar**

**Sodda metaforalar** bir leksik ma'noni anglatuvchi (sodda, yasama, qo'shma, juft) so'zdan iborta bo'ladi: gulim, gulzorim, ko'zim kabi;

**Kengaytirilgan metaforalar** ikki yoki undan ortiq so'zlardan tashkil topadi: oltin xanjar, taqdir azalim v.h;

Usmon Azim she'rlarida sodda metaforalardan unumli foydalanilgan. Biz ishimizda shuning uchun sodda metaforalarga ko'proq to'xtaldik. Shoirning quyidagi she'rida **“gulim”** metaforasi shu vazifada qo'llanilgan. Lirik qahramon o'z sevgilisiga nomini aytib murojaat qilmay, unga **“gulim”** deb murojaat qilayapti:

... **Gulim**, sovuq boqma, qo'rqaman,

Qo'rqaman boz bo'ladi paydo —

Olti qit'a, to'rt bahri ulkan,

Huvillagan dahshatli fazo...

**“Sen yo'q etting. Besarhad fazo”**

73-bet

Agar tasodif bo'lib,

Anov shofyorning qo'li,

Ozgina qaltirasa,

Olamda yo'qman, **gulim...**

**“ Sir ko'p olam qarida”**

76-bet

yoki:

*Men nechun yongan dilimni so'ndirolmayman, **gulim**,*

*Kul bo'lishga qismatimni ko'ndirolmayman, **gulim.***

*Kim bilur otashda yongan kunlarimning qadrini,*

*Kecha qalblarni nurimga to'ldirolmayman, **gulim***

**Men nechun yongan dilimni so'ndirolmayman, gulim** 178-bet.

Tilshunoslikda eng ko'p murojaat qilinadigan lingvopoetik vositalardan biri metafora hisoblanadi. Yuqoridagi misoldan ham anglashiladiki, bu usulda muallif narsa yoki tushunchalar o'rtasida o'xshashlik mavjudligiga asoslanib, bir narsaga xos belgi-xususiyatlarni boshqa bir narsaga ko'chiradi va shu tariqa nom ko'chish hodisasini yuzaga keltiradi. Masalan, yuqorida keltirilgan misolda ishtirok etgan **“gulim”** so'zi metaforik qo'llanmoqda, chunki mazkur misolda metafora gul va odamning semantik alaqadorligi nomiga ko'chgan. Barcha so'z san'atkorlari, ijodkorlar qatori Usmon Azim ham o'z she'rlarida tilimizdagi poetik ta'sirchan, obrazli so'zlarni metaforik ma'noda qo'llash orqali she'riy asarlari tilining shirali, ifodali, obrazli va go'zal bo'lishiga muvaffaq bo'lgan.

Metaforalar, yuqorida ko'rib o'tganimizdek, shoirning o'z fikrlarini kitobxonga ta'sir qiladigan darajada obrazli qilib ifodalash vositasi sifatida she'riy asarlarning hamma ko'rinishlarida u yoki bu tarzda namoyon bo'ladi. Poetik matnlarda yozuvchining o'z oldiga qo'ygan maqsadiga bog'liq holda she'rdagi tasvirlangan mavzuning qanday ekanligiga qarab lisoniy vositalar muhim uslubiy vazifa bajarishga xizmat qiladi. Bunday vositalar uslubiyatga oid ishlarda ifoda-

tasvir vositalari, badiiy matnning o'ziga xosligini ta'minlovchi, bo'yoqdorlikni yuzaga keltiruvchi estetik hodisa sifatida ham ahamiyatli hisoblanadi. Agar matnda lingvopoetik vosita o'rinli qo'llanilsa, asarda muallif tomonidan tanlangan obraz badiiy bo'yoqlarda o'quvchi yoki tinglovchi ko'z o'ngida aks etadi. Badiiy matnda qo'llanilgan metaforalar o'z ta'sirchanlik xususiyati bilan o'quvchining his-tuyg'ulariga ta'sir etadi, uni zavqlantiradi, turli ruhiy holatlarga soladi. Bundan tashqari, metaforalar kishiga o'z fikrlarini tilda mavjud bo'lgan vositalar yordamida uzundan-uzun jumlar orqali ifodalashdan qutqaradi. Metaforalar yordamida yozuvchining fikrlari qisqa va aniq, sodda va obrazli tarzda o'z ifodasini topadi.

Usmon Azim ijodida qo'llanilgan metaforalar birgina shoirning ifodalamoqchi bo'lgan fikrlari pardozi sifatida ko'rinmay, shoirning ruhiyati, ichki kechinmalari va his-tuyg'ularining obrazlilik bilan yaxlit holda o'quvchiga yetkaziladi.

Ma'lumki, badiiy matnlarda shoir tomonidan muomalaga kiritilgan ma'noning tabiat va jamiyatdagi ma'lum bir o'xshashlik asosida ko'chishi metaforaning asosiy, muhim belgilaridan hisoblanadi. Og'zaki va yozma nutqda, ayniqsa, inson ruhiyati, kechinmalari tasviriga asoslangan poetik matnlarda emotsional - ekspressiv munosabat ifodalashning eng qulay vositasi bo'lgan metaforalar obrazlilikka asoslanadi. Quyidagi misolga e'tibor qilaylik:

*Qancha shirin damdan kechmog'im mumkin,*

*Faqat sen o'ynagin, quvongin, kulgin.*

*Sen mening taqdirim, oxir azalim,*

*Sen mening bahorim, oyim, g'azalim*

**“Derazadan boqar sohibjamol oy”**

79-bet.

Yuqorida berilgan parcha **kengaytilgan metaforaga** misol bo'ladi. She'riyatda kengaytilgan metaforalar she'rning o'ynoqiligini ta'minlaydi. Bo'yoqdorlik va ta'sirchanlik asosida metaforik ma'no hosil qilish badiiy matnlarda qo'llanuvchi lingvopoetik vositalarga xos xususiyat hisoblanadi. Usmon Azim ijodida qo'llanilgan metaforalarda shoirning salbiy yo ijobiy munosabatda bo'lishi shoirning she'rda kimga qarata murojaat qilayotganligi, uni qanday baholashi, qanday birliklar vositasida unga munosabat bildirishiga bog'liq bo'ladi. Shoir quyidagi she'rida boshqa shoirlar ijodida uchramaydigan metaforani qo'llagan:

*Endi mendan ketdi ixtiyor!*

*Yuragimni qo'yib kaftimga*

*Shivirlayman besabr, takror:*

***Qiblanamom, yo'l ko'rsat menga!***

**“Rashk g'iybatning to'lqinlarida”**

82-bet

Mana bu parchada esa u yorga nisbatan to'g'ridan to'g'ri murojaat qilmaydi, balki unga nisbatan kutilmagan metafora qo'llaydi:

*Xavotir ichinda deding: «Men ketdim...»*

*To'xtading. Xo'rsinding. Jo'nading shitob.*

*Kuzgi chorbog' aro yo'qolding, yitding,*

*Atlas liboslarga belangan sarob*

86-bet

Metaforalarning o‘ziga xos xususiyatlari badiiy matn doirasida qaraluvchi she’riy asarlarda bo‘rtib turadi. Shuning uchun Usmon Azim ijodida qo‘llanilgan metaforalarning o‘ziga xos jihatlari aniqlashda ularning shoir she’riyatida tutgan o‘rniga alohida e’tibor qaratish lozim. She’riy matnlarda Usmon Azim boshqa lingvopoetik vositalar qatori metaforalarni qanday maqsadda qo‘llashiga qarab bu vositaning bajaradigan vazifasi va badiiy estetik qimmatini belgilash mumkin. Usmon Azim o‘z she’riyatida metaforani qo‘llashda shu vositaning estetik vazifasini ta’minlashga harakat qiladi. Uning she’rlarida metafora o‘zi bog‘liq bo‘lgan matnda yetakchilik qiladi. Shuni ham alohida ta’kidlash lozimki, Usmon Azim ijodida tilning boshqa ifoda-tasvir vositalari qatori metaforaning o‘ziga xos estetik vazifasi boshqa matnlarga nisbatan yaqqol namoyon bo‘ladi. Usmon Azim tomonidan tanlangan va she’riy asarlar tilida mahorat bilan qo‘llanilgan metafora she’rlarda aniqlik va ta’sirchanlik, jozibadorlik va ohangdorlik kabi xususiyatlarini ko‘rsatadi. Ayniqsa, shoir tomonidan sevimli yorga nisbatan qo‘llanilgan metaforalar shoir she’riyati bilan tanishgan kitobxonni turli ichki kechinmalarga, ruhiy holatlarga soladi, o‘quvchini shoirning xayolot olamiga tomon yetaklaydi, uning estetik tafakkuri qamrovini sezilarli darajada kengaytiradi. Shoir she’rlarida qo‘llanilgan lingvopoetik vositalar bilan tanishgan kitobxon metaforalarni anglash jarayonida ulardan ta’sirlanadi hamda Usmon Azim she’riy asarlari quvvatini his etadi. Shoirning o‘ziga xos uslubi shundan dalolat beradiki, u o‘z qahramoni ichki kechinmalarini anglagan, uning g‘am-qayg‘ulariga sherik bo‘lgan holda hayotiy voqea-hodisalarga obrazlilik nuqtai nazaridan yondashadi va shunga xos metaforalarni tanlaydi.

Quyida u yoriga nisbatan “**she’rim**” metaforasini qo‘llaydi:

*Ammo, sen kelmassan, yo‘qotgan **she’rim**,*

*Hamon turibdirsan ostonada tik.*

*Kutasan: «Qaytgin», deb aytadi ering,*

*Yana ochiladi yopilgan eshik*

87-bet

Boshqa bir o‘rinda esa unga “Panohim” deb murojaat qiladi:

***Panohim**, uchyapmiz yulduzlar aro,*

*Yulduzlar ichida eng go‘zali — siz!*

113-bet

Tilimiz so‘z va iboralarga, turli xil vositalarga qay darajada boy bo‘lmasin, kishilar fikrlarini har doim ham ko‘zlanganidek ifodalay olmaydilar. Tilimiz lug‘at tarkibidagi ma’lumot, xabar yetkazishga xizmat qiluvchi vositalar, leksik birliklar kishiga o‘z subektiv-emotsional munosabatini o‘z istagi darajasida aniq va ta’sirchan, yorqin, obrazli qilib ifodalashga, baholashga har doim ham imkon bermaydi. Bu esa ijodkorga tilimiz lug‘at tarkibidan joy olgan o‘z kommunikativ maqsadiga mos keluvchi so‘z va iboralarni metaforik qo‘llashiga zamin hozirlaydi. Mana uning bir she’rda ayolga nisbatan qo‘llagan metaforalari:

*Behisht gulshanlari topdilar zavol,*

*Qiyomat gullarni ayladi g‘orat.*

*Sen, ey, **farishtalar hamdami** — ayol,*

*Do‘zaxda qolganing bo‘lsin muborak!*

*Do 'stlaring bor edi — payg'ambar, rasul —  
Har biri o'zicha yaratgan olam.  
Ey, podshoh qismatga sadoqatli qul,  
Qutlug' bo'lsin yangi shayton do'stlar ham.*

*Uni-ku gapirmay... O'tdi u — ertak,  
O'tli hislarini poyingga yozdi.  
Sen, ey, olovlarda muzlagan erka,  
Muzda uyg'onishning lazzati sozmi?*

**“ Behisht gulshanlari topdilar zavol”** 144-bet

Mana bu she'rda esa lingvopoetik vositalarning, ya'ni metafora (oppoq qo'lcha) va jonlantirishning o'zaro uyg'unlik hosil qilganligi seziladi:

*Men ko'cha kezaman. Yog'a boshlar qor,  
Oppoq qo'lchalarni yelkamga tashlab.  
Sokin shivirlaydi: «Nima gaping bor?»—  
Qadamim tovshidan uyg'ongan uylar.*

117-bet

Xulosa qilish mumkinki, lingvopoetik vositalardan biri bo'lgan metaforalar Usmon Azim she'riyatida faol qo'llanilib, she'riy asarlar tilining o'ziga xosligini ta'minlashga xizmat qiladi, hamda shoirning hayotiy voqea-hodisalarga, insoniy munosabatlarga ijodiy yondashuviga bog'liq holda hosil bo'ladi. Metaforalar poetik matnlarda obrazlilik hosil qiluvchi lingvopoetik vosita sifatida Usmon Azimning badiiy-estetik tafakkuri hosilasi sifatida uning o'ziga xos individual uslubini belgilab beradi. Ular she'riy matnlarda kutilmagan obrazlilik hosil qiladi, Usmon Azimga fikr ifodalashda ancha qulaylik yaratadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Qarang: Mukarramov M. O'zbek tilida o'xshatish. –T., 1976, 13-b.; Abdurahmonov Sh. O'zbek badiiy nutqida kulgi qo'zg'atuvchi lisoniy vositalar. ND.-T., 1997, 105-b
2. Mamadalieva M. O'zbek tilida nominativ birliklarning konnotativ aspekti. ND.-T., 1998, 12-b.
3. M.Yo'ldoshev. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari T: 2008
4. Миртаджиев М. Переносные значения и их манифестация в узбекском языке. АДД.-Т., 1989, с-13.
5. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent: Fan, 2007, 78-bet.
6. Hasanov A.A.Abdulla Qahhor hikoyalari tilining badiiyatini ta'minlovchi leksik-stilistik vositalar.Filol.fan.nomz. ...diss. avtoref. -Toshkent, 2010, 9-10-betlar



## SINTAKSIS VA ORFOGRAFIYAGA OID MAVZULARNI O‘QITISH METODIKASI

*Rajabova Dildora Shakarboyevna,  
JDPI o‘qituvchi*

Ona tili darslarining asosiy maqsadlaridan biri o‘quvchilarning og‘zaki hamda yozma nutqini o‘stirishdir. Bu maqsadning amalga oshishida sintaksis o‘qitishining ahamiyati katta. Sintaksis o‘qitishning *asosiy maqsadi* uni morfologiya bilan qiyoslab o‘rganish, shuningdek, so‘z turkumlari bilan gap bo‘laklari orasidagi farqli va bog‘lanishli tomonlarini tushuntirishdan iborat.

O‘quvchilar nutqining intonatsion tomonini o‘rgatish; o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini, tafakkurni o‘stirish, takomillashtirish bu kursning *asosiy vazifasi* sanaladi.

O‘quvchilar sintaksisni o‘rganish orqali o‘z nutqlarida uchraydigan xatolarni biladilar va ularni bartaraf qilishga harakat qiladilar. Sodda qo‘shma gaplarni tahlil qilish jarayonida tinish belgilarning ahamiyatini anglab yetadilar. Tinish belgilarning qo‘yilishiga qarab gapni intonatsiya bilan o‘qishni o‘rganadilar.

Sintaksis o‘qitishning *asosiy maqsadi* uni morfologiya bilan qiyoslab o‘rganish, shuningdek, so‘z turkumlari bilan gap bo‘laklari orasidagi farqli va bog‘lanishli tomonlarini tushuntirishdan iborat.

O‘quvchilarga nutqning intonatsion tomonini o‘rgatish, o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini, tafakkurini o‘stirish, takomillashtirish bu kursning *asosiy vazifasi* sanaladi.

O‘quvchilar sintaksisni o‘rganish orqali o‘z nutqlarida uchraydigan nuqsonlarni biladilar va uni bartaraf qilishga harakat qiladilar. Sodda va qo‘shma gaplarni tahlil qilish jarayonida tinish belgilarini qo‘yishni o‘rganadilar. Agarda o‘quvchi biror badiiy asarni o‘qiyotganda unda uchraydigan darak, so‘roq va buyruq gaplarni o‘z ohangida o‘qiy bilsalargina muallif maqsadi, uchun ichki hissiyotlarini to‘g‘ri anglaydi, aks holda asarlarning badiiyligiga putur yetadi.

Kishilar o‘z fikrlarini obektiv dunyoda ko‘rgan va bilganlari asosida tartibga soladi. Obyektiv olamda esa alohida olingan narsa yo‘q. Ular bir-biri bilan aloqada. *Nutq o‘zaro bog‘langan narsa va hodisalarni ifodalash formasi.*

Bunda ikki shaxs so‘zlovchi va tinglovchi qatnashadi.

So‘zlovchi:	Tinglovchi:
Obyekt, borliq, odam ongi, til	
1-----2-----3	1-----2-----3
Predmet obraz so‘z	

Predmet bilan predmet, harakat bilan predmet, predmet bilan uning belgisi va boshqalar orasidagi aloqa tasodifiy emas. Demak gap bo‘laklari orasidagi sintaktik va logik bog‘lanishlar ham qonuniy grammatik hodisalardir.

Gap bo‘laklarini tasnif qilinishda grammatik forma asosiy rol o‘ynaydi. Masalan: aniqlovchi, to‘ldiruvchi, hol kabi bo‘laklar bir-biridan grammatik

belgilariga ko‘ra farqlanadi. Lekin bularning asosida shaxs tafakkuri bilan bog‘liq bo‘lgan hodisa yotadi. Demak, ma‘nodan tashqarida shakl bo‘lishi mumkin emas. Dialektikaning muhim qoidalaridan bo‘lgan ma‘no va shakl birligi gap bo‘laklari talqinida yaqqol ko‘rinadi: *kitob o‘qidi, shahar bordik*

O‘quvchilar sodda va qo‘shma gaplarni o‘rgana borib, real borliq va taraqqiyotlarning dialektik omillarini ham o‘rganadilar. Bu albatta o‘quvchilar fikrining mantiqan izchil, to‘g‘ri va asosli bo‘lishini ham o‘stiradi.

**So‘z birikmasini o‘qitish metodikasi.** So‘z birikmasi haqidagi dastlabki ma‘lumot boshlang‘ich sinflarda amaliy ish sifatida beriladi. 5-sinfda maxsus tema sifatida o‘rganilib, quyidagi ma‘lumot beriladi.

1. So‘z birikmasi tobe va hokim so‘zdan tug‘iladi.
2. So‘z birikmalarida so‘roq hokim so‘zdan tobe so‘zga beriladi.
3. So‘z birikmasida so‘zga nisbatan predmet, belgi, ish-harakat aniq ifodalanadi.
4. So‘z birikmalarining turi hokim so‘zga nisbatan belgilanadi, otli, fe‘lli birikma.

8-sinfda sintaksisni o‘rganish “So‘z birikmasi” dan boshlanib, 5-sinfda o‘tilganlar takrorlanib, yangi material ham beriladi. Demak, o‘qituvchi biror sinfda ona tilining bo‘limlarini o‘tayotganda quyi sinflarda shu tema yuzasidan o‘tilganlarni hisobga olish kerak.

8-sinfda dars mustaqil so‘zlarning bir-biri bilan o‘zaro bog‘lanishini tushuntirishdan boshlanadi. Gap tarkibidagi mustaqil so‘zlar o‘zaro tenglashish va bog‘lanish asosida birikadi. Tenglashish asosida birikish so‘z birikmasi sanalmaydi. O‘zaro tobelanish asosida qo‘shilgan so‘zlar so‘z birikmasi sanaladi. Ega bilan kesimning bir-biri bilan bog‘lanishi ham so‘z birikmasi sanalmaydi. Demak, so‘z birikmasidagi so‘zlardan biri hokim, ikkinchisi esa tobe so‘z sanaladi. Hokim so‘zdan tobe so‘zga savol beriladi.

O‘quvchilarda so‘z birikmasi haqida bilim va ko‘nikma hosil qilish uchun ko‘proq mustaqil mashq bajartirish kerak. Chunki hokim va tobe so‘zni to‘g‘ri topolmagan o‘quvchi so‘zlarning o‘zaro bog‘lanishini ham anglab ololmaydi. Shunday qilib, hokim va tobe so‘z haqida malaka hosil qilingach, so‘z birikmalarining ta‘rifi beriladi. So‘z birikmasi va so‘z, so‘z birikmasi va gap orasidagi farq tushuntiriladi. Bu ham, albatta, so‘z birikmasi haqidagi bilimni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Keyingi darslarda tobe so‘zlarning hokim so‘zga bog‘lanish usullari haqida ma‘lumot beriladi. Moslashuvning qaratqich kelishigi bilan kelishi, qaratqichning belgisiz ham qo‘llanishi, boshqaruvdan tobe so‘z shaklining o‘zgarishi, ko‘makchilar bilan ham kelishi, bitishuvda tobe so‘z shakllarning o‘zgarishligi haqida atroflicha misollar bilan tushuntiriladi.

Bitishuvga alohida e‘tibor qaratish kerak bo‘ladi. Chunki bitishuvdagi so‘z shaklining o‘zgarishsiz qo‘llanishi ega bilan kesim munosabatiga ham o‘xshab ketadi. Bitishuvdagi tobelik so‘z birikmasidagi so‘zlarning ma‘nosi va tartibidan ma‘lum bo‘ladi. Tobe so‘zlarning har doim hokim so‘zdan oldin kelishi uqtiriladi. O‘qituvchi shunday xulosa chiqaradi: *sifat, sifatdosh, son, ko‘rsatish olmoshlari-sifatlovchi aniqlovchi* vazifasida kelganda ot bilan hech qanday qo‘shimchasiz ma‘no orqali aloqaga kiraveradi. Ularning o‘rni almashtirilsa, grammatik tuzilishi

ham o'zgarib ega kesim munosabatini hosil qiladi: **chiroyli qiz-qiz chiroyli**. Hokim va tobe so'z orasidagi munosabatlarning turlari bo'yicha o'tilganlarni mustahkamlash maqsadida berilgan gaplarning sxemalarini chizish topshiriladi. Akamning ko'ylaklarini kechqurun dazmolladim.

**Sodda gapni o'qitish metodikasi.** Gap haqidagi ma'lumot o'quvchiga boshlang'ich sinflarda berilgan bo'ladi. 8-sinfda gap haqida nisbatan kengroq ma'lumot beriladi. Bunday gaplarning aloqa va aralashuv quroli ekanligi uning nisbiy tugal fikr ifodalashi, grammatik shakllanganligi, tugallangan ohang bilan aytilishi o'quvchilar ongiga singdirilishi kerak. Buning uchun o'quvchi tomonidan gap aloqa aralashuvining eng kichik birligi ekanligi aniq misollarda tushuntiriladi. Gapning nisbiy tugallangan fikr ifodalashini gap bilan so'z birikmasi taqqoslangan ko'rgazmali quroldan foydalanib tushuntirish mumkin.

Tugallangan fikr	So'z birikmalari
Yozgi ta'tilni ko'ngilli o'tkazdik.	Yozgi ta'til, ko'ngilli o'tkazdik.
Maktabimizning qizlari quvnoq.	Maktabimizning qizlari, quvnoq qizlari

Mana shunday qiyosiy tahlildan keyin o'quvchilarga gaplarning ma'no va grammatik jihatdan tugallangan nutq parchasi ekanligi tushuntiriladi.

Gaplarning biror narsa-predmet va hodisani ifodalashidan tashqari so'zlovchilarning aytilayotgan fikrga munosabatini ifodalashini ham uqtirish kerak. Bu o'rinda intonatsiyaning ro'lini tushuntirish zarur bo'ladi. Bu haqida qator mustahkamlash mashqlari o'tkazilishi kerak. Shundan keyin maqsadiga ko'ra gap turlari haqida to'xtalib, darak gap, so'roq gap, buyruq gaplar haqida ma'lumot beriladi.

Bu gapning mazmuniga, tuzilishiga, ohangiga ko'ra farqlari tushuntiriladi.

Chunki, so'zda ma'no bor, gapda fikr bor, emotsionallik bor: *Paxta terimi boshlandi. Paxta terimi boshlandi! Zalda qancha odam bor? Zalda qancha odam bor?!*

Gapning maqsadiga ko'ra turlarini mustahkamlash maqsadida maxsus tanlangan gaplarni ohangi, ayrim gap bo'laklarini o'zgartirish orqali bir gapni boshqa gapga aylantirish, mashqlarni ham uyushtirish kerak: *Studentlar deyarli dialektologik praktikaga ertaga jo'neydilar-Studentlar dialektologik praktikaga qachon jo'neydilar?* Logik urg'u olgan bo'laklarning so'roq olishi bilan almashtirilishi.

Gap va uning mazmuniga ko'ra turlari haqida umumiy ma'lumot berilgach, gaplarning tuzilishiga ko'ra turlari haqida ma'lumot beriladi. **Gaplarning tuzilishiga ko'ra sodda va qo'shma gaplarga** ajratilishi misollarni qiyoslagan holda tushuntiriladi.

Sodda gaplar	Qo'shma gaplar
Havo bulut bo'ldi. Yomg'ir yog'di.	Havo bulut bo'ldi va yomg'ir yog'di.
O'qituvchi keldi. Yig'ilish bo'ldi.	O'qituvchi keldi va yig'ilish bo'ldi.

Ma'lumki, sintaksis o'qitishning asosiy qismini sodda gap sintaksisi tashkil qiladi. Sodda gaplarni o'tishiga, avvalo, egali va egasiz gaplar haqida ma'lumot beriladi.

Bunda, avvalo, gap bo'laklari haqida ma'lumot berilib, gap tarkibida ma'lum bir so'roqqa javob bo'lib, ma'lum sintaktik vazifada keluvchi so'z yoki so'zlar birikmasi **gap bo'laklari** bo'lishi aytiladi. Gap bo'laklarini yaxshi o'zlashtirish uchun so'z turkumlarini yaxshi bilish zarur shuning uchun so'z turkumlari bilan gap bo'laklari o'rtasidagi bog'lanishni tushuntirish shart. Egali gaplarning grammatik asosini ega va kesim tashkil qilishiga aytiladi. Shuning uchun ham gaplarning **bosh bo'laklari** deb yuritiladi. Faqat bosh bo'laklardan iborat bo'lgan gaplar yig'iq, bosh va ikkinchi darajali bo'laklardan iborat bo'lgan gaplarning yoyiq gap deb atalishini 5-sinfda o'tganligi eslatilib, misollar keltirish bilan mustahkamlanadi.

Gapning bosh bo'laklaridan ega haqida ma'lumot berilganda ega va uning ifodalanishi aks ettirilgan ko'rgazmali vositadan foydalaniladi. Misollarning ma'nosi tushuntirilgach, ega haqida nazariy ma'lumot beriladi. O'quvchilar eganing ot va olmosh bilan ifodalanishini osongina tushunishadi. Ammo boshqa so'zlar bilan ifodalanishini tushuntirishda ba'zi so'z turkumlarining ot so'z turkumi o'rnida qo'llanishini eslatish yaxshi natija beradi. O'quvchilarga birikmalar ega haqida ham tushuncha berish kerak: *Kattalarga tik gapirish bizning axloqimizda yo'q.*

Kesim mavzusi o'tilayotganda kesimning gaplarning markazi ekanligini misollar asosida atroflicha tushuntirish kerak. Shuningdek, kesimning bir so'z bilan hamda birdan ortiq so'z bilan ifodalanishi haqida to'xtalish zarur. Bunda o'quvchining diqqati ko'proq **murakkab kesim** (nima uchun qo'shma kesim emas) terminiga qaratilmog'I lozim masalan: Karim **o'qituvchi**. (sodda kesim) *Karim o'qituvchi bo'ldi. U majlis boshlashni e'lon qildi. E'lon qildi-qo'shma fe'l-u, murakkab kesim.*

Gapning uyushiq bo'laklari mavzusi *bilimlarni mustahkamlash* dars tipi asosida olib boriladi.

Sodda gaplarni o'tishda "Gap bo'laklarini bilan grammatik aloqaga kirmaydigan so'zlar" alohida o'rin tutadi. Bu temani bayon qilishda o'quvchilar diqqati mustaqil va yordamchi so'zlar haqidagi ayrim ma'lumotlarga qaratiladi: mustaqil so'zlarga gap bo'lagi bo'lib keladi, yordamchi so'zlar gap bo'lagi bo'la olmaydi. Lekin shunday mustaqil so'zlar borki, ular biror gap bo'lagi, ya'ni biror sintaktik vazifa bajarmaydi: 1) Bugun menga qarashib yuborasan-da, *Otabek*. 2) *Otabek*, bugun menga qarashib yuborasan. Birinchi gapdagi Otabek bilan ikkinchi gapdagi Otabek qiyoslansa, birinchi gapdagisi gaplarning boshqa bo'laklari bilan grammatik aloqaga kirayotgani yo'q, sintaktik vazifa bajarmayotir.

Shundan keyin gap bo'laklari bilan grammatik aloqaga kirmaydigan bo'laklarning mavjudligi, shulardan biri **undalma** ekanligi haqida ma'lumot beriladi. Shu asosda boshqa bo'laklarga ham tavsif beriladi.

**Qo'shma gaplarni o'qitish metodikasi.** Qo'shma gap haqidagi umumiy ma'lumot suhbat metodi asosida boshlanadi. Chunki qo'shma gap termini

o'quvchilarga quyi sinflarda ma'lum bo'ladi. 9-sinfda qo'shma gap oldingi materiallarga nisbatan kengroq beriladi. Qo'shma gaplarning mazmunini to'liq tushuntirish uchun sodda gaplar bilan qo'shma gaplar qiyoslanadi, ya'ni til faktlarini kuzatish va tahlil qilish metodi asosida sodda gaplar va shu sodda gaplardan hosil qilingan qo'shma gaplar berilgan ko'rgazmali vosita tahlil qilinadi:

1. *Tiniq osmonda yulduzlar charaqlar edi. Oy ko'rinmaydi*

*Tiniq osmonda yulduzlar charaqlar, ammo oy ko'rinmasdi.*

2. *Bu yil hosil mo'l bo'ldi. Yerga ko'p kuch sarf qildik. Bu yil hosil mo'l bo'ldi, chunki yerga ko'p kuch sarf qildik.*

O'quvchilarga misollar atroflicha tushuntirilib, tahlil qilingach, ularning o'zlarining ham shunga o'xshash gap tuzishlari vazifa qilib topshiriladi. Shuni ham aytish kerakki, o'quvchilarga yangi materiallar haqida bilim berganda ham, mustaqil bajarish uchun topshiriq berganda ham ularni zeriktirmaslik kerak. *Yangi material bayonida* o'qituvchi axboroti 5-6 sinflarda 4-5 minut 7-9 sinflarda 5-10 minutdan oshmasligi kerak. Agar bayon qilinadigan material yuqorida ko'rsatilganlaridan ko'proq vaqtni talab qilsa unda materialni qismlarga ajratish kerak, toki har bir qism bayoni 5-7-10 minutdan oshmasligi lozim, shuningdek, mustahkamlash uchun beriladigan topshiriqlar ham zeriktiradigan darajada uzoq bo'lmasligi zarur. Yuqorida berilgan misollarning qo'shma gaplar ekanligi tushuntirilib, qo'shma gaplarning turlari aytiladi.

1. Teng bog'lovchili qo'shma gaplar.
2. Ergashtiruvchili bog'lovchili qo'shma gaplar.
3. Yuklamali qo'shma gaplar.
4. Nisbiy so'zli qo'shma gaplar.
5. Faqat ohang vositasida bog'langan qo'shma gaplar.

Bu qo'shma gaplarning har biriga alohida-alohida to'xtaladi. Ularni xarakterlovchi belgilarga diqqat qaratiladi. Eng asosiysi qo'shma gap qismlari orasidagi munosabatlarning ularni biriktiruvchi vositalarga mos kelishini o'quvchining ongli tushunishidir. Masalan teng bog'lovchili qo'shma gaplarning qismlari teng hququli bo'ladi, ularni alohida ham qo'llash mumkin, shuning uchun ham teng bog'lovchilar yordamida biriktiriladi.

Qo'shma gaplarni o'tishda bog'lovchilar hamda yuklamalar haqida o'quvchining bilganlarini esga tushirish mashqlarini o'tkazish kerak bo'ladi. Chunki teng bog'lovchilar va yuklamalar ham, ergashtiruvchi bog'lovchilar ham qo'shma gap komponentlarini biriktirish uchun xizmat qiladi. Shuningdek qo'shma gap komponentlarini ergashtiruvchi bog'lovchi vazifasida keladigan – mi,–chi,–da affiks yuklamalari, uchun, sari, bilan kabi ko'makchilar, ayrim fe'l shakllarini ham biriktirish uchun xizmat qilishini aytish lozim.

O'quvchilarga qo'shma gap komponentlarining o'zaro munosabatini ko'rsatuvchi sxemani ham tushuntirish kerak.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Almamatov T, Yadgarov Q, Almamatova Sh. O‘zbek tili o‘qitishdan innovatsion pedagogik texnologiyadan foydalanish. Metodik qo‘llanma. Toshkent, 2013 y.
2. Almamatova M. 5-sinfda o‘tkaziladigan bayon va uning turlari. TAT jurnali.1993-yil 1-son .
3. Mahmudov N va boshqalar. Ona tili 5-6-7-9-sinflar uchun darslik. T.: 2011-yil .
4. Orfografiya o‘qitish samaradorligini oshirish. Umumta’lim maktablarida ona tili o‘qitishni takomillashtirish. To‘plam. T.: 1987
5. To‘xliyev B, Shamsiyeva M, Ziyotova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. T.: 2006.

**MEHINBONU – AFRIDUN AVLODI**

*Raxmanova Nafisa Azatbekovna,  
ChDPI o‘qituvchisi*

Firdavsiy, Nizomiy, Dehlaviy, Orif Ardabiliy, Shayxiy, Faxriyning sosoniylar hukmdori Xusrav Parviz va malika Shirin sevgisi tarixi haqidagi go‘zal dostonlarini qiyosiy o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, Navoiy asar sujetiga yangi obrazlarni olib kirish, mavjud obrazlarni qayta ishlashda ko‘proq Nizomiyga ergashgan.

Nizomiyning obrazlarni olib kirish mahorati o‘ziga xosdir. Juda ko‘p qahramonlarini Xusravga aloqasi bo‘lmagan doston yoki rivoyatlardan tanlab olgan va ularni umuman boshqa timsolga aylantirib dramatismga to‘la voqealar tasviriga mahorat bilan singdira olgan. Ana shunday obrazlardan biri Mehinbonu obrazidir. ”Mehinbonu” ismining ma’nosi “Ulug‘ xotun” bo‘lib, dostondagi ayol podshohning haqiqiy ismi Shamiradir. Shamira arman afsonalaridagi amazonkalar - jangovar ayollarning podshohi Shamiram; Midiya-Suriya afsonalaridagi Semiramidadir, degan qarash mavjud. Folklorshunoslikda Semiramida va Shamiram obrazlarining tarixiy prototipi Suriya hukmdori Shammuramat (e.av. IX asr) deb tan olingan [3;39].

Fozila Sulaymonova Tomiris, To‘maris, Semiramida kabi ismlarni, jangovar ayollar yashaydigan Samiram shahrining nomini Ossuriya malikasi Sammuramat (Shammurat) bilan hamohang deb hisoblab, o‘xshash antroponimlarni (“t” va “s” tovushlari almashinuvi hodisasiga tayanib) quyidagicha guruhlaydi: Tomiris – massagetlar malikasi; Tamiris – grek mifologiyasidagi personaj; Tomiranda – Kafkaz amazonkalari malikasi; Mirina – Kichik Osiyodagi amazonkalar malikasi; Samiram – Qoraqalpog‘istondagi amazonkalar yashagan shahar nomi; Sammuramat (Shamiram)-Ossuriya malikasi; Tamirid, Tomiras, Tomur – koinlar avlodi vakillari; Tamara – Gruziya qirolichasi[6; 88]. Olima bu nomlarni *Tomiris* ismining o‘zgartirilgan shakllari deb hisoblaydi.

Nizomiy Mehinbonu obrazini yaratganda Semiramida (*yun. Shammuramat, ossuriycha — Sammuramat*) afsonasiga tayanganmi? Yunon va arman

mifologiyasida Semiramidaga munosabat ikki xil. Yunon yozuvchisi Ktesiy (e. av. V asrning oxiri – VI asrning boshi)ning tasvirlashicha, Semiramida – ma’bud Astartning qizi. Go’dakning otasi oddiy yer odami bo’lgani uchun Astart farzandidan voz kechadi, uni o’rmonga tashlab ketadi. Chaqaloqni bir juft kaphtar tumshug’ida suv, ovqat keltirib boqadi. Chaqaloqni topib olgan insonlar unga “Semiramida” degan ismni beradilar. Bu ism qadimgi yunon tilida “kaphtarlarni sev”, “jajji kabutar” degan ma’noni anglatgan. Kambag’al oilada tarbiya topgan Semiramida go’zalligi tufayli bir amaldorga turmushga chiqadi va kambag’allik azobidan qutuladi. Baqtriya – Suriya urushida Suriya shohi Ninga aqlli maslahat beradi va shohning muhabbatini qozonadi. Urushda g’alaba qozongan Nin Semiramidaga uylanadi. Nin vafot etgach, Suriya taxtiga Semiramida o’tiradi. Misr, Efiyopiya, Hindiston va boshqa joylarga yurishlar uyushtiradi. Ktesiy Semiramidani davlatni qirq ikki yil boshqargan ijobiy obraz sifatida tasvirlagan.

Qadimgi Rim adabiyotidagi Semiramida davlatmand va ulug’vor ayol, lekin badtarin, ma’naviy tuban, axloqsiz malika sifatida qalamga olingan.

Shamira obrazi esa Nizomiyda ijobiy obraz, Afrosiyobning vorisi, Mug’on, Arman, Abxaziya va Barda kabi katta hududlarning hukmdori, ko’chmanchi turkiylarning malikasi, mardlikda erkaklardan ustun ayol, buyukligi uchun unga “Mehinbonu” deb nom berganlar:

Shamira adlanir o go’ychek kadin,  
Buyukdur ma’nasi bu guzel adin.  
Jur’etde kishiden hech geri durmur,  
Buyuk oldugundan Mahin Banudur. [4; 64]

“Shamira ismining ma’nosi “Mahin Banudir” deya Nizomiy Shamiraning ma’nosi “ulug’ xotun – buyuk xonim” ekanini ta’kidlaydi. Demakki, *To’maris*, *Tomiris*, *Tamiris*, *Shamira*, *Shamiram* ismli hukmdorlar bir inson emas, chunki *Tomiris* so’zi qadimgi fors tilida “hukmdor” degan ma’noni bildirgan. Turli davrlarda turli hududlarda yashagan malikalarning ismidagi o’xshashlik bu nomlarning ayol kishining ismi emas, balki e.av.I ming yillikda O’rta Osiyo, Kichik Osiyo, Kavkaz o’lkalarida ayol hukmdorlarga nisbatan ishlatilgan mansab-unvon bildiruvchi so’z bo’lgan, ayol hukmdorlar shu nom bilan taxtga o’tirganlar, degan xulosaga olib keladi.

Ozarbayjonlik olim Saadet Shixiyevaning ta’kidlashicha, Nizomiy tarixiy haqiqatni buzmaganda holda Mehinbonu – ayol hukmdor obrazini uchta sababga ko’ra dostonga olib kirgan:

- Vataniga va Shirinning prototipi bo’lgan Ofoqqa muhabbati tufayli (Ofoq ko’chmanchi turkiylardan bo’lgan);
- o’tmishda Bobil davlati tugatilib, unga qarashli poytaxti Barda shahri bo’lgan mehroniy davlatining Parfiya tarkibiga kirishi; Semiramida Bobil hukmdorlaridan biri edi;
- Ozarbayjonga yaqin hududda – Albaniya tepasidagi tog’larda amazonkalarining mavjudligi haqidagi fikrlar [7].

Nizomiyshunoslarning e'tirofiga ko'ra, Mehinbonuning otashparast qilib tasvirlanishi ham (mehroniylar nasroniy dinida edilar) Semiramidaning dini bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Mehinbonu va Shirinning turmush tarzi diqqatga sazovordir. Bahorda Mug'onda, yozda Armanzamin tog'larida, kuzda Abxaziyada, qishda Bardada yashaydigan Mehinbonuning hayoti ko'chmanchi turklar hayotiga mos tasvirlangan. To'rt faslga moslab qurilgan to'rt qasr - qo'rg'on tasviri Mehinbonu xalqining ko'chmanchi ekanini tasdiqlaydi. Nizomiy Mehinbonu va Shirinning qaysi millatga mansubligini ochiq aytmaydi, ularning turkiy ekanliklarini o'z tillaridan bayon qildiradi yoki urf-odatlar, ismlar, qahramonlarning nasihatlari, xatti harakatlari orqali ko'rsatadi. Masalan: *Agar u Oy bo'lsa, biz Quyoshmiz, // Agar u Kayxusrav bo'lsa, biz Afrosiyobmiz*, - deydi Mehinbonu Shiringa Xusrav haqida. Bu baytda iyhom san'ati qo'llangan bo'lib, baytni ikki xil talqin qilish mumkin:

1) Mehinbonu o'zining Afrosiyob avlodi ekanligidan faxrlanadi, siyosiy qudrat, obro'-e'tibor jihatidan sosoniylardan qolishmasligini ta'kidlaydi. Zotan, uning unvonining ma'nosi ham "shahanshoh", "buyuk hukmdor" degan ma'nolarni anglatuvchi Xusrav ismiga yaqindir. Bu baytda Kayxusrav Oyga, Afrosiyob esa Quyoshga qiyoslangan;

2) ozarbayjon xalq og'zaki ijodida, shuningdek, Navoiyning g'azallarida ham, oy - o'g'il bola, Quyosh esa qiz bola sifatida tasavvur qilinadi. Baytda Shirin - Quyosh, Xusrav esa Oyga o'xshatilgan. O'xshatishning asosi ikkita: birinchidan, sovuq va qorong'i samoviy jism bo'lgan Oy nur va yorug'likni Quyoshdan oladi. Oy-Quyoshning oshig'i. Ikkinchidan, Shirin - Afrosiyobning avlodi, Xusrav esa Kayxusravning davomchisi. Nizomiy, Afrosiyobni Quyoshga oxshatish orqali, turk hukmdorini yuksak maqom egasi sifatida ko'rishini ta'kidlagan.

Alisher Navoiy esa "Farhod va Shirin" dostonida Mehinbonuni Afridun avlodidan deb ta'riflaydi: "Jannatlar rashk qiladigan bu o'lkaning hukmdori hayo pardasidagi bir ayoldir. Uning kelib chiqishi Afridunga borib taqaladi. Zoti Jamshid podshohnikidan yuqori. Boshiga toj (*turmush o'rtog'i*) soya solmasa ham, ko'p tojdorlardan boj oladi. Belini garchi kamar qidirib topolmasa ham, uning qo'shinini zarrin kamarlar (*jangovar qizlar*) tashkil etadi. Uning bu xil sifatlarini tushunib, dunyo xalqi uning otini Mehinbonu deb ataydi [1;227].

Nega Navoiy Nizomiy yo'lidan yurib, Mehinbonuni Afrosiyob avlodidan deb ta'riflamadi? Chunki tarixiy asarlarda Afrosiyobga munosabat bir xil emas. M.Koshg'ariy va Yusuf Xos Hojib Afrosiyobni ijobiy tarixiy shaxs, mamlakat va davlat boshqaruvining katta tashkilotchisi sifatida e'tirof etganlar, podshohlik faoliyatiga yuqori baho berganlar. "Ravzat us-safo", "Tarixi muluki ajam" kabi tarixiy asarlarda esa zolim shoh sifatida tasvirlangan. Afrosiyob shoh Navdarni o'ldirib, o'n ikki yil Eronda podshohlik qilgan. Mamlakatni qattiqqo'llik bilan boshqargani uchun mahalliy xalqning noroziligi kuchaygan. "Chun Navdarni o'lturdi, Eron mulkini andoq buzdiki, oz yerda ma'murluq qoldi, yig'ochlarni kesti va imoratlarni yiqti va korizlar bila bulog'larni ko'mdi",-deb yozadi A.Navoiy [2,191]. Shuning uchun bo'lsa kerak, Navoiyning e'tiqodiga ko'ra, adolatli

hukmdor, jangovar ayollar sarkardasi, olima podshoh, tun-u kun el tinchligini o‘ylaydigan, kanallar qazish, yurtni obod qilish dardi bilan yashaydigan Mehinbonu Afrosiyob avlodi bo‘la olmaydi. Yuksak axloqli olim, adolatli va xalqparvar podshoh Afridun (Faridun) zotidan bo‘lishga munosibdir.

XVI asr boshida yashab ijod etgan turk shoiri Ahmad Ridvan esa o‘zining “Xusrav va Shirin” dostonida Mehinbonuning kelib chiqishini Bahromi Fag‘furga bog‘lagan.

Garchi Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostonini Xusrav Dehlaviyning “Shirin va Xusrav” dostoniga tatabbu qilib yaratgan bo‘lsa-da, Mehinbonu obrazi Dehlaviyning Mehinbonusidan keskin farq qiladi. Dehlaviyda Mehinbonu ikkinchi darajali timsol, faqatgina Shirin tomonidan Xusrav Parvez sharafiga uyushtirilgan ziyofat tasvirida ko‘rinish beradi. Nizomiy Mehinbonu timsoliga davlatni adolat bilan boshqarish, taxt vorisi Shirinni komila, iffatli qiz qilib tarbiyalash vazifalarini yuklagan bo‘lsa, Navoiy ilm-fanga homiylik qilish, kanallar qazdirib yurtni suv tanqisligidan qutqarish, xalqning osoyishtaligi uchun kurashish, Farhodga onalik mehrini ko‘rsatish, Farhod va Shirinning pok sevgisini zolim Xusravdan himoya qilishday vazifalarni ham yuklagan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. *Алишер Навоий*. Мукаммал асарлар тўплами: 20 томлик. Т.8.Хамса: Фарҳод ва Ширин. –Т.: Фан,1991, 554 б.
2. *Алише Навоий*. .Мукаммал асарлар тўплами:15 томлик.Т.14.Тарихи мулуки Ажам–Т.: Фан,1967, 269 б.
- 3.Маллаев Н.М. Сўз санъатининг гултожи. Т.:Ғафур Ғулом, 1991, 149 б.
4. *Низами Гянжяви*. Хосров ва Ширин. –Бакы, “Лидер няшрийат”, 2004, 392 сях.
5. Rahmanova N.A. Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonidagi o‘n go‘zal qiz obrazining genezisi /Alisher Navoiy adabiy va ilmiy merosini o‘rganish masalalari / – Т., 2021. – 528 b.
6. Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. Т.: Ўзбекистон, 1997, 415 б.
7. Türklüyü ilə qürurlanan Şirin. Nizaminin "Xosrov və Şirin"i əsasında - Səadət ŞIXIYEVA | Edebiyyatqazeti.az

#### “РУСТАМХОН” ДОСТОНИ МАТНИДА ДИАЛЕКТАЛ БИРЛИКЛАР ВА АДАБИЙ МЕЪЁР МУНОСАБАТЛАРИ

*Хамдамова Ханифахон Шукуруллаевна,  
Жиззах политехника институти катта ўқитувчиси*

Маълумки, халқ оғзаки ижоди намунаси бўлмиш дostonларнинг тили халқ тили, унинг диалектал асоси билан чамбарчас боғлиқ. Биз таҳлил объекти сифатида ўрганаётган “Рустамхон” дostonида ҳам диалектал бирликлар матннинг каттагина қисмини ташкил этади, қуйида ушбу сўзлар



ва уларнинг адабий тилдаги вариантлари ҳамда ифодалаган маънолари ҳавола этилади:

*Абгор. “Яраланган, мажруҳ, толиққан”* маъноларидаги форсча абгор сўзига –лик қўшимчасининг қўшилишидан ҳосил бўлган абгорлик лексемаси абгор ҳолат, ночор аҳвол, қийин вазият маъноларини ифодалайди. Қўлланишига кўра ўз сўзига айланиб, асосан, сўзлашув нутқида ва қипчоқ шевасида, шунингдек, халқ достонлари тилида анча фаол ишлатилади. “Рустамхон” достони матнида абгор 6 марта, абгори шакли 1 марта қўлланган. Бу сўзларнинг англаган маънолари асосан қуйидагилардан иборат:

1) “Сарсон-саргардонлик”: *Неча кундан бери йўл тортиб Хуройим бечора абгор абгаишта бўлиб келган [2;382].*

2) “Тинимсиз, узлуксиз”: *Биз сўраймиз унда қолган элатди, // Абгор бўлиб йиглайверма, уятдир, // Сено дам билиб маҳрам сўз қотди [2;367]:*

3) “Жабр тортмоқ, зулм қилмоқ”: *Бир кампир келиб, мени кўр қилиб, энамни бу аҳволларга солиб, шунча абгор қилибди [2;434]:*

*“Абгор бўлган қаландарман[2;456]; Буни ҳам абгор қилган душмани”, Сабил бўпти бунинг шоҳлик шавкати [2;436]*

4) “Пушаймонлик”: *Билмасликдан кўп хато қилибман, // Пушаймон қип абгор бўлиб юрибман, // Ўтган ишларимга тавба қилибман [2;443]*

Достонда *Ўтирик [2;424], Ўтуригинг [2;424], Ўтрикнинг [2;421]* сўзлари бир мартадан қўлланган, уларнинг ҳаммаси адабий тилимизда “*ёлгончи*” шаклида қўлланилади. Қипчоқ шеваларида, шунингдек, “Рустамхон”да ҳам “*алдовчи*”, “*алдоқчи*”, “*ёлгончи*” маъноларини ифодалашга хизмат қилади. Бунда бош эпик қаҳрамон Рустамхонга унинг энаси (онаси) айтган гапида кузатамиз: *“Хисрав шоҳнинг қизини олдим, дейсан: уч ярим ой юриб менга топиб келган ўтуригинг шу-да. Мени шундай қилиб алдайман дейсан-да, аммо алдасанг бундан бошқа ўтирик қурибдимми? Сенинг отангни Султонхон дер эди. [2;424]”*

Шунингдек, сўзлашув нутқида “*ёлгоннинг миси чиқади*”, “*ўтирик гапнинг миси чиқади*” шакллари фаол қўлланади. Масалан, Оқтошда Хуройимга душманлик қилган икки кундош ҳар куни ғордаги Мостон кампирнинг олдида келганидаги қилган мулоқотида таъкидлаган сўзлар ишлатилган: *“Хуройимни Рустамни ўлдирдим, дер эдинг: ўлдирганинг ёлгон экан, биз одамлардан миш-миш эштамиз, қайси бир мамлакатларда юрт огишиб юрган экан. Бир кунлари келади, бошимизга бало бўлади. Ўтрикнинг чини чиқиб қолади” [2;421].* Кўрамазки, келтирилган матнларда *Ўтирик* лексемасининг ўрнида ёлгон сўзи қўлланган ва ҳар иккаласи ҳам “*Ҳақиқий, чин эмас, сохта, қалбаки*” маъноларини ифодалашга хизмат қилган, холос.

Достондан олинган қуйидаги матнда дўғилиб лексемаси “*тушунарли, бир-бирига мос*” маънода қўлланган: *“Гапирганинг арза қиласан, шундай қилиб ёзасан: ўқиса хатинг дўғулиб” бир-бирига тўғри келгудай, ўқиган одам маъносини билгудай, битган арзанг Султонхоннинг қошига мўтабар бўлгудай [2;361].* Матндаги бу лексема оғзаки нутқда дўғилиб - дўғилиб ёки дўғ уриб



тарзида эшитиш ҳам мумкин. Лекин уларнинг ҳар иккаласи бошқа-бошқа лексик маъноларга эга. Хусусан, *дўғ урмоқ* ёки *дўқ урмоқ* шакли *қўрқитмоқ*, *дўғламоқ*, *дўқ-пўписа* қилмоқ маъноларини англатади ва келтирилган матннинг мазмун-моҳиятига мутлақо тўғри келмайди. Матндаги арабча *мўтабар* лексемаси ҳурматли, эътиборли маъноларини ифодалаб келса-да, ушбу жумла бу лексема эътибор топган, ишонарли, ишонч қозонган каби маъноларда қўлланган.

Куйидаги матнларга эътибор қиламиз: “*Дарвозани илм билан қовширган, // Шоҳ келгунча очилмайди дарвоза! [2;368]; Рустам айтди:- эрта-мертан жўнаб кетсам, говгум- ётарларда келиб қоларман [2;396,); Борса энаси бўйнида гул, оёғида кунда ўлиб қолибди. [2;433]*”. Матннинг дастлабки жумласидаги *қовширган* лексемаси “*ётиқ, сеҳрланган*” маъноларини ифодалаяпти, унинг генетик асосларидаги семемалар нуфузли луғатларнинг бирортасида изоҳланмаган. Иккинчи жумладаги *говгум* лексемаси муайян вақтни, яъни “*кечаси, оқшом пайти*” маъносида қўлланган, лекин бу сўзнинг асос семаларининг ҳам изоҳларини луғатларда учратмадик. Охириги жумладаги темир бўйинбоғ, занжир, кишан маъноларини ифодаловчи арабча *гул* лексемаси матнда айбдорнинг бўйнига кийгизиб қўйиладиган жазолаш асбоби; *кишан* маъносида қўлланган. Ушбу жумлада дoston куйловчиси томонидан яна битта сўзни: дарахтнинг ост қисми; тўнка; тахта кишан маъноларини ифодаловчи арабча *гул* сўзи ҳам қўлланганки, у матн мазмунига тўлиқ мос ва хос “*тахта кишан*” маъноларини ифодалашга хизмат қилган.

Намуна сифатида келтирилган қисқача таҳлиллардан шу нарса аён бўладики, халқ бахшиси дoston куйлаш жараёнида ўз сўзларининг маъно-мазмуни тингловчиларга янада ёрқинроқ тасвирлаш баъзи ҳолатда, импровизация туфайли ўзлашган сўзлардан самарали ва унумли фойдалана олган. Буларнинг ҳаммаси ижодкор-бахшининг сўз танлаш маҳоратининг жуда юқори даражада бўлганлигини кўрсатади. Ушбу мулоҳазаларимизни янада далиллаш учун бахшининг қипчоқ шеvasига хос ва мос диалектал сўзлар (диалектизмлар)дан фойдаланишини кузатамиз. Лекин дoston диалектал лексемасининг барчасини таҳлил этишга диссертатсия ҳажми имкон бермайди. Айни ҳолни инобатга олиб фақат адабий тилимизда муқобили бўлмаган айрим элементлар ҳақидагина мулоҳаза юритамиз.

*Айгон.* Хуройимнинг Рустам келаётган йўлга чиқиб, айтган мурожаатидаги “*Ҳаққа етгай айгон нолам, // Менда кўндир доғи алам, // Беҳабар қолдимми болам?!*”, деб мурожаат қилганидаги қипчоқ шеvasига хос *айгон* лексемаси адабий ва сўзлашув нутқимизда *айтган* маъносини ифодалаяпти. Лекин бу сўзнинг изоҳли луғатларда маъноси изоҳланмаган.

*Беҳбудчилик.* “*Бу тушимда шундай бўлиб билинди, // Мамлакатлар беҳбудчилик бўлгандай, // Ҳамма ўз ишида тинчиб қолгандай, // У душман - аждаҳар нобуд бўлгандай [2;405];* Офтобойнинг энаси (онаси) Оқсаройда Хисрав подшонинг олдида келаётган эпизодида Хисрав шоҳга қараб унинг хотини бир сўз билан мурожаат қилганда қўлланилган”. Ушбу матндаги *беҳбудчилик* лексемаси “*яхшилик, рўшнолик; хушҳоллик*” маъноларини

ифодалаб достон матнидаги кейинги маъноларни кучайтиришга хизмат қилган.

Халқ тилидан олинган ушбу *беҳбудчилик* сўзи шеваларда ҳам фаол қўлланади: *Ахволимиз беҳбудчиликда бўлиб турибди; Ҳаммамиз беҳбудчилик, рўшнолик кўриб турибмиз каби. Достон тилидаги бу лексема айна маънони ифодалаб келиши бахшининг сўз танлашдаги маҳоратини, халқ тили билан баҳрамандлигини кўрсатади.*

*Маҳтал* (маътал). “*Бекорчи; бекор қолган; муддати ўтган*” маъноларини ифодаловчи арабча маътал сўзининг кундалик сўзлашув нутқида ҳам, адабий тилнинг ёзма ва оғзаки шаклида ҳам, халқ достонларида ҳам жуда фаол қўлланади. Биз ўрганган достон тилида маътал лексемаси оммавийлашган *маҳтал* вариантнинг *маҳтал бўлмоқ* шакли “*мунтазир ҳолатда бўлмоқ*” маъносида қўлланилган: “*Подшонинг олдида бўлса тўртта чопарчи маҳрами бордир-да; тагин подшо келиб, маҳтал бўлиб, менинг хонумонимга ўт қўйиб юбормасин деб дарвозани очиб юборди [2;269].; Ўқиганман сира адо бўлмайди, // Кўп экан-ку, шаллақининг номози, маҳтал бўлиб турадимиз жаллодлар*” [2;385]. матнида ҳам *маҳтал* лексемаси куттирмоқ маъносини ифодалаган [2;385]. Достон матнида яна бир шакли “*маҳтал қилмоқ*” бирикмаси ҳам мавжуд бўлиб, у “*мунтазир қилмоқ; куттирмоқ*” маъноларида қўлланилган: “*Жаллодлар аччиги келиб, Химчаойни ушлаб олиб, бизни шунча маҳтал қилдинг, деб кулабанд қилиб дарвозага бойлаб ташлади [2;389]*”.

Фозил шоир достон куйлаш жараёнида бўлаётган эпик воқеа-ходисаларнинг бориши, тингловчиларга айтаётган фикрлар оқимининг интенсивлиги туфайли баъзи фаол қўлланадиган сўзларнинг ҳам адабий ҳам диалектал вариантини қўллашни маъқул кўрган. Масалан *манзил* сўзини 8 марта ва унинг турли хил шакллари 14 марта, шунингдек, *манзил-жой* шакллари 10 марта қўллаган. Достонда мазкур лексеманинг диалектал шакли бўлган *мазгил* сўзини ҳам икки марта ишлатган: “*Бедов минган сағрисини тошириб, // Мазгилга етказар қирдан ошириб [2;374].; уч юз олтмиш мастоннинг бошлигини Момогул мастон дер эди. Мазгили шаҳардан ташқари бир зорда эди [2; 356].*”. “Ўзбек тилининг изоҳли луғати”да “*мазгил*” лексемаси *манзил* шаклида қўлланилиши қайд этилган [3;525]. Мазкур луғатда *марказ; тураржой; уй, хонадон* маъноларини ифодаловчи арабча *манзил* мазкур сўзнинг генетик асосларидаги семемалар қуйидагилардан иборат эканлиги ҳам қайд қилинган:

1) *Сафарда, йўлда тўхтаб ўтириладиган, қўниб туриладиган ёки етиб боориш мўлжалланган жой; 2) кураш, ҳаракат натижасида эришилиши мўлжалланган марра; 3) йўлнинг тўхташ жойидан иккинчи бир тўхташ жойигача бўлган масофа; 4) тураржой, истиқомат каби [3;537].*

Кўрамызки юқоридаги келтирилган матннинг биринчи жумласидаги *мазгилга* лексемаси 1-семемасига, иккинчи жумладаги лексема эса 4-семемасига, яъни *тураржой, истиқомат*гоҳ маъноларига мос ва хос келади. Биз бу ерда яна бошқа бир мулоҳазани таъкидлашни лозим топдик.

Биринчидан, адабий тилимиздаги манзил лексемасининг диалектал варианты бўлмиш *мазгил* шакли қипчоқ шеvasида фаол қўлланганлиги боис Фозил шоир шу диалект вакили сифатида “Рустамхон” ни бошидан охиригача куйлаш жараёнида шевага хос шакли *мазгил* ни қўллаганлиги табиий бир ҳол. Иккинчидан, дostonнинг матнида юқоридаги келтирилган мисолдаги *мазгил* сўзига ёзиб олиб, нашрга тайёрловчи проф. Ҳ.Зарифов куйидагича изоҳ берган: Манзили: бундан кейин ҳамма ерда шу адабий шакл олинди [2;356]. Демак, ушбу мулоҳазалар шундай хулосага келиш зарурияти туғилади: Фозил шоир қипчоқ шеvasи вакили бўлганлиги сабаб “Рустамхон” дostonида жуда кўплаб диалектал сўзлардан самарали фойдаланган. Лекин уларнинг айримлари (манзил каби) дoston чоп этилаётган давр ва нашриётнинг муайян талаблари (тилимизни адабийлаштириш мақсадида) асосида махсус таҳрир қилинган ва нашр этилган. Бизнинг назаримизда, юқорида таъкидланган манзил сўзи ва манзил-жой бирикмаларининг хилма-хил вариантлари ва шакллари ҳам “мажбурий таҳрир”дан ўтказилган. Аслида фольклор намуналари қандай шевада ёзиб куйланса (ижро этилса), ўшандай шаклда чоп этиш ва китобхонларга етказиш зарур, деб ҳисоблаймиз.

Юқоридаги қисқача кузатишлардан маълум бўладики, Фозил шоир анъанавий дostonни куйлаш баробарида импровизатсия асосида қўллаган диалектал сўзларнинг асосий қисми маиший лексикага оид ва улар эпик қаҳрамонларнинг турмуш тарзи, ўзаро мулоқоти, руҳияти, хатти-ҳаракати билан чамбарчас боғланади. Қисқача таҳлил қилинган баъзи сўзларнинг муқобили йўқлиги, фақатгина шевага хос ва мослиги, уларнинг шу ҳолича адабий тилга олиб кирганлиги қипчоқ шеvasининг адабий тил меъёрларини юзага келтиришда ва бойитишда асосий манба эканлиги ҳақидаги қарашларни тасдиқлайди. Қўлланиш доираси чегараланган бўлишига қарамадан, биз қисқача таҳлил қилган ва назардан ўтказган диалектал бириклар дoston матнида муайян образли ифодани юзага келтирганки, буларнинг ҳаммаси Фозил шоир поэтик мушоҳадаси кенглиги ва юксак маҳоратли эканлигини яна бир бор тасдиқлайди.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Жуманазарова Г.У. Ўзбек халқ дostonлари матнининг лингвостатистик таҳлили, Тошкент: Тафаккур, –2011, – 72 б.
2. Рустамхон. Ўзбек халқ қаҳрамонлик дostonи /Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: Маҳмуд Зарифов. – Тошкент: Шарқ, 1998.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. - Тошкент, 2006., 2-жилд.
4. Ризаев С.А. Ўзбек тилининг лингвостатистик тадқиқи. Докторлик диссертацияси. – Тошкент, 2008.

## ШЕЪРИЙ АСАРЛАРДА СИНОНИМЛАРНИНГ УСЛУБИЙ ВАЗИФАЛАРИ

*Қиёмов Фарҳод Раунович,  
Қарши ДУ катта ўқитувчиси*

Синонимлар битта тилга ва битта туркумга мансуб, ёзилиши ва талаффузи ҳар хил, бироқ ўхшаш маъноли сўзлардир. Таъкидлаш лозимки, синонимия ҳодисаси нафақат тилшуносликнинг, балки антик фалсафанинг диққат марказида турган муаммолардан бири бўлиб келган. Хусусан, Платоннинг “Кратил” асарида мазкур масалага Сукрот билан мунозара тарзида жавоб изланади. Қадимги Юнон тилшунослигининг фалсафий даврида ҳам файласуфлар нотикликка алоҳида урғу бердилар. Шунингдек, нотикликка бевосита хизмат қиладиган стилистика ва синонимияга оид тадқиқотларни милоддан аввалги VI–V асрдаёқ юнон тилшунослигида ҳам учратиш мумкин эди. Жумладан, милоддан аввалги V асрда синонимлар назариясини ишлаб чиққан Продик омоним ва синонимларни яхши билиш нотик ва шоирлар учун муҳим эканлигини қайд этган эди. [1;18.] Яна бир файласуф Демокрит эса нарса ва унинг номи ўртасида боғлиқлик мавжуд эмас, деган фикрга келади ва бунинг исботи сифатида тилдаги омоним ва синоним сўзларни мисол келтиради.[1;19.] Шу боисдан, синонимларнинг маъно хусусиятларини мукамал эгалламай туриб, нутқнинг аниқлиги, ифодалилиги ва равонлигига эришиб бўлмайди.

Сўз заргарлари – шоирларда луғат бойлигининг камбағаллиги фикр ифодасининг қашшоқлиги, сўзларни ўринсиз ва такрор ҳолда қўллашга, сўз маъноларининг товланишларни илғай олмасликка олиб келади. Зеро, тилнинг синонимик бойлиги катта бир хазина саналади. Атоқли сўз санъаткори Максуд Шайхзода шундай ёзади: “Маънодош сўзларни ўрнида ишлатиш сўз санъаткори учун фарз. Масалан, луғатларда одам, киши, инсон синоним сўзлардек талқин этилади. Беш инсон келди эмас, беш киши келди дейилади, сен киши эмассан, дейилмайди, сен одам эмассан дейилади. Кишилиқ шундай бўлади эмас, одамгарчилик шундай бўлади дейилади. Тилимизнинг ана шундай товланиб туришида шоир учун не-не битмас туганмас хазиналар бор...”[2;206.].

Таниқли тилшунос олим Р.Қўнғуров ўзининг “Ўзбек тилида тасвирий сўзлар” номли тадқиқотида тасвирий сўзларда синонимия ҳодисаси ҳақидаги бир қатор илмий қарашларини илгари суради. Олим ўзбек тилида қарамоқ тушунчасини турли хил маъно оттенкаси билан беришда: аланг-жаланг, жовдир-довдир қарамоқ, ола-кула, довдир-жовдир, мўлт-мўлт, ғилт-ғилт; жовдираб, аланглаб, бақрайиб, анграйиб, хўмрайиб, ишшайиб, тикрайиб, адрайиб қарамоқ сингари бирликларининг қўлланишини қайд этади. Бинобарин, ўзбек стилистикасининг билимдони: “Ҳозирги ўзбек адабий тилида “ув тортиб йиғламоқ, уввос тортиб йиғламоқ, ув-в., пиқ-пиқ., хўнг-хўнг., хўнгир-хўнгир., ўкраб, инга-инга., бағ-бағ, пих-пих, чир-чир йиғламоқ каби бир неча синонимик тасвирий сўзлар қўлланади”, дея қайд



этаркан, бу борада ўзбек тилининг имкониятлари чексиз эканлигини илмий жихатдан такрор исботлайди. [3;44-45.] Таъкидлаш жоизки, “қарамок”нинг синоними бўлган “боқмоқ” Тошкент шеvasига хос сўз. У адабий тилда кам қўлланган. Бироқ Ғафур Ғулом шу шева вакили бўлгани учун ҳам бу сўздан кўп фойдаланган ва унинг адабий тилдан ўрин олишига ўз ҳиссасини қўшган:

*Ариқ лиммо – лим тиниқ сув мавжи*

*Суқланиб оламнинг ҳуснига боқар.* [4;11.]

Ғафур Ғулом ўзининг машхур “Сен етим эмассан” шеърида эса тикилмоқ сўзига идеографик синоним бўла оладиган термулмоқ феълидан усталик билан фойдаланган:

*... Оталик ҳиссининг*

*Бебаҳо лазиз*

*Тўлқин ичра*

*Ғарқ бўлиб кетиб,*

*Азиз бошинг устида*

*Термулмоқдаман.* [4; 167.]

Синонимлар, албатта, қўшимча маъно нозиклиги, эмоционал ва экспрессив бўёқдорлиги, қўлланиш доираси ва бир қатор хусусиятлари билан бир-биридан фарқланади. Бундай хусусиятлар синонимларнинг жуда катта услубий имкониятларга эга эканлигини кўрсатади. Синонимларнинг энг асосий услубий вазифаси – фикрни аниқ ифодалаши билан муҳим аҳамият касб этади. Биз атрофимиздаги предметлар ва воқеа-ҳодисаларни, уларнинг хусусиятларини, белгиларини, характер ва ҳолатларини бутун нозиклиги, ўзига хослиги билан англашга интиламиз. Уларни ифодалашда эса энг мос ва мақбул сўзлардан фойдаланамиз. Бунда, албатта, синонимлар жуда қўл келади. Улар ана шу борлиқ-ҳодисаларни тасвирлашда ҳар бир “элементар” сифатларни ҳам ўзида акс эттиради. Айни пайтда муайян услубий бўёққа ҳам эга бўлади. Масалан, профессор А.Ҳожиев томонидан тузилган “Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати”даги доминантаси “юз” сўзи бўлган синонимик қатор ҳақидаги мақолада қуйидагилар қайд этилади: юз, бет, афт, башара, чехра, жамол, дийдор, ораз, узор, рухсор. Киши бошининг олд қисми, олд томони. Бет сўзи маъноси қўлланиши билан юз сўзига жуда яқин бўлиб, юз нисбатан салбий оттенкага эга. “Афт” сўзи “бет” сўзига нисбатан салбий оттенкага эга. Башара сўзида салбий оттенка афт сўзидагига нисбатан ҳам кучли. Чехра ижобий оттенкага, жамол сўзида ижобий оттенка чехра сўзидагига нисбатан ҳам кучли бўлиб, бу сўз асосан поэтик услубга хос. Жамол сўзи “ҳусн, чирой” маъносида ҳам қўлланади. Дийдор сўзи кўришмоқ, тўймоқ каби бир-икки сўз билангина қўлланади. Узор, ораз, рухсор эскирган, китобий...”[4;210,5;308,]. Англашиладики, синонимик қаторда келтирилган ўнта сўзнинг ҳар бири алоҳида –алоҳида услубий салмоққа эга. Бирининг ўрнида иккинчисини баб-баравар қўллаш мумкин эмас. Ҳар бири нутқ турига, субъектив муносабатга, маъно хусусиятига кўра фарқланади ва қўлланилади.



Масалан, “Кексаларнинг нуроний юзидан хонадонлар ёришгандай бўлди... Юзи нам, ялтироқ ўтлоқнинг бетида юк машиналарининг беҳисоб излари кўриниб турарди... Унинг қувноқ чехраси сув бетида қизга янада ёқимли кўринди... Башарасига тушган қамчи зарбидан ерга йиқилди”. [8;143.]

*Юзимизни ёритар*

*Биз беражак мўл ҳосил.* [4;124.]

*Катта Хўтан ариқдан бет ювдим минглаб тонгда,*

*Туз ҳақи, кўп эшикка раҳмат айтсам дабдуруст.* [4;145.]

Қуйидаги мисолда юз сўзи бет сўзига нисбатан қўлланиш жиҳатидан бир мунча фаол саналади:

*Беш минг йил илгари, чорак аср олдин,*

*Тарих бетида жавраб келгувчи...* [4;158.]

*Ўн – ўн беш китобдан худди шуниси,*

*Худди шу бетдаги мана шу жумла*

*Студент кўзига ойдек ярқироқ.* [4;145.]

“Сўз бир вақтнинг ўзида сўзловчи фикрининг ҳам ва шу фикр даракнинг вазифа, мақсадига кирадиган барча психик кечинманинг ҳам белгиси саналади”. [2;19.] Демак, сўз лексик маъно билан бир қаторда маълум ҳаяжон, ҳис – туйғу ва турли кечинмани ҳам бера олади. Гафур Гулом шеъриятида сўзнинг бундай характери ва даражаси турличадир. Баъзи сўзда ҳаяжон аниқ билиниб, англашилиб турса, баъзида деярли сезилмайди.

Айрим сўз кўпинча маълум нутқ услубига хосланган бўлади. Синонимлар поэтик нутқда тасвирий восита сифатида қўлланилади. Шоирлар ўзбек тилининг сўз бойлигидаги ранг – баранг синонимлардан янги эстетик тушунчаларни очишда фойдаланади. Улар бир – биридан ё маъно оттенкаси билан, ё услубий бўёқдорлиги билан, ёки ҳар икки хусусияти билан фарқланадиган синонимлардан усталик билан самарали фойдаландилар. Фикрни аниқ ва яққол ифодалаш, мазмунни қуюқ мисрада баён этиш учун синоним сўзларни ўз асарларида сайлаб, саралаб ишлатадилар. Ўзбек шеъриятида бирдан ортиқ сўзнинг ўзаро семантик алоқага киришишидан ҳосил бўлган синонимлар кўплаб учрайди. Зеро, синонимлар тилнинг тасвирий воситаларидан бири сифатида матнга таъсирчанлик бахш этади. Масалан: ишқ ва муҳаббат сўзлари синоним бўлиб, улар маъно товланишига нисбатан бир-биридан фарқ қилади: асосий белги – ишқ сўзи муҳаббат сўзига нисбатан кучлироқ. Уларнинг ёнма-ён қўлланиши турлича услубий таъсирга эга:

“Ташна яшадик биз меҳрга мутлоқ,

Ишққа, муҳаббатга ташна ўтдик биз” [6;83.].

“Бало, офатларни енгиб ўрганган,

Муҳаббатнинг улуғ, юраги кенгдир” [7;51.].

Синонимларнинг қўлланилиши ва услубий бўёқдорлиги бу билан чекланиб қолмайди. Ҳар бир синонимик қатордаги сўзлар ўзига хос бир систем сифатида ўзаро доимий алоқага эга. Шунинг учун синоними мавжуд бўлган ҳар бир сўз поэтик нутқда қўлланар экан, у албатта қатордаги бошқа

сўзлар билан қиёсланган, боғланган ҳолда тушунилади, қабул қилинади. Экспрессив бўёкли сўзлар ўзининг нейтрал синонимларига нисбатан англанади. Масалан, ўзбек тилида ўқраймоқ сўзи “ёмон ниятда бўлмоқ” маъносида кўз олайтирмоқ ибораси билан синонимик муносабатга киришади. Атоқли шоир Ғафур Ғулوم кучли ғазаб ва нафратни ифодалаш учун кўз олайтирмоқ иборасини қўллайди:

– ... *Душман тополмай паноҳ*

*Ғарбдан малъун босириққа кафан танли инглиз,  
Така туркман рўзгорига кўз олайтирган иблис,  
Бир ҳамланинг шиддатидан тумтарақай қочганда,  
Ҳар қадамда туман зафар қучогини очганда.*[4.32]

Хулоса қилиб айтганда, синонимлар бадий нутқнинг энг кўп қўлланувчи тасвирий воситалардан бири саналади. Шоирлар нутқнинг очиқ, фикрнинг равон, услубнинг ранг-баранг бўлиши учун синоним сўзлардан энг зарурини топиб, ўз ўрнида қўллашга катта аҳамият беради. Зеро, умумхалқ тили ёзувчи ёхуд шоирлар ихтиёрига ўз сўз таркибидаги барча воситани беришдан ташқари ундан танлаб олиш имкониятини ҳам беради. Шу боисдан ҳам ижод аҳли синоним сўзлардан ўзлари яратган образнинг ҳолатини, қиёфасини китобхон кўз олдида ёрқинроқ гавдалантириш ва унинг ички кечинмасини ҳар томонлама мукамал ифодалашда кенг фойдаланади.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Усмонов С. Умумий тилшунослик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1972.
2. Қўчқоров У. Синоним сўзлар ва уларнинг баъзи бир хусусиятлари. – Т.: Фан, 1994.
3. Қўнғуров Р. Ўзбек тилида тасвирий сўзлар. – Тошкент: Фан, 1966.
4. Ғафур Ғулوم. “Сизга инъомим менинг”. – Тошкент: Шарқ, 2003.
5. Ҳожиёв А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1974.
6. Орипов А. Танланган асарлар. 4 жилдлик. 1-жилд. // Шеърлар ва дostonлар. – Т.: Ғ.Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 2000.
7. Олимжон Х. Мукамал асарлар тўплами. 1-китоб. – Т.: Ғ.Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1979.
8. Ойбек. Мукамал асарлар тўплами. 14-том. – Тошкент: Фан, 1975.

### **ЎЗБЕК РЕАЛИСТИК РОМАНЧИЛИГИ МАКТАБИНИНГ АСОСЧИСИ**

*Маҳамматов Акрам Райимқулович,  
ЖДПИ ўқитувчиси*

Кўп асрлик ўзбек адабиёти тарихига назар ташлар эканмиз, унда насрга нисбатан назм неча асрлар давомида ривожланиб, сайқал топиб катта тажрибага, бой анъанага эга бўлиб келганлигини гувоҳи бўламиз. XX асрнинг бошларига келиб, янги давр адабиёт олдига ҳам янги вазифаларни

кўндаланг кўйди. Ушбу уйғониш даврига келиб поэзия жанрининг ўзи билан чекланиб қолиш мумкин эмас эди, албатта. Турмушни, янги ҳаётни, янги воқеликни, янги инсонни, унинг бутун ички оламини кенг ва ҳар томонлама акс эттириб бериш учун поэзия билан бир қаторда проза, драматургия сингари адабиётнинг йирик жанрлари, шакллари ҳам зарур эди. Буни ҳаётнинг ўзи тақозо этди. Хуллас, ўтган асрнинг 20 йилларга келиб ўзбек адабиётида проза жанрини яратиш учун янги ҳаракат бошланади. Бу ҳаракатни жонлантиришда кўпчилик ёзувчилар қатори Абдулла Қодирийнинг ҳам хизматлари катта эканлигини алоҳида қайд этмоқ керак. Бу ўринда адибнинг ”Ўткан кунлар”, “Меҳробдан чаён” романларини эслаб ўтмоқ кифоя.

Абдулла Қодирий йирик ҳикоянавис, ўткир фелъетончи бўлиш билан бирга, биринчи ўзбек романаписи сифатида ҳам шуҳрат қозонган сўз санъаткоридир. Атоқли адиб 1917-1918 йиллардан бошлаб “Ўткан кунлар” романи учун материал тўплашга киришади. 1922 йилда биринчи ўзбек романининг дастлабки боблари “Инқилоб” журналида чоп этилади. 1925 йилда “Ўткан кунлар” алоҳида-алоҳида уч бўлим ҳолида, сўнг 1926 йилда китоб бўлиб нашр этилади. Орадан икки йил ўтиб, 1928-йилда ёзувчининг иккинчи тарихий романи “Меҳробдан чаён” романи нашр этилади. 1934 йилга келиб эса муаллифнинг қишлоқ хўжалиги мавзусига бағишланган “Обид кетмон” қиссаси яратилади.

Адибнинг романлари ичида “Ўткан кунлар” романини нафақат ўзбек ўқувчиси, балки бутун туркий тилда сўзловчи халқларнинг зукко кишилари катта байрамдек кутиб олдилар. Роман тилларда дostonга айланди. Кўлдан-кўлга ўтиб ўқилди. Асар истиқлолга эришганимиздан сўнг ўзининг иккинчи умрини яшай бошлади, у эндиликда, гарчи жуда кеч бўлса-да, ўзининг ҳақиқий баҳосини олмоқда. Ёзувчи бу романида холис туриб, ўтган XIX аср ўрталаридаги Туркистон тарихининг, ўзбек халқи ҳаётининг, бир сўз билан айтганда, ўша давр зиддиятларини Отабек ва Юсуфбек сингари тараққийпарвар кишиларнинг босиб ўтган йўлини кўрсатиш орқали акс эттиришни асосий мақсад қилиб кўяди. Гарчи асар мавзуси кейинги хонликлар замонидан, жумладан, Худоёрхон давридаги ўзбошимчаликларни кўрсатишга қаратилган бўлса ҳам, асарда ўша замон воқеалари, ижтимоий жараёнлар, одамлар руҳияти, орзу-интилишлари, кечмишлари ҳаққоний, бетакрор тарзда зўр реалистик маҳорат билан чизилган бўлса ҳам, унда замонавий руҳ жуда кучлилиги сезилиб туради.

Ўзбек адабиётининг шаклланиши ва ривожланишида улкан ҳисса кўшган ва “Ўзбек романапислигининг асосчиси” деб ном чиқарган сўз санъаткори Абдулла Қодирий (Жулқунбой) 1894 йилнинг 10 апрелида Тошкент шаҳрининг Бешёғоч даҳасида боғбон оиласида дунёга келади.

У дастлаб эски усулдаги мактабда, сўнг 1908-1912 йилларда рус тузем мактабларида ўқиб, уни аъло баҳоларга битиради. Абдулла мактабни битиргач, Расулмуҳаммад бойга приказчик, яъни мирзо бўлиб ишга киради. Абдулла бойнинг хонадонидан ва савдо дўконидан яшаб, жуда кўплаб ана

шундай илғор фикрли зиёлилар билан танишади ва улардан савдо ишларини ўрганади. Ёш ёзувчининг илк ижодий фаолияти ҳам шу даврга 1913-1914 йилларга тўғри келади. У шу кезларда чиқиб турган “Садои Туркистон”, “Самарқанд”, “Оина” каби газета ва журналлар билан мунтазам танишиб бориб, ўзи ҳам кейинчалик уларга кичик-кичик хабар ва мақолалар ёзиб туради.

Абдулла Қодирий ҳам кўпчилик ёзувчилар сингари илк ижодида шеърятга қизиқади. Унинг 1915 йилда “Оина” журналида эълон қилинган “Аҳволимиз”, “Миллатимга”, “Тўй” каби шеърларини бунга мисол қилиб келтириш мумкин. Муаллифнинг мазкур шеърлари ва айниқса, “Жувонбоз” ҳикояси, “Бахтсиз кўёв” фожиаси, бевосита Бехбудийнинг “Падаркуш” фожиасига тақлидан ёзилган бўлиб, уларда жаҳолатга, маърифатсизликка қарши кураш ва халқни илмга, маданиятга чақириш устун келади.

Абдулла Қодирий 1919 йилдан бошлаб, “Муштум” журналининг ташкилотчиларидан бири сифатида майдонга чиқади, бошқача айтганда журнални йўргаклаб, бешигини тебратган. Ҳатто, мазкур журналга “Муштум” деган номни ҳам адибнинг ўзи топиб қўйган. Адиб журнални ташкил этиш билан чегараланиб қолмай, балки унга жон, қон ҳам кўшади. Фикримизнинг исботи сифатида, ўзининг 1923-1924 йилларда ёзган “Тошпўлат тажанг нима дейди”, “Калвак махзумнинг хотира дафтарида” туркумидаги сатирик ҳикоялари билан бир неча йиллар давомида жонлантириб, халқнинг севимли журнаliga айлантиради.

Адиб 20-йиллар орасида “Қодирий”, “Жулқунбой”, “Тошпўлат”, “Калвак махзум”, “Думбул”, “Овсар”, “Шиғай” каби тахаллусларда қизгин ва баракали ижод қилади. Абдулла Қодирий “Амир Умархоннинг канизи”, “Номоз ўғри”, “Даҳшат” каби романлар яратиш орзусида эди. Аммо бевақт ўлим бу орзуларнинг чиқишига имкон бермади.

1937 йилларнинг машъум сиёсати бошқа зиёлилар сингари, уни ҳам домига тортади. У тухматга учраб, қамоққа олинди: “Сўзим охирида одил судлардан сўрайман: гарчи мен турли бўҳтон, шахсият ва сохталар билан иккинчи оқланмайдурғон бўлиб қораландим. Лоақал уларнинг, қораловчи қора кўзларнинг кўнгли учун бўлса ҳам менга энг олий бўлғон жазони бера кўрингиз. Кўнглида шамси ғубороти, тескаричилик мақсади бўлмағон содда, виждонли йигитга бу қадар хўрликдан ўлим тансиқроқдир. Бир неча шахсларнинг орзусича маънавий ўлим билан ўлдирилдим. Энди жисмоний ўлим менга кўрқинч эмасдир. Одил судлардан мен шуни кутаман ва шуни сўрайман. (1926 йил 15 июн, Самарқанд. Абдулла Қодирийнинг суддаги нутқидан)”, – дейди адиб. Хуллас 9 ойлик қийноқлардан сўнг 1938 йилнинг 4 октябрида Қодирий Тошкентда пинҳона равишда отиб ташланади. Фожиали вафотидан қарийб 20 йилдан сўнг, яъни 1956 йилда адиб қайта оқланади, асарлари янгидан нашр этила бошлайди. 1990 йилда Президент фармони билан Абдулла Қодирий номидаги Республика Давлат мукофоти таъсис этилади. 1991 йилда эса Абдулла Қодирийга Алишер Навоий номидаги

Давлат мукофоти берилади. Адиб бор-йўғи 44 йил умр кўрган бўлса, шундан атиги 20 йилини қизғин ижодий фаолиятга бахшида этди.

Адиб номини абадийлаштириш мақсадида республикамиздаги кўплаб ижтимоий соҳа объектларига унинг номи берилди. Жумладан, 1974 йилда ташкил топган Жиззах давлат педагогика институтига ҳам машҳур адибимиз Абдулла Қодирийнинг номи берилган.

## МАҚОЛЛАРДА УМУМЯШИРИН МАЪНОНИНГ ИФОДАЛАНИШИ

*Ахроров Алишер Акбарович,  
ГулДУ ўқитувчиси*

Мақол, ибораларда шундай хусусият борки, улар бошқа тил воситаларига нисбатан коммуникатив, услубий таъсирчанликни юқори даражада таъминлай олади ва бунга доир бир қанча изланишлар амалга оширилган [1;1171-1176, 2;42-44]. Мулоқот самараси учун бу энг муҳим омил ҳисобланади. Мақол ифодалаган мазмунни бошқа тил воситалари – оддий гаплар ёки бирикмалар воситасида ифодалаш нутқнинг шаклий кенгайишига олиб келади. Мулоқот мақсадининг рўёби учун хизмат қилувчи воситалар нутқ жараёнида асосий вазифа бажаради. Нутқнинг тежамкор бўлиши тил тараққиётининг етакчи тенденцияси ҳисобланади. Бу борада мақолларнинг ўзига хос ўрни ва вазифаси алоҳида аҳамият касб этади. Улар мулоқот жараёнида нутқнинг тежамкор ва мазмундор бўлишини таъминлайди. Бундан ташқари, нутқий мулоқотнинг самарасини таъминловчи муҳим омиллардан бири мақол ва ибораларнинг мажозий маънода қўлланилиш имкониятидир. Мажозий маънода қўлланиш мақолнинг нутқ жараёнида сўзловчи мақсадини амалга оширишнинг бош омили бўлишини зарурат қилиб қўяди.

Нутқий вазият мулоқотнинг қандай йўсинда давом этишини ҳал қилади. Мулоқот жараёнида фикр мавзуси ва мазмуни яширин тарзда ифодаланиши мумкин. Мулоқотнинг яширин мавзуси, мазмуни мулоқот жараёнида иштирок этувчи суҳбатдошлар учун тушунарли бўлади. Мулоқотнинг иккинчи даражали иштирокчиларига эса фикр мавзуси ва мазмуни маълум бўлмагани сабабли гап нима ҳақида бораётганлиги мавҳум бўлиши мумкин. Тилда яна шундай яширин мазмун ҳодисаси ҳам мавжудки, у мулоқот жараёнининг барча иштирокчилари учун аниқ ва равшан бўлади. Яъни бундай яширин мазмун мулоқот жараёнида иштирок этмаган, шу тилдан фойдаланувчи бошқа шахслар учун ҳам тушунарли бўлиши мумкин. Бу яширин мазмун тушунчаси тилшуносликда умумяширин маъно термини билан ифодаланиб келинмоқда. Мақоллар худди шу умумяширин маънони ифодалашга хосланган восита, бирлик ҳисобланади: “Сўз суякдан ўтар, таёқ этдан”; “Тиз яраси тузалар, тил яраси тузалмас”. Мазкур мақоллар замирига жойлашган умумяширин кўчма маъно ушбу мақоллар мансуб тил эгаларининг барчасига маълум, тушунарли бўлади.



Умумяширин маъно, у билан боғлиқ тушунча ва ҳодисалар юзасидан М.Ҳақимов қуйидагича фикр билдиради: “Матнда сўзловчи назарда тутган ахборот ҳар доим ҳам вербал ифода таркибида тўлиқ маънода ошкора баёнга эга бўлмайди. Кўпинча ошкора баён қилинмаган, аммо сўзловчи ички мақсади акс этган яширин мазмун кўринишларини матн мазмуний структурасидан илғаб олиш тингловчи, нутқ иштирокчиларига катта масъулият юклайди. Бунинг учун сўзловчи, тингловчи ҳамда нутқ иштирокчилари нутқ вазияти ва социал контекстдан тўлиқ хабардор бўлиш билан бирга, вербал воситаларнинг мазмуний тузилишидаги нозик ифода қирраларини англаш учун ўша тилга хос маъно оттенкаларини билиши шарт” [4;89]. Сўзловчи коммуникация жараёнида ўзининг мақсадидан келиб чиққан ҳолда, тил бирликларидан мосини танлайди. Танланган тил бирликлари матн таркибига олиб кирилганда аниқ, равшан ёки яширин маъно ифодалашга хизмат қилади. Яширин мазмунли матнларнинг мазмунини англаш мулоқот иштирокчиси, тингловчидан ниҳоятда зийраклик ва теран фикрлаш билан бирга тил ҳодисаларига оид билим ва малакани ҳам талаб қилади.

Умумяширин маъно қўлами анча кенг бўлган ва яширин маъно ифодалаш шакллари турлича нутқ кўринишлари ҳам кўп кузатилади. М.Ҳақимов дастлаб улардаги маънони икки гуруҳга ажратади:

- 1) умумий яширин маънолар;
- 2) хусусий яширин маънолар.

Умумий яширин маънонинг хусусияти шундаки, бунда яширин маъно сўзловчи, тингловчи ва барча нутқ иштирокчилари учун маълум, таниш бўлади. Бу ҳолатда умумяширин маъно ифодаловчиси сифатида ибора, мақол, топишмоқлар қайд қилинади [4;89].

Умумяширин маъно бошқа тил воситаларига қараганда паремик бирликларда кўпроқ ва аниқроқ намоён бўлади. Мақоллар нутқда кўчма маънода қўлланилганлиги учун бундай имкониятга эга бўлади. Чунки мақолларда ифодаланаётган мазмун унинг вербал ифодалаб бўлмайдиган яширин маъноси ҳисобланади. Масалан: “Қуруқ қошиқ оғиз йиртар” – “фақат гапириши билан иш битмайди”; “Санамай саккиз дема” – “ўйламасдан гапирма”; “Йиқилган курашга тўймас” – “уддасидан чиқмасанг, бекорга уринма”; “Йўқолган тичоқнинг сопи – олтин” – “йўқолган нарсани мақташ”; “Меҳнатнинг таги роҳат” – “машаққатни сабр билан енгиб ўтиш шарт”; “Камбағални туянинг устида ҳам ит қопар” – “омадсизлик, иши юришмаслик” каби вербал ифодалардаги яширин маънолар кузатилади. Мазкур мақоллар замиридаги яширин маънолар мулоқот мақсади, вазияти ва табиатига кўра турлича маъноларда намоён бўлиши мумкин.

Нутқ жараёнида паремиилогик бирликларни қўллаш нутқнинг таъсир кучини, эмоционаллигини, нутқнинг образлилигини таъминлашга хизмат қилади. Бундай нутқнинг воқеланиши сўзловчининг коммуникатив мақсади билан бевосита боғлиқ ҳисобланади. Прагмалингвистикада коммуникатив мақсад, ният талабидан келиб чиққан ҳолда тил бирликларига мурожаат

қилишда, албатта, нутқий вазият ҳисобга олинади. Нутқий вазиятдан келиб чиққан ҳолда нутқий мулоқотга мос тил бирликлари танланиб, нутққа киритилади. Бу эса нутқнинг самарасини белгиловчи омил бўлиб хизмат қилади. Чунки коммуникатив мақсад прагматик таҳлилнинг асосий таркибий қисмидир. Мақсаднинг самарали ёки самарасиз натижаси сўзловчининг тилдан фойдаланиш лаёқати, нутқий актлар, шунингдек, тилнинг экспрессив-стилистик ва образли имкониятлари ҳамда новербал воситаларни танлаш маҳорати билан боғлиқ. Коммуникатив мақсадга эришиш учун сўзловчи ўз нутқини шундай тузиши, шакллантириши лозимки, у учун энг муҳим бўлган хабарни таъкидлаш биринчи навбатда туриши керак, шунга кўра, сўзловчи ҳамсухбатида кутилган реакция кўзгатади [3;72]. Бу реакция натижаси ҳамсухбати учун маълум бўлиши керак, акс ҳолда, мулоқот самарасиз чиқиши мумкин. Мақоллар орқали умумяширин маъно ифодаланиши сабабли нутқнинг самарасиз натижалари бўлиши анча кам кузатилади. Масалан: *Давра худди сув қуйгандек жимиб қолди. Арслоннинг ўлиги ҳам тирик юрган анча-мунча бошқа ҳайвонлардан қўрқинчироқ бўлганидек, яъни “арслоннинг ўлиги ҳам арслон” деганларидек, қариб, тахтиравондан тушган, орада қамалиб, “ур-сур”ларда обрўси бир қадар кетган бўлса-да, Муҳаммаджон ака, барибир, Муҳаммаджон ака эди (У.Ҳамдам. “Мувозанат”, 23-бет.)*

Келтирилган матн таркибида қўлланилган мақол матн мазмунидаги эмоционалликни ошириш билан бир вақтда бошқа прагматик мақсад ва вазифаларнинг ҳам амалга оширилишига хизмат қилган. Аммо матндаги вербал ифода асосий планга чиқмайди. Мақол қўлланиши ва мазмун ифодаси Муҳаммаджон аканинг илгари ким бўлгани ва қандай инсон бўлгани ҳақида ишора беради. Маълумки, арслон ҳайвонларнинг шоҳи сифатида эътироф этилади. Худди шундай рамзий маънода инсон арслонга қиёсланса, унинг кудрати ва куч-қуввати, обрўси юқори эканлигини билишимиз мумкин. Матнда ҳам бу нарса кузатилади. Мақол нутқда огоҳлантириш, тасдиқ мазмунини ифодалайди. Аслида, вербал тарзда ифодаланаётган мақол арслон ҳақида бўлишидан қатъи назар, бу ўринда арслон ҳайвони тушунилмайди. Мазкур мақолдаги умумяширин маъно *“аввалги савлат, шижоат ҳозир ҳам сақланган”*.

Мақолларда ифодаланган умумяширин маъно турли прагматик ният ва вазиятга монанд ҳолда ҳар хил маъноларни ифодалаши ёки турли маъноларга ишора қилиши билан мураккаб табиатлилиқ касб этади.

### **ҲОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:**

1. Akhrorov A. Proverbs about thoughtful conversation // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. Volume: 10 / Issue: 5/ – India, 2020. – P. 1171-1176.

2. Akhrorov A. The role and importance of folk proverbs in the upbringing of a perfect person // ISJ Theoretical & Applied Science, 01 (81), 812. – Philadelphia, 2020. – P. 42-44.

3. Пардаев З. Прагматик мазмун ва баҳолаш муносабати // Ўзбек тили ва адабиёти. 2012. № 4. –Б. 72.

4. Ҳақимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. –Тошкент: Akademnashr, 2013. – 176-б.

## **ТРЕБОВАНИЯ К ПЕДАГОГИЧЕСКОМУ МАСТЕРСТВУ В УПРАВЛЕНИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМ ПРОЦЕССОМ**

*Султонов Турдали,  
преподаватель Чирчикского государственного  
педагогического институт*

Работа нашего Президента Ш. М. Мирзиёева "Мы построим наше великое будущее вместе с нашим храбрым и благородным народом" еще больше подчеркивает идеологическую неприкосновенность молодежи, ее патриотизм, чувство благодарности и твердую уверенность в будущем. [1;3]

В процессе реализации национальной программы подготовки кадров в нашей стране будет и впредь возрастать ответственность педагога за воспитание и обучение подрастающего поколения перед обществом. Роль воспитателя и его обязанности определяются важностью внимания, уделяемого обществом и общественностью работе по воспитанию подрастающего подрастающего поколения. Современный педагог не может быть социальным психологом. Потому что ему необходимо уметь устанавливать взаимовыгодные позитивные отношения между детьми, знать применение социально-психологических норм в детском сообществе. Как вы знаете, педагогическая деятельность-одна из самых сложных сфер труда человека. [2;20]. Помимо требований, предъявляемых педагогическим обществом в своей деятельности, следует также помнить, чего ожидают от него окружающие люди, администрация дошкольного учреждения, коллеги, дети и их родители. Педагогу важно знать, чего он ждет от своей работы, чтобы ожидания, хотя и соответствовали требованиям, предъявляемым обществом к учителю, имели свои особенности. Но эти требования могут не всегда соответствовать друг другу.

Исследования, проведенные психологами, показали, что департаменты народного образования всячески оценивают, насколько важны те или иные качества учителя. К будущей педагогической личности предъявляется ряд серьезных требований. Их можно разделить на основные, то есть невозможно стать высококвалифицированным учителем или воспитателем, не овладев им, и второстепенные, то есть предназначенные не для непосредственной педагогической деятельности, а для ее формирования как личности и для требований, которые важны в воспитании и обучении личности. Как и общие

основные требования, второстепенные требования предъявляются к психологии деятельности учителя, то есть к его общению, способностям, знаниям, квалификации и навыкам, навыкам, качествам, необходимым для воспитания и образования детей. Среди основных она не меняется ни в дополнительных психологических характеристиках, то есть в каждый период, время и народы постоянно меняются и постоянно меняются, необходимые для учителей и воспитателей, для квалифицированных педагогов, то есть вытекающие из требований определенного периода социально-экономического развития, жизни в условиях, в которых определяется общество, и требований педагогической рабочей среды. Основными, основными и неизменными требованиями к воспитателю являются привязанность к детям, специальные знания в области педагогической деятельности, самостоятельная работа, широкое мышление, педагогическая интуиция, высокоразвитое мышление, глубокие знания, культура и хорошее поведение, владение навыками использования различных методов обучения и воспитания детей. Без любого из вышеперечисленных качеств невозможно успешно выполнять педагогическую работу.

К числу дополнительных, но относительно застойных требований к воспитателю можно отнести доступность, артистизм, жизнерадостное поведение, хороший вкус и так далее. Хотя эти характеристики и не стоят на самом базовом месте, но оказывают большую помощь в деятельности учителя. Все эти свойства не являются врожденными способностями. Ими овладевает регулярная работа воспитателя, а также его упорная работа над собой. Основные и второстепенные педагогические характеристики концентрируются, определяют личность педагога, эти аспекты проявляются в той силе, что каждый учитель неотменяем и как конкретная личность.

Из требований, предъявляемых обществом, наиболее важными являются личность учителя и качества, связанные с его профессией. Основные требования общества к профессии учителя заключаются в следующем:

- воспитывать человека с духовно-просветительской стороны, знать суть идеологии национального пробуждения и всеобщего богатства, воспитывать детей в духе верности идеям независимости, любить свою родину, природу и семью;
- обладать широким уровнем знаний, быть в курсе различных знаний;
- обладать глубокими знаниями о молодежи, педагогической психологии, социальной психологии и педагогике, физиологии молодежи и школьной гигиене;
- обладание основательными знаниями предмета, по которому он преподает, и осведомленность о новых достижениях и недостатках в области своей профессии, в мировой науке;
- овладение методикой обучения и воспитания;
- творческая сторона его работы;

- ребенок сможет понять свое психическое развитие, свой внутренний мир;
- владение педагогическими приемами (логикой, речью, выразительными средствами воспитания) и педагогической тактикой;
- постоянное совершенствование педагогического мастерства.

Каждый педагог должен стремиться соответствовать этим требованиям на самом высоком уровне. Требования, предъявляемые обществом к воспитателю, важнейшими личностными качествами различных педагогов являются их родная земля, родной язык, любовь к истории своего народа и его культуре, живущая в идее независимости государства, высокое чувство социальной ответственности, усвоение таких качеств детьми со стороны общества, способность к саморазвитию. Также важно, чтобы он был благороден, умен, духовно чист, соответствовал высоким целям в духовности и просветлении.

Верность учителя своей Родине, любовь к детям, стремление воспитывать их в духе гуманизма-это социальные ожидания, индивидуальность Воспитателя, его готовность соответствовать требованиям таким образом свидетельствуют о готовности конкретного воспитателя к педагогической деятельности. [3; 10] в определенный исторический период общества решение вопроса об основных и второстепенных переменных характеристиках воспитателя, характерных для указанного времени и места работы, несколько усложняется. Новые условия, которые происходят в обществе, ставят новые цели и задачи в области образования и профессиональной подготовки. Для того чтобы сформировать ребенка как свободомыслящую личность, отвечающую современным требованиям, необходимо, чтобы воспитатель сам был самостоятельным мыслителем, высокообразованным, широко мыслящим человеком и регулярно развивал в себе эти качества. Родители ожидают от него умения воспитывать и обучать своих детей, независимо от того, каким будет стаж работы учителя и его возраст. И дети характеризуют учителей в соответствии с тремя различными качествами. В частности, во-первых, гуманизм воспитателя, справедливость, чистая совесть, качества любящих детей; во-вторых, в зависимости от внешних качеств и поведения, связанных с чуткостью, трудолюбием воспитателя; в-третьих, они характеризуют воспитателя в соответствии с его качествами, связанными с образовательным процессом, такими как его знание науки, его понимание ее. Следует отметить, что наряду с требованиями к повышению эффективности образовательного процесса растут и социальные требования к личности педагога и его деятельности. Требования к воспитателю со стороны общества, различные социальные ожидания, индивидуальность Воспитателя, его готовность соответствовать требованиям таким образом свидетельствует об уровне готовности конкретного учителя к педагогической деятельности.



## СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Мирзиеев Ш. М. "Мы построим наше великое будущее вместе с нашим храбрым и благородным народом." "Узбекистан" -2017.
2. Саидахмедов Н. Педагогическое мастерство и педагогические технологии. - Т.: АПИ, 2003.
3. Султанова Г. А. Педагогическое мастерство. - Т.: ТДПУ им. Низами, 2005.
4. Botirova Sh.I. (2020). FORMING PATRIOTIC SPIRIT WITHIN PEDAGOGICAL EDUCATION CLUSTER. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8(10), 200-205.
5. Ботирова Ш.И. (2020). Педагогик таълим инновацион кластери янги устувор йўналиш сифатида. *ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES*, 1(3), 487-494.
6. Кошанова Н.М. Оила ва мураббий манфаатли ҳамкорлигининг таълим сифатини оширишдаги аҳамияти. *ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 1 | ISSUE 3 | 2020 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2020: 4.804.34-б.*
7. Кошанова Н.М. Таълим самарадорлигини таъминлашда оила таълим салоҳиятини яхшилаш - долзарб вазифа «Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириў» илимий-метадологик журналы .Нукус.2021.4-сон.49-б.
8. Данилова, Л. Н. «Родители-монстры» или воспитательное партнерство [Текст] /Л.Н.Данилова//Директор школы. - 2011. - №3. - С.67-72

## АЛИШЕР НАВОИЙ АСАРЛАРИ ТИЛИДА ТУРАР ЖОЙ НОМЛАРИ

*Махаммадиев Хуршид Лутфуллаевич,  
ЖДПИ ўқитувчиси*

Қадимдан уй-жой, яшаш учун мўлжалланган уй, турар жой кишилик ҳаётида, ҳар бир халқ моддий маданиятида энг муҳим элементлардан ҳисобланади. Шунингдек, уни ташкил этувчи қисмлар ва жиҳозлар ҳам катта аҳамиятга эга.

Навоий асарларида уй бир неча маънога эга. “Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати”да уйнинг олтига маъноси берилган:

**Уй** 1. Уй, хона, манзил, макон.

*Сурди Масъуд уйин сўроғ айлаб,*

*Базмини мояи фароғ айлаб.*

1. Иморат, бино: ...*ва шишадин бир уйи бор эдиким, анда тоат қилур эрди* (Тарихи ҳукамо ва анбиёдан).

2. Тана, жисм, гавда.

3. Ватан.

4. Даргоҳ.

5. Ўтов, чодир: Вале базм юз бошлиқ оқ уй аро.... [АНАТИЛ, 1984: 281].

Дарҳақиқат, шоир дostonларида буларга жуда кўп мисоллар мавжуд:

*Май не ажаб танни ябоб айласа,  
Сел не тонг уйни хароб айласа.  
Уйни йиқиб сел этар элни жало,  
Хоссаки вайрон ую сели бало.* [Алишер Навоий, 7-ж, 1991: 278].

*Дўст уйида чу бўлуб меҳмон,  
Ҳарне керак ҳозир этиб мизбон.* [Алишер Навоий, 7-ж, 1991: 123].

Достонларда, умуман, Навоий ижодида **уй** лексемасидан *жисм уйи*, *кўнгил уйи*, *жон уйи*, *кўз уйи*, *вужуд уйи* каби мажозий маъно кўчириш учун фойдаланилган. Масалан:

*Кўнглум уйин этти қайғу зиндон,  
Жисм уйи яна қаронғу зиндон.* [Алишер Навоий, 9-ж, 1992: 127].

*Ростлиқ таърифидаким, вужуд уйи бу туз сутун била барпой.* [Алишер Навоий, 7-ж, 1991: 278].

Навоий асарларида **уй** сўзининг омоними, ҳўкизнинг бошқа номи бўлган **уй** сўзи ҳам учрайди:

*Қўяр ассор уйи чун эгри гомин,  
Йўл этмас қатъ тез айлаб хиромин.* [Алишер Навоий, 8-ж, 1991: 16].

Бу ерда *ассорнинг уйи* – *жувозкашнинг ҳўккизи*.

**Уй, эв** ин, уя, ошён маъносида ҳам қўлланган:

*Кабутар этишгач уйин топмади,  
Ва лекин учардин қанот ёпмади.* [Алишер Навоий, 11-ж, 1993: 534-535].

*Занбурнинг эви киби кўнглум тўшук-тўшук.* [Алишер Навоий, 1-ж., 1987: 425].

**Оқ уй.** Навоий тилга олган *оқ уй* шоҳона чодир, аслзодалар, юқори табақа учун тикиладиган ўтовни англатади.

*Оқ уйга эшик руст, тунгук даги,  
Бўлуб кўрага эв даврига тўк даги.* [Алишер Навоий, 11-ж., 1993: 250].

(**Оқ уйнинг эшиги**, **туйнути** ҳам маҳкам, бу **эв (уй)га** тўшалган кигизи ҳам **кўркам**).

Навоий даврида олий табақа вакиллари бирор муносабат билан сафарга чиққанда, юриш, кўчиш маҳали, кўшин тушганда, албатта, **оқ уйлар** тикилиши, уларнинг адади кўп бўлиши табиий. Бундай пайтда базмлар ҳам тез-тез уюштирилган:

*Вале, базм юз бошлиқ оқ уй аро,*

*Оқ уй тоши тун мушки бирла қаро.* [Алишер Навоий, 14-ж., 1998: 144-145].

Атоқли адабиётшунос Иброҳим Ҳаққулов бир мақоласида туркий халқларда тилга олинган ва тушунилган “**оқ уй**”нинг маъно-мазмунни анча кенг ва хилма-хил бўлганини мисоллар билан, шунингдек шоир шеърларида учрайдиган бу бирикмани шарҳлаб, яхши очиб берган. У шундай ёзади: “Хон, бек, ҳар турли мансаб соҳиблари, бой-бадавлат кимсалар кун ўтказадиган даргоҳлар ҳам **оқ уйлар** бўлган. Улар ўзининг кўрки, маҳобати ва яшашга жуда ўнғайлиги билан ажралиб тургани учун бўлса керакки, Алишер Навоий **оқ уй** ҳақида қайта-қайта тўхталиб, ҳам шеърый, ҳам насрий

асарларида ҳар турли фикрларини баён қилади. Шоир “Фавоид ул-кибар” девонидаги бир ғазалида (595-ғазал) киш фаслидан сўз юритиб:

*Бу фасл аро хуш эрур оқ уй ичра бода ўти,*

*Бу ўт ёрурга муганний оззига олмоқ най -*

дейди. Демак, совуқ киш кунларида оқ уйда ўтириш вужудга қанча роҳат ва хузур бағишласа, унда ўтказилган йиғин ва гурунгларида ичилган май, тингланган куй-қўшиқлардан дил янада ортиқроқ. [Иброҳим Ҳаққул, 2011].

Навоий оқ уйни халқ яратувчанлик маданияти ва санъатининг ўзига хос намунаси сифатида “Муҳокамат ул-луғатайн” китобида мана бундай тасвирлайди: “Бир мутаайин нимаким **оқ уйдур**, анга **хиргоҳ** от кўйуптурлар. Аммо ани ажзосини кўпини турк тили билан айтурлар. Андоқки, тунглюк ва узук ва **тўвурлуғ** ва басруғ ва чиг ва қаноат ва кўзанак ва уғ ва боғиш ва бўсаға ва эркина ва ало ҳазал-қиёс”. [Алишер Навоий, 14-ж., 1998: 16].

Филология фанлари доктори, тилшунос Э.Умаров ушбу сўзларга асосланиб, “биринчидан, Навоий оқ уй ва унинг қисмларини яхши билибгина қолмай, унда яшаган”, иккинчидан, “уни қуриш ва тиклаш” ишларида бевосита иштирок этган, дея тахмин қилади [Умаров, 2005: 31-32].

Бунга шубҳа қилмаса ҳам бўлади. “Муншаот” асарида Балх юришидан қайтаётган подшоҳ Ҳусайн Бойқаронинг истиқболига чиққан пири ва устози Абдурахмон Жомийнинг ҳурмати ва истироҳати учун салтанат мулозимлари унга мана шундай оқ уй тикиб берганини ҳикоя қилади: “Кеча алар истироҳат қилур учун бир янги такаллуфлик **оқ уй** бор эрди, ани тиктурулди, то ул Ҳазрат анда осойишға машғул бўлдилар. Иттифоқо ул кеча бир ғариб тунд ел эстиким, ўрдунинг кўпроқ **оқ уй чодирларин** йикиб, ажаб ошуб эл орасиға солди. Алар учун тиккан **оқ уйни** дағи йикиб, ушотибдур” [Алишер Навоий, 15-ж., 1999: 18].

Шоир бир ғазалда маъшуқанинг ажиб киприкларидан кўнгулда *оқ уй* бино қилиш истагини шундай битади:

*Кўнгулда угларидан оқ уй айласам, не ажаб,*

*Ки кўнглум ичра ватан қилди моҳи хиргоҳи.*

Байтдаги оқ уй ашъёси сифатида кўринган *углар* – ўтовнинг устки ёғоғларидир [НАЛ, 1972: 629] **Хиргоҳ** эса форсча сўз бўлиб, юқорида Навоий қайд этганидек, оқ уйнинг, шунингдек, чодир, ўтовнинг синоними сифатида қўлланган. “Фарҳод ва Ширин”да эса бу сўз иштирок этган **етти хиргоҳ** етти осмон маъносида ишлатилган:

*Кўзи тушгач ул ойга, чекти бир оҳ*

*Ки, дудидин қорорди етти хиргоҳ.* [Алишер Навоий, 8-ж, 1991: 305].

Фарҳод шарафига уюштирилган зиёфат қаср ичида бўлмоқда. Шоир Ширинга кўзи тушган Фарҳод шундай бир оҳ торттики, етти осмон унинг дудидан қорайиб кетди дер экан, муболаға санъатининг ифрок туридан истифода қилади.

Достонларда подшоҳларга хос турар жой, даргоҳ маъносидаги **боргоҳ** номи қайд этилади:

*Тўрида боргоҳнинг бир бийик тахт,*

*Анинг устида бир шоҳи жавонбахт.* [Алишер Навоий, 8-ж, 1991: 355].

**Боргоҳ**- 1. подшоҳ қабулхонаси; қаср; маҳкама; даргоҳ. 2. Чодир, ўтов. Навоийда *баргоҳ* подшоҳларга хос чодир сифатида ифодаланган:

*Ҳамул сабзага тушиди хайлу сипоҳ,*

*Тикилди яна чархсо боргоҳ.* [НАЛ, 1972: 314].

“Сабъаи сайёр” достонида Ахий шаҳзода Фаррухни муродига етказиб, уни юртига кузатиб қўйишда яна кўпдан-кўп инъомлар ва сафар улову анжомларини тортиқ қилади:

*Хачиру тева борчаси зебо,*

*Борчанинг рахти атласу дебо.*

*Уй ила боргоҳу шамиёна,*

*Анга лойиқ гилими ҳам ёна.* [Алишер Навоий, 10-ж, 1992: 177].

Бу ўриндаги сўзлар тасвиридан *уй, боргоҳ, шамиёна* каби асбобу анжомлар сафар чоғида фойдаланишга мўлжаллангани ва уларнинг ҳар бири алоҳида-алоҳида уй ёки чодир экани англашилади.

Қуйидаги мисол ҳам бунга далил бўла олади:

*Сабза узра ясалди кошона,*

*Зеблиқ боргоҳу шамиёна.* [Алишер Навоий, 10-ж, 1992: 399].

**Шомиёна / шамиёна** луғатларда *чодир, соябон* деб кўрсатилган:

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Абдина Р. Наименования жилищ и зональных мест традиционной юрты в хакасском языке. Филологические науки. Вопросы теории и практики. 2019. Том 12. Выпуск 10. – С 167.
2. Абдушукуров Б. “Қисаси рабғузий” лексикаси. Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2017. – 259.
3. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. Биринчи том. – Тошкент: Фан, 1987. – 689 б.
4. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. Олтинчи том. -Тошкент: Фан, 1990. – 555.
5. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. Еттинчи том. – Тошкент: Фан, 1991. – 422 б.
6. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. Саккизинчи том. – Тошкент: Фан, 1991. – 595 б.
7. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. Тўққизинчи том. – Тошкент: Фан, 1992. – 377 б.
8. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. Ўнинчи том. – Тошкент: Фан, 1992. – 491 б.
9. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. Ўн биринчи том. – Тошкент: Фан, 1993. – 727 б.

10. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Ўн учинчи том. – Тошкент: Фан, 1997. – 300 б.
11. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Ўн тўртинчи том. – Тошкент: Фан, 1998. – 315 б.
12. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Ўн бешинчи том. – Тошкент: Фан, 1999. – 224 б.
13. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Ўн олтинчи том. – Тошкент: Фан, 2000. – 335 б.
14. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. I том. – Тошкент: Фан, 1983. - 646 б.
15. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. III том. – Тошкент: Фан, 1984. -622 б.
16. Иброҳим Ҳаққул. “Ул куёш оқ уйдаю мен...” (2011) <https://ziyouz.uz/matbuot/hozirgi-davr-matbuoti/2011-sp-476264307/>
17. Махмуд Кошғарий. Туркий сўзлар девони / Девону луғотит турк. Уч томлик. I том. Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1960.
18. Умаров Э. Алишер Навоий асарларида “оқ уй” атамаси. Ўзбек тили ва адабиёти, 2005, 1-сон.

## «РУССКИЙ ЯЗЫК КАК ПРЕДМЕТ ИНТЕНСИВНОГО ИЗУЧЕНИЯ В ШКОЛАХ ЕВРОПЫ»

*Дониёрова Лайло Худайбердиевна,  
Преподаватель кафедры «Теория начального  
образования» Чирчикского государственного  
педагогического института*

Русский язык уже несколько лет стабильно занимает пятое место среди иностранных языков, изучаемых в школах всего мира. Он подчиняется — по крайней мере, на первый взгляд — тем же общим условиям, что и другие школьные языки. В то время как английский является большинством из первых иностранных языков, выбираемый в школах, все другие иностранные языки, предлагаемые в школе и обычно сопровождаемые английским языком, считаются 2-м или 3-м/4-м в образовательной политике. В принципе иностранные языки имеют равные права рядом и в конкуренции друг с другом. Конечно, есть различия, которые имеют немаловажное влияние на отношение к отдельным иностранным языкам в школе и количество учеников, как с точки зрения традиции, так и оценки предметов иностранного языка: французский язык по-прежнему является самым важным иностранным языком. в школе после английского, хотя в последние годы он возрос, потерял популярность.

Польза уроков латыни почти никогда не подвергается сомнению в связи с высокой воспитательной ценностью, тренировкой логического мышления и понимания языка. Повышение привлекательности испанского



языка, который с 2003/2004 учебного года опережает русский, является более поздним общенациональным явлением. В последние годы традиционный канон иностранных школьных языков постепенно расширяется за счет включения других языков в рамках ориентации языковой политики на европейскую концепцию многоязычия. Однако следует сказать, что широкий спектр теоретических возможностей и веских причин для выбора языка практически сочетаются с ограниченным выбором. Например, для изучения итальянского, русского, польского, чешского, турецкого языков с точки зрения своего значения как школьного предмета русский иностранный язык претерпел серьезные изменения в силу специфического сочетания внешних и внутренних факторов. Это единственный иностранный школьный язык, чей языково-политический статус и общественно-политическое значение изменились в результате социальных потрясений: в восточных федеральных землях он превратился из первого иностранного языка, который когда-то был обязательным для всех учащихся с 5-го класса до последний на один из многих языков в необязательной (обязательной) области. В западных федеративных государствах изменения не такие резкие: в 1970-х и 1980-х годах русский как иностранный школьный язык, как язык труднодоступной Восточной Европы, не только имел маргинальный статус в традиционном иностранном языке канон английского, французского и латыни, но всегда имел несколько экзотический оттенок. Сегодня он остается одним из наименее изучаемых иностранных языков и с этой точки зрения, несмотря на свой статус мирового языка и лингва-франка на постсоветском пространстве, является одним из «немаленьких» языков.

Насколько известно, влияние обязательного характера обучения иностранному языку на отношение и мотивацию учащихся, а также на восприятие и оценку этого иностранного языка в обществе в целом, которые в сочетании с другими факторами оказывают влияние на статус иностранного языка в школе, до сих пор не исследованы. Даже без эмпирического обоснования, конечно, очевидно, что наследие сопутствующей идеологизации уроков русского языка, особенно в восточных федеральных землях, все еще дает о себе знать спустя более двадцати лет после потрясений. Это выражается, в частности, в двойственном социальном восприятии этого иностранного языка. Потребность в знании русского языка, возникающая, прежде всего, в сфере торговли и экономики, в меньшей степени в сфере туризма, и фундаментальный интерес к поддержке изучения русского языка сталкивается с неприятием, которое, как показал опыт, находится под эмоциональным влиянием со стороны многих родителей, учащихся, но и других учителей-предметников и директоров школ. По-видимому, эти оговорки — как показывает К. Шредер в своем вкладе в эту книгу — имеют далеко идущие исторические корни. Эмпирически обоснованные представления о современных установках и мотивах выбора иностранного языка для школы до сих пор оставались желательным не только по отношению к русскому языку. Опыт показывает, что до сих пор

есть родители, которые отговаривают своих детей от изучения русского языка из-за собственного опыта изучения русского языка, что подразумевает умеренные успехи в обучении и мало перспектив применения. Русский считается сложным языком, актуальность применения и профессиональные перспективы часто оцениваются меньше, чем с другими иностранными языками. Разнообразные связи русской и немецкой истории и культуры, нынешнее присутствие русского языка в городах Европы и в других многоязычных городах явно не смогли развить свой мотивационный потенциал по разным причинам.

Особенностью и проблемой, отличающей русский язык от всех других школьных языков, несомненно, является тот факт, что существует высокая доля (в зависимости от региона) учащихся, для которых русский язык является не иностранным, а родным или родным языком. Это означает, что один из самых распространенных языков мигрантов в Европе представлен в качестве иностранного школьного языка. Отсюда прежде всего следует, что бытовые различия между учащимися в их личностных, социальных, мотивационных, познавательных и эмоциональных предпосылках, которые даны для всех предметов, на уроках русского языка подкрепляются разным отношением к предмету и разным уровнем предшествующих знаний. Будем. Соответственно, учителя сталкиваются с огромными проблемами при планировании и проведении уроков. Это требует дидактико-концептуальной и методической разработки, а также классификации, систематизации и осмысленной обработки большого опыта педагогической практики последних лет. С одной стороны, речь идет о понимании языкового богатства учащихся как ресурса в смысле многоязычных дидактических принципов и о том, чтобы сделать его пригодным для использования на уроках русского языка. С другой стороны, речь идет о взгляде на важность изучения русского языка с точки зрения продвижения социального многоязычия и, принимая во внимание упомянутую специфику, о постановке задач и методологических концепций уроков русского языка. В силу интенсивного экономического роста в России, а также в связи с постоянным увеличением количества российских туристов в последнее время, русский язык приобретает всё большую значимость в странах Европы. Цель преподавания РКИ в школах – формирование у школьников отношения к этому предмету, как к необходимому средству общения с окружающими нас русскоязычными людьми; развитие у них внутреннего желания овладеть им в достаточной степени, чтобы успешно использовать язык в дальнейшей жизни. В процессе изучения языка у учащихся должно создаться представление о нём, как о важнейшем средстве общения между людьми, как о средстве хранения информации, а также о средстве, объединяющем различные социальные группы и разные поколения людей. Предоставив ученику интересную (рассказать, например о культуре, истории страны) информацию на уроке, заинтересовав его, у учителя появляется возможность повысить мотивацию к изучению русского языка.

**СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:**

1. Алферова, А.Д. (1911). Родной язык в средней школе. Опыт методики
2. Школьная Библиотека No 4. Апрель. 2008. Взято 03.04.2013 по [www-адресу: http://www.rusla.ru/rsba/pdf/Varganova-Shkola-tvorchestva.pdf](http://www-адресу: http://www.rusla.ru/rsba/pdf/Varganova-Shkola-tvorchestva.pdf).
3. Восман, 11.03.2013. В. Х. Изучение русского языка в Финляндии вызывает противоречия. Сайт Postimees. Взято по [www-адресу: http://rus.postimees.ee/1165312/izuchenie-russkogo-jazyka-v-finljandii-vyzyvaet-protivorechija/](http://rus.postimees.ee/1165312/izuchenie-russkogo-jazyka-v-finljandii-vyzyvaet-protivorechija/).
4. Гальскова, Гез, 2007. Гальскова Н. Д, Гез Н. И. Теория обучения иностранным языкам.
5. Марченко, Т. В. 2020. «Русский язык в Германии: его жизнь, приключения и особенности изучения». Вестник Российской академии наук. 2020. 90, № 1, С. 74-80 DOI: 10.31857/S0869587320010107.
6. <https://sciencejournals.ru/cgi/getPDF.pl?jid=vestnik&year=2020&vol=90&iss=1&file=Vestnik2001010Marchenko.pdf>. (12.09.2021)
7. Пенчева, А. 2017. «Ретур — Инновционный ресурс для обучения русскому языку работников туризма в странах ЕС». Russian Journal of Linguistics, 21 (3), С.

**“МАЪНОЛАР ХАЗИНАСИ” АСАРИДА ҲУСАЙН БОЙҚАРО  
ТИМСОЛИ**

*Бўронов Икром Қучқарович,  
ЖДПИ ўқитувчиси*

Алишер Навоийнинг ҳаёти ва фаолияти нафақат Мовароуннаҳр ва Хуросон, балки бутун дунёда жуда кўплаб юз берган ҳамда кескин тарзда кечган воқеалар даврига тўғри келади. Унинг болалик давридаёқ Хуросон ва Мовароуннаҳрда қонли тўқнашувларни келтириб чиқарган ҳокимият алмашинувлари юз берди. Йигитлик ёшида Хуросон, хусусан Ҳирот бошқарув тизимида тубдан ўзгаришлар содир бўлди. У ўрта ёшлари ва кексайган чоғларида ҳам мамлакатда юз берган қатор қўзғолонлар, барқарорликни издан чиқарувчи низолар, сиёсий гуруҳлар ва бошқарув тизими вакиллари орасидаги келишмовчиликлардан узоқда бўла олмаган. Шунга қарамай у ниҳоятда самарали ижод қилиб, кўплаб асарлар яратди. Унинг асарлари ҳажмидан ташқари ҳар бири ўзининг нодирлиги билан жаҳон адабиёти хазинасига ўчмас ва улкан ҳисса бўлиб қўшилди. Мазкур асарлар бадиий ижоднинг ранг-баранг мавзу ва мотивларини қамраб олади ва улар ичида албатта сиёсат, бошқарув ҳамда раҳбаршунослик соҳаси масалалари ҳам ўрин олган. Унинг бу масалаларга қаратилган баъзи шеърлари бевосита ҳаётида кечган воқеалар билан боғлиқ бўлса, баъзилари кузатганлари, эшитган ва ўқиганларидан олган хулосаларига асосланади. Шу жиҳатдан биз қуйида Алишер Навоийнинг баъзи асарларига эътибор қаратишни лозим топдик.

**«Хазойин ул-маоний».** Алишер Навоийнинг «Хазойин ул-маоний» асари лирик жанрдаги шеърларидан тузилган бўлиб, бу йўналишда асосан бутун умри давомида яратилган асарларини қамраб олади. Асар халқ орасида «Чор девон», «Куллиёт» номлари билан ҳам тилга олинади ва ҳақиқатан тўртта мустақил девондан иборатдир. Унинг «Ғаройиб ус-сиғар» («Болалик ғаройиботлари») номли биринчи девони дебчасида Навоий бу тўпламни ҳукмдор Ҳусайн Бойқаро маслаҳати ва топшириғи билан тузгани [1:11]. Бундан олдин ҳам «Бадойиъ ул-бидоя» ва «Наводур ун-нихоя» номли икки девон тузиб, «аиззайи асҳобу ажиллайи аҳбоб хидматлари»га топширгани, бу «икки девон тартибида ... ҳам бу фақир...ға ҳеч ихтиёр йўқ эрди, невчунки барчаси султоний ҳукмлару эҳсону таҳсинлар ва ҳоконий амрлару таъ-лиму талқинлар била...» бўлгани ҳақида хабар беради [1:6]. Навоийнинг бу сўзлари (гарчи тарихчилар ўз асарларида кўп бор битган бўлсалар-да), ҳукм-дор Ҳусайн Бойқаронинг бошқа соҳалар қатори бадиий ижодда ҳам сало-ҳиятли, турли ижодкорлар ва ижодий ишлар билан қизиқувчан раҳбар шахс бўлганини ҳам кўрсатади. Навоий баъзи таърифларида Ҳусайн Бойқарони Худо кўнглига билим хазинасини жойлаган ва турли соҳаларнинг кўп қиррали билимдони, ўзи эса тупроқ каби камтар, Аллоҳ унинг қизиқишлари ва интилишларига иқбол бериб, дунёнинг забардаст (ҳукмдор)ларидан бирига айлантирган бўлса-да, ўзини барчадан қуйи кўрадиган, даргоҳи одамларнинг интиладиган жойи, эл дардини тушунадиган, ҳар нарсадан огоҳ, айна пайтда кўнгилчан ҳукмдор сифатида баҳолаб ўтади. Бунга Навоийнинг қуйидаги рубоийларини мисол келтиришимиз мумкин:

Ҳақ кўнглин анинг биликка маҳзан айлаб,  
Ҳарф анда ариф зотини якфан айлаб,  
Жоҳи тахтин(и) чархи мусамман айлаб,  
Туфроқдек ўз ўзин фурутан айлаб.

Ёки:

Иқбол анга давлат майи пайват тутуб,  
Бу бода била жинон анинг маст тутуб,  
Ҳақни сипеҳрдин забардаст тутуб,  
Туфроқдин ул вале ўзин паст тутуб.

Ёки:

Ҳам қиблайи иқбол ҳарими жоҳи,  
Ҳам Каъбайи омил бийик даргоҳи,  
Шаҳларнинг дардмандию огоҳи,  
Бу турфаки, дардмандларнинг шоҳи [1:9-10].

Ҳусайн Бойқаронинг нафақат давлат бошқаруви ва сиёсат борасида, балки адабий жараёнларни бошқариш, бадиий ижод борасида ҳам ғоятга чуқур билимли ҳукмдор бўлганини Навоий мазмунини келтирган унинг хати (буйруғи) ҳам исботлайди. Унда Ҳусайн бойқаро Навоийга «бурунғи икки девонким, бизнинг ҳукму хитобимиз била мураттаб қилдинг ва куллиёту жузвиегин бизнинг машварату таълиму истисвобимиз била тузаттинг» [1:9-11], деб ёзган эди. Шунингдек, хатда Ҳусайн Бойқаро Навоийга ўз шеърларини тўплаб, тўрт девон тузиш вазифасини юклар экан, бу ишни

тарихда кам одам қилгани, Амир Хусрав Деҳавий султон Маликшоҳ Алп Арслон шарафига ўз шеърларидан шундай тўртта девон тузгани, лекин уларнинг ҳозир (ўша вақт) бор-йўқлиги номаълумлигини ҳам эслатади [1:11]. Бундан ташқари Навоий «Хазойин»ни яратиш даврида шеърларини тўплаб, ҳукмдорга юбориб тургани, у эса турли жиҳатлардан таҳрир қилиб, хато ва камчиликларини тузатиб, ҳар бир шеърнинг девондаги ўрнини белгилагани, мавжуд камчиликлар ва тузатилган жойлари юзасидан хабар йўллаб турганини ёзади [1:15]. Ҳусайн Бойқаро мазкур девонни тузишда Навоийга бевосита кўймоқчи бўлганини шоир шундай қайд этган: «шўхвашлар (шеърлар – Ф.Р.) эллик, олтмиш ё юзга яқин бўлсалар эрди... Султони соҳибқироннинг ҳарами саройиға кирур эрдим ва бирин-бирин ул ҳазратнинг кимё асар назарига еткурур эрдим... ва ул ҳазрат аларға шафқат юзидин боқиб, қайси маъно шўх (шеър – Ф.Р.) инингким таркиби хилъатида ва алфози қисватида бетакаллуфлуқ кўрса, ўз ганжинани замири хизонасидин муносиб алфоз била ул либосларға тағйир бериб ва ул алфоз қисватида санойиъ жавоҳиридин номуносиблиғ маълум қилса, ўз хизонаи хотири ганжхонасидин... табдил еткуруб, ҳар ғазални тартиб юзидин ўз ўрниға рақам қилур эрди» [1:15-16]. Буларнинг барчаси Ҳусайн Бойқаронинг бадий ижодни, адабиёт тарихини яхши билиши, ижодкорларга нисбатан катта ҳурматда бўлгани, уларни кадрлагани ва керак бўлса, шахсан ҳиммат кўрсатгани, уларнинг жамиятдаги мавқеини юксак тутганини эътироф этади. Навоий ҳатто унинг чуқур билими, юксак салоҳиятини таъкидлаб, билимлар хазинаси бўлганлиги учун девоннинг номи шу хислатларидан келиб чиқиб аталганлигини ёзади: «Бу маъно гавҳарлари барча ул ҳазратнинг таъби баҳридину зеҳни конидин ҳосил бўлди ва алфозу иборат хазойини ҳамул маънолар гавҳаридин тўлди, бу маънодин анинг отин «Хазойин ул-маоний» кўюлди» [1:16]. Навоий бу эътирофни қуйидаги рубоийси билан ҳам таъкидлайди:

Бу баҳрки, ганжи ломаконий дедилар,  
 Ҳар қатрасин оби зиндагоний дедилар,  
 Шаҳ махзани таъбидин нишони дедилар  
 Ким, ани «Хазойин ул-маоний» дедилар [1:17].

Алишер Навоий ижод нуқтаи назаридан ҳукмдор даргоҳини «сўз байт ул-ҳарами... ва назм шоҳбайти» таърифлари билан тилга олади [1:6]. Тарихий манбалар ҳам Ҳусайн Бойқаро уйда, саройда ижодий, адабий, ижтимоий-иқтисодий, маданият, маърифат билан боғлиқ кўплаб тадбирлар бўлиб турганлиги, кўплаб иқтидорли ва оддий кишилар бу йиғилишларда иш-тирок этиш, фикр билдириш имкониятига эга бўлганлигини тасдиқлайди. Бу жиҳатлар эса Навоийнинг ҳукмдор ва унинг даргоҳига берган таърифларини анча реаллаштиради. Шунингдек, шоир «Хазойин ул-маоний»ни тузиб тугатганда 50 билан 60 ёшлар орасида бўлгани, умрининг кўп вақтида давлат ишлари билан банд бўлиб, эркин ижод қила олмагани аламли эканини таъкидлаб ўтади:

Эллик била олтмишқа етти қадамим,



Не маъноким, бўлмади эркин рақамим.  
 Не турфаки, сабт этмади эркин қаламим  
 Ким, йўқ биринин хотир аро жуз аламим [1:7].

«**Ғаройиб ус-сиғар**». Юқорида таъкидлаганимиз каби Навоий кескин ўзгаришлар даврида яшаган. Унинг ўзи ҳам иштирокчи бўлган бу даврни у сўз ўйини билан ғоятда ажойиб тасвирлайди. Мазкур тасвир моҳиятига кўра давлат ва жамият ичида юз бераётган ўзгаришлар сабабли одамлар фикр-мулоҳазаларининг ҳокимият олдида ҳеч қандай эътибори қолмаган ёки талашувлар туфайли сиёсий, ҳарбий ва бошқа доираларнинг жамият аҳволи (жумладан мавқели кишилар ҳам назарда тутилган – Ф.Р.) билан иши бўлмай қолган ёхуд бошқарув тизимининг ўзбилармонлигидан жамият фикри эшитилмайди. Одамларнинг бирор иш қилишда мустақил эмасликлари ҳам шу каби, уларнинг ё эҳтиёжлари жуда баландлиги, ёки ҳокимиятнинг ўта каттикўллиги ёхуд беқарорлиги, бундай замонда ким бўлмасин, агар Худо унинг пешонасига бирор иқтидор (қобилият – Ф.Р.) бермаган бўлса, унинг на ўзида, на қиладиган ишида эрки йўқлиги таъкидланади:

Ҳам демагида йўқ эътиборе кишига,  
 Ҳам қилмоғида йўқ ихтиёре кишига,  
 Тақдир аро чун йўқ иқтидоре кишига,  
 Не қилганига не эрк боре кишига [1:7].

Мазкур рубоийни Навоий назаримизда энди шеърлар ёза бошлаган ёшлик чоғидаги бошидан ўтган воқеалар тавсифини умумлаштириш муносабати билан келтиради. Чунки, қарилик чоғида («Хазойин»ни тузаётган вақтида – Ф.Р.) ёшлигини эсларкан, «Яна рўзгор ҳаводисидин (ўтган кунлар воқеаларидан – Ф.Р.) ул фикрлар (хотиралар – Ф.Р.) барча кўнглумдин борди (ёдимдан кўтарилди – Ф.Р.), (сабаби – Ф.Р.) оллимга онча душворлиғлар юзландию теграмга онча саъб (машаққатли) гирифторлиғлар айланди ва сипеҳр (дунё) бошимга онча бало тоши оттию ишқ сипоҳининг лагадқўби (тепиб эзғилаши) заиф пайкарим (танзим) била сўнгақларимни онча оёқ остида ушаттиким, не сўзумдин хабариму не ўзлугимдин асарим қолди», – деб ёзади [1:7]. Дарҳақиқат, Навоийнинг ёшлик чоғлари катта ўзгаришлар даври бўлган. Абулқосим Бобур вафот этгач, Хуросонни Мирзо Абусаид Мовароуннаҳрга қўшиб олди ва Туронни қайта тиклашга ҳаракат қилди. Бу Турон умумий сиёсий аҳволи нуқтаи назаридан ижобий ҳодиса бўлса ҳам бошқарув жараёнларида вужудга келган зиддиятлар, мураккабликлар нуқтаи назаридан салбий ҳодиса сифатида баҳоланади. Бу вақтда Хуросон бошқарув тизими Абусаид билан келган Мовароуннаҳр ҳокимияти вакилларига бўйсунушга мажбур эдилар. Кейинчалик Навоий бу ҳақда шундай ёзган эди: «Султон Абусаид Мирзо замонидаким, Хуросон аҳли Самарқанд аҳлига асир эрдилар ва ҳар навъ зулм ва тааддики, алардин воқеъ бўлса, бу асирлар мутеъ ва фармонпазир». Мирзо Абусаидни бошқа бир ўринда Алишер Навоий «улуғ султон» номи билан тилга олади. Лекин, унинг хизмат тизими Абусаиднинг ғоялари ва мақсадларини бизнингча, етарли тушунмаган.

унки, Хуросон бўйсундирилгач, бу хизматчилар Шохруҳ ва Абулқосим Бобур яратган бошқарув тизимига барҳам берадилар ва Навоий «Наводир уш-шабоб»да ёзгани каби, айниқса, Ҳиротнинг бутун аҳолисини талайдилар:

Ўлум келса бир зори бедил сари,  
Мадад айлабон лек қотил сари,

Ҳирот аҳлин элтиб ҳаводис ели,  
Эсиб дай елидек Самарқанд эли.

Бу мулк аҳли ул элга зору асир,  
Бўлуб наҳбу яғмо қалилу касир.

Манга бу эл ичра не ҳамдаме  
Ки, бир дам иковлон дейишсак ғаме [1:520].

Бошқарув ишларида қобилятли шахсда ўз ғояларини ҳаётга татбиқ этиш истаги устивор бўлади. Бу ҳолат Навоийда ҳам бўлган. У бу ҳақда эслар экан, ҳаракатга иштиёқи қанча баланд бўлса-да, дардларидан бир шингил айтиб кўнглини бўшатишга бир ҳамдард топа олмагани, натижада бор мулоҳазаларини шеърларига тўкиб солгани, вақт ўтиб, кўлида бир даста асосан «шарҳи ҳолот»ни ифодаловчи шеърлари тўпланиб қолганини айтади. (Навоий кейинчалик уларни йиғиб «Ғаройиб ус-сиғар»га киритган эди) [1:502-525]. Навоий уларни йиғиб, девон қилишни ўйлаб юрган кезларида «чун ул таърихдин муддате ўттию ул вақтдин фурсате ароға кирди» [1:8], жараёнлар ўзгариб, (бу ерда Ҳусайн Бойқаронинг ҳокимиятни кўлга олиши кўзда тутилган – Ф.Р.) у сиёсий ҳокимият ва бошқарув тизимининг фаол вакилига айланади [1:8]. Хуллас, Навоийнинг ўз қайдларига кўра, «Ғаройиб ус-сиғар» девонига «туфулийят авониким, етти-секкиз ёшдин йигирма ёшқача чинаса бўлғайким, умр фусулининг навбаҳори ва ҳаёт гулшанининг шукуфаву гулзоридур» [1:17] даврдаги шеърлари киритилган бўлиб, уларнинг орасида ўша давр шоир аҳволи, мамлакатда кечаётган жараёнлар, жамият ҳаёти, бошқарув тизимининг турли-туман қирраларини очиб беришга ҳам хизмат қилади.

Навоий Абусаид даврида кўпгина қийинчиликларни бошдан кечиргани, ҳатто бир ҳамсуҳбат топа олмай қийналганини ёзади. Лекин, шу даврларда ҳам у ўз ғурурини ерга урмайди. Давраларда у кўп гапирмаслик, агар гапирадиган бўлса, бу гап билим билан айтилиши лозимлигини таъкидлайди ва қаерда бўлмасин инсон ўз жиддийлигини сақлаши зарурлигини айтади. Дарҳақиқат, унинг ўзи ҳам ўша қийналган вақтларида ёт деб билган бошқарув тизими вакиллари олдига бош уриб боришни ўзига эп кўрмаган. Бунга ўзи таъкидлаганидек «виқор»и йўл бермаган. Замондошларида ҳам гарчи шоир ўта юмшоқ, меҳрибон, «ҳалим» киши бўлса-да, шу виқор кўзга ташланиб уни кибрга йўйганлар ҳам бўлган. Лекин, Навоий бу ғурурни одамийлик хислати сифатида доим эъзозлаган. У жиддийликни инсон обрў-эътибори, ўзаро муносабатларда ҳаммани ўзига тортувчи ва бўйсундирувчи энг тўғри йўл си-

фатида таърифлайди. Яъни инсон ўзи кадрлайдиган виқорга, шу билан бирга меҳрибонликка эга бўлиши лозим, бу хислат керак бўлса гадою шохни итоатга келтирувчи етакчилик хислатидир, деб таърифлайди:

Виқор гавҳарию хилм маъдани бўлакўр,  
Десанки, қилгай итоат санга гадо била шох.  
Бу шева тоғда зоҳирдурурки, даврондин  
Қачонки тафриқа етти, улуска бўлди паноҳ [1:531].

Лекин Хондамирнинг ёзишича, Навоий элдан ҳоли бўлганда бу виқорни унутарди: «Катта кудрат эгаси бўлган Соҳибқирон (Хусайн Бойқаро)-дан ўзига нисбатан бўлган иноят ва меҳрибончиликларнинг кундан-кунга ортиб бораётганини кўрганида хилват бир жойга борар, бошланг бўлиб, муборак бошининг тепасидан бироз тупроқ сочар ва нафис танасига қарата шундай дерди: «Бу дунёдаги юқори мансаб ва мартабалар ҳеч қандай куч ва эътиборга эга эмас. Ҳеч қачон бу мансаб ва мартабаларга етишганиндан манманлик ва кибрга берилиб кетмагин. Ўзингни йўлдаги бир тупроқ билиб, имкони борица фақирлар ва мискинларнинг эҳтиёжларини қондириш ва уларга ёрдам беришга ҳаракат қилгин» [3:104-105]. Ҳақиқатан ҳам Навоийнинг ҳаёти ва характери мана шу қитъа мазмунига жуда ҳам мос келади.

Навоий бошқарув тизимида ишлашнинг энг муҳим талабларидан бири сифатида тўғрилиқни таъкидлайди. У талқин этган тўғрилиқни маънан хилма-хил мазмунларда, айна вақтда адолат ва эзгуликнинг ранг-баранг кўринишларида тушуниш мумкин. Яъни инсоннинг тўғрилиғи бир жиҳатдан, бошқа жиҳатлардан эса бошқача бўлиши мумкин эмас. Навоий таъкидлаганидек, бошқарувчи ўз ишида барқарорликни истаса, ана шу тўғрилиқни аввало ўзининг қонунига айлантириши керак:

Бийик мақомга улким тилар сабот, керак  
Ки, эгриликни кўюб, тузлук айласа қонун.  
Туз ўлса соясида эл тиниб минор кеби,  
Сипехр уйида турар қарнлар нечукки сутун.  
Гар эгридур ёғибон ўку боғланиб бўйни,  
Бўлур қабақ йиғочидек беш-ўнча кунда нигун [1:532].

Навоий бошқарув фаолиятида инсон барқарорлигининг яна бир хусусияти тилга эҳтиёткорликда эканлигини таъкидлаган. Навоий даврида салтанат ҳизматида бўлиб, одамлар билан муомалада бўлиш, ҳукмдор билан мулоқот қилиш, ҳукм ва фармонларни тўғри талқин этиш, улар юзасидан мулоҳаза билдириш, умуман бошқарув фаолиятига хос бўлган ишлар ҳақида ноўрин, бемаврид, бебааб ва бефаросатларча фикр билдириш инсонларнинг нафақат мансаби, обрў-эътибори, оиласи, молу мулкани, балки ҳатто бошидан ҳам ажралишига сабаб бўладиган даврлар эди. Гарчи ҳокимият бир бошқарув тизимини ташкил этиш мақсади бўлиб, унда фаолият кўрсатадиганлар мана шу давлатнинг биргаликдаги таянчлари ҳисоблансалар-да, ички ҳолатда сиёсий, иқтисодий, ҳуқуқий ва бошқа мақсад ва манфаатдаги кўплаб гуруҳлар мавжуд бўлган. Бу ҳолат ўша давр, ундан олдинги ва кейинги барча давлат бошқарув тизимларида кузатилган. Ҳозирги давлатлар бошқарув

тизимлари ҳам бундан мустасно эмас. Фақат замонавий сиёсий тизимларда «муҳолиф кўз олдинда турсин ва сен билан бирга ишласин», деган қоидага амал қилинади. Бу ҳодисани тарихда ҳам кўриш мумкин, лекин у даврларда бу парокандалик кучга бўйсунган ва яширин кўриниш касб этган. Ҳукмдор сиёсатига қарши боришнинг ҳар қандай кўриниши, гарчи бу қаршилик ҳокимиятни эгаллашга қаратилмаган бўлса-да, шафқатсиз жазоланишга олиб борган. Навоий бошқарув ходимларини худди мана шу каби беғамликдан эҳтиёт бўлишга чақирган эди:

Навоий, тилинг асрағил зинҳор,  
Десангким, емай даҳр ишидин фусус.

Назар қилки, ўқ оғзи тилсиз учун,  
Қилур тожварлар била дастбус.

Неча тожварлар кесарлар бошин,  
Чу ҳангомсиз нағма тортар хурус [1:534].

Навоий хизмат ходимларини раҳбарга яқин бўлишдан юзага келадиган ҳолатлардан ҳам огоҳлантиради. Яъни бошқарув тизимида жуда қадим замонлардан ҳозирги кунга қадар давом этиб келаётган бир анъана бўлиб, унга кўра бошқарув лавозимига ўтирган раҳбар теграсида албатта унга қариндош ёки маънан яқин бўлган шахслар тўпланадилар. Тўғрироғи, раҳбар шахс мансаб лавозимига келгач, ўз зиммасидаги вазифаларни бажариш, бажариш юзасидан маслаҳатлар олиш, фикрлашиш, бажарилиши керак бўлган ишларнинг сифатини таъминлаш каби қатор мақсадларга кўра муайян шахсларни ўзига яқин лавозимларга тайинлайди ёки улар учун ўзига хос шаклларда махсус имтиёзлар жорий этади. Бу замонавий бошқарув назарияларида бошқарув жамоасининг шакллантирилиши билан асосланади. Жамоанинг раҳбарга яқин бўлган кишиси, унинг барча топшириқлари, вазифалари, бурчлари, ваколатлари, ташаббуслари, мақсадлари ва манфаатлари, ҳатто ғоялари ва тафаккурида ҳам шерик бўлиши мумкин. Бундай ҳоллар ҳозирги замонда ҳам кам эмас. Бошқарувнинг давлат, жамият даражасидаги катта тизимлари ҳам бу ҳолатдан мустасно эмас. Бинобарин, бундай катта тизимларда муайян мақсадлар йўлида бирлашган кичикроқ гуруҳлар ёки раҳбарнинг қарашларини ўзига оғдиришдан, унинг мақсадлари ёки манфаатларига биринчи даражали шерик бўлиш кабилардан умидвор бўлган қанот ва шахсларнинг бўлиши табиий. Бундай гуруҳ, қанот ва шахслар ўз мақсад ва манфаатларини қаноатлантира олмаган ёки шунга кўзи етмаган шароитларда ҳам раҳбарга таъсир кўрсатишга урунишларидан қайтмайдилар. Лекин амалиётда бу ҳолат раҳбарга яқин бўлган шахсларнинг унга ғараз мақсадлар билан катта таъсири натижасида, раҳбарнинг бошқаларга қулоқ солмаслиги, бошқаларни тингламай ёки писанд қилмай қўйиши натижасида ҳам юз бериши мумкин. Бунга ҳам тарихдан кўплаб мисоллар топилади. Навоий одамларнинг бундай кайфиятга ўтиши баъзида беихтиёр юз беради, деб таъкидлайди. Биз тарихда давлат бошқаруви тизимларида сиёсий таҳдидларнинг жуда кўпини биламиз.

Мана шундай таҳдидлар оқибатида заковатли бошқарув ходимлари, доно маслаҳатчилар қурбон бўлган. Навоий бу ҳодисалар мазмунига доир қарашларини бир қитъасида мутафаккирона, ғоятда ихчам ва аниқ тарзда ифодалаб берган. Дарвоқе, у бу мазмунни ўзи эгаллаган «муқарраби хазрати султон» лавозими даврида кузатган муносабатлари билан боғлиқ равишда акс эттиradi:

Шаҳға муқарриб ўлса бирав барча хайлдин,  
Эл барча душман ўлса анинг бирла важҳ бор.  
Ким хайлу шоҳ ошиқу маъшук эрур яқин,  
Гулчеҳраеки, ошиқ анга бўлса бешумор.  
Ул барчасидин ўлса бирисига мултафит,  
Душман бўлурда ўзгаларига не ихтиёр [1:536].

Навоий ҳар қандай инсон сўзлаётган жойи, сўз ўрни, маъно-мазмуни, унинг оқибати кабиларни ўйлаб сўзлаши мақсадга мувофиқлигини ҳам таъкилайди. Бошқарув тизимида бу ҳар қандай мулозим учун эгаллаши шарт бўлган ўта муҳим мезонки, уни касб этиш инсонни ҳар хил нохуш ҳолатлардан асрайди. Бир шеърда Навоий мана шу хусусиятни бизнинг назаримизда юз берган воқеага ишора сифатида келтиради. Навоий ўринсиз жойда, ўринсиз маънода, ўринсиз мақсад билан сўзлаган кишини аблаҳга, айтилган сўзини эса эшак арроси (ҳанграши)га ўхшатади:

Умрин аблаҳ кечуруб ғафлат ила,  
Нукта ўрниғаки тортар харрос.  
Бир эшакдурки, тағофил юзидин  
Қилғай изҳор паёпай аррос [1:537].

Раҳбар шахс муайян маънода эл устида ўтирар экан, унинг асосий вазифаси, аввало, ҳар ишда адолатли бўлмоқликдир. Лекин тажрибалар шуни кўрсатадики, раҳбар адолатининг бузулишини, аввало, унинг яқинлари юзага келтирадилар. Улар ўз яқинлари бўлган раҳбарнинг имкониятларидан фойдаланишга биринчи бўлиб уринадилар ёки унинг соясида, ундан сўрамасдан шундай ишларни амалга оширадиларки, улардан воз кеча олмаган раҳбар ўз адолатидан воз кечишга мажбур бўлади. Шунга кўра баъзи раҳбарлар лавозимга ўтиргандан сўнг иложи борича яқинлари-ю дўстларидан ўзини четга олишга ҳаракат қиладилар. Навоий қитъаларидан бирида мана шу ҳолатга муносабат билдиради. Навоий гарчи кейинчалик юқори даражадаги раҳбар, ҳукмдорга яқин бўлган кишилардан бири, буюк салоҳият эгаси, катта мулкдор, обрӯ-эътиборли шахс сифатида «Замонасининг хўблари» билан тез-тез мулоқотда бўлган, бу мулоқотлар баъзан расмий, баъзан норасмий, баъзан Навоийнинг ўзи ташкил этган ва баъзан «замона хўблари» ташкил этган тадбирларда, баъзан эса бошқа учрашувларда, умуман олганда эса ҳар куни бўлиб турган эса-да, йигитлик вақтидаги қийинчиликларда «замона хўблари» ўзларини олиб қочганларига ишора қилади. Навоийнинг ўша вақтларда бошига тушган бу ташвиш аслида ҳамма замонларга тегишли, яъни дўстлари, яқинлари рақиб тарафдори бўлган ёки раҳбарнинг сиёсатини қўллаб-қувватламаган кишилардан бугунги «замона хўблари» ҳам ўзларини олиб



кочадиларки, буни бошқарув тизимининг жуда қадимий ва бедаво касалликларидан бири дейиш мумкин. Шунинг учун Навоий умидвор бўлиб, кейин азоб тортгандан кўра, бошидаёқ умидвор бўлмасликни афзал ҳисоблайди:

Замона хўбларининг висоли шарбатидин,  
Навоиё, тилабон ком кўп чучутма мазок  
Ки, ҳар пиёласи зимнида коминг этгай талх,  
Сипехр туткусидур юз тағора захри фирок [10:537].

«Ғаройиб ус-сиғар»да шунингдек, Навоий бойликка ташналик, яхшилик қилиб ёмонликка йўлиқиш, такаллуф ва бетакаллуфлик, маккорлик, кибрдан кечиш, камтарлик, эътиқодда риёкорлик, ҳиммат ва бошқа кўплаб бошқарув тизимига алоқадор ишлар, кишилар, воқеалар, ҳодислар, хусусиятларга доир қарашларини ҳам ифодалаган бўлиб, биз бу ўринда уларнинг айримларигагина муносабат билдирдик [1:538-571]. Шуларнинг ўзи ҳам Навоий ёшлик даврида кўз ўнгида кечган жараёнларнинг моҳияти, уларнинг ўз даври ва келажакдаги таъсири, аҳамиятини яхши англаган шахс, яъни бошқарув ишларига ёшликдан иқтидорли инсон бўлганлигини кўрсатади. У қайд этган бошқарувга оид фикрлар, мулоҳазалар, хулосаларнинг кўп қисми бу соҳанинг ўзак масалаларига тегишли бўлиб, улар бугунги кунда ҳам ўз аҳамиятини йўқотган эмас.

«**Наводир уш-шабоб**». «Хазойин ул-маоний» таркибидаги иккинчи девон «шабоб замониким, йигирмадин ўтгуз бешгача деса бўлғайким, ҳам бу фусулнинг ёзидурурким, йигитлик чашмасорининг ҳаётбахшлигининг оғозидур, анинг васфида «Наводир уш-шабоб» [10:18], деб номланади. Мазкур девонда тўпланган шеърлар асосан муҳаббат борасидаги ғазаллардан иборат бўлса-да, улардаги айрим мисраларда Навоийнинг ўша вақтлардаги аҳволи, даврининг ўзига хос хусусиятлари ҳам ўз ифодасини топади. Девонда келтирилган қитъалар, айниқса, муайян воқеалар билан боғлиқ эканлиги сезилиб туради. Бир қитъасида Навоий:

Ҳикмат аҳли шоҳни дарёға ташбиҳ эттилар  
Ким, ҳам андин кўп зиёнлар элга, ҳам суд эрур.  
Гаҳ топар ғаввос бир соатда юз дурри самин,  
Гаҳ наҳанг оғзида юз ҳасрат била нобуд эрур [2:494].

– деб ёзар экан, ўз замонидаги воқеъеликнинг мазмунини унга сингдириб юборганини кўриш мумкин. Чунки шу даврлар сиёсий бошқарув тизимида турли-туман кескин ўзгаришлар юз берган, Мовароуннаҳр ва Хуросон бошқарув тизими вакиллари орасида бўлиниш, бирлашиш ҳолатлари авж олган, кучлар нисбатининг беқарор ўзгаришлари бошқарув тизимида тинимсиз ўзгаришларни намоён қилаётган, оқибатда сиёсат аҳлининг алмашинув жараёнлари билан боғлиқ ҳолатлар кундалик воқеъеликка айланган бир давр эди. Мазкур қитъа шу даврда яшаган кўплаб, сиёсий, ҳарбий арбоблар, жумладан темурий шахзодалар ҳаётини ҳам тўғри акс эттирган дейиш мумкин. Бундан ташқари қитъа ҳукмдорларнинг сиёсати, бошқаруви инсон ва жамият тақдирини бир лаҳзада ҳал қилувчи куч эканлигини ҳам ойдинлаштиради.

Навоий ижодида, умуман ўша давр лексикасида давлат хизматчиларини умумий маънода битта – «мулозим» номи билан тилга олиш одат бўлган. Навоий ижоди ва ўша даврда яратилган барча асарларда бу атамани кўриш мумкин. Хондамир ҳам Навоий Самарқандда яшаган кезларида Амир Султон Ҳасан Архангий ва унинг ўғли Мирзобекка мулозим – хизматчи бўлганлигини қайд этади [3:94]. Давлат хизматида фаолият юритар экан Навоий табиийки турли-туман «мулозим»лар – хизматчилар орасида бўлган. Унинг қуйидаги қитъаси бизнингча юқори лавозимларда ишлаб юрган кезларида ёзилган бўлиши керак. Шоир унда хизматчилар назорати ҳақида гапирар экан уларни бир лаҳза ҳоли қўйиш ё эътибордан четда қолдириш умумий мақсад ва манфаатларга зарар келтиришини, уларни узлуксиз равишда бошқариб туриш зарурлиги, улар билан ишлаш эса оғир эканлигини таъкидлаб ўтади:

Йўлдин озди ҳар мулозимдинки, ғафлат айладинг,  
Будур ойин гар гадолиғдур ишинг, гар шоҳлиғ.  
Уркудар элдек ки чиқти кеча йўлдин маркаби,  
Кўз юмуб очкунча чунким қилмади огоҳлиғ.  
Олам аҳлида мулозимлар эрур ҳайвон кеби,  
Қайси ғафлат англағач зоҳир қилур бериҳлиғ [2:494].

Бошқа бир қитъасида Алишер Навоий ўзи фаолият кўрсатган муҳрдорлик лавозими билан боғлиқ хусусиятларни нозик маънода тавсифлаб берган. Навоийни муҳрдорлик мансабига қўйишдан мақсад ҳам аслида унинг ҳукмдор номидан чиқаётган фармон ва қарорларнинг сифати, маъноси, кўрсатадиган таъсири, келтирадиган натижалари ва охир-оқибатда ҳукмдор обрў-эътиборини сақлашдаги ўрни билан ниҳоятда муҳим аҳамият касб этар эди. Хондамир ўзининг «Мақорим ул-ахлоқ» асарида Навоийнинг бу лавозимга ўтиши юзасидан Ҳусайн Бойқаро билан бўлган суҳбати мазмунини келтириб ўтади. Унга кўра, салтанат йиғинида ҳукмдорнинг ёнида Бадиуззамон Мирзодан кейин бирор киши Навоийдан олдинда туриш ва ўтириш ҳуқуқига эга бўлмаган ва муҳр босишга ҳам Навоийдан олдин фақат унинг розилиги билан Амир Музаффар Барлосгина ҳақли бўлган [3]. Қуйидаги қитъада Навоий ишора қилганидек, муҳр босилиши аввало фармон, ҳукм ёки қарор қаратилган иш ёхуд кишининг мақсад ва манфаатлари тасдиғи, уларнинг кучга кирмоғини ифодалаган. Бу мақсад ва манфаатлар эса давлат хизматидаги турли гуруҳлар ва кишилар мақсад ва манфаатларини, Навоий айтганидек, уларнинг нафсини ҳам ифодалар эди. Шундай экан муҳрнинг қаерга – пастга ёки тепага қўйилиши ҳам катта аҳамият касб этар, яъни бу ҳужжатни кучга киритган кишининг биринчидан, тарафдор эмаслиги ёки иккинчидан, ҳукмдорнинг бу ишга муносабатини ҳам ифодаларди. Шунингдек, муҳрни ҳужжатга биринчи бўлиб босилиши, яъни барча мақсад ва манфаатларнинг биринчи бўлиб тасдиқланиши, бу муҳрдордан ўта катта масъулиятни талаб этарди. Шунинг учун ҳам Навоий муҳрни энг қуйида босиши ва бу ишда ҳужжат аҳамиятини сақлаш билан манфаатпарастларнинг нафсига зарба бермоқчи бўлгани, лекин бу мақсадга эришиш имкони бўлмагач, вазифани ташлашга мажбур бўлганини ёзган эди.

Чун манга лутф этти шах девонда муҳр,  
Бу эди элдин қуйи муҳр урмоғим  
Ким, ғурури нафси саркаш маъниға,  
Барчадин бўлғай қуйи ўлтурмоғим.  
Чун шикаста нафс ҳосил бўлмади,  
Мундин ўлди муҳрни синдурмоғим [2:498].

Мансабдорлик инсондан жуда катта салоҳиятни талаб этади. Кўп мансабдорлар эса бу салоҳиятга эга бўлмаганлари ва амалда фақат ижрочи шахс бўлганликлари туфайли мансаб масъулиятларини ҳатто ундан бўшаб кетганларида ҳам англаб етмайдилар. Навоий шубҳасиз юксак салоҳиятли шахс бўлган. Оддий одамларнинг мансаб масъулиятини чуқур англаб етмасликларини у яхши билар эди. Бинобарин, оддий одамлар мансабдорларга юз-ма-юз келганда ўз дардларини, узоқ бўлганда эса уларнинг камчиликларини сўзлайдилар. Лекин улар мансабдорнинг ўзи истайдиган ёки истамайдиган мажбуриятлари, ваколатлари, бурчлари, масъулиятлари ва ҳатто бундан тортадиган ўз дардлари борлигини ҳамма ҳам ва ҳамиша ҳам англайвермайди. Буни чуқур англаган Навоий шоирона қалб билан мансабдорлик бурчларини бажаришда ғоятда қийналган. Зеро, у ҳам юксак лавозимларда хизмат қилар экан, қатъий қарорлар чиқариш, оғир оқибатли фармонларни муҳрлаш, мушкул жавобгарликларни бўйинга олишга мажбур бўлган. Бошқарувнинг мана шундай хусусиятларидан қийналган Навоий одамлар кўзидан «хилватда» бўлганда маломат тошлари остида қолиши, эл олдига чиқиб, улар билан мулоқотда – «анжуманда» бўлганда эса, дарду аламлари кўплигидан кўп азоб тортишини изҳор қилган эди:

Байтул ҳазинға кирсам улустин қочиб даме,  
Атрофидин ғубори маломат манга ёғар.  
Силкай деб ул ғуборни чиктим чу кулбадин,  
Эл жавру зулмидин бошима юз бало ёғар [2:498].

Навоий бошқарув тизимида фаолият олиб бориш жараёнларида шижоатли ташаббускор раҳбарлардан бири сифатида катта шуҳрат қозонган эди. Эътиборлиси, у кўрсатган ташаббуслар аксар ҳолларда ҳукмдор томонидан қўллаб-қувватланган ва халқ томонидан олқишлар билан кутиб олинган. Зеро, халқ Навоий бошлаган ташаббусларнинг ўз манфаатлари учун эканлигини яхши билган бўлсалар, Ҳусайн Бойқаро бу ишлар унинг давлати, ҳукумати, обру-эътибори ва манфаатларини ҳам ифодалашини яхши тушунган. Бундан ташқари Хондамир ва Бобур айтиб ўтганларидек, Навоий бу ишларни ҳамиша ўз ҳисобидан амалга оширар, қилаётган ишлари учун давлат хазинасидан маблағ сўрамас эди. Шунингдек, Навоий бу ишларга доимо ўта жиддий қараган, умуман у баъзи эътирофларга кўра ҳаётда доим жиддий юрган. Албатта, ҳар бир давлат хизматида турфа сиёсий ва бошқа манфаат гуруҳлари, шахслар бўлгани каби, улар Навоий даври ва Ҳусайн Бойқаро девонида ҳам мавжуд эди. Навоийнинг ташаббускорлиги ва бу каби жиддийлиги уларга ҳамиша ҳам маъкул келавермаган. Қолаверса, улар ҳам юқорида айтилгани каби оддий одамлар тоифасидан бўлиб, Навоийнинг ўзи йўқ жойда

унга маломат тошларини отиш дардидан ҳоли бўлмаганлар. Бу ҳақда кейинчалик Бобур эсларкан, «Эл назокатини давлатининг ғуруридин тасаввур қилур эрдилар. Андоқ эмас экандур, бу сифат анга жибиллий экандур. Самарқандта эканида ҳам ушмундоқ нозук мизож экандур», деб ёзган эди [4:233]. Тахминимизча, Навоий Хайробод банди (тўғони)ни қуришда ҳам шундай маломатларга дуч келган. Хондамир айтиб ўтган бу тўғон ташаббуси шубҳасиз, Навоийдан чиққан ва бу катта ишни ўзи бошқарган, саройга алоқадор мулкдорлар маломати кўпайиб кетгач, Ҳусайн Бойқаро уни бу ишдан четлаштиради (Хондамир эса уни Навоий тугатиб, ишга тушурганини ёзган). Маломатлардан қийналган Навоий бир қитъасида маломатгўйларнинг иғволарига қулоқ солмаслик мазмунида ҳукмдорга мурожаат қилиб, модомики шоҳ уни ўзича бошлаган ишдан халос қилган экан, бир йўла жонини ҳам танидан халос қилгани яхши эди, деб ёзади:

Чу Хайробод бандин ўзлугум бирла ясаб эрдим,  
Мени андин халос этти иноят айлабон шоҳе.  
Не бўлғай ўзлукумнинг бандидин доғи халос этса,  
Ҳақиқат кишвари сори ҳидоят айлаб огоҳе [2:500].

Хуллас, Навоийнинг давлат, жамият, бошқарув маданияти, инсонпарварлик масалаларига қаратилган қарашлари учун характерли бўлган ғоялар унинг лирик шеъриятида кенг ўрин эгаллайди.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 6-жилд. Фавойид ул-кибар. – Тошкент: Фан, 1990.
2. Муаллифлар гуруҳи. Ўзбек адабиёти тарихи. II том (XV асрнинг иккинчи ярми). – Тошкент: Фан, 1977
3. Гиёсиддин Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. – Тошкент: Ғ.Ғулом нашриёти, 2015.
4. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: Фан, 1960.

### G‘AZALLARDA RANGLAR JILOSI

*Bo‘tayeva Nigora,  
JDPI o‘qituvchisi*

XIX asr ikkinchi yarmida Xorazmda yetishgan mahoratli qalam sohiblaridan biri Komil Xorazmiydir. Xorazmiy ham o‘z salafлари singari adabiyotda Atoiy, Lutfiy, Navoiy an‘analarini munosib davom ettirgan shoirlardandir. O‘z asarlarida u tilining soddaligi, g‘azallarining ravonligi, musiqiyliги bilan ajralib turadi. Komil tom ma‘noda lirik shoir bo‘lib, uning borliqqa, hayotga munosabati uning nafis lirik kechinmalari orqali ifodalangan.[D;3:7]

Shoir badiiy bisotida 149 ta g‘azal bo‘lib, bu g‘azallarda mavzular rangbarangligi, so‘zlarning ravonligi, ma‘naviy va lafziy san‘atlarning asarlarda muvofiq qo‘llanganligi muallifning badiiy mahorati yuksak ekanligidan dalolat.

Mumtoz adabiyotda u yoki bu shoirning ijodiga, u yoki bu badiiy asarga baho berilar ekan, ijodkor ifodalayotgan g'oya o'z aksini topgan ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-axloqiy, ma'rifiy-tarbiyaviy muammolar mohiyati va ko'lami, badiiy san'atlarning rang-barangligi, mantiqiy asoslanishi, asar mazmunin ochishdagi o'rni va ahamiyati kabi masalalarga ham alohida diqqat qilingan. [M.B.M;2:4] Sharq she'riyatida shoir oldida g'azal vositasida mahbuba timsolini mukammal gavdalantirish vazifasi ustuvordir. Shoirning ushbu g'azallari fikrimizni dalillash uchun munosib namuna bo'la oladi. Komil mahbubasining bor go'zalligi-yu, o'zining ruhiy kechinmalarini yor libosi, aynan libos rangi bilan bog'laydi.

Ul pari paykar kiyibmu egniga chakmon qaro,

Yo libosin tundin aylabmu mahi anvar qaro.[D;3:20]

Ushbu matla' bilan boshlanuvchi g'azal 9 bayt-u, 18 misradan iborat. G'azaldagi qofiyadosh so'zlar: chakman, anvar, ahsan, doman, fan, gulxan, ravzan, mou-man, birla zan, maskan so'zlari. Qaro so'zi radifdir.

Bilamizki, mumtoz adabiyot namunalari asosan, aruz vaznida yoziladi. Ushbu g'azal ham aruzning ma'lum vaznida bitilgan. Keling, g'azalni tahlil qilib ko'rsak. G'azalning vaznini aniqlashda quyidagi usuldan foydalanamiz. Aruzda qisqa ( V ), cho'ziq ( - ) va o'ta cho'ziq ( ~ ) hijolar muhim o'rin tutadi. Qisqa hijoni aniqlashda 6 ta unlining ( ya'ni a,o,I,u,e,o' ) ochiq bo'g'inda bo'lishi (agar unlilar so'z oxirida bo'lib, urg'u olsa yoki o unlisi bundan mustasno. Ular cho'ziq talaffuz etiladi va cho'ziq hijo deyiladi) kerak. Masalan : pa-ri ( V - ), eg-ni-ga ( - V - ) Cho'ziq hijo esa, yopiq bo'g'indagi unlilar va misra oxiridagi so'zning oxirgi bo'g'ini ifodalanadi. Masalan: ul, pay-kar, ki-yib-mu

—, — —, V — —

O'ta cho'ziq hijo esa misradagi so'zning oxirgi bo'g'ini ochiq bo'g'inda o unli bo'lsa hamda yopiq bo'g'in bo'lganda ifodalanadi. Misra o'rtasida qator undosh kelsa ham, o'ta cho'ziq deyiladi va (-V) shaklda ifodalanadi. Misra oxirida kelsa (~) shaklda bo'ladi.

Ul pari paykar kiyibmu egniga chakman qaro

- V - - - V - - - - V - - V -

Yo libosin tundin aylabmu mahi anvar qaro.

- V - - - V - - - - V - - - V -

Yuqoridagi g'azal taqte'si (- V - - / - V - - / - V - - / - V - ; foilotun, foilotun, foilotun, foilun).

Demak, g'azal ramali musammani maqsur (mahzuf) bahrida yozilgan.

Shoir g'azalning birinchi baytida yorning egnidagi chakmonni yo o'zi qora ekanligi yoki tunda oy nurida qora rangda jilvalanayotganini taajjub bilan aytmoqda. Shu o'rinda iyhom san'atidan foydalangan.

Ikkinchi baytda esa, mantiqiy davom sifatida u mahbubaning doimo qora rangli kiyim kiyganligi, boisi el nazarida qora rang eng a'lo rang ekanligini ta'kidlaydi. Shuningdek, qora rang qat'iyat va nafosat belgisi hamdir.

Dilbarim doim kiyar shabrang to'n, ul vajhdin,-

Kim ko'runmish elga barcha rangdin ahsan qaro,

Keyingi baytda esa:



Dur tishing hajrida bo'ldum ashkrez ul na'vkim,  
To'ldiribdurman guhardin jayb ila doman qaro.

Ya'ni dur tishlarining hajrida har dam ko'zyoshi bilan yurgan oshiq ko'zidan oqqan marjonlar bilan yoqasidan etagigacha to'ldirdim demoqda. Shu o'rinda tishlarning durga, ko'zyoshlarning marjonga mengzalishi baytda tashbeh va mubolag'a san'ati qo'llanganligini ko'rsatadi. G'azalda so'zlar misralarga shunday joylashtirganki, nima qora rangda bo'lsa, ko'ngildagi baxtiqarolikning boisi deb ko'rsatilmoqda.

Aylagan baxtim qaro ulkim sanga chun ayladi  
Qosh qarou, xat qarou chashmi fitna fan qaro.

Yuqoridagi baytda esa, yorning qora qosh-u, qora ko'zi birga fitnalar qilib oshiqning baxti ham qora rangga kirganligini g'am bilan aytadi. Misralardagi qaro so'zining takrorlanishi g'azalning musiqiyliigi va ma'no kuchayishini ta'minlagan. Bu albatta, tansiq as-sifat san'atining jozibasidan. Bunda shoir yoriga xos sifatlarni ketma-ket keltirish orqali mufassal ifodalashga harakat qilmoqda. To'rtinchi baytda:

Ul guli ra'no jamolin ko'rmasam gar bog' aro,  
Bordurur gulshan ko'zumga o'ylakim gulxan qaro.

Shoir bu baytda mahbubasin bog'da uchratmasa, ko'ziga bu gulshan gulxanda kuygandek qora ko'rinishi aytiladi. Keyingi baytlarda tavoze va sofdillik baxtga yetaklovchi fazilat, takabburlik esa insonni baxtsizlikka duchor qilishi aytilmoqda.

Sofdillik istasang, doim tavoze' pasha bo'l,  
Kim qilur oni takabbur birla mou-man qaro.  
G'azal so'ngida shoir yoridan:  
Yona bir oqshom kelib, shami shabiston bo'l ango  
Kim uzoring hajrida Komilg'akim maskan qaro.

Ya'ni yorning bir tashrifi furqatda yonayotgan oshiq ko'ngli va uyini qorong'u kechani yoritguvchi sham misoli nur bag'ishlashini so'ramoqda.

Aslida qora rang Sharqda buyuklik, kuch-qudrat va ulug'lik ramzi hisoblanadi. Bu g'azalda qora rang orqali lirik qahramon o'z ma'shuqasini ko'klarga ko'tarib ulug'lagan va shu asnodda qora rang uning boshiga solgan taqdir, ruhiy kechinmalari, his-tuyg'ulari rangiga aylanganligini tashbeh, iyhom, takrir san'atlari namoyon etadi.

Keyingi g'azalda esa, shoir yana o'z hasbi holini yor libosi rangi bilan bog'laydi. Komil Xorazmiyning "qizil libos" radifli g'azali ramali musammani maqsur vaznida yozilgan bo'lib, 10 bayt, 20 misradan iborat. Unda qizil libos so'zi radifni tashkil etsa, "nigorim, qarorim, dili zorim, guli norim, sabru qarorim, nisorim, bahorim, uzorim, shiorim, mozorim, xumorim so'zlari" qofiyani hosil qiluvchi so'zlardir. G'azalda ranglarning inson ruhiyatiga ta'siri, tovlanishlarining misralarda san'at darajasida joy olishini ko'rishimiz mumkin. Shoir ta'rificha, qizil libos yorga shu qadar yarashganki, buni ko'rgan lirik qahramonning halovati yo'qoldi.

Egniga toki kiydi nigorim qizil libos,

Ko'rganda oldi sabru qarorim qizil libos.[D; 3:74]

Keyingi baytda:

Rangimni za'faron kibi qildi sarig' kamar,

Qon etdi ashkimu dili zorim qizil libos.

Ko'ylakdagi sariq kamar shu qadar yorqinki, uning rangi oshiq yuzida aks etmoqda, oshiq yuzi za'faronlashmoqda. Baytning ikkinchi misrasida o'z qalbini qizil libos kabi qon bo'lganini e'tirof etadi. Bu o'rinda rang vositasida san'atlash badiiy san'ati qo'llanadi. Shuningdek, tashxis san'ati orqali gul rangiga xos xususiyatlar inson qalbiga ko'chadi. G'azalning navbatdagi bayti bog'bon – yaratganga murojaat bilan boshlanadi:

Ko'rsatma otashin guling, ey bog'bon mango,

Ul sarv ustida guli norim qizil libos,

Ya'ni, menga otashin kuydirguvchi gulingni ko'rsatmagin, deydi va keyingi misrada go'zal qaddi- qomatli yor tashbih san'ati orqali "sarv" daraxtiga o'xshatilsa, yanagi misrada "gulgun bulutga" o'xshatiladi. Keyingi misralarda:

Bo'rki qarosi qildi qaro ro'zg'orimni [L;2;4]

Oson etdi chashmi lol nisorimni qizil libos.

Yorning kiyimida yopinchi ham o'ziga yarashib, yarqirab qizil libos birla nafaqat sabriga rahna, balki baxtini ham qaro qilganini aytmoqda.

Chehramni asfar etdi, to'kub qon yoshim mudom,

Tabdil etar xazonga bahorim qizil libos.

Bu misralarda qizil libos va rang vositasida xazon va bahor so'zlarini keltirish orqali tazod san'atidan foydalanadi. G'azaldagi bu so'zlar ramziy timsol sifatida qo'llanilayotganini siz-u biz yaxshi anglaymiz. Ko'ngilning qon bo'lishi qizil libosga o'xshatilsa, shoir ko'z yosh to'ka-to'ka chehrasi so'lib borayotganini ifodalagan. Bunday vaqtda bahor ham kuz, yani xazonga aylanishi, quyosh chiqib, shafaqqa aylanishiga o'xshatilmoqda.

G'azalda yorning go'zalligi faqat libosida emas, botiniy olamiga bog'liqligini timsollar orqali shoir nozik chizgilarda chizib bergandek, go'yo.

Xurshid uza shafaq kibi jilva qilur ayon,

Kiygan zamonda mehri uzorim qizil libos.

Bu baytda esa, libos yorni shu qadar tarovatli etarki, osmonlargacha, jilvalari shafaqdek atrofga yoyilib tovlanmoqda. Endi lol-u hayron oshiq dilidagini shoir savol-u javob san'ati bilan bayon etadi:

Dedimki: "Kimni qatl qilursen qizil kiyib"

"Kiyimoq –dedi – hamisha shiorim qizil libos."

Bu yerda libos qon va jon kushandasiga, ya'niki, u jallod timsoliga aylanadi.

Qabrimdin etdi qon yoshim andoq tarashshuhi

Ko'rgan degay kiyibmi mazorim qizil libos.

G'azalning so'nggi misralarida qonli ko'zyoshdan ungan lolaqizg'aldoqday qabri qizil rangdan libos kiyganligini va

Gulrang boda nash'asi yoqmas dimog'ima

Komil kibi chu yozdi xumorim qizil libos.

Ya'ni, gulrang boda mazasi ham uni yorning libosichalik hayotga ishtiyoqini orttira olmasligini aytib o'z arzini yakunlaydi.

Ushbu g'azaldan shunday xulosa qilish mumkinki, qizil rang muhabbat, jo'shqinlik, tiriklik ramzidir. Shoir bu g'azalda rangning darajalarini keltirish orqali inson holatini yanada yorqinroq tasvirlaydi. Masalan, rangimni za'faron kibi qildi sarig' kamar yoki chehramni asfar etdi, to'kub qon yoshim mudom misralarida birida yuzning za'faronday sarg'ayishi nazarda tutilgan bo'lsa, ikkinchisida asfar-zang [L;4;2] kabi rang olganligi aytilmoqda.

Yuqoridagi g'azallarda tashbeh, tanosub, tazod, husni ta'lil, iyhom san'atlaridan ustalik bilan foydalanilganligi shoirning badiiy mahorati yuksakligidan dalolat beradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.A.Hojiahmedov, Mumtoz badiiyat malohati, "Sharq" nashriyot-matbaa konserni Toshkent,1999, 4-bet.
- 2.Alisher Navoiy asarlarining izohli lug'ati. "Fan" Toshkent,1968.
3. Komil. Devon. 7-bet, G'.G'ulom nashriyoti. Toshkent,1975.

### LINGVOPRAGMATIKA IMKONIYATLARI

*Qushmurodova Dilshodaxon Farhod qizi,  
JDPI mustaqil tadqiqotchisi*

Pragmatik tadqiqotlarning barcha til sathi birliklariga tatbiq etilishi til tizimi va uning birliklariga xos ko'zga ko'rinmas jihatlarni aniqlash imkonini tug'diradi. Bugungi kunda o'z tadqiqot obyektiga ega fonopragmatika, morfopragmatika, leksopragmatika, sintaktik pragmatika yo'nalishlari pragmatik xususiyatlarning barcha til sathi birliklarida namoyon bo'lishidan dalolat beradi. Lisoniy birliklarning nutqiy aktuallashuvi, uslubiy xususiyatlari, kommunikativ ifodasiga izlanishlar olib borilgan. Shakl va ma'noda o'rtasidagi assimetriya, ma'noning bevosita yoki bilvosita ifodalanishini aniqlashga doir ishlar talaygina bo'lib, ularda nutq bilan bog'liq xususiyatlari ochib berilgan. Nutqiy aktning pragmatik jihatini o'rganish va uning matn bilan bog'liq mazmuniy xususiyatlarini aniqlash ijodiy fikrlash doirasini kengaytirishga yordam beradi. M.Hakimov ta'kidlaganidek: "Nutqiy akt bilan konteks o'rtasidagi o'zaro munosabat pragmatikaning asosiy o'rganish obyektini sanaladi". Buni shoir Erkin Vohidov she'riyatida misolida tahlil etib o'tamiz.

*Jigar jigar ko'zin o'ydi.*

*Do'st qasd do'sti joniga.*

*Farzand qo'lin bo'yab qo'ydi*

*O'z padari qoniga.*

Erkin Vohidov "Ko'hinur" nomli she'rida jigar so'zidan "yaqinlarim" ma'nosida foydalanib, ajoyib o'xshatishlarni kitobxonga taqdim etgan. Bu esa

ma'no ko'lamini tahlil qilish metodi uchun ham asos bo'ladi. So'z ma'nosi denotativ, konnotativ, potentsial semalardan iborat bo'ladi. Denotativ semalar asosida presuppozitsiyani anglash mumkin bo'ladi. Konnotativ semalar asosan modallikka xizmat qiladi. Potentsial semalar esa pragmatik ma'noni ifodalaydi. Nutqqa xos illokutiv, perlokutiv nutq aktlarini yaratishga xizmat qiladi. Shuningdek, she'riy matnga xos presuppozitsiyani anglashga ko'mak beradi. Diskursiv faoliyat egasi bo'lgan shaxs intellekt va fikrlash tarzining matn shakliga kirish jarayoni mexanizmlarini tadqiq etish tafakkur modellarining o'zbek tilidagi in'ikosiga xos xususiyatlarni aniqlashga imkoniyat yaratadi. Bunda matnning nutq uslublariga ko'ra turlaridan biri bo'lgan badiiy matn tahlili o'zbek tilshunosligi uchun boy materiallar bera oladi.

*Agar do'sting bilan  
teng ko'rsang baham,  
Shodlik teng ko'payar,  
teng bo'linar g'am.*

“Tenglik-kenglik”, “Teng yeganni tangri suyibdi”, “Do'stlar ahil bo'lsa ish oson” bo'lar” kabi maqollarning ma'nosini tahlil etishda Erkin Vohidovning ushbu satrlaridan foydalanish mumkin. She'ring ma'nosini maqollar bilan, maqolning ma'nosini she'riy parchalar bilan izohlash asosida o'quvchilarning tafakkurini boyitish mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: ЎЗМЭ, 2008. –Б.10.
2. Ҳақимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филолог. фан. диссертацияси. Тошкент. 2001 йил.,
3. Ҳақимов М. Ўзбек прагмалингвистика асослари.- Тошкент: Академнашр, 2013.

#### **БАРКАМОЛ АВЛОДНИ ТАРБИЯЛАШДА ОНА ТИЛИНИНГ АҲАМИЯТИ**

*Назарқосимов Жавлон Инатуллаевич  
Жиззах шаҳар 14-мактаб ўқитувчиси*

Она тили – эзгу фазилатлар, юксак туйғулар манбаи. У инсон камолотида бетакрор ўрин тутди. Чунки оналаримиз бизга шу тилда алла айтади, инсон учун хуётий зарур билим ва тушунчаларни тил воситасида онг-у шууримизга сингдиради, одоб-у ахлоқимиз, феъ-атворимиз тил орқали берилган ўғит ва насихатлар асосида шаклланади. Айниқса, инсон тафаккурининг шаклланиши бевосита тил билан боғлиқ. Тил – халқнинг, миллатнинг энг буюк қадриятларидан бири ҳисобланади, шунинг учун халқнинг озодликка ўзини англаб етишга интилишида тилнинг қадрини тиклаш, нуфузини ошириш муҳим ўрин тутди.

Мустақилликка эришганимиздан кейин ўзбек тили ривожига катта эътибор берилгани натижасида конституциямизда “Давлат тили тўғрисида”ги қонунда ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги мақоми, уни ривожлантиришнинг ҳуқуқий асослари белгилаб қўйилди. Бу ўзбек тили таракқиётида янги давр бошланганининг ифодаси эди. Диёримизда амалга оширилаётган ислохотлар тилимиз ривожига ҳам ижодий таъсир этмоқда.

Ўзбек тили дунёнинг энг қадимий ва бой тилларидан биридир. Бу тилнинг беқиёс имкониятлари қадимий тошбитикларда, халқимизнинг замонлар синовидан ўтиб келаётган мақол ва хикматли сўзлари, бетакрор иборалари, қўшиғ-у, дostonларида, мумтоз шоирларимиз, ижодкорларимиз асарларида яққол намоён бўлган. Она тилини севиш – ватанпарварлик белгиси, аждодлар руҳида ҳурмат рамзи. Ўз тилин севган халқ ўзлигини, ғурурини асраб – авайлаган бўлади. Она тилига бўлган муҳаббат, аввало, ҳар бир сўзнинг маъносини чуқур англаган ҳолда ишлатиш, уни яхши билиш, асраб-авайлаш каби фазилатларида кўринади.

Тил билиш - маданият белгиси ҳамдир. Бугунги кунда, мамлакатимиз бутун дунё билан кенг миқёсли ҳамкорликка киришаётган пайтда тил билиш муҳим аҳамият касб этмоқда. Она тилин пухта билиш ва у билан ғурур ифтихор қилиш миллий маънавият, ўзбек ифодаси бўлса, бошқа тилларни билишга интилиш маданият белгиси, қўшимча билим қуролига эга бўлишдир.

Ўзбекистон Республикаси мустақилликка эришмаган бир пайтда, ҳали собиқ иттифоқнинг таркибида бўлган вақтда, яъни 1989 йилнинг 21 октябрида қабул қилинган “Давлат тили ҳақида”ги қонун халқимиз ҳаётида тарихий воқеа бўлиб қолди. Тилнинг халқимиз ҳаётидаги ўрни нақадар муҳимлигини Президентимиз И.А.Каримов алоҳида таъкидлаб шундай деган эди: “Маълумки ўзликни англаш, миллий онг ва тафаккурнинг ифодаси, авлодлар ўртасидаги руҳий-маънавий боғлиқлик тил орқали намоён бўлади. Жамики эзгу фазилатлар инсон қалбига, аввало, она алласи, она тилининг бетакрор жозибаси билан сингади. Она тили бу миллатнинг руҳидир”.

Шундай экан, ёш авлодни ҳар томонлама ҳам маънан, ҳам жисмонан етук инсонлар этиб тарбиялашда она тилининг ўрни жуда катта.

Ўзбекистон Республикасининг 1995 йил 21 декабрдаги янги таҳрирда қабул қилинган “Давлат тили ҳақида”ги қонуннинг тўртинчи моддасида “Ўзбекистон Республикасида давлат тилини ўрганиш учун барча фуқароларга шарт-шароит ҳамда унинг ҳудудида яшовчи миллатлар ва элатларнинг тилларига иззат-ҳурмат билан муносабатда бўлиш таъминланади, бу тилларни ривожлантириш учун шарт-шароит яратилади,” – деб мамлакатимизда яшаётган барча миллатлар тилларининг ривожланиши эътибордан четта қолмаган.

Маънавий ва жисмоний соғлом авлодни тарбиялашда барча соҳалар каби тилларнинг айни вақтда тилларни ўқитадиган фан ўқитувчиларининг педагогик маҳорати, маданияти, нутқи, техникаси, юз, қўл, оёқ, гавдаларининг маъноли ҳаракатлари, замонавий билим асосларини



эгаллаганлиги каби хусусиятларни нафақат ўзида шу билан бирга ўқувчиларда мужассам эга олиши лозим. Зеро, Президентимиз айтганидек, “Тарбиячиларнинг ўзларига замонавий билим бериш, уларнинг маълумотини, малакасини ошириш каби пайсалга солиб бўлмайдиган долзарб масалаларга дуч келмоқдамиз.

Менинг фикримча, таълим-тарбия тизимини ўзгартиришдаги асосий муаммо ҳам мана шу эрда. Ўқитувчи болаларимизга замонавий билим берсин, деб талаб қиламиз. Аммо замонавий билим бериш учун, аввало, мураббийнинг ўзи ана шундай билимга эга бўлиши керак”.

Бундан ташқари, замонавий ўқитувчи қиёфасида қуйидаги фазилятлар намоён бўлиши керак:

- ўқитувчи ўз мутахассислиги бўйича чуқур, пухта билимга эга бўлиши, ўз устида доимий равишда ишлаши;

- ўқитувчи жамият ижтимоий ҳаётида рўй бераётган ўзгаришлар, олиб борилаётган ижтимоий ислохотлар моҳиятини чуқур англаб етиши ҳамда бу борада ўқувчиларга тўғри, асосли маълумотларни, ўз исботини топган билим асосларини бера олиши;

- замонавий ўқитувчининг илм-фан, техника ва технология янгиликлари ҳамда ютуқларидан хабардор бўлиши талаб қилинади;

- ўқитувчи педагогика ва психология фанлари асосларини пухта билиши, таълим-тарбия жараёнида ўқувчиларнинг ёш ва психологик хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда фаолият олиб бориши;

- ўқитувчи таълим-тарбия жараёнида энг самарали услуб, усул ва воситалардан унумли фойдалана олиш имкониятига эга бўлиши;

- ўқитувчи ижодкор, ташаббускор ва ташкилотчилик қобилиятига эга бўлиши;

- ўқитувчи юксак даражада педагогик маҳорат, педагогик маданият, педагогик компетентликка эга бўлиши;

- ўқитувчи таълим-тарбия жараёнига Президент асарлари, халқаро конференциялардаги нутқларидан унумли ва ўринли фойдалана олиши лозим. Шунда ўқитувчи ўзида том маънодаги компетенция – у ёки бу соҳа бўйича билимдонликка эга бўлади. Натижада ўз ўқувчиларининг маънавий ва жисмоний жиҳатдан соғлом авлод бўлиб вояга етишиши учун имконият яратади.

Етук шахс бўлиб камол топган мутахассис “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури” талаблари даражасидаги рақобатбардош кадрлар бўлиб етишади. Бу эса ўз навбатида жамият тараққиётини белгилайди. Жамиятнинг барча соҳаларида ривожланиш бўлар экан, шу жамиятда яшаётган кишиларнинг турмуш даражаси ҳам яхшиланади, яъни халқ фаровонлиги юзага келади. Президентимиз таъкидлаганидек “Ақл-заковатли, юксак маънавиятли кишиларни тарбиялай олсаккина, олдимизга қўйган мақсадларга эриша оламиз, юртимизда фаровонлик ва тараққиёт қарор топади”.

## TIL BILAN TILLASHGAN IJODKOR

*Yusupova Muslima Olimjon qizi,  
Xasanova Maftuna Zafar qizi,  
Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ijod  
maktabining tarbiyachilari*

Bizning shunday ulug‘ she‘riyatimiz bor, boylikda beqiyos ona tilimiz bor.  
Til millatning bosh belgisi hisoblanadi.  
Til bor — millat bor. Til yo‘q — millat yo‘q.  
*Erkin Vohidov*

O‘zbek elining buyuk farzandi, millat taqdirini har nedan ustun qo‘ya olgan, mohir nuqtadon, sinchil filolog, otashqalb shoir Erkin Vohidov ijodi adabiyotimiz osmonida o‘zgacha yaraqlaydi. Uning asarlari dillarga o‘zgacha huzur, halovat olib kirgan durdona, ulug‘ asarlardir. Keyingi vaqtlarda “ulug‘”, “durdona”, “nodir” asar paydo bo‘lganligi haqidagi shov-shuvlar tez-tez quloqqa chalinmoqda. Ammo ustoz yozuvchimiz O‘tkir Hoshimovning “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” asarida ta‘kidlangan ikkita eng xolis, beshafqat hakam kitobxon va vaqt sinovidan o‘tgan asarlargina ana shu yuksak e‘tiroflarni saqlab qola olgan. Erkin Vohidov ijodining qaysi yo‘nalishiga nazar tashlasak, ulardagi badiiyat ufqlari makon va zamonda yangicha sayqallanib, keng maydonlarni egallab borayotganligiga guvoh bo‘lamiz. Shoirlik qismatiga bardosh berish, uning shon-shuhratiga munosib yashash, eng muhimi, shoir o‘z millatining vijdoni, yuzi, so‘zi va ko‘zi ekanini har doim esida tutishi, albatta, osonmas. She‘r – shoirning anglangan va anglanmagan tasavvurlaridan tarkib topgan tuyg‘ulardan yaraladi. Unda “borliq bilan yo‘qlik” chegarasi doim bir-biriga ta‘sir o‘tkazib, biri-ikkinchisini marom bilan harakatlanishiga rag‘bat bag‘ishlab turadi. Shu ikki sifat o‘rtasida muvozanat bilan fikr yuritayotgan ijodkor-shoir yirik va o‘ziga xos tuyg‘ular yig‘indisini muayyan tartibga, yaxlitlik, butunlikka jamlay oladi. She‘r – mangu dard haqidagi so‘z. Shubhasiz, Erkin Vohidov ijodiyoti ana shunday teran mushohadalar to‘plamidan iboratdir. Fikr va tuyg‘u nisbati ziddiyatda, harakatda, tadrijiyatda ekan, shoir poetik olami ham tobora tiniqlashib, kengayib, o‘ziga xos va mos yo‘l tanlab boradi. “Shoirlikning «qora ishi»ni ko‘z oldiga keltirmay, bu nomning o‘ziga, obro‘ va shuhratiga, she‘riyat maydoniga intilganlar xato qiladilar. Ko‘pincha bunday xato juda qimmatga tushadi. Xato qilgan odam uchun ham, she‘riyat uchun ham. Shu sababli «yoshlarga g‘amxo‘rlik» deganda faqat ularni qo‘llab-quvvatlash, yo‘g‘ini bor qilib ko‘rsatish emas, balki ularga rost gapni aytish, yanglishishdan qaytarish ham tushuniladi”, - deya yonib so‘zlagan shoir Erkin Vohidov o‘zini, xalqini rozi qilib yashay oldi.

Shoir – iste‘dod egasi, shoir – so‘z va tafakkur odami, shoir – iztirobli, dardmand inson, shoir – el-yurt quvonchiga sherik odam... Tabiiyki, shoir zotining tabiati, ta‘rif va tavsifi xususida bunday fikr-mulohazalarni davom ettiraverish mumkin. Ammo she‘r uchun mukammal ta‘rif topib bo‘lmaganidek, shoirlik qismatini ham to‘la-to‘kis ravishda, muxtasar so‘z bilan anglatish qiyin. Buni

faqatgina she'riy kayfiyat iztiroblarini boshidan kechirgan, «so'z durlarini terish» bilan mashg'ul bo'lgan odamgina anglaydi. Ko'nglini qog'ozda aks ettirish uchun munosib so'z izlagan, so'zlarni tush ko'rgan kishigina his etadi. Shoir she'riyati o'zining ikki muhim xususiyati bilan o'zga tengdosh shoirlar ijodidan farqlanib turadi. Avvalo, Erkin Vohidov – shoir deganda, mumtoz adabiyotimizning ming yillik go'zal va boy an'alarini hozirgi davrda yangi pog'onaga ko'tarayotgan falsafiy shoir ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. Qolaversa, inson va jamiyat muammosi shoir she'riyatining bosh o'zagini tashkil etadi. U xoh tabiat haqida, xoh muhabbat haqida, xoh paxta va paxtakor haqida, xoh xorijiy mavzuda bo'ladimi, hamma-hamma o'rinda jamiyat taqdiri, inson kelajagi, shaxsiy yetuklik haqida o'zining falsafiy mushohadalarini o'rtaga qo'yadi, shoirlik mas'uliyatini dildan his qilib, bitajak so'zi orqali insoniyat olamini tafakkur qilishga, yon-atrofdagi hodisalarga teran nigoh bilan qarashga o'rgatadi, uning dunyoqarashini shakllantiradi:

...Ne olib ketgay bu olamdan kishi,  
Bori savdo ikki gazlik bo'z uchun.  
Gar jahonning shohidursan, zorsan,  
Mehr atalgan malham-u dilso'z uchun.  
Jon nadir, ikki jahonni sadqa qil  
Do'st senga aytgan bir og'iz so'z uchun. [1;204]

Shoir ijodiy merosini adabiyot darslarida, shuningdek, mustaqil o'qish mashg'ulotlarida ham o'rganish o'quvchilarning aqliy salohiyati, mantiqiy tafakkurini boyitishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Jumladan, Erkin Vohidovning birgina “So'z latofati” asari zabarjad-u gavhar, oltin misol bebaho ona tilimiz go'zalliklaridan, so'zlashish odobidan saboq beruvchi noyob tuhfadir. Bu kitobni varaqlab, insonga buyuk sharaf qilib berilgan nutq ne'mati, so'z gavhari haqida o'ylar ummoniga g'arq bo'lasan, kishi. Bu mo'jaz kitob o'zidan oldin yaratilgan bitiklarga o'xshamagan, “so'z bilan so'zlashgan”, “til bilan tillashgan” ijodkorning dilkash suhbatlar tarzidagi kitobidir. Unda qayg'u ham bor, tabassum ham. “Mardumlig'ni mardum”ga, ya'ni insonlikni ko'z qorachig'iga mengzagan Alisher Navoiy, “axtari baxtini axtargan”, ya'ni baxt yulduzini qidirgan Bobur Mirzo, “baxti qora yozilgan”, ya'ni tolei qora rang-la qorga yozilgan “oshiqi sodiq” Fuzuliy, nihoyat, “ona tilini qo'yib, xotin tilida gaplashgan” Abdulla Qahhor... haqidagi sharh va suhbatlardan “So'z latofati” faqat ilm lug'ati emas, balki odob va hilm lug'ati hisoblanadi. Ijodkorning, ayniqsa, umrini so'z san'atiga fido qilgan shaxsning so'z haqidagi so'zlari o'lik tanaga ruh kirgandek jonli bo'lar ekan. Bunday kitoblarni qomus tarzida davom ettirish, so'zlarning mabdaiga, kelib chiqishiga, ko'ki, ya'ni ildiziga ko'proq e'tibor qaratish, ilmiy asosni kuchaytirish dolzarb vazifalardandir. O'ylab qarajak, “G'iyos ul-lug'ot”ni bir shaxs — G'iyosuddin Rompuriy, “Qomusi turkiy”ni — Shamsuddin Sivosiy, “Arabsko-Ruskiy slovar”ni Baranov tuzgan. Tasavvuf va irfoniy so'zlar lug'atlari ham muayyan shaxslar nomi bilan bog'liq. Ko'rinadiki, layoqatli va fidoyi shaxslar butun boshli tadqiqot institutlari qiladigan xizmatni ado etishi mumkin. Lug'atchilik tarixini yaqin o'tmishga taqaydiganlar xato qiladi. Lug'at ilmi aslida

hazrat Odam Atodan (alayhissalom) boshlangan. Bu Qur’oni karimning “Baqara” surasi 31-33-oyatlari bilan sobitdir.

Hazrat Navoiyda shunday misralar keltiriladi:

Chu bo‘ldi nutq ila mumtoz barcha hayvondin,

Ham oxir ul hayvondin erur maqolat anga.

Ya’ni: “Inson nutq tufayli barcha hayvondan ustun va afzal bo‘ldi. Oxiri (qiyomat yaqinlashganda) yana o’sha hayvondan insonga so‘zlashuv, nutq bo‘ladi”. [2;122]

Bu misralarda gap qiyomatga yaqin chiqadigan yer hayvoni — dabbat ul-arz haqida borayotir. Islomiy e’tiqodga ko‘ra, dabbat ul-arzning chiqishi haqiqatdir. Chunki Qur’oni karimda aytiladiki (ma’nosi): “(Qiyomatning qoim bo‘lishi haqidagi) so‘z (insonlarning) boshlariga kelgan vaqtda Biz ular uchun yerdan bir hayvon (g‘aroyib bir maxluq) chiqarurmizki, u insonlarning Bizning oyatlarimizga qat’iy ishonmaganlarini aytib, ularga so‘zlagaydir (Bas, endi tavba eshiklari yopilgan bo‘lur, haqiqiy ishonganlar bilan ishonmaganlar ajralur)” (“Naml» surasi, 82-oyat). Inson so‘z bilan mumtoz va sharaflidir. So‘z haqidagi barcha kitoblardan men o‘z bandaning chiqaradigan xulosam shuki, yer hayvonining so‘ziga kunimiz qolmasdan burun haq yo‘ldagi insonlarning so‘ziga quloq solmog‘imiz lozim... “So‘z latofati”dagi latif jumlar yana mushohadaga undaydi. “Omonat degan o‘zbekona so‘zga qalb qulog‘ini tuting. Qanchalar teran insoniy tuyg‘ular bor bu so‘zda. U mulk haqida aytilsa birovning omonati, jon haqida aytilsa, Ollohning omonati. Banda uchun dunyo omonat, dunyo uchun bandaning o‘zi omonat.

“Yog‘ilur har dam falakdan boshingga gardi firoq,

O‘t ravonroqkim, omonatdir base bu eski toq.”

Inson boshiga osmondan gard yog‘ilib turadi. Biz bugun bu gardni kosmik chang, deymiz. Fazoviy jismlarning Yer atmosferasida yonib ketishidan hosil bo‘lgan kul, deymiz. Bunday gardni Hazrat Navoiy besh asr muqaddam qayoqdan bilgan, deya hayron bo‘lmang. Beruniylar, Ulug‘beklar yashagan yurtda fazo sirlari ayon edi. Hayratga sabab boshqa, ya’ni bu ilmiy haqiqatning falsafiy xulosasi, badiiy timsolidir. Ey odamzod, deydilar hazrat, boshingga yoqqan samo changlari ayriliq gardlaridir. Tomidan tuproq yog‘ilgan uyda uzoq turib bo‘lmaydi. Bunday uy omonat. Chirigan tom ostida yashash xatarli. Osmonidan gard yog‘ilgan dunyoni, bu eski toqni ham ravonroq, tezroq tark etgan yaxshidir. Omonat so‘zining ma’no tovlanishiga qarang. Uy omonat, olam omonat”.

Shoir Erkin Vohidov “So‘z latofati” kitobida xalqimizning qalbidan unut bo‘layotgan juda ko‘p so‘zlarni ma’nosini tiklab yana qayta dunyoga keltirgan. Har bir so‘zni qo‘llash jarayonida uning ma’nosi qay darajada ekanligi va bu so‘zlarning tilimizdagi kuchi xususida qimmatli fikrlarni talqin etgan. Ona tilimiz shunday keng ummonki, undan qancha gavhar va dur tersang shuncha terging, tashna qalbingni So‘z malhamlariga qondiringing kelaveradi. Shunday ekan So‘zning latofati va tarovatiga ahamiyat beraylik. Zero, bu muqaddas, bobo tilim, momo tilim juda ham mazmundor, juda serjilo, pur-u hikmatga boy. Uni asrash va boyitish, qadriga yetish siz va bizning burchimizdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Vohidov Erkin Tanlangan asarlar. -T.: "Sharq", 2016. 696 bet
2. Vohidov Erkin So'z latofati, 2-nashr. -Toshkent: "O'zbekiston", 2018.-216 bet
3. Normatov U. Ijod sehri. – Toshkent: Sharq, 2007. – 352 b.

**JADID ADABIYOTSHUNOSLIGIDA “YER YUZI” JURNALINING O‘RNI**

*Fayziyeva Saodat Ixtiyorovna,  
ToshDO‘TAU tayanch doktoranti*

Jadid adabiyotshunosligi o‘zbek adabiyotshunosligining katta bir davrini qamrab oluvchi hodisa hisoblanadi. XX asr boshlaridan vujudga kelib, shakllangan o‘zbek milliy matbuoti esa mana shu davrning muhim yutug‘idir. XX asrning boshlarida Toshkent jadidlarining “fikr tarqatuvchisi” – “Taraqqiy” gazetasi nashr etila boshlashi bilan o‘zbek milliy matbuotiga tamal toshi qo‘yildi. Shu vaqtdan e’tiboran o‘zbek xalqining milliy manfaatlari uchun kurashuvchi, xalqimiz hayotining muhim sohalarini yorituvchi, shuningdek, vatandan chetda ro‘y berayotgan siyosiy, ijtimoiy va madaniy voqealar haqida xabar beruvchi bir necha gazeta va jurnallar chop etila boshlandi. “Yer yuzi” jurnali mana shunday muhim va jadid adabiyotshunosligida o‘chmas iz qoldirgan nashrlardan biri, deyish mumkin.

O‘n besh kunda bir marta chiqqan ijtimoiy, siyosiy, adabiy va ommabop jurnal bo‘lgan “Yer yuzi” xalqimizni yer yuzida bo‘layotgan voqealardan xabardor qilishda muhim rol o‘ynagan. Jurnal 1925-yildan “Qizil O‘zbekiston” gazetasi ta’rischiligida chop etila boshlangan. Jurnalda o‘z davrining fidoyi insonlari-Mannon Ramz, Komiljon Alimov, Elbek, Botu, A’zam Ayyub, Saidg‘ani Valiyevlar faoliyat olib borgan. Jurnal o‘zining “Jahonnamo”, “Har xil xabarlar”, “Adabiyot” kabi ruknlari bilan o‘z muxlislariga turli jabhada ma’lumotlar berib kelgan”. Yer yuzi” jurnali 1931-yilgacha faoliyat olib borgan, 1932-yilda esa qayta tiklanib, “O‘zbekiston qurilishida” nomi bilan, 1934-yil sentabrdan “Mash’ala”, 1935-yil fevraldan esa “Guliston” nomlari bilan chiqqan.

Jadid adabiyotshunosligida jurnalning o‘z o‘rni bor. Uning sahifalarida mumtoz adabiyot, jahon adabiyoti masalalari yoritilgan adabiy ishlar, shu bilan birga, jahon adabiyotidan tarjima qilingan bir necha tarjima asarlar ham chop etilgan. Jahon adabiyoti masalalari bilan bog‘liq Saidg‘aning “Pushkin” [“Yer yuzi” jurnali, 1927-yil] maqolasi, muallifi keltirilmagan “Maksim Gorkiy va proletariat adabiyoti” [“Yer yuzi” jurnali, 1928-yil] maqolasi, Mahmud Rahmonning “Rabindranat Tag‘ur” [“Yer yuzi ” jurnali, 1930-yil] maqolalari; mumtoz adabiyot masalalariga oid Abdulla Alaviyning “Layli va Majnun”, “Farhod va Shirin” maqolalari [“Yer yuzi” jurnali 1926-yil, 8-9-10-sonlar], A. Majidiyning “Sharq shoirasi Zebunniso” maqolasi [“Yer yuzi” jurnali, 1927-yil] chop etilgan.



“Yer yuzi” jurnalining eng katta xizmatlaridan biri bu unda jahon adabiyotidan qilingan badiiy tarjima namunalarining o‘quvchilar hukmiga havola etilganligidir. 1925-yildan 1930-yilga qadar jurnal sahifalarida rus, ingliz, Amerika, turk, nemis adabiyotidan turli asarlarning tarjimalari bosilgan. Ularning umumiy soni-33ta, mutarjimlar sifatida H-N, S.Valiyev, Oybek, Toshkantlik, A’zam Ayyub, Gazetchi, Otabekov, Rahim Ali, Boyish kabilarning nomi ko‘rsatiladi. Asarlar asosan R.Tagor, O.Genri, Chexov, Zoshenko, U.Sayfiddin, P.Gibbon, Gi de Mopassan, Jek London, Yefim Zazula, Anri Barbius, Jon Rid singari ijodkorlarniki. Bu tarjimalarni ko‘rib chiqar ekanmiz, ularning har biri tahlil talab ekanligiga guvoh bo‘lamiz.

Quyida ayrim maqolalarga munosabat bildiramiz. Abdulhamid Majidiyning “Sharq shoirasi Zebunniso” maqolasi o‘zbek adabiyotshunosligida ayol ijodkorlar haqida ma’lumot beruvchi ilk manba edi. Unda munaqqid shoiraning ijodidan ko‘ra hayotiga ko‘proq e’tibor qaratishining sababi ham shundandir, balki.

Zebunnisobegimning otasi Zahiriddin Muhammad Boburning chevarasi Avrangzebdir. Saroy muhitida ulg‘aygan shoira yoshligidan ilmga, ijodga qiziqar edi. Arabcha, forscha va chig‘atoycha (o‘sha paytda turkiy til shunday atalgan-S.F.)dan yaxshi xabardor bo‘lgan Zebunniso xattotlikda ham hech kimdan qolishmas edi: “Sharq xatlaridan nastaliq, nasx, shikastni suv qilib ichgan edi...” [Мажидий А. Шарқ шоираси Зебуннисо// Ер юзи. 1927. 19- сон.]U musiqada ham yetuk musiqachilardan qolishmagan holda, tanburni juda mohirlik bilan chalgan.

Shoira qalamiga mansub katta shoirlar orasida ham e’tibor qozona boshladi. U ulg‘aygach, ko‘pchilik uning muhabbatiga sazovor bo‘lishni orzulagan, ammo shoira kitoblarni, ijodni hamma narsadan ustun qo‘yib, turmushga chiqishni doim rad etib kelgan.

Zebunnisobegim saroyda tez- tez mushoiralar o‘tkazib turar edi. Bu mushoiralarning mazmuni boshqacharoq bo‘lib, shoira yozgan she’rlarga javob yozish vazifasi birinchi o‘rinda turadigan masala edi. Mana shunday paytda agar shoiraning she’ri ishqiy mavzuda bo‘lsa, ko‘pchilik bu she’r topshirilgan shoir haqida noto‘g‘ri fikrga borar edi.

Majidiy shunday voqealardan birini misol qilib oladi. Zebunnisobegim bir mushoira uchun Nosirali Sari Hindiy degan shoirga bir misra she’r berganda, shoir unga adabsiz javob yozadi. O‘z atrofida ishonchli deb bilgan odamlari shunday beadablik qilganidan so‘ng shoira g‘azablanib, Nosiralini Dehli shahridan badarg‘a qildiradi.

Shoironing vasliga yetisha olmagan ko‘p odamlar uning shaxsiyatiga daxl qiluvchi misralar bitishdan to‘xtashmadi. Oqilxon Roziy degan bir boy hind amaldori ham Zebunnisoni tahqirlab she’r yuborganda, shoira unga xuddi shu mazmundagi javob bitganidan so‘ng uning tazyiqlari tugagani ma’lum.

Zebunnisobegim fors tilida ijod qilgani ma’lum. Majidiy bu hodisani Hindistonda o‘sha paytda fors tilining mavqeyi juda yuqori bo‘lgani bilan baholaydi.

Shoira ijodining ma'lum qismi "Devoni Maxfiy" deb nomlangan majmuaga jamlangani ta'kidlanadi. Ammo bu devon shoiraga tegishli emas, Maxfiy taxallusi bilan Zebunnisobegim ijod qilmagan, degan xulosalar ham yo'q emas. Lekin munaqqid bu to'plamni aynan Zebunnisobegimga tegishli ekanligini, boshqa gaplar "puch gap"ligiga alohida urg'u beradi.

Shoira saroyda ulg'aygan bo'lishiga qaramay, barcha boyliklardan voz kechgan, umrini faqat ijodga, san'atga bag'ishlashga qattiq qaror qilgan edi.

Majidiy shunday buyuk qalb egasining ijodi yuzaga chiqishi kerakligi, uning durdona asarlarini hammaga tanishtirish kerakligini aytadi.

Jurnalda, shuningdek, adabiyotimiz uchun yangilik bo'ladigan ma'lumotlar ham uchraydi. Masalan, Chexov hikoyalarini tarjima qilish an'anasini Abdulla Qodiriy boshlab berdi, deb hisoblaymiz. Chunki 1936-yilda "Sovet adabiyoti" jurnalining 3-sonida Qodiriy tarjimasidagi hikoya "Buqalamun" nomi ostida bosiladi [Chexov A.P. Buqalamun. Sovet adabiyoti, 1936-yil, 3-son, 63-64-betlar]. Shundan keyin Chexovni o'ziga ustoz sanagan Abdulla Qahhor ham bu asarni "Xameleon" nomi bilan tarjima qiladi.

"Yer yuzi" jurnalining 1926-yildagi 12-sonida Saidg'ani Valiyev mutarjimligida Anton Pavlovichning "Buqalamun"i bosilgan. Demak, Chexovning ilk tarjimoni Qodiriy emas, balki Saidg'ani Valiyev ekan! Bu uch tarjimani yonma-yon qo'yib, tahlil qilsak, ular orasidagi farq deyarli yo'qligini kuzatamiz. Boshqa aytarliq tafovutning mavjud emasligini adib asarlari tilining puxtaligida deb belgilash mumkin. Lekin baribir bu uch ijodkorning sajiyasi va ijodi umuman bir-biridan farq qiladi. Shuning uchun ham quyida uch mutarjimning tarjimalaridan parchalarni parallel holda qiyoslashga harakat qilamiz. Shundagina asl bahoni bera olish mumkin, nazarimizda.

Tasnifda tarjimalarning davriga e'tiboran mualliflar ketma-ketlikda joylashtirildi:

<b>Chexov ("Xameleon")</b>	<b>Saidg'ani Valiyev ("Buqalamun")</b>	<b>Abdulla Qodiriy ("Buqalamun")</b>	<b>Abdulla Qahhor ("Xameleon")</b>
Через базарную площадь идет полицейский надзиратель Очумелов в новой шинели и с узелком в руке. За ним шагает рыжий городской с решетом, доверху наполненным конфискованным крыжовником.	Ustiga yangi shinel kiygan va qo'lida tugunchak ushlab palisa nazoratchisi Ochumiluf bozor o'rtasidan yurib kelmakda. Uning orqasida apti-angori sap-sariq gorodovoy musodara qiling'on qulubnaylar bilan to'la poshchik ko'tarib qadam	Yangi shinel kiygan po'lis nazoratchisi Ochumelov guzar maydonchasi orqali qo'lida tugunchasi bilan ketib boradi. Yo'lakay musodara qiling'an to'la bir g'alvir qulubnayni ko'targan sap-	Bozor maydonidan yangi shinel kiygan, tuguncha ko'targan politsiya nazoratchisi Ochumelov o'tib borardi. Uning orqasidan musodara qilingan krijovnik to'la g'alvirni ko'targancha malla gorodovoy kelmoqda.

Кругом тишина... На площади ни души... Открытые двери лавок и кабаков глядят на свет божий уныло, как голодные пасти; около них нет даже нищих.	otmoqda. Tevarak jimjit. Bozor sahnida hech kim yo‘q. Do‘kon va qovoqxonalarning ochiq eshiklari, och og‘izlar kabi xokisor va xafagazak bo‘lib ko‘rinib turar edi; ularning oldida hatto gadoylar ham yo‘q.	sariq gorodovoy uning orqasidan ta‘qib etadi. Tevarak jim... maydonchada hech kim ko‘rinmaydi. Do‘kon va qovoqxonalarning eshiklari ochiq, huvillab turadilar, bu eshiklar yonida gadoy u yoqda tursin bir zog‘ ham ko‘rinmaydi.	Tevarak-atrof jimjit... Maydonda jon asari ko‘rinmaydi... Do‘konlar va qovoqxonalarning huvillagan eshiklari yorug‘ dunyoga ochiqqandek og‘iz ochib turibdi; ularning yaqinida hatto gadoylar ham yo‘q.
--	--	--	---

Saidg‘ani Valiyev tarjimada asl manbaning gap strukturasi saqlab qolishga harakat qiladi, Qodiriy va Qahhor o‘zlari ijodkor bo‘lganlari uchun bu jarayonda muhimi ifodani emas, mazmunni saqlab qolish ekanligi, bu mazmunni esa turli sinonim yoki epitetlar bilan ham berish mumkinligini ko‘rsatib berishgan. Hamma tarjimaning o‘z nafasi borligini tan olmasdan iloj yo‘q.

Tarjimalar orasida O.Genrining “Qoq non” hikoyasi, Robindranat Tagorning “Xayrli qarash”, “Daryo bo‘yidagi zinapoyada” hikoyalari, Maksim Gorkiyning “Lochin qo‘shig‘i”, Umar Sayfiddinning “Turkcha retsept”, Artur Konan Doylning “Kesilgan dudoq” hikoyalarini uchratish mumkin.

Demak, “Yer yuzi” jurnalini bemaolol jadid adabiyotshunosligida sezilarli o‘ringa ega nashr deb baholashimiz mumkin. Jurnal sahifalarida Elbek, Boyish, Cho‘lpon, Abdulla Alaviy, Oybek kabi adabiyot fidoyilarining muallif sifatida nomlarini uchratish esa bu xulosamizning naqadar mantiqli ekanligini bildiradi. Tarjima asarlar esa o‘zining badiiy saviyasi va poetik tasvir vositalariga boyligi bilan alohida ajralib turadi. Balki aynan shuning uchun jurnal garchi nomlari turlicha atalib, to bugungi kungacha saqlanib kelgan va millatimiz ma‘naviy va adabiy hayoti sahifalariga muhim bitik bo‘lib muhrlangandir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Дўстқораев Б. Ўзбекистон журналистикаси тарихи.- Тошкент: Гафур Гулом, 2009.
2. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари.- Тошкент: Ўзбекистон, 2008.
3. Karimov B. Adabiyotshunoslik metodologiyasi. – Toshkent: Muharrir, 2011.
4. Нуриддинова Ф. Миллий матбуот фихристи. 1- китоб.- Тошкент: Миллий кутубхона, 2010.
5. Нуриддинова Ф. Миллий матбуот саҳифаларида.- Тошкент: Маънавият.

6. Қосимов Б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти.- Тошкент: Маънавият, 2004.
7. Саид З. Танланган асарлар.- Тошкент: Фафур Фулом, 1974.- 208 б.
8. Турдиев Ш., Қориев Б. Ўзбек адабиётшунослиги ва танқидчилиги библиографияси. - Тошкент: Фан, 1967.- 217 б.
9. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. –Т.: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2003.
10. Ғаниев И., Афоқова Н. Жадид адабиёти ва адабиётшунослиги библиографияси. - Тошкент: Академнашр, 2012.

## **ҲАЛИМА ХУДОЙБЕРДИЕВА ШЕЪРИЯТИДАГИ МАЪНАВИЙ САНЪАТЛАРДА ЛЕКСИК БИРЛИКЛАРНИНГ БАДИИЙ-ЭСТЕТИК ВАЗИФАЛАРИ**

*Эшнӣзова Гулҳаё Ҳамроқул қизи,  
Навоий давлат педагогика  
институтини докторанти*

Ming yillik tarixga ega bo‘lgan adabiyotimizda badiiyat masalasi hamisha she‘r ahlining diqqat markazida bo‘lib kelgan. Jumladan, adabiy asarlarda she‘riy san‘atlardan foydalanish mahorati hamma davrlarda badiiy san‘atkorlikning asosiy qirralaridan biri sifatida baholangan. Shoira Halima Xudoyberdiyeva ijodiga baho berar ekanmiz, ijodkor ifodalayotgan g‘oya o‘z aksini topgan ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-axloqiy, ma‘rifiy-tarbiyaviy muammolar mohiyati va ko‘lami, badiiy timsollar jilosi bilan bir vaqtda qo‘llangan she‘riy san‘atlarning rang-barangligi, mantiqiy asoslanishi, asar mazmunini ochishdagi o‘rni va ahamiyati kabi masalalarga ham alohida e‘tibor qilganligini ko‘rish mumkin.

She‘riy san‘atlarda tasniflash haqida A.Husayniyning “Badoyi us-sanoyi” asarida shunday deyiladi: “Nutq go‘zalliklari uch qism bila cheklanur ul jihatdinkim, har go‘zallik yo faqat lafz go‘zalligidur, yo faqat ma‘no go‘zalligidur yoxud lafzu ma‘no yig‘indisining go‘zalligidur.”[1-34] Mazkur fikrga muvofiq ushbu risolada ham, adabiyotshunos T.Boboyevning “She‘r ilmi ta‘limi” risolasida ham she‘riy san‘atlar lafziy, ma‘naviy va lafziyu ma‘naviy san‘atlarga bo‘lingan. [1-9] Masalan, iyhom, jam, tafrik, taksim, jam va tafrik, jam va taksim, takrir san‘atlarini A.Husayni ma‘naviy san‘at degan va boshqa olim-tadqiqotchilar esa bu san‘atlar haqida turlicha fikrlarni bergan.

“Ma‘naviy san‘atlar haqida “Badoyi-us-sanoyi”da faqat ma‘no go‘zalligidur [1-34] deyilgan. “She‘riy san‘atlar va mumtoz qofiya” da “Manaviy san‘atlar asardagi g‘oyalarni yorqin ifodalash, lirik va epik timsollarni hayotiyroq gavdalantirish, ularning ma‘naviy qiyofalari, his-tuyg‘ularini ta‘sirchanroq aks ettirishga xizmat qiladigan” [3-8] san‘atlar sifatida ta‘riflangan. “Ushbu ta‘riflarga ko‘ra go‘yo ikkala guruh san‘atlar bir-biridan aniq farqlanayotganga o‘xshaydi. Aslida esa, lafziy va ma‘naviy san‘atlar haqidagi bu fikrlarning hech biri mantiqan birini ikkinchisidan farqlab beruvchi qoida darajasida emas. She‘riy san‘atlarning

qonun-qoidalariga, mohiyatiga e'tibor qilinsa, mazmun va shakl orasiga Xitoy devorini qo'yib, ularni bir-biridan ajratib bo'lmaganidek lafziy san'atlarni ham shakl hodisasi sifatida ma'nodan ayri holda san'atni yuzaga keltiradi. [1-9] Mumtoz adabiyotimizda keng qo'llanilgan ma'naviy san'atlarni Halima Xudoyberdiyeva she'rlarida ham ko'rishimiz mumkin. Masalan, "Oq olmalar" kitobiga kiritilgan "Shunchaki" she'rida anafora (takror) "She'r yoki banddagi misra, gaplarning boshidagi so'z yoki so'z birikmasining boshqa misralar aynan takrorlanib kelishi" [5-23]

**Shunchaki yozmoqqa** ko'ngil to'lmaydi,

**Shunchaki yozmoqqa** bormaydi qo'lim.

**Shunchaki yozmoqqa** chidab bo'lmaydi,

**Shunchaki yozmoq**, bu-sho'irga o'lim.[4-18]

Badiiy matnni lisoniy tahlil qilish jarayonida sho'iraning tildan foydalanish mahoratini namoyon etadigan, emotsional-ekspressiv ifoda semalari qabariq holda reallashgan leksik birliklarni aniqlashda ular adibning badiiy-estetik maqsadiga qay darajada xizmat qilgani haqida mulohaza yuritish talab qilinadi. Buning uchun badiiy asar tilidagi ma'nodosh, shakldosh, zid ma'noli, ko'p ma'noli, tarixiy va arxaik so'zlar, yangi yasalmalar, shevaga oid so'zlar, chet va vulgar so'zlar ajratib olinadi va asarga nima maqsad bilan olib kirilganligi izohlanadi.[2-49]

Tilda ham har bir unurning o'z vazifasi, ma'no doirasi, boshqa unsurlar, birliklar bilan bog'lanish qonuniyatlari mavjud bo'lganidek, badiiy matndagi poetik aktuallashuv leksik vositalarda ham o'ziga xos tarzda kechadi va ayni paytda leksikaning poetik aktuallashuvi juda keng ma'noda kuzatiladi. Badiiy matnning lingvopoetik tahlilida, ayniqsa, so'z alohida o'rin tutadi. Demakki, so'z qo'llashning san'at darajasida yoki san'at darajasida emasligini baholash uchun, eng avvalo, so'z, uning ma'nosi va bu ma'noning tuzilishini aniq tasavvur etish lozim.[3-198] Badiiy matnni lingvopoetik tahlil qilish jarayonida Halima Xudoyberdiyevaning tildan foydalanish mahoratini namoyon etadigan, emotsional-ekspressiv mazmun semalari reallashgan leksik birliklarni sho'iraning yana bir she'rida ko'rishimiz mumkin. Masalan, Tanlangan asariga kiritilgan "Bizning tog'da" she'riga e'tiborni qaratadigan bo'lsak,

Tog' boshida ro'molim qoldi,

O'sha-o'sha tinchim yo'qoldi.

Duch keladi unga qay **ovchi**,

Qaysi **sayyoh**, qaysi **yo'lovchi**.

Sarxush, tog'ning **baland-pastida**,

Kim yurgandi u etdi nasib.

Kunduz telpak kiygan chavandoz,

Hadek tortmay **yuragingni yoz**. [4-22]

Sho'iraning bu she'rida, lirik qahramon o'zining ichki kechinmalarini, his-tuyg'ularini aks etganligini mohirona ifodalaganini ko'rish mumkin. Yana bu yerda antiteza (qarshilantirish) san'ati, ya'ni "Badiiy asarda voqea yoki tushunchalarni bir-biriga qarshilantirish orqali bir-biriga zid tushunchalarni yaqqol ifodalash va ularga qiyosiy xarakteristika berish"[5-23] tushuniladi hamda leksik



ma'nodosh so'zlar va leksik frazeologik so'zlar ifodalanganligi yaqqol nomoyon bo'lgan. "Manodosh so'zlar tilning lug'aviy jihatdan boylik darajasini ko'rsatib beruvchi o'ziga xos vosita hisoblanadi. Frazeologik ma'nodoshlik-voqelikni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon ko'zi o'ngida aniq va to'la gavdalantirishda frazeologik iboralarning ma'nodoshligidan keng foydalanilgan. Leksik birlik sifatida frazeologizmlar so'zlar bilan ham sinonimik munosabatda bo'la oladi." [2-51] bunga Halima Xudoyberdiyevaning yuqoridagi she'ridagi mohirona foydalangan so'zlarni misol qilib keltirish mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Halima Xudoyberdiyeva she'rlarida ma'naviy san'atlarda leksik birliklarni estetik vazifa bajaruvchi unsurlar darajasiga ko'tara olgan. She'rlarida badiiy uslub individualligini ta'minlashda badiiy san'atning jonlantirish, anafora (takror), tajnis kabi san'atlardan shoira mohirona foydalangan. Ma'nodosh so'zlar, leksik frazeologik turg'un birikmalar (frazemalar), ko'p ma'noli so'zlardan she'riy nutq ta'sirchanligini boyitish bilan birga ma'noni kuchaytirishga, fikrning batafsil, atroflicha ifodalanishiga, tasvir obykti bilan bog'liq holda mazmun ifodalanishiga yetarlicha xizmat qilgan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Мамажонов З “Шеърӣ санъатларни таснифлаш масаласига доир”// Ўзбек тили ва адабиёти журнали , 2005/6-сон.
2. Yo'ldoshov M “Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari” O'zbekiston Respublikasi FA “Fan” nashriyoti 2007 123 bet.
3. Yo'ldoshov M “Badiiy matn va uning lingvopoetikasi” monografiya.-Toshkent. O'zbekiston HMIU, 2019.-256 bet.
4. Xudoyberdiyeva H Tanlangan asarlar.-T.: “Sharq”, 2020.-560 bet.
5. Matjonov S,Sariyev Sh “O'zbek adabiyoti” qo'llanma Toshkent-2005.

#### XX ASR O'ZBEK SHE'RIYATINING ASOSIY XUSUSIYATLARI

*Abduhamidov Abdulla Turobjon o'g'li,  
Karimova Malika Ismat qizi  
Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi  
ijod maktabining o'qituvchilari*

O'zirniki emas bu umr,  
To'la menikimas, sezib turibman.  
...Yengil-yelpi o'tsa umrdan bir dam,  
Rozi-rizo bo'lmas egasi.  
**Asqad Muxtor**

Yalt etgan umrida shoshib yashab, o'zidan asrlarga taalluqli nomni, adabiy-ilmiy merosni qoldirib keta olgan ustozlarimizdan biri Shoira opa Doniyorovanning sermazmun saboqlarini bugun yana sog'indik. Ustozning dunyolarga dars berar tahlillariga qaytmoq istadik...

XX asr o'zbek she'riyati tarixi, poetikasi masalalari adabiyotshunosligimizda keng va atroflicha o'rganildi va aytish joizki, tadqiq jarayoni hozirgi kunimizgacha ham susaygani yo'q. Bu o'rinda, avvalo, adabiy jarayonga bevosita ishtirok etgan holda adabiy tanqid yo'nalishida yaratilgan ko'plab maqolalar, konkret davrdagi dolzarb muammolar tadqiqiga bag'ishlangan monografiyalar mualliflari – Fitrat, Olim Sharafutdinov (“Ayn”), Usmonxon, A.Sa'diy, V.Mahmud, O.Hoshim, Oybek, H.Olimjon, I.Sulton, H.Yoqubov, S.Mamajonov, O.Sharafiddinov, N.Karimov, B.Nazarov, N.Xudoyberganov, B.Akramov, N.Rahimjonov, I.G'afurov, I.Haqqulov, O.Abdullayev, Q.Yo'ldoshev, B.Norboyev, S.Meliyev, Y.Qosim, J.Jumaboyeva kabi yangi she'rshunosligimizning shakllanishi va taraqqiysiga munosib hissa qo'shgan adabiyotshunoslarni tilga olish joiz. Ayni chog'da, ko'plab nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari ham dunyoga keldi. Jumladan, bu yo'nalishdagi tadqiqotlarning ayrimlari XX asr o'zbek she'riyati taraqqiyotining ma'lum bir bosqichini tarixiy aspektda yoritib bersa, boshqa birlari ayni bosqichga xos g'oyaviy-tematik xususiyatlarni, tag'in birlari poetik xususiyatlarni o'rganishga qaratilgandir. Shuningdek, muayyan adabiy-nazariy masalalarni o'rganishga qaratilgan ishlar borki, ularda XX asr she'riyati qo'yilgan masala nuqtai nazaridan tadqiq etiladi, ya'ni material bo'lib xizmat qiladi. XX asr o'zbek she'riyatining yetuk namoyandalari ijodi masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlarda ham mavzuga doir fikr-mulohazalar bildirilgan. O'tgan yuz yillik xalqimiz hayotida ulkan o'zgarishlar, avvalgi asrlarga qiyosan olib qaraganda bemisl taraqqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy sohalarning barida ulkan yutuqlar davri bo'ldi. Albatta, sarhisob qilganda yo'qotishlarimiz salmog'i ham aslo kam emas, lekin ularning nisbati yutuqlarga mutanosib belgilangan ko'rinadi. Xuddi shu gapni adabiyotimiz, xususan, she'riyatimizga nisbatan ham bemalol aytishimiz mumkin. Asr davomida nazmimiz ko'tarilish va pasayish, rivojlanish va depsinish kabi ko'plab pallalarni boshdan kechirdi. Biroq, baribir, ta'kidlab aytish lozimki, XX asr avvalida o'z taraqqiyotining sifat jihatidan yangi bir bosqichiga kirgan she'riyatimiz asr davomida mazmun-mohiyatiyu shakl-qiyofasini yangilab ulgurdi. Zero, she'riyat bir paytning o'zida ham inson qalbi orqali akslangan davr, ham o'sha davr insoni qalb suratidir. XX asr boshiga kelib esa yurtimiz ijtimoiy taraqqiyotning G'arb tarixiga tatbiqan olganda “yangi zamon” deb ataluvchi davriga kirdiki, natijada vatandosh insonning o'zi ham o'zgardi: u hayotga yangicha nazar solib, yangicha qarashlaru maqsad-intilishlardan kelib chiqib yashashga tutindi – “yangi inson” shakllandi. Aytish kerakki, yurtimizda ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot jarayonlari o'zining tabiiy oqimida kechgani yo'q, bunga avvaliga mustamlaka sharoiti, so'ng esa mustabid sho'rolar tuzumi imkon bermadi. Ijtimoiy hayotdagi turfa evrilishlar esa inson qalbida va, tabiiyki, she'riyatda chuqur iz qoldirdi. Demak, aytilganlardan kelib chiqib, XX asr o'zbek she'riyatining g'oyaviy-badiiy mundarijasini belgilab olish ayni muddaomiz sanaladi.

Avvalo, “XX asr o'zbek she'riyati” deb yuritilgan davrning xronologik chegaralarini 1905-1990-yillar deb o'ylaymiz. Xo'sh, nima uchun? Chunki bu o'rinda xronologik asr bilan “adabiy asr” tushunchalari bir-biriga mos kelmaydi va

buning hech ajablanarli joyi yo‘q. Garchi adabiyotimizda yangilanish kurtaklari XIX asr oxirlaridan boshlab kuzatilgan esa-da, uning chin ma‘noda yangilanishi 1905-yildan keyin boshlandi. Bu fikrimiz adabiyot tarixini ijtimoiy hodisalarga bog‘lab qo‘yish, deb baholanishi va e‘tiroz uyg‘otishi mumkin. Lekin Turkistonda jadidchilikning harakat sifatida faollashuvi ham, jadidchilik g‘oyalarining chinakam ommalashuvi ham ayni shu vaqtdan ibtido olganini inkor qilib bo‘lmaydi. Ikkinchidan, yangi o‘zbek adabiyotini XIX asrning ikkinchi yarmidan yoki oxirgi choragidan belgilash ham, bizningcha, haqiqatga unchalik mos emas. To‘g‘ri, avvalgi asrning oxirgi choragida she‘riyatimizda tematik yangilanish belgilari kuzatiladi. Lekin bu, birinchidan, to‘lig‘icha mumtoz she‘riyat an‘analari doirasida amalga oshdi; ikkinchidan, adabiyot taraqqiyotining har qanday bir bosqichiga xos xususiyatlar quruq yerda paydo bo‘lmaydi, ular o‘zidan oldingi davrda kurtak holda yashaydi. So‘nggi chegarani belgilashda ham xuddi shu asosga suyandik. Zero, 1991-yildan keyin yurtimizda ijtimoiy-siyosiy sharoit o‘zgardi, jamiyatda yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar qaror topa boshladi, so‘z san‘atining mohiyati, jamiyatdagi vazifalari haqidagi tasavvurlar tubdan yangilandi. Ya‘ni bu adabiyot tarixi nuqtai nazaridan tamomila yangi asrning boshlanishi bo‘lib, u haqda fundamental tadqiqotlar olib borish kelajakning ishi bo‘lib turibdi. Biz esa maqolamizda “yangi o‘zbek adabiyoti” deb atalgan adabiy davrning “XX asr o‘zbek she‘riyati” deb ataganimiz bir yo‘nalishi (1905–1991) haqida fikr-mulohaza yuritmoqdamiz. Bas shunday ekan, XX asr o‘zbek she‘riyatining asosiy xususiyatlari nimalarda o‘z aksini topgan, degan haqli savol qarshimizga chiqmoqda. Albatta, uning qirralari judayam ko‘p, lekin shunga qaramay, belgilovchilari quyidagi mulohazalarimizda mujassam, deb o‘ylaymiz.

Inson o‘zida biologik, ijtimoiy va ruhiy ibtidolarni jo etgan murakkab mavjudot bo‘lib, u bilan bog‘liq har qanday faoliyat va faoliyat mahsulida bularning izi bordir. Insoniyat tarixidagi “yangi davr” – u Evropada XVIII asrdan, yurtimizda XX asrdan boshlangan – inson mohiyatidagi ijtimoiylikning belgilovchi xususiyatga aylanishi bilan xarakterlanadi. She‘riyatimizdagi g‘oyaviy-tematik yangilanish, ijtimoiy mazmun-ruhning ustuvorlashuvi, eng avval, shu omil bilan izohlanadi.

Ajdodlaridan farqli o‘laroq, “yangi inson”ning qarashlari dunyoviy tus oldi, u endi oxirat uchun yashab, jannatga erishish haqidagina emas, foniy dunyodagi hayotini rostdash to‘g‘risida ham o‘ylay boshladi. Natijada adabiyotdagi estetik ideal tabiati turlandi: uning asosini endi **HAQ** emas, yaqin kelajakda inson sa‘y-harakati bilan qozonish mumkin bo‘lgan **ijtimoiy maqsad** tashkil qilib, idealdagi ezgulik va go‘zallik ibtidolarining mazmun-mohiyati ham shu maqsad bilan belgilandi.

Jamiyatdagi yangilanish ehtiyojini hamisha dastavval ziyoli qatlam his va idrok etadi. Bu qonuniyatdek gap. XIX asr oxirlarida yurtimizning Rusiya va boshqa mamlakatlar bilan aloqalari tig‘izlashgani, shu bilan bog‘liq milliy hayotimizga iqtisodiy-madaniy-maishiy yangiliklar kirib kelgani ziyoli qatlam tomonidan yangilanish ehtiyojining teran his etilishiga olib keldi. Ma‘rifatparvar

shoirlarning yangiliklarni targ'ibu tashviq etuvchi she'rlari she'riyatimizdagi tematik yangilanishning ilk bosqichi edi, deyish mumkin.

Yangilangan siyosiy-ijtimoiy sharoitda shaxs ijtimoiy faollashdi, uning jamiyatdagi maqomi o'zgarib, o'zini shaxsiy turmushi va ijtimoiy tartibotlarni o'zgartirishga qodir o'laroq idrok etdi. O'zgaralar turmushi bilan qiyoslash imkoni millatning mavjud holidan qoniqmaslik tug'dirib, islohotlar zaruratining anglanishiga zamin yaratdi. Zaruratni teran idrok etgan ziyolilarni birlashtirgan jadidchilik mafkurasi, shu mafkurani xalqqa anglatishni o'z oldiga vazifa qilib qo'ygan adabiyot – jadid adabiyoti maydonga chiqdi. Ayni shu narsa she'riyatimizdagi ijtimoiylashuv atalmish tabiiy jarayonni mafkuralashuv o'zaniga burgan bosh omil hisoblanadi. Mazkur jarayonlarda tashqi omilning ahamiyati ham katta bo'lib, u ichki omilni harakatga keltirgan motor vazifasini o'tagan. Jumladan, tashqi madaniy-iqtisodiy aloqalarning kuchayishi yangilanish ehtiyojini tug'dirdi, mavjud ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni o'zgartirib, shaxs maqomining o'zgarishiga olib keldi – yangi insonni shakllantirdi. Ikkinchi tomondan, jadidlarning Rusiyadagi turkiy xalqlar hamda Turkiyadagi islohotchilik harakatlari bilan ma'rifiy-mafkuraviy aloqalari, taraqqiyotda birmuncha oldinga ketgan xalqlar bilan adabiy aloqalar ham ijtimoiylashuvni kuchaytirgan muhim omillardandir. Albatta, she'riyatimizning mafkuralashuvi jadid adabiyoti bilan bog'liq holda yuz bergan hamda eskicha va yangicha ijtimoiy turmush tarafdorlari ziddiyati asosida kechgan bo'lsa, oktyabr to'ntarishidan so'ng ziddiyat “jadid – sho'ro” jabhasiga ko'chdi. Adabiy avlodlar orasida tabiiy mavjud g'oyaviy-estetik ziddiyat o'rniga g'oyaviy-mafkuraviy asosdagi ziddiyat yuzaga keldi, bu esa adabiyotni g'oyaviy-mafkuraviy kurash maydoniga aylantirdi. Natijada she'riyat san'atdan uzoqlashib, sho'ro davrida yaratilgan ko'plab she'rlar o'tkinchi hodisalar maqomini oldi. Ya'ni totalitar tuzum tayanchi bo'lgan kommunistik mafkura yakkahokim bo'lgan sharoitda nazm mafkura iskanjasida qoldi. Buning oqibatida to 50-yillar oxiriga qadar she'riyat, asosan, mafkura va tuzumning himoyachisi, maddohi, targ'ibotchisi sifatida yashadi, she'riyatdan shaxs – “men” quvib chiqarilib, uning o'rnini mafkura nomidan so'zlovchi “biz” egalladi. Shu tariqa adabiyotga tabiatan xos ijtimoiylik badnom qilindi, ijtimoiy mavzudagi badiiy ijod tabiatiga zid mazkur holat 60-yillardan boshlabgina bartaraf etila bordi va qariyb istiqbolga qadar davom etdi.

XX asr o'zbek she'riyatida g'oyaviy-estetik mavqe va poetik prinsiplardagi umumiylikiga ko'ra to'rtta adabiy avlodni ajratib ko'rsatish mumkin: jadid shoirlari, 20-yillar avlodi, 60-yillar va 70-yillar adabiy avlodlari. Ayni shu avlodlar g'oyaviy-estetik mavqei va poetik prinsiplari jihatidan bir-birlaridan farqlanadi, xronologik jihatdan oradagi o'nyilliklarda adabiyotga kirgan ijodkorlar mazkur avlodlardan biriga yaqinlashadi yo qo'shib ketadi. Ayni damda bu avlodlar vorisilik qonuniyati asosida bir-biri bilan bog'liq va shu bog'liqlik negizida XX asr o'zbek she'riyatining yaxlit manzarasi hosil bo'ladi. Ayni choqda, sanalgan har bir avlodning g'oyaviy-estetik prinsiplarini belgilagan konkret ijtimoiy-ruhiy omillar mavjud. Jumladan, ma'rifat, islohot va ozodlik g'oyalari bilan sug'orilgan ijtimoiy kayfiyat jadidlar avlodining; inqilob va sho'roning ilk yillaridagi g'alabali



(buning zamiridagi qurbonlari yo‘qotishlardan qat’i nazar) yurishlari bilan bog‘liq ijtimoiy kayfiyat 20-yillar avlodining; sotsializm g‘oyasiga ishonchning tiriltirilishi bilan bog‘liq ijtimoiy kayfiyat 60-yillar avlodining; g‘oyaga ishonchning barbod bo‘lishi va tub ijtimoiy o‘zgarishlar (jumladan, istiqlol) zaruratining his etilishi bilan bog‘liq ijtimoiy kayfiyat 70-yillar avlodining g‘oyaviy-estetik mavqeini belgiladi. [1;122]

XX asr boshlariga kelib, she’riyatning g‘oyaviy-tematik yangilanishi, davr ruh-kayfiyatini ifodalash ehtiyoji bilan bog‘liq holda realistik tendensiyalarning kuchayishi uning poetik jihatdan ham yangilanishini taqozo etdi. She’riyat asrlar davomida amal qilgan poetik kanonlarni inkor qilib, o‘zgargan mazmun-mohiyatga mos yangi shakl bobidagi izlanishlar davriga kirdi. Izlanishlarning she’riyatimizni chinakam yangilanishga olib kelgan yo‘nalishlari she’rning ritmik-intonatsion sathida, poetik ifoda yo‘sini va sub’ektiv tashkillanishda amalga oshdi.

Vazniy yangilanish XIX asr oxirlaridan boshlanib, mumtoz she’r o‘lchovlari va she’r shakllaridan jonli tilga eng yaqinlarini saylab ishlatishda namoyon bo‘ldi. XX asrning 10-yillariga kelib yaratila boshlagan “milliy she’r”larda mumtoz poetika qoidalaridan chekingan holda an’anaviy o‘lchov va shakllarga muayyan o‘zgartirishlar kiritila boshlandi. Bu o‘zgartirishlarning asosiy omillari realistik tamoyillarning kuchayishi, she’riyatning keng ommaga qaratilishi, she’r tilining jonli tilga yaqinlashishidir.

XX asrning 20-yillarida barmoq tizimi she’riyatimizda yetakchilik maqomiga erishdi va asr davomida uning ritmik-intonatsion imkoniyatlari muttasil kengayib bordi. 20-yillardan boshlab davrning ruh-kayfiyati bilan bog‘liq holda erkin she’r va sarbast she’r shakllari ham keng ommalasha boshladi. Aslida erkin she’r ham 10-yillarda aruz doirasida paydo bo‘lgan va aruz ritmik-intonatsion kontekstida qabul qilingan. 20-yillardan boshlab esa bu she’r shakllari barmoq asosida rivojlandi.

Poetik ifodadagi o‘zgarishlar ham mumtoz she’riyatdagi obrazlarga yangicha mazmun berishdan boshlandi. Jadidlarning ijtimoiy faolligi ortishi bilan 10-yillardan boshlab she’r keng ommaga qaratilgan nutq shaklini oldi, unda obrazlilikdan ko‘ra ritorik vosita va usullar ahamiyati ortdi. Mazkur hol jamiyatda o‘zgarish zarurati etilgani (obyektiv) va buning tobora keng idrok etila boshlangani (sub’ektiv) bilan bog‘liqdir.

She’riyatning obrazli tafakkurga qaytishi: 1) faol ijtimoiy-siyosiy harakatdan chetlashgan jadidlarning madaniy-ma’rifiy sohalarda faoliyat olib borgani va natijada ularda voqelikni estetik idrok etish imkonining paydo bo‘lgani; 2) jamiyatda sodir bo‘lgan o‘zgarishlar ularning asl maqsadlariga to‘la mos emasligi va qoniqmaslikni ochiq-oshkor ifodalash imkoniyatining cheklangani; 3) yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy sharoitda voizlik she’riyatining ular ko‘zlagan maqsadlarga muvofiq emasligi kabi ijtimoiy-psixologik omillar bilan izohlanadi. [2;2] “Chin adabiyot” yaratish zaruratining idrok etilishi natijasida 20-yillardan boshlab realistik asosdagi yangi obrazlilik shakllandi. Xom ashyo bazasi boyligi, ya’ni atrofdagi jami narsa-hodisalar she’r kontekstida poetik obraz bo‘la olishi poetik obrazlar xazinasining g‘oyat tez boyishiga asos bo‘ldi. Obrazli tafakkurning



ustuvorlashuvi bir tomondan va jamiyatda soʻz-fikr erkinligining cheklangani ikkinchi tomondan, 20-yillardanoq sheʼriyatimizda realistik asosdagi ramziy va metaforik obrazlarning keng ommalashuviga olib keldi.

Ijtimoiylashgan sheʼriyatning koʻngildan voqelikka yuz burishi, epik va dramatik tur bilan raqobat hamda oʻzaro aloqa-taʼsir sharoiti lirik asarning subʼektiv tashkillanishida oʻzgarishlarga, lirik subʼekt tushunchasining kengayishiga zamin boʻldi. Endi sheʼrda “lirik men” qatori “oʻzga”ning kechinma subʼekti boʻlishi (“ijroviy lirika”, “personajli lirika”), kechinmani obyekt tasviri yoki tavsifida aks ettirish (tavsifiy lirika, voqeaband lirika) mumkin boʻldiki, bu yangi sheʼriyatning tasvir va ifoda imkoniyatlarini kengaytirdi...

Koʻrinib turganidek, yakunlangan asr (XX) oʻzbek sheʼriyati oʻz mazmun-mundarijasiga koʻra gʻoyat salmoqdor boʻlib, uning mohiyati faqat aytilganlar bilangina toʻliq ochilib qolmaydi. Oʻzbek sheʼrshunosligi bu yoʻlda hali koʻp bor ter toʻkadi va ishonchimiz komilki, mazkur zahmatlar evaziga qoʻlga kiritiladigan natijalar ham koʻngilga zavq va qoniqish tuygʻularini, albatta, tortiq etadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:**

1. Saydulla Mirzayev. «X X asr oʻzbek adabiyoti». «Yangi asr avlodi». 2005-yil. 420 b.
2. Karimov Naim . XXI asr sari. — «Xalq soʻzi» gazetasi, 1999-yil. 20-may

#### **NUTQ – INSON MA’NAVIYATINING KO‘ZGUSI**

*Nazarova Ozoda Kushkarovna,  
Jizzax viloyati Doʻstlik tumani 18-umumiy  
oʻrta taʼlim maktabi oʻqituvchisi*

Nutq insonning muhim ehtiyojlaridan biridir. Insonlar oʻrtasidagi muloqotning asosiy quroli nutq hisoblanadi. Jamiyat hayotiga daxldor har bir shaxs bevosita nutqning ogʻzaki yoki yozma shakliga murojaat etadi. Nutqiy jarayon har bir shaxsning psixofiziologik imkoniyatidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Demak, nutqning qay darajada ravon, taʼsirchan, sof va mazmunli boʻlishi har bir shaxsning oʻzigagina bogʻliqdir. Til esa jamiyat mulki sanaladi. Til va nutq bir-birini taqozo etib keladi va bu ikki tushunchani oʻzaro bir-biridan ayro tasavvur etib boʻlmaydi.

Oʻzbek tili – biz soʻzlashib turadigan, oʻzaro fikr almashadigan, oʻz his-tuygʻularimiz, mehr-muhabbatimizni namoyon qiladigan, hayotimizning ajralmas aloqa vositasidir. Oʻzlikni anglash, avvalo, ona tilini chuqur oʻrganish, uning tarixi va taraqqiyot bosqichlarini bilish va bu tilning tarixiy taraqqiyotiga oʻz hissalarini qoʻshgan buyuk shaxslarning maʼnaviy merosini oʻrganish orqali amalga oshadi. Eng qadimgi davrdanoq mutafakkir olimlarimiz tilning, oʻzaro muloqot asosi boʻlgan soʻzning qudrati chuqur ahamiyat berganlar. Xalq ogʻzaki ijodi namunalaridan tortib, Mahmud Qoshgʻariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Alisher Navoiy, Bobur, Ogahiy, Munis, Furqat, Abdulla Avloniy va yana bir qancha mutafakkirlarimizning maʼnaviy merosida soʻzlash odobi, notiqlik

mahorati, soʻzlarni oʻz oʻrnida qoʻllashning amaliy ahamiyati yuzasidan qimmatli fikrlarni uchratish mumkin. Xususan, oʻzbek adabiy tilining asoschisi Alisher Navoiy soʻzni inson hayoti va kamolotida oʻrni beqiyos ekanligini taʼkidlab oʻtadi:

Odamki, demak bila kiromiyduru bas,  
Soʻz durru kishining intizomiduru bas,  
Sihat anchaki, ahli aql komiduru bas,  
Aqliga dalil aning kalomiduru bas.

Soʻzga chechanlik yoxud goʻzal nutq egasi boʻlish inson aqliy kamoloti, fazli, uddaburonligi, ishbilarmonligini koʻrsatuvchi asosiy xususiyatlaridandir.

Tilning, ravon va tarovatli nutqning shaxs kamolotidagi oʻrnini hech narsa bilan qiyoslab boʻlmaydi.

Bugungi kunda jamiyat hayotining dolzarb muammosi sanalmish nutqiy kamchiliklarni bartaraf etishda taʼlim xodimlari – oʻqituvchi va murabbiylarning masʼuliyati haqli ravishda bir karra oshgan. Yosh avlodni ona tiliga hurmat, sadoqat ruhida tarbiyalash uchun eng avvalo, taʼlim-tarbiya beruvchi shaxsning nutqi meʼyor va talablarga javob bera olishi zarur. Ustozning nutqi har jihatdan toʻgʻri, ravon, taʼsirli, mantiqli, boy va sofligi bilan ibrat maktabi vazifasini oʻtaydi va bunda yosh avlod jonli va haqiqiy nutq namunasini aniq koʻradi va har tomonlama idrok etadi. Nutqiy kamchiliklarni bartaraf etish uchun har bir komil inson quyidagi talablarga amal qilishi kifoya:

1. Nutq tovushlarining talaffuziga ahamiyat berish. Nutqning artikulyatsion nuqsonlarsiz boʻlishi uchun ona tilining tovush tomonini oʻzlashtirish zarur. Soʻz tarkibidagi tovushlarni tushirib, baʼzi tovushlarni shevaga xos talaffuz qilish, undosh fonemalarning oʻziga xos xususiyatlarini bilmaslik bu kabi nuqsonlarning kelib chiqishi uchun zamin boʻladi. Nutqning tovush madaniyatini shakllantirish uchun fonetik-fonologik bilim madaniyatini puxta egallash zarur.

2. Adabiy til meʼyorlariga muvofiq toʻgʻri talaffuz qilish. Oʻz nutqida shevaga xos, adabiy til meʼyorlariga muvofiq kelmaydigan soʻzlarni ishlatmaslik, soʻz urgʻularigan toʻgʻri foydalanish, orfoepik talaffuz meʼyorlarini buzmaslik lozim.

3. Nutqning aniq, oddiy boʻlishi. Fikrlar oʻrtasidagi izchillik taminlanishi va soʻzlarning tushunarli ifodalanishi muloqotning aniqligini taʼminlaydi.

4. Lugʻat boyligi keng boʻlishi. Kishining lugʻat boyligi qanchalik keng boʻlsa, uning nutqi ham shunchalik mazmunli boʻladi. Nutqning rang-barangligini taʼminlashda maqol, ibora, tasviriy ifodalardan keng foydalanish ham oʻziga xos ahamiyat kasb etadi.

Millatning mavjudligi uning til birligi va xududiy birligi asosida belgilanadi. Maʼrifatparvar olim, pedagog Ismoilbek Gaspirinskiy XIX asrning oʻrtalaridayoq tilni ardoqlash lozimligini uqtirib: “Millatning ikki asosi bor: til birligi va din birligi. Millatning oʻzligini yoʻqotishi uchun shulardan bittasining buzilishi kifoya”, deb taʼkidlagan edi. Millatning faxri boʻlgan til inson maʼnaviyatini belgilab beruvchi asosiy omildir. Oʻzlikni anglash, xalqimiz va tilimiz tarixini chuqurroq oʻrganish, oʻzbek tilining davlat tili maqomini amalda mustahkamlash har bir maʼnaviyatli shaxs oldida turgan vazifadir. Millatning qudrati uning tilida,

siyosiy va adabiy doiralarda uning qanday o‘rin tutayotganida ko‘rinadi. Tilning sofligi millatning g‘ururi va madaniyatining qay darajada yuksak ekanligini namoyon qiladi. Shu bois, o‘zligini tanigan, o‘zini hurmat qilgan har bir shaxs avvalo, ona tilining boy imkoniyatlaridan o‘rinli foydalana olishi, nutqiy madaniyatni puxta egallashi zarur.

## ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕК АДИБАЛАРИ ИЖОДИДА АЁЛ ОБРАЗИ ТАСВИРИ

*Ашурова Нигора Хайитовна,  
ТДЎТАУ тадқиқотчиси*

Маълумки, ҳозирги ўзбек адабиётида аёл адибаларнинг ўрни ва мавқеи тобора ошиб бормоқда. Айтиш жоизки, ҳозирги ўзбек адибалари ижодида аёллар руҳияти, тақдири, ўй хаёллари, орзу истаклари маҳорат билан тасвирланаётганини кўриш мумкин.

Адабиётшунос олим Б.Каримов таъкидлаганидек, “... ҳар қандай жанр, ҳар қандай йўналишида гўзал асарлар ёзиш мумкин. Бунинг учун орзу – истакнинг ўзи етарли эмас, албатта; энг танқис неъмат – истеъдод керак” [2;30]. Яна бир ўринда: “Бадий ижодда истеъдод қадрланади. Истеъдод эгаси ёзган шеърлар, дostonлар, ҳикоя ва романлар, албатта, бошқалар ёзган асарларда ўз индивидуал услуби билан ажралиб туради. Бадий адабиётдаги пўртаналар, тошқинлар, юксак чўққиларга чиқиш, янги назарий қараишлар учун манбалар тақдим қилиш истеъдодли шахсларга боғлиқ” [2;335]. Ҳақиқатда ҳар қандай санъат асари истеъдод неъматидан асосидан қурилар экан, ҳаётбахшлиги, умрбоқийлигини сақлаб қолади. Мана шундай истеъдодли адибалар - Зулфия Қуролбой қизи, Рисолат Ҳайдарова, марҳум Жамила Эргашевалардир. Адибалар ижодини кузатар экансиз, аёллар мавзуси, аёл образи юксак поғонага чиқиб улгурган. Тўғри, аёл мавзуси барча ижодкорлар асарларида етакчи ўринлардан бирини эгаллайди. Аммо кузатишлар ва изланишлар натижасида шунга амин бўлиндики, адиблар ижодида аёл образи етакчи ўринларда эмас, балки кейинги ўринларга тушиб қолганлиги билан фарқланади. Шунингдек, аёлларни аёл адибалар чуқур ва теранроқ англаб, уларнинг руҳияти ва ички кечинмаларидаги воқеликларни маҳорат билан ёритиб беришлари билан ажралиб туради.

Зулфия Қуролбой қизининг “Армон асираси”, “Машаққатлар гирдоби”, “Машаққатли ҳаёт сўқмоқлари”, Рисолат Ҳайдарованинг “Жавзо” ва Жамила Эргашеванинг “Қир устидаги аёл” романларида аёл характер хусусиятлари, руҳияти, ички кечинмаларини, жамият ва оилада тутган ўрни маҳорат билан ёритиб берилган. Адибалар романларининг етакчи қаҳрамонлари аёлларни ташкил этади ва ҳаёт сўқмоқларида адашган, алданган ёхуд оила кўрғонининг бутлигини таъминловчи асосий кучга айланган сиймолар тасвирида учрайди. Зулфия Қуролбой қизи, Рисолат Ҳайдарова, Жамила Эргашева аёл образини яратишда турфа хил типдаги қаҳрамонларни

танлашади. Қаҳрамонлар гарданига оила бутлиги, рўзгор юки, фарзанд тарбияси, жамиятда ўз ўрнига эга бўлиш сингари бир қатор юмушлар юклатилганлиги тасвирланади. Мана шу оиланинг, рўзгорнинг горини тўлдириш йўлида ўзини ҳар томонга уриши, тирикчиликнинг тошдан қаттиқ тутумлари бирини савдогарга, бирини ўзга юртларга сургун қилади. Шунингдек, севгига садоқат туйғуларининг хиёнатга алмаштирилганлиги алам ва андуҳ билан таъриф этилади. Ёхуд кўнгил оламидаги эврилишлар, армонга айланган туйғуларнинг симфонияси чизиб берилади. Мана шундай синовли онларда аёллар ҳаёти ва руҳиятидаги чизгиларни ўқувчига бор бўйича кўрсатиб беради.

Зулфия Қуролбой қизининг “Армон асираси”, “Машаққатли ҳаёт сўқмоқлари” романларида бозорда тирикчилик заҳматини чеккан, рўзгорнинг юкини елкасига олган аёллар қисмати ёритилса, “Машаққатлар гирдобини” асарида эса ҳаётда қоқилиб йўлини йўқотган инсонларнинг ўзга юртларда сарсон-саргардонлиги манзаралари тасвирланади.

Жамила Эргашеванинг “Қир устидаги аёл” романида ҳаёт йўлларида сарсон бўлган, адашган қисматлар хусусида сўз юритилади.

Рисолат Ҳайдарованинг “Жавзо” романи китобхонларнинг темурийлар даврининг, хусусан, Хусайн Бойқародан кейинги давр унинг фарзандлари Музаффар Мирзо, Бадиуззамон Мирзо, Хадичабегим, Шайбонийхон сингари тарихий шахслар ҳақидаги билимини ҳамда ўша давр аёллари яшаган муҳит мураккаблигини ҳаёлан тасаввур қилишга, ҳис қилишга имкон берадиган баркамол асар саналади.

Инсон табиати гўзаллигининг ифодачиси бўлмиш адабиётда биринчи навбатда аёл қалбини тушуниш, кашф этиш илми аҳамиятли. Ёзилган қадимий асарлар ҳам аёлга бағишлангани, аёл ва унга алоқадор нарсалар тургани, шубҳасиз. Ҳатто айтиш мумкинки, адабиёт тараққиёти аёл руҳияти мавзуининг бадиий тадқиқи ҳамда унинг теранлаша бориши билан чамбарчас боғлиқдир. Адабиётшунос З.Исомиддинов *“Аёл бўлмаса, адабиёт бўлмасди. Адабиёт, аввало, аёлга атаб, аёл учун, унинг кўнглини олиш, дилидагини билиш, аёл деган хилқат не ўзи – шуни англаш учун яралган. Абдулла Қаҳҳор айтганидек, қушнинг ҳам эркаги сайрайди. Сўз санъати аввалбоши эр кишининг ижодидир, демак, эркакни қизиқтирган бош масала адабиётнинг асосий муаммоси бўлади. Эркакни эса, табиийки, энг аввало аёл қизиқтиради. Шу боис, адабиётнинг асосий қаҳрамони, бош мавзуи – аёлдир”* [1;374].

Адибалар романларидаги аёл ҳаётга яқинлиги, ҳаёт ҳақиқатига ўхшашлиги, ҳаёт табиатига айнан мослиги ва ишонарлилиги билан муҳим қиммат касб этади. Бу борада ҳар уч ижодкор бошқа носирлардан тубдан фарқланади. Бу эса уларнинг роҳат ва азобга муштарак туйғуларида, эстетик идеалларида мужассам. Кўринадики, улар аёл образини яратаётганда ўз миллати онасини кўзда тутса, баъзан оналик шаъни, маҳобатини акс эттиради, баъзан аёл тийнатида йўқ, мос келмайдиган жирканч ифодалар билан ўқувчини бир қалқитиб олади. Қаҳрамонларга кўшилиб, ўқувчи азоб

чекади, роҳатланади, алқисса асар руҳиятидан чиқиб кетолмай қолади. Ўқувчида аёлга бўлган ҳурмат-эҳтиром, фарзандлик самимияти мусаффо ҳаводек асарга сингиб кетгани сезилади. Бундан ташқари, улар аёлга тадқиқотчи Хадичахон Лутфиддинова фикрига монанд: *“Эр кишининг хотини деб эмас, балки жамиятнинг тенг ҳуқуқли аъзоси – инсон деб қарайдилар ва бу гоёни сингдириш учун ҳаётини воқеаларни кўрсатишдан чўчимайдилар”* [3; 23].

Шуни алоҳида таъкидлаб ўтиш жоизки, адаблар романларининг сюжет курилиши пухта ишлангани (баъзи камчиликлар сезилсада), воқеалар пиллапоёси персонажлар руҳий олами теран таҳлили билан уйғунликда моҳирона ифодаланган.

Айтиш жоизки, уч адабанинг поэтик қарашлари бири-бирдан тубдан фарқ қилади. Уларнинг бири миллат миқёсидаги муаммони кўтарса, бири ижтимоий маданий муаммони кўтаради. Яна бири қалтис ёки авантюра муаммони кўтарса, иккинчиси маънавий-ахлоқий ва фалсафий муаммоларни қаламга олиб, моҳият билан иш тутаяди. Асарларида гоҳ қувонч-таскин, миқёсан тенгсиз умид, гоҳ дард-алам хуружи, азоб-уқубат, таҳқиру надомат, гоҳ йилт этган меҳр, ҳаёлдаги алдамчи ҳис-фароғат, аслида эса адоғи йўқ кўрғиликлар – кўплаб жилдли романга татиғулик беором тунлар, кунлар, ойлар, йиллар силсиласи биргина роман контекстидан муносиб жой олиб ижодкор эстетик идеалини кўрсатган ва поэтик жиҳатдан мукамал тасвирлашга ҳаракат қилинган. Асарларида тифиз вазиятлар бот-бот такрорланади ва ҳар гал муаллиф беназир зот – аёл вужудида мужассам бекиёс меҳр ва чидамнинг янги-янги қирраларини кашф этишга эришади. Аёл иродасининг баъзан сустлиги, баъзан матонати хусусида таъсирли кечинмаларнинг бекиёс ифодасига дуч келаверасиз.

Жамила Эргашеванинг қаҳрамони Нозимада афсусланиш, ножўя ишлари учун тавба қилиш, уялиш туйғуси бор. Шу боис ёзувчи асарда асл инсоний қалбни кўрсатишни бош мақсад қилиб қўйган. Шунга кўра, Нозима давр қурбонлари эмас, балки ўз характер хусусиятлари билан тақдирини белгилаган аёллардандир.

Зулфия Қуролбой кизи романларидаги Ҳулқар, Гулрух, Назира қатъиятлилиги, оқиллиги, маънавий юксаклиги сабабли ҳаёт зарбасига дош беради, ўзи тарқ этган турмуш йўллари қайта тиклашга киришади. Гулрух, Ҳулқар, Назира ҳам мардонаворлиги, маънавий гўзаллиги боис ҳар қандай тўсиқларни енгиб ўтиб, янги ҳаётга қадам қўйган аёллар образидир.

Рисолат Ҳайдарова романидаги Қорақўзбегим ва Хадичабегим қисматлари давр, макон силсиласидан қатъий назар эзгу мақсадлар доим инсонни ёруғ кунларга олиб чиқишига ишора қилади. Асар қаҳрамонлари Қорақўзбегим ва Хадичабегимлар ўз қисматларини ўзлари белгилаган, нафсининг қулига айланиб улгурган аёллардир.

Халқимизда “Аёл ҳийласи қирқ туяга юк бўлар” деган ибратомуз нақл бор. Ушбу нақлни ижобий жиҳатдан таҳлил этсангиз, ҳийлани ҳам ақлли



аёлгина уддалай олиши ва бу ақл қирқ туяга юк бўладиган даражада оқиллик ва донолик билан йўғрилганига гувоҳ бўламиз. Бу каби ақл ва донолик фақат эзгу мақсадлар сари йўналтирилса, ҳаётимиз янада нурафшон ва гўзал бўлади. Дунё гўзаллигининг безаги эса аёлдир. Аёлнинг турли фазилатлари ичра ҳаё марваридга ўхшашдир. Бу марвариднинг кадр-қимматини ҳеч нарса билан ўлчаб бўлмайди.

Хулоса қилиб айтганда, аёл оиланинг бахту иқболи, келажак авлод давомчиси. Аёли бахтли элнинг келажаги ҳам порлоқ бўлиши айна ҳақиқат. Адиба Зулфия Қуролбой қизи, Рисолат Ҳайдарова, Жамила Эргашева асарларида ҳам бугунги кун аёлларининг турмуш-тарзи, орзу мақсадлари, руҳияти, интилишлари акс эттириб берилган. Ҳар бир асарда аёл дарду-ташвиши, изтироби, қувончу-шодлиги маҳорат билан ифодаланган. Гўё атрофингизда, ўз тақдирингизда кечаётган воқеликка бефарқ қарай олмайсиз. Бу эса иқтидорли адибаларимизнинг улкан ютуғидир. Мазкур асарларни ёшлар, хусусан, китобхонлар ўртасида тарғиб этилиши, улар ўртасида муҳокамаларга айланиши, ўрганилиши хотин-қизлар руҳиятини англашда муҳим манба бўлади.

### Фойдаланилган адабиётлар:

1. Исомиддинов Зухриддин. Икки аёл. Ўзбек адабий танқиди: (антология). Тузувчи ва нашрга тайёрловчи Б.Каримов. Тошкент: Турон - Иқбол нашриёти. 2011. - Б.543.
2. Каримов Б. Руҳият алифбоси. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги нашриёт – матбаа ижодий уйи, 2018. – Б. 361.
3. Лутфиддинова Х. Ёзувчининг эстетик идеали ва аёллар образи. (“Ўтган кунлар” ва “Кеча ва кундуз” романлари мисолида). Ф.ф.номз.дисс. автореф. - Тошкент: 1994.- Б.23. (<https://cheloveknauka.com/v/534706/a#?page=23>)
4. Содиқова Т. Аёлга қасида. Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёти, 2008. – Б. 326.

### O‘ZBEK TILIDA RANG-TUS KODLARI

*Muqimova Zohida Rasulovna,  
O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va  
folklori instituti doktoranti*

Madaniyat kodlari – u yoki bu madaniyatga xos bo‘lgan ijtimoiy amaliyot usullari to‘plami, muayyan xalqning qadriyatlarini va qoidalari majmuyi, dunyoni idrok etishda ishlab chiqilgan me‘yoriy va baholash mezonlari tizimi. Filologiya fanlari doktori, professor Durdonaxudoyberganova ta’kidlaganidek, “Madaniyat kodi insoniyatning arxetipik tasavvurlariga muvofiq keluvchi, o‘zida olam haqidagi tasavvurlarni namoyon etuvchi tushunchalar va ularning lisoniy shakllari” [13;29] dir. Madaniyatshunoslarning xulosasiga ko‘ra esa madaniyat kodlari madaniyatni tushunish kalitidir, u biror-bir shaklda kodlangan madaniy axborotni aniqlash

imkonini beradi. “Madaniy kodni o‘zida madaniyat ustuvorliklarini aks ettiruvchi asosiy tushuncha, qadriyat va me‘yorlar yig‘indisi sifatida ta‘riflash mumkin” [10;61]. Bilamizki, “Millatning milliy-mental xususiyatlari, milliy mentalitetga xos turg‘unlashgan axloq qoidalari, qadriyatlari, milliy obrazli tafakkuri, milliy o‘ziga xos nigohi lingvomadaniy kodlarda yorqin aks etadi” [10; 61].

Milliy an‘analarni, qadriyatlarni, olamni idrok etish erta yoshdan boshlanadi. G.Xofstede ta‘kidlaganidek, “Odam o‘z atrof-muhitidan kerakli ma‘lumotlarni o‘zlashtirishi uchun 10-12 yil kerak bo‘ladi va bu davrning oxirida dunyoni mantiqiy idrok etishga o‘tadi” [7;3]. Bu ma‘lumotlarga odamlar (ota-onalar, qarindoshlar, yaqinlar, ...), urf-odatlar (salomlashish, ovqatlanish, ...), buyumlar va ramzlar kiradi. Odamning olamni bilishda, uni mantiqiy idrok etishda madaniy kodning muhim roli bor. Muayyan muhitda tug‘ilib o‘sgan odamda ma‘lum bir tushunchaning madaniy o‘ziga xos mazmunini o‘z ichiga oluvchi manzara paydo bo‘ladi.

Turli madaniyat vakillarining bir xil tushunchani anglatuvchi so‘zlari turli xil ma‘nolarda qo‘llanishi mumkin, bir xil tushuncha boshqacha baholovchi ma‘noga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, o‘zbek tilida qo‘y (ovsa) “yuvoshlik” etaloni bo‘lsa, rus tilida qo‘y “qo‘rqoqlik” etaloni sifatida turg‘unlashgan. Yoki oy o‘zbek tilida go‘zallik etaloni bo‘lsa, “rus lingvomadaniyatida oy obrazi ko‘proq g‘amgin, mayus, sovuq manzara bilan bog‘lanadi” [6;174]. Demak, turli millatlarda olamni anglash, jumladan, o‘xshatish etalonlarining tanlanishida ham farqli milliy-etnik idrok muhim rol o‘ynaydi. Shu o‘rinda aytish o‘rinliki, o‘xshatish etalonlarining ayrimlari turli xalqlar madaniyatidagi umumiy jihatlarni ham ifoda etadi, masalan, oy etaloni ham. Nizomiddin Mahmudov ta‘kidlaganidek, “Xitoy va koreyslarda oy etaloni faqat musbat o‘lchovlarda talqin etiladi, go‘zal ayolning oyga o‘xshatilishi juda keng tarqalgan, xuddi o‘zbeklardagi kabi oy obrazi go‘zallik, yorqinlik, yoqimlilik kabi sifatlarni tamsil etishga xizmat qiladi” [6;174]. Muhimi shuki, u yoki bu millat olamni o‘ziga xos milliy-madaniy nigoh bilan ko‘radi va bu manzara har birining tilida o‘z tajassumini topadi.

Madaniy kodlar tizimi – bu ochiq tizim; jamiyatda o‘zini tutish me‘yorlari vaqt o‘tishi bilan o‘zgaradi, madaniy kod ham o‘z-o‘zidan o‘zgarib boradi. Bu hodisani ming yillik boshida odamning oila va oilaviy qadriyatlarga bo‘lgan munosabatida yuz bergan o‘zgarishlar bilan tasdiqlash mumkin. B.A.Maslova ta‘kidlaganidek, “Madaniy kodni ishlab chiqish har doim qadriyatlarni qayta baholash jarayonidan o‘tadi. Madaniyat kodlari dunyo haqidagi arxetipik va mifologik g‘oyalar bilan bog‘liq dunyo haqidagi qadimiy arxaik bilimlarga asoslangan” [7;3].

U yoki bu xalqning milliy-madaniy tasavvurlari, obrazli tafakkuri in‘ikosi sifatida olamning o‘ziga xos lisoniy manzarasini o‘zida ifodalovchi lingvomadaniy kodlarni o‘rganish, ularni lingvomadaniy nuqtayi nazardan tadqiq qilish o‘zi mansub bo‘lgan millatning yashash hududi, turmush tarzi, mental xususiyatlari va milliy-madaniy xarakterini, ijtimoiy munosabatlarini, muomalasining axloqiy-madaniy me‘yorlarini, milliy qadriyatlari, an‘analarni atroflicha tahlil qilish imkonini beradi.

O‘zbek tilida ranglarning har biri bir ramzni bildirishi barchamizga ma‘lum.

Bugunga qadar jahon tilshunosligida ham, o‘zbek tilshunosligida ham belgi bildiruvchi so‘zlar lingvistik, lingvokulturologik jihatdan tadqiq qilingan. Jumladan, belgi bildiruvchi so‘zlarning eng katta guruhini tashkil etgan rang ifodalovchi birliklar tadqiqiga bag‘ishlangan bir qator ishlar mavjud. M.Sodiqova sifatning ma‘no turlariga bag‘ishlangan tadqiqotida sifatlarni 9 ta semantik guruhga ajratadi [8;8]. Olima sifatning ma‘no turidan eng xarakterlisi rang-tus bildiruvchi so‘zlar ekanini hamda ularning frazeologik birikma, maqol, matallar, topishmoqlar, aforizmlar, badiiy matnlarda ko‘p uchrashini ta’kidlaydi [9,38]. Aytish joizki, Barno Kadirova ta’kidlaganidek, “Rang ifodasi masalasi ko‘p qirrali bo‘lishiga qaramasdan, ranglarning nomlari hali-hanuz ochiq turibdi. Ranglarning turli tizimdagi tillar doirasida universal va milliy xususiyatlarni ajratish nuqtayi nazaridan o‘rganilishi ham talab darajasida emas” [5;74]. Vaholanki, rang-tusni bildiruvchi so‘zlar VI asarda bitilgan xalqimiz tarixi o‘z tajassumini topgan bitiklaridan tortib to bugunga qadar yozilgan matnlarda ham rang ma‘nosida, ham estetik-simvolik ma‘nolarini ifodalagani kuzatiladi. Masalan, “To‘nyuquq” va XI asrning pandnomasi “Qutadg‘u bilig”dan keltirilgan quyidagi matnlar fikrimiz isbotidir. “Turk xalqi Temir darvozaga Tinsi o‘g‘li yotadigan tog‘ga yetdi, egasi yo‘q ekan. U yerga men, dono To‘nyuquq, yetkazib borganim uchun sariq oltin, oq kumush, qizjuvon, egri tuya, ipak hadsiz keltirdilar” [3; 2] (“To‘nyuquq”), “Qizil til qora boshga dushman yomon, Bu yovni mahkam tut, bo‘larsan omon”, “Nima der, eshit, ish bilar Ko‘k Ayuq (*Ko‘k Ayuq – Turkman oqsoqqollariga beriladigan unvon*) Bu so‘zni uqmagani kishi esi yo‘q”, “Qora soch, yag‘rini esa keng bo‘lsin, Oq badan, yuzlari mag‘izdek bo‘lsin”, “Zulfin yoyib, osmon yopdi nur yuzin, Qora zulfi chulg‘adi olam yuzin”, “Yashil ko‘k yaratdi, yoritdi kun, oy, Qora tun, yorug‘ kun, hisobli yil, oy”, “Gar ketsa, berganlarin olar bir-bir, Boshni qora yerga teng qilar oxir” [4; 1] (“Qutadg‘u bilig”). Aytmoqchimizki, rang-tus kodlari ham nutqda, ham badiiy matnda keng qo‘llanadi. Ular xalqning milliy-madaniy merosini, ijtimoiy-maishiy hayoti to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni avlodlarga yetkazishda asosiy lingvokulturalogik kodlardan biridir. Masalan, *oq rang* – muqaddas tinchlik ramzi bo‘lib, u kun charog‘onligi va koinot yoritqichlari bilan uyg‘unlashib ketadi. O‘zbek madaniyatida oq rang – poklik, ezgulik, beg‘uborlik, musaffolik, soflikni, orzu va hayollar tozaligi, ichki go‘zallikka intilishning timsoli. “Masalan, oqlik, oq o‘rar, ona sutidek oq, oq ot yoki kelinlarning oq libos kiyishlari. Rus xalq og‘zaki ijodida oq – yaxshilikni anglatadi. Uzoq Sharq mamlakatlari madaniyatida oq – motam rangini bildiradi. Agar motamda qora kiyim kiyilsa, marhumning ruhi hech narsa ko‘rmaydi, deb ishonilgan. Shuning uchun ham motamda oq rang bu dunyodan keyingi hayot, ko‘rish ramzi hisoblanadi” [11;70]. O‘zbekistonning Xorazm viloyatida hamda Buxoro viloyati Olot tumanida motamda oq kiyim kiyish udumi mavjud. *Moviy rang* – tiriklik mazmuni aks etgan mangu osmon va obihayot ramzi. Timsollar tilida bu – yaxshilikni, donishmandlikni, halollikni, shon-shuhrat va sadoqatni bildiradi. *Yashil rang* – tabiatning yangilanish davri, bahor, barhayotlik ramzi. U ko‘pgina xalqlarda navqironlik, umid va shodumonlik timsoli hisoblanadi. *Qizil rang* turli madaniyatlarda inson vujudida jo‘shib oqayotgan hayotiy qudrat irmoqlarini, tiriklikni, hayajonni, g‘ayratni, kuchni, buyuklikni ham anglatadi.

Vizantiyada faqat imperator ayol qizil oyoq kiyim kiyishga haqlidir. Ko'pgina xalqlar uchun *qizil rang* janub, olov va issiqlikni ramziy ma'noda anglatadi. *Sariq rang* yorug'lik ranglari sifatida ham izohlanadi, bu rang kasallik ramzi hamdir. Ba'zi xalqlar orasida ayollar sariq kiyimni afzal ko'rishadi. Ko'pincha, sariq rang oliyanob odamlar va yuqori mansab egalarining o'ziga xos xususiyati bo'lib xizmat qilgan. Masalan, mo'g'ullar ko'pincha sariq kiyim kiyishadi. Osiyodagi ba'zi xalqlar orasida sariq rang motam, qayg'u rangidir. Yevropada sariq yoki sariq-qora bayroq karantin degan ma'noni anglatadi. Slavyan xalqlari orasida sariq rang hasad, xiyonat qilishning rangi deb hisoblanadi. *To'q sariq rang* ijodkorlikni, xayolparastlikni bildiradi. *Yashil rang* xotirjamlik, omad, yangilanish, salomatlik, hayotiylikni anglatadi, u ham atrof-muhitning ramzi, tabiiylikning timsolidir. Yashil rang ko'pgina xalqlarda yoshlikni, umidni, zavqni ifodalaydi. Eron xalqi yashil rangni tez o'sish bilan ham, baxtsizlik, xafalik, qayg'u bilan ham bog'laydi, shuning uchun baxtsiz odamni "yashil oyoq", qabristonni "yashil uy" deb atashadi. *Ko'k rang* ba'zi xalqlarda osmon va abadiylikni anglatadi. Shuningdek, u mehr-oqibat, sadoqat, barqarorlik, xulq-atvor, poklik va tepalik ramzidir. Geraldikada u iffat, halollik, shon-sharaf va sodiqlikni anglatadi. *Ko'k rang* Qadimgi Misrda va Janubiy Afrikaning ba'zi xalqlari orasida motam rangi hisoblangan. *Jigarrang* ishonch ramzidir. Kulrang ishbilarmonlik, pushti rang esa ehtiros ramzi sifatida qo'llaniladi.

Ma'lumki, *qora rang* turli lingvomadaniyatlarda deyarli yovuzlik, yomonlik ramzi hisoblangan. Qora rang, qoida tariqasida, baxtsizlik, qayg'u, motam, o'limni anglatadi. Qadimgi Meksikada marosim qurbonligi paytida ruhoniylarning yuzi va qo'llari qora rangga bo'yalgan. Qora rang nafaqat vakolat va vaznni, balki tajovuzkorlikni ham anglatadi. Arablar orasida "ko'zlarning qorasi" iborasi sevikli, "qalbning qorasi" muhabbatni anglatadi. Afrikaning qurg'oqchil mintaqalarida suv oz bo'lgan va qora bulutlar unumdorlik va mo'l-ko'llikning ramzi bo'lgan. "Sharq va O'rta Osiyo madaniyatida ba'zan qora rang ulug'vorlik, buyuklik ramzi sifatida talqin qilingan" [11;70]. Jumladan, Alisher Navoiyning "Sab'ai sayyor" dostonida qora rang buyuklik ramzi sifatida ulug'langan. "Axiy: "Bor yaxshiliklar shu palos tufayli yuz berdi, uni tashlab yuborsam to'g'ri bo'lmaydi", deb shu kiyimda ibodat qildi. Uning bu ishini ko'rgan shoh shu yo'lni tutgach, xalq ham **qora** kiyishni odat qildi" [12;309]. "Sab'ayi sayyor" dostoni qahramonlari – Farrux ham, Axiy ham o'z maqsadlariga *qora libos* orqali erishgan. "Qora so'zi qadimiy turkiy tilda ham kuchli, qudratli" [1;140]. ma'nosida qo'llangan. "O'zbek ismlari" kitobida qora komponentli (tarkibli) antroponimlarning deyarli barchasi kuchli, qudratli, ulug' ma'nolarida izohlangan. Masalan, "Qora, Qora (o'z.) – kuchli, qudratli bola yoki qoracha bo'lib tug'ilgan bola yoxud qoracha urug'iga (qirq qabila tarmog'i) mansub bola. Shakllari: Qorabek, Qoraboy, Qorajon, Qoratoy, Qoraxon, Qoraqul" [2;545]. kabi.

Har qanday tilni kodlar prizmasi orqali tasvirlash mumkin. Lingvomadaniyatshunoslikning bir qancha yutuqlari bilan bog'liq holda, lingvistik faktlarga tayanib aytish o'rinliki, badiiy matnlarni lingvokulturologik jihatdan tadqiq qilish muhim masalalardan biridir. Boisi matn – tilshunoslik va



madaniyatshunoslikning haqiqiy to‘qnashuvi, ayni paytda u yoki bu madaniyat mavjudligining bir shakli. Har bir millatning badiiy durdonalarida unga xos bo‘lgan madaniyat, qadriyatlar, urf-odatlar va dunyoni idrok etish qobiliyati u yoki bu ko‘rinishda o‘z ifodasini topadi. Madaniyatshunoslikning tilni faqat madaniy qadriyatlarni o‘zida mujassam etgan til kodlari prizmasidan iborat tizim deb bilishi bejiz emas. U yoki bu madaniyat o‘zi mansub tilda yaratilgan matnda o‘z ifodasini topadi. Badiiy matndagi lingvomadaniy kodlar to‘liq idrok etilmasa, undagi badiiy maqsad, uning mazmun-mohiyati butunicha anglashilmaydi.

Xulosa shuki, har qanday millatning lingvomadaniyatini to‘liq idrok etish uchun uning lingvomadaniy kodlarining, jumladan, rang-tus kodlarining ham ahamiyati katta.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Begmatov E. Ismlarning sirli olami. –Toshkent, 2014. – B. 104.
2. Begmatov E. O‘zbek ismlari. –Toshkent, “O‘zbekiston miliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. – B. 545-546.
3. <https://yoshlikjurnal.uz>
4. <https://kh-davron.uz>. > turk > y...
5. Кадирова Б.Р. Белги билдурувчи лексемаларнинг лингвокультуролик хусусиятлари [Матн]: монография / –Тошкент: “Nodirabegim”, 2020. –Б.74.
6. Mahmudov N. Til tilsimi tadqiqi. – Toshkent: “Mumtoz so‘z”, 2017. – B.174.
7. Maslova V. A. , Pimenova M.B. Kodi Lingvokulturi. – M.: “Flinta”, 2018. – S.3.
8. Садыкова М. Слова обозначающие цвет и окраску в узбекском языке. Автореф. Дисс. ...канд. Филол. наук. – Ташкент, 1963. –Б.8.
9. Содиқова М. Ҳозирги ўзбек тилида сифат. –Тошкент:ЎзФАН, 1974. –Б.38.
10. Usmonov F. O‘zbek tilidagi o‘xshatishlarning lingvomadaniy tadqiqi. Filol. Fan. Bo‘yicha falsafa d-ri ... (PhD) diss. – Tashkent, 2019. – B. 61.
11. Usmonova Sh. Lingvokulturologiya. – Tashkent, 2019. – B.70.
12. Xamsa / Alisher Navoiy. Qisqartirib nashrga tay. A.Hojjahmedov. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – B. 309.
13. Xudoyberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug‘ati. – Tashkent: “Turon zamin ziyo”, 2015. –B. 29.



## ПОЭТИЧЕСКОЕ НАСЛЕДИЕ ЧУЛПАНА

*Абдувахобова Дилдора Эркиновна,  
старший преподаватель Джизакский  
политехнический институт*

Абдулхамид Сулейман (1897-1938), подписывавший свои произведения под псевдонимом Чулпан (“Утренняя звезда”) особо выделяется среди узбекских писателей. Это была довольно одаренная личность, которая оставила заметный след в истории отечественной литературы.

Писатель родился в Андижане в 1897 году. Его отец мечтал дать сыну хорошее образование. Некоторое время Абдулхамид проучился в одной из местных школ, а затем продолжает свое образование в медресе Андижана и Ташкента. Он изучает не только традиционные, обязательные дисциплины – языки и Коран, но и с увлечением обогащает себя знаниями восточной философии, изучает логику и историю, глубоко проникает в неповторимый и прекрасный мир классической поэзии. Проявив незаурядные способности в изучении языков, Абдулхамид Сулейман в подлиннике читает Фирдауси, Саади, Хафиза, Омара Хайяма и многих других замечательных поэтов прошлого.

В русско-туземной школе, где он учится позднее, изучал язык Пушкина и Достоевского, произведения которых Чулпан любил и высоко ценил. Посредством русского языка поэт знакомится и с европейской культурой.

Его творчество перекликалось с модным в конце XIX-начале XX вв. литературно-общественным течением «джадидов» (в переводе с арабского – «новое») в Центральной Азии. Они издавали книги, проводили просветительские вечера, пытались реформировать школьное образование и сделать его более светским, призывали изучать русский язык и российские законы, математику, ремесло и шариат. Они выступили с идеями переоценки и усовершенствования этики, веры, правосудия, здравоохранения, улучшения положения женщин, всех сторон общественной жизни. В конце концов, ярких представителей джадидизма, включая Чулпана, большевистская власть в 20 -ые годы XX века обвинила в «буржуазном национализме».

Помимо гражданской поэзии в поэтическом наследии Чулпана существенное место занимает пейзажная и любовная лирика – стихи, собранные в тематические циклы: «По любимым следам» и «По весне моя грусть». В отличие от своих предшественников, - подчеркнул на встрече Николай Ильин, - Чулпан переосмыслил классическое наследие А. Навои, Джами, Хорезми, Лутфи, Бабура и других поэтов средневековья. Его лирика обращена к реальности: «На подобном переплетении двух миров – действительного и условно-поэтического – во многом основывается своеобразие художественного стиля Чулпана... Здесь имеет место поэтическое новаторство, не разрушающее классического наследия, но продвигающее его, развивающее в условиях новой эстетической

действительности и не впадающее в эклектику», - утверждает автор переводов. Так, в любовном цикле от «пери» остаётся только внешнее уподобление, но при этом поэт утверждает силу земной любви.

В середине двадцатых годов Чулпан некоторое время работает в Москве литературным консультантом драматической студии Дома просвещения. Он, как обычно, много работает. Пишет роман “Ночь и день”, несколько пьес, стихи, интенсивно занимается переводами. Именно переводы во многом способствуют его творческому росту. Возросшее мастерство Чулпана в этот период очевидно. Возможно, именно это спровоцировало появление в 1927 году статей, в которых писателя обвинили в “буржуазно-националистических взглядах”. Началась откровенная травля Чулпана, которая несколько утихла к началу тридцатых годов. Это позволило Чулпану несколько активизировать свою творческую деятельность. Так, за два года до ареста, последовавшего в осенью 1937 года, Чулпан перевел на узбекский язык произведения Лахути “Путешествие по Европе”, Пушкина “Дубровского” и “Бориса Годунова”, Горького “Мать” и “Егор Булычов”, заканчивает свой роман “Ночь и день” (1936), выпускает сборник стихов “Соз” (1935). На упрек членов Союза писателей, что он мало работает, Чулпан ответил достойно: “... если дать больше – значит халтурить, а я халтурить не хочу”.

И, несмотря на созданное писателем, все же “свинцовые тучи” 1937 года сгущаются над ним. Год спустя после ареста, 5 октября 1938 года Чулпана расстреливают.

Но только с конца 1980-х годов вновь начинают переиздавать произведения писателя. К официальному празднованию 100-летнего юбилея писателя в Узбекистане в Ташкенте был открыт мемориальный музей Чулпана и установлен памятник работы скульптора Джалалитдина Миртаджиева, издано трёхтомное собрание сочинений Чулпана на узбекском языке. Именем Чулпана названо крупнейшее издательство Узбекистана.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Брежнева С. Передовая культура джаидов в Средней Азии в начале XX в. // Вестник Оренбургского государственного университета. 2008. № 10 (92). С. 50–55.
2. Шарафиддинов О. Чўлпонни англаш. URL: [http:// www.e-adabiyot.uz/kitoblar/maqolalar/158-cholpon.html](http://www.e-adabiyot.uz/kitoblar/maqolalar/158-cholpon.html)
3. Куронов Д. Чўлпон насри поэтикаси. Тошкент : Шарқ, 2004. С. 146.
4. Кушхонов М. «Кеча ва кундуз» романида образлар тизмаси // Ўзбек тили ва адабиёти. 1992. № 3–4. С. 8–12. 6 См.:
5. Каримов Н. Чўлпон : маърифий роман. Тошкент : Шарқ, 2003. С. 410.
6. Кадыри А. Минувшие дни / пер. с узб. М. Сафарова. Ташкент : Шарқ, 2009. С. 21.

**TO'RA SULAYMON SHE'RIYATINING USLUBIY O'ZIGA XOSLIGI**

*Norbekova Dilobar Raximovna,  
Jizzax viloyati Do'stlik tumani 3-  
umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi*

Adabiyotimiz tarixida shunday soʻz san'atkorlari borki, ular qoldirgan adabiy meros shu kunga qadar ma'naviy xazinamizning duru gavharlari boʻlib, oʻz qadri, oʻz eʼzoziga ega boʻlib kelmoqda. Buning sababi ham ana shu san'atkorlarning hayotiy voqelikni oʻziga xos ovoz, yuksak badiiy mahorat, qirrasini, oʻzlariga xos uslub bilan yoritganligidir.

Alisher Navoiy, Fuzuliy Bobur, Mashrab, Munis, Ogahiy ijodiga, bizga qoldirib ketgan ma'naviy xazinasiga nazar tashlasak, ularning har bittasi oʻz mahorati, uslubi, dunyoqarashi bilan alohida-alohida bir namuna maktabi ekanligi isbot talab qilmaydi.

Darhaqiqat, ustozlarning ijodi, ular ilgari surgan gʻoyalar, yaratgan obrazlar sistemasi, badiiy-tasviriy vositalari keyingi avlod ijodkorlari uchun mahorat maktabi vazifasini oʻtadi, hozir ham xuddi shunday. Ular ijodiga xos boʻlgan gʻoyaviy-badiiy anʼanalar keyingi avlod san'atkorlari ijodining kamolotga erishishida juda muhim ahamiyat kasb etdi.

Ustozlar anʼanalarini qabul qilish, ular asarlari ruhiga kira bilish, ular ilgari surgan gʻoyalarni davr talabi, ruhi bilan, yaʼni novatorona qirralar bilan boyita borish shogirdlardan juda katta mehnat qilishni, ijod sirlarini qunt bilan egallashni, ayni chogʻda haqiqiy talant sohibi boʻlishni talab qiladi. Agarda ijodkor salaf anʼanalari ruhiga kira olib ana shu ruhda asar yarata bilsa-yu, lekin tasvirlayotgan voqea-hodisalarga oʻzining shaxsiy his-tuygʻulari, nuqtai nazari zaminida munosabat bildirsa olmasa, u yaratgan asar hech qachon oʻziga xos xarakterga ega boʻlmaydi.

Shuningdek, har bir ijodkor oʻzidan oldin oʻtgan salafning boy ijodiy merosidan, xalq ogʻzaki ijodining rang-barang xazinasidan oziqlanib kelgan. Bu anʼanalarni oʻz davri, yashagan muhiti voqea-hodisalari ruhi bilan boyitib borgan, oʻtmish adabiyoti taraqqiyparvarlik anʼanalarini oʻz davri ruhini aks ettirishga xizmat qildirgan. Masalan, oʻzbek adabiyotining Navoiy davridan boshlab to hozirgi bosqichiga qadar koʻz tashlasak, adabiyotimizning juda katta bir ijodiy yoʻlni bosib oʻtib, yuksak pogʻonalarga koʻtarila olganligini koʻramiz. Unda xalq hayoti tasvirining juda ham xilma-xil bosqichlarda aks etganligining guvohi boʻlamiz. Navoiy adolatparvar inson, buyuk insonparvar shoir sifatida hukmron sinfni xalq hayotini yaxshilashga, obodonchilikka undagan boʻlsa, Munis, Ogahiy ham xuddi ana shunday yoʻnalishda turdilar. Furqat, Muqimiy esa oʻzlarining norozilik tuygʻularini, xalq gʻazabini tasvirlashga intildilar. Zavqiy, Avaz Oʻtar, Faqiriy, Chokar hukmdorlarni ochiq-oydin fosh qilib tashladilar. Behbudiy, A.Avloniy, Fitrat, Choʻlponlar hayotda va ijodda millat taqdirini, uning kelajagini, oʻzlikni anglash gʻoyalarini targʻib

qildilar va bu y o'lda fidoyilik ko'rsatdilar. Buni, albatta, salaflar badiiy merosidan qatralar holida paydo bo'lib, shogirdlar ijodida toma -toma ko'lga aylangan adolat, erk, haqiqat, ozodlik tuyg'usining tantanasi deb qarash kerak.

Adabiyotimiz maydoniga dadil qadam qo'ygan Oybek, G'. G'ulom, H. Olimjon, G'ayratiy, Mirtemir, Zulfiya, Asqad Muxtor singari ijodkorlar suronli qurish - yaratish davrining shiddatli nafasini o'ziga singdirgan asarlar yaratdilar. Ular ijodida milliy adabiy an'analar bilan birga rus adabiyoti, jahon xalqlari adabiyoti an'alaridan oziqlanish xususiyatlari ham ko'zga tashlana boradi. Bu ijodkorlar o'z xalqi va qardosh xalqlar adabiyotidan ijod sirlarni o'rgana borib, o'zbek adabiyotini novator adabiyotga aylantirdilar. O'zlarining talanti, mehnati, mahorati bilan adabiyotimizni jahon minbariga olib chiqdilar. O'zbek adabiyotini yuksak pog'onaga ko'tarib, uning taqdirini keyingi avlod qo'lga ishonch bilan topshirdilar. Bu muqaddas ishonch o'zbek ijodkorlarning yosh ijodkorlari qalbidan ham chuqur joy olgan. Ustozlarning muqaddas ishonchini oqlash nasib bo'lgan har bir ijodkor birinchi kitobi bilan o'z o'quvchisini topa olish baxtiga muyassar bo'lmog'i darkor.

To'ra Sulaymon ham ana shunday ijodkorlar sirasiga kiradi. Shoir ijodiga diqqat bilan sinchiklab razm solsangiz, uning asarlarida o'zbekona qarashlar, XX asr ilmiy-texnika taraqqiyoti bilan bog'liq voqealar singib ketganligini ko'rasiz. Davrning har bir nafasi, zamondoshining har bir yurak zarbi o'z badiiy in'ikosini topganligining guvohi bo'lasiz. Yana bir narsani alohida ta'kidlash zarurki, shoir davrga, zamonaga hamnafas bo'lish bilan birga xalqimiz tarixini, boy madaniy merosimizni ko'zdan qochirgani, unutgani yo'q. To'ra Sulaymon o'tmishimizga murojaat qilib, salaflar, adabiy xazinasidan, folklor durdonalaridan ma'naviy oziq olib, hozirgi kunimiz voqea-hodisalariga munosabat bildira olgan. Mumtoz adabiyotimiz an'alarini davrga xizmat qildirib, xalqimizning ijodi - miflar, afsonalar, rivoyatlari ta'sirida kundalik hayotimiz zamiriga tatbiq etolgan.

Hozirgi adabiy jarayonning eng yetakchilari qatoridagi Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Omon Matjon ijodiga diqqat qilsak, ularda milliy an'alarimiz - yozma va og'zaki adabiyotning an'analari juda keng o'rinni ishg'ol qilganligini ko'ramiz. E.Vohidovning aruz vaznining butun go'zal imkoniyatlarini ko'z - ko'z qilgan g'azallari, A. Oripovning ajoyib she'r va g'azallari, Omon Matjonning Beruniy va Pahlavon Mahmud haqidagi dramatik dostonlari va boshqa bir qator asarlari fikrimizning isbotidir. To'ra Sulaymon ham yuqorida nomlari keltirilgan ijodkorlar singari xalqona ohanglarda ajoyib she'rlar bitgan. Shoir ijodining kattagina qismini baxshiyona asarlar tashkil qiladi. Bularning bari shoirning yoshligidan xalq ijodini, xalq kitoblarini yaxshi bilgan zukko ota-onasining xizmati samarasi desak mubolag'a bo'lmaydi. "Ayniqsa – deb eslaydi shoir, – otamdan eshitgan ertaklarim orasida "Boldirboy" degan ertak meni maftun qilar edi".

Keyingi, davrda, ayniqsa, xalq ogʻzaki ijodi sujetlariga murojaat qilish, ular orqali davr ruhini aks ettirish anʼanasi kuchaydi. Pirovardida Erkin Vohidovning "Ruhlar isyoni", Abdulla Oripovning "Jannatga yoʻl", Omon Matjonning "Haqqush qhichqirigʻi" asarlari qatorida Toʻra Sulaymonning ham "Jahongashta" dostoni, "Al qasosu- minalhaq" epopeyasi xalqimizning qadimiy afsona va rivoyatlari zamirida yuzaga keldi.

Toʻra Sulaymon oʻz asarlarida hozirgi davr hodisalarini aks ettirishda xalq ogʻzaki ijodi namunalaridan keng foydalanadi. Ana shu xalqona fon zamirida jamiyatimizdagi baʼzi munofiqliklar fosh etiladi.

Toʻra Sulaymon oʻzining tarixiy mavzudagi "Jahongashta", dostoni va "Al qasosu- minalhaq" epopeyasini ham xalq daholariga, ustozlariga cheksiz hurmati, sadoqati, ular qoldirgan boy ilmiy, badiiy merosga chuqur muhabbati timsoli sifatida yaratgan. Toʻra Sulaymon, ayniqsa, xalq ogʻzaki ijodidan juda koʻp maʼnaviy oziq oladi. Xalqimiz tomonidan yaratilgan boy maʼnaviy xazina shoir ijodining kamolotida muhim rol oʻynagan. Xalqning oʻz yurti, xalq taqdiri, kelajagi toʻgʻrisidagi fikr-oʻylari Toʻra Sulaymon ijodining katta yoʻlida mayoq boʻlib yoritdi.

## **ASAD DILMURODNING "XILVAT" HIKOYASIDA AMUR TEMUR OBRAZI TALQINI**

*Ahtamova Madina Bahriddinovna,  
BuxDU magistranti*

Xalqimizning adabiy-estetik ehtiyojini qondirishga intilib kelayotgan zamondosh nosirlarimizdan biri Asad Dilmurod tarixiy haqiqatlarni badiiy talqin qilishga, nasrimiz imkoniyatlarini yanada kengaytirishga barakali hissa qoʻshmoqda. Bugungacha, adibning koʻplab hikoyalari, "Sherdor", "Mulk", "Girih", "Meʼzon burji" qissalari, "Mahmud Tarobiy", "Fano dashtidagi qush", "Pahlavon Muhammad" romanlari oʻquvchilarga taqdim etildi. Bu asarlarda goh tarixiy, goh mistik-romantik, gohida oʻtkir psixologizm ruhi ustunlik qiladi. Bu esa ijodkorning oʻz qalamini tinimsiz charxlayotgani, mudom intilish va oʻz ustida izlanishda ekanligini koʻrsatadi.

Asad Dilmurod ijodi namunalaridan "Meʼzon burji" romani va "Xilvat" hikoyasida Amir Temur obrazi yaratilgan. "Tarixiy shaxs siymosini haqqoniy tarzda aks ettirish yozuvchidan katta mahorat talab etadi. Yozuvchi, birinchidan, tarixiy haqiqatni yoritish uchun uzoq oʻtmish voqealigini oʻsha davr manbalari asosida oʻrganishga harakat qiladi. Ikkinchidan, oʻsha zamonda yashagan tarixchi, olim-u fuzalolar tomonidan bitilgan talay asarlarga murojaat qiladi" [3.10]. Ijodkor buyuk Sohibqiron obrazini badiiy tasvirlar ekan, Amir Temur shaxsi ustida katta ijodiy izlanishganishlar olib borib, tarixiy manbalarga tayangan holda asar yozganligiga ishonchimiz ortadi.



Amir Temur siymosiga XX asr adabiyotida eng ko‘p adolatsizlik qilindi, uning o‘zbek davlatchiligi tarixidagi mislsiz xizmatlari inkor etib kelindi. Bu haqida respublikamizning birinchi Prezidenti Islom Karimov shunday deydi: “Kimki o‘zbek nomini o‘zbek millatining kuch-qudratini, adolatparvarligini, cheksiz imkoniyatlarini, uning umumbashariyat rivojiga qo‘shgan hissasini, shu asosda kelajakka ishonchini anglamoqchi bo‘lsa, Amir Temur siymosini eslashi kerak” [1.35-36].

1996-yil mamlakatimizda “Amir Temur yili” deb e‘lon qilindi va buyuk Sohibqiron bobomizning 660 yilliklari butun jahon miqyosida keng nishonlandi. Shu munosabat bilan yurtimizda Amir Temurni vatanning buyuk xaloskori, millatparvar inson sifatida talqin qiluvchi ko‘plab asarlar va risolalar yaratildi. Bu esa o‘z navbatida, mamlakatimizda temuriyshunoslik ilmining yangidan shakllanishi va taraqqiyot davrini boshlab berdi.

“Mustaqillik bergan imkoniyatlar tufayli o‘zbek adabiyotida Amir Temur obrazini yaratishga alohida e‘tibor bilan qaratildi. Xususan, bu borada, hikoya janrida yozilgan asarlar ham bunga yorqin dalildir. Misol tarzida murojaat qiladigan bo‘lsak, atoqli adib Asad Dilmurodning “Xilvat” hikoyasining kompozitsiyasi jahongir Amir Temur iymonli, adolatparvar, haqiqat uchun kurashadigan hukmdor sifatida tasvirlanadi”[4.13]. Albatta, hajman kichik asarda Amir Temur xarakterining barcha qirralari yorqin va tiniq ochilishi qiyin. Ammo yozuvchi Amir Temur xarakterini katta mahorat bilan yaratadi.

Yozuvchi talqinidagi Amir Temur siymosi tarixiy haqiqatga nihoyatda yaqin. Ijodkor Amir Temurning ichki dunyosini kitobxon ko‘z o‘ngida ochib berish uchun shunday holatlarni topib ko‘rsatadiki, ular asnosida Erxon, uning onasi kampir kabi badiiy to‘qima qahramonlar yaratiladi. Hikoya Amir Temurning Yassi shahriga tashrifidan boshlanadi. Sohibqiron qachondan buyon o‘zini ulug‘ pir Ahmad Yassaviyning g‘oyibona muridi sanaydi, uning jasorati afsonaga aylanib ketganini yaxshi biladi. Aslida ham elda mashhur “Hikmatlar”i botinida nihon teran ma‘nolaridan ozmuncha saboq olganmi? Xuddi shu tashrif mobaynida Amir Temur qalbida yana bir ezgu niyat kurtaklaydi: issiq kunlar kelishi bilan xanaqoh ta‘mirini boshlash uchun mablag‘ ajratishni o‘ylaydi. Tarixdan ham bizga ma‘lumki, XII asrda yashab o‘tgan ulug‘ pir Ahmad Yassaviy oltmish uch yoshdan keyin yerto‘lani xilvat bilib, to umrlari oxiriga qadar chilla saqlagan joylarida XIV asrning oxiriga kelib Sohibqiron Amir Temur buyrug‘i bilan katta maqbara barpo etiladi.

Amir Temur tashrif vaqtida Yassi viloyati xazinasiga o‘g‘ri tushgani, javohir to‘la sandiq yo‘qolganini biladi va bu “o‘g‘ri” Erxon ismli yigit ekanidan xabar topadi. Yassi zaminida so‘zi qilichdek kesadigan uch mansabdor shahar hokimi Sorbug‘o qipchoq, qozikaloni va bosh vazir guvohligiga ishonib “Bu dunyoda kimki o‘g‘ri, zavoli har doim tayin!” deya Erxonning qatl etilishiga izn beradi...2.486]

Hikoyani o‘qir ekanimiz undagi Erxonning onasi kampir ham mulohazali, o‘quvchini o‘yga toldiruvchi obraz sifatida tasvirlanganligiga iqrор bo‘lamiz:

“– Ko‘z ochib ko‘rganim Rumda, to‘ng‘ichim Eronda, o‘rtancha Iroqda... tug‘ingiz ostida jon fido qilg‘onini qaysi til bilan aytsam!?. Kampirdan bu gaplarni eshitar ekan, Temur xayolida nogoh o‘zi boshchilik qilayotgan qirg‘inbarot janglar, tahdid-u tahlika aralash, urho-ur, yaralanib qulayotgan sarbozlar ohu-vohi, jon jahdi bilan ko‘kka sapchiyotgan otlar kishnashi aks-sado bergandek tuyulib, begunoh to‘kilayotgan qonlar – ularning ortidan javrab qolayotgan mushtipar onalar va norasida go‘daklar tasviri o‘tdi.” [2.486].

Turmush o‘rtog‘i va to‘ng‘ich o‘g‘illarini askarlikka jo‘natgan bu mushtipar ona – ota mehrini ham, qahrini ham ko‘rmay, ko‘ngli yarim, ko‘zi och, qo‘li egri bo‘lib o‘sgan, hozirda qatlga hukm qilingan kenja o‘g‘li Erxonni go‘dakligida o‘lat tegib o‘lib ketmaganiga attang qilib o‘tiradi.

Asli o‘g‘rilikka kirib, g‘azna peshtoqidagi “Olloh barchasini ko‘rguvchi” degan bitikka ko‘zi tushib, bir tanga ham tilla olmay ortga qaytayotganda askarlarga qo‘lga tushgan Erxonni Sohibqiron xunidan kechsa ham uning hayotini saqlab qololmaydi. Bundan ko‘rinadiki, Amir Temur markazlashgan davlat tuzgan, davlatni adolat bilan boshqarishga harakat qilgan sarkarda bo‘lishiga qaramay ochko‘z, sotqin, xiyonatkor amaldorlarning kirdikorlaridan aziyat chekkan paytlari ham ko‘p bo‘lgan. Asad Dilmurodning ushbu asarida buyuk sarkarda timsolining ana shunday vaziyatlardagi holati badiiy talqin etib berilgan. Amir Temurning ruhiy holatlari, iztiroblari, insoniy fazilatlariga alohida diqqatni qaratadi. Asarda u buyuk amir sifatidagina emas, qalbi iztiroblarga to‘la oddiy inson, xalq dardi bilan hamnafas xalqparvar shaxs sifatida gavdalangan.

Temur o‘spirinlik davrida yo‘qotib qo‘ygan yodgorlik: bahosi ham takrori ham bo‘lmagan, yetti pushtini ko‘rgan, yetti bobokaloni jismi joniga mador bo‘lgan kamarini kampir omonat deb saqlab yurib egasiga topshiradi. Shu damgacha hech kimga, hatto podshohlarga ham bo‘yin egmagan Sohibqiron halol, mushtipar ayol oldida bosh egib, unga o‘g‘il tutinadi.

Amir Temur siymosi shijoat, mardlik va adolat timsoli sifatida yuksak qadr va e‘zozga loyiq. Sohibqiron o‘z davrining qudratli davlati asoschisi, ilm-fan, madaniyat va ma‘naviyat homiysi, dunyo sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo‘shgan buyuk bunyodkordir. Xalqqa doim mehr-muruvvatli bo‘lgan Amir Temur adolat va haqiqat uchun kurashgan, saltanatni ham ana shu mustahkam asosga qurganligi tarixiy manbalar asosida ma‘lum.

Amir Temur davrida fuqarodan birining uy-imorati buzilib, tuzatishga qurbi yetmasa, darhol kerakli uskunalar yetkazilib, yordam berilgan. Bugun mamlakatimizda kam ta‘minlangan oilalarga yordam ko‘rsatish, iste‘mol kreditlari ajratish keng yo‘lga qo‘yilgan. Bu bilan qanchadan-qancha ro‘zg‘orlar butlanib, xalqimiz turmush madaniyati, dunyoqarashi va didi yuksalmoqda.

Buyuk tarixiy shaxslar xarakteridagi ibratli qirralarni o‘rganish, tarixiy voqealar hamda buyuk shaxslar hayotidagi davrlar sinovidan o‘tgan, mashhur tarixiy siymolarning badiiy adabiyotdagi obrazini tadqiq etish adabiyotning dolzarb vazifalaridan sanaladi. Binobarin, Amir Temur obrazini tarixiy haqiqat nuqtai nazaridan o‘rganib, uni badiiy talqin etishda ijodkorlar erishgan yutuqlarni tahlil qilish ham adabiy jarayon rivoji bilan bog‘liq muhim xulosalar beradi.

Ko‘rinadiki, adabiyotda eng kichik janrlardan biri sanalmish hikoyada Amir Temur obrazining butun qirralarini yoritib berish ancha mushkul. Yuqorida qayd etilgan hikoyada Amir Temur obrazining muayyan bir jihati yoritilgan. Sarkarda ijodini badiiy talqin etuvchi asarlar hali ko‘plab yaratilishi mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Karimov I. Amir Temur – faxrimiz-g‘ururimiz. – T.: O‘zbekiston, 1998. - 35-36-b.
2. Dilmurod A. Tanlangan asarlar. 1-jild. – T.: Sharq, 2008. – B. 481-492.
3. Hamrayeva M. Tarixiy haqiqat va badiiy talqin. – Termiz: 2010. –B-74-75
4. Yoqubov I. Badiiy matn va estetik talqin. – T.: 2013. –B 9-10

### LUQMON BO‘RIXON HIKOYALARIDA BURCH MASALASI

*Aliyeva Sevinch Sayfiddin qizi,  
JDPI magistranti*

Mana necha asrlardan beri insonlarning vijdoniga ko‘zgu bo‘ladigan burch tushunchasini hamma o‘zicha har xil talqin qilib keladi. Aslida ham shunday, sababi har bir insonda burch tushunchasi har xil shakllangan, bu oilasi, mahallasi, Vatani oldidagi burchini turlicha his etishida namoyon bo‘ladi. Falsafada burch tushunchasiga quyidagicha ta‘rif beriladi: “Burch-bu oila va boshqa shu kabi tuzilmalarning shaxs zimmasiga qo‘ygan talablariga nisbatan insonning axloqiy mas‘uliyatini, majburiyatini, ularni bajarish ichki ma‘naviy zaruriyat ekanligini anglashni ifodalaydi.” [1;50]

Zamonamizning o‘z ijodiy uslubga ega bo‘lgan ijodkori Luqmon Bo‘rixonning “Sinov muddati” nomli hikoyasida mana shu burch tushunchasini obrazlar va xarakterlar misolida ko‘rishga harakat qilamiz. Hikoyaning bosh qahramonlari bo‘lgan ikki yaqin do‘st: Sobir va Jasur bolalikdan juda inoq bo‘lib voyaga yetishgan bo‘lishsada, ikkovi ikki xil olam, ikki xil dunyo edi. Sobir harchand bilimli va zukko bo‘lmasin, hayotda biroz omadi chopmaydi. Institutga kira olmaydi, harbiy xizmatga olishmaydi. Shu yerda yozuvchi qahramon xarakterini ochib berib ketadi. Hayotda shuncha yiqilishlarga uchragan Sobir hech taslim bo‘lmas edi, “Sobir qandaydir buyuk, qandaydir ezgu ishlarni qilishni xohladi” [2;228], mana shu jumlaning o‘zida hikoya davomida Sobirning asliyatini ochilishidan darak berar edi. U hech qachon o‘zini yo‘qotib qo‘ymaydi, o‘qishga kirishga tayyorlanadi, shu bilan birga tomorqasida ham ishlaydi, sababi tirikchilik o‘tkazishi kerak edida. Bu orada jo‘rasi Jasur esa chapdast va olg‘irligi tufayli o‘zini savdoga uradi, anchagina ishi yurishadi ham, dabdurustdan harbiy xizmatga borishga qaror qilib, qo‘mondon bo‘lib qaytaman deb o‘ylaydi, lekin u hatto harbiy xizmatda qola olmaydi, bunga uning matonatimi yoki jasorati yetmaganligini, hikoya so‘ngida ravshanlashi. Biroz muddat o‘tgandan so‘ng, u Favqulodda vaziyatlar boshqarmasiga ishga kirishga harakat qiladi, nihoyat har xil sinovlardan o‘tib sinov muddati asosida ishga qabul qilishadi. Suhbatdan do‘sti bilan

qaytayotganida oldilaridan o'tib ketayotgan mashinaning g'ildiragi uzilib ketib yo'l chetidagi ariqqa ag'anab ketadi. Sobir darhol yordamga do'stini chorlasa, Jasur esa tezroq ketishni, mashina portlash mumkinligini, keyin esa guvoh bo'lib qolishi mumkin ekanligini o'ylab, bu yerladan tezroq g'oyib bo'lish kerakligini o'ylardi. Jasur Sobirning qistoviga qaramay uyiga ketib yuboradi. Shu yerda unga JASUR deb nom bergan yozuvchi, teskari nom qo'rganligi namoyon bo'ladi. Jasur uyiga yetib kelganda, onasi yugirib chiqib, otasi avtohalokatga uchraganini, hozir shifoxonada ekanligini, do'sti Sobir otasining oldida ekanligini aytadi, Jasur o'sha yerda devorga suyanganicha qotadi. O'sha mashinada otasi borligini, agar usha mashinaga yordam berganida hozir otasining yonida bo'lishini o'ylagan bo'lsa ne ajab. Bu bilan yozuvchi faqat favqulotda xizmatlar boshqarmasidagina ishlaydigan xodimlar yordam berishi kerak emas, balki har kim o'z insoniylik BURCHIGA sodiq qolgan holda yordamga oshiqishi kerakligini aytmoqchi bo'ladi. Bunda insonning ismiga, ko'rinishi, hatti harakatiga qarab baho bermasdan, uning ichki kuchiga, vijdoniyligiga qarab baho berish kerakligi namoyon bo'ladi. *"Inson tashqi tomondan g'arib va nochor ko'rinsada, uning Botiniy hissiyoti, qalbi, ko'ngli nihoyatda nozik va ma'naviy boy bo'lishi mumkin. Yoki aksincha, sirdan qaraganda, kam ko'stsiz, salobatli ko'ringan kishi hissiyotsiz, qalbi ko'r bo'lishi mumkin. Botiniylik insonga ilohiy baxsh etilgan ne'mat, u buyuk kishilarning zohiriy faoliyatida namoyon bo'ladi."*[1;59]- ushbu fikr ham xulosamiz isbotidir.

Adibning "Tun qa'ridagi shu'la" deb nomlangan hikoyasida ham burch masalasi hikoyaning boshidan oxirigacha bosh planga chiqadi. Garchand, hikoyaning hech bir joyida burch so'zi ishlatilmasa ham bu hikoyadan anglashilgan g'oyada shu ma'no namoyon bo'ladi.

Hikoyada safarga chiqishgan ikki yo'lovchi, biri hikoya qiluvchi, biri zobit bo'ladi. Zobitning har doim tun qorong'usidagi, uzoqdagi yorug'lik albatta e'tiborini tortib turadi, sababi bir vaqtlar uning hayotida sodir bo'lgan voqea yodiga tushaveradi.

Yozgi mehnat ta'tili davomida tog'-dashtlarni tinimsiz kezib gerbariy to'plashga botanika-biologiya o'qituvchisi Akbarni nima undadi, axir u ham hamma qatori oilasi davrasida yoki salqin-so'lim joylarda dam olsa bo'lar ediku, lekin u o'zi aytgandek habashdek qorayib tog'-utosh kezib o'quvchilari uchun gerbariy yig'adi. Sababi, uning maqsadi botanika darslaridagi mavzularni tushuntirayotganda o'simliklarning shunchaki ta'rifini berish yoki suratini ko'rsatib qo'yish bilan chegaralanmasdan, o'quvchilariga o'simlikni tabiiy qurutilgan namunasini ko'rsatish bilan, sun'iy lashib borayotgan shaharlik o'quvchilarni haqiqiy tabiatga oshno etishga, sal bo'lsa ham yaqinlashtirish edi. Bunda ekologiya, atrof-muhitni asrash, insonlarni sun'iy lashib ketatoyganligini ham singdirib ketilgan. O'qituvchi tog'lar qo'ynida omonatgina kulbada yashaydi, bunda uning matonatini ko'rsatilsa, unga yordam, yo'l-yo'riq ko'rsatib, oziq-ovqat bilan ta'minlab turgan Tog'begini esa haqiqiy mehmondo'st o'zbek kishisi sifatida talqin etishimiz mumkin.

Hikoyada ikki yo'nalishda burch masalasi ochib beriladi, birinchi yo'nalishda biologiya o'qituvchisi Akbarning faoliyatida ko'rgan bo'lsak, ikkinchi yo'nalishda



Zobitning harbiy topshiriqni qat'iy bajarishida ko'rinadi. Unga yurtimizning sharqiy chegarasidagi tog'li hududlaridagi qurollangan yod unsurlarni topib, yo'q qilish vazifasi topshiriladi va uni otryad boshlig'i etib tayinlashadi. Shundan boshlab uning qalbini burchi, vazifasining yuki qiynay boshlaydi. Birinchidan, qaltis yo'l tutib askarlarini halokatga yo'liqtirib qo'yish bo'lsa, ikkinchi tomondan hali Vatani uchun biror ish qilmasdan turib halok bo'lishni istamas edi. Askarlar oldidagi burchi tufayli tunda yorug'lik taralayotgan tomonga o'zi boradi, kulbani bitta o'zi tekshiradi. Sababi, hali aniqlanmagan xatarli joyga borib askarlarining jonini xatarga qo'yishni xohlamaydi. Kulbaga borib, Akbar bilan bo'lgan suhbat uni juda ta'sirlantiradi, xatar yo'qligiga amin bo'ladi va bu voqea butun umr qalbida qoladi. Shundan so'ng u qayerdagi tunda shu'la ko'rsa qaysi bir yurtiga fidoyi-sodiq inson o'z halovatidan kechib, o'z kasb-kori bilan mashg'ul bo'lib mehnat qilmoqda deb o'ylab qoladi. Ularga kuch berayotgan, mehnat qilishga undayotgan kuch burchiga, kasbiga sodiqlik bo'lsa ajab emas. Hikoyadan anglashilgan xulosada ham shunday edi aslida.

Ushbu hikoyalarda yozuvchi qahramolar orqali o'zbek xalqining xarakteri, milliy ruhini ochib beradi. O'zbek xalqining naqadar mard va jasur, sodiq va vatanparvar, burchiga sodiq insonlar ekanligini ko'rsatib beradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Falsafa qomusiy lug'at. "Sharq" nashriyoti, Toshkent-2004.
2. Luqmon Bo'rixon. "Xizr ko'rgan yigit". "Sharq" nashriyoti, Toshkent-2007.
3. Luqmon Bo'rixon, "Tun qaridagi shu'la", "Sharq" nashriyoti, Toshkent-2012.

#### **“МЕЪРОЖ” ТАСВИРИДА ҚУРЪОНИЙ ОЯТЛАРИНИНГ БАДИИЙ ТАЛҚИНЛАРИ**

*Иботова Мадина Отабековна  
БухДУ магистранти*

Маълумки, шарқ мусулмон адабиётида меърож тасвири асосий мавзулардан бири бўлиб келган. Ўзбек мумтоз адабиётида ҳам мазкур мавзуда қатор асарлар яратилган. Ижод аҳллари меърож воқеасига мурожаат қилар эканлар, бу билан мавжуд анъанани давом эттиришлари билан бирга, ислом дининг асосчиси Расули Акрамга бўлган меҳр – муҳаббатларини ҳам бадий ифода қилганлар.

Таъкидлаш керакки, Қуръони карим ва Ҳадиси шариф мумтоз абиётимизнинг асосий сарчашмаси ҳисобланади. Меърож мавзусининг бадий талқинида ҳам ижодкорлар қуръоний оятларга таянганлар. Шу боис, меърож тасвирига бағишланган асарларда иқтибос шаклида оятларга тез-тез дуч келамиз. Фикримизни улуғ шоир Алишер Навоий лирик мероси мисолида асослашга ҳаракат қиламиз. Жумладан, “Ҳайрат ул-аброр” достонининг наът бобларида илоҳий манбага мурожаатнинг ўзига хос шаклларида дуч келамиз. Жумладан, XI бобнинг насрий сарлавҳасининг



илоҳий манбага асосланганини кўришимиз мумкин: “Меърож кечаси таърифидаким, каримаи: **“Субҳоналлазий асро”** анга мусаддақ дурур ва **“би-абдиҳи лайлан минал-масжидил ҳароми илал масжидил-ақсо”** анинг субутига икки гувоҳи содиқ” [3.41].

Келтирилган насрий сарлавҳанинг икки ўринда Қуръон ояти келтирилган. Айтиш мумкинки, мазкур оят орқали Аллоҳнинг улуғ қудрат эгаси эканлигига ишора қилиниши билан бирган, Меърож воқеасининг содир бўлиши ҳам У зотнинг измида эканлигини таъкидланган. Қуръони каримнинг “Исро” сурасининг 1-оятида шундай ёзилади: “Ўз бандасини кечаси Масжидул Ҳаромдан атрофини баракали қилганимиз Масжид ул- Ақсога оят-мўъжизаларимизни кўрсатиш учун сайр қилдирган зот пок бўлди. Албатта, У эшитгувчи ва кўргувчи зотдир.” Оятдаги “Ўз бандаси” деганда пайғабаримиз Муҳаммад Мустафо (с.а.в) назарда тутилган.

“Фарҳод ва Ширин” дostonнинг наът боби сарлавҳасида ҳам қуръоний оятларга ишора қилувчи иқтибослар келтирилганини кузатишимиз мумкин: “Ул қуёш рухсори васфидаким, тун киби гису қуёшига соя солди ва **Вашшамс** била **Валлайл** сурасини анинг юз қуёши била зулфи тунига ўхшатилғонидин ҳар бири бир бийик поя олди, агарчи ул қуёшқа соя йўқ эрди ва ул кечага манзил қуёш устида- ўқ эрди. **«Ва саллалалоҳу ало шамси жамолиҳи ва зилли камолиҳи»**[4.17].

**Биргина сарлавҳада Қуръони каримнинг “Шамс”** сураси 1-ояти (Қуёш билан ва унинг зиёси билан қасам) ҳамда “Лайл” сурасининг 1-ояти (Туннинг қоплаб келаётган пайти билан қасам) оятларидан иқтибос шаклида фойдаланилган. Худди шундай ишораларни қуйидаги насрий сарлавҳада ҳам кузатишимиз мумкин: Ул шаҳсувор васфидаким, қаронғу тунда тийра хокдондин Буроқи барқваш узра чиққони **«Миназ-зулумоти илан-нур»** дин мухбир эрди, балки ул покибнинг пок зоти остидағи пок оти, била **«нурин ало нур»** дин хабар берди ва бу нурлар малакут шабистонини мунаввар ва малак бўстони расаҳки сипехри азҳар қилди”.

Насрий сарлавҳада “ул шаҳсувор” яъни Расули Акрамнинг меърожга кўтарилишлари улуғ бир мўъжиза эканлигини таъкидлаш билан бирга, У зотнинг ўз бандаларини зулматдан нурга чиқариши учун яъни ҳидоятга бошлаш учун танланган пайғамбар эканлигига ишора Қуръон сураларидан олинган иқтибослар орқали асосланган. Бу таъкидларни “Ҳадид” сурасидаги 9-ояти каримасида “У зот Ўз бандасига сизларни **зулматлардан нурга чиқариш учун** равшан оятларни туширадир. Ва, албатта, Аллоҳ сизларга шафқатли ва раҳмлидир” ҳамда “Нур” сураси **“(Бу) нур устига нурдир.** Аллоҳ хоҳлаган одамни Ўз нурига ҳидоят қилур” 35-оятида ўқиймиз.

Насрий сарлавҳалар билан бирга дoston байтлари маъзига ҳам иқтибос шаклидаги Қуръоний оятлар келтирилганлиги кузатилади. Масалан, “Фарҳод ва Ширин” дostonидан ўқиймиз:

Сурургач **«Мотағо»** туфроғин ул боғ,  
Чекилди наргисига куҳли **«мозоғ»** [4.21].

“**Мотағо**” (“Мотағо” - «Бўйин тобламади» ёки “ўзини силжитмади” ҳамда “**Мозоғ**” – “Нажм” сурасининг 17-оятидан – “Мазағол басору ва маа тоғо” (Пайғамбарнинг) кўзи (четга) оғгани ҳам йўқ, ўз ҳаддидан ошгани ҳам йўқ) оятларига дахл қилинган. Мазкур оятлар орқали Расули Акрамнинг юксак ахлоқ эгаси эканлиги таъкидланган.

Анга бу сурма бўлғоч қурратул-айн,

Насиб ўлди мақоми «**қоба қавсайн**».

**Насрий баёни:** Бу сурма унинг учун кўзининг оқу қораси бўлиб, шу туфайли унга «**қоба қавсайн**» маъносидаги мақом насиб бўлди.

Меърожга бағишланган тасвирларда «**қоба қавсайн**» иқтибосига кўп мурожаат қилинади. Мазкур иқтибос “Нажм” сурасининг “Фа кана қоба қавсайни ав адно” яъни Бас, (Мухаммадга) икки камон оралиғидек ёки (ундан ҳам) яқинроқ бўлди” 9-оятидан олинган. Мазкур оятда Мухаммад (с.а.в)нинг меърожга кўратилганларида у зот билан Аллоҳ ўртасидаги масофа “икки камон” (ёй) яъни икки қош орасидаги масофачалик яқин эканлиги таъкидланган. Албатта, бу инсоният эришган энг улуғ мақом ҳисобланади.

Мазкур иқтибос меърож тасвирига бағишланган ғазаллар таркибида ҳам кўп қўлланган:

Зиҳи жавлонгаҳинг афлок уза майдони «**ав адно**»,

Буроқингга тўкуз гунбаз бу тўккуз гунбази хазро [1.32].

Ёки

Қошингга **қоба қавсайн** оятидин йўқ нима аляқ,

Сочингга йўқ саводи лайлатул меърождин ашбах [2.479].

Хулоса қилиб айтганда, А. Навоий куръоний оятларга ишоралар орқали, биринчидан, шеър табарруклигини оширган бўлса, иккинчи, ўз қарашларини диний манбалар орқали асослашга, ифодаланаётган мазмунни янада кучайтиришга эришган.

### ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Навоий Алишер. Бадоеъ ул-бидоя. МАТ. XX жилдлик. I жилд.– Т.: Фан, 1987.
2. Навоий Алишер. Наводир ун-нихоя. МАТ. XX жилдлик. II жилд. – Т.: Фан, 1987.
3. Навоий Алишер. Ҳайрат ул - аброр. МАТ. XX жилдлик. VII жилд. –Т.: Фан, 1990.
4. Навоий Алишер. Фарҳод ва Ширин. МАТ. XX жилдлик. VIII жилд. – Т.: Фан, 1991.
5. Rajabova M. A. Навоий ижодида қушлар ва ҳайвонлар образининг халқона асосларда ифодаланиши //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 6. – №. 6.
6. Rajabova M. Навоий муаммоларининг бадиий тақомилида фольклорнинг таъсири //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 6. – №. 6.

7. Rajabova M. A. Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonida farzandsizlik motivi // Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. – №. 6.
8. Rajabova M. Алишер навоий ижодиётида телбаликнинг мотивлаштирилиши // Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 4. – №. 4.

## UMUMBASHARIY SIYMO

*Shukurov Hasan Nazarovich,  
JDPI magistrani*

Navoiy ijodiy takomili ikkinchi bosqichining tayanch ustuni - shoirning shoh asari «Xamsa» desak yanglishmaymiz. 888 (1483)-yildan Alisher Navoiy o‘zining eng buyuk asari «Xamsa» turkumini yozishga kirishadi va uni 890 (1485)-yilda tugallaydi. Besh dostonni o‘z ichiga olgan bu ulkan badiiy qomus 50 ming misradan oshiq bo‘lib, Navoiyning barcha she‘riy merosining deyarli yarmini tashkil qiladi. Ammo gap hajmda emas. «Xamsa» Alisher Navoiy ijodining qalbidir. Buyuk bobokolonimiz o‘zi tuzgan birinchi devoni «Badoyi’ ul-bidoya» bilanoq turkiy tildagi she‘riyatni arab va fors mumtoz adabiyotining eng peshqadam namunalari darajasiga olib chiqqan edi. Ammo bu ishlar barchasi «Xamsa»ning debochasi edi, xolos. (1480) Agar turkiy «Xamsa» yozilmasa, nafaqat bizning, turkiy xalqlarning adabiyoti, ma‘naviyati, balki butun islom mintaqa ma‘naviyati bugungi yaxlitligi, bugungi tugalligiga ega bo‘lmas edi, deb bemalol aytilish mumkin. Alisher Navoiydek asliy oshiqning dunyoga kelishi, unga berilgan ulug‘ iste‘dodning mohiyati «Xamsa» uchundir, bu buyuk ijodkor merosining avvali ham, oxiri ham «Xamsa» tufaylidir .

Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” asari voqealari dono va odil shoh Iskandarning atrofida sodir bo‘ladi va har bir syujet u bilan chambarchas bog‘liqdir. Asar bosh qahramoni Rumlik Iskandarning dastlabgi tasviri o‘n sakkiz-o‘n to‘qqiz yoshlardagi yigitdir. U jismonan baquvvat, yuzlari sermulohaza, jiddiy, nigohiga ko‘pchilik dosh bera olmaydigan darajada salobatli va o‘z navbatida oqko‘ngil shoh hamdir. Navoiy yaratgan qahramon o‘zining asosiy qiyofasi, yetakchi fazilatlari, xususan, insonparvarligi, sulhparvarligi, elsevarligi, ilmsevarligi, donishmandligi bilan Nizomiy va Xisrav Dehlaviylar dostonlaridagi Iskandarga yaqin tursa ham, haqiqatparvarligi, adolatpeshaligi, ilmga qiziquvchanligi, amaliy-ilmiy tadqiqotlardagi ishtiroki bilan, ayniqsa ilmiy-fantastik g‘oyalari, obrazlariga ishtiyoqi, xususan, olam dengizlarini tadqiq etish va o‘lchash sohasidagi, suv osti hayotini o‘rganishga bo‘lgan amaliy qiziqishi bilan ajralib turadi. Garchi Iskandar asar boshida o‘z oldiga butun jahonni egallash maqsadini qo‘ygan bo‘lsa-da, doston davomida uning bu fikri o‘zgarib takomillashib boradi.

Asar muqaddimasi Iskandarning otasi Faylaqusning vafoti va yosh shahzodaning xalq bilan mashvarat qilib, so‘ng taxtga o‘tirish voqealaridan

boshlanadi. U podshohligining dastlabki davrlaridanoq xalq ichida bo‘lib, adolat, toshu tarozi, bozor, o‘lchov kabi narsalarni o‘z qo‘li bilan tartibga solishi, shaharu qishloqlarni obod qilishi rassom uchun e‘tiborli holatdir. Undan so‘ng Iskandar boshchiligidagi rumliklarning turli davlatlarga qilgan yurishlari, qo‘shin bilan safar, askarlar va jang sahnalariga navbat yetadi. Asarning yana bir e‘tiborli voqeasi Eron shohi Doro bilan urushdan oldin Iskandarning oldiga fors elchisining kelishi sahnasidir. Shoh Iskandar o‘zining ulug‘vor taxtida salobat bilan o‘tiribdi. Qarshisida tiz cho‘kib, boshini egib turgan Doroning elchisi. Uning bir qo‘lida kunjut solingan idish, ikkinchisida esa to‘p va chavgon tutgan. Nigohlarida qo‘rquv va tashvish aks etgan. Bu yerda elchining qo‘rquvi bir tomondan shoh Iskandarning haybati bo‘lsa, ikkinchi tomondan unga olib kelgan xabari sababidandir. Keyingi sahnada Iskandarning rad javobini olib qaytgan o‘sha elchi shoh Doro qarshisida tiz cho‘kib turibdi. Iskandarning javobini eshitgan ellik besh yoshlardagi, yirik jussali, qalin, uzun, qora soch-soqolli, boshida baland oltin toji egnida zarbof libosi bo‘lgan Doroning qosh-ko‘zlari chimirilgan, mushtlari tugilib, yuzlari g‘azabdan burishgan holatda tasvirlanadi.

Alisher Navoiyning «Xamsa» dostonlari har biri alohida necha-necha tadqiqotlar mavzusi bo‘lib keldi, yana bu ish davom etadi. Chunki ularning mazmun qabatlari benihoyadir. Bu dostonlar shaklan qanday mukammal bo‘lsa, mazmunan undan ham uyg‘un, koinot singari munazzam va had-hududsizdir. Islom aqidalariga ko‘ra bir kecha-kunduzda o‘qiladigan besh vaqt namoz «al-Xamsatu» deyiladi, dinimizning besh ustuni (rukni) ham - tavhid (iymon), namoz, ro‘za, zakot, haj - o‘ziga xos «xamsa» (beshlik)ni tashkil etadi. Demak, Nizomiy dostonlarining «Xamsa» turkumi sifatida talqin etilishi, unga Amir Xusrav va Navoiy javoblari bejiz emas. Alisher Navoiy «Saddi Iskandariy» dostonining muqaddima qismida bu masalaga maxsus to‘xtalib, «Xamsa»ning har bir dostoni yozilishini kunning ma‘lum vaqtlarida o‘qiladigan sahar (fajr), peshin (zuhr), asr, shom va xufton namozlari bilan qiyos etadi hamda «Xamsa»ni buyuk tog‘ cho‘qqisiga ko‘tarilish mobaynida besh o‘rinda to‘xtab, nafasni rostdash uchun bino etilgan besh oromgohga o‘xshatadi.

Bu oromgohlarni yaratish uchun shoir «Bilik taxti uzra chiqib o‘lturmagi», «Xayol elchisini» har tarafga choptirishi, «jon mulkidan» «maoniy sipohini» (ma‘nolar lashkarini) guruh-guruh (favj-favj) yetkazib berib turishi, ma‘no lashkarlari jam bo‘lgach, insonlar dilini zabt etishga kirishmog‘i, ya‘ni ma‘naviyat olamida jahongirlik san‘atini namoyish qilmog‘i lozim edi. «Xamsa» dostonlari ijtimoiy hayotni, turli toifalarning hayotdagi o‘rni va vazifalarini ularning butun ichki dunyosi va ruhiyati bilan bog‘liq holda tadqiq etadi, shu bilan birga undagi barcha botiniy rishtalar Tavhid e‘tiqodiga borib ulanadi. Bu asar dunyodagi buyuk siymolardan biri, uch sohibqironning eng mashhuri jahongir Iskandarga bag‘ishlangan bo‘lib, "Xamsa"ning yakunlovchi dostonidir. Sharqda u Iskandar Zulqarnayn (ikki shoxli yoki kun chiqish va kun botish hukmdori) nomi bilan mashhur. Dastlab Iskandar mavzusi Firdavsiyning "Shohnoma" dostonida qalamga olingan. Keyinroq Nizomiy Ganjaviy u haqda maxsus "Iskandarnoma" degan doston yozadi. Xusrav Dehlaviy bu dostonga javob tarzida "Oyinayi Iskandariy"

asarini yozgan bo'lsa, Abdurahmon Jomiy o'z dostonini "Xiradnomayi Iskandariy" deb ataydi. Alisher Navoiy esa bu mavzuni turkiy tilda qayta ishlab, o'z asariga "Saddi Iskandariy" ("Iskandar devori") deb nom beradi

Islom ma'naviyati namoyondalari o'z ijodlarida salaflarini inkor etish, ilgari batamom ko'rilmagan yangilik yaratishga intilish emas, balki ustozlar yaratgan ma'naviy boylikni yanada takomillashtirish, unga yangi jilo berish, ular izlagan yaxlit va buyuk Haqiqatning yangi va toza qirralarini kashf etish, mazmuniy boyitish yo'lidan borganlar. Bu tom ma'nosi bilan muqaddas an'ana bo'lib, islomning ilohiy kitobi Qur'oni karimdan sarchashma oladi. Dehlaviy «Xamsa»si Nizomiyga ajoyib sharh va undagi mazmunlarning yangicha talqini sifatida o'zining ham, salafining ham shuhratini olamga yoydi. Keyingi XIV-XV asrlar mintaqa ma'naviyati «Xamsa» an'anasi ta'sirida rivoj oldi, shoirning salohiyati va iqtidori hech bo'lmaganda «Xamsa»ning bir dostoniga munosib javob yoza bilish bilan o'lchanadigan bo'ldi.

Bu jahon ma'naviyati tarixida betakror hodisadir. Turkiy adabiyotda Qutb va Haydar Xorazmiylar boshlab bergan «xamsachilik» an'anasi o'zining kamolini Alisher Navoiy ijodida kutayotgan edi va bu qutlug' intizorlik benihoya ezgu samara berdi. Nizomiy, Amir Xusrav, Alisher Navoiy ruhiyatlarini «Xamsa»ning ma'naviyat maydonida birlashib, yagona iqlim, yagona mohiyat kasb etdilar. Ushbu yagona mohiyat butun islom mintaqa ma'naviyatining eng buyuk cho'qqisidir. Nizomiy va Amir Xusravsiz Navoiyni tasavvur etib bo'lmaganidek, Alisher Navoiy ijodiy merosisiz Nizomiy va Amir Xusrav badiiy olamini ham butun ko'lami bilan idrok etib bo'lmaydi. Shoir o'zi dostonlarini «zohir yuzidan afsona» degan edi. Afsus, yaqin kunlargacha maktablarimizda XX asr avlodiga «Xamsa» dostonlari ushbu «afsona» darajasida, yuzaki talqin etilib, tushuntirib kelindi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida bu eski yondoshuvdan qoniqmagan ba'zi yosh tadqiqotchilarimiz Navoiyning islomiy shoir ekanligini, uning asarlaridagi tasavvuf irfoni izlarini yangidan «kashf» eta boshladilar. Vaholanki, barcha jiddiy navoiyshunoslar bu «yangilik»larni avval boshdanoq yaxshi bilishgan, to'liq idrok etishgan, faqat «zamonalar zo'rliigi» tufayli, kommunistik mafkura tazyiqidan navoiyshunoslikni himoyalash maqsadlari bilan ba'zi jihatlarini pardalab o'tishga, ishoralar bilan cheklanishga majbur bo'lishgan edi. Bugungi mustaqillik, hurlik zamonida endi ma'naviyatimizning asl mohiyati haqida ochiq-oydin gapirish, fikr yuritish imkoniyati mavjud ekan, muammolar mohiyatiga chuqurroq kirib borish, teran tahlilga o'zimizni ham, yosh avlodni ham o'rgatib borish ayni farzdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.:O'zbekiston, 2017.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 11-jild. T.:«Fan»,1993. – 640 b.



3. Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni konkordansi (Tuzuvchilar: A.Quronbekov, A.Mannonov, M.Imomnazarov, D.Ahmedova, A.Nishonboyeva) T.: TDSH, 2016. – 832 b.

4. Бертелс Е.Е. Избранные труды. Навои и Джами. М., 1965. – 480 с.

## ERKIN VOHIDOV SHE’RIYATIDA ASSOTSIATIV MUNOSABATLARNING IFODALANISHI

*Tursunova Dildora Abdurasul qizi,  
Namangan davlat universiteti magistranti*

O‘tgan asrdan boshlab dunyo tilshunosligida til birliklarining assotsiativ aloqasini o‘rganishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Tilshunoslikda til birliklari munosabatida kuzatiluvchi assotsiativ aloqa masalasi ilk bor nemis olimi V.Humboldt tomonidan o‘rtaga tashlangan. U har bir inson ongida bir-biriga muvofiq keluvchi, ammo aynan bo‘lmagan fikrlar paydo bo‘lishi hisobiga o‘zaro tushunish yuz berishini qayd etgan edi [1]. O‘z vaqtida F.de Sossyur ham assotsiatsiyaga munosabat bildirgan. U til birliklari o‘rtasida sintagmatik va assotsiativ munosabatni farqlagan. F.de Sossyur tildagi birliklar nimaiki orqali ifodalansa ham hammasini sintagmalar va assotsiatsiyalar nazariyasiga bog‘lash kerakligini qayd etgan [2]. G‘arb tilshunosligida assotsiativ aloqa haqidagi qarashlar keyinchalik G.Kent, A.Rozanov, J.Diz, J.Miller, Ch.Kofer tomonidan rivojlantirilgan [3]. Rus tilshunoslaridan N.V.Krushevskiy ilk bor so‘zlarning o‘xshashlik va yondoshlikka ko‘ra assotsiatsiyativ bog‘lanishini ko‘rsatdi [4]. Til birliklarining assotsiativ munosabati A.A.Potebnya, I.A.Boduen de Kurtene, M.M.Pokrovskiy, Yu.Karaulov va boshqalarning ishlarida ham e‘tirof etilib, rivojlantirildi.

O‘zbek tilshunosligida til birliklarining assotsiativ aloqasi, tilda verbal assotsiatsiyalarning hosil bo‘lishi muammosi monografik aspektda maxsus o‘rganilmagan bo‘lsa-da, ayrim ishlarda bu masalalarga munosabat bildirib o‘tilgan. Xususan, professor A.Nurmonovning «Struktur tilshunoslik: ildizlari va yo‘nalishlari» nomli o‘quv qo‘llanmasida shveysariyalik olim F.de Sossyurning assotsiativ munosabat haqidagi qarashlari umumlashtirilgan, assotsiativ munosabatning mohiyati, sintagmatik munosabatdan farqi ko‘rsatib berilgan.

Assotsiativ tilshunoslikning markaziy tushunchalaridan biri assotsiativ munosabat masalasidir. Assotsiativ munosabat til birliklarining inson psixologik tasavvuriga asoslangan munosabati bo‘lib, “bir- birini yodga solish” mexanizmini aks ettiradi.

Assotsiativ munosabat bir yoki bir necha sath birliklarining turli omillar bilan bog‘liq holda inson tafakkurida assotsiativ bog‘lanishini aks ettiradi. Bir til egasida biror til belgisiga nisbatan hosil bo‘lgan assotsiatsiya boshqa til egasida yuzaga kelgan assotsiatsiyadan farqlanadi.

Badiiy adabiyotimizda o‘lmas asarlar yozib, nasr va nazmda tenggi yo‘q me‘ros qoldirgan buyuk so‘z san‘atkori Erkin Vohidovning betakror mahorati,

o‘ziga xos badiiy uslubi, shoirona nafasi she‘riy misralarida ufurib turadi. Shoir she‘riyati musiqiyliigi, xalq og‘zaki ijodiga hamohangligi, takrorlarga boyligi, badiiy san‘atlar va uslubiy vositalarning keng qo‘llanganligi bilan farqlanib turadi.

Erkin Vohidov she‘rlarida qo‘llangan assotsiativ munosabatdagi birliklar tahlili orqali ijodkorning voqelikni idrok etishi va u haqdagi tasavvurlari, leksik zahirasi, zahira ko‘lami hamda tarkibi, ijodkorning so‘z tanlash mahorati haqida qimmatli bilimlarga ega bo‘lish mumkin.

Bulutlarning etagida zar,  
 Amu uzra to‘r tashlar quyosh.  
 Daryo sokin, Uxlar to‘lqinlar,  
 Uxlar, qo‘yib qirg‘oqlarga bosh.  
 Tovlanadi ufq atlasda,  
 Baliqchilar ovdan qaytadi.  
 Yelkanlarni tebratib asta  
 Ona daryo Alla aytadi.

“Daryo oqshomi” she‘ridagi assotsiativ bog‘langan leksemalarni ko‘rib chiqamiz. Erkin Vohidov daryo leksemasi atrofida birlashadigan quyidagi assotsiatsiyalarni mahorat bilan qo‘llaydi: *Amu (Amudaryo), to‘r tashlamoq, sokin, to‘lqinlar, qirg‘oqlar, tovlanadi, ufq, baliqchilar, ov, yelkanlar*.

Ba‘zi nutqiy tuzilmalarning shakllanishida sintaktik assotsiatsiyalar (so‘z birikmasi va gaplar) tayyor qurilish materiali sifatida qatnashadi. Jumladan, til egasi lisoniy zahirasida o‘rnashgan maqol, matal kabi birliklar yirik nutqiy tuzilmalarni tuzishda ishtirok etadi.

Ko‘yida men tosh boshimni,  
 Urmagan ostona yo‘q,  
 Elda bor shunday masal:  
**Jon chekmasang jonona yo‘q.**

(“O‘rtada begona yo‘q”)

Nutq jarayonida lisoniy zahiradan tayyor holda olinadigan sintaktik birliklar mavjud bo‘lib, nutqiy tuzilmalar uchun qurilish materiali vazifasini o‘taydi.

Yuzi uning mohi tobondir,  
 Ko‘zi uning ofati jondir.

“Oyga” she‘rida ham *mohi tobon* hamda *ofati jon* kabi izofaviy birliklar lisoniy zahiramizdan tayyor olingan va she‘rda mohirona qo‘llash orqali assotsiativ munosabat hosil qilingan.

Ko‘z leksemasi xotirada ko‘zi tushmoq, ko‘z tegmoq iboralarini tiklab, ular bilan assotsiativ munosabatga kirishadi. Masalan,

Yiroq-yiroqlarga qaragan chog‘ing  
 Ko‘zing tushmadimi yorga mabodo?  
 Boq, balki ko‘rarsan ayni sahar payt,  
 U ham ko‘z tikkandir balki sen tomon.

“Arofat cho‘qqisiga” she‘rida ham ko‘z leksemasi bilan bog‘liq *ko‘zi tushmoq, ko‘z tikmoq* iboralari mahorat bilan qo‘llangan. Ko‘rmoq leksemasi bilan assotsiativ munosabatga kirishgan.

Bu kabi assotsiativ bog'lanishlarning yuzaga kelishida ham leksemalarning semantik aloqadorligi muhim o'rin tutadi.

Erkin Vohidov she'riy matnlarining assotsiativ tahlili asosida xulosa qilish mumkinki, poetik matnda kitobxon ruhiyatiga ta'sir ko'rsatish, uni sog'lom fikrlashga undash muhim bo'lgani bois uning lingvistik tahlilida asosiy e'tibor nafaqat tilning o'ziga, undan foydalanuvchi til egalarining ruhiy holati, dunyoqarashi, dunyo haqidagi kognitiv bilimlari, olamni idrok etish darajasi va uni til orqali ifoda etishi, assotsiativ fikrlashi kabi masalalar tahliliga ham qaratilishi lozim. Badiiy matnni assotsiativ tahlil usullari asosida o'rganish mazkur muammolar yechimi uchun xizmat qilishi, til va undan foydalanuvchi shaxs munosabati masalasiga doir qiziqarli ma'lumotlar berishi shubhasizdir. Anglashiladiki, shoir tomonidan hosil qilingan assotsiativ birliklar obrazli ifodalarga boyligi uchun ham o'quvchi uchun sevimli va boshqa asarlardan ajralib turadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Lutfullayeva D. Assotsiativ tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Meriyus, 2017.
2. Соссюр Ф. Труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 1977.
3. Kent G.H., Rosanoff A.J. A Study of Association in Insanity // American Journal of Insanity. 1910, – N 67. – P.37- 96; Miller G.A. Language and communication / N. Y., 1951. – 298 r.; Cofer Ch. N. Associative Commonality and Rated Similarity of Certain Words from Haagens List // Psychological Reports, 1957.
4. Крушевский Н.В. Очерк науки о языке. – Казань, 1883.

#### КОМИЛ ИНСОН ҒОЯСИНИНГ БАДИИЙ АДАБИЁТДА АКС ЭТИШИ МАСАЛАСИ

*Аҳмадова Шохсанам Содиқ қизи,  
ЖДПИ магистранти,  
Илмий раҳбар: ЖДПИ доценти  
Мамадалиева Зухра Умаралиевна*

Адабиёт яралибдики, у халқнинг орзу-умидлари, идеаллари, ҳаётий қарашларини ўзида мужассам этади. Жумладан, комил инсон ғояси бadiий адабиётнинг асосий тасвир объекти ҳисобланади. Ушбу ғоя асрлар оша такомиллашиб, ўзгаришларга учради ва бу жараён хануз давом этмоқда. Негаки, ҳар бир даврнинг етук инсон бўлиш учун қўядиган талаблари ўзига хосдир. Хусусан, зардуштийлик динининг муқаддас китоби бўлган “Авесто”да етук инсон фазилати бўлмиш ҳар бир яратикқа (унга нафақат инсон, балки жамики ҳайвонот ва набодот олами ҳам киради) ўз ўй – фикрлари, сўзлари, амаллари билан эзгулик қилиш уқтирилиши билан бир қаторда, ҳар бир шахснинг мард, жасур, ватанпарвар бўлмоғи лозимлигига алоҳида урғу берилади. Буни биз худоларнинг тасвиридан ёхуд Жамшид

каби қаҳрамонларнинг эл –юрт учун қилган хизматларидан ҳам сезишимиз мумкин. Хусусан, “Митра алқови” да шундай тасвирларни кўрамиз:

*Юз минг туман кўзли зот,  
Аълам ва кучли маъбуд.  
Ёлгончининг барини,  
У кўриб тургувчидир.  
Қудратли ҳамма бирла  
Хужум қилиб чиқар у  
Учар у голибона  
Ўтқир бир қараиш ила  
Кўрар барча иллатни. [5: 21.]*

“Авесто” да худо ва илоҳларнинг оддий инсон эриша олмайдиган даражадаги фазилатларга эга эканлиги, баркамоллиги тасвирланганки, ҳар бир инсон уларга сиғиниш билан бир қаторда худоларга хос хусусиятларни ўзига жо қилишга интилиб яшаган. Бир сўз билан айтганда, комилликка эришишга ҳаракат қилган. Демак, айтишимиз мумкинки, шу даврга хос ёхуд унинг таъсирида яратилган адабиёт намуналарида комиллик тимсоли сифатида худо, илоҳ-у илоҳалар образлари танланган ва улар ҳар томонлама мукамал қилиб тасвирланган. Кейинги даврларда эса бу тимсол адолатли подшоҳ ёхуд эл-юртни ҳимоя қилувчи баҳодир образи орқали тасвирлана бошлади. “Тўнюкук”, “Билга хоқон”, “Култигин” битиктошларида паҳлавон раҳнамоларнинг улуғланиши фикримизнинг ёрқин далилидир. Уларда турк хоқонлари бўлган Билга хоқон, Култигинларнинг жасоратлари, халқ фаровонлиги, тинчлиги учун қилган фидокорликлари улуғланиб, таълим-тарбия, етуклик ғояларидан четлашгандек кўринса-да, аслида битиктошлардаги тасвирлар ўша давр учун зарурий бўлган идеал шахс хусусиятларини акс эттирган.

Бундан ташқари ушбу ҳолатни қадим тарихга эга бўлган “Алпомиш”, “Гўрўғли”, “Кунтуғмиш” ва шу каби халқ оғзаки ижоди намуналарида ҳам кузатамиз, яъни комил инсон, аввало, мард, жисмоний жиҳатдан бақувват, ватанпарвар бўлмоғи лозимлиги таъкидланади. Жумладан, Алпомиш таърифида қуйидагича тасвирлар мавжуд: “Шунда Ҳакимбек етти ёшга кирган. Алпинбий бобосидан қолган ўн тўрт ботмон биричдан бўлган парли ёйи бор эди. Ана шунда Ҳакимбек шул ўн тўрт ботмон ёйни кўлига ушлаб, етти яшар бола кўтариб тортди, тортиб кўйиб юборди. Ёйнинг ўқи яшиндай бўлиб кетди. Асқар тоғининг катта чўққиларини юлиб ўтди, овозаси оламга кетди”[2.17]. Жисмоний етукликнинг бундай улуғланишининг боиси, ўша даврда қабилалар, уруғлар ўртасида доимий уруш, низолар бўлиб турган. Ўз ватанини ҳимоя қилиш асосий вазифага айланган. Бунинг натижасида оддий аҳоли ақлли, кучли ва ғамхўр раҳнамога эга бўлишни орзу қилган ҳамда буни адолатли подшоҳ образи орқали халқ дostonлари, ривоятларига жо қилган. Замон ривожланиб, халқ турмушида ўзгаришлар бўлгани сари баркамол шахсда мужассамлашмоғи лозим бўлган хислатлар ҳам ўзгариб бораверади.

Ислом дини қарор топгач , туркийларнинг маънавий дунёсида сезиларли ривожланиш кузатилди десак, ҳеч муболаға бўлмайди. VII асрда араб мамлакатларида қарор топган ушбу дин бадиий адабиётга ҳам ўз таъсирини ўтказди, албатта. Айнан шу даврдан эътиборан, комил инсон истилоҳи диний-тасаввуфий характерга эга бўлди. Эндиликда баркамол инсон Алпомишдек Асқар тоғи чўққисини камон ўқи билан уриб тушириши ёхуд Ойбарчиндек бир паҳлавон эркакнинг курагини ерга текказиши шарт эмас, балки инсон, аввало, ўз кўнглини (мазҳар) пок сақлаб, Аллоҳ висолига эришиш учун тақво қилиши лозим эди. Шу ўринда эътибор беришимиз лозимки, маълум халқ учун идеал ҳисобланган инсон ҳамда ҳақиқий комил инсон истилоҳи орасида яқинлик бор, аммо улар айнан бир нарса эмас. Идеал инсонга таъриф берар экан адабиётшунос олим, профессор М. Муҳиддинов шундай ёзади: “Идеал инсон хусусиятлари оғзаки ижод намуналари, қаҳрамонлик эпосларида гавдаланган. Романтик усулда ёзилган бадиий асарларда ҳам идеал инсон ( кўркмас, қаҳрамон, ғайритабиий қудрати бор) тасвирланади”. [3.19]

Ислом дини қарор топгач Муҳаммад (с.а.в) мусулмон оламида идеал инсон тимсолига айланди. Ислом маданияти таъсири остида яратилган адабиёт намуналарида барча учун ўрнак бўлувчи баркамол инсон образи, яъни пайғамбаримиз Муҳаммад (с.а.в) сиймоларида, кейинчалик тасаввуфда комил инсон истилоҳи билан аталувчи идеал инсон тасвирлана бошлади. Тасаввуф илмини кўп йиллар тадқиқ этан олим, профессор Нажмиддин Комилов комил инсонга шундай таъриф беради: “Комил инсон зоҳирий ва ботиний илмларни тўлиқ эгаллаган, кўнгил ойнаси мусаффо бўлган, ғайб асроридан хабар берувчи кишидир”. [1.106] Чунончи Алишер Навоийнинг “ Фарҳод ва Ширин” достонида келтирилган Сукрот комил инсон тимсоли бўла олади. Демак, исломдаги инсон камолоти билан тасаввуфдаги комил инсон ғояси орасида тафовут бор экан. Негаки, ислом назарида комил инсон шариат аҳкомларига риоя этувчи, Қуръони карим ва суннат йўлидан юрадиган батавфиқ, тақводор, ҳалол ва инсофли одамдир. Тасаввуф аҳли эса комил инсон шариат билан бирга тариқат ва ҳақиқатни ҳам эгаллаган бўлиши керак, яъни сўфийлар риёзат йўлида жон чекиб, тариқат мақомотларини босиб ўтмаган, дунё мол-у мулки, ўз нафси талаблари ва ҳатто вужуд ўзлигидан қутилмаган, илоҳий ишқ дарди билан ёниб, илоҳий асрор оламига етишмаган одамни комил дейиш мумкин эмас, дейдилар. Мумтоз адабиёт сирасига кирувчи асарларда кенг тасвирланган комиллик айнан шу тасаввуфда акс этган комил инсон хусусиятидир. Бир сўз билан айтишимиз мумкинки, комил инсон ғояси идеал шахс истилоҳи билан боғлиқ тарзда ислом ва тасаввуф таълимотлари билан йўғрилган ҳолатда юзага келган. Идеал шахс ва комил инсон тушунчалари орасидаги муштарак хусусиятлар ҳамда тафовутларни қуйидаги жадвалда кўришимиз мумкин.



Комил инсон	Идеал шахс
Мукамаллик касб этган, ҳамиша бошқаларга ўрнак бўлувчи	
Тасаввуф пайдо бўлгач юзага келган истилоҳ	Кишилик жамияти билан вобаста шаклланган
Комиллик мақомотига эришган инсон	Халқнинг орзусидаги инсон
Инсоннинг ботини, яъни кўнгил поклиги асосий ўринни эгаллайди	Инсоннинг жамиятда тутган ўрни, зоҳирий фазилатларига эътибор қаратилади
Инсон-Аллоҳ муносабатига асосланган	Инсон-инсон муносабатига асосланган
Комилликнинг олий даражаси	Баркамолликнинг бир кўриниши
Комил инсонга хос хусусиятлар, талаблар ўзгармайди	Идеал инсонга қўйиладиган талаблар замон ва маконга мос тарзда ўзгаришга учраши мумкин
Комилликда белгиланган мақомотлар мавжуд	Даражаланиш хусусиятига эга эмас

Туркий халқлар маънавияти тарихида биринчилардан бўлиб Юсуф Хос Ҳожиб “Комил инсон” тушунчасини кўтариб чиқди. Адабиётшунос олим Ваҳоб Раҳмон бу ҳақида қуйидагича фикрларни келтиради: “Мутафаккир кишининг юксалишида икки босқични ажратади: биринчиси – балоғат, бунга ихлос қилса, ҳар бир билимли, уқушли кимса эришуви мумкин. Киши камолотининг иккинчи босқичи тугалликдир. Унга ҳар кимсанинг етишуви мушкул”. [4.6] Бизнингча, комилликнинг биринчи босқичи ҳисобланган балоғат биз юқорида таъриф қилган идеал шахс истилоҳига айнан мос келади. Юсуф Хос Ҳожиб ўзининг “Қутадғу билиг” асарига қаҳрамон сифатида танлаган рамзий образлар: Кунтуғди, Ойтўлди, Ўгдулмиш ҳамда Ўзғурмиш тимсоллари орқали камолотнинг биринчи босқичини ифода этади. Яъни Кунтуғди адолатли подшоҳ, Ойтўлди давлат иқтисоди ва тутумини ўз ўрнида бошқарувчи доно вазир, Ўгдулмиш амалдор ва аҳоли маънавияти юксалишида жонбозлик кўрсатган илм толиби, Ўзғурмиш эса Аллоҳ висолига етишмоқ учун нафсоний истакларидан вос кечиб, ҳақиқий бойлик – кўнгил поклигига эришган, доимо шукр ва қаноатда яшовчи инсон сифатида балоғат касб этган. Ўз касбида ёки маълум хусусияталари билан етукликка эришиш илм ва астойдил ҳаракат орқали амалга ошувчи жараён дир. Бунга ҳар бир инсон ўзининг эзгу амаллари ҳамда илм талаби билан етишиши мумкин. Бир сўз билан айтганда, ўзгалар учун ўрнак бўлувчи идеал шахс бўлиш Юсуф Хос Ҳожиб айтган “тугал эр”, яъни комил инсон бўлмоқ учун пойдевор бўлиб хизмат қилади. Қомусий илмлар билимдони бўлган ижодкор тугал эр бўлмоқ учун қандай фазилатларга эга бўлиш лозимлигини ўзининг

шоҳ асарида кенг тавсифлайди. Жумладан, ижодкор инсоний фазилатлар сифатида куйидагиларни улуғлайди:

*Фазилат билан минг , заковат билан  
Мукаррам эл аро саховат билан.*

*Бутунлиг-у ҳурмат зуҳд билан баланд,  
Андиша, илм-у фан – покликка пайванд.[4.25]*

Ушбу мисралардан англашимиз мумкинки, бир инсонда заковат, саховат, зуҳд ҳамда илм мужассам бўлса, мукамалликка эришади. Демак “Қутадғу билиг” қахрамонларининг ўзаро муносабатлари, суҳбатлари орқали тугаллик адолат, давлат, билим ҳамда қаноатнинг омухталашуви эканлиги ғоясини акс эттирган. Шоирнинг ўзи таъкидлаганидек,

*Тилагим – камолот, эй оқил, доно,  
Мерос бўлиб қолгай сўзим ҳамоно.[4.43]*

Таъкидлаб ўтишимиз лозимки,бу ўринда адолат фақат давлатни бошқаришдаги одиллик эмас, балки инсоннинг ўз қалбига(мазҳар) унинг хоҳишларига мувофиқ тарзда ҳаёт кечириши эканлиги тушунилиши даркор. Зеро инсон жисмининг шоҳи – қалбдир. Вазир лавозимида бўлган давлат тимсоли орқали эса инсоннинг нафс истакларини жиловлай олиш, ҳалол лўқма билан жисмни таъминлаш қобилияти тасвирланган. Илм-у дониш ҳамда кўнгил поклиги ушбу фазилатларга боғлиқ тарзда юксалиб боради. Шоирнинг фикрича, шу тўрт фазилатни ўзига жо қилган инсон ҳақиқий бахтга эришади:

*Тўрт омил бобида равон айтдим сўз,  
Англасанг, бахтинг бут, бисёр ризқ-у рўз. [4.56]*

Инсон ҳаётида ҳамиша ўз қалби амрига мувофиқ ҳаракат қилса, ҳеч қачон тўғри йўлдан адашмайди. Бунинг боиси шундаки, Оллоҳ таоло ўз зуҳуроти бўлган кўнгилга доимо энг эзгу фазилатларни, амалларни ҳамда йўлларни жо қилганки, уни фақат кўнгил ойнаси тиниқ ва соф бўлган инсонгина кўра олади. Бу тўрт сифатнинг бир-бирини тўлдириб туриши, ўзаро боғлиқлиги ҳақида ижодкорнинг ўзи Кунтуғди ва Ойтўлди суҳбати орқали куйидагича изоҳлайди:

*Барча уч пояли равон-рост, тўғри,  
Қайси чорпоянинг бир пойи эгри.*

*Қаю рост оғса гар тез барбод бўлар,  
Қаю тўғри бўлса рост- обод бўлар.[4.91]*

Инсон жисмининг шоҳи бўлган қалб ҳамиша уч пояли курсисига таянади, яъни нафс жиловдорига, илмига ҳамда қаноатига. Шу уч жиҳатнинг бири оқсаши ҳамоно, қалб софлиги, инсон камолотига путур етади.

Юқоридаги маълумотлардан куйидаги хулосага келишимиз мумкин:

1. Идеал шахс ва комил инсон тушунчалари орасида боғлиқлик бор, аммо бир нарса эмас.

2. Комил инсон тушунчаси тасаввуфий характерга эга бўлган истилох ҳисобланади.
3. Тасаввуфдаги комил инсон Аллоҳ йўлида риёзат чекиб, кўнгил поклигига эришган, маълум мақомотни эгаллаган инсондир.
4. Ушбу икки тушунчанинг шаклланиш босқичи Худолар сиймосида (идеал инсон) паҳлавон ва адолатли подшоҳлар образи орқали (идеал инсон) пайғамбар ҳамда зоҳид дарвешлар сиймосида (комил инсон) тушунчалари акс этади.

### **ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:**

1. Алишер Навоий. Ғазаллар, шарҳлар. Тошкент. “Камалак”, 1991й.
2. Алпомиш . Ўзбек халқ қаҳрамонлик достони. Тошкент. “Шарқ”. 1998. 398 б.
3. М. Муҳиддинов Комил инсон- адабиёт идеали . Тошкент. Маънавият 2005.- 206 б.
4. Юсуф Хос Ҳожиб .Кутадғу билиг. Тошкент. Гафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2018.-556 б .
5. Тўхлиев Б. Адабиёт. Академик лицей ўқувчилари учун дарслик. Тошкент: Баёз, 2018. 224 б.

### **“MURODXON” DOSTONIDA SHARQ FALSAFASINING AKS ETISHI**

*Tursunqulov Nurali Shuhrat o‘g‘li,  
JDPI magistri*

*Ilmiy rahbar: f.f.n. dots.Tursunqulov Abbas*

O‘zbek xalq dostonlari sujetning xilma-xilligi, badiiy to‘qimalarning romantik sarguzashtlarga singib ketganligi bilan shu darajada rang-barang, va serjiloki, beixtiyor kishini o‘ziga ohanraboday jalb qiladi. Qadimdan shakllanib kelgan xalq og‘zaki ijodi qanday qilib bu darajaga yetdi? Bizningcha, buning asosiy sabablaridan biri turkiy xalqlarning tarixida o‘tmish silsilalarining boyligidir. O‘zbek tilining boyish manbalari ichki va tashqi manbaalarga bo‘linganligi singari xalq dostonlarimizning sujeti va badiiyati ham ikki xil boiydi;

a. Tashqi manbalar asosida: hududiy qo‘shni xalqlar va qo‘shni bo‘lmagan xalqlar bilan iqtisodiy-siyosiy, madaniy va ma‘rifiy sherikchilik asosida etnik madaniyati kirib kelib, xalq og‘zaki ijodimizga singan manbalar;

b. Ichki manbalar asosida: Bunda baxshi dostonni yanada boy va qiziqarli bo‘lishini taminlash maqsadida o‘z tafakkuri mahsullarini ham yohud eshitgan, ko‘rgan voqealarini ham dostonga singdirib yuborishi mumkin. Bunda asar g‘oyasiga, estetik jozibasiga ta’sir ko‘rsatmasa kifoya. Professor O. Safarov to‘g‘ri ta’kidlaganidek: “Badiiy adabiyotdan ijodiy o‘zlashtirishning boshqa bir ko‘rinishi xalq dostonlaridagi qahramonlar ruhiy holatini ifodalashda emotsionallikni yanada kuchaytirish maqsadida mumtoz she’riyat bitilgan aruz vazni imkoniyatlaridan, qolaversa, g‘azal va muxammas, musamman, murabba shakllaridan foydalanishdir.

Chunonchi, Ergash Jumanbulbul o'g'li "Kuntug'mish" dostonida Kuntug'mishning yori va bolalaridan ayrilib, gangib qolganida, tasodifan uchragan cho'ponga murojaatini Sobir Sayqaliyning "Bahrom va Gulandom" dostonidan ta'sirlanib bitgan:

Ey yori alam ko'rgan, qaydin kelasan, ayg'il.

Ko'p ranj-u sitam ko'rgan, qaydin kelasan, ayg'il.

Shu matla'li g'azal aslida Bahromning gado qiyofasida Gulandom qasri oldiga kelib turganida, uning kimligini bilish uchun Gulandom kanizi Davlatdan berib yuborgan nomadir. Bu noma g'azal shaklida. Ergash shoir uni birmuncha qayta ishlagan. Bunday hollar boshqa asarlardan ijodiy foydalanishda ham ko'zga tashlanadi. Shu mulohazalarning o'ziyiq folklor va yozma adabiyotning o'zaro ta'siri va hamkorligi ikki tomonlama bo'lib, ularning bir-birini boyitib, rivojlanayotganini va bu folklorizm hodisasi sifatida qaror topib, badiiy adabiyotning xalqchilik zaminini ta'minlaganini asoslash imkonini beradi." [1, 21]

"Og'zaki va yozma adabiyotlarning o'zaro ta'siri va hamkorligi barcha xalqlarning adabiyotlariga xos hodisa bo'lib, o'sha adabiyotlarning shakllanishi va yuksalishini ta'minlashda, ularda xalqchil realistik tasvirning tantana qilishida, yangi obrazlar, yangi mavzular, yangi motivlar, yangi shakllar va xalqona ruhni ta'minlovchi obrazlilik va ifodaviy vositalar hisobiga to'lisha borishiga, shuningdek, folklor va yozma adabiyotga xos janrlarning o'zaro sintezlashuvi asosida badiiy ertak va uning xilma-xil ichki ko'rinishlari (ertak-drama, ertak-qissa, ertak-roman, ertak-opera)ning yuzaga kelishida, barmoq she'r tizimining yozma adabiyot arsenaliga o'tib, barqarorlashuvida muhim rol o'ynab kelmoqda. [1, 20]

Badiiy adabiyot ham asrlar davomidagi rivojlanish jarayonida folklorga samarali ta'sir ko'rsatib, shaklan va mazmunan takomil topishiga xizmat qilmoqda. Fozil Yo'ldosh o'g'li ham "Murodxon" dostoniga ba'zi ibratli, falsafiy, hikoyaomuz voqealarni qo'shib o'tganki, bu ijodiy akti alohida ta'kidlab o'tmaslikning iloji yo'q.

Mavlono Jaloliddin Rumiy qalamiga mansub "Masnaviyi ma'naviy" falsafiy didaktik asarida bir yigitni yirtqich sher quvib jar yoqasigacha borganligi, yigit jarga sirg'alib daraxt ildiziga osilib qolganligi pastda esa uni og'zida olov purkab turgan ajdaho poylab turgani haqida hikoya keltiriladi. Xuddi shu hikoya "Ramzlar silsilasi" to'plamida: "Bir kishi quturgan tuyadan jonini qutqarish uchun jar ustiga egilgan ikki shoxga osilib jar yoqasiga oyoq qo'yadi. Lekin oyog'i ostidagi indan to'rtta ilon bosh chiqarib turganini ko'rib qoladi. jarning ostiga nazar tashlasa, u yerda ulkan bir ajdarho og'zini katta ochgancha uning tushishini kutib turganligiga, yuqoriga qarasa, oq va qora sichqonlar u osilib turgan shoxlarni to'xtovsiz kemiryotganliklariga ko'zi tushadi. Bu ahvoldan qutulish chorasini o'ylab turganida shunday yonginasida asalari uyasini ko'radi. Va barmog'ini asalga botirib yalay ketadi. Asalning shirinligi uning boshini shu darajada aylantirib qo'yadiki, natijada u o'zining qanday ahvolda ekanligini unutadi: oyoqlarini to'rt ilonning boshiga qo'yganligi va bu ilonlar uni har lahzada chaqib olishlari

mumkinligi, sichqonlar shoxlarni kemirib bitirishlari va shox sinsa, u ajdaho domiga tushishi muqarrarligi xayolidan ko‘tariladi.”[2, 3-4]

Mumtoz adabiyotdagi bu sayyor sujet XX asr adabiyotiga ham ko‘chgan. Mashhur bolalar yozuvchisi Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Qayladasan bolaligim”to‘plamida: “Bir kishi ajdahoning changalidan qochish uchun jon holatda yuguribdi. Yugura-yugura bir jarning oldiga kelib qolibdi. Pastga tushish uchun egilib qarasa, jarlikning tubi ilon-u chayonlarga to‘la ekan. Ortga qaytay desa ajdaho, pastga tushay desa ilon-u chayonlar. Shunda jarlikning yoqasidagi ulkan bir daraxtni ko‘rib qolibdi. Daraxtning yarim tomiri jarlikning tepasida yarim tomiri esa jarlikda ekan. Pastlikda joylashgan tomirning g‘ovakroq qismi bor ekan. O‘sha kishi tomirdan g‘ovak qismiga tushib daraxt tomirlaridan mahkam ushlab olibdi. Shu payt qo‘liga bir narsa tomibdi. Yalab ko‘rsa asal ekan. Asalni yeb yigit ajdahodan qutulib qolibdi.” [3,183-184]

“Murodxon” dostonida ham xuddi shunga o‘xshash sujet uchraydi:

“Daryoning to‘lqini solni uradi  
Suvning zarbi bilan bu sol ketdi  
Aqli shoshib Murod hushin unutdi  
Ko‘ringan yerlari ko‘rinmay ketdi  
Sol aylanib bir zo‘r girdobga yetdi  
Uyurumda sol aylanib turipti  
Gohi vaqtda soli botib ketadi  
Murodxonning osha aqlin eltadi  
“Bu uyurum meni takka tortadi  
Mendayin odamni bu suv yutadi  
Shu kuni girdobda bu yig‘lab yotdi  
Qorong‘ulik bo‘lib, xuftonga yetdi  
Bir turli jondorlar paydo bo‘libdi  
U jondorlar Murodxonni ko‘ribdi  
Kulib u daryoga kirib ketibdi  
Ko‘rib Murodxon hayrona qoldi  
“Bir alomat”-dedi, ko‘nglini bo‘ldi  
“Odam obi”-dedi ko‘ngliga keldi”[4, 140-141]

“Uyurumning bir tarafi baland jar, bir tarafi katta uyurum suv. Sol aylanib shu jarga bordi. Murodxon shu jarga osilib turgan yantoqlar tomirini ushlab, quruqlikka chiqmoq bo‘lib, qo‘lini uzatdi. Qarasa, yantoq tomirini bir kalamush tishi bilan qirqib turipti. Uning ustiga bir yo‘lbars Murodxonga qarab, shu odam daryodan chiqsa, ushlab olib olmaday otib o‘ynab yuraman, deb haybat bilan qarab turibdi.

Murodxon buni ko‘rib, nima qilarini bilmay turib edi, shu vaqtda bu uyurumda yotgan katta bir baliq qo‘zg‘alib tuyuqsindan solni suv urib, sol qo‘zg‘alib, Murodxon qo‘rqib, ko‘zini qattiq yumib o‘tirib qoldi. Shunda qattiq to‘lqin bo‘lib, sol yuqoriga ko‘tarilib, pastga tusha berdi. Murodxon solning suv tagiga tushib ketganini ham, yuqori chiqqanini ham, yoki suvda borayotganini ham bilmadi.



Bu to‘polondan o‘zini qutqarib, ko‘zini ochib qarasa, sol suv yuzida borayotir. Ko‘rgan girdoblari tushga o‘xshab qoldi. Kech bo‘lib Murodxonning ko‘zi uyquga ketdi”. [4, 141]

Yuqorida keltirilgan hikoyalar “Murodxon” dostoni bilan bir xillikni tashkil etmasa-da, sujet chiziqdarida o‘xshashliklar mavjud. J. Rumiylar bu hikoya bilan dunyoning o‘tkinchiligiga ishora beradi. Jar ostida turgan to‘rt boshli ajdar to‘rt fasl. Inson istalgan vaqtda bittasining domiga tushishi mumkin. Yarim osilib turgan daraxt ildizi insonning umri. Odam qancha umri qolganini bilmaydi, har qaysi vaqt umri poyoniga yetishi mumkin. Ortidan jar yoqasigacha quvib kelgan sher ajal, doimo poyma-poy ortimizdan soyadek ergashib yuradi. Daraxt shoxlarini beayov kemirayotgan oq va qora sichqonlar umrimizni kemirayotgan kun va tundur. Asalari uyasidagi asal esa bizni bu dunyodaga maqsadimizdan chalg‘itadigan, sarhush qiladigan, o‘zimizni unuttiradigan nafsimizdir. X. To‘xtaboyev ham deyarli shunday ko‘rinishdagi hikoyani “Qaylardasan bolaligim” to‘plamining “O‘zim va o‘quvchilarim to‘plagan ertaklar” bobida “Hayotning shirinligi” nomi bilan nomlaydi. Bu hikoya ham o‘sha sujet asosida qurilgan, ammo obrazlar o‘zgaradi. Talqin ham shunga yarasha bo‘ladi. Unda yigitning ortidan quvib kelayotgan jondor sher emas ajdahoga jar tubidagi jondor to‘rt boshli ajdahoga emas ilon-u chayonlarga almashadi. X. To‘xtaboyev talqinida asal hayotning shirin ekanligi, insonning har qancha mushkulot bo‘lmasin yashashga harakat qilish instinkti kuchli kelishi mulohazasi ilgari surilgan. Jar yoqasidagi ilon-u chayonlar ham yil fasllari emas, do‘zax azob-uqubatlarning ramzi o‘laroq qo‘llanilgan. Har ikki hikoyada ham kishini sergak torttiradigan, chuqur o‘yga cho‘mdiradigan falsafa yashiringan. Shu o‘rinda savol tug‘iladi. Rivoyatning asl manbasi qaysi? Tarixda Murodxon ismli hukmdor yashab o‘tganligi ma‘lum va uning yashab o‘tgan davri deyarli Rumiylar bilan bir davrga to‘g‘ri keladi. Ammo doston tarixiy qahramon bilan bir vaqtda tug‘ilmaganligi ehtimoli mavjud. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li ana shu sujetni dostonga olib kirish orqali Murodxonday murod talab insonlar o‘z orzulari yo‘lida Allohga tavakkul qilib o‘zlarini “muhit erkiga” topshirsalar, oldilariga qo‘ygan maqsadlaridan har qancha mashaqqat bo‘lmasin qaytmasalar, albatta, murodlariga yetishishlariga ishora qilgan bo‘lsa ajab emas.

Hikoyada diniy-ma‘rifiy qarashlar uyg‘unlashib ketgan. Odam nasli Nuh alayhissalom zamonasida juda ulkan bo‘lgani haqida diniy manbaalarda keltirilgan. Avesto kitobida ham ulkan odam, Xubbi obrazi shakllangan: “Juda qadim zamonlarda Farudin va hatto Jamshid zamonasidan burun Amudaryoda Xubbi degan bir yigit bo‘lgan ekan. U bir qo‘li bilan baliq tutar, ikkinchi qo‘li bilan uni quyoshga tutib turar, baliq bir zumda pishar ekan. Xubbi shu xilda baliq yeb, Amudaryoda yetti yuz yil yashabdi, daryoni qo‘riqlabdi, biror yomon ruh, hattoki chivin ham daryoga yaqin yo‘lashga botina olmabdi. Xalq suvga ma‘mur bo‘lib, shod-xurram yashar ekan. Biroq Jamshid zamonasiga kelib Xubbi g‘oyib bo‘libdi. Kishilar uni osmon suvlarining hukmroni bo‘lgan qiz o‘g‘irlab ketgan deb faraz qilibdilar [5, 46]. Xalq orasida Xubbi daryoda yashaganligi sababli Odami ob ya‘ni suv odam nomi bilan tanilgan. Murodxon ham suvda ko‘ringan jondorni Odami ob

deb faraz qilishi Avesto kitobi e'tiqodlari badiiy ildizlaridan dalolatdir. Dostonga singdirilgan hikoya aslidan farqli tarzda qahramonning o'limi bilan tugamaydi. G'ayritabiiy kattalikdagi baliqning bir qo'zg'alishi bilan sol uyurunga kirib ketadi ammo qahramonimizni halok qilmaydi. Xalq dostonlarida qahramonlar biror mushkulotga tushib qolishganda g'oyibdan ularga madad yetadi. Bu ham qaysidir ma'noda kishilar dunyoqarashi va e'tiqodlarining inikosi o'laroq shakllangan ishonchdir

Xulosa qilib aytganda, xalq dostonlarida ilgari surilgan g'oyalar xalqning umid-istaklariga qarab doimo o'zgarishda bo'lib keladi. Ijrochi mahorati, ideali, ijodiy tafakkuri mahsullari ham dostonlar ichidan o'rin olishi mumkin. Avloddan-avlodga o'tish jarayonida dostonlar makon va zamonga moslashadi. Ba'zilari yanada kengayib, boyishi va bilaks tarix sahnasidan tushib qolishi ham mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O. Safarov. O'zbek xalq og'zaki ijodi. "Musiqqa" nashriyoti. Toshkent 2010-yil.
2. "Ramzlar silsilasi", To'plovchi E. Ochilov "O'zbekiston" Toshkent 2017-yil 3-4-betlar.
3. Xudoyberdi To'xtabotev, "Qaylardasan bolaligim" "Yangi asr avlodi": Toshkent 2017-yil 183-184-betlar
4. O'zbek xalq dostonlari 2 tomlik, 2-tom O'zbekiston SSR fanlar akademiyasi nashriyoti Toshkent, 1957-yil
5. A. Abdurahmonov, Turkiy xalqlar og'zaki ijodi" Samarqand 2006-yil. 46-bet

### O'ZBEK SO'ZLASHUV USLUBIDA QO'LLANILADIGAN BA'ZI NUTQIY ODAT BIRLIKLARINING LISONIY XUSUSIYATLARI

*Soliyeva Naima A'lopolotovna.,  
Usmonova Shahnoza Erkinjonovna  
Namangan davlat universiteti magistrantlari*

Ma'lumki, insonning so'zi uning mafkurasini belgilaydi. Inson o'z nutqi orqali obyektiv olamga bo'lgan munosabatini ifoda etadi, shu bilan birga, milliy o'zligini ham namoyish etadi. Dunyoqarashi, ongi, shuuri, hissiyoti, idroki, bilimi, hayotiy tajribasi, imon-e'tiqodi, umuman, inson ijtimoiy faoliyatida namoyon bo'luvchi siyosiy-mafkuraviy, falsafiy, axloqiy, diniy va estetik qarashlari uning nutqida mujassam bo'ladi. Inson ijtimoiy mavjudot sifatida hamisha jamiyat a'zolari bilan muomalada – munosabatda bo'ladi, jamiyat bilan uyg'un hayot kechiradi. Uning butun faoliyatini o'zida to'la aks ettiradigan hodisa esa jonli so'zlashuv nutqi sanaladi. So'zlashuv nutqi serqirra lingvistik hodisa sifatida lingvokulturologik, psixolingvistik, pragmalingvistik, etnolingvistik, sotsiolingvistik xususiyatlarni o'zida mujassamlaydi. Bu nutq yozma nutqqa qaraganda ta'sirchanligi, hissiyotga boyligi, yangi so'z qo'llashlar mavjudligi bilan ajralib turadi. Unda so'zlovchining barcha imkoniyatlari namoyon bo'ladi. So'zlovchi o'z nutqiga hissiyotini ham qo'shib gapiradi, bunda turli imo-ishora,

qo‘l harakatlaridan foydalanadi. Bu vositalar nutqda aytilmay qolishi mumkin bo‘lgan so‘z va iboralarning o‘rnini to‘ldiradi va bayon qilinayotgan fikrni yanada aniqlashtiradi. So‘zlashuv nutqida to‘liqsiz gaplar ishlatiladi, chunki tushirilgan qism boshqa bir replikada yoki boshqa bir nutq vaziyatida ifodalanishi mumkin. Shuningdek, bu nutq ishtirokchilarining umumiy bilish fondiga oid bo‘ladi.

So‘zlashuv nutqi – o‘ziga xos mustaqil, alohidalashgan nutqiy sistema [1] bo‘lib, so‘zlashuv nutqi uchun so‘zlarning dialogik shaklda bo‘lishi, so‘zlarning ko‘chma ma’noda qo‘llanilishi, so‘zlashuv uslubiga xos bo‘lgan har xil takrorlar, intonatsion vositalar ( gumon, ishonch, piching, qat’iylik, hazil)ning ko‘proq bo‘lishi, so‘zlashuv uslubi uchun xos bo‘lgan emotsional-ekspressivlikning mavjudligi, so‘zlashuv uslubiga xos situatsiya (vaziyatlik), yuzma-yuzlik, hazil-mutoyiba elementlarining ko‘proq bo‘lishi, haqorat, erkalov, kichraytiruv, oddiy muomalaga oid so‘zlarning ko‘proq bo‘lishidir. [2] So‘zlashuv nutqiga xoslangan vaziyatboplik, erkinlik, norasmiylik, hozirjavoblilik, etikaviy, estetik vositalarini ta'minlovchi intonatsiya, pauza, mimika, imo-ishora kabi holatlar, ko‘chma ma'no nozikliklari, frazeologik iboralarning ko‘pligi, nutq jarayonida qisqa (chala) uslubga xos siqqliklarni ta'minlovchi fonetik, leksik, morfologik, sintaktik hodisalar tilshunosligimiz-da bir qator tadqiqotlarda o‘rganilgan. Bugungi kunda lisoniy shaxs muammosi dolzarb masala bo‘lib turgan vaziyatda so‘zlashuv nutqida nutqiy vaziyat, muloqot xulqining bu nutqda ifodalanishi, ma’no nozikliklari, so‘zlovchi va tinglovchi munosabati, nutqda baho munosabatining aks etishi hamda tinglovchiga ta’siri, nutqiy muloqot bosqichlari masalalari ham keng qamrovda o‘rganilishi kerak bo‘lgan dolzarb masalalardandir.

Bugungi kunda o‘zbek so‘zlashuv nutqi fonetikasi, o‘zbek so‘zlashuv nutqi leksikasi, sintaksisi, o‘zbek so‘zlashuv nutqi o‘ziga xos sistema ekanligi, o‘zbek so‘zlashuv nutqi va uning funksional uslublarga munosabati masalasi, o‘zbek so‘zlashuv nutqi va adabiy til masalasi muammolari o‘zbek tilshunosligida ma’lum darajada o‘rganildi. O‘tgan asrning saksoninchi yillarida o‘zbek tilshunosligida muhim muammolardan biri sifatida ko‘tarilib chiqilgan so‘zlashuv nutqi muammosi qator tilshunoslar, jumladan, B.O‘rinboyev, E.Begmatov, A.Shomaqsudov, S.Usmonov, M.Tursunpo‘latov va boshqalar tomonidan tadqiq etildi [3].

Zamonaviy tilshunoslik nuqtayi nazaridan so‘zlashuv nutqini tahlil qilish ham bugungi tilshunosligimizda dolzarblik kasb etadi. Shuni e’tiborga olgan holda biz ushbu maqolamizda o‘zbek so‘zlashuv nutqidagi ba’zi nutqiy odat birliklarining lisoniy xususiyatlarini yoritib berishga harakat qilamiz. Ya’ni faqat o‘zbek xalqigagina xos bo‘lgan ba’zi nutqiy birliklar haqida biroz fikr yuritamiz. So‘zlashuv uslubiga xoslangan oddiy muomalaga oid so‘zlarga quyidagilarni kiritish mumkin: *tuzuk, binoyiday, nozaninday, avliyo, poshshaxon, bijildoq, kelishgan, xushqomat, almoysi-aljoyi, avom, vojib, gardun, gumbaz, xo‘jayin, do‘ndirmoq, minnat, mirquruq, naynov, xoin, savil, tepsa tebranmas, karmon ko‘tarmaydi, gumonasi bor, dumbul odam* va boshqalar.

Nutqda shaxslarni atash, ularga murojaat qilish, ularni ta’riflash, chaqirishda ma’lum tartib va qoidalar mavjud. So‘zlashuv uslubining xarakterli

xususiyatlaridan biri keltirilgan qonun va qoidalardan chetga chiqish hollarining mavjudligidir.

Soʻzlashuv uslubida ijobiy yoki salbiy emotsional munosabat bildiruvchi pragmatik semaga ega leksemalar talaygina. Jumladan, dagʻal soʻz va iboralarni qoʻllanish doirasiga koʻra quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

a) kishilarning xarakteri va mijozidagi ojizlikni ifodalovchi vulgarizmlar. Bunday soʻz va iboralarda, soʻzlovchining tinglovchiga nisbatan salbiy munosabati, ichki hayajoni, nafrati kuchlidir: *buzuq, xumpar, xomkalla, noinsof, sotqin, majmagʻil, ammamning buzogʻi, bir pul, kekirdagini choʻzmoq, koʻngliga urmoq, mazasi yoʻq* kabi. Masalan:

- *Eshigimga oyoq qoʻysin-chi, buzuq!* (A.Muxtor);
- *Oʻlguday lattachaynar, majmagʻil odam ekansan-da!* (H. Gʻulom);
- *Shuncha imo qilsam ham tushunmaysan, a n q o v.* (Tuygʻun);
- *Bu ishga sen aralashma. Kampir mazasi yoʻq ayol.* (Said Ahmad);
- *Muncha serrayasan, yigitmisan, ammamning buzogʻimisan?!* (Y.Shomansur).

Keltirilgan misollardagi *buzuq* soʻzi axloqiy nosozlik, razil, chaqimchi maʼnosida; *majmagʻil* soʻzi betayin, lanj maʼnosida; *anqov* soʻzi boʻsh, lapashang maʼnosida; *mazasi yoʻq* iborasi feʼl-atvori boʻlmagʻur, yomon maʼnosida; *ammamning buzogʻi* iborasi landavur, lapashang, boʻsh maʼnosida qoʻllanilgandir;

b) kishilarning tashqi kamchiligini koʻrsatuvchi vulgarizmlar. Bunday soʻz va iboralar biror predmet nomiga nisbat berish, yaqinlashtirish, oʻxshatish natijasida paydo boʻladi. Chunonchi, *mechkay, koʻppak, qargʻa, soʻtak, ayronbosh, gumbaz, qovoqbosh, kal, soʻloqmon, quti uchdi, bir oyogʻi yerda boʻlsa, bir oyogʻi goʻrda* kabi. Masalan:

- *Shapagʻ, - dedim unga, - katta toʻping qayerda?*
- *Qoʻgʻirchoqlarimning oldida, nima qildi?*
- *U yerda yoʻq-ku!*
- *Ha... oʻlgur, sen olgandirsan, hozir berasan, ber.* (Gʻ.Gʻulom)

v) soʻkish-koyish bilan bogʻliq boʻlgan vulgarizmlar. Bunday soʻz va iboralarda suhbatdoshlarning ichki hayajoni, ruhiy holati, gʻazabi kuchli boʻladi: *xoin, sotqin, vijdonsiz, ablah, iblis, isqirt, laʼnati, benomus, iflos; esi ogʻmoq (telbalanmoq), ogʻzi katta (kibr-havoli), nazari ilmaydi (mensimaslik)* kabi. Masalan:

“U meni “chayqovchi”, dedi. Men uni “tantiq, satang”, deyman”.(Gʻ.Gʻulom)

- *Qoch vijdonsiz! Yoʻqol, iflos! Yuviqsiz!* — dedi Muqaddam qichqirib. (Oʻ.Hoshimov);

*Qoratoy Mirzakarimboyning Gulnorga uylanmoqchi boʻlganligini eshitgach, jahli chiqib bunday dedi: “Ha, noinsof, ha koʻppak, iflos qargʻa!”* (Oybek);

- *Bilsang, seni nazaringa ham ilmas edim. Sen bilan birga yurgani odamlardan uyalardim.* (Said Ahmad);

— *U kishi ilgari “Men Qamishkapaning ustuniman” deb chirangan ogʻzi kattalardan.* (P.Tursun)

- *Hoy, juvonmarg zumrasha, tagʻin koʻchagami? Bu yoqqa kel, olovni joʻnashtirib ket, tutayberib koʻzimni koʻr qilayozdi.*



Inson tana a'zolari ham so'zlashuv uslubimizda ko'chma ma'noli so'z va birikmalar hosil qilgan. Masalan, o'zbek so'zlashuv nutqida qo'llaniluvchi jigar so'zi (to'g'ri ma'noda inson, hayvon organizmining bir turi) umumnutqqa xoslangan so'z bo'lib, ko'chma ma'noda "yaqin o'rtoq", "do'st", "jo'ra", "yaqin qarindosh", "haqiqiy o'zbek" kabi ma'nolarida oddiy so'zlashuv nutqiga xoslangan birlikdir. "Tuyoq" so'zi ham ko'chma ma'noda inson bolasiga ishora qiladi:

— ...Men o'g'lingning otini ehtiyot-shartdan Yodgor qo'ydim. Sendan qoladigan tuyoqqina. Yaxshi ham shu bola dunyoga kelib qolgan ekan... - deb yig'lar edi. (G'.G'ulom)

So'zlashuv uslubining o'ziga xos leksik xususiyatlaridan biri unda ijobiy yoki salbiy bo'yoqdor so'zlarning keng qo'llanishi, subyektiv munosabatni ifodalashga alohida e'tibor qaratilishidir. Ma'lumki, ma'nodosh so'zlar til lug'at tarkibida muhim o'rin tutuvchi birliklardan, tilning ifoda imkoniyatlari kengligini ko'rsatuvchi vositalardan sanaladi. Sinonimik qatorni tashkil etuvchi birliklarning qo'llanishida uslubiy xoslanish kuzatiladi. Masalan, tilimizda "yig'lamoq" ma'nosini ifodalovchi bir qator so'zlar mavjud. Bularndan obidiyda qilmoq so'zi so'zlashuv nutqiga xos bo'lib, salbiy munosabatni ifodalaydi [4]. Masalan:

— Hadeb obidiyda qilavermang, oyi, men ham sizni xursand qilaman, deb yurgan edim-u, lekin onasi shu bolani tug'di-yu, o'ldi-da... Bo'lmasam, kelin desangiz arziguday kelin edi. (G'.G'ulom)

*Kiyim, libos, ust-bosh, engil-bosh, engil, egin* sinonimik qatoridan *libos* so'zi kitobiy uslubga xos, *kiyim* – uslubiy neytral so'z hisoblansa, *engil-bosh, engil, egin, ust-bosh* so'zlari so'zlashuv nutqiga xos. Masalan:

Yetti tilloning qo'ldan chiqish xabari Nigor oyimning qulog'iga yetishgach, Anvardan ranjidi: "Hamma pulingni domlangga chakki beribsan, Anvar, ust-boshingni, ko'rpa-yostig'ingni, ortib qolsa Ra'no ukangning ustini tuzatishing kerak edi. Domlang tuflab tugishdan boshqani koshki bilsa!" — dedi. (A. Qodiriy)

*Ko'nmoq, rozi bo'lmoq, unamoq* leksemalari ham sinonimik qatorni tashkil etadi. *Unamoq* leksemasi so'zlashuv nutqiga xos. Masalan:

"Mulla Ikrom qiyiq odam bo'lganidanmi yoki kasbi shuni taqozo qilganidanmi murosaga unamadi". (Oybek).

So'zlashuv uslubida ayollar nutqida o'ziga xos erkalash ifodalovchi nutqiy birliklar faol qo'llanadi. So'zlashuv nutqida shunday fe'llar borki, o'zining tub ma'nosidan yiroqlashgan holda, faqat ijobiy yoki salbiy munosabatni ifodalashga xizmat qiladi, faqat pragmatik funktsiya bajaradi. *Tushkur, tushmagur, qurgur, qurmagur, quling o'rgilsin, xarom o'lgur, aylanay, o'rgilay* kabi. Masalan:

— O'rgilay, ovsinjon! Cholim o'lgir yomon ish qildi. Shokirim bilan Zokirim urushga ketamiz degan ekan, xovliqma deb yo'lga solish o'rniga o'zi yetaklab voyenkomatga oboribdi. Hech kimga aytmay jo'natib keldi. Bolalarim bilan rozi-rizolik ham tilasholmay qoldim. Ovsinjon!

Oyim uni yupatishga urindi:

— Nafasingizni issiq qiling, aylanay. Yurtga kelgan to'y, mana Kimsanim ham ketdi-ku! O'tiribman yaratganga topshirib...(O'. Hoshimov)

Yoki yana bir misol ko'ramiz:



— Voy, amming aylansin! Voy, amming o'rgilsin sendan! (O'. Hoshimov)

***Qurgur // qurmagur*** so'zi birikma tarkibida qo'llanib norozilik ma'nosini hosil etadi [5]. Misollar keltiramiz:

“***Mosh qurg'ur,*** bilmadim, qaysi toshloqda bitgan ekanki, hadeganda ochila bermadi”. (G'. G'ulom)

“ Yigit qurg'ur, sezib qoldi, poylab turib shartta bilagimdan ushladi-da, ma'shuqasiga qaradi”. (G'. G'ulom)

So'zlashuv nutqida iboralar faol qo'llanadi. Iboralar hayotdagi voqea-hodisalarni kuzatish, jamiyatdagi maqbul va nomaqbul harakat-holatlarni baholash, turmush tajribalarini umumlashtirish asosida xalq chiqargan xulosalarning o'ziga xos obrazli ifodalari hisoblanadi. Masalan:

“Niyatingiz yaxshi-ku, holva degan bilan og'iz chuchimaydi-da, o'rtoq Xo'jayip (O'. Hoshimov).

“Chuchvarani xom sanabsan, Oqsoqol! “. (O'. Hoshimov).

Yuqorida ko'rib o'tilgan misollarimiz orqali so'zlashuv uslubida qo'llanadigan nutqiy odat leksemalarining ba'zilarini ko'rib, tahlil qildik. Bu orqali nutqiy odat birliklarining nutqimiz rivojida qanchalik ahamiyatli ekanligini ham kuzatdik.

Maqolamizning asosiy maqsadi - o'zbek tilida nutq madaniyati, muomala odobini munosib saqlashda nutqiy odat birliklarini to'g'ri qo'llash, ham milliylikda, ham turizmga so'zlashuv uslubiga xos nutqiy odat birliklarimizni targ'ib qilish, o'zbek tili nufuzini oshirish.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўринбоев Б. “Ўзбек сўзлашув нутқи синтаксиси масалалари”. Тошкент. 1973.
2. Турсунпўлатов М. “Лексика узбекской разговорной речи”. Тошкент. “Фан”. 1968.
3. Шомақсудов А. Ўзбек тили стилистикаси. –Тошкент: Ўқитувчи, 1983.
4. Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одатларининг мулоқот шакллари. Самарканд. 1993.
5. Ҳамидов З. Фафур Гулом прозаси лексикаси. – Тошкент. 2003.

#### OLIIY TA'LIM VA O'RTA MAKTAB DARSLIKLARIDA “SO'Z TARKIBI” MAVZUSINING UMUMIY VA FARQLI XUSUSIYATLARI

*Rashidova Maftuna Sodiq qizi,  
Erkayeva Yulduz Bekmurodovna  
JDPI magistrлари*

Bizga ma'lumki, tilshunoslikning morfologiya bo'limi grammatika bo'limining asosiy qismi sifatida oliy ta'lim muassasalarida ham, maktab va litsey darsliklarida ham chuqur o'rganiladi. Bu mavzuning turli ta'lim dasturlarida o'rganilishi jihatdan umumiy xususiyatlari talaygina, ammo bir mavzu yoki fikr-

mulohazalar ustida turlicha qarashlarning chiqishi yoki biror-bir tushunchaning bir manbada chuqurroq o'rganilishi va aynan shu tushunchaning boshqa bir manbada umuman o'rganilmasligi mumkin. Masalan, qo'shimcha morfemalar orasidagi omonim (shakldosh)lik hodisasi, qo'shimcha morfemalar orasidagi sinonim (ma'nodosh)lik hodisasi va qo'shimcha morfemalar o'rtasidagi antonim (zid ma'no)lik hodisalarining kuzatilishi oliy ta'lim muassasalarida ham, litsey darsliklarida ham bir-biriga muvofiq holda keltirilgan. (ayrim mulohazalarga quyida to'xtalib o'tamiz).

Leksemalar doirasida kuzatiladigan omonimlik, sinonimlik va antonimlik xususiyati qo'shimcha morfemalar doirasida ham kuzatilishi mumkinligi haqida litsey talabalarida tushunchalar yetarlicha bo'ladi. Shu bilan birga ularda mualliflarning muaommoli vaziyatda qoldiruvchi savol beradi: bir turkum doirasiga mansub turli ma'naviy guruhdagi so'zlarni ham omonim sifatida qabul qilsak bo'ladimi? Masalan, yaxshi+lik(mavhum oti), baliqchi+lik(faoliyat-jarayon otlari), toshkent+lik(shaxs oti) kabi [1:58].

Bunday vaziyatda mutaxassislik yo'nalishidagi bakalavriat bilimiga asoslangan holda leksemalarda yuzaga keluvchi polisemantik va monosemantik holatining ko'makchi morfema doirasida ham kuzatilishini ta'kidlab o'tishi o'rinli bo'ladi.

**Affiksial polisemiya.** Yasovchi affiksning bir turkumga xos bo'lgan xilma-xil ma'noli so'z yasash hodisasi affiksial polisemiya deyiladi: *tort-ma, bo'l-ma, bostir-ma* (joy oti); *isit-ma, terla-ma, yozish-ma* (mavhum oti); *sur-ma, qatla-ma* (narsa oti) kabi. *ma* qo'shimchasi yordamida yasalgan bu so'zlarning hammasi *narsalik* ma'nosini anglatadi. Ular anglatgan ma'nodagi farq esa qo'shimcha orqali emas, balki yasash asosi orqali aniqlanadi[2:66]. Shuning uchun bunday xususiyatga ega bo'lgan qo'shimcha *polisemantik qo'shimcha*, bunday til hodisasi esa *affiksial polisemiya* deyiladi.

Quyidagi qo'shimchalar polisemantik xususiyatga ega:

1) —gi, -g'i (-ki, -qi): *supur-gi, chop-qi* (narsa oti), *sev-gi, sez-gi, kul-gi* (mavhum oti) kabi;

2) —lik: *pillachi-lik, o'qituvchi-lik, uchuvchi-lik, adabiyotshunos-lik, o'lkashunos-lik, jamiyatshunos-lik* (kasb, hunar, soha oti); *yaxshi-lik, manman-lik, bola-lik, o'smir-lik, yosh-lik* (belgi, holat nomi); *tepa-lik, jar-lik, past-lik, do'ng-lik* (joy, makon oti) kabi.

Polisemantik qo'shimcha bir turkumga tegishli har xil ma'noli so'z yasashiga qaramay bir necha qo'shimcha emas, balki har xil o'zakka qo'shilib, bir turli necha ma'no anglatagan birgina qo'shimcha hisoblanadi.

Demak, qo'shimchalardagi omonimiya va polisemiya hodisalari qo'shimchanning qanday yasash asoslariga qo'shilishi, yasama so'zning leksik va grammatik ma'nolari kabilarga qarab aniqlanadi.

Bu kabi vaziyatlar quyidagi holda ham kuzatilishi mumkin.

Asosning ikkinchi qismida a, i, u unilari mavjud ayrim so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilsa, ikkinchi bo'g'in tarkibidagi a, i, u unilari tushirilishi

mumkin. Masalan, ko‘nglim, burnim, shahrim kabi. Ular quyidagicha morfemaga ajratiladi:

ko‘ngil+im,  
burun+im,  
shahar+i.

Ikkinchi bo‘g‘inida “i” unlisi ishtirok etgan singil so‘zini egalik qo‘shimchalari bilan turlaymiz:

Singil+im,  
Singil+ing,  
Singil+i+si.

III shaxs egalik qo‘shimchasi –si qo‘shimchasi va singil so‘zi o‘rtasidagi “i” ga qanday izoh berish mumkin. Tovush ortishimi? Yo‘q. Chunki har qanday fonetik hodisa morfemik tahlilda bartaraf bo‘ladi.

Demak, bu yerda “i” qandaydir qo‘shimcha.

-i qo‘shimchasining omonimlik xususiyati jihatdan qaysi o‘rinlarda kelishini aniqlashtirib olamiz:

-i (so‘z yasovchi) fe‘l yasovchi boy+imoq.  
-i (so‘z yasovchi) sifat yasaydi qishloq+i jannat+i odam.  
-i (sintaktik) ismlardagi egalik qo‘shimcha kitob+i tirnoq+i.

“Singil+i+si” holatidagi –i egalik qo‘shimchasi hisoblanadi va oldinma-ketin bir xil qo‘shimchaning q kelishi hisoblanadi.

Bu holat egalik qo‘shimchalarini olgan ko‘rsatish olmoshida ham kuzatiladi (Asos tarkibida “n”tovushi ortadi).

Bunim=bu+im.  
Uning = u+ini.  
Bunisi = bu+i+si.

Shunday holatda muallim oliy ta‘lim muassasasida olgan bilim, malaka va ko‘nikmalariga tayangan holda, darsdan tashqari affiksial pleonaza haqida ma‘lumot berishi o‘rinli hisoblanadi.

**Affiksial pleonasm.** Affikatsiyaning asosiy xususiyatlaridan biri bir so‘zda bir xil affiksning birdan ortiq bo‘lmasligidir. Lekin bu holatning ham o‘z aniq sabablariga ko‘ra chekinishlari - affikslarning takrorlanishi uchrab turadi, ya‘ni *affiksial pleonazm* hodisasi sodir bo‘ladi. *Pleonazm* — yunoncha «pleonasmos — ortiqchalik» ma‘nosini ifodalaydi. Bir so‘zda ma‘nolari bir xil yoki yaqin bo‘lgan affikslarning takrorlanishi (ikki, ba‘zan uch) *affiksial pleonazm* deyiladi [3:85].

So‘zda takrorlanib keladigan bunday affikslar har xil ko‘rinishga ega bo‘ladi: bir affiksning aynan o‘zi takrorlanadi yoki tashqi shakli har xil bo‘lgan - sinonim affikslar takrorlanadi: *ayt- ingiz-lar, ish-da-ligim-da, bir-i-si, sing(i)l-i-si* kabi. Shuningdek, til birliklari (so‘zlar) ham semantik jihatdan takror holda qo‘llanadi: *bosh-oyoq sarpo* birikmasidagi «*sarpo*» so‘zi ham «*bosh-oyoq*» ma‘nosini ifodalaydi. Yoki *pulsirot ko‘prigi* birikmasidagi «*pul*» so‘zi «*ko‘prik*» ma‘nosini bildiradi.

Maktab yoki litsey darsliklarida shunday ilmiy qoidalar uchraydiki, ularni nafaqat o'quvchilar, balki o'qituvchilar ham anglab olishi muammo bo'lib qoladi. Sababi: fikr notugal. E'tibor bering:

Tarkibi asos va yasovchi qo'shimchalarga bo'linmaydigan so'zlarga tub so'zlar deyiladi. Masalan: tosh, temir, quyosh.

Asosga so'z yasovchi qo'shimchalar qo'shilishi orqali hosil qilingan yangi asos sodda yasama so'zlar deyiladi. Masalan: toshloq, temirchi, serquyosh.

Bir umumiy asosga ega bo'lgan so'zlar asosdosh so'zlar sanaladi: tashvishli, sertashvish, tashvishlanmoq.

Esda tuting. So'zning shakl yasovchilarsiz qismi asos sanaladi. (ona tili 21-bet, 2014).

Yuqorida keltirilgan ilmiy qoida dastlab tushunarli holatda davom etadi. Aniqrog'i so'z yasovchi qo'shimchadan oldingi qism asos hisoblanadi, yasalmagan nisbatan esa sodda yasama so'z deb nomlandi.

Oxirgi jumladagi holatni qanday baholash mumkinligi haqida esa ayrim muallimlarda tushuncha ham bo'lmasligi haqida holatlar kuzatilgan va bunday vaziyatda o'qituvchi bu ma'lumot haqida umuman fikr bildirmay ketadi.

Tushunmovchilik quyidagicha so'zning shakl yasovchi qo'shimchalarsiz qismi asos ekanki, undan oldin qancha miqdorda so'z yasovchi kelishidan qat'iy nazar so'zning tahlili (shakl) orqa tomondan shakl yasovchilarga qadar tahlil qilinadi. Masalan: temirchilar so'zida –lar affiksidan oldingi qismga nisbatan asos atamasi ishlatiladi. (-chi so'z yasov qo'shcha bu yerda ahamiyatsiz).

Yuqoridagi qoidaning dastlabki qismlariga asoslangan holda tahlil qilsak, temir so'zi asos, -chi yasovchi qism, temirchi so'zi esa sodda yasama asos deb qaraladi. Bu tahlilda esa –lar qo'shimchasi ahamiyatsiz hisoblanadi.

Bunday vaziyatda quyidagicha savol beramiz: "So'z yasovchi qo'shimchalar qaysi bo'limning obyekti? Shakl yasovchi qo'shimchalari?"

Ya'na bir qoidani misol tariqasida keltirsak tushuncha butun ko'rinishi bilan oydinlashadi.

Ismlarga qo'shib, asos qismida ifodalangan narsa belgi-xususiyat, harakat va holatlarni uch shaxsdan biriga qarashlilikini bildirgan qo'shimchalar egalik qo'shimchalari deyiladi. (7-sinf, 49-bet, 2013).

E'tibor bergan bo'lsangiz, qoida tarkibida "asos qismda anglashilgan" deyilgan.

Masalan: tarog'im, supurgisi so'zlarida egalik qo'shimchalari taramoq va supurmoq so'zlarida (asoslarida)gi ma'noning uch shaxsga tegishli ekanligi aytilganmi yoki taroq, supurgi so'zlari (asoslari)dagi ma'noning uch shaxsdan biriga tegishli ekanligini bildiriyaptimi?

Bu ilmiy fikrlar tilshunoslik bo'limining morfologiya bo'limida o'rganiladi. Sababi egalik qo'shimchasi shakl yasovchi qo'shimcha hisoblanadi va u morfologiya bo'limida o'rganiladi.

Shunday qilib yakuniy xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, so'z yasovchi qo'shimchalar so'z yasalishi bo'limining obyekti hisoblanadi va bu

yuqoridagi mulohazaga sabab bo‘luvchi qoidaning dastlabki bandlariga javob bo‘ladi.

Shakl yasovchilar esa tilshunoslik bo‘limlaridan morfologiya bo‘limining obykti hisoblanadi. Va bu holat mulohazaga sabab bo‘luvchi qoidaning so‘nggi bandiga javob bo‘ladi.

Demak, har qanday so‘z, agar tarkibga ajratilsa, 3 xil yo‘nalishda tahlil qilinadi:

Morfemik tahlil, morfologik tahlil va so‘z yasalish tahlili bu uch yo‘nalishning o‘ziga xos alohida xususiyatlari mavjud.

1. Morfemik tahlilda eng kichik ma’noli qismni o‘zida saqlay olgan har qanday qism (morfema)lar alohida – alohida o‘rganiladi. U xoh asos morfema bo‘lsin xoh ko‘makchi morfema bo‘lsin. Yana bir xarakterli xususiyati shundaki, ko‘makchi morfemalarning har qaysi turi xarakterli hisoblanadi.

Masalan: sevgingni so‘zi morfemik jihatdan 4 qismga ajraladi.

Sevmoq (asos morfema)+gi(ot yasovchi)-ng (II shaxs birlik egalik) + ni (tushum kelishik).

2. Morfologik tahlil. Bu tahlil so‘z shaklini hosil qiluvchi obyektini o‘rganadi va bunda so‘z yasovchi morfemalar umuman ahamiyat kasb etmaydi.

Masalan: sevgingni – sevging+ni

Sevging – sevgi+ng.

Sevgi – ajralmaydi. (shakl yasovchi chegarasi tugadi).

3. So‘z yasalish tahlili. Bu tahlilda faqat so‘z yasovchilargina xarakterli hisoblanadi va morfologik obyekt hisoblanmish shakl yasovchilar umuman ahamiyat kasb etmaydi.

Masalan: sevgingni. –sev(yasashga asos) + gi (yasovchi vosita) - (-ng, -ni tahlil qilinmaydi). Bu haqidagi ma’lumot Sapayev Qalandar muallifligidagi Hozirgi o‘zbek tili darsligida quyidagicha keltirilgan:

### TAHLIL NAMUNASI:

**1. Mortem struktura tahlili** (So‘zning eng kichik ma’noli qismlari va ularning turlari aniqlanadi).

1) terimchilarni:

*ter*= o‘zak, *-im*=s.yas.aff., *-chi*=so‘z yas.aff, *-lar*=ko‘p.shak. yas.aff., *-ni* =kel.shak. yas.aff;

2) baliqchilikdan:

*baliq*=o‘zak, *-chi* =so‘z yas.aff, *-lik*=kat.shak. yas.aff., - dan=kat.shak. yas.aff;

3) to‘qimachilikni:

*to‘qi*=o‘zak, *-ma*=so‘z yas.aff., *-chi* =so‘z yas.aff, *-lik*=so‘z yas.aff., *-ni* = kat.shak. yas.aff;

4) dehqonchilikda:

*dehqon*= o‘zak, *-chilik*=so‘z yas.aff., - da =kat. shakl yas. aff;

5) ko‘pchilikning:

*ko‘p* - o‘zak, *-chilik* =so‘z yas. aff., *-ntng* =kat. shakl yas.aff;



- 6) **Mirzacho‘llik:**  
*Mirza* = o‘zak, *cho‘l* = o‘zak, *-lik* so‘z yas. aff;  
 7) **Kattaqo‘rg‘ondan:**  
*Katta* = o‘zak, *qo‘rg‘on* = o‘zak, *dan* = kat. shakl yas. aff;  
 8) **ishlagan:**  
*ish* = o‘zak; *-la* = so‘z yas.aff., *-gan* = nok. shakl yas.aff.

2. **So‘z yasalish strukturasi tahlili:** (yasalmani hosil qiluvchi qismlar ajratiladi).

- 1) **temir:**  
*temir* so‘z;  
 2) **temirchi:**  
*temir* = yasovchi asos, *-chi* = yasovchi affiks (*temirchi* = yasalma);  
 3) **temirchilik:**  
*temirchi* = ysoychi asos, *-lik* = yasovchi affiks (*temirchilik* — yasalma);  
 4) **kimyogar:**  
*kimyo* = yasovchi asos, *-gar* = yasovchi affiks (*kimyogar* = *yasahash*);  
 5) **kimyogarchilik:**  
*kimyogar* = yasovchi asos, *-chilik* = yasovchi affiks (*kimyogarchilik* = yasalma);  
 6) **o‘rtoqchilik:**  
*o‘rtoq* = yasovchi asos, *-chilik* = yasovchi affiks, (*o‘rtoqchilik* = yasalma);  
 7) **Yangiyo‘l:**  
*Yangi* = yasovchi asos, *yo‘l* = yasovchi asos, (*Yangiyo‘l* = yasalma);  
 8) **noo‘rin:**  
*no* = yasovchi affiks, *-o‘rin* = yasovchi asos, (*noo‘rin* = yasalma);  
 9) **serhosil:**  
*ser* = yasovchi affiks, *-hosil* = yasovchi asos, (*serhosil* — yasalma);  
 10) **serma‘noli:**  
*serma‘no* = yasovchi asos, *-li* = yasovchi affiks, (*serma‘noli* - yasalma);

3. **Morfologik struktura tahlili:** (so‘z shakl hosil qiluvchi qismlar ajratiladi).

- 1) **ishlar:**  
*ish* = shakl yasovchi asos, *-lar* = shakl yasovchi affiks, (*ishlar* = so‘z shakl);  
 2) **ishchilar:**  
*ishchi* = shakl yasovchi asos, *-lar* = shakl yasovchi affiks (*ishchilar* — so‘zshakl);  
 3) **ishchilarni:**  
*ishchilar* = shakl yasovchi asos, *-ni* = shakl yasovchi affiks, (*ishchilarni* — so‘zshakl);  
 4) **ishchilarimizning:**  
*ishchilarimiz* = shakl yasovchi asos, *-ning* = shakl yasovchi affiks (*ishchilarimizning* = so‘zshakl).

Eslatma. Agar leksemaning tarkibida yasovchi qism qatnashmasa, u “so‘z” termini bilan nomlanadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Mengliyev B.R. Hozirgi o‘zbek tili. Morfemika. Derivatsiya. Morfologiya. II qism. Qarshi-2005.
2. Abuzalova M.Q. Hozirgi o‘zbek tili. Morfologiya, 1-qism. Mustaqil so‘z turkumlari. (Ma‘ruza matnlari). Buxoro-2003.
3. Nurmonov A., Shahobiddinova Sh., Iskandarova Sh. va boshqalar. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. Morfologiya.-T.: Yangi asr avlodi. 2001.-182 b.
4. O‘zbek tili grammatikasi. I tom. Morfologiya. Max.muh. G‘.A.Abdurahmonov va boshq. T.: Fan, 1972.-610 b.
5. Zamonaviy o‘zbek tili: Morfologiya\ Mualliflar jamoasi. Max. muh. H.G‘.Ne‘matov va boshqalar. T. Mumtoz so‘z, 2008.

**ЮСУФ ХОС ҲОЖИБ ИЖОДИДА ЗУҲД ВА ЗОҲИДЛИК**

*Аҳмадова Шоҳсанам Содиқ қизи,  
Илмий раҳбар: доц. З. Мамадалиева*

Диёнат-динга ёв даҳри дун моли,  
Баҳридан кеч бўлмайдесанг гар ночор.

**Юсуф Хос Ҳожиб**

Мумтоз адабиёт намуналарининг асосий мавзуларидан бири бўлган зуҳд ва зоҳидлик масалалари тасаввуф илмида ўрганилади. Жумладан, мутасаввуф олим Н. Комилов шундай дейди: “зуҳд сўфий учун дунё ва охират тарки, дунё молига эга бўлман деб интилмасликдир”. [1.26]. Адабиётшунослар тариқатнинг тадрижий ривожланиш босқичларини уч даврга ажратадилар. Зоҳидлик - тариқатнинг илк даври бўлиб, тасаввуфнинг “ибтидоий даври” деб ҳам аталади. Ундан кейинги даврлар орифлик ҳамда ошиқлик даври дейилади. Уларнинг моҳияти қуйидагичадир:

<b>Зоҳидлик даври</b>	<b>Орифлик ва ошиқлик даври</b>	<b>Тариқатланиш даври</b>
Тақво ва парҳезкорликни бош мақсад қилиб олади. Таркидунёчилик Аллоҳ висолига эришиш воситаси ҳисобланади	Дунёни ва илоҳни чуқур англаш, таниш асосий вазифадир. Аллоҳ ишқини соф қалбга жо қилиш ҳамда унинг ишқида жисм-у жондан-да кечиш ҳолати улуғлик белгиси деб қаралади.	Яссавия, Кубровия, Нақшбандия ва бошқа тариқатлар пайдо бўлган бу давр мобайнида.
Халифаликнинг илк	IX аср ўрталаридан	XI-XII асрлардан

икки асрларида пайдо бўлган	бошланади	бошланади
-----------------------------	-----------	-----------

Тасаввуф адабиётининг орифлик даври намоёндаси бўлган Юсуф Хос Ҳожиб ўзининг “Қутадғу билиг” асарида зуҳд-у зоҳидлик тушунчаларини мажозий образ бўлган Ўзғурмиш орқали акс эттирган. Ўзғурмиш –“қаноат”, “офият” рамзи ҳисобланган зоҳид. У олий мақсади ҳисобланган Аллоҳ жамолига эришмоқ учун тун-у кун яратган зикри билан машғул. Бу йўлдан чалғитувчи ҳар қандай нарсадан, кимсалардан, ўткинчи ҳой-у ҳаваслардан юз ўгирган сўфий. Унинг учун ҳатто ўз оиласини барпо қилиб, фарзандлар улғайтириш ҳам инсонни олий мақсаддан чалғитувчи, шайтон йўриғига бошловчи нарса. Буни биз қаҳрамон нутқидан англашимиз мумкин:

*Агар ношуд чиқса, ерга қаратар,*

*Ўзинг ўлсанг тезда сени унутар.*

*Бошингга ёғдирар ганим қарғишин,*

*Сўкар ёт-бегона, боз қайраб тишин...*

*Болам деб заҳматинг зиёда, эсиз,*

*Заҳматинг қадрлар қайда ўгил-қиз?[4. 293]*

Шоир хотин олган зотни “денгизчи” га қиёслаб шундай дейди:

*Ўгил-қиз тугилса, кема гарқ бўлар,*

*Кема синса, сувда ким тирик қолар? [4.293]*

Ушбу мисраларда “денгизчи”-инсон, “кема”-инсоннинг дин-у диёнати, “сув”-ҳаёт уммони рамзи ҳисобланади. Демак, шоирнинг фикрича, инсон денгизчи мисол ҳаёт уммонида ҳаракатланадики, бунда уни чўкиб кетишдан асровчи кема-диндир. Агарда у фарзанд кўрса, уни улғайтириш йўлида турли гуноҳ ишларга қўл уриши, бунинг натижасида инсонни турли тубанликлардан, ман этилган амаллардан асраб турувчи дин-диёнатига оғир юк тушиб зиён етиши мумкин. Бундай ҳолатда денгизчилик қилаётган инсон ўз динининг заифлашгани боис бу фоний дунёнинг алдамчи гўзалликларига, моддият уммонига ғарқ бўлади. Сув остида кўз кўриши, кулоқ эшитиши жуда мушкул эканлиги барчамизга маълум. Ўткинчи дунё ҳавасларига ғарқ бўлган инсон ҳам солиҳлар сўзини эшитишдан, ҳақиқий гўзалликларни кўриш бахтидан маҳрум. Шу боис бундай инсонлар гуноҳи кабиралардан қайтмайдилар ва фоний дунёдаги роҳатни деб боқий дунё фароғатидан бенасиб қоладилар.

Хос Ҳожиблик унвонини олишига-да сабаб бўлган “Қутадғу билиг” асари орқали шоир ўзининг ҳам тасаввуфона қарашларини, ҳам сиёсатшуносликка оид фикрларини ифода этганки, буни биз асарни ўқиш жараёнида англаб етамиз. Туркий Шоҳномада адолатли шоҳ ва унинг амалдорларига кўйилган талаблар ҳамда тасаввуфий характерга эга бўлган комил инсонга хос фазилятлар параллел тарзда тасвирланади. Ўгдулмиш ва Ўзғурмиш мунозарасида шу ҳолат яққол кўзга ташланади. Ўгдулмиш нутқида турли амалдорларнинг хислатлари келтирилса, Ўзғурмиш нутқида комил сўфийга хос хислатлар тилга олинади. Шоир зоҳидона қарашларни шу

икки образ орасидаги мунозараларда моҳирлик билан рад этиб бўлмас далиллар орқали тасвирлайдики, ўқирман ҳеч иккиланишсиз зарур хулоса чиқара олади. Шоирнинг фикрича, зоҳидлик шартларини бажаришга ҳалал берувчи ҳар қандай моддиятдан воз кечмоқ лозим. Бу ўткинчи дунё асли уч кундан иборат: кеча, бугун ва эрта. Инсон ўтиб кетган кеча учун куюнмаслиги, келиши номаълум бўлган эртани ўйлаб заҳмат чекмаслиги, фақат ва фақат бугуни ҳақида фикр юритмоғи зарур. Ана шунда беҳуда ва кераксиз ўйлар, мол-дунё тўплаш учун умрни сарфлаш ҳолатлари бўлмайди. Бундай қарашлар тасаввуфона руҳдаги адабиёт намуналарида кўп учровчи ифода кўринишидир. Жумладан, Навоий ижодида (“Хамса” дostonларида) ҳам шу тасвирдан фойдаланилганига гувоҳ бўламиз.

Асарда дунё эргашса қочиб, қочса эргашувчи кўланкага, дин-у диёнат душманига, хиром айлаб ўзига чорловчи келинчакка, тутқич бермай қочувчи кийикка, бир жойда муқим турмайдиган тўпга, доимо ўз кўринишини ўзгартириб турувчи ойга, ўз эгасига садоқати йўқ бўлган бевафога қиёсланади ҳамда мана шундай алдамчи дунёга хирс қўйиш қаттиқ қораланади. Дунёга ўчликни, ўз нафсини енгиш эса зоҳидлик белгисидир. Асардаги ҳақиқий зуҳд йўлида бўлган Ўзғурмиш образи дунёдан кўлини ювган, таркидунё қилиб, умрини Аллоҳ зикрига бахшида этган хонанишин зоҳиддир. У шунчалик Яратган билан руҳан вобасталикка эришганки, тушида ўз умри якунини олдиндан англайди ва руҳи жисм қафасидан кутилиб, Аллоҳ даргоҳи томон равона бўлади. Бу ҳолат зоҳидларнинг доим интилувчи мақсадидир.

Эътиборли жиҳати шундаки, Ўзғурмиш таркидунёчиликдан воз кечиб, саройда хизмат қилиш орқали халққа наф келтиришга рози бўлмаса-да, умрининг сўнгги лаҳзаларида Ўгдулмишга шудай насиҳат қилади:

*Улус ичра асл инсон у бўлар,*

*Кичик-у катта ҳам манфаат топар.*

*Кони зарар элга нафи йўқ ҳар кас,*

*Нафи бисёр боис эл бағри тўлар. [4.298]*

Ушбу мисраларни ўқиш жараёнида гўё шоир мантиқан ғализликка йўл қўйгандек, ўзи зоҳидликни улуғлаб туриб, бу тушунчага зид бўлган фаолиятни тарғиб қилмоқчидек кўриниши эҳтимол. Аммо улуғ мутафаккирнинг тасвирлар силсиласида ҳеч қандай ғализлик мавжуд эмаслиги кейинги мисраларда аён бўлади. Жумладан, эл корига яраш тоат-ибодат (бу ўринда фарз амаллардан ташқари бажарилувчи нафл ибодатлари назарда тутилмоқда) дан афзал эканлиги Ўзғурмиш нутқи орқали шундай изоҳланади:

*Худо берди тавфиқ эзгу иш учун,*

*Барча эзгуликка етишиши учун.*

*Тақдир ҳимматидан кечарсан нечун,*

*Не кечар ҳолинг гар қасд олса очун?[4. 289]*

Демак, агар инсонга Аллоҳ таоло илм-маърифат, тавфиқ ато этган бўлса, уни ўзгаларга улашмоғи лозим. Зеро, Қуръони Каримда таъкидланганидек,

“Аллоҳ сизлардан имон келтирган ва илм ато этилган зотларни баланд даража(мартаба)ларга кўтарур” [3.543]

Шу ўринда Юсуф Хос Ҳожибнинг орифлик даври намоёндаси эканлиги яққол аён бўлади. Яъни у таркидунёчиликни эмас, балки ўз илми, салоҳиятини ривожлантириб, эл билан ҳамнафас бўлиб яшашни ёқламоқда. Бу ҳолат тасаввуфнинг орифлик даврига хос хусусиятдир. Эътиборли жиҳати шундаки, шоир орифона фикрлаш тарзига хос бўлган дунё ва Ҳақни англаш ва танишнинг зоҳидлардек парҳезкорлик қилишдан афзал эканлигини ҳар икки томоннинг асосли фикрларини келтириш орқали ифодалайди. Яъни асарни ўқиш жараёнида ўқирман, зоҳидлик элдан қочиб, бир ғорда фақат ибодат қилишдангина иборат фаолият экан, деган нотўғри, бирёқлама хулосага келиб қолмайди. Фикримизнинг далили сифатида бир неча байт таҳлилини келтирайлик.

*Келар дунёга ҳар инсон ялангтўш,  
Мол-у мулк не даркор, кетар қўли бўш.* [4.305]

*Диёнат-динга ёв даҳри дун моли,  
Баҳридан кеч бўлмай десанг гар ночор.* [4.305]

*Бир умидга етсам, ўзгаси чиқар,  
Оромим ўғирлаб, юрагим сиқар.* [4.310]

Ушбу мисралар орқали англашимиз мумкинки, инсон дунёга яланғоч келиб, кетар чоғида ҳам бор йиғган мол-мулкни ташлаб, қўли бўш кетади. Шунинг учун ҳам бу дунё гўзалликлари, ноз-неъматлари дин-у диёнатга қарши амаллар қилишга арзимамайди. Агарда инсон нафс йўриғига юрса, ҳеч қачон ҳузур –ҳаловатга эришолмайди. Боиси бир орзу кейингисини етаклаб келаверади ва инсонни умр якунигача ўзига чорлайверади.

Ушбу мисралардан англашимиз мумкинки, зоҳидлик фақат хонанишинликда зикр қилишдан иборат эмас. Зухднинг асл моҳияти инсонни турли гуноҳ ишларга ундовчи нафсни енгиб, қалбни поклаш ҳамда ўзлигини англаб етишдир. Демакки, бу тушунчанинг моҳияти ҳозирги кун учун жуда аҳамиятли ҳисобланади ва ёшларни комил инсон қилиб тарбиялашда муҳим ўрин тутаяди.

Юқоридаги таҳлиллар асосида қуйидагича хулосага келамиз:

1. “Зухд-зоҳидлик, моддий дунё ҳирс-ҳавасларидан буткул юз ўгириб, Аллоҳ ибодатига берилиш, таркидунёчилик, тасаввуф тамойили тарихида биринчи босқич”. [1.412] Ушбу фикрга асосан зухд суфизмнинг ажралмас бир қисми сифатида намоён бўлмоқда.
2. “Қутадғу билиг” асари тариқатнинг орифлик даври ғояларига асосланган бўлса-да, зухд истилоҳи тўлақонли равишда очиб берилган.
3. Илм-маърифат орқали элга наф келтиришнинг фойдалари ва аҳамияти далиллар билан асослаб берилган.
4. Даврлар ўтиши билан зоҳидлик истилоҳининг моҳияти ўз аҳамиятини йўқотмайди ва замонлар оша таълим- тарбияда дастуриламал бўлиб қолаверади.



**Ф О Й Д А Л А Н И Л Г А Н А Д А Б И Ё Т Л А Р Р Ё Й Х А Т И :**

1. Нажмиддин Комилов. Тасаввуф. “Мовароуннахр” нашриёти. Тошкент-2009. 448 б
2. М. Имомназаров, М. Эшмухаммедова – Миллий маънавиятимиз асослари. Тошкент ислом университети нашриёти. Тошкент-2001.430 б
3. Қуръони карим ва ўзбек тилидаги маънолар таржимаси “ҲИЛОЛ-НАШР”. Тошкент-2018. 594 б
4. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. Тошкент-2018. 556 б

**ABDUQAYUM YO‘LDOSHNING “BANDI” HIKOYASIDA  
XARAKTER TALQINI**

*Muxiddinova Shahnoza Saidovna,  
BuxDU magistranti*

Hozirgi o‘zbek hikoyachiligida X.Do‘stmuhammad, U.Hamdani, I.Sulton, E.A'zamov, N.Norqobilov, A.Yo‘ldoshev kabi ijodkorlarning alohida o‘rni bor. Ular hikoyalarida inson qalbidagi iztiroblar, ijtimoiy hayotdagi ziddiyatlar, ijtimoiy muammolar o‘zining badiiy talqinini topgan. Shunday ijodkorlarning biri Abduqayum Yo‘ldoshdir.

Taniqli o‘zbek yozuvchisi Abduqayum Yo‘ldosh o‘z uslubiga ega ijodkor. U “Aybdor”, “Muammo”, “Boy”, “Samo elchisi”, “Yetim so‘z”, “Puankare” kabi bir qator hikoyalar muallifidir. **“Bandi”** hikoyasi adib ijodida alohida o‘rin tutadi. Asarda ko‘tarilgan muammo, yozuvchining badiiy mahorati va ifoda uslubi, xarakterlarning yorqinligi shunday fikr ifoda etishimizga asos bo‘ladi.

“Bandi” so‘zining lug‘aviy ma‘nosi **“asir tushgan odam, tutqun, asir”, “zindonga tashlangan, qamoqqa olingan odam”**, shuningdek, ko‘chma ma‘noda **“biror narsaga, holatga berilib ketgan, biror kimsa yoki narsaga bog‘lanib qolgan; maftun”, “kishanlangan, zanjirband”** kabi ma‘nolarini anglatadi [2.158]. Demak, yozuvchining asarga “Bandi” deb nom qo‘yganiga sabab, asar qahramoni Asrorqulning “o‘tirib chiqqani” ekan-da, degan yuzaki xulosaga kelmasligimiz kerak. A.Qahhor hikoyasiga “Bemor” deb nom qo‘yganda, aslida Sotiboldining xotini emas, o‘sha davrdagi butun bir xalqning bemorligini ta’kidlamoqchi bo‘lganidek, Abduqayum Yo‘ldosh ham hikoyada Asrorqulning bandiligini (“o‘tirib chiqqan”i ma‘nosida) ifodalash orqali so‘zning tagma‘nosini ochishda, jamiyatda o‘z nafsiga bandi, qul, nafsi yo‘lida hech narsadan tap tortmaydigan, o‘z manfaati yo‘lida hatto vijdonini ham sotadigan, boshqalarning taqdiri bilan qiziqmaydigan, faqat o‘ziningina o‘ylaydigan nayrangboz Fayzulla “domla” kabi kimsalar timsolidan foydalanadi. Demak, yozuvchi asarga xarakter va qahramon ruhiyati, holatidan kelib chiqib nom tanlagan. Asar qahramonlari Munisa, Asrorqul, Fayzulla domla, Nazira. Yana bir qahramon garchi epizodik qahramon hisoblansa-da, muallif shu qahramon orqali jamiyatga ko‘proq "Yusufbek hoji"lar kerakligini aytmog‘chi bo‘ladi. Bu qahramon, Erkin ota.

D.Quronov adabiyot nazariyasiga oid “Adabiyotshunoslik lug‘ati” (hammualliflikda) va ko‘plab ilmiy kitoblarida xarakter haqida to‘xtalib o‘tadi. D.Quronov xarakterni quyidagicha ta‘riflaydi. “Xarakter” badiiy xarakter; muayyan davr va muhit kishilariga xos eng muhim umumiy xususiyatlar bilan alohida shaxsga xos individual xususiyatlarni o‘zida uyg‘un mujassam etgan inson obrazi” [4.352].

Hikoya inson hayotida yuz bergan ixcham voqeani lo‘nda ifodalashga mo‘ljallangan janr. Hikoyaning muhim belgisi ixchamlik, lekin unda birgina lavha, uzoq davrlik voqealar, personajlarning butun umr yo‘li, bir emas, bir nechta odamlar taqdiri, xarakterlarning shakllanish jarayoni, ruhiy holatlarning almashinib turishi, muhim fazilat bo‘lib qolishi mumkin.

“Bandi” hikoyasi quyidagicha boshlanadi: “Asrorqul u yoqda-yu, bu yerda uydagilarining bo‘lari bo‘ldi. Bolalar nomus qilganlaridan yetti mahalla naridagi maktabga qatnay boshlashdi. Munisa mahalla-ko‘yga aralashmay qo‘ydi. Shu oila qiynalib qoldi, moddiy yordam beraylik, deb mahalla oqsoqoli uch-to‘rt marta odam yubordi, lekin Munisa biron marta idoraga bormadi, ariza yozib ham bermadi, buning o‘rniga uch joyda farrosh bo‘lib ishladi” [1]

Bu parcha asarning qahramoni va uning endi hikoya qilinishi lozim bo‘lgan voqeaning qay sharoitda boshlanayotgani haqida kitobxonga ilk ma‘lumot beradi. Asrorqul o‘g‘riligi uchun uch yil o‘tirib chiqqan, endi boshqacha odam bo‘lib, ayoli va bolalarining qadriga yetaman, halol yashayman, baxtli hayot quraman deb turganda, Fayzulla domlo kabi nafsiga bandi kimsalarning bandisiga aylanib qolgan. Ehtimol, u birinchi marta ham Fayzullaga o‘xshagan kimsalarning manfaati yo‘lida qurbon, bandi bo‘lgandir, bunisi asar voqealar chizig‘ida noma‘lum.

Badiiy asar qiziqarliligi, xarakter qirralarini ochib berishda konfliktning o‘rni juda katta. “Konfliktsiz syujet yasash mumkin emas. Chunki syujet o‘zining chuqur mohiyati jihatidan harakat qilayotgan konfliktidir”[5.110]. Yozuvchi so‘zlar orqali inson portretini chizar ekan, hikoya qahramonlarini o‘zaro to‘qnashuvlardan iborat bo‘lgan harakatda ifodalaydi. Bu to‘qnashuvlar shaxslar o‘rtasida, shaxs bilan jamiyat o‘rtasida, shaxsning ichki, ya‘ni ruhiyatidagi ziddiyatlar asosida namoyon bo‘ladi. Asrorqul va Fayzulla domlo o‘rtasida yuzaga kelgan konflikt ularning xarakter qirralarini ochib berishda xizmat qilgan. Ikki qo‘lida katta-katta sumka ko‘targan Asrorqul bozordan qaytganida, Fayzulla domlaning kutilmaganda uni tayoq bilan kaltaklay ketishi, shovqinni eshitib chiqqan Munisa va qo‘ni-qo‘shnilarga Munisaga deb olgan tilla sirg‘ani “Mening pulimga kelgan bu!” deya isbotlay ketishi, kitobxon uchun yagona haqiqat tarafida bo‘lgan qahramonning” mashinangdan pulni “balki boshqa birov olgandir” deyishiga qaramay, domlaning Munisani eri bilan sheriklikda ayblay boshlashiga javoban “Asrorqulning ayoli ko‘chada bir so‘m ko‘rib qolsa olmaydiganlardan” deya adolat qaror topishini istagan, qaysidir ma‘noda muallif umid bog‘lagan Erkin otaning ishtiroki Munisaning xarakterini yaqqol ochib bergan. Sirg‘a esa xarakterni ochishda muhim badiiy detal vazifasini bajargan. Munisa o‘zbek ayollariga xos barcha sifatlar ibo-hayo, sadoqat unda mujassam, halollik, or-nomus masalasi uning

shaxsiyatida barcha narsadan ustun turadi. Qo‘ni-qo‘shnilar ular ham Fayzulla domla kabi Asrorqulni ayblay ketishadi. To‘g‘ri, shubhalanishga haqqi bor, axir Asrorqul o‘tirib chiqqan, uning gumondor shaxs bo‘lishi tabiiy, ammo qo‘ni-qo‘shnilar ham ko‘z bilan ko‘rib, qo‘l bilan ushlaymay, aniq dalil-isbotlarsiz bir oilaning taqdiriga kaltafahmlarcha hukm chiqaradilar. Asarda yana bir epizodik obraz – taksidan to‘lib-toshib tushgan Fayzullaning ayoli – Nazira. Erining mashinasidagi pulni o‘zi olganini aytadi-yu, erini bu yo‘ldan qaytarishi mumkin bo‘lgan holatda damini chiqarmaydi, balki unda ham Munisadagi sifatlar bo‘lganda edi, asar fojeali tarzda yakunlanmasdi, ammo u Munisa bo‘lolmaydi. Fayzulla o‘z aybini xaspo‘shlash maqsadida endi nayrangbozlik yo‘liga o‘tadi. O‘zini qo‘shnilarining ta‘biri bilan aytganda, haqiqiy erkak, ota o‘g‘il qilib ko‘rsatadi. Sirg‘ani Asrorqulga qaytarib, qo‘shnichiligi hurmati militsiyaga topshirmasligini aytadi. Lekin Erkin otani bezovtalantirgan Ulovidan tushovi qimmatga tushadigan kichkinagina sharti bor. Ana shu shart orqali muallif aytmoqchi bo‘lgan bandi aslida kimligi ma‘lum bo‘la boshlaydi. Fayzulla yarim yilcha domlalik qilib, domla laqabini olib ulgurgan kalondimog‘. U Asrorqulni o‘g‘rilikda ayblab, o‘lchamni olmay to‘n bichadi. Xatosini bilsa-da, tan olmaydi. Ustiga-ustak shu to‘nni usta bichuvchi nomi bilan kiydirmoqchi bo‘ladi.

Asrorqul Munisaga haqiqatni anglatgach, endi boshqacha yashashga qaror qilib, “Biz baxtli bo‘lamiz, jonim” deganida hikoya o‘z yechimini topayotgandek tuyuladi. Ammo yozuvchi hikoya so‘ngida “o‘tmas pichoq detalini qo‘llaydi va yechimni kitobxonning o‘ziga qo‘yib beradi. Asar yana bir tugun bilan yakunlanadi. Bu tugun quyidagi parcha orqali anglashiladi:

“Chaqir eringni, uy masalasida keldim, Munisa avval chinqirib, keyin ingrab yubordimi yo ingrab, keyin chinqirdimi anglolmay qolgan Asrorqulning qo‘li o‘z-o‘zidan dasturxon chetidagi o‘tmas pichoqqa yugurdi” [1]

Hikoyada har bir qahramon xarakteri va psixologiyasi juda jonli ishlangan. Ushbu xarakterlar orqali muallifning kishilarga va hayotga munosabati ifodalangan, insonlar o‘rtasida yo‘qolib borayotgan mehr-oqibat muammosi, jamiyatning ko‘proq Erkin ota kabi adolatparvar, xalq, el-u yurt or-nomusini o‘ylaydigan, haqiqat uchun kurashuvchi, o‘ziga xos ma‘naviy qiyofaga ega qahramonlarga muhtojligi masalasi olib chiqilgan.

“Bandi” hikoyasidagi qahramonlar turmushimizda har qadamda uchrab turadigan oddiy odamlardir. Ijodkorning o‘z tili bilan aytadigan bo‘lsak, hikoyadagi jabr ko‘rgan qahramonlarning qalb kechinmalari, hissiyotlari, azob-uqubatlari o‘quvchining ruhan tozalanishiga, ma‘nan yuksalishiga xizmat qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Yo‘ldosh A. Bandi. Internet sayti: <https://n.ziyouz.com>.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. (“Б” ҳарфи) – 131-429 б.
3. Yaxshi asarning dunyoga kelishi –mo‘jiza (Yozuvchi Abduqayum Yo‘ldosh bilan suhbat). Internet sayti: <https://kh-davron.uz>.

4. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати.– Т.: Академнашр, 2013. – 406 б.

5. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. Т.: "O‘qituvchi" nashriyot - matbaa ijodiy uyi. 2005. –272 b.

6. Xolmatov D. Hikoyalarda davr va qahramon masalasi. Maqola. /Scientific progress/ Uzbekistan. Volume 2 | Issue 6 | 2021. ISSN: 2181-1601. Page 646-651.

## **О‘КТАМ УСМОНОВ HIKOYASIDA QAHRAMON XARAKTERI MASALASI**

*Zarpullayeva Xadichabonu Abdug‘ani qizi,  
JDPI magistranti*

*Ilmiy rahbar: f.f.f.d. (PhD) dots.T. Qo‘chqorov.*

Har bir davr hikoyachiligi o‘ziga xos g‘oyat murakkab va xilma-xil fikrlarga boy bo‘lib, turlicha tasvir yo‘nalishlarini o‘z ichiga oladi. Shuningdek, bugun ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotda yuz berayotgan voqealarni, inson hayotida, ruhiyatida, orzu istaklarida, yashash tarzida sodir bo‘ladigan hayotiy haqiqatlarni kichik janrda badiiy ifoda etishning turli tamoyillari kuzatilmoqda.

Adabiyot – so‘z san‘ati. “San‘atning betakror salohiyati ham shundaki, u ayni shu davrdagi odamlar ongi shuurini, hayot nafasi va jamiyat ehtiyojlarini tasvirlanayotgan mazmunga singdirib yuboradi. Natijada o‘sha ifoda obyektiga barcha xalqlar va elatlarning nazarini tortadigan, e‘tiborini qozonadigan mohiyati bilan umumbashariy qadriyat maqomiga ega bo‘ladi”..

O‘zbek hikoyachiligida qahramon obrazini, uning xarakterini xolis o‘rganish, tarixiy haqiqatlarni badiiy haqiqatga aylantirish, qahramonlarni shaxs sifatida butun murakkabliklari bilan birga tasvirlash, ijodkor badiiy niyatini ramziy talqinlarda ifodalanishini kuzatish, hikoyalarni badiiyat mezonlari asosida tekshirish hamda o‘zbek hikoyachiligida qahramon xarakterini ochib berish muhim masalalardan biridir.

Inson hayotga bir bor keladi. Shu sabablimi, doimo baxtli yashashga harakat qiladi. Esini tanigandan boshlab o‘z baxtini, quvonchini maqsadlarida, hayollarida chiza boshlaydi. O‘ktam Usmonov hikoyalarida ham baxt ortidan kelgan qayg‘uni, kech kelgan baxtni, baxtsizlikni o‘z qo‘li bilan yaratgan insonlar taqdirini ko‘rishimiz mumkin. Kimningdir hayotdan juda erta ketishi kimningdir baxtiga sababchi bo‘lganligini yozuvchining “Yana kelgan baxt” hikoyasida ko‘rishimiz mumkin. Xususan, adibning bu hikoyasida ko‘ngil deb atalgan o‘ziga xos dunyoning bir ko‘chasiga nigoh tashlanadi. O‘ktam Usmonov hikoyalarini birma-bir o‘qir ekanmiz, ularning orasida ko‘pchiligi boshqalariga o‘xshamas, biridagi taqdir, qahramonlar, syujetlar boshqasida kuzatilmaganligini ko‘ramiz. Lekin ba‘zi hikoyalarni o‘qib chiqar ekanmiz, o‘zaro o‘xshash qahramonlarni, o‘xshash taqdirlarni ko‘ramiz. Balki yozuvchi xuddi shunday insonlarni hayoti davomida ko‘rgan, ular bilan yaqindan tanish bo‘lgandir. Bu narsa esa, asar qahramonlarining xarakter xususiyatlari orqali ifodalanadi. “Yana kelgan baxt” hikoyasi qahramoni



xarakteri bilan emas, balki tashqi ko‘rinishi tomonidan ham “Jala” qahramoniga o‘xshaydi. Ikkovi ham ayolidan juda erta ayrilgan, kichkina qiz farzandlari bor. Qizlarning yosh xususiyatlarida biroz farq bor. Ikkala qahramon ham atrofdagilarning “qachon uylanasan”, “qachongacha so‘qqabosh bo‘lib yurasan” degan nasihatlaridan bezigan edilar. “Yana kelgan baxt” bosh obrazi vakili Kamoliddin kuchli sog‘inch, ruhiy iztirob, xorg‘inlik, unutib bo‘lmas xotiralar tufayli uyqusiz tunlarni bedor o‘tkazar edi. Ayolining vafot etganiga ikki yil bo‘lgan bo‘lsa-da, boshida uni qattiq qumsar, vaqt o‘tgani sayin esa oz-moz yuraklari tasalli topib borardi. Ba’zida atrofdagilar unga xotini bilan bog‘liq xotiralarni eslatar, ba’zida esa keksalar, mahalla raisining uylan degan dashnomlarini eshitib yana ayolini esga olardi. Muallif tomonidan keltirilgan jumlar orqali ham Kamoliddinni qanday xarakterga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin:

“Bir xil erkaklar borki, xotini betob yotgandayoq, “peshonam shu ekan”, deydi-yu, boshqasini mo‘ljallab qo‘yadi. Lekin Kamoliddin Rashidaxon bilan o‘n uch yil oralaridan qil o‘tmay, og‘ir-u yengilni baravar tortishib, bir-birlariga shu qadar ko‘nikib ketgan ekanlarki, bechora jon beray deyotganda ham Kamoliddin o‘lim degan bedodlikni aqliga sig‘dirolmay, “U ketsa, mening qolishimdan nima ma‘no?” deb yurak-bag‘ri o‘rtandi. Ta’riflar orqali Kamoliddin ayolini chin dildan sevgan, hurmat qilgan, oilasini hamma narsadan ustun qo‘ygan, o‘zgalarga hamda ayoliga qattiq gapirmagan, mehnati orqali ro‘zg‘or tebratgan inson sifatida hayolimizda gavdalantirishimiz mumkin. Ammo Rashidaxonning o‘limidan so‘ng ikkita qo‘shnisining biri ro‘mol, biri jemfer olib chiqib “Shu narsalar sizlarnikida turib tursin, deb bergandilar rahmatlik,”-deganlari esa Kamoliddinning ozgina hasisroq ekanligini ifodalaydi. Muallif qahramonlarni hech birini bejiz shunchaki, tanlamagan. Qahramonlarning xarakter tuzilishidagi bir-biridan yiroqlik go‘yo bir-birini to‘ldirgandek bo‘ladi. Lekin bu yerda qo‘shni ayollar obrazining kiritilishining sababi Kamoliddinning xarakterida kamchilik borligini, ya‘ni yuqorida aytganimiz ozroq xasislik, be‘etiborlik borligini koramiz. Uning bu xususiyatini Rashidaxonning necha yillardan beri kiyilib tamom bo‘lgan paltosida ko‘ramiz. Muallif tomonidan: Kamoliddin Rashidaxon tirigida u-bu narsani ayasa ayagandir-u, ammo o‘lgandan keyin butun borini to‘kib tashladi,”- deya keltirilgan jumlaridan ham Kamoliddinda ziqnalikka o‘xshash bir salbiy bo‘yoqdorlik borligini ko‘rishimiz mumkin. Ammo o‘lgan o‘lib ketdi, endi shuncha qilganni kimga nima foydasi bor, o‘lgan tirilib kelarmidi, axir o‘lding o‘chding-degan gap bejizga aytilmagan. Kamoliddinning xarakterida jahli tezlikni, ammo shu jahlni yengishlikni, og‘ir-bosiqlikni ko‘ramiz.

Ularning qizlari Xosiyat esa borgan sari onasini eslar, doim uni qumsab yig‘lardi. Qanchalik urinmasin, otasining daldasi tufayli yangi keladigan onasini kutib olishda kuch to‘playdi, hammadan-da o‘zini baxtli ko‘rsatishga harakat qiladi. Lekin foydasi bo‘lmaydi, qo‘shnisi Suyima xolaning gaplari xuddi onasining ovozidek eshitiladi, onam tirilib keldi deya ostonada hushidan ketadi. Yozuvchi murg‘akkina bo‘lishiga qaramay kuchli, serg‘ayrat, mehnatkash, oqko‘ngil qizni Xosiyat obrazida tasvirlagan hamda uning qayg‘uli, mungli



chehrasini ham chizib bera olgan. Sog‘inch o‘ti har tarafdin kuydirdada, atrofdagilarning, qarindosh-urug‘larining mehribonchiligini, unga ma’yus, rahmdillik bilan qarashlarini, hamda o‘zgacha munosabatda bo‘lishlarini aslo yoqtirmasdi.

Iztiroblar iskanjasida qolgan Kamoliddin esa kattalarning gaplariga ko‘nishga majbur bo‘ladi. Uning yakka-yu yagona yo‘li qayta oila qurish edi. Bunga Xosiyatning qanday qarashini u sezib tursada, ammo boshqa iloji yo‘qligini his qilardi. Aynan xarakterlar shuni ko‘rsatib beradi. Yozuvchi Kamoliddinni ikkinchi bora uylanishida qanchalik dovdirab, o‘zini yomon his etayotganligini, hijolat chekib atrofdagilarning ko‘ziga qaray olmayotganligini tasirli bo‘yoqlarda chizib bergan.

Shu narsani alohida qayd etish kerakki, Qodiriy, Oybek, Ayniy, Cho‘lpon, Fitrat kabi mashhur yozuvchilarimiz ham badiiy asar yozishga kirishishdan oldin, eng avvalo mavzu taqozosiga ko‘ra, qalamga olinayotgan ma’lum tarixiy davrni chuqur ilmiy va huquqiy asoslarida o‘rganib chiqqanlar. O‘ktam Usmonov ijodida ham ko‘rishimiz mumkinki, ularning bolalik kunlari, eshitganlari va ko‘rganlari, umuman olganda ishonarli voqealar, hayotiy tasvirlar qalamga olinadi. Kitobning fazilati yozuvchilik san’atining asosiy va muhim tomoni sanaluvchi xarakter yaratish mahoratining tekshirilishida ko‘rinadi. Xarakter yaratishda esa, albatta, inson ruhiyati masalasi asosiy unsur sanaladi. Mana shunday mehnat evaziga dunyoga kelgan asarlarning umri ham, qadri ham ulug‘ bo‘ladi.

“Xarakter va uning psixologiyasi tahlili adabiyotning kamoloti, yozuvchining mahorati darajasini belgilovchi omildir”. Xuddi shunday O‘ktam Usmonov ham qahramonlari ruhiyatini, xarakter-xususiyatlarini o‘z maromida, badiiy yo‘sinda kerakli jumlar va ta’riflar orqali tasvirlab, hikoyaning keng qamrovli bo‘lishida katta ish qilgan.

“Yana kelgan baxt” hikoyasida esa kechroq bo‘lsada, hayotiga baxt kirib kelgan qiz yana kimningdir dunyosiga baxt tariqasida kirib kelishini, jajjigina qalb uchun og‘riqli bo‘lgan quvonchning ta’sirli tomonlarini, insonlar xakteri, qahramonlarning o‘zlarida his qilmagan nuqsonlarini yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. N. Rahimjonov “Istiqloq va bugungi adabiyot”.-T.: “O‘qituvchi”, 2012. 27-bet]
2. G. Sattorova “Milliy xarakter va badiiy talqin”. – T.: “Fan” 2002-yil.
3. Sharq yulduzi. 2012-yil, 153-bet

## “MURODXON” DOSTONINING QURILISHI HAQIDA BA’ZI MULOHAZALAR

*Tursunqulov Nurali Shuhrat o‘g‘li,  
JDPI magistri*

*Ilmiy rahbar: f.f.n. dots. Tursunqulov Abbos*

Badiiy tahlil asarning ikki tomoniga, shakli va ma’naviy tomoniga asoslanib uyushtirilishi o‘qurmanga ma’lum, albatta. “Badiiy asar tahlilida shakl va mazmun birligi hamda ularning o‘zaro munosabati masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Negaki, tahlilga tortilgan har qanday badiiy asardan muayyan badiiy mazmun kutilganidek, estetik mazmunki bor biror badiiy shaklda ifoda etilishi muqarrardir” [1,121] Adabiyotshunoslar shaklga qarab badiiy asarlarni turlarga bo‘lishadi bizningcha ham bu maqbul yo‘l (bu bilan badiiy asarda shaklgina muhim degan xulosadan yiroqmiz). Qachonki badiiy asar tahlilida ham shakl, ham mazmun “qushning ikki qanoti” bo‘lar ekan tadqiqotchi to‘g‘ri yechimdan ketayotgan bo‘ladi. Dastlab adabiy tur nima degan savolga javob izlasak. Q. Yo‘ldoshning mulohazasiga ko‘ra: “...adabiy tur vujudida muayyan badiiy butunlikning qanday maqsadda yaratilgani (kuylash, o‘qish yoki ko‘rsatish) va nimani ifodalashi (tuyg‘u, voqea yoki harakat) kodlashtirilgan bo‘ladi” [1,239]. D. Quronov “...an’anaviy ravishda adabiy asarlarning nutqiy tashkillanishi, tasvir predmeti, obyekt va subyekt munosabati kabi jihatlar bilan umumiylik kasb etuvchi yirik guruhlar” [2,351] ni adabiy turlar deya nomlaydi. Ko‘rinadiki o‘zaro bir-biriga yaqin janrlar birlashib adabiy turlarni tashkil qiladi. Bunda janrlarning shakl va mazmun xususiyatlari babbaravar ahamiyatga ega. Quyida biz epik turning doston janriga mansub bo‘lgan “Murodxon” dostoni badiiy qurilishi haqida mulohaza yuritamiz.

Xalq dostonlari shakl tuzilishi aralash bo‘lib unda lirik tur va epik tur unsurlari parallel tarzda ishtirok etadi. Bulung‘ur dostonchilik maktabining yetakchilaridan biri bo‘lgan Fozil yo‘ldosh o‘g‘li tilidan yozib olingan “Murodxon” dostonida ham bu an’ana davom ettirilgan. Ergash Jumanbulbul o‘g‘lidan farqli o‘laroq Fozil yo‘ldosh o‘g‘li doston kuylashda qisqalikka etibor qaratadi va dostonga subyektiv munosabat bildirmaydi. Bu hol asar jozibasini oshirish bilan bir qatorda o‘qurmani ekrin tinglovchi roldan olib ma’lum pozitsiya tanlashga majbur etadi.

Dostonda epik shakl bilan bir qatorda lirik shakl ham o‘ziga xos tarzda doston kompozitsiyasiga ta’sir o‘tkazgan. Asarning qurilishida personajlar dialoglari, jang tasvirlari, safar tasviri, qahramonlar ichki kechinmalari, peyzaj tasvirlari, asosan, lirik(she’riy) shaklda keltiriladi. Baxshi bunday shakldan eshituvchilarning diqqatini tortish, voqealar ko‘lamini kengaytirish, ta’sirchanlik shiddatini oshirish maqsadida foydalanadi. Xalq og‘zaki ijodiga mansub boshqa dostonlar kabi “Murodxon” dostonida ham barmoq vaznining 7,9,11 hijoli she’r shakllaridan mahorat bilan foydalanilgan. Dastavval, doston kompozitsiyasi haqida to‘xtalganda hikoya qiluvchi kim ekanligiga alohida e’tibor qaratishimiz joiz. An’anaviy tarzda rivoyaning uchinchi shaxs tilidan va birinchi shaxs tilidan olib

borilishi farqlanadi [3,14]. Xalq og‘zaki eposlarini ijro etishda uchinchi shaxs yetakchilik qiladi. Birinchi shaxs tiliga juda kam hollarda murojaat qilinadi. Bunday noyoblik xalq dostonlarining yaratilishi qadim tarixga borib taqalishi hamda ideallashtirilgan, to‘qima obrazlarning mavjudligi, qolaversa, xalq dostonlari bevosita kuzatishlar maxsuli emasligi bilan izohlanadi.

“Burungi zamonda Oqtosh viloyatining podshosi xonlik davrini surib, necha oy, necha yil podsholik dag‘dag‘asini surib o‘lib ketdi” [4,89]

Ushbuni hikoya qilayotgan shaxs nutqda umuman mavjud bo‘lmagan uchinchi shaxs hisoblanadi. Tahlildagi dostonimizda bu vazifani Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li asar syujetiga ta’sir qilmasdan, mahorat bilan bajargan. Birinchi shaxs tilidan hikoya qilingan ba’zi o‘rinlar ham borki, bu holni doston lirikasida mufassal kuzatishimiz mumkin

Amaldor aynal ding mening qoshima  
Quloq solgin, amaldor bu nolishima  
O‘z holimda o‘tin terib yurgandim  
Davlat qushi kelib qo‘ndi boshima. [4,91]

Yoki,

Olma otib unda sanamni oldim  
Jamolin ko‘rsatdi mast bo‘p yiqildim  
Yostiqni quchoqlab behush bo‘p qoldim  
Tong otgach so‘ng yana hushimga keldim. [4,109]

Baxshi doston voqea-hodisalarini birinchi shaxs tilidan so‘zlashda ham o‘ziga xos maqsadni ko‘zlagan. Doston qahramonlari voqealar rivojini o‘z pozitsiyasidan turib kuzatib, fikr-mulohazalarini verbal yoki noverbal holatda ifodalashlari natijasida o‘quvchiga yaqindan tanilib boradi. Qahramonlarning insoniy hislatlari yuzaga chiqadi. O‘quvchida personajlarga nisbatan achinish, hayrixohlik, hamdardlik, nafrat, havas kabi subyektiv munosabatlar shakllanadi va betaraflikdan qat’iy pozitsiyaga o‘tiladi bu esa, o‘z navbatida, dostonning qiziqarliligini oshiradi. Buni birgina Murodxonning qo‘yniga yostiq quchoqlatib ketgan sirli yori ortidan safarga otlanishi sabablarini yaqinlariga aytishi misolida ko‘rsak,

Murodxon otboqar Soqiga aytgan:  
...o‘lja qilib olib ketgan otimni  
Izlab ketay ketgan parizodimni... [4,110]  
...men izlab boraman zulfakdor yorni... [4,111]

Beklariga:  
Men ketarman izlab ul parizodni  
Tashlab ketib, bag‘irlarim tuzlatdi  
Yorning ishq-i bunda meni bo‘zlatdi [4,113]

Otaliqqa:  
Izza bo‘lgan yorga talab qilaman  
Umrimning boricha izlab ko‘raman  
Axir topsam omon-eson kelaman  
Yorim emas nomus-orga boraman[4,117]

Singlisiga:

O‘ylab tursam chidamayman dardiga

Qarolmay qoldim yurtning betiga

Fikr qip o‘yladim sira bo‘lmadi

Oqtosh yurtda yurgiligim qolmadi[4,121]

Ushbu dialoglarda Murodxon barcha yaqinlariga bir xil javob aytyapti degan xulosaga kelish tabiiy, ammo har bir javob murojat qilinayotgan kishilarning kimligiga qarab shaklini o‘zgartirmoqda. Murodxonning otboqar Soqiga began javobida tengdoshlarcha munosabatda bo‘lib dardihol qilgan bo‘lsa, Otaliqqa va singlisiga his-tuyg‘ularini yashirib, yor uchun emas nomus-or uchun safarga otlanayotganini ro‘kach qilish orqali “bir ayolni deb shuncha odamlarni tashlab ketyapsanmi?” qabilidagi savollardan ixotalanadi va shu barobarida kishilar bilan qanday muomalada bo‘lish, yoshi ulug‘ insonlar oldida kishi o‘zini qanday tutishi kerakligini o‘quvchining ong osti qobig‘iga singdirib ketadi.

Xulosa qilganda, xalq dostonchiligi nafaqat mazmun ko‘lami, balki shakl nuqtayi nazaridan ham nihoyatda serjilo. Dostonda epik hamda lirik janrning hamjihat kelishi, roviyning doston voqealariga aralashmasdan holis qarashi, personajlarning o‘z xatti-harakatlariga o‘zlari munosabat bildirishi, doston qurilishiga o‘zgacha jilo bergan. “Shakl voqea-hodisalar, personajlarga quvvat beradi, ahamiyatini oshiradi, haqqoniylik kasb etadi, aksincha, qahramonni kulgili va jonsiz qo‘g‘irchoqqa aylantirishi ham mumkin”[5,1-son. 131] Yuqorida ko‘rganimiz “Murodxon” dostoni ham baxshi tomonidan uslubning to‘g‘ri tanlangani, voqea-hodisalarning haqchilligi bilan alohida qimmatga ega

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Q. Yo‘ldosh, M.Yo‘ldosh Badiiy tahlil asoslari, “Kamalak”nashriyoti. Toshkent, 2016-yil
2. D. Quronov, Adabiyot nazariyasi asoslari, “Navoiy universiteti”nashriyoti, Toshkent 2018-yil
3. D. Quronov, Nazariy qaydlar, “Akademnashr” nashriyoti Toshkent 2018-yil
4. O‘zbek xalq dostonlari 2-tom. O‘zbekiston SSR Fanlar Akademiyasi nashriyoti Toshkent 1957-yil
5. Mario Vargas Losa. Yosh romannavisga xat. “Sharq yulduzi” 2012-yil.

#### SHUKUR XOLMIRZAYEVNING “OMON OVCHINING O‘LIMI” HIKOYASIDA TABIAT VA INSON RUHIYATINING BADIY TALQINI

*Jaloliddinova Gulnoza Jaloliddin qizi,  
BuxDU magistranti*

Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, G‘afur G‘ulom ijodida namoyon bo‘lgan XX asr o‘zbek hikoyachiligi an‘analarini Shukur Xolmirzayev shu asrning so‘nggi choragida yanada boyitdi. Shukur Xolmirzayev adabiy ijodning turli janrlarida qalam tebratgan bo‘lsa-da, o‘zbek adabiyoti tarixida, avvalo, usta hikoyanavis

sifatida qoldi. O‘zbek hikoyachiligini yangi bosqichga ko‘targan uning qator asarlari bu janrning badiiy qimmatini baland bo‘lgan namunalari bilan haqli ravishda bo‘ylasha oladi.

Adib hikoyalarida siyqasi chiqqan xarakterlar, quruq nasihatgo‘ylik, shablon iboralarni uchratmaymiz. U doim yangi obrazlar yaratishga intiladi. O‘zbek kishisi orzu-armonlarining, aksar hollarda, yashirin iztiroblarining yoritilmagan qirralarini, ruhiyatidagi evrilishlarni qalamga oldi.

Sh.Xolmirzayev hikoyachiligining endigina shakllanib kelayotgan davrida – 60-yillarida ko‘proq asarlar mavzusi uchun tabiat va inson masalasi tanlab olingan. Bu bejiz emas, chunki bolaligi aynan tabiat qo‘ynida – Boysun tog‘larida o‘tgan yozuvchi qalbiga bu mavzu juda yaqin edi. Shu yillarda yaratilgan hikoyalarida adib inson va hayvonot dunyosining, odamzod va o‘simliklar olamining bir-biriga uzviy bog‘liqligini, ularning ayri yashay olmasligini, birining ikkinchisiga ta‘sirini, tabiatning insonni tarbiyalashdagi ahamiyatini ko‘rsatadi va bu bilan yozuvchi o‘z maqsadiga erishadi.

“Shukur Xolmirzaevning aksar hikoyalarida shaxs xarakteri va insonning ma‘naviy bisoti umuminsoniy qadriyatlar, milliy qadriyatlar hamda ona tabiat bilan uzviy birlikda, mustahkam bog‘lanishda ochiladi” [4.504]. Jumladan, “Omon ovchining o‘limi” hikoyasida tabiat va inson ruhiyatidagi bog‘liqlikni, bir-biriga ta‘sirini ko‘rish mumkin. Yozuvchining ko‘plab hikoyalarida tog‘ manzaralari, tog‘ odamlarining sodda va samimiy hayot tarzi, ov jarayoni tasviri keng o‘rin egallaydi. Lekin ushbu hikoyada tasvir ham, xarakter ham o‘zgacha.

Hikoya bosh qahramoni Omon ovchi uchun tabiat va uning jonzotlarigagina emas, balki odam bolalariga nisbatan ham shafqat butkul begona. “U yoshlikdan yovvoyi hayvonlar otish va yeyish uchun yaratilgan deb o‘ylar edi” [4.20].

“Omon ovchining o‘limi” hikoyasining nomlanishiyoq kitobxonda noxushlik, sovuqlik, o‘lim xabari haqida tund bir tushuncha uyg‘onadi. Asarning voqealar tizimida ham sarlavhaga muvofiq ravishda insonga salbiy taassurot qoldiruvchi hodisalar tasvirlanishi qatorida bosh qahramon tabiatida ham ma‘naviy kentiklik yaqqol namoyon bo‘ladi.

Hikoya qilinayotgan voqealarning qaysi faslda sodir bo‘layotganiga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, Alisher Navoiy “Xazoyin – ul maoniy” devonida inson umrini davrlarga ajratishda yil fasllariga qiyoslaganidek mohir hikoyanavis Shukur Xolmirzayev ham hikoya voqealarini fasllar bilan bog‘laydi. Omon ovchi qish faslida ayanchli, “sovuq”, “ko‘ngil aynituvchi”, “Ertasi Ulton piyonning vahimasiga “ergashib” rayondan chiqib kelgan bir to‘da odam Quriqsoy yoqasiga enaverib, ko‘ngil aynituvchi manzarada” [4.34] o‘lim topadi. Omon ovchi xarakteridagi shafqatsizlik, qorong‘ulik, yovuzlik, yolg‘izlik hikoyada tabiat tasvirida ham aks etgan. Qishloq aholisining Bandixon cho‘liga ko‘chib ketishi “Bu endi qishloq emas, satti chordevor edi: tomlari buzilgan, yog‘och to‘sinlari ham olib ketilgan [4.22] “Omon ovchining ayoli va bolasi ketib qolib yolg‘iz qolgandagi ruhiy holati bilan uyg‘un. Hademay qishloqda kalamush va sichqonlar, keyin esa ularning kushandalari boyqushlar ko‘payadi. Aynan kalamush, sichqon, boyqushlarning ko‘payishi qahramon ruhiyati bilan bog‘liq. Bilamizki, sichqon va



kalamush tartibsiz hayot kechiruvchi, har narsani kemirib tashlovchi zararkunanda jonzot. Omon ovchi ham ko‘ziga ko‘ringan har qanday tirik jonzotga o‘q uzib o‘ldiradigan, “qon tutadi”, “gunoh”, “ko‘z tegadi” degan gaplar insonning dunyoni ruhiy tomondan idrok etishi bilan bog‘liq ma’nosiz tushunchalar deb hisoblaydigan, ruhiy jihatdan qanchalar qashshoq ekanidan darak beradi. Asarda qahramonning xarakteri va xatti-harakatlari ruhiyati tasviri bilan asoslanadi. Uning ruhiy holatlari esa xatti-harakatlari orqali namoyon etib boriladi. Eng qizig‘i shundaki, Omon ovchi bularni sira otmas, aksincha, ularni uzoq-uzoq tomosha qilishni yaxshi ko‘rardi”. U bu tun qushlarining mungli hamda nimasi bilandir tunga o‘xshab ketadigan unlariga allaqanday singishar, go‘yo o‘zi ham shu tunga, shu mungli unga, boyqushga aylanib qolardi” [4.23]. Ovchi xayolan boyqushga aylanib qolishida ham ramziylik bor, albatta. Omon ovchining juda ters, qaysar, qo‘pol odam ekanligini oshxonada muxbir yigit bilan bahslashib qolib uning: “Siz ajdaholarni yenggan milliy qahramonlarimiz traditsiyasini davom ettirayotgan kishi ekamsiz-ku” [4.22] degan kinoyasiga javoban piyolasidagi choyni uning yuziga sepib yuborishida, “Bir burgutni otib, so‘ng uni xo‘p tomosha qilib, keyin uning xuddi besh yashar bolaning panjalaridek oq-sariq, biqqi barmoqli oyoqlarini kesib olib, uyiga qaytib kelganida bari jihoz o‘rnida, faqat xotin bilan bola yo‘q edi” [4.23] otgan o‘ljasining oyoqlarini kesib olishi, panjalar bola panjasini esga solishi ham uning ko‘nglini biroz bo‘lsa-da xira qilmaydi, uyida ayolining ketib qolgani ham uning turishida biror o‘zgarish yasamaydi, “Enam ham otamdan chiqib ketgan edi bir-ikki marta. Keyin qaytib kelib edi. Bular ham keladi hali...” [4.23] deb o‘ylashi u hech narsaga achinmaydigan, ayoli va farzandi uchun qayg‘urmaydigan shavqatsiz ota timsolida gavdalanadi.

Ezgulik va yovuzlik. Hamisha yonma-yon yuradigan, ular o‘rtasida azaliy kurash kechadigan abadiy tushunchalardir. Yovuzlik ham ezgulik bilan mag‘lub etiladi deganlaridek sovxoz direktori tog‘dagi yovvoyi hayvonlarni himoya qilish, ularning qishdan omon chiqishlari uchun ehtiyot choralari hamda ozuqa sharoitlarini yaratish vazifasini Omon ovchiga yuklaydi. Omon bu sinash uchunmi deb so‘raganida direktor, “Insofingiz bor-ku, uka, agar qo‘yni bo‘riga topshirib qo‘ydi deb o‘z bilganingizni qilsangiz ham Xudo bor-ku, oxiri yaxshi bo‘lmasa kerak”, deganida “Nima bo‘lardi” [4.26] deb o‘ylagan qahramon yozuvchi tomonidan qilmishiga yarasha o‘limga mahkum etildi. U yovvoyi hayvonlarni himoya qilish u yoqda tursin yo‘q bo‘lib ketayotgan kiyik, arxarni otib jonivorning tepaga bir sakrab, pastga qulab ketishini ko‘rib zavqlanadi, otishga shunchalik berilib ketadiki, kiyiklarning qayerga yiqilib tushayotgani haqida ham o‘ylamaydi, yana otgisi, jonivorning sakrab tushib ketishini tomosha qilgisi keladi. U uchun hayot ovdan iborat edi. O‘limi oldidan ham “Olatog‘da jonvor zoti qurisa, nima qilaman?” [4.33] deb o‘ylaydi. “U o‘zi ham o‘lishi mumkinligini o‘ylamasdi” [4.19], – bejizga hikoya bu so‘zlar bilan boshlanmadi.

U yovuzlikning, jondan, qondan to‘ymas, ochofat nafsining qurboni bo‘ldi. Otilgan kiyiklarning tanasini “hashar” qilgan masliqxo‘r g‘ajirlar ovchining jasadini ham achinarli holga keltirishdi.

Ezgulik yovuzlik ustidan g'alaba qozondi. Oppoq, beg'ubor qorlar yovuzlikni, jonzotlarga qiron keltirgan yovuz ovchini "dafn etdilar". Endi tog' qishlog'ida qorong'ulik, zulmat o'rnini ezgulik, yorug'lik egalladi. Shu o'rinda yozuvchining ijodiy mahoratiga tahsin aytmay hech iloj yo'q, zulmat o'rnini yoryg'lik egallaganidek, qish o'rnini bahor, Omon ovchining o'rnini Ulton piyon egalladi. Kitobxon ruhiyatida bo'lgan bu o'zgarish tabiat tasvirida ham "erta ko'klam" tarzida ifodalanadi.

Chindan ham "Hikoyadan chiqadigan ibratli xulosa, tirik jonzotlarga bepisandlik bilan qaraydigan, ularga rahm-shafqat qilmaydigan odamlarni oqibatda ham ma'naviy, ham jismoniy halokat kutib olishi muqarrarligi haqidagi yechim tomon yetaklaydi" [2.349].

Tabiatdagi har bir narsa Olloh tomonidan mo'jiza qilib yaratilgan. Bu asarda ma'naviy qashshoq inson qiyofasidagi "Omon ovchini ko'ramiz. Shu o'rinda kitobxonda Omon ovchi nega bunchalar shafqatsiz?" degan savol tug'iladi. Avvalo, bu dunyoda insonning kamol topishida oilasi muhim rol o'ynaydi. Omonning bunchalar berahm, bag'ritosh bo'lib o'sishida oilasidagi muhit, ayniqsa, otasining ta'siri kuchli bo'lgan. Ota o'n uch yashar bolaga "indamas" miltiq – melkolibr miltiq olib bergan. Yoshlikda qushni urib tushirish juda qiziqarli hamda mashaqqatli bir ish bo'lgan bo'lsa, keyin esa uning uchun o'q uzib jonlini jonsiz qilish ermakka aylanadi, chunki Omon mohir mergan bo'lib ulguradi. Otasi ham polvon bo'lishiga qaramay ma'naviy tomondan zaif inson ekanligini kurashda mag'lub bo'lib, "omborga bo'yra to'shab, ustidan suv sepib, unga bag'rini berib yota-yota oldin yo'talni orttirib keyin qon qusa-qusa o'ladi". U oilasini, farzandini o'ylamadi. Ming afsuski, "Qush inida ko'rganini qiladi" deganlaridek, Omon ovchi ham shu mudhish xatoga yo'l qo'ydi. Ovg'a, o'ldirishga mukkasidan ketib oilasidan, o'zligidan, hayotidan mahrum bo'ldi.

Sh.Xolmirzayevning inson va tabiat mavzusiga bag'ishlangan hikoyalarning bir qismida tabiatning maftunkor go'zalligi aks ettirilsa, boshqalarida tabiatga, jonzotlarga yovuzlarcha munosabat, uni talon-taroj qilish qoralanadi. Biz so'z yuritgan "Omon ovchining o'limi" hikoyasida ham tabiatga "o'lja" sifatida qaragan ovchi, turli hodisalar girdobida o'zi ham tabiatning "o'lja"siga aylandi. Hikoyada tabiat tasviri muayyan estetik vazifa bajaradi, u faqatgina tabiat dunyosining bir bo'lagi emas, balki qahramon dunyoqarashining shakllanishida o'z ta'sirini ko'rsatuvchi poetik vositadir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. Биринчи жилд. – Тошкент: Фан, 1991. – 384 б.
2. Давронова Ш. Шукур Холмирзаев ижодида инсонлар ва жониворлар муносабатининг бадиий талқин этилиши. / Проблемы и перспективы современной гуманитаристики: педагогика, методика преподавания, филология / Сборник материалов международной научно-практической конференции 7 декабря 2020 года. – Новосибирск: Академиздат, 2020.– С. 348-351.

3. Каримов Н., Мамажонов С., Назаров Б., Норматов У., Шарафиддинов О. Шукур Холмирзаев. / Каримов Н. ва бошқ. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1999. – Б. 497-511.

4. Холмирзаев Ш. Омон овчининг ўлими. / Холмирзаев Ш. Сайланма. Иккинчи жилд. – Тошкент: Шарқ, 2005. – Б. 19-34.

5. Қўшжонов М. Доим изланишда. / Қўшжонов М. Сайланма. Икки жилдлик. Биринчи жилд. – Т.: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1982. – Б. 355-363.

## **ABDULLA QAHHORNING “QO‘SHCHINOR CHIROQLARI” ROMANIDA O‘XSHATISHLARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

*Xolbekova Dilrabo Xusniddin qizi,  
JDPI magistranti*

*Ilmiy rahbar: JDPI dotsenti f.f.n.  
Almatova Shaxnoza Tursunqulovna*

Sohir qalam sohibi, roman va hikoyalar ustasi, bir so‘z bilan aytganda, so‘z san’atkori - Abdulla Qahhor ijodiga nazar tashlaganda muxtasar satrlarda bir dunyo ma’no yashiringaniga guvoh bo‘lamiz. Adib ijodidagi “Qo‘shchinor chiroqlari“ romani ham bundan holi emas. Yozuvchi o‘z ijodida tildan, uning nodir, topilmas so‘zlaridan unumli foydalanadi. Bu so‘zlar tizimi bevosita ko‘chim va badiiy tasvir vositalari bilan bog‘liqdir. Yozuvchi qalami nihoyatda o‘tkir, bu o‘xshatishga to‘plangan misollarda ham ko‘rinib turibdi. Bu asarda personajlar xarakteri, voqealar rivoji, obrazlar harakatida o‘xshatish va ko‘chimlarning bir qancha turlaridan foydalanganligiga guvoh bo‘lamiz.

O‘xshatish deb - bir predmet yoki hodisani ikkinchi bir predmet yoki hodisa bilan taqqoslaganda ularning shakli yoki mazmun tomondan obrazli o‘xshashligiga aytiladi.[3; 87] Shunga ko‘ra o‘xshatish “obyekti” tasvirlamoqchi bo‘lgan predmet, hodisa; o‘xshatish “obrazi” - taqqoslangan predmet, hodisalarning tasviriy vositasi, ikki predmet, hodisalarning bir-biriga mos kelishdir. O‘xshatishlarni belgilashda ana shu uch belgining roli katta.[2; 127]

O‘xshatishning belgisiga qarab, ularni ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Grammatik belgili o‘xshatishlar. Bunda “obyekt”, “obraz” va “belgi”lar grammatik ko‘rsatkichi bilan mavjud bo‘ladi. Uch belgidan birortasi ham tushib qolmaydi.

Masalan: U o‘z onasidan yuragiga nishtar bo‘lib sanchiladigan so‘zni shu bilan ikkinchi marta eshityapti. [1; 5]

Bu yerda o‘xshatish “obyekti”- so‘z, o‘xshatish “obrazi”- nishtar, o‘xshatish “belgisi”-sanchiladi.

Qiz kechgacha boloxonadagi qorong‘i qamoqda teshikdan mo‘ralab, zo‘r yog‘ochi ostida jallodning sirtmoq solishini kutgan mahkumday, taqdirga tan berib otasini kutdi. [1; 6]

Bu yerda o'xshatish "obyekti"- teshikdan mo'ralab, o'xshatish "obrazi "-dor yog'ochi ostida jallodning sirtmoq solishini kutgan mahkumday, o'xshatish "belgisi"- kutish.

2. Logik o'xshatish. Bunda grammatik belgi ko'rsatkich bo'lmaydi. Lekin mazmunan "obyekt" va "obrazlar" bir-biriga mos keladi, ya'ni "obyekt" va "obrazlar"ning shaklan va mazmunan moslik belgisi obrazning o'zida bo'ladi. Masalan: Bu jimlik qizning bo'yninga go'yo sirtmoq bo'lib tushdi.[1; 6] Bu misolda o'xshatish "obyekti "- jimlik, o'xshatish "obrazi "-sirtmoq, "belgi"- grammatik nol formada.

Siddiqjon avval, aravasozi ustaga shogird, undan keyin bu yerga kelib Sobirjon qoriga qarol bo'lib yurgan vaqtlarida Xadicha xola uni o'z qanoti ostida hisoblar edi, o'g'li Zunnunxo'jaga ichkuyov bo'lgandan keyin o'rdak tuxumini ochgan tovuqday bo'lib qoldi.[1; 7]

Bu misolda o'xshatish "obyekti "- ichkuyov, o'xshatish "obrazi "- o'rdak tuxumini ochgan tovuqday, o'xshatish belgisi - nol.

O'xshatishlarni tarkibiga ko'ra yana to'liq va to'liqsiz o'xshatishlarga ajratish mumkin:

1) To'liq o'xshatishlarda qancha "obyekt " bo'lsa shuncha "obraz" bo'ladi. Ya'ni "obyekt" bilan "obraz" teng bo'ladi.

2) To'liqsiz o'xshatishlarda esa bir "obyekt "ga ikki "obraz" yoki undan ortiq "obraz"larning taqqoslanishiga , yoki bir "obraz" , ikki "obyekt" o'rtasida bo'lib, har ikkala "obyekt"ga tegishli bo'ladi.

Masalan: Biroq uning kulishi O'rmonjonning ro'yi-rost g'ashini keltirdi:" Nega kulasan, o'zingdan kulibytibsanmi?- dedi mayin, lekin kishiga qamchidan ham qattiqroq tegadigan bir tovush bilan.[1; 14]

Bu misolda o'xshatish "obyekti "- tovush, o'xshatish "obrazi "- mayin, qamchidan ham qattiqroq, o'xshatish "belgisi "- deyihi.

Odam dunyoga cho'chqaday semirish, bitday bolalash uchun kelmaydi.[1;17] Bu misolda odam-"obyekt", cho'chqaday semirish, bitday bolalash-"obraz", dunyoga kelmoq - belgi.

Hozirgi o'zbek tilida o'xshatish leksik va grammatik vositalar yordamida hosil bo'ladi.

1. Leksik vositalar. O'xshatish hosil bo'lishida mustaqil so'z va yordamchi so'zlar ishtirok etadi:

a) kabi, singari, qadar, go'yo yordamchi so'zlar vositasida yuzaga kelgan o'xshatishlar

b) yanglig', bamisoli, misoli, misli, ravishlari yordamida yuzaga kelgan o'xshatishlar.

Masalan: Anzirat xola, uning uyi, musofirchilik to'g'risida gapirib ta'bini xira qilgani va keyinchalik bu gaplarning hammasi yolg'on chiqqanidan beri Siddiqjon qorini xushlamas, uning har bir harakati bastiga nomunosib ingichka tovushi, go'yo mushukdek yumshoq qadam bosishi, hammavaqt soxta tabassum qilib turishi, gapirganda odamning yuziga emas, ko'kragiga yoki qorniga qarab

gapirishi, hatto osh ichganda kosaning ustiga engashib, hali qoshiq yaqin kelmasdan ogʻzini katta ochishi ham gʻashiga tegar edi.[1;21]

2. Grammatik vositalar. Oʻzbek tilida bir nechta affiks borki, ular biror bir predmet yoki holatni oʻxshatish uchun xizmat qiladi. -day, -dek, -simon, -ona, -namo, -larcha, -omuz, -cha, -chasiga, -dan, -li. Bu affikslar odatda oʻxshatish "obraz"ini koʻrsatuvchi soʻzga qoʻshiladi va biror predmet yoki holatni shu soʻz orqali ifodalangan predmet yoki belgi bilan qiyos qilishga yordam beradi. Masalan :Uying kuygur bu kambagʻalchilik odamning yorugʻ dunyodan boʻlgan umidini kemirib zangday yeb tashlar ekan.[1;31]

Men boʻlsam terakning uchidagi oftobday gap, hozir borman, birpasdan keyin yoʻq.[1;67]

Xulosa qilib aytganda Abdulla Qahhor romanlarida qoʻllangan oʻxshatishlar yuqorida taʼkidlanganidek, leksik-semantik va grammatik birliklar yordamida hosil qilingan. Romanlardagi oʻxshatish asosini turli xil predmetlar, inson va uning tana aʼzolari, hayvonot va oʻsimliklar dunyosi kabi rang-barang vositalar tashkil qiladi. Adib romanlarining taʼsir kuchi unda oʻxshatish va badiiy tasvir vositalaridan oʻrnida qoʻllanganidadir. Yozuvchi biror bir voqea, hodisa, yoki predmet haqida maʼlumot berar ekan, ularni oddiy soʻzlar vositasida emas, estetik did bilan bezab, obrazlilikini oshirib, qisqa satrlarda bir olam maʼno bilan sugʻorib, soʻngra kitobxon eʼtiboriga havola etgan, bu romanning kitobxonga oʻqishli asar boʻlishini taʼminlab bergan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:**

1. Abdulla Qahhor "Qoʻshchinor chiroqlari " romani Toshkent Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʼat nashriyoti 1987
2. Dilmurod Quronov. "Adabiyotshunoslikka kirish" Toshkent Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti 2007.
3. Nizomiddin Mahmudov, Yorqinjon Odilov, Gulsara Ziyodullayeva 11-sinf ona tili darsligi Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent 2018.
4. "Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi"

### **ALISHER NAVOIY ASARLARIDA TAʼLIM-TARBIYAGA OID SOʻZLAR TADQIQI**

*Egamova Dilnora Nurbekovna  
JDPI magistranti*

*Maʼdani inson guhari soʻzdurur,  
Gulshani odam samari soʻzdurur.*

Navoiy hazratlari ijodiyoti bitmas-tuganmas, bebaho xazinadir. Undan qancha foydalanmaylik, adogʻiga yetib boʻlmaydi. Hayotimizda ahamiyatli boʻlgan taʼlim-tarbiyaga oid soʻzlar lugʻati ustida ishlar ekanman, ushbu soʻzlarning etimologiyasi, yasaliş va tuzilish strukturasi haqida maʼlumotlarga ega boʻla bordim.

*Qilmoq erur biri muallim talab,*



*Qilg'ali ta'lim anga ilm-u adab.*

“**Muallim**” va “**Ta'lim**” soʻzlari tilimizga arab tilidan kirib kelgan boʻlib, asli negizi “**Ilm**” soʻzidan hosil boʻlgan. Mu- soʻz yasovchi, old qoʻshimcha boʻlib, lugʻaviy maʼnosi “biron narsaga egalik qilmoq”dir. Bu qoʻshimcha soʻzga qoʻshilgach, uning maʼno doirasini kengaytiradi. Masalan, muallim- ilm oʻrgatuvchi, ilmli kishidir.

Ulcha erur tiflgʻa shoyista ish,  
Bilki, kichiklikda erur parvarish.

“**Parvarish**” soʻzi esa, forsiy tildan oʻzlashgan boʻlib, “tarbiyalamoq” va “oʻstirib eʼtibor bilan qarash” degan maʼnolarni bildiradi. Bu soʻz hozir ham isteʼmolda, maʼno doirasi oʻzgarmagan.

*Qatragʻa chun tarbiyat etti sabab,  
El boshigʻa chiqqucha topdi sharaf.*

“**Tarbiyat**” soʻzi hozir ham kundalik hayotimizda oʻz oʻrniga ega. Bu soʻz ham arabiydir. Maʼnosi “odob oʻrgatmoq, parvarishlamoq”dir. Hozirda bu soʻz “tarbiya” shakliga kelib qolgan.

*Qildi mazohirda xayoli zuhur,  
Topqali ul husn kamoli zuhur.*

“**Komil**”, “**kamol**”, “**kamolot**” soʻzlari ham arabiy boʻlib, bitta negizdan hosil qilingan. Maʼnosi “toʻlalik, yetuklik, nuqsonsizlik, mukammallik”dir. Navoiy hazratlari bu soʻzni “nafaqat jismoniy, balki aqliy hamda ruhiy jihatdan yetuklikka erishganlik” maʼnolarida ham qoʻllaganlar.

*Koʻngli bilik gavharidin ganjhez,  
Ilgi saxovat kafidin ganjrez.*

“**Bilik**” soʻzi turkiy soʻz boʻlib, “bilim”, “ilm” kabi maʼnolarni anglatadi. Bu soʻz uzoq muddat davomida, yaʼni hozirgi oʻzbek adabiy tili davrigacha ushbu holatda ishlatilib kelingan.

*Madrasayi Quds aning maʼmani,  
Xonaqahi uns aning maskani.*

“**Mardasa**” soʻzi arabiy boʻlib, “darsxona” degan maʼnoni anglatadi. Hozirda esa, ushbu soʻz “diniy taʼlim maskani” degan maʼnoda isteʼmolda ishlatilib kelinmoqda.

*Qayda havorih bila muʼjizdurur,  
Aql oning idrokida ojizdurur.*

“**Idrok**” soʻzi “ong, tushuncha”, “**aql**” soʻzi esa, “bilim,ilm” kabi maʼnolarni bildirib, Navoiy hazratlari zamonasida qanday maʼno anglatgan boʻlsa, hozirda ham xuddi shunday isteʼfoda etilmoqda.

*Garchi adab sharti bagʻoyat kerak,  
Har kishi tavrida rioyat kerak.*

Hayotimizda ahamiyatli boʻlgan “odob” soʻzi Navoiy lisonida “**adab**” shaklida ishlatilgan. “Adab” soʻzi ham asli arabiy boʻlib, “yaxshi tarbiya”, “maʼqul harakat” hamda “bolani intizomda saqlash uchun jazo berish” kabi bir qancha maʼnolarga ega.

*Maʼrifating kim qila olmay sifat,*

*Qilding ani orifi ul mamlakat.*

“**Ma’rifat**” soʻzi arabchadan “bilish, tanish, anglash” kabi maʼnolarni bildiradi. Buyuk bobomiz ushbu soʻzdan oʻz asarlarida keng foydalanganlar. Nafaqat nazmda, balki asarlarining nasriy oʻrinlarida ham:

“Koinot bozoridagʻI durlarning xafo sahobidin zuhur daryosigʻa tushganining maʼrifati...”

*Ulki tariqi bitimakdir kitob,*

*Nazm ila nasr oʻylaki durri hushob.*

Insonga taʼlim-tarbiya berishda, barcha sohada, umuman, inson hayotida kitobning ahamiyati beqiyos. “**Kitob**” ham asli arbiy soʻz boʻlib, “yozuv, xat, bitmoq” kabi maʼnolarni anglatadi. Ulugʻ shoir oʻz asarlarida ushbu soʻzdan keng foydalanganlar.

*Kamol et kasbkim, olam uyidin,*

*Sanga farz oʻlmagʻay gʻamnok chiqmoq...*

Navoiy... Ularning oltmish yillik umrlari sarhisobi asarlari bilan belgilansa, demak ijod qushi hamon parvozda. Adabiyotga oshno qalblar Navoiyga chuqur ehtirom-ila uning asarlariga qayta-qayta murojaat qiladilar. Ushbu bebaho xazina sirlarini ochish biz- Oʻzbeklar uchun yuksak iftixordir.

## MUHARRIRLIK FAOLIYATINING TARIXI HAQIDA MULOHAZALAR

*Ravshanova Mahbuba Ozod qizi,  
SamDU talabasi*

Istiqlol tufayli tariximizga, buyuk ajdodlar qoldirgan maʼdaniy merosga yondoshishning yangicha tamoyillari shakllandiki, buning zamirida hayotiy haqiqatni yuzaga chiqarish imkoni vujudga keldi. Shu jihatdan, jadidchilik harakati va ular qoldirgan boy maʼnaviy merosga tahliliy yondoshish, ular qoldirgan bu merosning bugungi kunda ham, naqadar zarurat ekanligini anglay boshladik. Jadidchilik – XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, maʼrifiy harakat. Jadidchilik dastlab 1880-yillarda Qirimda vujudga kelgan. 1890-yillarda esa Oʻrta Osiyoda tarqalgan. Jadidchilik avvaliga maʼdaniyat sohasidagi harakat sifatida faoliyat yuritgan. Undagi vakillarning barchasi taraqqiyot uchun kurashish, turkiy tilni rivojlantirish, uning adabiyotini boyitish, dunyoviy bilimlarni oʻrganish, fan yutuqlaridan foydalanish uchun tinimsiz mehnat qilishgan, hamda ayollar va erkaklar tengligi uchun kurashishga chaqirishgan. Jadidchilik insonlarni ilmga yoʻnaltirishga, ularning maktablarda oʻqib, ilm olishiga katta hissa qoʻshgan, shu bilan birga bir necha matbuotlarni ishga tushirib, turli darslik va adabiyotlarni taqdim etgan. Shuning uchun ilk oʻzbek matbuotlari tarixi tabiiy ravishda jadidchilik harakati bilan bogʻlanadi.

Jadid ziyolilari uchun yosh avlodga ilmni oʻrgatish qanchalik muhim boʻlsa, milliy matbuot tashkili va taraqqiysi, hamda kitoblar yaratish ham shu darajada

ahamiyatli bo'lgan. Vaqtli matbuot odamlarning ijtimoiy hayotiga faol aralashmog'i va dunyodan boxabar bo'lmog'i uchun zaruratga aylangan. Boshlab gazetalar oyda bir, asta-asta haftalik va kunlik nashr tarzida shiddat bilan xalq orasiga kirib borgan, sahifalaridagi jadidlarning maqolalari ma'naviy ehtiyoj tusini olgan.

Jadidchilikda Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev, Cho'lpon, Hoji Mo'yin, Is'hoqxon To'ra Ibrat, Muhammad Said Ahroriy, Abdurauf Fitrat va shular kabi ko'plab ajdodlarimiz tinimsiz mehnat qilib, o'z umrini ilm yo'liga, yoshlarni kamolotli qilishga baxshida qilishgan. Jadid adabiyotining yuzaga kelishida, nafaqat uning, balki nashriyot va gazetalarning ham yaratilishida Turon zaminimizning daholaridan hisoblanmish Mahmudxo'ja Behbudiyning xizmati katta. O'qimishli oilada tug'ilib, tarbiyalangani bois, bilimli kadr bo'lib, mahalliy aholi uchun ilm, ma'rifat juda zarur ekanini anglab yetgan, Mahmudxo'ja Behbudiy tom ma'noda millat jonkuyari bo'lgan, u o'z hisobidan yangi maktab qurdirgan, o'quvchilar uchun alifbo va darsliklar yaratgan. Ulug' ma'rifatparvar shaxs – Behbudiy Turkiston jadidchilik harakatining rahnamosi bo'lgan va Samarqandda matbuotimiz tamal toshini qo'ygan, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

XX asrning yirik namoyondasi, yangi maktab g'oyasining nazariyotchisi hamda noshir va jurnalist - Mahmudxo'ja Behbudiy tarixda o'chmas nom qoldirgan. Bobomiz maktab rivoji uchun, oddiy xalq farzandlarining savodli, ilmi bo'lib ulg'ayishi uchun qo'lidan kelgan bor imkoniyatlarini yuzaga chiqargan.

Bir o'rinda shunday yozadi: “Sharq tarixi adabiyasi butun dunyo adabiyoti orasida singirsiz, misli yo'q bir bog'chadir. Bu go'zal bog'chadag'I gullarni saralab ko'rmakchi bo'lsak, birinchi sirada, qatorda arab ham eron gullarini, ikkinchi sirada esa, urdu ham turk chechaklarini ko'ramiz” [1, 131-bet]. Asosli qayd qilib ovtilganidek, turk chechaklarini avlodlar izchillik bilan davom ettirib kelganligini alohida qayd qilib ovtamiz.

Akademik Nayim Karimov ta'kidlaganidek: “Jadidchilik harakati 1905-1917-yillarda yangi makta, matbuot, adabiyot va teatr, shuningdek, namoyishlarni tashkil qilish orqali xalq ommasiga mauayyan ta'sir o'tkazdi” [2, 29-bet]. Jadidlarning har bir harakati, davr va taraqqiyot uchun katta hissa bo'lib qovshilgan.

Jadidlar Toshkentda 1905-1906- yillarda “Taraqqiy” nomli birinchi o'zbek gazetasini yaratgan, unga o'zbek xalqining taniqli vakili – Ismoil Obidov muharrirlik qilgan. “Xurshid” gazetasining muharriri Munavvarqori Abdurashidxonov bo'lgan. Shuningdek, muharrirlar nashriyotlarda muayyan matnni turli jihatdan tahrir qilib, xato va kamchiliklarini to'g'rilab, bosmaga tayyorlovchi xodimlardir.

1907-1908- yillarda “Shuhrat” gazetasi yaratilgan, unga va “Turon” gazetasiga ham Abdulla Avloniy muharrirlik qilgan. “Osiyo” gazetasiga Ahmadjon Bektemirov, “Tujjor”ga Saidkarimboy Saidazimboy o'g'li muharrirlik qilgan. Buxoroda ham 1912-yilda “Buxoroyi sharif” yaratilgan, Mirzo Jalol Yusufzoda muharrirlik qilgan. “Turon” da G'iyos Maxsum Husayniy va boshqalar muharrirlik

faoliyatini yuritgan. Samarqandda ham bir necha gazetalar yaratilib, ommaga havola etilgan. “Samarqand”ga Mahmudxo‘ja Behbudiy muharrirlik qilgan. Toshkentda “Sadoyi Turkiston” nashr qilingan, muharriri Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayevo‘lgan.

Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayevo ham jadidchilik harakatining yirik vakili va o‘zbek matbuotining ilk tashkilotchilaridan biri, hamda “Turon” jamiyatining asoschilaridan bo‘lgan. Qo‘qonda “Sadoyi Farg‘ona” gazetasi nashr qilingan va unda Obidjon Mahmudov muharrirlik faoliyatini yuritgan. Samarqandda Mahmudxo‘ja Behbudiy faqat gazetachilik bilan cheklanib qolmasdan, 1913-1915-yillarda “Oyina” jurnalini ham nashr etgan va muharrirlik qilgan. Toshkentda esa 1915-yillarda “Al-isloh” jurnaliga Abdurahmon Sodiq o‘g‘li muharrirlik qilgan. Shular qatori muharrirlik faoliyatida Munavvarqori, Ahmad Zakiy Validiy, Abdulla Battol, Temurbek Xudoyorxonov, Akobir Shomansurov, Abdurauf Fitrat, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Ashurali Zohiriy kabi o‘zbek xalqining zabardast vakillari tinimsiz mehnatda va izlanishda bo‘lgan. Biz bilamizki, barcha buyuk bobokalonlarimiz avlodlarga ma’naviy meros qoldirishga harakat qilib, qimmatli ma’lumotlarni yozib qoldirgan.

Shuning uchun yosh avlodning ajdodlarga munosib bo‘lishi, ilmi kadr bo‘lib yetishishi, tarixga befarq bo‘lmasdan, ularni o‘qib, o‘rganishi darkor hisoblanadi. Jadidchilik davrida jadid matbuoti o‘z vakillarining xalqni har vaqt g‘aflat uyqusidan uyg‘otishga, Turkiston elini hur fikrlashga o‘rgata oladigan, katta siyosiy kurashga hozirlay oladigan fikrlarini taqdim etishga harakat qilgan. Buning uchun, albatta, muharrirlarning mehnati ham katta ahamiyat kasb etishi barchamizga ayon. Ushbu kasb egalari katta malakaga ham ega bo‘ladilar.

Darhaqiqat, millat ma’naviyatini isloh etish, odamlarni ma’rifatli qilish, olamga ochiq nazar bilan boqishga o‘rgatish va mudroq tafakkurni uyg‘otishning eng asosiy omili adabiyotdir. Buning uchun, albatta, matbuotning qadri baland bo‘lmog‘i zarur. Chunki, matbuot fikrlar tilmochi, insonlar ongining quyoshidir. Shuning uchun barcha kitob, gazeta va jurnallarning nomlari ezgu niyatlarga moslab tanlanmog‘i ham bejiz emas.

O‘zbek matbuoti tarixida jadid ziyolilari nashr qilgan gazeta va jurnallarning son-sanog‘i va ularga bo‘lgan ehtiyoj juda ko‘p bo‘lgan. Haqiqatan ham, matbuot insonlarni ma’naviyat ufqlari sari parvozga chorlagan jadidchilik harakatining keng quloqli qanoti kabidir. Shu bilan birga jurnal va gazetalarning haqiqatni aytish borasidagi jasorati ham, ularda faoliyat yuritgan muharrirlarning mehnati ham tahsinga loyiqdir. Hozirgi kunda ham nashriyot sohasiga, muharrirlik faoliyatiga katta e’tibor qaratilmoqda.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning nashriyot, noshirlik sohasini rivojlantirish borasidagi qarorlari e’lon qilinib, universitetlarda shu sohaga oid yo‘nalishlar faoliyati yo‘lga qo‘yilganligining zamirida ham juda katta mohiyat mavjud.

Nashriyot xodimlarining, muharrirning asosiy vazifalari kitobning jamiyatdagi faoliyati, butun jamiyat va har bir kitobxon guruhining alohida kitobxonlik ehtiyojlarini qondirish bilan belgilanadi. Shunday ekan, nashriyot

sohasini yanada rivojlantirish va muharrirlik sohasini keng targ'ib qilish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, jadid adabiyoti boshlab bergan an'analar bugungi kunda ham o'zining tarixiy ahamiyatini yo'qotgan emas.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Fitrat Mahmudxo'ja. Tanlangan asarlar. IV jild. – Toshkent, “Ma'naviyat”, 2006. – 336 bet.

2. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. Birinchi kitob. – Toshkent, “O'zbekiston”, 2008. – 536 bet.

### **“MURODXON” DOSTONINING O'RGANILISHI**

*Tursunqulov Nurali Shuhrat o'g'li,  
JDPI magistri*

*Ilmiy rahbar: f.f.n. dots. Tursunqulov Abbas*

O'zbek xalq og'zaki ijodi mavzu jihatdan g'oyatda kengligi, badiiy go'zalligi, g'oyaviy ko'lamdorligi bilan doimo boshqa san'at turlaridan farqlanib turadi. Ayniqsa, o'zbek xalq dostonlari xalqimizning ma'naviy-marifiy, falsafiy-badiiy tafakkurini o'stirishga yosh avlodni komil inson sifatida shakllantirishga bebaho xizmat qilib keladi. [1,5]

Muhtaram Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov aytganlaridek: “Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q”. Har bir millat, har bir xalq o'z o'tmishi silsilalaridan xabardor bo'lmog'i kerak. Ota-bobolarimizga chuqur hurmat, ular bosib o'tgan uzoq va zaxmatli yo'lni anglash, mashaqqatlari bilan tanishish, bugungi kun yoshlarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga, vatanni qadrlashga bevosita turtki bo'ladi. O'tgan asrlar mobaynida xalqimiz boshidan kechirgan qiyinchiliklar va mashaqqatlar nima sababdan kelib chiqqanini, bunday og'ir ahvolga qay tarzda ro'baro bo'lganini bugungi kun yoshlarimizga tushuntirish asosiy vazifalardan biri bo'lib kelmoqda. Shu maqsadda “topgan gul, topmagan bir bog' piyoz” deganlariday kamina ham qulfi hofizasi yetguncha, xalqimizning ma'naviy boyliklaridan biri bo'lgan xalq og'zaki ijodi namunalariga murojat etib, “shu ulug' binoga bir g'isht qo'yomoqqa” bel bog'ladi.

Bugungi kunda dushmanlar qurol-yarog' bilan emas, g'oyalar bilan hujumga o'tishmoqda. Ma'naviyati, mafkurasi sayoz bo'lgan xalqlarni osonlikcha, qon to'kmasdan qaram qilib olishmoqda. Bizning kabi yangi rivojlanayotgan davlatlar oldidagi dolzarb masala mafkuraviy dunyoqarashni kengaytirish, “g'oyaga qarshi g'oya, fikrga qarshi fikr” bilan javob qaytarishdir. Birinchi prezidentimiz aytganlaridek: “Biz yurtimizni yangi bosqichga yangi marraga olib chiqmoqchi ekanmiz, bunda bizga yorug' g'oya kerak. Bu g'oyaning zamirida xalqimizning o'zligini anglashi yotadi. Haqqoniy tarixni bilmasdan turib esa, o'zlikni anglash mumkin emas” [1, 29]



Ta'kidlash joiz bo'lsa, shu maqsad yo'lida hamma bir yoqadan bosh chiqarib mehnat qilishmoqda va bu yo'lida ijobiy natijalarga ham erishilyapti. "Ota-bobolarimizning asrlar davomida to'plagan hayotiy tajribalari, diniy, axloqiy, ilmiy qarashlarini o'zida mujassam etgan bu nodir asarlarni jiddiy o'rganish davri keldi. Ezgu fazilat va intilishlar xalqimizning qon-qoni va suyak- suyagiga singib ketgan. Uning tabiatiga xos bo'lgan yuksak ma'naviyat necha asrlarki bizni ne-ne baloqazolardan, to'fon va bo'ronlardan sog'-omon asrab kelmoqda [2, 5] Qadim ajdodlarimizdan qolgan moddiy va ma'naviy meroslarni saqlash, ularni asrab avaylash har birimizning muqaddas burchimizdir. Shu aqidaga muvofiq xalq og'zaki ijodida ham salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Birgina XIX-asrning 20-yillaridan boshlab yo'qolib ketayotgan xalq og'zaki ijodi bebaho namunalarining aksariyat qismi olimlarimiz va baxshilarimizning zalvorli mehnatlari evaziga saqlab qolindi.

Ta'kidlash joizki, o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalarining boyligi jihatidan boshqa biror xalqdan qolishmaydi. Boy o'tmish, rang-barang tarix, hozirjavob va mehnatkash ota-bobolarimiz borligi, og'zaki ijodimizning qashshoq bo'lishiga yo'l qo'ymaydi. Shunga ko'ra adabiy turlarning epik turiga mansub bo'lgan xalq og'zaki ijodi namunalari adabiyot xazinamizning katta qismini tashkil etadi. Maqol, matal, topishmoq, ertak, afsona, rivoyat, lapar, latifa, aytishuvlar, termalar, xalq qo'shiqlari va h.k. Bu janrlarni yana ancha davom ettirishimiz mumkin. Ularning har biri olam-olam ijodiy merosdir. Shulardan xalq dostonlarini olib qarajak, hozirgi kunga qadar xalq dostonlarining bir yuz ellikdan ortiq namunalari baxshilarimiz tilidan yozib olingan, bular qatorida variantli dostonlarimiz ham mavjud bo'lib, Go'ro'g'li dostonlar turkumining yuzga yaqin, Alpomish dostonlar turkumining qirqdan ortiq variantlari yozib olinib saqlanadi. Bugungi kunga qadar to'rt yuzdan ortiq xalq ko'nglidan joy olib, asrlar osha og'izdan-og'izga o'tib, adabiyot xazinasidan munosib joy olgan dostonlarimiz yetib kelgan. Har bir og'zaki ijod namunasi xalqning orzu-istaklari, o'y-hayollari, maqsad-intilishlari, kasb-korlari, hunarlari inikosi asosida dunyoga keladi. Hech bir ijod namunasini xalqdan ayro tasavvur etib bo'lmaydi. "Har bir xalq yoki elat, avvalo tarixi, madaniy birligi bilan ajralib turadi. O'zbek xalqi ham uzoq tarixiy davr mobaynida shakllanib, juda ko'p ilmiy-madaniy xususiyatlarga ega bo'ldi. O'tmish ajdodlarimiz an'analari qadriyatlarini asrdan-asrga, avlodlardan-avlodga saqlanib, taraqqiy topib keldi. Xususan, milliy-madaniy xususiyatlarimizning saqlanib qolishida xalq og'zaki badiiy ijodining roli beqiyos bo'ldi. Jumladan, xalqimizning o'ziga xos urf-odat va marosimlari, bola tarbiyasi, mehmonnavozlik tabiati, axloq-odob qoidalari, pazandachilik malakasi, mehnat va turmush tarzi tartiblari folklor asarlari orqali bizgacha yetib keldi". [3,630] Nadomatlar bo'lsinki, xalq og'zaki ijodining eng qadimgi namunalari to'liq holda bizgacha yetib kelmagan. Eng qadimgi folklor taxminan insoniyat paydo bo'lgan davrga borib taqaladi Odam va uning nasli yerda yashab boshlagandan buyon og'zaki ijod uning doimiy hamrohi bo'lib keladi. Xalq og'zaki ijodini hali yozuv yaratilmagan vaqtlardan buyon, kishilarning og'izdan-og'izga ko'chirib, avlodlardan-avlodga yetkazib kelishgani jasorat. Kuylashga 2-3, hatto 5-6 kun talab qilinadigan dostonlarimizdan bugungi

avlod ham bahra olayotgani esa katta mo'jizadir. Shunday mo'jizalardan biri "Murodxon" dostonidir. Ushbu dostonning yaratilganiga 1200 yil bo'lgan deb taxmin qilinadi. Bunga yetarlicha dalil va isbotlar keltirilgan. "Murodxon" dostonini 1928-yil taniqli folklorshunos olim Muhammad Iso Ernazar o'g'li Fozil Yo'ldosh o'g'lidan yozib oldi va bu bebaho nusxa O'zbekiston Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti folklori arxivida 9-inventar raqami ostida saqlanmoqda. qo'lyozma arab imlosida bo'lib, 168 sahifani tashkil etadi. Doston ilk marotaba Shokir Sulaymon tomonidan 1941-yilda Toshkentda chop etilgan. Kitob 125 sahifadan iborat" [4,125] "Oradan ko'p o'tmay ya'ni 1956-yilda "Murodxon"dostonining birmuncha kengroq va to'liqroq variantini taniqli o'zbek olimlari Holid Rasul va M. Afzalovlar tayyorlashdi. Bu nashr oldingi nashrlardan to'laligi bilan farqlanadi, chunki bu doston 148 sahifani tashkil etadi"[5,6] "1957 yilda ham "Murodxon" dostoni qayta nashrga tayyorlanib, O'zbek xalq dostonlari ikki tomligining 2-jildidagi"[6,87-239] "Yodgor", "Balogardon", "Intizor", "Orzigul" kabi xalq dostonlari bilan bir qatorda nashr etildi, va bu nashr hozirgacha nashr etilgan Murodxon dostonining eng to'liq varianti bo'lib kelmoqda. Doston 152 sahifani tashkil etadi.

Bugungi kunga qadar "Murodxon" dostoni bir qancha folklorshunos olimlarimiz tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, folklorshunos olim Otauli (Rahimjon Otayev) ning "Murodxon" dostoni haqida ba'zi qaydlar"i 1973-yilda Fozil Yo'ldosh o'g'li" jamoaviy to'plamida bosildi[7,86-91]. Olim o'z maqolasida ushbu dostonning Rustam turkumidagi dostonlar sirasiga kirishini e'tirof etib o'tadi. "Murodxon" dostonining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari haqida Mahmuda Obidovanning "Rustam turkumidagi dostonlar"ida Aynan Murodxon Rustamxonning bobosi ekanligini va bu doston "Rustam" turkumidagi dostonlarning debochasi ekanligini isbotlab berdi. "Rustamxon" turkumidagi dostonlar beshta bo'lib, ularning uchtasi bevosita Oqtosh viloyatining bahodiri Rustamxonning epik biografiyasiga bag'ishlangan. Ular "Rustamxon" "Oftob pari yoki (Oftoboy), "Rustamning yaralanishi" bulardan tashqari baxshilar repertuarida Rustamning otasi Sultonxon hamda bobosi Murodxonga bag'ishlangan "Sultonxon" va "Murodxon" deb atalgan ikkita doston ham bo'lgan[7, 33-59]. Keyinchalik folklorshunos olim, filologiya fanlari doktori Salima Mirzayeva "Murodxon" dostonining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari nomli risolasini e'lon qildi[5,1-45]. S. Mirzayeva o'z risolasida M. Obidova so'zlariga tayangan holda Murodxon dostonining g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini ochib berishga harakat qiladi va yaxshi natijalar ko'rsatdi. Ammo aytish kerakki, M. Obidova "Murodxon" dostonini genetik va qiyosiy tahlilga tortib uning boshqa dostonlar bilan aloqasini o'rgangan bo'lsada, uning ko'pgina mulohazalari ilmiy farazligicha qolmoqda. Olima Murodxon va Rustamxon dostonlaridagi badiiy detallarga tayanib yozib olinmagan Sultonxon, Rustamning yaralanishi, Oftob pari (Oftoboy) dostonlari syujetini tiklashga urinib ko'radi. S.Mirzayeva dostonning g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini mahorat bilan ochib bergan, ammo olim ramziy obrazlarga, motiv xususiyatlariga, badiiy san'atlarning qo'llanilish mahoratiga yetarlicha

e'tibor qaratmagan. Bu holat esa dostonni yanada chuqurroq o'rganishni taqozo etadigan omillardan bo'lib hisoblanadi.

Yuqorida aytganimizdek, "Murodxon" dostoni to'laligicha ishqiy-qahramonlik dostonlar turiga kiradi. Hamma ishqiy-qahramonlik dostonlarida bo'lgan xususiyatlar ushbu dostonni ham chetlab o'tmagan. Dostonda sevgi-muhabbat ulug'lanadi shu bilan birga adolatga tashnalik, o'zaro ishonch, do'stlik, hurmat-e'tibor, mehmonnavozlik, jasorat, adolat, sadoqat kabi fazilatlar yuksak qadrlanadi. Bu kabi ezgu fazilatlariga yo'g'rilgan dostonni bugungi kun kitobxoniga yaqindan tanishtirish, adabiyot ixlosmandi sifatida oliy burchimizdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Jirmunskiy V, Zarifov X. O'zbek xalq qahramonlik dostoni. –Moskva 1947,
2. I.A.Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Toshkent "Sharq" nashriyoti, 1998-yil.
3. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. Toshkent."Ma'naviyat". 2008-yil.
4. M. Obidova. O'zbek xalqining folklor san'ati hamda folklor etnografik jamoalarining musiqa san'ati rivojida tutgan o'rni "Scientific progress" Scientific Journal
5. "Murodxon" nashrga tayyorlovchi Shokir Sulaymon. –T., 1941-yil
6. S Mirzayeva "Murodxon" dostonining g'oyaviy badiiy xususiyatlari "Hayot" nashriyoti Andijon 2004-yil
7. "Murodxon" nashrga tayyorlovchilar H.Rasul, M. Afzalov. O'zbek xalq dostonlari. 2-tom.1-nashri. Toshkent, 1957-yil 87-239-betlar.
8. Otayev R "Murodxon" dostoni to'g'risida ba'zi qaydlar. Fozil shoir. O'zbek xalq ijodi bo'yicha tadqiqotlar. 3-kitob. Toshkent "Fan".1973, 86-91-betlar
9. Obidova M "Rustam turkumidagi dostonlar. Toshkent, 1982, 33-59-betlar

#### O'TKIR HOSHIMOV ASARALARIDA BADIY MATN QISMLARINI BOG'LOVCHI VOSITALAR

*Qosimova Mashhura Olimjonovna,  
JDPI magistranti  
Ilmiy rahbar: f.f.f.d. (PhD)  
Abduvaliyeva Dilnoza Akramovna*

Tilshunoslik terminlarining izohli lug'atida matnga shunday ta'rif beriladi: matn – yonma-yon harflar, yozuv orqali aks ettirilgan nutq, umuman, nutq parchasi; tekst [TTIL, 55]. Matn kamida ikkita gapdan tuzilgan murakkab sintaktik butunlikdir. Gaplar o'zaro turli sintaktik aloqa vositalari yordamida birikadi. Ularga takroriy bo'laklar, olmoshlar, xiazmatik konstruktsiyalar, zamon va makon ifodalovchi birliklar, kesimlarning zamon shakllari, modal so'zlar kabi turli leksik-grammatik birliklar kiradi [Yo'ldoshev M. BMLT, 32]. Tilshunos olim A.Mamajonov matn komponentlari o'rtasida

mustahkam sintaktik aloqa majudligini ta'kidlaydi va bu aloqaning o'ziga xosligini «Tekst lingvistikasi» deb nomlangan risolasida quyidagicha izohlaydi: «Bizningcha, sintaktik aloqaning bu turi qo'shma gap komponentlari orasidagi grammatik aloqaga o'xshab ketadi, faqat murakkabroq ko'rinishda yuzaga chiqadi. Ma'lumki, qo'shma gap komponentlari orasida biriktirish, qiyoslash, zidlash, sabab-natija, shart-payt, aniqlash, izohlash kabi mazmuniy munosabatlar ifodalanadi. Bu munosabatlar qo'shma gapning uch turi: bog'lovchisiz, bog'langan va ergash gapli qo'shma gaplarda komponentlarni o'zaro biriktiruvchi sintaktik aloqa vositalari: intonatsiya, bog'lovchilar, bog'lovchi vazifasidagi so'zlar, gap bo'laklari tartibi, olmoshlar, ayrim so'zlarning takrorlanishi, umumiy ikkinchi darajali bo'laklar, kesimlarning zamon munosabati kabilar orqali reallashadi. Ko'rinadiki, qo'shma gaplarda sintaktik aloqa predikatsiyalar orasida o'rnatiladi. Matnda esa sintaktik aloqa bir butun gaplar, superfrazali sintaktik butunliklar, abzatslar, qismlar, bo'limlar, boblar o'rtasida yuzaga chiqib uning mazmuniy va struktural birligini ta'minlaydi» [Mamajonov A. TL. 15].

O'tkir Hoshimov asarlari badiiy matni tili o'zining sodda, tushunarli, o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Unda bir qancha badiiy matn qismlarini bog'lovchi vositalardan unumli foydalanilgan. Quyida ulardan ayrimlarini tahlilga tortamiz. Badiiy matn qismlarini bog'lashga xizmat qiluvchi eng faol vositalardan biri bu kesimlik shakllari hisoblanadi. Fe'l-kesimlarning bir xil zamonda shakllanganligi matn butunligini ta'minlaydigan vositalardandir: *Erta tongda odamlarning g'ovurg'uvuri, eshaklarning hangrashidan uyg'onib ketardi. Shudringdan ho'l bo'lib ketgan jingalak sochlarini silab o'rnidan turar, uvishib qolgan qo'llarini uqalab-uqalab qo'yardi* [SQ;37]. *Shalaq arava tepalik ustiga chiqqanda to'xtadi. Tirkash tag'in burilib orqaga qaradi* [SQ;24]. Bunday holat ot kesimlarda ham kuzatiladi: *Ona yosh edi. Ona navjuvon edi. Bola g'or edi, bola go'dak edi...* [DHB:4]. Yoki "Umr" deb nomlangan matnda bu holat ham fe'l kesim, ham ot kesimlar misolida namoyon bo'ladi:

**Tanishdilar...**

**Sevishdilar...**

**Turmush qurdilar...**

**Farzand ko'rdilar...**

*To'ng'ichi nimjonroq edi. Kasal bo'lib, ko'p kuydirdi...*

*O'rtanchasi o'yinqaroq edi... Qamalib chiqdi...*

*Kenjasi qiz edi... Erkarroq o'sdi. Turmushi buzildi...* [DHB:4].

Badiiy matn qismlari olmoshlar yordamida birikkanda matnning birinchi komponenti tarkibidagi ot, sifat, son turkumidagi so'zning keyingi komponentlarda olmosh so'zlar bilan almashtirilishi tushuniladi. O'tkir Hoshimov asarlari matnida olmoshlar yordamida bog'lanish holatlari ancha faol. Buni O'tkir Hoshimov qalamiga mansub "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" asaridan olingan "Sevgi" deb nomlangan quyidagi matnda kuzatishimiz mumkin: *Avvaliga bir-birlarini tanimas edilar. Ularni sevgi degan g'aroyib kuch topishtirdi. Ular ana shu kuch sehriga maftun bo'lib qoldilar. Ajab, Sevgi hech qachon yolg'iz yurmas ekan. Unga Hijron degan alanga ergashib keldi. Ular ana shu alanga otashida baravar kuya*



*boshladilar. Nihoyat, Hijron alangasi so'ndi-yu, sevgi Visol degan entiktiruvchi tyg'uni yetaklab keldi. Endi ular baxtiyor edilar. Ajab, Sevgi hech qachon yolg'iz yurmas ekan. Endi I Sinov degan to'siqni yetaklab keldi. Agar ular Sevgining qo'lidan mahkam tutishganida bu to'siqdan o'tishlari mushkul emasdi. Ammo bunday bo'lmadi. Ular sinov oldida chekindilar. O'rtada Shubha, Rashk degan sharpalar o'rmalab qoldi. Shunda ular o'zlarini topishtirgan Sevgiga ilk bor ta'na toshi otdilar. Sevgi shunda ham ularni kechirdi. Sabot, Mehr degan kuchlarga oshno qilishga urindi. Ammo ular Sabotni ham, Mehrni ham unutdilar. O'zlarini topishtirgan Sevgi degan "yovuz kuch"ga la'nat aytdilar! Shunda... Ularning qismatiga Xiyonat kirib keldi! Ular Sevgini ayblay-ayblay, oxiri... ajrashdilar... Qismat chorrahasida esa uchta begunoh go'dak chirqillab qoldi. Besh yashar o'g'il, uch yashar qizaloq va... yetim qolgan Sevgi... [DHB;12]*

Birinchi gapda qo'llangan ayrim affikslar, so'z, so'z birikmasi yoki gaplarning keyingi komponentlar tarkibida takroran qo'llanishi orqali matn shakllantirilishi mumkin. Takror usulidan aytilayotgan fikrni alohida ta'kidlash, tasdiqlash, kengroq, batafsilroq ifodalash maqsadida foydalaniladi. Nutqning ta'sirchanligi ortadi. «Leksik takrorlar, olmoshlar va sinonimlar yordamida hosil qilinadigan aloqa zanjirli aloqa, bir xil grammatik formalar bilan boshlanuvchi yoki tugallanuvchi komponentlar yig'indisidan tashkil topadigan aloqa parallel aloqa deyiladi.» [Mamajonov A. TL. 18]. O'tkir Hoshimov asarlarida matnning takrorlar yordamida birikish usuli ham o'ziga xos uslubiy vazifa bajarishga xizmat qilgan. «Daftar hoshiyasidagi bitiklar»dan keltirilgan quyidagi parchada **shart maylidagi fe'l + hayron bo'lmang** shaklidagi takror yozuvchi tomonidan aytilmoqchi bo'lgan fikrni ta'kidlash asnosida uni tasdiqlash, kengroq, batafsilroq ifoda etishga ham erishilgan.

*Ishdan nega kech kelganingizni surishtirsa, hayron bo'lmang.*

*Bo'yinbog'ingizni yechishga ko'maklashish bahonasida yoqangizni hidlab ko'rsa, hayron bo'lmang.*

*Majlisda nima masala ko'rilganini so'rasa, hayron bo'lmang.*

*Majlisda necha kishi qatnashganligini so'rasa, hayron bo'lmang.*

*Kimning yonida o'tirganingizni so'rasa, hayron bo'lmang.*

*Telefoningizning rangi qanaqaligini so'rasa, hayron bo'lmang.*

*Necha kishi qo'ng'iroq qilganini so'rasa, hayron bo'lmang.*

*Qayerda tushlik qilganingizni so'rasa, hayron bo'lmang.*

*Bufet nechanchi qavatdaligini so'rasa, hayron bo'lmang.*

*Nima ovqat yeganingizni so'rasa, hayron bo'lmang.*

*Bufetchining yoshi nechadaligini so'rasa, hayron bo'lmang.*

*Sizga choyni qaysi qo'li bilan uzatganini so'rasa, hayron bo'lmang!*

*Boringki, o'tob qaysi tomondan chiqqanini so'rasayam hayron bo'lmang.*

*Qiziquvchanlik-ayolning tabiiy odati! [DHB;9]*

Matn qismlarining xiazmatik konstruksiyalar yordamida bog'lanishi O'tkir Hoshimov asarlarining o'ziga xosligini ta'minlovchi xususiyatlardandir. Xiazm asosan, ikkita gapdan tashkil topgan matn ko'rinishlarida uchraydi. Xiazm «X» harfi shaklida namoyon bo'luvchi uslubiy vositadir. Ikkinchi gap birinchi gap



komponentlarining teskari tarzda joylashuvidir. Bunda yozuvchining asosiy maqsadi ikkinchi gapda berilgan bo'ladi. Birinchi gap ikkinchi gapdan anglashiladigan ma'noni bo'rttirib ifodalashga xizmat qiladi [Ma'rufjon Yo'ldoshev, BMLX, 36]. Masalan, "Kuch va adolat" haqida muallif shunday yozadi: *Adolat kuchga bo'sungan yurt – vayron yurt. Kuch adolatga bo'ysungan yurt – bo'ston yurt* [DHB, 9]. Yoki, *Shijoatli bo'l. Biroq andishasiz bo'lma. Andishali bo'l. Biroq shijoatsiz bo'lma.* (O'. Hoshimov) Xiazm badiiy matnda ikki komponent mazmunini o'zaro zidlik kasb etishi yoki aksincha, bir-birini mantiqan to'ldirishi asosida uslubiy-semantik vazifa bajaradi. Shuningdek, o'quvchi yoki tinglovchiga zavq bag'ishlash, fikrni tez va uzoq vaqt esda saqlab qolishiga xizmat qilishi nazarda tutiladi va bu bilan ekspressiv vazifa bajaradi.

Zamon va makon ifodalovchi birliklar yordamida ham matnni shakllantirish va uning komponentlarini bog'lash mumkin. Badiiy asardagi voqea-hodisalar muayyan vaqt asosida ro'yobga chiqadi. Faqat badiiy asardagi vaqt tushunchasi real hayotdagi vaqt muntazamligidan farq qiladi. «Vaqt ma'noli leksemalar matn qismlarini distant (masofasiz, bilvosita) va kontakt (masofali, bevosita) bog'lash uchun xizmat qiladi. Ayrim temporal so'zlar leksik-grammatik bog'lovchi vazifasini bajarib, matndagi xronologik ketma-ketlik, izchillikni aks ettirib turadi» [Ҳақимова М.К. Ўзбек тилида вақт маъноли луғавий бирликлар ва уларнинг матн шакллантириш имкониятлари. НД., - Фарғона, 2004, 135-б.]

*Erta bahor edi. Hordiq kuni edi. Kech turdim. Hovliga tushsam havoning avzoyi buzuq. Yuvinib chiqib qaragam, tuuka tom peshidagi tarnov bir tomonga qiyshayib yotibdi. Qishda yog'gan qor zalvoridan qiyshayib qolgan, shekilli...* [O'.H. Hurkitilgan qush.Ziyonashr. –Toshkent, 2019. 138-b.] Yoki, *Ertalab-chi, oyi, yomg'ir yog'di. Qattiq yomg'ir yog'di. Siz bahor yomg'irini yaxshi ko'rardingiz... Keyin oftob chiqib ketdi. Qarang, oftob charaqlab yotibdi...* (O'. Hoshimov, DI). Ushbu matnning shakllanishida vaqt ma'noli birliklarning alohida xizmati bor. Birinchi gapda **ertalab** leksemasi yordamida sutkaning shu qismida sodir bo'lgan tabiat hodisasi haqidagi informatsiya ifodalanyapti. Keyingi gaplarda ifodalangan hodisalar ham ayni vaqt birligida ketma-ketlikda ro'yobga chiqqan. Ya'ni: ertalab → yomg'ir yog'di → qattiq yog'di → oftob chiqdi → charaqlab ketdi. [BMULT, MY, 36-b.]

Makonni bildiradigan leksemalar ham matnni shakllantiruvchi vosita bo'la oladi. Odatda yozuvchilar voqea sodir bo'layotgan makonni batafsil tasvirlashga harakat qiladilar. Makon ma'noli leksema keltirildimi, albatta uning tavsifi ham beriladi. Shu tarzda matn yuzaga keladi. Gaplar o'zaro kontakt va distant aloqaga kirishadi [BMULT, MY, 36-b.] *Barak ichi yorug'. Uzun shiftning to'rt joyida lampochka bor. Ikki qavat qator-qator so'rilar, so'rilarida har kim o'z uyidan olib kelgan ko'rpa-to'shaklar. Barak, o'rtasidan kop tutib, ikkiga bo'lingan. Bir tomonida o'g'il bolalar, bir tomonida qizlar yotadi. O'rtada uzun yog'och stol. Stolning ikki tomoniga harraklar qo'yilgan. Bolalar shu stolda ovqatlanishadi. Bir tomonda qizlar tizilib o'tiradi, bir tomonda o'g'il bolalar. Stol yonida Omonulla Rustamovning yig'ma karavoti.* [O'.H. Sevgi qissalari. – T. O'zbekiston, 2013]

Nominativ (atov) va infinitiv gaplar ham matnni shakllantiruvchi sintaktik birliklar hisoblanadi. Atov gaplar bosh kelishikdagi ot orqali ifodalangan grammatik asos yordamida ifodalangan narsa-buyumning mavjudligini anglatadi. Atov gaplar matnda yolg'iz qo'llanmaydi, ulardan keyin atov gap mazmunini ochuvchi, tavsiflovchi boshqa gap yoki gaplar keltiriladi. Natijada matn hosil bo'ladi. Masalan, *Dostonlarda urush. Kitoblarda urush. Kinolarda urush... Tabaqalar urushi. Fuqarolar urushi. Mamlakatlar urushi. Jahon urushi. Olimlarning hisob-kitoblariga qaraganda, so'nggi olti ming yil ichida Yer kurrasida 5700 marta urush bo'lgan ekan.* [O'.H. DHB, 19]

Infinitiv gaplar grammatik asosi harakat nomi bilan ifodalanadigan, yakka so'z yoki so'z birikmasidan iborat bo'lgan gaplardir: *Sevmoq! Bu toshga qarab ham gulni ko'rmoqdir.* Yoki, *Kutish! Soniyalar daqiqalarga, daqiqalar soatlarga aylanadigan bekat.*

Murojaat birliklari kundalik hayotimizda, nutq faoliyatida – nutq jarayonida keng qo'llaniladigan, o'zaro aloqa aralashuvga faol xizmat qiladigan, so'zlovchining tinglovchiga bo'lgan munosabatini ifodalaydigan, o'zida turli modal ma'nolarni tashiydigan o'tkir, ta'sirchan vositadir. Murojaat birliklaridan nutqda tinglovchi e'tiborini tortish, xitob qilish, undash kabi maqsadlarda foydalaniladi. Bunday birliklarda so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi yaqinlik, hurmat, ishonch; masofa (subordinatsiya), hurmatsizlik, ishonchsizlik kabi kommunikativ munosabatlar ham ifodalangan bo'ladi. [M.Y.BMULX, 39] O'tkir Hoshimovning "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" asarida murojaat birliklari faol qo'llangan. Masalan: *Ayollar! Yig'lab ko'nglingizni bo'shatishdek ne'matni ato etgani uchun Yaratganga shukronalar qiling!* [DHB, 17]

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari – T: «Fan», 2007.
2. Hoshimov O'. Daftar hoshiyasidagi bitiklar – T: 2006.
3. Hoshimov O'. Sevgi qissalari. – T. O'zbekiston, 2013.

#### ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATIDA MA'RIFIY G'OYALARNING BADIY TARANNUMI

*Usmanova Dildora Sheraliyevna,  
SamDU magistri*

Inson tafakkurini boyitish, ma'naviyatini yuksaltirishda lirik asarlar beqiyos ma'rifiy qudratga ega. Lirik turdagi asarlar uchun asosiy narsa tuyg'u va hissiyotga yo'g'irilgan hayotiy hikmat ifodasini berishdir. Bu turdagi asarlarda voqealar tasviri, xarakter mantig'i emas, ruhiy holat va hissiyot ifodasini berish, tuyg'ular samimiyatini muhrlash muhim hisoblanadi. Chinakam lirik she'r tinglovchiga faqat zavq beribgina qolmay, uning emotsional tafakkuri va ma'naviy-axloqiy quvvatini

uygʻotib, faoliyatga undaydi. “Samimiy lirik soʻz hatto real voqelik hodisalariga qaraganda ham inson ruhiyatiga kuchliroq taʼsir koʻrsatishi mumkinligi psixologiya ilmi xulosalaridan maʼlum”,-deydi adabiyotshunos olim Qozoqboy Yoʻldoshev [1, 74-bet].

Xalqimizning isteʼdodli shoiri Abdulla Oripov sheʼriyati ham ayni lirik xususiyatlarni oʻzida yorqin mujassam etgan badiiyat durdonalari, maʼrifat maktabi ekanligi bilan alohida diqqatga sazovor. Sheʼr moʻtadil holatning mevasi emas. U yo quvonch yo gʻam va yoki gʻazab onlarida tugʻilgan onning kayfiyati soʻzga shundoq koʻchib oʻtadi. Shoir ijodkorning samimiyligi ayni shunda koʻrinadi. Samimiylik esa sheʼriyatning tomiridagi qon.[2] A. Oripov sheʼrlari ham oʻz oʻzidan yozilgan emas. Yillar davomida turli sheʼrlar bitgan bu ijodkor sheʼrlarida oʻzgacha ruh ifoda kasb etadi.

XX asrning 60 yillaridan A. Oripov asarlari bilan boshlangan sifat oʻzgarishlar oʻzbek adabiyotini yangi bosqichlarga koʻtarishda muhim rol oʻynadi. Shoir oʻzining ilk sheʼriy toʻplami “Mitti yulduz” bilanoq koʻpchilikning naʼzariga tushdi. Bu haqda taniqli shoir Usmon Azim shunday yozadi “Uning toza, yuksak, samimiy hech kim - u hech narsadan hayiqmaydigan ovozi birdan Oʻzbekistonni larzaga soldi. Shoirning birinchi kitobi misli koʻrilmagan hayajon bilan kutib olindi. Gʻayrat va jasorat bilan yoʻgʻirilgan sheʼrlar yuraklarga, ruhlarga “Vatan” degan tugʻyonning mangu hayot muhabbatini sohib oʻtdi. Hozir biz “Oʻzbekiston Vatanim manim” deb joʻngina aytayotganimiz satrlarni u paytlarda hasrat-u gʻussalar ichida koʻz yoshlarimiz tirqirab yod aytganlarimiz yodimda” [3, 78-bet]

A. Oripov mustaqillik davrida Vatan, erk, ozodlikni tarannum etuvchi koʻplab yangi sheʼrlar yozdi. Yangi tarixiy sharoit ijodiga yangi toʻlqinlar olib kirdi. Haj safari natijasida tugʻilgan hamda hikmotomuz hadislar talqiniga bagʻishlangan falsafiy didaktik sheʼrlar soʻnggi bosqich oʻzbek adabiyoti ufqlarini kengaytirdi.

Shoirning baxti uning dardkash qalbidagi inja tuygʻularning samimiyligi, Vatan degan soʻzning butun salmogʻi, zalvori, shukuhini teran anglagandadir. Uning “Oʻzbekiston Vatanim manim” sheʼrida Oʻzbekiston alohida poetik koʻrkamlik bilan boʻy koʻrsatadi, oʻtmish va bugunni oʻzaro uygʻunlashtirib, oʻquvchini yurt sarhadlari tomon sayrga chorlaydi.

Shoirning millatsevarlik, vatanparvarlik kechinmalarini xalqning shonli tarixi, oʻtmishi ulugʻ bobobokalonlarini qismati bilan bogʻlab yozilgan asarlaridan yana biri oʻtgan asrning 70-yillarda yozilgan “Genetika” sheʼridir. Unda ijodkorning oʻtkir badiiy tafakkuri, yuksak maʼrifiy qiyofasi yorqin gavdalanib turadi. Sheʼr mazmunida oʻz millati tarixdan faxrlanish, yorqin kelajakka tamal toshi qoʻygan vatan oʻgʻlonlarini madh etish gʻoyalari ustuvor.

Bundan maqsad esa kelajak avlod qalbida o‘z millati tarixi, buyuk siymolari yurt fidoyilariga muhabbat va ehtirom tuyg‘ularini kamol toptirishdir.

Men ham yashayapman o‘z zamonimda,  
 Davrimdan qayga ham tushardim yiroq.  
 Va lekin bilmadim, mening qonimda  
 Qaysi bir bobomning xislati ko‘proq.  
 Barchaga barobar meros bu bashar,  
 Otadan qosh –ko‘zni olgan o‘g‘ildek,  
 Bilmadim qonimda qay ajdod yashar,  
 Balki bobo Kayfiy, balki Ulug‘bek.

Mazkur she‘rni o‘qigan har qanday kitobxon o‘z Vatani tarixiga o‘zgacha qiziqish va mehr bilan yondoshadi. Bobo Kayfiy, Ulug‘bek, Navoiy, Bobur singari ma‘rifatparvar, Shiroq, Muqanna singari fidoiy tinchlik posbonlari avlodi ekanligidan faxrlanib, ularga munosib izdosh bo‘lishga ezgu amallari bilan o‘zidan yaxshi nom qoldirib yashashga intiladi.

Samimiylik, lirik qahramonlar kuyunchakligi va dardchilligi poetik ifodalardagi nafosat, tildagi dilbar o‘ktamlik ,ularning o‘zaro uyg‘unligidagi yaxlitlik A.Oripov asarlariga joziba bag‘ishlaydi.

Abdulla Oripovning lirik qahramoni hech qachon haqiqat adolat tushunchasini tayyor qabul qiladigan yoxud ma‘qul kelmagani uchun qo‘lini bir siltab, inkor etadigan kishi emas. Bir qaraganda haqiqat va adolat barchaga ayon, hammaga ravshan tushunchadek, biroq uning inson qalbi orqali o‘tish va ro‘yobga chiqish jarayonlari shu qadar sir–sinoatli, ziddiyatliki, shoirning lirik qahramonlari ularning zamiriga yetishga intiluvchi, mushohadakor kishilardir. Qahramonni turli holatlarda namoyon bo‘lishidan tortib uning xalq, tarix, alohida bir vijdon dunyosi bilan bog‘lash nuqtalarigacha qiziqtiradi. “Bahor”, “Genetika” she‘rlarida maqsad ruhiy dunyoga falsafiy nazar tashlash orqali namoyon bo‘lsa, “Yurtim shamoli”, “Malomat toshlari” she‘rlarida bir qalbning yurt taqdiri ,umuminsoniy qadriyatlar bilan kesishgan nuqtalarini badiiy yoritish orqali amalga oshiriladi. “Yurtim shamoli” da shamol tushunchasi, shamol obrazi shoir talqinida, shunchaki biz bilgan ma‘nodan tashqari, chuqur falsafiy umumlashma darajasiga ko‘tariladi. Unda Vatan, adolat, tarix bilan aloqador ma‘nolar chirmashib ketadi.

Shamollar esgandur ushbu dunyoda,  
 Shamollar goh quyun,gohida dovul.  
 Ular goh oshkora, goh ro‘yoda,  
 Qancha bo‘stonlarni sovurgan butkul.  
 Lekin sen bo‘lmasin bog‘lar zavoli,  
 O, yurtim shamoli,yurtim shamoli.

Xalqimizning yana bir sevimli shoiri Erkin Vohidov Abdulla Oripovning poetik mahorati haqida fikr bildirib, shunday degan edi: “Barcha isyonkor shoirlar kabi Abdullaga ham oson bo‘lgan emas. Qattol tuzum qamchisidan u ham omon qolmagan, lekin ruhiy azoblar, siquvlar ming iztiroblar so‘nggida shoirga nasib bo‘lgan kattakon baxt shuki, u xalq mehrini qozondi, o‘zi kurashgan ozodlik va mustaqillik g‘oyasining kurtak yozganiga guvoh bo‘ldi. Shoir uchun bundan ortiq saodat yo‘q”.

Abdulla Oripov – realist, haqiqatparast shoir. U murakkab, ziddiyatli hayotning shabadalari haqida gapirganda haqiqatdan chekinmaydi. Chunki davr shamollari ichida o‘zi ham borligini yaxshi tushunadi. Shoirning “Yuzma – yuz” she‘ri insonning hayotdagi o‘rni ma‘naviy kamoloti haqida shoir orzulari, armonlari avj pardalarida kuylangan asardir. Uni janr tabiatiga ko‘ra, kichik lirik doston deyish mumkin.

Asar lirik qahramonning el-yurt bilan tarix, davr va ayniqsa, kelajak haqidagi to‘lqinlantirib, o‘ylantirib kelayotgan muhim muammolar xususidagi ochiq, yuzma – yuz dardlashuvdan tashkil topadi. Dunyodagi barcha kulfatlar adashishlar hamjihatlikning buzilishidan o‘ljani uy-uyiga tortib ketishdan boshlangan, deb boshlaydi asarni shoir. O‘lis moziyda o‘rmondan chiqqan mamontlar to‘dasi haqida gapirib kelar ekan, tarixda bizga undan ham yaxshyroq to‘dalar “har yondan guras-guras bostirib” kelganini ustalik bilan qistirib o‘tadi.

Hali yigirma uch yoshga kirib – kirmagan shoir tarix bilan bahslashadi, hatto dunyo adashadi, deyishga jur‘at etadi. Asarning lirik va epik qatlamlari hayotiy, bir – biri bilan o‘zaro mustahkam bog‘langan. Lirik qahramon tarix bilan, insoniyat bilan ajralmas birgalikda zohir bo‘ladi.

Men bir tajribasiz, g‘o‘r yigit, nechuk,  
Adashding deyapman, dunyoga hayhot.  
Abdulla, xanjarni o‘zingga urgin,  
Sen o‘zing adashmay o‘sdingmi, hayhot?.

Umrning halol, beg‘ubor davrini shoir obrazli tarzda umumlashtirib “yoshlik” deb ataydi. Gap bu yerda uning qanday atalishda emas, unga qanday ma‘no-maqсад singdirilishida. Bu o‘zimizning asl ildizlarimizga, o‘zligimizga, milliy asoslarimizga, davlatchiligimiz mustaqilligiga qaytishimiz zarurligiga bir ishoradur. Biz hozir o‘zimizning ana shu asliy orzumizga erishdik. O‘zligimizga qaytib, ruhiyatning toza ruhiyatning toza iqlimlarini topdik.

Shoirning ma‘rifiy mazmundagi she‘riy asarlari qatorida “Jannatga yo‘l” dramatik dostoni salmoqli o‘rin tutadi. Mifologik fantastik mavzu asosida yozilgan ushbu asarda voqea-hodisalar “narigi dunyo”da sodir bo‘ladi lekin bu yozuvchi qo‘llagan bir usul ekanini unutmazlik kerak. Aslida mifologik libosda realistik



maqsad yotadi, ya'ni adib afsonaviy naql vositalari orqali biz yashab turgan shu dunyo muammolarini, insoniy munosabatlardagi kemtiklikni talqin etadi.

Asarda komil inson, ezgulik, yomonlik, oxirat timsollari jonli obrazlar asosida ko'rsatiladi. Muallif maqsadlarini ifodalovchi ramziy ma'no asar nomiga jo qilingan. Inson tasavvuridagi oliy ideal, oliy xilqat jannat ekan, bu joyga eltuvchi yo'l shoir talqini va tasviricha, siz bilan biz yashayotgan shu tiriklik dunyosidagi ezgulik, mehr- muruvvat, diyonatda; ota-ona yaqinlar, umuman, odamlar oldidagi ularning har biriga munosib qarzni uzish va burchni ado etishda.

Asar asosida muhim bir badiiy konsepsiya yotadi: ezgulik faqat imkon borida yoxud imkon boricha ro'yobga chiqariladigan xohish emas. Ezgulik insonda, albatta, amalga oshirilishi zarur ehtiyoj bo'lmog'i kerak. A.Oripov ezgulikni bu dunyoda yashab o'tib, u dunyoga tushgan qahramonlar timsolida ana shunday talqin etadi. Mezon tarozisida gunoh va savoblar o'lchanar ekan, hayotda qilgan ezguliklar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Ezgu ishlarni amalga oshirish va yomonlik ayovsizlik asarda inson burchini belgilaydigan ichki asosiy omil sifatida ifodalanadi. Bu hol Yigitning Tarozibon bilan suhbatida, Ota bilan Yigitning dardlashuvida, Ona monologlarida, Do'st va Yigit muloqotida yaqqol ochilib boradi. Ota-ona hurmati ulug'langan sahnalarda bu masala yanada teran aks etadi. Dostonda Yigit va Do'st obrazlari orqali do'stlik ulug'lanadi. Murakkab vaziyatga tushib qolgan ikki do'stning bir –biriga cheksiz sadoqatini ko'rsatish orqali shoir inson umri mohiyatidagi go'zallik va qudratning asosi do'stlikdadir, degan g'oyani ilgari suradi.

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinadiki, Abdulla Oripov she'riyati o'zining yuqori darajadagi ma'rifiy-estetik xususiyatlari bilan o'zbek adabiyoti xazinasida munosib o'rin tutadi. Millat ma'naviyatini tarannum etuvchi, tarixning shonli sahifalarini yorituvchi, ezguliklarga yo'naltiruvchi bu badiiyat durdonalari abadiyatga daxldor, ijodkori ham xalqimiz qalbida mangu barhayotdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

- 1.Yo'ldoshev Q., Yo'ldosheva M. Badiiy tahlil asoslari. –T., Kamalak, 2016. – 238 bet.
- 2.Qo'shjonov M., Meli Suvon. Abdulla Oripov. –T., Ma'naviyat, 2000. – 144 b.
- 3.Azim Usmon. Vatanni sevmoqni o'rgatgan shoir // O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 2001-yil, 23-mart.

**АДАБИЁТШУНОСЛИҚДА ХОТИРАЛАР ТУРКУМИНИНГ ЎРНИ***Салоҳиддинова Муборак,**ЖДПИ магистранти**Илмий раҳбар: У.Қосимов фил.ф.д.*

Бадиий ижод тараққиёти ва танқид-адабиётшунослик ривожда мемуар асарлар ва хотиралар туркумининг ҳам муносиб ўрни борлиги исбот талаб этмайдиган ҳақиқатдир.

Навоий даврида юқори бир даражага кўтарилган бу ижодий анъана кейинчалик, бизнинг давримизда янада ривожланмоқда. Адабиётшунослигимизда Навоий, Айний, Қодирий, Ойбек, Шайхзода, Миртемир, Озод Шарафиддинов, Эркин Воҳидов, Абдулла Орипов, Ўткир Ҳошимов ва Тоғай Мурод каби улуғ сиймоларга бағишланган бу рукндаги асарлар янада бойиб бормоқда. Айниқса, Саид Аҳмаднинг “Йўқотганларим ва топганлар им” ва Абдулла Қодирийнинг ўғли Ҳабибулла Қодирийнинг “Отам ҳақида” каби ёднома асарлари ҳамда “Адабиётимиз фаҳри” ва “Абдулла Қаҳҳор: шахс ва ижодкор” каби тўпламлар ҳам бу соҳада изланишлар самарали бўлаётганидан гувоҳлик беради. Бундай туркум асарларнинг танқид ва адабиётшунослигимиздаги ўрни ва қимматини бир-икки адиб ҳақидаги хотиралар мисолида тасаввур этишимиз мумкин.

Масалан, “Абдулла Қаҳҳор замондошлари хотирасида” тўплами ҳажман (400 бетга яқин) ва кўламдорлиги жиҳатдан ҳам эътиборли. Тўпламдаги аксарият хотиралар мазмундорлиги, бадиий ижод ва Абдулла Қаҳҳор шахси ҳақидаги теран фикр ва кузатишларга бойлиги билан ҳам адабий-эстетик тафаккур ривожда муҳим аҳамият касб этади. Жумладан, Қаҳҳорнинг ёш шоир ва ёзувчиларга муносабати ҳам кўп томондан ибратлидир. [1.367]

Абдулла Қаҳҳор талантни халқ мулки деб билар ва ёш истеъдодлар ижодини кадрлаш, уларга оқилона раҳнамолик ва ғамхўрлик қилиш бобида Қаҳҳор даражасида жонкуярлик қилган устоз XX аср адабиётимизда йўқ, дейилса муболаға бўлмайди. Яъни истеъдодли ёшлар тарбиясига Қаҳҳорчалик меҳнати кўп сингган, ёшлар ижоди ва интеллектуал савиясини Қаҳҳор даражасида чуқур ўрганган ва уларга кучли таъсир ўтказолган йирик адиб ўтмаган дейиш мумкин. Адабиёт майдонига кириб келган ва “қа ламни шуҳрат ё бошқа нарса таъма қилиб эмас, балки қалбидаги муҳаббат ва нафрат оло вини оламга сочиш” учун олган ҳеч бир ёш Қаҳҳор нигоҳидан четда қолмас эди. [2.160]

Адиб ёшларга қандай муносабатда бўлиш сабоғини қолдиргани Э.Воҳидовнинг “Қарздорлик” номли хотирасида ҳаққоний ёритилган: “Абдулла Қаҳҳор энди адабиётга қадам қўйган давр муҳити марказида турган шахс эди, ёшларга алоҳида эътиборли, истеъдодни илғаш қобилияти бениҳоя кучли устоз эди. Саид Аҳмад, М.Қўшжонов, О.Шарафиддинов, О.Ёкубов, П.Қодиров, Ў.Умарбеков, А.Орипов, Ў.Ҳошимов, Ш.Холмирзаев, У.Назаров сингари ёзувчиларнинг ижодий тақдирида Қаҳҳорнинг устозлик ўрни бор.

Устознинг менга, сўнгра А.Ориповга кўрсатган хайрихоҳлиги биз учун ўзига хос яшинқайтаргичдай бўлган”. [3.117]

Абдулла Қаҳҳорнинг ёшлар ҳақидаги мақола ва нутқларида кўплаб ёш шоир ва ёз увчилар ижодига хос бўлган муҳим фазилатлар нуқтадонлик билан эътироф этилар, уларнинг асарларидаги нуқсонлар ва ижодий ўсишига халақит бераётган муаммолар ҳам аниқ-тиниқ кўрсатиб берилар эди. Шу жиҳатлари билан улар танқид ва адабиётшунослигимизда ёш истеъдодлар ижоди ҳақида яратилажак тадқиқотларнинг ёрқин бир саҳифаси бўлиб қолиши, шубҳасиз. Абдулла Қаҳҳор шунчаки ҳавас ё қизиқишдан эмас, балки ўзи га хос фидоийлик ва виждон амри билан адабий ҳаётни доимий равишда кузатиб, ўз мун осабатларини билдириб борган. Саид Аҳмаднинг илк китоби-“Тортик” нашр этилганда, Абдулла Қаҳҳор уни “Ўзбекистон адабиёти ва санъати “журналида кескин танқид қилади.

”Тортик” тўпламига киритилган бирорта ҳикоя ҳақида илиқ фикр айтилмаган. Аммо мақола умидбахш сўзлар билан якунланади: “Саид Аҳмад кўлига танбур олибди. Қулоғини бурашига, парда босишига, чертишига қараганда тузук бир машқ чала оладиганга ўхшайди, лекин ҳали машқ чалгани йўқ..” Эҳтимол, бундай муносабат ёш истеъдодларни тарбиялаш, авайлашдек муқаддас ишда адиб қаттиққўллигини кўрсатар. Бу ҳақда С.Аҳмад шундай эслайди: “Абдулла Қаҳҳорнинг баъзи доираларда: “Саид Аҳмад яхши ҳикоянавис бўлиб қолди”, деган гаплари қулоғимга чалиниб қолди. “Уфқ” романимни ёзганимдан кейингина у фикрини очик-ошкор айтди. Домла романимга жуда катта баҳо берди. Қувончини яхшигина бир мақола билан изҳор қилди. Мен ҳам Қаҳҳордек буюк устознинг илиқ гапини ўттиз йилдан ортиқ кутгандим.”Тортик”дан “Уфқ”қача домланинг этагидан ушлаб бордим. Мақтовлардан кўра таъналарни кўпроқ эшитдим. Қаҳҳорнинг “Уфқ”қа берган баҳоси мен учун катта адабиёт йўлига берган оқ фотиҳаси эди. Устоз ниҳоят мени шогирдим, деб атади. Бу мен учун ҳеч бир бойлик билан ўлчаб бўлмайдиган бебаҳо шараф”. [2.77]

Абдулла Қаҳҳор адабий жараёндаги ҳар бир ҳодисадан воқиф бўлишни ижодкорлик бурчи деб билар эди. Масалан, ёш ёзувчилар- Ўткир Ҳошимов ва Шукур Холмирзаевнинг илк қиссалари муносабати билан уларга мактуб йўллаб, кўрсатган меҳр-эътибори қанча лик самарали бўлганини эслаш кўп жиҳатдан ибратлидир. Истеъдодли ёшларнинг интел лектуал салоҳиятини юқори баҳолаган Абдулла Қаҳҳор адабиётимизнинг келажаги “қала мни юрт келажаги учун курашда ўз иқтидорига, қобилиятига мувофиқ танлаган қурол” деб билган ёшларимизга боғлиқ эканлигини ва келгусида адабиётимиз янада буюк бўлишини ҳам ҳаётий ва мантиқий жиҳатдан асослаб берган эди. Бу орзуси рўёбга чиқмоқда.

Хотиралар Абдулла Қаҳҳорнинг ёрқин ижоди ва такрорланмас сиймоси ҳақидаги ранг-баранг мушоҳадалар ва унутилмас таассуротларга асосланган бўлиб, уларда Қаҳҳорнинг адабиётимиз ривожига хизматлари улкан эканлиги ва ижодда қанчалар улуғ бўлган адиб ҳаётда ҳам шунчалар буюк шахс бўлганлиги ёрқин акс этиб туради. Шу маънода адиб ҳаёти ва

ижоди кўплаб замондошларимизга ва ёш ижодкорларга ҳам ҳақгўйлик ва ҳақиқатга садоқатнинг намунаси бўла олади.

Тўпلامдаги мақолаларнинг яна бир аҳамиятли томони бор. Уларда Абдулла Қаҳҳорнинг бир қатор устоз ёзувчилар ижоди ҳусусида, жумладан, Абдулла Қодирий, Ғафур Ғулом, Ойбек, Мақсуд Шайхзода, Миртемир каби атоқли адиблар, шунингдек, ижод йўли мураккаб бўлган Чўлпон, Фитрат ва Боту каби талантли сўз санъаткорлари ҳақида айтган қимматли фикрлари ҳам баён этилган. Ғ.Ғулом мислсиз истеъдод эгаси эди. Афсуски, ўзидаги шу улкан истеъдоднинг ҳаммасини тўла ишга соломмай, тўксон фоизини ўзи билан олиб кетди. Аммо шу ишга солинган истеъдоди маҳсули билан ҳам у адабиётимизда классик бўлиб қолаверади”.

“Мақсуднинг шоирлиги -ю, драматурглигини бир ёққа қўйиб турганда ҳам, адабиётшунос-танқидчи сифатида у ўзбек адабиётшунослигининг ярмини ташкил этарди” [180-б]. Бундай қаҳҳорона мулоҳазалар мазкур адиблар ижоди ва шахсини чуқурроқ ўрганиш ва улар яшаган даврдаги адабий-тарихий жараён ҳақида кенг тасаввурга эга бўлишга ҳам кўмаклашади. Тўпلامга Абдулла Қаҳҳор билан бир сафда ижод қилиб келган Ҳ.Олимжон, Н.Сафаров, Зулфия ва А.Мухтор каби таниқли замондошларининг ҳам хотира ва таассурот ларини киритиб асар мазмунининг салмоғини яна ҳам ошириш мумкин эди. Шунингдек, Қаҳҳорнинг талантли издошлари ва прозамизга муносиб ҳисса қўшган Неъмат Аминов ва Хайриддин Султонларнинг ҳам унутилмас таассуротлари тўпلامдан жой олганда, улар ҳам Қаҳҳор сиймоси ва унинг юксак бадиий маҳоратини ёритишга кўпроқ ёрдам берар эди.

Адибни яқиндан билган замондошлари унинг ғоят камтаринлигини ва ўз таланти ё ижоди билан мағрурланиш, фахрланиш ҳисси унинг табиатига бутунлай ёт эканлигини ҳавас билан эътироф этишган. “Мен адабиётимиздаги улкан ижодкорлар орасида Қаҳҳордек камтар ва камсуқум ижодкорни билмайман”,-деган эди таниқли қозоқ адиби Ғ.Мусрепов. Ёки адиб ижоди ва шахсини меҳр ва ихлос билан чуқур ўрганган Ўзбекистон Қаҳрамони, ҳассос адабиётшунос Озод Шарафиддиновнинг гувоҳлиги ҳам бунга далил бўла олади: ”Абдулла Қаҳҳор умуман шуҳратпарастлик касалидан холи эди. Шунча йил ҳам суҳбат бўлиб, бирон марта у кишидан “менинг хизматларим ундок, мен фалончилардан юқори тураман, Абдулла Қодирийдан кейин ўзимман, Гоголга ҳам етиб олдим”га ўхшаш бачкана гапларни, мақтовларни эшитган эмасман”. [2.303] ”Ёзувчи,-деган эди А.Қаҳҳор,-ўз ижодий ишидан ҳеч қачон қаноат ҳосил қилмайди, қаноат ҳосил қилган куни, менимча, ёмон қариган лақма чолга айлана ди”[2.308]. Бу талабчанлик адиб учун ҳаётда ҳам, ижодда ҳам муқаддас туйғу эди. Аммо тўпلامда Қаҳҳор ижоди ва биографиясига доир айрим факт- рақамлар, ўқувчиларга аввалдан маълум бўлган баъзи фикрлар ҳам (ёзувчининг қанд касали, боғи) бир неча бор қайтарилган. [5.104] Бу хил қайтариқлар Миртемир, М.Шайхзода ҳақидаги хотираларда ҳам кўплаб топилади. Бу каби

хато-нуқ сонларни тўғрилаш ҳам адабиётшуносликнинг муҳим вазифаларидан бўлса керак.

“Абдулла Қаҳҳор замондошлари хотирасида” тўплами, таниқли таржимон Кибриё Қаҳҳорованинг қайта нашр этилган “Чорак аср ҳамнафас” рисоласи ҳам Абдулла Қаҳҳор ҳаёти ва ижодини ҳамда адиб шахси ва машҳур асарларининг ижодий тарихи ва уларнинг яратилиш жараёнини ўрганиш бобида ҳам муҳим ва ишончли манба вазифасини ўтайди.

Хулоса ўрнида айтиш лозимки, Абдулла Қаҳҳор каби улуғ адибларнинг ёрқин хотираси замондошлари қалбида ардоқли бўлиб яшар, асарлари қайта-қайта ўқилар экан, сеvimли адибларимиз ҳақида яна янги-янги асарлар яратилишига ишончимиз комил.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Абдулла Қаҳҳор. Ёшлар билан суҳбат. Академнашр. Т.: 2017,
2. Озод Шарафиддинов. Ижодни англаш бахти. Т.: 2004,
3. Эркин Воҳидов. Қарздорлик. Абдулла Қаҳҳор замондошлари хотирасида. Т.: 1987.
4. Ўлжабоев У. Истеъодпарвар адиб. Адабиёт-кўнгил кўзгуси. Т. 2017.
5. Қосимов У. Адабиётнинг ҳаётбахш кучи. Т. 2008.

## PIRIMQUL QODIROVNING KIRITMALARDAN FOYDALANISH MAHORATI

*Murtazayeva Nodira Abdullayevna*  
*JDPI magistri*

Istiqlol tufayli o‘zbek tilshunosligi oldida ham ko‘p qirrali muammoni hal etish, jumladan, suyuqli xalq yozuvchilarining badiiy asarlarini o‘rganish masalalariga keng yo‘l ochildi. Bugungi kunda har bir badiiy asar tilini tilshunoslik nuqtayi nazardan o‘rganish, tahlil qilish va xulosalar chiqarish ham amaliy, ham nazariy jihatdan muhimdir. “Milliy til, umumxalq tili adabiy til tushunchalari o‘z navbatida tilning turli tomonlariga oid tushunchalar sanaladiki, ular o‘zaro umumiylikka ega bo‘lib bir-birlari bilan uzviy aloqadadir”<sup>2</sup>.

Yozuvchi P. Qodirov asarlarida ham badiiy til vositalaridan, xalq maqollari, iboralar, tasviriy vositalardan asar qahramonlarining xarakter va xususiyatlarini ochib berishda umumxalq tili materiallaridan nechog‘lik foydalana olganligi xususida ba’zi mulohazalar bildirishimiz mumkin.

Badiiy olamda ijodkor qalbi, xulq-atvori, his-tuyg‘ulari, qarashlari mavjud. Busiz asar na bir zavqli, na bir ehtirosli, na bir his tuyg‘uli bo‘ladi. Shunday ekan, badiiy asarning yanada jozibali, inson qalbiga yetib borishida yozuvchilar jonli va jonsiz predmetlarning tovushga taqlid qilish usullaridan keng foydalanadilar. Ana shu ixtiyoriy va ixtiyorsiz tovush va chaqiriqlar, harakat va holatlarni ifodalaydigan tasviriy so‘zlar so‘zlashuv nutqi uchun xarakterlidir.

<sup>2</sup> X. Doniyorov, B. Yo‘ldoshev. “Adabiy til va badiiy stil”, Toshkent, 1988-yil, 3-bet



P.Qodirovning asarlariga nazar soladigan bo'lsak, yozuvchi o'z ijodida kiritmalardan juda keng qo'llagan. Uning ijodidagi "Yulduzli tunlar" romanini misol qilib olsak bo'ladi. Shuningdek, ushbu asarda qisqacha tilining leksik tarkibiga nazar solsak, unda o'z semantik xususiyatlariga ko'ra rang-barangligini ko'rashimiz mumkin bo'ladi. Roman tilida qo'llangan so'zlarning xarakter va xususiyatlariga ko'ra quyidagicha tasnif qilish mumkin:

1. Obrazli so'zlar, tovushga taqlid va tasviriy so'zlar;
2. Dialektal so'zlar;
3. Juft va takroriy so'zlar;
4. Eskirgan so'zlar (yog'iy, darug'a);
5. Tabu va evfemizimlar;
6. Haqorat so'zlar;
7. Piching, kinoya so'zlar;
8. Boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar;
9. Stilistik sinonimlar;

Yozuvchi P.Qodirov voqelikni haqqoniy aks ettirishda ulardan badiiy vosita sifatida o'rinli foydalana olgan. Masalan: "Endi uni aro yo'lda muallaq bo'lib qolganini Andijondagi Ahmad Tanbal ham, Samarqanddagi Sulton Ali Mirzo ham, Turkistondagi Shayboniyxon ham go'yo uzoqdan ko'rib turar edilar-u "Boladay aldanibdi!"- deb, qah-qah urib kular edilar". Misolda insonlar nutqi va ruhiy holatini ifodalaydigan taqlidiy so'z qo'llangan.

Badiiy asar tilini ochib berishda, voqea-hodisalarni kitobxonga ta'sirchan, ifodali qilib yetkazishda kiritmalar muhim ahamiyatga egadir. Shu jihatdan P.Qodirov "Yulduzli tunlar" romanining til xususiyatlarini, ayniqsa, unda qo'llangan kiritma so'zlarning ko'rinishlari, o'ziga xos tomonlarini lingvistik tomondan o'rganish foydadan holi emas.

Kiritma haqida ham ma'lumot berib o'tadigan bo'lsak, kiritma - so'zlovchining o'zi bayon qilgan fikriga qo'shimcha mulohazasini bildirgan gap kiritma gap deyiladi. Kiritma gap asosiy fikrni qo'shimcha izohlash, aniqlash, toldirish uchun ishlatiladi va o'ziga aloqador bo'lmagan gapdan maxsus to'xtam bilan ajratiladi. Masalan: U bejirim tuflisi bilan yemi duk-duk bosib (*bu duk-duklardan Qahramonning yuragi go'yo mix qoqilayotganday zirqirab ketdi*) mashina tomon yurdi. (P. Qodirov)

Kiritma gaplar odatda qavs ichiga olinadi: O'sha yosh bolam (*u ota-onasiz qolgan edi*) boylga qarol qilib berishdi. Ayrim hollarda kiritma gap o'zi bilan aloqador bo'lgan gapdan tire bilan ajratiladi. Masalan: Universitet hovlisi—men hozirgina aylanib chiqdim — talabalar bilan gavjum bo'lib turibdi. So'zlovchining qo'shimcha fikrini alohida ta'kidlaydigan maxsus belgilar ham bo'lishi mumkin. Bu darak belgilari shaklida qo'yiladi. Masalan: Ukamni men o'zim (*uyda kattalardan hech kim yo'q edi*) barvaqt uyg'otdim. (P. Qodirov). Men yuvinish xonasi og'zida qoldirilgan xaltani (*og'irgina ekan*) olib, Tavakkalga berdim. (P. Qodirov). Tilimizdagi kiritmalar deb umumlashtiriladigan birliklar so'zlovchining bayon qilinayotgan fikrga qo'shimcha izohi, to'ldiruvchi ma'lumotini ifodalaydi. Ular nutqning aniqligi va to'liqligini ta'min laydigan muhim vositalar sifatida

nutqning deyarli barcha uslublarida qo'llanadi. Ammo badiiy va publitsistik uslublarda qahramon xarakterini ochish, uning nutqini individuallashtirishdagi muayyan holatlarni izohlash, fikr ifodalashning o'ziga xos usuli kabi vazifalarni ham bajaradi. Kiritmalar ham so'z, so'z birikmasi va gap shakllarida bo'lishi mumkin. Ko'pincha qavslar bilan asosiy gapdan ajratiladi: *O'g'lining qo'liga to'rt dona chachvon (chimmat) tutqazdi. (P. Qodirov).*

Kiritmalarga misollar keltirsak: Toshoyna tokchasidagi soat shoshilinch chiqillaydi (Valijon Novgorod tomonlardan olib kelgan batareyali soat). Yangi rais (avvalgi Rais buva qamalib ketdi, uch yil bo'ldi: pax tani qo'shib yozgan ekan) majlis qildi. Chap qo'llab rasm chizsa (chapaqay edi), odamning aqli shoshardi. Iskandarjon, jon bolam, – Bahri xola uning yelkasiga qoq di. – Chiqa qoling, qoqindiq.

Kiritmalar asosan, kitobiy uslubga xos. Kiritmalar fikrga qo'shimcha ma'lumot berganligi uchun, asosan, gap o'rtasida keladi va yozuvda doimo gapning boshqa qismlaridan qavs bilan ajratiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Husanboeva Q. Adabiyot-ma'naviyat va muvtaqil fikr shakllantirish omili. T.: —Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nash. 2009 yil 365.
2. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. –T.: O'qituvchi. 2002. -490 b.
3. Zunnunov A. va boshq. Adabiyot o'qitish metodikasi. –T.: O'qituvchi. 1992.

### MUHAMMAD YUSUF SHE'RIYATIDA XALQONA PAFOSNING YANGILANISHI

*Baxtiyorova Rayxona Dilmurod qizi,  
Toshkent viloyati Chirchiq davlat  
pedagogika instituti talabasi  
Ilmiy rahbar: Laylo Xasanova*

Adabiyot – insoniyat ichki olamining tarjimonidir. “Adabiyot chin ma'nosi ila o'lgan, so'ngan, qoralangan, o'chgan, majruh, yarador ko'ngilga ruh bermak uchun faqat vujudimizga emas, qonlarimizga qadar singishgan qora balchiqlarni tozalaydirg'on, o'tkir yurak kirlarini yuvadirg'on toza ma'rifat suvi, xiralangan oynalarimizni yorug' va ravshan qiladirg'on buloq suvi bo'lg'onlig'idan bizga g'oyat kerakdir...” degan edi o'zbek adabiyotining zabardast vakillaridan biri bo'lgan Cho'lpon [13; 37].

Darhaqiqat, adabiyotning rivojlanishi, sayqallanishi va ravnaq topishi insoniyatning insoniyatini belgilab beruvchi asosiy mezonlardandir. O'zining qadim tarixiga, milliy madaniyatiga hamda buyuk adabiyotiga ega bo'lgan o'zbek xalqi quchog'ida minglab so'z san'atkorlari dunyoga kelgan. Shunday so'z san'atkorlaridan biri xalqimizning haqiqiy xalqchil shoiri Muhammad Yusufdir. O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalq yozuvchisi, Said Ahmad ta'biri bilan aytadigan bo'lsak: “Muhammad Yusuf pokiza inson edi, u odamlarning esini

og‘dirgan, o‘ylatgan, kuldirgan, yig‘latgan, topgan tutganini odamlar ustidan sochgan saxiylik timsoli edi.

Muhammad hammani o‘ziga do‘st deb bilar edi, Hech kimni begona qilmas edi...” [14; 274]

Shoir ijodi tadqiq etishda boshqa ijodiy metodlar singari biografik metod asosida tahlil qilish ham katta samara beradi. Shu ma’noda shoirning qalbidagi insonlarga yaqinlik, odamshavandalik uning ijodini qalblardan qalblarga yengil ko‘chishiga, she‘rlarini dilbar, diltortar bo‘lishiga sabab bo‘lgan omillardan deyish mumkin.

Shoir ijodi haqida so‘z ketganda vatan mavzusi alohida o‘rin tutadi. Uning “Ulug‘imsan, vatanim” nomli to‘plamining e‘lon qilinganligi ham buning dalilidir.

O‘zbekiston yuksaltar yodni,

Ganj, xazina tuproq qatlari.

Ko‘tarmoqqa qodir avlodni,

Uxlab yotgan Muhammadlari.

degan ajoyib satrlarni O‘zbekiston xalq shoiri Halima Xudoyberdiyeva qog‘ozga tushiradi va she‘rining davomida : “Bir vaqtlar Buxoro haqida siz quydagi jumalarni yozgan edingiz: “Buxoroning batamom sog‘ayib ketishi uchun – obidalarining, betakror qasrlarning buyuk memori – sinosi yetishmay turibdi”

Bugun ham men ba‘zan baland davralarda, ulug‘ xalqning sayillarida, tantanalarda, oddiy kunlarda sizning yetishmasligingizni sezib qolaman. Axir kim sizday mustaqillikning ilk ayozli davrlaridayoq “Hech kimga bermaymiz, seni O‘zbekiston” deb kurash maydonlariga tusha olgan edi. Kim elga, yurtga mehru-muhabbatini shu qadar sodda, shu qadar suyukli ayta olmagan...” degan fikrlar bilan Halimaxonim Xudoyberdiyeva shoir xotirasini yodga oladi.[14; 276]

Haqiqatdan ham Muhammad Yusuf she‘riyatida xalqona pafosning o‘zgacha yuksak cho‘qqisini ko‘rishimiz mumkin. Muhammad Yusuf she‘riyati murakkab tuyg‘ularni samimiy va xalqchil so‘zlar bilan ifodalaydi. Bu she‘rlarning borar manzili aniq: yurakdan yuraklargacha.

Yuqoridagi fikrlarning dalili sifatida shoirning “Xalq bo‘l elim” nomli she‘riga e‘tiborimizni qaratamiz. Ushbu she‘r mazmunan tugalligi, ohang jihatidan jarangdorligi va qofiyalanish tizimining ravonligi bilan o‘quvchini o‘ziga jalb qiladi. Mazkur she‘rning oxirgi bandida :

Bo‘lar elning bolalari bir-birin der,

Bo‘lmas elning bolalari bir-birin yer.

Bir bo‘l endi qaddi baland qaddingni ker,

Xalq bo‘l elim, xalq bo‘l elim, xalq bo‘l elim.

Ushbu she‘rida shoirning xalqiga aytmoqchi bo‘lgan barcha tilaklari, istaklari, undovlari va chaqiriqlari o‘rin olgan. She‘r oxiridagi “Xalq bo‘l elim” jumlasining uch marotaba takrorlanishi esa ta’kid ma’nosini yanada kuchaytirilishiga sabab bo‘ladi. Dunyoda jamiki shoirlar borki, o‘z vatanini ko‘ngli to‘lguncha, umri bitguncha ko‘klarga ko‘tarishadi ammo shoir ifodasidagi “O‘zbekiston jonim to‘shay soyangga”, “Rimni alishmasman bedapoyangga” yoki “bahorda baxmalda tug‘ilgan qo‘zing, arab ohusidan azizroq menga” kabi sodda va

samimiy satrlar uning xalq qalbiga yaqinligini yana oshiradi. Yana qaysi shoir vatanini ko'ksida gulday o'stirib, yuragining olampanohiga aylantira oladi. Yana kim Muhammad Yusufdek:

“Sen islomdan iymon darsin olgan dunyo”

“Suluvlarning bo‘yniga osilgan dunyo”

Deya hayot haqiqatlarini ochiq va baralla ayta oladi. Kim xalq manfaati yo'lida:

“Bo‘ynim egilguncha ketsin uzilib”

degan mardonavor, betakror satrlarni yoza oladi !

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Muhammad Yusuf she'riyati faqatgina qog'ozga emas, balki butun xalqning shuuriga quyundek kirib, yuraklariga o'chmas qilib muhrlangan she'riyatdir. Shoir so'zi bilan aytganda :

O'zi o'lsa o'lar so'zi o'lmaydi,

Hamisha barhayot nasl shoirlar.

Haqiqiy shoirning qabri bo'lmaydi,

Yurakka ko'milar asl shoirlar.

Shoir bu she'ri orqali haqiqiy shoirlar aslida qanday bo'lishini isbotlab ketdi.

Muhammad Yusuf lirikasi: xalqning dardi, yurtning madhi, tarixning haqiqatidir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Йўлдошев Қ, Ёниқ сўз (2006). –Т.: “Янги аср авлоди”, -548 б.
2. Йўлдошев Қ, Юсупов Ж. (2008). Бадий таҳлил асослари. –Урганч: УрДУ нашриёти.
3. Қаҳрамонов Қ. (2009). Адабий танқид: янгиланиш жараёнлари. Ўзбекистон Миллий кутубхонаси.
4. Норматов У. (2005). Тафаккур ёғдуси. -Т.: “Фикр-медиа”.
5. Расулов А. (2006). Таҳлил, талқин, баҳо. –Т.: “Фан”.
6. Саримсоқов Б. (2005). Бадийлик асослари ва мезонлари. – Андижон. “Ҳаёт”.
7. Улуғбек Ҳамдам (2003). Бадий тафаккур тадрижи. –Т.: «Янги аср авлоди».
8. Улуғбек Ҳамдам (2007). Янгиланиш эҳтиёжи. –Т.: “Янги аср авлоди”.
9. Хасанова Лайло Фирдавсиевна (2021). “Оқчарлоқ Ливингстон” асарида тариқат мақомлари талқини // Academic research in educational sciences, Volume 2, Issue 3, 325-329-бетлар
10. Хасанова Лайло Фирдавсиевна (2021). Interpretation of dog image in Badoe'u-l-bidoya // Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, Volume 2021, Issue 4, 8-1-2021
11. Хасанова Лайло Фирдавсиевна (2021). Some comments on the etymology of the word “It” (dog) // Экономика и социум" №7(86) 2021, 574-576 бетлар
12. Хасанова Лайло Фирдавсиевна (2021). Хоразмийнинг “Муҳаббатнома”си бадияти / “Pedagogik ta’lim klasteri: muammo va yechimlar” xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

13. Чўлпон Адабиёт надир (Адабий танқидий мақолаларб Чўлпон ҳақида эсдалик хотиралар), – Т.: Чўлпон, 2004. – 240 б.
14. Юсуф Муҳаммад Сайланма, Тошкент: “SHARQ, 2014. 352 б.

## **MUSTAQILLIK DAVRI TARIXIY ROMANCHILIGIDA GAVHARSHOD BEGIM – MAHDI ULYO OBRAZIGA YANGICHA YONDASHUV**

*Shomurodov San’at Dilmurod o’g’li,  
JDPI magistranti*

*Ilmiy rahbar: f.f.n., dots Yulduz Karimova*

Temuriylar davlatchiligi tarixiga nazar tashlar ekanmiz davlat boshqaruvi, ilm-fan taraqqiyoti, shahzodalar tarbiyasida, umuman olganda, saltanatning muhim ijtimoiy-siyosiy jarayonlarida temuriy mirzolar bilan birgalikda malikalarning o’rni ham muhim ahamiyat kasb etgan. Jumladan, sohibqiron Amir Temurning o’zi ham saltanatning ichki ishlarida va bir qator masalalarni sevikli xotini Bibixonim bilan kengashgan holda ish tutganligi sir emas. Ayniqsa, Sohibqironning uzoq yillar davomida harbiy yurishlar bilan mashg’ul bo’lgan chog’larda saltanatning ichki boshqaruvida Saroymulkixonimning o’rni anchagina sezilarli bo’lganligi shubhasizdir. Jumladan, Temuriy shahzodalar tarbiyasida ularni har taraflama yetuk shaxslar bo’lib ulg’ayishida, Bibixonimning xizmatlari cheksizdir. Temuriy malika Gavharshod begim ham temuriylar tarixida chuqur iz qoldirgan murakkab tarixiy siymo hisoblanadi. Chunki Sohibqironidan keyingi kuchli temuriy hukmdor Shohrux Mirzoning umr yo’ldoshi hisoblangan malika mamlakatning ma’naviy muhitida muhim rol o’ynagan siyosatdon ayolgina bo’lib qolmasdan muhim tarixiy evrilishlarda, dolzarb siyosiy masalalarga faol aralashgan shaxs hamdir. O’zbek adabiyotida Gavharshod begim obrazi Maqsud Shayxzodaning “Mirzo Ulug’bek” tragediyasi, Odil Yoqubovning “Ulug’bek xazinasi”da, ilk badiiy talqinlar paydo bo’lgan bo’lsa, mustaqillik davri tarixiy romanchiligida esa Gavharshod begim obrazi talqini yangicha qiyofada tadrijiy rivojlanib bordi. Jumladan, Pirimqul Qodirovning “Ona lochin vidosi”, Muhammad Alining “Ulug’ saltanat” 4, Poyon Ravshanovning “Temuriylar silsilasi”da Gavharshod begim obrazi o’ziga xos tarzda talqin qilina boshladi. Shu sababli, Gavharshod begim shaxsiyati xususida ham tarixiy ham badiiy adabiyotlarda turfa xil qarashlar mavjudki, ushbu tarixiy shaxs artofidagi fikrlar ham shunga yarasha munozaralidir. Sovet davri adabiy muhitida davr mafkurasining ta’siri hamda fikrimizcha, tarixiy manbalarni yetarlicha o’rganish imkoniyatining cheklanganli tufayli Gavharshod begim obrazi tom ma’noda salbiy qiyofada tasvirlangan bo’lib: o’ta mutaassib dindor ayol, marifatparvar o’g’il hisoblangan Mirzo Ulug’bekning ilmiy izlanishlariga qarshi ona sifatida obrazlantirilgan. Sovet davri tarixiy romanchiligi obrazlar tizimi xususida adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo’ldoshev quyidagicha munosabat bildiradi: “Bir vaqtlar shaxsning tarixdagi o’rni, ayniqsa, hukmdorlarning millat taraqqiyotidagi mavqeyiga sho’roviy yondashuv Shohrux Mirzo singari taqvodor hukmdorning



shaxsiyatiga noxolis munosabatni taqozo etgandi. Har qanday saltanat ichida tanazzul va chirish, antogonistik qarama – qarshilik borligini a’molga aylantirgan kommunistik mafkura Ulug’bek Mirzoning tarixdagi ijobiy o’rnini ko’rsatish uchun uni nafaqat o’g’li Abdullatifga, balki onasi Gavharshod begimga ham otasi Shohrux Mirzoga ham qarshi qo’yardi. Tarixga shunday munosabat badiiy adabiyotga ham o’tgan, shu bois ko’pchilik badiiy asarlarda Ulug’bekning otasini irodasiz, taqvodor, onasini esa o’g’lining marifatchilik borasidagi ishlariga qarshi boruvchi, nabirasi Abdullatifni qutquga soluvchi mutaassib kuchlarning johil rahnamosi sifatida tasvirlashga moyillik bor edi.” [1;110] Biroq mustaqillik davri tarixiy romanchiligida tarix haqiqatiga xolis baho berish imkoniyatining mavjudligi, tarixiy manbalarni keng miqyosda tadqiq etish uchun ijodiy muhitning yaratilishi hamda eng muhimi, adabiyotning kommunistik mafkura iskanjasidan xoli bo’lishi natijasi o’laroq yangicha talqindagi tarixiy romanlar yaratila bordi. Endilda vatanimiz tarixida chuqur iz qoldirgan tarixiy shaxslar, buyuk davlat arboblari va millatparvar buyuk ajdodlarimiz shaxsiyati yangicha yondashuvlar asosida talqin qilina boshladi. Xususan, Primqul Qodirovning “Ona lochin vidosi” romani markazida Gavharshod begim obrazi turadi. Romanning ijodiy yutug’i xususida adabiyotshunos, olimi Shoira Doniyarova o’zining mulohazalarida shunday deydi: “Temuriylar sulolasida ro’y berayotgan voqea – hodisalar sabab Gavharshod begim hamisha iztirob iskanjasida yashaydi. Romandagi ramziy timsol – ona lochin o’rtanishlari aslida Gavharshod begimning qalb faryodlariga bir ishoradir. Yozuvchi ushbu haqiqatni asarda ona lochin sha’niga Amir Temur tomonidan berilgan ta’rifni eslatish orqali ask ettiradi: Yodingizda bormi, Hazrat otam layoqatli nevaralar tarbiyasini kayvoni xotinlari Saroymulxonimga topshirgan edilar. Rahmatlik Bibi xonimni otam “ona lochin” deb ulug’lar edilar. Avlodlarimizni lochinday yuksakka parvoz etadigan qilib tarbiyalang!” derdilar. Shohrux Mirzo tomonidan aytilgan ushbu eslatma Gavharshod begimning zimmasiga juda muhim vazifa yuklanayotganligini ma’lum qiladi. Biroq farzand, nevara va evaralarning har biri o’ziga xos tabiati, ruhiyati va istaklari bilan turlicha bo’lishi oqibatida yuzaga kelgan muammolar oldida ona ojiz qoladi. O’zaro qirg’inbarot jangga kirishgan jigargo’shalarining taqdiridan xavotirlangan ona qalbi o’rtanadi. Negaki g’olib ham, mag’lub ham, uning o’z jigargo’shasi, yuragining bir parchasi. Obrazli aytganda, u barmog’ini tishlasa ham o’g’riydi, bu barmog’ini tishlasa ham...”[2;11] Haqiqatan, xoqoni sa’id Shohrux Mirzo hayot paytida yosh temuriyzodalar o’rtasida zimdan boshlangan toj – u taxt talashishlar uning vafotidan keyin xatarli tus oladi. Gavharshod begim tarbiyalagan nevaralar o’rtasi qonli urushlar bo’lib o’tadi, hattoki, bu jarayonda kayvoni onaxon o’z nevarasi Abdullatif tomonidan hibsi etilishidan to Mirzo Ulug’bekning o’limigacha bo’lgan fojiali voqealar bo’lib o’tadi. Lekin Gavharshod begimga Shohrux Mirzo hayot bo’lgan davrlarda yosh nevaralar tarbiyasi bilan alohida shug’ullanish kerakligini ta’kidlab o’tardi. O’z o’rnida malika Shohrux Mirzoning bu taklifini o’zi uchun ham inoyat, ham mas’uliyat deya qabul qilgan. Pirimqul Qodirovning “Ona lochin vidosi” romanida ushbu voqealarga alohida e’tibor qaratiladi. “Gavharshod begim har haftaning uch

kunida shahzodalar bilan ikki soatdan mashgʻulot oʻtkazardi. Mashgʻulot Bogʻi Safedda, Gavharshod begimning katta xonayi xosida oʻtar, miz ustida “Zafarnoma”ga oʻxshagan nodir qoʻlyozmalar turardi. Devorga xaritalar ham osib qoʻyilardi. Gavharshod begim koʻproq temuriylar tarixidan saboq berardi. Kitoblarda yozilgan voqealarni oʻzi boshdan kechirgan yorqin xotiralar bilan yoritib, juda maroqli hikoyalar soʻzlab berardi.

Uning soʻzlarini yoshi kichikroq boʻlgan shoirtabiat nevarasi Abulqosim Bobur nihoyatda berilib tinglardi. Biroq Abdullatif va Alaiddavla faqat toj – u taxtni egallash, jangda oʻlja olish va aysh – u ishrat qilish tafsilotlariga qiziqishar, momosi ilm – u maʼrifat va bunyodkorlik togʻrisida soʻzlaganda, esnab oʻtirishardi.

Ularni ota – bobolarning eng yaxshi anʼanalariga sodiq qilib tarbiyalash behad mushkul ekanini Gavharshod begim shundan ham sezardi.” [3;30] Yuqoridagi tasvirlarda Gavharshod begim zimmasiga juda ulkan vazifa yuklatilganligi, lekin bu vazifani bajarish juda mushkulligi, yosh temuriyzodalarning turfa xil dunyoqarashga egaligi sabab ularni ajdodlar merosiga hurmat ruhida tarbiyalash ogʻir kechishini yozuvchi tomonidan yuqoridagi kabi misollar orqali ishonarli tarzda ochib berilgan. Ustiga – ustak yosh shahzodalarning amalparast amirlar va tinch hayotdan jang – u jadalni afzal koʻradigan johil harbiy sarkardalar qutqusiga uchib shon – shuhratga berilishlari, may bazmlarida bir – birlari bilan taxt uchun munozaraga kirishishlari Gavharshod begimni chuqur iztirobga soladi, chunki Sohibqiron vafotidan keyingi hokimiyat daʼvolari yoʻlida boʻlib oʻtgan qonli fojialar oqibatida temuriyzodalarning oʻzaro gʻanim boʻlib qolganligini shohidi boʻlgan Gavharshod begim tarix kechmishida boʻlib oʻtgan qonli fojialarni oldindan bashorat etganday goʻyo. Agar temuriylar tarixiga nazar tashlasak, Amir Temurdan keyin butun boshli temuriylar saltanatini birlashtirgan holda salkam yarim asr davomida idora qilishni Shohrux Mirzo uddalay olgan yagona tumuriy hisoblanadi. Albatta, bu mashaqqatli vazifani bajarishda Shohrux Mirzoga yelkadosh umr yoʻldosh sifatida Gavharshod begim ham saltanat tavshishlarining bir qismini oʻz zimmasiga olganligi, chunki u hali Hirotdagi erka nevaralar tashvishini chekkan, hali Samarqaddagi jonajon farzandi Mirzo Ulugʻbekning taqdiri uchun qaygʻurgan, bundan tashqari, Xurosondagi madaniy hayotning rivojlanishiga oʻz hissasini qoʻshishdek mardanovor ishlarni amalga oshirgan faol ayol edi. Aynan, Chingizxon bosqinidan keyin vayron boʻlgan qadimiy Marv shahrini qayta bunyod etish tashabbusi Gavharshod begim tomonidan rejalashtirgan holda Shohrux Mirzoga taqdim etiladi, oʻshanda sevikli xotining tashabbusini maqullab, shaharni bunyod etishga buyruq beradi. Bu jarayonda Hirotda yillar davomida saqlangan fillarning jalb qilinishidan tortib, Movorounnahrda Mirzo Ulugʻbek yuborgan muhandislargacha ishtirok etadi. Keyinchalik ushbu shaharga koʻchib borgan aholi Gavharshod begimni bu va shu kabi bunyodkorlik ishlarini mamnuniyat bilan xotirlar edi. Yuqorida taʼkidlaganimizdek nevaralar tarbiyasi bilan shugʻullanish jarayonida ikki amakivachcha Abdullatif va Alaiddavla oʻrtasi harbiy mashq qilish jarayonida jiddiy kelishmovchilik kelib chiqadi. Alaiddavlardan bir necha yosh kichik boʻlgan

Abdullatif jismoniy jihatdan amakisidan kuchliroq bo‘lib ulg‘aygan bo‘lib, mashg‘ulot paytida Alaiddavlaning qo‘liga qattiqroq urib behosdan jarohat yetkazadi, ushbu voqeaning guvohi bo‘lgan Gavharshod begim Abdullatifni shafqatsizlikda ayblab, Alaiddavlagaga yon bosganday bo‘ladi. Xullas, yuqoridagi nohush vaziyat tufayli Abdullatif o‘zini tahqirlangan his etib momosidan arazlab qahraton qishda Samarqandga ketib qoladi. Shuni ham tasdiqlab o‘tishimiz kerakki, Gavharshod begim nevaralarga bo‘lgan munosabatda ko‘proq Bo‘ysunqur Mirzoning o‘g‘li Alaiddavlani yaxshi ko‘rar, uni kelgusida taxt vorisi qilishni o‘z oldiga maqsad qilganligini tarix haqiqati ham tasdiqlaydi. Ushbu vaziyat tufayli Xuroson va Turon o‘rtasida ziddiyat paydo bo‘lishi mumkinligi hamda Ulug‘bekning marifatchilik ishlaridan norozi bo‘lgan shuhratparast amirlar Abdullatifning hovliqma fe‘lidan foydalanib otasiga qarshi isyonga chorlashi mumkinligidan, eng xatarlisi, hali yosh Abdullatifning ham toj – u taxtga havasmandligi salbiy oqibatlariga olib kelishidan tashvishlangan Shohrux Mirzo va Gavharshod begim Abdullatifni Hirotga qaytarish harakatiga tushadi. Yoshi anchayin ulg‘ayib qolgan Gavharshod begim qahraton qish bo‘lishiga qaramasdan uzoq va xatarli safarga otlanadi. Chunki Turonga o‘tish uchun Amudaryodan o‘tishga tog‘ri kelar, u paytlarda esa hali birorta ko‘prik qurilmagan daryodan qishda o‘tish juda xatarli edi. Shunga qaramay, Gavharshod begimni saltanat tinchligi, farzandlari, nabiralari qismati uchun shu havfga o‘zini ro‘baro‘ tutib, Samarqandga Ulug‘bek diydoriga yetib keladi. “Ona lochin vidosi”da ushbu voqealar anchayin mufassal tasvirlanadi: “Samarqandga borguncha yana necha marta to‘xtagan bo‘lsalar, hamma joyda Gavharshod begimni “Mahdi Ulyo” – “Avliyo ona” deb e‘zozlashar, xususan, ayollar uning duosini olishga intilishar, begimning kiyimlariga tegib qolgan qo‘llarini ko‘zlariga surtib o‘pishar edi. Samarqanddagi e‘zoz – ikromlar bundan o‘n chandon baland bo‘ldi. Ulug‘bek va unga yaqin odamlarning issiq mehri tufayli qish sovuqlari ham Gavharshod begimning xayolidan uzoqlashib ketdi. Ulug‘bek Ko‘hak tog‘i etagidagi Bog‘i Maydonda go‘zal Xitoy chinnilari bilan ziynatlangan ikki qavatlik ko‘shkda onasi sharafiga katta qabul marosimi o‘tkazdi. Marosimda Gavharshod begimning barcha kelinlari, shaharning aslzoda ayollari ham ishtirok etdilar. Ziyofatdan so‘ng hammalariga sarupolar ulashildi. Gavharshod begimning o‘ziga olmos ko‘zli uzuklar, xitoyi chinnilar, zardo‘zi qabolar taqdim etildi.”[3;45] Asardan olingan parchadan ko‘rinib turibdiki, Gavharshod begim, nafaqat, Xurosonda, balki Turonda ham yuksak martabaga ega ekanligidan dalolat beradi. Chunki butun safar davomida ulug‘ onaga nisbatan ko‘rsatilgan yuksak hurmat e‘tibor hamda xususan, Samarqand ahlining Gavharshod begimni alohida ehtirom bilan kutib olishidan Gavharshod begim o‘zida chuqur mamnuniyat his etadi. Ayniqsa, Mirzo Ulug‘bekning onasi sharafiga qilgan say – harakatlari va ona va bola o‘rtasidagi yuksak insoniy munosabatlarni ko‘rgan Turon ahli bu sulola vakillariga nisbatan anchayin hurmat ruhida qaragan. Gavharshod begimning o‘zi ham shoh o‘g‘li Mirzo Ulug‘bekning Turonda amalga oshirgan bunyodkorlik ishlariga va Samarqanddagi astranomik maktab ochib, shogirdlari bilan ilm – fan rivojiga hissa qo‘shayotganligidan astoydil quvanar edi. Shuning uchun ham Gavharshod begim

Mirzo Ulugʻbekka oʻzgacha nigoh bilan qarar edi. Samarqanddagi Bogʻi Maydondagi Gavharshod begim oʻgʻli bilan boʻlgan suhbat jarayoni Abdullatif masalasiga koʻchadi. Gavharshod begim Abdullatifni jasur yigit boʻlib ulgʻayganligi, ammo ruhiyatidagi keskinlik hamda shuhratparstlikka beriladigan odati borligidan xavotirlanishini aytadi. Uning Samarqadda qolishi xatarli ekanligi, Shohrux Mirzo Abdullatif Samarqand beklarining qutqusiga uchib, otasi taxtiga tajovuz qilishi mumkinligini aytib, uning Samarqandda qolishi noxush xolatlarga olib kelishidan tashvishlanadi. Shuning uchun ham Shohrux Mirzo Abdullatifni Hirotdan boshqa joyga joʻnatmay yonida tarbiyalayotgani, xususan, Abdullatifga bobosi birorta kattaroq harbiy lavozim beramoqchiligini aytadi. Oʻz navbatida, Mirzo Ulugʻbek ham onasining yuqoridagi mulohazalaridan keyin, oʻgʻlini Hirotda qaytishga koʻndiradi. Hali qish chiqmaganligi uchun Ulugʻbek yana onasi va oʻgʻlini Amudaryogacha kuzatib keladi hamda daryoning narigi tarafiga oʻtkazib, Xurosonga kuzatib yana Turonga qaytadi. Bu hodisalarga guvoh boʻlgan Xuroson va Turon ahli bir farzadning tashvishi deb podshoh Mirzo Ulugʻbek va Gavharshod begimning jon kuydirib harakat qilganliklari, bundan tashqari, Mirzo Ulugʻbekning farzandlik masʼuliyatini bajarib, Amudaryoday xatarli daryoni qishning sovuq kunlarida toʻrt marta kechib oʻtganligini hayotda kam uchraydigan hodisa deb aytib yurishar, fikrimizcha, ushbu tarixiy voqea temuriylar sulolasi tarixidagi yuksak insoniy munosabatni koʻrsatish bilan birgalikda, Gavharshod begimning tarix sahnasidagi xayrli ishlaridan darak berishga, “zamona bonusi” deya ulugʻlangan bu temuriy malikaning “Mahdi Ulyo”lik maqomiga loyiq boʻlganiga guvoh boʻlamiz.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Yoʻldoshev. Q. Yoniq soʻz. Toshkent.: “Yangi asr avlodi”. 2006.
2. Doniyarova. Sh. “Mustaqillik davri oʻzbek romanlarida milliy ruh va qahramon” monografiya. -T.: Mumtoz soʻz. 2011.
3. Qodirov. P. Ona lochin vidosi. T.: “Adad Plyus”. Mchj. 2010.

#### ADIB IJODIGA CHIZGILAR

*Donaboyeva Gulimoh, JDPI magistranti*

*Ilmiy rahbar: Nodira Soatova, JDPI dotsenti, f.f.n.*

Milliy istiqlol tufayli maʼnaviy qadriyatlarimizni oʻrganish, ularning millatimiz maʼnaviy hayotida tutgan oʻrnini xolis baholash imkoniyatlariga ega boʻldik. Prezidentimiz Islom Karimov taʼkidlaganlaridek: “Insonni, uning maʼnaviy olamini kashf etadigan yana bir qudratli vosita borki, u ham boʻlsa, soʻz sanʼati, badiiy adabiyotdir. Adabiyotning insonshunoslik deb, shoir va yozuvchilarni esa inson ruhining muhandislari, deb taʼriflanishi bejiz emas” [2;79]. Milliy mafkuraning asosiy tamoyillari shakllangan hozirgi sharoitda XX asr oʻzbek adabiyoti va koʻplab namoyandalari ijodiga ham yangicha qarashlar asosida yondoshishning zarurati tugʻiladi. Zeroki, adabiyot inson ruhiyati, maʼnaviyati,



dunyoqarashi bilan bevosita aloqador bo‘lgan jarayon sifatida millatning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida o‘z o‘rniga egadir.

Shu o‘rinda Abdulla Oripovning “Adabiyotimiz tog‘lari silsilasida boshini oppoq qor chulg‘agan cho‘qqi singari Shuhrat siymosi har doimo ko‘zga tashlanib turaveradi”- degan so‘zlari Shuhrat ijodi uchun berilgan haqiqiy e’tirof.

Iste’dodli shoir, shirinzabon adib Shuhrat o‘zining she’rlari, dostonlari, qissa va hikoyalari, dramatik asarlari, ayniqsa, keng ko‘lamli romanlari bilan minglab kitobxonlar e’tiborini qozongan qalam sohibi edi. Shuhratning prozamidagi salmoqli o‘rni bo‘lganidek, she’riyatimiz taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi ham beqiyosdir. Shu vaqtgacha, uning ijodi o‘zining to‘la bahosini olmagan edi. Ma’naviyat va adabiyotga katta e’tibor berilayotgan bir paytda Shuhratdek ijodkorlar hayoti va ijodini chuqur o‘rganish va uning XX asr o‘zbek adabiyoti tarixidagi o‘rnini belgilash muhim ahamiyatga ega.

Prezidentimiz Farmoni bilan bir guruh ijodkorlarning “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan mukofotlanishi, ular orasida Shuhratning ham borligi adibning o‘zbek adabiyotini rivojlantirish yo‘lidagi xizmatlariga berilgan adolatli bahodir. Xalqimizning sevimli adib Shukrullo ta’kidlaganidek, “Adib ijodda ham, hayotda ham o‘ziga sodiq qoldi. Uning ibratli fazilati shundaki, ta’ma bilan ijod qilmadi. Mukofot, unvonlar ketidan quvmadi. U amal-martabasi, rahbarlarning munosabatiga qarab do‘st tanlamadi. Vijdoni buyurgan ishni qilib o‘zini erkin tutdi. Shundan orom oldi”.

Shuhrat o‘zbek adabiyotidagi eng sermahsul ijodkorlardan biri hisoblanadi. Jumladan, “Mehrol”, “Orzu va qasos” poemalari (1940), “Bizning ko‘cha” (1947), “Hayot nafasi” (1948), “Qardoshlar” (1950), “Sening sevging” (1961), “Ishqingda yonib” (1964), “Lirika” (1973) she’riy to‘plamlari, “Shinelli yillar» (1959), “Oltin zanglamas” (1965), “Jannat qidirganlar” (1971) kabi romanlari kitobxonlar va tadqiqotchilar tomonidan samimiy qabul qilinib, bir necha bor nashr kilingan. Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, Shuhratdan salmoqli adabiy meros qolgan.

Shuhrat ijodi yuzasidan o‘zbek adabiyotshunosligida bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, Maqsud Shayxzoda shoirning she’riyatini birinchilardan bo‘lib o‘rganib, kattagina maqola yozgan[3;78]. U.Normatov Shuhrat to‘g‘risida ilk adabiy portret yozib, uning roman, doston va she’rlaridagi urush va inson, vatan va xalq mavzularini o‘rgangan va ular yuzasidan o‘z xulosalarini bildirgan[4]. A.Azimovning nomzodlik dissertatsiyasida Shuhratning “Oltin zanglamas” romanida ijobiy qahramon masalasi va asar badiiyati qirralari yoritiladi [1]. O.Sharafiddinov, N.Karimova, Jamol Kamol, O.Ikromov, N.Xudoyberganov, B.Fayziyev, J.Hojimatov singari olimlarning maqollarida ijodkor asarlarining ba’zi qirralari yuzasidan fikrlar bayon qilingan [5].

Shuhrat poeziyasining muhim fazilati shundaki, u hayotni faqat o‘ziga xos nigoh bilan, boy va sermahsul hayotiy tajribaga ega kishining ko‘zi bilan ko‘rgan. Uning she’rlarida ehtirosli, yoniq qalbning harorati sezilib turadi. She’rlarida hayotning sir-asrori haqidagi teran o‘ylar ifodalangan. Bilamizki, Shuhratning hayoti va ijodi bir tekis, silliq kechmagan. Qamoq azoblaridan tashqari, yon-atrofidagi “do‘stlari” ham ulkan ijodkorga goh oshkora, goh pinhona tuhmat



toshlarini otib borgan. Lekin mard va bag'ri keng shoir hamma- hammasini yaxshilik bilan, yaxshi asarlari bilan yengib yashagan.

*Sha'nimga otilgan ta'na toshlari*

*Oxiri yig'ilib ulkan tog' bo'ldi.*

*Men uning ustiga chiqqanim sari,*

*G'ururim oshdi-yu, ko'ngrim chog' bo'ldi.*

*Men uning ustidan mag'rur, tik boqib,*

*Hayotning ufqini yorqinroq ko'rdim.*

Shuhrat she'riyatiga xos haqqoniylik, samimiylik va badiiy mukamallik uning nasriy asarlariga ham xos. Darhaqiqat Shuhrat she'riyati va nasri o'rtasida umumiy bir butunlik va mustahkam birlik mavjud. Bu butunlik va birlik mavzular va g'oyaviy mazmun tarkibida ham, obrazlar silsilasida, ichki mantiq va uslub uyg'unligida ham ochiq ko'rinadi. Yozuvchi she'riyatida bo'lgani kabi nasriy asarlarida ham asosiy e'tiborni yangi zamon voqea-hodisalarini tasvirlashga, kishilar ongi-dunyoqarashidagi o'sish—o'zgarishlarini ko'rsatishga xilma-xil obrazlar yaratib, xalqimizning o'ziga xos fe'l-atvorini, fazilatlarini ochib berishga qaratadi. Vatanparvarlik, insonparvarlik, qahramonlik, mehnatsevarlik, bunyodkorlik, vafodorlik va sadoqat singari milliy xarakter belgilarini o'z asarlarining mag'iz-mag'iziga singdirib yuboradi.

Adibning “Oltin zanglamas” romanida shaxsga sig'inish davridagi adolatsizliklar, oqni qora deb begunoh kishilarni qamashlar, asossiz jazolashlar aks ettirilib, bir so'z bilan aytganda mustabid tuzumning halol bir o'zbek ziyolisi hayotidagi jonli in'ikosi desak, “Jannat qidirganlar” romanida erksevar xalqlarning kuch-qudrati haqqoniy tasvirlashga katta ahamiyat berilgan.

Shuhrat she'riyati va nasriga xos bo'lgan asosiy g'oyaviy-badiiy xususiyatlar uning sahna asarlariga ham xosdir. U o'z ijodiy faoliyati davomida “Besh kunlik kuyov”, “Qo'sha qaringlar” kabi komediya janriga oid asarlar ham yaratgan. Bu sahna asarlarida xalqimizning milliy urf-odatlarini, ajoyib fazilatlarini ulug'langan. Hayotdagi ijobiy xislatlar sevgiga sodiqlik, ma'naviy-axloqiy nopoklik hajv qilingan.

Xullas, Shuhrat ko'p qirrali iste'dod sohibi, o'z xalqi, vatani sadiq ijodkor. Uning asarlari tili sodda, ravon, xalq tiliga yaqin, aniqroq aytganda xalqning orzu-umid, o'y-kechinmalarini badiiy tasviridir. Shu sababdan, Shuhratning adabiy merosi XX asr o'zbek adabiyotining sara namunalari qatorida turadi va yosh avlodni ezgulik ruhida tarbiyalashga bevosita xizmat qiladi. So'zimizni muxtasar qilib, o'zbek xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimov e'tirofini keltiramiz: “Shoir, adib, dramaturg Shuhrat zamon azoblaridan yiqilib, to'shakka yopishib qolgan chog'ida ham titroq qo'llari bilan haqiqat oldida titramaydigan asarlar yozdi. Hayotda ham, ijodda ham o'z nomini qoldirdi. Bu nom uzoq yillar yashaydi, deb umid qilaman”.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Азимов А. Шуҳрат ижодида ижобий қаҳрамон проблемаси. ф.ф.н.илмий даражасини олиш ёзилган диссертация .- Самарқанд, 1975;

2. Каримов И. “Юксак маънавият-енгилмас куч” “Маънавият”- Т.: 2008.- Б.79
3. Шайхзода. М. Қалам ва бурч. “Шарк юлдузи” журнали, №5, 1967.
4. Шарафиддинов О. Якун ва дебоcha. “ Шарк юлдузи журнали”, №2, 1962;
5. Каримова Н. Шухрат ижодида ижобий қахрамон.“Ўзбек тили ва адабиёти”журнали, №2, 1972.;
6. Жамол Камол.“Шухрат шеърятининг услубий хусусиятлари”. Лирик шеърят-Тошкент.: Фан.1986;
7. Икромов О. Шухратнинг “Олтин зангламас” романи Улуг Ватан уруши даврининг бадий ифодаси сифатида. Самарқанд проф-ўқитувчиларнинг II илмий конференция материаллари Самарқанд, 1963;
8. Худойберганов Н. “Яшашнинг маъноси”. “Шарк юлдузи” журнали, №5 1960;
9. Файзиев Б Балоғат. “Шарк юлдузи” журнали, №12, 1960.
10. Ҳожиматов Ж. Ҳаётнинг бадий инъикоси. “ Шарк юлдузи” журнали, №8, 1967;
11. Тоғаев О “Олтин зангламас”. “ Гулистон” журнали, №8, 1967.

## XALQ OG‘ZAKI IJODI VA DOSTONLARNING XALQ PEDAGOGIKASIDAGI O‘RNI

*Oyjon Xolto‘rayeva Shaxin qizi*  
*JDPI magistranti*

*Ilmiy rahbar: f.f.n. A.Tursunqulov*

Xalq pedagogikasi ko‘p qirrali tarixiy, boy madaniyatimiz va ma‘naviyatimizning ajralmas bir qismi bo‘lsa, olis o‘tmishda yaratilgan va asrlar osha sayqal topib, bizgacha yetib kelgan xalq og‘zaki ijodi namunalari xalqimizning ana shu boy madaniyat merosining durdonalaridir. Xalq og‘zaki ijodining o‘lmas namunalari xalqimizning ma‘lum davrdagi turmush tarzi, urf-odatlarini, mehnat faoliyati, xalqimiz qalbidagi orzu-umidlari, g‘am-tashvishlari, armon, quvonchlarini ifodalaydi, shu bilan birga har bir davrga hamnafas bo‘lib yashaydi. Xalq tomonidan yaratilib, og‘izdan-og‘izga, avloddan-avlodga o‘tib kelgan badiiy asarlar xalq og‘zaki ijodi yoki folklor (*ingl. «folk» - xalq, «lore»- donolik. ya‘ni xalq donoligi, donishmandligi*) deb yuritiladi. Xalq og‘zaki ijodiga quyidagi janrlar kiradi: qo‘shiqlar, maqol, matal, afsona, rivoyat, asotir, ertak, latifa, lof, lapar, termalar, askiya, doston, tez aytish, masal, alla, yor-yorlar, kelin salomlar, topishmoq, naqlar, hikmatlar, pandnomalar, aforizmlar va boshqalar.

Xalq og‘zaki ijodining yuqorida sanab o‘tilgan barcha janrlarida yosh avlodni ma‘naviy-axloqiy tarbiyalash yo‘llari, tarbiya usullari, mehr, muhabbat, saxiylik, olijanoblik, qadr, vafo, sadoqat, yaxshilik, oqibatlilik, mehnatsevarlik, kasb-hunarga muhabbat, halollik, adolat, insof, andishalilik, insonparvarlik kabi xislatlar

ulugʻlanadi, yomonlik, bevafoqlik, baxillik, xasislik, qoʻrqoqlik, nomussizlik, manmanlik, kaltabinlik, xushomadgoʻylik andishasizlik, ochkoʻzlik, masʻuliyatsizlik, farosatsizlik kabi illatlar qoralanadi. Shu oʻrinda ogʻzaki ijod namunalari odob-axloq, taʻlim-tarbiya borasida oʻta hayoti, xalqchil va ibratlilikini, shu bois uning umumbashariy ahamiyatga molik ekanligini taʻkidlashimiz joiz.

Xalq ogʻzaki ijodining eng qadimiy va keng tarqalgan janrlaridan biri ertakdir. Ertaklar - hayotot va fantastikaga keng oʻrin berilgan, hayot haqiqatiga asoslangan, ibrat-oʻgit beruvchi ogʻzaki hikoyalardir. Ertaklardagi ijobiy qahramonlar yengilmas kuchga aylanib, har qanday yovuzlik, adolatsizlik, haqsizlik ustidan gʻalaba qozonadi, umumxalq manfaatini himoya qiladi. Ertaklarda xalqning orzulari hayoliy va hayotiy uydirmalar vositasida hikoya qilinadi, yaʼni real hayotiy voqealar ongli tarzda uydirmalar orqali tasvirlanadi. Ertaklar oʻziga xos xususiyatlarga ega, jumladan, «bir bor ekan, bir yoʻq ekan...» kabi maxsus boshlamalar bilan boshlanib, «shunday qilib ular murod-maqсадlariga yetibdilar...» kabi maxsus tugallanmalar bilan yakunlanishi tinglovchini oʻzi yashab turgan real dunyodan ertak olamiga olib kirish uchun xizmat qiladi.

**Termalar** - ijtimoiy hayotdagi turli hodisalar, shaxs va jonivorlarning taʼrifi va tanqidiga bagʻishlangan, pand-nasihat, odob-axloq haqida yaratilgan, 10-12 satrdan 150-200 dsn misragacha boʻlgan lirik, liroepik sheʼr bolib, baxshilar tomonidan kuylanadi.

**Qoʻshiq** - xalq ogʻzaki ijodining eng qadimiy va ommaviy shakllaridan biri boʻlib, kuyga solib aytiladigan kichik lirik sheʼrdir. Qoʻshiqlar ham boshqa xalq ogʻzaki ijodi janrlari kabi shu xalqning mehnati, kurashi, maʼnaviy ehtiyojlari natijasida vujudga keladi. Ular gʻoyaviy-mazmuniy va janr xususiyatlariga koʻra xilma-xil boʻladi. Mahmud Qoshgʻariyning «Devoni lugʻotit-turk» asaridan qoʻshiqning eng qadimiy turlari maʼlum. Jumladan, ov qoʻshiqlari, mehnat qoʻshiqlari, mavsum, marosim qoʻshiqlari, marsiya, madhiya va b. Qoʻshiqlar yoshlarda goʻzallik tuvgʻularini shakllantiradi, dillarga orom bagʻishlaydi, shuningdek, yoshlarni vatanga sadoqat, xalqqa muhabbat ruhida tarbiyalaydi. Bolalar dastlab ona allasini eshitadi, asta-sekin ovunchoq qoʻshiqlar, oʻyin qoʻshiqlari bilan tanishib boradilar. Masalan, «Boychechak», «Oq terakmi, koʻk terak», «Hayu chitti gul» kabi qoʻshiqlar bolalarga zavq-shavq bagʻishlaydi.

Oʻzbek xalq ogʻzaki ijodida dostonlar avlodlar dunyoqarashi va pedagogika olamining koʻzgusi boʻlib, komil insonni tarbiyalashda oʻziga xos bebaho qadriyatlardan biri hisoblanadi. Zero, xalq dostonlari qahramonlarining sarguzashtlari, ularning qiyinchiliklarni yengib, har jihatdan chiniqib borishi har bir yosh uchun ibratdir. Dostonlar xalqning oʻzligini, tilini, urf-odatlarini, qadriyat va anʼanalarini ifodalab beruvchi koʻzgu ekanligini yuqorida taʻkidladik. Xalq donishmandligi ruhi bilan sugʻorilgan dostonlami chuqur va atroflicha oʻrganish esa yosh avlodning maʼnaviy kamolotini yuksaltirishga xizmat qiladi. «Doston» soʻzi qissa, hikoya, shonu shuhrat, sarguzasht, taʻrif va

maqtoʻv maʼnolarida ishlatiladi. Adabiy termin sifatida yirik hajmli epik asar nazarda tutiladi. Dostonlarda tasvirlangan voqea-hodisalar yakka shaxs - favqulodda kuch-qudratga ega boʻlgan xalq idealidagi bahodir atrofiga birlashtiriladi. Badiiy adabiyotda asosan ikki usulda yaratilgan dostonlar bor. Birinchisi, asrlar davomida xalq ogʻzaki ijodida baxshilar tomonidan ogʻzaki tarzda kuylab kelingan dostonlar boʻlsa, ikkinchisi, yozma shaklda shoirlar tomonidan ijod qilingan dostonlardir. Masalan. «Alpomish», «Goʻroʻgʻli» turkumidagi dostonlar, «Malikai ayyor», «Ravshan», «Kuntugʻmish», «Rustamxon» kabilar ogʻzaki doston namunalari. Yusuf Xos Xojibning «Qutadgʻu bilig». Haydar Xorazmiyning «Gul va Navroʻz», A.Navoiyning «Hayratul abror», «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun» kabi asarlari esa yozma adabiyotdagi dostonlar hisoblanadi. Ogʻzaki ijoddagi dostonlarni baxshilar kuylaydilar.

Qadimda «Baxshi» soʻzi xalqona usullar bilan bemorni davolovchi «tabib», ayrim hududlarda «ustoz» maʼnolarini anglatgan. Bugungi kunda «xalq dostonlarini kuylaydigan sanʼatkor» maʼnosini bildiradi. Dostonlar ham sheʼriy, ham nasriy parchalardan iborat boʻlib, baxshi soz chertganda sozanda, sheʼriy parchalarni kuyga solib aytganda xonandaga aylanadi. Ijrochi baxshilar doʻmbira, tor, dutor chalib, qoʻbiz chertib doston aytganlar. Shu bois dostonchilik kechalari tinglovchilar uchun katta bayram boʻlgan. Bunday kechalarda odamlar oʻrtasidagi hamma ginaxonliklar unutilgan, turmush tashvishlari chekingan. Folklorshunoslar tomonidan Fozil Yoʻldosh oʻgʻli, Ergash Jumanbulbul oʻgʻli, Islom shoir, Poʻlkan shoir, Amat baxshi, Murod baxshi, Qurbannazar Abdullaev (Bola baxshi) kabi oʻzbek xalq baxshilaridan 150 dan ortiq (variantlari bilan 400 dan ortiq) dostonlar yozib olingan boʻlib, ularning koʻpchiligi alohida-alohida kitoblar sifatida nashr etilgan. Dostonlar mazmuniga koʻra qahramonlik, jangnoma, romantik, tarixiy, kitobiy kabi bir necha turlarga tavsiflanadi. Dostonlarda ezgulik, ozodlik, vatanparvarlik, xalqparvarlik, qahramonlik kabi insoniy gʻoyalar mislsiz mahorat bilan tarannum etilgan va insonni hamisha maʼnaviy kamolot sari yetaklagan. Ana shunday umrboqiy asarlardan biri «Alpomish» dostonidir. Oʻn asrki bu doston nafaqat xalq tilida balki xalq dilida yashab keladi. Filolog M.Qoʻshmoqovning yozishicha: «Alpomish alp boʻlgani uchun ming yillar davomida xalq yuragida oʻlmay yashab keladimi? Aslo! Alplik Alpomish obrazining bir qirrasini, xolos. Alpomish aslida maʼnaviyat qahramonidir. U vatan mustaqilligi, xalqning maʼnaviy birligi uchun ozodlik, ezgulik, tinchlik uchun kurashgan qahramon... Maʼnaviyat qahramoni boʻlgani tufayli ham u xalqning ideal qahramoniga aylandi. Shuning uchun oʻzbek xalqi oʻz tarixining eng qora kunlarida ham Alpomishni yuragida saqladi, undan madad oldi. Undan ibrat qilib Alpomish oʻgʻillami, Barchin qizlami voyaga yetkazdi».[1]

«Alpomish» dostonida ishq - muhabbat, jang lavhalari, tarixiy ma'lumotlar bor, ma'lum sabab bilan ajralib ketgan xalqni birlashtirish yo'lida xizmat ko'rsatgan xalq farzandining yurt ozodligi, elni birlashtirish maqsadidagi safarlari, o'zidan son va kuch jihatidan ustun turgan dushman bilan olishuvlar aks etadi. Dostonda kattalami hurmat qilish, kichiklami izzat qilish kabi ibratli tarbiyaviy tushunchalar, oilada farzandlar fikriga quloq solish, ular bilan maslahatlashish, aka-ukalar o'rtasidagi munosabatlar ham tasvirlangan. Shuningdek, o'zbekning qadimiy urf-odatlaridan bo'lgan sovchilarni kutish, mehmon qilish, ularning hurmatini joyiga qo'yish, izzatini qilish, shirinso'zlik bilan muomala qilish kabi axloqiy xislatlar ham o'z ifodasini topgan. Dostondagi qahramonlik jasratlarini Barchin obrazida ham ko'rishimiz mumkin. Barchin alplarning eng zo'ri Ko'kaldoshdan olti oy muhlat so'raydi, ular ko'nishadi; o'n yigitga o'n bedov otni berib xat yozib Alpomishga jo'natadi: «Olti oychalik yo'lga keldim, qalmoqning eliga keldim, zo'r yovning qo'lida qoldim, olti oylik muhlat oldim, mendan umidi bo'lsa, Alpomish kelsin, bo'lmasa javobimni bersin», - deydi. Doston yoshlarda yoriga vafodorlik, sadoqatlik kabi xislatlarni shakllantirishda ham muhim vosita sanaladi.

Dostonda aka-singil o'rtasida mehr-oqibat, oila sha'nini himoya qilish, singilning akaga mehri kabi fazilatlar ham ifodalangan. Alpomishning singlisi Qaldirg'och «ahmoq qalmoq» elida to'qson alpning orasida talash bo'lib, ular zug'umidan azoblar ichra o'rtangan Barchinni qutqannoqqa shoshilmagan akasidan o'pkalab, unga so'z tig'ini sanchadi: «Aka, aytgan so'zim og'ir olmagin, Nar-moda ishini bunda qilmagin», - deydi va o'sha gaplarni yanada qamchinliroq qilib aytadi:

«Har kim o'z elida bekmi, to'rami,  
Nar - modalar sendan kamroq bo'lami,  
Mardning yori toy talashda qolami?»

Ayni, «nar-moda», ya'ni «erkak-urg'ochi» so'zi o'zining ta'nador qudrati bilan yigitning hamiyatini uyg'otib, Alpomishni Boychiborga mindiradi, Barchinni ozod qilishga o'tlanib, shijoat bilan yelib boradi:

«Dubulg'a boshda dungullab,  
Kark qubba qalqon qarqillab,  
Tilla poyanak urilgan  
O'zanglarga sharqillab,  
Bedov otlari dirkillab,  
Olg'ir qushdayin charqillab,  
Qomda naysasi so'lqillab,  
Yurmoqchi uzoq yo'lga,  
Qaramay o'ngu soiiga,  
Yetsam deb yorning eliga  
Siltab yuradi Boychibor...  
Yo'l yurar davlatli shunqor...»



Alpomish Qalmoqshox yurtiga borib, Qorajon bilan do‘st tutinadi, u Alpomish nomidan Barchinoyga sovchi bo‘lib boradi va shunday deydi:

- «Qani, Barchin, Alpomish bo‘lsa keldi, alplarning muhlati bo‘lsa bitib qoldi, sen nima javob aytasan?» Barchin aytadi: «Alpomish kelsa kelibdi-da, Alpomish keldi deb, men Alpomishning etagidan ushlab keta berayinmi? Bu alplar ham umid bilan olti oyga muhlat bergan. Har kim maydonga ot soladi. Mening to‘rt shartim bor, shu shartimni bajargan kishiga tegaman. Xohi Alpomish qilib olsin, xohi Qalmoqlarning biri qilib olsin. Shu so‘zimni xon to‘ramga aytib bor», - deydi. Barchin qanchalik Alpomishni sevsa ham, lekin o‘zbekona hayo bilan hamma qatori shartni bajarishini, ya‘ni odillikni talab qiladi. Dostondagi bu parcha qizlarimizni iboli, hayoli, oqila, or-nomusli qilib tarbiyalashda juda ahamiyatlidir.

Barchin alplarga to‘rtta shart qo‘yadi: «Poyga qilaman, otini o‘zdirganga tegaman, kurashda alplarning barini yiqqanga tegaman, yoy tortishsa yoyi sinmay qolganga tegaman, ming qadamda tanga pulni urgan qarag‘ay merganga tegaman»,- deydi. Dostondagi qahramonlik jasoratlari mana shu to‘rtta shartni bajarishda o‘z ifodasini topadi. «Alpomish» dostoni o‘zbek xalqining sevikli dostoni bo‘lgani bejiz emas. Undagi voqealar hayotiyliigi va ta‘sirchanligi bilan ajralib turadi, mardlik, fidoiylik, samimiyat, to‘g‘rilik, hamiyatlilik, do‘stga sodiqlik, yorga vafodorlik, vatanparvarlik va mehnatsevarlik kabi insoniy fazilatlardan iborat bo‘lgan o‘zbek milliy ruhiyati yaqqol ko‘rinadi. Shu bois ham «Alpomish» dostonining 1000 yilligi 1999 yilda Termiz shahrida keng nishonlandi. Zero, «Turkiy tarixning eng chuqur qatlamlaridan ibtido olgan bu doston o‘zbekning o‘lmas so‘zi timsoli sifatida munavvarlik olib kiradi. Chinakam xalq so‘zining umri boqiydir.»[2]

Xalq dostonlarining juda katta qismi sevgi sarguzashtlarini tasvirlashga bag‘ishlanadi. Ishqiy-romantik dostonlarda voqea tuguni oshiqning ma‘shuqa haqida xabar topishidan boshlanadi. Masalan, «Ravshan» dostonida Ravshan Zulxumorni uzukda ko‘rib qoladi. «Kuntug‘mish»da Holbeka yigitni tushida ko‘radi, Kuntug‘mish qizning suratiga oshiq bo‘lib qoladi, ya‘ni bir-birini ko‘rmagan odamlar o‘rtasida g‘oyibdan sevgi paydo bo‘ladi. Sof sevgi esa hamisha odamni qaxramonlikka, jasurlikka, jasoratga undaydi.

Dostonlar mavzusiga singdirilgan yuqoridagi kabi maqollar va hikmatli so‘zlarning axloqiy tarbiyadagi ahamiyati cheksizdir. Ishqiy -romantik dostonlar yoshlarni sevgida vafodor, do‘stga sadoqatli qilib tarbiyalasa, qaxramonlik va jangnoma dostonlar yoshlarda insonparvarlik, vatanparvarlik kabi chin insoniy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Go‘zal xulq, mukammal ma‘naviy - axloqiy fazilatlarni har bir insonda mujassam bo‘lishi ta‘lim - tarbiyaga bog‘liq. Shu bois yuksak

ma'naviy axloqli yoshlarni tarbiyalashda xalq pedagogikasining boshqa manbalari qatori dostonlarning tarbiyaviy ahamiyatini ta'lim - tarbiya jarayoniga singdirishimiz lozim.

Xalq dostonlarida milliy an'analar, urf-odatlar, insoniy qadriyatlar doim ijobiy obrazlar, xatti-harakatlar bilan bog'lab tasvirlanadi, ular timsolida adolatparvaylik, rostgo'ylik, mardlik, insonga mehr-muhabbat bilan qarash, halollik, vafodorlik, turli elatlar va xalqlarning birodarligi, do'stlik va samimiyat kabi xislatlar, millat tarbiyasi, jismoniy kamolot, aqliy va axloqiy sifatlar ulug'lanadi.

Dostondagi ijobiy qahramonlarni xalq o'z donishmandlariga aylantirgan. Demak, xalq og'zaki ijodining barcha janrlarida, jumladan dostonlarda ilgari surilgan muhim g'oyalar, ijobiy qahramonlar timsolida mujassamlashgan insoniy fazilatlar, milliy qadriyatlar hozirgi yosh avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Qadimgi ishonch-e'tiqodlar, urf-odatlar, udumlar mohiyatini kelajak avlodga yetkazishning eng samarali yo'li ham xalq og'zaki ijodi durdonalaridan unumli foydalanishdan iboratdir. Zero, bu durdonalar turli ramziy obrazlar orqali o'tmishimiz bilan hozirimizni bir-biri bilan chambarchas bog'lab turadi, yoshlarga estetik zavq va did bag'ishlashdan tashqari axloqiy shuurini ham uyg'otadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Fozil shoir / O'zbek xalq ijodi bo'yicha tadqiqotlar. 3-kitob. - T.: Fan, 1973.
2. Qo'shmoqov M. "Chechanlikda so'zga suvdayin oqib..." - T. G'.G'ulom nomidagi "Adabiyot va san'at" nashr. 1978.
3. Maxmudov N. Til T. Yozuvchi. 1998.
4. O'zbek tili va adabiyoti. - T.: Fan, 1983.

#### SYUJET HAQIDAGI NAZARIY QARASHLAR

*Mo'sidinova O'g'iloy Ma'mirjon qizi  
FarDU 2-bosqich magistranti*

Adabiyotshunoslik lug'atlarida syujet fransuzcha predmet, asosga qurilgan narsa kabi ma'nolarda qo'llanilishi aytib o'tilgan. „ Syujet badiiy shaklning eng muhim elementlaridan biri, asardagi bir-biriga uzviy bog'liq holda kechadigan, qahramonlarning xatti-harakatlaridan tarkib topuvchi voqealar tizimi”. [1;288] O'zbek adabiyotida syujet va uning elementlari I.Sulton, M.Qo'shjonov, A.Rahimov, T.Boboyev, H.Umurov, D.Quronov kabi bir qator adabiyotshunoslar tomonidan tahlilga tortilgan. Akademik I.Sulton asar syujeti to'g'risida quyidagicha fikrlarini bayon qilgan "badiiy asarda tasvirlangan odamlarning o'zaro aloqalari, ular orasidagi qarama-qarshiliklar, bir-birini yoqtirish yokiyoqtirmasliklari, umuman kishilar o'rtasidagi, u yoki bu xarakterning, tipning tarixi, o'sishi tashkil topib borishidir", [2;108] Darhaqiqat, tadqiqotchi syujetni konflikt bilan uyg'un holda kelishiga urg'u beradi. Olim T.Boboyev esa "adabiy

asarda tasvirlangan harakatning mazmunini ifodalovchi hayotiy voqealar majmui, kengroq ma'noda, konkret voqealar tizmasida namoyon bo'ladigan xarakterlar tarixi, poetik fikr-tuyg'ular oqimi", [3;108] deya ta'riflaydi. Adabiyotshunos D.Quronov "badiiy asarda uzviy bog'liq holda kechadigan, qahramonlarning xatti-harakatlaridan tarkib topuvchi voqealar tizimini anglatadi"[4;163] - deb izohlaydi. Syujet ustida tadqiqot olib borgan dabiyotshunos olim A.Rahimov "syujet bu kitobxonni muayyan muhitga olib kiradigan, uning shakllanishi va rivojlanishi jarayonini ko'rsatadigan voqealar sistemasidir"[5;21]- deydi. E.Xudoyberdiyev "syujet deganda asardagi voqealar tizmasi tushuniladi, "syujetli asar"larda yaxlit hayot manzarasi bilan bog'liq holda biron muhim ijtimoiy ziddiyat badiiy tadqiq etiladi", [6;56] . H.Umurov "syujet deganda, asar qahramonlari hayotidagi voqealar va ana shu jarayondagi aloqalar, munosabatlar, to'qnashuvlar, o'sish-o'zgarishlar tushuniladi,[7;122-123]- deb ta'kidlaydi. A.Ulug'ov esa, "asar mazmunini tashkil etadigan, qahramonlar o'rtasidagi aloqa, munosabatlar tizimi syujetdir"[8;76], - deya izohlaydi.

Syujet to'g'risida adabiyotshunoslikdagi nazariy qarashlar bir-biriga juda yaqin, biri ikkinchisini takrorlaydi va qisman to'ldiradi. Umumiy holda adabiyotshunos olimlarning nazariy qarashlarini xulosalaganda, syujet deb, "badiiy asarda personajlarning o'zaro munosabatlari, aloqalari, xatti-harakatlari, ziddiyatlari, ulardagi xarakterlarning o'sishi va o'zgarishlari, ularning bir-birini yoqtirish yoki yoqtirmasligi, fikr-tuyg'ularidan iborat bo'lgan voqealar tizimi (silsilasi), voqealar oqimi", - degan xulosaga kelish mumkin.

Syujet o'zining mohiyati jihatdan yaxlit bir butunlik hisoblanadi, tabiiyki u butunlik sifatida turli qism(unsur, element)lardan tashkil topgan.

Asarda tasvirlangan hayotiy konfliktning vujudga kelishi, rivojlanishi, yakun topishi, boshqacha qilib aytganda, xarakterning o'sishi, rivojlanishi syujet qurilishining asosiy elementlari deyishimiz mumkin.

Bir guruh olimlar (I.Sulton, D.Quronov, A.Ulug'ov) o'z qarashlarida syujetning beshta element(ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya, yechim)dan tashkil topgan desalar, ikkinchi guruh olimlar (H.Umurov, T.Boboyev, E.Xudoyberdiyev, Z.Rahimov) esa syujetni yettita element(prolog, ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji, kuminatsiya, yechim, epilog)dan tashkil topadi, deb ko'rsatadilar.

Adabiyotshunos D.Quronov prolog va epilogni ko'proq kompozitsiyaga aloqador element sifatida oladi, buning asosiy sababi etib ularni syujetga bevosita aloqador emasligini ko'rsatadi

Deyarli barcha syujetning asosiy elementlari syujet qurilishida turli xil shaklda, ko'rinishda berilishi mumkin ba'zan bu zanjirning ba'zi qismi o'tkizib yuborilishi (tashlab ketilishi) mumkin. Biz uchun asosiy syujet tugunlarini belgilashda shunchaki tasvirlash, nom berish, asarning u yoki bu qismini ekspozitsiya yoki tugun sifatida belgilash muhim emas, biz uchun eng avvalo, ularning aniq mazmuni, ya'ni yozuvchi qanday voqea, ijtimoiy munosabatlarning qaysi qismini tugun, kulminatsiya sifatida bog'lashi muhim ahamiyatga ega.

Syujet qurilishi va ularni tiplarga ajratish masalasida adabiyotshunoslarining nazariy qarashlarida turlichalikni kuzatishimiz mumkin.

Adabiyotshunos A.Rahimov o'zining "O'zbek romani poetikasi" (syujet va konflikt) mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida bu masalaga atroflicha yondashgan holda tadqiqot olib borgan bo'lib, syujetning 4 xil: xronikali, konsentrik, retrospektiv va assotsiativ shakllari mavjud ekanligini ko'rsatib o'tadi. Adabiyotshunos T.Boboyev syujetni to'rt turga: xronikali, konsentrik, retrospektiv va assotsiativ syujetga ajratadi. Bunda adabiyotshunos A.Rahimov qarashlarini asos qilib oladi.

O'zbek adabiyotshunosi H.Umurov syujetni uch turga: xronikali, konsentrik va xronikal-konsentrik syujetga ajratadi. H.Umurov "xronikal-konsentrik syujetda bir nechta yo'nalishdagi yirik voqealar bir-biriga mustahkam bog'lanadi, hayot panoramasi keng va chuqur tahlil etiladi" – deb ta'riflaydi. D.Quronov o'z qarashlarida syujet voqealarining o'zaro munosabatiga ko'ra ikki turga: xronikali va konsentrik syujetga ajratadi. Syujet tiplarini izohlarkan A.Rahimov konsentrik syujetni "tadqiqot syujet" deb ataydi. Unda voqea hikoya qilinmaydi, o'tmishgaham murojaat etilmaydi, biror hodisa sabablarini tahlil qilish jarayonida sodir bo'lgan voqealar kitobxon ko'z o'ngida jonlanadi deb izohlaydi. E. Xudoyberdiyev esa, besh turga :xronikali, konsentrik, retrospektiv, assotsiativ, sintetik kabi syujetga ajratadi.

Ko'rib turganimizdek, syujetning tiplari xususidagi qarashlardagi bunday turlichalik qisman nazariy asosga ega. Bir narsani unutmasligimiz kerakki, badiiy asarlarda syujetning quyidagi tiplari sof holda uchramaydi, uni badiiy asardan sof holda qidirish esa yuqoridagi nazariy qarashlar singari qarama-qarshiliklarni keltirib chiqaradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari, T., 2002. 108-bet.
2. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – T., 2004. 107-b.
3. Quronov D, Mamajonov Z., Seralieva M., Adabiyotshunoslik lug'ati.- Toshkent: Akademnashr ,2013.
4. Rahimov A. O'zbek romani poetikasi, F., 1993. 21-bet
5. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – T., 2005. 111-115-b.
6. Ulug'ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – T., 2018.
7. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi, T., 2004. 122-123 b.
8. Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. – T., 2008. 60-65 b.

## ЗУҲРА МАМАДАЛИЕВАНИНГ "ИЗБОСАР" ҲИКОЯСИ МУТОЛААСИДАН СЎНГ

*Ташмуратова Дилдора Абдураззоқ қизи,  
ЖДПИ магистранти  
Илмий раҳбар: ф.ф.ф.д(PhD)  
Туропова Паризод Шавкат қизи*

"Адабиёт халқнинг юраги, элнинг маънавиятини кўрсатади. Бугунги мураккаб замонда одамлар қалбига йўл топиш, уларни эзгу мақсадларга илҳомлантиришда адабиётнинг таъсирчан кучидан фойдаланиш керак" [4;1]. Юртбошимизнинг ушбу фикрларини тарих қанчалик намоён қилса, келажак бунга амал қилмоғи лозимдир.

Бадий асар инсон руҳиятини, қалб кечинмаларини акс эттирувчи моҳият касб этганлиги билан алоҳида аҳамиятлидир. У ижодкорнинг тафаккур маҳсули сифатида юзага келиб, инсонларнинг қисмати, ҳаёти тақдир йўлларидаги кечмишларини бадий образларда тасвирлайди.

Маълумки бугунги кунда ўзбек адабиётининг барча жанрлари каби ҳикоя жанрида ҳам ўзига хос янгича услубларда ёзилган бугунги кун кишисининг маънавий олами, дунёқараши, ахлоқий мезонларини акс эттираётган ҳикоялар ўзининг бадий ифодасини топмоқда. Мана шундай асарлардан бири Зухра Мамадалиева ижодига мансуб "Избосар" ҳикоясидир. Асар ўзбек ҳикоячилигида, балки насрида учрамаган воқеа яъни, инсоннинг ҳайвонга, итга айланиб қолиши билан бошланади. Шу ўринда асар мазмуни сарлавҳадан ҳам маълум, биз биламизки, Избосар - исми одатда итларга қўйилади. Адиба қаҳрамонга бундай исм беришида ҳам аниқ бадий -эстетик мақсад кўзланганлиги муқаррар. Ҳикояда ёзилишича, Избосар болалигида йўқсил оилада дунёга келган, ҳозирда ишлари ривожланиб, анчагина бойиб ,хатто, ўз хусусий фермасига эга бўлиб қолган эди: "Мана, эллик йилдан бери Избосар фақат шифтга қараб уйғонади. Тўғри бу йилларда шифтлар ўзгариб турди. Болалигида у қамишлари осилиб турган битта хира чироқ - лампочка илинган шифтга қараган ҳолда кўз очарди. Ўша чироқнинг ҳам ёнганидан ёнмаган пайтлари кўп бўларди. Аста секин у кўп пул топадиган бўлгач, шифтнинг қамишлари беркилиб, юзига чиройли фанер ёпилди. Кейинчалик унинг ишлари ривожланган шифтнинг юзига нақш ва ганжлар безак берди. Гулдор нақшинкор ва заррин қандил осилди"[3].

Ана шундай кунларнинг бирида у тақдир тақозосими, ёки фалакнинг гардиши билан уйқудан ит бўлиб уйғонади. Избосарнинг ўзини танитишга бўлган ҳаракатлари бесамар кетади. Унинг ҳайвонга айланиб қолишига эмас, зоти паст, қари ит бўлиб қолганига ачиниши ўзининг тилидан қуйидагича баён қилинади: "Ўл-а шу кунингдан, элликдан ошганингда ит бўлсанг- а ?! Энди эл - юрт, куда-анда олдида нима деган одам бўлдинг?! Зотдор бўлсаям майли, қўтир бир дайди кўпакка айланиб ўтирибди - я!"[3].

Ушбу жумла ўқувчида енгил кулгуни уйғотса, ҳикоя давомида унинг Избосарга бўлган муносабати ўзгариб боради. Избосарни аввал ўз уйидан



кувилиши ранжитган бўлса, ёлғизгина меҳрибони қизиникидан ҳайдалиши, ёйинки, овчи чақириси уни тамоман умидини узади. Ҳикояни ўқир экансиз, Избосарнинг нега айнан ит бўлиб қолганига жавоб топа бошлайсиз. Чунончи "ҳайдовчиси Михлижон хўжайинининг уйдан чиқишини кутиб, машинанинг ён - верини артаркан, оёғи тагидаги ўралашаётган итни бир тепади:

-- Йўқол - эй онангни .....

-- Зоти паст итдан бўлган! -- вангиллаб қочганча сўкинди Избосар ҳам"[3]

Ишхонасига амаллаб етиб келган Избосарни қоровул киргизмайди.

-- Иииии Шавкатжон итни ҳайданг итни. Хўжайин итни ёмон кўради."[2;7]

Шу ўринда бир ҳадис эсга тушади: "Жаннатга кирадиган ўн нафар ҳайвондан бири бу "Ашоба қаҳф"нинг вафодор итидир" [2] Аллоҳ таоло жаннатга лойиқ кўрган итни асар қаҳрамони ҳатто бир бурчакка-да сиғдирмагани унинг феъл - атворидаги меҳрсизлик, шафқатсизликни кўрсатади. Хорижлик ҳамкорлар билан бўлган учрашувга қатнаша олмайди ва ўрнига ўғли шартнома имзоламоқчи бўлади - ю аммо эпллолмайди. Ўзи итга айланиб қолган ҳолатида ҳам ўғлини койишга ишлатган сўзига эътибор беринг - а: " Уууввв, шунақаям лапашанг бўласанми, итвачча?! -- Отам касал, ичбуруғ бўлди, хеч бўлмаса ўлди, демайсанми, галварс!" [3].

"Тангри ўзининг қудрати ва жамолига кўзгу бўладиган яратик барпо этишни истайди-ю, кунларнинг бирида "Ярал"(арабчаси "Кун") - деган сўз айтади. Яратган амрининг ифодаси бўлмиш ана шу биргина сўзнинг кучи билан ўн саккиз минг олам ва ундаги жамики нарсалар дунёга келди."[1;3] Сўз шу қадар қудратли эканини билмаган, ёинки, била туриб каландимоғлик қилган Избосарнинг шаҳар чеккасига, куёви чақирган овчилардан қочиб кетиб қилган ноласи ва ёки ички монологуга эътибор беринг-а: " Тўғри баъзиларни ҳақоратлагандирман, ҳа ана, бекордан бекор, ноўрин ишдан ҳайдагандирман, гоҳида нўноқ ҳамкорларимни ҳонавайрон қилиб эвазига бойлик орттирганим ҳам ростдир лекин асло қурол ўқталиб кимса жонини олганим йўқ! Менинг қилган ишим жинойт эмас, яшаш учун кураш қонуни, холос!"[3] Бандаи ожиз шундай деб Яратганга иддао қилади-ю ўтмишдаги воқеаларни эсламайди. Яқинларидан меҳр тополмай охири маҳалласидаги масжиддан кўним топган Избосарни, ўзи қачонлардир ҳайдаб солган, мирламаган Аҳмаджон қотган нон ва овқат билан боқади. Ҳарчанд уринмасин унинг кимлигини эслолмайди, бунинг учун у чин маънода инсон ҳа, ҳа инсон бўлмоғи керак эди. Аҳмад бир вақтлар унинг ҳайдовчиси эди, ёмғир жала бўлиб ёғишига қарамай Избосарга берган ваъдаси яъни, юкни эрталаб омборга олиб келишни бўйнига олиб автоҳалокатга учраган ва бунинг оқибатида ҳамма нарсасидан жудо бўлган эди. Ҳайдовчисининг оғир аҳволига қарамай, тиббий амалиётдан олдин унга қилган муомаласи Избосарнинг бутун характерини очиб беради. "Унинг важоҳати қутурган итни эслатар кўзлари қизариб кетган, оғзидан кўпик сачрарди.

--Менинг машинам, юкларим ..... уларни сен жарга кулатдинг! Тўлаб берасан, тўлаб берасан ҳаммасини!"[3] Қассобга гўшт - эчкига жон қайғуси

деганларидай бечора Аҳмаджон уйини тилхат асосида бериб юборади. Инсон ҳаёти ҳамма нарсадан устун турсада Избосар учун мол-дунё ҳаётининг мазмуни эканлиги юқоридаги ҳолатдан яққол кўриниб турибди. Избосар топлаган бойлиги ҳеч нарса эмаслиги у фақатгина болаларнинг орзу истаклари, хотинининг йиғинлари учунгина керак бўлганини масжид ҳовлисида хотини ва фарзандлари машинада ўтиб кетаётганда фаҳмлайди. Улар итга қараш у ёқда турсин, ҳаттоки масжидга инчунун оёқларининг остига ҳам қарамас, ўзларига янги валийнеъмат топиб олиб Избосарни бу дунёда бор йўқлиги ҳақида ўйлаб ҳам кўришни хоҳламас эди. Избосар яшашдан, одам бўлиш орзусидан, фарзандлари уни қидириши, излаши умидидан тамоман умид узиб, худди эгасиз қари ит мисоли вафот этади. Ҳикояда инсон бошқа жонзотлардан ажралиб туришига сабаб бўлган тилга, иймон эътиқодига муносиб бўлиши кераклиги қуруқ айтилмайди, воқеалар замирига сингдирилади. Ёзувчининг маҳорати ҳам шунда намоён бўлади. Аҳмаджон шунча ёмонлик кўришига қарамай Избосарнинг маракаларида иштирок этиши, уни фақирона ўлим ҳолатини сир сақлаши умуминсоний ҳислатларга эга эканлиги билан ҳикоя сюжетини ва унинг муҳим композицион ғоясини шакллантирувчи аниқ мақсадли ва мантиқли образ сифатида гавдалантиради.

Хулоса ўрнида шуни айтиш жоизки, одам яратиклар ичида энг олийи эканлигини ҳар вақт эсда тутган ҳолда яшамоғи лозимлиги, сўзнинг сеҳрига ишониб, тилни муқаддас тутмоғи ҳикоянинг инсон маънавиятида тутган ўрнини кўрсатади. Ҳикояни ўқимишли эканлигини таъминлаган унсурлар унинг тил хусусият бўлиб, ёзувчи мақоллардан, ўхшатишлардан унумли фойдаланган. Масалан, "юраги туз сепгандай ачирди", "отанг ит бўлса боғлаб боқ", "чиқмаган жондан умид" каби.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Адабиёт 7-синф дарслик // Тошкент. Ўқитувчи-2016. 36
2. Имом ал-Бухорий. Ал-Жомеъ ал-Кабир // www.зиё.уз кутубхонаси
3. Мамадалиева.З "Избосар" // Ёшлик журнали-2017.-Н7
4. Шавкат Мирзиёев. Ватанимизнинг олтин остонаси Тошкент тобора чирой очмоқда. Халқ сўзи.- 2020-Н106- 16

## **“JAZIRAMADAGI ODAMLAR” ROMANINING KOMPOZITSION ELEMENTLARI**

*Xamroyeva Soxiba Muxiddinova,  
JDPI magistranti*

“Badiiy asar hayot voqeligining obrazlar vositasidagi ifodasidir. Badiiy asarda hayotning muayyan qirrasini ma’lum bir yaxlitlik kasb etib, akslanadi”. [1;22] Ijodkor o‘z asarida biror bir voqelikni, unda aks etayotgan odamlarning fe’l atvori,

turmush tarzi, dunyoqarashi, bir-biri bilan o‘zaro munosabati, qarashlarini aks ettiradi. Yaratayotgan ijod maxsulining ta’sirchanligini oshirishga harakat qiladi. Bu esa asarda ro‘y berayotgan voqea-hodisalarning qanday ko‘rinish va shaklda aks ettirilishiga bog‘liq. Bu hodisa badiiy asar kompozitsiyasi deb yuritiladi. “Estetik nuqtai nazardan qaraganda, kompozitsiya ijodkor g‘oyasini, u kitobxonga yetkazmoqchi bo‘lgan fikrni eng qulay, eng mukammal ravishda yuzaga chiqaruvchi asar qurilishi - tarzidir”. [2;103]

Yozuvchi Luqmon Bo‘rixonning “Jaziramadagi odamlar” romani kompozitsiyasi ana shu talablarga javob bera oladi. Asarda ovloq cho‘l hududida joylashgan posyolkada yashovchi cho‘lquvarlarning hayotiy va ruhiy kechinmalari, yashash tarzi, maqsadi, o‘y fikrlari aks ettirilgan. Romandagi obrazlar va tasviriy vositalar asar voqealari aks etgan davr hamda mafkura tazyiqi ostida insonlardan zo‘raki qahramon yasash, uni hayot tarziga aralashish, nimalargadir majburlash, tabiatga qarshi chiqish javobsiz qolmasligi tasvirlangan. “Ergash, - dedi Chinor aka ham o‘ydan, ham ichkilikdan peshonalari tirishib, - Sho‘rlab ketyapmiz... cho‘l qarshilik qiylapti... tag‘in, uch-to‘rt yildan so‘ng hosil olish nari tursin, urug‘ ham unmay qoladi” [3;21]. Sovxoz direktorining so‘zlari orqali tabiatga qarshi chiqish izsiz ketmasligini, inson aqlu zakovatini ishlatib tadbir o‘ylamas tabiat ulardan ayovsiz o‘ch olishi va bu kelajak avlodlarga qanday ta’sir qilishini tasvirlangan. Haqiqatdan ham o‘sha paytdagi cho‘l hududlarini o‘zlashtirish siyosati ortidan minglab gektar yerlarni sho‘rini yuvish va paxta dalalarini ko‘paytirish maqsadida Orol dengizi suvini dalalarga burib foydalanilgan. Oxirini o‘ylamasdan qilingan ishlar natijasida yillar o‘tib Orol dengizi qurib, tabiatga juda katta zarar yetganiga guvoh bo‘lyapmiz.

Ushbu asarda voqealar tasviri boshidan oxirigacha kinoya bilan yozilgan. Romanga:

Bir otim bor, ajabgina,  
Dumlari gajakkina.  
Hali kelsa ko‘rasiz,  
Kula-kula o‘lasiz.

topishmog‘i epigraf qilib olingan. Biz bilamizki asar mazmunini epigraf orqali ham ilg‘ash mumkin. Ushbu topishmoq orqali yozuvchi romanda tilga olingan voqealarni, insonlarning hayot qiyinchiliklari-yu, turmush tarzini achchiq kinoya orqali ochib beradi. Romanda insonlar hayotidagi sun‘iylik va uning oqibatlarini qalamga olingan. Tog‘dan cho‘lquvarlik uchun kelgan odamlarning avvalgidanda qiyinroq tirikchilik tashvishlariga sho‘ng‘ib ketishgani, qartabozlik va aroqxo‘rlik avvaliga odamlarning ermagiga, so‘ng chinakam odatlariga aylanib ketishi o‘sha sun‘iylikning belgisi edi. Topishmoqning javobi chayon esa yengil hayot orzusidagi odamlarga tabiatning va taqdirning javobi belgisi. Chunki chayon o‘ziga bo‘lgan tahdid yoki hujumni indamasdan qabul qilmaydi, albatta zahar soladi.

Romanda qahramonlar portreti chizgilari orqali ularning nafaqat tashqi qiyofasi balki, ichki olamining qay darajada ekanligini ham bilib olishimiz mumkin. Asar boshida Ashurning portreti keltirilgan. “Ashur...tajang qiyofa,

chayir bo‘y-u bast, o‘siq-quyuq sochlar ko‘z o‘ngimda jonlandi” [3;7]. Bu tasvir orqali o‘quvchi Ashurning qandaydir nohushlik darakchisi ekanligini sezadi. Yozuvchi ushbu qahramon orqali ayrim odamlar tabiatida uchraydigan kaltabinlik, boshqalarga o‘zini ko‘z-ko‘z qilish kabi noqisliklarni tasvirlaydi. Ana shu fe‘li orqasidan Ashur yangasi Lolaxoning o‘limiga sababchi bo‘ladi.

Romanda yana bir tasvir bor. Lolaxon va O‘roqning to‘yi... Ketma-ket sho‘x kuy va qo‘shiqlar yangramoqda. Hamma xursand. Ikki yosh baxt osmonida, oppoq orzular qanotida suzib yurishibdi. To‘y avjida. Ko‘pchilik shirakayf. Odamlar sozandalardan vals kuyini chalishni so‘rashadi. Sozandalar o‘zaro nimanidir maslahatlashib birgalikda kuy ijro eta boshlaydilar. Bu kuy O‘roq va Lolaxonning achchiq qismati haqida oldindan so‘zlayotgandek. Ularga chiqarilgan taqdir hukmining ifodasi edi. “Shu payt oshxona yonida suhbatlashib o‘tirgan otam va Abdulla aka go‘yo ustilariga sovuq suv sachraganday, sapchip turishdiyu ola tasir davra tomon yo‘rg‘alashdi. – Ey... ey, nima qilyapsanlar tentaklar, - deya qichqirdi otam, mast-alast to‘dani oralab mashshoqlar tomon intilarkan. – Ey, to‘xtanglar! Nega motam marshini chalyapsizlar ey...” [3;55] . Uning ovozi bu olomon shovqiniga singib ketadi. To‘y ahli esa buni tushunmaydi, hatto hayoliga ham keltirmaydi. “Tobora avjlanayotgan motam musiqasi to‘yxonadan-da toshib-oshib, olis-olisga taralar edi” [3;55] . Bu yerda to‘y paytida chalingan motam marshi nafaqat O‘roq va Lolaxonning balki, ko‘plab vatan o‘g‘lonlarini umriga zomin bo‘lgan, onalarni farzand dog‘ida kuydirgan, oilalarni parokanda qilgan, qanchadan qancha go‘daklarni yetim bo‘lib qolishiga sabab bo‘lgan o‘sha davr siyosatining, olis yurtda ro‘y berayotgan urushning, ajalning kuyi edi. Odamlar esa o‘zlari bilmay, sezmay bu kuyni hursand qarshi oladilar.

Asarda odamlarning gap-so‘zlari boshqalar hayotini butunlay boshqa o‘zanga burib yuborishga qodir ekanligi, hatto yaxshini yomon , yomonni esa yaxshi qilib ko‘rsatishi mumkinligi tasvirlangan. O‘roqning o‘limidan keyin sovxoz odamlari Lolaxonni sevgi va sadoqat timsoliga aylantiradilar. Bir paytlar Lolaxonni ko‘klarga ko‘tarib maqtagan, sevgi va sadoqat timsoliga aylantirgan odamlar o‘limidan so‘ng uni yomonotliq qiladilar, xiyonatda ayblab nomini balchiqqa belaydilar. Aslida esa Lolaxon xiyonatda ayblanishga asos bo‘ladigan hech qanday ayb qilmagan edi. Begunoh edi, lekin, odamlar o‘zi shundoq ham yasama shon-shuhratga o‘ch, boshqalar ko‘rsin uchun tomosha ko‘rsatishga usta Ashurga esa oila nomusining himoyachisi deb qaraydilar.

Shuni aytishimiz mumkinki asarda aks ettirilgan voqealar orqali inson qanday muhit, sharoit bo‘lmasin o‘zligicha qolishi lozimligi, bir-birining hayotiga ortiqcha aralashish, o‘zgalar ustidan osongina hukm chiqarish yaxshilikka olib kelmasligi, bu javobsiz qolmasligi ifodalangan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. A.Ulug‘ov “Adabiyotshunoslik nazariyasi”. G‘.G‘ulom. Toshkent-2018. 308 b.
2. F.Salayev, G.Qurboniyozov “Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so‘zligi”. Yangi asr avlodi. Toshkent-2010. 332 b.
3. L.Bo‘rixon “Jaziramadagi odamlar” G‘.G‘ulom. Toshkent-2012. 324 b.

**“OTAMDAN QOLGAN DALALAR” ASARIDAGI JAMOLIDDIN  
KETMON VA “YOLG‘IZLIKNING YUZ YILI” ASARIDAGI XOSE  
BUENDIA OBRAZLARIDAGI PSIXOLOGIK PARALELLIZMLAR**

*Qo‘ldosheva Nodira Omon qizi,  
Chirchiq davlat pedagogika instituti talabasi  
Ilmiy rahbar Xasanova Laylo Firdavsiyevna*

Tog‘ay Murod tili bilan aytganda: “Asl ijodkor elga ura-ura gaplari bilan emas, badiiy asarlari bilan xizmat qiladi” [4; 4]. Bundan ko‘rinadiki, haqiqiy yozuvchi el dardida kuyadi va jamiyatda bo‘layotgan voqea-hodisalar, kamchiliklar uning asarlariga ko‘chib o‘tadi. Bunday ijodkorlarni nafaqat o‘zbek adabiyotida balki, jahon adabiyotida ham, shubhasiz, uchratish mumkin. Misol tariqasida keltiradigan bo‘lsak, Lotin Amerikasining nodir yozuvchilaridan biri bo‘lmish Gabriel Garsia Markesdir. Biz bejizga bu ikki yozuvchini parallel ravishda talqin qilishga kirishmayapmiz. Sababi, har ikkisida ham jamiyat hayotida yuz berayotgan voqealar asarlariga hech bir o‘zgarishsiz (hattoki qahramonlarning ismlarigacha) kiritilganligini ko‘rishimiz mumkin. Gapimizning isboti tariqasida shuni keltirishimiz mumkin: “O‘zimning qahramonlarim haqida gapiradigan bo‘lsam, ularning negizi men eslaydigan va men taniydigan odamlardan olingan” [3; 4] deya keltiradi G.G.Markes. Bejizga bu ikki adib adabiy realizm namoyondalari sifatida adabiyot maydonida tanilmagan. Sababi, o‘zbek adabiyotida Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” asari “haqiqiy realistik”, Janubiy Amerika adabiyotida esa Gabriel Garsia Markesning “Yolg‘izlikning yuz yili” asari “mo‘jizaviy realistik” – deya kitobxonlar orasida shuhrat qozongan. Dilmurod Quronov: “Otamdan qolgan dalalar” nafaqat dolzarb mavzusi, balki badiiy jihatlari bilan-da adabiyotimizda jiddiy voqea bo‘ldi. Asarning o‘ziga xos qurilishi, betakror ifoda yo‘sini, tildagi joziba ohangi, samimiyati, bularning barchasi uning muvafaqqiyatini ta‘minlagan asosiy omillar sanaladi” [4; 4]. Mario Vargas Los “Yolg‘izlikning yuz yili” haqida shunday fikr bildirgan: “ushbu kitobning asosiy buyukligi- hamma narsada. Harakat va fon, afsonalar, omen va afsonalar-bu u bilan kuchga kiradi va uni aniq va shafqatsiz tarzda aks ettiradi” [7].

Jahon adabiyoti durdonalarida sanalgan Gabriel Garsia Markesning “Yolg‘izlikning yuz yili” asari Kolumbiya adabiyotida alohida e‘tirof etiladigan asarlardan biri bo‘lib, asar voqealari Xose Buendianing o‘z yurtida nomus sabab jinoyatga qo‘l urishi va buning oqibatida u yerni tark etib Mokondo degan qishloqchaga asos solishi hamda unda Buendialar sulolasining hayot tarzi qalamga olinadi.

Garchi Xose Buendianing hayot tarzi, asarda unga yuklangan vazifa Tog‘ay Murodning Jamoliddin ketmonidan tubdan farq qilsa-da, ba‘zi jihatlari borki, bu har ikkala qahramonni parallel ravishda tadqiq etish uchun asos bo‘la oladi.

Jamoliddin ketmon asli farg‘onalik bo‘lib oq podsho sabab, nomus sabab yurtini tashlab ketadi. Va yangi makonda o‘z sulolasini davom ettiradi.

Bu ikki asar mutlaqo boshqa-boshqa olamda yaratilgan bo‘lsa-da, qahramonlarining ruhiyati, o‘y-fikrlari bir-biriga juda ham o‘xshab ketadi.



Sababi, ikkisining pirovard maqsadida Vatanga boʻlgan muhabbat, insoniy qadr-qimmat, erkinlik, baxt uchun kurash kabi samimiy tuygʻular yotadi. “Yolgʻizlikning yuz yili”da ham “Otamdan qolgan dalalar” asarida ham deyarli uch avlod taqdiri yoritilgan. Uch avlod orqali esa uch davr yoritilgan. Yaʼni, Xose Arkadio Buendia va Jamoliddin ketmon, Xose Arkadio va surxoni Aqrab, Aureliano Buendia va Dehqonqul obrazlari zahirida bunyod etishlik, vatanparvarlik, feʼl-atvorlari orasidagi oʻxshashlik, xalq uchun, el-yurt uchun yonib-kuyishlik va aksincha beparvolikka moyillik, koʻnikuvchanlik, atrofda roʻy berayotgan voqea-hodisalarni shunchaki qabul qilishlik kabi mavzular yotadi.

Birinchi avlodga nazar tashlaydigan boʻlsak, xoʻsh ular qanday xislat egalari edi? degan savol tugʻiladi. Bobo – Jamoliddin, tugʻma mehnatkash dehqon, iymon-eʼtiqodi butun shaxs. Uning mehnatkashligini Jamoliddin ketmon taʼrifidan ham bilish mumkindir. Bir qarashda mehnatdan bosh koʻtarmaydigan, toat-ibodatdan boshqasini bilmaydigan bandayi moʻmindek koʻringan bu odam yurt taqdiri haqida oʻylaydi. Ularni birlikka, birdamlikka chaqiradi. Xususan, “Boʻlaman degich el, bir-birini botirim deydi, boʻlmayman degich el, bir-birini etini yeydi” maqolida xalqni birikuvga chorlasa, “xalq qoʻllasa, bor boʻladur, xalq qargʻasa, yoʻq boʻladur”, “Birovning moli mol boʻlmaydi” kabi iboralar orqali esa halollik, iymon-eʼtiqodga chaqiruv, nomus masalalarini koʻrishimiz mumkin. Zero, Jamoliddin ketmon chindan ham Vatani shunchalik yurakdan sevdiki, hatto unga bostirib kirgan dushmanlarni ham qabul qilmasdan oʻz Vatani boʻlmish Fargʻonadan bosh olib chiqib ketdi. Uning “Dalamda musulmon oyoq bosar yer qolmadi. Dalamda dehqon oyoq bosar yer qolmadi. Boʻldi, endi qaytib oyoq bosmayman” [6; 5]- deya yurakdan Vatani uchun, nomus uchun kurashchanligini namoyon etadi va oʻz yerini tashlab ketishga majbur boʻladi. Xose Arkadio Buendia obrazida ham xalqni boshqaruvchilik, or-nomus uchun kurashuvchanlik kabi xislatlarni koʻrishimiz mumkin. Negaki, Xose Arkadio Buendia ayoli Ursula haqidagi nomaqbul gaplarni koʻtarolmadi va Pradensio Agilyarni oʻldirib qoʻydi. Chunki, u asarda erkaklarga xos boʻlgan oila shaʼni himoyachisi, or-nomus himoyachisi sifatida gavalantirilgan. Asarda Buendia oʻldirgan qahramon uni taʼqib eta boshlaydi va oxir oqibatda qishlogʻini tashlab chiqib ketdi va boshqa joyga borib Makondoga asos soldi. Buning ortida albatta Xose Buendianing vijdonliligi, kuyunchakligi turadi.

Xulosa qilib aytganda, har ikkala obraz psixologik jihatdan bir-birini eslatadi. Bu ikki adabiyot garchi bevosita taʼsirlashmasa-da, obrazlar kechinmalaridagi oʻxshashliklarni koʻrishimiz mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Габриел Гарсиа Маркес "Ёлғизликнинг юз йили." Камалак-пресс", Тошкент-2019.
2. Дилмурод Қуронон "Қалбларни ларзага солган ҳиргойи"
3. Ёзувчининг иқроллари. Таниқли ёзувчи Габриел Гарсиа Маркес билан суҳбат // Рўзиев А. Таржимаси, Ҳуррият газетаси-2012-йил, № 5

4. Куронов Дилмурод, “Қалбларни ларзага солган хиргойи” // Хуррият газетаси, № 8, 2012-йил.
5. Норматов Умарали, “Беназир истеъдод соҳиби”, Тошкент “Ўзбекистон”. 2021.–
6. Тоғай Мурод "Отамдан қолган далалар". Тошкент, " Ўзбекистон "-2021. <http://moosrp.ru>. 100 yillik ishni tahlil qilish. “Yuz yillik yolg‘iz” romanining tahlili Gabriel Garsia Markes.

## OMON MUXTOR IJODIDA AN’ANA VA NOVATORLIKNING O’RNI

*Mamatxonova Moxichexraxon Ubaydullo qizi,  
Farg‘ona davlat universiteti magistranti*

Omon Muxtor o‘tgan asrning 60-yillaridan vafotiga qadar adabiy jarayonda faol ishtirok etib kelgan; she‘riyat, dramaturgiya, ayniqsa, nasr sohalari bo‘yicha boy adabiy meros qoldirgan; o‘tgan muddat davomida ko‘plab hikoya, qissa, romanlar yaratgan mohir ijodkorlardan biri sanaladi.

Ijodkorning barcha asarlarida inson, uning shaxsiyati, o‘y-fikrlaridan tortib kechinmalarigacha tahlil etilgan. Jumladan, biz buni “Ffu” romani orqali ham ko‘rishimiz mumkin. Mazkur asar odamiylik muqaddas burch ekanligi hamda inson har qanday holatda insoniyligini saqlab qolishi kerakligiga bag‘ishlangan. Bu jihat romanda bosh qahramon Toshtemir orqali o‘z yorqin ifodasini topgan.

Ijodkor mazkur asarini rivoyat-roman deb ataydi. Romanga quyidagi epigraf tanlab olingan: ...*Ustida janda, boshida kuloh - bir to‘p qalandarlar: “Haq do‘st, yo Oллоh!” – degancha bozorni aylanib, karvonsaroyga bormay, to‘g‘ri qabristonga borib, tamaddi qila boshlashdi. Birov, nega bunday qildinglar, deb qiziqqanida, ular kulishdi: “Hammaning ham axiyri keladigan joyi shu”... [2; 5]* Berilgan bu jumlar asar syujetiga to‘la-to‘kis mos keladi. Toshtemir dastlab qalandarona hayot kechirar edi: ... *uning qoni-jonida hafsalami-ishtiyog; tirik badandagi ruh – Hayot Ishqi atalmish tuyg‘uning o‘zi yo‘q edi! Darvesh-qalandar! – uzzu-kun ko‘cha-ko‘yda sudralib yurar edi. Uyda ham soatlab bir nuqtaga tikilib o‘tiradi. Na maqsad, na dard... QURUQ SUMBAT! [2; 11]. U nimadandir mamnun bo‘lsa “Oh-oh!” der, ajablansa “Iy-y!” deb qo‘yar, norozilansa “Ffu!” der edi [2; 12].* Bunga sabab esa onasining erta vafoti-yu, ona mehriга to‘ymaganligidan edi. To‘ti voqeasidan keyin esa u butkul o‘zgardi: dastlab otasi xohlaganday, ota kasbi bo‘lmish quruvchilik sir- asrorlarini o‘rganib, o‘zi ham dasta tuzib, quruvchilik qila boshladi. Avval halol yo‘l bilan mehnat qildi, so‘ng havolanib, harom yo‘lga kirdi: ko‘zbo‘yamachilik, mushtumzo‘rlilik, ichkilik, maishatga berildi. Qilmishlari uchun dor ostigacha olib borildi. Mo‘jiza tufayli omon qolgach, yana tarki-dunyoga berildi. Lekin bu yo‘ldan muhabbat tufayli qaytib, o‘z odamiyligini saqlab qoldi. Asar yakunida murodi hosil bo‘ldi.

Bu asarning voqeiy tomoni. Uning arxitektonikasiga nazar solsak, asar sarlavhasi – “Ffu”. Mazkur nom asar nomini tanlashda bosh qahramonga urg‘u berilishi va syujet yo‘nalishi u bilan bog‘liq ekanligiga ishora mavjudligiga ko‘ra

tanlab olingan. Asardagi Toshtemirning otasi Mulla Toshpo'lat, ustози Usta Mahmud, sevikliси Nigor, Ilyos, xonhazrat kabi obrazlar tizimining barchasi yaxlit holda bosh qahramon bo'lmish Toshtemir atrofida birlashgan. Asarda ularning barchasi Toshtemirning katarsislanishida o'z o'rniga ega. Shuningdek, ularga ma'lum ma'no ham yuklatilgan. Masalan, asardagi to'ti obrazi yaxshilik timsolidir. Usta Mahmud esa Navoiy asarlarida uchraydigan Boniy timsolidir. Ya'ni "Farhod va Shirin" dostonidagi Boniy ko'ngilga ishq binosini qurgan va qurishni o'rgatgan piri komil bo'lsa, "Ffu" romanidagi Usta Mahmud qalbida ezgulik, insoniylik xislatlari mujassam hamda shogirdlariga ham shuni "yuqtirishga" uringan ustoz sifatida gavalantirilgan.

Ma'lumki, asar arxitektonikasi elementlaridan biri hisoblangan detall oddiy hayotdagi detall emas, balki o'zida tipiklik va individuallik xususiyatlarini yiqqan badiiy detall [1; 192] sanaladi. Shunga ko'ra aytish mumkinki, "Ffu" romanidagi detall – bino. Asarda bino shunchaki inshoot emas, balki insoniylik obidasi edi. Ya'ni yo'ldan adashib, insoniyligini qayta tanigan Toshtemir tomonidan barpo etilgan mazkur obida asar yakunida uning mazmunini, undan ko'zlangan maqsadni kitobxonga yanada tushunarli tarzda yetkazib berishga xizmat qilgan.

Shuningdek, asarda qoliplovchi hikoya ham keltirilgan: *Qadimda bir hukmdor sinash uchun olomanni maydonga to'plabdi. Yarim murojaat, yarim buyruq ohangida: - Yaqin kunlarda yer-suvlaringni tortib olishga to'g'ri keladi! – debdi. Olomon indamay uy-uyiga tarqalibdi. Uch-to'rt kundan keyin hukmdor yana olomanni to'plabdi: - Bundan buyon er-xotin hammang bitta ko'rpa ichida yotasanlar! Olomon bu gal ham indamay uy-uyiga jo'nabdi. Hukmdor bo'g'ilib, ko'p o'tmay yana olomanni to'plabdi: - Ertaga ana shu maydonda hammangni osaman! Taajubki, olomon odatdagidek indamay tarqalyotgan emish! Faqat birgina kishi botinib-botinmay hukmdorga yuzlanibdi: - Onhazrat... arqonni o'zimiz keltiraylikmi yoki berishadimi?! [2; 22]* Mazkur parcha orqali, eng avvalo, asarning badiiyliги hamda ta'sirchanligi yanada oshgan. Bundan tashqari Omon Muxtor yashab, ijod etgan davr odamlari, ya'ni sovet kishisining hayotiga ham ishora mavjud.

Romanda folklor an'alaridan unumli foydalanilgan: *...ishning tushsa, kichikni ham aka deysan, kuchukni ham [2; 23]; Jahl chiqsa, aql qochadi [2; 25]; Bir qozonda ikkita qo'chqorning boshi qaynamaydi [2; 29]; O'zing uchun o'l, yetim... [2; 64]; Chamanda gul ochildi-yo, chakangga taq, chakangga... [2; 33].*

Bundan tashqari, tush motiviga ham duch kelamiz. Ma'lumki, xalq og'zaki ijodi hamda badiiy adabiyotda mazkur motiv o'zining salmoqli o'rniga ega. U orqali asar qahramonlari o'zaro do'stlashadilar ("Alpomish" dostoni), taqdiri bashorat qilinadi ("Qissasi Rabg'uziy", Yusuf qissasi) va shu kabilar. "Ffu" romanida esa Toshtemir tushida suyuqli yori Nigor orqali ezgulikka da'vat etilgan.

Asarda ham nasriy, ham nazmiy uslublardan foydalanilgan. Unda keltirilgan she'riy parchalarning ayrimlari Omon Muxtor qalamiga mansubdir. Bu ijodkor mahorati va uslubidan dalolatdir. Mazkur she'riy parchalarda hayot, undagi rang-barang tuyg'ular kuylangan:

*Mudragan yurakni uyg'otdi ohu!  
 Nozik qadamlarning yengil sabosi.  
 Horg'in ko'zlardagi ko'ngil navosi,  
 Erkin ko'zlardagi qizlik hayosi –  
 Singib tomiringa,  
 qiziyapti qon...  
 Bu – qanday g'alayon?!  
 Bu – qanday isyon?!  
 Bu qanday bayonsiz,  
 Hasratli bir hol?! –  
 Men buni o'zim ham bilmayman alhol.  
 Bilganim:  
 uchdi-yu, nazdimda, yohu! –  
 Uchqunlar sachratdi ko'ksimda ohu. [2; 62]*

Mazkur she'riy parchada dardmand oshiqning sog'inch to'la hasratlari kuylangan. Ohuga o'xshatilgan yor portreti shunday mahorat bilan chizilganki, yorning alifdek qaddi-qomati, gulg'unchadek lablari yoki qalamqoshlari so'zlanmagan ham. Biz yor go'zalligini *mudragan yurakni uyg'otdi ohu, nozik qadamlarning yengil sabosi, erkin ko'zlardagi qizlik hayosi, uchqunlar sachratdi ko'ksimda ohu* satrlari orqali bilib olishimiz mumkin.

Aytish mumkinki, “Ffu” romani nazariy jihatdan ramziylikdan mohirona foydalanib yozilgan asar hisoblanadi, badiiy jihatdan esa insoniylik, yaxshilik kabi xislatlarni kuylovchi asrlarga daxldor asarlar sirasiga kiradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Иззат Султон. Адабиёт назарияси. – Т.: Ўқитувчи, 1986
2. Омон Мухтор. Аёллар мамлакати ва салтанати. Романлар ва ҳикоялар. - Тошкент. “Шарқ” нашриёт-матбаа концерни бош таҳририяти

### МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТИЗМИНИНГ HOZIRGI HOLATI

*Gulboyeva Nilufar,  
 JDPI magistranti*

Dunyo miqyosida inson kapitalining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Har bir tashkilot nafaqat o'z moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bilan chegaralanmasdan, xodimlarining kasbiy malakasini muntazam, sifatli asosda oshirishga ham e'tibor qaratishi lozim.

Ta'lim tizimining hozirgi kundagi rivojlanish bosqichida uning birinchi bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'limda jadal o'zgarishlar yuz bermoqda. Jumladan, Prezidentimizning “Mamlakatni modernizatsiya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish uchun maktabgacha ta'lim muassasalarida yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan



kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va jahon miqyosidagi raqobatbardoshligini ta'minlash bugungi kun maktabgacha ta'lim tizimining dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.”[1;23] -deyilishida ham asos bor, albatta.

Hozirgi bosqichda Federal Davlat Ta'lim Standartining (FSES) joriy etilishi munosabati bilan maktabgacha ta'lim sifatini yangilash va yaxshilash, yangi avlodning maktabgacha ta'limini dasturiy ta'minot va uslubiy qo'llab-quvvatlashni joriy etish zarurati tug'ildi. Bolalarning ijodiy va kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish, shuningdek, aytishimiz mumkinki, bir vaqtlar yagona bo'lgan "davlat maktabgacha ta'lim" tizimini umumiy ta'limning to'liq va ajralmas bosqichi sifatida haqiqiy maktabgacha ta'lim tizimiga aylantirishga harakat qilinmoqda. Bu maktabgacha yoshdagi bolaning nafaqat vasiylik va g'amxo'rlik, balki ta'lim, tarbiya va rivojlanishga muhtojligini haqiqiy tan olishni anglatadi.

Shu bilan birga, bola o'zi bilan tinch-totuv yashash qobiliyatini egallashi, individual ishlash va guruhdagi o'zaro munosabat ko'nikmalarini egallashi, o'rganishni o'rganishi kerak. Aynan maktabgacha yoshda shaxsning asosiy fazilatlari, asosiy ijtimoiy ko'nikmalar - boshqalarga hurmat, demokratik tamoyillarga rioya qilish shakllanadi. “Tajriba guruhlarida 3-4 soat davomida bir yoki ikki smenada ta'lim-tarbiya jarayoni tashkil etiladi. Bitta guruhdagi bolalar soni 30 nafardan oshmasligi kerak,”[2;345] — deydi Toshkent shahar maktabgacha ta'lim bosh boshqarmasi bo'lim boshlig'i Jamila Javlonova.

Bizning nazdimizda, bu muhim vazifalar maktabgacha ta'lim - atrofdagi dunyoda bolaning o'zini o'zi identifikatsiya qilish shakllanishini boshlash kerak. Maktabgacha ta'lim jarayonida bolaga ta'lim-tarbiya berishda shaxsga yo'naltirigan quyidagi ta'lim modeli ustuvor sanaladi:[3;78]

- 1.Maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatining huquqiy-me'yoriy asosi takomillashmoqda;
- 2.Maktabgacha ta'lim muassasalari moliyaviy-xo'jalik faoliyatining yangi turlariga o'tmoqda;
- 3.Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'i kengaymoqda;
- 4.Ta'limning ilg'or texnologiyalari joriy etilmoqda;
- 5.Xodimlar malaka oshirish tizimi takomillashmoqda;
- 6.Qisqa muddatli guruhlar asosida maktabgacha ta'lim muassasalarining muqobil shakllari joriy etilmoqda.

Hozirda respublikamizda Maktabgacha ta'lim muassasasi qoniqarli ahvolda deyolmaymiz, lekin sekin-sekin oldinga siljiyotgani bugungi kunda sezilarli darajada desak mubolag'a bo'lmaydi. Zamonaviy ta'lim rivojlanishning yangi bosqichida - u modernizatsiya qilinmoqda. Bunga jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar yordam beradi. Shaxsga ongli yondashishning maqsadi-shaxsni rivojlantirish, uni berilgan standart va bosim ostida “o'zgartirish emas”, balki “uni qanday bo'lsa, shundayligicha qabul qilish”dir.[4;54] Darhaqiqat, Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan emas, oldinga poydevoriga tayangan holda o'zgartirish maqsadga muvofiq. Chunki shaxsiy yondashuvda ta'lim jarayoni ishtirokchilarining shaxsiy majburiyatlarini rivojlantirish va to'liq



namoyon qilish uchun sharoit yaratishni ko'zlaydi. Shaxsiy majburiyatlar - bu shaxs tomonidan "shaxs bo'lish" ijtimoiy buyurtmasini tatbiq etuvchi ma'lum fazilatlarining namoyon etilishidir.

Maktabgacha ta'lim muassasasining rivojlanish maydoni uning sub'ektlarining uchta o'zaro bog'liq rivojlanish maydonidan iborat: tarbiyachilar, ota-onalar, bolalar. "Maktabgacha ta'lim muassasasini rivojlantirishning asosiy tarkibiy bo'limi "o'qituvchi - bola - ota-ona" tizimidagi ta'lim jarayoni ishtirokchilarining o'zaro aloqasi hisoblanadi." [5;42] Ushbu tizim faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflab, biz barcha fanlarni rivojlantirish uchun ajratilgan joylarning yo'nalishi va maqsadlarini tushunamiz: ota-onalar ijtimoiy ehtiyoj darajasida ijtimoiy buyurtma shakllantiradilar, tarbiyachilar davlat darajasida ta'lim xizmatlarini bevosita amalga oshiruvchilardir, bolalar maktabgacha ta'lim muassasalari tomonidan o'qitish, ta'lim berish uchun maktabgacha ta'lim muassasalari tomonidan ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlarining iste'molchilari sifatida harakat qilishadi. Sababi, bolalarning ta'lim-tarbiya va bilim olishiga asosiy zamin yaratuvchi maskan oiladir. Farzandlarimiz, avvalambor, oilada, ota-onadan ibrat olgan holda shakllanadi.

Ota-ona bolaga boshidan ta'lim-tarbiya, nutq madaniyati, odamiylik xislatlarini qunt bilan singdirib borsa, kelajakda u barkamol, sog'lom, mustaqil fikrlovchi, eng asosiysi, odobli shaxs bo'lib yetishadi. Inson hayotda bilim olishga intilish, Vatanni sevish, ardoqlash, kattalarni hurmat qilish hamda muomala madaniyatini ota-onadan o'rganadi. Yosh avlodga ma'naviy, axloqiy, madaniy tarbiya berishning usul va vositalari xilma-xil bo'lib, bular ichida bola nutqi va muomalasi alohida o'rin tutadi. Zero, A.Avloniy aytganlaridek, "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir" [6;71]Umuman olganda, bola tarbiyasida ilk poydevor bu bog'chada shakllanadi, shaxsning hayotda kim bo'lishi va birinchi mustaqil bolishini shu maskan belgilab beradi.

Xullas, bolalar bog'chalari – sotsializm davrida aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida yaratilgan, ammo zamona zayli bilan davlat budjeti uchun ortiqcha samarasiz institutga aylanib qolgan edi. Uni jiddiy tarzda isloh qilish yoki hech bo'lmasa sohani butunlay xususiylashtirib, yana qanaqadir boshqa yechimlarni o'ylash kerak bo'ladi. Axir maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarga beriladigan ta'lim va tarbiya maktabdagi ta'lim va tarbiyaning ahvoliga, u esa o'z navbatida voyaga yetgan fuqaroning kelajak hayotiga o'z-o'zidan ta'sir ko'rsatmay qolmaydi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 27 августдаги “Олий таълим муассасалари раҳбар ва педагог кадрларининг узлуксиз малакасини ошириш тизимини жорий этиш тўғрисида” ги ПФ-5789-сон Фармони
2. Источник: <https://muegn.ru/uz/history/perechislite-osnovnye-napravleniya-razvitiya-sistemy-doshkolnogo-obrazovaniya-sistema-doshkolnogo-obraz.html> © muegn.ru

3. <http://marifat.uz/marifat/ruknlar/maktabgacha/3724.htm>
4. <https://algoritm-centr.ru/uz/historians/sovremennye-tendencii-obnovleniya-doshkolnogo-obrazovaniya-sovremennye.html>
5. Bolalar bog'chasida ta'lim va tarbiya dasturi / otv. tahrir. M.A.Vasilyeva. M., 1985.
6. Komkov A. G., Kirillova E. G. Maktab o'quvchilarining jismoniy faolligini shakllantirishning tashkiliy-pedagogik texnologiyasi // Jismoniy madaniyat: tarbiya, ta'lim, tarbiya. 2002. № 1. P. 2 - 4.

## LINGVOPOETIK TAHLIL XUSUSIDA...

*Saipova Madina Asrorqul qizi,  
JDPI magistrani*

Xalq orasida qo'llanilishi asl holicha saqlanib qolgan dialektal so'zlar badiiy asar tilining boy, jozibador hamda ta'sirchan bo'lishida muhim vositalardan biri sanaladi. "Tilimizning sof shaklini daladag'i el-aymoqlarimizda ko'ra olamiz"[1.141-bet] deya ta'kidlaganda ma'rifatparvar adibimiz Abdurauf Fitrat ayni haq edi.

"Shuning uchun badiiy matn lingvopoetik nuqtai nazardan o'rganilar ekan, undagi til birliklariga baho berganda bu birliklarning umumxalq tilidagi va adabiy tildagi maqomi ham inobatga olinishi, ular qiyoslanishini maqsadga muvofiq, shunday mazkur birliklarning matndagi badiiy qimmatini va yozuvchi mahorati yanada aniq ko'rinadi"[2. 152-bet]- deydi badiiy matn lingvopoetikasi muammosini o'zbek tili materiallari asosida tadqiq etgan M.Yo'ldoshev.

Bilamizki, har qanday badiiy asarni keng qamrovli, ya'ni lingvopoetik tahlil qilinganda faqat badiiy asar yaratuvchisining tili va dunyoqarashi haqida ma'lumot berish bilan kifoyalanmaydi, balki badiiy asar yaratilgan davr tilining o'ziga xosligi, yozuvchining so'z boyligi, til vositalaridan unumli foydalanishi, xususan xalq orasidagi dialektlarni o'rinli qo'llay olish mahorati, badiiy tasvir vositalarining til faktlari vositasida aks ettirilishi, umuman, tilni barcha sathlari yuzasidan tahlil qilishdan iborat bo'ladi.

Jumladan, o'zbek romanchiligi tarixida o'ziga xos uslubga ega bo'lgan Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" asarida shevaga oid so'zlardan adibning unumli foydalanganligining guvohi bo'lamiz.

Bunda yozuvchi qahramonlarini tug'ilib o'sgan qishlog'i va u yerda yashayotgan mehnatsevar, zahmatkash xalqini kitobxonga yaqindan tanishtirishni maqsad qilgan. Biz buni asarni barcha o'rinlarida ko'rishimiz mumkin.

Masalan: "Olibdi, Toshkanniyam olibdi, Saidazimboy degich savdogar bor Oqqoshshoga Toshkanni sotibdi"[3. 15- bet].

Yana bir o'rinda esa "Oqqodsho arava minib o'tadi. Oqqodsho soz chalib o'tadi. Oqqodsho ashula aytib o'tadi"[3. 16- bet].

Ko'rinadiki, Oqqodsho – oqqoshsho shaklida talaffuz qilinib, xalq orasida qo'llanilgan. Bu esa tilshunosligimizda assimilyatsiya hodisasi hisoblanadi.

Assimilyatsiya hodisasi bir tovushning boshqa bir tovush ta'sirida o'xshashlik( bir xillik ) tomon o'zgarishidir.

Adib ushbu romanda asar voqealarini qayerda bo'lib o'tganligini ta'kidlash maqsadida , badiiy asarda dialektlardan , so'zlashuv nutqiga xos so'zlardan, gap qurilmalaridan o'rinli foydalangan.

*Burchakda turmish satilga enkaydi* [3.301- bet] (*chelak*) [4]

*Nuqilmish yerda bir o'ra bo'ldi* [ 3.304- bet] (*bosmoq*)[4]

*Bebilchagidan yuqorisi osma qovundayin to'r-to'r qora bo'ldi* [3. 180 –bet] (*oyoq yuzining do'ng joyi*)[4]

*Ha, nima, nima – deydi.- Ota? qani ota? Nima balo, elovrayapsanmi? Yot, uxla, yot!* [3. 44-bet] (*elovsiramog*)[4]

*Kim biladi . Ziyod degichi gapi o'rolida masalan, masalan, deydi.* [3. 66-bet] (gap yoki nutqning boshi, boshlanish, muqaddima) [4]

*Men moyaklarni archib-archib yeb olaman* [3. 64-bet] (*tuxum*) [4]

*Dehqonqul ! Men ularni jigit sanamayman . Yo'q , jigit sanamayman* [3. 49-bet]. (*Yigit*)

*Dehqonqul! Katta ketsam–ketmasam, qishlog'imizga o'ris zotini yonashtirmayman !*[3. 46-bet] (*yaqinlashtirmayman* )

*Dasturxonda bir korson taom bo'ldi.*[3. 187-bet] (*yog'ochdan ishlangan katta tovoq*) [4]

Bulardan tashqari, roman tilida takror qo'llangan so'zlar esa asar tilining ta'sirchanligini oshirishga katta xizmat qilganligini alohida ta'kidlash o'rinlidir. Umuman olganda, takrorlar Tog'ay Murod poetikasini shakllantiruvchi asosiy badiiy vositalardan biri hisoblanadi . Misollarga e'tibor qaratamiz:

*Uzun qish qorayib – qorayib yotmish dalalarim yerrang-yerrang bo'ldi.*

*Dalalarimni omonat-omonat qotib yotmish kesaklar umalib-umalib tuproq bo'ldi.*

*Dalalarim ko'pchib-ko'pchib qoldi.* [3. 106]

*Men chimdib-chimdib g'o'za yaganaladim.*

*Men qo'shqo'llab-qo'shqo'llab g'o'za yaganaladim.*[3. 137-bet]

Ma'lumki, so'zlarning yondosh, juft takror bo'lishini biz she'riyatda mukarrar san'ati deb bilamiz, bunday ma'naviy san'atni adib nasriy asarida ham mahorat bilan qo'llanilganligini guvohi bo'lamiz.

Misollardan ham ko'rinib turibdiki (asarda bunday misollar juda ko'p), so'zlashuvda shevaga xos so'zlarni takror qo'llash orqali badiiylikni oshirgan va yozuvchining o'ziga xos poetik uslubi yaratilgan .

Xulosa qilib aytish mumkinki, ma'lum asarning ustida tahlil olib borilganda "...badiiy matnga yaxlit estetik butunlik" [2.155] sifatida qarash badiiy matnning mazmuniga hamda muallifning mahoratiga xolis yondashishga zamin yaratadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Fitrat A. Tanlangan asarlar – Toshkent , “Ma'naviyat” 2009
2. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi-Toshkent , O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi , “Fan” nashriyoti 2008
3. Murod T. Otamdan qolgan dalalar – Toshkent, “O'zbekiston” 2021

4. <https://savodxon.uz> .O‘zbek tilining izohli lug‘ati.

## MILLIY ETNOFRAZEMALAR TADQIQI HAQIDA

*Aliyeva Ozoda Foziljonovna,  
JDPI magistranti*

Mamlakatimizning istiqloлга erishishi o‘zbek xalqining madaniy-ma’naviy, ma’rifiy sohalarida katta o‘zgarishlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lgani ma’lum. Istiqloл tufayli tilimizning leksik boyligini tashkil etuvchi frazeologizimlarni o‘rganishga katta e’tibor qaratildi. Frazeologiya tilshunoslikning asosiy sohasi sifatida doimo tilshunos olimlar diqqat markazida bo‘lgan. Bu sohani rivojlantirish uchun ko‘plab ishlar amalga oshirildi. Jumladan, Sh.Rahmatullayevning “O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati ”( 1992), M. Sodiqovanning “Qisqacha ruscha – o‘zbekcha barqaror iboralar lug‘at ” (1994 ), Mahmud Sattorning “O‘zbekning gapi qiziq ” (1994), B. Yo‘ldosheva K. Bozorboyevning “ O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati ”(1998) shuningdek, bir qator tadqiqotchilarning olib borgan tadqiqotlar shular jumlasidandir. . Frazemalarning shakllanishi zahmatkash o‘zbek xalqining madaniyati , rasm-rusumi, urf-odati, a’nanalari, marosimlar turmushi va ma’naviy hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan holatni shakllantirib kelgan .

Etnofrazemalar o‘zbek tilining lug‘at tarkibida anchagina miqdorini tashkil qiladi va u mahalliy sheva xususiyatlarini o‘zida aks ettirib keladi. Xalqimiz orasida saqlanib kelinayotgan turli -tuman odat marosim va etiqodlar , g‘ayritabiiy kuchlarga ishonch kabi udumlar juda qadimiy bo‘lib afsun, onimizm, totemizm , shamoniylilik, va nihoyat islom dini aqidalari bilan bog‘liq holda yuzaga kelgandir. [2.6] Frazeologizimlarning muayyan guruhi xalqlarning urf –odatlarini , a’nanalari va irimlari ta’sirida shakllanadi. Jumladan o‘zbek xalqining azaldan quloqtishlar odati mavjud . Quloqtishlar, ya’ni beshikkertdi odati hozirgi kunda Surxandaryo viloyatining ayrim tumanlarida va qishloqlarida saqlanib qolgan. Qiz bor oilaning buvasi, buvisi, ota- onasi va qarindosh –urug‘lari rozilik berishsa , “quloqtishlar ” odati o‘tkazilgan. Rozilik berilgan bolakay beshikda yotgan qizaloqning “qulog‘ini tishlagan”. Mazkur odatni ifodalofchi “qiz bolani go‘dakligidayoq bo‘lajak qaylig‘i deb belgilab qo‘ymoq ” ma’nosida qulog‘ini tishlamoq iborasi qo‘llaniladi: Qizimni tilga olaverma tug‘ilgan kunida **qulog‘ini tishlagan** kuyovim bor ; degan holatlarni misol qilib olishimiz mumkin .

Frazemalar orqali har bir xalqning ma’naviy dunyosi ochib berilish bilan birgalikda ularni hissiy tuyg‘ularning ifodachisi deb ham atashimiz mumkin. Misol uchun oladigan bo‘lsak xursandchilik, shod -hurramlik g‘am -qayg‘u yoki insonlarning hayotiy tarzini, kishilarning tashqi ko‘rinishi, fe’l- atvori, xarakteri, fazilati kabi xususiyatlarni yoritib berish uchun qo‘llaniladigan iboralarimiz ham mavjud. Masalan, qovog‘idan qor yog‘moqda- xafa ma’nosida, yurak bag‘ri qon bo‘ladi – ruhan azoblandi, ziq bo‘ldi ma’nosida. Yuzidan o‘ta olmaydi- biror ishni qilishida kimningdir ra’yi xohishi bilan hisoblashdi nazarda tutadigan iboralardi.

Zig'ir yog'idek ko'ngliga urdi- qiziqish yo'qoldi, jirkanish hissini uyg'otdi bezdirdi. Bahri dili ochildi- kayfiyati yaxshilandi. Og'zi qulog'ida –xursand. [2. 61] Do'ppisini osmonga otdi – xursandchilik ma'nosida. Qulog'idan oy ko'rinadi – ozg'inlar. Igna yutgan itday – ozg'in. Yerga ursang, ko'kka sapchiydi. Xudodan yetti qaytgan – sho'x ma'nolarida qo'llaniladi. Dunyoni suv bossa o'rdakka neg'am – beg'am ma'nolarida qo'llanilishi bilan nutqning tasirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Iboralar tarkibida o'zbek xalqining nikohlash marosimi, unashtirish odati bilan bog'liq iboralar ham uchraydi: boshlarini qovushtirmoq, boshlarini biriktirmoq, boshlarini qo'shmoq, “kelin kuyov qilmoq”; boshini ikkita qilmoq “uylantirmoq”; bir yostiqa bosh qo'ymoq “turmush qurmoq”; boshini bog'lamoq “kelin qilib olishga shartlashib kelmoq” kabilarni misol qilishimiz mumkin.

Frazeologik birliklarning tayanch komponenti sifatida tarixiy va diniy-mifologik mashhur shaxslarning nomlari kelishi ham mumkin. Xo'jako'rsinga “shunchaki nomigagina”, Musoning alamini Isodan olmoq “aybdor chetda qolib, aybsiz kishiga qarshi ish tutmoq”, Xizrni yo'qlasam bo'lar ekan “kimmidir ko'rish istagi qo'qqisdan ro'yobga chiqqanda aytiladigan iboralar shular jumlasidandir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, frazeologizimlar murakkab til hodisasi sifatida ikki yoki undan ortiq komponentlardan tashkil topadi. Shu ma'noda ularni amaliy va ilmiy o'rganish o'ziga xos yondashuvni, o'ziga xos metod va usullarni taqozo etadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shavkat Rahmatullayevning “O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati” Toshkent - 1978
2. N. Mirzayevning “O'zbek tili etnofrazemalarning izohli lug'ati” Toshkent 1991
3. Mamatov A. E “O'zbek tili frazeologizimlarining shakillanish masalalari” Toshkent : 2000

#### “КЎНГЛИМ – АДОСИ ЙЎҚ ХАТ...”

(Усмон Азим лирикасида кўнгил образининг бадиий талқини)

*Тошпўлатов Муҳаммадқодир,  
Жиззах давлат педагогика институти талабаси  
Илмий раҳбар: Юлдуз Каримова,  
ЖДПИ доценти, ф.ф.н.*

Кўнгилни Тангрининг жилвагоҳи дейди Ҳазрат Навоий. Оллоҳ таолонинг тажаллиси унинг яратиғи қалбида аксланиши одамзодга чексиз марҳаматдир. Ижодкор қалби эса Яратганнинг назаргоҳи. Унинг бахти шу боис ҳадсиз. Айниқса, сўз санъаткорлари – шоир-у ёзувчилар аввал-у интихонинг боиси Сўз билан неъматланган, калом билан сийланган соҳирқалб инсонлар. Бундай буюк масъулиятни (адабиёт аслида кўнгил эҳтиёжларидан туғилади, бу эҳтиёж масъулиятга айланади) адо этиш ҳар



кимнинг ҳам қўлидан келавермайди. Сирасини айтганда, *“Ижодкорлик илоҳий дахлдорлик, илоҳий уйғунликка борадиган йўл, илоҳий боғланиш, илоҳий англаниш, илоҳий гўзаллашиш, илоҳий гўзалликни тушунтириш, изоҳлаш, шарҳлаш, барча оламларни, табиат ва набототни, ҳайвонот ва мавжудотни руҳан бирлаштириб турадиган уйғунлик билан боғланиш, бирикишидир. ...Ижодкорлик ана шу оламий масъулиятни тушунтириб бериш, гўзаллик томон интилиш, гўзалликка, бирлашишига, яхлитликка йўл излаш дегани”* [9;110].

Ўзбекнинг овозига айланиб улгурган шоири замон Усмон Азим ўз шеърияти орқали сўз жавобгарлигини шараф билан адо этаётган атоқли ва ардоқли ижодкордир. Шоир ижоди уфқлари шу қадар рангинки, ҳар бирида ижодкорнинг етук бадий маҳорати намоён бўлади. Шеърият, наср ва драматургия – ҳеч бири Усмон Азим ижодига ёт эмас, уларнинг ҳар бирида ижодкор ўз сўзи, овозига эга. Лекин шеърият Усмон Азим деган ҳадсиз уммонга кўнгил мавжлари билан қайта ва қайта бориб кўшилади. Шу боис сўзни шоир лирикаси, хусусан, унинг кейинги йиллар (2014 – 2018) шеърияти тўғрисида юритмоқчимиз. Бу йиллар назмида эса шоир лирикасидаги кўнгил образининг бадий талқинларини таҳлил қиламиз.

Усмон Азим поэтик олами инсонни тушуниш, унинг кўнгил сезимларини мусаввирона, фалсафий мушоҳада юритиб тимсолли, фавқуллода бадий ифодали тасвир этишда намоён бўлади. Фикримизни машҳур адабиётшунос олим Қозоқбой Йўлдошевнинг шоир ижоди ҳақидаги кўйидаги сўзлари ҳам тасдиқ этади: *“Довруқли шоир Усмон Азим ижодининг илк босқичидан эътиборан ўқирманни инсонни тушуниш ва туйишига даъват қилиб келади. У кўп йиллар давомида битикларида инсонлараро муносабатлар чигаллиги ва ижтимоий муаммоларни бартараф этишига диққат қаратди. Кейинги йилларда поэтик нигоҳини кўнгил кенглиklarини тадқиқ қилиш сари бурди. Шоир тоғлар чўққисини забт этишидан кўра кўнгил юксакликларини эгаллаш қийинлигини тасвирлай бошлади”* [7]. Дарҳақиқат, шоир шеъриятининг ибтидосиданоқ инсон ҳақида фикр юритишни мақсад қилган. Аслида, ҳар қандай ижодкорнинг мақсад-муддаоси кишини, унинг қалбини, кечинмаларини тадқиқ қилиш бўлиши керак, назаримизда. Усмон Азимнинг илк китоби – “Инсонни тушуниш”нинг номланишиёқ сўзимизга исботдир. Шу илк парвознинг номи шоир шеъриятининг бутун моҳиятини белгилаган, фикримизча. Биз сўз юритаётган кейинги давр шеъриятида кўнгил кенглиklarини, унинг адоқсиз сезимлар тўлқинларини шеърларига моҳирона кўчиришни етакчи тасвирга айлантирган шоир шеърни шундай таърифлайди: *“... шеър бу – сўз, фикрат ва оҳанг мутаносиблиги – бозор дунёда кўнгил борлигини ҳам одамларга аён этадиган бир мўжизадир”* [10]. Ёхуд шоир наздида: *“Шеър – Оллоҳнинг мўжизаси – сўз билан истеъдод илҳоми учрашган жойдагина содир бўлади”* [10]. Шеърнинг оҳангга вобаста, фикрга тўлган бадий сўз эканлиги бугунги кунга келиб бозор муносабатлари замонида инсонга кўнгилни эслатиш эҳтиёжига айланиб бораётганида намоён бўлаётгани рост. Бироқ чинакам

адабиёт ҳеч вақт завол билмаслиги бирламчи ҳақиқат. Усмон Азим кўпгина шеърларида кўнгил образини турфа ифодаларда талқин қиладики, ҳар бири мазмуний, шаклий, тасвирий хусусиятдан ўзгача. Уларни бирлаштирувчи жиҳат – кўнгил тадқиқидир. Ижодкорнинг сўзида туғилган ҳар шеър юракнинг сезимларидан қоғозга кўчади. Зеро, “*Шеър – истеъдод маҳсули, кўнгил мулки*” [8;360]. Кўнгилни образлантириш билан қалб бойлиги янада юксалади. Усмон Азимнинг қуйидаги шеърида кўнгил образи маълум макон сифатида бўй кўрсатади, лирик қаҳрамон эса ўзгариб бориши қизиқ ҳолат:

*Сени  
кўрмоқ учун  
телбавор юрибман  
кўнгил тарафларда.*

*Йўлларингга  
қараб  
қовжираб турибман  
кўнгил тарафларда.*

*Тош дунёларингдан  
Сен қачон келасан  
кўнгил тарафларга?*

*Кўнгилсизим,  
ҳеч ишинг тушмайdimи  
кўнгил тарафларга? [1;24]*

Илк тўртликдаги суратда кўнгил томонларда сайёр юрган лирик қаҳрамоннинг кезиши телбамонанд. Боиси уни – излаётганини кўрмаганликда. Кейинги мисралардаги тасвирда эса у қовжираб турибди (худди гул, бута ёхуд дарахт каби). Бу сафар ҳам йўлларга интизор боқади. Нечун куриб бораётир? Ғамнинг ҳасратими уни куйдирган? Билиб бўлмайди. Фақат аёнки, унинг ҳар ҳолати кўнгилга боғлиқ. Навбатдаги икки учликда лирик қаҳрамон “кўнгилсиз”ига мурожаат қилади. Унинг излаётгани тош дунёлардан, яъни бағри тош (“*Тош кўнгилли Беатриче*” [4] каби). Бирок қачон унинг йўли кўнгил томонларга тушаркин? Қачон лирик қаҳрамон бахтдан сармаст бўларкин, қачон гулдай яшнаб кўз қувнатаркин? Бизнингча, кўнгилни эзган тош меҳрга, ҳисларга айланса, кўнгил туюмлари куртак очса!

“Шеър ёзиш”да эса лирик қаҳрамон кўнгилсиз оламда осмон қадар парвоз бўлиб, юксалигу тубанлик, турфа овозлар қадар учади. Бунинг бари тушда – ҳуш йўқолганда бўлади. Бунда шоир ўз ҳаётини суратлантиради, назаримизда. Ижоднинг йўли шундай, аслида:

*Ҳуш кетди...  
Тушда яшаиш нақадар яхши!  
Кўнгил етаклади яна:  
буларнинг кўнгилсиз дунёсида*

*ҳеч ким тутиб қололмас энди –  
парвозга айландим.*

*Юксаклик қадар,  
ботинлик қадар,  
“воҳ, жоним!”, деб*

*қичқаришлар қадар учяпман... [1;25]*

Рўёда уни парвозга чоғлантирган ҳам кўнгил. Уни учирган ҳам кўнгил. Бу ифода шеър яратилиши жараёнининг кўнгилга боғлиқ эканига ишорадир.

Ижтимоий ҳаёт, сиёсий ҳодисот тафсилчисидан якка шахс туйғулари кўйчисига, кўнгил ишига айланган истиклол шеърятининг бир ўзанини Усмон Азим назмисиз тасаввур қилиш имконсиз. “Усмон Азим поэтик услубида кўринган бахшиёналик кейинчалик шоирнинг воқеликни поэтик идрок этишидаги етакчи хусусияти бўлиб шаклланди. Шу билан бирга ҳаёт воқеа-ҳодисаларини чуқур интеллектуаллик, давомли ўйчанлик билан идрок этиши, шу жараёнда тугилган фикр-ҳиснинг фақат авж нуқтасини, синтезини ифодалаш Усмон Азимнинг воқеликни идрок ва ифода этишидаги бош белгиси сифатида кўзга ташланади” [2;27]. Қалбда мавжланган туйғулар тўлқинини фақат кўрингани каби зоҳири билан эмас, уни чуқур таҳлил қилиб, теран мушоҳада юритиб ботини билан ифода этиш ўқирманда ҳаёл самосини юксалтиради. Шеърхонда ботин-у зоҳирни теран англаш шаклланади.

“...қоинотдаги энг улуғ жанггоҳ – кўнгил” [3;39], – дейди Улуғбек Ҳамдам. Ҳақрост, одам олам ҳақиқатини излашнинг йўлини тутдими, у кўнгилни англашдан бу ишни бошласа, айна муддао бўлади. Боиси инсон ўзига қарши маънавий курашни бошлаган кундан унинг ҳақиқий ҳаёти бошланади дейдилар. Азалдан киши қалбида мавжуд икки зид кучларнинг муҳорабаси инсоннинг маънавий қиёфаси намоёишида муҳим бўлиб келган. Чунончи, эзгу ва ёвуз ҳислар, фазилатлар ва иллатлар кураши сўзимизга далил. Бу “энг улуғ жанггоҳ”да қай томоннинг ғалаба қилиши инсоннинг ўзигагина боғлиқ.

*Кўнглимнинг раъйида маъюс юрибман,  
Дунёга боқмайин ҳануз юрибман.*

*Маъюслик роҳимда руҳ ўсар – тирик.*

*Яшашим – азобли, сўзим – қичқирӣқ [1;28], –*

дейди шоир бир шеърда. Лирик қаҳрамоннинг айтишича, у кўнгил хоҳишига қараб дунёларга ҳам боқмайди, қалбда нимадир уни дунёдан юз ўгиртирди. Кўнгилдаги хазинлик кучидан руҳ-да тирик ўсади (фавқулодда ифода), лирик қаҳрамоннинг яшаши дардли, гапу сўзи бир қичқирӣқ. Лекин бу кўнгилга қарши туғёнлар (ҳеч бири кишиларга малол келмасин дейди у) унинг пок эътиқоди – ҳалол яшашини ўзгартирмаган. Муҳими, турмушнинг ҳалоллиги, кўнгилнинг покизалиги:

*Бу ҳолим ҳеч кимга келмасин малол...*

*Аслида бор-йўғи яшаяпман – ҳалол [1;28].*

“Бугунги шеърят – бугунги одамнинг кўнгил мавжлари” [8;106], – дейди адабиётшунос Қозоқбой Йўлдошев. Бу фикрлар айти ҳақиқат. Таҳлил қилаётганимиз – Усмон Азим шеърларида қалб амвожи синчков ўқирманга аниқ эшитилади. Ушбу мавж оҳанглари, тўлқин товушлари шунчаки бир овоз бўлиб эмас, билъакс шоирона юксак поэтик идрокнинг акс-садолари каби шеърга ўрнади. Ҳар бир сўзда бадий юк бор. Бу юкки, шоирнинг ўй-хаёллари, ҳис-туйғуларининг салмоғидан тафаккур тарозисида тош босади. Қуйидаги мисраларда ёз фасли тасвирининг кўнгил қадар ҳадланган чексиз суврати сийратга айланиб, унинг чеки бахт келгани каби ортади, шоир бу манзарани шундай сўз-сурат қилади:

*Эркаликда руҳу вужуди –  
Ёз тутаркан онгимни беҳад,  
Кўнглимгача етар ҳудуди:  
Бахт келгандай, бахт келгандай...  
-Бахт... [1;30]*

Лирик қаҳрамоннинг хонасига (рамзан кўнглига) “эркаланиб” қадам босган “эрка ёз” аслида қалбга меҳмон бўлган илиқ ва самимий туйғуларга тимсолдир. Шу боисмикин, у ўзини эркаликда тутади, шуурни ҳадсиз “ишғол қилади”. Боиси бу ёз кўркама кўкламнинг давоми...

*Кўнглим олам бўлиб қуйилар –  
Қандай яхши шеърда юришим!  
Менга жуда муҳим туюлар  
Юрагимнинг дунё қуриши [1;32], –*

дейди шоир “Эски хулосалар”ида.

Шеърнинг ҳар сатрида кўнгилнинг дунё янглиғ пайдо бўлиши шоир учун нақадар яхши! Бунда лирик қаҳрамоннинг қуйилган кўнгли дунё қуриши эса унга жуда муҳим. Барчасининг сабаби КЎНГИЛ! Чунки инсоннинг инсонлигини ҳам ҳал этувчи ҳақиқат аслида шу.

Шоир Шавкат Раҳмон бир кам дунёда, боқий нурларга чулғанмиш оламда ундан ўзи-ю борлиқ каби тўлмаган бир кўнгил қолади дея хаёл қилади:

*Мендан нима қолур,  
абдий нурлар  
барқ уриб яшнаган дунё томонда?  
Уриниб-суришиб сира тўлмаган  
бир кўнгил қолади  
қолса ҳам мендан [5;246].*

Шавкат Раҳмон ўзининг ортидан қоладиган деб билгани – кўнгил Усмон Азим шеърлятида ҳам умру қисматга пайванд бўлиб келаверади.

*Қисмат – йўригимга юрмаган олам.  
Умр – сиз тарафга таралган кўнглим...  
Бахтли бўлолмайман мен сизсиз. Ҳеч ҳам.  
Сиз эса менсиз ҳам бахтиёр бўлинг [1;61].*

Тангрининг қисмат қилганини бандаси ўзгартиролмайди, унинг ёзуғида айтилган манзилга элтувчи йўл турфа бўлиши мумкин холос. Шу боис лирик қаҳрамон уни ўз йўлига сололмайди, “сиз” сари бораётган кўнгил эса умр. Умрнинг бахтга тўлмаслиги сабаби ҳам аён – “сизсиз”лик. Лекин “сиз” “менсиз” ҳам бахтли бўла олади. Ҳар доимгидек кўнгил бергани бепарво. Бу кўнгилга эътибор бермаслик уни бахтдан мосуво қилади. Кўнгилни кўзга айлантириб, уни фақат меҳр-муҳаббат, эътиборга сафарбар қилмоқ эса асл одамийлик. Лирик қаҳрамоннинг “сиз”ига ҳам шу инсонийлик керак, назаримизда.

Дунё ҳикматларини ўқирманга англантиш учун, аввало, шоирда улкан юрак, ҳисларга лиммо-лим кўнгил, дардкашлик туйғуси бўлмоғи керак. Шунда ижодкорнинг айтган сўзи дарддошларига малҳам, уларнинг кўнгил оламига кўзгу бўлади. Зеро, *“Шеър – руҳ маҳсули. Руҳияти кучли шахсларнинг шеъри ҳам ўқувчига жоду-сеҳр каби таъсир этади. Ҳақиқий шеър қалб озригига малҳам, руҳга озиқ, жонга қувват”* [6;20]. “Руҳияти кучли” шоир Усмон Азим лирикасида кўпинча тилга олинадиган *“тоғ”, “осмон”, “тош”, “боғ”, “йил фасллари”* (бу умумлашма тарзда) каби образларнинг ҳар бири кўнгилнинг суратлари каби намоён бўлади.

Қалбнинг туғёнларини кўнгилга битиш – шоирона юксак ифода. Лекин бу кўнгилнинг дардларини баъзан шоир қоғозга-да ёзгиси келмайди. У *“Дардимни битгани менга тош керак”* дейди бир шеърида. Тошга битмоққа арзигулик кўнгил ғамларини куйламоқ ҳеч вақт осон эмас. Усмон Азим назмида шундай юксак бадиий маҳорат тажассуми борки, кўнгил кўз ўнгида (гоҳ қоғоздан чиқиб, гоҳ тошдан бўй кўрсатиб) доим пайдо бўлаверади. Юксак руҳнинг боиси жабр-ситамлар ҳам, шодумонлик ҳам кўнгилда аксланиб, асл сўз билан ҳақиқий шеъриятни қарор топтиради. Усмон Азимнинг бутун ижоди шундай юксак шеъриятнинг тимсоли бўлиб, ҳар ўзбекнинг кўнгилга кириб бориб, акс-садо бериши тайин.

Мухтасар айтганда, асл шеърият – кўнгил битиги. Бу сара назмдан баҳраманлик шеърхоннинг қалб меҳварида бокира ва инжа ҳисларни уйғотади, унинг кудрати ила тафаккур булоғи кўз очади. Усмон Азимдек адабиётимизнинг соҳирқалб санъаткорлари бор экан, китобхоннинг кўнгил оламига саёҳати мангу ва равон бўлади. Чунки кўнгилни суратламоқ – уни хис қилмоқ демакдир. Зеро, ҳазрат Навоий айтганидек:

*Кимки бир кўнгли бузуқнинг хотирин шод айлагай,  
Онча борким, Каъба вайрон бўлса обод айлагай.*

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Азим У. Кўнгил. –Т.: “Янги аср авлоди” нашриёти, 2019, 320 бет
2. Давронова М. Ҳозирги ўзбек шеъриятида индивидуал услуб поэтикаси. Филология фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. Самарқанд – 2019, 68 бет
3. Ҳамдам У. Янги изланишлар аввалида (*“Адабиёт – инсонни кашф этиши” тўпламидан*). –Т.: “Янги аср авлоди” нашриёти, 2016, 118 бет



4. Носир У. Юрак, сенсан менинг созим. –Т.: “Янги аср авлоди” нашриёти, 2017
5. Раҳмон Ш. Абадият оралаб. –Т.: “Мовароуннахр” нашриёти, 2012, 384 бет
6. Тошбоев О. Муножот (У. Азимнинг “Кўнгил” китобига сўзбоши). –Т.: “Янги аср авлоди” нашриёти, 2019
7. Йўлдошев Қ. Кўнгил юксакликларида (мақола). “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетаси
8. Йўлдош Қ. Ёниқ сўз. –Т.: “Янги аср авлоди” нашриёти, 2006, 548 бет
9. Эшонқул Н. Адабиёт – тарбия воситасими?.
10. // “Адабиёт – олдинда ёнган чироқ” номли баҳс-суҳбатдан// . “Шарк юлдузи” журнали, 2015, 1-сон, 108 – 113-бетлар
11. “Энди сўзга сиғмас бизларнинг суҳбат” (Усмон Азим билан суҳбат. Суҳбатдош Ситора Тождидинова). “Хуррият” газетаси, 2017 йил 15-феврал сони

## **"O'TKAN KUNLAR" ROMANIDA SHAXS OTLARINING QO'LLANILISHIGA BIR NAZAR**

*Abdurazzaqova Dinara G'ayrat qizi,  
JDPI talabasi*

*Ilmiy rahbar: JDPI katta o'qituvchisi,  
Abduvaliyeva Ziyoda Norqo'ziyevna*

Shaxs otlari kim? so'rog'iga javob bo'lib, shaxslarni yoshiga, yashash joyiga, mansab-unvoniga, kasb-koriga, ijtimoiy holatiga, qarindoshlik darajasiga, nasl-nasabiga, tashqi belgilariga ko'ra nomlab keladi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida ot turkumidagi so'zlar ko'plik, egalik, kelishik kabi grammatik kategoriyalarga ega bo'lishi bilan xarakterlanadi.

Masalan, shaxs otining yoshiga ko'ra munosabati:

1. Shu orada hujraga bir chol kirib, ul ham mehmonlar bilan so'rashib chiqdi. ("O'tkan kunlar", 7-bet)

Ushbu gapda "chol" ot so'z turkumi, shaxs oti, yoshi ulug', keksaygan insonga nisbatan qo'llanilgan.

Keltirilgan misoldagi "chol" so'zini morfologik tahlilga yo'naltirganimizda:

Chol – ot, kim? so'rog'iga javob bo'ladi, aniq ot, sodda ot, bosh kelishikda birlikda qo'llangan ot.

2. Bu qiz suratda ko'ringan malak qutidorning qizi- Kumushbibi edi. (O'sha manba 31-bet)

Ushbu gapda "qizi" ot so'z turkumi, shaxs oti, insonning qiz farzandini ifodalaydigan so'z. Shu o'rinda qiz farzand birikmasi qadimgi davrlarda ham qo'llanilgan.

Turkiy tillarda rod kategoriyasi yo‘q, lekin jins bor. Jins inson va boshqa jonzotlarga xos. Jinsning grammatik ko‘rsatkichi, qo‘shimchasi yo‘q. So‘zning ma'nosiga qarab inson yoki jonzotning jinsini farqlash mumkin....

..... Kul tegin bitigida uri ogul, qiz ogul so‘zlari ishlatilgan. Ushbu misollardagi

Uri - o‘g‘il, qiz - qiz degani. Ogul esa "farzand" ma'nosida. (O‘zbek tili tarixi 122-bet)

Ushbu misolda keltirilgan "qiz", "qiz farzand" larini morfologik tahlilga tortamiz: qizi – ot, kim? so‘rog‘iga javob bo‘ladi, aniq ot, sodda ot, bosh kelishikda, birlikda.

Shaxs otining yashash joyiga ko‘ra munosabati:

3. Mehmonimiz o‘sha edi- dedi qutidor toshkandlik Yusufbek hoji otlig‘ yaqin oshnamning o‘g‘li.

Ushbu gapda berilgan "toshkandlik" so‘zi shaxs oti. "Toshkandlik" so‘zi shu insonning qaysi hududdan ekanligini ifodalashga xizmat qilgan. Bu so‘zga -lik shaxs oti yasovchi affiksning qo‘shilishi natijasida (Toshkand+lik=toshkandlik) shaxs oti hosil qilingan.

"-lik" qo‘shimchasi o‘rin -joy bildiruvchi turdosh va atoqli otlarga qo‘shilib, shaxsning shu hududga mansubligini bildiradi. Atoqli otlarga qo‘shilgan -lik qo‘shimchasi atoqli otni turdosh otga aylantiradi va kichik harf bilan yoziladi.

Bu misolni morfologik tahlilga tortamiz: toshkandlik- ot, kim? so‘rog‘iga javob bo‘ladi, aniq ot, sodda ot, bosh kelishikda, birlikda.

4. Shu kunlarda Otabekka qizini bergan marg‘ilonlik Mirzakarim.

Ushbu gapda berilgan "marg‘ilonlik" so‘zi ham asar qahramonining yashash hududini ifodalab kelgan.

Bu so‘zni morfologik tahlil qiladigan bo‘lsak, marg‘ilonlik- ot, kim? so‘rog‘iga javob bo‘ladi, aniq ot, sodda ot, bosh kelishikda, birlikda qo‘llangan.

Shaxs otining qarindoshlik darajasiga ko‘ra munosabati:

5. Jiyan, - dedi Homid Rahmatga qarab, - boshlab, uylanishning, albatta, ota-onang uchun bo‘lib o‘rni yo‘q. (O‘sha manba, 11-bet)

Ushbu gapda "jiyan" so‘zi shaxs oti. Jiyan – aka-ukalarning, opa-singillarning farzandi (tog‘aga, amakiga, xolaga, ammaga nisbatan), shuningdek, o‘zidan kichik yaqin kishilarga murojaat shakli. Aynan ushbu misolda esa asar qahramoni o‘z qarindoshiga emas, balki o‘zidan kichik yaqin kishisiga nisbatan "jiyan"deb murojaat qilgan.

Bu so‘zning morfologik tahlili quyidagicha: jiyani- ot, kim? so‘rog‘iga javob bo‘ladi, aniq ot, sodda ot, bosh kelishikda, birlikda.

Shaxs otining ijtimoiy holatiga ko‘ra munosabati:

6. Hasanali o‘ttiz yoshliq vaqtida sotib olingan bir cho‘riga uylantirilgan bo‘lsa ham, ammo o‘g‘il-qizlari bo‘lmagan, bo‘lsalar ham yoshlikda o‘lib ketkanlar (O‘sha manba, 8-bet)

Ushbu gapda "cho‘riga" so‘zi shaxs oti hisoblanadi. Bu gapda qo‘llanilgan shaxs oti, ijtimoiy jihatdan o‘sha davr aholisining eng quyi darjasini bildirgan. Hozirgi kunda bu so‘z o‘rnida "xizmatkor"so‘zi bilan ma'nodosh deyish mumkin.

Xonliklar zamonidagi bu quyi tabaqa, boylar xonadonida barcha yumushlarni bajarib, o'sha xonadonda istiqomat qilgan va ayol jinsini bildirgan.

Bu so'zni morfologik tahlilga yo'naltirganimizda: cho'riga - ot, kim? so'rog'iga javob bo'ladi, aniq ot, sodda ot, jo'nalish kelishigida, birlikda.

7. Chunki, Hasanali Otabekning quli.

(O'sha manba 43-bet)

Ushbu gapda "quli" so'zi shaxs oti hisoblanadi. Bu shaxs oti boylar va yuqori tabaqa vakillari xonadonida xizmat qiluvchi va yashovchi, erkak jinsiga oid, quyi tabaqa vakilini ifodalab kelgan.

Bu so'zning morfologik tahlili: quli- ot, kim? so'rog'iga javob bo'ladi, aniq ot, sodda ot, bosh kelishikda, birlikda qo'llanilgan.

Shaxs otining mansab - unvoniga ko'ra munosabati:

8. Hokimingiz juda zolim emish, bu to'g'ri so'zmi? (O'sha manba 15-bet)

Ushbu gapda "hokimingiz" so'zi mansabni ifodalovchi shaxs oti. Ma'lum bir hudud(viloyat, shahar, tuman) ni boshqaruvchi, hukmdor yoki davlat boshlig'i tomonidan tayinlangan shaxs.

Bu so'zni morfologik tahlilga tortadigan bo'lsak: hokimingiz- ot, kim? so'rog'iga javob bo'ladi, aniq ot, sodda ot, bosh kelishikda, birlikda.

9. Musulmonqul Normuhammad qushbegiga besh ming sipoh qo'shib Toshkand ustiga jo'natqan. (O'sha manba, 36-bet)

Ushbu gapdagi "qushbegiga" shaxs oti hisoblanib, tarixiy mansablardandir. Qushbegi – amir va xonlar saroyida bosh vazir yoki huquqi vazirga teng yirik amaldor, hokim. (O'sha manba, 38-bet)

Bu so'zni morfologik tahlil qiladigan bo'lsak, qushbegiga- ot, kim? so'rog'iga javob bo'ladi, aniq ot, sodda ot, jo'nalish kelishigida, birlikda.

10. Xo'jasi Yusufbek hojiga, ayniqsa, xo'jazodasi Otabekka itoat va ixlosi tom bo'lib, buning evaziga ulardan ham ishonch ham hurmat ko'rar edi. (O'sha manba, 8-bet)

Ushbu gapda "hojiga" so'zi shaxs oti. Hoji- bu, avvalo, (arabcha - haj qiluvchi) Ka'bani ziyorat etgan, haj qilgan odam shaxsini ifodalab kelgan.

Bu so'zni morfologik tahlil qilinganda, hojiga - ot, kim? so'rog'iga javob bo'ladi, aniq ot, sodda ot, jo'nalish kelishigida, birlikda.

Shaxs otining kasb -koriga ko'ra munosabati:

11. Darbozasi sharqi-janubiyga qaratib qurilgan bu dongdor saroyini Toshkand, Samarqand va Buxoro savdogarlari egallaganlar, saroydagi bir-ikki hujrani istisno qilish bilan boshqalari musofirlar ila to'la. (O'sha manba, 6-bet)

Ushbu gapda "savdogarlar" so'zi shaxs oti. Bu shaxs oti ma'lum bir savdo - sotiq ishlari bilan shug'ullanuvchi kishilar jamoasini ifodalab kelgan.

Bu so'zni morfologik tahlil qiladigan bo'lsak: savdogarlari- ot, kim? so'rog'iga javob bo'ladi, aniq ot, sodda ot, bosh kelishikda, ko'plikda.

Shaxs otining tashqi belgilariga ko'ra munosabati:

12. Yaqindag'ina Musulmonqul cho'loqning bazmi shu Aziz bachcha bilan qizir edi, - dedi, ulug' bir narsa kashf etgandek mag'rur, majliska qarab chiqdi. (O'sha manba, 15-bet)

Ushbu gapda "cho'loqning" so'zi shaxs oti sifatida qo'llanilgan. Bunda biror tashqi belgilari asosida (oyog'ida) nuqsoni, kamchiligi bor insonni ifodalab kelgan.

Bu so'zni morfologik tahlil qiladigan bo'lsak:cho'loqning- ot, kim? so'rog'iga javob bo'ladi, aniq ot, sodda ot, qaratqich kelishigida, birlikda.

Xullas, ko'rib o'tganimizdek, Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida qo'llangan shaxs otining insonlarga nisbatan o'ziga xos belgi - xususiyatlarga ega bo'lgan gaplarni morfologik tahlil qildik. Tahlil jarayonida shunga amin bo'ldikki, asar muallifi tomonidan qo'llanilgan insonlarning qaysi bir tomonini olmaylik, mana shu jihatlar asosida shaxs otiga tegishli, kerakli so'zlar ishlatilib, pishiq jumlar tuzilgan. Tadqiqot davomida asar matnida hech qanday g'alizliklarga yo'l qo'yilmaganligi, matn g'oyat aniq, mazmunli, uslubiy jihatdan mukammal yozilgan asar ekanligiga yana bir bor ishonch hosil qildik.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Qodiriy A. O'tkan kunlar. Toshkent. 2019.
2. Anorbekova A., Mirzayeva Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent. 2016.
3. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent. 2005.
4. Ilmiy izlanishlar, talqin va tahlil muammolari, Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallar. Toshkent. 2017.

#### ZULFIYA QUROLBOY QIZI ASARLARIDA INSON RUHIYATI TASVIRI

*Eshmurzayeva Barno,  
JDPI talabasi*

**Ilmiy rahbar: f.f.d. (PhD) Murodulla Jo'rayev**

“Jahon adabiyoti va estetik tafakkur tarixiga nazar tashlasak, shunday bir haqiqatning guvohi bo'lamiz: deyarli barcha ulkan adib va olimu mutafakkirlarning ilmiy-adabiy faoliyatida aksariyat hollarda bo'shroq asarlar bilan ajralib turadigan “dastlabki davr” yoxud “kamolot davri” kabi ijodiy bosqichlarni kuzatish mumkin”. [1-243]

Xuddi shunday ma'noda o'z ijodining, aytish joiz bo'lsa “dastlabki davr”ida Zulfiya Qurolboy qizi asarlarida jamiyatdagi turli qiyofa-dagi insonlar – yaxshi, samimiy, mehribon, xoksor va yoki bunga zid toifadagi qahramonlarning kechinmalari bilan sirdosh bo'lamiz. Muallifning “Xoliq amaki” hikoyasini olaylik, Xoliq amaki “...umr bo'yi qora mehnatdan chiqmagan odam... Huzurhalovat neligini bilmagan odam ...Chumchuqqa ham ozor bermagan odam...” [2-Ziyouz.com] Ammo mana shunday beozorlarga o'z hukmini o'tkazuvchi axloq kushandalari jamiyatdagi dilozorliklar, insoniylikdan yiroq hislatlarga nisbatan naf-rat uyg'otadi. Xoliq amaki yoki xoksorlikdan, ta'bir joiz bo'lsa qo'rqqanidan o'ziga nisbatan qilingan hech bir noinsoflikka javob qaytarmaydi. Avtobusdagi bolalarning joy bermaganiga e'tibor ham qilmadi, biroq “ko'zoynakli yigit” hurmat qilib joy berganida yosh boladek quvonadi, yuz-ko'zida samimiy baxtiyorlik

porlaydi. Paxta terish mavsumida Narziquil rais topshiriqni bajarmay, shaharga otlanganlarni bekatdan haydab solardi. Xoliq amaki ham bolalariga oyoq kiyim olish uchun bir qop anor ko'tarib bozorga otlanganida, Narziquil raisga duch keladi. Hech narsadan kam-ko'sti yo'q rais Xoliq amakining dardini qayerdanam tushunsin. Qop to'la anorni yo'lning o'rta-siga sochib, gerdayganida ham amakidan sas-sado chiqmadi, "lekin shundan keyin Xoliq amakini bekatda turganini yo bozor-o'char qilib yurganini ko'rmadim." [2- Ziyouz.com] Demak, Xoliq amakida g'urur anchayin baland. Ammo bezorlik undan-da ustun. Qo'shnisi Nortoxta bilan suv talashish voqeasida ham qahramonimiz nohaq kaltak yeydi. "Nortoxtaning hay-haylashiga qaramasdan, Xoliq amaki suvni o'zi tomonga burib olaveribdi. Navbat uniki ekan-da. Jahli chiqib ketgan Nortoxta ketmon dastasi bilan amakining naq yelkasiga tushiribdi. Xoliq amaki "ih" debdi-yu ariq ichiga cho'kkalab qopti. "Qachondan buyon tiling chiqibqoldi?" deb baqiribdi haligi qo'shni." [2- Ziyouz.com] Qahramonimiz ham norozi bo'ladi. Faqat buni atrofdagilar tushunishmaydi. Andishaning otini qo'rqqoq qo'yishadi. Qishloqdagi o'g'ri bolalar Xoliq amakiga tarsaki tushirga-nida muallif o'z his-tuyg'ularini ochiqchasiga bayon etadi: "O'g'il bola bo'lib tug'ilmaganim rosa alam qilgan. Alam qilsayam naryoq-beryog'i yo'q... Men Xoliq amakining haqligiga ishonardim." [2- Ziyouz.com] Xoliq amaki umrining oxiridagi so'nggi lahzalarida o'zidan rozi-rizolik so'rovchilarga, butun dunyoga qo'l siltaydi, isyon qiladi. Hamma hayron, amakining o'lgan-o'lmaganini hech kim bilmaydi. Aniqlash uchun kasalxonaga olib borishadi. Shifokorlar bunday holatlar bo'lib turishini, bemor allaqachon vafot etganligini aytishganmish. Nihoyat marhum dafn etiladi. Nortoxtaning tuban inson ekanligiga yana bir bor guvoh bo'lamiz: "Emishki, o'shakuni ...do'xtirlar Nortoxta aytganidek, ko'mib yuboraveringlar, demagan ekan. Nortoxta boshliq qarindoshlar o'zaro: Bir kun oldin o'ldi nima-yu, bir kun keyin nima, bari bir o'ladi-ku, degan fikrga kelishibdi-da, har xil bahonalar bilan do'xtirlardan amakining allaqachon o'lganligi haqida spravka olishgan ekan..." [2- Ziyouz.com] Hikoya yakuni shunday.

Ana endi o'quvchining ahvolini ko'ring. Xoliq amakiga achinish bir tomon bo'lsa, "mehribon qo'shnilar"ga nisbatan nafrat bir tomon. Muallifning o'zi ham beixtiyor o'quvchiga aylanadi; "Agar azroilga jon kerak bo'lsa, nega Narziquil raisning jonini olmadi. Nega kelib-kelib bir bechorani tanladi?" [2- Ziyouz.com] Zulfiya Qurolboy qizi ijodidagi o'zgachalik meningcha, u o'z asarlarida muallif sifatida emas, o'quvchi sifatida ko'proq yashaydi.

"Ayol" hikoyasida ham shunday, og'ir xasta, umrining so'nggi kunlari, soatlarini yashayotgan Nazokat bu hayotni ayol sifatida tark etishni istaydi. "Yozsiz yil", "Kasal qush", Tafakkur"... adibaning shu kabi ko'pgina asarlarida mehribonlik, achinish kabi his-tuyg'ular bir-lamchi o'rinni egallaydi. "Quyosh nega chiqaveradi?"da Tursunoy, "Tafakkur"da Tangriberdi, "Ayol"da Nazokat, "Yozsiziyil"da Buvgul xola va Sobir "Qadimiy qo'shiq"da Sul-tonmurod va hokazo obrazlar taqdiri shafqatsiz qismat qurbonlaridir.

Xulosa qilib aytganda, Zulfiya Qurolboy qizi asarlarini o'qigan har bir inson ruhiyatida o'zini isloh qilish, o'z-o'zini idrok qilish harakati paydo bo'ladi.



Bularning barchasi badiiy adabiyotning bosh vazifasi bo‘lgan “Ezgulikka – muhabbat, yovuzlikka – nafrat” tuyg‘ularini uyg‘otishga xizmat qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Qosimov U. Mehr va samimiyatga yo‘g‘rilgan ijod. Ozod Sharafiddinov zamondoshlari xotirasida.-T: O‘zbekiston. 2007.
2. Zulfiya Qurolboy qizi “Xoliqamaki” hikoyasi. Ziyouz.com. 2021.

### BO‘G‘LOVCHILARNING SEMANTIK QIYOSI

*Abralova Nafisa ,  
Jizzax davlat pedagogika instituti talabasi  
Ilmiy rahbar: f.f.f.d., dots. Feruza Jumayeva*

Ma’lumki, o‘zbek tilida bog‘lovchilar vazifasiga ko‘ra ikki guruhga bo‘linadi: teng va ergashtiruvchi bog‘lovchilar. Teng bog‘lovchilar gap bo‘laklari va gaplarni bog‘lash bilan birga, ular o‘rtasidagi mazmuniy munosabatlarni (birgalik, zidlash, ayirish, inkor) ro‘yobga chiqaradi. Shunga ko‘ra teng bog‘lovchilar quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

1. Biriktiruv bog‘lovchilari: va, hamda, bilan, ham.
2. Zidlov bog‘lovchilari: ammo, lekin, biroq, balki.
3. Ayiruv bog‘lovchilari: yo, yo...yo, goh...goh, dam...dam, bir...bir, ba’zan...ba’zan.
4. Inkor bog‘lovchisi: na...na.

Biriktiruv bog‘lovchilaridan va, hamda sof bog‘lovchilari, bilan ko‘makchi-bog‘lovchisi o‘rnida ingliz tilida “and”, “else” (any-, no-, some- so‘zlari bilan boshlangan so‘zlardan hamda so‘roq so‘zlardan so‘ng) qo‘llaniladi.

M.: books and notebook (birikma holda)

(kitoblar va daftarlar)

M.: Spring came and flowers opened (gap holda)

(Bahor keldi hamda gullar ochildi)

Ammo, lekin, biroq, balki zidlov bog‘lovchilari ma’no jihatdan ingliz tilidagi “while, but, however, though” so‘zlariga teng keladi. Bulardan but so‘zi keng qo‘llanilishi kuzatiladi.

M.: The sky was covered with clouds, but it did not rain.

(Osmonni bulut qopladi, lekin yomg‘ir yog‘madi)

Ayiruv bog‘lovchilari yakka holda qo‘llanganda “or” (yo), takror holda qo‘llanganda (yo...yo, dam...dam, bir...bir kabi) “either...or” birikmasidan foydalaniladi.

M.: book or pen (yakka holda)

(kitob yoki ruchka)

M.: Either I will go, or you come (takror holda)

(Yo men boray, yo siz keling)

Ba'zan bog'lovchisi takror takror qo'llanganda "sometimes...sometimes" dan foydalaniladi.

M.: Sometimes it rains, sometimes the sun shines.

(Ba'zan yomg'ir yog'adi, ba'zan quyosh charaqlaydi)

Na...na inkor bog'lovchisi o'rnida "neither...nor" so'zlari qo'llaniladi.

M.: Neither reads, nor writes.

(Na o'qiydi, na yozadi)

Bog'lovchilarning ikkinchi turi — ergashtiruvchi bog'lovchilar qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bir-biriga tobelantirish yo'li bilan bog'laydi. Ergashtiruvchi bog'lovchilarning ma'nosiga ko'ra quyidagi turlari mavjud:

1. Aniqlov bog'lovchisi: ya'ni;
2. Sabab bog'lovchilari: chunki, negaki, shuning uchun;
3. Chog'ishtiruv bog'lovchilari: go'yo, go'yoki,;
4. Maqsad bog'lovchisi: toki;
5. Shart va to'liqsizlik bog'lovchilari: agar, garchi, basharti, modomiki;

Aniqlov bog'lovchisi ya'ni o'rnida ingliz tilida "that is" shakli qo'llaniladi.

M.: The season of renewal has entered our country, that is the spring.

(O'lkamizga fasllar kelinchagi, ya'ni bahor kirib keldi)

Sabab bog'lovchilari chunki va negaki o'rnida "because" so'zi ishlatiladi.

M.: Avoid idle work, because your time is limited.

(Bekorchi ishlardan qoch, chunki vaqtning chegaralangan)

Shuning uchun sabab bog'lovchisi o'rnida "so" so'zidan foydalaniladi.

M.: The water was very shallow, so he could not use it.

(Suv juda sayoz edi, shuning uchun undan foydalana olmadi)

Go'yo, go'yoki bog'lovchilari o'rnida "as if" birikmasi qo'llaniladi.

M.: The old men sat in silence, as if they missed their youth.

(Chollar jim o'tirishardi, go'yo yoshliklarini sog'inganday)

Toki maqsad bog'lovchisi o'rnida "as far as" birikmasi ishlatiladi.

M.: The wicked must be punished, as far as that the good do not bring bad days upon them.

(Yomonlarning jazosini berish kerak toki ular yaxshilarning boshiga yomon kunlarni solmasinlar)

Agar (gar), modomiki, basharti, garchi kabi shart bog'lovchilari o'rnida "if" qo'llaniladi.

M.: If a person has a purpose in life, he will never regret his past life.

(Agar kishining hayotida biror maqsad bo'lsa, o'tgan Hayotidan hech afsuslanmaydi)

O'zbek tilida yordamchi so'zlar, jumladan bog'lovchilar ham ko'p semali bo'lib, bu semalarning deyarli barchasi ingliz tilida alohida so'zlar bilan ifodalanadi. Ularni o'rganish jarayonida gaplarning mazmuniy qurilishidagi semantik farqlanishlarni aniqlash mumkin bo'ladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Турсунов У., Мухторов А., Рахматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий

тили. –Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – 400 б.

2. M.Asqarova, R.Yunusov, M.Yoʻldoshev, D.Muhamedova Oʻzbek tili praktikumi. – T.: “IQTISOD-MOLIYA” 2006. – 304 b.

3. F. Jumayeva Polisemem leksemalar doirasidagi sinonim va antonim semalar tadqiqi. Monografiya. – Toshkent: Qaenus Mediya. 2019. -136 b.

4. F. Jumayeva, Ona tilidan saboqlar (Maʼruza matnlari) – T.: “Qamar-media” nashriyoti, 2020. – 324 b.

5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати (ЎТИЛ). 5 жилдли. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1-жилд, 2006. – 680 б; 2-жилд, 2006. – 672 б; 3-жилд, 2007. – 688 б; 4-жилд, 2008. – 608 б; 5-жилд, 2008. – 592 б.

## “JANNAT QIDIRGANLAR” ROMANIDA DAVR VA SHAXS TALQINI

*Beginqulova Zulfizar Abduxoliq qizi*

*JDPI talabasi*

*Ilmiy rahbar: dots.v.b., (PhD) M.Joʻrayev*

“Jannat qidirganlar” romani oʻzbek yozuvchisi Shuhrat qalamiga mansub hisoblanadi. Ilk bor 1968-yil Toshkent shahrida chop etilgan. Bir necha marta turli nashriyotlarda, jumladan, Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida hamda “Qaldirgʻoch” nashriyotida qayta nashr etilgan. “Jannat qidirganlar” romani “Oltin zanglamas” romanining mantiqiy davomi hisoblanadi. Roman oʻzbek oʻquvchilari orasida yaxshi tanilgan.

“Jannat qidirganlar” romanida vatangadolik fojialari badiiy ifodasini topgan. Xususan, romanda haqiqat (jannat) axtarib yashovchi kishilarning ikki xil koʻrinishi tasvirlangan. Asarda muallif Sovet ittifoqi davrida inson haq-huquqlarining toptalishiga oʻzi guvoh boʻlganlarini badiiy umumlashtirgan holda obrazlarda aks ettirgan. Chin eʼdiqod, vatanparvarlik, vijdon amrini har bir kishining jamiyatdagi mavqeyi va insoniy qadr-qimmatini belgilovchi maʼnaviy qadriyatlar sifatida tasvirlangan.

“Qatagʻonning mudhish shamoli Shuhratni ham chetlab oʻtmadi. 50-yillar boshida sovetlarga qarshi targʻibotda ayblanib, umrining besh yilini Shimoliy Qozogʻistondagi qamoqxonalarda oʻtadi. “Jannat qidirganlar” romani nashr qilingandan keyin esa (1968), ayrim kimsalar uni millatchilikda ayblashga urinadilar. Yana tashvish ustiga tashvish keladi. Shularning hammasi uning sogʻligʻiga putur yetkazadi.” [3- <https://uz.wikipedia.org/wiki/Shuhrat>]

Oʻz qalamining mohir ustasi xalqimiz suygan yozuvchi Shuhrat ushbu romanda birinchilardan boʻlib, chet eldagi oʻzbeklar haqida hikoya qiladi. Ushbu asarda Saidakbar hoji, Aʼzam, Qoplonbek, Qurbonali, Abulbaraka, Ummatali, Nafisa, Tamanno, Qimmatxon obrazlari orqali vatangadolik fojealarini badiiy talqin etadi. Asar syujeti Aʼzamning Nafisaga uylanishi uning hamon xotinidan koʻngli toʻlmasligi, Nafisani oʻz “Baxtining toʻgʻanogʻi” [1-39] deb qarashi Nolan boshlanadi. Romanda muallif Sovet Ittifoqi davrida inson haq-huquqlarining toptalishini, oʻzi guvoh boʻlgan voqelarni umumlashtirgan holda tasvirlaydi.

Asarda vatanparvarlik, inson qadr-qimmatini, e'tiqodi, vijdon amri, insonning jamiyatdagi o'zni muhim ma'naviy qadriyat sifatida talqin etiladi. Asar syujeti davomida rus tuzem maktablarida ta'lim olgan savdo ishlari yuzasidan otasi bilan keyinchalik esa o'zi Moskva, Peterburgni ko'rgan sanoat ko'rgazmalarida qatnashgan Saidakbar hoji charxi falakning qayoqqa aylanayotganini yaxshi anglab o'z ona yurtini tashlab qochganligi, o'zi bilan birgalikda Qurbonalini ham vatangadolikka mahkum etganligini ko'rishimiz mumkin. "O'zini osmonda, osmonda bo'lganda ham shunday hisoblagan" [1-3] A'zam qilgan turmushidan olgan havosidan, kindik qoni to'kilgan ko'ngli to'lmay otasi, xotini va qixchasini tashlab chet eldan siyosiy boshpana so'rashi keyinchalik esa razvetka xizmatiga o'ralashib qolishi, asar so'ngida esa ko'zi ko'r bo'lib vatangadolik azobida hourzor bo'lishi Saidakbar hojning esa mol-u dunyoga bo'lgan xirsi tufayli o'z farzandlarining, hamda, o'zining baxtsizligiga olib keladi. Asar davomida o'ziga o'xshamagan hojning farzandi, xalqparvar o'g'il Abulbarakaning milliy ozodlikka inqilob sari qo'ygan qadamining besamar ketishi bilan rivojlanib boradi. U shunday degan edi: "Eng muqaddas narsa milliy ozodlik uchun to'kilgan qondir" [1-75].

Shuhrat o'z romanida mana shunday g'oyalarni ilgari suradi. Bola tug'ilganda u oila farzandi bo'ladi. El-yurtga fidoyilik bilan xizmat etsa, xalq farzandi, barcha xalqning manfaatini ko'zlasa, yo'l-yo'riq ko'rsatsa, bashariyat farzandiga aylansa, xalqiga figoyilik bilan xizmat etsa. Yozuvchi romanda jannat axtarib yashovchi kishilarni ikki xil ko'rinishda tasvirladi.

Xulosa shuki, uzoq o'lkada e'tirofga sazovor bo'lib, davlat, mol-dunyo orttirib yashagan inson "vatan sog'inchi bilan ko'ngil xotirjamligiga hech qachon erisha olmasligini his qilishga undaydi" [2- Asahiy.uz.].

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shuhrat "Jannat qidirganlar". Toshkent. "Qaldirg'och" .2018-y
2. Asahiy.uz.
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Shuhrat>

### III БОБ. ЎЗБЕК АДАБИЙ ТАҢҚИДЧИЛИГИ ВА БАДИИЙ МАҲОРАТ МАСАЛАЛАРИ

*Шуъба раиси:* филология фанлари номзоди, доцент Юлдуз Каримова  
*Котиби:* ўқитувчи Гулбаҳор Курбонова

#### **«БОЛЬШЕВИКАМ ПУСТЫНИ И ВЕСНЫ»: СОВЕТСКИЕ ПИСАТЕЛИ «ОТКРЫВАЮТ» СРЕДНЮЮ АЗИЮ (1930 г.)**

*Шерстюков Сергей Андреевич,  
Алтайский государственный университет  
доцент кафедры востоковедения,  
кандидат исторических наук*

Несколько лет назад исследователями из Кыргызстана Георгием Мамедовым и Ольгой Шаталовой был инициирован проект под названием «Понятия о советском в Центральной Азии», участники которого обозначили в качестве своей сверхзадачи выработку «диалектически емкого» языка для осмысления советского, — «понятийного инструментария, который схватывал бы как эмансипационное, так и репрессивное советского проекта, и учитывал его локальные проявления»

. Публикации в рамках упомянутого проекта и ряд других работ показывают, что часть исследователей осознают необходимость поиска нового аналитического языка для описания феномена «советского», и, некоторые из них, пытаются создать площадки, которые могли бы стать своеобразными лабораториями для подобных поисков.

Может ли изучение советской литературы помочь выполнению этой задачи? Этот вопрос, скорее всего, следует формулировать по-другому — в какой степени изучение литературы способно приблизить нас к пониманию феномена «советского»?

Насколько серьезен эвристический потенциал литературы, как источника по истории советского среднеазиатского общества, и в какой мере этот потенциал использован? Представляется, что между тем, что возможно с помощью анализа литературы как одного из исторических источников, и тем, что достигнуто, все еще сохраняется значительный зазор. Удачным примером обращения к литературе, позволившим предложить интересный взгляд на российскую имперскую историю является работа А. Эткінда «Внутренняя колонизация». Используемый автором концепт «внутренней колонизации» может быть весьма плодотворным и для изучения советского опыта (о чем упоминает сам автор), в том числе истории советской Средней Азии. На следующих страницах автор, опираясь на написанные в разных жанрах тексты советских писателей, исследует создаваемый ими сложный конструкт «советской Средней Азии», фокусируя свою оптику на нескольких смысловых блоках («история», «пространство», «ислам», «женщина», «экзотика»).



Интерес к Центральной Азии в российском обществе, пик которого пришелся на время завоевания региона, постепенно снижался. Российское общество и российская власть, отмечает российский исследователь С.Н. Абашин, словно забыли о Центральной Азии и редко вспоминали о ней как об экзотической окраине с руинами мавзолеев и минаретов Восстание 1916 г., которое стало прологом к последующим революционным потрясениям на пространстве бывшей Российской империи, снова напомнило и российской общественности и власти о регионе, процесс включения которого в общеимперское пространство, несмотря на произошедшие в нем с середины XIX века изменения, не был завершен.

Однако в 1917 г. произошли события, которые заставили центр на время забыть о далекой окраине. После того как Москве удалось, к началу 1920х годов, укрепить свою власть в регионе, начался процесс, в результате которого бывшая окраина империи превратится через ряд промежуточных этапов, наполненных дискуссиями и борьбой разнообразных сил, в советские республики, организованные по национальному признаку. На месте Русского Туркестана возникла советская Средняя Азия.

«Новый-старый» регион, должен был описываться и, в значительной степени, конструироваться с помощью нового языка. Роль литературы в этом процессе, учитывая литературоцентризм формирующегося советского общества и власти, трудно переоценить. Новая власть предпринимала попытки не только как можно более решительно отделить Русский Туркестан от советской Средней Азии, но и, вытеснить, или хотя бы маргинализировать идеологии, альтернативные советской — прежде всего панисламизм, пантюркизм, а также паниранизм. В случае с национализмом речь шла не столько о вытеснении, сколько о трансформации — результатом целенаправленных усилий большевиков должно было стать превращение буржуазного национализма в социалистический.

Российский антрополог А. Юрчак писал, что на ранних этапах советской истории роль господствующей фигуры, которая руководила идеологическим дискурсом, играл революционный политический и художественный авангард, который, располагаясь за пределами идеологического дискурса, постоянно комментировал и оценивал его из этой внешней позиции, внося в него свои коррективы. Годы революционных экспериментов постепенно сменились введением централизованного партийного контроля за идеологическим производством и репрезентацией. С этого момента (вторая половина 1920х годов), полагает Юрчак, уникальная роль господствующей фигуры советского идеологического дискурса перешла к Сталину. Однако, как представляется, введение централизованного контроля партии за идеологическим дискурсом заняло больше времени, вследствие чего художественный авангард сохранял определенную степень автономии до начала 1930х годов.

Новая, формирующаяся социалистическая литература должна была стать мощным инструментом культурной революции и социалистического

строительства. В 1930 г. редакция «Литературной газеты» провозглашала включенность в это строительство главной писательской задачей: «Социалистическая перестройка мира — вот генеральная тема нашей литературы в реконструктивный период. Быть в центре этой перестройки, участвовать в ней всем существом, перестраивать себя и литературу — такова задача писателя сегодня». В постановлении ЦК ВКП (б) «Об издательской работе», принятом 15 августа 1931 г. указывалась, что задача художественной литературы «гораздо более глубоко и полно отразить героизм социалистической стройки и классовой борьбы, переделку общественных отношений и рост новых людей — героев социалистической стройки».

В 1930 г. группа ведущих советских писателей, принадлежавших к разным литературным течениям, совершила поездку в Туркменистан. Инициаторами поездки выступили Госиздат, Наркомпрос Туркменистана и газета «Известия». В «туркменскую бригаду» советских писателей, прозванную «ударной» входили Всеволод Иванов, Леонид Леонов, Владимир Луговской, Николай Тихонов, Петр Павленко и Григорий Санников. Бригада проследовала по маршруту Ашхабад — Кушка — Мерв — Байрам-Али — Бухара — Керки — Чарджуй. Поскольку одной из точек их маршрута была Бухара, писатели побывали также в Узбекистане. Поездки бригад советских писателей были формой подключения творческой интеллигенции к бригадному методу работы, распространявшемуся по всей стране. Часто итогом таких поездок становились коллективные сборники работ (в результате поездки «туркменской бригады» в 1932 г. был издан альманах «Туркменистан весной»). Различные «писательские бригады» посещали стройки первой пятилетки, чтобы получить материал для своего литературного труда из первых рук.

В это время писатели не только совершали совместные поездки, но и экспериментировали с коллективным сочинением работ, а сами их тексты были наполнены этнографическими, географическими, экономическими и другими сведениями. На литературу, таким образом, возлагались задачи, выходящие за ее пределы, а создававшиеся в рамках этого видения произведения, должны были приближаться к научным исследованиям (или становиться ими). Об этой задаче писал Петр Павленко, один из участников «туркменской бригады», в начале очерка «Путешествие в Туркменистан», объясняя необходимость ее выполнения скоростью переживаемых Туркменией изменений: «Метод своеобразной статистики, приемы регистрации ландшафтов, костюмов и характерностей сегодняшней жизни, вещность и фактурность становились совершенно необходимыми, потому что через несколько лет ни одна эмоция, функционирующая в каракумских песках, не будет понятной без обрамления ее материалом о почвах и климате, о состоянии коллективизации или положении низшей школы».

«Бригада» советских писателей направилась в Туркменистан для того, чтобы рассказать об успехах социалистического строительства в республике.

Хотя, фактически, перед ними стояла более широкая задача — познакомить советских людей со Средней Азией, и, во многом, заново «открыть» этот регион. К этому времени в регионе уже шли масштабные преобразования — завершилось национально-территориальное размежевание, начиналась коллективизация, шло строительство водных каналов, развернулась кампания за «раскрепощение» мусульманских женщин. Конечно, в ходе поездки по Туркменистану, они общались с местными писателями и литературными организациями. В регионе, имевшем богатейшие литературные традиции, литература национальная и социалистическая делала первые шаги.

Увиденное и пережитое в ходе поездки писатели отразили в литературных текстах, созданных в разных жанрах (повести, путевые заметки, очерки, романы, стихотворения). Хотя написанные ими тексты вращались вокруг общих сюжетов, среднеазиатская действительность описана в них поразному, и различия эти не только жанровые или стилистические, но и содержательные. От писателей и художников требовали показывать жизнь, какой она станет, а не какова она есть, т.е. пользоваться методом «социалистического реализма» вместо реализма буквального, «натуралистического». Тем не менее, тексты советских писателей свидетельствуют, что они пользовались этим методом избирательно, а сами они видели свою миссию не только в том, чтобы запечатлеть грандиозные преобразования (настоящие и будущие), происходившие в регионе, но и в том, чтобы успеть описать ту привлекавшую их «старую» действительность, которая должна была вскоре безвозвратно исчезнуть. «Еще три, четыре, пять лет — и начнет жить другая страна; и мы спешили литературно зарегистрировать сегодняшнюю, которая так и не была известна в искусстве», – так описывал Н. Павленко цель «туркменской бригады».

У каждого из участников поездки были свои отношения с Востоком (и культурным, и воображаемым, и географическим), но их объединял интерес к Востоку, оставивший след не только в их литературном творчестве, но и в их биографиях.

Родившийся в Семипалатинской губернии Всеволод Иванов рано начал самостоятельную жизнь, освоил множество профессий, и в юности попытался совершить «путешествие» в Индию. Хотя он смог дойти только до Бухары, впоследствии он продолжил скитаться по Сибири, Уралу, Казахстану. Позднее этот опыт нашел выражение в его автобиографических романах «Похождения факира» и «Мы идем в Индию».

Восточная тематика была конституирующей и для творчества Н.С. Тихонова, первый раз посетившего Туркмению в 1926 г. За страсть к путешествиям К. Федин назвал его «советским Пржевальским». Как и ряд других советских литераторов, Тихонов был увлечен глобальным революционным моментом начала 1920х гг., создавая произведения, в которых образы мировой революции, охватывающей вслед за Европой страны Востока, приобретали отчетливые ориентальные черты. Этот мотив, в

частности передан в стихотворении «Смерть бойца», написанного им в 1922 г., в котором были такие строки:

«Из-за Рейна руки кричат ему,  
Был Мюнхена лебедь ал,  
На Востоке с красным серпом чалму  
Качает каспийский вал».

Опыт, полученный в результате поездки в Среднюю Азию, оказался крайне важным для поэта Владимира Луговского, прежде знакомого с Востоком только из книг, а Средняя Азия стала одной из главных тем в его творчестве. Свои впечатление от увиденного он обобщил в книге стихов, название которой повторило название его первого и самого известного стихотворения из «среднеазиатского цикла» «Большевикам пустыни и весны».

Впервые побывавший в Туркмении в 1931 г. Григорий Санников впоследствии еще не раз посетит этот регион. Впрочем, для Санникова это была не первая поездка на Восток, открывшего ранее для себя Аравию и Африку, и, подобно Тихонову и Луговскому, написавшему целый цикл «ориентальных» стихотворений.

#### «История»

История Средней Азии, насчитывающая несколько тысячелетий, и ее зримое наследие в виде многочисленных сооружений — это то, что подпитывало интерес общественности к региону, как в царский, так и в советский периоды. Отношение к истории и ее памятникам являлось важным маркером, говорящем о наблюдателе и его восприятии региона. Оценки памятников могли быть самыми разными — от восхищения перед ними и признания их величия до разочарования, вызванного несоответствием увиденного ожидаемому. Дореволюционные авторы нередко подчеркивали контраст между величием памятником прошлого и общим упадком и застоём настоящего.

Если выразить отношение к прошлому советских писателей, приехавших в Среднюю Азию, то это отрицание пришлое, у которого, однако, было немало оттенков и нюансов. Один из главных мотивов, выраженных в их произведениях — мотив обесценивания прошлого, идея о том, что прошлое никому не интересно и никого не трогает и не удивляет. Леонид Леонов в очерке «Поездка в Маргиан» писал: «Кто теперь в Мерве помнит Ездигерда ШСасанида, убитого под его стенами, или Кутайбу ибн Муслима, распространителя ислама, или братоубийцу Мамуна, Гарун-аль-Рашидова сына?... Какой чудак помнит их имена? Они растворились начисто в ветрах, как сахар...». Современность превосходит прошлое, и ей нечему учиться у него: «Все это надменное глиняное величие, помноженное на тщеславие минутного завоевателя, вряд ли обольстит трезвого нынешнего человека... Мы уже познали железо и бетон, мы ценим мудрую прелесть канализации, словом вода мы привыкли определять не стоячий студень грязного арыка, а то текучее и жизнотворное благо, одна мысль о котором

дает прохладу. Да, наконец, и размеры великих человеческих сдвигов теперь куда внушительней, осмысленней и грозней, чем в смутные времена сирийца Антиоха».

Борьба за новую жизнь предполагала не просто отказ от прошлого, но разрушение всех следов прошлого, часть артефактов которого следовало просто утилизировать. Однако перед этим можно взглянуть последний раз на среднеазиатские «древности», запечатлеть их, и даже восхититься ими. «Я обхожу кругом. Мой фотоаппарат жадничает и торопится, потому что лицо сегодняшней Туркмении меняется... Кто знает! Может быть, и впрямь имеет смысл разворошить и запахать кое-что из этих древних дувалов, пропитанных солнцем и азотом, — они великолепные удо-бренья, по утверждению здешних агрономов». Петр Павленко в очерке «Утильсырье» выразил эту идею в еще более радикальной форме: «Стара экзотика Бухары, стара — слаба. Я видел древности почтенного Хоросана, пыльные кладбища Эрзерума, голубое солнце Скутари, я хорошо чувствую эту старую терпкую пыль тысячелетних городов, но пыль Бухары горька, как табачная, и ничего, кроме злого раздражения, не вызывает она у меня... Всю Бухару надо скрыть и отправить в утильсырье для рассыпки, как удобрение». «Туркмения прошлого ликвидируется, последние потомки Тимура и Чингизхана съезжают из туркменской истории». Идея разрыва с прошлым и отрицание преемственности с ним даже там, где она видна невооруженным глазом вела к утверждению о том, что Средняя Азия вышла из замкнутого цикла своей истории, состоящего из набегов, сменяющих друг друга династий, периодических засух и наводнений, угнетения богатыми бедных — порядок жизни, существовавший тысячелетиями и освященный традицией и религией, рухнул. История Средней Азии «распрямилась» и «обнулилась», народ стал субъектом истории, история началась с чистого листа. В стихотворении Луговского «Туркмения» «старая» Туркмения противопоставлялась «молодой» Туркмении, над которой не властны прежние законы и силы. Интересно при этом, что исходя из текста стихотворения Туркмения — это страна с долгой историей, а не республика, образовавшаяся пять лет назад. Республика молодая, но Туркмения — старая. Недавно созданные республики следовало утвердить в истории, онтологизировать, в том числе и средствами литературы. Отношение к прошлому советских литераторов, однако, не было таким однозначным, как может показаться на первый взгляд. В их текстах можно найти не только призывы к отрицанию прошлого, но и идеи о необходимости учиться у прошлого, использовать опыт прошлого и сохранять оставшиеся памятники прошлого.

Герой повести Павленко «Пустыня» формулировал в отношении прошлого позицию, которая выглядела не соответствующей духу эпохи «великого перелома»: «Я за гибкость, за приспособление к конкретным условиям, за твердый учет цели. Почему в Туркмении надо повторять опыт Закавказья или Поволжья? Учиться на образцах? Но ведь образцы здесь, под



рукой, все эти развалины древних поселений, остатки тутовых рощ, следы засыпанных каналов и иссякших колодцев. Вот что должно быть для нас классическими образцами».

### «Пространство»

Советского государство, будучи современным государством, огромное внимание уделяло упорядочиванию пространства, выстраиванию пространственного порядка. В 1926 г. советское правительство начало строительство Туркестано-Сибирской магистрали, одну из крупнейших строек первой пятилетки, закончившееся в 1931 г. В том же году известный советский писатель Виктор Шкловский выпустил книгу «Турксиб», в которой автор рассказывает советским детям о значимости этой дороги для страны. В нескольких простых предложениях можно увидеть контекст, который стал определяющим для истории советской Средней Азии, в том числе отношение к этому региону и его восприятие центром, неизбежную хозяйственную хлопковую специализацию и столь же неизбежную, почти фатальную водную проблему. «Хлопок — растение южное. Юга у нас много — Кавказ, Узбекистан, часть Казахстана. Но хлопок требует не только тепла — он требует воды. А воды на юге немного. И хлопка нам не хватает». Далее автор предлагает поехать в другую сторону, в Сибирь, где воды много и много хлеба. «Хорошо бы отправить хлеб из Сибири в Среднюю Азию, в Узбекистан. Пускай они сеют только хлопчатник». «...между Сибирью и Узбекистаном лежит тысяча четыреста километров... это много, очень много. Но что делать? Может быть, отказаться от хлопка? Нет, хлопок нам нужен. Делать надо дорогу. Зовут ее Турксиб. Дорога свяжет Сибирь, Туркестан, Казакстан в одно плановое хозяйство».

Пространства заканчиваются на границах. Советские писатели, побывавшие в Туркменистане, фокусировали свое внимание на разнообразных проектах переустройства пространства (создания водных каналов, поворота рек, «наступления» на пустыню), и на советских границах. Одной из значимых точек их маршрута было посещение афганской границы, в частности крепости Кушка, ставшей когда-то крайней точкой российского продвижения в сторону Афганистана и Индии и одно-временно символом российско-британского разграничения в этом регионе. Пограничное положение Средней Азии — это то, что во многом определяет их восприятие региона. В. Луговской в стихотворении «Большевикам пустыни и весны» среди четырех важнейших категорий работников — работников пустынь, полей и воды, приветствует и работников границ Их волновала близость Индии, их тревожил и интересовал соседний Афганистан. Большевики были интернационалистами и стремились уничтожить границы во имя борьбы классов. Поэтому в те годы доминировал образ передовой линии, фронта революции, которая, как предполагалось, будет распространяться от одной советской республики к другой. Границы могут меняться, но только в сторону расширения. «Что такое Туркменистан? —

спрашивал Павленко в своем очерке, — это республика самых южных пустынь Союза, таких южных, что южней пока еще некуда».

Граница — это источник угроз («Но злоба конскими подковами звучит, и от границы мчатся басмачи»), но одновременно еще и передовой форпост социализма в Азии и его витрина. Петр Павленко указывал на проницаемость границы и на притягательность Советского Союза для населения соседних стран. «Караваны Афгано-русса входят в Кушку со стороны поселка Полтавского, учредившего Украину хат и садигов на прирубежных пустошах. Кушка, бывшая крепость, обнесена стеной... Раньше, до революции, ни один азиат не проникал внутрь стен. Теперь иные законы: сдав груз, караванчики сходятся в кооперативе, где, как на выставке счастья, долго и чувствительно выбирают ситцы, чайную посуду и парфюмерию... Возвращаясь к себе домой, они рассказывают о Кушке. Слух идет со скоростью ветра, ветер в Индию быстр, в деревнях Северной Индии запоминают славные случаи, происшедшие с поводырями верблюдов в городках за советской границей».

Павленко также обращал внимание на значимость фактора границы как границы социализма для самовосприятия декхан Боссагинского колхоза, живущих на границе с Афганистаном. «В их словах чувствуется сознание того, что они показатели советского рубежа, пограничные столбы, сама граница, То, что их жизнь еще во многом схожа с зарубежниками, раздражает их. Они рады любому мелочному обновлению своей жизни. Чем больше они становятся непохожими на тех, за рубежом, тем азартнее их жизнь», — писал он. Этот эпизод можно трактовать двояко — и как свидетельство формирования новой, советской идентичности у декхан, и, если следовать постколониальным теориям, критикующим ориентализм — как пример колониального восприятия, предполагающего не только конструирование Другого, но и лишения его собственного голоса и субъектности, возможности саморепрезентации.

Российская революция 1917 г. нашла отклик в колониальном мире, а пришедшие к власти большевики предприняли значительные усилия для революционизации этого мира. Средняя Азия рассматривалась ими в этот период и как «окно» и как плацдарм для продвижения революции на Востоке. Однако, уже к середине 1920-х гг. Москва скорректировала свой политический курс, отказавшись от планов немедленного экспорта революции на Восток. Тем не менее, посредством Коминтерна и через другие официальные и неофициальные каналы она продолжала поддерживать коммунистические, и антиколониальные движения на Востоке. В анализируемых текстах, однако, не только проводилась идея о том, что советский опыт волнует воображение соседних народов, но и выражалась уверенность в том, что революция не остановилась, а, после некоторого перерыва, двинется дальше — в Индию, в Афганистан, Персию. В. Луговской писал в своем стихотворении «Красная звезда Востока» о переходе в Советский Союз (в «Земли Красной звезды») из Афганистана

племени гильзаи. Стихотворение заканчивается словами «передового», ведущего за собой племя и вышедшего против «незрячих сил природы»:

«Люди ищут страну  
своего человеческого счастья —  
Землю Красной звезды —  
под солнцем и под луной,  
До поры, когда страны,  
разодранные на части  
Станут одной страной».

**У.Ҳамдам.** Дунёқарашдаги, руҳий кайфиятдаги яқинлик бўлса керак, деб изоҳлайман. Йўқса, асло Румийга эргашиш, ундан ҳам ёмони – Румий ҳазратларига тақлид қилиш, деб эмас. Эргашиш ҳақида гап борса, фақат маҳорат бобида бўлиши мумкин, лекин асло дунёни идрок этиш, у ҳақда муносабат билдиришда эмас. Чунки ҳар бир ёзувчининг қаршисида ҳар қандай даҳо устоздан-да донороқ, кенгроқ, теранроқ бошқа бир устоз турадиким, исми ҲАЁТдир! Кейин инсонлар, устозлар келади. Устозларнинг илк сафида, мен учун, албатта, Румий бобомиз туради (сафда бошқалар ҳам бор!). Мен бу ҳақда кўп ёзганим учун тафсилотларга берилмайман. Лекин Улуғбек Ҳамдам деган ёзувчи бирон бир асарининг ғоясини бирон бир устознинг бирон бир асаридан олмаган, олмайди ҳам. Зеро, ҳаммаси ҳаётда ортиғи билан турибди. Сўзимнинг тасдиғи ёки инкори учун ўзгалар (жумладан, устозларнинг ҳам) нинг фикрларига мурожаат қилишим мумкин. Ўша мурожаатлару ҳаволаларни тақлид деб тушунувчилар бор бўлса, бу хато тушунишдир.

Эсимга тушиб қолди. Қолипларга тушмайдиган бир дўстимиз бор – Раҳимжон Раҳмат! У – қайнар булоқдек гап: кунлардан бир кун қизиқ бир тушини айтиб берди-да, Исажон (И. Султон) икковмизга қараб: “Шуни сизларга бераман, ҳикоя қилиб ёзинглар!” деди. Мен унга: “Ака, ўзимнинг тушларим бир ёқда, бошимдан ва юрагимдан ўтганларим эса бошқа ёқда бўлиб, улар шунчалар кўпки, умрим ўшаларни ёзишдан ортиб қолса, сизнинг тушингизга навбат тегиб қолар” дея ҳазилнамо жавоб бергандим. Ҳазил ўз йўлига, лекин кўзингизни очиб атрофга бир қаранг, ҳар томонда ёзилмаган асарлар ётибди, ҳар бир исноннинг, инсон не, ҳар бир жонзотнинг ҳаётини асарга айлантириш мумкин. Фақат сиз керакли нуқтаи назарни, ракурсни топа олсангиз, бас. “Дунё – ёзилмаган шеър” деб ёзгандим талабалик вақтимда бир шеърини машқимда. Албатта, ўзгаларнинг қисмати, кўрган тушлари мен учун ҳам қизиқ. Уларни бемалол қаламга олиш мумкин, албатта. Фақат бунинг учун ўша қисмат, ўша туш менинг юрагимдан ўтиши шарт! Акс ҳолда, уни ўзимникига айлантира олмайман. Бундай ҳолда эса, ёзиб бўлмайди.

### **10. Модерн адабиётга сизнинг муносабатингиз қандай? Бу йўналишда ижод қилаётган қайси ижодкорларни ўқийсиз ва нима учун айнан уни? Адабий танқидчиларни бу йўналишга нисбатан билдирилган фикрларига муносабатингиз.**

**У.Ҳамдам.** Модерн адабиёт қадим ва навқирон адабиётнинг битта босқичи. Унга асло душманлик кўзи билан қарамайман. Модерн адабиёт – жамиятнинг битта кайфияти маҳсули. У ҳам дунёнинг қаеридадир яшаб

ўтилди, қаеридадир энди ўтилмоқда. Ҳозирда илғор жамиятлар постмодерн кайфият кучоғида нафас олмоқда. Ҳатто европалик бир дўстимиз Европада айрим адабий давралар “Астро даври”га қадам босди, деган гапни айтиб қолди. Астро бу – юлдуз, дегани. Демак, инсон ҳаётида осмон жисмларининг ўрни ва аҳамияти ортиб боришига ишора бор бу ерда. Яъни астрология соҳаси ривожланиб, юлдузларнинг, сайёраларнинг инсон ҳаётига, тақдирига бўлган таъсири ҳақида кўпроқ маълумотларга эга бўлиб боряпмиз. Бадиий адабиётда тасвирланаётган инсоннинг кўнгил ҳоли, ҳаёт йўли фақат ердаги сабаб-оқибатлар билангина чегараланиб қолмайди энди. Қолаверса, олимларнинг космосдаги фаолияти ҳам тобора ривожланиб бормоқда. Бу эса космос ҳақидаги билимларнинг инсон тафаккур тарзига кириб келиши, деганидир. Хуллас, қайси томондан қараманг, бугунги инсон ўйлайдиган ўйнинг салмоғи ортгандан ортмоқда. Ҳар ҳолда, астро даврини мен шундай тасаввур қиламан. Қолаверса, метамодернизм, метареализм деган оқимлар ҳам борки, улар реализм ва модернизм “дарахтлари”нинг “шоҳлаган” тарзига айтилади.

Демак, модерн адабиёт қадим Шарқдан, айтайлик, “Билгамиш”дан бошланган жаҳон адабиёти йўлидаги битта бекатдир. Мен “Инсон ва постмодерн дунё” деган шеъримда ҳозир сизга айтмоқчи бўлаётганимни бир қадар ифодалаган эканман. Рухсатингиз билан ўшандан парча келтирсам:

Постмодерн дунё -  
 курама дунё,  
 курамаю  
 ҳам ямоқ дунё!  
 Мен инсонман,  
 сенинг каби дунёларнинг жуда кўпини кўрган Инсон!  
 Сон-саноксиз Оламлардан ўзига кўшин тўплаган Одам!  
 Сен эса ана шу кўшинда битта аскарсан,  
 кенжатоё  
 аскар,  
 ўзгаларга ўхшаб-ўхшамаган-у,  
 лекин кўп қатори бир аскар!  
 Акаларидан нимадир олган, ўрганган,  
 аммо акаларидан қолган мерос ҳавосида  
 босар-тусарини билмай қолган,  
 меросга беписандларча муносабатда бўлаётган ука!  
 Бас, билсанг,  
 сенинг ҳам уҳдангда вазифа бор,  
 худди акаларингда бўлгани каби.  
 Сен ҳам ўз зиммангдагини адо этмоғинг шарт!  
 Дунёнинг ҳар турланиши менинг битта кайфиятим бўлгани янглиғ  
 сен ҳам менинг биргина ҳолатимсан!  
 Бугун борсан,  
 Эртага эса йўқ.

Аммо гап шундаки,  
 мен сени яшаб ўтмагунимча  
 эртанинг ҳузурига боролмайман.  
 Сен мени эртанги кунга йўлловчи зинанинг битта поясисан.  
 Қадринг шу ерда.  
 Бас,  
 мен сени кадрлайман,  
 аммо сиғинмайман!  
 Зинага оёғимни қўяркан,  
 бутун борлиғимни  
 оғирлигимни унга ташлаганим билан кўзларим олдинда,  
 навбатдаги зинада бўлади,  
 ки, йиқилсам ҳам  
 жисмим фақатгина сенинг елкаларингга тушмайди,  
 бутун зина бўйлаб узанади у...

Энди модерн адабиётига муносабат масаласига келсак, мустақилликнинг дастлабки 10-15 йили мобайнида уни ёқлаганлар ҳам, гўрига ғишт қаламоқчи бўлганлар ҳам топилди. Сўнги 5-6 йил ичида эса, ёқлаб-кўкка кўтарганлар ҳам, ерга кўймоқчи бўлганлар ҳам сал ўзларига келиб олдилар. Чунки юқорида айтганимиздек, модернизм ҳам жамиятнинг қонуний бир босқичи: келди, кетаяпти. Юқоридаги шеърий парча постмодерн ҳақида бўлса ҳам, ҳамма “изм”ларга бирдек тааллуқлидир. Шу маънодаки, ҳаммаси жамиятнинг келиб-кетувчи кайфияти маҳсуллари. Оқимларни осмонга олиб чиқиб мақташни ҳам, уларни ўлдириб, устига чиқиб тепалашни орзу қилганларни ҳам оқламайман. Улар ўзгаришлар қонуниятидан беҳабар бўлганликлари учун шундай қилишмоқда, деб қарайман. Шунчаки қарамайман. Ачиниб қарайман. Олим бўла туриб, олимлик даъвосини қила туриб, шуни тушунмагандан кейин яна қандай караш мумкин уларга, ахир!?!..

Модернчилардан Кафка, Камю, Кортасар асарларини ёқтириб ўқийман. Жойс, Фолькнерларни кўпроқ танқидий ўқийман. Ўзбек адабиётида Б. Рўзимухаммад, Фахриёр, А. Саид, Г. Бегим, Ш.Субҳон каби шоирларнинг, Х. Дўстмухаммад, Н. М. Рауфхон, Н. Эшонкул, Р. Раҳмат, И. Султон, Ш. Аҳмедов каби ёзувчиларнинг матнларида самарали изланишларни кўраман.

**11. Сиз “Йилнинг энг фаол ёзувчиси” унвонига муносиб кўрилдингиз. Мукофот муборак бўлсин!**

**У.Ҳамдам.** Раҳмат! Мукофотни мен муайян мақсад йўлида меҳнат қилиб бораётган инсонга “Ҳорманг!” деган бир далда сифатида қабул қиламан. Мукофотнинг қиймати ундан ортиқ бўлса ҳам тақдирланувчи ортиғига маҳлиё бўлмаслиги, юриб бораётган йўлида ҳеч нима содир бўлмагандек давом этавериши керак, деб биламан. Акс ҳолда, таъма деган бир аждаҳо туғилади. Ижодкорнинг нақ юрагида!.. “Даъво одами на муваффақиятида ва на мағлубиятида ўз позициясини ўзгартирмайди”, деган фикрни яхши кўраман. Шунинг учун ҳам уни талабалик вақтимда ўқиган

бўлишимга қарамай, ҳалигача унутганим йўқ. Зеро, биз мукофот олиш учун яшамаймиз, мукофот олиш учун ижод қилмаймиз, биз шундай яшаб шундай меҳнат қилишимизни қалб амримиз билан танлаганимиз учун ҳам шундай яшаб, шундай ижод қиламиз. Энг катта, энг олий мукофот, бу – чинакам, баланд дидли ўқувчиларнинг борлиги ва айнан улар томонидан китобларингни ўқилиши, қадрланиши. Шундагина сенинг ғояларинг, туйғуларинг одамийзод қалбига, унинг ҳаёт тарзига сингиб кетади. Асл мукофот шудир!.. Қатъий назар, каминанинг – яхшидир-ёмондир – меҳнатини қадрлаб, “Ҳорманг энди, ёзувчим!” деганлари учун севиндим. Ўз навбатида мен ҳам: “Бор бўлинг!” дедим-да, шу чокқача юриб келаётганим йўлимда давом этмоқдаман.

### **МУСТАҚИЛЛИК ДАВРИ ЎЗБЕК РОМАНЧИЛИГИ: ТАЛҚИН, ТАҲЛИЛ, МУНОСАБАТ**

*Пардаева Зулфия Жураевна,  
ЖДПИ профессори,  
филология фанлари доктори*

Ўзбек романи бир асрлик тараққиёт йўлини босиб ўтди ва жаҳон романчилиги солномасига кўшилди. Буюк адиб Абдулла Қодирий асос солган “янги романчилик мактаби”ни юзага келтирган маданий-маърифий, адабий-эстетик шартшароитлар, унинг тараққиёт йўли, бадиий-эстетик хусусиятларини жаҳон адабиёти доирасида тадқиқ этиш ҳозирги адабиётшуносликнинг долзарб муаммолари сирасига киради. Ўзбек романчилик мактабининг бошқа миллий адабиётлар доирасига кириб бориши, атоқли аллома Е.Э.Бертельс томонидан жаҳон адабиётида “ўзбек романчилик мактаби” деб баҳоланган адабий-эстетик ҳодисанинг Абдулла Қодирий ижоди билан чекланмаганлиги, ўсиб-ривожланиб бориб ўзбек романчилиги сўз санъатига айлангани, шунингдек, туркий халқлар романчилиги ҳам жаҳон адабий-бадиий таъсири доирасида ривожланаётгани, маданиятлараро, қолаверса адабиётлараро боғланишлар трансформация ва транскултурациялар таъсирида бетакрор романий поэтикаларни яратаётгани айниқса XX аср адоғи ва XXI бошлари адабиётида ёрқин намоён бўлмоқда.

Биз кўпчилик ҳолларда ўзбек адабиётига, шунингдек ўзбек романчилигига таъсир масалаларини ўрганамиз. Агар жаҳон адабиётига кенгроқ назар солсак, Фаридиддин Атторнинг «Мантиқ-ут тайр» («Қуш нутқи») асари Лотин Америкасининг етук адиби, Пуало Коэло ўзига устоз деб билган Хорхе Луис Борхеснинг 1982 йилда яратилган “Данте тўғрисида тўққиз эссе” туркумига кирувчи “Семурғ ва бургут” эссесида репрезентация қилинган, ёзувчи форс адиби яратган Семурғ образи Данте яратган “жаннатдан” анча мукамал эканлигини таъкидлайди. [2, 196] Бундай мисолларни кўплаб келтириш мумкин.

Букун биз қалбимизда юксак бир эҳтиром билан тан олишимиз керак: Ватанимиз Ўзбекистонни салкам 25 йил бошқарган Шароф Рашидов ҳам “санъат ва адабиёт халқларни бирлаштиради” деб ҳисоблар эдилар. “Осиё ва Африка халқлари санъати ва адабиёти кунлари” декадаси бунга ёрқин мисол бўла олади.

Адабий ҳамкорлик, бизнингча ҳам халқлар орасидаги дўстлик-биродарликнинг ёрқин аломатидир. Зеро, “Биз жаҳондаги барча давлатлар, аввало, яқин қўшниларимиз бўлган Туркменистон, Қозоғистон, Қирғизистон, Тожикистон ва бошқа давлатлар билан яхши қўшничилик ва ўзаро дўстлик алоқаларини ҳар томонлама мустаҳкамлашни ўзимизнинг устувор вазифамиз, деб биламиз”. [1, 8]

Е.Э.Бертельснинг гипотеза тарзидаги “олтинчи романчилик мактаби” ҳақидаги қараши миллий романчилик материаллари асосида исботланган, мазкур романчилик мактаби дастлаб ўзбек адабиёти доирасида шаклланиган, кейин эса ўз бадиий ҳудудини кенгайтириб, Марказий Осиё адабиётлараро муштараклигининг асосий йўналишига айланганлиги муболаға эмас.

А.Қодирий ўзининг “Ўткан кунлар” асарини ёзиш билан ўзбек адабиёти учун мутлақо янги бўлган романчилик жанрига асос солди. Унинг адабиёт олдидаги бундай улкан хизматини юксак баҳолаган шарқшунос олим Е.Е.Бертельс шундай деган эди: «Дунёда бешта: яъни француз, инглиз, рус, немис ва ҳинд романчилиги мактаблари бор эди. Энди олтинчиси, яъни ўзбек романчилиги мактаби пайдо бўлди, бу мактабни Абдулла Қодирий яратиб берди». [3]

Дарҳақиқат, ўзбек адабиёти тарихида “Ўткан кунлар»нинг пайдо бўлиши кутилмаган ҳодиса бўлди. Бу ҳақда улуғ қозоқ ёзувчиси Мухтор Аvezов ҳам „Абдулла Қодирий... романлари гўё текис саҳрода тўсатдан Помир тоғлари вужудга келгандай пайдо бўлди“, [3]- деган эди.

“Адабиёт яшаса миллат яшар. Ўлмағон ва адабиётининг тараққийсига чалишмаган ва адиблар етиштирмағон миллат охири бир кун ҳиссиётдан, Ўйдан, фикрдан маҳрум қолуб, секин-секин инқироз бўлур. Муни инкор қилиб бўлмас. Инкор қилғон миллат ўзини инқирозда эканин билдирур. Агарда «баёз» ва бемаъни бир-икки дона китоблар ила қолсак, маҳву инқирозий бўлурмиз”, - деб ёзганида буюк Чўлпон ўзбек миллий романларини ҳам назарда тутган бўлса, ажаб эмас. [4, 36-37]

Роман жанр сифатида тараққий этиб борар экан, демакки ундаги барча унсурлар, яъни компонентлар ўзгариб туради. Фикр туғилиши табиий: янги яратилган роман ўзидан олдинги яратилган романлардан тадрижан устун. Ҳар бир романшунос бадиий тафаккурида туғилган ғоя етилиб концептуаллик мақомига эришган мавзунинг ёзувчининг бадиий имкониятлари очиб беради. Бадиий такомилга эришмагунча асар ёзувчи концептуал ғояси очилмайди. Янги яратилган роман ҳақиқатдан ҳам бадиий мукамалликда фарқланадими? Танланган мавзу, қўлланилган бадиий имкониятлар ёзувчи ниятини юзага чиқарганми, энг муҳими ўз китобхонини топдими? Шу каби саволлар ҳар бир романга нисбатан туғилиши табиий.



XX асрда ўзбек романчилигида юзлаб турли савиядаги романлар яратилган бўлса, Миллий истиқлолнинг қисқа даврида ўнлаб усул ва услубларда романлар яратилди ва улар китобхонлар ва тадқиқотчилар томонидан сараланди. Айтишимиз мумкин-ки, ўзининг уч асрдан зиёдрок тараққиёт тарихида роман жанр сифатида ўзининг яшовчанлигини, мукаммалигини, инсон ва жамият билан чамбарчас боғлиқлигини намоён этаётган бўлса, икки аср оралиғида ўзбек романчилиги ҳам дунё романчилиги билан баҳслаша оладиган бақувват асарлар солномасини яратмоқда.

Мустақиллик даврида яратилган романлар моҳиятидан келиб чиқиб янгича услуб ва ёндашувлар, адабий-эстетик тамойилларнинг изчил такомиллашуви натижасида илмий концепцияларнинг яратилиши романчилик соҳасида олиб борилаётган тадқиқотларга нисбатан қатъий талаблар қўймоқда, романлар поэтикасида синкретизм, синтезлашув, контаминация, транскультурация, интерматн қўлланилиши учун ҳам уларни герменевтик, имманент, тизимли-синергетик таҳлил методлар асосида тадқиқ қилиш мақсадга мувофиқлиги аён бўлмоқда. Мустақиллик даври ёзувчиларга ижод эркини инъом этгани боисми ёки истиқлол таъсири натижасида мудраб ётган онг уйғонаётган ва бу уйғониш таъсирида шаклланаётган тафаккур жамиятнинг тарихий янгиланаётган ва тараққиёт инъикоси сифатида бадиий-эстетик компонент вазифасини бажарар экан, романчилигимизда анъанавий романлар қаторида ноанъанавий романларнинг юзага келишини табиий ҳол деб баҳоламоқ керак.

Шу маънода А.Рахимовнинг “Ўзбек романи поэтикаси (сюжет ва конфликт)”, Д.Тураевнинг “Ҳозирги ўзбек романларида бадиий тафаккур ва маҳорат муаммоси (60-80-йиллар)”, Д.Қуроноунинг “Чўлпон поэтикаси (насрий асарлари асосида)”, Й.Солижоновнинг “XX асрнинг 80-90 йиллари ўзбек насрида бадиий нутқ поэтикаси”, З.Пардаеванинг “Ҳозирги ўзбек романлари тараққиёт тамойиллари”, Ш.Дониёрованинг “Истиқлол даври романларида миллий руҳ ва қаҳрамон муаммоси”, Ш.Давронованинг “Истиқлол даври ўзбек романларида Шарқ ва Ғарб анъаналарининг бадиий синтези”, М.Кучқарованинг “Ҳозирги ўзбек насрида бадиий шартлилик”, И.Якубовнинг “Мустақиллик даври ўзбек романлари поэтикаси” М.Оманованинг “Истиқлол даври ўзбек романларида шайх валийлар образининг бадиий талқинлари” каби тадқиқотлар айнан ўзбек романчилигида жанр тараққиётига бағишланганлиги билан муҳим аҳамият касб этади.

Адабиётшунос И.Якубов таърифлаган “Миллий ромanning роман-пенталогия, роман-тетралогия, ривоят-роман, мистик-роман; илмий-фантастик роман, маърифий-биографик роман, эссе-роман, роман-истехзо, роман-мушоҳада, роман-публицистика, «мини-роман» каби ички шакллари юзага келди” [5, 8] дея аниқлик киритиши XX асрнинг кейинги ўн йиллиги ва XXI аср боши ўзбек романчилигида яратилган эътиборга молик “Отамдан қолган далалар” (Тоғай Мурод), «Тангри кудуги» (Эркин Самандар),

«Чулпон» (Н.Каримов), “Бозор”, «Донишманд Сизиф» (Хуршид Дўстмухаммад), «Туташ оламлар» (Х.Шайхов), «Рўзи Чориевнинг сўнгги васияти» (Н.Норматов), «Каллахоналик йигитча», «Мусаввир» (Алишер Мирзо), «Гурўғли» (Назар Эшонкул), “Мувозанат”, “Исён ва итоат”, «Наъмат» (Улуғбек Хамдам), “Генетик”, «Озод» (Исажон Султон) романлари поэтикасидан келиб чиққандир.

Жамият бадиий-эстетик тафаккури даражасининг инъикоси бўлмиш роман жанри тадрижан тараққиёт сари юксалар экан, айнан жамият тараққиёт динамикаси роман жанри динамикасида намоён бўлади. Айнан мана шу жараённинг ўзи роман жанрининг ички эврилишларини таҳлил ва тадқиқ этиш роман жамият бадиий-эстетик тафаккури даражасини акс эттирувчи асосий эстетик компонент эканлигини тасдиқлайди. Шу боисдан ҳам ХХ асрда қайта ва қайта кўтарилган роман жанри хусусидаги баҳс ва мунозаралар, таҳлил ва таҳминлар ҳамда тадқиқотлар роман табиатидан келиб чиқиб билдирилган бўлиши билан бирга, жамият бадиий-эстетик тафаккури даражаси, унинг ботиний эврилишлари, инсон ва жамият, табиат ва инсон ўртасидаги мувозанат, бир-бирини англаш ёки бегоналашув сабаблари, уларнинг ўзаро англаш жараёнига ижобий ёки салбий таъсирини кўрсатувчи омиллар таҳлилидир.

Ўзбек романларининг жаҳон адабиёт саҳнасида тутган даражасидан келиб чиқиб айтишимиз мумкин-ки, романда талқин этилган ғоя, романга хос тафаккур миллийликдан умумбашарий мезонлар қадар кўтарилмас экан, романларнинг ўқимишлилик даражаси миллий чегара билан белгилана беради. Шунга кўра Мустақиллик даврида яратилган романларни миллийлик мезонига кўра жаҳон романчилигининг илғор анъаналаридан келиб чиқиб таҳлил қилсак, тўғрироқ бўлади. Роман - жамият бадиий-эстетик тафаккури инъикоси сифатида юзага келар экан, мустақиллик даврида яратилган романларда, табиийки, биринчи навбатда роман яратилган давр, шу давр кечган замон, воқелик, шу воқелик ичра кечмиш тақдир - Инсон ва, албатта, роман мансуб миллат муаммолари талқин этилади.

Эътироф этиш керакки, мустақиллик даври ўзбек романчилиги нафақат анъанавий роман жанри имкониятларини бойитди, балки илғор жаҳон романчилик мактабидан озикланди, баъзи ҳолларда таассуб қилди. Шу билан бирга, ўзбек романи поэтикасининг бадиий мукаммаллашишига ўзбек халқининг бой маданий мероси – оғзаки ижоди ҳам ижобий таъсир кўрсатди.

Мустақиллик даври романчилиги тамойилларининг шаклланиши ва тараққиётини илмий таҳлилга жалб этар эканмиз, уларнинг юзага келишига ижобий таъсир кўрсатувчи омилларни ўрганишимиз табиий. Янги давр романчилиги таҳлили шуни кўрсатадики, адабий жараённинг фаоллашиши, изчилланиши учун ижодий адабий муҳит юзага келмоғи лозим, ижодий адабий муҳит, табиийки, объектив ва субъектив ўзаро таъсир натижасида пайдо бўлади. Яъни ушбу ҳолатни Мустақиллик даври романчилигига нисбатан ўрганадиган бўлсак, Мустақилликни халқимиз орзиқиб кутган. Мустақиллик деб яшаган, умид қилган, курашган ва ниҳоят том маънодаги

Мустақилликга эришган. Ижодкорлик тафаккури, туйғуси мавжуд кўнгиллар учун бу буюк бахт, Аммо Мустақилликда яшаш учун тутқунликка ўрганган онг тайёрикин?. О.Мухторнинг «Минг бир қиёфа», «Ўлмаган жон»ида, Т.Муроднинг «Отамдан қолган далалар»ида, «Бу дунёда ўлиб бўлмади»да, М.Мансурнинг «Гуноҳи азим»ида, «Жудолик диёри»да, Ш.Холмирзаевнинг «Олабўжи»сида, А.Саиднинг «Беш кунлик дунё»сида айнан яқин ўтмиш синтез қилинди, собиқ иттифоқчилик сир-асрорларининг «авра-астари» очиб ташланади. Мазмунан яқин ўтмишдаги халқ тақдири - кечмиши бадиий талқинга жалб этилар экан, воқеликни ёзувчи қандай тафаккур этса, бадиий ижод ҳам шундай тафаккур натижасида юзага келади.

Мустақиллик таъсирида жамиятимизда кечаётган туб ислохотлар натижасида рўй бераётган ўзгаришларнинг инсон онгида синтез қилиниши давр романчилигига янги инсон образини олиб кирди. Мана шу янги инсон қайси позициядан талқин қилинади, ижтимоий назардан келиб чиқибми ёки бадиий-эстетик компонентлар юзасиданми? Социалистик реализм методи таъсири ўзбек ёзувчиси бадиий тафаккурини, онгини ўз қутқусидан озод қилармикин? Адабиётнинг биринчи муддаоси эстетик дидни шакллантириш эканлиги унутилаётган бир даврда романга эстетик мезонларни жалб қилиш қайси ижод мактаби мисолида кечаркан? Мустақиллик билан тенгдошлар бу кун ўттизни уриб қўйди. Наҳотки ўзбек 30 ёшида ҳам мустақил бўлолмас?! Бу каби муаммолар ечими аллақочон ўз йўлини топиши керак бўлган ўзбек романчилиги учун нафақат бугунги кун талаблари, балки ўзбек романининг келажаги учун ҳам муҳимдир.

Роман қайси даврда, қайси услубда яратилмасин у - фалсафа, мантик, у - мушоҳада. Роман - давр кўзгуси, роман - бадиийлик илми, шу билан бирга, у ғоя, кураш демакдир.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курашимиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. - 8-бет.
2. Борхес Х.Л. Собрание сочинений в 4-х тт.. Т.4. – М.: Амфора, 2011. – С.194-197.
3. Ибрагимова Г. Ўзбек романчилик мактабининг асосчиси Қодирий. // <http://mumtoz.fikr.uz/page89/?lang=uzl>
4. Чўлпон А. Адабиёт надир (Адабий-танқидий маъолалар). - Т.: Чўлпон, 1994. 36-37-бетлар.
5. Якубов И.А. Мустақиллик даври ўзбек романлари поэтикаси» мавзуида 10.00.02 – Ўзбек адабиёти ихтисослиги бўйича филология фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун бажарган диссертация автореферати. - Тошкент. – 2018. 8-б.

## М. ОЙМАТОВАНИНГ “ОНА, КЎКСИНГИЗГА БОШИМНИ ҚЎЙСАМ...” ШЕЪРИДА ТАЛМИХ САНЪАТИНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ

*Абдуллоев Олимжон Нусратиллоевич,  
Тожикистон, “Академик Бобожон Ғафуров номидаги  
Хўжанд давлат университети” ДТМ доценти,  
филология фанлари номзоди*

Шу кунгача “Соғинч мамлакати” [6], “Мозаика” [5], “Ғусса марсияси” [4], “Соҳилдаги битиклар” [7] каби шеърий тўпламлари чоп этилган шоира Мунаввара Ойматова шеърияти бадиияти юксаклиги билан ажралиб туради. Биз шоиранинг шеърларида турли хил бадиий санъатлардан, хусусан, талмих санъатидан ҳам унумли фойдаланилганлигини кузатишимиз мумкин.

Талмих тўғрисидаги маълумотларни Ваҳоб Раҳмоновнинг “Шеър санъатлари” [2], Ёқубжон Исҳоқовнинг “Сўз санъати сўзлиги” [3] ва бошқа бадиий санъатларга доир китобларда кўришимиз мумкин.

Табиийки, шоиранинг ижодида Шарқ адабиёти билан боғлиқ талмихлар кўпчиликни ташкил қилади. Аммо ҳар қандай шеър муаллифнинг ҳис этган туйғулари, ўй-хаёллари асосида яратилишини назарда тутадиган бўлсак, ҳар бир яратилган шеърда шоирнинг ҳасби ҳоли озми-кўпми ўз ифодасини топади:

*Она, кўксингизга бошимни қўйсам,  
Сиздан Наманганнинг бўйи келади.  
Хиргойи қиласиз, хиргойилардан  
Ватаннинг Ватандек қуйи келади [6; 3].*

Шеърнинг ушбу бандини таҳлил қилар эканмиз, талмих тўғрисида юқорида келтирилган таърифдан бошқачароқ ҳолни кўрамиз. Яъни бу бандда шоира автобиографик характерга эга бўлган талмихни яратган.

Айни дамда Хўжанд шаҳрида яшаб ижод этаётган шоира нима учун онасининг кўксига бошини қўйса, Наманганнинг бўйини ҳис қилади? Бунинг учун биз шоира ва унинг онасининг тақдирини яқиндан билишимиз лозим. Шоиранинг онаси Амина Ғафуржон ҳожи қизи Наманган вилояти Чуст шаҳридан. Маълумки, ҳар бир масканнинг ўзига хос оғзаки ижоди намуналари бўлади. Она хиргойи қилганда ўзи улғайган жой – Ватан ҳақида, ўша жойнинг ўзига хос кўшиқларини куйлайди. Шунинг учун шоира юқоридаги мисраларни ёзган. Бу бандда “Наманган бўйи” ибораси автобиографик характердаги талмихнинг вужудга келишига сабаб бўлмоқда. Чунки ушбу иборада онанинг туғилган масканига ишора бор, назар ташлаш бор.

*Яссавийнинг яшил туглари золиб,  
Яшиллик ҳақида қилгум ривоят.  
Сиз соме бўласиз, бўласиз толиб,  
Кўзингиздан имон сойи келади [6; 3].*

Шоира бу банддаги сўзлар орқали нима демоқчи? Нима учун Яссавийнинг яшил туғлари ғолиб? Нима учун яшиллик ҳақида ривоят қилади? Яссавий ким? Соме, толиб, кўздаги имон сойи нима?

“Хожа Аҳмад Яссавий тасаввуфнинг машҳур намояндalarидан бири, шоир. Биринчи устози Арслон боб. Яссавий Яссида ботин илми сирларини мукамал ўзлаштирган. Арслонбоб кўрсатмаси билан Яссавий Бухорога боради. Даврнинг энг пешқадам олими ва сўфийси Шайх Юсуф Ҳамадоний билан учрашиб, унга мурид тушади.

Яссавий туркий халқларни исломга янада кенгроқ жалб қилиш ва тасаввуф ғояларини омма кўнглига чуқур сингдириш мақсадида шеърятдан ҳам фойдаланган.

«Девони ҳикмат»да илоҳий ишқ ва ошиқлик, маърифат ва орифлик саодати, фанодан бақога етишиш тушунчалари ниҳоятда самимий ва таъсирли оҳангларда ёритиб берилган» [8. 99-100. Қисқартириб олинди].

Кўплаб ўтмиш ватандошларимиз каби Аминахон Ғафуржон хожи қизи ҳам Яссавийнинг ҳикматларидан баҳраманд бўлган. Уларни севиб ўқиган ва ёд олган.

“Яшил туғ” ибораси бу ерда рамз. Яшил байроқ ислом дини байроғи ҳисобланган. Демак, юқоридаги байтда Яссавийнинг омма кўнглига ислом дини ва тасаввуф ғояларини чуқур сингдирганлигига ишора бор. Бу эса талмиҳ санъатининг вужудга келишига хизмат қилган. Мазкур бандда шоира Яссавийнинг инсоний ғоялар тасвирланган ҳикматларини ўқиган вақтида қалби имон нурига лиммо-лим онасининг кўзларидан ёш оққан ҳолда диққат билан қулоқ солганлиги ўз ифодасини топган.

***Она, азоблардан бездим мен, она,  
Мажнуний саҳрода бўлиб девона.  
Сизга топинарман Ўздан бегона,  
Ўйингиздан Машраб ўйи келади [6; 3].***

Бу бандда қийналган фарзанднинг онасига юкинаётганлиги, аёл сифатида дардини меҳрибонига айтаётганлигини кузатиш мумкин. Муаллиф волидайи мухтарамасига дардларини ёрар экан, “Мажнуний саҳро” иборасини қўллайди. Бу қандай саҳро? Бу – ошиқлар саҳроси, Ишқ аталмиш туйғуни ҳис этганлар саҳроси. Бу саҳро кўнгилда бўлади. Ошиқ Инсон кўнгили азобларига, дардларига гирифтор бўлади. Дардини тушунгучи одам бўлмайди. Шунинг учун муаллиф энг яқин одамига – Онасига, ҳақиқий Ишқ нима эканлигини англаган меҳрибонига дардини изҳор қилмоқда. Бу мисрани ўқир эканмиз, беихтиёр хаёлимизда, тафаккуримизда чин ошиқлик тимсоли Мажнун ва у кезган саҳролар ҳам жонланиши, табиий.

Банднинг охириги мисрасида шоира волидасининг ўйларидан Машраб ўйи келишини тасвирлайди. Нима учун? Кимнингдир ўйидан бошқанингни ўйи келиши мумкинми? Мумкин. Ўқиганларимиз, ўзлаштирганларимиз бизнинг тафаккуримизга бевосита таъсир қилади. Шоира Машраб деганда кимни назарда тутмоқда? Машраб ким?



Шоира Машраб деганда ўзбек мумтоз адабиётининг етук намояндаларидан бири, сўфий шоир Бобораҳим Машрабни назарда тутмоқда. “Унинг лирик шеърлар тўплами “Девонаи Машраб”, “Эшон Машраб”, “Эшон Шох Машраб”, “Эшон Шох Машраби Девони Намангоний” ёки “Ғазали Эшон Шох Машраб” номлари билан китобат қилинган” [1; 63]. Ушбу китобларда келтирилган шоирнинг ғазалларида ишқ, айниқса, илоҳий ишқ маҳорат билан куйланган.

Шоиранинг онаси ҳам Машраб ижодини севиб мутолаа қилган ва ундан баҳраманд бўлган. Фарзандларига ҳам Машраб шеърларидан қироат қилиб берган. Демак, “Машраб ўйи” бирикмаси орқали Машраб шеърларига, унинг шеърларида ўз ифодасини топган шоир дунёқарашига ишора қилиниши натижасида талмиҳ санъати вужудга келмоқда.

***Қаландар дарвишлар сизмас жаҳона,  
Мен каби бўласиз Ишқда ягона.  
Мен каби ҳайратдан бўлиб девона,  
Қақнуснинг қақраган куйи келади [6; 3].***

Олдин банддаги бугунги кунда ишлатилмайдиган қаландар дарвишлар сўзларига изоҳ берайлик: “Қаландар — тарки дунё қилган, гўшанишинликка берилган одам, сўфий; тасаввуф йўлига кириб, дарбадарлик ва хайр-эҳсон билан кун кечирувчи киши. Қаландар истилоҳи сўфийларнинг асарларида зикру самоъ орқали Аллоҳга руҳан яқинлашиб, факру фанога ва ҳақиқатга эришиш мақсадида ўз жисмини ва қалбини поклашга интиланган дарвишларга нисбатан қўлланилган” [9; 33. Қисқартириб олинди].

Мазкур бандда шоира қаландарлар каби Аллоҳга руҳан яқинлашиб, факру фанога ва ҳақиқатга эришиш мақсадида ўз жисмини ва қалбини поклашга интиланлиги ҳамда Ишқда ягоналигини таъкидлар экан, Қақнусга ишора қилади. Хўш, Қақнус нима?

Ривоятларга кўра Қақнус жуфти йўқ қуш бўлиб, тумшуғида худди най каби бир қанча тешиклари бор, ўлимидан олдин шу тешиклардан турли хил ажиб ўтли нолалар чиқаради. Қанотларини бир-бирига урганидан ўт чакнаб, ёниб кул бўлади. Кулнинг ичидан янги Қақнус пайдо бўлади. (Тўлиқроқ маълумот учун қаранг: [10. Ф.Аттор. Тазкират ул авлиё. – Тошкент: “Ғафур Ғулом”, 2013. – С. 464.]

Шоира Ишқ дардида ҳайратга айланади. Ундаги Ишқни кўриб, ҳатто Қақнус ҳайратланиб куйлаб юборади, куйлай-куйлай кул бўлади. Ёхуд нолаларга тўла шоира қалби Ишқдан Қақнус қуши каби ўтли нолалар чекади, Ишқ бутун вужудига оташ олиб келади. Вужуд ишқ оловида худди Қақнус каби ёнади, лекин бу Ишқ худди оловдан сўнг янги Қақнус пайдо бўлгани каби абадий, илоҳий.

Биз “Қақнус” сўзида ҳам Қақнус воқеасига ишорани, яъни Қақнус қушига нисбатан ишлатилган талмехни, ҳам ушбу мисрада муболаға санъатини кузатишимиз мумкин.

***Она, кўксингизга бошимни қўйсам,  
Сиздан Наманганнинг бўйи келади.***

***Хиргойи қиласиз, хиргойилардан  
Умрнинг ғамреза куйи келади [6; 3].***

Бу бандда волида улғайган диёрга яна бир бор урғу қаратилиши билан бирга шоиранинг онаси хиргойилари мазмуни, хусусан, туғилиб унган гўшасидан, яқинларидан йироқда бўлганлиги боис ғамга, ҳазрат Навоий таъбири билан айтганда, “ғурбатда ғариб”ликка ошно бўлиб ўтган умр ва улардан чиқарган хулосаси ифодаланган.

Шеърда талмеҳдан ташқари бошқа бадиий санъатлардан ҳам самарали фойдаланилган. Хусусан, бандларда нидо (“Она, кўксингизга бошимни кўйсам”), ташбеҳ “Ватаннинг Ватандек куйи”, “Мен каби бўласиз Ишқда ягона”, “Мен каби ҳайратдан бўлиб девона”, рамз “Яшиллик ҳақида қилгум ривоят”, истиора “имон сойи”, “ғамреза куйи” каби шеър санъатларини кузатишимиз мумкин.

Мавзу талабига кўра, талмеҳ санъатига кенгроқ тўхталинди ва ушбу санъатнинг юзага чиқишига сабаб бўлган сўзлар кенгроқ таҳлилга тортилди.

Шоира Мунаввара Ойматованинг юқорида таҳлил қилинган шеърини кузатар эканмиз, куйидаги хулосаларга келиш мумкин:

1. Шеър Онага бағишланган.
2. Онага мурожаат фониди муаллиф дардлари ҳам тасвирга тортилган.
3. Шеърдаги янгилик: анъанавий талмеҳлар билан бир қаторда автобиографик характерга эга талмеҳдан ҳам фойдаланилган.
4. “Наманган бўйи”, “Яссавийнинг яшил туғлари”, “Мажнуний сахро”, “Машраб ўйи”, “Қақнуснинг қақраган куйи” каби иборалар талмеҳ санъатини вужудга келтирмоқда.
5. Шеър бандларида талмеҳдан ташқари, нидо, ташбеҳ, рамз, истиора каби бадиий санъатларни ҳам кузатиш мумкин.
6. Бандлар шоиранинг тасаввур ва тафаккур доирасининг ниҳоятда кенг эканлигини кўрсатиб турибди.
7. Шеър юксак маҳорат билан ёзилган.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. В.А. Абдуллаев. Ўзбек адабиёти тарихи. Тошкент: “Ўқитувчи”, 1964. – С. 384.
2. В.Раҳмонов. Шеър санъатлари. – Тошкент: “Шарқ” НМАК, 2020. – С. 240.
3. Ё.Исҳоқов. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: “Зарқалам”, 2006. – С. 128.
4. Ойматова М. Ғусса марсияси. – Хўжанд: “Хуросон”, 2012. – С. 80.
5. Ойматова М. Мозаика. – Хўжанд: “Хуросон”, 2010. – С. 144.
6. Ойматова М. Соғинч мамлақати. – Тошкент, 1998”. – С. 50.
7. Ойматова М. Соҳилдаги битиклар. – Хўжанд: “Хуросон”, 2012. – С. 60.
8. www.ziyouz.com кутубхонаси. ЎМЭ. Я ҳарфи. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти. Тошкент. – С. 123.
9. www.ziyouz.com кутубхонаси. ЎМЭ. Қ ҳарфи. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти. Тошкент. – С. 476.
10. Ф.Аттор. Тазкират ул авлиё. – Тошкент: “Ғафур Ғулом”, 2013. – С. 464.

**МУАЛЛИФ КЕЧИНМАЛАРИ ВА БАДИИЙ ИЖОД ХУСУСИДА**

(Шукурулло ижоди мисолида)

*Тўлаганова Санобар Панжиевна,  
филология фанлари доктори  
ЎзР ФА Ўзбек тили, адабиёти ва фольклор  
институтини етакчи илмий ходими*

Ўзбек халқининг миллатпарвар ёзувчиларидан бири Шукурулло ўзидан жуда катта адабий мерос қолдирди. У адабий турнинг барча жанрларида қалам тебратди. Ёзувчининг насрий битиклари орасида автобиографик жанрга мансублари кўпчиликни ташкил қилади. Аслида, ҳар қандай бадиий асар ёзувчи таржимаи ҳолидан олинган бир парчадир. Унинг «Жавоҳирлар сандиғи» (1983) эссеси, қатағон даври даҳшатлари ҳақидаги «Кафансиз кўмилганлар» (1989) автобиографик қиссаси, «Қасосли дунё» (1994) публицистик мақолалар тўплами, Убайдулла Хўжаев тўғрисидаги «Тирик руҳлар» (1999) роман-хроникаси фикримиз далилидир.

Автобиографик жанрнинг ўзига хос талаблари мавжуд, автограф эса буни инобатга олиши лозим бўлади. Биринчидан, муаллиф бадиий ҳужжатли асарни ёзишда реал ҳаётнинг факт ва рақамларга таянган ҳолда иш кўрмоғи зарур, иккинчидан, жанрда ижодий эркинлик бир оз чекланади, тўқимага ўрин берилмайди, учинчидан, автограф асар иштирокчиси сифатида воқеликни ҳикоя қилиб берувчи шахс – ровийга айланади. Ровийдан эса аниқлик ва холислик талаб этилади. Бадиий асарда ҳикоя қилувчи ровий ва муаллиф орасида маълум бир мувозанат сақланади. Муаллиф баён қилувчи ровийдан бироз тепада турмоғи, воқеларнинг ичида қолиб кетмаслиги зарур. Шукуруллонинг шу йўналишдаги асарларида мана шу мувозанатни сақлаш, холислик мезонида туриш устувор саналади. Энг асосийси шоир ўзи ҳақидаги воқеаларни яширмасдан борича айтади. Бу унинг шахсиятидаги ўзга хосликни кўрсатади. Қанчадан қанча забардаст ёзувчиларимиз ёлғонлар орасида яшади, кун кўрди, тирикчилик қилди. Ҳақиқатга тик бора олмади, бадални охиратга қолдиришди.

Мазкур мақолада шоирнинг икки асарига тўхталиб ўтишни ният қилдик. Дастлаб унинг “Жавоҳирот сандиғи” мемуар қиссасига тўхталамиз. Муаллиф асарда бир қанча сюжет чизигини ривожантириб боради. Биринчиси, шоир бўлиб шаклланиш даври, иккинчиси унга устозлик қилган Ғ.Ғулом, М. Шайхзода, Ойбек, Ҳ.Олимжон каби ижодкорларнинг шахси, дунёқараши каби жиҳатларга ҳам ойдинлик киритиб боради. Энг асосийси буларнинг барчаси халқнинг донишмандлиги фонида очиб берилади. Асарда Тошкентнинг тарихий маҳаллалари ва ҳаёт тарзи, миллат маънавий қадриятларнинг ўзига хос ифодасини кўриш мумкин. Шоир Расул Ҳамзатовнинг “Доғистон” асаридан илҳомланиб “Жавоҳирот сандиғи”ни ёзганини айтган. Мазкур асарининг композицион қурилмаси “Доғистон”нинг таркибий тузилишига ўхшайди. Шоирнинг отаси томонидан айтилган халқ

донолигини акс эттирувчи ривоятлар асарда қолипловчи вазифасини бажариб, ҳар бири ўзига хос бадиий мазмунга эга.

“Жавоҳирот сандиғи” қиссаси ўзбек адабиётшунослигида ижодкор лабораториясини очиб берувчи асарлар сирасига киради. Унда ижод сири, шоир ким, шеър нима, қандай ёзиш мумкин деган саволлар атрофида баҳс юртилади. Асар иштирокчилари турли даражада кутблансада, аммо сўзловчи, воқеларга гувоҳ, бевосита иштирокчи ҳам ягона – муаллиф шахси. Асарни умуммахражга олиб келувчи мана шу яхлитлик сюжетни тутиб турувчи таянч саналади.

Муаллиф асарда келтирилган лавҳаларни ҳаётий мисоллар билан бойитиб боради-ки, улар янги мулоҳазаларга чорлайди. Муаллиф ижодга кириб келишдаги қийинчиликлар, чалғишлар, иккиланишларни ортиқча бўямасдан дадиллик билан ошкор қилади. Бундай усул асарнинг жонли ва ишончли чиқишида муҳим аҳамият касб этади. У ёзган шеърини ғурурланиб Ғ.Ғуломга ўқиб беради. Шунда Ғ.Ғулом ўрнидан туриб узум ғурасини олиб келади. Шукурулло сабабини сўраганида у “*пишмаган шеърга гура билан муҳр қўйилади*” деб танбеҳ беради. Шоир оғринмайди, маҳорат сирларини ўрганишга ҳаракат қилади, бу билан боғлиқ маълумотларни беради. Шукуруллонинг ибратли сўзларини ҳавола қиламиз:

*Одамнинг одамлиги умид билан. Умидсиз одам бир қоп эт. Умид парвозга отланган лочин, умидсизлик оёққа боғланган тош; [1.22]. Ҳақиқий илҳом – шоир ўзи ҳақиқатдан ҳам севган, бир неча вақтдан буён қалбига чўкиб, унда етилаётган фикрларнинг бирон сабаб билан ҳаётдаги воқеаларга тўқнаш келганда пайдо бўлган аланга! Илҳом шунчаки қаланган ўтин эмас, менимча анча вақтдан бери қизишиб, бир шамол елтишиши билан гуруллаб ёнган аланга. [1.30.] Ижод мисоли дутор, ҳар ким уни ўз ҳолича чертади. Ўзбекнинг тоmidан жаҳонни кўриши ( Ғ.Ғулом “Вақт” шеърига нисбат берган). Кўринмагани кўриши, айтилмаганини эшитиши шоирликнинг асл вазифаси. Фикр нурдек товланади-ю уни қамраб, нинадан ўтказган индек, воқеага боғлай олиши мушкул иш. [1.36.] Ижод жараёнида бир қанча ҳолатлар юз беради, бирдан ҳаяжонга берилиб, ўзингни қудратли санай бошлайсан, баъзан шу вақтнинг ўзидан бошлаб энг заиф одамга айланиб қоласан, ижод шундай жараён бир вақтда шох, бир вақтда гадога айлантиради. Мен хаёлимга келган фикрни дарров ёзмайман, ўйлаб кўраман, хаёлан пиштаман, кейин уни одамларга гапириб бера бошлайман, фикрларга қулоқ тутаман, шундай тарзда синовдан ўтказаман. Гоҳида менга ҳамманинг олдида айтаб бераверма бировлар илиб кетади дейишади, аммо мен қизганмайман[1.46.]. Қаҳрамонлик инсоннинг ўзига ўзининг ишончидир. Ҳақиқий талант, бу – сиёсат тазйиқи билан айтиши мумкин бўлмаган ҳақиқатни йўл топиб айта олишида кўринади.*

Шукурулло устоз ёзувчиларнинг маҳорат сирлари билан боғлиқ фикрларини ҳам келтириб ўтади. У Ғ.Ғуломнинг сўзларини ҳавола қилади. “*Жавоҳир сандиғи халқ ичида. Уни топган билан очили ҳамманинг қўлидан келавермайди. Топган пайтда бу сандиқни оча билиши ҳам керак. Бу сандиқ*



одамларнинг қалбида. Унинг калити эса одамларга меҳр” [1.26]. Устозининг бу гапларини у ўзига тумор қилиб олади ва халқнинг донолигини ижоднинг жавҳари, яъни асл мазмуни деб ҳисоблайди. Яна бир эпизодда Ғ.Ғулом, С.Абдулла ва бошқа шоирлар даврасида аруз вази билан боғлиқ мунозара тасвирланади. Ғ.Ғулом “арузда ёзиш яхши, аммо шаклбозликка берилиб фикрдан чалғиб кетиши худди қозоқ боланинг қўлига хат бериб юборишига ўхшайди. Чаламулла домлалардан бири боланинг қўлига араб ва форсча сўзлар билан аралаш ёзилган мактубни беради. У қозонни эгасига олиб боради. У мактубни овоз чиқариб ўқийди. Болакай қуръон ўқияпти, деб юзига фотиҳа тортиб, “Оллоҳ раҳмат қилсин”, деб ўрнидан туриб кетади. Ҳозирги шоирларнинг ёзгани худди шундай. Шеър ҳаммага бирдай тушунарли бўлиши шарт, Навоий газалларини тушунамиз, аммо бугун арузда ёзаётганларни тушуниш қийин бу нуқсон” эканлигини таъкидлайди [1.101]

М.Шайхзода: “Шеърга ҳам ҳарорат ва меҳнат керак. Кўп шоирларга мана шу иккиси етишмайди. Ҳарорат ва қалб нури тинқлиги бўлса, шеърлар меҳр офтобида пишиб етилади. Фикрлар пишиб етилиб, юракдан тўлиб чиқмасдан асар ёзишга, айинқса, уни нашр этишга шошилиши ўтин қизишмасдан, ҳадеб пуфлайверишидан иборат бўлса, ҳаммаёгинг кул бўлади. Дуди қозондаги таомга ўриб, тутун исси келади”. Шукурулло Шайхзоданинг фикридан келиб чиқиб, ижодкор ёзмоқчи бўлган асар авваламбор юракда пишиб етилиши ва табиий ҳолда юзага чиқиши кераклигини агар шошма шошарлик ва зўракилик бўлса асар бадииятига жиддий таъсир қилишини қайд этади. У юрак билан эмас замона мафқурасига эргашиб, шу мазмунда ижод қилиш сўзга хиёнат қилиш билан баробар деб ҳисоблайди.

Асарда Ойбекнинг шеърнинг таъсири ҳақидаги фикрлари ёзилган: “Айримлар гўзалликни кўпроқ ташқи кўринишида ҳисоблашади, тасвирга зўр беришади. Бу қозондан ясалган гулга ўхшайди. Ҳисга таъсир қилмайди. Кишининг гўзаллиги унинг мазмунида. Навоий эса мана шу гўзалликнинг сирини топа олган, шунинг учун тимсоллари ишончли. Баъзан ўлим ҳақидаги шеърларни эшитасан, таъсир қилмайди. Аммо кўчада тобут кўтариб кетаётган одамларни кўрсанг у руҳингда қандайдир ўзгариш ясайди”. Ойбек асар ғояси ҳақида шундай дейди “тарихий асар ёзсанг у бугун ва эртанги кун билан боғлиқ бўлиши зарур. Бугуннинг хулосаси эртанги кун учундир. Мен яқинда нашр қилинган “Қутлуг қон” романини бундан ўн беш йил олдин бошлаганман. Аммо ёзиш қийинроқ бўлди. Балки тажрибам, балки йиққан масаллигим етмади. Ёзганларим ўзини ҳам, бошқаларни ҳам тўлинлантирмади, қитиқламади. Шунинг учун ташлаб қўйдим”. Бу гаплар Шукурулло учун қоида тартибга айланди, асар ёзилиши учун авваламбор, фикр пишиб етилмоғи керак деган хулосани пайдо қилган.

Юқорида келтирилган фикрларнинг барчаси ижод ва бадиий маҳорат сирларини очиқлашга хизмат қилади. Асарда эътибор қиладиган яна бир жиҳат халқнинг донолигини кўрсатувчи лавҳаларнинг кўплигидир. Муаллиф маҳалласидаги Расул қори исми кўзи ожиз киши ҳақида тўхталиб, инсоннинг дидсизлигини ҳам маънавий кўрликка ўхшатади. Кўрликнинг



турларига тўхталади. Бедидлик, ҳаддан зиёд мансабпарастлик, яхшилиқни кўра олмаслик, бировни кўра олмаслик ҳақида фикр билдириб, демак, кўз бошқа-ю, узокни кўра билиш бошқа эканлигини айтади. Кўзи очиклар орасида эртанги кунини кўра олмайдиган мақсадсиз одамлар борлигига ишора қилади. Кўрликнинг энг ёмони кўрганларидан хулоса чиқара олмасликдир [1.16].

Мақолада биз эътибор қаратган яна бир жиҳат Шукурулло ҳаётининг сўнгги йилларида биографик жанрга қайта-қайта мурожаат қилган. Бунинг сабаби нима? Ўзи ҳақида нимадир ёзиб қолдириш, изтиробларини баён этишми... Ёки кўрган фалокатларни айтиб ўзини бечора кўрсатишми ёки айбдор қидириш истагимиз? Аламзадалиқми? Бизни шу каби саволлар кўп ўйлатди. Хўп, айтса нима ўзгаради ёки айтмаса. Аламдан қутулиш йўлими?

Назаримизда, бу ёзувчининг қалб дафтаридаги оловли изтиробларнинг изидир. Шукуруллонинг ҳаётини издан чиқарган кимсалар у билан бир даврда яшаган, баъзан бир давраларда улар билан юзма-юз ўтиришга тўғри келгандир. Уларга мунофиқлик қилиш, ёлғон мулозамат шоирга азоб бергандир, эҳтимол. Шоирни ҳаёти давомида хиёнат ва ёлғоннинг шарпалари таъқиб қилган. Бундан қутулиш имконсиз, сабаби бу изтироблар ёзувчи ҳаётининг ич-ичига сингиб, муқим жойлашиб олган. Энг даҳшатлиси у ўзига тухмат қилганларни билган, таниган ва кўриб турган. Аммо бу туйғуларини ичида қамаб сақлашга мажбур бўлган. Замон, давр, вазият бунга йўл бермаган. Шоир ҳаётининг сўнгги йилларидаги бир суҳбатида тухмат уюштирганларни нома-ном санайди, улардан изоҳ кутиб яшаганини билдиради. Демак у кутган, сабр қилган. У “Кафансиз кўмилганлар” қиссасини ёзиб ҳам бу дарддан қутула олмади. Кейин “Қасосли дунё” асарини ёзди. Ичидаги аламлардан қутулиш йўлида яна шу руҳдаги “Тирик руҳлар” романини ёзди. Ҳар бир асарида миллат тарихидаги аянчли кунлар ва зиёлиларнинг фожиалари тилга олинади. Шоирни умр бўйи хотиралар қийнаган, уни азобга гирифтор қилган айбдор олдида андиша қилган, юзига ҳақиқатни айта олмаган, мана шулар унга соядай бўлиб эргашган. Шукуруллонинг ёзганларини тадрижан кузатсак, алал оқибат у илоҳий адолатга ишонган, бир кун келиб инсон ҳар бир сўзига, қилган ишига, ёзганларига албатта жавоб беради ва худди шу ишонч шоирга умид берган. Бугун ҳақни айта олмаслик, вақтинча мағлублик Имон саодати олдида ҳеч эканлигини шоир албатта англаб етган, бунга ишониш лозим. Шоир имонини асраган ва унинг учун ижод нажотга айланган. Ҳақиқатпарвар шоир Имон ҳаловатини тотилишини, охирати обод бўлишини сўрашдан бошқа умид йўқ. Шоирнинг ҳаёти ва адабий мероси миллат тарихидаги воқеаларнинг бир парчаси сифатида адабиётшунослар томонидан ҳали кўп ўрганилади.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Шукурулло. Танланган асарлар. Тўртинчи жилд. Тўлдирилган қайта нашр. Шарқ. Тошкент.: 2011.
2. Шукурулло. Тирик руҳлар. Тошкент.: Адабиёт учкунлари. 2018.

**TANQIDCHILIKNI SHARAFLAGAN BUYUK IJODKOR**

*Qosimov Usmon,  
JDPI professori. f.f.doktori  
Muxtorova Aziza,  
JDPI magistranti*

Xalqimizning faxr-u g'ururiga aylangan buyuk siymolarimizdan biri, shubhasiz, bu - O'zbekiston Qahramoni, atoqli tanqidchi va adabiyotshunos, zabardast tarjimon va publitsist, mashhur ustoz-murabbiy va yirik jamoat arbobi Ozod Sharafiddinov edi. XX asr o'zbek adabiyoti va tanqidchiligi tarixini, kengroq qilib aytsak, xalqimiz ma'naviyati va tafakkuri rivojini Ozod Sharafiddinov ijodiy faoliyatisiz to'liq tasavvur etib bo'lmaydi. "Keyingi 50 yilda faoliyat ko'rsatgan adabiyotshunoslar, publitsistlar silsilasida Ozod Sharafiddinovning nomi alohida bir cho'qqi yanglig' ko'zga tashlanib turadi. Ozod Sharafiddinov o'zidan o'lmas ijodiy meros qoldirdi. Bu ijod nainki bir insonning, balki butun bir millatning faxr-u g'ururi bo'la oladigan ijoddir" O'zbekiston Qahramoni Abdula Oripovning bu samimiy e'tirofi butun adabiy jamoatchilikning va ziyoli xalqimizning ham yakdil bir bahosi deyilsa, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Bu tarixiy haqiqat boshqa zamondoshlari tomonidan ham ta'kidlangan: "Ozod Sharafiddinov hayotda ham, ijodda ham o'zining haqqoniy so'zi, iroda va matonati bilan yurtdoshlarimizga, avvalambor, yoshlarimizga ibrat bo'layotgan, tom ma'nodagi ma'rifatparvar insondir". Haqiqatan ham, O. Sharafiddinov tanqidchi o'z iste'dodi va yorqin shaxsi bilan adabiy jarayonda va badiiy ijod olamini rivojlantirishda qanchalar ulkan rol o'ynashi va qudratli ta'sir ko'rsatishi mumkinligini yaqqol isbotlab bera oldi. Bunday ijodiy baxt kamdan-kam insonlargagina nasib etadi.

Ozod Sharafiddinovning nodir iste'dodi, badiiy ijod va estetik tafakkur rivojidagi va, ayniqsa, adabiy tanqidchilik sohasidagi beqiyos xizmatlari bu olimning g'oyat serqirra va betakror bir siymo bo'lganini ko'rsatadi. Fikrimizning dalili sifatida, O. Sharafiddinovning adabiy tanqidchilik maydoniga kirib kelgan paytlarida yozgan va she'riyatimizning jiddiy muammolariga bag'ishlangan "Lirika haqida mulohazalar" kabi maqolalarini va so'nggi yillarda nashr etilgan "Chinorlardan biri" (Abdulla Qahhor), "Millatni uyg'otgan adib" (Oybek) va "Istibdod qurboni yoxud o'zligidan mahrum etilgan shoir" (Hamza) kabi bir-ikki maqolalarini ko'z oldimizga keltiraylik. Bulardagi lirik asarlar tahlilining chuqurligi, fikr va umumlashmalarning mantiqan teranligi, tili va uslubining puxtaligi ularni yetuk bir olim yozgan degan xulosaga kelishi tabiiy. Tanqidchilikda bir voqea bo'lgan, o'sha davr she'riyatining takomiliga yangi bir ruh bag'ishlagan bu maqolalar adabiyotimizning G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Mirtemir va Izzat Sulton singari ulug'lari tahsiniga sazovor bo'lganligi ham bejiz emas edi. O. Sharafiddinov fenomenining hayratli bir jihati ham shundaki, uning ilk chiqishlaridayoq yorqin namoyon bo'lgan tug'ma tanqidchilik talanti hech qachon xira tortmadi, shoirona qalb ehtirosi va jo'shqin ilhomi umrining so'ngigacha qadar susaymadi. Bu haqda O'zbekiston Qahramoni, mashur

shoirimiz Erkin Vohidov aytgan samimiy fikrlar millionlab kitobxonlarning ko'nglidagi yakdil fikrlarni ham ifodalagan:" Ozod Sharafiddinov XX asr adabiy muhitida o'z ibratli shaxsiyati, mustahkam e'tiqod-u dunyoqarashi bilan ziyolilarimizning butun bir avlodi uchun namuna bo'lib tanilgan alloma. Bunaqa odamlarni xudoyim bizning baxtimizga, jamiyat baxti uchun beradi".

Ozod Sharafiddinovning tanqidchilik iste'dodi va ijodiy salohiyati nechog'lik serqirra va samarali ekanligini tasavvur etish uchun loaqal u kishining badiiy ijod va adabiyotshunoslikning qanday dolzarb va murakkab mavzu va muammolarini teran yoritib berganligini bir qur esga olaylik. Birgina XX asr o'zbek adabiyoti tarixi masalasini o'rganishni olaylik. G'oyat murakkab va ziddiyatli kechgan bu davr adabiyotning o'nlab atoqli vakillari hayoti va ijodini mufassal yorituvchi ko'plab yirik tadqiqotlar, darslik, monografiya va salmoqli to'plamlarining aksariyati bevosita Ozod Sharafiddinov rahnamoligi va mutasaddiligida yuzaga kelgan. Bu haqiqatni va bularning evaziga sho'ro davrida keskin tazyiq va ta'na-dashnomlarga ham duchor bo'lganligini, afsuski, bugungi yoshlarimiz yaxshi bilmasligi mumkin. Zotan, istiqlol tufayli bugun Cho'lponning nomini qo'rquv yoki hadik bilan emas, balki haqli ravishda faxr bilan tilga olishimizda va uni adabiyotimizning eng porloq siymolaridan biri sifatida ardoqlashimizda O.Sharafiddinovning xizmatlari beqiyosdir.

Xuddi shundayin, ikkinchi jahon urushidan keyingi yillar hukm surgan yana bir mash'um qatag'on davrining dahshatli azob-uqubatlarini tortib kelgan Maqsud Shayxzoda, Mirtemir kabi ulkan adiblarimizni yangidan "kashf" etish va ularning har xil shubha, ayblar bilan nohaq kamsitilgan asarlarini odilona baholab, ularni elimizga tanitishda jonbozlik ko'rsatgan tanqidchi va adabiyotshunoslarimizning karvonboshlaridan biri ham O.Sharafiddinov bo'lganligi endilikda isbot talab qilmaydi. Xuddi shundayin, Asqad Muxtor, Zulfiya, Mamarasul Boboyev, Said Ahmad, Odil Yoqubov va Pirmqul Qodirov, (bu ro'yxatni uzoq davom ettirish mumkin) kabi o'nlab yirik so'z san'atkorlarimiz iste'dodining o'ziga xos jihatlari va salmoqli ijodiyoti hamda ularning adabiyotimiz rivojidagi munosib o'rni ham O.Sharafiddinov asarlarida o'zining haqqoniy bahosini oldi desak, boshqa adabiyotshunoslarimizning xizmatlarini aslo kamsitgan bo'lmaymiz.

Albatta, ulug' adiblarimiz kabi O.Sharafiddinov ham o'z davrining farzandi edi va u ham hukmron sovetlar muhitida yashab, ijod qilgan.. Ko'p asrli adabiyot tarixi va ko'plab tarixiy-adabiy asarlaridan ham ma'lumki, har bir iste'dodli san'atkor o'z davrining farzandi sifatida ijod qiladi, tabiiyki, uning asarlarida o'sha davr muhitining obyektiv ta'siri u yoki bu tarzda aks etadi. Sobiq sho'ro davridagi adabiy muhit haqida fikr yuritganda, og'riqli savollar tug'iladi. Masalan, Qodiriy va Cho'lponlar ham oktabr inqilobi va Leninni ulug'lamagan-ku. Buni ro'kach qilib, ularni madhiyabozlikda ayblash to'g'ri bo'larmikin? Yoxud, Abdulla Oripovlar mashhur shoirimiz 80-yillarda partiyani "Najot qal'asi" deb ulug'lagani, o'sha makkor partiyaning darg'alari qadimiy Navro'z bayrami nomini o'zgartirishini ham quvvatlaganini qanday baholash kerak? Yoki zabardast tanqidchilarimiz akademik V.Zohidov, M.Qo'shjonovlar respublikamizdagi eng

katta mansabdor shaxsning o'rtamiyona asarini oliy mukofotga tavsiya etib, maqtab yozganlarichi? Yoki O.Sharafiddinov, B.Nazarovlar ham zamon talabi bilan Lenin va adabiyot yoxud marksizm-leninizm ta'limotiga bag'ishlangan asarlar yozgani uchun ularni hukmron kommunistik mafkuraning qurboni yo dastyori bo'lgan deb ayblash, biryoqlama baho berish bo'lsa kerak deb o'ylaymiz.

Aslida, adib asarlariga baho berish va ularni tadqiq etishda tarixiy sharoitni e'tiborga olishimiz va sobiq sho'ro davrida yashab, ijod qilgan boshqa san'atkorlar kabi Qodiriy, Cho'lpon, H.Olimjon va Qahhor, E.Vohidov va A.Oripov ham butunlay erkin bo'lmaganini unutib bo'lmaydi. Bu jihatdan Ozod Sharafiddinovning Cho'lpon ijodini o'rganish borasidagi fikrlari juda asoslidir. Ustoz aytganidek, "Muayyan zamon, muayyan jamiyatda yashagan shoir, tabiiyki, bu jamiyatdan tashqariga chiqib keta olgan emas. Cho'lponga obyektiv yondashish, uning badiiy ijodidagi yoxud adabiy-tanqidiy maqolalaridagi hukmron mafkura g'oyalari yon berilgan o'rinlarni ko'rganda, uning nomiga malomat toshlarini otishga shoshilmaslik kerak. Aksincha, uni tushunmoqqa harakat qilaylik". Bu mulohazalar faqat Cho'lponga emas, balki Oybek, G'.G'ulom, H.Olimjon, A.Qahhor, Shayxzoda, Mirtemir kabi ko'p yillar mobaynida adabiyotimizning chinorlari hisoblanib kelgan, keyingi yillarda esa o'rinli-o'rinsiz ta'na-dashnomlarga ro'para kelayotgan ijodkorlarga ham taalluqli. O.Sharafiddinov kabi tanqidchilar ijodi ham bundan mustasno emas, albatta. Ozod Sharafiddinov ijodi va shaxsiga baho berishda ham ana shu sharoit va holatlarni nazardan qochirmaslik lozim. U kishi ham partiyani ulug'lovchi fikrlar bildirgan holatlar uchraydi. Yoki bo'lmasa Leninni ulug'lovchi asarlar, inqilobni madh etuvchi fikrlarni ilgari surishga ham to'g'ri kelgan. Yoki Mayakovskiy kabi proletariat sinfini ko'klarga ko'targan va revolyutsiyani madh etuvchi asarlarini yuqori baholaganiga ko'z yumib bo'lmaydi. Lekin bu o'tkinchi g'oya-qarashlar mash'um sovet tuzumi siyosati va hukmron mafkurasining talablari bilan bog'liq ekanligi endilikda barchaga ayon bo'lmoqda. Ozod Sharafiddinovning zabardast adabiyotshunos alloma va mohir tarjimon sifatidagi rang-barang ijodiyoti qanchalar e'tiborga loyiq bo'lsa, u kishining "Jahon adabiyoti"dek nufuzli jurnalga muharrirlik qilganligi va ustoz-murabbiylik faoliyati ham shu qadar e'zoz-ehtiromga munosib. Allomaning bu faoliyati ham alohida tadqiqotlarga mavzu bo'lishi shubhasizdir. Zero, "o'lsam ayrilmasman quchoqlaringdan" degan yuksak e'tiqod bilan yashab-ijod etgan ulkan talant sohibining vatanga muhabbat va sadoqat ruhi bilan yo'g'rilgan asarlari ham, shubhasiz, abadiyatga daxldor ma'naviy-ruhiy hodisalardan edi..

Бобораҳим Машраб илмий фаолияти, ижодининг туб моҳияти ҳақида А.Абдуғафуров қуйидаги холисона фикрларни келтирган: Албатта, уламо – муллоларнинг Машрабни инкор этиб, уни шоир сифатида ҳам, кучли мантиқ соҳиби ва журъаткор шахс сифатида ҳам тан олмасликка интилишлари ойни этак билан ёпишга тиришиш қабилидаги тентакона ҳаракат эди, холос. Машраб ҳаётлик чоғида ҳам, вафотидан кейин ҳам халқ орасида шу қадар кенг шуҳрат қозонган эдики, бу довруқни айрим табақа гуруҳлар хоҳишига кўра босиб бўлмас эди. Шоирнинг халқ дилига (чордевор ортидаги хотин-қизлар орасида ҳам) сингиб кетганлиги, тилдан тилга ўтганлиги факти Машрабдан кўз юмиш муносабатининг мувафакқият қозона олмаганлигини кўрсатади. Шунинг учун бўлса керакки, ҳоким табақалар идеологлари, руҳоний арбоблар юқоридагича ёндошувга батамом зид муносабатни ҳам илгари сурдилар – Машраб шахсияти ва ижодий фаолиятига тамомила диний тус бериб, уни ўз идеологлари сифатида кўрсатишга ҳаракат қиладилар.[13] Машраб ҳақидаги қисса диққат билан ўқилса, ана шундай интилишнинг ҳам аниқ изларини кўриш мумкин. Бу ерда гап бутун қисса давомида Машрабни авлиёсифат талқин этишга ҳам уриниш мавжудлиги ҳақида бораётир. Бу ишда, шубҳасиз, руҳонийлар ташаббус кўрсатганлар. Худди шулар томонидан Машраб баъзи ўринларда қандайдир ғайри-табиий салоҳиятга эга авлиё, айна замонда девона табиат, ринд, реал ҳаёт ва дунё ташвиш-роҳатлари билан алоқани узган, тажанг шахс сифатида гавдалантирилади, унинг ана шу белгилари тасдиқига, ҳатто, шоир «ижоди»дан намуналар ҳам келтириладики, булар реал ҳаётга батамом зиддир.[14]

Машраб классик поэзиямизнинг турли лирик жанрларига мурожаат этди, уларни ҳам мазмунан, ҳам бадиий жиҳатдан етук асарлар билан

бойитди. Шоир қайси бир жанрда қалам тебратмасин, у, аввало, кенг ўқувчилар оммасига яқин ва маълум бўлган шакллари излади, арузнинг энг энгил вазнларини қўлади.

Машрабнинг адабий мероси тўғрисида сўз борганида, унинг мустазод ва мураббалари ҳақида ҳам алоҳида тўхташ зарурати бор. Таъкидлаш лозимки, Машраб ўтмиш поэзиямизда энг кўп ва ҳар жиҳатдан маъқул мустазод яратган ижодкорлардан биридир. Шоир ўз асарлари билан бу жанрнинг адабиётимизда мустаҳкамланиши ва бойишига катта ҳисса қўшди. Машраб мураккаб, нозик лирик жанр бўлган мустазодда ҳам юксак бадиий маҳорат кўрсата билди. Унинг мустазодлари энг яхши ғазаллари каби шўх ва таъсирчан бўлиб, равон ва энгил ўқилади, китобхон ёдида тез сақланиб қолади. Мустазод соф лирик жанр. Унинг мавзуи – ишқ-муҳаббат, ошиқ садоқати, маъшуқа гўзаллиги, нозу ишваси, жабру жафоси, аҳду вафоси.

Шоир ўз мустазодларида ҳам ёр гўзаллигини мадҳ этди, унинг баркамол чиройи ва фазилатларини улуғлади. Мустазодларнинг ҳам лирик қаҳрамони оташин севги ўтида ёнган, ўз севгилиси томон талпинаётган садоқатли ошиқдир. Лирик қаҳрамоннинг кечинмалари, висолга етишиш йўлида интилиши, орзу-умидлари, хижрон азобида қийналиши, дарду ҳасратлари ҳаётини лавҳаларда ўз ифодасини топади.[15]

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. А. Абдуғафуров. Ўзбек адабиёти тарихи. 3-жилд. Бобораҳим Машраб. Т., Фан, 1984, 239-240-бетлар.
2. Ўша манба, ўша жой.
3. Абдурашид Абдуғафуров. Қалб қаъридаги қадриятлар. Т., Ўқитувчи, 1998, 161-бет.
4. Абдурашид Абдуғафуров. Буюк бешлик сабоқлари. Т., Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1995, 160-бет.
5. А. Абдуғафуров. Ўзбек адабиёти тарихи. 3-жилд. Бобораҳим Машраб. Т., Фан, 1984, 239-240-бетлар.
6. Ўша манба, ўша жой.
7. Бобораҳим Машраб. Меҳрибоним қайдасан. Т., Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990, 116-бет.
8. Ўша манба, 280-бет.
9. Раҳмонов. Буюк исёнкор. Машраб «Девон»ига ёзилган сўзбоши. Т., 1980, 6-бет.
10. Ўша манба, 22-бет.
11. Иброҳим Гафуров. Ҳаё-халоскор. Т., «Шарқ», 2006, 277-бет.
12. В. Раҳмонов. сўзбоши. Буюк исёнкор. Машраб. Девон. Т., Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980, 17-бет.
13. Муҳсин Зокирий. Машраб. Адабий-танкидий очерк. Т., Бадиий адабиёт нашриёти, 1966, 13-бет.
14. Ҳамид Ғулом. Машрабга дебоча. «Ўзб. адаб. ва сан.», 1990, 3 август.
15. Қиссаи Машраб. Т., «Ёзувчи», 1992, 29-бет.

## ҚАҲРАМОН МАЪНАВИЯТИНИ ТАСВИРЛАШДАГИ ЎЗУВЧИНИНГ БАДИИЙ МАҲОРАТИ

*Ҳамидова Муҳайёхон Обидовна,  
НамДУ ф.ф.номзоди, проф в/б*

“Юртимизда бугун ижодий муҳитни кузатсак, у қандайдир турғунликка тушиб, бир жойда депсиниб тургандай, кўпчилик ижодкорларимиз ўз ташвиш ва маммолари билан ўралашиб қолгандай таассурот қолдиради. Ҳолбуки, маданият ва санъат арбоблари ҳамиша жамиятнинг энг олдинги сафларида бўлиши, ўз асарлари, фаол гражданлик позицияси билан одамларни эзгу мақсад ва марралар сари бошлаши, илҳомлантириши керак”, деб Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев “Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий бахтдир” [1: 182] китобларида таъкидлаб ўтганларидек, Ўзбекистон халқ ёзувчиси Шукур Холмирзаев сўз санъатимизни янги савияга кўтаришга салмоқли ҳисса кўшган забардаст адибларимиздан биридир.

Адибнинг “Олис юлдузлар остида”, “Ҳаёт абадий” (1974), “Оғир тош кўчса...” (1980), “Бодом қишда гуллади” (1986) сингари тўпламларга кирган ҳикоялари ўзбек ҳикоячилигини янги босқичга кўтарди. Ўзувчи қаҳрамонларни фақат яхши ёки ёмонга ажратиш тенденциясидан воз кечди. Зиддиятли, руҳий олами кўпқатламли, кўповозли, кези келганда, тузумга нисбатан танқидий муносабатда бўла олувчи, миллий табиати ёрқин, мушоҳадаси ўткир қаҳрамонлар яратди. [4;497]

“Ҳар бир санъаткорнинг эстетик қирралари шу санъаткорнинг бадиий ижоддаги ўзига хосликларни изоҳлашда очқич вазифасини ўтайди” [2;75] Шукур Холмирзаевнинг қаҳҳорона услубда ёзилган “Подачи” номли ҳикояси ана шундай адибнинг бадиий ижоддаги ўзига хослигини изоҳлашдаги очқич вазифасини ўтовчи асарлардан бири дейиш мумкин.. Кимдир бу фикрга қўшилар, балки қўшилмас, бироқ шу ҳикоя яратилишига Абдулла Қаҳҳорнинг “Ўғри” асари кучли таъсир этган, дейиш мумкин. Яқинлик иккала ҳикояда ҳам гап ҳўкиз тўғрисида борганида эмас, албатта. Гап бадиий мантиқ яқинлиги ва муштараклигида, характер яратиш борасида устоз адиб ижодий анъаналарининг шогирд томонидан ривожлантирилишида.

“Подачи”даги Остонакул чол жамоа хўжалигидаги хўкизнинг ҳаром ўлишига сабабчи бўлади. Эътиборсизлик ёки ўз ишига совуққонлик туфайли эмас, йўқ, аксинча. Бу хўкиз кўп йиллар давомида Остонакул чолнинг оғирини енгил қилган, қанчадан-қанча қайғу-қувончларига шерик бўлган. Қисқа қилиб айтганда, кўпдан кўп ширин ва аччиқ хотираларига гувоҳ. Шу хўкиз беҳосдан қаттиқ касалланади-ю жон талвасасига тушади. Қани энди, Остонакул чолнинг сўйишга қўли борса. Чол бир неча бор бу ишга жаҳдланади ҳам, лекин юраги бетламайди. Оқибатда, подачи Остонакул жамоа хўжалигига хўкиз хунини тўлашга мажбур бўлади. Мана бу лавҳада

энди биз китобхонга кучли таъсир этувчи асарнинг иккинчи магнит майдончасига дуч келамиз.

“Бўлим бошлиғи инқиллаб ўрнидан турди:

- Ота, гап тамом. Хўкизнинг пулини тўлайсиз!- У атрофдаги кишиларга ҳам бир-бир қараб олди.- Қасддан ўлдирган ҳисобланади... Келишдикми, ота?

Остонакул чол секин бошини кўтарди:

- Хўп, ўғлим, тўлаймиз.

- Кечиктирманг фақат! Камбағал эмассиз, белингиз бақувват, қариндош-уруғларингиз бор. Кампирингизниям йиғиб қўйгани бордир? Шундай бўлсин... Мажлис тамом!”

Секингина бошини кўтариб, синиқ бир овозда хўкиз хунини тўлашга розилик билдираётган чол бизга аввалдан бироз таниш десак янглишмаймиз. Остонакул чол тимсолида китобхон Қобил бобони кўргандек бўлади. Шўрлик кампирлар ҳаёт шомиди беш-ўн тангани нимага деб йиғади, барчага маълум бу. Ана шу тугиб ўлимлигига йиғганини тортиб олаётган кимсалар-китобхонга таниш. Қобил бобонинг йўқолган хўкизини топиб бераман, деб уни баттар адои-тамом қилганлар билан мажлис ўтказиб, Остонакул чолга ҳукм чиқараётганлар икки замоннинг бир хил типлари дейин мумкин. “Ўғри” даги хўкизни топиб бериш тадорогини кўрувчиларнинг Қобил бобо қалби билан бир миричалик ишлари бўлмаганидек, “Подачи” ҳикоясидаги Остонакул чолнинг шу ҳолатдаги қалби-ю, хўкизнинг бевақт ўлиб қолиш сабабини аниқлаш билан бу бошлиқваччаларнинг ҳам неча пуллик иши бор?

“Бугунги кунда адабиётимизда ҳузур қилиб ўқийдиган асар топиш қийин бўлиб қолди. Сиз адабиётнинг бугуни ва келажаги ҳақида нима дейсиз?” деб берилган саволга адиб шундай жавоб берган эди:

“70 йиллик шўро даврининг ўз қонуни, ўз мафқураси, ўз йўналиши бор эди. Ўша вақтда яратилган асарлар ҳам бошқача бўлиши керак эди. Мафқуравий қуллик даврининг адабий жараёни маҳсуллари бўлди улар. Янги давр одамларимиз деб ўтмишдаги барча қадриятлардан воз кечиб, Павлик Морозов сингари отасини сотиб, юртига хиёнат этиб ва шу баробарида миллатининг юзига оёқ қўйиб, анъанавий қадриятларнинг маъносини тубдан ўзгартириб юборган ва шўро даврининг сохта чақириклари руҳида тарбияланган кишилар образини яратиш устуворлик қилар эди. Албатта, бу ёзувчилар бизнинг тасаввуримизда ва умуман, ҳақиқий ижодкор қандай бўлишини белгилайдиган эстетик мезонларга жавоб бера олмайдиган майда шахслар бўлиб етишди. Аммо улар ҳам ўз даври, ўша давр муҳитининг маҳсули эди. Буларга ачинамизми, ачинмаймизми, лекин бориша қабул қилишимиз, уларни тушунишга ҳаракат қилишимиз лозим.

Шуниси ачинарлики, у адибларимиз адабиётнинг бош мавзуси инсон эканлигини тушунишмади. Бош мавзу мафқура деб билдилар. Ваҳоланки, Шарқ адабиётида комил инсон тушунчаси бор. Бугунги кунда мана биз, биздан кейинги авлод шу нарсаларни сингдириб, англаб, мияга қуйиб



олишларинг керакки, ўшаларнинг шундай бўлиши сабабларини таҳлил қилиб, мутлақо тушуниб, демак, унинг аксини қилиш керак”. [3;78-79]

Ёзувчи ўзининг дастлабки ҳикояларидан бошлаб ҳаётда ўз ўрнига, муайян ижтимоий мавқега, ўзига хос характерга эга бўлган қаҳрамонлар образини олиб кирди. Шу билан бирга, Шукур Холмирзаевнинг аксар ҳикоялари маънавий муаммоларнинг бадиий таҳлилига бағишланади. “Олам тортилиш қонуни” ҳикояси ҳам ана шундай ҳикоялар сирасидан. Бу ҳикоя ҳам маънавий-ахлоқий муаммога доҳил.

Асар бошида китобхон адиб томонидан асар қаҳрамони портретига берган тасвири билан танишади. “Хусан акани маҳаллада катта-кичик ҳурмат қилар, зеро унинг ўзи ҳам гоҳо хасдан паст, тупроқдан хокисор бўлиб кетарди. Йўлда ким учраса, салом берар, лекин ўша одам алик оладими, йўқми, бу билан иши бўлмас, ўз вазифасини астойдил адо этандек, йўлига кета берарди. Оилада ҳам шундай эди. Олти қизининг энг кичкинаси билан сизлашиб гаплашар, аммо улар ўзини нечоғлик ҳурмат қилади, бу билан ҳам иши бўлмас эди. У гўё одамларни ҳурмат қилиш, лекин улардан бунинг эвазига бир нима талаб этмаслик учун туғилгандек эди”. [7; 367]

Ш.Холмирзаев ҳикояларидаги ҳаёт ва инсон тасвирининг асосий сюжет ўзакларини ташкил этади. Айни пайтда ёзувчининг дастлабки ҳикояларидан бошлаб бўртиб кўзга ташланган ва бутун ижодида қайта-қайта қўлланилган тасвир усули унинг ҳикоячиликдаги ўзига хос услубини ташкил этувчи унсурлар даражасига кўтарилганлиги эътиборга лойиқдир. Ш. Холмирзаев ҳикояларидаги сюжет ўзакларининг ўзаро яқдиллиги ёзувчи фақат бир хил қаҳрамонлар тақдирини тасвирлайди ва бир хил мазмундаги воқеаларни қаламга олади, деган фикрни уйғотмаслиги керак. Зеро, унинг ҳикояларида тасвирланган қаҳрамонлар бир мавзу атрофида ҳаракат қилсалар-да, уларнинг жамиятга, теварак-атрофидаги одамларга бўлган муносабатларида, ўй-кечинмаларида, маънавий дунёсида бир-бирини такрорламаслик даражасидаги ранг-баранглик мавжудки, бу ёзувчининг бадиий иқтидори ва поетик сўзни ҳис қилиш тамойили ниҳоятда теранлигини кўрсатади. [3; 17]

Ушбу ҳикоя билан яқиндан танишиш жараёнида ҳам китобхон бунга ишонч ҳосил қилади. Ҳикояда деярли бутун умр ўзини-ўзи алдаб келган, яшашнинг маъносини казо-казо дўстлар, танишлар ортиришу, буни ўзгаларга кўз-кўз этишдан иборат деб билган Хусан ака қиёфаси тасвирланади. Буни эса адиб томонидан асар қаҳрамонига берган портрет таъсиридан ҳам кузатиш мумкин: “Фаҳмимча, бу кишининг ичида бировга айтмайдиган гап ҳам бор эди. Дилида орзулари кўп бўлган. Шубҳасиз, бу одам каттакон бир раҳбар, арбоб бўлишни орзу қилган... Лекин бунинг учун нима қилиш кераклигига ақли етмаган. Арбоблик зинасидан кўтарилмоқ учун зарур бўлган ички қобилият етишмаган унга. Оқибат. У киши ўзидан сал амали катта одамларга сирли бир нимага қарагандай қарайдиган бўлган ва бу нарса қон-қонига сингиб кетган. Энди у киши нуқул ўшандоқ одамлар даврасида бўлишни истар, даврасига кира олмаса, ўзи уларни бирон-бир баҳонада чақириб, ўтиришни истар эди. Мен аминманки, зиёфатда оддий,

ўзи қатори ... одамларга нисбатан, ўзидан “юқори” одамлар кўп бўлади”.[7; 369]

Асар қаҳрамони Ҳусан аканинг феъли шу даражадаки, ҳатто жигаргўшасини сўнгги манзилга узатиш маъракасида ҳам шу одатидан воз кечмайди. Фикримизни асардан олинган қуйидаги парча мисолида ҳам кузатишимиз мумкин: “Кўп кутдик. Кўчага чиқиб қарадим.. Йўқсиз... Нозик меҳмонлар келишди. Иккита совхоз директори. Учта врач... Тўртта агроном... Раҳмат уларга... Сизни деб марҳумни бир оз куттирдим ҳам”. [7; 372] Шукур Холмирзаев аксар ҳикояларида мана шундай фоже кулги ёки кулгили фожиа яратиш устаси. Бундай асарларида у китобхонни мутлақо кулдирмоқчи эмас, фоже ҳолатга солиш истаги ҳам йўқ. Унинг асосий нияти қаҳрамонни қандай бўлса, шундайлигича, аралашувсиз, холис туриб тасвирлаш. Бу ҳикоядан хулоса чиқаришни адиб китобхоннинг ўзига қолдиради. Бундай ҳикояларни ўқиб, китобхон уларни беихтиёр таҳлил этишга киришиб кетганини, қаҳрамонлар ҳақида мулоҳаза юрита бошлаганини сезмай қолади.

“Олам тортилиш қонуни” ва унинг қаҳрамони ҳам шундай. Ҳаёт адолатли ва бешафқат. Ҳусан аканинг ҳам вақти-соати етиб келади. Ҳаётдан видолашиш арафасида, сўнгги дақиқалардагина унинг асли намоён бўлади. Кўз юмар чоғи атрофидаги казо-казо дўстлари-ю, қўли узун таниш-билишларида назарини тўхтатмайди ҳам. Сўнгги кўз нурлари жигарларига талпинади.

Умуман олганда, ёзувчи ҳар “Подачи” ҳикоясидаги Остонакул чол ва “Олам тортилиш қонуни” асари қаҳрамони Ҳусан ака образларига қандайдир ички меҳр билан ёндашади. Бу меҳр аста-секин ўқувчиларга ҳам ўта бошлайди. Натижада ҳар икки образ ўзбек китобхонларида катта таассурот қолдиради.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Мирзиёев Ш. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий бахтдир.- Тошкент: Ўзбекистон, 2018.-Б. 182.
2. Болтабоев Ҳ. Наср ва услуб. - Т.: Фан, 1992. -105 б.
3. Дониёрова Ш. Шукур Холмирзаев ҳикояларининг бадиий-услубий ўзига хослиги: Филол.фанлари номзоди... дисс.- Тошкент, 2000.- 130 б.
4. Каримов Н., Мамажанов С., Назаров Б. ва бошқалар. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. Олий ўқув юртлари учун қўлланма.- Тошкент: Ўқитувчи, 1999.- 544 б.
5. Мамажонов С. Танқидчи ва адабий жараён. Ўзбек адабиёти танқиди (антология).- Т.: Турон иқбол, 2011.
6. Солижонов Й. Ҳозирги ўзбек ҳикояси // Ўзбек тили ва адабиёти, 2012.- № 4.
7. Холмирзаев Ш. Танланган асарлар: III жилдлик. 1-жилд: Ҳикоялар.- Тошкент: Шарқ, 2003.- Б.369.

## ИКРОМ ОТАМУРОД ИЖОДИДА ЮКСАК ВАТАНПАРВАРЛИК ТУЙҒУЛАРИНИНГ БАДИИЙ ИФОДАЛАНИШИ

*Жумаева Салима Чўяновна,  
ҚарДУ доценти, филология фанлари номзоди*

Инсоният тараққиётининг барча даврларида озодлик, эркинлик, тенглик, адолат, ҳақиқат, нафрат, меҳр, шавқат нимани англатади? деган савол бот-бот такрорланиб келинган. Зеро, Ватан эрки ва озодлиги на миллат ва на эътиқод танлайди. Шу сабабдан ҳам озодлик умиди, Ватанни хур, инсонни эркин кўриш орзуси, адолатга, ҳақиқатга етишиш истаги бадиий асарларнинг бош мавзуси бўлиб келган ва лирик қаҳрамон образи ижодкорларнинг мана шу ҳаётий эҳтиёж ва эстетик тамойиллари, идеалларидан келиб чиқиб шакллантирилган. Бундай асарлар орасида Икром Отамурод қаламига мансуб “Ярадор умид отлари” достони ўзига хос аҳамиятга эга.

Достон фаластин халқининг оташқалб шоири Муин Бсисуга бағишланган. Асар воқеалари мукамал композиция доирасида тасвирланган. Асарда муайян лавҳалар тасвирига сингдирилган яхлит фикр, ғоя, ягона услуб – ички мантиқий боғланиш мавжуд. Бу боғланиш достонни ўзига хос мукамал асар ҳолига келтирган. Шунингдек, достонда акс этган турли воқеа ва лавҳаларни лирик қаҳрамон – фаластин халқининг оташқалб шоири Муин Бсису образи бирлаштиради ва асарга бир бутунлик бахш этади. Достон халқ кучига ва адолат тантанасига комил ишонч руҳи билан суғорилган. Бундан ташқари, асар ғояси чуқур мантиқ асосида юзага келтирилган. Унда назм ва наср уйғунлиги, таъсирли мисралар, асар ғоясини образли тарзда очишга бевосита хизмат қилувчи тимсоллар мавжуд. Воқелик “Таржимаи ҳол”, “Факт”, “Изтироб”, “Муин нидоси” ва “Туш” деб номланган қисмлар орқали ифода этилади.

Фаластин мамлакати ижтимоий-сиёсий ҳаёти фонида кўрсатилган мазкур асар тарихий фактларга тўла мос келадиган ҳужжатларга таяниб ёзилган. Шунга кўра, асарда мудҳиш давр руҳи, таҳликали замон нафаси уфуриб туради. Икром Отамурод Муин Бсису образини тасвирлаш орқали Фаластин тараққийпарвар зиёлиларининг истиқбол йўлидаги курашини умумлаштириб тасвирлайди. Дарҳақиқат, Муин Бсисунинг ижтимоий-сиёсий фаолияти ва ижоди сионизм мутасаддиларининг ғоялари ҳукмронлик қилган даврдаги буюк жасорат намунаси эди. У, аввало замона зайлига қарши чиқди, бадиий асарларида мамлакат мустақиллиги, тинчлиги ва инсон омилини биринчи ўринга қўйди, халқни эрк ва озодлик курашига чорлади. Публицистик мақолаларида эса Фаластин давлатининг ҳалокати замирида сионизм ғоялари ётишини очиқ баён этади. Шу боисдан ҳам у босқинчилар сиёсатининг кескин танқиди ва адолатсиз тазйиқига учради. Охир-оқибат ўз юртидан қувғинда яшашга мажбур... Ватанидан бир сиким туфроқ келтириб тўкиш унга армон...

Достоннинг “Факт” деб номланган қисмида шундай лавҳа келтирилган: “Қора денгиз бўйидаги хиёбон... Дўстлик дарахти... Дунё шоирлари унинг остига ўз юртларидан бир сиқим туфроқ келтириб тўкишади... Муин ҳам келди бу ерга, дарахтга тикилди маҳзун... У, бир сиқим туфроқни қаердан олиб келсин, юрти бошқалар – босқинчилар қўлида бўлгач?.. Дарахт олдида довдираб, эсанкираб, ўйга ботиб қолди Муин...”[1;103].

Достонда Муин Бсису образи эрк ва озодлик тимсоли сифатида талқин қилинади. Озодлик – сионизм мутасаддиларининг зулми, Исроил босқинчиларининг Фаластинда узоқ йиллар давомида тўхтовсиз олиб борган ваҳшиёна юришлари, азобланган, хонавайрон бўлган, чет эл ҳукмронлигидан тинкаси қуриган мамлакатнинг, халқнинг эрк ва мустақилликка эришиш талаби эди. [4.]. Шу боисдан, асарда эрк, озодлик, адолат, ор-номус, сабр-тоқатлилик, виждонлилик, камтарлик, олижаноблик, тинчликпарварлик, дўстлик, меҳр-мурувватлилик, эътиқод, теран фикрлаш сингари умуминсоний ғоялар – иккиюзламачилик, совуққонлик, бетарафлик, ваҳшийлик каби тушунчалар билан контраст ҳолда ёритилади. “Туш” қисмида шоирнинг ҳар бир сатридан беҳудуд дард, ниҳоясиз изтироб балқиб турувчи қўйидаги мисралари ўқувчи туйғуларида ўзгариш ясадини инкор этиб бўлмайди:

*Тугилган уй –  
йўқ!  
Қўйилган ном –  
йўқ!  
Севгувчи юрт –  
йўқ!  
Йўқ.....  
Йўқ.....  
Йўқ.....*

Маълумки, ҳар бир тушунча макон ва замонга муайян даражада боғлиқликда воқеланади. Асарда “*Тугилган уй*”, “*Қўйилган ном*”, “*Севгувчи юрт*” – макон – Ватан тушунчаси мудҳиш уруш содир бўлаётган замонда “*йўқ!, йўқ!, Йўқ.....*” тарзида ҳаёт ҳақиқатига уйғун ҳолда очиб берилади.

Достонда асар бош қаҳрамони – Муин Бсисунинг ватанпарварлик туйғулари изчил халқпарварлик ғоялари билан узвий боғлиқликда талқин этилади. “Муин нидоси” қисмида шоир ёзади:

*Халқ – буюк бирлик.  
Умидлар бирлашган жойда,  
мақсадлар бирлашган жойда,  
эътиқодлар бирлашган жойда,  
халқлар бўлади пайдо...  
Халқларнинг йўқ катта,  
кичиги,  
яхши,  
ёмони ҳам йўқдир халқларнинг.  
Бор фақат бирлашган,*

*бирлашмагани,  
ҳамда ўзини англаган,  
англамагани... [1;119]*

Шунинг учун Муин Ватан истикболини кўзлаб дард чекади, қийналади ва ўзининг ана шу юрак туғёнларини куйинчаклик билан:

*АРМОН билан яшаб,  
УМИД билан нафас олаётган  
ЮРТ номидан  
сўзлайди... [1;125]*

Достон воқеалари асар бош қаҳрамони Муин Бсисунинг фожиали ўлими тасвири билан тугаса-да, унда ҳаётбахш руҳ – МЕҲРга ташна қалам соҳиби орзу-армонлари, ғояларининг мангу барҳаётлигига комил ишонч руҳи балқиб туради:

*МЕҲРга айлансин ҳар битта одам...  
Бўлсин УМИДларга куч берган баҳор.  
ҳар битта одам,  
ҳар битта одам.  
Халқ бўлсин,  
Ватан бўлсин барқарор! [1;142]*

Достонда қўлланилган ўхшатиш, сифатлаш, муболаға, мажоз ва жонлантириш каби тасвирий воситалар асар мавзуси ва ғояси билан бевосита боғлиқ. Бу ҳол достонда тасвирланаётган мавзу моҳиятини, уруш манзараларини жонли ва таъсирли қилиб гавдалантиришга тўғридан тўғри хизмат қилган. Шоир “Факт” қисми баёнида шундай ёзади: “... Қўрқоқ, ожиз одамлар ҳамиша қуролга суянади. Қуролнинг эса турлари кўп. Босқинчиликнинг маъноси ана шу... Гоҳо туйғулар ҳар қанча азиз бўлса-да, мақсадларга ён беради. Босқинчиларга қул бўлмаслик мақсади фаластинликларга қочоқ деган тамғани босди ва уларни йўлга бошлади. Лекин... Фаластин туфроғидан узоқлашган сайин қадамлар оғирлашарди. Оёқлар орқага тортарди... Не илож?!. Оёқлар орқага тортарди... Не илож?!”. [1;104]

Маълумки, адолатсизлик ва эркисизлик туйғуси чорасизлик ва умидсизликни келтириб чиқаради. Айни сатрлар адолатсиз замондан норози исёнкор шоирнинг ноласи даражасига кўтарилган:

*Қаерга?.....  
Бўйи-басти дол-камон,  
судралиб бораётир –  
лаънат умри саргардон,  
Фаластин қолаётир!  
Қаерга?.....  
Умидлари заъфарон,  
гавдаси кетаётир,  
Кўксидаги иссиқ жон –  
Фаластин қолаётир!  
Қаерга?.....*



*Қаерга?*.....

*Қаерга?*.....

*Қаерга?*..... [1;107]

Шу тарзда иждокор идрокида вужудга келган туйғулар тўлкини лирик қахрамон кечинмаларида маромига етказилади. Турли хил ҳаракат ва ҳолатлар, сўз – образ – руҳият жипслашиб, муаллифнинг борлиққа иждодий муносабатини ифодалайди. Шунингдек, “...тафаккурда сайқал топган ва ривожлантирилган шахсий кечинма моҳиятан умумийликка интилган ҳолда синхроник кўламга эга бўла боради”. [2;78]. Достонда кузатилувчи бу каби қатор жиҳатлар аниқ бир ғоявий-бадий мақсадга хизмат қилади.

Достоннинг ғоявий мазмуни унинг сарлавҳасида ҳам акс этади. Шоир “ярадор от” метафорасини қўллаш асносида яраланиб, ҳориб бораётган умидни алқаш, сийлашга эътибор қаратади. Умидки, эртанги кунга ишонч, адолат ғалабасидан умидворлик... Унда инсон умрининг изсиз кетмаслиги ҳақидаги юксак ғоя замон руҳига ҳамоҳанг тарзда тараннум этилади. Шу маънода, асарда изчиллик ва мантиқан теранлик хусусияти билан публицистик кўтаринкилик хусусияти ўзаро уйғунлашиб кетган. Бу ҳол асарнинг таъсир кучини ошириб, унга ҳаётбахш оптимистик руҳ бағишлаган. Инсониятнинг порлоқ истиқболига, тинчликсевар халқларнинг куч-қудратига ишонч руҳини кучайтирган.

Асарда тасвирланган фожей воқеалар китобхонни изтиробга, чексиз қайғуга солади. Бундайин қайғу энди муқаддас туйғу – эрк йўлида қурбон бўлган шаҳидларга, озодлик куйчиларга таъзим, эҳтиром туйғулари сифатида ижтимоий аҳамиятга эга бўла боради. Барча эрксевар миллатлар фаластин халқининг исёнкор шоири – Муин Бсисунинг азиз номини хотирлаб, эркинлик жаллодларини лаънатлайди. Айни шу инсоний туйғулар халқимизни жипсликка, аҳил ва кучли жамият бўлиб бирлашишга ҳамда тинч ҳаётимиз кушандалари бўлган ифвогарларнинг фитнаю фасодлар ва найрангларига алданмасликка ундайди. Асарнинг ўзига хос хусусияти, бетакрорлиги айни шу омилларда намоён бўлади. Зеро, ҳақиқий бадий асарнинг умри узун ва у фақат яратилган вақт учунгина мансуб бўла олмайди. Таниқли рус психологи Л.С. Выготскийнинг: “Санъатни кўпроқ даражада кечиккан муносабат дейиш мумкин, негаки, унинг дунёга келиши билан таъсир кўрсата бошлаши ўртасида ҳамиша озми-кўпми замоний оралик бўлади”, [3;90] – деган фикри бунга далил бўла олади. Замоний оралик ўқувчига адабий асардан ўзи яшаётган замонга мувофиқ хулоса чиқариш, асарнинг бадий тизимидан ҳам даврига мос завқ ола билиш имконини беради. Шу маънода, достонда шоир дунёнинг тинчлиги – менинг тинчлигим, инсониятнинг жароҳати – менинг юрагимдаги жароҳатдир, деган буюк бир ғояни илгари сурадики, унда ифодаланган ғоя катта жанрларнинг поэтик тафаккур кўламига тенг келади. Бу ҳол асарнинг таъсир кучини ошириб, унга ҳаётбахш оптимистик руҳ бағишлайди. Инсониятнинг порлоқ истиқболига, тинчлик-севар халқларнинг куч-қудратига ишонч руҳини кучайтиради.

Хулоса қилиб айтганда, Икром Отамуроднинг юксак ватанпарварлик туйғуси билан суғорилган “Ярадор умид отлари” достонида ижтимоий мотивлар етакчилик қилади. Достонда даврнинг глобал муаммоси – уруш ортида бўй кўрсатувчи шахс фожиаси ва давр руҳиятининг аянчли оқибатлари ҳақида фикр юритилади. Унда шоир истеъдодининг янги қирралари, ўзбек шеърининг кенг имкониятлари яққол намоён бўлган.

### Фойдаланилган адабиётлар:

1. Икром Отамурод. Муқаддар: Шеърлар ва достонлар. – Т.: Гафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2012.
2. Мейлах Б.С., Талант писателя и процесс творчества. – Л.: Наука.
3. Выготский Л.С. Психология искусства. – Москва: Педагогика, 1987.
4. <http://library.ziyounet.uz/uzc/book/76522>.

## БОБУР МИРЗО ИЖОДИ ВА ШАХСИЯТИ ФИТРАТ ТАЛҚИНИДА

*Каримова Юлдуз Акуловна,  
ЖДПИ доценти, ф.ф.номзоди*

Бутун жаҳон мутафаккирлари яқдил эътироф этганларидек, Бобурнинг ёрқин, жозибадор шахси “улуғ ақл, метиндай мустаҳкам ирода, ниҳоятда ўткир ва мунаввар фаросат соҳиби” (И.Ҳаққул) эканлиги нафақат бадиий-эстетик, балки адабий-эстетик тафаккур намуналарида, шунингдек, адабиётшуносларимизнинг илмий тадқиқотларида, соф илмий соҳа бўлган бобуршунослик ва “бобурийномашунослик” да ҳам яққол кўзга ташланади.

Ўзбек тилшунослиги, замонавий адабиётшунослиги ва матншунослигининг тамал тошларини қўйган Абдурауф Фитрат, эътироф этиш керакки, маълум бир маънода бобуршуносликка ҳам илк сўқмоқ очди. Фитратшунос олимларимизнинг таъкидлашича, “Фитратнинг ўндан ортик илмий асар ва қўлланмаларида Бобур тилга олинади. Унинг “Адабиёт қоидалари. Адабиёт муаллимлари ҳам ҳаваслилари учун қўлланма” (1926 й.) дарслигида Бобур ва унинг ижоди ҳақида янги давр ўзбек адабиётшунослигида биринчи бўлиб маълумот берилган “Ўзбек адабиёти намуналари” (1-жилд, 1928 й.) мажмуасида “Бобурнома”нинг Ҳиндистон қисмини табдил этиб, Ўзбекистонда илк марта нашр қилган, “Адабиёт қоидалари” китобида энг кўп мисол Навоий ва Бобур ижодидан келтирилади. “Аруз ҳақида” (1935 й.) рисоласида туркий арузнинг хусусиятларини тушунтирар экан, Фитрат Бобурнинг ҳам аруз назариётчиси, ҳам арузнинг гўзал вазнларида шеър бита олган ҳассос шоир эканини кўрсатган. “Ўзбек классик мусикаси ва унинг тарихи” (1927 й.) асарида Навоийнинг моҳир мусанниф (бастакор) бўлганини Бобурнинг шаҳодати билан баён қилган” [1;15].

Ҳақиқатан ҳам, Фитратнинг илмий мақолалари, назарий қўлланмаларида муаллифнинг Бобур Мирзо (Бир-икки ўринни истисно қилсак, аксарият Фитратнинг буюк аждодимизга исломий эҳтиромини баланд тутгани ҳолда номини “Бобур Мирзо” дея қайд этганининг гувоҳи бўламиз, ибрат олсак арзирли жиҳат) [2;385–386] ижодига, шахсига айрича ихлос, ишонч, ўрни билан ўта талабчан муносабатда бўлгани ҳолда “қўп ва хўб” муурожаат қилганини кўришимиз мумкин.

Яқин тарихда, айниқса, Фитратлар ижод қилган ўтган асрнинг 20–30-йилларида адабиёт тарихига бирёқлама қараш тенденцияси авж олган, миллий мумтоз адабиётимиз даврнинг сиёсий-мафкуравий зуғумлари боис ўз бадиий-эстетик моҳиятига мос талқин этилиши қийин бўлиб қолган пайтларда тадқиқотчидан холислик ва илмий принципиаллик позициясида тура олиш жасорати талаб қилинар эди. Гарчи бу жуда қимматга тушган бўлса ҳам Фитрат илмда мумтоз адабиётимизга, хусусан, Навоий ва Бобур Мирзога борар йўлларимизни очди. Сирасини айтганда, навоийшунослик ва бобуршунослик ўзанларини тўғри белгилади.

“Адабиёт – фикр, туйғуларимиздаги тўлқинларни сўзлар, гаплар ёрдами билан тасвир қилиб, бошқаларда ҳам худди шу тўлқинларни яратмоқдир” [3;13] тамойилида собит турган Фитрат адабиётимизнинг мумтоз намуналарини соф бадиий-эстетик яратик сифатида ўрганар экан, ҳамма вақт ижодкор дунёқарашига, ислом ва тасаввуф фалсафасига, асарнинг тил хусусиятига, бадиий услубга, яратикнинг латофати, жозибаторлигини таъминлаган, китобхоннинг қалбини завққа тўлдирган нуқталарга талабчан, санъаткорона нигоҳини қаратади. Ва мана шу талабчан, санъаткорона нигоҳда Бобур Мирзо шахси ва истевдоди ўзининг муносиб баҳосини олиб бораверади.

Фитрат “Адабиёт қоидалари”да адабий асарларни уч турга: ривоя-эпос, томоша ва лирикага бўлиб кўрсатар экан, лирика атамасининг олдида “юрракчилик” сўзини ҳам қўшиб, бу турни юракчилик-лирика шаклида кўрсатади ва “Юракчилик-лирика” шеърларида энг катта рўлни оҳанглар, хаёллар, тўлқинлар, туйғулар ўйнайдирлар”, – дейди. Шу жойда Фитрат фикрини давом эттириб дейди: “Бизда бурунғилардан Навоий, Бойқаро, Бобур, Лутфий, Машраб кабиларни “лиризм”нинг энг катта кишилари санайдирлар. Уларнинг ғазаллари “юрракчилик-лирика” шеърларининг энг гўзал намуналаридир” [3;79].

“Адабиёт қоидалари”да услубда уйғунлик масаласини ёритишда Фитрат айнан Бобур Мирзонинг юракчилик-лирикасидан:

Кўнгли тилаган муродға етса киши,  
 Ё барча муродларни тарк этса киши,  
 Бу ики иш муяссар ўлмаса оламда,  
 Бошини олиб бир сориға кетса киши [3;49] –

рубойисини келтиради. Гарчи бу рубойи бизга илгаридан таниш бўлсада, Фитрат нигоҳи билан ундаги “катта ҳаёт ҳақиқатини жонли шаклда ифодалаш санъатини” (И.Ҳаққул) юксак даражада эгаллаган Бобур

Мирзонинг ёрқин истеъдодини қайта кашф этгандек бўламиз. Кўриб турганимиздек, ақл ва мантиқ, кўнгил ва туйғу уйғунлиги ўз навбатида бадиий ифодада ҳам изчилликни юзага чиқарган, Бобур Мирзо “керакликдан ортуқ гаплар тизими”га йўл қўймаган. Бобур Мирзо услубидаги мана шундай тиниқлик Фитрат эътиборини тортган бўлса, ажаб эмас!

“Фикрнинг ифодаси учун кераклигидан ортуқ гаплар тизимига” йўл қўймаслик — Бобур Мирзонинг танқидий қарашларидаги ўзак масала. Узоққа бормай Бобур Мирзонинг ўғли Ҳумоюнга берган танбеҳини эслайлик: “Такаллуф қилай дейсен, ул жиҳаттин муғлақ бўладур. Бундан нари бетакаллуф ва равшан ва пок алфоз била бити: ҳам санга ташвиш озроқ бўлур ва ҳам ўқуғучиға” [4;321].

Ёки яна бир мисол: “Бобурнома”да 1505–1506 йил воқеалар баёнида шоир Сайфий Бухорийнинг форс тилида ёзган аруз рисоласи ҳақида: “Бисёр камсухандур, бир ҳисоб била асру пурсухандур. Камсухан бу маъни билаким, кераклик нималарни битимайдур. Пурсухан бу маъни билаким, равшан ва зоҳир калималарни нуқта ва эъробифача битибтур” [4;162], – деган сўзларида ҳам хоҳ бадиий, хоҳ илмий тил бўлсин, асар тили мақсад ифодасига аниқ хизмат қилиши, пишиқ, пухта, танланган ва тарошланган бўлиши керак маъносидаги Бобур Мирзонинг талаби кўзга ташланади.

Фитрат маълум бир адабий даврда, индивидуал ижодкор яратибди, “Ҳатто, яна бир оз чуқурроқ бориб, бир кишининг сочим (наsr) – тизим (назм) ёзганида ҳам услубнинг ўзгариб қолганини кўраимиз”, – дейди. Фикрини исботлаш мақсадида бир неча ижодкорлар қатори Бобур Мирзонинг тизим асарларидан “Даҳрнинг мен кўрмаган жавру жафоси қолдимму?..” деб бошланувчи ғазалини, сочим асарларидан эса “Бобурнома”дан мисол келтиради: “Яна Ҳусайн Удий эди. Удни мазалиқ чолиб, мазалиқ нарсалар айтур эди. Уднинг торини ики қилиб бир чолибдур. Айби бу эдики, бисёр ноз ила чолур эди. Шайбонийхон бир навбат соз буюрур. Такаллуф қилиб ҳам ёмон-ёмон чолур: ҳам созини келтурмай ярамас соз келтирур. Шайбоний фаҳмлар. Буюрурким: суҳбатда ўқ-ғалаба “гардани” урар. Шайбонийхоннинг оламда бир яхши ишиким бор, будур...” [4;21].

Китобхон келтирилган парчага қараб, XV–XVI асрда яратилган насрий асарларга хос бўлган жимжимадорликдан фарқли “Бобурнома” содда, равон, барча замонлар ўқувчиси учун тушунарли услубда ёзилганлигига гувоҳ бўлади. Шу билан бирга Фитрат “Бобурнома”дек катта бир асар ичидан ғоятда муваффақиятли танлаб олган мисоли орқали ҳам Бобур Мирзонинг ёрқин, ростгўй шахси, шунингдек, Бобур Мирзонинг ўзининг ҳам айнан мана шу услуб масаласига қарашларидан билвосита огоҳ этади.

Бобур Мирзо юқорида гувоҳи бўлганимиздек, сўз битишда ортиқча такаллуфлар, эзмалик, жимжималарга берилмаслик тарафдори. Унинг бу қарашлари айнан санъат соҳасига ҳам тегишли. Мирзо Бобурнинг фикрича, куй чалишда созанданинг ортиқча такаллуф, нағма, ярашиқсиз қилиқлар, ноўрин замзамаларга йўл қўйиши унинг услубининг расволигидан дарак беради. Ижро услубидаги бу қусур эса созанданинг камолидан кўра заволига

хизмат қилади, санъат ва санъат аҳлидан инсонларнинг меҳрини совутади. Бундайларга эса Бобур Мирзо мурасасиз. Ёмон ижро учун Ҳусайн Удийни жазолаган Шайбонийхон билан Бобур Мирзо гарчи душманлик мақомида бўлса ҳам унинг бу ишини маъқуллайди. Аммо шу маъқуллашда иккита дақиқ нукта борки, буни зарофатли Фитрат, албатта, ҳисобга олган бўлиши керак, қайсики шу нукталарда Бобур Мирзо шахси янада ёрқинлашади.

Бу нукталардан бирида “Шайбонийхон фаҳмлар”, яъни Бобур Мирзо тарафидан Шайбонийхоннинг фаҳми, диди, таъби, сезгирлиги қайсидир маънода эътироф этилган. Иккинчиси эса Бобур Мирзо қарашларида санъат, адабиёт шунчалар дахлсиз, покиза жойки, уни ҳар қандай удийларнинг оёқости қилишга ҳаққи йўқ. Санъатни хор қилган Удий ўз жойида, адолатли жазоланади. Фақат бу адолатни Бобур Мирзонинг душмани Шайбонийхон амалга оширди. Гарчи бу ишнинг амалга ошмоғи душман томонидан қарор топган эса-да унинг номи Адолат! Бобур Мирзо эса ўз табиатига кўра адолатли ишни кўллаб-қувватлаши лозим. Ана шунда “Бобурнома” муаллифи бобурога лутфни ишга солади ва эътироф ҳам Бобур Мирзо нуктаи назарига, позициясига мос: “Шайбонийхоннинг оламда бир яхши ишиким бор, будир...”. Эътироф заминдаги нозик қочирим Мирзо Бобурнинг нуктадонлигини кўрсатади.

Хулоса қилиб айтганда, “...адабиёт ҳам санъат дунёсида теран бир қараш эгаси бўлган машҳур Бобур Мирзо” [5;5] шахсияти Фитрат талқинида янада тўлишади, жозиба касб этади. Фитратнинг қарашларида Бобур Мирзо тийнатидаги унинг ҳам инсоний, ҳам ижодий манерасига тааллуқли бўлган мухтасарлик, мукамаллик, мўътабарлик хислатлари янада равшанроқ кўринади.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Заҳириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси. –Т.: “Шарқ”, 2014. 744 бет.
2. Х. Султон. Бобурийнома. –Т.: “Шарқ”, 1997. 416 бет.
3. А. Фитрат. Адабиёт қоидалари. Танланган асарлар. IV жилд. –Т.: “Маънавият”, 2006. 336 бет.
4. З. М. Бобур. Бобурнома. –Т.: “Юлдузча”, 1989. 368 бет.
5. А.Фитрат. Танланган асарлар. II жилд. –Т.: “Маънавият”, 2005. 208 бет.

### “JANNAT QIDIRGANLAR” ROMANI XUSUSINDA SO‘Z

*Soatova Nodira Isomitdinovna,  
JDPI dotsenti, f.f.nomzodi*

Roman har bir xalq adabiyotining taraqqiyot darajasini, realistik qudratini ko‘rsatib, u tarix, hayot, inson ruhiyatining ko‘zgusi hamda badiiy yilnomasi va teran tadqiqotchisidir. Romanga xos tafakkur, eng avvalo, hayotni, voqelikni bir



butunligiga, yaxlitligiga butun ziddiyatlari, manfiy va musbat tomonlari bilan shaxs va jamiyatni, shaxs va tarixni o‘zaro aloqada, birlikda idrok etish hamda badiiy tushuntirishda namoyon bo‘lib, asarda ko‘tarilgan masalaga xalq, shaxs, jamiyat, umuminsoniyat va tarix manfaati nuqtayi nazaridan yondoshish, shu bilan birga chuqur falsafiy yo‘nalishda badiiy tadqiq etishda, zamonaning katta haqiqatini yetakchi tendensiyasini aytishda, jamiyat holatini, zamonaning katta muammolarini, insonning ruhiy izlanishlarini teran tahlil qilishda, yozuvchining hayotga, voqelikka hamda insonga yangicha qarashi, uning o‘z konsepsiyasiga ega bo‘lishi, g‘oyaviy pozitsiyasining aniq va mustahkamligida ko‘rinadi.

“Shuhratning ko‘p yillardan beri yashnab kelayotgan ijodiyoti, chuqur ilmiy–tanqidiy tekshirishga loyiq keng va rango–rang maroqli bir olam” [2,228–b]– ekan, adibning “Jannat qidirganlar” romanini shunday xususiyatlarga ega, shoh asari deyish mumkin. Bizningcha, adib ushbu romanni yaratish bilan sovet totalitar tuzumi siquvlariga, qaysidir ma’noda qarshi chiqishga jur‘at etgan. Chunki, romanda mustamlakachilik, vatanfuruslik keskin qoralanib, mustaqillik va ozodlik samimiyat bilan ulug‘langan. Asarda, hayot haqiqati butun borlig‘i va murakkabligi bilan badiiy haqiqatga aylantirilgan.

Bir so‘z aytganda, adibning “Jannat qidirganlar” romani, XX asrning 60–yillardagi tarixiy jarayonni, u davr voqealari, kishilari ruhiyatini aks ettiruvchi asardir. Roman voqeasi O‘zbekistonda va xorijiy sharq mamlakatlarining birida bo‘lib o‘tadi. Yozuvchi, asar g‘oyasiga, haqiqiy jannat ona–Vatanda bo‘ladi, haqiqiy baxtga ona–Vatanni ozod va obod qilish orqali erishiladi, degan chuqur ma‘noni yuklab, roman syujetining qat–qatiga singdirib yuborgan. Adib, zamonaga qaramay, o‘zini sof vijdonini yo‘qotmagan o‘zbek farzandlari Ummatali, bog‘cha mudirasi Nafisa, sovxoz direktori Alixo‘ja Azimxo‘jayev singari obrazlar yaratib, romanga o‘zgacha shukuh baxsh etgan.

Darhaqiqat, ular timsolida o‘z vatanparvarlik burchlarini sharaf bilan ado etayotgan, halol mehnat qilib vatanimiz ravnaqiga munosib hissa qo‘shayotgan kishilarimizning yuksak ma‘naviy qiyofalarini yaqqol ochib berilgan. Romanda Ummatali boshidan o‘tgan voqealar juda qiziqarli, ishonarli holda tasvirlab berilgan. Uning xotini Qimmatxon bevafoqlik qilib, buzuq yo‘llarga kirib ketadi, shu sababli ham Ummatali undan voz kechadi. Endi Ummatali uchun o‘z uyi, oilasi tamoman begona, shu qaltis damda u ayrim asarlarning qahramonlari kabi “oliyanoblik” qilmaydi, “adashgan xotin” gunohini kechib qo‘ya qolmaydi, yigitlik nafsoniyati, insoniylik g‘ururi bunga yo‘l qo‘ymaydi, u bu maskandan hazar qilib uni butunlay tark etib ketadi, u mehribon odamlar orasida o‘z shaxsiy baxtini topadi va Nafisa bilan go‘zal bir oila quradi.

Romandagi yetakchi obrazlardan biri Ummatalini kuzatar ekanmiz, adib ko‘nglidagi ko‘p g‘oyalarni, idealini uning timsolida berganini ko‘ramiz. Ummatalining hayot yo‘li g‘oyat murakkab, uning o‘tmishi fojiali, biroq, u bir umr fojialar girdobida qolib ketmaydi, haqiqat uchun kurashadi va haqiqatning tantanasini, sofdillikning qing‘irlik ustidan qilgan g‘alabasini qiyinchilik bilan bo‘lsa–da ko‘rganining shohidi bo‘lamiz. Bu sofdillikning qing‘irlik ustidan qilgan g‘alabasi edi.

Shu o‘rinda, yozuvchining yana bir o‘ziga xos jihatiga e‘tibor qaratish lozim. U obrazlarni yaratganda, ularni yuzaki xarakteristiklash, ularga “yaxshi” degan yorliqni yopishtirish yo‘lidan bormaydi, balki ularni o‘ziga xos “falsafasi”, “g‘oyasi” borligini ochishga harakat qiladi. Bu faoliyat ko‘pincha ijtimoiy mehnat jarayonida ochib boriladi. Jumladan, Azimxo‘jayev obrazini faol ko‘rsatishga harakat qilar ekan, bu obraz tasviri orqali qishloq xo‘jaligini rivojlantirish sohasidagi rahbarlik rolini ochib berishi o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan va bu maqsadga to‘liq erishgan. Romanda tasvirlanishicha, Azimxo‘jayev komil inson sifatida o‘z ustida tinimsiz mehnat qilayotgan fidoyi inson timsoli. U mehnat jarayonida tasvirlangan hamda mehnatsevar, insonparvar oqil kishi sifatida ko‘rsatilgan. Xususan, u Ummatalining qayta shakllanib, uning qanot yozib ko‘klarga parvoz qilishida muhim rol o‘ynaydi.

Nafisa ham hayotda ko‘p jafolar chekkan ayol. U yetim o‘sgan, endigina hayotini izga qo‘yganda, nobop A‘zamga duch kelib, uning qopqoniga tushib, hayoti barbod bo‘lgan mazluma.

Yozuvchi qahramon faoliyatini izchillik bilan ocha borib, ularda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan quvonch daqiqalarini, psixologiyasidagi tushkunlik damlarini, baxtli holatlarini, kulfatli onlarni ham yoritib berishga harakat qiladi. Bu jihatdan qaraganimizda, Nafisa obrazida o‘zbek xotin–qizlariga xos xislatlar–hayo, ibo, mulohazakorlik, nazokat va andisha, mehnatsevarlik real aks ettirilgan. Shu bilan birga, undagi adashish, yanglishish va aldanish xislatlari ham ishonarli ravishda ifodalangan. A‘zam uni boshiga ko‘p og‘ir kunlarni soladi, xo‘rlaydi, ayollik nafsoniyatini oyoq osti qiladi, chet elga bosh olib ketib, uni isnodga qoldiradi. Nafisa hayot so‘qmoqlarida surinadi, lekin tushkunlikka tushmaydi, oxir–oqibat hayotdan haqiqiy o‘zining o‘rnini topadi. U Ummatali kabi mehribon odamlar orasida baxtini topadi, ular ko‘magida turmushini o‘nglab oladi.

Romanda Ummatalining shaxsiy hayotida Nafisa bilan orasidagi insoniy latofatlarga to‘liq, samimiy, beg‘araz muhabbat yozuvchi tomonidan, o‘zgacha hayajon va mehr bilan tasvirlanadi. Ko‘rdikki, Ummatalining hayot yo‘li g‘oyat murakkab va sermashaqqat bo‘lsa ham, istiqboli porloq, barcha ko‘ngilsizliklar uning irodasi oldida o‘tkinchi bir holat. Shu sababli u saodatga erishadi.

Shu bilan birga, “Jannat qidirganlar” romanida chet ellardagi milliy uyg‘onish, mustamlakachilikka qarshi ozodlikka intilish mavzusi ham ancha keng va haqqoniy aks etgan. Pok vijdonli, xalqparvar doktor, o‘zbek farzandi Abulbaraka, erksevar ziyoli Zeytun, chet ellik oddiy fuqaro Zilol obrazlari va ularning bu sohadagi sa‘y–harakatlari fikrimizning jonli dalilidir. Jumladan, Abulbaraka obrazida murakkab davrning katta hayot haqiqatining yana bir muhim qirrasini topganki, u Saidakbar hoji xonadoniga mansub bo‘lsa ham, ma‘naviy jihatdan bu oilaga tamoman begona. Abulbaraka Hoji oilasidagi baxtsizliklarga sherik, uning qismati fojiali, biroq u fojidan qutilish yo‘lini topib olganki, bu uni 1920–yillarda o‘zi tug‘ilib–o‘sgan ona yurtini (O‘zbekistonni) tashlab chet elga qochib ketgan o‘z otasi, Saidakbar hojiga bildirgan e‘tirozda yaqqol ko‘rinadi: “Lekin birinchi galda mustaqillik olish kerak. Men bir xalqning, u qanchalik katta va madaniyatli bo‘lmasin, ikkinchi bir xalqqa najot baxsh etishiga, uning baxtini

ochishiga ishonmayman. Har xalq kattadir, kichikdir o‘zi alohida bo‘lishi, o‘z aravasini o‘zi tortishi kerak. Biri ikkinchisining yelkasiga minib olib: “Jannatga ketyapman” deyishi bekor” [3,366–b].

Ko‘rinib turibdiki, romandagi drammatizm faqat keskin ruhiy holatlar tarzida emas, qahramonlararo to‘qnashuvlar tarzida ham ifoda etilgan. Abulbaraka otasi bilan suhbatni davom ettirar ekan, “–Mana shu g‘irt yolg‘on. Parijlik korchalonlarning fikri. Vaholanki, ular nonini tuya qilib yetgan bu o‘lkada bir mahallar shunaqa madaniyatlar yaratilib, shunaqa usuli idora bo‘lganki, hozir havas qilsa arziydi. Hammasini tuproqqa qorishtirib bo‘ldilar. Endi o‘zlarinikini ro‘kach qilib, “shu yo‘ldan borsang ma‘qul” deb hiqildog‘idan bo‘g‘ib turibdilar. Baribir bu (mustamlakachilik, izoh bizniki) uzoqqa bormaydi. O‘z xalqining milliy manfaatini ko‘zlaydigan, bu yo‘lda hatto, jonidan kechadigan kishilar doim bo‘lgan, hozir ham bor. Kundan kun ko‘payapti. Zulm qattiq, nafasi ichida. Samovarga o‘xshab, ichidan qaynab, bir toshishi bor... Xalqning intilishi buloq, juda kuchli buloq, ming ustiga tuproq tortsin, ko‘ziga kigiz tiqsin, baribir, bir kuni otilib chiqadi” [3,356–357–b], – deydi.

Romandagi bu xil voqea va bahslar muhojirlar hayotidan olingan bo‘lsa–da, asar aslida Rossiyaning mustamlakachilik siyosatini qoralash, mustaqillik va erk uchun kurashga chaqirish, hayotbaxsh ruh – istiqloq g‘oyasi bilan sug‘orilgan: Abulbaraka otasi orqasidan “Eng muqaddas narsa milliy ozodlik uchun to‘kilgan qondir” [3,358–b], deydi.

Shuning uchun ham “Jannat qidirganlar” romani O‘zbekiston mustaqilligini qadrlash, mustaqillik ne‘matlarining mohiyati va buyuk ahamiyatini chuqur idrok etish, yosh avlodni istiqloq g‘oyalari ruhida tarbiyalash ishiga bevosita xizmat qiladi. Shuni ham qayd etish lozimki, “Jannat qidirganlar” romanida erksevar xalqlarning kuch–qudrati haqqoniy aks ettirilgan.

Umuman olganda, “Jannat qidirganlar” romanidagi har bir obraz yozuvchi tomonidan mahorat bilan yaratilgan, ular misolida adib, insonlarni adashmaslikka to‘g‘ri yurib, mehnat qilishga chorlaydi. Adashgan shaxslarni to‘g‘ri yo‘lga boshqarishga urinadi. Lirik qahramon yaratishdagi bunday o‘ziga xoslik Shuhratning “Endi sen yig‘laysan..” nomli she‘rida o‘z ifodasini topgan. Bunda lirik qahramon namoyon va nontepki qizni ham oqlamaydi, o‘z xatosini tuzatish uchun uyiga qaytgach noqobil yigitni ham oqlamaydi. Uni harom pullar ortidan chopib, bezbetlik yo‘liga kirib ketgan noinsof badbaxt deb qoralaydi. She‘rning intihosida adashgan tannozni mehnat bilan kun ko‘rishga chaqiradi, unga yengil–yelpi xayollarga berilib yana adashmasligini uqtiradi.

Sen endi yig‘lama,

Taqdirga tan ber.

El yurgan ko‘chadan ko‘p qatori yur,

Hayotning taftidir mehnat, poklik, ter,

O‘kinma, umringni to‘g‘ri yo‘lga bur!

Nafsing tiy, tayyorga yugurma chopib,

Shirindir qora non, gar o‘zing topib,

Ter bilan og‘zingga olsang, chaysang!

La'nat der el–u yurt yana aynasang!

She'rdan ko'rinib turibdiki "...Shoir qalbning bir lahzalik nafaslarini ilg'ab olishga usta. Bu ustalik ichki dunyoni doimo bir holatda emas, har gal yangi vaziyatda, yangi tomondan ochishga imkon beradi. Natijada, biz zamondoshimizning qalbi nechog'lik keng va yuksak ekanligini ko'ramiz"[1,21–b]. Demak, Shuhratning "Jannat qidirganlar" romani o'z vaqtida yozilgan hozirda ham badiiy qimmatini yo'qotmagan adabiyotning go'zal namunasi

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Озод Шарафиддинов. "Шухрат ижоди ҳақида фикрлар" "Ёш ленинчи" газ., 1971, 21 май №98.
2. Шайхзода М. Қалам ва бурч. Шарқ юлдузи
3. Шухрат. Сайланма. Икки жилдлик. Биринчи жилд. Жаннат қидирганлар.–Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.–Б.356

#### BADIIY TASVIR VA IJODIY MAHORAT

*Suvonova Jumagul Rashidovna,  
Samarqand davlat universiteti dotsenti, f.f.nomzodi*

Xurshid Davronga tengdosh shoirlarning aksariyati hayotni o'ziga xos tarzda idrok etish va tasvirlash san'ati bilan ajralib turadi. Ulardagi o'ziga xoslikni kuzatish, bizningcha, Xurshid Davronning ham o'ziga xos uslubini anglash imkonini beradi. Bunday qiyosiy tahlilni Usmon Azim, Azim Suyun, Shavkat Rahmonlar she'riyati misolida amalga oshirish mumkin. Biroq bu borada yuqorida tilga olingan shoirlar ijodining har biriga alohida to'xtalib, ulardagi farq, yoki bo'lmasa har birining o'ziga xosligini alohida e'tirof etish uchun ular ijodiga ham to'xtalish va mukammal mulohaza yuritish lozim bo'lardi. Ammo hozir biz taniqli shoir Xurshid Davronning o'ziga xos uslubi va mahorati borasida fikr yuritishni maqolamiz maqsadiga aylantirdik.

Xurshid Davron she'riyatga XX asr 70-yillarining boshlarida kirib keldi. Uning dastlabki she'rlaridayoq vatan va xalqni mushtarak idrok etish ruhi hetakchi tamoyil sifatida ko'rina boshladi. To'g'ri, she'riyatda, umuman, badiiy ijodda o'z vatani va xalqini kuylamagan ijodkor yo'q. Xurshid Davronning bunday ijodkorlardan farq qiladigan tomoni shundan iboratki, u o'z xalqining uzoq moziydagi o'rnini, shonli o'tmishini ko'rsatish, uning orzu-armonlarini poetiklashtirishni asosiy maqsad darajasiga ko'tara oldi. U she'rlaridan birini "So'g'diyona" tasviriga bag'ishlagan edi. Unda xalqimizning muqaddas yurtimizga bosqinchilik niyati bilan kirgan kuchlarni qoralash, Spitamen singari xalq qahramonlarini ulug'lash ruhi o'z ifodasini topgan. Bu she'rda Iskandar-Aleksandr Makedonskiyning bosqinchilik siyosati qoralangan. Biroq bu siyosat shunchaki qoralanmaydi, balki shoirning munosabati kuchli dramatik kechinmalar tasvirida beriladi.



Demak, Vatanni sevish, tarixiy voqealar va tarixiy qahramonlar taqdiridan saboq olish Xurshid Davron she'riyatida alohida mavzu sifatida shakllanib bordi. U 70-yillarda yaratgan kichik she'rlaridan birida shunday yozadi:

Qirlarni kezaman,...  
Daraga tushib  
O'tloqqa yastanib o'yga tolaman  
Va birdan...  
Yomg'ir yog'ib o'tgan tuproqli yo'lda  
Muqanna izini ko'rib qolaman.[2.B.13].

Bu parchada biz tarixning yana bir yangi sahifasini idrok etamiz. Unda xalqimiz boshiga arablar solgan kulfatlar va ularga qarshi kurashgan Muqanna singari xalq qahramonlarining matonatini his etamiz. Xurshid Davron tarixni falsafiy idrok etadi, uning zaruriy, o'quvchi qalbiga ta'sir etadigan nuqtalarini poetiklashtiradi. Shoir "yomg'ir yog'ib o'tgan tuproqli yo'l" tasviriga ramziylik baxsh etish bilan birga ayni paytda kuchli g'oyaviy mazmuni ifodalashga ham erishadi. Tuproqli yo'l tarixning to's-to'polonli yo'lidir. U asrlarni bir-biriga bog'lovchi vositaga aylangan. Tuproqli yo'lga yomg'irning yog'ib o'tishi esa bu yo'ldan kimlar o'tgan, unda kimlarning izi qolganligini yorqinroq tasavvur etish imkonini beradi. Demak, bu yo'lda Muqanna izining ko'rinishi uning to's-to'polonli hayot so'qmoqlarida kurash izlari qolganligining belgisi sifatida ko'rinadi.

Tarixning turli davrlarini va turli qahramonlar shaxsini poetiklashtirish Xurshid Davron she'riyatida milliylikning kuchayishiga olib keldi, deyish mumkin. U she'rlarida tarix saboqlarini tasvirlash, undan shu kunimizga taalluqli xulosalar yasash tajribasini egallash jarayonida bu mavzuda yirik asarlar yarata olish mahoratiga ham ega bo'lib bordi. Uning 70-yillarda yaratilgan "Afrosiyob devoridagi ko'zlar" dostoni shunday urinishlarning natijasi sifatida yuzaga kelgan. Xurshid Davron Samarqanddagi Afrosiyob xarobasi timsolida xalqimizning tarixdagi achchiq o'tmishini umumlashtiradi. Bugungi davr kishisining shijoati, matonati, tafakkur shu'lalarida ularning ajdodlariga xos olijanob fazilatlarini ko'rib his etadi.

Tarixiy shaxslar siyomosini poetiklashtirish Xurshid Davron she'riyatida alohida xususiyat bo'lib ko'zga tashlanib turibdi. Buni biz "Mahmud Koshg'ariy", "Ulug'bek qasosi", "Alisher Navoiy", "Bobur", "Bibixonim", xalq qahramoni Namozga bag'ishlangan turkum she'rlar misolida ko'ramiz. Tarixiy shaxslar obrazini yaratish tamoyili Usmon Azim she'riyatida ham yo'q emas. Lekin bunday she'rlar uning she'riyatida uzoq o'tmish saboqlarini ko'rsatish orqali emas, balki zamonamiz dardini his etish jarayonida tug'iladi. Buning izohi shundaki, Usmon Azim ko'proq o'ziga asrdosh kishilar qiyofasini poetiklashtirish yo'lidan borsa. Xurshid Davron she'riyatida esa tarixiy shaxslar uzoq davrlarning dramatik manzaralarini o'zida mujassamlashtiradigan obrazlardir. Shoirning o'ziga xos mahorati shundaki, tarixiy shaxslar obrazi faqat uning tarjimai holi, tarixdagi o'rnini ifodalash belgisi bo'lmay, balki bu shaxs obrazida o'sha davrning illatlari ham o'zining haqli ifodasini topadi. Shoir "Ulug'bek qasosi" she'rida yozadi:

Yo'l chetida tisarilar,



Daraxtlar-u chorbog'lar.  
 Otlar bilan uchib borar  
 Qonga tashna pichoqlar.  
 Olislarda o'lim sasin  
 Sezib qolgan och bo'ri.  
 Uvillaydi qon mazasin

Tuyay deb shomdan beri.[1.B. 111]

Bu parcha Ulug'bekning o'limi tasviriga oid. Xurshid Davron boshqa she'rlaridagi kabi (umuman olganda, bunday uslub uning poetik mahoratiga xos bo'lgan o'ziga xos xususiyatlardan biri) bu she'rda ham voqelikni badiiy tafsillar vositasida ifodalashga erishadi. She'rda o'lim sasin sezib qolgan och bo'rining uvillashi-yu, qon mazasini tuyish ilinjida notinchlanishi bir qaraganda oddiy haqiqatdir. Lekin tasvir shundayki, undan biz Ulug'bekning o'limi-shaxsning fojeasinigina emas, balki davrning fojeasini ham idrok etamiz. Qonsirayotgan och bo'ri inson qonini birinchi marta simirayotgan emas. U qon mazasini avval ham totgan, shunday bo'lishini yana istaydi. Bo'rining qonga tashnaligi tarixda faqat Ulug'bekkina o'ldirilmagan, balki bunday kishilar ko'plab qatl etilganligining belgisidir. Xalqimiz tarixi murakkab kechganidek uni yuzaga keltirgan qahramonlar hayoti ham murakkab, fojiali, ayni paytda ibratlidir. Shu bois ham Xurshid Davron tarixning qaysi pallasini poetiklashtirmasin, uning zaminida bitta haqiqat yotadi: u ham bo'lsa, qahramonlarga xos yagona ideal-xalqning erki, ozodligi, Vatan taqdiri uchun kurash. Buni biz Namoz haqida yaratilgan she'rlar turkumida yaxshi sezamiz. Shoir bir o'rinda yozadi:

Namoz ketar...

Yo'llar ustida

Muqanna-yu Shiroq izlari.

Qarshisida titrab osuda

To'marisning porlar ko'zlari.[1.B.111].

Tariximizning yaqin chorrahasida yashagan Namozning xalqimizning shakllanish davrlarida ozodlik uchun kurashgan To'maris, Shiroq, Muqannalarning yo'lidan borishi ularni milliy qahramonlar sifatida bir-biriga mushtarak etadi. Tarix saboqlarini badiiy idrok etish va uning zamonamizga aloqadorligini ko'rsatib berish Xurshid Davron ijodida tobora quyuqlashib boradi. Uning ijodiga xos bu xususiyatni tanqidchi N.Shukurov haqli e'tirof etgan edi: "Adabiyotda... tarixiylikning kuchayishi jarayonida Xurshid Davronning publitsistik maqolalari, she'rlari, esselari alohida o'rin tutadi. U keyingi besh-o'n yil davomida tariximizning soxtalashtirilgan sahifalarini o'qish, o'rganish, qayta idrok etish, qayta yozish bilan muttasil shug'ullandi, o'nlab badiialar, she'rlar, esselar yozdi. Bu asarlar uning 1991 yilda "Kamalak" nashriyoti tomonidan nashr etilgan 19 bosma taboq hajmidagi "Samarqand xayoli" kitobida jamlandi.

Haqiqiy shoir va adib o'z xalqining tarixi va hoziri uchun yonib o'rtanuvchi, uning mustahilligi, erki yo'lida jon-jhdi bilan kurashuvchi fidokor shaxs bo'lishi kerak, degan aqida haqiqat ekanidan mazkur kitobdagi maqolalar, she'rlar, badiialar yana bir bor dalolat bera oladi".[ 4.B.210].

Demak, tanqidchi o'rinli ta'kidlaganidek, tarix mavzusi Xurshid Davron ijodida etakchi o'rinni tashkil etadi. Uning dastlabki she'rlaridanoq ko'rina boshlagan bu xususiyat shoirning butun ijodi davomida to'lishib bordi. Ayni shu xususiyati bilan X. Davron she'riyati o'z tengdoshlari ijodidan farq qilib turadi.

Xurshid Davronning quyidagi she'rida aytilgan falsafiy mushohada o'zining teranligi, inson ko'nglida ziddiyatli fikrlarni vujudga keltirishi bilan alohida qimmatga ega:

O'z ona tilini unutgan zotlar  
 Torobiy maqbarin vayron etganda,  
 Men hech kimning ko'ziga emas,  
 Men o'zimning ko'zimga boqdim.  
 Ashratxona hujralarini  
 Ko'r manqurtlar bulg'ab ketganda,  
 Men hech kimning ko'ziga emas  
 Men o'zimning ko'zimga boqdim.  
 ...Derzasiz zimiston uyda  
 Bir-birimiz ko'rmay,  
 Yolg'izlik ezib,

G'amli o'tirardik otam, men, o'g'lim...[2.B.156].

Xurshid Davronda o'z-o'zini anglash, javobgarlik hissi kuchli. U hayotdagi juda ko'p kamchiliklarga insonning o'zi sababchi ekanligini va o'zi ham shu inson qavmiga mansubligini chuqur tushunadi. O'z ko'ziga boqib, o'tmish ajdodlar va kelajak avlodlarni ko'radi. qabih kimsalar qilgan gunohlar uchun shoir o'zini ham gunohkor hisoblaydi. Va buning uchun qiynaladi. Bunday ichkuyar kishilar o'tmishda ham bo'lgan, hozir ham bor, bundan keyin ham bo'ladi. Shoir mana shu fikrni uchta so'z "Otam, men, o'g'lim..." jumlasiga singdirib yuborgan.

She'rda lirik "men" o'z ko'ziga boqib, insonning haqiqiy siyratini ko'radi. U o'z qilmishlari uchun faqat uning o'zigina emas, balki avlod-ajdodi ham javob berishini, hech bir yomonlik jazosiz qolmasligini, yomon odam o'z qilmishlari uchun Vatan, o'tmish va kelajak oldida javobgar ekanini chuqur his etadi.

She'riyat hamisha yuksak ehtirolarni, zavq-shavqni, g'alayonli tuyg'ularni sevadi. Bular she'rning har bir misrasiga, so'ziga singdirilsagina sehrlilik vujudga keladi. Tanqidchi Abdulla Matyoqubov aytganidek, "she'rdagi sehrlilik umumxalq ruhidagi tebranishlarni oldindan ko'ra bilish, hayot taraqqiyotini to'g'ri idrok etib, undan jamiyatga, odamlarga foydali fikrlarni dadil ayta bilishdan iborat. Faqat bugina emas, albatta. Sehrlilik bularni umumlashtirib she'riyat tili bilan biyron so'zlashga qodir bo'lgan mahoratdir".[3.B.13-14].

Xurshid Davron ijodi mana shunday tasviriy san'at va mahorat zamirida qurilgan. Shuning uchun ham u hayotga va o'zbek adabiyotiga xizmat qilishi shubhasiz.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Davron X. Bolalikning ovozi. -T., 1986. 202 b.
2. Davron X. Qaqnus. -T., 1987. 207 b.

3. Matyoqubov A. Hayot va badiiyat. -T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1985. 104 b.
4. Shukurov N. So'z sehri, she'r mehri. Adabiy-tanqidiy maqolalar. Samarqand: Zarafshon, 1992. 215 b.
5. Azim Suyun. Ziyoyo'li. -T.: Yosh gvardiya, 1986. 62 b.
6. Azimov U. Insonni tushunish. -T.: G'.G'ulom nashriyoti, 1978. 50 b.
7. Shavkat Rahmon. Gullayotgan tosh. -T.: Yosh gvardiya, 1985. 64. b.

## **O'ZBEK FOLKLORI ASARLARIDA MA'NAViy-MA'RIFIY TARBIYA MASALALARI**

*Sabitova Tojixon,  
TVCHDPI dotsenti, f. f. nomzodi*

Butun dunyo tamaddunida buyuk o'zbek xalqining beqiyos salohiyatga ega og'zaki ijod durdonalari kelajak avlodning ma'naviy tarbiyasida o'ziga xos o'rin tutadi.

Inson qadimdan atrof muhitda ro'y berayotgan voqea-hodisalarga o'z munosabatini bildirgan. Bu munosabat, avvalo, turli xatti-harakatlar, ovozlari, ehtiroslar vositasida amalga oshgan. Keyinchalik his-tuyg'ularni so'zlar, so'z yig'indisi, raqslar ifodalagan. Yana keyinroq odamlar o'zlaricha dunyoning, tabiatning, hayvonlar, o'simliklar, tog'lar, suvlarning paydo bo'lishini izohlovchi to'qima hikoyalar o'ylab topadilar. Yigitlar, qizlar muhabbat qo'shiqlarini to'qiydilar. Qabila-urug'ning mard va jasur yigitlari haqida, ularning g'aroyib qahramonliklari haqida afsona va rivoyatlar paydo bo'ladi. Bularning hammasi hali yozuv madaniyati vujudga kelmasdan oldin jamoa-jamoa bo'lib yashayotgan aholi o'rtasida shuhrat topadi. Bugungi kunda biz ularni "xalk og'zaki ijodi" deb atashga odatlanganmiz.

Ota-bobolarimizning aytmoqchi bo'lgan pand-nasihatlari, el e'zozlagan odam bo'lishning talab-qoidalari, Alp Erto'nga, To'maris, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik kabi ajoyib yurt farzandlarining botirliklari, xalqimizning urf-odatlari, milliy fazilatlarimiz san'at darajasiga ko'tarilgan so'z tizimlaridan iborat maqol, qo'shiq, ertak, doston, bolalarga bag'ishlangan asarlar va boshqa janrlardagi namunalarda ifodasini topadi. [6.7]

O'zbek xalq og'zaki badiiy ijodi yurtdoshlarimizning turmush tarzi, yashash sharoitlari va ijtimoiy mehnat darajasiga mos ravishda shakllanib, otadan o'g'ilga, ustozdan shogirdga, ajdoddan avlodga o'tib, doimiy ravishda sayqallashib, mukammallashib, tobora an'anaviylashib boravergan va nihoyat, kasbiylik (profesionallik) kasb etgan hamda jonli ijro orqali bizgacha etib kelgan. Xalq ijodiyotining qadimiy namunalari esa, yozma manbalarda, xususan, mamlakatimizda yaratilgan ulkan yodgorlik – «Avesto»da, shuningdek, tarixchi va adiblarning asarlarida, qoyatoshlar suratlarida (Sarmishsoy, Zarautsoy rasmlari kabi), arxeologiya va arxitektura yodgorliklarida, mehnat qurollari va uy-ro'zg'or buyumlarida o'ziga xos tarzda saqlanib qolgan.

Jamiyat taraqqiyoti va mehnat taqsimotining kuchaya borishi bilan xalq ijodi turlari va janrlariga nisbatan ayrim iste'dodli shaxslarning ixtisoslashuvi osha borgan. Shu tariqa baxshilar, ertakchilar, roviylar, masxarabozlar, qiziqchilar, askiyabozlar qo'g'irchoqbozlar, qo'shiqchilar, go'yandalar, xalfalar, qissaxonlar san'ati yuzaga kelgan. Ammo xalq ijodi namunalarining yaratilishi, o'zlashtirilishi va amalga oshirilishida ko'pchilikning ishtiroki, har bir ijro va amaliyotning qadimdan qaror topgan mustahkam an'analar doirasida voqe' bo'lishi saqlanib qolgan. Shu sababli ham har qanday badiha, har bir ijodiy harakat, davomchi tomonidan kiritilgan qay bir yangilik barqaror an'analar doirasida, ustoz-shogirdlik qobig'ida ro'y bergan. Shu tariqa, bir tomondan, an'analarning o'zi rivojlana borgan, ikkinchi tomondan, har bir ijro va amaliyot davomida xalq ijodining an'anaviy namunalariga o'zgartirishlar, yangiliklar kiritila borgan, yangi asarlar, yangi variantlar, yangi yechimlar yuzaga kelgan hatto qay bir namunalar unutilib, ijro va amaliyotdan tushib qolgan.

O'zbek folklorining qadimgi namunalari asl holida to'la ravishda bizgacha yetib kelmagan. Qadimgi miflar, afsona va rivoyatlar, maqol, topishmoq va qo'shiqlar, epos parchalari turli xarakterdagi yozma yodnomalar, Yunon, Xitoy, Arab manbalari, tarixchilarning ma'lumotlari, arxeologik topilmalar orqali, shuningdek, keyingi davrlarda yozib olingan folklor asarlari tarkibida saqlanib qolgan. Qayumars, Jamshid, Gershasp, Siyovush, Afrosiyob, Rustam, Iskandar, Elikbek, To'maris, Shiroq, Zariadr va Odatida, Zarina, Oysuluv, Guldursun, odami Od, Er Hubbi haqidagi afsona va rivoyatlar, qahramonlik eposlari, «Devoni lug'otit turk»da keltirilgan folklor namunalarining yaratilishida o'zbek xalqi qadimiy otabobolarining ham munosib hissasi bor. Bu qadimiy folklor namunalarida tasvirlangan yorug'lik va zulmat, yaxshilik va yomonlik, ezgulik va qabohat, to'g'rilik va egrilik, adolat va haqsizlik o'rtasidagi kurash motivlari keyinchalik o'zbek xalq og'zaki badiiy ijodida qayta ishlanib, xalqimizning ijtimoiy munosabatlari va kurashlari bilan uyg'unlashib ketgan.

Xalqimiz istiqbolga erishgan kunidanoq, asrlar davomida uning g'ururi, tarixi, qadriyatlarining manbasi bo'lgan o'zbekona urf-odatlar, rasm-rusumlar, asrlar davomida yaratilgan dostonlar, ertaklar, qo'shiqlar, maqollar haqida alohida g'urur bilan gapirila boshlandi. O'zbek xalqining ma'naviyati, madaniyati, adabiyoti, tarixi tamaddun beshigi bo'lgan desak, hech mubolag'a bo'lmaydi. Chunki xalqimizning donishmandligi og'zaki ijodda yaratilgan allalardagi halovatda, katta-kichikda ma'rifat urug'ini sepuvchi, aqlni charxlovchi janrlarda, moziy va kelajakning orzu-umidi bo'lgan dostonlardagi xalq qahramonlarida qad ko'tardi.

Har bir inson biror sohaning mutaxassisi bo'lishdan tashqari o'z xalqining farzandi bo'lmog'i lozim. Yaqin o'tmishda alla bilmaydigan kelinlarni, doston eshitmagan yigitlarni yoki askiya aytib ko'ngil chigillarini yozmagan o'zbeklarni uchratish mushkul bo'lgan. Kishilik jamiyatining taraqqiyoti rang-barang obraz va timsollarda, nuqtadonligi badiiy serjilo va hozirjavob bahri baytlarda kamol topdi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 27 yilligiga bag'ishlangan tantanali

marosimdagi nutqida ta'kidlanganidek, «Istiqlol yillarida erishgan yutuqlarimizga tayanib, **milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari** dadil qadam qo'ymoqdamiz». Demak, bugungi globallashuv jarayonida xalq og'zaki adabiyot namunalarini qadriyatlarimiz kaliti sifatida keng tadqiq va tadbiq etishimiz inkor etib bo'lmas ehtiyojdir. Biz o'tgan yillar davomida Alpomish, Shiroq, To'maris kabi millatimiz qahramonlari nomini tikladik, endi esa xalqimizning azaliy siymolarini millatimiz ongida, shuurida, surati va siyratida yuksaltirishimiz lozim.

O'zbek xalqining asrlar davomida yaratgan og'zaki so'z san'ati namunalari milliy madaniyatimizning tarkibiy qismi hisoblanadi. Har bir xalqning asrlar idealini aks ettiruvchi og'zaki ijodi bo'lganidek, o'zbek xalqi ham qadimiy tarixga boy va rang-barang og'zaki adabiyot durdonalariga ega bo'lgan xalqlardan biridir.

Xalq ommasi tomonidan yaratilib xalqning talantli vakillari ijrosida sayqal topib, avloddan avlodga o'tib kelayotgan afsona va rivoyatlar, maqol va matallar, olqish va duolar, topishmoq va qo'shiqlar, latifa va naqlar, ertak va dostonlar o'zbek xalq og'zaki ijodini tashkil qiladi.

O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishning bosh omillari belgilanar ekan, Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, «Buyuk ipak yo'lining chorrahasida joylashgan ona zaminimiz azaldan yuksak sivilizasiya va madaniyat o'choqlaridan biri bo'lganini ko'ramiz. Xalqimizning boy ilmiy-madaniy merosi, toshga muhrlangan qadimiy yozuvlar, bebaho me'moriy obidalar, nodir qo'lyozmalar, turli osori atiqalar davlatchilik tariximizning uch ming yillik teran ildizlaridan dalolat beradi». Dastlabki ikki renesans tamadduni ta'siri badiiy adabiyotning ham og'zaki, ham yozma turiga islom va tasavvuf an'alarini olib kirdi. Xalq ijodi namunalari janriy va badiiy estetik takomilida islom motivi unsurlari kirib keldi. Shunga ko'ra, yuksak nafasat va mangu hikmat xazinasi bo'lgan og'zaki adabiyot manbalarida ham ajdodlarimizning urf-odatlarini va an'alarini, odob-axloqi va madaniyati, tarixi va milliy qadriyatlari, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, badiiy-falsafiy va diniy qarashlari o'zining yorqin ifodasini topgan. Xalq yaratgan asarlar, o'z navbatida, qadimgi o'zbek xalqining e'tiqodi va dunyoqarashini o'rganishda, folklor namunalarida ilgari surilgan ilg'or g'oyalar, umuminsoniy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlarni bilib olishda asl manba bo'lib ham xizmat qiladi. Folklor o'zining muhim tomonlari bilan ijodkor uchun har jihatdan e'tiborli va qimmatli ekanini qadimiy va hozirgi zamon adabiyoti tajribalari ko'rsatib berdi. O'zbek yozuvchilari folklor asarlarini chuqur o'rganib borganlari va undan ijodiy foydalanganlari sari folklor va yozma adabiyotning o'zaro munosabati tobora takomillashib, o'z samarasini bera boshladi.

Xalq og'zaki ijodi yozuvchi va shoirlarning g'oyaviy-badiiy jihatdan o'sishida, uslub xilma-xilligini yaratishida katta ijodiy maktab bo'lib qoldi. Yozma adabiyotda o'z ifodasini topgan folklor syujetlari va motivlari yozuvchi mahorati tufayli qayta sayqal topib, original asar sifatida yozma adabiyot mulkiga aylandi.



Soʻz sanʼatining bu ikki shakli oʻrtasidagi oʻzaro taʼsir tarixi juda qadim zamonlarga, yaʼni yozma adabiyotning yuzaga kelish davrlariga borib taqaladi. Qadim zamonlardan har bir davr ijodkorlari ertak mavzularidan foydalanib keladilar. Koʻhna Sharqda Abulqosim Firdavsiy, Rudakiy, Nizomiy, Jomiy, Navoiy, Bedil, Fuzuliy, Berdaq, Gulxaniy, Muqimiy kabi buyuk siymolar oʻz ijodxonalarida xalq ogʻzaki ijodidan oziqlanib, ajoyib samaralarga erishdilar, oʻlmas obrazlar yaratishda folklor xazinasidan qanday taʼlim olish, nimalarni oʻrganishning ibratli tajribalarini berdilar.

XX asr yangi oʻzbek adabiyotining chinakam xalqchilligi va yuksak badiiyati uchun kurashgan, uning mustahkam poydevorini qurishda jonbozlik koʻrsatgan Abdulla Qodiriy, Choʻlpon, Fitrat, Hamza xalq ogʻzaki ijodi materiallarini qayta ishlashda ibrat boʻlarli oʻziga xos maktab yaratishdi. Gʻafur Gʻulom, Hamid Olimjon, Oybek, Mirtemir, Maqsud Shayxzoda, Sulton Joʻra singari oʻzbek yozuvchilari bu maktab anʼanalarini oʻziga xos yoʻlda izchil rivojlantirdilar. Hozirgi adabiy jarayonda ijod qilayotgan yozuvchi va shoirlarimiz ham bu anʼanalarni davom ettirishmoqda.

Soʻz sanʼati bilan xalq ogʻzaki ijodining oʻzaro taʼsiri va munosabati xususida soʻz borganda, sanʼatkorning folklor asarlariga koʻr-koʻrona ergashmasligi, ularga taqlid qilmay, oʻz ijodiy niyati, uslubi, qarashi jihatidan yondashishi koʻzda tutiladi.

Demak, xalq ogʻzaki ijodi yosh avlodning maʼnaviy madaniyatini rivojlantirish manbai hisoblanadi. Maʼnaviyat taraqqiyot mezonini boʻlib, inson shaxsiyatini kamolga etkazadigan, uni madaniyatli qiladigan omillardan biri ham xalq ogʻzaki ijodi asarlaridir. Xalq badiiy tafakkuri sarchashmasining eng bebaho injulari hisoblangan ogʻzaki ijod asarlari yoshlarimiz ongiga insoniy fazilatlarning olijanob tuygʻularidan ona Vatanga boʻlgan mehr-muhabbat va sadoqat, halollik, sof vijdonlilik, haqgoʻylik, samimiylik, kamtarlik, mardlik kabi goʻzal xislatlarni singdirib boradi. Shuning uchun ham xalq taʼlimi va oliy taʼlim muassasalaridan universitetlar, kollejlari, akademik litsey va maktablarda, hatto bogʻchalarda xalq ogʻzaki ijodini oʻrganishga katta eʼtibor berilmoqda. Zero, ogʻzaki ijod asarlari yosh avlodni haqiqiy, komil inson qilib voyaga etkazishda taʼlim-tarbiyaviy ahamiyati katta boʻlgan muhim vositadir. Ravon, aniq, shirali, jonli tilda yaratilgan folklor asarlari bolalarning bilim doiralarini kengaytiradi, ularning estetik dillarini oshirib, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, doʻstlik, mardlik, soflik, kamtarlik, ota-onaga hurmat, rostgoʻylik, kishilarga, ayniqsa, yoshlarga va qariyalarga nisbatan, mehrlilik boʻlish kabi eng yaxshi insoniy fazilatlarni tarkib toptiradi, insonni maʼnaviy jihatdan goʻzallashtiradi uni ezgulikka odamlarga faqat yaxshilik qilishga, xalq manfaati uchun mehnat qilishga undaydi.

Xalq misoli buyuk togʻ, xalq ogʻzaki ijodi asarlari esa oʻsha togʻdan boshlanadigan toshqin daryo. Bu daryo togʻlar qadar buyuklikni hayot bagʻriga singdirish bilan ovora. Hayotda inson olamiga taalluqli barcha ranglar aralash holatda mavjuddir. Oq, qizil, yashil, qora ranglarni alohida ajratib koʻrsatilganda diqqatingni tortib, koʻzingni olgani kabi, yaxshilik bilan yomonlikni, poklik va xiyonat, goʻzallik va xunuklik singari xislatlarni tiniq, alohida ranglarda koʻrsata

olguvchi ko‘zgu og‘zaki ijod asarlaridir. Ibrat va o‘git, orzu va tasalli aks etgan bu ko‘zgu tarix davomida insonlar bilan birga yashab kelaveradi.[3.164] Uning ma‘naviy qadriyatlarini tartib etishdagi ta‘sir kuchi unda xalqning o‘zligi, milliy xarakter xususiyatlarining ochib berilishi bilan xarakterlanadi va xalqning aqliy-axloqiy, badiy-estetik, ma‘naviy talab va ehtiyojlari, orzu-umidlari va ta‘lim-tarbiya vositalari o‘z ifodasini topgan. Xalq og‘zaki ijodidagi har bir janr o‘quvchilar ma‘naviy olamini boyitishda o‘ziga xos ahamiyatga ega.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyev, O‘zbekiston Respublikasi mustaqil davlat 27 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi so‘zini o‘tkazdi.
2. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev, O‘qituvchi va murabbiy kuniga bag‘ishlangan tantanali nutq so‘zladi // <http://uza.uz/posts/3452>
3. Mirzayev T, Turdimov Sh., Jo‘rayev M., Eshonqulov J., Tilavov A. O‘zbek folklori. –T., 2020.
4. Jo‘rayev M. Folklorshunoslik asoslari. – T.: "Fan", 2009.
5. T.Sobitova "Xalq ijodi saboqlari".-T.: "Mumtoz so‘z", 2011.
6. O.Madayev, T.Sobitova " Xalq og‘zaki poetik ijodi".-T.: Sharq nashriyoti, 2011.
7. Jo‘rayev M. O‘zbek folklorshunosligi. –T.: "Firdavs-shoh", 2021.
8. O.Madayev O‘zbek xalq og‘zaki ijodi.-T.: "Mumtoz so‘z", 2011.

#### БОЛАЛАР АДАБИЁТИДА ПОЭТИК ТАФАККУРНИНГ ЯНГИЛАНИШ АНЪАНАСИ

*Жамилова Башорат Сатторовна,  
БухДУ профессори, филология фанлари номзоди*

Ҳар бир халқ болалар адабиёти унинг келажак пойдеворини белгиловчи муҳим омиллардан биридир. Болалар адабиётида бугунги ҳаёт яққол акс этиши билан бирга, тараққиёт тасавури ҳам зухур этилади. Умумидадан фарқли равишда болалар адабиётидаги бадий тафаккур, услубий изланишлар, одам ва олам тасвиридаги ранг-баранглик, образлилик жамият маънавиятининг келажакдан хабар беради. Инсоният пайдо бўлганидан буён болалик ҳам у билан ёнма-ён яшаб келатган экан, асрлар давомида ижтимоий ҳаёт, даврлар ўзгаргани сайин адабий анъаналар, услублар қатори жамиятнинг болаликка муносабати, уларга мўлжалланган бадий ижод намуналарида ҳам поэтик тафаккур янгилалиши давом этиб келмоқда.

Ўзбек адабиётшунослигида мустақилликка эришилгандан кейин бошланган маънавий тикланиш жараёни ўзбек болалар адабиётига оид қадимий ва замонавий манбаларга хос поэтик хусусиятларни чуқур тадқиқ этиш эҳтиёжини юзага келтирди. Бундай асарларда акс этган умуминсоний ғоялар ёш авлодни буюк аجدодларимизнинг эзгу анъаналари руҳида тарбиялашда муҳим амалий аҳамият касб этади.

Айтиш мумкинки, ота-оналар ва болалар муносабати дастлаб фольклорнинг афсона, ундан кейин эртақ, дoston сингари жанрларида алоҳида мавзу, мотивлар тизимида талқин қилина бошланган. Кейинчалик, бу мавзулар эртақларда янада кенг ривож топгани кузатилади. Айниқса, уларда етим ва ўғай болалар тақдири алоҳида мавзу сифатида берилади. фольклордан бошланган оилада бола тарбияси ота-оналар, ака-ука, опа-сингилнинг оилавий алоқа ва муносабатларини адабиётнинг оғзаки ва ёзма шаклларида далиллаш марказий ўринда қўйилган. Бу фақат ҳар бир халқ адабиёти спецификасидан келиб чиқиб, ўша адабиёт қонуниятлари ва бадиий-эстетик тамойиллари билан боғлиқликда талқин этилган.

Бундай мавзу тараққиётини:

а) отанинг ўғилга муносабати (мумтоз адабиётда Кайковуснинг “Қобуснома” асари, замонавий адабиётда С.Барноевнинг “Қиблагоҳлар” публицистик ҳикояси, Т.Маликнинг “Меҳмон туйғулар” асари);

б) отанинг қизга муносабати (жаҳон адабиётида О.Бальзакнинг “Горио ота”, ўзбек адабиётида Ў.Умарбековнинг “Қизимга мактублар”, Бахтиёр Муҳаммадамин Абдурраҳим ўғлининг “Сирдошим – қизим, эшит...” асарлари);

в) онанинг ўғилга муносабати (С.Барноевнинг “Она” балладаси, Э.Маликнинг “Онаизор”, Ў.Ҳошимовнинг “Дунёнинг ишлари” асарлари);

г) онанинг қизга муносабати (С.Айнийнинг “Қиз бола ёки Холида”, А.Қаҳҳорнинг “Нурли чўққилар” қиссаси);

д) ака-ука, оға-ини муносабати (Горькийнинг “Болалик”, Х.Тўхтабоевнинг “Омонбой ва Давронбойнинг қишлоққа газ олиб келгани”, “Мунгли кўзлар” асарлари, С.Барноевнинг “Ака-укалар”, “Укам туғилган кун” шеърлари);

е) опа-сингиллар муносабати (“Горио ота”даги Дельфина ва Анастазининг бир-бирига нафратли муносабатлари, Ў.Умарбековнинг “Фотима ва Зухра” асаридаги эгизак опа-сингиллар оқибати);

ё) энагаларнинг болаларга, бобонинг неварога муносабати (А.С.Пушкиннинг энагаси А.Родионовнага бағишланган, С.Барноевнинг “Бобом айтган қўшиқ” шеърлари, Э.Маликнинг “Неварамга мактублар” асари);

ж) етимларга муносабат (Ғ.Ғуломнинг “Сен етим эмассан”, “Шум бола”, “Ёдгор”, “Нетай” асарлари, Э.Маликнинг “Болалик ва ўсмирлик кўчалари” асарлари) кабилар орқали англаб олиш мумкин.

Шу билан бирга болаларнинг ота-онага муносабати акс этган асарлар ҳам бор. Бунга жаҳон адабиётида Ф.Кафканинг 1919 йилда ёзилган “Отамга хат” асарини мисол қилса бўлади [4,343]. Ушбу эссени Вафо Файзуллоҳ ўзбек тилига таржима қилган ва уни “Кафканинг отасига ғазабномаси” сифатида қайд этган.

Ўзбек болалар адабиётида болаларнинг катталарга, ота-оналарга муносабатини қисман автобиографик қиссаларда, шунингдек,

Х.Тўхабоевнинг “Мунгли кўзлар”, Т.Маликнинг “Алвидо, болалик!” асарида учратиш мумкин.

Рус олими М.Бахтин романларда оталар ва болалар муносабати натижасида ёзма адабиётдаги тараққиётни А.И.Герцен, Ф.М.Достоевский ижоди орқали ёритишга интиланган. Чиндан ҳам, Герценнинг “Ким айбдор?” (“Кто виноват?”) асарида бир оила мисолида отанинг болаларга муносабати туфайли ўсмир киз изтироблари, хусусан, Любоньканинг ички кечинмаларидан иборат кундаликларида отаси худди бегоналардай бўлиб қолгани, ота-онаси бўла туриб, етимлардек ўксиниб, хўрланиб катта бўлгани учун отасини ҳеч қачон сева олмаслиги, ҳаётда ҳам бутунлай ўзини якка-ёлғиз, ортиқча ҳис қилаётгани акс этади [1,126]. Шунингдек, Ф.М.Достоевский асарларида ҳам, айниқса, унинг “Ака-ука Карамазовлар” асарида оталар ва болалар муносабатининг ҳаётий-психологик асослари бадиий ёритилгани жиҳатидан эътиборни тортади.

Э.Воҳидовнинг “Болалар” шеърисида ҳам болалик олами билан боғлиқ кечинмалар фалсафий талқин топган. Шеърда лирик қаҳрамон азалий муаммо: оталар ва болаларнинг бир-бирини тушуниши масаласини кўтаради.

Тошойнага коптокни урса,  
Синарми ё синмасми – қизиқ.  
Ошпичокни тупроққа суқса,  
Унарми ё унмасми – қизиқ.

Катталар эса буни тушунишни хоҳламайди. Аксинча, ҳамма нарсани тақиқлайди, хатога йўяди.

Бу муаммо, адабиётшунос Д.Қуроноф таъкидлаганидек, XIX асрга келиб рус ёзувчиси И.Тургеневнинг доврўқли романи билан ўзига муносиб ном топган бўлса ҳам, аслида азалий масала эканлиги ойдинлашади.

Болалар учун яратилган асарларда поэтик тафаккур уч кўринишда намоён бўлади:

- а) халқ тафаккури;
- б) ижодкор тафаккури;
- в) бола тафаккури.

Катталар адабиётида, асосан, халқ тафаккури билан ижодкор тафаккури юзага чиқади. Бола тафаккурининг ифодаси ёки унинг муаллиф томонидан очиб берилиши болалар адабиётининг муҳим специфик белгиларидан бирини ташкил қилади. Болалар адабиётида тафаккурнинг бу учала шакли синкретиклашади.

Халқ тафаккурида миллат тафаккури, унинг миллий-психологик тафаккури ҳам акс этиб туради. Ҳар бир халқнинг фольклор асарида ўша халқ, миллат тафаккур тарзи ёрқин кўринади. Миллий тафаккур нуктаи назаридан масалага ёндашилганда, фольклор асарларида халқнинг тафаккури шаклланишига асос бўлган қуйидаги омиллар бўртиб кўринади: а) ўзбек халқининг қадимги тотемистик (маълум бир ҳайвонни ўзига қондош деб тушуниш), анимистик (руҳ абадийлигига, жоннинг кўчиб юришига ишониш), фетишистик (айрим нарсаларга эътиқод қилиш) қарашлар билан боғлиқ

мифологик; б) ўзбек халқининг инсон тириклиги учун зарур бўлган сув, олов, тупроқ, шамол каби тўрт унсур аҳамиятини ёш авлодларга сингдириш эҳтиёжи поэтик тафаккур орқали уларни образлантиришга, метофоризация қилишга, рамзлаштиришга олиб келгани; в) оддий фикрни, маълум бир ҳаётий воқеликни бадий кўринишда талқин этиб, поэтик тафаккур даражасида ўсиб етилишига эришилгани.

Хуллас, инсоннинг поэтик фикрлаш тарзи фольклордан то ёзма адабиётгача мана шундай мураккаб босқични босиб ўтган. Шунинг учун поэтик тафаккур инсон фикрларининг бадий йўсинда ифода этилишига олиб келган юқори босқич экани аёнлашади.

Болалар адабиётида поэтик тафаккур янгиланишининг тадрижий такомил босқичларига эътибор берилса, унинг мифологик, эпик, яъни халқнинг илк бадий-эстетик тафаккур тарзи билан генетик алоқадорлиги, халқ тафаккури бағрида шакллангани, ижодкор ва бола тафаккури, руҳиятининг ўзига хос жиҳатлари фольклоризмлар ҳамда мифологизмлар воситасида ҳам ривож топгани аёнлашади.

Поэтик тафаккур ижодкорнинг поэтик фаолияти (бадий асар яратиши)да акс этади. Шунинг учун у орқали ижодкорнинг поэтик санъати, бадий адабиёт қонуниятларини англаш даражаси, бадий сўзни вужудга келтириш маҳорати кўринади. Бундан англашиладики, бадий адабиётни англаш ҳамда ижодкорнинг бу соҳадаги назарий тафаккурини ўстириш мақсадида қадимдан яратилиб келинаётган поэтика масалаларига оид илмий манбаларнинг айрича ўрни бор. Ҳозирда адабиёт назариясининг алоҳида тарихий йўналишига айланган поэтика соҳаси ижодкорга адабий асарнинг ўзига хос тузилиши, унинг бадиияти, поэтик шакли, поэтик санъат техникаси (восита, услублари) масалаларини ўргатади.

Олимларнинг фикрича, ИНСОН ТАФАККУРИ + БОРЛИҚ = ҲОСИЛА [3,92]. Бизнингча, яна ТАФАККУР + ТИЛ = БАДИЙ ФОРМУЛА.

Марказий Осиёдаги поэтик тафаккур аънаси ўз тадрижи давомида Ғарб ва Шарқдаги адабиётшунослик ва поэтик тафаккур хусусиятларини белгилашга хизмат қилган миллий қарашлардан биридир. Поэтик тафаккур, хусусан, поэтик қараш ва ғоялар қадимги даврлардан бери маълум.

Болалар адабиётида поэтик тафаккур ривожини халқ тафаккури, ижодкор ва бола тафаккури кесимида бирлашиб, ўзига хос поэтик янгиланишларда намоён бўлади. Зотан, болалар учун асар яратадиган ижодкор тафаккурининг белгилари қуйидагилардан иборат дейиш мумкин:

Биринчидан, болалар ижодкори бола онги, шуури, фикрлаши, кизиқишини ҳисобга олиб, унинг ёши, руҳиятига мос фикрлайди.

Иккинчидан, ижодкорнинг бола ўй-фикрларини унинг нутқида баён этишга интилиши, шунга мос тарзда кўпроқ содда гаплар, содда ифода ва услубий нейтрал сўзлардан фойдаланишида кўринади.

Учинчидан, боланинг ҳаёт воқеликларини таҳлил қилиш услубини қўллаши ва шу услубда воқеалар баёнини беришга интилиши, таҳлилда, нутқда қабул қилишига эътибор қаратишида кузатилади.



**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Герцен А.И. Кто виновать? – Москва: Медиа, 2014. – С.126.
2. Жамилова Б., Нуриддинова Ш. Ўзбек болалар адабиётида бадий тафаккур янгилашнинг тадрижи. // Тил ва адабиёт таълими. – Тошкент, 2020. – №12. –Б.27.
3. Жўракулов У. Худудсиз жилва. – Тошкент: Фан, 2006. – Б.92.
4. Кафка Ф. Отамга хат. Жараён. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016. – Б. 343-360.
5. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2010. – 400б.

**HAYOT BIR YO‘L - SO‘NGSIZ, BETINIM**

*Matyoqubova Madina Xabibullayevna,  
Xiva shahridagi Ogahiy ijod maktabi  
o‘qituvchisi, filologiya fanlari nomzodi*

*Bizlar o‘lmagaymiz, sizlarning yodlov,  
Jon baxsh etar hatto marhum jonlarga.  
Qaytgaymiz, bizlarni yo‘qlagan zahot,  
Tirilib muborak xonadonlarga.  
Matnazar Abdulhakim*

Qadimiy madaniyat, san‘at, ma‘rifat o‘lkasi - Xorazm maqtasa arziydigan, faxrlansa mag‘rurlanadigan muqaddas zamindir.

O‘zbekiston xalq shoiri Omon Matjon :“ Xorazmda tog‘lar yo‘q emas. Bor. Faqat ular vohani quyoshdan to‘siq qo‘ymaslik uchun inson qiyofasida yaralganlar”, – deya e‘tirof qilgan edi iftixor bilan.

Matnazar Abdulhakimov ham Xorazm vohasining ana shunday buyuk ma‘naviy tog‘laridan biridir. U shoir, tarjimon, adabiyotshunos sifatida faoliyat ko‘rsatdi va o‘zining diltortar rubobiy she‘lari, nodir tarjimalari, chuqur tahliliy ilmiy kitoblari bilan o‘zbek adabiyoti xazinasini boyitdi.

Matnazar Abdulhakim qariyb 40 yildan ziyod faoliyati davomida katta va sermahsul ijod yo‘lini bosib o‘tdi. Butun ongli hayotini uimrining oxirgi daqiqalarigacha, Xorazm adabiy muhitini yanada yuksaltirishga bag‘ishladi, bir-biridan go‘zal va betakror asarlar yaratdi.

Matnazar Abdulhakimning mashaqqatli izlanish, lekin har lahzasi ijodning huzurbaxsh tashvishi va ilhom halovati bilan yog‘rilgan hayot yo‘li –inson iqtidori va ilm kuchining Vatan, yurt ertasi, iste‘dodlar kamoli uchun fidoiylikning, adabiyotga baxshidalikning namunasi bo‘lib qoldi!

Shu boisdan ham uning nomi mamlakamizning taniqli ijodkorlari, o‘zbek adabiyoti rivoji va ravnaqiga munosib hissa qo‘shgan, nomi abadiylikka daxldor adiblar qatoridan faxrli o‘rin oldi.

Turli yillarda chop etilgan o'ttizdan ortiq kitoblari millionlab muxlislari qalbidan o'rin oldi. Ijodkorning ijodiy mahorati va ilohiy iqtidoridan darak beruvchi bu noyob kitoblar milliy adabiyotimiz xazinasini boyitdi, xalqimizning qimmatli ma'naviy mulkiga aylandi.

Matnazar Abdulhakim Sharq mumtoz adabiyotining yetuk bilimdoni sifatida Pahlavon Mahmud, Mirzo Abdulqodir Bedil, Shayx Najmiddin Kubro, Majididdin Bag'dodiy, Muhammad Rizo Ogahiy kabi buyuk ajdodlarimizning asarlarini forsiy tildan mahorat bilan o'girib, o'zbek tarjimachilik maktabiga yangi nafas olib kirgan bo'lsa, she'riyatning ulug' siymolari ijodi yuzasidan olib borgan ilmiy tadqiqotlari o'zbek adabiyotshunosligida muhim voqea bo'ldi.

Ayniqsa, rus she'riyatida o'chmas iz qoldirgan Pushkin, Yesenin, Aleksandr Blok, qator turkman va tojik shoirlari she'rlarining go'zal tarjimalari she'riyat muxlislari jahon adabiyotining nodir namunalarini o'z ona tilida o'qish baxtiga musharraf qildi.

Matnazar Abdulhakim har doim ezgu maqsadlar sohibi sifatida ajdodlarimizning bebaho madaniy va ma'naviy merosini asrab-avaylash va kelgusi avlodlarga yetkazish, odamlar orasida mehr-oqibat, ertangi kunga ishonchni, xalqlar va millatlar o'rtasidagi do'stlik rishtalarini mustahkamlash, bir so'z bilan aytganda, xalqning ma'naviyatini boyitib, hayotiy islohotlarni chuqurlashtirishga, yangilanishlarni jadal joriy qilishga beto'xtov da'vat etuvchi el jonkuyari edi.

Butun ijodi davr tarozisida qanchalik og'ir tosh bosadigan bo'lsa, vohaning turli burchaklaridan iste'dodlarni izlab topib, ularning adabiyot maydoniga dadil kirib kelishlariga bosh-qosh bo'lganining o'ziyoq vohamiz tarixi, adabiyotimiz ravnaqiga qo'shilgan beqiyos xizmatidir.

Shuni alohida e'tirof qilish joizki, bugun nafaqat vohamiz adabiy muhiti, balki mamakatimizda o'z so'zi va ovozi bilan elga manzur bo'layotgan qator ijodkorlarning kamoli bevosita Matnazar Abdulhakim tarbiyasi va saboqlarining hosilasidir.

Matnazar Abdulhakim - shoir sifatida 1982-yilda xalqimizga tortiq qilgan ilk she'riy to'plami "Tiniq tonglar" idayoq o'zining shoirlik iste'dodi, iqtidori, yuksak salohiyati bilan o'z muxlislarga ega bo'lgan shoir. Muxlislarga peshma-pesh "Fasllar qo'shig'i", "Qor qo'shig'i", "Mavj", "Yonimdagi daryolar", "Qorachig'dagi dunyo", "Oydinlik", "Bir quchoq gul", "Yolg'iz yaproq" kabi to'plamlarini chop qildirdi.

Matnazar Abdulhakim she'riyati- farahbaxsh she'riyat. Unda oshiq qalbning keng ma'nodagi muhabbati zohiriy va botiniy jilolari bilan qalbni cho'g'lantiradi, hayratga solib, mushohadaga chorlaydi. Ruhiyatni tetiklashtirib, qalbgaga muhabbat epkinlarini olib kiradi. Natijada bedor qalb ezgu niyatlarga to'ladi. Shoir bir she'rida "Ishq sirrin anglamoq bo'ldimi nasib"-deb yozadi. Misraning mazmunidan bedorlik anglashiladi. Zero, chinakam muhabbatga oshno qalbgaga bedor bo'la oladi. Shoir she'riyatida ana shu ruh hukmron. Uning bedor qalbi muhabbatga limmo-lim. Matnazar aka Tangri in'om

qilgan shoirlik iqtidori bilan goh ona Vatanga, goh ona tabiatga, goh yaratganga, mahbubaga, goh hayotga, goh umrga, goh yoru -do'stga bo'lgan muhabbatini so'z qudrati vositasida so'z musavviri sifatida o'ziga xos uslub, o'ziga xos ovoz bilan tarannum qiladi:

Muhabbatdan ulug' tuyg'uni o'rgat,

To shu tuyg'u bilan seni sevayin-

deya qalb dardini, har bir yurakda yasharib, yangilanib turuvchi azaliy va abadiy muhabbatning mutribiy taronasini turfa xil ohanglarda qalamga oladi. Shoir mumtoz muhabbatni avj pardalarda tarannum qilgan ekan, bu muqaddas tuyg'uni avaylaydi, asraydi:

Kuylamoq lozim muhabbat haqda sal ohistaroq,

To'xta, ey dil bulbulim, shovqin suron kimlarda yo'q.

Shu o'rinda e'tirof qilish joizki, chin oshiq (komil inson) hech qachon o'zining pok va qutlug' istagi-qalb gavharini doston qilmaydi, balki uni pinhon tutadi, uni parda-ibo bilan qadrlaydi. Zero, mutaffakkir shoir hazrat Mir Alisher Navoiy bu haqda shunday yozgan: "Kimki ishq pok erur, sirri aning pinhon kerak..." yoki "Tanda jon yanglig' seni jon ichra pinhon aylasam...". Matnazar aka Navoiyning ijodiga qayta-qayta murojaat qilganligini ana shunday navoiyyona fikr yuritganligidan ham anglash qiyin emas. Salaflaridan meros mazkur qadimiy mangu barhayot mavzuni qalamga olgan ekan, "ming o'limni enggan sabotim" deya, falsafiy fikr yuritadi:

Hali hayot ekan hayriyat,

Uyat, or tuyg'usi-eng so'nggi umid.

Shoirning lirik qahramoni-oshiqning qalbi muhabbat to'la.

Shoirning fikricha:

Ming tomirga berar qutlug' azob tob,

Muhabbatdan boshqa shavqatlar zulm.

Muhabbat bor ekan, zulumot,-oftob,

Muhabbat yo'q ekan, hayotlar-o'lim.

Muhabbat bo'lmasa, kulgular- ko'zyosh,

Hayot inkor bo'lar, bo'lar umr rad

Muhabbat bo'lmasa, har zumurrad-tosh,

Muhabbat bor ekan, har tosh-zumurrad.

Matnazar Abdulhakim she'rlari shaklan turfa xil-u, mazmunan rang-barang. Ularda Vatanimizning qora o'tmishi-yu bugungi kamoli, porloq ertasi-yu go'zal va betakror tabiati, inson va uning rangin olami, tabiat va jamiyatdagi muammolar haqida falsafiy fikr yuritadi. Shoir tabiiylikni butun borligicha his qilgan ekan, ona tabiatdan o'rnak oladi:

She'r yozmadi, yaproqlar yozdi,

Umidlarim yo'ngan qalamlar.

Bu olamga havaslar qilib,

Charx urdilar hamma olamlar.

Shoir she'rlaridagi umidvorlik va ishonch tuyg'ularining ustivorligi ham ana shundan bo'lsa ne ajab.

Matnazar Abdulhakim "Takallum" kitobida Mirzo Abdulqodir Bedil ash'orlarini tarjima qilar ekan, nihoyatda kamtarlik bilan shunday yozadi: "Daryodan har kim o'z tashnaligiga yarasha suv ichadi, parvozdagi qush ham osmonning bor balandligini zabt eta olmaydi. Bedil hazratlari she'riyati daryo kabidir, osmon yanglig'dir. Ne fazilati bo'lsa, Mirzo Abdulqodir Bedilga, ne nuqsoni bo'lsa, tarjimonga tegishli. Ushbu g'azallarni o'qib, meni tashna bir qush o'rnida ko'rishingizni so'rayman". Bu satrlarni o'qib, mushohada qilgan kishining hayolini "Yolg'iz yaproq" she'riy to'plamiga kirgan quyidagi misralar band etadi:

Qush yanglig' bir odamman,  
Uchmoqqa ishtiyoqmand...  
Qimagunimcha parvoz  
Osmon meni tinch qo'yimas.

Darhaqiqat, shoirning uyg'oq bedor dilini o'rtagan rang- barang sohir tuyg'ular, qalb ko'zi uni tashna bir qush kabi doimo yuksak parvozga chorlagan bo'lsa ne ajab.

Ma'lumki, Xorazmning faxri bo'lgan Muhammadrizo Erniyozbek o'g'li Ogahiyning "Ta'viz ul-oshiqin" ("Oshiqlar tumori") devonining ikkinchi qismi "Ash'ori forsiy" deb ataladi. Ogahiy hazratlari forsiy tilda ham o'zbek tilidagidek shaklan yetuk, mazmunan boy badiiy asarlar yaratgan. Bu qismda shoirning 1300 misradan ziyod ash'orlari bo'lib, ularning orasida 280dan ortiq baytni tashkil qiluvchi 20ta ta'rix janridagi asarlar mavjud. Bu ta'rixlarda ko'proq inson va uning bunyodkorlik ishi, insonning ma'naviy qiyofasi tasvirlanib, shoir ilmu ma'rifatni ulug'lagan, ilm yo'lida xizmat qilishga da'vat qilgan.

Matnazar Abdulhakim Ogahiyning ja'mi ta'rix janriga oid asarlarini o'zbek tiliga mohirlik bilan tarjima qilib, shoirning har ikki tilda birday mazmunan boy, falsafiy teran, badiiy yetuk ash'orlar bitganligini amalda isbot qila oldi. Matnazar aka fors tilini mukammal bilganligi bois Ogahiy ta'rixlarini tarjima qiladi. Quyida ana shunday ta'rixlardan birisining tarjimasini haqida to'xtalamiz.

Muso To'ra madrasasi qurilishining tugallanishiga bag'ishlangan ta'rix:

Beki oliy manzalat Muso to'ra,  
Bud dar bahri saxo durri yatim.  
Chun ba hukmi haq shahodat yofta,  
Gasht azm suyi jannatul na'im.  
Modarash az bahri u in madrasa,  
Kard imorat, sarf karda zarru siym,  
Shud bag'oyat oliy dilkash bino,  
Az jami nuhsonho salim.  
Soli itmomash ba gushi Ogahiy,  
Guht Xotif : "Mavjubi ajri azim".

Bu ta'rixni Matnazar Abdulhakim shunday tarjima qiladi:

Oliy martabali ul Muso To'ra,

Sahovatda edi bir durri yatim.  
 Haq hukmi bilan u shahodat topdi,  
 Qabul qildi uni jannati naiyim.  
 Onasi o'z o'g'lin xotirasi deb,  
 Sarf qildi madrasa uchun zaru siym.  
 Chunki bunyod bo'ldi mukammal bino,  
 Bor aybdan, nuqsondan- eminu saliyim.  
 Tamom bo'lish yilin eshit, Ogahiy,  
 Der Xotife "mujrubi ajru aziym".

Ta'rixning mazmuni : Oliy nasabli bek Muso To'ra, saxovat dengizida eng qimmatlisi edi. Haqning hukmi bilan shahidlik topib, jannati na'imga ketdi. Onasi uni deb, shu madrasani ko'p simu zar sarflab bino qildi. Barcha nuqsonlardan holi bo'lgan bu bino bag'oyat dilkash bo'ldi. Uning tamom bo'lganligi ta'rixini Ogahiyning qulog'iga xotif : "Mavjubi ajri azim" ("Bag'oyat katta ajr, savob"), dedi. Bu ta'rifdan hijriy 1275 yil chiqadi. Ogahiy bu yerda bek Muso To'raning mablag'i hisobiga qurilgan madrasaning qurib bitirilishi to'g'risida axborot berishni asosiy maqsad qilib olmagan. Ta'rixda Muso To'raning mablag'i hisobiga qurilgan bu madrasa kelajakda tolibi ilmlarga xizmat qilib, mamlakat aholisini ma'rifatli qilishda muhim ekanligi to'g'risidagi g'oyalar ham singdirilgan. Shu bilan birga boshqalarni ham ana shunday savobli ishlar qilishga da'vat etadi. Muso To'raning mablag'i hisobidan qilingan savobli ish "Mavjubi ajri azim" deb, qiyomat kunida ham Tangrining maxfiratiga bois bo'lishini aytadi.(Ta'kid bizniki) – M.M.X

Matnazar Abdulhakim mohir tarjimon sifatida ko'plab mumtoz va zamonaviy shoirlarning she'rlarini forsiyda, turkmancha va ruschadan o'zbek tiliga, o'zbekchadan rus tiliga mohirlik bilan tarjima qilgan.

Chamamda fikrimiz O'tkir Rahmat so'zlari bilan yanada uyg'unlashadi: "Kimdir Matnazar Abdulhakim deganlari qanaqa odam edi?- deb so'rab qolsa, uni yaqindan bilgan asarlarini o'qiganlar: "Yaxshilar ichra yaxshi, haqiqiy shoir, haqiqiy do'st, ko'ngli osmonga talpinib yashagan inson edi, deya javob qilishi aniq. Darhaqiqat, u osmonni sevardi, mudom yuksaklarga talpinib yashardi".

Shoir "Osmonga xat" she'rida shunday yozadi :

Men osmonga maktublar yozdim,  
 Ruhi yuksak, so'zlari oliy.  
 Xayollarim samoviy edi,  
 Maktublarim esa xayoliy.

Matnazar Abdulhakim bejiz osmonga talpinib yashamadi. Zero, bu talpinishning negizida ulug'vor bir maqsad-komillikka intilishdek muqaddas tuyg'u yotibdiki, bu ham har kimsaga nasib emas.

Shoir yana bir she'rida:

Xorazmni qazsangiz agar,  
 Yer tagidan daryolar chiqar.  
 Xorazmni qazsangiz agar,



Yer tagidan dunyolar chiqar- deb yozgan edi.

Ushbu satrlarni ramziy ravishda shoir ijodiga ham nisbat berish mumkin. Zero, Matnazar Abdulhakim she'rlarida ko'z ilg'amas falsafiy teranlik, ona yurtga sadoqat, tabiatga oshuftalik, insoniylik shevasi, sabr-bardosh, hayotga muhabbat, umidvorlik, kamtarlik kabi umuminsoniy, umumbashariy goyalar, injafikrlar mujassamlashgan.

Shoir bir kitobining nomini "Yolg'iz yaproq" deb nomlagan. Kitob nomining o'ziyoq diqqatingizni tortadi. Ma'lumki, xazonrezlik paytida eng chidamli, eng bardoshli yaproqqina hammasida yolg'izlanib yakka qoladi. Bu esa abadiylikning bir timsoliday go'yo. Paymonasi to'lgan yaproq hali daraxt bag'rida mudrayotgan, biroq erta-indin olamni yashillik talqini bilan to'ldiruvchi sanoqsiz yaproqlarning muqarrar ko'z ochishiga nigoron boqmoqda. U merosxo'r yaproqlarning shamollar bilan o'ynashib shovullashiga ishonadi. Shoir hayotning abadiyligini ana shu mantiqiy fikr bilan asoslamochi bo'ladi, nazarimizda.

Butun borliqni shoirona tafakkur bilan ilg'agan, his qilgan hassos shoir oddiy tabiat hodisasi- yomg'ir haqida to'xtalar ekan:

**Aqlim yetmas, qanday sevarlar,**

**Yomg'ir yog'maydigan yerlarda-**

misralarida yomg'ir-hayot debochasi, kundalik hayotga o'rganib qolgan odamlarga qarata samo in'omi -yomg'ir hayotga yangicha poklik, musaffolik, yangi ekin bag'ishlaganidek, sevgisiz insonning yashashi qiyin ekanligini ta'kidlaydi. Shoir fikrini yanada rivojlantirib:

**Yomg'ir yog'ar hayot baxsh etib,**

**Mening qaqroq e'tiqodimga - deydi.**

Yomg'ir shunchaki bir tabiat hodisasi bo'lmaganidek, "qaqroq e'tiqod" ham hayotdan zavq olishga chog'langan, Yaratganning visoliga tashnaligidan qalbini g'uborlardan tozalab e'tiqodini mustahkamlashga shaylangan inson timsolidir.

"Har tomchida ming xotiralar"ni akslantira olgan faylasuf shoir foniy dunyoni daraxtzorga qiyoslaydi. Hayot haqiqatini shoirona ifodalab, umrni kim qanday o'tkazgani haqida shunday fikrlaydi:

**Ajib saltanatdir daraxtzor,**

**Har bir yaproq - bebaho davlat**

**Bunda birov meva to'kadi,**

**Birov esa to'kadi... savlat.**

Sohir tug'ular sohibi shoirdan katta ma'naviy bog' qoldi, uning har bir yaprog'i - iqtidorli adib Amir Fayzulla aytmoqchi, ildizini taniganidan yaratganga tinmay hamdu sano aytib charchamaydi.

Matnazar Abdulhakim: "Har bir sog'lom fikrli odam o'zining bu dunyodan o'tishiga iqror. Buni e'tirof etgan mo'min o'zining o'zgalar tomonidan xotiralanishini umid etar ekan, naqafat o'z xotirasining abadiyligi uchun qayg'uradi, balki, ayni paytda o'z fazilatlarining boshqalar tomonidan

e'tirof e'tilishini, shunga ko'ra, e'tirof etilgan bu insoniy fazilatlarining boshqalarda, o'z vorislarida davom qilmoqligini xohlaydi"-degan edilar.

Hayot haqidagi falsafiy qarashlarini umumlashtirib :“Hayot bir yo'l-so'ngsiz, betinim” ,-deya e'tirof etgan ijodkorning odamlarni ezgulikka chorlab:

Ummon kabi yashang guvillab,

Daryolardek oqib yashanglar!

Unutmanglar bir-biringizni,

Bir-biringga boqib yashanglar-

deya aytgan haroratli So'zi shiddatli taraqqiyot yo'lidan borayotgan bugungi O'zbekiston deb atalgan jannatmonand mamlakatimiz uchun, olijanob xalqimiz uchun juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnomaligida yurtimizda kechayotgan sharaflı yangilanishlar, shoir va adiblarimizga ko'rsatilayotgan yuksak e'tibor va g'amxo'rlik ijodkorlarimizning ijodini keng targ'ib qilish, jamiyatning oldingi saflarida turib, xalqimizning ruhini ko'tarish, odamlarning ma'naviyatini yuksaltirish, ayniqsa yosh avlod qalbida Vatanga sodiq farzandlar qilib tarbiyalash barchamizning muqaddas burchimizdir.

## **ЗАМОНАВИЙ РОМАНЛАРДА ПРОСПЕКЦИЯ УСУЛИНИНГ ҚИЁСИЙ-ТИПОЛОГИК ТАДҚИКИ**

*Тўраева Баҳор Баҳриддиновна,  
Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети  
доценти, филология фанлари бўйича фалсафа доктори*

Проспекция – (лот. *pro* – олдинга, *келажакка*, *spectare* – қараиш) воқеаларнинг келажакка йўналтирилиши, келажакка (келаси замонга) мурожаат қилишга ижодий имкон берувчи адабий-эстетик усул ҳисобланади. Проспекция ҳам матнни кенгайтириш усулларида бири бўлиб, ўқувчига воқеа ва эпизодларнинг боғлиқлиги ва шартлилигини, характерли хусусиятларни аниқроқ тасаввур қилиш имкониятини беради [5; 59]. Проспекция асосан сўзбоши (шу билан бирга) матн ўртасида ҳам ишлатилиши мумкин. Муқаддимада ўзига хос изоҳ кўринишида бўлиб, бадиий асарда кўтарилган муаммолар, образлар ҳақида бирламчи маълумот берилади. Тилшуносликда қўлланиладиган ушбу атама адабий матнга ҳам хос бўлиб, ретроспекциянинг антоними сифатида адабиётшуносликда ҳам учрайди. Дарҳақиқат, ҳозирги замон адабиётшунослигида “ўтмишга назар” тушунчаси уч умуммазмунда маълум: ретроспекция (*retrospekt*), *flashback*, *аналепс*, *аналепсис* (*analeps*, *analepsis*). Ҳар бир тушунча “келажакка назар” маъносидаги ўзининг антонимик, яъни зид жуфтлигига эга: ретроспекция–проспекция, *flashback*–*flashforward*, *аналепс*–*пролепс* [10].

Ретроспекция каби проспекция категорияси ҳам замон ва макон тушунчаси бўлиб, улар орқали бадиий асарда содир бўлаётган воқеа-ҳодисаларни англаш, тушуниш жараёнлари рўй беради. Айнан улар

китобхонни “замонлар ўртасидаги боғланиш” – замонлараро алоқа “олами”га кириш имконини беради.

“Асрга татигулик кун” романида Муаллифдан, “Кассандра тамғаси”да эпиграф ва эпилогда, “Қулаётган тоғлар”да эпилог, “Икки эшик ораси”да Муаллифдан, “Боқий дарбадар”да ярим бетдан иборат муқаддима вазифасини бажарган биринчи қисмда, “Исён ва итоат”да эпиграфда, Н.Норқобилов романларида туш тасвирида проспекция мавжуд бўлиб, адиблар бу усул орқали қаҳрамоннинг ҳаётида содир бўлиши мумкин бўлган воқеалар ҳақида қисқача изоҳ ёки ишора беради, китобхонни ўйлашга ва асарни ўқишга даъват этади.

“Асрга татигулик кун” романида Муаллифдан қисмида адиб меҳнаткаш образини бош қаҳрамон сифатида танлашининг турли мезонлари, афсоналарга, эртақларга, ривоятларга таянган ҳолда иш тутгани, биринчи марта фантастик сюжетдан фойдаланишга ҳаракат қилгани, ўз халқи ва бошқа халқларнинг тарихий тажрибасидан беҳабар одам тарихан истиқболга эга эмас, у фақат бугуни билангина яшашга қодирлиги ҳақида мулоҳаза юритиб, “Қоинотга мунтазам парвоз қилиб туриш учун техник имкониятлар ўз-ўзидан вужудга келибгина қолмай, балки инсониятнинг иқтисодий, экологик эҳтиёжлари ҳам ана шу имкониятлардан тезроқ фойдаланишни талаб қилиб турган ҳозирги шароитда халқлар ўртасида низо оловини кучайтириш, моддий ресурсларни ва ақл-идрок қудратини қуролланиш пойгасига сарфлаш одамзотга қарши қаратилган жиноятларнинг энг қабиҳидир”[1; 8], деган тўхтамга келади. Адиб асарнинг моҳиятини Муаллифдан қисмида очиб беришга муваффақ бўлган, яъни Эдигей Бўрон шахсияти, ўзлигидан, тарихидан маҳрумлик – манқуртлик, илм-фан ютуқларини эзгу мақсадларда ишлатиш каби муаммолар ҳақида китобхонда илк тасаввур пайдо бўлади.

“Кассандра тамғаси”да келтирилган иккинчи эпиграф перспектив хусусиятга эга, *“Икковидан қайси бири ҳали яшаб кўрмаган бўлса, қайси бири ёруғ дунёда қилинаётган ёвуз ишлардан беҳабар бўлса, ўшаниси саодатманддир”*[3; 13]. Ушбу фикр Екклесиаст[4] китобидан олинган. Эски Аҳднинг сўнгги қисмларидан бири бўлган “Воиз” китоби шубҳалар ва ҳақиқатни излаш, инсон ҳаётининг абадий саволлари ҳақидаги фалсафий китобдир. Ҳаётнинг маъноси борми? Қандай ҳаётни тўғри, муносиб ва муваффақиятли деб ҳисоблаш керак? Инсоннинг насл қолдириш борасидаги саъй-ҳаракатлари ва ташвишлари оқланадими? Ёки “ҳамма нарса беҳуда” ва инсонга фақат “яшаш вақти ва ўлиш вақти” берилганми? [15] Екклесиаст китобидан шу саволларга жавоб изланган.

Адиб асарда икковидан қайси бири дейилганда, иксзурриёт ва кассандра-эмбрионига ишора қиляпти. Уларнинг ҳар иккаласи ҳам аччиқ қисмат эгалари, шу боис ҳали яшаб кўрмаган бўлса, қайси бири ёруғ дунёда қилинаётган ёвуз ишлардан беҳабар бўлса, ўшаниси саодатманд эканлигини воқеалар силсиласида қаҳрамонларнинг фалсафий мушоҳадалари асосида ҳадди аълосига етказиб, тасвирлай олган. Роман

эпилогда қирғиз халқ кўшиғидан олинган тўртликни эпиграф сифатида кўллайди:

«Отанг ким?» – деб сўрашса,  
«Шамолдан бўлдим», – дер эмиш.

«Онанинг ким?» – деб сўрашса,  
«Тумандан бўлдим», – дер эмиш [3; 276].

Ота-онаси ким эканидан бутунлай беҳабар, сунъий йўл билан яратилган иксзурриётларнинг аччиқ тақдирига сабаб бўлган Андрей Крильцов самовий роҳиб – Филофей бўлиб, ердагиларга тавалло қилади. Эпилогда Филофейнинг Этнони Юнгерга ёзган «Сен билан ва сендан кейин кўрган-кечирганларим» сарлавҳасидаги мактуби келтирилган. Эпилогда ретроспекция ва проспекция ёнма-ён бўлиб, дам қаҳрамоннинг ўтмиши, дам унинг одамзот келажагидан қайғуриб, хавфдан огоҳ этаётган даъвати ифодаланади. Мактубда Филофейнинг ўтмиши ёзилса-да, қаҳрамон шуурини идрок этган китобхон келажакда инсониятга соя солаётган хавфдан таҳликага тушади: *“Бироқ ўз қўлим билан ҳозирлаган ажалим олдидан мени ваҳима босмоқда – одамлар нима бўлади, Кассандра тамғаси ҳодисасини эртанги кун кишиларининг ақл-идроки, қалби қандай қабул қилади? Нима бўлганда ҳам, лаънатланган ҳақиқат ҳақиқат бўла олмайди. Бугун инкор этилган муаммо эртага яна пайдо бўлади, бундан қутулиш ҳечам мумкин эмас”* [3; 277]. Аслида асарнинг мазмун-моҳияти проспектив характерга эга, чунки инсоният ўз келажагига болта ураётгани, турли урушлар, Яратганининг ишига аралашини охир-оқибат ҳалокатга олиб келиши ҳақида ёзувчининг фалсафий бонги янглиғ жаранглайди.

“Қулаётган тоғлар” романи эпилогда Арсен Саманчининг (Элес Жаабарсова томонидан нашрга тайёрланган) “Ўлдир-ўлдирма...” ҳикояси келтирилган. Ҳикоя эпиграфида лўли хотиннинг “Қон сачрамай фақат куёш қолур, от қочур чавандозин йўқотиб...” башорати ифодаланган. Урушга кетаётган аскарлар сафидаги Сергейни лўли хотин “фол очаман”, дея хол-жонига қўймайди. Вагонга чиқиш олдидан Сергей рози бўлиб узатган қўлини лўли хотин диққат билан разм солиб, “Вой, ёмон уруш бўлади, кўз кўрмаган, қулоқ эшитмаган. Оҳ, қисмат, қисмат! Қон сачрамаган фақат куёш қолади, чавандозсиз қолган от қочиб кетади, [2; 247] – деб шивирлайди. Сергейга қалби қоғоздай оппоқ эканини ва бир қизни бетайин севиб қолганини фолида айтади.

Фолбин аёл Сергейнинг ортидан қолмай, вагонгача чошиб келганининг боиси шунда эдики, Сергейнинг номи абадийликка дахлдор бўлиб, унинг юлдузи ўлмас юлдуз эди. Аммо лўлининг фолини кўп йигитлар рад қилиб, қандай одам ўлмаслиги, абадий қолиши мумкин, дейишади. “Тақдир ўлимдан устун. Тақдир изидан тақдир келади. Ўлим изидан ҳеч нарса келмас. Бу қора кўз йигитнинг юлдузи сўнмайди, тақдири ўзи шунақа!..” [2; 248-249] башоратидан сўнг йигитлар бу фикрнинг мазмунини уқишади. Хўш, ёзувчи Арсен Саманчининг “Ўлдир-ўлдирма” ҳикояси орқали келажакда инсониятнинг бошига кулфат келтирадиган, “Қон сачрамай фақат куёш

колур, от қочур чавандозин йўқотиб...” фолидаги қандай оғир ва азобли уруш ҳақида башорат қилган? Китобхон лўлининг фолидан сергак тортади. Адиб Сергийни урушга кузатиб, жигар-бағри ўт бўлиб ёнаётган онаси тилидан «Серёжка, жон болам, фақат ҳеч кимсани ўлдирма, бировнинг қонини тўкма!» деганда, нимани назарда тутган? Ҳикоя бошдан-оёқ перспектив хусусиятга эга. Лўли хотиннинг Сергийни фол очиши эпизодидан адиб мақсадли фойдаланган.

“Икки эшик ораси” романида муаллиф асар ҳақидаги илк маълумотни «Рост билан ёлғоннинг ўртаси – тўрт энлик» фалсафий жумласи билан бошлайди. Китоб қаҳрамонларининг кўпчилигини ўзи кўргани, улар билан суҳбат қургани, баъзиларнинг нимани гапирганига, баъзиларнинг нимани ўйлаганига аҳамият берганини ёзади. Урушнинг эллик миллион одамнинг умрини увол қилгани, ўша пайтларда ҳаёт фожеага айлангани ҳақида тўхталиб, “уруш фақат окопдаги жангчиларнинг жонига чанг солиб қолмади. Минглаб чақирим наридаги одамларни ҳам синовдан ўтказди. Мушкул дамларда имонини, инсонлигини сақлаб қолган ота-оналаримиз, ака-опаларимизнинг ҳаёти бугунги замонда бизга ўрнак бўлса не ажаб!” [13; 3] мулоҳазаси билан яқунлайди. Ў.Ҳошимов асарнинг мазмуни ҳақида илк таассуротни қисқа бир бетдан иборат изоҳда маҳорат билан бера олган. Қаҳрамонларининг ҳаёти фожеали тус олишига перспекция усули асосида ишора қилган.

“Боқий дарбадар”да биринчи боб ёзувчининг қаҳрамонига мурожаати шаклида берилиб, дарбадарлик қисмати фақат унга насиб этмагани, илоҳий муждани рад этиб, манзилини йўқотганлар ҳаётда сон-саноксизлигини таъкидлайди: «Сен-ку авомнинг кўзида зоҳиран бир дуо туфайли шундай қисматга маҳкум этиласан. Аммо умринг мобайнида ўз ҳаётларида илоҳий муждани рад этиб, дарбадарликни бўйинларига олган саноксиз кишилар оломонини кўрасан. Уларнинг ҳаёти сеникидан бир зарра ҳам ўзга бўлмайди, бироқ сендан фарқ қилиб, оғир ва азобли ўлим топадилар. Лекин тарихда сенинг номинг қолади, бошқалар эса айнан шу қисмат билан яшасалар-да, ер юзидан беному нишон супурилиб кетадилар...» [11; 5]. Перспекция усулидан унумли фойдаланган муаллиф қаҳрамони ҳаёти, унинг абадий дарбадарликка маҳкум этилгани ҳақида илк маълумотни беради. И.Султон Агасфер афсонаси сюжетидан романда ижодий фойдаланган. Агасфер (ёки Абадий, сарсон-саргардон яҳудий) ҳақидаги афсона XIII асрда Италияда пайдо бўлган ва шундан кейин Европа бўйлаб тарқалган. Энг машҳури афсонанинг немисча версияси бўлиб, у 1770-йиллардан бошлаб кейинги яратилган вариантлар учун асос бўлган [6]. Ғулқофга олиб кетилаётган Исо Масихни хафа қилган ва бунинг учун абадий дарбадарликка ҳукм қилинган қуддуслик этикдўз Агасфернинг ([лот. Ahasverus](#)) афсонавий образи немис адабиётига XVIII аср охирида кириб келди ва кейинчалик турли халқлар адабиётида кенг тарқалди [7; 110]. Адиб романда Шарқ ва Ғарб анъаналарини синтезлаштириб, исломий ғоялар билан сюжетни қайта ишлашга муваффақ бўлган.



“Исён ва итоат” романида учта эпиграф келтирилган:

1. Худо бўлмаганиндан кейин кўрган кунинг курсин?! Халқдан  
2. Ўзига тақдир этилган қисматдан воз кечишга тайёр бирдан-бир мавжудот бу инсондир. А.Камю

3. Ичингдаги исёндан кутулиб, итоатга келмагунингча ҳаловат тополмайсан... Муқаддас ўғитлардан.

Учала эпиграф ҳам асарнинг мазмун-моҳиятини ўзида кодлаб, воқеалар ва қаҳрамонлар тақдирини ҳақида бошланғич маълумотни беради. Табиб, Акбар ва Искандар қалбида шу қадар исён борки, ҳатто эгасини ёндириш кучига эга. Шу исён туфайли уч образнинг ҳаёт йўли нотекис. Асарда Искандарнинг ҳаёти ҳақида унчалик маълумот берилмаса-да, табиб ва Акбар образларини боғловчи ришта вазифасини ўтайди. Аччиқ қисмат табибни ва Акбарни турли тўфонларга юзлаштирган, шу боис улар ўз тақдиридан воз кечишга тайёр. Инсон ўз тақдирини ўзи белгилай олмайди, шу мазмунни биринчи эпиграф орқали ифодалаган. Умар Ҳайёмнинг рубоийси эпиграф мазмунига ҳамоҳанг:

Лойимни ўзинг қорган эсанг, мен на қилай?

Шаклимни ўзинг чизган эсанг, мен на қилай?

Ҳар яхши-ёмонки мен этарман, ё Раб,

Манглайга ўзинг ёзган эсанг, мен на қилай? [14]

Муқаддас ўғитлардан келтирилган учинчи эпиграфда адиб инсон Яратган олдида итоатга келмас экан, исён ўти батамом кул қилишини, айнан қаҳрамони Акбар тимсолида роман воқеалари ривожини мобайнида янада теранроқ ифодалайди. Учала эпиграф ҳам асар қаҳрамонларини қисматлари ҳақида илк хабар бўлиб, проспекциянинг гўзал намуналари ҳисобланади.

Н.Норқобилов романларида туш ва башорат мотиви орқали проспекция ифодаланади. “Дашту далаларда” романида Эшқул полвон, Тўланбой ва Ўсарқулларнинг туши қаҳрамонларнинг кейинги тақдирини қандай кечажагидан китобхонни огоҳ этиш мақсадида келтирилган. Эшқул полвон сихатгоҳда даволанаётганида кўрган тушларида даштда рўй бераётган воқеалар аёнлашади, яъни ўғли Тўланбойнинг аёли – Ойгул тухматга қолиб, болаларини олиб даштдан кетиб қолганда, шундай туш кўради: “Тушида бу сафар Бўзбўри билан даштда чойлашиб ўтирганмиш. Бўзбўри худди одамга ўхшаб росмана чордона қуриб олганмиш. Ошна, сен даштни тарк этишинг билан бу кенгликдан файз кетди, дермиш у чойдан майда хўплаб ва сўнг чуқур-чуқур хўрсиниб, яна сўзлашда давом этармиш, қанжиғим Қораманглайни ҳайдадим, ҳамсоям Фажиркўзга кўз сузгани учун болаларига кўшиб ҳайдадим, энди манову даштга ва анову тоғу тошларга ўт қўйиб юборсаммикан деб турибман, тоғу тошлар ёнармикан-а?” [8; 64].

Шаҳарлик дўсти Асил чўтирга бўри боласини тутиб бераман, деб мақтанган Ҳайдарнинг ўлими бир кечада Эшқул полвон ва ўғли Тўланбойнинг тушига киради. Бир тушнинг бир неча қаҳрамон томонидан бир кечада кўрилиши фольклор мотивидан ёзувчи ўринли фойдаланган: “Бу тун ота-бола бир хил туш кўришди. Ўта ғаройиб туш! Эмишки, Бўзбўри кизини эрга бераётган эмиш. Яна кимга денг, Ҳайдарга. Эшқул полвон

норози қиёфада бош чайқармиш. – У куёвликка ярамайди, бадфеъл! – дермиш. – Биламан, – дермиш Бўзбўри одамдай чордона куриб ўтириб олганча. – Шунинг учун тўй куни уни емоқчимаан! – Еяр бўлсанг, қизингни бериб нима қиласан? – Эшқул полвон хайрон бўлармиш. – Менинг бериш ниятим йўқ, лекин унинг ўзи шуни истаяпти-да! – дермиш Бўзбўри ғижинган оҳангда”[8; 135].

Тўланбой тоғаси Ҳайдарга бобоси Ўсаркулнинг тақдири шу алфозда кечганини айтиб, ниятидан қайтаришга қанча уринмасин бари бефойда бўлади. Асар воқеалари айнан шу қаҳрамоннинг ўлим хабари билан якун топади.

“Қорақуюн” романида тўйдан бир ҳафта олдин суйгани Тошполвонни Сувлиқ деган жойдаги тўқнашувда душманлар номардларча ўлдиришгач, телба бўлиб, ғорни макон тутган Бибисоранинг “Оҳ-х, бу манзилда қон тўкилади! Кўп қон тўкилади!” [9; 201] башорати ҳақиқатга айланади. Эрман “Бибисоранинг ғалати хатти-ҳаракатидан таажжуби ортиб, унинг изидан тикилиб коларкан, бу тун недир содир бўлишини бот кўнгли сезиб, юраги ўз-ўзидан бир қалқиб тушди. Эрман тонгдан безовта эди, шунингдек, тунда кўрган туши ҳам яхшиликдан дарак бермасди” [9; 201]. Ёзувчи қаҳрамонининг ҳалокатли ўлимини Бибисоранинг башорати ва Эрманнинг туши орқали китобхонга маълум қилади. Н.Норқобилов романларида туш, башорат мотивлари билан бир қаторда қаҳрамонларининг ички сезгиси орқали ҳам уларнинг ҳаётида рўй беражак воқеаларга ишора қилади.

Хулоса қилиб айтганда, проспекция – воқеаларни олдиндан айтиб бериш, ретроспекция – олдин содир бўлган воқеаларни ҳикоя қилишдир. Ҳар иккала восита ҳам макон ва замон континуумини бузади. Улар ҳар доим ўзаро яқин ва алоқадор бўлган сюжет чизиқларининг боғланишига ҳалал беради. Шунга қарамадан, матндаги изчиллик сюжет чизиқларини тизимлаштиради, биринчи ҳикоя кейингисига маъновий кўприк сифатида осонлик билан боғланади. Ретроспекция воқеани сюжетнинг ҳозирги ҳолатидан ўтган замонга қараб олиб боради. Баъзида сюжетнинг ҳолати фақатгина хотирлаб, ҳикоя қилиш учун асос бўлиб хизмат қилади. Ушбу икки категория бир-бирига ўхшамаган табиатга эга бўлса-да, улар асардаги микроматнларни макон ва замон нуқтаи назаридан кетма-кетлигини таъминлашга ёрдам беради.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Айтматов Ч. Асрга татиғулик кун; Қиёмат: |Романлар|/(Рус тилидан А. Рашидов, И. Ғафуров тарж.: Сўнг сўз Ғ. Саломовники). – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. – 560 б.
2. Айтматов Ч. Қулаётган тоғлар (Мангу қайлик). Қиёмат. |(Рус тилидан И. Ғафуров тарж.). – Т.: O‘zbekiston NMIU, 2011. – 536 б.
3. Айтматов Ч. Кассандра тамғаси: Фалсафий роман. Чингиз Айтматов / Русчадан Суюн Қораев таржимаси. – Тошкент: «Янги аср авлоди», 2016. – 352

4. Книга Екклесиаста. – Москва: Издательство АСТ, 2017. – 352 с.
5. Малинская Т.В. Понятия проспекции и ретроспекции (на материале произведений И.А. Бунина)// Вестник МГОУ. Серия: Русская филология, 2016. – №4. – С.58-63.
6. Марков Г. Доминанты образа Агасфера в русской поэзии// <https://proza.ru/2016/07/10/688>
7. Наумова Е.Е. Легенда об Агасфере и особенности интерпретации образа в немецкоязычной литературе XVIII – XIX веков// Филологические науки в МГИМО, 2017. – № 12. – С.109-119.
8. Норқобилов Н. Дашту далаларда. –Тошкент: O‘zbekiston, 2009. – 224 б.
9. Норқобилов Н. Қорақуюн. –Тошкент: O‘zbekiston, 2016. – 222 б.
10. Проспекция: шекспировская модель проспекции в «Гамлете». Мир Шекспира: электронная энциклопедия. // <https://world-shake.ru/ru/Encyclopaedia/3850.html?mode=print&>
11. Султон И. Боқий дарбадар. Роман. – Т.: O‘zbekiston, 2011. – 282 б.
12. Ҳамдам У. Исён ва итоат. Роман. – Т.: Янги аср авлоди, 2003. – 140 б.
13. Ҳошимов Ў. Икки эшик ораси. Роман. – Т.: Янги аср авлоди, 2016. – 750 б.
14. <https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/jafar-muhammad-xayyom.html>
15. <https://litportal.ru/avtory/raznoe-47672/kniga-kniga-ekkleziasta-736323.html>

## ШЕЪРИЯТДА ТАСВИРИЙЛИК БИЛАН БОҒЛИҚ АНЪАНАВИЙ ПОЭТИК ТУРКУМЛАР

(Ҳайратий, Ғурбат, Муҳиб ижоди мисолида )

*Барзиев Ойбек Хабибуллаевич,  
Фаргона давлат университети ўқитувчиси  
филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)  
Сайитхонова Барчиной Ахатовна  
Фаргона шаҳар касб-хунар мактаби ўқитувчиси*

Ўтган аср бошларида юз берган ижтимоий-сиёсий воқеликлар бадий адабиётга, айниқса, шеърий асарларга “ўқтомир” мавзу бўлиб кириб келди. Бу давр адабиётда ижтимоий мавзулар билан суғорилган лирик асарларда кўпроқ ижодкорнинг ўз ҳаёт йўли, реал турмуш манзаралари гавдаланганлигининг гувоҳи бўламиз. Даврнинг ижтимоий мавзудаги шеърларида шикоят мазмуни ҳам устувор саналиб, улар асосан ғазал жанридаги асарларда кенг ёритиб берилди. Шоирлар бундай мавзуга мурожаат қилиш орқали ўзи яшаб ўтган ижтимоий муҳитдан норозиликларини ифодалагани ҳолда уларга тезроқ барҳам берилишини орзу қилдилар. Айниқса, даврнинг долзарб муаммоларига боғлиқ арзи ҳол этиш мавзуларида қалам тебратиш Фарғона водийси шоирлари ижодида кенг илдиз отиб борди.

Бу жиҳатдан Андижон вилояти Шаҳрихон туманидан бўлган мулла Ҳошим Солиҳ ўғли Ҳайратий (1870-1963) қаламига мансуб бўлган ҳажвий ғазал характерли. Ғазалда тасвирийлик муҳим саналиб, унда давр манзараси реалистик услубда ёритиб берилган:

Эй ёру ошнолар, ҳам қавми босафолар,  
Дунё юзини тутди жанжолу можаролар.[1:267]

Ўрни келганда адабиётшунослик илмида тасвирийлик тушунчаси тасвир атамасидан келиб чиққанлиги ва у ҳақда адабиётшунос олим Дилмурод Куронов фикрларини қайд этмоқ лозим: "... тасвир термини тасвирий санъатга хос бўлса-да, уни бошқа санъат турларига нисбатан, хусусан, бадиий адабиётга татбиқан қўллаш ҳам ўринлидир. Бадиий адабиётда тасвир сўз воситасида амалга оширилади, шунга кўра тасвирий санъатдан фарқли ўлароқ, адабий асарда тасвирланган нарса-ҳодиса "ички кўз" билан кўрилади: сўз воситасида ўша нарса-ҳодиса чизгилари муайян кетма-кетликда қайд этилади ва охир-оқибатда тасаввурда унинг тасвир имконияти – сурати жонланади".[2:317]

Олимнинг фикрларини таҳлил доирасига тортилган лирик асарларга тўлиқ татбиқ қилган ҳолда шоирлар ўз давридаги реалистик манзараларни худди рассомдек чизиб берган дейиш мумкин.

Ҳайратий қаламига мансуб юқоридаги ғазалнинг кейинги байтларида ўтган аср бошларидаги Туркистонда юз берган очлик ва талон-тарожлик билан боғлиқ ижтимоий масалалар қуйидагича тасвирини топган:

Жанг эрди бир тарафда, анча узоқ биздан,  
Охирда бизни босди очлик деган балолар.

Ғазал байтларида жанг манзаралари ва унинг юрт бошига келтирган салбий иллатлар: очлик ва йўқчилик муаммолари ёритиб борилади:

Бечора камбағаллар нон кўрмагай тушида,  
Уйда ётиб гўдаклар йиғлаб қилур наволар.

Бир ён совуқнинг ваҳми, бир ёнда нонга муҳтож,  
Қилмас тараҳхум асло боёни бесахолар.

Раҳм ва саховат нелигини билмаган ўз даврининг юрт раҳнамоларига қаратилган мазкур байтларда ўзгаларнинг ҳақиқага хиёнат қилиш каби салбий фазилатлар одат тусига кириб бораётганлиги танқид остига олинган.

Кейинги байтлар оилада фарзандни боқиш ва уни вояга етказишдек масъулиятли вазифа давр муаммосига айланиб улгурганлигига қаратилади:

Бир неча аҳли қишлоқ ташлаб диёру мулкин,  
Овқат ғамида бўлди фарзандидан жудолар.

Баъзи хотин боласин масжидга кетди ташлаб,  
Баъзи бировга берди йиғлаб у бенаволар.

Ғазалнинг охирги байтларида яна бир жамиятдаги нозик масала оилада бўйга етган қиз фарзанднинг сақлаш масъулиятига қаратилган. Бу

вазифанинг удаланишида оталарнинг оиладаги ўрни ва вазифаси реалистик услубда ёритиб берилган:

Ҳар кимнинг бўйга етган бўлса қизин олурлар,  
Қон йиғласа эшитмас, йўқ унга бир даволар.

Безор ўлиб халойиқ, ҳар кеча қизларини,  
Сақлашга гарнизонга айларди илтижолар.

Моли билан қизини элтарди крепостга,  
Келтиргали борарди тонг вақтида атолар.

Шу ўринда ғазалдаги тасвирийликнинг муҳим томони крепостной образига юкланган бўлиб, у помешчикларнинг ўзига қарашли деҳқонларга, уларнинг меҳнати ва мол-мулкига чексиз эгалик қилиш ҳуқуқи берилганлигига ишора қилинади ҳамда улар пировардида бўйга етиб бораётган қизларга ҳам кўз тикаётганлиги англашилади.

Тасвирийлик билан суғорилган лирик асарлар қаторига Убайдулла маҳдум Ғурбат (тахминан 1850 - 1853 йилларда Қўқонга яқин Қапаянги қишлоғида туғилган) шоир қаламига мансуб “Мискинман” радибли ғазал ҳам киради. Шоирнинг мазкур ғазалида ҳам тасвирийлик ўз ҳаётини ёритиш мотивлари орқали юзага келган. Ғазалнинг дастлабки байти жамиятда урчиб бораётган салбий иллат – порахўрликка қаратилган. Шу билан бирга мол-мулки йўқ бўлган шоир моддий муҳтожлиги хусусида сўз очади:

Қўлимда пора йўқ экмак, емакка зор мискинман,  
Ақикдин ҳам қизилроқ бебизоат хор мискинман.[3:117]

Ғазалда шоир лирик қаҳрамон сифатида гавдаланган бўлиб, у юрт раҳнамоларидан саховат қилишини ва ўзининг ночор аҳволини баён қилади:

Деёлмай ҳасратимни нотавон кўнглум бўлиб ғамгин,

Карам айланг менга бир марҳабо ночор мискинман.

Кейинги байтда лирик қаҳрамон қорни очлигидан шикоят қилади. Бу анъанавий поэтик туркумларда ифодаланган ғоя эса Ҳайратийнинг юқоридаги лирик асарида ҳам айнан учраган эди:

Агар ўлдим десам оч, кимса шафқат хубзини вермас,

Бу пинҳон нуктадин қувват кетиб афгор мискинман.

Шеърый асарларда лирик қаҳрамоннинг қорни очлигидан шикоят қилиш ғоялари билан суғорилган анъанавий поэтик туркумлилик Фарғона водийсига мансуб Муҳаммадшариф Гулханий, Махмур ижодларида кузатилади. Бу каби традицион ғоявий издошлик, табиийки, кейинги давр Фарғона водийси ижодкорларига ҳам ўз таъсирини кўрсатди.

Шоир ғазалида яна бир анъанавийлик фарзандлар бахтини ўйлаш, уларнинг қорнини тўйғазиш масаласи билан боғлиқ ҳолда юзага келган:

Жужуқлар хотиримда ҳар нафасда юз мурур айлар,

Паришонликда аҳволим кечиб безор мискинман.

Шоир Ғурбат ижоди ҳақида адабиётшунос Дилбар Раҳматова биринчилардан бўлиб илмий тадқиқот ишларини олиб борган ва унинг бир



воқеабанд шеърини таҳлили жараёнида жамиятдаги тутқун ҳаёт хусусида тўхталиб ўтади. Шу билан бирга Ғурбат ижодида Махмур ва Муқимийдан таъсирланиш масаласи ҳақида тўхталиб:

“Шоирлар Махмур ва Муқимийнинг «Ҳапалак» шеърлари орқали биз уша даврдаги ижтимоий ҳаётни кўз олдимизга келтирамиз. Унда фақирона ҳаётнинг аянчли манзаралари реалистик тарзда чизиб берилди. Шунингдек, Ғурбатнинг воқеабанд шеърлари ҳам ўша тутқун ҳаётнинг ҳаққоний қуринишларини гавдалантиради, [4:11]” дея таъкидлагани ҳолда қуйидаги тасвирийлик масалалари устувор саналган шоир девонидаги мавжуд шеърдан мисол келтиради:

Ун келур бозор куни деб, ўлдук охир оч қолиб,  
Топмадук бир зарра тўма кўча-қуйга кўз солиб.  
Бир куни хуфтон намозига чиқай деб кўчада,  
Дафъатан беҳуд йиқилдим бемажолликдан толиб.

Андижон адабий муҳитининг вакили бўлган Абдулғафур Мирабдусаттор ўғли Муҳиб (1850-1915) қаламига мансуб бўлган мухаммасда ҳам жамиятдаги оғриқли муаммоларга мурожаат қилиш, моддий муҳтожлик масалалари устувор саналади. Шоирнинг ўтган асрнинг бошларида Андижон шаҳрида юз берган зилзила муносабати билан ёзилган “Гунаҳ” радибли мухаммасининг таркибида пул муаммосига қаратилган бандлар мавжуд.

Шоир мухаммасида жамиятда илдиз отиб бораётган бир қатор салбий муаммоларни санаб ўтади. Шу билан бирга уларни юзага келишида ва жамиятда урчиб боришида инсонларнинг ўзини сабабчи қилиб кўрсатади. Шоир жамиятдаги кўнгилсизликлар авж олиб бораётганлигининг сабабини тенгсизлик, бойлар ва камбағаллар ўртасидаги ўзаро нифокда деб билади. Мухаммаснинг ўттиз биринчи банди моддий муҳтожлик тасвирига бағишланган бўлиб, унда қатор пулнинг ўзига хос сифатлари эътироф этилади:

Халлоски, кўрса иззату ҳурмат, биноси пул,  
Қардош элида меҳр ила шафқат биноси пул,  
Халқу халойиқ ичра мурувват биноси пул,  
Ёру биродар ичра муддат биноси пул,  
Қайси гунаҳ шумлиғидандур бу зилзила,  
Ҳукми китоби зилзила, аз касрати гунаҳ.[5:100]

Кейинги бандда ўз даврида диний уламо сифатида одамларнинг ишончига кириб олган, пора эвазига уларнинг мушқулини осон қилган қози образи танқид қилинади:

Қози бўлурда ришвада, сўнгра ришвахор,  
Ва ҳасратоки, қолмади ҳукмида эътибор,  
Неча мулозим аҳли эшигида бир қарор,  
Пул берса ишни тузгай-у, пул бермаса бузар,  
Қайси гунаҳ шумлиғидандур бу зилзила,  
Ҳукми китоби зилзила, аз касрати гунаҳ.

Муҳаммаснинг кейинги бандида қозининг салбий сифатлари янада кучлироқ очиб берилади. Шоир ўз фикрларини далиллаш мақсадида халқ ибораларидан унумли фойдалангани ҳолда қозиларнинг олиб бораётган ишлари ўз замонининг нуқсони эканлигини алоҳида таъкидлайди:

Нуқсон замона аҳлида маъзурдур вале,  
Инсофу адлпешау олимлар афзали,  
Бўлса Имом Аъзаму, гар бўлмаса пули,  
Қозиға болта даюсу, муфтига нор Али.  
Қайси гунаҳ шумлиғидандур бу зилзила,  
Ҳукми китоби зилзила, аз касрати гунаҳ.

Муҳиб шеъриятида бу каби паремиологик бирикмаларни келтиришидан мақсад – қози образига асосий мазмунни юклаш бўлиб, одамлар ўртасида гуноҳ ишларнинг авж олишида унинг ҳиссаси юқори эканлигини ошқора айтиш бўлган. Шу билан бирга шоир даврнинг қозиларига хос салбий сифатлар тасвирийлик орқали ўз тасдиғини топишига асосий эътиборини қаратган.

Таҳлил доирасига тортилган лирик асарлар бўйича муайян хулосалар: биринчидан, Ҳайратий қаламига мансуб бўлган ғазалда ўз даврининг бой ва боёнларини танқид қилиш устувор саналиб, улар ўзгалар ҳақини ўзлаштираётганликлари тасвирийлик орқали етарлича ифодаланган;

иккинчидан, Ғурбат қаламига мансуб ғазал автобиографик характерда бўлиб, унда лирик қаҳрамон сифатида шоирнинг ўзи гавдаланган ҳамда шахсий ҳаётини тасвирийлик орқали ёритиб берган;

учинчидан, Муҳиб ижодига мансуб муҳаммасда жамиятда юз бераётган зилзилаларга юрт раҳнамоларининг кўр-кўрона юргизаётган сиёсати, инсонлар ўртасидаги дин ва диёнатнинг йўқолиб бораётганлиги сабаб қилиб кўрсатилиб, улар тасвирийлик воситасида кенгрок ёритилган.

тўртинчидан, Фарғона водийсининг мазкур уч нафар шоирлари ижодига мансуб муштараклик жамиятнинг реал манзараларини айнан тасвирийлик орқали ёритилганлиги билан характерланади.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Асрлар нидоси. Мумтоз ўзбек адабиётидан намуналар. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1982.
2. Қуронон Д., Мамажонон З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2010.
3. Асрлар нидоси. Мумтоз ўзбек адабиётидан намуналар. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1982.
4. Раҳматова Д. Муқимий издошлари (Ғурбат ва Рожий). – Тошкент: Фан, 1978.
5. Кўхна садолар (Манзур, Ожиз, Мунтазир, Бимий, Муҳиб, Пиримқори, Ҳофиз, Муштоқ, Мавжий) / Тўплаб, нашрга тайёрловчи: Мадғозиев И, проф. Қуронон Д.нинг умумий таҳрири остида. – Тошкент: Akademnashr, 2020.

## ABDULLA AHMADNING “FARYOD” QISSASIDA HAYOT HAQIQATI TALQINI

*Turopova Parizod Shavkat qizi,  
JDPI katta o‘qituvchisi,  
filologiya fanlari bo‘yicha  
falsafa doktori (PhD)*

“Faryod” qissasi Sho‘ro davri voqealari, xususan O‘rta Osiyo boylarining xukumat tomonidan talanishi, xo‘rlanishi mavzusini yoritishga bag‘ishlangan. Qissaning bosh qahramoni Olimboyvachcha va uning oilasi misolida tarix ko‘z o‘ngimizda jonlantiriladi. Kitobxon asarni o‘qir ekan, misli ko‘rilmagan adolatsizliklarning yana bir karra shohidi bo‘ladi. Asar Olimboyvachchaning Toshkentdan qaytishi holatini tasvirlash bilan boshlanadi. Adib mahorati shundaki, qahramon qiyofasida, uning xatti–harakatlarida yurtimiz boshiga kelayotgan sovuq shamollar ishonarli jonlantiriladi: “Olimboyvachchaning avzoyi buzuq. Kecha Toshkentda bo‘lib, boylar bilan gurunglashgach, ruhi sindi. Bol‘shavoy degan ochofat hamma boylarni, hatto o‘rtahol dehqonlarni talayotgan emish. Uning dastidan na o‘rada g‘alla, na qo‘rada qo‘y, na dalada hosil qolayapti. Bir umr peshona teri bilan yiqqan–terganingga qaysidir nobakor ega chiqsa, sochib sovursa, qandoq chidaysan?” [1;6].

Shunday o‘y–kechinmalarni xayolidan o‘tkazayotgan Olimboyvachchaning ko‘nglidagi g‘ashlikni chorbog‘dagi g‘arq pishgan mevalar olma, nashvati–yu o‘n yetti xil g‘arq pishgan uzumzor va o‘rikzorlarigina bir ozgina bo‘lsin ko‘tardi. Axir bu o‘riklarni Oysari enasi ekkan.

Shu o‘rinda aytish lozimki, “Uslub – ijodkor hayotni chuqur o‘zlashtirishi orqali to‘plagan nozik va qiziqarli kuzatishlarini sintezlab ifodalab berishdir. Uning mukammalligi va qanchalik ko‘lamga egaligi ijodkorning borliqni anglashdagi idrokiga va ifoda uslubiga bog‘liq” [2;7], –ekan, asarni o‘qir ekanmiz, adibning mahoratli ijodkor ekaniga shohid bo‘lamiz. Yozuvchi voqealar rivojini ikki liniyada olib boradiki, bu ham asar oxiriga borib oydinlashadi. Qissa voqealari shiddat bilan rivojlanadi. Olimboyvachchaning bobosi Yusufbek Ernazarboy bobosi kabi yer egasi bo‘lish bilan birga savdoga aralashib vodiya qatnagan va Asakaga borganda duradgor sandiqsoz bilan qadrdonlashadi, unga shogird tushib to‘rt oy ish o‘rganadi. Sandiqsozning yakka–yu yagona qizi Oysari va akasidan qolgan qimorboz, axloqsiz jiyani Talxatdan boshqa yaqini yo‘q edi. Shu sababdanmi u Yusufbekka mehr qo‘ygan, uni o‘z o‘g‘lidek yaxshi ko‘rardi. Taqdirning o‘yinini qarangki, ikkala yosh ham bir–biriga befarq emasdi. Lekin hayot doim inson istaganday bir tekisda ketmaydiki, bu ham asarda o‘z badiiy ifodasini topgan.

Olimboyvachchaning boshiga og‘ir kunlar keldi. Xotini Ziynatoy uni sho‘ro idorasiga chaqirishganini aytdi. Sho‘ro idorasi bir paytlar chilla masjid deb atalgan binoga joylashgan bo‘lib, bu masjid Jizzaxning mashhur boylaridan biri tomonidan qurilgan bo‘lib, u yerda din ulamolari namoz o‘qishlar va kitob mutolaa qilishardi. Adib masjid tasvirini asarda judayam ta’sirchan ifodalarda berganki, bu

ham ijodkorning o‘ziga xos mahorat egasi ekanligidan dalolat beradi: “Masjid bitta ulkan va beshta mo‘jaz xonalardan iborat. Shu yetti xona uch taraflama ayvonlar bilan qurshab olingan... Uch taraflama ayvonga qirq bitta mahobatli ustunlar o‘rnatilgan. Qirq bitta ustunga ipdek ingichka, lekin jozibasi bilan aqlni shoshiradigan turfa naqshlar o‘yilgan. Har bir ustundagi naqshga yetti xil rangda jilo berilgan. Ustunlarning tepasiga yetti qirrali gulbarak o‘rnatilgan. Ularga payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalomning hadisleri bitilgan. Gulbarakning lojuvard yetti qirrasiga yettita shamdon o‘rnatilgan. Hayit kunlari qirq bitta ustundagi shamlar yonuvi, bir ilohiylik, qalam birla bitgusiz ulug‘vorlik hosil qiladi... Ming afsuski, avvalgi ko‘rkamlik va ulug‘vorlikdan endilikda nom–nishon qolmagan. Ayvonlari taxtalar bilan o‘ralib, shiftlariga qog‘oz qoqilgan. Hadislar bitilgan gul baraklar, shamdonlar olib tashlangan... Olimboyvachcha manzarani ko‘rib, tang qoldi. Ichidan bir nima uzilganday, holsizlanib o‘tirib qoldi” [1;15–16]. Sho‘ro idorasida uni o‘rissifat bir tatar qarshi oldi.

–Nega ranging o‘chib ketayapti, sen ham boymisan nima balo?

–Unchalik emas, ozgina yer–suvim bor.

–Isming?...

–Olim.

Shoshma, haligi ellikta oti bor, jaranglab ochiladigan sandig‘i bor, Olim men degin?

–Ha men” [1;18].

Asar voqealari hech kimni befarq qoldirmaydi. O‘n chog‘liq qurollangan askar bilan Andrey Boychev kelib, Olimboyvachcha, xotini Ziynatoyning qo‘liga kishan urib, qizi Dilxumorning qo‘lini esa arqon bilan bog‘lab, ellik pud g‘allasini, taxmonida turgan sandig‘igacha, ularning chirqilashlariga qaramasdan aravaga joylashdi.

Yuqorida aytganimizdek, voqealar rivoji ikki liniyada davom etar ekan, xafaqonlik kasaligiga chalingan Oysarining mo‘ysafid otasi qimorboz jiyani Talxatga ishonmay, Yusufbek bilan birga Oqtulporini arava qo‘shib tabibga jo‘natishga majbur bo‘ladi. Yo‘lda ularga bo‘rilar hujum qildi. Yusufbek jon–jahdi bilan oxirgi kuch qolguncha kurashib, Oysarini himoya qildi. Yusufbekdek insonning nevarasi Olimboyvachcha ham oilasini bolshevik atalmish bo‘rilardan qutqarish uchun chunon harakat qilmasin, imkonini topa olmaydi. Ularning xo‘rlashlaridan hushidan ketgan ayolini ko‘rib, qo‘rqib ketadi. Bir kechada o‘n yilga qarigan, yuzlari so‘lib, ko‘karib ketgan Ziynatoy tongda omonatini topshiradi.

Asarning eng kulminatsion nuqtasi uning janozasi jarayonida yaqqol namoyon bo‘ladi. Ayoli dafn etishga hozirlik ko‘rayotgan Olimboyvachchani yelkasiga qo‘ndoq bilan urib, qo‘llarini kishanlab: “Senlarni dastingdan qirq yillik qarddon xotinimdan ayrilib o‘tiribman–ku. Axir mushtiparimni so‘nggi manzilga eltay! Qiyomat qarzimni uzay” [1;26–27] deb zorlanishlariga qaramay, uning bog‘ini talon–taroj qilishlarini o‘z ko‘zi bilan ko‘rishi uchun olib ketishadi.

–Bularni tezda saranjomlab, –dedi meva hosiliga ishora qilganicha mundirli kattakon, – o‘rniga paxta ekamiz. Shu paytgacha senlar buni Rusiyaga oltin

bahosida pulladilaring. Endi esa o‘zimizdan chiqadi. Millionlab gektar paxta ekiladigan yerlar bog‘i eramday shovullagan bog‘lar endi –bizniki, ya‘ni –rusniki”[1;27–28].

Otasining orqasidan borgan o‘g‘li Qobiljon, uni ko‘rib hushi boshidan uchadi. Bechora otasi qo‘li kishanlangan, jazirama oftobda yotar edi. Qobuljon bu xolni ko‘rgach otasini olib ketmoqchi bo‘ladi, lekin Andrey Boychev terslik bilan ruxsat bermaydi: “–Tirmizak, haddingdan oshma, otang bizga kerak.

–Kerak bo‘lsa oftobda toblab, o‘ldirmoqchimisan? Zolim, ablah.

–Tilingni tiy, hozir avaxtaga tashlayman!

–Qo‘rqitma, bosqinchi, senga yalinadigan manqurt yo‘q!

–Bas qil, it emgan. Hozir yigitlarga aytaman, majaqlab tashlashadi. .. Hozir bo‘g‘zingdan darcha ochdiraman!... Jahli chiqqanidan o‘zini tutolmay qolgan Qobuljon Boychevning qobirg‘asiga ketma–ket pichoq sanchdi” [1;32].

Axir, Qobuljon yo‘lda bo‘rilar bilan yakka o‘zi olishgan, otining o‘limidan so‘ng Oysarini aravaga o‘tqazgancha uni bir o‘zi sudrab kelgan Yusufbekining avlodi edi–da. Uni ham dov yuragi bor, lekin buni nomard bo‘lsheviklar tushunarmi, yo qadriga yetarmidi?

Andrey Boychevning o‘limidan keyin uning o‘g‘lini qamoqqa olib o‘zlaricha sud qilgan Sho‘ro hukumati vakillari uning uchun o‘limni, lekin qanday o‘lim, oson emas, shafqatsiz o‘limni ravo ko‘rishishdi.

“–Gap shu–, dedi Afanasъyev kistasidan “Kazbek” olib tutatib, –Qobulni osib o‘ldiramiz. Buyruq beraman. Ochiq maydonga baland dor qurishadi... Bu yerlik qora xalq rus zobiti bilan, sovet hukumatining Turkistondagi vakili bilan “hazillashish nimalarga olib kelishini yaxshi bilib qo‘yishi kerak” [1;40].

Asarda bir o‘zbek oilasi boshiga Sho‘ro hukumati tomonidan yog‘ilgan balolar Olimboyvachcha oilasi misolida yoritib beriladi. Ayoli Ziynatoyni ular tomonidan o‘tkazilgan tazyiqlarga chidolmay yurak xurujiga uchrab o‘lishi, qizi Dilxumorning xastalanib qolishi, o‘zlarini kimsasiz cho‘lga surgun qilishlari yetmaganday, o‘g‘li Qobuljonning dorga tortilishi, bularning barchasi Olimboyvachchani yiqitdi, to‘shakka mixlab qo‘ydi.

Ma‘lumki, asarda obrazlilik asar ohangi, voqelik yo‘nalishi, qahramonlar ruhiyati tasvirida yozuvchi uslubi alohida o‘rin tutadi. Binobarin, “San’atkor doimo minglab so‘zlar ichidan eng keragini tanlaydi, zargarona tanlangan ana shu so‘zlar qahramon va sharoitning mazmuni (g‘oyasi), holati bilan chambarchas bog‘lanishi, u aniq estetik maqsad (mazmun)ni voqe‘ qilishi shart” [3;149]. Bundan ko‘rinib turibdiki, har qanday so‘z badiiy asarda o‘z “yuki”ga ega bo‘lishi kerak. Xuddi shu narsa Olimboyvachchanning tushida Yusufbek so‘zlari va oq otida suvoriy bo‘lishi orqali namoyon bo‘ladi: “Chorbog‘ni kezib yuribdi. Atrof huvillagan. Kundalar, yondirilgan shox–shabbadalar. Kechagi eramiy bog‘ mozoristonni eslatardi. Nogahon bobosi Yusufbek paydo bo‘ldi. U oq otida. Chehrasi tashvishli. Ko‘zlari g‘azabnok: “Men yaratgan bog‘ qani? Qani gulzorlar?!” – dermish alamzada tovushda. “Hammasi nahot tugadi? Nechun bu qora yuraklar daf bo‘lmas?! Yo‘q! Yo‘q! Yo‘–q!!!, –arslonday o‘kiribdi bobosi. – Bosqinning umri qisqa. Inshoollo, kunpayakun bo‘lgay!” Bobosi shu gaplarni



aytib, qamchinni bostirdi. Uchqur bedov ufq tomon shamolday yelib ketdi” (44–45 bet). Mohirona yaratilgan bu tasvir qissaning umumiy mazmuniga hayotiy bir optimistik ruh bag‘ishlaydi.

O‘zbek xalqiga xos mardlik, soddalik, poklik, rostgo‘ylik kabi xislatlar Qobuljon obrazida o‘z ifodasini topgan bo‘lsa, oriyat, milliy g‘urur tuyg‘ulari Yusufbek va Olimboyvachcha timsollari misolida chuqur psixologik kontrastda talqin etilgan. Demak, har bir yozuvchining uslubiy o‘ziga xosligi shakllanishi natijasida badiiy asar mukammallashadi, g‘oyaviy–estetik va kompozitsion jihatdan ham yetuklikka erishiladi. Katta hayotiy va ijodiy tajribaga ega bo‘lgan iste’dodli adib Abdulla Ahmadning ushbu qissasi chuqur milliy ruh bilan yo‘g‘rilgan tili va uslubi ham shakl va mazmun mutanosibligini ta’minlaganligini ta’kidlash o‘rinli bo‘ladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Аҳмад Абдулла. Ҳамият. –Т.: Yangi nashr, 2015.
2. Храпченко М.Б. Творческая индивидуальность писателя и развитие литературы. –Москва.: Писатель, 1975.
3. Умуров Ҳ. Адабиётшунослик назарияси. –Т., 2004.

### ҲИССИЙ ТАФАККУРНИНГ МАЖОЗИЙ ТАЛҚИНИ

*Тўраева Дилноза Нематуллаевна,  
ГулДУ ф.ф.ф.д (PhD)*

Борлиқни англаш, йўқликдан яралиш, кўз илғамас, сезги сезмас сирлардан бохабар бўлиш, кўнгилга бутун оламни жойлаш – зарра ичига оламни сиғдиришдек мураккаб жараён ёзувчи Асад Дилмуроднинг “Заррадаги олам” асари моҳиятини ташкил қилади. Ноанъанавий усулда ёзилган ушбу роман реал ҳиссий тафаккур асосига қурилган. Асар сюжети ҳаётий воқеликдан чекинган ҳолда, руҳият қатларидан сизиб чиққан ҳаёлий ҳислар – тимсоллар асосида жонланади. Бугунги кун адабиёти оддийликдан мураккаблик, бир хилликдан турфалик сари одимлаётган бир даврда ёзувчи Асад Дилмуроднинг ушбу романи ўзбек насри тараққиёти ривожига ўзига хос ўрин топа олди. “Шуни айтиш керакки, истиқлол даври адабиётимизнинг жозибаси сиртида эмас, ботинида, матн замирида. Бу адабиётнинг асл намуналари осонгина ўқилиб кетилаверадиган асарлар сирасига кирмайди. Бу асарлар ўқувчидан муайян ҳозирликни, интеллектуал руҳий зўриқишни талаб этади. Оламга, одамга бошқачароқ нигоҳ ташлашни тақозо қилади” [3;112]. Романга Алишер Навоийнинг “Насойим ул муҳаббат” романидан парча эпиграф қилиб олинган. Асарнинг бутун моҳияти мана шу парча асосида жам бўла олганлиги ёзувчи маҳоратига ишорадир. Бош қаҳрамон Аваз кўнгил кечинмалари асар бошидан охирига қадар бир линияда бошқа образларни ўз атрофига бирлаштиради. Унда Фаришта Нихон, Заранг дароз, Ҳалил пурча, Муса, Лобар, Зилола, Шафоат пари каби образлар бир-бирини

такрорланмас кўнгил кечинмалари орқали намоён бўлади. Булардан ташқари асарда қуш, илон, шамол каби мажозий тимсоллар ҳам образ даражасига кўтарилади. Улар орқали моҳият янада ёрқинроқ акс эттирилади. Тасаввуф таълимотидан яхши хабардор ёзувчи, кўнгилни поклаш, эзгулик сари талпиниш, ҳақиқат йўлини танлаш, бутун салбий ҳислатларни ўзидан мосуво қилишдек ғояни илгари сурган бу асарда Авазни рамзий маънода Шифо дарёси томон талпинишидан унинг илми-ҳол одами эканини, яъни поклик, эзгулик сари Оллоҳ васлига етишишга уринишини акс эттиради. Асарни таҳлил қилар эканмиз, адиб ижодий услубини ҳам эътибордан четда қолдирмаслигимиз даркор. “Асад Дилмурод ижодида олам ва одамга доир ҳолатлар тасвирида реаллик ҳаёлот билан, ақлга мувофиқлик ироцианаллик билан, сабаб-оқибат изчиллиги мистика билан ёнма-ён келаверади. Бу ўқирманлар тафаккур уфқини кенгайтириб, руҳий оламини ингичкалаштиришга хизмат қилади” [4;22.09]. Адиб ҳаёлий кечинмаларини мажозий усулда акс эттиради, бу ҳолат асар бадииятини янада ошишида муҳим рол ўйнайди. Қурама чўли, Шифо дарёси, Айригум жари бу жой номларининг барчаси ўзига хос мажозий маъно касб этиб, уларниг ҳар бирига асарнинг ўзида батафсил маълумот бериб ўтилади. Масалан, Шифо дарёси асарда Ҳақ тимсоли сифатида тасвирланади. Авазнинг Шифо дарёсига талпиниши, унга етишиш орзусидаги мислсиз чеккан заҳматлари, унинг кўнгилни покланишидан далолатдир. Шу билан бирга у Зилолага етишиш орзусида ҳам интилади. Икки ишқнинг Аваз кўнглида ин қуриши ундаги дадилликни янада оширади. Шу ўринда Авазга руҳий кўмакдош Ниҳон образининг яратилиши Аваз характеридаги бутунликни ҳосил қилади. Бу образлар биргаликда асар сўнггига қадар бири иккинчисини тўлдириб боради. Яхшилик ва ёмонлик, эзгулик ва ёвузлик каби азалий зиддиятлар асарда жўн ҳаётий воқеалар асосига эмас, балки, ноанъанавий йўсиндаги воқеалар силсиласига сингдириб юборилади. Ёвузлик тимсоли Ҳалил пурча ҳатти-ҳаракатлари асардаги характерлараро конфликтни юзага келтиради. Уни Авазнинг ишқига чанг солиши ёвуз ишларни ҳар қадамда ўзига юқтириши, умри давомида ўзига ҳамроҳ билиб қўйнида сақлаган Қизил бош томонидан даф қилинишида ҳам ўзига хос рамзийлик бор. Ҳалил пурча бошига етган Қизилбош – ёвузлик йўлида ўзидан яралган қурол сифатида ўзига хос мажозийлик касб этади.

Ўн тўққиз сайрдан иборат ушбу романдаги эътиборли жиҳатлардан бири яна шундаки, адибнинг сўз қўллаш маҳоратидир. Гарчи баъзи жумлалар бири иккинчисига қўшилиб анча мураккабликни ташкил этган бўлсада, асарда маърифий аҳамиятга эга бўлган фалсафий фикрлар акс эттирилган ўринлар жуда кўп. Уларни ўқиган китобхон бундай мураккаб гап қурилиши асосига сингдирилган маъноли фикрларни ўз ўрнида топиб айтганлигини англайди. Зеро, бутун борлиқ, ҳаёт ва инсонни зийрак нигоҳ билан кенг миқёсда кузатиш, ҳиссий тафаккур орқали бадиий-фалсафий таҳлил чиғириғидан ўтказиш бугунги адабиётимиз қиёфасини белгиловчи етакчи хусусиятдир.

Асад Дилмурод услубини шакллантириб улгурган, сўз мағзини чуқур туядиган, ҳодисалар силсиласида одамларни кўрадиган ҳамда бадиий ҳақиқатни ҳаётий ҳақиқатдан устун кўядиган ижодкор эди. Ёзганлари амалдаги одатий тасаввурлар мезонига тўғри келмайди, аниқроғи, рўё ва реаллик, хаёлот ва ҳаёт бадиият пардаси остида аралаш тасвирлангани боис улар ўқувчидан алоҳида адабий тайёргарлик талаб қилади. “Роман ёзилаётган пайтда муаллиф назарда тутган китобхон трагиклик ва сатирик модусларга диққат қаратиши, яъни муаллиф-объект-адресат учлиги (онглар учрашуви) таъминланиши орқали роман бадиияти англашилади” [2;236]. Ёзувчининг таниқли адабиётшунос олим Аҳмад Отабоев билан қилган суҳбатида [1;17.02] таъкидлагани каби, ақлий тафаккурни жиловлаб, кўпроқ ҳиссий тафаккурга суянади-да, объектив воқеликнинг реал тасвиридан четлашиб, тасаввурида шундай воқеликнинг бадиий лойиҳасини яратади. Охир-оқибат матнда реал воқеалар эмас, кўнглида қатланиб ётган ҳаёлий туғёнлар мажозий йўсинда ифодаланади.

Асад Дилмурод асрлар оша миллий адабиётимизга салмоқли озуқа бериб келган тасаввуф таълимоти, мажозийлик, мифология ва истиоранинг бадиий-эстетик омилларидан унумли фойдаланади ва натижада шу омиллар ҳар бир асарида чуқур из қолдиргани, жумладан, “Заррадаги олам” романига жозибали романтик рух, бетакрор бадиий шакл ва мазмун бағишлагани яққол кўзга ташланади. Реал ва нореал воқеликка янгича муносабат, йўқликни бор деб билиш, кўз илғамас, сезимлар сезмас нарсалардан бохабар бўлиш, кўнгилга бутун оламини жойлаш – заррага оламини сиғдириш жараёнини кечиришдек мураккаб эстетик ҳолат “Заррадаги олам” мазмуни ва моҳиятини ичкаридан нурлантириб туради. Асарнинг журнал вариантыга Ёзувчилар уюшмаси наср кенгаши томонидан ёзилган сўзбошида воқеа-ҳодисалар рамзийлашгани, тасвир турли ибратли ривоят, масал ва тимсоллар билан тўйинтирилгани учун роман бадиияти такомиллашиб, маънавий-маърифий моҳият касб этгани ҳамда таъсирчан драматизм намоён қилгани таъкидланади. Роман бадиий-эстетик хусусиятлари миқёсини далилловчи мазкур мулоҳазалар Зилола нафс ва алдов, Шафоат пари нафс ва зўравонлик, Лобар нафс ва хиёнат қурбони бўлганини яққол исботлайди. Маънан бир-бирини тўлдирадиган бу образлар асар динамикасини жонлантириш, психологик ва драматик тарангликни кучайтиришга кўмаклашади. Ҳаётий тасодиф ва зарурат асосида улар қисматида рўй берган оғир маънавий фожиалар Аваз, Заранг дароз ва Мусабек характерлари изчил шаклланиши, руҳий дунёлари кенг очилишида муҳим ўрин тутди. Етакчи образлар билан ёрдамчи рамзий образлар ўзаро уйғунлик ва ҳамкорликда ҳаракатланиши роман архитектурани яхлитлигини таъминлаш, хусусан, матн поэтик ритмининг ибтидодан интиҳога қадар бир маромда сақлаш воситасига айлангани таҳсинга лойиқдир. Аваз, Заранг дароз, Халил пурча, Мажид гушна ва шериклари билан Ниҳон, чипор илон, қизил бошли илон, етти қийғий ўртасида кечадиган психологик жараёнлар тасвири адиб услубининг янги қирраларини намоён қилади. Мавридида қўлланилган нозик ишоралар

эзгулик ва ёвузлик, адолат ва жаҳолат, олижаноблик ва тубанлик, садоқат ва хиёнат, саховат ва қурумсоқлик моҳияти ҳақида кенг кўламда чуқур ўйлаш ва тегишли хулосалар яшашга чорлайди. Фаришта Ниҳон ўғитларидан озукланиб рухланадиган Ниҳон Заранг дароз ва Халил пурчанинг жонлари турқи совуқ газандалар таналарида пинҳон эканини билгандан кейин эсанкираб қолади. Умр бўйи чўлдан ўтин ташиб сотган ва шу ҳисобдан аранг қорин тўйгазган Заранг дароз қирқямоқ чопони қатларида беҳисоб зару зевар беркитиб юргани – умр бўйи ўзини ўзи алдагани, кадр қиммати ва иззатини менсимагани ва ниҳоят чегарасиз қийноқлар эвазига мисқоллаб тўплаган бойлиги қўлини совуқ сувга ҳам урмайдиган Халил пурча тасарруфига ўтиб кетганига гувоҳ бўлгач, инсон шахсияти, феълу атвори ва дили ҳаётнинг ўзи каби ғоят мураккаб, тушунуқсиз ва чигал эканига имон ўгиради.

Муҳими шундаки, роман тасаввуфий ҳикматларга йўғрилган, мағзи тўқ фалсафий қарашлар ва маърифий маслақларни жамлаган бадиий жиҳатдан пухта мифологик лавҳалар мажмуига ўхшайди. Ибратли эстетик маъно ташийдиган бир қанча ихчам тамсилий ривоят ва масаллар улар мазмунига мазмун қўшади ва натижада роман бадиий бўёғи қуюқлашиб, драматизмида айрича инқилоб кечади. Ҳаёт тимсоли саналган Қурама чўлида туғиладиган ажиб асотирлар аслида моҳиятан Аваз шуури, руҳияти ва кўнглидан сизиб чиқаётгандек туюлади. Абадият тоғини чўқилаб қулатиш учун қасдланган қора қузғунлар, кексалик чангалига тушиб изтироб чекаётган бургут, лайлақлар подшоси билан дўстлашган чол, сариқ чаёнга яхшилик соғиниб, бемаврид ажал топган улкан тошбақа, харобазор талашиб яшайдиган бойқушлар, жаҳолат ва ҳасад яшини зарбидан бели синган эман дарахти ва бир қанча бошқа рамзий образлар тақдири ҳақидаги чўпчаклар ўқувчини роман эстетик қатламлари ва етакчи қаҳрамонлар руҳий дунёсига олиб қирувчи тимсоллар бўлгани учун қимматлидир.

Хулоса шуки, тасаввуф таълимоти, мажозийлик, истиора ва мифология унсурлари, илғор адабий оқимлар ва тажриба мактаблари ютуқларидан тўйиниб, бетакрор бадиий-эстетик хусусиятлар намоён айлаган кўп қатламли “Заррадаги олам” романи бугунги миллий насримизда ҳам, адиб ижодида ҳам муносиб бўй кўрсатиб турибди. Роман бадиий-эстетик тафаккурни янада кенгайтириш, олам ва одам моҳиятини замон талаблари асосида янгича туйиш ва англаш, бадиий маҳоратни янада оширишга интилиш кўникмасини пайдо қилишда самарали таъсир кўрсатиши шубҳасиз.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Мажозийлик ва ҳиссий тафаккур. ЎзАС, 2017 йил, 17 февраль
2. Ёқубов Исломжон. Мустақиллик даври ўзбек романлари поэтикаси. Монография. Т., Nurafshon business. 2021. 236-б.
3. Йўлдошев Қозоқбой. Истиклол адабиёти. Ўзбекистон овози. 11.01.1996.
4. Йўлдошев Қозоқбой. Хаёлот ва ҳаёт манзаралари. Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 22.09.2017

## РАМЗИЙ-МАЖОЗИЙ ТИМСОЛЛАРНИНГ ШОИР ЎЗИГА ХОСЛИГИНИ БЕЛГИЛАШДАГИ ЎРНИ

*Тажибоева Дилфуза Эркиновна,  
Наманган давлат университети  
Филология фанлари бўйича  
фалсафа доктори (PhD)*

Шеъринг нутқда ҳаётини воқеа, тушунча ва нарсаларни ифодалаш учун шартли равишда кўчма маънода ишлатиладиган сўз ёки сўз бирикмаси қўлланилади ва рамзий-мажозий тимсоллар яратилишига асос бўлади. “Рамз – символ кўчим турларидан бири, фақат шартли равишда ва шу матн доирасидаги кўчма маъно касб этувчи сўз ёки сўз бирикмаси, образлилик тури”[6; 244], – дейилади адабиётшунослик луғатида.

Хуршид Давроннинг “Осмонда бир пичоқ учиб юрибди” деб номланган шеърда рамзий-мажозий маъно уйғунлигини кузатиш мумкин:

Осмонда бир пичоқ учиб юрибди –  
Булутларни кесар – булутлар ўлмас.  
Нурларни кесади – нурлар кесилмас,  
Осмонда бир пичоқ учиб юрибди.[2; 61]

Маълумки, осмонда пичоқ ҳеч қачон учмайди. Шоир бу ўринда кушларга хос бўлган хусусиятни жонсиз предмет пичоққа нисбатан қўллайди ва жонлантиришдан фойдаланади. *Пичоқ* булутларни кесади, нурларни кесади, бироқ уларни йўқотишга кучи етмайди. Шеърда ифодаланган *пичоқ* тимсоли ёвузлик белгиси сифатида гавдаланса, *булутлар* – мусаффолик, *нурлар* – ёруғлик, абадийлик маъносини англатади. Шеърда *Ёғдулар*, *булутлар* *кўкда* – осмонда худди сувдек оқиши, осмонда учиб юрган пичоқни кўриб инсонлардек *ёқа ушлаб* қарашларини ишонарли, жонли тасвирларда чизади. Шеър сўнггида ана шу *пичоқ* нинг қилмишлари очилади:

Бу пичоқ шоирнинг қанотин қирққан –  
Шундан учиб юрар осмонда ўзи.

Осмонда бир пичоқ учиб юрибди –  
Кимнидир аланглаб излайди кўзи... [2; 61]

Иқтидорли ижодкорларнинг душманлари ҳамма замонларда ҳам мавжуд бўлган. Душманлик ва ёвузлик учун даврнинг ва тузумнинг ҳеч қандай аҳамияти йўқ. Шоирнинг топилмаси *пичоқ* – хасадгўй, ичи қора, ёруғлик ва эзгуликни кўра олмайдиган инсонларнинг бир тури сифатида гавдаланади. Яъни, бундайлар Чўлпон, Қодирий, Усмон Носирлардек буюк ижодкорларнинг учқур қанотини қирққан, Ойбекдек табиат шайдоси тилини боғлашга, руҳини чўктиришга уринган кимсалардир. Бундайларнинг ҳамон мавжудлиги, яна бир иқтидор эгасини, яна бир миллат фидойисини *аланглаб излаётгани* шоирни ташвишга солади. Шеър орқали бошқаларни ҳам огоҳликка, хушёрликка чақиради. Адабиётшунос О.Шарафиддинов XX асрнинг 70-йилларида шеърятга кириб келган ижодкорлар авлоди ҳақида:



“улар мана шу бақувват заминга таяниб, бугун шоирона сўзнинг янги имкониятларини изламоқдалар, шеърий шаклларнинг ранг-баранглигига, тасвир воситаларининг ўзига хослигига, поэтик образлар системасининг оригиналликка интилоқдалар” деб ёзганида улар ижодидаги поэтик ўзгачаликлар назарда тутилган эди[5; 6]. Бу авлод вакиллари орасида Хуршид Давроннинг ҳам ўз ўрни бор, албатта.

Хуршид Даврон “Ойбек”номли шеърида шоир ижодининг турли йўналиш ва қирраларини кўрсатиб беради: *Ойбек – бу майсага чўккан бужур тош, Ойбек – бу дарахтзор устида қуёш, Ойбекнинг шеърида ўйнайди бу нур, Ойбекнинг шеърлари бамисли нигоҳ, Шеър – фақат қуш тили, деганди шоир, У тилин қайтариб берди қушларга, Шеър – юлдуз киприги деганди Ойбек, Ўзи киприк эди Ўзбекистонга* каби мисралар билан шоир ижодий кифасини дунё, замин, табиат, ватан, инсон билан ижодий мулоқотда турли метафорик образлар орқали ифодалайди. Ойбекнинг поэтик маҳорати ҳақида адабиётшунос олим А. Сабирдинов: ” Шоир шеърларидаги ўзига хос тасвир сажиясида табиатнинг ҳар бир ҳодисасидан гўзаллик топа билишлик фазилати яққол кўзга ташланади. Бу – Ойбек шахсиятидаги кенг феъллик, саҳоват, некбинлик хислатларининг инъикосидир. Пейзаж шеърларида шоир табиатнинг турфа ранглари, сир-синоатлари ва ҳолат-ҳаракатлари тасвирида бисотидаги сара сўзларни сатрларга сочиб юборгандек бўлади.”[1; 197] - дея таъриф беради.

Ойбек ҳаётида бўлиб ўтган қарама-қаршилиқлар шоир саломатлигининг йўқолишига, қаттиқ руҳий тушқунликка тушиб қолишига сабаб бўлган. Шоир ўзи таъсирланган ҳаётий воқеа-ҳодисаларни кузатиши ва ўйларини таъсирчан ифодаларда осуда, сокин баён этиш орқали Ойбек руҳиятини очиб беради:

Ойбек – бу оғрикни қари тол каби  
Юракнинг тубида асраган сўзлар  
Барча ҳасратини жим туриб лаби  
Энг яқин дўстига сўзлаган кўзлар[2; 41].

Шеърдаги бу ҳолатлар шоирнинг шахсий ҳаёти билан боғлиқ воқеа-ҳодисаларнигина эмас, балки Ойбек ижодий йўналишининг ҳам турли қирраларини очиб беришга ёрдам беради.

Шоир куз фасли якунига етиб, қишнинг ташриф буюришини табиат тимсоллари орқали жонли лавҳаларда ифодалайди:

Қушлар кетди.  
Булутлар қайтди.  
Қолди яна маънос дарахтлар...  
Далаларга қиш маликасин  
Оқ рўмоли – қиров тушади.  
Сирға ос, деб куз дарахтларнинг  
Қулоғини секин тешади[2: 169].

Хуршид Даврон идроки – *маънос дарахтлар, қиш маликасин оқ рўмоли, қулоғи тешилган, сирға осилган дарахтлар, қушлар, булутлар* ифодасини

ёркин метафораларда чизади. Шоир ҳаётнинг, борлиқнинг ва тирикликнинг энг муҳим муаммоларини ечишга интилади. Дунёни, борлиқни рангин чизгиларда кўради. Борлиқдаги ҳар бир нарса ёки предметнинг иккинчи номини излайди ёки тўқиб чиқаради. Инсон табиатнинг бир бўлаги бўлганлиги учун ҳам табиатдаги бошқа нарса-предметлар унинг кўчма ёки рамзий маънодаги тимсоли бўла олган.

Хуршид Даврон ижодида ўтмиш воқеа-ҳодисаларига юксак маънавий назар билан боқиш, бошқалардан ҳам мана шу эътиборни талаб қилиш каби муносабатлар борки, бу ҳар қандай инсонни миллат тарихини ҳимоя қилишга, миллий қадриятларни эъзозлашга ундайди. У мозий саҳифаларини билмай туриб бугунни англаб бўлмаслигини яхши тушунади. Шундай туйғу ва кечинмалари уни Самарқанддаги озодлик ҳайкали қошига олиб келади:

Хазонлар...

Хазонлар боққа ҳукмрон,

Тилларанг бўёққа бўялган олам.

Озодлик ҳайкалин қошига бу он

Эзгу ўйларимни олиб келдим мен.[4; 66]

Шоирнинг ташрифи олтин куз фаслига тўғри келяпти. Чунки шоир тасвирлаганидек *Тилларанг бўёққа бўялган олам* да, яъни кузда инсон ҳаёллари узоқларга кетади. У мана шу дақиқаларда озодлик учун, эрк учун курашган ботирлар руҳи билан суҳбатлашишни мақсад қилади:

Бу ерда кўксимга изтироб битган

Қиссалар тошини ирғитиб, тиниб,

Шу кутлуғ заминнинг қўйнида ётган

Ботирлар руҳини чорлайман ёниб[4; 66].

Шоир кўз ўнгида бирдан тарих, ўтмиш қайта жонланади, ундаги эрларнинг овозлари қулоғига эшитилади. Ердан япроқларга қонлар сачрайди ва энди шоир ҳаёлида: *Дарахтлар эрк дея курашган лашкар, Қўлига инқилоб берган яловдек, Дарахтлар эрк дея навқирон аскар, Ёнган, озодликнинг қалби-оловдек. Дарахтлардаги ҳолат лирик қаҳрамон қалбини ҳам забт этади. Унинг юрагига ўт бўлиб киради.. Бу ўт, олов шоир қаршисида гувиллаб ёнади, унинг учкунларини шамол кўкка учиради. Бу мисраларда шоир дарахтларни эрк дея курашган лашкарга эрк дея талпинаётган навқирон аскарга ўхшатади. Шоир рамзий тимсолнинг етакчи хусусиятидан фойдаланади. Рамз образли ифоданинг бир кўриниши сифатида намоён бўлади. Озодлик! Тилингда ҳайқириқ бўлган Сўзни ким ўчирар қабртошлардан?! Озодлик! Уйқусиз кўзингга тўлган Тердай аччиқ, қонли ва шўр ёшлардан. – дея, озодликнинг ўчмас, мангу қиёфасини гавдалантиради. Шоир боболарини озодлик қаршисидагина тиз чўкиб ўлганлигини, фақат озодликкагина тиз букканини таъкидлайди Ҳайкал остида ёниб турган оловни шоир олов озодлик ундирган гиёҳ деб атайди. Бу оловнинг тафтидан юрак ёнади, олов юрак шаклига киради.*

Шеърдаги *дарахт, гиёҳ, олов* каби рамзий тимсолларнинг яна бир муҳим вазифаси шуки, у лирик қаҳрамон руҳиятида туғён уйғотади. Шоир

хаёллари озодлик учун кураш олиб борган, ҳаётини эрк учун тиккан ўтмишдаги ота-бобларининг руҳидан фориг бўла олмайди. Шеърда *дарахт, гиёҳ, олов* кураш рамзи сифатида келаётгани равшан.

Мумтоз шеъриятда ҳам гул тимсоли аёл кишини, булбул эса ошиқ йигит тимсолини англаган. Айниқса, ўсимликларнинг рамзий ва мажозий ўринларда акс этиши инсоннинг табиат билан уйғунлигини, муштараклигини кўрсатади. Чинор дарахти мисолида мустаҳкам ва матонатли инсон қиёфаси кўз олдимизга келади. Сариқ гул – айрилиқ, қизил гул эса учрашув рамзи, кабутар – тинчлик, нон ва туз ризку рўз рамзини ифодалаб келган. Санъатда ҳам бадиий адабиётда ҳам табиатдаги барча предметлар, нарса-ҳодисалар ижодкор томонидан мажозий ва рамзий маъноларда ифодаланган.

Рамз-мажоз образли фикрлашнинг энг муҳим шартларидан биридир. Чунки рамзий-мажозий тимсоллар маъно англантишда, шеърга таъсирчанлик, юксак эмоционаллик бахш этишда муҳим роль ўйнайди.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Сабирдинов. А. Ойбекнинг поэтик маҳорати: Филол. фанлари д-ри. ... дисс. – Тошкент, 2007. – Б.197.
2. Хуршид Даврон. Баҳордан бир кун олдин. – Тошкент: Шарқ, 1997. – 224 б.
3. Хуршид Даврон. Қақнус. – Тошкент: Ёш гвардия, 1987. – 203 б.
4. Хуршид Даврон. Тўмариснинг кўзлари. – Тошкент: Ёш гвардия, 1984. – 112 б.
5. Шарафиддинов О. Гўзаллик излаб. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985. – Б.6.
6. Қуронов Д. ва бошқалар. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2010. – Б.244.

### МАҲМУД ҚОШҒАРИЙНИНГ «ДЕВОНУ ЛУҒАТИ-Т-ТУРК» АСАРИДА ХАЛҚ МАҚОЛЛАРИНИНГ АКС ЭТИШИ

*Бойсинов Соҳибжон Собирович,  
ЖДПИ катта ўқитувчиси*

Мақол жаҳон халқлари оғзаки ижодининг классик жанрларидан бири бўлиб, унда халқнинг узоқ асрлик тарихи, турмуш тарзи, миллий маданияти, этнографияси, орзу-истаклари, дунёқараши, ўй-фикрлари, тилининг мисқоллаб йиғилган бойлиги тамғаланган бўлади. Халқ мақолларида кишилиқнинг турмуш тажрибалари асосида чиқарган фалсафий хулосалари ихчам ва лўнда шаклда ифода этилган. Уларни қадимги халқ поэтик тафаккурининг, ота-боболар донишмандлигининг бебаҳо мероси, тил тарихининг такрорланмас ёдгорлиги деса бўлади.

Мақоллар тарихи узоқ даврларга бориб тақалади ва улар турли номлар билан – *мақол, матал, масал, ҳикматли сўз, донолар ҳикмати, машойихлар,*

*донишмандлар сўзи, оталар сўзи, нақл, боболар нақли, қайроқи сўзлар, ҳикмат гулдасталари* деб аталиб келган.

Дунё фольклоршунослигида мақолларни ўрганиш бугунги кунда юқори босқичга кўтарилган. Қадимги халқ оғзаки ижоди намунаси бўлган мақолларнинг илк тадқиқотчиси Маҳмуд Қошғарий ҳисобланади. «*Маҳмуд Қошғарий туркий қабилалар фольклорининг қўшиқ, мақол, матал, маросим фольклори, афсона, ривоят каби жанрларига оид катта материал тўплаги. Шунинг учун ҳам «Девону луғотит турк» асаридаги фольклор материалларини ўзбек халқ оғзаки бадий ижоди намуналари билан қиёсий ўрганиш фольклорнинг тарихий тараққиётини тадқиқ этишда муҳим аҳамият касб этади*» [ 1, 25 б. ].

Муаллиф «Девону луғати-т-турк» асарида сўзларнинг маъносини изоҳлаш учун, ўрни билан, халқ оғзаки ижоди намуналаридан мисоллар келтирган. Булар қадимги дostonлар, халқ қўшиқларидан олинган шеърӣ парчалар ва туркий халқлар орасида кенг ёйилган мақоллардир. Маҳмуд Қошғарий асарда халқ мақолларини келтирар экан, уларнинг мазмуни ва қандай ҳолатда ишлатилганини ёритиб берган. Туркий халқлар тилининг битмас-туганмас хазинаси саналувчи ушбу асарда 400 дан ортиқ халқ мақоллари қўлланган ва улар қандай ўринларда қандай маъноларда қўлланилиши изоҳланган.

Шу ўринда қимматли бир маълумотни келтириб ўтсак, ўзбек мақолларини илмий ўрганиш XIX асрлардан бошланган. Маълумки, XIX асрнинг иккинчи ярмида (1863) венгриялик тарихчи, сайёҳ Ҳерман Вамбери Ўрта Осиёга ҳожи ниқобида келиб кетган. У кетишида ўзи билан олиб кетган 19 ёшлик муллавачча Мулла Исоқ бўлиб, у ўша юртда вояга етиб, ҳаттоки Венгрия Фанлар Академиясида ишлаган. 1865 йилда эса Венгрия Фанлар Академиясининг филология бўлими «Тилшунослик ахбороти»да ўзбек мақолларини нашр эттирган. Ўз ичига 44 та мақол, матал, эртак ва топишмоқлар киритилган ушбу тўплам Европа илмий жамоатчилигида катта шов-шув уйғотади. Чунки шу давргача ўзбек халқ мақоллари ҳақида Европа аҳли беҳабар эди.

Агар Мулла Исоқ чоп эттирган мақоллар таркибига назар соладиган бўлсак, унда қадимда қўлланиб келинган, шунча даврлар ўтгандан сўнг ҳам ўз шакли, мазмуни ва аҳамиятини йўқотмай келаётган қатор афористик бирликлар ўрин топганлигининг гувоҳи бўламиз. Жумладан: *энасини кўриб қизини ол; асал тутган бармогин ялар; даъвогаринг подшо бўлса, арзингни Оллоҳ эшитсин; очлик нени едирмас, тўқлик нени дедирмас; арпа буздой ош бўлур, олтин-кумуш тош бўлур; қорани ювсанг, оқ бўлмас; от ориқликда, йигит гарибликда билинар* ва бошқалар.

«*Мақоллар халқ оғзаки ижодининг қадимий оммавий жанрларидан биридир. Уларда халқимизнинг дунёқараши, жамиятга бўлган муносабати ва ахлоқий нормаси ўз ифодасини топган. Мақол – мантиқий мушоҳада намунаси, одоб ва ахлоқ қоидаларини ўзида жамулжам этган доно гап. У кишиларни огоҳлантиради (Бировга кулма зинҳор, сенга ҳам кулгувчилар*

бор), *маслаҳат беради* (Йўл билмасанг, йўл сўрагин юргандан, гап билмасанг, гап сўрагин билгандан), *танбеҳ бериб, танқид қилади* (Чолни кўриб бувам дема), *меҳнатни улуғлайди* (Ишлаганнинг оғзи ошга тегар, ишламаганнинг боши тошга тегар), *ҳажвий кулги остига олиб, фош этади* (Иштонсиз тиззаси йиртиққа кулар) ва бошқалар. Мақолларда чуқур мазмун, меҳнаткаш омманинг донолиги, миллий анъана, узоқ асрлик ҳаёт тажрибалари, табиат ва жамият ҳодисалари ҳақидаги фикри, баҳоси, меҳнат якунлари мужассамлашган. Шунинг учун ҳам мақоллар узоқ умрли бўлади. Мақолларда ҳар бир тарихий давр, ижтимоий сиёсий воқеалар маълум даражада ўз изини қолдиради» [ 2, 108 б. ].

Дарҳақиқат, мақоллар кишиларнинг ижтимоий ҳаётга, жамиятга бўлган тўғри муносабатини шакллантириш ва ривожлантиришда муҳим восита бўлиб қолаверади.

Шу нарса аёнки, улар қадим замонларда халқ турмуш фаолияти жараёнида юзага келиб, шу кунларгача қўлланиб келинмоқда, ўз ижодкори бўлмиш халқ билан бирга яшамоқда. Албатта, айрим мақоллар халқнинг маълум давр босқичида қўлланилиб, кейин истеъмолдан чиқиб кетиши ҳам мумкин бўлиб, ҳаётини воқеликни акс эттирган мақоллар оммалашиб, тилдан-тилга, даврдан-даврга ўтиб, яшовчан турғун паремиологик бирликларга айланади. Чунки ҳар бир мақол ва маталда халқ ҳукми, унинг умумийлашган хулосалари акс этадики, улар барча даврлар учун тегишлидир: «*Бола – ёшидан, Хотин – бошидан, Одамга – либос, эшакка – тўқим, Нима эксанг, шуни ўрасан, Йироқдаги қуйруқдан яқиндаги ўпка яхши, Обруйни ёшликда сақла, Тил – ақл тарозиси*» каби.

Мақоллар мавзу жиҳатидан жуда бой ва турфа хилда бўлиб, Ватан, меҳнат, севги-муҳаббат, мардлик, панд-насихат, яхшилик ва ёмонлик, элга ва юртга содиқлик каби эзгу мавзуларда, шунингдек, салбий хислатлар хусусида ҳам бўлиб, кишиларни яхшиликка, тўғрилиқка, олижанобликка, мардликка чорлайди. Мақолларда акс этган мазмун ҳатто кичик бир асарга тенг келади. Улар асрлар мобайнида халқ орасида сайқалланиб, ихчам, лўнда ва содда поэтик шаклга тушган.

Профессор Қ.Содиқов мақоллар шакли ва услуби тўғрисида қуйидаги фикрни айтади: «*Халқ мақолларида бадий услуб ихчам бир кўринишда мужассамлашган*» [ 3, 78 б. ]. Муаллифнинг бошқа бир қадимги услубларга бағишланган асарида ёзма услуб тўғрисида қуйидаги фикрлар баён этилган: «*Ёзма адабий тил, матн тузиши анъанаси эндиgina юзага келаётган бир чоғда халқ оғзаки ижоди ва унинг услуби аллақачон шаклланиб, юксалиши босқичига ўтган эди. Бадий услуб ўзининг оғзаки босқичидаёқ пишиб етилган. Ёзма бадий услуб ўз қолипини, бичимини оғзаки адабиётдан олди. Оғзаки кўринишда асрлар оша такомиллашиб келган бадий услуб ёзма адабиётга кўчиб, ўз йўлини янги бир шаклда давом эттирди*» [ 4, 12-13 б. ].

Ушбу таъриф халқ оғзаки ижоди намунаси бўлмиш қадимги туркий мақолларга ҳам тегишли. Улар оғзаки шаклда пайдо бўлиб, даврлар оша такомиллашиб, услуб жиҳатдан сайқаллашиб, сўнг Маҳмуд Кошғарий йиғиб,



келтирган шаклга ўтган. Ундаги мақолларнинг кўпи турли шаклларда бугунги кунгача етиб келган.

Сўнгги йилларда мақолларнинг тематик гуруҳлари хилма-хиллиги, уларни мавзу (тематик) гуруҳларга бўлиб ўрганиш борасида мулоҳазалар, тўхтамлар кўзга ташланмоқда. Мақолларни мавзу (тематик) гуруҳларга бўлиб ўрганишда уларнинг маъноси, мазмун-моҳияти ҳисобга олиниши лозимлиги кўплаб тадқиқотчилар томонидан эътироф этилмоқда. Жумладан, «Уларни қуйидаги 16 мавзу гуруҳларига ажратилиши мумкин: 1. Бирлик ва ҳамжиҳатлик ҳақидаги мақоллар; 2. Билимлилик ва билимсизлик ҳақидаги мақоллар; 3. Дангасалик ва меҳнатсеварлик ҳақидаги мақоллар; 4. Вақт ва ҳаёт тарзи билан боғлиқ мақоллар; 5. Манманлик ҳақидаги мақоллар; 6. Хоинлик ҳақидаги мақоллар; 7. Кишининг ор-номуси ҳақидаги мақоллар; 8. Эркинлик, озодлик ҳақидаги мақоллар; 9. Ризқ-насиба ҳақидаги мақоллар; 10. Ҳалоллик ҳақидаги мақоллар; 11. Киши тақдири ҳақидаги мақоллар; 12. Тўғри сўзлик ҳақидаги мақоллар; 13. Кишининг феъл-атвори ҳақидаги мақоллар; 14. Эзгулик билан боғлиқ мақоллар; 15. Қариндош-уруғчилик ҳақидаги мақоллар; 16. Тенглик ҳақидаги мақоллар» [ 5, 15 б. ].

Мақолларни ўрганиш, улардаги мазмун-моҳиятни теранроқ англаб етишда бундай тартибланиш ўрганувчиларга анчайин енгиллик ва қулайлик туғдириши аниқ.

Ўзбек халқ оғзаки ижодининг энг таъсирчан, энг эса қолувчи, кишини ўйлашга, фикр-мулоҳаза юритишга беихтиёр мажбур қилувчи кучга эга бўлган мақолларни қай йўсинда бўлсада ўрганиш орқали инсон шахсиятида ижобийлик хислатлари кўпайиб боради. У ўз-ўзини идора қилишга, қилган ишлари юзасидан ўзига ҳисоб беришга, ўзини тафтиш қилишга одатланади.

Бизнинг вазифамиз эса олимнинг «...мен ҳар бир қабилага мансуб сўзларнинг ясаили хусусиятларини ва қандай қўлланилишини қисқача изоҳлаб кўрсатиши учун алоҳида йўл тутдим. Бу ишда мисол тариқасида туркийларнинг тилида қўлланилиб келинган шеърлардан, шодлик ва мотам кунларида қўлланиладиган ҳикматли сўзларидан, мақолларидан келтирдим, токи, улардан фойдаланувчилар нақл қилувчиларга, нақл қилувчилар эса ўз навбатида шу тилда сўзловчиларга етказсин» [ 6, 44 б. ] деган истагини амалга ошириш.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Жўраев М. Фольклоршунослик асослари. –Т.: Фан, 2009. –Б 25.
2. Имомов К. в.б. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. –Т.: Ўқитувчи, 1980. –Б. 108.
3. Содиқов Қ. Туркий ёзма ёдгорликлар тили: адабий тилнинг юзага келиши ва тикланиши. –Т. 2006. –Б. 78.
4. Содиқов Қ., Омонов Қ. Ўзбек тилининг ёзма услублари тарихидан. – Б. 12-13.
5. Мирзаалиев И. М. Қадимги туркий мақоллар семантикаси ва стилистикаси («Девону луғати-т-турк» материали мисолида). Филология

фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. авт. –Т. 2020. Б 15.

6. Маҳмуд Қошғарий. Девону луғоти-т-турк. Нашрга тайёрловчи: С.Муталлибов. 1-том. –Т.: Фан, 1960. Б 44.

**XXI АСР САФАРНОМАЛАРИ :  
БУГУНДАН МОЗИЙГА ҚЎЙИЛГАН КЎПРИК  
(Қамчибек Кенжа билан суҳбати )**

*Неъматова Хулкар Абдулбакиевна,  
ЖДПИ ўқитувчиси*

XXI аср ўзбек адабиётида сафарнома жанри ривожига ўзининг муносиб ҳиссасини қўшган шоир Қамчибек Кенжа билан бугунги кун сафарномаларининг табиати ва такомил хусусида суҳбатлашдик. Муаллиф қаламига мансуб сафарномаларининг мутолааси асносида пайдо бўлган бир қанча саволлар ҳамда фикр-мулоҳазаларимизга қуйидагича жавоб олдик:

**Хулкар Неъматова:** - Академик Азиз Қаюмов таъкидлаганидек, XX аср сафарномаларининг бунёдга келишида Сизнинг ҳам салмоқли ўрнини бор. Айтингчи, сиз ўз битикларингизда узоқ тарихга эга сафарнома жанрининг қандай анъаналарига суяндингиз, қайси жиҳатларини янгиладдингиз?

**Қамчибек Кенжа:** - Мутафаккир адиб, истеъдодли саркарда, олижаноб инсон Заҳириддин Муҳаммад Бобур ва бобурийлар ҳаёти ва ижодий меросини пухтароқ ўрганиш ниятида Андижонда Бобур Мирзонинг эътиқодли ихлосманди Зокиржон Мащрабов томонидан ташкил қилинган Бобур номидаги халқаро илмий экспедициянинг навбатдаги сафарига таклиф этилганимда, гарчи экспедиция раҳбари томонидан зиммамга ҳеч қандай вазифа юкланмаган бўлса-да, хаёлимдан сафар давомида кўрган-билганларимиз, қилган ишларимиз, кузатишларимиз ҳақида нималардир ёзиб келишим керак деган фикр кечди. Йўлга чиққан кунимиздан автомобил ўриндиғида ўтирган ҳолатимда бир даста оқ қоғозни, ёзишга қулай бўлиши учун тўрт буклаб, тиззамга қўйиб, кўрган-кечирганларимизни қайд этиб боравердим. Бир неча кундан кейин варақ-қоғозлар билан иш битмаслигига амин бўлдим-да, 96 варақли умумий дафтар тутдим. Тўғриси, мен бошда ёзадиган нарсамга жанр танлашни хаёлимга ҳам келтирмаганман. Сафардан қайтгач, варақлару умумий дафтарлардаги битикларни ропа-роса уч йилда оққа кўчириб, маълум бир андозага солгач, худди чақалокқа исм қўйишни муҳокама қилгандек, асар жанрини нима деб аташ тўғрисида бош қотирар эканман, ўйлаб-ўйлаб, “Сафарнома” деган қарорга келганман. Яъни сафарнома жанрининг анъаналари борасида ҳам, унинг қай бир жиҳатларини янгилаш хусусида ҳам мушоҳада қилиб кўрмаган эканман. Бу тарафлари энди устозлар, соҳа билимдонлари, тадқиқотчилар ҳукмига ҳавола.

**Хулқар Неъматова:** - Сафарномани анчайин шахсий, муаллиф “мени” фаол бўлган жанр деган фикрга қўшиласизми?

**Қамчибек Кенжа:** - Фикри ожизимча, ҳар қандай ижодқору санъатқор баҳоли қудрат нималардир яратар экан ва бу яратилганларни ихлосмандлар ихтиёрига ўтказар экан, у ўз шахсий қобилидан чиқиб, ўзи дахлдор соҳанинг, жамиятнинг оддий бир вақилига айланади. Саволингизнинг иккинчи қисмига эса “Ҳа” деб жавоб бераман ва бу табиий ҳол деб ҳисоблайман. Чунки бунда муаллиф истаса-истамаса, ўзи асосий иштирокчи ва бош қаҳрамон сифатида ҳаракатланади ҳамда асосий воқеа-ҳодисалар унинг кўнгил кечинмалари ва дунёқараши билан омикталашади.

**Хулқар Неъматова:** - Ҳиндистон тарихига назар ташлар эканмиз, минг йиллар давомида гоҳ шимолдан, гоҳ ғарбдан, гоҳ жануб ё шарқдан бу юртга босқинлар бўлганини яхши биламиз. Аммо Ҳиндистоннинг ўзи бирор юртга қўшин тортиб бормаган экан. Бунинг сабаби нимада?

**Қамчибек Кенжа:** - Ҳиндистон ҳудуди, аҳолиси ва бошқа жиҳатлардан катта империя бўлиб, бойлиги ҳам ўзига етарли даражада эди, шу боисдан ҳам ушбу салтанатга ўзга давлатларнинг хоқону султонлари кўз тикаверганлар, Бобур Мирзодан ўзга аксар фотиҳлар мазкур юртни талон-тарож қилиб, оладиганини олиб, иссиғига чидамай, тезгина қайтаверганлар. Қолаверса, Ҳиндистондай бепоён мамлакат яхлит давлатдан иборат эмас, балки бир қисмида маълум ҳукмдорлар ҳукмронлик қилган бўлса, қолган қисми катта-кичик рожалар қўлида, бинобарин, марказлашган катта қўшин ҳам йўқ эди. Яна шуни ҳам айтиш керакки, ҳиндлар табиатан жуда ювош, ройиш халқ бўлгани учун ҳам бошқа элларга босқинчилик қилавермаган, деб ўйлайман (бу, албатта, менинг шахсий фикрим).

**Хулқар Неъматова:** - Сафарингиз давомида ғайб деб аталмиш мўъжизаларга дуч келдингизми? Шундай ҳолатда хурофот билан ҳақиқат чегарасини нозик фаҳмлаган Мирзо Бобур ҳайрати кўнглингиздан ўтган пайтлар бўлдимми? Хусусан, “Ҳинд сориға” да Бобур Мирзонинг 510 йиллик юбилеи муносабати билан Андижонда буюк бобомизнинг отлик ҳайкали очилишида Боғишамол даҳасида оҳиста сузиб юрган кулранг туман ҳақида гапиргансиз. Бундай ҳолатлар бошқа вақт ҳам бўлганми?

**Қамчибек Кенжа:** - Йўқ, сафар давомида ундай мўъжизаларга дуч келмадим, лекин сафардан кейин, Республика Вазирлар Маҳкамасининг қарорига асосан Андижонда Заҳириддин Муҳаммад Бобур таваллудининг 510 йиллиги нишонланаётган кунларда вилоят осмонида қорамтир булутлар айланиб тургани, янгигина барпо этилган буюк шоир рамзий қабри ва сағанасини кифтида кўтариб турган Боғишамол (ҳозирги Бобур боғи) тепалигининг ҳарир ҳаворанг парда (туман) ичра оҳиста сузаётгандай кўрингани ва бу манзара-ҳолатни кимлардир Бобур Мирзо ҳамда бобурийларнинг руҳларига менгзаганлари рост.

**Хулқар Неъматова:** - Ҳар бир асарнинг яралиши муаллифнинг фикрий машаққатлари самараси, ҳосиласи натижасидир. Йўл таассуротлари, ажиб манзаралари-ю қизгин суҳбатларини бирма-бир иншо этиб боришнинг

ҳам ўзига хос ноқулайликлари мавжуд, албатта. Сафарномалар ёзишнинг мураккаб томонлари (қийинчиликлари) нимада?

**Қамчибек Кенжа:** - Табиийки, ҳеч бир тур ё жанрдаги ижод маҳсули беаҳдат вужудга келмас. Сафарнома жанрига, хусусан камина қаламига мансуб, адабиётшунос олим Ваҳоб Раҳмон таъбирича “роман-сафарномалар” яралишига келсак, уларни ҳам қоғозга туширишнинг мураккабликлари йўқ эмас, албатта. Даставвал шуни айтиш керакки, биз сафарларга кичик автобус ё бошқа автоуловларда чиқар эдик. Кўзланган маълум манзилга тезроқ етиб олиш учун уловни қичаб юришга тўғри келарди. Мен буклама варақ ё дафтарни тиззаларимга қўйиб, йўл-йўлакай дераза орқали кўрган-кузатганларимни қоғозга тушириб борардим. Улов мудом тебраниб юргани учун текис ва рисоладагидай ёзишнинг иложи йўқлиги аён. Шаҳарлардаги музейлару кутубхоналарда бўлганимизда, илмгоҳу бошқа муассасаларда олимлар ва умуман экспедициямиз дастурига дахлдор кишилар билан учрашув-мулоқотлар ўтказганимизда, Бобур ва бобурийлар курдирган меъморий обидалар ва ўзга тарихий ёдгорликларни, мамлакатлар, шаҳарларнинг диққатга сазовор жойларини зиёрат ва томоша қилиб юрган кезларимизда мен кўлимда дафтар билан таржимон орқали эшитган-билганларимни, ахборот-маълумотларни апил-тапил, қисқартма сўзлар, белгилар билан қоғозга тушириб олиш пайида бўлар, шундай маҳалларда мумкин қадар бошқа нарсаларга чалғимасликка ҳаракат қилардим. Кечаси, алламаҳалларда, қийинчилик билан топилган меҳмонхоналарда куни бўйи йўл юриб толиққан ҳамроҳларим дарҳол уйқуга ётишар, мен столда, шароит йўқ жойларда тагин тиззаларимни стол қилиб, кундаликдаги қисқартма-қораламаларимни бошқа дафтарга ўқиса бўлгудек қилиб, қоғозга тушмай, хотирамда қолган таассуротларим билан, табиат манзаралари тасвири билан тўлдириб кўчириб ўтирар ва бу ишни эрта-азонда шериклардан барвақтроқ туриб яна давом эттирардим. Баъзи-баъзида раҳбаримиз маълум бир муносабат билан бир неча соат эркин дам олиш ё шаҳар айланишга ижозат берган маҳалларда ҳам мен бу имкониятдан хомакиларимни эпқага келтириш учун фойдаланардим. Ушбу мақсадда ҳатто таомланиш ва бошқа маданий-маиший амалларга ажратиладиган вақтларни ҳам тежашга уринардим. Шундай қилмасам, сал муддат ўтгач, таассуротларим қоришиб, аралаш-қуралаш бўлиб кетиши, хиралашиб қолиши, қисқартма сўз ва жумлаларни умуман тиклай олмаслигим аниқ эди. Шусиз ҳам шошилишдаги эгри-бугри, қинғир-қийшиқ қайдларимни, жой, одамларнинг номларини атамаларни аниқ ўқий олмай кўп овора бўлардим.

Масаланинг бошқа жиҳати – кўпчиликка ҳавола қилинадиган китоб тамомила муаллифнинг кўрган-билганларини шахсий кечинмаларидан иборат бўлиб қолмаслиги керак. Кўрилган-кечирилганларини, факт ва рақамларни саралаш ва яна бойитиш, бадиийлаштириш, яна ўтмишдаги воқеа-ҳодисаларни замонага боғлаш, яъни мозий билан ҳозирги даврни уйғунлаштириш, умумлаштириш, бунинг учун тарихий манбаларни, мавзуга оид илмий тадқиқотларни, тарихий-бадиий асарларни кўриш, чоғиштириш

хам анчайин вақт ва диққатни талаб қиладиган жараёндин. Лекин айна пайтда бу қийинчиликлар, тадориклар, ташвишлар менга ҳузур бағишлар, қилаётган ишимдан мамнунлик туярдим. Сафарномалар оқ қоғозга тушиб, китобларга айланиб, улар ҳақида илиқ фикрлар эшитгач, тўғри йўл тутганимга ишонч уйғониб, хийла енгил нафас олдим.

**Хулқар Нейматова:** Раҳмат. Мазмунли суҳбатингиз учун Сизга миннатдорчилик билдирамиз, ижодий баркамоллик тилаймиз.

Ҳурматли ўқувчи гувоҳи бўлганингиздек, муаллиф билан суҳбат китобхонга асарнинг туғилиши, унинг мақсад, моҳияти, мутолаа давомида англамай қолинган айрим жиҳатларнинг қайта кашф этилиши каби имкониятларни ҳам яратади.

Айтиш мумкинки, Қамчибек Кенжа қаламига мансуб сафарномалар ўзининг давомийлиги, тадрижийлиги билан ажралиб туради. Хусусан, “Ҳинд сориға”, “Андижондан Даккагача”, “Андижондан Бағдодгача” ҳамда “Буюклар изидан” каби роман-сафарномалари Бобур Мирзо ва бобурийлар қолдирган бой маънавий меросни тадқиқ этиш билан бирга, Бобур номидаги Халқаро экспедициянинг хорижга уюштирган ҳар бир сафар жараёни ва уларнинг натижасини ҳам кенг жамоатчиликка етказиш мақсадида турли йилларда, турфа мамлакатлар бўйлаб уюштирилган сафарларнинг хайрли мақсади бир йўналиш – Бобур Мирзо, бобурийлар ва тақдир тақазосига кўра, чет элларда қолиб кетган буюк аждодларимизнинг қутлуғ излари томон йўналтирилгани билан белгиланади. Айна пайтда ана шу мақсад ва моҳият Қамчибек Кенжа яратган бир қанча сафарномаларнинг ички яхлитлигини, узвийлигини таъминлаган жиҳат ҳамдир.

Қамчибек Кенжа сафарномалари илмийлик, маърифийлик, тарбиявийлик, қиёсийлик, публицистик, беллетристлик каби ушбу жанрнинг қадим хусусиятларини ўзида ёрқин намоён этган асарлар. Қамчибек Кенжа сафарномалари Учинчи ренесанс пойдевори қурилаётган янги Ўзбекистонимизнинг маънавий-маърифий ҳаётида муҳим аҳамиятга эга эканлигини ҳам эътироф этган ҳолда, муҳтарам китобхонларимизни ушбу сафарномалар мутолаасига чорлаб қоламиз.

## ВКЛАД ЧУЛПОНА В РАЗВИТИЕ УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

*Норбоев Урозали Муродович,  
Джизакский политехнический  
институт старший преподаватель*

Один из ярких представителей узбекской литературы Абдулхамид Сулаймон угли Чулпон родился в 1897 году в Андижане в купеческой семье. Его отец сначала занимался земледелием, затем баззозом. Отец Чулпона был зрелым интеллектуалом и просветителем своего времени. Чулпон учился сначала в старой школе, затем в медресе и русскоязычной школе, свободно говорил на арабском, персидском и русском языках. Благодаря чтению он



изучает турецкий, немецкий и английский языки. Он питается социально-политическими взглядами Востока и Запада. Он с любовью изучает работы таких великих художников слова, как Фирдавси, Саади, Хафиз, Умар Хайям, Алишер Навои.

Демократические революции начала двадцатого века и движение джадидов оказали большое влияние на формирование мировоззрения и творчества Чулпона.

Творчество Чулпона началось в 1913-1914 годах. Как поэт, прозаик и драматург, он внес значительный вклад в развитие литературы своего народа. Первые произведения Чулпона были опубликованы в местных газетах, а также в оренбургском журнале. Работа Чулпона в газетах также служит школой в его творческом становлении.

Чулпон был писателем и публицистом. В этой связи его статьи «Что такое литература?», «Нашим уважаемым писателям» сыграли важную роль в понимании целей и задач литературы. Он выступил в 1914-1917 годах как пропагандист культуры и просвещения в таких рассказах, как «Жертва невежества», «Доктор Мухаммадиёр», «Железные дороги на нашей родине в Туркестане». Он писал о приятных и неприятных изменениях, произошедших в жизни в 1920-1924 годах после Октябрьской революции. Десятки эссе и публицистических статей, таких как «День в дороге», «Ночь в дороге», «Восточный поезд прибыл», «Восток проснулся», «Бешеные колонизаторы» и «Память дороги», осуждает трагедии, произошедшие во время войны.

С 1922 по 1926 год Чулпон опубликовал четыре поэтических сборника: «Пробуждение» (1922), «Источники» (1923), «Тайны рассвета» (1926), «Слово» (1935). К 30-м годам он подготовил сборник стихов, таких как «Джор». Однако «Соз» был опубликован, и «Джор» попал в ловушку репрессий. Среди сборников поэта выделяется «Источники» (1923). Сборник состоит из пяти разделов, которые называются «Для Востока», «Интуиция», «Любовь», «Черные дороги» и «В снегу». По словам поэта, этот букет стихов посвящен «землям Востока, которые раздавлены в тисках покорителей мира».

Чулпон признает, что к 1925 году он был вынужден изменить свои социальные взгляды. Тем не менее, созданные поэтом более двухсот поэтических произведений можно считать яркой летописью борьбы за счастье, будущее, независимость и свободу народа.

Чулпон - не только зрелый лирический поэт, но и талантливый писатель, написавший десятки рассказов, таких как «Девушка-пекарь», «В лунные ночи», «Тюльпан в снегу» и замечательный роман «Ночь и день» (1936).

По хронологии «Ночь и день» появляется в узбекской литературе после романов Абдуллы Кадыри и Садриддина Айни. Сопоставляя «Минувшие дни» Абдуллы Кадыри с романом Чулпана, отмечают, что в последнем раскрывается не цепь событий, а характер личности, душевные переживания,

происходящие в ней. В этом видется особый вклад писателя в развитие узбекской романистики.

К тому времени, когда Чулпан «созрел» для создания своего произведения, как в западной, так и в русской романистике довольно успешно проводились исследования человеческой души, демонстрирующие возможности пера в раскрытии психологии личности. Чулпан впервые использовал эти методы в узбекской прозе. Успех романа «Ночь и день» объясняется тем, что Чулпан как переводчик произведений известных советских и зарубежных писателей воспользовался их лучшими достижениями и художественным опытом.

Он также внес значительный вклад как драматург. Широкой известностью пользовались его короткие стихи «Халил фаранг», «Чоринин исёни», драмы «Ортик Каршибаев», «Муштумзор» и стихи «Ёркиной», которые долгое время не сходили со сцены. Также русский писатель В. В. в сотрудничестве с Яном он создал драму «Атака».

Чулпон как опытный переводчик перевел на узбекский язык роман Горького «Мать», трагедию Шекспира «Гамлет», А. С. Пушкина «Дубровский» и многие другие.

Как Фитрат и Абдулла Кадири, Чулпон стал жертвой репрессий. Реабилитируют поэта в 1956 году, но лишь в конце восьмидесятых годов его произведения вновь печатают, анализируют и возвращают читателям его доброе имя. Произведения Чулпона были опубликованы в 1991 году после длительного перерыва под названием «Я снова поверил слову». И, к сожалению, не все творчество Чулпана ныне доступно русскоязычному читателю. Хочется верить, что это обстоятельство временное и творчество выдающегося узбекского писателя будет доступно и любимо и мировой общественности.

После смерти награжден Государственной премией Республики Узбекистан им. Алишера Навои (1991 г.) и орденом Независимости (1999 г.).

#### ЛИТЕРАТУРА

1. Шарафиддинов О. Чўлпонни англаш. URL: [http:// www.e-adabiyot.uz/kitoblar/maqolalar/158-cholpon.html](http://www.e-adabiyot.uz/kitoblar/maqolalar/158-cholpon.html)
2. Куронов Д. Чўлпон насри поэтикаси. Тошкент :Шарқ, 2004. С. 146.
3. Кушжонов М. «Кеча ва кундуз» романида образлар тизмаси // Ўзбек тили ва адабиёти. 1992. № 3–4. С. 8–12. 6 См.:
4. Каримов Н. Чўлпон : маърифий роман. Тошкент :Шарқ, 2003. С. 410.

## FITRAT VA CHO‘LPON SHE‘RIYATIDA POETIK OBRAZ YANGILANISHI

*Tajibayeva Latofat Farhodovna,  
Qoraqalpoq davlat universiteti o‘qituvchisi*

Yangi o‘zbek adabiyoti o‘zining tug‘ilishi va kelib chiqishi jihatidan xalq hayoti, turmush darajasi bilan bog‘liqdir. U, shu ijtimoiy muhit yaratgan g‘oyaning ifodasi sifatida maydonga kelib, turli adabiy-madaniy omillar ta’siri ostida rivojlandi. Shuning uchun yangi o‘zbek adabiyotining mohiyatini, uning ijodiy-estetik asoslarini xalqchilik, vatanparvarlik, ma’rifatparvarlik g‘oyalari tashkil qiladi va mavzu ko‘lami, obrazlar olami shu yuksak g‘oyalar zaminida belgilanadi. “O‘zgarish zarurati nechog‘li dolzarb bo‘lmasin, jadid shoirlarning ijodiy izlanishlari eng avval mumtoz she’riyat an’analari negizida kechganini ham ta’kidlash kerak. Bu tabiiy ham negaki, jadid shoirlarning bari milliy madaniy zaminda yetishganlar. Xuddi vazn bobidagi izlanishlar aruzdagi jonli tilga eng muvofiq o‘lachovlarni saylab ishlatishu aruz imkoniyatlarini kengaytirishdan boshlangani kabi, ifoda sohasidagi izlanishlar ham mumtoz she’riyatdagi poetik obrazlarga yangicha mazmun yuklashdan boshlandi”.[1,78] Yangi o‘zbek adabiyotining yalovbardorlaridan biri Fitrat she’riyatida xalq she’riyatiga xos tabiiylik, quymalik va obrazlilik yaqqol ko‘zga tashlanib turadigan jihatlardandir. Shoir ijodida gul obraziga mumtoz adabiyotdan farqli ravishda ijtimoiy ma’no yuklaydi. Bilamizki, mumtoz adabiyotda gul obrazi yor timsoli sifatida qo‘llanilgan, Fitrat ijodida esa kelajakdan umid, yorqin va go‘zal kunlarning nishonasi sifatida poetik ma’no kashf etadi. Quyidagi misralar orqali buning guvohi bo‘lishimiz mumkin:

Umid guli bizim uchun ham tug‘ar:

Qayg‘urmagil sira, ey haq tuyg‘usi!

Yoki :

Yondirsangda umidimning gulin,

Borsun yonsin umidimning guli.

kabi satrlarda Fitrat Turkiston boshiga kelgan qaro kunlarning qachondir yo‘q bo‘lishidan, yorug‘ kunlarning kelishidan umid qiladi. Fitrat ijodi she’riyatimizdagi poetik ifodani yangilash bobidagi izlanishlarni o‘zida aks ettirgan go‘zal she’riyat hisoblanadi. Zamondoshi Cho‘lpon bilan hamohang fikrlagan, maqsad va orzulari bir bo‘lgan ikki ijodkorning she’riyatida ham bir xil ma’no tashiydigan obrazlarning borligiga guvoh bo‘lamiz:

Haqsizlik shahrining qon hidli eli

Armonim gulidan bir yaprog‘ uzub,

Bahorsiz cho‘llarga sovurib qo‘ydi.

U nozli yaprog‘im so‘lib sarg‘ayib,

Yo‘qsul qolganlarday ha yon yugurdi. (Behbudiyning sag‘anasin izladim)

O‘z fikrlarini obrazlar, ramzlar qatiga yashirishga majbur bo‘lgan ijodkorlar o‘zlari anglamagan holda yangi o‘zbek she’riyatiga yangicha ruh olib kirganlar, To‘g‘ri mumtoz davr adabiyoti ham obrazlar, jimjimador o‘xshatishlar, yashirin

ma'nolar tiliga qurilgan adabiyotdir, lekin Fitrat va Cho'lpon obrazlari mumtoz davr adabiyotidan keskin farq qiladi. Ular tabiat hodisalari orqali o'y-fikrlarini bayon etishga urinadi. Fitrat va Cho'lpon ijodida oddiygina "samon parcha"ning ham o'z o'rni bor, birgina "bulut" timsoli oq va qora ranglarda bir-biriga mutlaqo qarama-qarshi ma'noni ifodalaydi.

Bu kichkina, o'ksuz, oppoq bebaklar,  
Ucha-ucha etmay qolg'an tilaklar  
Eskan elning qo'llarig'a o'zini  
Tashlab qo'yar, borlig'ini unitar. (Qor)

"Qor" obrazi orqali xalqning oppoq orzulari ifodasini berarkan shoir, ucha-ucha maqsadiga yetmay shamolda sovrilgan tilaklarni o'ziga xos tarzda tasvirlashga urinadi. Cho'lpon o'zining "Tortishuv tongi)" she'rida esa qor obraziga o'zgacha ma'no yuklaydi:

Sizning uchun yoz boshining qoridek  
Eruv kunlar keladur,  
Sizning uchun olbostining zoridek  
yig'lar kunlar keladir  
Chiqadigan quyoshni siz behuda  
Etak bilan to'smoq uchun tirishmang,  
Ahmoq bo'lib, Azroilning oldida  
Jon talashing to o'lguncha berishmang!

Har ikkala ijodkor tabiat hodisalaridan o'rinli foydalana olgan. Real hayotda yuz berayotgan voqealarni ko'ngil prizmasidan o'tkazib, yangi obrazlar qa'tiga joylashda har ikki ijodkorning ham mahorati tahsinga loyiq. Cho'lpon ijodida qon obrazi alohida ahamiyat kasb etadi. Uning *she'rlaridagi* "Har kimdan ko'p qon yig'lagan sen eding", "Ko'pdan ichib kelgan qonlarin uning", "Quyug bulut to'dasi qonli yosh to'kib yig'lar?", "G'olib G'arbning qonga to'lgan ko'zidek", "Zo'r dengizning to'lqinida, bag'rida, Yuz yillarning qonli, qo'rqinch izi bor;" kabi misralar orqali yurtning ayanchli ahvoli, xalq boshiga tushgan mislsiz jabr-zulmlar, otalarning faryodi, onalarning fig'oni, go'daklarning ohu-nolasi, beva-bechoralarning alamli ko'z-yoshalari aks etgan. Cho'lpon ijodida "bulut" obrazi ham o'ziga xos poetik ma'no tashiydi. "Bulut ko'zidan esa erga og'u- yosh sochilar." , "Mening o'yimmi qora? Yoki yurt ko'kida bulut?", "Qora bulut to'dasikim, ko'klarni, Sharqni yopgan parda yanglig' yopmishdir" "Qop-qora dev kabi bulut yig'ini, Qoplab oldi yana quyosh yuzini", "Ko'k yuzida qop-qora, Ko'mir kabi qator-qator bulutlar" kabi misralar orqali yurtimiz boshiga kelgan balolar, xalqimiz hayotini ayanchli ahvolga olib kelgan ofatlar bulut obrazi orqali gavidalantiriladi. Cho'lpon she'riyatida davrga hamohang tarzda g'oya va mavzularida o'zgarish va yangilanishlar sodir bo'lganidek, uning ramz, majoz va timsollar olamida ham o'zgarish va yangilanishlar yuzaga keldi. O'z she'rlarida mumtoz she'riyatimizdagi an'anaviy poetik obrazlarni avvalgi g'oyaviy-badiiy mazmunlarini saqlagan holda ulardan ko'proq davr va hayotning ijtimoiy, ma'naviy va axloqiy masalalarini talqin qilish uchun foydalandi. Uning quyidagi

she'riga e'tibor bersak an'anaviy bulbul va gul obrazlariga ijtimoiy ma'no yuklaganing guvohi bo'lamiz. "Yupanmoq istagi" she'ri:

Yoki ko'z yoshidan yig'ilgan bir ko'l

Bo'yida egilgan tolda bir bulbul

Sayrasa, yig'lasa; ma'shuqasi gul

Kulganda yupatgay ko'ldagi hurlar?

"Tun" she'rida gul obraziga duch kelishimiz mumkin:

Tunning yashirin quchoqlarida

O'limlar, qonlar to'lgandir.

Uning aldamchi bog'larida

Qancha yosh gullar so'lgandir.

Cho'lpon, el – shamol, qon, bulut, ko'lanka, yo'lchi, yulduz, tong, tun, quyosh, timsollarini yangi-yangi hayotiy haqiqat va maqsadlar uchun xizmat qildirgan olgan simbolist shoirdir."Lekin Cho'lpon simbolizmi real zaminda turadi, chunki ramzlari – obrazlari hayotdan, tabiatdan olingandir. Shu bois ham shoir "Qushning hadigini tasvirlash orqali jamiyatda erksizlik kuchayayotganini, "Binafsha" orqali inson qadri-yu shani toptalyotganini, "Somon parcha" orqali jamiyatda shaxslik maqomi bekor bo'layotgani haqidagi tashvishu alamlarni ifodalay oldi. Ya'ni u chinakam sa'natkor sifatida analogiyalar yordamida obrazli tafakkur qildi va shu tufayli ham o'z ijodi bilan she'riyatni san'at tomon burdi"[2,232]. Shuni alohida qayd etish kerakki, obrazda yangilik qilish shakldagiga qaraganda birmuncha murakkab hodisa sanaladi, lekin she'riyatning chin ma'noda yuksalishi va yangilanishi ana shu poetik hodisaga ko'proq bog'liqdir.

"Ijtimoiy ongning tozarishi milliy ruh va tuyg'ularga ta'sir qilib, millat badiiy tafakkurining ham yangilanishiga olib keldi"[3,174]. O'zbek mumtoz adabiyoti xoslarning ko'nglini uyg'otishni mo'ljal qilgan bo'lsa, yangi o'zbek adabiyoti ommaning fikrini uyg'otishni maqsadga aylantiradi. Fikrni uyg'otishning birdan bir yo'li esa ma'rifat tarqatish edi. Firat va Cho'lpon ijodida ma'rifat, ozodlik g'oyalarini tarannum etuvchi she'rlar talaygina. Ular she'rlarida ozodlikni shunchaki targ'ib qilmadi, balki yangi obrazlar, ramzlar yaratish orqali yangi o'zbek adabiyotida mazmuniy va shakliy o'zgarish yasashga ham erishdilar.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Афақова Н. Ўзбек жади́д адабиётида шеърий шакллар тараққиёт тамойиллари: Филол. фанлари доктори ... дис. – Т.: 2006
- 2.Намдамов У. Yangi o'zbek shariyati.-Т.: Adib,2012,
3. Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. Т.: Yangi asr avlodi. 2006.



**ADABIY ALOQLARNING YOZUVCHILAR IJODIDA AKS ETISHI**

*Qurbonova Gulbahor Safarovna,  
JDPI o'qituvchisi*

Badiiyat, u xalq og'zaki ijodi namunalari bo'lishidan yoki yozma adabiyot bo'lishidan qat'iy nazar inson uchun, uning ma'naviyatini o'stirish, qalbini uyg'otish uchun xizmat qiladi. Adabiyot yaralibdiki, dunyo xalqlari adabiyoti bir-biridan oziqlanib, andoza olib boyib boradi. Yoki ikki adib bir-biridan bexabar holda bir xil syujetli asar yozishi ham mumkinligini adabiyotshunoslik ko'p kuzatgan. O'xshash syujetli asarlarni o'zbek va yevropa, o'zbek va qardosh xalqlar adabiyotida ko'plab uchratishimiz mumkin. Shu o'rinda syujet atamasining ta'rifini bir eslab o'taylik.

“Syujet” (frans. – predmet, “asosga qo'yilgan narsa”) badiiy shaklning eng muhim elementlaridan biri sanalib, badiiy asardagi bir-biriga uzviy bog'liq holda kechadigan qahramonlarning xatti-harakatlaridan tarkib topuvchi voqealar tizimini anglatadi. [1:114-bet] Faqat har bir turda (epik, dramatik, lirik) syujet o'ziga xos bo'ladi. Masalan, qissada bir qahramon atrofidagi kichik ijtimoiy muhitda bo'layotgan voqealar bilan muallif o'z ko'zlagan maqsadini ifodalaydi. Masalan, Nurali Qobulning “Salom, tog'lar” qissasini oladigan bo'lsak, yozuvchi asar bosh qahramoni Zulayho hayoti misolida sovuq urushning insonlar taqdiriga bo'lgan salbiy ta'sirini yoritib berganini ko'rishimiz mumkin. Qissa syujeti qirg'iz adabiyoti vakili Chingiz Aytmatovning “Jamila” qissasi syujetiga o'xshash. Jamilaning turmush o'rtog'i to'ylaridan ko'p vaqt o'tmay urushga ketgani kabi Zulayhoning turmush o'rtog'i ham yoshgina kelinni tashlab urushga ketadi. Urush davrining fojialaridan biri xuddi shu – hali bir-birining mehriga qonib ulgurmasdan, kelinlar turmush o'rtoqlariga yelib-yugurib xizmat qilishga ulgurmay yoshlar bir-biridan ayriladi. Ular endi faqatgina xatlar orqali bir-birlariga mehr va sog'inchlarini izhor qilishlari mumkin bo'ladi, xolos, agar bunga imkon, jonlari omon bo'lishsa.

Demak bu kabi voqealari bir-biriga o'xshash asarlarni sharq adabiyotida ham, g'arb adabiyotida ham uchratishimiz mumkin. Faqat syujetlari bir-biriga o'xshash bo'lsa ham asarlarning mualliflar undagi voqea-hodisalarni o'zlari yashaydigan ijtimoiy muhitdan kelib chiqqan holda, mentaliteti bilan bog'lab tasvirlagan bo'ladi. Masalan, Nurali Qobulning “Salom, tog'lar” qissasida keltirilgan quyidagi parchaga e'tibor qarataylik:

Toshbuvi xola ahyon-ahyonda ularnikiga kirib, G'oyibnazarning topar-tutari ancha yaxshi bo'lib qolganligini, holi-joni borida o'g'lining boshini ikkita qilib qo'ymoqchi ekanini aytardi. Qorako'z Toshbuvi xola shu haqda gap ochib qolguday bo'lsa, sekingina biror narsani bahona qilib chiqib ketar, dahlizda turib ularning gapiga quloq solardi... Shunday gap-so'zlardan keyin u bir necha kungacha o'zini g'alati sezar, Toshbuvi xola yoki G'oyibnazarga ko'rinishdan uyalib yurardi [2:53-bet].

Bu o'rinda asar muallifi o'zbek qizlariga xos bo'lgan ibo, sharm kabi tuyg'ularni ifodalash bilan birga milliy qadriyatimizni ko'rsatib berib, bugungi kun

yoshlarini ulardan oʻrnak olishga ham chaqirgan desak mubolagʻa boʻlmaydi. Aslida adabiyotning maqsadi ham shu – obrazlar, detallar orqali kitobxonga estetik zavq bagʻishlash bilan birga insoniyatni tarbiyalash, yaxshilikka undashdir.

Qissada Zulayho otasi bilan xayolan gaplashadi. Otasi unga “Uzoqning donidan yaqinning somoni yaxshi, bolam! Oqibatsiz qarindoshdan begona boʻlsa ham qoʻshni maʼqul” [2:44-bet] deb aytadi. Xalqimiz tilidan olingan bu purmaʼno soʻzlar hamisha oʻz tasdigʻini topgan. Yozuvchi nafaqat bu qissasida, balki barcha qissalarida ham xalq ogʻzaki ijodi namunalaridan unumli va oʻz oʻrnida foydalanadi. Syujet ichida syujetlar – qissalar ichida kichik-kichik hikoyachalar keltiradi. Xuddi Asqad Muxtorning “Chinor”, Ch.Aytmatovning “Asrni qaritgan kun” romanlari hamda Ch.Aytmatovning “Oq kema” qissasi syujetlari kabi. Nurali Qobul qissalarida peyzaj juda chiroyli beriladi. Uning goʻzal va soʻlim tabiat – Baxmal togʻlari yonbagʻirlarida katta boʻlganligi uning asarlaridagi tabiat tasvirlarining takrorlanmas boʻlishiga yordam bergan boʻlsa ajab emas. “Salom, togʻlar” qissasida keltirilgan peyzajlar ham juda mahorat bilan chizilgan.

“Salom, togʻlar” hamda “Jamila” qissasi syujetlari oʻxshash (Zulayhoning turmush oʻrtogʻi ham, Jamilaning turmush oʻrtogʻi ham urushga ketadi. Har ikalasi ham yigit kishi bilan doʻstlashadi. Har ikalasi ham front uchun dalada ishlaydi. Har ikkisi ham maktub orqali turmush oʻrtogʻi tirik ekanligini bilib turadi) boʻlsa ham ularning yakunlari turlicha. Vatan uchun jon kechib urushda yurgan turmush oʻrtogʻini tashlab Jamilaning boshqa yigit bilan qochib ketishi hamda turmush oʻrtogʻi hajrida aqldan ozayozgan Zulayho va uning fojiali qismati – oʻlimi bilan yakun topadi. Zulayho sharq ayoli boʻlganligi uchun ham juftiga xiyonat qilmadi, xatto bu haqda oʻylamadi ham. Ammo Jamilani ham qoralashdan yiroqmiz. Chunki u ham baxtli boʻlishga sevishga, sevilishga haqli inson bolasi. Zulayho Gʻoyibnazarga koʻngil qoʻyib turmushga chiqqan, Gʻoyibnazar ham uni yeru koʻkka ishonmay, oʻzidan ortiq sevardi. Ayriliqda yashagan davrda ham Zulayhoga boʻlgan mehr-muhabbati, sogʻinchlarini tez-tez bayon qilardi. Jamila hayotida esa aksincha, koʻz ochib koʻrgan jufti haloli “seni sogʻindim”, “seni yaxshi koʻraman”, “meni kut, albatta qaytaman” kabi soʻzlarni bir bor ham aytmedi. Shuning uchun ham balki Jamila oʻzi xohlagan, kutgan mehrni izlab boshqadan topdi. Taniqli adabiyotshunos, tanqidchi Ozod Sharafiddinovning bir fikri bor: “Davrlar har qancha oʻzgarmasin, insonni harakatga keltiruvchi asosiy omil shaxsiy manfaat boʻlib qolaveradi. Insonning bu xislati ruslarning “Baliq chuqur joyni izlaydi, inson esa yaxshi joyni” degan maqolida yaxshi ifodalangan”. [3:238-bet] Xuddi shunday bu xayotda hamma narsa ijobiy maʼnoda manfaatlar evaziga quriladi. Er ayoliga mehr koʻrsatsa, ayoli ham mehr koʻrsatadi. Ayoli eriga bor mehrini berar ekan “men shunday qilsam, u ham shunday qiladi” degan xayol albatta boʻladi. Menimchi, Chingiz Aytmatov bu asarni faqat Jamilaning xiyonatinigina koʻrsatib berish uchun yozmagan, aksincha mehr-muhabbat bor joyda “hayot” boʻlishini uqtirmoqchi boʻlgan. Oila mustahkamligida qanaqa davr boʻlishidan qatʼiy nazar oila boshi masʼul ekanligini yana bir bor koʻrsatib bergan. Agar Jamilaning eri bir martagina “Jamilam, meni kut” deb bir satrgina xat yozganida edi, ehtimol u ham Zulayho kabi sadoqatini saqlardi.

Zulayho haqiqiy o'zbek ayoli timsoli: mehribon qiz, g'amxo'r qo'shni, sadoqatli yor, mehnatkash fuqaro. Bu asarlar qachon, qaysi davrda yaratilmasin ular bizga yashash sharoitimizdan, xayotimizda yuz berayotgan voqealardan kerakli xulosalar chiqarib, sermazmun xayot kechirishimizga dasturul amal bo'lib xizmat qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. D.Quronov. Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent: "Noshir" nashriyoti, 2019.
2. Nurali Qobul. Johillik va qotillik: qissalar. Toshkent, "IJOD-PRESS" nashriyoti, 2017.
3. Ozod Sharafiddinov. Ijodni anglash baxti. Toshkent.: "Sharq", 2004.

## **BADIIY USLUBDA XALQ MAQOLLARIDAN FOYDALANISH MAHORATI**

*Jumanova Dilnavoz Ulug'bek qizi,  
JDPI o'qituvchisi*

O'zbek adabiyoti materiallarini o'rganish xalq aforizmlari yirik badiiy polotnolarning asosiy syujeti va mazmuniga singib, organik bo'laklarga aylanib ketganligini yetarli dalillar bilan tasdiqladi. O'zbek yozuvchilari yaratgan roman va povestlarda, hikoya va ocherklarda, drammatik va she'riy asarlarda milliy ruhiyatni yorqin qilib berishda, personaj xarakteri va psixologiyasini ochishda, tilni individuallashtirishda, reallik va xalqchillikni ko'tarishda maqol va hikmatli iboralar asosiy badiiy vositadir.

Adabiyotning har bir janri o'z tiliga, o'ziga xos vosita va imkoniyatga ega. Proza hajm jihatidan keng va so'zlashuv tiliga juda yaqin bo'lganligi sababli unda maqol va aforizmlar adabiyotning boshqa janrlariga qaraganda katta o'rin tutadi.

Xalq maqollaridan foydalanishda ham har bir yozuvchi, shoirning o'ziga xos uslubi borki, bu uslub o'sha yozuvchi va shoirning badiiy uslubini belgilashda katta rol o'ynaydi. Agar biz Abdulla Qodiriy bilan Sadridin Ayniyning, Oybek bilan Abdulla Qahhorning, G'afur G'ulom bilan Shayxzodaning asarlarini o'qib, xalq hikmatlaridan foydalanishdagi mahoratiga diqqat qilsak, ularning har biri o'ziga xos uslubga ega ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi.

Biz xalq maqollarining badiiy asarda tutgan rolini, b3adiiy asar tilining hikmatliligini ayrim adib va shoirlarning ijodi misolida qisqacha ko'rib o'tamiz. Nasr va nazmda so'z san'atkorlarning maqollardan foydalanish darajasi turli-tumandir.

Bunda biz Oybekning "Qutlug' qon" romanida xalq maqollaridan foydalanish mahorati yoritiladi.

Hozirgi zamon o'zbek adabiyotining rivojlanish jarayonini ulug' san'atkor Oybek ijodisiz mutlaqo tasavvur qilib bo'lmaydi. Uning romanlaridagi yorqin obraz va tiplar o'tmishning va hozirgi zamonning eng muhim tipik tomonlarini aks ettiradi.

Oybek o'zbek badiiy prozasini rivojlantirish bilan hozirgi zamon o'zbek adabiy tilining taraqqiyotiga samarali hissa qo'shdi. Uning yaratgan obrazlari faqat haqiqiy va yorqinligi bilan ham xarakterlidir. Yozuvchi shaxslarning psixologik kechinmalari, tashqi qiyofalari, voqeaga munosabatini, ayni zamondagi kayfiyatini o'ziga xos til bilan ifodalaydi.

Oybek ijodiga nazar tashlar ekanmiz, u dastlabki davrlarda maqol va aforizmlarni juda kam qo'llaganini ko'ramiz. Uning XX asr 30-yillarida yozgan she'r va poemalarida, ocherk va hikoyalarida aforizmlar juda kam uchraydi.

Yozuvchi proza sohasida yirik polotnolar yaratish bilan maqol va aforizmlarga ko'plab murojaat qila boshladi. Uning "Qutlug' qon", "Navoiy", "Oltin vodiyan shabadalar", "Quyosh qoraymas" romanlarida va "Nur qidirib", "Bolalik" povestlarida 400 ga yaqin maqol, matal va hikmatli so'zlar ishlatilgan. Biz bunga "Qutlug' qon" romanida qo'llagan maqollar haqida to'xtalamiz.

"Qutlug' qon" romani Oybekning birinchi eng yirik asaridir. "Qutlug' qon" romaniga qamrab olingan hayot va voqealar haqida Oybekning o'zi shunday yozgan edi: "Kichkinaligimdan bir tomonda boylar, gerdayib yurgan xasis savdogarlar, ochko'z sudxo'rlar, tekinxo'r yirik yer egalari, din va shariat sohiblari o'zlarining makkorliklari yo'lida qurol etgan ulamolar, ikkinchi tomondan, bechoralikdan ezilgan, tirikchilik mashaqqati toshida hadsiz chaqilgan kambag'al chorikorlar, behol dehqonlar, g'arib miskin kosiblar hayotini ko'rib o'sdim. Turmushning bu dahshatli haqiqati, hayotning fojiali, achchiq, ayanchli ko'rinishlarini ko'rgan va anglagandim". "Qutlug' qon" shu hayotning bir kichik lavhasidir. Xuddi mana shu hayot kartinasi romanda ishtirok etgan personajlarning individual til xususiyatlarida ochib berilgan. Romanda mehnatkash xalq vakillari - Yo'lchi, Gulnor, Qoratoy, Shokir ota va yuqori tabaqa vakillari - Mirzakarimboy, Abdushukur, Salimboyvachcha, Hakimboyvachcha, Tantiboyvachcha kabilaming tillari individuallashtirilishi bilan ulaming sinfiy kurashlari o'quvchi ko'z oldida namoyon bo'ladi.

"Qutlug' qon" romanining tilini kuzatish asardagi voqealar jarayonida asosiy konfliktni to'laroq yoritish uchun yozuvchi personajlar tilida maqollarga alohida e'tibor berganligi ko'rinadi. Mirzakarimboy Yo'lchidan otasining o'lganini, so'ngra qarz badaliga yeri sotilganini eshitib deydi: "Chakki bo'libdi" jiyani. **Yer sotgan er bo'lmaydi, er yer sotmaydi.** To'g'ri yerni pulga sotadilar, naqd pulni jaraq-jaraq sanab oladilar. **Pul hamma narsaning otasi. Pul belga quvvat, boshga toj. Puldor odam - qanotli odam.** Bu qanot bilan mag'ribdan mashriqqa uhasan, har yerda oshna - og'ayni, do'st-yor topasan... Pul asov qushga o'xshaydi. Sal bo'sh tutdingmi, qo'lingdan uchadi - ketadi. Yer ham tug'adi, ham pulga kishan soladi. **Yer olgan ko'karadi, yer sotgan quriydi.** Mana bu gapning mag'zini chaq jiyani?. Bulardan ko'rinib turibdiki, Mirkarimboy mol - mulkka ega bo'lgani uchun o'zining tetik tutishini yer va pul haqidagi, maqol bilan boshlab, maqol bilan xulosa qiladi. Boyning nutqidagi maqollar uning yer - suv va pulga naqadar ixlos qo'yib, tish tirnog'i bilan yopishib olganidan dalolat beradi.

Mirkarimboy odam ishlatishga usta va ehtiyotkor. U qishloqi jiyani Yo'lchini tulkidan ayyorlik bilan o'zida ishlatishga olib qolib, uni tekin mehnat



manbaya deb biladi. Shuning bilan birga **“Sinamagan otning sirtidan o‘tma”**, deb Yo‘lchining arslonday gavdasi va mag‘rur siymosidan cho‘chiydi: Mirkarimboy Yo‘lchining butun siymosida katta jasorat va g‘urur sezdi. Bu sifat unga jilla ma‘qul tushmadi. Keyin uning ehtiyotkorligi **“Sinamagan otning sirtidan o‘tma”** degan xalq maqolini esladi, agar Yo‘lchi unikida ishlashni orzu qilsa bir qancha vaqt sinamoqchi bo‘ladi: **“Oqibat yaxshi bo‘lsa, qo‘limdan sira chiqarmayman. Yalqov va g‘irrom yo qo‘li egri bo‘lsa, silliqlik bilan haydayman”** [5:15–16.] deb o‘ylaydi.

Yozuvchi **“Sinamagan otning sirtidan o‘tma”**, degan maqolni keltirish bilan boyning o‘z jiyaniga nisbatan ishonchsizlik bilan qarashini va unga ehtiyotlik bilan muomala qilishini ifodalab bergan.

Yozuvchi Mirzakarimboyning ilm-fanga bo‘lgan munosabati ham **“Har kim o‘qiyversa podani kim boqadi”** matalini keltirish bilan umumlashtirgan. Boy yuqori tabaqa bolalarining o‘qishiga e‘tiroz bildirmaydi, o‘z o‘g‘illarini ham biroz o‘qitgan. Lekin mehnatkash xalq, kambag‘al bolalarining o‘qishini aslo istamaydi. U jadid Abdushukuming maktab ochish haqidagi fikrlariga qo‘shilmaydi: **“Har kim o‘qiyversa podani kim boqadi? Mardikor, ahli kosib, beva-bechora o‘z qornini to‘ydirsa bas-da. Ularning bolalari o‘qib, ilm olib nima karomat ko‘rsatar edi”**[5:75.]

Butun roman davomida Mirzakarimboy tomonidan ishlatilgan maqol va matallar uning xarakterini ochishga yordamlashgan. Boyning Yo‘lchiga **“Bir terining ichida qo‘y necha ozib, necha marta semiradi”**, [5:15.] deganida zulm va haqsizlikka ko‘nikish uchun nasihatgo‘yligi; gumashtasi Mahamadrulga **“Sichqon teshgan supradan un to‘kilaveradi”**, [5:188.] deganida ustamonlik, ayyorlik o‘z ifodasini topgan. Oybek boyning nutqida yana bir necha maqol va matallar qo‘llaydiki, ular boyning ma‘naviy qiyofasini bevosita yalong‘ochlab ko‘rsatadi.

Asar oxirida Yo‘lchining adolat uchun kurashga munosabati **“Zulm qayerda uchrasa, shu yerda yondirish kerak, Xalq o‘z ishini bilib qiladi”**, [5:348.] degan aforistik iboralar bilan ifodalanadi. Yo‘lchi olomon bilan yangi shahardagi politsiya mahkamasi tomon boraveradi. Xalq ko‘ziga bu eng qora, eng mudhish mahkama edi... **“Yo‘lchi o‘z ichida zulm qayerda uchrasa, shu yerda yondirish kerak”**[5.348.] deb o‘ylaydi.

Yozuvchi romanda mehnatkash xalqning boshqa bir qancha vakillari tilidan ham ko‘plab maqollarni keltirgan. Shokir ota tilida berilgan **“Bo‘zchi belboqqa yolchimas, kulol mo‘ndiga”**, maqoli uning kambag‘al va nochorligi; **“Ta‘ma noniga qo‘l ochgandan o‘l och”** [5.138.] maqoli uning ma‘naviy yuksakligidan dalolat beradi.

Bulardan tashqari, yozuvchi asarda qahramonning ayni momentdagi ruhiy holati va kayfiyatini, kishilarga, voqea-hodisalarga bo‘lgan munosabatini ifodalab juda ko‘p maqol va matallarni qo‘llagan: Masalan: **Ilondan chayon tug‘iladi, Yer bag‘ri qattiq, Har kimning o‘z elati o‘ziga shirin, Jon yer, jon olov, Qish o‘chog‘i tor, tur uyingga bor, Yaxshi niyat-yorti mol** va boshqalar.



Umuman, Oybek o‘zining birinchi yirik proza asari- “Qutlug‘ qon” romanida o‘zbek xalqining o‘tmish hayotini, uning uyg‘onishini personajlar tilini xalq aforizmlari orqali individuallash bilan badiiy aks ettira olgan. Romanda maqol va matallar xalqchillik va reallikning muhim manbayi bo‘lib xizmat qilgan.

XX asr va hozirgi she'riyatni yuqori pog‘onaga ko‘tarishda Cho‘lpon, Usmon Nosir, H.Olimjon, G‘afur G‘ulom, M.Shayxzoda, A.Oripov, E.Vohidov kabi so‘z san'atkorlarining hissasi ulkandir.

G‘afur G‘ulom xalq maqollarini to‘ldirish, kengaytirish, davom ettirishning quyidagi usullaridan foydalangan:

1. Mavjud maqol tarkibida o‘zgarish bo‘lib, yangi so‘zlar qo‘shiladi: “Yigit bo‘lsang es (esing) borida etakni yop”. Ushbu aforizm o‘zbek xalqining “Esing borida etagingni yop” maqoli \\\nisbiy ma'noda\\\ asosida shakllangan.

2. O‘zbek badiiy adabiyotida maqol va matallarning mavjud komponentlarini o‘zgartirib, qisqartirib, yangi maqol yaratadi. Jumladan, xalqdagi “Qo‘lidan ish kelmagan maraka buzar” maqoli G‘afur G‘ulom tomonidan “Qo‘li bor badanini qashiy olmaydi” deb o‘zgartirib ishlatilgan.

2. Jonli tilda faqat bir komponentdan iborat bo‘lgan maqollardagi yangi-ikkinchi komponent orttirish hodisalari ham uchraydi:

”Yakka otning changi chiqmas

Changi chiqsa ham dong‘i chiqmas”, maqoli G‘afur G‘ulomning "Ko‘kan poemasida keltirilgan jumlasida bir - biriga mazmunan bog‘lanib ketgan va uzviy bir butunlikni tashkil etadi.

Yakka qozon yolg‘iz uyda hech qiynamas,

Kollektivning dosh qozoni shaxt basma - bas.

G‘afur G‘ulom xalq maqollari, matallari qolipi asosida aforizmlar yaratgan. Uning “Ikki vasiqa” balladasida dehqonning o‘tmishdagi va hozir hayotini Haydar cho‘qqi tilidan hikoya qilinar ekan, o‘zbek dehqonlarining o‘tmishdagi mazlum hayotini, umuman inson qadr - qimmatini, kishi boshi - soy toshi deb ifodalaydi:

Dunyo ekan, kishi boshi - soy toshi

Soylar oqdi sug‘ormay yonboshimda.

Har bulutki, ko‘lka solsa boshimda -

So‘nggi selday bo‘ldi menga ko‘z yoshi.

Asarning ikkinchi qismida dehqonlarga umrbod foydalanish uchun yer berish, hozirgi baxtiyor hayoti kishi boshi - ko‘p aziz deb haqqoniy ravishda badiiy aks ettiriladi.

Dunyo ekan, kishi boshi - ko‘p aziz,

Soylar aro sharaqlab yonboshida.

Baxt buluti ko‘lka solur boshimda,

Shu vodiya tamoman biz egamiz.

G‘afur G‘ulomning kishi boshi - soy toshi maqoliga qarama qarshi yaratgan kishi boshi - ko‘p aziz aforizmi hozirgi baxtiyor turmushimizning in'ikosidir.

Xuddi shu xildagi aforizmlar G‘afur G‘ulomning boshqa asarlarida ham uchraydi-ki, bu uning ijodkorligini namoyon etuvchi buyuk omildir.

O'zbek shoirlari folklorning eng ommaviy janri bo'lgan maqollardan o'z asarlarining xalqchilligini, realligini va badiiyligini oshirish uchun foydalanmoqdalar. Bu holni G'afur G'ulom, Oybek, Shayxzoda va boshqa ijodkorlarimizning she'r doston va balladalarida ko'rish mumkin. O'zbek shoirlari xalq tilining xazinasini bo'lgan maqollardan foydalanib, adabiy tilimizni xalq tiliga yaqinlashtirishga va boyitishga katta hissa qo'shmoqdalar. O'zbek shoirlari o'z asarlarini xalq hikmatlaridan bahra olib ijod qilishlari ular asarlarining uzoq umr ko'rishini, tez ommalashib ketishini ta'minlaydi.

O'zbek adabiyotida yaratilgan asarlardagi maqollar ma'no jihatidan xilma-xil, mavzu guruhlari nihoyatda boydir.

Badiiy adabiyot sahifalarida o'zbek xalqining sevinch va qayg'u, kulgi va yig'i, sevgi va g'azab, chin va yolg'on, mehnatsevarlik va tanballik, vatanparvarlik va qahramonlik xususiyatlarini aks ettiruvchi minglab maqollarni uchratamiz. Qadim avlodlardan bizga meros bo'lib o'tib kelayotgan, xalqimizning dunyo qarashi, jamiyatga bo'lgan munosabati, tarixi va ruhiy holatlarining in'ikosi bo'lgan maqollar badiiy asarlarda g'oyaviy va badiiy jihatdan muhim vosita vazifasini o'tab kelgan.

O'zbek yozuvchilari bunday maqollarga juda ehtiyotlik bilan yondoshib, mohiyatini tushunib, lozim bo'lgan o'rinlarda qo'llaganlar. Shunday qilib, o'zbek yozuvchilarining asarlaridagi maqol va matallarga suyanib, shuni aytish mumkinki, o'zbek maqollarining mavzusi juda boy va xilma-xildir. Necha yuz yillardan beri avloddan - avlodga o'tib kelayotgan ota so'zlarida tabiat va jamiyatga munosabat, hayotning butun ikir - chikirlari, insonning yaxshi xislatlarini ulug'lash, eski jamiyatning salbiy odatlarini qoralash va fosh qilish yotadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Hakimov M. "Oybekning proza asarlarida xalq maqollari" // Adabiyotshunoslik va tilshunoslik masalalari, 5-kitob. - Toshkent: Fan, 1963, 459-471-betlar.
2. Hakimov M. "Yozuvchi va xalq tili". - Toshkent: Fan, 1971, -176- bet.
3. "Maqollar va hikmatli so'zlar". To'plovchi B. Karimov. -Toshkent, 1939.
4. "Otalar so'zi - aqlning ko'zi. Hikmatli so'zlar". Nashrga tayyorlovchi X-Zarif. - Toshkent, 1947.
5. Oybek . Mukammal asarlar to'plami. 5-tom. Qutlug' qon.-Toshkent, 1976, 16-bet.
6. O'rinboyev B. "O'zbek so'zlashuv nutqi". -Toshkent, 1982. -148 bet.
7. "O'zbek xalq maqollari". Toshkent: // G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1978. -288 bet.
8. "Qanotli so'zlar: maqollar, matallar, hikmatli so'zlar". To'plab nashrga tayyorlovchi Y. Siddiqov. -Toshkent, 1986. -256 bet.
9. Samadov K- Oybekning til mahorati. -Toshkent, 1981. -104 bet.
10. Soatov B. "Maqollarning matal va topishmoqlarga munosabati" // O'zbek tili va adabiyoti, 1987, 5-son, 38-40-betlar.

**РУС ХАЛҚ ПОЭТИК ОҒЗАКИ ИЖОДИДА МАРОСИМ ФОЛЬКЛОРИ**

*Муминова Нодира Махмудовна,  
Андижон қишлоқ хўжалиги ва агротехнологиялар  
институтини катта ўқитувчиси*

"Фольклор" атамаси биринчи марта 1846 йилда инглиз олими Уильям Томс томонидан қандай новербал элементлар билан боғлиқ бўлишидан қатъи назар, сўз, нутқ орқали бирлаштирилган тузилмалар тўплами сифатида илмий фойдаланишга киритилган.

Ушбу атаманинг ишлатилиши фольклоршунослик предмети билан маданиятнинг бошқа шакллари ва қатламлари ўртасидаги алоқаларнинг турли хил тушунчалари ва талқинлари, ўтган асрнинг ўша ўн йилликларида этнография ривожланиб борган Европа ва Американинг турли мамлакатларидаги маданиятнинг тенгсиз тузилиши билан белгиланади, ва фольклоршунослик вужудга келди, кейинги ривожланиш суръатлари турлича бўлиб, ҳар бир мамлакатда илм-фан томонидан қўлланиладиган матнларнинг асосий фонди ҳар хил таркибий қисмларга ажратилади.

Шундай қилиб, халқ оғзаки ижоди - дoston ва кўшиқлар, мақол ва маталлар, эртаклар ва топишмоқлар, маросим ва бошқа шеърлар рус халқининг ўтмиши, атрофидаги дунё ҳақидаги ғояларини акс эттиради. Василий Буслаевич ва Садко ҳақидаги дostonлар Новгородни ўзининг бўронли шаҳар ҳаёти, хориж мамлакатларига сузиб келаётган савдо қарвонлари билан куйлайди. Рус халқи улкан оғзаки адабиётни яратди: ҳикматли мақоллар ва айёр топишмоқлар, кулгили ва ғамгин маросим кўшиқлари, тантанали дostonлар, қаҳрамонлик, сеҳрли, кундалик ва кулгили эртаклар. Бу адабиёт фақат халқ дам олиш меваси эди, деб ўйлаш бежиз. У халқнинг кадр-қиммати ва онгидир. Бу унинг ахлоқий фазилатларини шакллантирди ва мустаҳкамлади, унинг тарихий хотираси, қалбининг байрам либоси бўлди ва урф-одат ва маросимлар бўйича ўтадиган бутун умрини чуқур мазмун билан тўлдирди.

Халқ мусиқа санъати православ черковининг профессионал мусиқаси пайдо бўлишидан анча олдин пайдо бўлган. Қадимги Россиянинг ижтимоий ҳаётида фольклор кейинги даврларга қараганда анча катта рол ўйнади. Ўрта асрлардаги Европадан фарқли ўлароқ, Қадимги Россияда дунёвий профессионал санъат йўқ эди. Унинг мусиқий маданиятида фақат иккита асосий йўналиш - ибодатхона кўшиқчилиги ва халқ оғзаки ижоди, шу жумладан турли хил, шу жумладан "ярим профессионал" жанрлар (хикоячилар, буффонлар ва бошқалар) ривожланган.

Рус православ гимнографияси даврида фольклор узок тарихга эга, жанрлар ва мусиқий ифода воситаларининг ўрнатилган тизимига эга эди. Халқ мусиқаси ижтимоий, оилавий ва шахсий ҳаётнинг энг хилма-хил қирраларини акс эттирувчи одамлар ҳаётига мустаҳкам кириб борди. Тадқиқотчиларнинг фикрига кўра, давлатдан олдинги даврда (яъни Киев Русининг шаклланишидан олдин) Шарқий славянларда етарлича

ривожланган календар ва оилавий маросим фольклор, қаҳрамонлик эпик ва чолғу мусиқаси мавжуд эди.

Қўшиқлар, достонлар, топишмоқлар, мақоллар бизгача кўп асрлар давомида етиб келган ва кўпинча фольклор асарининг дастлабки асосларини кейинги қатламларидан ажратиш қийин. Халқ амалий санъати тадқиқотчилари қишлоқ хўжалиги тақвими билан боғланган ва қадимги бутпарастлик эътиқодларидан келиб чиққан “маросим фольклорини” алоҳида гуруҳга ажратадилар. Масленицада, Иван Купала кунида, Рождество кўшиқларида ижро этилган кўшиқлар ва рақслар шундай. Маросим фольклорига тўй кўшиқлари ва фол очиш ҳам киради.

Қадимги рус ритуал шеърятининг бойлигини идрок этиш учун қандай маросимлар муҳокама қилинаётганини, қачон ва нима учун ижро этилганлигини, кўшиқ бунда қандай рол ўйнаганини билиш керак. Маросим, маълум бир жараён сифатида, асрлар давомида ишлаб чиқилган канонга бўйсунадиган меъёрий, қатъий тартибга солинадиган диний ҳаракат эди. У дунёнинг бутпарастлик расмининг тубида, табиий элементларни илоҳийлаштиришда туғилган. Энг қадимийлари календар-маросим кўшиқларидир. Уларнинг мазмуни табиат ҳақидаги ғоялар, қишлоқ хўжалиги календарлари билан боғлиқ. Бу кўшиқларда деҳқонлар ҳаётининг турли босқичлари акс эттирилган. Улар фаслларнинг ўзгаришидаги бурилиш нуқталарига мос келадиган қиш, баҳор, ёз маросимларининг бир қисми эди. Маросимни бажараётиб, одамлар уларнинг афсунларини қудратли худолар, Қуёш, Сув, Она Ер кучлари эшитиб, тўкин ҳаёт, мўл ҳосил, чорва наслларини юборишига ишонишди. Ритуал кўшиқлар маросимнинг мажбурий қисми, шунингдек, асосий маросим ҳаракатлари сифатида қаралган. Ҳатто барча маросим ҳаракатлари бажарилмаса ва уларга ҳамроҳ бўлган кўшиқлар ижро этилмаса, керакли натижага эришилмайди, деб ишонишган. Улар биринчи шудгорлаш ва даладаги охирги дастанни йиғиштириш, ёшлар байрамлари ва Рождество ёки Троица байрамлари, сувга чўмиш ва тўйларга ҳамроҳ бўлишди.

Ритуал календар кўшиқлари халқ амалий санъатининг энг қадимий турига мансуб бўлиб, улар халқ деҳқончилиги тақвими – фасллар бўйича иш тартиби билан боғлиқлиги туфайли ўз номини олган.

Тақвим-маросим кўшиқлари, қоида тариқасида, ҳажми жиҳатидан кичик, шеърӣ тузилиши жиҳатидан содда. Уларда ташвиш ва қувонч, ноаниқлик ва умид бор. Умумий хусусиятлардан бири - бу маросимнинг маъноси билан боғлиқ бўлган асосий тасвирнинг тимсоли. Шундай қилиб, Рождество кўшиқларида ҳовлиларни айланиб чиқадиган, эгасини қидирадиган, унга ҳар хил неъматлар берадиган Коляда чизилади. Шу каби тасвирлар билан - Масленица, Баҳор, Троица байрамларида- биз кўплаб календар кўшиқларини учратамиз. Кўшиқлар сўрайди, бу ғалати мавжудотлар яхшиликка чақиради ва баъзида уларни ёлғон ва бепарволик билан қоралайди.

Бу кўшиқлар ўз шаклида қисқа шеърлар бўлиб, улар бир зарба, икки-уч мисра билан кайфиятни, лирик вазиятни билдиради.

Рус халқ маросимлари шеърятти эски анъанавий турмуш тарзи билан чамбарчас боғлиқ ва шу билан бирга кўп асрлик вақт синовидан ўтган ажойиб шеърят бойлигини яширади.

### **Тақвим-маросим кўшиқларининг айрим турларини кўриб чиқинг:**

Колядалик Рождество арафасида, 24 декабрда бошланди. Бу уй эгаларига бойлик, ҳосил ва ҳоказо тилақларини ўз ичига олган колядолар куйланган байрамона айланма йўлларининг номи эди.

Колядкалар юлдузни ёғоч устунга кўтариб юрган болалар ёки ёшлар томонидан куйланган. Бу юлдуз Исус Христоснинг туғилиши пайтида осмонда пайдо бўлган Байтлаҳм юлдузини рамзий қилди.

Мезбонлар колядачиларга ширинликлар, пишириклар ва пул совға қилишди. Агар эгалари зикна бўлса, унда колядачилар кулгили таҳдидлар билан ярамас кўшиқларни куйлашди, масалан:

*Не дашь пирога —  
Мы корову за рога.  
Не дашь кишку —  
Мы свинью за вису.  
Не дашь блинка —  
Мы хозяина в пинка.*

Йил бошига алоҳида аҳамият берилди. Янги йилни қандай ўтказсангиз, келгуси йил ҳам шундай бўлади. Шунинг учун улар дастурхонни тўкин, одамларни қувноқ қилишга, бир-бирларига бахт ва омад тилашга ҳаракат қилишди.

Қувноқ қисқа кўшиқлар ана шундай тилақларнинг кўшиқ шакли эди. Янги йил кўшиқларининг турларидан бири пастки кўшиқлар эди. Улар Янги йил фолбинига ҳамроҳлик қилишди. В. А. Жуковский "Светлана" шеърисида энг машҳур жосуслик кўшиқларидан бирини такрорлайди:

*Кузнец,  
Скуй мне злат и нов венец,  
Скуй кольцо златое.  
Мне венчаться тем венцом,  
Обручаться тем кольцом  
При святом налое.*

Сиз уни фольклор версияси билан таққослашингиз мумкин:

*Идет кузнец из кузницы, слава!  
Несет кузнец три молота, слава!  
Скуй, кузнец, мне золотой венец, слава!  
Из образочков мне золот перстень, слава!  
Из остаточков мне булавочку, слава!  
Тем мне венцом венчаться, слава!  
Тем кольцом обручатся, слава!  
И той мне булавочкой убрус притыкать, слава!  
Кому песню поем, тому добро, слава!  
Тому сбудется, не минуется, слава!*



Таниқли кўшиқ А. С. Пушкиннинг "Евгений Онегин" асарининг 5-бобида келтирилган.

А. С. Пушкин:

И вынулось колечко ей  
Под песенку старинных дней:  
Там мужички-то все богаты  
Гребут лопатой серебро.  
Кому поем, тому добро

Народная песня:

За рекой мужики живут богатые, слава!  
Гребут золото лопатой, слава!  
Кому песню поем, тому добро, слава!  
Тому сбудется, не минуется, слава!

Масленица кўшиқларини тасвирлаб, шуни таъкидлаш мумкинки, уларда у Масленицани сўқади, масхара қилади, қайтишга ундайди, кулгили инсон исмлари билан чақирилади: Авдотьюшка, Изотьевна, Акулина Саввишна в.х.к.

В.И Даль, Масленицанинг ҳар куни ўз номига эга эканлигини ёзган: душанба - учрашув, сешанба - ноз-карашма, чоршанба - ширинлик, пайшанба - кенг пайшанба, жума - қайнона оқшомлари, шанба - қайнона йиғилишлари, якшанба - ҳайдаш. Худди шу ҳафтада тоғлардан чанада юриш одат тусига кирган.

Троица байрамига келсак, у календар ва маросим кўшиқлари, ўйинлар, думалоқ рақсларга энг бой эканлигини таъкидлаш мумкин. Ушбу кўшиқларнинг шеърӣ тасвирлари ва оҳанглари кўплаб рус ёзувчиларининг эътиборини тортганлиги ажабланарли эмас, масалан, А. Н. Островский: Лелнинг машҳур "Булут момақалди роқ билан тўқнашди" кўшиғи ва Троица циклининг маросим кўшиғи:

***Туча с громом сговаривалась:  
Доля-лёли-лёли-лё!  
«Пойдем, туча, гулять на поле,  
На то поле, на Заводское!  
Ты с дождем, а я с милостью,  
Ты польешь, а я выращу!»...***

шунингдек, бастакорлар (П. И. Чайковскийнинг Бешинчи симфониясидаги "Далада қайин турарди ..." кўшиғи, Н. А. Римский-Корсаковнинг "Қор қизи" ва бошқалар).

Баҳорги маросимлар йилнинг асосий Буюк Пост кунларида ўтказилди, шунинг учун улар деярли байрамонга ўйин характериға эга эмас эди.

Асосий баҳор жанри - веснянкалар. Улар, аслида, кўшиқ айтилмаган, балки тепаликлар ва томларға чиқишган. Улар баҳорни чақириб, қиш билан хайрлашар эдилар.

Баъзи веснянкалар болаликдан таниш бўлган «Тараканица» или «Мухи-цокотухи» («тараканы — в барабаны») қаторларига ўхшайди.

***...Синицы, синицы,  
Принесите по спице!  
Канарейки,  
Канарейки,  
Принесите по швейке!***

***Четочки, чечеточки,  
Принесите по щеточке!  
Тогда, утки,  
Дуйте в дудки,  
Тараканы —  
В барабаны!***

Христианликнинг қабул қилиниши билан бутпарастлик эътиқодлари аста-секин ўз аҳамиятини йўқотади. Халқ мусиқасининг у ёки бу турини вужудга келтирган сеҳрли ҳаракатларнинг мазмуни аста-секин унутилган. Бироқ, қадимги байрамларнинг соф ташқи шакллари ғайриоддий барқарор бўлиб чиқди ва маросим фольклори, гўё уни туғдирган бутпарастлик билан алоқада бўлмаган ҳолда яшашни давом эттирди. Христиан черкови (нафақат Россияда, балки Европада ҳам) анъанавий халқ кўшиқлари ва рақсларига жуда салбий муносабатда бўлиб, уларни гуноҳкорлик, шайтон васвасасининг кўриниши деб ҳисобларди. Ушбу баҳолаш кўплаб анналистик манбаларда ва каноник черков қарорларида қайд этилган. Масалан, Киев митрополити Иоанн II нинг XI -аср ёзувчиси Яков Черноризцга берган жавоблари маълум. Бу эрда руҳонийлар ҳақида шундай дейилган: “Дунёвий байрамларга борадиган ва ичадиган руҳонийларга, муқаддас оталар одоб-ахлоқни сақлашни ва дуо билан таклиф қилинган нарсаларни қабул қилишни буюрадилар; Агар улар ўйин, рақс ва мусиқа билан кирсалар, оталар буюрганидек, ҳис-туйғуларни кўрган ва эшитадиган нарсалар билан ифлослантормаслик ёки уларни бутунлай тарк этмаслик учун (даврани) зиёфат ёки катта васваса бўладиган вақтда тарк этиш керак.”

Православ черковининг салбий муносабати Қадимги Россиянинг “кулги” ёки “карнавал” маданияти тубида туғилган жуда ўзига хос фольклор соҳаси туфайли юзага келган. Келиб чиқишини қадимги бутпарастлик маросимларида излаш керак бўлган театр ҳаракати элементлари ва мусиқанинг ажралмас иштироки билан шовқинли халқ ўйин-кулги жойлари маъбад байрамларидан тубдан фарқ қилар эди. “Кулги” маданияти ҳамиша воқеликнинг “бузувчи кўзгуси”, бемаъни “аҳмоқ” ҳаёт бўлиб келган, унда ҳамма нарса тескари эди, ҳамма нарса ўз ўрнини ўзгартирди – яхшилик ва ёвузлик, паст ва тепалик, воқелик ва фантазия. Ушбу байрамлар кийимни ичкарига айлантириш, кийиниш учун бўйра, тўшак, сомон, қайин пўстлоғи, бошоқ ва бошқа карнавал буюмларидан фойдаланиш билан тавсифланади.

Мақолада алоҳида эътибор шунга қаратмоқчимизки: А.С.Пушкин, Н.А.Некрасов, А.Н.Островский, С.А.Есенин, М.И.Глинка, Н.А.Римский-Корсаков, П.И.Чайковский ва бошқалар каби буюк рус ёзувчилари, шоирлари, бастакорлари маросим шеърляти билан чуқур кизикқанлар ва ёритганлар. А.Н.Островнинг «Снегурочки» сидаги кўплаб эпизодлар веснянкаларга асосланган.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Русское народное поэтическое творчество: Хрестоматия / Под ред. А. М. Новиковой. — М., 1978;
2. Русская народная поэзия: Обрядовая поэзия / Сост. К. Чистов, Б. Чистова. — Л., 1984;
3. Круглов Ю. Г. Русские обрядовые песни. — М., 1982;
4. Поэзия крестьянских праздников. — Л., 1970; Потешки, считалки, небылицы. — М., 1989.
5. Путилов Б.Н. Фольклор и народная культура // Путилов Б.Н. Фольклор и народная культура; In memoriam. СПб., 2003. [ 95]
6. Седакова О.А. Поэтика обряда. Погребальная обрядность восточных и южных славян. М., 2004.
7. Фольклор и этнография Русского Севера. Л., 1973. [ 3-4]
- Байбурун А.К., Топорков А.Л. У истоков этикета. Л., 1990. [ 5]
8. Толстая С.М. Обрядовое голошение: семантика, лексика, прагматика // Мир звучащий и молчащий. Семиотика звука и речи в традиционной культуре славян. М., 1999. [ 135]
9. Невская Л.Г. Балто-славянское причитание. Реконструкция семантической структуры. М., 1993. [ 108]
10. Еремина В.И. Историко-этнографические истоки общих мест причитаний // Русский фольклор: Поэтика фольклора. Л., 1981. Т. 21. [ 84]
11. Чистов К.В. К вопросу о магической функции похоронных причитаний // Историко-этнографические исследования по фольклору: Сборник статей памяти Сергея Александровича Токарева. М., 1994. [ 273]
12. Ефименкова Б.Б. Севернорусская причеть: Междуречье Сухоны и Юга и верховья Кокшеньги. М., 1980. [22].
13. Толстая С.М. Полесский народный календарь: Материалы к этнодиалектному словарю. Д-И // Славянское и балканское языкознание: проблемы диалектологии. Категория посессивности. М., 1986
14. Ф. Тиллабоева .Мақола. Фольклор как искусство слова в русском устном народном поэтическом творчестве. Журнал "Экономика и социум" Выпуск №11(90) (ноябрь, 2021). Издательство: ООО "Институт управления и социальноэкономического развития", Россия, г. Саратов Дата издания: Ноябрь 2021.[25]

**IJODIY SABOQ VA AN'ANALAR TA'SIRI**

*Normamatova Mahliyo Azmiddin qizi,  
Samarqand shahri 35-maktab o'qituvchisi*

Asrlar davomida ijodiy jarayonda bir-biridan oziq olish, ruhlanish, an'analariga ijodiy yondoshish kuzatiladi. Adabiyot vujudga kelgandan boshlab insonni turfa xil xususiyatlarini badiiy aks ettirish an'anasi shakllanib, rivojlanib keldi. Shu bilan bir qatorda turli xalqlarning yetuk ijodkorlari tomonidan yaratilgan

badiiy adabiyot namunalari o‘zbek adabiyotiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Shuning uchun ma’lum bir ijodkor tomonidan yaratilgan asarda sharq yoki g‘arb adabiyotining an’analarini ta’siri degan tushuncha ham o‘z ifodasini topmoqda. 70 – yillarning oxiri, 80 – yillarning boshlarida jahon adabiyotiga o‘z ta’sirini o‘tkaza olgan buyuk qirg‘iz adibi Chingiz Aytmatov asarlari maydonga keldi. Yozuvchining ilk asarlari “Alvido Gulsari”, “Sarvqomat dilbarim”, “Sohil bo‘ylab chopayotgan olapar”, “Jamila” qissalari bilan bir qatorda “Qiyomat”, “Asrga tatiglik kun”, “Tog‘lar qulayotgan zamon”, “Oxirgi zamon nishonalari” kabi o‘nlab asarlari o‘zbek tiliga tarjima etildi. Bu asarlar o‘zbek adabiyotshunosligida yuksak darajada baholandi.

Falsafiy xarakterdagi bunday asarlar o‘zbek nasrining taraqqiyotiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Bunday deyishimizga sabab, o‘zbek adabiyotining taraqqiyotiga sezilarli hissa qo‘shgan Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, Shoim Bo‘tayeov, Sobir O‘nar kabi ijodkorlarning badiiy asarlarida Chingiz Aytmatovga xos falsafiy tasvir an’anasini kuzatamiz. Darhaqiqat, yozuvchi yaratgan badiiy asarlar inson manaviyatini yuksalishiga xizmat qilishi bilan bir qatorda, inson tafakuridagi evrilishlarni, uning ruhiyatidagi o‘egarishlarni, inson va muhit, inson va tabiat o‘rtasidagi uzviy dialektik birlikni ham badiiy talqin etadi. Chunki Chingiz Aytmatov va Odil Yoqubov romanlaridagi badiiy talqinlarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, insonning insonga, tabiatga, jamiyatga munosabatlari asosida inson ma’naviyati bilan bir qatorda davr va inson, jamiyat va tuzum fojellarini yoritib berganligi bilan alohida ajralib turadi.

Chingiz Aytmatovning badiiy adabiyotga bo‘lgan havasi dastlab oilaviy muhitda bo‘lgan. O‘zining yozishicha, katta buvisi juda ko‘p xalq ertaklarini bilgan ayol bo‘lgan. Keyin yozuvchi bolaligida rus yozuvchilarining asarlarini ko‘p o‘qigan. Chingiz Aytmatov ikki tilda rus va qirg‘iz tillarida ijod qiluvchi yozuvchidir. Uning ijodi kichik-kichik hikoyalar yozish bilan boshlangan. Institutda o‘qib yurgan kezlarda birinchi hikoyalari e‘lon qilingan. Lekin yozuvchiga shuhrat keltirgan asar, uning “Jamila” nomli qissasi bo‘lgan. U tez orada shuhrat qozondi. Uni mashhur yozuvchi Lui Aragon fransuz tiliga tarjima qildi.

Tarjimaga o‘zi so‘z boshi yozib, uni “Muhabbat haqida yozilgan jahondagi eng ajoyib qissa” deb baholadi. Ikki yil ichida bu asar 30 ta chet tillariga tarjima qilindi. Bunday hodisa jahon adabiyoti tarixida birinchi marta sodir bo‘lganligiga hech shubha yo‘q. Asar voqealari ikkinchi jahon urushi davrida bo‘lib o‘tadi. Otashin muhabbatga erishish uchun, juda kuchli iroda ham kerak ekanligi bu asarda o‘ta ta’sirli qilib berilgan. Ishq yo‘lida har qanday urf-odatlar, rasm-rusmlar ham bir pulga arzimligi Jamila va Doniyorlar muhabbati vositasida ko‘rsatib berilgan.

Chingiz Aytmatov asarlarining har biri o‘ziga xosligi bilan dunyoga keldi. Uning kitobdan-kitobga qarab mahorati o‘sib bordi. Yozuvchining “Momo Yer”, “Yuzma-yuz”, “Birinchi muallim”, “Sohil bo‘ylab chopayotgan olapar”, “Oq kema”, “Alvido, Gulsari” kabi asarlarining har biri buyuk talantning, yuksak mahoratning mahsulidir. Yozuvchi “Momo Yer”, (“Somon yo‘li”) povestida

To'lg'onoy ismli ayolning boshiga tushgan dahshatli voqealarni tasvirlaydi. Insonning boshi toshdan qattiq ekanligini, u har qanday musibatlarga chidashi uchun katta irodaga ega bo'lish kerakligi tasvirlangan.

Shuning uchun ham adabiyotshunos G'aybulloh as-Salom shunday yozadi: "Dunyoda nima ko'p, yozuvchi ko'p. Zo'r iqtidorli, inson qalbini larzaga soluvchi sohibi qalamlar ham oz emas. Ammo ular orasida Chingiz Aytmatovchalik oqibatlisini, faqat yozuvchi sifatida emas, balki xalqimizning do'stu qardoni sifatida bunday Odamoxunni topish qiyin... yuz yillar o'tar, o'zbek xalqi Chingiz Aytmatovning g'urur, taskin va hamdardlik bilan aytgan halim so'zlarini unutmaydi. Unutaolmaydi" [1, 157-bet].

Qayd qilingan bu fikrlarda yozuvchining xalqimiega, ijodkorlarimiega bo'lgan faxrli tuyg'usi alohida qayd etiladi. Adibning o'zbek ijodkorlariga, ayniqsa, Odil Yoqubovga bo'lgan munosabatlari, ijodiy muloqotlari yangi-yangi asarlarni maydonga kelishiga sabab bo'lgan.

Shukur Xolmirzayev Chingiz Aytmatov va Odil Yoqubov asarlari haqida so'z yuritib shunday yozadi: "Odil Yoqubovning "Muqaddas"i chiqqan vaqtlarida Chingiz Aytmatovning "Jamila" qissasi ham e'lon bo'lgan va tezda fransuz tiliga tarjima etilib, dunyoga tarqalgan edi. O'sha kezlardayoq, ha, xuddi o'sha vaqtlardayoq dorilfunun talabalari, keng o'quvchilar orasida: "Bu – bizning Aytmatov", degan gap tarqalgan edi. Va hamon bu o'xshatma amalda" [2].

Odil Yoqubovning "Diyonat", Chingiz Aytmatovning "Qiyomat" romanlarida tabiat va jamiyat o'rtasidagi birlik mahorat bilan yoritilgan. Mazkur asarlarda tabiat go'yo inson manaviyatini ochuvchi kalit, jamiyat qiyofasini ko'rsatuvchi sahna kabi tushunchalarni uyg'otadi. "Diyonat" romanida murakkab bir davrning ziddiyatli tomonlari haqqoniy yoritilgan bo'lsa, "Qiyomat" romanida esa tabiat va jamiyatdagi me'yorlar, mutanosibliklarning buzilishdan kelib chiqqan fojealar tasviri yetakchilik qiladi. Har ikki romanda ham tabiat va inson fojeasi yonma – yon talqin etiladi. Sirasini aytganda, yangi o'zbek nasrida ziyoli-ruhoniylar zotlarning jonli qiyofalarini aniq-tiniq chizib ko'rsatish bobida "Diyonat"ga qadar ham muayyan tajribalar to'plangan edi: Yusufbek hoji, Solih mahdum, Qori Ishkamba, Razzoq so'fi... Lekin ular, xuddi "Eshonim deb eshagimdan ayrildim", "To'y to'y bo'lmadi, xo'ja bilan shayx egallab oldi" qabilidagi istehzoli maqollarga jonli misoldek o'taketgan ziqna, ichi tor, ma'naviy qashshoq kimsalarki, bu, albatta, ruhoniylar zotlarni har bob bilan yomonotliq qilib olabo'ji ko'rsatishga ustasi farang Sho'ro tuzumi mafkurasining siyosiy talabi edi. Yuqoridagi dindorlar ro'yxatida birgina Yusufbek hoji ma'lum darajada istisno, lekin u ham "ma'lum darajada", xolos. Dini islomning beshala farzini bekami ko'st ado etgan, hojilik sharafiga ham noil bo'lgan, o'zi aytganidek, butun umrini el-yurt qayg'usida o'tkaegan bu ruhoniylar zotni ham tom ma'nodagi komil inson, o'ziga va o'z ishiga pishiq-puxta deyishimiz qiyin. Aks holda u dumbultabiat xotini qutqusi bilan allaqanday "ota-ona orzusi"ni deb yolg'iz o'g'lining baxtiga zomin bo'lmas edi, ma'naviy barkamol donishmand ota sifatida o'g'lining ahvol-ruhiyasini o'z vaqtida teran his qilib, unga hamdard-hamnafas bo'lib, o'z oilasidagi baxtsizliklarga o'rin qoldirmas edi. Adabiyotshunos N. Xudoyberganov "Diyonat"



roamani haqida shunday yozadi: “Hayot taraqqiyoti taqozasi deganda shuni anglaymizki, roman voqealarining ishtirokchilari qilib olingan shaxslar ham, kitobxonlar ham shiddatli, jonli, real tuyg‘ular kechinmalar, haqqoniy mulohazalar dunyosida yashaydi, kurashadi. “Diyonat”da mana shu ikki omil – hayotiylik va badiiylik bir – biriga mohirona qo‘shib olib borilgani tufayli Otaqo‘zi qalblarini to‘lqinlantiradigan barkamol badiiy tip darajasiga ko‘tarilgan. Yo‘q, shunchaki to‘lqinlantiribgina qolmaydi. Gohida insoniy sahovati bilan dillarni xushnid etadi, gohida rahbarlik iste’dodi bilan, topqirligi, uddaburonligi, ishbilarmonligi bilan samimiy hurmatu muhabbatimizni qozonadi, gohida g‘ayritabiiy hatti – harakatlari bilan ko‘nglimizni g‘ash qiladi” [3, 135-bet].<sup>3</sup>

Shu nuqtai nazardan Chingiz Aytmatovning “Alvido, Gulsari” nomli qissasi ham juda mashhur bo‘ldi. Qissaning bosh qahramoni Tanaboy jon taslim qilayotgan oti Gulsarining boshida turib, butun o‘tgan umrini yodga oladi. Bunda bir tomondan odamlardagi mehr-oqibat yo‘qolib borayotgani, ikkinchi tomondan, inson va tabiat o‘rtasidagi muvozanatning buzilib borayotganligi hikoya qilinadi. Chingiz Aytmatovning bu qissasida ham ekologiya masalasi, tabiatni, hayvonot dunyosini asrash, avlod-avlodlarga sog‘lom va asl holda yetkazish masalasi izchillik bilan qalamga olinadi. Bu ayniqsa, yozuvchining “Oq kema” qissasida yanada yorqinroq namoyon bo‘ladi. Qissadagi yosh bola, Mo‘min chol obrazlari juda muvaffaqiyatli chiqqan. Qissa ham ana shu bobo va nabiralarning qismatiga bag‘ishlangan

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. G‘aybulloh as-Salom. Men suv ichgan daryolar. – Toshkent, “Yosh gvardiya”, 1990.
2. Xolmirzayev Sh. O‘zbek Aytmatovi. Yozuvchi gazetasi, 1998. 13-may.
3. Xudoyberganov N. Parvoz davom etadi. – Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1980.

#### ШАКЛАН ЎХШАШ ВА АЛДОҚЧИ СЎЗЛАР МУАММОСИ (Кенгесбой Каримовнинг “Оғабий” романи таржимаси мисолида)

*Атаджанов Ғуломжон,  
ЎЗР ФА Ўзбек тили, адабиёти ва фолклори  
институти эркин тадқиқотчиси*

Асарни бир тилдан иккинчи бир тилга таржима қилиш ҳазилакам иш эмас. Бунинг учун ижодкордан катта маҳорат, шунинг билан биргаликда сабр ва чидам, тажриба керак бўлади. Таржимада ҳатто бир сўзни ўринли таржима қилмаса у бошқа маънони англатиб юбориши мумкин. “Қиёсланаётган иккала тилда ҳам мавжуд бўлган ҳар жиҳатдан ўзаро мос тушган сўзлар эквивалент сўзлар эканлиги равшан бироқ маънолари бир бирига қисман

<sup>3</sup> N. Xudoyberganov. Parvoz davom etadi. – Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1980. 135-bet.

уйғун келган сўзларни ҳам эквивалент ҳисоблаш бизнингча нотўғри бўлар эди. Ўз амалий фаолияти давомида бу фикрга асосланиш яни асл нусхадаги сўзнинг мазмунига мумкин қадар тўла мос келадиган сўзни қидириб топиш ўрнига мазмуни қисман мос келадиган эквивалентни қўллаш мутаржимга ҳеч қачон муваффақият келтирган эмас”[1.160] Биз буни Ўзбекистон ва Қорақалпоғистон халқ ёзувчиси Кенгесбой Каримовнинг “Оғабий” тарихий романи мисолида кўрамиз. Мазкур тарихий романи ўзбек тилига Рустам Мусурмон таржима қилган. Таржима қилиш, айниқса, қардош тиллардан таржима қилиш энг қийин ва мураккаб ишдир. “Дарҳақиқат, шаклан бир хил, аммо мазмунига кўра, демакки, ўгириш чоғида эквивалент ёхуд муқобил вариант сифатида ўзгартмай қолдириш мумкин бўлмаган сўзларга қариндош тиллардан таржима қилиш жараёнида тез-тез дуч келиш мумкин”[1.157] Таржимон қорақалпоқ тилидаги баъзи сўзларни таржима қилмай аслиятдагидек қолдиради. Натижада сўзлар умуман бошқа маънони англатган. **Ўзбекча таржимада** : *“Уйнинг олдида икки кўзи билан қозонни ўрилаб ётган келбати икки яшар танадай келадиган Бўрибосар ўз отини ешитиб, ўрнидан илдам турдида, Қайирнинг ортидан эргашди ”* [2.16] Ушбу парчадаги ажратилган **тана** сўзи ўзбек тилининг изоҳли луғатида шундай берилади. Бу сўз гавда, бадан, тан, поя маъноларини билдиради. Бундан ташқари **танага** шундай изоҳ берилади: Бир-икки ёшли урғорчи бузоқ. *Ҳа ўша йили дадам билан колхоз таналарини боқдик. С.Анорбоев.* [3.658] Қорақалпоқ тилида эса бу **буқа** маъносини билдиради ва шу маънода қўлланилади. Бўрибосарни таърифлар экан, уни икки ёшли урғочи бузоққа тенглаб, **сифатлаяпти**. Энди бу сўз қорақалпоқ тилининг изоҳли луғатида шундай келтирилган: **Тана**-ат. Бир жасқа тўлган қара малдың еркек тури. Тана жеккен тарықпас (“ҚҚ.х.н”).[4.273] Мутаржим бу сўзни аслича қолдириш чоғида унга изоҳ бериб кетиши керак эди. “Дарҳақиқат, бадиий таржимада меъёр масаласи жуда муҳим. Хусусан, яқин тиллардан ағдаришда меъёрни била олмаслик кўп ҳолларда асарни меъёрига етказиб таржима қила олмасликка сабаб бўлаётир” [1.168]. Ана шунда бу сўз хато ҳисобланмас ва анча тушинарли бўлар еди. Қорақалпоқ халқининг миллийлигига хос бўлган, **қўстарим** сўзи ҳам таржима қилинмаган. *“Қаёқдасан, қўстарим Шақшақ?-деб йиғлаб турган аёл ёнида тўхтадилар”* [5.233] Бу сўзни таржима қилмай тўғри қилган. Қорақалпоқ миллийлигини сақлаш учун атайлабдан таржима қилмаганлигини англашимиз мумкин. Мутаржим бу сўзни ёрим, жуфти-халолом ёки эргинам, дадажониси деб ўтирганда ҳам маъноси шу ҳолича қоларди. Лекин, аслиятдагидек жарангдор маънони бермаган бўлар эди. Ўзбекча таржимада : *“Қулчи бий Тогаберганнинг қандай пайдо бўлиб қолганини кўз олдига келтирди. Қантар ойининг ўрталари эди”*. Ушбу парчада ажратиб кўрсатилган сўзга эътибор берамиз. Қантар Мутаржим бу сўзни таржима қилмай қорақалпоқ халқининг миллийлигини сақлаб қолишга ҳаракат қилган, лекин маъносига изоҳ бериб кетилганида яхши бўлар еди. Бу парчанинг аслиятига қараймиз. **Аслиятда**: *“Қулиши бий Тогаберганнинг қалай пайда болганин көз алдына келтирди. Қантар айының иши еди”*. [5.64]

Аслиятдаги **қантар** сўзидаги "нг" ва "н" товушлари ҳисобига бир-биридан фарқланади.Таржимада "нг" емас "н" қўлланилган. Бу сўз қозоқча сўз бўлиб январь ойига тўғри келар экан. “Таржимон халқнинг тили, тарихи, этнографияси, маданиятидан яхши хабардор бўлишидан ташқари, сўз танлашда ўзига хос дидга ҳам эга бўлиши зарур”[6.18] Таржимоннинг мана шундай сўз танлашдаги ўзига хосликлардан яна бири **савашдир**. **Ўзбекча таржимада** : “ *Энди қиличларини ялогочлаган икки дўст илк савашга интилмоқди.*”[2.187] Бу ерда саваш сўзи жанг маъносида келмоқда ва мутаржим тушиниб етганлиги сабабли таржима қилмаган. **Аслиятда**: “Энди қылышларды жалаңлашлаган еки дос дэслепки **саўашқа** умтылмақта” [5.126] Саваш - жанг сўзининг синоними бўлиб, ўзбек тилининг изоҳли луғатида шундай келтирилади: **Саваш**-2.фольк.Уруш, жанг қилмоқ. “ Қани, полвон бўлсанг, майдонга чиқ, келинлар, савашамиз, куч синашамиз!”- дейди. “Муродхон”. Кейинги сўзимиз **эт** сўзидир. **Эт** сўзини таржима қилинмай тўғри қилинган, чунки у ҳам умумтуркий сўз бўлиб барча туркий халқлар учун тушинаридир. Бу **эт** сўзини **гўшт** деб таржима қилиб кетганида ҳам, нотўғри бўлмас эди. Сабаби бу баъзи жойларда **эт**, баъзи жойларда **гўшт** деб берилади. Ҳозирги кунда иккисидан ҳам кенг истемолда қўлланиляпти. **Ўзбекча таржимада** : “*Гўшт еб, қимиз ичишгандан кейин ҳангома бошланди. Ёши улуг Оллоёр бий гуруннга туртки берди. -Хўш энди, Отабойжон, эт едик, қимиз ичдик, қўноқ қада қилмаймизми!* ” [2.139 ] Бу сўз қайси таржимада келса ҳам нотўғри ҳисобланмайди. Меҳр билан меҳригиё сўзлари гарчи ўзақдош бўлса ҳам орасида ўзгачалик бор. Қорақолпоқча **мэргия** сўзини меҳр деб емас, меҳригиё деб таржима қилган. Шунинг учун аслият ва таржимага эътибор қаратамиз. **Ўзбекча таржимада** : “ *Хей, оналик меҳригиёси.*” [2.34 бет] **Аслиятда**: “ *Хэй аналық мэргиясы*” [5.21 ] Таққослаб кўрамиз “*Хей, оналик меҳригиёси*”, “*Хей, оналик меҳри*” . Меҳригиёси сўзига қараганда меҳри сўзи тўғри талаффуз қилиниб тўғри маъно бераётгандек. Мақсадимиз асар таржимасидан фақат хато топишдангина иборат эмас, балки таржимани синчиклаб ўрганиш ва изланишдаги хулосалар мана шулардан иборат. Асарни қиёслар эканмиз аслият билан таржимани таққослаш жараёнини қуйидаги жадваллар асосида кўриб чиқишни маъқул кўрдик:

<b>Аслиятда</b>	<b>Ўзбекча таржимада</b>
баспақ	ўжак
саўаш	саваш
ийт	ит
сум	шум
ул	ўғил
илақ	кўпқари,улоқ
серт	қасам
удай	худо
жаўшы	совчи

қуўақы	шўх
дос	дўст
жудырық	мушт

Аслиятда ҳам таржимада ҳам бир хил яъни таржима қилинмаган сўзлар қуйидагилардан иборат.

Аслиятда	Ўзбекча таржимада
тана	тана
қантар	қантар
қўстар	қўстар
қўноқ	қўноқ
Отирик	Отирик
Ангба	Ангба
кебенек	кебенек
эт	эт (гўшт)
бўз инген	бўз инген
жапсары	жапсари

Ушбу жадваллардан кўринадики, мутаржим баъзи сўзларни таржима қилиб, аксинча, баъзи сўзларни эса таржима қилмай ўз ҳолида қолдириб мувофақиятга эришган. Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, баъзи бир кусурлар Рустам Мусурмон таржимасининг қимматига халал бера олмайди. Гуруч ҳам курмаксиз бўлмас деганларидек таржимачиликдек ўта қийин ва сабрли ижодий ишда ҳам баъзи хатоликлар бўлиши табиий албатта. Хулоса шуки, ўзбек адабиёти яна бир тарихий роман билан бойиди. Биз ижодкор - таржимондан янги-янги асарлар кутиб қоламиз.

### Фойдаланган адабиётлар рўйхати:

1. З.Исомиддинов “Алдоқчи сўзлар билан баҳс” Таржима санъати. Мақолалар тўплами. 5-китоб. Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти Т.1980 .- Б 160
2. Каримов К. Оғабий. - Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи, 2020. - Б. 16.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 4 жилд. - Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашрияти, 2004. - Б.658
4. Qaraqalpaq tilining tusindirme so‘zligi Qaraqalpaqistan. N.1982. B.273
5. Каримов К. Оғабий. - Нукус: Билим, 2013. - Б.7.
6. Ғ.Саломов Бадиий таржима назариясининг баъзи мунозарали масалалари. Таржима санъати Мақолалар тўплами.Т.1961 Б 18

## ХАЛҚ МАҚОЛЛАРИДА ДАРАХТ ОБРАЗИНИНГ РАМЗИЙ-МЕТАФОРИК ИФОДАСИ

*Рустамова Гавҳар Баҳром қизи,  
БухДУ таянч докторанти*

Мақоллар доно халқимизнинг кўп асрлик кузатиш ва тажрибалари маҳсули бўлиб, катта ҳаётий сабоқларни қисқа жумлаларда акс эттиради. “Узум оламан десанг, узун кес” мақоли билан токни қишга кўмишда узун кесиш тавсия этилган. “Чор занг – чил маданг” деган мақол ҳам соҳибкорлар ҳаётидан келиб чиққан. Токнинг ёғон танасини “занг”, ундан ўсиб чиққан ва каттиқлашган новдаларни “маданг”, ундан ўсиб чиққан новдаларни эса “панжа” деб атайдилар. Маданг ҳар йили қайтариқ қилиб турилса, зангга айланади. Мақолда токни кесаётганда, ҳар тўртта зангга қирқта маданг қолдириш тавсия этилган.

“Куркурак кўрмагунча ток очма”. Одатда, баҳор фаслининг охирида, беҳи гуллаганда, ҳамма қушлардан кейин кўкқарга келади. Уни “кирок-кирок”, “куркурак” деб ҳам атайдилар. Бобо дехқонлар, тажрибали боғбонлар то куркурак келмагунча, беҳи гулламагунча, тоқларни очмайлар. Чунки, бу вақтга келиб, об-ҳавонинг ҳамма хавф-хатарлари ўтган бўлади, очилган токнинг шўраларига зиён-заҳмат етмайди. Ота-боболар бу хусусдаги насиҳатларини мазкур мақол воситасида айтиб қолдирганлар.

Баъзида дарахтлар образи ўзи ифодаляйдиган асосий маънодан чекиниб, метафора воситасида кўчма маънода қўлланилади. Рус халқ кўшиқларининг поэтик тузилишини тадқиқ этган В.И.Ереминанинг сўзларига кўра, маълум бир тематик образлар гуруҳи учун маъно кўчиши маъжозий тасвир билан боғлиқ. Демак, қайин, тол, арча ва ҳоказо образлар бадиий матнда рамзий маъносини бутунлай йўқотади [1; 116].

Н.П.Колпакова эса символизм мазмунини тушунишни тасвирларнинг функционал маъноси билан боғлиқ деб ҳисоблаб, шундай ёзади: “Алоҳида тушунчаларга у ёки бу рамзий маънони бир марта ва умуман беришга уринишлар фойдасиздир. Ҳар хил турдаги дарахтлар, гуллар, ... кўшиқда бадиий образга айланиб, фақат ҳар бир алоҳида кўшиқ матнидаги ҳолати ва вазифасига қараб қувноқ ёки ғамгин рамзий маъно касб этиши мумкин” [2; 205].

Бизнингча, юқоридаги фикрлар мақоллар учун ҳам тааллуқли. “Мевали дарахтнинг боши ҳам” мақолида “ҳам” – пастга эгилган, қуйи солинган деган маъноларни билдиради. Халқ орасида ушбу мақолнинг “Мевали дарахт ерга қараб эгилар, Мевасиз дарахт кўкка қараб қаққаяр”; “Мевали дарахт ерга энгашар, Мевасиз дарахт кўкка тармашар”; “Мевасиз дарахтнинг шохи тикка”; “Бошоқ боши канча тиғиз бўлса, қадди шунча букилар” каби вариантлари ҳам борки, буларнинг барчаси билан мажозан ақлли, билимдон, олиму донишманд одам ўзини доимо камтар тутиб, бошини қуйи солиб юради, ўтиради, ўз илм-билиминини ўзгаларга пеш қилмайди, оз гапириб, кўп тинглайди. Билимсиз, аҳмоқ, нодон, ношуд одам эса, аксинча, керилиб,



кеккайиб, босар-тусарини билмай, ҳеч кимга гап бермай, ҳеч кимни менсимай юради ва бу билан ўз аҳмоқлиғни, жоҳиллигини одамларга ўз-ўзидан аён қилади-қўяди, демоқчи бўладилар. Жамият бундай одамларнинг адабини беради, ўзидан четлаштиради, улар ўз ношудликлари туфайли ҳаёт машаққатларига дош беролмай, бамисоли ўтиндай ёқилиб, йўқ бўлиб кетадилар. Мақолда айтилганидек: “Мевасиз оғоч – ўтин, Ёғинсиз булут – тутун”; “Мевасиз дарахт болтага дучор бўлади”.

“Ёнғоқ минг яшайди, арча билан тенг яшайди” мақолида ҳам ёнғоқ – узок умр кўрувчи дарахт, – деган фикр муболаға билан изҳор қилинган. “Ёнғоқ олсанг – чақиб ол, ипак олсанг – боқиб ол” мақоли орқали эса дарахлар биан боғлиқ образларнинг бошқа ҳаётий асослари воқеланади. Одатда, ёнғоқнинг тўқ ё пучлигини чақиб кўрмай туриб билиш қийин. Ипак матонинг қандайлигини (масалан, атласнинг неча “тепки”лигини) синчиклаб карамай туриб, билиб бўлмайди. Мазкур мақол билан: “Ҳар бир нарсани сотиб олаётганда, унинг сифатини обдон текшир, ўзингнинг ақлинг етмаса, биладиганлар билан маслаҳатлаш. Акс ҳолда, пулинг куяди, чув тушасан, афсус ейсан” демоқчи бўладилар [3; 157].

“Нодийданинг тушига бир жуфт шафтоли данаги кирибди” мақолининг келиб чиқиши халқ ўртасида айтилиб юрадиган қуйидаги ҳикоя билан боғлиқ: Бир хасис одам тушида бир жуфт шафтоли данак ётганини кўрибди. Бундай ён-верига қараса, ўзидан бошқа ҳеч ким йўқ экан. “Ҳайрият, дебди у ўзига-ўзи, – шундай нодир нарсани ҳеч ким кўрмабди-я. Бу энг аъло нав шафтолининг данаги экан, хўб кўлимга тушди-да, бировга кўрсатмай кўяқолай”, деб турганда бир одам келиб қолибди-да, унинг кўлидаги данакларни олиб қўйибди. Иккови шафтоли данакни таллашиб, бир-бирини босиб ура бошлабди. Шу пайт ҳалиги хасис одам уйғониб кетибди. Қараса, хотинини бўғаётган экан... Зотида ҳеч бир нарсани кўрмаган, молпараст, назари паст, хасис, зикна одамни “нодийда” дейдилар. Бундай одамнинг кўлидаги арзимас нарса ҳам зўр, қимматбаҳо бўлиб туюлади ва уни бировга ўлақолса бергиси келмайди. Мана шундай одамларга нисбатан аччиқ киноя тарзида қўлланилади.

Бундан ташқари, дарахтлар ҳақида яратилган мақолларда шундай ўғитлар илгари сурилади:; “Ёлғиз дарахт ўрмон бўлмас, Ёлғиз ёғоч пана бўлмас”, “Дарахт бир жойда кўқарар”, “Дарахт япроғи билан кўркама, Одам – меҳнати билан”, “Дарахт – ҳаводан, одам – меҳнатдан”, “Дарахтни – меваси, отни – сийнаси, одамни меҳнати безайди”, “Дўланани кўрганда тоғ эсингдан чиқмасин” [4; 551]. Кўриняптики, бу мақолларда дарахт ва инсон образлари ўзаро параллелликда талқин этилмоқда.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Еремина В.И. Поэтический строй русской народной лирики. – Л.: Наука, 1978. – С.116.
2. Колпакова Я.П. Русская народная бытовая песня. – М., 1962, – С.205.

3. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш.. Маънолар махзани. –Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2001. – 448 б.
4. Ўзбек халқ мақоллари. Тўпловчилар: Т.Мирзаев, Б.Саримсоқов, А.Мусоқулов. – Т.: Фан, 1981. – 551 б.

## НИКОҲ ТЎЙИ ҚЎШИҚЛАРИДА “ҚАЛИН”, “СУТ ПУЛИ”, “ТЎЙ ХАРЖИ” ТУШУНЧАЛАРИНИНГ БАДИИЙ ИФОДАЛАНИШИ

*Шербекова Гавҳар Яхшибоевна,  
БухДУ таянч докторанти*

Турмушга узатилаётган қиз учун куёв томонга маълум миқдорда “қалин” белгилаш ва олиш никоҳ тўйининг қадимий удумларидан биридир. Бу воқелик, хусусан, қизни куёвниқига узатиш жараёнида куйланадиган “ёр-ёр” кўшиқларида ҳам билдириб ўтилган:

Боққа кўчқор боғламоқ,

Одат экан, ёр-ёр.

**Қалин бериб, қиз олмоқ,**

Давлат экан, ёр-ёр. [4; 45]

Кўриняптики, кўшиқда “қалин бериб, қиз олмоқ” одат, давлат экани алоҳида таъкидланмоқда. Бунинг учун йигит томон махсус тайёргарлик кўрган. Мол-ҳол боқиб, пул йиққан, чунки қалин нархи ё пул, ё мол билан белгиланган. Қалин белгилаш жараёни “қалин бичмоқ” деб юритилади. “Қалин бичиш”да совчилар масъул ҳисобланган.

Айрим ёр-ёрларда қалиннинг миқдори, одатда, унинг қиммат нархланишига ишорани кузатиш мумкин:

Узоқ-узоқ йўл юриб

Сурилманглар, ёр-ёр.

Ўн беш тилло пул бериб

Керилманглар, ёр-ёр. [4; 45]

Ушбу тўртлик бандда “Ўн беш тилло пул” миқдоридagi қалин пулини “бердим” деб айтишга ва керилишга арзимаслиги шунчаки айтилмаяпти. Бунинг сабаби шу банднинг мантикий давоми сифатида келтирилган куйидаги бандда равшанлаштирилган. Келин томон, одатда, қизнинг “қалин”и учун олган пулини унинг сепини қилиш, кам-кўстини ҳозирлаш учун ишлатади. Шунинг учун қизни олиб келган янгалар тилидан айтиладиган ёр-ёрларда олинган тилло пули бўлса-да, харжлаб келингани ҳақида гапирилади:

**Ўн беш тилло қалинни**

**Харжлаб келдим, ёр-ёр.**

Тўлган ойдек синглимни

Бошлаб келдим, ёр-ёр. [2]

Айрим жойларда қалиндан ташқари, “сут пули” ҳам олинади. Баъзи жойларда “қалин” ва “сут пули” нинг умумий ҳолатда “қалин”ни ифодалаши ҳам кузатилади. Аслида “сут пули” (Сурхондарёда “карда пули” деб ҳам

юритилади) қизнинг онасини рози қилиш учун куёвнинг онаси томонидан бериладиган пул ҳисобланади. Умуман айтганда, халқимиз орасида, жумладан, Бухоро аҳолиси ўртасида сақланиб келаётган “сут пули” бериш удумининг номи худудда яратилган ва куйланиб келаётган никоҳ тўйига алоқадор қўшиқлардан ўрин олгани бежиз эмас. Бунга “келин салом” қўшиғи матнидан олинган куйидаги мисралар мисол бўла олади:

“Сут пули” деб сўзлаган.

Қўй-қўзини кўзлаган,

Тоғасига бир салом. [5]

Юқоридаги мисраларда “сут пули” деб сўзлаган, бунинг учун қўй-қўзини кўзлаган айнан тоға эканига бекорга эътибор жалб қилинмаётир. Чунки, одатда, “қалин” ва “сут пули”ни белгилашда ҳар иккала томондан жонкуяр ва ҳимоячи, раҳнамо сифатида тоға иштирок этади.

Кейинги пайтларда кўп жойларда “қалин” ва “сут пули” олиш-бериш удуми йўқолиб бораётгани таҳсинга сазовор. Шунинг учун улар ҳақида маълумот берувчи қўшиқларни ўрганиш халқ маросим қўшиқларининг тарихий-ҳаётий асослари билан танишиш, улар тўғрисида билиш имконини бериши билан муҳим ҳисобланади.

Келин учун берилган қалин билан тўй харжи бир нарса эмас. Тўй харжи тўй зиёфатини ташкил қилиш ва ўтказиш учун куёв томонидан юбориладиган нарсаларни, яъни тўйга сўйиладиган тана ёки кўчқор, қўй), ёғ, ун, ширинликлар, ҳатто ўтин қабиларни англатади. Халқ тилида бу удумни ифодалаш учун “тўй ортмоқ”, “тўй юбормоқ”, “тўй олмоқ”, “тўй келтирмоқ”, “тўй келмоқ” каби бирикмалар ишлатилади. Кўпчилик “кўз тегмасин” деган ниятда “тўй”ни яширин, пана-пастқам кўчалар орқали юборган.

Эгри-бугри кўчадан

Сой келади, ёр-ёр.

Узун бўйли синглимга

Тўй келади, ёр-ёр. [2]

Ёки яна:

Тизза бўйи лой кўча,

Бу кеча, ёруғ кеча.

Қўшнимизда бўлди тўй,

Келди тўйга семиз қўй. [2]

Баъзи қўшиқларда қалин учун ёки тўй зиёфати учун келтирилган молларнинг ориқлиги устидан қулинади. Келинчак ҳали бормаи туриб, куёв томонидан бу тарзда камситилганига ачиниш, куёв томоннинг ҳасислиги ва беътиборлигига нафратни билдиради:

Аробанинг гупчаги

Ёриқ экан, ёр-ёр.

Қизга берган қўйингиз

Ориқ экан, ёр-ёр.

Араванинг гупчаги

Ларзон кетди, ёр-ёр.

Эсизгина жон синглим

Арзон кетди, ёр-ёр. [4; 48]

Никоҳ тўйи билан алоқадор айрим маросим кўшиқларида “тўй” беришда, тўй юборишда олийҳиммат бўлишга чорланган. Қолаверса, халқимизда “Топганинг тўйга буюрсин” деган алоҳида олқиш ҳам мавжуд:

Қатор-қатор тевага

Тўй ортинглар, ёр-ёр.

Тоғда юрган сурувдан

Қўй ортинглар, ёр-ёр. [4; 47]

Хулоса қилиб айтганда, никоҳ тўйига алоқадор удумлар тасвири, талқини ҳозиргача жонли ижрода сақланиб келаётган ёр-ёр, ўлан, келин салом сингари жанрларда ўзига хос бадиий ифодасини топганлиги алоҳида эътиборга лойиқдир.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Алавия М. Ўзбек халқ маросим кўшиқлари. – Т.: Фан, 1974. – 222 б.
2. Бухор элда гул сайли. Бухоро халқ кўшиқлари ва термалари / Тўплаб, нашрга тайёрловчи ва кириш сўз муаллифлари Д.С.Ўраева, филология фанлари доктори, профессор ҳамда Д.З.Ражабов, филология фанлари номзоди, доцент. – Бухоро: “Бухоро” нашриёти, 2010. – 145 б.
3. Сафаров О., Маҳмудов М. Оила маънавияти. – Тошкент: Маънавият, 1998.
4. Сафаров О. Тўй муборак, ёр-ёр. Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи О.Сафаров. – Т.: Маънавият, 2000. – Б.45-48.

## БУГУНГИ ЎЗБЕК ПОЭМАЛАРИ БАДИИЙ СТРУКТУРАСИДА ФОЛЬКЛОР АНЪАНАЛАРИ

*Ортиқова Эътибор Шухратовна,  
Қарши Давлат университети  
мустақил тадқиқотчиси*

Ўзбек поэмачилигини ўрганиш, тадқиқ этиш унинг таркибини аниқлаш имконини беради. “Ҳар бир жанрнинг хусусий белгиларини аниқлаш эса унинг табиати ва бадииятининг ёритилишига олиб келади. Зеро, ҳар бир жанрга мансуб фольклор асарлари ранго-ранг маънолари, таълимий ғоялари, гўзал бадииятини таҳлил ва тадқиқ этиш, манбаларини чуқур ўрганиш ҳар бирининг жанрий хусусиятларини белгилашда алоҳида аҳамият касб этади”. [1;3]. Ана шу жиҳатларига кўра, оғзаки ижод жанрлари, образлари, мотивларидан фойдаланиш ўзбек поэмачилигида етакчи тамойилга айланганлигини кўриш мумкин. Мазкур жараён синкретик жанрларнинг вужудга келиши ва таракқий этишида асосий замин вазифасини ўтади. Ҳақиқатан, ҳозирги давр ўзбек поэмачилигида бу жараён фольклор билан алоқадорликда намоён бўлмоқда. Бинобарин, адиблар халқ оғзаки ижодининг эпик жанрлари: афсона, ривоят, нақлдан фойдаланиш асосида бадиий тасвирни янги-

лаш ва шакллантиришга эришмоқдилар. Ана шу омилларга кўра бугунги ўзбек адабиётида афсоналар, ривоятлар, нақллар асосида қурилган поэмаларининг ўзига хос тизими вужудга келмоқда. Жумладан, Мирмуҳсиннинг “Широқ”, Асқад Мухторнинг “Дол қоя”, Эркин Воҳидовнинг “Руҳлар исёни”, Абдулла Ориповнинг “Ҳаким ва ажал”, Омон Матжоннинг “Ҳаққуш кичқириғи”, Хуршид Давроннинг “Ватан ҳақида етти ривоят”, Ойдин Ҳожиёвнинг “Нажот”, Азим Суюннинг “Бешбармоқ”, А. Қутбиддиннинг “Ибтидо хатоси” сингари поэмалари шу йўлдаги жиддий изланишлар сифатида кўзга ташланади. Уларда афсона ва ривоятлар, адабиётшунос М.Амилованинг қайд этишича: “... замонавий ҳаёт маънавий бойлигининг тарихий илдизларини очишга, энг яхши халқчил ахлоқий фазилатларнинг ўзаро боғлиқлиги ва мангулигини кўрсатишга ёрдам бери”[2;107].

Афсоналар поэмалар таркибига киритилганда нафақат ижодкорнинг ғоявий-бадиий ниятини юзага чиқаришда, балки асарнинг тасвир усулини белгилашда ҳам муҳим ўрин тутди. Шунингдек, бу жанр орқали асарнинг миллий руҳи янада ортади. Чунончи, Омон Матжоннинг “Ҳаққуш кичқириғи” поэмасида адиб қирқ афсонадан унумли ва ўринли фойдаланади. Асарда афсоналар мустақил тарзда кичик-кичик қисмларга, сюжет йўналишларига мослаб қўлланилади. Шунинг учун шоир ўз асарини “Қирқ афсона” деб ҳам атайди. Икром Отамуроднинг “Ёбондаги ёлғиз дарахт” поэмасида ёлғиз дарахт ҳақидаги афсона мазмуни асосида асарнинг фалсафий руҳи кучайтирилган. Азим Суюннинг “Бешбармоқ” асарида шу номдаги қоянинг келиб чиқиши ҳақида халқ ўртасида тарқалган афсона сюжетида киритма воқеа сифатида фойдаланилган. Шунинг учун бу афсона композицион восита вазифасини бажарган. Ойдин Ҳожиёвнинг “Нажот” достонида замонавий воқелик афсона усулида акс эттирилган.

Асарлар таҳлилидан шу нарса англашиладики, фольклор жанрларининг бадиий асар матнига олиб кирилиши икки хил вазифани бажаради.

- 1.Композицион восита ролини адо этади.
- 2.Композицион усул вазифасида келади.

Афсона, ривоят, эртақларнинг поэма таркибига киритилиши лиро-эпик жанр такомиллида етакчи тамоиллардан бирига айланган, Бинобарин, халқ оғзаки ижоди жанрларининг ёзма адабиёт асарлари композициясидан ўрин олиши миллий ҳаёт манзараларини кенгроқ ифодалаш, уларга янада теран мазмун юклаш имконини беради. Шу маънода, халқ афсоналарига мурожаат этиш, воқеликни афсона йўсинида тасвирлаш ўзбек поэмачилигини ҳам мазмун ҳам шакл жиҳатдан бойитди. Бу борада, Икром Отамуроднинг “Ёбондаги ёлғиз дарахт” поэмасида келтирилган афсона фикримиз далили бўла олади:

... Айтишади...Қачондир...  
бир ўтгучи, савобгар,  
ўтаётиб бегидир  
ёбонга солган назар...  
Сукутга чўмган ёбон,



уч-қирғи йўқ яланг.  
 Чўкиб борар ёнма-ён  
 мункайган кўҳна яланг.  
 Ёбон –

жизғанақ савол –  
 тақрон ўралган ўрма.  
 Жавоб қийнаган ҳавор –  
 Заррот тўраган тўрми?  
 Кангулда ўсиб ҳиммат,  
 дили тўлиб бир аҳдни –  
 эққан экан беминнат  
 ўшал зодким дарахтни... [3;149].

Келтирилган афсона асарга ҳикматли йўналиш бағишлайди. Шоирларга поэтик фикрни кенг, таъсирчан қилиб тасвирлаш имкониятларини яратди. Бу эса лирик ва лиро-эпик поэма бадиий тўқимасида янгилашларни вужудга келтирди.

Фольклорнинг мустақил жанрларидан бири бўлган нақл бирор сабаб билан айтилади. Нақл ибратли ҳодиса, ахлоқ нормаларини баҳс услубида ёритади. Табиатдаги барча нарсалар, барча жонзодлар орасида инсон энг комил ва энг улуғ зотдир. Шунинг учун ҳам ҳар бир одам шу юксак номга муносиб бўлиши керак. Мана шу ғоя нақл жанрининг ўзагини ташкил этади[4;3]. У ўзига хос талқин услуби билан ажратиб туради. Атоуллоҳ Ҳусайний “Бадойиъ ус-санойиъ” асарида нақлнинг ибратли одобни тарғиб этиш услубини шундай келтирган: “Нақл улдирким, ўзга бировнинг маъносин олур ва ўзгача бир либосда зоҳир қилур”[5;268]. Унда муҳокама қилиниши зарур бўлган мавзу бўлиши лозим. XX асрнинг иккинчи ярмида эса бундай мавзулар сероб эди. Шунинг учун шоирлар нақлни бадиий шакл сифатида танлаб, ўз кечинмаларини ички туғён билан муҳокама қилишга интилдилар. Эркин Воҳидовнинг “Рухлар исёни”, Абдулла Ориповнинг “Ранжком” сингари дostonларида халқ нақллари муҳим ўрин тутди.

Эркин Воҳидовнинг “Рухлар исёни” дostonида “Олий рухлар тўғрисида нақл” келтирилган. Бу нақл ҳам бевосита асар қаҳрамони характерини ёркинлаштирувчи воситага айланган. Чунки нақлда рухлар иккига: оддий ва олий нуқтага ажратилади. Даҳолар, улуғларнинг руҳи олий рух бўлиб, “улар Аршда туриб” инсониятга раҳнамолик қилар экан. Бинобарин, поэмада ҳам ўз халқининг эрки ва озодлиги йўлида жонини аямаган таниқли бенгал шоири Назрул Исломга ўхшаган инсонларнинг руҳи ҳам олий рух эканлиги ифодаланган. Мазкур нақл асарда қолиплаш вазифасини бажаради.

Халқ тилида баъзан ривоятни нақл деб ҳам айтадилар. Лекин фольклоршунослик илмида нақл ва ривоят алоҳида-алоҳида жанр сифатида ўзига хос хусусиятларга эга. Иккала жанрни фарқламаслик, уларни чалкаштириб қўллаш айрим шоирлар ижодида кузатилади. Жумладан, Шукур Қурбоннинг Алишер Навоийга бағишланган тарихий мавзудаги “Сўз йўли” поэмаси бу жиҳатдан эътиборли. Унда шоир

ривоятни нақл сифатида қўллайди. Аслида эса Навоий ҳақида асар таркибига киритилган учта нақл ривоятдир. Шу боис бу асарни ривоятлар асосида қурилган дostonлар қаторига киритиш мумкин.

Айтиш мумкинки, афсона ва нақлларнинг поэмалар бадиий таркибидан ўрин олиши жанрнинг бадиий уфқини кенгайтиради. Биринчидан, замонавий воқеликни афсона услубида акс эттириш натижасида (“Ҳаққуш кичкириғи”, “Нажот”) халқимизнинг кўп асрлик орзу-интилишларини, яқин тарихимиз саҳифаларини жонли ифодалашга эришилди. Иккинчидан, афсона ва нақллар поэмаларга ахлоқий, фалсафий мазмун (“Бешбармоқ”, “Ёбондаги ёлғиз дарахт”, “Рухлар исёни”) бахш этди. Бу эса уларнинг ўқимишлилик даражасини оширишга хизмат қилди. Учинчидан, афсоналар поэма бадиий композициясини бойитди. Натижада лиро-эпик поэманинг эпик тасвир имкониятлари янада кенгайди. Тўртинчидан, халқ оғзаки ижоди жанрларининг поэма мазмунига сингдирилиши шоирларнинг миллий заминдан узилмаганликларини кўрсатади.

Хулоса қилиб айтганда, поэмалар бадиий таркибини тадқиқ этиш мақсади унинг бугунги ҳолати ва ўзига хос жиҳатларини аниқлаш ҳамда янгилашиш тамойиллари ҳақида тўлиқ тасаввур ҳосил қилиш имконини беради.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Имомов К. Ўзбек халқ насри поэтикаси. –Тошкент: Фан. 2008.
2. Амилова М. Ўзбек адабиётида фольклор анъаналари. –Тошкент: Фан. 1990.
3. Отамурод Икром. Сукут садоси. – Т.: Адабиёт, 2021.
4. Воҳид Зоҳидов. Юксак нафосат ва мангу ҳикмат обидаси.// “Калила ва Димна”. –Т.: Фан. 1986.
5. Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойиъ ус-санойиъ. –Т.: Адабиёт ва санъат. 1981.

### **АДАБИЁТ МУАЛЛИМИ ОБРАЗИ АБДУЛЛА ҚАҲҲОР ТАЛҚИНИДА**

*Собирова Моҳира,  
ЖДПИ мустақил тадқиқотчи*

Мактаб дарсликларида ҳам ўзбек мумтоз адабиёти ва ХХ аср адабиётимизнинг йирик вакиллари ҳаёти ва ижодини ўрганишга асосий эътибор қаратилгандир. Ўн биринчи синфда Абдулла Қаҳҳор ижоди бўйича “Адабиёт муаллими” ҳикояси, “Ўтмишдан эртақлар” қиссаси ва “Сароб” романидан парча ўрганиш кўзда тутилган бўлиб, уларга дастурда беш соат ажратилган. Бу беш соатнинг биринчиси “Адабиёт муаллими” ҳикоясини, иккитаси “Ўтмишдан эртақлар” қиссасидан берилган парчани ва қолган икки соат “Сароб” романидан олинган лавҳаларни ўрганишига бағишланади. Ҳикоя қаҳрамони Боқижон Бақоев тимсоли асосида ҳаётдан ўз ўрнини

тополмаган инсон шахсини тадқиқ этиш мазкур дарснинг тарбиявий мақсадидан муаллимнинг савиясини англаш дарснинг таълимий мақсадидир. Дарсда тадқиқот методидан фойдаланилади. “Адабиёт” дарслигида Абдулла Қаҳҳорнинг ҳаёти ва ижоди ҳақида беш бетга яқин батафсил маълумот берилган. Маълумки, ўқувчи олтинчи, еттинчи синфларда адибнинг ҳаёти ва ижоди ҳақида маълумотга эга бўлган, унинг шахси билан маълум даражада таниш. Лекин 11-синф дарслигида ҳам адиб шахсини ёритадиган ва уни ўқувчиларга янада яқинлаштирадиган муҳим адабий манбалар ва қимматли илмий-тарихий маълумотлар берилганки, уларга алоҳида тўхталиш лозим.

Шунинг учун ўқитувчи “Ойбек” мавзусини ўтиб бўлгандан сўнг, уй вазифаси сифатида дарсликда берилган Абдулла Қаҳҳор ҳақида мазкур биографик маълумот билан танишиб, ундан адиб ҳақида билганларига қўшимча нималар мавжудлигини аниқлаш вазифаси топширилади. Шунда бесамар такрорларга йўл қўйилмайди, вақтдан унумли фойдаланилади. Ўқитувчи дарсликдаги маълумотларга қўшимча равишда таниқли кишиларнинг Абдулла Қаҳҳор ҳақидаги хотираларидан ҳам фойдаланиши мақсадга мувофиқ бўлади. Бу ўқувчиларни улуғ адибга яқинлаштиради. Ўқувчи ва адиб орасидаги масофа қанча қисқарса, китобхонга муаллифни англаш шунча осон бўлади. Қолаверса, бу нарса адабиёт дарсларининг самарадорлигини таъминлайди. Таниқли адиб Одил Ёқубов Абдулла Қаҳҳор ҳақида шундай хотирлайди: “Соч-соқоли оппоқ, юзидан алломалик нури балқиб турган хушрўй бу инсон бир қарашда қаттиққўл, сиёсатли одамга ўхшаб кўринарди. Ўша пайтлардаги адабий муҳитда кенг урф бўлган “А Қаҳҳор нима деркин?” деган ибора бизнинг авлодимизга мансуб ёзувчиларни шошма шошарликдан, ўз ишига бепарволик билан ёндашишдан огоҳлантириб, қўлёзмаларимизни қайта-қайта кўчиришимизга мажбур қилар эди. Ҳақиқатда эса ғоят зийрак, кўнгли очик, адабиётга кириб келаётган ёрқин ва истеъдодли ёшларни астойдил қўллаб-қувватлайдиган инсон эди...”. [Адабиёт Фаҳри Пиримқул Қодиров “Тошкент - «Ўзбекистон» - 2007” 49-бет]

Шу ўринда ўқитувчининг ўқувчиларини О.Ёқубов чизгиларига асосланиб Абдулла Қаҳҳор портретини ўқишга йўналтириши улар учун қизиқарли машғулот бўлиши табиий. Агар ҳеч ким ўқий олмаса, бу топшириқни уй вазифаси сифатида қолдириш ҳам мумкин. Биринчи дарснинг 8 - 10 дақиқаси шуларга сарфланади.

Сўнгра ўқитувчи “Адабиёт муаллими” асари матнинг ўқишга киришади. Агар синфда адабиётни, сўзни чуқур ҳис қиладиган ўқувчи бўлса, у аввалги дарсда берилган топшириқ асосида ҳикояни ифодали ўқишга тайёрланиб келиши, асар матни билан ўртоқларини таништириши мумкин. Ҳикоя мутолаасига кўпи билан ўн дақиқа вақт сарфланади. Дарснинг қолган 20-22 дақиқаси унинг таҳлилига бағишланади. Мажмуада матн устида ишлаш учун учта савол-топшириқ тақдим этилган. “Адабиёт муаллими ” ҳақида дарслик муаллифининг ҳикоя матнини қайта баёни ва адабиётшунос

сифатидаги мулоҳазаларидан иборат уч бандлик материал билан ўқувчиларни асар моҳиятига олиб кириш, Бақоевнинг шахсиятини тадқиқ қилиш мумкин эмас. Агар ўқитувчи шуларни такрорлаш билан чегараланиб қолса, бу дарс шаклланаётган шахснинг маънавиятига ҳеч нарса бермайди. Такрорлар ўқувчини адабиёт дарсларидан бездириб қўяди. Шунинг учун ўқитувчи мазкур дарсни “Тадқиқот” методида ўтказиб, ўз фикр ва дунёқараши шаклланиб улгурган 11-синф ўқувчиси учун қизиқарли бўлган тарзда ташкил қилиши мақсадга мувофиқ бўлади. Ўрни келганда тадқиқот методи ҳақида фикр юритиб, шуни айтиш мумкинки, бу метод ўқув жараёнида бир мунча қийин ҳисобланган назарий йўналишдаги масалалар кўтарилишини эътиборда тутати. Бунда билим олишнинг юқори босқичида таълимнинг самарали изланиш усуллари мустақил равишда қўллаш талаб қилинади. Бу дарсда ўқувчилар далиллар тўплаш ва уларни назарий таҳлил қилиш, тизимга солиш, умумлаштириш каби амалий ишларни бажарадилар. Тадқиқот методида “кашфиёт” аввалдан ажратилган материал билан танишувдан кейин, фактик материаллар умумлаштирилганидан сўнг амалий иш жараёнида содир бўлади. Бунда тадқиқот топшириғи - ўқув-билув фаолиятининг тўлиқ туркумини ўқувчилар ўқитувчи раҳбарлигида ўзлари бажарадилар. Яъни маълумот тўплашдан тортиб, уни таҳлил қилиш ва янги билимларни мустақил равишда амалиётда қўллашгача бўлган ишларни бажариш назарда тутилади.

Ўқувчилар томонидан фактик материал тўплаш тадқиқот методининг зарурий қисмларидандир. Шундай далиллар мавжудки, уларни дарс жараёнида, айниқса, адабиёт дарсларида кузатиб, тўлиқ очиб бўлмайди. Агар ўқитувчи ўқувчилар ихтиёрига шундай далилларни тавсия этиб, уларни таққослаш, тизимга солиш, умумлаштиришни топширса ҳам, бу билан масаланинг муаммолик даражаси камаймайди. Тадқиқот методини қўллашда барча топшириқларнинг ўқувчилар томонидан бажарилиши муҳим ҳисобланади. Топшириқларни бажаришда бирор босқичи тушиб қолса, топшириқ ўз тадқиқийлик даражасини йўқотиб қўйиши мумкин. Тадқиқот методидан фойдаланилганда савол-топшириқлар тадқиқот жараёнининг сўнгги босқичида, ўқувчиларнинг қўпчилиги тадқиқот масаласини ҳал қилиб бўлгандан кейин қўйилади. Бу билим даражаси кучли ўқувчилар учун мўлжалланган метод бўлиб, муаммоларни ҳал этиш мобайнида ўз-ўзини назорат қилиш ва текшириш ишлари ҳам амалга оширилади. Билим даражаси нисбатан паст бўлган ўқувчиларга уларнинг имкониятлари даражасидаги топшириқлар берилади. Ўқитувчи фақат қўллаш мумкин бўлган усулларни тўғри аниқлаши, мустаҳкамлаш керак бўлган ўқув материали мазмунини тўғри белгилаши талаб этилади. “Адабиёт муаллими” ҳикоясини тадқиқот методидан фойдаланиб, ўрганилганда изланиш объекти Боқижон Бақоев ҳисобланади. Бу дарсда ўқувчилар “Боқижон Бақоев тарбиялаган ўқувчилар қандай одам бўлади?” [Қундузхон Ҳусанбоева “Адабиёт маънавият ва мустақил фикр шакллантириг омили” Тошкент – 2009 307-бет] деган мавзуда педагогик тадқиқот ишларини олиб боришади.

Дарсликда Бақоевнинг қиёфаси “ҳажвий” дея тавсифланади. Ҳикоя таҳлиliga юқоридаги назар билан ёндашилса, бу ҳажвий эмас, фожиавий масалага айланади. Тадқиқот ишларни ўқувчилар Бақоевнинг табиатини ўрганишдан, яъни далиллар тўплашдан бошлайдилар. Ўқитувчи ўқувчиларни муаллимнинг табиатига хос бўлган иллатларни аниқлашга йўналтириш учун кўйидаги саволларни беради: “Сигирнинг қулоғига қана тушиши муносабати билан Бақоевнинг табиатига хос қандай хусусиятларни илғадингиз?”, “Унинг чўчка боқиш ҳақидаги фикрининг турфалигини нималардан кўриш мумкин?” Ҳар иккала савол асосида ўқувчилар Бақоевнинг табиатидаги бир сифатни очишлари керак: бу уларнинг далили бўлади.

Ўқувчилар Бақоев Ҳамиданинг афсусланишига парво қилмай, ўз гапини гапираверишига асосланиб, унинг яна бир сифатини очишлари керак бўлади. “Хўш, у нега Ҳамиданинг гапига муносиб муносабат билдирмади? Бу ундаги қандай феъл-атвордан далолат беради? Бақоевнинг Ҳамидага қарата: “Канцеляриянинг эшигига практикум деб ёзиб қўйибди. Тўғри эмас. Практикум, минимум, максимум – булар ҳаммаси лотинча ёки лотинчага яқин сўзлар”, - деганига асосланиб, унинг билим даражасига баҳо беринг” [Қундузхон Ҳусанбоева “Адабиёт маънавият ва мустақил фикр шакллантириг омили” Тошкент – 2009. 311-бет] топшириғи ўқувчиларни сергак торттиради. Улар билганича муносабат билдирадидилар, ўз далилларини дафтарларига ёзиб борадилар. Бақоевнинг табиати билан боғлиқ деталларни тўплашда давом этиб: “Ҳамиданинг Чехов асари таҳлили билан боғлиқ саволига Бақоевнинг “*томдан тараша тушгандай*” савол билан жавоб бериши нимадан далолат беради?” ва “Сиз адабиёт муаллимининг “Савол аломати ҳамма вақти “ми”дан кейин қўйилади” деган фикрига қандай қарайсиз?” каби саволлар ўртага ташланади. Ўқувчилар ўз жавобларида Бақоевнинг нутқига эътибор қарата олишлари керак. Бу билан ҳикоя муаллифининг ёзувчилик маҳоратига ҳам баҳо берган бўладилар.

“Бақоевнинг ҳеч гапдан ҳеч гап йўқ: “сартарош бўлмаса одамлар маймун бўлиб кетар эди. Маймун жуни тўкилиб, одам бўлган. Бу ҳақда Энгелснинг фикр *бор...*” дейишига муносабат билдиринг” топшириғи ўқувчиларни ҳикоя қаҳрамонининг аёллар олдида ўзини билимли қилиб кўрсатаётганини, аслида энг саводсиз киши ҳам бундай фикрламаслигини, Бақоев шундай қарашлари билан ўзининг билимсизлигини фош этаётганини тушуниши керак. У ўзини билағон фахмлаб, атрофидаги одамларнинг барчасини аҳмоқ деб ўйлайди. Унинг гапларига Ҳамиданинг ёки хотини Мукаррамнинг эътироз билдирмагани, қарши гап айтмагани билимсизликдан эмас, бунинг қандайдир бошқа сабаблари борлиги ва бу сабаблар қандай бўлиши мумкинлиги ҳақида ўқувчилар ўйлаб кўришлари керак.

Ўқитувчининг: “Бақоевнинг ҳеч гапдан ҳеч гап йўқ: “сартарош бўлмаса одамлар маймун бўлиб кетар эди. Маймун жуни тўкилиб, одам бўлган. Бу ҳақда Энгелснинг фикр *бор...*” дейишига муносабат билдиринг?” - деган саволи ўқувчилар диққатини асарнинг шу қисмига қаратишга мажбур қилади. Улар, шубҳасиз, ҳеч нарса тушунмайдилар ва бу билан Бақоевнинг



яна бир сифатини очадилар: Бақоев -мужмал одам. Бу сифат ҳам дафтарга ёзилади. Сўнгра ўқитувчи ўқувчилар диққатини Бақоев тушунолмаётган мояк ва хўрознинг саҳарда қичқириши сингари “чуқур қараш”ларга қаратади. Бу чиндан ҳам чуқур қарашми? “Адабиёт муаллими Боқоевни хотини Мукаррам билан таққосланг. Эр-хотиннинг Чехов ҳақидаги гапларига асосланиб, уларнинг билим даражасини баҳоланг” топшириғи ўқувчилар диққатини яна асар матнига қаратади. Улар ўз муносабатларини билдирадилар. Мукаррамнинг ким бўлиб ишлаши ҳақида ҳикояда ҳеч нарса дейилмаган. Лекин у Пушкин ва Чехов ҳақида эри, адабиёт муаллими ўртоқ Бақоевдан кўра тузукроқ билимга эга. Бундай ташқари унинг асоси бор. Мукаррам “кутубхонада Чеховнинг Максим Горкий билан олдирган *сурат*”ини кўрган. Сўнгра ҳикоядаги “Ўртоқ Бақоев бир оз ўнғайсизланди” деган жумлага эътибор қилинади. Шу ўринда ўқувчиларнинг диққати: “ўнғайсизланиш” сўзи ўринлими? Ёки бу сўз ҳам Бақоевнинг бирор сифатини очиш учун қўлланилганми?” деган фикрга қаратилмоғи керак бўлади.

Ўқувчиларда ўзини адабиёт билимдони деб юрган, аслида эса савияси мактаб ўқувчиси даражасида ҳам паст бўлган Боқижон Бақоевнинг Чехов ва бошқа адиблар ҳақидаги “узундан-узок” маърузаси асосида у ҳақида муайян фикр ва хулоса пайдо бўлади ва уларни ўзаро муҳокама қилишлари мумкин бўлади. “Абдулла Қаҳҳор. Асарлар. Олти томлик. 1-т. Т.1967” ҳикоясининг бош қаҳрамони Боқижон Бақоевнинг характери билан боғлиқ барча деталлар аниқлаб бўлингач, ўқитувчи мавзу объекти билан боғлиқ масалани ўқувчиларга эслатади: “Боқижон Бақоев каби адабиёт муаллимларидан ўқувчи қанчалик билим олиши мумкин? Бундай чаласавод кимсаларни муаллим деган юксак мақомдаги шахс лар қаторига қўшиб бўладими? Улар тарбиялаган ўқувчилар қандай одам бўлади?”. Юқори синф ўқувчилари бу ҳақда ўз мактаб ҳаёти ёки бошқа билганларидан келиб чиқиб, саломоқли фикрлар айтиши табиий. Ўқитувчининг вазифаси уларнинг фикрлари, муносабатлари ва хулосаларини назорат қилиб боришдан иборат. Энг муҳими, фикрлар аниқлиги, мантиқли ва асосли бўлишидир. Фикрлар тугаганда дарс ҳам якунига етади. Ўқувчилар дарс жараёнидаги фаоллигига, айтилган фикрларнинг мантиғига, далилларнинг асослилигига қараб баҳоланади, рағбатлантирилади. Гап шундаки, ўқувчиларнинг барчаси Боқижон Бақоев каби билими саёз ва тушунчаси тор чала савод муаллимлар ҳақида ўзининг танқидий хулосасига эга бўлган ҳолда дарсни якунлашлари керак. Шунда дарснинг асосий мақсадига эришилган бўлади Албатта, ўқитувчи ўқувчиларнинг фикрларини хулосалаганда, ҳамманинг қарашларини умумлаштириб бир қолип га солишга уриниши мақсадга мувофиқ бўлмайди. Энг муҳими, ўқувчилар ҳақиқий зиёли-ўқитувчи ҳақида муайян тасаввурга эга бўлишларига ёрдам беришидир. Зиёли инсон – бамисоли мевали дарахт: унинг кўм-кўк япроқлари- чуқур билим, теран тафаккур, маънавий-гўзаллик; ўқ илдизи-бурчи ва эътиқодига садоқати, ички дунёси; меваси – маънавияти ва маърифати, ақл-заковати юксак камолот чўққисини забт этган инсонлар эзгу манфаатлари рўёби учун катта ҳисса

кўшадиган, илғор мушоҳада ва мантиқий қарашларга эга бўлган, Она юртининг порлоқ келажаги учун бутун борлигини бахшида этадиган, томирида буюк аждодлари қони оқаётган келажагимиз вори слари бўлиши лозимлигини англаб етсинлар. Адабиёт ўқитишнинг бош мақсади ҳам, аввало, шунга қаратилиши тўғри бўлади.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Абдулла Қаҳҳор. Асарлар. Олти томлик. 1-т. Т.1967.
2. Абдулла Қаҳҳор.Ҳикоялар. Т.2007.
3. Кибриё Қаҳҳорова. Чорак аср ҳамнафас. Т.:2007. Тўхлиев Б.Адабиёт ўқитиш методикаси.Т.2006. Ҳусанбоева
4. Қ.Адабиёт ўқитиш методикаси ва муаммоли таълим. Т.2022. Қосимов .У.Ҳошимхонов М. Мактаб ва академик лицейларда А.Қодирий, Чўлпон, А.Қаҳҳор ижодини ўрганиш. Т.2021.
5. Қундузхон Ҳусанбоева “Адабиёт маънавият ва мустақил фикр шакллантириг омили” Тошкент – 2009. 311-бет

### **“QO‘RG‘ONLANGAN OY” ROMANIDA OBRAZ VA OBRAZLILIK**

*Jo‘raqulova Ilmira Suyunovna,  
SamDU mustaqil tadqiqotchi*

O‘zbek romanchiligining o‘ziga xos taraqqiyoti maydonga keldiki, milliy istiqloq davriga kelib, har jihatdan badiiy talqindagi axloqiy mezonlarni yangilash zarurati tobora kuchaya boshladi. Shunig uchun nasr taraqqiyotida o‘ziga xos talqinlar, poetik tasvir xususiyatlari namoyon bo‘ldi. Adabiyotshunos Abdug‘afur Rasulov qayd qilganidek: “O‘zbek romanchiligi jahon adabiyotida ro‘y berayotgan holat, izlanishlarni o‘zida aks ettirmoqda. Globallashuv san‘at, adabiyotda ham ko‘zga tashlanayotganligini inkor qilmagan holda romanning o‘zligini, betakrorligini milliylik, yangi-yangi qahramonlar belgilashini zinhor unutish mumkin emas” (1,59-bet). Ta’kidlanganidek, jahon adabiyotidagi etakchi tamoyillar o‘zbek romanchiligiga ham sezilarli ta’sir etganligini ham inkor etib bo‘lmaydi.

Shu nuqtayi nazardan, iste’dodli adib Shoyim Bo‘taevning “Qo‘rg‘onlangan oy” romanida ham turfa xil taqdirlar, ularning o‘ziga xos xarakter xususiyatlari teran badiiy talqin etilgan. Asarning asosiy mavzusi ham keyingi yillardagi xalqimiz hayotini, inson va tabiat birligini, inson va nabotot olamining dialektik birligini badiiy talqin etgan asarlardan biridir. Roman sujetiga umuminsoniy muammolar darajasidagi muammolar bilan bir qatorda, uning insoniy fazilatlaridan mahrum bo‘lib borishi, salbiy xarakterning shakllanishida muhitning ta’siri yorqin lavhalarda o‘z ifodasini topgan.

Asardagi voqealar rivoji inson qalbida shakllangan yovuzlik xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Inson o‘z ruhiga singib ketgan yovuzlik mohiyatini

anglashi murakkab jarayon ekanligini obrazlar olami orqali asoslashga intiladi. Inson ruhiga yovuzlikning kirib kelishi va uning fojiviy oqibatlari romanga xos tasvir usulida singdirilganligini kuzatish mumkin. Romanning badiiy-estetik ahamiyati shundaki, yozuvchi romanga xos tafakkurni romanga jalb etishda polifonik talqin yo‘llariga murojaat etadi. Bu tasvir orqali badiiy qahramonlar ruhiyatini, xarakter qirralarini yoritib beradi.

Asardagi voqealar silsilasi shuni ko‘rsatadiki, inson qalbida ezgulik bilan bir qatorda yovuzlik ham kurtak otadiki, buning asosiy sababi ham, inson va muhit o‘rtasidagi ziddiyatlarga bog‘lanadi. “Murtazo iyagini erinchoqlik bilan qashlab, esnab o‘tirgan Rahmonga yer ostidan qarab-qarab qo‘yarkan, yuragi po‘killar, hozir boshini ko‘tarib meni ko‘radi-yu ishga buyuradi deb o‘ylardi. Rahmonning avzoyi buzuq, xuddi buyurishga arziydigan yumush o‘ylab topolmaganidan bezovtalanardi. Shu on Murtazoning kutgani ro‘y berdi: u boshini ko‘tardi” (2, 38-bet). Voqealar rivojiga nazar tashlar ekanmiz, Murtazoning xuddi shu muhit, uning xarakterini o‘zgarishiga, insonga nafrat bilan qarashini shakllanishiga sabab bo‘lganligini his etamiz.

Asar qahramonining ruhiyatida vujudga kelgan yovuzlikning ilk kurtagi, tashqi muhit ta‘sirida tug‘ilgan, ruhiyatiga xos bo‘lgan andishani yengish g‘oyasi bora-bora uning ruhiyatida o‘ziga xos bir isyonga aylanib boradi: “Murtazo indamay o‘rnidan turdi. Bir chetda yotgan, siri ko‘chgan choynakni olib bir zum kalavalanib turdi, nimadir demoqqa chog‘landi, aytolmadi. Ketdi... Baribir gap qaytargani bilan foydasi yo‘qligini, Rahmon uning gapini ikki pulga olmasligini, qaytanga urib abjag‘ini chiqarib tashlashini yaxshi bilardi” (2, 38-bet).

Murtazoning qalbida ham insoniylik mavjud edi, bolalarga xos qarashlar, tushunchalardan mahrum emas edi. Ammo “Hali bu gaplari uchun pushaymon bo‘ladi, kechirim so‘raydi. Axir, men unga hech qanday yomonlik qilganim yo‘q-ku?!” kabi savollar bilan o‘zini ovutar ekan, asta-sekinlik bilan bu tushunchalarning o‘rning yovuzlik, zulmga zulm bilan javob qaytarish xususiyati shakllanishiga sabab bo‘ladi. Chunki hammadan zo‘r bo‘lish istagining paydo bo‘lishining o‘ziyoq yovuzlik belgisi edi. Bu zo‘rligi bilan odamlar ko‘ngliga qo‘rquv solishga, ularni jismonan yengishga bo‘lgan ehtiyoj uni shunday shakllantirib boradi. Shu sababdan ham uning ruhiyatiga kirib kelgan andishani yengish, hammadan ham zo‘r bo‘lish istagi kundan kun kuchayib boradi. Murtazo ruhiyatida muntazam o‘zligini anglatib turuvchi o‘zidagi qo‘rquv – andishani yengish g‘oyasi bora-bora u bilan muloqotga kirisha boshlaydiki, bu esa yovuzlik belgisi ekanligini anglab etmaydi. Ayni paytda, uning ichki kechinmalari davr yevirilishlariga hamohang ekanligini ham unutmashimiz zarur. Murtazoning nazarida, faqat shu ichki talab-andishani yengish orqali odamlar nazaridagi mavqeyini tiklaydi, shu sababdan ham u bu g‘oyaga tobelarcha bo‘ysunadi. Bunda u g‘oyaning bir ovozi, bir yuzinigina ko‘ra oladigan darajada nafrat tuyg‘usini shakllantirib ulguradi. Asardagi voqealar rivojida, ilk bor tegishli qopdagi sementdan boshqa sement tashimayman deb, o‘z huquqini talab qilgan Murtazo og‘zi-burni qonga to‘lib Rahmondan kaltak yeganda ham azoblanmaydi, aksincha mag‘rurlanadi. Nihoyat, o‘z qo‘rquvining ustidan g‘olib chiqishi, o‘zini

boshqalarga anglatishi uning uchun katta baxt, saodat deb bilishining o'ziyoq, gumrohligidan dalolat edi. Shu kundan boshlab ruhiyatiga in qurgan yovuzlik g'oyasi uning eng muqaddas tuyg'ularidan ham g'olib chiqqa boshlaydi.

Bunday xarakterning shakllanishida o'sha muhitning o'rni beqiyos edi. Murtazo ko'rinishidagi ikkinchi odam – beshafqat, cho'rtkesar, zolim Murtazoni anglagan, sevib uylangan xotini Mavluda dahshatga tushadi. Mavludaning: “Sizga nima bo'ldi?”, – degan so'rog'ini uning: “Ko'zingizni oching, qaysi yo'lni tanladingiz?” degan ogohlantirishi deb emas, balki: “Xayriyat, nihoyat Siz ham odam bo'lib, o'z haq-huquqingizni anglabsiz”, - degan ma'noda his etadiki, bu esa uning keyinchalik fojialar girdobida qolishga zamin hozirlaydi.

Qaynotasidan tog'begilikni qabul qilgan Murtazoning borlig'ini yovuzlik o'zining mustahkam iplari bilan asta-sekin o'rab oladi. Uning o'qiga duchor bo'lgan oq bo'kanlarning jon otilgan talvasasida oyoq silkishidan u huzur qiladi, tirqirab otilgan qondan may ichgandek mast bo'ladi. Uning beoram qalbini shu darajada yovuzlik egallab oladiki, ko'ziga zulm qilishdan boshqa narsa ko'rinmas, oddiydek tuyulardi. Yovuzlikning kuchayib borishi Murtazoni nafs quliga aylaniradi. Goho-goho xotirasida jonlangan sodda, ma'sum Murtazoning ko'zlaridan qocholmay qiynalgan damlarida ichkilikka ruju qo'yadi, bora-bora eslamaslikka harakat qiladi. Murtazo qalbidagi ezgulik, o'z navbatida yovuzlikka o'rni bo'shatishga majbur bo'ladi.

O'z halol mehnati bilan kun kechirgan shofyorni yo'ldan urishi va ovga olib borishi oqibatida shofyorda psixologik depressiya holatidagi gallyusinatsiya yuz berishga olib keladi. Ko'ziga qon ko'rinaverganidan o'zi ham o'limiga sababchi bo'lgan jonvorlarning holidan qo'rqib, mashinasidan ham, mashina haydashdan ham voz kechgan shofyor ongiga azob bergan azob aslida Murtazoning ongini, aql-idrokini ko'r qilgan «zo'r bo'lish» g'oyasining ikkinchi ijobiy ovozi natijasida yuzaga kelgan vijdon azobi edi. Murtazoni bir necha bo'lakka bo'lib tashlagan g'oya hamma narsani egallash xohishini yuzaga chiqaradi. Anna bilan bo'lgan yaqinlik goho nafs bo'lib, uning xohishini uyg'otadi, goho gunoh bo'lib, vijdoniga azob beradi. Vijdoni qiynalgan damlari Mavludaning ko'zlariga boqolmay qoladi. Ammo ikkinchi g'oyaga tutqun Murtazo birinchi pok Murtazodan zo'r keladi. Kundan-kunga o'zgarib borayotgan Murtazoning xarakteri Mavludani tashvishga soladi, o'zlarining hayoti parokandalik sari yuz tuta boshlaganini anglab, u iztirobga tushadi, Murtazoni tushunmoqchi bo'ladi, erining qalbiga quloq tutishga intiladi. Ammo yovuzlik ruhi Murtazo ongini, aql-idrokini, es-hushini qamrab olgan edi. Mavludaning iltijolari, nasihatlarini butunlay unitadi, ya'ni o'ligini yo'qota boshlaydi. O'g'lining qo'lini halollashdan ko'ra to'y qilib, hammaga kimligini ko'rsatib qo'yish xohishi Murtazoning fojiasidan dalolat beradi. Bo'rilarining to'yga atab boqqan qo'ylarini chavaqlab tashlashi ham uning ruhiyatiga ta'sir qilmaydi.

Bo'rilarining qo'ylarga tajovuz qilishi, aslida Murtazoga kelayotgan fojiadan darak edi, ammo uni anglash, his etishdan mahrum bo'lganligini ham inkor etib bo'lmaydi. Nafsning natijasida tabiat va inson o'rtasidagi dialektik birlik buzila boshlaydi. Och qolgan bo'rilarining tap tortmay qishloqqa oyoq qo'yish sabablarini



anglashga ham imkon topmaydi. Bu salbiy holatlar, fojialardan xulosa chiqarishdan ham mahrum edi.

Tabiat uyg'unligining falsafiy mohiyatidan polifonik talqinni kuchaytirib, qahraman ruhiy-ma'naviy olamini yoritib boradi. Yomonlik va yovuzlik, falokat va kasofat hech qachon yolg'iz kelmasligini Mavluda juda teran anglaydi. Ammo yillar shamoli uning qarashlarini anglash imkonini bermaydi. Yovuzlikning qalb qaridan mustahkam o'rin olishi uning xarakter xususiyati bilan bir qatorda, ruhiy olamini, fojiasini yoritishga xizmat qiladi. Bu davrga kelib uning butun borlig'i yovuzlik qudratidan kuch ola boshlaydiki, uning zamiridagi fojiani unitadi. Murtazoning o'zi ham aslida mana shu tabiatning bir bo'lagi ekanligini unutadi.

Murtazoning xayoliga kelgan cho'loq bo'ri aslida uning bir turlanishi edi, xolos. Intiqom sari oshiqqan Murtazo insonga xos bo'lgan falokatni oldindan sezish hissidan ham mahrum bo'lishga ulgurgan edi: "Murtazo bir Saru hol, nima qilib, nima qo'yayotganini ham farqiga ko'pincha bormasdi. Xayoli allaqaylarda parishon kezinar, rangu ro'yiga qarab bo'lmasdi – yonoqlari turtib chiqib, ko'zlari ich-ichiga botib ketgandi. Uning ishidan ham, o'zidan ham, turish-turmushidan ham ko'ngli sovigandan sovib borardi. Qachon kech kirib, ish tugar ekan, manovu Rahmonning turqini ko'rmasam ekan, deb o'ylar edi" [2,67-bet].

Qayd qilingan talqinlardan ko'rinadiki, uning qalbidagi o'ziga xos ruhiy istiroblar mujassamlashgan. Murtazoda insoniy fazilatlar mavjud edi, ammo yillar davomidagi ijtimoiy muhitning ta'siri natijasida salbiy xarakter xususiyati ham shakllanib ulgurgan edi. Yovuzlik g'oyasining bir ongdan ikkinchi ongga o'tishi, turlanib, tuslanib o'ziga jalb etishi ko'povozlilik, ko'p qatlamlilik darajasida talqin etiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Rasulov A. Badiiylilik – bezavolm yangilik. – T., "Sharq", 2007. – 336 b.
2. Bo'taev Sh. Qo'rg'onlangan oy. Roman. – T., "Sharq", 1995. – 192 b.
3. Normatov U. Ijod sehri. – T., "Sharq", 2007. – 290 b.
4. Bahodir Karim. Ruhiyat alifbosi, – T., G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2016. – 364 b.

#### АЛИШЕР НАВОИЙ ИЖОДИДА АХЛОҚИЙ-МАЪНАВИЙ ТУШУНЧАЛАР ТАЛҚИНИ

*Холиқов Азамат Бахриддинович,  
Қарши Давлат университети  
мустақил тадқиқотчиси*

Тарбияшуносликка оид адабиётларда Алишер Навоийнинг шарқона одоб-ахлоқ борасидаги қарашлари ҳақида муайян қарашлар мавжуд [1;95.]. Зеро, буюк сўз санъаткори қолдирган бой ижодий мерос мусулмон Шарқи одобшунослигининг салмоқли зарварақларини ташкил этади. Унинг асарлари беш асрдан ошдики, шарқона одоб ва ахлоқ дастури сифатида юртма-юрт



кезиб, қўлма - қўл ўқиб келинмоқда. Улуғ адибнинг деярли барча асарларида панднома руҳидаги фикрларни учратиш мумкин.

Ижодкор маҳоратини белгилашда унинг анъанага муносабати ва ижодий ўзига хослигини қиёслаш муҳим аҳамиятга эга. Буюк шоир ўз ижодида комил инсон образи ҳақида жуда кўп мулоҳаза юритиш баробарида унинг аҳамиятлилигига ҳам жиддий эътибор қаратган. Чунки ҳазрат Навоий учун комиллик реал ҳаётда маслак, бадий ижодда эса бадий-эстетик идеал мавқеида кўрилган. Хусусан, “Хамса”нинг биринчи достонида ўнлаб ана шундай ҳикматомуз байтлар ўрин олган. Бу дoston қомусий асар бўлиб, унинг асосий қисмини ташкил этувчи мақолот ва ҳикоятларда барча замонлар учун ўта долзарб бўлган баркамол авлод, комил инсон ҳақидаги улуғ мутафаккирнинг теран ахлоқий-маънавий, ижтимоий-фалсафий мулоҳазалари бадий ифодасини топган. [2;432.] Асардаги мақолотларнинг ҳар бирида одоб-ахлоқ мезонларига оид муайян мавзулар юзасида фикр юритилган. Хусусан, асарнинг “Адаблилик одати ҳақида” деб номланувчи б-мақолотида инсонни ҳар томонлама комиллик сари етакловчи маънавий-маърифий омиллардан бири одоб ва ҳаё хусусида жуда ибратли мулоҳазалар баён этилади. “Кимдаки иймоннинг уч белгиси бўлса, у ҳақиқий инсондир”, – дейди ва бу белгилар сифатида сабр, шукр ва ҳаёни таъкидлаб кўрсатади:

Бас, ани инсон атагил бериё

Ким, ишидур сабр ила шукру ҳаё.

Улуғ шоирнинг фикрича, инсонга шараф унинг насл-у насаби ёки амал – мартабасидан эмас, балки ҳаё-ю одоби туфайли келади. Шу боис ҳаё ва одобнинг катраси тупроқни олтинга айлантирувчи кимёга қиёсланади.

Алишер Навоий бола тарбиясида ота-она масъулияти хусусида тўхталиб, унга муносиб ном қўйиш, яхши муаллимга бериб, илм ўргатиш муҳим эканлигини таъкидлайди. Айни пайтда ота-онага ҳурмат кўрсатиш ҳам мақолатдаги долзарб масалалар қаторидан ўрин олган:

*Бошни фидо айла ато қошига*

*Жисмни қил садқа ано бошига*

*Икки жаҳонингга тиларсен фазо*

*Ҳосил эт ушбу иккисидин ризо*

*Тун - кунингга айлагали нур фош*

*Бирисин ой англа, бирисин қуёш [3;120.]*

Дарҳақиқат, ота-онага ҳурмат, уларни қадрлаш шарқона одоб-ахлоқ шартларидан биридир. Шоир фикрига кўра, ота-она шундай улуғки, бошингни отанг учун фидо айласанг ва жисмингни онанг учун садқа қилсанг ҳам кам. Агар ҳар икки жаҳонинг обод бўлишини истасанг, ота-она розилигини олиш фарзанд учун ҳам қарз ҳам фарздир.

Асарнинг 9-мақолоти “Ростлик ҳақида” деб номланиб тўғри сўз, унинг хосиятлари, баҳоси ва шу каби масалалар талқинига бағишланган. Таъкидлаш жоизки, “Ҳайрат ул-аброр” достонида кун тартибига қўйилган масалалар бевосита “Хамса”нинг кейинги дostonларида ҳам давом этади, хусусан, комил инсонга хос адаб, қаноат, карам ва саховат, футувват, ростлик, вафо

каби хислатлар билан боғлиқ масалалар “Фарҳод ва Ширин” достони, “Сабъаи сайёр” таркибидаги ҳикоятлар, “Садди Искандарий” дostonларида янги талқин топганлигини кўрамаиз” [5;99-100].

Буюк мутафаккир Алишер Навоийнинг бой ҳаётий тажрибаси ва ҳулосалари асосида яратилган энг сара асарларидан яна бири “Маҳбуб ул-қулуб”, яъни “Кўнгилларнинг севгани”дир. Панднома руҳида ёзилган мазкур асарнинг 10 бобдан иборат иккинчи қисми “Ҳамида афъол ва замима ҳисол ҳосиятида” деб номланиб, ахлоқий масалалар таҳлилига кенг ўрин берилган. Мазкур қисм “Ҳайрат ул-аброр” достони сингари муайян ахлоқий масалаларнинг тавсифи, изоҳи ва унга илова қилинган ҳикоят баёнидан иборат. Асарнинг учинчи қисми турли фойдали панд-ҳикматлар, шунингдек, 127 танбеҳдан таркиб топган бўлиб, айна ўринларда шоирнинг мақолларга уйғун тарздаги ҳикматли сўзлари бирмунча кенгайтирилади ва умумлаштирилади. Келтирилган танбеҳларда ҳам одоб-ахлоққа доир қарашлар ўзига ҳос ҳукмлар сифатида ифодаланади. Бу асарда келтирилган фикрлар мақоллар каби ихчам ва таъсирчан характердадир. [1.26.] Қолаверса, бу ҳикматлар инсон онгига тез кириб боради, уларни тушуниш ҳам жуда осон, хотирада ҳам жуда тез сақланиб қолади. Масалан, қуйидаги ҳикматга эътибор қилайлик:

*Эл айбини айтурга бировким узотир тил,  
Ўз айбини фош айлагали тил узотур бил. [4;69.]  
Тилга ихтиёрсиз - элга эътиборсиз. [4;484.]*

*Тил мунча шараф била нутқнинг олатидур ва ҳам нутқдирки, гар нописанд зоҳир бўлса, тилнинг офатидур... [4;484.] Яъни, тил шунча шарафи билан нутқнинг қуролидир, агар у ўринсиз ишлатилса, тилнинг офатидир, дейди.*

*“Шоирнинг пурмаъно фикрлари халқ онгига шунчалар чуқур сингиб кетганки, уларни ҳатто баъзи пайтларда халқ мақолларидан ажратиш ҳам мушкул бўлиб қолади. Ўзини, атрофидагиларни ҳурмат қиладиган одам ҳар бир айтадиган сўзини ўйлаб гапиради. Оғзига келган гапни қайтармайдиган, ҳар қандай гапни ҳам гапираверадиган кишилар на атрофидагиларни, на ўзини ҳурмат қилади” [3;48].* Бундай кишини бошқалар ҳам қадрламайди. Шунинг учун ҳам киши ёшлигиданоқ ўйлаб гапиришни, фикрини тўғри ифодалашни ҳам ўрганишлари керак.

Илму ҳикмат билимдони бўлган мутафаккир шоир билим эгаллашнинг асрори – ўқиш, ўрганиш ва изланишда эканлигини таъкидлайди. Шу боисдан:

*Билмаганни сўраб ўрганган олим,  
Орланиб сўрамаган ўзига золим. [4;485.]*

дея ҳикмат айтади. Бу ҳикмат замирида билим олиш учун доимо изланиш лозимлиги, билмаганини сўраш уят ҳисобланмаслиги, буюк олимлар ҳам билимни шундай олганлиги, бировдан илм сўрашга орланган инсон фақат ўзига зиён қилиши ҳақидаги фалсафий қарашлар илгари сирилади.

Бефойда сўзларни кўп гапиришнинг оқибати яхши эмаслиги, бундай киши жамиятдаги обрўсини йўқотиши, аксинча, фойдали сўзларни кўп тинглаш зарурлиги куйидаги байтларда ихчам ва таъсирчан ифодаланган.

*Бефойда сўзни кўп айтма*

*Фойдали сўзни кўп эшитишдан қайтма. [4;487.]*

*Ҳар неча бийми ҳажр сўзи ошиқ ўлтурур,*

*Вуслат башорати яна жисмига жон берур. [4;488.]*

Хулоса қилиб айтганда, Алишер Навоий асарлари замонамиз ёшларини руҳан поклашга, маънан юксалтиришга қодир безавол маънавий қудратдир. Улуғ шоир қаламига мансуб асарлар мажмуи мусулмон Шарқи панднома илмининг туркий тилда яратилган юксак намуналаридан ҳисобланади. Шоир асарларидаги ҳаётий хулосаларнинг қаймоғи теран мазмунли ҳикматларга бой. Бу ҳикматлар ўзида бутун бир халқ оммасининг донолигини, миллий анъаналарини, кўп асрлик ҳаёт тажрибаларини мужассам этганлиги билан муҳим аҳамият касб этади.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Ўзбек педагогикаси тарихи. А.Зуннунов тахрири остида. – Т.: Ўқитувчи, 1997.
2. Маллаев Н. М. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1976.
3. Саломов Ғ. Мен сув ичган дарёлар. – Тошкент: Фан.1990.
4. Навоий Алишер. Маҳбуб ул-қулуб. Муншаот. Мукамал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 14-жилд. – Тошкент: Фан, 1998.
5. Юсупова Д. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. (Алишер Навоий даври). – Т.: Akademnashr, 2013.

### **АҲМАД ҲОШИМ ИЖОДИДА ҚАЛБ КЕЧИНМАЛАРИНИНГ ШЕЪРИЙ ИФОДАСИ**

*Азизова Нигора Бобир қизи,  
Тошкент давлат шарқшунослик  
университети тадқиқотчиси*

XX аср бошларида турк адабиётида муайян янгиланишлар даври бошланди. Бу даврда адабиёт остонасига қадам босган янги авлод ижодида мавжуд муҳит таъсири яққол акс этди. Айни чоғда, ушбу давр шоирлари турк адабиётига янги шакл ва мазмундаги шеърий асарларини ҳам тухфа этишди. Бу каби янгиликлар ушбу авлод ижоди, уларнинг асарларига хос хусусиятларни илмий-назарий жиҳатдан махсус тадқиқ қилишни талаб этади. Бундай илмий тадқиқот, бир томондан, давр адабиётининг умумий тарихий манзарасини, иккинчи томондан эса ҳар бир ижодкорнинг ўзига хослигини, адабиёт ривожига қўшган ҳиссасини аниқлашга ёрдам беради.

Хусусан, шундай замонавий ва янги шеъриятнинг ёниқ шоирларидан бири Аҳмад Ҳошим бўлиб, у турк адабиётида нозиктаъб шоирлардан бири

сифатида тилга олинади. Биламизки, ҳар қандай ижодкорнинг шаклланиб, камол топишида у туғилиб ўсган муҳитнинг ўрни муҳим саналади. Аҳмад Ҳошимнинг ҳам оилавий муҳити, болалик чоғлари жуда қийинчиликда ўтган бўлиб, бу манзаралар шоир шеърларида ўзини яққол намоён этади.

Аҳмад Ҳошим 1885 йилда Боғдода таваллуд топган. Отаси Алусизода Ориф Ҳикматбек давлат хизмати туфайли турли жойларда ишлайди, Аҳмад Ҳошим ҳам отаси қаерга борса ўша ердаги мактабларда таҳсил олади.

Аҳмад Ҳошим ёшлигида жуда ақлли ва заковатли бўлган. У саккиз ёшида онасидан айрилади, бу айрилиқ шоир умрининг охиригача изтиробда яшашга мажбур қилади, шу боис ҳам она мавзусида кўплаб шеърлар битади. Хусусан, унинг шеъриятга қизиқишида адабиёт фани ўқитувчиси Аҳмад Ҳикматнинг ўрни беқиёс. Аҳмад Ҳошим Галатасарой султониясида таҳсил олаётган пайтларидаёқ (1897-1907) шеър ёзишни машқ қила бошлаган. Яхё Камолнинг “Даргоҳ” журналида нашр этилган шеърлари унинг шеърият оламида танилишига катта хизмат қилган. Шоирнинг дастлабки шеъри 1901 йилнинг бошларида “Mecmua-yı Edebiye” журналида нашр қилинган “Хаёли ишқим” (“Науал-ı Aşkım”) номи билан чоп этилган [1; 52]. Унинг дастлабки ижодидан ўрин олган “Кўл соатлари” (Göl Saatleri), “Шеъри Камар” (Şi’r-i Kamer) мавзусидаги шеърлари халқ томонидан севиб ўқилди. 1921 йилда барча шеърларини жамлаб “Кўл соатлари” номли шеърий тўпламини нашр этади. 1924 йил ёз ойида Парижга боради. У ерда “Mercure de France” журналида “Les Tendances Actuelles de la Litterature Turque: Türk Edebiyatının Bugünkü Temayülleri” (“Турк адабиётининг бугунги тамойиллари”) номли мақоласини чоп этади. 1926 йилда “Пиёла” номли иккинчи шеърий тўпламини нашр қилдиради. Шоир ижодида муҳим аҳамият касб этган иккита шеърий тўпланда унинг ўзига хос шоир эканлиги яққол намоён бўлади. Шоир 48 йиллик қисқа умри давомида сермахсул ижод қилмаса-да, мазмундор, фалсафий руҳга йўғрилган шеърлари билан замонавий турк адабиёти тарихида чуқур из қолдирди.

Шоир замонавий турк адабиётида символист ижодкор сифатида тилга олинади. Адабиётшунослар унинг ижодига символнинг таъсирини турлича баҳолашади. Хусусан, Ў.Ўкай ижодий таъсирланишнинг учта омилини санаб ўтади: биринчиси, шоирнинг шахсий ҳаёт йўлидаги машаққатлари, иккинчиси, турк шеъриятининг анъаналари бўлса, учинчи омил француз символист шоирларининг таъсири эканлигини таъкидлайди [4; 189].

Шоирнинг “Пиёла” номли шеърида ҳам рамзлар уйғунлигини кузатамиз:

*Zannetme ki güldür, ne de lâle  
Âteş doludur, tutma yanarsın  
Karşında şu gülgün piyâle...*

*İçmişti Fuzuli bu alevden,  
Düşmüştü bu iksir ile Mecnûn*

*sana anlattığı hâle...*

*Yanmakta bu sagârdan içenler,  
Doldurmuş onunçün şeb-i aşkı  
Baştanbaşa efgân ile nâle...*

*Âteş doludur, tutma yanarsın  
Karşında şu gülgûn piyâle!.. [2; 216]*

Таржимаси:

*Ўйламагил гул ёки лола  
Оташ тўла, тутма ёнасан  
Қаршингда шу гулгун пиёла*

*Ичганди Фузулий бу оловдан,  
Тушди бу олат деб Мажнун кўйига  
Шеърнинг маъноси ҳам асли шундада*

*Ёнмоқда бу қадахдан ичганлар  
Тўлдириб ишқдан маст бўлганлар  
Бошдан оёқ фарёд, нола чекканлар.*

*Оташ тўла, тутма ёнасан  
Қаршингда шу гулгун пиёла*

Яъни сен уни гул ёки лола деб таҳайюр қилма. Бу гулларда олов бор, агар ушлаб, ҳидласанг ёниб кул бўласан. Қаршингда турган алвон қадах мисоли. Ҳатто Фузулий ҳам бу шаробдан ичганлиги сабаб, Мажнун каби ошиқ-у телба бўлди. Шеърнинг асл маъноси ҳам шунда. Бу қадахни ичганлар, олов каби ёнади, бутун вужуди шаробдан маст бўлади ва ишқдан оҳу фарёд чекади. Бу шеърда Ахмад Ҳошим фақатгина севгидан дард чекиш эмас, балки Аллоҳнинг ишқидан маст бўлишни назарда тутди. Шеърда шоир лолани қирмизи пиёлага қиёс қилади, кўринадики шоир ранглардан маънони янада кучайтириш, бўрттириш маъносида унумли фойдаланган. Шеърда гулгун сўзи қизил, қирмизи, алвон ранглари англатиб, инсон қалбидаги кечинмаларни ранг воситасида рамзийликка йўғириб тасвирлайди. Бундай хусусият шоирнинг аксар шеърларида кўзга ташланади. Бу ҳақда турк адабиётшуноси М.Каплан ҳам шундай фикр билдирган эди: Ҳошим дастлаб қаламга олган шеърларидаёқ баъзи рангларга диққат қаратган эди, уларнинг товланишини турли шеърларида ўзгача шаклда такрорлайди. Бу Ҳошим шеърятининг ўзига хос усул ва услуби ҳисобланади [3; 292].

Умрлар борки, қисқа лекин асрларга татиғулик, умрлар борки, узун лекин изсиз, маънисиз... Шоир қисқа умр кўрди, бироқ замонавий турк адабиётида янги шеърятнинг асосчиларидан бири сифатида тарихда қолди. Шоир дарди, изтироби кучли эди, ҳаёти турли машаққат-у синовларга тўла эди, буларнинг барини шоир атрофидагиларга сирли тарзда, шеърый оҳангда



шивирлади ва қалб кечинмаларини назмда англантишга интилди. А.Ҳошим ижоди, шеърини хусусида бир қатор тадқиқотлар олиб борилган бўлса-да, ҳали шоирнинг шеърини тафаккури, сир-синаотга бой шеърини мисралари моҳияти тўлалигича тадқиқ этилмаган, шу боис ҳам унинг ижоди тадқиқотчилар учун муҳим ва долзарб бўлган масалалардан бири ҳисобланади.

### ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Ayvazoğlu B. Ömrüm Benim Bir Ateşti. Ötüken Yay., İstanbul-2000.
2. Bezirci A. Ahmet Haşım. Bütün Şiirleri. Can Yay., İstanbul-1985.
3. Kaplan M. Türk Edebiyatı Üzerinde Araştırmalar, C 2. Dergah Yay., İstanbul-1994.
4. Okay M.O. Ahmet Haşım'in Şiirlerinin Sembolizm Açısından Yorumu. Dergah Yay., İstanbul-1990.

### ASQAD MUXTORNING “JAR YOQASIDA CHAQMOQ” QISSASI HAQIDA MULOHAZALAR

*Nazarova Feruza Sharobiddinovna,  
SamDU mustaqil tadqiqotchisi*

Asqad Muxtor ijodida falsafiy mushohada, qahramonlar hayotining asosli badiiy talqini etakchilik qiladi. Adib ijodi va uning mohiyati haqida so‘z yuritgan Xayriddin Sultonov shunday yozadi: “Asqad aka – nihoyatda bilimdon, xayol va hofiza ufqi bag‘oyat keng, izlash-izlanish va tafakkur butun borlig‘ining mazmuni bo‘lgan ulug‘ san‘atkor edi. Abdulla Qahhor, agar evropa qarichi bilan o‘lchaganda ham, Abdulla Qodiriy ijodi eng yuksak talabga javob beradi, deya ta‘kidlaganidek, Asqad Muxtor ijodi ham XXI asrning adabiy mezonlariga ko‘p jihatdan munosib bo‘lib kelmoqda” [1, 3-bet]. Davrning turfa xil ohanglariga javob bera oladiga asarlarni yarata olgan adib ijodining juda katta muhiti, ma‘naviy olamimizga ta‘sir etadigan qirralari mavjudligini alohida qayd etish lozim. Adib jahon adabiyotini mukammal bilgan, undan sezilarli darajada oziqlangan iste‘dod sohiblaridan biri sifatida e‘tirof etilishi ham bejiz emas. Muhit va inson muammosi hamisha adabiyotda markaziy o‘rin egallab kelgan va shunday bo‘lib qolmoqda. Davr inson xarakteriga muayyan o‘zgartirishlar kiritadi, biroq uning tub mohiyatini butunlay o‘zgartira olmaydi. Jahon ilm-fani, tafakkur va dunyoqarashida sodir bo‘layotgan globallashuv adabiyotshunoslikda ham badiiy adabiyot olamini umumbashariy mezonlar asosida baholashni talab etmoqda. Shuning uchun ham adabiyotshunos Suvon Meliyev bu haqida yozadi: “Ma‘lumki, davr jamiyat taraqqiyotida muhim voqea, hodisa ro‘y bergan, hukm surgan yoki o‘ziga xos xususiyati bilan ajralib turadigan muayyan vaqt oralig‘idir... Lekin vaqt – o‘tkinchi, u ko‘p narsalarni o‘zgartiradi, ko‘p muammolarni hal qiladi, ularning dolzarbligi yo‘qoladi yoki yumshaydi. Ammo har bir davrda adabiylikka qo‘shiladigan, abadiylikka daxldor muammolar doim bo‘ladi” [2, 56-57-betlar].

Asosli ta'kidlanganidek, har qanday davr insoniyat ruhiyatiga, uning ruhiy-ma'naviy olamiga sezilarli ta'sirini ko'rsatsa-da, insonni anglashga, uning ruhiy-botiniy olamini his qilish yo'lida turfa xil izlanishlarni, badiiylik mezonlarini yuzaga chiqarishga intiladi. Buyuk so'z san'atkori Asqad Muxtor ijodiga nazar tashlar ekanmiz, uning talqinlarida insonni qalbini larzaga soladigan, insonni anglashga, hayot va davrni teranroq his etishga undovchi talqinlar bilan tanishamiz. "Chinor" romanidagi hikoyatlar zamiridagi davr va inson konsepsiyasi nuqtaiy nazardan ham tahlil qilinganda juda katta muammolar talqinini kuzatamiz. Xalqimiz boshiga og'ir kunlar tushganda, uning og'irini yengil qilish o'rniga yoki, yovga kurashishni lozim topmasdan, toshlar orasiga yashiringani, keyinchalik toshbaqaga aylanib qolishi ham bejiz emas. Bu rivoyatning zamirida juda achchiq taqdirlar, qismatlar mujassamlashganligini unitib bo'lmaydi. "Inson muhit ta'siri ostida o'z xarakterini imkoniyatlari doirasida o'zgartirib boradi. Mustahkam irodali, kuchli xarakterli shaxs o'tkinchi muhit ta'siriga to'liq ma'noda bo'ysinmaydi. Muhitga qarshilik tuyg'usi ularda kuchli rivojlangan bo'ladi" [3, 19-bet]. Bu tushunchalar zamirida, adib asarlarining qahramonlari o'ziga xos jasorat, jur'at va shijoatning egasi ekanligini kuzatish mumkin.

Asqad Muxtorning "Jar yoqasida chaqmoq" qissasiga nazar tashlar ekanmiz, uning poetik talqinida insonni anglashga, uni qalb qa'ridagi istiroblarini yuzaga chiqarishga asos bo'ladigan voqealar silsilasini kuzatamiz. Shu jihatdan, Asqad Muxtor asarlarining badiiy-falsafiy taraqqiyotiga uning talqinlariga nazar tashlar ekanmiz, jahon va sharq adabiyotining etakchi tamoyillari oltmishinchi, etmishinchi yillardayoq o'z ifodasini topganligini kuzatish mumkin.

Adabiyotshunoslik fanida muayyan davr adabiyotida muhim o'rin tutgan, o'ziga xos ijod uslubiga ega bo'lgan ijodkorlarning asarlarida davr va inson konsepsiyasining ifodasini ochib berish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Zamonaviy jahon adabiyotshunosligida davr va inson munosabatlariga yangicha yondashuvlar, adabiy-estetik tamoyillarning izchil takomillashuvi natijasida badiiy tafakkurning tadrijiy rivoji bilan bog'liq ilmiy konsepsiyalar adabiyotshunoslik sohalarining taraqqiyotini ta'minlashning muhim omillaridan sanaladi. Hozirgi zamon jahon adabiyotshunosligi ilm-fanining ayni taraqqiyot bosqichida badiiy asarga turli metodologiyalar asosida yondashishga, alohida olingan ijodkor asarlarida davrning inson omili, xarakteriga ko'rsatadigan ta'sirini belgilashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Davr va inson muammosi adabiyotshunoslikda muhim o'rin egallab kelayotgani, inson xakteri va ijodkor badiiy olamining mushtarakligi, ijodkor badiiy dunyosining hali ilg'anmagan jihatlarini, ochilmagan qirralarini tadqiq qilish zarurligini taqozo etmoqda. Tadqiqotni shu tamoyillar asosida bajarish, milliy adabiyot namunalari davr va inson munosabati masalasini zamonaviy talablar asosida tadqiq etish jahon adabiyotshunosligida ham muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda. So'nggi yillarda mamlakatimizda badiiy adabiyotni ijodiy individual uslub nuqtai nazaridan tadqiq etish borasida jiddiy yutuqlarga erishildi.

Asqad Muxtorning bir qator qissa va romanlari, badiiy tarjimalari, hayotning turfa xil qirralarini badiiy talqin etuvchi publitsistik asarlari va she'riyati adibning

etuk iste'dod sohibi ekanligidan dalolat beradi. Asqad Muxtor aksariyat asarlarida konflikt va syujet qurilishini ayni davr va inson munosabati asosida tiklaydi. Adibning nasriy asarlariga xos bo'lgan xususiyatdir. SHuningdek, yozuvchi qahramonlari ikki tuzum – sho'ro va mustaqillik sharoitida yashayotgan kishilar. Har xil mavzudagi bu asarlarning asosiy g'oyasi insondagi insoniylikni tadqiq etish, inson mo'jizasining turfa manzaralaridan hayratlanishdan iborat. Ularni birlashtirib turadigan yana bir jihat – zamonaviylik, ayni chog'da o'tkinchi "ob-havo"lardan holilikdir. Asqad Muxtor an'anaviy tasvirlar bilan birga davr va inson konsepsiyasini badiiy tadqiq etishda shartli ramziy tasvir hamda epizodlardan ham samarali foydalanadi [4, 116-bet].

Ma'lumki, ong va ongosti munosabatlari falsafiy tushuncha bo'lib, adabiyotshunoslik atamaları safidan joy olganiga hali ko'p vaqt o'tmadi. Ong ifodasi deganda, eng avvalo ijtimoiy munosabatlar, muomala, yurish-turish madaniyati, xullas jamiyat uchun asosiy me'yor holiga kelgan axloqiy, etik-estetik tushunchalar majmuini anglaymiz. Bu me'yor azaldan Sharq adabiyotining ham diqqat-e'tiborida bo'lib kelgan. Shu bilan birga ongosti qatlamiga ham bot-bot murojaat qilingan. Shunisi e'tiborliki, bugungi adabiyotda har ikkala tafakkur tarzining nisbati tenglik kasb etmoqda. Ba'zi bir asarlar syujeti to'laligicha ongosti tasviri prinsiplariga muvofiq qurilmoqda.

Darhaqiqat, adibning "Chinor" romanida inson qismati uning taqdiri, fojialari bir qator hikoyatlar misolida yoritiladiki, Ochil boboning dar-u alamlari shu jaryonda mukammallik kasb etgan. Ochil bobo qalbidagi istiroblar hayotdan olingan saboqlar edi. Uning Orif va Azimjonlar bilan bo'lgan diologik suhbatlarida bu xususiyat yanada teranlashadi. Asardagi ramzlar uning qalb qaridagi murakkab hayotning vakili ekanligidan dalolat beradi. Hayotning shafqatsizligini, inson qalbidagi tuyg'ularning badiiy konfliktini yoritishga asos bo'lgan. Ochil bobo ruhiyatidagi o'zgarishlarni yozuvchi to'g'ridan to'g'ri talqin etmaydi. Uning qalb nolasini yaqinlari anglab ulgurmaydi.

Ijodkor har bir qahramonini uning ijtimoiy kelib chiqishi, kasb-kori, o'rganib qolgan odatlari, maqsad-intilishlari nuqtai nazaridan so'zlatar ekan, ularning individual qiyofalari bilan birga ruhiy olami, ma'naviy dunyosi ko'zga tashlana boradi. Asqad Muxtorning "Chinor" romani qahramonlari o'ylab topilgan yoki muallifning imlosiga mahtal qo'lbola robotlar emas, kechagi va bugungi kunimizning odamlari. Ular jonli, tirik organizmlar bo'lish barobarida ba'zan ongning, ba'zan zavqi tabiiyning doiralari bo'ylab harakat qilayotgan, o'y-orzulari, hayotiy maqsadlari yo'lida o'zligini topib, ba'zan yo'qotayotgan, gohida o'zligidan ham, dunyodan ham voz kechish arafasida yashayotgan kishilar, taqdir egalari. Zamon o'zgarishlarini kuzatish, undagi jarayonlar qonuniyatiga nazar solish yozuvchi uchun qahramonlar xarakterini mukammalroq ochishga yo'naltirilgan vositadir. Zamon o'zgaradi, qahramonlarning nutqi, yurish-turishi ham shunga muvofiqlashadi, ammo bu qahramonlarning asl qiyofasi, ruhiy-botiniy olami, xarakterining tub mohiyati o'zgarishsiz qolaveradi. Zamon o'zgarishlarini kuzatish, undagi jarayonlar qonuniyatiga nazar solish yozuvchi uchun qahramonlar xarakterini mukammalroq ochishga yo'naltirilgan vositadir.

Xullas, iste'dodli adib Asqad Muxtor ijodi, bugungi nasrimiz taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsata oldi. Bu talqinlar adib she'riyatini ham, nasriy asarlarini ham yashavchanligini ta'minlay olgan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sulton Xayriddin. So'zi o'lmaganning o'zi ham o'lmas // Qarang: Asqad Muxtor. Tanlangan asarlar. She'rlar. Roman. Qissa. Hikoyalar. – Toshkent, “Sharq”, 2020. – 736 bet.

2. Meli Suvon. So'zu so'z. Adabiyot falsafasiga chizgilar (Nashrga tayyorlovchi – M.Qo'chqarova). – Toshkent, “Sharq”, 2020. – 528 bet.

3. Nasirov A. Badiiylilik va hayotiy haqiqat. Monografiya. – Turkiya, Istanbul, “KESIT”, 2019. – 134 bet.

4. Asqad Muxtor. Chinor. Roman. – Toshkent, “Ilm-ziyo-zakovat” nashriyoti, 2020. – 432 b.

#### DAVR VA IJODKOR SHAXS

*Tulishova Gulzina Ravshanovna,  
JDPI o'qituvchisi*

Xalqimizning shonli tarixi kabi uning adabiyoti ham boy va rang-barangdir. Aslida, har bir xalq va millat tarixida shunday ulug' shaxslar bo'ladiki, ular o'zining favqulodda ulkan iste'dodi, ona-vataniga fidoiyligi va sadoqati bilan, el-yurtiga qilgan yuksak xizmati bilan katta shuhrat qozonadi va xalqining faxru g'ururiga aylanadi. O'zbekiston Qahramoni, atoqli tanqidchi va adabiyotshunos, zabardast tarjimon va publitsist, yirik jamoat arbobi Ozod Sharafiddinov ana shunday buyuk siymolarimizdan edi. XX asr o'zbek adabiyoti va tanqidchiligi tarixini, kengroq qilib aytsak, xalqimiz ma'naviyati va tafakkuri rivojini Ozod Sharafiddinov ijodiy faoliyatisiz to'liq tasavvur etib bo'lmaydi. “Keyingi 50 yilda faoliyat ko'rsatgan adabiyotshunoslar, publitsistlar silsilasida Ozod Sharafiddinovning nomi alohida bir cho'qqi yanglig' ko'zga tashlanib turadi. Ozod Sharafiddinov o'zidan o'lmas ijodiy meros qoldirdi. Bu ijod nainki bir insonning, balki butun bir millatning faxru g'ururi bo'la oladigan ijoddir.” [2-12] O'zbekiston Qahramoni Abdula Oripovning bu samimiy e'tirofi butun adabiy jamoatchilikning va ziyoli xalqimizning ham yakdil bir bahosi deyish mumkin. Bu tarixiy haqiqat birinchi Prezidentimiz I. Karimovning so'zlarida ham teran ifodasini topgan edi: “Ozod Sharafiddinov hayotda ham, ijodda ham o'zining haqqoniy so'zi, iroda va matonati bilan yurtdoshlarimizga, avvalambor yoshlarimizga ibrat bo'layotgan, tom ma'nodagi ma'rifatparvar insondir”. [4-<http://old.natlib.uz:8101/uz/article/887/>] Haqiqatan ham, Ozod Sharafiddinov tanqidchi o'z iste'dodi va yorqin shaxsi bilan adabiy jarayonda va badiiy ijod olamini rivojlantirishda qanchalar ulkan rol o'ynashi va qudratli ta'sir ko'rsatishi mumkinligini yaqqol isbotlab bera oldi.



Ozod Sharafiddinovning nodir iste'dodi, badiiy ijod va estetik tafakkur rivojida va, ayniqsa, adabiy tanqidchilik sohasidagi beqiyos xizmatlari bu olimning g'oyat serqirra va betakror bir siymo bo'lganini ko'rsatadi. O.Sharafiddinov fenomenining hayratli bir jihati ham shundaki, uning ilk chiqish laridayoq yorqin namoyon bo'lgan tug'ma tanqidchilik talanti hech qachon xira tortmadi, shoirona qalb ehtirosi va jo'shqin ilhomi umrining so'ngiga qadar susaymadi. Bu haqda O'zbekiston Qahramoni, mashhur shoirimiz Erkin Vohidov aytgan samimiy fikrlar millionlab kitobxonlarning ko'nglidagi yakdil fikrlarni ham ifodalagan: "Ozod Sharafiddinov XX asr adabiy muhitida o'z ibratli shaxsiyati, mustahkam e'tiqodu dunyoqarashi bilan ziyolilarimizning butun bir avlodi uchun namuna bo'lib tanilgan alloma. Bunaqa odamlarni xudoyim bizning baxtimizga, jamiyat baxti uchun beradi". [3-55]

Ozod Sharafiddinovning tanqidchilik iste'dodi va ijodiy salohiyati nechog'lik serqirra va samarali ekanligini tasavvur etish uchun loaqal u kishining badiiy ijod va adabiyotshunoslikning qanday dolzarb va murakkab mavzu va muammolarini teran yoritib berganligini bir qur esga olaylik. Birgina XX asr o'zbek adabiyoti tarixi masalasini o'rganishni olaylik. G'oyat murakkab va ziddiyatli kechgan bu davr adabiyotning o'nlab atoqli vakillari hayoti va ijodini mufassal yorituvchi ko'plab yirik tadqiqotlar, darslik, monografiya va salmoqli to'plamlarining aksariyati bevosita Ozod Sharafiddinov rahnamoligi va mutasaddiligida yuzaga kelgan. Bu haqiqatni va bularning evaziga sho'ro davrida keskin tazyiq va ta'na-dashnomlarga ham duchor bo'lganligini, afsuski, bugungi yoshlarimiz yaxshi bilmasligi mumkin. Zotan, Istiqlol tufayli bugun Cho'lponning nomini qo'rquv yoki hadik bilan emas, balki haqli ravishda faxr bilan tilga olishimizda va uni adabiyotimizning eng porloq siymolaridan biri sifatida ardoqlashimizda O.Sharafiddinovning xizmatlari beqiyosdir.[1-62]

Yohud ikkinchi jahon urushidan keyingi yillar hukm surgan yana bir mash'um qatag'on davrining dahshatli azob-uqubatlarini tortib kelgan Maqsud Shayxzoda, Mirtemir kabi ulkan adiblarimizni yangidan "kashf" etish va ularning har xil shubha, ayblar bilan nohaq kamsitilgan asarlarini odilona baholab, ularni elimizga tanitishda jonbozlik ko'rsatgan tanqidchi va adabiyotshunos larimizning karvonboshlaridan biri ham O.Sharafiddinov bo'lganligi endilikda isbot talab qilmaydi. Xuddi shundayin, Asqad Muxtor, Zulfiya, Mamarasul Boboyev, Said Ahmad, Odil Yoqubov va Pirimqul Qodirov, (bu ro'yxatni uzoq davom ettirish mumkin) kabi o'nlab yirik so'z san'atkorlarimiz iste'dodining o'ziga xos jihatlari va salmoqli ijodiyoti hamda ularning adabiyotimiz rivojida munosib o'rni ham O.Sharafiddinov asarlarida o'zining haqqoniy bahosini oldi desak, boshqa adabiyotshunoslarimizning xizmatlarini aslo kamsitgan bo'lmaymiz. Bunga ishonch hosil qilish maqsadida O.Sharafiddinov qalamiga mansub bo'lgan bir-ikki asarni ko'zdan kechiraylik.

Munaqqidning "Iste'dod jilolari" (1976) kitobi ham uning "Zamon. Qalb. Poeziya" (1962) asari singari adabiy – tanqidiy tafakkur rivojida quvonchli bir voqea bo'lgan. Ushbu asarni varaqlar ekanmiz, dastavval undagi esse – portretlarning nomlari diqqatimizni o'ziga jalb etadi: "Cho'qqi", "Daryodil shoir",



“So‘z san‘atiga fidoyi sadoqat”, “Ulkan hayotning ilk sahifalari”. Darhaqiqat, mashhur shoir, buyuk qalb egasi bo‘lgan G‘afur G‘ulomga nisbatan “Daryodil shoir” degan iboradan ko‘ra ham munosibroq ta‘rif bormi? G‘afur G‘ulom ijodi adabiyotimizning eng yuksak va porloq “cho‘qqisi”ga qiyos qilingani-chi? Yoki zabardast adibimiz Oybekning so‘z san‘atiga bo‘lgan sevgi-sadoqatini “fidoyi” deb atamaslik mumkinmi?

To‘plamdagi maqolalar hajman katta emas, lekin tanqidchi ana shu ixcham maqolalarda adabiyotimizning eng yirik vakillarining hayot yo‘lini yoritishga va ular ijodi va shaxsiyatining asosiy qirralarini mufassal ochib berishga muvaffaq bo‘lgan. Haqiqiy tanqidchilarga xos mahorat bilan u yoki bu so‘z san‘atkorining ijodiy yo‘li qanday shakllanganligini, uning o‘ziga xos va mushtarak tomonlarini, adabiyotimizga qo‘shgan hissasini va shu tariqa o‘sha yozuvchining adabiyot tarixida tutgan o‘rnini aniqlashni asosiy maqsad qilib qo‘yadi. Masalan, A.Qahhorning “Sarob” romani tahliliga to‘xtalib o‘taylik. Kitobxonlarga ma‘lumki, “Sarob” romani tanqidchilikda ko‘pgina munozaralarga sabab bo‘ldi. Ayrim adabiyotshunoslar asarni to‘la va to‘g‘ri baholay olmadilar. Ular romanning o‘ziga xosligini, uning g‘oyaviy-badiiy Jihatlarini qandaydir “quyma qolip”lar bilan o‘lchab ko‘rishdi va oqibatda yozuvchi oldiga noto‘g‘ri talablar ham qo‘yishdi. Munaqqid A.Qahhorning satirik iste‘dodi va uning evolyutsiyasini tadqiq etar ekan, adib asarlarini baholashda ham jahon adabiy-estetik tafakkur me‘zonlarini asosiy dasturulamal qilib oladi. “Yozuvchi ijodiga baho berganda faqat nimani aks ettirayotganini asos qilib olsayu, boshqa tomonlarini hisobga olmasak, noobyektiv, bir tomonlama yo‘lga kirib ketish oson. Yozuvchi ijodining qiymatini belgilaydigan eng muhim narsa uning aks ettirayotgan hodisalarga munosabatidir”, - deydi olim.

“Iste‘dod jilolari”ning “Sarob” romaniga nisbatan yana bir jihati bor. “Sarob”- ko‘p qirrali roman. U ayni paytda egoistik talant va uning fojiali taqdiri haqidagi asar ham bo‘lib, A.Qahhorning muhim adabiy-estetik qarashlarini ham o‘zida mujassamlashtirgandir. Afsuski, romanning bu jihati adabiyotshunoslar e‘tiboridan chetda qolib ketar edi. A.Qahhor Saidiydagi durustgina talantining qurboni bo‘lishini realistik lavhalarda aks ettirar ekan, u orqali go‘yo “Gap faqat talantda emas, balki talantning maqsad yo‘nalishidadir. Talant xalqqa bag‘ishlanishi, eng yuksak va oliyanob g‘oyalarning tantanasi uchun xizmat qilishi kerak”, degan ezgu bir haqiqatdan bizni ogoh qilganday bo‘ladi. Bunday hayotiy g‘oyalar bugun ham dolzarbligini yo‘qotmaydi.

Albatta, Qodiriy va Qahhor kabi ulug‘ adiblarimiz kabi O.Sharafiddinov ham o‘z davrining farzandlari edi. Ko‘p asrli adabiyot tarixi, qolaversa, zukko adibimiz N.Boqiyning “Qatlnoma” kabi asarlaridan ham ma‘lumki, har bir iste‘dodli san‘atkor o‘z davrining farzandi sifatida ijod qiladi, tabiiyki, uning asarlarida o‘sha davr muhitining ob‘yektiv ta‘siri u yoki bu tarzda aks etadi. Sobiq sho‘ro davridagi adabiy muhit haqida fikr yuritganda, og‘riqli savollar tug‘iladi: Qodiriy va CHo‘lponlar ham Oktyabr inqilobi va Leninni ulug‘lamaganmi? Yoki Qahhor “Abdulla Qodiriy 70 yoshga to‘lgan kunda so‘zimizni Lenin partiyasiga rahmatlar aytib boshlashimiz kerak”, - degani uchun adibni madhiyabozlikda

ayblash to'g'ri bo'larmikin? Yoxud mashhur shoirimiz Abdulla Oripov ulug' bir yoshga yetgan 80-yillarda partiyani "Najot qal'asi" deb ulug'lagani, o'sha makkor partiyaning darg'alari qadimiy Navro'z bayram nomini o'zgartirishini ham quvvatlaganini qanday baholash kerak? Yoki zabardast tanqidchilarimiz- akademik V.Zohidov, M.Qo'shjonovlar respublikamizdagi eng katta mansabdor shaxsning o'rtamiyona asarini oliy mukofotga tavsiya etib, maqtovg'a to'la maqola yozganlari-chi? Yoki O.Sharafiddinov, B.Nazarovlar Lenin va adabiyot yoxud marksizm-leninizm ta'limotiga bag'ishlangan asarlar yozgani uchun ularni hukmron kommunistik mafkuraning qurboni yo dastyori bo'lgan deb ayblash biryoqlama yondashuv bo'lmaydimi?

Aslida, adib asarlariga baho berish va ularni tadqiq etishda tarixiy sharoitni e'tiborga olishimiz va sobiq sho'ro davrida yashab, ijod qilgan boshqa san'atkorlar kabi Qodiriy, CHO'lpon va Qahhorlar ham butunlay erkin bo'lmaganini unutib bo'lmaydi. Bu jihatdan Ozod Sharafiddinovning CHO'lpon ijodini o'rganish borasidagi fikrlari asosli: "Muayyan zamon, muayyan jamiyatda yashagan shoir, tabiiyki, bu jamiyatdan tashqariga chiqib keta olgan emas. CHO'lponga ob'yektiv yondoshish, uning shaxsiyatini, ijodini xolisona baholash uni mutlaqo kamsitmaydi, balki bizning yuraklarga yaqinroq qiladi. CHO'lponning badiiy ijodidagi yoxud adabiy-tanqidiy maqolalar idagi hukmron mafkura g'oyalariga yon berilgan o'rinlarni ko'rganda, uning nomiga malomat toshlarini otishga shoshilmaslik kerak. Bil'aks, uni tushunmoqqa harakat qilaylik. Bu mulohazalar faqat CHO'lponga emas, balki Oybek, G'.G'ulom, H.Olimjon, A.Qahhor, Shayxzoda, Mirtemir kabi ko'p yillar mobaynida adabiyotimizning chinorlari hisoblanib kelgan, keyingi yillarda esa o'rinli-o'rinsiz ta'na-dashnomlarga ro'para kelayotgan ijodkorlarga ham taalluqli." [1-64]

O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov ulug' ustozlari va shaxsan o'zi ham ko'rgan nohaqligi fojealarning asl sabab-oqibati haqida armon bilan mushohada yuritib, jumladan, G'.G'ulom ijodi va qiyin qismati haqida shunday yozadi: "G'afur G'ulom o'z safdoshlari qatorida g'oyat murakkab, g'oyat ziddiyatli, tahlikali bir davrda yashab o'tdi. Mustabid imperiyaning beomon mafkurasi, mustamla kachilik siyosati minglab haqgo'ylar boshini yeyishga ulgurdi, qanchadan-qancha iste'dod egalarining bo'yniga bo'yunturuq solishga erishdi. Nog'orasiga o'ynashni xohlamaganlarni qatl qildi, quvg'in ostiga oldi. Shu tariqa o'zbek xalqi o'zining o'nlab beqiyos farzandlaridan bevaqt ayrildi. Madhiyabozlik adabiyot ning ommaviy taomiliga aylangan. Ne-ne go'zal tashbehlar, chaqmoqdek misralar somon orasidagi qahrabo bug'doy donalaridek nazardan qolib ketar edi. Ushbu achchiq haqiqatni bugungi yoshlar teran tushunmoqliklari kerak..."

Ozod Sharafiddinov ijodi va shaxsiga baho berishda ham ana shu sharoit va holatlarni nazardan qochirmaslik lozim. U kishi ham partiyani ulug'lovchi fikrlar bildirgan yoxud Mayakovskiy kabi proletariat sinfi va revolyutsiyani madh etuvchi asarlarini yuqori baholaganidan ko'z yumib bo'lmaydi. Lekin bu o'tkinchi g'oya-qarashlar mash'um sovet tuzumi siyosati va hukmron mafkurasi bilan bog'liq ekanligi endilikda barchaga ayon bo'lmoqda. Ozod Sharafiddinovning zabardast adabiyotshunos alloma va mohir tarjimon sifatidagi rang-barang ijodiyoti

qanchalar e'tiborga loyiq bo'lsa, u kishining muharrirlik va ustoz-murabbiylik faoliyati ham shu qadar e'zoz-ehtiromga munosibdir. Olimning bu faoliyati ham alohida tadqiqotlarga mavzu bo'lishi shubhasizdir. Xulosa o'rnida Abdulla O'ripovning "Ustozlarim" deb nomlangan she'ridan bir parcha keltirib o'tishni lozim topamiz:

Marhum ustozlarim ahli shuaro. . .  
Baxtiyor kunlarni kuyla, degan on  
Shiorlar bitibsiz qoningiz bilan.  
O'zi yo'q qo'rg'onga bo'libsiz qalqon,  
Soddadil, fidoyi joningiz bilan.

Chuqur hamdardlik va armon iblan yo'g'rilgan bu misralar ham mustabid sho'ro davrida yashab ijod qilgan ulug' ijodkorlarimizning qiyin qismatini tshunishimizga yordam berishi bilan birga tanqidchilikdagi biryoqlama fikr yuritishning oldini oladi degan umiddamiz.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ozod Sharafiddinov. Birinchi mo'jiza. T.1979. 2.Ozod Sharafiddinov. Talant xalq mulki. T. 1979.
2. Ozod Sharafiddinov zamondoshlari xotirasida.-T: O'zbekiston. 2007.
3. Ozod Sharafiddinov. Ijodni anglash baxti. T. SHarq 2004. 4.Ozod Sharafiddinov zamondoshlari xotirasida. T.2007.
4. <http://old.natlib.uz:8101/uz/article/887/>

#### TO'G'RI YO'L DOIM MASHAQQATLI ...

*Mardanov Rahim G'aybulla o'g'li,  
Anorboyzoda Feruza Subxonqul qizi  
JizPi assistentlari*

Cho'lpon taxallusi bilan she'riyatning ajoyib namunalarini ijod qilgan Abdulhamid Sulaymon 1897-yilda Andijonda hunarmand dehqon oilasida dunyoga kelgan. U avval eski maktabda, keyinchalik Andijon va Toshkentdagi madrasalarda o'qiydi. 16-17 yoshlaridayoq yaxshigina ma'lumotga ega bo'lgan Abdulhamid ijod qila boshlaydi. Otasi Sulaymonqul mulla Muhammad Yunus og'li Andijonning obro'li kishilaridan bo'lib, savdogarchilik bilan shug'ullanar edi. U o'z zamonasining o'qimishli kishilaridan hisoblanar, o'zi ham she'rlar yozib turardi. O'sha davrda bo'lajak shoirning otasi o'zi yozgan hajviy she'rlaridan devon tuzganligi haqida ma'lumot bor.

Cho'lponning onasi Oysha aya garchi savodli bo'lmasa-da, o'g'lining ijodiga katta ta'sir ko'rsatgan. Chunki u xalq qo'shiqlari va ertaklarining bitmas-tuganmas xazinasidan yaxshigina bahramand bo'lgan.

Ota o'g'lini rus-tuzem maktabida ham o'qitdi. Bo'lajak shoir o'zbek, turk, fors, arab, rus tillarini puxta biladigan o'qimishli kishi bo'lib yetishdi. Kuchli

iste'dod, o'qish – o'rganish tufayli Abdulhamidning she'rlari 16-17 yoshlarida “Turkiston o'lkasi” gazetasida chop etildi.

Cho'lponning dastlabki asarlaridayoq bosqinchilar zulmi ostida ezilayotgan Turkiston xalqiga bo'lgan cheksiz muhabbat yorqin ko'rinib turardi. U xalqni ozod va baxtli ko'rishni istardi. Buning uchun odamlarning jaholat uyqusidan uyg'otish, ma'rifatdan, ilmu fandan bahramand qilish kerak, deb hisoblardi. Ayni paytda rus bosqinchilari millatning ma'rifatli bo'lishiga keng yo'l bermasligini ham bilardi. Erksiz ma'rifatning, ma'rifatsiz esa erkning bo'lmasligi shoirga a'yon edi. Shu bois Cho'lpon 1917 – yilning fevralida Rossiyada sodir bo'lgan inqilobga katta umid bilan qarardi. Lekin bu inqilob Turkiston o'lkasiga chin ozodlik bermadi. Chunki ozodlik o'zga kishi yoki tabaqa, yoxud millat tomonidan beriladigan sadaqa emas, balki kurashlarda qo'lga kiritiladigan ne'matdir.

O'sha yilning oktabrida ro'y bergan to'ntarilish esa shoirning so'nggi umidlarini ham so'ndirdi. Milliy zulm ostida ezilayotgan xalqning zabun holini aks ettirish va xalqni bunday holatdan qutqarish istagi Cho'lpon ijodining yo'nalishi bo'lib qoldi. Cho'lpon she'riyati hech kimga o'xshamagan samimiylik, jozibador, ta'sirchanligi, tuyg'ularini ranginligi bilan o'zgalarnikidan ajralib turadigan she'riy olam yarata bildi. Cho'lpon mislsiz she'riy kashfiyotlardan tashqari 1935 – 37 – yillarda yaratilgan “Kecha va Kunduz” nomli birinchi o'zbek roman – dilogiya (ikki kitob) ining muallifidir. Romanning 2-kitobi Cho'lpon qamalgandan so'ng yo'q qilingan. 1926-yillarda “Yorqinoy” dramasi yaratildi. Asar badiiy jozibasi jihatidan ham, mavzu nuqtai nazaridan ham hozirgacha o'z ta'sir kuchini yo'qotmay kelmoqda. Cho'lpon tarjimon sifatida Shekspir, Blok, M. Gorkiy, Txokur kabi mashhur adiblar ijodidan qilgan tarjimalari bilan xalqimiz ma'naviyatining rivojiga hissa qo'shdi. Shoirmi “millatchi” sifatida 1937- yilning 13-iyulida sevimli shogirdi Usmon Nosirdan 1 kun avval qamoqqa olishdi. Qiynoq, tahqirlardan so'ng 1938-yilning 4-oktabrida Toshkent yaqinidagi xilvat joylarning birida o'zbekning daho shoiri otib tashlandi. O'limga hukm qilgan sud qarori 1938-yilning 5-oktabrida chiqarilgan edi. Cho'lponning ijodi ancha vaqt o'quvchilardan berkitib kelindi. Cho'lpon o'zbek she'riyatining yorqin siymo[1]laridan edi, shu bois o'tkinchi bulutlar pardasini yirtib tashlab, milliy she'riyatimiz osmonida qayta porlay boshladi.

Endi har nafasda yana kuyaman,  
Faqat majnun bo'lib elni sevaman.  
Unga hurmat bilan bo'yin egaman,  
Boshimni u uchun dorga qo'yaman[4].

Bu haroratli misralar shoir qalamiga mansubdir.

“Ko'ngil” she'rida milliy uyg'onishga da'vat, erk, hurriyatga chaqiriq ohanglari barq urib turadi, sodda she'rdir. 1922-yilda yozilgan.

Ko'ngil, sen bunchalar nega  
Kishanlar birla do'stlashding?  
Na faryoding, na doding bor  
Nechun sen buncha sustlashding?[3]

1921-yilda “Xalq” she’rini yozadi. She’rda xalqning o‘z haq – huquqini tiklashga qurbi yetishi, har qanday qarshiliklarni yengishi mumkinligini kuyunib aytadi. Tili boshqa-yu, dili boshqa siyosatdonlarni ogohlantiradi.

Xalq istagi, ozod bo‘lsin bu o‘lka,  
Ketsin uning boshidagi ko‘lanka.  
Bir qo‘zg‘alur, bir ko‘pirar, bir qaynar,  
Bir intilur, bir hovliqar, bir o‘ynar.  
Yo‘qlikni-da, ochlikni-da yo‘q etar,  
O‘z yurtini har narsaga to‘q etar...

“Kuz” , “Men va boshqalar”, “Go‘zal” kabi she’rlari barchaning diqqatini o‘ziga tortadi. Cho‘lpon o‘z she’rlarida ko‘chimdan unumli foydalanadi. “Buzilgan o‘lkaga”, “Binafsha” ...

Binafsha – shoirning ichki kechinmalari bahoriy ko‘katga, yoki nimagadir qaratilgan ko‘chim. Eng ko‘p ishlatiladigan badiiy vositalar jami bo‘lib, adabiyotshunoslik fanida metafora atamasi bilan ham yuritiladi. Grek tilidan olingan metafora so‘zi ko‘chim, ko‘chirilish ma’nolarini anglatadi.

Ko‘chim ko‘rinishlari:

Istiora – o‘xshatish.

Ramz – timsol, simvol – o‘zbek adabiyotida:

May – hayot ramzi;

Gul – ma’shuqa ramzi;

Burgut – mag‘rurlik;

Chumoli – mehnatsevarlik.

3. Majoz – adabiy asarda o‘quvchiga noaniqroq bo‘lgan tushunchani ko‘pchilikka ma’lum bo‘lgan narsalarga xos belgilar bilan ifodalash.

M: “Maymun bilan najjor”, “Toshbaqa bilan chumoli”.

Ikki kitob muallifi Cho‘lpon “Kecha va Kunduz” romanini 1935-1937-yillarda yaratgan. Bu roman o‘zbek millatining badiiyatda aks etgan solnomasidir. Romanda aks ettirilgan voqea 1-jahon urushi endigina boshlangan kezlarda O‘zbekistondagi viloyatlardan birida bo‘lib o‘tadi. Romandagi qahramonlardan birining: “Biz yaqindagina eshon to‘poloni bo‘lib o‘tgan joydan uncha olisda emasmiz” degan so‘zlariga qarab, voqea Andijon viloyatining Dukchi eshon qo‘zg‘aloni bo‘lib o‘tgan Marhamat tumaniga yaqin bir joyda bo‘lib o‘tgan deb aytishimiz mumkin. Bu davr o‘zbek xalqining 2 tomonlama zulm ostida ezilgan davri edi. Mahalliy boylar bu davrda rus mustamlakachilari bilan og‘iz - burun o‘pishib, o‘z xalqining tarixiy taraqqiyoti haqida emas, uni iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy qoloqlikdan xalos etish to‘g‘risida emas, balki o‘zlarining rohat-farog‘atlari, moddiy farovonliklari haqidagina jon kuyuntirishar edi! Feodal tuzum va mustamlakachilik sharoitida xalq to‘g‘risida o‘ylovchi, uning qiyin, mashaqqatli hayotini yaxshilash haqida qayg‘uradigan biron siyosiy kuch mavjud emas edi. Yozuvchi ana shu tarixiy davrni badiiy tasvir va tahlil etish maqsadida asarni yozgan. Bu voqea Zebi timsolida ochib berishga qaratilgan. “Kecha va Kunduz” romaninig markazida Zebi, Akbarali, Miyoqub turadi, ularning o‘zaro munosabatlari, to‘qnashuvlari, taqdirlari roman syujetining asosini tashkil etadi.



Cho‘lpon asarning boshidan oxirigacha Zebi xarakteridagi samimiyatni, ochiqlikni eng muhim belgi sifatida ko‘rsatadi. Uning tomirlarida navqironlik jo‘sh uradi, ko‘nglida esa tevarak-atrofni qurshab olganlarga, dugonalariga, bahorga, hamma-hamma narsaga muhabbat hokim! U hali hayotning achchiq-chuchugini ko‘rmagan. Zebining murg‘ak qalbi dunyoda razolat va qabihlik, yomonlik va yovuzlik borligini sig‘dira olmaydi. Zebi to‘rt devor ichida kishini erksiz qiluvchi havolardan nafas olib ulg‘aydi. U ko‘proq otasidan qo‘rqadi. Otasi Razzoq so‘fi o‘z uyining qabristonlar qadar jim-jit bo‘lishini istaydi. U xotin-halaj oldida til qaldiratishni ravo ko‘rmaydi. Zebini hayotsevar qilgan omillardan bittasi – uning jarangdor ovozi. Zebida o‘zbek ayollariga xos fazilatlar jamlangan. U poklik, go‘zallik, tozalik va navqironlik timsoli. Akbarali-mingboshi, belida kumush kamar, yonida kumush sopli qilichi, ustida zarbof choponi bo‘lmasa, hech kim uni amaldor demaydi. Cho‘lpon Akbarali obrazi orqali mustamlaka Turkistondagi idora usulini, to‘ralar va mahalliy amaldorlar o‘rtasidagi munosabatlarni yaxshi ko‘rsatgan ko‘rsatgan. Romandagi Miryoqub – ancha murakkab obraz. U aslida savodsiz, gazetalardan bexabar, dunyo ishlariga ko‘p ham qiziqirmaydigan, rus tilim ham tuzuk-quruq bilmaydi. Shunga qaramay, ishning ko‘zini biladigan o‘ta tadbirkor odam. Shuning uchun “Eraga” degan laqab orttirgan. U aralashgan ish bilmay qolmaydi. Pul topish yo‘llarini yaxshi biladi. Miryoqub hayotning ko‘pgina turfa xil voqealariga ro‘para keladi va har gal ularning mag‘zini chaqishga intiladi. Hayot uning qarshisida bir-biridan murakkab jumboqlarni ko‘ndalang qo‘yadi. Miryoqub ularga javob izlaydi. “Kecha va kunduz” hayotiyligi va samimiyliigi bilan, mazmunining teranligi bilan, qahramonlar xarakterining butunligi va to‘kisligi bilan umrboqiy asarlar sirasiga mansub. Bu roman bosilib chiqqandan so‘ng, oradan ko‘p o‘tmay Cho‘lpon qamoqqa olinadi. Uning nomini, ijodini targ‘ib etish qat‘iyan man qilinadi. Bu ahvol 1956-yilgacha davom etadi. O‘zbekiston milliy mustaqillikka erishgandan so‘ngina Cho‘lpon adabiyotimiz saflariga qaytdi. Uning ehtirosli, jo‘shqin, teran asoslari bugungi kunimizda juda hamohang.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. “O‘zbek adabiyoti tarixi”
2. “O‘zbek adabiyoti” 11-sinf, darslik.
3. N. Karimov, S. Mamajonov, B. Nazarov, U. Normatov, O. Sharafiddinov “XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi”, T – 1999
4. Cho‘lpon “Kecha va kunduz” romani.

#### ШУКУР ХОЛМИРЗАЕВНИНГ КИТОБ СЕВАР ҚАҲРАМОНЛАРИ

*Ҳакимова Дилдора Фарҳодовна,  
ЖДПИ ўқитувчиси*

Сўнги йилларда юртимизда давлат сиёсати даражасига кўтарилган ижтимоий масалалардан бири саводхонлик даражасини ошириш,

китобхонлик маданиятини ривожлантириш. Муҳтарам Президентимиз Шавкат Мирзиёев бошчилигида китобхонликни янада ривожлантириш бўйича олиб борилаётган ишлар ёшларимизни китобга меҳрини оширишга қаратилган. *“Китоб-билим булоғи. Бу булоқдан баҳра олмаган инсон жоҳилликка юз тутади. У ҳар қандай тубанликка қўл уриши, инсонийликни, виждонини апзимаган нарсага сотиб юбориши мумкин. Жамиятда китобхонлик қай даражада кенг оммалашган бўлса, зиёли аҳли шунчалик кўп бўлади, ўз навбатида бу жойда умуминсоний қадриятлар барқарор турмуш тарзига айланади”* [Наимов А. Китоб – илм ва ҳикмат манбаи. 2017 й.]

Маълумки, маданиятли, тарбия топган оила халқимизнинг анъанавий таълим-тарбиясига амал қилган ҳолда, болада ёшлиқдан китобга меҳр кўйиш, уни севиш ва китобни муқаддас деб билишга одатлантиради. Мазкур анъанага содиқ қолган ўзбек насрининг маҳоратли адиби Шукур Холмирзаев жамиятимиздаги ижтимоий масала сифатида кўриладиган китобхонлик масаласини қаҳрамонларининг китобни яхши кўришлари тасвирида тасвирлайди.

“Ўн саккизга кирмаган ким бор?” қиссаси муҳаббатни тараннум этувчи бошқа асарларда фарқи шундаки, ундаги қаҳрамонларнинг характер хусусияти, уларнинг дунёқараши, маънавияти улар ўқиган китобларга бориб тақалади. Асарда бир неча бор китоблар номи, улардаги қаҳрамонлари тилга олиб ўтилган. Жамшидни дастлаб сотиб олган китоби “Икки сандиқ” (Зумрад ва Қиммат) эртақ китоби. *“Бир куни танаффус маҳали Жамшид Мансурнинг қандайдир китобчани қизиқ варақлаётганини кўриб қолди. Китобнинг муқовасида бир кампирни қувиб бораётган аждарҳо расми солинган, унинг тагида “Икки сандиқ” деб ёзилган эди.*

*-Бир кўрай , - деди Жамшид.*

*-Умиданинг олдига бор, ўртоғингни, - деди Мансур*

*-Бу китобдан магазинга бор , -деб қолди қизлардан бири. - Икки сўм.”*

[Ш.Холмирзаев. Сайланма. 5-жилд.-Тошкент. “Шарқ”, 2007 й. 117-бет.]

Жамшиднинг китобга қизиқиши ортганидан дарсни ҳам ташлаб шоша–пиша уйига келиши, китобни харид қилиш учун онасидан пул олиш мақсадида онасини уйдан излаши, тополмагач йиғлаб юборганлигини, кўрсак : – *Нима бўлди, ўғлим?*

*–Китоб олмоқчи эдим, икки сўм керак эди” деб пичирлади Жамшид.*

*- Сени қара-ю! – Жалолов чорпоя суянчигига ташлаб қўйган галифе шимини олиб, чўнтагидан пул чиқариб, Жамшидга берди. –Бор, ўғлим, ол. Нимага мендан сўрай қолмадинг, ўғлим? Ё мени ёмон кўрасанми? Жамшид тидраб кетди. – Йўқ ота, - деди наstdан мўлтираб.”* [Ш.Холмирзаев. Сайланма. 5-жилд.-Тошкент. “Шарқ”, 2007 й. 117-бет.] унинг илк бор Жалоловни “ота” деб атагани бежизга эмас. Ёзувчи нега айнан Жамшид китоб учун пул олганидан сўнг Жалоловни “ота ” деб мурожат қилдиргани, китоб ўқиш орқали инсонларнинг бир–бирларига бўлган муносабатлари ижобий томонга ўзгариб боришини кўрсатишга уринди. Мана ёзувчининг мақсади. Адиб Жамшидни китоб сотиб олиш билан бирга, йиллар давомида

меҳрига зор бўлган, узоқ вақт кутган отасини топганидан хурсанд ҳолда тасвирлайди.

“-Она. Китоб олдим...отам пул бердилар,”- деб бахтиёр ҳолатда онасига сотиб олган китобини кўрсатаётган тасвирида унинг ҳаётдан мамнун инсон эканлигини, китоб эмас отасини топганидан ичига сиғмай севинч билан онасига гапирган гапида кўришимиз мумкин.

Рус ёзувчиси М.Горький: *“Китобни севингиз, у сизнинг ҳаётингизни энгиллаштиради, сизнинг қайноқ ва тугал фикр, ҳис ҳамда воқеаларни билишингизга дўстона ёрдам беради, у сизни инсонни ва ўзингизни ҳурмат қилишга ўргатади, у сизнинг ақл ва қалбингизни дунёга, инсонга муҳаббат ҳисси билан бойитади,”* –деб китоб инсонларнинг маънавиятини озиклантирувчи сарчашма эканини исботлаб берган. [Балтабаева М. Китоб комилликка етаклайди.-Тошкент. 2017 й]

Инсоннинг жаҳолатга қарши биринчи муқоваланган исёни китобдир. “Ўн саккизга кирмаган ким бор?” қиссасининг асосий қаҳрамонларининг барчаси китобни яхши кўрадиган китобхонлар. Дашт кишиларига хос табиатга эга Тилов ўрни келганда жуда кўрс ва қайсар бўлсада, Жамшиднинг “- Ака. Бу китоб қизиқ экан, ўқийсизми?”- деб берган таклифига беписанд қарагани билан Жамшид ухлаганидан кейин, унга сездирмай жилдини очиб, китобни олиб, чироқни пасайтириб, “Икки сандиқ” эртагини сездирмай ўқигани, ўқиб бўлиб, юзини ёстикқа босиб, ўксиб-ўқиб йиғлаши тасвирада ёзувчимиз унинг ҳам маънавий ҳаётида туб бурулиш ясаганини тасвирлайди.

Шукур Холмирзаев бу юртнинг барча фуқаролари китобхон бўлишлари шарт деб ошкора аюҳаннос солмаган бўлсада, аммо ўзи каби асарларидаги қаҳрамонларини ҳам китобга ошно қилиб тасвирлайди. Умиданинг хонасини тасвирлаш жараёнига эътибор қаратадиган бўлсак:

*“...хонасининг бир бурчагида токча. Токчада китоблари. Китобларнинг кўпчилиги пьесалар “Момақалдиқоқ,” “Бой ила хизматчи”, “Оқ чорлоқ” Умида аллақачонлардан бери булардаги Катерина, Жамила ва Нина образларини ўйнашни орзу қилар, улардаги кучли ҳолатлар, бўронли кечинмалар ва оташин монологлар уни мафтун этарди.”* [Ш.Холмирзаев. Сайланма.

5-жилд.-Тошкент. “Шарқ”, 2007 й. 143-бет.] каби баён этади.

Илмдан беҳабар кўнгил-оғиз, китобсиз уй-ҳамиша қоронғу. Шу каби жамиятни, маънавий муҳитни яхши ва фойдали китобсиз тасаввур қилиб бўлмайди. Китобдан билим, завқ-шавқ ва баҳра олиш одамнинг ботинини, руҳини тозалайди. Бугун кунда давлат сиёсатига айланиб бораётган бу ижтимоий масала жамиятнинг глобал масаласи даражасига етди. Муҳтарам Президентимиз Шавкат Мирзиёев ташаббуслари билан сўнги йилларда китобхонликни ошириш, китоб маҳсулотларини нашр этириш масалари самарали йўлга қўйилди. “Бугунги болалар эртанги кун халққа айланади...ёшларни китоб ўқишга бўлган қизиқишини кучайтиришга, уларнинг китоб билан дўст бўлишига, аҳолининг китобхонлик савиясини янада оширишга алоҳида эътибор қаратиш лозим. Ёшларни китобга,

*китобхонликка қайтариш керак! Китобсиз келажак йўқ!*" [Ўз.Рес.Президенти Ш.Мирзиёев. Тошкент .2017 йил, 12 январь, ПФ-4789-сон.]

Бу шиор халқимиз, кенг жамоатчилик вакиллари, зиёлилар, шоир ва ёзувчилар ҳамда ёшларимизни сергаклантирди. Тараққиётнинг умумий кўламида ҳар бир миллатнинг ўрни ўша миллат ўқиётган китоблар сони билан белгиланишини яхши англаган Шукур Холмирзаев қаҳрамонлари кўлига китоб тутқаздиш орқали халқни китобхонликка чорлайди.

“Тупроқ кўчалар” қиссаси болалар ҳаётига бағишланган бўлиб, унда ҳам ижтимоий ҳаётдаги қатор масалаларни тасвирланган. Мазкур қиссада ижтимоий муаммо ва масалалар қаторига китобхонлик масаласини ҳам сингдириб ўтилган. Шукур Холмирзаев “Тупроқ кўчалар” қиссасида болаларча содда, беғубор шунинг билан бирга мураккабликларга тўла ижтимоий ҳаётини тасвирлар экан, уларда ақли, жасур, мард, адолатпарвар, виждонли болалар образлари билан бирга шўх, ўйинқароқ, тўпалончи, дангаса образларни яратади. *“Наган билан Юрчи кўчаларида қоронғу тушгунча велосипед миниб юрдик. Шу кеча икковимиз бирга ётдик. Велосипед яхши-ю, лекин китобга етмайди, - деди Наган. - Қандай китоблар ўқидинг? Махсумга қўшилганимдан буён китоб қўймаган эдим. –Кўп ўқидим, оти эсимда қолмаган,-”* [Балтабаева М. Китоб комилликка етаклайди.- Тошкент. 2017 й.] деб ўйга толган қисса қаҳрамони кўчанинг бебош, безори болаларига қўшилиб қолганини, ўзи ҳам улар каби кўча боласига айланиб бораётганини ички тан олгани тасвирида, бола тарбиясига ташқи муҳитнинг таъсири борлигини кўрсатиб ўтади ёзувчи. Китоб ўқиган ва ўқимаган бола ўртасида, дунёқарашларида осмон ва ер қадар масофа борлигини сезамиз. Чунки китоб инсонда Ватанга муҳаббат, миллий ва умуминсоний кадрятларга ҳурмат туйғуларини юксалтириб, яхшиликка ва эзгуликка ундайди. *“Наган келди. Менга “Ўқитувчи” деган китоб олиб келган. Мен китоб ўқишни соғиниб қолганимни сездим. Иккаламиз боғимиз этагидаги олчазорга бориб, ўқий бошладик. Мен ўқийман у қулоқ солади, у ўқийди, мен қулоқ соламан.”* [Ш.Холмирзаев. Сайланма. 5-жилд.-Тошкент. “Шарқ”, 2007 й. 253-бет] Китобга ошно инсоннинг маънавияти юксак бўлади. Маънавий жасорат соҳиби деб ардоқлаган атоқли олим ва таржимон Озод Шарафиддинов дунёдаги етти мўъжизага таъриф бериб *“...етти мўъжиза инсон ақлининг, тафаккурининг, қалбининг оташин мадҳияси, инсон даҳосининг улуглигига қўйилган мангу обида бўлиб келмоқда. Бироқ, шундай бўлса-да, оламда яна бир мўъжиза борки, унинг буюклиги, муқаддаслиги етти мўъжизанинг жамики улугворлиги, гўзаллигидан камлик қилмайди. Бу мўъжиза –китоб. Китобнинг мўъжиза эканлигини кўпгина буюк одамлар қайд қилган”* деб ёзади. Шукур Холмирзаевнинг аксарият асарлари қаҳрамонлари – ёшлар. Улар борича, заррача сунъийликдан холи, заррача бўрттиришларсиз тасвирланган.

“Букри тол” қиссасидаги қаҳрамони Санам ёш боласи билан эридан эрта бева қолгани, ўз дарди билан ўзи бўлиб ғам ботқоғига ғарқ бўлай деб



турганда онаси Ойна опа қистови билан қишлоқ совети қошидаги янги очилган кутубхонада ишга жойлашиб, Санам яна орзу қилишни, янги ҳаёт бошлашининг ҳам тагида ёзувчининг мақсади ётибди. Хўш, нега Санам магазинга ёки онасининг идорасига ишга жойлашмади. Унга бари-бир эдику? Қаерда ишлашнинг қизиғи йўқ, фақат дардларини бироз бўлсада унитиш, боласи учун ўзини қўлга олиш эди. Шукур Холмирзаев Санамни айнан кутубхонага ишга жойлаштириш тасвири билан китоблар инсоннинг ёлғизликдаги ҳамроҳи, беминнат маслакдоши, дардларига малҳам бўла олишини моҳирона тасвирлаб берган.

Жиддий ўйлаб қараладиган бўлса, ҳамма даврларнинг барча турдаги адабиётлар учун асосий муаммо одам экани, унинг ҳаётдаги ўрни, кадри, изтиробу ўйларидан иборатлиги маълум бўлади. Бу ҳақда ўз асарларида миллийлик руҳи, ўзбекона ҳаёт, муомила муносабат, характер – хусусиятларни юксак даражада тасвирлаб, шахс тарбиясига муҳим эътибор қаратадиган ёзувчимиз Шукур Холмирзаевнинг: *“Мана, энди асл адабиётнинг “асл масаласига” етиб келдик. У шундан иборат эканки, адабий ҳодисани, яъни асарни ичдан ёритиб ва тўппа-тўғри қўнғилга аксадо бериб, кишини қаёққадир бошлайдиган бир нур бўлар экан! Илло, инсоннинг ўзи ҳам табиатан қандайдир бекатга-нурга интилади. ....ёзиш, очиш, кашф этиш, ҳа-ҳа: энг пинҳон тарафларини оча билиш, тироварди, ана шу тариқа Эзуликка....*

*.....Инсон камолотига ёрдамлашиш экан! Алқисса, ҳақиқий ижодкорлар ана шу “иш”ни қилишга маҳкумдирлар. Мажбур эмас, маҳкумдирлар”* [Холмирзаев Ш. Адабиёт ўладими// “Тафаккур” журнали.1998 йил 2-сон] тарзидаги иқрорида бадиий адабиёт ва унинг ижодкорлари зиммасидаги маъсулият ўта нозик эканлигини кўриш мумкин.

Маълумки, Шукур Холмирзаев ижоди ўзининг серқирра, сербўёқлиги ҳамда ифода воситаларига бойлиги билан характерланади. [Нормуродов Р. Шукур Холмирзаевнинг бадиий тил маҳорати. Филол. фанлари. номз. диссертацияси. -Т.2003,326]

Адиб адабиётимиз осмонида ёрқин из қолдириб мангу юлдузга айланган ижодкор.

Хулоса ўрнида айтганда, адиб қиссалари дунёсига кириб борар эканмиз, мавзулар кўламининг хилма-хиллиги, қаҳрамонлар характерининг такрорланмаганлигини, ахлоқий муаммоларни тасвирлаш усулини ўзига хослигини кўришимиз мумкин.

Олимлар, зиёлилар китобни инсон тафаккурининг қанотларига ўхшатишган. Зеро, тафаккури, фикр доираси кенг, маърифатли кишилар жамиятнинг чинакам бойлиги. Буюк саркарда бобокалонимиз Амир Темур: *“Китоб(битик) барча бунёдкорлик яратувчанлик ва ақл-идрокнинг, илму донишининг асосидир ҳаётни ўргатувчи мураббийдир, ”* - деб таъкидлаб ўтган. Ҳаётда рўй бериб турадиган айрим нохушликлар илдизи эса маърифатсизлик, китоб ўқимасликнинг аччиқ меваси эканлигини англаган



Шукур Холмирзаев деярли барча асарларига китоб ўқиш ғоясини сингдиришга уринганини кўрамиз.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўз.Рес.Президенти Ш.Мирзиёев. Тошкент .2017 йил, 12 январь, ПФ-4789-сон.
2. Балтабаева М. Китоб комилликка етаклайди.-Тошкент. 2017 й.
3. Каримов И. Адабиётга эътибор-маънавиятга, келажакка эътибор.//Шарқ юлдузи.2009 й. №3,7-бет
4. Коллектив. Адабиёт назарияси. Икки томлик. – Тошкент. “Фан.” 1978 й. 13-бет
5. Матмуродова М. Китоб ва мутолаа маданияти. Тошкент. 2010.
6. Наимов А. Китоб –илм ва ҳикмат манбаи. 2017 й.
7. Назарова Шаҳноза. Янги қиссачилик сарҳадлари. “Шарқ юлдузи” журнали, 2013 йил, 3-сон
8. Холмирзаев Ш. Адабиёт ўладими// “Тафаккур” журнали.1998 йил 2-сон
9. Холмирзаев Ш. Букри тол.-Тошкент. “Шарқ”, 1961 й. 46-бет
10. Холмирзаев Ш. Сайланма. 5 жилдли, 4-жилд.-Тошкент. “Шарқ”, 2007 й.
11. Холмирзаев.Ш Адабиёт, ёзувчи ва ижод ҳақида. “Ёшлик”журнали 2012/9
12. Потебня А.А. Эстетика и поэтика. –М.,1976.- с. 286
13. Улуғов А. Адабий қаҳрамон қадрлари. “Жаҳон адабиёти”,2015йил, 5-сон.
14. Қозоқбой Й. Муҳайё Йўлдош. Бадиий таҳлил асослари. –Т.:”Камалак”, 2016, 25-бет.
15. Куронов Д. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент. “Фан”. 2007.
16. Одил Ёқубов. Бойсун сафари. [www.kh-davron.uz](http://www.kh-davron.uz).

### ADABIY TA'LIMDA YOZMA ISHLARNING O'RNI

*Rasulova Rayxon Baxritdinovna,  
Chirchiq davlat pedagogika instituti o'qituvchisi*

Jamiyatning gullab-yashnashi ham, qoloqlik botqog'iga botishi ham shu zaminda yashayotgan odamlarga bog'liqligi har tomonlama isbotlangan, shu sababli bugungi jamiyatning taqdiri undagi sog'lom ma'naviyatli insonlarga bog'liq bo'lib bormoqda. Shu nuqtai nazarga asoslanib yoshlarimizni chin insoniy ma'naviyatga yo'g'rilgan, barkamol qilib tarbiyalash yil sayin dolzarb mavzuga aylanib bormoqda. Barcha pedagoglarga qo'yilgan ushbu vazifani sidqidildan ado etish ustozlik burchi hamda zamon talabidir. Milliy pedagogika ilmi ham bugungi kunda ma'naviy barkamol avlod tarbiyalash yo'llarini tadqiq etmoqda. Bu jarayonda yosh avlod aqliy-ma'naviy kamolotini ta'minlashda ularning mustaqil fikrlashi muhim ahamiyat kasb etadi. Avvalo, «mustaqil fikrlash» tushunchasi hamda uning barkamol insonni shakllantirishdagi ahamiyatini aniqlab olish zarur. Mutaxassislarining ta'biricha, fikrlash, ya'ni tafakkur – odam miyasida sodir bo'lib, uning nutqida xatti-harakatlarida namoyon bo'ladi. Tafakkur – aqliy hamda ongli

xatti-harakatlarning majmui. U atrof olami, voqelik hamda ijtimoiy muhitni bilish vositasi, inson faoliyatini to'g'ri va mazmunli amalga oshirishning asosiy sharti. Kishi fikrlash jarayonida ko'rgan bilgan hodisalarning to'g'riligi va aniqligi, haqiqiyliги yoki soxtaligi hamda ularning borliqqa munosabatini aniqlaydi. Tafakkur insonning ruhiyati bilan uzviy bog'liqlikdagi jarayon. Fikrlayotgan odamning ichki va tashqi dunyosi qanchalik boy, dunyoqarashi nechog'lik keng, bilimi qay darajada ildiz otgan bo'lsa, xulosalarining saviyasi ham shuncha baland bo'ladi. Ijodiylik, ziyraklik, teranlik, tiniqlik, mantiq, erkinlik, mustaqillik, badiiylik inson tafakkuri darajasidandir. Odam dunyoni tafakkur orqali anglaydi, xulosalar chiqaradi. Inson fikrlash jarayonini yuzaga keltirishning asosiy sharti undagi borliq sirlarini bilishga bo'lgan xatti-harakat, kuchli ehtiyoj, ya'ni cheksiz qiziqish. Bularsiz insonda fikrlash paydo bo'lmaydi. Mantiqiy fikrlash – ongli ravishda ilmiy-nazariy hamda amaliy asoslarga tayanib fikrlash bo'lib, mantiqning yo'qligi fikrlash jarayonida onglilikning, ilmning yo'qligidir. Demak, mustaqil ravishda muhokama qilish, tahlil etish, ijodiy-mantiqiy fikrlash asosiy insoniy xususiyatdir. Fikrlash insonning aqlan va ruhan sog'lomligining asosiy belgisidir. Inson aqlining faoliyati hamda sifati uning o'ziga bilinmaydi, shu sababli o'quvchilarda fikrlash mustaqilligini nazorat qilish, uni taqqoslash hamda rivojlantirishga o'qituvchi mas'uldir. Buning uchun o'qituvchidan ziyraklik, ta'lim jarayonining har bosqichida har bir o'quvchi shaxsi, intellektual imkoniyatlari, intilish va qiziqishlarini bilish talab qilinadi. Bola yosh bosqichlariga ko'ra turfa qiziqishga ega bo'ladi, o'ziga xos fikrlaydi va his qiladi. Har yoshida turlicha faoliyat ko'rsatadi, borliqqa munosabati ham har xil bo'ladi. O'smir hali adabiy qahramonni barcha jihatlar bilan yaxlit qabul etish va baholashga qodir emas. Unga doima o'qituvchi o'z ziyrakligi bilan bunday qiyinchiliklarni yengishga tayyor turmog'i lozim. Buning uchun bolalarning tabiati va yosh xususiyatlariga mos keladigan qiziqarli topshiriqlar berilishi, matnlar yaratishda taqdim etiladigan usullar biri ikkinchisiga o'xshamaydigan tarzda rang-barang bo'lishi o'quvchilarni faollashtiradi. Bularning aksi natijasida bola mustaqil fikrlamaydigan kimsaga aylanadi va tabiiyki, biror ishni bajarishdan zavq, lazzat yoki qoniqish tuymaydi. Ma'naviy-ma'rifiy buloqlarimiz hisoblangan mumtoz adabiyotimiz namunalarida, mutafakkir ajdodlarimiz qarashlarida ham odam ma'naviy kamolotini ta'minlashga doir fikrlar ustuvorlik qiladi, chunki ota-bobolarimiz avlod tarbiyasiga, mustaqilligiga jiddiy yondashishgan. Maktab davrida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish ona tili va adabiyot o'qituvchilari faoliyatida samaraliroq kechishi bilan ajralib turadi. Chunki boshqa o'quv fanlari aniq qonun-qoidalar, xulosalar va nazariyalarni o'rgatadi. Ammo adabiy ta'limning istalgan bosqichida o'quvchi o'z oldiga qo'yilgan muammoni tegishli maqsad va vazifalarini belgilagan holda bilimi, hayotiy tajribasiga tayanib turli yo'l, usul, vositalar yordamida mustaqil hal qilib, o'zining haqiqatini yaratish mumkin. Bunday imkoniyatlar, ayniqsa, yozma va og'zaki nutqlarni shakllantirishda yetakchi o'rinlarda turadi. O'rganilayotgan badiiy matn, undagi qahramonlar, tasvirlangan biror hodisa yoki vaziyatni har bir o'quvchi asar muallifinikidan farqli o'z xulosalari bilan baholay oladi. Ilodiy ishlardagi ularning yozma nutqiy faoliyatida

aks ettirishlarini tashkillashtirish tafakkur darajalarining oshishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, o'z fikrlarini yozma ravishda, tugal va mantiqli izohlash zaruriy ehtiyojga aylanmoqda. Har qanday muammo va favqulodda vaziyatlar shuni taqozo etmoqdaki, bugungi kun yoshlari bularga doim tayyor turmog'i lozim. Jumladan, ijodiy bayon, insho, matn yaratish kabi yozma ish turlarida bunday qobiliyatlarini rivojlantirish, ularni mustaqil hayotda o'z o'rinlarini topib ketishida katta ahamiyatga ega. Asarlar yoki asar qahramonlari muammolari yozma ishlarda ko'proq tahlil qilinmog'i maqsadga muvofiqdir. Ko'tarilgan muammolarni har kim o'zicha yechadi, turli xulosalarga keladi va nima uchun shunday xulosaga kelganini matndan dalillar keltirgan holda yoki hayotiy xulosalari bilan asoslaydi va bunda har bir o'quvchining o'z fikri, xulosasi, aytish joiz bo'lsa, o'z haqiqati yaratiladi. Yozma nutqda o'quvchi nutqidagi xato va kamchiliklarni nazorat qilish, qiyosiy tahlillar bilan bartaraf etish yo'llari osonlashadi. Bugungi ta'limda bir paytlar chiqarilgan yalpi xulosalarga kelish, talabga javob bermay qoldi. Bunga bugungi o'quvchilarning barchasini birday ishintirib ham bo'lmaydi va agar shunga harakat qilinsa, yosh avlod ma'naviyatiga zug'um o'tkazilgan bo'lardi. Yozma ishlarni yaratishda adabiy qahramonning o'ziga xos ruhiy olami va axloqiy sifatlarini anglash, o'quvchi oldiga qo'yilgan muhim didaktik talablardan hisoblanadi. Ma'lumki, har qanday bilimni o'zlashtirish ma'lum darajada fikriy zo'riqish asosida kechadi. Ijodiy yozma ishlarda adabiy qahramon shaxsi va hayoti tahlilida o'quvchining o'zi ham hayotga faol kirib boradi. O'zgalarni o'rganish orqali o'z shaxsiyatiga xos sifatlarni shakllantiradi. Asar qahramonlariga qarab, o'quvchi shaxsini belgilash mumkinligi ham haqiqatdan yiroq emas. Bolaning qiziquvchanligi, bilishga intilishi so'nimgan davrida undagi mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanmoq zarur. Ta'lim amaliyotida o'quvchiga tayyor bilimlarni bermasdan, izlanib, mehnat qilishlarini ta'minlash, tuyg'ular, fikrlarni ishtirok ettirib faol ijodiy ishlashga o'rgatmoq zarur. O'quvchi bir narsani ikki marta eshitishni, bir xil vazifalar bajarishni, ta'lim jarayonidagi takrorlarni xushlamaydi. Vaholanki, ta'lim tizimida, hatto, bugun ham o'quvchi bir xil shakldagi hamda mavzudagi yozma ishlarga to'qnashadi. Bir xil shakl va qolipga keltirilgan, umumiy rejalarga asoslangan yozma ishlar bir xil tizimda olib borilishi boladagi qiziquvchanlikni susaytirib, ta'lim-tarbiya jarayonini zerikarli qilib qo'yadi. Ijodiy yozma ishlar o'quvchining qiziqish va istaklariga muvofiq tashkil qilingandagina samarali bo'ladi. O'qituvchi o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish maqsadida tashkil qilingan yozma ishlarda ularga ma'lum vaqt ichida bajarilishi lozim bo'lgan topshiriq beradi. Masalan, 8-sinfda Shavkat Rahmonning "Jangda o'lgan emas biror bahodir" she'ri o'rganilib, o'z fikrlarini yozma ravishda ifodalab berishlari uchun hayotiy dalillar keltirishlari talab qilinadi. Topshiriqni to'g'ri bajarish uchun o'quvchi badiiy asarlarga murojaat qiladi, asarning mazmunini izohlashda ularga nutqiy tafakkur yordamga keladi. Bu topshiriqni o'z muddatida bajarish uchun o'quvchi vaqtini to'g'ri taqsimlashi va qiladigan ishlarini puxta rejalashtirishi talab etiladi. Shuning o'ziyoq o'quvchini mustaqil o'ylashga majbur qiladi. She'ni o'qib, adabiy qahramon hissiyotini tuyib shu asosda fikrlash o'quvchini inson tuyg'ularini, kechinmalarini topishga intiladigan

tadqiqotchi holatiga soladi. Yozma ishlarda har xil adabiy timsollarni mustaqil taqqoslash talabini qo'yish o'quvchining qat'iy qaror qabul qilish ko'nikmasini shakllantiradi. O'quvchida bunday ko'nikmani hosil qilish uchun, avvalo, uni konkret shaxs yoki hodisani kuzatish, taqqoslab o'xshash va farqlarini ajratish, umumiy va xususiy jihatlarni, ikkinchi darajalilarni farqlashga yo'naltirish talab qilinadi. Yozma ishlarda taqqoslab tahlil qilish mustaqil fikrlashning, ahamiyatli turi hisoblanadi. Timsollar tabiatidagi o'xshash va farqli tomonlarni aniqlash uchun inson fikran ularning alohida xususiyatlarini ajratadi, belgilarini aniqlaydi va ularni taqqoslagan holda umumiylarini ko'ra biladi. 9-sinfda «Alpomish» dostoni qahramonlari Boybo'ri va Boysari timsollarini o'zaro taqqoslaganda o'qituvchi yo'naltiruvchi savol-topshiriqlar bilan murojaat qiladi: «Boybo'ri bilan Boysarining qanday o'xshash jihatlari bor? Boybo'ri tabiatidagi fazilatlarining ildizini dostonidan topib, izohlang. Boysarida o'z akasiga nisbatan norozilik fikri qanday tug'ilgani haqida o'ylab ko'ring. Noroziligi sabablarini asardan toping, siz qanday fikrdasiz. U boshqacharoq yo'l tutishi mumkinmidi? Nega bunday yo'l tutdi? Boysariga nisbatan ko'nglingizda qanday tuyg'u paydo bo'ldi? Achinishmi, nafratmi, rahm-shafqatmi? Buning sababini toping» va hk. Yozma ishlarida o'quvchi tafakkuri mustaqilligi uchun har bir narsa-hodisa yuzasidan mustaqil fikr yuritishga, vaziyatga ijodiy yondashishga, boshqalarga, hattoki o'qituvchisiga ham, yoqish-yoqmasligidan qat'i nazar, o'z fikrini aytish talab qilinadi. O'quvchilardagi tanqidiy tafakkur va mulohazaning yetarli darajada taraqqiy etmaganligi, estetik did hamda madaniy saviyaning pastligi yozma ishlarda ijodiylikning yuzaki ko'rinishiga olib keladi. Asar to'g'risida chuqur fikr yuritmasdan turib unga baho berishga shoshilish hollari asl turmush bilan badiiy asar o'rtasidagi farqni anglay olmaslikdan kelib chiqadi. Demak, yozma matn tuzishda berilgan matnni tushunishning o'zi yetarli emas, unga o'quvchi yangicha yondasha bilishi ham kerak. Shunda uning mustaqil nuqtayi nazari shakllanadi. O'z-o'zidan ma'lumki, bu fazilat o'zgalarning ko'rsatmalari emas, o'spirinning shaxsiy fikri, mustaqil o'ylashi va bir qarorga kelishining natijasi bo'ladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" Qonuni, 2020 y. 23 sentyabr, № 637.
2. Rasulova, R. B. (2021). Matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishda mumtoz adabiyot qatlamlariga murojaat. TIL VA ADABIYOT TA'LIMI, 7. B.12-14
3. Rasulova R.B. Umumta'lim maktab o'quvchilarining matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishda reminissensiya hodisasisining ahamiyati (7-9-sinflarda matn yaratish kompetensiyasini shakllantirish metodikasi) MUG'ALLIM HAM UZLUKSIZ BILIMLENDIRIO'. Ilmiy-metodikaliq jurnal № 6/1 2021. B. 8-12
4. [www.bilimdon.uz](http://www.bilimdon.uz)



## FUNCTIONS OF PRAGMATONYMS

*Akhmadalieva Sabo Murodovna,  
Kokand state pedagogical institute*

A brand is a name, term, design, symbol, or other feature that distinguishes a seller's product or service from others similar products [1]. Brand names are studied within the framework of pragmatonyms that are the part of the field of onomastics. Brand names are important because they need to be resonant, be able to attract the consumer, and have a unique character. Accordingly, the etymological features of brand names also differ from each other.

As pragmatonyms, brands should have such a positive meaning in their name that the brand should encourage the manufacturer to take the necessary action – to buy their product. In many cases, there is an attempt by the creators of the names of a particular product to emphasize that its quality is superior: Super, Absolute, Excellent. When creating a trademark, one should not rely solely on adding emotion to the product name. It is also necessary to take into account the tastes, habits, abilities of the consumer [4;37]. So, one of the main tasks of brand names is to present positivity and encourage people to buy the product.

In recent years, as a result of globalization, growth rates, the development of international economic and trade relations, along with the influx of products and services from foreign languages, the names of these products, goods or services are accepted in the Uzbek language, Uzbek lexical level. At the same time, as a result of reforms in entrepreneurship and business development in our country, Uzbek entrepreneurs are producing new types of products and goods. Of course, in such circumstances, each firm or enterprise is required to have its own name and product name in order to stand out from the others.

In linguistics, such names are called pragmatonyms. Pragmatonies are studied in the field of onomastics of linguistics and are included in the group of well-known names.

The term pragmatonym is derived from the Greek *πραγμα* - object, thing and *ονομ* - name, meaning "name that means type, brand, trademark" [3;188]. In her article, I. Isanguzina lists several functions of pragmatonyms: distinguishing function, informative function, "protective" function, guarantee function, psychological function [2].

Distinguishing function - serves to distinguish the name of products, goods or services from the name of another similar product or service. For example, the brand names of mobile phone manufacturers: SAMSUNG, APPLE, Redmi, Xiaomi and others. Although the type of products produced is the same, they differ according to the brand name of the manufacturing company.

The informative function is the function of informing the product name about what the product is like. For example, the pragmatonym MUSAFFO SUT means that the product is made from milk.

The "protective" function is a function of maintaining the status of the product in the market. Through this feature, manufacturers are wary of counterfeit



companies competing for the status of their products. For example, SNEAKERS is the original product name, while SHIKERS is the counterfeit product name.

The guarantee function is also related to the above-mentioned "protective" function, which guarantees to provide the consumer with a quality product under the original name of the product. For example, a product called Adidas may be original and durable, while a product called Adibas may be an invalid product. It is important to know the original name of the brand.

The psychological function is related to how the quality of brands is perceived in the human mind, the conceptual perception of the word. For example, a person who buys clothes from the ZARA brand believes that the product is of good quality, because usually in the minds of people there is an impression that the brand is popular in the world, citizens of developed countries buy products from this brand.

In conclusion, pragmatonyms are studied within the field of onomastics of linguistics, meaning the name of a product, goods or service. Pragmatonyms perform functions such as distinguishing, informative, "protective", guarantee, psychological functions.

## REFERENCES

1. En.wikipedia.org.
2. Исангузина И.И. Прагматонимы в ономастическом пространстве: семантический, лингвокультурологический и синтаксический аспекты (на примере названий кондитерских изделий). [www.cyberleninka.ru](http://www.cyberleninka.ru)
3. Подольская Н. В. Словарь русской ономастической терминологии. –М., 1978. –199 с.
4. Стадильская Н.А. Эмоционально-оценочный и экспрессивный компоненты в семантике прагматонимов. Вестник ТГПУ. 2007. Выпуск 4 (67). – С. 36-41.

## БОБОРАҲИМ МАШРАБ ТАРЖИМАИ ҲОЛИ ВА ИЖОДИЙ ФАОЛИЯТИ

*Соатов Расул Муҳиддинович,  
ЖДПИ ўқитувчиси*

Улуғ ўзбек шоири ва мутафаккири Бобораҳим Машраб 1657 йил 22 майда Наманган шаҳрида таваллуд топган. Илк таҳсилни биринчи устози мулла Бозор охунддан олган. Шоир 21 – 22 ёшларида Қашқарга бориб Офокхожадан етти йил диний ва дунёвий илмлардан сабоқ олган. Машрабнинг шу етти йил давомида олган илми ва руҳоний тарбияси уни ориф – Худо таниган мақомига етказган.

Офокхожа фақат диний арбоб бўлмай, Қашқардаги ҳокимиятни ўз қўлида тутган йирик арбоб ҳам эди. Машраб биринчи навбатда ўз шеърини истеъдоди, ёлқинли шеърлари билан Офокхожада яхши таассурот қолдирган, у ўз даргоҳидан Машрабга жой берган. Ривоятларда айтилишича, шоирга

Машраб тахаллусини ҳам Офокхожа берган. Офокхожа хонадонидида шоирнинг истеъдоди янада ёрқинроқ намоён бўлиб, шеърлари бутун Шарқий Туркистонга тарқала бошлаган. Уйғур халқи Машраб сиймосида ўз шоирини топгандай бўлади. Ҳозир ҳам уйғур мақомларининг кўпгина куйлари Машраб шеърлари билан ижро этилиши бунинг ёрқин далилидир.

Навоий ва Машраб тадқиқотчиси адабиётшунос Абдурашид Абдуғафуров Машрабни шеърятда Навоий анъаналарининг давомчиси деб билади: Улуғ шоир ижодий мактабини ўтаб, шеърятнинг юксак чўкқиларига кўтарилган ижодкорлардан бири Бобораҳим Машрабдир. Расмий мадрасаларда билим олиш имкониятига эга бўлмаган Машраб Навоий ва Шарқ адабиётининг бошқа буюк намоёндалари тажрибаларини иқтидорли шогирд сифатида кунт билан шахсий мутолаа воситасида эгаллади. Машрабнинг энг етук асарларида Навоий анъаналарининг аниқ изларини, улуғ шоир меросининг ғоя ва образлари билан ҳамоҳангликни, воқеликни навоийча таҳлили ва талқинини кўрамиз.

Адабиётшунос Абдуқодир Ҳайитметов Машрабни ўрганишда уни нафақат шоир сифатида, балки авлиёлиги ва бошқа сифатларига эътибор қаратиб ўрганишни тавсия этиб, у Шарқ шеърятини намоёндалари ижодидан баҳрамандлигини ва Офокхожа даргоҳидаги фаолиятига ҳам тўхталади: Биз шу пайтгача Машрабни кўпроқ шоир сифатида ўрганиб келмоқдамиз. Аслида у шоиргина бўлиб қолмай, “Машраби валиюллоҳ”, “Орифи Раббоний” ва “Ошиқи ҳаққоний” лақаблари билан машҳур. Бу тарихда барча манбаларимизда бор гап. Менингча, Машраб ўз фаолиятида дунёвийлик билан динийликни кўшиб олиб борган буюк шахс ва ижодкордир. [1]

Машраб халқ орасида зўр, истеъдодли шоир сифатида ҳам шуҳрат қозона бошлайди. Унда давр ва давр улуғларига нисбатан уйғона бошлаган норозилик ифодасини топа бошлаганлиги шубҳасиздир.

Адабиётшунос Муҳсин Зокиров ёзади: Мана шу характерли қайдлардан, шоирнинг Наманганда яшаган даврининг сўнгги дамлари ғоятда қийинчилик ва таъқибларга тўлиқ бўлганлигини очиқ равшан исбот этади. Шу нарсага диққатга сазоворки, қиссада келтирилган бу қайдлар шоирнинг ўз шеърларида акс этган ва биографик характерга эга бўлган иқрорий таъкидлар билан тўла – тўқис қувватланади. Ҳар ҳолда шоирни Наманганни тарк этиш олдида ёзилган деб тахмин қилиш мумкин бўлган шеърини Тожикистоннинг Хўжанд туманида истиқомат қилувчи Оқилжон Зобир ўғли томонидан ёзиб олинганлиги масалага янада аниқлик киритиши шубҳасиздир:

Намангандек табаррук юрт менга тор ўлди,  
Муллолар қутқусидан азиз бошим хор ўлди,  
Онам, синглим муштипар парча нонга зор ўлди,  
Бўйним эгиб, тиз чўкмоқ найлай менга ор ўлди. [2]

Тадқиқотчи Жалолиддин Юсуповнинг қайд қилишича, Машраб 1690 йили Наманганга қайтиб келганида отаси мулло Вали вафот этган, онаси Салимабиби ва синглиси Моҳибадр ҳаёт эди. Узоқ йиллик жудолик она

кўзини ожиз қилган, авлиё шарофати билан улар қайта нурландилар. Айрилиқ азоби тугамай она вафот этади. Машраб касал синглиси Моҳибадрни яқин қариндошларга топшириб, 1691 йили узоқ сафарга отланади. Бу йилларда Мовароуннаҳрнинг ҳамма мавзеларида бўлади. “Қисса”лардаги шеърларга назар солинса, Фарғона водийси, Хўжанд, Тошкент, Самарқанд, Каттақўрғон, Хатирчи, Кармана, Нурота, Гиждувон, Бухоро, Хоразм, Туркистон каби мавзеларда бўлганлигининг гувоҳи бўлинади. Машраб Афғонистонда, унинг Балх ва Хирот, Андхўй ва Шибирғон шаҳарларида, Покистон ва Ҳиндистонда, Эронда, Эрон Арманистонда, Ироқда, Туркияда, Сурияда, Саудия Арабистонида, Шимолий Африканинг Яман давлатида, Маккаи Мукаррамада, Мадинаи Муаззамада бўлганлигини, ҳаж қилиб, сўнг пмрлари айтганларидек, Муҳаммад алайҳиссаломнинг равзаи покларини зиёрат қилганлигини айтиш мумкин. [3]

Файласуф Мўмин Ҳошимхоновнинг фикрича, Машрабнинг сўнгги сафари Ҳинд уммони орқали Ҳиндистонга келиши, у ердан Афғонистонга ўтиши ҳамда Балх ва Қундуз ҳокими Маҳмудбий учрашиши, мулоқотда Маҳмудбийнинг халқига ўтказган жабру зулмлари, мамлакатни харобага айлантирганини айтиши ҳамда оқибатда ҳукмдорнинг фармони билан 1711 йили Қундузда дорга осиб ўлдирилиши билан якунланади.

Бобораҳим Машрабдан улкан, ижтимоий – маънавий мерос – ғазаллар, мустазодлар, мухаммаслар, мураббаълар қолди.

Машраб ижодида “Мабдаи нур” ва “Кимё” шеърӣ асарлари алоҳида ўрин тутади. “Мабдаи нур” (Нурнинг бошланиши, чиқиш жойи) тасаввуф тушунчасида Аллох нурининг жило бериши, дунёни, кишилар қалбини ёритиши каби маъноларга эга. [4]

“Кимё” ҳам диний – фалсафӣй, ахлоқӣй – маърифӣй асар бўлиб, унинг мундарижасини 22 та кимё, 37 та ҳикоят ташкил этади.

“Мадаи нур” ва “Кимё” асарлари авлиёлик йўлининг камолотини шарҳловчи мураккаб фалсафӣй китоблардир. Бу китобларда инсониятнинг аввалияти ва охирати баён қилингандир. Ҳақиқат мақомига етмоқлик учун, ўз – ўзлигини танимоқлик учун, ўз аслиятига қайтиш учун одам фарзанди не – не машаққатлар уммонидан кечиб ўтиши, яъни шайтоний иллатлардан қутилиб, жамики гўзал одамий фазилатлар билан ўзлигини зийнатлаши лозимлиги ушбу китобларнинг ғоявий йўналишини ташкил этади.

Машраб ўзбек адабиёти, фалсафаси тарихида, ижтимоий фикр тараққиётида шеърӣяти билан ўзига хос услуб ярата олган исёнкор ижодкордир. Шоир ғазалларида теран нафислик, равонлик, шодлик ва дард, ғам - ташвишларини ўта ёрқин ва ҳаётӣй тасвирлаши билан ўзига хосдир. Унинг шеърӣй сатрлари чуқур мазмуни, ўйноқлиги, гўзаллиги билан ҳаммани ўзига ром этади ва улар руҳиятини забт этади.

## Фойдаланилган адабиётлар рўйхати^

1. Абдуқодир Ҳайитметов. Ҳаётбахш чашма. Т., Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1974, 39-бет.
2. Муҳсин Зокиров. Эрк ва маърифат куйчилари. Т., Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1984, 24 – бет.
3. Жалололдин Юсупов. “ Уни девонаи Машраб дерлар”, “Ёзувчи” газетаси. 1998 йил 5 август.
4. Мўмин Ҳошимхонов . Машраби мўътабар ўзум. Т., Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. 2007, 75 – бет

## АДАБИЁТНИНГ АСОСИЙ ҚУРОЛИ

*Султонова Вазира Ниматовна,  
ЖДПИ мустақил тадқиқотчиси*

Машҳур адиб ва мутафаккирлар яқдиллик билан бадиий адабиётни “сўз санъати” деб таърифлашади. Шу сабабдан ҳам сўз санъати барча замонларда ҳам адабиётнинг, демакки, танқид ва адабиётшуносликнинг ҳам мангу муаммоларидан бири бўлиб келган. Чунки сўз-энг аввало-фикр-туйғу, ижод, бебаҳо руҳий неъмат. Адабиёт дарсликларида ҳам бадиий тилнинг бу муҳим жиҳати алоҳида таъкидланади: “Тасвирийлик ва эмоционаллик бадиий тилнинг асосий хусусиятларидир”. Кўплаб шоир-ёзувчилар ва олимлар яқдиллик билан “Адабиёт тилдан бошланади” деб таърифлашлари ҳам бежиз эмас. Кўп асрлик тараққиёт йўлларини босиб ўтган жаҳон адабиёти тарихига мурожаат қилинса, шундай бир ҳолатнинг гувоҳи бўламиз. Барча улуғ адиблар бадиий асар тилига ва ундаги ҳар бир сўз ва иборага алоҳида эътибор билан қарашган. Асрлар давомида ривожланиб давом этиб келган бу анъана бадиий ижоднинг муқаддас бир қонуниятига айланган десак янглишмаган бўламиз.

Бу жиҳатдан айниқса, Абдулла Қодирий ва Абдулла Қаҳҳор каби улкан сўз санъаткорларининг бой ижоди, бадиий маҳорат сабоқлари ҳамда уларнинг бадиий тил ҳақидаги қарашлари алоҳида эътиборга лойиқ. Адибларимизнинг юксак сўз санъаткорлиги уларнинг адабий-эстетик қарашларида ҳам устувор мавқега эга: Қодирий ва Қаҳҳорнинг адабиёт ва танқидчилик ёхуд ёшлар ижоди ва маънавиятига бағишланган барча мақола ва тақризларида ҳамиша тилимиз бойлиги ва унинг жиддий муаммолари ҳақида муҳим фикр билдирилади. Дарҳақиқат, Қодирий сўз қўллашда ҳам “узоқ андиша” ва масъулият билан фикр юритишни ижоднинг қатъий талаби деб билар эди. Адиб бир ўринда “матбуотимизнинг қон томири бўлган муҳаррир ва шоирлар” [Абдулла Қодирий *Julqunboy*. «*Mushtum*», 1924 yil, 8 aprel, 25-son, 2-3-betlar.] деб мурожаат қилади. “Асли ёзғучилиқ айтмоқчи бўлган фикрни ҳаммага баробар англата билишда, орага англашмовчилик солмасликдадир”. Абдулла Қодирий бу фикрини “Ёзишғучиларимизга” мақоласида давом эттиради: “Яхши билиш керакким, қалам ва матбуот

кетмон бозори эмас. Йўсунсиз равишда ҳар бир сўздан жумлалар тўқимок фазилат саналмайдир. Сўз қолип, фикр... ғишт янги ҳаёт айвонига асос бўлиб ётсин”, [Абдулла Қодирий. *O'rtog'larig'a hurmat bilan «Mushtum» idorasi. 1925 yil, 4 oktabr, 17-son, 14-15-betlar.*] деб таъкидлайди. Ибратли ҳолатни қайд этиш мумкин: Абдулла Қодирийнинг бундай ҳикматомиз қарашлари билан Абдулла Қаҳҳор ва Тоғай Муроднинг бадиий тил ҳақидаги фикрлари ҳам ўзаро яқдил ва ҳамоҳанг эканлиги ҳам муҳим илмий-тарихий ҳақиқатнинг муштарак ва яқдил бир ифодасидир.

*“Китобхонга бир фикрни англатиши ёки бир нарсани тасаввур қилдириши учун кишининг бошини қотирмайдиган, очиқ, равон ва содда тил керак”*, - [Абдулла Қаҳҳор 1940 йилда ёзган *“Ҳаёт қўшиғи”* мақоласида] деган эди. Яъни ёзувчи халқ учун тушунарли ва равон тилда ёзиши ва унинг сўзи бошқаларнинг онг-тафаккури ва қалбига таъсир қилиш рағбатига эга бўлмоғи лозим. Абдулла Қаҳҳор ҳам, шубҳасиз, она тилимизнинг матонатли жонкуярларидан бири эди. Тилимизнинг беқиёс бойлиги ва бу бебаҳо меросимизни асраб-авайлаб, келгуси авлодларга етказиш хусусида жонбозлик Абдулла Қодирий ва Абдулла Қаҳҳорнинг адабиёт ва танқидчилик муаммоларига бағишланган суҳбат ва мақолаларида алоҳида ўрин тутганлиги ҳам бежиз эмас.

Энг муҳими, адабиётимиз ва тилимизнинг улкан жонкуярлари бўлган Қодирий ва Қаҳҳорнинг бундай адабий-эстетик қарашлари бугун ҳам ўзининг долзарблигини йўқотгани йўқ. Она тилимиз Давлат тили сифатида яшар экан ва унинг равнақи йўлида барчамиз масъул эканмиз, буюк адибларимизнинг ижоди ва бадиий тил сабоқлари янада чуқур аҳамият касб этади. Шу муносабат билан адабиёт, танқид ва адабиётшунослигимиз ва маънавиятимиз учун ҳам муҳим бўлган яна бир ҳолатга эътибор қаратиш лозим. Баъзи таниқли танқидчи ва адабиётшуносларимизнинг мақола ва тадқиқотларида бадиий асар тили масаласига деярли эътибор берилмаслигини оқлаб бўлмайди. Яъни муайян бир шеър, дoston ё ҳикоя, қисса ё роман ҳақида ёзилган тақриз ё салмоқли мақолани кўз олдимизга келтирайлик. Ўша адабий-танқидий мақола бадиий асар тили, услуби ва муаллифнинг сўз санъаткорлиги ҳақида деярли фикр юритмасак, шундай асарларни адабий таҳлил ва тадқиқ намунаси деб атаб бўлармикин?

Шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, Абдулла Қодирий ва Абдулла Қаҳҳор адабиёт орқали халқимизга ва миллатимиз равнақига фидойилик билан хизмат қилиш бобида Алишер Навоийни ўзлари учун маънавий устоз деб билганларидек, сўзга муносабатда ва сўзни муқаддас ва қудратли куч деб билишларида ҳам буюк шоирнинг ижодий-эстетик анъаналарини ижодий давом эттирганлар. Бу ҳақиқатни тасаввур этиш учун икки улуғ адибнинг бадиий тил маҳорати ва сўз санъаткорлигини ёрқин намоён этувчи ҳайратангиз далиллардан айримларини эсга олиб ўтайлик. Чунончи, Абдулла Қодирий романларининг халқимиз томонидан бу қадар севиб ўқилишининг асосий сабабларидан бири, шубҳасиз, бу асарларнинг меҳригиёси бўлмиш жозибали тили ва бетакрор услубида десак хато бўлмайди. “Китобхон ҳеч



қачон “Ўткан кунлар” билан “Меҳробдан чаён”ни қўлдан қўйган эмас,-деб гувоҳлик беради Абдулла Қаҳҳор. Аллақаердан келган бир китобхон “Ўткан кунлар”ни ёд билар экан, китобнинг исталган жойидан сўралганда, шаррос айтиб берганида, Абдулла Қодирий унга чопон кийгизгани ёдимда бор...”

Буюк адибимиз Абдулла Қодирий ёш ёзувчиларга сўз қўллашда узок андиша ва мулоҳаза кераклигини таъкидлаганидек, бу юксак талабга ўзи ҳамиша амал қилганлигини ва асарларидаги ҳар бир сўз бамисоли қолипдаги ғишт каби пишиқ-пухталиги ва уларга адиб қалб ҳарорати сингдирилгани адабиётшуносларимиз томонидан яқдиллик билан эътироф этилган. Адибнинг воқеликни моҳирона ифодалаш ва ҳар бир қаҳрамон характери янги ва ёрқин тасвирлай олишида ҳам унинг қанчалик юксак сўз санъаткорлиги ўқувчининг меҳрини қозониши ҳеч кимда шубҳа уйғотмайди. Бунга яна бир характерли мисол тариқасида Қодирийнинг “Наво” куйи тасвирини, яъни қаҳрамон руҳияти билан бу қадар ҳамоҳанг ва ҳамдард бўлган куйга тил бағишлай олганлигини эслаш мумкин.

Аmmo жаҳон адабиётида ҳам порлоқ саҳифалардан бўлган бу каби “бадиий кашфиёт”лар ҳали ўзининг муносиб баҳосини олгани йўқ. Ҳатто халқимиз маънавий-руҳий оламида улкан воқеа бўлган “Қуръон”нинг моҳир таржимони Алоуддин Мансур ҳам бу машаққатли мутаржимлик жараёнида Қодирий романлари тилидан ва адиб асарлари матнидаги диний-маърифий истилоҳларидан фойдаланганини миннатдорлик билан тилга олгани жамоатчиликка маълум. Абдулла Қаҳҳорнинг ўзбек тилимизнинг софлиги ва ривож учун изчил кураши ва унинг бетакрор сўз санъаткорлиги ҳеч кимда шубҳа уйғотмайди. Таниқли олимлар таъкидлаганидек, адибнинг сўз қўллаш санъати ўзига хос бир маҳорат мактабидир. Бундай мавзу-муаммоларни кенг ўрганиш, айниқса, бугунги кунда янада долзарб аҳамиятга эга. Зероки, улғу адиб ва мутафаккирлар ҳамиша миллий тиллари софлиги ва равнақи учун фаол курашганлар ва бу билан ҳам ватанпарварлик бурчларини адо этганлар. Абдулла Қаҳҳор асарларида ҳам катта ўрин тутувчи муаммолардан бири, шубҳасиз, бадиий асар тили масаласидир. Чунки тил унинг учун ҳамиша адабиёт ривожининг асосий шarti, омили бўлган. “Адабиёт-бу тил! Мен шу вақтга қадар бирор ёзувчи тилсиз, имо-ишоралар билан бадиий асар яратганини эшитганим йўқ” [Тоғай Мурод. Ёш қаламкашларга тилакларим. Бу дунёда ўлиб бўлмайди. Т.:2001.199-б. \*Абдулла Қаҳҳор. Асарлар.6-т.1971.] Адибимизнинг бу фикрини тилга бўлган ғоят масъулиятли муносабати ва бадиий тил ҳақидаги қарашлари моҳиятини белгиловчи негиз деб қараш мумкин. Абдулла Қаҳҳорнинг ҳақиқий бадиий асар тили учун кураши *ҳеч* қачон бирёқлама, яъни мукамал шакл учунгина бўлмай, балки у айни пайтда чуқур мазмун ва юксак ғоявийлик учун ҳам курашиш эди. Аслида, бундан бошқача бўлиши мумкин ҳам эмас. Чунки тил шунчаки ташқи бир безак ёки либос бўлиб эмас, балки асар мазмунининг, ёзувчи ғоявий-эстетик мақсадининг бадиий ифодаси бўлиб яшайди. *А.Қаҳҳор санъат асарининг асосий шarti бўлган тил билан мазмуннинг яхлитлигини таъкидлаб, шундай ёзган эди:*” Адабий асарнинг жони-унинг мазмуни,

лекин бу жоннинг жон бўлиши учун жасад ҳам керак. Жонни жасадсиз тасаввур қилиш мумкин эмас”. Адибнинг бу сўзларидан “яхши тили бўлмаган асарда чуқур мазмун ҳам йўқ”, деб хулоса чиқарилса ҳам хато бўлмайди.

Бадиийликнинг ҳақиқий кадрловчиси Қахҳор ҳар бир адабий асарнинг чинакам санъат намунаси эканлигини, аввало, ўша асарнинг шавқ билан ўқилишида, тилнинг жозибадорлигида кўради. Бу фикрини рад этиб бўлмас фактлар билан асослайди: **“Жаҳон адабиёти классикларидан қайси бири ўқиб бўлмайдиган китоб ёзган? Буларнинг дунёни забт қилганларига бирдан-бир сабаб китобларининг ўқишли бўлганлиги эмасми?”** (6.276) Мумтоз адабиёт вакиллари мукамал мазмун яратиш мақсадида ҳар бир жумла, ҳар бир сўз ва ҳатто айрим товушларга ҳам жиддий эътибор бериши улар учун бадиий ижоднинг “олтин қонун”ларидан бирига айланган. Классиклар анъаналарининг моҳир давомчиси бўлган Қахҳор кўз олдида ҳамisha ана шу муқаддас ҳақиқат- олий мезон туради. Далил тариқасида бир мисол. Мана- Абдулла Қахҳорнинг бундан 50 йиллар муқаддам Чет тиллар педагогика институти- ҳозирги Жаҳон тиллари университетининг талабалари билан бўлган учрашувда сўзлаган ва Кибриё опа томонидан нашрга тайёрланган нутқидан бир парча: “Мен студентлар билан кўп учрашганман. Студентларнинг дилкушо суҳбатларини биламан. Сизлар институтни битиргандан кейин жойларга бориб ўқувчиларга инглиз, немис, француз, испан тилларини ўргатасизлар. Менинг сизларга айтадиган энг зарур гапим шуки, сизлар борадиган жойларингга чет тиллар билан бирга биринчи навбатда ўз она тилимиз-ўзбек тилига чексиз муҳаббат туйғусини олиб боринглар! Ўзбектили-ғоят бой, ниҳоят чиройли, ҳар қандай фикр ва туйғуни ифода қилишга қодир эканини амалда кўрсатинглар; сизлар қаерда ва қандай шароитда ишланганлар, тил маданиятимизнинг машъали бўлинглар!” [Кибриё Қахҳорова “Ёшлик” журнали, 1987 йил 9-сон]

Бу сўзлар замиридаги ҳаётий маъно, олижаноб мақсад ва тилак мустақил Ўзбекистонимизнинг келажаги бўлмиш бугунги ёшларимиз учун қимматли бир дастуриламал бўлиши билан бирга, айтилган вақтда, улар буюк мутафаккир ҳазрат Навоийнинг шоирларимиз ўз она тилида, яъни “туркийда кўпрак ёзсалар эди” деган асрий орзуси ҳам, энг аввало, миллатимизнинг маънавий эҳтиёжи ва камолоти билан боғлиқ эканлигини англашимизга ёрдам беради. Зотан, ўзбек тилини халқимизнинг бебаҳо бойлиги ва санъаткорларнинг тенгсиз қуроли деб билган ва ҳар бир сўзга заргарона муносабатда бўлган талабчан ва ҳассос устозларнинг бу соҳадаги серқирра фаолияти ва унутилмас сабоқлари ҳам зукко китобхонларимиз ва айниқса, ёш ижодкорлар учун ўзига хос бир ижодий мактаб бўлиб хизмат қилади.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Абдулла Қодирий. Диёри бақр. Т.2007. Абдулла Қахҳор. Ёшлар билан суҳбат. Т.2017.
2. Абдулла Қодирий Julqunboy. «Mushtum», 1924 yil, 8 aprel, 25-son, 2-3-betlar.

3. Абдулла Қодирий О'ртоқлариг'а hurmat bilan «Mushtum» idorasi. 1925 yil, 4 oktabr, 17-son, 14-15-betlar.
4. Абдулла Қаҳҳор 1940 йилда ёзган “Ҳаёт қўшиғи” мақоласида
5. Б.Тўхлиев. Адабиёт ўқитиш методикаси. Т.: 2006;
6. Н.Шукуров, Н.Ҳотамов, Ш.Холматов, М.Маҳмудов. Адабиётшуносликка кириш. 1979.
7. Кибриё Қаҳҳорова “Ёшлик” журнали, 1987 йил 9-сон

## ҲИКОЯДА МИЛЛИЙ ХАРАКТЕР ТАЛҚИНИ (Кўчқор Норқобилнинг “Чол хафа бўлди” хикояси мисолида)

*Шукурова Барчин,  
ЎЗР ФА Ўзбек тили, адабиёти ва  
фольклори институти таянч докторанти*

“Ҳар қандай асар – ҳажман кичик ёки катта бўлишидан қатъий назар мукаммал характерлари, хотирага муҳрланиб қоладиган бетакрор эпизодлари билан адабиёт майдонида воқеа бўлади; умрбоқийлик мақомига эришади” [1:29]. Адабиётшунос Б.Каримов таъкидлаганидек “мукаммал характерлари” бор асарлар барҳаёт яшайди. Адабиётда уларни ўрни айрича бўлиб улар ҳар сафар ўқилганда янги-янги ўқувчиларини топади. Улар қалбларини нурфшон қилади ва ўқарманни ўзининг олаmidан ўзига нимадир яхши урғу олишга ундайди. Азалдан инсон ўзида бор нарсани берувчи бўлгани учун ҳам адабий идеалларда ўз-ўзимизни кўришни ва шу идеалларга қараб ўзимиз ҳақимизда узундан узун суҳбатлар қилишни хоҳлаб қоламиз. Мана шу жараённинг ўзи бизни бадиий асардаги идеалга яқинлаштиради. Қадриятларини муқаддас билган эл бу дунёда мангу барҳаёт яшайди. Кейинги йилларда миллий қадриятлар, миллий либослар, миллий таомлар, миллий партиялар, миллий тв ва ҳоказо. сўзларни тез-тез тилга оляпмизки, бизнингча бунга катта эҳтиёж пайдо бўлмокда.

Кўчқор Норқобилнинг “Чол хафа бўлди” хикоясида миллий урф-одатларнинг жамият ҳаётидаги ўрни хусусида қизиқарли ва таъсирли мавзу кўтарилганки, бу китобхонни бефарқ қолдирмайди. Ҳикояда Ғулом чолнинг “Жавзонинг жазаваси қўзиган” кунларнинг бирида бир ҳафтага меҳмонга келган шаҳарлик набираси Эломонни вилоят марказига қўлини ҳалоллаб келайин деб бошидан ўтказган саргузаштлар тасвирланади. Бова эшикма-эшик юриб шаҳарга бориб келиш учун машина қидириб, ниҳоят Қулматни кўндиради. Суҳбат чоғида “... яп-янги ўнталик пулдан бир дастасини олди га ташлади: “Бўлди гапни калта қил туш олдимга...”, кетаётиб кампирига: Катта ўғлингга телпон қил келиб қўйни сўйсин... Қўни-қўшни, мачитдан йиғилган чолларни пешиндан сўнг чақирсин. Гап бор!” бовани сўзи орқали унинг жидди-жаҳд қилганини қишлоқнинг жайдари чолининг “айтгани айган, дегани деган”лигига, қишлоқда ўз обрўсига эга эканлигини бир сўзли ўзбекнинг гапни кесишини пайти келса чиқарган қарорини ҳеч ким

Ўзгартиролмаслигига ишора қилади. Айниқса, Қулмат найнов билан Ғулом бованинг йўлдаги суҳбати орқали ўзбекнинг қонига сингиб кетган мустаҳкам иймон, лафз-ҳалоллик каби эстетик идеаллар бўй кўрсатадики зукко китобхон буни ҳис қилади. Қулмат найнов бўлса ҳам бировни ҳақидан кўрқадиган иймонли йигит. Ўзбекларда бир гап бор “пул қўлнинг кири” келади-кетади. Қулмат найнов ўз ғурурини пулга сотадиган анойи эмас. Бу хусусиятни кўрсатиш орқали муаллиф “ғурури” баланд ўзбек ўғлонларини қиёфасини чизишга эришади. Ғулом бованинг элнинг олди бўлгани Қулмат найновнинг “Ғулом раиснинг дамига довча пишарди” деганида яққол кўринади. Ҳақиқат раиснинг азалдан кўпнинг ғамини егани, кўпнинг ҳаққини бергани, кўпнинг хизматида бўлгани, беминнат ўз юрти, халқини севишини унинг нутқи орқали кўрсатиладики, муаллиф ўз услубига хос сурхон миллий характерини яна бир бор яққол очиб беради.

Дарвоқе, қўлини ҳалоллаб келиш хусусида муаллиф ровий шундай дейди: “Э-ей-ей, қўлини ҳалоллаб деган гапниям тушунмайсизми? Мусулмон қилиб келади, ана, боринг-ей, чуқини кестириб келади. Эрта-индин мактабга чиқадиган боланинг бу аҳволда юриши... а-й-ий, энди муҳокама қилмайлик шуни: борса борсин бова, тўғри ўйлаган. Кап-катта болани на эл, на эр томонда турмаслиги ҳам чакки ишда” [2:278]. Қўчқор Норқобил ижодида қишлоқдан шаҳарга кетган ва “жонтомир”, “ўқтомир”дан йироқлашган авлодларнинг ғамини еб қайғураётган миллий характерлар учрайди. Айнан шу чоллар ва момолар образи, уларнинг миллий тутимлар, миллий анъаналарни сақлаб қолишни ўзларининг инсонийлик бурчи деб билган ўзбекона миллий характерларни ёзувчи ўзининг эстетик идеали сифатида намоён этади.

Хусусан, таҳлил этаётганимиз “Чол хафа бўлди” ҳикоясида ҳам Қўчқор Норқобилнинг ўзига хос этик ва эстетик идеали намоён бўлган. Муаллиф ровий тилидан “Кап-катта болани на эл, на эр томонда турмаслиги ҳам чакки ишда” – деган гапида катта фалсафий маъно борлиги зукко китобхон албатта англайди. Азалдан ўзбек оилаларида “қўлни ҳалоллаш” урф-одат тарзида элга маълум қилиниб, халққа ош бериб “Суннат тўй” ўтказилган. Ёши катта кишилар мактаб ёшига етиб қолган ўғил болаларнинг қўллари ҳалолланмаса улар билан кўришмаган, (қўл бериб, саломлашмаган – Ш.Б.) бир дастурхон атрофида ўтирмаган. Ёзувчи мана шундай миллий муҳитдаги ўзигагина хос миллий характерини Ғулом бова тимсолида тасвирлайди. У орқали унутилиб бораётган қадриятларни, аслида қандай бўлганини кўрсатиб беришга ҳаракат қилади: “Қишлоқ кўчаларида “айтувчи”лар жар солиб ўтишди. “Ҳамма Ғулом аканикига тўйга-а-а-а!!!”

Ҳовлида қишлоқнинг бош адоғидан одам йиғилди. Қозон осилди. Самовар қайнади. Уйдаги катта бир хона ўртасига уч қават қилиб кўрпа ташланди. Олимжонни ётқизишди. Оғзига битта нонни тишлатиб қўйишди. Уста Рўзи қисма чўплар билан ўғлининг чумбулини қисиб, қўлига покисини олиши ҳамано отанинг юраги дош бермай, ҳовлига отилди, ичкаридан боланинг дод-войи эшитилиб қолди. “Нонни тишла. Тишла нонни. Узиб ол!

Е, билинмайди...”, деб дуриллади Хусан бова. Ўғлининг тепасида турган тумонат кўни-кўшни, қишлоқдагилар гуррос-гуррос овоз беришди: “Хуйдуйду, хуйдуйду!!! Қўли ҳалол бўлди, қўли ҳалол бўлди-и-и!!!”.

Ота ичкарига уриб кириб, ўғли бошидан бир сўмми, ярим сўмми ташлаётган одамларни ва тўшакда “Мен йиғламаяпман... Мен кучли боламан...” деган маънода талтайиб ётган ўғлини кўрди... Ҳа-ей, ўша пайтлар одамлар ҳам сал бошқачароқмиди-ей! Ҳар қандай маросим-мавлуд кўпчилик билан, ахил-инокликда ўтиб кетаверарди-да” [3:282-283]. Муаллиф чол “хаёли-хуши” орқали эринмай чизилган бу манзараларни чизиш орқали китобхонни ҳали олислашмаган ўтмишга экспозиция қилдиради. Шу орқали ўзбекнинг қандай бўлгани анъаналарнинг унутилаётганини инсоннинг илдизидан йироқлашаётганини “ўша одамларнинг бошқачароқ”лигига урғу беради. Абдуғафур Расулов: “Характер – инсоний муносабатлар йиғиндиси. Инсоний муносабатлар аллақандай, ғайришуурий танлов йўли билан асосга, тийнатга йўналиниб, кириб боради. Аксарият муносабатлар шунчаки, тийнатдан ташқарида давом этаверади. Тийнатга дахлдор муносабатлар кам, аммо улуғвор бўлади” [4:189] – деб ёзади. Қўчқор Норқобил ўзига хос миллий характерлар яратар экан, ўзбек халқининг тийнати, фитратида борини кўрсатишга ҳаракат қилади. Адибнинг ўзига хос услубининг сири ҳам шунда. Ёзувчи ўзи мансуб бўлган жамиятда узила олмайди. Сурхон миллий колоритини ёрқин рангларда беришдан эринмайди. Муаллиф Ғулом бова тимсолида индивидуал, такрорланмас, миллий характери ёрқин ва бутун образларни топишга муваффақ бўлади. Қўчқор Норқобил топилдиқ образи, яъни Ғулом бова тимсолида ўзбек халқининг “Суннат қилдириш” маросимини ўтказишини, ўзининг анъаналарга садоқатини кўрсатган бўлса, иккинчи жиҳатдан қаҳрамоннинг исломий фарзни ҳам адо этишини ифодалаган. Қуръони каримда “Қўлни ҳалоллаш” ҳақида айтилмаган, бироқ ҳадисларда айтилгани учун ҳам “Суннат қилдириш” деб айтилади. Ғулом бова миллатнинг эртасидан хавотирини яширмайди. Охириги йилларда ижтимоий тармоқларда ҳам олис эмас 90-йилларнинг тўйлари бошқача эди. Соғинганлар учун деб ўша пайтларда бўлган тўйларнинг видео ёзувлари жойланмоқда. Асл мақсад ўша аслида қандай эди. Глобаллашиб бораётган бугунги дунёда ҳамма нарса гўё ўта муҳим бўлиш билан бирга ҳеч нарсага арзимасдек бўлиб қолмоқда.

Ҳикоянинг кулминацион нуқтаси Ғулом чолнинг шифохонага борганию, “тирмизак”нинг “чипрон” қилинганини билганида бошланади. Ғулом раис бундай ишларни “Ими-жимиди” қилинишини ҳазм қила олмайди. Эҳтимол, ўғли Олимжон анъаналарни давом этириб, ўғлини “қўлини ҳалоллаб” қўйгани яхши бўлиши мумкин, бироқ қандай қилиб ўғлини элга қўшилганини эркак бўлганини “ими жимида” ҳал қилгани уни ғазаблантиради. Қулматнинг тўй нима бўлади деган гапига “Эламоннинг олдиндан эркак бўлганини” билдириб қўямиз дейдию, бироз тинчланиб, болаларидан “хафа” бўлганини билдиради. Муаллифнинг асл мақсади ҳам шу ерда бўй кўрсатади. Ўзбек халқи қанча-қанча оғир замонларда ҳам ўз



дини, ўз қадриятларини боринки тийнатида борини авлодларга муносиб етказишга ҳаракат қилдики, керак бўлса ўз жонидан кечди. Бугунгидек мустақил, озод юртда “ – Ҳамма нарса ими-жимиди қилинадиган бўп қоптида. Ҳатто шу нарса-ям... Бу нима деган гап-а, бу нима деган гап?!” [5:285] деб кескин саволлар қўядики, бу миллат ўзида, тийнати, фитратида боридан ҳар қанча фахрланса арзишини уқтираётгандек бўлади. Ёзувчи миллий характерни очиш учун танлаган исмнинг маъносини қаранг, “Ўтмишда ҳукмронлар саройидаги ёш хизматкор, қул”. Ажабки, қул бўла туриб ўзлигидан, тийнати, фитратидан йироқлашмай яшаб кейинги авлодларга етказиши, елкасида кўтариб юришининг ўзи жасорат. Қўчқор Норқобил ана шундай миллий характерларни яратадики, китобхон буни фақат ўзбеккагина хослигига ишонади.

Хулоса шуки, ҳозирги ўзбек насрининг ёзувчиси Қўчқор Норқобил ижодида этик эстетик идеал у яратган қахрамонларнинг миллий характерида Сурхон воҳасининг жайдари, содда, миллий ўзлигидан айрилмаган момолар, боболар, адабиётсевар одамлар қиёфасида мужассамлантирилган. Ёзувчи ўз насрида бугунги глобаллашув ва интеграциялашув жараёни кечаётган мураккаб даврда эътиқоди бутун, миллий қадрият ва анъаналарни асровчи идеал қахрамонларни эстетик ва этик идеал сифатида тақдим этади.

### **Фойдаланилган адабиётлар руйхати:**

1. Каримов Б. Бадиий талқин жозибаси / Рухият алифбоси. – Тошкент: Гафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. – Б. 29.
2. Норқобил Қ. Чол хафа бўлди / Самодил. Тошкент : – “Янги аср авлоди”, 2018. – Б. 278.
3. Расулов А. Танқид талқин баҳолаш. Тошкент: – Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси “Фан” нашриёти, 2006. – Б. 189.

### **МАШРАБНИНГ ТАСАВВУФИЙ ҚАРАШЛАРИ**

*Соатов Расул Муҳиддинович,  
ЖДПИ ўқитувчиси*

Машраб Яқин ва Ўрта Шарқ мамлакатларида кенг тарқалган суфийлик диний – фалсафий оқими таъсирида эди. Тасаввуфнинг ўнг қанотига мансуб бўлмиш шоирлар халқ орасида фақат инсонни худо билан бирлашувини ташвиқот қилдилар. Бунинг учун суфийлар, тариқат тўртта қоидасига, яъни, шариат, тариқат, маърифат ва ҳақиқатга сўзсиз амал қилишлари лозим эди. Суфийлар бу дунёни саробга ўхшатадилар, бутун мавжудот, шу жумладан инсон ҳам худога интилиши, унинг орзусида яшаши, моддий дунёнинг ноз – неъматларига қизимаслиги, таркидунёчиликка бардош бериб, ўз мақсадига эришиши керак:

Дунёки пуштино уриб Адхами бенаво ўзум,  
Авжи фалакда юругон кавкаби пурзиё ўзум.

Куфр ила дин мазҳабида ҳеч кима йўқтур нисбатим,  
Ҳам санаму, ҳам ошиқу, ҳам шоҳу, ҳам гадо ўзум. [1]

Иброҳим Адҳам – Машраб учун идеал, барча фалокатларни туғдирувчи ва инсон зотини тубанлаштирувчи нафси саркаш аждаҳосини маҳв этиш тимсоли. Зеро, шу нафсни ўлдириб, қаноат даргоҳида ҳалол яшашга кўникишдир. Инсоннинг инсонийлиги, илоҳий хислатлари шунда очила боради, унинг қалбида покиза ишқ учун замин ҳозирланади: “Толиби ишқ ўлай десанг, ҳиммати Адҳам керак”. Мансур Ҳалложнинг таълимотида ҳам худди шу нарса бош ақида эди: “Нафсинг сени эгарлаб олишдан олдин сен уни эгарлаб ол”, деб васият қилади у ўғли Аҳмадга дорга осилиш арафасида.

Машраб том маънодаги халқ шоиридир. Бу унинг халқ дилини ўртаган, тилининг учида турган фикру ўйлари, туйғу – кечинмаларини жасорат ва маҳорат билан шеърга солганидан тортиб, халқона сўз ва иборалар, ташбеҳ ва қочиримлар, киноя ва лутфларни асари қатига усталик билан сингдириб юборганича яққол намоён бўлиб туради. Содда ва тушунарли тил, самимий фикру – туйғуларининг табиий ифодаси, ўйноқи ва жарангдор услуб, ҳассослик, оташинлик, исёнкорлик – шоир шеъриятининг асосий хусусияти ҳисобланади. Машраб шеърларининг халқ ичида машҳурлиги ва девонга солинмаган бўлса – да, тилдан – тилга ўтиб, бизгача етиб келганлиги бунинг ёрқин исботидир.[2]

Шоир халқона сўз ва ибораларни шунақанги танлаб, жойини топиб ишлатадики, улар узукка кўйилган кўздай шеърнинг ҳуснини очиб юборади, унинг таъсирчанглигини таъминлайди. Чунончи, мана бу байтида оғзимиз гўёки кулиб юрган бўлса ҳам, аслида дилимиз қон йиғлапти деган халқона таъбирдан ўз аҳволини образли тасвирлаш учун маҳорат билан фойдаланган:

Бўлмасун огоҳ киши ҳоли дилимдин халқ аро,  
Гарчи кулди оғзимиз, аммо дили жон йиғлади.

Шоирлар ўз асарларида халқ мақол – маталлари, ҳикматли сўзларидан фойдаланиш билан кифояланиб қолмай, эл ичида юрган машҳур ташбеҳлар, образли иборалардан ҳам кенг истифода этадилар. Халқона сўз ва ибораларни ўз шеърлари қатига маҳорат билан сингдириб юборишда тенгсиз Машраб бир байтида сенинг кўйингни бихишт айвони каби ораста қилиш учун кўзим косаси билан сув сепиб, кипригимни супурги қилай дейдики, буларнинг барчаси халқона ташбеҳу тимсоллардир:

Халқ жоруб этиб, кўз косасида сув сепай дерман,  
Бихишт айвони янглиғ соз этмак ихтиёрим бор.[3]

Тасаввуф вазифалари ичида ўлимни ёд этиб, ўз нафсига насихат қилиш бор, дедик. Инсон ҳаётида баҳор фасли билан хазон фасли кеча билан кундуздек ўрин алмашиб туради. Одам фарзандининг шуъурини таниган вақтдаги илк шавқли баҳорлари бундан кейинги ғамгин баҳорлари ўртасида фарқлар бор. Одам боласининг илк кўрган хазонлари устидаги ғолибона юришлари билан кейинги хазонлар узра қадди эгик, боши ҳам юришлари

ўртасида фарқлар бор. Машраб бу алмашувлар ва тафовутларни бир нуқта билан ифодалайди:

Ҳаётингни ғанимат бил неча кун ушбу оламда –  
Ки, вақти навбахор ўтти, яна вақти хазон кўрдим.

Қаро ерга кирмайдиган ким бор? Қайси гўзал, қайси сарвқад, қайси шох, қайси гадо?

Варо ер остига кирди ҳама сарву санаббарлар,  
Ғаниматдур, биродарларки, ушбу давру давронлар.

Ҳеч кимнинг умр баҳори ғафлат билан ўтиб, қишга айланмасин:  
“Баҳори гулшани умри зимистон ўлмасун ҳеч ким”. Шундоқ экан, умрнинг баҳори хазон бўлмай туриб, сахар вақтларида нолалар, тавбалар қилиб, истиғфорлар айтиб йиғлаган яхшидир:

Хазон бўлмай гулистони баҳори умр, эй Машраб,  
Сахар вақтида булбулдек фигонлар қилганим беҳрок.[4]

Маълумки, қаландарлик, ҳақида озми – кўпми маълумотлар “Ҳафт кулзум”, “Баҳори ажам” каби луғат ва тасаввуф китобларида учрайди. Бундан ташқари Абдурахмон Жомийнинг “Нафаҳоту – л – унс” асарида ҳам бу ҳақда расман хабарлар берилган”. Мана шу манбаларга асосланган олим Ўрта Осиёда қаландарийлик, “қадимдан мавжуд экани”ни қайд этган. Турк олими Фуод Кўпрулу эса, қаландарийлик тарихи ҳақида сўз юритиб, XIII – XIV асрларда Онадўлидаги машхур тасаввуф оқимлари бобийлик, абдоллик, бектошийлик, ҳуруфийлик, қизилбошлилик, ҳайдарийлик қаторида қаландарийлик ҳам мавжуд бўлиб, бу оқимлардан нисбатан кенг тарқалаган бектошийлик таълимоти ўзининг асосини қаландарийликдан олганини ва дастлаб қоришиқ ҳолда мавжуд бўлганини қайд этган.[5]

Мутафаккир шоир Бобораҳим Машрабнинг тафаккур кучи ва бадиий маҳорат билан яратилган турфа образлари, юксак ғоялари ва ахлоқий қоидалари бугунги ва эртанги кун учун аҳамиятини йўқотмай хизмат этиши муқаррардир.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати^

1. Мўмин Ҳошимхонов. Машраб ва XVII – XVIII асрларда ижтимоий – ахлоқий фикр ривожини. Т., “Mumtoz so‘z”. 2018. 159-160-бетлар.
2. Эргаш Очилов.Т., Агар ошиқлигим айтсам. “O‘zbekiston” 2013.12 -13 бетлар.
3. Ўша манба. 13-бет.
4. Бобораҳим Машраб. Куллиёт. Т., “Muharrir nashriyoti”, 2017. 12 – 13 бетлар.
5. Хамидулла Болтабоев. Мумтоз сўз сеҳри. Т., “Адолат”. 2004. 158-бет.

## ҲАЛДУН ТАНЕРНИНГ “ЭШАКНИНГ СОЯСИ” ДРАМАСИДА РАМЗ ВА АСЛ МОҲИЯТ

*Каюмова Меҳринисо Мирахматовна,  
Тошкент давлат шарқшунослик  
университети тадқиқотчиси*

Бадиий адабиётда рамз воситасида бирор нарсани тасвирлаш қадимий усуллардан бири ҳисобланади. Халқ оғзаки ижодидан то замонавий адабиётгача бўлган даврлар оралиғида рамз воситасида турли ҳаётий воқеликлар бадиий ифода этилди, рамзий образлар яратилиб, улар асардаги воқеа-ҳодисанинг туб моҳияти ва ғоясини ўзида акс эттирди. “Шу маънода азалдан санъатнинг ажралмас қисми бўлган рамзийлик модернизмда ҳам, ҳатто постмодернизмда ҳам ўз аҳамиятини йўқотмади. Жуда кўп қадриятлар, айниқса, постмодернизмда инкор қилинди, лекин адабиётнинг дунёни рамзий-мажозий қабул қилиш хусусияти яшаб қолди, яшаб келмоқда. Бундай рамзийлик гоҳо кимгадир, нимагадир, қандайдир маънога ишора тарзида ўзини намоён қилади” [3; 64].

Турк адабиётида ҳам рамзийликка йўғрилган бир қатор асарларни кузатамиз, бу асарлар моҳияти рамз воситасида очиб беришга қаратилади. Шунингдек, ўз ижодини ҳикоялар ёзишдан бошлаган Ҳалдун Танер ҳам Европада ижтимоий ҳаёт, санъат, адабиёт ривожланган бир даврда, оғир ижтимоий аҳволни бошидан кечираётган Туркиянинг адабиётига янгилик киритиш, унинг тараққиётига ўз ҳиссасини кўшишга интилди. Аксариятни ташкил этган саводсиз аҳолининг онгини ўстириш, “кўзини очиш” мақсадида драмалар ёзиб, уларни халққа намоёйиш этиш орқали, оддий халқнинг дунёқарашини ўзгартиришга интилди. Шу тарика, Танер, ўз ижодида танқидни олдинги планга суради. Лекин ўз даврининг сиёсий тузуми унга ижтимоий ҳаётдаги камчиликлар, уларнинг ҳукумат томонидан бартараф этилмаслиги, фуқароларнинг бунга бефарқлигини аччиқ кулгу остида сахнага олиб чиқишда Брехт анъаналаридан фойдаланган драматург ижоди давлат томонидан сиқувга олинади. Унинг ёзган асарлари сахна юзини кўриш учун йиллаб кута бошлайди. Шу сабабдан ҳам Ҳалдун Танер драмаларида давр ҳақиқатини рамзлар, ишоралар йўли билан айтиш тенденцияси кучайди. Асарларидаги рамзийликнинг кўпоҳангли ифодаси мавжуд сиёсий тузум моҳиятини ўз ўлкадошларига аңлатиш орқасида уларни уйғотиш, курашишга чақиришга қаратилган эди.

Жумладан, Ҳалдун Танер драмаларидаги жой номлари - “Кешанлик Али” (“Keşanlı Ali Destanı”) асаридаги Синеклидағ, “Эшакнинг сояси” (“Eşeğin Gölgesi”)даги Абдалая, аслида жаҳолатда қолган Туркия. Муаллиф бу ерлик халқ бошига тушган кўргуликлар, зулм-зўравонлик, таҳқирлаш, ҳақ-ҳуқуқларининг поймол қилиниши, бюрократия ва порахўрликнинг авж олганлиги кўзгуси орқали томошабин кўз ўнгида ўз юрти, ўз халқи ва ҳатто, шу томошабиннинг ўз қисмати фожейилигини гавдалантиради. Демак, ҳар иккала асар ҳам бутун бошлича рамзийликка асосланган.

“Эшакнинг сояси” (“Eşegin Gölgesi”) драмасида воқеа жойи муаллиф томонидан Абдаля деб номланган. Турк тилида аҳмоқ сўзининг муқобили-артал. Шу сўзнинг ўзагидан келиб чиқиб, Абдаляни аҳмоқлар мамлакати деб аташ мумкин. Бу ном ҳам ўз навбатида рамзий маънони ташийдди. Муаллифнинг уч қисмли пьесаси Обид, Зоҳид, Мастон, Шабан ва Каракачан образлари билан таништиришдан бошланади, улар асарда мусиқа ҳамроҳлигида эртаққа ўхшаш элементлар билан безатилган сахнада чиқадилар. Асар бош қаҳрамонларининг ўзаро тортишувлари анъанавий турк театридаги Қоракўз ва Ҳоживот айтишувлари сингари акс эттирилган. Драматург мақсади ўтмишда халқнинг бошига тушган турли можаролар, ҳалокатлар-у кулфатларни турли бадиий воситалар, рамзий образлар орқали ифода этиш билан бирга, у ўтмиш ҳаёти ва шу асосда яратилган афсона-ривоятларни ҳам драмага сингдириб, ўз даврининг манзараларини кўрсатишга ҳаракат қилади. Халқ бошидан кечган ўтмишни, реал ҳаётни ҳажвий воқеалар ва рамзий образлар билан қоришиқ шаклда қаламга олади. Бундай асарларнинг намойишида томошабинлар зерикмайди, аксинча, сахнадаги қаҳрамонларнинг хатти-ҳаракати томошабинни завқлантиради. Драмада Обид жуда бой ва кўплаб дўконларга эгалик қилади. У билан Шабан исмли шогирди ишлайди. Зоҳид эса миниш учун ҳайвонларни ижарага берадиган ва Мастон исмли шогирдини иш билан таъминлайдиган бой одам. Бир куни Обид ва Зоҳид дўконда бўлмаганида, Шабан ва Мастон бошлиқ бўлиб оладилар. Улар ўз хўжайини каби ҳаракат қилишни ва пул ишлашни хоҳлашади. Шабан бир манзилга етиб олиш учун эшакни ёллайди, Шабан ва Мастон музокаралардан сўнг йўлга чиқишади. Иссиқ ҳаво ва дам олиш учун соябоннинг йўқлиги иккала одамни жуда чарчатади. Шабан эшакнинг соясидан фойдаланиб, дам олмоқчи. Мастон, Шабандан эшакнинг соясини эмас, балки унинг ўзини ижарага олганини айтади ва эшакнинг сояси учун битта танга сўрайди. Шабан эса битта танга тўлашдан бош тортади. Ушбу баҳс-мунозара натижасида бошланган тўқнашув суд эшигигача етиб боради. Асосий фитна ушбу тўқнашувдан кейин аниқ бўлади.

Шабан ва Мастон суд жараёнида келиб чиққан харажатлар туфайли, давводан воз кечишни истайдди. Бироқ, уларга суд жараёни бошланганива орқага қайтиш мумкин эмаслигини билдириб, иккаласига ҳам адвокат ёллаттирадилар. Суд жараёнида кўп одамлар ишни иложи борича узайтиришга ҳаракат қилишади. Фойда қидираётган одамлар суд жараёнини ўз манфаатлари учун ишлатишади. Битта мажлисда тугаши мумкин бўлган бу масала узайиб боради ва бутун Абдаляга тарқалади. Ишга ёлланган адвокатлар ўзларини ҳимоя қилишади ва бир мунча вақт ўтгач, ишни тугата олмаган судья ишни Олий Судга топширди. Обид ва Зоҳид воқеаларга ҳалақит бермайдилар, ҳатто бу жараёни чўзиш учун ҳам ҳаракат қилдилар. Чунки бу жараёнда уларнинг бизнеслари сезиларли даражада ривожланади. Иккинчи актда суд харажатларини қоплай олмайдиган Шабан ва Мастон қийин аҳволга тушиб қолишади. Шабан буюмларини сотиб, хотинини тозаловчиликка юборади. Мастон эса судни унинг фойдасига ҳал қилиши



учун хотинидан икки томонлама муносабатларда фойдаланади. Иккаласи ҳам кенг танишлар доирасига эга бўлган одамлар билан боғланишга ҳаракат қилишади. Ўзлари жалб қилган Бузурқурчи ва Айгир Хўжа аралашганда ишлар янада чигаллашади. Ҳодиса авж олаётганлиги сабабли ҳеч қандай қарор қабул қилинмайди ва тадбир Олий Кенгашга юборилади.

Бироз вақт ўтгач, воқеа одамларни соячилар ва эшакчилар каби икки гуруҳга бўлинишига олиб келади. Сиёсий саҳнада бўлган “Тораман Татара” партияси соялар фойдасига фикр билдирганда, бу иш сиёсатга айланади. Рақибнинг баёнотига қарамай, Титтаранинг ўзи ва унинг издошлари эшакчилар қаторига ўтадилар. Ушбу воқеа натижада Мастон ва Шабаннинг муаммоси бўлибгина қолмай, бутун Абдалая мамлакатининг муаммосига айланади. Мастон ва Шабан муаммони ҳал қилиш мақсадида эшакни ўлдиришни ўйлашади, лекин улар бунга ҳам қодир эмас эдилар. Сиёсат ушбу ҳодисани материал сифатида қабул қилади ва уни доимий равишда қайта ишлаш орқали ўз манфаатлари йўлида фойдаланади. Асар якунида келтирилган фикр қуйидаги шеърини парча билан баён этилади.

*“Gittikçe azıttı dava  
İş inada bindi  
İkiye bölündü Abdalya  
İki taraf birbirine girdi  
Bir yanda Gölgeciler  
Öte yanda Eşekçiler”* [2; 96]  
(*Борган сари кучайди даъво,  
Қайсарликдан ҳеч тўхтамади.  
Иккига бўлиниб Абдалая,  
Ҳамма тарафма-тараф бўлди.  
Бир томонда Соячилар,  
Бир томонда Эшакчилар.*)

Воқеалар шу даражага келадикки, жанжаллашган томонларнинг бири қайси томонда бўлса, иккинчиси нариги томонга ўтади, агар эр ва хотин келиша олмасалар, улардан бири эшакчи, иккинчиси соячи бўлиб олган, келин соячи бўлса, қайнонаси эшакчи бўлган. Ҳатто партиялар ҳам ўз номларини соячи ва эшакчи деб ўзгартирадilar, жанжаллар кўпая бошлайди. Воқеалар натижасида Обид ва Зоҳидларнинг истаклари амалга ошади. Жанжал авж олгач, улар қурол-яроғдан пул ишлашади. Ўйин охирида Зоҳид ва Обид бойиб кетишади.

Бу асар рамзий маънода Туркияни акс эттиргани туфайли, биринчи марта саҳнага чиқарилгандан сўнг Ҳалдун Танер ва саҳналаштирувчи режиссёр судга чақирилиб, асар сюжети қайта кўриб чиқилишини талаб қилади. Асар 1965 йилда ёзилганлигига қарамай, 1995 йилда, ёзувчи ўлимидан кейингина нашр этилган. Асарнинг “Эшакнинг сояси” сарлавҳаси ҳам рамзий маънога эга. Эшакнинг ўзи нима-ю, сояси нима? Шунча ҳал қилиниши керак бўлган муаммолар турганда, ҳокимият, парламент, суд ва партиялар арзимайдиган муаммони глобал муаммога айлантириб, ўзаро

тортишув баҳонасига айлантирадилар. “Эшакнинг сояси” драмаси эртакларнинг рамзий мазмунидан олинган ҳажвий асар, – дея таъкидлайди А.Юксел [1; 93]. Бу билан А.Юксел Танернинг мазкур драмасига эрамизнинг 120-160 йилларида яшаган бир сайёҳ ва файласуф Лукянуснинг эртаги рамз сифатида олинганлигига ишора қилади. Ҳ.Танер қаҳрамон ҳолатини ёрқинроқ акс эттириш учун рамзий тасвир усулига ҳам кенг мурожаат қилади.

Хусусан, Ҳалдун Танер рамзийликка йўғрилган асарлари орқали ҳақиқат ва хур фикр цензура томонидан таъқиб қилинган даврда ҳам катта ҳақиқатларни айта олиш имкониятига эришди, иккинчи томондан эса драмаларнинг бадиий салмоғиниянада оширишга муваффақ бўлди. Шу сабабли ҳам унинг драмалари ғоявий-бадиий жиҳатдан мустаҳкамлиги, долзарблиги билан томошабинлар меҳрини қозонди ва бугунгача театр сахналаридан тушмай ўйналиб келинмоқда.

### ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Yüksel A. Haldun Taner Tiyatrosu, Bilgi Yay., Ankara-1986.
2. Taner H. Eşegin Gölgesi. Bilgi Yayınevi, Ankara-1995.
3. Hamdamov U. Jahon adabiyoti: modernizm va postmodernizm. “Akademnashr” nashr., Toshkent-2020.

### NAVOIY- ULKAN ADABIYOTSHUNOS

*Farmonova Umida Usmonjonovna,  
Samarqand tumani XTBga qarashli  
6-maktab o'qituvchisi*

Ко‘п асрлик jahon xalqlari tarixi silsilasida va umuman, insoniyat tamaddunida o‘zbek xalqi tarixi kabi uning adabiyoti ham g‘oyaviy-badiiy yuksakligi bilan alohida o‘rin tutadi. “Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz, ulug‘ ajdodlarimiz, beqiyos boyliklarimiz bor nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san‘atimiz ham” bo‘lishi shubhasiz. Asrlar bo‘yi o‘z erki va mustaqilligi uchun kurashib kelgan matonatli xalqimiz hayoti va shonli tarixining badiiy in‘ikosi bo‘lgan adabiyoti ham boy va rang-barangligi bilan dunyo tamaddunida haqli ravishda faxrli o‘rinni egaallydi. Nafaqat turkiy xalqlar adabiyotini, balki Sharq va O‘rta Osiyo xalqlari she‘riyati tarixini Alisher Navoiyning boy va rang-barang lirikasisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Uning lirik merosi o‘zigacha yaratilgan ko‘p asrlik fors-tojik va turkiy xalqlar she‘riyatning davomi bo‘lish bilan birga barcha zamonlardagi o‘zbek she‘riyatining eng yuksak cho‘qqisi bo‘lib ham sanaladi. Bu yuksak ijodiy cho‘qqi endilikda yangi O‘zbekistonimizda yanada qadrlanmoqda.

Ming afsuski, mustabid sho‘ro davridagi hukmron sotsialistik mafkuraning taqiqlari natijasida boy tariximiz va adabiyotimiz xolisona o‘rganilmasdan, aksincha, bunday harakatlar “o‘tmishni ideallashtirish”, “millatchilik” degan tamg‘alar bilan qoralanib, taqiqlab kelingan. 1917 yil oktyabr “inqilobigacha

bo‘lgan davr o‘zbek adabiyoti xon va beklar uchun yozilgan saroy she‘riyatidan yoki diniy mazmundagi asarlardan iborat”, - deb, butunlay inkor ham etilgan edi. Chinakam millatparvar shoirimiz Cho‘lpon o‘zining 1919 yili yozgan “O‘zbekim” nomli she‘rida ham faxr va armon bilan shunday satrlarni bitgan edi:

Dunyoda hamma xalq qiziqqan gavhardek bebaho ot edi,  
Hurriyat bo‘lganda sen kelding semrgan otga minayin deb.  
Og‘zingga mallalar bir tepdi ma‘rifat xaromdir sartga deb...

Bu satrlarda tarixiy o‘tmishimiz va xalqimiz, millatimizning buyuk daholari bo‘lgan Beruniy, Farg‘oniy, Xorazmiy, Mirzo Ulug‘bek va Navoiy kabi ulug‘ ajdodlarimizdan qolgan bebaho ilmiy-adabiy merosimiz va uning mustamlaka davrida qadrlanmasdan, aksincha, inkor etilgani chuqur aks etib turadi. Adabiy merosimizga nisbatan johilona munosabat va nigilizm siyosatining ayanchli oqibatlarini Ahmad Yassaviy, Navoiy, Bobur, So‘fi Olloyor, shoh va shoir Feruz va Abdulla Qodiriy kabi ulug‘ siymolar shaxsi va ijodiga nisbatan qilingan johilona munosabat va tahqiqlarda yaqqol ko‘rinadi. Hatto Navoiydek buyuk daho ijodkorimizning dunyo tan olgan asarlariga nisbatan ham bepisandlik bilan munosabatda bo‘lingan va asossiz kamsitib kelingan.

O‘zbek tilimiz va adabiyotimizni dunyo miqyosida tarannum etgan, xalqimiz ma‘naviyati rivojiga benihoya kuchli va samarali ta‘sir ko‘rsatgan va endilikda yanada yuksak qadrlanayotgan benazir siymo-bu, shubhasiz, Alisher Navoiydir. Dunyo miqyosida badiiy-estetik tafakkur taraqqiyoti va mumtoz adabiyotimiz, ayniqsa, butun turkiy olamda va dunyo sivilizatsiyasida ham yuksak mavqeni egallagan buyuk gumanist Alisher Navoiy ijodi va estetik an‘analarisiz qashshoq va sayoz bo‘lar edi. Navoiy yaratgan ilmiy-nazariy ta‘limot so‘z san‘ati va nafosat ilmining keyingi asrlardagi taraqqiyoti uchun ham ijodiy dasturilamal bo‘lib kelmoqda. Har ikkala tilda yuksak badiiy asarlar yarata olish qobiliyatiga ega bo‘lgan hassos shoir 45 ming misraga yaqin turkiy tildagi she‘rlari va 12 ming misradan ortiq fors-tojik tilidagi she‘rlari bilan o‘sha davr she‘riyatiga katta hissa qo‘shdi.

Navoiy ijodi va g‘oyaviy-estetik an‘analari o‘zbek shoir va yozuvchilarining badiiy-estetik tafakkuri shakllanishida muhim omil bo‘lishi bilan birga Istiqloq davri adabiyoti va ma‘naviyati uchun ham yukak ijodiy namuna bo‘lib xizmat qilmoqda. Navoiyning bu ilhombaxsh badiiy va estetik an‘analari nafaqat o‘zbek adiblari ijodiga, balki butun turkiy xalqlar adabiyoti namoyandalari tomonidan ijodiy davom ettirilishi va ularning qudratli ta‘siri alohida tadqiqotlarga mavzu bo‘la oladi. U nafaqat o‘zbek xalqi, balki butun turkiy olamning betimsol shoir va mutafakkiri sifatida jahon badiiy-estetik tafakkuri rivoji va Renessans tarixida eng yuksak mavqeni egallagan genial san‘atkordir. O‘zbek adabiyoti va estetik tafakkur tarixi va taraqqiyotini Navoiy ijodi va adabiy an‘analarisiz to‘liqtasavvur etib bo‘lmaydi. Navoiy adabiy-estetik ta‘limotining XX asr adabiyoti rivojidadagi beqiyos o‘rni va ahamiyati, ilhombaxsh an‘ana va aqidalari o‘zbek va boshqa xalqlarning ko‘plab shoir va yozuvchilari tomonidan ijodiy davom ettirilishi muammolari o‘rganilmagan. “Insonshunoslik, haqparastlik va adolatparastlik g‘oyalari” bilan yo‘g‘rilgan Navoiy asarlari estetik qarashlari bilan

uyg'unligi, konsolidatsiyasi bilan ham-beqiyos ijodiy boylik sanaladi. Navoiy badiiy-estetik merosi va hikmatlari "insoniyat xizmatiga qaratilgandir". (2..3.)

So'nggi yillar yurtimizda Islom ma'rifati keng yoyilayotgani, xalqimiz qalbida muqaddas "Qur'on" va muborak hadislarga bo'lgan imon-e'tiqodi ortishi adabiyotning asl mohiyati, hayotiy va ruhoniylardir. Navoiy ijodiyotining ahamiyatini kengroq idrok etishimizda ham muhim asos bo'ladi. Badiiy-estetik tafakkur olamiga bunday yondashuv nafaqat mumtoz adabiyotimiz namunalari, balki hozirgi zamon adiblarimiz ijodidagi diniy motivlar, islomiy ma'rifat va e'tiqod g'oyalarining teran ildizlarini chuqurroq anglashgimizga ham imkon beradi. Istiqlolimizdan so'ng o'tmish madaniy merosimizni va Alisher Navoiy ijodini chuqur o'rganish va haqqoniy baholashga sharoit yaratildi.

Haqiqatan ham, buyuk so'z san'atkori, iste'dodli munaqqid Alisher Navoiy, eng avvalo, o'zining benazir shaxsiyati va adabiy-estetik qarashlarining favqulodda boy va rang-barangligi bilan ilmiy-adabiy jamoatchilikni hamisha havratga solishi tabiiy. Bu muhim haqiqat eng avvalo shunda namoyon bo'ladiki, badiiy adabiyotning ijtimoiy-estetik mohiyati va uning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida Navoiychalik ko'p, chuqur va izchil fikr- mushohada yuritgan munaqqid o'zbek adabiy tanqidchiligi tarixida kamdan-kam uchraydi. Alisher Navoiyning o'zbek adabiy tanqidchiligi hamda adabiy-estetik tafakkuri rivoji oldidagi buyuk xizmatlaridan biri shundaki, u o'z davri adabiyoti, tanqid va adabiyotshunosligining eng dolzarb va eng muhim muammolarini g'oyat hozirjavoblik va o'ziga xos bilimdonlik bilan hal etib bera oldi. Buyuk munaqqidning badiiyat, tanqid va adabiyotshunoslik borasida ko'p yillik ilmiy-ijodiy izlanishlari va salmoqli asarlarining samarasi sifatida XV asr va XVI asr boshida badiiy ijod va adabiy-estetik tafakkur sohasida yaxlit bir ta'limot maydonga keldi. O'zbek adabiy tanqidchiligi va adabiyotshunosligining sardorlaridan biri sanalgan Alisher Navoiy adabiy-estetik qarashlari silsilasida asosiy o'rin tutuvchi dolzarb muammolar nimalardan iborat hamda ular bugungi adabiy-tanqidiy jarayon va adabiy-estetik tafakkur rivojida nechog'lik ahamiyat kasb etadi. Albatta, mavzuni keng yoritish uchun juda ko'plab salmoqli tadqiqotlar talab qilinadi.

Orin bilan shuni alohida ta'kidlash lozimki, Alisher Navoiyning hayoti, badiiy ijod hamda adabiy-tanqidchilikdagi faoliyatini o'rganish borasida adabiyotshunosligimizda bir qancha ishlar qilinmoqda. Bu izlanishlar, ayniqsa, so'nggi yillarda yana ham samarali tus olganligini e'tirof etish lozim. Alisher Navoiyning adabiyotshunos olim sifatidagi faoliyatini ko'rsatib beruvchi asosiy bir asar bu "Majolisu-n-nafois" tazkirasidir. Navoiy tazkirani 1491-98-yillar davomida yaratadi. Tazkirada XV asrda yashab, faoliyat yuritgan 459 shoir haqida ma'lumot keltiriladi. Navoiy tazkiraning muqaddimasida asarning tarkibiy qismi va nomlanishi haqida shunday yozadi: "... chun bu maqsudg'a yetildi, oni sekkiz qism etildi har qismi bir majlisg'a mavsum bo'ldi va majmuig'a "Majolisu-n-nafois" ot qo'yildi". Tazkiradagi shoirlar majlis, ya'ni qismlarga quyidagicha taqsimlangan:



1-majlisda 46 ta, 2-majlisda 91 ta, 3-majlisda 175 ta, 4-majlisda 72 ta, 5-majlisda 21 ta, 6-majlisda 31 ta, 7-majlisda 22 ta va 8-majlisda Husayn Boyqaro bilan bog'liq ma'lumotlar keltirilgan. Alisher Navoiy adabiy-estetik qarashlari o'zining teranligi, mavzu-muammolarining rangbaranligi, qamrov doirasining kengligi hamda badiiy ijod jarayoni va amaliyoti bilan chambarchas bog'liq ekanligi alohida diqqatga sazovordir. Shubhasiz, badiiy adabiyotning yuksak san'at ekanligi, ijtimoiy-estetik ahamiyati va ijodkor ma'suliyati haqidagi qarashlar Alisher Navoiy estetikasining asosiy mezoni, bir so'z bilan aytganda, buyuk munaqqid qarashlarining markaziy nuqtasi hisoblanadi. Shubhasiz, Navoiyning adabiy tanqidchilik hamda adabiy-estetik tafakkur rivojida yaratgan ijodiy ta'limoti so'z san'ati va adabiy tanqid ilmining keyingi yillardagi taraqqiyoti uchun ham yusak poetik mahorat va ilodi tajriba maktabi vazifasini o'taydi va bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ш.М.Мирзиёев.Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш-халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир.Ўзбекистон Республикаси Президентининг мамлакатимиз ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувидаги маърузаси. “Халқ сўзи”.№8.2017.
2. Alisher Navoiy. “Majolis-un-nafois. T. 2011.
- 3.Алибек Рустамов. Алишер Навоий ҳикматлари. Сўзбоши. Т. 1985.
- 4.Mallaev N. O'zbek adabiyotitarixi. T.1976.

### ERKIN VOHIDOVNING YUMORDAN FOYDALANISH MAHORATI

*Kiryigitova Nigora Zubaydulla qizi,  
JDPI o'qituvchisi*

Mutoyiba yoki yumor odamlar, obyektlar yoki vaziyatlarning kuzatuvchilarda kulgi hissini keltirib chiqara olish sifati yoki qobiliyatidir. Mutoyibani ijtimoiy aloqaning bir ko'rinishi deb hisoblash mumkin. Badiiy adabiyotga mansub yumoristik asarda ijodkor ijtimoiy hayotdagi, shaxsiy turmushdagi, xususan, ayrim kishilardagi ba'zi kamchilik, nuqsonlardan kulib, uni tanqid qiladi. Bunda ijodkor tanqid qilinayotgan obyektning yo'qotilishiga tarafdor emas, unga achinadi, undagi mavjud kamchilikning tuzalishini istaydi.

Odamlar go'daklikdan tom ma'noda kulish qobiliyatiga ega. Ko'pchiligimiz kulgili komediyalar, hajvchilar va hazillarni yaxshi ko'ramiz. Kulgi hayotdagi eng yaxshi voqealarning, bayramlarning ajralmas qismidir. Biroq biror bir insonni yuziga tabassum hadya etish anchayin murakkab jarayon. Qiziqarli, kulgiga boy latifa va voqea-hodisalarni aytib berish orqali insonlarni kuldirish birmuncha osondek, ammo bunday hodisotlarni badiiyatda she'riy misralarga ko'chirib, lablarga yengil tabassum ulashish esa amri mahol.

Mana shunday mashaqqatli ishni barchamizning sevimli shoirimiz, O'zbekiston Qahramoni Erkin Vohidov poetikasida uchratishimiz mumkin. Shoir xalqimizning



turmush tarzi, urf-odatlari va kundalik oddiy voqealarini shoirona misralarda ifoda etadi. Masalan, o‘zbek xalqi azaldan mehmondo‘stligi bilan boshqa millatlardan ajralib turadi. Ana shu ajoyib xislati sabab yurtimiz odamlari boshqa xalqlar oldida yuksak hurmat va e’tirofga loyiq. Shoirning “Yashavor” nomli to‘rtligida o‘zbekchilikka xos bo‘lgan mana shunday oliyjanob fazilatlarimizning “ikkinchi tomoni” haqidagi hayotiy haqiqat yumorga boyitilganini ko‘rishimiz mumkin:

Meva berma bolangga,  
Asra mehmon xolangga.  
Mahkam berkit, yashavor,  
Qoraytirib tashavor! [1,53]

Yoki:

Xayrlashmay ketar ingliz  
Mezbonini notinch etmaydi.  
Donishqishloq ahli, bilingiz  
Xayrlashadiyu ketmaydi. [2,652]

Misralarida o‘zbekona mehmondo‘stlikning yakunini holat kulgisiga ko‘chiradi. She’rni o‘qigan o‘quvchi borki, uyiga kelgan mehmonning “Ana ketaman, mana ketaman” deya ketishi cho‘zilgan vaziyatni eslab yuziga tabassum olmay iloji yo‘q.

Olam yaralibdiki, muhabbat tuyg‘usi, bu xislat bilan bog‘liq vaziyatlar davom etib kelmoqda. Barchaning boshida bor savdo deya ta’rif etiladigan muhabbat voqealariga e’tibor bersak, yigit va qiz o‘rtasida aksariyat hollarda juda o‘xshash, bir-biriga yaqin suhbatlar mavjud. Ayniqsa, qizlarning “Tegmang menga”, “Nari turing”, “Qurib keting”, “Yomon ekansiz” kabi birikmalar aslida qanday mazmun kasb etishini shoir “Karashma” nomli she’rida hazil-mutoyiba orqali ochib beradi:

Qiz bolaning rost gapi ozdir,  
Yolg‘onlari bisyor adashma,  
Tengmang menga degani - nozdir,  
“NARI TURING” desa karashma.  
Ishva bilan “QURIB KETING” der,  
Ko‘ngilga hech qattiq olmagin,  
“O‘LING” desa yashnab yuraver,  
“QOCHING” desa qochib qolmagin.  
Hech gul bormi axir tikonsiz,  
Tikoniga fido qilgil jon,  
Bir kun aytar: yomon ekansiz,  
Ma’nosi siz eng yaxshi inson [3,39]

Ayollar mavzusini davom ettirib shuni aytish joizki, har qanday zamon ayolining “dunyo tashvishi-yu, dunyo arz-dodi” bor. Bunday “arz-dod”ga oddiy inson uyoqda tursin, hatto Xizr Alayhissalom ham quloq tuta olmaganini badiiy ifodalar ila ziynatlangan “Hazrat Xizr va zamona ayoli” she’rida guvoh bo‘lamiz:

Bu ertak emas yo shoir xayoli,  
Hangoma ham emas suhbat qizirga.

Shu kunlarda bizning zamon ayoli  
 Uchradi nogahon Hazrat Xizrga.  
 Ul Alayhissalom odatga ko‘ra  
 Tila tilagingni, deb qildi xitob,  
 Xizrman, xohlagan narsangni so‘ra,  
 Muhayo qilurman borini shitob.  
 Ertak haqiqatga aylangan davron,  
 Hayratni unutgan bizning ayollar.  
 Ayniqsa ularga xush kelar har on  
 Tila tilagingni, deb tursa chollar.  
 Juvon lol qolmadi, arz qila ketdi,  
 Ro‘yxat ayta ketdi behadu poyon.  
 Hazrat charchab o‘lar holatga yetdi,  
 Xizr bo‘lganidan yuz ming pushaymon.  
 Sho‘rlik ko‘kka qarab hasratda, dog‘da,  
 Dedi: ishingni ol, yo parvardigor.

Yo‘q esa, ey tangrim, yorug‘ dunyoda

Meni ayollarga duch qilma zinhor. [4,307]

Odamzot yashar ekan hayoti davomida barcha narsalarni eslab qololmaydi. Hatto shunday insonlar borki, oddiy narsalar uning parishonxotirligidan dalolat berib turadi. O‘rni kelganda doimo eslab qolish uchun nimadir choralar topishi, ammo ana shu topilgan “najot” ham o‘z xotirasidan ko‘tarilib qolishi quyidagi misralarda o‘z badiiy ifodasini topgan:

Yoddan chiqmasin deb, xayol aralash,

Har kech unga odat reja qoralash.

Ro‘yxatni batafsil yozar-u, ammo

Tongda esdan chiqar qog‘ozga qarash [5,61]

Bu keltirilgan ijod namunalari Erkin Vohidov yaratgan ijod ummoning bir tomchisi xolos. Bu tomchilarning har qatrasida insoniyat uchun suv va havodek zarur ehtiyojlari gavhar misol ipga terilgan. Shoirga berilgan “O‘zbekiston xalq shoiri” degan unvon uning chinakamiga xalq shoiri ekanligini isbotlaydi. Erkin Vohidov hayot haqiqatlarini marjondek misralarda jilovlar ekan, har bir so‘zni shunchaki so‘z deb emas, balki “... so‘zni tirik jon deb biladi va So‘z bilan so‘zlashadi”[6,9].

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. E.Vohidov. Asarlar. To‘rtinchi jild. Qish halovati. – Toshkent: Sharq, 2016. – 415 b.
2. E.Vohidov. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2016. – 683 b.
3. E.Vohidov. Asarlar. To‘rtinchi jild. Qish halovati. – Toshkent: Sharq, 2016. – 415 b.
4. E.Vohidov. Inson. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 316 b.
5. E.Vohidov. So‘z latofati. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – 215 b.

## ДАВР ФАРЗАНДИ

*Али Оқмуродов*

Ўтган асрнинг 20-30-йиллари нафақат тарихимиз балки адабиётимиз учун ҳам мураккаб давр ҳисобланади. Ҳамюртимиз Анқабой Худойбахтов ана шу қийин ва мураккаб даврда яшаб, журналист, адабиётшунос, адиб, драматург сифатида ном қозонди.

Адиб ҳаёти ва ижодини ўрганиш мақсадида у яшаган даврда, шўролар даврида, мустақилликка эришгандан сўнг кўплаб илмий ишлар, мақолалар яратилди. Аввало, унга замондош бўлган ижодкор Зиё Саид, Раҳмат Мажидий, Сулаймон Азимов ва бошқалар ўз вақтида қимматли фикрлар айтишган. Кейинчалик адабиётшунослардан И.Сувонкулов, “Анқабой” (“Мухбир” журнали, 1969 йил, 3-сон, 29-бет), С.Асқаров, “Замон фарзанди” (“Санъат” журнали, 1990 йил, 8-сон, 20-бет), журналистлардан Х.Узоқов, “Халққа муносиб ўғлон эди” (“Туркистон” газетаси, 1993-йил, 18-май), И.Усмонов, “Анқабой” (“Қатоғон қурбонлари” Тошкент, “Ўқитувчи” нашриёти, 1992-йил, 140-161-бетлар), А.Эргашев, “Бахорга хали вақт бор эди” (“Сўзга ошуфта кўнгил”, Жиззах, “Сангзор” нашриёти, 2009-йил, 28-30-бетлар), С.Равшановлар “Анқабой” (“Бахмал тарихи”, Самарқанд, “Суғдиёна” нашриёти, 1996 йил, 94-96-бетлар). Анқабой ҳаёти ва ижодининг ўзига хос хусусияти ҳақида ўз фикр ва мулоҳазаларини билдиришди. Анқабой ижодини ўрганган муаллифлар, ўзи яшаган давр: шўролар даври ва мустақилликка эришгандан сўнгги давр нуқтаи назаридан баҳо беришган.

Мустақиллик бизга тарихимиз, адабиётимизни янгича ўрганиш имконини берди. Шунингдек Анқабой ижодини, ҳужжатларини, архивини ўрганиш имкони туғилди. Адабиётшунос И.Сувонкулов Анқабой ижодини биринчилардан бўлиб ўрганган. И.Усмонов ва Х.Узоқовларнинг Анқабой ҳақидаги мақолалари салмоқлидир. И.Усмонов мақоласида Анқабой ўғли Ўткин ака билан учрашиб ундан айрим маълумотларни олади.

Ҳамид Олимжон оиласи билан қўшни эканлиги ва улар яқин муносабатда бўлганлигини ёзади, Х.Узоқов мақоласида у Ўсмагга келиб Анқабой қариндошларидан маълумотлар олиш билан бирга, кекса отахонлардан хотираларини ёзиб олади. Шунингдек Анқабойга тегишли архив ҳужжатларини ўрганиб, қамоққа олиш сабаблари ва оқибатларини очиқ беради. Адабиётшунос С.Асқаров мақоласида асосан “Шодмон” драмаси ҳақидаги фикр мулоҳазаларини айтади. Сайид Азим шоир “Бахмал тарихи”, “Бахмалнома” китобларида қисқа бўлсада маълумотлар берди.

2003 йили Бахмал тумани маркази Ўсмагда Анқабой таваллудининг 100 йиллиги тадбирини ўтказдик. Унда Анқабойнинг қариндошлари, адабиёт ихлосмандлари иштирок этди.

2008 йилда “Жиззах ҳақиқати” газетасида “Миллатнинг асл фарзанди” мақоласини эълон қилдим. 2010 йилда эса “Йилнинг энг фаол маънавият тарғиботчиси” республика танловида “Миллий ғоя тарғиботида Бахмаллик адиблар (Анқабой, Б.Иброҳимов, Т.Сулаймон) ўрни мавзусини олиб чиқиб

биринчи ўринни олдим. Мен ҳам Анқабой ижодига 80-йиллардан бери кизиқиб, у ҳақдаги маълумотларни йиғиб, ўрганиб келдим. Менинг кузатишларим бўйича 1971 йилда нашр этилган “Ўзбекистон Энциклопедияси”нинг 1-томида Анқабой ҳақида мақола бор эди. Афсуски 2000 йил чоп этилган “Ўзбекистон миллий энциклопедиясининг” биринчи томида у ҳақда маълумот берилмаган. Анқабой журналист, адабиётшунос, адиб, драматург ва жамоат арбоби эди.

Анқабойнинг журналистик фаолияти мактаб ва билим юртида ўқиб юрган пайтларида бошланган эди. Унинг бадиий ижодга иштиёқи баланд бўлиб, ижод ва ўқишни бирга олиб борди. Шу сабабли Самарқанд, Тошкент, Москвада ўқиб юрган пайтларида кўплаб асарлари эълон қилинди. Анқабойнинг журналистик фаолиятини учга булиш мумкин. Биринчи сермахсул журналист, иккинчи журналист раҳбар, ташкилотчи, учунчи ёш журналистлар учун қўлланмалар ёзган устоздир. Унинг шу даврдаги газета ва журналларда кўплаб мақолалари эълон қилинди. “Матбуотимиз холи”(1931), “Тарихий бир кун”(1924), “Ўзбек матбуоти”(1924), “Матбуот ва хотин-қизлар”(1924) мақолаларининг номига эътибор берган бўлсангиз улар матбуот, уни юксалтириш, унга зарурий мавзуларни олиб чиқиш ва мукамал ёритиш ҳақида. Анқабой “Ёш ленинчи” газетасига муҳаррир бўлганида ёзувчи ва журналистлар Элбек, З.Саид, А. Қодирий, У.Носир, К.Алимов, А.Айюб, Наим Саид кабиларни муаллифлар сифатида таҳририятга тортди. Бошқа кўплаб ижодкорлар билан ижодий ҳамкорлик қилди. Анқабой устоз ва ташкилотчи сифатида ёш журналистларни тарбиялаш ва тайёрлашга эътибор берди. Уларга касб сирларини кунт билан ўргатди. Жумладан “Ишчи” газетасида муҳаррир бўлганида Ҳамид Олимжон тавсиясига кўра Исмоил Акрамни, Н.Сафаров тавсиясига кўра Тожи Одилов ни ишга олади. Бундай мисолларни кўплаб келтиришимиз мумкин.

Ўзбекистонда хизмат кўрсатган фан арбоби С.Азимов Анқабойнинг ижодий фаолиятига юксак баҳо бериб шундай дейди. “Анқабой турмушимизнинг ҳамма соҳаларидан хабардор ҳолда мақолалар ёзган бўлса ҳам у асосан ўзбек вақтли матбуоти ишини яхшилашда, қолаверса ўзбек радиоси савиясини кўтаришда улкан ишлар қилган катта журналист эди. У журналист бўлиб туғилди ва шу улуғ номни пок асраб ўтди”. (Х.Узоқов мақоласидан олинди)

Анқабой ижодий фаолиятининг яна бир йўналишини адабиётшуносликка тегишли ишлар ташкил этади. Бу Анқабой яратган китоблар, мақолалар, маърузалар, китобларга муҳаррирлик қилгани ва адиблар билан қилган ижодий муносабатларида кўринади. Тўғри, бугунги кун нуқтаи назаридан баҳо берганимизда мураккаб бир тарихий шароитда яшаб, ижод этганлигини, ўша давр ғоя ва қарашлари асарларда қисман акс этганлигини унутмаслигимиз керак. У яратган асарлар бугунги кунда ҳам ўз қимматини йўқотгани йўқ.

Анқабой халқ оғзаки ижоди, ўзбек мумтоз адабиёти, қардош халқлар адабиёти ва матбуоти янгиликларидан яхши хабардор эди. Шунинг учун бўлаётган янгиликларни ўзбек адабиётига олиб киришга интилди. Шу билан бирга бу даврда ёш ижодкорлар учун махсус қўлланмалар йўқ эди. Шуларни ҳисобга олиб 1927 йилда “хабар, мақола, шеър, хикоя ёзиш йўллари” (“Ўзбекистон Давлат нашриёти”, Тошкент-Самарқанд, 1927-йил). китобини ёзди. Асарга Боту шундай сўз боши ёзган; “Ёзувчилик дунёсига қадам бошлаганларга йўл-йўриқ кўрсатадиган, асар ёзиш қоидаларини ўргатадиган адабиётнинг бизда бутунлай йўқлиги ёш ёзувчиларимизнинг ўсишига” тўсқинлик қилаётганлигини таъкидлаб бу асар ижодий ишларда яхши қўлланма эканлигини эътироф этади. Ҳақиқатдан ҳам бу асар ёш ёзувчи ва журналистлар учун бир қўлланма бўлди.

1931 йилда “Ёш ёзувчи-журналистлар алифбоси” китобини яратди. Унда муаллиф ўз кузатишларини, кейинги вақтда маҳаллий шоир ва ёзувчиларнинг асарларини ўрганиш борасидаги илмий қарашларини баён этади.

Анқабой адабиётшунос сифатида (1929-1931) йилларда “Сатиранинг партиявийлиги учун”, “Пролетариат адабиётининг гегемонияси учун”, “Ер юзини титратган ётмиш икки кун”, “Совет драматургияси истиқболи” мақолаларини яратди. Шунингдек “Ўзбек пролетар ёзувчиларининг ижодий юзи”(1931), “Буюк социализм даври адабиёти учун”(1932), “Ғайратий ижоди”(1934), Социализм даври драматургиясини яратиш учун(1932), “Душманга берилган мингбар”(1936), “Ёзувчи С.Айний ижоди ҳақида”(1936), “Ўзбекистон драматургияси” К.Яшин билан ҳамкорликда (1937) яратди. Бу мақолалар 20-30 йиллар адабиёти, адабий турлар ва жанрларнинг шаклланиши, умуман ўша давр адабий жараёнлари ҳақида қимматли маълумотлар беради. Албатта бу давр мақолаларида коммунистик ғоялар билан суғорилган фикр-мулоҳазалар ҳам бор.

Анқабойнинг адабиётшуносликка тегишли маърузалари ҳам қимматлидир. 1933 йил бўлиб ўтган Ўзбекистон ёзувчиларининг пленумида “Халқ оғзаки ижоди тўғрисида” маъруза қилади. Маърузада халқ оғзаки ижоди наъмуналарини тўплаш, халқ бахшилари ва уларнинг ижодига эътибор бериш, уларнинг асарларини нашр қилдиришга эътибор қаратди.

1934 йил Ўзбекистон ёзувчиларининг биринчи сиздида “Ёшлар ижоди ҳақида” маъруза қилган. Унда ёшлар ижоди кенг ва атрофлича таҳлил қилинади. Ёшлар ижодидаги ютуқ ва камчиликлар ҳақида фикрлар билдирилади.

Анқабой адабиётшунослик фаолиятининг яна бир йўналиши бадиий асарларни нашрга тайёрлаб, бу асарларга муҳаррирлик қилганидир. 1933 йилда А.Қодирийнинг “Обид кетмон”, А.Қаҳҳорнинг “Сароб” асарларига муҳаррирлик қилади. Шундай яхши асарларни нашрга тайёрлаб, таҳлил қилгани учун танқидга ҳам учрайди.

Анқабой кичик-кичик хикоялар ҳам ёзган. 1923 йил “Ўзгаришчи ёшлар” газетасида “Мол ўрнида қиз ёхуд Ҳанифа” хикояси эълон қилинди.



Унда хотин-қизлар хаёти, ҳуқуқсизлиги, уларни озод қилиш масаласи қаламга олинади. Асарнинг бош қаҳрамони оддий меҳнаткаш Шодмон бўлиб, унинг тимсоли тасирли ифодаланади. У камбағал йигит бўлиб, Давкарбойдан 30 сўм қарз олади. Давкарбой Шодмоннинг саводсизлиги, қарзни вақтида узолмаганидан фойдаланиб, кози билан тил бириктиради. Қарзини 630 сўмга етказди. Шодмон исботлашга уринади. Лекин уни хушидан кетгунча калтаклайдилар. Шу вақтда оқ пошшонинг чет ўлкалардан мардикор олиш хақидаги фармони чиқади. Бу меҳнаткаш халқнинг норозилигига сабаб бўлади. Одамларнинг ғазабини кўзгайди. Хунарманд ва деҳқонлар кўзғолон кўтариб дўмни (бойладан бири) ўлдиради. Пристов эса қочиб кутилади. Шу тўс-ўполон пайтида бир офицер билан элликбоши Шодмоннинг сигирини бойникига олиб кетаётганлигини эшитади. Дўстлари билан Шодмон уларни йўлда тутиб ўлдиради. Шодмон бошлиқ кишилар харакати катта кўзғалонга айланиб кетади. Оқ пошшонинг жазо отряди кўзғалонни бостиради. Шахарни тўпга тутиб, вайронага айлантиради. Қўзғалон рахбари Шодмонни осийшга ҳукм қилади.

“Шодмон” драмаси 1933 йилда Ғамза номидаги Академик драма театрида намоиш этилди, адабий жамоатчилик томонидан яхши кутиб олинади. Асарда Шодмон (Шукур Бурхонов), Рукия (Назира Алиева), Қўлдош ота (Обид Жалилов), Қози (Ғулом Исомов), Жадид (Олим Хўжаев), Давкарбой (Лутфулло Нарзулаев), Мирзо (Ғани Аъзамов) образларини яратганлар.

Анқабойнинг ўзи бу асарни 1930 йиллардаёқ ёза бошлаганини, унга тайёргарлик кўриш жараёнида Жиззах кўзғолони хақида халқ оғзаки ижоди намуналари, тарихий ҳужжатлар билан танишганлигини айтади. Асар хақида ўша даврдаги ижодкорлар Зиё Саид, Раҳмат Мажидий ўз фикларини билдириб, асарни юксак баҳолайди. Шу билан бирга мунаққид Санжар Сиддиқ “Шодмон” ни юксак баҳолаш билан бирга Шодмон нутқидаги дабдабалилик, етук революционердек гапиришини таъкидлади. “Шодмон” Жумхурият санаъти бошқармасининг 1937 йил 10 сентябрда чиқарган қарори билан “миллатчиликни”ни оммалаштирганликда айбланиб саҳнадан чиқарилади.

Анқабой тарихимзнинг энг оғир ва мураккаб даврида яшасада кўплаб ижодкорлар билан ҳамкорлик қилди. И. Усмонов мақоласида Ҳамид Олимжон билан Анқабой яқин муносабатда бўлганини, хатто Тошкентда кўшни бўлиб яшаганлигини айтади. Анқабой ва турмуш ўртоғи Мутарама опа билан яқин дўстона муносабатда бўлганлигини, Анқабой қамоққа олинган унга маънавий кўмак бериб турганлигини айтади. Юқорида айтганимиздек ўша даврдаги кўплаб ёш ижодкорларга ёрдам беради. Самарқандда яшаган даврида Ҳ.Олимжон, Н.Сафаров, Шукур Садулла, Баҳром Иброҳимов(Йўқсил), билан бирга ишлайди.

Ўша даврда хар бир ўзбек зиёлиси ишларидан кир қидиришар эди. Анқабой хаёти ва асаларидан кир қидириш бошланди. Анқабой шахсий

архивини ўрганиб чиққан журналист Х.Узоқов қимматли маълумотларни эълон қилиш билан бирга ўз шахсий фикр ва мулохазаларини айтади.

Ёзувчилар союзида А.Қодирий масаласи қўйилган йиғилишда К. Яшин “Обид кетмон” асарига тўхталиб шундай деди “Бу асосан “халқ душмани” Анқабой таҳрири ва унинг раҳбарлиги остида ишланади. 1938 йилда Жиззахлик ёзувчи Насрулло Охундий давлат ҳовсизлик бошқармасига “Обид кетмон” асари ҳақида ёзиб берилган хулосасида Анқабойни “халқ душмани” дея тилга олди.

Журналист Х.Узоқов Анқабойга тегишли архив, тергов ишларини ўрганиб чиқиб “Халққа муносиб ўғлон эди”мақоласида бор ҳақиқатни ёзди. “22945”, “22411”, “976511” ишларидан аниқ маълумотларни келтирди. Анқабой қамокқа олингач турмуш ўртоғи Мухтарама опа юқори ташкилотларга, Ёзувчилар уюшмаси, радио кўмитаси, ички ишлар идораларига ёрдам сўраб боришлари ёрдам бермади. Энг ёмони улар яшаган уйни икки кунда бўшатиб қўйишлари айтилди. Ўша даврда Анқабой сафдошлари ҳам бирин-кетин қамокқа олинди. Анқабой атрофидаги воқеаларга тушунмай қолди. Терговчи Березников зуғуми асосида бирга ишлаганлардан маълумот олди. Ўта миллатчи, безори терговчи Маврин ҳам қийноқлар ҳисобига “маълумот ” олади. Қамокқа олинганлар қаттиқ қийноқлар ҳисобига йўқ айбларни тан олишга мажбур бўлар эди. Хатто бу терговчилар ҳам кейинчалик қонунбузарлар сифатида отилди ёки қамалиб кетди. Бу ўша даврнинг энг катта фожиаси эди. Анқабой қамалишига сабаб А.Қаххорнинг “Сароб”асарига мухаррирлик қилиб, бу асарларга ижобий баҳо бергани десак бир ёклама бўлар эди.

Аслида Анқабой Худойбаҳтов қамалишига сабаб ўғли Ўткин акага давлат хавфсизлик комитети раиси ўринбосари Иноятов томонидан берилган “Маълумотнома”да аниқ ёзиб қўйилган. Яъни унга “миллатчи”, “пантуркист”, “аксиланқилобчи” айбларини қўйишган.Бундай айбларни ўша даврдаги барча ўқимишли одамларга қўйишади. Чунки бундай ақлли, марифатпарвар, миллатпарвар, миллатнинг келажагини ўйлаган одамлар уларга керак эмас эди. Шунинг учун ҳам бундай кишиларнинг йўқ айбларини тан олишлари учун жисмоний азоблар бериб, ноинсоний қийноқларга солинган.

Анқабой Худойбаҳтов 1938 йил 4 октябрда Тошкент шахрида отиб ўлдирилган. Орадан анча йиллар ўтгач аниқроғи 1957 йил 1 августда СССР олий судининг қарори билан оқланди. Кеч бўлсада адолат тантана қилди. Самарқанд шахридаги кучалардан бирига , Бахмал туманидаги 6-мактабга унинг номи берилди.

Анқабой ўз даврининг фарзанди эди. Унинг ижодий ишлари шу давр билан чамбарчас боғлиқдир. Унинг умри қисқа бўлсада ранг-баранг асарлар яратди. Адабий ҳаётнинг ҳар бир жабҳасида уни кўрасиз. Унинг адабий мероси биз учун қадрли ва ардоқлидир. У аслида бизнинг давримиз учун курашган, ижодкор сифатида меҳнат қилган, нафақат курашган, балки жонини фидо қилган инсон, ижодкордир. У асарлари орқали яшайди. Унинг

асарлари илмий, тарбиявий ахамиятга эга бўлиши билан бирга мустақиллик катта қийинчиликлар билан қўлга киритилганлигини англашиб туради. Мустақилликни эъозлашга, кадрлашга чорлайди.

## SAKKOKIY LIRIKASI XALQCHILIGI

*Isroilov G'ayrat Boyzoq o'g'li,  
JDPI o'qituvchisi*

O'zbek mumtoz she'riyatining Navoiyga qadar etishgan yirik namoyandalardan biri Sakkokiy bo'lib, uning ijodi o'zbek mumtoz adabiyotining ravnaq topishiga ma'lum hissa bo'lib qo'shilgan. Bunga asos, nazarimizda, uni xalq og'zaki boy ijodidan, shuningdek salaflari asarlarini puxta o'rgangani va ulardan ijodiy oziqlanganligi, deb o'ylaymiz. Darhaqiqat, shoir ijodini kuzatar ekanmiz, uni o'zbek va fors-tojik tilidagi manbalarni puxta o'rganib chiqqanini va ulardan- o'z asarlarida ijodiy foydalanganligini ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa, xalq og'zaki ijodi Sakkokiy ijodining takomiliga juda katta ta'sir ko'rsatganki, biz quyida shoir ijodini shu jihatiga to'xtalamiz.

Xalq og'zaki ijodi barcha davrlarda insonlarning doimiy yo'ldoshi bo'lib, xalq badiiy ijodining ajoyib yodgorliklari barcha avlodlarning tafakkurini o'stirish, ularning estetik didini tarbiyalash, ma'naviy dunyosini boyitishda mislsiz katta ahamiyat kasb etgan. Sakkokiy ijodining gurkirab ketishida muhim omil bo'lgan ham xalq og'zaki ijodidan bahramandligidir. Hech kimga sir emaski, Sakkokiy – g'azalnavis shoir. Uning g'azallarida ishq, oshiqlik, hijron iztiroblari, visol lazzati, oshiq qalb kechinmalari juda ustalik bilan xalqona ohangda tasvirlanadi:

Kim ermas ul oy mubtalosi,  
Yolg'uz menga yo'q aning balosi.  
Tushti bu zaif jonimg'a dardi,  
O'lmaktin izin yo'q ul davosi[1;251].

Ko'rinib turibdiki, Sakkokiy g'azallar yaratishda, uning boy ichki imkoniyatlaridan samarali foydalana olgan, ya'nikim inson muhabbati, orzu-tilaklarini, dard-alamlarini, tabiat go'zalliklarini xalqqa yaqin holatda badiiy buyoqlarda, xalq qo'shiqlari ohangiga yaqin yo'lida, sodda ifodalay olgan:

Sentek jahonda ko'zlari ayni balo qani?  
Mentek aning balosi bila mubtalo qani?  
Irning aqiqi garchi jahonda yagonadur,  
Chehrai mengizli ham yana bir qahrabo qani?

Sakkokiy lirikasidagi g'azallarning aksariyati xalqona uslubda yozilib, ularda urf-odat, ibora va ifodalardan shoir juda mohirlik bilan, o'z o'rnida foydalangan:

Ko'rub gultek yuzung jon pora-pora,  
Jigar ham qildi ul qon pora-pora..  
Kularda ko'rsa og'zi birla tishin,  
Bo'lur gulnori xandon pora-pora.

Netong munda o‘zin chok etsa g‘uncha,  
Aningtek bo‘ldi chandon pora-pora [1;242].

Shoir g‘azallarida ma‘no va shakl birligini saqlab, so‘z o‘yinlari va qochirimlardan unumli foydalangan. Sakkokiy g‘azallarini o‘rganar ekanmiz, ularda xalqona ibora va ifodalar, maqol va hikmatli so‘zlarning ko‘plab uchratamiz:

Bale, bu ranju baloni men ixtiyor etdim,  
O‘zimga ishni o‘zum qildim, emdi ne chora [1;229].

Shoir e‘tirof etadigan ranj-u balo — oshiqlikdir. Ya‘ni yorni sevish, unga muhabbat bog‘lash lirik qahramonning ixtiyoriy ishi ekan, lirik qahramon o‘zimga o‘zim qildim, endi na chora demoqda. Barchamizga yaxshi ma‘lumki, endi ne chora, o‘zimga ishni o‘zim qildim kabi ifodalar xalq og‘zaki ijodida, og‘zaki so‘zlashuvda tez-tez qo‘llanishi bilan e‘tiborni tortadi. “O‘zimga o‘zim qildim”, “ko‘zi chiqsin”, “eson qol” singari xalqona ifodalar Sakkokiy g‘azallarining tiliga o‘ziga xos tarovat bag‘ishlagan.

Sakkokiy g‘azallarida Masiho (Iso) haqidagi diniy afsonalardan foydalanib, oshiq va yor munosabati bayonida juda go‘zal manzaralar yaratgan. Sakkokiy g‘azallarida yor-masihodam. Uning zulfi, nortek yangoqing oshiqni bemor qiladi. Biroq dami (nafasi) unga shifo beradi:

Iso damining bor asari har nafasingda,  
Jon dardina, ey xulqi davo, bizni unutm [1;236].

Shoirning tasvirida yor-go‘zal, latofatli va dilrabo. Uning husn-jamoli oy va quyoshdan, chamanzor gullaridan ham ziyoda, yorning qomatiga na sarv va na sanobar, uning og‘ziga na pista va na g‘uncha, labiga na la‘l va na yoqut, ko‘ziga na ohu va na nargis, zulfiga na sunbul va na rayhon tenglasha oladi.

Gulyuzungni orzulab yuz, ko‘zni gulzor ayladi,  
Shakkar erningni tilab jon tanni afgor ayladi.  
Oymudur yuzung, yoxud xurshedi tobon, ey sanam,  
Bor aningtek shu‘lasi ko‘zlarni bekor ayladi..  
Ey Masihodam begim, bir dam bila bergil shifo,  
Sheva birla ko‘zlaring jonimni bemor ayladi [1;278].

Sakkokiy g‘azallarida sevikli yor hajri bilan bog‘liq tuyg‘ularini Layli va Majnun taqdiriga qiyosan tasvirlar ekan, ular qissasi bizning muhabbat oldida eskirdi, deydi:

Devonaliqqa soldi meni zulfungu ko‘zung,  
Bo‘ldi magar bu yo‘lda menga haq hidoyati.  
Bizdin eshitsun emdi jahon toza qissalar,  
Chun ko‘hna bo‘ldi Layliyu Majnun hikoyati [1;267].

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Sakkokiy g‘azallarida so‘z o‘yinlari, qochirim, xalqona ibora, ifodalar, maqol, hikmatli so‘zlar va diniy afsonalardan foydalanib, oshiq va yor munosabati bayonida juda go‘zal manzaralar yaratgan. Bular Sakkokiyning o‘zbek adabiyoti uchun qo‘shgan munosib hissasidir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Hayot vasfi. Sakkokiy. G‘azallar, qasida – T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1988.

**ERKIN VOHIDOV IJODINING O‘ZIGA XOS QIRRALARI**

*Jo‘rayev Shukrullo Alishboyevich,  
JDPI o‘qituvchisi*

“Adabiyot xalqning yuragi, elning ma’naviyatini ko‘rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar pul topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta’sirchan kuchidan foydalanish kerak. Ajdodlar merosini o‘rganish, buyuk madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot uchun hamma sharoitlarni yaratamiz”[1;12] 2020- yil 20- may “Adiblar xiyoboni” ochilishida aytib o‘tgan edi, prezidentimiz Sh.Mirziyoyev.

Xiyobonda Navoiy, Bobur, Ogahiy, Muqimiy, Furqat, Avloniy, Behbudiyalar qatorida XX asr o‘zbek adabiyoti darg‘alari Qodiriy, Cho‘lpon, Oybek, Hamid Olimjon va Zulfiya, Abdulla Qahhor, Said Ahmad va Saida Zunnunova, G‘afur G‘ulom, Ozod Sharafiddinov, Abdulla Oripovlar qatorida, XX asr ikkinchi yarmi o‘zbek adabiyoti rivojida o‘zining munosib o‘rniga ega Erkin Vohidovning o‘rin olishi adib ijodi davlatimizda o‘z o‘rniga ega ekanligidan dalolat beradi.

“Chinakam badiiy asar shoirning yurak bilan yolg‘iz qolib suhbatlashishi. Hozir jo‘n nasihat zamoni emas. “Ey birodarlar, ko‘proq kitob o‘qinglar!” degandan ko‘ra o‘sha kitobni yozish kerak. “Teatrga ko‘proq tushinglar, televizorni ham tez-tez ko‘rib turinglar” degandan ko‘ra ularning ma’naviy saviyasini balandroq ko‘tarish lozim. Kerak bo‘lsa shoirning o‘ziga dars berib qo‘yadilar” “Yuraklarni larzaga soladigan she’riy so‘zing bo‘lmasa to‘g‘richa gapingni to‘g‘richa ayt qo‘y. Undan ham yaxshisi sukut qil”[2;123] deydi, 1993- yil “Vatan” gazetasiga bergan maqolasida. Bundan ko‘rinadiki, adibning ma’naviyat, she’riyat, bilim haqidagi qarashlari qanchalar dolzarb voqeylik ekanligi bugungi kunda jamiyatimizda insonlar hayotida bilimga bo‘lgan dunyoqarash insonlarning bozor munosabatlari jamiyatida bir muncha pasayganligi ma’naviyat esa telekanallarimiz orqali berilayotgan ayrim qo‘shirnoq orasidagi seriallar hamda ko‘rsatuvlar orqali nomoyon bo‘lmoqda, desak, aslo yanglishmaymiz.

Bu so‘zlarning isboti sifatida adibning “Lekin ko‘nglimda bir hadik bor: Amerika va Ovruponing bozor sharoitida yashayotgan ko‘plab davlatlarida bo‘lib, shu narsaga iqror bo‘ldimki, bozor qonunylari hokim bo‘lgan yurtda adabiyot va san‘atning qadri bir qadar past bo‘ladi. Tirikchilik ketidan quvib ketib, ma’naviyatdan uzilib qolmasak edi. Bu marakkab muammo. Goho vatan nomukammal bo‘lib qolmasaydi, degan tashvishli hayollar orom bermaydi.”[3;23]

Darhaqiqat, Vatanimiz oxirgi o‘ttiz yilda qanchadan qancha yutuqlarga erishdi, iqtisodiy hamda ijtimoiy islohotlar o‘z samarasini bermoqda. Sportchilarimiz, bilimli yoshlarimiz jahon miqyosida vatanimiz bayrog‘ini



yuksaklarga olib chiqishmoqda. Shuni ham aytib o'tish lozimki, ma'naviyat tushunchasi insonlar orasida mavqeyi jihatidan bir muncha orqada tasavvur etiladigan tushunchaga aylanganligi hech birimizga sir emas. Bozor munosabatlari jamiyatida odamlar tirikchilik tashvishlari bilan tarbiyalangan avlod ongida Vatan tushunchasi ham nomukammal tushunchaga aylanayotganligi ham bugungi jamiyatimizga yod tushunchalar qatorida emas.

Erkin Vohidov ijodini kuzatar ekanmiz, undagi falsafiy teranlik, yorqin poetik obraz va badiiy san'atlar, milliy tafakkur va xalqona donishmandlik kabi qirralarni ko'ramiz. Bularning hammasini shoirning yuksak saviyadagi poetik tasvir vositalarini qo'llash mahorati orqaligina ro'yobga chiqqanligini anglash qiyin emas. Shoir she'riyatidagi poetik tasvir vositalari, xususan, she'riy nutq qurilishidagi so'z tanlash va ularning badiiy matnda mohirona ishlatilishi nafaqat adabiyotshunoslarni, balki keng kitobxonlar ommasini ham bahs-munozaraga chorlaydi. Erkin Vohidov ijodi ko'pdan beri ilmiy jamoatchilik, adabiy tanqidchilik e'tiborini o'ziga tortib keladi. Shoir lirikasi va ayrim asarlari haqida Ozod Sharafiddinov, Umarali Normatov, Ibrohim G'afurov hamda Usmonjon Qosimov singari yetuk tanqidchi-adabiyotshunoslarning ilmiy tadqiqotlari, yana bir qancha olimlarimiz tomonidan yaratilgan maqolalar mavjud. Ammo hozirgi kunga qadar Erkin Vohidov badiiy publitsistikasi, adibning badiiy ijod, so'z qadri va ularni qo'llashdagi muallif mahorati kabi muammolarga bag'ishlangan publitsistik maqolalari yetarlicha tadqiq qilingan emas.

Adib tomonidan 1993-yil 22-iyunda "Xalq so'zi" gazetasiga bergan javoblarida shunday deydi. "Ruhlar isyoni"da shunday satr bor: "Iste'dodning tabiati isyondir". Bu dunyoda shoir bor – isyon bor. Haqiqiy shoir ko'rgan kuniga qanoat qilib, bir joyda to'xtab qola olmaydi." [4;234]

Shunidek adib mustabid tuzum sharoitida ham o'zining haq so'zi bilan el orasida e'tibor qozonganini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Yozuvchi o'z she'riy asarlarida hamisha haq gapni aytishga intildi. Buning yorqin misolini shoirning "O'zbekim" qasidasida ko'rishimiz mumkin, o'z vaqtida xalq o'rtasida og'izdan tushmaydigan bo'lib qolgan edi. Bu qasida 1968-yilda chop etilgan bo'lib, muallif she'riyatining eng avj pallasini hisoblanadi. Sharq mumtoz she'riyatida qasidalar asosan podshohlar, amir-u xonlar sha'niga, ular tomonidan amalga oshirilgan ezgu amallarni olqishlash maqsadida bitilardi. Erkin Vohidov esa ona xalqi – o'zbekimga qasida bag'ishlaydi. Bu shoir ijodidagi dastlabki badiiy publitsistik isyon deya baholasak yanglishmagan bo'lamiz, negaki, bunday ijodiy jasorat shunisi bilan alohida ajralib turadiki, qasida yozilgan davr sobiq sho'ro mustamlakasi barcha millatlar «sovet xalqi» degan umumiy, sun'iy nom bilan atalar, insonlarning ma'lum bir millat vakili ekani bilan faxrlanishlari millatchilik deya atalib, bunday ijod na'munasini yaratgan ijotkorlar ham siyosiy ham ijtimoiy taziq ostiga olinar edi. Ko'rinib turibdiki adib ijodi iste'dodining dastlabki isyoni ayni "O'zbekim" qasidasida ulkan bir portlash ko'rinishida, so'z qudrati, millat qudrati, ijodkorning mahoratida yaqqol ko'rinadi deb aytsak aslo yanglishmaymiz.

Bu o'rinda qasidani maxsus sharhlab o'tirishga hojat yo'q: u haqda ko'p yozildi. "Asar darsliklardan joy olgan. Millatning sha'ni-g'ururi toptalgan, tarix

darsliklarimizda xalqimizning shonli o‘tmishi qora bo‘yoqlar bilan bulg‘angan, har tongda kuylanadigan davlat madhiyasi ulug‘ og‘aga, partiyaga hamdu sanolar bilan boshlanadigan zamonlarda kechmishning shonli sahifalarini ulug‘lovchi “O‘zbekim” qasidasi g‘ayrirasmiy milliy madhiyaga aylandi.”[5;43] Ehtimol, uning she‘rlarida yuzaki o‘rinlar bordir, ammo adib hech qachon yolg‘on gap aytmagan, mustabid, mafkura, siyosat nog‘orasiga o‘ynab vijdonini sotmagan, murosasozlik yo‘liga kirmagan. U o‘tkinchi mayllarga berilmay, so‘z san‘atining azaliy muammosi – shaxs jumbog‘i, ijtimoiy adolat tuyg‘usi ifodasi bilan qiziqdi.

Muallif qo‘lidagi qalam go‘yoki yozmaydi, balkim qalami uchidan so‘zlar musiqa singari quyilib keladi uning she‘rlari yakka so‘zda chalingan dilrabo kuydek yangraydi, ko‘p ovozli simfoniyani eslatadi, publitsistik maqolalarini o‘qiganda inson ko‘ngil xazinasining, tuyg‘ularining xilma-xil jilolari mujassam, oddiy maishiy kechinmalardan tortib ulkan ijtimoiy mushohadalar, qabohatlar haqida qalam tebratganda ham ajib samimiyat, hazin va nurli bir kuy aks-sado berib turadi.

80-yillarga kelib Erkin Vohidov ijodida milliy adabiyotimiz istiqboli uchun muhim ahamiyatga molik yangi tamoyillar ro‘y berdi.

“Yani, avval So‘z kelgan, Ollohning “bo‘l” degan nidosi kelgan va mayda zarrachalar olamidan yangi Olam yaralgan. Agar shu ilohiy So‘z kelmaganda olam kukunligicha qolgan bo‘lardi”[6;56] Adib ijodida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan bu asar ijodkorning butun bir hayotidagi so‘z bilan bo‘g‘liq bo‘lgan o‘y-hayollar, ilmiy-nazariy qarashlar, insoniy kechinmalar, qadriyat va urf-odatlar, milliy madaniy shuningdek diniy qarashlarda o‘z aksini topgan. Shuningdek inson va insoniyat hayotida so‘zning naqadar katta ahamiyatga ega ekanligi, millatlarni bir biriga bo‘g‘lovchi va shu bog‘lash orqali butun insoniyat bir-biriga naqadar kuchli bo‘g‘langanligini chuqur his etishga qaratilgan asosli qarashlari o‘z aksini topgan. Erkin Vohidov shaxsiyati va ijodi butun O‘zbek xalqi tomonidan qanchalik qadrlanishi va e‘zozlanishi, asarlari xalqning barcha qatlamlari tomonidan sevib o‘qilishi hech qanday isbot talab etmaydigan haqiqat ekanligi barchamizga ayon, shuni alohida aytib o‘tish joizki adibning qanchalik serqirra ekanligini u tomonidan yaratilgan sheriy hamda nasriy asarlarida ko‘tarilgan mavzular misolida ko‘rishimiz mumkin jumladan; “So‘z latofati” kitobida “Ibtido”, “Uch daryodan suv ichgan dengiz”, “Bo‘yinbog‘ desang o‘larmiding”, “Axiy men bitdim”, “Kenguru va belmes” kabi ilmiy nazariy qarashlari jamlangan maqolalari adibning naqadar falsafiy va ilmiy dunyo qarashga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Yozuvchi, o‘zining nafaqat eng sara asarlari bilan balki, o‘zining badiiy publitsistik maqolalari bilan ham kitobxonlar qalbini zabt etganligini ham alohida takidlab o‘tishimiz lozim, shuningdek adibning radio va televideniya orqali jiddiy chiqishlar shuningdek, matbuotda birin-ketin o‘tkir publitsistik maqolalar e‘lon qildi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Erkin Vohidov “So‘z latofati” 2014-yil, 34-b.
2. Ximik1991 ochiq ensiklopediya 1999-y. 56-bet.

3. 2020 yil 20 may “Adiblar hiyoboni” ochilishidagi aytib o‘tgan edi prezidentimiz Sh.Mirziyoyev
4. Hoshimov O‘. O‘zbeklar.-T: O‘qituvchi. 2006 yil
5. Karimov A. Barkamol avlod-O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T: Sharq. 1997 yil
6. Erkin Vohidov asarlar 6-jild “Erk saodati” “Sharq” 2018 y
7. Erkin Vohidov “So‘z latofati” 2014 y. Toshkent. 5-bet

## DRAMADA DIOLOGIK NUTQ XUSUSIYATLARI

*Islomov Jo‘rabek Soxibnazarovich,  
SamDU stajyor-tadqiqotchisi*

Keyingi yillarda badiiy adabiyotimizda turfa xil ohangdagi va turli janrdagi yuksak mahorat bilan yaratilgan asarlar maydonga keldi. Shunday ekan, ushbu asarlarni tahlil qilish jarayonida badiiy asarlardagi o‘ziga xos talqin usuli, yozuvchi poetik mahoratini tahlil qilish bugungi adabiyotshunosligimizning dolzarb muammolaridan biriga aylanmoqda.

XX asrning 70-80- yillariga kelib adabiyotda yangi bir to‘lqin shakllandi. Bu davr yozuvchilari ijodida mumtoz adabiyot an‘analariga va milliylikka intilish bilan bir qatorda, yangicha adabiy tafakkur shakllanib, badiiy obrazlar silsilasida turmushni tubdan o‘zgartirishga harakat qilgan zamonaviy qahramonlar badiiyatda o‘z aksini topa boshladi. Bu davr qissachiligida Murod Muhammad Do‘st, Tog‘ay Murod, Erkin A‘zam, Xayriddin Sulton, G‘offor Hotam kabi ijodkorlar bu janr taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shdi. Ularning badiiy asarlarida milliy o‘zlikni anglash, ijtimoiy muhitga qarama-qarshi obrazlar tizimi maydonga keldiki, ularda yashashni ma‘nisini anglashga bo‘lgan intilish o‘z aksini topdi. O‘tgan asrning yetmishinchi yillarida adabiyotimizga yangi avlod kirib keldi. Bu avlod badiiy adabiyotdagi turfa xil o‘zgarishlarni asarlar tarkibiga singdirgan. Ana shunday ijodkorlardan biri iste‘dodli yozuvchi Erkin A‘zamdur.

Darhaqiqat, Erkin A‘zam ijodni qismat deb bilgan ijodkorlardan biridir. Adib asosan qissa, hikoyalari va dramalari bilan kitobxon qalbiga yo‘l topa olgan so‘z san‘atkorlaridan biridir. Keyingi yillarda yozuvchining “Shovqin” romani chop etildi. Asar haqida bir nechta maqolalar e‘lon qilindi. Yozuvchining bu romani ramziylikka asoslangan bo‘lib, noan‘anaviy xarakterdagi asarlardan biridir. Romanda hayotning ma‘lum bir qirrasini o‘z uslubi nuqtayi nazaridan aks ettirishga intiladi. Turli janrlar taraqqiyotidagi o‘zgarishlar adib ijodidagi qissa janrida ham ko‘zga tashlanadi. Keyingi yillar qissachilik haqida so‘z yuritgan adabiyotshunos Umarali Normatov shunday yozadi: “Bugungi qissachiligimizga nazar tashlaganda birinchi galda undagi mavzu muammo, shakliy, uslubiy jihatdan rang–baranglik e‘tiborni tortadi; ular orasida tarixiy, zamonaviy, ijtimoiy–siyosiy, oilaviy–maishiy, ishqiy mavzulardagi hamda an‘anaviy romantik, realistik, ham modernistik, ham jiddiy, ham yumoristik, sarguzasht–dedektiv yo‘nalishdagi asarlarni ko‘rish mumkin, turli saviyada bo‘lishidan qat‘iy nazar rang–baranglikka

ne yetsin” [1, 47-bet]. Qayd qilinganidek, bu janrdan mavzu jihatdan turli qissalar yaratildiki, unda inson ruhiyati, xarakter xususiyatlari talqin qilingan.

Inson o‘zini anglashi, uning tevarak – atrofidagi narsa – hodisalarga qarab zavqlanishidan, badiiy asarlarni o‘qib hayratlanishidan boshlanadi. Chunki qo‘shiq, kuylarni tinglash, kartina, filmlarni tomosha qilish umuman san’atdan hayratlanish natijasida kishining qalb qandili, tafakkur dunyosi kengayib boradi. Ana shu jihatdan iste’dodli yozuvchi Usmon Azim yaratgan badiiy asarlar inson tafakkur dunyosini kengayishiga va boyib borishiga xizmat qiladi. Adabiyotshunos A. Ulug‘ov qayd qilganidek: “Hayot hodisalari to‘g‘risida o‘ylash, jumladan adabiyot asarlari haqida mushohada yuritish har bir kishining ongini o‘stirib, dunyoqarashini kengaytiradi. Dunyoqarashi keng kishi esa hayotga boshqalardan ko‘ra teranroq nazar tashlaydi” [2, 5-bet].

Badiiy asarlarni yaratish jarayonida hayotga va voqellikka bo‘lgan munosabati obrazlar tizimi orqali namoyon bo‘ladi. “San’atkor badiiy obraz vositasida dunyoni anglaydi, o‘zi anglagan mohiyatni va o‘zining anglanayotgan narsaga hissiy munosabatini ifodalaydi. Shu ma’noda obraz adabiyot va san’atning fikrlash shakli, usuli sanaladi; obrazlar vositasida fikrlagani uchun ham adabiyot va san’atga xos fikrlash tarzi “obrazli tafakkur” deb yuritiladi” [3, 63-bet]. Badiiy obraz borliqning badiiy asardagi inikosidir. Biroq badiiy obraz o‘sha borliqning oddiygina aksi emas, san’atkor ko‘zi bilan qaralgan va badiiy talqin etilgan shaklidir. Shu jihatdan, yozuvchi Erkin A’zam asarlarida hayotni turfa xil jihatlarini badiiy talqin etish, turfa xil xarakterdagi obrazlarni yaratish xususiyati yetakchilik qiladi.

Turfa xil janrlarda ijod etgan iste’dodli yozuvchi Erkin A’zamning “Suv yoqalab”, “Zabarjad”, “Jannat o‘zi qaydadur”, “Shajara” kabi bir qator dramatik asarlari istiqloq davri dramaturgiyasining taraqqiyotiga katta hissa bo‘lib qo‘shildi. Adibning qayd qilingan dramalarida hayotning turfa xil qirralari, inson tafakkuridagi evrilishlar o‘z ifodasini topgan.

Adabiyotshunos olim H.Abdusamadov qayd qilganidek: “Mustaqillikdan nur va ilhom olgan o‘zbek dramaturglari o‘zlarining ijobiy milliy an’analarini, ijodiy tajribalarini saqlagan holda, yangi davrda o‘zlariga xos rivojlanish yo‘lidan bormoqdalar va eng qiyin adabiyot turida talaygina sahna asarlarini yaratdilar va yaratmoqdalar” [4, 107-bet].

Darhaqiqat, istiqloq davriga kelib, istedadli dramaturg Erkin A’zam dramatik asarlarni mavzu jihatdan kengaytirdi. Bir qator adiblar hayotining fojeali qirralarini dramatik asarlar orqali aks ettirdi. Mukammal badiiy xarakterlar asosida ularning badiiy siymosi kitobxon ko‘z o‘ngida jonlantirildi.

Iste’dodli shoir, adabiyotshunos olim A. Soliyev alohida qayd qilib o‘tganidek: “Dramatik asarlardagi ko‘pchilik hollarda xarakter shakllangan bo‘ladi. Epik asarlardagi kabi rivojlanish jarayonida ko‘rsatilmaydi. Chunki dramatik xarakterning sahnada o‘y surisiga, xayolga berilib ketishiga vaqt yo‘l bermaydi. Tomoshobinga shakllangan xarakter taqdim etilishi lozim” [5, 106-bet].

Yuqorida asosli qayd qilinganidek, dramatik asarlar tarkibida badiiy xarakterlarni yaratish ijodkordan juda katta badiiy mahorat talab etadi. Ana shu



jihatdan shoir va dramaturg Erkin A'zamning dramatik asarlarida badiiy xarakterlarni talqin etish jarayonida inson ruhiyatidagi o'zgarishlarni, botiniy olamidagi ziddiyatlarni, ijtimoiy muhit va shaxs o'rtasidagi qarama – qarshiliklarni badiiy mahorat bilan aks etirganligini kuzatishimiz mumkin. Shu jihatdan adibning dramatik asarlarida xarakterlarni talqin etar ekan, dialog va monologlardan o'z o'rnida foydalaniladi. Xuddi mana shu xususiyat adib dramalaridagi o'ziga xoslikni namoyon qiladi.

Dramaturg Erkin A'zamning “Jannat o'zi qaydadir yohud Jiydalidan chiqqan Jo'raqul va uning xonadonida kechgan savdolardan naql etuvchi ikki qismli dramatik qissa” da bir qator obrazlar mavjud. Drama tarkibida Domla yoki Ustoz – sobiq markschi olim, akademiklikka da'vogar, e'tiqodidan qaytmaydigan odam, 60 yoki 65 yoshlarda bo'lib, uning o'ziga xos xarakteri mavjud.

Muallif dramadagi remarka orqali asarning birinchi manzarasida uni quyidagicha tanishtiradi: “Shahar yaqinidagi chorbog' – dacha. Qo'shqavat imoratning faqat biqini ko'rinadi. Hovli o'rtasida kattakon jimjimador chorpoqa. Xontaxaning gird – atrofi ko'rpa – ko'rpacha, yostiqlar. To'rda, bizga ko'rinib – ko'rinmay bir kishi yonboshlab yotibdi. Uxlayapti, chamasi. Imorat daraxtzor bog'ga qaragan. Beriroqda – tepasi rangdor shifer bilan yopilgan omonat o'choqboshi. O'sha tarafda – darvozaxonadan nari xilvatroq joyda tizza bo'yi marmar qoplangan inshootning bir burchagi ko'zga chalinadi. Basseyn, ko'm – ko'k suvi mavjlanib turibdi. Darvozaxona ustidagi bejirim panjarali ko'shksimon shiyponda Domlamiz makon qurgan. Stol – stul, choynak – piyola. Bir yonda savatdan yasalgan tebranma kursi. Domla ko'zoynagini peshonasiga ko'tarib devor osha ko'cha tomondagi kim bilandir so'zlashmoqda. Qo'shni shekli”. Bu remarkada asar qahramoni bo'lgan domlanning uyi bilan kitobxonni tanishtirishga intilmoqda. Asar qahramonining makoni orqali uning o'ziga xos dunyosini, xarakter xususiyatini ifodalashga intilgan. Ana shu jihatdan ham, inson ruhiyatidagi o'ziga xos ma'lum bir qirralarni talqin etadi:

– Domla. Yig'in ham qilib turasizlarmi? Chatoq – ku. Qanaqa yig'in ekan?

- Qo'shni (ovozi). Rostmi, yolg'onmi, akademiyaga saylov bo'larmish, degan gap chiqib turibdi.

- Domla (beixtiyor jonlanib). Yog' – e? Zo'r – ku! Anchadan beri paysalga solib kelinayotuvdi o'zi...

- Qo'shni (ovozi). Yana bir urinib ko'rmaysizmi, domla? Qilingan xizmatlar yetarli bo'lsa! Gardkamiga – da!

- Domla (ikkala qo'lini taslimona ko'tarib). Bas endi, inim! Tovba qildik! O'zingiz aytasiz – ku, foydasi yo'q, foydasi yo'q deb. Shu gap –da. Bir yozuvchimidi, “Endi meni bukaman deb sindirib qo'ymanglar tag'in” degan ekan. Yaxshi aytgan! O'zimizni qo'chqor sanamasak ham, shoxlar sinib tamom bo'lgan, uka.

- Qo'shni (ovozi). Qo'y bo'pqolganmiz deng?

- Domla. Undan ham battari! Endi yoshlar ko'rsin bu yog'ini. Mana, o'zingiz harakat qiling. Fan do'xtiri, professor!” [6, 154-155-betlar].



Bu matn tarkibidagi dialog nutq orqali, har ikki shaxsning o'ziga xos davr haqidagi qarashlari, qahramonlarning ruhiy dunyosi, odam va olam haqidagi mulohazalari o'z aksini topgan. Drama tarkibidan o'rin olgan qo'shni va domla o'rtasidagi dialogik nutq jarayonida hayot haqidagi fikrlari juda asosli ifodalangan.

Xullas, iste'dodli adib va dramaturg Erkin A'zam ijodining badiiy poetik xususiyatlari keyingi yillar badiiyatidagi o'ziga xosliklarni, qahramon ruhiyatini yoritishdagi mahorati va hayot voqeligini juda teran mujassamlashtirganligi bilan ham alohida ajralib turadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Норматов У. Умидбахш тамойиллар. – Тошкент. «Маънавият», 2000. 47-бет.
2. А. Улуг'ов. Qalb Qandili. Adabiy – tanqidiy maqolalar. – Toshkent, “Akademnashr”, 2013. 5-бет.
3. D. Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent, “Fan”, 2007. 63-бет.
4. Ёўлдошев Қ. Ёник сўз. – Тошкент., “Янги аср авлоди”, 2006. 62-бет.
5. Abdusamadov H. Istiqlol va dramaturgiya. Qarang: Mustaqillik davri adabiyoti. – Toshkent, 2006. 107-бет.
6. Erkin A'zam. Jannat o'zi qaydadir. Hikoyalar, kinoqissalar, dramatik asar va publisistik miniaturalar. – Toshkent, “Sharq”, 2007. – 286 bet.

#### “HAKIM VA AJAL” DOSTONIDA IBN SINO OBRAZINING BADIY TALQINI

*Burxonov Zavqiddin Sherali o'g'li,  
JDPI ijtimoiy - gumanitar fanlarda  
masofaviy ta'lim kafedrasi o'qituvchisi  
Janibekova Gulmira Nurilla qizi  
JDPI Sirtqi (maxsus sirtqi) bo'limi  
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi*

“Hakim va ajal” dostoni buyuk mutafakkir, tibbiyot fanining atoqli namoyandasi Abu Ali Ibn Sino hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan asarlardan biri hisoblanadi. Asar Ibn Sino tavalludining 1000 yilligiga bag'ishlab yaratilgan.

“Hakim va ajal” dostonida hikoya qilinishicha, Abu Ali Ibn Sino uzoq yillar davomida tibbiyot sohasida haddan ziyod aziyat chekib, mehnat qiladi. Ko'p izlanishlar natijasida buyuk kashfiyot yaratadi – o'lmaslikning davosini topadi. Biroq g'arazgo'y va shuhratparast shogird Mirzo o'z ustozining olamshumul kashfiyotiga hasad bilan qaraydi. U Abu Ali Ibn Sinoga qarab behayolik bilan:

Men – iblisman, odamlarning o'zidan chiqqan,  
Sen – zakosan, yo'qdir seni ko'rarga ko'zim,-

deydi. Bu nokas shogird ustozini Ibn Sino kashf etgan noyob, hayotbaxsh dorini qasddan yo'qotadi. Abdulla Oripov “Hakim va ajal” dostonida ana shu dramatik voqeani afsus va nadomatlar bilan tasvirlab, hasadgo'ylik va baxillikni,

yovuzlik va ichiqoralikni fosh etadi. Shu asosda insoniylikni, ilm va zakovatni ulugʻlab, insonlar bir-biriga beminnat va betaʼma yaxshilik qilishi lozim degan falsafiy fikrni obrazli ravishda izhor etadi.

Dostonning hech bir oʻrnida Ibn Sino nomi tilga olinmasada, lekin asarda aynan Ibn Sino hayoti aks ettirilganligini anglash qiyin emas.

Juda qadim zamonlarda,

Ming yilcha burun,

Buxoroning shundoqqina Afshonasida...

Chorva bilan mashgʻul edi ota-onasi,

Tiriklikdan kamtargina kom olgan edi.

Lekin shundoq oilaning oʻsha bolasi

Yosh boshidan Hakim degan nom olgan edi. [1.49]

Yuqoridagi satrlar bilan doston boshlanadi. Ilk satrlardanoq xushyor kitobxon gap kim haqida ketayotganligini anglashi qiyin emas. Mazkur misralarda "Buxoroning shundoqqina Afshonasida" deyish orqali Ibn Sinoning tugʻilgan zaminiga ishora berilsa, "Yosh boshidan Hakim degan nom olgan edi" misralari orqali esa Ibn Sino hazratlarining mashhur tabib ekanligiga urgʻu beriladi. Toʻgʻri dostonda aniq tarixiy faktlar, maʼlumotlar berilmaydi, lekin shunday boʻlsada buyuk tarixiy shaxs Ibn Sino obrazi yaqqol asarda oʻz aksini topgan. Chunki Abu Ali Ibn Sino haqidagi juda aniq va ishonarli tarixiy manbalarning kamligi ham muallifning xuddi shunday yoʻldan borishiga izn beradi.

Abdulla Oripov dostonda koʻproq Ibn Sinoning insoniy fazilatlariga alohida eʼtibor qaratishga harakat qilganligiga guvoh boʻlamiz. Chunki dostonda Ibn Sino oʻziga juda katta dushmanlik qilgan, uning oʻz vatanidan quvilishiga sabab boʻlgan Mirzoni kechiradi va oʻz xizmatiga oladi. Sababi Hakim Mirzo siymosida oʻz vatanini koʻradi, vatan sogʻinchi Hakimning Mirzoni kechirishiga asos qilib tasvir etiladi:

Hakim dili allanechuk guvrandi shu dam,

Bamisoli eshitganday bir soʻz – jon fizo.

Eshik tomon yoʻnaldi u shoshib, bechidam,

Ostonada turar edi bosh egib Mirzo. [1.63]

Muallif mazkur dostonda tarixiy haqiqatdan chekinmagan holda koʻproq badiiy toʻqimadan foydalanganligiga guvoh boʻlamiz. Doston xuddi xalq ogʻzaki ijodiga xos boʻlgan ertaklar kabi oʻqiladi. Chunki asarda tarixiy muhim sanalar, murakkab ismlar, joy nomlari, aniq tarixiy voqealarga eʼtibor qaratilmasdan asosan Ibn Sinoning insoniy, ezgu orzu-niyatlariga alohida eʼtibor beriladi. Xuddi shu jihat asarning ommabopligini, badiiy yuksakligini taʼminlashda muhim rol oʻynagan. Dostonni oʻqish davomida uzoq tarixga sayohat qilish barobarida inson, umr mohiyati, inson ruhiyatidagi umrboqiylikka boʻlgan intilish va havas, yahshadan maqsad, tubanlik va yaxshilik, sevgi va rashk kabi falsafiy, insoniy tuygʻular haqida mushohada yuritimiz. Albatta, asardagi yuqori badiiy tasvir kitobxonni oʻziga jalb etmasdan qolmaydi.

Dostonda oddiy yosh Hakimning malikaning dardiga davo topishga harakat qilishi va bu jarayonda shohning eʼtirofiga sazovor boʻlib, butun saroy

kutubxonasidan to'liq foydalanish baxtiga musharraf bo'lishi jarayoni Hakimning ruhiy kechinmalari bilan bir butunlikda aks ettiriladi:

Bunda asriy qo'lyozmalar, devonlar noyob,  
 Ilmi nujum, ilmi she'r-u ilmi tib bari.  
 Qancha – qancha hikmatlarda jam bo'lgan kitob,  
 Bunda edi inson aqlin javohirlari. [1.53]

Hakim necha yillik armonlarining ijobat bo'lishi orqali biz bosh qahramonning nechog'lik ilmga, ziyo va tafakkurga tashna zot ekanligiga amin bo'lamiz. Bu bilan muallif tarixiy haqiqatga sodiqligini ko'rsatadi. Chunki tarixiy manbalarda, haqiqatan ham, Abu Ali ibn Sino o'z kasbiga sadoqati va bilimdonligi tufayli juda ko'plab shoh va amirlarning e'tirofi hamda e'zoziga musharraf bo'lganligini kuzatishimiz mumkin.

Hakim Mirzoning riyokorligi, tuhmatlari tufayli saroy kutubxonasini yoqib yuborganlikda ayblanib bir umrga o'z ona Vatani bo'lmish Buxorodan quvg'in qilinadi. Ammo yillar, oylar o'tsada Hakim o'z onasi va tug'ilib o'sgan Afshonasini bir daqiqa bo'lsada xayolidan chiqarmaydi. Uni Vatan va ona sog'inchi qiynaydi. To'g'ri Hakim o'z kasbi va chuqur bilimga egaligi bilan borgan har bir manzilida davo istagan bemorlar dardiga davo topadi, umrlariga umr qo'shadi va uzoq o'lkada xalifaning e'tirofiga sazovor bo'lib, vazir darjasiga erishadi. Lekin shunday bo'lsada Hakim baxtiyor emas edi. Chunki uni har daqiqa ona diydori, Vatan sog'inchi, ishq tinch qo'ymas edi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdulla Oripov Jannatga yo'l. –T: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018 yil, 49-bet.
2. Abdulla Oripov Jannatga yo'l. –T: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018 yil 63-bet
3. Abdulla Oripov Jannatga yo'l. –T: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018 yil 53-bet

#### ЭДГАР АЛЛАН ПО - МАГИК РЕАЛИЗМ УСТАСИ

*Ҳалимов Салоҳиддин Самиевич,  
 ҚарДУ мустақил тадқиқотчиси*

Жаҳон адабиёти дурдона асарларининг нотакрорлиги, қизиқарлилиги, таъсирчанлиги уларнинг бир-биридан ранг-баранг адабий услубларда, реалистик ёки романтик, мифологик ёки мажозий йўналишларда яратилганлиги билан эътиборни тортади. Шулардан бири магик реализм услубидир.

“Магик” сўзи “мўъжиза”, “мўъжизавий” маъносига эга. Мўъжизавийликда ўта қизиқарли, кутилмаган, ҳатто тасаввурга сиғмайдиган воқеликлар, нарса, сюжет тизими, шайтон, алвасти, дев, аждаҳо, наҳанг

тимсоллари билан боғлиқ ҳодисотлар талқини билан алоқадор асарлар назарда тутилади.

Эдгар Аллан Понинг сирли-ғаройиб, қўрқинчли, кутилмаган сюжетлар асосига қурилган асарлари магик реализм услубига хослиги билан ҳам эътиборни тортади. Мавлуда Иброҳимова ”Эдгар По асарлари сири, услубидаги ҳайратомуз жиҳатлар ҳанузгача том маънода таҳлил қилинмаган, ечилмаган. У адабиёт намояндаларини бугунга келиб ҳам ҳайратга солмоқда”, - деб ёзади [2.33].

Эдгар По асарларининг сири, услубдаги ҳайратомузлик поэтикаси кўпчилик китоб шинавандаларини қизиқтириб келаётган ноёб адабий ҳодиса.

Магик реализм услубидаги мажозий-фантастик руҳдаги адиб асарларидан бири “Вақт ўроғи” номли ҳикоясидир.

“Ажойиб, фусункор шаҳар Эдинани сайр этишга чиққанимда оромли, фараҳбахш оқшом тушаётган эди. Кўчалар гавжум, ҳар ёнда ғала-ғовур, одамлар бир-бирига туртиниб-суртиниб, қаёққадир ошиқишади. Хотин-халаж бақириб-чақиришади. Болалар қийқиришади. Чўчкалар чийиллаб, хуриллишади. Аравалар ғижирлайди. Хўкизлар бўқиришади. Сигирлар мўърашади. Отлар кишнашади. Мушуклар миёвлашади. Итлар қувалашиб ўйнашади. Эвоҳ, мен эсам ўйнаёлмайман. Бундан жуда маъюсландим. Ҳа, ҳаёт ўзи шунақа” [3.176].

Ҳикоя шундай ёрқин ҳаётий фаолият оғушидаги шаҳар тасвири билан бошланади. Ҳаракат, интилиш, турли жониворлар ўйини оқбилак хоним Рухия Зенобия кўнглида эса изтироб туйғусини уйғотади. Аслида у сайру томошага ўта ўч, кўнгилхушлик мафтунли. Адиб тасвирлаётган бунчалик фойзли шаҳар манзараси остида муҳим ғоявий мақсад мужассамлигини сезиш қийин эмас. Бу ўринда, ёзувчи “бир яхшининг бир ёмони бор” нақлига биноан иш тутаётганлиги, асар сюжетини, воқеа ривожини шунга қараб тузганлиги маълум. Қолаверса, асар арихтектоникасининг сирли воқелик асосига қурилиши магик реализм қонуниятларидан бири сифатида характерли. Китобхон, айниқса, Эдгар По ижоди билан яқиндан таниш ўқувчи унинг асарларида кўтаринки кайфиятдан сўнг тушқун воқелик, яхшилиқ билан ёмонлик, эзгулик билан ёвузлик доимо ёнма-ён юриши каби адабий ракурсини тўғри фаҳмлашади.

“Шоир қалбида бот-бот энг ширин хотиралар ғужғон ўйнайди. Аммо узр, гапга маҳлиё бўлиб кетдим. Такрор айтаманки, доҳиёна, шоирона қалбда энг арзимас нарса ҳам бир олам хотиралар уйғота олади. Итлар ўйноқлашарди, мен эса бунга қурбим етмасди! Улар қувнашарди – мен эса йиғлардим. Улар яйрашарди – мен эса аччиқ-аччиқ йиғлардим. Ҳаяжонли манзара! Бу манзара маърифатли ўқувчига албатта маълум ва машҳур Чой-Ин-Сан ёзган дурдона хитойча романнинг учинчи жилдида тасвирланган бутун олам уйғунлиги ҳақидаги гўзал сатрларни эслатиши турган гап” [3.178].

Гўзал манзарадан “аччиқ-аччиқ йиғлаш” ҳолати ортида ҳам магизм – мўъжизавийлик, ғалати, сирли тақдир мазмуни борлиги билиниб туради. Зенобия хоним ўз кайфиятидан келиб чиқиб эслаган машҳур Хитой адиби Цой-ИН-Саннинг романида ҳам шундай магизм руҳидаги манзара ва воқеалар талқини мавжуд.

Рухия Зенобия хонимнинг икки ҳамроҳи занжи қули, садоқатли ити унга ҳамроҳлик қилади, у шулар билан шаҳарнинг сўлим манзараларини мириқиб томоша қилади. Ҳикоянинг воқеа қурилишида мажозий-хаёлий талқин, ўтмиш замонлар ва бугунги кун тасвирлари синкретик тарзда намоён бўлган.

“Алқисса, камина назокатли занжи қулимнинг қўлига салгина суянганимча ҳозир хувиллаб қолган Эдина шаҳрининг у пайт гавжум бўлган кўчаларини сайр қилиб юрардим, итим Диана менга яқинлашишга журъат қилмай, одоб сақлаганича орқамдан соядай эргашарди. Тўсатдан рўпарамда баланд жоме черкови кўринди. У жуда маҳобатли, қадимий, куббасининг найзаси кўкка санчилган. Шу пайт ғалати, телба бир истак вужудимни чулғаб олди. Қазои тақдирим сари бунчалар шошмасам?” [3.178].

Бу ўринда, биринчидан, хонимнинг бир пайтлар гавжум бўлган Эдина шаҳрининг бугунги хувиллаб қолган кўчалари бўйлаб сайр этиб юриши мажозий-хаёлий поэтик жозибаси билан эътиборни тортади. Ҳикоя магик кизиқарлилигининг бир қирраси шу билан ҳам боғлиқ. Иккинчидан, хоним нега “Қазои тақдирим сари бунчалар шошмасам?” дейди. Хушманзара шаҳар сайри (хаёлан), содиқ ҳамроҳлар – ит ва қул, баланд жоме масжидининг ёнма-ён тасвир магизм поэтикасини янада аниқ жонлаштиради. “Қазои тақдир” мазмуни билан маҳобатли жоме черкови орасида боғлиқлик мавжудлиги сезилади. Хоним черков тепасигача кўтарилиб, шаҳар отелларигача кузатишни истади. Хонимнинг занжи қули сочларини тутамлаб, юлар экан, соч толаларини черков тепасидаги қўнғироқ арқонларига ёпишиб, осилиб-осилиб қолади. Мана шу соч тутамлари қўнғироқ арқонлари билан чайқалар экан, назаримда, худди жонлидай туюларди, бу сочлар ғабдан тикка бўлгандай эди” дея мулоҳаза юритади Зенобия. Бу хаёлий тафаккур сезимида жон: бегуноҳ жазоланган бечора занжи қулнинг бегуноҳ сочлари хонимга бу зулм учун тегишли жазоси борлигини уқтираётгандек эди. Бу сирли-илоҳий детал ҳам магизм таркибидаги белгилардан бири.

“Даҳанаки жангимиздан кейин ярим соатча ўтгач, оёғим остидаги мафтункор манзарага маҳлиё бўлиб, бўйнимнинг орқасига совуқ бир нарса келиб текканидан сесканиб кетдим. Қанчалик кўрққанимни айтмай қўя қолдим. Ҳар ҳолда оёғим остида содиқ занжи қулим Помпей турганлигини, хонанинг нариги бурчида Диана итим фармонимга мунтазир бўлиб, диккайиб ўтирганлигини билардим. Бўйнига теккан совуқ нарса нима бўлиши мумкин? Эвоҳ! Тез орада бунинг нима эканлигини билдим. Бир оз қайрилиб, минора соатнинг дақиқаларини кўрсатадиган, баҳайбат қиличга ўхшаган ярқирок



мили циферблат атрофида силжиб келиб бўйнимга ётиб қолганлигини кўриб, даҳшатга тушдим” [3.183].

Бўйнининг орқасига совуқ бир нарсанинг теккани – хоним қазосининг хабари эди. Бу кўнғироқ таркибидаги минора соатининг дақиқаларни кўрсатадиган баҳайбат қиличга ўхшаган ярқироқ мили эди. Бу совуқ ўлим хабари ҳар қандай кишиниям даҳшатга тушириши шубҳасиз. Бундан қутқаришни ялиниб сўрар экан, хонимнинг жаврашлари, илтижолари кули олдида ҳам, кучуги олдида ҳам жавобсиз бўлиб қолади.

“Аmmo олдинда мени бундан ҳам даҳшатли азоблар кутарди, бу азобларга асаблари пўлат одам ҳам чидаш беролмасди. Соат ўқи босими билан кўзларим чаноғидан чиқа бошлади. Кўзсиз одам қандай яшай олади, деб ўйлаб улгурмасимдан бир кўзимнинг қорачиғи отилиб чиқиб, кўнғироқхона томининг нишаб жойидан пилдираб думалаганича, сарой пештоқи томнинг тарновига тушиб қолди. Кўзсиз қолганимдан кўра унинг олифтагарчилик билан менга ҳаёсизларча тикилиб тургани алам қилар эди. У шундоқ ёнгинамда, тарнов ичида бундай пирпирашини ва энг қизиги, кўз қисишини кўрмаганман” [3.185].

Ёзувчининг бундай кўркам ва айни вақтда сатанг, зулмкор аёлни не мақсадда бунчалик даҳшатли ўлим қисматига гирифторликда тасвирлаганлиги дастлаб ажаблантириши табиий. У бечора меҳнат аҳилларини эзиб ишлатиш, оғир меҳнатларига арзимас чақа бериш ҳисобидан бойиб кетган оила вақиласи, устига-устак кулларига, ишчиларига итга муомала қилгандек кўпол ва ноинсоний муомала қилиб келган, фантастик реализм услуби асосида талқин этилган хонимнинг кўзлари хонасидан чиқиб кетиши, бошининг узилиб кетиши ҳаётда қилган зулм-зўравонликлари учун Оллоҳ жазосидек таассурот уйғотади.

“Соат ўроғи бўйнимга ботган ва у охири бир парча этни узиши қолган эди. Мен ўзимни бахтиёр сезардим, чунки бир неча дақиқадан сўнг азобларимга чек қўйилишини билардим. Бу энтикишим тўғри чиқди. Соат роса олтидан йигирма беш дақиқа ўтганида дақиқа ўқи ўзининг даҳшатли йўлида шунчалик силжидики, бўйнимнинг қолган қисми ҳам узилиб кетди. Менга шунчалар қаттиқ азоб берган бошим гавдамдан бутунлай ажралди. Даставвал у кўнғироқхона деворидан думалаб, тарновда бир лаҳза тўхтаб қолди-да, сўнг сакраб-сакраб кўчанинг ўртасига тушди” [3.186].

Мазкур талқинни ҳикоя ғоявий пафосининг кульминация нуқтаси дейиш мумкин. Шу билан бирга, уни магизм поэтикасининг энг характерли кўринишларидан бири деб ҳисоблаш керак. Ўлимга дадил қарайдиган Зенобия хонимнинг охириги сўзлари инсон маънавияти ва кундалик ҳаётининг муҳим жиҳатини характерлайди:

“Нафис вужуд! У ҳам мени деб жонидан кечибди. Кучугимдан айрилдим, занжи қулимдан айрилдим, бошгинамдан айрилдим, энди бу дунёда бахти қаро Рухия Зенобияга нима ҳам қолди? Эвоҳ, ҳечлик! Бари тугади” [3.187].

Ҳечлик – инсон ҳаётининг Оллоҳ қисматига биноан бу дунёдан ўтиши, яшаш муддатининг тугаши дегани. Ҳикоя мағзидаги муҳим ғоялардан бириям шу: бу ҳечликка олиб борадиган ўткинчи дунёда пок-покиза, инсофли, қаноатли, бировга озоринг ва зулминг тегмай яшаб ўтишдир.

Француз адиби ва олими, символизм оқими намояндаларидан бири Шарл Бодлар ёзади: “Аввал шубҳа, сўнг ишонч ва мулоҳаза уйғотувчи галлюцинацияларини, ақлни забт этувчи ва ўзининг даҳшатли мантиқига эга бўлган ғалатиликни, иродани вайрон қилувчи телбаликни, асаблар ва ақл ўртасидаги зиддиятни, дардини қаҳқаҳа билан ифодаловчи одамларни ҳеч ким шу адибчалик тасвирлаёлмайди. По сезилмас лаҳзаларни таҳлил қила олади, ўлчанмайдиган нарсаларни ўлчаёлади, асабий одам атрофини ўраб турган ва уни ўлимга олиб борувчи хаёлий шарпаларни энг майда тафсилотларигача муфассал илмий асосда ва бутун даҳшатлари билан тасвирлай олади” [1.115].

Машҳур ёзувчининг ниҳоятда жиддий кузатишлари натижаси бўлган мазкур фикрларида Эдгар По ижодига хос энг асосий сифатлар таъкидланган. Асосан, сирли-ғаройиботлик, магик реализм услубига тегишли фазилятлар қайди эътиборлидир. Фикримизча, саргузашт, детектив, психологик услубий йўналишлар қаторида сирли-ғаройиблик услубидаги асарлар туркумини ҳам махсус тур сифатида назарда тутиш ва алоҳида тасниф этиш лозимга ўхшайди.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Бодлар Шарль. Эдгар По ижоди ҳақида. “Шарқ юлдузи” журнали, 1986, 8-сон, 115-б.
2. Иброҳимова М. Қолипга сиғмаган умр. Эдгар Аллан По ҳаёти ва ижоди ҳақида. “Аъло кайфият” журнали, 2012, №9.
3. По Э.А. Вақт ўроғи. По Э.А. Буюк Темур. Т.: Янги аср авлоди, 2016.
4. Ражабова М. Б. Stylistic refinements of phrases in Alisher Navoi's lyrics //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2020. – Т. 2. – №. 6. – С. 183 -187.
5. Rajabova M. Alisher Navoiy ijodida etnografik folklorizmlar //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 4. – №. 4.
6. Rajabova M. Халқ майдон кулги санъати белгиларининг Навоий ижодидаги кўринишлари //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
7. Rajabova M. Навоий ижодида мотам маросимига оид урф-одатларнинг бадиий талқини //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
8. Rajabova M. Алишер Навоий ижодида арус тимсолининг бадиий талқинлари //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8
9. Rajabova M. Алишер Навоийнинг нафси енгиш ғоясини мифологик жанг мотиви асосида тасвирлаш маҳорати //Центр научных публикаций (buxdu. uz). 2021. – Т. 8. – №. 8.

**MA'RIFIY ROMANDA SHAXZODA OBRAZI**

*Faxriddinova Dilfuza Sayfiddin qizi,  
SamDU mustaqil tadqiqotchisi*

Istiqlol davri adabiyoti turfa xil mavzudagi asarlarni shakllanishiga asos bo'ldi. O'zbek adabiyotshunosligi va romanchilik taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan iste'dodli ijodkorlardan biri Naim Karimovdir. Yozuvchining turli janrdagi asarlari bilan bir qatorda ma'rifiy romanlari o'zbek adabiyotining yirik ijodkorlari hayoti va ijodini o'zida mujassamlashtirgani bilan alohida ajralib turadi.

Jamiyatdagi o'zgarishlar badiiy adabiyotga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Adabiyot turfa xil ohanglarda shakllandi va yuksalib bormoqda. Shu jihatdan mavzu turfa xil shakl va xarakterga ega bo'lgan o'zbek romanchiligi tarkibida ma'rifiy roman tushunchasi maydonga keldi. Bu mavzuning shakllanishi va taraqqiyotida Naim Karimovning roli beqiyosdir. Adabiyotshunoslik bilan bir qatorda badiiy ijod bilan doimiy shug'ullanib kelayotgan adib bir qator badiiy asarlarni maydonga keltirdi. Bularga "Hamid Olimjon", "Cho'lpon", "Maqsud Shayxzoda" kabi asarlarni kiritish mumkin. Yozuvchining bu asarlari o'zbek adabiyotining yirik darg'alaridan bo'lgan ijodkorlarning hayoti, ijodi, o'z davrining shiddatli voqealari zahirida, ularning badiiy siymosini yaratganligini ko'ramiz. Bu obrazlarda mujassamlashgan yetuk iste'dod bilan bir qatorda, ularning o'z davri voqealari silsilasida badiylashtirish jarayonida ruhiy-ma'naviy dunyoqarashini va ijodning murakkab qirralarini badiiy talqin etgan.

O'z navbatida har bir jamiyat o'z muammosini yuzaga keltiradi, shunga muvofiq insoniyatning hayotga bo'lgan munosabati ham har bir davrda turfa xil o'zgarishlarga uchraydi. Yetmish yil davomida o'z tili va dinidan, milliy qadriyatlaridan uzoqlasha boshlagan bir vaqtda, mustaqillikning qo'lga kiritilishi hayot va jamiyatdagi o'zgarishlarga jiddiy munosabat bildirish tuyg'usini uyg'otdi. Hayotda, jamiyatda ro'y bergan o'zgarishlar badiiy adabiyotda o'z inikosini topadi. Shu jihatdan jamiyat va inson, inson va insonlar aro, tabiat va shaxs o'rtasidagi qarama-qarshiliklar teranroq badiiy adabiyotda tasvirlanmoqda. Bunda o'ziga xos poetik obrazlarni, inson botiniy olamidagi ziddiyatlarni haqqoniy ko'rsatib berish an'anasi ma'rifiy xarakterdagi asarlarda yanada teranroq o'z aksini topmoqda. Bu esa bunday xarakterdagi asarlarni o'rganish va tahlil etish muammosini yuzaga chiqarmoqda.

Tarixiy davr o'z taraqqiyoti davomida turfa xil xarakterdagi badiiy asarlarni maydonga keltiradi. Shu jihatdan ma'rifiy romanchilik o'zbek adabiyotida shakllandi va yuksalib bormoqda. Roman atamasi haqida so'z yuritgan adabiyotshunos D.Quronov va boshqalar tomonidan yaratilgan "Adabiyotshunoslik lug'ati" asarida shunday yozadi: "Epik butunlikni tiklashga urinayotgan shaxs deganimiz, avvalo, ijodkorning o'zi, roman markazida turgan qahramonning tashqi olam bilan to'qnashuvlari (keng ma'noda shaxs dramasi) o'sha butunlikni tiklash vositasi ekanligi e'tiborga olinsa, romanni o'z hayot yo'lida chigal muammolarga duch kelgan ijodkorlarning "ziddiyatli holatni adabiy yo'l bilan yechishga urinishi" (A.Prietto), deyish mumkin bo'ladi. Qo'yilgan problemani shunga mos qahramon

vositasida idrok etish jarayonida jamiyatning joriy holati, olamu odam haqidagi yaxlid bir konsepsiya, roman badiiy falsafasi shakllanadiki, bu romaniy tafakkur mahsulidir... Romanning turfa (tarbiyaviy, maishiy, ishqiy, sarguzasht, detektiv, ijtimoiy-psixologik, tarixiy-biografik, satirik va h.) xillari yaratilgani, nihoyat, roman hozirda ham takomillashib borayotgan janr ekanligini hamisha yodda tutish lozim” [1, 244-bet].

Janr taraqqiyotida o‘ziga xos takomillashib borish an‘anasi kuzatiladi. Shuning uchun ham mavzu jihatdan turfa xillashayotgan bu janr taraqqiyotida ma‘rifiy romanlarning ham bir necha turlarini vujudga keltirmoqda. Naim Karimovning bu xarakterdagi romanlarida asosan ma‘lum bir ijodkorning murakkab hayot tarsi va hayotiy ziddiyatlar, ijodiy jarayonning o‘ziga xos qirralarini badiiy talqin etadi. “Cho‘lpon” romanida adibning asr boshlaridagi ziddiyatlarga boy bo‘lgan hayoti bilan uzviy bog‘liq holda, o‘z davrining buyuk so‘z san‘atkori ekanligiga alohida e‘tibor qaratgan. Adibning badiiy asarlarining yaratilish tarixi bilan bog‘liq holda ayanchli hayot tarzini, ijtimoiy hayotdagi qarama-qarshiliklarni badiiy talqin etadi.

“Maqsud Shayxzoda” romaniga yozuvchining Ozarbayjonda kechgan bolalik yillaridan boshlab hayotiy voqealar asos qilib olingan. Romanning „Bulutli tong“ nomli birinchi qismiga U yillar o‘tganlar Sayhunday og‘ir misralari Maqsud Shayxzoda qalamiga tegishli bo‘lib epigraf qilib olingan. Inson ma‘lum bir joyda tug‘ilib, shu joyda doimiy yashaydi va abadiy orom og‘ushiga kiradi. Ammo hayotning bu temir qonuni hamisha ham o‘z kuchini saqlab qololmaydi, zamona zayli bilan kindik qoni to‘kilgan vatanlarini tark etib, boshqa yurtlardan panoizlashga majbur bo‘ladilar. Bunday taqdir egalarining hammasi ham turli xil sabablarga ko‘ra ikkinchi vatanlarida halol xizmat qilib, ildiz otib, baxtli – saodatli umr kechirgan emas. Lekin shunday taqdir egalari borki, ba‘zi shaxslar, bu vatanni asl farzandiga aylanib qoladi.

Maqsud Shayxzoda Navoiy va Bobur vataniga qadam qo‘yganida tez orada o‘z vataniga qaytish ilinjida bo‘lgan. Lekin umid va xohish boshqa narsa-yu, taqdir boshqadir. Odam zoti borki, taqdir azal – avvaldan chizib beriladi. Hech bir inson o‘z taqdirini o‘zgartira olmaydi. U faqat shu taqdirning harakati asnosida ayrim hatti – harakatlariga tahrir qilish imkoniga egadir. Yozuvchi Naim Karimov romanda adib bolaligini quyidagicha tasvirlaydi: „Taqdir Shayxzodani Xazor dengizi osha olib o‘tib, ko‘hna Toshkentning qaynoq bag‘riga bir umrga olib kelib tashlagan edi. U o‘sha yerda oila qurdi. Shu yerda o‘zbek xalqi, xuddi ozarbayjon xalqi singari, bag‘ri keng, mehr – oqibatli, mehnatkash xalq ekanligini ko‘rdi. Shu yerda o‘zbek tilini mukammal egallab, o‘zbek adibi bo‘ldi, zabardast shoir, barkamol dramaturg va mutafakkir olim sifatida o‘zbek xalqining qalbini zabt etdi. Uning nomi o‘zbek adabiyoti tarixiga oltin harflar bilan yozildi. Ammo bu hol uning o‘z vatanini, ota – onasi, qarindosh – urug‘lari, vatandoshlarini bir daqiqaga bo‘lsa ham unutganini mutlaqo anglatmaydi. Shoirning ulkan qalbida uning har ikkala xalqqa bo‘lgan muhabbati yonma – yon yashadi” [2, 6-bet]. Bu satrlarda vatandan yiroqda, ammo o‘sha xalq e‘zozida bo‘lgan va bugungi kunda ham

o‘zbek adibi sifatida tilga olinadigan buyuk so‘z san’atkorining qoldirgan adabiy merosi orqali xalqimiz qalbida yashayotganligiga urg‘u berilgan.

Maqsud Shayxzodaning ota – bobosi aslida Ozarboyjonning Gruziyaga chegaradosh viloyatidan bo‘lib, Qozoq shaharchasining Salohli tumanida dunyoga kelgan. Uning otasi Ma’sumbek o‘tgan asr boshlarida yetishib chiqqan ozarbayjon ziyolilarining dastlabki vakillaridan biri bo‘lib, bezgak xastaligiga chalingan aholini yarim asr mobaynida davolab kelgan. U ozarbayjon tibbiyoti tarixida o‘z hayotini uzoq yillar davomida qanchadan – qancha kishilarning yostig‘ini quritgan shu yovuz xastalikka qarshi kurashga bag‘ishlangan fidoyi shifokorlardan biri bo‘lib qolgan.

Maqsud Shayxzoda Navoiy va Bobur vataniga qadam qoyganida tez orada o‘z vataniga qaytish ilinjida bo‘lgan. Lekin umid va xohish boshqa narsa-yu, taqdir boshqadir. Odam zoti borki, taqdir azal – avvaldan chizib beriladi. Hech bir inson o‘z taqdirini o‘zgartira olmaydi. U faqat shu taqdirning harakati asnosida ayrim xatti – harakatlariga tahrir qilish imkoniga egadir.

O‘zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov Maqsud Shayxzoda haqida shunday yozadi: “Shoir va dramaturg, adabiyotshunos va tarjimon, tarixchi va mutafakkir, notiq va pedagog – bularning bari hozir, ya’ni 1950-yilda biz – talabalarga ma’ruza o‘qishga shaylanib, ko‘zoynagini dastro‘moli artib turgan odamda jamuljam edi” [3, 339-bet].

Asosli ta’kidlanganidek, shunday insonni turfa xil xarakter xususiyatlarini, davrning murakkab qirralarini badiiy talqin etish, ijodkor Naim Karimovdan juda katta badiiy mahoratni ham talab etgani, tabiiydir.

Yozuvchi Naim Karimov romanda adib bolaligini quyidagicha tasvirlaydi: „Taqdir Shayxzodani Xazor dengizi osha olib o‘tib, ko‘hna Toshkentning qaynoq bag‘riga bir umrga olib kelib tashlagan edi. U o‘sha yerda oila qurdi. Shu yerda o‘zbek xalqi, xuddi ozarbayjon xalqi singari, bag‘ri keng, mehr – oqibatli, mehnatkash xalq ekanligini ko‘rdi. Shu yerda o‘zbek tilini mukammal egallab, o‘zbek adibi bo‘ldi, zabardast shoir, barkamol dramaturg va mutafakkir olim sifatida o‘zbek xalqining qalbini zabt etdi. Uning nomi o‘zbek adabiyoti tarixiga oltin harflar bilan yozildi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент, “Академнашр” нашриёти, 2010.
2. Каримов Н. Мақсуд Шайхзода. Маърифий – биографик роман. – Тошкент, “Шарқ”, 2010.
3. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – Toshkent, “Sharq”, 2004. – 640 bet.



## O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA MUXAMMAS YARATISH AN'ANALARINI SHAKLLANISHI VA TAKOMILI

*Xadjiyev Mirzabek,  
JDPI magistranti*

*Ilmiy rahbar: f.f.f.d.(PhD) Murodulla Jo'rayev*

Aristotel aytishicha, lirikada avtor “*butun hikoya davomida*” o‘zligicha “*qoladi*”. Aristotel bu fikrni Pindar, Vaxxilid, Alkey, Safo kabi lirik shoirlar ijodiga suyanib aytgan. Lirika atamasi, miloddan oldin, III—II asrlarda Plutarx va Sitseron asarlarida uchraydi, u “*lira*” nomli cholg‘u asbobi nomidan olingan. Qadimgi yunonlar qo‘shiqni shu soz jo‘rligida aytar edilar. Forobiy aytishicha, she‘rda mulohaza aytiladi, yaxshi shoir mulohazakor bo‘ladi: lirikada yaxshilik va yomonlik kurashadi, axloq va ruhiy kayfiyat aks etadi. Lirika insonni yomonlikdan qaytarib, yaxshilikka yo‘llashi kerak. Bunda unga hayol va tasavvur lozim bo‘ladi. Uningcha, yaxshi she‘r bizga huzur beradi. Forobiy Aristotelning “Poetika”siga yozgan sharhida deydi, lirika ham hayotning o‘xshashini yaratish san‘atidir, o‘xshashi timsol, ramz, hozirgi zamon tilida obraz demakdir. Forobiy anglashicha, “she‘r san‘atini bezaydigan narsa so‘z‘dir, “she‘riy san‘at qonun-qoidalariga ega bo‘ladi, u vaznli va qofiyali, baytlari bir-biriga hamohang nutqdir. Forobiy “*She‘r kitobi*”, “*Shoirlar san‘ati qonunlari haqida*” degan sharhlarida bu haqda to‘la ma‘lumot bergan.

Abu Ali Ibn Sino Aristotelning “Poetika”siga yozgan “She‘r san‘ati” degan sharhida deydi, she‘r vaznli, qofiyali, ritmli, mutanosib bo‘ladi; so‘z o‘z musiqasiga molik bo‘lib, odamlarni taajjublantiradi, hissiyotga chog‘laydi.

Ammo Forobiy ham, Ibn Sino ham adabiy turlar to‘g‘risida aniq bir nima demagan.

Alisher Navoiy devonining debochasida lirikani ko‘ngilni bo‘shatish vositasi, sharhi holat deb tushundi, lirikada subyektivlikka tayanish xususiyatini anglab yetdi. Bu hol Gegelgacha bo‘lgan jahon ilmida muhim voqea edi [18;261-262].

XV asr olimi V.Tabriziy aytishicha, she‘riyat uchga bo‘linadi. Ular *qasida*, *masnaviy* va *musammat*dan iborat, **musammat** musallas (uchlik)dan muashshargacha (unlikkacha). Ushbu janrning ulushi, uning miqdor va hajmi adabiyot tarixining boshqa bosqichlaridan jiddiy tarzda farqlanmaydi. Bu davr adabiyotida g‘azal, masnaviy va qasida janrlari bilan birgalikda musammatning turli navlari: *murabba’*, *muxammas*, *musaddas*, *musabba’*, *hamda tarje’otlar - tarje’band*, *tarkibband* va *tarix*, *qit’a*, *ruboiy*, *mustazod* janrlarining ishlatilishi kuzatiladi [17;64-69].

**Musammat** – o‘zbek mumtoz she‘riyatining g‘azaldan keyingi eng faol janrlaridan biridir. Janr atamasi birinchi marta “Qobusnoma” (XI asr) asarida tilga olingan bo‘lib, bunda asar muallifi – Kaykovus ibn Iskandar musammatni shoirlarning zarur usullari doirasida yoritadi [5;122]. Nazariy jihatdan esa musammat ilk bor XI asrning ko‘zga ko‘ringan she‘rshunoslaridan Umar Roduyoniyning “Tarjimon ul-balog‘a” asarida asoslanadi [6;72.]. Shundan keyin

bu janrni o'rganishga bo'lgan qiziqish yanada rivoj topib, buning samarasida Rashiddin Vatvotning "Xadoyiq us-sehr", (XII asr) Shams Qays Roziyning "Almo'jam" (XII asr), Hoja Nasriddin Tusiyning "Asos ul-iqtibos" (XII asr), Toj al-Haloviyning "Daqoiq ash-she'r" (XIV), Sharafiddin Romiyning "Xaqoiq aldaqoiq" (XIV asr), Vahid Tabriziyning "Jame' muxtasar" (XV), Shams Faxriyning "Me'yori jamoli", Xusayn Voiz Koshifiyning "Badoye' ul-afkor", Muallim Nojining "Istilohati adabiya", Qabul Muhammadning "Haft qulzum", Atoullloh Xusayniyning "Badoye' us -sanoye" asarlarida musammat haqida u yoki bu darajadagi fikrlar yuzaga keladi [8;208-209]. Bu mulohazalarga o'zbek adabiyotshunoslaridan A.Fitrat [3;52], M.Shayxzoda [14;284], R.Orzibekov [11;69], O.Nosirov [9;113], tojik adabiyotshunoslaridan R.Musulmonqulov [6;178], rus sharqshunoslaridan Ye.Bertels [20;59], M.Braginskiy [22;360] kabi olimlar o'z asarlarida munosabat bildirib o'tadilar.

Yuqorida qayd etilgan manbalarning aksariyatida musammatning lug'aviy mazmuni "ipga o'tkazilgan marvarid" ma'nosida sharhlanadi. Jumladan, sharq she'riyati qonuniyatlarining bilimdoni Atoullloh Xusayniy o'zining "Badoye' us-sanoye" asarida: "Arabiyat arboblari bir jamoasi depturlarkim, tasmit lug'atta marvoridni ipga tizmaktur, istilohta ersa andin iboratturkim, baytning ja'mi juzvlarin yo ba'zisin qofiyaga hilof qilib saj'lag'aylar va bayt marvorid ipidek va saj'langan juzvlar anga tizilgan donalardek bo'lg'ay", – deb yozadi va uning to'rt turiga izoh beradi [19;74].

M.Shayxzoda o'z asarida Muallim Nojining "Istilohati adabiya" kitobidan olingan quyidagi ta'rifni keltiradi: "Musammat deb vazn va qofiyalari bir bo'lgan, bir sira misralarga aytiladiki, ularda har bandning so'nggi bir yoki ikki misrayi yuqoridagi misralar bilan qofiyalanmaydi. Agar misralarning banddagi soni to'rt bo'lsa, – "murabba'", besh bo'lsa "muxammas", olti bo'lsa – "musaddas", yetti bo'lsa – "musabba'", sakkiz bo'lsa – "musamman", to'qqiz bo'lsa – "mutassa'", o'n bo'lsa – "muashshar deb ataladi" [14;284].

Adabiyotshunos O.Nosirov musammatning lug'aviy va istilohiy ma'nosini Qabul Muhammadning "Haft qulzum" asaridan olingan quyidagi so'zlari bilan izohlaydi: "Bilgilki, tasmit lug'atta ipga o'tkazilgan marvoridni anglatadi. Istilohda shundayki, oldin yozilgan misralar oxiriga vazn va qofiyaga muvofiq misralar qo'shadilar. Aksariyat (musammat) sakkiz xil bo'ladi deb hisoblaydilar: musallas, murabba', muxammas, musaddas, musabba', musamman, tasne', mashru'" [9;113]. Vahid Tabriziyning "Jame' muxtasar" asarida musammat she'r turi sifatida talqin qilinib, tarkibida 4 dan 10 gacha misra bo'lishi mumkinligi e'tirof etilgan [23;37]. Adabiyotshunos Abdurashid Abdug'afurov "Alisher Navoiy musammatlari" nomli maqolasida mazkur janrga shunday ta'rif beradi: "Qofiyalanishda g'azal sistemasini saqlagan va har bandi 3, 4, 5, va hokazo o'nga yaqin misralarni jamlovchi bandlardan tashkil topgan she'riy shakllar musammat deyiladi. Boshqacha aytganda, musallas, murabba', muxammas, musaddas, musamman, mutassa' va muashsharlar musammatdir" [1;27].

Musammat uchlikdan unlikkacha bo'lgan she'riy chambardir. U musallas (uchlik), murabba' (to'rtlik), muxammas (beshlik), musaddas (oltilik), musabba'

(yettilik), musamman (sakkizlik), mutassa' (to'qqizlik), muashshar (o'nlik)ni o'z ichiga oladi [18;273].

Kuzatishlar musammat haqidagi eng mukammal ta'rif va ma'lumot Xusayn Voiz Koshifiyning "*Badoye' ul-afkor fi sanoye'ul - ash'or*" risolasida mavjud, – deb hisoblab, unda berilgan quyidagi ta'rifni keltiradi: "*Musammat shuldurki, barcha misralar bir-biriga mos qofiyalar bilan ta'minlanadi, faqat oxirgi misra qofiyasi boshqacha bo'ladi*" [6;31]. Biz ham mana shu ta'rifni to'la va mukammal deb hisoblaymiz, bu va yuqorida keltirilgan nazariy asoslarga tayangan holda: "*Arab tilida ipga o'tkazilgan marvarid ma'nosini anglatuvchi musammat – har bandi 3 misradan 10 misragacha bo'ladigan, 1-banddan boshqa bandlarining oxirgi bir yoki ikki misrasi yuqoridagi misralar bilan qofiyalanmaydigan, lekin vaznda bir bo'lgan she'riy shakllarni jamlovchi janrdir*", – deya ta'rif beramiz va quyidagi turlarga tasnif qilamiz: **musallas, murabba', muxammas, musaddas, musabba', musamman, mutassa', muashshar**. Bular orasida 5 ta she'riy shakl, ya'ni murabba', muxammas, musaddas, musamman, muashshar ham Koshifiy asarida mukammal ta'rif topadi. Undan oldingi she'rshunoslar musammatning 3 turigagina izoh berganlar [6;32]. Musammat she'riy shakllari ichida musabba' va mutassa' yozish ancha kam uchraydi.

Musammat turlarini janr yoki she'riy shakl deb qarash borasida ham ma'lum to'xtanga kelingan emas. Mo'tabar akademik nashrda bularning ko'pchiligi janr sifatida baholangan [2;244]. Bizningcha, janr atamasini musammatga, she'riy shakl atamasini uning turlariga nisbatan qo'llash maqsadga muvofiqdir. Bu xususda, tadqiqotimizning keyingi fasllarda maxsus to'xtalamiz.

Musammat bilan bog'liq yana bir muhim jihatlardan biri uning ibtidosi masalasidir. Ko'pgina ilmiy adabiyotlarda musammatning ildizlari yozma she'riyatdan ancha ilgari xalq og'zaki ijodida paydo bo'lgan, – degan mulohazalar bildiriladi [9;84]. Adabiyotshunos R.Musulmonqulov o'z asarlarida musammat janrining paydo bo'lishida **saj'** san'atining rolini alohida ta'kidlaydi [6;177]. Bu san'atni har tamonlama chuqur o'rgangan, maxsus tadqiqot ishi olib borgan adabiyotshunos B.Sarimsoqov saj'ni turkiy xalqlar she'riyatini yuzaga keltirgan omillardan biri sifatida baholaydi [12;40], qofiyaning saj' orqali paydo bo'lganini aytadi [12;38], shuningdek, rus sharqshunosi I.Yu.Krachkovskiy fikrlariga tayanib, saj' tufayli eng avval aruz bahrlaridan biri – rasaj kelib chiqqan, – degan mulohazani bildiradi [12;19].

Saj'ning musammatga ta'siri haqida Atoulloh Xusayniy shunday yozadi: "Rashididdin Vatvot deptur: "*Bu san'at andog' bo'lurkim, shoir bir baytni to'rt teng bo'lakka bo'lgay, uch bo'lagining oxirida saj' bergay va to'rtinchi bo'lakda qofiya keltirgay. Bu she'rni musajja' deb ham atalar. Yana depturlarkim, porsiyalar musammatni o'zga nav'da ayturlar va ul andog'turkim, bir qofiyada besh misra aytqaylar va oxirgi oltinchi misrani she'rning asosi bo'lmish o'zak qofiyada bergaylar. Porsiyalar nazdida eng mashhur bo'lgan musammat o'shuldur. Oldingilarin musajja' derlar va bilmaslarkim, qadimiy va haqiqiy musammat uldur*" [19;74]. Rashididdin Vatvotning asari bilan bevosita tanish bo'lgan adabiyotshunoslardan biri yuqoridagi fikrga quyidagicha munosabat bildiradi:

“Agar biz muallif” musammatning qadim va asl turi o‘shadir” deganda mazkur janrni qadimgi saj’li va xalqona she’rlarga aloqadorligiga ishora qilgan desak xato qilmaymiz. Bu ishoraga va boshqa xulosalarga tayangan holda aytish mumkinki, eng qadimgi zamonlarda odamlar saj’ san’ati vositasida turli she’riy parchalarni saj’li qofiyaga solib kuylab yurganlar va keyinroq bu san’at qonuniyati asosida mustaqil musammat janri paydo bo‘lgan” [6;73]. Shuningdek, “Tarjimon ul-balog‘a” asarining muallifi Umar Roduyoniy ham saj’ san’ati va musammat omuxtaligi haqidagi fikrlarini bayon qilganki [6;72], u va bu kabi mulohazalar bizga ham musammatning paydo bo‘lishi va rivojida saj’ning roli katta bo‘lgan degan xulosaga kelishga imkon beradi.

Musammatning yozma adabiyotdagi ilk namunalari dastlab XI asr fors tojik shoirlari Manuchehriy va Qatron Tabriziy ijodida ko‘zga tashlanadi [20;360]. Keyinchalik esa Lomeiy Gurgoniy, Abdulvose’, Hoja Imodi Faqeh, Azhariy kabi shoirlar she’riyatida ham musammatlarning go‘zal namunalari yuzaga keladi.

O‘zbek mumtoz she’riyatida musammat yozish Hofiz Xorazmiy va Gadoiy ijodiyotidan boshlanadi. Kuzatishlarimiz Hofiz Xorazmiyning musammat she’riy shakllaridan bo‘lgan 9 bayt 45 misradan iborat muxammas yaratganini ko‘rsatadi [4;259]. Bu haqda fidoyi olim Hamid Sulaymonov xayrli ishlarining davomchisi, Xorazmiy she’riyatini maxsus o‘rgangan adabiyotshunos Mo‘minjon Sulaymonov shunday yozadi: “Hofiz Xorazmiyning tarkiband va muxammasi, ikki mustazodi garchi son jihatidan kam bo‘lsa ham, bu janrlarning o‘zbek adabiyotidagi dastlabki mumtoz namunasi hisoblanishi bilan qimmatlidir” [15;12]. Ilmga bu kabi yangi fikrlarning kelib qo‘shilishi ba’zi munozarali o‘rinlarga aniqlik kiritadi.

Musammatlarning yaratilishiga qarab tasnif qilinishida ham bir-biriga zid fikrlarga duch kelamiz. Jumladan, “O‘zbek klassik she’riyati janrlari” kitobining musammatga doir qismini yozgan adabiyotshunos Ozod Nosirov musammatlarni: 1. Mustaqil musammatlar (tab’i xud musammatlar); 2. G‘azal asosida yaratiladigan musammatlar (tazmin musammatlar), – deb guruhlariga ajratadi. Tavsif berish jarayonida esa o‘z g‘azaliga musammat bog‘lash hodisasini ham birinchi, ham ikkinchi guruh sirasida yoritadi [9;141-116]. Bunday noizchilik oqibatida muallifning o‘zi ham Navoiyning g‘azal asosida yaratilgan musammatlarini “mustaqil yaratilgan”, – deb xatolikka yo‘l qo‘yadi. Bu tasmitlar mustaqil emasligini adabiyotshunos Abdurashid Abdug‘afurov “Alisher Navoiy musammatlari” maqolasida aniq dalillar asosida isbot qiladi [1;28]. Qolaversa, g‘azal asosida yaratiladigan musammat va tazmin musammat bir narsa emas, shuning uchun ikkisidan biri yozilishi kerak deb o‘ylaymiz. Biz O.Nosirov va boshqa mualliflarning fikrlarini kuzatganimizda, ularning hech birida mustaqil va tazmin musammatlarni bir-biridan ajratuvchi muhim xususiyatlarni aniq ko‘rsatilmaganligining guvohi bo‘ldik. Yuqorida zikr qilingan nuqsonlar takrorlanmasligi va bizning tadqiqotimizga bu masala bevosita tegishlilikini hisobga olib, musammatlarni quyidagicha tasnif qilishni lozim topamiz:

1. Mustaqil musammatlar. 2. Tazmin musammatlar.

**Mustaqil musammatlar** – tom ma’nodagi mukammal tasmitlar bo‘lib, ular g‘azal asosida yaratilmasligi, yoki tazmin tariqasidagi musammatlardek o‘zga



she'rdan jumla, misra, bayt kiritilmasligi bilan ajralib turadi. Ko'pincha bu tur musammatlarda:

1. Bandlardagi oxirgi misra bir xil takrorlanadi;
2. Ko'pchilik g'azal asosida yaratiladigan musammatlardek, birinchi banddagi oxirgi ikki misra radifi bir xil bo'lmaydi;
3. Taxallus oxirgi bandning yuqori qismlarida beriladi, g'azal maqta'idagidek so'nggi bandning keyingi ikki qismidan birida berilmaydi.

**Tazmin musammatlarda** – bir she'r o'zga bir she'rga qisman yoki to'liq iqtibos (ba'zan juz'iy o'zgarishlar bilan) qilinadi. Bu tur musammatlarni “g'azal asosida yaratiladigan musammatlar” deb atamaganimizning sababi bor. Chunki, bular bir hodisa emas, balki g'azal asosidagi musammat tazmin musammatning bir turidir. Fors-tojik mumtoz poetikasiga bag'ishlangan asarda e'tirof etilishicha, tazmin borasidagi fikrlarni nafaqat rivojlantirgan, balki ilmiy boyitishga ham ulkan hissa qo'shgan Xusayn Voiz Koshifiy o'zining “*Badoye' ul-afkor*” asarida tazminning bir qancha turlari qatorida oldin hech bir manbada kuzatilmagan, bir she'r butunlay boshqa she'rga singdirilgan va bir butunlik hosil qilgan, yangi taxmis va tasdis turlariga izoh va misollar keltiradi [8;69]. Demak, tazmin musammatlar to'liq yoki noto'liq bo'lishi mumkin.

**To'liq tazmin** musammatlarda rubobiy asar tartib va tuzilishi jihatidan to'liq iqtibos qilinadi (ayrim o'zgarishlar bundan istisno). Mumtoz sharq she'riyatida o'z va o'zganing g'azaliga musammat bog'lash bunga yorqin misoldir.

**Noto'liq tazmin** musammatlarda ibora, jumla, misra yoki faqat bir bayt she'r ichiga kiritiladi. Tazmin musammatlar borasida yana bir jihatni alohida aytib o'tishni lozim deb topamiz. Tazmin faqat o'zga shoir she'ridan olinmaydi. Xoh o'z g'azalidan, xoh o'zganing g'azalidan, jumla, misra yoki baytidan she'rga iqtibos olinishi mumkin. She'rshunos Hoji Nosir tazmin haqida: “*Tazmindan shoir o'z fikrini tasdiqlash, rivojlantirish maqsadida qofiya, radif, vaznda mos keltirish sharti bilan o'zga bir she'rdan parcha keltiradi*”, – deb yozadi. “*Shuni alohida ta'kidlash zarurki, bu o'rinda o'zganing she'riga emas, o'zga she'rga (she'ri digar) urg'u berilgan, chunki shoir ko'pincha o'z she'ridan ham iqtibos olishi mumkin*” [8;69]. Atoullloh Xusayniy ham o'z asarida: “*Tazmin o'zgalarning she'ridin olinishi shart emastur. Demak, ta'rifda o'zganing she'rin demastin, o'zga she'rni deyilsa, yaxshiroq bo'lur erdi. Ammo mazkur ta'rif jihatidan to'g'ridurkim, shuarovu fusaxoda o'z she'rin tazmin etish odati bag'oyat ozdur, aning uchun ham ta'rifda ani e'tibor qilmapturlar*”, – deya tanqidiy fikr bildiradi [19;246]. Bizningcha, yuqorida keltirilgan fikr va mulohazalarning o'zi ba'zi lug'at va adabiyotlarda tazminni faqat o'z va o'zganing she'ridan parcha kiritish ma'nosida sharhlanishiga javob bo'la oladi [16;23].

**Shu o'rinda bizningcha, tazmin va taxmis o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlar bor.** Ular quyidagilar: Taxmis – muhammas janrining turi hisoblanadi. Tazmin esa tatabbu' janrining bir turi hisoblanadi. Taxmis faqat nazmda uchraydi. Tatabbu' esa ham nazmda, ham nasrda kuzatilishi mumkin. Masalan, Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” asari mashhur fors-tojik shoiri Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” dostoniga javobiyadir. Taxmis – **beshtalik qilish, beshtaga**



*yetkazish* degan ma'nolarni bildirsa, *tatabbu'* ham aslida arabcha so'z bo'lib, *kimningdir izidan borish, izlash, o'rganish, mos kelish, qayta yaratish* kabi ma'nolarni bildiradi. Taxmis bilan tazminning lug'aviy ma'nolarini hisobga olaydigan bo'lsak, ular o'rtasida tuzilish jihatdan ham farq borligini ko'ramiz. Tatabbu' ijodiy bellashuv, tatabbuna'vislik esa *an'ana, yangilik* va *mahorat* uchligi bilan bog'liq faoliyatdir. Tazmini faqat o'z va o'zganing she'ridan parcha kiritish mumkin. Taxmisda o'zganing she'ridan ikki misra olib unga o'zi uch misra qo'shadi.

**Shuningdek, tazmin va taxmis o'rtasida o'xshash jihatlar ham bor.** Masalan, **tazmin** xalaf shoir she'rida mashhur salaf shoir she'ridagi biror shohbayt yoki biror bir misraning keltirilishidir. Salaf shoir she'riga tatabbu' bog'lasa, tazmin sifatida keltirilgan misra yoki baytdagi fikrlar tatabbu'da ijodiy ravishda xalaf shoir tomonidan davom ettiriladi. Taxmisda ham salaf shoir she'ridan ikki misra keltiriladi, qolgan faqat uch misralari xalaf shoir ijodiga tegishli bo'ladi va fikrlar kengaytiriladi .

Yuqorida zikr qilganimiz fikrlarga suyangan holda biz musammatlarni mustaqil va taxmis musammatlarni deb tasnif qilishni taklif qilamiz va ishimiz davomida Navoiyning o'zga shoirlar g'azallariga bog'langan taxmislarini muxammas turi bo'lmish taxmislar atamasi bilan yuritimiz.

O'zbek mumtoz adabiyotida bir qator janrlar borki, ular g'azalga bog'liq, holda tug'ilganligi va yaqinligi bilan xarakterlanadi. Unday janrlar jumlasiga *mustazod, muxammas, musaddas, musamman, tarjiband, tarkiband* kiradi.

**Muxammas** 5 misrali bandlardan iborat she'riy shakl bo'lib, unda birinchi bandning barcha misralari o'zaro qofiyalanadi: keyingi bandlarda esa avvalgi to'rt misra o'zaro qofiyalanib, beshinchi misra birinchi band bilan qofiyadosh bo'ladi. Muxammas, ko'pincha biron g'azal asosida yoziladi. Bunda muayyan g'azalning har bir bayti oldidan uchtadan yangi misra qo'shiladi. Mumtoz adabiyotimizda shoirlarning o'z g'azallariga ham, boshqa mualliflarning g'azallariga ham muxammas bog'laganliklari ma'lum. Biron g'azalga muxammas bog'lanar ekan, uning vazni ham, qofiyalanishi ham saqlanadi. Bunday holda, u "**taxmis**" deyiladi.

Muxammasning boshqa bir turi aaaaa, bbbba qofiyalanadi. Qolgan bandda ham oxirgi ikki misra bir xil qofiyalansa-da, faqat oxirgi misra takror (refren) bo'lib keladi. Agar muxammas boshqa shoir g'azaliga bog'lansa, u holda ko'pincha so'nggi bandda avval muxammas bog'lovchining, keyin esa g'azal muallifining taxallusi bo'ladi. Bunga dalil sifatida Ogahiyning Navoiy g'azaliga bog'langan muxammasidan oxirgi bandni keltirish mumkin:

*Chekib davron jafosini fuzun e'dodu imkondin,  
Tuyarman Ogahiydek har nafas yuz ming karat jondin,  
O'tar mundin tunu kun ohu nolam charx gardondin,  
Navoiy, qilma ayb afg'anu faryodimki davrondin,  
Na bir faryodu o'n afg'onka yuz faryodu ming afg'on.*

(“Ochib maydin yuzing gul-gul”.)

O'zbek mumtoz adabiyotida ko'p asrlardan buyon Navoiy g'azallariga muxammas bog'lash an'anasi mavjud. Shu bilan bog'liq holda Xiva va Qo'qon

adabiy muhitlarida, xususan, Munis, Ogahiy, Nodira, Muqimiy, Furqat, Zavqiy singari shoirlar ijodida muxammasnavislik rivoj topgan.

**Maqola soʻngida ilmiy kuzatishlar natijalari quyidagicha umumlashtirildi:**

1. Muxammas – musammat janrining sheʼriy shakli boʻlib, 5 misrali bandlardan iborat. Oʻzbek mumtoz sheʼriyatida muxammas yozish Hofiz Xorazmiy va Gadoiy devonlarida uchraydi. Uning mustaqil muxammaslar (tabʼu xud) va taxmis turlari bor.

2. Muxammas janri taxmis yozilgan gʻazaldagi his-tuygʻu va fikrlarni kengroq, mufassalroq, chuqurroq ifodalashga, yangi kechinmalar hamda hayotiy umumlashmalar bilan boyitishga imkon beradi. Agar romantizmga yozilgan gʻazalga hozir muxammas bogʻlansa, unda realist shoir fikrlari mazmunan va ifoda jihatidan romantizmga uygʻunlashadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:**

1. Abdugʻafurov A. Alisher Navoiy musammatlari // Oʻzbek tili va adabiyoti. 1978. №1.– B. 27-33.
2. Adabiy turlar va janrlar. Uch jildlik. 2-jild. – T.: Fan, 1992. – 244b.
3. Fitrat A. Adabiyot qoidalari. –T.: Oʻqituvchi, 1995.–112 b.
4. Hofiz Xorazmiy Devon. II kitob. –T.: Oʻz. M.K. , 1981.–300 b.
5. Kaykovus. Qobusnoma. –T.: Istiqlol, 1994.–175 b.
6. Musulmonqulov R. Asrori suxan. –Dushanbe: Irfon, 1980. –B.72.
7. Musulmonqulov R. Nazariyai adabiyot. –Dushanbe: Irfon, 1994.–334 b.
8. Мусулмонкулов Р. Персидско таджикская классическая поэтика X-XV вв. –М.: Наука, 1989.–240 с.
9. Nosirov O va boshqalar. Oʻzbek klassik sheʼriyati janrlari. –T.: Oʻqituvchi, 1979. –182 b.
10. Рустамов Э.Р. Узбекская поэзия в первой половине XV века. –М.: ИВЛ, 1963. –367 с.
11. Orzibekov R. Oʻzbek adabiyotida gʻazal va musammat. –T.: Fan, 1976.–120 b.
12. Sarimsoqov B. Oʻzbek adabiyotida sajʼ. – T.: Fan, 1978. – B.19.
13. Shayxzoda M. Asarlar olti jildlik. IV jild. Gʻazal mulking sultoni. –T.: Adabiyot va sanʼat, 1972.–372 b.
14. Shayxzoda M. Asarlar olti jildlik. IV jild. Gʻazal mulking sultoni. –T.: Adabiyot va sanʼat, 1972.–372 b.
15. Sulaymanov M. Hofiz Xorazmiy va oʻzbek lirik sheʼriyatining rivoji: Filol. fanlari nomzodi dis.aftoref. –T.: 1996.–26 b.
16. Xalliyeva G. Ogahiy musammatlari. Monografiya. – T.: Mumtoz soʻz, 2019. – 159 b.
17. Xoʻjaqulov S. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida musaddas janri va uning evrilish tamoyillari // Soʻz sanʼati xalqaro jurnali 5-maxsus son. –T.: 2020. 64-69. b. <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2020-SI-5-11>
18. Xudayberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. Darslik. – T.: Sharq, 2008. – B. 261-262.

19. Xusayniy Atoullo Mahmud. *Badoye' us-sanoye'*. –Т.: Adabiyot va san'at, 1981.– 398 b.
20. Бертельс Е. История персидско таджикской литературы. –М.: ИВЛ, 1960. –556 с.
21. Бертельс Е. Навои и Джами. – М.: Наука, 1965.– 498 с.
22. Брагинский М. Из истории персидско таджикской литературы. – М.: Наука, 1972. – 524 с.
23. Вахид Табризий. *Джами мухтасар*. –М.: Л, 1959. –155 с.

## AN'ANAVIY “YUSUF VA ZULAYHO”NING ZAMONAVIY TALQINI

*Boltayeva Malika,*

*JDPI magistranti*

*Ilmiy rahbar: f.f.n. dots. Karimova Yulduz Akulovna*

Milliy hikoyachiligimizning ildizlari mumtoz adabiyotga borib taqalishi tabiiy. Zamonaviy realistik hikoyachiligimizni boshlab bergan “Uloqda” (A.Qodiriy) hikoyasidan keyin bu janrda yaratilgan asarlarimizning jiddiy yutug'i, beqiyos badiiy-estetik mohiyati adabiyotshunoslarimiz tomonidan e'tirof etib kelinmoqda [4;3]. Hozirgi kunda adabiy jarayonda noan'anaviy yo'nalishdagi hikoya va romanlar shakllanib kelmoqda. Xurshid Do'stmuhammad, Nazar Eshonqul, Ulug'bek Hamdam kabi yozuvchilarning hikoya va romanlari o'z tasvir yo'li, syujeti, mazmun mohiyati bilan ajralib turadi. Ularning asarlarini o'qiganimizda voqealar oddiydek tuyuladi, lekin o'quvchini, kutobxonni o'yga toldiradi. Undagi har bir obraz, detallar ramz asosida beriladi. Qahramonlari o'zlarining g'ayrioddiylik bilan ajralib turadi.

So'nggi yillar hikoyachiligida yangicha ruhdagi asarlarning paydo bo'lganligi bugungi kun kitobxonni uchun sir emas. Ulug'bek Hamdam asarlariga to'xtaladigan bo'lsak, asardagi voqelik shunchaki hikoya qilinmagan, bir o'qishda kitobxon aslida nima demoqchi ekanligini anglay olmaydi. “Yusuf va Zulayho” qissasi Sharq-u G'arbni birdek qiziqtirib kelgan ko'hna mavzulardan biridir. Qissaning muqaddas kitoblarimizda uchrashi ham mazkur mavzuning keng miqyosda shuhrat qozonishiga sabab bo'lgan. Mana shunday asarlardan biri “Yaxshiyam sen borsan!..” hikoyasidir. Muallif asarga “... Va, albatta, Olloh qabrdagi kimsalarni tiriltirur...” [1;209]. “Haj” surasining yettinchi oyatini tanlagani ba'zi kitobxonlarni taajjublantirgan bo'lishi mumkin. Aynan hikoyanavis ushbu oyatni epigraf sifatida tanlagani bejizga emasligini asarni o'qish jarayonida guvoh bo'lasiz. Yozuvchi asariga nima sababdan aynan bosh qahramon sifatida Yusufni tanlagani hikoyaning yana bir jumboqli tomonidir. Buning uchun “Qur'oni Karim”dan joy olgan “Yusuf” surasiga bir nigoh tashlasak: “Yusuf-payg'ambar nomi. “Go'zal qissa” deb ta'riflanuvchi ushbu surada asosan Ya'qub (a,s)ning o'g'li Yusuf(a.s)ning boshidan kechirgan voqealari aks ettirilgan. Surada otalik va birodarlik mehri, ishq-muhabbat, ayollar makri, tush ta'biri, sahiylik va kechirimli bo'lish kabi insoniy xususiyatlar o'z ifodasini topgan. Bu suradan

ilhomlangan shoir va yozuvchilar qadimdan “Yusuf va Zulayho qissasi” ruknida turli dostonlar ijod etganlar. Ular ichida Abdurahmon Jomiy, Fuzuliy, Rabgʻuziy, Durbek, Balxiy kabi shoirlarning asarlari diqqatga sazovordir” [2; 235].

Olima Raʼno Hakimjonovanning taʼkidlashicha: “ Bu hikoya ramzlar asosida qurilgan. Undagi ramzlarni toʻgʻri ilgʻay olish hikoya mazmunini anglashimizga yordam beradi. Yozuvchi anʼanaviy Yusuf va Zulayhoni emas, zamonaviy duyodagi bozor munosabatlari taʼsirida yashayotgan juftlikni aks ettirishni maqsad qiladi. Bir qarashda hikoyada biz bilgan Yusuf va Zulayhoning nomidan boʻlak aloqadorlik yoʻqday. Ammo ramziy hikoyaning qavat-qavat ramzlarini birma-bir kashf qilib borar ekansiz, anʼananing juda katta ahamiyati borligini tushunib yetasiz. Bu aloqadorlik toʻgʻridan- toʻgʻri emas. Hikoyada anʼanaviy qissa syujetiga taqlid ham yoʻq. Ammo botiniy aloqadorlik mavjud. Bu aloqadorlikni tushunish uchun Freyd, Fromm, Yung kabi jahon psixanalitiklari ilgari surgan tadqiqotlardan yaxshi xabardorlik talab etiladi. Bular bilan tanishmasdan turib, hikoyaning umumiy mazmunidan bahra olish mumkin-u, lekin uning ramziy qatlamlariga kirib boʻlmaydi” [3; dergipark.org.tr/tr/download/articl ].

Hikoya Yusuf va Zulayhoning telefondagi biroz sovuqqina suhbat va restoranda erinibgina suhbatlashishidan boshlanadi. Odatda restoranga asosan ovqatlanishga kirishadi, ammo ular taom buyurishga shoshilmaydi, Zulayho issiqqina choy buyurish bilan kifoyalanadi. Demak, qish fasli. Atrof, jamiyat, tashqarida sovuq hukmronlik qiladi va bu iqlim qahramonning botiniga ham yoʻl topib kirmoqda.

Asar boshlanishidagi sovuq tasvir qahramonning koʻnglidagi noxushlikka ishoradir. Zulayhoning dastlab issiq choy bilan qalbidagi muzni eritmoqchi boʻlganini, hikoya soʻnggida yigit ham, qiz ham bir-biriga ishonch, ishq maʼrifati bilan yoʻldagi toʻsiqlarni yengib oʻtadi. Bu orqali yozuvchi atrofimizda yoshlarning muhabbatda beqarorligi, arzimagan narsalarga munosabatlarning buzilib ketishi, shuning natijasi oʻlaroq haqiqiy muhabbat yoʻqolib ketayotganligini aytmoqchidek, nazarimda.

Shu davrning yetuk yozuvchilaridan boʻlgan Xurshid Doʻstmuhammad Ulugʻbek Hamdamning “Isyon va itoat” romaniga soʻngsoʻz sifatida “Mohiyatni izlayotgan hikoyalar” mavzusidagi maqolasida quyidagi izohlarni keltiradi: “Kitob dunyosi”ning ushbu sonida eʼlon qilingan Ulugʻbek Hamdamning “Yaxshiyam sen borsan!..” asari bugungi kun hikoyachiligimizga xos boʻlgan bir qator uslubiy izlanishlarni mujassam etganligi, hikoyanavislik aslahalaridan unumli foydalana bilganligi bilan alohida eʼtiborga loyiqdir” [1;423]. Munaqqid asarga oʻz bahosini berar ekan, hikoya qahramonlarining Yusuf va Zulayho vaziyatni obdon oʻylab olish uchun qahvaxonaga kirishi, moʻysafid choyxonachi (nega yosh emas, aynan keksa odam obrazi kiritilganligi) shu bilan birgalikda bozorni roʻzi mahsharga oʻxshatgani bejizga emas. Muallifning mana shu oʻrinda ramzni toʻgʻri qoʻllaganligi asar qimmatini yana ham oshiradi. Bilamizki, bugungi dunyo kishisi xoh u ayol boʻlsin, xoh u erkak arzimagan mayda-chuyda tashvishlarni deb boqiy dunyoni unutishmoqda. Qahramonlar bozorning chiqish eshigini topa olmasdan, Zulayhoning tillalar sotiladigan doʻkonda paydo boʻlib qolishi, savdogarlar uning



bo‘yniga, ikki qulog‘iga va bilaklariga tilla taqinchoqlar taqib, (ayrim o‘rinlarda matoh deb keltirilgan, demak qimmatbaho bo‘lsa-da, bu dunyodagi ortiqcha hoyu havas ekanligini ta’kidlanmoqda) chalg‘ib, oxiratini unutib qo‘ygan ayollarga nisbatan chaqiriq, ogohlantirish emasmi? Mana bu parchaga e’tibor qaratsak: ”Aks holda Zulayhoning tujjorlar changalidan hech qachon qutqarib ololmasligini, demakki, suygan yori bozorda bir umr qolib ketishini ich-ichidan his qildi Yusuf. Shu hamona o‘zini davraga urdi, Zulayhoning tanasiga ilingan nimaiki tilla matoh bo‘lsa, barini chiqarib otdi-da, qizning qo‘lidan ushlab kunchiqarni mo‘ljallab chopdi” [1;214]. Guvohi bo‘lganimizdek bozor, savdogarlar, tilla buyumlar, ularning quloqqa taqilishi (xayrli so‘zlarni eshitishdan mahrum etilishi), qo‘l-oyoqqa taqilishi (xayrli amallardan qo‘l-oyoqning tiyilishi)da chuqur tag ma’nolar borligini sezamiz. Kunchiqarga qarab chopishi esa, ularni oldinda, yorug‘ kelajak kutayotganligiga ishoradir. Chunki bizning dinimizda yorug‘lik yaxshilikning ramzidir. Bu holatdan Yusuf Zulayhoni qutqaradi. Ular shuncha masofa bossa-da, yana o‘sha yemakxonaning qarshisida paydo bo‘lib qolishadi. Bir fursat nafas rostdashgach, yana yo‘lda davom etishadi. Su payt aynan tilla do‘konining o‘rnida “BOSHQARMA” deb yozilgan binoga duch kelishadi. Yusuf Zulayhoning qancha qistashiga qaramay to‘xtab qoladi. Binodan chiqib kelgan to‘rtta barzangi he yo‘q, be yo‘q Yusufning ikki oyog‘i va ikki qo‘lidan changallab ichkariga ko‘tarib ketishi, Zulayho esa nima qilarini bilmay turganda, sirli darvoza yana takror ochilib, ichkaridan bir guruh bashang kiyingan odamlar chiqib kelishi tasvirlangan. Yusuf esa butkul o‘zgarib, yigitning atrofida uning qarshisida qo‘l qovushtirib turishi qizni esankiratib qo‘yadi. Quyidagi jummalarga nazar tashlasak: “Faqat Yusufning yuzi va ko‘zidagina uning o‘sha ... Yusuf ekanligini bilish mumkin edi” [1;216]. Bu tasvirdan shuni tushunishimiz mumkinki, amal har qanday insonni tashqi qiyofasi bilan birgalikda ichki ruhiyatini ham o‘zgartirishga qodir. Demak, amal har qanday odamni tanlagan yo‘lidan adashishiga ishoradir. Xalqimizda pul odamni buzadi degan naql bekorga aytilmagan. Zulayho hamisha Yusufni husni malohati bilan mahliyo qilgan bo‘lsa, shu chiroyidan voz kechish orqali sevgilisi va sevgisini saqlab qolishga erishadi. Asar so‘nggida tan va ruhiyat birlashib bozordan chiqib ketishga musharraf bo‘ladi. Ko‘rib turganimizdek, ramzlar tili hikoyada ko‘p qatlamlilik, ko‘p ovozlilikni yuzaga chiqaradi. Kitobxon tarafidan bu ovozlilar simfoniyasini to‘liq anglab olish hikoyaning yuksak badiiy-estetik mohiyatidan, ayni paytda o‘quvchining zarofati va dididan ham darak beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ulug‘bek Hamdam. Isyon va itoat: romanlar va hikoyalar/ So‘zboshi muallifi Dilmurod Quronov.-Toshkent.: Yangi asr avlodi, 2018.-432 b.
2. Qur‘oni Karim ma’nolarining tarjima va tavsifi. Shayh Abdulaziz Mansur. Toshkent.: “Sano-standart”,2019.-624b.
3. Dergipark.org.tr/tr/download/articl.
4. N.Karimov, H.Abdiyev. XX asr O‘zbek hikoyasi antologiyasi. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. T.: 2016. -624 b.



## ТАБИАТ ВА ИНСОН РУҲИЯТИ ТАЛҚИНЛАРИ

*Тошбекова Зиёда,*

*ЖДПИ магистранти*

*Илмий раҳбар: У.Қосимов, фил.ф.доктори*

Жаҳон адабиёти намуналари билан яқиндан танишсак, инсон руҳияти ва табиат тасвирлари худди ҳаёт сингари мураккаб ва хилма-хил эканлигидан ҳайратга тушамиз. Кўп асрлик мумтоз адабиётимиз намояндаларининг бой ижодиётини ёхуд замондош адибларимизнинг етук асарларини кўздан кечирсак, муҳим бир ҳақиқатнинг гувоҳи бўламиз. Яъни уларда табиат ва инсон мавзуси ҳамиша асосий муаммолардан бири бўлиб келганлигига чуқур ишонч ҳосил қиламиз. Чунончи, Навоий ёхуд Бобурнинг машхур асарларини эсга олайлик. Уларда қаҳрамон ҳаёти, руҳияти ва қалб кечинмалари ҳамиша табиат тасвири билан уйғун ва мос тарзда акс эттирилади. Ёхуд Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романидаги “Хўжа маъоз” мазорида қоронғи кузнинг қоронғи тунидаги кучли ел ва Абдулла Қаҳҳорнинг “Даҳшат” ҳикоясидаги кучли шамол тасвирлари ҳам қаҳрамонлар ҳолати ва тақдири билан боғлиқ муҳим ғоявий-бадиий қимматга эга.

Атоқли адиб Чингиз Айтматовнинг “Момо ер”, “Алвидо, Гулсари” ва “Қиёмат” каби қисса ва романларида ҳам табиат ва инсоннинг ўзаро муносабатлари ёрқин психологик тасвир ва фалсафий мушоҳадалар орқали ёритиб берилганлиги юксак санъаткорлик намунаси сифатида китобхонлар эътиборини қозонган. Бошқача айтганда, асар қаҳрамонларининг шодлик-кувончи, дард-изтироблари ҳамиша табиат манзаралари билан мутаносиб тарзда акс эттириладиги, булар мазкур асарларнинг жозибадорлиги ва таъсир кучини ҳам оширади.

Бадиий асар қаҳрамонлари ҳаётининг турли даврлари тасвирига эътибор қаратайлик. Аксарият ҳолларда қаҳрамонларнинг ёшлиги табиатнинг жўшқин баҳор фасли билан муқояса қилинган ҳолда ифода этилса, умри ниҳояси кўпинча хазонрезги куз фасли манзаралари билан уйғун бир ҳолда акс эттирилишида ҳам ажиб бир ҳикмат борлиги шубҳасиз. Қаҳрамонлар ҳаётидаги ўзгаришлар, уларнинг тақдиридаги бурилиш ё бахт-фожеалар ҳам табиат билан узвий боғлиқ тарзда ифодаланиши жаҳон адабиётининг устувор бир йўналиши эканлигини эътироф этиш лозим. Улуғ мутафаккир Аристотел адабиёт ва санъатнинг вужудга келишини бевосита табиатга тақлид билан боғлаб тушунтириши замирида ҳам ана шу ҳақиқат ётади.

Илғор анъаналарнинг моҳир давомчиси бўлган Қодирий ва Қаҳҳор, Айтматов ва уларга издош Тоғай Мурод каби адиблар кўз олдида ҳамиша ана шу муҳим ҳақиқат- олий мезон туради. **Далил тариқасида XX аср ўзбек ҳикоячилигининг шоҳ асарларидан бири деб тан олинган улуғ адибимиз Абдулла Қаҳҳорнинг “Даҳшат” номли ҳикоясидан олинган ушбу парчани кўздан кечирайлик:** “Яқин икки ҳафтадан бери кўз очирмаётган кузак шамоли яйдоқ дарахтлар шоҳида чийиллайди, гувиллайди, томларда вишиллайди, ёпиқ эшик ва дарчаларга бош уриб, уф тортади. Шамол гоҳ оч бўридай

увиллар, гоҳ ўлим чангалига тушган мушукдай пихиллар, вағиллар, ҳеч нарса-ҳеч нарса кўринмас эди...” Асак нега шундай кўрқинчли ва ваҳимали табиат тасвири билан бошлангани ҳам бежиз эмас.

Ҳикояда содир бўладиган даҳшатли ҳодисаларнинг илк даракчиси бўлган бу нохуш табиат тасвири бутун асарга муайян фон, яъни совуқ оҳанг бағишлайдики, бу сергаклантирувчи оҳанг ҳикоядаги кескин драматизм ва фожиани янада кучайтириб, қаҳрамон руҳияти ва кечинмаларига тўла мос келади. Агар ҳикоя мазмунини мунгли кўшиққа қиёсласак, ундаги тасвир ва оҳангдорликни ана шу ғамгин кўшиқ мазмунини ифода этувчи оғир ва хазин куй деб аташ мумкин. Бундай мисоллар Қаҳҳорнинг сўз санъаткорлигини кўрсатиб, айти пайтда, адиб адабий-эстетик қарашлари билан бадиий ижоди ажралмас, яхлит маънавий олам эканлиги ҳақида ҳам муҳим бир хулоса чиқаришга етарли асос беради.

Асар қаҳрамонлари катта маҳорат билан тасвирланган ва инсон руҳий кечинмалари билан табиат лавҳаларининг қанчалик мос ва ранг-баранг бўлишини Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романи мисолида янада кенгроқ кузатиш мумкин. Роман бош қаҳрамонлари-Отабек ва Кумушнинг психологик кечинмаларини ҳаққоний ифодалашда пейзажнинг алоҳида ўрни ва аҳамияти борлигини яққол кўришимиз мумкин. Бу хусусда адиб асарлари ва унинг тасвирлаш маҳоратини яхши ўрганган ҳамда Абдулла Қодирийга бағишлаб “Ёлғиз” номли биографик қисса ҳам яратган таниқли ёзувчи ва адабиётшунос олим Хуршид Дўстмуҳаммаднинг кузатишлари ҳам муҳим.

Асарда табиат ранглари билан қаҳрамонлар руҳияти бир-бирига уйғун ҳолатда моҳирона тасвирланганлигига тан берамиз. Масалан, Кумуш сохта талоқ хатини олган ва Қутидорникига совчилар кетма-кет келаётган оғир кунларда Кумушнинг руҳий кечинмалари табиат тасвири ёрдамида шундай ифодаланади: “Куз кунларининг оёғи ва қиш кунларининг боши. Япроқларини тўкилишдан сақлаб қолган гилос ёғочлари ҳам бу кун тунги қора совуққа чидолмай, елнинг озгина ҳаракати билан-да барглари[сўнгги умидларни] ширт-ширт узиб ташламоқда эдилар”. Аммо умид учкунлари ҳали сўнмаган, ҳаво очиқ бўлиб, қуёш тузуккина кўтарилган, бироқ яна умидсизлик кўнгил тубидаги чўғни босиб ўчиришга уринади, аммо унинг ҳам бу кун унча таъсири йўқ, бу кунги қора совуқ қуёш кучини-да кескан эди” [209-б] Ушбу парчада ҳам Абдулла Қодирийнинг чуқур фалсафий мушоҳадалари ва тасвирлаш санъати ёрқин намоён бўлганини кўрамиз.

Бундай хусусиятлар бадиий асарларда қандай услубий ранг-баранглик билан ифодаланишини жаҳон адабиётининг забардаст вакилларида бири Чингиз Айтматовнинг “Алвидо, Гулсари” ва истеъдодли ёзувчимиз Тоғай Муроднинг “От кишнаган оқшом” қиссалари мисолида кўриб чиқиш мақсадга мувофиқ бўлади. Шуни таъкидлаш лозимки, XX аср прозасида алоҳида ўрин тутувчи бу икки қиссанинг ҳам асосий қаҳрамонлари- отлар, яъни Гулсари ва Тарлон. Бизга маълумки, Чингиз Айтматов қиссаси Гулсари ва Танабой чўпон умрининг сўнгги кунларини тасвирлашдан бошланади. Ўқувчини бўлажак воқеаларга қизиқишини

орттириш учун ёзувчи шундай усулни қўллаган. Иккаласининг ҳам умри охирлаб қолганлиги учун тасвир мунгли оҳангда берилади: “Эски аравани кекса бир киши хайдаб борарди. Саман йўрға Гулсари ҳам жуда қари эди. Ясси тоғ тепасига олиб чиқиладиган йўл тинкани қуритадиган даражада олис бўлиб, яйдоқ, кулранг адирларда қишда доим совуқ шамол ер ялаб изғиб юрар, ёзда эса тандирдек қизиб кетарди. Бу довон Танабой учун жон азоби эди.” Гулсарининг ўлими изғиринли совуқда кимсасиз дарада қоронғи тунда рўй бериши ва Танабойнинг кўп йиллик ҳамроҳи ва сирдоши бўлган йўрғаси билан видолашуви ҳам қанчалик оғир бўлгани китобхон қалбида чуқур ҳамдардлик ҳисларини уйғотиши табиийдир.

Бадиий ижоднинг муқаддас тамойилига айланган инсон ва табиат тасвири, айниқса, отлар образини моҳирона тасвирлаш Тоғай Мурод ижодида ҳам муваффақиятли давом эттирилган. “От кишнаган оқшом” киссасида бунга чуқур ишонч ҳосил қиламиз.

Одамзодга бир умр йўлдош ва қиёматли биродар бу тил-забонсиз, лекин нақадар зийрак ва вафодор жониворнинг инсон бошига мусибат тушган қайғули дамларида мадад излаб тоғларга қараб зорланиб кишнашида қанчалар инсоний жонкуярлик ва дарддошлик туйғулари борлигидан ҳайратга тушамиз. Одам боласининг унсиз чеккан оҳ-фарёдини эслатувчи ва қоп-қора тун “оқшомидан-да мунгли ва аянчли бўлган бу кишнаш инсон кўнгил-кўнглини ўйиб юборишини, унинг вужуд-вужудини қақшатиб юбора олишини” ҳам кўпчилик ўқувчилар, эҳтимолки, мана шу қиссадан илк бора туйган бўлса ажаб эмас.

**Тоғай Мурод асарларида табиат, она-замин ва жониворларнинг бевосита инсон ҳаёти ва ўй-кечинмалари билан яхлит тарзда жонли ва таъсирчан лавҳалар орқали тасвирланиши диққатни кўпроқ жалб этади. Юқорида келтирилган мисоллар таҳлилидан шундай умумий бир хулоса чиқариш мумкин. Яъни, қаҳрамонлар руҳияти ва табиат тасвирида уйғунлик ва мукамалликка эришиш Абдулла Қодирий, Абдулла Қаҳҳор, Чингиз Айтматов ва Тоғай Мурод асарларига хос ва муштарак фазилят бўлиб, бу жиҳатлар асар мазмуни ва таъсирчанлигини беҳад оширганлигига гувоҳ бўламиз. Машҳур ёзувчилар таъкидлаганидек, чинакам санъат асарида ҳеч бир нарса ноўрин қўлланмаслиги керак, яъни етук асардаги ҳар бир лавҳа, ҳатто кичик бир детал тасвири ҳам муайян ғоявий-бадиий функцияни бажариши лозим. Бу бадиий ижоднинг асосий бир талабидир. Санъаткорнинг бадиий маҳоратининг муҳим бир қирраси ҳам шунда.**

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Адабиёт назарияси. Тошкент. Фан. 1978.
2. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. 1999.
3. Хуршид Дўстмуҳаммад. Бадиий психологизмда пейзажнинг ўрни.-Нўъмон Раҳимжонов Қодирийшунослик қирралари.Т.2015,
4. Чингиз Айтматов. Қиссалар. Алвидо, Гулсари. Т.:2016,

**БАДИИЙ АДАБИЁТДА АВАЗ ТИМСОЛИ**

Маллабоева Ҳилола,  
Алишер Навоий номидаги  
ТошДУТАУ магистранти

Хоразм адабий мухитининг етук намояндаларидан бири, хоразмлик ўзбек маърифатпарвар шоири Аваз Ўтардир. Аваз Ўтар Баёний, Лаффасий, Комил, Мирзо, Ходим, Табибий, Мутриб, Фақирий, Чокар каби ўнлаб истеъдодлар сингари Муҳаммад Раҳимхон II даврида яшаб ижод этган.

Ўзбек насрида Ж.Шариповнинг “Хоразм”[5] С.Сиёевнинг “Аваз”[2] сингари романларида Аваз образига мурожаат этилган.

Ж.Шариповнинг “Хоразм” романида Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий ҳаёт тасвирида мавжуд тузум билан боғлиқ айрим чекланишлар кузатилса-да, Феруз яратган Тозабоғ тасвири, шунингдек, шоҳ ҳаётининг сўнгги кунлари қалбидан кечган руҳий кечинмалар бирмунча жонли тасвирланган. Шунингдек, Ж.Шарипов Феруз ва Аваз Ўтар муносабатларини ҳам ҳаққоний, ишонарли тасвирлаб бера олган. Муҳаммад Раҳимхони сонининг ҳам шоир, ҳам шоҳ сифатидаги қиёфасини айнан Феруз ва Аваз муносабатлари фонида очиб беришга мувофиқ бўлган.

С.Сиёевнинг “Аваз Ўтар” романи Аваз Ўтар ўғлининг ҳаёти, ижоди, фаолиятининг кўп қиррали томонлари ҳақида хикоя қилади. Асарда Феруз, Отамурод қори (*Камолӣ*), Ахмаджон (*Табибий*), Мутриб (*Хонахаробӣ*), Чокар, Розий, Ниёзмухаммад охунд, Машарип ва Бобожон торро, Ўтар бобо, Аваз, Муҳаммад Юсуф ҳожи (*Зорӣ*) Исмойил созчи, Отажон босма, Худойберган девон, сингари ўнлаб тарихий шахслар иштирок этишади.

Роман Авазнинг хон саройини тарк этиши тафсилотлари билан бошланиб, 1916 йил воқеалари билан тугайди. Муаллиф Авазнинг исёнкорлиги ўсиб боришини ижтимоий ҳаёт воқеалари, русларнинг таъсири билан боғлашга интилади. Шу боисдан, бўлса керак, романнинг биринчи саҳифасидаёқ Феруз ҳақида гап кетганда қора бўёқлар, қуюқлаша бориши кўзга ташланади. “*Саройнинг фисқу фузурларга тўла рутубатли ҳавоси... бир-бирини гажиб ташлашга тайёр сипоҳларнинг қон талаш кўзлари... беғуноҳ бечораларнинг оҳу-ноласи бир қўлда қалам, бир қўлида қилич тутган “Зилл-ус-сунҳон” (Тангрининг ердаги сояси) Муҳаммад Раҳимхоннинг тунд башараси - барча-барчаси ўтмишга чекинди*” [2.5.] - деб ёзади муаллиф.

Кўринадики, С.Сиёев ҳам ҳаёт ҳақиқатини қайта ишлашда яққаҳоқим методология доғмаларига таяниб иш кўрган. Аваз Ўтар хон хазратларининг махсус ёрлиғини ҳудайчига қайтиб топшириб, саройни тарк этар экан, муаллиф лирик чекиниш яшаш билан Машариф тарронинг жазоланиши лавҳаларини чизади. Атиги бир соатча бурун бўлиб, ўтган воқеалар - Шариф тарронининг қалтаклар зарбидан жон таслим қилиши Авазнинг хотиралари шаклида баён қилинади. Афтидан С.Сиёев юқорида таъкидлаганидек, “*бир қўлида қалам, бир қўлида қилич*” тутган Феруз фожиасини очиб бермоқчи бўлади. Бироқ у Авазнинг шижоатини бирмунча бўрттириб тасвирлайди.



Гўёки, Аваз ёшлик пайтларида саройдаги “*фисқу фужурлар*”ни англаб етмагани боисидангина сарой шоирлари сафига кўшилган,- деган хулоса чиқармоқчи бўлади.: “*У (яъни Аваз назарда тутилмоқда. Ҳ.М.) икки ўт орасида қоврилар гарибона озодлик ила шоҳона тилла қафас ўртасида муаллақ бир маконда сарсону саргардон эди*”., -деб ёзади. [2.16]

Демакки, романда Феруз саройи “*шоҳона тилла қафас*” - деб талқин қилинган.

Муаллиф Аваз ва Феруз муносабатларини икки ижодкор шахснинг шунчаки мулоқотидан, инсон ва унинг эрки даражасига кўтаришга интилади. Аваздаги исёнкорлик - тирикчилик ғам ташвишларидан бир поғона кўтарилиш яъни “*гарибона озодлик*”ни қўмсаш ҳосиласи тарзида бир мунча жонли чизилади. Авазни эркин инсон сифатида тасвирлашга қаттиқ маҳлиё бўлган муаллиф Ферузнинг ҳам мустақил шахс эканлигига етарлича эътибор бермайди.

Ўтар бобо хонадонининг яқин кишиларидан бўлган Аҳмаджон Табибий ёш Авазнинг иқтидори, куввайи ҳофизасини пайқаб, уни ўзига шогирд сифатида танлайди ва хон саройига жалб этади. Романда Феруз ҳузурида илк бор ўз ғазалларини ўқиб берган Аваз хусусидаги Феруз хулосаси кишининг диққатини тортарли даражада тасвирланган: “*Дийдаси қаттиқ экан. Бундай кимсаларда садоқат рамзи бўлмағай. Илло абёти тузук. Биз саройга қабул этдик.*”. [2.14.] Англашиладики, Феруз саройига шоирлар бевосита хоннинг маҳсус имтиҳонидан ўтказилиб, авваламбор истеъдоди даражасига қарабгина қабул қилинган. Иқтидорли ёшларнинг ҳулқ-атворини бир кўришдаёқ “*хон хазратлари*” беҳато аниқлай олган. Лозим бўлганида хатоларини тузатган, йўл-йўриқлар кўрсатган. Бу манзара “*Аваз*” романида ишонарли тасвирланган. Ёш шоир Аваз ўз ғазалларидаги айрим сакталикларни тузатиб, баъзи шеърларини ёддан ўқиб берганини кўриб Ферузга ич-ичидан тан беради: “*Феруз деганларича бор экан. Олло насиб этса, минбаъд мана шу Феруз даргоҳида мушоира қилажаксан, Аваз*”. [2.14]

С.Сиёев хон саройининг Аваз учун ўйнаган ролини ишонарли тасвирлашни истаса-да, лекин негадир бу истакка қарама-қарши йўлдан боради. Битта саҳифанинг ўзидаги зиддиятли фикрларни кузатишнинг ўзиёқ фикримизни далиллайди: “*... шеърият бўстонида қулоч ёйиб кирди. Устоз Табибийнинг ташбеҳларига разм солди. Баёнийга эргашиди. Муҳаммад Ҳасан Мутрибни ога тутинди, эски дўсти олашовур - шўх Чокарнинг ёнидан жилмайдиган бўлди*”. [2.15.] Демакки, Аваз талантининг сайқаллашувида сарой шоирлари муҳитининг таъсири кучли бўлган. Бироқ муаллиф шу саҳифанинг ўзида “*Бу ерда орият, адлу инсоф, имон, ҳимият деган нарсалар оёғости*”, - деб ёзади. Бу билан гўё у Аваз исёнкорлигининг илдизларини кўрсатмоқчидай бўлади. Аммо, баҳолаш мезонидаги бир томонламалик яққол сезилиб қолади. Натижада, саройни тарк этиш улкан бир жасорат янглиф талқин этилади.

Кўринадики, С.Сиёевнинг “*Аваз*” романида айрим жиҳатларни эътиборга олмаганда Авазнинг шоир сифатидаги руҳий-психологик қалб



олами ўзига хос тарзда тасвирланган. Роман мутолааси бизга Аваз ҳаётининг муайян жиҳатларини ойдинлаштиришга ёрдам бериши, шубҳасиздир.

Адабиётлар рўйхати.

1. Баёний. Шажарайи Хоразмшоҳий. – Урганч, 1992
2. Сиёев С. Аваз. Роман. – Т.: Ёш гвардия, 1987.
3. Сиёев С. Аваз Ўтар. Роман. - Т.: 2018
4. Феруз шоҳ ва шоир. Илмий мақолалар тўплами - Урганч, 1994.
5. Шарипов.Ж. Сайланма. Уч жилдлик. Ж.1. – Т.: Адабиёт ва санъат 1981.

## “NASOYIM UL MUHABBAT” ASARIDA AYOLLAR OBRAZI TASVIRI

*Abdujabbarov Kamoliddin Abdurahob o'g'li,  
JDPI magistranti*

Ayol siymosi dunyodagi barcha xalqlar uchun muqaddas va mo‘tabardir. Ularni birlashtirib turuvchi mushtarak fazilatlar bisyor, albatta. Lekin, ayni vaqtda, har bir xalqqa, millatga mansub ayol siymosi o‘z fe‘l-atvori, tabiati, ichki va tashqi dunyosi, hatto, portreti bilan muayyan darajada farqlanib turadi. Buyuk mutafakkur Alisher Navoiy ijodida ONA-AYOL siymosi qay tariqa aks ettirilgan? Uning dunyoqarashidagi tushunchalar ayollik latofatini qanday tushuntiradi? Shular xususida so‘z yuritamiz.

Alisher Navoiy ijodida ayollar timsoli ikki yo‘nalishda aks ettirilgan: tarixiy siymolar, xususan orifa ayollar tasviri yo‘nalishida badiiy asar qahramonlari tasviri yo‘nalishida. Birinchi yo‘nalish bevosita buyuk mutafakkirning “Nasoyimul muhabbat” asari bilan bog‘liq holda amalga oshirilgan bo‘lib, asarda zikri keltirilgan 770 ta shayxning 35 tasini so‘fiy ayollar haqidagi ma‘lumotlar tashkil etadi. Ular orasida 12 tasi avliyolik darajasiga erishgan va karomat ko‘rsatgan orifalar hisoblanadi. Bu ayollar orasida dastlabkisi va eng mashhuri Robiya Adaviyadir.

Asarda ushbu avliyo ayol bilan bog‘liq ko‘plab ma‘lumotlar keltirilgan. “Kunlardan bir kuni Shayx Hasan Basriy Robiyaning yoniga keldi. Suv ustiga joynamozini to‘shab:

-Ikki rakaat namoz o‘qiylik, -dedi.

Robiya o‘z joynamozini havoga to‘shab ustiga mindi va dedi:

-Ey ustoz, sening bu qilgan ishingni baliq ham qilur. Mening qilganimni haqir bir pashsha ham qilur. Bulardan ish chiqmas. Yaxshisi, amal qilmoqdir”[3;86].

Hikoyadan ayon bo‘lyaptiki, Hasan Basriydek zot avliyo darajasiga ko‘tarilgan orifa ayol Robiya Adaviyaning yoniga kelib, karomat ko‘rsatmoqda. Joynamozning suv ustida ho‘l bo‘lmay, cho‘kib ketmay, muallaq turishining o‘zi g‘ayriodatiy ishdir.

Robiya esa bunga javoban o‘z joynamozini havoga to‘shadi. Bu oldingidan ham ko‘ra kattaroq karomatdir. Lekin hikoyadan chiqariladigan xulosa bu emas. Robiya Adaviya bunday ishni suvda baliq, havoda pashsha ham qiladi. Bunday g‘ayriodatiy ishlarimizdan bizga hech qanday foyda yo‘q. Eng yaxshisi amal

qilmoqdir, deb javob beryapti. Ko'ryapmizki, Robiyaning bu fikri Alisher Navoiyning karomat borasidagi qarashlariga juda mos keladi. Alisher Navoiy hech qanday foydasi bo'lmagan karomatlarni ko'zbo'yamachilik, kazzoblik deya baholaydi. Yuqorida keltirilgan hikoyani o'qigan o'quvchi Hasan Basriy haqida noto'g'ri tushunchaga borishi mumkin. Aslida esa, Hasan Basriy kabi ulug' zot Robiya Adaviyani sinash uchun shunday qilgandi.

Alisher Navoiy fikricha, kishilarning Haqqa "dalolat va irshod qilish" (yetishtirish) maqsadida va shunga xizmat qiladigan g'ayrioddiy ishlarnigina haqiqiy karomat deb atash mumkin. Chunki ulardan ma'rifat paydo bo'ladi. Odamlarni avrash maqsadida amalga oshiriladigan ko'zbo'yamachilik esa yolg'onchilarning ishidir va undan faqat jaholat dunyoga keladi. Avval boshda karomat inson ma'naviy takomilining yuqori pog'onasida qaralgan. Biroq vaqt o'tishi bilan va tasavvuf ta'limoti tarqqiy topishi natijasida karomatga bo'lgan munosabatlar ham o'zgargan. Keyinchalik karomat ko'rsatish emas, balki karomatli shaxs bo'la turib, o'zidagi xislatni yashira olish, pinhon tuita bilish qobiliyati ma'naviy komillik sifatida talqin etilgan. Boshqa tomondan esa Alisher Navoiyning fikricha karomat ko'rsatishga berilib ketish kishini Haqdan uzoqlashtirishi, binobarin, g'aflatga solishi mumkin. Masalan, Alisher Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat"ni yaratishda foydalangan "Asror ul-avliyo" nomli manoqibda "Karomatni namoyish – farzni tark etishdir" deya ko'rsatilgan. Yana ushbu manbada aytilishicha, so'fiylik yo'li 15 martabadan iborat bo'lib, uning 5 martabasi kashfu karomatdir. Agar solik o'zidagi kashfu karomat martabasini yashra olmay oshkor qilsa, unga qolgan o'n martabaga erishish yo'llari batamom yopiladi va u asl maqsadiga yetib borolmaydi.

Alisher Navoiy e'tiqodicha, shunday kamolot egalari ham borki, ular ushbu xislatlarga ega bo'la turib, karomatlarini yashiradilar, xalqqa oshkor qilishdan or etadilar. Chunki ular bir soniya ham Haq yodidan g'ofil bo'la olmaydilar. Ushbu xislatlarni namoyish etish va karomatbozlik uchun esa bir daqiqaga bo'lsa-da Haqni unutish talab etiladi. Bu haqda Alisher Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat"da quyidagilarni qad etadi:

"Va Haq subhonahu va taolog'a andoq muqarrab bandalar va do'stlar ham borki, bu borcha mazkur bo'lg'on holatdin ijtinob qilurlar, balki or qilurlar, nechunki, bir turfatulayn Haq s. t. shuhudu istig'roqidin g'ofil bo'la olmaslar. To ul saodatdin g'ofil bo'lmog'uncha bu nimalarga maylu iltifot qilsa bo'lmas. Har oyinaki, ul maqsudi asliydin har amrki, bu buzurkvorlarni bir lahza g'ofil qilg'ay agar barcha behishti jovidondurki, alarg'a do'zaxcha bor, andin ijtinob yo or qilsalar, muhiq bo'lg'aylar".

Robiya Adaviya basralik bo'lib, u haqdagi dastlabki ma'lumot Shayx Fariduddin Attorning "Tazkirat ul-avliyo" kitobida keltirilgan. Attor o'z asarida Robiya Adaviyaga batafsil to'xtalib, uning avliyoligi, Allohning sevimli quli va do'sti ekanligi bilan bog'liq 20 dan ortiq hikoyani keltirib o'tadi. Abdurahmon Jomiyning "Nafahot ul-uns" tazkirasida ham u bilan bog'liq ko'plab ma'lumotlar keltirilgan. Jomiyning ushbu asaridan to'liq holda tarjima qilingan qismda Robiya Adaviyaning taqvosi bilan bog'liq eng muhim jihatlar qalamga olingan. Alisher

Navoiy kitobxonning “Tazkirat ul-avliyo” va boshqa shu kabi asarlardan xabardorligini koʻzdan qochirmagan holda Robiya Adaviyaning eng goʻzal komillikka yetaklovchi hikmatli gaplarini, Shayx Sufyon Savriy bilan bogʻliq suhbatlarni zikr etish bilan cheklanadi.

Alisher Navoiy dastlab Robiya Adaviyaning basralik boʻlganini aytadi. Soʻng oʻz davrining eng ulugʻ shayxlaridan biri Suyon Savriy bilan suhbatlar qurganini aytib, ikki suhbatini misol keltiradi:

“Kunlardan bir kuni Sufyon Savriy Robiya huzurida qoʻlini osmonga koʻtarib “Oллоhim, Oллоhim, Sendan salomatlik soʻrayman” dedi. Buni eshitgan Robiya yigʻladi. Sufyon Savriy Robiyadan nega yigʻlayotganini soʻragach, u shunday javob berdi:

-Salomat dunyoda aning tarkidadir. Va sen dunyoga oludasen.

Bu suhbatda Robiya Sufyon Savriyning qilgan duosini tanqid qilmoqda. Shuning uchun ham Oллоhdan salomatlik soʻrashing seni dunyoni yaxshi koʻrishingdandir, deyapti.

Sufyon Savriy bilan boʻlgan yana bir suhbatda shayx Robiyadan soʻradi:

-Tengri taologʻa taqarrublar nimalardin yaxshirogʻi qaysidir?

Bunga javoban Robiya:

-Agar sen Oллоhga taqarrub (yaqinlik) istasang, dunyo va oxiratda Andin oʻzgasini sevma, -dedi.

Yana bir kuni Sufyon Savriy Robiya huzurida “Vo Alamo!” deya baqirdi. Buni eshitgan Robiya uni malomat qilib:

-Yolgʻon aytma, agar seb gʻamgin boʻlganingda tiriklik sen uchun ortiqcha yukdek boʻlardi, -dedi. Yaʼni haqiqatda dunyodan mahzun boʻlgan odam uchun unda yashash sevinch tugʻdirmaydi. Chunki u dunyoga sigʻmay qoladi.[2;241]

Sufyon Savriy bilan boʻlib oʻtgan ushbu suhbatlarni zikr qilgandan soʻng, Alisher Navoiy Robiya tilidan aytilgan ikki juda teran maʼnolarga ega hikmatni keltirib oʻtadi. Bu hikmatlarning oʻziyoq Robiya Adaviyaning haqiqiy avliyo ayol va Haqqa qanchalik yaqin boʻlganini isbotlaydi:

“Har nimaga samaredur va maʼrifat samarasi yuz Tengriga keltirmakdur.

Ushbu hikmatda aytilishicha, har nedan maqsad ilmdir. U shunday ilmki, Tangriga yuz burdirguvchi va unga yetishtirguvchi.

Oллоh taolo oʻzining kitobi Qurʼonda ham ilm egalari bilan johillar hech qachon teng boʻlmasligi haqida aytgan. Demak, har bir ishdan maqsad, ilm boʻlishi va bu ilm oxir-oqibatda Yaratganni kashf qilmoqqa yetaklashi lozim. Agar shunday boʻlmasa, bu ilmdan foyda yoʻq. Robiya Adaviyaning yana bir hikmati quyidagicha:

“Anduhim Andin emaski, anduhgindurmen, anduhim andindirki, anduhgin emasmen”.

Bu hikmatli soʻzning qaʼriga juda koʻp maʼnolar jo boʻlgan. Uning birinchi qismida Robiya Adaviya “gʻam va qaygʻuyim Uning bilan bogʻliq boʻlmagani, uning ishqida emasligi uchun qaygʻu chekyapman”, demoqda. Robiya Adaviyaning fikricha, dunyodagi hech bir qaygʻu insonning oʻzligidan uzilishiga teng emas. Bu tushuncha tasavvuf sheʼriyatining ham eng muhim mavzularidandir.

Jaloliddin Rumiy o‘zining “Masnaviy ma’naviy”sida shunday deydi:  
 Tingla naydin chun hikoyat aylagay,  
 Ayriqlarlardin shikoyat aylagay.  
 Men qamish erdim kesib keltirdilar,  
 Nola cheksam, el ham oh urdila [1;8]

Bu yerda nay inson ko‘nglining ramzi. Robiya ham o‘z hikmatida shuni nazarda tutmoqda. Hikmatning ikkinchi qismida esa g‘am-qayg‘uning yo‘qligidan qayg‘udaman, deyapti. Mo‘min kishi uchun bu dunyo turli tashvishlar, sinovlar, qiyinchiliklar maskani. Agar shu sinovlardan eson-omon o‘tib, iymonini shaytonga boy bermasa, u narigi dunyoda barcha rohatlarni ko‘radi. Robiya esa ana shu mo‘min kishiga beriladigan qiyinchilik va azoblarning o‘zida oz miqdorda ekanligidan qayg‘urmoqda. Bu uning hol va maqomda yuqori ko‘tarilganidan dalolat beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mavlono Jaloliddin Rumiy. Masnaviyi ma’naviy, T.; “Meriyus” nash. 2010.
2. Навоий Алишер. Насойимул муҳаббат. МАТ. 20 жилдлик. – Тошкент: Фан, 2000. 17-жилд. – Б.241
3. Fariduddin Attor. Tazkirat ul-avliyo. T.; G‘afur G‘ulom, 2013. 86-b.

#### SAID AHMAD HIKOYALARIDA INSON VA JAMIYAT MUNOSABATI BADIY TALQINI

*Kuyliyev Shohruh*  
*JDPI o‘zbek tili va adabiyoti*  
*yo‘nalishi magistranti*

Istiqlol tufayli ijod ahli ham, adabiy tanqid ham mustabid tuzum sharoitida shakllangan barcha cheklov, tushovlardan xalos bo‘ldi, ijodiy izlanishlar uchun keng yo‘l ochildi. Boshqa barcha adabiy tur, janrlar kabi asarlarning mavzulari, shakl, ifoda, poetik ko‘lami xiyla kengaydi; turli-tuman adabiy-g‘oyaviy oqim, xilma-xil mafkuraviy yo‘nalishga mansub asarlar paydo bo‘la boshladi; bir vaqtlar mensimay qaralgan oilaviy-maishiy hayot muammosiga bag‘ishlangan son-sanoqsiz asarlar bitildi; nisbatan sust 16 rivojlangan hajviy, fantastik va sarguzasht-detektiv asarlar bugun kitob javonlarimizni to‘ldirib turibdi. Said Ahmadning Qorako‘z Majnun asaridan joy olgan “Yalpiz hidi” hikoyasini o‘qir ekansiz beixtiyor o‘yga tolasiz. Inson umrining mazmuni, sadoqat, vafo, odamiylik barcha-barchasi bir nuqtada kesishadi bu hikoyada.

Asarni muallif nega aynan — «Yalpiz hidi» deb nomlagani o‘quvchida mulohazalar paydo qiladi. Lekin bunga boshqa tomondan yondashsak, fikrimiz o‘zgaradi. Asar bosh qahramonining ko‘zi bilan butun olamni sof ranglarda tasvirlashga uringan yozuvchi hayotda shunday odamlar borligini, ularning borligi jamiyatga hech qanday naf ham, zarar ham keltirmasligini ko‘rsatishga uringandek bo‘ladi. Ya‘ni hikoya faqat «Yalpiz hidi» haqida emas, balki hayotdagi o‘zi bor-u

hayoti bemazmun kishilar haqidadir. Hikoya ko'klamning oxiri tasvirlari bilan boshlanadi: ... tabiat tasviri va bunga bog'liq ravishda «Yalpiz hidi» hikoya sujetni yanada boyitadi. Bundan tashqari bizga asosiy tirgak bo'ladigan «Yalpiz hidi» hikoyasi bayonida ham qahramon mohiyati shakli bilan mos tushishi oydinlashadi. M.Epshteyn badiiy obrazlarni predmetlilik darajasi, umumlashtirish darajasi, tasvir va ifoda qatlamlari munosabatiga ko'ra tasniflaydi. Umumlashtirish darajasi doirasida obrazlar individual, xarakter va tip kabi turlarga bo'linadi. Obrazga xarakter va tip orasidagi qahramon deb ta'rif berish mumkin. O'zi bilan o'zi xuddi samimiy va yaqin do'sti bilan gaplashayotgandek so'zlashadi. Bu orqali qahramon atrofdagilar umuman olganda yondosh qahramonlarga oyna tutadi. Bu oyna ularning harakterini ochib berish uchun xizmat qiladi. O'zi uchun begona, latofatli ayol bilan uchrashuvi qahramonni bir tomondan, quvontirsa, boshqa tomondan uni mushkul ahvolga solib qo'yadi. Hammasi risoladagidek edi, ammo... yana o'sha holat bu ayolga u (qahramon) ikkinchi bor duch keldi. Qaytishda sodir bo'lgan voqea asar tizginini umuman boshqa tomonga burib tashlaydi. Bu hodisa qahramonni o'ylantirib qo'yadi. —Ibratli hikoyalar kitobida bir voqea bor. Unga ko'ra muzlatgich tuzatadigan kompaniya vakili kattaroq muzlatgich tuzatayotganda ish tugab qoladi, ishchilar hamkasbidan bexabar hammayoqni berkitib ketishadi. Muzlatgich ichida qolib ketgan qahramon shunaqa muzlab ketadiki, hatto yozgan xatida ham buni ta'kidlaydi. Ertalab ishga kelgan xodimlar uning o'ligini topishadi. U muzlashdan vafot etgan edi. Ammo qiziq tomoni u kirgan muzlatgich o'chirilgan bo'lib chiqadi! Buning hammasi vahima va qo'rquvning oqibati. Xo'sh nega biz bu iki hikoyani paralel ravishda qo'ydik? Chunki har ikkisida ham inson ichki dunyosiga chizgilar qahramonlar o'zi bilan o'zi yolg'iz qolganda o'zlarini tavitish qilishdan boshlanadi. Ular o'zlariga o'zlari gapirishadi bu orada vijdon atalmish adolatli hakam qozilik qiladi. —Vijdon bunda qozilik rutbasiga xos bo'lgan vazifani to'g'rilik me'zonlaridan chiqmagan holda bajaradi. Vijdon ham aslida nisbiy tushuncha. Bunda qahramonlarning umuminsoniy fazilatlarini namoyon bo'ladi. Olimlar badiiy asarni tirik organizm deb tushinish va shunday qabul qilish kerakligini ta'kidlashadi.

Asarni tahlil qilishning quyidagi bosqichlari bor:

O'qish-> uqish-> ajratib o'qish-> izoh-> talqin-> tahlil.

—Yalpiz hidini o'qish jarayonida undagi ayrim qochirim va kesatiqlar bir qarashda ko'zga tashlanmaydi. Uqishda ham balki bu hodisa sezilmas, lekin struktural poetikaning muhim bosqichi bo'lgan ajratib o'qish jarayonida asarda muallif satira va yumorni bir joyga yig'ib, undan butunlay boshqa hodisatragik holatni yuzaga keltira olganiga guvoh bo'lamiz. Portret va qahramon ruhiy holatini berishda ham bu alohidalik o'quvchini befarq qoldirmaydi, balki, qahramon psixologiyasini yana ham chuqurroq anglashga yordam beradi. Asar arxitektonikasida psixologik holatni vaziyatlar bilan bog'lab berish ko'zga tashlanadi. Qahramon; Yo'lovchi ayol; Avtobusdagi mo'ysafid bilan muomala jarayoni bir-biridan tubdan farq qiluvchi uch rakursni ko'z oldimizda gavdalandiradi. Bu xuddi quyosh nuriga spektr tutganda yetti xildagi kamalak ranglarining paydo bo'lish jarayoniga o'xshab ketadi. Struktural tahlil 18



yordamida tadqiq qilingan bu hikoyani yana bir jihati borki, bunda sarlavha va qahramon munosabatlarida zidlik ko‘rinadi. Ya‘ni asar bosh qahramon aniq bo‘lmaydi. Barcha voqea hodisalar roviy tilidan hikoya qilingan bo‘lsada, qahramonga ta‘sir etgan hodisa hikoya uchun mavzu qilib olinadi. Asarga — «Yalpiz hidi» deya nom beriladi. Muallif bu orqali jamiyatning oq va qora tomonini shu qadar sezilmas qilib tasvirlaydiki, bu kitobxonga estetik zavq berish bilan bir qatorda uni mushohada maydoni tomon boshlaydi.

## JO‘RA FOZILNING PEYZAJ YARATISH MAHORATI XUSUSIDA

*Abdullayeva Farangiz Azim qizi,  
Buxoro davlat universiteti magistranti*

Buxoro adabiy harakatchiligining ko‘zga ko‘ringan vakillaridan biri Jo‘ra Fozildir. Muallif shu kunga qadar nasrning roman, qissa va hikoya janrlarida salmoqli ijod qildi. Jo‘ra Fozil ijodini mustaqillikning ilk yillarida adabiyotshunoslikning kichik epik janriga mansub bo‘lgan hikoyachilikdan boshlagan bo‘lsa, keyinchalik qissa va roman janrida ham o‘z mahoratini namoyon eta oldi.

Jo‘ra Fozil hikoyalari o‘ziga xosligi, mavzu ko‘lamining rang-barangligi, shaklan ixchamligi, qahramonlar tasviri va harakatlarida milliy ruhiyatning aks etishi, jamiyat hayotidagi dolzarb illatlar, muhim muammolarga diqqat qaratilishi bilan ahamiyatlidir. Adib hikoyalarining mutolaasiga kirishar ekanmiz, uning so‘z qo‘llash bilan bog‘liq mahorati e‘tiborni tortadi. Ijodkor so‘zni tejab, birgina jumla mag‘ziga ko‘plab ma‘nolarni singdirishga harakat qiladi. Xususan, asarlarda peyzaj tasviri berilganda Jo‘ra Fozil har bir so‘zning ichki va yondosh ma‘nolarini ham inobatga olinganligini ko‘ramiz. Adib hikoyalarida peyzaj shunchaki qo‘llanilmaydi, u asardagi qaysidir g‘oyaviy-badiiy maqsaddan kelib chiqqan holda yaratiladi va asar kompozitsiyasi yaxlitligi va jozibasini ham ta‘minlaydi.

Jo‘ra Fozil peyzaj yaratar ekan, uni qahramon ruhiyati bilan bog‘lashga intiladi. Bunda ham ikki xil holatni kuzatish mumkin:

1. Peyzajning hikoyada keltiriladigan voqea yoki qahramon ruhiyati bilan qarama-qarshi qo‘yilishi;

2. Peyzajning qahramon ruhiyati va voqeaga uyg‘un holda kelishi.

Jo‘ra Fozilning ko‘pgina, shu jumladan “Biz lola termagan bahor”, “Nastarin ifori”, “Safo”, “Yo‘lbarsdaraning so‘nggi sultoni”, “Lola sayri”, “G‘oziyon zindoni”, “Kitob sotayotgan odam” hikoyalarida qahramonlar psixologiyasini yanada teranroq ochib berish, voqealar rivojining emotsionalligiga erishish maqsadida peyzajdan unumli foydalanilgan. Yozuvchi hikoyalarini o‘qir ekanmiz ko‘pgina ijodkorlarda uchramaydigan tabiat tasvirining noyob suratlariga, adibning o‘ziga xos topilmalariga guvoh bo‘lamiz: “Mayin bahor yellari daryoning sarg‘ish yuziga ajinlar solar, jiyda gullarining xush bo‘yi yashil o‘t- o‘lanlar bilan qoplangan sohilda kezib yurardi.”[1,26] Ushbu tasvirda lirik manzara ko‘z o‘ngimizga keladi, bahor yellarining daryo yuziga ajinlar solishi nosirning o‘ziga

xos topilmasi deyish mumkin. Hikoyani o'qish davomida bu o'xshatish behudaga keltirilmagani, daryo yuzidagi ajinlar hikoyada yuzaga kelishi kutilayotgan mahzunlik, ortga qaytmas vaqt va kechikishga ishora ekanligini ko'ramiz.

“Yo'lbarsdaraning so'nggi sultoni” hikoyasida quyidagi tasvirni ko'ramiz: “Amudaryo mast tuyaga o'xshab pishqirganicha, qirg'oqlariga asabiy bosh urar, sohildan o'pirilib tushayotgan tog'dek tuproq uyumlarini biz zumda yamlab yutardi.

Tikka kelgan saraton quyoshi ayovsiz qizdirar, bo'tana to'lqinlar yelkasida ildizi bilan qo'porilgan dov-daraxtlar oqib kelar, bu ayovsiz to'fon uzra zor qaqshayotgan qirg'ovullar polaponlarini saqlab qolish uchun suvga to'sh urib uchishar, ularning ayanchli nolasiga toqat qilish qiyin edi.”[2, 240] Amudaryo nega mast tuyaga qiyoslanmoqda, nega pishqirmoqda? Muallif daryoning nimadandir noroziligi, isyon etayotganligini shu jumlada singdirishga intilgan. Peyzaj tasviridan zukko kitobxon hikoyada ro'y berajak qandaydir mudhish hodisani his qiladi. Va bu hodisa nafaqat tabiat uchun, balki uning bir qismi bo'lgan inson uchun ham ayanchli oqibatlarini keltirib chiqarishi hikoya davomida ochilib boradi. Mazkur hikoyada peyzaj kompozitsiyaning bir qismi – tugun sifatida kiritilgan.

“Biz lola termagan bahor” hikoyasida esa qizning go'zalligi va bahor go'zalligi parallel keltirilganligini ko'rishimiz mumkin: “Sening yonoqlaring ham, ko'yilgining ham lola rangida edi. Boshingdagi iroqi do'ppi o'zingga juda yarashar, qirqta o'rilgan qora sochlaringni shamol tortqilab o'ynar, men bechora sen chiroylimi, yoinki lolaqizg'aldoqmi, bilolmay hayron edim. Lekin shuurimda baribir, lola taslim bo'lar, qirmiz yonoqlaring qizg'aldoqdan ming chandon chiroyli ekaniga qayta-qayta imon keltirardim.” Hikoyada qiz va lola o'rtasidagi nafaqat tashqi o'xshashlik, balki ichki o'xshashlikka ham muallif alohida e'tibor bergan. Ya'ni lolaqizg'aldoqning omonat va tezgina so'lib qolishi qizning omonat shodligi-yu, erta xazon bo'lgan orzularini ham ifodalaydi.

Ijodkorning “Safo” hikoyasida peyzaj bir paytning o'zida qahramonlarning psixologiyasiga uyg'un va ayni paytda qarama-qarshi qo'yilganini ko'rishimiz mumkin:

“...Bahor oqshomlarining birida o'rik va shaftoli gullariga g'arq ko'milgan kolxoz bog'ini oralab, uyga qaytardim. Yengilgina shabada daraxt shoxlarini tebratar, mayin oy nuri taralib turgan bog' kumushrang harir ro'mol o'ragan nozaninga o'xshab ketardi. O'zimcha xirgoyi qilib odimlardim, ko'klam hididan sarxush edim. Bexosdan qulog'imga chalingan ovozdan yuragim “shig'” etib ketdi. Men kutubxonachi qiz Nazokatning ovozini eshitgan edim. To'xtadim, nafasim bo'g'zimga tiqilib atrofga alangladim. Ko'zim yo'lkadan to'rt-besh qadam narida, katta o'rik daraxti ostidagi ikki sharpaga tushdi. Nazokatning yonidagi yigit Safo edi! Shu topda u dunyodagi eng baxtiyor kishi edi nazarimda.”[1, 22]

Bahor, avvalambor, boshqa ijodkorlarda bo'lganidek, Jo'ra Fozil ijodida ham yoshlik, sevgi, hissiy to'lqinlanishning kuchayishi fasli sifatida talqin etiladi. Ijodkor aynan bahor faslida ikki sevishgan qalbni uchrashtiradi. Chunki bahor va sevgi mushtarakdirlar. Qalbida sevgi olovlangan bo'lishiga qaramay Nazokat

Safoning bolalarcha begʻubor muhabbatini rad etadi. "...Oy hamon kumush nurlarini boqqa ayamay sochar, oq nur nimpushti rang gullar bilan uygʻunlashib, ajib manzara kashf etgan. ...Safo, qancha kaltaklar zarbidan, oʻgay ona sitamlaridan yigʻlamagan Safo, chiday olmadi, piqillab yigʻlab yubordi." [1, 23] Shu oʻrinda bahor fasli tasviri va qahramonlar ruhiyatidagi tushkunlik qarama-qarshilikni yuzaga keltiradi.

Olimlarimiz tomonidan koʻpgina tahlil va bahs-munozaralarga sabab boʻlgan "Kitob sotayotgan odam" hikoyasidagi peyzaj ijodkor badiiy gʻoyasini teranroq ochishga xizmat qilgan. Hikoyani oʻqir ekanmiz Joʻra Fozilning hozirgi kunda davlat siyosati darajasiga koʻtarilgan kitob oʻqish masalasini bundan oʻn besh yil ilgari olib chiqqanligini, jamiyatimizda ziyolilarga boʻlayotgan eʼtiborning sustligini qoʻrqmasdan ayta olganini koʻramiz. Ijodkor bilan suhbatda boʻlganimizda ushbu hikoya Tilak Joʻra qabrining ziyoratidan soʻng, kitob sotmoqchi, ilm ulashmoqchi boʻlgan ziyolilarning ahvoliga chuqur achinish hissi, yurak ogʻrigʻi bilan yozilganligini bilib oldik.

Yozuvchi hikoyada boshqa bir daraxt emas, aynan chinor daraxtini tanlaydi. Bu kitob sotayotgan odamning yoshiga ishoradir va chinorning qurigan shoxlari cholning umri tugayotganidan dalolat beradi. Hikoyadagi obraz va badiiy unsurlar majoziy xarakterga ega. Asardagi bahor fasli ham umid, ishonch, yangilanish ramzidir. Bahor faslidek koʻngli yorishgan cholning qalbida kitobini sotishga umid uygʻonadi. Cholning oʻlimi esa aynan kuz faslida roʻy beradi: "Nihoyat kech kuzning sovuq yomgʻir yoqqan shilta nam oqshomida... chol gʻoyib boʻldi. ...Yomgʻir tovushi borgan sari kuchayar, qizaloq iltijosini hech bir quloq eshitmas, gʻala-gʻovur yoʻlka zulmat qoʻyniga gʻarq boʻlib borardi." [2, 263] Ijodkor tabiat manzarasi tasviri bilan kitob oʻqimayotgan jamiyatning ertasiga ishora qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Joʻra Fozil peyzaj yaratishda har bir voqeaning karakteridan kelib chiqadi. Soʻz va tasvirlarni mahorat bilan, rassom nigohi bilan tanlaydi va chizadi. Peyzaj tasviri asarda muallif gʻoyaviy-badiiy maqsadlarini amalga oshirishga yoʻnaltiriladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Фозил Ж. Биз лола термаган баҳо. – Бухоро:2010.
2. Фозил Ж. Муhabбатнинг байрамлари. – Бухоро:1991.
3. Қодирова Н. APPEARANCE OF A CRITICAL STYLE IN RELATION TO NEW UZBEK LITERATURE //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.
4. Қодирова Н. Научно-литературное мышление и проблема стиля //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
5. Қодирова Н. Ibrohim Haqqulov ijodida muallif nutqining oʻziga xosligi //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.
6. NEMATOVNA A. S., SAIDBURKHONOVNA K. N., BEKMURODOVNA K. O. METHODOLOGY AND SKILLS PROBLEMS //Journal of Contemporary Issues in Business & Government. – 2021. – Т. 27. – №. 5.

7. Qodirova N. S. THE ANALYSIS OF IBRAHIM HAKKULOV IN NEW UZBEK LITERATURE //International Engineering Journal For Research & Development. – 2021. – T. 6. – C. 152-157.

## TARIXIY DAVR BA ADABIY JARAYON

*Surayyo Rahmonova,  
JDPI magistri*

*Ilmiy rahbar: U.Qosimov, fil.f.d.*

Jahon tarixidan bizga ma'lumki, adabiyot va san'at rivoji davr muhiti bilan bevosita bog'liqdir. Sal kam bir yuz ellik davom etgan davom etgan mustamlakachilik davri va mustabid sho'ro yillarida boy tariximiz va adabiyotimiz xolisona o'rganilmasdan, aksincha, bunday harakatlar "o'tmishni ideallashtirish", "millatchilik" degan tamg'alar bilan qoralanib, taqiqlab kelingan. Masalan, sobiq sovet davridagi hukmron sostiialistik mafkura talabi bilan yaratilgan "Adabiyot tarixi" va "Adabiyot nazariyasi" darsliklarida ham bunday salbiy holatlar aks etganligini bir necha avlod guvohi bo'lib kelganligi endilikda tarixga aylandi. Ammo uning asoratlarini aslo unutilmasligimiz kerak.

Sobiq sovet davrida barcha shoir va yozuvchi ijodi faqat "Oktyabr revolyutsiyasining mevasi deb talqin etilar va adabiyotimizdagi hamma asar lar revolyutsiya g'oyalari ta'sirida yozilgan" degan biryoqlama qarashlar soxta shiorlarga aylangan edi. Endilikda bu nuqtai nazarlar tarixiy haqiqatga butunlay zid ekanligi va ular ijod psixologiyasi va ruhiyat jarayonlariga ham mutlaqo muvofiq kelmaydigan g'ayriilmiy va havoyi, sun'iy qarashlar ekanligi ayon bo'ldi. Sobiq sho'ro davridagi adabiy muhit haqida fikr yuritganda, og'riqli savollar tug'ildi. Chunki sovetlar hukmronligi davrida yashab, ijod qilgan Qodiriy va CHO'lpon, Oybek va Qahhorlar va boshqa san'atkorlar kabi Erkin Vohidov va Abdulla Oripov, Shavkat Rahmon va Muhammad Yusufaru Tog'ay Murodlar ham butunlay erkin bo'lmaganini aslo unutib bo'lmay di. Aslida, u yoki bu adib asarlariga baho berishda va ularni tadqiq etishda o'sha ijodkor yashagan va ijoa qilgan davrdagi adabiy muhitni va tarixiy sharoitni e'tiborga olishimiz zarur. Bu jihatdan Ozod Sharafiddinovning CHO'lpon ijodini o'rganish borasidagi quyidagi fikrlari juda asosli deb o'ylaymiz: "Muayyan zamon, muay yan jamiyatda yashagan shoir, tabiiyki, bu jamiyatdan tashqariga chiqib keta olgan emas. CHO'lpon ijodidagi hukmron mafkura g'oyalariga yon berilgan o'rinlarni ko'rganda, uning nomiga malomat toshlarini otishga shoshilmaslik kerak. Bil'aks, uni tushunmoqqa harakat qilaylik. Bu mulohazalar faqat CHO'lponga emas, balki Oybek, G'.G'ulom, H.Olimjon, A.Qahhor, Shayxzoda, Mirtemir kabi adabiyotimizning chinorlari hisoblanib kelgan, keyingi yillarda esa o'rinli-o'rinsiz ta'na-dashnomlarga ro'para kelayotgan ijodkorlarga ham taalluqli." {1.64}

Darhaqiqat, 50-60- yillar adabiyot maydoniga yangi ovoz va yorqin iste'dodlari bilan kirib kelgan Erkin Vohidov va Abdulla Oripov, Shavkat Rahmon va ularga izidosh bo'lgan Muhammad Yusufaru Tog'ay Murodlar ijodi



yoki ularning muayyan asarlarining yaratilishi tarixini va sabab-omillarini o'rganishda ham ana shunday ob'ektiv va sub'ektiv shart-sharoitlarni e'tibordan soqit qilvaslik lozim bo'ladi. Masalan, O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov ulug' ustozlari va shaxsan o'zi ham ko'rgan nohaqligu fojealarning asl sabab-oqibati haqida, jumladan, G'.G'ulom ijodi va qiyin qismati haqida shunday yozadi: "G'afur G'ulom o'z safdoshlari qatorida g'oyat murakkab, g'oyat ziddiyatli, tahlikali bir davrda yashab o'tdi. Mustabid imperiyaning beomon mafkurasi, mustamlakachilik siyosati minglab haqgo'ylar boshini yeyishga ulgurdi, qanchadan-qancha iste'dod egalarining bo'yniga bo'yunturuq solishga erishdi. Nog'orasiga o'ynashni xohlamaganlarni qatl qildi, quvg'in ostiga oldi. Shu tariqa o'zbek xalqi o'zining o'nlab beqiyos farzandlaridan bevaqt ayrildi. Madhiyabozlik adabiyotning ommaviy taomiliga aylangan. Ne-ne go'zal tashbehlar, chaqmoqdek misralar somon orasidagi qahrabo bug'doy donalaridek nazardan qolib ketar edi. Ushbu achchiq haqiqatni, ayniqsa, bugungi yoshlar teran tushunmoqlari kerak..." {2.4.}

Abdulla Oripov va Tog'ay Murodlar ablodi vakillarining ijodi va shaxsiga baho berishda ham ana shunday davr muhiti talablari hukmronlik qilganligini nazardan qochirmaslik zarur deb o'ylaymiz. Negaki adabiyotimizda 20-30-yillari avj olgan beshafqat mafkuraviy xurujlar keyinchalik ham davom etganligi endilikda butun murakkabliklari va fojealari bilan ma'lum bo'lmoqda.. Masalan, Oybekning Ikkinchi jahon urushi va urushdan so'nggi og'ir yillarni aks ettiruvchi asari, jumladan, 1947 yili nashr etilgan "Qizlar" poemasi ham xalq hayotini buzib tasvirlaganlikda va asarda bolshevistik partiyaning tashkilotchilik rahbarlik roli to'g'ri ko'rsatib berilmagan deb ayblanadi va dostonni qayta yozish talab qilingan.

Yoki Abdulla Qahhorning "Qo'shchinor" (1947) romanida haqqoniy tasvirlangan xalq hayoti va milliy hamda diniy urf-odatlar, voqyea va holatlar ham mash'um tuzum siyosati va mafkurasi tomonidan keskin qoralangan va ularni zararli epizod sifatida asardan chiqarib tashlash talab etilgan. Ya'ni romandagi hayotiy voqyealar tasviri o'sha davrdagi partiyaning haybarakallachi mafkurachilari tomonidan sovet tuzumi siyosati uchun zararli va xavfli epizodlar sifatida tanqidiy baholangan va ular adibing "siyosiy xatosi" deb tanqid qilingan ekan. Ana shunday siyosiy ayblovlar ro'kach qilinib, asar "sotsialistik voqyelikni buzib ko'rsatuvchi roman" deb, badnom etilgani va yozuvchini uni qaytadan yozishga majbur qilingani ham adabiyot va tanqidchilik tariximizning hali jamoatchilikka ma'lum bo'lmagan qora sahifalaridan sanaladi.

Ulkan adiblarimiz- Oybek va Qahhor, Shayxzoda va Mirtemirlarning yetuk asarlarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, xalq hayoti, milliy ruhiyati va diniy urf-odatlarini haqqoniy aks ettirganligi ham xolis o'rganilmagan. Ko'plab yirik asarlar partiyaning siyosiy-mafkuraviy matbuotida keskin qoralanib, Oybek ham, Abdulla Qahhor ham lenincha bolshevistik partiyaning tashkilotchilik va donolarcha rahnamolik rolini keng miqyosda ko'rsata olmaganlikda va sotsializm g'alabalarini tarannum eta olmaganlikda ayblanganlar. Taassufki, ulug' ijodkorlarimiz hayoti va sog'lig'iga shikast yetkazib, ularning bevaqt o'limiga ham sabab bo'lgan bunday ayanchli fakt va fojeaviy voqealar murakkab va ziddiyatli davrni boshidan



kechirgan adabiyotimiz va tariximizda ozmuncha bo'lmagan. Bu jihatdan nisbatan yosh ijodkorlarimizning talantli namoyandalaridan biri va Erkin Vohidov va Abdulla Oripov, Shavkat Rahmonlarning izdosh bo'lgan Tog'ay Murodning qismati va asarlari taqdiri ham oson kechmaganligi ham davr haqida aniq tasavvur beradi.

Мустабид совет тузуми сиёсати ва мафкуравий тазйикларига бевосита гувоҳ бўлган ва ўзи ҳам устозлари каби азоб чеккан Тоғай Муроднинг хукмрон партия сиёсатига ва унинг мафкуравий хуружига қарши башорат билан айтган залворли сўзлари маънавий бир жасорат сифатида баҳо ланиши мумкин. “Социализм бир сохта қолип эди, ёлғон бир тузум эди. Социалистик реализм даврида ёзувчи чинакам исканжада қолди, хўрланди, эзилди, ўзини ўзи рамкага солиб асар ёзди. Ўзини қафасда ҳис этиб ижод қилди. Қафасдаги куш мисол кун кўрди. Антисовет, диссидент, қинғир фикрловчи номини олди. Ёзувчилар социалистик реализм қули бўлди, қўғирчоғи бўлди. Ёзувчи учун яхши-ёмонни социализм белгилаб берди. Ҳатто махсус партиявий буйруқлар билан, партиявий программалар билан белгилаб берди.” (4, 92-93.)

Ота-боболаридай эл-юртга содиқ бўлган А.Орипов ва Тоғай Муродлар ҳам сохта ва машъум социализмнинг ноғорасига ўйнамасликка ҳаракат қилишди, Улар социализмнинг темир қолип ларига, партиявий буйруқларига қарши собит тура олди ва кўнгли буюрганни ёзишга интилди. ”Кўнгилик кўзғолди. Кўнгилик ғалаён қилди. Мен шундай асар яратмоқчи бўлдим... кўнглимда борини тўкиб соламан”.\* (3.109.) Бу эътирофни А.Орипов ва Тоғай Мурод каби миллатпарвар адиблар имизнинг бутун ижодий фаолияти ва асарларига бош сарлавҳа- эпиграф қилиб қўйиш мумкин. Erkin Vohidov va Abdulla Oripov, Shavkat Rahmonlarning қатор шеър ва дostonлари халқ дарди ва орзуларини чуқур ва ҳаққоний акс эттирганлиги учун ҳам хукмрон мафкуранинг тазйиклари ва таъна-дашномларига учради. Мисол учун Абдулла Ориповнинг “Ўябекистон” ва Эркин Воҳидовнинг “Ўябегим” қасидасини эсга олайлик. Бу шеърлар учун ҳар икки шоиримиз миллатчиликда ва ўтмишни улуғлаш ва идеаллаштиришда айбландиларю Шундай ёрқин талантларнинг асарлари матбуотда тўхтатиб ҳам қўйилгани даврнинг қанчалар зиддиятли бўлганини кўрсатади.

Adabiyotshunos olimlarimiz ta'kidlaganidek, hukmron mafkura siyosati oqibatida ko'plab adolatsizliklar ro'y berganini So'fi Olloyor shaxsi va merosini ixlos bilan o'rgangan Tog'ay Murodga nisbatan qilingan nohaqlik misolida ham ko'rish mumkin. O'sha davrdagi tazyiq va taqiqlashlarga qaramay, Tog'ay Murod o'ziga xos shijoat bilan hayotiy haqiqatni o'sha 80-yillarda ham ayta olgan: ”Ko'rasizlar, yaqin qoldi. Odamlar islom ma'rifatiga qaytadi. Har bir uyda Qur'on kitobi osig'liq turadi”. Ana shunday diniy ma'rifat va umuminsoniy g'oyalarni mlgari surgani uchun adib asarlari qattiq qoralangan va o'zi ishdan bo'shatilib, jabrlangani endi ma'lum bo'layapti. {5.186} Aslida esa, Tog'ay Murod o'z asarlarida So'fi Olloyorning yorqin shaxsi va uning el-yurtlar orasida katta shuhrat qozongani xususida ko'plab asosli fikr va mulohazalarni bayon etgan va

o'sha og'ir 80-yillarda o'quvchilarni bu tarixiy siymo shaxsi va ijodi bilan yaqindan tanishtirishga harakat qilgan. Binobarin, islom dini ahkomlarini xalq orasida keng yo'yg'gan va Mashrabdek benazir shoir va allomaga hammaslak bo'lgan So'fi Olloyorning tasavvufona tafakkurida va Olloh kalomi bo'lgan muqaddas "Qur'on"ni beqiyos ulug'lashida va uning xalqchil asarlarida ham Imom Buxoriy kabi buyuk ajdodlarimizga xos ibratimiz talqinlarni ko'plab uchramiz. Allomaning turkiy va forsiy tillarda yaratilgan va elaro keng tarqalgan asarlaridagi purma'no g'oya va hikmatlari bugun ham milliy mafkuramizga va ma'naviyati mizga hamohangligi bilan ham alohida ajralib turadi. {3.8.} Demak, , har bir iste'dodli san'atkor o'z davrining farzandi sifatida ijod qiladi, tabiiyki, uning asarlarida o'sha davr muhitining ob'yektiv ta'siri u yoki bu tarzda aks etadi. So'nggi yillardagi ulkan o'zgarishlarni Tog'ay Murod asarlari misolida ham anglash mumkin. Auniqsa, Tog'ay Murodning "Yosh qalamkashlarga tilaklarim" maqolasida haqiqiy ijodkorning adabiyot va xalq oldidagi muqaddas burch-vazifasi haqidagi so'zlari hech bir vatandoshimiz ni loqayd qoldirmaydi. "Birodar, men sizni O'zbekiston davlatingiz yo'lidan borsangiz, deyman. Men sizni o'zbek elidan namuna olsangiz, deyman"-degan so'zlari ulug' adiblarimizning bir vasiyatidek tuyuladi. Ya'ni ular xalqimiz boshidan kechirgan fojialarni unutmashlikka, milliy uyg'onish va tiklanishdan milliy taraqqiyot sari yuksalib borayotgan bugungi yangi O'zbekistonimiz ravnaqi yo'lida buyuk ajdodlarimizva fidoiy jadidlarimizday sadoqat bilan xizmat qilishga va mustaqilligimizni yuksak qadrlashga da'vat etadi.{2.184} Bu aslida Vatanparvar ijodkorlarimizning ezgu armonli da'vati bo'lib, barchamizni vijdon uyg'oqligiga va hamisha bedorlikka chorlab turadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Озод Шарафиддинов. Ижодни англаш бахти.Т.2004.
- 2.Тоғай Мурод. Танланган асарлар. 3-жилд. Т. 2019. <sup>3</sup> XX аср ўзбек адабиёти тарихи. Т. 1999

### САФАРНИНГ ФОЙДАЛАРИ (АЛИШЕР НАВОЙНИНГ “МАҲБУБ УЛ-ҚУЛУБ” АСАРИ МИСОЛИДА )

*Каримова Шаҳноза Олтинбой қизи,  
Жиззах ДПИ магистранти  
Илмий раҳбар: доц. Зухра Мамадалиева*

Алишер Навоийнинг “Маҳбуб ул-қулуб” асари инсон тарбиясига бағишланган бўлиб, унда Навоий бутун умри давомида тўплаган бор ҳаётий тажрибасини ҳали ҳаёт қийинчиликларини, инсонларнинг қайси бири дўст-у қайси бири душман эканлигини, умуман олганда, ҳаётда қандай яшаш лозимлигини ўз китобхони билан баҳам кўрди. Бу эса туркий адабиётда яратилган яна бир панднома руҳидаги асар бўлди. Асар Қуърони Карим ва Ҳадиси шарифдан, шунингдек халқ оғзаки ижодидан ҳам озикланиб ёзилган.

Шунинг учун ҳам “Маҳбуб ул-кулуб” асари неча асрлар оша ўз қийматни йўқотмасдан уни ўқиган китобхонга ўзининг бебаҳо жавоҳирларини сочиб келмоқда. Асарда берилган ҳар битта мавзу алоҳида аҳамиятга молик бўлиб, ҳар бир танбеҳини алоҳида ўрганиб, ҳаёт билан боғласак арзийди. Биз эса мақоламизда “Сафар фойдалари тўғрисидаги” танбеҳини таҳлил қилиб, Навоийнинг сафар ҳақидаги қарашлари ҳақида яна бир бор тўхталмоқчимиз. Сафар ҳақида Қуръони карим ва Ҳадиси шарифда ҳам алоҳида ўринлар мавжуд. Бир ҳадисда Байҳақий: “Пайғамбаримиз Муҳаммад с.а.в бирор мажлисда ўтириб Аллоҳнинг номи зикр қилинмаса, бу мажлис аҳли учун ҳасрат, агар киши сафар қила туриб Аллоҳнинг номини зикр этмаса бу ҳам ҳасрат”- деб келтирганлар. Зеро сафар қилиш, аввало, Аллоҳнинг номини зикр қилиш билан бошланар. [www.ziyouz.net]

Умуман сафар ўрта асрларда инсон, айниқса, мусулмон инсон ҳаётида аҳамиятли қадрият ҳисобланган. У ҳақда улуғ мутафаккирлар, сайёҳ донишмандлар ўз фикрларини баён этганлар. Жумладан, XV асрда яшаб ўтган воиз ва мутафаккир Ҳусайн воиз Кошифийнинг “Футувватномаи султоний” асарида сафар ҳақидаги қуйидаги фикрлари эътиборлидир:

“... Агар нима учун сафарга чиқилади деб сўрасалар, жавоб бериб айтки, сўфийлар уч нарса учун сафар қилидилар: улуғ авлиёларни зиёрат қилиш, ё нафс риёзати, ёки тариқат йўлига кирган мардларнинг дийдорини кўриш учун. Сафарнинг фойдаси кўпдир, аммо аниқ кўриниб турган фойдаси ўн биттадир: (сафар) биринчидан, таннинг сиҳатиға фойдали, чунки ҳаво алмашади ва аъзолар чиниқади, зеро ҳаракат бадан рутубатини кетгизади, қон айланишини яхшилади. Иккинчидан, азиз авлиёлар, улуғ инсонлар қабрини зиёрат қилишнинг савоби беҳад кўпдир. Учинчидан, ғам ва маҳзунликни кетказади, негаки одам доим бир мақомда истиқомат қилса, суслик ва касаллик кучаяди, баданнинг озукалари, суви юришмай қолади. Тўртинчидан, ғам ва маҳзунликни кетказади, негаки киши қанчалар ғамгин бўлмасин, сафарга чиқса, кўнгил чигали ёзилади. Олтинчидан, сафарда умр осойишта ўтади. Еттинчидан, сафарда юриб, илминг ортади, зеро сафарда кўп нарса ўрганиш мумкин.” [2: 62.] Ҳусайн воиз Кошифий сафарни иккига бўлиб, сурат сафари ва маъно сафари деб атади.

Ҳазрат Алишер Навоий “Маҳбуб ул-кулуб” асарининг 3-қисмида “Сафар фойдалари тўғрисида” фикр юритади ва буни ҳар хил фойдали маслаҳатлар ва мисоллар билан ўз ҳаётий тажрибасига таянган ҳолда исботлайди. Сафар фойдалари-ю, сафар қилувчи ва турғун инсонларни шундай ташбеҳлар билан қиёслайдик, Навоийнинг сўз танлашда тенгсиз даҳо инсон эканлигига яна бир бор амин бўламиз.

Асарда сафар қилувчи инсон “доимо айланиб турувчи осмон”га ўхшатилиб шу ҳаракати туфайли юксакларнинг юксаги бўлди дейилса, сафар қилишни одат қилмаган, яъни турғун одамлар - сокин ерга ўхшатилади. Шу одати учун ҳам унинг мукофотини одамлар оёғи остида пояндоз бўлиш бўлди деб таърифланади. Алишер Навоий айнан сафарни ранж ва машаққатга сабабдур деб кўрсатади: “Ранж ва машаққат чеккан инсон албатта бахт-у

саодатга эришгай ва қийинчилик билан топилган ҳар бир нарсанинг қиймати бебаҳодир. Сафар қилиб машаққат чеккан инсон ранж ва машаққатларни енгиб ўтиб, Навоий айтганидек вужуд олтини хом гилдан тозаланади. Сафар қилмаган ором олиш фароғатини билмас, мусофирлик азобини чекмаган ватандаги ҳаётнинг қадрини қаердан билсин?!

Навоий сафар фойдалари ҳақида гапириб юқорида, зикр қилинган сафар зоҳир сафар эканлигини ёзади. Яна шундай сафар ҳам борки, “...Ҳақиқат йўли сайри сулукидан киноядир” дейди. Яъни бунда Аллоҳ йўлига кирган солиқнинг риёзат йўли таърифланади. Зоҳирий сафарда ҳам устознинг зарурлигидай, кейинги маънавий сафарда ҳам Аллоҳ йўлига олиб боровчи устоз даркор бўлиб, маънавий сафар ҳаракат ва тезликка боғлиқ бўлмай, одамлар орасида, лекин Тангри зикри билан бирга хилватда бўлишини ёзади. Мусофир(солиқ)га йўл қийинчиликларини енгиш учун бир устоз зарур, “...мушкуллардан олиб ўтиш учун комил раҳнамо пири муршид керак ва унинг иршоди бўлмай бу йўлга кирмоқни қибор (улуғ) авлиёлар (Рухларини Аллоҳ муқаддас қилсин) жоиз деб билмайдилар”- деб ёзади. Навоийнинг ёзишича, баъзида солиқларнинг орасида устози бўлмаса ҳам ўздан олдинги ўтган авлиёлар руҳидан тарбия олиб, зоҳирий устози бўлмаса ҳам, ботиний устозига эга бўлади. Навоийнинг бу фикрлари Ҳусайн воиз Кошифийнинг фикри билан ҳамоҳангдир. Юриб турган оғғимизга, кўрар кўзимизга, ҳар бир еган ризқимизга сабабчи бўлган Ҳақ таоло ҳар қандай сафарда ҳам бизнинг мақсадимизга етказувчи бўлиб, бу йўлдаги устозларимиз бунга Аллоҳ йўлидаги воситадирлар. Юқоридаги фикрларимизга “Маҳбуб ул-қулуб” асаридаги “Боязид Бистомий ва муриди” ҳақидаги ривоят далил бўла олади. Шайх Боязид Бистомий ва муриди бир тарафга қараб кетаётганларида Шайх Аллоҳ деб сувга қадам қўйди, муридига Боязид деб қадам қўйишини буюрди. Ногоҳ муриднинг ҳаёлига келдики, Шайх Аллоҳнинг зикри билан бормоқда ва мени бошқармоқда, Аллоҳнинг зикри билан борай деди. Шу муддао билан қадам қўйиб сувга ботди. Эй фарзанд сен аввал Боязидга етиб ол, ундан кейин Тангрига етмоқни ҳавас қиласан деди. Рубоий:

*Кимники, бу йўл қатига солди тақдир,  
Пир амрини қилмаса, керакдур тағйир.  
Онсиз қадам урса, англа макру тазвир,  
Мальун деса беҳракки, десалар бепир.*

[1: 72]

Асардаги “Сафар фойдалари тўғрисидаги” танбеҳнинг 2-қисмдаги “Таваккул зикрида” шарҳи билан боғламоқчимиз. Таваккул- Ҳақ йўлида восита сабабини олиб ташламоқ, васила ҳижобини даф қилмоқдир. Сафар қилувчилар ҳам таваккул аҳлидандур. Зеро, қандай сафар бўлмасин мақсад водийсига қадам қўйган ҳар бир инсон йўлдаги ризқини Ҳақдан деб билладилар. Навоий буни ҳам яна бир қанча мисоллар билан далиллайди: “Дарёдан ўтишга сабабчи кема десанг, товони сувга тегмай сув устида юриб кетувчиларга нима дейсан ва биёбонни босиб ўтишда улов восита деб

ўйласанг, бир зумда ер юзини айланиб чиқувчиларга уловнинг нима аҳамияти бор?! Шундай экан, сенинг насибанг ўзингдадир ва бошқанинг қисмати ўзингдадир. Насибангни ўзинг хоҳламасанг ҳам етказди, емасанг едиради”.

Демак, кимки сафарнинг ранж-у машаққатларини енгишдан кўрқётган экан, Аллоҳга таваккал қилсин, Ҳақ албатта сафар қилувчига қийинчиликлар ортидан роҳатли ҳаёт насиб этгай. Сафар фойдалари билан таваккул зикрини бир-бири билан боғлашимизнинг боиси ҳам шундадир. Навоий буни Иброҳим ва унинг муриди ҳақидаги ҳикоят орқали далиллайди. Шайх Иброҳим бир муридиди олиб Каъба томон бораётганда Шайх муридига сенда сафар учун бирор нарса борми деб сўради. Мурид таваккул қадами билан йўлга чиққанлигини айтди. Шайх яна муридига бирор нарсаси бўлса ташлашини, фақатгина ўзини эҳтиёт қилиб туришини маслаҳат берди. Ваҳоланки мурид биёбонда ковушнинг тасмаси узилиб қолса, боғлайман деб тасма олган эди. Шайх ундан ортиқча тасмани ташлашини талаб қилди. Мурид ташламасдан чораси қолмайди. Мурид йўлда кўркувда кетаётганда беҳосдан ковушининг тасмаси узилиб кетади, жаҳл устида шайхга таъна қилмоқчи бўлади қарасаки ерда бир тасма ётибди. Қачон тасма узилса, Аллоҳнинг қудрати билан ўша ердан янги тасма чиқаверди. Таваккул аҳллари Ҳақ йўлини шу тариқа ёритибдурлар ва бошқа нарсани восита қилишни бутунлай кўнгилдан чиқарибдурлар. Таваккул аҳллари ҳар қандай ҳолатда ҳам қаерда бўлмасинлар Аллоҳнинг Раззоқлигини (Ризқ берувчи) билувчилардир. [1: 168.]

Юқоридагилардан келиб чиқиб, қуйидаги хулосаларга келдик:

1. Алишер Навоийнинг сафар ҳақидаги фикрларининг юзага чиқишида “Маҳбуб ул-қулуб” насрий-панднома асари муҳим аҳамиятга эга ҳисобланади.
2. Асарда Навоий сафарни иккига: жисмоний ва руҳоний турларга бўлади ва ҳар иккала сафарда ҳам йўлбошчи керак, деган фикрни илгари суради.
3. Улуғ шоир сафарни таваккул билан боғлаб талқин қилади ва таваккулни бошқа ҳолатлардан кўра сафарда кўпроқ аҳамиятга эга эканлигини таъкидлайди.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. Тошкент: Sano-standart, 2018 .
2. Кошифий Ҳусайн воиз. Футувватномаи султоний. Тошкент: Халқ мероси, 1994.
3. [www.ziyouz.net](http://www.ziyouz.net).



## XURSHID DO‘STMUHAMMAD “QAZO BO‘LGAN NAMOZ” HIKOYASIDA SHAXS FOJIASI TALQINI

*Maxkamtosheva Marhabo Abdurahmon qizi,  
SamDU talabasi*

XX asr adabiyotining o‘zbek adabiyotining turfa xil ohanglarda shakllanishi va taraqqiy etishini kuzatish mumkin bo‘lsa-da, o‘tgan asrning so‘ngi choragiga kelib adabiyotning poetik xususiyatlari bilan bir qatorda, mavzu jihatdan ham rang-barang ohanglarda shakllanish jarayonini alohida qayd etish lozim.

Milliy istiqlol tufayli esa, bu jarayonda o‘ziga xos an‘analarning yuzaga chiqqanligi kuzatiladi. O‘zbek nasri taraqqiyotida iste‘dodli adib Xurshid Do‘stmuhammadning o‘ziga xos ijodi, uslubi mavjud. Ijodkor asarlarini mutolaa qilar ekanmiz, turfa xil ohanglarni, poetik tasvir xususiyatini namoyon qilganligini alohida qayd qilib o‘tish lozim.

Adabiyotshunos No‘monjon Rahimjonov qayd qilib o‘tganidek: “Adabiy jarayonda tabiat – jamiyat – inson hayotida kechayotgan voqea – hodisalar, o‘zgarishlar shaxs erki, millat hurriyati, Vatan istiqloli va istiqboli nuqtai nazaridan o‘rganilmoqda, estetik baholanmoqda. Shu ma‘noda, inson ko‘ngli barcha buhronlar silsilasini sintezlashtiruvchi mehvar bo‘lib qoldi. Oftob nurini linzaga joylab, bir nuqtaga yo‘naltirilsa tog‘larni tolqonga, qoyalarni payrahaga aylantirib yuboradi” [1, 22-bet].

Yozuvchi hikoyalardagi qahramonlarning dunyoqarashi o‘zgachaligi va ularning tabiatidagi davrga xos xususiyatlar yaqqolroq ko‘zga tashlanadi. Xurshid Do‘stmuhammadning hikoyalari oson o‘qilmaydi, ularni mulohaza qilish, fikr chig‘irig‘idan o‘tkazishga to‘g‘ri keladi. Xurshid Do‘stmuhammadning adabiy mahorati haqida taniqli adabiyotshunos Bahodir Karim shunday fikr bildiradi; “Xurshid Do‘stmuhammad o‘z uslubi va o‘z so‘ziga ega mahoratli hikoyanavisdir. Ijodini hikoyalar yozish bilan boshlagan yozuvchi hozirga qadar bu janrda o‘z ko‘nglini-dardu dunyosini namoyon qilib keladi”.

Xurshid Do‘stmuhammad hikoyalarining asosiy yutug‘i qahramonlar ruhiy holatini tasvirlashdagi reallikdir. Adibning “Qazo bo‘lgan namoz”, “To‘xtaboyning boyliklari”, “Umid guli” kabi tarixiy hikoyalarida XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi millat fojiasi, o‘sha davrda yashagan ota-bobolarimizning qanday og‘ir kunlarni, tuhmatlarni boshdan o‘tkazgani real tasvirlab berilgan: “Qazo bo‘lgan namoz” hikoyasiga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, asar andijonlik mashhur boy Mirkomilboy Mo‘minboyevning hayoti tarzi, insoniy fazilatlarini, achchiq taqdiri to‘g‘risida hikoya qiladi. Mirkomilboy halol, diyonatli, ko‘pni ko‘rgan odam. U hamisha hamyurtlari joniga oro kirish, ularni rus istibdodidan himoya qilish yo‘llarini izlab, sa‘y-harakatlardan tolmadi. Masjid, madrasa, musofirxona qurishni rejalashtirganda ham o‘z manfaatini emas, balki yurtdoshlari, millatdoshlari kelajagini o‘ylaydi. Afsuski, uning bu ezgu niyatlar yo‘lida qilgan fidoyiliklari “millatchilik” deb baholandi.

Yozuvchi boshiga og‘ir qiyinchiliklar tushgan Mirkomilboyning ruhiy iztiroblarini quyidagicha tasvirlaydi: “kech angladi, haq gapni aytgani uchun o‘ziga

do'st emas, g'anim orttirganini, u g'animlar o'zga yurtni bosib turgan o'rislar emas, o'zining o'zbeklari ekanin juda-juda kech angladi". O'z elidan chiqqan ma'naviyati tuban millatdoshlari – mehrobdan chiqqan chayonlar unga xiyonat qilishadi. Buni biz Mirkomilboy bilan polkovnik o'rtasida bo'lib o'tgan suhbat jarayonida ham ko'ramiz: "Bu sartlarga-chi, to'rt tanga bersangiz, Mirkomil degan boy ekan-u, o'zining otasini ham sotadi... Xi-xi -xi, o'zimizning xufiyalarga ham ish qoldirmaydi bular". XX asr boshidagi inqilob hodisasi odamlarni birdek elakdan o'tkazdi, parchaladi.

Eng og'ir daqiqalarda xalqimizning birlashmagani, ikkiyuzlamachi, xoin kishilar tufayli o'zbek xalqining ne-ne asl farzandlari qatag'onga uchrab, halok bo'lganini yozuvchi tarixiy voqelik asosida real tasvirlaydi. Hikoyada Yoqubboy, Temurhoji, Nig'monbek, Rozalion kabi qator obrazlarni uchratamiz. E'tibor beradigan bo'lsak, faqat Yoqubboygina Mirkomilboyning haqiqiy do'sti, qolganlar esa uning obro'-e'tibori, boyligi uchungina soxta mulozamat qilishadi. Yozuvchi aynan shu jarayonda tarixiy haqiqatni badiiy yo'sinda aks ettirishga erishgan.

Xurshid Do'stmuhammad bu hikoyasi orqali Mirkomilboyning vatanparvar, xalqi uchun jon kuydirib yashagan haqiqiy millat farzandi ekanligini ko'rsatib beradi. Qochib ketish uchun imkinoyati bo'la turib, bu yo'ldan bormaydi.. Anvar podshoning Turkiyada qolish to'g'risidagi iltimoslarini ham rad etadi. Mirkomilboyning Anvar podshoga aytgan quyidagi so'zlariga e'tibor qarataylik: "Jujuqlarni, nasllarni ko'chirib kelarmiz, posho afandim, -dedi Mirkomil qahratonda qolgan odamday sovqotib. -Lekin Vatanni qanday olib kelamiz, Vatanni ko'chirib bo'lmaydi-ku".

Hikoyada o'z ezgu niyati oqibatida "surgunma-surgun, qamoqma-qamoq sarson-sargardon" yurgan Mirkomilboy hayotining oxirgi pallasi aks ettiriladi. Mirkomilboy o'z o'limini ham mardonavor kutib oladi. Hikoyaning yana bir e'tiborli jihati, Mirkomilboyning "moviy ko'zli o'ris" yigiti emas, balki o'z hamyurti, o'z qondoshi tomonidan o'ldirilishi. Kofir bo'la turib, asirning eng so'ngi tilagini bajarishni insoniy fazilat sanagan rus yigitidan farqli o'laroq musulmon bolasi bo'laturib o'z millatdoshining taqdiriga zarracha achinmagan o'zbek yigitining xatti-harakatlari kishini o'yga toldiradi.

Umuman olganda, adabiyotshunos Sanjar Sodiqov ta'kidlaganidek: "Dunyoda shunday yozuvchilar bo'ladiki, ular deyarli butun ijodlari davomida yoki ko'pchilik asarlarida bir jiddiy hayotiy muammoni yoxud uning muayyan qirrasini qayta – qayta qalamga oladilar, mohiyatini, yangi – yangi ma'nolarini har xil nuqtai nazardan badiiy talqin etishga intiladilar" [2, 28-bet].

Umuman, Xurshid Do'stmuhammad "Qazo bo'lgan namoz" hikoyasida davr fojiasi va shaxs talqini haqqoniy yoritib bera olgan. Adibning har bir hikoyasi o'ziga xos tasvir usulini o'zida poetik jihatdan mujassamlashtiradiki, buning zamirida ijodkorning mahorati mujassamlashganligini ham alohida qayd etish lozim.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Rahimjonov N. Istiqlol va bugungi adabiyot. – Toshkent, “O‘ituvchi”, 2021. – 280 bet.
2. Sodiq sanjar. Ijodning o‘ttiz lahzasi. Adabiy-tanqidiy maqolalar. – Toshkent, “Sharq”, 2005. – 326 bet.

**УСМОН НОСИР- МОҲИР ТАРЖИМОН**

*Йўлдошева Сарвиноз Равшан қизи,  
ЖДПИ магистр*

*Илмий раҳбар: ф.ф.д., доц. У.Қосимов*

Усмон Носир истеъдодининг ёрқин бир қирраси унинг таржимонлик фаолиятида яққол намоён бўлган эди. Шоирнинг Фирдавсий ва Шекспир каби даҳо санъаткорлар шеъриятдан қилган таржималари, Пушкиннинг “Боғчасарой фонтани”, Лермонтовнинг “Демон” каби машҳур достонларини моҳирона ўзбек тилига ўтирганлиги унинг ижодий салоҳияти нечоғлик улкан бўлганлигидан гувоҳлик бериб туради. Шу муносабат билан мавзумизга боғлиқ равишда куйидаги тарихий бир фактни келтириш мақсадга мувофиқ бўлади деб ўйлаймиз: 1937 йил 26 майда “Литературная газета”да Усмон Носир ва Ҳамид Олимжонларнинг “Пушкин на узбекском языке” сарлавҳали мақоласи эълон қилинган. Ушбу мақолада дунё адабиётининг буюк сиймолари асарлари ўзбек тилимизга таржима қилинганлиги ва тилимизнинг нақадар бойлиги ва бу тилда жаҳон адабиётининг энг юксак намуналарини таржима қилиш мумкинлиги фахр билан таъкидланган. Зотан, улар 30-йиллардаёқ ўзларининг мумтоз таржималари билан ҳам бу ҳақиқатни тўла исбот қилиб берди. Чинакам миллатпарварлик намунаси бўлган бу тарихий ҳақиқат ҳозир, яъни узбек тили мустақил жумҳуриятимизнинг Давлат тили бўлган ва миллий тилимиз равнақи йўлида жонбозлик қилиш-ҳар бир зиёли-ижодкорнинг юксак фуқаролик бурчига айланган ҳозирги пайтда янада муҳим аҳамият касб этади.

Бинобарин, чинакам шоир ё ёзувчи, энг аввало туғма, табиий истеъдоди билан ажралиб турса, таржимон ҳам ана шундай истеъдодга эга бўлиши ва айни вақтда, таржимонлик маҳоратини пухта эгаллаши, камида икки тилни яхши билишидан ташқари ўзга миллат ҳаёти ва руҳиятини ҳам чуқур ҳис этиши талаб этилади. Дарҳақиқат, Чўлпон ва Ғафур Ғулум, Шайхзода ва Асқад Мухтордай забардаст адибларимизнинг Шекспир трагедияларини ёхуд Абдулла Орипов ва Эркин Воҳидовларнинг Данте ва Гётенинг жаҳоншумул асарларини таржима қилиш жараёни ҳам қанчалар мураккаб кечгани, яъни завкли онлар билан бирга қандай машаққатли ижодий изланишлар, чуқур бадиий мушоҳада ва поэтик тафаккур эвазига амалга оширилгани таржимашуносларнинг тадқиқотлари орқалигина аён бўлиши мумкин. Шу маънода ҳассос шоиримиз Ҳамид Олимжон 30-йилларда Пушкин асарларини ўзбек тилига таржимаси билан боғлиқ билдирган фикри бугун

ҳам долзарблигини йўқотмаган: "Пушкиндан муваффақиятли қилинган ҳар бир парча, ҳар бир сатр шоир ижодида муҳим бир босқич, чунки бу адабий-ижодий иш - содда тилмочлик эмас. Шунинг учун ҳам Пушкиндан бирор асарни яхшилаб таржима қилиш билан шоир ўз ижодида янги бир поғона ошади". Усмон Носирнинг таржимонлик фаолияти ҳам ана шундай таҳсинга лойиқ эканлигини куйидаги мисоллар орқали кўришимиз мумкин. Масалан, улуғ рус шоири А.С.Пушкин ва М.Ю.Лермонтовларнинг кўплаб гўзал шеър ва поэмалари Усмон Носирнинг ёрқин истеъдоди ва таржимонлик маҳорати натижасида 30-йиллардаёқ ўзбек тилига ўтирилди ва улар халқимизнинг ноёб маънавий мулкига айланди.

Ҳар бир етук шоир ё адибнинг тафаккур ва дунёқараши, ғоявий-бадиий олами унинг дунёни ижодий англаши ва ўзлаштириши маҳсули сифатида шаклланади. Бошқа халқ шоирини ўз тилига олиб кирувчи таржимон оригинал билан бир оз бўлса-да, беллаша оладиган даражадаги таржимага эришиш учун ўзи таржимонлик қилган шоирнинг ҳиссиётлари тажрибасига шерик (Самюэл Маршак) ёки шундай тажрибага ўзи ҳам эга булиши зарур. Акс ҳолда, у тилни қанчалик яхши билмасин, қанчалик билимдон бўлмасин, таржимаси тарашадай куруқ беўхшов бўлиб чиқаверади. У оригиналда гениал, титан бўлган шоирни таржимада кўғирчоққа айлантириб қўяди. Пушкин, Лермонтов, Умар Хайём, Ҳофиз ва Бедилларнинг ўзбек тилига қилинган айрим таржималарида шу нарса кўрилган. Шу айрим таржималарда Пушкин ҳам, Хайём ҳам ўқувчида шеърятнинг" оддий қонуниятларидан беҳабар, қофия тузишга нўноқ бир ҳаваскор шоирдек ёқимсиз таассурот қолдиради... Ўзбекча таржималарда Пушкин (Ойбек, Х.Олимжон, Ғафур Ғулом, Усмон Носир, Миртемир), Некрасов (Миртемир, Зулфия), Маяковский (Асқад Мухтор, Шайхзода), Есенин (Э. Воҳидов), Е. Чаренц (Шайхзода, Султон Акбарий), Твардовский (Р. Бобожон), Светлов (Х. Олимжон), Сильва Капутикян (Зулфия, Э.Воҳидов), А. Исаакян (А. Исроилов, Тўлқин), Блок (А. Мухтор) оригинал билан руҳий яқин, бадиий юксак чиққанлигини нафақат таржимон мутахассислар, балки китобхонлар ҳам эътироф этишади.

Усмон Носирнинг Пушкиндан («Боғчасарой фонтани»), Лермонтовдан («Демон») қилган таржималари мана шу энг яхши таржималар қаторида туради. Пушкинни ҳам, Лермонтовни ҳам ўзбек тилига таржима қилиш ниҳоятда мушкул, аммо қувончли, илҳомбахш иш эканлиги ўша пайтда ҳам, ҳозир ҳам ҳеч кимга сир эмас. Масалан, 1936 йилда Пушкинни ўзбек тилига таржима қилиш юзасидан олиб борилган жиддий ишлари ҳақида сўзлар экан, Хамид Олимжон, жумладан, шундай муҳим фикрларни ёзади: «Пушкиндан муваффақиятли қилинган ҳар парча, ҳар бир сатр шоир ижодида муҳим бир босқич, чунки бу адабий ижодий иш содда тилмочлик эмас. Сўнгги йил ичида ўзи ҳеч нарса яратмасдан, Пушкиннинг бирор асарини муваффақият билан таржима қилиб берган шоирни ижодий жиҳатдан ўсмади деб айтиб бўладими? Асло йўқ. Пушкин асарларини ўзбек тилида бериш жуда қийин иш. Буюк шоирнинг ўлмас асарлари ўзбек тилида қай товуш билан

жаранглади? Ўзбек тилидаги Пушкин шеърида оригиналдаги руҳ ва шира сақланганми? Бундай бир ўхшашликка эришиш жуда қийин, шунинг учун ҳам Пушкиндан бирор асарни яхшилаб таржима қилиш билан шоир ўз ижодида янги бир поғона ошади».

Усмон Носир ҳам Пушкинни, Лермонтовни таржима қиларкан, ижодкор сифатида ҳар жиҳатдан ўсиб-улғайди. У ўз таржималарида икки нарсага бутун диққатини жалб қилди — у «оригиналдаги руҳ ва ширани сақлашга» уринади ва шунга эришади ҳам. Шоирнинг илк таржима учун Пушкиннинг «Боғчасарой фонтани»и ва Лермонтовнинг «Демон» достонларини танлагани тасодифий ҳол эмас эди. Усмон Носир Кавказни севар, ижодининг гулдай асарларини шу гўзал ўлкага бағишлаган, уларни шу гўзал ўлка бахш этган илҳом билан яратганди. «Демон» таржимасида бу нарса ўз аксини қолдирмай иложи йўқ эди. Иккинчидан, Усмон Носирни шоир сифатида рус адабиётининг икки буюк шоири бўлган Пушкин ва Лермонтов асарларининг юксак кўтаринки романтик руҳи ўзига тортган, шу руҳга нисбатан унинг қалбида яқинлик ва ҳамоҳанглик топган эди. Унинг жўшқин ижоди ва поэтик маҳорати таржималарига, таржималари эса ижодига бу қадар улкан таъсир кўрсатганининг боиси ҳам шунда. Усмон Носир бу асарларни ўзбек шеъриятининг олтин хазинасига олиб кирганига мана сал кам икки асрга яқин вақт ўтаяпти. Шундан бери оташнафас шоиримиз Усмон Носирнинг бу таржималарининг поэтик юксаклиги ҳақидаги мақтов ва этирофлар ҳамон оғиздан-оғизга кўчиб юрибди. Булар алоҳида тадқиқ этилиши мақсадга мувофиқ бўлади ва бу адабиётшунослигимиз ва таржимашуносликнинг ҳам долзарб муҳим вазифаларидан саналади.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Усмон Носир. Унутмас мени боғим. Тошкент. 1976.
2. Усмон Носир. Танланган асарлар. Таржималар. Тошкент. 1970.
3. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. Тошкент. 1999.

### **АЛИШЕР НАВОИЙНИНГ “САБЪАИ САЙЁР” ДОСТОНИДА ТУШ МОТИВИНИНГ БАДИИЙ ТАЛҚИНИ**

*Турсунқулова Юлдуз Раҳматулла қизи,  
ЖДПИ магистри  
Илмий раҳбар:  
Доц. Мамадалиева Зухра Умаралиевна*

Маълумки, “Хамса”чилик анъанасига кўра тўртинчи достон Эрон хукмдорларидан Шоҳ Баҳром ҳақида бўлиб, унинг моҳияти муҳаббат ва салтанат, ошиқлик ва шоҳлик зиддиятларининг тўқнашувига асосланади. Навоийгача бу мавзуда яратилган (“Ҳафт пайкар”, “Ҳашт беҳишт”) достонларида ҳам саргузашт мотивининг етакчи эканлигини кўриш мумкин.



Алишер Навоийнинг “Сабъаи сайёр” достони бошқа дostonлардан куйидаги жиҳатлар билан фарқланади:

- дostonда туш мотиви етакчи;
- ҳикоятлар бир ғоя атрофида бирлаштирилган;
- рамзлар, ишораларга кенг ўрин берилган;

Персонажларнинг аксарияти ўз тақдирини излаб сафарга отланар экан, ўзлари кўрган тушларини аломат деб билади. Кун ботиш ва Кун чиқиш адабиётида туш мотиви етакчи омил бўлиб, қаҳрамон психологиясини очиш ва тингловчига ҳиссий таъсир кўрсатиш учун реал таянчдир. Масалан, “Алкимёгар”да Сантьяго ҳам ўз тушига ишониб, мусофир бўлади.[Бу ҳақда қаранг: Пауло Коэло . Алкимёгар. Тошкент: Янги аср авлоди, 2004.] Чунки туш инсон руҳиятининг маҳсули бўлиб орамиздан унга ишонмайдиган, таъбири билан қизиқмайдиган одамни топа олмаймиз. Асар қаҳрамонлари ҳам тушни рўё деб эмас, ишора деб биладилар. Шу билан бирга руҳ ва жисм, моддият ва моҳият муаммолари ҳам очилиб борилаверди. “Сабъаи сайёр” дostonи асосида шу жиҳатлар талқинига тўхталамиз.

Дostonнинг мавзуси ҳам бугунги кунгача мубоҳасали. Баъзи олимлар дoston номини “Етти сайёра(планета)” дейишса, баъзилари дostonнинг етти мусофирига ишора борлигини айтиб “Етти сайёр (сайёҳ)” ҳам деб таржима қилишади. Асарнинг бош қаҳрамонлари Шоҳ Баҳром ва Дилором бўлса-да, адибнинг бош ғояси етти сайёҳ ва уларнинг ҳикоятлари асосига сингдирилган. Бадиий адабиётда бундай ҳикоя ичида ҳикоя берилиши бадиий қолиплаш деб номланади. Ҳикоятлар бир-биридан шаклан ва мазмунан ранг-баранг бўлиб ҳар битта рамз ўз замирида Шоҳ Баҳром тақдирига бориб тақалади. Хусусан, қаҳрамонларнинг тушлари ҳам дoston сюжетининг оқимини бадиий ниятга бўйсундиради.

Дастлабки ҳикоят шанба ( ҳинд маликаси, қора сарой, ҳинд сайёҳи) куни бошланиб, ҳинд мусофир унга “Фаррух ва Ахий” ҳикоясини сўзлаб беради. Туш тасвирининг етакчи пландалигини мазкур ҳикоятдан англаш мумкин. Фаррух шундай бир туш кўради:

*Бир кеча бор эди ибодат аро  
 Нурдин матлаи саодат аро.  
 Субҳ чун саждаи ниёз этти,  
 Кўзига уйқу турктоз этти.  
 Жилва қилғоч хаёли руҳоний,  
 Минг сувар зоҳир ўлди пинҳоний:  
 Ўзини кўрди бир биёбонда  
 Ким, улус беҳисоб эди анда.  
 Борча кўч аҳлию сафар хайли,  
 Бир тараф лек борчанинг майли.  
 Бор эди бу орада бир маҳмил,  
 Бухтийи чарх ўлуб анга ҳомил.  
 Маҳмил устида маҳмали мушкин,  
 Мушк сочиб нечукки нофаи Чин*

*Мутаҳаррик бўлиб насими сабо,  
 Чунки маҳмилдин ўлди парда рабо.  
 Ул аморида худ пари эрди,  
 Не пари, меҳри ховари эрди.  
 Ул қуёш ламъаси кул айлади пок,  
 Нотавон жисмин ўйлаким хошок.  
 Боқти Фаррух чу ул тараф бетоб,  
 Тўлун ойни ёшурди тийра саҳоб.  
 Улча эти қулоққа халқ дерди,  
 Бу эдиким: “Эрур бу Қудс ери”*

[1: 107-108]

Ислонда саҳарда кўрилган тушларнинг хайрли келиши, ўнгидан келиши кўпгина ҳадислардан ҳам маълум. Хусусан, “Алпомиш” достонида ҳам Алпомиш, Барчиной, Қоражон ҳам саҳар вақтида туш кўрадилар ва бу туш дoston сюжетида муҳим аҳамиятга эга ҳисобланади. [Бу ҳақда қаранг: Алпомиш. Ўзбек халқ достони. Тошкент: Шарқ, 1998.] Фаррух ҳам ибодат саждасида кўрган тушининг аломат эканлигига қаттиқ ишонади ва Қуддус сафарига отланади.

Ҳикоя давомида қора ранг тасвирининг устунлигини кузатиб шундай хулосага келиш мумкинки, тун ва тушнинг моҳиятидаги қора ранг - уйғунлаштирувчи рамз бўлиб Баҳромнинг зулматдаги, айрилиқдаги тушқун руҳиятига ишора беради.

Ҳинд шаҳзодаси Фаррух тушида кўрган гўзалга ошиқ-у беқарор бўлиб Қуддусга отланади. Ўша пайтларда Каъбага бормоқчи бўлган одам аввал Қуддусни тавоф қилиб, кейин Маккага борар эди. У Қуддусни тавоф қилиб ҳам чекар экан, буни тасаввуфона ишқи комилликка интилиш дейиш мумкин. Фаррух Қуддусдан тушида кўрган гўзални топа олмаган бир пайтда, яна туш кўради. Тушида бир инсон унинг энди Ҳалабга боришини айтади.

Воқеалар давомида Фаррух кўп заҳмат чекиб, сахий Ахий билан танишади. Тушида кўрган гўзал унинг аёли бўлиб чиқади. Ҳикоя давомида Ахийнинг жўмардлиги, Фаррухнинг оқ кўнгил эканлиги очилади. Фаррух ошиқ қиёфасида комилликка интилган инсондир. Уни ишқ тоблаб борар экан, айна дамда ўзи севган гўзалнинг ўз хожасига бўлган муҳаббати олдида бош эгади. Ахийнинг саховатини юксак баҳолаб, унга муносиб жавоб кайтаради. Даставвал Фаррух, кейинчалик сахий Ахий ёпинган қора палос тақдир синовни рамзи бўлиб, қахрамонлар муҳаббат бобида чин инсонийликка томон синовдан ўтишади. Ҳикоятда туш мотивининг етакчилик қилишини Шоҳ Баҳромга умид бериш дейиш мумкин.

Душанба куни яшил қасрда шаҳрисабзлик мусофирдан Саъд жасоратиё ҳикояти тингланади. Бу ҳикоятда Саъдга шаҳрисабзлик икки мусофир ўз юртидаги ғаройиб маскан ҳақида хабар беради. У ерда кимки бир кеча ухлаб туш кўришса, тушида икки ғалати махлуқ ўша одамнинг тақдири ҳақида икки башорат айтилишини, бири яхши, бири ёмон бўлишини баён

қилади. Саъд бунга қизиқиб қолиб Шаҳрисабзга отланади. Сайёҳлар айтган масканни топади ва туш кўради:

*Мутааззир кўзига уйқу иши,  
Бўлмайин уйқу туш кўрарму киши?  
Тонгга тегру ичига ваҳму ҳарос,  
Ҳар замон кўнгли ичра юз васвос.  
Барча тун оғзи ичра уйқу сўзи,  
Субҳдам уйқудин қизиқти кўзи.  
Тушига кирди ҳам бу олий дайр  
Ким, қилур эрди анда ҳар сори сайр.  
Кўрдиким, икки сурати дилкаш,  
Қуш киби, лек ранги ахзарваш.  
Мутаҳаррик бўлуб, наво айлаб,  
Дайрдин учтилар ҳаво айлаб,  
Учубон эврулиб анинг бошига,  
Кўндилар иккиси келиб қошига.  
Бириси чекти мужда бирда хурўш,  
Қилди мундоғ нидо нечукки сурўш  
Ким: “Насибинг сенинг пари бўлмиш  
Ки, юзи меҳри ховарий бўлмиш!”  
Яна бир бийм бирла қилди нидо,  
Етти мақсудини бу янглиг адо  
Ким: “сени дев қилғусидир асир,  
Солиб икки аёгинга занжир”. [1:156-157]*

Табиатан қизиқувчан, турли буюмлар ихтиро қилувчи Саъд сафар натижасида у шаҳрисабзлик гўзал маликага уйланади. Саъд бу саёҳати давомида Қатрон лақабли девни енгади, турли тилсимли тўсиқлардан ўтади. Ҳикоятда унинг қаҳрамонлиги куйланади. Саргузаштга асосланган ҳикоятда ҳам туш етакчилик қилади. Воқеалар силсиласида Баҳромшоҳнинг соғлиги ижобий томонга ўзгарар экан, ҳар битта ҳикоят унга умид беради. Жума кунги ҳикоятда Дилором дарагини эшитади.

Достон хотимасида муаллифнинг ўзи ҳам туш кўради. Унда Шоҳ Баҳром ва саккиз нафар гўзал, жаннатий сарой ҳақида сўз боради. Шоҳ Баҳром Ҳазрат Навоийни эътироф этиб шундай дейди:

*“...Ки, ей билик мулкин айлаган тасхир,  
Найзаи килк бирла оламгир!  
Чун чекиб тил салойи назм солиб,  
Даҳр мулкин бу тиз бирла олиб.  
Назм кишваристонини ҳам сен-сен,  
Балки соҳибқирони ҳам сен-сен!..” [1: 300-301]*

Шоҳ Баҳром ва Дилоромнинг тақдирлари достон сўнгида фожиали яқунланган бўлса-да, муаллифнинг туши ёрдамида ўқувчида оптимистик рух пайдо бўлади (“Фарҳод ва Ширин” достонида ҳам). Умуман олганда, туш бу инсоннинг психикаси билан боғлиқ бўлиб, бадиий адабиётда биз уни

каҳрамонларнинг руҳиятини очувчи восита, келажак тақдирга ишора ва аломат, шунингдек дoston сюжетиға таъсир кўрсатувчи муҳим детал сифатида баҳолашимиз мумкин.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. Тошкент, Адабиёт ва санъат, 1977.
2. Алпомиш. Ўзбек халқ достони. Тошкент: Шарқ, 1998.
3. Пауло Коэло . Алкимёгар. Тошкент: Янги аср авлоди, 2004.

### О‘ЗБЕК ТИЛИДА ФРАЗЕОЛОГИК СИНОНИМЛАР

*Soxibova Umida Akmaljon qizi,  
Farg‘ona davlat universiteti magistranti*

Dunyodagi barcha tillar sinonimik vositalariga ega. Lug‘aviy, grammatik, frazeologik va leksik-frazeologik sinonimlar tilning bebaho boyligi sanaladi. Bu boylikdan o‘rinli foydalanish nutqning ekspressiv va ifodali bo‘lishiga olib keladi. Shuning uchun ham shoir va yozuvchilar tilning sinonimik boyligidan o‘rinli foydalanishga alohida e’tibor berib kelganlar. Lekin tilshunoslikda bu borada erishilgan yutuqlarga qaramay frazeologizmlar doirasidagi sinonimiya hodisasini tadqiq etish dolzarb va muhim muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

“Frazeologiya” atamasi yunoncha “fraz” (phrasis- ifoda, nutq o‘rami) so‘zidan olingan bo‘lib, turkiyshunoslikda bu atama turlicha ma’nolarni ifodalash uchun xizmat qilgan. Masalan, XIX asrda yashagan turkiyshunos olim Mirza Kozimbek o‘sha davr an‘analaridan kelib chiqib, rus tilida yozilgan boshqa tasviriy grammatikalarda bo‘lgani singari o‘z asarida “fraz” so‘zini “jumla”, “gap” ma’nosida qo‘llagan. “Frazeologik birikma” deyilganda esa so‘zdan yirik til birliklarini tushungan. U turkiy tillardagi fe’llar haqida ma’lumot berar ekan, g‘am yemoq, vujudga kelmoq, g‘ussa yemoq singari til birliklarini “tarkibli fe’llar” deb izohlagan.

Frazeologizm, frazeologik birlik, frazema — ikki yoki undan ortiq so‘zdan tashkil topgan, ma’noviy jihatdan o‘zaro bog‘liq so‘z birikmasi yoki gapga teng keladigan, yaxlitligicha ko‘chma ma’noda qo‘llanadigan va bo‘linmaydigan, barqaror (turg‘un) bog‘lanmalarning umumiy nomi. Frazemalar shaklan o‘zlariga o‘xshash sintaktik tuzilmalardan farqli ravishda, nutqda so‘zlarni erkin tanlash, almashtirish yo‘li bilan yuzaga kelmaydi, balki ma’no va muayyan leksik grammatik tarkibli, avvaldan tayyor material sifatida qo‘llanadi, ya’ni frazemalar tarkibidan biror qismni chiqarib tashlash, tushirib qoldirish mumkin emas: anqoning urug‘i, arpasini xom o‘rmoq, chuchvarani xom sanamoq, terisiga sig‘may ketmoq, kapalagi uchmoq, ko‘ngli joyiga tushmoq, qo‘li ochiq, qulog‘i og‘ir va boshqalar.

Sh.Rahmatullayevning “O‘zbek frazeologiyasining ba’zi masalalari” nomli monografiyasida frazeologik sinonimlar tahlilidan keyin chiqargan quyidagi ilmiy xulosasi har jihatdan asosli: “Har bir frazeologik sinonimga to‘g‘ri va to‘liq

xarakteristika berish uchun uni sinonimiya uyasi ichida olib, boshqa sinonimlari bilan qiyoslab o'rganish zarur. Bunda sinonimlar turli-tuman nuqtalardan tekshiriladi, ular orasidagi o'xshashlik ham, farqlar ham ta'kidlanadi. Sinonimlar orasida farqlar qancha oz bo'lsa, ularni nutqda bir-birining o'rnida ishlatishga imkoniyat ortadi va aksincha bo'lsa, bunday imkoniyat ozayadi. Qay darajada bo'lmasin, sinonimlarni o'zaro almashtirishga yo'l qo'yuvchi kontekst mavjud bo'ladi...". [1. 264]

O'zbek tilshunosligida frazeologik sinonimiya masalalari atroflicha o'rganilgan, deb hisoblash mumkin. Buni M.Vafoyevaning "O'zbek tilida frazeologik sinonimlar va ularning struktural-semantik tahlili" nomli nomzodlik dissertatsiyasida keltirilgan obzordan ham bilib olish mumkin. M.Vafoyevaning nomzodlik ishida qayd etilishicha, o'zbek tilshunosligida frazeologiyaga doir dastlabki ishlar XX asrning 50-yillari boshida yuzaga kelgan bo'lsa, frazeologik sinonimlarni o'rganish 60-yillardan boshlandi. [2. 26]

Sh.Rahmatullayev 1966 -yilda himoya qilgan doktorlik dissertatiyasi, shu asosda nashr etilgan "O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari" nomli monografiyasi bilan o'zbek tilidagi frazemalarni lug'aviy birlik sifatida o'rganishni asosladi. Olim asarda frazeologik sinonimlar tahlilidan keyin kuyidagi ilmiy xulosalarni chiqaradi: "Har bir frazeologik sinonimga to'g'ri va to'liq xarakteristika berish uchun uni sinonimiya uyasi ichida olib, boshqa sinonimlari bilan qiyoslab o'rganish zarur. Bunda sinonimlar turli-tuman nuqtalardan tekshiriladi, ular orasidagi o'xshashlik ham, farqlar ham ta'kidlanadi. Sinonimlar orasida farqlar qancha oz bo'lsa, ularni nutqda bir-birining o'rnida ishlatishga imkoniyat ortadi va aksincha bo'lsa, bunday imkoniyat ozayadi, qay darajada bo'lmasin, sinonimlarni o'zaro almashtirishga yo'l qo'yuvchi kontekst mavjud bo'ladi. Bunday almashtirish bilan nimanidir yo'qotiladi, nimagadir ega bo'linadi. Xuddi ana shu "nimalardir" sinonim iboralarning har biriga tilda yashash huquqini beradi".

Sinonimlar odatda bir yoki bir necha jihatdan farqlanadi, shulardan biri ma'no qirrasidagi farq bo'lishi mumkin. Masalan, yer bilan yakson bo'lmoq — yer bilan yakson qilmoq iborasi qo'lini ko'kka sovurmoq — qo'li ko'kka sovurildi iborasiga sinonim: ayni bir ma'noni anglatadi («butunlay yemirmoq, yo'q qilmoq»). Bu sinonimlar, boshqa belgi-xususiyatlarida farq qilishidan qat'iy nazar, ma'no qirrasida farq qiladi: ikkinchisida ma'no bir qadar kuchli ifodalanadi. Shuningdek, ko'ngl(i) bo'sh va ko'ngl(i) yumshoq — yumshoq ko'ngil iboralari o'zaro sinonim bo'lib, «rahmdil, ko'ngilchan» ma'nosini anglatadi; birinchi iborada «ko'ngilchan»lik ma'no qirrasida, ikkinchi iborada esa «rahmdil»lik ma'no qirrasida ustun.

"O'zbek tili jadvalarida" nomli qo'llanma frazemalarning asosiy xususiyatlarini yoritish sohasida tilshunosligimiz uchun muhim qadam sanaladi, chunki bu asarda frazemalar shakl va ma'nosiga ko'ra (frazeologik omonimiya, frazeologik sinonimiya, frazeologik antonimiya), sintaktik modeliga ko'ra (so'z birikmasi modelida, gap modelida), qaysi so'z turkumiga mansubligiga ko'ra (fe'l frazeologizmlar, ot frazeologizmlar, sifat frazeologizmlar) tasnif qilingan,



frazemalarning asosiy belgilari (takroriylik, idiomatiklik, barqarorlik, sinsemantik), frazeologik sinonimlardagi birlashtiruvchi ma'no turlari (quvonch, hayratlanish, achinish, xafalik, qo'rqinch, bezovtalik, masxara qilish, or-nomus, iztirob, do'q-po'pisa,) ta'kidlab ko'rsatilgan. Shu bilan birga, bu ishda frazeologik birliklarning umumiy ma'nosi bilan qismlarning xususiy ma'nolari o'rtasidagi munosabatga ko'ra an'anaviy ravishda frazeologik qo'shilma, frazeologik butunlik va frazeologik chatishmalarga ajratilgan.

Tilimizda ko'nglini tog'day ko'tarmoq frazeologizmi mavjud. Uning asosi hisoblangan ko'ngil so'zi bilan bog'liq iboralar Sh.Rahmatullayev "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati"da quyidagicha izohlangan. Ko'ngl(i)ni tog'day ko'tarmoq —benihoya ruhlantirmoq. Sinonimi: ko'krag(i) tog'day ko'tarildi. Nuri opa, esonmisiz? Bizning kulbaga qadam qo'yishingiz ko'nglimni tog'dek ko'taridda. [3. 408]

Frazeologik sinonimlarda uslubiy bo'yoq, odatda, bo'rtib turadi. Aslida, frazeologik birliklar (frazemalar) xuddi shu maqsadda — voqelikni nomlashda uni o'tkir baholab berish uchun, shu voqelikka ijobiy yoki salbiy munosabat ifodalash uchun yaratiladi, shuning uchun ular nutqning ta'sirchan, obrazli bo'lishini ta'minlovchi muhim uslubiy vosita sanaladi. Misollar: 1. Bunga Botirning achchig'i keldi, buni Bo'ston sezdi. 2) Keyingi nasihatimiz gapi qonini qaynatib yubordi.

Frazeologik sinonimiya hodisasi ko'proq har bir tilning o'z frazemalari doirasida uchraydi: Qilidan quyrug'igacha. — Ipidan ignasigacha; Quvonchi olamga sig'maydi. — Sevinchi ichiga sig'maydi. Boshqa tildan frazema o'zlashtirish juda passiv bo'lganligidan, o'zlashma iboralarning frazeologik sinonimiya doirasiga tortilishi juda kam uchraydi.

Frazeologik sinonimiya hodisasini frazeologik variatsiyadan farqlash kerak: frazeologik sinonimiyada bir necha frazema bir ma'no atrofida birlashadi, demak, bitta sinonimik qatorni hosil qiladi; frazeologik variatsiyada esa bitta frazemaning ichki ko'rinishlari nazarda tutiladi, bunday ko'rinishlar sinonimik qator hosil qilmaydi. Masalan: 1) ko'zini yummoq; 2) bandalikni bajo keltirmoq; 3) jon bermoq. Bu uch frazema bitta ma'noni — vafot etmoq» ni bildiradi, shunga ko'ra bitta sinonimik qatorga birlashadi. Qo'lini bigiz qilmoq va barmog'ini bigiz qilmoq qo'shilmalari esa ikkita frazema emas: ular bitta frazemaning ikkita ko'rinishi, xolos. Bu frazema tarkibidagi «qo'l» va «barmoq» so'zlari o'rtasida sinekdoxa yo'li bilan ma'no ko'chishi (butun va qism munosabati) bor, bu hol «qo'l» so'zi o'rnida «barmoq» so'zining qo'llanishiga yo'l ochgan, ammo bir frazema o'rnida butunlay boshqa frazema yuzaga kelmagan, shunga ko'ra ular bitta frazemaning ichki ko'rinishlari — variatsiyalari sanaladi. Demak, variatsiyalar bir obrazga asoslanadi. Yana misollar: Kiprik qoqmaslik. Mijja qoqmaslik (bir frazemaning ikki varianti, chunki «kiprik» va «mijja» so'zlarida bitta obraz mujassam).

Ba'zan leksema bilan frazema bir sinonimik qatorga birlashadi: qaramoq (leksema) — ko'z qirini tashlamoq (frazema), xursand (leksema) — boshi osmonda (frazema) kabi. Bular leksik-frazeologik sinonimlardir. Leksik frazeologik sinonimlar qatorida leksema dominanta sanaladi. Demak, lug'aviy

sinonimlar uch xil bo‘ladi: 1) leksik sinonimlar (sinonimik qatorda faqat so‘zlar birlashadi); 2) frazeologik sinonimlar (sinonimik qatorda faqat frazemalar birlashadi); 3) leksik-frazeologik sinonimlar (sinonimik qatorda so‘z va frazemalar birlashadi).

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Sh. Rahmatullayev “O‘zbek frazeologiyasining ba’zi masalalari” nomli monografiyasi. Toshkent-1966 y. 264 bet
2. M.Vafoyeva “O‘zbek tilida frazeologik sinonimlar va ularning struktural-semantik tahlili” Toshkent-2009 y. 26-bet
3. Sh.Rahmatullayev “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati” Toshkent-1978 y. 408 bet
4. <http://www.prepodu.net> – adabiyotlarning elektron variantlari.

### ERKIN VOHIDOV- SERQIRRA ISTE‘DOD SOHIBI

*Eshqobilova Maftuna,  
JDPI magistri  
Ilmiy rahbar: f.f.d. U. Qosimov*

Buyuk mumtoz shoir va yozuvchilarimizning o‘lmas an‘analarini ijodiy davom ettirib, adabiyotimiz rivojiga munosib hissa qo‘shgan Erkin Vohidovdek yorqin iste‘dod sohiblarning yuksak vatanparvarlik va insonparvarlik g‘oyalari bilan sug‘orilgan she‘riyati alohida e‘tiborga loyiqdir. Chunki bu shoirimizning she‘riyati, eng avvalo chuqur milliyligi va xalqchilligi bilan alohida ajralib turadi. Ular xalqimiz tafakkuri va manaviyatini yuksaltirishda, xususan, yoshlarimizni ona Vatanga cheksiz sadoqat ruhida va el-yurtga fidoyi, komil inson qilib tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega ekanligi shubhasizdir.

Erkin Vohidovning chuqur hayotiy bilim va tafakkuri samarasi bo‘lgan va yuksak badiiy mahorat bilan yaratilgan publitsistik asarlarini g‘oyaviy-badiiy jihatdan birlashtirib, ruhan yaqinlashtirib turgan mushtarak jihatlar ko‘pligi e‘tiborimizni tortadi. Negaki Erkin Vohidovning deyarli barcha publitsistik asarlari uning she‘r va dostonlari singari katta ijtimoiy dard va ijodiy ilhom bilan yaratilgan va ularning barchasi xalqqa xizmat qilishdek olijanob maqsadlar bilan yo‘g‘rilgan.

Shu bilan birga, bu asarlarda Erkin Vohidovdek zabardast shoir qalbi va shaxsi, ya‘ni shoirning keng miqyosli badiiy-estetik tafakkur -salohiyati va el-yurt bilan chuqur hamdard-u hamnafasligi, uning o‘ziga xos jonkuyarligi va ijodiy shijoatkorligi manaman deb bo‘y ko‘rsatib turadi.

XX asr adabiyotida ham badiiy publitsistika san‘atining nodir namunalari yaratilganligini yirik alloma O.SHarafiddinov to‘g‘ri qayd etadi. Jumladan, A.Qodiriy, Abdulla Qahhor, G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon va Maqsud Shayxzodalarning teran mazmunli nutq va maqolalari xalqimiz ma‘naviy hayotida o‘chmas iz qoldirganini ta‘kidlab, bunga yorqin bir misol tariqasida Abdulla

Qahhorning 60 yillik yubileyidagi qisqa, ammo o'sha davr uchun katta bir voqea bo'lgan nutqini esga olib o'tadi. Haqiqatan ham, xalqimiz orasida haqgo'y yozuvchi deya shuhrat qozongan Abdulla Qahhorning o'sha tantanali va unutilmas anjumanda yana komfirqaning kazo-kazolari qatnashgan yig'inda "Men partiyaning oddiy soldati emasman. balki ongli a'zosiman",- degan so'zlarni aytish- bu bamisoli boshni kundaga qo'yish bilan baravar edi va buning uchun qanchalik katta jur'at talab qilinar edi. Bunday yorqin misollar shuni ko'rsatadiki, ulkan adiblarning qisqa nutq va maqolalari ham katta ijtimoiy mazmunga ega bo'lib, ular ba'zan uncha-muncha yirik asarlardan ko'ra ham kuchliroq g'oyaviy-estetik ta'sir va ahamiyat kasb etishi mumkin ekan. Asrlar davomida shakllanib va rivojlanib, keyingi avlodlar tomo nidan ijodiy davom ettirilayotgan bu adabiy an'ana mashhur shoirimiz Erkin Vohidov ijodida ham alohida o'rin tutadi.

Tarixdan malumki, XX asrning 70-yillari jahon davlatlari siyosatida qarama-qarshilik va ziddiyat-ixtiloflar kuchaydi. Hukmronlik siyosatiga asoslangan sotsialistik tuzum bilan erkin bozor iqtisodiga asoslangan demokratik tuzum o'rtasida turli sohada keskin kurash avj oldi va qonli to'qnashuvlar yuz berdi. Sobiq sovet respublikasi ham notinch bo'lib qoldi. Hukmron sovet imperiyasining tanazzuli boshlangan edi. Xalqning asosiy qismi ularga ishonchini yo'qotdi. Dunyoda g'oyalar o'rtasida yangi bosqichga kirgan kurash shoir va yozuvchilar ijodida ham aks-sado bera boshladi. Erkin Vohidovning "Iztirob" nomli she'ridagi

Xalqimga qadringni bil desam agar,  
Kurash, haqni oshkor qil desam agar,  
Bu - qutqu atalsa davlatga zarar,  
Qancha azob bo'lsa tortganim bo'lsin!

kabi otashin da'vatkor misralar o'sha dolg'ali yillarning aks-sadosi bo'lib jaranglagan edi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ana shunday keskin ijtimoiy-siyosiy kurash natijasi o'laroq, Erkin Vohidov bir qator o'zbek adiblari bilan mamlakat miqyosidagi anjumanlarda va xalqaro yig'inlarda faol qatnashadi. Ko'plab chet ellarda safarda bo'ladi. Anjumanlarda o'zbek xalqi nomidan muhim fikr va g'oyalarni ilgari suradi. Rossiya, Ukraina, Ozorbayjon, Belorusiya, Latviya, Litva, Estoniya, Qozog'iston va Turkmaniston adiblari bilan bir qatorda adabiyotlar taqdiri va xalqlar, millatlar o'rtasidagi o'zaro madaniy aloqalarning mazmuni va bugungi murakkab globallashuv davridagi jiddiy muammolar yuzasidan salmoqli fikr-mushohadalarini bayon etadi va matbuotda dolzarb mavzularda faol chiqishlar qiladi. Hozirjavoblik va millatparvarlik bilan bitilgan bu maqolalar shoirning "Iztirob" nomli to'plamida nashr etilgan va bu asar ma'naviy hayotimizda bir voqea bo'lgan edi.

Shoirning nafaqat O'zbekiston mamlakatining, balki insoniyatning g'oyat muhim va murakkab masalalarini ko'tarib chiqqan maqola va nutqlari qizg'in muhokamalarga sabab bo'ldi va jamiyat uchun ham samarali bo'ldi. Masalan, "O'zbekcha salomga o'zbekcha alik bo'lsin" degan g'oyat muhim maqolasida u Davlat tili bilan chambarchas bog'liq jiddiy muammolar xususida fikr yuritib, Atamalar markazi tuzish va uni O'zbekiston Respublikasi Oliy

Kengashi yoxud Vazirlar Mahkamasi huzurida tashkil etishni birinchi bo‘lib taklif etadi. Keng jamoatchilik va O‘zbekiston Respublikasi rahbariyati tomonidan qo‘llab-quvvatlangan bu taklif asosida Vazirlar Mahkamasi xuzurida Atamashunoslik qo‘mitasi tuziladi va shunday nufuzli komissiya Oliy Majlis Kengashi tomonidan ham tashkil etiladiki, bular Erkin Vohidovning chinakam xalq shoiri va zabardast mutafakkir publitsist sifatidagi faoliyati nechog‘lik zarur va ijtimoiy ahamiyatga molik bo‘lganligini ko‘rsatadi. Shoirning mana shunday qaynoq hayoti ichida, el-yurtning orzu-umidlari va g‘am tashvishlari bilan birga hamnafas bo‘lib yashashi unga muhim, dolzarb mavzu-g‘oyalar berishi bilan birga uni ijodkor sifatida faollashtiradi va jamiyatning muammolariga o‘z munosabatini bildirib, ularga daxldorlik tuyg‘usini ham kuchaytiradi. Bu jihatdan Erkin Vohidovning quyidagi fikri e‘tiborga loyiq: ”El ko‘nglidagini topish va el ko‘ngliga yo‘l topish bu-she‘riyat. Madh etish ham, rad etish ham she‘riyat emas. Xalqni maqtagan shoir ulug‘ emas, uning o‘zligini o‘ziga ko‘rsatib bera olgan, ayovsiz gapni aytolgan shoir - ulug‘. Xalqni ko‘rsata bilish uchun shoir darvesh emas, o‘ktam, so‘zi keskir, o‘zi shijoatli bo‘lishi kerak“.

Shoirning ushbu samimiy iqrор so‘zlaridan bir necha muhim haqiqatlarni anglab olishimiz mumkin. Eng avvalo, har bir istedodli adib u agar chinakam yurtparvar va insonparvar ijodkor bo‘lsa u hamisha el-yurtining g‘am tashvishiga ham, shodlik quvonchlariga ham sherik bo‘lib yashashi kerak. Boshqacha aytganimizda, haqiqiy shoir el-yurtining dard-u quvonchini o‘zining dard-u quvonchiday bilishi lozim. Bu hayotiy haqiqat chinakam shoirlar uchun xamisha ijodning muqaddas bir mezoni va qonunyati bo‘lgan desak xato qilmagan bolamiz.

Erkin Vohidovning mavzu va janr jihatidan rang-barang bo‘lgan she‘r-dostonlari va publitik maqolalari, ham mushtarak jihatlarga ega va ularning deyarli barchasi xalqqa xizmat qilishdek ezgu maqsadlar bilan yo‘g‘rilgan. Xalq shoir va yozuvchilardan hamisha **haq gapni** kutadi. Buning uchun ijodkordan tug‘ma iste‘dod bilan birga haq so‘zni dadil ayta olish jur‘ati ham talab etiladi. “Agar yozuvchining axloq kodeksi tuziladigan bo‘lsa, men halollik bilan shijoatni birinchi modda qilib qo‘yar edim. Chunki yozuvchining boshqa hamma xislatlari uning qay darajada halol, naqadar shijoatli zehniga bog‘liqdir. San‘at asarida yaxshini yaxshi deb odamlarga ibrat qilish, yomonni yomon deb odamlarni undan jirkantirish uchun shijoat kerak bo‘lsa, shijoat halollikni talab qiladi. Shuningdek, shijoatsiz halollikning o‘zi o‘lik sarmoyadir “,- degan edi realist yozuvchilardan biri Abdulla Qahhor. O‘tmishda ham, bugungi kunlarimizda ham ana shunday shijoatli va haqgo‘y adiblar ko‘plab topiladi. Hassos tanqidchi va tarjimon Ibrohim G‘ofurov to‘g‘ri ta‘kidlaganidek, Erkin Vohidov o‘zini she‘rga bag‘ishlagan va hech qachon she‘ru she‘riyatga xiyonat qilgan emas. U totalitar muhitning zamona sozligiga qat‘iyat bilan qarshi turoidi. U qalbining amri bilan ijod qildi, o‘z insoniy, ijodiy prinsiplarini mafkuraning shiddatli tazyiq va amrbozliklaridan saqlashga muyassar bo‘ldi.

“El ustozim, men- tolib”,- deya yuksak e‘tiqod bilan yashab -ijod etgan ulkan talant sohibining vatanga muhabbat va sadoqat ruhi bilan yog‘rigan asarlari ham, shubhasiz ,ana shunday abadiyatga daxldor ma‘naviy-ruhiy hodisalar sirasiga



kiradi. Erkin Vohidovning chuqur hayotiy bilim va tafakkuri samarasi bo‘lgan va yuksak badiiy mahorat bilan yaratilgan asarlarini atroflicha o‘rganar ekanmiz, ularni g‘oyaviy badiiy jihatdan birlashtirib, ruhan yaqinlashtirib turgan mushtarak jihatlar ko‘pligi etiborimizni tortadi. Negaki Erkin Vohidovning she‘r va dostonlari singari barcha publisistik asarlari ham katta ijtimoiy dard va ijodiy ilhom bilan yaratilgan va xalqqa xizmat qilishdek olijanob maqsadlar bilan yo‘g‘rilgan. Shu bilan birga, bu asarlarda Erkin Vohidovdek zabardast shoir qalbi va shaxsi, yani keng miqyosli badiiy-estetik tafakkur- salohiyati va el-yurt bilan chuqur hamdardu-hamnafasligi, o‘ziga xos jokuyarligi va shijoatkorligi yaqqol namoyon. E‘zozli shoirimizning el-yurtga va ona –vatanimizga mehr va sadoqatining yuksak ifodasi va barcha yurtparvar shoirlarimizning ham yakdil orzulari bo‘lgan “Iltijo” she‘ri ezgu bir vasiyatni, unitilmas nidosi bo‘lib bizni hamisha ogoh etib turadi:

Menga nasib etmish shunday mamlakat ,  
Mamlakatki, olam mulkida tanho...  
U jahon ichida bitta jahondir,  
Bir ko‘rgan umrbod qilgusi havas .  
Tilagim , hech qachon, hech qachon qismat  
Bizni ayirmasin O‘zbekistondan.

Haqiqiy yurtparvarlik va millatparvarlikning yuksak ifodasi bo‘lgan bu satrlarni har bir vatandoshimiz ,ayniqsa, o‘quvchilar chuqur tushunib ,ular zamiridagi iftixor va ma’sulyat tuyg‘ulariga ega bo‘lishiga umid qilamiz .Buning uchun barchamiz ma’sulmiz.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Erkin Vohidov. Shoiru she‘ru shuur. T. 1987.
2. Erkin Vohidov. Muhabbatnoma. Sadoqatnoma. Saylanma, 1-2-j. T. 1986.
3. Erkin Vohidov. Saylanma. 1-2-3-jildalar. T, 2000.
4. Ozod Sharafiddinov. Haqiqatga sadoqat. T., 1989 .

#### IJODKOR NAJOTKOR HAMDIR

*Mardiyev Rustam,  
JDPI magistranti*

**Ilmiy rahbari: f.f.n., dotsent Yulduz Karimova**

*“Erkin Vohidovning hayoti, ijodi, faoliyati yorqin voqealarga boy. U ta’bir joiz bo‘lsa, ikki asr shoiri, ikki asrning odami. Butun insoniyatni ikki asr jarayonlarida alg‘ov-dalg‘ov qilgan, larzaga solgan, qonlar kechib, shonlar topgan yo‘riqlari, yo‘llari chaqmoq yanglig‘ olovli chiziqlari uning yuragidan o‘tgan va she‘riy yuksak badiiy aks sado bergan”, [3. 241-b] – deydi adabiyotshunos Ibrohim G‘afurov.*

*Shoir yuragidan o‘tgan, chaqmoq yanglig‘ olov tili bilan ijodkor qalbini tilib o‘tgan voqealar Erkin Vohidovning bir qator: “Nido” (1964), “Palatkada*



yozilgan doston” (1966), “Quyosh maskani” (1972), “Ruhlar isyoni” (1980), “Ko‘hinor” (1982) dostonlarida badiiy aks sado beradi.

“Nido” da shoir farzandlikning jon tomirlari bilan ona zamin bag‘riga tutashib ketgan lirik qahramonning: “Ogoh bo‘ling odamlar” mazmunidagi nidosini kitobxon qalbining eng teran nuqtalariga yetadigan holatda qog‘ozga tushiradi:

Tengdoshim, asrdosh birodar!  
Uyg‘oq bo‘l, hushyor boq olamga.  
Bu yerni quchmasin alanga,  
Qabrida tinch yotsin fidolar. [1.153-b]

Milliy dostonchiligimizda jiddiy hodisa bo‘lgan “Ruhlar isyoni” dostonining qahramoni Nazrul Islomning taqdiri shoir aytgandek, o‘quvchini, kitobxonni atrof-olamga, yorug‘ dunyoga hushyor bo‘lishga, ogoh bo‘lishga chaqiradi.

Dostonda Bengal shoiri Nazrul Islomning hind eli ozodligi, mustaqilligi yo‘lida olib borgan kurashlari, aynan millat g‘amini o‘ylab chekkan iztiroblari, shu yo‘lda amalga oshirgan ishlari uchun ayblangan, ta‘qib etilgan, qamoqqa olinib, noinsoniy qiynoqlarga solingan shoirning og‘ir qismati Erkin Vohidovning hassos qalami bilan chuqur bir umuminsoniy dard, armon, cheksiz iztirob o‘laroq badiiy talqin etilgan.

Tan jarohatiga, vujudiga yetkazilgan og‘riqlar, zarbalarga dosh bergan Nazrul Islom o‘z millatdoshlari, dindoshlarining sotqinliklari, ikkiyuzlamachiliklari, munofiqliklariga chidolmadi:

Aybnomani tinglang, hatto –  
Faryod qilar toshlar ham.  
“Hindu bilan  
muslim aro

Qutqu solgan shul odam!”. [2. 56-b]

Muslim bilan hindlar o‘rtasida nizo kelib chiqishida asosiy aybdor qilib ko‘rsatilgan Nazrul Islom aslida 1926-yilda brahmanlar va imomlar qutqusi bilan Kalkuttada boshlangan xunrezliklar, qon to‘kishlarning oldini olish uchun ham siyosat maydoniga chiqqan yurtning vijdonli farzandi edi. Ammo uni tuhmatning qora botqog‘iga tortdilar:

Bu dunyoda  
Bor qabohat,  
Bu dunyoda  
bor yolg‘on.

Ammo bunday  
oshkor tuhmat  
Bo‘lmagandi hech qachon. [2. 57-b]

Doston kompozitsiyasi asar g‘oyasiga ijodkor tomonidan ustalik bilan xizmat qildirilgan.

Azaldan “dunyoning bir kamligi”, “haqiqatning ko‘zlari namligini” ijodkorning asar syujetiga ustalik bilan singdirilgan rivoyat, afsonalarda yaqqol bo‘y ko‘rsatadi. Ular o‘zaro bir-birini to‘ldirib, ichki ma‘no yaxlitligi hosil qilib

chin tarixiy voqelik Nazrul Islom fojeasining sabab va oqibatini, mazmuni va mohiyatini tushunib yetishga undaydi. Ayniqsa, dostonidagi “Jaholat haqida rivoyat” Nazrul Islom fojeasini o‘quvchi qalbiga to‘laligicha, butun zalvori bilan yetkazishda misoli oltin ko‘prik vazifasini o‘taydi. Bir paytlari hakimdan davo topgan cholning ko‘zi ochilib dunyo qabohatlaridan to‘yib ketib ko‘r bo‘lib yurgan paytlarini afzal ko‘rishda asli achchiq haqiqat bor. Zero, dunyo tanish, dunyo bilish uchun ochiq ko‘zdan ko‘ra ochiq qalb ko‘proq asqatadi, degan buyuk hikmat bor, deb o‘ylaymiz bu o‘rinda.

Shoir, yozuvchi esa hamma vaqt o‘z-o‘ziga “Har nechaki zo‘r iste’dod, Toshqin ilhom, u nega, Xalqing yotsa chekib faryod, yaramasang kuniga”, deya mangu savol qo‘yib, yashab ijod etadigan xalq. Zero, adabiyotshunos Umarali Normatov aytganidek: “Hind eli hol-ahvoli, dard-u tashvishlari bilan bog‘liq hind shoirlariga qarata aytilgan bu qalb nidolari ayni paytda shoirning o‘sha kezlardagi o‘z eli holi xususida o‘z safdoshlariga ham yo‘naltirilganligi ayon”. [4. 210-b ]

Adabiyotshunos olim Umarali Normatov ayni haqiqatni so‘zlaganini uning shoir bilan o‘tkazgan “Talang tarbiyasi” mavzusidagi suhbatida aytilgan Erkin Vohidovning o‘zining fikrlari ham tasdiqlaydi. Jumladan shoir: “Yozuvchi-shoirning vazifasi biror shaxs hayoti, sarguzashtini shunchaki bayon qilib berishdan iborat bo‘lsa, dunyoda yozuvchilikdan oson hunar bo‘lmas edi. Ijodkor o‘z qahramoni hayotini, taqdirini badiiy tahlil etishi, shu bahonada, o‘zining hayot haqidagi kuzatishlari, o‘y-mulohazalarini o‘rtaga tashlashi kerak-ku axir!”, [4.212-b] – deydi.

Darhaqiqat, “Ruhlar isyoni” – mulohazalar, fikrlar, falsafalar, o‘ylar dostoni. Shu o‘ylar, shu fikrlar, shu so‘rovlar ichida muallifning insoniy va ijodiy kredosini ifodalaydigan shunday nuqtai nazar bor:

Shoir esang,  
Shoir bo‘lib  
Nega kelding hayotga,  
Eling yotsa  
                    dardga to‘lib,  
Kelolmasang najotga.  
Ne shoirsan  
Tashbihlarning  
Bormi asli keragi,  
Bo‘lmasa el g‘ami –  
  darding,  
Yuraging –  
  el yuragi. [2. 29-b]

Zero, Erkin Vohidovning o‘rtaga tashlagan bu haqiqati adabiyotning, so‘z san‘atining mangulikka daxldor mohiyati, umr mazmuni hamdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Erkin Vohidov. Tanlangan asarlar. – Toshkent: “Sharq”. 2018. 688 b.153-b

2. Erkin Vohidov. Ruhlar isyoni. – Toshkent: Gʻ. Gʻulom nomidagi “Adabiyot va sanʼat”. 1980. 142 b. 56-b, 57-b, 29-b
3. Ibrohim Gʻafurov. Oltin qoziq. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”. 2017. 546 b. 241-b
4. Umarali Normatov. Nafosat gurunglari. – Toshkent: “Muharrir”. 2010. 388 b. 210-b

## QADRING BALAND BOʻLSIN, ONA TILIM!

*Botirova Shohsanam,  
Xorazm viloyati Hazorasp tumanidagi 33-sonli  
umumiy oʻrta taʼlim maktabi oʻqituvchisi*

Tilga eʼtibor-- elga eʼtibor  
(Maqol).

Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili-- bu millatning ruhidir(I. A. Karimov).

Darhaqiqat, dunyoga kelgan har bir bola haqiqiy inson boʻlib yetishishi uchun juda koʻp narsalarni bilishi kerak. U oʻziga kerakli bilimni koʻrib, eshitib va oʻqib oʻrganadi. Eshitib va oʻqib oʻrganish til vositasida amalga oshadi va uning imkoniyati cheksizdir. Agar til boʻlmay, har bir kishining tirikligi uning oʻz tajribasiga asoslangan boʻlsa edi, inson shu kungacha hayvon qanday yashasa, shunday yashagan va bugungi moddiy va maʼnaviy taraqqiyotga erishmagan boʻlardi.

Bu borada sevimli ijodkorimiz, taniqli shoir, ustoz E. Vohidov juda chiroyli fikrlar bildirib oʻtganlar: "Oʻzbek tilining bugungi darajasi, turkiy tillar ichida tutgan mavqeyi uchun biz koʻp jihatdan oʻtgan asr boshida yashagan ziyolilardan minnatdor boʻlishimiz kerak. Ular oʻzbek tilining soʻz yasash imkoniyatlaridan dadillik bilan foydalandilar, xalqqa milliy gʻurur, ona tiliga hurmat tuygʻusini tarbiya qildilar".

Oʻzbek romanchiligining asoschisi hisoblangan A. Qodiriy ham oʻzining "Oʻtkan kunlar", "Mehrobdan chayon" singari qator asarlarida oʻzbek tilining naqadar boy va sermazmun til ekanligini qahramonlar tilidan aytilgan betakror jumalarda koʻrsatib bera olgan ijodkordir. Adib asarlarini mutolaa qilar ekanmiz, ijodkorning soʻz tanlash mahoratiga tan bermaslikning ilojisi yoʻq. "Soʻz soʻzlashda va undan jumla tuzishda uzoq andisha kerak"-degan fikri ham Qodiriyning naqadar soʻzga va tilga eʼtiborli ijodkor ekanligini koʻrsatib beradi.

Ha, albatta, tilning birinchi maʼrifiy ahamiyati shundan iboratki, til tufayli jamiyat aʼzolarining har birida hosil boʻlgan bilim ommalashib, uning koʻpchilik tomonidan rivojlantirilishiga imkon tugʻiladi. Bundan tashqari til tufayli bilim avloddan avlodga ogʻzaki va yozma tarzda qoldiriladi, natijada yangi avlod oʻtgan avlodning ishini boshidan boshlamasdan, uni davom ettiradi. Shundagina xalqda, millatda rivojlaning, kelajak sari qadam tashlash, oldinga siljishlar boʻladi.

Bobolardan bizga meros ezgu til  
Avlodlarga xazinai bebaho. (Mirtemir)

Til ilm olishda zamon va makon g'ovini o'rtadan ko'taradi. Til tufayli eng qadimgi ma'lumotlarga ega bo'lamiz, hattoki kelgusiga oid ma'lumotlarni ham bilib olamiz.

"Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurg'on oynayi hayoti til va adabiyotdir. Milliy tilni yo'qotmak, millatning ruhini yo'qotmakdir"(A. Avloniy). Darhaqiqat o'zbek tili yashar ekan, o'zbek millati ham yashayveradi, yashnayveradi. Lekin tarixga bir bor nazar tashlasak, ona tilimizning bugungi kundagi dunyo hamjamiyatida egallagan mavqeyiga qay darajada qiyinchilik bilan, o'zbek xalqining matonati va shijoati, mardonavor kurashlari orqali erishilganligini ko'rishimiz mumkin. Shu o'rinda ona tilimizning moziydan shu bugungacha bosib o'tgan yo'li haqida qisqacha to'xtalib o'tishni joiz topdim. O'zbek tili turkiy tillar oilasiga kiruvchi yirik tillardan biridir. O'zbek xalqi tilining takomillashinuvida XIV asrdan XIX asrning ikkinchi yarmigacha bo'lgan tarixiy davr muhim rol o'ynaydi. Temur davlatining ravnaqi ostida ijod qilgan Sakkokiy, Atoyi, Lutfiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur singari mumtoz adiblarimiz o'zbek adabiy tilining mavqeyini yuksak darajaga ko'tardilar. Keyinchalik ozbek tilini xalq tilining boy imkoniyatlari asosida Abulg'ozixon, Turdi, Gulxaniy, Maxmur, Munis, Ogohiy kabi adiblar yanada boyitdilar.

Har so'zda har birovga shirin nuqati bor,  
Bol tomdi og'zidinki, tilida noboti bor (Ogohiy).

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab o'zbek adabiy tilining uslublari ham shakllana boshladi. O'zbek milliy tilida me'yorlashish jarayoni barqarorlashish bosqichiga kirdi.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuni 1989-yil 21-oktabrda qabul qilingan. Shu davrdan boshlab har yili bu kunni til bayrami sifatida nishonlaymiz. Mustaqillik sharofati bilan o'zbek tili--davlat tiliga e'tibor kuchaydi, ona tilimizning ijtimoiy mavqeyi kengaydi. O'zbek tilining taraqqiyoti va istiqboli to'g'risida g'amxo'rlik qilinib, bir qancha qarorlar qabul qilindi. 1993-yil 2-sentabrda "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida" Qonun qabul qilinishi Vatanimizning ma'naviy- madaniy hayotida jahonshumul ahamiyat kasb etdi. Davr taqazosi bilan " Davlat tili haqida "gi Qonunga ham o'zgartirishlar kiritildi va 1995-yilning 21-dekabrida O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Davlat tili haqida"gi Qonun e'lon qilindi. Bu qonun 24 moddadan iborat bo'lib, uning 1-moddasida, asosiy qomusimiz hisoblangan Konstitutsiyamizning 4-moddasida yozilganidek,"O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir".

2020-yil 23-sentabr Yangi O'zbekiston tarixida muhim sana bo'lib muhrlandi. Dunyo nigohi qadalgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining 75-sessiyasida Ozbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoyevning nutqi o'zbek tilida, o'z ona tilimizda olamga taraldi!

O'zbek zaminida tug'ilib, dunyo tamadduniga ulkan hissa qo'shgan ajdodlarimizning mangu va barhyot ruhlari ham bugun jahon aro mag'rur kezgani

aniq. Muhtaram Yurtboshimiz chin ma'noda shu buyuk ajdodlarning farzandlari timsolida so'zini dunyoga ona tilimizda aytdilar! Va butun jumlai jahonga isbot qildilarki, tilimiz o'zbekning o'zidek qadimiy va barhayotdir!

Hurmatli Prizedentimiz yuksak minbarda turib, o'zbek xalqining matonatini, irodasini, jasoratini o'z tili timsolida namoyon etdilar. Shu bilan birga bugun o'zbek xalqi egilgan va ezilgan quyi emas, glabal, qalqib turgan dunyo maydonida tik va mag'rur, qaddi va qadri baland millat bo'lib bo'y ko'rsatdi.

Soddaginam, ulug'ginam, go'zalginam,  
 Borligingni esladilar yer sharida.  
 Men jimgina ifor sochdim olamlarga,  
 Sen yangrading BMT ning minbarida.

Til millat ruhining ko'zgidir. Bizning juda boy va chiroyli tilimiz bor. Bu tilda ifoda etib bo'lmaydigan fikr, tuyg'u yo'q!(A. Qahhor).

Ona tiliga hurmat va uning bebaho so'z xazinasidan o'rinli foydalanish, til vositasida ravshan va ta'sirchan so'zlab yoza olish, nutqiy savodxonlikka erishish ana shu til vakili bo'lgan har bir shaxsning burchidir desam aslo adashmagan bo'laman. O'zbek tilida to'g'ri, ifodali so'zlash va yozish, ona tilimizning sofligi va boyligi to'g'risida tinmay g'amxo'rlik qilish, uning iste'mol doirasini kengaytirib borish bizdek til himoyachilarining bunchi sanaladi.

Shunday ekan biz yoshlar o'z ona tilimizning cheksiz imkoniyatlaridan o'rinli va unumli foydalanishimiz, uning kelgusidagi rivoji uchun o'z hissamizni qo'shishimiz kerak.

Ishonchim komilki, kelgusida bizning ona tilimiz-o'zbek tilining qadri yanayam yuksalib, jahonda o'zbek tilining, o'zbek xalqining naqadar qadimiy va boy ekanligini bilmagan inson qolmaydi.

Ona tilim sen borsan shaksiz,  
 Bulbun kuyin she'rga solaman.  
 Sen yo'qolgan kuning shubhasiz,  
 Men ham to'ti bo'lib qolaman.

## NAVOIYNING BADIY IJOD VA TIL HAQIDAGI QARASHLARI

*Xidirova Dilnoza,*

*JDPI magistri*

*Ilmiy rahbar: f.f.d. U. Qosimov*

Alisher Navoiy turkiy tilimizda hammadan ko'p va xo'b yozib, jahon shoirlarini hayratga solgan va g'azal mulkingning sultoni hamda tengsiz xamsanavis bo'libgina qolmasdan, balki u zot adabiy tanqid va adabiyotshunoslikda ham barakali ijod qilgan. Alisher Navoiyning "Nasoyim ul - muhabbat" (Muhabbat shabadalari), "Majolis un - nafa'is" ("Nafis majlislar"), "Mezon ul - avzon" ("Vaznlar o'lchovi") va "Mufradot" kabi asarlari tanqid va adabiyotshunoslik sohasidagi ulkan ijodiy faoliyatining katta samarasi bo'lib hisoblanadi. Navoiy yashab, ijod qilgan davr, ya'ni XV-XVI asrlarda tanqid va adabiyotshunoslik



istilohlari o'rnida "ilmi naqd", "ilmi bade'a", "ilmi aruz", "ilmi qofiya" kabi so'z va ibora-tushunchalar qo'llangan.

Alisher Navoiyning "Mezon-ul-avzon" asari 1492-1493 yillarda yaratilgan. Navoiy turkiy tildagi adabiyotshunoslik masalalariga bag'ishlangan Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" asari bilan tanish bo'lmagani uchun aruz nazariyasiga doir qonun-qoidalarini turkiy tilda ilk marta bayon qilayotganini alohida ta'kidlaydi. Xususan, "g'araz bu maqolotdin va maqsud bu muqaddimotdin bu erdikim, chun turk alfozi bilakim nazm voqi' bo'lubdur, anga zobitaye va qonune yo'q erkondur" deb yozarkan, turkiy tilda aruz qonun-qoidalariga oid maxsus asar yo'qligini aytib o'tadi. Turkiy tilimiz va adabiyotimizdagi, jumladan, adabiyot nazariyasi sohasidagi ana shu bo'shliqni Navoiy ushbu adabiyotshunoslikka oid asari bilan to'ldiradi.

Navoiy asari muqaddimasida o'zidan avval yaratilgan aruzga doir Xalil ibn Ahmadning "Kitob ul-ayn", Shams Qays Roziyning "Al-mo'jam", Nasiriddin Tusiyning "Me'yor ul-ash'or", Abdurahmon Jomiyning "Risolai aruz" asarlariga to'xtalib o'tadi. Ularda mavjud bo'lmagan ba'zi doira va vaznlarni o'z asarida keltirib o'tadi. Ya'ni: "necha qoidai doira va vazn kim, hech aruzda, misli fan vozi Xalil ibn Ahmad va ilm ustodi Shams Qays kutubida va Xoja Nasir Tusiyning "Me'yor ul-ashor" ida, balki Hazrati Maxdumiy navvara marqadahunuran "Aruz" larida yo'q erdikim, bu faqir bu fan usulidin istixroj qilib erdikim, bu kitobg'a izofa qildim".

"Mezon ul avzon"da dastlab Oллоhga hamd, payg'ambarga na't aytilgach, Sulton Husan Boyqaroning ushbu asarni yozishga ilhomlantirganligi haqida so'z boradi. So'ngra Navoiy aruzning "sharif" fan ekanligiga to'xtalar ekan, "Qur'oni karim"dagi ba'zi oyatlar va payg'ambarimiz hadislaridagi ba'zi jumalarning aruz vaznlari bilan mos kelishi, Amir ul-mo'minin Hazrat Ali devonlaridagi she'rlarning ko'pi aruz vaznida ekanligini ham alohida ta'kidlab o'tadi. Keyingi qismda Navoiy aruz vaznining kashfiyotchisi Xalil ibn Ahmad va "aruz" istilohi haqida ma'lumot beradi. Shundan so'nggina aruzning nazariy qoidalarini bayon qilishga o'tadi. "Mezon ul-avzon"da jami 19 bahr, 160 ta vazn keltirilgan bo'lib, barcha vaznlarga misollar asosan muallifning, ya'ni Navoiyning o'z ijodi namunalidir. Faqat asarning xalq og'zaki ijodi bilan bog'liq janrlar qismida bir bayt Husayn Boyqaro ijodidan, bir bayt "Muhabbatnoma"dan keltirilganligini ko'ramiz. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Navoiy aruz vaznlariga ta'rif-tavsif berar ekan, ularga ko'proq misollarni o'z g'azaliyotidan keltiradi. Xususan, hazaji musammani solim vaznini ta'riflashda

"Zihi mulkungning o'n sekiz mingidin bir kelib olam,

Bu olam ichra bir uyluk qulung Havvo bilan odam"

baytini keltirib o'tadi va shu tariqa o'zining nazariy fikrlarini bevosita yetuk she'riy misollar orqali dalillab asoslaydi.

Alisher Navoiyning 1485 yilda fors-tojik tilida yaratilgan "Mufradot" asari ham adabiyotshunoslik sohasiga bag'ishlangan asarlaridan bo'lib, unda muammo janrini yechish qonun-qoidalariga e'tibor qaratilgan. Ma'lumki, muammo arabcha "ko'r qilingan", "berkitilgan" ma'nolarini bildirib; bir, ba'zan esa ikki baytdan

iborat mustaqil she'r turidir. Muammoda biror ism yoki narsa-buyum nomi berkitiladi. Bunda arab yozuvidagi harflarni turlicha o'zgartirish bilan yashiringan so'zlar topiladi. Muammoda ikki xil ma'no bo'ladi: tashqi (chalg'ituvchi) ma'no va ichki (asosiy ma'no). Navoiy "Risolai muammo" asarida o'zidan avval yaratilgan asarlarning murakkabligi va ulardagi kamchiliklar haqida gapirar ekan, iloji boricha ularni bartaraf qilishga intiladi. Risolaning kirish qismida uni yaratishdan maqsad ham, eng avvalo, keng xalq ommasi, xususan, yosh avlod vakillariga muammo janrining o'ziga xos xususiyati misralar zamiridagi "sirlarini" o'rgatish ekanligini ta'kidlaydi.

Navoiyning adabiyotshunos olim sifatidagi faoliyatini ko'rsatuvchi yirik asari, shubhasiz, bu "Majolis un-nafois" tazkirasidir. Navoiy tazkirani 1491-1498 yillar davomida yaratadi. Tazkira da XV asrda yashab, faoliyat yuritgan 459 shoir haqida ma'lumot keltiriladi. Navoiy tazkiraning muqaddimasida asarning tarkibiy qismi va nomlanishi haqida shunday yozadi: "chun bu maqsudg'a yetildi, oni sakkiz qism etildi har qismi bir majlisg'a mavsum bo'ldi va majmuig'a "Majolis un-nafois" ot qo'yildi".

Navoiy o'z tazkirasini "tabarruk qilmoq uchun" mashhur shayxlardan Xoja Qosim Anvor zikri bilan boshlaganini faxr bilan ta'kidlaydi. Qosim Anvordan keyin uning shogirdlari Mir Maxdum, Hofizi Sa'd haqida ma'lumotlar beriladi. Shu tariqa tazkira ko'lami boyib boradi. Shuni alohida qayd etib o'tish joizki, Alisher Navoiy "Majolis un-nafois"da taniqli va mashhur shoirlar bilan birga adabiyot maydonida endigina ko'rina boshlagan boshlovchi shoirlarni ham e'tibordan chetda qoldirmaydi.

**«Majolis un-nafois», ya'ni "Nafis majlislar"** asarning birinchi tahriri 1491 yilda vujudga kelgan bo'lib, u 1498 yilda muallif tomonidan qayta tahrir qilingan va to'ldirilgan. Alisher Navoiy «Majolis un-nafois»ning kirish qismida tazkirada Sulton Husayn Boyqaro tavalludi (1438) yilidan asar yozilgan davrgacha faoliyat ko'rsatgan shoir va she'riyatga aloqador siymolar haqida ma'lumot berilganligini qayd etadi. Bundan ayonlashadiki, «Majolis un-nafois»da muallif o'zi bilan bir davrda yashab qalam tebratgan shoirlarning badiiy ijodiga oid adabiy-tanqidiy qarashlarini ifoda etgan, shuningdek, zamondosh qalam ahli hayoti va faoliyati bilan bog'liq ko'plab muhim va adabiyotshunoslik uchun qimmatli bo'lgan ma'lumotlarni yozib qoldirgan.

"Majolis un-nafois" muqaddima, sakkiz majlis va xotimadan iborat. Muqaddimada asarning yozilishi sabablari bayon etiladi. Tazkiraning tuzilish tamoyillariga ko'ra sakkiz majlisini yana shartli ravishda uchga bo'lib tasnif etish mumkin:

1. I-III majlislar. Bunda nomlari keltirilgan shoirlar bilan Alisher Navoiyning uchrashgan yoki uchrashmagani, ular bilan muloqotda bo'lgan yoxud bo'lmagani asos qilib olingan. Jumladan, tazkira muallifi uch-to'rt yoshlarida mashhur mutasavvif shoir va faylasuf Qosim Anvor (vafoti h. 735, m. 1432)ning g'azallarini sevib yod olgani va adabiyot muhiblari davrasida ulardan namunalar o'qib, suhbatdoshlarini xushhol qilganini xotirlab, «tayammun (biror ishni o'ngdan boshlash) jihatidin bu muxtasarni (tazkirani ma'nosida) alarning sharif ismi bila

ibtido qil»ganini uqtiradi hamda «tabarruk boʻlgani uchun» bu ulugʻ shoir gʻazallaridan ikki matlaʼ keltiradi. Alisher Navoiy bolalik chogʻlaridanoq Qosim Anvor sheʼriyatining ixlosmandi boʻlgan va umrining oxirigacha bu ulugʻ Shayxga boʻlgan eʼtiqodi shoirni hech qachon tark etmagan. «Majolis un-nafois»ning oʻzi shaxsan uchratish sharafiga musharraf boʻlmagan ijodkorlarga bagʻishlangan «avvalgʻi majlisi»ni Amir Qosim Anvor nomi bilan boshlashni ulugʻ saodat deb biladi va shoir haqida ancha mufassal maʼlumotlar keltirib oʻtadi.

2. IV-VI majlislar. Bu fasllarda sheʼriyatga daxldor shaxslar-fozillar, mirzozodalar va Xurosondan tashqari hududlarda yashovchi fozil va donishmand kishilar haqida maʼlumot berilgan.

3. VII—VIII majlislar. Yettinchi majlisda sheʼr hamda nazmga mayli yuksak boʻlgan Amir Temur va temuriy shahzodalar xususidagi mulohazalarga oʻrin berilgan boʻlsa; sakkizinchi majlis toʻlaligicha Sulton Husayn Boyqaroga bagʻishlangan.

«Majolis un-nafois»ga xos boʻlgan xususiyatlardan yana biri shuki, unda Xuroson va Movarounnahrda adabiy va madaniy hayotning ravnaqiga muhim hissa qoʻshgan temuriy hukmdor va shahzodalar haqida ham maʼlumotlar keltiriladi. Tazkiraning yettinchi majlisi ulugʻ sohibqiron Amir Temur shaxsining badiiy adabiyotga munosabatini oydinlashtirish bilan ibtido topadi. Ayonlashadiki, Amir Temur garchi badiiy ijod bilan shugʻullanmagan boʻlsa-da, juda koʻplab nazmiy va nasriy asarlardan xabardor boʻlgan, ulardan namunalar yod bilgan va adabiy davralarda faol ishtirok etgan. Arab va fors-tojik adabiyotida tazkirachilik anʼanasi Navoiy davrigacha juda katta tarixiy taraqqiyot bosqichini oʻtadi. Ammo «Majolis un-nafois», avvalo, turkiy tilda yaratilganligi bilan boshqa tazkiralardan tubdan farq qiladi. Shuningdek, unda XV asrda yashab, turkiy va fors-tojik tilida ijod etgan zullisonayn shoirlar haqida ham eʼtiborga loyiq maʼlumotlar beradi. Asarning XVI-XVIII asrlarda fors-tojik tiliga ikki marta tarjima qilinishi ham tazkirada davr adabiy muhiti har tomonlama mufassal yoritilganligidan dalolat beradi.

Alisher Navoiy oʻzining ulkan dengizga qiyos etishga arzigulik badiiy ijodi bilan turkiy adabiyotni jahon miqyosiga koʻtardi, ayni choqda, bu til xususiyatlari va beqiyos imkoniyatlarini oʻsha davrda mashhur boʻlgan arab, fors-tojik, hind tillaridan qolishmasligini ham ilmiy jihatdan, ham amaliy jihatdan toʻla isbotlab berdi. Ulugʻ shoir turkiy til yetukligini oʻzining necha minglab sheʼr-gʻazallari va tengsiz “Xamsa” dostonlari bilan namoyish etib bera olganligi oʻsha davr uchun buyuk kashfiyot darajasida yangilik boʻldi. Navoiyning yana bir ulugʻ xizmati shundaki, turkiy tilimizning boyligi va cheksiz lisoniy-grammatik imkoniyatlarini ilmiy-nazariy jihatdan ham asoslab berish uchun 1499-yili “Muhokamat ul-lugʻatayn” (“Ikki til muhokamasi”) nomli risolasini yozib tugatdi. Bu asari bilan eski oʻzbek adabiy tilimizning huquqini ham tiklab bera oldi.

“Muhokamat ul-lugʻatayn”da soʻz durga qiyoslanadi, uning daryosi koʻngil sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, soʻzning durdan tafovut etiladigan jihatlarning benihoya koʻpligi, uning “sharafidin oʻlgan badangʻa ruhi pok etishi, “kasifidin (qoʻpolligi, nojoʻya aytilishidan) hayotligʻ tangʻa zahri halok xosiyati

zuhur etilishi bayon qilinadi. Shu tariqa insonga in'om etilgan ilohiy ne'mat so'z so'zlashdan muddao ma'no ekanligi Navoiyning butun ijodida, ya'ni ham badiiy, ham ilmiy asarlarida o'z ifodasini topadi. Shu tariqa biz Navoiy ijodida so'z va amal birligini yaqqol ko'ramiz. Bu jihatdan ham Navoiy merosi keyingi adabiy avlodlar uchun yuksak mahorat maktabi bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Buyuk shoir va mutafakkir ijodiy an'alarining barhayotligini ko'rsatuvchi dalillardan biri ham mana shunda bo'lsa kerak.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Alisher Navoiy. Mezon-ul-avzon. T. 2007.
2. Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. T., 2007.
3. Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug'atayn. T. 2014.
4. Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi. T. 1976.

#### **XX АСР ВОҚЕАЛАРИ ИЖОДКОРЛАР ҚАРАШИДА**

*Сирлибоева Дилдора,*

*ЖДПИ талабаси*

*Илмий раҳбар: доц. Зухра Мамадалиева*

XX аср шундай адибларни етиштириб чиқардики, улар ўз йўлини, ўз услубини ярата олишди ва айни пайтда бир қанча танқидларга ҳам нишон бўлишди. Шулар орасида услуби айрим танқидчилар томонидан “Деновдан четга чиқа олмаган, жаҳон адабиётидан бохабар эмас” деган кескин танқидларга учраган, бироқ ўзбек насрида қофияга монанд ўз услубини кашф этган етук адибимиз Тоғай Мурод ҳам бор эди. Ёзувчи умри давомида сон жиҳатдан кам асарлар яратган, аммо ана шу асарларининг ўзигина уни адабиёт оламида барҳаёт қила олди десак адашмаймиз.

Адиб тўртта қисса “Юлдузлар мангу ёнади”, “От кишнаган оқшом”, “Ойдинда юрган одамлар”, “Момо ер кўшиғи” қиссалари ҳамда “Отамдан қолган далалар” ва “Бу дунёда ўлиб бўлмайдими” номли иккита романнинг ижодкоридир. Тоғай Мурод ўзининг асарларида адабиёт сахнасига оддий, бироқ ҳар бири бир олам бўлган Зиёдулла чавандоз, Ақраб кўрбоши, Ботир фирқа каби одамлар образларини, уларнинг орзу-армонларининг тўлқинларини олиб чиққан адибдир. Ёзувчининг “Бу дунёда ўлиб бўлмайдими” романи воқеалари катта бир даврни ўз ичига олган бўлиб, бу давр совет замони ва мустақилликка эришган давримизни ўз ичига олади. Бу даврнинг воқеаларини очиқ бериш учун ёзувчи бош қаҳрамон сифатида совет даврининг яралиши ва таназзулини ўз кўзи билан кўрган ва ўз бошидан ўтказган Ботир фирқа образини олади. Ботир фирқа исми жисмига монанд, умрининг айрим қисмларида халқ учун шундай ботирликлар қиладики, у фирқа, яъни совет тузумининг хизматчиси бўлишига қарамасдан, биз уни бемалол миллат кишиси деб аташимиз мумкин. Ботир фирқа ўз даврида маълум бир маънода оқимга қарши сузишга ҳаракат қилган ёки суза олган



инсон эди. У ҳам бошқалардек ҳукуматга, партияга содиқ ҳизматчи бўлса-да, аммо унинг қабих кирдикорларига қалбан, баъзан амали билан ҳам қарши тура олган, бир сўз билан айтганда оқни оқдан, қорани қорадан фарқлай оладиган ва адолатсизликларга қўлидан келганича қарши туришга ҳаракат қила олган инсон сифатида тасвирланган. Ботир фирқанинг инсонийлигини биз ҳукумат одамларининг ҳовузни мозор қилишиб, одамларнинг тирик ўликлигига қарамасдан кўмаётганларида эшоннинг ҳали тирик беваси ва қизчасини кутқаришида, “янги турмуш ёнида эскилик сарқити бўлиши мумкин эмас”, - дея хоноқоҳни бузиб ташлаётганларида унинг миллий услубда ишланган нақшинкор эшикларини олиб театрга қўйдиришида, театрга деб келган эшик-деразаларни мактабга ўрнатганида, ақлан, руҳан соғлом инсонларни жиннихонага ётқизиб қўйганларида, Мадиевни кутқаришга борганида ва бу жиннихонани “тириклар қабристони” деб атаганида унинг қандай инсонлигини билишимиз мумкин. [1:33] Ботир фирқа умри давомида ҳукуматга, партияга содиқ хизмат қилди, ўзи айтганидек курди, яратди ва бутун умрлик шундай яшаган ҳаётдан миннатдор ҳам бўлди. У ўзи яшаган, хизмат қилган, ўзи Жаннат деб билган жамиятнинг бир кун қулашини, “қайта қурувчи”ларнинг пайдо бўлишини бир сўз билан айтсак бошқа бир жаннат – мустақилликка эришишимизни билмасди. Ҳатто ҳаёл ҳам қилмаган эди. Шунда ҳам Ботир фирқа ўзгарган ҳукуматни қабул қилишга ҳаракат қилди, аммо совет хизматчиларни “қизиллар” деб атаб уларни кофирлар ўрнида кўрган, ўзларининг ўтмишдаги ишлари билан бугун қилаётган амаллари тўғри келмаган Диляга, Мадиевга ўхшаганларни, ҳатто ўзи тошини қўйиб тиклаган ва масжидга айлантирилган театрини ёнига борганида динни тушуниб тушунмаган икки йигитчаларнинг ўзларини ҳам, сўзларини ҳам қабул қилолмади. У бутун умр топиниб келган эътиқодларини сароб бўлганини англаб етди. Тоғай Мурод бу асарида совет даврини ҳамда мустақилликка эришган йилларимизнинг воқеаларини бор бўй баста билан очиб беришга ҳаракат қилган ва бунга эришган адибдир. Айниқса, очарчилик йилларини, нонга зор бўлган инсонлар ҳаёти-ю, советлар юритган сиёсатларни, ўзбекларнинг фидокорона меҳнатларини, мустақилликка эришилгандан кейинги ўзгаришларни, қайта қуришга қилинган ҳаракатларни етарлича ёритган. Советлар қатъият, тартиб билан юритган сиёсати, унинг ёмон ва яхши томонлари Тоғай Муроднинг “Бу дунёда ўлиб бўлмайди” асарида усталик билан очиб берилган. Аёлларга “ўзбек хотин-қизлари” деган номнинг берилиши, аёлларнинг паранжини ташлаши, уларнинг саводли қилиниши, ҳуқуқларининг эркаклар билан тенг қилиниши юқоридаги фикрларимизни далиллаб ўтади. Кинотеатр қурилди, томошалар қўйилди бу ҳам Бехбудий айтганидек ибратхона бўлди. Булар амалга оширилиши учун бизда ҳам советларникидек қатъий ўрнатилган тартиб қоида билан иш кўрилиши керак эди. Советлар сиёсатининг бизга фойдали жиҳатлари шулар деб берилган бўлса, уларнинг чиркин сиёсатларини юракни ларзага солувчи бир жараён яъни, Ботир фирқа “Тириклар қабристони” деб атаган жиннихона воқеаси орқали таъсирли йўсинда ёритилган. Менинг фикримча, Тоғай



Мурод бу асари орқали совет даврининг яхши-ёмон томонларини бирдек очиб беришга ҳаракат қилган ва воқеаларни тўғри асослар мисоллар билан тушунарли қилиб ёзган. Шу вақтгача ўқиган асарларимнинг кўпчилигида совет тузумига, уларга содиқ хизмат қилган ўзбек хизматчиларига бир томонлама ёндашувни яъни салбий ёндашувни кўрганман. Тоғай Муроднинг бу асарини ўқиганимда эса бу тузумнинг яхши ёмон сиёсатларини бир мунча англагандек бўлдим. Айниқса Ботир фирқа образининг инсонийлиги унинг қилган ишлари менда ўзгача таассурот уйғотди ва ўша даврда “хукумат учун, партия учун”, - дея хизмат қилувчи бошқа асар қаҳрамонларидан, шу асардаги фирқалардан ҳам ҳақиқий инсоний қалби, ўзига яраша ботирлиги билан ажралиб турувчи қаҳрамон қилиб олганлиги мени ҳайратга солди. Асарни ўқиганимизда асар ғояси, воқеалари, қаҳрамонларини ёзувчи томонидан шунчаки танланмаганлигини, улар китобхонга ўзи англамоқчи бўлган давр воқеаларини тўлалигича очиб беришини мақсад қилгани ва шу мақсадига эриша олганлигини англаб етамиз.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Тоғай Мурод. „Бу дунёда ўлиб бўлмайдим“ (роман) [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)
2. Kh-davron.uz

### “DEVONI HIKMAT” NASHRLARINING QIYOSIY TAHLILI

*Hakimboyeva Kamola Aminjonovna,  
BuxDU magistranti*

Ahmad Yassaviy turkiy dunyoning eng buyuk siymolaridan biridir. U ilk tariqat va tasavvuf she'riyati asoschisi sifatida turkiy xalqlarning diniy, axloqiy va ma'naviy hayotiga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Akademik Ibrohim Mo'minovning “Ahmad Yassaviy maktabining dunyoqarashi “Devoni hikmat” nomli mashhur asarida she'riy shaklda bayon etilgan. Bu asar ravon, kitobxon uchun oson bo'lgan o'zbek tilida yozilgan. “Hikmat” o'zbek adabiyotining qimmatbaho yodgorligidir va uning muallifi islom dinini, Kalom falsafasini, so'fiylikni, dehqonlar, chorvadorlar, hunarmandlarning turmushi va hayotini, umuman, o'sha davrning ijtimoiy-madaniy tartiblarini yaxshi bilgan kishi bo'lganligidan guvohlik beradi. Yassaviyning saviyasi keng va chuqur bo'lgani uchun o'zbek tilida birinchi marta ana shu yirik asarni yoza oldi” [1.3].

Ulug' mutasavvuf shoirning hikmatlari bir necha marta nashr qilindi va qilinmoqda, Biroq bu sohada yutuqlar bilan birga yechimini kutayotgan muammolar ham yo'q emas. Bu xususida filologiya fanlari doktori I.Haqqulning quyidagi fikrlari qimmatli: “Yassaviyshunoslikda chuqur o'rganilishi va hal etilishi zarur bo'lgan masalalar anchagina. Shulardan biri “Devoni hikmat”ning matni xususidagi turli bahs-u munozaralarga aniqlik kiritish, undagi farqlanish va noqisliklarni qiyosiy usulda tuzatishga erishishdir. Albatta, qadimiy nusxalarning yo'qligi yoki hanuzgacha topilmagani bu ishni to'la-to'kis hal etishga imkon

bermasligi shubhasiz. Biroq keyingi asrlarga mansub “Devoni hikmat” qo‘duzmalariga tayangan holda nisbatan ishonchli nashrlarni amalga oshirish mumkin [1.5].

Darhaqiqat, “Devoni hikmat” nashrlarida yo‘l qo‘yilgan ayrim nuqson va kamchiliklar uchraydiki, bular hikmatlarning mazmun-mohiyatiga ta’sir ko‘rsatmay qolmaydi. Jumladan, I.Haqqul, R.Abdushukurov va T.Qorayev, A.Bozorov nashrlarida ham ba’zi matniy tafovutlarni uchratishimiz mumkin. Fikrimizni quyidagi hikmatlarning turli nashrlardagi tahlili orqali asoslashga harakat qilamiz.

Ibrohim Haqqul tomonidan 1991- yilda amalga oshirilgan nashrda:

**Qabz qilib** Arslon bobom jonin oldi,  
Hurlar kelib, harir to‘ndin kafan qildi,  
**Yetmish ming** farishtalar **yig‘lab** keldi,  
Ul sababdin oltmish uchda *kirdim yerga* [3.51].

Rasulmuhammad Abdushukurov tayyorlagan 1992-yildagi nashrida:

**Qobiz kelib**, Arslon bobom jonin oldi,  
Hurlar kelib, harir to‘ndin kafan qildi,  
**Yetmish firqa** farishtalar yig‘ilib keldi,  
Ul sababdin oltmish uchda *kirdim yerga* [4.24].

Toji Qorayev va Abul Bozorovlarning 2015-yilgi nashrida:

**Qobiz kelib**, Arslon bobom jonin oldi,  
Hurlar kelib, harir to‘ndin kafan qildi,  
**Yetmish firqa** farishtalar **yig‘ilib** keldi,  
Ul sababdin oltmish uchda *yerga kirdim* [5.18].

Ko‘rib turganimizdek, ushbu to‘rtlik nashrlarda bir-biridan farq qilyapti. I.Haqqulov nashridagi “*qabz qilib*” so‘zi keyingi ikkita nashrda “*qobiz kelib*” shaklida ifodalanyapti. “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati” da bu so‘zlar quyidagicha izohlanadi: “**Qabz**” – *olish, tutish, tutamlash, ushlash*. “**Qabz qilmoq**” esa *jonini olmoq, u dunyoga jo‘natmoq* kabi ma’nolarda keladi. “**Qobiz**” – *oluvchi, changal soluvchi* degan ma’noni bildiradi va bizningcha, ushbu to‘rtliklarning ikkovida ham jon oluvchi ya’ni Azroil nazarda tutilgan. “*Yetmish ming farishtalar yig‘lab keldi*” jumlasida esa “*Yetmish firqa farishtalar yig‘ilib keldi*” tarzida berilyapti. “**Firqa**” so‘zi guruh, bo‘lak, to‘da degan ma’nolarni bildiradi. “**Yig‘lab**” hamda “**yig‘ilib**” so‘zlari ham bir-biridan tubdan farq qilsada, har ikkala so‘z misradagi boshqa so‘zlar bilan birikib, tugal ma’no ifoladay olgan. Demak, aytish mumkinki, ushbu to‘rtlikda hikmat mazmuniga putur yetkazadigan jiddiy xatolikka yo‘l qo‘yilmagan.

Yana shunga o‘xshash matniy farqlarga diqqatni qaratamiz:

**Ibrohim Haqqul nashrida:**

Haqqparastlar *makonig‘a* mahram bo‘ldim,  
Tig‘i botin birla nafsni *yanchdim* mano [3.48].

**Rasulmuhammad Abdushukurov nashrida:**

Haqqparastlar *maqomig‘a* mahram bo‘ldim,  
Tig‘i botin birla nafsni *yanchtim* mano [4.22].

**Toji Qorayev va Abul Bozorov nashrida:**

Haqparastlar *maqomig‘a* mahram bo‘ldim,  
Tig‘i botin birla nafsni *chobtim* mano [5.14].

Ushbu hikmat nashrlarida “**makon**”, “**maqom**”, “**yanchdim**”, “**chopdim**” kabi so‘zlarda tafovut kuzatiladi. “**Yanchdim**”, “**chopdim**” so‘zlari bir-biriga sinonim sifatidagi so‘z bo‘lganligi uchun ularda ma‘no o‘zgarishi kuzatilmaydi. “**Makon**” - joy, turar joy; “**maqom**” - “makon” degan ma‘noni anglatishi bilan birga “daraja”, “bosqich” ma‘nolarni ham anglatadi. Misrada aytilmoqchi bo‘lgan fikr “makon”dan ko‘ra “**maqom**”so‘zi tashigan ma‘noni qabul qila oladi. Sababi “makonni mahram tutib” bo‘lmaydi. Shoir “Haqparastlar maqomi” deganda oriflar darajasiga ishora qiladi.

Galdagi hikmatlarda esa sezilarli o‘zgarishlarni kuzatdik.

**Ibrohim Haqqul nashrida:**

Arsh ustida namoz **o‘qib tizim** bukdim,  
**Zorim** aytib Haqqa boqib yoshim to‘kdim,  
Yolg‘on oshiq, yolg‘on so‘fi ko‘rdim, so‘kdim,  
Ul sababdin oltmish uchda kirdim yerga.  
Jondin kechmay hu-hu degon bori yolg‘on,  
Bu **gumrohdin** so‘rmang savol, yo‘lda qolg‘on,  
Haqni topg‘on o‘zi pinhon, so‘zi pinhon,  
Ul sababdin oltmish uchda kirdim yerga [3.50].

**Rasulmuhammad Abdushukurov nashrida:**

Arsh ustida namoz **o‘qub tizzam** buktum,  
**Rozi** aytib, Haqqa boqib yoshim to‘ktum,  
Yolg‘on oshiq, yolg‘on so‘fi ko‘rdim, so‘ktum,  
Ul sababdin oltmish uchda kirdim yerga.  
Jondin kechmay hu-hu degan bori yolg‘on,  
Bu **qiltoqdin** so‘rmang savol, yo‘lda qolg‘on,  
Haqni topqan o‘zi pinhon, so‘zi pinhon,  
Ul sababdin oltmish uchda kirdim yerga [4.23].

**Toji Qorayev va Abul Bozorov nashrida:**

Arsh ustida namoz **o‘qub tizni** buktum,  
**Rozim** aytib, Haqqa boqib, yoshim to‘ktum,  
Yolg‘on oshiq, yolg‘on so‘fiy ko‘rdum, so‘ktum,  
Ul sababdin oltmish uchda yerga kirdim.  
Jondin kechmay, “hu-hu” derlar – bari yolg‘on,  
**Ey mo‘minlar** yo‘lni so‘rmang, yo‘lda qolg‘on,  
Haqni tobqon o‘zi pinhon, so‘zi pinhon,  
Ul sababdin oltmish uchda yerga kirdim [5.16].

“Roz” va “zor” so‘zlari ikki ma‘nodagi so‘z bo‘lishiga qaramay, misraning umumiy ma‘nosi yuzaga chiqishi uchun xizmat qilgan. Hikmatning davomida esa I.Haqqul nashrida “*bu gumrohdin*” birikmasi, R.Abdushukurov nashrida “*bu qiltoqdin*” shaklida, T.Qorayev nashrida “*ey mo‘minlar*” deya mo‘minlarga murojaat shaklida ifodalangan. **Gumroh** so‘zi “yo‘lni yo‘qotgan”, “yo‘ldan

*adashgan*”, *“bechora*”, *“faqir*”, *“sargardon*”, *“ovora*” degan ma’nomlarni bildiradi. **“Qiltoq”** soʻzi esa lugʻatlarda mavjud emas. Bizningcha, bu oʻrinda “ey moʻminlar” ga murojaat ham hikmatning umumiy mazmuniga toʻgʻri kelmaydi. Boisi, “moʻminlar yoʻlda qolgʻon”lar emas, balki oʻz yoʻlini topgan, bu yoʻlda adashmaydigan insonlardir. Demakki, I.Haqqul tomonidan amalga oshirilgan nashridagi *“gumroh”* soʻzining qoʻllanishi hikmatning umumiy mazmuniga mos keladi.

Buyuk insonlarning har biri oʻziga xos bir olamdir. Bu olamning sir-u sinoatini bilish uchun esa koʻp izlanish zarur. Mutasavvuf shoir Ahmad Yassaviy hikmatlari va uning qavatlaridagi mazmun va gʻoyani tahlil, talqin qilish uchun esa bugun “Devoni hikmat”ning mukammal nashrlari juda zarur. Bu esa matnshunosligimiz oldida turgan muhim muammolardan biridir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. A.Bozorov, T.Qorayev.«Hikmatlar kulliyoti»dan //Sharq yulduzi, 1992, 1-son, 3-19-b.
2. Tursunov U, Oʻrinboyev B, Aliyev A. Oʻzbek adabiy tili tarixi. –T.: Oʻqituvchi, 1995.
3. Yassaviy A. Hikmatlar [nashrga tayyorlovchi I.Haqqulov]. –T.: 1991.
4. Yassaviy Xoja Ahmad. Devoni hikmat. [Nashrga tayyorlovchi Rasulmuhammad Ashurvoy oʻgʻli Abdushukurov]. –T.: Gʻ.Gʻulom,1992.
5. Hikmatlar kulliyoti. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. Boqirgʻoniy Sulaymon [nashrga tayyorlovchilar:T.Qorayev, A.Bozorov]. –T.: «Oʻzbekiston», Qayta nashr, 2015.
6. Maʼrifat R. Sayfi Saroyi gʻazallari badiiyati //Conference Zone. – 2022. – S. 122-125.
7. Rajabova M. Alisher navoiyning nafsni yengish gʻoyasini mifologik jang motivi asosida tasvirlash mahorati // Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
8. Rajabova M. Alisher Navoiy ijodida arus timsolining badiiy talqinlari // Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
9. Rajabova M. Alisher Navoiy ijodida arus timsolining badiiy talqinlari // Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.

## HIKOYADA IJTIMOIIY HAYOT ZIDDIYATLARINING QAHRAMON RUHIYATIGA TA'SIRI IFODASI

*Usanov Davlat Alimovich,  
JDPI magistranti  
Ilmiy rahbari: N.I.Soatova,  
JDPI dotsenti, f.f.nomzodi*

Bugungi kun o'zbek nasrida va ayniqsa, hikoyanavislik borasida bir qator yozuvchilar qatorida Xurshid Do'stmuhammadning ham o'rni o'zgachadir. U o'z uslubiga, betakror tiliga ega ekanligini hozirda uning kitobxonlari, muxlislari tan olishadi, asarlarini sevib o'qishadi. Adabiy tanqidchilikda ham uning asarlari xususida turli xil ijobiy fikrlar bildirilmoqda, anjumanlarda bahs-munozaralarga sabab bo'lyapti. Adib asarlarining badiiy xususiyatlari to'g'risida talaygina ijobiy fikrlar bildirish mumkin.

X.Do'stmuhammad uslubining o'ziga xosligi, qahramonlarining hayotiyligi uning asarlarini o'qimishlilik va yuqori saviyadaligining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Adib aytmoqchi bo'lganlarini to'g'ridan-to'g'ri emas, balki ishoralar, ramzlar va misollarga murojaat qilish orqali badiiy asar darajasiga yetkazadi va shuning uchun ham ushbu ijodi ahamiyatlidir.

Yozuvchining ruhiyat tasvirini ifodalashda ramzlardan mohirona foydalanishi orqali yaratilgan asarlaridan biri sifatida - "**Jajman**" hikoyasini keltirishimiz mumkin. "Jajman" hikoyasini yozishda yozuvchi falsafiy dunyoqarashga tayanganligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Jajman, u kim yoki nima?- Bu savol nafaqat kitobxonlarni, balki butun adabiyot ixlosmandlarini qiziqtirib qo'ydi. X.Do'stmuhammad hikoyasida roviy mistik kuch, qahramonlar ko'ngliga qo'rquv urug'ini qadovchi pinxoniy jajman[1;3]. "Jajman" so'zning ma'nosi halixanuz muallifning sof jumbog'i bo'lib qolmoqda. Buning sababi, muallif hikoyalarida real va noreal hayot birga, uyg'unlikda tasvirlashi bo'lsa kerak.

Hikoyada keltirilgan timdagi odamlar bilan jajman o'rtasidagi munosabat go'yoki, Axuramazda va Axriman o'rtasidagi kurashga ishora sifatida keltirilgandek. Zardusht bobo rastasi yoniga to'shalgan ko'rpachaga o'bdon joylashib cho'k tushayotib, bir narsadan xavotirlangandek: "O'zing madadkorsan, Axuramazda..." dedi shivirlab[2;137]. Hikoyada birgina Jajman obrazi orqali insonga xos bo'lgan ayrim salbiy holatlar, ojizlik jihatlari ham real tasvirlarda o'z ifodasini topadi. Ojizlik jihatlari deganimizda insonlarning gohida sinovlar oldida ilojsiz qolishlarini nazarda tutyapmiz. Sababi, hikoyada timdagi odamlar ham ilojsiz va ojiz qoladilar. Hikoyaning mohiyati inson bor ekan, albatta, oq va qora, yaxshilik va yomonlik kabi qarama-qarshiliklar mavjud bo'ladi degan tushunchani ochib berishda ko'rinadi. Hikoya sarlavhasining o'ziyoq kitobxonni qiziqtirib qo'yadi. Nima uchun hikoya bunday nom oldi?- Tadqiqotchi olimlar ham bu masala borasida ko'p mulohazalar yuritishgan.

N.Dovurboyeva Jajman atamasini "jajji" hamda "ya'juj- majuj"dan yasalgan, qabilida tahmin qiladi. Har xolda, uning izlanishlari e'tiborga loyiq. Ana shu



yoʻnalishdagi kuzatuv usullarini Ulugʻbek Hamdam, Jabbor Eshonqul, Oʻrol Sodiq kabi adabiyotshunoslar tadqiqotlarida ham uchratamiz [3].

Har kim bilganicha jajman soʻziga taʼrif berib oʻtdi. Biz ham bu masala yuzasidan oʻz fikrlarimizni bildirib oʻtamiz. Atrofimizdagi insonlar oʻrtasida jlovchi va ylovchi sheva vakillari ham uchrab turadi. Issiq nonning orasini ajratib olib, unga saryogʻni **aralash**tirib isteʼmol qilishni **“yajman”** deb atashadi. Oʻz-oʻzidan yajman va jajman oʻrtasida qandaydir bogʻliqlik bordek tuyuladi. Sababi, yozuvchi tulki, sichqon, olmaxon, kenguruning koʻrinishini aralashtirib, jajman koʻrinishiga olib kelgan. Shuningdek, **“jajman”** va **“jajji man”** soʻzlari orasida ham oʻxshashlik borligi seziladi. Sababi, jajman haqiqatdan ham juda kichkina, atigi bir qarich. Lekin, hikoya soʻngida ikki qarich jajmanning paydo boʻlishi bu taxminimizni inkor tomoni. Biz xohlaymizmi, yoʻqmi **“Jajman”** hikoyasi ham oʻxshashliklardan holi emas. Masalan, Alisher Navoiyning **“Xamsa”**sidan joy olgan, **“Saddi Iskandariy”** dostonining **“Iskandar devorining qurilishi”** deb nom olgan qismida devsiyat **Ahraman** va yebtoʻymas mahluq - **yaʼjuj-majujlar** keltirilgan. A.Navoiy ularni **“biri bir qarish boʻlsa, yana biriniki oʻn quloch”**[4] - deya taʼriflaydi. X.Doʻstmuhammad ham jajmanning bir qarich ekanligini qayd etadi. Bu oʻz-oʻzidan har ikkala ijodkorning bir mahluq haqida fikr yuritayotganini belgilaydi.

Hikoyada ramzli obrazlar mahorat bilan tanlangan har bir obrazning ramzligi uning ruhiyatini ham ochib bergan. Baʼzi bir obrazlar asarda salbiy obraz sifatida tasvirlanishiga qaramay, aslida u asar mohiyatini va gʻoyasini tashkil etishda asosiy yuk tashishi mumkinligini muallif aynan, **“Jajman”** obrazi orqali ifodalashga harakat qilgan va bunga erishgan ham. Bu obrazni bir qarashdayoq nimaning ramzi ekanligini bilgandek boʻladi kitobxon, chunonchi, u ochkoʻzlik, tekinxoʻrlik nafs ramzi, bir soʻz bilan salbiy obraz deyish mumkin. Qarashlarimizning lekin tomoni ham borki, jajman oʻz koʻrinishi orqali sotuvchi va xaridorlarni ogohlantiryapti, yaxshilikka, halollikka chaqiryapti. Bu esa obrazning ijobiy tomoni va yozuvchining ramzli obraz yaratishda alohida mahorat sohibi ekanligidan dalolat beradi. Hikoyada Jajmanning oʻlish jarayonini eslab koʻraylik: **-Yomonnnig kuni bitdi, birodarlar!.. Jajmanning qopchigʻidan qolgan-qutgan mayiz, pista qoldiqlari toʻkildi. Olomon uni koʻrib kulib yubordi, biroq shu payt... Jajman tilga kirdi:**

**-Lo... kila!.. Lokil... la!..**[5;154]

Yuqorida aytganimizdek Jajman ushbu soʻzlari bilan tim ahlini ogohlantiryapti. Oʻzi jonsiz boʻlsa-da, lekin tilga kirgan Jajmani koʻrgan timdagi barcha toshdek qotgan edi. Bu kalimadan hangu-mang boʻlganlarning ogʻzida bir soʻz edi: **-Zardusht, Zardusht bobo! Bu bir kalima hech qanday maʼno anglatmaydimi? Teskarisiga oʻqib koʻraylik: "al...likol! Alik... ol!"** Demak, u bozor ahliga salom beryapti. Chunki salom bergangina **"alikal ol"** deyishga haqli. U oʻzini tanishtirmoqda va boshqalarni-da taniganini maʼlum qilmoqda[6]. Alik olish orqali Jajman odamlarni ogohlantirish bilan birgalikda ularni qay daraja tumanlashib, nohaqlikka yuz tutib borayotganliklarini ham eslatib oʻtyapti. Muallif oʻz

maqsadini amalga oshirishda nafaqat Jajman obrazi, balki Zardusht va Otash momo obrazlaridan ham unumli foydalanadi.

Zardusht bobo esa loqayd, bu holni ko'ra-bila turib beparvo tomosha qiladi... Jajmanning ochko'zligig'a mahliyo bo'lib, unga qarshi kurashishni xayoliga ham keltirmaydi. Zardusht boboda kurashchanlik yo'q, faqat nima qilarini bilmay hayron bo'lib turaveradi. Birovning rizqiga qo'l cho'zgan kishiga bunday munosabat Zardusht bobo kabi loqayd odamlarning qon-qoniga singib ketgan[7]. To'g'ri, bir qarashda juda loqayd va o'zi bilan o'zi ovora, beparvo ko'rinadi bu obraz. Lekin har bir obrazning o'z yuki va vazifasi bo'ladi. Nazarimizda, muallifning Zardusht boboga bergan ruhiyat tasvirini bunday sovuqqonlik bilan baholash kerak emas. Sababi, Zardusht bobo ming yil yashagan odam. U razilliklarni ham, ezguliklarni ham ko'rib, allaqachon qanday xulosa chiqarish kerakligini anglab yetgan odam. U paydo bo'lgan birinchi jajmanga hech qanday chora ko'rmaganligining sababi ham aynan shunda. U biladiki, agar birini o'ldirsa, tabiiyki ikkinchisi, albatta, paydo bo'ladi. Bu esa Axuramazda va Axrimanning kurashini esga soladi.

Zardusht boboning yoshligida cho'pchaklar aytib uxlatadigan Otash momo obrazi ham ramziy obraz. Otash so'ziga izoh berib o'taylik. Otash- bir so'z bilan aytganda olov. Zardushtiylik dinida olovga sig'inishgan. Muallif shu yerda so'z o'yinidan samarali foydalangan. Nima uchun yozuvchi bu nomni timdagi biror xaridor yoki jabrlanuvchiga emas, aynan Zardusht boboning momosiga berdi? Sababi, momoning yoshi undan katta va ular sig'inadigan Zardushtiylik dinida ham olov muqaddas sanaladi.

Xurshid Do'stmuhammad "Jajman" hikoyasidagi obrazlar talqini orqali ijtimoiy hayotdagi asosiy illat bo'lgan nafsi buzuvchilikni va u orqali kelib chiqadigan boshqa illatlarni ko'rsatib bera olgan. Va asarni o'ziga xos nihoyalash orqali bu maqsad yanada aniqroq uddalangan. Hikoyani Jajmanning o'ldirilishi bilan ham tugasa bo'lardi. Agar hikoya Jajmanning o'ldirilishi bilan tugaganda ayrim kishilar nafsibuzuvchilik va tekinxo'rlikning ildizi bilan yo'q qilish mumkin deb o'ylashardi. Hikoya so'ngida o'sha bir qarich maxluq ikki qarich shaklida paydo bo'ladi. Bu yerda nafsibuzuvchilik va tekinxo'rlik tarafdorlari va talabgorlari ko'paysa ko'payadiki, aslo kamaymaydi, degan xulosa chiqadi. Mana shunday tugallik orqali yozuvchi kitobxonlarga o'z savolini bermoqchi bo'ladi, "ya'ni hikoyadan qanday xulosa chiqardingiz"? Ushbu hikoya yuzasidan fikrimizni xotimasi sifatida aytib o'tishimiz lozimki, hikoya obrazlari to'laqonli ramz va ishoralarga boy. Aynan shuning uchun ham qahramonlar ruhiyatini ochish yozuvchi uchun ham, kitobxon uchun ham zavqlidir. Yozuvchining mana shu hikoyasi bilan odatdagi yo'ldan yurmaslik kerakligini eslatib o'tganday bo'ladi. Xurshid Do'stmuhammad haqiqatdan ham, ijodi orqali obrazlarni xarakterlash, ularning xatti-harakatlariga mos detallardan foydalanish, real hayotiy voqelikni jonli qilib aks ettirish kabi usullarni qo'llash orqali ancha muvaffaqiyatga erishgan. Bu jihatni uning ijodiga bir nazar tashlagandayoq sezish mumkin. X.Do'stmuhammad ijodida qisqa va aniqlilik doimo ilgari suriladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. O‘z AS. 2013 yil, 22-fevral. №8 (4199)
2. X.Do‘stmuhammad. "Beozor qushning qarg‘ishi". – Toshkent, 2006
3. O‘z AS. 2001 yil, 7 dekabr, № 51 (3636).
4. A.Navoiy. Xamsa. – Toshkent., "Yangi asr avlodi", 2010 .
5. X.Do‘stmuhammad. Beozor qushning qarg‘ishi. – T., Sharq 2006.
6. O‘z AS. 2001-yil, 7-dekabr, №51 (3636).
7. O‘z AS. 1990-yil, 21-sentyabr, № 36 (3090).

**ЭЙ ХУВАЙДО, ЮРМАДИНГ САН БИР ДАМИ БЕҒАМ БЎЛИБ...**

*Анкабаева Моҳира Муродовна,  
ЖДПИ магистранти,  
Илмий раҳбар:  
Мамадалиева Зухра Умаралиевна,  
ф.ф.номзоди, доцент*

Хўжаназар Хувайдо XVIII аср адабий муҳитининг энг кўзга кўринган ижодкорларидан биридир. Шоирнинг девонидаги ғазалларини ўқир эканмиз, гўёки шеърят боғчасида турфа ранг чечаклар тергандек бўлиб, ҳам ошиқона, ҳам орифона мазмундаги шеърятига ўша давр эътирофи билан айтганда “ахсанта” айтишдан бошқа иложимиз йўқ. Ижодкорнинг ошиқона ғазалларида ИШҚ йўлида инсоний комиллик билан, жад билан ўз йўлида интилувчи ОШИҚ кечинмалари таъсирли ифодаланган. Хувайдонинг асарлари халқ орасида машҳурлигига яна бир сабаб эса Аҳмад Яссавий, Бобораҳим Машраб, Сўфи Оллоёр каби ижодкорлардан илҳомланганлигиданми, шоир шеърятдаги мазмун, ғоя, фалсафий дунёқарашлари яқин туради.

Биз таҳлил қилаётган ғазал – ошиқона мазмунда бўлиб, ошиқнинг маъшуқасига туйғулари изҳорига бағишланган саналади. Унда “дилбар юзини кўриб, аҳволи хароб” ошиқнинг руҳий – ҳиссий ҳолати моҳирона очиб берилади. Ижодкор ўз услубига содиқ ҳолда яъни, халқчиллик билан ошиқ изтиробини китобхонга етказиб бера олган.

***Кўрмасам, дилбар, юзингни бўлди аҳволим хароб,  
Раҳм этиб келсанг на бўлғой, хаста холимни сўраб.***

*Эй, дилбар! Юзунгни кўрмасам аҳволим хароб бўлди, не бўлади хаста холимни сураб ва раҳм қилиб бир келсанг. [1:43]*

Матладаёқ шоир дилбари юзини кўрмаса, аҳволининг хароб бўлишини тасвир этиб, маъшуқага нисбатан раҳм аталмиш туйғуни эслатиб, холининг хасталигини изҳор қилади. Ушбу ғазал, ижодкорнинг шеърятда маъно ва ифодалар осон тушуниладиган ғазаллардан бири бўлиб, бундай ғазалларни тушунарли булганлиги учун шарҳлаш шартмасдек кўринади, лекин кайта – кайта мутолаада турфа моҳиятни илғашимиз мумкин.

Юқоридаги байтда ҳам илк мисралардаёқ шоир ўз аҳволидан хабар берса, кейинги мисрада кўриниш бермайдиган дилбарга “юмшоққина” ҳам дашном, ҳам насихат қилади:

***Ҳоли бемори ғариб сўрмоқ савоби беадад,  
Эрмиш, эй ёрим, санга ҳаргиз керакмасму савоб?***

*Ғариб бемор ҳолини сўрамоқ – беҳисоб савоб, Эй ёрим! Сенга бу чексиз савоб керакмасми ёки?!*

Ислом таълимотида касални бориб кўриш, касал олдидаги одоблар каби тушунчалар бор. Пайғамбаримиз с.а.в айтдилар: “ Ким касал кўргани борса, у раҳмат ҳовузида сузади, агар касалнинг олдида ўтирса, унинг ичига чўқади. [2:446]

Ситамгар дилбарнинг солган изтироблари туфайли лирик қаҳрамон бемор ва ғариблигини ҳамда бемордан ҳол сўрамоқ эса беадад савоблигини эслатгандек, кейинги байтда эса ёрига бу савобдан керакмасми дея риторик маъно билан савол беради, балки яна бу ҳолатни севгилисига ўз кўнглига ҳавола қилади:

***Толей бебахт забунимдир, нетай, эй дилрабо,  
Келмадинг “оё, нечуксан” деб мани ҳолимни сўраб.***

*Толейм бебахт, забун. Нима қилай, эй дилрабо, “оё, нечуксан?!” дея мени ҳолимни бир бор сўраб келмадинг.*

Ошиқнинг ҳолини хароб қилган, раҳм- шафқатдан беҳабар, ишқдан хаста бўлган бемори аҳволи билан иши йўқ дилбар бу ошиқ жонига не изтироблару қийноқларни солмоқчи?! Китобхон эса лирик қаҳрамоннинг аҳволи ҳақида кизиқиб, навбатдаги байтни ўқиб, “оҳ” чекиб юборса ажабмас.

Мисрадан кўринадики, ўша ситамкор ошиқ додига етмайдиган “қулоқсиз”дир ёхуд қалбида заррача меҳр – муҳаббатга ўрин йўқ бешафқатдир?! Юқоридаги байтлардан англашиладики, ошиқнинг аҳволи навбатдаги байтда анча юксалганини сезиш қийинмас. Ошиқ ҳар қанча ўз кечинмалари, беморлиги аҳволидан сўзламасин, дилрабо ёр “оё, нечуксан” деб сўраш тугул, бир кўриниш бермайди. Энди ошиқ не қилсин? Не имкон топиш керакки, ёрини қошига чорлай олса... Бироқ, бу мушкул кўринади, қалби, юраги ёниб кул бўлиб бормоқда, балки дўзах аталмиш улкан оловхона ҳам чикорадир ошиқ ўртаниб – ёнишларида?! Лирик қаҳрамон яна бир бор ўтли мурожаатини изҳор этмоқда, яъники: биргина оҳи осмон шифтига тегиб, унинг шиддатидан ўт чиқиб, атрофга садоси тарқалади, бу ҳолни кўриб булутлар ҳам кўз – ёши тўқади:

***Оҳ урсам, сақфи гардунга тегор оҳим ўти,  
Шиддатидин ўт чиқиб, айлар садо, йиғлар саҳоб.***

*Агарда оҳ урсам, осмоннинг шифтига оҳим ўти тегарди, Шиддатидан эса ўт чиқиб, садо беради, булутлар йиғлаб юборади.*

Кўхна дунё яралибдики, муҳаббатнинг сир – синоатига етиб, қалб лабораториясида тубига етган муҳаббатшунос келмаган бўлса керак, ҳа, бу улкан тилсим... Абдулла Тўқайнинг жўнгина таърифида эса гигант ҳақиқат ётади: Муҳаббат эски нарса, ҳар бир юрак уни янгилайди. Муҳаббат –

беоромлик, оташин қалбнинг чўғ мисол ловуллаши, қалб кўридаги покиза руҳнинг ҳали чизилмаган суврати – ю, манзаралари, шоҳу – гадо баробарлиги...

Ишқ ва ошиқлик... Муҳаббат дардига мубтало киши қандай бўлмасин севгилиси олқишига сазовор бўлиш ва қалбини забт этишни хоҳлайди, жон – жаҳди билан ҳаракатдан тўхтамайди. Фарҳод Шириннинг ишқида бор имконияти ила қора тошлар кучлашиши, Мажнуннинг эса Лайли дийдорини бир кўриш илинжида саҳрода эсдан айрилиб, бошига турналар тухум қўйиб бола очганида, Мансур Халложнинг “Аналҳақ” лиги, Насимийнинг териси шилинганида ИШҚ унга то жони халқумига келгунига қадар малҳам бўлгани ёхуд Девона Машрабнинг хув – хувлаб дорга бўйнини тутиб бергани – ИШҚнинг қудрати эмасмиди?! Оловли ва сўнгсиз ишқнинг маънисини шудир балки...

*Неча йилдирким, нигоро, остонинг ёстониб,*

*Супуриб музгон билан сепдим кўзим ёшидин об.*

*Неча йилларки, нигоро, остонангда ётиб- кўзим ёши гўё сув сепиб, кипригим билан супурдим.*

Ҳар бир охи осмону фалакка чиқиб, булутларни йиғлатаётган лирик қаҳрамоннинг навбатдаги уриниши юқоридаги “Муҳаббатдан туғилиб – муҳаббатдан ўлганлар”нинг фидокорлигидан кам эмас. Қандай қилиб дейсизми? Ошиқ чора излаб, умид дунёсида ой эмас, йил эмас, неча йилларки, нигорнинг остонасида: ҳижрондан, ишқ қийноқларидан кўзларидан ёш тинмайди гўё сув каби, ошиқ эса ёри остонасига кўз ёшларидан сув сепиб, киприклари ила супуриб – ошиқлик шарафини ёқлайди...

Ниҳоят, сўнгги байт, сўнгги нидо – мақтаъ. У шоирнинг камтарона ўз-ўзига таъкиди билан яқунланади:

*Эй Ҳувайдо, юрмадинг сан бир дами беғам бўлиб,*

*Хотиринг бўлди саранжом, оқибат бўлгунг туроб.*

*Эй Ҳувайдо! Сен ҳеч бир дам гамсиз юрмадинг, агарда хотиринг жам бўлса, оқибат тупроққа айланасан.*

Алишер Навоий ҳазратлари “Бешиқдан то қабр муҳаббат эҳтиёжимдур” дея, нақадар ўлмас сатрларни муҳрлаганлар. Чин муҳаббат эса мисоли олтин, уни ҳаргиз ер тагига яширсангда, ўз қийматини йўқотмайди. Шу ўринда Ҳувайдо ҳам муҳаббат унинг жисмини тупроққа айлантирганлигини таъкидлаб, фахрланмоқда:

Эй Ҳувайдо! Сен умринг давомида беғам бўлиб юрмадинг, қалбинг, ботининг доим ишқ ғамлари – ю, жабру – жафолари билан банд бўлди. Аслини олганда муҳаббат дардларига бир умр чидамоқ, балки дақиқа сабр этмоқ – ҳаммага эмас.

Умуман олганда, ошиқ руҳиятига хос ҳолатларнинг баъзан ғамгин, баъзида ўта ғамгин, изтиробли қирралари маҳорат билан ёритилган бундай ғазаллар Хўжаназар Ҳувайдо поэтикасига хос яна бир ҳолат- китобхонни



шеър ичидаги дардга ошно қила олиш маҳоратини ўзида акс эттирган юксак бадиият дурдоналаридан биридир.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Хожамназар Хувайдо. Девон. Эски ўзбек – араб ёзувидан нашрга тайёрловчилар: Исматуллох Абдуллох, Қодиркул Рўзиматзода. Тошкент, “Янги аср авлоди” 2005 .
2. Ал Фақиҳ Абу Лайс Ас Самарқандий. Танбеҳул ғофилин. Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги нашриёт – матбаа уйи, 2018.

### **ABDULLA AHMAD IJODIDA KICHIK HAJVIYALAR O'RNI**

*Xasanova Dildora Erkin qizi,*

*JDPI magistrantu*

*Ilmiy rahbar: f.f.f.d (PhD) T.Qochqorov*

Jizzax adabiy muhitining koʻzga koʻringan, qalami oʻtkir yozuvchisi, “Hamiyat”, “Qirmizi atirgul”, “Oʻlinga tik boqqanlar” kabi kitoblar muallifi, Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasining aʼzosi Abdulla Ahmad ijodi bugunda adabiyotshunoslikda jiddiy oʻrganish lozim. Darhaqiqat, adibning ayniqsa, “Faryod”, “Olisdagi soyalar”, “Alvido, sevgilim” qissalari oʻziga xos ifoda usuliga egaligi bilan diqqatga sazovorligini shu oʻrinda eʼtirof etish kerak.

Yozuvchi ijodini ilk oʻrgangan tadqiqotchilardan biri sifatida Turoпова Parizodning “Jizzax adabiy muhitining taraqqiyot tamoyillari” [1] mavzusidagi tadqiqotini aytish mumkin. Tadqiqotda adibning “Faryod” qissasi adabiyotshunos olim tomonidan anchayin chuqur tahlil qilingan. Jumladan, olima “Faryod” qissasi boʻyicha “Abdulla Ahmadning “Faryod” qissasi Shoʻro davri voqealari, xususan, Oʻrta Osiy boylarining xukumat tomonidan talanishi, xoʻrlanishi mavzusini yoritishga bagʻishlangan. Oʻzbek xalqiga xos mardlik, soddalik, poklik, rostgoʻylik kabi xislatlar Qobuljon obrazida oʻz ifodasini topgan boʻlsa, oriyat, milliy gʻurur, chuqur psixologik kontrastda Yusufbek va Olimboyvachcha misolida talqin etilgan” [1;121] degan yakuniy xulosaga kelgan.

Shu oʻrinda aytish kerakki, yozuvchi kitobiga soʻz boshi yozgan adabiyotshunos olim Usmonjon Qosimov “Sir–sinoatga toʻla tabiatda aql bovar qilmas ajoyib hodisalar va hayratomuz moʻjizalar roʻy berib turishini inkor etib boʻlmaydi. Ammo, badiiy ijod jarayoni oʻziga xos, murakkab ruhiy bir olam. Unda hech kim ertaklardagi singari sehrli xum yo qalpoqcha qudrati bilan bir amallab shoir, yo yozuvchi boʻlib qolmaydi. Chinakam ijod hamisha yuksak badiiy tafakkur va sanʼatkor qalbidagi dard yo quvonchning ifodasi boʻlib maydonga keladi... Abdulla Ahmadning mazmunli hayoti va ijod yoʻliga nazar tashlasak, ana shu azaliy haqiqatiga yana bir karra amin boʻlamiz” [3], degan taʼrifi ham i tahsinga loyiq.

Biz adibning ijodidan oʻrin olgan kichik hajviy hikoyalari toʻxtalamiz. Chunki, yuqorida aytganimizdek, adibning hajviy mavzudagi hikoyalari

atroflicha talqini ham hali yaratilmagan. Yozuvchining “To‘y kimniki?”, “Mirhobid”, “Majlis tugadi”, “Kafil bo‘lma, xotin”, “Ismini boshqacha qo‘ymoqchi” hajviyalar shular jumlasindandir.

“Ijodkor badiiyat olamini teran anglasa, mashhur san’atkorlarning asarlarini o‘qigan bo‘lsa, inson ruhi, tabiatidagi yangiliklarni va ularning qay darajada aks ettirilganini yaxshi tushunadi. Shu ma’nodagi, badiiylik – inson ruhidagi yangilikni chuqur his etish, uni mangu bezavol qilib tasvirlashdir” [2;116]. Badiiylik yangilikni takrorlanmas qilib yaratish ekan, Abdulla Ahmad har bir asarini xuddi shunday ohorli qilib yarata olgan. Ko‘plab qahramonlarning holatlarini mahorat bilan, hajv asosida tasvirlay olgan.

Yozuvchining “To‘y kimniki?” hajviyasi To‘zg‘anboyning maslahat berishdan boshlanadi: “Maslahat yaxshi-da. Nega deysizmi? Obbo, o‘jar odamga o‘xshaysiz-ku! Axir, maslahat xom ishni pishitadi. Kami-ko‘stni to‘ldiradi. Gapning o‘g‘il bolasini aytaymi? Hech kim lo‘nda qilib maslahat berishda To‘zg‘anboyning oldiga tusholmaydi. U shundog‘am foydali maslahatlar beradiki, bitmagan ishingiz bitganday, taqa-taq to‘xtagan yumushingiz yurishganday, chaqasiz qolgan hamyoningiz to‘lganday bo‘ladi. Hozirgina uyni qandoq qursam ekan, shiferni qaydan olsam ekan deb, xomush bo‘lib turgan odam birdan sherlanib ketasiz. To‘zg‘anboy so‘zlarni chertib-chertib, burro-burro qilib, ishonch bilan maslahat beradi-da. Yelkangizdan tog‘ ag‘darilganday bo‘ladi. Aytaylik, siz to‘y qilyapsiz. To‘zg‘anboy asta so‘raydi:

— Tashvishlar qiynab qo‘ymadimi, uka?

— Birnavi, qiynalganimcha yo‘q...

— O, shunday deng. Balli, yashang!

— Xo‘sh, jonim ukam! Oshga qancha guruch damlaysiz?

— Oshgami, hmm... biron o‘ttiz kilo yetib qolar.

— E, e, nimalar deyapsiz? O‘ttiz kilo? Buningiz urvoq ham bo‘lmaydi-ku?! Kattakon jamoada ishlaysiz. Hamkasblar, qarindosh-urug‘ deganday. Hoy og‘ayni, belni mahkam bog‘layvering. Yuz kilodan kami — kam. Qancha odam aytmoqchisiz?

— Yuz kishi atrofida.

— Uff! Hazillashayapsizmi?! Bunaqada menga o‘xshagan baobro‘ hamsoyalarni xafa qilasiz! Yo‘q, yo‘q, sharmanda qilasiz! Bilib qo‘ying, kamida besh yuz kishi chaqirasiz. Axir, kimsan To‘zg‘anboy, el oqsoqolining mahallasida to‘y bo‘layapti-ya! Bizniyam o‘ylang-da!

— Mayli-mayli, o‘ylab ko‘ray-chi.

— Buyog‘i hal. Artistlardan kimni aytdingiz?

— Hali aytganim yo‘q. Ha-ya, anavi bor-ku, musiqa muallimi, yaxshi qo‘shiqchi...

— Be, yig‘ishtiring uni! Ovozi past, Toshkentdan olib kelamiz. Eng mashhurini.

— Hey, menga qarang. Asosiysi esdan chiqay depti-ya. To‘yni qayerda o‘tkazmoqchisiz?

— O‘zimizning chorbog‘da-da, qurigan daraxtlarni kesib-b...

— Nimalar deyapsiz? Bo‘lmaydi, bilasizmi, kecha narigi mahallada yangi to‘yxona ochildi. Umuman dahshat. Hamma havas qilyapti. To‘yni shu yerda

o'tkazamiz. Do'stlar suyunib, dushmanlar kuyib o'lsin.  
 — Ma'qulmi?  
 — Bilmadim...  
 — Ajabo, bu odamni qarang. Bilmadimingiz nimasi? O'ylab gapiring.  
 — Ha, endi dangaliga o'taylik. O'zi to'yni kim qilayapti, sizmi, menmi?  
 — Albatta sizda, ukaginam!  
 — Shundaymi? Xo'b, yaxshi maslahat berdingiz, faqat...  
 — Nima faqat? — Nima desam ekan...  
 — Tortinmay aytavering, uka. Mana, yoningizda biz turibmiz, axir.  
 — To'yga uch-to'rt million so'm qarz berib tursangiz...  
 — I-i, qiziq odam ekansiz-ku, qarz olib ham to'y qiladimi? Boring-ye, men sizga oson bo'lsin deb, maslahat berib o'tiribman-a..."[3].

Ko'rinib turibdiki, Abdulla Ahmadning hajviy hikoyalarida qahramonlarni individuallashtirishda To'zg'anboy xarakteri talqinida yozuvchi uning individual xususiyatlarini alohida ta'kidlamochi bo'lgan. Buni muallif qahramonning tashqi ko'rinishi, nutqi va turli badiiy tasvir vositalari orqali aks ettirgan. Tasvirlovchi vositalar jumlasiga badiiy detal ham kiradi. Chunki badiiy detallar qahramonning o'ziga xosligini ko'rsatuvchi alohida unsurlar sanaladi. Abdulla Ahmad ulardan mahorat bilan foydalangan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Туропова Паризод “Жиззах адабий мухитининг тараққиёт тамойиллари” ф.ф.ф.д (PhD) диссертацияси 2021 йил, 132 б
2. Расулов А. Бадийлик – безавол янгилик. –Т., Шарқ, 2007.
3. Қосимов У. Ибратли ҳаёт ва машаққатли ижод сабоқлари // Абдулла Аҳмад. Ҳамият. –Т.: Yangi nashr, 2015. –Б.3.

#### BEHBUDIYNING O'ZBEK ADABIYOTIDA TUTGAN O'RNI

*Maxmudova Asolat Toshtemirovna,  
 JDPI magistranti*

M.Behbudiy ma'rifat va maorif ishlarining faqatgina nazariyotchisi bo'lib qolmay, balki o'lka maorifi rivojida amaliy tomondan ham jonbozlik ko'rsatdi. U Istanbul, Ufa, Qrim, Qozon, Orenburg kabi shahar va mamlakatlarni ko'rdi va bildi, “yangi usul”ni Turkistonliklar orasida birinchilar qatori amalda qo'lladi. 1905 yilda Behbudiy tomonidan tashkil etilgan maktab Samarqand shahri yaqinidagi Kaptarxona qishlog'ida edi. Tajriba sifatidagi bu maktabning shaharda emas, balki qishloqda ochilishining boisi bor edi. Chunki shaharda ushbu usulda o'qitishga qarshi chiquvchilar hukumat tomonidan ham, mahalliy aholi tomonidan ham juda ko'p edi. Behbudiyning bu maktabdagi faoliyati haqida o'sha vaqtlarda Samarqand shahrida Morozov tomonidan nashr etilayotgan “Samarqand” gazetasida Almatov degan muallif tomonidan xabar berilgan. Bu usulning muvaffaqiyatiga boshda mahalliy aholi ishonishmaydi. Lekin hamma ish juda silliq

ko'chadi. Ota-onalar bu maktabda bolalarining juda tez savod chiqarayotganligini ko'rib, hayron bo'ladi va shubhalana boshlaydilar. Avvallari 3-4 yillarda o'rganadigan narsalarni bolalar bir yilda o'rganib olishgan edi. Ko'pchilik "tez o'rganan, tez esidan chiqaradi" deb xulosa qiladi. Lekin shogirdlar olgan bilimlarini unutish o'rniga, kundan-kunga olg'a qarab borayotgan edi. Behbudiy boshda shogirdlarga oddiy o'quv-yozuvni o'rgatgan bo'lsa, keyin "Haftiyak"ni o'rgatishga kirishadi. Ushbu "Haftiyak"ni o'qitish jarayonida Behbudiyda yangi fikr paydo bo'ladi. Endi u o'z o'quv dasturiga sistemali suratda arab tilini o'qitishni kiritadi. Bundan tashqari, maktabda arifmetika, geografiya va shu kabi dunyoviy fanlar ham o'qitilar edi.[3;183]

Shogirdlar soni 40 talar atrofida bo'lib, 7 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan o'g'il bolalar edi. Behbudiy maktabni ko'rish uchun yashiriqcha kelgan mahalliy aholi va mullalarni hamkorlikka chaqiradi. Lekin mullalarning bu taklifdan esxonalari chiqib, vahima ko'tarishadi. Ota-onalarning ko'pchiligi globusni ko'rib, o'qituvchi Behbudiyning geografiya darsida "yer aylanadi", "quyosh yerdan katta" degan so'zlarini eshitib, uni "sha'riatga zid" narsalar haqida tashviqot qilishda ayblay boshlaydilar. Shunda Behbudiy erishgan shuncha muvaffaqiyatlariga qaramay, baribir, o'ziga bir hamkor, hammaslak, hamfikir kerak ekanligini anglaydi. Uning Samarqand shahri, Jomboy tumani, Rajabamin qishlog'ida o'z hisobidan maktab ochib, bolalarga saboq berayotgan Abdulqodir Shakuriy bilan tanishuvi bu hamkorlikni boshlab berdi. Dastlab, Behbudiy Shakuriy maktabiga borib, uning darslariga, o'quv dasturlariga yordam berib yuradi. Jug'rofiya fanidan shogirdlarga dars beradi. Behbudiy bu haqda "Turkiston viloyatining gazetisi" da "...kamina raqami haruf ham haftaga bir-ikki marotaba borib tartib va prug'rammalarini muallim ila bomashvarat tuzaturman. Jug'rofiya va masohat to'g'risida ta'lim va imtihon qilarmiz. Xulosa, alhamdulillah, maktabni rivoji yaxshi va bir oz aqcha pul to'g'risidan tazyiqi bordur", deydi. Bundan tashqari ushbu maktabda Behbudiyning jug'rofiyadan dars berganligini Rahmatulla Rahimiy "Turkiston viloyatining gazetisi"da o'zining "Buzug' maktab usuli jadida bolasi", degan maqolasida ham eslab o'tgan.[1;150]

Behbudiyning ma'rifat yo'lidagi xizmatlaridan yana biri buning omi xalq orasida ziyo tarqatmoq uchun tashkil etgan kutubxonasi edi. Behbudiy birinchi bo'lib Samarqandda musulmon kutubxonasini tashkil etish fikrini ahli ilm, aqraboyu ulamolar oldiga qo'yadi va bu yo'lda ularni hamjihatlikka chaqiradi. O'sha davrda bir qancha vaqt faoliyat ko'rsatib, ancha mashhur bo'lgan ushbu kutubxona haqida davrning yetakchi nashri sanalgan "Turkiston viloyatining gazetisi" da xabarlar berib borilgan. Samarqandda kutubxona tashkil etish kabi xayrli niyat tug'ilganligi haqida "Turkiston viloyatining gazetisi" da Behbudiy imzosi bilan maqola bosiladi. Unda "Samarqandda umumiy mutolaaxona - biblioteka, chitalniy ochmoq uchun o'n ikki nafar muhtaram kishilar ila birga 27 bobdan iborat bir dastur, ustaf tuzib, janob baland darajalik Samarqand gubernatoriga topshurub edukki, inshoollo, qonunnoma jamiyati mustahkam bo'ldi", deydi muallif. Shundan so'ng kutubxonaning moddiy jihatlarini mustahkamlash ishlari boshlanib ketadi. Avvalo, kutubxona tashkil etish uchun bir jamiyat tuziladi. Bu jamiyatga



a'zo bo'lganlar birlashib majlis o'tkazishadi. Jamiyatning birinchi majlisida kutubxonaning xizmatchilari tayinlanadi. Hozir bo'lgan a'zolar bir munosib qonunnoma jamiyati, ushbu sakkiz nafar kishini asosiy majlis a'zosini chilen komitet sayladilar. Mufti Mahmudxo'ja bin Behbudxo'ja rais etib saylandi. Hojiqul Muhammadov rais noibi, tarjimon Ho'qandboy Abdulholiq o'g'li sarkotib, muallim Mirzo Xidirbek Abusaid o'g'li maishiy noibi, savdogar mulla Abdusalom Abdulmo'min o'g'li xazinachi, muallim mulla Abdulqodir Abdulshukur o'g'li va hoji Said Ahmad, Xo'ja Hasan o'g'li idoraning doimiy a'zosi qilib saylanadilar. Ushbu joyda aytilishicha, majlis a'zolari ramazoni sharifg'acha kitobxona va mutolaaxonani ochmoqg'a so'z berdilar. So'ngra esa, bu majlisda kiritilgan fikrlar va qonunnoma "Samarqand voyennoy gubernatori, generalnoy ishtabining generali, general-moyur Galkin"ga taqdim qilinadi. General qonunnomaning asl nusxasiga "Mustahkam qildum", deb imzo chekadi. Nihoyat, general-gubernator bu ishga ruxsat bergach, ziyoxona ochiladi. Bu kungi ochilish marosimi haqida ham Behbudiy "Turkiston viloyatining gazetisi" da xabar beradi "Kitobxona va mutolaaxonamiz 11 sentyabr, ya'ni 28 sha'bondan beri rasman ochildi..." . Usuli jadid maktabi talabalaridan bir guruhi hozir bo'lib, salovat o'qiydilar. Hidoyatpanoh eshon Miyon xatib va qori Muqimxon xatib va ba'zi mudarrislar, yosh ulamolar, savdogarlar, taraqqiyparvar kishilardan yuzdan ziyoda oliy ehtirom kishilar xatmi qur'onga kelishadi.[2;32]

Behbudiyning tashabbusi bilan ish boshlagan ushbu kutubxona kundan-kunga rivoj topib bordi. Behbudiy ziyoxonaning maqsad-mohiyatini belgilar ekan: "Mutolaaxonaning maqsadi shulki, musulmonlarg'a mumkin bo'lsun andak xarj ilan ko'p foydalanmoq", deya ta'rif beradi. Keyinchalik bu kutubxona "Behbudiya" nomi bilan yuritila boshladi. Chunki uning moddiy xarajatlari asosan Behbudiy gardanida bo'lgan. Ushbu "Behbudiya" kutubxonasi Vadud Mahmudiyning "Muallim Abdulqodir Shakuriy" nomli hujjatli qissasida ham tilga olingan. "Behbudiy juda boy kutubxonaning egasi edi. 1000 jildlik kitob fondiga ega bo'lgan bu mutolaaxona barcha uchun doimo ochiq edi. Shu vaqtlarda bu kitoblarning har biri oltin bahosida hisoblanardi. Behbudiy bu joyning binosi va boshqa xarajatlarini o'z cho'ntagidan to'lar edi", deya eslaydi Vadud Mahmudiy. Ushbu ziyoxonaning Oktyabr to'ntarishigacha mavjud bo'lganligi, keyinchalik uning taqdiri barcha ma'naviy qadriyatlarimiz kabi to'ntaruvchilar tomonidan yoqib, uloqtirilib, qolganlarini qoplarga joylab noma'lum tomonlarga olib ketilgan degan taxminlar bor.[4;150]

Xullas, Mahmudxo'ja Behbudiyning o'z vaqtida xalqimizning ma'naviyati boyishiga munosib hissa qo'shgan "Behbudiya" kutubxonasi to'g'risida, uning sirli taqdiri haqida aniq ma'lumotlar to'plab, xalqqa yetkazish ishlari, kelgusi ilmiy ishlarda o'z aksini topishi lozim.

Mustaqillik yillarida jadidlarimizga alohida e'tiborlar berilib, xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 13apreldagi 206 sonli qaroriga asosan "Mahmudxo'ja Behbudiy uy-muzeyini tashkil etish to'g'risida"gi qarori loyihasi e'lon qilindi. Loyiha bilan Madaniyat vazirligi, Yozuvchilar uyushmasi, Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi, Samarqand viloyati



hokimligining Samarqand shahri, Mirsaid Baraka ko‘chasi, 47-uy manzilida ulug‘ alloma va jamoat arbobi Mahmudxo‘ja Behbudiy uy-muzeyini “Samarqand” davlat muzey-qo‘riqxonasi filiali sifatida tashkil etish to‘g‘risidagi taklifi ma‘qullanishi mumkin. Samarqand shahri, Mirsaid Baraka ko‘chasi, 47-uy manzilida joylashgan bino tegishli hududi bilan birgalikda “Samarqand” davlat muzey-qo‘riqxonasiga operativ boshqaruv huquqi asosida tekin beriladi. Mahmudxo‘ja Behbudiy uy-muzeyi ushbu binoga joylashtiriladi.[5;187]

Shuningdek, belgilangan xususiyatlar quyidagilar:

Muzey binosini ta‘mirlash va hududini obodonlashtirish, muzey ekspozitsiyasini yaratish va jihozlash bilan bog‘liq xarajatlar – Samarqand viloyati mahalliy budjeti mablag‘lari hisobidan ta‘minlanadi; muzeylarga shtat birliklarini ajratish hamda xodimlariga ish haqi to‘lash – Madaniyat vazirligi tizimidagi muzeylar uchun belgilangan tartibga muvofiq amalga oshiriladi; muzeyni saqlash xarajatlari – Samarqand viloyati mahalliy budjeti mablag‘lari, muzeyning o‘z daromadlari va qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga amalga oshirilishi belgilab qo‘yilmoqda.

#### ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎХАТИ:

1. Ayniy S. Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar.-Samarqand-Toshkent:1926 yil, 150-bet.
2. Aliyev A. Mahmudxo‘ja Behbudiy.-Toshkent:-Yozuvchi. 1994 yil, 32-bet.
3. Ayniy S. Eski maktab.-Toshkent: 1988 yil, 183-bet.
4. Abdullayev Y. Eski maktabda xat-savod o‘rgatish. Toshkent:1960-yil, 550-bet.
5. Aliyev A. Ijod va izlanishlar. -Toshkent: -Adabiyot va san‘at nashriyoti. 1976 yil, 187-bet.
6. Adabiy meros va zamonaviylik.-Toshkent:-Adabiyot va san‘at nashriyoti. 1983 yil, 159-bet.
7. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

#### АЛИШЕР НАВОИЙ БАДИЯТИДА РУБОИЙЧИЛИК ТАҲЛИЛ ВА ТАЛҚИНЛАР

*Ҳасанбоева Мадина Сарвар қизи,  
Жиззах ДПИ талабаси  
Илмий раҳбар: доцент  
Мамадалиева Зухра Умаралиевна,  
ф.ф.номзоди, доцент*

Мир Алишер Навоий дунё тафаккури тарихида ўзининг адабиётга оид асарлари ва беназир даҳоси билан туркий халқларнинг маънавий сиймосини ярата олган, ўзидан ўчмас из қолдира олган такрорланмас сўз санъаткоридир. Унинг асарларидаги моҳият, долзарб мавзулар, кенг қамраб олинган образлар тизими Навоийнинг қанчалик буюк истеъдод соҳиби эканлигидан далолат беради. Навоий номини бугунги кунга қадар ўчмай келаётганлигининг

сабаби ҳам ана шундай асарларидаги ўлмас мафкуранинг борлигидадир. Унинг шоҳ асарларидан бири бўлган “Хамса”да мана шундай мафкура ва гоя кучли акс эттирилган. Ижодкорнинг кичик жанрдаги лирик асарларига эътибор қаратар эканмиз, буюк истеъдод соҳибининг бу соҳада ҳам қанчалик маҳоратли эканлигини тўла англаб олиш мумкин. Қитъа, рубоий, туюқ ва бошқа жанрларда ҳам ижодкор ўзининг доҳиёна истеъдодини, буюк дунёқарашини акс эттира олган. Навоийнинг кичик жанрлар, айниқса, рубоий жанрида баракали ижод қилганлиги, ўзбек мумтоз адабиётида ўз ўрнига эга бўлишини таъминлаганлиги билан аҳамиятлидир.

Рубоий Шарқ мумтоз шеърлятида кенг тарқалган лирик жанр бўлиб, ёзма адабиётимизнинг Навоийгача бўлган даврида дубайтий (икки ёки тўрт мисрадан иборат шеър) вазнига тушадиган( ҳазаж баҳрининг аҳраб ёки аҳрам) тўртликлар учрамайди [4: 260]. Юсуф Хос Ҳожибнинг “Қутадғу билиг” асаридаги тўртликлар мутақориб, Лутфийнинг тўртликлари эса рамал баҳрида яратилган.

Эй сен латофат пайкарининг хонисен,

Ҳусн авжининг маҳи тобонисен.

Гар пари десам сени, маъзур тут,

Чин кўзум инсонидин пинҳонисен

Кўриб турганингиздек, Лутфийнинг ушбу тўртлиги рамал баҳрининг мусаддаси маҳбуни мақсур шаклида ёзилган. Бундан кўриниб турубдики, Навоийдан бошлаб туркий адабиётда рубоийнинг анъанавий ҳазаж баҳрининг аҳраб ва аҳрам тармоқларида ёзилиши қатъий қоида шаклига кирди ва Навоий ҳазратларини шартли равишда ушбу жанрнинг туркий адабиётдаги асосчиси дейиш мумкин.

Алишер Навоий ўзининг “Мезон ул авзон” асарида ушбу жанр ҳақида шундай ёзади: “рубоий вазниким, они “дубайтий” ҳамда “тарона” дерлар, Ҳазаж баҳрининг аҳрам ва аҳрабидин истихроғ қилибдурлар ва ул вазнедур асру хушоянда ва вазнедур бағоят рабоянда ” [3:155]. Навоий асарида келтирган рубоийнинг бир тури бўлган “таронаи рубоийнинг” ҳам туркий тилдаги илк ижодкори ва асосчиси саналади. Айнан Навоийнинг тажрибаси ўлароқ таронаи рубоий яратиш муҳим анъанага айланди.

Навоий араб ва форс адабиётида кўрилмаган ҳодиса – тўртала мисрада тарсеъ санъати тўлиқ сақланган рубоий намунасини яратди. Бу унинг шеърлий санъатлар қўллашда ҳам анчагина маҳоратли эканлигини яна бир қарра исботлайди:

Ҳам демагида йўқ эътиборе кишига,

Ҳам қилмоғида йўқ ихтиёре кишига.

Такдир аро чун йўқ иқтидоре кишига,

Не қилганига не эрк боре кишига.

Ёки,

Бу баҳрки ганжи ломаконий дедилар,

Ҳар қатрасин оби зиндагоний дедилар.

Шаҳ маҳзани таъбидин нишони дедилар,

Ким, ани “Ҳазойин ул маоний” дедилар.

Ушбу рубоийда Навоий ўзининг асарини яратилиши ва ном кўйилишини тарсеъ санъати билан жуда катта маҳорат орқали юзага чиқарган.

Алишер Навоийнинг рубоий яратишда яна шундай қизиқ ҳодисалар учрайдики, рубоийнинг тўртала мисраси тўрт хил вазнда ёзилган. “Навоий рубоийлари ҳазаж баҳрининг ахраб шажарасида яратилган. Бу шажара асосида яратилган рубоийларнинг асосий қисми 2 ва 3 ваздли рубоийлар бўлиб, баъзан 4 ваздли рубоийлар ҳам учрайди. Масалан, “Ғаройиб ус сиғар” девонидаги 45-рубоийнинг тўрт мисраси тўрт хил вазнда битилган:”

Олам боремиш, Навоийё шўрангиз,

Оламдаги эл боштин аёғ рангомиз.

Ишқ истар эмиш сени адам мисри сари,

Борғилки, эрур эл тилаган ерда азиз [1:457].

Навоий рубоияти мавзу кўламининг кенглиги ва ғоявий теранлиги билан характерланади. Унинг аксарият рубоийлари ахлоқий ва ижтимоий мавзулар етакчилик қилиб, ўз мулоҳазаларини топган.

Соқий мени хорхордин айла халос,

Гул-гул юзинг оч баҳордин айла халос.

Ё май беру интизордин айла халос,

Ё ўлтурубон хумордин айла халос [2:63].

Ушбу рубоий соқийга мурожаат билан бошланади. Муаллиф соқийга мени ғам андуҳдан халос эт дея илтижо қилмоқда. Ушбу мисрада ижодкор соқий образи оралди талмиҳ санъатидан фойдаланган. Иккинчи байтда бу мурожаат тўғридан-тўғри амалга оширилган. Бу байт кенг маънолилиги билан ажралиб турибди, яъни рубоийда айтилган асосий фикр десак бўлади. Ушбу мисранинг ботиний маъносида шоир Аллоҳдан унга жамолини насиб қилишини, унинг жамоли олдида бу дунё гўзалликлари, баҳор таровати ҳеч қандай аҳамиятга эга эмаслигини таъкидлайди. Учинчи байтда Навоий май бериб уни интизорликдан халос айлашини сўрайди. Хулоса қисмида эса гўёки жонимни олиб сенга хуморликдан, интизорликдан мени озод эт, халос айла дея шоир Аллоҳга мурожаат қилади. Навоий ушбу рубоийда шеърий санъатлардан ҳам жуда ўринли фойдаланган. Таносуб санъати деярли ҳар бир мисрада кузатилади. Биринчи байтда *ғам гусса*, кейинги мисрада *баҳор, гул*, учинчи ва тўртинчи мисраларда *интизорлик, хуморлик* сўзлари орқали таносуб санъати юзага чиқарган. Айла халос сўзларининг ҳар бир мисрада такрорланиши эса тарсеъ санъатини намоён қилган.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, Навоий ижодида кичик жанрларнинг салмоқли ўрни бор. Буни биргина рубоий жанри орқали, унинг ривожига муносиб кўшган ҳиссаси орқали амин бўлдик. Навоий ижоди очилмаган сирли тилсимга ўхшайди, уни ўрганган сари янги - янги қирралари очила боради.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Алишер Навоий. Қомусий луғат. Тошкент. 2016.
2. Алишер Навоий. Фаройиб ус сифар. Тошкент. 1988.
3. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. Тошкент. 2014.
4. Курбонов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. Тошкент. 2010.

**“LAYLI VA MAJNUN” DOSTONINING NASRIY BAYONIDA SARLAVHALARNING BERILISHI**

*Mulloqulova Zebiniso Shavkatovna,  
BuxDU magistri*

Turkiy xalqlarning “Shams ul-millati” bo‘lgan Nizomiddin Mir Alisher Navoiy jahon adabiyoti xazinasini o‘zining hassos she‘riyati, buyuk “Xamsa”si, fan sohalarining turli tarmoqlariga bag‘ishlangan boy ilmiy merosi bilan boyitgan so‘z san’atkoridir. Yaqin va O‘rta Sharq xalqlari adabiyotida “Layli va Majnun” mavzusiday keng tarqalgan boshqa bir ishq qissasini topish qiyin. Ushbu qissaning kelib chiqish manbayi qadim arablar hayoti bilan bog‘liq voqealarga borib taqaladi. Alisher Navoiyning “Layli va Majnun“ dostoni turkiy tilde bitilib, ushbu mavzuda yaratilgan ilk doston bo‘lib, Navoiy uni yaratishdan avval arab rivoyatlari bilan bir qatorda Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Ashraf Marag‘iy, Shayxim Suhayliy dostonlarini chuqur o‘rganadi va “afsonaga yangi libos kiygizadi”. Asarning dastlabki to‘qqiz bobi an’anaviy muqaddima (hamd, na‘t, ustozlar, Sulton Husayn Boyqaro, Badiuzzamon Mirzo madhi) bo‘lib, 10-bobdan asar asosiy voqealarining badiiy ifodasi boshlanadi. Asarda qalamga olingan Layli va Majnun fojiviy ishqiy sarguzashtlari tasviri sevishganlarning vafoti bilan intiho topadi.

Mazkur asarning joriy yozuvdagi (kril, lotin) nashrlari bilan birga nasriy bayonlari ham amalga oshirildiki, bundan ko‘zlangan asosiy maqsad ulug‘ shoir asarlarini butun sir-sinoati bilan kitobxonga yetkazishdan iborat. Albatta, nasriy bayonlarning amalga oshirilishi ma’lum ma’noda Alisher Navoiyni bugungi kun o‘quvchilariga yaqinlashtirsa-da, ularda yutuqlar bilan birga juz‘iy tafovvutlar ham ko‘zga tashlanishi tabiiy hol. Fikrimizni “Layli va Majnun” dostonining 1958 yilda Amin Umariy va Husaynzoda hamda 1990-yilda Vahob Raxmonov va Naim Norqulov tomonidan tayyorlangan nashrlarining sarlahalarini qiyoslash misolida ko‘rishimiz mumkin.

Har ikkala nasriy bayonda ham asar hajmida tafovvut kuzatiladi. Amin Umariy va Husaynzoda nasriy bayonlarida voqealar rivoji 9-bobdan boshlangan, an’anaviy kirish boblar davr siyosati nuqtayi nazaridan tushirib qoldirilgan, har bir bobga alohida sarlavha qayd etilgan va asar mazmuni 30 bobda bayon qilingan. Vahob Rahmonov va Naim Norqulov nasriy bayoni 5-bobdan boshlangan va 38 bob asosida asar mazmuni yoritib berilgan. Oltinchi bobdan keyin 9-bob voqealari bayoni boshlanadi, har bir bobga sarlavha qo‘yilgan. 1958-yilda nashr

etilgan bayonda har bir bobga qisqa-qisqa tarzda sarlavha qo'yilgan, 1990-yildagi nasriy bayon sarlavhalarida asar mazmuni to'laroq bayon qilingan deyish mumkin. Har ikki nasriy bayonni qiyoslash davomida aytish mumkinki, ikkala nasriy bayon sarlavhalarida ko'plab farqlarni kuzatishimiz mumkin.

Asarning asosiy syujetini boshlab bergan 9-bob "Ul tun mahobati" haqida bo'lib, asarning butun voqealariga ishoralar mazkur sarlavhadan boshlanadi. Ul tun mahobati ta'rifidakim, savdoyi ishq ajdahosi dami o'tining buxori va anjumi ul olam so'z o'tining sharori erdi va mundoq tunda xayol musofiri savdo adhamig'a minib, har yon azm etmoq va ishqning yuz ofatliq dashtig'a yetmoq va ofat yog'inlaridin balo to'foniga qolmoq va balo choqinlari aning jonig'a shavq va muhabbat harorati solmoq va ishq duri shabcharog'in ul kecha topmoq va ul sham'i hidoyat bila so'z maydoni javlonig'a choqmoq va Layli xayoli bila ko'rushmoq va Majnun savdosig'a tushmoq" Keltirilgan iqtibosdagi sa'jning (buxori/ sharori, etmoq/ yetmoq, qolmoq/ solmoq, topmoq/choqmoq) o'ziyoq shoir nasrining latofatini ko'rsatishi bilan birga, o'quvchining e'tiborini tortadigan jihatidir.

Nasriy bayonlarda Navoiy nasriga xos bo'lgan xususiyatlarning saqlanishini sarlavhalarni qiyosiy tahlili orqali yoritishga harakat qilamiz. Yuqoridagi nasriy sarlavha Vahob Rahmonov va Naim Norqulov nasriy bayonida "U tun dag'dag'asi ta'rifidaki, savdoyi ishq ajdahosining dami o'tining tutuni va yulduzlari olamni o'rtaydigan o'sha olovning yolqinlari edi; shunday tunda xayol sayyohi ko'rgiliklarning qora otiga minib har tomon yo'l olmog'i va ishqning yuz ofatlik dashtiga yetmog'i; ofat yog'inlaridan balo dovuliga qolmog'i va balo yashinlari uning joniga shavq va muhabbat haroratini solmog'i; ishq duri shamchirog'ini o'sha kecha topmoq va u yo'lchi yulduz bilan so'z maydoni javloniga chopmoq; Layli xayoli bilan ko'rishmoq va Majnun dardiga tushmoq" [2.258] tarzida berilgan bo'lsa, Amin Umariy va Husaynzoda nasriy bayonida "Haybatli qora tunda xayol otiga minmoq, ishqning yuz ofatlik dashtiga yetmoq, ishqning shabchirog'ini topib, Layli xayoli bilan ko'rishmoq va Majnun savdosiga tushmoq" [1.15] shaklida berilgan.

Mazkur sarlavhalarda sa'j san'atining saqlanishi bir xil emasligi kuzatiladi. Ya'ni A. Navoiyda to'rt o'rinda qo'llangan sa'j, Vahob Rahmonov va Naim Norqulov nasriy bayonida uch, Amin Umariy va Husaynzoda matnida esa bir o'rinda qo'llangan. Bundan ko'rinib turibdiki, har ikkala nasriy bayonda Navoiy matniga erkin munosabat ko'zga tashlanadi. Vahob Rahmonov va Naim Norqulov nashrida sarlavhadagi izofali birikmalar (savdoyi ishq, xayol sayyohi, ishq dashti, balo dovuli, balo yashini, muhabbat harorati, ishq duri, yo'lchi yulduz, so'z maydoni) ham bayonning ohangdor va ifodaligini kuchaytirgan

Har ikki bayonning sarlavha nomlanishini qiyoslaydigan bo'lsak, birida ifodalar keng va rang-barang, birida fikrlar aniq va qisqa tarzda ifodalangan. "...xayol sayyohi ko'rgiliklarining qora otiga minib..." ifodasi Amin Umariy va Husaynzoda bayonida qisqa tarzda "haybatli qora tunda xayol otiga minmoq..." tarzida, Vahob Rahmonov va Naim Norqulov bayonlarida "ishq duri shamchirog'i" ifodasi keltirilgan bo'lsa, tahlil qilinayotgan navbatdagi bayonda



“ishqning shabchirog‘i” tarzida ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Ikki manbada ham aytishimiz mumkinki, ijodkorlar uslubi va yo‘nalishiga xos bo‘lgan izofali birikmalar, tasvir usullari namoyon bo‘lganini mumkin. Qaysidir o‘rinda so‘z qo‘llash, qaysidir o‘rinda tasvir ifodalari orasida ham ko‘plab farqlarni anglab olamiz.

Bayonlarning yana bir bobi tahliliga e‘tibor qaratsak, Vahob Rahmonov va Naim Norqulov nasriy bayoni 11-bobi sarlavhasida : “Qaysning donolik maktabida ilmlar varaqlarini o‘g‘irgani; ishq izg‘irini etib, u varaqlarni sovurgani, ya’ni Layli husni gulshanidan xastalik xazoni chetlashib, salomatlik bahori yelidan latofat gullari ochilib, maktabga yo‘l olgani va u gullardan Qays ko‘ngli oyog‘iga oshiqlik tikanlari sanchilgani” [2.264] tarzida, Amin Umariy va Husaynzoda bayonining 3-bobi sarlavhasi: “Qaysning maktabda ilm o‘rgangoni va Layli husnini ko‘rib ko‘ngil oyog‘iga oshiqlik tikonlari sanchilgani” [1.40] deya nomlangan. Bu ikki bayonlarni qiyoslash natijasida aytishimiz mumkinki, har ikki bob sarlavhasida bir ma’no turli ifoda va tasvirlar bilan, birida badiiylikka, yana birida ifodaviylikka keng o‘rin berilgan. Ushbu sarlavhalarda ham izofali birikmalar bir xil tarzda qo‘llanilmagan. Vahob Rahmonov va Naim Norqulov bayonida “donolik maktabi”, “ilm varaqlari”, “ishq izg‘irini”, “husn gulshani”, “xastalik xazoni”, “salomatlik bahori”, “oshiqlik tikanlari”, “ko‘ngil oyog‘i” singari rang-barang, Amin Umariy va Husaynzoda bayonida esa “oshiqlik tikonlari” va “ko‘ngil oyog‘i” tarzidagi birikmalar keltirilgan. Har ikki nashrda ham bir xil tarzda “ko‘ngil oyog‘i” va “oshiqlik tikanlari” izofali birikmasi keltirilgan

Alisher Navoiy salaflardan farqli ravishda, asarini turkiyda yozganini alohida ta’kidlaydi. Nizomiyning dostonini “qal’a”ga, Dehlaviyning ijod namunasini esa bezakli “qasr”ga o‘xshatib, o‘zining dostonini esa “qal’a” va “qasr” atrofidagi shahar va bog‘larga qiyos etadi. Shoir o‘z asarini “Firoqnoma“, “Nomai dard” deb ham ataydi. Sharq mumtoz adabiyotida aniq an’ana mavjuddir, ya’nikim unga ko‘ra har qanday asar Xudoning madhi-hamd, undan iltijo-munojot, Muhammad payg‘ambar ta’rifi-na’t kabi maxsus boblar bilan boshlanadi. Biz ana shu an’ananing aksini tahlil uchun tanlangan har ikki nashrda ham kuzatmaymiz. An’anaviy boblarda Navoiyning e’tiqodiy qarashlari, diniy, ijtimoiy-siyosiy, falsafiy, diniy-irfoniy qarashlari o‘z ifodasini topgan. Bu qarashlarning badiiy ifodasi esa, asarning asosiy syujeti mag‘ziga singdirib yuborilgan. Har ikki bayonni yanada chuqur tahlil etadigan bo‘lsak, ularda yanada ko‘plab izoh va tahlillarga burkab, biridan bog‘va yana biridan gulzor yaratishimiz mumkin, chunki Navoiy ijodi cheksiz bir dengiz, uni har bir ijodkor qayta - qayta kashf etaveradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. A. Navoiy. Layli va Majnun. (Amin Umariy va Xusaynzoda nasriy bayoni ifodasi bilan). -T.: O‘zSSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1958.
2. A. Navoiy. Layli va Majnun. (Vahob Raxmonov va Naim Norqulov). O‘zbek adabiyoti bo‘stoni. -T.: G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1990.

3. Sirojiddinov Sh. Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili. – T.: Akademnashr, 2011.
4. Hayitmetov A. Navoiyxonlik suhbatlari. – T.: O‘qituvchi. 1993.
5. Rajabova, Marifat. Navoiy ijodida mifologik obrazlar. Центр научных публикаций . (buxdu. uz) 1.1 (2020).
6. Rajabova, Marifat. Analytical and synthesized folklorism in Navoi's work. Центр научных публикаций . (buxdu. uz) 8.8 (2021).
7. Rajabova M. Alisher Navoiy ijodida etnografik folklorizmlar //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 4. – №. 4.
8. Rajabova M. Халқ майдон кулги санъати белгиларининг Навоий ижодидаги кўринишлари //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
9. Rajabova M. A. Навоий ижодида кушлар ва ҳайвонлар образининг халқона асосларда ифодаланиши //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 6. – №. 6.

### “BESHNAVO” VA “QAYIRMA” SHOIR USLUBI

*Kamolov Sardorbek Rahmonberdi o‘g‘li,  
FarDu magistranti*

O‘zbek zamonaviy she‘riyatida yangi she‘riy janrlar va shakllar rivoj topib bordi va yangi o‘zbek she‘riyatida ham bu jarayon davom etmoqda. Yangi o‘zbek adabiyotida shunday she‘riy shakllar shoirlar ijodida ko‘zga tashlanadiki, bu holat boshqa ijodkorlar tomonidan takrorlanmaydi. Bu she‘riy shakllar “Beshnavo” va “Qayirmalar”dir. “Beshnavo” va qayirmani janr deb atalmasligiga sabab, ularning tarixiy-nazariy asosga ega emasligi. Zero, adabiy asarlarning tarixan shakllanuvchi tipi muayyan davr milliy yoki jahon adabiyotida umumiy xususiyatlari bilan turli ko‘lamdagi guruhlarini tashkil qiluvchi asarlarni anglatuvchi tushunchadir.[4;76] Shoirning o‘z uslubidan kelib chiqib, tuyg‘ularining rang barangligini ta‘minlash uchun niyat qilingan shakldir. Ijodiy jarayonda individuallikning roli ortganda janrni qat‘iy belgilab bo‘lmaydi, shuning uchun ta‘rif va tasnifda har bir janrga xos eng umumiy belgilarni hisobga olish kerak. Avvalo, har bir adabiy asar janr talablariga javob berishi, janriy belgilarga ega bo‘lishi kerak. Bunday belgilar sifatida muayyan asarning adabiy turga mansubligi, asosiy estetik belgisi, kompozitsion xususiyatlari, tasvir ko‘lami, badiiy nutq shakli va boshqalar ko‘rsatilishi mumkin.

XX asrning 70-80-yillarida lirikamizda shaklni yangilashga e‘tibor va ehtiyoj kuchaydi. Bu albatta, shoirning tuyg‘u va kechinmalari bilan bog‘liq. Shoir Abdunabi Boyqo‘ziyev yangicha shaklda “beshnavo”larni yaratadi. “Beshnavo”larda har bir misra bir so‘zdan iborat bo‘ladi va beshta so‘z besh misrani tashkil qiladi. Va bunday shaklni shoir “beshnavo” deb ataydi:

Ko‘proq  
Umr

Tilab  
Kelaver  
Sabrim [2;28]

Misradagi soʻzlar qofiyaga ega emas. Sheʼrning shakliy strukturasi nazar tashlasak, misralardagi boʻgʻinlar soni bir-biriga teng emas, 2+1+2+3+2 tarzda joylashgan. Tugʻilgandan toʻlgunga qadar umrning oʻlchami bu- umr. Shu umri davomida inson turli xil qiyinchiliklarga toqat, sabr qilib yashaydi. Sheʼrda lirik qahramonning holatidan anglashiladiki, uning sabri hattoki, umridan ham uzundek goʻyo. Sabriga murojaat qilar ekan, u bir qadar ezilgan, hayotdan roʻshnolik topolmagan inson qiyofasi akslanadi. Abdunabi Boyqoʻziyevning yaratgan bu sheʼriy shakli ixcham koʻrinishga ega. Zamonaviy sheʼriyatimizda deyarli koʻzga tashlanmaydi. Ammo shoir Sharq sheʼriyati anʼanalarini davom ettirgan deb ayto olmaymiz. Shoirning shakliy yangilikka intilishi- bu ixchamlik xususida boʻlsa kerak. Ozgina jumlada koʻp maʼnoni ifodalash kichik lirik janrlar uchun xos, albatta. “Beshnavo”larni beshlik deb atasa muvofiq boʻladi, ammo mumtoz sheʼriyatimizdagi muxammas (beshlik) janri misralari bir soʻzdan iborat emas. Oʻzaro qofiyalanuvchi, aruzning maʼlum janrida yoziluvchi, har bir bandi 5 misradan iborat sheʼr. Abdunabi Boyqoʻziyevning “beshnavo”lari shakliy strukturasi besh misradan iborat boʻlsa ham, uni bitta tugallangan gap sifatida oʻqish mumkin. Aksariyat “beshnavolar” shunday xarakterga ega: “Mukofot Berib Turmasalar Munkillab Qoladi”, “Ibodot Uchun Ham Odam Yollaydi”, “Kerak Boʻlsa Ataladan Suyak Chiqaradi” shular jumlasidandir. Sheʼrning har misrasi bosh harflar bilan boshlanishi soʻzlarni alohida oʻquvchi ongiga singdirish, har bir soʻzdan alohida maʼno hosil qilishni anglatadi. Shoirning bunday shaklga ega koʻpgina sheʼrlari ijtimoiy-axloqiy mazmunga ega. Ularning baʼzilarida yumoristik kayfiyat ufurib turadi.

Istiqloq davri sheʼriyatida kechayotgan shakliy izlanishlar bu shunchaki ijodiy tajriba deb tushunmaslik lozim, davr va ijtimoiy hayotning oʻzgarib borishi shoirlar ijodida ham oʻziga xos burilish yasamoqda. Hozirgi kunda kechayotgan janr va shakliy izlanishlar shoirlarning oʻz kechinmalariga, maʼnaviy ehtiyojiga aylangan. Jamiyatdagi voqelikni qay yoʻsinda tushunish, inson va jamiyat ahvolutini tushuntirishda bunday shakllar ahamiyatga ega. Sheʼriy janr va shakllar qanchalik rang-barang boʻlsa, oʻquvchiga taʼsir etadigan badiiy-estetik maʼno turlicha boʻladi.

Shoir sheʼrlarida misralardagi juft yoki takror soʻzlarni nooʻrin qoʻllash holatlari ham uchrab turadi:

Koʻngildan  
Koʻch-  
Koʻroni  
Bilan  
Ketdi. [2;31]

Mazkur beshnavoda “koʻch-koʻron” soʻzi juft soʻz hisoblanadi. Shoir juft soʻzlarni misralarda alohida qoʻllash oqibatida sheʼrda biroz sayozlik yuzaga kelmoqda. Agar toʻrtinchi misradagi “bilan” koʻmakchisini vazifa bajarmasligini, yuqoridagi

“ko‘ch-ko‘ron” so‘ziga qo‘shilib ma‘no anglatishini hisobga olsak, aslida “ko‘ch-ko‘roni bilan” birikmasi tarzida qo‘llanilishi joiz, ammo misrada bir so‘z ifodalanishi hisobiga bunday holat bo‘lmagan.

Abdunabi Boyqo‘ziyev “beshnavo”lari bir misraga jamlanganda mazmunan o‘ziga xos aforizmlar ham kelib chiqadi: “Har qanday tazarruda tozaruv bor”, “Anhorlar ayqirsin desang, to‘g‘on qur”, “Qaniydi, so‘zning ham tarozusi bo‘lsa” singari beshnavolari shular jumlasidandir.

So‘nggi yillarda o‘zbek she‘riyatiga yangicha uslub va shakllar olib kirildi. Avval bu holat birlik va uchlik janrlarida ko‘zga tashlangan bo‘lsa, keyinchalik “beshnavo” va “qayirma” shakllari rivoj topdi. Albatta, ushbu individual janrlar shoirning intellektual poetik mahoratidan dalolat beradi. Shakl va mazmun rang-barangligi shoir ijodini mazmundor qiladi. Ko‘pchilik tadqiqotchilar o‘rtasida, shoir, ijodkorlar o‘rtasida “qayirma” deb ataluvchi she‘r janrmi yoki shaklmi degan savol o‘rtaga tashlanmoqda. O‘zbekiston xalq shoiri, O‘zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov yozadi: “Biz ruboiy, tuyuq, fard degan janrlarni bilar edik. Menimcha, bularning qatoriga “qayirma” ham alohida janr bo‘lib qo‘shiladi. Chunki Azim Suyunning g‘ayrati va mehnati bilan “qayirma” ham mustaqil janr xususiyatlariga ega bo‘ldi. “Ey do‘st” degan satr murojaatdangina iborat emas. U turli o‘rinlarda turlicha ohang va ma‘no kasb etmoqda. To‘rtlikni ma‘no va shakl jihatidan yangilamoqda. Shu bilan Sharqda ming yillardan beri o‘zgartirib bo‘lmaydiganday tuyulgan to‘rtlik, eng muhimi, yangicha ruhda ko‘rinmoqda[1;7].” Abdulla Oripov shoir Azim Suyun “qayirma”lariga ijobiy baho berib, ularni Sharq she‘riyatidan oziqlangan deya e‘tirof etadi. Hattoki, mumtoz janrlarimizning davomi sifatida qit‘a, tuyuq, fardlar bilan qiyoslaydi. Shoirning bu e‘tiroflari to‘g‘ri, lekin janr bo‘lishi uchun uni belgilab beradigan unsurlari mavjud bo‘lishi kerak. “Qayirma” so‘zi obdon yetilgan, tobiga kelgan narsa, ish, harakat, amal ma‘nolarini anglatadi. Shoir Azim Suyun “qayirma” nomli she‘rlar turkumini yaratdi. Shunday nom ostidagi she‘riy asarlari go‘yoki hikmatlar to‘plamiga o‘xshab ketadi, unda muhabbatning turfa ko‘rinishlari yorqin aks etadi. Uning ko‘pchilik “qayirma”lari Ey do‘st! xitobi bilan boshlanadi:

Ey do‘st!

Dunyo noraso jang-jadallar bilan

G‘am-u, anduhlar-u, ajallar bilan

Dam g‘animat jonon bilan suhbat qur

U raso bo‘lgaydir go‘zallar bilan [3;13]

Azim Suyunning “qayirmalar”i u ancha keksayganida qog‘ozga tushdi. Shuning uchun bu she‘rlar hayotdan ma‘lum bir xulosalar chiqarishdek tuyuladi. Shoir yozar ekan, hamisha tinchlik istaydi. Inson umri davomida to‘xtovsiz g‘am, anduh chekavergani bilan foydasiz ekanligi uqtirilmoqda. Lirik qahramonning jonon bilan suhbat qurishi istioraviy ma‘no kasb etib, insonning umri davomida Alloh uchun toat-ibodatda o‘tishini nazarda tutmoqda. Ya‘ni dunyo shunday insonlar bilan go‘zal bo‘ladi. Azim Suyunning ko‘plab qayirmalarida oshiq va yor timsollari uchraydi.

Ey do‘st!

Boshingda siniq – xayoling ayol bois,  
 Taqdiring tiniq, - ziloling ayol bois.  
 Sen yarimsan, ul yarim- butun bo‘lmoq baxt,  
 Ham kamoling, ham zavoling ayol bois [3;24]

Alohida hurmatga sazovor inson – ayol. Ayol bor ekan, muhabbat bor. Dunyoning shod-u hurramligi ayol bilan, shu bilan birga ayolga e’tiborsizlik ,albatta, zavolga yetaklashi, shubhasiz. Shoirning e’tiroficha, insonning ayol bilan kechgan chiroyli taqdiri zilol suvga o‘xshatilmoqda. Shubhasiz, bu dunyoda baxtning yarmi ayol bilan to‘ladir. Zero shoir yozadi: “Er-ayol baxtini siylar hudoyim”. Erkak va ayolning bir butun bo‘lishi hayotda baxtning to‘kis bo‘lishini ta’minlaydi. U bilan bo‘lgan munosabatlar insonni yo kamolotga, yoki zavolga yetaklashi aytilmoqda.

Ey do‘st!  
 “Otam qarib qoldi,tan-joni malol...”-  
 Bir farzand boshimda turibdi behold.  
 Men dedim: Tez borgil, tan qarisa-da,  
 Aql qarimaydi, suhbatini ol.” [3;31]

Ushbu qayirmada umrning g‘animatligi ota misolida ifodalanmoqda. Bir chinorning yiqilishi ildizga kulfat bo‘lgani singari otaning qarib, darmoni ketishi bolasining yuzlarida umidsizlik uchqunlarini paydo qiladi. Biroq shoir shuni ta’kidlaydiki, inson kuch quvvatdan qolsa-da, uning aqli qarimaydi. Shuning uchun shoir: “Aqli qarimaydi, suhbatini ol!”-deb ishora qiladi.

Ey, do‘st!  
 Bo‘y yetgan qiz emish martaba-amal,  
 Qo‘ldagi muz emish davlat-boylik, mol.  
 Kerilma, barisi tashlab ketarmish,  
 Kuzgi daraxtlarning barglari misol. [3;45]

Navbatdagi tahlilga tortilayotgan qayirmada ham shoir insoniyatga nasihat qiladi. Ikkinchi satrda bo‘y yetgan qiz - amalga o‘xshatilmoqda. Ma'lumki, bo‘yi yetgan qizi bor uyga ham shoh, ham gado tashrif buyuradi. Shu o‘rinda folklorga murojaat qiladigan bo‘lsak, qadimiy ertaklarimizda, afsona va rivoyatlarda ham ushbu yuqoridagi holatni kuzatish mumkin. Kambag‘al bo‘lsada oqila, chiroyda tengi yo‘q, sarishta qizlarni podshohlaru shahzodalar sevib qoladilar. Ularga yetishish maqsadida turfa xil qiyinchiliklari, shartlarga rozi bo‘ladilar. Shuning uchun ham qizi bor xonadon boy hisoblanadi. Keyingi qatorida davlatning, molning qo‘ldagi muz kabi tez erib ketishiga ishora qilinadi. Ba'zi bir odamlar amal kursisiga o‘tirgandan keyin "bosar-tusar"larini bilmay qoladilar. Tanishlariyu yaqinlariga "tirnoq ostidan" qaraydilar. Biroq, amallari ularni tark etgach haqir-u notavonga aylanadilar. Birov nazariga ilmay qo‘yadi. Kuz faslida daraxtlar barglarini to‘kkandek, bularning barisi o‘tkinchi... Nima bo‘lganda ham inson muqaddas nomiga dog‘ tushirmasligi kerak.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdulla Oripov. “Tafakkur” jurnali 2003., 3-son 7-bet



2. Abdunabi Boyqo‘ziyev. Cho‘li irog‘im. Toshkent. 2003
3. Azim Suyun. Ey do‘st yohud Azimnoma. Toshkent. “Akademnashr”., 2018
4. Quronov D, Mamajonov. Z, Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. Toshkent. 2013. 99-bet.

## SO‘NGGI YILLAR O‘ZBEK HIKOYACHILIGIDA SAID AHMAD IJODINING O‘RNI

*Danabayeva Mohigul Baxtiyarovna,  
JDPI magistranti*

*Ilmiy rahbar: Yulduz Karimova Akulovna,  
JDPI dotsenti, filologiya fanlari nomzodi*

O‘zbek adabiyotida realistik hikoyachilikning ilk namunalari yaratilgandan buyon o‘tgan davr mobaynida yozuvchi-hikoyanavislar tomonidan juda ko‘plab asarlar yozildi, kitobxonlar e‘tiboriga havola etildi va ularning aksariyati kitobxon-o‘quvchilar qalbidan munosib joy oldi.

Yurtimiz mustaqillikka erishganidan so‘ng ongimiz va qalbimiz ham hukmron mafkura tazyiqidan ozod bo‘lib, erkin ijod qilish uchun yo‘l ochildi. Endi ijodkorlarga avvalgidek “buyurtma asarlar” yozdirish, badiiy asarlarni faqat g‘oyaviy jihatlaridan kelib chiqib baholashdek soxta mezonlardan qutulishdi. Zero, taniqli adabiyotshunos Qozoqboy Yo‘ldosh ta‘kidlaganidek: “Istiqlol adabiyoti chinakamiga ijodkor adabiyotdir. U tipik odamni emas, balki alohida o‘ziga xos va betakror odamni – tipni tasvir etadi. O‘quvchi o‘sha hammaga o‘xshamagan, alohida odamni tushunish mobaynida o‘zgani anglay boradi. O‘zgani tushunish esa, o‘zini tushunish sari qo‘yilgan dastlabki qadamdir”. [1:22]

O‘zbekistonning ijtimoiy va siyosiy hayotida yuz bergan keskin o‘zgarishlar adabiy jarayonga ham o‘zining jiddiy ta‘sirini ko‘rsatdi. Natijada, “haqiqatni oshkora aytish”, “erkin fikrlash”, “talqinlarda va tasvirda xolis bo‘lish”, “biryoqlama qarashlarga barham berish” singari tushunchalarning salmog‘i va qimmatini badiiyatda ham, adabiyotshunoslikda ham oshdi. Ijod ahli ozod tafakkur qilish, erkin qalam tebratish, yillar davomida qalbini tog‘ kabi bosib, ezib yotgan dardli og‘riqlarni qog‘ozga to‘kib solish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Shunday ijodkorlar sirasiga mashhur yozuvchilarimizdan Said Ahmadni kiritishimiz mumkin. “Ustozlarni, tengdoshlarni qadrlash, shogirdlarni avaylash bobida ham uning xizmatlari beqiyos. Qayta-qayta chop etilgan “Yo‘qotganlarim va topganlarim” kitobi adib qalbidagi hamkasblariga, milliy adabiyotimizning kechagi, bugungi kuni va istiqboliga bo‘lgan cheksiz ehtiromi, saxovati ifodasidir”. [2:5]

1950-yillardagi qatag‘on zahmati, 1979-yildan keyingi ayriliq azobi yozuvchi ruhiyatiga qattiq ta‘sir etsa-da, u ijoddan to‘xtamadi. Adib istiqbol yillarida hikoya janrining yetuk namunalari yaratdi. Mustaqillik yillarida Said Ahmadning “Qorako‘z majnun” (2001) to‘plami nashr etildi. Ushbu to‘plamdan joy olgan hikoyalar yozuvchigagina xos bo‘lgan xususiyatlarni jo etgani bilan

xarakterlidir. Taniqli adabiyotshunos Saydulla Mirzayev adibning mustaqillik yillari hikoyalariга yuksak baho berish bilan birgalikda yozuvchini o‘zining ham e’tirofini keltirib o‘tadi: “Said Ahmad hikoyalari fikrning aniqligi, syujetning qiziqarliligi, uslubning ravonligi, tilning pishiq va obrazlilik bilan o‘quvchilarga g‘oyat manzur bo‘lgan. Yozuvchi birgina 1999-yilda 15 tacha hikoya va ocherk yaratgan. Bular haqida fikr yuritib adibning o‘zi: “Mening o‘ylashimcha va ko‘plab gazetxonlar fikricha, ushbu hikoyalar so‘nggi yillarda yaratilgan eng yaxshi hikoyalar turkumi bo‘ldi”. – deb yozgan edi”. [3:313] Xususan, “Ot bilan suhbat”, “Qorako‘z majnun”, “Azroil o‘tgan yo‘llarda”, “Sarob”, “Borsa kelmas darvozasi”, “Rostgo‘y posbon”, “Taqdir, taqdir, muncha shafqatsizsan?”, “Uchinchi minora”, “Oftob oyim”, “Azob”, “Buqalamun bilan uchrashuv” kabi hikoyalar shular jumlasidandir. Yozuvchi hikoyalarida mavzu tanlashda, avvalo, hayotiy haqiqatlarga, boshdan o‘tkazganlariga tayangan. Adib ijodining yetuk bilimdoni – adabiyotshunos olim Umarali Normatov ta’biri bilan aytganda: “...Avvalo, ular o‘zbekona milliy ruh bilan yo‘g‘rilgan, Said Ahmadchasiga o‘zbekona bir nigoh bilan idrok va talqin etilgan”. [4:7]

Said Ahmad o‘zining eng so‘nggi davr hikoyalari bilan o‘zbek hikoyachiligida mavzu rang-barangligini ham ta’minladi. Qatag‘on davrining mudhish manzaralari, bu siyosat tufayli parokanda bo‘lgan oilalar, oqqadar bo‘lgan farzandlar taqdiri, zavol topgan oilaviy udumlar, o‘zbek ziyolilari kushandasi bo‘lgan sibir lagerlaridagi hayot Said Ahmad hikoyalarida millatimiz yaqin tarixining eng iztirobli, alamli sahifalari o‘laroq tasvir etilgan. “Sarob” hikoyasining qahramoni taqdiri “Bahor qaytmaydi” (O‘. Hoshimov) qissasida “Qonqus” daryosining tarixi bilan bog‘liq rivoyatni eslatadi. Sevgilisiga oson erishishni xohlagan oshiq yigit sotqinlik yo‘lini tanlab, yurtiga bostirib kelayotgan yovga shaharini, o‘zi tug‘ilib o‘sgan joyni osonlik bilan qo‘lga kiritish yo‘llarini sotadi, dushman taraf ham o‘z manfaati yo‘lida bu sotqindan foydalanib olgach, uni osonlik bilan yo‘ldan olib tashlaydi. Ko‘zlagan rejasi amalga oshmagan, ora yo‘lda Vatanini sotib yuzi shuvit bo‘lgan sotqin oxir-oqibat qon qusib o‘ladi. “Sarob”ning qahramoni Kimsanboy havoyi orzu-havaslariga, puch maqtovlarga, yolg‘on g‘oyalarga berilib otasini, yo‘q, otasini emas, balki iymonini, vijdonini, o‘zligini sotdi. Keksaygan otasining qimmatli umrini lagerning g‘ayriinsoniy muhitida o‘tishiga sabab bo‘ldi, ota qarg‘ishiga, atrofdagilarning haqli nafratiga uchragan Kimsanboy nafaqat tashqi ko‘rinishda odamiylikni yo‘qotib bo‘lgan edi (Uning doim liqillab turadigan, egasining yo‘nalishga qarab qo‘l bilan burib qo‘yiladigan kallasini eslang), balki ichki olami, insongarchiligi, vijdoni, ornomusi ham yo‘qlik qa‘riga yuz tutgan edi. Bejiz ham u Kimsan otini ko‘tarib yurgani yo‘q. U dunyoga kelib kimligini, nima uchun yashab yurganini anglamay o‘lib ketdi, juda xunuk o‘lim topdi, rivoyatdagi sotqin yigit kabi qismati ayanchli yakun topdi.

Yaqinlari, shogirdlari Said Ahmadga 50-yillardagi lagerda kechgan hayoti, o‘sha davrning qattolliklari haqida yozishni maslahat berganlarida, yozuvchi “yo‘q, yozolmayman, yuragim dosh bermaydi” deb javob bergan ekan. Ammo kun kelib donishmand yozuvchi u “o‘tgan kunlarning”, sho‘rolar davrining eng kir va

qora kunlarini qog‘ozga tushirish millatimiz oldidagi buyuk qarz ekanligini, farzandlik burchi ekanligini anglab yetdi. Shu tariqa yozuvchi ijodida lager hayoti mavzusi yuzaga keldi.

Xulosa qilib aytganda, Said Ahmadning mustaqillik davridagi ijodi sermahsul bo‘ldi. Ayniqsa, yozuvchining bu davrda yozgan hikoyalari o‘zining badiiy-estetik yetukligi bilan ajralib turadi. Hayotning eng muhim, muammoli vaziyatlarini, o‘tmishning inson ruhiyatiga ta’sir qilgan momentlarini kichik epik janrga, hikoyaga badiiy akslantirishda Said Ahmad mahorati ko‘zga tashlangan. Yozuvchining ushbu to‘plamdan joy olgan har bir hikoyasi badiiy mustahkamligi bilan adabiyotshunoslar e’tiborini ham o‘ziga jalb etdi. Undagi tasvir uslubi, badiiy tilning betakrorligi, obrazlar yorqinligi yozuvchi mahoratidan darak bergan. Kuzatadigan bo‘lsak, Said Ahmadning mustaqillik yillaridagi hikoyachiligining mavzu ko‘lami ko‘proq xotiralar va sho‘rolar davridagi illatlarni ochib tashlashga qaratiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Yo‘ldoshev. Q.“Yoniq so‘z”. Adabiy o‘ylar. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2006, 22-bet.
2. Normatov.U. “Ufqlarning chin oshig‘i” (Said Ahmadning ijodiy yo‘li, adib ilan suhbatlar). – T.: “Yurist-media markazi” nashriyoti, 2008, 5-bet.
3. Mirzayev.S. XX asr o‘zbek adabiyoti. T. : “Yangi asr avlodi”, 2005, 313-bet.
4. Said Ahmad. “Qorako‘z majnun” hikoyalar to‘plamidagi so‘zboshi o‘rnida. Umarali Normatov. “Istiqlol ilhomlari” . T.: “Sano-standart” nashriyoti, 2016-yil, 7-bet.

#### ФАРИДУДДИН АТТОРНИНГ “ТАЗКИРАТ УЛ-АВЛИЁ” ВА АЛИШЕР НАВОИЙНИНГ “НАСОЙИМ УЛ-МУҲАББАТ” АСАРЛАРИДА ШАЙХ УВАЙС ҚАРАНИЙ ҲАҚИДАГИ ҚАРАШЛАР

*Тоштемуров Муҳаммад Маматмурод ўгли,  
ЖДПИ магистранти,  
Илмий раҳбар: ЖДПИ доценти, ф.ф.номзоди  
Мамадалиева Зухра Умаралиевна*

Тасаввуф-инсонни комиллик сари олдинга ундовчи бир таълимотдир. У инсонни инсон қилиб тарбияловчи, бутун башарга куч-қувват, ғайрат-шижоат, журъат ва қатъий ирода берувчидир. Тасаввуф ва унинг намоёндалари ҳақида кўплаб олимлар-у фузалолар ўз фикрларини билдирганлар. Улар орасида Шайх Фаридуддин Аттор ва Алишер Навоий қарашлари ушбу мақоланинг манбаси ҳисобланади.

“Тасаввуф - ҳар бир ёмондан ҳоли бўлиш ҳар бир яхшидан ибрат олишга қурбатга ва висолга эришишдир. У инсонни қайта бино қилиш ва уни ҳар бир фикр, сўз, иш, ниятда Робби ила боғлашдир” - дейди фазилатли Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. [4:35]

Буюк шоир, мутафаккир ва тазкиранавис Фаридуддин Аттор “Тазкират ул-авлиё” асарида куйидагиларни ёзади: “Қуръон ва ҳадислардан кейин ҳеч сўз тариқатдаги машойихлар айтган сўзлардан афзалроқ эмас”. [3:11] Асарда шариат, тариқат, маърифат, таваккул, ризо, сабр, шукр каби тасаввуф истилоҳларига турли мутафаккирларнинг қарашлари айнан келтирилган.

Сўз мулкининг султони Низомиддин Алишер Навоий “Насойим ул-муҳаббат” асари муқаддимасида имон нури билан мушарраф бўлганлар валийлар учун умумий бўлган айрим хислат ва амаллар ҳақида маълумот беради.

Аллоҳ таоло шундай марҳамат қилади: “Бу кун сизга динингизни мукамал қилиб бердим”(Моида сураси 3-оят). Мусулмонлар уч асосга, яъни илм-иймон, амал-Ислом ва ихлос-эҳсонга риоя этсалар тўғри йўл тутган бўладилар. [4:62] Худди шу юқоридаги ҳолат Алишер Навоий асаридаги бош ғоядир. Зеро фазилятли Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф ҳам куйидаги фикрларни алоҳида таъкидлаб ўтганлар: “Иймонимиз –илмимиз, Исломимиз –амалимиз ва эҳсонимиз-ихлосимиз тўғри ва гўзал бўлиши учун йўл кўрсатувчи комил бир инсонни Ўзининг элчиси сифатида танлаб, бизга раҳбар этиб қўйган. Бу элчи мукамал дин орқали ахлоқларимизни гўзал ҳолатда тарбиялаш учун сўралган. [4:62]

Юқорилардан келиб чиққан ҳолда шуниси айтиш мумкинки, бобокалонларимизнинг нодир асарларида тасаввуф вакилларида қарашларида асосий масала имон масаласидир. Бунга мисол тариқасида Аттор ва Навоийнинг Шайх Увайс Қараний ҳақидаги қарашларига тўхталиб ўтамиз.

Навоий асарида келтирилишича, Аллоҳнинг пайғамбари: “Увайс Қараний эҳсон ва меҳрибонлиги билан тобеинларнинг яхшисидир. Гоҳ-гоҳ Хожаи олам (с.а.в.) муборак юзларини буриб, Яман томонидан қаратиб, “Мен Аллоҳнинг нафасини Яман томонидан туймоқдаман” дер эканлар. Ҳазрат Рисолат (с.а.в.) оламдан ўтар пайтларида асхоб (р.т.а.) сизнинг мураққангиз (қийқимлардан тикилган кийим) кимга қоладир деганларида Увайс Қаранийга беринглар ва у менинг умматимга дуо қилсин деган эканлар. Ҳазратдан сўнгра Форук (Ҳазрати Умар р.а.) ва Муртазо (Ҳазрати Али р.а.) Куфага бориб Яман элидан сўраб, Қаранда Увайсни топибдилар, туя боқиб юрар экан. Мураққани топшириб, уммат учун дуо сўрадилар”. [1:23] Шу ўринда Навоий зикрни қисқа қилиб, Увайс ҳақида тўлиқ маълумот олмоқчи бўлганлар “Тазкират ул-авлиё”ни ўқисин дейди.

Фаридуддин Аттор Увайс ҳақида таъкидлашишича: Расулulloҳ (с.а.в.) айтар эканлар: “Қиёмат куни Аллоҳ етмиш фариштани Увайс суратида яратар экан. Бунинг сабаби, фаришталар уни ўртага олиб жаннатга киритадилар, ҳеч ким ундан хабардор бўлмагай. Фақат Аллоҳ хоҳлаган кимсаларгина таниб оладилар. Зотан, Увайс Ҳақ ризоси учун халқдан пинҳон ибодат қилди. Шу сабабдан охиратда ҳам бошқалар кўзидан пинҳон бўлади”. [1:18] Асарда келтирилишича, Расулulloҳ (с.а.в.) ва Увайс Қараний бир-бирларини зоҳиран кўрмаган эканлар. Бунинг икки сабаби бўлиб: биринчиси сабаби ҳолининг кўплигидан бўлса, иккинчи сабаби шариат тақозосидан.

Увайснинг бир онаси бўлиб, унинг кўзи бу ёруғ дунёни кўрмас ва кўл-оёғи шол бўлган экан. Лекин шунга қарамасдан Расулулоҳ (с.а.в.) ва Увайс Қараний ғойибона бир-бирларига меҳр боғлаган эканлар. Бу ҳақда Аллоҳнинг сўзи бор: “Бу Аллоҳнинг фазлидирки, уни ўзи хоҳлаган кишиларга берур. Аллоҳ фазл соҳибидир!” (Жумуъа сураси 4-оят) [4:147] Увайснинг Расулуллоҳ (с.а.в.)га издошлари, меҳрлари шунчалик бўлган эканки, Ухуд жангида Пайғамбаримиз (с.а.в.)нинг муборак тишларидан бири синиб тушиб қолади, бундан бохабар бўлган Увайс ўттиз икки тишини синдириб ташлаган экан.

Ҳаром ибн Ҳайён Увайсни кўрган эканлар. У шундай дер экан: “Увайснинг шафоат даражаси буюклигига далолат ҳадисни эшитдим-да, унинг хизматига боришни орзу қилдим. Кўфага келдим. Уни топа олмадим. Излаб-излаб Фурот дарёси бўйида таҳорат қилаётганида топдим... У менга: “... Аллоҳ китобини ҳамма нарсдан илгари тутгайсан! Бирор соат ўлимдан ғафлатда қолмагайсан! Ўз қавмингни яхши кўрсанг, панд-у насиҳат қилиб, уларга Аллоҳ сўзини аямагин! - деб васият қилди”. [3:35]

Бундан ташқари Фаридуддин Аттор ўз асарида Увайс тилидан куйидаги фикрларни айтиб ўтади: “Ҳар ким уч нарсани севса, дўзах ўти у кишига бўйнининг томиридан ҳам яқинроқ бўлгай. Бири таомни сайлаб егай, иккинчиси яхши либос танлагай, учинчиси бойлар билан ўтиргай”. [3:37]

Яна бир қизиқ маълумот шундаки, ҳар иккала тазкиранавис Увайс Қараний зикрининг сўнггида увайсийлик таълимоти ҳақида фикр билдиради: “Билгилки, бир тоифа инсонлар бўлади, уларни Увайсий дейдилар. Улар ҳеч бир ҳожат ва воситасиз Пайғамбар (с.а.в) руҳидан тарбия топуралар.[3:39] Навоийда эса бу фикр куйидагича акс этади: “... ва ҳазрат рисолат с.а.в.ни кўрмабдур эрди ва ул ҳазрат ҳам они зоҳир кўзи билан кўрмабдур эрдилар. Маъною руҳоният юзидин тарбият қилиб эрдилар. Бу жиҳатдин ҳар кишинингки, бу тоифадин зоҳир юзидин пири маълум бўлмаса ва машойихдин бирининг руҳи они тарбият қилгон бўлса, они Увайсий дерлар”. [1: 24]

Юқоридагилардан келиб чиқиб, куйидагича хулосаларга келдик:

- 1) Фаридуддин Аттор ўз асарида Увайс Қараний ҳақида 19 та ривоят келтиради, Алишер Навоий эса Увайс ҳақида маълумот Атторда тўлиқ шарҳланганлиги учун, учта ривоятни қисқа баён этиш билан чекланади.
- 2) Навоий ўз асарида ўша 19 та ривоятдан айнан Увайс ва Расулуллоҳ (с.а.в.) билан боғлиқ маълумотнинг келтирилишидан асосий мақсад имон ва тақво масаласидир. Атторэса Увайснинг кўпроқ зоҳидлигига эътиборини қаратган.
- 3) Увайсийлик ҳақида сўз кетганда Фаридуддин Аттор фақат Пайғамбар руҳидан тарбия олганлар ҳақида шундай деган бўлса, Алишер Навоий пири ғайбдан бўлган ҳар қандай кимсани, у кимнинг руҳидан тарбия топишидан қатъий назар “увайсий” дейди.
- 4) Ушбу ўзига хосликларга қарамасдан ҳар икки тазкиранавис ўз асарларида Увайс Қараний шахсига ихлос ва эҳтиром билан ёндашдилар.



**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. МАТ 20 жилдлик. 17-жилд. нашриёти Тошкент: Фан, 2001.
2. Алишер Навоий. Насойим ул –муҳаббат. Ҳикоятлар ва хидоятлар. Олимжон Давлатовнинг таъдиди. Тошкент: Ўзбекистон, 2018.
3. Ақтор Фаридуддин. Тазкират ул-авлиё Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи 2017
4. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тасаввуф ҳақида тасаввур. Тошкент: Ҳилол нашр, 2021
5. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири ҳилол. Тошкент Ҳилол нашр. 2019

**СЎЗ ВА НАЗМ АЛИШЕР НАВОИЙ ТАЛҚИНИДА***Абдуллаева Зилола,**ЖДПИ магистрианти**Илмий раҳбар: ф.ф.д., проф. У. Қосимов*

Навоий ўз “Хамса”сининг таркибидаги барча дostonларининг муқаддималарида сўзга таъриф бериб ўтади. Баъзи муқаддималарда устозлар таърифи билан бирга берилса, баъзи дostonларда сўз таърифига алоҳида боб ажратилади. Худди шундай “Ҳайрат ул-аброр” дostonининг ҳам икки бобида сўз таърифи келтирилади. Шоир дастлаб сўзга таъриф берар экан, уни гавҳарга қиёслаб, юксакларга кўтариб шарафлайди:

Сўз гуҳариға эрур онча шараф,  
Ким бўла олмас анга гавҳар садаф.  
Тўрт садаф гавҳарининг дуржи ул,  
Етти фалак ахтарининг буржи ул. [1: 48]

Ҳазрат Навоий сўзнинг буюклигини “кун”(“ярал”) сўзининг олам ва одамни яратишда восита бўлганлиги билан далиллайди:

Даҳр муқайяд била озодаси,  
Борча эрур “коф” ила “нун” зодаси.  
Зодасидин зода бўлуб беадад,  
Зодага ҳам волид ўлуб, ҳам валад. [1:49 ]

Шоир “Ҳайрат ул-аброр”да сўзни жонга, руҳни эса унинг қолипига қиёслайди. “Кимнинг танида руҳи бор бўлса, у сўзга эҳтиёж сезади” дейди.

Тиргузуб ўлганни каломи фасих,  
Ўзига жонбахш лақаб деб Масих.  
Сўздин этиб ўтға азимат Халил,  
Сўз юкига ҳомил ўлуб Жаброил.  
Тенгрики, инсонни қилиб ганжи роз,  
Сўз била ҳайвондин анга имтиёз. [1:50 ]

Юқоридаги байтда Навоий яхши сўз билан ўлганни тирилтира олгани учун Исо пайғамбар ўзини “Жонбахш” лақаби билан атаганини, Намруд

Халилни ўтда ёқиб ўлдирмоқчи бўлганида ўз поклиги ва эътиқоди туфайли омон қолганлигини, Ислом динидаги тўрт фариштадан бири Жаброил Худо билан пайғамбар ўртасида элчилик қилганлигига ишорат қилиб “Жаброил ҳам сўз юкига ҳаммол бўлган” дея айтиб ўтади.

Бундан кўриниб турибдики, юқоридагиларнинг барчасига биргина сўз сабабчидир. Инсон ҳам сўзлаш қобилиятига эга бўлганлиги учун, Тангри томонидан ҳайвонлардан ортиқ қилиб яратилди.

“Ҳайрат ул-аброр”да айтилишича, Агар бирор гўзал бўлсаю, ҳар қанча чиройли ва ой юзли бўлса-да, лекин гапирмаса, девордаги суратдан фарқ қилмайди дейилар экан, агар инсонда сўзлаш қобилияти, нутқи бўлмаса унинг ташқи гўзаллигидан ҳеч қандай фойда йўқлиги уқтирилади. Навоий худди шу асарда сўзнинг маҳсули бўлган адабий турлар ҳақида ҳам тўхталиб, назм ва насрга алоҳида таъриф беради ва назмни насрдан устун қўяди:

Сўз аро ёлғон киби йўқ нописанд,

Айлар анинг назмини доно писанд. [1: 52]

Бу байт орқали оддий сўзлашувда ёлғондан эътиборсиз—нописанд нарса йўқ, лекин назмдаги ёлғон ҳатто доноларга ҳам маъқул, яъни назмда муболағага йўл қўйиш унинг таъсирчанлигини оширади, дейилмоқда.

Бу байт Алишер Навоийнинг адабиётда бадиий тўқима, муболаға, фантазиянинг роли тўғрисидаги эстетик қарашини акс эттиради. Навоий ушбу масала юзасидан ёшлик йилларидан бошлаб ўйлай бошлаган. Масалан, “Ҳайрат ул-аброр”даги мазкур фикр унинг устози Саййид Ҳасан Ардашерга ёзган маснавийсида:

Сўз ичраки ёлғон эрур нописанд,

Чу назм эттилар- қилди доно писанд. [2:425]

шаклида ифода этилган. Эътиборли томони шундаки, Навоий қарийб бутун умри давомида шеърятда муболағанинг қиммати юзасидан билдирган эстетик қарашига содиқ қолган. Биз буни юқоридаги мактубда келтирилган байтнинг “Маҳбуб ул-қулуб” асарида ҳам айнан шу шаклда келтирилганлиги билан изоҳлашимиз мумкин.

Сўз ичраки ёлғон эрур нописанд,

Чу назм эттилар қилди доно писанд. [3: 75]

Навоий “Ҳайрат ул-аброр”да назмни тиш инжуларининг оғизда терилиб тургандаги кўркамлигига қиёслар экан, бу инжулар оғиздан тушиб насрдай сочилса қиммати йўқолади дейди:

Ўрнида тишлар дури манзум эрур

Чун сочилур қиймати маълум эрур. [1: 52]

Яна шоир ташбеҳ санъати воситасида назмни боғдаги гул ва дарахтларга, насрни эса тоғдаги тартибсиз ҳолатда сочилиб ётган гул ва дарахтларга (улар ўтин ҳисобида қаралади) қиёсланади:

Варду шажар шоҳид эрур боғ аро,

Лек ўтун силкидадур тоғ аро. [1: 52]

Кейинги байтларда эса назмнинг насрдан афзалликлари шатранж-шахмат ўйини мисолида асосланилади ва Навоийнинг тўла асарлар

тўпламининг насрий баёнида қуйидагича фикр билдирилади: “Шахмат тахтасига доналарни тўккан одам унинг ёғоч доналарини қанча мақтамасин, чиройли бўлиб кўринмайди, агар бошқа биров-икки томонга у доналарни икки қатордан қилиб терсагина у чиройли кўринади ва бу икки қатор худди икки мисра шеърга тўрт қатор эса шеърнинг икки матлабига ўхшаб кетади. Бундаги ҳар бир дона ажойиб муаммо бўлиб, уларнинг орасида отлар ҳам пайдо бўлади. Одам қанча тўғри фикр қилмасин, бунда озгина паришонликка йўл қўйса “отнинг юриши туфайли мот бўлиб қолиши мумкин.”

Навоий назми улуғлар экан:

Бўлмаса эъжоз мақомида назм,

Бўлмас эди Тенгри каломида назм [1:362]

дея “Қуръони карим” да ҳам назм борлигига ишорат қилади.

Навоий назм ва насрга бўлган муносабатини “Хамса”нинг кейинги дostonларида ҳам давом эттиради. Улар охир оқибатда яхлит бир ижодий концепсия сифатида кўзга ташланади. Лекин шуни ҳам таъкидлаш керакки, Навоийнинг бу масалага доир қарашлари “Хамса”нинг бошқа дostonларида у ёки бу тарзда “Ҳайрат ул-аброр”даги фикрлардан ўсиб чиққан ёки бевосита уларнинг узвий давоми десак муболаға бўлмайди.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. Тошкент: Фан, 1991.
2. Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1989.
3. Алишер Навоий. Фаройиб ус-сиғар. Тошкент, Фан, 1998.
4. Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. Тошкент, Фан, 1998. Б.75.

### **“MASNAVIY”DA ILOHIY MUHABBAT TARANNUMI**

*Shuxratjonova Nigora Shuxratjon qizi,*

*JDPI magistranti*

*Ilmiy rahbari: Soatova Nodira Isomitdinovna,*

*JDPI dotsenti, filologiya fanlari nomzodi*

Mavlono Rumi qoldirgan ma'naviy meros asrlarga tatigulik ahamiyatga molikdir. Shu bois Jaloliddin Rumi o'rta asr musulmon Sharqining muazzam siymolaridan, ulug' bir zotlardan hisoblanadi. Jaloliddin Rumi yning “Masnaviy-ma'naviy” asarini mutoalla qilar ekanmiz, allomani falsafiy-ma'rifiy qarashlarini komil insonni tarbiyalashdagi beqiyos ahamiyati nihoyatda katta ekanligini shohidi bo'lamiz.

Jaloliddin Rumi o'zining “Masnaviy” asarida ko'p o'rinlarda hayotdagi ezgulik bilan bog'lik oddiy bir ahloqiy tushunchani ifodalaydi. Bu bilan Jaloliddin Rumi aytmoqchiki, inson abadiy yashamaydi, o'lim haq shunday ekan, odamlarga yaxshilik qil, hayotda shu qoladi.

Jaloliddin Rumi ijodi yohud falsafiy qarashlarining asosida ilohiy muhabbat yotadi. Buni biz ul zotning har bir satrida ko'rishimiz mumkin:

«Sevilgan kishi go‘zaldir. Aksincha bo‘lmaydi. Ya‘ni hamma go‘zallar – da sevilavermaydi va sevilishi shart ham emas. Go‘zallik sevimlilikning bir jo‘z‘idir. Sevimli bo‘lmoq asldir. Bu bo‘lgandan keyin go‘zallik ham mavjuddir. Har narsaning jo‘z‘i ya‘ni qismi butunidan ayri bo‘lolmaydi, ular birgadir, ya‘ni qism butun bilandir. Majnunning zamonida ham go‘zallar bor edi va ular Laylidan husnliroq edi. Biroq Majnun ularni sevmaydi. Unga « Laylidan ortiq go‘zallarni ko‘rsataylik, beraylik » dedilar. Majnun esa, « Men Laylining suratini sevganim yo‘q va u ko‘rinishdangina iborat emas. Layli mening qo‘limda bir qadah kabidir. Men bu qadahdan sharob ichayapman, chunki men sharobga oshiqman. Sizing ko‘zingiz faqat qadahda, ichidagidan xabaringiz yo‘q, siz «g‘ofilsiz » dedi. Mening qo‘limga oltin bezakli bir qadah tutqazsalaru, ichidagi sharobdan boshqa narsa bo‘lsa. Buning nima foydasi bor? Men uchun sharob to‘la eski va siniq bir idish, oltin bezakli bu va buning kabi yuzta qadahdan yaxshiroqdir. Qadahdagi sharobning mazasini bilish uchun ishq va shavq kerak bo‘ladi. Chunonchi, o‘n kundan beri och yurgan odam bilan kunda besh mahal ovqatlanib yurgan to‘qning nonga qarashlari bir xil emas. Chunki to‘q nonning suratini ko‘rsa, och uning siyratini ya‘ni mohiyatini ko‘radi. Non qadah bo‘lsa mazasi qadahdagi sharob kabidir. Biroq sharob faqat ishtahasi va shavqi bo‘lgan ko‘zgagina ko‘rinadi. Sen ham o‘zingda ishtaha bilan shavq hosil etki, faqat suratni emas, balki siyratni ham ko‘rgaysan. Bunday odamlarning surati qadahlarga o‘xshaydi, ilm va bilimlari ana shu qadahlarga solingan naqshlar kabidir. Qadah sinishi bilan naqshlardan asar ham qolmaydi. Demak, qiyomat qadah singari bo‘lgan vujudlardagi sharobdadir va bu sharobni ichgan kishi uning o‘lmas yaxshi narsa ekanligini biladi»[1;72-73].

Rumiyning ushbu fikrlari haqiqiy ishq suratga emas, balki siyratga nisbatan bo‘ladi va shundagina inson bu ishq vositasida o‘zini va butun olam va Allohga bo‘lgan buyuk ishqni anglaydi. Hech kimga sir emaski, muhabbat va go‘zallik tushunchalari Sharq estetikasi va G‘arb estetikasining ham muammoli masalalaridan hisoblanadi. G‘arb tafakkurida bu tushunchalar turlicha ta‘riflanadi. Biz bu ta‘riflardan estetik mohiyatni anglashimiz mumkin. Tasavvufda yohud Rumiyy ijodida bu tushunchalar estetik mohiyat kasb etmasdan balki butun olam va inson falsafiy mohiyatining asosini tashqil qiladi. Yuqorida Mavlono nazarda tutgan qadah va sharobni turlicha sharhlash mumkin. Kichik miqyosda olib qaraydigan bo‘lsak, insonning mahbusasiga bo‘lgan muhabbatida go‘zallik ham, mohiyat ham o‘tkinchi sifat va belgilar darajasida bo‘lishi mumkin. Agar inson o‘z yorini uning tashqi go‘zalligiga qarab sevsas, uning muhabbati haqiqiy muhabbat emas, balki o‘tkinchi ehtiroslardan iborat bo‘lib qoladi. Rumiyy aytganlaridek, faqat qadahning naqshlarini ko‘radi, lekin uning ichidagi sharobni ya‘ni mohiyatni ko‘rmaydi va anglamaydi. Qachonki, inson o‘z yorini chin qalbdan sevsas, bu muhabbat haqiqiydir. U yoriga bo‘lgan muhabbati vositasida o‘zini anglaydi va jamiki insonlar va Allohga bo‘lgan buyuk ishqni his qiladi.

Shu o‘rinda Mavlono Rumiyy fikrlarining isboti sifatida Ibn Sinoning muhabbat haqidagi qarashlariga e‘tiboringizni qaratmoqchiman. Ibn Sino bu haqda: «Inson ruhi doimo yuksaklikka intiladi, lekin inson ruhining bir yuzi pastga qaragan bo‘ladi. Agar insonning yoriga bo‘lgan sevgisi o‘tkinchi ehtiros va hissiy

mayllardan iborat bo'lsa, uning ruhi yuksaklikka qarab emas, tubanlik sari so'z tutadi va o'z mohiyatini anglay olmaydi. Qachonki inson mahubbasiga bo'lgan muhabbatini qalban his etolsa, uning ruhi o'z asli bo'lmish yuksaklik sari parvoz etadi va barcha mohiyatlarni anglaydi» [2;62]. Agar biz Rumiyni nazarda tutgan yuqoridagi fikrlarni keng miqyosda tahlil qilib ko'radigan bo'lsak, quyidagi xulosaga kelishimiz mumkin; Dunyo bir qadax, uning moddiy taraqqiyoti uning naqshlari kabi o'tkinchi sifatlaridan darak beradi. Ichidagi sharob esa uning haqiqiy mohiyatidan, sir asroridan bizga xabar beradi. Bugungi insoniyat o'zining moddiy taraqqiyotini juda yuksak deb biladi va dunyoning o'tkinchi go'zalliklari va lazatlariga mahliyo bo'ladilar, bular esa xuddi Rumiyni nazarda tutgan Majnunga «Laylidan go'zalroq go'zallarni ko'rsatmoqchi» bo'lgan kishilarga o'xshaydi. Ular hayotning, go'zallik va muhabbatning mohiyatini ham o'tkinchi sifat va ehtirolarda deb biladilar. Shu tariqa o'zlarining va dunyoning mohiyatlaridan ya'ni qadah ichidagi sharobdan bexabardirlar. Ko'rinib turibdiki Jaloliddin Rumiyni go'zallik va muhabbat estetik tahlilidan buyuk bir falsafiy mohiyatlarni kashf etishimiz mumkin.

Rumiyni qarashlarining o'ziga xos jihatlari shundaki, u barcha insoniy sifatlar, mohiyatlar va borliqning sifat - mohiyatini majoziy obraz va timsollar bilan tushuntiradi. Shuning uchun bo'lsa kerak, uning asarlariga mana yetti asr bo'libdik ne – ne allomalar tomonidan sharhlab kelinadi.

Shu o'rinda savol tug'iladi, Jaloliddin Rumiyni kuylagan ilohiy muhabbat va go'zallikning asl maqsadi nima? Bu savolga ul zotning «Masnaviy ma'naviy» asaridan shunday javob topishimiz mumkin.

*Guftamash: «Pushida xushtar sirri yor,  
Xud tu dar zimni hikoyat go'sh dor.*

Ya'ni: Men Xusomuddin Chalabiyga dedim: «Yorlar sirining bo'lmagi yaxshidir. Toki nomahramlarning nazari unga tushmasin. Sen esa hikoyat qatiga yashiringan yor sirlarini hushyorlik qulog'i bilan eshit, angla».

*Xushtar on boshad, ki sirri dilbaron,  
Gufta oyad dar hadisi digaron.*

Tarjimasi:

*Xushdir ulkim, yorlar asroridan  
Bo'lsang ogoh o'zgalari guftoridan[3;40].*

Ya'ni: Ilohiy haram mahubalarining asrorini o'zgalardan eshitgan ma'qulroq. Zero, nomahramlar va begonalar ularning yorliq sinoatidan voqif bo'lmasinlar. Haqiqiy tasavvuf aytmoq emas topmoqdir. Kimlarki so'ylamishdir tasavvuf haqiqati emas, uning odobi haqida so'ylamishdir.

Yuqorida keltirilgan «Masnaviy ma'naviy» sharhlaridan shu narsa a'yon bo'ladi. Barcha muhabbat va go'zallikning asli Alloxdir. Buyuk ishqqa doxil bo'lishi uchun esa inson juda ko'p mashaqqat chekishi lozim bo'ladi. Bundan ko'rinadiki insondan tortib olamdagi eng kichik zarralargacha Allohning go'zalligi aks etgan. Ular orasidagi uyg'unlik esa muhabbat hosilasidir. Agar inson o'z atrofidagi yaqin kishilarini sevolmasa, muhabbat asosiga qurilgan olamiy



uyg'unlikka qo'shilolmaydi va barcha go'zalliklardan mosuvo bo'ladi. Uning yuragi xuddi bir go'sht parchasi bo'lmay, unda muhabbat pinhondir, inson esa o'z qalbidagi bu muhabbatni kashf etishi lozim bo'ladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Жалололидин Румийнинг Фийҳи мо фийҳи. (Ичиндаги ичиндадур) Улуғбек Ҳамдам таржимаси. Т.: Янги аср авлоди, 2001
2. Мухаммад Истеъломий. Жалололидин Румий хакида. Техрон. 2001
3. Жалололидин Румий. Маснавий 5 жилд. «Ал худо» нашриёти. –Т 2004

### ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATIDA MA'RIFIY G'OYALARNING BADIY TARANNUMI

*Usmanova Dildora Sheraliyevna,  
SamDU magistri*

Inson tafakkurini boyitish, ma'naviyatini yuksaltirishda lirik asarlar beqiyos ma'rifiy qudratga ega. Lirik turdagi asarlar uchun asosiy narsa tuyg'u va hissiyotga yo'g'irilgan hayotiy hikmat ifodasini berishdir. Bu turdagi asarlarda voqealar tasviri, xarakter mantig'i emas, ruhiy holat va hissiyot ifodasini berish, tuyg'ular samimiyatini muhrlash muhim hisoblanadi. Chinakam lirik she'r tinglovchiga faqat zavq beribgina qolmay, uning emotsional tafakkuriva ma'naviy-axloqiy quvvatini uyg'otib faoliyatga undaydi. "Samimiy lirik so'z hatto real voqelik hodisalariga qaraganda ham inson ruhiyatiga kuchliroq ta'sir ko'rsatishi mumkinligi psixologiya ilmi xulosalaridan ma'lum", - deydi adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo'ldoshev [1, 74-bet].

Xalqimizning iste'dodli shoiri Abdulla Oripov she'riyati ham ayni lirik xususiyatlarni o'zida yorqin mujassam etgan badiiyat durdonalari, ma'rifat maktabi ekanligi bilan alohida diqqatga sazovor. She'r mo'tadil holatning mevasi emas. Uyo quvuch yo g'am va yoki g'azab onlarida tug'ilgan onning kayfiyati so'zga shundoq ko'chib o'tadi. Shoir ijodkorning samimiyligi ayni shunda ko'rinadi. Samimiylik asa she'riyatning tomiridagi qon. [2] A. Oripov she'rlari ham o'z o'zidan yozilgan emas. Yillar davomida turli she'rlar bitgan bu ijodkor she'rlarida o'zgacha ruh ifoda kasb etadi.

XX asrning 60 yillaridan A. Oripov asarlari bilan boshlangan sifat o'zgarishlar o'zbek adabiyotini yangi bosqichlarga ko'tarishda muhim rol o'ynadi. Shoir o'zining ilk she'riy to'plami "Mitti yulduz" bilan oq ko'pchilikning na'zariga tushdi. Bu haqda taniqli shoir Usmon Azim shunday yozadi "Uning toza, yuksak, samimiy hech kim - u hech narsa dan hayiqmaydigan ovozi birdan O'zbekistonni larzaga soldi. Shoirning birinchi kitobi misli ko'rilmagan hayajon bilan kutib olindi. G'ayrat va jasorat bilan yo'g'irilgan she'rlar yuraklarga, ruhlarga "Vatan" degan tug'yonning mangu hayot muhabbatini sochib o'tdi. Hozir biz "O'zbekiston Vatanim manim" deb jo'ngina aytayotganimiz

satrlarni upaytlarda hasrati-u g'ussalar ichida ko'z yoshlarimiz tirqirab yod aytganlarimiz yodimda" [3, 78-bet]

A.Oripov mustaqillik davrida Vatan, erk, ozodlikni tarannum etuvchi ko'plab yangi she'rlar yozdi .Yangi tarixiy sharoit ijodiga yangi to'lqinlar olib kirdi.Haj safari natijasida tug'ilgan hamda hikmotomuz hadislar talqiniga bag'ishlangan falsafiy didaktik she'rlar so'nggi bosqich o'zbek adabiyoti ufqlarini kengaytirdi.

Shoirning baxti uning dardkash qalbidagiinja tuyg'ularning samimiyligi, Vatan degan so'zning butun salmog'i,zalvori ,shukuhini teran anglagandadir. Uning "O'zbekiston Vatanim maning" she'rida O'zbekiston alohida poetik ko'rkamlik bilan bo'y ko'rsatadi, o'tmish va bugunni o'zaro uyg'unlshirib ,o'quvchini yurt sarhadlari tomon sayrga chorlaydi.

Shoirning millatsevarlik ,vatanparvarlik kechinmalarini xalqning shonli tarixi,o'tmishi ulug' bobobokalonlarini qismati bilan bog'lab yozilgan asarlaridan yana biri o'tgan asrning 70-yillarda yozilgan "Genetika" she'ridir. Unda ijodkorning o'tkir badiiy tafakkuri,yuksak ma'rifiy qiyofasi yorqin gavdalanib turadi.She'r mazmunida o'z millati tarixdan faxrlanish ,yorqin kelajakkatamal toshi qo'ygan vatan o'g'lonlarini madh etish g'oyalari ustuvor.Bundan maqsad esa kelajak avlod qalbida o'z millati tarixi,buyuk siymolari yurt fidoyilariga muhabbat va ehtirom tuyg'ularini kamol toptirishdir.

Men ham yashayapman o'z zamonimda,  
Davrimdan qayga ham tushardim yiroq.  
Va lekin bilmadim ,mening qonimda  
Qaysi bir bobomning xislati ko'proq.  
Barchaga barobatr meros bu bashar,  
Otdan qosh –ko'zni olgan o'g'ildek,  
Bilmadim qonimda qay ajdod yashar,  
Balki bobo Kayfiy ,balki Ulug'bek.

Mazkur she'rni o'qigan har qanday kitobxon o'z Vatani tarixiga o'zgacha qiziqish va mehr bilan yondoshadi. Bobo Kayfiy, Ulug'bek, Navoiy, Bobur singari ma'rifatparvar, Shiroq, Muqanna singari fidoiy tinchlik posbonlari avlodi ekanlifidan faxrlanib,ularga munosib izdosh bo'lishga ezgu amallari bilan o'zidan yaxshi nom qoldirib yashashga intiladi.

Samimiylik, lirik qahramonlar kuyunchakligi va dardchilligi poetik ifodalardagi nafosat ,tildagi dilbar o'ktamlik ,ularning o'zaro uyg'unligidagi yaxlitlik A.Oripov asarlariga joziba bag'ishlaydi.

Abdulla Oripovning lirik qahramoni hech qachon haqiqat adaolat tushunchasini tayyor qabul qiladigan yoxud ma'qul kelmagani uchun qo'lini bir silatab, inkor etadigan kishi emas. Bir qarqganda haqiqat va adolat barchaga ayon, hammaga ravshan tushunchadek, biroq uning inson qalbi orqali o'tish va ro'yobga chiqish jarayonlari shu qadar sir –sinoatli, ziddiyatliki, shoirning lirik qahramonlari ularning zamiriga yetishga intiluvchi, mushohadakor kishilardir. Qahramonni turli holatlarda namoyon bo'lishidan tortib uning xalq, tarix, alohida bir vijdon dunyosi bilan bog'lash nuqatalarigacha qiziqtiradi. "Bahor",

“Genetika” she’rlarida maqsad ruhiy dunyoga falsafiy nazar tashlash orqali namoyon bo‘lasa, “Yurtim shamoli”, “Malomat toshlari” she’rlarida bir qalbning yurt taqdiri ,umuminsoniy qadriyatlar bilan kesishgan nuqtalarini badiiy yoritish orqali amalga oshiriladi. “Yurtim shamoli” da shamol tushunchasi , shamol obrazi shoir talqinida, shunchaku biz bilgan ma’nodan tashqari , chuqur falsafiy umumlashma darajasiga ko‘tariladi. Unada Vatan ,adaolat, tarix bilan aloqador ma’nolar chirmashib ketadi.

Shamollar esgandur ushbu dunyoda,  
Shamollar goh quyun,gohida dovul.  
Ular goh oshkora, goh ro‘yoda,  
Qancha bo‘stonlarni sovurgan butkul.  
Lekin sen bo‘lmagin bog‘lar zavoli,  
O, yurtim shamoli,yurtim shamoli.

Xalqimizning yana bir sevimli shoiri Erkin Vohidov Abdulla Oripovning poetik mahorati haqida fikr bildirib,shunday degan edi: “Barcha isyonkor shoirlar kabi Abdullaga ham oson bo‘lgan emas .Qattol tuzum qamchisidan u haam omon qolmagan ,Lekin ruhiy azoblar,siquvlar ming iztiroblar so‘nggida shoirga nasib bo‘lgan kattakon baxt shuki ,u xalq mehrini qozondi ,o‘zi kurashgan ozodlik va mustaqillik g‘oyasining kurtak yozganiga guvoh bo‘ldi.Shoir uchun bundan ortiq saodat yo‘q”.

Abdulla Oripov – realist, haqiqatparast shoir. U murakkab, ziddiyatli hayotning shabadalari haqida gapirganda haqiqatdan chekinmaydi.Chunki davr shamollari ichida o‘zi ham borligini yaxshi tushunadi. Shoirning “Yuzma – yuz” she’ri insonning hayotdagi o‘rni ma’naviy kamoloti haqida shoir orzulari, armonlari avj pardalarida kuylangan asardir. Uni janr tabiatiga ko‘ra, kichik lirik doston deyish mumkin.

Asar lirik qahramonning el-yurt bilan tarix ,davr va ayniqsa, kelajak haqidagi to‘lqinlantirib,o‘ylantirib kelayotgan mihim muammolar xususidagi ochiq, yuzma – yuz dardlashuvdan tashkil topadi.Dunyodagi barcha kulfatlar adashishlar hamjihatlikning buzilishidan o‘ljani uy-uyiga tortib ketishdan boshlangan, deb boshlaydi asarni shoir. Olis moziyda o‘rmondan chiqqan mamontlar to‘dasi haqida gapirib kelar ekan ,tarixda bizga undan ham yaxshyroq to‘dalar “har yondan guras guras bostirib” kelganini ustalik bilan qistirib o‘tadi.

Hali yigirma uch yoshga kirib – kirmagan shoir tarix bilan bahslashadi, hatto dunyo adashadi, deyishga jur‘at etadi.Asarning lirik va epik qatlamlari hayotiy, bir –biri bilan o‘zaro mustahkam bo‘langan. Lirik qahramon tarix bilan, insoniyat bilan ajralmas birgalikda zohir bo‘ladi.

Men bir tajribasiz, g‘o‘r yigit, nechuk ,  
Adashding deyapman, dunyoga hayhot.  
Abdulla,xanjarni o‘zingga urgin ,  
Sen o‘zing adshmay o‘sdingmi ,hayhot?.

Umrning halol , beg‘ubor davrinishoir obrazli tarzda umumlashtirib “yoshlik”deb ataydi.Gap bu yerda uning qanday atalishda emas ,unga qanday ma’no-maqsad singdirilishida. Bu o‘zimizning asl ildizlarimizga

o‘zligimizga ,milliy asoslarimizga davlatchiligimiz mustaqilligiga qaytishimiz zarurligiga bir ishoradur.Biz hozir o‘zimizning ana shu asliy orzumizga erishdik. O‘zligimizga qaytib, ruhiyatning toza ruhiyatning toza iqlimlarini topdik.

Shoirning ma’rifiy mazmundagi she’riy asarlari qatorida “Jannatga yo‘l” daromatik dostoni salmoqli o‘rin tutadi.Mifologik fantastik mavzu asosida yozilgan ushbu asarda voqea-hodisalar “nargi dunyo”da sodir bo‘ladi lekin bu yozuvchi qo‘llagan bir usul ekanini unutmash kerak. Aslida mifologik libosda realistik maqsad yotadi, ya’ni adib afsonaviy naql vositalari orqali biz yashab turgan shu dunyo muammolarini,insoniy munosabatlardagi kemtiklikni talqin etadi.

Asarda komil inson, ezgulik, yomonlik,oxirat timsollari jonli obrazlar asosida ko‘rasatiladi. Muallif maqsadlarini ifodalovchi ramziy ma’no asar nomiga jo qilingan. Inson tasavvuridagi oliy ideal, oliy xilqat jannat ekan ,bu joyga eltuvchi yo‘l shoir talqini va tasviricha, siz bilan biz yashayotgan shu tiriklik dunyosidagi ezgulik, mehr- muruvvat, diyonatda; ota-ona yaqinlar, umuman, odamlar oldidagi ularning har biriga munosib qarzni uzish va burchni ado etishda.

Asar asosida muhim bir badiiy konsepsiya yotadi:ezgulik faqat imkon borida yoxud imkon boricha ro‘yobga chiqariladigan xohish emas. Ezgulik insonda, albatta, amalga oshirilishi zaruz ehtiyoj bo‘lmog‘i kerak. A.Oripov ezgulikni bu dunyoda yashab o‘tib,u dunyoga tushgan qahramonlar timsolida ana shunday talqin etadi. Mezon tarozisida gunoh va savoblar o‘lchanar ekan, hayotda qilgan ezguliklar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi. Ezgu ishlarni amalga oshirish va yomonlik ayovsizlik asarda inson burchini belagilaydigan ichki asosiy omil sifatida ifodalanadi. Bu hol Yigitning Tarozibon bilan suhbatida, Ota bilan Yigitning dardlashuvida, Ona monologlarida, Do‘st va Yigit muloqotida yaqqol ochilib boradi. Ota-ona hurmati ulug‘langan sahnalarda bu masala yanada teran aks etadi. Dostonda Yigit va Do‘st obrazlari orqali do‘stlik ulug‘lanadi.murakkab vaziyatga tushib qolgan ikki do‘stning bir –biriga cheksiz sadoqatini ko‘rsatish orqali shoir inson umri mohiyatidagi go‘zallik va qudratning asosi do‘stlikdadir, degan g‘oyani ilgari suradi.

Yuqoridagi tahlilardan ko‘rinadiki, Abdulla Oripov she’riyati o‘zining yuqori darajadagi ma’rifiy estetik xususiyatlari bilan o‘zbek adabiyoti xazinasida munosib o‘rin tutadi.Millat ma’naviyatini tarannum etuvchi,tarixning shonli sahifalarini yorituvchi,ezguliklarga yo‘naltiruvchi bu badiiyat durdonalari abadiyatga daxldor, ijodkori ham xalqimiz qalbida mangu barhayotdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

- 1.Yo‘ldoshev Q., Yo‘ldosheva M. Badiiy tahlil asoslari. –T., Kamalak, 2016. – 238 bet.
- 2.Qo‘shjonov M., Meli Suvon. Abdulla Oripov. –T., Ma’naviyat, 2000. – 144 b.
- 3.Azim Usmon. Vatanni sevmoqni o‘rgatgan shoir // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati, 2001-yil, 23-mart.

**TANQIDCHILIKNI SHARAFLAGAN BUYUK IJODKOR***Muxtorova Aziza**JDPI talabasi**Ilmiy rahbar: JDPI prof.v/b, f.f.d.U. Qosimov*

Xalqimizning faxr-u g'ururiga aylangan buyuk siymolarimizdan biri, shubhasiz, bu - O'zbekiston Qahramoni, atoqli tanqidchi va adabiyotshunos, zabardast tarjimon va publitsist, mashhur ustoz-murabbiy va yirik jamoat arbobi Ozod SHarafiddinov edi. XX asr o'zbek adabiyoti va tanqidchiligi tarixini, kengroq qilib aytsak, xalqimiz ma'naviyati va tafakkuri rivojini Ozod Sharafiddinov ijodiy faoliyatisiz to'liq tasavvur etib bo'lmaydi. "Keyingi 50 yilda faoliyat ko'rsatgan adabiyotshunoslar, publitsistlar silsilasida Ozod Sharafiddinovning nomi alohida bir cho'qqi yanglig' ko'zga tashlanib turadi. Ozod Sharafiddinov o'zidan o'lmas ijodiy meros qoldirdi. Bu ijod nainki bir insonning, balki butun bir millatning faxr-u g'ururi bo'la oladigan ijoddir". O'zbekiston Qahramoni Abdula Oripovning bu samimiy e'tirofi butun adabiy jamoatchilikning va ziyoli xalqimizning ham yakdil bir bahosi deyilsa, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Bu tarixiy haqiqat boshqazamondoshlari tomonidan ham takidlangan: "Ozod Sharafiddinov hayotda ham, ijodda ham o'zining haqqoniy so'zi, iroda va matonati bilan yurtdoshlarimizga, avvalambor, yoshlarimizga ibrat bo'layotgan, tom ma'nodagi ma'rifatparvar insondir". Haqiqatan ham, O.SHarafiddinov tanqidchi o'z iste'dodi va yorqin shaxsi bilan adabiy jarayonda va badiiy ijod olamini rivojlantirishda qanchalar ulkan rol o'ynashi va qudratli ta'sir ko'rsatishi mumkinligini yaqqol isbotlab bera oldi. Bunday ijodiy baxt kamdan-kam insonlargagina nasib etadi.

Ozod Sharafiddinovning nodir iste'dodi, badiiy ijod va estetik tafakkur rivojidagi va ayniqsa adabiy tanqidchilik sohasidagi beqiyos xizmatlari bu olimning g'oyat serqirra va betakror bir siymo bo'lganini ko'rsatadi. Fikrimizning dalili sifatida, O.SHarafiddinovning adabiy tanqidchilik maydoniga kirib kelgan paytlarida yozgan va she'riyatimizning jiddiy muammolariga bag'ishlangan "Lirika haqida mulohazalar" kabi maqolalarini va so'nggi yillarda nashr etilgan "Chinorlardan biri" (Abdulla Qahhor), "Millatni uyg'otgan adib" (Oybek) va "Istibdod qurboni yoxud o'zligidan mahrum etilgan shoir" (Hamza) kabi bir-ikki maqolalarini ko'z oldimizga keltiraylik. Bulardagi lirik asarlar tahlilining chuqurligi, fikr va umumlashmalarning mantiqan teranligi, tili va uslubining puxtaligi ularni yetuk bir olim yozgan degan xulosaga kelishi tabiiy. Tanqidchilikda bir voqea bo'lgan, o'sha davr she'riyatining takomiliga yangi bir ruh bag'ishlangan bu maqolalar adabiyotimizning G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Mirtemir va Izzat Sulton singari ulug'lari tahsiniga sazovor bo'lganligi ham bejiz emas edi. O.SHarafiddinov fenomenining hayratli bir jihati ham shundaki, uning ilk chiqishlaridayoq yorqin namoyon bo'lgan tug'ma tanqidchilik talanti hech qachon xira tortmadi, shoirona qalb ehtirosi va jo'shqin ilhomi umrining so'ngiga qadar susaymadi. Bu haqda O'zbekiston Qahramoni, mashur shoirimiz Erkin Vohidov aytgan samimiy fikrlar millionlab kitobxonlarning



ko'nglidagi yakdil fikrlarni ham ifodalagan:" Ozod Sharafiddinov XX asr adabiy muhitida o'z ibratli shaxsiyati, mustahkam e'tiqod-u dunyoqarashi bilan ziyolilarimizning butun bir avlodi uchun namuna bo'lib tanilgan alloma. Bunaqa odamlarni xudoyim bizning baxtimizga, jamiyat baxti uchun beradi".

Ozod Sharafiddinovning tanqidchilik iste'dodi va ijodiy salohiyati nechog'lik serqirra va samarali ekanligini tasavvur etish uchun loaqal u kishining badiiy ijod va adabiyotshunoslikning qanday dolzarb va murakkab mavzu va muammolarini teran yoritib berganligini bir qur esga olaylik. Birgina XX asr o'zbek adabiyoti tarixi masalasini o'rganishni olaylik. G'oyat murakkab va ziddiyatli kechgan bu davr adabiyotning o'nlab atoqli vakillari hayoti va ijodini mufassal yorituvchi ko'plab yirik tadqiqotlar, darslik, monografiya va salmoqli to'plamlarining aksariyati bevosita Ozod Sharafiddinov rahnamoligi va mutasaddiligida yuzaga kelgan. Bu haqiqatni va bularning evaziga sho'ro davrida keskin tazyiq va ta'na-dashnomlarga ham duchor bo'lganligini, afsuski, bugungi yoshlarimiz yaxshi bilmasligi mumkin. Zotan, istiqlol tufayli bugun Cho'lponning nomini qo'rquv yoki hadik bilan emas, balki haqli ravishda faxr bilan tilga olishimizda va uni adabiyotimizning eng porloq siymolaridan biri sifatida ardoqlashimizda O.Sharafiddinovning xizmatlari beqiyosdir.

Xuddi shundayin, ikkinchi jahon urushidan keyingi yillar hukm surgan yana bir mash'um qatag'on davrining dahshatli azob-uqubatlarini tortib kelgan Maqsud Shayxzoda, Mirtemir kabi ulkan adiblarimizni yangidan "kashf" etish va ularning har xil shubha, ayblar bilan nohaq kamsitilgan asarlarini odilona baholab, ularni elimizga tanitishda jonbozlik ko'rsatgan tanqidchi va adabiyotshunoslarimizning karvonboshlaridan biri ham O.Sharafiddinov bo'lganligi endilikda isbot talab qilmaydi. Xuddi shundayin, Asqad Muxtor, Zulfiya, Mamarasul Boboyev, Said Ahmad, Odil Yoqubov va Pirimqul Qodirov, (bu ro'yxatni uzoq davom ettirish mumkin) kabi o'nlab yirik so'z san'atkorlarimiz iste'dodining o'ziga xos jihatlari va salmoqli ijodiyoti hamda ularning adabiyotimiz rivojidadagi munosib o'rni ham O.Sharafiddinov asarlarida o'zining haqqoniy bahosini oldi desak, boshqa adabiyotshunoslarimizning xizmatlarini aslo kamsitgan bo'lmaymiz .

Albatta, ulug' adiblarimiz kabi O.Sharafiddinov ham o'z davrining farzandi edi va u ham hukmron sovetlar muhitida yashab, ijod qilgan. Ko'p asrli adabiyot tarixi va ko'plab tarixiy-adabiy asarlaridan ham ma'lumki, har bir iste'dodli san'atkor o'z davrining farzandi sifatida ijod qiladi, tabiiyki, uning asarlarida o'sha davr muhitining obyektiv ta'siri u yoki bu tarzda aks etadi. Sobiq sho'ro davridagi adabiy muhit haqida fikr yuritganda, og'riqli savollar tug'iladi. Masalan, Qodiriya va Cho'lponlar ham oktyabr inqilobi va Leninni ulug'lamagan-ku. Buni ro'kach qilib, ularni madhiyabozlikda ayblash to'g'ri bo'larmikin? Yoxud, Abdulla Oripovlar mashhur shoirimiz 80-yillarda partiyani "Najot qal'asi" deb ulug'lagani, o'sha makkor partiyaning darg'alari qadimiy Navro'z bayrami nomini o'zgartirishini ham quvvatlaganini qanday baholash kerak? Yoki zabardast tanqidchilarimiz-akademik V.Zohidov, M.Qo'shjonovlar respublikamizdagi eng katta mansabdor shaxsning o'rtamiyona asarini oliy mukofotga tavsiya etib,

maqtab yozganlarichi? Yoki O.Sharafiddinov, B.Nazarovlar ham zamon talabi bilan Lenin va adabiyot yoxud marksizm-leninizm ta'limotiga bag'ishlangan asarlar yozgani uchun ularni hukmron kommunistik mafkuraning qurboni yo dastyori bo'lgan deb ayblash biryoqlama baho berish bo'lsa kerak deb o'ylaymiz.

Aslida, adib asarlariga baho berish va ularni tadqiq etishda tarixiy sharoitni e'tiborga olishimiz va sobiq sho'ro davrida yashab, ijod qilgan boshqa san'atkorlar kabi Qodiriy, Cho'lponlar, H.Olimjon va Qahhorlar, E.Vohidov va A.Oripovlar ham butunlay erkin bo'lmaganini unutib bo'lmaydi. Bu jihatdan Ozod Sharafiddinovning Cho'lpon ijodini o'rganish borasidagi fikrlari juda asoslidir. Ustoz aytganidek, muayyan zamon, muayyan jamiyatda yashagan shoir, tabiiyki, bu jamiyatdan tashqariga chiqib keta olgan emas. Cho'lponga obyektiv yondoshish, uning badiiy ijodidagi yoxud adabiy-tanqidiy maqolalaridagi hukmron mafkura g'oyalariga yon berilgan o'rinlarni ko'rganda, uning nomiga malomat toshlarini otishga shoshilmaslik kerak. Aksincha, uni tushunmoqqa harakat qilaylik. Bu mulohazalar faqat Cho'lponga emas, balki Oybek, G'.G'ulom, H.Olimjon, A.Qahhor, Shayxzoda, Mirtemir kabi ko'p yillar mobaynida adabiyotimizning chinorlari hisoblanib kelgan, keyingi yillarda esa o'rinli-o'rinsiz ta'na-dashnomlarga ro'para kelayotgan ijodkorlarga ham taalluqli. O.Sharafiddinov kabi tanqidchilar ijodi ham bundan mustasno emas, albatta. Ozod Sharafiddinov ijodi va shaxsiga baho berishda ham ana shu sharoit va holatlarni nazardan qochirmaslik lozim. U kishi ham partiyani ulug'lovchi fikrlar bildirgan holatlar uchraydi. Yoki bo'lmasa Leninni ulug'lovchi asarlar, inqilobni madh etuvchi fikrlarni ilgari surishga ham to'g'ri kelgan. Yoki Mayakovskiy kabi proletariat sinfini ko'klarga ko'targan va revolyutsiyani madh etuvchi asarlarini yuqori baholaganidan ko'z yumib bo'lmaydi. Lekin bu o'tkinchi g'oya-qarashlar mash'um sovet tuzumi siyosati va hukmron mafkurasining talablari bilan bog'liq ekanligi endilikda barchaga ayon bo'lmoqda. Ozod Sharafiddinovning zabardast adabiyotshunos alloma va mohir tarjimon sifatidagi rang-barang ijodiyoti qanchalar e'tiborga loyiq bo'lsa, u kishining "Jahon adabiyoti" lek nufuzli jurnalga muharrirlik qilganligi va ustoz-murabbiylik faoliyati ham shu qadar e'zoz-ehtiromga munosib. Allomaning bu faoliyati ham alohida tadqiqotlarga mavzu bo'lishi shubhasizdir. Zero, "o'lsam ayrilmasman quchoqlaringdan" degan yuksak e'tiqod bilan yashab-ijod etgan ulkan talant sohibining vatanga muhabbat va sadoqat ruhi bilan yo'g'rilgan asarlari ham, shubhasiz, abadiyatga daxldor ma'naviy-ruhiy hodisalardan edi..

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Abdulla Oripov. O'zbekning o'z shoiri. G'.G'ulom nashriyoti. T. 2003. 6-b.
2. Ozod Sharafiddinov. Birinchi mo'jiza. T. 1979.
3. Ozod Sharafiddinov. Ijodni anglash baxti. T. 2004.
4. Ozod Sharafiddinov. Talant- xalq mulki. T. 1979.
5. Ozod Sharafiddinov. Zamondoshlari xotirasida. T. 2007

## LUQMON BO‘RIXON HIKOYALARIDA XARAKTER VA BADIY MAHORATI MASALASI

*Jonpo‘lotova Gulshoda Qobil qizi,  
Buxoro davlat universiteti magistranti*

Xarakter yaratish va voqelikni poetik ifoda etishda bugungi o‘zbek yozuvchilaridan Luqmon Bo‘rixonning o‘ziga xos mahorati ko‘zga tashlanadi. Yozuvchi yaratgan obrazlar hayotimiz davomida tez-tez uchratishimiz mumkin bo‘lgan oddiy odamlarning badiiy timsoli bo‘lishi qatorida, ular yozuvchining san‘atkorona dalillash mahorati o‘laroq xarakter darajasiga ko‘tarilgan. Shu bilan birgalikda adib yaratgan obrazlar haqqoniyligi, hayot haqiqatiga mosligi bilan ham diqqatni tortadi.

Luqmon Bo‘rixonning “Cho‘ldan kelgan tashvish” hikoyasi janrga xos muhim belgi-xususiyatlarni o‘zida namoyon etgan. Voqea hikoyabop, ishtirok etuvchilar ham ikki-uchta, xolos. Ammo tasvir, badiiy aks ettirish usullari, qahramon va personajlar harakati an‘anaviy hikoyachilikdagi marom, silliqlikka o‘xshamaydi. Voqealar rivoji goh tezlashadi, goh sokin bo‘lib qoladi. Har qanday holatda ham har bir detal, har bir badiiy unsur kitobxonni voqealarning mohiyatiga chuqur kirib borishga undaydi, qahramon xarakterining badiiy mukammal bo‘lishiga xizmat qiladi.

Hikoya voqeasi oddiy. Samad Do‘lanov Ergash o‘g‘li degani ziyoli, olim odam, ruhshunos. U Ovruponi kezib kelgan, unda-bunda ma'ruzalari bilan ko‘pni qoyil qoldirgan. Uni “o‘zimizniki” deb faxrlanadiganlar haqli. Chunki u cho‘l hududda joylashgan 41-posyolkada tug‘ilib o‘sgan, voyaga yetgan, shaharga o‘qishga kelib, ana-mana deganda katta olim bo‘lib ketgan. Buning ustiga Ovrupo mamlakatlari bo‘ylab kezkani, ma'ruzalari bilan Parijdagilarni lol qoldirgani uchun terisiga sig‘may suyunadi. Endi u uyida ham o‘zining har bir harakatiga e’tibor beradi, atrofdagilar bilan ehtiyotkorlik bilan suhbatlashadi, zarracha bo‘lsa ham ortiqcha xatti-harakati obro‘sigacha putur yetkazishi, obro‘si pasayishiga sabab bo‘lishidan xavotirlanib yashaydigan bo‘lib qolgan. Asar qahramonining xarakteri, o‘ziga xos jihatlari va ma'naviy olami yozuvchi tomonidan ana shunday chizgilar bilan badiiy dalillab boriladi.

Hikoyada qahramon hayotiga oid birgina voqea bayon etilgan. Qisqacha aytganda, xorij safaridan kelgach, u shirin xayollarga g‘arq bo‘ladi. Chunki bir do‘sti uning bu safari dovrug‘i hukumat rahbarlarigacha yetib borgani, uni mukofot

kutayotgani haqidagi gapi oromini o‘g‘irlyaydi. Orden yoki fan arbobi unvoni berisharmikin, degan o‘yga boradi. Bu xabarni yetkazgan yuqori idoralardan birida mas’ul xodim bo‘lib ishlaydigan do‘stini ziyofatdan so‘ng kuzatib qo‘ygandan keyin battar xayol daryosiga g‘arq bo‘ladi. Xotini Shirina atrofida parvona, Samadning “Charchamadingizmi, xonim?” deb bergan savoliga:

“– Vu-uy, domullo, nega charcharkanman? Shuncha ilm qilib qo‘ygan siz-u, bizlarni charchashga haqqimiz yo‘q”, deb javob berishi ham unga xush yoqadi. Xotining bunday xushmuomalaligi sababi Samadning xorijda “mayda-chuyda

xarajatlar uchun berilgan pullarni qisib-qimtib” [1,152] orttirgan va ancha-muncha sovg‘a-salomlar bilan kelgani edi. Ushbu tasvirlar orqali hikoya qahramonining xarakteri ochila boradi. Boshqacha aytganda, qahramonga berilgan ta'rif-u chizgilar natijasida kitobxon ko‘z o‘ngida muvaffaqiyatlaridan ortiq darajada ruhlanib borayotgan, xushbaxt bir inson qiyofasi gavdalanadi. Biroq ana shunday ajoyib kunlarning birida qahramon hayotida muhim bir voqea ro‘y beradi.

Bir mahal telefon jiringlab qoladi. Erinibgina go‘shakni ko‘targan Samadning birdan ta'bi xira bo‘ladi. Unga cho‘ldan kelgan hamqishlog‘i – Ulash akasi telefon qilardi. U shaharga kelgan, olim hamqishlog‘ining uyi qayerdaligini topolmay vizitkadagi telefon raqami yordamida uni yo‘qlayotgan edi. Navqiron olimning halovati buziladi, uning uyiga kelib tanda qurib olishidan xavotirga tushadi, ayniqsa, bu uning xotini Shirinaga yoqmasligini biladi va qanday qilib undan qutilish yo‘llarini izlay boshlaydi. Unga qo‘pol muomala qilishdan hayiqadi. Chunki uni yoqtirmaganligini sezdirib qo‘ysa, tanishi qishloqqa borib, uni rosa yomonlashi, obro‘cini bir pul qilishi mumkin. Shuning uchun iloji boricha uni ranjitmasdan uyiga kelish qaroridan qaytarish yo‘lini izlay boshlaydi. Ammo hamqishlog‘i ham bo‘sh kelmaydi, tilshunoslikda bir kashfiyot qilganini, uyiga borganda bafurja aytib berishini bildiradi. Bu Samadni battar bezovta qiladi. Qanday qilib bo‘lsa ham bu kashfiyot nima ekanligini bilmoqchi bo‘ladi. “So‘xtasi sovuq”, aroqxo‘r hamqishlog‘i qahramon so‘zining antonimini kashf etganligini yayrab aytib beradi. Samad buning nimasi kashfiyot ekanligini o‘ylab turganida telefondan kelayotgan ovoz uzilib qoladi. Shunda u xotiniga mabodo telefon jiringlab qolsa, o‘zini yo‘qligini, xorij elchixonasiga chaqirishganlarini aytishini tayinlaydi. Ammo telefon uzoq jimib qoladi.

Shundan so‘ng yuz bergan voqealar oqimi butunlay teskari o‘zanga qarab buriladi. Ancha payt o‘tib, telefon jiringlaganda, qo‘rqa-pisa go‘shakni ko‘targan Samadga shifoxonadan qo‘ng‘iroq qilishadi. Ulash degan odam kim bo‘lishini, avtohalokatga uchrab, kasalxonaga keltirilganligini, u o‘zini shoir deb tanishtirgani, “qahramon-mehribon” so‘zlarini aralashtirib, she‘rlar to‘qib tashlayotganligini aytadi shifoxona navbatchi vrachi. Samadning yelkasidan tog‘ ag‘dariladi. Hatto hamqishlog‘ining qahramon so‘zining antonimi mehribon ekanligi, so‘zlarning o‘zagida bu antonimlik mavjudligini topganligiga qoyil qoladi. Shifoxona navbatchi vrachining “miyasi chayqalgan” “kashfiyotchi”ga kim bo‘lishini so‘raganida aniq javob berishga or qiladi. Uni o‘zi nima uchun tanimasligiga ta'na qiladi, vizitkasiga Ulash akaning qoni tegib, o‘qib bo‘lmay qolganligini bilgach, gazet-pazet o‘qib turishi zarurligini pisanda qiladi. Nihoyat navbatchi vrach uni taniydi va Samad tomoq qirganicha taraddudlanib qoladi.

Hamqishloqning kashfiyoti, ya'ni o‘zaro antonim bo‘lgan “qahramon-mehribon” so‘zlari yozuvchi kashf etgan muhim poetik detal bo‘lib, ushbu so‘zlar hikoyada adib tomonidan ilgari surilgan g‘oyaviy maqsadni o‘zida mujassam etgan. Ya'ni har qanday inson qahramon bo‘lishi mumkin, biroq mehribonlik, yon-atrofdagilarga e'tiborli bo‘lish hammaning ham qo‘ldan kelavermaydi, degan xulosa hikoyaning g‘oyaviy mag‘zida yashiringandek ko‘rinadi. Personajlar xarakterini badiiy asoslashda yozuvchi o‘ziga xos yo‘l tutgan: ularning tili



individuallashtirilgan. Shuningdek, asarda ona tilimiz imkoniyatlaridan samarali foydalangan. Xalq jonli soʻzlashuv tiliga xos iboralar, ifoda-tasvir vositalari, ayniqsa, shevaga xos “doriydi”, “tuyqus”, “tilfonxona”, “domullo” va ayrim oʻrinlarda qoʻllangan taqlid soʻzlar hikoyaning badiiy-estetik taʼsir kuchini oshirgan. Xarakterlar ruhiyati, ularning xatti-harakatlari, gap-soʻzlari, oʻzaro munosabati tasvirning hayotiyligi, ishonirish kuchining darajasini oshirgan.

Xulosa qilib aytganda, Luqmon Boʻrixon hikoyalarning qahramonlari oʻziga xos olami, murakkab tabiati, ruhiy holatlari va individual tili bilan oʻziga xos belgi-sifatlariga ega boʻlgan xarakterlar sifatida namoyon boʻladi. Bunga ijodkorning birgina “Choʻldan kelgan tashvish” hikoyasi tahlili misolida ham amin boʻlish mumkin.

#### ADABIYOTLAR:

1. Бўрихон Л. Хизр кўрган йигит. Қисса ва ҳикоялар. – Тошкент, Шарқ, 2007. – 257 б.
2. Норматов У. Ижод сеҳри. – Тошкент: Шарқ, 2007. – 352 б.
3. Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – 550 б.

#### HIKOYALARDA ANʼANAVIYLIK VA NOVATORLIK MASALASI (Ulugʻbek Hamdam hikoyalari misolida)

*Umarova Shahnoza Yusuf qizi,  
JDPI magistiranti*

*Ilmiy rahbar: f.f.f.d. (PhD) Parizod Turo pova*

Yozuvchining bir qator hikoyalari ixcham janr - hikoyaning noyob qirralari, imkoniyatlarini kashf eta oldi. Ulardagi ham dunyoviy realistik, ham xayoliyromantik, ham soʻfiyona ilohiy talqinlar sintezi - garmoniyasi asarlar poetikasiga ayriqcha qiyofa baxsh etadi.

Ulugʻbek Hamdam hikoyalarning yana bir xos xususiyati koʻp hollarda asarlaridagi roviy bilan qahramonni ajratib boʻlmay qoladi. Bir qator hikoyalarning monolog tarzida bitilganligi ham bejiz emas. Ayniqsa, muallifning tush-hikoyalari monolog tarzida bitilgan. Jumladan, adibning “Vatan haqida qoʻshiq” toʻplamiga kiritilgan 12 ta hikoyadan 6 ta tush-hikoya boʻlib, ulardan 4 tasi monolog tarzida bitilgan. Mazkur hikoyalarda tizginsiz oʻy-tafakkur talqini, inson ruhiyatining taftishi aks ettirishda ritorik soʻroq, emotsional-ekspressivlik bilan toʻyintirilgan nutq ifodasi yetakchilik qiladi. “Lop etib hammasi yodimga tushdi. Axir... mening vazifam bormasmidi, juda muhim topshiriq bilan yoʻlga tushmaganmidim?! Keyin... keyin toʻsatdan qosh qorayganini payqab, dahshatdan kesakday qotdim: hammasi sob boʻldimi?! Oʻz zimmamga yuklatilgan muqaddas vazifani uddalayolmay dogʻda qoldim deya baqirmoqchi boʻldim... lekin ovozim chiqmadi, chiqmadi-yu, hayqiriq naq miyamda portlaganini aniq his qildim...”. Bir piyola suv ichaman deb butun umrini uning toʻloviga sarflagan insonning qismati tasvirlangan “Bir piyola suv” hikoyasi ramziy-majoziy, mifologik tasvirlar asosiga qurilganligi,



kutilmagan yechim bilan kitobxonni hayratda qoldirishi kabi sifatleri bilan ayricha xususiyat kasb etadi. Maxsus topshiriq bilan yo‘lga chiqqan yo‘lovchi nafsning yo‘liga kirib yoshligini, butun imkoniyatini, hayotini boy berdi. Eng achinarlisi, izlagani o‘zida, o‘zligida edi. Yo‘lovchining qaytib kelganida aravasidan tomchib turgan suv uning aql ko‘zini ochadi. Afsuski, vaqt o‘tib bo‘lgan, g‘isht qolipdan ko‘chgan edi. Ruhiiy-psixologik talqinlar bilan boy tasvirlar qahramonning holatini aniq berish barobarida kitobxonga ham ushbu ruhiyat tasvirini “yuqtiradi”. Asarni o‘qish mobaynida ayni holat kitobxonda ham kechayotgandek tasavvur uyg‘otadi. Savollar va murojaat shakllari esa kitobxonni oddiy retsidentlikdan asardagi voqelikning ishtirokchisiga aylantiradi.

Bu yangilanishlar, tafakkurdagi o‘zgarishlar butunlay yangicha shaklda ham taqdim etiladi. Ya‘ni muallifning *tush hikoyalari* an‘anaviy hikoyachilikning novatorlik asosida ro‘yobga chiqarilgan mahorat samarasidir. Bu haqda U.Normatov shunday yozadi: “Avvalgidek, yangi yozilgan hikoyalarida ham xayolot bilan reallik, tush va o‘ngda kechgan hodisalar yondosh holda keladi, hodisalarni xilma-xil rakurslarda turib yoritish an‘anasi davom etadi. Ammo yangi hikoyalardagi hodisalar talqini, falsafiy-badiiy mushohadalar ko‘lami hiyla keng, teran. “Ko‘nglimdagi daryo”, Unutilgan nay navosi”, “Ko‘zini ochib yumgan odam”, “Pillapoya”, “Bir piyola suv”, “Musulmon” hikoyalarning har birida romanga arzigulik teran poetik ma‘no mujassam. Janrning kichik jussa, yelkasiga romanga xos salobatli yuk ortilgan. Eng muhimi, ularda so‘nggi yillar adabiyotimizda, qolaversa, jahon adabiyotida ham tansiq bo‘lib turgan o‘ziga yuksak ideallarni tashuvchi, idealga intiluvchi qahramonlar birin-ketin bo‘y ko‘rsatayotir”[1;425].

“Musulmon” hikoyasida egizak aka-uka Hasan bilan Husan orasidagi diniy e‘tiqod va real hayot, bu yorug‘ dunyo gultoji atalmish inson oldidagi burch muammosiga yondashuv xususida so‘z boradi. Butun asar davomida reallik va qisman sirli-sehrli g‘aroyibot orasida kechgan voqea-hodisalar, bahs-munozaralar ifodasi, talqini oxir-oqibat inson himmatining ustuvorligi bilan yakunlanadi. Bu asarga epigraf qilib olingan hazrat Navoiyning “Kimki bir ko‘ngli buzug‘ning xotirin shod aylagay, Oncha borkim, Ka‘ba vayron bo‘lsa, obod aylagay” degan shoh bayti tasdig‘i bilan yakunlanadi. Asarda bir ota-ona farzandlari bo‘lgan, hatto bir fursatda tug‘ilgan, bir muhitda yashagan ikki farzand, ikki insonning ikki olami talqini kontrast usulda chuqur ko‘rsatib berilgan. Bir muammoga ikki xil qarash, ularning har birini o‘ziga xos asosi bor. Biroq bu asoslar ezgulik oldida, insoniylik oldida qanday qimmat kasb etadi. Bu asar davomida ochib boriladi. Hikoyaning tag zaminida Naqshbandiyning “Dil ba yoru, dast ba kor” falsafasi sezilib turadi. Hikoya qahramonlaridan Hasan solim e‘tiqodni sidqidildan qilingan ibodatda ko‘radi. E‘tiqodga soya soluvchi har qanday voqea-hodisadan hadiksirab yashaydi. Ibodat paytida biror narsaga chalg‘ishni istamaydi: “Avval ibodat, keyin madad”, - bu uning kundalik shioriga aylanib ketgan. Husan esa ezgu amalni birlamchi deb hisoblaydi. Qo‘lidan kelganicha boshqalarga ezgulikni ravo ko‘radi. Egizaklarning har bir xatti-harakati, mulqot va bahslari bir g‘aroyib qush hamrohligida tasvirlab boriladi. Dastlab bu qush oddiy parranda

sifatida hikoyaga kirib keladi: “Ko‘klam keldiyu, hovlidan bir qushcha ketmas bo‘ldi... “Otalari betobligidan xabar topishib, egizaklar yo‘lga otlanishganda qushlar ham juftlashib, ularga hamroh bo‘ladi. Bekatlardan birida ovqatlanib bo‘lgach, “daraxt poyida ibodat qilishar ekan, tuyqusdan tepalarida vijir-vijir boshlanib qoldi. Husanning diqqati bo‘linib, pichirlab aytayotgan oyatlar tiliga kelmay tutildi.” Hikoya davomida qahramonlarga hamrohlik qilayotgan qushlar ramziy obraz sifatida kiritilganiga guvoh bo‘lamiz: “Hammasiga o‘xshasayam baribir boshqa qush bular!”[2]

Hasan-Husan xasta otalarini ziyorat qilayotganlarida qushlar yana hozirnozir bo‘ladilar. Qaytayotganlarida dovonda to‘xtab, “so‘raganlar ko‘p”ligi uchun non xarid qiladilar. O‘shanda ham “qushchalar teparoqda charx urib o‘z tilida nimalarnidir so‘ylashgancha aylanishardi”. Egizaklar ustida tinimsiz charx uradigan sirli qushlar bir marta, o‘shanda ham Hasan-Husanlar o‘g‘li tengi yigitchalar tepkilayotgan bir kimsani qutqarish uchun borganlarida o‘zlarini g‘alati tutadilar. Bu kimsaning shayton suviga qaram bo‘lganini bilgan ”Husan nima qilishini bilmay serrayib turib qolgandi, ko‘k yuzida paydo bo‘lgan qushchalarning vijir-vijiridan sergak tortdi. Qarasa, Hasan masjid tomon odimlab, qushlar ham o‘sha yoqqa uchib boryapti ekan...” Voqealar so‘ngida kutilmagan hodisa ro‘y beradi. Masjid shiftidan ko‘chib tushgan ganch parchasi bir qariyaning uvishib qolganidan uzatib o‘tirgan oyog‘i ustiga tushadi. Og‘ir ahvolda qolgan, oyog‘i singan mo‘ysafidni tashqariga olib chiqadilar. Qariyani og‘ir ahvolda tashlab ketishga ko‘ngli bo‘lmayotgan Husan mashina to‘xtatib, uni kasalxonaga olib jo‘naydi. Qushlardan biri mashinaga ergashib parvoz qiladi. Hasan esa ibodatga chorlayotgan azon tovushini eshitib, masjidga shoshadi. Unga ergashib uchib borayotgan qushcha esa, bezovtalanib, charx uradi, keyin esa osmonga ko‘tarilib, ko‘zdan g‘oyib bo‘ladi. Gap shundaki, qushchalar ko‘zdan g‘oyib bo‘lishi bilan qiyg‘os gullagan o‘rik ham oppoq gullarini duvva to‘ka boshlaydi. Hikoya quyidagi umidvor jumla bilan nihoyasiga yetadi: “Daraxt gullashdan charchamasa, qushcha ham qaytib qolar axir...”. Asarda qo‘shaloq qushlar e‘tiqod va ezgu amal timsoli. Sof va samimiy e‘tiqod gul bo‘lsa, ezgu amallar uning mevasidir. Shuning uchun ham Ulug‘bek Hamdam qadimiy ramzlar orqali zamondoshlarga o‘z da‘vatini, falsafiy mushohadalarini yetkazmoqchi bo‘lgan.

Ulug‘bek Hamdam asarlarida, xususan, hikoyalarda ham o‘zni anglash, kelish-ketishning mohiyatni teran anglash bosh mavzudir. Hikoyalardagi nafaqat inson, hatto jonzotlar, tabiat hodisalari jumladan, oy ham ana shu anglash, anglanish yo‘lida. “...va u yerga ko‘milgan xazinani ko‘rish umidida ko‘zini katta ochib qaradi: yo qudratingdan, tushmi bu yo o‘ng? To‘lin oy qarshisida o‘ziga quyib qo‘ygandek yana bitta oy turardi! Jilmaysa, jilmayar, xo‘mraysa, xo‘mrayardi. To‘lin oyo‘zini tanidi! ...to‘lin oy botiniga quloq berib, boshqa hech kim va hech nimani istamayotganini tuyib qoldi...” Chunki u o‘zini, o‘z botinini, oy bo‘lib yaralganlik qismatini anglab bo‘lgan edi. Adib yaratgan har bir obraz hayotdagi o‘rnini anglashga, kelish-ketishning ma‘nisini oydinlashtirishga intiladi. “So‘z” hikoyasida ham novatorona yondashuv guvohi bo‘lamiz. Unda “O‘tgan kunlar” romanidagi Yusufbek hoji kabi ayolining barcha chaladumbul

holatlariga chidab kelayotgan er obrazining an'anaviylikdan chekingan yangicha talqinini ko'ramiz. Bir og'iz so'z bilan umrining besamar ketganligini anglagan erning ruhiy qiynoqlari, birgina so'zning inson umriga ulkan ta'siri o'zgacha bayon uslubida bayon qilinadi. Butun umrni bema'ni qilgan, xotirani zahalagan so'zdan er "asabiylashar, siqilar, ezilar, erning ichi kundan-kun sho'rlab borar", "erkakning ichiga tushgan tuz zahri ortib borardi". Bu kabi talqinlar bilan yozuvchi bir tomondan ko'ngilning qanchalar nozik ekanligini tasvirlasa, ikkinchi tomondan so'zning qudratiga ishora qiladi. Shuning uchun ham adib hikoyaning avvalgi nashrdagi sarlavhasi - "Bir og'iz so'z"ni keyingi nashrida "So'z" nomiga almashtiradi.

"Tamomila o'zgacha - rivoyat usuli, uslubida bitilgan, poetik tuzilishi, inson qismati, ma'no ko'lami ifodasi jihatidan "Na'matak" ka yaqin turadigan "Safar", "Vatan haqida qo'shiq"- na an'anaviy, na modern, na postmodern qolipiga tushmaydigan hikoyalar muallif ijodida yangi bir tamoyil boshlanayotganidan dalolat bo'lsa ajab emas"[1;425]-deya ta'kidlaydi U.Normatov.

Ulug'bek Hamdam ijodida ham an'anaviylik va novatorlik masalasi o'ziga xos namoyon bo'ladi. Ayniqsa, adibning kichik janr hikoya borasidagi novatorligi alohida e'tiborga loyiq. Ulug'bek Hamdam o'zbek hikoyanavisligi an'alarini davom ettirgani holda, shakl masalasining kengligi, obrazlar tanlovi, modernistik talqinlarga murojaat jihatidan yangilanishlar kashf etdi. Ayniqsa, yozuvchining tush hikoyalari bayon uslubi, kutilmagan yechim bilan yakun topishi, katarsis hodisasining millat va yosh jihatidan qat'iy nazar chuqur anglanishi kabilar bilan yangilik kasb etadi. Mazkur hikoyalarda mifologik, diniy, falsafiy qarashlar uyg'unlashib ketgan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Норматов У. Кичик жанрнинг катта имкониятлари// "Ватан ҳақида қўшиқ. – Т.: Академнашр.
2. Ҳамдам У. Ёлғизлик. / Узокдаги Дилнура. Т: Академнашр, 2010.

#### ADABIYOT RIVOJIDA AN'ANA VA O'ZIGA XOSLIK

*Nargiza Turdiboeva,*

*JDPI magistr*

*Ilmiy rahbar:U.Qosimov, fil.f.d.*

Muayyan xalqlar adabiyotida ko'p asrlar davomida shakllangan va rivojlangan adabiy an'alar badiiy ijodning keyingi tarqqiyotiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Jahon adabiyoti tarixidan va hozirgi adabiy jarayondan ham bunga ko'plab misollar topiladi. XX asr o'zbek adabiyotining yirik namoyandalari, jumladan mashhur adibimiz Abdulla Qahhorning rus adabiyotining klassiklari bo'lgan- Lev Tolstoy, Gogol va Chexov kabi ulkan adiblardan qanchalik saboq olganligi yorqin bir ijodiy fakt sifatida ko'pgina tanqidchi va adabiyotshunoslarimiz tomonidan qayd etilgan. Haqiqatan ham, Gogol va Chexov

ijodida chuqur ifodalangan gumanistik g'oya va fikrlar ham Abdulla Qahhor va boshqa o'zbek adiblari uchun ilhom bag'ishlagani ayon haqiqat. Shu bilan birga bu adiblar ijodi Abdulla Qahhorning adabiy-estetik qarashlari shakllanishida ham muhim o'rin tutganligini unutmash kerak.

Haqiqatan ham, Gogol va Chexov ijodida chuqur ifodalangan gumanistik g'oya va fikrlar ham Abdulla Qahhor va boshqa o'zbek adiblari uchun ilhom bag'ishlagani ayon haqiqat. "Gogol asarlari bilan tanishib, ularni bunchalik o'tkir qilgan "sir"larni "kashf" qila boshlaganimdan so'ng oldin yozgan hajviy "asarlirim" ko'zimga shu qadar g'arib ko'rindiki, manbada bunday asarlar yozmaslikka o'zimga-o'zim so'z berganday, o'sha vaqtdagi yashirin imzom "Norin shilpiq"dan voz kechib, so'nggi feletonlarimga boshqa imzo ("Mavlon kufur") qo'yadigan bo'ldim",- deb, bu ulug' rus satirik yozuvchisi asarlaridan qattiq ta'sirlanganini qayd etib o'tadi. Gogol asarlarini o'qiy boshlaganimdan keyin uzoq vaqt jiddiy hikoya yozolmay yurdim. Nihoyat, "Boshsiz odam" degan hikoya yozdim. Birinchi hikoyam ("YOsh qizlar o'gay ota qo'lida") bir voqea haqida o'quvchiga ma'lumot bergan va bu voqeaga o'z munosabatimni har satrda ta'kidlagan bo'lsam, "Boshsiz odam"da o'zim "xolis" turib, o'sha vaqtdagi hayot lavhalaridan birini ko'rsatishga va bunda ilk marta odam xarakteriga qo'l urishga harakat qilgan edim"(6,266) Abdulla Qahhor rus va jahon adabiyotida katta o'rin tutuvchi ko'plab adiblarining avtobiografik asarlarini qunt bilan o'qib-o'rgangani, ammo ularga ergashmaganini o'zining bir necha maqola va xotiralarida alohida ta'kidlagani kitobxonlarga ma'lum. Bu jarayonni yozuvchining "O'tmishdan ertaklari" qissasi misolida ham ko'rish mumkin. Yana muhimi, Abdulla Qahhorning "Qissadagi har bir bob alohida hikoya... Asarga o'tmish mavzusidagi hikoyalarning mantiqiy davomi sifatida qarang. Shunda u qanday asar ekanini bilib olasiz,-"degan so'zlari "O'tmishdan ertaklar" va o'tmish haqidagi hikoyalarning qanchalik hayotiy va realistik asarlar ekanligini anglab olishimizda ham o'ziga xos ochqich bo'la oladi. Adibning ushbu qissasini uning o'tmish haqidagi hikoyalari bilan bog'lab tahlil qilinsa, ularning zamini xalqimizning og'ir turmushidan olingan voqealar ekanligi ayon bo'ladi. Ya'ni Abdulla Qahhor hikoyachilikda bir umr davomida erishgan yuksak mahorati bu asarda ajoyib tarzda sintezlashgan va chinakam realist san'atkorligi, novatorligi yaqqol namoyon bo'ladi va bu haqiqat adabiy ta'sir masalasini tushunishga yordam beradi.

Rus va qardosh xalqlar adabiyoti namoyandalari ijodiga bag'ishlangan yirik tadqiqot va maqolalarda tahlil va xulosalar o'rniga ko'plab jiddiy xato va chalkashliklarga duch kelamiz. Masalan, taniqli adabiyotshunos H.Abdusamatovning "Hayot, adabiyot, teatr" nomli kitobida rus klassik adabiyoti va Chexov to'g'risida shunday asossiz fikr bildiriladi: "Yozuvchi qamoqdagi bitta palata misolida mamlakatga xos bo'lgan mudhish manzaralarni birin-ketin ko'z oldimizdan o'tkazadi. Asardagi ("Oltinchi palata" hikoyasi.-U.Q.) odamlarning qamoqda hayvonlarday saqlanishi, yorug' dunyodan mahrum qilinishi, norozilik sadolari yangrashi, ularning omonsiz kaltaklanishi kitobxonlarni qattiq hayajonga soladi".



Shu tariqa Chexov yorqin tasvirlagan kasalxona va undagi oltinchi palata negadir “qamoqdagi palata” deb o‘zgartirilib, hikoyadagi ayrim voqealar sanab o‘tiladi, asarning g‘oyaviy mazmuni, uning badiiy-estetik ahamiyati etarli darajada ochilmay qoladi. Yoki quyidagi fikrga e‘tibor qilaylik: “Rus klassik adabiyoti Chexovgacha Pushkin, Lermontov kabi ulug‘ lirik shoirlarga ega edi”. Tabiiy savol tug‘iladi, Chexovdan oldin yashab, ijod etgan Gogol va Gersen, Goncharov va Turgenyev, Saltikov-Shchedrin va Dostoevskiylar rus adabiyoti vakillari emasmi? Pushkin va Lermontov faqat lirik shoirlarmi? Ular prozaik asarlar yaratmaganmi? U holda Chexov o‘spirin Lermontovning birgina “Taman” qissasini butun bir yozuvchilik umriga arziydigan asar, deya baholaganini qanday izohlash kerak? Bunday noaniqliklar o‘quvchiga qiyinchilik tug‘diradi.

Shu o‘rinda adabiy ta‘sir xususidagi yana boshqa bahsli fikr va qarashlarga ham to‘xtalib o‘tishga to‘g‘ri keladi.. Masalan, O‘zbekiston FA Til va Adabiyot instituti va taniqli adabiyotshunoslar tomonidan nashr etilgan va 90-yillargacha asosiy darslik sifatida foydalanilib kelingan “O‘zbek sovet adabiyoti tarixi ocherki” darsligida Mayakovskiyning o‘zbek shoirlariga ta‘siri xususida bahsli mulohazalar bildirilgan deb o‘ylaymiz. Chunonchi, Maqsud Shayxzodaga bag‘ishlangan biografik ocherkda uning deyarli barcha she‘rlari bevosita hayot voqeliklari va shoir tafakkuri bilan emas, balki, asosan, Mayakovskiy ta‘siri bilan bog‘lab o‘rganilishida shunday biryoqlamalik va sun‘iy bo‘rttirish alomatini ko‘ramiz. “Davrimizning buyuk shoiri V.Mayakovskiy faqat Shayxzodaninggina emas, boshqa ko‘pgina o‘zbek shoirlarining ham ijodiy o‘shida katta rol o‘ynagan. V.Mayakovskiy maktabini o‘tmagan, undan o‘rganmagan bironta ham o‘zbek shoiri yo‘q desak, xato qilmagan bo‘lamiz.(306-b.)

Albatta, partiya daholarini madh etish ommaviy tus olgan 30-50-yillarda. Bunday ko‘tar-ko‘tar balandparvoz shiorbozliklar avj olgan va adabiyotimizdagi ma‘lum bir ijodiy izlanish va poetik shakllardagi o‘zgarishlar ham, asosan, rus sovet adabiyoti, ayniqsa, Grkiy va Mayakovskiyning ijodiy ta‘siri samarasi deb biryoqlama sun‘iy bo‘rttirishlar odatga aylanib ketgan..Afsuski, rus adabiyotining o‘zbek adiblariga, ayniqsa, Qodiriy va Qahhor kabi nodir iste‘dod sohiblari ijodiga ta‘sirini bo‘rttirish SHukur Xolmirzaev kabi taniqli yozuvchimiz Tohir Malik qarashlarida ham seziladi. Bu muammolar alohida o‘rganishni taqozo etadi.Xulosa shuki, Qodiriy va Qahhor rus va jahon adabiyoti klassiklari asarlarini chuqur o‘rganish, ulardan ijodiy ta‘sir lanish borasida ham saboq berganligi ibratlidir.

Rus adabiyotining o‘zbek adiblari ijodiga ta‘siri mavzusiga bag‘ishlangan “Ustoz”, “Lev Tolstoy va o‘zbek adabiyoti” va “Asrimizning buyuk adibi” nomli to‘plamlar hozirgacha ham atroflicha tadqiq etilganicha yo‘q. Ular ijodiy ta‘sir masalalarini o‘rganishda muhim qimmatga ega ekanligini inkor etmagan holda, taassuf bilan aytish lozimki, har uchala majmuada ham ba‘zi fakt va misollar, ma‘lum fikr-xulosalar o‘rinli-o‘rinsiz ravishda bir necha marta takrorlanavergan. Misol uchun Adabiyotshunos olim M.Rasuliy qalamiga mansub “Lev Tolstoy ijodining o‘zbek adabiyotiga ta‘siri” nomli maqola sarlavhasi salmoqli, hajmn o‘n betdan ortiq, ammo uning yarmi Tolstoy asarlari qachon, kim tomonidan va qanday tarjima qilinganini sharhlashga sarflangan. Bunday ortiqcha bayonchlik



albatta, o'quvchiga yangilik va biror muhim fikr yo xulos berish o'rniga uni zeriktiradi. Masalan, S. Ayniy va H. Olimjonlarning Gorkiy asarlarini ilk bora o'qib, qanday ta'sirlanganligi haqidagi o'quvchilarga maktab darsliklari orqali ham tanish bo'lgan umumiy axborotlar va ma'lumotlar qayta-qayta ko'chirilgan (78,101,177, 68,186,200-bb.). Yoki Tolstoyning "Odamlar nima bilan tirik" hikoyasi o'zbek tiliga Oktyabr inqilobidan ancha oldin tarjima qilingani haqidagi oddiy axborot-ma'lumot ham to'plamda ko'p marta qaytariladiki, bunday noo'rin takrorlar ushbu kitoblarning umumiy saviyasiga ham salbiy ta'sir qiladi.

Adabiyotlar: 1. Abdulla Qahhor. Asarlar. 1-tom. T.1967. Abdulla Qahhor. Asarlar. 6-tom. T.1971.

Ozod SHarafiddinov. Birinchi mo'jiza. T.1979. Qosimov U. Adabiyotning hayotbaxsh kuchi. T.2008. Abdusamatov H. Hayot. Adabiyot. Teatr. T.1979.

## OMON MUXTOR IJODIDA AN'ANA VA NOVATORLIKNING O'RNI

*Mamatxonova Moxichexraxon Ubaydullo qizi,  
Farg'ona davlat universiteti magistranti*

Omon Muxtor o'tgan asrning 60-yillaridan vafotiga qadar adabiy jarayonda faol ishtirok etib kelgan; she'riyat, dramaturgiya, ayniqsa, nasr sohalari bo'yicha boy adabiy meros qoldirgan; o'tgan muddat davomida ko'plab hikoya, qissa, romanlar yaratgan mohir ijodkorlardan biri sanaladi.

Ijodkorning barcha asarlarida inson, uning shaxsiyati, o'y-fikrlaridan tortib kechinmalarigacha tahlil etilgan. Jumladan, biz buni "Ffu" romani orqali ham ko'rishimiz mumkin. Mazkur asar odamiylik muqaddas burch ekanligi hamda inson har qanday holatda insoniyligini saqlab qolishi kerakligiga bag'ishlangan. Bu jihat romanda bosh qahramon Toshtemir orqali o'z yorqin ifodasini topgan.

Ijodkor mazkur asarini rivoyat-roman deb ataydi. Romanga quyidagi epigraf tanlab olingan: *...Ustida janda, boshida kuloh - bir to'p qalandarlar: "Haq do'st, yo Olloh!" - degan cha bozorni aylanib, karvonsaroyga bormay, to'g'ri qabristonga borib, tamaddi qila boshlashdi. Birov, nega bunday qildinglar, deb qiziqqanida, ular kulishdi: "Hammaning ham axiyri keladigan joyi shu" ... [2; 5]* Berilgan bu jumlar asar syujetiga to'la-to'kis mos keladi. Toshtemir dastlab qalandarona hayot kechirar edi: *... uning qoni-jonida hafsalami-ishtiyoq; tirik badandagi ruh - Hayot Ishqi atalmish tuyg'uning o'zi yo'q edi! Darvesh-qalandar! - uzzu-kun ko'cha-ko'yda sudralib yurar edi. Uyda ham soatlab bir nuqtaga tikilib o'tiradi. Na maqsad, na dard... QURUQ SUMBAT! [2; 11]. U nimadandir mamnun bo'lsa "Oh-oh!" der, ajablansa "Iy-y!" deb qo'yar, norozilansa "Ffu!" der edi [2; 12].* Bunga sabab esa onasining erta vafoti-yu, ona mehri to'y maganligidan edi. To'ti voqeasidan keyin esa u butkul o'zgardi: dastlab otasi xohlaganday, ota kasbi bo'lmish quruvchilik sir-asrorlarini o'rganib, o'zi ham dasta tuzib, quruvchilik qila boshladi. Avval halol yo'l bilan mehnat qildi, so'ng havolanib, harom yo'lga kirdi: ko'zbo'yamachilik, mushtumzo'rlik, ichkilik, maishatga berildi. Qilmishlari uchun dor ostigacha olib borildi. Mo'jiza tufayli

omon qolgach, yana tarki-dunyoga berildi. Lekin bu yo‘ldan muhabbat tufayli qaytib, o‘z odamiyligini saqlab qoldi. Asar yakunida murodi hosil bo‘ldi.

Bu asarning voqiy tomoni. Uning arxitektonikasiga nazar solsak, asar sarlavhasi – “Ffu”. Mazkur nom asar nomini tanlashda bosh qahramonga urg‘u berilishi va syujet yo‘nalishi u bilan bog‘liq ekanligiga ishora mavjudligiga ko‘ra tanlab olingan. Asardagi Toshtemirning otasi Mulla Toshpo‘lat, ustoz Usta Mahmud, sevikli Nigor, Ilyos, xonhazrat kabi obrazlar tizimining barchasi yaxlit holda bosh qahramon bo‘lmish Toshtemir atrofida birlashgan. Asarda ularning barchasi Toshtemirning katarsislanishida o‘z o‘rniga ega. Shuningdek, ularga ma‘lum ma‘no ham yuklatilgan. Masalan, asardagi to‘ti obrazi yaxshilik timsolidir. Usta Mahmud esa Navoiy asarlarida uchraydigan Boniy timsolidir. Ya‘ni “Farhod va Shirin” dostonidagi Boniy ko‘ngilga ishq binosini qurgan va qurishni o‘rgatgan piri komil bo‘lsa, “Ffu” romanidagi Usta Mahmud qalbida ezgulik, insoniylik xislatlari mujassam hamda shogirdlariga ham shuni “yuqtirishga” uringan ustoz sifatida gavdalantirilgan.

Ma‘lumki, asar arxitektonikasi elementlaridan biri hisoblangan detall oddiy hayotdagi detall emas, balki o‘zida tipiklik va individuallik xususiyatlarini yiqqan badiiy detall [1; 192] sanaladi. Shunga ko‘ra aytish mumkinki, “Ffu” romanidagi detall – bino. Asarda bino shunchaki inshoot emas, balki insoniylik obidasi edi. Ya‘ni yo‘ldan adashib, insoniylikni qayta tanigan Toshtemir tomonidan barpo etilgan mazkur obida asar yakunida uning mazmunini, undan ko‘zlangan maqsadni kitobxonga yanada tushunarli tarzda yetkazib berishga xizmat qilgan.

Shuningdek, asarda qoliplovchi hikoya ham keltirilgan: *Qadimda bir hukmdor sinash uchun olomoni maydonga to‘plabdi. Yarim murojaat, yarim buyruq ohangida: - Yaqin kunlarda yer-suvlaringni tortib olishga to‘g‘ri keladi! – debdi. Olomon indamay uy-uyiga tarqalibdi. Uch-to‘rt kundan keyin hukmdor yana olomni to‘plabdi: - Bundan buyon er-xotin hammang bitta ko‘rpa ichida yotasanlar! Olomon bu gal ham indamay uy-uyiga jo‘nabdi. Hukmdor bo‘g‘ilib, ko‘p o‘tmay yana olomni to‘plabdi: - Ertaga ana shu maydonda hammangni osaman! Taajubki, olomon odatdagidek indamay tarqalyotgan emish! Faqat birgina kishi botinib-botinmay hukmdorga yuzlanibdi: - Onhazrat... arqonni o‘zimiz keltiraylikmi yoki berishadimi?! [2; 22]* Mazkur parcha orqali, eng avvalo, asarning badiiyliги hamda ta‘sirchanligi yanada oshgan. Bundan tashqari Omon Muxtor yashab, ijod etgan davr odamlari, ya‘ni sovet kishisining hayotiga ham ishora mavjud.

Romanda folklor an‘analaridan unumli foydalanilgan: *...ishing tushsa, kichikni ham aka deysan, kuchukni ham [2; 23]; Jahl chiqsa, aql qochadi [2; 25]; Bir qozonda ikkita qo‘chqorning boshi qaynamaydi [2; 29]; O‘zing uchun o‘l, yetim... [2; 64]; Chamanda gul ochildi-yo, chakangga taq, chakangga... [2; 33].*

Bundan tashqari, tush motiviga ham duch kelamiz. Ma‘lumki, xalq og‘zaki ijodi hamda badiiy adabiyotda mazkur motiv o‘zining salmoqli o‘rniga ega. U orqali asar qahramonlari o‘zaro do‘stlashadilar (“Alpomish” dostoni), taqdiri bashorat qilinadi (“Qissasi Rabg‘uziy”, Yusuf qissasi) va shu kabilar. “Ffu” romanida esa Toshtemir tushida suyukli yori Nigor orqali ezgulikka da‘vat etilgan.

Asarda ham nasriy, ham nazmiy uslublardan foydalanilgan. Unda keltirilgan she'riy parchalarning ayrimlari Omon Muxtor qalamiga mansubdir. Bu ijodkor mahorati va uslubidan dalolatdir. Mazkur she'riy parchalarda hayot, undagi rang-barang tuyg'ular kuylangan:

*Mudragan yurakni uyg'otdi ohu!  
Nozik qadamlarning yengil sabosi.  
Horg'in ko'zlardagi ko'ngil navosi,  
Erkin ko'zlardagi qizlik hayosi –  
Singib tomiringa,  
qiziyapti qon...  
Bu – qanday g'alayon?!  
Bu – qanday isyon?!  
Bu qanday bayonsiz,  
Hasratli bir hol?! –  
Men buni o'zim ham bilmayman alhol.*

*Bilganim:  
uchdi-yu, nazdimda, yohu! –  
Uchqunlar sachratdi ko'ksimda ohu. [2; 62]*

Mazkur she'riy parchada dardmand oshiqning sog'inch to'la hasratlari kuylangan. Ohuga o'xshatilgan yor portreti shunday mahorat bilan chizilganki, yorning alifdek qaddi-qomati, gulg'unchadek lablari yoki qalamqoshlari so'zlanmagan ham. Biz yor go'zalligini *mudragan yurakni uyg'otdi ohu, nozik qadamlarning yengil sabosi, erkin ko'zlardagi qizlik hayosi, uchqunlar sachratdi ko'ksimda ohu* satrlari orqali bilib olishimiz mumkin.

Aytish mumkinki, “Ffu” romani nazariy jihatdan ramziylikdan mohirona foydalanib yozilgan asar hisoblanadi, badiiy jihatdan esa insoniylik, yaxshilik kabi xislatlarni kuylovchi asrlarga daxldor asarlar sirasiga kiradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

3. Иззат Султон. Адабиёт назарияси. – Т.: Ўқитувчи, 1986
4. Омон Мухтор. Аёллар мамлакати ва салтанати. Романлар ва ҳикоялар. - Тошкент. “Шарқ” нашриёт-матбаа концерни бош таҳририяти

### HIKOYALAR ICHIGA YASHIRINGAN HAQIQAT (U.Hamdami hikoyalari asosida)

*Umarova Shahnoza Yusuf qizi,  
JDPI magistiranti  
Ilmiy rahbar: f.f.f.d. (PhD) Parizod Turo pova*

Hozirgi o'zbek adabiyotida ham yozuvchi, ham shoir, ham adabiyotshunos sifatida Ulug'bek Hamdam ijodi o'zining munosib o'rniga ega. Adibning ijodi ayri-cha jihatlari bilan nafaqat o'zbek adabiyotshunosligi balki rus va boshqa xorij adabiyoti vakillarining ham e'tiborini tortgan. Zero, Ulug'bek Hamdamning

asarlarini, xususan, hikoyalari ham shunchaki o'qib bo'lmaydi. Ularda inson tafakkuri, ruhiyatidagi o'zgarishlar ayni o'zgarishlarga mos usulda beriladi. Umuman olganda, adabiy tanqidchi U.Normatov ta'kidlaganidek, "Ulug'bek Hamdam hikoyalari nazar tashlasangiz, muallif badiiy tafakkurida to'xtovsiz o'zgarish, yangilanish jarayoni kechayotganligiga, miqyos-ko'lamning tobora kengayib borayotganligiga amin bo'lasiz"[2;425].

Adibning «Tosh» hikoyasi modernistik asar bo'lib, hikoya sarlavhasidan so'ng qo'yilgan «Yoki yovuzlikning tug'ilishi» ilovasi asarda ilgari surilmoqchi bo'lgan g'oyani topish uchun kalit vazifasini o'taydi. «Tosh», «Otash», «Lola» hikoyalaridagi ko'pchilik fikrlar, aslida «Yolg'izlik» qissasidan sitilib chiqqan satrlar deyilsa bo'ladi.

"Lola" hikoyasi "Yolg'izlik" qissa va hikoyalar to'plamida dastlab "Gardkam" nomi bilan e'lon etilgan[101-103]. Tadqiqotchi G.Sattorova mazkur asarni "hikoya real voqealar emas, Yozuvchi sub'ektiv dunyosida kechadigan noreal voqealar asosiga qurilgan" – deb to'g'ri ta'kidlaydi [3]. Hikoyada Lola obraziga bot-bot urg'u beriladi. Nazarimizda, hikoyaning "Gardkam" deb atalishida biroz mavhumlik mavjud edi. Ikkinchi nashrda hikoya sarlavhasi "Lola" deb atalib, hikoya matni biroz tahrir etilgan. G.Sattorova hikoyadagi muhim estetik idealni shunday tahlil etadi: "Lolani muayyan maqsad ramzi deb belgilash o'rinsiz... Hikoya Sharq falsafasiga xos komillikni targ'ib etadi....

Xullas, "Gardkam" qahramoni intilgan ideal moddiy emas, balki ilohiy, ruhoni idealdir"[3;107-108]. Hikoyani tadqiqotchi mulohazalaridan boshqacharoq tarzda ham tahlil etish mumkin. Avvalo hikoyaning badiiy kompozitsiyasiga e'tibor qaratsak, "Lola"da ham xuddi "Tosh" hikoyasidagi kabi voqealar I shaxs "men" tilidan bayon etiladi. Birinchi satr "Shundoq ro'baro'mda qoya - qirrador toshli, tik va bahaybat. Ustida hilpirab turgan alvonrang, vahshiylarcha go'zal lolaga hamma o'zini uradi"[5;123]. Beixtiyor bu satrlar shoir Oybekning "Nafis chayqaladi bir tup na'matak, Yuksakda shamolning belanchagida" she'rini yodga soladi. Mazkur hikoyadagi qoyalar tepasidagi go'zal lola obrazi Oybekning "Na'matak" she'ridan ta'sirlanib yaratilgan.

Ammo U.Hamdamning lola obrazi peyzaj tasviri emas, unda Yozuvchining muayyan badiiy maqsadi, ramziy estetik ideali aks etgan. Hikoya ko'p jihatdan fransuz yozuvchisi A.Kamyuning "Sizif haqidagi afsona" essesini esga tushiradi. Har ikkala asarni yonma-yon qo'yib tahlil etish mumkin.

A.Kamyu esselari XX asr boshlaridagi fransuz badiiy tafakkurida muhim o'rin tutadi. Esseda qalamga olingan Sizif kurashchan va sabotli inson timsoli bo'lsa, xarsangtosh ramziy ma'no kasb etadi. Sizifning irodasi toshdan ham mustahkam, yengilmas, ruhan xudolardan ustun chiqadi. Bu ma'nisiz ishdan takror-takror bajarishiga sabab, xarsangtosh Sizifning shaxsiy g'am-tashvishi hisoblanadi. Shuning uchun ham u xarsangtoshdan voz kecha olmaydi. Sizif - bugungi kun kishisining timsoli.

Xullas, Sizif singari "Lola" hikoyasi qahramoni ham yangi-yangi cho'qqilarni zabt etishdan charchamaydi. Bu esa insonning metin irodasini,



ma'nisiz hayotdan ma'no topib yashayotgan aql-u zakovatini mazkur kichik bir hikoyada namoyish etib turibdi[4;163].

"Yaxshi odamlar" hikoyasi "Uzoqdagi Dilnura" kitobiga kiritilgan hajm jihatidan eng yirik hikoya. Asarning bosh qahramoni Ibrohim qahraton qish kunida o'g'li bilan mashina eshigini ocha olmasdan anchagina qiyinchilik ichida qolishadi. Ibrohimning bora-bora atrofdagilarga ishonchi susayib, ko'ziga hamma pul undirish maqsadida unga yordamga kelayotgandek bo'laveradi. Uning qalbida batamom yorug'lik, yaxshilikka umid o'chgan paytida notanish Yo'lovchilar kelib, unga xolis xizmat ko'rsatishadi. Hikoya yakuni hayotda yaxshi insonlar borligiga ishonch ruhi bilan yakun topadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Гардкам / Ёлғизлик. Тошкент: Катортол-Қамолат, 1998. Б. 101-105.
2. Норматов У. Кичик жанрнинг катта имкониятлари// "Ватан ҳақида кўшиқ. –Т.: Академнашр. Б.425
3. Сатторова Г. Миллий характер ва бадиий талқин. Тошкент: Фан, 2007, - Б.
4. Қўчқорова М. Бадиий сўз ва руҳият манзаралари.Тошкент. Мухаррир. 2011.
5. Ҳамдам У. Лола / Узоқдаги Дилнур. Тошкент: Академнашр. 2010. Б.- 123.

#### АТОИЙ ШЕЪРИЯТИДА ЮСУФ ВА ЗУЛАЙҲО ТИМСОЛИ ТАЛҚИНИ

*Маматова Нилуфар Асомиддиновна,  
СамДУ талабаси,  
илмий раҳбар: ф.ф.доктори У.У.Қобилов*

Мумтоз шеърятимизда, жумладан, XV аср биринчи ярмида яшаб ўтган туркийғўй шоирлар адабиёт, санъат ва маданиятни бойитишга муносиб ҳисса қўшишган. Алишер Навоий ижодининг такомиллашуви, юксак чўққига кўтарилишида уларнинг баракали таъсири бўлган. Ўз замонасида машҳур бўлган бу давр шоирларидан Лутфий, Ҳайдар Хоразмий, Саккокий, Дурбек, Гадоий ва улар қатори салмоқли ўрин тутадиган Мавлоно Атоий ҳам туркийғўй халқлар шеърятига, хусусан, ғазалчилик тараққиётига, бадиий сўз санъатига муносиб адабий мерос яратганлар. Бизга маълумки, Атоий – ғазалнавис лирик шоир ҳисобланади. Унинг девонидаги ғазаллар ғоявий-тематик жиҳатдан ошиқона, маърифий, диний-тасаввуфий мавзуларда битилган. Шоир ўз шеърларига Қуръон ва ҳадислар мазмунини маҳорат билан сингдиради, муқаддас манбалардан иқтибослар келтиради. Атоий ғазалларида муҳаббат мавзуси билан бир қаторда май образи ҳам самарали қўланади. Атоий тасаввуфдаги май, қадах, майхона, зулф, хол, қош, кўз, бел, зуннор, санам каби истилоҳлар воситасида ранг-баранг маъно мазмунларни ифодалайди. Унинг лирикасида туркий халқларга хос халқ иборалари, таъбирлар, мақол ва маталлар, эртак мавзуларига оид сўзлар кўп



учрайди. XV аср биринчи ярми даврига мансуб шоирлар ижодида, жумладан, Атоий ижодида ҳам салмоқли ўрин тутадиган образлардан бири – Юсуф образидир. Атоий шеъриятида кўплаб тимсоллар келтирилади, аммо улар ичида энг кўп ва кенг қўлланилган тимсол Юсуф тимсоли талқинидир. Масалан, шоир бир ғазалида:

*То подшоҳ бўлгали сен ҳусн Мисрида,  
Афсона бўлди Юсуфи Каънон ҳикояти - дейди.*

Биз биламизки, Юсуф ҳақида жуда кўплаб қиссалар, ривоятлар мавжуд ва улар ичида энг машҳури “Юсуф қиссаси”дир. Юсуф тимсоли келтирилган ва у талқин этилган асарларнинг асл манбаи илоҳий муқаддас китоблар саналиб, булар: Таврот, Инжил ва Қуръони Каримдир. Шарқда кенг тарқалган бу қисса Қуръони Каримда ҳамма қиссалардан каттароқ ва фойдаси зиёдроқ қисса бўлган "Юсуф қиссасидир" дея таърифланади ва у бир юзу ўн бир ояти каримадан иборат бўлиб, бир юзу тўққиз ояти қиссага бағишланган ва «аҳсан ул-қисас» [яъни, гўзал қисса] деб ҳам аталади. Бу қиссанинг бадиий вариантлари Қуръони Каримнинг "Юсуф" сураси асосида шаклланиган ва шарқ-ислом оламида жамийки Юсуф ҳақидаги қисса ва дostonларнинг илҳом манбаи ушбу сура саналади. Рабғузий бу қиссанинг аҳсан [гўзал] дейилиши сабабини куйидагича изоҳлайди: 1) Қуръондаги бошқа ҳамма қиссалардан фойдаси кўпроқ эканлиги; 2) Қисса бошдан охир, бир қавлда қирқ йил, бошқа бирида саксон йил ичида бўлиб ўтган воқеаларни ўз ичига олганлиги; 3) Қуръони Каримда бошқа қиссалар турли оят ва сураларда, "Юсуф" қиссаси эса фақат бир оят "Юсуф" сурасида келганлиги; 4) Бошқа қиссаларда воқеалар бегона одамлар орасида юз берганлиги; 5) Қиссада уч ҳол: роҳатда ва машаққатларда Оллоҳга итоатда, халойиқ орасида эзгу муомалада, яхши ва ёмон кайфиятда бўлганда бағри кенг очиқ бўлмоқ борлиги; 6) Юсуфнинг ўз оғалари билан эзгу муомала қилганлиги, уларнинг жафосига сабр-бардошли бўлганлиги; 7) Қиссанинг аввали туш, ўртаси туш ва охири ҳам туш куриш борлиги; 8) Қиссанинг ишқ билан тамом бўлганлиги[2. 71].

Ушбу қисса даврлар ўтиши билан Шарқ малакатларида гўзал адабиёт намунаси сифатида кенг тарқалди, алоҳида асар сифатида қаламга олинди, шу сюжет асосида жуда кўплаб асарлар яратилди. Дастлаб, "Қиссаси Юсуф" деб аталган асарларда кейинчалик Юсуф ёнида Зулайҳо исми пайдо бўлди. Бу қиссалар кўплаб бадиий тасвирлар, турли воқеалар билан кенгайтирилган. Масалан, "Юсуф" қиссаларида Миср Азизининг хотини Зулайҳо дейилган, аммо, Юсуф сурасида Миср Азизининг хотини ҳақида фикр юритилганда, у Зулайҳо деб аталмайди. Худди шундай Атоий ҳам "Ул ки дерлар жумлайи..." деб бошланувчи ғазалида Зулайҳони Юсуф билан ёнма-ён келтиради:

*Миср шаҳринда Зулайҳони азиз Юсуф учун,  
Хор қилгон ер тубиндин ҳам чиқориб ҳусн эрур.*

Яъни, бу мисраларда Атоий Юсуф ниҳоятда гўзаллиги, Зулайҳо Миср Азизининг хотини бўлганлиги ва у Юсуфни зиндонбанд этганлиги тасвирини ҳисобга олганлиги кўринади. "Юсуф қиссаси" ўзбек, ва умуман, бадиий адабиётнинг машҳур асарларидан ҳисобланиб, уни ўрганиш ва таҳлил этиш мумтоз поэтика масалаларида ниҳоятда муҳим аҳамият касб этади. Бу мавзу кўлам жиҳатдан умумбашарий ҳодиса бўлиб келмоқда. Юсуф ҳақидаги ривоятлар асосида кўплаб асарлар яратилиб, буларда унинг асосан Зулайҳо билан муносабатлари ёритилган. Булар Абулқосим Фирдавсий "Юсуф ва Зулайҳо", Абу Али ибн Сино "Юсуф қиссаси", Қул Алининг "Қиссаси Юсуф", Шайёд Ҳамза "Юсуф ва Зулайҳо", Рабғузий "Қиссаси Юсуф Сиддик алайҳис-салом", Дурбек ва Жомий "Юсуф ва Зулайҳо" дostonлари, шунингдек, Бахтиёрӣ, Сули Фақих, Шаҳобиддин Ошиқ, Дарӣ, Ҳ.Ҳ. Чалабий, Нозим Хиравий, Ҳозик ва яна бошқа кўпгина форс-тожик, турк, Озарбойжон шоирлари дostonлар яратдилар. Айни пайтда Гёте ва Толстой сингари ижодкорлар ҳам Юсуф ҳақида асарлар битишни орзу қилганлар. Эътиборли томони шундаки, Юсуф ҳақидаги дostonларда ҳар бир шоир ўз даврининг муҳим воқеалари, ахлоқий ва фалсафий қарашларини акс эттиришга интиланлар. Масалан, Дурбек қаламига мансуб "Юсуф ва Зулайҳо" дostonида халоскорлик, сабр-у матонат масалалари етакчилик қилса, Абдурахмон Жомий "Юсуф ва Зулайҳо" дostonида ишқи илоҳий масалалари эътиборга олинади. Юсуф ҳақидаги илк дostonларда Юсуф ва Зулайҳо илоҳий образ марказида тасвирланса, [масалан, Юсуф ва Зулайҳо қайта яшариши] кейинчалик Юсуф ва Зулайҳо муҳаббати дунёвий талқин қилина бошланади. Айрим дostonларда бош қаҳрамонлар тарихий шахс ҳамда гўзал қиз сифатида ҳам тасвирланган. Жумладан, Зулайҳо ва унинг жуфти Юсуф образига XX асрнинг йирик сўз усталари Нозим Ҳикмат ва Томас Маннлар ҳам мурожаат қилганлар. Томас Манн "Юсуф ва унинг акалари", Нозим Ҳикмат эса "Гўзал Юсуф" асарини яратди. Ўзбек шоири Рамз Бобожон ҳам "Юсуф ва Зулайҳо" номли асарини яратган. Шу ўринда айтиш керакки, Юсуф доимо Зулайҳо образи билан ҳамоҳанг тарзда келади. Туроб Тўла: "Юсуф ва Зулайҳо"лар, яъни бу сингари дostonлар, улар агар гуллар номи билан аталганларида, мен уларни хазонсиз ҳамиша гулфом доимо очилиб, турадиган гуллар деб атаган бўлар эдим" - дейди. Баъзи талқинларга кўра, Зулайҳо аввалига инсоний жон, яъни Қуръони Каримнинг "Юсуф" сурасида тилга олинган нафси аммора, яъни ёмонликка ундагувчи нафсга занжирбанд бўлади, сўнгра эса тўхтовсиз ички кураш, дард-изтироблар чекиш орқали у бора-бора ўз хожасига қайтиб боришига амин бўлган ором топган нафс жон тимсолига айланади. Юсуф (а.с) ҳақида яратилган асарлар шаклан ўзгармаслиги, барқарор сюжетга эгаллиги билан ажралиб туради.

*Ишқ мисринда азиз ўлмас Зулайҳотек киши,  
Кечмайин Юсуф учун номусу нангу оридин.*

Алишер Навоий ҳам Юсуф ва Зулайҳо дostonини ёзишни ният қилганлигини айтади, аммо умр вафо қилмаган эди. У Дурбекнинг "Юсуф

ва Зулайҳо" достонига ўз фикрини билдиради: "Юсуф а.с. қиссаси андин машҳурроқдурким, эҳтиёж анинг тафсилина бўлғай, невчунки ғаробат ва ширинлиги учун ақобир ҳам назм ва ҳам мисранинг шарҳи асбобин тузубдурлар. Ул жумладин бири Фирдавсий Тусий ва яна бири ҳазрат махдуми Мавлоно Нуриддин Абдурахмон ал-Жомий навараллоху марқадахуким, андоқким Юсуф а.с. ҳусни ва жамоли таърифидин мустағнийдур". Таъкидлаш жоизки, мумтоз адабиётда Юсуф образи талқинига бағишланган достонлар 150 дан ортиқ бўлса, шуларнинг 50 га яқини туркий-ўзбек адабиёти маҳсулидир. Шуниси аҳамиятлики, Юсуф алайҳиссалом муқаддас манбаларда пайғамбарлик халқаси сифатида қаралади. Атоий бир байтида шундай дейди:

*Ўларман бу юртда бўлмасанг,  
Юсуфсиз, яъни Каънону тириклик.*

Шуни айтиш керакки, мумтоз шеърятда Юсуф тимсоли асосан ғазал жанрида келиб, тамсил, талмех, ўхшатиш каби бадиий санъатларни юзага келтиради. Бунга Атоийнинг қуйидаги мисраларини мисол қилишимиз мумкин:

*Ғар ҳусн будурким, санга бор кес бу тилимни,  
Юсуф сўзидин қилсам агар зарра ҳикоят.*

Ушбу байт мазмунига кўра, маъшуқа гўзаллигига чек-у чегара йўқ, хатто, кўплаб қиссаларда гўзаллик тимсоли сифатида тасвирланган Юсуф ҳам унга тенг келаолмайди. Бу байтда Юсуф тимсоли талмех санъатини юзага келтиряпти. Атоий яна бир сатрларида эса Юсуфни "Юсуфи ҳусн" деб таърифлайди.

*Солиб борма мени эй Юсуфи ҳусн,  
Букун Яъқубтек байт ул-ҳазанда.*

Бунда лирик қахрамон ёрини "Юсуфи ҳусн" деб таърифлаб, ўзини Яъқубнинг аҳволига тушиб қолишидан хавотир олмоқда. Юсуф ҳақидаги ривоятларга кўра, у Яъқубнинг севикли ўғли, акалари бунга ҳасад қилиб, отаси олдидан, алдаб далага олиб чиқади ва қудуққа ташлайдилар, «бўри еди» деб ёлғон овоза тарқатадилар. Ўғлининг ҳажрида Яъқубнинг кўзлари кўр бўлиб қолади. Мумтоз адабиётимизда Яъқубнинг айрилиқдаги ҳаёти «Байт ул-ҳазан» [ғам уйи] сифатида тилга олинади. Бу изоҳларга яна бир мисол тариқасида қуйидаги мисраларни келтираимиз.

*Ушбу юзни Юсуфи Каънон дегайлар Миср эли,  
Кўрсалар чоҳи занаҳдонинда зиндон.*

Юсуф ташланган қудуқ унинг ҳусни туфайли ёришиб турар эди. Юқоридаги байтнинг иккинчи мисрасида қўлланган "чоҳи занаҳ" ҳам Юсуф ташланган қудуқни англатади. Мумтоз шеърятимизда ишлатиладиган "чоҳи зақан" [ияк остидаги чуқурча] шунга ишора қилади.

*Эй камоли ҳусн, Юсуфдин жамолинг ёдгор,  
Бўлди ҳажрингдин биайниҳ кўзларим Яъқубвор.*

Яъни, бу мисраларда Атоий ёрга мурожаат қилиб, унинг хусн борасида Юсуфга тенглашиши, унинг хусни Юсуфдан ёдгорлик эканлигини ва ошиқ унинг жамолини кўришга интилиб, охири Яъқубдек унинг ҳам кўзлари ожиз бўлиб қолганлигига ишора қилмоқда. Атоий ижодида Юсуф тасвири келтирилган ғазаллар кенг қамровли ва кўпинча шоир ёр хуснини унга қиёслайди. Жумладан: "парвоналардек" радифли ғазалида шундай байтни келтиради.

*Юзунг давринда Юсуф достонин,  
Ўқурлар ому хос афсоналардек.*

Юқоридаги байт шундай изоҳланади: Ёр шунчалик гўзалки, унинг хуснини кўрганлар дарров Юсуф афсонасини эсга олади, яъни бунда шоир Юсуф гўзалликда тенгсиз бўлганлиги, ёр ҳам худди Юсуфдек хусн-у чиройга эгалигини тавсифламоқда. Дарҳақиқат, "Юсуф қиссаси" бадий адабиётда ўлмас мавзулар хазинасидир. У ҳақда қанча мулоҳаза юритилса, шунча қирралар намоён бўлаверади. Мавлоно Атоий ижодида Юсуф тимсоли хусусиятлари ҳақида кўп мулоҳазалар билдириш мумкин. Чунки, шоир ижоди ўзига хос маҳорат мактаби, илҳом манбаи ва адабиётимизнинг нодир маънавий бойлигидир. Атоий ҳар бир улкан ижодкор сингари адабиётнинг кейинги давр вакиллариغا кучли таъсир кўрсатди. Ўша давр туркигўй шоирлари орасида мавлоно Атоийнинг ўз ўрни борлиги адабиётшунос олимлар томонидан эътироф этиб келинмоқда. Шу сингари Юсуф ҳақида яратилган асарлар ҳам шаклан ўзгармаслиги, барқарор сюжетга эгалиги билан характерланади. Бу сюжетда яратилган асарлар эса ниҳоятда ранг-баранг мотивлар касб этади. Бундай ҳодиса фақат Шарқ адабиётигагина хос бўлиб қолмасдан, балки дунё халқлари адабиёти тажрибасида ҳам муҳим ўрин тутаяди.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Атоий. Девони шайхзода Атоий. Т.: Фан. 2008. 11 б.
2. Носириддин Рабғузий. Қиссаси Рабғузий. – Тошкент: Ёзувчи, 1990. - 71б.
3. Қуръони Карим. Абдулазиз Мансур таржимаси. – Т: Ислон университети нашриёти, 2001. – 619 б.
4. Қобилов У. "Юсуфнома" мавзуси ва унинг Алишер Навоий лирикасидаги талқинига доир. "Шарқ юлдузи" журнали, - Т.: 2015-й. 5-сон, 45-51- бетлар.

### **CHO‘LPON IJODIDA YURT VA MILLAT MUSTAQILLIGI QAYG‘USI**

*Ergasheva Nasiba Shokirjon qizi,  
NamDU talabasi*

Chor Rossiyasi tomonidan 1864-1885-yillar mobaynida O‘rta Osiyo xonlik va amirliklarini mustamlakaga aylantirildi. Rossiyaning Sharqdagi siyosatiga muayyan darajada ta’sir o‘tkazgan kishilardan biri N.I.Ilminskiy maslakdoshi Pobedonosevga yozgan maktublarining birida bunday fikrni og‘a surgan edi:

“Olimlardan va o‘ta bilimli o‘qituvchilardan ehtiyot bo‘linglar. O‘ta odobli va mukkasi bilan dinga berilgan oddiy odamlarga qaraganda ularni juda qattiq kuzatuv ostiga olinglar” [1,12]. Shunday qilib masjid, madrasa, bozorlarda xorijiy gazeta va jurnallarni tarqalmasligi, taraqqiyparvar nashrlarning Turkistonga kirib kelmasligi nazorat ostiga olindi. Ziyolilarni ikkiga ajratib yuborib, ulamolarni jadidlarga, jadidlarni esa ulamolarga qarshi qo‘ydi. O‘ta odobli va dindorlarning mavqeyi oshib bordi. Chor hokimiyati Turkistonda fohishaxonalar va ichkilik sotuvchi do‘konlar ochdi, e‘tiqodi sust kishilar maishat va ichkilikbozlikka mukkasidan ketdi. Ayni paytda, davlat arboblari o‘rtasida razolat botqog‘iga botayotgan Turkiston o‘lkasini ko‘rib, unga qarshi bosh ko‘targan kishilar, albatta uchragan.

XX asr – insoniyat tarixidagi eng ulug‘ asrlardan biri. Bu asrda qanchalik qon to‘kilgan, qanchalik nohaqliklar va adolatsizliklar ro‘y bergan bo‘lmasin insoniyat xuddi shu asrda kelajak sari katta qadam tashladi. Bu asrda sodir bo‘lgan barcha voqealar insoniyat tarixining ajralmas tarkibi. Ularning bizlarga maqbul bo‘lmagan qismlarini yoddan chiqarishga tarixdan o‘chirishga urunish bemanilikdir. XX asr o‘zbek adabiyoti xalq va jamiyat hayoti bilan mustahkam aloqa o‘rnatdi. Bunday aloqa adabiyotimizning avvalgi bosqichlarida bo‘lmagan [2,24].

Darhaqiqat, xalqimizning bu qonli va adolatsizliklar ro‘y bergan o‘tmishini unutish yoki tarix zarvaraqlaridan tushurib qoldirish, albatta, nodonlikdir. Tariximizning bu asri “Oltin asr” deb nom olgan. Quvonarli jihati shundaki, XX asr o‘zbek adabiyoti xalq va jamiyat hayoti bilan hamnafas bo‘la oldi. Bu asrda xalq dardiga yelkadosh bo‘lgan o‘zbek adabiyotining yorqin namoyondalari Abdulla Avloniy, Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Is‘hoqxon Ibrat, Fitratlar ijodi mustaqillik davrida o‘zining haqiqiy bahosini topmoqda.

Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarida shunday tanbeh bor: “Kimki umrini mardlar xizmati uchun sarflasa, umri o‘tsa hamki, abadiy umr egasi bo‘ladi. O‘zingni shundaylardan uzoq tutma, boshing ketsa ham shu muddaoni unutma. Umr bevafo dur, mardona hayot abadiy dur”.

Bu tanbehdagi “mard” so‘zi forscha bo‘lib inson ma‘nosini anglatadi. Cho‘lpon ham o‘z umrini mana shunday mardlar xizmati va Vatan ravnaqi uchun baxshida etgan adiblardan biridir. U 1897-yil Andijon shahrining Qatorterak mahallasida tavallud topgan. Asl ism-sharifi Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Yunusovdir. Cho‘lpon, dastlab madrasada, so‘ng rus-tuzem maktabida o‘qigan. U shoir, yozuvchi, dramaturg, tarjimon, tanqidchi va jamoat arbobi sanaladi.

Biz shoirning “Go‘zal”, “Kongil”, “Binafsha”, ”Ulug‘ yo‘lda”, “Kurash”, “Vijdon erki”, “Xalq”, “Sirlardan”, “Galdir”, “Ko‘klam qayg‘usi”, “Amalning o‘limi”, “Ozod turk bayrami” kabi she‘rlarini bilamiz. Cho‘lpon she‘rlarida o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy, moddiy va madaniy hayotini aks ettiradi. O‘sha davrdagi siyosat, dolzarb muammolar shoir ijodida asosiy o‘rinni egallagan. Masalan, “Ko‘ngil” she‘rida ko‘ngliga savol bilan yuzlanish orqali davr muammolariga shoir ko‘ngli befarq emasligini ko‘rsata olgan:

*Ko‘ngil, sen munchalar nega  
Kishanlar bilan do‘stlashding?*



*Na faryoding, na doding bor,  
Nechun sen muncha sustlashding?*

Keyingi to‘rtlikda shoir kun kelib bunday haqoratlar, tubanliklar barham topishi, qo‘llardagi kishanlar parchalanib, begunoh odamlarning ko‘ksilariga qadalgan qilichlar sinishini go‘yoki bashorat qiladi:

*Haqorat dilni og‘ritmas,  
Tubanlik mangu ketmasmi?  
Kishanlar parchalanmasmi,  
Qilichlar endi sinmasmi?*

Shoir xalqiga qarata sen hali tiriksan, o‘lmagansan, sen ham odamsan, sen ham insonsan, kishan kiyib, bo‘yin egish senga yarashmaydi, chunki sen ozod va erkin tug‘ilgansan deb, baralla aytadi:

*Tiriksan, o‘lmagansan,  
Sen-da odam, sen-da insonsan,  
Kishan kiyma, bo‘yin egma,  
Ki, sen ham hur tug‘ulg‘onsan!..*

Shoirning 1917-yil 26-29-noyabrda Qo‘qonda bo‘lib o‘tgan Umummusulmonlar qurultoyida Turkiston Muxtoriyat hukumatining tashkil topganini e‘lon qilinganligi munosabati bilan yozilgan “Ozod turk bayrami” she‘ri varaqa shaklida tarqatilib, Muxtoriyatning madhiyasi sifatida xalq orasida ijro etilgan. Mazkur varaqalardan biri qo‘qonlik taniqli adabiyotshunos Ahmadjon Madaminov tomonidan topilgan. She‘r quyidagicha edi:

*Ko‘z oching, boqing har yon!  
Qardoshlar, qanday zamon!  
Shodlikka to‘ldi jahon!  
Fido bu kunlarga jon!*

Naqorat

*Turkistonlik – shonimiz, turonlik – unvonimiz,  
Vatan – bizning jonimiz, fido bo‘lsun qonimiz!*

She‘rda to‘q qofiyadan foydalanilgan. To‘rt misra ham o‘zaro qofiyalangan va ko‘tarinki ruhda yozilgan. Naqoratda “Shonimiz”, “Unvonimiz”, “Jonimiz”, “Qonimiz” kabi ichki qofiyadan foydalanilgan:

*Bizlar temir jonlimiz!  
Shavkatlimiz, shonlimiz!  
Nomusli, vijdonlimiz!  
Qaynagan turk qonlimiz!*

Naqorat

*Turkistonlik – shonimiz, turonlik – unvonimiz,  
Vatan – bizning jonimiz, fido bo‘lsun qonimiz!*

Uchinchi bandning uchinchi va to‘rtinchi misrasi o‘zaro qofiyalanib, tazod san‘atini hosil qilgan. “Taraqqiy” va “Jaholat” so‘zlari ham o‘z o‘rnida tazod san‘ati asosida millat taqdiri haqida qayg‘urgan shoir ko‘nglida jaholatni yengib, taraqqiy etish zarurati borligini anglatadi:

*Bunda kenglik, zo‘rlik yo‘q,*

*Berildi bizga huquq!  
Taraqqiyga yo'l ochiq!  
Jaholatga yo'l yopiq!*  
Naqorat

*Turkistonlik – shonimiz, turonlik – unvonimiz,  
Vatan – bizning jonimiz, fido bo'lsun qonimiz!*

To'rtinchi bandning birinchi, ikkinchi, uchinchi misralari o'zaro qofiyalangan, ammo to'rtinchi misrasi qofiyadosh bo'lmasa-da, mazmundagi bog'liqlik Turkiston muxtoriyatiga ishongan ko'ngilning orzu-havaslarini bisyor bo'lganini anglatadi:

*Muxtoriyat olindi,  
Ishlar yo'lga solindi,  
Milliy marshal cholindi,  
Dushman o'rtansun endi!*

Naqorat

*Turkistonlik – shonimiz, turonlik – unvonimiz,  
Vatan – bizning jonimiz, fido bo'lsun qonimiz!*

Shoir beshinchi bandda ona-Yurt uchun shodlik, xurramlik damlari kelganidan zavqlanadi. Hurlik zamoni keldi deb, baralla ayta oladi. Afsuski, XX asr boshlaridagi siyosiy jarayonlar Cho'lpon kabi yurt qayg'usi bilan yonib-kuygan shoirlar qalbidagi isyonlarga qarshi edi:

*Shodlik, xursandlik chog'lar,  
Ketsun yurakdan dog'lar,  
Vatan bog'indan zog'lar!  
Selkullasun bayrog'lar!*

Naqorat

*Turkistonlik – shonimiz, turonlik – unvonimiz,  
Vatan – bizning jonimiz, fido bo'lsun qonimiz!*

Shoir oltinchi bandda bayrog'imiz hurriyatdir, o'rtog'imiz adolat deya faxrlanadi. Bu holatdan xursand bo'lgan Cho'lpon qalbi kelajakka ishonch bilan qaraydi:

*Hurriyat – bayrog'imiz,  
Adolat – o'rtog'imiz,  
Xursand bo'lgan chog'imiz  
Mevalansun bog'imiz!*

Naqorat

*Turkistonlik – shonimiz, turonlik – unvonimiz,  
Vatan – bizning jonimiz, fido bo'lsun qonimiz!*

Yettinchi bandda Turkistonni turk beshigi deb ataydi, uning yerini oltin, tog'larini konga mengzaydi. Farzandlarini qahramon, yurtiga jon fido etguchi pahlavonga qiyoslaydi:

*Turk beshigi – Turkiston!  
Yeri oltun, tog'lari kon!  
Bolalari qahramon!*

*Vatan uchun berur jon.*

Naqorat

*Turkistonlik – shonimiz, turonlik – unvonimiz,*

*Vatan – bizning jonimiz, fido bo‘lsun qonimiz!*

Cho‘lpon o‘z davrining mard va jasur, komil kishisi bo‘lgan. Yurt qayg‘usi, xalq dardi va quvonchini o‘ziga xos uslubda kuylay olgan Cho‘lpon vujudi, ko‘ngli Vatanga bo‘lgan samimiy muhabbat bilan band ekanini anglatadi. Cho‘lpon XX asr boshlarida ijod qilgan shoir va adiblarimiz hamisha xalq dardi bilan yashaganini yana bir bor isbotladi. U nafaqat aruzda, hatto yangi davr adabiyotiga xos ijod namunalarida, barmoq vaznida, romanlarida ham Turkiston o‘lkasi mustaqilligi uchun qayg‘urdi, yurt ishqida yonib yashadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari // O‘zbekiston. – Toshkent. 2008. – B.12.
2. Karimov N. XX asr mening taqdirimda // Jahon adabiyoti. – Toshkent. 2001, yanvar. – B.24.
3. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi // O‘qituvchi. – Toshkent. 1986. – B.345 – 365.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati.
5. kh-davron.uz

#### **SAYYORA TO‘YCHIYEVANINIG SHE’RIYATIDA VATAN MADHI**

*No‘monova Mahfuza Melievna,*

*JDPI talabasi*

*Ilmiy rahbar: JDPI katta o‘qituvchisi, f.f.f.d (PhD)*

*Turopova Parizod Shavkat qizi*

O‘zbek xalqi azal-azaldan ilmga, adabiyotga, san‘atga o‘zgacha mehr qo‘yganligi bilan boshqa qardosh xalqlardan ajralib turadi. O‘zbek ayollari ichida o‘tkir qalam sohibalari bo‘lgan Zebiniso, Nodira, Uvaysiy, Zulfiyaxonim, Halima Xudoyberdiyeva kabi o‘nlab, yuzlab shoirlarimiz yetishib chiqqan. Adabiyot olamiga o‘zining go‘zal va betakror she‘rlari bilan kirib kelgan Jizzaxlik shoirlarimiz ham ko‘pchilikni tashkil etadi. Sharofat Botirova, Sayyora To‘ychiyeva, Shahlo Axrorovalar o‘zlarining she‘rlari bilan kitobxon qalbidan joy olgan shoirlardir. Ularning orasida Sayyora To‘ychiyeva she‘rlarining o‘ziga xosligi, soddaligi, samimiyligi bilan ajralib turadi. O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning Sayyora To‘ychiyeva haqidagi ushbu fikrlari bunga yaqqol misol bo‘la oladi: „Qizimizning ijodida samimiylik, aytish mumkinki, barq urib turadi. U tabarruk O‘zbekistonimizni kuylaydimi, ona yurti-Jizzaxni vashf etadimi, yoki jajji farzandi Muhammadga tuganmas onalik mehrini baytlarga tizadimi, faxriyalar yozadimi, insoniy armonlarini to‘kib soladimi – baribir u qarshingizda Sayyora bo‘lib, ochiq, dilkash chehra bilan kulib turaveradi.“[1.3.4]

Sayyora To‘ychiyeva she‘rlari o‘zining jo‘shqinligi bilan, jozibadorligi bilan el og‘zidan tushmay kelayotganini yaxshi bilamiz. Uning she‘rlari yozilishi, o‘qilishi sodda va ravon bo‘lganligi uchun xalqimizning ardoqli san‘atkorlari tomonidan zo‘r mahorat bilan kuylanib kelinmoqda. Masalan, O‘zbekiston Xalq artisti Yulduz Usmonova tomonidan “Sanamgina”, “Keladi”, “Aldadi”, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Hosila Rahimova tomonidan esa „Opa“ nomli she‘ri kuylangan. Shuni takidlash joizki shoiraning she‘rlari ma‘nosi, mazmuni bilan boshqa she‘rlardan yaqqol ajralib turadi.

Sayyora To‘ychiyevaning “Sanamgina”, “Vafo bo‘lib uyg‘onaman”, “Men seni qizg‘onaman”, “Ko‘zlaringni sog‘inaman” kabi to‘plamlari bilan kitobxonlarga katta meros qoldirmoqda. Ushbu to‘plamlarda vatanga mehr, yurtga sadoqat, vatanning tengsiz go‘zalliklari, tabiati, mehmondo‘stligi, yurtimizning jannatmakon ekanligini zo‘r mahorat bilan tasvirlagan. “Sayyora To‘ychiyeva o‘zbek xalqining nihoyatda vatanparvar bo‘lishini istaydi. Vatanning har bir zarrasi, tuprog‘ini qadrlashni xohlaydi. Buning uchun shoira O‘zbekistonning buyukligi, unday vatan hech qayerda topilmasligini turli rakurslardan biz o‘quvchilar shuuriga yetkazishga intiladi”[2.82]. Sayyora To‘ychiyevaning “Sanamgina” to‘plamiga kirgan “O‘zbekistonim” she‘ri misolida ko‘rishimiz mumkin.

Sen bor uchun ko‘kka yetdi qadrim mening,  
O‘ziga xon, o‘ziga bek davrim mening.  
Qarog‘ingga mehr bo‘lib to‘kilayin- .  
Yuragiday bag‘ri toza xalqim mening,  
Borlig‘imsan, boyligimsan, jon- jahonim,  
O‘zingga o‘xshashi yo‘q, O‘zbekistonim!

Shoira bu misralarda o‘zbek xalqining yuragi toza ekanligi, yuragida mehr jo‘sh urib turishini, shu vatani tufayli qadr topgani, boshi ko‘kka yetganini qalamga olgan bo‘lsa, O‘zbekistondek yurtga hech qaysi yurtning o‘xshamasligini, borlig‘i ham, boyligi ham, jonu- jahoni ham shu yurt ekanligini tasvirlab beradi. Biz bilamizki, azal – azaldan O‘zbek xalqi bolajon, mehmondo‘st, qalbi toza, qardosh xalqlarga mehribonligi, o‘xshashi yo‘qligi bilan boshqa el-u yurtlardan ajralib turadi.

Sen otamdan qolgan dono qo‘shig‘imsan,  
Sen onamdan qolgan tillo beshigimsan .  
Kimim ham bor sendan yaqin, sendan aziz,  
Sig‘inganim, sog‘inganim, suyugimsan.  
Yetmish ikki tomirimda oqqan qonim-  
O‘zingga o‘xshashi yo‘q, O‘zbekistonim!

Vatan ota-bobolarimizdan, momolarimizdan qolgan buyuk go‘sha ekanligi, bu yurt tarbiyalab, voyaga yetkazuvchi muqaddas maskan ekanligini ta‘riflaydi. Tomirimizdagi qonimizda Vatan mehri oqayotganligini, jannatmakon O‘zbekiston yurtida yashayotganligimizni baralla aytadi. Shoira Vatanni beshikka qiyoslaydi. Chunki beshikda yotgan bola ona allasini tinglab voyaga yetadi. Suyanguvchisi

ham, sog'inguvchi ham Vatan ekanligini mana shu beshikda ona allasi orqali anglab yetadi.

Jonga tutash oltin ungan dalalaring,  
Tandiringa quyosh qo'ngan pallalaring.  
Mag'rur, o'ktam qomatingga ko'z tegmasin-  
Ko'zmunchoqlar bo'lsin bizday bolalaringga .  
Ko'ztumorim , so'zda borim pok iymonim,  
O'zingga o'xshashi yo'q, O'zbekistonim!

Sayyora To'ychieva bu misralar orqali mehnatkash xalqimizning dalalarda toblanganligini, onajonlarimizning tandirdagi issiq nonlarining xushbo'y hidlarini hech narsa bilan qiyos qilib bo'lmasligini takidlaydilar. Dalalarimizda har bir ungan giyoh mehnatkash xalqimizning peshona teri ekanligi, ularning mehnati tufayli bunyodga kelganini zo'r mahorat bilan ta'riflaydi. O'zbek xalqining iymonli, e'tiqodli, oriyatli, pok niyatli ekanligini shu misralar orqali yana bir bor ko'rishimiz mumkin.

Hayotdir bu – yaxshi ham yomon o'tadi,  
El qadriga elim degan, mard yetadi.  
Ozod yurtin dunyolarga olib chiqqan –  
Sultonini asray bilgan xalq yutadi.  
Quyosh, oy-u yulduz to'la dasturxonim-  
O'zingga o'xshashi yo'q, O'zbekistonim!

Bu misrada bu dunyodan yaxshi ham, yomon ham o'tishini, mard insongina elining qadriga yetishini, yurtimiz tinchligi, ozodligi, obodligi bilan, yurtboshimizning qilayotgan sayi harakatlari bilan jahonga yuz tutayotganligini ko'rib turibmiz. Yuqorida aytib o'tganimizdek, o'zbek xalqi juda bolajon, mehmondo'st xalq, shu sababli doimo dasturxonini to'kin – sochin, noz- ne'matlar bilan to'la ekanligini qalamga olganlar .

Yo'qlab kelsa navro'zlarim, ko'klamlarim,  
Quchog'imga bosay do'st-u birodarim.  
Yetti pushting ko'rmagan to'y qutlug' bo'lsin-  
Xizr nazar qilgan yurtim, payg'ambarim.  
Bolam desang tuproq o'lsin mani jonim-  
O'zingga o'xshashi yo'q, O'zbekistonim!

Shoira o'zbek xalqi sevib nishonlaydigan navro'z bayramini har yili juda katta tantana bilan nishonlanishini, yor-birodarlar bir-biriga mehr-muruvvat ko'rsatishi, momolarimiz yurtimizga ko'z tegmasligini, hamma ahil-inoq yashashini duo qilishlari haqida aytilgan. Bu bayramni shu kunlarga qadar nishonlanmay kelingani, mustaqillik sharofati bilan bayram qilinayotgani, bu yurt Xizr nazari tushgan buyuk O'zbekiston ekanligini baralla aytadi.

Xulosa qilib aytganda, bu muqaddas zaminda juda ko'plab shoir va shoirlar, adabiyot va she'riyat ixlosmandlari yetishib chiqqan. Jumladan, Sayyora To'ychiyeva inson taqdiri, el yurt g'ami, Vatan mehri, farzandlar komolotini o'z she'rlarida kuylayotgan, yurtimiz farzandlarini el-yurt, Vatan uchun sodiq va



halol xizmat qilishga chorlayotgan shoira sifatida qadrlidir. She'rlaridagi samimiylilik, soddalik yoshlarni ajoyib va takrorlanmas she'rlar yozishga undaydi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. S.To'ychiyeva "Sanamgina" O'zbekiston Respublikasi FA "FAN" nashriyoti 2008. 3-4-bet.
2. P.Turopova "Adabiy-estetik ideal kategoriyasining transformatsiyalanish jarayoni" Toshkent "Mumtoz so'z" 2020.82-bet.

### YANA BIR HIKOYA HAQIDA

*Sodiqjonova Yoqutxon*  
*O'zbekiston jurnalistika va ommaviy*  
*kommunikatsiyalar universiteti talabasi*

Muyassar Tilovovanning "Tabib" hikoyasi iztirobdan tug'ilgan bugungi kunning dardi haqidagi hikoya. Asarning nomidan ma'lumki hikoya bir tabib haqida. Ammo hikoya bosh qahramoni bo'lgan tabib oddiy bir tabib emas. Buni mutolaa jarayonida tabibning xatti-harakatidan, qahramonlarga qilgan muomalasidan ham payqash mumkin. Hikoyani o'qishga kirishgan chog'da qishloqdagi tabiat tasviri ya'ni ikki yil qurg'oqchilikdan so'ng bahorning seryomg'ir kelishi hattoki qishloq xalqi bahorgi yumushlarni qilish uchun to'laqonli imkoniyat topa olmasliklari, albatta, jonli qishloq hayoti uchun tanish hodisalardan biri. Mana shunday tasvirlar o'z-o'zidan inson kayfiyatiga ham ko'chadi. Ayniqsa, "Qishloq shalabbo odamday so'ppayib qolgan, tarifi bir so'zdayoq qishloqda hukm surayotgan bahor tavrini ifodalab bergan. Asarda bosh qahramonning ikki uzatilgan qizi to'g'risida gap ketar ekan biroq uning to'ng'ich qizi ikki bolasi bilan otasining oldida. Uning issiq-sovug'idan xabardor. Qizi otasini o'z uyiga olib ketishga harchand urinmasin tabib keksayib kasal bo'lishiga qaramay, xayoli bemorlarda "mensiz odamlar qiynaladi", deb gapga yakun yasaydi. Tabib istagandek bo'ldi. U chindan ham hammaga kerak edi. Ayniqsa xalq orasida vabo tarqalgan paytda. Hali qishning tafti arimagan, jala quyib atrofni ko'lmak qilish darajasiga yetgan bir paytda eshik taqillaydi. Aynan shu yerdan boshlab asar bo'yoqdorligiga (jon kira boshlashiga guvohi bo'lamiz) to'q ranglar o'z hissasini qo'sha boshlashini ko'ramiz. Ya'ni tabibning Xolmirza qo'shchi ismli qo'shnisi kasal qizini dardiga davo izlab uning yoniga keladi. Xolmirza qizchasida barcha kasallik belgilari tabib birma-bir aytar ekan so'zlaridan bor umidi tabibdan ekanligi ma'lum bizlarga. Bu yerda otaning mehri nozik tuyg'u bilan ochib berilgan. Otaning farzandi uchun to'kayotgan ko'z yoshlari va shu yoshlarni sezib qolmasliklari uchun ho'l yengi bilan atayin shalabbo sochlarini artishida ko'rsatiladi. Tabib bemorni boshdan-oyoq tekshirar ekan endi qizchaning sog'ayishiga umid qolmaganini bilsa-da, otasiga bosiqlik bilan nima qilish kerakligini tushuntirdi. Tabibning maqsadi garchi davosi bo'lmasa-da endi bu yuqumli kasallikni boshqalar yuqtirib olishlaridan ogoh etish edi. U shu ishni

avvalo o‘zida va qizidan boshladi. Ya'ni qiziga tezgina qo‘lini yaxshilab yuvishini buyurdi. Barcha voqeadan xabardor bo‘lgan qizi esa cho‘chibgina bemorning kasali nimaligi otasidan so‘rar ekan uning vabologini eshitib yuragi behol urdi. Tabib qizchaga qo‘ygan tashxisi to‘g‘ri bo‘lsa-da, ich-ichida adashgan bo‘lishini shunchalar xohladiki. Lekin keyingi kuni bemorning vafot etganini eshitib qizdagi alomatlar vabo ekanligiga amin bo‘ldi. Tabib betob bo‘lishiga, qizining qaytariqlariga qaramay janoza bo‘layotgan hovliga dadillik bilan kirib bordi. Janozada Xolmirzaning kesatiqli, behurmat qiliqlariga e‘tibor bermay qizidagi kasallik ayoliga ham yuqqan qo‘shnining xotinini surishtira boshladi. Tabibdagi fidoyilik mana shu joyda kurtak ocha boshlaydi. U o‘z maqsadiga yetish uchun ya'ni olamoni bu kasallikdan boxabar etish uchun To‘ra mulla ko‘magidan ham foydalanadi. Mulla qishloqdoshlariga vabo kasalligidan barchani ogoh etar ekan tabibning ko‘nglida biroz bo‘lsa-da xotirjamlik paydo bo‘ldi. Kasallik tufayli hech kim ko‘chaga chiqmasa-da, lekin birin-ketin odamlarning vafot etishi kasal tabibning yuragini battar eza boshladi.

Kunlar o‘tib xalqning oziqasi tugagani sari kerak bo‘lsa qo‘shnisining uyiga o‘g‘irlikka kirgani uyat pardasini yirtib o‘tishga jur‘at topishgani bu juda achinarli. Sababi mana shunday o‘g‘irlik tabibning ikki qo‘yi yo‘qolishidan ma'lum. Asarda tabib qo‘ylarning yo‘qolishidan achinmaydi. Odamlar orasidan mehr-oqibat, ishonch, vijdon hislatlari ko‘tarilishidan qo‘rqadi. Hikoyada ana shunday vaziyat To‘ra mulla obrazi orqali sodir bo‘ladi. Qishloq xalqi mulla kasallik yo‘qolishi uchun tun-u kun Xudoga duo qilyapti deb uning eshigi tagiga har narsalar qo‘yilib ketishadi. Ammo bunday hol qo‘shnisidan eshitgan tabib qo‘rqmay mullaning uyiga bostirib boradi. Omma oldida mullaga bor gapni aytib uni noto‘g‘ri ish qilayotganini tushuntirishga urinar ekan, mulla o‘zining bu ishini xalqqa qilgan yordami deb bilib tabib bera olmagan yordamni o‘zi berayotganini aytib do‘q qilishi mullalik shaniga dog‘ tushurishi bilan barobardir. Mullaning so‘zlariga ko‘ra eshik oldiga qo‘yilgan oziqalarni boshqalar olib kelayotganini va shu orqali aholi tirikchilik qilayotgan emish. Axir kasallik buyumlardan, suvdan o‘tadi. Demak mulla qishloqdoshlariga bir-birlariga kasallik yuqtirishlariga yordam berayotgan ekan-da. Shu kabi adolatsizlikka guvohi bo‘lgan tabib va qiz uyga qaytar ekanlar. Yo‘l-yo‘lakay tabibning ahvoli og‘irlashib, yerga yiqildi. Endi bunday damda tabibning o‘ziga hatto tabib ham yordam bera olmaydi. Hikoyadagi tabibning so‘nggi so‘zlari esa uning kulminatsiya nuqtasi bo‘ldi deyolamiz. Tabib o‘lim yoqasida o‘ziga biror hol bo‘lib o‘ligi ko‘chada qolsa ham qiziga hech kimni chaqirmaslikni hamda bolalari, o‘zini avaylashini uqtiradi. Zeroki, tabibning aytishiga ko‘ra "O‘limdan keyin vujudning nima bo‘lishi muhim emas, muhimi ruhning, iymonning qayga borishi., Albatta tabibning bu oxirgi jumalari vujudingizni larzaga keltiradi. U oxirigacha odamlar oldidagi sharafli burchiga sodiq qoldi. Shunda ham o‘zini emas o‘zgalarning hayotini, salomatligini ustun qo‘ydi. Qiz qiyinchilik bilan tabibni aravaga yotqizadi. Ammo undagi yolg‘izlikni katta o‘g‘li onasining qo‘liga bobosining tayog‘ini tutgan harakat buzadi. Ona o‘g‘lining bu holatidan o‘zini yolg‘iz emasligini yonida tirkak qoyalari borligini his etadi. Qishloqda o‘lim soni ko‘pligidan go‘rkov o‘likni ko‘mishga vaqt

topolmaydi. Qiz yerga qo'yilgan otasining ustidan tuproq tortar ekan go'yoki u o'zini yigitdek his qilardi. U chin farzandlik burchini bajarar ekan so'nggi damda otasi bilan birga ekanligidan shod edi.

Bir necha kundan keyin turmush o'rtog'i bilan qabristonga borar ekan shahidlardek ketgan otasini o'zi kabi barcha eslashini chin yurakdan niyat qildi. Albatta oxirgi nafasda ham xalqining ertangi kunini o'ylagan odam hamisha tirikdek hammaning yodida yashaydi. Hatto ularni osmon uzra yerga talpinayotgan yomg'ir tomchilari ham unutmaydi. Mana shunday fidoyiligi tufayli xalqning dardiga darmon bo'lgan kishilarni nafaqat insonlar, balki osmon ham ko'z yoshlari bilan yig'lab eslaydi.

O'quvchi asarni mutolaa qilish jarayonida asarda ortiqcha detal yo'qligiga amin bo'ladi. Sababi barcha qahramonlar o'zlariga chizilgan aniq tasniflar bilan yozuvchi hikoyada nima demoqchiligi hamda yuqumli kasallik orqali xalqimiz og'ir, sinovli kunlarni boshidan kechirganligiga e'tibor qaratgan. To'g'ri hikoyada tabib yuqumli kasallikni tuzata olmasa-da, uni tobora ko'payib ketmasligi uchun qo'lidan kelgan barcha chora-tadbirlarni yo'lga qo'yadi. Yozuvchi yosh bo'lishiga qaramay hikoyaga qadam qo'yishning o'zidayoq tabiat injiqligi ila omma ruhiyatini, ularning qanday tanazzulga yuz tutishlarni ochib bera olgan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Tilovova M. Tabib. Yoshlik jurnali. 2021. № 5. -B. 32-41.
2. Quronov D., Mamajonov Z., Sheralieva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – T.: Akademnashr, 2013.
3. <http://ziyouz.uz>

#### CHO'LPONNING “KECHA VA KUNDUZ” ROMANIDA IJTIMOY HAYOT TASVIRI

*Ahmadjonova Muslima Anvarjon qizi,  
Namangan davlat universiteti talabasi*

O'zbek adabiyotida dunyoni lol qoldirishga qodir asarlar mavjud. Shunday asarlar muallifi, unutilmas darg'alardan biri, o'z davrida qaro tunni o'zining jilosi bilan yoritishga uringan porloq yulduz Cho'lpon hisoblanadi. Darhaqiqat, ijodkorning yozgan asarlari uning hayoti evaziga asrlardan oshib, avlodlarga yetib keldi. Ijodkor merosi u yozgan asarlarning hajmi yoki uning miqdoriga qarab emas, asarlarining mohiyati, davr qamrovi va ijodkordagi tasvir uslubining naqadar jonli hayotga muqobil hamda yaqinligi bilan o'lchanadi. Cho'lponning “Kecha va kunduz” romanida asar yaratilgan davr muhiti, madaniyati, din hamda siyosati yuksak darajada ochib berilgan. Mavhum bo'lgan ijtimoiy muhitning insonning umriga zomin bo'lishi, buzib talqin qilingan an'analarning ta'siri, nayrangbozlik va laganbardorlik natijasida inson umri inson qo'lida o'yin bo'lishi, shuningdek, sho'ro hukumatining yurtimiz madaniyati, mafkurasi, axloqiy muhitini naqadar buzishga harakat qilganini, bir butun davr birgina “Kecha” asarida yoritib berilgan.

Axloq, ma'naviy ongning shakllanishida ota-ona dastlabki o'rnak hisoblanadi. Abdulhamid Cho'lpon shu nozik jihatni Razzoq so'fining oilaviy muloqotida ochib beradi. "O'zbek-da, axir har bir erkak o'z xotinini-o'z haloli juftini, qizi yoki o'g'lining nomi bilan atab chaqiradi. O'z xotining ismini aytib chaqirish yaramaydi. Xotining ismi Maryam, qizining ismi Xadicha bo'lsa, mo'min-musulmon: (Sharm-u hayo yuzasidan bo'lsamikan?) xotinini "Xadicha" deb chaqiradi. Aksar ona-bola baravar "Labbay" deydi: shunday-da, oilaning haqiqiy egasi bo'lgan ota: "Kattangni aytaman, kattangni!" – deydi. Hatto shunda ham "Maryamni", – demaydi. Bizning so'fi mo'min-musulmonning bu urf-odatiga ham amal qilmaydi, u o'z halol juftini – Qurvonbibini hamma vaqt "Fitna" deb chaqiradi. "Fitna, sallamni ber". "Fitna, puldan uzat!". 20-asr ijtimoiy hayotida nafaqat yaqin oila azolarining muomala madaniyati, balki ayollarning jamiyatdagi faolligi, ishtiroki juda past o'rinda ekanligi ham asosiy sujetlarda aks etadi.

20-asr ayollarining jamiyatdagi, oiladagi tutgan o'rniga nazar tashlar ekanmiz, Zebi, Qurvonbibi, Sulxon obrazlari orqali ayollarning erkin fikrlashi, hattoki o'z erkiga ham ega bo'lmaganligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Zebining Saltanat bilan Enaxonlarnikiga borish uchun ruxsat so'rashida ham bu jumlaning isbotlarini ko'ra olamiz:

"Sukut uzoqqa cho'zilgandan keyin Qurvonbibi endi bu safar jiddiy bir chehra bilan:

- Nimaga indamaysiz? Xo'p deng! Katta odam, uyat bo'ladi. Bir yaxshi xotinlari, bir otincha qizlar bor-ki...O'zlari bo'lsa, o'zingiz bilasiz, – dedi.

So'fi negadir:

– Bilaman, Fitna, bilaman! – deb qo'yib, yana jim bo'ldi. Endi Qurvonbibi yana ham jiddiylashdi: – Bo'lmasa yo'q deng. Saltanadxonga javob beray, ketsin! Azonda kelgan edi. Shundan keyin so'fining tili aylandi:

– Shoshma, Fitna, "yo'q", dema, mayli bora qolsin....Qachon keladi?

– Indinga erta bilan yo kechqurun.

- Eshonoyimning ra'ylariga qarasin. Ovozim bor, deb ashulaga zo'r bermasin. Nomahramlarga ovozini eshittirsa, rozi emasman.

Ushbu suhbatning mohiyatiga qarar ekanmiz, undagi nozik ishoralarni anglamoq lozim. Bir qarashda diniy qarashlarning qattiq-qo'lligi deb oladigan bo'lsak, yana bir jihatdan qizlarning erkin fikrlashi, o'z fikrlarini otaga mustaqil ayta olmay onalar orqali yetkazilishi ham biror joyga borish uchun "oddiygina" ruxsat so'rash bilan "Xo'p" degan javob olish mushkulligi ko'rsatib berilgan.

Akbarali mingboshining uch nafar rafiqasi bo'lishi hamda ular orasiga mavridsiz va o'z xohishlarisiz kelgan Zebining orzu-istaklari, ko'ngli bilan hayot ham hisoblashib o'tirmaydi. Barchasi ota tomonidan hal qilinadi.

"Bechora qizning butun bu shirin xayollari shu birgina "mingboshi"so'zi kelib chiqishi bilan bir varaqasiga parishon bo'lib sochiladi, to'kilgan tariq kabi har tomonga tirqirab ketadi. Haligi shirin xayollar bilan kulib, to'lib, cho'g'day qizarib turgan yuzlari, garmisel tekkan kabi, bir nafasda so'lib, o'lib, uchug'dek bo'zarib qoladi..."

Asar voqealari aks etgan davr ayollarida savod, jamiyatdagi voqealardan xabardorlik juda past darajada edi, deyish mumkin. Deyarli, ayollar orasida o'qigan, siyosatdan voqif bo'lganlari juda-juda kam, ayollar qismati esa achinarli holatda edi. Zebining sud jarayonidagi holatidan inson bir qadar afsus cheksa, bir tomondan jamiyatdagi qusurlardan biri – qizning juda yosh paytidayoq o'zidan katta farqli yoshdagi inson bilan turmush qurgani juda ta'sirlantiradi.

Sud raisi gapirmoqchi bo'lib o'rnidan turgan vaqtda Zebi: “Ana so'roq tamom bo'ldi, endi uyimni qandoq topib boraman?” – deb o'yladi.

– O'tiring, – dedi sud raisi Zebiga. Sekingina va ehtiyot bilangina o'tirdi.

Birgina “Endi uyimni qandoq topib boraman” jumlasini bilan Cho'lpon juda ayanchli bo'lgan hikoyani bir gapda ifoda etadi. Buni savodsizlikka yoxud jamiyatdagi notenglikka ham to'nkash mumkin, ammo asosiy sababchi uquvsiz jamiyat hisoblanadi.

Cho'lpon qahramonlar orqali faqatgina ularning hayoti va yakka shaxslarning ma'naviy olamini tasvirlamaydi, balki umumjamiyat taqdiridan, hol-ahvolidan xabar beradi.

“Sukunatni kampir buzdi:

– Kambag'allik o'lsin, kambag'allik! – dedi u va chuqur bir “uh” ortdi. – Hech bir ilojini topib bo'lmaydi. Shuncha yerdan bizning so'k oshimizni ichgali kelisharmidi? O'ylab-o'ylab topganim shu bo'ldiki, o'limligimga atalgan narsalardan biroz ajratdim. Ena, sen ham bisotingdan biror narsa ajrat, kelin siz ham ajrating. Ertalab bitta-yarimtani bozorga tushiraylik, shularni sotib, ul-bul olib chiqsin”.

Ushbu jumlar orqali xalqning, past tabaqa deb qaraluvchi oddiy qora xalqning yashash ahvoli juda yomon ekanligi, hattoki kuni o'limlikka qolganidan jamiyatdagi ijtimoiy holat shu birgina oila bilan yoritib beriladi. Birgina Enaxonlarning emas, butun xalq ahvoli shunday edi.

SSSR hukumati xalqning ma'naviy va ma'rifiy tarbiyasini o'z usullari yoki o'z qo'li bilan buzmad, xalqning diniy ishonchidan foydalanib eshon singari johil, o'ziga xizmat qiluvchi insonlarni yaratdi. Davlatning bosh bo'g'ini bo'lmish yirik lavozimlarga Akbaralidek savodsiz, xudbin kimsalarni qo'yadi. Bu orqali Cho'lpon jamiyatimiz ichidan kemirilib borayotgani, yuksalish, ma'rifatdan zarracha ham nur yo'qligini kitobxonga oshkor qilmoqchi bo'ladi. Asardagi jadid obrazi orqali Cho'lpon o'z qalbidagilarni xalqqa aytmoqchi bo'lgan bo'lsa ham ajab emas.

Millatni uyg'otish – uyg'onganlarning vazifasi. Mana siz eslik, hushyor, ziyrak odam ko'rinasiz. Ish bilasiz ekan. Davlatingiz bor ekan. Faqat birgina aybingiz shuki, zamon ahvolidan xabardor emassiz. Gazet o'qimaysiz. Qanday yaxshi gazetlar bor. Orenburgdan, Qozondan, Astraxandan keladi. Bog'chasaroyga 5 so'm yuborsangiz, bir yilgacha har kuni “Tarjumon” keladi. Bilasizmi, “Tarjumon” nima deydi? “Tarjumon” –jadid gazetalarining otasi Ismoil boboyning gazetasi. Eng eski gazet... “Tilda, fikrda, ishda birlik” deydi. Ya'ni biz, musulmonlar, turk xalqlari, bir til bilan gapiraylik, bir fikrda bo'laylik, bir ish qilaylik, – deydi. Jadidlardan



qo‘rqmang. Millatni biling, taning, unga xizmat qiling. Shu bilan siz ham jadidsiz. Nomingiz tarix betlariga yoziladi”.

Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, Turkiston o‘lkasida eng yosh jadidlardan biri Abdulhamid Cho‘lpon edi. Bir o‘qishda o‘quvchi tafakkurida asar haqida ijobiy fikr bo‘lmaydi, boisi haqiqat: o‘sha davr muhiti hech qanday bo‘yoqlarsiz hamda yashirin, sirli obrazlar qo‘shish orqali yoritib berilmaydi. Xalqning madaniyatini, urf-odatini yo‘q qilish uchun joylarda buziqi ayollar maskanini barpo etilgani ham yozuvchi nigohidan qolib ketmaydi. Ana shunday zulmat, savodsizlik, buziqilik avj olgan davrda kech bo‘lsa-da o‘zining kelajagidan tashvishlangan Miryoqub so‘nggi bir Cho‘lpon yulduz bo‘lgan bo‘lsa ajab emas.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdulhamid Cho‘lpon. Kecha va kunduz. – Toshkent: Yangi asr, 2019. – 268 b.
2. Begali Qosimov, Sharif Yusopov, Ulug‘bek Dolimov, Shuhrat Rizayev, Sunnat Ahmedov. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. – Toshkent: Ma`naviyat, 2004. – B. 272- 281.
3. Shahlo Hojiyeva. Cho‘lpon va milliy she`riyatning yangilanishi. – Toshkent: Muharrir, 2019. – B. 58- 138.

### TARJIMONLIK HAQIDA BIR SO‘Z

*Karomatov Akbar Abrammat o‘g‘li*

*CHDPI talabasi*

*Ilmiy rahbar: f.f.n,dotsent*

*Sabitova Tojixon XXX*

Dunyo adabiyotida shoh asarlar yaratilar ekan ular albatta, dunyo insonlarining badiiy asar chanqoqlarini yillar davomida qondirib keladi. Turli xalqlar o‘rtasida qo‘lma-qo‘l qilib o‘qiluvchi bu kabi asarlarni turli tillarga tarjima qilish kabi murakkab vazifani har qanday shaxs ham qilolmaydi. Tarjimon uchun avvalo, ijodkorlik va asar haqida mukammal shakllanib ulgurgan fikr boringki, asar muallifi darajasida tasavvur bo‘lishi zarurdir. Shu bilan birga har bir asar yaratilgan muhit va hudud asarga o‘zining ta’sirini o‘tkazmay qolmagani kabi tarjimondan shu muhit va hududning barcha qadriyatlari va xalqining ruhi kabi, asar yaratilgan xalqning o‘zligini puxta bilish talab etiladi. Shu sabab ham tarjimachilik boshqa bir xalq quchog‘ida tug‘ilgan asarni har bir xalqda o‘zgacha bo‘luvchi ruhiyat, qadriyat kabi mezonlarga tushuvchi qilib o‘zining xalqi orasida dunyoga keltirishidir. O‘zga xalq o‘rtasida dunyoga kelgan asarni tarjimon o‘z xalqi orasida uning badiiy boyligini yo‘qotmagan holda dunyoga keltirar ekan, albatta, bunga amin bo‘ladi.

Tarjimachilikda asarlar to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qilinishi mumkin, ammo asar haqidagi kitobxon fikri asl asarni o‘qib olinganidan farq qilgan holda, kitobxonning yozuvchiga va uning ijodidagi aniq fikriy nuqtani topishiga noto‘g‘ri

ta'sir ko'rsatib qo'yishi mumkin. Shu sabab ham biror o'zga til va xalq vakili asari haqida fikr bildirishda yozuvchilar ehtiyotkorlik va shu bilan birga mas'uliyat bilan qarashadi. Shu sabab ham o'zining asar haqidagi xulosalarini berishdan avval asarni yaratilgan tilida o'qishga tirishishadi. Misol sifatida L.N.Tolstoy o'zining Uilyam Shekspir dramalari haqidagi ocherkning boshlanmasi va so'zi boshida shunday deb o'tadi: "Ellik yil davomida qayta-qayta o'zimni sinovdan o'tkazib, bir necha martalab Shekspirni imkoni bor hamma shakllarda o'qishga tutindim. Men ularni rus tilida ham, ingliz tilida ham, hatto menga bergan maslahatlarga amal qilib, Shlegel tarjimasida nemis tilida ham o'qidim; Men uning dramalarini ham, komediyalarini ham, solnomalarini ham o'qishim, lekin har gal bexato ravishda o'sha-o'sha bo'ldi—ular nafratimni qo'zg'adi, ularni o'qib siqildim, taajjubim oshdi". [1,138-bet]. L.N.Talstoy ham Uilyam Shekispir asrlari haqida ocherk yozar ekan. Asarning yaratilgan tilida o'qib so'ng, fikr bildirishida ham, albatta, asar mazmuni, badiiy so'z ifori kabı har bir yaratilgan asar bosh omilining o'zgarmas shaklidan bahra olish maqsadi yotadi. Tarjimonchilikda esa shu omillarni kitobxon uchun, kitobxon tilida, so'zlashayotgan tilining orida, nomusida, millatining ruhida yetkazishi tarjimonchilikning qay darajadagi murakkab kasblardan ekanligini oydinlashtiradi. Tarjimonchilik sohasidagi kichik xatolar ham kitobxon uchun obrazli fikirlash va tahlil qilishdagi keskin burilishlarni keltirib chiqaradi. Bu albatta, kichik xatoning katta illatidir. Bu xatolik asarning syujetidagi yukini kamaytiradi va, albatta, bu holat tugunning ahamiyatini, yechimning esa mavqeyini kitobxon shuurida tushirib qo'yadi. Tarjima qilingan asar voqealari, asli kabı ya'ni voqealar aslidagi asar chizgilariga ega bo'lishi tarjimonning mahoratiga bog'liq bo'lib, tarjimonning til boyligi, til fasohati, bayon qilishda ustaligi bilan bog'liq mahorat va saviyasi yuzaga chiqadi. Bu hol esa, albatta, tarjimondan ijodiylik va shu bilan birga ikki til madaniyati haqidagi ulkan bilimlarni ham talab etadi. O'zbekiston Qahramoni Ibrohim G'urov tarjimonchilik haqida shunday fikrlarni aytib o'tadi: "Tarjimon – ijodkor. U badiiy yoki ilmiy matnni yaratadi. Asliyat matnini boshqa bir tilda, misol uchun o'z ona tilida qayta bunyod etadi. Tarjimon qayta bunyod etishni o'z zimmasiga olib yelkasga juda katta mas'uliyatni ortadi. Tolstoy, Dante, Shekspir, Homer, Gyote, Yeseninni tarjima qilish va hokazo va hokazo...

Bunday ishlar qanchalar ulkan insoniy, ijodiy mas'uliyat hamda jasoratni talab qilganligini bir tasavvurimizga keltiraylik. Ularning har birining tagida shuhrat orttirish, nom qozonish, moddiy manfaatdor bo'lish emas, baayni to'liq ma'noda fidokorlik – ijodiy fidokorlik turadi. Fidokorlik esa mas'uliyat bilan birga tug'ishgan birodardir. Biri ikkinchisini to'ldiradi, ikkinchisi birinchisini tushunarli qiladi". [2] Ibrohim G'afurov ta'riflaganlaridek haqiqiy tarjimon o'zga tildagi asarni yaratar ekan tarjima asar va asl asarni bir-birini to'ldiruvchi bo'lib qolishi kerak va shunday tarjima qilish kerak ekanligini aytib o'tadi. O'zbekiston Qahramoni yana shunda fikrlarni bildiradi: "To'g'ri tarjima qilib ketaverasiz-da, til bilgandan keyin buning nima farqi bor?" deganga o'xshash fikrlaydigan va tarjima ishlariga o'ta mensimay past nazar bilan qaraydigan kimsalar ham oz emas. Muallif terisining ichiga kirib olsangiz, bas, u yog'iga bilganingizcha

oʻrmayverasiz, deyishadi. Ammo muallifning terisi ichiga kirib olish nihoyatda qiyin bir hunar ekanligi va u har kimning ham qoʻlidan kelavermasligini bunday fikr egalari bilarmikanlar-a? Terisi ichiga kirishdan oʻjiz boʻlganlar muallifning terisi ustida sirgʻaladilar, natijada garchi asliyatga soʻzma-soʻz toʻgʻri boʻlsa ham lekin maza-matrasiz, oʻta shirasiz tarjimalar oʻquvchiga koʻndalang qilinadi. Bular tarjimalarning qadrini koʻtarmaydi, yerga uradi. Baʼzi past nazarlarning boisi ham shu. Badiiy tarjimani yuksak soʻz sanʼati deb qadrlash – mana shundan tarjimonning masʼuliyati boshlanadi va u yaxshi tarjima matnlari – badiiy sanʼat namunalarining yuzaga kelishiga asos boʻladi”. [3] Bugungi kunda tarjima asarlarga boʻlgan talabning ortishi bois ham tarjimonchilikda mana shunday “Muallif terisiga” kirib tarjima qilish haqida soʻzlab, ammo “Muallif terisi” ustida sirgʻaluvchilar ham yoʻq emas. Mana shunday tarjimonchilik, albatta, har bir xalqning oʻz adabiyotiga tushgan qurtdir. Chunki, kuni kelib har bir asar keyingi davr adabiyoti uchun poydevor va yuksalishi uchun ozuqa boʻladi. Bunday poydevor va sifatsiz ozuqa esa umumbashariy gʻoyalarning qaddini tutib turishga yaramaydi va ularning asrlar oshishiga avvalo oʻzi toʻsiq boʻladi. Tarjimonchilikda esa mana shunday ulugʻ va shu bilan birga ogʻir bir masʼuliyat tarjimon zimmasiga tushadi. Mana shunday tarjimonchilikdagi masʼuliyatni Ibrohim Gʻafurov shunday tilga oladi: “Tarjimon masʼuliyati deyilganda, mening koʻz oʻngimga darhol hazrat Alisher Navoiy keladi. Navoiy ellik toʻrt yoshlarida ustoz Abdurahmon Jomiyning avliyolar haqidagi “Nafahot-ul uns” asarini tarjima qilishga bel bogʻladi. Navoiy avliyolar toʻgʻrisida kitob yaratish gʻoyasini Jomiyga oʻzi bergan, iltimoslar qilgan, buning sharoitini ustoziga bunyod etgan edi. Jomiy asarni yozib tugallagandan soʻng Navoiy bu asardan butun turk uluslari bahramand boʻlishlarini orzu qildi, bu orzusini koʻngliga qattiq tugdi. “Nafahot-ul uns” goʻzalliklari, laziz, fasih fikr dunyolaridan oʻz xalqini toʻla bahramand etish, oʻz xalqiga shu buyuk maʼnaviy farogʻatni sogʻinish – tarjimonlik masʼuliyatining eng yuksak namunasi edi. Navoiy bu saʼy-harakati bilan oʻz xalqini magʻrumlik, nomaʼlumlik, gʻaflatdan xalos aylashni koʻzladi.

Navoiyning oʻz soʻziga bir dam shoshilmasdan quloq tutaylik: “...agar saʼy qilsam, bu kitobni turk tiliga tarjima qila olgʻayman va ul dahoyigʻu mushkulotni ravshanroq alfoz va ochugʻroq ado bilan oʻtkara olgʻaymumen, deb mutaammil erdim...” mana shu tarjimon masʼuliyatining yuksak darajali tili. Tasavvur qiling: Navoiy qadimgi arab, fors, koʻhna turk ulusi tillarini va lahjalarini mukammal bilardi. Shunga qaramasdan bu paytlarda “Xamsa”dek epopeyani va “Chor devon”dek mislsiz adabiy yodgorlikni tiklagan Navoiyga “Nafahot,-ul uns...”ning turkiyga tarjimasini benihoya mushkul bir ish boʻlib tuyuladi. Qarangkim, Navoiy shu daholigida bu tarjimaga yigirma yil tayyorgarlik koʻradi. Yigirma yil tarjima niyatini koʻnglida olib yurdi”. [4] Ibrohim Gʻafurov tarjimon masʼuliyati haqidagi fikrida Oʻzbek adabiyotining sultoni boʻlmish Alisher Navoiydek ulugʻ zotni tilga olar ekan, har bir ijodkor va tarjimonning eti titraydi. Shu bois ham asl tarjimonlarimiz oʻzbek adabiyoti xazinasini boyitishda fidokorona mehnat qilmoqdalar. Ular asarlarni mukammal tarjimachilikning mevasi sifatida adabiyotimizga olib kirmoqdalar. Bunday adabiyotlarni Erkin

Vohidov, Abdulla Oripov, Asqad Muxtor, Cho'lpon, Jamol Kamol, Nosir Fozilov, Shavkat Rahmon va Ibrohim G'ofurov kabi mohir tarjimon, yozuvchi va shoirlar olib kirganlar va olib kirishda davom etmoqdalar. Zamonaviy o'zbek adabiyotini jahon adabiyotining nodir asarlari bilan boyitishda Cho'lpon katta kuch-g'ayrat bilan sa'y qilgan holda, rus adabiyoti namunalaridan I.S.Turgenevning "Cho'ri qiz", Leonid Andreevning "Osilgan yetti kishining hikoyasi", N.V.Gogolning "Ivan Ivanovich bilan Ivan Nikoforovich oralarida bo'lib o'tmish nizolar haqida" asarlarini olib kirgan bo'lsa, Erkin Vohidov nemis ma'rifatparvarligi davrining noyob durdonasi Iogan Volfgang Gyotening "Faust" asarini she'riy yo'l bilan tarjima qildi. Shuning bilan o'zbek adabiyoti tarjimochilik bilan "Shoh Edip", "Otello", "Ilohiy komediya", "Nasihatlar", "Chol va dengiz" kabi jahon dramaturgiyasi, didaktikasi va romanchiligining noyob asarlari bilan boyidi. Tarjimon o'zining xalqi adabiyotiga o'zga bir xalqning yuragiga yaqin asarini o'z qiymatiga putur yetkazmasdan tarjima qilar ekan, albatta, kitobxonning asar muallifiga nisbatan uyg'onuvchi fikr va mulohazalarining qay daraja va qay turda uyg'onishiga ta'sir ko'rsatadi. Bu tarjimonning asarni qay darajada mukammal tarjima qilganiga bog'liqdir. Tarjimonning tarjimalari qanchalik talabgor bo'lsa, shu darajada u dor ustidagi odam kabi ehtiyotda ham bo'lishi kerak.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sharofiddinov.O. tarjimasini "Jahon adiblari adabiyot haqida" , TOSHKENT "MA'NAVIYAT" nashriyoti 2010.
2. «A'lo kayfiyat» jurnali, 1-son, 2010 yil [www.kh-davron.uz](http://www.kh-davron.uz)
3. «A'lo kayfiyat» jurnali, 1-son, 2010 yil [www.kh-davron.uz](http://www.kh-davron.uz)
4. «A'lo kayfiyat» jurnali, 1-son, 2010 yil [www.kh-davron.uz](http://www.kh-davron.uz)

#### “ITYURAK” QISSASIDA G‘OYA VA YECHIM MASALASI

*Axmadaliyeva O‘g‘iloy*  
*O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy*  
*kommunikatsiyalar universiteti talabasi*

Mixail Afanasevich Bulgakov – mashhur rus yozuvchisi. U o'z davrida katta shov-shuvga sabab bo'lgan "Iblisnoma" to'plami, "Turbinlar kuni pyesasi", "Baxmal orol" komediyasi va nashr etilishini 62 yil kutgan mashhur qissa "It yurak" asarining muallifi hisoblanadi. Yozuvchi 1925-yilda "Ityurak" qissasini yozishga tutinadi va uch oyda tamomlaydi, ammo negadir uning bosib chiqarilishi yarim asrdan ko'proqqa cho'ziladi. Buning asosiy sababi sifatida asarda satiraning fantastik va falsafiy usulda ochib berilganligi deb ko'rsatiladi. Xo'sh, asarda qanday g'oya aks etgan? Qanday obrazlar badiiy maydonga olib chiqilgan? Unda qanday muammo ko'tarilgan? Asar g'oyasi haqida mushohada qilsak, bosh qahramon operatsiya usuli bilan odamga aylantirilgan Sharik laqabli kuchuk. Sharik ushbu qissada bosh qahramon sifatida ko'rsatilsa-da, lekin syujetdagi ko'p muhim hodisalar uning ra'yiga qarab sodir bo'lmaydi. Aslida muhim obraz



Sharikning ortida turgan professor Preobrajenskiy. Sharik izg'irinli kunlarda ochlik va sovuq zahridan og'ir uv tortib yurgan pallada professorni uchratib qoladi va uning ortidan ergashadi. O'ziga "tortiq qilingan" bir bo'lak kolbasa uchun bu odamga minnatdorlik bildirish maqsadida u o'zini ne kuylarga solib, etaklariga suyaklib, oyoq kiyimlarini yalashgacha boradi. Aynan shu sahna orqali jamiyatning quyi tabaqasi sifatida "kattalar" hisobiga kun kechiruvchi "kichiklar" qiladigan tilyog'lamalikka nafrat tuyg'usi ochib berilgan. Ayni damda professor insonni yashartiruvchi gormonlar ustida izlanish olib borayotgan va buni kuchuklarda sinab ko'rish ilinjida yurgan edi. Sharik unga ham muddao bo'ldi. Preobrajenskiy qanday obraz? Asarda bu obraz juda ilmga berilgan, uzoq yillarini fanga bag'ishlagan va tabiatning mahorati bilan yaratilgan xususiyatlarga qarshi chiqib ularni o'zgartirishga chog'langan, ammo oxir oqibat ilm jamiyatni tubdan o'zgartirish uchun emas, rivojlantirish uchun xizmat qilishini anglab yetgan olim sifatida keltiriladi. Xullas, voqealar kulminatsiyasi Sharikka halok bo'lgan inson gipofiz bezini ko'chirib o'tkazish bilan boshlanadi. Sharik o'ziga kela boshlaganda esa, uning tanasi asta-sekin insonga aylana boshlagan edi. Bu esa professorning shogirdi Bormental tilidan quyidagi jumlar bilan izohlanadi: *"Preobrajenskiyning tajribasi inson miyasining yangi bir sirini kashf etdi. Gipofiz – inson qiyofasini belgilaydi. Unga tegishli gormonlarni inson qiyofasi gormonlari deb atasa ham bo'ladi"*. Aynan shu ta'rifdan so'ng o'quvchi uchun itning qiyofasi insonga evrilishi endi g'ayritabiiy tuyulmay qoladi. Shu vosita orqali yozuvchi mutolaachining e'tiborini fantastik elementdan asar g'oyasiga bemalol olib o'tadi. Endi Sharik Poligraf Poligrafovich Sharikov nomi bilan inson qiyofasida yashay boshladi. Uning avval it bo'lganligiga isbot sifatida muallif Sharikov birinchi talaffuz qilgan so'zlarni daydi itlik davrida eshitgan haqoratli so'zlar bilan ifodalaydi. Ammo insonlik davri mobaynida Sharikov hatto hayvondan ham battar razillikliklar, inson odobiga xos bo'lmagan qiliqlarni qila boshlaydi. Bormental buni uning o'tmishi baribir hayvon bo'lganligi bilan izohlaydi. *"It yuragini ko'tarib yurgan odam-a"*. Ammo olimning o'zi bunga umuman boshqacha izoh beradi: *"Butun fojia shundaki, uning ko'ksida itniki emas, allaqachon inson yuragi urib turibdi"*. Bu bilan olim tilidan inson shunday razil bo'la oladiki, hatto hayvonlar ham undan ortda qolishi mumkin degan g'oya isbotlab ketilgan. Bu qilmishlar tagida nima yotganligi esa Sharikovga ko'chirilgan gipofizning haqiqiy sohibi bo'lgan insonning tarixi keltirilgach oydinlashadi. Hozirgi Sharikov qilayotgan o'g'irlik, yaramaslik, yolg'on bilan insonlarni chuv tushirish, boshqalarga zarar berish, hujum qilish asli sobiq itning emas, sobiq odamning xususiyatlari bo'lib chiqadi. Hamma gap itda emas, odamning yomon xulqli bo'lganida edi. It-ku bir amallab insonlikka o'rgandi, lekin inson miyasi avvaldan yomon xususiyatlarga to'la edi va u yaxshilikka yo'g'rilmay qolaverdi. Professor ham ayni shuni nazarda tutgan edi. Oxir-oqibatda Sharikovning qiliqlari halqumiga kelgan professor uni qayta operatsiya qilib, hayvon qiyofasiga qaytarishga majbur bo'ladi. Mana asarning asl g'oyasi qayerda ochiladi? Asarni o'qigan inson har kim ham odam bo'lib yashab ketolmaydi degan xulosaga kelishi mumkin. Lekin olim tilidan keltirilgan ushbu jumlaning o'qigach mutolaachi fikri o'zgarishi mumkin:



“Mana professor, agarda tadqiqotchi tabiatni paypaslab, u bilan yonma-yon bormasa, masalani tezlatib, pardani ko‘tarsa, marhamat, Sharikovni qabul qilib ol, o‘zing pishirgan bo‘tqangni o‘zing ye... Spinozaning yoki unga o‘xshagan biron donishmandning gipofizini ko‘chirib o‘tkazib, oddiy itdan yuksak sevimli kimsani yaratish mumkin. Lekin nima keragi bor degan savol tug‘iladi”. Ya‘ni olim aytmochiki, odam, har qanday olim ham istalgan tadqiqotini qilishi mumkin, ammo yetuk organizm yaratish faqat yaratuvchiga xos.

Eng achinarlisi, Sharikning Sharikovga aylanishi ham, qayta it holiga keltirilishida ham uning ishtiroki yo‘q. Ya‘ni bosh qahramon shunchaki qo‘g‘irchoq vazifasini o‘taydi. Unda qay darajada bosh qahramonlik yuki bu obraz orqali ochib berilgan. Sharik qissa boshida it, ammo yaxshi it edi. Hatto, ranglarni harflarni ajrata olish qobiliyati ham bor edi. Unga faqat ozuqa va biroz issiq boshpana bo‘lsa bas edi. Ammo majburan odamga aylantirishdi. Yana uning xarakteri odamlarga og‘irlik qildi. Bu yerda uning ahamiyati shuki, ayrim insoniylikdan mahrum, faqatgina odam jussasini ko‘tarib yuruvchi odamdan ayrim hollarda hatto hayvon bo‘lish yaxshiroq ekanligi ochib beriladi.

Umuman olganda, asarda olib chiqilgan g‘oya inson o‘z chegarasidan chiqmasligi, tabiatga isyon qilib, qarshi chiqmasligi, aksincha, uning rivojiga hissa qo‘shishi zarurligidir. Biroq “kosa tagida nimkosa” bo‘lgan yana bir g‘oya bor. Bu g‘oya Shvonder obrazi va uning Sharikovga ta’siri orqali ochiladi. Sharikovning Shvonder va shunga o‘xshash odamlar qutquvida isyon qilishi, hatto o‘zini inson qiyofasiga keltirgan olimni uysiz qoldirishga-da urinishi kommunist siyosatidagi ayrim shaxslarni ham ifodalaydi. Buni ko‘plab adabiyotchilar quyidagicha izohlashadi: “Preobrajenskiy leninni, Sharikov esa o‘ziga tarbiya bergan Leninnida yo‘q qilishga uringan Stalinni ifodlaydi”. Asar nima uchun chop etilishni shuncha uzoq kutganligi ham shu yerda aniq bo‘ladi. Qissadagi Sharikovni qo‘rqituvchi mushuk esa o‘zgacha fikrlovchilar guruhining timsoli deb ham qaraladi. Sharikovning aynan uysiz jonivorlardan shaharni tozalash shirkatiga ishga kirganligi bilan jamiyatda ijtimoiy pog‘onaga ko‘tarilgan boshpanasizning tez orada boshqa boshpanasizlarni yo‘q qilish siyosati ochib beriladi.

Asar o‘qib borilar ekan beixtiyor keltirilgan quyidagi iqtibos e’tiborni tortadi. “Insonga va hayvonga ishontirish yo‘li bilangina ta’sir o‘tkzaish mumkin”. Bu fikr ortida qanchadan qancha oddiy insonlar o‘z ishonchlari sabab qurbonlarga aylanishganligi turadi.

Qissadagi yechim masalasiga kelsak, birdan-bir vaziyatdan chiqish eshigi sifatida olim oldida turgan yo‘l bu – Sharikovni asl holiga qaytarish. Shu bilan olimni qiynagan muammolar hal bo‘ldi-qoldi. Asar oxirlab borar ekan shu voqeadan keyin muallif olimning biroz to‘lishganligini ham aytib o‘tadi. Bu voqea esa, inqilobning badiiy aksi sifatida izohlanadi. Bu asarda ifodalangan g‘oya va fikrlar majmuasini anglash uchun o‘quvchi o‘sha davr muhiti, ijodkor hayoti va uning boshqa asarlari bilan ancha tanish bo‘lishi lozim. Shunda Bulgakov ijodidagi murakkablik, sayoz voqea ortida yashiringan chuqur mafkuraviy dengizni anglash mumkin.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Bulgakov M. “Ityurak” - [www.book.uz](http://www.book.uz)
2. “Mixail Bulgakovning “Ityurak” asariga taqrizim” - <https://teletype.in>
3. Erkinjonov S. “It yuragidagi odammi yoki odam yuragidagi itmi” – <https://facebook.com>
4. “Mixail Bulgakov” – [www.wikipediya.org](http://www.wikipediya.org)

**ҚАРАМЛИК ЭҲТИЁЖИ ТАСВИРИ**

*Раббимова Шаҳноза,  
ЖДПИ талабаси*

*Илмий раҳбар: доц. Мамадалиева Зухра Умаралиевна*

Абдулла Қодирӣ, Абдулла Қаххор каби устоз ҳикоянависларнинг ишини давом эттира оладиган ёзувчилардан бири “Қуёш барчага баробар”, “Она ер”, “Ҳаёт эса давом этади” номли тўпламлари билан бизга таниш бўлган ва севимли бўлиган Хайриддин Султон ҳисобланади. Ёзувчи яратган ҳикоялар ҳақиқатда бадиий тафаккурнинг мулкидир. Шундай ҳикоялардан бири бу “Ғуломгардиш” ҳикояси десак муболаға бўлмайди. “Жаҳон адабиётида ўчмас из қолдирган жуда кўп асарлар ўз даври анъаналаридан воз кечиш, улардан юз ўгириш шарофати ила дунёга келган. Мана шундай изланишлар бўлмаганида бадиий ижод сеҳри сийқалашган бўлур эди”, [2] деган эди адабиётшунос олим, профессор Умарали Норматов “Ғуломгардиш” ҳикояси ҳам мана шундай ўз даври анъаналирадан “юз ўгириб” ёзилган. Унда воқеа эмас, ёзувчи ишоралари асар мазмунини белгилайди. Ушбу мақолада биз шундай “ишоралар” орқали ҳикояни тушунишга, таҳлил қилишга ҳаракат қиламиз.

Даставвал ҳикоя қаҳрамонларига тўхталадиган бўлсак, бош қаҳрамон Бегмат Дадаматов. У ранж аламлар тортиб, техникум-у, институтларни битириб, қишлоққа қайтмаган ахён-ахёнда, байрамларда оиласи билан кўриниб қоладиган, хуллас, ёзувчи таъбири билан айтганда “маржон шодасидек тиғиз қишлоқдан узилиб кетган биринчи донна эди”. Шу сабабли ҳам у ҳақида турли миш-мишлар кўп тарқалар эди. Унинг “кўтарилиб” кетганлиги ҳақида, машина олиб юриши ҳақида, “Эрмат сариқнинг ўғли кўмир эмас, пул конида ишларкан”-деган гаплар. Хуллас, тез-тез янгидан-янги “хабарлар” қулоққа чалиниб қолар эди.

Ҳаққоний савол туғилиши мумкин. Бегмат Дадаматовнинг отаси Эрмат бобо ёши саксон учда анчайин қариб, қайсар бўлиб қолган, ҳеч қандай амалга, мансабга эга бўлмаган оддий бир аросатдаги чол бўлса, қандай қилиб унинг фарзанди бунчалар “ўсиши”, “кўтарилиши” мумкин. Бунга сабаб унинг томирида раҳбарлик, бошқарувчилик қони бор эди. Унинг ажодлари, ота-боболари қози, тўра ўтишган эди. Агарда у пойтахтда яшашни давом эттирганида катта муваффақиятларга эришган бўларди. Аммо унда одамгарчилик хислатлари устун бўлгани учун қариб қолган ота-онасига

ғамхўрлик қилиш мақсадида қишлоққа қайтиб келади. Отаси эса у билан бирга яшашни хоҳламайди, қайсарлик қилади ва катта невараси билан бирга ёлғиз яшай бошлайди.

Ҳикоянинг яна бир асосий қаҳрамони – бадиий жиҳатдан бақувват ва мукаммал образ Саноқул бобо ҳисобланади. Ёзувчи айнан шу образ билан инсониятни итоатга, бўйсунушга, қулликка бўлган эҳтиёжини очиб берган. Унинг бу хусусияти образ портретида ҳам намоён бўлган: “... Нимдош кўк яқтак кийган, чувак юзли, пишшиқ бир чол, музтар ва хоксор кўл қовуштириб турган қария”. [1:308] “Саноқул бобо, икки букчайганча, бурчакка қисилиб унга хоксор термулиб турарди”. [313] Саноқул бобо Бегмат Дадаматовни ўзига кўшни бўлиб турганидан бошлаб уни тинч қўймайди. Дастлаб таъзим-тавозе билан салом берган Саноқул Дадаматовга бир пайтлар раҳматли бувасининг кули бўлганлигини айтади. “Тўрам”лаб, холи-жонига қўймайди, тўйларда ўзидан юқорига ўтказишни, ўзи эса унга хизмат қилишга шараф деб билади. Хуллас, қуллик қон-қонига сингиб кетган бу персонажнинг ҳар бир ҳаракати-ю, гап сўзларида қулликка, мутеликка бўлган эҳтиёж сезилиб турарди.

-Қани, тўрам, ўтсинлар ўтсинлар! – чол икки букилиб, кўл қовуштиргунча унга йўл бўшатиб турарди.

-Менга қаранг, ота, - деди Дадаматов. - Нега мени тўра дейсиз, мен... сал тушунмадим. Умуман ғалати бўлябди, мени отим Бегмат отимни айтиб чақираверинг.

Чолнинг нурсиз, чағир кўзларзига ваҳима тўлди.

-Йўғе, йўғе! – деб шивирлагандек бир овоз чиқарди у. – Худо асрасин нега отингизни айтар эканман, айб бўлади тўрам”. [1:310]

Саноқул бобонинг қилаётган ҳаракатлари ўқувчида беихтиёр қулги уйғотади. Айнан ўша қулги остида аччиқ ҳақиқат ётади. Ҳаттоки, қишлоқдошлари ҳам Саноқул бобони тентакга чиқаришади. У энди аввалги вақтлар ўтиб кетганини, бошқа давр, бошқа замон ҳукм сураётганини тан олишни хоҳламайди. Йиллар давомида давом этган қарамлик, қуллик унинг онгу шуурига сингиб кетган ва мустаҳкам сақланиб қолган. У ўша қулликда ўтган йилларини кўмсайди, соғинади ва беихтиёр буни ошкор қилади:

— Раҳматли бувангиз менинг тўрам эдилар, мен у кишининг эшикларида қарол эдим, ёйилмада молларини боқардим, жувоз ҳам ҳайдаганман, мола ҳам босганман. Мени жойи жаннатда бўлгур қози бувам одам қилганлар. «Э, Саноқул, — дер эдилар раҳматли, — дунёда одам кўп, лекин одамийси кам». Ўзлари қандоқ одам эдилар-а. Ҳар оқшом ғуломгардишга ўз қўллари билан гўжами, атала-умочми, худонинг буюрган насибасини кўтариб келар эдилар. [1:310]

Вақти қазоси етган Саноқул бобо, ҳаттоки, ўз ўғлига ҳам ўша қарамликни васият, мерос қилиб қолдиради. Чин маънода бошқа давр, бошқа муҳит фарзанди бўлган ва бундай илтифотдан жони бўғзига келган Дадаматовнинг ушбу вазиятга билдираган муносабати шундай бўлади:

- Э, тавбангдан кетай! Булар ўзи авлоди билан жинни эканми нима бало?!

Йўк, бу авлод жинни эмас эди балки, Санокул бобо ўз васияти билан ўғлига-да қулликни мерос қолдирмоқчи бўлган, ҳатто қолдирган. Ўғли эса буни илож-иложсиз ҳолда қабул қилади:

— Отам касал бўлгандан бери яккаш бир гапни такрорлардиларки, шу Бегмат акангни ҳамманг ҳурмат қиласан, у киши тўрамнинг авлоди, сизлар ҳам шундай деб чақиринглар... Энди, ака, ота рози — худо рози, ахир...[1:315]

Ёзувчи ҳикоянинг ғоясини очиб беришда ҳар битта сўздан моҳирона фойдаланган. Ҳаттоки асар қаҳрамонларини номлашда ҳам бу нарсани эътибордан четда қолдирмайди.

Асар қаҳрамонлари бўлган Бегмат, Эрмат Дадаматовлар. Бегмат исми аслида Бекмуҳаммад исмининг талаффузда қисқаришидан ҳосил бўлган бу исмнинг маъноси “беклар наслига мансуб Муҳаммад исмли бола” деган маънони англатади. Эрмат исмининг маъноси эса, “жасур довюрақ ўғил, Муҳаммад (САВ) ўз паноҳида асрасин” деган маъноларни беради. Дадамат - ота Муҳаммад дегани. Кўриниб турибдики, исмлар бекларга хос шарафли номлардир. Санокул исми эса, ҳақиқатда бутун бошли образни ўзида акс эттиради. Ушбу исм “мадҳ этувчи”, “олқишловчи қул” деган маъноларга эга. Ёзувчининг маҳорати қаҳрамонларга ном танлаш каби ҳикояни номлашда ҳам намоён бўлади. “Ғулом”-“қул” “гирд”-“айланмоқ” дегани. Яъни ҳали ҳам қуллик атрофида айланиш, қуллик доирасида чиқиб кета олмаслик ғоялари биргина ҳикоя номидан англаб олинади. Ғуломгардиш – қуллар яшайдиган жой дегани. Санокул бобо ўз кўнглида ҳали-ҳамон Ғуломгардишда яшаган. Ҳали-ҳамон қул бўлган. Хаёлида Дадамат қози қайтиб келсаю, унга садоқат билан хизмат қилса! Бироқ Эрмат сарикнинг феълидан кўрқиб, унга садоқатини, қуллигини изҳор қилолмаган. Қишлоққа “юмшоққина” Бегмат келиб, яна унга кўшни бўлгач, Санокул бобонинг куни тукқан. Унинг қалбидаги қуллик эҳтиёжи ва уни ошкор этиш иштиёқи юзага чиққан ва тўрасининг набираси Бегмат Дадаматовга озор бераётганини хаёлига келтирмаган ҳолда ўз кўнглида унга эҳтиром кўрсатган! Бу феъли-сажияси билан у абсурд театри асосчиларидан бири Самюэл Беккетнинг “Годони кутиш” пьесаси қаҳрамони Лаки образини эслатади. [3]

Хулоса қилиб айтганда ёзувчи ушбу ҳикоянинг бош ғоясини очиб беришда ҳар бир сўз, ҳар бир жумладан усталик билан фойдаланган “Ғуломгардиш” ҳажман қандай бўлишидан қатъий назар унга бирор сўз кўшиш ҳам, олиб ташлаш ҳам мумкин бўлмаган ижод маҳсули бўла олган.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Ҳайриддин Султон. Уч юз олтмиш тўрт кун. Тошкент: O‘zbekiston НМИУ, 2019.
2. [www.kh-davron.uz](http://www.kh-davron.uz)
3. [www.ziyouz.uz](http://www.ziyouz.uz)

## CHO‘LPON IJODIDA SHAXS RUHIYATI TASVIRI

*Solijonova Dilshoda Ulug‘bek qizi.*

*NamDU talabasi*

In developed countries going to school is obligatory: education as fulfilling the law is the only way to get a proper standard of humanistic life. Thereby, the teacher represents the state—s/he enables, guarantees and controls the schooling and learning. By giving homework, for example, a teacher can control children’s time even after the school day has finished. The process of teaching has an academic content, a humanistic aim, but a social form: the young person has to go through all classes, pass exams—only then it is possible to enter life (Leino, 2011). So—in some contexts academic, humanistic, psychological and social are partly synonyms. Veugelers (2011b: pp. 18-24) stressed the quality of education, which should be assessed not only in terms of individual “academic” school performance of students, but also on the contribution education makes to social justice and motivation for social change. Teaching is seen as social and moral engagement to create a better and more just world (Veugelers, 2011b: pp. 18-24). Hence, moral, social and humanistic really seem to be kind of synonyms.

The new field of relationships, under the meaning of “social”, was widely recognized by the end of the 19th century—it denoted a specific field outside of politics, that was also connected to a pedagogical aspect: people started to connect social problems (including poverty) with school (to be more exact—with the lack of education) (Leino, 2011). In some areas (Baltic countries, Scandinavia, Germany) the use of the word “social” is narrower than “societal”—for example if one talks about people in need, and how to support them. In this case the word “social” has an opposite meaning to the word “economic” (Leino, 2011). For Durkheim the word “social” was equal to norms, which were thought to be the putty of whole society (Durkheim, 1895). A “social” person fits to standards,

unlike the “asocial” one. It is normal to cope by yourself, not to burden the taxpayers. No wonder then that during significant societal changes, in the draught of the industrial revolution, the scientific fields of socio-prefix started to become a reality: sociology (to investigate the problems), social psychology (to understand their essence), social work and social pedagogy (to solve them). “Social” as being able to cope (for example through education), or as the introduction of norms, or as the promotion of co-operation are important both for the school and the teacher. According to this, the educational activities support the process of humanistic socialization. In ideal world the whole education should be called social pedagogy or temperament-conscious teaching—it avoids drop-out and other psychological problems. Furthermore, in ideal, humanistic world the students’ marks are result of knowing, not of (“proper”) temperament.

Students’ expectations of the school are different, and not all of them adapt to the culture of the school that stresses mostly middle class values (Silvennoinen, 1992: p. 259). The middle class values of Estonia mean having or striving for a good work place and coping with one’s own life—also the teacher gives importance to this. “Bad pupils” are threatened with not getting into secondary school, which in Estonia means the status of an outcast (Leino, Hintsanen, Hintsanen, Merjonen, & Keltikangas-Järvinen, 2013). A concrete example of this is that evening schools in Estonia are situated only in bigger cities. As the unsuccessful will turn out to be a burden to the tax-payer, these poor people are scolded from their early year son wards. Problems in studies predicts further difficulties in the labour market and as the social security system in Estonia is poor, teachers as well as parents take deviations from the norm as a tragedy. From the point of view of school the “proper citizen” in Estonia seems to mean a Soviet-type obedient factory worker. Giving out information mostly in one direction—from teacher to student—excludes dialogue and individual reflection. The “previous” education rested on similarities. Contemporary society, however, needs independent and creative people for faster development. There is probably a tension between emancipation and regulation in the schools of Nordic countries as well (Gordon, Holland, & Lahelma, 2000; Leino & Lahelma, 2002: p. 84), but in post-Soviet countries the conflict between society and the conservative school is more acute because of the intensive changes in society during a very short time (Leino, 2011). Too often troubled behaviour is considered as a permanent characteristic of the person, even as an illness that has to be diagnosed (Nygard, 1998: pp. 23-24). This can be seen particularly in post-Soviet countries, where people have been taught for 50 last years that the only norm is average behaviour, appearance etc. (Leino, 2002a).

According to definition of National Board for Professional Teaching Standards (Washington, 1998) the content of the pedagogy refers to the pedagogical (teaching) skills teachers use to impart the specialized knowledge/content of their subject area(s). Effective humanistic teachers display a wide range of skills and abilities to create a learning environment where all students feel comfortable and are sure that they can succeed both academically and personally.



This complex combination of skills and abilities is integrated in the professional teaching standards that also include essential knowledge, dispositions, and commitments that allow educators to practice at a high level (Washington, 1998). In this definition the “comfortable feeling” and “personal success” are important concepts, because emotional well-being helps humanistic socialization. As Damasio put it: “feelings are just as cognitive as other percepts” (Damasio, 2006: p. xxv).

Emotions, feelings and sociality are part of both “ordinary” and social pedagogy—they influence academical results and support the everyday life at school. Some of NEET-youngsters are probable out of school because of “wrong temperament”.

There is increasing evidence that student’s temperament plays a significant role in teachers’ conceptions (Mullola et al., 2011), affecting their student-teacher relationship (DiLalla, Marcus, & Wright-Phillips, 2004; Rudasill & Rimm-Kaufman, 2009), their attitudes toward the student (Guerin, Gottfried, Oliver, & Thomas, 1994, 2003), their expectations concerning his or her abilities (Keogh, 1994; Martin, 1989; Mullola et al., 2010), and even their teaching decisions (Keogh, 1989; Rothbart & Jones, 1998). If teachers’ subjective impressions influence marks so strongly, the pedagogy is instead of social rather anti-social. Every activity to keep students in the educational system is important, because the prevention of dropout avoids societal problems. In this context the temperament-conscious teaching can be considered as a humanistic social pedagogy.

According to Hämäläinen (Hämäläinen, 2012: p. 12), the social pedagogy does not have methods of its own that could be distinguished from pedagogical methods in general. Nyqvist (Nyqvist, 1997: p. 31), in turn, stresses empowerment, which in this context means the process of improvement—how to make the situation more comfortable for people. Like a good teacher, the social pedagogue gives an impulse for development. The question is: how to support the humanistic development of everybody? The task of social pedagogue is considered to be that of developing social and upbringing theories as well as vocational work and training (Hämäläinen & Kurki, 1997: p. 15).

According to Nyqvist (1997: p. 32) for young people the social pedagogy means “possibilities to increase the social competence: how to avoid bad influences from social and psychological environment. Or, to be more exact—how to support the creativeness and activity of youngsters” (Nyqvist, 1997: p. 32). At school one will know how to act. According to Hämäläinen, the social pedagogy can be called an action science, because it is closely connected with the challenges of pedagogical action, either professional or non-professional, in theory and practice (Hämäläinen, 2012: p. 11). In academic pedagogy the action is important also—for example in context of temperament. An attempt to separate the concepts of social, humanistic, temperament-conscious and “ordinary” pedagogy is probably not fruitful, because they all are tools of socialization.

The social approach involves workers identifying and being clear about the values they wish to promote and purpose fully encouraging those value sthrough



the use of praise and other rewards (Forgas, 1981: p. 19). It also involves appropriate modelling of the values the worker seeks to promote, and challenging anti-social or procriminal expressions and actions (Forgas, 1981: p. 19). Children and adolescents need supervision in their everyday life. As Keltikangas-Järvinen (2011) puts it, “it is important to comment and to direct them as soon as possible”. Effective pedagogical acting is always both prosocial and social.

In a recent study of Finnish comprehensive schools, students with low temperamental task orientation (i.e., activity, distractibility, and persistence), low educational competence (i.e., cognitive ability, motivation and maturity), low personal-social flexibility (i.e., approach, positive mood, and adaptability), and high reactivity (i.e., negative mood, intensity of response, and reactivity) were perceived as less capable and less teachable by their teachers and received lower school grades (Mullola, 2012). These results are not surprising in Finnish culture where restrained behaviour is a common and important aspect in all individuals' activities. Thus the spontaneous expression of feelings, especially negative ones, is somewhat inadvisable in the Finnish cultural and educational climate (Mullola, 2012: p. 63). This might explain, at least partly, the problem of “problem” children and NEET-youngsters as well.

The role of educational order is to support the passing of the curriculum and the functioning of the hidden curriculum. The last one consists of unwritten rules, norms and order, which, if ignored, will result a punishment. Children with different social backgrounds are therefore in unequal situations. For example, not all families use the correct official state-language—some confine themselves to slang, cursing and grammatically wrong language. In situations like this the teacher has at first to teach the pupils to talk, and only after that the teaching of the subject will be possible. Here the social, humanistic aspect of teaching is obvious.

There are many children in school class, and most of the time the teacher has to work with a group. S/he even talks in we-form: “Let’s take our textbooks out!”, “Let’s solve this exercise!”. This form of speaking refers to a collective, but also to impersonality. The child gets used to the fact that at school s/he changes from a rare subject to an element of a larger mass—just into a line of the list of pupils in the class. Sometimes several days may pass before the teacher approaches a pupil by their name. It also happens that some pupils start to behave badly on purpose—just to get personal attention from the teacher. Obviously political decisions in the Estonian education field (big classes, the lack of an assistant teacher etc.) can cause a new problem (badly behaving children), which requires an extra social role of the teacher, who has to socialize all students—both with “right” or “wrong” temperament. In Finland the state supports teachers and schools more than in Estonia, but even in Finland the subjectivity of teachers seem to be a problem (at least in context of temperament) (Mullola, 2012).

This process is deeply connected with cultural norms. Caspi and colleagues (Caspi, 1998; Caspi & Shiner, 2006) have presented the concept of “cumulative continuity”, where temperament-related consequences may be combined and elaborated over the course of time. The statistics about NEET-youngsters is

probable a result of this cumulative process. If the temperament factors of activity, persistence, distractibility, inhibition and negative emotionality have been found to explain about 1/3 of marks (Mullola et al., 2010: pp. 211-212), there is a paradox: the aim of pedagogy is humanistic; but activities are sometimes repressive (if one's temperament is "too visible", for example). Officially all people are equal, but in reality some students get worse marks just because of working style or "unproper" emotions. Teachers usually don't feel sorry about this, because one of the school's duties is to socialize "reasonable" citizens. As a result some students will drop out, and social problems in society increase.

So—if the socialization is too intensive, in some cases instead of effect one can recognize rather a defect. The solution could be a humanistic social pedagogy. If the social pedagogy is rather a way of thinking (in which social and educational considerations are united) (Hämäläinen, 2012), and when in teachers' education the social pedagogy could get a significant role, the temperament probable would not influence students' marks so much anymore. Shortly: prosocial education avoids social problems. Bierhoff understands (pro) social behaviour as part of social competence (Bierhoff, 2002: p. 53)—which is important for both teachers and students.

Teacher, who wants to support the humanistic socialization, stresses not only the academic content of the curriculum, but social relations in school, too. At least it should be so. This is on the shoulders of a teacher to make studies more humane. The teacher is forced to balance the bureaucratic coldness of school and suggest safety to students (Aittola, 1999: p. 204). From this perspective a paradox arises: school routines do not support behaviour that is suitable for children (joy and play)—this kind of opening oneself is considered to be punishable behaviour. At the same time in the work descriptions of social (and special) pedagogue (working with so called problematic children) play, positive emotion and joy dominate (Leino, 2002a). Paradoxically the shortcomings and problems caused by the ordinary school have to be remedied by the opposite therapy that is practised in social pedagogy. The role of temperament differs in different contexts. School is a contradictory place. On the one hand teachers have to condemn unsuitable behaviour and admonish the so-called decency, but social pedagogues spend their energy to (re)form their personal relation with the children. With this kind of "off-duty" relation social pedagogues are trying to erase the stereotypes of an authoritarian teacher. As an art, humanistic socialization requires improvisation and spontaneity (Leino, 2002a, 2002b). The ideal social pedagogue is more like friend than staff of school. The ideal humanistic education should be able to accept temperament-differences of students.

However, let's return to the beginning of this article—to the possibility of avoiding school- and NEET-problems through temperament-conscious teaching. In next view sentences one can change the concept "temperamentconscious education" easily to the "humanistic education" and/or to the "social pedagogy"—and the message will be the same (Mullola, 2012: pp. 79-80):

“Temperament-conscious education encourages educators to understand and respect students’ individual temperamental differences (e.g. in working styles) and to take this into account in their teaching-learning processes. This means that respecting different temperaments equally means equitable treatment for all students. However, temperament-conscious education should not be used to segregate students or for tailored classes and special teaching groups, but rather to create an educational climate with flexible learning circumstances and educational methods that fit all types of temperaments and not only for those who happen to have a so-called affirmative ‘school temperament’ with high task orientation. ‘/.../’ Temperament-knowledge might produce the most useful results when used as a supportive and comprehensive practical tool throughout the entire teaching, studying, and learning process, and particularly teachers and students working together. Temperament-conscious teachers can help students to know their strengths better and provide tools to cope with their weaknesses” (Mullola, 2012: pp. 79-80).

If the aim of education is to understand and respect students’ individual differences, both social and temperamental aspects are important. The respect and understanding are part of social pedagogy. According to Hämäläinen, social pedagogy (as a particular field of social action) is linked to the action theory that requires understanding of both aims (values) and reality (conditions) (Hämäläinen, 2012: p. 11). The general content of humanistic (social) pedagogical thought and temperament-conscious teaching is the same. The (social and/or temperament-conscious and/or “ordinary”) pedagogue should meet every child as a subject, rather as an object, which can be seen as an indicator of humanistic success. Teachers (and students and parents) need to be better educated in context of temperament: “wrong” behaviour is not automatically the signal of abnormality—sometimes people just are different. Sad, if from temperamental misunderstandings, for example, the processes of being a NEET-person starts.

The founder of social pedagogy in Estonia, Johannes Käis (1885-1950), and the Emeritus Professor of Tallinn Pedagogical University, Inge Unt, have repeatedly stressed the significance of individual relationship with every child in general education. They underline that this should not be used only in a rehabilitative sense, but that individualization should be encouraged continuously, already from the beginning (Käis, 1996; Unt, 1996). According to the Estonian academician Heino Liimets (1998), the school should fill a role of an integrator in relation to all the other study processes that take place in the student’s life.

The information about importance of temperament-conscious teaching is quite a new both for Finland and for Estonia, and probable for many other countries as well. The idea of this article is to stress the importance and meaning of humanistic teaching: a big problem (like NEET-status) may start from small subjective mistake (from conflict with teacher, based, for example, only on temperament). Social pedagogy and temperament-conscious teaching support in practice the same aim—humanistic approach of education.

This study was funded by personal funding for Sari Mullola from the KONE Foundation.

### REFERENCES

1. Aittola, T. (1999). "Thomas Ziehe. Epätavanomaisen Oppimisen Puolustus" (Thomas Ziehe. The Defence of Non-Traditional Learning). In T. Aittola (Ed.), *Kasvatussosiologianteoreetikoita* (pp. 201-227). Helsinki: Gaudeamus.
2. Allen, K. (2011). Youth Unemployment Hits 1 Million. *The Guardian*. (published: 16.11.2011, accessed 02.04.2013)
3. Bierhoff, H.-W. (2002). *Prosocial Behaviour*. New York: Psychology Press.
4. Burks, J., & Rubenstein, M. (1979). *Temperament Styles in Adult Interaction: Applications in Psychotherapy*. New York: Brunner & Mazel Publishers.
5. Caspi, A. (1998). Personality Development across the Life Course. In W. Damon, & N. Eisenberg (Eds.), *Handbook of Child Psychology: Social, Emotional and Personality Development* (5 ed., Vol. 3, pp. 311-388). New York: John Wiley & Sons.
6. Caspi, A., & Shiner, R. L. (2006). Personality Development. In W. Damon & R. M. Lerner (Eds.), *Handbook of Child Psychology: Social, Emotional and Personal Development* (6 ed., Vol. 3, pp. 300-365). Hoboken, NJ: John Wiley & Sons.
7. Damasio, A. (2006). *Descartes' Error*. London: Vintage Books.
8. DiLalla, L. F., Marcus, J. L., & Wright-Phillips, M. V. (2004). Longitudinal Effects of Preschool Behavioral Styles on Early Adolescent School Performance. *Journal of School Psychology*, 42, 385-401. <http://dx.doi.org/10.1016/j.jsp.2004.05.002>
9. Durkheim, E. (1895) *Introduction to Sociology: The Rules of Sociological Method*. <http://www.cf.ac.uk/> socsi Forgas, J. P. (1981). What Is Social about Social Cognition? In J. P. Forgas (Ed.), *Social Cognition* (pp. 1-26). London, New York, Toronto: Academic Press.
10. Gordon, T., Holland, J., & Lahelma, E. (2000). *Making Spaces. Citizenship and Difference in Schools*. London: Macmillan Press Ltd. <http://dx.doi.org/10.1057/9780230287976>
11. Guerin, D. W., Gottfried, A. W., Oliver, P. H., & Thomas, C. W. (1994). Temperament and School Functioning During Early Adolescence. *The Journal of Early Adolescence*, 14, 200-225. <http://dx.doi.org/10.1177/027243169401400206>
12. Guerin, D. W., Gottfried, A. W., Oliver, P. H., & Thomas, C. W. (2003). *Temperament: Infancy through Adolescence. The Fullerton Longitudinal Study*. New York: Kluwer Academic/Plenum Publishers. <http://dx.doi.org/10.1007/978-1-4615-0175-6>
13. Hämäläinen, J. (2012). Social Pedagogical Eyes in the Midst of Diverse Understandings, Conceptualisations and Activities. *International Journal of Social Pedagogy*, 1, 3-16.
14. Hämäläinen, J., & Kurki, L. (1997). *Sosiaalipedagogiikka*. Porvoo: WSOY.
15. Jussim, L., & Harber, K. D. (2005). *Teacher Expectations and Self-fulfilling Prophecies: Knowns and Unknowns, Resolved and Unresolved Controversies*.



- Personality and Social Psychology Review, 9, 131-155.  
[http://dx.doi.org/10.1207/s15327957pspr0902\\_3](http://dx.doi.org/10.1207/s15327957pspr0902_3)
16. Kallavus, T., & Tiko, A. (2006). Oppivelvollisuuden Toteutuminen Virossa Koulutuksen Erityistarpeiden Lähtökohdista. (Study Obligatory in Estonia, from Special Educational Point of View). In H. Lehtonen (Ed.), Oppijan Kasvun Tukeminen. (To Support the Growth of Student) (pp. 73-91). Saarijärvi: Saarijärven Offset OY.
17. Keltikangas-Järvinen, L. (2009). Temperament ja Kooliedu (Temperament and School Success). Tallinn: Lastekaitseleht.
18. Keltikangas-Järvinen, L. (2011). Sotsiaalsus ja Sotsiaalsed Oskused (Sociability and Social Skills). Tallinn: Koolibri.
19. Keogh, B. K. (1989). Applying Temperament Research to School. In G. A. Kohnstamm, J. E. Bates, & M. K. Rothbart (Eds.), Temperament in Childhood (pp. 437-450). Chichester: John Wiley & Sons, Ltd.
20. Keogh, B. K. (1994). Temperament and Teachers' Views of Teachability. In W. B. Carey, & S. C. McDevitt (Eds.), Prevention and Early Intervention: Individual Differences as Risk Factors for the Mental Health of Children (pp. 246-254). New York: Brunner/Mazel.
21. Keogh, B. K. (2003). Temperament in the Classroom: Understanding Individual Differences. Baltimore, MD: Paul H Brookes Publishing.
22. Käis, J. (1996). Kooli-Raamat (The Book of the School). Tartu: Ilmamaa.
23. Leino, M. (2002a). Before and Now in the Estonian School. Young, 10, 44-59.  
<http://dx.doi.org/10.1177/110330880201000203>
24. Leino, M. (2002b). Country Notes: Estonia. Social Pedagogy in the Context of Social Work. European Journal of Social Work, 5, 319-321.  
<http://dx.doi.org/10.1080/714053163>
25. Leino, M. (2010). Kooliprobleemide Taustategurid (The Background Information of School Problems). In V. Parts (Ed.),
26. Noored Eestis 2009 (Youngsters in Estonia 2009) (pp. 126-131). Tallinn: ENK.

## **KELAJAK O'QITUVCHISI SHAXSINING PROFESSIOGRAMMASI**

*Shaxlo Isamiddinovna Botirova*

*Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika institute  
professori, pedagogika fanlari doktori (DSc)*

Kelajak o'qituvchisi siymosi o'qituvchilar uchun kasbiy ideal vazifasini o'tashi bilan muhim hisoblanadi. Uni yaratishda jamiyat, ta'lim, fan, pedagogika, psixologiya va axborot texnologiyalari kabi bir necha sohalarning ilg'or yutuqlarini bir nuqtada jamlash, umumlashtirish lozim. Kasbiy va shaxsiy mukammallik kelajak o'qituvchisi siymosining asosiy shartidir.

O'qituvchi kasbi borasida buyuk pedagog olimlar ko'plab fikr-mulohazalarni bayon qilishgan. Ya.A.Komenskiy o'qituvchining asosiy maqsadi



haqida “talabalar tomonidan o‘rnak bo‘lishga chorlovchi shaxsiy yuksak axloqi, odamlarga muhabbati, bilimi, mehnatsevarlik va boshqa fazilatlarni namoyish qila oladigan, insonparvarlik asosida tarbiyaviy ishlarni olib boradigan, o‘z kasbining etuk mutaxassisi bo‘lish”[1], - deb ta’kidlagan. Olim ta’kidlaganidek, shaxsiy yuksak axloq, muhabbat, bilim, mehnatsevarlik, o‘z kasbining etuk mutaxassisi bo‘lish o‘qituvchidan o‘z ustida doimiy ishlashni taqozo qiladi.

Zamonaviy pedagogikada o‘rgatishdan ko‘ra o‘rganishga o‘rgatish ko‘proq ahamiyat kasb etmoqda. Bu milliy pedagogikamizda mavjud o‘quvchilarga insoniyat tomonidan shu paytga qadar egallangan mavjud bilimlarni o‘rgatishni eng maqbul yo‘l sifatida ko‘rish bilan bog‘liq eski yondashuvga qarshi turadi. Eski yondashuvga ko‘ra mavjud bilimlar o‘quvchi ong va tafakkuriga tayyor holda singdiriladi. Bu jarayonda bilimlar adabiyotlarda tayyor holda mavjud bo‘ladi va buni o‘zlashtirish o‘quvchilar uchun ham, o‘qituvchilar uchun ham qanoatlanarli hisoblanadi. Ammo bu o‘quvchilarda masala va hodisalar mohiyatini anglashga nisbatan ijodiy yondashuvni nazarda tutmaydi, faqat mavjud bilimlarni yodlash, ularni amaliyotga joriy etish bu turdagi pedagogikaning bosh maqsadi sifatida qaraladi. Bunday yondashuvda o‘quvchining qanchalik ko‘p bilimni yodda saqlaganiga qarab uning bilimi haqida xulosalar chiqariladi. Mavjud bilimlar yangi bilimlarni kashf etish uchun poydevor sifatida xizmat qilmasa, bu jarayonda zanjirli reaksiya hodisasi kuzatilmasa, fan va ishlab chiqarishda kutilgandek rivojlanish va taraqqiyot kuzatilmaydi. Buning uchun o‘quvchilar masalaning mohiyatini anglashi, sabab va oqibatlarini tushunib etishi va xulosalar chiqarish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi lozim bo‘ladi. Kelajak o‘qituvchisi siymosida ushbu nuqsonlarga qarshi fikrlarni shakllantirish zarur. Buning uchun kelajak o‘qituvchisi konsepsiyasini ishlab chiqish talab etiladi. Konsepsiyada uning maqsad va vazifalari, kelajak o‘qituvchisi shaxsini tarbiyalash tizimi va uning asosiy prinsiplari, usullari, kelajak o‘qituvchisi shaxsining umumiy va xususiy kasbiy kompetensiyalari, professiogrammasi o‘z aksini topmog‘i lozim.

Adabiy ta’lim kelajak o‘qituvchisi konsepsiyasining **maqsadi** pedagogik ta’limga ixtisoslashgan oliy ta’lim muassasalarining o‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarga adabiyot fani o‘qituvchilari uchun zarur bo‘lgan zamonaviy pedagogik va hayotiy kompetensiyalarni o‘zlashtirishlari uchun shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, kasbiy va hayotiy vaziyatlarga moslashish ko‘nikmalarini egallashning pedagogik hamda amaliy asoslarini yaratishdan iborat.

Adabiy ta’limning jamiyat oldidagi yuksak ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqqan holda kelajak o‘qituvchisi konsepsiyasining vazifalarini quyidagilardan iborat qilib belgilash maqsadga muvofiq hisoblanadi:

adabiyot fani o‘qituvchisiga qo‘yiladigan zamonaviy (va kelajak) talablarni o‘rganish (prognoz qilish), umumlashtirish va pedagogik oliy ta’limda amalga oshirilayotgan ta’lim-tarbiya jarayonlari mazmunini shu talablarga moslashtirish;

adabiyot o'qitish metodikasi va pedagogika nazariyasi bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda kelajak o'qituvchisi konsepsiyasini ta'lim amaliyotiga tatbiq etishning oqilona mexanizmlarini ishlab chiqish;

kelajak adabiyot fani o'qituvchisining profессиogrammasini ishlab chiqish, muntazam takomillashtirib borish va uni kadrlar tayyorlash tizimiga joriy qilish;

jamiyat rivojlanish qonuniyatlari asosida adabiyot fani o'qituvchisiga qo'yiladigan zamonaviy (kelajak) talablar, fanning rivojlanish an'ana va yo'nalishlarini belgilash;

talabalarni o'qituvchilik kasbiga qo'yiladigan zamonaviy (va kelajak) talablar asosida tayyorlash, ularga adabiyot fanining rivojlanish an'analari va yo'nalishlari asosida kasbiy ta'lim berish;

hayot taraqqiyotining sur'ati va jamiyat talablarining o'zgaruvchanligini inobatga olgan holda talabalarga adabiyot fani o'qituvchisi kasbi bilan birga yondosh bo'lgan qo'shimcha kasb-hunar o'rgatish ishlarini tashkil qilish;

adabiy ta'limda nazariya va amaliyot uyg'unligi va birligiga erishish orqali ta'lim sifatini oshirish;

kelajak adabiyot fani o'qituvchisining shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarini ishlab chiqish;

bo'lajak adabiyot fani o'qituvchilarining zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini kuchaytirish;

bo'lajak adabiyot fani o'qituvchilariga xorijiy tillarni o'qitish mazmuni va samaradorligini oshirish;

bo'lajak adabiyot fani o'qituvchilarida real hayotiy vaziyat va sharoitlarga kasbiy moslashish ko'nikmalarini shakllantirishga ko'maklashish.

Adabiy ta'limda kelajak o'qituvchisi shaxsini tarbiyalash muntazam o'zgarib va takomillashib boradigan jarayon ekan, unda yuz beradigan o'zgarishlarda tarqoqlik kuzatilmasliligi va mohiyatdan uzoqlashib ketmaslikni ta'minlash uchun uning qanday tamoyillarga tayanishini qat'iy belgilab olish zarur bo'ladi. CHirchiq davlat pedagogika instituti misolida adabiy ta'limda kelajak o'qituvchisini tarbiyalash **tamoyillari** quyidagilardan iborat qilib belgilandi:

- ilmiylik;
- zamonaviylik;
- ilmiy bashorat (futurologiya) ga asoslanish;
- amaliyotga asoslanganlik;
- maqsadga yo'naltirilganlik;
- muntazamlilik;
- jamiyatning rivojlanuvchi va o'zgaruvchan talablariga moslashuvchanlik;
- ta'lim va tarbiya ishlarining uyg'unligi;
- o'qituvchilik kasbida erishilgan ijobiy natija va yutuqlarga tayanish.

Adabiy ta'lim kelajak o'qituvchisi konsepsiyasini amalga oshirish jarayoni pedagogika, xususan, adabiyot o'qitish metodikasining ilmiy-nazariy asoslariga tayanishi uning ilmiylik tamoyilini belgilaydi.

Tadqiqot davomida adabiy ta'limda kelajak o'qituvchisi shaxsining professiogrammasini ishlab chiqdik. Unda kelajak o'qituvchisining xislatlari va pedagogik qobiliyati tasnif qilingan.

#### **Adabiy ta'limda kelajak o'qituvchisi shaxsining professiogrammasi:**

1. Kelajak o'qituvchisi shaxsining professiogrammasida uning xislatlari quyidagilardan iborat:

##### **Shaxsiy xislatlar:**

- vatanparvarlik;
- ijtimoiy javobgarlikni yuksak darajada his etish;
- bolalarni yaxshi ko'rish, ularni sevish;
- mehnatsevarlik;
- jamoat ishlarida faollik;
- mehribonlik;
- kamtarlik;
- odamiylik, dilkashlik;
- irodali, sabr-toqatli, bardam va matonatli bo'lish;
- uddaburonlik, mustahkam xarakterga ega bo'lish;
- o'z bilimini oshirishga intilish.

##### **Kasbiy bilim darajasi:**

- ta'lim va tarbiya jarayoni mohiyati bilan uning maqsad va vazifalarini tushunish;

- psixologiya asoslari, yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya asoslarini bilish;

- etnopsixologik bilimlarni egallash;
- hozirgi zamon pedagogikasi asoslarini bilish;
- hozirgi zamon pedagogikasining metodologik asoslarini egallash;
- maktab yoshida bolalarnipg psixologik-pedagogik xususiyatlarini tushunish;
- o'z fanini chuqur bilish;
- o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir etishning samarador usullarini kashf etish;
- ota-onalar va jamoatchilik bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning mazmunini bilish.

##### **Kasbiy xislatlari:**

- yangi O'zbekiston mafkurasini anglashi;
- zamonaviy maktabda olib boriladigan o'quv-tarbiya jarayonida umuminsoniy boyliklar, milliy an'analar va urf-odatlarining ahamiyatini tushunish;
- o'qituvchiga xos kuzatuvchanlik;
- o'z diqqat-e'tiborini taqsimlay olish;
- rivojlangan pedagogik fantaziya (xayol)ga erishish;

- o‘ziga tanqidiy munosabatda bo‘la olish;
- o‘zini qo‘lga ola bilishi, o‘zini tuta olish;
- pedagogik takt;
- nutqning emotsional ifodalanishi.

#### **Shaxsiy-pedagogik uddaburonligi:**

- dars mashg‘ulotlari uchun zarur materiallarni tanlay bilish;
- o‘quvchilarning bilish faoliyatini boshqara olish;
- ta‘lim va tarbiya jarayonida o‘quvchilar ongining taraqqiy etib borishini istiqbolli ravishda rejalashtira olish;

- pedagogik vazifalarni shakllantirish va tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishni bilish;

- bolalar jamoasiga rahbarlik qilishda o‘z faoliyatini rejalashtirishni bilish;
- o‘quv maqsadlarini rejalashtira olish;
- o‘zining talim-tarbiya ishlariga tayyorlanish tizimini rejalashtira olish.

#### **Tashkilotchilik malakalari:**

- bolalar jamoasini uyushtira bilish;
- turli sharoitlarda bolalar jamoasini boshqara olish;
- bolalarni biror narsaga qiziqtirib, ularni faollashtira olish;
- amaliy masalalarni hal etishda o‘zining bilim va tajribalarini ustalik bilan tez hal qila olish.

#### **Kommunikativ malakalari:**

- bolalarni o‘ziga jalb etishni bilish;
- bolalar va ota-onalar bilan maqsadga muvofiq pedagogik munosabatlarni tiklashni bilish;
- bolalarning jamoalararo va jamoa ichida o‘zaro munosabatlarni tartibga solishni bilish;
- bolalar va ota-onalar bilan tashqaridan aloqa bog‘lashni bilish.

#### **Gnostik malakalari:**

- bolalarning asab-psixik taraqqiyoti darajasini aniqlay bilish;
- o‘zining tajribasi va pedagogik faoliyati natijalarini tanqidiy tahlil qila olish;
- boshqa o‘qituvchilarning tajribalarini o‘rganib, undan (nazariy va amaliy tomondan) to‘g‘ri xulosa chiqara olish;
- psixologik va pedagogik adabiyotlardan foydalanishni bilish;
- o‘quvchilarni to‘g‘ri tushunib, ularning xulq-atvor sabablarini tushuntirishni bilish.

#### **Ijodiy xislatlari:**

- pedagogik mahoratini takomillashtirishga intilish;
- o‘quvchilarni tarbiyalash dasturini ishlab chiqish va uni amalga oshirish qobiliyati;
- o‘zini o‘quvchi o‘rniga qo‘yib, bo‘lib o‘tgan hodisalarga uning nazari bilan qaray olish;

- avvalgi voqealar, hodisalar va tarbiyalanuvchi shaxsiga yangicha qaray olish qobiliyati;

- o'zining o'quvchiga pedagogik ta'siri natijalarini oldindan ko'ra bilishga intilish.

2. Kelajak o'qituvchisi shaxsining professiogrammasida uning pedagogik qobiliyatlari quyidagilardan iborat:

- **didaktik qobiliyatlar** – bolalarga o'quv materiallarni aniq va ravshan tushuntirib, oson qilib etkazib berish, bolalarda fanga qiziqish uyg'otib, ularda mustaqil faol fikrlashni uyg'ota oladigan qobiliyatlardir;

- **akademik qobiliyatlar** – muayyan fan sohasi va uni tadqiq etish bilan bog'liq qobiliyatdir;

- **perseptiv qobiliyatlar** – bu o'quvchining, tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira bilish, psixologik kuzatuvchanlik, o'quvchi shaxsining vaqtinchalik psixik holatlari bilan bog'liq nozik tomonlarini tushuna bilishdan iborat qobiliyatdir;

- **nutqiy qobiliyat** – kishining o'z tuyg'u-hislarini nutq yordamida, shu bilan birga mimika va pantomimika yordamida aniq va ravshan qilib ifodalab berish qobiliyatidir;

- **tashkilotchilik qobiliyati** – bu birinchidan, o'quvchilar jamoasini uyushtira bilish, bunda jamoani jipslashtira olish va ikkinchidan, o'zining shaxsiy ishini to'g'ri tashkil qila olish qobiliyatidir;

- **avtoritar qobiliyati** – bu o'quvchilarga bevosita emotsional irodaviy ta'sir etib, ular orasida obro' ortira bilishdan iborat qobiliyatdir;

- **kommunikativ qobiliyati** – bu bolalar bilan muloqotda bo'lishga, o'quvchilarga yondashish uchun to'g'ri yo'l topa bilishga, ular bilan pedagogik nuqtai-nazardan maqsadga muvofiq o'zaro aloqa.

Kelajak o'qituvchisi o'quvchi hayotining shunchaki bir qismi, unga bilim beruvchi shaxs bo'lib qolishi kerak emas, balki uning mazmunini belgilab beruvchi mutaxassis bo'lishi kerak. Chunki bugungi kunga kelib ta'lim olish jarayoni yoshlar hayotining eng katta qismiga aylanib ulgurdi. O'quvchi ota-onasidan ko'ra ko'proq o'qituvchi bilan munosabatga kirishmoqda. Shunday vaziyatda mazkur kasbning ideal namunasini yaratish va unga yo'naltirilgan ta'lim mazmunini tashkil qilish jamiyatning o'zgaruvchan talablariga mos o'qituvchi shaxsini tarbiyalash imkonini beradi. Kelajak o'qituvchisi o'quvchilarni jamiyatning kelajak talablariga muvofiq tarbiyalaydi.



## REFERENCES

1. Materialy nauch. sessii APN RSFSR, posvyayuyonnoy 300-letiyu opublikovaniya sobraniya didakticheskix trudov YA. A. Komenskogo (13-14 dekabrya 1957 g.), M., 1959
2. Muhamedov G‘., Xodjamkulov U. YOshlarni nostandart fikrlashga o‘rgatishning zarurati. / <https://diyor24.uz/4888>
3. Eynshteyn A. Sobranie nauchnykh trudov v chetyryox tomax. — M.: Nauka, 1965—1967, Tom №3, -S.92.
5. Mukhamedov, G. I., Khodjamkulov, U. N., Shofkorov, A. M., & Makhmudov, K. S. (2020). Pedagogical education cluster: content and form. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 01 (81), 250-257. <https://dx.doi.org/10.15863/TAS.202Q.01.81.46>
6. Botirova SH.I. (2020). Problemnye aspekty, svyazannye s primeneniem pedagogicheskix texnologii i interaktivnykh metodov na urokax. *"Science and Education" Scientific Journal*, 1(7), 465-472.
7. Mardonov, S., Khodjamkulov, U., Botirova, S., & Shermatova, U. (2020). The Need to Educate Young People with the Spirit of Patriotism in the Context of Globalization. *Journal of Critical Reviews*, 7(12), 243-247. <http://dx.doi.org/10.31838/jcr.07.12.29>
8. Botirova Sh.I. (2018). The Role of Artistic Literature In The Spiritual Development of Youth. *Mirovaya nauka*, 5(14), 26-28.
9. Botirova Sh.I. (2018). Methodology And Technology of Social And Pedagogical Activity. *Teoriya i praktika sovremennoy nauki*, 1(31), 14-16.
10. Khodjamkulov, U., Botirova, S., Shofkorov, A., & Abdirimova, I. (2020). Bases of Organizing Cooperation between Educational Institutions through Clusters (on the Example of the Education System of Uzbekistan). *Journal of Critical Reviews*, 7(12), 166-169. <https://dx.doi.org/10.31838/jcr.07.12.47>
11. Botirova Sh.I. (2018). The Role of Artistic Literature In The Spiritual Development of Youth. *Mirovaya nauka*, 5(14), 26-28.

## SO‘Z YASALISHIGA OID BILIMLARNI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI

*Jumaniyozova Muhabbat Xo‘sinovna,*

*UrDU dotsenti, f.f.n.*

*Otajonova Sabohat Talant qizi,*

*UrDU talabasi*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi farmonidagi yetakchi vazifalaridan biri ta‘lim-tarbiya sifatini ko‘tarish, ta‘lim

mazmunini yangilash, yosh avlodni aqliy intellektual taraqqiyotini ta'minlashga yo'naltirilgan uzluksiz ta'lim-tarbiyaning yangi modelini ilmiy-pedagogik jihatdan ta'minlangan holda muntazam takomillashtirib borishdan iboratdir.[1] Shu bois amaliyotga joriy qilinayotgan Milliy o'quv dasturida bolalarni nutq hodisalarini kuzatish va ulardan xulosalar chiqara olishga o'rgatish; nutqdan tilga, til dalillaridan qoidalarga qarab borish tamoyili asosida ona tili mashg'ulotlarini tashkil etish; berilgan tayyor va tuzilgan matnlar ustida o'quvchilar faoliyatini tashkil etish; ona tilini o'qitishda qoidabozlikni kamaytirish, nutq amaliyoti ustuvorligini ta'minlashga katta e'tibor qaratilmoqda.

Boshlang'ich ta'lim uzliksiz ta'limning asosiy bo'g'inidir. Undagi ona tili predmeti yoshlarni ijtimoiy hayotga, ishlab chiqarishga tayyorlash maqsadida kishilarning o'zaro aloqalashuvi uchun zarur bilimlar bilan qurollantiradi.

Boshlang'ich sinflarda ona tilidan beriladigan bilimlar mazmunini o'zbek tilining tovush tuzilishi va yozma nutqda tovushlarni ifodalash usullari haqidagi (fonetik va grafik); so'zlarning o'zgarishi, gapda so'zlarning bog'lanishi haqidagi (grammatik, ya'ni morfologik va sintaktik); so'zning morfemik tarkibi va so'z yasaliş usullari haqidagi (so'z yasalişiga doir); so'zlarning leksik-semantik guruhi haqidagi (leksikologik); o'zbek tili to'g'ri yozuv tamoyillari va tinish belgilarning ishlatilishi haqidagi (orfografik va punktuatstion) bilimlar tashkil etadi. Bu bilimlar, birinchidan, grammatik, fonetik, so'z yasalişiga oid tushunchalarda, ikkinchidan, grafik, orfografik, punktuatstion qoidalarda namoyon bo'ladi.

Boshlang'ich sinflar ona tili kursi tilning hamma tomonlari o'zaro bog'liq holda o'rganilishi hisobga olinib tuzilgan, har bir sinfda fonetika, leksika, grammatika va so'z yasaliş haqida elementar bilim beriladi. Kursning bunday qurilishi tilning barcha tomonlarini bir-biriga o'zaro ta'sir etadigan bir butun hodisa sifatida o'rganishni taqozo etadi. Tilni o'rganishga bunday yondashish ta'lim jaryonini o'quvchilar nutqini o'stirish vazifasini hal etishga yo'naltirish imkonini beradi.

Boshlang'ich ta'limda so'z yasaliş haqidagi bilimlar ona tili dasturining "So'z" bo'limi doirasida beriladi. Bu bilimlar o'quvchilarga so'zning tarkibiy qismini, o'zakdosh so'zlar hamda ot, sifat, fe'l so'z turkumini o'rgatish jarayonida kengaytirib boriladi.

3-4-sinflarda so'z tarkibini o'rganishga kengroq o'rin berilgan. Unda so'z yasovchi qo'shimchalarga doir esda saqlanadigan qoidalarni o'zlashtiish uchun quyidagi muhim belgilarga e'tibor berish zarur hisoblanadi:

1. O'zakka qo'shib, yangi ma'noli so'z hosil qiladigan morfema affiks morfema bo'ladi.
2. Bitta so'zga turli so'z yasovchi qo'shimchalar qo'shish bilan o'zakdosh so'zlar hosil qilinadi.
3. So'z yasovchi qo'shimchalar o'zakdan anglashilgan ma'no bilan bog'liq bo'lgan boshqa bir so'z hosil qilsa, uni yasama so'z deyiladi.

4. Soʻz yasovchi qoʻshimchadan yasalgan yangi soʻz mustaqil maʼno anglatgan soʻz boʻlib, bir soʻz turkumi doirasida lugʻatni boyitadi yoki boshqa turkumiga oʻtib keta oladi.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida soʻz yasalishi tushunchasini shakllantirish jarayonida soʻzning leksik maʼnosi, gapning tarkibidagi boshqa soʻzlarga taʼsiri oʻyinlashadi, oʻquvchida soʻzni uslubiy jihatdan toʻgʻri ishlatish koʻnikmasi ortadi.

Boshlangʻich sinflarda soʻz yasovchi qoʻshimchalarni oʻrganishning asosiy vazifasi oʻquvchilarni soʻzda soʻz yasovchi qoʻshimchaning ahamiyati bilan tanishtirish va shu asosda soʻz yasovchi qoʻshimchali soʻzdan oʻz nutqida ongli foydalanish koʻnikmasini oʻstirish hisoblanadi. (4.235) Oʻquvchilar soʻz yasovchi qoʻshimcha yordamida yangi lugʻaviy soʻz yasash mumkinligini tushinishi muhim ahamiyatga ega.

Soʻz yasovchi qoʻshimchalar ustida ishlash baʼzi soʻz yasovchi qoʻshimchaning maʼnosini va yasama soʻzning grammatik belgilarini aniqlash bilan birga olib boriladi. Soʻz yasovchi qoʻshimchaning maʼnosini tushuntirish uning soʻz yasashdagi ahamiyatini oʻquvchilar anglashiga imkon beradi, ularning diqqat-eʼtibori soʻz yasovchi qoʻshimcha yordamida yangi lugʻaviy maʼnoli soʻz yasalishiga qaratiladi. Masalan: bosh- boshla- boshliq-boshqar. Yasalgan soʻz qaysi soʻz turkumiga kirishini aniqlash soʻz yasovchi qoʻshimcha yordamida har xil soʻz turkumiga oid soʻzlar yasash mumkinligi haqidagi tasavvurni chuqurlashtiradi.

Soʻz yasalishi soʻz tarkibini oʻrganish bilan chambarchas bogʻliq holda olib boriladi. Binobarin, 3-4-sinf “Ona tili” darsliklarida berilgan mashqlardan tashqari morfologik tahlil vositasida yasovchilar yordami bilan soʻz yasash yoʻllarini ijodiy tashkil etish maqsadga muvofiq boʻladi. Bunda oʻquvchilarda soʻz topish, oʻz lugʻatini boyitish masʼuliyati oshiriladi. Masalan, 3-sinfda quyidagi topshiriqlardan foydalanish mumkin:

- 1) bir oʻzakli soʻzlar royxatini tuzish: gul-gulchi-guldongulla-gulli-gulsiz yoki ish-ishchi-ishchan-ishsiz-ishli kabi;
- 2) qoʻshimchani har xil oʻzakka qoʻshib yangi soʻz hosil qilish: gulzor-bugʻdoyzor-paxtazor, gulchi-ishchi-gapchi kabi;
- 3) soʻz qismlarini jadvallarda koʻrsatish:

Soʻzlar	Oʻzak	Soʻz yasovchi qoʻshimchalar
vatandosh	vatan	-dosh
paxtakor	Paxta	-kor
bogʻbon	bogʻ	-bon

Soʻz yasalishini va soʻz yasovchi qoʻshimchani ongli oʻzlashtirish uchun matnni leksik-grammatik va leksik-stilistik tahlil qilishga oid vazifalardan foydalanish ham yaxshi natija beradi. Bunday topshiriqlarga matndan oʻzakdosh soʻzlarni topish; ularning maʼnosidagi farqni aytish; bu farq soʻzning qaysi qismi yordamida berilayotganini aniqlash kabilar kiradi.

Boshlang'ich ta'limda so'z turkumlarini o'rganish bilan bog'liq holda so'zning tarkibi ustida ishlashda ham o'quvchilarning so'z yasovchi qo'shimchani so'z yasashdagi ahamiyati haqidagi bilimni chuqurlashtiriladi, o'quvchilar ot, sifat, fe'llarning yasash xususiyatlarini bilib oladilar. O'qituvchi so'z turkumlarini o'rganish jarayonida o'quvchilarga so'z yasashi asoslarini, so'z yasovchi qo'shimcha yordamida bir so'z turkumidan boshqasini yoki shu so'z turkumining o'zini yasash mumkinligini tushuntiradi. Masalan, ot ko'proq boshqa bir otdan (*baliqchi; kitobxon*), shuningdek, fe'ldan (*elak, terim*); sifat ko'proq otdan (*suvli, suvsiz*), shuningdek, fe'ldan (*maqtanchoq, bilag'on*); fe'llar otdan (*ishla, gulla, gapir*), sifatdan (*oqla, oqar, eskir, qoray*) yasaladi.

Ko'rinadiki, boshlang'ich sinflarda so'z yasashi haqidagi bilimlar ko'proq amaliy xarakterga ega bo'lib, so'z tarkibi ustida ishlash hamda so'z turkumlarini o'rganish jarayonida chuqurlashtirib boriladi, so'z yasovchi qo'shimchalarning so'z yasash xususiyatlarini anglashga yo'naltiriladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-sonli farmoni// Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son)

2. Fuzailov S., Xudayberganova M., Yo'ldosheva S. Ona tili. 3-sinf uchun darslik.-Toshkent, "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019.

3. Ikromova R., G'ulomova X. va b. Ona tili. 4-sinf uchun darslik.-Toshkent, "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020.

4. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent, "Nosir", 2009.

#### **O'QUVCHILARNING MATN YARATISH, MATN USTIDA ISHLASH KO'NIKMALARINI INTERAKTIV USULLAR YORDAMIDA SHAKLLANTIRISH**

*Almatova Shahnoza Tursunqulovna*

*JDPI dotsenti, f.f.nomzodi*

*Abdurashidova Iroda*

*Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi*

*ijod maktabi o'qituvchisi*

"Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib, kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz"


**Shavkat Mirziyoyev**

Tafakkur va til hodisalarining bir-birini taqozo etishi, biri-birisiz yashay olmasligini e'tirof etgan holda, ijodiy tafakkur sohibi bo'lgan barkamol avlod tarbiyasida ona tilining o'ta muhim va betakror vosita ekanligi bugun o'z isbotini topayotgan haqiqatdir. Zero, intellektual bilim, ijodiy salohiyat, kasbiy mahorat, eng nodir kashfiyotlar ham birinchi galda ona tili yordamida dunyoga keladi, ona tilida zohir etiladi, ona tilida himoya qilinadi. Bugungi rivojlanib borayotgan mustaqil O'zbekistonimizda o'quvchi-yoshlarni ta'limga to'g'ri yo'naltirish juda katta ahamiyatga ega. Zero, yurtimizning kelajagi yoshlarimiz qo'lida. Ma'lumki, o'quvchilarimizning ko'p vaqtlari maktabda o'tadi. Ularning ta'lim olishini to'g'ri tashkil etish esa, biz o'qituvchilarning zimmasidagi yuksak burchdir. "Yomon o'qituvchi"- gapiradi. "Yaxshi o'qituvchi"- ko'rsatadi. [1;22] Zamonaviy o'qituvchi esa dars jarayonlarida interfaol metodlardan samarali foydalangan holda o'quvchilar ongidagi bo'shliqni tezda anglab, chora topib, ilm-ma'rifat bilan to'ldiradi. Ona tili va adabiyot darslarida interaktiv usullar yordamida foydalanish o'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib keladi. O'z vaqtida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida samimiy aloqalar o'rnatiladi. O'qitish usullari ta'lim jarayonlarida turli xil ko'rinishlarda kechadi. ( yakka, juft, guruh, katta guruhlarda) namoyon bo'ladi. O'quv jarayoni o'quv ehtiyojini qondirish bilan yuqori motivatsiyaga ega bo'ladi. Axborot berish, olish va qayta ishlash, o'zaro muloqotga kirish, fikr bildirish, fikr almashish kabi ko'nikmalarni shakllantiradi. O'quv jarayonida quyidagi interfaol usullardan namunalar keltirildi: "Piramida +" metodi.

8-sinf ona tili darsligida berilgan Miqyosi nafs [2;60] matnini qayta qurish, berilgan topshiriqlarni bajarish asosida ushbu metodni amalga oshirish mumkin.

1-bosqich. Bir necha matn gaplari aralash holda stol ustiga qo'yiladi. O'quvchilar o'z matnlarini tiklashi lozim bo'ladi.





### Miqyosi nafs

#### 2-bosqich.

1-qismda nuqtalar o'rniga e'tirof, chegara, shariat, nuqson, fe'l-atvor, vijdon, ma'naviyat, insoniyat so'zlaridan mosini qo'ying.

2-qismda keltirilgan bayt muallifi hamda manbasini yozing.

3-qismdagi fikr Buyuk Iskandarga tegishli (to'g'ri/noto'g'ri)

4-qismda berilgan fikrni davom ettiring va muallifini ko'rsating.

**Javoblar:** 1. Shariat, insoniyat, vijdon 2. Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" 3. To'g'ri 4. "...nafsning o'lchovi ila o'lchanur". Ibn Sino

**3-bosqich. "Sizningcha..." metodi.** Piramida qismlaridagi fikrlarni o'sib borish tartibida, muhimligi nuqtayi nazaridan qanday joylashtirgan bo'lar edingiz?

**"Ijodiy vulqon"**. Adabiyot darsida o'tilgan mavzular yuzasidan nazmiy yoki nasriy matn yaratish topshirig'ini berish orqali o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini yanada oshirish mumkin. Xususan, 8-sinf adabiyot darsligida berilgan shoir To'ra Sulaymonning hayoti, ijodiy faoliyati [3;258] to'la o'rganilgandan so'ng, o'quvchilar guruhlarga ajratilib, ularga quyidagi so'zlar berilib, nazmiy matn tuzish topshirig'i beriladi: **Vatan, bahor, termoq, shoir, bog', ko'ngil, ketmoq, she'r, yurak.**

**1-guruh:**

Yuragida bahor kezib yurgan shoir,  
 Ko'ngillarga gul-chechaklar chizgan shoir.  
 Chin hayotning alamlarin sezgan shoir,  
 She'rlaringiz bizdek yoshlar tillarida.  
 Mangu, abad yashagaysiz dillarida,

Marvaridlar terib so'zlar chamanidan.  
 Bulbul uzoq ketmas bunday Vatanidan,  
 Ko'ngil giryon she'rlari-yu o'lanlardan.  
 Sulaymon gar ketsa hamki uzoqlarga,  
 To'ralardan biz ketmaymiz yiroqlarga.

## 2-guruh:

Bahor kelsa boshlanadi bog'da bulbul xonishi  
 Har tomonda yangraydi jilg'aning sho'x olqishi,  
 Bugun hatto boshqacha ko'kda quyosh balqishi,  
 Ko'klam ketmasin yurtidan bu-ko'ngilning xohishi,  
 Bahor, ketma mening bog'imdan.  
 Giyohlarga jon bergan, rang bergan bir o'zingsan  
 Oshiqlar yuragiga she'r tergan bir o'zingsan.  
 Go'zal qizlar qoshiga o'sma surgan o'zingsan,  
 Mening hur Vatanimni bezab turgan o'zingsan,  
 Bahor, ketma mening bog'imdan.

Yuqoridagi kabi topshiriqlarni bajarish bilan quyidagi natijalarga erishish mumkin:

- O'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi aloqa mustahkamlanadi;
- O'quvchini izchil, keng qamrovli fikrlashga yo'naltiradi, o'quvchining nutqiy barkamollik, ijodiy fikr ifodalashning rivojlanganlik darajasini o'qituvchining yordamisiz, shaxsan o'zi aniqlashga zamin yaratadi;
- O'quvchilar ona tilidan olingan bilim va malakalarni xotirlashga, esga olishga harakat qiladi;
- Materiallarni bir-biriga solishtiradi, taqqoslaydi;
- Xulosalar chiqaradi, yo'l qo'yilgan leksik – grammatik, imloviy xatolarni bartaraf qilishga o'rgatadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Almamatov T., Yadgarov Q., Pochayeva G. "O'zbek tili o'qitish metodikasi". O'quv qo'llanma. Jizzax 2006 yil.
2. Qodirov M. va boshq. Ona tili: o'rta maktablarning 8-sinfi uchun darslik. – T. Cho'lpon NMIU, 2019, 144 b.
3. Olimov S. va boshq. Adabiyot 8: darslik. – T. G'. G'ulom, 2019, 352-b

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING IMLOVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH VA TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI

*Ollaberganova Sanobar Xamidovna,  
UrDU dotsenti, f.f.n.*

*Allaberganova Marifat Kuranbayevna  
UrDU magistranti*

Boshlang'ich ta'lim Davlat ta'lim standartlarida ta'kidlanganidek, ona tili mashg'ulotlari bolalarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki, yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, til sezgirligini tarbiyalashga xizmat qilmog'i lozim. Xususan, boshlang'ich sinflarda ona tilini o'rgatishdan asosiy maqsad bolalarning yosh xususiyatini e'tiborga olgan holda og'zaki va yozma nutqini, tafakkurni o'stirish, ularda bilim olishga qiziqishni o'stirish, faollik, mustaqillik, mehnatsevarlik, qiyinchiliklarni yenga olish qobiliyatlarini o'stirish hisoblanadi. [2] Bolalarning aqliy va nutqiy qobiliyatlarini muvaffaqiyatli o'stirish kelgusida fanlarni puxta o'zlashtirishga imkoniyat yaratadi.

Boshlang'ich sinflarda ona tilidan beriladigan bilimlar mazmunini o'zbek tilining tovush tuzilishi va yozma nutqda tovushlarni ifodalash usullari haqidagi, so'zlarning o'zgarishi va gapda so'zlarning bog'lanishi haqidagi, so'zlarning morfemik tarkibi va so'z yasalishi, so'zlarning leksik-semantik guruhi haqidagi, o'zbek tilining to'g'ri yozuv qoidalari va tinish belgilarining ishlatilishi haqidagi bilimlar tashkil etadi. Berilgan bu bilimlar o'quvchilar nutqini o'stirishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinflarda ona tili mashg'ulotlari turi va mazmuni quyidagilarni o'z ichiga oladi:

4. O'qish, yozuv, grammatik materialni o'rganish, kuzatishlar hamda o'quvchilarning ijtimoiy faoliyatlari bilan bog'liq holda, ularning og'zaki va yozma nutqini o'stirish.
5. Birinchi sinfga kelgan bolalarga savod o'rgatish, ya'ni ularni elementar o'qish va yozishga o'rgatish, bu ko'nikmalarni malakaga aylantirish.
6. Adabiy til me'yorlarini, ya'ni imloviy va tinish belgilariga rioya qilingan savodli yozuvni, to'g'ri talaffuzni o'rganish, nutq va uslubiy elementlarni egallash.
7. Grammatika, fonetika, leksikologiyadan nazariy materiallarni o'rganish, tildan ilmiy tushunchalarini shakllantirish.
8. O'quvchilarni o'qish va grammatika darslari orqali badiiy, ilmiy-ommabop va boshqa adabiyotlar namunasi bilan tanishtirish, ularda badiiy asarni idrok etish ko'nikmasini hosil qilish.

Bu vazifalarning hammasini boshlang'ich sinflarda ona tili predmeti hal etadi va ular ona tili dasturida aks etadi. Dastur davlat hujjati bo'lib, unda o'quv predmetining mazmuni va hajmi, shuningdek, shu predmetdan bilim, ko'nikma va malakalar darajasiga qo'yilgan asosiy talablar

belgilangan bo'lad. O'qituvchi va o'quvchilar dastur talablari asosida ish olib boradilar. Hozirgi davrda ta'lim-tarbiya jarayoniga bo'lgan munosabat yanada yangi pog'onaga ko'tarildi. Yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashda va "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunni hayotga tatbiq etishda boshlang'ich ta'limdagi ona tili darslari muhim o'rin egallaydi. Ona tili darslarida yosh avlodga fan asoslaridan ta'lim berish bilan birga ularda turli ko'nikma va malakalar ham shakllantiriladi. Boshlang'ich o'quvchining DTS da belgilab qo'yilgan o'zlashtirishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalariga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularda o'quvchilar savodxonligiga katta e'tibor qaratilganligining guvohi bo'lamiz.

Boshlang'ich sinf o'quvchisining tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablarda quyidagi ko'nikmalar: tovush va harfni farqlay olish; harflarni to'g'ri yoza bilish; tinish belgilarini o'rinli qo'llay olish; so'zlar orasidagi oraliqni to'g'ri belgilay olish; shaxslarga, joylarga, hayvonlarga atab qo'yilgan nomlarni bosh harfda yoza bilish (I-sinf); tinish belgilarini o'rinli qo'llay bilish; ketma-ket kelgan bir xil unlilar imlosini farqlay olish; ketma-ket kelgan bir xil undoshlar imlosini ajrata bilish; so'z oxirida talaffuzda tushib qoladigan undoshlarni qo'llay olish, 30-40 so'zdan iborat matn asosida diktant va bayon yozish; o'zlashtirilgan bilimlar doirasida imlo xatolariga yo'l qo'ymaslik kabilarga alohida e'tibor berilgan.

Ko'rinadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining imloviy savodxonligiga hamda nutqini o'stirishga ona tili dasturi mazmunida ham, o'quvchilar ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan dastur talabida ham katta e'tibor qaratilgan. Boshlang'ich sinflarda ona tilidan beriladigan bilimlar mazmunini o'zbek tilining tovush tuzilishi va yozma nutqda tovushlarni ifodalash usullari haqidagi, so'zlarning o'zgarishi va gapda so'zlarning bog'lanishi haqidagi, so'zlarning morfemik tarkibi va so'z yasalishi, so'zlarning lelsik - semantik guruhi haqidagi, o'zbek tilining to'g'ri yozuv qoidalari va tinish belgilarining ishlatilishi haqidagi bilimlar tashkil etadi. Berilgan bu bilimlar o'quvchilar nutqini o'stirishga xizmat qiladi.

Ona tili ta'limi oldida quyidagi bosh maqsad turadi: ona tili mashg'ulotlari bolalarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq vaziyatiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilishi lozim.

Boshlang'ich sinf ona tili dasturining asosiy maqsadlaridan biri – o'quvchilar savodxonligini ko'tarish, ularda imloviy malakalarni rivojlantirishdir. Bu vazifa juda murakkab va mashaqqatli bo'lib, bunda bolalarning psixologiyasi, sezgi a'zolari, bilish darajasi va yoshini hisobga olmaslik mumkin emas. Shuning uchun ham bolalarga imlo o'rgatishda ikki sohaga: psixo-fiziologik va lingvistik sohaga qat'iy e'tibor berish kerak. O'qituvchi imloviy malakaning psixologik tabiatidan kelib chiqib, kichik yoshdagi o'quvchilarda imloga oid malakani shakllantirish ustida ishlash metodikasini belgilaydi.

Imloviy malaka maxsus nutq malakasidir. To'g'ri yozuv – maxsus nutq faoliyati; yozuv ham murakkab harakat bo'lib, uning asosida nutq yotadi. Imloviy malaka nutq faoliyatining komponenti sifatida gapni sintaktik jihatdan to'g'ri

tuzish, soʻzni uslubiy aniq qoʻllashni ham oʻz ichiga oladi. Imloviy malaka murakkab malaka boʻlib, uzoq davom etadigan mashqlar jarayonida yaratiladi va soʻzni fonetik tomondan tahlil qilish, uning morfemik tarkibini aniqlash koʻnikmasi kabilarga asoslanadi. Psixologiya malakani avtomatik harakat, yaʼni mashqlar natijasida asta-sekin avtomatlashgan ongli harakat deb belgilaydi. Avtomatlashish oʻrganilgan imlo qoidasining oson yoki qiyinligiga bogʻliq. Imloviy malaka oʻz tabiati bilan avtomatik hisoblanmaydi. Malaka asosiga qoʻyilgan koʻnikma mustahkamlanadi, takomillashadi, yaxshilanadi (harakat tezlashadi, aniq va toʻgʻri boʻla boshlaydi, ishonarli va tejamli bajariladi); shuning bilan birga, faoliyatning tuzilmasi qayta quriladi: mayda birlik bilan ishlash kengroq, butun, qoʻshilgan birliklar bilan ishlashga oʻtadi (masalan, soʻzni harflab koʻchirish, boʻgʻinlab koʻchirish bilan, keyin soʻzni yaxlit koʻchirish bilan, soʻngra u gapni koʻchirish bilan almashadi). [3] Bir imlo malakasi avtomatlashadi, imloga oid boshqa hodisa oʻrganiladi va asta-sekin soʻzni toʻgʻri yozish malakasi hosil boʻladi. Umuman olganda, yozuv murakkab harakat sifatida ongli jarayonligicha qoladi. Toʻgʻri yozuv malakasining shakllanishi uchun oʻquvchidan fikrlash faoliyati talab etiladi. Shunday qilib, orfografiyani oʻrgatishda, grammatikani oʻrgatish kabi, oʻquvchilarning analitik-sintetik faoliyatini asta takomillashtira borish talab etiladi.

Maʼlumki, oʻzbek tilidagi soʻzlar yozilish xususiyatlariga koʻra nihoyatda hilma-xildir. Ayrim soʻzlarning yozilishi bilan talaffuzi mos kelmaydi, ayrimlari yaxlit, ajratib yoki chiziqcha bilan yoziladi. Boshlangʻich sinf darsliklarida qisqartma soʻzlar oz boʻlsa-da, uchraydi. Bulardan tashqari, bosh va kichik harflarning qoʻllanishi, soʻzni bir yoʻldan ikkinchi yoʻlga boʻgʻinlab koʻchirish singari holatlarni oʻrgatishda orfografiya qoidalari va tamoyillariga asoslanadi. Oʻzbek orfografiyasining fonetik, morfologik va tarixiy-traditsion tamoyillari mavjud. Bulardan tashqari, differentsiatsiya va tasviriy etimologik tamoyilda yoziladigan soʻzlar ham uchraydi. Oʻzbek tilidagi soʻzlar xarakter va xususiyatlariga, qaysi tildan oʻzlashtirilganligiga va maʼnolariga koʻra tegishli qoida va tamoyillar asosida yoziladi. Ammo bunday tamoyillar boshlangʻich sinflarda oʻrganilmaydi. Shuning uchun ham oʻquvchilar savodxonligini oshirishda ularning yosh xususiyatlariga mos boʻlgan taʼlim metodlaridan va tegishli koʻrgazma qurollaridan mohirlik bilan foydalanishga toʻgʻri keladi. Bu maqsadga erishishda analitik-sintetik mashqlar muhim oʻrin tutadi.

Yaʼni belgilangan soʻz yoki gapni yozishga kirishishdan oldin uning tarkibi va tuzilishini tahlil qilish, soʻzni toʻgʻri talaffuz qilish, tovushlarning qanday harflar bilan ifodalanishi yuzasidan savol-javoblar oʻtkazish toʻgʻri yozish uchun zamin hozirlaydi.

Boshlangʻich taʼlimda oʻquvchilarning imloviy savodxonligini shakllantirishda, bogʻlanishli nutqini shakllantirishda yozma ishlarning alohida oʻrni bor. Yozma ishlarga diktant, bayon va inshoni kiritamiz. Bular oʻquvchilarning orfografik malakalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Orfografik malaka ongli nutq faoliyatining avtomatlashgan komponentidir. Faoliyat avtomatlashishi uchun uzoq vaqt davomida maqsadga qaratilgan mashqlar



bajarib boriladi. Orfografik mashqlar orfografik ziyraklik ko'nikmasini shakllantirishga, tegishli o'rinda qoidani tatbiq qilishga, mashqlarning qismlari o'rtasidagi bog'lanishni belgilash, ularni umumiy va yagona faoliyat tizimiga kiritishga, o'quvchilar uchun qoidaning mohiyatini aniqlash va uni shakllantirishga qaratiladi. Qoidani tatbiq qilish davridagina uning mazmuni chuqurroq o'zlashtiriladi. Metodikada orfografik mashqlarga: 1) grammatik-orfografik tahlil; 2) ko'chirib yozuv; 3) diktantlar; 4) leksik-grammatik tahlil; 5) bayonlar kiradi. Grammatik-orfografik va leksik-orfografik tahlilda orfografiyaning grammatika va leksika bilan bog'lanishi, ko'chirib yozuv va diktantda o'quvchilar faoliyatini belgilaydigan omillar, xususan, ko'chirib yozuvda ko'ruv va qo'l harakati uquvi, diktantda eshituv uquvi hisobga olinadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bog'lanishli nutqini shakllantirishda bayon va insho alohida o'rin tutadi. Xususan, bayon o'quvchilarning lug'atini boyitish, bog'lanishli nutqini o'stirishga qaratilgan orfografik mashq turlaridan biri hisoblanadi. Bayon orfografik mavzularni o'rganishning yakunlovchi bosqichida, o'quvchilar qoidalarni bilib olib, uni tatbiq qilishga o'rganganlaridan so'ng o'tkaziladi. Bayon yozganda o'rganilgan imlo qoidalarini to'g'ri tatbiq etish ularning ongli o'zlashtirilganligini ko'rsatadi.

Bu yozma ish turi o'quvchilar mavzularni qay darajada o'zlashtirilganligini hisobga olish uchun olinadi. Insho ijodiy ishning eng yuqori shakli bo'lib, maktabda alohida o'rin tutadi; barcha nutqqa oid mashqlar ma'lum mazmunda inshoga bo'ysunadi. Insho shaxsni shakllantirishda foydali vosita bo'lib, hishayajon uyg'otadi, aqliy mustaqillikka, fikrlashga, ko'rgan-kechirganlari va o'zlashtirganlarini baholashga o'rgatadi; kuzatuvchanlikni oshiradi; voqea-hodisalar o'rtasidagi sabab-natija bog'lanishni topishga, ularni qiyoslashga, xulosa chiqarishga o'rgatadi. Insho fikrni tartibga soladi, o'quvchilarda o'ziga, o'z kuchi va imkoniyatiga ishonch tug'diradi.

O'quvchilar birinchi sinf savod o'rgatish davridayoq so'zlarni to'g'ri yozish, yozuv taxtasidan va kitobdan ko'chirib yozish malakalarini egallaydilar. Asta-sekin so'z birikmasi, gap va bog'langan nutq tuzish hamda tuzgan gaplarni yozishga o'rganiladilar.

O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish maqsadida grammatikaga oid ayrim qoidalar o'rgatib boriladi, bu esa qoidalarni puxta o'zlashtirish uchun xizmat qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga grammatikaga oid bilimlarni o'rgatish va ularning nutqlarini o'stirishda yozma ishlar alohida o'rin tutadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi// Boshlang'ich ta'lim, 1998, 6-son.
2. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlari (Ona tili, o'qish, matematika, atrofimizda olam va tabiatshunoslik) (1-4 sinflar).- Toshkent, 2010.
3. Umarova M. O'quvchilarning imloviy malakalarini rivojlantirish// Boshlang'ich ta'lim, 2005, 3-son, 42-43-betlar.

4. Yusupov M. O‘qish va yozuv darslari samaradorligini oshirish.- Toshkent: “O‘qituvchi”, 1990.

## ABDULLA QODIRIY ASARLARINI O‘QITISHDA TA’LIM TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASH

*Kudratxodjayeva Nargis Akbarovna,  
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat  
texnika universiteti dotsenti, f.f.n.  
Usmanova Zulxumor Nazarovna,  
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat  
texnika universiteti katta o‘qituvchi*

XXI asr innovatsion texnologiyalarni turli jabhalarga tatbiq etish asridir. Bundan ta’lim sohasi ham mustasno emas. Ayniqsa, ta’lim sifati va uning asosida yetuk, salohiyatli kadrlarni tayyorlash dolzarbdir. Har bir davlatning rivojlanishi hamda dunyoda yetakchi o‘rinlardan birini egallashida yetuk va salohiyatli kadrlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu dolzarb vazifaning amalga oshirilishida ta’lim sifatiga alohida e’tibor qaratmoq lozim. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev, “Farzandlarimiz uchun zamonaviy ish joylari yaratish, ularning hayotda munosib o‘rin egallashini ta’minlashga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga ko‘tarishni davrning o‘zi taqozo etmoqda”<sup>1</sup>, deya ta’kidlaganlar. Shu sababli har bir professor-o‘qituvchi o‘z fanini, shu jumladan, o‘zbek tilini o‘qitish jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanishi maqsadga muvofiqdir. [1,14]

Ma’lumki, yetakchi pedagog olimlarimiz innovatsion ta’lim texnologiyalarini chuqur o‘rganishlari natijasida quyidagi fikrlarni bildiradilar. Lug‘aviy jihatdan “**innovatsiya**” tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda “**innovation**” – “**yangilik kiritish**”[2,154] degan ma’noni anglatadi. Mazmunan esa tushuncha negizida “innovatsiya” tushunchasi muayyan tizimning ichki tuzilishini o‘zgartirishga qaratilgan faoliyatni ifodalaydi. Innovatsiyalarning ko‘rinishlari: yangi g‘oyalar, tizim yoki faoliyat yo‘nalishini o‘zgartirishga qaratilgan aniq maqsadlar, noan’anaviy yondashuvlar; odatiy bo‘lmagan tashabbuslar; ilg‘or ish uslublaridir. [3,56]

Hozirgi kunda innovatsion ta’lim texnologiyalari ta’limning barcha sohalariga tatbiq etilmoda. O‘zbek tilini o‘qitish jarayonida ham bu texnologiyalar o‘z samarasini bermoqda. Ta’lim innovatsiyalari noan’anaviy yondashuvlar, odatiy bo‘lmagan tashabbuslar hamda ilg‘or ish uslublari ekan, o‘qitish jarayonida interfaol ta’lim metodini samarali qo‘llashga ham e’tibor qaratmoq kerak. Innovatsion va interfaol ta’lim texnologiyalari ta’lim sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirish, o‘qituvchi va talabalar guruhi, shuningdek, jamoa o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni qaror toptirish, g‘oyaviy va ruhiy birlikka erishish, yagona maqsad sari intilish, har bir ta’lim oluvchining ichki imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, shaxs sifatida namoyon bo‘lishi uchun zarur shart-sharoit hamda muhitni yaratishda katta

imkoniyatlarga ega. Interfaol ta'limning muhim tarkibiy elementi bo'lgan interfaol metodlar ta'lim maqsadlarini amalga oshirishda samaradorlikka erishishni ta'minlaydi.

**Interfaol ta'lim** – ta'lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko'nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etishga asoslanuvchi ta'limdir. **Interfaollik** esa ta'lim jarayonida ishtirokchilar(xoh o'quvchi, xoh talaba)ning bilim, ko'nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga egaliklaridir. Mantiqiy nuqtayi nazardan interfaollik ijtimoiy subyektlarning suhbat, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyat olib borishlarini ifodalaydi. Shuni ta'kidlash joizki, interfaol metodlarni qo'llash orqali o'qituvchi o'quvchilarning aniq ta'limiy maqsadga erishish yo'lida o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatlarini tashkil etish, yo'naltirish, boshqarish, nazorat va tahlil qilish orqali xolis baholash imkoniyatini qo'lga kiritadi. Texnika oliy o'quv yurtlarida rusiyazabon guruh talabalariga o'zbek tilini o'qitish jarayonida ham ta'lim texnologiyalarini qo'llash orqali ma'lum ma'noda o'qituvchi o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishadi.

Biz bilamizki, amaliy mashg'ulotlar jarayoni leksik va grammatik mavulardan iboratdir. Masalan: Leksik mavzu “Abdulla Qodiriy- o'zbek romanchiligining asoschisi”; Grammatik mavzu: “Badiiy tasvir vositalari”.

Ayniqsa, til ta'limida interfaol ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, amalda qo'llash masalasi birmuncha rivojlangan. Bugungi kunda respublika ta'lim muassasalarida interfaol ta'limning quyidagi eng ommaviy texnologiyalari qo'llanmoqda:

1. Interfaol metodlar: Keys-stadi”, “Blits-so'rov”, “Modellashtirish”, “Ijodiy ish”, “Munosabat”, “Reja”, “Suhbat” va boshalar.
2. Strategiyalar: “Aqliy hujum”, “Bumerang”, “Galereya”, “Zig-zag”, “T-jadval” va h.k.
3. Grafik organayzerlar: “BBB”, “Konseptual jadval”, “Venn diagrammasi”, “Insert”, “Klaster”, “Nima uchun?”, “Qanday?” va boshqalar.

Quyida biz Leksik mavzu “Abdulla Qodiriy- o'zbek romanchiligining asoschisi”; Grammatik mavzu: “Badiiy tasvir vositalari” mashg'ulotini misol sifatida ba'zilarini ko'rib chiqamiz.

O'qituvchi Abdulla Qodiriy romanlari va ularning yozilish tarixi hamda unda ilgari surilgan qarashlar haqida ma'lumot beradi. “O'tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” romanlarida ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy, oilaviy-ishqiy muammolar qalamga olingan. Biroq ular orasida yurtning taqdiri, mustaqilligi masalasi alohida ajralib turadi. Asarning bosh qahramonlari Otabek va Yusufbek hojilar shu yurt istiqloli, farovonligi, osoyishtaligi yo'lida hayotini, jonini tikkan fidoyi kishilar qiyofasida tasvirlanadi. “O'tkan kunlar” bamisoli ulkan va tiniq ko'zgu, unda o'zbek millatining muayyan tarixiy sharoit, vaziyatdagi turmushi, urf-odatlar, ruhiy-ma'naviy dunyosi, oilaparvarligi keng ko'lamda aniq-ravshan namoyon bo'ladi. “Mehrobdan chayon” romanidagi Anvar

va Ra'no obrazlarida ham o'sha davr ruhini ko'ramiz. Venn diagrammasi orqali asar qahramonlarini qiyoslash ham samarali natija beradi.

#### «Insert» texnikasi

Mazkur metod talabalarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarning o'zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo'llaniladi, shuningdek, bu metod talabalar uchun xotira mashqi vazifasini ham o'taydi.

Ushbu metod quyidagicha amalga oshiriladi:

O'qituvchi yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matnni talabalarga tarqatadi; Talabalarga individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o'z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi: Masalan: 1-matn –Abdulla Qodiriy -o'zbek romanchiligining asoschisi; 2-matn-Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar” romani; 3-matn-Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon”romani.

Belgilar	1-matn	2-matn	3-matn
“V” – tanish ma'lumot.			
“?” – mazkur ma'lumotni tushunmadim, izoh kerak.			
“Q” bu ma'lumot men uchun yangilik.			
“– ” bu fikr yoki mazkur ma'lumotga qarshiman?			

Belgilangan vaqt yakunlangach, talabalar uchun notanish va tushunarsiz bo'lgan ma'lumotlar o'qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to'liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg'ulot yakunlanadi.

#### Konseptual jadval.

Talabalarining mustaqil fikrlashini rivojlantiruvchi grafik organayzerlardan biri, bu - konseptual jadvaldir. Jadval quyidagicha tuziladi: vertikal bo'yicha taqqoslanadigan narsalar, gorizontaal bo'yicha esa, ushbu taqqoslash bajariladigan xususiyat va xossalarni joylashtiriladi.

#### Nutq uslublari xususiyatlari

T/r	A	B	C	D	E
1	+	+	+	+	-
2	-	+	+	-	+
3	+	+	+	+	+
4	-	+	+	+	+
5	+	+	+	+	+

1. Babiiy uslub

2. Ilmiy uslub

3. Publitsistik uslub

4. Rasmiy uslub

5. So'zlashuv uslubi

A. Badiiy tasvir vositalari

B. Adabiy til me'yori

C. Terminlarning ishlatilishi

D. Og'zaki va yozma shakl

E. Axborot berish

Ushbu texnologiya orqali nutq uslublari, ayniqsa, yuqoridagi mavzuga tegishli bo'lgan badiiy tasvir vositalari haqida ma'lumot beriladi, shuningdek Abdulla Qodiriy asarlaridan berilgan matn badiiy tahlil qilinadi.

Biz yuqorida o'zbek tili mashg'uloti jarayonida ta'lim texnologiyalarin qo'llash orqali Abdulla Qodiriy ijodini yoritish masalasini ko'rib chiqdik. To'g'ri, bir juftlik mashg'ulot jarayonida bu ijodkor ijodi haqida ma'lumot berish va bahsmunozara olib borish imkoniyatlari chegaralangan, lekin shunga qaramay, ma'lum ma'noda samaraga erishish mumkin. Hozirgi kunda ta'lim sifatining samaradorligini oshirishga qo'yilayotgan talablar ham o'qituvchilardan ta'lim texnologiyalarini o'qitish jarayonida maqsadli, samarali qo'llashni talab etmoqda. Mazkur ta'lim texnologiyalari talabalarning bilimlarini boyitish bilan birga, amaliy ko'nikma, malakalarini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq. T., 2016. 14- b.
2. Xasanbоев Ж., Тўрақулов Х., Хайдаров М., Хасанбоева О., Усманов Н. Педагогика фанидан изоҳли луғат. –Тошкент: Фан ва технология. 2009. – 154-б.
3. Сайидахмедов Н. Ноанъанавий дарс. Янги педагогик технологиялар. – Тошкент: Молия, 2003. – 56-б.

### ESKIRGAN VA YANGI SO'ZLAR YUZASIDAN LINGVISTIK MASHQLAR TUZISH

*Abduvaliyeva Dilnoza Akramovna,  
JDPI dotsenti v/b. f.f.f.d. (PhD)  
Usmonqulova Iroda Ibrohim qizi,  
JDPI magistranti*

Tilning tarixiy taraqqiyoti davomida uning barcha bo'limlarida, jumladan, leksikasida ham o'zgarishlar yuz beradi. Bunda tildagi ba'zi so'zlar eskirib iste'moldan-ishlatilishdan chiqib ketadi yoki yangi tushunchalarni nomlovchi so'zlar paydo bo'ladi. Bu hodisalar tilning leksik tarkibini 3 qatlamga ajratishni taqazo etadi:

1. Zamonaviy qatlam (neytral qatlam).
2. Eskirgan qatlam.
3. Yangi qatlam.

Zamonaviy qatlam. Bu qatlam o'zbek tili leksikasining asosiy qatlami bo'lib, uni umumxalq leksikasiga – ishlatilish doirasi chegaralanmagan leksikaga oid so'zlar, shuningdek, atamalar, kasb-hunarga doir so'zlar tashkil etadi. Bu



qatlamdagi soʻzlar yangilik boʻyogʻiga ham, eskilik boʻyogʻiga ham ega boʻlmaydi.

Soʻz ifodalaydigan predmet yoki tushuncha hayotda yoʻqolishi, yoki ularning maʼnosini ifodalaydigan boshqa soʻzlarning paydo boʻlishi munosabati bilan ayrim soʻzlar asta-sekin qoʻllanilmay unutila boradi. Ular nutqda kam qoʻllaniladi. Ularning baʼzilarini tushunish mumkin, ayrimlarini koʻpchilik tushunmaydi, ular badiiy va ilmiy adabiyotlarda qoʻllansa, izoh talab etadi. Eskilik boʻyogʻiga ega boʻlgan soʻzlar eskirgan leksika deyiladi. Eskirgan leksika 2 turga ajratiladi:

1. Tarixiy soʻzlar yoki istorizmlar.
2. Arxaik soʻzlar yoki arxaizmlar.

**Leksik istorizmlar** oʻtmish voqeligi boʻlgan narsa-hodisalarning nomlaridir. Masalan: *botmon* — «Oʻzbekistonning turli yerlarida turli salmoqqa ega boʻlgan (ikki puddan oʻn bir pudgacha) ogʻirlik oʻlchovi»; *chaqirim* — «1,06 kilometrga teng uzunlik oʻlchovi» va b.lar. [ H.Jamolxonov “Hozirgi oʻzbek adabiy tili” Toshkent — «Talqin» — 2005 205-208-bet.]








**Leksik arxaizmlar** — hozirgi paytda mavjud boʻlgan voqelikning eskirgan nomi yoki, aksincha, hozirgi tilda mavjud boʻlgan leksemaning eskirgan maʼnosi (sememasi). [ H.Jamolxonov “Hozirgi oʻzbek adabiy tili” Toshkent — «Talqin» — 2005 205-208-bet.]

Arxaiklashish hodisasi tilning grammatik birliklarida, xususan, affiksial morfemalarda va shu morfemalar ishtirokida shakllangan grammatik formalarda ham uchraydi. Masalan: feʼning sifatdash shakllari qadimgi turkiy tilda «-mish» va «-mbish» (*Taqridd bolmush turk Bilgd qagʻan.* — «Tangridan boʻlgan turk Bilga xoqon»), «-duq» va «-dük», «-tuq» va «-tük» (*barduqyerde* — «borgan yerda», *boltuqda* — «boʻlganda») morfemalari vositasida yasalgan, hozir esa bu funksiyada, asosan, «-gan» affiksi qoʻllanadi: (*boʻlgan, borgan* kabi), «-duq» va «-dük», «-tuq» va «-tük» morfemalari esa *grammatik (affiksial) arxaizmga* aylangan.[ Toʻychiboyev B. Oʻzbek tilining taraqqiyot bosqichlari. — T.: «Oʻqituvchi», 19%, 126-b]

**Neologizmlar.** Kundalik hayotimizdagi yangi narsalarni, ularning belgilarini, yangicha munosabatlarni, umuman yangi tushunchalarni ifoda etish ehtiyoji bilan yuzaga kelgan soʻzlar yoki yangi maʼnoda qoʻllangan eski soʻzlar neologizmlar deyiladi. Eskirgan soʻzlar yuzasidan oʻquvchilarning ongida tasavvur uygʻotish uchun oʻsha davrda yaratilgan adabiyot namunalariidan foydalansak, ayni muddoa boʻladi. Demak, eskirgan va yangi paydo boʻlgan soʻzlarni oʻrganishda xalq ogʻzaki ijodi namunasidan foydalansak koʻzlangan maqsadga erishamiz. “Goʻroʻgʻli” dostonlari turkumiga kiruvchi “Goʻroʻgʻlining tugʻilishi” dostoni lingvistik mashqlar tuzish uchun asosiy manba sifatida olindi.

### ! TOPSHIRIQ

“Goʻroʻgʻlining tugʻilishi” dostonidan olingan jumlar tarkibidagi rasmlarda tasvirlangan tushunchalarning eskirgan variantini rasmlar oʻrniga almashtirib yozing va matnni koʻchiring!


1. Shunda Hiloloy  ezilib, ko'ngli buzilib, o'zining holiga o'lim tilab, kushandayu margini tiladi. 2. Kasalni burnidan  3. Sherning  sini Go'ro'g'li ushlab olib otdi. 4. Kallalari to'baday,  ilari to'laday, jovrinlari qirday. 5. Boshda kuloh, belda kamar, Aziz jonga tiydi , Ravshan ko'rdan bormi xabar, Bo'ldim cho'llarda qalandar, Qalandar bo'lganim bo'lgan. 6. Shunday qarasa, ko'chalar ketgan rasta-rasta, bir-biriga payvasta, biri baland, biri past, ko'rgan odamlar havasda, odamzod qurt-  day bo'lib har qaysisi o'z ishida yuribdi. Podsho  iga chiqib qarasa, Sug'ankal haliyam qo'rg'onning qal'asini o'rab turibdi. [”Go'ro'g'lining tug'ilishi” xalq dostoni Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi TOSHKENT-2017 7-49-bet.]

### ***Foydalaniladigan so'zlar ( poycha, ark, bovir, murni, qumursqa, iskatdi, tabar)***

Yuqorida keltirilgan lingvistik mashq o'rta ta'lim maktablarida eskirgan so'zlar yuzasidan yangi bilimlarni berish bosqichida samarali natija beradi. Mantiqiy va izchil fikrlash bugungi kun o'quvchilariga qo'yilgan talab hisoblanadi. O'quvchilarning bunday saviyasini o'stirishning asosiy omillaridan biri ularga mashq ishlash jarayonida rasmi boshqotirmalar, rasmlarga qarab hikoya tuzish samarali natija beradi desak mubolag'a bo'lmaydi. O'quvchilarga eskirgan so'zlarning hozirgi kundagi ma'nosini ko'z oldiga tasavvur ettirish uchun rasmlar yaqindan yordam beradi. Rasmdagi tushunchalarning eski shakllarini izlab, o'ylab topishlari bu so'zlarning xotirasida mustahkamlanib qolishiga zamin yaratadi.

### **! TOPSHIRIQ**

Bu mashqda “Tarnov” metodidan foydalanilgan bo'lib, darsning mustahkamlash bosqichida qo'llanilsa yuqori samara beradi. Bu metodning ma'no-mazmuni shundan iboratki, osmondan yog'ayotgan yomg'irlar umumiy eskirgan so'zlar hisoblanadi. O'quvchilarga eskirgan so'zlar ikkiga ya'ni tarixiy va arxaik so'zlarga bo'linishi aytilgandan so'ng, so'zlar ikki tarnovga bo'linadi 1-tarnovga tarixiy so'zlar oqsa, 2-tarnovga tarixiy so'zlar oqadi, va tarnov tagidagi chelakka shu so'zlarni joylashtiramiz. Bu metodning maqsadi, darsga qiziqishi sust o'quvchilarga dars mavzusini tabiat hodisalariga bog'lab tushuntirishdan iborat.



Oʻquvchilar topqirlikni, tezkorlikni, raqamlar bilan ishlashni yoqtirishadi. Ular boshqotirmaga oʻxshagan oʻyin-mashqlarini sevib bajarishadi va oʻzlari anglamagan holda mavzuni mustahkamlab borishadi. Bu xildagi oʻyin-mashqlar oʻquvchilar psixologiyasiga mutanosib tushib, oʻqituvchiga dars oʻtish mashaqqatini anchagina yengillashtiradi. Navbatdagi lingvistik mashq shunday mashqlar sirasiga kiradi. Tilimizda soʻzlar eskirishi bilan bir qatorda boshqa tillardan ham turli soʻzlar kirib keladi va bu soʻzlar vaqt oʻtishi bilan oʻz qatlamga aylanib boradi. Yani yangilik boʻyogʻi yoʻqolib neytral soʻzga aylanadi. Quyida shunday soʻzlar ishtirokidagi mashqni eʼtiboringizga havola etamiz. Quyidagi mashqni bajarish uchun dastlab rasmlarga eʼtibor berish zarur. Rasmlarda tasvirlangan tushunchalarning eskirgan variantlari aralash holda berilgan. Shu soʻzlarning yoniga rasmlarning tartib harflarini yozib qoʻyilsa, mashq toʻgʻri

bajarilgan bo'ldi. Bu mashq orqali o'quvchilar dars mashg'ulotiga kreativ yondashadilar.



1. Asp-h 2. Marol-? 3. Tuv-? 4. Murut-? 5. Tovushqon-?  
6. Qarsoq-? 7. So'ta-? 8. Ilik-? 9. Zamcha-? 10. Xoli(G'oli)-? 11. Yumron-?

### ! TOPSHIRIQ

Quyidagi "O'zbek xalq latifalari" dan olingan latifalar tarkibidagi yangi paydo bo'lgan so'zlarni aniqlang, uning qaysi tildan kirib kelganligi, qanday ma'no kasb etishi, va o'zbek tili va boshqa tillardagi sinonim variantini jadval asosida to'ldiring!

Azizjon minimarketda savdo qilib o'tirsa, bittasi yugurib kelib:

— Novot bormi? - deb so'rabdi.

Azizjon:

— Ha, bor - desa, boyagi odam:

— Shirinmi? - deb so'rarmush

\*\*\*\*\*

Sinoptikning o'g'ilchasi otasidan so'radi:

— Dada, ob-havo ma'lumotlaringiz har safar to'g'ri chiqadimi?

— Albatta, faqat oy va kunlar to'g'ri kelmay qolishini aytmasa.

\*\*\*\*\*

Ofisga qo'ng'iroq qilishdi.

— Yaxshi qiz, faksni qabul qilib oling!

— To'xtang, oldin ruchkamni topib olay!

\*\*\*\*\*

Eshitdingmi yangilikni?

— Qanaqa yangilik?

— Dunyo olimlari sabzavotlar ham bir-biri bilan muloqot qilishini aniqlashibdi.

Ammo bu muloqot «Odnoklassniki» saytida sodir bo'larkan.

[[https://Kuling umringiz uzoq bo'ldi: eng sara latifalar to'plami \(odam.uz\)](https://Kuling_umringiz_uzoq_bo_ladi_eng_sara_latifalar_to_plami_odam.uz)]

No	Neologizmlar	Qaysi tildan olingan	Ma'nosi	O'zbekcha sinonimi	Ruscha/inglizcha sinonimi

1	Minimarket	<a href="#">lot.</a> mini — „kichik“ va <a href="#">ingl.</a> Market — „bozor“	Kichik do‘kon bo‘lib, unda oziq – ovqat mahsulotlari, yengil taom, qandolat, shaxsiy gigiyena mahsulotlari, ichimliklar, tamaki kabi kundalik mollar sotiladi.	Kichik do‘kon	Magazin(ruscha)
2	...	...	...	...	...
3	...	...	...	...	...
4	...	...	...	...	...

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Nurmonov A, Sobirov A, Yusupova SH “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” TOSHKENT –“ILM ZIYO”-2015 205-bet
2. ”Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” xalq dostoni Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi TOSHKENT-2017 7-49-bet.
3. H.Jamolxonov “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” Toshkent — «Talqin» — 2005 205-208-bet.
4. Hamroev M, Muhamedova D, Shodmonqulova D, G‘ulomova X
5. [https://Kuling umringiz uzoq bo‘ladi: eng sara latifalar to‘plami \(odam.uz\)](https://Kuling.umringiz.uzoq.bo'ladi:eng.sara.latifalar.to'plami.odam.uz)
6. To‘ychiboyev B. O‘zbek tilining taraqqiyot bosqichlari. — T.: «O‘qituvchi», 19%, 126-bet.
7. Yo‘ldosheva SH [Ona tili\(darslik\).doc](#) ©uz.denemetr.com 2000-2015

### BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA NUTQ MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

*Ollaberganova Sanobar Xamidovna,  
UrDU dotsenti, f.f.n.  
Qurammuradova Ozoda Boboxonovna,  
UrDU magistranti*

Bugungi kunda boshlang‘ich ta‘lim bosqichlaridan boshlab bilimlarni chuqur va mustahkam egallash, universal o‘quv harakatlarini o‘zlashtirish, mustaqil fikrlashni shakllantirishning birlamchi omili sifatida o‘quvchilarda bilish faolligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta‘lim jarayonini tashkil etishga alohida e‘tibor berilmoqda.

Ta‘lim-tarbiya tizimi jamiyatimizda kechayotgan islohotlar, yangilanish jarayonlari bilan uyg‘un holda rivojlanib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi



Prezidenti Sh. Mirziyoyev tashabbusi bilan ta'lim sohasida tub islohotlarni amalga oshirishga e'tibor qaratilib kelinmoqda. Bu boradagi vazifalar prezidentimizning Oliy Majlisga Murojaatnomasida ham qayd etib o'tilgan. Xususan, unda O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirish maqsad qilib qo'yilgan ekan, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya bilan erisha olishimiz ta'kidlandi. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda: "... Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Shuning uchun ham bog'chadan boshlab oliy o'quv yurtigacha – ta'limning barcha bo'g'inlarini isloh qilishni boshladik". [1.7]

Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyat kerak. Ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to'g'ri yo'ldan adashish bo'lishi aniq. Bu o'rinda Sh.M.Mirziyoyev sharq donishmandlarining "Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir", degan fikrlarini keltirib, shu sababli barcha uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerakligini aytib o'tdi.

Ta'limning asosiy bo'g'ini hisoblangan boshlang'ich sinf o'quvchilarini sog'lom avlod qilib voyaga yetkazishda dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar muhim vosita sanaladi. Dars ta'limning asosiy shakli ekan, o'qituvchi shu jarayonda o'z shogirdlarining ongli va faol bo'lishi, jamiyatning vatanparvar, adolatparvar, mehnatsevar va fidoiyi kishilar bo'lib ulg'ayishlari uchun mustahkam zamin tayyorlab borishi lozim. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi Qonuni amaliyotga keng joriy qilinmoqda. Mustaqillik sharofati bilan mamlakatimiz xalq ta'limi tizimida ham chuqur islohotlar o'tkazishga keng imkoniyat berildi. Shunday islohotlardan biri o'quvchilarning nutq madaniyatini takomillashtirishga qaratilganidir. Bola nutqining to'g'ri shakllanishi asosan boshlang'ich maktabda izga solinadi va u o'rta maktabga o'tganida to'laligicha takomillashadi.

Nutq kishi faoliyatining turi, til vositalari asosida tafakkurini ishga solish hisoblanadi. Nutq o'zaro aloqa va xabar vazifasini, o'z fikrini his- hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta'sir etish vazifasini bajaradi. [5.300] Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishining faoliyatining muhim vositalaridan biri hisoblanadi, o'quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olish qurolidir. Bolani kichik yoshdanoq ravon tilda gapirishiga ahamiyat berish lozim. O'quvchilar nutqini o'stirish uchun o'qituvchilar o'quvchilartilining talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilish va bog'lanishli nutqini faol egallashlarida yordam beradigan metod va usullardan foydalanish kerak bo'ladi. Ona tili ta'limining maqsadi o'quvchilarda tafakkur qilish tilning ifoda vositalarini maqsadga muvofiq tarzda, ayni shu tilning me'yorlariga rioya qilgan holda qo'llashga o'rgatishdan iborat. Bolani kichik yoshdanoq ravon tilda gapirishga, o'z nutqida go'zal so'zlardan foydalanib, fikrni erkin bayon qilishga o'rgatib borish muhim. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar barcha darslar davomida nazariy va amaliy bilimlarni olish bilan birga jummalarni

to'g'ri tuzish, o'zaro muomala qoidalari, fikrni bayon etish, qayta ijodiy hikoyalash, she'r yodlash orqali og'zaki nutq ko'nikmalari ham rivojlantirib boriladi. Nutqni tafakkurdan ajratib bo'lmaydi, nutq tafakkur asosida rivojlanadi. Ona tili darslari bolalar lug'atini boyitishga samarali yordam beradi, nutqni to'g'ri tuzishga o'rgatadi.

O'qish darsi va u bilan bog'liq holda olib boriladigan ekskursiya o'quvchilarga tabiat hodisalari, kishilar hayoti va mehnati haqida bilim beradi. Bu darsda o'quvchi nutqiga, uni shakllantirish va o'stirishga keng imkoniyat yaratadi. Boshlang'ich sinfdagi boshqa darslarda ham o'quvchilar nutqi xilma-xil so'zlar bilan boyitiladi. Matematika darslarida bolalar yangi tasavvur va tushunchalar, juda ko'p so'z va terminlar bilan o'z nutqlarini boyitadilar, mantiqiy fikrlaydilar. O'quvchilar tabiatshunoslik darslarida va ekskursiya vaqtida ko'rgan predmetlarini o'qituvchi yordamida guruhlaydilar, taqqoslab o'xshash va farqli tomonlarini topib aytadilar. Bular, o'z navbatida tabiatga oid ayrim tushunchalarni aniq bilib olishga imkon beradi, tafakkurni, nutqni o'stiradi. Mehnat, tasviriy san'at, jismoniy tarbiya, musiqa darslarida ham darslardan tashqari mashg'ulotlar o'quvchi nutqi va tafakkurini o'stirishga imkon beradi. Avvalo, o'qituvchining o'zi adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda ifodali ta'sirli so'zlashi zarur. O'qituvchining o'zi bola uchun namuna bo'lishi lozim. Chunki, bolalarda taqlid xususiyati o'ta kuchli bo'ladi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirishi rejali tashkil etilsa, bu sohadagi tadbirlar muntazam ravishda amalga oshirib borilsagina, u o'quvchining butun vujudiga, uning hissiyotiga, tasavvuriga, iroda va xarakteriga, nihoyat fikrlash faoliyati va qobiliyatiga ta'sir etib nutqning ravon ifodali bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu yo'l bilan nutq malakalarini rivojlantirish orqali, ularda to'g'ri so'zlash va aniq, mantiqiy fikr ifodalash salohiyati shakllanib boradi. Ularning ijodiy faoliyati va iste'dodlarini rivojlantirish orqali ro'yobga chiqaradi. O'qituvchi o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirish uchun barcha mashg'ulotlarda ularning lug'at boyliklarini aniq maqsadga yo'naltirilgan reja asosida so'zlarni nutqda faol qo'llashga o'rgatish orqali mustahkamlab borishi zarur. O'quvchilar yetarli so'z boyligiga ega bo'lmasdan turib aniq va ravon fikr yurita olmaydilar. O'rgatilgan har bir yangi so'z o'quvchilarning so'z zahirasini oshiradi, fikr ifodalash imkoniyatlarini kengaytiradi. Shuning uchun ham o'quvchilar bilan so'z va uning ma'nolarini egallash ustida uzluksiz ish olib borish lozim. Bunda sinonim so'zlarni doimiy ravishda tadrijiy tarzda o'quvchining nutqiga singdirish alohida ahamiyatga ega hisoblanadi.

O'quvchilarni og'zaki bayonga tayyorlash yuzasidan umumiy nutqqa xos bir qator maxsus ishlar olib borilgandan so'ng uyushtirilgan amaliy mashg'ulotlar o'quvchi og'zaki nutqining alohida takomillashishiga yordam berishi kerak.

O'qituvchining vazifasi nutq o'stirishishlarini o'quv choraklariga rejalashtirishda bayon va insho sonini aniqlab olish bilan birga, og'zaki va yozma ishlarning xarakterini hamda to'g'ri yozuv mashg'ulotlari tizimidagi o'rnini ham belgilab olishdan iborat. Bunda yozma nutq sohasidagi ko'nikmalarni og'zaki nutqni o'stirish asosida hosil qilish nazarda tutiladi. Bolalar og'zaki mashqlarni

bajarayotganida o'qituvchi bayon(insho)ning mazmuni, ko'rinishi yuzasidan ko'rsatmalar beradi, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf qilishga yordam beradi. Zamonaviy maktabda o'qituvchining jonli nutqiga texnik vositalar yordamga keladi. Ular nutq ifodaliligini oshiradi, hissiy ta'sirini kuchaytirishga xizmat qiladi. O'qituvchi nutqi bu holda go'yo birlashtiruvchi bo'lib qoladi:u kino, musiqa, foto ishlanma bilan birga idrok etiladi. O'qituvchi so'zi alohida tasviriy-ifodaviy sifatlarni ham aks ettiradi. Zero, og'zaki nutq uni idrok etish jarayonida zudlik bilan tushunishni talab qilar ekan, o'ziga xos leksik-grammatik xususiyat ham kasb etadi. Og'zaki nutq-yorqin, shaklan obrazli, ichki emotsional nutq. Shu bois u til vositalari va uslubiy xususiyatlar xilma-xilligi bilan farq qiladi. Og'zaki nutqning to'lqinlanganligi, emotsionalligining yuqoriligi ekspressiv (hissiy bo'yoqdor) leksikani saralash zaruratini kuchaytiradi. Og'zaki nutq jumla va gaplarning ixcham bo'lishi hamda ohangdorligini talab etadi. Mantiqiy va psixologik to'xtamlarni to'g'ri joylashtirish, fikrni rivojlantirishda dialogik qismlarni belgilash, nutqning ifodaliligini o'ylash taqozo qilinadi. Tabiiyki, so'z talaffuzi, diksiya muammosi metodikada alohida dolzarblik kasb etadi. Yaxshi diksiya (aniq talaffuz) og'zaki nutqning fonetik va musiqiy jaranglashida juda muhim sanaladi. Sinf bilan doimiy muloqot og'zaki nutq sintaksisda o'ziga xos aks etadi: so'zlovchi ko'proq sodda gap turlarini qo'llaydi, o'z nutqida so'roq va undov gaplarga keng murojaat qiladi, oldingi gapning davomi bo'lgan gaplarni qo'llaydi. Og'zaki nutqda takror, gradatsiya (izchillik), turli ma'no ko'chishlar, kinoya nutqiy vositalar keng qo'llaniladi.

Og'zaki nutqning yuqoridagi farqlovchi belgilari qaysidir ma'noda nisbiy hisoblanadi. Zero, ularning ayrimlari (to'xtam, intonatsiya(ohang), mantiqiy urg'u) yozma nutq uchun ham u yoki bu darajada xos. Og'zaki nutqda ular ta'sirli, faol namoyon bo'ladi. Buni og'zaki nutqni rivojlantirishlarida ishlarida hisobga olish juda muhim. Yozma nutq manbai o'quvchining sinf oldidagi jamoaviy tinglovchiga mo'ljallangan og'zaki javoblaridir. Biroq boshlang'ich sinflarda shevaning keng qo'llanilishi natijasida talab darajasidagi ixtisoslashgan o'quv og'zaki nutq madaniyatiga erishish ancha mushkul. Yozma nutq og'zaki nutqdan bir qadar shakllanganligi, so'zlarning o'ta sinchkovlik bilan tanlab olinishi, grammatik jihatdan aniq, lekin murakkab shakllanganligi, og'zaki nutq uchun xos bo'lgan ohang, mimika va qo'l harakatlarining bevosita qo'llana olmasligi bilan ham farqlanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, maktabda o'qitishning dastlabki yillarida o'quvchilarning og'zaki nutqi ularning yozma nutqiga nisbatan to'laroq shakllangan bo'lib, o'qitish jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi. O'qish va yozish o'quvchilar uchun o'rganishning maxsus shakli bo'lib qoladi. Keyinchalik esa ular o'quvchilar uchun bilimlarni o'zlashtirishda bir xil ahamiyat kasb etadi. Savod o'rgatish jarayonida har tomonlama barkamol,erkin fikrlaydigan shaxslarni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan mavjud sharoitda o'quvchilar nutqini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Nutqni rivojlantirish shaxsni shakllantirishning zaruriy shartiga aylanishi lozim.

Shunday ekan, boshlang'ich ta'limda nutq malakalarini shakllantirish muammosi doimo diqqat markazida bo'lishi kerak. Didaktik o'yinlarni tashkil

qilish orqali o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirishga e'tabor beriladi. Eng avvalo shuni ta'kidlab o'tish kerakki, o'quvchilarning nutqini o'stirishda didaktik o'yinlarning tashkil etiladi. Chunki o'yinli dars o'quvchilar uchun qiziqarli va sevimli bo'ladi. Shu o'yinlar tufayli o'quvchi eng avvalo maktabga, darsga qatnashga qiziquvchan bo'ladi. Bundan tashqari, har bir darsda javob berishga harakat qiladigan, puxta fikrlab so'ngra so'zlaydigan, o'qituvchi tomonidan yetkaziladigan har bir fikrga o'ta e'tiborli va o'zgaruvchan bo'lib boradi. Har tomonlama barkamol, erkin fikrlaydigan shaxslarni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan mavjud sharoitda o'quvchilar nutqini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Nutqni rivojlantirish shaxsni shakllantirishning zaruriy shartiga aylanadi. Shunday ekan, boshlang'ich ta'limda nutq malakalarini shakllantirish muammosi doimo diqqat markazda bo'lishi zarur.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020- yil 24- yanvar.
2. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa konsernining Bosh tahririyati, 1998.- 32-63-betlar.
3. Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi // Boshlang'ich ta'lim, 1998, 6-son, 12-18-betlar.
4. Umumiy o'rta ta'limning Davlat Ta'lim Standarti va o'quv dasturi (Boshlang'ich ta'lim).- Toshkent, 2017.
5. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent, "Nosir", 2009.

### XALQ OG'ZAKI IJODI ORQALI O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH (ERTAK O'QISH DARSLARI MISOLIDA)

*Jumaniyozova Muhabbat Xo'sinovna,  
UrDU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi  
M.Olimboyeva, UrDU talabasi*

Bugungi kunda ta'lim tizimini isloh qilish, unga rivojlangan mamlakatlarning ilg'or texnologiyalarini joriy etish, milliy qadriyatlarimizni singdirgan holda bu texnologiyalar asosida o'quv mashg'ulotlarini zamonaviy tashkil etish va o'tkazish ishlari muhim hisoblanadi.

Boshlang'ich ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining asosiy poydevori hisoblanadi. Bu bosqichda o'qitiladigan fanlar orqali o'quvchilarning dastlabki bilim, ko'nikmalari, shuningdek ta'limning keyingi bosqichlarini samarali o'zlashtirishga nisbatan motiv shakllantiriladi. [4] Har bir inson umri davomida xalq og'zaki ijodidan bahramand bo'lib ulg'ayadi. Odam dunyoga kelgach, turli darajadagi ertak, rivoyat, afsonalarni eshitadi va aynan o'shalar orqali dunyoni o'rganadi.



Ularda xalq badiiy tafakkurining eng sara mevasi yashiringan. Buni anglash va ularni qayta kashf etish kishiga hayotni tushunish, odam va olam munosabatlarini o'rganishga yordam beradi. [2.9] Xalq og'zaki ijodini o'rganish – xalq tarixi, urf-odati, an'analari, o'y-kechinmalari, buguni va kelajagini tadqiq etish demakdir. Unda millatning o'zini anglashi, o'zligini namoyon qilish xislatlari, intilishlari, hayot tarzi, dunyoqarashi aks etgan. [1.15] Shunday ekan, boshlang'ich ta'lim davridayoq, yosh avlodni xalq og'zaki ijodi asarlari bilan tanishtirish, shu jarayonda adabiyotning badiiy-estetik ta'siri asosida ularda o'zlikni anglash, go'zallikni his qilish, yuksak did va ma'naviyatni shakllantirish katta axloqiy-tarbiyaviy vazifani ado etadi. Shuningdek, xalq og'zaki ijodi nutq o'stirish vositasi ham hisoblanadi. Zero, ertaklarni qayta hikoya qilish, lug'at ustida ishlash, savol-javob kabi ish usullari o'quvchilar nutqini o'stirishda katta o'rin tutadi.

Xalq og'zaki ijodining eng keng tarqalgan janri ertak hisoblanadi. O'quvchilar ertaklarni juda sevib o'qiydilar va aytadilar. Ertaklar kishilarning ichki dunyosini, ulaming his-tuyg'ularini, xarakterlarini ochib berishi bilan bolalarni hayajonlanishga, qahramonlarning xatti-harakatlarini baholashga va uni muhokama qilishga orgatadi. Ertaklarning eng yaxshi namunalari bolalarda axloqiy sifatlarni tarkib toptirishga: yaxshi-yomon, haq-nohaq, rost-yolg'on va h.k. so'zlarning ma'nosini tushunib olishlariga yordam beradi. Ertakda qabul qilingan hikoya qilish shakli bir xil so'z va iboralarning qayta-qayta takrorlanib turishi, ohangdorligi, tilining ta'sirchanligi, ifoda vositalarining jonliligi bolalar uchun juda qiziqarlidir.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar “Botir mergan va chaqimchi”, “Halollik”, “Donishmand yigit”, “Ahillik-ulug' baxt”, “Davlat”, “Ilm afzal”, “Ko'zacha bilan tulki”, “Ochko'zboy”, “Hiylagarning jazosi”, “Hunarsiz o'linga yaqin”, “Ziyrak uch yigit” ertaklari kabi ko'plab ertaklar bilan tanishadilar. Boshlang'ich sinf ertak o'qish darsi jarayonida motivlarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatlarini tashkil etishda ham motivlarga ko'proq e'tibor berishi o'quvchilarning bilim egallash jarayonining samaradorligini ta'minlaydi.

Ta'limda faqat qiziqishga tayanib qolish ham motivatsiyaning asosli samarasi bo'la olmaydi. Bunda eng muhim samarali usul motivatsion — muammoli vaziyatlarni qo'yish yoki o'rganilayotgan predmetning ijtimoiy mohiyatini aks ettiradigan maxsus bilishga oid vazifalarning qo'yilishidir.

Masalan, yangi dars boshlanishida yoki o'tgan darsni so'rash va mustahkamlash paytida didaktik o'yinlardan foydalanib, o'quvchilarning darsga qiziqishlari oshiriladi. Motiv hosil bo'lgach, dars davomida o'quvchilarning qiziqishlari saqlanib turgan holda o'rganilayotgan mavzuning ijtimoiy ahamiyatiga e'tibor qaratiladi. Birinchi sinfda dars jarayonida motivlarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatlarini tashkil etishda ham motivlarga ko'proq e'tibor berishi o'quvchilarning bilim egallash jarayonining samaradorligini ta'minlaydi.

Boshlang'ich sinf ertak o'qish darslarining tuzilishi ta'lim-tarbiyaviy maqsadi, dars tipi va o'rganiladigan materiallarning xususiyati ga ko'ra turli xildir. [3.74] Shuningdek, dars qurilishida ham qat'iy andoza bo'lmaydi, chunki yagona



andoza birinchidan, ijodkorlikka yo'l bermaydi, ikkinchidan, o'quvchilarning imkoniyatlarini cheklab qo'yadi.

Ertaklarni o'qitish o'qituvchilar oldiga quyidagicha talablarni qo'yadi:

- 1) ertak matnlari asosida o'quvchilarda yaxshi o'qish sifatlarini hosil qilish;
- 2) o'quvchilarning matn mazmunini to'la tushunishlariga erishish;
- 3) ertakdagi obrazlarni bir-biridan farqlay bilishga o'rgatish;
- 4) o'quvchilarni voqea-hodisalarni, hayotiy faktlarni, fantaziyani to'g'ri tushunishga o'rgatish;
- 5) o'quvchilarning estetik zavq olishlariga erishish;
- 6) ertaklardagi qiyin so'zlarning to'g'ri tushunilishini ta'minlash;
- 7) o'z axloqiy sifatlarini obrazlarning axloqiy sifatlari bilan qiyoslab ko'rish orqali ma'lum xulosa chiqarishlariga erishish;
- 8) o'quvchilarning ertaklarni to'liq holda ikkinchi shaxsga aytib berishlariga erishish.

Boshlang'ich sinfda ertaklarni o'qitish orqali nutq o'stirishda quyidagi ish usullaridan foydalanish mumkin:

1. O'quvchilarda ertaklarga qiziqish hissini uyg'otish maqsadida, ularning leksik va sintaktik xususiyatlarini saqlagan holda, og'zaki hikoya qilib beriladi va shunday hikoya qilib so'zlash talab etiladi. Chunki ertak mazmunining o'quvchilarga to'la yetib borishi uchun o'qituvchi yoki o'quvchi uni mustaqil badiiy hikoya qilib berishi kerak.

2. Ertak hikoya qilib berilgandan so'ng, mustaqil o'qitiladi, o'qish jarayonida ayrim (tushunilishi qiyin) so'zlarga izoh beriladi.

3. Ertakning g'oyasi savol-javob yo'li bilan ochiladi.

4. Ertak syujeti asosida rasmlar chiziladi va o'z so'zlari bilan tavsiflanadi.

5. Ertak qahramonlarining sifatlari hayotdagi ayrim kishilar xarakterlariga, sifatlariga solishtirib o'quvchilar xulosalarini mustaqil aytishlari o'quvchilardan talab etiladi.

6. Ertak mazmuni asosida o'quvchi aqliy faoliyatining rivojlantirilishiga doir mustaqil ish o'tkaziladi.

Boshlang'ich sinfda ertak matnlari o'qilganda, o'quvchilaridan quyidagilar talab qilinadi:

1. Ertakdagi har bir so'z va gapning ma'nosini bilish.

2. Har bir mantiqiy tugallanmagan qismning ma'nosini anglash va so'zlab berish.

3. Ertakdagi asosiy va ikkinchi darajali fikrni topa bilish, ularni bir-biriga taqqoslay olish.

Bayon etilgan talablar, shubhasiz, o'quvchilar nutqining yanada boyishiga ijobiy ta'sir etadi. Ertaklarni o'qish, uni o'rganish o'quvchilar nutqini o'stirish bilan bog'liq holda olib boriladi.

O'quvchilarning lug'at boyligini o'stirish ishi o'quvchiga notanish so'zlarni tushuntirish, xalq iboralari, maqollarni nutqda qo'llash, predmetlarni turkumlarga ajratish orqali amalga ashiriladi.

Gap tuzdirish mashqi savollarga javob olish, nutqda xalq iboralari, maqollarni ishlatish asosida o'qiladi. Matn tuzish esa, rasmga qarab hikoya yozdirish, o'zgalardan eshitgan ertakni qayta aytirishdan iborat bo'ladi.

Ko'rinadiki, ertak o'qish darslarida o'quvchilar nutqini o'stirishning imkoniyatlari keng. Shu bois ertak ustida ishlash o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatadi, badiiy tafakkurini o'stiradi, lug'at boyligini oshiradi, ifodali o'qish malakasini shakllantiradi. O'qilgan ertak matnlari asosida o'quvchilarning nutqi qanchalik yangi so'zlar bilan boyitilsa, u shunchalik jozibador va ma'noli bo'lib boraveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizova N. Ertaklar olamida// Boshlang'ich ta'lim, 2017, 4-son, 15-bet.
2. Madayev O., Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi. –Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2003.
3. Qosimova K., Matchonov S. , G'ulomova X., Yo'ldasheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. –Toshkent: "Nosir", 2009.
4. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi (Boshlang'ich ta'lim).- Toshkent, 2017.

## **BOSHLANG'ICH TA'LIM ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGINI DIDAKTIK MATERIALLAR ASOSIDA TASHKIL QILISH**

*Ollaberganova Sanobar Xamidovna,  
UrDU Boshlang'ich ta'lim metodikasi  
kafedrasini mudiri, f.f.n., dotsent  
Xudayarova Muhayyo Omonboy qizi,  
UrDU magistri*

O'zbekiston Respublikasida ta'limning uzluksizligi, uzviyligi, o'quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda ta'lim jarayonini tashkil etishda didaktik materiallarning ham alohida o'rni bor. Ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilar ongiga singdirilayotgan nazariy bilimlar amaliy faoliyat yordamida yanada mustahkamlanadi. Ta'lim tizimidagi rivojlanish jamiyat taraqqiyotining negizini tashkil etadi.

Taraqqiyotning yangi yo'lidan borayotgan mustaqil yurtimizda shaxsni intellektual, ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning muhim shartlaridan biri, ta'lim tizimini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi va kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etishdan iborat. Inson tevarak – atrofdagi voqealik, narsa va hodisalarning mohiyatini amaliy hayotda ularga to'qnash kelish yo'li bilan bilib oladi, ularni o'zlashtiradi. Inson amaliy faoliyat tufayligina ijtimoiy ishlab chiqarish faoliyati jarayonini tashkil etuvchi munosabatlar, shuningdek, tabiat hodisalari sirini o'zlashtirib oladi. Narsalar, buyumlar bilan amaliy muomalada bo'lish natijasida buyumlar sezgi organlariga ta'sir qiladi, sezgilar idrokni keltirib chiqaradi. Amaliyotda insonning faol fikrlash faoliyati yuzaga keladi. Fikrlash yordamida u real voqealikni chuqur tushunadi.

Ta'lim – tarbiya nazariyasi, ya'ni maqsadlari, mazmuni, qonuniyatlari, tamoyillarini ishlab chiqish bilan shug'ullanuvchi, pedagogikada ta'lim jarayonining umumiy qonuniyatlarini o'rganuvchi qismi didaktika hisoblanadi. **Didaktika** grekcha so'z bo'lib, **“didasko”** – o'qitish, **“didaskol”** – o'rgatuvchi degan so'zlardan kelib chiqqan. “Didaktika”ning so'zma – so'z tarjimasi ta'lim nazariyasini anglatadi.

Didaktikaning asosiy vazifasi yosh avlodni ilmiy bilimlar, ko'nikma va malakalar tizimi bilan qurollantirishdan iborat. Bularning barchasi o'qituvchining ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi vazifalarini amalga oshirishida o'z aksini topmog'i lozim. Ana shu asosdan kelib chiqib aytish mumkinki, ta'lim jarayonida o'qituvchi o'z ta'lim oluvchilariga qo'lga kiritilgan bilimlarni o'rgatadi. O'quv faoliyatida ularni ko'nikma va malakalar bilan qurollantiradi. Shu bilan bir paytda u ta'lim oluvchilarda dunyoqarash va axloq me'yorlarini hosil qiladi, qiziqish va qobiliyatlarni shakllantiradi, ularning bilish faolligini oshiradi. O'qituvchining faoliyati ta'lim oluvchi shaxsining maqsadga muvofiq shakllanishiga katta imkoniyatlar ochib beradi. Yanada aniq qilib aytsak, butun o'quv jarayonini rejalashtiradi, ushbu jarayonda ta'lim oluvchilar bilan birgalikdagi faoliyatni tashkil etadi. Ta'lim oluvchilarga qiyinchiliklarni yengib o'tishda yordam beradi hamda ularning bilimlarini va butun ta'lim jarayonini tashxis qiladi. O'z navbatida ta'lim oluvchilarning faoliyati o'quv jarayonida o'rganishga, bilim, ko'nikma hamda malakalarni egallashga, o'zini jamiyatga foydali faoliyatga tayyorlashga yo'naltiradi. Ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarning faoliyati ko'p qirrali yo'nalgan harakatni ifodalaydi va bu harakat bilishga doir vazifalarni hal qilishda ularga katta yordam beradi.

Boshlang'ich ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, o'quvchilarning bilish faolligini oshirish bevosita foydalaniladigan didaktik materiallar mazmuni va tuzilishiga bog'liq. Prof. R.Safarova mas'ul muharrirligida chop etilgan “Pedagogika” ensiklopediyasida “Didaktik material- o'quvchilarga bilim va ta'lim-tarbiya berishga mo'ljallar tanlangan maxsus o'quv materiali”, deb ta'riflanadi. Ta'lim jarayonida didaktik materiallardan bevosita yoki vositalar yordamida foydalaniladi. Didaktik materiallarning bevosita qo'llaniladigan oddiy turlari qanday maqsadda qo'llanishiga qarab bir necha turlarga ajratiladi:

1. Ko'rgazmali materiallar: rasmlar, sxemalar, chizmalar, jadvallar, diagrammalar, plakatlar.
2. An'anaviy o'quv adabiyotlari: darsliklar, o'quv qo'llanmalar, ma'ruza matni, lug'atlar, ma'lumotnomalar va boshqalar.
3. Tarqatma materiallar: test materiali, axborot byulletenlari, topshiriq kartochkalari, anketalar.
4. Namunaviy materiallar: tabiiy namunalari, xom - ashyo namunalari, tayyor mahsulot namunalari.

Oddiy didaktik materiallarning turlari haqida alohida to'xtalib o'tsak.

**Ko'rgazmali materiallar.** Dars davomida beriladigan o'quv materiali o'quvchilarga og'zaki usulda yetkazishning imkoni bo'lmaganda uni, albatta, ko'rgazmali tarzda berish kerak bo'ladi. Bunday didaktik materiallar ko'rgazmali materiallar deyiladi. Bular axborotlarni sinfdagi barcha o'quvchilar uchun umumiy

berishga mo'ljallangan. Bunday materiallardan asosan o'qituvchi o'quvchilarga yangi bilimlarni berishda foydalanadi. Ko'rgazmali materiallar o'quv axborotlarini grafik tasvirlagani uchun, o'quvchilarning tushunishlarini osonlashtiradi. Ko'rgazmali materiallarning bir necha turlari bor. Ularning oddiydan murakkabiga qarab ko'rib chiqamiz.

Rasmlar eng oddiy ko'rgazmali material hisoblanib, uni o'qituvchi mavzuga oid obyektning umumiy ko'rinishi, qismlari, shakli, nisbiy o'lchamlarini ko'rsatishda foydalanadi. Sxemalar asosan murakkab obyektlarning tuzilishi va ishlash prinsipini soddalashtirilgan holda tushuntirish uchun foydalaniladi. Chizmalardan mavzuga oid obyektlarni chuqurroq o'rganishda foydalaniladi. Jadvallar mavzuga oid bir-biriga bog'liq bir nechta kattaliklarning ma'lum bir tartib asosida joylashtirilgan to'plamlaridir. Ular yordamida kerakli ma'lumotlarni, kattaliklarni olish va hisoblash tez va oson kechadi. Diagrammalar yordamida bir necha parametrlarning o'zaro nisbatini grafik tasvirlashimiz mumkin. Diagrammalar turli ko'rinishda tasvirlanishi mumkin: doiraviy, ustunli, chiziqli, uch o'lchamli va h.k.

**Tarqatma materiallar.** Dars davomida o'quv materiallarini guruhdagi har bir o'quvchiga yoki guruh ichidagi kichik guruhchalarga alohida yetkizishga to'g'ri keladi. Bunday vaqtda didaktik material tarqatib chiqiladi. Shuning uchun bunday didaktik materiallar tarqatma materiallar deb yuritiladi. Didaktik materiallarning bu turidan asosan o'quvchilar bilan individual yoki kichik guruhlarga bo'lib ishlashda, amaliy va nazorat mashg'ulotlarida keng foydalaniladi. Tarqatma materiallarning ham bir nechta turi bor.

*Test materiallari* bizning ta'lim tizimimizda ko'pdan beri qo'llanilib kelinmoqda va bu sohada katta tajriba orttirilgan. O'quvchilarning bilimlarini sinashda ulardan foydalanishning ustunlik tomonlari shuki, qisqa vaqt ichida, istalgan hajmdagi o'quv materiali bo'yicha, guruhdagi o'quvchilar sonining ko'pligidan qat'iy nazar sinovni o'tkazish mumkin. Odatda testlar bir necha mavzular yoki to'liq fan bo'yicha savollarni o'z ichiga oladi. Test materiallari asosan ikki qismdan iborat bo'ladi, savollar kitobchasi va javoblar varag'i. (Ba'zan savollarni berishda qo'shimcha material va vositalardan ham foydalanilishi mumkin).

*Axborot byuletenlari* tarqatma materiallarning bir turi bo'lib, ta'limda ilg'or pedagogik texnologiyalarning qo'llanilishi natijasida ular juda takomillashib ketdi. Nazariy mashg'ulot o'tish vaqtida o'quvchilarga oldindan o'rganilayotgan mavzuning matni berilishi mumkin. Amaliy mashg'ulot vaqtida muhokama qilinayotgan muammoga doir boshlang'ich axborotlar o'quvchilarga tarqatib chiqilishi mumkin. Fanga yoki mavzuga doir yangiliklar o'quvchilarga tarqatilishi mumkin. O'quvchilarni mashg'ulotlarga tayorlashda ularni oldindan ba'zi axborotlardan xabardor qilish, ularning boshlang'ich axborotlarga ega bo'lishi yoki yangiliklardan voqif bo'lishi mashg'ulot oldiga qo'yilgan maqsadga samarali erishishga yordam beradi. Shuning uchun bunday didaktik tarqatma materiallarni axborotnomalar deyishimiz mumkin.

*Topshiriq kartochkalari.* O'quvchilar bilan o'rganilgan mavzuni mustahkamlash bosqichida ularning har biriga yoki kichik guruhchalariga turli topshiriqlar berishga to'g'ri keladi. Bunday vaqtda qo'llaniladigan tarqatma didaktik materiallar topshiriq kartochkalari deyiladi. Ular mustaqil ishlar, grafik ishlar, misol va masalalar, tajriba ishlariga doir va h.k.z. turdagi amaliy mashg'ulotlarga doir ishlab chiqilishi mumkin. Ular oldindan bajariladigan ishning xususiyatlari va o'quvchilarning individual qobiliyatlarini inobatga olgan holda ishlab chiqiladi. Unda topshiriqqa doir tushutirishlar, topshiriqning sharti va namuna berilishi mumkin. Natijada undan foydalanganda, ham o'qituvchining vaqti tejaladi, ham o'quvchining topshiriqni bajarishi oson kechadi.

*Anketalar* odatda guruh o'quvchilaridan ba'zi bir ma'lumotlarni olishga to'g'ri kelganda, biz ularga turli savollar bilan murojaat qilishimizga to'g'ri kelganda, qo'llaniladi. Anketa yordamida goh ochiq, goh yashirin tartibda o'quvchilarning munosabatlarini, qiziqishlarini va boshqa ma'lumotlarini olishimiz mumkin. Bu ma'lumotlar asosida olib borilayotgan ta'lim va tarbiya ishlariga kerakli o'zgartirishlar kiritamiz. Turli o'quv ishlarini olib borishda foydalanishimiz mumkin.

**Namuna materiallari.** Sinfda yoki sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarga o'rganilayotgan obyektlar to'g'risida gapirganda imkon qadar ularning namunalaridan foydalanshimiz kerak. Bunday didaktik materiallar namuna materiallari deyiladi. Ularni biz tabiiy namunalar, xom ashyolarning namunalari va tayyor mahsulotlarning namunalari deb farqlashimiz mumkin. *Tabiiy namunalarga* tabiatdan olingan, inson ta'sir etmagan narsalarni olishimiz mumkin. Masalan, qazilma mineral boyliklar, paxta, o'rmon va h.k.z. Mana shu tabiiy namunalarga ishlov berish natijasida ularda sifat o'zgarishi sodir bo'ladi. Bular paxtadan tola, daraxtdan taxta, rudadan temir va h.k.z. Bular endi *xom ashyolarning namunalari* hisoblanadi. Endi xom ashyolardan tayyor mahsulot ishlab chiqarishni ko'rishimiz mumkin. Masalan: toladan gazlama, taxtadan mebel, temirdan detal, va hokazo. Bular endi *tayyor mahsulotlarning namunalari* sifatida qo'llaniladi. Ayrim vaqtda xomashyo va tayyor mahsulot orasida qat'iy chegara bo'lmaydi. Toladan gazlama ishlab chiqarilayotganda gazlama tayyor mahsulot sifatida qaralsa, gazlamadan kiyim tikilayotganda gazlama xomashyo sifatida qaralishi mumkin. Namuna materiallarini namoyish qilishda, tajriba o'tkazishda, texnologik operatsiyalar va jarayonlarni ko'rsatishda qo'llash mumkin. Mashg'ulotlarda namuna materiallardan foydalanilayotganda o'quvchilarning tushunishlari va tasavvur qilishlari oson kechib ularning qiziqishlari oshadi.

Didaktik materiallarni yaratishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- didaktik materiallarni yaratish tamoyillari hamda ularning mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilash;
- o'quvchilarda milliy g'urur va iftixor, moddiy va ma'naviy merosga qadriyatli munosabatni tarkib toptirish;
- davlat ta'lim standartlari talablari asosida o'quvchilar tomonidan bilim, ko'nikma va malaka hamda kompetensiyalarning to'liq o'zlashtirilishiga erishish;



- o'quvchilarda mustaqil va erkin fikrlashni hamda ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish;
- yangi avlod didaktik majmualarni yaratish va amaliyotga joriy etish;
- o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash va global tafakkur yuritish kompetentligini shakllantirish;
- umumta'lim fanlarini o'qitishning prinsipial yangi metodologiyasi asosida ta'lim

Didaktik materiallarni loyihalash uni o'rganish va mustahkamlash, takrorlash va amaliyotga tadbiiq qilish, umumlashtirish va nazorat qilish jarayonlari bilan uzviy bog'liq bo'lib ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlaydi.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida foydalaniladigan didaktik materiallarni yaratish ma'lum tamoyillarga muvofiq amalga oshiriladi. Didaktik materiallarni yaratishda didaktik va xususiy-metodik tamoyillar ta'lim-tarbiya jarayonining muvofiqligi, izchilligi, uzluksizligini ta'minlashga yordam beradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi // Boshlang'ich ta'lim, 1998, 6-son, 12-18-betlar.
2. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi, - Toshkent, 2010.-146 b.
3. Беспалько В.П. Теория учебника: Дидактический аспект. - М.: Педагогика, 1988. –160 с.
4. Farberman B.Ya. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. - O'zRFA . T.: Fan, 2000. - 127 b.

#### **ADABIYOT DARSLARIDA O'QUVCHILARNING O'Z FIKRLARINI YOZMA BAYON QILISH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTRISH. (SAID AHMADNING "QORAKO'Z MAJNUN" HIKOYASI MISOLIDA)**

*Fozilova Mohigul Farxodovna,  
O'zbek tili va adabiyoti universiteti tadqiqotchisi,  
O'zbekiston davlat jahon tillari o'qituvchisi*

Bugungi kunda o'z fikrlarini yozma bayon qilish kompetensiya sifatida belgilangan ekan, bu boradagi ishlarni yanada kuchaytirish, esse yozish darajasiga yetkazish talab etiladi. O'qilgan asar izidan o'quvchilar bajaradigan ijodiy ishlar ularning shaxsiy munosabatlarini qog'ozga tushirish mazmunida tashkil etiladi. Bunday ishlar darsda va darsdan tashqari tadbirlarda, asar qayta o'qilayotgan va tahlil qilinayotgan paytlarda o'tkaziladi. Adabiyot darslarida ijodiy ishlardan asosan insho (adabiy mavzulardagi insho) keng tarqalgan. A.G'ulomov, R.Sayfullayeva, M.Ernazarova, A.Bobomurodova, N.Alavutdinovlarning "O'zbek tilini o'qitish metodikasi"ning "O'quvchilarning og'zaki va yozma bog'lanishli nutqini o'stirish mazmuni" [1;59]; deb nomlangan to'rtinchi bo'limida ta'kidlanishicha, "Yozma nutq ustida ishlash og'zaki nutqqa qaraganda ancha

murakkab jarayondir. Chunki u o'quvchidan grammatik va mazmun jihatidan to'g'ri jumla qurishni, har bir so'zni o'z o'rnida to'g'ri qo'llashni, fikrni ixcham, izchil, ifodali, uslub jihatidan sodda va ravon ifodalashni, bayon qilingan fikrlar asosida xulosalar chiqarishni talab etadi" [1;336];

O'qilgan asar izidan o'quvchilar bajaradigan ijodiy ishlar ularning shaxsiy munosabatlarini qog'ozga tushirish mazmunida tashkil etiladi. Bunday ishlar darsda va darsdan tashqari tadbirlarda, asar qayta o'qilayotgan va tahlil qilinayotgan paytlarda o'tkaziladi. Adabiyot darslarida ijodiy ishlardan asosan insho (adabiy mavzulardagi insho) keng tarqalgan. O.Madayev, A.Sobirov, Z.Xolmanova, Sh.Toshmirzayevalarning "Yozma ish turlari: insho, bayon, diktant" nomli metodik qo'llanmasida izohlanishicha, "Adabiy mavzudagi insho ta'lim dasturida qayd qilingan, dars jarayonida o'tilgan mavzular asosida yoziladigan, darslar va darsliklardagi ma'lumotlarga o'quvchining munosabati, shaxsiy fikrlari ifodalanadigan, ijodiy yondashuv asosidagi yozma ishdir"[2;14]; Izohda o'quvchilarning munosabati, shaxsiy fikrlari, ijodiy yondashuvga urg'u berilgan. Albatta, yoshlarning mustaqil fikrlari inshoning zarur shartlaridan biridir.

Adabiy-tanqidiy maqola (tavsif) tipidagi inshoda o'quvchi badiiy tasvir vositalarini kam ishlatadi, asar qahramonlariga tavsif bergandagina asarda ishlatilgan vositalardan foydalanadi.

O'quvchilarning o'z fikri asarda tasvirlangan hayot hodisalari haqida mushohada yuritish va o'z mulohazalarini bayon qilish munosabati bilan yuzaga chiqadi. Shu ruhda yozilgan inshoni qo'llanma mualliflari "adabiy tanqid janri" deb ataydilar [2;17];

"O'quvchining erkin va mustaqil mulohazasiga asoslanadigan mustaqil yozma ishlarni o'quv yilining boshida, badiiy asar tahliliga bir oz o'rganilgandan keyin, o'quv yili o'rtalarida va oxirida olish bolalarning mustaqil fikrlashini o'stiradi. Shu bilan birga, ulardagi fikr mustaqiligining o'sishini nazorat qilishga imkon beradi"[3;304];

Adabiy-nutqiy kompetentsiyalarning o'z fikrlarini yozma bayon qilish turi voqea-hodisalarni, o'z taassurotlarini shunchaki rivoyalash, tavsiflash emas, balki adabiy-tanqidiy mushohada yuritish sanaladi. Shu jihati bilan odatdagi tasvir-insho, rivoya-insho, muhokama-insholardan, asar qahramonlariga tavsif berish mazmunidagi insholardan tubdan farq qiladi. O'quvchi adabiyotshunos yoki tanqidchi sifatida asarning badiiy-estetik qiymatiga baho beradi, yozuvchining mahoratiga to'xtaladi. Adabiy-tanqidiy maqola tipidagi inshoni yozish uchun o'quvchi asarni yuqori darajada tushungan holda o'qib o'zlashtirishi, undan kerakli materiallarni daftariga qaydlashi, ya'ni axborot olish madaniyatini egallashi, nazariy mushohada yuritish layoqatini shakllantirishi, o'zida munosabat uyg'otishga odatlanishi, insho yozishga tayyorgarlik bosqichida lingvodidaktik asoslar bilan qurollanishi kerak.

Insho yozish sarlavhani to'g'ri belgilashdan boshlanadi. Inshoni to'g'ri nomlash uchun undagi asosiy fikrni ajrata olish kerak. Inshoga material to'plash ham uni to'g'ri yoritishda muhim ahamiyatga ega. Insho uchun asosiy material bu, avvalo, hayotning o'zi, uning kitoblardagi, san'atdagi ifodasidir. Insho uchun material

to'plashda manba muhim ahamiyatga ega. Masalan, badiiy asar asosida material to'playotganda yozuvchining maqsadi, asarda ishtirok etgan shaxslar, yozuvchi yoki shoirning obraz yaratish mahorati, asardan chiqariladigan xulosa kabilar markaziy o'rinni egallaydi. To'plangan materialni tartibga solish va uni muayyan izchillikda bera olish ham o'quvchi uchun o'ta zarur malakalardan biri sanaladi. Tartibga solish bu, avvalo, to'plangan materialni saralash, zarurini ajratish, ularni mantiqiy izchillikda joylashtirish demakdir. Bu ishda o'quvchiga puxta o'ylab tuzilgan reja yaxshi yordam beradi. Yozilgan inshoni takomillashtirish, unda yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni bataraf etish ham talabalar uchun zarur malakalardan biridir. Adabiyot darslarida o'quvchilarni insho yozishga tayyorlash bosqichi o'ta mas'uliyatli bosqichdir. Odatda badiiy asardan insho uchun material tanlash ko'pincha uy vazifasi qilib topshiriladi. Bu ish uchun alohida dars ajratish yoki bu ishni insho yozishdan oldingi darsdan kattaroq vaqt ajratib amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Lekin insho yozishning o'zini bosqichlarga bo'lish yana ham ko'proq samara berar ekan. Bu quyidagicha:

- 1) muammoli savolga bir necha gap bilan yozma javob berish, muammoli topshiriqqa ham shu tarzda o'z munosabatlarini qo'shgan holda fikrni yozma ifodalash;
- 2) badiiy asardan inshoda foydalanish mumkin bo'lgan so'z va iboralarni, badiiy tasvir vositalarini yozma ravishda bajarish;
- 3) mininsho (kichik hajmli insho) yozish;
- 4) bir-ikki muammo bo'yicha uch-to'rt moddadan iborat reja asosida o'rtacha hajmda insho yozish;
- 5) murakkab reja asosida adabiy mavzuda insho (yoki esse) yozish

1. Muammoli savolga bir necha gap bilan yozma javob berish, muammoli topshiriqqa ham shu tarzda o'z munosabatlarini qo'shgan holda fikrni yozma ifodalash o'quvchilarning mustaqil fikr bayon qilishlarini taqozo etadi. Har bir badiiy asar (hikoya) bo'yicha 3-4 yoki undan ko'proq muammoli savol va topshiriq tayyorlash maqsadga muvofiqdir. Masalan, 10-sinfda Said Ahmadning "Qorako'z Majnun" hikoyasi yuzasidan quyidagi savol va topshiriqlar berilishi mumkin:

Asar boshida Qur'oni Karimdan keltirilgan oyat bilan hikoya mazmunining qanday bog'liqlik tomonlari bor?

Bo'rixondan Saodat aya nega xafa bo'ldi?

Bo'rixonning e'tiqodi sustlik qilishiga sabab nima edi?

Asarda nega it obrazi vafodorlik timsoli sifatida gavdalantirildi?

Bo'rixon obraziga tavsif bering.

Dastlabki kezlarda sinfdagi qatorlar bittadan savol yoki topshiriq oladi, ya'ni har bir o'quvchi bittadan ijodiy ish yozadi. Bu ishga darsdan 10-15 daqiqa vaqt ajratiladi.

Yozma ishning bu turi dastlabki ijodiy ish bo'lgani uchun o'quvchi o'z so'z boyligini, asardan eslab qolgan so'zlarini ishga soladi, o'z so'zlari bilan fikr bayon qiladi, eplagancha asardan foydalanadi.

2. Badiiy asardan inshoda foydalanish mumkin bo'lgan so'z va iboralarni, badiiy tasvir vositalarini yozma ravishda bajarish insho yozishga tayyorgarlik bosqichi

bo'lib, metodist olimlar ayni shu ish turiga urg'u beradilar. Mazkur ish turini dars jarayonida boshlangani ma'qul. Bunda o'quvchilarning vazifani bajarishlari nazorat ostida bo'ladi. O'quvchilar o'qituvchidan u yoki bu narsani so'rashlari mumkin. Vazifaning bajarilishi o'qitish orqali yoki daftarlarni tekshirish uchun olish yo'li bilan tekshirilishi mumkin. Bu ishlar oxir-oqibat o'quvchilarga to'g'ri yo'nalish beradi, ular topshiriqni a'lo darajada bajara boshlaydilar. Ish ba'zan jamoa bo'lib ishlash ham foydadan holi emas.

O'quvchi nimalar haqida fikr yuritish lozimligini o'ylaydi va shunga muvofiq keladigan materiallarni yig'adi. Ba'zan asardan ko'chirmalar olishga ham to'g'ri keladi. Ko'chirmalar o'quvchining o'z fikrlarini asoslashi uchun dalil vazifasini o'taydi. Said Ahmadning "Qorako'z majnun" hikoyasidan quyidagi leksik birliklar fikrimizga asos bo'ladi:

*Qorako'zning qulog'i ding bo'ldi [5;98];*

*Yaqin ikki oydan beri yo'qotgan qadr don kishisining ovozini eshitib yig'layotgandek g'ingshidi [5;98];*

*Birovga so'zini bermaydigan errayim kampirning shoxi sindi [5;93];*

*Hadisi sharifdan:*

*"Jannatga kiradigan o'n nafar hayvondan biri bu «As'hobi Kahfning vafodor itidir» [5;83] (Al-jome al-Kabir.)*

Insho uchun material to'plashda manba muhim ahamiyatga ega. Badiiy asar asosida material to'playotganda yozuvchining maqsadi, asarda ishtirok etgan shaxslar, yozuvchi yoki shoirning obraz yaratish mahorati, asardan chiqariladigan xulosa kabilar markaziy o'rinni egallaydi.

3. Miniinsho (kichik hajmli insho) yozish;

Har bir o'quvchi 2 tadan muammoli savol va topshiriq oladi. Javoblarni miniinsho sifatida yozadi. (Bu ish avval og'zaki o'tkazilishi ham mumkin.)

4. Uch-to'rt muammo bo'yicha uch-to'rt moddadan iborat reja asosida o'rtacha hajmda insho yozish;

Muammolar o'quvchilarga inshoning oddiy rejasi sifatida taqdim etiladi. Ma'lum tayyorgarlikdan so'ng o'rtacha hajmdagi insho yozdiriladi.

5. Murakkab reja asosida adabiy mavzuda insho (yoki esse) yozish

Bunday insholarni o'tkazishga doir tavsiyalar ko'pgina metodist olimlar tomonidan ishlab chiqilgan. O'quvchilar badiiy uslubda tuzadigan matn (insho)da ifodaviylik, ta'sirchanlik bo'lishi kerak. Shu maqsadda emotsional-ekspressiv so'zlardan foydalanishlari, o'z tuyg'ulari, kechinmalarini aks ettirishlari tavsiya qilinadi.

Insho yozayotganda to'plangan materiallardan foydana olish muhim, lekin ularni inshoda mantiqiy izchillikda, o'rinli tarzda joylashtirish oson emas. Shuning uchun bo'lsa kerak, amaliyotda insho uchun asardan material to'plash va uni tartibga solish (saralash) ishlari deyarli bajarilmaydi.

"Matnni takomillashtirish bu imloviy, punktuatsion xatolar ustida ishlashdangina iborat emas, balki mazmuni takomillashtirishni ham o'z ichiga qamrab oladi"[4;73]; Ba'zi insholar o'quvchidan badiiy nutqni talab etadi. U ana shu insholar orqali o'xshatish, sifatlash, jonlantirish, mubolag'a singari badiiy tasvir vositalaridan foydalanish, ma'noni kuchaytiradigan bo'yoqdor so'zlarni qo'llash,

tovushlarni choʻzish orqali turli xil maʼnolarni ifodalash kabi badiiy nutqqa xos bayon usullarini oʻrganadi.

Oʻz fikrlarini yozma bayon qilish kompetentsiyasini shakllantirishga qaratilgan ish turlari asosan ijodiy yozma ishlar, jumladan, adabiy mavzudagi inshodan iborat boʻlib, oʻz fikrlarini savodli, adabiy-nazariy tushunchalarni toʻgʻri ishlatgan holda yoritish, badiiy asar tahlili munosabati bilan ogʻzaki yuritilgan mushohadalarni yozma ifodalash, insho matnini insho tuzilishiga doir qoidalar doirasida rasmiylashtirish, inshoda oldindan toʻplangan materiallardan foydalanish mazmunida tashkil etiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Мирмахсудова М.Б. “Ўқувчилар нутқини такомиллаштиришда грамматик таҳлил ўтказиш методи”. – Тошкент, 2006. – 59-б.
2. Madayev O., Sobirov A., Xolmanova Z., Toshmirzayeva Sh. “Yozma ish turlari: insho, bayon, diktant”. – Toshkent, 2020. – 14-b.
3. Хусанбоева Қ., Ниёзметова Р. Адабиёт ўқитиш методикаси: 304-б.
4. Сариев Ш.У. “Бошланғич синф ўқиш дарсларида матн устида ишлаш орқали нутқ ўстириш методикасини такомиллаштириш” (1–2-синф материаллари мисолида): Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (...) ... дисс. – Тошкент, 2020, 73-б.
5. Adabiyot. Oʻrta taʼlim muassasalarining 10-sinfi va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi muassasalarining oʻquvchilari uchun darslik-majmua uchun Boqijon Toʻxliyev, Bahodir Karimov, Komila Usmonova. – Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2017.

### MILLIY RAMZIY HIKOYALAR BADIYATI VA USLUBIY OʻZIGA XOSLIGINI OʻRGATISH METODIKASI

*Qoʻshnazarov Farxod Norboʻtayevich,  
JDPI maktabgacha taʼlim fakulteti dekan oʻrinbosari  
Ergashev Alimardon Toshboy oʻgʻli  
JDPI oʻqituvchisi*

Badiiylik (arabcha “badaʼa” feʼlidan olingan boʻlib, yangilik kiritish, ijod qilish maʼnolarini bildiradi) hayotni jonli va taʼsirli qilib tasvirlashning umumiy belgisi, oʻxshash qilib qayta yaratilgan olamning tirikligini, moʻjizakorligini, taʼsirchanligini taʼminlovchi vositadir<sup>4</sup>. Yaʼni badiiylik badiiy ijodning hamma vositalarini oʻz ichiga oladi. Ularning har biriga turli-tuman shaklda birlashib, hayotni jonli va taʼsirchan qilib qaytadan yaratish sanʼatidir. Shundan koʻrinadiki, badiiylikning oʻzagi obrazlilik ekanligi oydinlashadi. U sanʼatning “tili”dir. Sanʼatning sanʼat ekanligini taʼminlovchi xususiyatdir.

Xurshid Doʻstmuhammad asarlari hayotda, inson qalbida yechilmay yotgan muammolarning badiiy tahliliga qaratilgan. Yozuvchi qahramonlari,

<sup>4</sup> Умуоров Х. Адабиёт назарияси.Т.: Шарқ. 28-бет




asar g'oyasini kitobxon og'ziga chaynab solmaydi. Noshud, hayotda to'g'ri yo'l topolmagan, beo'xshov yoki razil qahramonlarni asar nihoyasiga borib tugatmaydi, yaxshilamaydi. Ularni o'zining badiiy niyati amalga oshirilgan darajada hayotdagiday qoldirib, kitobxon hukmiga havola etadi.



Mustaqillik davri kishisi qalbida, dunyoqarashida ro'y berayotgan o'zgarishlarni, ba'zan iqtisodiy sharoitlarning shaxslararo va jamiyat bilan munosabatlarga ko'rsatayotgan ta'sirini, bir so'z bilan aytganda, yangilanayotgan tabiatli zamondosh, yurtdoshlarimiz saviyasini, siymosini ko'rsatish bu yo'ldagi qiyinchiliklarni, ziddiyatlarni, yo'qotish va topishlarni aks ettirish adabiyotimiz oldidagi muhim vazifalardan sanaladi. Adib hikoyalarda siyqasi chiqqan xarakterlar, quruq nasihatgo'ylik, an'anaviy iboralarni deyarli uchratmaymiz. U doim yangi obrazlar yaratishga intiladi. Asarning kompozitsion qurilishida bir-birini takrorlamaydigan yangiliklar topishga urinadi. Bu borada tajribalar o'tkazishdan cho'chimaydi va ko'pincha, muvaffaqiyatlarga erishgan deb o'ylaymiz. O'zbek kishisi orzu-armonlarining, aksar hollarda, yashirin iztiroblarining yoritilmagan qirralarini, ruhiyatidagi evrilishlarini qalamga oladi.

Talabalar milliylik haqida quyidagi savollarni berish mumkin.

1. Milliylik nima?
2. O'ziga xoslik nima?
3. XX asr hikoyachiligida umuminsoniylik?
4. XX asr hikoyachiligida milliylik?
5. Hikoyachiligimizda milliy qahramonlar xarakteri?
6. Xurshid Do'stmuhammad hikoyalarda milliy kolorit?
7. Jahon hikoyachiligi va milliy hikoyachiligimiz qiyosi?



Bu qahramonlar o'zga yozuvchilarning qahramonlariga o'xshamagan: goh do'lvor, goh to'pori, goh dag'al va chapani, goh kichkinagina bir muhit vakili. Lekin barchasining ichki dunyosi o'ziga xos ravishda mulohaza yuritadigan jonli va hayotiy kishilardir. Bu qahramonlar ba'zilar o'zligini, millatini, yurt tuprog'i-yu udumini, dini va diyonatini har narsadan ustun qo'yadilar, ammo ba'zilar esa!.. Lekin biror qahramon bu maqsadda hech qachon balandparvoqlik qilmaydi, ayyuhannos solmaydi. Ular tashqaridan emas, ko'pincha, ichdan jozibali, istarali, mehrtortar bo'ladi. Adibning adabiyot va unga munosabat bobidagi, ijodkor shaxsiyati, mas'uliyati kabi masalalardagi qarashlaridan badiiy ijod sirini bilishda ochqich sifatida foydalanish mumkin.

Badiiylik adib uchun g'oyatda muhim masala. O'z asarlarida til me'yorlariga qat'iy rioya etgan yozuvchi boshqalarning ham tilga e'tibor berishini istar, uning buzilishiga olib borishi mumkin bo'lgan barcha o'ziga xosliklarni inkor etardi. To'g'ri, ulardagi mazmunning o'zi murakkab va alohida tasvir vositalarini yangicha jumla qurilishlarini, mavhumiyatni bordek ko'rsatmoq uchun shunga muvofiq til lozim...<sup>5</sup> Adib hikoyalarini o'qir ekanmiz, yozuvchining uslubidagi bir jihat e'tiborimizni tortdi, bu hikoyalardagi obrazlarga nom tanlashdir.

Avvalambor, nominator sifatida har bir ijodkorning o'z qahramoniga ism qo'yishi uning uchun mas'uliyatli ishdir. Chunki o'zbek tili leksikasining tarkibiy qismi bo'lgan ismlarda o'zbek xalqining qadimiy ishonch va e'tiqodlari, so'z sehriga ishonish, so'zning odamning taqdiriga, sog'ligi va istiqboliga ta'siri, ota-onalarning umid va armonlari, ularning kundalik turmush tarzi, kasb-korlari, etnik urf-odatlar, diniy e'tiqodlari, farzandining istiqboliga ishonch bilan qarashlari, ularning yuksak madaniy-estetik didi, qolaversa, ism ijod qilishdagi topqirligi, mahorati, tilning leksikasidan ustalik bilan, o'rinli foydalanishi, ism yaratishda leksemalarning ko'chma ma'nolari, ayniqsa, o'xshatish, baholash, sifatlash, mubolag'a kabi usullardan o'rinli foydalanishi, shuningdek, boshqa xalqlar bilan lisoniy hamkorligi kabi xususiyatlar o'z

<sup>5</sup> Qosimov A. Hamdamov U. Jahon adabiyoti. www.fayllar.org.uz

ifodasini topgan. Bolaga ism tanlash, ism berish jarayonining mohiyati va asosiy vazifasi shaxslarni bir-biridan ism berish orqali farqlashgina emas, markazida inson turgan butun bir ulkan faoliyatning mahsuli ekanini ko'rsatadi. Shuning uchun har qanday vaqtda ham ijodkor bu ishga o'zlikni yo'qotmagan holda milliylik asosida yondashmog'i lozim deb o'ylaymiz. Hozirgi shiddat bilan o'zgarib borayotgan zamonaviy hayotimizda ijod qilayotgan ijodkorlarning bu sohaga munosabatlari shuning uchun ham e'tiborimizni tortdi va biz shu boisdan ham Xurshid Do'stmuhammad hikoyalarini tanladik.

Ramziy hikoyalar yaratgan Otauli, U. Hamdam, I. Sulton, S. To'rayevlar voqelikka, inson ko'ngli qatlariga, yaralish va yaratilishga yangicha nigoh bilan boqadi. Miflar odatda, olam va odamning yaratilishi haqida hikoya etadi. Bugungi kunning zamonaviy hikoyanavislari olam va odam, ibtido va intiho, muhabbat va nafrat, ezgulik va yovuzlik singari g'oyalarga o'zlarining munosabatlarini ifoda etishda nemifologizmga keng murojaat etishmoqda. Neomifologizm o'zbek adabiyotshunosligida hali keng adabiy iste'molda ishlatilishga ulgurmagani yangi terminlardan biri. Neomifologizm bu ijodkorlarning yuqorida aytilgan mavzular haqida shaxsan o'zlari to'qigan subyektiv afsonalaridir. Endi yozuvchilarimiz olamning yaratilishi va odamning qismatini o'zlari to'qiyotgan yangicha ramzli, majozli, timsolli obrazlarga burkab ifoda etishmoqda. Bu nihoyatda quvonarli hodisa. To'g'ri, nemifologizm elementlari o'zbek hikoyachiligida yaqin o'n yilliklarda paydo bo'lgani yo'q. Bu tipdagi hikoya namunalarida neomifologik obrazlar, neomifologik tushunchalar, qarashlar, fikr-mulohazalar juda erkin tarzda aks etadi. Jumladan, U. Hamdamning "Bir piyola suv", "Ko'zini ochib yumgan odam" hikoyalari chuqur ramzlar asosiga qurilgan. I. Sulton "Suvdagi kosa" hikoyasida ummon o'rtasida qayiqda qolib ketgan ikki do'st holatni tasvirlaydi. Hikoya qahramonini Vatan, ona yer sog'inchi qiynaydi. Ikki do'st to'g'ri yo'lni topa olmay ummon o'rtasida juda qiynalishadi. Umuman, mazkur hikoya ham ramziy-majoziy talqinlarga asos beradi. I. Sulton hikoyasi ham neomifologizm asosiga qurilgan. S. To'rayevning "Karvonqush" hikoyasida Oyparast qiz va Quyosh o'g'li Karvonqushning hayoti orqali ikki qabilaning, keng ma'noda ezgulik va yovuzlik o'rtasida ayovsiz kurash ramziy timsollar, obrazlar, ixchamgina badiiy voqelik vositasida ochib beriladi.

Shuningdek, o'zlarining ravon uslubi bilan hikoyalarda bir qancha maishiy, ruhiy muammolarga bag'ishlangan mavzular tahlil etiladi. Nazarimizda, chinakam san'at asarida maishiy voqelik ikkinchi planda, umuminsoniy g'oyalar, nozik insoniy tuyg'ular, holatlar, oniy ruhiyat po'rtanalarini tasvirlash adabiyotning bosh vazifasi sanalmog'i kerak. Bunday mavzular asarning umrboqiyiligini ta'minlaydi.

Hikoyalarni kuzatish natijasida shunday xulosaga keldikki, ularni quyidagicha izohladik:

- ramziylik, polifonik tasviriylik, assotsiativ fikrlashga intilish o'zbek hikoyachiligida alohida tendensiya sifatida shakllanganini ko'rsatadi;
- badiiy shartlilikning neomifologizm, mifologik model asosida yangicha badiiy topilmalar qilganligi ham alohida tendensiya sifatida namoyon bo'lgan, deyishga asos beradi;

- shuningdek, batafsil tasviriylik, telefon-telegraf uslubi ham ba’zi hikoya namunalarida istifoda etilgan;
- o‘zbek hikoyachiligi uslub nuqtai nazaridan an’anaviy realistik va ramziy-majoziy shakllarda zohir bo‘lgan.

Mustaqillik davri adabiyoti haqida gapirar ekanmiz, modernizm tushunchasi haqida to‘xtalib o‘tsak.

Istiqlol davri o‘zbek adabiyoti bu yangilangan adabiyotdir. Zero, u ozod tafakkur mevasi o‘laroq maydonga tusha boshladi. Ammo u yo‘q yerda paydo bo‘lmadi. XX asrda ham adiblarimizda yangilikka intilish, yangi-yangi tajribasinovlar paydo bo‘la boshlagandi. Shu ma’noda, muayyan an’ana, tajriba bor edi. Demak, istiqlol davri yangi o‘zbek asarlarining asosiylari, albatta, an’anadan uzilgan butunlay yangi emas, aksincha, o‘sha silsilaning davomi o‘laroq dunyoga kelmoqda. Shu bilan birga, erkin badiiy tafakkur mahsuli sifatida o‘zini (olam ichra olam, ya’ni bir butun tizim o‘laroq) namoyon qilayotgani kishini behad quvontiradi. Bugun yurtimiz ijodkori o‘z nuqtai nazarini, qadim Sharq adabiyotida bo‘lgani kabi, olami insonga, uning qalbiga qaratgan. Hamda botindagi murakkab jarayonlarni bayonchilik yo‘li bilangina emas (chunki bunday usul bor, bo‘ladi va bu g‘oyat tabiiydir), ayni paytda, umuminsoniy va umumzamoniy mezonlarga suyangan holda majoz va ramz vositasida ham qog‘ozga tushirmoqdalar, san’atga aylantirmoqdalar. Biroq yo‘nalishlar haqida gap ketganda, masalaning nazariy jihatiga oid bir gapni alohida ta’kidlab aytishga ehtiyoj tug‘iladi. U ham bo‘lsa, adabiyot, ayrim toifakar da’vo qilayotganidek, boshqotirma o‘yinlardangina iborat emas. To‘g‘ri, unda o‘yinlik xususiyati bor, lekin “o‘yin” adabiyotning o‘nlab sifatlaridan bittasi, xolos. Chinakam adabiyot hamisha odamlar bilan birga bo‘ladi, odamlarning quvonchu tashvishini tarannum etadi va shu tarzda ularga yelkadosh, taqdirdosh, dildosh bo‘ladi, bo‘lishi kerak.

Sho‘rolar zamonida adabiyotda shakl mazmunga qurbon qilinayotgan edi. Modernizm esa, ko‘pincha, buning teskarisiga duch kelamiz: shakl ketidan quvilib, mazmun boy beriladi (yoki shunchalar chuqur berkitiladiki, natijada muallifning o‘zi ham qayta o‘qiganda o‘z asari mohiyatiga yetib borolmasligi mumkin). Aslida, har ikkovi o‘rtasidagi zargarona mutanosiblik hamda buning oqibatida kelib chiqadigan buzilmas muvozanat hikoyaning yaroqliligi va zavq ila o‘qishliligini ta’min etadi. Bunday asarlarga davrlar va ulardagi o‘zgarishlar juda kam ta’sir qiladi. Mumtoz adabiyot namunalari bir davr chegaralarini oshib o‘tib, barcha davrlarga xizmat qiladi. Shuning uchun ham u mumtoz hisoblanadi. Tafakkur erkinligi bois, istiqlol davri o‘zbek ijodkori ham xuddi shunday asarlar yozish imkoniyatiga ega bo‘lib turibdi. Endi ijodkorning ijod maydoni ikki daryo oralig‘i emas, balki ikki qutbdir. Mo‘tadil iqlim, uyg‘un muhit bo‘lmasa, ko‘chirib keltirganingiz bilan ko‘chat tomir otmaydi. Shu ma’noda bugungi o‘zbek adabiyotidagi yangi izlanishlarni o‘tgan asrning birinchi yarmida g‘arbda tug‘ilgan modernistik oqimning g‘arib taqlidi deb bo‘lmaydi.

Bir-biriga monand ijtimoiy-tarixiy davrlar o‘xshash kayfiyatli adabiyotlarni vujudga keltiradi. Chunonchi, dunyo folklorida qanchadan qancha bir-biriga mengzaydigan qahramonlar mavjud. Lekin bu, ular bir-birlaridan ko‘chirib

olishgan, degan ma'noga kelmaydi. Ijodiy ta'sirlanishning yonida o'sha millatlar o'tmishidagi siyosiy-ijtimoiy-madaniy va psixologik muhit o'xshashligi omilini aslo yoddan chiqarmaslik kerak. Zero, o'xshash muhitlar o'xshash adabiy qahramonlar-u ularning bir-biriga monand kayfiyatlarini dunyoga keltiradi. Demak, G'arbning modernistik adabiyoti bu G'arbnikidir va bu adabiyot o'z davrida o'z vazifasini o'tab, asosan o'sha yerda qoldi. O'zbek adabiyotidagi yangi adabiyot kayfiyatiga G'arb modern adabiyotining oz-moz ijodiy ta'siri bor albatta, lekin u mohiyat-e'tibori bilan Sharq, xususan, o'zbek dunyoqarashidagi ijtimoiy-psixologik o'zgarishlar negizida tug'ildi. Shunga ko'ra, yangi (modern) o'zbek adabiyoti milliy zaminda ildiz otgan bo'lib, u G'arb modern adabiyotidan ko'chirilgan nusxa yoki unga taqlid emas, deya qarash mumkin. XX asr o'zbek adabiyoti "Yangi o'zbek adabiyoti" deb nomlanadi. Chunki ham nasr, ham nazmda tubdan o'zgarishlar yuz bergan, ilk dramatik asarlar vujudga kelgan va bu chinakamiga yangi hodisa, yangi adabiyot bo'lgan edi. Adabiy shakllar asosan tashqaridan – o'zga xalqlar adabiyotlaridan qabul qilingani ham haqiqat: roman, drama va yangicha she'r shakllari shular jumlasidan. XX asr adog'i va XXI asr boshi o'zbek ijodkori badiiy-estetik tafakkur tarzidagi yangilanishlar esa bir qadar boshqacha tabiatga ega. Bunda shakl va mohiyatning o'zi ichkaridan yorib chiqdi. Demak, tashqaridagi adabiyotga ergashishning hissasi o'ta salmoqli bo'lmagan. Shunga ko'ra, uni tom ma'noda o'zbek modern adabiyoti deyish ham biroz bahstlab bo'lib, bu boradagi izlanishlarning asosiysi hali oldinda. Xullas, Istiqlol davrida yangilangan badiiy tafakkur Erkin A'zamning "Stupka", Xurshid Do'stmuhammadning "Qichqiriq", Nazar Eshonqulning "Bahouddinning iti", Rahimjon Rahmatning "Adashvoy", Isajon Sultonning "Suvdagi kosa", Ulug'bek Hamdamning "Bir piyola suv" kabi hikoyalarini berdi. Nomlari zikr etilgan va yana Omon Muxtor, Ahmad A'zam, Olim Otaxon, Murod Karim kabi nosirlar, Bahrom Ro'zimhammad, Tursun Ali, Faxriyor, Aziz Said, Shermurod Subhon, Go'zal Begim singari shoirlarning izlanishlari yangi o'zbek nasri va nazmining o'ziga xos namunalari hisoblanadi.

Xullas, modernizm garchi "dunyo madaniyati markazida G'arb madaniyati turadi", desa-da, u bilan bog'liq butun boshli qarashlar tizimi, bu tizim vujudga keltirgan san'at-u adabiyot o'rganilishi lozim. Chunki u bashariyatning ming yillar mobaynida bosib o'tib kelayotgan falsafiy, badiiy-estetik tafakkur yo'lining bitta bosqichi sifatida o'z o'rnini va ahamiyatiga ega.

## **МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРДА ҚЎЛ МЕХНАТИ ЁРДАМИДА ТАФАККУРНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ТАЪЛИМ КЛАСТЕРИ**

*Ачилова Мавлуда Саъдуллаевна  
Чирчиқ давлат педагогика  
институтини ўқитувчиси*

Республикамизда мактабгача ёшдаги болаларга таълим ва тарбия бериш, уларни ижтимоий ҳаётга мослаштириш, шахс ҳамда шахслараро



муносабатга киришиш каби ижтимоий рухий мослаштириш ишлари ташкил этилган бўлиб, бу борада тизимли равишда “Илк қадам” давлат таълим дастури асосида ишлар олиб борилмоқда. Мактабгача ёшдаги болаларни турли хил машғулотларда қўл меҳнати ёрдамида кўرғазмали нарсаларни ясаш, чизиш орқали болаларнинг билиш жараёнлари ривожланиб боради.

Фан ва техниканинг шиддат билан ривожланиши натижасида барча соҳаларга жорий қилинаётган инновацияларнинг мақсади, пировардида мамлакатнинг иқтисодий ва ижтимоий салоҳиятини оширишга қаратилган.

Соҳаларга инновацияларни жорий қилиш мавжуд иш услубларига нисбатан янгича ёндашувларни талаб қилади. Жамиятнинг ривожланиш қонуниятларида эса умумий жиҳатлар ва табиий қонуниятлар мавжуд бўлиб, бу борада кўп ҳолларда ўзига хос янги йўللارни қидиришдан кўра, баъзан ривожланган мамлакатлардаги тайёр андозаларни олиш, улардан ижодий фойдаланиш яхшироқ натижа беради. Шундан келиб чиққан ҳолда, бугунги кунда иқтисодиёт тармоқларида халқаро тажрибада синалган ва мамлакат иқтисодиётининг ишлаб чиқариш тармоқларини ривожлантиришда катта аҳамият касб этувчи инновацион тажрибаларни қўллашга жиддий эътибор қаратилмоқда. Ана шундай инновациялардан бири “кластер модели” бўлиб, бугунги кунда у таълимда кенг қўлланиши бошланди. [6; 2]

Мактабгача ёшдаги болаларда қўл меҳнати ёрдамида бармоқлар ҳаракатчанлиги ва тафаккурнинг ривожланиши уларнинг кейинчалик нутқи, аниқ фанларга бўлган қизиқиши ривожланиб боради. Мактабгача ёшдаги болаларда муассасаларда ташкил этилаётган машғулотларда бола ўзига зарур бўлган маълумотларни ўзлаштириб олиши, унинг кейинчалик мактаб таълимига ижобий замин яратади. Мактабгача таълим ва мактаб таълимининг ўзаро боғлиқ ҳолда ишларнинг ташкил этилиши бу таълим кластерининг асосий белгилари саналади. Чунки, таълим кластерининг асосий йўналишлардан бири бу мактабгача таълим ва мактаб таълимининг ўзаро узвий боғлиқ ҳолда ишларнинг олиб борилиши саналади. [2; 180]

“Илк қадам” давлат дастурида белгиланишича ҳар бир бола ўз ёшига мос равишда билим ва малакаларни эгаллаб олиши қайд этилган бўлиб, дастурнинг тўлиқ мазмунида ўз аксини топади.

Мактабгача ёшдаги болаларда буюмларни ясаш натижасида болаларнинг тафаккури ва нутқи ривожланади. Маълумки, мактабгача ёшдаги болаларда нутқ камчиликлари ҳам кузатилади. Бу нутқ камчиликларни олдини олиш ва уларни тузатиш натижасида болаларга мактаб таълимига яхши билим олиши учун хизмат қилади. [5; 110]

Болаларда кузатиладиган турли хил нутқ камчиликларнинг ўз вақтида аниқланмаслик бу болаларда кейинчалик билиш фаолиятига ва мактаб таълимида ўқиш ҳамда ёзишдаги маълум бир камчиликлар кўзга ташланади.

Маълумки, билиш фаолиятлардан тафаккур – инсон аклий фаолиятининг юксак шакли; объектив воқеликнинг онгда акс этиш жараёни. Тафаккур атроф муҳитни, ижтимоий ҳодисаларни, воқеликни билиш қуроли, шунингдек, инсон фаолиятини амалга оширишнинг асосий шarti саналади.

У сезги, идрок, тасаввурларта қараганда воқеликни тўла ва аниқ акс эттирувчи юксак билиш жараёнидир. Тафаккур — инсон миясининг алоҳида функцияси. Унинг нерв физиологик асоси биринчи ва иккинчи сигнал системаларининг ўзаро муносабатидан иборат. Тафаккур жараёнида инсонда фикр, мулоҳаза, ғоя, фараз кабилар вужудга келади ва улар шахсининг онгида тушунчалар, ҳукмлар, хулосалар шаклида ифодаланади. Тафаккур тил ва нутқ билан чамбарчас боғлиқ равишда намоён бўлади. Фикрлаш фаолияти нутқ шаклида намоён бўлади. Нутқ алоқаси жараёнида инсоннинг ҳиссий мушоҳада доираси кенгайиб қолмай, орттирилган тажриба бошқа кишиларга ҳам берилади. Инсон ўзининг Тафаккури, нутқи ҳамда онгли хатти-ҳаракати билан бошқа мавжудотлардан ажралиб туради. У фикр юритиш фаолиятида ўзида акс эттирган, идрок қилган, тасаввур этган нарса ва ҳодисаларнинг ҳақиқийлигини аниқлайди, ҳосил қилинган ҳукмлар, тушунчалар, хулосалар чин ёки чин эмаслигини белгилаб олади. Инсон тафаккури орқали воқеликни умумлаштириб, бевосита (билвосита) акс эттиради, нарса ва ҳодисалар ўртасидаги энг муҳим боғланишлар, муносабатлар, хусусиятларни англаб етади. Бинобарин, инсон муайян қонун, қонуният ва қоидаларга асосланган ҳолда ижтимоий воқеа ва ҳодисаларнинг вужудга келиши, ривожланиши ҳамда оқибатини олдиндан кўриш имкониятига эга. Тафаккур кўпгина фан соҳаларининг тадқиқот объекти ҳисобланади. Психологияда тафаккур воқеликни умумлаштириш даражасига, муаммони ечиш воситаси хусусиятига, ҳолатларнинг инсон учун янгилиги, шахсининг фаоллик кўрсатиш даражасига кўра бир неча турларга (кўргазмали ҳаракат, кўргазмали-образли, амалий, назарий, ихтиёрий, ихтиёрсиз, мавҳум, ижодий ва ҳ. к.) ажратиб тадқиқ қилинади. Ижтимоий ҳаётда, таълим жараёни ва ишлаб чиқаришда одамлар ўртасидаги алоқа ва муносабатлар ҳам тафаккур ёрдамида намоён бўлади. Жамоада танқидий қараш, ўзини ўзи танқид, баҳолаш, текшириш, ўзини ўзи текшириш, назорат қилиш, ўзини ўзи назорат қилиш, гуруҳий мулоҳаза юритишдан иборат тафаккур сифатлари вужудга келади. Инсоннинг инсон томонидан идрок қилиниши ҳам тафаккур билан узвий алоқададир. Ижодий ишлар, кашфиётлар, ихтиролар, таклифлар тафаккурнинг маҳсули ҳисобланади.

Тафаккур фақат инсонларга хос бўлган меҳнат ва нутқ фаолияти билан боғлиқ ҳолда мавжуд. Инсон тафаккури нутқ билан маҳкам боғланган ҳолда юзага чиқади ва унинг натижалари тилда қайд қилинади. Демак, тафаккур жараёнининг натижаси ҳамиша бирон-бир фикрдан иборат бўлиб, бу фикр тушунча, ҳукм, хулоса тарзида фақат тил воситасида намоён бўлади. Тил тафаккур билан чамбарчас боғлиқ бўлиб, фикрни реаллаштирадиган, ўзаро фикр алмашинув воситаси саналади.

Нутқ -тилнинг фикр ифодалаш ва алмашиш жараёнларида амал қилиши, тилнинг алоҳида ижтимоий фаолият тури сифатидаги муайян яшаш шаклидир. Нутқ деганда унинг оғзаки (овозли) ва ёзма равишда намоён бўлишидаги жараёнлар, яъни сўзлаш жараёни ва унинг натижаси

(хотирада сақланган ёки ёзувда қайд этилган нутқий фикрлар, асарлар) тушунилади.

Шу сабабли ҳам, мактабгача ёшдаги болалар кўл меҳнати орқали тафаккурни ривожлантириш, мактаб таълимига боғлиқ ҳолда ташкил этилиши бу таълим кластерининг бир бўлаги ва бир мақсади саналади.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. АМИРОВА Г.А., СУЛАЙМОНОВ А.П., ДЖУРАЕВА Б.Р. Мактабгача таълим муассасаларида аппликация машғулоти. Тошкент 2014.
2. Ачилова, С. Ж. (2020). ДИЗАРТРИЯ НУТҚ НУҚСОНИГА ЭГА БЎЛГАН БОЛАЛАРДА БАРМОҚЛАР ҲАРАКАТЧАНЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛЛАРИ. *Science and Education*, 1(Special Issue 4), 177-185.
3. Ачилова Севара Жасуркуловна (2020). Особенности логопедической работы при дизартрии в специализированных дошкольных учреждениях. *International scientific review*, (LXVII), 88-91.
4. Achilova, S. (2020). PHONETIC AND PHONEMIC DISORDERS AND THEIR CORRECTION IN CHILDREN WORN OUT DYSARTHRIA. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 8(3).
5. Ачилова, С. Ж. (2020). КОРРЕКЦИОННО-ЛОГОПЕДИЧЕСКАЯ РАБОТА ПРИ ДИЗАРТРИИ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА. In *European research: innovation in science, education and technology* (pp. 109-111).
6. Умид Негматович Ходжамкулов. ПЕДАГОГИК ТАЪЛИМ ИННОВАЦИОН КЛАСТЕРИ (ЎЗБЕКИСТОН ТАЪЛИМ ТИЗИМИ МИСОЛИДА). *ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 1 | ISSUE 4 | 2020*.

### ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ПЕДАГОГИК ВА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ – ДАВР ТАЛАБИ

(Тил ўқитишга янгича ёндашиш мисолида)

*Тўйчиева Зулайҳо Ҳамроқуловна,  
Гулистон давлат университети ўқитувчиси*

XXI аср глобаллашув даврида ахборот коммуникация технологиялари ва интернет асри, жаҳон майдонида ва дунё бозорида тобора кучайиб бораётган рақобат асрига айланиб бориб, халқимиз ҳаётида буюк ўзгаришлар содир бўлмоқда. Барча жабҳада, жумладан, иқтисодий, маданий, илмий, соғлиқни сақлаш, айниқса, таълим жараёнидаги ҳеч кимнинг ҳаёлига ҳам келмаган мислсиз ўзгаришлар, ривожланишлар юз бермоқда. Таълим соҳасида олиб борилаётган туб ислохотлар ўз самарасини бермоқда.

Юртбошимиз Ш.М.Мирзиёев таъкидлаб ўтганидек, “Таълим ва тарбия, илм – фан, соғлиқни сақлаш, маданият ва санъат, спортни ривожлантириш масалалари, ёшларимизнинг чуқур билимга эга бўлиши, чет тилларини ва

замонавий ахборот-коммуникация технологияларини пухта эгаллашни таъминлаш доимий устувор вазифамиз бўлиб қолади”. [1]

Бугунги кунда янги педагогик ва инновациялар технологиялар тушунчаси тобора турмушимизга сингиб бормоқда. Ҳозирги пайтда таълим бериш жараёнида янги инновацион технологиялар яхши самара бермоқда. Катта ҳаётга қадам қўяётган ёш мутахассисни жамият талабларига жавоб берадиган, ўз касбини моҳир устаси сифатида ҳаётга тайёрлаш ва илмий салоҳияти билан етук инсон сифатида шаклланиши билан бир қаторда, уларга замонавий педагогик ва инновацион технологиялардан фойдаланиш усулларини шакллантиришдир. Демак, ёшларимизни таълим жараёнида янги педагогик ва инновацион технологиясиз тасаввур қилиш мумкин эмас, шундай экан ҳар бир таълим жараёни бевосита янги педагогик ва инновацион технологиялар орқали амалга оширилиши айни муддаодир. Айниқса, нутқ фаолият турларини шакллантиришда унинг аҳамияти каттадир. У талабаларни мустақил фикрлаш, мушоҳада этиш, ижодий фикрлай олиш, шунингдек дунёқарашини кенгайтиришга ўргатишда доимий самара беради.

Таълимнинг бугунги **вазифаси** ўқувчиларни кун сайин ошиб бораётган ахборот – таълим муҳити шароитида **мустақил равишда фаолият кўрсата олишга, ахборот оқимидан оқилна фойдаланишга ўргатишдан** иборатдир. Бунинг учун уларга узлуксиз равишда мустақил ишлаш имконияти ва шароитини яратиб бериш зарур[2].

Узлуксиз таълим тизимининг бош бўғини сифатида олий таълим тизимида ўқув фаолиятини модернизация қилиш масаласи бугунги кунда ўз ечимини кутаётган асосий масалалардан бири бўлиб қолмоқда. Бу ҳақда профессор Ж.Йўлдошев шундай дейди: “Умуман, ҳар қандай педагогик жараён ҳам педагогик тизим асосида кечади. Таълимдаги сифат ва самарадорликни ошириш фақат таълим тизимини модернизация қилиш, такомиллаштириш, узвийлик, узлуксизликни таъминлаш, ўқитувчи-педагогларни инновацион фаолиятда ишлашда ўқувчиларнинг фаоллигини ва масъулиятини ошириш билан боғланиб қолаверади”[3]. Демак, инновацион фаолият юритиш – давр талаби ва у ҳар бир педагогдан ўз фаолиятини инноватика фани ютуқлари асосида қайта кўриб чиқишини зарурат қилиб қўяди.

Ўқитиш методларининг бир қатор афзалликлари бор: ўқитиш мазмунини яхши ўзлаштиришга олиб келиш, ўз вақтида алоқаларни таъминлаш, тушунчаларни амалиётда қўллаш учун шароитлар яратилиши, ўқитиш усулларининг турли хил кўринишларини таклиф этиш, ўтилган материални яхши эслаб қолиш, мулоқотга киришиш кўникмасини такомиллаштириш, ўз-ўзини баҳолашнинг ўсиши, талабанинг предмет мазмунига ва ўқитиш жараёнига бўлган ижобий муносабати, мустақил фикрлай оладиган талабани шаклланишига ёрдам бериш, нафақат мазмунни ўзлаштиришга, балки танқидий ва мантиқий фикрлашни ҳам ривожлантириш ҳамда муаммоларни ечиш кўникмаларини шакллантириш.

Ўқув-тарбия жараёнида педагогик ва ахборот технологияларнинг тўғри жорий қилиниши ўқитувчининг бу жараёнда асосий ташкилотчи ёки

маслаҳатчи сифатида фаолият юритишига олиб келади. Бу эса ўқувчидан кўпроқ мустақилликни, ижодни ва иродали бўлиш каби сифатларни талаб этади.

Ҳозирги даврда содир бўлаётган инновацион жараёнларда таълим тизими олдидаги муаммоларни ҳал этиш учун янги ахборотни ўзлаштириш ва ўзлаштирган билимларни ўзлари томонидан баҳолашга қодир, зарур қарорлар қабул қилувчи, мустақил ва эркин фикрлайдиган шахслар керак.

Шунинг учун ҳам, таълим муассасаларининг ўқув-тарбиявий жараёнида замонавий ўқитиш услублари–интерфаол услублар, инновацион технологияларнинг ўрни ва аҳамияти беқиёсдир.

Инновацион технологиялар педагогик жараён ҳамда ўқитувчи ва ўқувчи фаолиятига янгилик, ўзгартишлар киритиш бўлиб, уни амалга оширишда асосан интерфаол услублардан фойдаланилади.

Интерфаол (“Интер” – бу ўзаро, “аст” - ҳаракат қилмоқ) –ўзаро ҳаракат қилмоқ ёки ким биландир суҳбат, мулоқот тартибида бўлишни англатади.

Бизнинг фикримизча педагогик технологиянинг энг асосий негизини – ўқитувчи ва ўқувчининг белгиланган мақсаддан қафолатланган натижага ҳамкорликда эришишлари учун танланган технология ёки усулларга боғлиқ. Ўқитиш жараёнида, мақсад бўйича қафолатланган натижага эришишда қўлланиладиган ҳар бир таълим технологияси ўқитувчи ва ўқувчи ўртасида ҳамкорлик фаолиятини ташкил эта олса, ҳар иккаласи ижобий натижага эриша олса, ўқув жараёнида ўқувчилар мустақил фикрлаб, ижодий ишлаб, изланиб, таҳлил этиб, ўзлари хулоса чиқара олсалар, ўзларига, гуруҳга, гуруҳ эса уларга баҳо бера олса, ўқитувчи эса уларнинг бундай фаолиятлари учун имконият ва шароит ярата олса, ана шу – ўқитиш жараёнининг асоси ҳисобланади.

Ҳар бир дарс, мавзу, ўқув предметининг ўзига хос технологияси бор. Ўқув жараёнидаги педагогик технология – бу аниқ кетма-кетликдаги яхлит жараён бўлиб, у йўналтирилган, олдиндан пухта лойиҳалаштирилган ва қафолатланган натижа беришга қаратилган педагогик жараёндир.

Педагогик мақсаднинг амалга ошиши ва қафолатланган натижага эришиш ўқитувчи ва ўқувчининг ҳамкорликдаги фаолияти, улар қўйган мақсад, танланган мазмун, услуб, шакл, яъни технологияга боғлиқ.

Ўқитувчи ва ўқувчининг мақсаддан натижага эришишида қандай технологияни танлашлари улар ихтиёрида, чунки ҳар иккала томоннинг асосий мақсади аниқ натижага эришишга қаратилган бўлиб, бунда ўқувчиларнинг савияси, гуруҳ характери, шароитига қараб ишлатиладиган технология танланади. Масалан, натижага эришиш учун балки компьютер билан ишлаш лозимдир, балки фильм (ёки тарқатма материал, чизма ва плакат, ахборот технологияси, турли адабиётлар) керак бўлиши мумкин. Буларнинг ҳаммаси ўқитувчи ва ўқувчиларга боғлиқ. Шу билан бирга ўқув жараёнини олдиндан лойиҳалаштириш зарур. Бу жараёнда ўқитувчи ўқув предметининг ўзига хос томонини, жой ва шароитни, энг асосийси,



Ўқувчиларнинг имкониятини ҳам ҳисобга олиши керак. Шундагина керакли кафолатланган натижага эришиш мумкин.

Ҳозирда таълим жараёнида қўлланиб келинаётган интерфаол усулларни кўплаб келтириш мумкин. Жумладан, зинама-зина технологияси, чархпалак технологияси, бумеранг технологияси, 3x4 технологияси, лабиринт, ФСМУ (фикрингизни баён этинг, сабаб кўрсатинг, мисол келтиринг, умумлаштиринг) технологияси, бахслашув технологияси, мулоқот технологияси, тушунчалар таҳлили усули, блиц-сўров усули, суҳбат усули ва бошқалар. Уларни дарс машғулотларида қўллаш фан ва мавзулар мазмунига ва ўқитувчининг билими, тажрибаси ва педагогик маҳоратига боғлиқ.

Ўқитувчи томонидан ҳар бир дарсни яхлит ҳолда кўра билиш ва уни тасаввур этиш учун бўлажак дарс жараёнини лойиҳалаштириб олиш керак. Бунда ўқитувчи учун бўлажак дарснинг технологик харитасини тузиб олиши катта аҳамиятга эгадир, чунки дарснинг технологик харитаси ҳар бир мавзу, ҳар бир дарс учун, ўқитилаётган предмет, фаннинг хусусиятидан, ўқувчиларнинг имконияти ва эҳтиёжидан келиб чиққан ҳолда тузилади.

Маълумки, ҳар бир фан ўқитувчиси дарс мазмунини ўқувчилар тўлиқ ўзлаштирсин, ўз билим, малака ва кўнималарига эга бўлсин деган мақсад билан дарсни бошлайди. Бу эса ўқитувчининг дарсдаги фаоллиги, педагогик ва инновацион технологиялардан самарали фойдаланишни тақозо этади.

Олий таълим тизимида дарсларда интерфаол усуллардан фойдаланиб дарс машғулотларини олиб боришда ахборот технологиялари, жумладан компьютер ва унинг техник воситаларидан фойдаланишнинг ўзига хос афзалликлари мавжуд. Масалан, “Ҳозирги ўзбек адабий тили” фанининг энг катта бўлимларидан бири морфологиядир. Бошқа тил сатҳлари сингари морфологияни ўрганишда ҳам кўзланадиган асосий мақсад, талабаларнинг сўз хазинасини янги сўзлар билан тўлдириш, уларнинг нутқида кам қўлланиладиган сўзларни истемол сўзларга айлантириш, улардан тўғри ва ўринли фойдаланиш малакаларини шакллантириш, ҳар бир талабани мустақил фикрлаш, қиёслаш, анализ қилиш, топшириқларни мустақил бажариш ва сўроқларга аниқ жавоб топишга ҳозирлаш амалий машғулотларнинг асосий мақсадидир. Амалий машғулот учун тайёрланган материаллар замон талабларига тўла жавоб бериши ва талабалар томонидан морфология бўлимини чуқурроқ ўрганишга, назарий билимларга эга бўлиш ва уларни ривожлантиришга йўналтирилган бўлиши керак.

Масалан, “Отнинг функционал формалари” мавзусини ўтишда талабалар отнинг функционал формаларининг грамматик маъноси ва морфологик белгилари билан танишадилар. Отнинг функционал формаларига хос маъно ва синтактик хусусиятларни кенг ўрганиш назарий ва амалий жиҳатдан муҳимдир. Бу машғулот функционал формаларнинг грамматик – лексик ва функционал хусусиятларини тўлиқроқ билиб олишга ёрдам беради. Ушбу мавзу бўйича талабаларнинг билимини мустаҳкамлаш ёки баҳолашда интерфаол усуллардан “Зинама-зина” технологияси ёки “Бумеранг” технологиясини қўллашни кичик гуруҳларда амалга ошириш учун

аввало 3 - 5 кишидан иборат кичик гуруҳларга ажратади ва ҳар бир кичик гуруҳ сардори ўқитувчи столидаги саволлар берилган қоғоздан бирини олишни тавсия этилади.

Масалан,

1-савол. Функционал форма нима? От, сифат, сон, феъл ва равишнинг функционал формалари ўргасидаги умумий ва хусусий белгилар нимадан иборат?

2-савол. Отга хос функционал формаларнинг қандай типлари бор? Улар қандай грамматик хусусиятлари билан бир-биридан фарқланади?

3. Функционал форма ясовчи аффиксларнинг маъноси ва морфологик белгилари билан боғлиқ ҳодисаларни тасвирлашда қандай терминологик ҳар хилликлар бор?

Ўқитувчи ҳар бир кичик гуруҳга 5 дақиқа ичида ушбу топшириқни бажаришни талаб этади. Кичик гуруҳни ташкил этган талабалар бир – бири билан фикрлашган ҳолда берилган саволга мос сўзларни берилган қоғозга ёзадилар. Белгиланган вақт тугагандан сўнг, ўқитувчи бирин – кетин кичик гуруҳлар жавобини айтиб беришни таклиф қилади ва уларнинг жавоблари асосида кичик гуруҳни баҳолайди. Ўз навбатида саволларга жавоб беришда баъзи бир камчиликлар бўлса шу гуруҳнинг ўзидан бошқа ўқувчи тўлдириши ёки кейинги гуруҳ ўқувчилари тўлдиришини таклиф қилиш ҳам мумкин. Уларнинг жавобларини ҳам ўқитувчи назардан четда қолдирмаслиги лозим.

Дарсни мустақамлаш ёки ўтилган дарс бўйича ўқувчилар билимини баҳолашда юқорида санаб ўтилган интерфаол усулларнинг қайси биридан фойдаланиш дарснинг мазмуни ва ўқитувчининг маҳоратига, тажрибасига, билимига боғлиқ.

Шунингдек, ишланмани ахборот технологиялари имкониятларидан фойдаланиб ҳам талаба (ўқувчи)ларга етказиш ва ўз-ўзини баҳолашга ўргатиш мумкин. Талабалар билимини тезкор аниқлашнинг бу каби бир қанча усуллари бор бўлиб, уларни ўз ўрнида ишлатиш ўқитувчининг тажрибаси, маҳорати ва билим даражасига боғлиқ.

Хулоса қилиб айтганда, дарс жараёнида янги педагогик технологиялар ва инновацион усуллардан фойдаланиш натижасида:

- ўқувчиларнинг билим олишга интилиши ошади;
- мустақил фикрлаш қобилияти ривожлана боради;
- эркин фикрлашга ўрганади;
- дарсга бўлган қизиқиши ошади;
- бошқалар фикрини эшитишга ва ҳурмат қилишга ўрганади;
- ўз фикрини мустақил айта олишга ўрганади;
- кўпроқ ўз устида ишлашга ўргатади;
- компьютер билан ишлаш малакаси ошади;
- компьютер ва унинг қурилмалари вазифаси ҳақидаги билимга эга бўлади ва ҳ.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Мирзиёев Ш.М. “Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз”. – Т.: Ўзбекистон, 2017, 16-б. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Қонунчилик палатаси ва Сенатнинг қўшма мажлисидаги нутқи. 2016 йил, 8- сентябрь.
2. Ишмухамедов Р., Абдуқодиров А., Пардаев А. Таълимда инновацион технологиялар. –Т. “Истеъдод”, 2008. -180 б.
3. Йулдошев Ж. Педагогик инновациялар. - Т., Низомий номидаги ТДПУ, 2010.

**Синфда тарбиявий ишларни тўғри ташкил қилиши**

*Бекетов Нурсейт Алижон ўгли,  
Тошкент вилояти Чирчиқ давлат  
педагогика институти ўқитувчиси*

Ўқувчилар катта ўсмир ёшига етганда уларнинг жисмоний ва рухий ривожланиш даражалари бирмунча ортади. Катта ўсмирларнинг ички дунёси ва ҳаёт шароитларида тубдан ўзгаришлар юз беради. Бу ёшда ўқувчиларнинг ижтимоий-сиёсий масалаларга нисбатан ҳам қизиқиши кучая бошлайди. Синф раҳбари бу пайтга келиб ўқувчиларга этика қоидалари ҳақида ҳам тушунча бериши, уларнинг ахлоқий тарбиясини мақсадга мувофиқ йўналтириши, уларда ўз-ўзини тарбиялаш ва мустақил мутолаа қилишга интилишни ошириши мақсадга мувофиқ саналади. Бунда мазкур ёшдаги ўқувчиларда характерли хусусият шахснинг ахлоқий сифат ва хусусиятлари моҳиятини 4-6 синф ўқувчиларига қараганда бирмунча чуқурроқ тушуниш, шунингдек, ўз шахсининг хусусиятларини чуқурроқ англаб етиш ва ўз-ўзини тарбиялашга эҳтиёж сезиш эканини унутмаслик керак. Шунга боғлиқ ҳолда ўқитувчилар ўқувчиларнинг ахлоқий намуналарни қидиришни, уларда ахлоқий идеалларни шакллантиришни фаоллаштирадilar. Бу эса ўқувчиларнинг ўз-ўзини тарбиялашини бирмунча юқори босқичга кўтаради ва уларнинг тарбияланиши, ўсиши ва улғайиши учун янги қулай шароит яратади. Шу сабабли ўсмирларни шахснинг ижобий хусусиятларининг шаклланишига ёрдам берадиган фаолиятга тортиш учун шароит яратиб, уларнинг ўзларини тарбиялашларига раҳбарлик қилиш муҳимдир.

Синф раҳбарлари 7-синфга ўтиш олдида ўқувчиларда кўпинча ўқишга нисбатан барқарор қизиқиш ва майл сезилиб туришини, исталган фанга оид билимини кенгайтириш ва чуқурлаштиришга интилиш пайдо бўлишини, фаннинг турли соҳаларига, жумладан, адабиёт, техника ва санъатга қизиқиши аниқланишини ҳисобга олиши лозим. Бу даврга келиб ўқувчилар келажакда қайси касб эгаси бўлиши ҳақида ўйлай бошлайди. Бунинг натижасида уларнинг ўқишга нисбатан қизиқишлари ҳам бир-бирдан фарқлана бошлайди. Бироқ касб танлаш борасидаги уларнинг қизиқишлари бу ёшда нисбатан беқарор бўлади. Унга тасодифий ҳолатлар, яъни ўқилган китоб,

кўрилган фильм ва ҳатто бирор фандан олаётган кундалик баҳоси ҳам сабаб бўлиши мумкин. Бу эса синф раҳбарларидан ўқувчиларнинг касб танлаш борасидаги қизиқишлари ва майлларини мунтазам қувватлаб ва ўстириб боришини тақозо этади. Айни шу ёшдан бошлаб синф раҳбарларидан ўқувчиларга касблар ва соҳалар, уларнинг мазмун-моҳияти ва жамиятда тутган ўрни ва мавқеи ҳақида тўлиқроқ маълумотларни беришлари талаб этилади.

Ўқувчиларнинг юқори синфларга ўтиши ва ижтимоий ҳамда табиий-математика фанларини ўзлаштириши ва ижтимоий фаоллашуви таъсирида уларда борлиққа нисбатан қарашларида тизимлашиш жараёни кузатилади. Хусусан, диалектик дунёқараш, касбий барқарорлашув, меҳнатсеварлик фазилатлари кузатила бошлайди. Шунингдек, уларда оилага, ота-онасига нисбатан илгари кузатилмаган майллар, жамоадошларини қадрлаш, Ватанга ҳурмат ва ватанпарварлик фазилатлари, жаҳон геосиёсий майдонида кузатилаётган жараёнларга нисбатан муносабатнинг шаклланиши натижасида фуқаролик масъулияти ҳисси орта боради. Айни шу жараён ҳам синф раҳбаридан уларда шаклланаётган мазкур фазилатларни тўғри йўналтиришни талаб қилади. Бунинг учун синф раҳбарлари куйидаги йўналишлардаги чора-тадбирларни амалга ошириши тавсия этилади:

- ўқувчиларнинг фуқаролик бурч ва масъулият борасидаги тушунчаларини такомиллаштириш;
- оила масъулияти борасида суҳбатлар ташкил қилиш;
- жамоа билан ишлаш, жамоада ўз мавқеига эга бўлиш борасидаги тасаввурларини бойитиш ва кўникмаларини ривожлантириш;
- ватанпарварлик фазилатларини шакллантиришга қаратилган чора-тадбирлар мажмуини амалга ошириш;
- ўқувчиларнинг сиёсий маданиятини шакллантиришга қаратилган давра суҳбатлари, учрашувлар ташкил қилиш.

Умумтаълим мактабларининг юқори синф ўқувчиларининг камол топишида унинг ўзини англаши ва ўзини-ўзи белгилашга интилиши ошганлигини кўрсатадиган янги ижтимоий мавқеи жуда муҳим ҳисобланади. Ўқувчиларда “Ҳаётнинг маъноси нимада?”, “Кишининг ҳақиқий бахти нимада?”, “Менинг қобилият ва имкониятларим, ҳаётдаги ўрним қанақа?” сингари келажагига дахлдор саволлар уларни ҳаяжонга солади. Синф раҳбарлари бундай вазиятларда ўқувчиларнинг ёш хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда ёшларга, мактабни битишлари биланок ижтимоий фаолиятга фаол аралашиб кетишлари учун ўз ўринларини тўғри белгилаб олишларига ёрдам бериши зарур.

Умумтаълим мактаблари юқори синф ўқувчиларини тарбиялашда жамоанинг умумий фикри асосий таянч омил сифатида қаралади. 10 синфга келиб синфда ўқувчилар таркибида жиддий ўзгаришлар кузатилади. Айрим ўқувчиларнинг ўрта махсус ва бошланғич ҳамда ўрта профессионал таълимга ўтишлари натижасида 10 синфлар қайта шакллантирилади. Синфларга турлича тарбияланган янги ўқувчилар келади, бу синфнинг умумий

тарбиявий муҳитига жиддий таъсир қилади. Шу туфайли ҳар бир шахс ва яхлит жамоанинг қай даражада тарбияланганлигининг намоён бўлиши, мустаҳкам ва мақсадга йўналтирилган жамоанинг шакллантирилиши катта ёшдаги мактаб ўқувчиларининг қизиқиш ва қобилиятлар фарқланишининг ортиши натижасида синф жамоасидаги айрим ўқувчиларнинг ўрни кескин ўзгаради. Баъзилар ўз билимлари билан катталар ва ўртоқлари орасида эътибор қозонадилар, жамоат ишларининг кўпроқ қисмини бажарадилар, бошқалар эса фанларни бўш ўзлаштирадилар, жамоат олдидаги ишларидан бўйин товлайдилар, ўзларидан қониқмасликлари ва кўнгиллари тўлмаслигини ҳис этадилар. Бундай шароитда вазифаларни бир текис тақсимлаш жамоада ҳар кимнинг ўзига ишониш, ўз қобилиятини кўрсатиш имкониятини таъминлайди. Шундай экан, катта синф ўқувчилари билан иш олиб борувчи синф раҳбарларидан бу борада нозик муносабатлар тизимини тўғри йўлга қўйиши талаб этилади.

Ўқувчиларнинг ҳаётда ўз ўрнини белгилашга интилиши ўзида олийжаноб мақсадга, ахлоқ тушунчаси ва категорияларини чуқур тушуниш ва уларни маълум тизимга солишга жавоб берадиган сифатларни ҳосил қилиш эҳтиёжини келтириб чиқаради. Лекин юқори синф ўқувчисида баъзан ахлоқ тушунчаси билан хулқ-атвор ўртасида узилиш, ҳаётда ахлоқий олийжанобликка эриша билмаслик кузатилади. Айрим ўқувчилар тенгдошлари жамоасида мустаҳкам ўрнашишга, мустақилликлари ва ўзларини бошқалардан ажралиб туришларини намойиш этишга уриниб, кўполлик қиладилар, кўр-кўрона тақлидга, нигилизмга бериладилар: ўқувчи кизлар ва ҳатто йигитларда ҳам ўзгалар диққатини ўзига тортишга интилиб, мода кетидан қувиш ва дидсиз кийиниш ҳолатлари кузатила бошлайди. Бундай ҳолларда юқори синф ўқувчиларида эстетик дид ва маданиятни тарбиялаш устида ишланиши лозим бўлади. Моданинг расм бўлишига шубҳали муносабатда бўлиш ярамайди, ёшлар хулқ-атворида дид ва маданиятни тарбиялашда чидам кўрсатиш муҳимроқ ҳисобланади.

Синф раҳбарлари юқори синф ўқувчиларини тарбиялашда уларнинг ахлоқий тажрибасини фақат мактаб ҳаёти жараёнида эмас, балки уларнинг алоқа-аралашув доираларини кенгайтириш воситаси билан мустаҳкамланишига эришиш, ўқувчилар билан олиб бориладиган ишларни ахлоқ этикаси ва эстетикасини ўзлаштириш уларнинг ўқувчи сифатидаги фаолиятининг таркибий қисми бўладиган қилиб уюштириш муҳимдир.

Бу давр ўқувчилар учун дастлабки майлларнинг уйғониши, биринчи муҳаббат даври бўлиши билан ҳам масъулиятлидир. Ўқувчилар дўстлик, олижаноб идеалларга содиқликка катта аҳамият берадилар. Шахсий муносабатларда софлик ва садоқатлилиқни бузиш, фаолиятда ва мақсадга эришишда муваффақиятсизлик, кишилардан ихлоснинг қайтиши ёшларда оғир кечинмалар ахлоқий бузилишини келтириб чиқаради, асосланмаган умумлаштириш ва негатив қарашларнинг содир бўлишига олиб келади.

Юқори синф ўқувчиларида ўқитувчиларнинг, шу жумладан, синф раҳбарларининг фаолиятига нисбатан шахсий муносабатлари шакллана



бошлайди. Улар ўқитувчилар ва синф раҳбарларининг умумий маданиятини, эрудициясини юқори баҳоласалар-да, хусусий ҳолларда, бирор масаладан хабардор эмаслигини ҳам кечирадилар-у, аммо уларнинг бағритошлигини, лоқайдлигини, сўзи ва ишининг мувофиқ келмаслигини кечири олмайдилар. Шу сабали ўқувчилар билан ички алоқани сақлай билиш, уларнинг кечинма ва изланишларини тушуниш, уларга ўз вақтида ёрдам бериш, қийин вазиятдан қутулишини кўрсата билиш юқори синф ўқувчиларини тарбиялашда қўл келади. Ўқувчиларнинг интим қизиқишлари доирасига катталарнинг кўпол равишда аралашувлари ёшларни улардан узоқлаштиради, катталарнинг сўз ва масалаҳатларига нисбатан салбий муносабатни келтириб чиқаради. Юқори синф ўқувчиларини тарбиялаш катталардан ўта нозик муносабатни талаб этади.

Юқори синф ўқувчиларига берилган жамоат топшириқлари ва бурчларини бажаришларида синф раҳбарлари томонидан раҳбарлик қилишда ҳам муайян ўзгаришлар кузатилади. Бунда уларга муайян даражада мустақиллик бериш, ташаббускорлик қилишига имкон бериш билан бирга буйруқлар ўрнини маслаҳат ва тавсиялар билан алмаштириш мақсадга мувофиқ. Назорат қилишни эса маълум даражада ўқувчиларнинг ўзларига юклатиш яхши натижа беради.

Ўқувчиларни ҳар томонлама уйғун камол топтириш мақсади ва уларнинг ёш хусусиятларидан келиб чиқиб, синф раҳбарлари бир қатор аниқ масалаларни ҳал қилишлари лозим бўлади:

- ўқувчилар ривожланишининг барча ёш босқичларида синф жамоаси муҳити ўзгаради, уларнинг таркиби такомиллашади, аъзоларнинг ҳаётий тажрибалари бойийди, булар синф раҳбарлари тарбиявий фаолиятининг мазмуни, шакл ва методларида муайян ўзгаришлар бўлишини тақозо этади;

- синф раҳбари мактаб ўқувчиларида теварак-атрофга қизиқиш уйғотади, уларнинг қизиқувчанлигини қондиради, уларда дунёқарашни шакллантиради, меҳнатсевар ва ишчан, ўзининг ижтимоий бурчини биладиган, адолатли ва соф, нолайиқ хатти-ҳаракатлар, ҳаётдаги салбий ҳодисаларга лоқайд қараб тура олмайдиган қилиб тарбиялашлари лозим;

Синф раҳбарининг маълумоти ва тарбияланганлиги унинг ғоявий эътиқоди ва маънавий камолоти, ўз педагогик фаолиятида амал қиладиган тўғри тарбиявий муносабатлар ўқувчиларни ватанпарварлик руҳида тарбиялаш ишига кўмаклашади. Синф раҳбари тарбиявий ишларининг самарадорлиги ўқувчилар ҳаётини, уларнинг тарбияланганлик даражасини кузатиш натижалари, ўқув, таълим ва ижтимоий фаолиятларига муносабатлари, шунингдек, ўқувчилар ва уларнинг ота-оналари билан олиб бориладиган ишлар ва суҳбатларни кўриб чиқиш йўли билан белгиланади.

Умуман, синф раҳбари ўзига бириктирилган синфда тарбиявий ишларни тўғри ташкил қилиши учун тарбия санъатини яхши билиши лозим. Мактаб раҳбарияти синф раҳбарларига тажрибали ўқитувчиларни бириктириш орқали уларга кўмак беришлари лозим. Тарбия жараёнини қарама-қаршиликларсиз, силлиқ борадиган жараён деб бўлмайди. Шу

сабабли синф раҳбарларига бу қарама-қаршиликларни қандай қилиб йўқотиш, ўқувчиларни қайта тарбиялаш ва ўз-ўзини тарбиялашни қандай уюштиришда тажрибали ўқитувчиларнинг маслаҳатлари зарур бўлади. Мактаб раҳбариятига синф раҳбарлари ишини мунтазам назорат қилиб бориш бамайлихотирликка барҳам беради, эришилган натижаларни мониторинг қилиш имконини беради. Мониторингнинг мақсади синф раҳбарлари ишини педагогик кенгашларда муҳокама қилиш учун эмас, балки синф раҳбарларига ёрдам беришга қаратилиши лозим.

### ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Узлуксиз маънавий тарбия концепцияси. Тошкент, 2020 йил.
2. Маҳкамов У., Исмоилова Д. Тарбия – юксак маънавият бешиги // Academic research in educational sciences, VOLUME 1 | ISSUE 4 | 2020 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2020: 4.804.
3. Сарсенбаева Р.М. Тарбиявий ишлар методикаси. Ўқув-услубий мажмуа. (ТДПУ Кенгашининг 2020 йил 27 августдаги 1/3.6-сонли қарори билан нашрга тавсия қилинган. Т.: Университет, 2020.
4. Педагогика фанидан изоҳли луғат (муаллифлар жамоаси). Т.: Фан, 1989 й.
5. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. Т. «Ўзбекистон», 2000 йил.
6. Тиллашев Х.Х.Общейе педагогическийе и дидактическийе идеи ученних енциклопедистов ближнего и Средного Востока эпохи средновековая. Ташкент: Фан. 1989
7. Ҳошимов К. Педагогика тарихи. Олий ўқув юртлари ва университетлар талабалари учун ўқув қўлланма. – Тошкент, Ўқитувчи, 1996.
8. А.Авлоний. Одоб бўстони ва ахлоқ гулистони. – Тошкент, Ўқитувчи, 1994.

### NUTQ O‘STIRISH MASHG‘ULOTLARINI IJODIY TASHKIL QILISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

*Nuraddinova R.S.,  
UrDU doktoranti*

Mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, ilg‘or xorijiy tajribalarni hisobga olgan holda samarali ta’lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta’limning innovatsion tizimini tashkil etish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Chunki O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta’kidlaganidek, bola dunyoga kelganidan boshlab, unda aynan maktabgacha bo‘lgan yoshda aqliy faollik oshadi, axloqiy-estetik va jismoniy xislatlar shakllanadi. [1] Shunga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida “maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan

rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish" [2] kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Bu vazifalarni amalga oshirish maktabgacha yoshdagi bolalarni davlat talablariga muvofiq nutqini o'stirish, mustaqil fikrlashini shakllantirish bo'yicha ta'lim berish dasturlarini ishlab chiqish hamda bolalarning nutqini o'stirishga qaratilgan tizimli ishlarga innovatsion yondashish dolzarbligini ko'rsatmoqda.

Maktabgacha ta'limga kompetensiyaviy yondashuv o'sib borayotgan bola shaxsini hayotga tayyorlash, unda hayotiy muhim masalalarni hal qilish uchun zarur bo'lgan, axloqiy me'yori va qadriyatlarni o'zlashtirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, "Men" obrazini qurish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat usullarini shakllantirishga tayyorgarlikni ko'zda tutadi. [3]

Boshlang'ich muhim kompetensiyalar bolaning faoliyat va axloq subyekti sifatidagi yaxlit rivojlanishini talab etadi. Maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning umumiy muhim kompetensiyalaridan biri kommunikativ kompetensiya, ya'ni muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko'nikmasi hisoblanadi. Kommunikativ kompetensiya bevosita nutq o'stirish mashg'ulotlarida shakllantiriladi. Shu bois bolalarning nutqiy faolligini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishga alohida e'tibor berilib, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining yosh va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda maqsadga yo'naltirilgan "Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari" sohasi kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan nutq o'stirish mashg'ulotlarini ijodiy tashkil qilish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarni har tomonlama, ya'ni jismoniy, aqliy, axloqiy, estetik tomondan tarbiyalashdek maqsad qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim konsepsiyasi"da ko'rsatib o'tilganidek, maktabgacha ta'lim bu ko'p tomolamalai, maqsadga yo'naltirilgan, bolani ta'limning keyingi bosqichi- maktab ta'limiga tayyorlovchi, jismoniy, ruhiy, individual va yoshga doir rivojlanishini ta'minlovchi ta'lim va tarbiya jarayonidir. Maktabgacha ta'lim oldiga qo'yilgan maqsadlar bolalarga ona tilini o'rgatish jarayonida amalga oshiriladi. A.A. Leontyev bola nutqini rivojlantirish, eng avvalo, til qobiliyatini shakllantirishni talab qiluvchi muloqot shakllarini rivojlantirish ekanligini ta'kidlaydi. [4]

Nutqni egallab olishning eng muhim bosqichlari maktabgacha yoshga to'g'ri keladi. Zero, maktabgacha ta'lim bola so'g'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlaydi. Unda o'qishga intilish hissini uyg'otadi hamda uni muntazam ta'lim olishga tayyorlaydi. Shu bois maktabgacha ta'limda bolalarga ta'lim va tarbiya berishda eng asosiy vazifalardan biri bolalarga ona tilini o'rgatish, nutqini rivojlantirish, nutqiy munosabatga, muomalaga o'rgatishdir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida og'zaki nutqni o'stirish natijasida bolalar aqlan rivojlanib, umumiy madaniy saviyasi oshadi. Ular tevarak-atrofdagi voqea-hodisalar, tabiat va jamiyat qonuniyatlarini tushunib boradilar. Bolalarda nutqning rivojlanishi ularning ruhiy jihatdan ham takomillashib borishiga yordam beradi.

Bugungi kun talablaridan kelib chiqib, nutq o‘stirish mashg‘ulotlarini ijodiy tashkil etish eng dolzarb masalalardan biridir. Shu o‘rinda biz “ijod”, “ijodiy tashkil etish” tushunchalariga to‘xtalib o‘tishni lozim ko‘rdik.

Ijod - insonning yangi moddiy va ma‘naviy ne‘matlar yaratish faoliyati. Unda inson tafakkuri, xotirasi, tasavvuri, diqqati, irodasi faol ishtirok etadi, butun bilimi, tajribasi, iste‘dodi namoyon bo‘ladi. Ijod fan-texnikani, madaniyatni boyitadi, rivojlantiradi. Ijodni shartli ravishda ikkiga: ilmiy ijod va badiiy ijodga ajratish mumkin. Ijodning taraqqiy etishida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlari hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Ijod muammolariga fiziologik, psixologik nuqtayi nazardan yondashishni V.M.Bexterov, S.O.Gruzenberg, V.V.Savich kabi qator olimlarning ilmiy izlanishlarida uchramiz. V.M.Bexterovning ta‘kidlashicha, har qanday ijod uchun kishida qobiliyat va tarbiya bo‘lishi lozim. Ijod qilish malakalari rivojlangan, tarbiyalangan kishilardagina mavjud bo‘lib, ulargina ijodkorlik — yaratuvchanlik bilan shug‘ullana oladi. A.N.Leontev ijodiy faoliyatni bilishga oid g‘oya, prinsipni hal qilish jarayoni, deb talqin etsa, B.M.Kedrov ilmiy ijodiyotni kompleks muammo shaklida tavsif qiladi. Haqiqatan ham ijod ko‘p faktorli sotsiologiya, falsafa, fannunoslik, logika, fiziologiya, psixologiya, pedagogika o‘rganadigan hodisadir.

Ma‘lumki, ta‘lim -bu o‘qitish (o‘qituvchi (tarbiyachi) faoliyati) va o‘qish (o‘quvchi (bola) faoliyati) faoliyatlarining birligi, bir-biriga kirishuvi, o‘zaro ta‘siri demakdir. “Tashkil etish” iborasi ikki xil ma‘noda qo‘llanadi: a) tadqiqot darajasida - o‘ziga xos tizim bo‘lib, tarkiban tadqiqotchi, o‘qituvchi va o‘quvchilar jamoasini qamrab oladi. Tanlangan ilmiy tadqiqot mavzusi doirasida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatning yuzaga chiqishi, amal qilishini tashkil etish deb qaraymiz; b) ta‘lim darajasida - o‘quvchi bilan o‘quv materiallari o‘rtasidagi munosabatlarning yuzaga chiqishi, amal qilishi tushuniladi.

Ijodiy tashkil etish - amaldagi me‘yoriy qoida, qolip, prinsiplar doirasidan chiqib ta‘limni tashkil etish demakdir. Maktabgacha ta‘limdagi nutq o‘stirish mashg‘ulotlarini ijodiy tashkil etish o‘quv-tarbiya jarayoniga yangicha zamonaviy yondashuvni, pedagogik amaliyotni yangicha yo‘lga qo‘yishni taqozo etadi. Bunday yutuqqa bolaga ta‘limning faol subyekti sifatida yondashish yo‘li bilan erishiladi.

Hozirgi davrda maktabgacha ta‘lim tashkilotlarining ta‘lim-tarbiyaviy jarayonlariga zamonaviy yondashuv, ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanishga e‘tibor kuchaymoqda. MTT larda nutq o‘stirish mashg‘ulotlarini ijodiy tashkil qilinishi, har qanday pedagogik texnologiyalarning o‘quv-tarbiya jarayonida qo‘llanilishi shaxsiy jihatdan kelib chiqqan holda tinglovchini kim o‘qitayotganligi va pedagog kimni o‘qitayotganiga bog‘liq bo‘lishi shubhasizdir.

Nutq o‘stirish mashg‘ulotlarini tashkil qilishga innovatsion yondashuv unda interfaol uslublarni, zamonaviy ta‘lim vositalarini, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq qilishni taqozo etadi.

Nutq o‘stirish mashg‘ulotlarini ijodiy tashkil qilish ham tarbiyachining innovatsion faoliyati bo‘lib, u o‘qitishning interfaol uslubiyotlari - bilish va

kommunikativ faoliyatni tashkil qila bilishning maxsus shakli b'olib, unda ta'lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilinadilar. Ijodiy tashkil qilingan interfaol mashg'ulotlarda tarbiyachining o'zni qisman tinglovchilarning faoliyatini mashg'ulot maqsadlariga yo'naltirishga olib keladi.

Nutq o'stirish mashg'ulotlarni ijodiy tashkil etishda har bir tarbiyachi didaktik talablar asosida unga innovatsion yondashishi kerak. Bunda maktabgacha ta'limda nutq o'stirish mashg'ulotlarini tashkil etish amaliyotiga turli yangiliklar kiritiladi. Tarbiyachining mashg'ulotni ijodiy tashkil qilishga tayyorgarligi quyidagi uch bosqichda amalga oshiriladi: tashxislash, bashoratlash, loyihalashtirish (rejalashtirish). Shu bilan birga tarbiyachi amaliy materiallarni yaxshi bilishi, mashg'ulotni erkin olib borishga erishishi lozim. Mashg'ulotga tayyorgarlik asosini bo'lajak mashg'ulotning algoritmlari, samaradorligi bog'liq bo'lgan omillar va holatlarni hisobga olishni ta'minlovchi qadamlarni ketma-ket tartib bilan bajarish tashkil etadi.

Nutq o'stirish mashg'ulotlarini ijodiy tashkil etish uchun uning maqsad, vazifalarni aniq belgilash, ta'lim natijasini qayd eta olish, ta'lim materialining to'liq o'zlashtirilishiga erishish uchun zaruriy ta'lim vositalari, shart-sharoitlarini tayyorlash juda muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.- <https://uzlidep.uz/uz/news-of-uzbekistan/7998>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" qarori. – Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 10.05.2019-y., 07/19/4312/3106-son; 09.10.2020-y., 07/20/4857/1357-son
3. Ilk qadam" Maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturi.- Toshkent, 2018.
4. Леонтьев А. Н. Психическое развитие ребенка в дошкольном возрасте / Возрастная и педагогическая психология: М.: Изд-во Моск. ун-та, 1992. С. 42-50.

#### **ALPOMISH" DOSTONINI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

*Soliyeva Kamola Abdumalikovna,  
Buxoro viloyati G'ijduvon tumani  
"The school of mathematical academy"  
xususiy o'qituvchisi, BuxDu magistranti*

O'zbek xalqi boy merosga ega. Adabiy merosimizning asosiy qismini xalq og'zaki ijodi tashkil qiladi. Og'zaki poetik ijodning badiiy jihatdan mukammali va



hajman yirigi o'zbek xalq dostonlaridir. O'zbek xalq dostonlari o'zbek folklorshunosligida ilmiy ko'lamda fanning nazariy yo'nalishi bo'yicha tadqiq qilingan bo'lsa ham, ularni ta'lim tizimida o'rganish, ayniqsa, umumiy o'rta ta'lim maktablari darsliklarida o'qitish uslubiyati monografik yo'nalishda o'rganilmagan. Shu sababli xalqimiz ma'naviyati, qadriyati, urf-odatlarini, yashash tarzi bilan bog'liq xalq dostonlarini umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'rganish va bu sohada biror ilmiy innovatsion texnologiya joriy qilish bugungi kun adabiyot o'qitish metodikasining dolzarb masalalaridan sanaladi. Bugungi zamonaviy pedagogik texnologiyalar taraqqiy etayotgan davrda —Alpomish dostonini interfaol usullar orqali yangicha nuqtai nazardan amaliy tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Xalq dostonlarining sara namunasi bo'lgan —Alpomish dostoni xalqimizning bebaho ma'naviy boyligi hisoblanib, yosh avlodni komil inson qilib shakllantirishda muhim tarbiyaviy vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli o'rta maktab o'quv dasturiga kiritilgan xalq og'zaki ijodi janrlarini chuqur va har tomonlama o'rganish bir tomondan, o'quvchilarga xalqimiz tarixi, ma'naviyati va og'zaki ijodiga bo'lgan qiziqishni uyg'otsa, ikkinchi tomondan ajdodlar kabi yurtga, Vatanga, xalqiga bo'lgan mehr-muhabbatni yanada kuchaytiradi. Atoqli xalq baxshisi Fozil Yo'ldosh o'g'lidani yozib olingan —Alpomish dostoni xalqimizning ana shunday noyob adabiy meroslaridan biridir. Millatni anglash uchun uning ruhiyatini bilish lozim. Alpomish dostoni o'zbekning ruhiy olamini anglatish jihatidan tengsiz badiiy obidadir. Chunki, asarda o'zbekka xos o'ylash tarzi, ta'sirlanish yo'sini, qarorga kelish tutumi g'oyat nozik ilg'ab olingan. Juda ko'pchilik folklorshunoslar, odatda, markazlashgan davlat tuzish, bo'lingan yurtni birlashtirish, sevgi-muhabbat mavzulari —Alpomish dostonining sujet rivojini ta'minlaydi deb tushuntirishadi. Ta'limning bugungi vazifasi o'quvchilarni kun sayin oshib borayotgan axborot ta'lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iboratdir. Buning uchun ularga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish zarur. Pedagogik texnologiyani fan sifatida e'tirof etish K.K Selevko tomonidan ham ma'qullandi: —Pedagogik texnologiya o'qitishning birmuncha oqilona yo'llarini tadqiq qiluvchi fan sifatida ham, ta'limda qo'llaniladigan usullar, prinsiplar va regulyativlar sifatida ham, real o'qitish jarayoni sifatida ham mavjuddir [2]. Bunday texnologik xaritaning tuzish oson emas, chunki buning uchun oqituvchi pedagogika, psixologiya, xususiy metodika, pedagogik va axborot texnologiyalardan xabardor bo'lishi, shuningdek, juda ko'p metodlar, usullarni bilishi kerak bo'ladi. Har bir darsni rang-barang, qiziqarli bo'lishi avvaldan puxta o'ylab tuzilgan darsning loyihalashtirilgan texnologik xaritasiga bog'liq. Adabiyot ta'limida —Alpomish dostonining o'qitilishida innovatsion texnologiyalarning qo'llanilishi o'quvchilarga mavzuni oson o'zlashtirilishiga va asar haqida chuqur ma'lumotga ega bo'lishlariga yordam beradi. Alpomish dostonining sujeti bilan o'quvchilar uning Y.Burova rejissorligida ishlangan kinofilmi orqali yaxshi tanish bo'lganliklari sababli o'qituvchi ularga doston kompozitsiyasidagi kinoda qo'yilmagan o'rinlarni aytib berishi yoki uning baxshilar tomonidan kuylangan

audio yoki videosini kompyuter orqali qo‘yib eshittirishi mumkin. Bu esa doston kompozitsiyasini o‘qitishda o‘qituvchiga yordamchi material sifatida xizmat qiladi va o‘qituvchi shu o‘rinda darsda multimedia vositalaridan unumli foydalanadi. O‘zbek xalq dostonlari sinkretik (aralash) san‘at namunasi hisoblanadi. Shu jumladan, Alpomish ham. Unda doston matni, kuyi va birorta cholg‘u asbobi ishtirok etishi shart. Bularsiz tinglovchi xalq dostonlarini to‘liq qabul qila olmaydi. Lekin, bugungi o‘quvchi uchun doston matni asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Maktab darsligida berilgan dostonlardan parcha ham doston haqida to‘liq ma‘lumot bermasa-da, uning badiiy go‘zalligini, estetik jozibadorligini o‘quvchi qalbiga singdiruvchi asosiy vositadir. O‘qituvchi maqsadga erishish uchun texnik vositalardan, jumladan, kompyuter yoki boshqa multimedia vositalaridan foydalangan holda dostonning jonli ijrosi bilan o‘quvchini tanishtirish mumkin. Alpomish dostonining matni ustida ishlashda o‘qituvchi doston yaratilgan davr tili va bugungi adabiy til o‘rtasida farq borligini o‘quvchilarga tushuntirmog‘i lozim. Shuning uchun, o‘qituvchi maktab darsligida berilgan Alpomish dostonining matnini o‘quvchilarga o‘qish uchun vazifa qilib berar ekan, o‘zlari uchun notanish bo‘lgan so‘zlarning ro‘yxatini tuzib kelishni topshiriq qilib beradi. Ta‘lim sohasidagi zamonaviy intilishlar – ta‘lim jarayonini shaxs rivojlanishiga yo‘naltirishdir, ya‘ni o‘qishga bo‘lgan qobiliyatlarini rivojlantirish, bu – katta hajmdagi ma‘lumotlarni o‘zlashtirish ko‘nikmasini rivojlantirish; - turli vaziyatlarda eng muqobil harakat qilish qobiliyatlarini rivojlantirish; ya‘ni inqiroz sharoitlarida yosh mutaxassisni samarali harakat qilish ko‘nikmasi; - ta‘lim faoliyati subyektlarini avtoritardan insonparvar – muloqotli faol o‘zaro harakatga o‘tishi; - faol ta‘lim metodlarini keng targ‘ib etish hamda tajribalar almashish, seminartreninglar, dasturlashtirilgan, kompyuterli ta‘lim, **o‘quv guruhli munozaralar, ishbilarmon o‘yinlar**. “Guruh bilan ishlash”, “Kompyuterli o‘yinlar”, “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Aylana stol”, “Muammoni hal etish”, “Kim chaqqon-u kim epchil”, “Galereya bo‘ylab”, “Stol ustida ruchka”, “Bahs-munozara”, “Bumerang” kabi zamonaviy o‘qitish uslublari talabalar faoliyatini faollashtirishga qaratilgan. Amaliy mashg‘ulotlarda eng yaxshi natija berayotgan interfaol usullardan biri kichik guruhlarda ishlashdir. Ta‘limning bu usuliga rangli suratlar, mavzuga oid kichik matnlar tarqatiladi va talabalar o‘zlarining mustaqil fikrlarini bayon etishga harakat qiladilar. Talabalarga aniq ko‘rsatma beriladi, o‘qituvchi esa o‘quvchilarni qo‘llab turadi, darsning yakuniy qismida ularning fikrlari umumlashtiriladi va bilimlariga baho beriladi. Dars boshlanishidan oldin o‘qituvchi o‘quvchilarni 5-6 tadan kichik guruhlariga bo‘lib chiqadi va har bir guruh o‘ziga —Alpomish dostonidagi qahramonlardan tanlab o‘zlariga nom berishadi, masalan, 1-guruh —Alpomish, 2-guruh– Qaldirg‘och, 3-guruh —Qorajon kabi. Dars davomida o‘qituvchi har bir guruhga alohida tarqatma materiallar, krossvord taqdim etadi. Shuningdek, o‘quvchilar topshiriqlarga javob berib bo‘lgandan so‘ng, ularga qo‘shimcha tarzda o‘z fikrlarini bayon etishlari uchun savollar beriladi. Bu metod kichik guruhlar bilan ishlashga qaratilganligi sababli o‘quvchilarni darsga ko‘proq diqqatlarini jalb etib, mavzuga qiziqishlarini orttiradi. Yana bir interfaol usullardan biri “**Aqliy**


**hujumdir**”. Bu usul o‘quvchilarning aqlini charxlab, ularni tezkorlikka, ilg‘orlikka undaydi. Aqliy hujum usulining og‘zaki va yozma shakllari mavjud. Og‘zaki shaklida o‘qituvchi tomonidan berilgan savolga o‘quvchilarning har biri o‘z fikrini og‘zaki bildiradi. O‘quvchilar o‘z javoblarini aniq va qisqa tarzda tezlik bilan aytishlari kerak bo‘ladi. Yozma shaklida esa berilgan savolga o‘quvchilar o‘z javoblarini qog‘oz kartochkalariga qisqa tarzda va barcha ko‘rinadigan qilib bayon etadilar va ular yozuv taxtasiga magnet yordamida mahkamlanadi. O‘qituvchi o‘quvchilarga:

1) Dostonda —tarzi gul yuzli, shirin so‘zli, siyosatli kishi, deya ta‘riflangan qahramon kim?

2) Hakimbek yilqi olmoqchi bo‘lgan qo‘riq kimdan qolgan edi?

3) Yetti yillik ayriliqdan so‘ng, yurtiga qaytgan Alpomishni Qultoy qanday tanib oladi? kabi savollar berishi mumkin. Bu savolga, albatta, o‘quvchilar tezkorlik bilan javob berishlari kerak bo‘ladi. O‘quvchilardan savoliga javob olish davomida o‘qituvchi ularning mavzuni qay darajada o‘zlashtirganliklarini bilib oladi va shunga ko‘ra ularni baholaydi.

**“Stol ustida qalam”** usuli asosan talabalarni mutaxassislikka oid lug‘at boyligini oshirishda qulaylik yaratadi. Tilda muloqot qilish uchun faol so‘z boyligiga ega bo‘lish lozim. Bu usulni qo‘llashda o‘quvchilardan bir varaqdan qog‘oz olish so‘raladi va o‘qituvchi ularga dostonidagi ba‘zi so‘zlarning inglizchasini birin-ketin ayta boshlaydi. Masalan: doston, qahramon, ot, kurash, poyga kabi. O‘qituvchi har bir so‘zni aytganda, o‘quvchi tezgina uning o‘zbekcha tarjimasini yozmog‘i lozim. Yozib bo‘lgach, ular qalamlarini stol ustiga qo‘yadilar va so‘ngra bir-birlarining qog‘ozlarini boshqa rangdagi qalam bilan o‘qituvchi nazorati yordamida tekshiradilar. Bu usul o‘quvchilarni o‘zaro ishlashga, ularni darsda faol bo‘lishga, chet tiliga ham qiziqishga undaydi. Dostonidagi obrazlar tizimini o‘tishdan oldin, avvalo, asardagi bosh va epizodik obrazlarni tasniflab tushuntirish lozim:



Ta'lim berishning samarali usullaridan biri —“**Klaster usulidir**. Bu usul ko'p variantli fikrlash, o'rganilayotgan tushuncha o'rtasida bog'lanish o'rnatish malakalarini rivojlantiradi, erkin va ochiqdan-ochiq fikrlashga yordam beradi. Klaster tuzish ketma-ketligi: sinf yozuv taxtasi o'rtasiga tayanch so'z yoki ibora yoziladi; -kichik guruhlarda yoki yakka tartibdagi o'quvchilarga ushbu so'z yoki iboraga tegishli bo'lgan gaplarni yozish talab etiladi; -tushuncha yoki g'oyalar o'rtasidagi bog'lanishni o'rganish talab etiladi; -yodga kelgan variantlarning barchasini yozish talab qilinadi. Asar qahramonlari tasniflab tushuntirilganda, o'quvchilarning eslab qolishi osonroq kechadi, shuningdek, ularga bu tasnif asosida qahramonlarning xarakter xususiyatlarini yoritish topshirig'i berilishi mumkin. O'quvchilarning bu topshiriqni bajarishlarida —**Klaster metodidan** foydalanish yaxshi samara beradi.

### QIYOSLANG!!!

<b>ALPOMISH</b>	<b>RAVSHAN</b>
<b>BARCHINOY</b>	<b>ZULXUMOR</b>
<b>BOYBO'RI</b>	<b>HASANXON</b>
<b>BOYSARI</b>	<b>AVAZXON</b>
<b>SURXAY KAMPIR</b>	<b>KAMPIR</b>
<b>LAYLAK</b>	<b>MAYNA</b>
<b>TOVKAQOYIM</b>	<b>OQQIZ</b>

Shuningdek, dostonidagi obrazlar tizimini tahlil qilishda didaktik o'yin texnologiyalaridan ham oqilona foydalanish mumkin. Rolli o'yinlar o'ynaladigan darslar esa real hayotiy holatni keltirib chiqarar ekan, mulohaza qilish imkoniyatini yaratadi, ijtimoiy hamkorlik ahamiyatini oshiradi, ish jarayonini va ishdan tashqari holatlarda bo'ladigan muloqotlarda foydalaniladigan amaliy so'z boyligini oshiradi. O'quvchilar rolli o'yinlarda ishtirok etar ekanlar, bir-birlari bilan hamkorlik qilishga, birgalikda ishlash, ish yuzasidan muloqotlar olib borish, tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishni o'rganadilar. O'qituvchi dostonidan qo'yiladigan sahna ko'rinishdan parchani o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos o'rinlarni topib ijro ettirishi lozim.

**Rolli o'yin metodini** qo'llash uchun o'qituvchi o'quvchilarni darsdan oldin tayyorlashi, rollarni o'quvchilarga bo'lib berib, ular bilan birga shug'ullanishi lozim. Bugungi zamonaviy pedagogik texnologiyalar taraqqiy etayotgan davrda Alpomish dostonini interfaol usullar orqali yangicha nuqtai nazardan amaliy tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida Alpomish dostonini o'rganishda o'qitishning turli interfaol metodlaridan foydalanish mumkin. Dostonidagi obrazlar tizimini o'qitishda o'qituvchi tomonidan interfaol metodlardan foydanilishi o'quvchilarni ijodiy fikrlashga, kerak joyda asar qahramonlaridan o'rnak olishga chaqiradi. Masalan, timsollar **tadriji metodi** orqali o'quvchilar doston matnini qayta hikoyalashi mumkin, ya'ni asardagi asosiy timsollar ma'lum ketma-ketlikda joylashtiriladi. O'quvchilar shu ketma-ketlikni buzmasdan, berilgan timsollar yordamida bog'lanishli matn tuzishlari kerak

bo'ladi. Masalan, o'quvchilarga quyidagi ketma-ketlikda timsollar berilishi mumkin:

1. Alpinbiy, Dobonbiy, Boybo'ri, Alpomish, Shohimardon pir, Qultoy;
2. Boysari, Barchin, Qaldirg'och, Qorajon, Ultontoz.

Bu metod o'quvchilarning doston kompozitsiyasini qay darajada o'rganganliklarini ko'rsatish bilan birga, ularni asar qahramonlari haqida erkin va ijodiy fikrlashga undab, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi[5]. Bundan tashqari, dostondagi obrazlar tizimini o'rganishda **Mozaika usulidan** ham foydalanish mumkin. Bunda o'quvchilarga —Alpomish dostonidagi salbiy va ijobiy qahramonlar aralash holda beriladi, o'quvchilar esa ularni ikki ustunga ajratib yozadilar va o'sha qahramonlarga tavsif beradilar. Masalan, topshiriq o'quvchilarga quyidagicha berilishi mumkin: Qultoy, Boysari, Qaldirg'och, Ultontoz, Ko'kaldosh, Surxayl kampir, Boybo'ri, Barchinoy, Qorajon, Shohimardon pir, Ko'kaman, Toychixon, Suqsuroy. O'quvchilar topshiriqni quyidagicha bajarishlari kerak bo'ladi: Ijobiy qahramonlar, salbiy qahramonlar – Qultoy, Ultontoz, Boysari, Ko'kaldosh, Qaldirg'och, Surxayl kampir, Barchinoy, Ko'kaman, Qorajon, Shohimardon pir o'rganilayotgan tushuncha o'rtasida bog'lanish hosil qilish uchun —**Klaster metodidan** foydalanish yaxshi samara beradi. Bunda o'qituvchi o'quvchilarning ijodiy fikrlashlariga erishish uchun ularga doston qahramonlaridan bir nechtasini keltirib, ularning bir-biriga qanday bog'lanishlarini izohlashni topshiriq qilib beradi. O'quvchilar quyidagi berilgan doston qahramonlarini birlashtiruvchi voqea va sabablarni keltiradilar. Masalan, Alpomish va Barchinoyni birlashtiruvchi sabab, ularning tug'ilishidan juft qilib yaratilganligi ya'ni beshikkerti qilinganligi bo'lsa, Qaldirg'och esa o'zbek yigitining or-nomusini, sha'nini himoya qilishga chorlagan, asarda keyingi voqealarning davom etishiga sababchi bo'lgan obraz bo'lib, Qorajon doston davomida haqiqatni himoya qiluvchi, ahdiga sodiq qahramon sifatida gavdalanadi. Dars davomida o'quvchilarning diqqatini yanada jalb qilish, ularning asarga qiziqishini orttirish maqsadida **Pantomimika usulidan** ham foydalanish mumkin. Bunda o'quvchilardan bir nafari markazga chiqadi va Ultontoz, Alpomish, Qaldirg'och, Ko'kaldosh, Yodgor, Qultoy singari qahramonlar nomlari yashirin ravishda shu o'quvchiga ko'rsatiladi, o'quvchi qolgan guruhdoshlariga qahramonlarni harakatlar orqali ko'rsatib berishi va guruhning qolgan a'zolari bu harakatlar orqali asar qahramonlari nomini topishi zarur.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi: Nasaf, 2000.
2. Quronov Dilmurod va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010-yil
3. Toipova O'. Q., Usmonbekova M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. T.: Fan, 2006.
4. Ёрматов И. Алпомиш достонининг жанр ва бадий хусусиятлари.
5. Yo'ldoshev Q., Qodirov V., Yo'ldoshbekov J. Adabiyot: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinf uchun darslik, 1- qism. – Toshkent. 2014-yil. 18-19-betlar.



## UYGA BERILGAN TOPSHIRIQ VA VAZIFALARNING ZAMONAVIY SHAKLLARI


*Xoljo'rayev To'lqin Xoljigitovich,  
JDPI o'qituvchisi.,  
Irmatov Azamat Normat o'g'li  
JDPI magistranti*

Ona tili darslarida grammatik jadvallar, har xil sxema va diagrammalarni tayyorlash, boshqotirmalar, tushuntirish uchun multimedia vositalaridan, videoroliklardan, elektron darsliklardan foydalanish ham yaxshi natija beradi. Misol uchun, holning ma'no turlarini quyidagi jadval asosida bolalarga tushuntirilganda samarali natija berishi mumkin:



Bunday jadvallarni tayyorlash va ular orqali o'z nutqini og'zaki va yozma ravishda bayon qilish, birinchidan, o'quvchilarning mavzuni oson o'zlashtirishiga sabab bo'ladi, ikkinchidan, ko'rish orqali tushunish ularning anglash qobiliyatini kuchaytiradi, uchinchidan, bunday jadvallar orqali hosil qilingan bilimlar bir umrga ularning xotirasiga muhrlanadi, to'rtinchidan, mantiqiy fikrlashga o'rgatadi, beshinchidan, mavzuni izchil, tizimli o'zlashtirishiga sabab bo'ladi, oltinchidan, biror-bir muammo duch kelganda ularga ijodiy yechim topishga xizmat qiladi.

Tayyor jadval va diagrammalar berib o'quvchilarning mantiqiy fikrlash, o'z fikrlarini izchil bayon etish, dalillar bilan isbotlashiga erishishimiz mumkin. Masalan, M. Qodirov va boshqalar tomonidan tayyorlangan Cho'lpon nomidagi NMIUda 2019-yilda chop etilgan o'rta maktablarning 8-sinfi uchun yaratilgan ona tili darsligining 108-betidagi 162-mashqda "Berilgan diagramma mazmunini matnda ifodalang va unga sarlavha qo'ying" degan vazifa taqdim qilingan:



### Namuna: O'zlashtirish hisoboti

Sinfimiz o'quvchilarining o'quv yili davomida o'zlashtirishi choraklar kesimida tahlil qilindi. I chorakda "a'lo" bahoga o'qiganlar 25% ni, "yaxshi" bahoga o'qiganlar 50% ni, "qoniqarli" bahoga o'qiganlar 35% ni tashkil etgan bo'lsa, II chorak natijalariga ko'ra 35% o'quvchi "a'lo" baho, 50% o'quvchi "yaxshi" baho, 45% o'quvchi "qoniqarli" baho olgan. III chorakda "a'lo" bahoga o'qiganlar 90% ni tashkil etgani holda, "yaxshi" va "qoniqarli" bahoga o'qiydiganlar ulushi o'zgarmadi. Nihoyat, IV o'quv choragida quyidagi natijaga erishildi: "a'lo" bahoga 30%, "yaxshi" bahoga 50%, "qoniqarli" bahoga 40% o'quvchi o'zlashtirdi. [1;104]

Ushbu diagrammani to'g'ri tushunganligini test topshiriqlari orqali ham aniqlashimiz mumkin:

#### 1. Diagramma mazmuni qaysi javobda to'g'ri berilgan?

A) A'lo bahoga o'qiydiganlar soni faqat I chorakda eng kam  
 B) Yaxshi bahoga o'qiydiganlar soni to'rtala chorakda ham a'lo bahoga o'qiydiganlar sonidan ustun.

C) Qoniqarli bahoga o'qiydiganlar soni to'rtala chorakda ham yaxshi bahoga o'qiydiganlar sonidan oz.

D) Qoniqarli bahoga o'qiydiganlar soni 3 ta chorakda ham bir xil.

2. Nechta chorakda a'lo va qoniqarli bahoga o'qiydigan o'quvchilarning sonidan yaxshi bahoga o'qiydigan o'quvchilarning soni ustunlik qilgan?

A) 1ta B) 2ta C) 3ta D) 4ta

3. Qanday ba'holarga o'qiydigan o'quvchilarning soni o'quv yili davomida deyarli keskin o'zgarishi kuzatilmagan?

A) a'lo va yaxshi B) qoniqarli, yaxshi va a'lo

C) qoniqarli va a'lo D) yaxshi va qoniqarli

4. Qoniqarli bahoga o'qiydigan o'quvchilarning soni qaysi chorakda o'zining eng yuqori ko'rsatkichiga ega bo'ldi?

A) I chorakda

B) II chorakda

C) III chorakda

D) yuqori ko'rsatkichiga ega bo'lmagan

5. Qanday bahoga o'qiydigan o'quvchilarning soni qolgan o'quvchilarning soniga nisbatan kam o'zgarishga uchragan?

A) a'lo      B) qoniqarli      C) yaxshi      D) qoniqarsiz

6. A'lo baholarga o'qiydigan o'quvchilarning soni, yaxshi bahoga o'qiydigan o'quvchilarning soni, qoniqarli bahoga o'qiydigan o'quvchilarning soni ikkita choraklarda deyarli bir xil. Qaysi choraklar nazarda tutilgan?

A) I va II choraklarda      B) II va IV choraklarda

C) I va III choraklarda      D) I va IV choraklarda

7. **Diagramma mazmuni qaysi javobda to'g'ri berilgan?**

A) birinchi va ikkinchi chorakda yaxshi va a'lo bahoga o'qiydiganlar soni teng bo'lgan.

B) ikkinchi chorakda a'lo bahoga o'qiydiganlar soni keskin oshib ketgan.

C) birinchi va uchinchi chorakda yaxshi bahoga o'qiydiganlar soni deyarli teng bo'lgan.

D) ikkinchi va to'rtinchi chorakda qoniqarli va yaxshi bahoga o'qiydiganlar soni a'lo bahoga o'qiydiganlar sonidan past bo'lgan.

8. Qaysi chorakning qoniqarli bahoga o'qiydigan o'quvchilari soni 4 -chorak a'lo o'qiydiganlar sonidan deyarli 2 barobar ko'p, ammo 2-chorak yaxshi o'qiydiganlar sonidan taxminan 10taga kam?

A) I chorakda      B) II chorakda      C) III chorakda      D) IV chorakda

Bunday test topshiriqlari orqali o'quvchilarning grammatik bilimlari emas, balki mantiqiy fikrlashi tekshiriladi. Shunday ko'rinishdagi testlar xalqaro ta'lim tizimida allaqachon yo'lga qo'yilgan. Bizda esa, asosan, IELTS, TOEFL kabi xalqaro til bilish ko'nikmasini aniqlash imtihonlarida qo'llanib kelinmoqda. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, o'quvchi-yoshlarning mantiqiy fikrlashini aniqlash va rivojlantirishga qaratilgan testlar 2020-yildan Davlat test markazi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim inspeksiyasi tomonidan amaliyotga tatbiq etib kelinmoqda.

O'quvchilarning bilimni takomillashtirishning samarali usullaridan biri – bu ularga ma'lum mavzu bo'yicha mustaqil savol va test topshiriqlarni tayyorlashni o'rgatishdir. Topshiriqning bu turida o'quvchilarni, birinchidan, ma'lumotlarni saralab olishga, ikkinchidan, savol tayyorlash jarayonida aniq topshiriq berishga, uchinchidan, tilning grammatik va uslubiy me'yorlariga amal qilgan holda test savollarini tayyorlashga, to'rtinchidan, qiyinlik darajasi I, II, III va IV bo'lgan test topshiriqlarini tuzishga o'rgatadi. Natijada, o'quvchining fikrlash doirasi, savodxonligi va ilmiy salohiyati yuksalib boradi. Bunday test topshiriqlarini tayyorlashda o'quvchilar, dastlab turli xil qiyinchiliklarga duch kelishadi. O'qituvchining ko'magi tufayli bu kabi qiyinchiliklarga barham beriladi, baholashda o'quvchining shaxsiyatiga tegmasdan xatolarini tuzatib, o'z ustida yaxshiroq ishlashga sharoit yaratiladi.

Dars jarayonida o'quvchilar, hatto o'qituvchilar tomonidan quyidagi ko'rinishdagi juda sodda, faqat xotirani sinashga mo'ljallangan, izchilligi bo'lmagan, fikrlashga undamaydigan savol va topshiriqlar beriladi:

– ot deb nimaga aytiladi?

- otlarda nechta kelishik shakli bor?
- uslubiyat nima?
- sifatlar qanday so‘roqqa javob bo‘ladi?
- so‘z birikmasining turlarini ayting.
- qanday gap so‘roq gap deyiladi?

O‘quvchilarga quyidagi ko‘rinishlardagi savol va topshiriqlarni tuzishni o‘rgatsak, maqsadimizga erishgan bo‘lamiz:

- o‘t, mushak, bog‘, ko‘z, tor. Berilgan so‘zlarning qaysi biri ortiqcha? Javobingizni misollar bilan isbotlang.
- Alisher Navoiy, Ahmad Yassaviy, Yusuf Xos Hojib, Pahlavon Mahmudlar adabiyotimizning zabardast vakillaridir. Ushbu gapda qanday xatolikka yo‘l qo‘yilgan?
- O‘quvchilarni nutqini o‘stirish faqat ona tili fani mutaxassislarining ishi emas, balki barcha fan o‘qituvchilarining vazifasidir. Ushbu gapda xatolik qanday vosita bilan bog‘liq?
- -lar qo‘shimchasining uslubiy xususiyatlarini misollar yordamida isbotlang.
- shakldosh, talaffuzdosh, ma‘nodosh va zid ma‘noli so‘zlarning tildagi ahamiyati qanday?

O‘quvchilarga grammatik bilimlarini mustahkamlashga qaratilgan testlar bilan bir qatorda ularning o‘qib tushunish kompetensiyasini rivojlantiruvchi quyidagicha test topshiriqlari berib borish kerak:

1. Toshkentliklar norin yeyishni yoqtirishadi. Surxondaryoliklar va qashqadaryoliklar tandir kabobni yaxshi ko‘rishadi. Jizzaxliklar somsani ko‘p yeyishadi. Samarqandliklar eng mazali nonlarni pishirishadi.

**Matnda berilmagan ma‘lumotni toping.**

- A) Toshkentliklar norin yeyishni yaxshi ko‘rishadi.
- B) Surxondaryoliklar va qashqadaryoliklar tandir kabobni ko‘p iste‘mol qilishadi.
- C) Jizzaxliklar somsani ko‘p tanovul qilishadi.
- D) Samarqandliklar eng mazali nonlarni tayyorlashadi.

2. Kichik yoshli bolalar o‘rta yoshli bolalarga nisbatan gadjetlarga unchalik qiziqishmaydi, ammo o‘smirlar turli xil gadjetlarga o‘rta yoshli bolalarga nisbatan ko‘proq qiziqishadi. Demak, gadjetlarga eng ko‘p qiziqadiganlar bular - o‘smirlardir.

**Savol: berilmagan ma‘lumotni toping!**

- A) O‘rta yoshli bolalar gadjetlarga kichik bolalarga nisbatan ko‘proq qiziqishadi.
- B) O‘rta yoshli bolalar gadjetlarga o‘smirlarga nisbatan kamroq qiziqishadi.
- C) Gadjetlarga eng kam qiziqadiganlar bular - kichik yoshli bolalardir.
- D) Uch turdagi bolalar orasida gadjetlarni eng kam sotib oladiganlar bular - kichik yoshli bolalardir.

3. Ota- onalar bolalarining televizor ko‘rishlariga qarshi, negaki, u o‘zidan zararli nur chiqaradi va bolalarning ko‘z nuriga yomon ta‘sir qilishi mumkin. Ba‘zida ota- onalar bolalarining televizorda faqatgina multfilm ko‘rishi uchun ruxsat

berishi mumkin, boshqa hollarda esa yo‘q. Lekin ba’zi bolalar televizorga nisbatan mobil aloqalardan ko‘proq foydalanishadi va u televizorga nisbatan ko‘proq nur tarqatadi.

1) Ota- onalar bolalarining mobil aloqalardan ko‘ra televizor ko‘rishini ma’qul ko‘rishadi.

A) To‘g‘ri B) Noto‘g‘ri C) Bunday gap berilmagan

2) Ota- onalar bolalariga televizorda multfilm va boshqa ko‘rsatuvlarni ko‘rishiga ruxsat berishi mumkin.

A) To‘g‘ri B) Noto‘g‘ri C) Bunday gap berilmagan

3) Bolalarning ko‘p televizor ko‘rishi ularning miya faoliyatiga ta’sir qiladi.

A) To‘g‘ri B) Noto‘g‘ri C) Bunday gap berilmagan

4) Televizorlar mobil aloqalarga nisbatan kamroq nur tarqatadi.

A) To‘g‘ri B) Noto‘g‘ri C) Bunday gap berilmagan

4. Ko‘rgazmada turli xil rasmlar mavjud. "Yosh rassomlar" jamoasining rang tasvirdan chizgan rasmlari ko‘plab olqishlarga sazovor bo‘ldi. "Bo‘lajak musavvirlar" jamoasida oq-qora tasvirdagi rasmlar soni ustun. "Mo‘yqalam sohiblari" jamoasi o‘zlarining tabiat tasviriga bag‘ishlangan rasmlari bilan mashhur. "Is’tedod egalari" jamoasining natyurmort janriga oid rasmlari bisyor edi.

*Ushbu berilgan ma’lumotlardan qaysi biri matn mazmuniga mos emas?*

A) "Yosh rassomlar" rangtasvir janriga oid juda ko‘p rasmlar chizishgan.

B) "Bo‘lajak musavvirlar" jamoasida oq-qora tasvirdagi rasmlar boshqa janrdagi rasmlar soniga nisbatan ko‘p.

C) "Mo‘yqalam sohiblari" jamoasi ning tabiat tasviriga atalgan rasmlari taniqli.

D) Natyurmort janriga oid rasmlari ko‘p bo‘lgan jamoa "Iste’dod egalari" jamoasi edi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Saodat Atayeva, Mehrixon Abdurasulova "Ona tili Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma" Toshkent – 2020.
2. Muhammadjon Qodirov, Hamid Ne‘matov, Muhabbat Abduraimova, Ra’no Sayfullayeva, Baxtiyor Mengliyev "Ona tili Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik" Toshkent – 2019

#### МИНЕРАЛ ЎҒИТЛАРНИ СЕПИШ МАШИНАСИНИНГ СИФАТ КЎРСАТКИЧИНИ ЯХШИЛАШ ТЎҒРИСИДА

*Бойзоқов А.,  
ТКТИ Янгиер филиали кафедраси  
катта ўқитувчиси, ТФН*

Ҳозирги вақтда қишлоқ хўжалигида экинларни минерал ўғитлар билан озиклантириш алоҳида аҳамият касб этмоқда. Йилдан йилга янги турдаги минерал ўғитлар ишлаб чиқарилмоқда. Уларнинг экин майдонларида озуқа



сифатида ишлатилиши долзарб масалага айланиб бормоқда. Бу кишлоқ хўжалиги экинларини ҳосилдорлигини оширувчи асосий омиллардан бири бўлиб қолмоқда. Шу билан бирга минерал ўғитлар самарадорлигини оширишда уларни экин майдонларига сифатли сепиш масаласи ҳам долзарб мавзулардан бирига айланмоқда.

Минерал ўғитларнинг экинларга таъсирчанлиги асосан механизация воситаси орқали сепиш жараёнининг сифат кўрсаткичи билан бевосита боғлиқ. Бу ўз навбатида механизация воситаларини ишчи органларини такомиллаштирилишини тақазо этади. Хозирги пайтда фойдаланилаётган машиналар ишчи органлари бу талабни тўлиқни қондира олмаяпти. Натижада минерал ўғитлар сифатсиз сепилиб уларнинг экинларга тўлиқ таъсирчанлиги даражаси сезиларли пасайиб бормоқда. Ушбу масала юзасидан минерал ўғитларни сепиш машиналаринининг ишчи органларини такомиллаштириш борасида қатор илмий изланишлар олиб борилди. Минерал ўғит сепиш машиналарининг ишчи органларига турли конструктив ўзгаришлар киритилиб борилмоқда ва бу ўз самарасини бермоқда. Шу билан бирга минерал ўғит сепиш машиналарининг эксплуатация кўрсаткичларининг ўғитларнинг майдон бўйлаб сепилиши сифатида таъсири тўлиқ ўрганилмаган.

Амалдаги агротехник талабларга мувофиқ равишда минерал ўғитларнинг майдон бўйлаб тарқалиши сифат кўрсаткичи уларни тақсимланиш нотекислиги даражаси билан баҳоланади ва бу кўрсаткич (К н.в)  $\pm 25\%$  қилиб белгилаб қўйилган. Бу кўрсаткични таъминлаш бевосита машиналарнинг қамров кенглигини ўзгаришига боғлиқ. Шунинг учун минерал ўғит сепиш машиналарининг қамров кенглигини илмий асослаш ва улардан фойдаланиш масалалари долзарб ҳисобланади. Бу борада ишлаб чиқаришда қўлланилаётган машиналар конструкциялар чуқур таҳлил қилиниши ва қамров кенглигини тажрибалар асосида аниқ белгилаб олиш борасида илмий ишлар олиб борилиши зарур бўлмоқда.

## **ТАРБИЯВИЙ ИШЛАРНИНГ УМУМТАЪЛИМ БОСҚИЧЛАРИ КЕСИМИДАГИ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ (синф раҳбари фаолияти мисолида)**

*Бекетов Нурсейт Алижон ўғли,  
Тошкент вилояти Чирчиқ давлат  
педагогика институти ўқитувчиси*

Мамлакатимиз таълим муассасаларида жорий этилган ва ўзининг бир неча ўн йиллик ривожланиш босқичига эга бўлган синф раҳбарлари институти ўзини маълум маънода оқлаб келмоқда. Ҳар ҳолда, умумтаълим мактабларида шу бугунга қадар унга муқобил лавозим шакли жорий этилмаганлиги мазкур лавозим ҳақида муайян ижобий хулосалар чиқариш имкониятини беради. Умумтаълим мактабларида ўқитувчилар, оилада ота-

оналар ва жамоат жойларида кенг жамоатчилик томонидан бажариладиган тарбиявий вазифаларга қўшимча равишда синф раҳбарлари ўзи раҳбарлик қилаётган синф жамоасининг аҳиллигини таъминлаш, ўқиш ҳамда тарбиявий жараёнларга фаол жалб қилиш, ўқувчи шахсига мактаб, оила ва жамоатчилик таъсирининг бирлигини таъминлаш ишларини амалга ошириб келмоқдалар. Синф раҳбарлари синф жамоасига ҳаётий тажрибаларни тўплашда, ижтимоий ахлоқ меъёрларини ўзлаштиришларига, ҳар томонлама камол топган ва тарбияланган, Ватанга хизмат қилишдек улуғ мақсадни қалбига жойлаган ўқувчи шахсини тарбиялашда кўмаклашиб келмоқда.

Умумтаълим мактабларида нафақат тарбиявий ишлар, балки ўқув жараёнига раҳбарлик қилишда ҳам синф раҳбарларининг тарбиявий фаолияти алоҳида ўрин тутаети. Дарҳақиқат, синф жамоаси тарбиявий ишларнинг асосий бўғини сифатида ҳар бир ўқувчи билан шахснинг камол топишига фаол таъсир этадиган муҳит яратаети. Синф мактаб ўқувчиларининг ахлоқини, тарбиясини назорат қилади, ҳар бир ўқувчининг хатти-ҳаракати ва шахс сифатида шаклланиш жараёни борасида жамоатчиликнинг фикрини шакллантиради. Шундай экан, умумтаълим мактаблари раҳбарияти таълим муассасасида тарбиявий ишларни тўғри ва самарали йўлга қўйиш учун энг тажрибали ўқитувчиларни синф раҳбари сифатида тайинланишига эътибор қаратишлари лозим.

Синф раҳбарлари тарбиявий жараёнда узлуксизлик ва изчиллик тамойилига асосан ишларни амалга оширишлари лозим. Бу эса синф раҳбарларини имкони даражасида алмаштирмаслик лозимлигини кўрсатади. Шунингдек, бошланғич ва ўрта синфлар орасидаги изчилликни таъминлашда соҳага масъул директор ўринбосари, бошланғич синф ўқитувчиси ва ўрта синф раҳбари биргаликда олиб бориладиган тарбиявий ишларни мувофиқлаштириш масаласини кўриб чиқишлари мақсадга мувофиқ. Шу мақсадда раҳбарият бошланғич синф ўқитувчилари ва ўрта синф раҳбарлари ўқувчиларининг тарбияланганлик даражасини яхши билишлари ва келгуси ишларни мана шу даражани ҳисобга олган ҳолда белгилашларига эришади.

Умумтаълим мактабларидаги тажриба ва тадқиқот давомида ўрганилган натижалар синф раҳбарларини алмаштириш чегараларини аниқлаш имконини берди. Унга кўра:

- 1) 1-4 синф;
- 2) 4-11 синф;
- 3) 4-9 синф;
- 4) 10-11 синф.

Бу чегаралар умумий ўрта таълим босқичлари кесимида амалга оширилган бўлиб, уларнинг оралиғида синф раҳбарларини алмаштириш тавсия этилмайди. Чунки умумий ўрта таълим босқичлари мазкур таълимнинг ўзига хос хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда бошланғич (1-4-синфлар), умумий ўрта (5-9-синфлар) ва ўрта (10-11-синфлар) таълим турларига бўлинган ва уларнинг ҳар бири муайян даражада ўзига хосликларга эга. Синф раҳбари ўз фаолиятини ўзининг шахсий тажрибаси ва

дунёқарашидан келиб чиққан ҳолда ташкиллаштиради. Синф раҳбарларининг тез ва ноўрин ҳамда тавсия қилинмаган муддатларда алмаштирилиши ўқувчилар билан олиб борилаётган тарбиявий жараёнларга ўз таъсирини кўрсатади. Тарбиявий жараёнлар ижтимоий ҳодиса сифатида муайян ғоя атрофида ташкил қилинади ва синф раҳбарларининг тавсия қилинмаган муддатларда тез-тез ўзгариши ўқувчилар тарбияси билан боғлиқ ғоявий чалғишларни келтириб чиқаради.

Синф раҳбарларининг тарбиявий ишига раҳбарлик қилишдаги ўзига хослик умумий ўрта таълим босқичлари (бошланғич, таянч ўрта, ўрта), умумтаълим мактабларининг шароити (қишлоқ мактаблари, шаҳар мактаблари) ҳамда синф раҳбарларининг касбий малакалари билан белгиланади. Баъзи ҳолларда мактаб раҳбарияти синф жамоаси, Ёшлар иттифоқи бошланғич ташкилоти, айрим ўқувчилар билан амалий ва индивидуал тартибда ишлашга кўпроқ эътибор қаратади. Бундай фаолият семинарлар, очиқ тарбиявий машғулотлар, педагогик жамоа ва ота-оналар билан суҳбатлар шаклида олиб борилади. Баъзан эса олиб бориладиган ишнинг жамоатчилик шаклларига эътибор қаратилади, яъни кўшимча равишда синф раҳбарлари ва Ёшлар иттифоқи бошланғич ташкилоти йиғилишларини ўтказиш орқали айрим тарбиявий масалалар бўйича индивидуал топшириқлар берилади. Умуман, тарбиявий ишларни ташкил қилиш ва бошқаришнинг шакллари мактаб раҳбариятининг индивидуал касбий қобилиятлари ва ижодий ёндашувига боғлиқ равишда ҳар хил бўлиши мумкин.

Умумтаълим мактабларида тарбиявий жараён ривожланиб борадиган қилиш ташкил қилиниши учун мактаб раҳбарияти 1-4-синфлар ўқувчилари ва 5-11 синфларининг синф раҳбарлари билан олиб бориладиган методик ишларнинг аниқ дастурини белгилаб оладилар. Бунда асосий эътиборни турли ёш гуруҳларидаги ўқувчиларни тарбиялашнинг мазмунига қаратиш мақсадга мувофиқ. Зеро, бошланғич синф ўқитувчиси мактабга катта қизиқиш билан қадам қўйган болаларнинг тарбиявий таъсирга осонгина берилишини ёдда тутган ҳолда иш кўриши лозим. Мактабга қадам қўйган бола яхши ўқувчи бўлишни истайди. Унинг тарбияси турли хил фаолиятларда кечади. Мана шунинг учун ҳам боланинг мактаб сари қўйган биринчи қадамлари ёзиш, ўқиш, ҳисоблашга ўрганаётган ўқувчи сифатида ҳам, шунингдек, жамоа билан биргаликда яшаш ва ишлашга ўрганаётган бола сифатида ҳам яхши ўйланган ва уюштирилган бўлиши муҳимдир. Уни мураккаб бўлмаган топшириқларни бажаришга ўргатиш ва унинг иши баҳоланиши унга нима дейилгани, нимани яхши бажаргани ва нимани ҳали ўрганишга улугурмаганини айтиш учун кузатиб борилиши керак. Бошқалар билан биргаликда топшириқни бажариб биринчи синф ўқувчилари эстетик, ахлоқий ҳамда тарбиявий тажриба орттирадилар.

Мактаблардаги тарбиявий жараёнлар диалектиканинг қонуниятлари асосида ташкил қилиниши мақсадга мувофиқ. Унга кўра тарбиявий жараён энг оддий нарсалардан бошланиши, аста-секин мураккаблашиб бориши, шу

тарзда тарбиявий ишда тадрижийлик тамойилини амалга ошириш назарда тутилади. Демак, синф раҳбарлари томонидан болалар билан кўплаб суҳбатлар ўтказиш, янги-янги ишларни, экскурсия ва саёҳатларни ташкил қилишга шошмаслик лозим.

Ўқитувчи биринчи синфда ўзининг болаларга нисбатан муомала усули улар ўртасидаги муомаланинг характерини белгилашини ёдда тутиши зарур. Ўқувчиларнинг қай даражада тарбияланганлиги, кишиларга, ўз тенгдошлари ва катталарга, ўз бурчини бажаришга, меҳнатга, жамоага муносабатидаги ижобий ўзгаришлар мажмуи тарбиявий иш муваффақиятининг асосий мезони бўлиб хизмат қилади.

Тарбиявий ишлар тўғри ташкил этилса, ўқувчиларда ижтимоийлашув жараёнлари осон кечади, шу билан биргаликда уларда спортга, турли фан соҳаларига, техникага ва касбга бўлган қизиқиш шаклланади. 3 синф ўқувчисида ўзининг идеали шаклланади, бу унинг тенгдоши, ўқитувчиси, ота-онаси ва бошқа кино қаҳрамонлари бўлиши мумкин ва ўқувчилар тенгдошларининг, шу жумладан, ўзининг ҳам хатти-ҳаракатларини шу нуқтаи назардан келиб чиқиб баҳолайдилар. Бундан синф раҳбари унумли ва ижодий фойдаланиши мумкин. Шу тариқа бошланғич синфлар билан олиб бориладиган тарбиявий ишларнинг хусусиятлари келиб чиқади.

Умумий ўрта синфларга келгач, ўқувчилар билан олиб бориладиган тарбиявий ишлар анча мураккаблашади. Бу ўқувчиларнинг ёш физиологик ва психологик хусусиятлари билан боғлиқ. 5-6 синфларда кичик ва ўрта ўсмирлик ёшидаги мактаб ўқувчилари таҳсил олишади. Ўсмирлик ёши мактаб ўқувчисининг ривожланишида ўтиш даври бўлиб, бу даврда у болаликни тарк этади. Бу хусусият унда табиий равишда ва онгли ихтиёрий равишда ҳам содир бўлади. Бундай вазиятда мавжуд имкониятларга бўлган катта бўлишга интилиш кўп ҳолларда қарама-қаршиликка олиб келса ҳам, катта ҳисобланмайди. Ўсмирнинг ўжарлиги, асоссиз қўполлиги ва дағаллиги кўпинча ундаги мустақилликка интилишнинг катталар томонидан етарли баҳоланмаслигидан келиб чиқади.

Ўсмир ёшидаги болаларга сўз билан таъсир этиш усули қўлланар экан, бу ёшда унинг самарадорлиги ўсмирнинг ақлий ва ахлоқий савияси ўсиши билан боғлиқ ҳолда ривожланиб боришини, мантиқий фикрлаш, далилларни ўзлаштириш қобилиятининг ривожланиб боришини назарда тутиш лозим. Иккинчи томондан, агар катталар ўз далилларини етарли асосламасалар, сўз билан таъсир этишнинг самарадорлиги камаяди. Шу маънода, ўсмирлар характерининг шаклланишида синф раҳбарларининг шахсий намуна кўрсатиши катта аҳамиятга эга. Ўзини катта ҳисоблаб бошлар экан, ўсмир кичик ёшдаги ўқувчидан фарқли ўларок, жуда онгли равишда катталарнинг юриш-туриши ва ҳаракатларига тақлид қилишга интилади. Ўсмир учун катталар нима қилаётгани, ўзларини қандай тутишлари, нима гапиришлари, нимага ўргатишлари катта аҳамиятга эга. Ўсмир ёшидаги болалар ўзларига бирор-бир талабнинг нима мақсадда қўйилаётганлигини яхши сезади. Унинг учун ҳаққонийлик, мулоҳазакорлик, мақсадлилиқ ва катталар талабларининг

бирлиги жуда муҳимдир. Ўсмирлар учун қўйилаётган талабнинг оҳанги ва шакли муҳим аҳамиятга эга. Баъзан ўсмирларга тегишли муайян педагогик талабни бевосита эмас, билвосита қўйишга тўғри келади. Тарбиявий назорат ва текшириш ҳам шундай билвосита амалга оширилиши мумкин.

4-6-синфларга бориб ўқувчиларга янги фанлар ўқитила бошлайди. Ўқув фанларининг мазмуни анча мураккаблашади, ўқувчиларга қўйиладиган талаблар аҳамияти ошади, ўқишда уларнинг фаоллиги ва мустақиллигининг роли ортади.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Узлуксиз маънавий тарбия концепцияси. Тошкент, 2020 йил.
2. Маҳкамов У., Исмоилова Д. Тарбия – юксак маънавият бешиги // Academic research in educational sciences, VOLUME 1 | ISSUE 4 | 2020 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2020: 4.804.
3. Сарсенбаева Р.М. Тарбиявий ишлар методикаси. Ўқув-услубий мажмуа. (ТДПУ Кенгашининг 2020 йил 27 августдаги 1/3.6-сонли қарори билан нашрга тавсия қилинган. Т.: Университет, 2020.
9. Педагогика фанидан изоҳли луғат (муаллифлар жамоаси). Т.: Фан, 1989 й.
10. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. Т.: «Ўзбекистон», 2000 йил.
11. Тиллашев Х.Х.Общейе педагогическийе и дидактическийе идеи ученних энциклопедистов ближнего и Средного Востока эпохи средновековая. Ташкент: Фан. 1989
12. Ҳошимов К. Педагогика тарихи. Олий ўқув юртлари ва университетлар талабалари учун ўқув қўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1996.
13. А.Авлоний. Одоб бўстони ва ахлоқ гулистони. – Тошкент, Ўқитувчи, 1994.

### **УЧИТЕЛЬ КАК МОДЕЛЬ СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА**

*Сулейманова С.А*  
*преподаватель кафедры*  
*«Теория начального образования»*  
**ЧГПИТО**

Отношение к учителю в обществе из века в век меняется: с пренебрежительного к боязливо-отстраненному, затем к почтительному – произошло последнее уже в XX в. Знания становятся постепенно ценностью, роль интеллигенции в обществе повышается, это связано с техническим прогрессом, с распространением научных знаний, сменой фанатично религиозного мировоззрения на философское и гуманистическое. Этот процесс шел постепенно, охватывал прежде всего города. [4]



Учителя становятся значимой частью общества в условиях индустриализации, домашнее воспитание постепенно уходит в прошлое. Слишком много сложной информации надо передать, это невозможно без систематического ежедневного обучения. На каждого ученика уже не хватает квалифицированных специалистов, удобнее создавать частные школы, гимназии, колледжи, лицеи.

Наряду с требованиями, предъявляемыми обществом в целом, учитель деятельности ориентируется и на то, что ждет от него его ближайшее окружение: администрация школы, коллеги, ученики, их родители. Важно и то, что сам учитель ждет от своей работы. Все эти ожидания, хотя в главном и совпадают с требованиями общества к учителю, имеют свои особенности и не во всем совпадают друг с другом. Например, они могут в ряде случаев не совпадать даже у работников органов народного образования и администрации школы.

Родители учащихся ждут от учителей мастерства в воспитании и обучении независимо от стажа и возраста конкретного учителя. Ученики характеризуют учителей по трем группам свойств: свойствам, связанным с общением (учитель должен быть добр, справедлив, честен, любить детей); свойствами внешности и манеры поведения (чуток, требователен); свойствами, связанным с процессом обучения (знать свой предмет, уметь его объяснить).

Следует помнить, что по мере роста требований к эффективности процесса воспитания возрастают и социальные ожидания по отношению к личности и деятельности учителя. Учителя хотят видеть своеобразным компенсатором того, чего недодает ребенку семья, интегратором разнообразных воздействий, испытываемых учащимися; от него ждут преодоления тех трудностей в воспитании, которые появляются в связи с урбанизацией, акселерацией и т. д.

Еще в начале века П.Ф. Каптерев отметил, что «личность учителя в обстановке обучения занимает первое место, те или другие свойства его будут повышать или понижать воспитательное влияние обучения». Какие же свойства педагога, учителя были определены им как основные? Прежде всего были отмечены «специальные учительские свойства», к которым П.Ф. Каптерев отнес «научную подготовку учителя» и «личный учительский талант». [3]

«Первое свойство объективного характера и заключается в степени знания учителем преподаваемого предмета, в степени научной подготовки по данной специальности, по родственным предметам, в широком образовании; потом - в знакомстве с методологией предмета, общими дидактическими принципами и, наконец, в знании свойств детской природы, с которой учителю приходится иметь дело; второе свойство - субъективного характера и заключается в преподавательском искусстве, в личном педагогическом таланте и творчестве». Второе включает педагогический такт, педагогическую самостоятельность и педагогическое искусство. Учитель должен быть самостоятельным, свободным творцом, который сам всегда в

движении, в поиске, в развитии. Мысль П.Ф. Каптерева о том, что творческого учителя и ученика объединяет, «связывает потребность самообразования и развития», и что они, по сути, представляют собой два противоположных конца одного поля, одной «лестницы», является основополагающей для понимания психологической природы и необходимости подлинного учебного сотрудничества учителя и учеников в процессе обучения. [1]

Наряду со «специальными» учительскими свойствами, которые были отнесены к «умственным», П.Ф. Каптерев отметила и необходимые личностные «нравственно-волевые свойства» учителя, к которым были отнесены беспристрастность (объективность), внимательность, чуткость (особенно к слабым ученикам), добросовестность, стойкость, выдержка, справедливость, подлинная любовь к детям. При этом «...любовь к детям и юношеству нужно отличать от любви к учительской профессии: можно очень любить детей, глубоко симпатизировать юношеству и в то же время быть не расположенным к учительской деятельности; можно, наоборот, ничего не иметь собственно против учительской деятельности, предпочитать ее даже другим, но не питать ни малейшего расположения ни к детям, ни к юношеству». Очевидно, что только объединение подлинной любви к учащимся и к педагогической профессии обеспечивает профессионализм учителя.

Все современные исследователи отмечают, что именно любовь к детям следует считать важнейшей личностной и профессиональной чертой учителя, без чего невозможна эффективная педагогическая деятельность. В.А. Крутецкий добавляет к этому склонность человека работать и общаться с детьми. Подчеркнем также важность для учителя желания самосовершенствования, саморазвития, ибо, как точно отметил еще К.Д. Ушинский, учитель живет до тех пор, пока он учится, как только он перестает учиться, в нем умирает учитель. Эта важнейшая мысль подчеркивалась П.Ф. Каптеревым, П.П. Блонским, А.С. Макаренко, В.А. Сухомлинским и другими педагогами и психологами. [5]

Взаимоотношения учителей с учащимися – один из важнейших путей воспитательного влияния взрослых. Учитель в принципе достаточно подготовлен к организации и поддержанию таких взаимоотношений, он видит ученика в основной сфере деятельности – в школе, знает его товарищей и друзей. Это дает, с одной стороны, большой материал для общения, с другой – способствует достижению педагогом воспитательных целей, так как, общаясь с учеником, он может учитывать многие факторы его жизни и соответственно воздействовать на школьника, помогая ему решать проблемы, возникающие в повседневной жизни, ибо многие из этих проблем порождены учебой, отношениями с товарищами, общественной деятельностью, т. е. теми сферами жизни школьников, о которых учитель может быть осведомлен лучше по сравнению с другими взрослыми. [2]

К первой группе можно отнести тех учителей, кто постоянно общается с ребятами. Причем это общение выходит далеко за рамки повседневных наставнических обязанностей учителя и отличается большой степенью интенсивности и доверительности. Такие педагоги встречаются довольно часто. Для них характерен демократический стиль руководства.

Вторую группу составляют педагоги, которые с уважением относятся к учащимся, пользуются их доверием и симпатией. Но по разным причинам общение учителей с ребятами не имеет регулярного характера вне учебного процесса.

В третью группу можно включить учителей, которые довольно явно стремятся к близкому общению со школьниками, но такового не имеют. Это происходит по разным причинам. У одних из-за недостатка времени, у других – потому, что ученики не расположены к доверительному общению с ними, так как эти учителя либо становятся в позу ментора, либо не умеют хранить доверенной им тайны, либо не вызывают симпатии ребят.

Четвертая группа – те педагоги, которые общение с учениками ограничивают узкими рамками деловых вопросов. Это преимущественно учителя с авторитарным и игнорирующим стилями руководства.

Таким образом, стиль руководства учителя формируется под влиянием различных субъективных и объективных факторов. Под субъективными в данном случае можно понимать характерологические особенности личности учителя (темперамент, волевые качества, эмоциональность, терпимость и т. д.) и такие показатели, как широта общей культуры, уровень притязаний, особенности самооценки, уровень самоуважения, социальные установки.

### **СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ**

1. Жузбаева Г.Ж. Роль педагога в современном обществе. А., 2019
2. Климов Е.А. Образ мира в разнотипных профессиях. М., 1995.
3. Маркова А.К. Психология труда учителя: Кн. Для учителя. - М.: Просвещение, 1993. - 192 с. - (Психол. наука - школе).
4. Митина Л.М. Учитель как личность и профессионал. М., 1994.
5. Москаленко О.В. Психолого-акмеологические особенности самосознания личности. Астрахань. 1996
6. Орлов Ю.М. Самопознание и самовоспитание, М. Просвещение, 1987  
Психология и педагогика. Учебное пособие для вузов. Составитель А.А. Радугин. М., Издательство «Центр», 1997

## ПРИНЦИПЫ УПРАВЛЕНИЯ ДОШКОЛЬНЫМИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМИ ОРГАНИЗАЦИЯМИ

*Хамидова Гулбахор,  
Старший преподаватель ДГПИ  
Нуманжанова Фарангиз,  
магистр ДГПИ*

В современном обществе очень часто можно услышать слово «менеджмент». В научно-методической литературе данное понятие истолковывается, как совокупность принципов, методов, средств и форм управления социальными, в том числе – и образовательными процессами, менеджмент еще называют искусством управления. «Педагогический менеджмент – это комплекс принципов, методов, организационных форм и технологических приемов управления образовательным процессом, направленный на повышение его эффективности».

Профессиональные знания по менеджменту предполагают осознание трех принципиально различных инструментов управления.

Первое – это организация, иерархия управления, где основное средство – воздействие на человека сверху (с помощью основных функций мотивации, планирования, организации и контроля деятельности, а также распределения материальных благ и пр.).

Второе – культура управления, т.е. вырабатываемые и признаваемые обществом, организацией, группой людей ценности, социальные нормы, установки, особенности поведения.

Третье – это рынок, рыночные отношения, то есть взаимоотношения, основанные на купле-продаже продукции и услуг, на равновесии интересов продавца и покупателя.

Управление, как и любая деятельность, основывается на соблюдении ряда принципов. «Принципы управления – это основополагающая идея по осуществлению управленческих функций. Принципы являются конкретным проявлением, отражением закономерностей управления».

Принципы управления:

1. Лояльность к работникам.
2. Ответственность как обязательное условие успешного управления.
3. Коммуникации, пронизывающие организацию снизу вверх, сверху вниз, по горизонтали.
4. Атмосфера в организации, способствующая раскрытию способностей работающих.
5. Обязательное установление долевого участия каждого работающего в общих результатах.
6. Своевременная реакция на изменения в окружающей среде.
7. Методы работы с людьми, обеспечивающие их удовлетворенность работой.

8. Умение выслушать всех, с кем сталкивается в своей работе руководитель.

9. Честность и доверие к людям.

10. Опора на фундаментальные основы управления: качество, затраты, сервис, нововведения, контроль сил и возможностей, персонал.

11. Видение организации, т.е. четкое представление о том, какой она должна быть.

12. Качество личной работы и ее постоянное совершенствование.

Организация педагогического процесса рассматривается как сложная система, состоящая из определенных взаимосвязанных элементов. Дошкольная образовательная организация имеет свою ярко выраженную специфику: цели, структуру коллектива, виды и содержание информационных и коммуникативных процессов. Поэтому сегодня невозможно обеспечить благоприятные условия для творческой работы коллектива дошкольной организации без целенаправленного и научно-обоснованного управления.

К современной дошкольной организации предъявляются такие требования, что повышение уровня управления дошкольной образовательной организации становится объективной необходимостью и существенной стороной его дальнейшего развития. Руководители обязаны гибко и быстро реагировать на запросы общества, в постоянно меняющейся сложной экономической ситуации находить способы выживания, стабилизации и развития. Известный специалист в области психолого-педагогической деятельности Л.В. Поздняк отмечает, что при правильном руководстве организацией управленцу важно постоянно анализировать современную обстановку, это позволит ориентировать педагогов дошкольной образовательной организации на активное восприятие достижений общества в области демократии, гласности, развития самосознания.

Цель управления дошкольной организацией заключается в обеспечении его оптимального функционирования, в достижении эффективности образовательного процесса при наименьших затратах времени и сил.

К свойствам управления можно отнести целеустремленность, открытость, осознанность, планомерность, цикличность, соединение науки и искусства.

На современном этапе очень важен личностно-ориентированный подход в управлении дошкольной организацией. Сущность этого подхода заключается в том, что для слаженной работы всей организации необходимо уважать каждого члена коллектива, стремиться к тому, чтобы каждый из сотрудников чувствовал себя важной деталью общего целостного организма, главная задача которого – воспитание и обучение граждан нашей страны, как здоровой, разносторонне развитой, творческой, способной к преобразующей деятельности, личности.

Основными задачами дошкольной организации являются:



- Охрана, защита и укрепление физического и психического здоровья детей, формирование основ здорового образа жизни;
- Обеспечение интеллектуального, личностного и физического развития;
- Приобщение детей к общечеловеческим ценностям;
- Обеспечение ранней социализации детей в коллективе сверстников и взрослых;
- Выявление и развитие индивидуальных склонностей и задатков детей;
- Подготовка к получению основного образования на последующих уровнях;
- Взаимодействие с семьей для обеспечения полноценного развития ребенка.

Совет дошкольной организации осуществляет свою деятельность в соответствии с Законом об образовании, Уставом дошкольной организации и Положением о совете образовательной организации.

Основные задачи совета дошкольной организации:

- Создание совместно с руководителем дошкольной организации условий для обеспечения оптимального сочетания государственных и общественных начал в управлении дошкольной организацией, приобщения к управлению педагогических работников, родителей или их законных представителей.

- Принятие участия в разработке и реализации внутренних документов, регламентирующих функционирование дошкольной организации, органов самоуправления, права и обязанности участников воспитательно-образовательного процесса.

- Разработка и реализация совместно с руководителем дошкольной организации системы мер, направленных на укрепление и развитие материально-технической базы дошкольной организации.

- Поддержка инициатив участников воспитательно-образовательного процесса, направленных на повышение качества образования и удовлетворение потребностей различных социальных групп заинтересованных в этом образовании.

Решения совета обязательны для выполнения педагогическими работниками дошкольной организации, родителями или их законными представителями.

Родительский актив является органом самоуправления дошкольной организации и создается из числа законных представителей воспитанников данного дошкольной организации.

Используемая литература:

1. Пронина А.Н. /Основы курса «Управление современным дошкольным образовательным учреждением» / А. Н. Пронина. – Елец: ЕГУ им. И.А. Бунина, 2005. – 162 с.

2. Белая, К.Ю. /300 ответов на вопросы заведующего/ К.Ю. Белая. – АСТ, Астрель, 2001. – С. 400.
3. Денякина Л.М. Новые подходы к управленческой деятельности в дошкольном образовательном учреждении/ Л.М. Денякина. – М: Новая школа,1997. – 48 с.
4. Поздняк Л.В. /Управление дошкольным образованием: учебное пособие для студ. педвузов/ Л.В. Поздняк, Н.Н. Лященко. – М.: Издательский центр «Академия», 2000. – 432 с.
5. Дорова, Т. А. Адаптация ребёнка к ДООУ : новые подходы {Текст}/ Т. А. Дорова.- М : Обруч, 2006
6. Хамидова Г. Мактабгача ёшдаги болаларнинг ижодий фаолиятини шакллантиришда ўйинларнинг аҳамияти. Та ‘lim, fan va innovatsiya. 2021.
7. Xamidova G. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni oilada estetik hishlarni shakllantirish. Preschool education journal. 2021.
8. Xamidova G. Qobilyati shakllantirishda ijtimoiy shart-sharoitlarni o‘rni. bola va zamon. 2019.
9. Xamidova G. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodkorligini rivojlantirishda tasviriy faoliyatning o‘rni: maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodkorligini rivojlantirishda tasviriy faoliyatning o‘rni. Журнал дошкольного образования 2020.

## **ALISHER NAVOIY IJODINI INNOVATSION USULLARDA ÒRGANISH**

*Boqixonova Muyassar Mashrabxonovna,  
Ibrat nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab-internati  
oliy toifali ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi  
Ilmiy rahbar: Karimov Obidjon Yakubjonovich,  
NamDU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi*

Alisher Navoiy asarlarini anglash orqali xalqimizning ma`naviy yuksalishi: qadriyatlarga hurmati, yurtga sadoqati, inson va tabiatga mehri, komillikka intilish tuyg‘ulari ortib boradi. Bugungi kun o‘quvchisi Navoiy ijodini, mumtoz adabiyotni shuningdek, aruz vazni va adabiyot qoidalarini yaxshi anglamog‘i uchun innovatsion loyihalar asosidagi yangicha yondashuv zarur. Negaki maktabda o‘rganilayotgan mumtoz adabiyotga oid mavzular biroz murakkabroq bo‘lgani uchun o‘zlashtirish qiyinchilik tug‘diradi. Mumtoz adabiyot ayniqsa chuqurlashtirib o‘qitiladigan ijod maktablarida bunga yetarlicha e’tibor qaratilmoqda. Shu maqsadda “Ijod maktablarida aruz ilmini innovatsion o‘rganish” mavzusida fikrlarimizni bayon etamiz. Ushbu loyiha orqali 5-11-sinf adabiyot darsliklaridagi mumtoz adabiyotimizga mansub aruz ilmi innovatsion usulda o‘rganiladi. Tajribadan shuni angladikki, innovatsion loyiha orqali aruz ilmini o‘zlashtirish birmuncha qulayliklar tug‘dirar ekan. Avvalgi darsliklarda Alisher Navoiy g‘azal, ruboiy, tuyuq va fardlari tahlil qilinadi, she`rlarining bahri, afoili, taqte`si aniqlanar edi. Bu an`anaviy shaklda amalga oshiriladi edi. Yangi

innovatsion bu loyiha elektron ko‘rinishda bo‘lib, o‘quvchi Alisher Navoiyning 5-11-sinf adabiyot darslarida berilgan biror-bir she‘rini tanlaydi. So‘ng loyiha tugmachasini bosadi va she‘r ekranda ko‘rinadi. Keyingi bosqichda bahr degan tugmacha bosiladi va bahri aniqlanadi. Afoil tugmachasi bosilganda – afoili aniqlanadi, taqte` tugmachasi bosilganda - taqte`sini topiladi. Bu loyiha ham qiziqarli, ham qulay. Bunday innovatsion loyihalar o‘quvchi vaqtini tejaydi, ruhiyatini ko‘taradi, yaratuvchanligini oshiradi.

Mazkur innovatsion usul orqali Navoiyni anglatishning ikki muhim jihati bor:

1. Bugungi internet asri o‘quvchisi Alisher Navoiyni zamonaviy kompyuter tili orqali anglaydi.

2. O‘quvchining o‘zi ham mumtoz adabiyot mohiyatiga yetish uchun ana shunday loyihalar ixtiro qiladi:


Ana endi loyiha mazmuni bilan tanishtirib o‘tamiz.

Alisher Navoiy ilovasi Android smartfonlari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi. (1-rasm)


Alisher Navoiy ilovasi ishga tushirilganda quyidagi ko‘rinishda namoyon bo‘ladi.(2-rasm)



Ilovada ko‘rsatilgan Aruz bo‘limiga kirish orqali 5-11-sinf adabiyot darsliklaridagi mumtoz adabiyot mavzularidan istalgan asarni topib, uning vaznini, bahrini, afoilini va taqte`sini aniqlaymiz. Kerakli bo‘lgan asarni ilovada ko‘rsatilgan joy (3-rasm) orqali qidirib topish mumkin.




3-rasm



4-rasm

“Hayrat ul-abror” dostoni vaznini aniqlamoqchi bo‘lsak, quyidagi tartibda bajaramiz:

1. Dostonni tanlab ustiga bosamiz. (4-rasm)
2. Ekranda quyidagi tasvir paydo bo‘ladi. (5-rasm)
3. Endi vazn so‘zini bosish orqali she`rning bahri, afoili va taqte`si aniqlanadi. (6-rasm)



Bundan tashqari, ilovaga mumtoz adabiyotimizdan yangi ma`lumotlar qo‘shish imkoni ham mavjud. (7-rasm)

19:30 | 0,1 K6/c

**Alisher Navoiy**

G`azal nomi

G`azal nomi

G`azal

G`azal

Vazn

Bahri

Afoili

Taqtisi

MA'LUMOTLARNI SAQLASH

(7-rasm)

Xulosa qiladigan bo'lsak, yuqorida tanishtirgan loyihamiz ijod maktablari uchun juda samarali loyihadir. Har bir ijodkor o'quvchi mumtoz adabiyotimizni chuqur anglamog'i va barchaga anglatmog'I kerak. Bunday loyihalar o'quvchilarning ijodkorligini yanada oshiradi, shuningdek ularning adabiyotga bo'lgan ishtiyoqini yuksaltiradi deb o'ylaymiz.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

- 1.Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 19-oktyabrdagi Buyuk shoir Alisher Navoiyning 580 yilligini keng nishonlash to'g'risidagi qarori.
2. Sh.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birgalikda quramiz. – Toshkent.: O'zbekiston, 2017.
3. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. - Toshkent.: O'qituvchi, 1996.



4. Mualliflar jamoasi. Adabiyot nazariyasi. 2 jildlik, 2-jild. – Toshkent.:Fan, 1979.
5. Sultonov I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent.: O‘qituvchi, 1980.
6. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent.: O‘zbekiston, 2002.
7. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent.:Yangi asr avlodi, 2006.
8. To‘xliyev B. Adabiyot. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. – Toshkent.: O‘qituvchi, 2003.
9. Hojiahmedov A. Maktabda aruz vaznini o‘rganish. – Toshkent.: O‘qituvchi, 1995.
10. Hojiahmedov A. O‘zbek aruziy lug‘ati. – Toshkent.: Sharq, 1998.
11. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent.: Xalq merosi nashriyoti. 2004.
12. Husanboyeva Q.. O‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish. - Toshkent.: 2003.
13. Salayev F., Qurbaniyazov G. Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so‘zligi. – Toshkent.: Yangi asr avlodi. 2010.

#### **Internet saytlari**

1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
2. [www.ziyo.com](http://www.ziyo.com)
3. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
4. [www.kitob.uz](http://www.kitob.uz)
5. [www.e-adab.uz](http://www.e-adab.uz)

### **O‘QUVCHILARNI MUSTAQIL FIKRLASHGA O‘RGATUVCHI UMUMDIDAKTIK OMILLAR**

*Ibragimov Abdurahim Rashidovich,  
JDPI o‘qituvchi*

Mustaqillikka qadar bo‘lgan pedagogikada ta’lim-tarbiya jarayonini osonlashtirish, undan qiyinchiliklarni siqib chiqarish, o‘quvchilarning bilim olish faoliyatini imkon qadar yengillatishga harakat qilindi. Bu bolaning zimmasiga tushadigan mehnatning salmoqli bo‘lishiga qarshi qo‘yilgan zamonaviy usul edi. Lekin davrlar o‘tishi bilan yengillashtirilgan ta’lim tizimidagi osonlashuv ifodachisi bo‘lmish ko‘rgazmalilikda ham salbiy tomonlar ko‘rina boshladi. Ko‘rgazmalilik tamoyilida ta’limdan, birinchi navbatda, o‘quvchining mustaqil fikrlashi bilan bog‘liq qiyinchiliklar quvib chiqarildi. Bu ta’limda bolaga taqdim etiladigan hamma bilimlar, birinchidan, o‘zgalarning shaxsiy tajribasidan o‘tgan bo‘lishi, ikkinchidan, o‘zlashtiriluvchan, ko‘rsatish mumkin bo‘lgan darajada osonlashtirilgan, tayyor holda taqdim etilishi kerak edi. Bunday talab, eng avvalo, yaxshigina jihozlashgan va katta tashqi imkoniyatlarga ega bo‘lgan maktablarda ta’lim-tarbiyaning shaxs bilan bevosita aloqasini to‘sib qo‘ydi.

Ma'lumki, inson ko'rganlaridan ko'proq narsalarni biladi. Maktab esa undan qancha ko'rgan bo'lsa shuncha bilishni talab qildi. Bu bilan o'quvchining tajribasini benihoya chegaralab, toraytirib qo'ydi. Yengillashtirish psixologiyaning tarbiyaviy tamoyillariga to'g'ri kelmasligi, afsuski, milliy ta'lim tizimida ancha kech payqaldi. Mamlakatda iqtisodiy o'zgarishlar sodir etilmaguncha ta'lim-tarbiya o'zga yo'nalishga yuz burolmadi. Vaholanki, sobiq ittifoqda, hamma ilmiy va pedagogik jarayonlarning markazi bo'lmish Rossiyada bu masala o'tgan asrning 70-yillarida ko'tarilgan, pedagoglar, psixologlar o'z millatining ravnaqini ta'minlash zarurligi to'g'risida bong urganlar. O'zbek milliy pedagogikasi, psixologiya fani, hamma sohadagidek, tarbiyashunoslikda ham ularga ergashganda edi, juda bo'lmasa, yosh avlodning ta'lim olish yo'lidagi erkinligi va mustaqilligini ta'minlashni 80-yillarda amaliyotga olib kirgan bo'lardi.

Ta'lim – tarbiya jarayonidagi yengillik ovqatni chaynay olmaydigan go'dakka suyuq holda berishga o'xshaydi. Holbuki, bolaning to'g'ri o'sishi uchun uni ovqatlantirib qo'yishdan ko'ra, o'zini yeyishga o'rgatish muhimroq. Ta'lim tizimida ham bolaga u yoki bu bilimlarni ma'lum qilgandan ko'ra uni mustaqil fikrlab, mulohaza yuritib, mehnat qilib o'zlashtirishga o'rgatish ahamiyatliroqdir.

Ijtimoiy muhit bolaning har bir kuni o'zi bilan unga xulqining avvallari to'qnashmagan uyg'unliklarini, ya'ni uning fe'lida tabiatan mavjud bo'lgan fazilatlarga mos tushadigan, unga hamohang bo'lgan yangi axloqiy sifatlar olib kelishini talab qilmoqda. Toki, bolaning hayotiy tajribasida bunga ayni o'xshash holat bo'lmasin, ular boladan har safar fikrning yangicha faoliyatini talab qilsin. Bugungi ta'lim-tarbiya jarayoni ham faqat ko'rgazmalilikka emas, qiyin va chigal masalani hal etishda bolaning o'ziga imkoniyatlar yaratishga intilishi lozim. Agar bolada biror fazilatni tarbiyalash lozim bo'lsa, unga shu fazilat bilan bog'liq nasihatlarini o'qiyvermay, avval o'sha ma'naviy sifatning mohiyati va zarurati haqida ma'lumotlar to'plashni talab qilish, so'ng uning bu yo'ldagi harakatiga to'siqlarni ko'paytirishga urinish kerak. Ana shunda shakllantirilishi istalgan, lozim deb topilgan fazilat bolaning ruhiyatiga bir umrga o'chmas bo'lib o'rmashib qoladi.

Bugungi o'qituvchilarga ta'lim-tarbiya jarayonining har bosqichida hikoya, suhbat, ma'ruzalar qildirish, muammoli mashqlar bajartirish, mehnat topshiriqlari, ta'lim beruvchi o'yinlar, o'quv-munozaralari, ta'lim jarayonidagi rag'batlantirish va tanbeh berish, o'quv materialini muammoli tarzda o'rgatish, muammoli suhbat, tadqiqotlar, induktiv va deduktiv muhokamalar, kitob bilan mustaqil ishlash, ta'limda zamonaviy mashinalardan foydalanish, og'zaki so'rov, yozma ishlar, ijod, dasturlashtirilgan ta'lim, mustaqil nazorat ishlari singari ta'lim metodlari u yoki bu darajada tushunarli. Lekin bugungi tarbiyashunoslik o'qituvchidan yetuk, bilimli mutaxassisni emas, sog'lom ma'naviyatli shaxsni, barkamol odamni shakllantirishni talab qilmoqda. Buning uchun o'qituvchilarni ma'lum qayta tayyorgarlikdan o'tkazish, komil inson tarbiyalash yo'llarini o'rgatish, ularni shunday maqsad uchun zarur bo'lgan metodik qo'llanmalar, pedagogik ashyolar bilan ta'minlash zarur. Shunda o'qituvchilar yuqoridagi maqsad yo'lidagi vazifalarni bajarishlari mumkin bo'ladi.

Sogʻlom maʼnaviyatli shaxsni shakllantirishning asosi boʻlgan mustaqil tafakkurini rivojlantirish haqida gapirilganda, bevosita adabiy taʼlim jarayonida oʻquvchi fikrlarini uygʻotish, oʻquv ishlariga faol qatnashishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, dars jarayonida oʻquvchida uygʻongan faollikni butun dars davomida ushlab aqliy faoliyatini toʻgʻri tashkil etish, bolani mustaqil mulohaza yuritishga, munosabat bildirishga, xulosalar chiqarishga ragʻbatlantirish nazarda tutiladi. Mustaqil fikrlashni, izlanishni ichki ehtiyoj darajasiga koʻtarish koʻzda tutiladi.

Maʼlumki, tafakkur u yoki bu masala yechimini izlash, qandaydir savolga javob topish jarayoni. Ammo har qanday savol ham fikr mustaqilligi va faolligini talab qilavermaydi. Inson tafakkuri mustaqilligini faollashtirishning birinchi sharti – uning oldiga chigal masala qoʻyishdir. Masalaning oʻquvchi oldiga qanday shaklda qoʻyilishi, uning yechimiga bolaning qiziqishi, asosiy muammoni anglashi juda muhim. Inson tafakkuri hamisha maʼlum maqsadga qaratiladi. Maqsadni anglash bilan tafakkur jarayonining ixtiyoriy zoʻriqishi, yaʼni insonning oldiga qoʻyilgan maqsadga erishishni qattiq istashi, muammoning yechimi uchun shuncha samarali boʻladi. Bu psixologiya fanida oʻz asosini topgan.

Ona tili darslarida oʻquvchining oʻz oldiga qoʻyilgan vazifani anglashi va oʻqish maqsadini tushunishi oʻqituvchi tomonidan dars maqsadining eʼlon qilinishidan boshlanadi. Darsning maqsadi va oʻquvchining oldiga qoʻyilgan masala uni oʻziga tortadigan boʻlishi uchun uning muhimligiga oʻquvchi oʻz hayotiy tajribasidan kelib chiqib ishonishi kerak boʻladi. Oʻquvchi bu darsda oʻzining maʼlum bir ehtiyoji qondirilishini anglashi lozim. Shunda bilim olish jarayoni har bir bola uchun qiziqarli faoliyatiga aylanadi. Bu faoliyat, oʻz navbatida, bolaning tafakkur jarayoni va uning mustaqilligi darajasi bilan uzviy bogʻliq boʻladi. Qoʻyilgan masala oʻquvchining nazarida salmoq kasb etishi uchun bola shunday qiyinchiliklarga roʻbaroʻ qilinishi kerakki, unda ayni masalani hal etishda zarur boʻladigan yangi bilimlarni oʻzlashtirishga ehtiyoj uygʻonsin.

Adabiy taʼlim jarayonida oʻquvchilar tomonidan insoniy tushunchalarning muhim jihatini nomuhimidan ajratishning oʻzlashtirilishi butun taʼlim jarayonini oqilona tashkil etishni taʼminlaydi. Oʻquvchining intellektual taraqqiyotini tezlashtiradi, imkoniyatlarining shakllanishi, oʻsishi va kengayishiga olib keladi. Ularning aqliy, ruhiy rivojlanishi samarali boʻlishiga koʻmaklashadi. Agar oʻquvchining oʻqish bilan birga maʼnaviy rivojlanshi ham talab qilinsa, taʼlim jarayonida uning oʻquv materialini katta samaradorlik bilan, ongli ravishda oʻzlashtirishga erishish mumkin. Oʻquvchi oldiga oʻz bilimi bilan mustaqil ravishda bajara oladigan masalalar qoʻyishdan oldin uni shu topshiriqlarni hal qila oladigan darajaga yetkazish kerak.

Bu borada taʼlim jarayonini amalga oshiruvchi oʻquv ishlari, uning mazmuni, shakl va metodlarini zarur emotsiya bilan taʼminlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Hissiy holatlar hamisha bezovta boʻlish, koʻngil hayajonlari, oʻzgani his qilish, quvonch, nafaqat, hayrat singari tuygʻular bilan bogʻliq. Eʼtibor qilish, eslab qolish, anglash jarayonlariga shaxsning chuqur ichki bezovtaligi, hayajoni qoʻshilganda u faollashadi, kerak boʻlgan intellektual marraning

egallanishi ta'minlanadi. Insonning his-tuyg'ulari ishtirokisiz haqiqatga intilish va erishish mumkin emas. Ayniqsa, adabiy ta'limda his-tuyg'u birinchi o'rinda turadi. Gap faqat uni zarur shakl va miqyosda uyg'ota bilishda. Hissiy bezovtaliklar, asosan, hayrat orqali namoyon bo'ladi. Badiiy asarda ifodalangan hodisa, asar qahramonlarining tuyg'ulari, ulardagi g'ayrioddiylik, ruhiy kechinmalar ifodasining samimiyligidan hayratlanish o'quvchida turli hissiyotlarni uyg'otadi.

Ona tili darslarida emotsional holatlarni vujudga keltirishda, avvalo, o'qituvchi nutqining hissiyotga yo'g'rilganligi, tiniqligi, badiiyligi muhim ahamiyat kasb etadi. Faqat bu tuyg'ular o'ta samimiy bo'lishi kerak. Busiz o'qituvchining nutqi informatsion-foydali nutq sanalib, o'quvchi faoliyatiga emotsional stimul berolmaydi. Shu bilan birga, darsning qiziqariligidan ta'minlovchi usullarda bevosita hissiyot qo'zg'otadigan emas, balki bilishdan zavqlanish hissi ham mavjud.

Polyak pedagogi V.Okon o'quvchining bandligini, uning bu jarayondagi mustaqilligini ta'minlash uchun asosiy e'tiborni ta'limning o'zlashtirish, kashf etish, boshdan kechirish (his qilish), harakat qilish singari yo'llariga qaratgan. O'zlashtirish yo'li bilan amalga oshiriladigan ta'lim, uning fikricha, o'quvchidan tayyor bilimlarni xuddi o'qituvchisi aytib berganday, bir tizimga solingan shaklda eslab qolishni talab qiladi. Bu holatda asosiy ish xotiraning zimmasiga tushadi. Bunday ta'limning natijasi u yoki bu bilimlarni xotirada ushlab qolish va uni kuchaytirishdan iborat.

Qayta kashf etish yo'lidan borishda ta'lim jarayonini ilmiy tadqiqotlarga imkon qadar yaqinlashtirish ham nazarda tutiladi. V.Okon qayta kashf etishning ikki muhim jihatini ajratadi: a) o'quvchilarda tadqiqotchilik faolligining ortishi; b) bilimlarni mustaqil ravishda o'zlashtirish. U bu yo'lning yana bir jihatiga – o'z mehnati orqali erishgan bilimni o'quvchi mahkamroq eslab qolishiga ham diqqatini qaratadi. O'tkazilgan tajriba-sinov ishlaridan ham ayon bo'ldiki, bunda bilimlarning o'zlashtirilishi ham tezlashadi, o'quvchilarning nazariy va amaliy muammolarni hal etishdagi faolligi ham ortadi, ko'nikmalari ham mustahkam bo'ladi. Bunday yondashuv, asosan, tafakkur mustaqilligi, kuzatuvchanlik, tasavvur, e'tibor va xotiraning rivojlanishiga, umumiy aqliy madaniyatiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Rus olimi S.Juykov o'quvchi mustaqil tafakkuri faollashuvi haqida so'z yuritib, bu faollikning yuzaga kelishidagi psixologik shart-sharoitlar, uni amalga oshirish va rivojlantirish yo'llari, o'quvchi tafakkurini boshqarish, nazorat qilish usullari hamda fikriy faoliyatda o'quvchi individualligi masalalariga to'xtaladi.

Ma'lumki, o'quvchining intellektual faolligi biror o'quv masalasini hal etishda aqliy faoliyatning mustaqil ravishda ishtirok etishi va o'z-o'zini nazorat qilishida (aqliy operatsiyalarni bajarishda zarur usullarni qo'llash, tafakkur yo'llarini qidirishda) ko'zga tashlanadi. Bunday faollikni oshirishni S. Juykov o'qituvchi, darslik va boshqa o'quv ashyolari ta'sirida bajariladigan faoliyatdan mustaqil ravishda savol-topshiriq qo'yishga, ularning o'quvchi tomonidan bajarilishida qolipdan voz kechib, masalalarni o'z bilimi va malakalariga tayanib, mustaqil hal etishga o'tishda ko'radi. Uning fikricha, o'quvchi aqliy faoliyati



mustaqilligi rivojlanishi masalaning muammolilik darajasiga bog'liq. Bunday vaziyat ta'lim tizimini qayta qurish, mavjud bilim, ko'nikma va malakalardan yangicha foydalanish, o'rganilgan fakt va hodisalarni qarama-qarshi qo'ya bilishni talab etadi.

Qator pedagog va psixologlar tomonidan o'quvchining bilimlarni o'zlashtirishdagi faolligini oshirish uchun: muammoli, suhbat, evristik, tadqiqot, induktiv, deduktiv singari umumdidaktik metodlar alohida ajratib olingan. Metodlarni tasniflashda ular yordamida o'quvchilarga tayyor bilimlarni zo'rlab singdirishga emas, balki ularning inson tafakkuri va tadqiqotchiligi jihatiga, faktlar va tajribaga asoslanishiga alohida e'tibor qaratilgan. O'qituvchining ta'lim metod va usullari haqidagi bilimi, ularni ongli, ma'lum maqsad yo'lida uyg'unlashtirish imkoniyatlari qanchalik keng bo'lsa, ma'lum mavzu hamda har bir alohida darsni tashkil qilish oson, unumli, foydali, jonli bo'ladi. Darsning o'zlashtirilish darajasi uning ko'rgazmaliligi, hissiyligi singari talablardan tashqari, tafakkur jarayoni mustaqilligini faollashtirish, nazariyani amaliyot bilan birgalikda qo'llash, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olishni ham taqozo etadi. "Ta'lim metodlari, - deb yozgan edi N. Maxmudov, - rivojlanishning yangi bosqichida tafakkur psixologiyasida to'plangan, o'quvchilar tomonidan bilimlar va faoliyatni o'zlashtirish jarayonini boshqarishni yaxshilashga imkon beradigan barcha ma'lumotlarni qamrab olishi kerak".

Pedagogika ilmida ta'lim metodlariga doir muammolarning chuqur ishlanganligini e'tirof etgan holda, olimlar ularda kamchilik borligini ham ko'rsatadilar. O'qitish metodi o'quv jarayonida ishtirok etadigan ikki ishtirokchi: o'qituvchi va o'quvchi faoliyatidagina iborat bo'lmay, balki o'quv materiali mazmuni, o'qituvchi va o'quvchi shaxsi, ular orasidagi munosabatlar singari birgalikda faoliyat ko'rsatadigan uch faktorni aks ettiradi. O'qituvchining ta'lim mazmuni va o'quvchi bilan birgalikdagi faoliyatini tahlil qilib shuni aytish mumkinki, o'quv materiali mazmuni o'qituvchi va o'quvchi munosabatlaridan kam ahamiyatga ega emas. Faqat ta'lim mazmunining shunday faoliyat turi bilan hamohangligi metodning samaradorligini, ta'limning ma'lum maqsadga erishish yo'lini aniqlashga imkon beradi.

Agar dars mavzusi avvaldan ma'lum bilimlardan kelib chiqib, mantiqan yangi dalillar, tushunchalarga tayanmasa yoki o'rganilayotgan yangi mavzu avval o'qilganlarning mantiqiy davomiga aylanmasa, o'qituvchi ta'limni qanday yuksak maqsadlar bilan qanchalik baland darajada, qanday ilg'or metodlar bilan uyushtirmasin, muvaffaqiyat qozonolmasligi ayon. Ta'lim metodlari faqat ma'lumotni qanday berishni belgilamaydi. Ular materialning tizimi va uni shu metod bilan ishlashga tayyorlashni ham nazarda tutadi. Yangi o'quv materialida jamlangan bilimlar o'quvchi o'zlashtirish maqsadiga mos, ularda bilim olish qobiliyatini rivojlantirishni qamrab olgan bo'lishi kerak.

Ta'lim jarayonidagi ikkita harakatlanuvchi subyekt: o'qituvchi va o'quvchining har biri o'z maqsadi yo'lida faoliyat ko'rsatishar, metodlar ularning faoliyat usuli ekan, bu subyektlarning maqsadga erishish yo'llari ham har xil bo'ladi. O'qituvchi faoliyatida boshqarish, bilimlarning o'quvchi tomonidan



o'zlashtirilishini tashkil etish yetakchilik qiladi. O'quvchining faoliyatida esa tarbiyalanish, o'qish-o'rganishning samarali yo'llaridan foydalanish ko'zga tashlanadi.

Maktab amaliyotida usul, qo'shimcha, metod bilan bir narsa yoki metodning bir qismi deb qaraladi. Aslida usullar umumiy metodlar tizimida o'ziga xos vazifani bajaradi. Masalan, ta'limning muammoli-izlanish metodi muammoli vaziyat yaratish, o'quv farazlarini shakllantirish, ularni isbotlash singari usullarni o'zida qamrab oladi. Ta'limning o'quvchilarni mustaqil fikrlashga yo'naltiruvchi mantiqiy (muammoli, suhbat, evristik, tadqiqot, taqqoslash, induktiv, deduktiv, tahlil qilish va sintezlash singari) metodlarida ham o'ziga yarasha: o'rganilayotgan o'quv materialidan muhimini ajratish, o'rganilayotgan hodisaning umumiy yoki xususiy jihatlarini topib tasnif qilish, tizimga solish, aniqliklar kiritish, isbotlash singari usullardan foydalaniladi. O'quvchini mustaqil fikrlashga yo'naltirishda qo'l keladigan muhimini ajratish usulida fikr predmetini qismlarga ajratish, o'zlashtiriladigan axborotni mantiqiy bo'laklarga bo'lish, ularni taqqoslash, materialni saralash, tayanch so'z va tushunchalarni topish, tayanch fikrni aniqlash, o'quv materialini guruhlarga ajratish, asosiy fikr haqida xulosa berish ishlari amalga oshiriladi. Shu maqsad yo'lida qo'llaniladigan taqqoslash usulida qiyoslanuvchi qismlarning asosiy belgilari, o'zaro munosabatlari, o'xshash va qarama-qarshi jihatlari, farqli tomonlarini belgilash ishlari muhim hisoblanadi. Tahlil qilishda ma'lumotni ongli ravishda o'zlashtirish, muhim belgilarni, munosabatni ajratish, qismlarga bo'lish yoki muhim tizimli belgilarni topish, sintez aloqalarni anglash va tushuntirib berish ishlari amalga oshiriladi. Umumlashtirishda tipik faktlarni, materialning muhim va ikkinchi darajali bo'laklarini bir-biri bilan bog'lash, dastlabki xulosalarni qiyoslash, qayta shakllantirish, va h.k. ishlar ajralib turadi. Aniqlik kiritish usuliga umumnazariy fikrdan xususiysiga o'tish, uni qo'llash yoki mavhumlikdan aniqlikka, ko'psahlilikka o'tish ishlari kiradi. Isbotlash usuliga tezislarni aniqlab olish, isbotlashning yo'llarini belgilash, zarur dalillarni to'plash, xulosalarni bir tizimga solish, sabab va tadqiqiy aloqalarini aniqlash kiradi. Ko'rinib turibdiki, darslarda ta'lim usullari qo'llanilganda o'quvchilar tomonidan bajariladigan ishlarning ma'lum qismi takrorlanadi. Lekin shunga qaramay usullar bir-birlaridan, o'z navbatida metodlar usullardan farqlanadi.

Yuqoridagilarga tayanib shuni xulosa qilish mumkinki, adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishda qo'llaniladigan mantiqiy metodlarning barchasida usullarning ma'lum qismi takrorlanadi. Ularning barchasi zamirida o'quvchi faoliyatining bir-biriga o'xshamagan takrori yotadi.

Ta'limning muammoli, suhbat, evristik, tadqiqot, taqqoslash, induktiv, deduktiv metodlari zamirida mustaqil va mantiqli tafakkur faoliyati mavjud bo'lgani uchun ham ular ta'limning mantiqiy metodlari deb nomlanadi. Adabiy ta'limda ularning barchasini qo'llash asnosida o'rganilajak asarlarning adabiy-badiiy tahlili yotadi. Darslarda badiiy asarda ilgari surilgan g'oya, fikr va mulohazali masalalarni hal etish uchun ularning mantiqiy asosini topish u yoki bu darajada mustaqil fikrlashni talab qiladi. Shuning uchun o'quvchi tafakkuri va

faoliyatida mustaqillikni ta'minlovchi mantiqiy metodlardan alohida maxsus darslarda emas, umuman adabiy ta'lim jarayonida, darsda an'anaviy topshiriqlarni, uy vazifalarini bajarishda ham foydalanish mumkin. O'quvchi mustaqil-mantiqiy tafakkurini shakllantirish hamda uni rivojlantirishda mantiqiy metodlar ko'proq samara beradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Mahmudov M va boshqalar. Ona tili umumta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. Toshkent, Tasvir, 2009 yil.
2. Mahmudov M va boshqalar. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinf uchun darslik. Toshkent, Ma'naviyat, 2007 yil.
3. Mahmudov va boshqalar. Ona tili 5-sinf. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. Toshkent. Ma'naviyat. 2011 yil.
4. Mahmudov va boshqalar. Ona tili 7-sinf. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. Toshkent. Ma'naviyat. 2011 yil.
5. Nurullayeva Shahlo. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish metodikasi. Ped.fan.nomzodi dissertasiya avtoreferat. Toshkent, 2007 yil.

#### **DESIGNING THE ACTIVITY OF THE TEACHER ON ORGANIZATION OF CONDITIONS FOR ADAPTATION OF CHILDREN IN THE PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATION**

*Xamidova Gulbaxor,  
JDPI katta o'qituvchisi  
Numonjonova Farangiz,  
JDPI magistranti*

The problem of adaptation of children to a preschool educational organization in modern conditions is highly relevant. New environment presents to the child special requirements that may, to a greater or lesser extent, match his individual characteristics and inclinations.

Admission to a preschool educational organization is associated with the inclusion of a child in a group peers, each of whom is endowed with their own individual traits. The change of scenery puts the baby in such conditions in which there is the need to subordinate one's motives to certain requirements and rules.

Some children quickly and well get used to new conditions. For others this process is complex and difficult and can lead to nervous overvoltage, breakdown. Facilitating the adaptation process largely depends on from parents, educators, and from the environment in which the child is. In this regard, the creation of optimal conditions during the adaptation period requires close study.

The problem of adaptation of children to a preschool educational organization in modern conditions is highly relevant. New environment presents to the child

special requirements that may, to a greater or lesser extent, match his individual characteristics and inclinations.

Properly organized activities of a teacher with children can become the guarantee of effective adaptation of children to the conditions of a preschool educational organization. Such cooperation helps to increase the child's motivation, reduce anxiety and severity of separation not only in children, but also in their parents.

Early age is a period of rapid formation of all characteristic a person of psychophysiological processes. Timely started and correct education of young children is an important condition for their full development. Early development occurs against such an unfavorable background as increased vulnerability organism, its low resistance to disease. Each the transferred disease, negatively affects the general development children. Therefore, during the period of adaptation to a preschool educational organization, it is necessary to create favorable conditions for a comfortable stay of a child in a preschool educational organization.

The success of adaptation is manifested in behavioral reactions and in the duration of the adaptation period. There are four the main factors of behavioral adaptation: emotional state, sociability, afternoon nap, appetite.

The presence of a mild, moderate and severe degree of adaptation to preschool educational organization:

1. Easy adaptation - behavior is normalized within 10-15 days, the child gains weight according to the age norm, adequately behaves in a team, no more than during the first month of the visit preschool educational organization.

2. Adaptation of moderate severity - shifts are normalized during months, the child loses weight for a short time, may come a single illness lasting 5-10 days without complications, there is signs of mental stress.

3. Severe adaptation - lasts from 2 to 6 months; child often is sick, loses already acquired skills, both physical and and mental exhaustion of the body, persistent disorders may appear behavior (trying to hide, go somewhere, sitting in the reception, calling mom, etc.).

In order for children to quickly get used to new conditions and with enjoyed visiting a preschool educational organization, children were provided with individual approach. We conducted a survey in order to so that the child more successfully adapts to the new conditions that have arisen.

The adaptation of preschoolers to the preschool educational organization is often complicated. This problem is so acute that the need to create a system work in this direction is obvious.

With the arrival of a child in a preschool educational organization, his life changes significantly: strict regime of the day, absence parents or other close adults, new behavioral requirements, constant contact with peers, a new room, concealing a lot of unknown, and therefore potentially dangerous, a different style of communication.

All this falls on the child at the same time, creating for him stressful situation that can lead to neurotic reactions (whims, fears, refusal to eat, frequent illnesses, mental regression, etc.) The adaptation period is so serious in a child's life that it requires decisive action on the part of adults to alleviate it. Solution this task falls, first of all, on the teachers of the preschool educational organization.

It is they who must organize the child's life in a preschool educational organization in such a way that the child is most adequate, almost painless adapted to new conditions so that he formed positive attitude towards preschool educational organization communication skills, first of all with peers.

Pedagogical conditions include:

1. planning of work on the organization of the adaptation period;
2. the consistency of interactions in the preschool educational organization and the family;
3. creation of an emotionally - favorable environment in the group.

For the child to get used to the preschool educational organization as much as possible painless, step-by-step is used in the work of all participants (parents, pupils and teachers).

Once again, it should be noted that the adaptation of a child is impossible without close cooperation with the family. Center for improving pedagogical culture young parents, in our opinion, should be a kindergarten. Unfortunately, parents do not yet see in the preschool educational organization a potential assistant, consultant in the upbringing of their child in the first years of his development. Families, especially young ones, do not have a sufficient understanding of the life of a child in a preschool educational organization, about the conditions for upbringing and training in a preschool educational organization.

#### REFERENCES

1. Gluzman, N.A. Gorbunova, N.V. Teacher's professionalism: success and career: monograph / N.A. Gluzman, N.V. Gorbunov. – M.: INFRA-M, 2019. – 314 p.
2. Khodakov, N.P. Vocational training of preschool teachers for the use of information technology in future practice: dis. . Dr. ped. Sciences: 13.00.08 / N.P. Khodakov. - Moscow, 2012. - 363 p.
3. Chirkova, E.V. Formation of the state of the future educator to create a successful situation at work preschoolers: dis. ... cand. ped. Sciences: 13.00.01 / E.V. Chirkova. Voronezh, 2012. - 252 p.
4. Romanov V.A., Ushakova I.A. professional Competence of a nurse in a preschool educational institution / V.A. Romanov, I.A. Ushakov
5. Пронина А.Н. /Основы курса «Управление современным дошкольным образовательным учреждением» / А. Н. Пронина. – Елец: ЕГУ им. И.А. Бунина, 2005. – 162 с.

6. Белая, К.Ю. /300 ответов на вопросы заведующего/ К.Ю. Белая. – АСТ, Астрель, 2001. – С. 400.
7. Денякина Л.М. Новые подходы к управленческой деятельности в дошкольном образовательном учреждении/ Л.М. Денякина. – М: Новая школа, 1997. – 48 с.
8. Поздняк Л.В. /Управление дошкольным образованием: учебное пособие для студ. педвузов/ Л.В. Поздняк, Н.Н. Лященко. – М.: Издательский центр «Академия», 2000. – 432 с.
9. Дорова, Т. А. Адаптация ребёнка к ДОО : новые подходы {Текст}/ Т. А. Дорова.- М : Обруч, 2006
10. Хамидова Г. Мактабгача ёшдаги болаларнинг ижодий фаолиятини шакллантиришда ўйинларнинг аҳамияти. *Ta 'lim, fan va innovatsiya*. 2021.
11. Xamidova G. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni oilada estetik hislarni shakllantirish. *Preschool education journal*. 2021.
12. Xamidova G. Qobilyati shakllantirishda ijtimoiy shart-sharoitlarni oʻrni. *bola va zamon*. 2019.
13. Xamidova G. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodkorligini rivojlantirishda tasviriy faoliyatning oʻrni: maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodkorligini rivojlantirishda tasviriy faoliyatning oʻrni. *Журнал дошкольного образования* 2020.

## МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ TASHKILOTLARIDA O‘QUV- PEDAGOGIK JARAYONLARNI REJALASNTIRISHNING MOHIYATI VA MAZMUNI

*Rahmonqulova Xolida Bosimovna,  
JDPI o‘qituvchisi*

XXI asr boshlarida kechayotgan global ijtimoiy-iqtisodiy va geosiyosiy jarayonlar, dunyoning gʻoyaviy-mafkuraviy qiyofasini oʻzgartirib, yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantirishni taqozo etmoqda. 2017-2021-yillarga moʻljallangan “Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi”, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq taʼlimi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Qaroriga muvofiq, taʼlim bosqichlarining uzluksizligi va izchilligini taʼminlash, taʼlimning zamonaviy metodologiyasini yaratish, oʻquv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish hamda pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish taqozo etadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev rahbarligida 2017 yil 16 avgust kuni boʻlib oʻtgan yigʻilishda maktabgacha taʼlim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, mazkur muassasalarga bolalarni toʻla qamrab olish boʻyicha muhim vazifalar qoʻyildi. Bu boradagi tahlillar natijasida qisqa vaqtda uchta yirik



hujjat — O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 9 sentyabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3261-sonli Qarori, 30 sentyabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5198-sonli Farmoni hamda “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi – faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3305-sonli Qarori qabul qilindi.[ 5.344]

“Pedagogik jarayon” tushunchasi ham umumiy pedagogikada ham, maktabgacha pedagogikada ham o‘zining to‘liq ifodasini topmagan. Umumiy pedagogikada Yu.K. Babanskiy, M. A. Danilov va boshqalar pedagogik jarayon sinonimi deb qaraladi. Bunda u asosiy tarkibiy qismlari tarbiya va rivojlantirish birligidagi o‘qitish bo‘lgan yaxlit jarayon deb qaraladi. Pedagogik jarayonni va uni harakatlantiruvchi kuchlarning asosiy qonuniyatlarni topishga ham urinib ko‘rilgan.

A. P. Usova maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni o‘qitish muammaolarini ishlab chiqar ekan, maktabgacha ta’lim tashkilotdagi pedagogik jarayonning asosiy tarkibiy qismlarini tilga oladi. Ular o‘yin, mehnat va o‘quv faoliyatidir. [ 1. 108 ]

Maktabgacha ta’lim tashkilotdagi pedagogik jarayonda o‘yinning o‘rnini ta’riflar ekan, N. B. Mchedlidze o‘zining “Место игры и педагогическом процессе детском саду” nomli kitobida shunday deydi: “Pedagogik jarayon yaxlit, dialektik va rivojlantiruvchi hodisadir” uning rivojlanishi jarayonida asosiy tashkil qiluvchi qismlari: tarbiya va o‘qitish, bolalarning uyushtirilgan va mustaqil faoliyatilari, ayrim faoliyat turalri (o‘yin, o‘quv, mehnat) o‘rtasidagi nisbat o‘zgaradi.[ 3.213 ]

Pedagogik jarayonda tadqiqotchi maqsad va mazmunini, vosita va metodlarini, pedagog va bolalarning o‘zaro aloqasini, natijani ajratib ko‘rsatadi.

Pedagogik jarayonning xususiyati uning mazmuni, tuzilish va shakllari rivojlanishdagi o‘zgaruvchanlikdir. Maktabgacha ta’lim tashkilotdagi pedagogik jarayon maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni har tomonlama tarbiyalash va rivojlantirish, ularni jismoniy, aqliy va estetik rivojlantirish masalalarini amalga oshirishiga yo‘llangan. Qolaversa bolani o‘sib kelayotgan yosh avlodni yuksak odob – axloqli, milliy ma’naviy va madaniy tarbiyalangan, yurt tinchligi va kelajak uchun xizmat qiladigan inson qilib tarbiyalashga qaratiladi. Bu vazifani pedagogik jarayonda bolalar faoliyatining turli-o‘yin, turmush, mehnat, o‘quv faoliyatlari orqali ta’minlanadi. Ular maktabgacha ta’lim yoshidagi bola shaxsini shakllantiruvchi vositasi xizmatini o‘taydi va bolalar egallaydigan mazmun hisoblanadi.

Pedagogik jarayonning tashkil etilishi ilk maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar uchun xos bo‘lgan umumiy rivojlanishining yuqori sur‘atlarini hisobga olishi kerak. U har bir yosh guruhidagi rivojlanishni shuningdek, butun bolalar bog‘chasidagi pedagogik jarayonni o‘zgartiruvchanligini ham belgilaydi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotdagi pedagogik jarayon bolalar hayotini tashkil etishning o‘ziga xosligi bilan farqlanadi. Ya’ni bunda bolalarining asosiy faoliyatilari o‘yin, mehnat, sayr, navbatchilik, mashg‘ulot nazarda tutilgishi kerak. Bolalarni faoliyatida uyushtirishning umumiy va yakka shakllari o‘zgaruvchanligi

va xilma-xil birikmalari bilan ifodalanadi. Bundan maktabgacha ta'lim tashkilotdagi pedagogik jarayonni bir butun sifatida va har bir yosh guruhida rejalashtirish lozim degan xulosa kelib chiqadi.

Pedagogik jarayonni rejalashtirishning maqsadi- Maktabgacha ta'lim tashkilotida o'quv dasturining bajarilishini ta'minlashdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Djuraeva.D.R. Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning zamonaviy tendentsiyalari. Uslubiy qo'llanma T.: O'zPFITI 2015y
2. Kayumova N.M. Maktabgacha pedagogika. O'quv qo'llanma.-T,TDPU -2013y
3. F.Qodirova, Sh.Toshpo'latova, M.A'zamova. "Maktabgachapedagogika".- T., "Ma'naviyat". 2013
4. Qodirova.F,Toshpo'latova.Sh,Kayumova.N,A'zamova. Maktabgacha pedagogika darslik.-T:Tafakkur nashryoti 2019 y
- 5.Maktabgacha ta'limning me'yoriy hujjatlar topلامي. Toshkent 2016, 2017,

#### **СОЦИАЛЬНОЕ ЯВЛЕНИЕ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ПРОЦЕСС**

*Хамидова Гулбахор,  
Старший преподаватель ДГПИ  
Нуманжанова Фарангиз,  
магистр ДГПИ*

«Образование – это целенаправленный процесс обучения и воспитания в интересах личности, общества, государства, сопровождающийся констатацией достижения обучающимся определённых государственных образовательных уровней - цензов».

Латинский термин «культура» означает возвращение, совершенствование чего-либо. Соответственно, и применительно к человеку это возвращение, совершенствование, формирование его образа.

Процесс взаимодействия, как присвоение и создание человеком новых культурных ценностей, в рамках образовательной системы является созиданием. То есть связан с культурой в её динамическом аспекте.

Образование как социальное явление существует с древнейших времён, оно обусловлено социальной потребностью передавать новым поколениям опыт, накопленный предыдущими поколениями, создавать предпосылки для совершенствования и развития этого опыта, для стабильности общества. Образование воспроизводится и развивается в течение многих веков, современный уровень образования — очередная ступень его развития.

Этимология понятия «образование» восходит к терминам «образ», «образец». В древности это понятие относилось ко многим видам деятельности человека (образовать форму глины, камня, древесины). Позже

понятие образование стало обозначать процесс и результат педагогической деятельности, заключающийся в формировании образа человека.

Единый процесс физического и духовного становления личности, процесс социализации, сознательно ориентированный на некоторые идеальные образы, на исторически сложившиеся в общественном сознании социальные эталоны.

Образование как социальное явление существует с древнейших времён, оно обусловлено социальной потребностью передавать новым поколениям опыт, накопленный предыдущими поколениями, создавать предпосылки для совершенствования и развития этого опыта, для стабильности общества. Образование воспроизводится и развивается в течение многих веков, современный уровень образования — очередная ступень его развития.

Образование является специальным объектом педагогики и выступает в двух аспектах: как общественное явление и как педагогический процесс. С точки зрения общественных функций образование – средство социальной наследственности, передачи социального опыта последующим поколением. По отношению к человеку, которого обучают и воспитывают, образование – это средство развития его личности, психологическую структуру которой изучает психология.

Цель образования заключается в передаче культуры в виде социального опыта людей от одного поколения к другому, культуры, обеспечивающей разносторонние качества и направленность личности, её интеллектуальное, нравственное, эстетическое, эмоциональное и физическое развитие. один человек не в состоянии овладеть всем, что накопило человечество за тысячелетия своей жизни на Земле. Поэтому образование – ценность, созданная человечеством для развития человека и общества.

Влияние образования на общество проявляется в том, что образование...:

- является способом социализации личности и преемственности поколений;
- средой общения и приобщения к мировым ценностям, достижениям науки и техники;
- ускоряет процесс развития и становления человека как личности, субъекта и индивидуальности;
- обеспечивает формирование духовности в человеке и моральных принципов.

Современное образование – это сложная система взаимодействий людей и материальных средств, позволяющая предавать новым поколениям накопленные человечеством знания и опыт, культурные ценности.

Образовательный процесс имеет диалектический характер. Поэтому развитие образовательного процесса возможно как через разрешение противоречий, так и эволюционным путем – через совершенствование сложившейся образовательной системы. В качестве главного противоречия образовательного процесса выступает противоречие между социальным

требованием к образованности человека и его уровнем образования, качеством и типом образования.

Основания для развития образования – это новые концепции и модели образования на уровне государства или конкретного региона и отдельных образовательных организаций; новые государственные образовательные стандарты; нормативно-правовые документы; новые источники, механизмы и формы финансирования; новые системы подготовки и переподготовки специалистов для образовательной сферы.

Для описания различных свойств и сторон образовательного процесса широко используется термин педагогический процесс, под которым понимается специально организованное взаимодействие педагогов и воспитанников с целью образования и развитие личности воспитанников. Таким образом, педагогический процесс всегда подразумевает взаимодействие педагогов и воспитанников, в то время как процесс образования может протекать и вне этого взаимодействия (например, при самообразовании, воспитании в семье и т.д.).

В мировой практике в разные исторические периоды появились и до сих пор взаимодействуют между собой несколько систем обучения:

- классно-урочная;
- лекционно-практическая курсовая;
- бригадно-групповая;
- индивидуальная;
- кабинетная;
- система интенсивного (ускоренного) обучения;
- система политехнического обучения (изучение основ наук и основ современного производства в их единстве);
- система разно уровняго обучения и др.

Система образования может рассматриваться в масштабах всей страны, на уровне отдельного региона (области, края, республики), города и отдельного региона. В этом случае говорят о региональной, муниципальной и разной образовательной системе.

Образованный человек – это не только знающий и умеющий человек в основных сферах жизнедеятельности, с высоким уровнем развитых способностей, но и человек, у которого сформировано мировоззрение и нравственные принципы, а понятия и чувства получили благородное и возвышенное направление. То есть образованность предполагает и воспитанность человека.

Как отмечал Н. Г. Чернышевский, три качества – обширные знания, привычка мыслить и благородство чувств необходимы для того, чтобы человек был образованным в полном смысле этого слова. Однако понятие «образованный человек» - культурно-историческое, так как в разные эпохи и в разных цивилизациях в него вкладывали конкретное содержание.

В современных условиях интенсивного процесса коммуникации между всеми странами и интеграции мирового образовательного пространства

формируется единое понимание образованного человека для всех стран и континентов.

Используемая литература:

1. Пронина А.Н. /Основы курса «Управление современным дошкольным образовательным учреждением» / А. Н. Пронина. – Елец: ЕГУ им. И.А. Бунина, 2005. – 162 с.
2. Белая, К.Ю. /300 ответов на вопросы заведующего/ К.Ю. Белая. – АСТ, Астрель, 2001. – С. 400.
3. Денякина Л.М. Новые подходы к управленческой деятельности в дошкольном образовательном учреждении/ Л.М. Денякина. – М: Новая школа, 1997. – 48 с.
4. Поздняк Л.В. /Управление дошкольным образованием: учебное пособие для студ. педвузов/ Л.В. Поздняк, Н.Н. Лященко. – М.: Издательский центр «Академия», 2000. – 432 с.
5. Дорова, Т. А. Адаптация ребёнка к ДООУ : новые подходы {Текст}/ Т. А. Дорова.- М : Обруч, 2006
6. Хамидова Г. Мактабгача ёшдаги болаларнинг ижодий фаолиятини шакллантиришда ўйинларнинг аҳамияти. Та 'lim, fan va innovatsiya. 2021.
7. Xamidova G. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni oilada estetik hishlarni shakllantirish. Preschool education journal. 2021.
8. Xamidova G. Qobilyati shakllantirishda ijtimoiy shart-sharoitlarni o'zni. bola va zamon. 2019.
9. Xamidova G. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodkorligini rivojlantirishda tasviriy faoliyatning o'zni: maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodkorligini rivojlantirishda tasviriy faoliyatning o'zni. Журнал дошкольного образования 2020.

## OMON MATJON IJODIY LOBORATORIYASINI O'RGANISH MUAMMOLARI

*Axmedova Shoxista Saydiyevana  
JDPI tayanch doktoranti*

Adabiyot azaldan inson ruhining ma'naviy ozuqasi, qalbining tarjimoni va tarbiyachisi sanalgan. Insonni komil shaxs sifatida shakllantirishda, ma'naviy-axloqiy hayotini kamolotga yetkazishda adabiyotga tayanilgan. Jumladan, Sh. Mirziyoyev kitobxonlik haqidagi ma'ruzasida shunday deydi: “Jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an'analarni chuqur qaror toptirishga, xususan, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy-intellektual salohiyati, ong-u tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona Vatani va xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan kitobxonlik madaniyatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.”[1;67]



Prezidentimizning ushbu fikrlaridan kelib chiqqan holda shuni ta'kidlash joizki, fuqarolik jamiyatida barkamol shaxsni tarbiyalab, malakali kadrlarni tayyorlashda badiiy adabiyotning o'rni beqiyos.

Yangi zamonaviy adabiyotshunoslik ijodkor shaxsi va uning ijodiy laboratoriyasini o'rganishning yangi tahliliy kuzatishlar doirasini kengaytirish va yanada teran tadqiqotlar yaratish maqsadida adiblarning shaxsiy qo'lyozmalari, asarlarining bir nechta variantlari, qoramalar, kundalik qaydlar, maktublar, xullas, jamiki shaxsiy hujjatlarni o'rganib, yangi ilmiy-nazariy xulosalar chiqarmoqda. Ijodkor shaxsiy arxivini o'rganish ishlari ko'plab jahonga taniqli shoir va yozuvchilar hayoti va ijodi misolida o'rganilgan. Jumladan, L.Tolstoy, A.Chexov, M.Gorkiy, Esenin [2;65] kabi rus ijodkorlarini shaxsiy arxivlari yirik olimlar tomonidan o'rganilgan. O'zbek adabiyotshunosligida Abdulla Qahhor, Oybek, G'afur G'ulom, Shuhrat [3;89] kabi ijodkorlarning shaxsiy arxivlari adiblarning uy-muzeylari va Adabiyot muzeyida saqlanayotgan noyob qo'lyozma-hujjatlar orqali yangicha nigoh bilan o'rganildi. Bu ishlar davom etmoqda. Ijodkor laboratoriyasini o'rganish qiziqarli ilmiy xulosalar va yangicha ilmiy metodda tekshirish imkoniyatini paydo qiladi. O'rganilayotgan ijodkorning ijodiy jarayon lahzalari, ishlash tartibi, asarlarining yaratilish bosqichi, bir asar ustida qilgan ijodiy zahmatlari, ijodkorning badiiy, ilmiy taffakkur kengliklarini aniqlash, obraz, g'oya tadriji kabi ko'pdan ko'p ilmiy masalalarni o'rganish uchun katta yo'l ochadi.

Xususan, O'zbekiston xalq shoiri Omon Matjondan 20 dan ziyod she'riy to'plamlar, dramatik va ma'rifiy dostonlar, she'riy qissa, tragediya va badiialar meros bo'lib qoldi. Asli Xorazm vohasida tug'ilib o'sgan Omon Matjon poytaxt Toshkentda kelib, shu yerda umrning oxirigacha yashab ijod qildi. Uning badiiyat nuqtai nazaridan baland she'riyatida Xorazm ohanglari va Xorazm tarixi manaman deb bo'y ko'rsatadi. Omon Matjoning xalqchil, milliy, musiqiy lirikasida falsafiylik, ramziylik, tarixiylik, ramz va satira unsurlari bo'rtib ko'rinadi. Shu ma'noda, Omon Matjon uyida farzandlari tomonidan saqlanayotgan shoirga tegishli shaxsiy arxividagi asarlarining yuzlab qo'lyozmalarini (ular papkalarda dastxat yoki mashinkada pechatlangan) o'rganib, ijodkor laboratoriyasiga doir badiiy asar tarjimai holi hamda bir she'r ustidagi zahmatlarini, ijodkorning ijodiy ishlash manerasi va ruhiy iqlimlarini kashf etish bugungi zamonaviy adabiyotshunosligimiz oldida turgan muhim ishlardan biri hisoblanadi.

O. Matjon ijodi doimo adabiy tanqidchilikning diqqat-e'tiborida bo'lgan. Jumladan, O.Sharafiddinov, Matyoqub Qo'shjonov, Umarali Normatov, Nu'monjon Rahimjonov, Jumagul Jumaboyeva, Suvon Meli, Ulug'bek Hamdamov, Marhabo Qo'chqorova, Manzura Pirnazarova, Munis Hakimov, Panayeva O'g'iljon[4;68] va boshqalarning tadqiqot, risola va maqolalarida O. Matjon hayoti va ijodi dissertatsiyon ishlarda, adabiy portret, ilmiy maqola va taqrizlarda o'rganilgan. Ammo shoir shaxsiy arxivi asosida ijodiy laboratoriyasi o'rganilmagan. Omon Matjon ijodiy laboratoriyasini o'rganish va mazkur maqsadga erishish jarayonida quyidagi vazifalarni amalga oshirish talab etiladi:

-Omon Matjon shaxsiy arxivini tasniflab ko'rsatish;

- Shoir arxivida saqlanayotgan asarlarini qo'lyozma variantlari bilan nashr variantlarni qiyoslab, ijodiy jarayon bosqichini aniqlab ko'rsatish;
- Shoirning tarixiy obraz va tarixiy dramatik doston, traxiy tragediya yaratish ijodiy tajribasini (Beruniy, Mahmud G'aznaviy, Nnajmiddin Kubro. To'rabeka xonim, Turkon xotun kabi obrazlar) qo'lyozmalar va mavjud shaxsiy hujjatlar (shoirning shaxsiy kutubxonadagi kitoblar) vositasida o'rganish;
- Lirik she'rlarining qo'lyozmari va variantlarini o'rganib, tekstologik tadqiqot o'tkazish;
- nasriy sochmalarining ("Quyosh soati" to'plami) qo'lyozma holati va nashr etilmagan qismlarni tahlil chig'rigidan o'tkazish;
- Omon Matjonning chop etilmay qolgan asarlarining qo'lyozmalarini o'rganish va ilmga ma'lum qilish (Zulfiya haqidagi libretta)

Shu nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak, shoir Omon Matjon hozirgi o'zbek she'riyatining rang-barang jabhalarida yangi uslubiy izlanishlar olib borgan ijodkorlardan biridir. Binobarin, O.Matjon arxivida shunday she'rlar borki, ularda ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy masalalar, turli yoshdagi inson xarakteri ularning jamiyatga, tabiatga bo'lgan qiziqishlari, mehri haqida turli tasvirlarni uchratishimiz mumkin. Shoirning tarix bilan hozirgi zamoni bog'lab yozgan asarlarida o'ziga xos ma'naviy olamining badiiy talqin qilinganligini ko'rsatib berganligini hamda she'rlarida ajdodlar merosini davom ettirish, ularga munosib voris bo'lish, tarix bag'ining qabatlariga singib, uning manzur va mashhur tomonlariga o'quvchi e'tiborini tortishdan iborat bo'ldi. Shuningdek, shoir ajdodlar tomiridan zamon qalbiga nur iplarini bog'lashga intildi, xolisona, tarixiylik qoidasiga asoslanib, u qanday bo'lsa, shundayligicha xalqqa yetkazdi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, hamma davrlarda ham barcha turdagi adabiyotlar uchun asosiy muammo odam ekani, uning hayotdagi o'rni, qadri, iztirob-u o'ylaridan iboratligi ma'lum bo'ladi. Bu haqda o'z asarlarida milliylik, o'zbekona hayot, muomala- munosabat, tarixiy xarakter –xususiyatlarni yuksak darajada tasvirlagan - O.Matjon o'z she'rlarida o'ziga xos insoniy sajiya va taqdirga ega tarixiy qahramonlarga murojaat etadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Sh.Mirziyoevning 2017- yil 13- sentyabrda qabul qilingan "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risidagi" qaroridan.
2. Бахтин М.М. Проблемы поэтики Достоевского. – М.: Наука, 1973.–С.207
3. Султонова М. Абдулла Қаҳҳор услубининг баъзи масалалари. -Тошкент: Фан, 1967. -146 бет.
4. Литературная энциклопедия. Том четвертый. Москва: Изд. Ком. академии, 1930.
5. <http://e-adabiyot.uz/adabiyotshunoslik/adabiy-suhbatlar/812-maqola.html>
6. www. Natlib.uz

## MUSTAQIL MUTOLAANING ADABIY TA'LIMDAGI O'RNI XUSUSIDA

*Ro'zimova Zulfiya,  
Xorazm viloyati Urganch shahar  
24-son maktab o'qituvchisi*

Yosh avlodning sog'lom o'sishi, kelajakda komil inson bo'lib yetishuvida uning jismonan baquvvatligi bilan birgalikda ma'naviy yetukligi ham kuchli ta'sir etadi. Zero, o'tmishga nazar tashlasak, allomalarimiz yozuvlarida "sog'lom, komil inson bo'lish uchun nafaqat jismoniy sog'lik, balki aqli butunlik, fikr ravshanligi, zehnlilik ham zarur bo'ladi",- degan fikrlarga duch kelamiz. Fikrning ziyrakligi, aqlning o'tkirligi esa bilim manbasi bo'lgan kitob o'qish orqali amalga oshadi. Badiiy adabiyot olamni o'zlashtirishning o'ziga xos vositasi va manbasi ham sanaladi. Kitob o'qish inson ma'naviy olamini boyitishi, aqlni charxlashi haqidagi fikrlarni Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Bobur kabi buyuk ajdodlarimiz ham qayd etganlar.

Hozirgi globallashuv davrida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatida ta'lim-tarbiya sohasiga alohida e'tibor qaratilib, ta'lim tizimini isloh qilish borasida katta ishlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda o'sib kelayotgan yosh avlodni ajdodlarimiz kabi har tomonlama yetuk, komil inson qilib yetishtirish uzluksiz ta'lim tizimida xizmat qiluvchi o'qituvchilarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Zero, yoshlarni har tomonlama yetuk, sog'lom, yirik harflar bilan yoziladigan shaxs sifatida tarbiyalash milliy ta'lim tizimining bosh maqsadidir.

Milliy-ma'naviy tarbiyaning uyg'unligiga erishishda adabiy ta'lim tizimining o'ziga xos o'rni va roli bor. Qolaversa, har bir avlod oldida insoniyat yaratgan jamiki bilimlarni o'rganish va o'zlashtirish vazifasi turadi. Hayot taraqqiyoti va jamiyat rivojini shusiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu vazifani bajarishning birdan-bir yo'li ta'lim tizimini takomillashtirib borish orqali yosh avlodni ilm-fan asoslari bilan chuqur qurollantirishdir. Bunda mustaqil mutolaa alohida o'rin tutadi. Chunki o'quvchi mustaqil mutolaa jarayonida bilimlarni passiv qabul qiluvchidan faol o'zlashtiruvchiga aylanadi. Mehnat bilan o'zlashtirilgan bilim esa inson qalbida abadiy muhrlanib qoladi, tarbiya haqidagi g'oyalari hayotiy dasturga aylanadi.

O'quvchilarda bilim olishga qiziqish uyg'otish, o'quv-bilim ko'nikma va malakalarini shakllantirishda adabiyotdan amaliy faoliyatda yo'llovchi mustaqil mutolaa katta imkoniyatlarga ega.

Adabiy ta'limning turli bosqichlarida mustaqil mutolaadan foydalanish, shu jarayonda o'quvchilarni adabiy-estetik tahlilga o'rgatish usullari, ularda kitobxonlik madaniyatini tarbiyalash orqali badiiy-estetik didlarini yuksaltirishga doir muammolar yuzasidan ancha ishlar qilingan. Bu borada adabiyotshunoslarimiz O.Sharafiddinov, Q.Yo'ldoshev, A.Zunnunov, O.Madayev, S.Matjanov, M.Mirqosimova, B.To'xliyevlarning ishlari diqqatga sazovordir.

Shunga qaramasdan hozirgi davrda uzluksiz ta'lim tizimida adabiyot

darslarida mustaqil mutolaani tashkil etish usullari, ularning ta'lim jarayonida ilmiy-amaliy ahamiyati haqidagi metodik qo'llanmalar ozchilikni tashkil etadi.

Akademik litseylarda mustaqil mutolaani tashkil etish usullari maktabdagidan tubdan farq qiladi. Chunki litseylarda ta'lim olayotgan o'quvchi shakllangan, dunyoqarashi kengaygan bo'ladi. Shu sababdan berilayotgan bilim maktabda beriladigan saboqlardan ancha murakkabroq bo'ladi. Shuningdek, mustaqil mutolaa uchun asarlar hajm jihatdan ham, mazmun jihatdan ham ancha murakkabroq bo'lishi zarur. Shuning uchun umumta'lim maktablari va akademik litseylarda mustaqil mutolaa masalalari bilan jiddiy shug'ullanish kerak. Afsuski, hozirgi paytda bunday muammo bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar barmoq bilan sanalguday darajada.

Adabiyot o'qituvchisi mustaqil mutolaa uchun ajratilgan soatlardan unumli foydalana olishi zarur. Mustaqil mutolaa uchun darslikda berilgan asarlar bilan cheklanib qolish yaramaydi. Shuning uchun o'qituvchi o'zi izlanishda bo'lishi, ayni paytda o'zi ham kitobxon bo'lishi kerak.

Kitobxonlik ijodiy ish va u doimiy shug'ullanishni taqozo etadi. Chunki endigina badiiy asarni o'qishga kirishgan o'quvchi dastlab voqealar oqimini qiziqib kuzata boshlaydi, so'ngra shu voqea tasviri, asarda ishtirok etayotgan obrazlar xatti-harakatlari haqida mushohada yurita boshlaydi. Asarda tasvirlangan voqelik bilan hayot voqeligini farqlash jonli muloqot natijasidir. O'quvchi ularni taqqoslash uchun bosh qotiradi va o'ylashga majbur bo'ladi. O'qish jarayonida qahramonlarning o'rniga o'zini qo'yib ko'radi, muayyan xulosalar chiqaradi. Ko'rinadiki, u ham o'ziga xos ijod qiladi. Kitobxonning ijodkorligi esa yozuvchi mahoratiga, ya'ni badiiy adabiyotning darajasiga bog'liq.

Kitobxonlik adabiyotshunoslik va ta'lim tarbiyaning mushtarak hamda muhim sohasi sifatida shubhasiz chuqur izlanishlarni taqozo etadi.

Komilikka kitobxonlik orqali erishilsa, kitobxon bo'lish uchun nimalarga e'tibor qaratish kerak degan masala hamisha dolzarb bo'lib qolaverar ekan, o'quvchini kitobxonlikka qiziqtirish uchun mustaqil mutolaani yo'lga qo'yish, kerakli adabiyotni topa bilish lozim bo'ladi. Bunda o'quvchi asosan o'qituvchining bilimi va ko'nikmalariga tayanib ish tutadi. Mustaqil mutolaa adabiyot dasturi asosida o'qituvchi tomonidan rejalashtiriladi va ma'lum maqsadga yo'naltiriladi. O'quvchi mustaqil mutolaa uchun kutubxonadan kitob olar ekan, birinchi navbatda, o'qituvchining topshirig'ini nazarda tutadi.

Mustaqil mutolaa sinfdan tashqari o'qishning asosini tashkil etadi. Mustaqil mutolaani faqat badiiy asarlar ustidagina emas, adabiy-tanqidiy asarlar yuzasidan ham o'zlashtirish mumkin.

Kitobxon talanti duch kelgan asarni o'qib, u haqida fikr bildirish bilan o'lchanmaydi, balki tanlab o'qish, o'qiganlari yuzasidan ijodiy fikrlash, to'g'ri xulosa chiqarish zarurdir.

Kuzatishlar adabiy bilim, ko'nikma va malakalar o'quvchilarning o'zlari tomonidan o'zlashtirilsagina mustahkam zaminga ega bo'lishini ko'rsatadi. Shu ma'noda uzluksiz ta'lim tizimida adabiyotdan mustaqil mutolaaning o'zni va roli alohidadir. Hatto adabiy ta'lim oldidagi asosiy vazifani mustaqil mutolaani to'g'ri

yo'lga qo'ymay turib amalga oshirib bo'lmaydi. Mustaqil mutolaa ta'lim-tarbiya jabhasida xalq ta'limining ming yillar davomida tajribalarda sinovlardan o'tgan shakli, samarali vositasi va eng maqbul usuli hisoblanadi.

## UYGA BERILGAN TOPSHIRIQ VA VAZIFALARNI BAHOLASHNING ONA TILI TA'LIMIDA TUTGAN O'RNI

*Xoljo'rayev To'lqin Xoljigitovich,  
JDPI o'qituvchisi.,  
Irmatov Azamat Normat o'g'li  
JDPI magistranti*

S.R.Rajabov, K.Hoshimov, R.A.Mavlonova, O.To'rayeva, K.Xoliqberdiyevlarning «Pedagogika» darsligida ta'lim usullarini klassifikatsiyalash (turlash), o'quvchilar bilimini tekshirish va baholashdan maqsad o'quvchilar bilimining sifatini, rivojlanganlik darajasini ta'minlash va ularni rag'batlantirishdan iborat bo'lib, bilim olishga qiziqishni takomillashtirishini ta'kidlab o'tganlar. **Uy vazifasi** yoki **uy ishi** — o'qituvchi tomonidan o'quvchiga (talabaga) uy sharoitida mustaqil bajarishi uchun beriladigan vazifa. Uy vazifasi, asosan, o'quv muassasasida olingan bilimlarni mustahkamlashga qaratilgan, ba'zi holatlarda o'tilgan mavzuni chuqurroq o'rganilishi uchun beriladi.

Uy vazifalari quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Darslikdagi ma'lumotlarni o'rganish.
2. Har xil yozma va amaliy ishlarni bajarish.
3. Har xil sxema va diagrammalarni tayyorlash.
4. Mustaqil savol va test topshiriqlarni tayyorlash.
5. Taqdimot tayyorlash.
6. Lug'atlar bilan ishlash.

Farzandlarimizga sifatli ta'lim-tarbiya berish faqat maktab binosida emas, balki uyda ham davom etishi kerak. Shundagina ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. Bunda berilayotgan uyga vazifalarning sifati va ularning qay tarzda bajarilishi muhim rol o'ynaydi.

Ma'lumki, har bir o'qituvchi o'quvchilarga turlicha topshiriq beradi. Uyga berilayotgan topshiriqlar zamirida bosh maqsadimiz barqaror bo'lishi shart. Shunchaki berilgan maqsadsiz topshiriqlar faqatgina bolani andarmon qilib turishga yaraydi. Uyga vazifa berilayotganda o'quvchining yoshi, xarakteri, qiziqishi, o'zlashtirish darajasi inobatga olinishi lozim. 25 yillik tajribamga suyanib uyga berilayotgan topshiriqlarning sifati, ularning ta'lim-tarbiya jarayonidagi salmoqli o'rni haqida o'z tajribalarim bilan o'rtoqlashmoqchiman.

Uyda bajarilishi lozim bo'lgan topshiriqlarni berishdan maqsad:

- o'tilgan mavzuni mustahkamlash;
- yangi mavzuni o'zlashtirishga zamin yaratish;
- o'rganilmay qolgan bilimlarni egallashga intilish;
- mustaqil ishlashga o'rganish;



- qo‘shimcha adabiyotlardan foydalanish usullarini o‘rganish;
- mas‘uliyat hissini oshirish;
- a‘lo baho olish istagini uyg‘otish;
- ustozga ishonch, mehr-muhabbatni oshirish;
- o‘z “men”iga ega bo‘lish.

Yuqoridagi ko‘rsatmalarni to‘liq qamrab olgan uyga vazifalar darsni sifatli tashkillashtirishga, o‘quvchining bilim samaradorligini oshirishga ko‘maklashadi. Pedagoglarimiz ko‘pincha uyga vazifani sinfdagi barcha o‘quvchilarga bir xil qilib berishadi. Ayrim qobiliyatli, ziyrak bolalar oddiygina qilib berilgan uyga vazifani (ular uchun o‘ta oddiyligi bois) hatto bajargisi ham kelmaydi. Bunday o‘quvchilarga murakkab, qobiliyatiga qarab darslikdan tashqari topshiriq berib borilsa, intellektual salohiyati ham tez rivojlanadi. Darsda zerikish paydo bo‘lmaydi. Ba‘zi bolalarda mustaqil ishlash ko‘nikmasi shakllanmagan. Uyga vazifani mustaqil bajarolmaydi. Bunday vaziyatlarda ota-onalar doimo ko‘z-quloq bo‘lishi lozim. Bo‘sh o‘zlashtiruvchilarga sodda, ixcham, o‘zi mustaqil bajarishiga ko‘zimiz yetadigan topshiriqlar berish lozim. Sinfdagi hamma bola ham kitobda ajratib berilgan uyga vazifani birday bajarolmaydi. Masalan, umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 11- sinfi uchun darslik / Baxtiyor Mengliyev, Sharofat Toshmirzayeva, Saodat Atoyeva, Saida Majidova, – Toshkent: „O‘qituvchi“ NMIU, 2020-yil nashrining 62-betida o‘quvchilarga uyga vazifa sifatida quyidagi topshiriq berilgan:

16.1- topshiriq. Berilgan matnni tahrir qiling.

16.2- topshiriq. Matn tahririda aniqlangan nojo‘ya so‘z va ortiqcha qo‘shimchalarni izohlashga tayyorlaning.

#### HARBIY POLIGONGA SAYOHAT

„Harbiy poligonda bir kun“ shiori ostida Surxondaryo **viloyatining** Termiz shahri umumta‘lim maktablarining bir guruh o‘quvchilari hududda joylashgan dala-o‘quv maydoniga **tashriflarini buyurishdi**. Mudofaa vazirligiga **qarashli** qismda xizmat burchini o‘tayotgan **oddiy askarlarning** poligondagi bir kunlik faoliyati, o‘tkazilayotgan jangovarlik ruhiyatidagi ma‘naviy, axloqan-ruhan **tayyorgarchilik** mashg‘ulotlarini kuzatish, **mashqlarga** bevosita ishtirok etish uchun kelgan yoshlar dala-o‘quv maydonida iliq kutib olindi. Yoshlardagi ilk harbiy ko‘nikmalarni shakllantirish, **ularga** harbiylik sohasiga qiziqish uyg‘otish, Vatanning sarhadlarini himoya qilishning naqadar sharafliligi va mas‘uliyatli vazifa ekanligini o‘g‘il-qizlar qalbiga singdirishdek ezgu maqsadlar ko‘zlangan sayohat **sermazmunli** o‘tdi. Harbiy poligondagi birgina kun o‘quvchilarga olam-olam **taassurotni** baxsh etdi. („Tong yulduzi“ gazetasidan)

Bu mashqni bajarish uchun, birinchidan, o‘quvchilar 5-7- sinflarda olgan bilimlarini takrorlab olishlari kerak, ikkinchidan, o‘tilgan “Ortiqcha qo‘shimchalar” mavzusini puxta o‘zlashtirishi lozim, uchinchidan, yozma nutqida qo‘shimchalarni o‘rinli qo‘llay olishi zarur. Shundagina topshiriqni bajara oladi. Uyga vazifaning bajarilishi quyidagicha bo‘ladi:

#### HARBIY POLIGONGA SAYOHAT

„Harbiy poligonda bir kun“ shiori ostida Surxondaryo **viloyati** Termiz shahri umumta’lim maktablarining bir guruh o’quvchilari hududda joylashgan dala-o’quv maydoniga **tashrif buyurishdi**. Mudofaa vazirligiga **qarashli** qismda xizmat burchini o’tayotgan **oddiy askarlarning** poligondagi bir kunlik faoliyati, o’tkazilayotgan jangovarlik ruhiyatidagi ma’naviy, axloqan-ruhan **tayyorgarlik** mashg’ulotlarini kuzatish, **mashqlarda** bevosita ishtirok etish uchun kelgan yoshlar dala-o’quv maydonida iliq kutib olindi. Yoshlardagi ilk harbiy ko’nikmalarni shakllantirish, **ularda** harbiylik sohasiga qiziqish uyg’otish, Vatanning sarhadlarini himoya qilishning naqadar sharaflil va mas’uliyatli vazifa ekanligini o’g’il-qizlar qalbiga singdirishdek ezgu maqsadlar ko’zlangan sayohat **mazmunli** o’tdi. Harbiy poligondagi birgina kun o’quvchilarga olam-olam **taassurot** baxsh etdi. („Tong yulduzi“ gazetasidan)

Berilgan topshiriqlardan shu narsa ma’lum bo’ldiki, o’quvchilar quyidagi shartlar bo’yicha baholanishi lozim:

— matnni tahrir qilish bo’yicha;

— matn tahririda aniqlangan nojo’ya so’z va ortiqcha qo’shimchalarni izohlash bo’yicha.

Matnni tahrir qilishda o’quvchi noto’g’ri qo’llangan qo’shimchalarni aniqlashi va nima uchun xato qo’llanganligini egallagan bilimlari asosida izohlab berishlari kerak. Bu topshiriqda 8-9 ta so’z tarkibidagi qo’shimchalarning noto’g’ri qo’llanganligini aniqlab, uni to’liq izohlab bergan o’quvchiga “5” baho, 7 ta so’z tarkibidagi qo’shimchalarning noto’g’ri qo’llanganligini aniqlab, uni izohlab bergan o’quvchiga “4” baho, 6 ta so’z tarkibidagi qo’shimchalarning noto’g’ri qo’llanganligini aniqlab, uni izohlab bergan o’quvchiga “3” baho qo’yiladi. 5 ta va undan kam so’z tarkibidagi noo’rin qo’llangan qo’shimchalarni aniqlagan, shuningdek, ularning noto’g’ri qo’llanish sabablarini izohlab berolmagan o’quvchilarga “2” baho qo’yiladi.

O’quvchilarning uy vazifalari mashg’ulotning sinfda bajaradigan topshiriq va mashqlardan shakl va mazmun jihatidan farq qiladi. Uyda o’quvchilarda mustaqil ishlash zarurati tug’iladi va mustaqil qaror qabul qilish ehtiyojiga duch kelishadi. Natijada o’quvchilarda turli xil manbalardan foydalanish, har xil toifadagi shaxslardan yordam olish imkoniyatiga ega bo’ladi. Lekin o’quvchi ulardan oqilona foydalana bilishi kerak.

Buni darslikdagi ma’lumotlarni o’rganish bilan isbotlasak. Bilamizki, darslikdagi nazariy ma’lumotlarni hamma o’quvchi ham tushunib yetmaydi, anglamaydi, idrok qilmaydi. Natijada o’quvchi quruq yod oladi, shuning uchun o’rganilgan nazariy bilimlarni amalda qo’llay olmaydi. Bunday vaqtda o’quvchi aynan bir nazariy ma’lumotni boshqa mualliflarning darsliklaridagi nazariy ma’lumotlar bilan solishtirib o’rgansagina yoki mavzuni yaxshi o’zlashtirgan tengdoshi, o’qituvchisidan yordam olsagina, uni o’zlashtirishi, anglab yetishi mumkin. Masalan, M. Qodirov va boshqalar tomonidan tayyorlangan Cho’lpon nomidagi NMIUda 2019-yilda chop etilgan o’rta maktablarning 8-sinfi uchun yaratilgan ona tili darsligining 66-betida “Egali va egasiz gaplar” mavzusida quyidagi nazariy ma’lumot berilgan:

Gaplar egali va egasiz bo‘lishi mumkin. Egasi mavjud gaplar **egali gaplar** (masalan, Biz bugun Samarqandga jo‘naymiz), egasi mavjud bo‘lmagan gaplar esa **egasiz gaplardir** (masalan, Bugun Samarqandga jo‘naymiz.)

**Egasiz gaplarning quyidagi turlari mavjud:**

**Shaxsi (egasi) ma‘lum gapda** ega kesimning shaxs-son shakllaridan ma‘lum bo‘lib turadi. *Qachongacha qorning o‘ylab o‘tadirsan? Qachongacha ko‘kdan chalpak kutadirsan? (I.Mirzo)*

**Shaxsi (egasi) umumlashgan gapda** gapning umumiy mazmuni barcha shaxslarga aloqador bo‘ladi: *Hurmat qilsang, hurmat ko‘rasan. (Maqol) Boshingga qilich kelsa ham, to‘g‘ri gapir. (Maqol)* Maqol va matallar, hikmatli so‘zlar, odat tusiga kirgan rasm-rusularni bayon etuvchi gaplarda ega, asosan, umumlashgan bo‘ladi. *Bugungi ishni ertaga qo‘yma.*

**Shaxsi (egasi) noma‘lum gapda** kesim fe‘l bilan ifodalanadi va ish-harakatni bajarishga imkoniyat, zaruriyat, shart, tilak, istak kabi ma‘nolarni ifodalab keladi. Bunday gaplar kesimining eng muhim belgisi – uning tarkibida egalik qo‘shimchasining yo‘qligi. Bu gaplar shaxssiz emas, harakatni mantiqan kimdir bajaradi, lekin uni gapda ifodalab bo‘lmaydi. *Yig‘ilishda ta‘lim samaradorligini oshirish haqida gapirildi. Do‘stning aybini yuziga aytish kerak. Oyni etak bilan yopib bo‘lmaydi. Bu mavzuni o‘qish shart emas. Endi qattiq o‘qishga to‘g‘ri keladi.*

Atov gap va so‘z gaplar ham shaxsi noma‘lum gaplardir.

Xuddi shu mualliflar tomonidan tayyorlangan Cho‘lpon nomidagi NMIUda 2014-yilda chop etilgan o‘rta maktablarning 8-sinfi uchun yaratilgan ona tili darsligining 66-betida “Egali va egasiz gaplar” mavzusida quyidagi nazariy ma‘lumot berilgan:


**Egasi ma‘lum gaplarda** gapning egasi matndan, nutq sharoitidan, kesimning shaxs-son shakllaridan ma‘lum bo‘lib turadi. Bunday gaplarning kesimi, odatda, I va II shaxs shaklida bo‘ladi.

**Egasi umumlashgan gaplarda** gapning umumiy mazmuni barcha shaxslarga aloqador bo‘ladi. Bunday gaplarning kesimi II va III shaxs shakllarida keladi: *Hurmat qilsang hurmat ko‘rasan. Boshingga qilich kelsa ham to‘g‘ri gapir. (Maqol)* Maqol va matallar, hikmatli so‘zlar, odat tusiga kirgan rasm-rusularni bayon etuvchi gaplarda ega, asosan, umumlashgan bo‘ladi.


**Ega ishtirok etmagan** gaplar *shaxsi noma‘lum gaplar, atov gaplar, so‘z-gaplar* kabi uch turga bo‘linadi.

**Shaxsi noma‘lum gaplarda** kesim fe‘l bilan ifodalanadi va ish-harakatni bajarishga imkoniyat, zaruriyat, shart, tilak, istak kabi ma‘nolarni ifodalab keladi. Bunday gaplar kesimining eng muhim belgisi — uning tarkibida egalik qo‘shimchasining yo‘qligidir. Bu gaplar shaxssiz emas, harakatni mantiqan kimdir bajaradi, lekin uni gapda ifodalab bo‘lmaydi.

Har ikkala darslikdagi ma‘lumotlarni “Venn diagrammasi” usulida farqlashni o‘quvchilarga o‘rgatsak, ular ma‘lumotlarni bir-biriga taqqoslash orqali bilimni musthkamlaydi, yangi bilim hosil qiladi.




Egasi ma'lum gaplarga oid ushbu “Venn diagrammasi”da o‘quvchilar quyidagi farqlarni kuzatadilar: 2014-yilgi nashrida egasi ma'lum gaplarning egasi matndan, nutq sharoitidan, kesimning shaxs-son shakllaridan ma'lum bo'lib turishi, bunday gaplarning kesimi, odatda, I va II shaxs shakllarida kelishi haqida to'liqroq ma'lumot berilgan, 2019-yilgi nashrida esa egasi ma'lum gaplarning egasi kesimning shaxs-son shakllaridan ma'lum bo'lib turishi haqidagi ixchamgina nazariy ma'lumot berilgan. Demak, 2014-yilgi nashrida egasi ma'lum gaplarga xos uchta muhim belgi ta'kidlab o'tilgan: matndan, nutq sharoitidan, kesimning shaxs-son shakllaridan.



Egasi umumlashgan gaplarga xos ma'lumotlar ushbu diagrammada deyarli farqlanmaydi.

Faqatgina 2014-yilgi nashrida bunday gaplarga xos quyidagi ma'lumotni ajratib

ko'rsatish mumkin: **bunday gaplarning kesimi II va III shaxs shakllarida keladi.**



Shaxsi noma'lum gaplarga xos ushbu diagrammada quyidagi farqlarni va nomosliklarni kuzatishimiz mumkin: 2019-yilgi darslikda **atov gap va so'z gaplar ham shaxsi noma'lum gaplardir** degan nazariy ma'lumot berilgan. Ammo gaplarning bu turlari shaxsi noma'lum gaplarning emas, balki ega ishtirok etmagan gaplarning turlaridir. Shuningdek, har ikkala darslikda **“Bunday gaplar kesimining eng muhim belgisi – uning tarkibida egalik qo'shimchasining yo'qligi”** deb ta'rif berilgan va quyidagi gaplarni misol tariqasida bergan: *Yig'ilishda ta'lim samaradorligini oshirish haqida gapirildi. Do'stning aybini yuziga aytish kerak. Oyni etak bilan yopib bo'lmaydi. Bu mavzuni o'qish shart emas. Endi qattiq o'qishga to'g'ri keladi.*

Keltirilgan misollarga yaxshilab razm solinsa, atigi ularning ikkitasi qoidaga mos tushadi: *Do'stning aybini yuziga aytish kerak. Bu mavzuni o'qish shart emas.* Qolganlari esa bu nazariy ma'lumotga mos emas, chunki ularning kesimi egalik qo'shimchalarini qabul qilmaydigan fe'l kesimlardir.

**“Bunday gaplar kesimining eng muhim belgisi – uning tarkibida egalik qo'shimchasining yo'qligi”** deb ta'kidlanishi o'quvchilarning bu turdagi gaplarni to'liq tushunishiga to'sqinlik qiladi, negaki yuqoridagi ta'rif harakat nomi bilan ifodalangan ot kesimlargagina xosdir. Shaxsi noma'lum gaplarning kesimi majhul nisbat shaklidagi fe'llar, bo'ladi-bo'lmaydi, to'g'ri keladi-to'g'ri kelmaydi shaklidagi til birliklari bilan ham ifodalanadi. Xulosa qilib aytganda, “Venn diagrammasi” o'quvchilarning darslikdagi ma'lumotlarni qiyosan o'rganishiga, keng qamrovli tushunishiga yordam beradi. Natijada ular egallagan nazariy bilimlarini amaliyotda to'g'ri qo'llay olish ko'nikmasiga ega bo'ladilar.

Darslikdagi ma'lumotlarni taqqoslab o'rganishning yana bir muhim belgisi – o'quvchilarning intellektual qobiliyati (IQ)ni oshirib, ilm-fanga bo'lgan qiziqishini o'ttiradi. Natijada ular kelgusida ilmiy izlanishlar olib boradilar.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Dilnoza Narzullayeva, Vobkent tumanidagi 21-maktab o'qituvchisi. Internet manbalari asosida



2. Rahmanova V.S. «Ixtisoslashtirilgan maktabda ona tili darslarida o‘quvchilar bilimini tekshirish va baholash usul va yo‘llarini o‘rganish» mavzusida BMI

## **INTERFAOL USULLAR O‘QUVCHI TAFAKKURINI BOYITISH VOSITASI SIFATIDA**

*Xamroqulova Feruza Raxmonjonovna,  
Karimova Gulchehra Xazratqulovna  
Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi  
ijod maktabi o‘qituvchilari*

Ta’lim-tarbiya — kelajak, hayot-mamot masalasi. “Shu bois, bu sohadagi islohotlarni kechiktirishga haqqimiz yo‘q. Qanchalik murakkab bo‘lmasin, maktab ta’limida poydevorni bugundan mustahkam qo‘yishimiz kerak. Dunyoqarashni nima o‘zgartiradi – ilm, daromad, manfaat”- deya bot-bot ta’kidlaydi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev. O‘quvchilarning kommunikativ savodxonlik darajasini oshirish, ularni mustaqil va ijobiy fikrlashga yo‘naltirish, fikr mahsulini to‘g‘ri, ravon, o‘rinli ifodalashga o‘rgatish ekan, uni amalga oshirishning ishonchli omillaridan biri – matn yaratishning samarali texnologiyasini ishlab chiqish, uni o‘quv amaliyotiga izchil joriy etish, o‘quvchini muammoli o‘quv topshiriqlari orqali izlanish va kashf qilishga yo‘naltirish, o‘quvchi lug‘at boyligini kengaytirish jarayonida nutqiy faoliyatini shakllantirish, (so‘zning lug‘aviy ma’nolarini sharhlash) fikr ifodalash (og‘zaki nutq va matn yaratish)da so‘zni tanib va tanlab ishlatishni talab qiluvchi o‘quv topshiriqlari, nutqiy madaniyatni yuksaltiruvchi ko‘nikma va malakalar tizimi bilan qurollantirishdir. O‘quvchi so‘z boyligini oshirishning, uning nutqiy zaxirasini boyitishning eng samarali usuli sathlararo hamda fanlararo aloqadorlikni yo‘lga qo‘yish (undosh so‘zlar ustida ishlash, berilgan so‘zning leksik – semantik qurshovi: qaysi so‘zlar bilan ishlatilishi, xususiy belgilari miqdorini aniqlash, qaysi so‘z turkumlari bilan ifodalanishi, ularning nomlari soni, sifati, holati, harakatini belgilash v.h.) dan iborat. [1;208] Demak, o‘quvchi nutqiy ko‘nikmalarini takomillashtirishning asosiy omillari tafakkur mahsulini izchil, to‘g‘ri, ravon ifodalash, nutqiy vaziyat talabiga ko‘ra mustaqil matn yaratish ko‘nikmalarini shakllantirishdir. Umuman olganda, o‘quvchi kommunikativ savodxonligini ta’minlash masalasi, ona tili ta’limida mustaqil matn yaratish ko‘nikmalarini shakllantirish texnologiyasini ishlab chiqish va uni muntazam ravishda takomillashtirib borishni taqozo etadi. Buning uchun egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarning jadal amaliy tatbiqi, ya’ni mustaqil matn yaratish masalasi ona tili darslarida o‘rganilayotgan har bir mavzuning asosiy maqsadiga aylanishi lozim. Matn yaratishning mantiqiy davomi – matn ustida ishlash bilan esa matnning tili, mantiqiy va uslubiy shakllanganlik darajasi o‘rganiladi, o‘quvchining kommunikativ savodxonlik darajasi esa, matn yaratish mahoratini aniqlash jarayonida o‘z yechimini topadi. Turli til hodisalari (so‘z va iboralarni)ning ma’nosini to‘liq anglash va uni xususiy nutqda qo‘llashga intilish – ulardan

nutqiy vaziyatga mosini tanlash o'z fikrini ixcham, aniq va ravon ifodalash malakalarining shakllanishi va rivojlanishiga zamin yaratadi. O'qituvchi o'z o'quvchilarining dars jarayonidagi ilmiy-amaliy faoliyatini samarali tashkil qilish – avvaldan rejalashtirilgan, aniq bir maqsadga – mustaqil matn yaratishga yo'naltira bilishi uchun har bir dars rejasi va dars mavzusi bayonini puxta o'rganib chiqishi, darslikdagi amaliy mashqlar yetarli bo'lsa, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida darsni tashkil qilish, kamroq bo'lsa, yangi, qiziqarli mashq namunalari tanlab, qo'shimcha mashg'ulot sifatida mavzuviy rejaga kiritishi, darsni o'zaro musobaqa ruhida olib borishi nihoyatda foydali. O'qituvchi doimiy ravishda o'z o'quvchilarini o'quv amaliyoti jarayonida o'rganganlari yuzasidan o'z xulosalarini aytib berishga undashi, ular tomonidan kiritilgan izlanuvchanlik ruhidagi ijodiy taklif va mulohazalarni, o'z “men”i, iqtidori, iste'dodini namoyish qilishga bo'lgan urinishlarini ijobiy tushunishi, bunday ijobiy-kashfiyotchilik harakatlarini rag'batlantirib borishi, ularga zaruriy shart – sharoit va imkoniyatlar yaratib berishi (monologik bellashuvlar (“Quvnoqlar va zukkolar” klubi bellashuvi), turli shakl va mazmundagi (nutqiy mahoratni shakllantiruvchi) ko'rik-tanlovlar, debatlar), lozim bo'lsa, o'quvchi shaxsini ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlashi zarur bo'ladi. O'qituvchi shu tariqa nafaqat o'quvchi bilimni, balki o'zidagi pedagogik mahoratni ham takomillashtira boradi: o'quvchi shaxsi, uning nutqiy darajasi haqida hukm va xulosa chiqarishga shoshilmaslik, o'z vazifasiga mas'uliyat hissi bilan yondashish, o'zida intellektual salohiyatni o'quvchi bilan baham ko'rish, o'zida bag'rikenglik, komil ustozlik fazilatlarini tarbiyalashga o'rganadi. Ona tili o'qituvchisining o'quvchi shaxsiga ana shunday ijobiy va ijodiy yondashuvigina, o'quvchilarda ilmga chanqoqlik, izlanuvchanlik, yangilik yaratishga intilish xislatlarini tarbiyalaydi, erkin va mustaqil fikrlashga, o'quvchi uchun juda muhim va zarur hisoblangan til hodisalarini tushunish, undan amaliy foydalanish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilishga yordam beradi. Mustaqil matn yaratish jarayoni – belgilangan maqsad, egallangan bilim, ko'nikma va malakalar, o'z nutqiy imkoniyatlari doirasida harakatlanuvchi tasavvur, idrok, ong va tafakkurning uyg'unlashuvidir. [2;158] O'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishda topshiriqli mashqlar tizimidan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda quyidagilarni tavsiya etamiz:

**“Nuqtalar o'rnini so'zlar bilan tez to'ldir”** o'yini. O'qituvchi o'quvchilar hukmiga ma'lum bir umumiste'mol so'zni beradi-da, shu so'zning barcha ma'nodoshlari o'rniga nuqtalar qo'yib chiqadi. O'quvchilar nuqtalar bilan ajratilgan nechta so'z o'zni bo'lsa, uni ma'nodosh so'zlar bilan to'ldirishadi. Masalan, zavqlanmoq,...; osmon,...; kulmoq,...;

tabrikladi,...; sezdi,...; yorug',...; farzand,...

Namuna: yorug'-nurli-charog'on-yorqin-munavvar-porloq-ravshan-nurafshon. Nuqtalar o'rnini ma'nodosh so'zlar bilan to'ldira olgan o'quvchi yoki o'quvchilar guruhi o'yinda g'olib sanaladi.

**“Mazmunan qarindosh, shaklan begona”** o'yini. Bu o'yinni tashkil etishda ham sinf o'quvchilari guruhlariga ajratiladi. O'yinni boshlagan qator

(guruh) muayyan mavzuda gaplar tuzishadi, ikkinchi qator mazmunni saqlagan holda soʻzlarni maʼnodoshlar bilan almashtirish orqali gap shaklini oʻzgartirishadi. Keyin oʻyinda vazifalar almashtiriladi. Oʻqituvchi har bir shakli oʻzgartirilgan gap uchun ball qoʻyib boradi va oʻyin oxirida eng koʻp ball olgan guruh gʻolib sanaladi.

**“Nima yaxshi-yu, nima yomon oʻyini”.** Oʻqituvchi oʻquvchilarga bir necha sifat soʻz turkumiga oid soʻz aytadi (masalan, goʻzal-xunuk, aqlli-aqlsiz, odobli- beodob) kabi. Shunday sifatlar lugʻatini tuzish topshiriladi va vaqt ajratiladi. Talab etilgan vaqtda eng koʻp baholash sifatlarini yozgan oʻquvchi oʻyin gʻolibi sanaladi. Oʻyinning keyingi bosqichida oʻquvchilar yozilgan sifatlar asosida nasriy yoki nazmiy matn tuzadilar. Belgilangan vaqt yakuniga yetgach, tuzilgan matnlar oʻqib eshittiriladi. Eng chiroyli va izchil mazmunga ega matn tuzgan oʻquvchilar ragʻbatlantiriladi. Shundan soʻng oʻquvchilarning mavzu yuzasidan fikr-mulohazalari tinglanishi ham mumkin. Chunki shunga muvofiq tarzda ularning qiziqishlari va qarashlari ham oʻrganiladi.

Bugunning mohir pedagogi fanning yangi–yangi ifoda imkoniyatlarini izlab topishi va uni dars jarayoniga tatbiq etishi, oʻquvchilarning ijodiy tafakkur, hodisalarni kuzatish, anglash, qiyoslash, analiz va sintez, tanlash, guruhlash, yaratish kabi bilish qobiliyatlarini takomillashtirib, ularda milliy mafkura, mustahkam eʼtiqod, milliy dunyoqarashni tarkib toptirishga xizmat qilishi lozim.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:**

1. Sapayev Q. “Hozirgi oʻzbek tili”. Toshkent, 2009-yil.
2. Toʻxliyev B, Shamsiyeva M. Ziyotova G. “Oʻzbek tili oʻqitish metodikasi” Toshkent 2010-yil.
3. Mavlonova K. “Ona tili darslarida badiiy matnning til xususiyatlarini integratsiyalash asosida oʻrganish metodikasi” T.: “Mashhur-press”, 2016.-208 b.

#### **“MEHROBDAN CHAYON” ROMANINI INTERFAOL METODLARDA OʻQITISH**

*Payziyeva Gulchehra Mamaqoʻziyevna  
Sharof Rashidov tumani XTBga qarashli  
29-maktabning oʻqituvchisi*

Mustaqillik yillarida taʼlim sohasidagi tub islohotlar davlat siyosati darajasiga koʻtarildi. Chunki yosh avlodning imkoniyatlari va qobiliyatlarining takomillashuvida taʼlim boʻgʻinlari alohida ahamiyatga ega. Taʼlim yosh avlodning jamiyatdagi oʻrnini topishida ham zaruriy jabha hisoblanadi. “Bu oʻrinda gap, eng avvalo, yoshlar va aholi oʻrtasida mamlakatimizning boy tarixini, uning betakror madaniyati va milliy qadriyatlarini keng targʻib qilish, jahon ilm-fani va adabiyoti yutuqlarini etkazish uchun zarur muhit va shart-sharoit yaratish haqida bormoqda”[1;34]

Shu sababdan, bu borada O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", "2004–2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi" qabul qilindi. Bugungi kunda Davlat ta'lim standarti, pedagogika fani konsepsiyasining yaratilganligi, o'quv predmetlari bo'yicha konsepsiyalar, darsliklarning yangi avlodi yaratilganligi mazkur qonun va dastur talablari asosida jahon talablariga javob beradigan, siyosiy yetuk, aqlan barkamol, jismonan sog'lom avlodni tarbiyalashdek murakkab vazifalar hal qilinmoqda.

Shu o'rinda aytish joizki, adabiy ta'lim metodlari masalasi o'zbek va jahon adabiyot o'qitish metodikasi fani doirasida muayyan darajada o'rganilgan masalalardan biridir. Ta'lim metodlari muammosining nazariy asoslari pedagogika sohasi doirasida izchil tadqiq etilgan"[2;56]

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida ta'lim metodlari, interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bunday interaktiv metodlar o'quvchi o'quvchilarni bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

**Interfaol metod** – o'quv jarayoning tarkibiy qismi bo'lib, bir vaqtning o'zida ham o'qituvchi ham o'quvchini faollashtirishga yo'naltirilgan o'qitish usullari majmui. Ta'limning interfaol metodlari o'quvchilarning ulkan ta'limiy qudratidan foydalanish va faollashtirish, o'quv jarayoniga musobaqa elementlarini kiritish imkonini beradi: ta'lim oluvchilar guruhining aqliy kuchi uning a'zolari kuchi yig'indisidan ko'proq (ya'ni guruh natijasi individual natijalar yig'indisidan doimo ortiq). Interfaol o'qitishning mohiyati o'quv jarayonini shunday tashkil etadiki unda barcha o'quvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo'lib, erkin fikrlash, tahlil qilish va natiqiy fikr yuritish imkiniyatlariga ega bo'ladilar. Interfaol ta'lim – bu ta'limdagi chuqurlashtirilgan muloqot.

Quyida biz "Mehrobdan chayon" romanidagi obrazlar tizimini interfaol usullardan aqli hujum orqali o'rgatish xususida ayrim tavsiyalarimizni beramiz.

Hozirgi kunda umumta'lim maktablarining 7-sinfida Adabiyot darslik–majmudan o'rin olgan Abdulla Qodiriy hayoti va ijodini o'rganish uchun– 1soat, "Mehrobdan chayon" romanidan keltirilgan parchani o'rganish uchun–2 soat. Romandagi obrazlarni o'rganish uchun 1–soat. Jami: 3 soat ajratilgan.

Romanning ijodiy tarixi va taqdiri va yaratilishi kabi masalalar yoritilayotganda, o'qituvchi adabiyotshunos olimlarning "Mehrobdan chayon" haqidagi risola va maqolalaridan ayrim ko'chirmalarni o'qib bersa, dars yanada mazmunli o'tadi. Shuningdek, dars jihozlari sifatida adibning hayoti va ijodiga bag'ishlangan adabiy albom, matbuot materiallari, adabiyotshunos olimlar asarlari tanlanadi. Ular sinfda yaxshigina ko'rgazma holida qo'yilib, o'quvchilarga taqdim etiladi.

Endi, "Mehrobdan chayon" mavzusiga oid noan'anaviy dars ishlanmasini beramiz:

**Dars maqsadi:** A.Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romani obrazlari va syujet unsurlari bo‘yicha tahlil qilish orqali o‘quvchilarga asar mohiyatini tushuntirish.

**Darsning vazifasi:** O‘quvchilarning “Mehrobdan chayon” asari bo‘yicha olgan bilimlarini sinash va mustahkamlash.

**Kutilayotgan natija:** O‘quvchilarni e‘tiborini o‘zbekning milliy urf – odatlariga qaratish, mardlik, sadoqat, ezigulik fazilatlarini singdirish, ota – onaga bo‘lgan hurmatni shakllantirish –bolani har tomonlama sog‘lom va barkamol etib tarbiyalash.

**Dars jihozi:** Abdulla Qodiriy portreti, “Mehrobdan chayon” romani va boshqa kitoblar, jadvallar, diagramma.

**Ta'lim metodlari:** Aqliy hujum va t-jadval.

**Darsga qo‘yiladigan talablar:** O‘zaro hurmat; fikrini erkin va ravon ifodalash; o‘zgaralar fikrini tinglash va hurmat qilish;

**O‘quvchilar bilan ishlash shakli:** Guruhlarda va individual ishlash.

**Asarni tahliliga tortishdan oldin o‘quvchilarga bir qancha savollar bilan murojaat qilinadi;**

- “Mehrobdan chayon” romani haqida nimalarni bilasiz?
- Asarda tarixiy haqiqat va to‘qima qanday tasvirlanishi lozim?
- Milliylik deganda nimalarni tushunasiz?
- Badiiy asar albatta tarbiyaviy ahamiyat kasb etishi shartmi?

Dars o‘tish qulay va jonli bo‘lishi uchun turli ko‘rgazmali qurollar ishlab chiqish zarur bo‘ladi. Ulardan o‘z vaqtida va o‘rnida foydalanishga harakat qilish kerak. Murakkab mavzuni o‘quvchilar ongiga osongina yetkazish uchun birgalikda o‘qiyamiz, blist, venn diagrammasi, keys stadi kabi organayzerlardan foydalanilsa ham bo‘ladi. Romanni o‘rganish jarayonida shunga amin bo‘lamizki, bu roman tom ma’noda o‘zbek xalqi farzandlariga milliy ruh hissini bolada singdirishga harakat qiladi.

Xullas, yuqorida interfaol metodlar haqida to‘xtaldik. Ushbu metodning adabiyot darslaridagi samaradorligi o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘z ustlarida tinimsiz izlanishlar olib borishga undashi, olingan bilimlarni qo‘llay bilish malakalarini yuzaga keltirishda, dars samaradorligini oshirishida ko‘rinadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Мирзиёев Ш. М. Танқидий таҳлил, катъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. Мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий яқунлари
2. Эгамбердиева Н.М. Юксак маънавиятли шахсни шакллантиришнинг тарбия технологияси. Монография -Т.: Фан ва технология, 2012. 363 б.т
3. <http://e-adabiyot.uz/adabiyotshunoslik/adabiy-suhbatlar/812-maqola.html>
4. [http://ec.europa.eu/invest-in-research/pdf/download\\_en/aho\\_report.pdf](http://ec.europa.eu/invest-in-research/pdf/download_en/aho_report.pdf);
5. [www.ziyo.uz](http://www.ziyo.uz).



## ЎРТА МАКТАБДА ЗУЛФИЯ ИЖОДИНИ ЎРГАНИШДА ҚЎШИМЧА МАНБАЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ

*Шодиева Гулнора Баҳодировна,  
Қарши шаҳар 27-ўрта умумтаълим  
мактаб ўқитувчиси*

Умумий ўрта таълим мактабларида ўқитишнинг одатдаги анъанавий ўқитиш усулларидадан воз кечиб, ноанъанавий таълим воситаларидадан фойдаланиш, янги педагогик технологияларни қўллаш давр талаби сифатида баҳоланмоқда. Зеро, бир хил қолипда дарс ўтиш жараёни ўқувчиларнинг фанларга бўлган қизиқишларини сусайтиради. Шунинг учун ўқитувчи ўқувчиларнинг фанларга бўлган қизиқишларини оширишда ҳар хил усуллар ва воситаларни қўллаш мақсадга мувофиқдир. Янги такомиллашган мактаб дастури талабига кўра VI синфда Зулфиянинг “Мушоира” номли асари ўтилади. Асар баёнига киришишдан олдин ўқувчилардан қуйидаги саволларга жавоб талаб қилинади:

1. Зулфиянинг тинчлик ва халқлар дўстлигига бағишланган қайси асарларини ўқигансиз?
2. Зулфия ижодини улуғлаган асосий тамойиллар нималардан иборат?
3. Шоиранинг жамоатчилик фаолияти ҳақида нималарни биласиз?
4. Маданият ва санъат арбоблари шоира ижодини қандай баҳолашган?

Ўқувчилар жавоби умумлаштирилиб ҳулосалангач, асар матни устида иш олиб борилади. Аввал шеърни ўқитувчи ифодали қилиб ўқиб беради. Сўнгра асар ўқувчиларга ўқитилади. Матндаги қийин туюлган сўзларга изоҳ берилади.

Асар лекция-суҳбат методи билан қуйидаги режа асосида ўрганилади:

1. “Мушоира” асарининг ёзилиш тарихи.
2. Асарда тинчлик ва дўстликнинг улуғланиши.
3. Истиқлол ва миллий мустақилликка интилаётган халқлар руҳиятининг ифодаланиши.
4. Шеърда Шарқ халқлари билан дўстона муносабатларимизнинг акс эттирилиши.
5. Она-Ватанга меҳр-муҳаббат мотивларининг талқин этилиши.
6. Ўқув материални мустаҳкамлаш ва ҳулосалаш.

Ўқувчилар ўртага ташланган саволларга жавоб қайтарадилар.

Ўзбек халқининг атоқли ва ардоқли шоираси Зулфия миллий истиқлол, юрт озодлиги ва халқлар дўстлигини мустаҳкамлашга бағишлаб бир қатор шеърлар ёзган. Адибнинг “Ўғлим, сира бўлмайдим уруш”, “Салом, Миср!”, “Салом сизга, эрксевар эллар!”, “Кўкчатов”, “Уни Фарҳод дер эдилар” номли асарлари шулар жумласидандир.

Маълумки, ҳар бир ижодкор ўзи мансуб миллат адабиёти хазинасига қўшган улушига кўра ўз ўрни ва даражасига эга бўлади. Шу маънода, Зулфия ижодига хос муҳим хусусиятлар, шоира улуғлаган асосий тамойиллар унинг ҳозиржавоблиги, ҳаёт ва давр билан ҳамнафаслигида, асарларида ватанпар-

варлик, дўстлик ва ер юзида тинчликнинг сақланиши муқаррарлигига ишонч ғояларининг баралла куйланишида кўринади.

Зулфия шоирагина бўлиб қолмасдан, таниқли жамоат арбоби ҳамдир. У кўпгина хорижий мамлакатларда бўлган ва ўша мамлакатлар халқларининг ҳаёти ҳамда турмуш-тарзи билан танишган. Ҳалқаро анжуманларда нутқ сўзлаган. Жўшқин ва оташин асарлари билан ер юзида тинчликнинг ғалаба қозониши учун курашишга даъват этган. Шоиранинг улкан истеъдоди, ижодий ва жамоатчилик фаолияти ҳақида маданият ва санъат арбоблари шундай ёзади:

“Зулфия шеърляти юракдан отилиб чиққан ўтга ўхшайди”. (Силва Капитикян, Арманистонда хизмат кўрсатган маданият ҳодими, Давлат мукофоти лауреати) [1;80].

“Унинг мисраларини куйчи булбулларимиз шундай куйлайдики, уларни Доғистонда туриб ҳам эшитиш мумкин. Унинг овози ҳамиша тетик. У кишига кувонч бағишлайди, уни гўзал ҳиссиётлар билан тўла дунё сари чорлайди” (Р.Ҳамзатов. Доғистон халқ шоири. Давлат мукофоти лауреати) [1;83].

“Зулфия шеърляти кўп оҳангли, унда зиддиятли ҳаётнинг, сертўлқин замоннинг ранг-баранг садолари, меҳнатсевар инсоннинг хилма-хил кечинмалари, ҳис-туйғулари акс этади”. (С.Мамажонов. Адабиётшунос, Давлат мукофоти лауреати) [2; 86].

Ўқитувчи ўқувчиларининг жавобини шундай умумлаштиради: Зулфия жамоатчилик делегацияси сафида 1956-1958 йиллари Австрия, Ҳиндистон, Миср, Шри Ланка, Цейлон, Япония, Бирма, Хитой каби бир қатор хорижий мамлакатларга сафар қилган. Ўша юртлардаги тинчликсевар халқлар ҳаёти ва турмуши билан танишган. Ана шу сафар таассуротлари асосида “Салом, Миср!”, “Салом сизга, эркпарвар эллар!”, “Балхаш оқшоми” каби асарларини ёзган.

Шоиранинг ижодий ва жамоатчилик фаолиятига Евдокия Лос, Микола Бажан, Марварид Дилбозий, Эди Огнецвет, Чингиз Айтматов, Ғафур Ғулом, Воҳид Зоҳидов, Миртемир, Ғайратий каби улкан адиблар юқори баҳо берганлар.

Шундан сўнг шоиранинг “Мушоира” асарининг ўрганилиши маълум қилинади. Асар матнидан бир парча ифодали ўқиб берилади. Сўнг икки ўқувчига навбатма-навбат ўқитилади. Тушунилиши қийин сўз ва иборалар мазмуни изоҳлаб борилади. Жумладан:

Мушоира – шеърый баҳслашув, шеърхонлик.

Жозиб нафаси – латофатли, жозибали нафаси.

Теран, бокира – мусаффо. Гурунг – сўзлашув.

Замзама – тулқинланиш.

Манго нусха – безакли, гулдор. Башарият – инсоният

Либос – кийим.

Сандал – пойафзал.

Удум – одат.

Сарбаст – баланд, жарангдор. Фусункор – жозибадор.

Ўзбек халқининг атоқли шоираси Зулфия “Мушоира” асарини 1958 йили ёзган. Шеър ғоя ва мазмунига кўра мушоира ҳақидаги асардир. Асар Осиё ва Америка ёзувчиларининг Ҳиндистонда бўлиб ўтган конференция

катнашчиларининг шеър баҳси – мушоирахонлик воқеасига бағишланган. Асар воқеаси ҳинд эли оқшомларидан бирида санъат аҳли жам бўлган жой тавсифи билан бошланади:

Бунда узоқдаги дўст бўлар яқин,  
Санъат маҳоратнинг байрами бунда.  
Қофия, сўз, мисра баҳслари қизгин,  
Юраклар даврага киради бунда. [3; 18].

Шоира асарда тинчлик, дўстлик ва ўзаро ҳамкорлик алоқаларининг куч-қудрати, инсониятнинг тинчликка бўлган ташналиги каби ғояларни ёрқин далиллар орқали очиб беради.

Шеър ўқийди, Непал, Вьетнам, Хитой,  
Рус, тожик ўқийди шеърини сарбаст.  
Қора алангадай соқолли синҳлар  
Қордан оқ либосли бенгаллар, ҳиндлар. [3; 19].

Зулфия турли халқлар вакиллари дўстлигини ана шу улкан анжуман катнашчиларининг хилма-хил пойабзаллари билан ўз мамлакатлари замин зарраларини олиб келганликларига қиёслаш орқали бу ерда улар жамулжам тўпланганликларини баён қилади:

Пойгақда ечилган хил-хил пойабзал.  
Менинг назаримда ўзи бир дунё.  
Ҳар бири ўзида меҳнат ва гўзал  
Эли тупроғини келтирган гўё. [3; 19].

Шоира Зулфия – нозик дидли ижодкор. Унинг учун адабиётнинг кадр-киммати бўлакча бўлиб, сўз чин ихлос билан қадрланган. Шеърни ўқир эканмиз, кўз ўнгимизда шундай ажиб манзара намоён бўлади:

Оқшом пайти. Хуш манзарали боғда анвойи гуллар бўй таратиб, майин эсаётган шабадада енгил тебранади. Боғ ўртасида тутилган чодир остида турли миллат адиблари давра куриб ўтиришипти. Мушоира авжида.

Ҳинд тупроғи узра қуйилиб оқшом,  
Кундуз олгач дам.  
Жўшқин мушоира этади давом,  
Дўстлар бўлиб жам. [3; 20].

Шоира шеърда даврани янада кенгроқ олишга даъват этади. Бу ерга фақат шоирларгина эмас, ишчи ва деҳқонни – шеърят ихлосмандларининг ҳам ташриф буюришларини истайди. Шундай қилиб, мушоира тушунчаси бир ғоя атрофида уйғунлашиб, турли миллат вакилларининг улкан анжумани маъносини касб этади.

Шоира мушоирага оқшом чоғи тўпланишгани хусусида бир неча бор такрорлайди ва ҳар гал унга янги-янги сифатлашлар топади. Бир ўринда “Гўзал тупроқ узра қуйилди оқшом” дейилса, иккинчи бир ерда унга “Гўзал таржимондир зангори оқшом” деб, бошқа ўринда “Эй фусункор, латиф, хинд оқшомлари, не сеҳр бор эди зангор қуйнингда?” дея таърифлайди.

Зулфия “Мушоира” асари билан миллат адабиётининг юксалишига, янгиланишига хизмат қилди. Шеърининг шуҳрати республикамиздан четда

хам кенг тарқалди. Бунинг сабаби, шеър ғоясининг муштараклигида, асарнинг бадий жихатдан пишиқлиги ва мукамаллигидадир. Бу ҳақда шоира Вера Инбер бундай деб таъкидлаган эди:

“Шеър тасвирий воситаларнинг бойлиги билан кишини ҳайратда қолдиради. Унда хотин-қизларга хос кузатувчанлик эпик кенглик билан уйғунлашиб кетади. Фикрлар теранлиги туйғуларнинг тўлқинлиги билан ҳамоҳанг. Шоиранинг ички мустақиллик, сўзда собитлик, ҳақиқатга садоқат туйғулари бўртиб турибди. Бу асарни дадиллик билан адабиётимизнинг дурдонаси деб айта оламиз” [1;103].

Шеърда миллати, тили, урф-одатлари, турмуш-тарзи турлича бўлган Шарқ халқлари ўртасидаги дўстлик, биродарлик, фикрий ҳамжиҳатлик, ирода бирлиги ғояси илгари сурилади.

Шундан сўнг ўқитувчи ўқувчиларнинг ўқув материали юзасидан олган билимларини синаш мақсадида қуйидаги савол ва топшириқларни беради:

1. Асарда шоиранинг ўз Ватанига бўлган меҳр-муҳаббати ва ишонч туйғусининг шеър руҳига қанчалик даражада сингдирилганлиги ҳақида сўзланг. Шеърдан мисол келтиринг.

2. Асарда халқлар дўстлиги ва бирдамлиги қандай ифода этилган? Айни шундай ўринларни шеърдан топиб ўқинг ва таҳлил қилинг.

3. Шоира Ҳиндистон табиатини қандай тасвирлайди? Шеърдан шундай ўринларни топиб ўқинг ва изоҳланг.

Ўқитувчи ўқувчилар жавобини қуйидагича тўлдиради ва ўқув материаллини яқунлайди: Шеър муаллифининг камтарлиги, Ватанга ва ўз бахтига тўла ишонч туйғуси асар руҳига усталик билан сингдирилган. Асарда кичик ҳаётий воқеалардан катта ижтимоий хулосалар чиқарилганлиги кўзга ташланади.

Ўқув материалларини мустаҳкамлаш жараёнида “Мушоира” асарининг бадий воситаларига доир жадвал, Зулфиянинг Ҳиндистонда мушоира қатнашчилари билан тушган суратларидан, турли мамлакатлар халқлари ҳаёти ифодаланган расмли плакатлардан, географик карта ва альбомлардан, Президентимиз Ш.М.Мирзиёевнинг Ҳиндистонга сафари ҳамда Ҳиндистон санъати ва адабиёти намоёндаларининг 2018 йил январь ойида республика-миз пойтахтида бўлиб ўтган дўстлик корнаваллари материалларидан кўرғаз-мали восита сифатида фойдаланиш яхши самаралар беради. Шеърнинг қуйидаги бандларини такрорлаш билан дарсни яқунлаш мумкин:

Сен чорла, овозинг эшитсин жаҳон!

Шеърнинг уриб турган юраги бўлиб.

Ҳаётнинг энг ажиб қуйига тўлиб,

Давримизга кирсин ишчи ва деҳқон,

Ҳаёт санъаткори энг оддий инсон.[3;24]

Шеърни ўқиб, ундан сифатлаш, ўхшатиш ва истиоралар иштирок этган мисраларни топиб, дафтарга кўчириш уйга вазифа қилиб топширилади.

**ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:**

1. Школа мастерства. – Ташкент: Наука. 1970.
2. Мамажонов С. Сайланма. – Тошкент. Фан. 1981.
3. Зулфия. Куйларим сизга. –Т.: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1995.

**DARS JARAYONIDA SINIF ISHINI BAHOLASH**

*Xoljo‘rayev To‘lqin Xoljigitovich,  
JDPI o‘qituvchisi.,  
Irmatov Azamat Normat o‘g‘li  
JDPI magistranti*

Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son qaroriga 3-ilova sifatida umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining umumta’lim fanlari bo‘yicha malaka talablarida Ona tili fanini o‘qitishning maqsad va vazifalari quyidagicha berilgan:

– umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida Ona tili fanini o‘qitishning asosiy maqsadi — o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda to‘g‘ri va ravon bayon qiladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o‘zgalar fikrini anglaydigan — muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirishdan iborat.

– Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida Ona tili fanini o‘qitishning asosiy vazifasi:

o‘quvchi shaxsini fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglashga, o‘z fikrini og‘zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani rivojlantirish;

o‘quvchilarda grammatikaga oid o‘zlashtiriladigan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, so‘zning tarkibi, so‘z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirish;

ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda to‘g‘ri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat. [3; 3]

Nutqiy kompetensiyada tinglab tushunish, gapirish, o‘qib tushunish, yozish kabi ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lish talab etiladi. Bunda, albatta, o‘quvchilar umumta’lim maktablari va akademik litseylarning ona tili darslarida egallagan grammatik bilimlariga tayangan holda ish tutadilar.

O‘quvchilarga tinglab tushunishda quyidagi talablar qo‘yiladi:

— sohaviy, ilmiy, ilmiy-ommabop, rasmiy, publitsistik va badiiy nutqni tushunadi;

— tinglangan matndagi asosiy axborotni ajratib oladi;

— ommaviy axborot vositalaridagi dolzarb axborotlar mazmunini, maqsadini idrok etadi, tinglab tushunadi;



— nutqning to‘g‘riligi, aniqligi, mantiqiy izchilligi, sofligi va ta‘sirchanligini anglaydi;

— shakldosh, talaffuzdosh, ma‘nodosh, zid ma‘noli, uyadosh so‘zlar, iboralar, atamalar, kasb-hunar so‘zlari, shevaga oid so‘zlar, ko‘hna so‘zlar va yangi paydo bo‘lgan so‘zlarning ma‘no xususiyatlarini farqlaydi.

Masalan, 11-sinf ona tili darsligining 2-qismi 3-betida o‘quvchilarga tinglab tushunish uchun 1.1-mashq sifatida quyidagi matn berilgan:

#### FASOHAT GULSHANI

Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Alisher Navoiy istiqomat qilgan uy „Unsiya“ deb atalib, o‘z davrida chin do‘stlar, ijod ahli, ustoz va shogirdlar uchun dilbar suhbatlar oshyoni, ezgulik, xayr-u ehson hamda ilm-ma‘rifat maskani bo‘lgan. Ahli toliblar kamoloti uchun u zot bunyod etgan madrasalardan biri „Ixlosiya“ deb yuritilgan. Hazrat mangu qo‘nim topgan „Musallo“ maydoni esa ezgu niyatlar, xayrli duolar qilinadigan pok ko‘ngillar sajdagohi sifatida ma‘lum va mashhurdir.

Buyuk bobokalonimiz nomlari bilan atalguvchi “Milliy bog‘”imiz ichra, hazrat siymosi nur taratib turgan muazzam go‘shada bunyod etilgan „Adiblar xiyoboni“ bilan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining yangi oq va ko‘rkam binosiga boqib, faxr va shukronalikda ko‘ngildan ezgu niyatlar o‘tdi.

Bu go‘shakim, dil bahr olar, muanbar ziyoratgoh bo‘lgay,  
Sohibkim hazrat Navoiy, demakkim, saodatgoh bo‘lgay,  
Misli „Musallo“dek ahli ko‘ngilga sajdagoh bo‘lgay,  
Bunga pok qalb-la kelganlar anga o‘zi guvoh bo‘lgay.

Bul Adiblar xiyoboni – ko‘ring, qanday nurxonadur,  
Mudom bahor yashnab turgan Bog‘i Eram, gulxonadur,  
Ayvonida Hazrat duo qilib turgan pixonadur,  
Pok ko‘ngillar nur sochguvchi munavvar saylgoh bo‘lgay.

Axir Hazrat ul marhamat nigohi-la boqib turar,  
Bir inoyat gulistoni har bir qalbni yoqib turar,  
Botin ichra so‘z ummoni misli qondek oqib turar,  
Bunda ash‘or aytgan dilga bulbullar xayrixoh bo‘lgay.

Davr nizomin adl etgan zot azmin Haq ham qo‘llagay,  
Davron eli duosiga monandi ijobat yo‘llagay,  
Ko‘ngillarda so‘z gullasa, jism-u jon, Vatan gullagay,  
Odamiy orzumand elga bu joy bir sajdagoh bo‘lgay!  
(Minhojiddin Mirzo)

Ushbu matnni tinglagan o‘quvchiga topshiriq sifatida quyidagilar berilgan:

1.1. Matnni tinglang. Matn nihoyasida berilgan so‘zlarning talaffuziga e‘tibor qarating va eslab qoling. Hazrat Alisher Navoiy abadiy qo‘nim topgan „Musallo“ maydoni va Toshkentdagi „Milliy bog‘“ da tashkil qilingan „Adiblar

xiyoboni“ o‘rtasida qanday bog‘liqlikni ko‘ryapsiz? Fikringizni she‘r misralariga tayanib izohlang.

Mashqni bajarishda „Qayta hikoya“ metodini qo‘llash tavsiya qilinadi. O‘quvchi tinglagan matnini o‘z tilida nasriy yo‘l bilan og‘zaki bayon qilib berishi kerak. Unda o‘quvchi she‘riy matnda berilgan quyidagi so‘zlarning talaffuzi va ularning lug‘aviy ma‘nosiga e‘tibor qaratishlari zarur: „Unsiya“, *istiqomat*, *oshiyon*, *botin*, *ash‘or*, *xayrixoh*, „Bog‘i Eram“, *muanbar*, *saodatgoh*, „Musallo“, *shukronalikda*, *qo‘llagay*.

— o‘quvchi ushbu so‘zlarni talaffuz qilishda ularning fonetik va orfoepik me‘yorlariga to‘liq amal qilsa, hazrat Alisher Navoiy abadiy qo‘nim topgan „Musallo“ maydoni va Toshkentdagi „Milliy bog‘“ da tashkil qilingan „Adiblar xiyoboni“ o‘rtasidagi bog‘liqlikni batafsil aytib bera olsa, tinglangan matndagi asosiy axborotni ajratib olsa, ko‘hna so‘zlar va yangi paydo bo‘lgan so‘zlarning ma‘no xususiyatlarini farqlay olsa, tavsiya etilgan so‘zlarning ma‘nolarini izohlab bera olsa (10-12 ta so‘z), „5“ baho;

— o‘quvchi ushbu so‘zlarni talaffuz qilishda ularning fonetik va orfoepik me‘yorlariga amal qilishda kamchiliklarga yo‘l qo‘ysa, hazrat Alisher Navoiy abadiy qo‘nim topgan „Musallo“ maydoni va Toshkentdagi „Milliy bog‘“ da tashkil qilingan „Adiblar xiyoboni“ o‘rtasidagi bog‘liqlikni aytib bera olsa, tinglangan matndagi asosiy axborotni ajratib olsa, ko‘hna so‘zlar va yangi paydo bo‘lgan so‘zlarning ma‘no xususiyatlarini farqlab, ifodalab berishda juz‘iy xatolarga yo‘l qo‘ysa, tavsiya etilgan so‘zlardan 8-9 ta so‘zning ma‘nolarini izohlab, qolganlarida xatolikka yo‘l qo‘ysa, „4“ baho;

— o‘quvchi ushbu so‘zlarni talaffuz qilishda ularning fonetik va orfoepik me‘yorlariga amal qilishda xatoliklarga yo‘l qo‘ysa, hazrat Alisher Navoiy abadiy qo‘nim topgan „Musallo“ maydoni va Toshkentdagi „Milliy bog‘“ da tashkil qilingan „Adiblar xiyoboni“ o‘rtasidagi bog‘liqlikni aytib berishda qiynalsa, tinglangan matndagi asosiy axborotni ajratib olishda ikkilansa, ko‘hna so‘zlar va yangi paydo bo‘lgan so‘zlarning ma‘no xususiyatlarini farqlashda, ifodalab berishda xatolarga yo‘l qo‘ysa, tavsiya etilgan so‘zlardan 6-7 ta so‘zning ma‘nolarini izohlab, qolganlarida xatolikka yo‘l qo‘ysa, „3“ baho;

Xulosa qilib aytganda, 1.1-mashqni bajarish, ya‘ni matnning lisoniy tahlilini amalga oshirish va qayta hikoya qilib berish davomida o‘quvchilarda tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozish kompetensiyalari shakllantiriladi.

Tavsiya etilgan so‘zlarning izohi:

Fasohat– arab. gapga chechanlik, notiqlik; nutqning to‘g‘riligi:

So‘zlar	Ma‘nosi
„Unsiya“	<i>arab.</i> „Do‘stlik uyi“
Istiqomat	<i>arab.</i> turg‘unlik, barqarorlik; hayot kechirmoq
Oshyon	<i>f-t.</i> in, uya; uy qabati
Botin	<i>arab.</i> ichki tomon, ich; ko‘ngil
Ash‘or	<i>arab.</i> she‘rlar
Xayrixoh	<i>ar+f.</i> (xayrixoh) ezgulik, yaxshilik istovchi
„Bog‘i	jannat bog‘i; ko‘chma: gullab-yashnagan obod joy; gulshan

Eram“	
Muanbar	<i>arab.</i> anbar surtilgan, xushbo‘y
Saodatgoh	<i>arab.</i> baxtga to‘la oshyon
„Musallo“	<i>arab.</i> joynamoz; katta masjid, namozgoh
Shukronalik	<i>arab+f.</i> shukur qilish, qanoatli va mamnun holat
Qo‘llagay	yoqlamoq, quvvatlamoq, yordam, ko‘mak, madad bermoq; tatbiq etmoq, ishlatmoq

1) chiroyli va yoqimli so‘zlash qobiliyati, nutqning aniq va ravonligi;

2) lisoniy xususiyat, nozik qirralar. [1;192]

1.2-mashqda quyidagi topshiriq berilgan: ikki guruhga bo‘lining va: a) talaffuzidagi tovush o‘zgarishi imloda aks etmaydigan; b) yozilganidek aytilmaydigan (o‘qilmaydigan) so‘zlarni aniqlang.

Shu topshiriqda mualliflar, bizningcha, jiddiy xatoga yo‘l qo‘ygan: a) va b) shartlardagi talablar bir xil, ya‘ni aytilishi va yozilishi farqlanuvchi so‘zlarni ikki ustunga bo‘lib yozish talab etilgan. Masalan, Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 11- sinf o‘qituvchilari uchun S. Atoyeva va boshqalar tomonidan „O‘qituvchi“ nashriyotida chop etilgan metodik qo‘llanmada quyidagi yechim berilgan:

Ushbu yechimga yaxshilab razm solinmasa, hattoki o‘qituvchilar ham

Talaffuzidagi tovush o‘zgarishi imloda aks etmaydigan so‘zlar	Yozilganidek aytilmaydigan (o‘qilmaydigan) so‘zlar
qayd, do‘stlar, ijod, shogird, kamolot, bunyod etgan, muanbar, saodatgoh, bahor, saylgoh, orzumand	deb, atalib, etgan, topgan, taratib, boqib, aytgan, sochguvchi, o‘tdi, yoqib, oqib

chalg‘ib qoladi, negaki har ikkala ustundagi so‘zlarning talaffuzi va imlosi turlicha, ya‘ni aytilishi boshqa, yozilishi boshqa so‘zlardir. E‘tibor beriladigan jihat shuki, birinchi ustundagi so‘zlar arab va fors-tojik tilidan o‘zlashgan so‘zlar bo‘lsa, ikkinchi ustundagi so‘zlar esa o‘z qatlamga mansub so‘zlardir. Bu mashqning sharti quyidagicha berilganda maqsadga muvofiq bo‘lardi: ikki guruhga bo‘lining va: a) talaffuzidagi tovush o‘zgarishi imloda aks etmaydigan o‘zlashma qatlamga oid so‘zlar; b) yozilganidek aytilmaydigan (o‘qilmaydigan) o‘z qatlamga mansub so‘zlarni aniqlang. Natijada yechim ham quyidagicha bo‘ladi:

Talaffuzidagi tovush o‘zgarishi imloda aks etmaydigan o‘zlashma qatlamga oid so‘zlar	Yozilganidek aytilmaydigan o‘z qatlamga mansub so‘zlar
Qayd (ar), do‘stlar (f-t), ijod (ar), shogird(f-t), kamolot (ar), bunyod etgan (f-t+o‘z), muanbar (ar), saodatgoh (ar+f-t qo‘shimcha), bahor (f-t), saylgoh (f-t), orzumand (f-t)	deb, atalib, etgan, topgan, taratib, boqib, aytgan, sochguvchi, o‘tdi, yoqib, oqib

Kichik guruhlardagi o'quvchilar nazariy ma'lumot asosida mashqni tushunib o'z qatlam va o'zlashma qatlamga mansub so'zlarni ajratib 86-100 foiz bajarsa, "5" baho, 71-85 foiz bajarsa, "4" baho, 56-70 foiz bajarsa, "3" baho qo'yiladi.

1.3-mashqning shartiga ko'ra o'quvchilar quyidagi testlarni yechishlari va izohlab bersihlari kerak.

1. Qaysi qatordagi o'zlashma so'zlar to'g'ri yozilgan?

A. Kamoloti, „Unsiya“, saylgoh, ilm-u ma'rifat, „Musallo“.

B. Muanbar, kamoloti, „Ihlosiya“, oshyon, shukronalik.

C. Bog'-i Eram, hayrixoh, ash-or, oshyon, munavvar.

D. Muanbar, kamoloti, shukronalik, „Ixlosiya“, saylgoh.

2. Qaysi gapning mazmuni fikrlar zanjiridan uzilib qolgan?

A. „Alisher Navoiyning kelib chiqishi baxshilarga borib taqaladi. Otasini „Kichkina baxshi“ deyishgan“. (Rashidiy)

B. „Garchi oliy hazratga o'zidagi tab' quvvati va qobiliyati ko'pligi jihatidan har ikki nav, ya'ni turkiy va forsiy she'rlar muyassar bo'lsa-da, uning tab'i(ning) moyilligi forschadan ko'ra turkichada ortiqroq edi“. (Xondamir)

C. „Ul zot Chig'atoy sultonlarining eng sarasi va zo'r shijoatlisi edi“. (Hasan xoja Nisoriy)

D. „Hech kim turkiy she'rni undan yaxshiroq ayta olmagan va nazm durlarini undan yaxshiroq socha olmagan“. (Hakimshoh Qazviniy) [2;5]

O'quvchi ushbu testni birinchidan, to'g'ri bajarishi kerak, ikkinchidan qolgan javoblarning noto'g'ri ekanligini izohlab berishi kerak. Test topshiriqlarini belgilangan muddatda to'g'ri, to'liq bajargan va izohlab bergan o'quvchiga "5" baho; test topshiriqlarini belgilangan muddatdan kechikib, lekin to'g'ri, to'liq bajargan va izohlab bergan o'quvchiga "4" baho; test topshiriqlarini belgilangan muddatdan kechikib to'g'ri bajargan, lekin izohlashda xatolikka yo'l qo'ygan o'quvchiga "3" baho qo'yiladi.

1.4- mashqda quyidagi vazifa keltirilgan: berilgan so'zlardan talaffuzi va imlosi moslarini aniqlang.

Namuna: admiral, parta, ...

Admiral, novvoy, domino, kross, parta, divan, sport, memuar, zamon, somon, biyobon, pomidor, idrok, xushxabar, snayper, premyera, boldoq, soddadil, ayrim, yig'loqi, kamomad, shavkat, saodat, muomala, boloxona.

*Yechim: admiral, parta, divan, biyobon, xushxabar, ayrim, yig'loqi, memuar, idrok, snayper, soddadil.*

Ushbu mashqni bajarishda o'quvchilar fonetik, morfologik va shakliy tamoyillarga xos xususiyatlarni bilishlari va ularni amalda qo'llay olishlari talab etiladi. Shunga muvofiq 10-11 ta so'zni to'g'ri bajarsa, "5" baho; 8-9 ta so'zni to'g'ri bajarsa, "4" baho; 6-7 ta so'zni to'g'ri bajarsa, "3" baho qo'yiladi.

1.5-mashqda quyidagi topshiriq berilgan: „Bu so'z bizniki“ musobaqasini tashkil qiling. To'rt guruhga bo'linib, „O'zbek tilining izohli lug'ati“ yordamida o'zlashma so'zlarni kelib chiqishi qaysi tilga mansubligiga ko'ra jadvalga joylashtiring. Har bir guruhdagi so'zlarda nutqning qanday xususiyatlari namoyon bo'lganini izohlab bering.

Kitob, maktab, mutolaa, lagʻmon, samolyot, paroxod, sanʻat, abadiy, qalʻa, anor, nodon, palto, stol, darvoza, dasturxon, siyoh, choy, shiypon, tank, shtab, soldat, futbol, smartfon, barg, oftob, taraqqiyot, tamaddun, moʻysafid, tonna, tuxum, logistika, megapolis, manti, mahalla.

Bu mashqni bajarish uchun sinf oʻquvchilari 4 kichik guruhga boʻlinishi, har bir kichik guruh oʻzlariga tegishli arabcha, fors-tojikcha, xitoycha va rus tili orqali kirib kelgan soʻzlarni „Bu soʻz bizniki“ deb aytib izohlab berishlari lozim. Agar biror guruh javobni notoʻgʻri aytsa, boshqa bir guruh „Bu soʻz bizniki“ deb fikrining toʻgʻri ekanligini isbotlab berish kerak.

Arabcha soʻzlar	Fors-tojikcha soʻzlar	Xitoycha soʻzlar	Rus tili orqali kirib kelgan soʻzlar
Kitob, maktab, mutolaa, sanʻat, abadiy, qalʻa, taraqqiyot, tamaddun, mahalla	anor, nodon, darvoza, dasturxon, siyoh, barg, oftob, tuxum, moʻysafid	lagʻmon, choy, shiypon, manti	1) samolyot, paroxod, stol; 2) palto, tonna – fransuzcha; tank, futbol, smartfon (smart+phone aqlli telefon), logistika – inglizcha; shtab, soldat – nemischa; megapolis – yunoncha[1;119]

Mashqning toʻgʻri bajarilganligi va isbotlanganligiga koʻra kichik guruhlar quyidagicha baholanadi:

„Bu soʻz bizniki“ deb barcha soʻzlarni toʻgʻri aytib, izohlab bergan kichik guruhga “5” baho; 2 ta xatoga yoʻl qoʻygan kichik guruhga “4” baho; 3-4 ta xatoga yoʻl qoʻygan kichik guruhga “3” baho qoʻyiladi. Agar barcha kichik guruhlar mashqni toʻgʻri bajargan boʻlsa, ularning hammasiga “5” baho qoʻyiladi.

1.6- mashq. Matn bilan tanishing. „Bu soʻz bizniki“ musobaqasini tashkil qilib, talaffuzi va imlosi mos soʻzlarni aniqlab yozing. Ustoz shoirning xijolatli ahvolga tushgani sababini izohlang.

Bir kuni Mirtemir domlaning uyiga bordim. Domla oʻzbek adabiyotini juda yaxshi biladigan, zukko odam edi. Suhbat asnosida kabinetiga kirganimizda kitob javonining koʻzga yaqin yerida Pushkin, eng chekkada esa hazrat Navoiyning suratlari turardi. Shunda men ajablanib: „Bu qanaqasi boʻldi, domla, vatanparvarligingiz qayerda qoldi? Oʻzbekning daho shoirini bir chekkaga surib qoʻyibsiz“, – dedim. Domla bir necha soniya sukut saqlab turdi-da, keyin jilmaygancha: „Men Pushkinga qarashga uyalmayman, chunki uning hayoti va ijodini oʻrganganman. Hazratga qarashga esa uyalaman, sababi u kishining ijodini aql bilan ham, qalb bilan ham anglab yetganimcha yoʻq“, – deb javob qildi.

Mana shu gaplarni taniqli navoiyshunos olim Abduqodir Hayitmetovga aytganimda u kishi: „Garchi men butun umrimni Navoiy ijodini oʻrganishga baxshida etgan boʻlsam-da, bu ummon tubiga yetolgan emasman“, – dedi. (E.Vohidov) [2;5]

1.6-mashqning bajarish tartibi:

1. Matn oʻqituvchi tomonidan oʻqiladi (oʻqish).

2. „Bu soʻz bizniki“ musobaqasi tashkil qilinadi – oʻquvchilar talaffuzi va imlosi mos birliklarni saylab, yozib boradilar (yozish).



3. Ustoz shoirning xijolatli ahvolga tushgani sababi izohlanadi (gapirish).

Bu mashqning uchala shartini ham to'g'ri va to'liq bajargan kichik guruhga "5" baho; 2-3 ta xato qilgan bo'lsa "4" baho; shartlardan birini bajarishda xatolikka yo'l qo'ysa, "3" baho qo'yiladi.

Yechim: bir kuni, Mirtemir, uyiga bordim, domla, adabiyot, juda yaxshi, zukko odam, suhbat asnosida, ko'zga yaqin, ...

Izoh: Navoiy ijodi go'yo ummonga o'xshaydi: uning tubiga hech kim yetib bora olmagan. Bir baytini o'qib, mag'zini chaqqandek bo'lasiz. Biroz vaqt o'tib shu baytni takror o'qisangiz, endi butunlay boshqacha ma'no topasiz. Mirtemir domla buyuk shoir dahosi oldida xijolat bo'ladi. [1;119]

Mavzuni mustahkamlash uchun berilgan savol va topshiriqlar ustida ishlanadi. Agar o'quvchilar mustahkamlash uchun berilgan savol va topshiriqlarni quyidagicha bajarsa, "5" baho qo'yiladi:

1. O'zlashma so'zlar talaffuzi qanday xususiyatlarga ega?

*O'zlashma so'zlar asos holatida talaffuzi va imlosi jihatidan farq qiladi.*

2. O'zlashma so'zlar talaffuzining imlosidan farqlanishi qanday tarixiy asoslarga ega?

*Bunda xalqning o'sha chet tilini bilmaslighi, ayniqsa, so'zni o'z talaffuziga moslab aytishi sababli o'zlashma so'zlarning imlosi va aytilishida farq yuzaga kelgan. Masalan: shkaf-ishkop, jemfer-jimpir, stakan-istakon kabi.*

3. Talaffuz va imlo munosabati turli nutq uslublarida qanday aks etadi?

*Nutq uslublarida so'zni aslidagidek qo'llash lozim. Hatto og'zaki muloqot, so'zlashuv jarayonida ham to'g'ri talaffuzga rioya qilish zarur. So'zning to'g'ri talaffuz qilinishi „O'zbek tilining orfoepik lug'ati“da to'liq aks etgan.*

4. Quyidagi matnda ajratib ko'rsatilgan so'zlarning talaffuzi va imlosini izohlang. Sabablarini tushuntiring.

*Yechim: muallif personaj xarakterini ochib berish uchun oddiy xalq tilida o'zlashma so'zlarning buzib talaffuz qilinishi holatidan mohirlik bilan foydalangan: Girmon – Germaniya, Maskov – Moskva, Istalin – Stalin, po'shta – pochta, kamandir – komandir, medol – medal.*

Agar ulardan bittasini xato bajargan bo'lsa, "4" baho; ikkitasini xato bajargan bolsa, "3" baho qo'yiladi.

Shunday qilib, bir darsda o'quvchilar oltita mashq, bitta topshiriqni bajarishadi va ularda olgan baholarini qo'shib, hosil bo'lgan yig'indini 7 ga bo'lishadi. Natijada o'quvchining bir kunlik joriy nazorat bahosi aniq bo'ladi. Yig'indi 4,6 dan yuqori bo'lsa, "5" baho; 3,6 dan 4,5 gacha "4" baho; 2,6 dan 3,5 gacha bo'lsa "3" baho qo'yiladi. Agar 2,5 va undan past bo'lsa, o'z-o'zidan "2" baho qo'yiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ona tili, 11- sinf [Matn]: umumiy o'rta ta'lim maktablarining 11- sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma / S. Atoyeva, Sh. Shahobiddinova, S. Majidova, G. Yo'l chiyeva, S. Bobonazarova – Toshkent: „O'qituvchi“ NMIU, 2020. – 192 bet.

2. Ona tili. 2- qism. [Matn]: Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 11- sinfi uchun darslik / Baxtiyor Mengliyev, Sharofat Toshmirzayeva, Saodat Atoyeva, Saida Majidova, – Toshkent: „Oʻqituvchi“ NMIU, 2020. – 5-bet.
3. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son qaroriga 3-ilova, umumiy oʻrta va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimining umumtaʼlim fanlari boʻyicha malaka talablari.

## **BOSHLANGʻICH TAʼLIMDA (SINF DAN TASHQARI OʻQISH DARSLARIDA) ZULFIYA IJODINING AHAMIYATI**

*Abduvaliyeva Eʼzoza Subxonqulovna  
Sharof Rashidov tumaniga qarashli  
28-maktab oʻqituvchisi*

Oʻzing tashna etding, oʻzing suv tutding,  
Qalbidagi sahrom, daryomsan, xalqim!  
Seni seva-seva men boyib ketdim,  
Dunyo ichra topgan dunyomsan, xalqim!  
Zulfiya

Oʻzbekiston xalq shoirasi Zulfiyaxonim Isroilova nafaqat yurtimizda balki butun jahonda mashhur oʻzbek sheʼriyatining yorqin namoyondalaridan biri. Shoirani yirik adabiyotshunos olimlar zamonamizning qahramoni, vafodor va sevimli yor deb bejizga ulugʻlamaganlar. Zulfiyaxonim oʻzbek xalqining haqiqiy farzandi, sadoqat va baxt kuychisi, dilbar shoira va sof yurak egasi sifatida butun dunyo ayollariga ibratlidir. Zulfiyaxonim haqida soʻz borar ekan, avvalo koʻz oʻngimizga goʻzal ayol siymosi namoyon boʻladi. Nozik qalb egasi, ajoyib shoira, ibo va hayo sohibasi, sadoqatli va vafodor yor, oʻz farzandining mehribon validayu muhtaramasi Zulfiyaxonim 1915-yil, soʻlim va bahorning ilk kuni 1- mart kuni Toshkent shahrida dunyoga keladi. Shoiraning otasi Isroil bobo degrez, yaʼni temirchi, onasi Zulfiyaxonimning taʼriflashicha "usti butun, ichi tutun" ayollardan boʻlib ayni paytda zukko, oqila va shoir tabiat ayol edi. Shoiraning yuksak iqtidori borasida gap ketar ekan, avvalo shoiraning ilk ijodi haqida fikr yuritiladi. Shoira boshlangʻich taʼlimni maktabda, soʻngra xotin-qizlar bilim yurtida oladi. U 1935-1938-yillarda Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi " Til va adabiyot" instituti aspiranturasida oʻqidi. Zulfiyaxonimning dastlabki sheʼriy toʻplami "Hayot varaqlari" nomi bilan 1932-yilda bosilib chiqdi. U umrining oxirigacha juda ham koʻp sheʼriy toʻplamlarni chop ettirib, ularda oʻzining cheksiz his-tuygʻularini, orzu va armonlarini sheʼrlarida namoyon etdi. Sheʼrlardagi goʻzal tuygʻular shoiraning yurak tubida ekanligi yaqqol koʻrinib turadi. Zulfiyaxonimning sadoqat va vafodorlik fazilatlarini yoshlarga ibratdir. Bu esa shoiraning chin inson ekanligini yorqin timsoli hamdir. Birinchi Prizentimiz I.A.Karimov Zulfiyaxonim haqida shunday fikr bildirganlar:" Uning jahon minbarlarida yangragan sheʼrlari Sharq

ayollaring aql-u zakovati , fazl-u kamolining yorqin ifodasi sifatida millionlab she'riyat muxlislariga odamiylik, muhabbat va sadoqatdan saboq bergan".

Uzluksiz ta'limning asosiy bo'g'ini bo'lgan boshlang'ich ta'lim insonning bilim va tarbiya olishida asos hamda poydevor vazifasini o'taydi. Boshlang'ich ta'limning " O'qish va nutq o'stirish" dasturidan Zulfiya ijodi va uning asarlaridan na'munalar o'rganish o'rin olmagan. Ammo, shunday bo'lsa ham boshlang'ich sinf o'quvchilarini Zulfiya haqidagi , uning ijodiy merosi xususidagi dastlabki ma'lumotlar bilan tanishtirish muhim ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega. Zero, ular Zulfiya hayoti misolida Sharq ayoliga xos fazilatlar bilan tanishadilar, shoira ijodi haqidagi tushunchalar shakllanadi. Shu bois, boshlang'ich ta'lim sinfdan tashqari o'qish, hamda ona tili darslarida mustahkamlash va nazorat ishlarida diktantlar orqali Zulfiya ijodi haqida ma'lumot berish, uning ayrim she'rlaridan na'munalar o'qitish va she'rlarni yod olish maqsadga muvofiqdir.

Boshlang'ich ta'limda sinfdan tashqari o'qishning maqsadi, o'qish malakalarini takomillashtirish, kitob tanlaydigan, muntazam kitob o'qiydigan, o'qilgan kitobni to'g'ri baholay oladigan kitobxonni tarbiyalash hisoblanadi. Bu darslarning asosiy vazifasi o'quvchida badiiy kitobni o'qishga havas uyg'otish, o'qilgan kitoblar yuzasidan kundalik yurita olishga o'rgatish, bolalar adabiyotining mashhur adiblari hayoti va ijodi bilan elementar tarzda tanishtirishdir. Shu bilan birga sinfdan tashqari o'qish darslarining tub mohiyatini bolalarda ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat uyg'otish, ularning bog'lanishli nutqini o'stirish, adabiy-estetik tafakkurini yuksaltirish ham tashkil etadi. Boshlang'ich ta'limda Zulfiya ijodining aynan shu jihatlarini e'tiborga olgan holda o'rganish dolzarblik hisoblanadi.

Faoliyatimiz davomida Sharof Rashidov tumaniga qarashli 28-umumta'lim maktabining 4-sinf o'quvchilarida sinfdan tashqari o'qish darslarida Zulfiya ijodi bilan o'quvchilarni tanishtirish samarali bo'ladi. "O'qish kitobi"ida ko'rsatilgan "Yashasin tinchlik, bor bo'lsin do'stlik" bo'limidagi materiallar o'qib, o'rganib bo'lingandan so'ng shoira Zulfiya she'rlaridan ifodali o'qish, bahr-u bayt tashkil etish kabi topshiriqlar asnosida o'quvchilarni Zulfiya ijodiga qiziqishini orttirishga o'rgatamiz. Bunda Zulfiyaning do'stlik, tinchlik, sadoqat, Vatan va vatanni sevmoq kabi tushunchalarni o'quvchilar ongiga singdirishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yamiz.

Zulfiya ijodining g'oyalari - shoira ijodida ona-Vatan timsoli, tinchlik, do'stlik, sadoqat va vafo tuyg'ulari ustun turadi. Uning she'r va dostonlari umumbashariy g'oyalar, yashash mohiyatiga doir ulug'vor falsafiy qarashlari bilan ajralib turadi. Ayniqsa, Hamid Olimjon xotirasiga ehtirom tarzida yozilgan "Haykal", "O'riklar gullar...", shuningdek, "Bahor keldi seni so'roqlab", "Mushoira" kabi she'rlari juda ahamiyatlidir.

Bu yerda shoirga qo'yildi haykal,  
Inson zakovati, aqli, mehri bu!  
Keksa tabiatga berilgan sayqal,  
She'riyat qudrati, san'at sehri bu.

Assalom !Ayt kimga boshimni egay,

Kimlarning qo‘lini surtay ko‘zimga,  
 Chorak asr o‘ta kelib tirikday,  
 Boqib turganing – chin so‘lg‘in yuzimga. (Haykal)

Men shomlardan saharlar yasab,  
 O‘ttiz yoshli bo‘lib yuraman.  
 Har bahorda chiqqanda qo‘msab,  
 Qaynoq qo‘llaringdan tutaman.  
 Ne-ne go‘zal yoshliklar kelar,  
 Umri boqiy hayot yo‘lida.  
 O‘shanda ham o‘riklar gullar,  
 Sen bo‘lasan dillar to‘rida. (O‘riklar gullar...)

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat-yengilmas kuch.-Toshkent: “Ma‘naviyat”, 2008-yil
2. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldoshova Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent, “Nosir”, 2009-yil
3. Ahmedov S., Qosimov B., Qo‘chqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. Toshkent. “Sharq”. 2020-yil.

### MAKTABGACHA TA‘LIM YOSHIDAGI BOLALAR NUTQNI RIVOJLANTIRISHGA OID ISHLAR VOSITALARI VA METODLARI

*Rahmonqulova Xolida Bosimovna,  
 JDPI o‘qituvchisi*

Maktabgacha ta'lim umuman olganda, uzluksiz ta'limning birinchi bosqichi hisoblanib, u maktabda o‘qish uchun tayyor bo‘lgan sog‘lom va to‘laqonli shaxs sifatida shakllangan bolani tarbiyalashni ko‘zda tutadi.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarining asosiy vazifalaridan biri bolalarning o‘z xalqining badiiy tilini o‘zlashtirib olishlari natijasida ularning to‘g‘ri og‘zaki nutqini shakllantirishdan iboratdir. Bu umumiy vazifa quyidagi maxsus vazifalardan iborat: nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash, lug‘atni boyitish, mustahkamlash va faollashtirish, nutqning grammatik to‘g‘riligini takomillashtirish, og‘zaki (dialogik) nutqni shakllantirish, ravon nutqni rivojlantirish, badiiy so‘zga qiziqishni tarbiyalash, savod o‘rgatishga tayyorlash.

Bolalar nutqini rivojlantirishni tegishli dastur asosida amalga oshirish zarur. Ushbu dasturda atrof-olam haqidagi bilimlar doirasi va lug‘at hajmi, har bir yosh bosqichida bolalarda shakllanishi lozim bo‘lgan nutqiy mahorat va ko‘nikmalar belgilangan bo‘lib, u shaxsning muayyan sifatlarini (kirishimlilik, xushmuomalalik, salomlilik, bosliqlik) tarbiyalashni ko‘zda tutishi lozim.

Nutqni rivojlantirish dasturi ilmiy asoslarga qurilgan bo‘lib, u butun mazmuni bilan bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan. Nutqni

rivojlantirish dasturi bola faoliyatining o'quv, o'yin, mehnat va maishiy kabi shakllarida amalga oshadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitishning asosiy shakli – mashg'ulotlardir. Didaktik maqsadlar bo'yicha quyidagi mashg'ulotlar turlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- yangi materialni ma'lum qilish mashg'uloti;
- bilimlar, mahorat va ko'nikmalar mustahkamlashga oid mashg'ulotlar;
- bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirishga oid mashg'ulotlar;
- yakuniy mashg'ulotlar yoki hisob-tekshiruv (nazorat) mashg'ulotlari.

Bolalarga ona tilini o'qitishga doir mashg'ulotlar har bir guruhda bolalarning yosh imkoniyatlarini va har bir bolaning nutqiy rivojlanganlik darajasini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Chunki bilimlar mazmuni, ularning tarkibi, metod va usullarni tanlash, haftasiga o'tkaziladigan mashg'ulotlar soni, har bir mashg'ulotning davomiyligi shunga bog'liq bo'ladi.[2.322]

Mashg'ulotlarda pedagog nutqiy vazifalardan tashqari o'quv faoliyatini yo'lga qo'yish qobiliyatini shakllantirish (diqqat-e'tiborli bo'lish, pedagog topshirig'ini tinglash, tushunish va uni aniq bajarish, bolalar jamoasi oldida fikr oldira olish, tengdoshining javobiga oddiy baho bera olish va h.k.) vazifasini ham bajaradi. To'g'ri ta'lim berilgan taqdirda etti yoshga kelib bola og'zaki nutqni egallaydi hamda katta yoshli yaqinlari va tengdoshlari bilan erkin muloqotga kirisha oladi; dialogda tashabbus ko'rsatib fikr bildiradi, suhbatdoshi e'tiborini o'ziga jalb qilish, unga so'z, harakat va so'zsiz usullar bilan javob bera olishni biladi; fikrlarini to'liq va noto'liq oddiy gaplar, qisqa matnlar shaklida ifodalay oladi;

-tanish ertaklarni hikoya qilib berish, multfilmlar, kitoblar mazmunini aytib berish hamda biron-bir voqeani to'qib chiqarishga qiziq boshlaydilar;

-fikr bildirishlarda nutqning turli qismlarini, tashbehtar, qiyoslashlar va sinonimlarni qo'llaydi;

-nutqqa tanqidiy munosabat bildiradi boshlaydi, grammatik jihatdan to'g'ri so'zlashga intiladi, shu tufayli so'z to'qish barham topadi, agrammatizmlar soni kamayadi; ona tilidagi barcha tovushlarni to'g'ri talaffuz etadi.

Bolalardagi ko'plab nutqiy muloqot va ko'nikmalar mashg'ulotlardan tashqarida shakllanadi. Bolalar bog'chasida bolalarning kattalar (pedagoglar, tibbiyot hamshiralari, tarbiyachi yordamchisi va boshq.) bilan muloqoti har xil faoliyat turlarida ro'y beradi.

Bolalar badiiy adabiyoti bolalarni har tomonlama rivojlantirishning qudratli vositasi bo'lib xizmat qiladi, u bolalar nutqini rivojlantirish va boyitishga ulkan ta'sir ko'rsatadi. Bolalar kitoblari she'riy obrazlarda bolaga jamiyat va tabiat hayotini, insoniy his-tuyg'ular va munosabatlar dunyosini ochib beradi hamda tushuntiradi. Badiiy so'z bola nutqini boyitadi, uni obrazli, ifodali qiladi, jaranglayotgan ona nutqning go'zalligini tushunishga yordam beradi.[1.126]

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining vazifasi nutqni rivojlantirishning muhim vositasi sifatida badiiy so'zdan tashqari tasviriy san'at, bayramlar va tomoshalardan foydalaniladi. Namunali nutqqa ega bo'lish – bu tarbiyachining



kasbiy tayyorgarligi darajasidir. Shuning uchun o'z nutqini takomillashtirish haqida qayg'urish – bo'lajak pedagogning axloqiy va ijtimoiy burchlaridir. U o'zida barcha nutq ko'nikmalarini mukammal shakllantirishi va uni kelgusida bolalarga berishi lozim.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ona tilidagi nutqni rivojlantirishning metodik tamoyillari quyidagilardir:

- aqliy va nutqiy rivojlanishning o'zaro bog'liqligi tamoyili;
- nutqni yaxlit bir tuzilma sifatida rivojlantirish tamoyili;
- nutqiy rivojlanishning individual xususiyatlarini hisobga olish tamoyili;
- bolalarning faol nutqiy amaliyotini ta'minlash tamoyili;
- nutqni rivojlantirishga nisbatan muomalali va amaliy yondashuv tamoyili;
- muloqotning ijobiy va emotsional muhitini ta'minlash tamoyili.[4.12]

Bolalarga ona tilini o'qitish metodikasida quyidagi metodlar guruhlarini ajratish mumkin:

Ko'rgazmali usullar – kuzatish, uning turlari: binoni ko'zdan kechirish, ekskursiya, tabiiy buyumlarni ko'rib chiqish. Pedagog kuzatishdan ob'ektni to'g'ridan-to'g'ri (gullar ochilishi, toshbaqa harakati va boshq.) va vositali (agarda ob'ektni bevosita kuzatishning imkoni bo'lmasa (yovvoyi hayvonlar, shaharlik bolalar uchun qishloq aholisining mehnati, qishloq aholisi uchun shahar transporti kabi) kuzatish mumkin bo'lgan holatlarda – suratlar, fotosuratlar, kinofilmlar, diafilmlar va videofilmlar namoyishida foydalanadi.

Ko'rgazmali narsalar, hodislar ko'rgazmalai usullardan foydalanishda suhbat, mulohaza mavzusini belgilaydigan manba bo'lib xizmat qiladi. Bolalarning qabul qilish hissini so'zlash berish orqali yo'naltirayotgan tarbiyachi ko'rib chiqilayotgan narsa nomini aytadi va uni tushuntirib beradi.

So'zli usullar – kattalar va bolalarning so'zlari har qanday ko'rgazmali va amaliy metod tarkibiga kiradi. Biroq, bolalarda so'zli-mantiqiy fikrlashning rivojlanishi, atrofdagi narsalar va hodisalar haqidagi tasavvurlarning yig'ilishiga qarab nutqni rivojlantirishning so'zli usullari mustaqil metod tusini oladi. Unga badiiy asarlarni o'qish, she'r yod olish, bolalarning hikoyalari, suhbatlar va tarbiyachining hikoyalari kiradi. So'zli usullar sof ko'rinishda bolalar bog'chasida juda kam qo'llaniladi, chunki maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh xususiyatlari ko'proq ko'rgazmalilikka tayanishni talab qiladi. Shuning uchun deyarli barcha so'zli usullarda ko'rgazmali usullardan (narsa, o'yinchoqni qisqa vaqtga ko'rsatish, illyustratsiyalarni ko'zdan kechirish) yoki bolalarni dam oldirish maqsadida ko'rgazmali ob'ektni namoyish qilishdan foydalaniladi. [2.167]

Amaliy metodlarga bolalarga olingan bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llashni o'rgatish, nutqiy mahorat va ko'nikmalarni o'zlashtirishda ularga yordam berishdan iboratdir. Didaktik o'yinlardan nutqiy rivojlantirishga oid barcha vazifalarni hal etish uchun foydalaniladi. Nutqiy mashqlar (mashq qilish va ijodiy mashqlar) yordamida esa o'z fikrlarini aniq va tushunarli qilib ifodalash, mulohaza yuritish, isbotlash hamda so'zlarni aniq va tushunarli qilib talaffuz qilish shakllanadi.

Metod deb bilimlarni biridan ikkinchisiga berish maqsadida o'qituvchi va o'quvchi tomonidan amalga oshirilayotgan harakatga aytiladi.

O'qitish usuli – bu metodning bir elementidir. Usullarni ko'rgazmaviyligi va emotsionalligiga qarab so'zli, ko'rgazmali, o'yinli usullarga ajratish mumkin.

Eng ko'p tarqalgan so'zli usullardan biri – nutqiy namunadir. Nutqiy namuna – bu tarbiyachining to'g'ri, ilgaridan mashq qilingan nutqiy faoliyatidir. Nutqiy namunadan izohlash, ko'rsatmalar berish bilan birgalikda foydalaniladi. Namuna bolalarga aniq, tushunarli, baland va bosiq ovozda namoyish qilinadi.

Takrorlash – esda saqlab qolish maqsadida aynan bitta nutqiy elementdan (tovush, so'z, ibora) bir necha marta foydalanish. Takrorlash tarbiyachining o'zi yoki bola (ikki nafar bola) tomonidan hamda bolalar tomonidan jo'rovoz bo'lib amalga oshiriladi.

Tushuntirish – tarbiyachi tomonidan narsa yoki hodisa mohiyati ochib beriladi.

Ko'rsatma berish – bolalarga qanday harakat qilish, qanday qilib natijaga erishish mumkinligi tushuntiriladi. Ko'rsatmalar o'rgatuvchi, tashkiliy va tartibga keltiruvchi bo'ladi.

So'zli mashqlar – nutqiy mahorat va ko'nikmalarga ega bo'lish hamda ularni takomillashtirish uchun bolalarning muayyan nutqiy harakatlarni ko'p marta bajarishlaridir.

Bolalar nutqini baholash – o'rgatuvchi usul bo'lib, unda bolaning javobi yoki hikoyasi haqida asoslangan mulohaza bildiriladi. Ko'pincha baholar nutqning ijobiy tomoniga taalluqli bo'ladi.

Savol – so'zli murojaat bo'lib, u mavjud bilimlaridan foydalanish yoki uni qayta ishlash zarurati qarshisida turgan bolaga vazifa qo'yish va uning javobini kutishni talab qiladi. Savollar mazmuniga qarab tasniflanadilar: faktlarni tasdiqlashni talab qiluvchi reproduktiv savollar (Nima? Kim? qanday? qaerda? qaerga? qancha? qachon? va boshq.), aql bilan bir xulosaga kelishni talab qiluvchi nisbatan murakkab – qidiruv savollari (Nega? Nima uchun? Nimasi bilan o'xshash? va boshq.). Savollar tuzilishiga qarab to'g'ridan-to'g'ri, yo'l ko'rsatuvchi va javobni aytib turuvchi savollarga bo'linadi.

Ko'rgazmali usullar – suratni, o'yinchoqni, harakatni, sahna harakatlarini (sahnalashtirishga oid o'yinlarda) ko'rsatish, tovushni yo'lga qo'yish jarayonida artikulyatsiya organlari holatini ko'rsatib berish. Ko'rgazmali usullar so'zli usullar yordamida – ya'ni, narsani ko'rsatish, uning nomini aytish, tushuntirish orqali qo'llaniladi.

O'yin usullari – maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda turli o'yinchoqlardan foydalanish mashqlar, o'yinlarni yanada jonli va emotsional qiladi, bu esa bolalarning diqqat-e'tibori oshishiga olib keladi, ayni paytda barcha nutq jarayonlari faollashadi. Har bir mashg'ulotda, ayniqsa uning nihoyasida, hazil savollar berish, loflardan, o'yin qahramonlaridan (ayiqcha, Buratino va boshq.) foydalanish, o'yin baholarini qo'llash (xalqa yig'ish, qarsaklar) mumkin. Shuningdek, musobaqa elementlari («Kim ko'p so'z aytadi?», «Kim yaxshi

aytadi?»), mashgʻulotlar jihozlarining chiroyliligi, yangiligi ham bolalarning nutqiy materialga nisbatan diqqat-e'tiborini oshiradi. [3.244]

Oʻrgatuvchilik vazifasiga qarab rivojlantirish usullarini bevosita va bilvosita usullarga ajratish mumkin.

Bevosita ta'lim usuli – namuna, izoh, savol, bola javobini baholash, koʻrsatma berish va boshq.

Mashgʻulot, oʻquv vazifasining maqsadiga qarab bir mashgʻulotda aynan bitta usulning oʻzi etakchi, boshqa bevosita usullar esa – qoʻshimcha usullar boʻlishi mumkin. Masalan, hikoya qilib berishga oid mashgʻulotda namuna etakchi usul boʻladi, boshqa usullar – reja, savollar esa – qoʻshimcha usul boʻladi.

Tarbiyachining ifodalilik vositalaridan foydalangan holda oʻqigan hikoyasi bolalarda qiziqish uygʻotadi, ularda qaygʻurish, soʻz kuchini his qilish, uning mazmunini anchagacha yodda saqlab qolish imkonini beradi; agarda aynan shu hikoya tez va quruq ohangda his-hayajonlarsiz oʻqib berilsa, u faqatgina badiiy asarga nisbatan zerikish va befarqlikni shakllantiradi.

Bolalar aniq va tushunarli soʻzlaydigan, iboralar, soʻzlar va har bir tovushni alohida-alohida aniq talaffuz etayotgan, ya'ni yaxshi diktsiyaga ega boʻlgan pedagog yordamida ona tilidagi tovushlarni muvaffaqiyatli ravishda oʻzlashtiradilar. Koʻpincha pedagoglarning talaffuzi biroz noaniq va tushunarsiz boʻladi, ular tovushlar va soʻzlarni ogʻizni etarli darajada ochmasdan talaffuz qiladilar, ayrim tovushlar yutib yuboriladi, undoshlar tushunarsiz talaffuz etiladi.

Pedagog talaffuzning adabiy me'yorlariga rioya qilishi, oʻz nutqida turli shevalar, mahalliy soʻzlashuvlar ta'sirini bartaraf etishi, soʻzlarda urgʻuni toʻgʻri qoʻyishi lozim. Nutqda hissiyotlar, fikrlarning eng nozik qirralarini ham ifodalash mumkin. Bunga nafaqat tegishli soʻzlar yordamida, balki ifodalilikning intonatsion vositalari, ovoz kuchi, sur'ati, mantiqiy urgʻusi, pauza, ritm, tembr, ohangdan toʻgʻri foydalanish tufayli erishiladi. Ushbu vositalardan foydalangan holda tarbiyachi tomonidan oʻqib berilgan she'rlar, ertaklar, hikoyalar bolalarga ularning mazmunini yaxshi tushunish, ona tilining qudrati va goʻzalligini his qilish imkonini beradi.

Shunday qilib, bolalar bilan ishlash orqali pedagog quyidagilarga e'tiborini qaratishi lozim:

- ona tilining barcha tovushlarni toʻgʻri talaffuz qilish, nutqdagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish;
- aniq, tushunarli nutqqa, ya'ni yaxshi diktsiyaga ega boʻlish;
- oʻz nutqida adabiy talaffuzlardan foydalanish, ya'ni orfoepik qoidalarga rioya qilish;
- ifodalilikning intonatsion vositalaridan bildirilgan fikrlarni hisobga olgan holda toʻgʻri foydalanishga intilish;
- matnlar mazmunini soʻzlar va grammatik tuzilmalardan foydalangan holda ravon hamda imkonli shaklda hikoya qilish va bolalarga etkazish;
- bolalar va xodimlar bilan suhbatda ovozni balandlatish va qoʻpol muomalaga yoʻl qoʻymaslik.[2.223]

Maktabgacha ta'lim umuman olganda, uzluksiz ta'limning birinchi bo'g'ini hisoblanadi. Maktabgacha ta'limning maqsadi maktabda o'qish uchun tayyor bo'lgan, sog'lom va to'laqonli shaxs sifatida shakllangan bolani tarbiyalashdan iboratdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Djuraeva.D.R. Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning zamonaviy tendentsiyalari. Uslubiy qo'llanma T.: O'zPFITI 2015y
2. D.Boboyeva Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. O'quv qo'llanma.-T, TDPU -2013y
3. F.Qodirova, Sh.Toshpo'latova, M.A'zamova. "Maktabgacha pedagogika".- T., "Ma'naviyat". 2013
4. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari Toshkent 2018 yil

#### **БОШЛАНГИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИ МУСТАҚИЛ ФИКРЛАШГА ЎРГАТИШНИНГ ИНТЕРФАОЛ МЕТОДЛАРИ**

*Сатторова Раъно Абдираззоқовна,  
Қарши шаҳар 27-ўрта умумтаълим  
мактабининг ўқув ишлари бўйича  
директор ўринбосари.*

Ҳозирги кунда таълим тизимида жиддий ислоҳатлар амалга оширилиб, ўқитишнинг янги – самарали усуллари жорий қилина бошланди. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев қайд этганидек, "...халқ таълими соҳасидаги таълим стандартлари ва ўқитиш услубларини илғор хорижий тажрибалар асосида, ўқувчининг индивидуал қобилиятини рўёбга чиқариш нуқтаи назаридан қайта кўриб чиқиш лозим. Фарзандларимизнинг қобилиятини рўёбга чиқаришда болалиқдан эътибор бериб, уларнинг камолоти учун барча имкониятларимизни сафарбар этсак, юртимиздан яна кўплаб Берунийлар, Ибн Синолар, Улуғбеклар етишиб чиқади.[1;2] Шу маънода, ўқитишда назарий таълим ва амалий жараёнларнинг уйғунлигини таъминлаш, замонавий педагогик технологияларни ривожлантириш ва модернизация қилиш, ўқувчиларни мустақил билим олиш, ахборот йиғиш, уни хотирада сақлаш, қайта ишлаш ва ундан ижодий фойдаланиш, ўзлаштирилган билимларни амалиётда қўллай олиш малакаларини шакллантириш таълим-тарбия тизими олдида турган энг муҳим вазифалардан биридир.

Маълумки, маънавий тикланиш жараёнида мустақил фикрга, муайян дунёқарашга эга бўлган шахсгина жамият тараққиётига муҳим ҳисса қўша олади. Зеро, мактаб таълимида бошланғич синфдан ўқувчиларни самарали ўқиш ва мустақил фикрлашга ўргатиш долзарб масала ҳисобланади. Шунинг учун ҳам Ўзбекистон Республикасининг Таълим тўғрисидаги қонунининг 9-моддасида "Бошланғич таълим олувчиларда умумий ўрта таълимни давом эттириш учун зарур бўлган саводхонлик, билим, малака ва кўникмалар

асосларини шакллантиришга қаратилган”лиги таъкидланган[2;2].Қонуннинг 15-моддасида “Таълим олиш шакллари”, 18-моддасида эса “Оилада таълим олиш ва мустақил таълим олиш” хусусида сўз боради. Унда мустақил таълимнинг мақсади ўқитувчининг ўқувчилар билан биргаликдаги таълим - тарбиявий ишлари натижасини ифодалаш хусусидаги қайдлар келтирилган [2;3]. Англашиладики, ўқитувчи таълимий мақсадлар билан бир қаторда мавзуга мувофиқ ҳолда тарбиявий ишларни ҳам шакллантиришга аҳамият бериши лозим.

Мустақил фикрлаш – мустаҳкам илм олишнинг таянч нуқтадир. Бу эса фикрлар билан ахборотнинг ҳамкорлик қилиши учун табиий восита ҳисобланади, ўқувчилар ахборотни инкор қилишлари, ўзгартиришлари, йиғишлари, қайтадан тузишлари, мослаштиришлари ёки эътиборга олмасликлари мумкин. Бу ҳол ўқувчилар томонидан: “Бу ахборот мен учун қандай аҳамиятга эга?”, “Мен бу билимлардан қандай фойдалана оламан”, “Ушбу билим мен ўзлаштирган билимлар билан қандай муносабатга киришади”, “Бу ахборот фойдалими?”, “Мен бу фикрларга қандай қарайман?”, “Бу фикрларни амалга оширишлари менга ва бошқаларга нисбатан қандай натижалар келтириб чиқариши мумкин”, деган саволлар берилганда юзага келади. Бошланғич синфларда мустақил фикрлашга ўргатиш учун бу усулни ўқитишнинг ҳар кунги режалаштиришдан кутилаётган натижанинг бир қисми бўлган мазмунини ўрганиш учун восита сифатида синаб кўриш лозим.

Аксарият ўқувчилар мактабга сушт тингловчилар сифатида келадилар, чунки улар фақат ўқитувчи ўқувчиларни ўргатишга мажбур, деб ўйлашади. Уларнинг тасаввурича, билим фақат ёдлаб олиш ва ўқитувчининг талабига кўра қайта айтиб беришдан иборат. Бундай ўқувчиларга рағбат берилмагунча мустақил фикрлаш машғулотларига қатнашмасликлари мумкин. Мустақил фикрлашни ривожлантириш мураккаб жараён бўлиб, бунда ўқитиш шартларининг қуйидаги жиҳатларига амал қилиш лозим:

1. Мустақил фикрлаш тажрибасини орттиришга вақт ва имконият бериш.
2. Ўқувчиларга фикрлаш имкониятини бериш.
3. Турли ғоя ва фикрларни қабул қилиш.
4. Ўқув жараёнида ўқувчиларнинг фаол қатнашишларига имкон бериш.
5. Ўқувчиларни уларнинг устидан ҳеч ким кулмаслигига ишонтириш.
6. Ҳар бир ўқувчини у мустақил мулоҳаза юритишга қодир эканлигига ишонтириш.
7. Мустақил фикрлаш пайдо бўлишини қадрлаш.

Ҳар қандай фикрлаш тарзи самарали бўлавермайди, шунинг учун ўқувчилардан ўз фикрлари рост ва чин бўлиши хусусида ҳисоб беришини, айниқса, бошқаларнинг фикрига адолатли муносабатда бўлишни талаб қилиш лозим. Фикр юритишга ижозат берилиши ўқувчиларга бўлмагур фикрларни айтиш ёки пала-партиш ўйлаш ҳуқуқини бермайди. Мустақил фикрлашни ривожлантириш учун синфда шундай муҳит яратиш керакки, ўқувчиларда улардан қанчалик кўп ғоя ва фикрлар чиқса, шунчалик кўп олқиш билан қабул қилинади деган тасаввур пайдо бўлишига олиб келиш



керак. Ўқитувчи томонидан дарс жараёнида бериладиган саволлар бошланғич синф ўқувчиларининг мустақил фикрлашини ривожлантиришда кучли воситадир. Ўқувчиларни фикрлашга, ўйлашга, ўзлаштиришга, хаёл суришга, ижод қилишга ундайдиган саволлар ўқувчиларнинг фикрлаш даражасини кўтарди. Ўтказилган тадқиқотлар шуни кўрсатадики, ўқитувчи томонидан берилган саволларнинг 75 фоизи расмий ёки муайян фактларга асосланган саволлардир. Фактга асосланган ахборот муҳим бўлган ҳолларда ўқувчиларнинг билимларини жиддий чегаралаш хавфи пайдо бўлади. Аввало, борган сари кўпаяётган билим ва ахборотларни олиш осонлашган ҳозирги даврда, ўқувчилар ҳатто фактга асосланган ахборотни етарли ўзлаштириб, ўқув дастурини тўлиқ ўзлаштириши мумкинлигини тахмин қилиш нотўғридир. Иккинчидан, фақатгина фактларни билиш амалиётда фойдали эмас, чунки уни фойдали қилиш ва амалиётда ишлатиш учун ўқувчиларда ахборотни таҳлил ва синтез қилиш, ўзлаштириш ва қайта тузиш қобилияти бўлиши лозим. Учинчидан, расмий даражада бўлган саволларга жавоб бериш кам миқдордаги сўзларни ишлатишни талаб қилади ва, албатта, муаммони жиддий ва чуқур муҳокама қилишга олиб келмайди. Расмий даражадаги саволларга жавоб бериш учун фанни юзаки билиш, матндан сўз ва жумлаларнинг фақат ёзганларини билиш кифоя. Кўп ўқувчилар фактга асосланган ахборотларни ёдлаб, уларда баён этилган асосий фикрларни тушунишга ҳаракат ҳам қилмайдилар. Ёдлаб олиш ўқувчиларнинг билим орттиришига жуда кам ҳисса қўшиши аниқ. Ўқувчилар янги ахборот ҳақида фикр юритишга ва уни аввалги билим ва тасаввурлари билан қўшишга ўргана олишлари учун улар мазмунли суҳбатларда иштирок этишлари ва фикрларини ўз сўзлари билан ифодалашлари, шу билан бирга, янги сўзларни ўрганиши лозим.

Билимларни аввалгиларига қўшиш учун онгли равишда ўтказиладиган мулоқотлар керак. Машғулотлар жараёнида фойдаланиладиган дидактик ўйинли технологиялар ўқувчиларнинг билиш фаолиятини фаоллаштириш, дарслик ва қўшимча адабиётлар устида мустақил ишлаш, нутқ ва мулоқот маданиятини ривожлантириш, уларни онгли равишда касб-хунарга йўллаш, дидактик ўйин давомида вужудга келган қийинчиликларни бартараф этишда мўлжални тўғри олиш, ҳар хил вазиятларни таҳлил қилиб, тўғри хулоса чиқаришга замин ҳозирлайди. Ўқув дастурлари талабларига мувофиқ муаммоли ёки мунозарали машғулотларнинг ташкил этилиши мустақил ва таҳлилий фикрлар ривожидида муҳим аҳамият касб этади. Ўқув жараёнида мунозарали дарсларнинг икки хили: илмий мунозара дарслари ва эркин фикрлаш дарсларидан фойдаланилади.

Интерфаол методлар – ўзаро фикр алмашишга, фикрларни тўлдиришга, гоҳ новербал, гоҳо вербал таъсир ўтказишга қаратилган ҳаракатлар мажмуаси дир[3;12]. Интерфаол методларни қўллашда ўзаро таъсир асосига қурилган интеллектуал ҳаракатлар шунчаки таъсир ёки туртки вазифасини бажариш билан чекланиб қолмайди ва ҳамкорлик субъектларини ижодий изланишга йўналтириш, номаълум ҳолатни очишга (кашф этишга) кўмак берувчи

назарий-ақлий мулоҳазаларни яратиш функцияларини ҳам бажариши мумкин [4;34]. Таълим мазмунини ўзлаштиришда ўқувчиларнинг билим савияси, ўзлаштириш даражаси, таълим манбаи, дидактик вазифаларга мувофиқ ва муносиб равишда қуйидаги интерфаол методлар қўлланилади:

1. Ўқитишнинг кўргазмали методи;
2. Мустақил ишлар методи;
3. Муаммоли-эверистик моделлаштириш методи;
4. Илмий тадқиқот методлари;
5. Ўқитишнинг муаммоли-изланишли ва репродуктив методлари;
6. Ўқитишнинг индуктив ва дедуктив методлари;
7. Ўқитишнинг назорат ва ўзини ўзи назорат қилиш методлари.

Айни пайтда бу методлар қуйидагича гуруҳларга бўлинади:

Биринчи гуруҳ методлари: ўқув ахборотларини эшитиш орқали қабул қилиш методлари (оғзаки методлар: ҳикоя, маъруза, суҳбат ва бошқалар);

Иккинчи гуруҳ методлари: ўқув ахборотларини кўргазмали узатиш ва кўриш орқали қабул қилиш методлари (кўргазмали метод, тасвирий намойиш қилиш ва бошқалар);

Учинчи гуруҳ методлари: ўқув ахборотларини амалий меҳнат ҳаракатлари орқали бериш (амалий методлар, машқлар ва масалалар ҳамда тест топшириқларини ечиш, меҳнат ҳаракатлари ва бошқалар).

Интерфаол методлар асосида тузилган дарс тизимларида турли стратегиялардан фойдаланилади. Бунда ўқувчиларга яширинча усуллардан (китоб, конспектлар ва ҳ.к.) фойдаланиш тақиқланмайди, аксинча бу каби усулларни қўллаш рағбатлантирилади.

Ўқувчиларнинг ижодий имкониятларини ривожлантириш, мустақил фикрлашни шакллантириш, муаммоларни ҳал қилишда тайёр стандарт ечимлар билан бирга ностандарт ечимлар қилишга ундаш, ўқувчилар ички ҳиссиётларини юзага чиқариб, уларни мантиқий фикрлашга чорлаш, уларни солиштириш, хусусий аналитик фикр юритишга ўргатиш, уларнинг интеллектуал, зукколик хислатларини шакллантириш ва маълум йўналишда янада юқори даражада ривожлантириш мақсадида муаммоли услубдан фойдаланилади.

Муаммоли вазият қандай ҳосил қилинади? Бунинг учун бажарилиши лозим бўлган топшириқ эълон қилинади. Энди шу вазифани бажариш учун ўқувчи бор билим ва кўникмаларини эслайди, топшириқни бажаришда шу пайтгача эгаллаган билимларининг етишмаслигини сезиш билан бирга ўқувчи шахсида маълум психологик қарама-қаршилик шаклидаги ҳолат юз беради. Навбатдаги муаммо топшириқни бажариш ва шу топшириқни бажариш учун янги билим, иқтидор ва кўникмаларни излаш муаммоси пайдо бўлади. Айни шу вазият эса муаммоли таълимнинг бошланиш жараёни ҳисобланади. Бунда ўқитувчи ўқувчиларнинг топшириқни мустақил бажариш жараёнини зукколик билан бошқаради, эътибор билан кузатади, керак бўлганда жонли мулоқотга чорлайди. Ўқувчилар мантиқий фикрлаш

давомида уларнинг жонли мушоҳадаси, фикр доираси педагог томонидан изчиллик билан ҳисобга олинади ва таҳсил охирида фаол ўқувчиларга қўйилган баллар ёки баҳоларни эълон қилади. Ўқувчиларда умумлашган психологик ва услубий билим, иқтидор ва кўникмаларни шакллантириш, ўз тажрибаларини танқидий нуқтаи назардан янада мустаҳкамлаш, реал ҳақиқий амалиётдаги шароитда синаш ва амалий кўникмаларни янги билимлар билан янада бойитиш мақсадида шу услубдан фойдаланилади.

Маълумки, ҳар қандай фан ўқитилиши учун белгиланган мақсадга кўра, унинг мазмуни инобатга олинади. Уни ўзлаштириш учун мавзуга мос методлар танланади. Сўнгра ўқув воситалари ҳамда уларга мос равишда ўқитиш шакллари танланади. Ўқувчиларнинг психологик тайёргарликлари ва фикрлаш ёки олинган билимларни ўзлаштириш даражаларига қараб ҳар бир таълим босқичи учун мос мазмун ва методлар танлаб олинади. Чунки ҳар бир босқичнинг ўзига хос мазмуни баён қилиш мантиқи ва методлари бор. Таълимда ҳар доим мазмун ва методлар муаммоси мавжуд бўлиб, бу муаммолар бир-бири билан узвий боғлиқдир [4;37]. Бундан ташқари, таълим методларидаги муаммолар “Кимни қандай ўқитамиз?” деган савол билан боғлиқ бўлиб, ўқитиш методларини ишлаб чиқишда унинг мазмуни эътиборга олинади. Бу икки муаммо ўзаро қарама-қаршиликда бўлиб, бир-бирини тўлдириб боради[5;15]. Бундай ўқув фанлари ўқувчининг барча талаб ва эҳтиёжларини қониқтириши, замонавий педагогик технологиялар талаблари асосида “аввал ўқиш, сўнгра ўқишга ўргатиш учун ўқитиш” принципига асосланиши, ўқувчининг ўқув материални ўзлаштиришидаги кўрсаткич ва ўзлаштириш даражалари, назарий ва амалий билимларини эгаллашда “оддийдан – мураккабга” қондасига асосланган назорат топшириқларини белгилаш ҳамда ўқувчиларга индивидуал ва табақалашган ҳолда ёндашувлар хусусиятларини инобатга олиши лозим.

Хулоса қилиб айтганда, мустақил фикрлаш жараёни ўқувчиларнинг ўзаро бир-бирлари билан фикр алмашиш билан боғлиқ интерфаол методларни камраб олади. Мустақил фикрлаш жараёнини ташкил этишда уни ўтказишнинг бир неча моделлари мавжуд бўлиб, бу жараён ўзига ишонч ҳосил қилиш, машғулотларда фаол иштирок этиш, ўртоқлари ва ўқитувчи билан фаол фикр алмашиш, ўзгалар фикрини тинглай олиш кабилар билан изоҳланади. Яна бир жиҳат, ўзаро фикр алмашишда ўқувчиларни диққат билан тинглаш, ўзининг қарашлари тизимини сўровчига зўрлаб ўтказиш ва бошқа сўзловчилар фикрини тузатиб туришдан ўзини тийиб туриши ҳам талаб этилади. Бунга жавобан ўқувчилар бошқаларнинг ялпи фикрларидан фойдаланиш имкониятига эга бўлади. Кенг доирадаги мунозара натижаси ўлароқ, ўқувчилар ўзларини қизиқтирган муайян саволларга жавоб топади, ғояларни таҳлил қилиш кўникмасига эга бўлади.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Ўзбекистон Республикаси Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганлигининг 26 йиллигига

бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси. // Халқ сўзи газетаси. 2018 йил, 10-декабрь.

2. Ўзбекистон Республикасининг Таълим тўғрисидаги қонуни. Маърифат газетаси. 2020 йил, 24-сентябрь.

3. Жумаева С. «Халқ эртаклари» мавзусини ўқитишда интерфаол методлардан фойдаланиш. – Қарши: “Насаф” нашриёти, 2020.

4. Ҳайдарова О. Бўлажак ўқитувчиларни инновацион фаолиятга тайёрлаш. – Қарши: “Насаф” нашриёти, 2008.

5. Йўлдошев Ж.Ғ. Педагогик инновацияларни ҳаётга татбиқ этишнинг ташкилий асослари. // Халқ таълими. – Т., 1999. - №6.

## АДАБИЁТ МУАЛЛИМИ ОБРАЗИ А.ҚАҲҲОР ТАЛҚИНИДА

*Моҳира Собирова,*

*ЖДПИ мустақил тадқиқотчи*

Мактаб дарсликларида ҳам ўзбек мумтоз адабиёти ва XX аср адабиётимизнинг йирик вакиллари ҳаёти ва ижодини ўрганишга асосий эътибор қаратилгандир. Ўн биринчи синфда Абдулла Қаҳҳор ижоди бўйича “Адабиёт муаллими” ҳикояси, “Ўтмишдан эртаклар” қиссаси ва “Сароб” романидан парча ўрганиш кўзда тутилган бўлиб, уларга дастурда беш соат ажратилган. Бу беш соатнинг биринчиси “Адабиёт муаллими” ҳикоясини, иккитаси “Ўтмишдан эртаклар” қиссасидан берилган парчани ва қолган икки соат “Сароб” романидан олинган лавҳаларни ўрганишига бағишланади. Ҳикоя қаҳрамони Боқижон Бақоев тимсоли асосида ҳаётдан ўз ўрнини тополмаган инсон шахсини тадқиқ этиш мазкур дарснинг тарбиявий мақсадидан муаллимнинг савиясини англаштириш дарснинг таълимий мақсадидир. Дарсда **тадқиқот методидан** фойдаланилади. “Адабиёт” дарслигида Абдулла Қаҳҳорнинг ҳаёти ва ижоди ҳақида беш бетга яқин батафсил маълумот берилган. Маълумки, ўқувчи олтинчи, еттинчи синфларда адибнинг ҳаёти ва ижоди ҳақида маълумотга эга бўлган, унинг шахси билан маълум даражада таниш. Лекин 11-синф дарслигида ҳам адиб шахсини ёритадиган ва уни ўқувчиларга янада яқинлаштирадиган муҳим адабий манбалар ва қимматли илмий-тарихий маълумотлар берилганки, уларга алоҳида тўхталиш лозим.

Шунинг учун ўқитувчи “Ойбек” мавзусини ўтиб бўлгандан сўнг, уй вазифаси сифатида дарсликда берилган Абдулла Қаҳҳор ҳақида мазкур биографик маълумот билан танишиб, ундан адиб ҳақида билганларига қўшимча нималар мавжудлигини аниқлаш вазифаси топширилади. Шунда бесамар такрорларга йўл қўйилмайди, вақтдан унумли фойдаланилади. Ўқитувчи дарсликдаги маълумотларга қўшимча равишда таниқли кишиларнинг Абдулла Қаҳҳор ҳақидаги хотираларидан ҳам фойдаланиши мақсадга мувофиқ бўлади. Бу ўқувчиларни улуғ адибга яқинлаштиради. Ўқувчи ва адиб орасидаги масофа қанча қисқарса, китобхонга муаллифни

англаш шунча осон бўлади. Қолаверса, бу нарса адабиёт дарсларининг самарадорлигини таъминлайди. Таниқли адиб Одил Ёкубов Абдулла Қаҳҳор ҳақида шундай хотирлайди: “Соч-соқоли оппоқ, юзидан алломалик нури балқиб турган хушрўй бу инсон бир қарашда қаттиққўл, сиёсатли одамга ўхшаб кўринарди. Ўша пайтлардаги адабий муҳитда кенг урф бўлган “А Қаҳҳор нима деркин?” деган ибора бизнинг авлодимизга мансуб ёзувчиларни шошмашошарликдан, ўз ишига бепарволик билан ёндашишдан огоҳлантириб, қўлёзмаларимизни қайта-қайта кўчиришимизга мажбур қилар эди. Ҳақиқатда эса ғоят зийрак, кўнгли очик, адабиётга кириб келаётган ёрқин ва истеъдодли ёшларни астойдил қўллаб-қувватлайдиган инсон эди...”. [Адабиёт Фаҳри Пиримқул Қодиров “Тошкент - «Ўзбекистон» - 2007” 49-бет]

Шу ўринда ўқитувчининг ўқувчиларини О.Ёкубов чизгиларига асосланиб Абдулла Қаҳҳор портретини ўқишга йўналтириши улар учун қизиқарли машғулот бўлиши табиий. Агар ҳеч ким ўқий олмаса, бу топшириқни уй вазифаси сифатида қолдириш ҳам мумкин. Биринчи дарснинг 8 - 10 дақиқаси шуларга сарфланади.

Сўнгра ўқитувчи “Адабиёт муаллими” асари матнинг ўқишга киришади. Агар синфда адабиётни, сўзни чуқур ҳис қиладиган ўқувчи бўлса, у аввалги дарсда берилган топшириқ асосида ҳикояни ифодали ўқишга тайёрланиб келиши, асар матни билан ўртоқларини таништириши мумкин. Ҳикоя мутолаасига кўпи билан ўн дақиқа вақт сарфланади. Дарснинг қолган 20-22 дақиқаси унинг таҳлиliga бағишланади. Мажмуада матн устида ишлаш учун учта савол-топшириқ тақдим этилган. “Адабиёт муаллими ” ҳақида дарслик муаллифининг ҳикоя матнини қайта баёни ва адабиётшунос сифатидаги мулоҳазаларидан иборат уч бандлик материал билан ўқувчиларни асар моҳиятига олиб кириш, Бақоевнинг шахсиятини тадқиқ қилиш мумкин эмас. Агар ўқитувчи шуларни такрорлаш билан чегараланиб қолса, бу дарс шаклланаётган шахснинг маънавиятига ҳеч нарса бермайди. Такрорлар ўқувчини адабиёт дарсларидан бездириб қўяди. Шунинг учун ўқитувчи мазкур дарсни “Тадқиқот” методида ўтказиб, ўз фикр ва дунёқараши шаклланиб улгурган 11-синф ўқувчиси учун қизиқарли бўлган тарзда ташкил қилиши мақсадга мувофиқ бўлади. Ўрни келганда тадқиқот методи ҳақида фикр юритиб, шуни айтиш мумкинки, бу метод ўқув жараёнида бир мунча қийин ҳисобланган назарий йўналишдаги масалалар кўтарилишини эътиборда тутати. Бунда билим олишнинг юқори босқичида таълимнинг самарали изланиш усуллари мустақил равишда қўллаш талаб қилинади. Бу дарсда ўқувчилар далиллар тўплаш ва уларни назарий таҳлил қилиш, тизимга солиш, умумлаштириш каби амалий ишларни бажарадилар. Тадқиқот методида “кашфиёт” аввалдан ажратилган материал билан танишувдан кейин, фактик материаллар умумлаштирилганидан сўнг амалий иш жараёнида содир бўлади. Бунда тадқиқот топшириғи - ўқув-билув фаолиятининг тўлиқ туркумини ўқувчилар ўқитувчи раҳбарлигида ўзлари бажарадилар. Яъни маълумот тўплашдан тортиб, уни таҳлил қилиш ва янги



билимларни мустақил равишда амалиётда қўллашгача бўлган ишларни бажариш назарда тутилади.

Ўқувчилар томонидан фактик материал тўплаш тадқиқот методининг зарурий қисмларидандир. Шундай далиллар мавжудки, уларни дарс жараёнида, айниқса, адабиёт дарсларида кузатиб, тўлиқ очиб бўлмайди. Агар ўқитувчи ўқувчилар ихтиёрига шундай далилларни тавсия этиб, уларни таққослаш, тизимга солиш, умумлаштиришни топширса ҳам, бу билан масаланинг муаммолик даражаси камаймайди. Тадқиқот методини қўллашда барча топшириқларнинг ўқувчилар томонидан бажарилиши муҳим ҳисобланади. Топшириқларни бажаришда бирор босқичи тушиб қолса, топшириқ ўз тадқиқийлик даражасини йўқотиб қўйиши мумкин. Тадқиқот методидан фойдаланилганда савол-топшириқлар тадқиқот жараёнининг сўнгги босқичида, ўқувчиларнинг қўпчилиги тадқиқот масаласини ҳал қилиб бўлгандан кейин қўйилади. Бу билим даражаси кучли ўқувчилар учун мўлжалланган метод бўлиб, муаммоларни ҳал этиш мобайнида ўз-ўзини назорат қилиш ва текшириш ишлари ҳам амалга оширилади. Билим даражаси нисбатан паст бўлган ўқувчиларга уларнинг имкониятлари даражасидаги топшириқлар берилади. Ўқитувчи фақат қўллаш мумкин бўлган усулларни тўғри аниқлаши, мустаҳкамлаш керак бўлган ўқув материали мазмунини тўғри белгилаши талаб этилади. “Адабиёт муаллими” ҳикоясини тадқиқот методидан фойдаланиб, ўрганилганда изланиш объекти Боқижон Бақоев ҳисобланади. Бу дарсда ўқувчилар “Боқижон Бақоев тарбиялаган ўқувчилар қандай одам бўлади?” [Қундузхон Хусанбоева “Адабиёт маънавият ва мустақил фикр шакллантириг омили” Тошкент – 2009 307-бет] деган мавзуда педагогик тадқиқот ишларини олиб боришади.

Дарсликда Бақоевнинг қиёфаси “ҳажвий” дея тавсифланади. Ҳикоя таҳлилига юқоридаги назар билан ёндашилса, бу ҳажвий эмас, фожиавий масалага айланади. Тадқиқот ишларни ўқувчилар Бақоевнинг табиатини ўрганишдан, яъни далиллар тўплашдан бошлайдилар. Ўқитувчи ўқувчиларни муаллимнинг табиатига хос бўлган иллатларни аниқлашга йўналтириш учун кўйидаги саволларни беради: “Сигирнинг қулоғига қана тушиши муносабати билан Бақоевнинг табиатига хос қандай хусусиятларни илғадингиз?”, “Унинг чўчка боқиш ҳақидаги фикрининг турфалигини нималардан кўриш мумкин?” Ҳар иккала савол асосида ўқувчилар Бақоевнинг табиатидаги бир сифатни очишлари керак: бу уларнинг далили бўлади.

Ўқувчилар Бақоев Ҳамиданинг афсусланишига парво қилмай, ўз гапини гапираверишига асосланиб, унинг яна бир сифатини очишлари керак бўлади. “Хўш, у нега Ҳамиданинг гапига муносиб муносабат билдирмади? Бу ундаги қандай феъл-атвордан далолат беради? Бақоевнинг Ҳамидага қарата: “Канцеляриянинг эшигига практикум деб ёзиб қўйибди. Тўғри эмас. Практикум, минимум, максимум – булар ҳаммаси лотинча ёки лотинчага яқин сўзлар”, - деганига асосланиб, унинг билим даражасига баҳо беринг” [Қундузхон Хусанбоева “Адабиёт маънавият ва мустақил фикр шакллантириг омили” Тошкент – 2009. 311-бет] топшириғи ўқувчиларни

сергак торттиради. Улар билганича муносабат билдирадилар, ўз далилларини дафтарларига ёзиб борадилар. Бақоевнинг табиати билан боғлиқ деталларни тўплашда давом этиб: “Ҳамиданинг Чехов асари таҳлили билан боғлиқ саволига Бақоевнинг “*томдан тараша тушгандай*” савол билан жавоб бериши нимадан далолат беради?” ва “Сиз адабиёт муаллимининг “Савол аломати ҳамма вақти “ми”дан кейин қўйилади” деган фикрига қандай қарайсиз?” каби саволлар ўртага ташланади. Ўқувчилар ўз жавобларида Бақоевнинг нутқига эътибор қарата олишлари керак. Бу билан ҳикоя муаллифининг ёзувчилик маҳоратига ҳам баҳо берган бўладилар.

“Бақоевнинг ҳеч гапдан ҳеч гап йўқ: “сартарош бўлмаса одамлар маймун бўлиб кетар эди. Маймун жуни тўкилиб, одам бўлган. Бу ҳақда Энгелснинг фикр *бор...*” дейишига муносабат билдиринг” топшириғи ўқувчиларни ҳикоя қахрамонининг аёллар олдида ўзини билимли қилиб кўрсатаётганини, аслида энг саводсиз киши ҳам бундай фикрламаслигини, Бақоев шундай қарашлари билан ўзининг билимсизлигини фош этаётганини тушуниши керак. У ўзини билағон фахмлаб, атрофидаги одамларнинг барчасини аҳмоқ деб ўйлайди. Унинг гапларига Ҳамиданинг ёки хотини Мукаррамнинг эътироз билдирмагани, қарши гап айтмагани билимсизликдан эмас, бунинг қандайдир бошқа сабаблари борлиги ва бу сабаблар қандай бўлиши мумкинлиги ҳақида ўқувчилар ўйлаб кўришлари керак.

Ўқитувчининг: “Бақоевнинг ҳеч гапдан ҳеч гап йўқ: “сартарош бўлмаса одамлар маймун бўлиб кетар эди. Маймун жуни тўкилиб, одам бўлган. Бу ҳақда Энгелснинг фикр *бор...*” дейишига муносабат билдиринг?” - деган саволи ўқувчилар диққатини асарнинг шу қисмига қаратишга мажбур қилади. Улар, шубҳасиз, ҳеч нарса тушунмайдилар ва бу билан Бақоевнинг яна бир сифатини очадилар: Бақоев - мужмал одам. Бу сифат ҳам дафтарга ёзилади. Сўнгра ўқитувчи ўқувчилар диққатини Бақоев тушунолмаётган мояк ва хўрознинг саҳарда қичқириши сингари “чуқур қараш”ларга қаратади. Бу чиндан ҳам чуқур қарашми? “Адабиёт муаллими Бақоевни хотини Мукаррам билан таққосланг. Эр-хотиннинг Чехов ҳақидаги гапларига асосланиб, уларнинг билим даражасини баҳоланг” топшириғи ўқувчилар диққатини яна асар матнига қаратади. Улар ўз муносабатларини билдирадилар. Мукаррамнинг ким бўлиб ишлаши ҳақида ҳикояда ҳеч нарса дейилмаган. Лекин у Пушкин ва Чехов ҳақида эри, адабиёт муаллими ўртоқ Бақоевдан кўра тузукроқ билимга эга. Бундай ташқари унинг асоси бор. Мукаррам “кутубхонада Чеховнинг Максим Горкий билан олдирган *сурат*”ни кўрган. Сўнгра ҳикоядаги “Ўртоқ Бақоев бир оз ўнғайсизланди” деган жумлага эътибор қилинади. Шу ўринда ўқувчиларнинг диққати: “ўнғайсизланиш” сўзи ўринлими? Ёки бу сўз ҳам Бақоевнинг бирор сифатини очиш учун қўлланилганми?” деган фикрга қаратилмоғи керак бўлади.

Ўқувчиларда ўзини адабиёт билимдони деб юрган, аслида эса савияси мактаб ўқувчиси даражасида ҳам паст бўлган Боқижон Бақоевнинг Чехов ва бошқа адиблар ҳақидаги “узундан-узок” маърузаси асосида у ҳақида муайян

фикр ва хулоса пайдо бўлади ва уларни ўзаро муҳокама қилишлари мумкин бўлади. “Абдулла Қаҳҳор. Асарлар. Олти томлик. 1-т. Т.1967” ҳикоясининг бош қаҳрамони Боқижон Бақоевнинг характери билан боғлиқ барча деталлар аниқлаб бўлингач, ўқитувчи мавзу объекти билан боғлиқ масалани ўқувчиларга эслатади: “Боқижон Бақоев каби адабиёт муаллимларидан ўқувчи қанчалик билим олиши мумкин? Бундай чаласавод кимсаларни муаллим деган юксак мақомдаги шахс лар қаторига қўшиб бўладими? Улар тарбиялаган ўқувчилар қандай одам бўлади?”. Юқори синф ўқувчилари бу ҳақда ўз мактаб ҳаёти ёки бошқа билганларидан келиб чиқиб, саломоқли фикрлар айтиши табиий. Ўқитувчининг вазифаси уларнинг фикрлари, муносабатлари ва хулосаларини назорат қилиб боришдан иборат. Энг муҳими, фикрлар аниқлиги, мантиқли ва асосли бўлишидир. Фикрлар тугаганда дарс ҳам якунига етади. Ўқувчилар дарс жараёнидаги фаоллигига, айтилган фикрларнинг мантиғига, далилларнинг асослилигига қараб баҳоланади, рағбатлантирилади. Гап шундаки, ўқувчиларнинг барчаси Боқижон Бақоев каби билими саёз ва тушунчаси тор чала савод муаллимлар ҳақида ўзининг танқидий хулосасига эга бўлган ҳолда дарсни якунлашлари керак. Шунда дарснинг асосий мақсадига эришилган бўлади Албатта, ўқитувчи ўқувчиларнинг фикрларини хулосалаганда, ҳамманинг қарашларини умумлаштириб бир қолип га солишга уриниши мақсадга мувофиқ бўлмайди. Энг муҳими, ўқувчилар ҳақиқий зиёли-ўқитувчи ҳақида муайян тасаввурга эга бўли шиларига ёрдам беришидир. Зиёли инсон – бамисоли мевали дарахт: унинг кўм-кўк япроқлари- чуқур билим, теран тафаккур, маънавий-гўзаллик; ўқ илдизи-бурчи ва эътиқодига садоқати, ички дунёси; меваси – маънавияти ва маърифати, ақл-заковати юксак камолот чўқ қисини забт этган инсонлар эзгу манфаатлари рўёби учун катта ҳисса қўшадиган, илғор мушоҳада ва мантиқий қарашларга эга бўлган, Она юртининг порлоқ келажаги учун бутун борлигини бахшида этадиган, томирида буюк аждодлари қони оқаётган келажагимиз вори слари бўлиши лозимлигини англаб етсинлар. Адабиёт ўқитишнинг бош мақсади ҳам, аввало, шунга қаратилиши тўғри бўлади.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

6. Абдулла Қаҳҳор. Асарлар. Олти томлик. 1-т. Т.1967.
7. Абдулла Қаҳҳор. Ҳикоялар. Т.2007.
8. Кибриё Қаҳҳорова. Чорак аср ҳамнафас. Т.:2007. Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси. Т.2006. Хусанбоева
9. Қ. Адабиёт ўқитиш методикаси ва муаммоли таълим. Т.2022.
10. Қосимов У. Ҳошимхонов М. Мактаб ва академик лицейларда А.Қодирӣ, Чўлпон, А.Қаҳҳор ижодини ўрганиш. Т.2021.
11. Қундузхон Хусанбоева “Адабиёт маънавият ва мустақил фикр шакллантириг омили” Тошкент – 2009. 311-бет

**“O‘ZBEGIM, JON O‘ZBEGIM”****(Bir soatlik ochiq dars ishlanmasi)**

*Ochilov Erkin Shukurovich,  
Ashirmatova Nargiza Inombayevna  
Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi  
ijod maktabining ona tili va adabiyot  
fani o‘qituvchilari*

**Dars mavzusi: Erkin Vohidovning “O‘zbekim” qasidasi**

**Ta’limiy maqsad:** O‘quvchilar aruz vaznidagi qasidani ifodali o‘qish ko‘nikmasini egallaydilar, bilimlari yanada kengayadi;

**Tarbiyaviy maqsad:** O‘quvchilarda ona–Vatanga muhabbat, uning tarixi va bugunidan

faxrlanish, kelajagiga ishonch tuyg‘ularini shakllantirish.

**Rivojlantiruvchi maqsad:** Qasida tahlili jarayonida o‘quvchilarning ijodiy va mustaqil fikrlash ko‘nikmalari rivojlanadi.

**Jihozlar:** E.Vohidov portreti, guruhlar uchun tarqatma topshiriqlar, O‘zbekiston xalq artisti Sh.Jo‘rayev ijro etgan “O‘zbekim” qo‘shig‘ining videolavhasi.

**Ajratilgan vaqt:** 45 daqiqa

**Dars jarayoni:**

Mard mardni tanir,

Dardni bilar ko‘ksida dard bor,

Jon sadqasini

Joni fido jon tushunibdir. (Erkin Vohidov)

**1. Tashkiliy qism (3 minut).** O‘qituvchi o‘quvchilar davomatini aniqlagach, o‘tilganlar asosida “Tezkor savol-javob” o‘tkazgach, yangi mavzuni e’lon qiladi.

2. “Aqliy hujum” va o‘qituvchining kirish so‘zi (5 minut). O‘qituvchi “Erkin Vohidovni bilasizmi?” savoli bilan o‘quvchilarga murojaat qiladi.

O‘quvchilar shoirning televideniya yoki radiodagi suhbatlarini ko‘rgan, eshitgan, u haqidagi filmlarni tomosha qilgan bo‘lishi tabiiy, shundan kelib chiqib Erkin Vohidov – O‘zbekiston xalq shoiri, O‘zbekiston Qahramoni va boshqa turli javoblarni berishi mumkin.

O‘qituvchi shoirning hayoti va ijodi, xususan, uning she’riyatida Vatan, xalq tarixi, taqdiri tavsifi, ona yurt, uning boy va shonli tarixi bilan faxrlanish tuyg‘usi muhim o‘rin tutishi hamda “O‘zbekim” qasidasi haqida taqdimot asosida ma’lumot beradi.

3.Qasidani o‘qish (5 minut). “O‘zbekim” qasidasi aruz vaznidagi she’r bo‘lganligi uchun, avvalo, o‘qituvchi 3-4 baytni ifodali qilib o‘qib, qasidani qanday o‘qilishini ko‘rsatib beradi. So‘ngra ravon va tushunarli qilib o‘qiydigan o‘quvchilar tomonidan she’r matni ifodali qilib o‘qiladi.

4.Guruhlarda ishlash (8minut). O‘qituvchi qasida matni bilan ishlashdan oldin, qasidada qayd etilgan qadimiy joy nomlari, qadimgi turkiy yozuvlar, tarixiy shaxslar, buyuk allomalar, jahon adabiyoti namoyandalari, bosqinchi kimsalar haqida o‘quvchilarga kengroq bilim berish maqsadida o‘quvchilarni 7 ta kichik

guruhlarga bo'ldi. Guruhlarni shakllantirishda o'qituvchi, albatta, sinf o'quvchilarining bilim darajasini, temperamentini, xarakter va qobiliyatlarini hisobga olishi lozim. Chunki bitta guruhga a'lochi, hozirjavob, ikkinchi guruhga past o'zlashtiruvchi, indamas o'quvchilar yig'ilib qolishini oldini olish guruh ishini samarali bo'lishining garovidir. Guruhlar oldindan tayyorlab qo'yilgan kichik matnlar ustida ishlaydilar. Har bir guruhdan bittadan o'quvchi chiqib, quyidagi matnlar solingan konvertlardan tanlab oladilar. Guruhlar tanlab olingan matnlarini o'qib chiqadilar, mazmunini o'rganadilar, muhokama qiladilar va o'zlashtirganlarini sinfdoshlariga tushuntirib berishga, ya'ni taqdimotga tayyorlanadilar.

#### 1-konvert.

Quyida berilgan matnni guruhda diqqat bilan o'qib chiqing. Abu Rayhon Beruniy haqidagi ma'lumotlarni o'rganing, muhokama qiling va o'zlashtirganlaringizni sinfdoshlaringizga gapirib berishga tayyorlaning.

Guruhdagi matnning mazmunini hayotga bog'lagan holda bittadan savol tuzing. Abu Rayhon Beruniy O'rta asrning buyuk qomusiy olimi Abu Rayhon Beruniy zamonasining qator fanlari: astronomiya, fizika, matematika, geodeziya, geologiya, mineralogiya, tarix kabilarni chuqur o'rgandi. U Xorazmning qadimgi poytaxti Kot shahrida tug'ildi va yoshligidanoq ilm-fanga qiziqishi orta bordi. Beruniy mashhur olim Abu Nasr Mansur ibn Iroq qo'lida ta'lim oldi. U 22 yoshida Xorazmdan chiqib ketib, Kaspiy dengizi sohilidagi Jurjon shahrida, so'ng qadimgi Ray shahrida muhojirlikda yashadi va "Osor al-boqiya" (Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar) asarini yozdi. Bundan tashqari astronomiya, netrologiya tarixiga oid 10dan ortiq asarlar yozdi.

Beruniy ijodiga Yevropa va Sharq olimlari juda katta qiziqish bilan qaradi va uni tadqiq qildi, o'rgandi. Uning ijodiga bag'ishlab ko'plab xalqaro ilmiy konferensiyalar o'tkazildi. Ko'p tomli saylanma asarlari o'zbek, rus va boshqa xorijiy tillarda nashr etildi. O'zbekistonda Fan sohasida Beruniy nomiga Davlat mukofoti ta'sis etildi.

#### 2-konvert.

Quyida berilgan matnni guruhda diqqat bilan o'qib chiqing. Muso al-Xorazmiy haqidagi ma'lumotlarni o'rganing, muhokama qiling va o'zlashtirganlaringizni sinfdoshlaringizga gapirib berishga tayyorlaning. Guruhdagi matnning mazmunini hayotga bog'lagan holda bittadan savol tuzing.

Muso al-Xorazmiy Buyuk matematik, astronom va geograf Muhammad al-Xorazmiy VIII asrning oxiri va IX asrning birinchi yarmida yashab, ijod qilgan. Bu davrda Markaziy Osiyo arab xalifaligi tarkibiga kirar edi. Xorazmiy dunyo faniga g'oyat katta hissa qo'shdi. U algebra fanining asoschisi bo'ldi. "Algebra" so'zining o'zi esa uning "Al-kitob al-muhtasar fi hisob al-jabr va al-muqobala" nomli risolasidan olingan. Uning arifmetika risolasi hind raqamlariga asoslangan bo'lib, hozirgi kunda biz foydalanadigan o'nlik pozitsion hisoblash sistemasi va shu sistemadagi amallarning Yevropada tarqalishiga sabab bo'ldi. Olimning "al-Xorazmiy" nomi esa "algoritim" shaklida fanda abadiy o'rnamashib qoldi. Uning



geografiyaga doir asari esa arab tilida o‘nlab geografik asarlarning yaratilishiga zamin yaratdi.

Abu Nasr Forobiy uning taxallusi bo‘lib to‘liq nomi Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uslug‘ Tarhon – jahon madaniyatiga katta hissa qo‘shgan Markaziy Osiyolik mashhur faylasuf, qomusiy olim. Farobiy o‘z zamonasi ilmlarning barcha sohasini mukammal bilganligi va ilmlar rivojiga katta hissa qo‘shganligi, yunon falsafasini sharhlab, dunyoga keng tanilganligi tufayli Sharq mamlakatlarida uning nomi ulug‘lanib, “Al-Muallim as-soniy” – “Ikkinchi muallim” (Aristoteldan keyin), “Sharq Arastusi” deb yuritilgan.

Forobiy o‘rta asr davri tabiiy-ilmiy va ijtimoiy bilimlarining qariyb barcha sohalarida 160 dan ortiq asar yaratgan. Uning asarlarini 2 guruhga ajratish mumkin: 1) yunon faylasuflari, tabiatshunoslarining ilmiy merosini izohlash, targ‘ib qilish va o‘rganishga bag‘ishlangan asarlar. 2) fanning turli sohalariga oid mavzulardagi asarlar.

Forobiy qadimgi yunon mutafakkirlari – Platon, Aristotel, Evklid, Ptolemey, Porfriylarning asarlariga sharhlar yozgan. Ayniqsa, Aristotel asarlari (“Metofizika”, “Etika”, “Ritorika”, “Sofistika” va b.)ni batafsil izohlab, qiyin joylarini tushuntira olgan, kamchiliklarini ko‘rsatgan, ayni vaqtda bu asarlarning umumiy mazmunini ochib beruvchi maxsus asarlar yaratgan. Forobiy sharhlari O‘rta va Yaqin Sharq ilg‘or mutafakkirlarining dunyo qarashini shakllantirishda, ularni Aristotel g‘oyalari ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Forobiy asarlari XII–XIII asrlardayoq lotin, qadimiy yahudiy, fors tillarida, keyinchalik boshqa ko‘plab tillarga tarjima qilinib, dunyoga keng tarqalgan.

4-konvert.

Quyida berilgan matnni guruhda diqqat bilan o‘qib chiqing. Boborahim Mashrab haqidagi ma‘lumotlarni o‘rganing, muhokama qiling va o‘zlashtirganlaringizni sinfdoshlaringizga gapirib berishga tayyorlaning. Guruhdagi matnning mazmunini hayotga bog‘lagan holda bittadan savol tuzing.

Boborahim Mashrab Boborahim Mulla Vali o‘g‘li Mashrab o‘z ijodi bilan o‘zbek adabiyotida xalqchilik, dunyoviylikning chuqurlashuvida, jaholat va bid‘atga qarshi kurash g‘oyalarining kuchayishida, she‘riyat shakllarining takomillashuvida katta o‘rin tutgan so‘z ustalaridan biridir.

Mashrab faqat otashzabon ijodkor sifatidagina emas, balki, adolatsizlik va zo‘ravonlik, qabohat va jaholat bilan aslo kelisha olmaydigan dovyurak shaxs sifatida ham dong taratgan. Xalq tasavvurida u johil amaldorlar ustidan kuluvchi, ahloqan tuban kishilarni, munofiq din arboblarni ayovsiz fosh qilib, mehnatkashlar manfaatini himoya etuvchi botirso‘z, tadbirkor kurashchi tarzida shakllangan: oddiy xalq Mashrab timsolida o‘zining ishonchli vakilini, o‘z orzu intilishlarini baralla ayta oluvchi otashin siymoni ko‘rgan.

Uning ijodiy merosi “Devoni Mashrab”, “Devonai Mashrab”, “Eshoni Mashrab”, “Hazrati shoh Mashrab” nomlari ostida xalq orasida qo‘lyozma va toshbosma shaklida juda keng tarqalgan.

Boborahim Mashrab 1640-yilda Namanganda kosib-boʻzchi Valibobo oilasida tugʻilgan. 1711-yilda oʻsha zamondagi hukmron tabaqalar va johil ulamolarga qarshi hurfikr gʻoyalari bilan kurash yoʻlida Balxda Qunduz hokimining hukmi bilan osib oʻldirilgan.

Koʻrinib turibdiki, Mashrab dunyoga mashhur buyuk bobokalonimiz, biz ular bilan har qancha faxrlansak arziydi.

5-konvert.

Quyida berilgan matnni guruhda diqqat bilan oʻqib chiqing. Mirzo Ulugʻbek haqidagi maʼlumotlarni oʻrganing, muhokama qiling va oʻzlashtirganlaringizni sinfdoshlaringizga gapirib berishga tayyorlaning.

Guruhdagi matnning mazmunini hayotga bogʻlagan holda bittadan savol tuzing.

Mirzo Ulugʻbek 1394-yilning mart oyida Eronning gʻarbidagi Sultoniya shahrida, bobosi Amir Temurning harbiy yurishi paytida tugʻildi. U Shohrux Mirzoning toʻngʻich oʻgʻli boʻlib, unga Muhammad Taragʻay ismi berilgan, lekin bolaligidayoq u Ulugʻbek deb atala boshlab, bu ism keyinchalik uning asosiy ismi boʻlib qoldi. Ulugʻbek 17 yoshida hokim boʻldi, lekin u bobosi singari harbiy yurishlarga emas, ilm-fanga qiziqdi. Shoh sifatida 40 yildan ortiqroq mamlakatni adolat bilan boshqardi. Olim sifatida rasadxona qurdirdi, astronomik kuzatishlar olib bordi.

Ulugʻbek ilmiy merosining eng asosiysi, maʼlum va mashhuri uning "Ziji" boʻlib, bu asar "Ziji Ulugʻbek", "Ziji jadidi Guragoniy" deb ham ataladi. "Zij"dan tashqari uning qalamiga mansub matematik asari "Bir daraja sinusini aniqlash haqida risola", astranomiya oʻid "Risolari Ulugʻbek" (yagona nusxasi Hindistonda, Aligarx universiteti kutubxonasida saqlanadi) va tarixga doir "Tarixi arab ulus" ("Toʻrt ulus tarixi") asaridir.

Ulugʻbek "Zij"i oʻz tarkibiga koʻra ikki qismdan: keng muqaddima va 1018 sobita yulduzining oʻrni va holati aniqlab berilgan jadvallardan iborat boʻlib, muqaddimaning oʻzi mustaqil toʻrt qismni tashkil qiladi. Ulugʻbek dunyoga mashhur buyuk bobokalonimiz, biz ular bilan har qancha faxrlansak arziydi.

5. Video yordamida "Oʻzbekim" qoʻshigʻini tinglash (5 minut). Darsning bu bosqichida oʻqituvchi oʻquvchilarda zerikish yoki toliqish paydo boʻlishini oldini olish va guruhlarda oʻrganilgan matnlarda taʼkidlangan shaxslarning nomini shoir nima maqsadda tilga olganligini teranroq anglash, guruh ishi taqdimotining samarali boʻlishini nazarda tutadi va qoʻshiq orqali oʻquvchilarda milliy gʻurur kurtaklarini jonlantiradi.

6. Yangi guruhlar tashkil etish va unda ishlash. (13 minut) Yangi guruh aʼzolarining har biri guruh ichida navbati bilan mustaqil berilgan matnlari bilan axborot almashadilar, yaʼni bir-birlariga soʻzlab beradilar, matnni oʻzlashtirib olishlariga erishadilar. Berilgan maʼlumotlarni oʻzlashtirilganlik darajasini aniqlash uchun guruh ichida ichki nazorat oʻtkaziladi, yaʼni guruh aʼzolari bir-birlari bilan savol-javob qiladilar. Soʻngra yangi guruh aʼzolari dastlabki holatdagi guruhlariga qaytadilar.

7. Mavzuni yakunlash (5 minut). O'qituvchi guruhlarining fikr-mulohazalarini yanada to'ldiradi va boyitadi. Jumladan, hozirgi kunda Samarqandda saqlanib qolgan, ochiq muzey sifatida ziyoratgohga aylantirilgan Afrosiyob shahrining xarobalari, turkiylarning qadimiy runik yozuvi bo'lgan O'rxun xati va unda yozilgan toshbitiklar O'rxun-Enasoy yozma yodgorliklari haqidagi ma'lumotlarni, shoir nima uchun qasidada bularni qalamga olganligini sharhlab, mavzuni yakunlaydi.

**Uyga vazifa.** "O'zbekim" qasidasidan parcha yod olish.

Kengaytirish. Darsdan tashqari bo'sh paytlarida o'quvchilar "O'zbekim" qasidasini yod olib og'zaki nutqini boyitadilar, ifodali o'qish ko'nikmalarini rivojlantirib, bilimlarini kengaytiradilar.

Izoh. O'qituvchi vaqtdan unumli foydalanish maqsadida guruhlariga topshiriq sifatida beriladigan matnlarni oq qog'ozlarga oldindan yozib tayyorlab qo'yadi.

Baholash. O'quvchilarning ifodali o'qish, g'uruhlarda ishlashdagi faolligi, erkin va mustaqil, ijodiy fikrlashi kuzatiladi va baholanadi.

## **TOPISHMOQLAR YORDAMIDA O'QUVCHILARGA TA'LIM-TARBIYA BERISHNING MAZMUN-MOHIYATI**

*Qalandarova Qutlibika O'ktamovna,  
Xorazm viloyati Hazorasp tumanidagi  
7-son umumta'lim maktabi o'qituvchisi*

O'zbekiston taraqqiyoti, uning jahon hamjamiyatida mustahkam mavqega ega bo'lishi hamda iqtisodiyot, fan va texnikaning rivojlanishi milliy ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishga bog'liq. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasida xalq ta'limi tizimi oldiga zamonaviy milliy ta'lim-tarbiya tizimini yaratish uchun zarur bo'lgan bir qator muhim vazifalar qo'yilgan. Shulardan biri o'quvchilarning ma'naviy kamolotiga katta e'tibor qaratish, ularda milliy, umuminsoniy qadriyatlarga e'tiqod, yuksak vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish va ularni mustaqil fikrlovchi shaxslar qilib tarbiyalash hisoblanadi. Bu vazifani ado etishda boshlang'ich ta'limning ham juda katta o'rni bor.

Boshlang'ich ta'limning sinfda o'qish darslarida o'quvchilar tabiat, jamiyat, unda yashovchi kishilar hayoti haqida, ularning o'tmishi, hozirgi yashash hayoti hamda mashhur kishilar to'g'risida bilib oladilar. Ularga tabiat, ob-havo, boyliklar, hayvonot dunyosi va boshqalar haqida bilimlar beriladi. Bilim olish jarayonida munosabat uyg'otiladi. Bilim berish bilan o'quvchi shaxsi ham tarbiyalanib boriladi. Sinfda o'qish darslariga ta'lim-tarbiya vazifalari kompleks ravishda hal qilinadi. Shuningdek, o'quvchlarning ijobiy sifatleri shakllanadi, ular aqliy va estetik jihatdan kamol topadilar. Mustaqil ravishda bilim olish asoslarini egallaydilar.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, boshlang'ich ta'limda topishmoqlarni o'rganish juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bilamizki, barcha xalqlar ogʻzaki ijodining eng sevimli, qiziqarli va oʻziga xos turi topishmoqlar hisoblanadi. Topishmoqlarni baʼzan “topmacha”, “jumboq”, “matal” deb atashgan. Mumtoz adabiyotda ular “chiston” ham deyiladi. Topishmoq hammabop ommaviy janrdir. Ularda xalq hayotining barcha qirralari - turmush madaniyati, urf-odatlar va boshqa jihatlari, inson va uni oʻrab olgan olam oʻxshatishlar, taqqoslashlar, savollar vositasida ifodalanadi. Topishmoqda yashirin maʼno koʻpincha majoziy shaklda keltiriladi, aniqrogʻi, narsa nomi biron-bir qush, hayvon, buyum, oʻsimlikka qiyoslangan holda beriladi. Topishmoqni yechmoqchi boʻlgan kishi unda keltirilgan koʻchma belgilarini xayolida mantiqan solishtiradi va uni hayotdagi belgilarga toʻgʻri kelishiga qarab javobni topadi. Topishmoq, avvalo, aqlni chiniqtiradigan, ayniqsa, bolalarni yoshlikdan mantiqiy fikrlashga undaydigan tarbiya vositasi boʻlsa, ayni paytda koʻngilochar oʻyin ham hisoblanadi. Topishmoqni aytilgan vaqtda yecha olmagan kishi “jazolanadi”. Topishmoqning javobi uchun “shahar” yoki “qishloq” beradi.

Topishmoqlar kishining tasavvuri va tafakkurini oʻstiradi, ayniqsa, bolalarni topagʻon boʻlishga, hozirjavoblikka oʻrgatadi. Shuning uchun ham boshlangʻich sinf “Oʻqish kitobi” darsliklaridan koʻplab topishmoqlar oʻrin olgan. Bu topishmoqlar mavzu jihatdan rang-barang boʻlib, ular olam va odam bilan bogʻliq barcha narsa va hodisalarni qamrab oladi. Masalan, tabiat hodisalari, yil fasli va mavsumlar, hayvonot dunyosi, odamlarning aʼzolari va xislatlari, mehnat va oʻquv qurollari, cholgʻu asboblari, turar joy, uy-xoʻjalik asboblari, qurol-yarogʻlar haqida topishmoqlar mavjudki, ularni topish oʻquvchilarda topqirlikni, ziyraklikni tarbiyalaydi. Xususan, *Boshi bor-u sochi yoʻq, Koʻzi bor-u qoshi yoʻq, Tangasi bor, puli yoʻq, Qanoti bor, uchuvi yoʻq* (baliq) yoki *Yashil posti bor, Qizil goʻshti bor, Uyda, bozorda Yaqin doʻsti bor* (tarvuz) kabi topishmoqlarning javobini topish jarayonida oʻquvchilar shu predmet-buyumlar haqidagi barcha bilimlarini yodga oladilar. Ularning oʻziga xos xususiyatlarini topadilar.

Boshlangʻich taʼlimda oʻrganiladigan topishmoqlar oʻquvchilarning tevarak-atrofdagi olam bilan yaqindan tanishishlariga xizmat qiladi.

Tukdan parda yuzida,

Pishar oʻlkam kuzida.

Xushboʻy hidi, tillarang,

Koʻngil uchun bir qarang. (Behi)

Bozordan bir narsa ol: ham oʻzing ye, ham tovugʻing yesin, ham moling yesin. (Qovun)

Zuv-zuv baragʻay,

Tomdan qaragʻay.

Choʻp, loy choʻqigʻay,

Savat toʻqigʻay. (Qaldirgʻoch)

Boshlangʻich sinflarda oʻqish darslariga oʻquvchilarni ona tilini puxta oʻzlashtirishga tayyorlashning ajralmas qismi, taʼlim jarayonida ularni axloqiy-estetik tarbiyalashning muhim vositasi sifatida qaraladi. Shuningdek, topishmoq oʻqish darslarida hosil qilingan koʻnikma va malakalar asosida bolalarning ona Vatan, atrofimizdagi olam haqidagi tasavvur tushunchalari kengaytirilib,

boyitiladi. Zero, topishmoq aytish va topish kishidan katta mahorat talab etadi. Topishmoq aytayotganda, eng avvalo, nazarda tutayotgan narsamiz haqida tinglovchi atroflicha ma'lumotga ega ekanini hisobga olishimiz zarur. Topishmoqning javobini topish uchun aytilgan matnni yaxshi tinglab, nimaga ishora qilinayotganini fahmlash, asosiy xususiyat va belgilar qaysi predmetga qaratilganini aniqlab yoki taxminlab topishga intilish kerak bo'ladi.

Ko'rinadiki, yosh avlod tarbiyasida topishmoqlardan unumli foydalanilsa, ayni muddao bo'lardi. Shu o'rinda turli ertaklarda topishmoq topib, baxtiga yetgan zukko qahramonlarni eslash joiz. Shunday ekan, biz intilayotgan yetuklik yo'lida topishmoq yaqin yordamchi bo'lishini ta'kidlash lozim. Shuningdek, topishmoqlar ham milliy urf-odatlarimiz, adabiyot, san'at, tarix va zamonaviy bilim darajamizni o'stiradigan, ham insonni fikrlashga, topqirlikka o'rgatadigan, ta'bir joiz bo'lsa, aqlni peshlovchi muhim vositadir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldasheva SH., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. -Toshkent, «Nosir», 2009.
2. Imomov K., Mirzayev T. va b. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi.-Toshkent: "O'qituvchi", 1990.
3. Umarova M., Xamrakulova X., Tojiboyeva R. O'qish kitobi. 3-sinf uchun darslik.- Toshkent: "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019.
4. Matchonov S., Shojaliliv A. va b. O'qish kitobi. 4-sinf uchun darslik.- Toshkent: "Yangiyul Poligraph Service", 2020.

### **NODIRA VA UVAYSIY LIRIKASIDA TATABBU' AN'ANALARINI QIYOSLASH VA TAHLIL ETISH USULLARI ORQALI O'RGATISH**

*Shamsiyeva Zarnigor,*

*JDPI magistranti*

*Ilmiy rahbar: f.f.f.d.(PhD) Murodulla Jo'rayev*

Adabiyot fani badiiy asarlarning uslubiy, janriy, g'oyaviy-mavzuviy va adabiy tur borasidagi xilma-xilligidan kelib chiqib, ko'p qirrali ilmiy, ilmiy-uslubiy, ta'limiy va tarbiyaviy masalalar bo'yicha bahs yurituvchi ijtimoiy fanlar sirasiga kiradi. Adabiyot darsi mashg'ulotlarining maqsadi o'quvchilarni badiiy asar mutolaasiga o'rgatish, uni tushunish, his qilish, talqin va tahlil qila olish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilmog'i lozim. Badiiy so'z san'atini anglash esa, har bir insonning individual ruhiy va intellektual xususiyatlari bilan bog'liq ravishda kechadigan jarayondir. Bu jarayonda yozuvchi va o'quvchining dunyoqarashida o'zaro singishish, muayyan darajada muvofiqlik kuzatilsagina kutilgan natijaga erishish mumkin. Shu ma'noda, adabiyot fani dars mashg'ulotlarining ishtirokchilarida erkin fikrlash ko'nikmalari, jamiyatda bo'layotgan hodisalarga nisbatan o'z mustaqil pozitsiyasi, badiiy asarga xos



bo'lgan millatning etnografiyasi, an'ana va qadriyatlari, tarixi, mentaliteti bilan bog'liq tushunchalar muayyan darajada shakllangan bo'lishi lozim [2;5].

Demak *"...adabiyot o'qituvchisi har bir kitobxon o'quvchi qandaydir yangi, hali ma'lum bo'lmagan tomonlarini ochishi mumkin bo'lgan badiiy matnni tadqiq qilishi lozim bo'ladi. U, shuningdek, o'quvchilarga xos badiiy idrokni ham tadqiq qilishi kerak, bu esa inson estetik faoliyatining umumiy qonuniyatlarini aks ettirib doimo individual, binobarin, nimasi bilandir takrorlanmas xarakterga ega bo'ladi"* [6;26]. Adabiyot muallimi har bir mashg'ulot uchun o'rganilajak asarni tadqiq qilishi, undagi shakl va mazmun birligida ifoda etilgan poetik fikrni mutaxassis sifatida idrok etish barobarida badiiy matn vositasida tarbiyalanuvchilarda estetik didni rivojlantirish, ularning ma'naviyatini shakllantirish, shaxslik sifatlarini qaror toptirish bo'yicha ham izlanishi kerak bo'ladi. *"Agar olimning vazifasi murakkab butunlik bo'lmish badiiy asar mohiyatiga kira bilish bo'lsa, maktab tahlilining vazifasi nafaqat asarning obyektiv mazmunini ochish, balki uning yordamida har tomonlama rivojlangan o'quvchi shaxsini shakllantirishdan iborat. Shuning uchun bir butunlikdan iborat bu ikki vazifa yechimini ta'minlovchi vositalarni topish lozim"* [5;27]. Shu o'rinda, ijodkorlarning nazm namunalarini o'qitishda qiyosiy-tahliliy metoddan foydalanish ta'lim jarayonini samarali bo'lishini ta'minlaydi deb hisoblaymiz. Quyida biz o'zbek shoirlaridan Uvaysiy va Nodira ijodida tatabbu' an'analarini o'qitish bo'yicha o'z fikr-mulohazalarimizni berib o'tmoqchimiz.

Avvalombor, Uvaysiy va Nodira nazmiyati haqida qiyosiy jadvalni hukmingizga havola etamiz:

<b>Jahonotin Uvaysiy (1779-1845)</b>	<b>Nodira (1792-1842)</b>
<p>Uvaysiy 4 devon tuzganligi ma'lum. Lekin bu devonlarning asl qo'lyozmalari topilmagan. Uvaysiy mumtoz o'zbek she'riyatining barcha janrlarida ijod qilgan. Navoiy, Fuzuliy va boshqaning asarlariga muhammaslar bog'lagan. Shoiraning adabiy merosida 269 g'azal, 29 muxammas, 55 musaddas, 1 murabba, chiston, 3 doston, tugallanmagan bir manzuma bor. Ijodining g'oyaviy mavzu doirasi teran va ko'p qirrali.</p>	<p>Mohlaroyimning (taxalluslari: Nodira, Komila va Maknuna) to'la bo'lmagan o'zbekcha devoni O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanadi (inv.№ 4132). Devonga Nodiraning 109 (yoki 1704 misra) g'azali kiritilgan. Nodiraning o'zi yozgan debochada tarjimayi holiga oid ba'zi muhim ma'lumotlar berilgan. XIX-asrda ko'chirilgan, hozir O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix muzeyi arxivida saqlanayotgan devonda Nodiraning "Komila" taxallusi bilan yozgan 19 (328 misra) g'azali borligi aniqlangan. 1962-yilda Namanganda shoiraning mukammal devoni topilgan. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyida saqlanayotgan (inv. № 313) bu devon shoiraning merosini to'liq qamrab olgan, deyish mumkin. Bunda shoira yozgan debocha mukammal berilgan. Devonda shoiraning "Nodira" taxallusi bilan yozgan 180 she'ri jamlangan (shulardan 136 tasi o'zbek tilida, 44 tasi tojik tilida). Jumladan, 11 muxammas, 2 musaddas, 1 musamman, 1 tarji'band, 1 tarkiband va 1 firoqnoma ham bor. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondida Nodiraning "Maknuna" taxallusi bilan yozilgan, 333 g'azaldan iborat bir devoni mavjud (inv. № 7766). Bugungi kunda biz Nodiraning o'zbek va fors-tojik tillarida yaratgan 10 ming misraga yaqin lirik merosiga egamiz.</p>
Uvaysiy o'z asarlarida yuksak	Nodira she'riyatining asosini

odamiylikni, shu odamiylikni qalb to'rida avaylovchi vafodor yorni ulug'laydi, uni Quyosh bilan qiyos qiladi. Quyosh har tong ufqdan bosh ko'tarib, o'zining otashin nuri bilan olamga, odamlarga o'z mehr va shafqatini sochadi. Shoira yor va oftob tashbihlaridan qarshilantirish san'ati orqali eng go'zal tuyg'ular silsilasini yaratadi. Uning lirik qahramoni mushohadakor donishmand, vafoli oshiq.

Shoira adabiyotda taraqqiyparvar namoyandalarning qarashlari asosida maydonga kelgan inson taqdiri, shaxs erki va ma'rifatparvarlik g'oyalarida latif va dilkash asarlar yaratgan, asarlarida insonni e'zozlash, odamlarni tabiat va hayot noz-ne'matlaridan bahramand bo'lishga undash, do'stlik, vafu va sadoqat haqidagi ulug'vor niyatlarini Qur'on oyatlari, hadislar va tasavvufiy talqinlar bilan asoslagan holda ijodiy barkamollikka erishgan [10].

lirika tashkil etadi. Nodira muhabbat, sadoqat va vafu kuychisidir. U go'zallik va sadoqatni, Sharq xotinqizlarining dard-alamlari, oh-ufig'onlarini kuyladi. Shoira o'zini ishq oynasi deb atar ekan, bu oynada insonning hayotga umid bilan qarashi, ezgu istaklari va orzusi aks etgan. U muhabbat Alloh tomonidan insonlar qalbiga solingan mangu yog'du ekanligini kuyladi.

Shoira himmat, sabr, qanoat, nomus, hayo kabi xislatlarni ma'rifat, ya'ni Xudo vasliga erishishni yaqinlashtiruvchi manzillar sifatida qayd etadi, odam ana shu sharafli xislatlarni o'z ruhiga mukammal singdirib olishi va uni sobitqadamlik bilan ko'ngil ganjinasida asramog'ini obrazli qilib tasvirlaydi. Odamzod shu sifatlardan mahrum bo'lar ekan, u riyo yo'lga kirib ketadi.

Nodira o'z ijodida dunyoviylik bilan bir qatorda tasavvufning naqshbandiya yo'nalishiga asoslangan bir butunlik orqali insonning jamiyat va tabiatga munosabatini ham, ilohiy muhabbat yo'lidagi ruhiy dunyosini ham juda go'zal va jonli misralarda ifodalab beradi. Nodira she'rlarida islom ruhi, tasavvuf ta'limi va hayot falsafasini chuqur idrok etgan holda hayotga hamma vaqt umidbaxsh nigoh bilan qaraydi va undan yaxshilik urug'ini qidiradi [11].

Ilm ahliga ma'lumki, tatabbu' bitish, bu – musobaqa, uning shartiga ko'ra, tatabbu' o'zidan oldin yaratilgan g'azalning mavzusini, shaklini, ya'ni ko'lamini, vaznini, qofiyalanish tizimi, qofiya shakli, radifini takrorlashi, shu bilan birga, eng muhimi, yangi, original asar bo'lishi kerak.

Uvaysiy va Nodira ham o'zbek mumtoz adabiyotidagi mashhur, ustoz shoirlar ijodiy maktabidan bahra olgan adibalardir. Shoirlar devonlaridagi ko'plab she'rlarida bunday adabiy ta'sir izlari ko'zga tashlanadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, bu davr adabiy jarayonida salaflar she'riyatiga tatabbu'navislik uch yo'nalishda rivojlangan:

- o'zbek mumtoz shoirlari, xususan, Lutfiy, Navoiy, Bobur, Mashrab, Ogahiy, Amiriy va Huvaydo she'rlariga tatabbu' bog'lash;
- fors-tojik shoirlari, xususan, Hofiz, Jomiy va Bedil she'rlariga tatabbu'navislik;
- ozarbayjon shoiri Fuzuliy she'riyatiga tatabbu' bog'lash shaklida rivoj-u ravnaq topgan.

Bu uch yo'nalishdagi tatabbu'navislik Qo'qon adabiy muhitida ham, shuningdek, Xiva va Buxoro adabiy muhitlarida ham izchil davom ettrildi. Biroq, alohida qayd etish lozimki, bu davrda ham barcha adabiy muhitlarda Alisher Navoiy g'azallariga tatabbu' bog'lash g'oyatda faol bo'ldi. Buni barcha shoirlar va hatto shoirlar ijodida ham yaqqol kuzatish mumkin. Shulardan biri, bu davrda faol ijod etgan va hatto shoira Mohlaroyim Nodiraga ustozlik qilgan Jahon otin Uvaysiydir. Uvaysiy ijodida Lutfiy, Navoiy, Fuzuliy va Mashrab an'analari izchil davom ettirdi [4;137-142].

Alisher Navoiy “*Majolis un-nafois*”da Lutfiyga baho berar ekan, umrining so'ngida “*oftob*” radifli she'r yozgani va unga barcha zamondosh shoirlar tatabbu' bog'laganlari haqida so'zlaydi: “*oxir umrida radifi “oftob” she'ri(ni) ayt tikim, zamon shuarosi barcha tatabbu' qildilar; hech qaysi (shoir) matla'ni oncha ayta olmadilar va ul matla' budurkim:*

*E, zi zulfi shab misolat soyaparvar oftob,*

*Shomi zupfat ro ba joyi moh darbar oftob [6;61-62]”.*

**Nasriy bayoni:** Zulfi tunga o'xshash bo'lib, go'yo quyosh (yuzing) uning soyasida parvarish topadi. Qizig'i shundaki, tunda oy bo'ladi, ammo zulfi tuni bag'rida quyosh.

Navoiy fikridan ma'lum bo'ladiki, Lutfiyning “oftob” radifli g'azaliga deyarli barcha zamondosh shoirlar tatabbu' bog'lagan. Shoir g'azalini fors-tojik tilida, ramali musammani mahzuf vaznida yaratgan. Qo'qon adabiy muhitida o'ziga xos o'ringa ega Uvaysiyning devonida ham “oftob” radifli bir g'azal uchraydi. Unda shoira yuksak mahorat egasi ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi. U oddiy tabiat hodisasi - quyoshning tongda sharqdan chiqib, shomda g'arbga botishini asariga asos qilgan. Undan chuqur falsafa topishga erishadi. Shoira uning qismatida o'z taqdirining ramzini ko'radi. Mumtoz adabiyotda quyoshning diyor izlab samoda kezishi g'oyasi an'anaviy. Ammo. Uvaysiy an'anaviylikning yangicha talqinini yaratadi:

*Charx zarfiga suyub og'zin, yutar har kunda son,*

*Shom vaqtida shafaq bilgurdi xunbor oftob [9;63].*

Oftob botayotganida shafaqning qizarishini shoira husni ta'lil san'ati vositasida o'ziga xos izohlaydi: Zarf - idish. Quyosh charx idishiga og'zini bosib, diydor ilinjida azoblanib, kun bo'yi qon yutadi. Shomda esa maqsadiga yetolmay, iztirobdan qon yosh to'kadi. Shafaqning qizarishi, shoira fikricha, ana shundan. Mazkur baytda shoira quyosh timsoli vositasida oshiq ruhiy holatini ifodalari ekan, uning zamiriga zamon nokisliklaridan ko'ngliga yig'gan zaxm-u jarohatlar tasvirini ham singdirib yuboradi. Asarda ularga ishora sezilib turadi. Shoira keyingi baytlarda quyoshni majnunvor oshiq sifatida tasvirlaydi. Shu bilan o'ziga taskin, tasalli beradi, go'yo:

*Men nechuk Majnun kabi rasvoya olam bo'lmayin,  
Charx o'za ruxsori mo'yingga giriftor oftob?!*

Osmondagi oftob hamki, mahbuba husniga giriftor ekan, shoira lirik qahramonning ishq ko'yidagi jununlari tabiiy hol ekanligini ta'kidlaydi. Mazkur g'azalda, yuzaki qaraganda, shoira quyoshning harakatini, oddiy tabiat hodisasini tasvirlayotgandek ko'rinadi. Ammo, ziyrak kitobxon uning zamirida chuqur ijtimoiy va irfoniy ma'nolar mujassamligini sezishi qiyin emas. Avvalo, quyosh - oshiq ramzi. Oshiqning quyosh timsolida sintezlanishi uning mohiyatini chuqur izohlash va anglash imkonini yaratadi. Zero, quyosh o'zi "qon yutadi", "azoblanadi", "kecha-kunduz yo'l bosib diydor izlaydi".

Oqibatda u yonib, butun olamga nur ulashadi, jahonni nurga o'raydi, o'zi ham nurga aylanadi. Bu holat oshiqqa ham xos xususiyatdir. Ikkinchidan, oftob va falak timsoli vositasida shoira chuqur ijtimoiy g'oyalarni, insoniy munosabatlarni ham ifodalab beradi:

*Do'st deb tuttum etokin ul falaki g'addorning,  
Shatta urdi, ketti Mag'rib, topti ozor oftob.*

Shoira mazkur misralarda do'stlik va u bilan bog'liq vafo tushunchasi haqida mulohaza yuritadi. Bu tasvir ortida biz lirik qahramon ko'nglidagi zamona zarbalarining ifodasini sezamiz. Oftob taqdiriga qismatdoshlik kechinmalari tasvirini his etamiz.

Mashhur masalnavis Ezopning xojasi Hasan o'z shogirdlariga qarata: "Ey muhtaram talabalarim, falsafa ilmi yolg'iz muhokama va mulohazalardangina iborat deb o'ylamang. Yo'q... ko'pincha, so'zsiz falsafa so'z bilan ifodalangan falsafadan ustunlik qiladi. Bu fikrim ifodasini, chunonchi, raqqoslar harakatida ko'rish mumkin. Ularning qo'llari muttasil harakat qilib, voqea-hodisalarning tub ma'nosini ifodalaydi va bu bilan sizning ko'z oldingizda so'zsiz falsafaning chinakam qiyofasini namoyon qiladi" [3], - deya ta'lim bergan edi. Mahoratli, faylasuf shoira Uvaysiy ijodiga xos muhim xususiyatlardan biri ham xuddi shunday mohiyatga ega. U o'z asarlarida ifodalamoqchi bo'lgan fikr-g'oyalarni faqat so'zlar bilangina bayon etmaydi. Balki turli ramzlar, timsollar orqali ishoralar berib, o'quvchining mantiqiy fikrlashiga, yakuniy xulosalar chiqarishiga ham imkon qoldiradi. Chunki Olam va tabiatning o'zi dono, faylasufdir. Uni kuzatish va o'rganish bizni chuqur ma'nolarni anglash, ma'rifat hosil qilish sari yetaklaydi. Shoira mazkur mahorat qirralarini talqin etganimizda "oftob" radifli g'azalida ham to'la namoyon bo'lganligini kuzatamiz. G'azal maqtasida oshiq va oftob



taqdiri yana bir bor muqoyasalanadi. Oftobning qismati oshiq uchun, go‘yo ibrat maktabi vazifasini bajaradi. Shu o‘rinda shoironing timsol yaratish mahorati yaqqol namoyon bo‘ladi. U quyoshni zarralar boshidagi dastor sifatida tasvirlaydi. Bu tasvir shaklan mutanosibliği bilan ham, mohiyatan yor va oshiqning maqomini belgilab berishi bilan ham muhimdir:

*Uvaysiy, boshing o‘zra ko‘y xurshid tal‘at yorni,  
Bilmadingmu, zarralar boshinda dastor oftob?!*

Oftob maqomidan kelib chiqib, lirik qahramon o‘zi uchun yakuniy hukm chiqaradi: Yorning maqomi eng yuksakda. Eng aziz narsani boshiga ko‘tarish insonga xos xususiyat. Shunday ekan, quyosh yuzli yorni bosh ustida e‘zozlash lozim. Mazkur baytda yor va oftob, oshiq va zarralar parallel qo‘yiladi. Bu parallelizm zaminiga chuqur irfoniy ma‘no singdirilgan. Ya‘ni bular shaklan ikki ko‘rinishda bo‘lsa-da, mohiyatan yagona xilqat. Zarralar – oftob; oshiq – yor demakdir. Ular birlashgandagina bir-birini to‘lg‘azadi va mukammal yaxlitlikka erishadi. Uvaysiyning shoirona mahorati, ayniqsa, mazkur chukur mazmunli, umumlashtiruvchi hukmda namoyon bo‘ladi. G‘azal matnida oddiy tabiat hodisasi tasviridan iboratdek ko‘ringan ifodadan shoira hikmatomuz, falsafiy - irfoniy xulosa chiqaradi: Ya‘ni oftob va zarralar yagona mavjudot. Oftob zarralarga, zarralar esa oftobga teng. Oshiq va yorda ham yagonalik mujassam. Oshiq – zarra, yor – oftob kabidir. Demak, oshiqning ham, quyoshning ham maqsadi bir nuqtada tutashadi. Har ikkalasining ham riyozatli yo‘li – o‘zini izlash yo‘li ekanligi ma‘lum bo‘ladi. So‘nggi misralarda shoira ishoralar orqali ana shunday ma‘noni nazarda tutadi [1;269-271].

Uvaysiyning “Gila”, “Kokuling”, “Tushdi o‘t”, “Isi” singari Navoiy g‘azallariga bog‘lagan tatabbu‘larida ham ishqning shunday so‘fiyona badiiy talqinlarini ko‘rish mumkin. Ularda Uvaysiy Navoiyning mazmun va shaklga doir an‘analarini ijodiylik bilan rivojlantirgan.

Navoiyning “Oqibat” radifidagi tatabbu‘ g‘azallari o‘zining badiiy qimmatini, g‘oyaviy mundarijasining mukammalligi bilan ajralib turadi. Navoiyning “Badoyi‘ ul-bidoya” devonida quyidagi ikkita “Oqibat” radifidagi g‘azallari o‘rin olgan bo‘lib, ularning birinchisi quyidagicha boshlanadi:

*Ohkim, ul oshno begona bo‘ldi oqibat,  
Hajridin behudlig‘im afsona bo‘ldi oqibat [6;92].*

Ulug‘ shoirning ikkinchi g‘azali esa quyidagi misralar bilan boshlanadi:

*Yoshurun dardimni zohir qildi afg‘on oqibat,  
Asrag‘on rozimni yoydi seli mujgon oqibat[6;98].*

Har ikki g‘azal ham to‘qqiz baytdan iborat bo‘lib, ular aruz vaznining ramal bahridagi sho‘x vaznlardan birida yozilgan. Ularda Navoiy uslubiga xos ramziylik va falsafiylik o‘z ifodasini topgan bo‘lib, asar qahramonlari ham ilohiy ishq yo‘lidagi solih oshiqlar. Ularda visolga tashnalik, yorga e‘tiqod hissi yaqqol ifoda etilgan. Ularning tanlagan yo‘li juda og‘ir va mashaqqatlardan iborat. Birinchi g‘azalda hajr azoblaridan qalbi alamzada va o‘rtangan oshiq oxir oqibatda xalq malomatlariga qolib, xaloyiq orasida afsona bo‘lib, hatto devona nomini olgan.

Navoiyga izdoshlik qilgan shoirlar safida shoiralarning ham borligi quvonchli holdir. O‘zining ikki tildagi dilbar g‘azallari bilan mumtoz adabiyotimizda munosib o‘rin egallagan shoira Nodira hisoblanadi. Shoira Navoiy va Mashrab an‘analarini davom ettirib yaratgan tatabbu g‘azallari ham mavjud. Shulardan biri shoira Nodira “Oqibat” radifidagi tatabbu’si ham o‘zining mazmun mohiyati va poetik qimmatini bilan o‘zgacha salohiyat kasb etadi. Tatabbu’ asar yaratish bilan bog‘liq bo‘lgan murakkab talablarni zukkolik bilan anglab, unga amal qilgan shoira Nodira bu yo‘lda xiyla muvaffaqiyatlarga erisha olganligi tatabbu’da to‘la aks etgan:

*Vasl uyin obod qildim, buzdi hijron oqibat,  
Seli g‘amdin bu imorat bo‘ldi vayron oqibat.  
Qildi choki piyrahan dog‘i dilimni oshkor,  
Qolmadi ko‘nglimda zaxmi ishq pinhon oqibat.  
Ahd-u paymonlar qilib erdi: «Vafo qilg‘um», – debon,  
Ayladi tarki vafo ul ahdi yolg‘on oqibat.  
Orzu qildim: «Tutarmen», – deb visoli domanin,  
Pora bo‘ldi hajr ilgida giribon oqibat.  
Zohido, ishq-u muhabbat ahlini ma‘zur tut,  
Yor ko‘yida na bo‘ldi Shayx San‘on oqibat?  
Baski, qon bo‘ldi yurokim gavhari ashk o‘rniga,  
Qatra-qatra ko‘zlarimdin tom di marjon oqibat.  
Ohkim, bo‘ldi yana subhi nashotim shomi g‘am,  
Chehra pinhon etti ul Xurshidi tobon oqibat.  
Garchi bor erdi musaxxar devlar farmonida,  
Poymoli xayli mo‘r o‘ldi Sulaymon oqibat.  
Nodira, bulbul kabi to nola insho ayladim,  
Navbahor o‘tti, xazon o‘ldi guliston oqibat [8;91].*

Nodira ham o‘z tatabbu’ g‘azalida ustozlar an‘anasini davom ettirib, badiiy san‘atlardan o‘rinli va unumli foydalangan. Bu esa lirik qahramon ruhiyatni chuqurroq anglashga xizmat qilgan. Shoira yuqoridagi birinchi baytda talmehli qofiyani poetik ifodaga olib kiradi. Shu lahzadayoq she‘rxon xotirasida yor ishqida ne malomat-u mashaqqatlarga muhtalo bo‘lgan ilohiy dil sohibi bo‘lgan shayx San‘on qismati gavdalanadi. Muhimi shundaki, shoira lirik qahramonining ishq ham zohidona ishq bo‘lmay, balki shayx ishqiga monand haqiqiy ishqqa mansubligi zukkolik bilan badiiy ifodaga ko‘chgan. Mazkur ikki xil ishq tasviri ifodasida tazod san‘ati vujudga kelgan.

Keyingi baytda esa sharq nazmiyotidagi an‘anaviy quyosh poetik obrazining ifodalanishi asarga o‘ziga xos joziba bergan. Taniqli navoiyshunos Yo. Is‘hoqov o‘rinli qayd etganidek: “*Ma‘lumki, traditsiyada “quyosh” (ma‘shuqa husniga nisbatan ham, may jamoliga nisbatan ham, olam-borliqqa nisbatan ham) doimo ijobiy ramz sifatida ishlatilgan*” [4’170]. Agar masalaga shu nuqtayi nazardan yondashsak, Nodira ham quyosh poetik obraziga murojaat etishi shunchaki tasodif bo‘lmay, balki g‘azal ibtidosida oshiq qalbidagi hijron iztiroblari unga shafqatsiz azoblar bergan bo‘lsa, g‘azal intihosida quyosh obraz vositasida o‘z

o‘rmini vasl quvonchlariga berganligiga nozik ishora qilingan. Shu bilan birga, quyoshning yuz ko‘rsatishi orqali she‘riy san‘atlardan biri – tashxis (jonlantirish) yuzaga kelganki, bu hol asar badiiyatiga o‘ziga xos go‘zallik baxsh etgan. Nodira tatabbu‘da ustoz shoirlar asarlaridagi orifona g‘oyalarga alohida e‘tibor berganligining guvohi bo‘lamiz. Shoira ustozlar fikrlarini faqat shunchaki takrorlab qolmasdan, balki turli ramz, poetik simvol va she‘riy san‘atlar orqali yanada boyitdi.

Nodiraning “Oqibat” radifidagi g‘azalida ham salaflari ijodidagi mavjud ramziylik to‘liq saqlangan bo‘lib, uning lirik qahramoni ham solih-oshiq. Tatabbu‘ g‘azalidagi lirik qahramon ham Haq oshig‘i. U har qancha urinib, “vasl uyin obod qilish”ga ahd-u paymon qilmasin, hijron deb atalmish “seli g‘am” bu imoratni vayron etadi. Solihning ko‘ngli hijron azoblari tufayli visol uyin vayronasiga aylangan. Uning qalbidagi “zaxmi ishq”dan pinhonalik qolmay o‘z niyatlarini oshkora aytishga bel bog‘laydi. Unga vafo haqida ahd-u paymonlar qilib, oxir oqibatda “tarki vafo” qilgan “ahdi yalg‘on”lardan qalbi iztirobga tushadi. Undaylar shoira nazdida subutsiz va oqibatsiz kimsalar bo‘lib, Haq ishqidan bexabar va benasib kishilardir. Ularning ishlari doimo dilozorlikdir. Lirik qahramon timsolidagi solih katta umidlar bilan visol etaklarini tutishga harakat qiladi. Ammo u bu yo‘lda qancha urinmasin, uning intilishlari va istaklari “hajr ilgida” pora-pora bo‘ladi.

Yuqoridagi baytda Shayx San‘on obrazining tasviriga tortilishi lirik qahramon niyatlarini she‘rxonda yanada oydinlashtirishga yordam beradi. Muhimi, tasvirning shu nuqtasida solihning ishqiqi zohidona ishq emasligi ma‘lum bo‘ladi. Shuning uchun ham lirik qahramon zohidlardan “ishq-u muhabbat ahlini ma‘zur tut” ishni so‘rab, o‘z niyatlarini yor ishqida ne ko‘ylarga tushgan [Muhabbatni ixtiyor etgan] Shayx San‘on taqdiriga ishora etish orqali ifoda etadi. Tasvirning shu o‘rinda she‘rxonga yana bir haqiqat-solih ishqining qat‘iyiligi, u ilohiy jamol maftuni ekanligi ma‘lum bo‘ladi. Hijron azoblaridan lirik qahramonning dili shikasta. Uning hijron azoblaridan qon bo‘lgan yuragi “gavhari ashk” o‘rnida ko‘zlaridan marjon bo‘lib oqadi. Ammo uning niyatlari ham sarobga aylangan emas. Doimo visol orzusida. Faqat shu shirin tuyg‘ugina unga umid bag‘ishlaydi. Hattoki, tonggi quvonchlarini “shomi g‘am” bulutlari egallab olgan bir paytda zarrin quyosh pinhona bo‘lsa-da, o‘zining husni jamolini unga ko‘rsatadi. Quyosh poetik obrazning tasvirga olinishi muhim badiiy estetik vazifani bajarishga qaratilgan bo‘lib, go‘yoki u o‘zining sahiy nurlari ila vayronaga aylangan oshiqning shikasta ko‘ngliga taskin va tasalli berganday bo‘ladi. Eng muhimi, nur solihni vasl koshonasi tomon yetaklayotganiga va uning qalbi ilohiy nurdan bahramand bo‘lishiga nozik ishoralar qilingani seziladi. Poetik tasvir g‘azal tadrijida yanada kengroq ma‘no kasb etib boradi.

Ayniqsa, Sulaymon payg‘ambar va chumolilar haqidagi rivoyatga ishora qilingani g‘azalda poetik fikr hamda g‘oyaviy niyatga yanada o‘ziga xos falsafiy mazmun va she‘riy joziba baxsh etadiki, bu tatabbu‘ g‘azal mundarijasining yanada kengayishiga xizmat qilgan. G‘azal maqta‘sida esa ramziylik yanada yuksak poetik cho‘qqiga ko‘tarilgan. Unda inson umrining foniyligi, umr

gulistonining mangu emasligi, qachonlardir uning ham xazon bo'lishi muqarrarligi alohida ta'kidlangan. Shoira bu bilan kishilarni umidsizlikka emas, balki yashashga, hayoti, insonni sevishga, Allohdan in'om etilgan hayot deb ataluvchi ne'matdan bahramand bo'lishga da'vat etayotganligi ma'lum bo'ladi.

Demak, inson o'z umrini bemazmun va besamar, behuda o'tkazmasdan insonga o'xshab yashamog'i, yashaganda ham shoira ta'kidlaganidek, "muhabbat ixtiyor etib" oshiqlik maqomini egallash lozimligiga undash mavjud ekanligiga ishonch hosil qilamiz [4;91-102].

Tatabbu' an'analarini o'qitishda qiyosiy-tahliliy metoddan foydalangan holda o'zbek shoiralari ijodi bo'yicha quyidagi xulosalar berishimiz mumkin:

Jahonotin Uvaysiyning "oftob" radifli tatabbu' g'azali	Nodiraning "oqibat" radifli tatabbu' g'azali
Uvaysiy she'riyatidagi har bir timsol keng kamrovga ega. Yuzaki qaraganda, oddiy ko'ringan obrazlar, tabiat hodisalari vositasida shoira chuqur falsafiy-irfoniy mohiyatni ifodalashga erishadi.	Navoiyga tatabbu' bog'lagan Nodira ham ustoz g'azallaridagi mavjud timsol va she'riy san'atlarni shunchaki o'zlashtiribgina qolmay, balki uning o'zi ham yangi poetik timsollar bilan birga, boshqa she'riy san'atlarga ham murojaat qila olgan, bu muhim badiiy qimmatga ega.
Shoira an'anaviy poetik timsollarga noan'anaviy ma'nolarni yuklaydi. Ularni yangi ramziy ma'nolarda qo'llaydi. Yangi ma'no qirralarini kashf etadi.	Tasavvufdagi naqshbandiylik ta'limotini o'z ijodida asosiy g'oyalardan deb hisoblagan mutasavvif shoir Navoiy asarlaridagi orifona g'oyalar Nodira asarlarida ham o'ziga xos poetik ramz va ranglarda ifodaga ko'chganligi mavjud haqiqatlardan biridir.
Uvaysiy va Nodira she'riyatidagi bunday teranlik va yuksak mahorat maqomi, albatta, Lutfiy va Navoiy kabi ulug' ustozlar ijodiy maktabi saboqlarining natijasidir.	

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Adizova I. Ijodiy maktab saboqlari // Alisher Navoiy va XXI asr. Xalqaro ilmiy nazariy anjuman. –T.: 2019. 9-fevral. –B.269-271.
2. Botirova Sh. Adabiy ta'lim klasteri. Mnografiya. –T.: Ishonchli hamkor, 2021. 170-b.
3. Ezop masallari.
4. Fayzulloyev B. O'zbek she'riyatida tatabbu tarixi va mahorat masalalari (XVII-XIX asrlar va XX asr boshlari g'azalchiligi asosida). –T.: Tamaddun, 2021. –170-b.

5. Kadirov V. Umumta'lim maktablarida mumtoz adabiyot namunalarini o'qitishning ilmiy-metodik asoslari. Pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya ishi. –Namangan: 2019. – 297-b.
6. Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami. 20 tomlik. 1-tom. –T.: Fan, 1987. –B.92.
7. Navoiy A.. MAT. 13-jild. Majolisun-nafois. –T.: Fan, 1997. –B.61-62.
8. Nodira. Devon. –T.: Fan, 1963. –B.91.
9. Uvaysiy. Devon. –T.: Fan, 1959. –B.63.
10. <https://ziyouz.uz/ozbek-sheriyati/ozbek-mumtoz-sheriyati/uvaysiy/>
11. <https://ziyouz.uz/ozbek-sheriyati/ozbek-mumtoz-sheriyati/nodira/>

## ORFOGRAFIK XATOLARNI TUZATISH VA TAHLIL QILISH

*Qobilova Zuhra,  
JDPI magistrant*

O'quvchilar savodxonlik darajasini o'rganish, uning orfografik va punktatsion xatolarini tuzatish, hisobga olish hamda baholash, xatolarni tugatish usullari orfografiya o'qitishda asosiy o'rinda turadi. O'quvchilar savodxonligini oshirishda, orfografik xatolarni bartaraf qilishda. "Imlo lug'ati" ning ham ahamiyati muhimdir. Undan foydalanishni o'rgatish katta ahamiyatga ega. O'quvchi qaysi so'z imlosida qiynalib qolsa, undan bemalol foydalanadigan bo'lishi kerak. Shu bilan birgalikda lug'at daftar yuritish ham foydalidir.

Maktabda o'tkaziladigan barcha yozma ishlar o'quvchilar savodxonligini aniqlash vositasidir. O'quvchilarning to'g'ri yozish malakasi haqida tasavvur nazorat diktant, bayon va insho orqali hosil bo'ladi.

O'quvchilardan olingan har bir yozma ishlarning, albatta, xatolari tuzatilishi kerak, aks holda o'quvchi xatolarga befarq qaraydigan bo'lib qoladi. Xatoning tuzatishda o'quvchining o'zlarini ham jalb qilish mumkin. Nazorat xarakteridagi yozma ish o'qituvchi tomonidan tekshiriladi.

Uyga berilgan topshiriqlar quyidagicha tekshirilishi mumkin:

- parta ustiga qo'yilgan daftarlarni tekshirib chiqish;
- biror o'quvchini doskaga chiqarib, uning yozganini tekshirish;
- har bir gapni navbat bilan o'qitish, yozilishini so'zlatish.

Ko'chirib yozilgan mashqlar, grammatik tahlillar ham shu usulda tekshirilishi mumkin. Lekin bu o'quvchilar daftarini to'liq tuzatish imkonini bermaydi. O'qituvchi har bir darsda 4-5 o'quvchining daftarini uyga olib ketib tekshirishi kerak. O'qituvchilar o'quvchining xatolarini tuzatishda turli usullarni qo'llaydi. Xatolarni tuzatishning ko'proq mustaqil ishlashga jalb qiladigan yo'llari ham mavjud: xato yozilgan harflarning tagiga chizish, xato yozilgan bo'g'in yoki so'zning tagiga chizish, xato yozilgan so'zlarning qatoridagi hoshiyaga belgi qo'yish va boshqalar. Bunda xato o'qituvchilar tomonidan tuzatilmaydi.

Ba'zan diktantdagi xatolar ro'yxati yozib olinib, faqat xatolarning miqdori aytilib, ularni tuzatish o'quvchilarning o'zlariga topshiriladi. Buning ahamiyati juda katta. Chunki o'qituvchi xatoni qanchalik aniq ko'rsatsa, uni tuzatish shuncha



oson bo'ladi. Aksincha, o'qituvchining ko'rsatmasi qanchalik umumiy bo'lsa, o'quvchi shuncha ko'proq mustaqil ishlaydi. Xato tuzatishning bu usulini qo'llashda o'quvchi darslik, qo'llanmalardan foydalanish mumkin.

Orfografik xatolarni hisobga olmasdan o'quvchining savodxonligini aniqlash mumkin emas. Xatoning bir necha xillari mavjud: qo'pol xatolar, qo'pol bo'lmagan xatolar, o'tilgan qoidaga oid xatolar, o'tilmagan qoidaga oid xatolar.

Qo'pol xatolar: o'tilgan qoidalarda yoki o'zlashish darajasi tekshirilayotgan qoidalarda, o'quvchilar uchun tanish bo'lgan so'zlarda qilingan xatolar sanaladi.

O'quvchilarga tanish bo'lmagan so'zlarda qilingan xatolar, satrdan ko'chirishdagi xatolar bir so'zni ikki xil yozish, ba'zi tasodifiy xatolar qo'pol bo'lmagan xatolar sanaladi bir so'zning bir necha o'rinda bir xil xato bilan yozilishi bir xato sanaladi.

Uyga berilgan mashqlar ham nazorat ishi darajasida baholanadi. Agarda ko'chirib yozib kelish buyurilgan bo'lsa, unda o'quvchi xato qilsa, bir xatoga ham qoniqarsiz baho qo'yish mumkin. Agarda matnni o'zgartirib yozish topshirilgan bo'lsa 2-3 xatoga ham ikki baho qo'yish mumkin. Agarda topshiriq to'g'ri bajarilsa-yu, lekin u boshqacha yo'nalishda bajarilgan, temadan chetga chiqilgan bo'lsa, o'quvchi topshiriqni tushunmagan, bunday ish ham baholanmaydi.

Orfografik xatolarning vujudga kelish sabablari. Orfografik xatolar umumiy xarakterdagi sabablarga ko'ra, o'qituvchining o'qitish metodi va o'quvchining individual xususiyatlariga bog'liq bo'lishi mumkin.

Umumiy xarakterdagi sabablar: birpas biroz, birato'la, birvarakayiga, birmuncha buyon, hamma, har, hech, bir, qay, u bu, shu, o'sha so'zlari ajratib yoziladi.

- yagona orfografik rejimlarning joriy qilinmaganligi;
- sinf o'quvchilarning savodxonlik darajasining har xilligi;
- o'quvchilarning turli fanlar bo'yicha ortiqcha topshiriqlar bilan bandligi;
- orfografik sistema bilan bog'liq sabablar.

Xatoga o'qituvchi va o'quvchilarning o'zlarining sabab bo'lishi.

- orfografiya o'qitishda yagona sistema va izchilning bo'lmasligi;
- orfografiya o'qitish metod va usullarni to'g'ri tanlay olmaslik;
- o'qituvchining ba'zi imlo xatolarga yo'l qo'yishi;
- tanlangan mashqning o'quvchilar saviyasiga to'g'ri kelmasa;
- qoidani aniq, sodda, ixcham qilib tushuntirmaslik, bunda o'qituvchining ikkilanishi;
- xatolar ustida ishlashda muayyan sistemaning yo'qligi;
- o'qituvchining darsga puxta tayyorlanmasligi.

Xatolarning yuzaga kelishiga o'quvchining o'zlari sabab bo'ladi.

- o'quvchi ba'zi so'zning ma'nosini tushunmaydi;
- biror orfografik qoidani bilmaslik yoki to'la tatbiq qilmaslik;
- adabiy til bilan sheva o'rtasidagi o'xshashlik noo'xshash hollarini bilmaslik;
- yozilayotgan matnga diqqatni to'la qaratmaslik.

O'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan orfografik xatolarning oldini olish uchun xato yozilgan, xato yozilishi mumkin bo'lgan so'zlarni to'g'irlab maxsus doskaga yozib qo'yadi; tematik plakatlardan foydalaniladi.

#### **Tematik plakatlar:**

1. Jarangli undoshlarning yozilishi: javob, ozod, isnod...
2. p-f undoshning yozilishi: paydo-foyda...
3. u-o' unlilarining yozilishi: unga-o'ngga...
4. Qo'shma otning yozilishi: oshqovoq-temiryo'l....

Xatoning oldini olish uchun talaffuzni buzmaslik kerak: bo'g'inlab, harafma-harf talaffuz qilinmaydi.

**Diktant tahlili.** Diktant tahlili orfografiya o'qitish sistemasida muhim o'rin tutadi. Diktant tekshirib bo'lingach, xatolar tasniflanadi: tipik xatolar, tipik bo'lmagan xatolar, ayrim o'quvchiga xos xatolar. Eng yaxshi, o'rtacha va ko'p xatoga yo'l qo'ygan diktantlar ajratilib, ularning har biri alohida tahlil qilinadi. Tahlil paytida tipik xatolarga alohida e'tibor beriladi, uning vujudga kelish sabablari izohlanadi.

**Xatolar ustida ishlash.** Orfografiya o'qitishda xatolar ustida ishlashning ahamiyati katta. Bunda o'quvchilarning o'zlari ham ishlaydi. Xatolar qaysi qoidada bo'lsa, unga mos so'zlar topish usulidan foydalaniladi.

Ayrim o'qituvchilar xato yozilgan so'zlarni bir necha marta yozish usulini qo'llaydi. Bu usul yozilishi orfografik qoida bilan izohlanmaydigan so'zlarga nisbatan qo'llansa ma'qul bo'ladi.

Ayrim o'qituvchi o'quvchilarga daftarni almashtirib tekshirtiradi. Bu usul yaxshi effekt beradi-yu, faqat o'quvchilarga ehtiyot bo'lish kerak. Ular to'g'rini xato qilib tuzatib qo'ymasinlar. Ba'zan shunday hollar bo'ladi, o'quvchi o'zida so'zni xato yozib, o'rtog'inikini to'g'rilashda xato qilmaydi.

Eng asosiysi xato yozilgan so'z bilan to'g'ri yozilgan so'zni farqlay olish malakasini hosil qilishdir.

O'quvchilar daftar tekshirganlarida o'qituvchi parta oralab yurib, ayrim maslahatlar berib boradi.

Ko'p xato qilgan o'quvchilar bilan ishlash individual xarakterga ega. Eng asosiysi, o'quvchi ko'p xato qildim deb ruhan tushkunlikka tushmasligi kerak. Bunday vaqtda o'qituvchi dalda berib uning, albatta, yozuv malakasini egallay olishiga ishonch hosil qildirishi lozim. Bunda, avvalo, qoidani o'zlashtirishdan boshlash zarur. Ma'lum qoidani mustahkam o'zlashtirganligiga ishonch hosil qilgach, boshqasiga o'tiladi. Ana shunda orfografik qoidani puxta o'zlashtirgan o'quvchilar darajasiga yetadi. Bu haqda o'quvchining o'ziga ham sezdira boriladi.

Maktabda dialektal xatolar va ularning oldini olish ham muhim ishlardan sanaladi. O'quvchilarni adabiy talaffuz normasiga o'rgatish dialektal xatolarni tuzatishning asosiy yo'lidir. Dialektal xatolar yuzasidan maxsus mashqlar o'tkaziladi: dialektida qaysi orfogrammada xatoga yo'l qo'yilsa, u so'zning orfografik qoidasi mustahkamlanib, to'g'rilangan holda doskaga yozdiriladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Almamatov T., Q.Yadgarov, Almamatova Sh. "O'zbek tilini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish". Toshkent. 2013.
2. Mahmudov N. va boshqalar. Ona tili. 5-sinf uchun darslik. Toshkent. 2015 yil.
3. Umarova F. Diktant va bayonlar to'plami. Toshkent. 2003.
4. Nurmonov A. va boshqalar. "Hozirgi o'zbek adabiy tili". Toshkent. 2004.
5. To'xliyev B. va boshqalar. O'zbek tili o'qitish metodikasi. Toshkent, 2010.

**ADABIYOTNI O'RGANISHDA INNOVATSIYALAR VA O'QITISH MASALALARI**

*Shoymurodova Malika Narzullo qizi,  
Samarqand davlat universiteti  
Kattaqo'rg'on filiali talabasi*

*Ilmiy rahbar: Murodova Muqaddas Ikromovna  
Samarqand davlat universiteti  
Kattaqo'rg'on filiali o'qituvchisi*

Tadqiqot quyidagi dars ishlanmadan iborat:

**KIRISH QISM: (15minut)**

1. O'quvchilar bilan salomlashib olinadi (3minut);
2. O'tilgan mavzu so'rab olinadi (12 minut);

**ASOSIY QISM: (25minut)**

1. Yangi mavzu haqida tushuncha berishdan oldin o'quvchilar diqqatini jalb qilish maqsadida ularga aqliy hujum uyushtiriladi, ya'ni yangi mavzu yuzasidan tezkor savollar beriladi. Bu ularning yangi mavzu haqida qay darajada bilimga egaligini ko'rsatib beradi. (3-4minut)
2. Yangi mavzuni tushuntirib berish uchun zamonaviy texnologiyalar( kompyuter, proyektor, prezentatsiya)dan va turli ko'rgazmali qurollardan foydalaniladi (prezentatsiyaning rang-barangligiga va rasmlarga boy bo'lishiga ko'proq diqqat qaratilishi lozim. Chunki o'quvchilar ko'proq rasmlar va turli xildagi ko'rgazmalarga qiziqishi yuqori bo'ladi. Slaydlarning rang-barangligi o'quvchi psixologiyasiga ta'sir etgan holda, darsga diqqatini jalb qila oladi). (15minut)
3. Xulosa. Berilgan ma'lumotlar va qo'shimcha savollar orqali o'tilgan mavzuni mustahkamlash. (4-5minut)

**UYGA TOPSHIRIQ BERISH: (5MINUT)**

O'qituvchi o'quvchilarga kitobda berilgan topshiriqni bajarib kelishi va o'quvchi o'zi turli xildagi krossvordlar, testlar tuzib kelishini qo'shimcha topshiriq sifatida berishi kerak.

"Mambet botirning o'limi oldidan aytganlari" asari tahlili

Qozoq adabiyotining taniqli ijodkori O'ljas Suloymon rus tilida ijod qilgan, shunga qaramasdan u o'z xalqining milliy xususiyatlari, urf-odatlarini, ularning hayotidagi og'riqli va shonli nuqtalarini ancha yaxshi sezib turardi. Shuning uchun ham uning asarlari qozoq xalqi ruhiyatini to'laqonli aks ettira oladi. Shoirning

dastlabki asari “Arg‘umoqlar”dir. Qozoq xalqining kechinmalari uning badiiy asarlarida o‘z aksini topgan bo‘lsa, uning ilmiy asarlarida esa turk xalqining jahon madaniyatida tutgan o‘ziga xos o‘rni haqida so‘z boradi. O‘ljas Sulaymonning nomini jahonga yoygan asari bu uning “Qoyilmisan insonga, zamin” dostonidir. Ijodkorning she‘riyatidagi qahramonlari g‘ururli, nafaqat o‘z qadriga balki boshqalarning ham qadriga yetadigan yetuk insonlar bo‘lgan qozoq shoirining bu asari insonlarda mavjud bo‘lgan imkoniyatlar va ularning kuchli irodasiga bitilgan madhiya sifatida shuhrat topadi. Qolaversa, ushbu asar koinotni ilk bor zabt etgan inson va uning dunyo tarixida katta burilish yasab berishi haqida ham so‘z yuritadi. Demak, O‘ljas Sulaymonni qalb, ruhiyat ijodkori desak adashmagan bo‘lar ekanmiz.

Shu o‘rinda uning darslikda berilgan she‘rlaridan biri bo‘lmish “Mambet botirning qatl oldidan aytganlari” she‘ri bilan tanishib chiqamiz.

“Bismilloh!”

Demak she‘r nega aynan ushbu so‘z bilan boshlanganiga e‘tibor qaratamiz. Har bir inson o‘z o‘limi oldidan istig‘for aytganidek, qahramonimiz ham o‘z o‘limi oldidan istig‘for aytish uchun o‘z so‘zlarini “bismilloh “ bilan boshlaydi.

O‘zimni unutgayman olis yo‘lga tushganda,  
Jang-jadaldan to‘yganman,  
Aytsam ko‘pdir ozorim,  
Egarda tug‘ilgandim,  
O‘lmoqdaman kishanda.

Mambet botir ushbu misralar orqali o‘zining butun umri jang-jadallarda o‘tganligini va umrini bunday sargardonlikda sarflaganligidan juda ham afsusdaligini bilib olish qiyin emas. Ammo bunday buyuk jangchining taqdiri har bir jangchiday sharaf bilan o‘lish emas, balki zindonda kishanband holda achinarli yakun topishini ifodalab bergan.

E yo‘q,  
Mening yuragim --- pati yulingan shunqor.  
Unutgayman,  
Yagona najotkorim--- xudoni,  
Unutgayman yong‘inlar, qirg‘inlar ham duoni.

Bu yerda ijodkor o‘z qahramonining yuragini pati yulingan shunqorga o‘xshatmoqda. Bunga sabab shuki, butun umri jang-u jadalllar va urushlarda o‘tgan askarning hayoti so‘ngida zindonda bandi holida yuragidan kechirgan alamli hissiyotlaridir. Qachonki qahramon boshiga bandilik qismati tushmaguncha, o‘z najotkorini eslamagani va bundan afsusda ekanligi ushbu misralar orqali yaqqol sezilib turibdi. Umri oxirida esa u xudodan najot kutayotgani ham keltirib o‘tilgan. Mambet botir tutqun holida avval boshidan kechirgan qirg‘inlar va yong‘inlarni unutganligi bilan bir qatorda ibodatni ham unutganligi ta‘kidlab o‘tilgan. Xulosa qilib aytganda, ushbu asar bir askarning ayanchli taqdirini yoritib beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Adabiyot 9-sinf darsligi (2019)
2. ziyonet.uz sayti.
3. M. Murodova. Satire: its nature and methods. Science and Education 3 (1) 735-741.

## **BOSHLANG'ICH SINFLARDA SINTAKSIS ELEMENTLARI USTIDA ISHLASHDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH**

*Urazbayeva S.O.  
UrDU magistri*

Hayot taraqqiyoti va jamiyat rivoji bevosita ta'lim bilan bog'liq. Uzluksiz ta'limning muhim bosqichi boshlang'ich ta'lim hisoblanadi. Yangicha ijtimoiy – iqtisodiy munosabatlar rivojlanayotgan hozirgi milliy kadrlar tayyorlash tizimining poydevori bo'lgan boshlang'ich ta'lim quyidagilarni bajarishi lozim:

- kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga o'qish, o'rganish istagi va ko'nikmalarni shakllantirish ;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarini yuqori darajada shakllangan bilish jarayoniga, bilish faoliyatiga intilishini kuchaytirish. [1]

Boshlang'ich sinflarda ona tili ta'lim sohasi o'ziga xos o'rin tutadi. Ona tili ta'limi bolalarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o'zgaralar fikrini anglash, o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. [2.36] Boshlang'ich sinflarda ona tili darslarining muhim vazifalaridan biri fikrni ifodalashda gapdan ongli foydalanish ko'nikmasini shakllantirish hisoblanadi.

Morfologiya va leksika, fonetika va orfografiya sintaksis asosida o'zlashtirilgani uchun tilni o'rganishda gap ustida ishlash markaziy o'rin egallaydi. Gap nutqning asosiy birligi bo'lib, boshlang'ich sinf o'quvchilari ot, sifat, son, olmosh, fe'l va ularning muhim kategoriyalarining tilimizdagi rolini gap asosida bilib oladilar. O'quvchilar ona tili leksikasini ham gap negizida egallaydilar. So'zning leksik ma'nosi va uning qo'llanish xususiyatlari so'z birikmasi yoki gapda ma'lum bo'ladi. Ilmiy metodik adabiyotlarda boshlang'ich sinflarda gap ustida ishlash shartli ravishda besh yo'nalishga bo'linadi:

1. Gap haqidagi grammatik tushunchani shakllantirish (til birligi bo'lgan gapning muhim belgilarini o'rgatish).
2. Gap qurilishini o'rgatish (so'z birikmasida so'zlarning bog'lanishi ustida ishlash, gapning grammatik asosini, bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning xususiyatlari, yoyiq va yig'iq gaplar ustida ishlash).
3. O'quvchilarning nutqida gapning maqsadga va ohangga ko'ra turlaridan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish.
4. Gapda so'zlarni aniq qo'llash ko'nikmasini o'stirish.
5. Yozma nutqda gapni to'g'ri tuzib yozish (uni bosh harf bilan boshlash, tinish belgilarini qo'yish) ko'nikmasini shakllantirish. [4. 277]



Ishning bu besh yoʻnalishi bir-biriga oʻzaro taʼsir etadi va gapning ayrim tomonlarini oʻrganish maqsadidagina ularning har biri mustaqil muhokama qilinadi. Gapni oʻrganish va nutqda undan foydalanish koʻnikmasini shakllantirish oʻquvchilarning aniq bilimlarini doimiy kengaytirib, boyitib borishga asoslanadi. Oʻquvchi qanday yangilikni bilsa, unda bu yangilik haqida xabar berish ehtiyoji tugʻiladi. U oʻz fikrini ifodalash uchun qulayroq shakl qidiradi. Demak, aloqa qilish talabidan gapni mukammalroq egallash zaruriyati kelib chiqadi.

“Gap” mavzusi barcha sinflarda oʻrganiladi. Gapning belgilari haqidagi bilimlar chuqurlashtirib boriladi. Oʻquvchilar fikr ifodalovchi nutq birligi – gap haqidagi elementar tasavvurdan gapning bosh va ikkinchi darajali boʻlaklari, gapda soʻzlarning bogʻlanishi, gapning uyushiq boʻlaklarini oʻrganishga oʻtadilar.

Maʼlumki, tildan nazariy bilimni oʻrganishdan maqsad fikrni ogʻzaki va yozma tarzda grammatik toʻgʻri va uslubiy aniq ifodalash uchun undan ongli foydalanish hisoblanadi. Biroq nazariy bilimni amalda qoʻllashni esa maqsadga muvofiq va muntazam oʻrgatib borish talab etiladi. Bu borada dars jarayonida taʼlimiy oʻyinlardan umumli foydalanish maqsadga muvofiq boʻladi.

Taʼlimiy oʻyinlarning muhim belgisi undagi qoidalarning mavjudligidir. Unda oʻyin maqsadi, oʻyin [qoidalari](#), oʻyin harakatlari oʻrtasida uzviy aloqa mavjud. Taʼlimiy oʻyinlar orqali oʻrganilgan bilim mustahkamlab boriladi, oʻquvchilarning faolligi oshadi, nutqiy faoliyati, aqliy qobiliyatlari takomillashadi. [3.176] Boshlangʻich sinflarda, xususan, 3-4-sinfda sintaksis elementi ustida ishlashda quyidagi taʼlimiy oʻyinlardan foydalanish mumkin boʻladi:

**“Kerak soʻzni tanlab ol oʻyini”.** Bu oʻyin oʻquvchilarni soʻz birikmasi bilan amaliy tanishtiradi. Garchi bu sinflarda soʻz birikmasi yuzasidan nazariy bilim berilmasa ham, u haqida oʻquvchilar bir qator maʼlumotlar oladi. Amalda soʻz birikmasi tuzadilar. Bunda soʻzlar ikki ustun qilib yoziladi. Oʻquvchilar bu soʻzlar bilan tanishadi, keyin chap tomondagi soʻzlardan mosini qoʻyib koʻchiradilar. Oʻyinni butun sinf boʻyicha ham parta qatorlari orasida ham oʻtkazish mumkin. Qaysi guruh topshiriqni tez va toʻgʻri bajarsa, gʻolib hisoblanadi. Oʻyin bolalarning ijodiyliigni tarbiyalaydi, oʻquvchilarda ziyraklik, sinchkovlik sifatlarini va mustaqil fikrlash malakasini shakllantirishga yordam beradi.

**“Aralash berilgan soʻzlardan gap tuz” oʻyini.** Oʻyinni oʻtkazish uchun kartochkalarga yozilgan soʻzlar aralashtirilib beriladi. Oʻquvchilar soʻzlarning oʻrniga qoʻyib gap hosil qilishadi. Oʻyinni osonlashtirish uchun gap qaysi soʻz bilan boshlansa oʻsha soʻz boshqalaridan ajratib koʻrsatiladi. Kim toʻgʻri va tez gap tuzsa oʻyin gʻolibi hisoblanadi.

**“Gapning turini aniqla” oʻyini.** Boshlangʻich sinflarda gapning maqsadga koʻra turlari oʻrganiladi. Oʻquvchilar ushbu gaplarning mazmunini oʻzlashtirish davomida darak, soʻroq, buyruq gaplarni bilib oladilar. Bu grammatik oʻyinni oʻtkazishda va gapning grammatik maqsadga koʻra turlarini aniqlashda oʻquvchilar taqqoslash asosida mantiqiy fikr yuritishadi. Oʻquvchilar uch guruhga boʻlinadi. Har bir oʻquvchi gap turlari va tinish belgilari mavjud kartochkalar tayyorlab olishadi. Oʻqituvchi oʻzi tayyorlab kelgan gaplarni oʻqiydi. Darak

gaplarni o'qiganda birinchi guruh, so'roq gaplarni o'qiganda ikkinchi guruh, buyruq gaplarni o'qiganda uchinchi guruh o'quvchilari o'zlariga tegishli kartochohalarni va unda ishlatiladigan tinish belgilari bilan birga ko'tarishadi.

**“So'zlardan gap tuz” o'yini.** Bu o'yin ham “Kerak so'zni tanlab ol” o'yiniga o'xshaydi. Har ikkala o'yinda ham berilgan so'zlardan foydalaniladi. Gap tuzish o'yinida berilgan so'zlardan bir guruhi albatta harakat bildirgan (fe'l) so'zlar bo'lishi zarur. Chunki har qanday gapni shakllantirish markazi kesimdir. O'yinni o'tkazish uchun doskada ikki qator qilib quyidagi so'zlar yozib qo'yiladi.

qish	ko'kardi
bahor	Tugadi
quyosh	Boshlandi
qor	Ochildi
maysalar	Eridi
gullar	Qizdirdi

O'yinning sharti: ushbu so'zlar ishtirokida birinchi qatordagi so'zlarga (otlarga) ikkinchi qatordagi so'zlardan mosini tanlab gap tuzing va tuzgan gaplaringizni daftaringizga yozib oling, berilgan so'zlar ishtirokida tez va to'g'ri gap tuzgan guruh g'olib hisoblanadi. O'quvchilarning bilim darajasini hisobga olib so'zlar sonini ko'paytirish mumkin. O'quvchilart taxminan quyidagi gaplarni tuzadilar: *Qish tugadi. Bahor boshlandi. Quyosh qizdirdi. Qorlar eridi. Maysalar ko'kardi. Gullar ochildi.*

**“Adashgan gap bo'lagini top” o'yini.** Boshlang'ich sinflarda ega, kesim va ikkinchi darajali bo'laklar o'rganiladi Aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol bir butun holda umumiy nom bilan ikkinchi darajali bo'laklar atamasi bilan yuritiladi. Shu tufayli barcha gap bo'laklarini tanlab o'z o'rniga qo'yish yuzasidan bir qator grammatik o'yinlar o'tkazish mumkin. O'yin davomida o'quvchilar gap bo'laklarining vazifasini, so'roqlarini, so'zlarning bog'lanishini o'rganadi. Gap bo'laklarining odatdagi tartibini bilib boradi. O'yinni o'tkazish uchun egasi tushurilib qoldirilgan gaplar beriladi. O'quvchi egani tanlab yozishi kerak. Egasi bir necha bo'lakdagi so'zlar bilan birga beriladi.

1..... maktabda a'lochi o'quvchi. (Sayyorani, Komilaga, *Abdulla, Sherzodni*)

2..... ona tili darsida “5” baho oldi.(*o'quvchi, o'quvchini, o'quvchiga, o'quvchida*)

Bunday o'yin sinf o'quvchilar orasida ham, guruhlar o'rtasida ham o'tkazilishi mumkin.

Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitishning asosiy vazifasi ushbu fanning bilimlar tizimini egallash, so'zlarning grammatik shakllarini ishlab chiqish, savodli yozuv ko'nikmasini hosil qilishdir. Bu vazifalarni ro'yobga chiqarish o'ta murakkab bo'lib, o'qituvchining xilma-xil o'qitish metodlarini egallashini, o'quvchilarni mumkin qadar ijodiy fikrlashga o'rgatishni va har bir mashg'ulotga qiziqтира bilishni taqozo qiladi. Bu borada ta'limiy o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi // Boshlang'ich ta'lim, 1998, 6-son, 5-8-betlar.
2. Umumiy o'rta ta'limning Davlat Ta'lim Standarti va o'quv dasturi (Boshlang'ich ta'lim).- Toshkent, 2017.
3. Abdurahmonov M. Didaktik o'yinlarning ta'limiy ahamiyati// Xalq ta'limi tizimida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining yangi avlodini tayyorlash muammolari.- Toshkent, 1996, 176-bet.
4. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent, “Nosir”, 2009.

**URUG' VA JOY NOMLARINI O'QITISH TEXNOLOGIYALARI**

*Abdug'aniyev Ma'rufjon Samad o'g'li,  
JDPI magistranti*

*Ilmiy rahbar: f.f.d(PhD) dots. Jumayeva Feruza*

Ma'lumki, ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan kunga ortib bormoqda, an'anaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari chiqarishlariga o'rgatadi. Ta'lim tizimida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini bir-biridan ajratish mumkin emas, chunki yangi pedagogik texnologiyalarning keng joriy etilishi ta'lim paradigmasini o'zgartiradi va faqat zamonaviy axborot texnologiyalarigina yangi pedagogik texnologiyalarning imkoniyatlaridan samarali foydalanishni ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ta'lim tizimi uchun davlat ta'lim standartini ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida"gi qaroriga asosan mamlakatimizda ta'lim jarayonini qayta ko'rib chiqish va isloh qilish borasida ko'pgina samarali ishlar amalga oshirilmoqda.. Jumladan barcha fanlar, shu qatori "Ona tili" fani bo'yicha ham yangi dasturlar tuzilib ularga muvofiq jahon standartlariga javob beradigan darsliklar yaratilib kelinmoqda. "Ona tili" fanini o'qitishda o'quvchilar uchun maxsus ishlab chiqilgan umumiy darsliklar bilan bir qatorda Yangi internet ma'lumotlari va qo'shimcha adabiyotlarning o'rni beqiyosdir. O'quvchiga, yangi internet ma'lumotlari va badiiy adabiyotlar ularning dunyoqarashi va tafakkurini har tomonlama shakllantirishga yordam beradi. Bu esa "Ona tili" fanining oldida turgan bugungi kundagi eng dolzarb vazifalardan biridir. Yangilanayotgan pedagogik tafakkur talablariga ko'ra zamonaviy dars o'quv muassasa quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi lozim:

- ta'limning tarbiyaviy maqsadlarga bo'ysundirilganligi;
- o'quvchini komil shaxs sifatida shakllantirishga yo'naltirilganligi;
- ilmiyligi va izchilligi;
- tarbiyalanuvchining faolligi va mustaqilligini ta'minlashga qaratilganligi;

- insonparvarlik yoʻnalishiga egaligi;
- tizimliliigi;
- bilimlarni ongli ravishda oʻzlashtirishga qaratilganligi;
- amaliy ahamiyatga ega ekanligi va h.k.

Oʻrta maxsus bilim yurtlarida "Ona tili" fanidan oʻqitish metodlari jadal surʼatlar bilan rivojlantirilib borilayotgan bir vaqtda, oʻquvchilarga darsni mavjud darslik, qoʻshimcha badiiy adabiyotlar ham zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanilgan holda olib borishni tashkil qilish shakllarini ishlab chiqish bugungi kun uchun dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Taʼlim texnologiyalaridan foydalanishda har bir pedagog oʻqitishning muayyan metodlaridan foydalanadi. Metod deganda taʼlimda maqsadga erishish masalalarini hal etish yoʻllari tushuniladi. Zero, oʻrganilayotgan mavzu haqida maʼlumot beruvchi birlamchi hamda birinchi darajali qonun va qonun osti hujjatlari, badiiy adabiyotlar asosida ishlash salohiyatini shakllantirgan holda oʻquvchi tafakkurida mamlakat taraqqiyoti va ertangi kuni uchun muhim boʻlgan "Ona tili" fanining toʻlaqonli salohiyatini yaratish mumkin. Bu esa oʻqituvchidan har tomonlama mukammal bilim bilan birgalikda oʻziga xos qobiliyat maxsus fan va pedagogik malakani talab etadi. Oʻqituvchi oʻquv jarayoniga kirib borar ekan undagi pedagogik va psixologik bilimlar miqdori, dars berish metodikasi va texnologiyasini egallaganlik darajasi uning ilmiy baʼzasidan ham birinchi oʻrinda turishini inobatga olish lozim. Oʻzbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan bir davrda buyuk kelajak sari qadam tashlanar ekan, yoshlarni yagona milliy gʻoya, milliy mafkura atrofida birlashtirish, tarbiyalash zarurati tugʻildi. Zero, mamlakatimizning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov taʼkidlaganidek, "...xalqimiz siyosiy mustaqillik va ozodlikni qoʻlga kiritgach, oʻz taqdirining chinakam egasi, oʻz tarixining ijodkori, oʻziga xos milliy madaniyatning sohibiga aylandi" - ayni vaqtda tarixiy-madaniy merosni tiklash - "milliy oʻzlikni anglashning oʻsishidan, xalqning maʼnaviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy

jarayon" dir. Bu vazifalarda taʼlim muassasalarining oʻrni beqiyosdir. Mustaqil davlat sifatida huquqiy - demokratik jamiyat qurilar ekan, avvalambor, yosh kadrlarni har tomonlama rivojlantirish, ularda Vatanga, ona yurtga sadoqat, milliy istiqloq gʻoyasi hamda xalq tarixiga hurmat gʻoyalarini shakllantirish, oʻquvchilar tarbiyasida milliy mafkuraning rolini tizimli oshirish zarurdir.. "Ona tili" fani juda qiziqarli va oʻta muhim fanlardan biri hisoblansa-da, uni qoʻshimcha badiiy adabiyotlarsiz tasavvur etib boʻlmaydi. Shuning uchun ham dars jarayonida badiiy adabiyotlardan foydalangan holda oʻqitish bilan bir qatorda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish lozim.. Darsning samaradorligini oshirishda oʻqituvchining pedagogik mahorati, oʻziga xos uslubi va fan metodikasi asosiy oʻrin egallaydi. Taʼlim mazmunining sifatini takomillashtirish pedagogikadagi bugungi kunda yangi pedagogik innovatsiya yoʻnalishisiz mumkin emas. Oʻrta maxsus taʼlim tizimida innovatsion jarayonlar innovatsion xususiyati yangiliklar kiritish, oʻqituvchilarning kasbiy imkoniyatlari bilan belgilanadi. Oʻqituvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanar ekan, albatta bunda birinchi

navbatda fan, mavzu, o'quvchilar yoshi, kasbiy yo'naltirilganligi va shu kabi bir necha jihatlarga ahamiyat berishi lozim. "Ona tili" faniga yo'naltirilgan o'rta maxsus ta'lim muassasalarida darsni olib borish metodi boshqa ta'lim muassasalaridan tubdan farq qiladi. Ya'ni o'quvchilarga "Ona tili" fani nafaqat yaxlit bir predmet balki, alohida bir kurs sifatida ham o'qitiladi. "Ona tili" fanidan "Atoqli otlar" mavzusini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan olib borish bugungi kunda o'zini oqlagan metodlardan biri bo'lib hisoblanadi. Zero zamonaviy o'yinli texnologiyalar nafaqat natijaga erishish, balki xohishga ko'ra faoliyat jarayonining o'zidan zavqlanish uchun qo'llaniladi.

Shu sababli ham mavzumiz etnotoponimlarni grafik organayzerlar vositasida o'qitish fan darsliklarining hech biridan o'rin olmagan bo'lsada, ammo bu muammo sifatida ko'rilmay, balki atoqli otlar mavzusini etnotoponimlar bilan bog'lab o'qitishni maqsadga muvofiq topdik.

Muammoni hal etish texnologiyasi. Muammoni hal qilish uslubi yoki muammoga qaratilgan uslubi – muammoni aniqlash va uni hal qilishning eng maqbul yo'llarini topishga o'quvchining tayyorgarligi tekshirib ko'rish uchun qo'llaniladi. O'quvchi bunda dastlab muammoni aniqlab oladi. So'ngra muammoni yechish uchun axborotlarni izlaydi. Izlanish chog'ida o'quvchi kerakli jurnallar, monografiyalar, darsliklar, qo'llanmalardan va internet tizimidan foydalanishi mumkin. Olingan axborotlarning ishonchligini baholash, uni mahalliy sharoitlarda tatbiq etish mumkinligini idrok etishi lozim. O'quvchi olingan ma'lumotlardan xulosa chiqarishi va ularni amalda tatbiq etish ko'nikmalariga ega bo'ladi.

Ayniqsa, ta'lim tizimini isloh qilishida O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Mazkur hujjatlarda ta'lim tizimini bosqichma-bosqich yangilash, xalqaro talablar asosida yangi turdagi ta'lim muassasalarini yaratish dolzarb vazifalardan qilib belgilangan. «Biz nafaqat siyosiy jabhani, balki iqtisodiyotni ham, ijtimoiy hayotni ham, ma'naviy-axloqiy sohani ham isloh qilishimiz zarur.

Bu g'oyat keng ko'lamda islohotlar bo'lib, biz ularni kompleks tarzda hal qilish orqaligina o'z maqsadlarimizga erisha olamiz. O'z-o'zidan ma'lumki, bu harakatlar bilan ta'lim tizimidagi pedagogik jarayonlar mutlaqo yangidan mazmunan o'zgartiriladi. Yangicha ta'lim tizimini qurish, pedagogik jarayonlarga yangi pedagogik texnologiyalarni kiritish, o'quvchi-yoshlarni, o'quvchilarni mustaqil, ijodiy ishlashga, erkin fikrlashga o'rgatish, pedagogik jarayonlarda noan'anaviy, qiziqarli, faol, yangi-innovatsion usullarni qo'llashni hozirgi kunimiz taqozo qilmoqda. Shunday ekan, pedagogik jarayonlarda bu usullardan qanday foydalanish kerak? Noan'anaviy, qiziqarli, faol, innovatsion usullarning qanday turlari mavjud — degan savol tug'iladi.

Ta'lim jarayonida noan'anaviy, qiziqarli, faol, innovatsion (yangi) usullardan foydalanish samarali tizim hisoblanadi. Unga ko'ra, o'qitish jarayonlarida noan'anaviy ta'lim usullaridan — «Konferensiya darsi», «Seminar darsi», «Aralash darslar», "O'yinchoqlar yordamida dars o'tish", «Kasbga bog'lab



dars o'tish», «Badiiy adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish», «Evrka» (o'ylab top), ta'limning qiziqarli, faol usullaridan — «Kichik va katta guruhlarda ishlash», «Rolli o'yinlar», «Sahna ko'rinishi», «Pantomima», «Krassvordlar yechish», «Zakovat savollari», «Test-sinov» topshiriqlari, «Turli tarqatma materiallardan foydalanib dars o'tish», «Sinkveyn o'yinlari», shuningdek, ta'limning innovatsion (yangi) usullari — «Modifikatsiyalashgan ta'lim», «Improvizatsiya», «Aqliy hujum», «Debat», «Tanqidiy tafakkurni rivojlantiruvchi usul», «Klaster usuli», «Muammoli vaziyat», «Muayyan holat, vaziyatni o'rganish, tahlil qilish», har kim - har kimga o'rgatadi, «Multimediya» va boshqalarni qo'llash muhimdir. Quyida ushbu usullarning ayrimlari haqida ma'lumot berishni lozim topdik.

Darsning texnologik xaritasi qanday tuzilgan bo'lmasin, u o'qituvchining tajribasi, qo'ygan maqsadi va ixtiyoriga bog'liq. Dars jarayoni yaxlit holda aks etgan bo'lishi hamda aniq belgilangan maqsad, vazifa va kafolatlangan natija, dars jarayonini tashkil etishning texnologiyasi to'liq o'z ifodasini topgan bo'lishi kerak.

Ta'limning innovatsion usullari: «Modifikatsiyalashgan ta'lim» — shakli o'zgartirilgan ma'ruza bo'lib, bu usulni o'qitish va qo'llashda o'quvchilar bilan muloqot tarzida olib boriladi. Afzalligi o'quvchilar o'z ustida mustaqil, ijodiy ishlaydilar, dars jarayonida faol ishtirok etadilar. Dars o'quvchilar hamkorligida muloqot tarzida tashkil etiladi. Yangi mavzuni o'quvchilar o'qituvchi bilan birgalikda tahlil qiladilar.

"Aqliy hujum" usuli. O'qituvchi o'quvchilarga biron bir savol yoki topshiriq beradi, ular esa ushbu savol yoki topshiriqqa birin-ketin, orqama-orqa, ketma ketlikda o'z fikr mulohazalarini bildiradilar. Afzalligi — yangi mavzuni yoki darsni boshlamasdan avval bu usul qo'llanilsa, o'quvchilarning darsga, yangi mavzuga tayyorgarligi, diqqati jalb qilinadi, har kim o'z fikrlarini erkin namoyon qila olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

"Muammoli vaziyat" usuli. Bu usulni o'qitish jarayonida qo'llashda o'qituvchi o'quvchilarga biron-bir hayotiy voqea, hodisalardagi muammoli holatlardan misollar keltiradi. Masalan, «bola onasining gapiga quloq solmay, bezori bolalarga qo'shib o'ynaydi. Natijada ular bilan janjallashib, urishib, ko'zi ko'rmay qoldi. Bola bir umrga ojiz bo'lib qoldi. Bola hayotida muammo paydo bo'ldi».

Ushbu muammoli vaziyat yuzasidan o'quvchilar o'z fikr mulohazalarini bildiradilar, muammoni atroflicha hal qiladilar. Usulning afzalligi o'quvchilar muammo ustida bosh qotiradilar, o'z fikrlarini bildiradilar, hayotdan ijobiy tomonga saboq oladilar. Shuningdek, bu usulni qo'llash orqali ta'limning tarbiyaviy, hayot bilan bog'liqlik prinsiplarining uzviy (bog'liq)ligiga erishiladi.

"Muayyan holat va vaziyatni o'rganish, tahlil qilish" usuli. Bu usul yuqoridagi usulga mazmunan o'xshash bo'lib, uni qo'llashda hayotiy voqea, hodisalar, vaziyatlar yuzasidan misol keltiriladi. O'quvchilar bunga o'z fikrlarini bildiradilar, tahli qiladilar. O'qituvchi esa, xulosalab, umumlashtirib qo'yadi. Bu usulning afzalligi — o'quvchilar hayotiy voqea, holat va vaziyatlarga o'z munosabatlarini bildiradilar, bu vaziyatlarni erkin, mustaqil, ijodiy yondashgan holda tahlil qiladilar.

Ta'kidlash joizki, yuqorida berilgan yangi innovatsion faol usullarni o'qitish jarayonida qo'llashda quyidagi talab va tavsiyalarga rioya qilish lozim. Bular:

-ta'limning noan'anaviy, qiziqarli faol, innovatsion (yangi) usullari haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lish, ularning mazmun-mohiyatini to'liq tushunib yetish va so'ngra o'qitish jarayonida qo'llash;

-o'qitish jarayonida faol usullarni qo'llashning samarali uslubiyotini tanlay olish;

-innovatsion, faol usullarni har bir fan xususiyatlaridan kelib chiqib qo'llash;

-o'qitish jarayonida faol innovatsion usullardan foydalanishda ta'lim-tarbiya prinsiplarining uzviy (bog'liq)ligiga erishishi;

-o'qitish jarayonida o'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish (bilimlilik darajasi, qiziqishi, individual yondashish va boshqalar);

-o'quvchilarni o'qitish jarayonida faollikka chorlash usullarini to'g'ri tanlay ola bilish, o'z ustida mustaqil, ijodiy ishlashga, erkin fikr yuritishga o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi.

## BOG'LOVCHILARNI O'QITISH USULLARI

*Erxonov Turg'un Borot o'g'li,  
JDPI magistri*

Dars samaradorligini oshirish har bir o'qituvchidan o'ziga xos ijodkorlikni, malaka va tajribani talab etadi. Dars jarayonida o'qituvchi zimmasiga o'quvchilarning o'z ona tiliga mehr-muhabbatini oshirish, ularning savodxonlik darajasini yaxshilash, nutq boyligini oshirish kabi muhim vazifalar qo'yiladi. Qisqa vaqtda ko'p natijaga erishish har bir pedagog uchun muhimdir. Shu sababli o'qituvchilar yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanib dars jarayonini qiziqarli va mazmunli olib borishga harakat qilishadi. Slaydlar, multimedialar, o'yinlar asosida dars tashkil qilishga e'tibor qaratadi. Bu usullar dars mavzusini yaxshi o'zlashtirish, mavzuni mustahkamlashga yordam beradi. Dars jarayonida ko'p qo'llaniladigan interfaol ta'lim metodlari quyidagilardan iborat:

1. Interfaol metodlar: "Keys-stady"(yoki o'quv keyslari), "Blits-so'rov", "Modellashtirish", "Ijodiy ish", "Muammoli ta'lim" va b.

2. Interfaol ta'lim strategiyalari: "Aqliy hujum", "Bumerang", "Galereya", "Zig-zag", "Zinama-zina", "Muzyorar", "Rotatsiya", "Yumaloqlangan qor" va boshqalar. Interfaol ta'lim metodlari tarkibidan interfaol ta'lim strategiyalaridan ajratish guruh ishini tashkil qilishga yondashuv ma'lum ma'noda strategik yondashuvga qiyoslanishiga asoslaniladi. Aslida bu strategiyalar ham ko'proq interfaol ta'lim metodlariga tegishli bo'lib ularning orasida aytarlicha farq yo'q.

3. Interfaol grafik organayzerlar: "Baliq skaleti", "BBB", "Konseptual jadval", "Ven diagrammasi", "T-jadval", "Klaster", "Insert", "Nima uchun", "Qanday" va boshqalar. Bunday mashg'ulotlarda asosiy fikrlar turli grafik chizma yoki shakllarda yozma ko'rinishda ifodalanishga asoslanadi.

Xususan, “Bog‘lovchilar” mavzusini o‘tishda quyidagi usullar va o‘yinlardan foydalanishni taklif etamiz.

“Eslab qol” o‘yinidan foydalanish o‘quvchilarni xushyorlikka chorlaydi. Magnit tasmasi yoki video-proyektor orqali o‘quvchilarga ma‘lum bir matn eshittiriladi. Matn, albatta, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lishi zarur. Chunki dars davomida ham ta‘limiy maqsad, ham tarbiyaviy maqsadga erishish muhim sanaladi. Deylik, matn “Vatan” yoki “Ona” haqida bo‘lib, undagi bog‘lovchilarni matnni eshitish orqali yozib oladilar va jadval asosida ma‘noviy guruhlariga ajratib chiqadilar. Bu metoddan mustahkamlash darslarida foydalansa ham bo‘ladi.

“Sen davom ettir” o‘yini. Bu o‘yinda o‘quvchi o‘z diqqatini bir joyga to‘plash, eshitganlarini yashin tezligida analiz va sintez qilish, nutqiy vaziyatga mos ravishda, tezkor va mantiqli fikrlash, fikr mahsulini to‘g‘ri, ravon, qiziqarli ifodalash ko‘nikmalarini egallaydi. O‘zgarlar fikriga tanqidiy yondashish, tahlil etish va xulosa chiqarishni, o‘z fikrini himoya qilishni o‘rganadi. O‘yinni o‘qituvchi boshqaradi. Bog‘lovchilarni aytib tugatgach, o‘qituvchi istagan o‘quvchiga estafeta tayoqchasini (shartli) uzatishi va bog‘lovchilarni davom ettirishini taklif qilishi mumkin. Bog‘lovchilarni davom ettira olmagan o‘quvchi yutqazadi va o‘yindan chiqishi kerak. O‘yin oxirigacha yetib kelgan ikki o‘quvchi o‘rtasida final o‘yini o‘tkazilib, g‘olib aniqlanadi va rag‘batlantiriladi.

Mavzuni o‘tishda o‘quvchilarning diqqati bog‘lovchilarning ma‘nosini uqishga qaratiladi. M.,

1. Eshik ochildi-yu, Salim kirib keldi.
2. Eshik ochildi va Salim kirib keldi.
3. Eshik ochildi-da, Salim kirib keldi.

Uchta gapda ham eshikning ochilishi va Salimning kirib kelishi haqidagi umumiy ma‘nolar ifodalangan. Gap mazmuniga xos umumiy tushunchalar bog‘lovchilar ifodalagan semalar asosida farqlanib turibdi. Birinchi gapda harakatlarning tezda sodir bo‘lganligi ma‘nosi, ikkinchi gapda harakatlarning ketma-ket sodir bo‘lganligi ma‘nosi, uchinchi gapda esa harakatlarning bir paytda sodir bo‘lganligi ma‘nosi ifodalangan. Bu esa bog‘lovchilarga xos ma‘nolarning gap mazmuniga ta‘siri katta ekanligini bildiradi. Shu bois nutqning mantiqiy jihatdan to‘g‘ri bo‘lishi uchun lisoniy birliklarning nutq jarayonida hosil qiladigan ma‘nolaridan to‘g‘ri va o‘rinli foydalanish talab etiladi.

Vazifadosh bog‘lovchilar va sof bog‘lovchilar qiyoslash usulida o‘rganilsa, o‘quvchining mavzuni tushunishi oson bo‘ladi. M.,

1. Adham bilan dadam keldi.
2. Adham va dadam keldi.
3. Adham dadam bilan keldi.

Birinchi va ikkinchi gaplarda biriktiruv bog‘lovchisi, uchinchi gapda esa ko‘makchi qo‘llanilgan. Bunga o‘xshash misollarni keltirib o‘quvchilarga farqini topishni vazifa qilib berish mumkin, bu o‘quvchilarning o‘z ustida ishlash ko‘nikmasini shakllantirishga yordam beradi. O‘qituvchi vazifadosh bog‘lovchilarni o‘qitishda, albatta, ma‘no, vazifasini to‘liq tushuntirishi, so‘ngra misollar asosida mavzuni mustahkamlashga erishishi mumkin.

Mashqlar va topshiriqlar bilan ishlash. Mashq va topshiriqlar o'quvchilar so'z boyligini va nutqini rivojlantirishga, o'stirishga ko'maklashadi. Topqirlikka o'rgatadi. Masalan, quyidagi mashq nuqtalar o'rniga bog'lovchilardan mosini qo'yish va bog'lovchilarga tavsif berishga mo'ljallangan.

*Tuyaqush ... Qoplon ikkalalari do'st bo'libdilar. Qoplon chin so'zli, do'stga sadoqatli, g'amxo'r ... bo'lgani uchun harsillab yetib kelibdi. (Ertakdan). Buvisi... onasi ketishsa-chi to'ylarga, Uyni poylab o'tirar chiqmay ko'cha-ko'ylarga. (Ilyos Muslim).*

Bu kabi mashqlar o'quvchilar nutqini rivojlantirishga yordam beradi. Shuning uchun mustaqil ish sifatida berilishi mumkin. Shu asosda o'qituvchi mavzu yuzasidan qo'shimcha ma'lumotlar berib, o'quvchilarning bilimini boyitishga erishadi.

## OGAHY DEVONI LEKSIKASINING O'RGANILISHI

*Bobomurodova Sabohat Rustamovna,  
JDPI magistranti*

*Ilmiy rahbar: Do'stova Surayyo Savronovna,  
JDPI dotsent v/b f.f.f.d. (PhD)*

Xorazm adabiy muhiti XIX - XX asrlarda o'z rivojini topdi. "Bu davr adabiy muhitining ravnaq topishida Xiva taxtida 47 yil uzluksiz hukmronlik qilgan mashhur shoir, Muhammad Raximxon II-Feruzning hissasi kattadir. U o'z saroyiga ilm ahli va shoirlarni yig'ib, ularga homiylik qilish bilan birgalikda yetarlicha sharoit va imkoniyat yaratib berdi. Rahimxon II hukmronligi davrida o'tmish shoirlar ijodini o'rganish, turli janrlarda asarlar bitish, tarjima qilish, tarix yozish keng tus oldi. Xarakterlisi shundaki, bu davrda she'riyat yetakchi o'rin tutib, Munis, Ogahiy, Feruz, Bayoniy, Avaz O'tar kabi taniqli shoirlar ijod qildilar" [4.78.].

Muhammad Rizo Ogahiy bu davrda eng ko'p va xo'p ijod qilgan shoirlardan biridir. "Ogahiy o'z zamonasining eng ilg'or kishisi, serqirra, sermazmun ijod sohibidir. Talantli shoir, mohir tarjimon, yetuk muarrix sifatida uning ma'naviyatimiz tarixidagi roli benihoya kattadir. "Ta'viz ul -oshiqin" devoni bilan sharq she'riyatining va birinchi navbatda Navoiy lirikasining eng muhim an'alarini ijodiy davom ettirib, o'zbek poeziyasini boyitdi va yuksak pag'onaga ko'tardi"[8.23]. Ogahiy "Taviz ul-oshiqin" devoni debochasida "Saodatlik asrining yoqimli, uslubi chiroyli bayon fozillariga va sharofatlik zamonining shirin tillik shoirlariga diqqatli she'rlari va nazokatga yaqin nazmlari baxshishligi uchun mo'lin'omlar, xursandchilik va ko'p ehsonlar bilan baxramandlik yetkazib, qadru martabada o'zgalardan aziz va mo'tabar, izzat va shavkatda o'zga odamlar orasida quyoshdek porloq va sarbaland qildi", deya tiriklik chog'idayoq ulug'langanligini o'zi ham ta'kidlagan.

Ogahiy xalq orasida ko‘proq lirik shoir sifatida mashhurdir. Umrining oxirgi yillarida tuzgan lirik kulliyoti “Ta’viz ul-oshiqin” (“Oshiqlar tumori”, 1872) bizgacha to‘la yetib kelgan. Devon an’anaviy tartibda tuzilgan. 470 g‘azal, 3 mustazod, 89 muxammas, 5 musaddas, 2 murabba, 4 musamman, 4 tarje‘band, 7 qit‘a, 80 ruboiy, 10 tuyuq, 1 mulamma, 4 chiston, 2 muammo, 4 masnaviy, 1 bahri taviil, 1 munojot, 1 oshiq va ma’shuq savol-javobi, 20 ta’rix, 19 qasida – jami 18000 misradan iborat. Devonga “Ash’ori forsiy” nomi bilan Ogahiyning fors tilidagi 1300 misra she’ri ham kiritilgan. Devondagi asarlar mazmun-mundarijasi markazida ishq mavzusi turadi.

“Ogahiy hayoti va ijodini o‘rganish, tadqiq qilish borasida muayyan ishlar qilindi. R.Majidiy, S.Dolimov, A.Qayumov, Q. Munirov, F.G‘anixo‘jayev, A.Abdug‘afurov, I.Haqqulov, N.Komilov, H.Abdullayev, N.Jabborov, N.Toshev kabi o‘nlab taniqli olimlar, adabiyotshunoslar yaratgan risolalar, monografiyalar alohida diqqatga molikdir. Istiqlol tufayli bu xayrli ish ko‘lami yanada kengaydi” [6.10]. Mustaqillikdan so‘ng Ogahiy ijodiga bo‘lgan qiziqish yanada ortdi, ko‘plab ilmiy ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda.

Ogahiy adabiy merosini til nuqtayi nazaridan o‘rganishga qiziqish o‘tgan asrning 50-yillaridan boshlangan bo‘lib, dastlab S.Dolimovning “Ogahiy asarlari til xususiyatlari” haqida maqolasi nashr qilingan [2.57.]. Z.Do‘simovning “Ogahiyning “Zubdat ut-tavorix” asarining leksik grammatik xususiyatlari haqida”[3.37.] maqolasida asarning lisoniy o‘ziga xosliklari haqida gap boradi. A. Matg‘oziyev “Zubdat ul-tavorix”, “Gulshani davlat”, “Shohid ul -iqbol” kabi asarlarining morfologik xususiyatlarini aniqlangan [7.41].

Ijodkor tili leksikasini o‘rganishda H.Dadaboyevning “Ogahiy tarixiy asarlaridagi ijtimoiy-siyosiy terminlar tizimi”[1.21] nomli maqolasida berilgan nazariy fikrlar muhimdir. Ogahiy lirik asarlari leksikasini o‘rganish borasida R.Yo‘ldoshevni alohida ta’kidlash lozim. Uning “Ogahiy poeziyasida sonning qo‘llanishi”, “Огаҳий поэзиясида омонимлар”, “Огаҳий поэзиясида антонимлар”, “Огаҳий поэзиясида спортга алоқадор сўзлар”, “Огаҳий поэзиясида “ов” мазмун майдони” [5.52., 5.78., 5.84., 5.92.] nomli maqolalarida Ogahiy poeziyasi leksikasi bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.

“Boy adabiy merosga ega XIX asr Xorazm adabiy muhitini Ogahiysiz tasavvur qilish qiyin. Ana shu katta adabiyotning vorisi Ogahiy hazratlari Feruzdek, Komil Xorazmiy, Komil Devoniylardek zabardast shogirdlar yetishtirdi, o‘zidan katta adabiy-tarixiy meros qoldirdi” [6.10]. Ogahiy devoni bir muncha o‘rganilgan bo‘lsada, leksik xususiyatlari tilshunoslik nuqtayi nazaridan hanuzgacha to‘liq o‘rganilmagan. Shuning uchun “Taviz ul-oshiqin” devoni leksikasini mukammal o‘rganish galdagi vazifalardan biri bo‘lib qoladi.



**ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎХАТИ:**

1. Дадабоев Х. Огаҳий тарихий асарларидаги ижтимоий -сиёсий терминлар тизими хусусида. Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари (Илмий мақолалар тўплами). №3. Тошкент. 2009.Б. 21- 24.
2. Долимов С. Огаҳий роэзиясида омоним ва синоним сўзлар. Ўқитувчилар газетаси. 1957. Б.57.
3. Дўсимов З. Огаҳийнинг “Зубдат ул таворих” асарининг лексик хусусиятлари ҳақида. Огаҳий абадияти. Тошкент. Ўзбекистон. 1999. Б.37- 41.
4. Дўстова С. Лаффасий адабий меросининг ўрганилиши. Адабий таълим ва ёшлар тарбияси. Тошкент, 2010й. 78 -79 бетлар.
5. Ёўлдошев Р. Огаҳий поэзиясида соннинг қўлланиши. Илм сарчашмалари. 2004. №4. Б.92- 96, Огаҳий поэзиясида омонимлар. Мунаввар умр. Урганч. 2005.Б. 84- 85, Огаҳий поэзиясида антонимлар. Илм сарчашмалари. 2005. №1, Б. 52 -55, Огаҳий поэзиясида спортга алоқадор сўзлар. Илм сарчашмалари. №4. 2004., Огаҳий поэзиясида ов мазмун майдони. Илм сарчашмалари. 2005. №4. Б.78- 82.
6. Комил Аваз, Огаҳий номидаги жамғарманинг фахрий раиси “Жаҳон адабиёти” журнали, 2009 йил 10-сон.
7. Матгазиев А. Исследование по морфологии староузбекского языка (конец XVII- до семидесятых годов XIX в). Автореф. Диссер. д-ра филол. наук. Ташкент. 1979. 41 с.
8. M.Solayeva. Navoiy va Xorazm shoirlari. Urganch 1993. 23-bet.

**KOMYOB DEVONIDA KELTIRILGAN OMONIM SO‘ZLARINING  
POLISEMANTIK XUSUSIYATLARI TAHLILI**

*Abdurashidova Noila Damin qizi,*

*JDPI magistri*

*Ilmiy rahbar: f.f.n.dots. J.Jo‘rayev*

Komyob devonidagi omonim so‘zlarning polisemantik xususiyatlarini eski o‘zbek adabiy tili va hozirgi o‘zbek adabiy tili nuqtai nazaridan tahlil qilishdan avval o‘zbek tilini davrlashtirish masalasiga bir e’tibor qaratamiz.

O‘zbek tili Oltoy tillari oilasining turkiy tillar turkumiga kiruvchi tildir. Ushbu til O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq davlat tili hisoblanadi. Davlat tili haqidagi Qonun 1989-yil 21-oktabrda qabul qilingan. 1995-yil 21-dekabrda takomillashtirildi.

O‘zbek adabiy tili quyidagi davrlarni o‘z ichiga oladi:

Miloddan oldingi davrlardan to X asrlargacha bo‘lgan davr. Bu davrdagi til fanda qadimgi turkiy til deb yuritiladi. Qadimgi xalq og‘zaki ijodi na’munalari, O‘rxun-Enasoy yodgorliklari (VI – VII asrlar) shu tilda yaratilgan.

XI – XIV asrlarda amalda bo‘lgan til esa eski turkiy til deb ataladi. Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘atit-turk” ( “Turkiy tillar devoni” ), Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” (“Saodatga yo‘llovchi bilim” ), Ahmad Yugnakiyning

“Hibatul haqoyiq” ( “Haqiqatlar armug‘oni” ), Xorazmiyning “Muhabbatnoma”, Rabg‘uziyning “Qissasi Rabg‘uziy” asarlari shu tilda yaratilgan.

XV asrdan XX asr boshlarigacha qo‘llangan til eski o‘zbek adabiy tili deb nomlangan. Atoyi, Sakkokiy, Sayfi Saroyi, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Turdi, Maxmur, Gulxaniy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy va boshqa ko‘plab ijodkorlarning asarlari shu tilda yaratilgan.

XX asrning boshlaridan hozirgi davrgacha ishlatib kelayotgan til hozirgi o‘zbek adabiy tili deb ataladi.

O‘zbek tili XI asrdan boshlab mustaqil til sifatida shakllana boshladi va XIII asrda eski o‘zbek adabiy tili shakllanib bo‘ldi.

Eski o‘zbek tilining rivoji buyuk Alisher Navoiyning nomi bilan bog‘liqdir. U eski o‘zbek tilining keng imkoniyatlaridan foydalangan holda ajoyib asarlar yaratibgina qolmasdan, bu tilni ilmiy jihatdan chuqur tadqiq qiluvchi “Muhokamatul-lug‘atayn” nomli yirik ilmiy asar ham yozdi va unda o‘zbek tilining boshqa tillardan hech kam emasligini ishonarli misollar bilan isbotlab berdi.

Navoiy o‘z asarlarida dunyo bo‘yicha eng ko‘p so‘z ishlatgan (26035 ta) ijodkor hisoblanadi. Uning asarlari yuzasidan 1983 – 1985-yillarda “Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳ,ли лугати” 4 tomlik kitob holda chop etildi. Davrlashtirishdan ma‘lum bo‘ladiki, Komyob o‘z asarlarini eski o‘zbek adabiy tilida yaratgan, ammo u yashagan davr hozirgi o‘zbek adabiy tilining boshlang‘ich davri bo‘lganligi tufayli asarlaridagi so‘zlar hozirgi adabiy til ma‘nolarini ham o‘zida aks ettiradi. Biz uning devonidagi omonim so‘zlarning polisemantik xususiyatlarini tahlil etishda Navoiy asarlari lug‘atidan foydalanamiz. Shuni ham e‘tiborda tutish lozimki, Navoiy va Komyob yashagan davr boshqa-boshqadir. Oraliqdagi 400 yillik masofa davomida til o‘zining taraqqiyot qonuniyatlariga muvofiq fonetik, leksik, grammatik, morfologik, sintaktik jihatdan o‘zgarishlarga uchragan, takomillashgan.

Devondagi omonim so‘zlarning polisemantik xususiyatlarini aniqlash uchun Komyob tuyuqlarini tahlilga tortamiz:

Vasl bog‘in topib oshiq yozdurur,  
Tole‘g‘ig‘a javri hijron yozdurur,  
Kelgil, ey mahub, ishrat etgali,  
Gulshan ichra mavsumi kim yoz durur.

Bu baytda “yozdurur”, “yozdurur” va “yoz durur” so‘zlari omonimlik hosil qilmoqda. Ularning barchasida “yoz” so‘zi asos hisoblanadi. Birinchi baytdagi “yoz” so‘zi “ko‘nglini yozmoq” “tarqatmoq”, “yayratmoq”, “ketkazmoq” ma‘nolarini ifodalaydi. Ikkinchi jumladagi “yoz” esa polisemantik so‘zdir. Uning lug‘atda quyidagi ma‘nolari mavjud:

1. Yozmoq, bitmoq:

Ko‘z savodidin qaro jon sahfasin qildim varaq,  
Bu ikining rashkidindur gar sanga yozmoq bitik.

Xazoyin-ul maoniy, IVb-33;

Mavlono Lutfiy... o'n mingdan ortuqroq masnaviysi bor, bayozg'a yozmagan uchun, shuhrat tutmadi.

Majolis-un nafois, 72;

2. Chizmoq:

Ne surat yozg'ali topib chu dast ul,  
Jahonni aylabon suratparast ul.

Farhod va Shirin, 103;

3. Ko'chirmoq:

Kimki yozmoqta muzd qilsa havas,  
Barcha maqsudi muzd bo'lsa-yu bas.

Sab'ai sayyor, 208;

4. Taqdir qilmoq:

Evurmas agar lutf etib bu varaq,  
Ko'ray har ne kim olima yozdi haq.

Saddi Iskandariy, 269a3.

Ikkinchi jumladagi yoz so'zi yuqoridagi ma'nolarning to'rtinchisiga mos tushadi. To'rtinchi jumladagi "yoz" esa fasl ma'nosida kelmoqda.

Biz yuqorida polisemantik so'z sifatida olganimiz "yozmoq" fe'li hozirgi o'zbek adabiy tilida bir qancha o'zgarishlarga uchrab, yangi ma'nolar bilan boyigan. Uni lug'atda majhul nisbatda berib, ma'nolarini ifodalashgan:

1. Yozmoq II fl. majh. va o'zl. n. Xat yozildi. Hikoya yozildi. Anvar qo'lidagi yozilgan qog'ozni qo'yib, ikkinchi oq qog'ozni oldi. A. Qodiriy, Mehrobdan chayon. Shogird adreslar yoziladigan daftarga imo qildi. T.Ashurov, Oq ot.

2. Atalmoq, bag'ishlanmoq. – She'r bizga yozilmay, kimga yozilgan bo'lsin axir, - dedi Jo'raxon. Nazarmat, Jo'ralar baland sayraydi.

3. A'zo bo'lmoq, qo'shilmq. Bo'taboy partizan otryadiga ko'ngilli bo'lib yozildi. S.Ahmad, Hukm.

4. Bayon qilinmoq, ifodalanmoq. Maqola ommabop, ravon va sodda tilda yozilgan edi. F.Musajonov, Himmat.

**Peshonasiga yozilgan** Taqdirida bor. U [Yo'lchi] hali ham kambag'al "begona" qizni yodlar, hali ham uning boshini "U kimning qizi? Uni yana bir bor ko'rish peshonamga yozilganmikan?" kabi savollar band qilgan edi. Oybek, Tanlangan asarlar.

Yozmoq fe'lining ikkala davr lug'atidagi anglatgan ma'nolarini solishtirib ko'rish natijasida quyidagicha xulosalar qilish mumkin: "Yozmoq" so'zi hozirda chizmoq va ko'chirmoq ma'nolarini ifodalamaydi. Bu ma'nolar o'zlari uchun alohida qolipga egadirlar. Hozirgi o'zbek adabiy tilida esa yozmoqning bag'ishlanmoq, a'zo bo'lmoq kabi yangi ma'nolari mavjud. Bundan tashqari, birinchi jumlada monosemantik so'z sifatida olingan "yozdurur" hozirgi tilimizda polisemantik so'zga aylangan. Unga "ko'ngil yozmoq" ma'nosidan tashqari "dasturxon yozmoq", "bemalol o'tirmoq, o'zini erkin tutmoq", "tahorat olmoq, bo'shalmoq" kabi semalar ham qo'shilgan.

H.o'.a.t. da “yozmoq” fe’li orttirma nisbat qo’shimchasini olgan holda “Aqldan yozdirmoq” (aqldan ozdirmoq), “To’g’ri yo’ldan yozdirmoq” (to’g’ri yo’ldan adashtirmoq) ma’nosida ham omonimlik hosil qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:**

1. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug’ati I, O‘zbekiston SSR “Fan” nashriyoti, Toshkent-1983.
2. O‘zbek tilining izohli lug’ati, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent.
3. <http://wikipediya.uz>.

### **TILSHUNOSLIKDA TAKRORLARNING OLIMLAR TOMONIDAN O‘RGANILISHI**

*Shamsiyeva Maftuna Abduvali qizi,  
JDPI magistranti*

Badiiy matn lingvopoetikasini o‘rganish uchun, albatta, badiiy yaratiqqa murojaat qilamiz. O‘zbek tilshunosligida badiiy asar tilini, ijodkor individual uslubini hamda poetik nutqda qo‘llangan badiiy-uslubiy vositalarning lingvostilistik xususiyatlarini ochib berish oldingi o‘rinlarda turadi. Badiiy asarlar orasida gap bo‘laklari va takrorlanishi tez-tez kuzatilmoqda. Bunday vositalar badiiy matnning ta’sirchanligini yanada oshiradi.

Matnda qo‘llangan har bir so‘z o‘zining emotsionalligi, ma’no qirralarining ko‘pligi va mazmundorligi bilan o‘quvchilarni o‘ziga jalb etadi. Badiiy matnning bir bo‘lagi hisoblangan takrorlar ham shunday hodisalardan biri hisoblanadi. Badiiy matnda qo‘llangan takrorlar haqida Ma’rufjon Yo‘ldoshev:

“Birinchi gapda qo‘llangan ayrim affikslar, so‘z va so‘z birikmalari yoki gaplarning keyingi komponentlar tarkibida takroran qo‘llanishi orqali matnni shakllantirish mumkin. Takror usulida aytilgan fikrni alohida ta’kidlash, tasdiqlash kengroq batafsilroq o‘rganish maqsadida foydalaniladi”, [1;30] - deb aytib o‘tadi.

Ma’rufjon Yo‘ldoshevning takrorlar haqidagi fikrlaridan kelib chiqadigan bo‘lsak, takrorlar ham badiiy matnning muhim unsurlaridan biri hisoblanadi, degan xulosaga kelish mumkin. Badiiy matnning semantik jihatini keyingi qo‘llanadigan badiiy takrorlar hissiy darajasini yuqori pag‘onaga olib chiqadi.

Badiiy matnda takrorlarning o‘rnini tadqiq qilishda M.Yo‘ldoshev bilan bir qatorda, S.Karimov, X.Doniyorov, B.Yo‘ldoshev kabi bir qator tilshunos olimlar o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda. Quyidagi olimlar takrorlarni sof lingvistik nuqtayi nazardan va grammatik jihatdan o‘rganagan.

Badiiy matnni chuqur tadqiq etgan Z.O‘rinboyev va M. Bo‘ronovalarning asarlarida takrorlarga oid fikrlar keltirilgan. Aynan shu mavzu doirasida ilmiy ishlar,

avtoreferatlar, ilmiy maqolalar ham yozilgan. Jumladan, A.Shofqorov “Mirtemir she’riyatida takrorlarning ma’naviy-uslubiy xususiyatlari” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida takrorlar haqida shunday fikrlar keltiriladi:

“O‘zbek tilshunosligidagi badiiy takror hodisasi uchta yo‘nalishda muayyan darajada tadqiq qilingan:

1. Sof lingvistik nuqtayi nazardan
2. Lingvostilistik va lingvopoetik nuqtayi nazardan
3. Badiiy san’atlarning o‘ziga xos turi sifatida.” [2;4]

Yuqoridagilardan kelib chiqib olimning fikriga e’tibor berganimizda, takrorlarni guruhlariga ajratib o‘rganish, alohida bo‘lim sifatida misollar orqali isbotlab berish, ishimizni bir muncha osonlashtiradi, aniqlik darajasini oshiradi. Asosan, badiiy matnda takrorlarni o‘rganishda yuqoridagi birinchi va ikkinchi tamoyillar qo‘l keladi.

Ilmiy qo‘llanmalarda badiiy takrorlarning bir qancha grammatik jihatdan bo‘linishlariga ko‘zimiz tushadi. Jumladan:

- a) fonetik takrorlar;
- b) leksik takrorlar;
- c) morfologik takrorlar
- d) sintaktik takrorlar.

M.Yo‘ldoshev, A.Shofqorov, Sh.Haydarov o‘zlarini badiiy matn lingvopoetikasiga bag‘ishlangan asarlarida misollar keltirish orqali takrorlarning yuqoridagi sanab o‘tgan ko‘rinishlarini isbotlab bergan. Shu orqali takrorlarning turli ma’no qirralari yaqqol ko‘zga tashlana boshladi. Badiiy matn lingvopoetikasini o‘rganishda takrorlarga xususiy jihatdan yondoshsak, bir muncha afzalliklarga erishish mumkin.

Takrorlarni matnda turli xil ko‘rinishlarda uchratishimiz mumkin. Birinchi gapdagi birinchi tovushning keyingi qatorda ham munosiblashib kelishini fonetik takrorlarga kiritamiz. Qo‘shimchalar o‘rtasidagi qayta-qayta qo‘llanuvchi affikslarga morfemik takrorlar degan terminini ishlatamiz. Fonetik takrorlar yuzasidan T.Boboyev quyidagi fikrni aytib o‘tadi:

“Ammo shuni ham aytib o‘tish kerakki, alohida nutq tovushlari yoki fonetik usullar o‘z holicha konkret bir mazmunni ifodalamaydi. Ular badiiy nutqning boshqa usullari bilan bir butunlikni tashkil etadigan konkret ma’no kasb etadi, she’rga emotsionallik bag‘ishlaydi” [3;115].

Yuqoridagi fikrlarni jamlagan holda takrorlarni semantik va grammatik jihatdan tadqiq qilib o‘rganish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Badiiy matnlarga suyangan holda, unda qo‘llangan takrorlarning turli ma’no qirralarini chuqur ochib berish mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Yo‘ldoshev M. “Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari” Toshkent,2007. Fan. B-30.
2. Shofqorov A.M. “Mirtemir she’riyatida takrorlarning ma’naviy-uslubiy xususiyatlari” (avtoreferat) Toshkent. 2012. B-4.
3. Boboyev T., Boboyeva Z. “Badiiy san’atlar” Toshkent. TDPU, 2001. B-115.



## O'QUVCHILARDA LINGVISTIK KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA MUMTOZ ASARLARDAN FOYDALANISH METODIKASI

*Yaxshiboyev Fazliddin Buriboyevich,  
JDPI magistranti*

Hozirgi kunda zamonaviy ta'lim tizimida kompetensiyaviy bilimlarni shakllantirish orqali erkin shaxsni tarbiyalash, bolalarda mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish, bilimlarni egallash va amalda qo'llash, qabul qilinadigan qarorlarni tezkor va puxta o'ylab chiqish va harakatlarni aniq rejalashtirish, turli xil guruhlarda samarali hamkorlik qilish, yangi aloqalarga ochiq bo'lishga ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Bu ta'lim jarayoniga bilim olish faoliyati bilan birga kompetensiyaviy ko'nikmalarni egallashning muqobil shakllari va usullarini keng joriy etishni talab etadi. Bunda, bolalar iqtidorini rivojlantirish usullaridan keng foydalanish, interaktiv metodlar, multimedia kabi yangi pedagogik vositalarni dars jarayonida qo'llash samarali natija beradi.

Bolalar iqtidorini rivojlantirish va har tomonlama barkamol inson qilib tarbiyalashda tadqiqotchilik ishi katta rol o'ynaydi, masalan, turli tadbir va erdaliklarga tayyorgarlik jarayonida, fanning asosiy kursida egallanadigan bilimlardan ko'ra chuqurroq bilimlarga ega bo'lishni talab etadi. Bolalarning aqliy ijodiy faoliyatlariga asosiy e'tibor qaratilishi ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish hamda shaxs iqtidorini rivojlantirishda rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Iqtidorli bolalar fan bo'yicha ko'rik tanlov va olimpiadalarda ishtirok etish va ijobiy natijalarga erishish orqali intellektual yetakchilik tajribasiga ega bo'ladilar. Bolalar iqtidorlarini rivojlantirishda sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish ham katta ahamiyatga egadir. Sinfdan tashqari ishlarda masofaviy ta'lim, virtual laboratoriya, videokonferensiyalar, vebinarlar kabi metodlardan foydalanilgan holda fanga doir kompetensiya elementlari rivojlantiriladi.

Ta'lim muassasalarida har yili an'anaviy ravishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari haftaligini o'tkazish, "Bilimdonlar", "Zakovat" klublarining dastlabki bosqichlarini aynan boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida olib borish bolalarning bilishga oid qiziqishlarini shakllantirish, tabiatga va borliqqa oid bilimlarini oshirish va ularning ijodiy faolliklarini rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Bunday tadbirlar bir necha yo'nalishda tashkil etilishi mumkin: kasbga yo'naltirish; o'quv-tadqiqotchilik; axborot-ko'ngilochar; viktorinalar; intellektual o'yinli va boshqalar. Bu metodlar orqali bolaning nutqi, tezkor tafakkur qilishi, tinglash va so'zlab berishi, muloqotga kirishish kabi fanga oid kompetensiya elementlari shakllantiriladi.

Bolalarning barcha fan va san'at sohalaridagi iqtidorlarini aniqlash maqsadida darsdan tashqari faoliyatda quyidagi shakllardan keng foydalanish fanga oid kompetensiyaviy bilimlarning chuqur singdirilishida poydevor bo'ladi: bolalar

ijodiyoti ko'rgazmalari, ijodiy ko'rik tanlovlar, fanga oid bellashuvlarni o'tkazish va boshqalar.

Ona tili darslarida ta'limiy o'yinlardan fanga oid kompetensiyani shakllantirishda foydalanish naqadar foydali ekanligi ma'lum bo'ldi va biz undan dars jarayonida foydalanishni tavsiya beramiz. Mamlakatimizda olib borilayotgan ta'lim tizimining odil va demokratiyalashtirilishi o'quv jarayoniga o'zgacha talab va o'zgacha pedagogik munosabatlarni kashf etadi. Bu jarayon mazmun mohiyatidan avvalgidan tubdan farqlanadi. Hozirgi kunda o'quvchilarda o'quv predmetlari bo'yicha faqatgina bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishning o'zi yetarli emasligi ma'lum bo'lmoqda. Jumladan:

- ❖ ta'lim muassasasini muvaffaqiyatli bitirgan ayrim o'quvchilar hayotda ko'p muvaffaqiyatsizliklarga uchraydi;
- ❖ oliy ta'lim dargohini bitirib yangi ishga borgan yosh mutaxassis institut yoki universitetda kasbiga oid bilim va ko'nikmani yetarli darajada olgan bo'lsa-da, ish joyiga ko'nikishi uzoq davom etadi;
- ❖ tanqidiy yondashuvda ma'lum bo'ladiki, maktab yoki litseyda olingan bilim va ko'nikmalar tezda hal qilinishi kerak bo'lgan hayotiy vaziyatlarga to'g'ri kelmaydi yoki umuman hayotiga kerak bo'lmaydi;

Ilmiy pedagogik, psixologik manbaalarda berilishicha, kompetensiya ko'pgina fanlar uchun mushtarak bo'lgan tushunchalardir. Shu boisdan uning talqinlari ham hajman, ham tarkibiga ko'ra, ham ma'no, mantiq mundarijasi jihatidan turli-tumandir.

O'quvchining kerakli bilimlarni puxta o'zlashtirishida va unda fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishda eng avvalo, uning diqqatini fan yoki mavzuga to'liq jalb qila bilish muhimdir. Maktabga endigina qadam qo'ygan bolada diqqatning birinchi turi-ixtiyorsiz diqqat ustun bo'ladi. Uning diqqati tez bo'linishini, chalg'ishini, o'zini bir joyda ushlab turolmasligini kuzatish mumkin. Shunday paytda bola uchun muhim va qiziqarli bo'lgan narsalarni unga ko'rsatish, bu narsalarning shakli, ko'rinishi, joylashgan o'рни, katta-kichikligi, bir-biridan farqi va rangiga nisbatan bolaning diqqat-e'tiborini kuchaytiradi. Endi esa bola bu narsani sinchiklab o'rganish davomida narsaga nisbatan ongini bir nuqtada ushlay oladigan bo'ladi. Natijada bu narsaning nima uchun xizmat qilishini, qanday ishlatilishini ham o'rganadi. Aynan bunday tadbirlar bola xotirasining rivojlanishi uchun ham yordam beradi. Buni amalga oshirish uchun, albatta, psixologik mashq va treninglardan foydalanamiz. Chunki, o'quvchini dastlab fanga olib kirish, uni fan bilan bog'lashdan oldin bolani bu jarayonga tayyorlash lozim bo'ladi.

Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kichik yoshdagi (7-11 yoshlar) maktab o'quvchilarining diqqatini bir nuqtaga jamlash bir muncha qiyin hisoblanadi. Ularning diqqatini 6-7 daqiqagacha jamlash mumkin. Undan so'ng o'quvchilar diqqati o'z-o'zidan bo'linadi. Bu vaqt davomida o'qituvchi o'quvchilarga ma'lum bilim, ko'nikma va malakalarni berishi hamda tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishi lozim.

*Misol tariqasida diqqatni jamlovchi mashqdan namuna keltiramiz:*

9. O'quvchiga bir to'da yovvoyi jonivorlarning rasmini bir vaqtda ko'rsatamiz.

2. Bularning ichida qaysilari qushlar, qaysilari yirtqichlar, qaysilari sudralib yuruvchilar ekanligini ajratib berishini soʻraymiz.

3. Keyin esa bu jonivorlarning qayerda yashashini, nima bilan oziqlanishini ham soʻrab, oʻquvchi tafakkuri rivojlanishi uchun ham turtki beramiz.

Bunday mashqdan soʻng oʻquvchining diqqati bir nuqtaga toʻplanadi va fanga kirib borishi, mavzuni tushunishi yengillashadi, unda kompetensiya elementlarini shakllantirish osonlashadi.

Oʻquvchilarning lingvistik kompetensiyaviy bilimlarini shakllantirish uchun soʻz boyligi ustida alohida ishlash, lugʻat boyligini oshirishimiz kerak. Soʻz va iboralar tilning maʼno ifodalaydigan asosiy birligidir. Bu til birliklari aniq predmetlarni, mavhum tushunchalarni, individning emotsiya-his-hayajonini bildiradi. Tilda mavjud boʻlgan barcha soʻz va iboralarning yigʻindisi tilning lugʻat tarkibini tashkil etadi. Shu maʼnoda leksikologiya oʻquvchilar lugʻat boyligini oshirishning metodik asosi hisoblanadi.

Har qanday nutqiy bayon grammatik jihatdan oʻzaro bogʻlangan, mazmunga mos soʻz va iboralarning maʼlum izchillikda joylashtirilishidan tuziladi. Kishining lugʻat boyligi qanchalik boy va rivojlangan boʻlsa, uning nutqi ham shunchalik boy boʻladi. U oʻz fikrini aniq, ravshan, ifodali bayon etishga keng imkoniyat yaratadi. Shuning uchun soʻz boyligi, uning xilma-xilligi, harakatchanligi metodikada nutqni muvaffaqiyatli oʻstirishning muhim shartidir.

Har qanday nutqiy bayon grammatik jihatdan oʻzaro bogʻlangan, mazmunga mos soʻz va soʻz birikmalarining maʼlum izchillikda joylashtirilishidan tuziladi. Kishining lugʻati qanchalik boy va rivojlangan boʻlsa, uning nutqi ham shunchalik boy boʻladi. Oʻz fikrini aniq va ifodali bayon etishga keng imkoniyat yaratiladi. Shuning uchun lugʻatning boyligi, xilma-xilligi, harakatchanligi nutqni muvaffaqiyatli oʻstirishning muhim sharti hisoblanadi. Oʻquvchi lugʻatining boyishiga, birinchi navbatda, uni oʻrab olgan muhit, tabiat, kishilarning hayoti, oʻqish faoliyati, kattalar va tengdoshlari bilan boʻlgan muloqotlari asosiy manba vazifasini bajaradi. Bola tabiat va insonlar bilan munosabatda boʻlishi natijasida soʻz, ibora, tasviriy ifoda, maqol, hikmatli soʻzlarni oʻrganadi, ularni oʻz soʻzlariga aylantiradi. Badiiy asarlar oʻquvchilar lugʻatini va nutqini boyitishda eng ishonarli manba hisoblanadi. Oʻqish darslarida badiiy asarlar bilan tanishish, tahlil qilish jarayonida oʻquvchilar lugʻati maʼlum mavzular boʻyicha ham boyib boradi.

Masalan, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asariga oid mavzular bilan tanishish jarayonida tabiatdagi oʻzgarishlar, qushlar, jonivorlar, hayvonot olami, dov-daraxtlar, maysa-giyohlar bilan bogʻliq tushunchalari shakllantirilsa, maʼnaviyat, yaxshilik va yomonlik, doʻstlik mavzularidagi asarlarni oʻrganish orqali insoniy munosabatlar, axloq-odob yuzasidan muayyan xulosalarga keladi. Matnni oʻqish jarayonida soʻzning maʼnosi tushuntirilmaydi. Agar unga zarurat sezilsa, oʻquvchilar diqqati matn mazmunidan chalgʻitilmay, qisqa izoh berib oʻtib ketiladi. Koʻchma maʼnoda ishlatilgan soʻzlar matn oʻqilgandan keyin tushuntiriladi. Chunki ularning maʼnosi matn mazmunidan yaxshi tushuniladi. Bundan koʻrinib turibdiki, oʻquvchilarning oʻrganishi koʻzda tutilgan bilimlarni

egallashlarida, ularni amaliyotda qo'llashlarida tilning lug'at boyligini o'zlashtirishlari va uni o'z mulklariga aylantirishlari muhimdir.

Lug'at ustida ishlash uchun maxsus dars ajratilmaydi. U barcha predmetlarni o'rganishda, asosan, ona tili va o'qish darslarida darslik materiallarini o'rgatish bilan bog'liq holda olib boriladi.

O'quvchilarga leksik bilimlar berish faqat ona tili darslari bilan chegaralanib qolmasdan, o'qish darslari davomida ham o'rgatib boriladi. Ayniqsa, tilning lug'at tarkibini, undagi eskirgan va yangi paydo bo'lgan so'zlarni, shevaga xos so'zlarni, kasb – hunarga oid so'zlarni, ruscha – baynalmilal so'zlarni o'rgatishda o'qish kitobida berilgan matnlar tahlili, har bir darsda o'tkaziladigan lug'at ishlari katta ahamiyatga ega. Bunda amaliy ishlar orqali nazariy bilimlar hosil qilib boriladi.

O'quvchilarda nutq malakalarini shakllantirish uchun faqat lingvistik kompetensiyani rivojlantirish yetarli emas. Nutq malakalari lingvistik va kommunikativ kompetensiyani, ya'ni til tizimi va uning tuzilishi haqidagi bilimlarni o'z ichiga oladi; tilning tuzilish tarkibi bo'yicha ma'lumotlar tizimiga ega bo'lish: fonetika, lug'at, so'zlarning tuzilishi va so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis va nutq uslublari asoslari; til tizimidan amaliyotda foydalanish qobiliyati va boshqalar.

Til tizimi haqidagi bilimlarni o'zlashtirish o'z-o'zidan amalga oshmaydi. Lingvistik kompetensiyani shakllantirish jarayonida o'quvchi shaxsini, uning o'rganilayotgan til tizimi haqidagi bilimlaridan foydalanish qobiliyatini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ya'ni, lingvistik kompetensiya doirasidagi ta'lim va til ko'nikmalarini shakllantirish nazarda tutiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Olloqova M. O. Intensive education and linguistic competence in mother tongue //ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL. – 2021. – T. 11. – №. 1. – C. 580-587.

2. Olloqova O. M. ONA TILI DARSLARIDA INTENSIV TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH //Scientific progress. – 2021. – T. 2. – №. 6. – C. 1025-1029.

3. Mamanazarovna O. U., Gulnoza M. USE OF DIDACTIC GAMES IN MOTHER TONGUE LESSONS. – 2021.

4. Sayfullaev G., Alimova L., Olloqova U. Formation of environmental knowledge in pupils of second class in the lessons the world around us //Bridge to science: research works. – 2019. – C. 206-208.

5. OLLOQOVA O. ONA TILI TA'LIMIDA INTENSIV TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASHNING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – T. 1. – №. 1.

Djumayev M. va boshqalar. Boshlang'ich sinf matematika mazmunida kompetensiyaviy yondashuvning dolzarb muammolari xususida /

## 7-СИНФЛАРДА “РАВШАН” ДОСТОНИНИ ЎРГАНИШДАГИ САВОЛ-ТОПШИРИҚЛАР

*Нурбоев Ш.  
ЖДПИ– тадқиқотчи*

Умумтаълим мактабларининг адабий таълимда тизимлилик тамойили халқ достонларини босқичма-босқич (синфлар кесимида) изчил ўрганишга, ўқувчиларнинг билим олиш ва мантикий фикрлаш фаолиятини яхшилашга хизмат қилади, ўзлаштириш жараёнини енгиллаштиради. Ҳар бир синфнинг дарслик – мажмуасида аввало, ўрганилаётган достонлардан муайян парчалар ҳамда мазкур достонларнинг илмий-назарий таҳлили берилган, сўнгра тегишли савол–топшириқлар билан таъминланган.

Нуфузли луғатларда қайд этилишича, арабча сўроқ, илтимос каби тушунчасини ифодаловчи савол атамаси уч хил маънода қўлланилади: 1) жавоб олиш учун айтиладиган гап, жумла, сўроқ; 2) имтиҳон билетиде ёзиб қўйилган, жавоб бериш лозим бўлган мавзулар номи ёки машқ, масала; 3) ечилиши лозим бўлган масала, муаммо. *Савол-жавоб* бирикмаси эса ўзаро савол бериш ва жавоб олиш тарзидаги суҳбатни ифодалайди.

*Топшириқ* – соф туркийча атама бўлиб, у адабий таълим методикасида ўқувчига юклатилган ёки бажаришга берилган муайян иш, вазифа маъносини ифодалайди. Масалан, имтиҳон топширмақ бирикмаси адабиёт фанидан, унинг бирор йўналиши юзасидан сўроқ-саволларга жавоб бериб, синовдан ўтиш маъноларида қўлланилади.

Дарслик-мажмуада берилган савол-топшириқларнинг ҳаммасини тўлиқ ва муваффақиятли бажарилиши ўқувчиларнинг мавзуни тўлиқ ўзлаштириб олишлари ва тегишли билим, кўникма ва малака ҳосил қилишига олиб келади. Лекин бу ерда адабиёт фани ўқитувчисининг ўрни алоҳида: энг аввало, ўқитувчидан юксак педагогик маҳорат эгаси бўлишни ва фан асосларини пухта ўзлаштириб олганликни ҳам талаб этади. Агарда бунинг акси бўлса, шогирдларининг мавзуга қўйилган вазифаларини тўлиқ бажара олмаслигига ва уларнинг ўзлаштириш натижаси паст даражада бўлишига асосий сабабчи бўлади.

Иккинчидан эса дарслик мажмуида берилган савол-топшириқларни оз кўплиги ёки мазмун-мундаражасигагина эмас, балки уларда 7-синф ўқувчиларининг ёш хусусиятлари ва руҳий ҳолатлари ҳам инобатга олиниши шартки, бундай педагогик-дидактик тамойилларга амал қилмаслик берилган адабий материалларни ўзлаштирамасликка олиб келади. Шу нуқтаи назардан қараганда, айрим ўринларда бу педагогик мезонга унчалик яқинлашмаган. Масалан, дарслик-мажмуидаги биринчи савол мазмунига эътибор қилайлик. Унда: “Равшанбекнинг Гуланорга муносабатини ҳақиқий севги дейиш мумкинми?” Матнга таяниб фикр билдиринг”, – дейилади.

Назаримизда, “ҳақиқий севги”дек муқаддас ва нозик туйғуни қалбдан ҳис қилиш, унинг сир асрорларидан ҳали беҳабар бўлган, эндигина балоғат ёшига бораётган 7-синф ўқувчиси бундай тарздаги савол-топшириққа жавоб



беришга руҳан ва жисмонан тайёр эмас. Қолаверса, “Матнга таяниб фикр билдириш” каби топшириқларнинг берилиши матндаги мантиқий изчилликни мутлақо очиб бера олмайди. Бунинг сабаби шуки, 7-синф ўқувчисидан фикр билдириш сўраляпти. Ваҳоланки, ўқувчи фикр билдириш учун фақатгина берилган матннинг ўзигагина эмас, балки унинг тағзаминидаги маъно юзасидан ҳам мустақил мулоҳазага эга бўлиши керак. Бунинг учун энг аввало, ўқувчининг ёш хусусияти, мос ва ижтимоий-маънавий дунёқараши юксак даражада бўлмоғи даркор. Айтилган мулоҳазалардан келиб чиқиб, шуни алоҳида таъкидламоқчимизки, умумтаълим мактабларининг адабиёт фани бўйича яратилган дарлик ва дарслик мажмуаларида 7-синф ўқувчилар ўзлаштириши зарур бўлган билимлар, тушунчалар юзасидан тузиладиган савол-топшириқларни ўқувчиларнинг ёш хусусиятлари, билим даражалари муайян мезон сифатида ҳисобга олиниши, адабий таълимдаги илмийлик, мантиқий изчиллик, тизимлилик каби таълимий-дидактик тамойилларга алоҳида эътибор ва қатъий риоя этилиши таъқозо қилинади.

## **ADABIY TA'LIMDA KEYS-STADI METODINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

*Umarova Shahnoza, JDPI magistranti*

*Ilmiy rahbar: f.f.f.d. (PhD) Parizod Turopova*

Keys-stadi amaliy vaziyatlarni tahlil etish va hal qilish asosida o'qitish usuli sifatida xorijiy ta'limda avval-boshda huquq sohasida qo'llanila boshladi: u ilk marta Garvard universitetining huquq maktabida 1870 yilda qo'llanilgan edi. 1920 yilda Garvard biznes-maktabi (HBS) o'qituvchilari yuristlarning o'qitish tajribasiga tayanib, iqtisodiy amaliyotdagi aniq vaziyatlarni tahlil etish va muhokama qilishni ta'limning asosiy usuli etib tanlashganidan keyin mazkur o'qitish uslubi keng tatbiq etila boshladi. Ana shu vaqtdan boshlab HBS keyslarning boy to'plamini yig'di va mazkur uslubni ta'limning mustaqil konsepsiyasi darajasigacha olib chiqdi. Ayni shu sababga ko'ra keys-stadi uslubini ko'pincha garvard uslubi deb atashadi. O'z mohiyatiga ko'ra, garvard uslubi ta'lim oluvchilarning amaliy vaziyatlarni videomateriallar, kompyuter va dasturiy ta'minotdan foydalanib hal qilish bo'yicha intensiv treningidan iboratdir.

Keys-stadining ikki klassik maktabi - Garvard (Amerikada) va Manchester (Yevropada) maktablari mavjud. Garvard maktabi doirasida mazkur uslub yagona to'g'ri yechimni izlashni o'rgatish usuli hisoblanib, ikkinchi maktab keysda bayon qilingan muammoli vaziyat yechimining ko'p variantlilikini taklif qiladi. Amerika keyslari o'nlab sahifali matnni va ko'plab chizmalarni o'z ichiga oladi. Yevropa keyslari hajmi birmuncha kamroq.

Mamlakatimizdagi ta'lim sohasida keys-stadi, asosan, mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida, ayniqsa boshqaruv sohasida

qo'llaniladi. Keyingi yillarda oliy o'quv yurtlarida ham o'qituvchilarning keyslarni ishlab chiqish va amalga oshirishga qiziqishi oshayotganligi kuzatilayapti.

Keys-stadini iqtisodiy oliy o'quv yurtining ta'lim amaliyotiga keng tatbiq etishning dolzarbligi va zarurligi quyidagi omillar bilan bog'liq: Birinchidan, mamlakatdagi iqtisodiy ta'limning umumiy yo'nalishi, uning nafaqat ta'lim oluvchilarda aniq bilimlarni shakllantirishga, shu bilan birga talabalarda fikrlash faoliyati, nazariy bilimlarini amalda qo'llashga tayyorlik va bunga qobillikni rivojlantirish, bo'lg'usi mutaxassislarda mustaqillik va tashabbuskorlik, boshqaruv va iqtisodiyotdagi tadqiqotlarning turli jihatlari bilan bog'liq keng doiradagi masalalarni idrok etish qobiliyatini ravnaq toptirishga yo'naltirilganligi bilan.

Talabalarning keyslarni ishlab chiqish texnologiyalarini o'zlashtirishi, keysda taqdim qilinadigan amaliy muammoli vaziyatlarni tahlil etish, yakka tartibda va jamoa bo'lib ularni optimal hal qilish yo'llarini izlash malakalarini egallashi, bo'lg'usi mutaxassisda funksional vakolatlilikni shakllantirish - kasbiy faoliyatda o'zining boshqarish va tashkil qilish texnologiyalarini loyihalashtirish, kasbiy jarayon mantig'ini qurish usullari, shuningdek kasbiy vazifalarni mustaqil va mobil tarzda hal etish usullarini hosil qilishga yordam beradi.

Ikkinchidan, bozor iqtisodiyotining nostandart vaziyatlarda bir tizimli asosda va samarali harakat qilish, oqilona yechimlarni qabul qilish qobiliyatini egallagan mutaxassislarga muhtojligi bilan.

Keysda har xil hayotiy vaziyatlar bayoni beriladi va ularning oqibatlarini xususida mushohada yuritish yoki qatnashchilar harakatlarining samaradorligini baholash yoxud muammoni hal etish usullarini taklif qilish talab etiladi. Lekin har qanday holatda ham amaliy harakat modeli ustida ishlash ta'lim oluvchilar – bo'lg'usi mutaxassislarda mehnat bozori talab qiladigan kasbiy jihatdan muhim xususiyatlarni shakllantirishning samarali vositasi hisoblanadi.

Uchinchidan, jahon tajribasi ko'rsatib turganidek, keys-stadi talabalarda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirish, o'qishga qiziqish va motivlarni hosil qilish, ularni haqiqiy professionallar sifatida yetishtirishga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Muammoli vaziyat yechimi va uning maqsadga muvofiq tarzda hal etilishini tanlash yuzasidan o'z pozitsiyasini har doim aniq bildirish, dalillash va o'zining nuqtai nazarini himoya qilish; keys bilan guruh bo'lib ishlash, munozaralar va o'z fikrini o'tkazish paytida jamoaning oshkora muloqot va axborot almashinish, adolatli, konstruktiv va taktikali tanqidga hamda uni qabul qilishga, birgalikdagi faoliyatda ishonchga va hamfikrlikka asoslangan bahamjihat harakati

- Muammoli,
- mantiqiy fikrlash
- Muammoning izlanilishi va ifodalanishi hamda uning asosiy tavsifnomalari belgilanishi, uni hal etish usullari va vositalarining asoslanishi
- Konstruktivlik
- Muammoni hal etish modelining ishlab chiqilishi, konstruktiv yechimlarning izlanishi va ifodalanishi
- Nazokatlilik

- Jamoaning o'z fikrini o'tkazish, munozaralar, guruh bo'lib ishlashga asoslangan doimiy bahamjihat harakati
- Va, nihoyat, keys-stadi interaktiv uslub bo'lgani sababli talabalar tomonidan unga nisbatan ijobiy munosabat bo'lishiga erishadi, ular ushbu uslubni o'quv axborotini o'zlashtirish va undan foydalanish yuzasidan amaliy ko'nikmalarni ta'minlaydigan amaliy qo'llanma (praktikum) sifatida qabul qiladilar.

Keys-stadi - ta'lim, axborotlar, kommunikatsiya va boshqaruvning qo'yilgan ta'lim maqsadini amalga oshirish va keysda bayon qilingan amaliy muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida prognoz qilinadigan o'quv natijalariga kafolatli yetishishni vositali tarzda ta'minlaydigan bir tartibga keltirilgan optimal usullari va vositalari majmuidan iborat bo'lgan ta'lim texnologiyasidir.

Vaziyat (situatsiya) (keyingi lotinchadagi situation - ahvol) – muayyan vaziyat, ahvolni hosil qiladigan shart-sharoitlar va holatlar uyushmasi.

Keysda bayon qilingan vaziyat institutsional tizimda (shu o'rinda va keyinchalik - korxonada) diskret (ayni shu) vaqtda tashkiliy hayotdagi tipik muammolarni qayta yaratadigan real yoki sun'iy qurilgan hodisalarning ideal tarzda in'ikosidan iboratdir.

Muammoli vaziyat. Mazkur holda vaziyat sub'yektining hozirgi vaqtda yoki kelgusidagi maqsadlarga erishishiga xavf soladigan vaziyat tushuniladi

Keys-stadining mohiyati shundan iboratki, mohiyatiga ko'ra ko'rib chiqilayotgan muammoli vaziyat bo'yicha maslahatchilar rolini bajarishi kerak bo'lgan talabalarga quyidagilar taklif qilinadi:

- keysda bayon qilinganida ayni bir paytda tashkiliy hayotdagi tipik amaliy muammoni aks ettiradigan va amaliyotda ushbu muammoning hal etilishida o'zlashtirilishi va qo'llanilishi lozim bo'ladigan muayyan bilimlar majmuini dolzarblashtiradigan vaziyatni idrok etish va tahlildan o'tkazish;
- muammoli vaziyatni maqsadga muvofiq tarzda hal etadigan usullar va vositalarni izlash;
- taklif etilgan muqobil jihat(alternativa)larni baholash va ular orasidan qo'yilgan muammoga nisbatan eng qulay variantini tanlash;
- tanlangan muqobil usul(alternativa)ni amalga oshirish bo'yicha aniq yechimni butun tafsilotlari bilan ishlab chiqish.
- Keys-stadining mohiyatli belgilarini ifodalaymiz:

Materialni taqdim etish usuli

1. Hikoya
2. Esse
3. Tahliliy yozishma
4. Jurnalist tergov
5. Hisobot
6. Ocherk
7. Faktlar majmui
8. Statistika materiallar majmui
9. Hujjatlar va ishlab chiqarish namunalari majmui

Hajmi

1. Qisqa (lo'nda)
  2. O'rtacha miqdordagi
  3. Katta (uzun)
- Tuzilmaviy o'ziga xos xususiyatlari
1. Tuzilmalangan
  2. Tuzilmalanmagan
- O'quv topshirig'ini taqdim etish usuli
1. Savolli
  2. Keys-topshiriq
- Didaktik maqsadlari
1. Muammo, yechim yoki konsepsiyani izohlash
  2. Treningli, o'quv mavzui/predmeti bo'yicha malaka va ko'nikmalar orttirishga mo'ljallangan
  3. Tahlil va baholashga o'rgatuvchi
  4. Muammoni ajratish va yechish, boshqaruvchilik qarorlari qabul qilishga o'rgatuvchi
  5. Vaziyat sub'yekti rivojining yangi strategiyalari va yo'llari, yangicha baholash uslublari va shu kabilarni ishlab chiqishga rag'batlantiruvchi
- Rasmiylashtirish usuli
1. Bosma
  2. Elektron
  3. Video-keys
  4. Audio-keys
  5. Multimedia-keys

Agar talabalar keyslarda bayon qilingan hodisalar bilan bog'liq bo'lgan muhit va sohani yaxshi bilsalar, ular o'zlarini ancha ishonchliroq his etadi. Ularning, masalan, amerikalik yoki boshqa xorijiy iste'molchilar fe'l-atvori va motivlarini muhokama qilishi ancha qiyin kechadi. O'qituvchi ham o'zi sub'yektini yaxshi biladigan keys muhokamasiga mohirona rahbarlik qiladi. Har qanday holda ham bunday keyslar muhokamasida korxonalar – keys ob'yekti vakilini talif qilishdek noyob imkoniyat mavjud bo'ladi.

Ushbu tasniflash asosiga ko'ra keyslar ikki turda bo'ladi:

Savolli keys – uning yechilishida talabalar vaziyat bayon qilinganidan keyin qo'yiladigan savollarga javob berishi kerak.

Keys-topshiriq - keysni hal qilish jarayonida bajarilishi lozim bo'lgan vazifa yoki topshiriq, odatda vaziyat bayonigacha qo'yiladi.

Ushbu tasniflash asosiga ko'ra keyslarning besh turi farqlanadi:

1. Muammo, yechim yoki konsepsiyani izohlovchi keys. Taniqli va muvaffaqiyat bilan ishlaydigan korxonalar (kompaniyalar)ning uzoq muddat davomidagi ish faoliyatini bayon qiladi (maqsadlari, strategiyalari, mahsulot modifikatsiyalari, turli bozorlardagi ishi va boshqalar).

Bunday keysning ta'limiy maqsadi – misol orqali o'qitish. Rejalashtiriladigan o'quv natijalari – to'g'ri qabul qilingan qarorlarni eslab qolish,

taniqli va muvaffaqiyat bilan ishlaydigan korxonalar va tarmoqlarning amaliyoti bilan tanishish.

2. Treningsli, o'quv mavzui/predmeti bo'yicha malaka va ko'nikmalar orttirishga mo'ljallangan. Uning ta'limiy maqsadi - talabalarga biror bir harakatlarni bajarish algoritmini o'rgatish.

Talaba quyidagilarni o'rganishi kerak: muayyan model/ formula/hisob-kitob algoritmini qo'llash, berilgan odatiy vaziyatda yagona to'g'ri qarorni qabul qilish.

3. Tahlil va baholashga o'rgatuvchi. Keysda aniq vaqt davridagi vaziyat bayon qilingan, vaziyat sub'yekti oldida turgan muammolar aniqlangan va aniq ifodalangan.

Talaba vaziyatni tushunishi, tahlil qilishi va baholashi, qo'yilgan muammo yuzasidan qaror qabul qilishi lozim.

4. Muammoni ajratish va yechish, boshqaruvchilik qarorlari qabul qilishga o'rgatuvchi. Murakkab bayon qilingan vaziyatga ega. Muammo vaziyatga kiritiladi-yu, lekin aniq namoyon bo'lmaydi. U statistik ma'lumotlar, korxonalar hisobotlari, bo'linmalar rahbarlari nutqlari va shu kabilarda taqdim etilgan.

Talabalar muammoni aniqlashi va ifodalashi, uni hal etish usullari va vositalarini ko'rsatishi kerak.

5. Vaziyat sub'yekti rivojining yangi strategiyalari va yo'llari, yangicha baholash uslublari va shu kabilarni ishlab chiqishga rag'batlantiruvchi. Bunday keysning o'ziga xos xususiyati shundaki, boshqaruvchilik muammosi korxonalar faoliyatining muayyan turiga, muayyan asosiy shart-sharoitlarga bog'lab bayon qilinadi.

Talabalar vaziyat sub'yektini rivojlantirishning yangi strategiyasi va yo'llarini topish talab qilinadi. Bunday keysdagi vaziyatda axborotning bir qismi bo'lmasligi mumkin. Axborotga ehtiyojni aniqlash va uni topish – talabalar yana bir vazifasidir. Keyslar talabalarga turli shaklda taqdim etilishi mumkin: bosma, elektron, video-keys, audio-keys, multimedia-keys.

O'qitish amaliyotida, odatda, bosma shakldagi va elektron tashuvchilardagi keyslar qo'llaniladi – bunday shakldagi axborot bilan ishlash audio- yoki video-variantlardagiga nisbatan qulay va tahlil qilish osonroq. Bundan tashqari, ko'p martalab interaktiv ko'zdan kechirish imkoniyatlarining cheklanganligi birlamchi axborotning buzilishi va xatolarga olib kelishi mumkin. Multimedia – keyslarning imkoniyatlari yuqorida ko'rsatilgan qiyinchiliklarning oldini olishga imkon beradi va o'zlarida matnli axborot va interaktiv video-tasvir ustunliklarini mujassam etadi.

## **ERKIN VOHIDOV IJODINI YANGI PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA O'RGANISH USULLARI**

*Rahmataliyev Sherzod,  
JDPI magistranti*

XX asr adabiyoti boshqa davr adabiyotlariga qaraganda ijodkorlarining ko'pligi, mavzularining kengligi bilan ajralib turadi. Bu davrda yaratilgan asarlar



ichidan biz o‘lmas, durdona namunalarni ko‘plab topa olamiz. Ayniqsa, Erkin Vohidov ijodi o‘zining originalligi, salmoqdorligi bilan ko‘zga tashlanadi. Maktab talimida ham Erkin Vohidov ijodi bir necha bosqichlarda o‘rganiladi. Jumladan, 5-va 6-sinf darsliklarida shoirning bolalar yoshidan kelib chiqqan holda asarlaridan namunalar berilgan. 5-sinf darsligida sodda va ravon tilda yozilgan “Nido” dostonidan parcha berilgan bo‘lib, o‘quvchilar bu darslarda quyidagi BKMLarga ega bo‘lishlari talab etiladi:

“Nido” dostonida insoniyat boshiga tushgan eng ulug‘ falokat – ikkinchi jahon urushi keltirgan balolarning murg‘ak o‘smir taqdirida qoldirgan izining aks ettirilishi. Dostonda bola tabiatining g‘oyat nozik jihatlari haqqoniy tasvirlanganligi. Dostonda ifodalangan urush va u keltirib chiqargan fojialarga nisbatan nafratning uyg‘otilishi. Asarda otasidan ajralgan bola ichki kechinmalari, hissiyotlarining samimiy va ta’sirchan ifodalanganligi.

Doston nomining ramziyligi.

Dostonning badiiy xususiyatlari. Unda qo‘llangan nido (murojaat), o‘xshatish, istiora, jonlantirish, so‘zlar takrori singari tasvir vositalarining o‘rni va ahamiyati.

Asarning til xususiyatlari.

#### **5-sinf Adabiyot IV chorak Darsning texnologik xaritasi**

<b>Mavzu</b>	<b>Erki E. Vohidovning “Nido” dostonini o‘rganish.</b>
<b>Maqsad va vazifalar</b>	<p>“Nido” dostonini tahlil qilishga o‘rgatish;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- o‘quvchilarni yuksak insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash, ma’naviy dunyolarini kengaytirish;</li> <li>- o‘quvchilar qalbida ezgu insoniy fazilatlarni uyg‘otish;</li> <li>- o‘quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg‘otish, ularda mavzu asosida bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, kengaytirish;</li> <li>- mavzuga oid materiallarni, berilgan topshiriqlarni o‘quvchilar tomonidan yakka va guruh tarzida, slaydlar, ko‘rgazma qurollar vositasida qay darajada o‘zlashtirilganligini nazorat qilish, ularning bilimni baholash.</li> </ul>
<b>O‘quv materiali mazmuni</b>	<p>Erkin Vohidovning “Nido” dostonining mazmuni, bolalar ruhiyati, urush va uning oqibatlari, qahramonlar tabiati va ruhiyatidagi yaxshi, ezgu sifatlar, to‘g‘rilik, mardlik, irodalilik, pahlavonlik hamda uning aksi bo‘lgan zulm-zo‘ravonlik, shafqatsizliklarning inson hayotiga ta’siri va natijasi.</p>

<b>O'quv jara yonini tashkil etish texno logiyasi</b>	<p><b>Shakl:</b> interfaol mashg'ulot: suhbat-ma'ruza, yakka va guruhlarda ishlash.</p> <p><b>Metod:</b> "Kichik guruhlarda ishlash", matn bilan ishlash, savol-javob, fikr almashuvi.</p> <p><b>Vosita:</b> darslik, slaydlar, Erkin Vohidov asarlari, kartochkalar, videoproektor.</p> <p><b>Usul:</b> ifodali o'qish, bahs-munozara.</p> <p><b>Nazorat:</b> kuzatish, nazorat savollari, nazorat mashqlari.</p> <p><b>Baholash:</b> rag'batlantirish, o'z-o'zini baholash, ball tizimi.</p>
<b>Kutiladi-gan natijalar</b>	<p><b>O'qituvchi:</b> Mavzuni qisqa vaqt ichida barcha o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishiga erishadi O'quvchilar faolligini oshiradi. O'quvchilarda fanga nisbatan qiziqish uyg'otadi. O'quvchilar tomonidan mavzuni mustaqil o'rganish va uni xotirada saqlashga, boshqalarga yetkazish, savol berish va savollarga javob berishga o'rgatadi.</p> <p><b>O'quvchi:</b> Yangi bilimlarni egallaydi. Erkin Vohidovning "Nido" dostonini o'rganish orqali o'quvchida ezgulik, iroda, jasorat kabi axloqiy fazilatlar shakllanadi, ma'naviy barkamollik tushunchasi kengayadi.</p>
<b>Kelgusi rejalar</b>	<p><b>O'qituvchi:</b> Navbatdagi suhbat uchun mashg'ulot materiallarini qaytadan ko'rib chiqish, mashg'ulotni tahlil qilish, mavzuni qo'shimcha ma'lumotlar bilan boyitish, mashg'ulot metodikasi va texnikasiga o'zgartirish kiritish, pedagogik texnologiya usullarini darsda tatbiq etishni takomillashtirish, pedagogik mahoratini oshirish, keyingi mashg'ulotni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish.</p> <p><b>O'quvchi:</b> "Nido" asarini yana bir marotaba o'qib, asar mazmuni yuzasidan taassurot yozish.</p>

### Darsning borishi:

- tashkiliy qism;
- yangi mavzuning bayoni. "Nido" dostoni haqida ma'lumot;
- doston matni ustida ishlash;
- guruhlarda ishlash. Fikrlar himoyasi;
- savol va topshiriqlar ustida ishlash. Mustahkamlash;
- uyga vazifa.

#### 1. Tashkiliy qism.

Dars boshlangach, o'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashadi. Davomat aniqlanadi. Sinf xonasi tozaligi tekshiriladi. O'quvchilarning darsga tayyorgarlik darajasi tekshiriladi.

#### 2. O'tgan mavzuni takrorlash.

Oldingi darsda biz Abdulla Avloniyning hayoti va ijodi hamda Vatanni suymak" lavhasi haqida suhbatlashgan edik. O'tgan mavzu „Tushunchalar tahlili“ metodi vositasida so'raladi (Slayd orqali namoyish etiladi). Birinchi

ko‘rinishda o‘quvchilarga faqat sanalar yozilgan jadval namoyish etiladi. O‘quvchilar bu jadvalning ikkinchi qismini to‘ldirishlari kerakligi aytiladi:

Sana	Muhim voqealar
1878-yil 12-iyul.	
1909-yil.	
1909-yil.	
1907- yil.	
1913- yil	
1917-yil.	
1934-yil 24-avgust	


O‘quvchilar ushbu jadvalni to‘ldirib bo‘lgach, yonida o‘tirgan partadosh sinfdoshi bilan almashadi. Keyingi slaydda yozilgan sanalarda Abdulla Avloniy hayoti va ijodiga oid ma‘lumotlarning to‘liq holati namoyish etiladi. O‘quvchilar bu ma‘lumotlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini aniqlaydilar. Bu jarayonda ko‘proq o‘quvchining o‘zi mas’ul bo‘lishi darsga bo‘lgan qiziqishni oshiradi.

Sana	Muhim voqealar
1878-yil 12-iyul.	Abdulla Avloniy tug‘ilgan sana.
1909-yil.	Kambag‘al, yetim-yesirlarga ko‘mak beruvchi “Jamiyati xayriya” uyushmasini tashkil etdi.
1909-yil.	„Birinchi muallim“, „Ikkinchi muallim“ darsliklarini yaratdi.
1907- yil.	Dastlabki nashrlardan biri „Shuhrat“ gazetasini chiqardi.
1913- yil	„Turkiy Guliston yoxud axloq“ asarini yozdi.
1917-yil.	Birinchi o‘zbek teatr truppasi – „Turon“ tashkil etdi.
1934-yil 24-avgust	Adib vafot etgan.

**3.Yangi mavzu bayoni.** Dastlab o‘quvchilarga aqliy hujum metodidan foydalangan holda savol bilan murojaat etiladi. Erkin Vohidovni taniysizmi? O‘quvchilarning bergan javoblar tinglanadi va umumlashtiriladi.

Erkin Vohidovning hayoti va ijodi, “Nido” dostoni bo‘yicha darslikda berilgan materiallar asosida tushunchalar beriladi:

4. **Mustahkamlash** : “Venn-diagrammasi”



Mavzuga oid bilimlar yana bir marotaba mustahkamlab olinadi:

1. “Nido” dostoni orqali shoir aytmoqchi bo‘lgan muddao nima?
2. Urush tugaganidan so‘ng oradan yigirma yil o‘tgan bo‘lsa ham shoir nega u yillarni alam bilan eslayapti?
3. Urushning oddiy qishloq boshiga solgan fojialari qaysi misralarda tasvirlangan?
4. Bugungi kunda tinchlikka tahdid soluvchi qanday yovuz kuchlar bor va ularga qarshi nima ishlar qilishimiz kerak?

#### **5.O‘quvchilar baholanib, uyga vazifa beriladi :**

**Uyga vazifa:** “Nido” dostonidan o‘zingizga yoqqan parchani yodlash

### **RUS VA YEVIROPA TILLARIDAN O‘ZLASHGAN QURILISHGA OID ATAMALARNI “TOIFALASH” TEXNIKASI YORDAMIDA O‘RGANISH**

*Nomurodov Bobur,*

*JDPI magistranti*

*Ilimiy rahbar, f.f.n. dots. J.Jo‘rayev*

O‘zbek tili leksikasi fan-texnika, san‘at, ishlab chiqarishning taraqqiyoti bilan bog‘liq holda boyib boradi. Tilning lug‘at tarkibi ikki manba asosida boyiydi.

1. O‘zbek tilining ichki imkoniyatlari asosida (ichki manba). Bunda so‘z yasash orqali yangi so‘zlar hosil qilinadi: sinfdosh, limonzor, vazirlik, ijarachi, tinchliksevar, MDH, BMT kabi. Ichki imkoniyatga shevalardan adabiy tilga so‘z olish ham kiradi: aya, bolish, uvildiriq (ikra) kabi.

2. Boshqa tillardan so‘z olish (tashqi manba). O‘zbek tiliga boshqa tillardan so‘z o‘zlashtirish turli davrlarda turlicha bo‘lgan. Eng qadimda fors-tojik tillaridan, keyinroq arab tilidan, undan ham keyinroq rus tilidan va rus tili orqali YEVIROPA tillaridan so‘z o‘zlashtirish faollashgan. O‘zlashgan so‘zlar ham o‘zbek tili

leksikasida anchagina miqdorni tashkil etadi. Keyingi yillarda tilning leksik tarkibini soʻz yasashdan koʻra boshqa tillardan soʻz oʻzlashtirish hisobiga boyishi yetakchilik qilmoqda.

Boshqa tillardan soʻzlar ikki usul bilan oʻzlashtiriladi: 1) soʻzni aynan olish yoʻli bilan; 2) kalkalab olish yoʻli bilan.

Soʻzni aynan olish yoʻli bilan tojik, arab tillaridan, shuningdek, rus tillaridan, rus tili orqali boshqa Evropa tillaridan koʻproq oʻzlashtirilgan. Masalan, sinch, devor, yana, rubob, kitob, maktab, daraxt, mutolaa, muomala, traktor, sport kabi.

Kalkalab oʻzlashtirishda soʻz aynan olinmaydi, balki soʻzning maʼnosi oʻzlashtiriladi. Ikkinchi tildagi soʻzning maʼnosi shu soʻzning morfemik tarkibidan qismma qism nusxa koʻchirish orqali ifoda etiladi. Kalkalab oʻzlashtirishning 2 xil yoʻli bor:

1. Toʻliq kalka. Bu usulda oʻzlashtirilayotgan soʻzning barcha qismlari oʻz til materialidan tuziladi. Masalan: polugramatniy – chalasavod, vsesoyuzniy – butunittifoq.

2. Yarim kalka. Bu usulda oʻzlashtirilayotgan soʻzning bir qismi aynan saqlanib, bir qismi oʻz til orqali beriladi. Traktorist – traktorchi, tabelshik – tabelchi kabi.

Yarim kalkada baʼzan oʻzlashtirilayotgan soʻzning bir qism tashlanib, qolgan qismi aynan olinadi: aktualniy – aktual kabi.


Oʻzga til soʻzidagi maʼno oʻz tildagi soʻz bilan berilsa, bu semantik kalka deb ham yuritiladi. Masalan, boʻgʻin soʻzining ruscha «ponolenie» maʼnosi.

Rus va Yevropa tillaridan oʻzlashgan qurilishga oid atamalar<sup>6</sup>: *Ansambl* (fransuz), *Arxitektonika* (yunon), *Interyer* (fransuz), *Koloinada* – (fr. *Colonne*, lot. *Columna*), *Tambur* (fransuz), *Karniz* - (nemis). *Karnies* < yun. *karonis* — *tugallash*, *Linga* (rus) *krujalo*), *Konservatsiya* (lotin), *Lyuk* (goll. *Luik*), *Sokol* (ital. *zoccolo*), *Siluet* (rus), *Arka* (lot), *Kafel* (nemis. *Kachel*), *Fasad* (fr. *facade* < ital. *facciata* — old) va *hakazolar*.

<sup>6</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш томлик. Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти. 2006. Atamalar ushbu manbadan olingan.



### TOIFALASH JADVALI



1. Toifalar bo'yicha ma'lumotlarni taqsimlashning yagona usuli mavjud emas.
2. Bitta mini - guruhda toifalarga ajratish boshqa guruhda ajratilgan toifalardan farq qilishi mumkin.
3. Ta'lim oluvchilarga oldindan tayyorlab qo'yilgan toifalarni berish mumkin emas bu ularning mustaqil tanlovi bo'la qolsin

<i>Yevropa tillaridan o'zlashgan qurilishga oid atamalar</i>		
<i>Fransuzcha</i>	<i>Lotincha</i>	<i>Italiyancha</i>

### **Rus va Yevropa tillaridan o‘zlashgan qurilishga oid atamalar:**

**Ansambl** (fransuz) -birga, birgalikda; birlik, uyg‘unlik, ohangdoshlik] 1 O‘zaro mos va uyg‘un qismlarning birikuvidan iborat bino va inshootlar majmui. Shahar markazida ulug‘vor arxitektura ansambllari barpo etildi. «Fan va turmush»

**Arxitektonika** (yunon) Agspkektke- qurilish (san‘ati)] snt., arxit. San‘atda, xususan arxitekturada bir butunning ayrim qismlari o‘rtasidagi uyg‘unlik, mutanosiblik, moslik; badiiy elementlarning o‘zaro monandligi, moslashuvi.

**Interyer** (fransuz) - arxit. Turarjoylar, jamoat va sanoat binolari va inshootlarining me‘moriy va badiiy jihatdan bezatilgan ichkari qismi.

**Kolonnada** – (fr. Colonne, lot. Columna - ustun; qoziq.1 arxit. Imoratning tomi, peshtoqi, ichki qismlari va shu kabilarni ko‘tarib turishga xizmat qiladigan, asosi aylana yoki to‘g‘ri to‘rtburchak shaklida bo‘ladigan tayanch, ustun. U [qorovul] qaytib kelganda, novcha kishi imoratga uzoqdan ko‘zini goh qisib, goh katta ochib qarar, pakana yigit uning kolonna va devorlariga chertib, deraza va eshiklarining bo‘yog‘ini tirnab, hidlab ko‘rar.. edi. A. Qahhor, Asarlar. Derazalari keng va eshik oldi oppoq chiroyli kolonnalar bilan bezalgan klub binosi. Oybek, Oltin vodiya shabadalar.

1. Harbiy xizmatchilar yoki harbiy bo‘linmalarning birin-ketin tizilgan safi.

**Tambur** [fr. tambour — gumbazning asos (aylana) qismi; doira] 1 t.y. Temir yo‘l vagonining kiraverishdagi dahlizchasimon bo‘lmasi. Alohida vagonga qo‘shimcha soqchilar qo‘ydi. O‘zi ham shu vagon tamburiga ko‘chib o‘tdi. H. G‘ulom, Mash‘al. 2. arxit. Binolarning tashqi eshiklari oldiga qurilgan kichik xona, dahliz.

**Karniz-** (nemis). Karnies < yun. karonis - tugallash] 1. Bino devorining ustki qismida yoki eshik, deraza ustida gorizontol holda turtib chiqqan qism. Hozir Olmaliq quruvchilari.. karniz va to‘sinlar. va hatto simyog‘ochlarni ham temir-betondan yasamoqdalar.

2. Ship, bo‘g‘ot ostidagi taxta, yog‘och yoki ganchdan qilingan uzun gorizontol bezak; piramon karnizi faqat to‘rt enlik chi qarilgani uchun, yomg‘ir-sochin devor suvoqla rini yuvib ketadi.. «Mushtum».

3. Deraza yoki eshik tepasida parda osish uchun yog‘och yoki metall dan qilingan dor

**Linga (rus) krujalo)**-yog‘och va gumbazlarning andozasi.

**Konservatsiya (lotin)** -ta‘mirning asosiy turi. Qadimiyat asori atiqalarini saqlab qolish uchun ko‘riladigan choralar. Binoni yanada buzilib ketishini oldini olish uchun maxsus qurilish choralari ko‘riladi.

**Lyuk** (goll. Luik) Biror narsaning ichiga kirish, tushish va sh.k. uchun xizmat qiladigan, qopqoq bilan berkitiladigan tuynuk, teshik. Tepadagi lyukdan paxta bamisoli laylak qorday tushib tursa ham, odamlar ishni to‘xtatib.. behol yotgan bir ishchining tepasida nima qilishlarini bilmay turishardi.

K. Yashin, Hamza. Nemis tanki ostida granata portladi. Bir necha sekunddan keyin lyuk ochilib, qop-qora tutun burqsidi. A. Qahhor, Oltin yulduz Fasad \fr. facade < ital. facciata — old] arxit. Uy, binoning old tomoni. Xaloyiq gurullab,

fasaddagi singari chiroqlar bilan yoritilgan foyega va undan uch eshik orqali zalga kirdi. A. Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari.

**Sokol** (ital. zoccolo) 1. arxit. Bino, inshoot tashqi devorining, haykal va sh. k. ning fundament ustiga qurilgan va yuqori qismig‘a nisbatan oldinga bir oz turtib chiqqan pastki qismi. Bino sokoli. Sokol plitasi. sht Sokol pishiq g‘isht, beton yoki temir-beton bloklardan ishlanadi. “O‘zME”.

**Siluet** (ingliz) -binoning uzoqdan g‘ira-shira yoki umumiy ko‘rinishi. **Arka** [lot. agsiz — yoy, yoysimon egik] 1 arxit. Tepasi yarim doira shaklida solingan darvoza, eshik, deraza va sh.k. 2 Shunday darvoza shaklidagi hashamatli inshoot. Qo‘rg‘onga kiraverishda baland yog‘och arka bor. Arkaga: «Urganch rayonidagi Oxunboboyev nomli kolxoz» deb yozilgan. 3. Sotiyev, Yurak so‘zlari.

**Kafel** (nem. Kachel ) Koshin; devorga qoplash uchun ishlatiladigan sirlangan sopol taxtacha. Kafel o‘g‘risi jarimani kafilga qo‘yib, arang qutuldi. «Mushtum».

O‘zbek tilining, jumladan, qurilish terminologiyasining boyib borishiga rus tili katta ta’sir ko‘rsatdi, chunki “Hozirgi rus tili grammatik va ilmiy jihatdan eng rivojlangan tillardan biridir. Bizning zamonamizda rus tili eng muhim manbaga aylandi. Xalqaro lug‘at boyligini boyitish, dunyo bo‘ylab tushunchalar hamda fan va madaniyat atamalarining keng tarqalishi. So‘z boyligining beqiyos boyligi, grammatikaning rivojlanishi, uslubiy imkoniyatlarning tuganmasligi, keng ilmiy terminologiya – bularning barchasi ham lug‘atdan foydalanishga yordam berdi.

Xulosa shuki, o‘zbek tili leksikasi XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab rus tili va u orqali Yevropa tillaridan leksema o‘zlashtirish hisobiga qurilishga oid atamalar boyib borgan va bugungi kunda ham bu jarayon faol davom etmoqda. Shunga ko‘ra, ishonch bilan aytish mumkinki, hozirgi o‘zbek tili leksikasida rus tili va u orqali Yevropa tillaridan o‘zlashmalar katta miqdorni tashkil etadi, ayniqsa, iqtisodiyot va kompyuter texnologiyalariga oid o‘zlashmalarning o‘zlashishi juda kuchli. Ular aynan, ya’ni hech qanday o‘zgarishsiz hamda kalkalab o‘zlashtirilmoqda.

## MAKTABDA O‘TKIR HOSHIMOV ASARLARINI O‘QITISH ORQALI O‘QUVCHILARNING UMUMMADANIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

*Kurbanova Zaynab Burxanovna,  
JDPI magistri*

O‘zbek adabiyotining keyingi yarim asrlik taraqqiyotida, ayniqsa prozachilik rivojida taniqli adib O‘tkir Hoshimovning ham munosib hissasi bor. Uning yuzdan ortiq hikoyalari, o‘nlab qissalari, millatimizning yaqin o‘tmishi va bugungi hayotini bor murakkabliklari bilan tasvirlagan uchta romani nafaqat o‘zbek kitobxonlari, balki jahondagi ko‘pgina adabiyot muxlislariga tanish. Taniqli adabiyotshunos U.Normatov o‘zining «Umidbaxsh tamoyillar» kitobida shunday yozgan edi: «...istiqlol yillarida sho‘rolar davrida ijod qilgan ko‘pgina yozuvchilar

o'zlarining avval yaratgan asarlarini mustaqillik mafkurasi nuqtayi nazaridan qayta tahrir etishga majbur bo'ldilar. Ammo O'tkir Hoshimov asarlari bunday tahrirlarga ehtiyoj sezmadik».

Haqiqatdan, O'tkir Hoshimov ilk ijodidan boshlab o'sha davrlarda panja orasidan qaralgan masala – millat ma'naviyatiga daxldor muammolarga diqqat qaratdi va yetuk ijodkor sifatida e'tirof etilgan paytlarida ham bu mavzu ijodining markaziy nuqtasi bo'ldi. Adib dastlabki yillarda o'z asarlarida, asosan, yoshlarning ma'naviy olamiga, ularning qiziqishlari-yu orzu-armonlarini tasvirladi.

O'zbek adabiyotida 60-yillar vakillaridan birinchilar qatorida O'tkir Hoshimov inson ichki olami, ma'naviy dunyosi sarhadlariga diqqatni qaratdi. Asarlaridagi quyma obrazlar orqali ijtimoiy masalalar bilan birga ma'naviyatga, millatimizning asrlar bo'yi saqlab kelgan va avlodlarga meros qilib qoldiradigan milliy an'analarimiz hamda qadriyatlarmizni tasvirlashga harakat qildi. Adabiyot insonning ma'naviy olamini yuksalishiga bivosita xizmat qiladi. Bu haqida Prezident I.A. Karimov alohida qayt etganidek: “Bir so'z bilan aytganda, xalqimiz adabiyotni muqaddas va ulug' bir dargoh deb biladi. Ana shunday bahoning o'zi el-yurtimiz hayotida bu soha namoyondalariga, ularning haqqoniy so'zi, chuqur ma'noli asarlariga ishonch, hurmat-e'tibor va ehtrom azaldan yuksak darajaga ko'tarilganini yaqqol ko'rsatib turibdi”.

O'tkir Hoshimov olamning go'zalligi, insoniyatning shu go'zallikka munosabatini, mohiyati va qadr-qimmatini butun ijodi badiiy to'qimalariga yoyilib ketgan milliy ma'naviyat ifodasiga singdiradi. Odamzodning ruhiy barkamolligi, ezgu maqsadi haqida falsafiy teran tasvir yo'nalishi adib dunyoqarashi va nazariy tasavvuri kengligidan dalolat beradi. Shuning uchun ham ijodkorning har bir asarida xoh u kichik janr bo'lsin, xoh yirik hajmli badiiy polotno bo'lsin, e'tiqod, oqibat va mehr-muhabbat tushunchalari talqini markaziy chiziqni tashkil etadi. To'g'rirog'i, sog'lom e'tiqod qahramon xarakterining uzviy qismiga aylanadi. Tasvirdagi ravshanlik esa aynan kichikdan kattaga, xususiy hodisalardan hayotiy umumlashmalarga intilishga moyillikning kuchliligi bilan izohlanadi. O'z navbatida, yozuvchi g'oyaviy munosabati xalq ruhiyati, milliy urfodatlarini atroflicha tahlil qilish vositasida oydinlashadi. Bu munosabat insoniyat kelajagiga ishonch bilan qarash, uni idrok etish va tushunish nuqtayi nazaridan uslubiy yaxlitlik kasb etadi. Aslida uslubning asl mazmuni ham millat irodasi va maqsad-intilishlarini chuqur o'zlashtirishga borib taqaladi. Chunki mazkur tushuncha xarakterli belgini axtarish va unga urg'u berish mushtarakligidan oziqlanadi.

Prof. O.Sharafiddinov O'.Hoshimov asarlarini jozibador qilgan, ularga o'ziga xos badiiy tarovat baxsh etgan ikki xususiyatini ko'rsatadi. Ulardan biri, adib badiiy asarni yengil targ'ibot vintchasiga aylantirmasligi bo'lsa, ikkinchisi, asardan kelib chiqadigan muammolarning hammasi eng murakkab savollarga javob izlash kishini hayajonga soluvchi yuksak badiiy shakllarda amalga oshirilishidir. Taniqli adabiyotshunosning mulohazalarini to'ldirgan holda aytish mumkinki, lirik hissiyot ko'lami adib izlanishlarining tabiiyligi yuzaki bayon, sxematik ifodadan xoli bo'lishini ta'minlaydi. Shaklning o'zgaruvchan tabiati

ehtirosning yuqori pardalarda berilishi bilan uyg'unlashib O'.Hoshimov ijodining badiiy yaxlitligini ta'minlaydi.

O'tkir Hoshimov asarlarining g'oyaviy bazasini insonning ijtimoiy, ma'naviy, ruhiy mohiyati tashkil etadi. Bu uchlik estetik nuqtai nazarning milliy an'analarga munosabat yordamida ijodiy yaxlitlik kasb etadi. Adibning xarakter yaratish mahorati va ularning ruhiy dunyosini kashf etish darajasi an'analarning uzviy aloqadorligi mahsulidir. Ma'lumki, madaniyat tushunchasi har bir xalqning turmush-tarzi, yashash shart-sharoitlari, ijtimoiy-estetik tafakkuri singari kategoriyalarni qamrab oladi. To'g'rirog'i, madaniyat bu hayot tezisiga suyanagan holda, aytish mumkinki, har bir millatning o'ziga xos tabiati, asrlar davomida shakllangan urf-odatlar o'zgachaligi, an'analar barqarorligi demakdir. Mentalitetga xos xususiyatlar milliy qadriyatlar timsolida hayot o'zgarishlarining ulkan ma'naviy patensialini jamlaydi. Aniqrog'i, psixologik kechinmalar va boy tajribalarning sintezi tarzida paydo bo'ladigan hamda rivojlanadigan an'ana xalqning betakror ruhiy olami butunligini ta'minlaydi. Bu betakror ruhiy olam ijodkor ijodida ham aks sado beradi. Shu ma'noda har bir adib izlanishlarida milliy motivlar va ulardan foydalanish darajasi chuqur nazariy bilim hamda adabiy mahorat mushtarakligiga borib taqaladi.

Adib biz uchun katta adabiy-badiiy meros qoldirdi. Yarim asr davomida radio va teledasturlarda o'zining dolzarb mavzulardagi ma'naviy, publitsistik, badiiy chiqishlari bilan xalqimiz e'tirofiga sazovor bo'ldi. Uning "Urushning so'nggi qurboni", "Dehqonning bir tuni" hikoyalari, "Cho'l havosi", "Qalbingga quloq sol", "Shamol esaveradi", "Odamlar nima derkin", "Bahor qaytmaydi", "Dunyoning ishlari" qissalari, "Nur borki, soya bor", "Ikki eshik orasi", "Tushda kechgan umrlar" romanlari, "To'ylar muborak", "Inson sadoqati" kabi dramatik asarlari esa xalqimizning qalb to'ridan joy egallagan.

O'tkir Hoshimov asarlari badiiyati hamon oddiy kitobxondan tortib, adabiyotshunos, munaqqid olimlargacha o'ziga maftun etib kelmoqda. Yosh iqtidorli yozuvchilar uchun esa mahorat maktabi vazifasini o'tamoqda. Yozuvchi nazarida "Asarning haqiqiy egasi yozuvchi emas. Asarning haqiqiy egasi – o'quvchi! Kitobxoni yo'q asar egasi tashlab ketgan hovliga o'xshaydi..." ("Daftar hoshiyasidagi bitiklar"). Adib qurgan "uy"da esa yangi-yangi avlodlar yashab kelmoqda, o'zlariga ma'naviy panoj olmoqda.

O'tkir Hoshimov Ernest Xemenguey aytganiday, yozuvchi uchun yetarli bo'lgan "ozgina iste'dod va baxtsiz bolalik" tuhfasidan benasib qolmadi. U mehnat faoliyatini maktab ta'limidan keyin oliy ta'lim tahsili bilan emas, ro'zg'orning moddiy ta'minotini tiklashdan boshladi. Mazkur hayot tashvishlari, og'ir mehnat mashaqqatlari yozuvchini har tomonlama tobladi. Uning qalbida "inson iztiroblariga ta'zim" hissini uyg'otdi. Odamlar nazaridan tashqaridagi insonlar qismati, ya'ni quvonch-tashvishlari, xato va kamchiliklari bo'lajak adibning o'y-kechinmalariga mustahkam o'rnashib oldi.

Mashaqqatli mehnat bilan mashg'ul bo'lgan zamondoshlari dardu hasratlari bilan qiziqqan yozuvchi ijodini publitsistikadan boshladi. Bu boradagi xizmatlari hosilasi sifatida 1962 yilda "Po'lat chavandoz" nomli ocherklar to'plamini nashr



ettirdi. Adib oradan ko'p fursat o'tmay "Cho'l havosi" qissasi bilan respublikamizga tanildi. E'tiborlisi, bu qissaga mashhur yozuvchi Abdulla Qahhor xat orqali iliq munosabat bildirdi. "O'tkir! "Cho'l havosi"ni o'qib suyunib ketdim. Birdan lov etib alanga bilan boshlangan ijodning kelajagi porloq bo'ladi, qissa juda sof, samimiy, iliq, tabiiy, rohat bilan o'qiladi", deb yosh yozuvchiga katta dalda berdi, e'tirof etdi.

"Bahor qaytmaydi" yozuvchining qissachilikdagi dastlabki yutug'i hisoblanadi. Tabiiyki, kitob yetmishinchi yillarning eng belleteristik asari hisoblangan. Qissada xudbinlik, o'ziga ortiqcha bino qo'yish, kelajagini ko'ra olmaslik darajasidagi g'urur Alimardon To'rayevni fojiaga boshlagan bo'lsa, Muqaddamni boylikka bo'lgan g'ayritabiiy intilishi sof muhabbatidan – Anvaridan judo qiladi.

Abdulla Qahhor adabiyotni kasb emas, hunar, deb bejiz aytmagan. Kasb – tirikchilik yo'lida har kuni takrorlanib turadigan mehnat bo'lsa, hunar biri ikkinchisidan go'zalroq yaratiladigan san'at asaridir. Haqiqatan ham, O'tkir Hoshimovning asardan asarga o'sib borganligini uning qissalari misolida ko'rish mumkin. So'zimiz isboti sifatida ta'kidlash mumkinki, yozuvchi bor iqtidorini, so'zning sehrini, tilning jozibadorligini "Dunyoning ishlari" qissasida to'liq namoyon eta olgan. Yozuvchi ko'zlagan badiiy g'oya – davr g'oyasiga, falsafiy mushohadalari – hikmat darajasiga ko'tarilgan. Xarakterlar odob-axloqi, umuminsoniy qarashlari bilan asar qimmatini ikki hissa oshirgan.

Qissa avtobiografik xarakterdagi asar ekanligini O'tkir Hoshimov o'zining "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" va bir qancha suhbatlarida eslatib o'tadi. Farzandning, ayniqsa o'g'il farzandning ona oldidagi burchi bitmas-tuganmas ekanligi barchaga ma'lum. Shunday ekan, yozuvchining "Dunyoning ishlari"dagi onasi farzandlarning onasi timsoliga aylanib qoldi.

"Daftar hoshiyasidagi bitiklar" kitobida bir hayot hikmati keltiriladi: "Bolta bilan qalam bir-biriga o'xshaydigan buyumlar emas. Ammo xizmati jihatidan anchayin yaqin turadi.

Bolta – qotil qo'lida o'lim quroli. O'tinchi qo'lida mehnat quroli. Hunarmand qo'lida san'at quroli.

Qalam – hasadgo'y qo'lida o'lim quroli. Savodxon qo'lida mehnat quroli. Iste'dod qo'lida san'at quroli".

O'tkir Hoshimov ham o'z ijodiy faoliyatida qalamni san'at quroli sifatida ko'rdi. "O'quvchiga aytadigan dardi kuchli bo'lganligi bois ham" bu qalam ostidan chiqqan badiiy kashfiyotlar tili, badiiyligi, g'oyasi bilan hamon el koriga yarab kelmoqda.

Yozuvchi ijodidagi asarlarni tatbiq etish uchun maktab darsliklariga yozuvchining hayoti va ijod namunalarini kiritishgan. O'tkir Hoshimovning asarlarining mazmun-mohiyati orqali o'quvchilarning ta'limiy-tarbiyaviy, estetik va umuminsoniy kompetensiyasini shakillantirishimiz mumkin bo'ladi.

O'quvchilarda umuminsoniy kompetensiyani shakillantirish uchun dars jarayonida, joriy nazoratlar davrida og'zaki so'rov, uy vazifalarni bajarganligi, sinfdoshlarining tushuntirishlarini anglay olishi, bahsga kirishish kabilar orqali

shakllantirilsa, axborot bilan ishlash kompetensiyasini darslik va o'quv qo'llanmalar bilan ishlash, badiiy adabiyot, hodisa, qonun hamda qoidalar qo'llanilgan vaziyatlar to'g'risida axborotlarni izlab topish, ularni tushuntirish orqali shakllantirish mumkin. Shu bilan shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi ham shakllantirilib boriladi.

Avvalambor shuni anglashimiz joizki, umummadaniy kompetensiyalarni o'quvchilarda shakllantirish uchun fan sohasida buyuk kashfiyotlar qilgan olimlarning ibratomuz hayoti, fan rivojlanishi bilan insoniyatning umummadaniyati ham yuksala borishini ko'rsatish orqali amalga oshirilishi mumkin. Shu sababdan ham umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarining umuminsoniy kompetensiyasini shakllantirish vositasi sifatida O'tkir Hoshimovning hayoti yo'li va ijodini namuna sifatida nazariy talilini yoritib berdik.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Karimov I.A. Vatan va xalq mangu qoladi. –Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2010. –B. 136.
2. Said A. Ijod va jasorat. / Hoshimov O'. Tanlangan asarlar. 1-jild. –Toshkent: Sharq, 2009. – B. 10
3. Hoshimov O'. Tanlangan asarlar. 2-jild. –Toshkent: Sharq, 2009. – B. 5.
4. Normatov U. Ijod sehri. -T.: Ma'naviyat, 2006. -289 b.
5. Rasulov A. Yangi zamon yangi qahramon. -T.: Adabiyot va san'at, 1978.
6. Sarimsoqov B. Badiiyat asoslari va mezonlari.-T: Fan, 2004. -194 b.

### **UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O'TKIR HOSHIMOV HAYOTI VA IJODINING O'RGANISH**

*Nurbekova Sanobar Nurmatovna,  
JDPI magistranti*

*Ilmiy rahbar: f.f.f.d. (PhD) Parizod Turopova*

Maktabda badiiy asar o'rganilar ekan, uni ilmiy va didaktik tahlil etib xulosalar chiqarishga uruniladi. 5- sinfda O'tkir Hoshimov ijodi va uning "Dunyoning ishlari" asarini o'rganishga 4 soat vaqt ajratilgan. Birinchi darsda yozuvchi hayoti va ijodi haqida to'xtalib, "Dunyoning ishlari" asarining mazmun-mundariyasi aytib o'tiladi.


Adib haqida gap ketganda taniqli munaqqid Umarali Normatovning quyidagi fikrlari xarakterlidir. ilk qissasi "Cho'l havosidan" tortib, "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" kitobiga qadar, barcha asarlariga xos mushtarak holat shuki, ular betakror, benazir, sirli musiqiy ohang bilan yozilgan. Muallif qo'lidagi qalam go'yoki yozmaydi, balkim qalami uchidan so'zlar musiqa singari quyilib keladi; uning hikoya va qissalari she'rdek, dostondek o'qiladi, ular yasama so'zda chalingan dilrabo kuydek yangraydi, romanlari ko'p ovozli simfoniyani

eslatadi...”[1;149] Yuqoridagi fikrlardan ham ko‘rinib turibdiki, O‘tkir Hoshimov asarlari xalqchilligi, yuksak falsafiy mushohadaga boyligi bilan alohida ajralib turadi.

Ta‘lim jarayonida O‘tkir Hoshimov hayoti va ijodini o‘rgatib, o‘sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalashda adib asarlaridan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Bu asarlarni o‘qigan o‘quvchida tabiiy ravishda onaga, vatanga, yor-u do‘stga nisbatan cheksiz mehr-muhabbat, urush, jaholat kabi salbiy illatlarga nisbatan nafrat tuyg‘usi shakllanadi.

Demak, bemaolol aytish joizki, ta‘lim jarayonida O‘tkir Hoshimov ijodini o‘rgatish, komil inson tarbiyasida tayanch nuqta vazifasini bajara oladi. Bunday asarlarni topish, ularni maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari o‘quv dasturiga kiritish har jihatdan foydalidir. Shu o‘rinda bir savol tug‘ilishi mumkin. Xo‘sh, ularni o‘quvchiga yetkazish, asarning mazmun-mohiyatiga ularni oshno qilish uchun nima qilish kerak? Shu o‘rinda professor B.To‘xliyevning quyidagi fikrlariga e‘tibor qaratishni joiz topdik. B.To‘xliyev shunday deydi: “Adabiyot o‘qitish uchun maxsus fan kerakmi? Jamiyatda shunga ehtiyoj bormi? Ta‘lim bosqichlarida adabiyot fanini yaxshi o‘rganish va o‘rgatish uchun adabiyot muallimlari qayg‘urishi kerakmi yoki adabiyotshunoslarmi, pedagoglarmi yoki ruhshunos-psixologlarmi? Albatta, bunday savollarning keti uzilmaydi. Ular necha marotaba berilgan edi, bugun ham berilmoqda. Ularni ertaga berilmay qolishi amri-mahol”[2;3]. Asar qanchalik yaxshi yozilgan bo‘lmasin, uni o‘quvchiga yetkazib berish talabga javob bermasa, bu asarni bir uyum qog‘ozdan farqi yo‘q.


5-sinflarga adib hayoti haqida ma‘lumot berishdan avval, o‘quvchilar uchun hali notanish bo‘lgan adib shaxsiyatini gavdalantirish. Shularni inobatga olgan holda bir soatlik dars ishlanmasini shakllantirishga harakat qildik. O‘quvchilarga biror bir dars jarayoni tashkil qilinar ekan, bu avvalo, ma‘lum bir maqsad yo‘lida amalga oshiriladi. O‘tkir Hoshimov hayoti va ijodiga bag‘ishlangan dars jarayonini tashkil qilishda quyidagi maqsadlarni bajarishni oldimizga maqsad qilib belgiladik.



Ta‘limiy maqsad: O‘quvchilarga o‘zbek adabiyotining taniqli namoyondasi O‘tkir Hoshimov hayoti va ijodi haqida bilimlarni berish. Adibning o‘zbek adabiyoti xazinasiga qo‘shgan hissasi haqida ma‘lumot berish. O‘quvchi ongida yozuvchi shaxsiyatini shakllantirib, asarlarida ilgari surilgan umumbashariy g‘oyalarga ularni oshno qilish.

**Tarbiyaviy maqsad:** Mavzu mohiyati bilan o'quvchilarni tanishtirish jarayonida, yozuvchining bolalik yillari o'tgan davr, urush daxshatlari, zamon qiyinchiliklari haqida adibning o'z hayoti haqidagi fikrlarini keltirib, ushbu xotiralarni bugungi kun bilan solishtirish. Yozuvchi yashagan davr va bugungi kunda kundun-kunga chiroy ochib borayotgan istiqbolli kunlarni taqqoslash orqali, bolalarni vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash. Bundan tashqari asarlaridagi tasvirlar, qahramonlar holatini to'g'ri tahlil qilib, ularning qalb kechinmalarini o'quvchi guvohligida sharxlash orqali, bola qalbida ona mehri, vatanga sadoqat, ona tabiatga muhabbat kabi tuyg'ularni shakllantirib, har tamonlama yetuk komil insonni tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi maqsad:** mavzuni o'quvchilarga yetkazish mobaynida, o'quvchi faolligini birinchi darajaga ko'tarib, asarlar tahlilida, ularni asardagi voqea-hodisalarga munosabat bildirishga undab, o'quvchilarni mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish. Mavzudan nazarda tutilgan maqsadlarni, dars bosqichlarining ketma- ketligi asosida amalga oshirilishi, darsni talab darajasida shakllanishini taminlaydi. Dars bosqichlarining ketma-ketligini quyidagicha sxemalashtirib olamiz.



Yuqoridagi jadval asosida: Tashkiliy qism orqali o'quvchilar bilan salomlashib, ularning davomatini aniqlagandan so'ng, o'quvchilar diqqatini dars jarayoniga jalb qilish uchun, kundalik, yurtimiz hayotida yuz berayotgan yangiliklar haqida suhbatlashib dars jarayoniga bog'lash.

**Yangi mavzu bayoni:** O'tkir Hoshimov hayoti va ijodi hali o'quvchilarga notanish mavzu ekanligini hisobga olgan holda, sinf taxtasiga mavzu yozilgach, o'quvchilarga adibning hayot yo'li haqida ma'lumot beriladi. Bu jarayonda darsni adibning o'zi haqida yozgan xotiralaridan foydalanib boshlash, o'quvchini yangi darsni tez va oson o'zlashtirib olishini taminlaydi. Masalan: yozuvchi o'zi tug'ilgan yillar bilan bog'liq voqealarni quyidagicha xotirlaydi: "Oyim bir gapni ko'p aytardi: Sen tug'ilganingda qiyomat qoyim bo'lgan edi. Lagerdagi o'ris xotinlar urush boshlanibdi deb yig'lagan, men ammanniing buzog'i, hayron bo'lgandim. Urush allaqayoqda bo'layotibdi-yu, bular nega dod soldi degandim.

Keyin aqlim yetdi...” [3;71] bu adib hayotiga tegishli bo‘lgan tarjimai holdan ko‘rinib turibdiki, uning bolalik yillari ayni urush yillariga to‘g‘ri kelgan. Yozuvchining tug‘ilib o‘sgan joyi, ota-onasi haqida gap ketganda, adib “Mashaqqatli safar” tarjimai holda otasi va onasi haqida shunday yozadi: “Otam eskicha alifbodagi kitoblarni ham, zamonaviy gazetalarni ham muttasil o‘qib borar, kamgap, hiyla tajang, ammo nihoyatda haqparast odam edi... Onam- Hoshimova Hakima esa, otamning aksicha, nihoyatda yuvosh, juda mehribon edi. Qo‘shnining mushugi tug‘sa ham joni achigandir deb achinar, ko‘chada biror bola yig‘lab o‘tirgan bo‘lsa, albatta, tepasiga borib boshini silar, biror sabab bilan biz bolalarni qarg‘asa, o‘zi ham qo‘shilib yig‘lab yuborar, o‘sha zahoti ko‘nglimizni olishga harakat qilardi... onam ikki gapning birida maqol ishlatmasa turolmas, o‘ta sodda, o‘ta yuvosh bo‘lgani bilan ertaklarni, afsonalarni koni edi...”[4;6-7] adibning tarjimai holini bolalarga so‘zlab berish, yaxshi tarbiyaviy samara beradi va yozuvchini ularga qalban yaqinlashtirishga xizmat qiladi. O‘tkir Hoshimov ijodini o‘quvchilarga so‘zlab berish jarayonida, darslikda keltirilganidik yozuvchining ijodiy faoliyati 5-sinfdan boshlanganiga kuchliroq e‘tibor qaratish darkor. Chunki adib ijodini ayni o‘quvchilar yoshida boshlaganini eslatish, o‘quvchilar orasida badiiy ijodga moyili bor bolalarga ijobiy ta‘sir etadi. 5-sinf o‘quvchilari uchun dars jarayonini tashkil qilishda yozuvchi hayoti haqida, fikr yuritish bilan bir vaqtda, slaydlar asosida ushbu ma‘lumotlarni o‘quvchilarga ko‘rgazmali qurol sifatida yetkazib borish, yetkazilgan ma‘lumotlarni o‘quvchi ko‘proq esda saqlab qolishni ta‘minlaydi.

### RAQAMLARGA YASHIRINGAN SINOAT!


1441-Yil 5-avgust...?  
5-sinfda o‘qib yurgan vaqtidayoq....?  
1991-yil....?  
1996-yil....?  
2001-yil...?

Yuqoridagi jadval, raqamlarni mustahkamlash qismida, kompyuter va o‘quvchilar orasidagi savol-javob tariqasida beriladi. Bu slaydni o‘quvchilarga namoyish qilishdan oldin, shu ko‘rsatilgan sanalar bilan bog‘liq voqealarga, adib hayoti haqidagi ma‘lumotlarni yetkazish jarayonida alohida to‘xtalib o‘tiladi.

1441-yil 5-avgust....? → 5-sinfda o‘qib yurgan vaqtlaridayoq → 1991-yil... → 1996-yil.... → 2001-yil.... →	Adib tavallud topgan sana  She‘r mashq qila boshlagan O‘zbekiston xalq yozuvchisi unvoni Mehnat Shuhrati ordenini olgan Buyuk xizmatlari uchun ordenini olgan
--	--



O'tkir Hoshimovning "Cho'l havosi" qissasini o'qib, yozuvchiga asar uni suyuntirib yuborganini xat qilib yozgan, Abdulla Qahhorning bildirgan fikrlarini o'quvchilarga havola etish, o'quvchini adib ijodiga qiziqishini yanada oshiradi. A.Qahhor shunday yozgan edi: "O'tkir! „Cho'l havosi“ ni o'qib suyunib ketdim. Birdan lov etib boshlangan ijoding kelajagi porloq boladi, qissa juda sof, samimiy, iliq, tabiiy, rohat bilan o'qiladi." Abdulla Qahhorning ushbu gaplari O'. Hoshimovning ijod olamiga kirishida dalda bo'lganini ta'kidlab, shu taassurot ta'sirida bir qator qiziqarli asarlar yozganidan o'quvchilar xabardor qilinib, quyidagi jadvalni keltirish maqsadga muvofiq bo'ladi.



Bu va bunga o'xshagan jadvallarni kompyuter orqali berilishi o'quvchilarni adib ijodi yuzasidan olgan bilimlarini chuqurlashtirish barobarida, shu asarlarni o'qib o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi.

Mustahkamlash orqali, darslikda berilgan ma'lumotlar bilan tanishgan o'quvchiga, o'rgangan narsalarini yana bir bora takrorlab olishi uchun munozarali savollar beriladi.

Siz buni bilasiz?

- O'tkir Hoshimov haqida nimalarni o'rgandingiz?
- Yozuvchi qachondan ijod qila boshlagan?
- O'tkir Hoshimov birinchi asari orqali kimning e'tiborini qozongan?
- Siz ham she'rlar, hikoyalar yozasizmi, aytib bering?

Uyga vazifa qismida o'quvchilar uyda mustaqil o'zlashtirishlari uchun, adibning hayoti va ijodini o'qib kelish hamda mustaqil ravishda kichik bir asarcha yozib ko'rishni topshirish. Uyga vazifa qilib bu topshiriqni berish yozuvchi hayotidan ilhomlangan o'quvchini, qalam ushlagga undaydi. Bu esa bola qalbida o'ziga bo'lgan ishonch tuyg'usini yuzaga chiqishiga olib keladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Normatov.U Yangi o'zbek adabiyoti. -T.: Universitet, 2007
2. To'xliyev.B Adabiyot o'qitish metodikasi.- T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010
3. Adabiyot. O'qituvchilar uchun uslubiy qo'llanma. 6-sinf.-T.: Ma'naviyat
4. Hoshimov O'.Notanish orol. -T.: Yosh gvardiya, 1990

#### **MAKTABGACHA TA'LIM TIZMINING HOZIRGI HOLATI**

*Gulboyeva Nilufar,  
JDPI magistranti*

Dunyo miqyosida inson kapitalining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Har bir tashkilot nafaqat o'z moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bilan chegaralanmasdan, xodimlarining kasbiy malakasini muntazam, sifatli asosda oshirishga ham e'tibor qaratishi lozim.

Ta'lim tizimining hozirgi kundagi rivojlanish bosqichida uning birinchi bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'limda jadal o'zgarishlar yuz bermoqda. Jumladan, Prezidentimizning "Mamlakatni modernizatsiya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish uchun maktabgacha ta'lim muassasalarida yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va jahon miqyosidagi raqobatbardoshligini ta'minlash bugungi kun maktabgacha ta'lim tizimining dolzarb vazifalaridan hisoblanadi." [1;23] -deyilishida ham asos bor, albatta.

Hozirgi bosqichda Federal Davlat Ta'lim Standartining (FSES) joriy etilishi munosabati bilan maktabgacha ta'lim sifatini yangilash va yaxshilash, yangi avlodning maktabgacha ta'limini dasturiy ta'minot va uslubiy qo'llab-quvvatlashni joriy etish zarurati tug'ildi. Bolalarning ijodiy va kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish, shuningdek, aytishimiz mumkinki, bir vaqtlar yagona bo'lgan "davlat maktabgacha ta'lim" tizimini umumiy ta'limning to'liq va ajralmas bosqichi sifatida haqiqiy maktabgacha ta'lim tizimiga aylantirishga harakat qilinmoqda. Bu

maktabgacha yoshdagi bolaning nafaqat vasiylik va g'amxo'rlik, balki ta'lim, tarbiya va rivojlanishga muhtojligini haqiqiy tan olishni anglatadi.

Shu bilan birga, bola o'zi bilan tinch-totuv yashash qobiliyatini egallashi, individual ishlash va guruhdagi o'zaro munosabat ko'nikmalarini egallashi, o'rganishni o'rganishi kerak. Aynan maktabgacha yoshda shaxsning asosiy fazilatlarini, asosiy ijtimoiy ko'nikmalar - boshqalarga hurmat, demokratik tamoyillarga rioya qilish shakllanadi. "Tajriba guruhlarida 3-4 soat davomida bir yoki ikki smenada ta'lim-tarbiya jarayoni tashkil etiladi. Bitta guruhdagi bolalar soni 30 nafardan oshmasligi kerak,"[2;345] — deydi Toshkent shahar maktabgacha ta'lim bosh boshqarmasi bo'lim boshlig'i Jamila Javlonova.

Bizning nazdimizda, bu muhim vazifalar maktabgacha ta'lim - atrofdagi dunyoda bolaning o'zini o'zi identifikatsiya qilish shakllanishini boshlash kerak. Maktabgacha ta'lim jarayonida bolaga ta'lim-tarbiya berishda shaxsga yo'naltirgan quyidagi ta'lim modeli ustuvor sanaladi:[3;78]

- 1.Maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatining huquqiy-me'yoriy asosi takomillashmoqda;
- 2.Maktabgacha ta'lim muassasalari moliyaviy-xo'jalik faoliyatining yangi turlariga o'tmoqda;
- 3.Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'i kengaymoqda;
- 4.Ta'limning ilg'or texnologiyalari joriy etilmoqda;
- 5.Xodimlar malaka oshirish tizimi takomillashmoqda;
- 6.Qisqa muddatli guruhlar asosida maktabgacha ta'lim muassasalarining muqobil shakllari joriy etilmoqda.

Hozirda respublikamizda Maktabgacha ta'lim muassasasi qoniqarli ahvolda deyolmaymiz, lekin sekin-sekin oldinga siljyotgani bugungi kunda sezilarli darajada desak mubolag'a bo'lmaydi. Zamonaviy ta'lim rivojlanishning yangi bosqichida - u modernizatsiya qilinmoqda. Bunga jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar yordam beradi. Shaxsga ongli yondashishning maqsadi-shaxsni rivojlantirish, uni berilgan standart va bosim ostida "o'zgartirish emas", balki "uni qanday bo'lsa, shundayligicha qabul qilish"dir.[4;54] Darhaqiqat, Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan emas, oldinga poydevoriga tayangan holda o'zgartirish maqsadga muvofiq. Chunki shaxsiy yondashuvda ta'lim jarayoni ishtirokchilarining shaxsiy majburiyatlarini rivojlantirish va to'liq namoyon qilish uchun sharoit yaratishni ko'zlaydi. Shaxsiy majburiyatlar - bu shaxs tomonidan "shaxs bo'lish" ijtimoiy buyurtmasini tatbiq etuvchi ma'lum fazilatlarining namoyon etilishidir.

Maktabgacha ta'lim muassasasining rivojlanish maydoni uning sub'ektlarining uchta o'zaro bog'liq rivojlanish maydonidan iborat: tarbiyachilar, ota-onalar, bolalar. "Maktabgacha ta'lim muassasasini rivojlantirishning asosiy tarkibiy bo'limi "o'qituvchi - bola - ota-ona" tizimidagi ta'lim jarayoni ishtirokchilarining o'zaro aloqasi hisoblanadi."[5;42] Ushbu tizim faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflab, biz barcha fanlarni rivojlantirish uchun ajratilgan joylarning yo'nalishi va maqsadlarini tushunamiz: ota-onalar ijtimoiy ehtiyoj darajasida ijtimoiy buyurtma shakllantiradilar, tarbiyachilar davlat

darajasida ta'lim xizmatlarini bevosita amalga oshiruvchilardir, bolalar maktabgacha ta'lim muassasalari tomonidan o'qitish, ta'lim berish uchun maktabgacha ta'lim muassasalari tomonidan ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlarining iste'molchilari sifatida harakat qilishadi. Sababi, bolalarning ta'lim-tarbiya va bilim olishiga asosiy zamin yaratuvchi maskan oiladir. Farzandlarimiz, avvalambor, oilada, ota-onadan ibrat olgan holda shakllanadi.

Ota-ona bolaga boshidan ta'lim-tarbiya, nutq madaniyati, odamiylik xislatlarini qunt bilan singdirib borsa, kelajakda u barkamol, sog'lom, mustaqil fikrlovchi, eng asosiysi, odobli shaxs bo'lib yetishadi. Inson hayotda bilim olishga intilish, Vatanni sevish, ardoqlash, kattalarni hurmat qilish hamda muomala madaniyatini ota-onadan o'rganadi. Yosh avlodga ma'naviy, axloqiy, madaniy tarbiya berishning usul va vositalari xilma-xil bo'lib, bular ichida bola nutqi va muomalasi alohida o'rin tutadi. Zero, A.Avloniy aytganlaridek, "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir" [6;71]Umuman olganda, bola tarbiyasida ilk poydevor bu bog'chada shakllanadi, shaxsning hayotda kim bo'lishi va birinchi mustaqil bolishini shu maskan belgilab beradi.

Xullas, bolalar bog'chalari – sotsializm davrida aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida yaratilgan, ammo zamona zayli bilan davlat budjeti uchun ortiqcha samarasiz institutga aylanib qolgan edi. Uni jiddiy tarzda isloh qilish yoki hech bo'lmasa sohani butunlay xususiylashtirib, yana qanaqadir boshqa yechimlarni o'ylash kerak bo'ladi. Axir maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarga beriladigan ta'lim va tarbiya maktabdagi ta'lim va tarbiyaning ahvoliga, u esa o'z navbatida voyaga yetgan fuqaroning kelajak hayotiga o'z-o'zidan ta'sir ko'rsatmay qolmaydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 27 августдаги “Олий таълим муассасалари раҳбар ва педагог кадрларининг узлуксиз малакасини ошириш тизимини жорий этиш тўғрисида” ги ПФ-5789-сон Фармони
- 2.Источник:<https://muegn.ru/uz/history/perechislite-osnovnye-napravleniya-razvitiya-sistemy-doshkolnogo-obrazovaniya-sistema-doshkolnogo-obraz.html> © muegn.ru
3. <http://marifat.uz/marifat/ruknlar/maktabgacha/3724.htm>
4. <https://algoritm-centr.ru/uz/historians/sovremennye-tendencii-obnovleniya-doshkolnogo-obrazovaniya-sovremennye.html>
5. Bolalar bog'chasida ta'lim va tarbiya dasturi / otv. tahrir. M.A.Vasilyeva. M., 1985.
6. Komkov A. G., Kirillova E. G. Maktab o'quvchilarining jismoniy faolligini shakllantirishning tashkiliy-pedagogik texnologiyasi // Jismoniy madaniyat: tarbiya, ta'lim, tarbiya. 2002. № 1. P. 2 - 4.

## BOSHLANG'ICH SINIF HIKOYA O'QISH DARSLARIDA O'QUVCHILARNI MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA TARBIYALASH YO'LLARI

*Bekchanova Ozoda Otajon qizi,  
UrDU magistri*

Yangi taraqqiyot yo'lidan borayotgan O'zbekiston Respublikasida ta'lim va o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarining milliy shakllarini rivojlantirishga keng imkoniyatlar ochib berilmoqda. Bu borada yurtimizda jahon talablariga mos keladigan, har tomonlama rivojlangan, o'z kasbini puxta egallagan, vatanparvar fidoyi insonlarni tarbiyalab yetishtirishda ta'lim muassasalarida o'qitishni yanada yuksak bosqichga ko'tarish, uning tarbiya bilan uyg'unligini ta'minlash borasidagi vazifalar belgilab qo'yilgan. "Biz yosh avlodni har tomonlama sog'lom va barkamol etib tarbiyalash borasidagi ishlarimizni yangi bosqichga ko'tarish maqsadida "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi qonunni yangi tahrirda qabul qildik. Shu asosda yangicha yondashuvlar hayotga faol joriy etilmoqda", - deb ta'kidlab o'tgan edi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida. [1.72]

O'zbek xalqi tarixan yosh avlodni umuminsoniy, xususan, milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash sohasida o'ziga xos dorulfunun yaratgan. Bu borada xalq pedagogikasi boy tajribaga ega. Bugungi kunda ham o'quvchilarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash maqsad va vazifalarini hal etishda uning o'rnini beqiyosdir. So'nggi yillarda o'quvchilarni umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash an'analariga oid muammolar yuzasidan ko'plab tadqiqot ishlari olib borilmoqda. R.H.Jo'rayev, P.Holmatov, Sh.Sharipov, B.Raximov, U.Nishonaliyev, N.Saidaxmedov, O'.Tolipov, S.Nishonova, R.Safarova va shu kabi pedagog olimlarning tadqiqot ishlari shular jumlasidandir.

Boshlang'ich ta'lim o'qish darslarida o'quvchilarda milliy qadriyatlarini shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Zero, milliy qadriyatlarni shakllantirish jarayonida Vatan va uning tarixi, millat qadr-qimmatini, boy o'tmish madaniy merosimiz, odob-axloq masalalari, xalqimizning milliy urf-odatlarini, buyuk allomalar va ularning boy adabiy meroslari keng miqyosda o'rganiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari badiiy asar namunalaridan dastlab hikoya bilan tanishadilar. Hikoya kichik hajmli epik tur janrlaridan bo'lib, unda kishi hayotidagi ma'lum bir voqea, hayotning muhim tomonlari umumlashtirilib tasvirlanadi. [3.327] Hikoya shakli nisbatan cheklangan, kichik esa-da, katta mazmunni ifodalashga qodir. Hikoya ko'pincha kishi hayotida bo'lgan bir epizodni tasvir etadi. Boshlang'ich sinf darsliklaridan bir qator hikoyalar ham o'rin olganki, ularni o'qish darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarida eng yuksak insoniy fazilatlardan hisoblanmish ota-onaga hurmat, keksalarga e'zoz kabi qadriyatlarni shakllantirishi muhim bo'ladi. Xususan, Mirzakalon Ismoilning "Bobongiz xafa bo'lsalar maylimi?" (3-sinf), Farhod Musajonning "Barakalla, botam" (3-sinf), "Saxiy bog'bon" (4-sinf), Xudoyberdi To'xtaboyevning "Hassa" (3-sinf),



“Erkacholning o‘rigi” (4-sinf), G‘ayratiyning “Bobomning sovg‘asi” (4-sinf), Nosir Fozilovning “Yaxshi bo‘ldi” (4-sinf) hikoyalarini o‘qish darslarida darsning tarbiyaviy maqsadi keksalarni e‘zozlashga o‘rgatish hisoblanadi.

Ma‘lumki, milliy qadriyatlar umuminsoniy qadriyatlar bilan chambarchas bog‘langan. Binobarin, keksalarni, ota-onani hurmat qilish ham o‘zbek xalqining o‘ziga xos yuksak ma‘naviy boyligidir. Keksalar ko‘pni ko‘rgan, aql va idrok bilan har ishda maslahat bera oladigan, yoshlarga katta tarbiyaviy ta‘sir ko‘rsata oladigan kishilardir. Keksalarni hurmat qilish, ulardan saboq olish, hayot tajribasini o‘rganish ma‘naviy kamolot uchun yangi imkoniyatlar izlashga harakat qilishdir. Ota-onani hurmat qilish, ularning gapiga, pand nasihatiga quloq solish ham katta ma‘naviy qadriyatdir. Ota-ona hech vaqt o‘z farzandiga yomonlik ravo ko‘rmaydi. Ular hayotda ko‘p og‘irlik, yengilliklarni ko‘rgani sababli, farzandlarining istiqbolini ham ulardan ko‘ra ko‘proq o‘ylaydilar, Ba‘zan ota-onalarning nasihatleri noqobil farzandlarga og‘irroq tuyuladi. Bu hayotni bilmaslik, hayotning turli jarayonlariga yengil-yelpi qarashning oqibatidir. Farzandlar ota-onaning qadrini o‘zlari ota-ona bo‘lganidan keyingina fahmlab oladilar. Bu davr ichida ular ma‘naviy kamolotning ko‘p imkoniyatlarini qo‘ldan boy berib qo‘yadilar. Shuning uchun ulkan ma‘naviy qadriyat bo‘lmish ota-onani hurmat qilish odatini aslo unutmaslik kerak.

3-sinfda o‘qib-o‘rganiladigan X.To‘xtaboyevning “Hassa” hikoyasining qahramonlari Qobil bobo, uning Shavkat va Shuhrat ismli nabiralardir. Nabiralalar bir kuni o‘zaro kim odobli ekanligi xususida bahslashib qolishadi. Shavkat yugurib bobosining oldiga chiqadi-da, kim odobli ekanligini bobosidan so‘raydi. Bu payt Qobil bobo hovliga chiqmoqchi bo‘lib turgan edi. U nabirasiga avval hassasini keltirib berishini, so‘ng o‘ylab bu savolga javob berishini aytadi. Ammo Shavkat qaysarlik qilib, bobosi kim odobli ekanligini aytmaguncha hassasini keltirmasligini aytadi. Qobil bobo hassasini olish uchun o‘rnidan qo‘zga‘alganida Shuhrat salom berib xonaga kirib keladi. Bobosi hassasini keltirib berishini so‘rganida: “Xo‘p bo‘ladi, bobojon!”- deb darrov yugirib borib, hassani keltirib beradi, bobosining hassaga suyanishiga yordam beradi. Qobil bobo rahmat aytib, uning peshonasini silab, umri uzoq bo‘lishini tilab duo qiladi.

Shavkat yer tepinib, bobosidan kim odobli ekanligini yana bir bor so‘rganida bobo hassasini do‘qillatib hovliga chiqar ekan, kim odobli ekanligini ularning xulq-atvori ko‘rsatib turganligini aytadi. [4.172-173]

Mazkur hikoyani o‘qish darsida odobli bola qanday bo‘lishi kerakligi haqida tushuncha hosil qilish muhim sanaladi. Odobli bolaning fazilatlaridan birkexsalarni e‘zozlash, ularni hurmat qilish ekanligiga urg‘u beriladi. Ayniqsa, bunda hikoyaning asosiy g‘oyasi bo‘lgan holat- nima uchun Qobil bobo Shuhratning peshonasini silab, duo qilganligini tushunib yetishlariga diqqat qaratish lozim bo‘ladi. Buning uchun ijodiy o‘qish metodini qo‘llanish zarur bo‘ladi. Metodik adabiyotlarda ijodiy o‘qish metodi tarkibiga quyidagi ish usullari kiritiladi:

a) o'qituvchilarning hikoya matni sharhlab o'qishi hamda o'quvchilarning asarni to'g'ri va imkon qadar yanada chuqurroq, emotstional idrok etishlarini ta'minlash maqsadini ko'zda tutuvchi so'zi;

b) o'qilgan hikoyadan o'quvchilarning bevosita olgan taassurotlarini chuqurlashtirish maqsadiga ega bo'lgan va ularning diqqatini matnning muhim g'oyaviy va badiiy xususiyatlari sari yo'naltiradigan suhbat uyushtirish yoki o'qilgan hikoyadan kelib chiqadigan badiiy, axloqiy, ijtimoiy-siyosiy muammoning qo'yilishi;

d) o'qituvchining hikoya o'qilganidan keyin o'quvchilarning asarni tadqiq etish jarayonida to'yingan badiiy kechinmalarini faollashtirish maqsadini ko'zda tutuvchi so'zi.[2.60]

Ko'rinadiki, hikoyani ijodiy o'qish to'g'ridan - to'g'ri hikoya matn mohiyatini ochishga ijodiy yondashishni taqozo etadi. Shuning uchun "Hassa" hikoyasini ijodiy o'qish metodi asosida o'rganish jarayonida matn mazmuni va yozuvchi g'oyaviy niyatidan kelib chiqib, keksalarni e'zozlash insoniy qadriyatlardan ekanligi, yurtimizda bu borada olib borilayotgan ishlar haqida ham atroflicha tushuncha beriladi. Ayniqsa, o'quvchilar bilan ularning bobo-buvilari haqida suhbat uyushtirish darsning samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Milliy qadriyatlarni singdirishga qaratilgan hikoya o'qish darslarida o'quvchilarni mustaqil va erkin fikr yuritishga o'rgatish, ularda xalqimizning ahillik, tenglik, adolat, saxiylik, o'zaro hurmat, halollik, vatanparvarlik, insoniylik kabi azaliy qadriyatlarini singdirish ham katta ahamiyat kasb etadi. Ko'rinadiki, boshlang'ich sinf hikoya o'qish darslari yosh avlodni ma'naviy barkamol shaxs sifatida kamol topishida muhim omillardan bo'lib xizmat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.- Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2018.

2. Кудряшов Н.И. Взаимосвяз методов обучения на уроках литературы. - Москва: Просвещение, 1981

3. Salayev F., Qurbonniyozov G. Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so'zligi.-Toshkent:"Yangi asr avlodi", 2010.

4. Umarova M., Hamroqulova X., Tojiboyeva R. O'qish kitobi. 3-sinf uchun darslik.- Toshkent: "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016.

#### **TILSHUNOSLIKDA SO'Z VA LEKSEMALARNI O'RGANILISHI**

*Tursunqulova Barno Abdurashid qizi,*

*JDPI magistranti*

*Ilmiy rahbar: f.f.doktori Dilbar O'rinboyeva*

Leksema va so'z. Nazariy yondashuvda leksik sath birligi tilshunoslikda leksema atamasi bilan nomlanadi. Leksema tilshunoslikning eng muhim va

markaziy tushunchasidan biri bo'lsa ham, uning mazmun va chegarasi hozirgacha aniq belgilangan, deb bo'lmaydi. Tilshunoslikda leksema va uning lisoniy tizimda tutgan o'rnini masalasidagi murakkab va chigal muammodan biri - leksemaning til struktur birligi bo'la olish-olmasligi. Ko'plab tilshunoslar tilning struktur birliklarini sanar ekan, fonema, morfema va konstruksiya bilan cheklanib, leksemani tilning alohida qurilish birligi emas, balki morfemaning bir ko'rinishi sifatida qaraydi. O'zbek tilshunosligida leksikani tizim sifatida tadqiq etish natijalarini umumlashtiruvchi o'quv qo'llanmasida (H.Ne'matov, R.Rasulov. O'zbek tilining sistem leksikologiyasi asoslari) ham leksema «jamiyat a'zolari uchun tayyor, umumiy, majburiy bo'lgan, shakl va mazmunning barqaror birikuvidan tashkil topgan voqelikdagi narsa, belgi, xususiyat va munosabatlarni shakllantiruvchi, nutq va lug'atda grammatik morfemani o'ziga biriktira oladigan morfema turi» tarzida morfemaning bir ko'rinishi sifatida ta'riflanadi. Leksemani morfema orqali ta'riflash, o'z-o'zidan, lisoniy qurilishda uning alohida, mustaqil o'rnini yo'qligiga ishora qiladi. Holbuki, leksema ko'p hollarda, jumladan, V.V.Vinogradov ta'kidlanganidek, leksika va grammatikaning asosiy birligi sifatida qaraladi. Agar leksemaga shunday yondashilsa, tilning asosiy yarusi — leksik sath ham o'z mustaqilligidan mahrum bo'lib, morfemik sathning tarkibiy qismi mavqeida bo'la oladi, xolos. Bu kabi holatlar tilshunoslar oldiga leksemaning til tizimida tutgan o'rnini belgilash va asoslash vazifasini qo'yimoqda.

Leksema lisoniy birlik bo'lsa, so'z uning nutqiy voqelanishi, nutqiy birlik. Shuning uchun leksema barcha lisoniy birliklarga xos bo'lgan tayyorlik, umumiylik, majburiylik kabi xossalarga, so'z esa nutqiy birliklarning tayyor emaslik, individuallik, ixtiyoriylik belgilariga ega. Leksemaning tayyorligi va so'zning tayyor emasligini dalillovchi asosiy belgidan biri - uning nutqda namoyon bo'lishi uchun har doim tayyor turishi, so'zlovchi uni faqat ishga solishi. Ko'rinadiki, leksema ma'lum bir tilda so'zlashuvchi ongida shakl va mazmunning yaxlitligi sifatida nutqqa chiqishga shay bo'lib turadi, ma'lum bir qonuniyat asosida, so'z yasash qolipi asosida nutq jarayonida hosil qilinmaydi. Masalan, o'zbek tilida so'zlashuvchilarning ongida, deylik stol, ona, ruchka, bormoq, qizil, o'n leksemalari borliqdagi biror narsa, predmet, harakat, miqdor, belgi kabini ifodalovchi ongdagi tushunchaning in'ikosi sifatidagi ma'nolari bilan tayyor holda, so'zlovchining «buyrug'i»ni kutgan holda turadi. So'zlovchiga u ajdodlar tomonidan shakliy va mazmuniy yaxlitlik sifatida «meros qilib qoldirilgan». So'zlovchi uning na shakl, na ma'no tomonini hamma uchun umumiy qilib o'zgartira oladi. Ulari nutq jarayonida boshqa bir ma'noda qo'ylashi mumkin. Lekin til jamiyati ongida mazkur shakl bu ma'noni ifodalashga xoslanmaganligi uchun u umumiylik va barqarorlik xossasiga ega bo'la oladi. Masalan, so'zlovchi haykal leksemasini «asar» ma'nosida qo'llashi mumkin: Mening hayhalim bitdi kabi. Ammo mazkur shaklga «asar» ma'nosi vaqtincha birikib turadi va bu birikish omonat bo'lganligi tufayli yashovchanlik kasb eta olmaydi. Demak, so'zlovchi leksemaning na shakliy tomonini, namazmuniy tomonini o'zgartira oladi. Ma'lumki, til haqidagi ishlarda so'zga ko'plab ilmiy ta'riflar berilgan. Buning sababi shundaki, tadqiqotchilar, asosan, uni tilning boshqa sathlari birligidan «farqlovchi

xususiyatlar»ni izlashganlar. Biroq, soʻzning lingvistik mohiyatini toʻliq va hammaga manzur boʻlarli darajada tavsiflash uchun uni shu birliklar (masalan, soʻz birikmasi, gap va b.) birlashtiruvchi holatlarni topish va shu asosda u haqda umumiy xulosalarga kelish mumkin. Soʻzning taʼrifi va tavsifiga bagʻishlangan ilmiy-nazariy manbalarni oʻrganish, uning qandaydir «normal», «dinamik» (harakatdagi) birliklar – soʻz birikmasi va gapdan farqlanuvchi statik (turgʻun, oʻzgarmas) birlik sifatida talqin qilish ustuvor ekanligini koʻrsatdi [1].

Bu taʼrifda, bir tomondan tub va yasama soʻzlar oʻzaro farqlanmagan boʻlsa, ikkinchi tomondan soʻz yasalişining jarayon ekanligi, binobarin, yasama soʻz dinamik harakatning hosilasi ekanligi inobatga olinmagan koʻrinadi. Zero, yasama soʻz nutq vaziyati talabi va ehtiyojiga koʻra yuzaga keladigan nomlashning alohida turidir. Shu munosabat bilan taʼkidlash joizki, soʻz ayni paytda ham statik va ham dinamik harakat hosilasidir. Bu tezis soʻz tilning asosiy birligi degan nazariyani inkor qilmaydi, aksincha, bu «asosiylik nimada namoyon boʻlishini muayyanlashtiradi». Masalaga bunday yondashish bir tomondan soʻzning taʼrifi va tavsifi bilan bogʻliq. Koʻplab muammolarning yechimiga yangicha yondashish imkonini bersa, ikkinchi tomondan soʻz yasalişini bizning ishimizda termin yasalişining nazariyasini yangicha talqin etishga yoʻnaltiradi. Soʻz tilning asosiy struktur-semantik birligi boʻlib, borliq hodisalari, narsa va predmetlarning xususiyatlarini nomlashga xizmat qiladi va u fonetik, leksik, semantik va grammatik boʻlgilarning majmui sifatida amalda qoʻllanadi.

Modomiki, bu belgilar har xil tillarda turlicha namoyon boʻlar ekan, soʻzga hamma tillar uchun mushtarak boʻlgan taʼrif berishning iloji yoʻq. Uni mazkur tilning ichki qonuniyatlari asosidagina taʼriflash mumkin ekanligini taʼkidlash ushbu oʻrinda lozim topildi. Bu – bir tomondan ikkinchi tomondan soʻzga «gap tarkibidagi maʼnoli birlik», oʻz maʼnosiga ega boʻlgan tovush va tovushlar majmui kabi taʼriflar aslida notoʻgʻri emas va ayni paytda unga xos xususiyatlarni ifodalay olmaydi. Chunki, bunday taʼriflarni, nafaqat, soʻzga, balki, undan kichik (morfema) yoki katta (soʻz birikmasi va gap)ga nisbatan ham bemalol qoʻllash mumkin. Yaxlitlik, ajralishlilik (ajratib olish mumkinlik) va nutqda qoʻllanishlik kabi asosiy xususiyatlarga ega boʻlgan soʻzda fonetik, morfologik va semantik strukturalar farqlanadi. Mana shu strukturalarni yaxlit holda birga oʻrganish soʻzning har bir tilga xos taʼrifini berish uchun keng imkoniyatlar yaratishning vositalaridan biridir. Buning ustiga, tilda soʻz ifoda va mazmun planlarining majmui, nutqda esa ifoda, mazmun va funktsiya planlarining yigʻindisi sifatida oʻrganishni mantiqan toʻgʻri deb hisoblaymiz. Koʻplab ishlarda leksema, semantema, semema, sema kabi tilimizga keyingi yillarda kirib kelgan terminlardan foydalanilsa-da, ularning paydo boʻlish ildizlari haqida maʼlumotlar uchramaydi. Yuqorida soʻzning ifoda mazmuni planlariga ega ekanligi haqida gapirdik. Binobarin, ifoda planida soʻz leksema deb, mazmun planida esa semantema (semema, sema) deb nomlanadi (sema – yunoncha belgi degan soʻzdan olingan boʻlib, mazmun planining eng kichik birligi sifatida talqin qilinadi). Demak, sema soʻzning elementlar maʼnosi boʻlsa, semema gapdan katta birliklarning maʼno tomonini ifodalovchi termindir. Semema qurilishidagi asosiy



va markaziy narsa arxisemadir. Arxisema muayyan sinfning barcha birliklariga xos boʻlib, ularning umumiy kategorial xossa va boʻlgilarini oʻzida aks ettiradi.

Til haqidagi fanda soʻzga berilgan son-sanoqsiz taʼriflar fikrimizning isbotidir. Buning bosh sababi leksema (soʻz)ning shaklan va mazmunan serqirraligidadir. G.Gegel aytganidek, har bir narsa (demak, soʻz ham) oʻta serqirra boʻlib, oʻrganish jarayonida uning yangi-yangi qirra va tomonlari, munosabat va aloqalari ochilib boraveradi. Shuning uchun ham soʻzga beriladigan taʼriflar soni oshib bormoqda. G.Gegel oʻzining «Mantiq» kitobida «bir hodisaga xilma-xil taʼrif berish ziddiyat emas, balki oʻrganilayotgan narsa mohiyatining chuqurlasha borishi», – deb taʼkidlagan edi. Borliqdagi har qanday narsa, hodisa kabi psixologiya, falsafa, mantiq hamda lingvistikaning semiotika, semantika, semasiologiya singari boʻlimlarining asosiy tushunchalaridan biri hisoblanmish soʻz ham koʻp qirralidir. Shuning uchun uning har bir qirrasiga mos alohida alohida taʼriflash oson ish emas.

Soʻzga berilgan taʼriflar koʻp holatlarda bir-birini inkor qilsa ham, aslida uni teranroq va chuqurroq idrok etish imkonini yaratadi. Nemis mumtoz falsafasining vorislari bilishning bu muhim omili aslida islomiy tasavvufdagi bilish nazariyasi ekanligi, keyinchalik uning Yevropaga kirib borganligi manbalarda oʻz aksini topgan. Shuningdek, J.Rumiy, F.Attor, A.Navoiy asarlarida narsaning serqirraligi va shu bois oʻnlab taʼriflar berish mumkinligi koʻplab misollarda soddagina qilib izohlab berilgan. «Lison ut-tayr»dagi «Koʻrlar tavsifidagi fil», J.Rumiy tavsifidagi «Qorongʻu xonadagi fil» kabi rivoyatlar buning yorqin dalilidir. Bu rivoyatlarda zot (mohiyat)ni ziddiyat boʻlgisi va xususiyati asosida aniqlash mumkin emasligi toʻgʻrisidagi falsafiy gʻoya olgʻa surilgan. Bu oʻrinda Soʻfi Olloyorning yuqorida qayd etilgan taʼrifini yana bir marta eslatib oʻtish joizdir, yaʼni islomiy tasavvufda zot «majmui asmo va sifot» (ismlar va sifatlar yigʻindisi) deb baholanadi. Hech bir sifat, zot, mohiyat umumiylik kasb eta olmaydi. Lekin zot, umumiylik, mohiyat shu sifatdan xoli ham emas. Sharq tasavvufida berilgan bu talqin gʻarb dialektikasi tomonidan toʻlaltoʻkis qabul qilingan va undan onglilik bilan foydalanuvchi har qanday olim, jumladan, tilshunos ham avvalo, oʻz asosiy tadqiq manbaining qaysi qirralariga (yaʼni qaysi sifatiga) tayanib ish koʻrayotganligini sharhlab bermogʻi va shu qirralarning oʻz tadqiqoti uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini asoslamogʻi, tadqiqot manbai boshqa sohalarga qoʻllanma sifatida ochiq qoldirishi lozim. Bu onglilik va izchillik bilan amalga oshirilgan ilmiy-amaliy jarayonga tadbiiq etiladigan metodologik omilga qoʻyiladigan asosiy va bosh talabdir.

Aytib oʻtganimizdek, soʻz (leksema)ga barcha tillar uchun umumiy boʻlgan taʼrif berish juda qiyin. Biroq, tadqiqotchi oʻz tahlil manbaining asosiy birligi mohiyatini ochmasdan turib, koʻzlangan maqsadga erisha olmaydi. Shuning uchun ULSning asosiy birligi boʻlgan leksemaning tavsifiga (taʼrifiga emas) tayanamiz. Oʻzbek tilshunosligida leksema quyidagicha tavsiflangan: –«... shakl va maʼno jihatidan bir butun holda tekshiriladigan mustaqil maʼnoli soʻz» (OʻTIL, I, 430);

–«Til birligi ifoda plani (vositasi,–A.Sh.) va mazmun planiga ega boʻladi; bunda mazmun plani ifoda planiga til bosqichida berkitilgan boʻladi, til xotirasida saqlanadi, nutqda ana shu ifoda plani bilan mazmun plani birgalikda, oʻzaro



birikkan holda uchraydi. Leksema ana shu talablarga javob beradi, shunga ko‘ra, til birligi deb qaraladi» [3;24-30].

«Jamiyat a‘zolari uchun tayyor, umumiy, majburiy bo‘lgan, shakl va mazmunning barqaror birikuvidan tashkil topgan, voqelikdagi narsa, xususiyat va munosabatlarni shakllantiruvchi, nutq va lug‘atda grammatik morfemalarni o‘ziga biriktira oladigan morfema turi leksemdir» [4;194].

Termin sifatida namoyon bo‘ladigan leksemalar o‘zbek tili umumlisoniy lug‘aviy sistemasining bitmas-tuganmas boyligidir. Fan va texnikaning barcha sohalari qo‘llanayotgan leksemalar bir joyga to‘plansa (ya‘ni faqat izohsiz lug‘at tarziga keltirilsa), yuzlab jildlik lug‘atlar paydo bo‘lardi. Chunki, 500 dan ortiq fan va ularning sohalari tarkibida, texnikaning barcha jabhalarida millionlab so‘z/terminlar darsliklar va qo‘llanmalarda, qomuslar va lug‘atlarda, ma‘lumotnomalarda, ilmiy, ilmiy-ommabop nashrlarda, yuzlab gazeta va jurnallar sahifalarida o‘z aksini topgan.

Demak, har bir tilning leksik boyligi faqat yuqoridagilar bilan cheklanib qolmaydi, chunki lug‘at tarkibida xilma-xil kasb-hunar egalari tomonidan yaratilgan lug‘aviy birliklar ham mavjud. Yuqorida aytilgan fikrdan farqli o‘laroq, kasb-hunarmandlikka oid lug‘aviy birliklar shu nutq egalari tilida termin sifatida qo‘llansa (terini oshlash kerak, ertaga gilam to‘qishni boshlaymiz, kashtalarni bozorga olib chiq, etikning qo‘njini tekisla va h.k.), kasb-hunarlarga aloqasi bo‘lmagan shaxslar nutqida so‘zlik vazifasini bajaradi. Qiyoslang: etik sotib oldim, kavush tiktirdim, ko‘ylagi yirtildi, qalpog‘i eskirdi va h.k. Shuning uchun ham har qanday lug‘aviy birlik so‘z va termin sifatida kishilar nutqida iste‘molda bo‘ladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

- 1.M.Abdiyev. Соҳавий лексиканинг систем таҳлили муммолари. Тошкент, 2004
2. Гак В. Г. Лисоний белги ассиметрияси ва терминологиянинг айрим умумий муаммолари. Рус тилидан И. Мирзаев таржимаси // Филология
- 3.Раҳматуллаев Ш. Семема мустақил тил бирлиги // УТА, 1984, 3-сон
4. Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси. –Тошкент, 1995

#### **UVAYSIY VA NODIRA LIRIKASINING MAVZU KO‘LAMI VA JANR XUSUSIYATLARI**

*Malikova Ma‘rifat,  
JDPI talabasi*

*Ilmiy rahbar: f.f.f.d.(PhD) Murodulla Jo‘rayev*

Sharq she‘riyatshunosligida, shoiraning iste‘dodi, kamolot darajasi, mahorat miqyoslariga baho berganda, odatda, uning devon yaratgan, yaratmaganligiga asoslanib ish tutishgan. Chunki shoirlar asarlari miqdori devon tartib etishga yetib ortgan, she‘r yozish mahorati, malakasi yetilgan badiiy uslubi sayqal topgan

davrdagina devon yaratishga jur'at etganlar. Bunday yetuk shoirlarni **“Sohibi devon”** iborasi bilan sifatlashgan. Jahon otin Uvaysiy va Mohlaroyim Nodira – sohibi devon shoirlari edi.

O'zbek shoirlari murabbiysi Jahonotin Uvaysiy **4 devon** tuzganligi ma'lum. Lekin bu devonlarning asl qo'lyozmalari topilmagan. Uning xattotlar tomonidan ko'chirilgan 3 nusxa qo'lyozma devoni O'zbekiston Fanlar akademiyasi Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti va Andijon universiteti kutubxonasida saqlanadi. Uvaysiyning 15.000 misraga yaqin she'riy asarlari mavjud. Uning bir devoni O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlanadi [4].

Uvaysiy mumtoz o'zbek she'riyatining barcha janrlarida ijod qilgan. Uning hozirgi kunda ma'lum bo'lgan 4 ta devonini ko'zdan kechirsak, 15 ga yaqin lirik janrlarda samarali ijod qilganini ko'rishimiz mumkin. Shoiraning bugungi kungacha ma'lum bo'lgan lirikasining hajmi **269 g'azal, 29 muxammas, 55 musaddas, 1 murabba', 13 chiston, 1 tarkibband, 4 tarje'band** kabi janrlardagi she'rlardan iborat.

Andijondagi Adabiyot va san'at muzeyida 138049; 138050, O'lkashunoslik muzeyida 138048 inventar raqami bilan saqlanayotgan Jahonotin Uvaysiyning 3 ta devonidagi barcha lirik merosi o'rganilsa, yuqoridagi sanab o'tilgan she'riy janrlar soni yanada oshadi. 138049 va 138050 inventar raqamli qo'lyozma devonlarini diqqat bilan ko'rib chiqsak, Jahon otin Uvaysiy lirikasi janrlari soni sezilarli darajada ko'payadi. Ushbu qo'lyozma devonlarda g'azal, muxammas, masnaviy, ruboiy, tuyuq, chiston, qit'a, mustazod, fard kabi janrlar bor.

138050 inventar raqamli qo'lyozma devonda she'rlar hajmi 5628 bayt, ya'ni 11256 misra; 138049 inventar raqamli qo'lyozma devonda 2093 bayt, ya'ni 4186 misra she'r mavjud; 138048 inventar raqamli qo'lyozma devon 161 betdan iborat bo'lgan. Yuqorida inventar raqamlari zikr etilgan qo'lyozma devonlarda 1959-yilda O'zSSR Fanlar akademiyasi nashr etgan kitobga kirmagan 300 dan ortiq she'r mavjud bo'lgan. Shulardan 200 ga yaqin she'r tanlab olinib, 1963-yilda Hoshimjon Razzaqov boshchiligida nashr qilingan. Iloji boricha, 1959-yilda nashr qilinmagan, to'plamga kiritilmagan she'rlari 1963-yildagi Uvaysiy devoni nashridan o'rin olgan. Masalan, Uvaysiyning g'azal janridagi she'rlari soni 50 dan ortishi mumkin. Shu jumladan, hamd va na't mavzusidagi g'azallarining soni 20 dan ortiqdir. Shu kungacha ma'lum bo'lgan chistonlarining soni 13 ta edi, 138050 inventar raqamli qo'lyozma devonning o'zida esa 53 ta chiston mavjud. Boshqa janrdagi asarlar soni ham shu jumladan ortishi mumkin [1;37].

Bundan tashqari shoiraning adabiy merosida **3 doston, tugallanmagan bir manzuma** bor. Uvaysiy hayotlik davridayoq nafis lirikasi bilan mashhur bo'lgan va zamondoshlarining e'tiborini qozongan. Lirik she'rlaridan tashqari, uning **“Shahzoda Hasan”, “Shahzoda Husan”** kabi liroepik asarlari va **“Voqeoti Muhammad Alixon”** kabi tarixiy dostonlari mavjud. Shoiraning liroepik dostonlari islom tarixi bilan bog'liq voqealar asosida yaratilgan [5].

Navoiy, Fuzuliy va boshqalarning asarlariga muxammaslar bog'lagan. Uvaysiy asarlari o'zining latif mazmuni va dilkash badiiyligi bilan xalq ommasi

orasida keng yoyilgan, hofizlar, xonandalar tomonidan maqom va xalq ohanglari yoʻlida kuylanib kelinadi.

Ijodining gʻoyaviy mavzu doirasi teran va koʻp qirrali. Shoira adabiyotda taraqqiyparvar namoyandalarning qarashlari asosida maydonga kelgan inson taqdiri, shaxs erki va maʼrifatparvarlik gʻoyalarida latif va dilkash asarlar yaratgan, asarlarida insonni eʼzozlash, odamlarni tabiat va hayot noz-neʼmatlaridan bahramand boʻlishga undash, doʻstlik, vafo va sadoqat haqidagi ulugʻvor niyatlarini Qurʼon oyatlari, hadislar va tasavvufiy talqinlar bilan asoslagan holda ijodiy barkamollikka erishgan. Uning sheʼrlarida tariqatning talab va qoidalariga taalluqli boʻlgan talqinlar koʻp uchraydi:

*Fano mardumlarini sirridin hech kimsa yoʻq ogoh,  
Qabih guftor mardumdin koʻngul dogʻ oʻldi, dogʻ oʻldi.*

Uvaysiy oʻz asarlarida yuksak odamiylikni, shu odamiylikni qalb toʻrida avaylovchi vafodor yorni ulugʻlaydi, uni Quyosh bilan qiyos qiladi. Quyosh xar tong ufqdan bosh koʻtarib, oʻzining otashin nuri bilan olamga, odamlarga oʻz mehr va shafqatini sochadi. Shoira yor va oftob tashbihlaridan qarshilantirish sanʼati orqali eng goʻzal tuygʻular silsilasini yaratadi. Uning lirik qahramoni mushohadakor donishmand, vafoli oshiq.

Uvaysiy lirikasining mavzu koʻlamini shartli ravishda quyidagicha tasnif etish mumkin:

1. Uvaysiylik ruhida yozilgan oshiqona gʻazallari.
2. Diniy-tasavvufiy mavzuidagi gʻazallari.
3. Insoniyatga koʻmak beruvchi, toʻgʻri yoʻl koʻrsatuvchi gʻazallari.
4. Olam, odam, hayot mohiyatini belgilovchi orifona hikmatomuz gʻazallari.
5. Chiston va fardlarida teranlik va falsafiylik.

Uvaysiylik ruhida  
yozilgan oshiqona  
gʻazallari.

Diniy-tasavvufiy  
mavzuidagi gʻazallari.

Insoniyatga koʻmak  
beruvchi, toʻgʻri yoʻl  
koʻrsatuvchi gʻazallari.

Olam, odam, hayot  
mohiyatini belgilovchi  
orifona hikmatomuz  
gʻazallari.

Chiston va fardlarida  
teranlik va falsafiylik.

Uvaysiy ijodida eng koʻp qoʻllanilgan janr gʻazaldir. Jahon otin Uvaysiy gʻazallari asosan 4 baytdan 12 baytgacha hajmda yaratilgan [2;21].

Uvaysiy sheʼriyatining boshqa ijodkorlar asarlaridan farqli tomonlari koʻp. Jumladan, har bir sheʼri chuqur, ichki bir toʻfon, tugʻyon bilan yoʻgʻiriladi. Ana

shu – botiniy joziba lirik qahramonning ruhiy holatini ifodalashda noan’anaviy tashbehtar, sharhlar va timsollarni qo‘llashga sabab bo‘ladi. Shoira she‘riyatidagi ulkan qudratga qodir lirik qahramon o‘z shijoati bilan olamga g‘ulg‘ula sola oladi. Uvaysiy asarlari hamisha insoniyatga ko‘mak beruvchi, to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatuvchi ma‘naviyat sarchashmalaridir.

Shoiraning “Ko‘ngul dog‘ o‘ldi, dog‘ o‘ldi” radifli g‘azali 11 baytdan iborat katta hajmli asar. U kuchli ruhiy g‘alayon, kuchli iztirob mahsuli sifatida yaratilgan. Asar markazida insonni anglash masalasi turadi. Hayotdagi barcha ziddiyatlar, qaramaqarshiliklar ko‘ngilni anglamaslik natijasida yuz beradi. Shoira ana shu holatni badiiy talqin etadi.

Uvaysiyning musallas, murabba‘, muhammas, musaddas turlarida yozgan asarlari bizga ma‘lum. Ular mavzu jihatdan rang-barang. Albatta, mumtoz adabiyot an‘anasiga ko‘ra musammatlardagi yetakchi mavzu ham ishq. Ammo, uning zamirida shoiraning olam, odam, hayot mohiyati haqidagi teran xulosalari, orifona hikmatlari, ijtimoiy falsafalari ham o‘z ifodasini topadi. Musammat shoira ichki “men”ini, o‘zligini, dunyoqarash va tafakkur tarzini namoyon etish uchun cheksiz maydon vazifasini bajargan. Ularda Uvaysiy asarlaridagi lirik qahramonning ko‘p qirrali, teran mulohazali, keng va rangin dunyoqarashga ega tabiati o‘quvchini hayratga soladi [6].

Fard janri takomilida Uvaysiyning alohida o‘rni bor. Bizga uning 4 ta fardi ma‘lum. Ularning barchasi tajnisli qofiya asosida yaratilgan. Shoira ularda hayotiy kuzatishlaridan anglagan chuqur falsafiy mulohazalarini ifodalashga erishgan. Har bir fardda shoiraning takrorlanmas kuzatuvchanlik, hayolchanlik inkishofini ko‘ramiz. Uvaysiy devoniga kiritilgan to‘rtala fard ham ramali musaddasi mahzuf vaznida yozilgan. Ularda shoira she‘riyatiga xos bo‘lgan teranlik va falsafiy mushohada sezilib turadi:

*Dilbaro, o‘ltur boshingdin aylanay,  
Pandam ol, o‘lsam so‘ngokim ayla nay.*

